AQShlik iqtisodchilar K. Xaksever, B. Render, R. Rassellar xalqaro marketingda o‘zaro bog‘liq bir qator vositalar mavjud bo‘lib, ular marketing tadqiqoti, tovar siyosati, sotuv kanallari, reklama va servis xizmati ekanligini qayd etishadi [3]. Bunday vositalar kompaniyaning marketing siyosatini belgilaydi va ular samaradorligi kompaniyaning tashqi bozordagi muvaffaqiyatini anglatadi. Marketing vositalari xorijiy mijoz bilan kompaniya o‘rtasidagi aloqani ta’minlashga qaratiladi.

AQShlik iqtisodchilar R. Nilemegam va P. Chintagunta xalqaro marketingda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, axborot kommunikatsiyalari ta’sir etuvchi omillar sirasiga kirib borayotganligini isbotlaganlar [4].

Rossiyalik iqtisodchilar N. Lyasnikov va Yu. Lyasnikovalar o‘z tadqiqotlarida tovar va xizmatlarning mamlakatlar bo‘ylab ko‘chib yurishi bilan bog‘liq bu murakkab jarayon – xalqaro marketing zaruratini yuzaga keltiradi. Xalqaro marketing davlatlarning tashqi bozor kon’yunkturasi asosida milliy ishlab chiqarishni shakllantirish, mamlakatlar ixtisoslashuvi va turli kompaniyalarning tashqi iqtisodiy, savdo faoliyatini tashkil etishi, boshqaruv va nazoratning markazlashuvi bilan tavsiflanishini asoslaydilar [5]. Chunki jahon iqtisodiyotining globallashuvi mamlakatlar va turli mintaqaviy tuzilmalarning xalqaro ixtisoslashuvini kuchaytiradi hamda o‘zaro tovar va xizmatlar ayirboshlash rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bunday tadqiqotlar muhim ilmiy-uslubiy manba bo‘lsa-da, bugungi kunda respublikamiz korxonalarining tashqi iqtisodiy salohiyati, tashqi bozorda eksport faoliyatini rivojlantirishda xalqaro marketing usullarini samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Mavzu doirasida muallif tomonidan taklif etilayotgan milliy kompaniyalarning tashqi bozorlarga chiqishi va eksport salohiyatini oshirish yo‘llari yuzasidan amaliy tavsiyalar iqtisodiyotning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari, korxonalarni modernizatsiyalash va texnik-texnologik qayta jihozlash shartlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi ilmiy-amaliy qiziqish uyg‘otadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning induksion yo‘nalishi tanlangan bo‘lib, ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash usullari orqali tadqiqot muammosi ochib berilgan. Xorijlik va yurtimiz olimlarining ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda xalqaro va milliy marketing xususiy tomonlarining nazariy asoslari, xalqaro bozorda tadbirkorlik yuritish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman, xalqaro marketingda ko‘p qirrali, global miqyosda doimiy o‘sishda bo‘lgan talabni qondirishga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil qilish, tovarni dunyoning turli nuqtalariga bir vaqtda yetkazib berish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv bozor qonuniyatlarini o‘zida aks ettirib, murakkabligi va ziddiyatlarga boyligi sababli yangidan-yangi muammolar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Chunki ishlab chiqarilayotgan tovarlar miqdori va turlari ko‘payishi resurslarga ehtiyojni oshiradi. Resurslar tanqisligi 1990-yillarga kelib iqtisodiy o‘sish uchun jiddiy xavf tug‘dirsa-da, mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik faollashishi, ularning iqtisodiy integratsion tuzilmalari o‘rtasidagi hamjihatlikning yanada kuchayishiga olib keldi.

Kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish tashqi bozorga chiqish usullarini tanlashni nazarda tutadi. Tashqi bozorga chiqishning o‘ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- kapitalning harakatlanish shakli (eksport, kooperatsiya, transfert, qo‘shma korxona, egalik qilish);
- xorijiy mamlakat bozoriga chiqish bilan bog‘liq xarajatlar miqdori;
- investitsiyalashning jozibadorlik darajasi.

O‘zbekiston jahonning boshqa mamlakatlariga energiya mahsulotlari, paxta, oltin, uran rudasi, mineral o‘g‘itlar, turli metallarni, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini, mashina va avtomobillarni eksport qiladi. Mamlakat importi esa asosan sanoat mahsulotlari, xususan, mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari, qora va rangli metallar hisoblanadi.

1-jadval: Eksport hajmi va tarkibining o‘zgarish dinamikasi*

Ko‘psatkichlap	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.
Paxta tolasi	12,1	9,3	7,7	5,3	1,0	0
Oziq-ovqat mahsulotlari	6,4	12,4	5,7	7,8	9,5	8,4
Kimyo mahsulotlari	5,6	4,7	6,9	6,5	5,8	6,7
Enepgiya manbalari va neft mahsulotlari	34,6	23	14,2	19,1	4,4	6,3
Qora va rangli metallurgiya (shu jumladan, oltin)	7,8	7,2	5,9	8,4	8,2	21,3
Mashina va asbob-uskunalar	6,5	4	1,8	1,5	3,1	28,1
Xizmatlap	17,3	22,4	25,8	21,9	13,2	20,5

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda yetishtirilgan paxta tolasining eksporti yil sayin kamayib bormoqda, masalan, 2022-yilda paxta tolasining eksport tarkibidagi ulushi 0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilda mazkur ko‘rsatkich 12,1 foizni tashkil etgan.

Xuddi shunday tendensiya kimyo mahsulotlari, energiya manbalari, neft mahsulotlari va xizmatlar tarmoqlarida ham kuzatilmoqda. Mamlakatimizning eksport tarkibidagi mazkur tarmoqlar salmog‘ining pasayish tendensiyasi o‘rnini oziq-ovqat mahsulotlari, qora va rangli metallurgiyalar, mashina va asbob-uskunalar to‘ldirib bormoqda. Xususan, eksport tarkibiga kiruvchi boshqa mahsulotlar hajmi 2012-2022-yillarda 12,5 foizdan 54,8 foizga, ya’ni 42,3 foizga ortgan.

Xorijiy iqtisodchilarning fikricha, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, buning hisobiga eng kam chiqim bilan sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash chora-tadbirlarini o‘z vaqtida ko‘rgan mamlakatlar vujudga kelgan qiyin iqtisodiy tushkunlikdan nisbatan kamroq zarar bilan chiqadilar. Ayni vaqtda, avvalo, jahon tovar bozorlari kon’yunkturasining yomonlashuvi, raqobatning keskinlashuvi singari bir qator tashqi omillar mavjudki, bular O‘zbekiston korxonalari tomonidan eksport qilinuvchi ayrim mahsulot turlarining narxi va hajmlari pasayishi orqali iqtisodiyotga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shuningdek, oxirgi yillardagi pandemiya ham eksport hajmiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazdi. Faqat 2021-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi ilgarigi holatga kelganligini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi XSST bo‘yicha eksport tarkibi (yanvar-dekabr, yillar kesimida)*

XSST (BMTining Xalqaro standartlashgan savdo tasnifi) tarkibi	Mln. AQSh dollari		O‘sish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Jami eksport	15102,3	16610,6	86,5	110,0	100,0	100,0
Shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1336,2	1371,2	93,0	102,7	8,8	8,3
Ichimliklar va tamaki	27,1	36,0	91,0	132,7	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg‘idan tashqari	456,1	513,8	77,1	112,7	3,0	3,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lashmoylari va shunga o‘xshash materiallar	659,0	889,9	26,1	135,0	4,4	5,4
Hayvon va o‘simliklar moylari(yog‘lari), yog‘lar va mumlar	26,8	1,5	2,2	5,7	0,2	0,01
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	820,9	1131,2	98,1	137,8	5,4	6,8
Sanoat tovarlari	2906,4	4334,9	105,6	149,1	19,2	26,1
Mashinalar va trasport asbob-uskunalari	434,4	693,8	103,0	159,7	2,9	4,2
Turli xil tayyor buyumlar	617,3	785,2	141,7	127,2	4,1	4,7
Boshqa tovarlar	5813,1	4304,9	116,8	74,1	38,5	25,9
Shu jumladan: oltin	5804,4	4109,8	118,0	70,8	38,4	24,7
Xizmatlar	2005,0	2547,4	58,4	127,1	13,3	15,3

*Manba: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17059-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2021-yil-yanvar-dekabr

Shu sababdan respublikamizda qo‘llanilayotgan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasi bir qarashda importni cheklash, ichki ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozordagi yirik raqobatchilardan himoyalash sifatida qaralsa ham, pirovardida sanoat ishlab chiqarish bazasini shakllantirish orqali eksportni rivojlantirishga ko‘mak beruvchi, raqobatbardosh iqtisodiy siyosat sifatida qayd etish mumkin. Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning samarasi eksport hajmini jahon bozoridagi mavqeyini oshirish va xalqaro hamkorlik shakllarini tashkil etish maqsadida turli mahsulotlar eksportini yo‘lga qo‘yish bilan belgilanadi. Eksport salohiyatini oshirishda esa davlatning iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va eksport strategiyasini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyatga ega.

Eksport slohiyatini oshirish va import o‘rnini bosish siyosati uchun quyidagi ikki holat qayd etiladi:

- bo‘sh turgan ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligi;
- bozor narxlarida sifatli mahsulotlar yetkazib beruvchi raqobatbardosh kompaniyalar mavjudligi.

Uzoq muddatli istiqbolda importga bog‘liqlikni sanoat tarmoqlarida innovatsion strategiya va investitsiyalarni rag‘batlantirishni faollashtirish hamda hududlarda yangi ishlab chiqarishni yaratish orqali kamaytirish mumkin [6]. Ayniqsa, innovatsion strategiya nafaqat raqobatli ustuvorlikni ta’minlaydi, balki tarmoqning tashqi bozorda raqobat kurashini amalga oshirishdagi yondashuvlarini ham belgilaydi [7].

Import o‘rnini bosish siyosati davlat mexanizmida asosiy urg‘u makroiqtisodiy siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, ichki va tashqi bozorda ularni himoyalashga qaratilgan [8]. Buning uchun esa quyidagi eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirish zarur (1-rasm).

1-rasm: Eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish

- ishlab chiqarish korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish va xorijiy menejerlarni jalb etish va mahalliy kadrlar malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratish

Respublikamiz kompaniyalarining tashqi bozordagi faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishi zamirida xalqaro marketing tamoyillariga to‘liq rioya etish bilan birga oqilona marketing tadqiqotini tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotda juda muhim o‘rin tutadi. Qayd etish joizki, respublikamizda “makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta

va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta’minlash”[9] singari eng muhim ustuvor vazifalar qatoriga eksportni rivojlantirish va milliy eksportchilar uchun qulay iqtisodiy muhitni yanada takomillashtirishni kiritish mumkin. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida turli davlatlar bilan savdo-sotiq munosabatlarini kengaytirish tashqi bozorda ijobiy natijalarga erishishda juda muhim omil sanaladi.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatini yanada takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish uchun quyidagi takliflarni tavsiya etish mumkin:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish va eksportni diversifikatsiya qilishni kuchaytirish;
- milliy eksportning asosiy qismini tashkil etuvchi strategik xom ashyo mahsulotlarini eksport qilishga nisbatan ularni qayta ishlagan holda tayyor mahsulot sifatida eksport qilish;
- xorijiy valyuta bozorini liberalizatsiya qilish natijasida eksport qilinadigan mahsulot va xizmatlar doirasi kengaytirish;
- import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqaruvchi korxonalar samaradorligini oshirishda iste’molchilar hamda buyurtmachilarning butlovchi buyumlar, materiallar va tayyor mahsulotlarga ehtiyojini o‘rganish;
- infratuzilma sohalariga investitsion resurslarni yo‘naltirish, yuqori texnologiyali, strategik ahamiyatga ega ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash;
- qo‘shimcha qiymatga ega tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifat mezonlariga e’tiborni kuchaytirish;

Tadqiqotlarimizning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, qayta ishlash korxonalari raqobatdoshligini uning bozordagi raqobat muhitidagi o‘rni orqali baholashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-rasm).



2-rasm: Qayta ishlash korxonalari raqobatdoshligini uning bozordagi raqobat muhitidagi o‘rni orqali baholash[1]

Bozordagi raqobat muhiti bozor ulushi dinamikasi va hajmidan kelib chiqqan holda quriladi. Bu korxonalarning mavqeyi va raqobatdoshlik imkoniyatidan foydalanish darajasi hamda raqobat bosimiga chidamlilik salohiyati bilan o‘zaro farq qiluvchi 16 ta turga ajratish imkonini beradi. Bunda bozordagi ulushning dinamik ko‘rsatkichlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Eng kuchli mavqega 1-guruh korxonalar (bozor liderlari va o‘z raqobat pozitsiyasini darhol yaxshilay oluvchi korxonalar), eng kuchsiziga esa 16-guruh korxonalar (bozor autsayderlari va o‘z raqobat pozitsiyasini tez yo‘qotuvchi korxonalar) ega bo‘ladi.

1Muallif ishlanmasi.

Bu yondashuvni korxonani tavsiflovchi boshqa sifat ko‘rsatkichlarini qo‘shish orqali biroz takomillashtirish talab etiladi. Amaliyotda olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘rtacha mavqeni bozor liderining 1/3dan ko‘proq ulushiga ega korxonalar, undan past darajaga esa bozor liderining 1/3dan kamroq ulushiga ega korxonalar egallaydi [10].

Agar bozor yetakchining ulushini 40 % deb olsak, kuchli pozitsiyaga ega korxonalar 15-40 % ulushga, kuchsiz pozitsiyaga ega korxonalar 5-15 % ulushga, autsayderlar esa 5 %dan kam ulushga ega bo‘lar ekan.

Tadqiqotlar yana shuni ko‘rsatadiki, bozorning rivojlanish darajasi 10 %dan yuqoriroq bo‘lsa kuchli, agar o‘sish sur’ati 5 % dan kam bo‘lsa, kuchsiz hisoblanadi. Demak raqobatdoshlik pozitsiyasi yirik korxonalar uchun bozor ulushining oshish sur’ati 10 % dan yuqori bo‘ladi, o‘z pozitsiyasini yaxshilayotganlar uchun 6-10 %, o‘z raqobatdoshlik holatini yo‘qotayotgan korxonalar 5-6 % o‘sish suratiga, o‘z pozitsiyasini tez sur’atda yo‘qotayotgan korxonalarda esa o‘sish 5 %dan past bo‘ladi. Bu usul korxona raqobatdoshligini bir paytning o‘zida 2 ko‘rsatkich orqali baholash imkonini beradi.

3-jadval: Bozor raqobat xaritasining tuzilishi matritsasi*

Bozor ulushining oshish sur’ati (T), % Bozor liderlari (bozordagi ulushi 40 % dan ortiq)	Bozor ulushi, %			
	Kuchli raqobatchi mavqeyiga ega korxonalar (bozordagi ulushi 40 % dan 15 % gacha)	Kuchsiz raqobatchi mavqeyiga ega korxonalar (bozordagi ulushi 15 % dan 5 % gacha)	Bozor autsayderlari (bozordagi ulushi 5% dan kam)	
1	2	3	4	
O‘z raqobat holatini tez o‘zgartira oluvchi korxonalar (T 10 %dan yuqori)	1 3-raqmli raqobatchi	5 Korxona	9	13
O‘z raqobat holatini o‘zgartiruvchi korxonalar (T 10 dan 5 % gacha)	2	6	10	14
Yomon raqobat pozitsiyasiga ega korxonalar (T 5 dan – 3 % gacha)	3	7	11	15
Raqobat holati tez yomonlashuvchi korxonalar (T – 5 %dan kam)	4	8 1-raqamli raqobatchi	12	16 2-raqamli raqobatchi

* Muallif ishlanmasi

Iqtisodiyotni yetakchi ustunlaridan biri bo‘lgan sanoat korxonalari yuqoridagi yuksak maqsadlarga erishish uchun korxona holati va biznes faoliyatini chuqur va kechiktirmay tahlil ishlarini olib borishi zarur. Korxonani moliyaviy-iqtisodiy va korporativ faoliyati tahlillari qatori, kompaniyaning B2B bozorlarida biznes muhitini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Bu orqali korxonani marketing biznes strategiyalarini belgilab olish va kerakli qarorlarni qabul qilishga turtki bo‘ladi. Chunki kompaniya jamiyatda yakka holda rivojlanmaydi, boshqacha aytganda, raqobatni yengish uchun raqobatchilarni o‘rganish, hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash va bozor tendensiyalarini monitoring qilish orqali faoliyatini mustahkamlab boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda ko‘rib o‘tilgan korxona va uning mahsulotlari raqobatbardoshligini ta’minlashning uslubiy yo‘nalishlarini qo‘llash asosida, raqobatdoshlikni ta’minlash jarayonini tizimlashtirish mumkin bo‘lib, uning ko‘p qirrali o‘zaro bog‘liq algoritmini ishlab chiqish mumkin. Shunday qilib, korxonaning eksport salohiyatiga raqobat salohiyatidan foydalanish darajasi sifatida qarash gipotezasi ilgari surildi.

Bundan kelib chiqadiki, sanoat korxonasi va ularning mahsulotlari raqobat salohiyati asosida shakllanib, tashqi bozorda raqobat ustunliklari hisobiga ularning joriy darajasi eng ko‘pi bilan salohiyat darajasigacha yetadi. Agar muayyan raqobat muhitida salohiyatdan to‘liq foydalangan holda korxona yoki uning mahsulotlari raqobatdoshligi talab darajasida bo‘lmasa, avvalo, raqobat salohiyatini oshirish va uni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Qayta ishlash korxonalari raqobatbardoshligining ko‘zlangan darajasiga mahsulot sifati va nomenklaturasini oshirishni ta’minlay oluvchi boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Unda eng maqbuli strategiyani tanlash ko‘p jihatdan mahsulotlar bozorining ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Bunda moddiy resurslar sarfi qisqarishi ikki yo‘nalish bo‘yicha boshqaruv tizimini qayta tuzish bilan erishiladi.

Birinchidan, avvalo, budjet orqali moliyaviy nazoratni takomillashtirish talab etiladi.

Ikkinchidan, boshqaruvni markazdan chiqarish, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalar uchun mas’uliyatni quyi pog‘onalarga o‘tkazish lozim. Iste’molchiga qaratilgan guruhlarni shakllantirish va ularga o‘zini-o‘zi tashkil etish uchun sharoitlar yaratish boshqaruvni markazdan chiqarishning keng tarqalgan shakli sifatida xizmat qiladi.

O‘rganishlar ko‘rsatadiki, texnologiyaning rivojlanishi yangicha boshqaruv hamda marketing siyosati bilan birga olib borilishi lozim. Bunda:

1) texnologik innovatsiyalarni yuritish shakllari va yangi bozorni egallash;
2) iste’molchilar faolligini rag‘batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish;
3) kombinatsiyalashgan diversifikatsiyalashni qo‘llash taqozo etiladi. Natijada diversifikatsiya siyosati marketing siyosati konsepsiyasi asosida korxonaning raqobatdoshlik strategiyasini izlash hisoblanadi. Diversifikatsiya siyosati, o‘z navbatida, uning strategiyasini ishlab chiqish, bozorni tahlil qilish va marketingni o‘z ichiga oluvchi bir necha bosqichlardan iborat.

Samarali diversifikatsiya siyosatini yuritish, omillarning korxona amaliy faoliyatida qanchalik samarali qo‘llanilishiga bog‘liq. Shundan kelib chiqib, mazkur omillar tizimli tasniflab chiqildi. Biroq bunday omillarning barchasini ham miqdoran baholab bo‘lmaydi, bu ularning jamlanma bahosini hisoblashni murakkablashtiradi. Bu esa mavjud sharoitlarga mos ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishning zamonaviy uslublarini qo‘llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotimiz vazifalaridan kelib chiqib, raqobatdoshlikning kompleks baholash uslubiyoti taklif etildi. U korxonaning nisbiy xususiyatlarini ifodalaydi. Kuchliroq raqobatbardosh korxona ko‘rsatkichlaridan foydalanishdan olingan kompleks baholash korxonaning raqobat muhitidagi holatini ifodalaydi. Bu yondashuv bozor ulushi va uning o‘zgarishidagi mutlaq va nisbiy qiymati korxona hamda mahsulot raqobatdoshligi kompleks ko‘rsatkichlarini aniqlashda asosiy o‘lchov vositasi bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”da Farmoni//Xalq so‘zi., 2022-y., 1-fevral, №23.
2. Pervez Ghauri, Philip Cateora International Marketing. // Copyright, Designs and Patents Act 1988. p.54.
3. Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р. Управление и организация в сфере услуг, пер. с англ. – СПб.: Питер, 2002. – 752 с.
4. Neelemegham, R. And P. Chintagunta (1999) “A Bayesian Model to Forecast New Product Performance in Domestic and International Markets,” Marketing Science, 18, 115-136.
5. Лясников Н. В., Лясникова Ю. В. Международная маркетинговая деятельность многонациональных компаний в условиях нестабильности. // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). –2016. –Т. 7. № 4. –С. 161–166.
6. Жакевич А. Г. Импортозамещение: проблемы и перспективы//Вестник Международного института экономики и права, 2015. – № 1 (18)
7. Шамрай Л. В., Васильева С. И. Теоретические основы формирования и управления конкурентными преимуществами фирмы // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия общественных наук. 2015. – № 4
8. Bobojonov B. R., Mingishov L. O‘. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh sanoat mahsulotlarining o‘rni.// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2014-yil 3 www.iqtisodiyot.uz
9. Axmedov I. A. Xalqaro marketing tamoyillari va marketing tadqiqotini amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari.//Jamiyat va boshqaruv. – 2017, No4.
10. Фатхутдинов Р. А. Стратегический менеджмент. – М.: ЗАО “Бизнес-школа “Интел-Синтез”, 1999. – 448 с.
11. Axmedov I. A. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xalqaro marketingning ahamiyati. // http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal.

HUDUDLARDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TAHLILI

Butaboyev Maxamadjon
Farg‘ona politexnika instituti
Iqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.d.

Gaibnazarova Zumrat Talatovna
University of science and technologies
Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.d., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda va O‘zbekistonda issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi, ekologik vaziyat hamda uning oqibatlari bayon etilgan. Shuningdek, hududlarda yashil iqtisodiyotni yanada rivojlantirish masalalari bo‘yicha zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: issiqxona gazlari, atmosfera, iqlim o‘zgarishi, global isish, ekologik xavf-xatar, yashil makon.

Abstract: This article describes greenhouse gas emissions into the atmosphere in the world and in Uzbekistan, the environmental situation and its consequences. The necessary proposals and recommendations on the further development of the green economy in the regions have also been developed.

Key words: greenhouse gases, atmosphere, climate change, global warming, environmental risk, green spaces.

Аннотация: В данной статье описаны выбросы парниковых газов в атмосферу в мире и в Узбекистане, экологическая ситуация и ее последствия. Также разработаны необходимые предложения и рекомендации по вопросам дальнейшего развития зеленой экономики в регионах.

Ключевые слова: парниковые газы, атмосфера, изменение климата, глобальное потепление, экологический риск, зеленые насаждения.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarishning normallashtirish, yashil energetika tizimlariga investitsiyalar kiritish, ko‘mirga va mazutga ishlaydigan elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich to‘xtatish, muqobil energiya iste’moliga o‘tish, shamol, quyosh energiya manbalaridan to‘la foydalanishni rag‘batlantirish hamda “yashil” texnologiyalardan keng foydalanish, energiya samaradorligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Iqlim o‘zgarishi eng katta ekologik xavf-xatar tug‘dirmoqda. Shu bilan birgalikda global qazib olinayotgan yoqilg‘i (ko‘mir yiliga 32 millard tonna) va neft mahsulotlaridan (Osiyo davlatlarida 0.7 millard tonna, gaz 221 millard kub metr) foydalanish hozirgi vaqtda iqlimni 4 ºC dan 6 ºC gacha ko‘tarilishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat ishlab chiqarish, inson salomatligi va biologik xilma-xillik uchun fojiali halokatlarni keltirib chiqaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijda F. Rals “Зеленая экономика как устойчивая развития обшество без ушерба экологии” asarida yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini yoritib bergan. Iqlim o‘zgarishlari va uning oqibatlari, energetika tizimi va uni islox qilish, yashil energiya resurslaridan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida batafsil to‘xtaladi. Shu bilan birgalikda, is gazlarining atmosferaga chiqarilishi va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlarini yoritib beradi. Xulosa qilib aytganda bu asarda avtor Xitoy va yevropa davlatlari tajribasidan foydalanadi [1]. O‘zbekistonda A. Vaxobov “Yashil iqtisodiyot” darsligida mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyalarini tahlil qilib, Amerika va Yevropa tajribalaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston uchun oqibatlarini yoritib, fermer va dehqonchilik xo‘jaliklarida hosilning 30 foizgacha yo‘qotilishini ta’kidlab o‘tadi [2]. N. Maxmudov “Ekologiya” asarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi va uning uchun O‘zbekistonda imkoniyatlar mavjud, degan fikrni olg‘a suradi [3].

Chorvachilikda, parrandachilikda va o‘simlik chiqindilarini qayta ishlash natijasida olingan biogaz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Ularni qayta ishlash natijasida hosil qilingan tabiiy mineral o‘g‘itlardan foydalanish tuproq unumdorligi oshiradi. Shu bilan birgalikda, sun’iy intellekt yordamida yerni melorativ holatini, ya’ni sho‘rlanish, zahlanish, quriqlanish, yemirilganlik darajalari o‘rganiladi va “tashhez” qo‘yadi [4]. O‘zbekistonda har yili tuproq quriqshab, yemirilish oqibatida 15 ming gektar yer ishdan chiqmoqda.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va global isish, tuproq tabiiy unumdorligini pasayib ketayotganligi, bioxilma-xillikni kamayib ketayotganligi, tabiiy kapital zaxiralarining tugab borayotganligi, ichimlik suvi tanqisligi, atrof-muhitni ifloslanishi, oziq-ovqat inqirozi, energiya muammosi, qayta tiklanadigan energiya iste’moliga ommaviy o‘tish, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxonalar gazlari, transport vositalaridan chiqayotgan CO_2 uglerod oksidi gazlari normadan yuqoriligi, avtomobil parklarining elektrlashtirish va boshqalar asosiy ekologik muammolar hisoblandi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida statistik ma’lumotlar tahlili, analiz va sintez usullari, dialektik materializm kabi instrumentlardan foydalangan holda Farg‘ona viloyatining joriy ekologik holati tahlil qilingan va tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o‘zgarishi avlodlararo yuk bo‘lib, O‘zbekiston kelajak avlod oldidagi majburiyatini oshirishi lozim, chunki global energiyaga talab 2020-yildagi 20 TVt 2040 yilga kelib 25 TVt ga oshadi va 2050-yilga kelib hozirgi (2023-yil) darajadan ikki barobar ko‘payadi. O‘zbekiston past uglerodli, iqlimga chidamli energetika infratuzilmasiga erishish uchun yashil moliya portfelini taklif qilishi kerak. Agar hech qanday moliyaviy chora ko‘rilmasa qazib olinayotgan neft, mazut, gaz va ko‘mirlardan ishlab chiqarishda foydalanishni kengaytirsak (foydalanishni davom ettirsak) atmosferadagi CO_2 konsentratsiyasini yuqoriligi sababli 2050-yilga kelib 2,5 º C dan 4,5º S gacha global isishga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi natijasida mamlakatimiz 20 foiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yo‘qotadi.

Hozirgi vaqtda yer osti (O‘zbekiston) qazilma boyliklarini qazib olishda 60 million tonna chiqindilar atrof-muhitga tashlab yuboriladi, konlarni portlatishda 250 ming tonna chang, 10 ming tonna zaharli gazlar shamolning tezligi sekundiga 15-20 metr bo‘lgani uchun chang va zaharli gazlar 70-120 km.gacha uchib borib atrof-muhitni zaharlamoqda.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda energiya ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Uning ekologik yukini kamaytirish uchun ko‘mirni iloji boricha texnologiya asosida yoqish zarur, lekin hozir ham rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladigan eski usullar saqlanib qolmoqda, bu esa maqsadga mos kelmaydi.

O‘zbekistonda yiliga 320 million tonna uglerod chiqindilari atmosfera havosini zaharlamoqda. Har bir fuqaroga 12,2 ming tonna uglerod chiqindisi to‘g‘ri keladi, bu Yevropa fuqarolarga nisbatan 14 % ga ko‘p demakdir.

Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 10-iyun kuni e’lon qilgan ma’lumotiga ko‘ra respublikada bir yilda atmosfera havosiga 909 ming tonna turli xil ifloslantiruvchi moddalardan iborat tashlamalar tashlangan.

Bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 43,8 ming (4,6 %) hamda 2020-yilga nisbatan 15,4 ming (2 %) tonnaga kamayganligini ko‘rish mumkin. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida har yili sanoat tashlamalarini 1 foizga kamaytirish belgilangan. Birgina, o‘tgan 2021-yil davomida jami 131 ta korxonada 230 ta chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilinib, 22 ta korxonada 60 ta yangi uskunalar o‘rnatilgan. Ushbu tadbirlar uchun jami 33,7 mlrd.so‘m mablag‘ sarflangan.

Ayniqsa, ushbu tadbirlar Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida keng ko‘lamda amalga oshirilganligi bois ushbu hududlardagi tashlamalar miqdori oldingi yilga nisbatan mos ravishda 6,5, 13,7, 25,8, 5,0, 3,5 va 4,7 ming tonnaga kamaygan.

Viloyatda hozirgi kunda 933 ta maktab, 205 ta kollej, 2500 ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud.

Yilning sovuq mavsumlarida ularda mavjud xonalarni isitishda yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalaniladi.

Agar 1 ta maktabda o'rtacha hisobda 6 ta mini kotyoldan foydalanilsa ko'mirni yonishi natijasida 1 ta maktabdan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar quyidagilardan tashkil topadi.

1 ta pech uchun sarf bo'ladigan gaz sarfi – 1,4 nm^3/soatga teng.

Gazning sekunddagi sarfi 1,4/3600 = 0,000389 m^3/sek.

Kichik yonish-pechlari uchun 1000 m3 gaz yonganda atmosferaga quyidagi miqdorlarda tashlamalar chiqariladi: ugleroda oksidlari – 12,9 kg, azot oksidlari (azota (II)-oksidga nisbatan) – 2,15 kg, oltingugurt dioksid – 0,0037 kg.

Bunda quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi:

M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 g/sek.

M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 g/sek.

M_{SO} = 0,0037 * 0.000389 = 0,00000 g/sek.

M_{SO} = 0,00502 * (3600 x 3,6 x 103) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 t/yil.

M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 t/yil.

M_{SO} = 0,00000 t/yil.

Oltita kotyol uchun:

M_{SO} = 6 * 0,00502 = 0, 0301g/sek.

M_{SO} = 6 * 0,0651 = 0,3906t/yil.

M_{NO} = 6 * 0,000836 = 0,005g/s.

M_{NO} = 6 * 0,0108 = 0,065t/yil.

Viloyat bo'yicha 933 ta maktabdan gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi:

M_{SO} = 933x0,3906 t/yil = 364 t/yil = 364000 kg/yil

M_{NO} = 933x 0,065 t/yil = 60,45 t/yil = 60450 kg/yil

2. Agar yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.

Ko'mir va o'tin sarfi 3kg/soat. Yillik sarfi V=3x24x150=10800 kg/yil=10,8 t/yilni tashkil qiladi.

Kul:

933 x 1,4856 t/yil =1386 t/yil

Is gazi:

M_{SO}= 933 x 0,2094 t/yil =195 t/yil=195000 kg/yil

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

M_{NO}=933 x 0,1074 t/yil= 100 t/yil

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

M=933 x 0,17t/yil=158,6 t/yil

Viloyat bo'yicha 205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi. Har bir kollejda o'rtacha 16 tadan minikotel ishlatiladi:

M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 g/sek.

M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 g/sek.

M_{SO} = 0,0037 * 0.000389 = 0,00000 g/sek –

M_{SO} = 0,00502 * (3600 x 3,6 x 103) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 t/yil.

M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 t/yil.

M_{SO} = 0,00000 t/god – .

16 ta kotyol uchun:

M_{SO} = 16 * 0,0651 = 1,04t/yil

M_{NO} = 16 * 0,0108 = 0,17t/yil.

205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi.

M_{SO} = 205x1,04t/yil=213,2 t/yil

M_{NO} = 205x0,17t/yil=34,85 t/yil

Agar yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.

1 ta minikotelda qattiq yoqilgi uchun o'rnatiladigan me'yorlar:

Kul chikindisi

M_{tv} =AxVxfx(1-η) (t/yil, g/sek)

M = 16*13,1*0,0035*(1-0,5)=0,3668t/yil

yoki 0,3668/3600*3,6*10-3=0,0283g/sek

Q=(0,0283/0,106)*103=266,981mg/m^3

205 ta kollejda 205x16x 0,3668=1209,5t/yil kul

Uglerod monooksid tashlamalari:
M=205x16x 0,05174=170,2t/yil
Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):
M=205x16 x 0,0265=87t/yil
Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):
M=205x16x 0,0416=138t/yil
2500 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida hosil bo'layotgan chiqindilar miqdori quyida keltirilgan
Ushbu muassasalarda o'rtacha 4 tadan minikotellardan foydalaniladi. Yoqilgi sifatida gazdan foydalanilganda 2500 ta MTM lar atmosferaga tashlanayotgan tashlamalar miqdori quyidagicha:
M_{SO} =2500 x 4 x 0,0651 = 651 t/yil
M_{NO} = 2500 x 4 x 0,0108 = 108 t/yil.
Ko'mirdan foydalanilganda quyidagi tashlamalar hosil bo'ladi:
Kul:
2500 x 4 x 0,2476=2476 t/yil
Uglerod monooksid tashlamalari:
M_{SO}=2500 x 0,001 x 3,25 x10,8 x (1-0,5/100)=87,311 t/yil
4 ta kotyoldan chiqayotgan tashlama:
M_{SO}=2500 x 4 x 0,0349 = 349 t/yil
Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):
M_{NO}=2500 x 4 x 0,0179=179 t/yil
Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):
M=2500 x 4 x 0,02801=280,1 t/yil
Ushbu muassasalarda gazdan foydalanilganda hosil bo'layotgan tashlamalarning umumiy miqdori
M_{SO} = 364+213,2+651=1228, 2 t/yil
M_{NO} = 60,45+34,85+108 = 203,3 t/yil
Ko'mirdan foydalanilgandagi quyidagicha hosil bo'ladigan tashlamalar:
Kul:
1386+1209,5+2476=5071,5 t/yil
Is gazi:
M_{SO}=195+170,2+87,311 =452,511 t/yil
Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):
M_{NO}=100 +87+179 =366 t/yil
Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):
M=158,6+138+280,1 =576, 7 t/yil
Shu bilan bir qatorda, Marg'ilon shahrida hozirgi kunda 741ta umumiy ovqatlanish shohobchalari, 801 ta somsaxonalar, 683ta nonvoyxonalar va 506 ta kabobxonalar, jami 2731 ta obyekt faoliyat olib bormoqda. Hosil bo'ladigan tashlamalarning faqatgina Marg'ilon shahridagi umumiy ovqatlanish shohobchalari, somsaxonalar, nonvoyxonalar va kabobxonalar misolida oladigan bo'lsak, ularning hosil bo'lish miqdori quyidagicha:
Gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi.
M_{SO} = 2731x1,04t/yil=2840,24 t/yil
M_{NO} = 2731x0,17t/yil=464,27 t/yil
Agar yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.
Kul chiqindisi
2731 ta obyektda 2731x16x 0,3668=16028t/yil kul
Uglerod monooksid tashlamalari:
M=2731x16x 0,05174=2261t/yil
Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):
M=2731x16 x 0,0265=1158t/yil
Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):
M=2731x16x 0,0416=1818 t/yil

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatda 933 ta maktab faoliyat olib boradi va qishki mavsumda bir yilda 4.2 tonna ko'mir yoqadi. Viloyat bo'yicha 933 ta maktablarda 41 ming tonna ko'mir yoqiladi. Bir yilda viloyat maktablaridan 807 tonna is gazlari chiqariladi va 1.5 ming tonna kul changgi chiqadi.

Viloyatda 205 ta kollejlar faoliyat yuritadi va qish mavsumida har bir kollej 3.8 tonnadan ko'mir yoqadi. Ko'mir yoqish natijasida 218 tonnaga yaqin is gazlari va 311 tonna kul chiqindisi chiqadi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat shaklda 3270 ta bo'lib, qishki mavsumda har biri o'rtacha 3 tonna ko'mir yonilg'isidan foydalanadi. Natijada ekologiyaga 2750 tonnaga yaqin is gazi va 3500 tonnaga yaqin kul ajralib chiqadi [6].

Agar viloyatimizda xalq ta'limi muassasalarini (maktab, kollej, maktabgacha ta'lim muassasalarini) qayta tiklanuvchi (yashil energiya resurslaridan) foydalanishga o'tkazilsa, atrof-muhitni samarali muhofaza qilgan bo'lardik. Buning ustiga sarflanadigan moliyaviy xarajatlardan katta tejamkorlikka erishgan bo'lardik, ya'ni ham iqtisodiy samaradorlik, ham ekologik xavfsizlikni ta'minlagan bo'lardik.

Hozirda mamlakatimizda "Yashil makon" milliy loyihasi ishlab chiqildi va bu loyihada yiliga 200 million tupdan ortiq daraxt va ko'chatlarni ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 % dan 30 % gacha oshirish rejalashtirildi. Har mavsumda O'zbekistonda 2-noyabrdan 10-dekabrgacha daraxt ekish bo'yicha "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilindi. Hududlar kesimida Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 16 million tupdan, Andijon, Buxoro, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 15 million tupdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida esa 14 million tupdan ko'chat ekish rejalashtirildi. Loyiha bo'yicha muassasalar hovlisi, mahallalarga, yo'l va dala chetlariga ham daraxtlar ekilishi belgilandi.

Mutaxassislarning tavsiyalariga asosan, hududlarda ekish uchun 27 turdagi daraxt ko'chatlarini ekish taklif etildi. Masalan, kashtan, oqqayin, eman, yapon saforasi, shumtol, qayrag'och, pavloniya, terak, akatsiya, chinor, tut, jiyda, yong'oq, behi, olma, uzum va virtin archasi bizning mintaqalar uchun mosdir. Har bir viloyatning iqlimi va tuproq tarkibi inobatga olinib, qaysi ko'chat unib, ko'karib ketishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, Farg'ona viloyati hokimligi tumanlar kesimida, mahallalarda, dala chekkalariga tutlar, daraxtlar, archalar, chinor va mevali daraxtlarni xashar yo'li bilan 1 mln tupi o'tkazilsa, 200 ming tonna SO_2 zaharli gazlarni zararsizlantirish mumkin, O'zbekiston bo'yicha esa 20 mln tupi o'tkazilsa, 4-5 mln tonna uglerod gazlari zararsizlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ф. Ральс. Зелёная экономика как устойчивого развития общество без ущерба экологии. Москва. 2018. – 418 с.
2. Vaxabov A. V., Yashil iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. – "Universitet". 2020.
3. N. M. Maxmudov, Ekologiya. – Darslik. 2019.
4. Иминов Т. К., Вахабов А. В., Тешабоев Т. З., Бутабоев М. Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. – Т.: "Aloqachi", 2019. – 480 с.
5. Vaxabov A. V., Xajibakiyev Sh. X. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni. "Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent. "Universitet". 2018. – 4-15 b.
6. Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi muassasalarni 2022– 2023-yillar kuz qish mavsumida ko'mir yoqilg'isi ta'minoti to'g'risidagi ma'lumoti. – 7-8 betlar.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich
I.f.n., Buxoro davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyotni qo‘llash orqali barqaror o‘sishga erish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan va ularning tajribasidan O‘zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq qilingan. O‘zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini ekologiya talabalari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik muAmmo yashil iqtisodiyot, xorij tajribasi, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, mintaqa.

Abstract: The article analyzes the experience of foreign countries in achiyeving sustainable development during the transition to a green economy and the use of effective methods in this direction in Uzbekistan. Scientifically based recommendations have been developed for the reorganization, reform and development of economic sectors in the regions of Uzbekistan with the aim of greening production.

Key words: ecological problem, green economy, foreign experience, environmental protection, sustainable development, region.

Аннотация: В статье анализирован опыт зарубежных стран в достижении устойчивого развития и использования эффективных методов в период перехода к зелёной экономике в условиях Узбекистана. Разработаны научно обоснованные рекомендации для реорганизации, реформирования и развития секторов экономики в регионах Узбекистана с целью экологизации производства.

Ключевые слова: экологическая проблема, зеленая экономика, зарубежный опыт, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, регион.

KIRISH

Jahon mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashishi kuchayib borishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi bilan birga atrof-muhitga jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan salbiy ta’sirlar ortib boraveradi. Hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolar, ekologiya bilan bog‘liq muammolarning muhim, hal qiluvchi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Agarda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilish, ularning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun hozirda aniq va maqsadli harakatlarni amalga oshirib, ularning ijobiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi choralarni ko‘rmasa, bundan keyin kechga qoldirilgan har bir jarayon qaytarib bo‘lmas oqibatlarga olib keladi. Ya’ni qisqa qilib aytganda, hozir insoniyat ekologik muammolarni hal etishning burilish nuqtasida turibdi, ushbu nuqtadan keyin faoliyat keyinchalik o‘zgartirib bo‘lmas oqibatlarga olib keladi, agar hozirdan aniq maqsadlar sari harakat qilinsa, unda ushbu yo‘nalishda qandaydir ijobiy natijalarni qo‘lga kiritish mumkin.

Hozirga qadar amal qilib kelgan iqtisodiy rivojlanish modellari resurstalab va mehnat talab ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lganligi bois atrof-muhitga, tabiatga katta zarar yetkazib kelindi. Ya’ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlardan ko‘rilayotgan ijtimoiy samara tabiatga yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy zarardan pastligi bilan ajralib turgan. Mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish ekologik xavf-xatar nuqtayi nazaridan minimallashmagan edi.

Covid-19 pandemiyasi hozirgi zamon iqtisodiy modellari jahon iqtisodiyoti oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yecha olmasligini ko‘rsatdi. Shu sababdan zamonaviy iqtisodiy muammolarni yechishda yashil iqtisodiyot modeli asosiy omil bo‘lib sanaladi. Dunyoning ko‘plab davlatlari buni tushinib yetgan holda iqtisodiyotini ekologiyalashtirishga o‘tishmoqda. O‘zbekistonda ham ekologik muammolar o‘zining salbiy ta’sirlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari samaradorligida, aholining salomatligi ko‘rsatkichlarida, hududlarning rivojlanish darajalarida namoyon qilib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechishda, ta’sirini kamaytirishda mintaqalar iqti-

sodiyotini, ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish muhim yo‘nalishlardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini yashil iqtisodiyot talabalari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish, rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo‘llash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas, dolzarb masalalalaridan sanaladi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda va energiya samaradorligini oshirishda “yashil iqtisodiyot”ning rivojlanishi yetakchi o‘rin egallab bormoqda. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazishda “yashil iqtisodiyot”ning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va uni amal qilishining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish masalalari uncha uzoq bo‘lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarga Annon (1996, 2001), Asafu-Adaye J. (2005),. Biely K. (2014) Boulding K. E. (1966), Brown L. (2001), Cai W. Wang C., Chen J. &Wang S. (2011), Cato Molly (2009), Cook S., Smith K. & Utting P. (2012), Costanza R. (1991, 1997), Friedman T. L. (2009), Georgescu-Roegen N. (1978), (1993), Goodstein E. (1999), Hamilton K. & G. Ruta (2006), Heal G. (2012), Hey C. (2005), Hobson K. (2013), Howarth R. B. (1997), Jacobs M. (1991), Jänicke M. (2011), Khor M. (2011), Martínez-Alier J. & Muradian R. (2015), Milani B. (2000), Newton A. C. & Cantarello E. (2014), Rehbinder E., Stewart R. B. & Del Duca P. L. (1985), Smulders S., Toman M. & Withagen C. (2015), Van den Bergh J. (2001, 2010) larni ko‘rsatishimiz mumkin.

MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida T. A. Akimova, A. G. Bannikov, M. M. Brinchuk, V. K. Donchenko, M. F. Zamyatina, M. N. Ignateva, N. N. Lukyanchikov, A. D. Malinin, Yu. V. Novikov, Yu. P. Odum, Yu. B. Osipov, I. M. Potravniy, N. V. Paxomova, N. B. Proxorova, V. M. Razumovskiy, N. F. Reymers, T. V. Rogova, A. S. Stepanovskix, V. V. Xaskin, S. V. Yakovlev, Ya. Ya. Yandiganov va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Mintaqaviy darajada G. Ye. Mekush, A. M. Adam, M. V. Tereshinalar tadqiqotlar olib borishgan. V. I. Vernadskiy, N. N. Moiseev, D. X. Medouz, N. F. Reymers, A. A. Grigorev, K. S. Losev asarlarida ekologik siyosatning zamonaviy tamoyillari masalalari ko‘rilgan.

Yuqoridagi olimlarning fanning, ilmiy sohaning rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini e’tirof etgan holda ta’kidlaymizki, O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa, mintaqalari iqtisodiy rivojlanishida hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ekologik muammolarni bartaraf qilishda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda yashil iqtisodiyot masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, uni joriy qilishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilinmagan.

MAZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A. V. Vahobov va Sh. X. Hojiboqiyevning “Qayta tiklanadigan energiya iste’molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari” maqolasida tiklanadigan energiya iste’molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan. “Yashil energetika”ni rivojlantirishning jahon tajribasi qiyosiy tahlil qilingan va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan [1].

V. A. Poxvoshev o‘zining “Rossiyaning ijtimoiy taraqqiyotida “yashil iqtisodiyot” nomli maqolasida “yashil iqtisodiyot” va uning Rossiya Federatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Mualliflar yashil iqtisodiyotning shakllanishi va uning Rossiya va jahon tajribasida amalda shakllanishi an’analarini, istiqbol rivojlanishi, ekologik xizmatlar va mahsulotlar tarmog‘ining jahon va Rossiya tajribasini tahlil qilishgan [2].

M. M. Davletova o‘zining “Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi” nomli tadqiqot ishida Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy-konseptual asoslarini, shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari, xorijiy tajribani Markaziy Osiyo davlatlarida qo‘llash masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan [3].

Y. A. Lyaskovskaya, K. M. Grigorevalarning “Yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tishning hududiy imkoniyatlari diagnostikasi” maqolasida yashil iqtisodiyot va yashil o‘sishning asosiy konsepsiyasi, yashil innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotning barqaror o‘sishga ta’siri, xorijiy mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tishning tajribasi tahlil qilingan [4].

A. M. Rodriges “Barqaror o‘sish muammolari kontekstida yashil iqtisodiyot” nomli tadqiqot ishida iqtisodiyot va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlari hamda ularning holati, ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiyot asosini tashkil etishi asoslangan, yashil iqtisodiyot genezisi va uning moliyaviy inqirozlar oqibatida tobora keskinlashayotgan ekologik muammolarni bartaraf qilishdagi ahamiyati, yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni har tomonlama chuqur tadqiq qilish natijasida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlarni yaratish yo‘llarini, barqaror rivojlanishda iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning ahamiyatini tadqiq etgan [5].

N. N. Yashalova “Mintaqaning barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish” nomli tadqiqotida barqaror riojlanish jarayonida ekologik omillarning o‘rni, ekologik-iqtisodiy rivojlanishda barqarorlikka erishishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati, mintaqada ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishning umumiy barqaror rivojlanishdagi o‘rni tadqiq qilingan hamda mintaqaviy iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar asoslangan va tasniflangan[6].

“Yevropa Ittifoqining Sharqiy hamkorlik mamlakatlarida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish EaP GREEN) dasturi” axborotida Armaniston, Belorus, Gruziya, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina davlatlarida ishlab chiqarishning samaradorligini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida oshirish, mamlakat tabiiy kapitalini boshqarishda, ma’muriy boshqaruvda, atrof-muhit muhofazasi siyosatida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo‘nalish sifatida qo‘llashning natijadorligi tadqiq etilgan [6].

V. Podgorniy, F. A. Shulenbayeva “Qozog‘iston qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda “yashil iqtisodiyot”dan foydalanish” nomli nomli tadqiqotida atrof-muhit muhofazasi, qishloq xo‘jalik yerlarining degradasiyasini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan xalqaro dasturlar asosida xalqaro tajriba o‘rganilgan, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida Qozog‘iston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq qilingan [7].

J. B. Smagulova, A. Y. Muxanova, G. I. Musayevalar “Yashil iqtisodiyotga o‘tishning jahon tajribasi tahlili: iqtiboslar va yo‘nalishlar” nomli tadqiqot ishida jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotning o‘rni, uning rivojlanish tendensiyalari, xorijiy malakatlar va mintqalardan yashil iqtisodiyotga o‘tishning tajribasi, bu tajribaning yutuq va kamchiliklari borasida fikr yuritiladi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ayniqsa, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarning tajribasi tahlilida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, mamlakat xo‘jaligini yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish iqtisodiyotning zamonaviy modeli sifatida uncha ko‘p bo‘lmagan davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, qisqa muddat ichida jahon iqtisodiyotining amaldagi modellariga nibatan global ekologik va iqtisodiy inqirozlar davrida ustunlikka egaligini ko‘rsatmoqda. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda buning natijasini ilmiy-tadqiqot ishlarida va amaliyotda ko‘rishayotganligi bois, iqtisodiyot va uning turli tarmoqlarida, mamlakatning turli mintaqalarida keng ko‘lamlarda joriy qilishmoqda. Energosamarali va tabiiy infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar allaqachon o‘z samarasini bera boshladi.

Yashil iqtisodiyot – iqtisodiy fanlar tizimidagi so‘nggi 20-30 yil ichida paydo bo‘lgan yangi yo‘nalish bo‘lib, uning mazmuni iqtisodiyotni tabiatning bir komponenti sifatida unga bog‘liq holda mavjudligini izohlaydi. Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi, ya’ni cheklangan tabiiy makonda ta’sir doirasini cheksiz kengaytirish imkonsizligi, resurslar cheklangan sharoitda cheksiz o‘sib borayotgan istaklarni qondirish mumkin emasligi, Yer yuzasidagi barcha narsalar o‘zaro bog‘langanligi. Doimiy iqtisodiy o‘sishga erishib borish imkonsiz, doimiy iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Ayrim iqtisodchilar hozirda ustunlikka ega iqtisodiy tizimlar har jabhaga javob bera oladigan darajada mukammal emasligini ta’kidlashmoqda. Bu tizimlar ayrim guruh mamlakatlar va ayrim qatlam aholining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga sabab bo‘layotgan bo‘lsa-da, biroq uning atrof-muhit va tabiatga yetkazayotgan zarari bu foydadan ancha ustunligi ko‘rinib qolmoqda. Ayniqsa, buning oqibatida yuzaga kelayotgan hududlardagi keng qamrovli kambag‘allik, tabiiy kapitalning isrof qilinishi, ichimlik suvi, oziq-ovqat va energiyaning yetishmasligi, insonlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik, yirik ekologik muammolar shular jumlasidan. Ushbu muammolarni bartaraf qilish va insoniyatni taraqqiy ettirish uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish talab etiladi. Turli mintaqalarda turli mamlakatlar yashil iqtisodiyotga har xil masshtabda va yo‘nalishlarda o‘ta boshlashgan. Ularning bu boradagi tajribasni o‘rgangan holda, bu yo‘nalishdagi ijobiy tendensiyalarni aniqlashtirish, yashil iqtisodiyotga o‘tishning salbiy oqibatlarini tahlil qilish, natijalarni solishtirib, mamlakatlarning tajribasining O‘zbekistonga mos jihatlarini tadqiq etish ushbu tadqiqotning maqsadi sanaladi.

Yashil iqtisodiyot BMTning atrof-muhit bo‘yicha Dasturi (UNEP)ning g‘oyasi sifatida 2008-yilda qabul qilingan [8].

Jahon xo‘jaligini ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan o‘sishning barqaror modeli sifatida yashil iqtisodiyotga qayta yo‘naltirish uchun amalga oshiraldigan tarkibiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish lozim. Ekspertlar yashil iqtisodiyotni joriy qilish orqali YIM o‘sishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishish bilan bog‘liq islohotlarni quyidagi to‘rtta yo‘nalishda amalga oshirishni tavsiya qilishadi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o‘tish tabiiy va inson kapitali iste’mol resurslarini oshirishga qodir, ya’ni tabiiy kapitalni samarali boshqarish va inson salohiyati oshishi evaziga tabiiy atrof-muhitning holati yaxshilanishi, buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Ikkinchidan, bu o‘zgarishlar ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda tarkibiy, bazaviy tarmoqlarda, jumladan, energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, maishiy soha va boshqalarda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi, oqibatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida samaradorlikning ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida mustaqil ravishda investitsiyalar ajratiladi, asosan, suv ta’minoti tizimi, kanalizasiya tarmoqlari, jamoat transporti kabi muqobil energiya talab qiluvchi tarmoqlarga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchidan, yashil iqtisodiyotga o‘tish innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi, buning oqibatida raqobat muhiti kuchayadi, innovatsion samara ortadi [10].

Yashil iqtisodiyotni ustuvor yo‘nalish sifatida joriy qilgan ayrim davlatlar tajribasini tahlil qilamiz.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilib, undan samarali foydalanayotgan, bu sohada yetakchilar davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Ushbu mamlakatda 2011-yildan boshlab har yili YIMning 3 foizi, ya’ni 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ yashil sektorni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. O‘tgan davr mobaynida ushbu sektorda 1,8 mln yangi ish o‘rni yaratilgan. Yashil iqtisodiyotni milliy strategiya sifatida qabul qilgan Janubiy Koreya asosiy e’tiborni sanoatga, energetikaga, investitsiyaga, transportning yashil turlariga, ichimlik suvining muqobil manbaalariga, chiqindilarni qayta ishlashga, istirohat bog‘larini rivojlantirishga, shaharlardagi daryolarning tozaligiga qaratmoqda. Vazirliklar amalga oshirayotgan turli dasturlar budjet xarajatlarini ortiqcha sarflamaslik maqsadida yagona paketga birlashtirilgan. 2011-yildan boshlab Janubiy Koreyada “yashil” tovarlar va xizmatlar iste’molini rag‘batlantirish maqsadida “yashil” to‘lov kartalari joriy qilingan.

AQShda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida muqobil energetikani samarali tashkil etishdan boshlangan. Mazkur maqsadda davlat dasturi qabul qilingan bo‘lib, 2030-yilda mamlakat bo‘ylab ishlab chiqarilayotgan energiyaning 65 foizi quyosh panellari yordamida yaratishga erishish rejalashtirilgan. 2014-yildan boshlab har bir shtatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z hududiy dasturlari qabul qilingan. 2016-yildan keyingi 10 yil uchun ekologik toza tenologiyalarni rivojlantirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilashga mo‘ljallangan dastur asosida investitsiyalar ajratilmoqda. Mazkur dastur asosida 10 mln yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Yevropa Ittifoqining barcha a’zo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mo‘ljallangan dasurlar qabul qilingan. Energetika, jamoat transporti va infratuzilma, qurilish, chiqindilarni utilizatsiya qilish yo‘nalishlarida dastabki yo‘nalishlar sifatida tanlangan va hozirga qadar ancha hajmdagi ishlar amalga oshirilgan.

2019-yil dekabrda Yevropa Itifoqida “Yevropa yashil yo‘li” dasturi qabul qilindi. Unga asosan 2050-yilga mintaqada uglerod neytralligiga erishish, 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini 1990-yildagiga nisbatan 55 foizga kamaytirish, ekologik toza texnoloigyalarni investitsiyalash, jamoat transportining nisbatan toza va arzon turlarini qo‘llash, innovatsiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish maqsadida sanoatni qo‘llab-quvvatlash, energetika sektorini dekorbanizasiyalash, binolarning energiya samaradorligini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirish belgilangan.

Yevropada avtomobildan chiqayotgan zararli gazlar bo‘yicha Yevro-6 standarti qabul qilingan bo‘lib, 2025-yildan Yevropa avtomobil sanoatida Yevro-7 standartini joriy qilish rejalashtirilgan. Yevro-7 standartiga asosan ichki yonuv dvigateliga ega avtomobillarni ishlab chiqarishga taqiq qo‘yiladi.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilish va uni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali rivojlantirish sohasida Xitoy ancha natijalarga erishgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining tez sur’atlarda o‘sishi, aholining zichligi yuqoriligi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, qator ekologik muammolarning yuzaga kelganligi Xitoy iqtisodiyotini yashil iqtisodiyotga o‘tishini talab qiladi. Xitoyning yashil iqtisodiyotga o‘tishda dastlabki urg‘uni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish, mamlakat energiya balansida muqobil energiyaning ulushini oshirish, aholini toza ichimlik suvi va toza atmosfera havosi hamda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, ekologik madaniyatni shakllantirish yo‘nalishlarida olib borishga yo‘naltirdi. 2020-yilda 15 foiz elektr energiya qayta tiklanuvi manballardan olingan. 2011-2015-yillarda 2 mingdan ortiq ekologik zararli korxonalar majburiy ravishda tugatildi.

Xitoy energiyatejamkor va qayta tiklanuvchi energetikaga AQSh va YeI davlatlariga nisbatan bir necha barobar ortiq miqdordagi davlat investitsiyalarini joriy qilib kelmoqda. Buning oqibatida Xitoy kompaniyalari 2020-yil holatida jahonda ishlab chiqarilayotgan quyosh batareyalarining 50 foizga yaqinini va shamol dvigatellarining 25 foizini eksport qilmoqda. Hozirgi davrda nanotexnologiyalarga katta e’tibor qaratilgan. 2022-yil boshda mamlakatda elektromobillar ishlab chiqarish 45 foizga o‘sdi va hozirda Xitoy elektromobillar ishlab chiqarishda jahon yetakchisiga aylanib ulgurdi, jahon bozorining 60 foizidan ortiq elektromobillari ushbu mamlakatda ishlab chiqariladi. Xitoy 2035-yilgacha avtomobil parkini 100 foizga yashillashtirishni rejalashtirgan.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunga hududning tabiiy-ekologik sharoiti va resurslari, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlari, mavjud moliyaviy-itqisodiy resurslarni

ko‘rsatish mumkin. Tabiiy-iqlimiy sharoit respublikada muqobil energiya manbalarining ulkan zaxirasi mavjudligini ko‘rsatadi. Quyosh energiyasining yuqoriligi, sanoat rivojlangan va aholi manzilgohlari atrofida keng maydonlarning mavjudligi quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, tog‘ oldi hududlari va voha hamda cho‘l hududlaridagi bufer zonalarda doimiy shamollarning mavjudligi shamol energiyasi imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi [11].

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha dastlabki jarayonlar boshlangan, bu borada huquqiy asoslar shaklantirilib borilmoqda, qator farmon va qarorlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlash” to‘g‘risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari shular jumlasidan. Ushbu huquqiy-me’yoriy hujjatlarga asosan 2030-yilgacha quyidagi strategik maqsadlarga erishish mo‘ljallangan [12].

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- 2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta’sirni cheklash bo‘yicha qo‘yilayotgan talablar asosida “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etish;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;
- uglerod birliklarining reyestrini shakllantirish va yuritish;
- iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilash;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish bo‘yicha faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi Iqlim o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yo‘lga qo‘yish;
- tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish doirasida tarmoqlar va hududlarning iqlim o‘zgarishiga nisbatan sezuvchanligi xususiyatlaridan kelib chiqib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish hamda unga moslashish chora-tadbirlari va investitsiya loyihalari qamrab olish;
- 2023-yil 1-iyulga qadar “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini to‘liq joriy etish;
- “yashil” iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida “yashil” texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo‘llashga o‘tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- istiqbolli innovatsion ishlanmalar va “startap” loyihalarni amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar mo‘ljallangan.

Muallif O‘zbekiston sharoitida hozirda, dastlabki davrda yashil iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirishi yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya qiladi:

- Chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida. Ushbu sektorda tezkorlik bilan yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish talab etiladi. Bu o‘z navbatida atrof-muhitning ifloslanishi muammolarini kamaytirishi bilan birga, insonlar salomatligi bilan bog‘liq muammolarning ham kamayishiga olib keladi;
- Tabiiy resurslardan (yer, suv, biologik, atmosfera) foydalanish sohasida. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish talab etiladi. Bunda oziq-ovqat va suv xavfsizligi, ekologik sof mahsulot ishlab chiqarish masalalari ham qisman yechim topadi;
- Energetika sohasida. Mamlakatda 2022–2023-yilgi qish mavsumida kuzatilgan energetika inqirozi kabi muammolarning yechimi sifatida mamlakat mintaqalarida muqobil energiya manbalarini oshirish, mavjud energiya quvvatlarini modernizasiyalash zarur;

- Qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasida. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiyalash, gidrotexnik inshootlar foydali ish koeffitsiyentini oshirish sohada katta hajmda resurstejamkorligiga olib keladi;
- Jamoat va shaxsiy transport sohasida. Transport tizimini yashillashtirish atmosfera havosi masalalariga yechim bo‘lishi bilan birga energiya iste’moli tejamkorligini shakllantiradi;
- Yashil texnologiyalar va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishni kuchaytirish, bunday texnologiyalarni joriy qilganlik uchun rag‘batlantirish tizimni joriy qilish zarur;
- Ekologik madaniyatni kuchaytirish sohasida. Jamiyatning turli qatlami ishtirokchilarida tabiatga munosabat, atrof-muhit muhofazasi masalalarida madaniyatni oshirib borish, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar va ekologik madaniyatning samarasi to‘g‘risida targ‘ibotlarni kuchaytirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lum bo‘ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e’tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yashillashtirib borish samarali sanaladi.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish va uni samarali rivojlantirish uchun yetarli tabiiy-iqlimiy, ekologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu borada yetakchi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. A. V. Vahobov Sh. X. Hojiboqiyev. Qayta tiklanadigan energiya iste’molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari. Academic Journal of Digital Economics and Stability (ISSN 2697-2212) https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/135.
2. В. А. Похвощев, А. В. Лукина. “Зеленая экономика” в социальном развитии России. https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razvitii-rossii.
3. М. М. Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM. pdf.
4. Лясковская Е. А., Григорьева К. М.. Диагностика региональных возможностей перехода на модель “зеленой экономики”.https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-regionalnyh-vozmozhnostey-perehoda-na-model-zelenoy-ekonomiki).
5. Аврора Матеос Родригес “Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya.
6. Яшалова Н. Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученый степени доктора экономических наук. https://www.prlib.ru/item/684795.
7. EaP GREEN dasturi”. https://unece.org/eap-green.
8. Подгорный В., Шуленбаева Ф. А. Использование “зеленой экономики” для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана https://ecogosfond.kz/wp-content/uploads/2022/08 /ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-ustojchivogo.pdf).
9. Смагулова Ж. Б., Муханова А. Е., Мусаева Г. И. Анализ мирового опыта перехода к зеленой экономике: предпосылки и направления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 1-1. – С. 92-96; URL: https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6344 (мурожаат вақти: 12.04.2023 й.).
10. D. Sh. Yavmutov, K. S. Karimova. O‘zbekiston iqtisodiyotida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy qilish masalalari. Международный научно-образовательный электронный журнал “Образование и наука в XXI веке”. Выпуск №26 (том 7) (май, 2022). – С. 495-502. https://www.mpcareer.ru/oinv21veke3.
11. D. Sh. Yavmutov, S. Burxonov. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish: istiqbol yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar. Международный научно-образовательный электронный журнал “Образование науки и инновационные идеи в мире”. №10, Часть-2, декабрь, 2022. –Б. 159-168.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://uza.uz/uz/posts/2030-yilgacha-ozbekiston-respublikasining-yashil-iqtisodiyotga-otishiga-qaratilgan-islohotlar-samaradorligini-oshirish-boyicha-chora-tadbirlartog‘risida_431596.

ZAMONAVIY EKOSHAHARLAR BARPO ETISH VA UNI TATBIQ ETISH ZARURIYATI

Zikrullayev Valixon G‘aybullayevich
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi dunyo bo‘ylab keng tarqalgan ekologiyani asrash va aholiga ekologik qulayliklar yaratish, ko‘p qavatli ekoshaharlar barpo etish hamda muqobil energiyadan keng foydalahish kabi konsepsiyalar keltirilgan. Tahlil natijalari orqali faoliyatni rivojlantirish yo‘llari va takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: Quyosh panellari, ekologiya, ekoshahar, ko‘klamlashtirish, atmosfera.

Abstract: This article presents concepts such as the preservation of ecology and the creation of ecological amenities for the population, the construction of multi-story eco-cities, and the widespread use of alternative energy. Through the results of the analysis, the ways and suggestions for the development of the activity are given.

Key words: Solar panels, ecology, eco-city, urbanization, atmosphere.

Аннотация: В данной статье представлены такие понятия, как сохранение экологии и создание экологических удобств для населения, строительство многоэтажных экогородов, широкое использование альтернативной энергетики. По результатам анализа даны пути и предложения по развитию деятельности.

Ключевые слова: солнечные батареи, экология, экогород, опыление, атмосфера.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston davri boshlangandan so‘ng mamlakatimizda ulkan o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi, albatta, hamma sohalarga, sanoat ishlab chiqarish, qurilish va bunyodkorliklarga katta yo‘l ochib berildi. Bunday o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yanada oshishga, rivojlangan davlatlar bilan pragmatik iqtisodiy hamkorliklar uchun turtki bo‘ldi. Bunday industrial siljish davlatimiz ravnaqini hamda xalqning turmush darajasini oshirilmoqda.

Barpo qilinayotgan yangi shaharlar, qurilayotgan osmono‘par ko‘pqavatli binolar, ishlab chiqarilayotgan oziq va nooziq mahsulotlar, albatta, ishlab chiqarish hududlarida, qurilish zonalarida ekologik muhitni buzilishi yoki yomonlashuviga olib keladi. Xususan, tuproq, suv va havonning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonot dunyosidagi tashvishli o‘zgarishlar ekologik muammolarni tez vujudga keltirmoqda.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ekologik inqirozni anglash va industrial rivojlanish natijasida tabiiy ekologik jarayonlarni to‘ldirib bo‘lmasligi, yo‘qotilgan ekologik muhitni qayta tiklab olmaslik sababli butun dunyo ekologiya bo‘yicha olimlar hamda ekologiyani muhofaza qilish tashkilotlari jar solmoqda.

Aholining kundalik hayoti va kayfiyatini yaxshilashning muhim omili bo‘lgan yashash sharoitlarini yashil iqtisodiyotni yanada keng joriy etish e’tibor markazida bo‘la boshladi. Albatta, bu konsepsiya bo‘yicha yurtimizda ham ancha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Shundan kelib chiqan holda, mamlakatimizda ekoshaharlar modellarini barpo etish bo‘yicha loyihalar taqdim etila boshlandi. Bunday prinsip yangi shaharlar uchun nima beradi?

Ekoshaharda maishiy chiqindilar va sanoat ishlab chiqarish atrof-muhitga ta’sir etishini hisobga olib, innovatsion loyihalar asosida tuzilgandir. Mazkur ekoshaharda yashaydigan aholi uchun sof tabiiy elektr energiya, ya’ni quyosh batareya panellari va shamol tegirmon generatorlarini yaratish, suv va kommunal sohasida yangi muqobil g‘oyalarni qo‘llash orqali yanada isrof va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Shaharsozlikning inson yashovchi asosiy shakl ko‘rinishida, dunyoning ekotizimiga qiyinchiliksiz qo‘shilib ketishiga ruxsat beruvchi, arxitekturaviy muhitini yanada shakllantirishiga ilmiy asoslangan nazariy yangi yo‘llarini izlashni shahar va tabiat munosabatlarining evolyutsiyasini hisobga olmay turib, amalga oshirib bo‘lmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhitni asrash bo‘yicha qabul qilingan reglamentlar yanada ekoshaharlarga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekoshaharlarning shakllantirishning asosiy tamoyillari quydagilardan iborat: Oziq-ovqat mahsulotlarini yig‘ishtirgan joyidan iste`molchiga bo‘lgan masofani qisqartirgan uchun turli qishloq xo‘jalik strukturalari va yer maydonlarini shaharlarda (markaz va shahar atrofida) yaratish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqarishni tavsiya etildi.

- Yangilanuvchi energiya manbalari: shamol generatorlari, quyosh batareyasi yoki oqava suvlar yaratgan biogazdan foydalanish.
- Daraxtlar ekish (soya joylarni tashkil etish) va yuzani rangli yoritish kabi havoni sovitishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish, turli usullarini qo‘llash, tabiiy ventilatsiya tizimini o‘rnatish, shahar maydoning 20% dan kam bo‘lmagan qismiga suv obyektlari va yashil zonalarni ko‘paytirish kabi masalalar ekosha-harning asosiy konsepsiyalaridan biridir.
- Bunday tadbirlar shaharlarda beton ko‘p qavatli uylar, ko‘cha asfaltning ko‘pligini hisobga olganda iqlimning bir necha daraja issiqlik darajasi yuqoriligi ham “issiqlik oroli effekti”ga qarshi kurashishga qaratilgan.
- XIX asrdan boshlab G‘arb dunyosi mamlakatlari industrial revolyutsiyasi davriga qadam bosdilar. Yangicha hayot tarzi, ilmning va sanoatning rivojlanishi jamiyat hayotining barcha tamoyillariga katta ta’sir o‘tkazdi.
- Bu davrda dunyoning katta shaharlarida sotsial, iqtisodiy va ekologik xarakterga ega bo‘lgan muammolar juda o‘tkirlashdi. XIX asrning o‘rtalarida ekologiya mustaqil fan sifatida dunyoga keldi. Yangi yo‘nalishning tuzilishi bir tomondan, tabiat haqidagi bilimlar natijasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu vaqtda kelib planetaning yig‘ilib qolgan ekologik muammolarning jarchasiga aylandi. O‘sha vaqtning arxitektor va shaharsozlari texnik sivilizatsiyani tug‘dirgan yangi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan turli shaharsozlik konsepsiyalari ishlab chiqildi. “XX-XXI asr boshida shaharlar muhiti ahvolining yomonlashuvi va ekologik krizisning qator belgilari ko‘rinishidagi javoban insonlar yashaydigan joylar va umuman insoniyatning sotsial-ekonimik rivojlantirishga prinsipial yangi an’analar vujudga keldi” [1].

Xorijiy tajribalar shuni kursatadiki, ekologik texnologiyadan foydalanuvchi shaharlarni yaratish juda muhim ahamiyatga ega. Shaharlarni ekologik qayta qurish kelajakdagi rivojlanishning zaruriy talabi bulishi mumkin. Hozirda Yevropa davlatlarida ham ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha jadal chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Ulardan yaqqol misol: bu 2030-yilga kelib ichki yonilg‘i avtomabil dvigetelidan voz kechib, shahar ichida faqat elektromobillar boshqarishga ruxsat etish bo‘yicha qaror qabul qilinmoqda, bundan ko‘rinib turibdiki, benzin va dizel yoqilg‘ida harakat qiladigan transport vositalaridan chiqayotgan uglerod oksid gazi atmosfera qatlamini buzilishiga hamda buni natijasida, Yevropa davlatlari yoz oyida anomal issiqdan aziyat chekishiga olib keldi. Lekin faqatgina ichki yonilg‘i dvigetellardan voz kechish bilan anomal issiqlikni ahamiyatli darajada kamaytirishga erishib bo‘lmasligi olimlar tomonidan aniqlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlarda ko‘klamlashtirish ishlarini ko‘paytirish, sun’iy suv havzalarini barpo etish, chiqindi masalasi kabi strategik yondashuv talab etiladigan tadbirlar ishlab chiqildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki ekoshaharlar AQShda paydo bo‘la boshladi, u Viskonsiya shtatidagi Sholders Grov bo‘lib, 1978-yilda loyihalashtirildi [1] (1-rasm).

1-rasm: AQShning birinchi ekologik joylashuvi

Rossiyaning ekoposyolkalarining zamonoviy loyihalari qurilishdagi xalqaro ekostandartlarning ba`zi birlariga javob beradi. Masalan: Kurgan viloyati 2019-yilda loyihalashgan ekoposyolkalarning rivojlangan infrastruktura, transport magistralining yaqinligi, ularning suv havzalari va o‘rmon massivi oldida joylashuvi, muqobil energetika ekologik toza materiallar va eng yangi yutuqlarni qo‘llash, geometral isitish tizimi, suvni tozalash va utilizlashtirish tizimini qo‘llash, shaharcha ichini va atrofini ko‘klamlantirish asosiy yutug‘i hisoblanadi [2].

Shvetsiyada ekologik arxitektura va qurilishning keng ko‘lamdagi tamoyillari qo‘llaniladi: energiyani tejash, quyosh energiyasi, hayot ta’minotining avtonom tizimlari, intensiv qishloq va bog‘dorchilik, qayta foydalanishni hisobga olingan ekologik moda qurilish materiallarini ishlatish, yashash muhitini ijtimoiylashtirish.

Shu navbatda, G‘arb tajribasida ekologik shaharlarni loyihalashtirishda avvalom bor ko‘kalamlashtirish ishlarini olib borish, maktab va bog‘chalarda yon-atrofini daraxtzorlar bilan to‘ldirish, chiqindi to‘plash joylariga alohida inshootlar qurish, chiqindinini har kuni olib chiqib ketish kabi ishlar birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Mazkur muammoni o‘rganish jarayonida ekoshaharlarning quydagi klassifikatsiyasini aniqladik:

- xronologiya bo‘yicha;
- biosfera joylashuvi bo‘yicha;
- (klimatik) iqlimiy sharoitlar bo‘yicha;
- konseptual xususiyatlar bo‘yicha;
- ekologik daraja bo‘yicha shakllanish (1-jadval).



2-rasm: Ekoshaharlarning klassifikatsiyasi

O‘zbekistonda ham qator loyihalar va amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabusi bilan Farg‘ona shahrida 300 gektar maydonga 40 ming aholiga mo‘ljallangan zamonaviy “Ekoshahar” barpo etilishi taklif qilindi. Shaharchada 25 qavatgacha bo‘lgan uylar, ijtimoiy infratuzilma obektlari, 70 gektar maydonga “Yangi O‘zbekiston” bog‘i bunyod qilindi [3].

Bundan tashqari, Prezidentimizning tashabbuslari bilan elektromabil importiga bo‘lgan bojxona bojlari qisman kamaytirildi yoki olib tashlandi. Buning natijasida davlatimizga zamonaviy elektramobillar oqimi kirib kela boshlamoqda. Avtotransport sevuvchi xalqimizga bunday yangilik maqbul bo‘ldi va yurtimizda bu avtotransportga bo‘lgan talab borgan sari ko‘payishda davom etmoqda. Yurtimizning poytaxti Toshkentda ham yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi avtobuslarning tezkorlik bilan dizel va benzin yoqilg‘isidan elekt manbayiga o‘tishi bu birinchidan sarf-xarajatlarni kamaytirishga, ikkinchidan, atmosfera qatlamiga chiqayotgan zararli gazlarni kamaytirishga olib keldi (1-jadval). Shuni ko‘rishimiz mumkinki 10 yil davomidagi atmosferaga chiqqan zararli va ifloslangan gazlarning ko‘payishi va kamayishi keltirilgan.

1-jadval: Yurtimizning hududlarida atmosferga chikan zararli gazlarning miqdori

Hududlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
O‘zbekiston Respublikasi	788,2	817,6	855,2	1162,1	975,1	1008,2	853,5	883,7	952,8	924,4	908,7	874
Qoraqalpog‘iston Resp.	23,5	19,5	25,8	26,7	32,8	30,6	37,7	34,0	37,2	28,9	31,4	21
Andijon	13,6	12,2	14,4	6,6	18,5	36,7	15,8	15,9	14,3	11,5	4,9	17
Buxoro	71,7	61,7	50,7	51,9	55,6	58,5	63,8	74,8	69,1	37,1	44,7	36
Jizzax	17,3	14,1	17,2	37,2	70,2	63,4	5,2	11,8	4,3	3,4	2,9	27
Qashqadaryo	142,5	163,0	167,0	171,8	176,3	167,9	165,7	152,2	140,4	128,1	132,3	116
Navoiy	45,2	42,4	43,9	42,6	47,0	57,4	44,1	49,9	43,6	48,4	68,6	42
Namangan	5,6	7,0	3,7	3,9	7,8	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0	23,9	7
Samarqand	51,8	52,8	49,1	51,3	54,7	51,6	37,2	52,1	44,2	52,7	39,4	39
Surxondaryo	3,3	4,4	3,7	5,8	3,1	3,2	3,2	5,1	6,9	6,5	7,1	7
Sirdaryo	58,7	46,9	35,4	69,3	66,1	68,9	59,6	60,5	47,8	71,8	45,7	49
Toshkent	280,3	290,4	372,3	619,2	370,6	318,7	302,9	336,6	397,9	430,0	425,5	438
Farg‘ona	42,8	73,5	40,2	38,4	38,9	103,2	60,1	53,2	49,6	50,5	46,5	49
Xorazm	4,9	4,9	6,2	6,3	5,0	5,2	9,2	7,1	7,2	6,8	7,2	5
Toshkent sh.	27,0	24,8	25,6	31,1	28,5	27,1	33,1	15,3	74,5	33,7	28,6	21

Taklif va yechimlar – bunda zamonaviy shaharlarni ekologiyalashtirish jaroyanining boshlangich boshqichida, kelajakda boshqa mahallalar uchun o‘rnak va model bo‘lib xizmat qiluvchi ekomahallarni yaratish maqsadga mufoviqdir.

Ekomahalla – bu holatda kelajak ekoshaharning birlamchi ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi.

Odatiy shaharlarni ekologik shaharlarda aylantirish bu uzoq jarayon bo‘lib,mavjud bosh rejani baholash va ishlab chiqarishdan boshlab, sotsial masalalardek ko‘plab bir-biriga bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi.

Bosh rejada:

- mahalla hududining 50% ko‘klamlashtirish va sun’iy suv havzalari barpo etiladi.
- butun mahalla bo‘ylab, aholining sayr qilib yurishiga, uy ayvonlari uchun yashil yulaklar yaratiladi.
- avtomagistral bilan kesishmaydigan velosopedda va piyodalar yurishi yo‘llar yaratiladi.
- ikkilamchi foydalanish uchun katta ko‘chada, tratuar, bekatlardan yomg‘ir suvlari yig‘ish uchun yomkost idishlar quyiladi.
- omborlar, garajlar, bekatlar, issiq akumlyatorlarini va boshqalarni joylashtirish uchun yer osti muhitlardan foydaliniladi.

Ushbu qulayliklar ekoshaharning samaradorligini yanada oshiradi va kelajak yosh avlod uchun katta zamin yaratadi.

XULOSA

Fikrimiz yakunida shuni aytmoqchimizki, shaharning ustuvor rivojlanishi uchun, ekotizimning shahar tashqarisidagi tumanlarni qo‘shgan holda, atrof-muhitda ta’sirini oldining olish va yumshatish mumkin.

Ko‘p qavatli uylardan keng foydalanish salbiy ijtimoiy va ekologik holatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun loyiha sifatida, shu jumladan, binong o‘lchamlari va balandligiga alohida e’tibor berish kerak. Yashash joylarini shunday tashkil etish kerakki bolalar har kuni toza havoda o‘ynab, tabiat bilan alohida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir mahalada daraxtlar ham daraxtsimon ekinlar ekishni ko‘paytirish kabi ishlarni mavsumiy hayot tarziga tatbiq etishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 01.02.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 24-apreldagi “2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2922-sonli qarori.
3. Teodoroskiy V. S., Sabo Y. D., Frolova V. A. Stroitelstvo i ekspluatatsiya obyektov landshaftnoy arxitekturq.–M.,2018
4. Kamalova D. Z., Rashidov I. Ekoshaharlarni loyihalashtirishning me’morchilik va qurilish muammolari(ilmiy g‘texnik jurnal) SamDAQI №1, 2015.
5. Salimjon Buriyev. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. –Toshkent-2019-y.
6. T. Khasanov T. A. Housing fund as an object of management. –Tashkent, 2017. TAQI. Toshkent 2022-y.
7. O‘zbekistonda qurilish.,Prezident huzuridagi Statistika agentligi. –Toshkent, 2022-yil.
8. https://www.lex.uz
9. https://www.stat.uz

INDIAN FESTIVALS AND NATURE CONSERVATION: CONNECTING PEOPLE FOR SUSTAINABILITY

Nigora Saidmuradova Aslamovna
Lecturer, Business Management & Marketing Department School of Business & Economics Westminster International University in Tashkent

Abstract: Today we are witnessing an increasing consciousness among people across the globe concerning the importance of the conservation of nature. The pledge in the direction of the environmental conservation and preservation of nature is gradually developing in various countries, due to the rise in pollution and excessive exploitation of nature. Several festivals in India symbolize a profound connection between people and nature. Keeping this in view, this current study attempts to analyze the role and importance of festivals in India towards the conservation of nature.

Key words: family, South East Asia, Raj & Musgrave, Conceptual Research Paper.

Annotatsiya: Bugun biz butun dunyo bo‘ylab odamlarda tabiatni asrash muhimligi to‘g‘risidagi ong ortib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni asrash yo‘nalishidagi garov turli mamlakatlarda ifloslanishning kuchayishi va tabiatdan haddan tashqari foydalanish tufayli asta-sekin rivojlanmoqda. Hindistondagi bir nechta festivallar odamlar va tabiat o‘rtasidagi chuqur aloqani anglatadi. Shuni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot Hindistondagi festivallarning tabiatni asrashdagi roli va ahamiyatini tahlil qilishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: oila, Janubi-Sharqiy Osiyo, Raj & Musgrave, Kontseptual tadqiqot hujjati.

Аннотация: Сегодня мы являемся свидетелями растущего осознания людьми во всем мире важности сохранения природы. В связи с ростом загрязнения и чрезмерной эксплуатации природы в различных странах постепенно развивается стремление к охране окружающей среды и природы. Несколько фестивалей в Индии символизируют глубокую связь между людьми и природой. Учитывая это, настоящее исследование пытается проанализировать роль и значение фестивалей в Индии для сохранения природы.

Ключевые слова: семья, Юго-Восточная Азия, Радж и Масгрейв, Концептуальное исследование.

1. INTRODUCTION

The Indian civilization is considered to be 4500 years old and culture is one of the oldest cultures in the world. This civilization flourished between 2,500 BCE and 1900 BCE (Wright, 2009). Unity and diversity are not merely the words used to describe the Indian culture but they in fact highlight the reality of its unbelievable rich culture and heritage. India has gone through various phases from the Vedic era to Mauryas, Mughal rule, and British rules. India has always been a renowned and popular destination for its cultural diversity and generosity. Indian culture values love, family, relations, and ecstasy in various kinds of celebrations position it as a unique country in the global society. The diversity and hospitality of India attract millions of travelers and tourists to the country. The major purpose behind visiting India is to experience the vivacious and rich culture which is a unification of age-old traditions, religions, norms, food, festivals, arts, handicrafts, traditional music, dances, and many more ingredients. The travelers get mesmerized while visiting India and they highly appreciate the vibrant and unique cultures, values, customs, ceremonies and ethnicities of the country.

Like many other countries, the native people of India believe in the existence of supernatural powers in the sun, moon, planets, trees, animals, plants, mountains, rivers, sea, wind, and fire. In many religions in India respect for nature is inherent. Many gods and goddesses in the Hindu religion are associated with animals and elements. Sacred forests have been part of Buddhist and Hindu culture. Moreover, in religions like Christianity and Islam, a basic principle that exists is that nature is created by God, and humans must preserve and conserve the environment around us. Therefore, being a secular country, India encompasses various ethical and religious viewpoints that focus on the human obligation to care for mother nature.

According to Getz (2008), today's festivals are considered "the most energetic, exciting and vibrant forms of phenomena related to recreation, business, and tourism'. Although they aim to consider favorable impacts of social and economic on the indigenous community in which they operate, that has studied through numerous academics, the adverse environmental effects of these types of events received significantly less focus. (Collins, Langen & Garcia, 2009; Raj & Musgrave, 2010). That is why Getz (2008) seeks for concern about the environmental results of festivals and events which makes this a research priority. In earlier studies, some authors have begun to explore the new field of research. Emphasis on setting up green events and the organizers' encouragement behind greening efforts, still much more needs to be done (Getz & Anderson, 2008, Mair & Laing, 2012; Laing & Frost, 2010; Raj & Musgrave, 2009). With this in mind, the present study seeks to analyze the role and prominence of festivals in India for nature conservation.

Material related to India's festivals, festival impulses were collected from diverse sources such as professional & academic literature, media, web, and many more. The study brings forward the idea that India's culture influences, raise awareness, and sensitizes people to protect the environment through festivities. In several parts of India Native communities have successfully sustained the tradition of preserving nature. In today's world, where environmental degradation and disruptions are a crucial challenge, it is important to understand such ancient traditions and their implications.

2. METHODOLOGY

The study undertakes a conceptual approach in order to fulfill the purpose of the study. The secondary sources like articles, weblinks, research papers, reports, etc. have been analysed to obtain the required information and data. Other than that, the available research publications on Indian festivals and their linkages towards nature conservation have been studied in-depth to attain valuable insights.

Findings

The findings of the study show that most of the Indian festivals are focused on the celebration of mother nature. In fact, the respect of nature in India is an old traditional practice. Such age-old practices are based on the considerations that nature is the source of everything around us and supports our lives. Festivals such as Chath Puja, Bihu, Mesha Sankranti, and Pongal are primarily linked to nature and transmit the everlasting message of paying respect to nature.

Originality/value

In spite of strong linkages between nature and various festivals in India, the awareness and enthusiasm of many people towards the importance of nature conservation is strangely less. The need of the hour is to create awareness amongst people across the globe regarding the real significance of India's traditions with regards to the conservation of nature.

Keywords: Indian Festivals, Nature, Nature Conservation, Environmental Preservation.
Paper Type: Conceptual Research Paper

3. THEORETICAL BACKGROUND

Events and Sustainability

While there is relatively little literature and studies on environmental, and sustainability matters associated with festivals, there are a few that appear to be quite important for this research in terms of establishing the groundwork for additional investigation. To begin, it is vital to comprehend the many phrases used in the study in relation to concerns elevated regarding the misuse of our environment in the pursuance of economic activities. Terms like 'greening,' 'eco-friendly,' 'corporate social responsibility,' and 'environmentally friendly,' According to Henderson (2011), are interchangeably combined with sustainable, making it impossible to concentrate on one precise concept. Sustainability entails a connection to ecological impacts, such as the consumption of natural endowments and considerations of pollution and energy use, together with the concerns about social inclusion and wealth distribution, as well as economic themes of growth and longevity Musgrave and Raj (2009). The negative impacts of festivals or events create harm for society by polluting natural resources and which cause natural disasters too. Further, these big event celebration results in the health of the local community through air pollution, water pollution, and noise pollution. Natural disasters can have a life-altering impact on the individuals and families fortunate enough to survive them. But the effect of natural disasters can be felt at the community, city, and state level, or many times can impact an entire country. Natural disasters can have huge environmental impacts as well, even when human communities are relatively unaffected. In this respect, it refers to an imperishable, balanced method to commercial activities, environmental stewardship, and social

growth and it is applicable to the complete life span and event organization of every main event activity in the event industry. The triple bottom line which includes three important pillars of sustainability are considered very important in organizations. The triple bottom line "reflects an expanding range of principles and standards for evaluating corporate and organizational growth by considering all ethical and social norms that provide benefits to the localities by maintaining their resources more sustainable (Gallagher & Pike, 2011)

This indicates that while taking a larger perspective of corporate behaviour, from merely concerned with profit to only which involves people and plants too. Meanwhile, Henderson (2011) points out that many of the above terms (such as greening) today emphasize the 'planetary' or "human" aspect of sustainable development, thereby these conventions Is too simple. He argues those who want to manage the activities in a sustainable way should consider all the three elements of sustainable development. The term 'green event' could be determined as an affair that includes fair policies by either containing sustainable activities into the administration actions and functions & which claim as well that green events frequently have bigger attention than its direct environmental implications. Henderson (2011) enhances this via way of means of announcing that a service industry-like occasions administration would be properly exhorted to require a more extensive opinion of its sustainable development enveloping each the 'product' the 'process' perspectives. In lots of methods, fairs constitute the microcosm of the worldwide problems referring to ambient useful resources and management since they consume resources from the environment along with this generate waste and result in the transmission of pollution in the natural environment

Gallagher and Pike (2011). Jones (2010) additionally claims about 'going green' manner greater than about the carbon footprint and a few light-weight actions. She too claims about more extensive view should be taken, counting maintainability and conventional natural regards; asset utilize is especially pertinent to occasions. The difficulty in favor of events thus goes on the far side alone applying and financing in green practices and facilities. The measurements of sustainability for occasions and as well as tourism are characterized by its association with the common assets; with the political support and the local community; with financial matters and demand; and with operational administration (Getz and Andersson, 2008; Moscardo, 2007). It is hence the more extensive administration and decisions should be taken at the common ground by including all stakeholders while organizing any event. Musgrave & Raj (2009) gave a conceptual system for sustainable occasions that gives a presentation to the basics of sustainability, consistency, and integration inside the occasion's procedure.

Ten principles that represent the fundamental reasoning by the way sustainable occasions ought to symbolize a vision and general heading, which must be approachable and reasonable. Buizer (2009) recognizes a developing awareness of how we use our natural resources and deal with it. Dutch segment contends that a few celebrations have been investigating the conceivable usage of Corporate Social Responsibility (CSR). A further examination in the direction of greening among the Dutch music festival sector thus appears to be appropriate against both academic and societal purposes. This research primarily focuses on the motivations, obstacles and findings of greening practices and can thereby be considered as a follow-up of research executed by Mair & Laing (2012), which is now applied to a diverse spatial context.

Originally, many countries across the globe have rich traditions and ethics of protecting nature. Various ancient cultures tell stories of how communities lived in harmony with nature in old times, with a tradition of respecting elements that create our ecosystems. As we look toward environmental conservationism in the India context, it is vital to recognize the fact that the viewpoints of western world do not automatically apply in the South Asia (Christopher K. Chapple, 1998; Gotham, 2002). According to O. P. Dwivedi (2004) in the ancient India, Hindus and Buddhists were devoted towards moral traditions concerning the dealing with nature. In both Hindu and Buddhist cultures, the common people as well as the rulers followed such traditions and norms in order to create awareness among masses. Hindu and Buddhist traditions can play a vital role in solving various environmental problems being faced by India and other countries in South East Asia (David Gosling, 2001). Eco-friendly ethics in Buddhism present logical dimensions and ways of interactions with the nature. The meaning of nature in the early Buddhist context have roots to the teachings on dhamma, cosmogony, samsara and therefore we can say that environmental virtue ethics are inherent in Buddhism (Pragati Sahni, 2007). Unfortunately, in the current times the modern people look down on native people as superstitious and backward. But these people have a deep understanding of nature, and ways to that sustain the ecosystems. In the words of Greeti Sen, ed., (1992), Indian people worship trees and nature not just because the people are sensitive towards environmental protection, but also due to the reason that these traditions and practices are old and passed on through generations as a way of life. In addition to this, numerous people in India, are directly reliant upon the nature for agricultural practices and food requirements and they simply cannot pay the price for changing their behaviour for nature to accommodate environmentalist goals (Barlow and Shibli, 2007; Getz, 2010; Emma Tomalin, 2002; Tang and Turco, 2001).

Organizing various festivals and celebrations is deeply inherent in culture of India. The Hindu literature, scriptures and text refer towards celebrations of various festivals throughout the year. Many of these festivals are way to show respect Gods associated with nature including, mountains, rivers, trees, seasons etc. Such festivals are performed not only by praying individually or with family but are also celebrated in the form of in socio-cultural events. The culture of conservation of nature originates from the ancient Vedic texts namely, Rig-Veda, Sama-Veda, Yajur-Veda and Atharva Veda. These Hindu texts are devoted to the power and appreciation of nature and living beings. These texts refer to various gods and goddesses linked with rivers, mountains, sun, moon, thunder, rain, trees etc. Enabling sustainable associations amongst individuals and nature is one of the most crucial and urgent environmental and social problems of this era. R. Narayan and J. Kumar (2003) mentioned that various religious literature and scriptures speak about the end of the world. Slowly, with the problem of disruptions of ecology, people are getting concerned about the end-game. Therefore, in current times a religious and traditional approach can be an appropriate way to stimulate human psychology, as it is necessary to draw the attention of man upon the importance of ecology through age-old wisdom.

For the Indian people, conservation of the environment is not a new concept. Factually, the protection of nature and wildlife is linked with the faith of people which reflects in their daily lives, preserved by religion, folklore and culture. The Isopanishad (an ancient scriptural text), over 2000 years ago talked about the fundamental ecology, environment, nature, the interrelationships and interdependence of all living beings on earth. This text further mentions that the universe has been created by an ultimate power and the universe is created for well-being of all the living beings. Further, each living being must, live in harmony with the other species by forming a system of relationships for mutual benefits. K. D. Upadhyaya (1965) explained that the Aryan race in India has been worshiping trees for centuries and nature plays a significant part in their daily lives. The history India is full of customs and traditions which highlight the importance of nature in our lives.

Case Study of Indian Festivals

Globally, many organizations are pressurizing countries with high levels of carbon emissions producing to minimize their emissions without compromising their economic growth. However, it is important to understand the factors that can significantly promote clean energy consumption in production. This study determines the factors affecting clean energy consumption, economic growth, and carbon emissions in major investment countries. The article confirmed the existence of a long-run relationship between energy consumption, stock market capitalization, FDI inflows, research and development expenditures, clean energy consumption, CO_2 emissions, and economic growth. Clean energy consumption has a negative effect on carbon emissions, but a positive effect on economic growth. Research and development expenditures have a significant negative effect on carbon emissions. Overall, the results indicate that both research and development expenditures and FDI

10 https://www.iea.org/news/iea-ifc-joint-report-calls-for-ramping-up-clean-energy-investments-in-emerging-and-developing-economies

inflows have a considerable positive impact on clean energy consumption. Therefore, our study conclude that financial development sector significantly increases clean energy capacity through the support of clean energy projects.

In this article, we suggest the following:

a) Policymakers and governments should be required to pay more attention toward increasing stock market capitalization in order to raise additional capital for clean energy projects, as well as to convert both research and development expenditures and FDI inflows into clean energy projects;
b) Nations or economies should also promote public-private partnership (PPP) investments in clean energy projects via development of new infrastructure;
c) To increase energy efficiency, countries should provide potential tax benefits for foreign and domestic investors by acquiring more funds for the clean energy industry;
d) Governments should both increase energy efficiency and encourage clean energy consumption, which will not only significantly reduce carbon emissions, but also ensure sustainable development.

References:

1. IEA (International Energy Agency) (2021), World Energy Investment. Retrieved from https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2021
2. IEA (2020a), World Energy Outlook 2020. Retrieved from https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2020
3. Batini et al. (2021), Building Back Better: How Big Are Green Spending Multipliers? IMF Working Paper No. 2021/087
4. Bernanke, B. (2005), The Global Saving Glut and the U. S. Current Account Deficit. Remarks at the Sandridge Lecture, Virginia Association of Economists, Richmond, Virginia.
5. BNEF (Bloomberg New Energy Finance) (2021), Sustainable Finance Database (accessed April 2021). Retrieved from https://about.bnef.com/.
6. IFC (International Finance Corporation) (2023), Annual Reports: DFI Working Group on Blended Concessional Finance for Private Sector Projects, IFC, Washington DC.
7. IFC (2022), Managed Co-Lending Portfolio Program: MCPP One Planet, IFC, Washington DC.
8. Amundi (2022), Amundi Planet Emerging Green One. Annual Impact Report 2022.
9. Broccolini, C. et al. (2021), Mobilization Effects of Multilateral Development Banks, Washington DC, Word Bank.
10. IEA (International Energy Agency) (2021), Financing Clean Energy Transitions in Emerging and Developing Economies, IEA, Paris.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Алимова Муниса Юльчиевна
Ассистент кафедры “Инновационная экономика” Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация: Данная статья посвящена теоретическим основам услуг социальной инфраструктуры, влияющих на качество и повышение уровня жизни населения. В статье описан состав элементов социальной инфраструктуры и их классификация.

Ключевые слова: исламские банки, риба, исламские окна, мушарака, мудораба.

Annotatsiya: Ushbu maqola aholi turmush darajasini yaxshilash va sifat jihatidan oshirishga ta’sir etadigan ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining nazariy asoslariga bag‘ishlangan. Maqolada ijtimoiy infratuzilma elementlari tarkibi va ularning tasniflanishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy infratuzilma, aholi turmush darajasi, ijtimoiy soha, ijtimoiy soha iqtisodiyoti.

Abstract: This article is devoted to the theoretical foundations of social infrastructure services that affect the quality and improvement of the standard of living of the population. The article describes the composition of the elements of social infrastructure and their classification.

Key words: social infrastructure, standard of living of the population, social sphere, economics of the social sphere.

ВВЕДЕНИЕ

Развитие социальной инфраструктуры и тем самым повышение уровня жизни населения во всем мире считается одним из важных направлений социальной политики государства. Особенно в процессе урбанизации этот показатель увеличивается день ото дня, и ученые ставят перед собой цель улучшить благосостояние сельских жителей. Особое внимание уделяется развитию социальной инфраструктуры и разработке инновационных стратегий управления, направленных на повышение экономической и социальной эффективности, совершенствование системы подготовки квалифицированных и конкурентоспособных кадров, обеспечение благосостояния населения, особенно образования, здравоохранения, и бытовые услуги.

По оценкам международных организаций, сегодня в зарубежных странах около трети государственного бюджета тратится на развитие социальной сферы [1]. На современном этапе развития социальной инфраструктуры во всем мире, в США, Японии, Южной Корее, Китайской Народной Республике, странах Европы большое значение имеют структуры управления отраслями социальной инфраструктуры, ее целевые направления развития и содержание.

В мировой экономике осуществляются системные реформы по дальнейшему совершенствованию организационно-управленческой структуры социальной инфраструктуры на инновационной основе, разработке механизмов эффективной организации образовательной политики, жилищно-бытового обслуживания и здравоохранения сельского населения.

В частности, в Республике Узбекистан на основании Постановления Президента Республики Узбекистан от 30.12.2022 № ПП-465 “О мерах по развитию социальной и производственной инфраструктуры Республики Узбекистан в 2023-2025 годы”, реализация задач, определенных в стратегии развития Нового Узбекистана, в регионах, В частности, разработаны ориентиры по дальнейшему развитию социальной и производственной инфраструктуры в микрорайонах, а также по повышению уровня жизни населения и создание благоприятной инвестиционной среды для предпринимателей [2]. В современных условиях одной из основных целей научно-исследовательской работы является изучение конкретных научно-методических основ субъектов социальной инфраструктуры, определение их основных направлений, разработка стратегий экономического развития, комплексная интегральная оценка, создание перспективной модели.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Социальные инфраструктуры в мировом хозяйстве и их развитие широко освещаются в исследованиях зарубежных ученых, таких как Ю. Шумпетер, М. Портер, А. Райсберг, П. Доулинг, Р. Каплан, Д. Нортон, П. Друкер и др. В работах экономистов стран СНГ Н.Арбузовой, С.Г.Важенина, А.И.Гаврилова, А.Г.Гранберга, А.Д.Еременко, Н.Н.Некрасова, А.Г.Синельникова, Ю.Т.Тощенко отражены теоретические и практические проблемы развития социальной инфраструктуры. Развитие социальной инфраструктуры также освещается среди экономистами из Узбекистана Гулямова С., Юлдошева Н., Шодмонова Ш., Расулова А., Шарифходжаева М., Гойибназарова Б., Зайнутдинова Ш., Шарипова А., Салимова Б., Мухитдинова Х., Хамраевой С., ими проведен ряд исследований по теоретическим и практическим проблемам, посвящённым социальной инфраструктуры. Направления развития социальной инфраструктуры широко изучались в научных исследованиях упомянутых выше зарубежных и отечественных ученых.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовательской работе, посвященной развитию социальной инфраструктуры, использовался ряд методов, в том числе монографическое исследование, сравнительный анализ зарубежного опыта, результаты монографического анализа изучались на основе экономических методов, таких как анализ и синтез, систематический анализ. Также изучено содержание и сущность направлений социально-экономических преобразований, проводимых в отраслях экономики Республики Узбекистан и оказании социальных услуг населению, основывающихся на законах Республики Узбекистан, постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан. В статье изучены труды Президента Республики Узбекистан и его указы и постановления.

АНАЛИЗ И ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

В условиях современной цифровой экономики и жесткой конкуренции большие изменения происходят в сфере социальных услуг, которая считается одним из важнейших звеньев экономики. В частности, субъектами рынка социальных услуг являются бытовые услуги, образование, здравоохранение, физкультура и спорт, культура и искусство, социальное обеспечение, торговля и общественное питание, транспорт, жилищно-коммунальное хозяйство и другие отрасли, быстрое развитие социально ориентированная рыночная экономика в нашей республике свидетельствует о том, что она формируется.

Создание инфраструктуры неразрывно связано с материальным производством, а ее развитие создает новые виды производства и деятельности в обслуживающих и интегрированных отраслях. Повышение производительности общественного труда в сфере общественного производства высвобождает в обществе большое количество ресурсов для оказания услуг населению. Создание инфраструктуры означает развитие производительных сил в обществе, в результате чего внутренняя экономическая общность входящих в него отраслей определяется выполнением определенных задач.

Ниже на рисунке №1 показана структура социальной инфраструктуры и этим можно узнать их важность для повышения уровня жизни населения.

Религия:



Рисунок 1: Структура социальной инфраструктуры

Развитие социальной инфраструктуры служит достижению основных целей социально-экономического развития общества: социального равенства общества и всестороннего развития личности. Для этого определены задачи социальной инфраструктуры.

Учитывая, что социальная инфраструктура включает социально-бытовую и социально-духовную инфраструктуры, мы понимаем, что управлять ее развитием непросто. В связи с этим необходимо совершенствовать механизм развития и управления социальной инфраструктурой, особенно для сельского населения. Это связано со сложными процессами. Не секрет, что объекты социальной инфраструктуры в процессе своей деятельности не только производят товары, но и оказывают услуги. Их деятельность в основном направлена на повышение уровня жизни населения, воспроизводство рабочей силы [3].

Показатели оценки уровня развития социальной инфраструктуры нашего региона должны учитывать основные задачи социальной политики, направленные на повышение качества жизни населения, повышение его благосостояния и долголетия, формирование и восстановление здорового, творчески активного поколение. Это означает, прежде всего, удовлетворение потребности населения в качественном жилье, повышение уровня и качества развития социальной инфраструктуры, создание культурной сферы жизнедеятельности человека, улучшение экологических условий жизни и труда; повысить производительность труда; Это находит отражение в системной оценке таких показателей, как создание гарантий социальной защиты всех групп населения, в том числе молодежи и пенсионеров [4].

Например, горизонтальная интеграция осуществляется субъектами социальной инфраструктуры в целях увеличения доли рынка и эффективности концентрации и углубления специализации, а вертикальная интеграция включает в себя создание новых сервисных структур, дополнение существующих и аналогичные мероприятия. В структуре региональной социальной инфраструктуры, которую мы проводим, как уже было сказано выше, проводится анализ деятельности органов здравоохранения, образования, жилищно-коммунального хозяйства, благоустройства, занятости и многих других субъектов обслуживания, направленных на повышение уровня жизни населения. население объединено.

Согласно нашему анализу, объем предоставляемых услуг в Республике Узбекистан с каждым годом увеличивается [5]. В разрезе регионов наибольшая доля приходится на город Ташкент, Ташкентскую и Самаркандскую области (таблица-1).

Таблица 1: Объем услуг, оказанных по регионам в Узбекистане, млрд. сум[1]

Регионы	Годы					2021 г. по сравнению с 2017 г. (+,-)
	2017	2018	2019	2020	2021	
Республика Узбекистан	**118 811,0**	**150 889,8**	**193 697,8**	**219 978,5**	**284 165,4**	**165354,4**
Каракалпакстан	3 611,3	4 600,2	5 671,8	6 520,3	8 458,4	4847,1
Андижан	6 627,2	8 011,5	9 803,8	11 413,0	14 636,3	8009,1
Бухара	5 421,1	6 631,6	8 413,2	9 843,1	12 574,1	7153
Джиззах	2 530,8	3 283,2	4 305,1	5 024,7	6 395,6	3864,8
Кашкадарья	5 859,7	7 064,1	8 800,9	10 349,5	12 823,8	6964,1
Навоий	3 068,4	3 925,6	5 056,2	5 840,5	7 459,6	4391,2
Наманган	4 999,2	6 067,7	7 747,6	8 928,6	11 619,5	6620,3
Самарканд	8 343,2	10 043,5	12 786,8	14 086,1	18 259,0	9915,8
Сурхандарья	4 485,5	6 079,6	6 981,9	8 013,9	10 387,4	5901,9
Сирдарья	1 603,8	2 031,4	2 726,8	3 303,0	4 183,1	2579,3
Ташкентск.обл.	9 347,4	11 292,9	14 568,4	16 438,3	21 197,4	11850
Фергана	7 602,2	9 237,9	11 684,1	13 694,4	17 411,8	9809,6
Хоразм	3 645,5	4 562,8	5 763,3	6 461,2	8 325,8	4680,3
Ташкент	38 659,9	50 176,2	65 759,2	79 879,3	106 502,8	67842,9

Как видно из данных Таблицы 1 выше, объем оказания услуг в Республике Узбекистан в 2021 году составил 284 165,4 млрд. сум. в размере 165 354,4 млрд. сум по сравнению с 2017 годом. увеличено до сумов. В частности, в Республике Каракалпакстан в 2021 году 8 458,4 млрд. сум, что на 4 847,1 млрд. больше, чем в 2017 году, в Андижанской области 14 636,3 млрд. сум, что на 8 009,1 млрд. больше, чем в

1 stat.uz

2017 году, в Бухарской области 12 574,1 млрд. сум, что на 7 153 млрд. сум больше. В Джизакской области 6 395,6 млрд.сум, что на 3864,8 млрд.сум больше, чем в 2017 году, по Кашкадарьинской области на 12 823,8 млрд.сум, что на 6964,1 млрд.сум больше, чем в 2017 году и по городу Ташкенту выполнено много услуг на сумму 106 502,8 млрд.сум , 67 842,9 млрд. сум по сравнению с 2017 годом [6].

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Социальная сфера – это специфическая система, отражающая приоритеты государственной политики в сферах образования, культуры, здравоохранения, пенсионного обеспечения, жилищно-коммунального хозяйства, физической культуры и спорта, бытовой и социальной защиты, гарантирующая сумму всех условия жизнедеятельности человека, материальные и духовные блага. В результате производства и потребления этих услуг расширятся возможности формирования духовно богатых и физически здоровых людей.

Однако в результате исследований мы убедились, что пользование услугами в городских и районных центрах в 3-4 раза больше, чем в отдаленных селах регионов, что не позволяет поднять уровень жизни населения. На наш взгляд, развитие социальной инфраструктуры для сельского населения должно быть первостепенной задачей в основе наших реформ.

Несмотря на проводимые в Узбекистане социально-экономические реформы и реализацию правовых и организационных мер, многие проблемы развития рынка услуг социально-культурной сферы в регионах ждут своего решения. Мы исследовали на зарубежном опыте, что положение экономического потенциала этого сектора у нас намного ниже, чем у зарубежных стран, и мы обнаружили, что в этом секторе есть проблемы. Основными из этих проблем являются:

- сфера социальных услуг в основном финансируется из государственного бюджета и не сформирована благоприятная бизнес-среда;
- отсутствие маркетинговой службы в сфере предоставления социальных услуг населению;
- стоимость зданий и сооружений, современного оборудования, необходимых для ведения деятельности очень дорога, что препятствует формированию предпринимательской деятельности в социальной сфере;
- существует нехватка методологических основ для решения перспективного развития частного предпринимательства в социальной сфере, а также отсутствие разработки действенного механизма совершенствования отношений собственности.

Решение этих задач откроет широкие возможности для развития социальной сферы экономики и рынка услуг Узбекистана.

Использованная литература:

1. http://mirznanii.com/a/257730/rol-promyshlennosti-v-mirovom-khozyaystve;www.wb.org;https://stud-files.net/
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 30.12.2022 г. № ПП-465 “О мерах по развитию социальной и производственной инфраструктуры Республики Узбекистан на 2023-2025 годы”.
3. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16, April 2022, Pages 79-83
4. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. “The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment.” Journal of Marketing and Emerging Economics 2.5 (2022): 36-41.
5. Samiyeva, G. T. (2022). The Main Socio-Economic Task - Employment Of The Population And Ways To Solve Unemployment. &Quot;Online - Conferences&Quot; Platform, 84–91. Retrieved from http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/849.
6. Хамраева С.Н., Самиева Г.Т. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. – Дарслик, Тошкент, 2022 й., 465 бет.
7. Scientific and Theoretical Foundations of Social Infrastructure Development S.N. Khamraeva, M.Y. Alimova - Journal of Marketing and Emerging Economics, 2022.
8. Methodological bases for assessing the level of innovative development of agriculture and its service infrastructure activities S.N. Khamraeva, M.Y. Alimova - Journal of Contemporary Issues in Business and …, 2021.

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich
PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizning qator viloyat va shaharlarida tadbirkorlarning raqamli marketing texnologiyalarini joriy etilish holatini baholash va faoliyat yuritishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar so‘rovnoma asnosida tahliliy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: “Digital government”, “Digital marketing”, “Digital management”, “Kaizen”, “Just in time”, “Big Data” va “Cloud Somputing” moliyaviy menejment, raqamli marketing, marketing imkoniyatlari, marketing texnologiyalari, samaradorlikni baholash, raqamli transformallashuv, sun’iy intellekt.

Abstract: In this article, the factors influencing the assessment and operation of digital marketing technologies of entrepreneurs in a number of regions and cities of our republic have been analytically studied by means of a questionnaire.

Key words: “Digital government”, “Digital marketing”, “Digital management”, “Kaizen”, “Just in time”, “Big Data” and “Cloud Somputing” financial management, marketing opportunities, marketing technologies, performance evaluation, digital transformation, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье с помощью анкетирования аналитически изучены факторы, влияющие на оценку и работу технологий цифрового маркетинга предпринимателей в ряде регионов и городов нашей республики.

Ключевые слова: “Digital government”, “Digital marketing”, “Digital management”, “Kaizen”, “Just in time”, “Big Data” and “Cloud Somputing”, финансовый менеджмент, цифровой маркетинг, маркетинговые возможности, маркетинговые технологии, оценка эффективности, цифровые технологии трансформация, искусственный интеллект.

KIRISH

Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda raqamli marketing tamoyillaridan foydalanishning hozirgi holati qay holatda ekanligi yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asnosida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanish darajasini tahlil qilib, mulohazalarimizni davom ettiramiz. Sir emaski, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tadbirkorlarni qiynab kelayotgan masalalar yoritilib, ularga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Aytish joizki, bugun tadbirkor uchun eng katta qurol so‘z va faoliyat erkinligining berilganligi bo‘lib, bu demokratik rivojlanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan mamlakatlar uchun xos bo‘lgan samarali yo‘l hisoblanadi.

Bu borada yurtboshimiz “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda... Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi” deya ta’kidlab o‘tganliklari ham bejiz emas [1].

Fikrimizcha, barcha masalalarga qarsak chalish bilan javob qaytaradigan bo‘lsak, bizning oldimizda turgan muhim muammolarni hal etishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin.

Tadbirkorni bugungi kunning ta’biri bilan aytganda davlatni boy qiluvchi, har qanday iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch desak xato aytmagan bo‘lamiz. Chunki tadbirkor o‘z sarmoyasi orqali iqtisodiyotda qo‘shimcha qiymat yaratib, iste’molchilarning qondirilmagan ehtiyojlarini qondiradi. Iqtisodiyotning asosiy qon tomiri bo‘lgan pul oqimi harakatini tezlashtiradi.

Bugun raqamli transformatsiya bizga real iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanishni ta'minlamasdan turib yuqori iqtisodiy ko'rsatkichga erishib bo'lmasligini ko'rsatib bermoqda. Chunki zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot asrida har qanday tavakkalchiliklarga tura oladigan raqamli tadbirkor kerak.

Fikrimizcha, bunday tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish uchun davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini yuqori ta'minlovchi mezonlar ishlab chiqilib, amaliy natijasi davlat nazorati ostida bo'lishi lozim.

Mohiyatan, tadbirkor va ishlab chiqarish omillari o'rtasida qonuniy jihatdan aniqlik ta'minlangan bo'lishi darkor. Chunki tadbirkor faoliyat yuritar ekan, u bevosita davlat bilan birga harakatni amalga oshirishga majbur bo'ladi.

Fikrimizning tasdig'i sifatida yurtboshimizning "...ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy tizim joriy etilishi shart. Ana shu tizim orqali har bir korxona va tadbirkor bo'yicha alohida-alohida ish olib borib, ularning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash, tekshirishni esa so'nggi favqulodda chora sifatida adolatli o'tkazish lozim" deya ta'kidlab o'tganlarini keltirishimiz maqsadga muvofiqdir [2].

Bu amaliy ishlar bejizga emas, albatta, yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda tadbirkorlarimiz qator muammolarga duch kelayotgani masalani dolzarbligini ko'rsatib beradi. Shundan kelib chiqib, mavjud imkoniyat hamda masalalarga nisbatan tanqidiy yondashib, tadbirkorlik subyektlarining yuqori daromad olishi va shu asosda tadbirkorlik faoliyatining hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojiga to'siq bo'layotgan omillarni aniqligicha o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun tadbirkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri tadqiqot ishi mavzusi doirasida ularning faoliyatidagi mavjud muammolar va imkoniyatlardan qay darajada foydalana olayotganliklari xususida anonim so'rovnoma o'tkazildi va tahlil qilindi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" milliy dasturi doirasida yurtimizda moliya-bank tizimini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish asosiy vazifa sifatida ko'rilmoqda [3].

Bu esa o'z navbatida 2025-yilga kelib dunyoda 30 ga yaqin aqlli shaharlar paydo bo'lishi, ularning 5 foizi Shimoliy Amerika va Yevropada joylashishi mumkinligining kutilayotganligi ham raqamli marketingning istiqbolidan dalolatdir. Raqamli marketing faoliyati katta biznesga aylana borib, 2022-yildagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, marketing budjetlari kompaniyalar daromadlarining o'rtacha 11,2 foizini tashkil etadi. AQShda bu yillik sanoat xarajatlarining 196 mlrd AQSh dollari miqdoridan ko'proqqa teng. Buyuk Britaniyada 24,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etmoqda [4].

Mazkur dalillarning isboti sifatida birgina g'arbda raqamli imkoniyatlarga mos ravishda shakllanayotgan va ularni kengroq targ'ib etayotgan kompaniyalar samarali faoliyat yuritayotgan biznes vakillariga aylanib borayotganligini ko'rish mumkin (masalan: Apple, Microsoft, Facebook, Alphabet, AT&T, Amazon, Verizon Communications, Google kabilar) [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik subyektlar faoliyatida raqamli marketing samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, rus tadqiqotchilaridan M. V. Zaxarova, M. A. Kurasova, T. V. Deynekin, V. M. Komarov, S. A. Mixalev va S. G. Pesikovlar raqamli marketing samaradorligini baholashni raqamli marketing kommunikatsiyalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi [6, 7, 8, 9, 10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o'rganish, tizimli tahlil va yondashuv, so'rovnoma, statistik kuzatish, taqqoslash, statistik guruhlash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondashuvlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi progres jarayonlari raqamli boshqaruv tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston iqtisodiyotida ham qo'llash vaqti kelganligini ko'rsatib bermoqda. Ma'lumki, davlat bilan tadbirkor faoliyatini transformatsiyalashuvi hozirgi kunda xalqaro amaliyotda elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, "Digital government", "Digital marketing", "Digital management", "Kaizen", "Just in time", "Big Data" va "Cloud Somputing" tizimlarini amaliyotga joriy qilinishi mamlakat va tadbirkor uchun shaffof qaror qabul qilinishida muhim qadam bo'ladi. O'ylaymizki, O'zbekistonda bu tizimni qabul qilinishi tadbirkorlarni qiynab kelayotgan muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Respublikamizning qator viloyat va shaharlarida tadbirkorlarning raqamli marketing texnologiyalarini o'z faoliyatlariga joriy etish holatini baholash va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar so'rovnoma asnosida tahliliy o'rganildi. O'tkazilgan so'rovnomada Respublikamizning barcha viloyatlari

va Toshkent shahridan 500 nafar tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi. Respondentlar tomonidan berilgan xulosalarga muvofiq, quyidagi tahliliy natijalar sarhisob qilinib chiqildi.



1-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingiz respublikamizning qaysi hududlarida olib boriladi[1]

1-diagrammaning tahliliy natijalaridan bilib olishimiz mumkinki, so‘rovnomada jami 500 nafarga yaqin tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan bo‘lib, ularning aksariyat qismi, ya’ni 117 nafari Toshkent shahrida faoliyat olib boradi.



2-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingiz qaysi toifaga mansub ekanligini belgilang[2]

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlash uchun so‘ralgan savolga tadbirkorlik subyektlarining 463 nafardan 61,8%i kichik, 31,3%i o‘rta va 6,9%i yirik tadbirkorlik subyektlariga tegishli ekanligini ma’lum qilgan. Demak, tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi va bu bizga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari misolida raqamli marketingdan foydalanishning hozirgi holatini aniqlashda qo‘l keladi .



3-rasm: Korxonangiz qaysi sohada faoliyat yuritishga ixtisoslashgan[3]

465 nafar respondentlar tomonidan berilgan javoblarga ko‘ra, 189 ta (40,6%) xizmat ko‘rsatish sohasida, 152 ta (32,7%) tijorat sohasida, 146 ta (31,4%) ishlab chiqarishda va 17 ta (3,7%) moliyaviy sohada faoliyat yuritayotgan subyekt ekanligi aniqlandi. Natijalardan ma’lum bo‘lmoqdaki, tadbirkorlik subyektlarining eng katta qismi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda.

1 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.
2 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.
3 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.



4-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingizni qancha vaqtdan buyon olib borayapsiz? (Vaqt oralig‘ida belgilang)[4]

Tadbirkorlik faoliyatining qancha vaqtdan buyon olib borilayotganligi so‘ralgan bandda respondentlarning 49 %i 1-3 yildan beri, 21 %i 3-5 yildan beri, 11,5%i esa 5-7 yildan beri, 18,4%i 10 yildan beri faoliyat yuritib kelayotganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tushunishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlar yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.



5-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingiz faqat ichki bozorga mo‘ljallanganmi yoki tashqi bozorni ham qamrab oladimi?[5]

5-rasmda keltirilgan diagramma tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tashqi bozor uchun yoki ichki bozorga mo‘ljallanganlik holatini aniqlash uchun berilgan savol natijasini ko‘rsatmoqda. 457 nafar subyektning 84 %ining faoliyati aynan ichki bozor uchun mo‘ljallanganligini raqamlar ko‘rsatmoqda. 14 % subyekt faoliyatida ichki bozorni ham tashqi bozorni ham qamrab olganligini ma’lum qilmoqda. Afsuski, faqat tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan tadbirkorlik subyektlari so‘rovnomada 2 %ni tashkil etgan. Taqriban olganda, ushbu ko‘rsatkich mamlakatimiz iqtisodiyotidagi aynan muammoli jihat hisoblangan tashqi eksportni rivojlantirish masalasi hali ham oqsayatganligi, bu borada amalga oshirilgan islohotlar o‘zini ma’lum darajada oqlamayotganligidan dalolat bermoqda.



6-rasm: Korxonangizning o‘rtacha bir oylik daromadi qancha summani tashkil etadi?[6]

Ushbu diagramma tadbirkorlik subyektlarining faoliyatlaridan olayotgan bir oylik daromadi qancha ekanligini ifodalab, unga ko‘ra, so‘rovnomada qatnashgan tadbirkorlik subyektlarining 59,2 %ining bir oylik daromadi 50 mln dan kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin. 20,8 %i 50 mln dan – 100 mln gacha, 100 mln dan 500 mln gacha 8,1%, 500 mln dan 1 mlrd gacha 5,5 %, 1 mlrd dan ortiq 6,4 %i bir oylik daromadni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, 50 mlndan kam daromad oluvchi respondentlar tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismini tashkil etmoqda. Albatta, bu yaxshi natija emas, taqqoslash uchun 1 mlrd dan yuqori oylik daromadga ega bo‘layotgan subyektlar soni bor yo‘g‘i 29 tani tashkil qilmoqda.

4 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.
5 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.
6 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.



7-rasm: Korxonangizning o‘rtacha bir oylik reklama xarajatlari qancha summani tashkil etadi?[7]

7-rasmda korxonaning o‘rtacha bir oylik reklama xarajatlari qancha summani tashkil etishi to‘g‘risidagi so‘rovga respondentlar tomonidan berilgan javob natijalari keltirilgan bo‘lib, unga muvofiq 70,5 % tadbirkorlik subyekti reklama uchun xarajat qilmasligini ma’lum qilgan. Bu so‘rovnomada ishtirok etgan 457 ta respondentning 322 tasi o‘z faoliyatida umuman reklamadan foydalanmasligini anglatadi. 21 % ishtirokchi 10 mlndan kam miqdorda, 5,9 % ya’ni 27 ta tadbirkor 10 mlndan 50 mlngacha, 50 mlndan 100 mlngacha 1,5%, 100 mlndan yuqori 0,9%, ya’ni 4 nafar tadbirkor sarflayotgan bir oylik reklama xarajatlarini keltirib o‘tgan.



8-rasm: Korxonangiz budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi qancha?[8]

Tahlillar natijasi o‘laroq, 8-rasm ma’lumotlari korxonaning budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi qancha ekanligini ifodalab, unga muvofiq ko‘rsatkichlar quyidagichadir: 1,1 % (5 ta) respondentlarning korxonaning budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi 90% dan yuqori ekanligini, 1,1 %i 70 dan 90 foizgacha, 1,3 %i 50 dan 70 foizgacha, 3,3 % (15 ta) subyekt 30dan 50 foizgacha, 7,4 % (34 ta) 10 dan 30 foizgacha, 21,9 % (101 ta) tadbirkor 10 foizgacha sarflashini ma’lum qilgan. Ushbu so‘rovning eng e’tiborli tomoni 64%, ya’ni 295 nafar tadbirkor o‘z budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi mavjud emasligini ta’kidlaganligidir.



9-rasm: Raqamli marketing faoliyatini amalga oshiruvchi autsorsing firmalarining yoki sohaning malakali mutaxassisi xizmatlaridan foydalanasizmi?

9-rasmga muvofiq, tadbirkorlik subyektlarining raqamli marketing faoliyatini amalga oshiruvchi autsorsing firmalarining yoki sohaning malakali mutaxassisi xizmatlaridan 37,9 % tadbirkor qisman foydalanishini, aynan 37,9 % subyekt umuman foydalanmasligini ma’lum qilgan. 13,2 % respondent doimiy foydalanishini, 11% esa deyarli foydalanmasligini bildirgan.

7 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.
8 Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tayyorlandi.



10-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingizni yuritishda qanday raqamli texnologiyalardan foydalanasiz? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

Navbatdagi diagramma tadbirkorlarning o‘z faoliyatini yuritishda qanday raqamli texnologiyalardan foydalanishini ifodalab, ularning aksariyati telefon 72,2 % (332 ta) va noutbuk 42 % (193 ta)dan foydalanishini ma’lum qilgan. Shuningdek, ko‘pchilik respondentlar ijtimoiy tarmoqlar (32,2 %) va raqamli platformalar (11,3 %)ning muhimligini ta’kidlashgan hamda bu o‘rinda wifiga ega bo‘lish juda ham ahamiyatli ekanligini alohida e’tirof etishgan.



11-rasm: Tadbirkorlik faoliyatingizda foydalanayotgan Wifi va internet trafik tezligini belgilang.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalanilayotgan Wifi va internet trafik tezligini so‘rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning aksariyati, ya’ni 58,9 %i 4G internet tezligiga ega ekanligini bildirishgan. 10,7 % respondent hali ham 3G dan past, 22,4 % 3G internet trafik tezligidan foydalanishini aytib o‘tishgan. 459 nafar tadbirkorning bor yo‘g‘i 8,7%i esa 5G internet trafik tezligidan foydalanishini ma’lum bo‘lgan.



13-rasm: Korxonangizda quyidagi internet reklama usullaridan qaysi biri qo‘llaniladi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

13-rasmga muvofiq, so‘rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining 147 tasi (33 %) ijtimoiy tarmoqlarda, 47 tasi (10,6 %) veb-saytlar va portallarda internet reklama usullaridan foydalanishini aytib o‘tgan. Saytda boshqa sahifalarni qidirish xizmatlaridan 135 ta (30,3 %), kontekstli reklamadan esa 37 ta (8,3%) subyekt foydalanishini ma’lum qilgan.



14-rasm: Korxonangizda raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishning quyidagi usullaridan qaysi biri qo‘llanilishini ko‘rsating: (Birgalikda belgilashingiz mumkin)

Yuqorida keltirilgan 14-rasm ma’lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, mazkur diagrammada tadbirkorlarning korxonada raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishda, asosan, qaysi usullaridan foydalanishi so‘rovnomalarda tahlil qilib o‘rganilganda subyektlar trafikni tahlil qilish xizmatlari (Yandex, Metrika, Google Analytics va boshqalar)dan 40,2 %, davomat statistikasi tizimlari (Liveinternet, Hotlog va boshqalar)dan 9,1 %, maqsadli auditoriya (Roistat, Mango Office, Calibri, Envybox va boshqalar) va tahlil qilish tizimlaridan 15,2 %, trafikni gipersegmentasiya qilish tizimlari[9] (Yagla, Leadgenic, GiftTD va boshqalar)dan 15,2 %ni tashkil etishi aniqlandi. Masalani eng e’tiborli tomoni 42,3 %, ya’ni 186 nafar tadbirkorlik subyektlari korxonada raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishda biror bir usullardan foydalanmasligini ma’lum qilgan.



15-rasm: Korxonangizda internet-trafikni monetizatsiya qilishning (tashrif buyuruvchini mijozga aylantirish) qanday usullari qo‘llaniladi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

15-diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tadbirkorlik subyektlarining internet-trafikni monetizatsiya qilishning (tashrif buyuruvchini mijozga aylantirish) qanday usullari qo‘llanishi borasida o‘tkazilgan so‘rovnoma tahlillariga ko‘ra, onlayn konsalting xizmatlari 36,1 %, qayta qo‘ng‘iroq qilish xizmatlari 15,8 %, CRM (potensial mijozlar bazasini saqlash) 6,6 %, mijozlarni “ta’qib” qilish 3,7 %, xatti-harakatlar omillarini yaxshilash xizmatlari (onlayn kalkulyatorlar, tovarlar va xizmatlar uchun onlayn filtrlar, vidjet kartalari va boshqalar)dan 15,3 %, shuningdek, mazkur monetizatsiya qilishning biror bir usullaridan foydalanmagan tadbirkorlar 39,7 %ni tashkil etmoqda.



16-rasm: Raqamli marketing usullaridan foydalanganda maqsadli auditoriya (mijoz/iste’molchi) birliklaridan olingan har bir sotuv hajmini hisoblaysizmi?

9 Пояснение: сервисы гиперсегментации трафика позволяют каждому посетителю интернет-сайта отображать страницы интернет-сайта с контентом максимальной степени персонализации (изменяется заголовок записи, текстовые блоки, изображения и иллюстрации в зависимости от запроса, по которому пользователь перешел на интернет-сайт).

16-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, tadbirkorlarning raqamli marketing usullaridan foydalanganda maqsadli auditoriya (mijoz/iste'molchi) birliklaridan olingan har bir sotuv hajmi o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, unga ko'ra 13,8 % respondentlar har doim ham emas, 22 % tadbirkorlar aniq javob bera olmasliklarini, 27,7 % ishtirokchilar yo'q deb, 36,5 % respondentlarning aksariyat qismi ha deb javob berishgan.



17-rasm: Raqamli marketing faoliyatida sotuvdan tushgan tushumni internet-reklama xarajatlari (internet-saytga tashrif buyuruvchilardan kelayotgan foyda)ga nisbati asosida baholab borasizmi?

17-rasmda keltirilgan tadbirkorlarning raqamli marketing faoliyatida sotuvdan tushgan tushumni internet-reklama xarajatlari (internet-saytga tashrif buyuruvchilardan kelayotgan foyda)ga nisbati asosida baholab borishi xususida o'tkazilgan so'rovnomaga asosan 11,3 %i har doim ham emas, 21,5 %i aniq javob bera olmayman, 26,5 %i baholab borishini, respondentlarning katta qismi 40,6 %i baholab bormasligini ma'lum qilgan.



18-rasm: Pandemiya davrida moliyaviy holatingizni qancha vaqt ushlab tura oldingiz?

Yuqorida keltirilgan diagrammaning tahlil natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning pandemiya davrida moliyaviy holatini qancha vaqt ushlab tura olishligi so'rovnomalarda quyidagicha o'z aksini topdi, ya'ni 12,8 % tadbirkorlar 3 oydan 6 oygacha, 16,7 % tadbirkorlar 1 oycha, 21,9 % tadbirkorlar 6 oydan ziyod, 23,3 % tadbirkorlik subyektlari 1 oydan kam muddat oralig'ida o'z moliyaviy holatini saqlab turganliklarini ma'lum qilgan. Bizning tadqiqot ishimizning mavzuyi anchagina dolzarbligi ayni shu o'rinlarda yaqqol sezilmoqda. Chunki 23,3% tadbirkorlik subyektlari 1 oydan kam muddat davomida o'z moliyaviy holatini saqlab tura olganliklari iqtisodiyotimiz uchun juda ham ayanchli holatdir. 16,7 % tadbirkorlar 1 oycha, 25,3 % subyekt 1 oydan 3 oygacha faoliyatini yurita olgan. Agar bu raqamlarni umumlashtiradigan bo'lsak, 65,3 % tadbirkorlik subyektlari pandemiya davrida 3 oygacha vaqt mobaynida moliyaviy holatini saqlab turgan. Demak, ko'pchilik tadbirkorlik subyektlari har qanday bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar uchun tayyor emas. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi uchun yaxshigina xavf tug'diradi deb ayta olamiz. Bu o'rinda e'tibor qaratadigan jihat esa aynan 65,3 % subyekt o'z budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi umuman mavjud emasligini ma'lum qilgan bo'lib, 295 nafar tadbirkor nisbatiga to'g'ri kelayotganligidir. Bu shuni anglatadiki, raqamli asrda faoliyat olib borayotgan har qanday tadbirkor raqamli iqtisodiyot tizimida zamon bilan hamnafas bo'lmas ekan, u hech qachon rivojlana olmaydi, har qanday yuz berishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlardan chiqib keta olmaydi.

19-rasm: Pandemiyaning tadbirkorlik faoliyatingizga ta'siri qanday bo'ldi?

Mazkur diagramma ma’lumotlarini tahlil etish asnosida ma’lum bo‘ldiki, pandemiya sharoitida tadbirkorlarning faoliyatiga ta’sir etish holati 14,6% respondentlar tomonidan pandemiya davrida faoliyat yuritmaganligi, 18,7% tadbirkorlar faoliyati doimgidek davom etganligi, 27,5% so‘rovnoma ishtirokchilari tadbirkorlik faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatganligini, 39,2% tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritish rejimi o‘zgarganligini ma’lum qilgan.



20-rasm: Pandemiya sharoiti tadbirkorlik faoliyatingizda aynan nimalarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin)

20-diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiya sharoiti tadbirkorlarning faoliyatida aynan nimalarga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi so‘rovnomalarda o‘rganilganda mahsulotlarni yetkazib berishga 40,9%, ishchi kuchida muammo bo‘lishiga 30,1%, bozorga chiqishda 31,3%, sotuv hajmining tushib ketishiga 36,1 %, potensial mijozlarning soni kamayishiga 32% olib kelganligi ma’lum bo‘ldi.



21-rasm: Pandemiya davrida moliyaviy sharoitingizdagi tashvishlantiruvchi holatlarni nimalarda izohlaysiz? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

21-diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, tadbirkorlarning pandemiya davrida moliyaviy sharoitini tashvishlantiruvchi holatlari o‘rganilganda kutilmagan besaromjomlik 30,5 %, xom ashyo narxining oshishi 30 %, boshqa xarajatlar 36,4%, masalaning eng e’tiborli tomoni tadbirkorlik subyektlari foydasining kamayishi 49,5 %ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlik subyektlar faoliyatida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishda raqamli marketingga e’tibor qaratish masalasi nihoyatda dolzarbdir.

Yuqoridagi so‘rovnomadan ma’lum bo‘ldiki, so‘rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridir. Ko‘rib o‘tilgan tahliliy natijalardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, ayni paytda, mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi mavjud muammolar qatoriga aynan raqamli muhitga to‘laqonli o‘tilmaganligi, raqamli marketing imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, ularni zamon bilan hamnafas bo‘lishiga, faoliyatining samarali rivojlanishiga halal berayotganligining guvohi bo‘ldik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ishi mavzusi doirasida tanlab olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi mavjud vaziyatni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining xorijiy uskuna va zamonaviy minitexnologiyalarni xarid qilish bo‘yicha mavjud bozor konyukturasini chuqur o‘rganish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro raqobatbardoshlik muhitini oshirishda davlat tomonidan ko‘maklashish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan bozorning ichki va tashqi imkoniyatlari to‘g‘risida axborot almashinuvini takomillashtirish;
- xalqaro tadbirkorlik subyektlari bilan iqtisodiy hamda savdo-sotiq jarayonlarida integratsion munosabatlarni yaxshilashda iqtisodiy-savdo geografiyasini kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ma’lum bir sohaga ixtisoslashuvida ilmiy asoslangan qarashlarni oshirib borish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik korxonalar o‘rtasida korporativ aloqalarni yaxshilash;
- yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan noqonuniy tadbirkorlik subyektlar sonini qisqartirish;
- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldining olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo‘yicha 3 guruhga bo‘lib, sust rivojlangan mintaqalarga investorlar uchun ko‘proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;
- xorijiy erkin industrial zonalarda tovarlar eksporti amaliyotini o‘rnatish va ularning ijobiy tomonlarini yurtimizda qo‘llash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va mahsulotlarning raqobatbardoshliligini oshirish va bu orqali ularning eksport salohiyatini kuchaytirish;
- mamlakatimizga kiritilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni faol jalb etishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ahamiyatini yuksaltirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar faoliyatiga noqonuniy va asossiz ravishda aralashishlarning oldini olish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil 24-yanvar. https://president.uz/uz/lists/view/3324.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son.
4. https://megatrands.ru
5. Top 100 Digital Companies I/ Forbes (publishing house) xttps://www.forbes.com/top-digital: companies/list/#tab:rank (murojaat sanasi: 01.12.2021 y.)
6. Дейнекин Т. В. Оценка эффективности предпринимательской деятельности в сфере интернет-рекламы: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. –М., 2003. –С. 19−23.
7. Курасова М. А. Совершенствование маркетинговой деятельности предприятий на основе внедрения интернет-технологий: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. –М., 2005. –С. 19.
8. Рязанцев В. Д. Большая политехническая энциклопедия. –М.: Мир и Образование, 2011. –С. 355.
9. Самойлов И. В. Знание-центрическая методика перехода предприятий к деятельности на основе интернет-маркетинга // Креативная экономика. – 2011. –№ 1. –С. 117−123.
10. Михалева Е. П., Федотов С. А. Оценка эффективности мероприятий интернет-маркетинга // Известия Тульского государственного университета. Серия: Экономические и юридические науки. –2015. –№ 3-1. –С. 92.



AHOLIGA BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Uskanov Eldor
Toshkent moliya instituti – mustaqil tadqiqodchi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatishning ahamiyati, sohada mavjud muammolar yechimi va banklar tomonidan aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank, kredit, xizmat, pensionerlar, overdraft kredit, kafil, garov, kredit foizi, kredit riski, kredit monitoringi.

Abstract: The article discusses the importance of lending to the population by commercial banks, the existing problems and ways to improve the provision of banking services to the population.

Key words: bank, credit, services, pensioners, overdraft credit, collateral, guarantee, interest rate, credit risk, credit monitoring.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы значения кредитования населения коммерческими банками, имеющуюся проблемы и пути совершенствования оказания банковских услуг населению.

Ключевые слова: банк, кредит, услуги, пенсионеры, овердрафт кредит, залог, гарантия, процентная ставка, кредитный риск, кредитный мониторинг.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida bank xizmatlarining turlarini ko‘paytirish va ularni rivojlantirish, ayniqsa, tijorat banklarining aholiga ko‘rsatadigan xizmatlari tizimini takomillashtirish, ularning soni va sifatini aholi talablari, iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar talablari hamda qo‘yilayotgan vazifalardan kelib chiqib rivojlantirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Respublikamizda tijorat banklari faoliyatining uzluksiz takomillashib borishi bozor munosabatlarining muhim subyektlari bo‘lgan, nafaqat yuridik shaxslar, balki aholiga xizmatlar ko‘rsatish tizimini ham takomillashtirishni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Bu o‘z navbatida tijorat banklari faoliyatini yangi muhit, aholi talablariga moslashtirish, uni uzluksiz nazorat qilishni va samarali boshqarish uchun muhim ma’lumotlar bazasi yaratilishining uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi. O‘zbeksiton Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...Banklarning bosh vazifasi – bundan keyin o‘z ish uslublarini tubdan o‘zgartirib, fuqarolarimiz va tadbirkorlarning haqiqiy ishonchini qozonishga va ularga haqiqiy ko‘makdosh bo‘lishga erishishdan iborat, ...lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, banklar endi xalqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o‘rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo‘ladi”[1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatish va ular uchun bank xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan F. Modolyani, D. Kokslar[2] tomonidan tadqiq qilinib ularning fikricha, banklarning aholiga xizmat ko‘rsatish tizimi ko‘proq “aholiga uyida xizmat ko‘rsatish” yo‘nalishida rivolanishi maqsadga muvofiqdir. D. Polfreman, P. Rouz hamda J. Sinkilar[3] o‘z ilmiy tadqiqod ishlarida ssuda kapitali

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –T.: “O‘zbekiston”, 2016. –56 b.

2 Cox D. Success in elements of banking.-London: John Murray,1979.-271p.; Modigliani F., Fabozzi F. J., Ferri M. G. Foundations of financial markets and institutions.- New Jersey 61, 1997.–497p.;

3 Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford. –2nd ed. – London: Pitman, 1988.-660 p.; Роуз П. С. Банковский менеждмент. Пер.с анг.-Москва: Дело, 1997.-743 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер.с англ.- Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. –1018 с.

bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqalgani, bu jarayonlar o‘z navbatida banklarning birlashish va singib ketishi holatlari ko‘payishiga, ularning jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatadigan xizmatlarining risklilik darajasi yuqori bo‘lishiga olib kelganligini ta’kidlashgan. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar, ayniqsa, aholiga masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish va ularning samaradorligi masalalari Van Xorn D. K., Woodworth W., Woller G. lar tomonidan o‘rganilgan[4]. Ushbu olimlarning aksariyati tijorat banklarida masofaviy xizmatlarning yangi turlarini joriy etish, unda aholi uchun qulayliklar yaratish va aholining omonot va to‘lov kartalarida bo‘lgan pullarining xavfsizligini ta’minlash va banklarning bu yo‘nalishdagi operatsiyalarining samaradaorligini oshirishga e’tibor qaratishgan. Tijorat banklarining aholiga xizmat ko‘rsatishi borasidagi operatsiyalari, bank xizmatlari va bank mahsulotlari turlarini ko‘paytirish oid masalalar, banklarning masofaviy xizmatlarini rivojlantirish masalalari, ularning nazariy va amaliy jihatlari rus olimlaridan O. I. Lavrushin, G. G. Korobovalar[5] tomonidan ularning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilganini ko‘rishimiz mumkin.

Mahalliy olimlarimizdan Sh. Z. Abdullayeva, Z. T. Mamadiyarov, X. A. Xudoyarova, Z. Z. Xudoyberganova, O. Aliqoriyevlar[6] ham o‘z ilmiy tadqiqodlarida tijorat banklarining xizmatlari va uning asosiy qismlaridan bo‘lgan banklarning aholiga ko‘rsatadigan xizmat turlari, ularning mahalliy banklarimiz tomonidan qo‘llanilishi hamda kelajakda bunday xizmat turlari, bank mahsulotlarini yanada taraqqiy ettirish masalalariga e’tibor qaratishgan va mamlakatimizda bank xizmatlarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqodlarni amalga oshirishgan. Tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko‘rsatishda ularning zamonaviy turlarini ko‘paytirish sohasiga prof. Sh. Z. Abdullayeva o‘z e’tiborini qaratgan bo‘lsa[7], Z. T. Mamadiyarov va Z. Z. Xudoyberganovalar bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularning turli tumanligini ko‘paytirish orqali aholining bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirish, bank xizmatlarining tezkorligini ta’minlash lozimligini ta’kidlashgan”[8].Tijorat banklari chakana xizmatlar bo‘yicha tadqiqod olib borgan X. A. Xudoyarova esa tijorat banklarining “online” va chakana xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratgan[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatishga oid ilmiy qarashlar va tijorat banklari amaliyoti materiallari analiz-sintez usulidan foydalangan holda o‘rganildi va xulosalar shakllantirildi, qiyosiy tahlil, guruhlash, empirik va kuzatish metodlaridan foydalangan holda aholiga bank xizmatlarini amaliyotdagi mavjud muammolarning sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha fikr va xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda jahonda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bank-moliya tizimi barqarorligini ta’minlash, bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo‘jalik subyektlarining bo‘sh mablag‘larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni ko‘paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo‘yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalari muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, bugungi kunda bank – moliya tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi ishonchini yanada mustahkamlash, banklar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali bank xizmatlarining turi va ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurga aylanmoqda.Tijorat banklari omonatchilarni jalb etish uchun tashkilot korxona va aholi mablag‘larini ancha uzoq muddatga jalb etishga qaratilgan foiz siyosatidan foydalaniladi. Bu sharoitda mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashish muhim ahamiyat kasb etadi.Bugungi kunda davom etayotgan global siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish sur’ati 2023-2024-yillarda 5,6-5,8 foizni tashkil etib, 2025–2026-yillarda mos ravishda 6,2–6,4 foizgacha yetishi prognoz qilingan. Xalqaro valyuta jamg‘arma-

4 Ван Хорн Д. К. Основы управления финансами. Пер. с англ.; Гл. ред. серии, Nigeria: Selected Issues // IMF Country Report No. 08/65, February 2008, Woodworth W., Woller G. (1999) What is microfinance. Journal of microfinance, 15, pp. 6.

5 Лаврушин О. И. Банковское дело: -М.: Финансы и статистика, 2014.–241е.; Банковское дело: учебник/под. ред. д.э.н. проф. Коробовой Г. Г. -М.: Экономист, 2004.- 751е.

6 Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. –T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. 534 b., Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2019. 13 b., Xudoyarova X. A. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish.. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2020. 9 b.

7 Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. 533 b

8 Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2019. 12 b.

9 XudoyarovaX. A. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish.. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2020. 9 b.

sining prognozlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab markaziy banklar tomonidan inflyatsiya oshishiga qarshi choralarning ko‘rilishi natijasida global inflyatsiya darajasi 2022-yilgi o‘rtacha 8,7 foizdan 2023-yilda 6,9 foizgacha va 2024-yilda 5,8 foizgacha tushishi, biroq pandemiyadan oldingi davrdan (2017 – 2019-yillardagi 3,5 foiz) yuqori darajada bo‘lishi kutilmoqda. Global inflyatsiya darajasining tushishiga asosiy omil sifatida 3 jahon bozoridagi oziq-ovqat va boshqa turdagi asosiy tovarlarning narxlarida pasayish kuzatilayotgani bilan izohlangan. Yuqoridagilar natijasida O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023-yilda 9,0 foiz atrofigacha tushishi kutilmoqda. Shu bois, prognozlarga ko‘ra 2023-2024-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026-yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o‘sishi kutilmoqda. Buning uchun keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar qaramasdan O‘zbekistonning barqaror o‘sishini ta’minlash maqsadida inson kapitalini rivojlantirish choralarini ko‘rish ko‘zda tutilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida joriy yildagi 4 foizlik iqtisodiy o‘sish sura’ti saqlanib qolinayotgan bo‘lsa-da, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari, jumladan, Rossiya iqtisodiyoti 2023-yilda 2,2 foizdan 2024-yilda 1,1 foizga, Xitoy 5,0 foizdan 4,2 foizga, Turkiya iqtisodiyoti 4,0 foizdan 3,0 foizga hamda Qozog‘iston 4,6 foizdan 4,2 foizga sekinlashishi prognoz qilinmoqda[10].

1-jadval: Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining mintaqadagi ba’zi davlatlar uchun iqtisodiy o‘sish prognozlari[11], (foizda)

	Xalqaro valyuta jamg‘armasi		Jahon banki	
	2023	2024	2023	2024
Jaxon iqtisodiyoti	3,0	2,9	2,5	2,1
Rossiya	2,2	1,1	1,6	1,3
Xitoy	5,0	4,2	5,1	4,6
Turkiya	4,0	3,0	4,2	3,1
Qozog‘iston	4,6	4,2	4,5	4,3
Qirg‘iziston	3,4	4,3	3,4	4,0
Tojikiston	6,5	5,0	6,5	5,0
Ozarbayjon	2,5	2,5	1,5	2,4
Gruziya	6,2	4.8	5.9	4.8

2023-yilgi xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tayyorlangan O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish prognozlariga ko‘ra 2023-yilda yalpi ichki mahsulot o‘sishi 5,5 foiz atrofida va 2024-yilga borib ushbu ko‘rsatkich 5,5-5,6 foizlar atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

2-jadval: O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’ati[12] (foizda)

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (2023-yil oktyabr)	5,5	5,5	x	x
Jahon banki (2023-yil oktyabr)	5,5	5,6	5,8	x
Osiyo taraqqiyot banki (2023-yil aprel)	5,5	5,5	x	x
Milliy prognozlar	5,6-5,8	5,6-5,8	6,2	6,4

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirilayotgani hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2023-yilda ham barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga (5,6-5, 8 foiz) erishish kutilmoqda. Bunda aholi daromadlari asosan, o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi miqdorining 18-20 foizga va iqtisodiyot tarmoqlarining qo‘shilgan qiymati-

10 Budjetnoma. 2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 5 b.
11 Budjetnoma.2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 6 b.
12 Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining 2023-yil oktyabr oyidagi hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan. Budjetnoma.2024 – 2026 yy. –T.: 2023-yil. 8 b.

ning 5,6 foizga o‘sishi hamda pul o‘tkazmalari hajmi o‘sishi bazaviy trend doirasida qolishi hisobiga erishiladi[13].

2024–2026-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlari hamda iqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlarining to‘rtinchi yo‘nalishi – xizmatlar bozorini rivojlantirish bo‘lib, u orqali 2024-yilda bozor xizmatlari o‘sishini 14,9 foiz (574 trln so‘m) darajasida ta’minlash prognoz qilinmoqda. Bunda, yuqori o‘sish sur’atlari asosan ta’lim hamda aloqa va axborotlashtirish – 25,5 foiz, moliya – 22,3 foiz va transport – 10,4 foizga o‘sish hisobiga ta’minlanishi prognoz qilinmoqda. Bunda, banklarning aholiga xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirish, bu sohaga axborot texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Ta’lim kreditini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish, agar 2021–2023-yillar davomida jami 315 ming talaba, shundan 219 ming talaba xotin-qizlar uchun ta’lim kreditlari uchun 3,3 trln so‘m resurs mablag‘lari ajratilgan bo‘lsa 2024-yilda qo‘shimcha 180 ming nafar talabalar uchun ta’lim kreditlarini ajratish uchun mablag‘lar rejalashtirilib, ushbu dastur bilan qamrab olinadigan talabalar soni qariyb 500 mingga yetishi kutilmoqda. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda jami 2,2 trln so‘m, shundan 1,8 trln so‘mi ta’lim kreditlarini moliyalashtirish hamda 400 mlrd so‘mi xotin-qizlarga ajratilgan kreditni foiz qismini qoplash maqsadida rejalashtirilgan.

Bank mijozi bo‘lish istagini bildirgan fuqarolar doimiy ravishda ko‘payayotganligi respublika aholisining faravonligi o‘sayotgani, umuman bank tizimiga bo‘lgan ishonch mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Aholining bank xizmatlaridan foydalanishi bank ko‘rsatadigan xizmatlar xilma-xilligi, mijozlarga munosabatini va, eng muhimi, bank tizimiga ishonchni ham baholaydi. Hozirgi vaqtda jismoniy shaxslarga omonat hisobvaraqlari ochish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar orasida banklararo jo‘natmalar bo‘yicha ham, xalqaro tizimlar orqali o‘tkazilayotgan tezkor pul jo‘natmalari, banklarning “Western Union”, “MIGOM”, “Aziya Ekspress” tizimlari orqali, jumladan, vakil banklarning “CONTACT”, “Lider” va “Yunistrim”, “Tezkor Pochta”, “BLIZKO” va “MoneyGram” tizimlari orqali operatsiyalar bajarib tezkor jo‘natmalarni amalga bo‘yicha ham bajarilayotgan operatsiyalari ommaviylashib tezkor pul jo‘natmalari bo‘yicha operatsiyalar hajmi o‘sib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga qaraganda aholini banklarga murojaatlarning barchasi belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqiladi va ularni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Murojaatlarning tarkibi va aholining tijorat banklari bilan munosabatlarini quyidagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin[14].



Bank sohasiga oid murojaatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, murojaatlarning 36,2 foizini xorijiy valyutani sotib olish va milliy valyutani xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish, 34,8 foizi bank kreditlarini olish bilan bog‘liq masalalarga oid bo‘lib, ularning aksariyati garov ta’minoti yetishmovchiligi, ipoteka kreditining boshlang‘ich badal summasini to‘lash, ta’lim krediti hamda imtiyozli kredit olish to‘g‘risidagi murojaatlardir. Murojaatlarning

13 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari
14 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari

8,6 foizini bank xizmatlarining ommabopligini va bank xizmatlari turlarini taqdim etish qoidalarining shaffofligini oshirish borasidagi murojaatlar tashkil etadi.



Aholining bankga murojaatining o‘zgarish dinamikasi[15]

Shuningdek, bank xizmatlarini rivojlantirish, hisob raqamidan naqd pul olish, terminallar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va plastik kartalardan foydalanish bilan bog‘liq murojaatlar ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish uchun:

- aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatishda masofaviy xizmatlar ko‘rsatish, zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalangan holda bankga tashrif buyurmasdan masofadan turib bank xizmatini ko‘rsatish yoki undan foydalanish tizimini takomillashtirish lozim;
- jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish, ularning pul mablag‘larini banklarga jalb qilish, ularni saqlash va ulardan foydalanish borasidagi munosabatlarni erkinlashtirish maqsadga muvofiq;
- aholiga bank xizmatlari ko‘rsatish sohasida yuzaga keluvchi risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish;
- aholiga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining “online” va “homebanring” xizmat turlarini yanada takomillashtirish;
- aholining pensioner qatlami uchun bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, pensionerlar uchun overdraft kreditini, aholining faol qatlami uchun kredit kartalar joriy etish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Cox D. Success in elements of banking.–London: John Murray,1979.
3. Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford.- 2nd ed. – London: Pitman, 1988.
4. Роуз П. С. Банковский менеждмент. Пер.с анг.–Москва: Дело, 1997.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. –Пер.с англ.- Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007.
6. Ван Хорн Д. К. Основы управления финансами. Пер. с англ.; Гл. ред. серии, Nigeria: Selected Issues // IMF Country Report No. 08/65,– February 2008, Woodworth W., Woller G. 1999.
7. Лаврушин О. И. Банковское дело: –М.: Финансы и статистика, 2014.
8. Коробовой Г. Г. Банковское дело: учебник. –М.: Экономист, 2004.
9. Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2019.
10. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019.
11. XudoyarovaX. A. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–T.: 2020.
12. Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining 2023-yil oktyabr oyidagi hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan. Budjetnoma. 2024–2026-yy. –T.: 2023-yil.
13. cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari.

15 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari

INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO‘LLARI

Haydarov O‘ral Axmadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo‘llari hamda uning afzalliklari tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada islomiy moliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish yo‘llarini mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, islom moliyasi, mushoraka, sukuk, mudoraba, murobaha, moliyalashtirish, investitsiya loyihalari, islom moliya instrumentlari.

Abstract: This article discusses ways to finance investment projects using Islamic financial instruments, as well as an analysis of its advantages and improvement of development prospects. The article also presents the existing problems and prospects for the development of the use of Islamic financial services in the economy of our country, as well as the author’s approaches and proposals to overcome them.

Key words: investments, Islamic finance, musharaka, sukuk, mudaraba, murabaha, financing, investment projects, Islamic financial instruments.

Аннотация: В этой статье рассматриваются способы финансирования инвестиционных проектов с помощью исламских финансовых инструментов, а также анализ его преимуществ и улучшение перспектив развития. В статье также представлены существующие проблемы перспектив развития использования исламских финансовых услуг в экономике нашей страны, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: инвестиции, исламские финансы, мушарака, сукук, мудораба, муробаха, финансирование, инвестиционные проекты, исламские финансовые инструменты.

KIRISH

Jahon miqyosidagi global raqobatning kuchayishi istiqbolli soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmining keskin oshishiga olib kelib, buning ta’sirida investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga talab ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 2024-yilga kelib 3,96 trillion AQSh dollariga etishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo‘lgan to‘siqlariga qaramay, hukumatlarning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya mahsulotlariga yuqori talab o‘laroq ularning moliya bozorlaridagi ishtiroki chuqurlashdi va islom moliya tarmog‘i barcha jabhalarda kengayishda davom etmoqda[1]. Global pandemiya sharoiti keltirib chiqargan zamonaviy moliya tizimi yangi prinsplar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qiladi.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili sifatida faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturida “markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o‘zlashtirishning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari 521 603 mlrd. so‘mga yetkazishni, shu jumladan, 178 353 mlrd.

1 www.unctad.org. World Investment Report 2021

AQSh dollari miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilishi”ning[2] manzilli dasturi belgilab berilgan. Mamlakatdagi keng ko‘lamli islohotlar va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mukammal tizimli moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni yanada takomillashtirish yo‘llarini rivojlantirishning zarurligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish va uning faoliyati bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta’riflar berilgan. Xususan, so‘nggi yillarda islom moliyasi nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan islom iqtisodiyoti keng o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Chet ellik olimlar Gait va Uortington “Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi”[3], deya ta’kidlashgan. Levis va Algaoudlarning fikriga ko‘ra, “islom moliyasining o‘ziga xosligini yoki asosini tashkil etuvchi beshta diniy xususiyat mavjud, ya’ni riba (foiz), harom (taqiqlangan) halol (ruxsat etilgan), g‘arar (noaniqlik) yoki maysir (qimor), zakot va shariat (islom) kengashi. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an’anaviy yoki “G‘arb moliyasi”dan farq qiladi”[4].

Shuningdek, Miraxor va Iqbollar “Islomiy moliya tizimini an’anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (ribo) taqiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manirulyasiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag‘allarni (ya’ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg‘u beradi”[5]. Maxmud va El-Xalifa Muxammadlarning islom banklari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan asarida islom banklarining to‘liq shariatlar me’yoriga asoslanishi, lekin islom tamoyillariga asoslanmagan biznes muhitida uning qo‘llanilishi mumkinligi e’tirof etilgan[6].

Rossiyalik olimlar Bekkin va Kochmolalarning tadqiqotlariga ko‘ra, “Islom moliya institutlari to‘lig‘icha islom qoidalari joriy etilmagan, masalan, Malayziya va Turkiya mamlakatlarida muvaffaqiyatli oreratsiyalarni amalga oshirmoqda”[7].

So‘nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko‘plab mamlakatlar moliyachilarining so‘z boyligidan mustahkam o‘rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan, AQSH va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an’anaviy bank xizmatlariga muqobil moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi. An’anaviy bank tizimiga muqobil moliyalash shakllari mavjudligini bilish qiziqarli va foydalidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis Palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasida “Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi”[8], deb ta’kidlab o‘tdilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ – 765-sonli Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanish tizimini rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Milliy iqtisodiyotimizda islom moliya instrumentlaridan va islom moliya institutlari xizmat turlarini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad zamonaviy sharoitlarda moliya sektori muammolarini hal qilishda muqobil moliyalashtirish yo‘llarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo‘llaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori

3 Gait, A. And Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.

4 Lewis M. K. And Algaoud L. M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001-y. 253-258 p.

5 Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.

6 El-Gamal Mahmoud A. Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge University press, 2006 year.222 p.

7 Kochmola K. V. Islamskie finansovыe institutы v mirovoy finansovoy arxitekture.Rostov-na-Donu: RGEU “RINX”, 2007 g. 368 s.

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057. 2020-yil 29-dekabr.

mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islom moliya instrumentlari modelining o‘ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini umuman olganda ma’qullasada, jamiyat manfaatlarini ta’minlash hamda bozorda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan bema’nilik va adolatsizlikni oldining olish maqsadida muayyan ma’naviy-axloqiy chegaralar o‘rnatadi.

“Nima ishlab chiqarish mumkin?” degan masalaga islom moliya instrumentlari modeli insonning o‘zi hamda uning zaruratlari asl mohiyatiga e’tibor qilgan holda yechim beradi va bunda insonning barcha chegara bilmas xohish-istaklarini qanoatlantirish maqsadi qo‘yilmaydi.

Islom moliyalashtirish modelining maqsadi ma’naviy mas’ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratish deyish mumkin. Uning o‘ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom moliya instrumentlari orqali modeli jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg‘unlik) va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin emas deb hisoblaydi.

Islomiy moliyalashtirish adolatli, kafolatli, axloqiy, barqaror, ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli moliyalashdir. Pul bilan ishlashning bunday shakli asosan risklarni taqsimlashga yordam beradi, moliya sektorini real iqtisodiyot bilan bog‘laydi va moliyaviy integratsiya hamda ijtimoiy ta’minot muhimligini ta’kidlaydi.

Islomiy moliyalashtirish mamlakat investitsiya faoliyatining rivojlanishiga va moliyaviy integratsiyani kengaytirishga xizmat qiladi.



1-rasm: Investitsiya faoliyatida islomiy moliyalashtirish tamoyillari[9]

Islomiy moliya tuzilishiga ko‘ra tijorat va ijtimoiy islom moliyasiga bo‘linadi. Islom tirojat moliyasi ham o‘z navbatida islom banklari, islom investitsiya fondlari, takoful hamda sukukni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda islom banklari nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki nomusulmon mamlakatlarda ham o‘zining halol ish faoliyati bilan qiziqish uyg‘otmoqda (2-rasm).



2-rasm: Islomiy moliyalashtirish tuzilmasi[10]

Mamlakatimizda islom moliya instrumentlarining joriy etilishi xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi hamda bank va moliya tarmog‘ida shaffof raqobat muhitini yaratish imkoniyatini beradi. Natijada aholining moliya bozoridagi faolligi oshadi, aholi va tadbirkorlar ixtiyorida bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘lari mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida maksimal ishtirok eta olishi imkoniyati yaratiladi, kapital bozorining rivojlanishiga turtki bo‘ladi, yangi

9 Muallif tomonidan tuzildi

10 Introduction to Islamic Banking and Finance Downloaded from www.worldscientific.comby 213.230.102.163.

moliyaviy muassasalar tashkil qilish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son “Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Islom taraqqiyot banki guruhi (ITB) va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari (AMG) bilan uzoq muddatli sheriklikni yanada kengaytirish, shuningdek, ustuvor loyihalarni va ular bilan hamkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2004-yildan buyon ITB guruhi O‘zbekiston Respublikasiga yo‘l-transport, energetika va kommunal infratuzilma, qishloq joylarda uy-joy qurilishini modernizatsiya qilish, ichimlik suvi ta’minoti, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 1,9 mlrd. dollar bo‘lgan uzoq muddatli kreditlar berildi.

1-jadval: Arab muvofiqlashtirish guruhi mablag‘lari hisobidan amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalari ro‘yxati[11]

№	Loyihaning nomi	Loyiha maqsadi	Loyihaning narxi (mln. doll.)	Kredit summasi (mln. doll.)
Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi (QAITJ)				
1.	Yangilangan namunaviy loyihalardan foydalangan holda arzon turar-joy binolarini qurish Dasturining infratuzilma qismini birgalikda moliyalashtirish.	Tegishli kommunikatsiya va infratuzilmaga ega namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayot sifatini oshirish.	168,1	30,0
2.	O‘zbekiston Respublikasi neyroxirurgiya xizmatini yuqori texnologiyali tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash.	Respublika neyroxirurgiya markazi va respublika hududlaridagi 22 neyroxirurgiya bo‘limlarini yuqori texnologiyali uskunalar (1180 dona) bilan jihozlash.	35,0	28,0
Jami:			203,1	58,0
Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi (STJ)				
3.	Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash.	Uzunligi 56 km (D-250-530 mm) va 8 dona magistral suv quvurini qurish, suv taqsimlash tugunlari, shuningdek, 20 km (D-50-160 mm) taqsimlash tarmoqlari.	26,7	22,5
4.	Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalardan foydalangan holda arzon uy-joylar qurish dasturi.	Tegishli kommunikatsiya va infratuzilmaga ega namunaviy loyihalar bo‘yicha uy-joylar qurish orqali qishloq aholisining turmush darajasini oshirish.	100,0	75,0
Jami:			126,7	97,5
OPEK Xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi (OPEK jamg‘armasi)				
5.	Namangan viloyatining Zarkent, Xojikent, Iskovot, Buloqboshi, Bo‘ston, Yoshlik qishloqlari hamda Namangan shahrining ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash.	Yangiqo‘rg‘on viloyati va Namangan shahrining shimoliy qismi aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlashni ko‘paytirish, suv ta’minoti tizimining ishonchliligini mustahkamlash, resurslarni tejaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish, “Zarkent” va “Buloqboshi” suv olish inshootlarini qurish, ichimlik suvi, suv quvurlari va tarmoqlarini taqsimlovchi yangi inshootlar. Ichimlik suvidan noratsional foydalanish, uning yo‘qotilishi va sizib chiqishini kamaytirish.	75,0	50,0
6.	Urganch shahrining issiqlik ta’minotini rivojlantirish sxemasi.	Issiqlik ta’minoti tizimiga ilg‘or texnologiya va uskunalarni joriy etish orqali 18 ta qozonxonani rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish, 2 ta qozonxonani kapital ta’mirlash.	18,0	14,3
Jami:			93,0	64,3

11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son “Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Umumiy miqdori	422,8	219,8

Islomiy moliyalashtirish usullarini “yashil” moliya lashtirish, xalqaro fondlar va grantlar kabi innovatsion moliyalashtirish vositalari bilan muvofiqlashtirish barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya loyihalariga olib kelishi mumkin. Ushbu integratsiya islom moliyasiga axloqiy va ekologik jihatdan ongli ravishda sarmoya kiritish tamoyillariga mos keladi. Shunga asoslangan holda, investitsiya loyihalarining “yashil” moliyalashtirish, xalqaro jamg‘arma va grantlar kabi innovatsion moliyalashtirish instrumentlariga muvofiqlashtirilgan holda islomiy moliyalashtirish usullarini qo‘llash usullarinin rivojlantirish maqsadga muvofiq.



3-rasm: Investitsiya faoliyatini islomiy moliyalashtirish usuli “yashil” moliyalashtirish tizimi12

Yashil sukuk: Islom moliya institutlari ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan shariatga mos obligatsiyalar bo‘lgan yashil sukuk chiqarishi mumkin. Ushbu obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya loyihalari, barqaror infratuzilma va tabiatni muhofaza qilish harakatlari kabi atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Yashil loyihalarni vaqfga asoslangan moliyalashtirish: Vaqf islomiy xayriya jamg‘armasi bo‘lib, turli ijtimoiy va ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Yashil loyihalarga bag‘ishlangan Vaqf fondlarini tashkil etish orqali resurslar barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantiradigan tashabbuslarga ajratilishi mumkin.

Xalqaro yashil fondlar bilan hamkorlik: Islom moliya institutlari barqaror loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlovchi xalqaro yashil fondlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu hamkorlik islom moliya tamoyillari va ekologik barqarorlik maqsadlariga mos keladigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun resurslar va tajribalarni birlashtirish imkonini beradi.

Islom moliya vositalari orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani O‘zbekistonda joriy etish islom moliya sektorini rivojlantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb etishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Bunga erishish uchun ba’zi imkoniyatlar va strategiyalar:

Islomiy moliyani tartibga solish bazasini yaratish:

O‘zbekiston islomiy moliya sektorlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarning me’yoriy-huquqiy bazasini o‘rganish va qabul qilishdan foyda ko‘rishi mumkin. Bu shariatga rioya qilish, mahsulotlarni tuzilmalash va risklarni boshqarish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar yaratishni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlik:

Tashkil etilgan islom moliya institutlari yoki ko‘p tomonlama rivojlanish banklari (masalan, Islom taraqqiyot banki yoki Osiyo infratuzilma investitsiya banki) bilan hamkorlik qilish O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishda texnik yordam, ekspertiza va moliyaviy yordam ko‘rsatishi mumkin.

Imkoniyatlarni oshirish va o‘qitish:

Mahalliy tartibga soluvchilar, bankirlar va huquqshunoslar uchun o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar o‘tkazish uchun kuchli islomiy moliya sektoriga ega bo‘lgan mamlakatlardan ekspertlarni taklif qilish islomiy moliya amaliyotlari bo‘yicha tajriba va bilimlarni oshirishga yordam beradi.

Transchegaraviy ekspertizadan foydalanish:

12 Muallif ishlanmasi

Xorijiy islomiy moliya institutlari bilan qo‘shma korxonalar yoki sheriklik o‘rnatish bilimlarni uzatishni osonlashtirishi va islomiy moliyaviy mahsulotlarni strukturalashtirishda ilg‘or tajribalar almashinuvini rag‘batlantirishi mumkin.

Bozor tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy asoslar:

Xalqaro maslahatchilar ko‘magida keng qamrovli bozor tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy asoslarni o‘tkazish O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muayyan sektor va loyihalarni aniqlashga yordam beradi.

Kichik loyihalar va namoyishlar:

Islomiy moliya vositalaridan foydalangan holda infratuzilma, qishloq xo‘jaligi yoki kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish kabi sohalarda kichik loyihalarni joriy etish islom moliyasining afzalliklari va maqsadga muvofiqligini namoyish qilish uchun namunali misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Investor xabardorligi va ta’limi:

Mahalliy investorlar, korxonalar va muassasalar uchun islomiy moliya bo‘yicha seminarlar, konferensiyalar va seminarlar tashkil etish islom moliyaviy vositalari va ularning potentsial foydalari haqida xabardorlik va tushunchani oshirishga yordam beradi.

Huquqiy va me’yoriy islohotlar:

Mahalliy qonunlar va qoidalarni xalqaro standartlar va islomiy moliya sohasidagi ilg‘or tajribalarga moslashtirish juda muhim. Bunga islomiy moliyaviy operatsiyalar va vositalarni moslashtirish uchun qonunchilik bazasini yangilash kiradi.

Risklarni boshqarish va muvofiqlik:

Chet el tajribasiga asoslangan risklarni boshqarishning mustahkam asoslari va muvofiqlik mexanizmlarini joriy etish O‘zbekistonda islomiy moliya sektorining barqarorligi va yaxlitligini ta’minlashga yordam beradi.

Axloqiy va yashil moliyalashtirishni rag‘batlantirish:

Axloqiy va yashil moliyalashtirish amaliyotlari bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish islomiy moliyani barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishda qimmatli bo‘lishi mumkin.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish:

Hukumat O‘zbekistonda islomiy moliyani qabul qilish va rivojlanishini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari yoki tartibga soluvchi yordam kabi imtiyozlar berishi mumkin.

XULOSA

Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi umumiy muammolar va xulosalar shakllantirildi. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni rivojlantrishda quyidagi muammolar g‘ov bo‘lib kelmoqda

- islomiy moliyalashtirish sohasidagi aholining moliyaviy savodsizligi muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, bu muammo hatto aholining asosiy qismi musulmon bo‘lgan mamlakatlarga ham xosdir. Shu munosabat bilan normativ-huquqiy bazani tayyorlash va Islom moliya kompaniyalari faoliyati to‘g‘risida tegishli ma’lumotlarni tarqatish parallel ravishda amalga oshirilishi kerak;
- shariat qoidalari bo‘yicha ishlashda huquqiy xatarlar, shariat tamoyillariga nomuvofiqlik xatari kabi qo‘shimcha xatarlarning mavjudligi;
- mamlakatimizda islom iqtisodiyoti infratuzilmalari, eng avvalo, islom moliya instrumentlari asosida moliyalashtiruvchi muassasalar (banklar, investitsiyaviy fondlar, sug‘urta kompaniyalari va boshqalar) va muvofiq tarzda kapital bozorining mavjud emasligi;
- aholi omonatlarini himoya qilish tizimining yo‘qligi, shuningdek, fiskal, ya’ni soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bilan bog‘liq to‘siqlar O‘zbekistonda islom moliyasini tatbiq etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Jahon halol moliya bozori so‘nggi besh yil (2017-2022) ichida ikki barobardan ko‘proqqa oshdi. Butunjahon halol sammiti kengashi raisi Yunus Etening so‘zlariga ko‘ra, halol moliya mahsulotlarining ustunlaridan biri bu gigiyenik mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatidir, COVID-19 bozorning tez sur’atda kengayishiga ta’sir ko‘rsatdi, sababi odamlarning sog‘liqqa va gigiyenik mahsulotlarning kundalik hayotdagi o‘rniga munosabatlari o‘zgardi va qiziqishlari ortdi. Bu ozodalik, poklik va halol hayot tarzi haqida xabardorlikni, xushyorlikni oshirdi va natijada bu bozor tez o‘sa boshladi.

An’anaviy bank pulni daromadi kafolatlangan sotish yoki ijaraga berish mumkin bo‘lgan mahsulot sifatida ko‘radi, chunki berilgan qarz mablag‘larini yo‘qotish xavfi juda kam (qarz mablag‘lari ham, qarz bo‘yicha foizlar ham loyihaning muvaffaqiyati yoki inqirozidan qat’i-nazar doimo kafolatlangan bo‘ladi), islom banki esa o‘zini biznes bo‘yicha hamkordek tutadi va hamkorlikning turiga qarab xavflarni bo‘lishadi. Barchaga ma’lumki, agar ikki tomon xatar va yo‘qotishlarni o‘zaro bo‘lishsa, ular moliyaviy amaliyotlarda ehtiyotkorlik bilan ish tutadilar. Shu tariqa, islom moliyasi adolatliroq, moliyaviy barqaror hamkorlik muhiti yaratilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston islomiy moliya bo‘yicha mintaqaviy habga aylanishi mamlakat iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shishiga shubha yo‘q. Yuqorida zikr qilingan va boshqa O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan xususiyatlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish kerak.

Dunyoda aholi sonining oshishi, resurslar tanqisligi, moliyaviy manbalarning cheklanganligi, migratsiya muammolari, ishsizlik va kambag‘allik ko‘rsatkichlarining ko‘payishi global muammolarga aylanib bormoqda. Muqobil imkoniyatlarni yaratish esa osonlikcha hal bo‘ladigan masala emas. O‘zbekiston Islom moliyasi habi sifatida bu muqobil moliyaviy xizmatlarni yetkazib beradigan asosiy davlatga aylanishi esa, uning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.unctad.org. World Investment Report 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini jory etish to‘g‘risida”gi qarori.
3. Gait, A. And Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.
4. Lewis M. K. And Algaoud L. M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001 y.253-258 p.
5. Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.
6. El-Gamal Mahmoud A. Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge University press, 2006 year.222 p.
7. Кочмола К. В. Исламские финансовые институты в мировой финансовой архитектуре.Ростов-на-Дону: РГЭУ “РИНХ”, 2007 г. 368 с.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057. 2020-yil 29-dekabr.
9. Introduction to Islamic Banking and Finance Downloaded from www.worldscientific.comby 213.230.102.163.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son “Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ESG OMILLAR ASOSIDA INVESTITSIYA KIRITISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Nosirov Egamqul Ismailovich
I.f.n., Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Maqolada BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda “ESG” yondashuvning o‘rni va ahamiyati, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda investorlar tomonidan kompaniyalarga “ESG” yondashuv asosida investitsiya kiritish mezonlari, ESG omillar va ular bilan bog‘liq risklarning tasniflanishi, milliy kompaniyalar faoliyatida “ESG” yondashuvni qo‘llashning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ESG omillar, ESG-risklar, “yashil” iqtisodiyot, moliyaviy vositalar, “yashil” investitsiyalar, mas’uliyatli investitsiyalar, ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” loyihalar.

Abstract: The article discusses the role and importance of the “ESG” approach in ensuring the implementation of the objectives set for the UN sustainable development goals, the criteria for investing in companies based on the “ESG” approach by investors during the transition to a “green” economy, the classification of ESG factors and associated risks, the advantages of using the “ESG” approach in the activities of national companies are highlighted.

Key words: ESG factors, ESG risks, green economy, financial instruments, green investments, responsible investments, socially responsible investments, green financing, green projects.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и значение “ESG” подхода в обеспечении реализации задач, поставленных перед целями устойчивого развития ООН, критерии инвестирования в компании на основе “ESG” подхода инвесторами при переходе к “зеленой” экономике, классификация ESG-факторов и связанных с ними рисков, выделены преимущества применения “ESG” подхода в деятельности национальных компаний.

Ключевые слова: ESG-факторы, ESG-риски, “зеленая” экономика, финансовые инструменты, “зеленые” инвестиции, ответственные инвестиции, социально-ответственные инвестиции, “зеленое” финансирование, “зеленые” проекты.

KIRISH

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va yildan yilga aholi sonining o‘sishi iqtisodiyot tarmoqlari va uy xo‘jaliklarining resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda. Buning natijasida atrof-muhitga salbiy ta’sir qiluvchi omillar ko‘paymoqda va tabiatga issiqxona gazlarining chiqishi tobora ortib bormoqda.

Dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi va COVID-19 pandemiyasi ta’sirida ro‘y berayotgan salbiy holatlar tufayli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi mumkin bo‘lgan yangi manbalar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligining past darajada ekanligi, asosiy vositalarning eskirish darajasining yuqoriligi va ularni yangilariga almashtirish jarayonining sustligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga xususiy biznesni faol jalb qilmaslik holatlari mamlakatni barqaror rivojlantirish borasidagi ustuvor hisoblangan milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishga g‘ov bo‘lmoqda.

Ko‘p yillar mobaynida jahon amaliyotida iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoya kiritish orqali bir paytning o‘zida ijobiy ijtimoiy va ekologik natijaga erishish hamda foyda olish imkonini beruvchi yagona yondashuv bo‘lmagan. Global miqyosda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishda xususiy sektor ustunlik qilar ekan, xususiy biznes vakillari har doim foyda olishni asosiy maqsad bilib, ijtimoiy va ekologik natijaga yetarlicha e’tibor qaratmagan. Shu bilan birgalikda, ko‘p hollarda, davlatga qarashli sanoat korxonalarida rentabellik darajasi past bo‘lganligi sababli bir paytning o‘zida ekologik va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoni bo‘lmagan. Yuqorida qayd etib

o‘tilgan omillar ta’sirida mamlakatlarga xos bo‘lgan ekologik va ijtimoiy muammolar dunyo miqyosidagi global muammoga aylandi. O‘z navbatida, bunday muammolar moliyaviy vositalarning yangi turlari paydo bo‘lishiga xizmat qilib, investorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini mazmunan to‘ldirib bormoqda. Bulardan biri ESG mezonlariga asoslangan biznes yuritish strategiyasi bo‘lib, tadqiqotimiz aynan shu yo‘nalishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan izlanishlar natijasida global miqyosda barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lidagi xatti-harakatlar natijasida yangi moliyalashtirish vositalari yuzaga kelganligini, institutsional investorlar tomonidan kompaniyalarga investitsiya kiritishda ularning ESG, ya’ni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarga tayangan holda faoliyat yuritishga asosiy urg‘u berayotganligi, xalqaro moliya institutlari kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga oid bo‘lmagan, xususan, ESG yondashuvlarga taalluqli ma’lumotlarni ochiqlashini qo‘llab-quvvatlayotgani, bu yondashuvni ko‘pchilik hukumatlar davlat siyosati darajasiga olib chiqqanligining guvohi bo‘ldik. Yuqorida qayd etib o‘tilgan dalillarni quyidagi manbalar tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda moliya sohasining barcha bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlar ularga barqaror rivojlanish vositalarini kiritish orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda barqaror rivojlanish faqat konsepsiya sifatida qayd etilmasdan, biznes va investitsiya olamiga amaliy yo‘naltirilgan asosiy oqimga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida mas’uliyatli investitsiyalash (ESG) bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishni talab etadi [1].

Kompaniyalarda ESG yondashuvlarni qo‘llash tashqi omillar ta’sirida yuz bermoqda, shu bilan birga, bu sohada davlat siyosati va xorijiy investorlar qiziqishining ortib borishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda [2].

Mas’uliyatli investitsiyalar yoki ESG investitsiyalari investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarga tayanadi. Axborotlashgan jamiyatga o‘tish va insonlarning turmush tarzini yaxshilash bosqichida investorlar investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashda iqtisodiy samaradorlikka asosiy omil sifatida qaramasdan, shu bilan birgalikda axloqiy qadriyatlar va shaxsning ma’naviy rivojlanishi kabi mezonlarni ustuvor yo‘nalish sifatida bilmoqda. Iqtisodiy agentlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda nafaqat kompaniya moliyaviy ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishga, shuningdek, kompaniya moliyaviy ko‘rsatkichlariga taalluqli bo‘lmagan ma’lumotlar, xususan, ushbu kompaniyalarning atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas’uliyat borasidagi faoliyati tamoyillariga tayanib ish tutmoqda [3].

Institutsional innovatsiyaning bir turi sifatida “yashil” moliyalashtirish siyosatini qo‘llash atrof-muhitni ko‘proq ifloslantiradigan kompaniyalar uchun moliyaviy cheklovlarning kuchayishga olib kelmoqda. Bu esa, kompaniyalarning atrof-muhitni ifloslantirish borasidagi harakatlarini ijobiy tarafga o‘zgartirishi mumkin. Moliyaviy institutlar va korxonalarni “yashil” moliyalashtirish siyosati orqali ko‘proq ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga undash resurslarni taqsimlash va “yashil” rivojlanish samaradorligini oshirishning samarali usuli bo‘lishi mumkin [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish konsepsiyasida ko‘zda tutilgan “yashil” iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish bilan bog‘liq nazariy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy izlanish jarayonida iqtisodiy hodisalarni o‘zaro bog‘liq holda dinamik ravishda o‘rganish imkonini ochib beruvchi dialektika usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida izlanish obyektiga nisbatan tizimli yondashuv sifatida grafik usullar, guruhlash va taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi paytlarda rivojlangan mamlakatlarda institutsional investorlar kompaniyalarga investitsiya kiritishda ularning an’anaviy moliyaviy hisobotlari va moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolmayapti. Ko‘pchilik investorlar kompaniya faoliyati to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lishga qiziqmoqda. Bu qiziqish kompaniyaning atrof-muhitga ta’siri, ishchi-xodimlarga yaratilgan shart-sharoitlar va kompaniya biznes etikasiga oid ma’lumotlarning ochiqlanishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Bu borada BMT sobiq Bosh kotibi Kofi Annan jahondagi yirik kompaniyalar boshqaruvchilariga iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalar strategiyasiga ESG tamoyillarini joriy qilish yuzasidan tashabbus bilan chiqqan [5]. Mazkur taklifga javoban 2004-yilda 20 ta yirik moliya muassasalari tomonidan “Moliyaviy sektor uchun tayyorlangan tavsiyalar” hisobotida ESG termini va tamoyillari qayd etilgan hamda ijtimoiy mas’uliyatli investorlar uchun ko‘rsatma sifatida tayyorlangan. ESG tamoyillari yangi moliyaviy vositalar va mezonlarning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi uchun qo‘shimcha zamin yaratdi. Shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishi, global isish, boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi o‘sib borayotgan iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashish vositasi sifatida paydo bo‘ldi.

“ESG” qisqartma atamasi inglizcha “Environmental, Social and Governance” so‘zlardan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv” ma’nolarini anglatadi. Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, ESG – biznesni yuritishda kompaniyaning tabiatga, ishchi-xodimlarga va jamiyatga hurmat ko‘rsatishini o‘zida mujassamlashtirgan strategiyani anglatadi. Keng ma’noda esa, ESG – bu tijorat faoliyatining barqaror rivojlanishi bo‘lib, u atrof-muhitga mas’uliyat bilan yondoshish, yuqori darajadagi ijtimoiy mas’uliyat va yuqori sifatga ega bo‘lgan korporativ boshqaruv tamoyillarini qo‘llashga asoslanadi. “ESG” tamoyillariga asoslangan investitsiyalar ko‘pincha barqaror investitsiyalar deb ham ataladi. Investitsiyalashning bunday shaklida kompaniyaning moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan (ESG) ma’lumotlari tahliliga asoslangan holda qarorlar qabul qilinadi.

O‘z navbatida “ESG” tarkibi ekologik (E), ijtimoiy (S) va boshqaruv (G) omillari yig‘indisidan iborat bo‘lib, investorlar tomonidan kompaniyaga investitsiya kiritish yuzasidan qaror qabul qilishda moliyaviy hisobotlar hamda yuqorida qayd etilgan uchta omil va ularning tarkibiga kiruvchi kichik omillar tahliliga asoslanadi. Mazkur “ESG” omillar tarkibi quyida keltirilgan (1-rasm).

Ekologik (E) omillar	Tabiiy resurslarning kamayishi; Ta’minot zanjirining ekologiyaga ta’siri; Chiqindilar va zararli gazlarni boshqarish; Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish; Ta’minot zanjiriga ijtimoiy ta’sir; O‘rmonlarning qisqarishi va yo‘qolishi
Ijtimoiy (S) omillar	Insonning haq-huquqlari; Inson kapitali qiymati; Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish jamiyatlari; Mahsulotning sifati; Ish joyidagi shart-sharoitlar va xavfsizlik; Gender tarkibi
Boshqaruv (G) omillari	Sog‘lom raqobat muhiti; Soliq tizimining shaffofligi; Risklarni boshqarish; Korrupsiyaga qarshi kurashish; Biznes etikasi; Korporativ boshqaruv.

1-rasm: ESG omillarning tasniflanishi[1]

Rasmda keltirilgan “ESG” omillarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ekologik (E) omillar toifasiga tabiiy resurslarning kamayishi, ta’minot zanjirlarining ekologiyaga ta’siri, chiqindilar va zararli gazlarni boshqarish, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish hamda o‘rmonlarning qisqarishi va yo‘qolib ketishining oldini olish kabi yo‘nalishlar kiritilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ijtimoiy (S) omillar guruhiga esa, insonlarning haq va huquqlari, inson kapitalining qiymati, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish jamiyatlari, mahsulot sifati, ishchi va xodimlar uchun ish joyidagi shart-sharoitlar va xavfsizlik masalalari, gender tarkibi kabi omillar kiritilgan. Boshqaruv (G) omillari tarkibida sog‘lom raqobat muhiti, soliq tizimining shaffofligi, risklarni boshqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish, biznes etikasi va korporativ boshqaruv omillari joy olgan.

“ESG” omillar qo‘llanilishini sanoat korxonalari misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ekologik (E) omillar tahlil qilinganda kompaniyaning issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarishi natijasida atrof-muhitga ta’siri, tabiiy resurslarning ishlatilishi natijasida suv manbalarining ifloslanishi, flora va faunaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, zaharli va radiatsiyaga ega chiqindilarning chiqarilishi, mahsulotni qadoqlash uchun zararli ximiyaviy vositalardan foydalanish hisobiga atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish jarayonida “yashil” texnologiyalarni qo‘llash, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot yaratish kabi ko‘rsatkichlarning son, miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga tayaniladi (2-rasm).

1 The Sustainable Investment Forum (ussif.org) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm: Kompaniyaning ESG omillarga amal qilishini baholash[2]

Kompaniyadagi ijtimoiy (S) omillarga baho berilganda esa, ishchi va xodimlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning sog'ligini saqlash, xodimning lavozim bo'yicha o'sish imkoniyatlari, ish joyidagi shart-sharoitlar bilan bog'liq ishchi va xodimlarga bo'lgan munosabatga, mahsulot sifati, axborot xavfsizligi, ishonchlilik, mas'uliyatli investitsiyalar kiritish bilan bog'liq mahsulot ishlab chiqarishdagi mas'uliyatga, shuningdek, ishchi-xodimlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash, ularga moliyaviy yordam ko'rsatish dasturlarining mavjudligi, ishchi va xodimlar sog'ligini qo'shimcha sug'urtalash hamda ishda ovqatlanish imkoniyatlarini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy imtiyozlarning joriy qilinganligiga e'tibor qaratiladi.

Kompaniyada "ESG" omillar tarkibidan o'rin olgan boshqaruv (G) omillari qo'llanilishi o'rganilganda ijro organlarining faoliyati, boshqaruv kengashi samaradorligi, mustaqil auditning yo'lga qo'yilganligi, kompaniyaning qiziquvchi tomonlar uchun ochiqligi bilan bog'liq kompaniyani boshqarish jarayonlariga, shuningdek, kompaniyaning ishbilarmonlik obro'si, korporativ etikaning qo'llanilishi, soliqlarni to'lash jarayonidagi shaffoflik, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, bozorda sog'lom raqobat yuritish bilan bog'liq kompaniyaning xatti-harakati yo'nalishlariga baho beriladi.

Biror bir kompaniyaning "ESG" omillarga amal qilishiga baho berilganda kompaniya tomonidan har uchta, ya'ni E, S va G mezonlarga amal qilgani, ularning bajarilishida tenglik (balans) ta'minlanganligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Endi e'tiborimizni ESG omillar bilan bog'liq risklar tahliliga qaratamiz. Kompaniyalar faoliyatida ESG omillar bilan bog'liq risklar – kompaniyaning atrof-muhitga, ijtimoiy sohaga, boshqaruv jarayoniga ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. ESG risklar kompaniyaning aktivlari va moliyaviy holatiga, shuningdek, foydasi va obro'siga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kompaniya faoliyatiga ESG omillar bilan bog'liq risklarning ta'sir ko'rsatish doirasi quyidagi rasmda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Mazkur xavf-xatarlar ESG tamoyillarini qo'llashni istamayotgan kompaniyalarda ko'proq kuzatilishi mumkin. Biroq kompaniyalar faoliyatida ESG – risklarining ortib borayotgan roli ularning qo'shimcha yo'nalishlarini aniqlash, baholash va ularni an'anaviy risklarga o'tkazishni talab qiladi.

Iqlim o'zgarishlari natijasida ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilmani yo'qotish ehtimoli hozir ham, kelgusi o'n yilda ham ro'y berishi mumkin bo'lgan eng muhim risklardan biri sifatida qaralmoqda. Masalan, dunyo bo'yicha 2019-yilda ekstremal ob-havo 100 mlrd. AQSH dollari miqdorida zarar yetkazdi. 2022-yilning birinchi yarmida esa, bu ko'rsatkich 65 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2050-yilga kelib bunday talofatlardan ko'riladigan ziyon 8 trln. AQSH dollarga yetishi mumkin. Bu esa, jahon YAIMning 3%ga teng bo'lgan yo'qotishlarga olib keladi [6].

2012-yilda BMT tashabbusi bilan o'tkazilgan "Rio+20" konferensiyasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilingandan so'ng, investitsiyalashning yangi, ya'ni barqaror yoki mas'uliyatli investitsiyalash modeli paydo bo'ldi. Mas'uliyatli investitsiyalarni kiritishdan maqsad investor tomonidan faqat foyda olishni ko'zlash emas, shu bilan birgalikda kompaniyada ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga erishish, tabiiy atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va axloqiy me'yorlarga amal qilish hisoblanadi.

2 The Sustainable Investment Forum (ussif.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval: Kompaniya faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ESG omillar bilan bog‘liq risklar[3]

ESG omillar	Risklar
Ekologik (E)	
Issiqxona gazlarining chiqishi	zaharli gazlar chiqarganlik uchun soliqlar bo‘yicha to‘lovlar ortishi riski; zaharli gazlarni me’yoridan ortiq chiqarganlik uchun mahsulotni ishlab chiqarish va faoliyatni to‘xtatib qo‘yish riski.
Iqlim o‘zgarishi	Tabiiy ofatlar (yong‘in, suv toshqini va h.k.) natijasida zarar ko‘rish bilan bog‘liq risklar.
Atrof-muhitning ifloslanishi (chiqindilar)	Jarimalar, faoliyatni to‘xtatib qo‘yish yoki ta’qiqlash. Kompaniya obro‘sining tushib ketishi. Avariya natijasida atrof-muhitning ifloslanishi.
Tabiiy resurslarning ishlatilishi	Qayta tiklanmaydigan qazilma boyliklarining kamayib ketishi. Qayta tiklanadigan resurslarning yo‘qolishi (yerlarning sho‘rlanishi, o‘rmonlarning kesilishi). Bioxilma-xillikning yo‘qolishi.
Ijtimoiy (S)	
Xodimlar bilan munosabatlar	Malakali xodimlarning ishdan ketib qolishi. Xodimlarga motivatsiyaning yo‘qligi. Sog‘liqqa zarar yetkazish riski.
Hamkorlar bilan munosabatlar	Mahsulotni ishlab chiqarish muddatlarining uzayishi yoki ishlab chiqarishning to‘xtab qolish riski.
Iste’molchilar bilan munosabatlar	Tovar va xizmatlar sifatining tushib ketishi riski. Kompaniya obro‘sining pasayishi riski.
Korporativ boshqaruv (G)	
Strategiya	Biznesning investitsiya jozibadorligi va aksiyalar qiymatining pasayishi riski.
Boshqaruv organlari tarkibi va tuzilishi	Boshqaruvchilarning yetarlicha malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligi riski.
Kompaniya xatti-harakati yo‘nalishi	Kompaniya ishbilarmonlik obro‘sini yo‘qotish riski.
Shaffoflik va risklarni boshqarish	Ma’lumotlarni to‘liq oshkor qilmaslik, o‘z majburiyatlarini bajara olmaslik riski.

Yirik investorlar tomonidan investitsiya kiritishda nafaqat ko‘zda tutilgan ma’lum bir daromadni olish, shuningdek, investitsiya kiritilayotgan kompaniyaning ijtimoiy, ekologik va axloqiy jihatdan bir qator mezonlarga muvofiqligi hamda korporativ boshqaruv borasida muayyan qoidalarga mos kelishi talabi qo‘yila boshlandi. Mazkur jarayon 1960-yillarda Yevropa va Shimoliy Amerikada rivojlandi.

Investorlarni investitsiya kiritishga oid o‘z yondashuvlarini o‘zgartirishga majbur qilgan sabablardan biri aynan ESG tamoyillariga amal qilgan holda investitsiyalashga ongli ravishda o‘tishi hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar biznesning atrof-muhit va jamiyatga ta’siri katta ekanligini anglagan holda yuzaga keldi va bu ta’sir mas’uliyat asosida bo‘lishi qonuniyatga aylandi. Biznes vakillari bunday ta’sirning oqibatlarini yaxshi tushungan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ijtimoiy, ekologik va boshqaruv omillari bo‘yicha mas’uliyat hisobotini yuritishga o‘tishi zarur bo‘ladi.

Shuni qayd etish kerakki, dunyoning yetakchi mamlakatlari biznes vakillari tomonidan ijtimoiy mas’uliyatli boshqaruvni amaliyotga joriy etish va ijtimoiy mas’uliyatli xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘plamini ishlab chiqmoqda va milliy tartibga solish amaliyotiga kiritmoqda.

Ayni paytda mas’uliyatli investitsiyalash tushunchasi to‘g‘risida yagona yondashuv va uning tarkibiy tuzilishini izohlab beruvchi yakuniy tavsif mavjud emasligini qayd etib o‘tish joizdir. Investorlar ESG omillardan qaysi birini o‘zlari uchun eng muhim, deb hisoblasa, aynan shu omil yetakchilik qiladigan mas’uliyatli investitsiyalash turiga investitsiya kiritmoqda. Bunday mas’uliyatli investitsiyalash turlari quyidagi rasmda keltirilgan (2-jadval).

Jahon banki hisobotlarida tematik obligatsiyalar GSS, GSS+, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillariga asoslangan (ESG) yoki barqaror obligatsiyalar sifatida ham e’tirof etiladi. Barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida tematik obligatsiyalar tarkibiga “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan obligatsiyalar kiradi. O‘z navbatida, “ko‘k” obligatsiyalarni “yashil” obligatsiyalar toifasiga, gender obligatsiyalarini esa, ijtimoiy obligatsiyalar toifasiga kiritish mumkin.

3 https://cgi-russia.ru/ ESG 2022: aktualnыe riski i novыe vozmojnosti dlya ustoychivogo razvitiya kompaniy. 10.11.2022. –s. 5.

2-jadval: Mas'uliyatli investitsiyalash turlari[4]

Investitsiya turlari	Investitsiya kiritish sabablari	Investorlar turi	Investitsiyalash tavsifi
Ijtimoiy o'zgarishlarga olib keluvchi investitsiyalar (Impact investing)	Kompaniyaga investitsiya kiritish orqali daromad olish hamda ijtimoiy soha va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish	Xususiy investorlar, boshqaruv kompaniyalari	O'z jamg'armalari yoki pensiya jamg'armalarining bir qismini investitsiya tariqasida kiritayotgan jismoniy shaxslar
Barqaror investitsiyalar (Sustainable investing)	Investitsiyalash maqsadida barqaror rivojlanish borasidagi yetakchi kompaniyalarni qidirish va tanlab olish	Banklar, Xalqaro moliya institutlari, xususiy jmag'armalar	Past va o'rta daromadga ega aholi toifasiga moliyaviy xizmatlardan teng huquqli foydalanishga imkon berish
Ethical investing	Investitsiya kiritish maqsadida biznes etika mezonlari to'g'ri keladigan kompaniyalar tanlab olinadi	Jamg'armalar, boshqaruv kompaniyalari, investitsiya banklari	ESG mezonlari va qadriyatlariga mos keladigan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash
Yashil investitsiyalar (Green investing)	Ishlab chiqaradigan mahsuloti (ish va xizmatlari) atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan kompaniyalarga yoki "yashil" texnologiyalar (energiya va resurs tejamkor)ga investitsiya kiritish	Xususiy jamg'armalar, boshqaruv kompaniyalari, investitsiya banklari	Biznes etikasi bilan bog'liq maqsadlarda investitsiya kiritish
Aniq maqsadga qaratilgan investitsiyalar (Mission-related investing)	Investorning aniq maqsadiga mos keladigan investitsiyalar	Xususiy jamg'armalar, Sug'urta kompaniyalari	Kompaniyaning ESG mezonlari bo'yicha o'rnatgan siyosatiga mos keluvchi loyihalarga investitsiya kiritish
Qadriyatlarga asoslangan investitsiyalar (Values-based investing)	Investor tomonidan qabul qilingan qadriyatlarga asoslangan investitsiyalar	Pensiya jamg'armalari, xususiy jamg'armalar	Kompaniyaning ESG mezonlari bo'yicha o'rnatgan siyosatiga mos keluvchi loyihalarga investitsiya kiritish
Investitsiya jamiyati (Community investing)	Jamiyatni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi investitsiyalar	Mahalliy jamiyatni rivojlantiruvchi moliya institutlari	Mahalliy jamiyatni rivojlantirish maqsadida mahalliy kompaniyalar va fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash

Tematik obligatsiyalar – bu kapital bozorlarida chiqariladigan va belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Bunday obligatsiyalar aniq yo'nalishdagi mavzular bilan bog'liq tadbirlarni, xususan, iqlim o'zgarishlari, ta'lim, uy-joy, okean va dengiz muhitini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bilan bog'liq loyihalarni yoki faoliyatni moliyalashtirish maqsadlarida chiqariladi.



3-rasm: 2012-2022-yillarda tematik obligatsiyalarning global bozori (mlrd. AQSH dollarida)[5]

4 https://unpri.org/ESG/definitions_for_responsible_investment_approaches_final_256878.pdf. Ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

5 http://www.worldbank.org/sustainablefinanceadvisory

E’tiborimizni 2012-2022-yillar bo‘yicha tematik obligatsiyalar global bozori ma’lumotlariga qaratadigan bo‘lsak (3-rasm), 2012-2022-yillarda “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan toifaga oid chiqarilgan obligatsiyalar umumiy hajmi 3,6 trln. AQSH dollaridan oshgan. Tematik obligatsiyalar 2012-2015-yillarda umumiy qiymati 132 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorda, 2016-2019-yillarda umumiy qiymati 894 mlrd. AQSH dollari miqdorida, 2020-2022-yillarda umumiy qiymati 2,6 trln. AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan miqdorda chiqarilgan. Qiziqarli jihati shundaki, 2012-2019-yillar oralig‘ida chiqarilgan tematik obligatsiyalarning umumiy qiymati 1,0 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, oxirgi uch yil, ya’ni 2020–2022-yillarda umumiy qiymati 2,6 trln. AQSH dollariga teng bo‘lgan tematik obligatsiyalar muomalaga chiqarilgan. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tematik obligatsiyalar chiqarilishi 2012-2019-yillarga qaraganda 2020–2022-yillarda 2,6 barobarga o‘sgan. Bu holat global miqyosda “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan loyihalar va faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro kapital bozorlarida investorlarning qiziqishlari ortayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Barqaror iqtisodiy o‘sish modeliga o‘tish bu borada global boshqaruv institutlariga ma’lum bir makro ko‘rsatkichlardan tarkib topgan yangi reyting tizimini joriy qilishni talab qiladi. Mazkur reyting asosida global boshqaruv institutlari ushbu yo‘nalishda o‘zlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish asosida barqaror rivojlanish yo‘lida mamlakatlarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini baholash imkoni yuzaga keladi. Ayrim davlatlar tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar, ya’ni global va xalqaro hamkorlik borasida shartnoma shartlarini bajarmaslik, buzish yoki ularga mensimaslik holatlari kuzatilganda, bunday davlatlarga ta’sir choralarini qo‘llash mumkin bo‘ladi.
2. Mamlakatimizda davlat ishtirokidagi korxonalarning ekologik javobgarligini yanada oshirish zarur. Xususan, davlat ishtirokidagi korxonalarga ESG tamoyillarga asoslangan investitsiyalar kiritilishini rag‘batlantirish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan davlat ulushi bor korxonalar uchun xalqaro standartlarga muvofiq nomoliyaviy hisobotlarni majburiy topshirish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim.
3. Xalqaro miqyosdagi tartibga solish va bozor qoidalarining o‘zgarishi ESG konsepsiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Mazkur konsepsiya o‘z navbatida biznesni yuritish va investitsiya kiritishda yangicha yondashuvni yuzaga keltirdi. Xususan, xalqaro tajribada institutsional investorlar tomonidan kompaniyalarning xo‘jalik va investitsiya faoliyatiga atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy va boshqaruv omillari hamda ular bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlarning singdirilishi qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan tajribadan kelib chiqib, mamlakatimiz korporativ tuzilmalarida ESG konsepsiyasini joriy qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
4. Dunyo miqyosida 2012–2022-yillarda “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan toifaga oid chiqarilgan obligatsiyalar umumiy hajmi 3,6 trln. AQSH dollaridan oshgan. Bunday tematik obligatsiyalar chiqarilishi 2012–2019-yillarga qaraganda 2020–2022-yillarda 2,6 barobarga o‘sgan. Bu holat global miqyosda “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan loyihalar va faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro kapital bozorlarida investorlarning qiziqishlari ortayotganligini dalolatlaydi. Mazkur tendensiya mamlakatimiz hukumati va korporativ tuzilmalariga barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida “yashil”, ijtimoiy, barqaror va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan obligatsiyalarni xalqaro kapital bozorlarida joylashtirish orqali katta hajmdagi mablag‘larni jalb qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иваницкий В. П., Петренко Л. Д. Развитие ответственных инвестиций в соответствии с концепцией устойчивых финансов. Journal of New Economy. 2020, Vol. 21, No. 4, –P. 63.
2. Галазова С. С. Влияние ESG-факторов на устойчивое развитие компаний и финансовую результативность корпоративного сектора // Вестник РГЭУ РИНХ. –2018. № 4 (64). –С. 81–86.
3. Иваницкий В. П., Габышев Д. Н., Зубкова Л. Д. Управление индивидуальным подоходным обложением: новые возможности// Управленец. 2019. –Т. 10, № 5. –С. 41–51. DOI: 10.29141/22185003-2019-10-5-5.
4. Shuitu Qian, Wenzhe Yu, Green finance and environmental, social, and governance performance, International Review of Economics & Finance, Volume 89, Part A, 2024, Pages 1185-1202, ISSN 1059-0560, https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1059056023003386
5. https://documents1.worldbank.org/curated/en/280911488968799581/pdf/ 113237-WP-WhoCaresWins-2004.pdf.
6. https://cgi-russia.ru/ ESG 2022: актуальные риски и новые возможности для устойчивого развития компаний. 10.11.2022. -74 с.
7. http://www.worldbank.org/sustainablefinanceadvisory. SOVEREIGN GREEN, SOCIAL AND SUSTAINABILITY BONDS: Unlocking the Potential for Emerging Markets and Developing Economies.
8. https://unpri.org/ESG/definitions_for_responsible_investment_approaches_final_256878.pdf.

“ENESSES” MCHJ DA MARKETING MUHITINI TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Musyeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada marketing konsepsiyasi, ulgurji savdo faoliyati, mijozlar bilan aloqalarini yanada mustahkamlash, raqamli marketing Ijmoiy tarmoqlar orqali reklamalar, marketing rejasini ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Koxona, marketing muhiti, konsepsiya, ulgurji savdo, bozor, talab, reklama, brend.

Abstract: This article discusses the concepts of marketing, wholesale trading activities, further strengthening customer relationships, digital marketing, advertising through social networks, and developing a marketing plan.

Key words: Space, marketing environment, concept, wholesale trade, market, demand, advertising, brand.

Аннотация: В данной статье рассматриваются концепция маркетинга, оптовой торговой деятельности, дальнейшего укрепления отношений с клиентами, цифрового маркетинга, рекламы через социальные сети, разработки маркетингового плана.

Ключевые слова: Предприятие, маркетинговая среда, концепция, оптовая торговля, рынок, спрос, реклама, бренд.

KIRISH

Mustaqillik yillarida savdo sohasi, ayniqsa, ulgurji savdo sohasida tubdan ro‘y bergan ijobiy mulkiy va tashkiliy o‘zgarishlar ro‘y berganligiga qaramasdan bu sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muammolar ko‘p. Buning asosiy sababi hozirgi sharoitda ulgurji savdo sohasi subyektlari faoliyat yuritishining bozor mexanizmini, ular faoliyatida xizmat ko‘rsatishning zamonaviy iqtisodiy dastaklaridan foydalanish, marketing va bozor imkoniyatlari, xizmat ko‘rsatish ko‘lami, kommunikatsion aloqalar, xo‘jalik yurituvchi boshqa tarmoqlar bilan aloqalari, uni boshqarish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabilardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki, korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo‘naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing faoliyatini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov. Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo‘jayev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjayeva, SH. A. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

Marketing muhiti – kompaniyadan tashqarida bozorda faoliyat yurituvchi va kompaniyaning maqsadli mijozlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlariga ta’sir qiluvchi bozor ishtirokchilari, tashqi kuchlar va jarayonlar to‘plami. Har qanday kompaniya vakuumda emas, balki ma’lum bir muhitda ishlaydi va muvaffaqiyatga erishadi.

Marketing muhiti deganda korxona marketing xizmati xodimlarining mijozlar bilan yaxshi hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va bu munosabatlarning saqlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi subyektlar va kuchlarning majmuyi tushuniladi. Marketing muhiti umuman bozor kon’yunkturasiga va xususan, korxona faoliyati, shu jumladan, bozorning boshqa subyektlariga bevosita ta’sir etuvchi kuchlar va omillar yig‘indisidan iborat.

Korxonaning ichki muhitni tahlil qilishning asosiy maqsadi korxona potensialini belgilovchi va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishdir. Korxona faoliyati o‘rganishda quyidagi ichki muhit elementlarini o‘rganildi.

Boshqaruvni tashkil etish tuzilmasi, mehnatning taqsimoti, mijozlar faoliyatini o‘rganish va boshqarish, CRM tizimlari bilan ishlash, funksional va iyerarxik tarzda, markazlashtirish, asosiy qarorlarni qabul qilish tartibi va usullari, qarorlarni bajarilishini nazorat qilish, boshqaruv axborotlar tizimi, kommunikasion jarayonlar, boshqarish turi, oliy menejment kasbiy mohiyati va darajasi, strategik rejalashtirish tizimi.

Ishlab chiqarish bo‘limlari (soni, mutaxassisi, quvvati), ijaraga olingan yoki o‘zining ishlab chiqarish bazasi hozirgi holatiga qarab taklif etiladigan tovarlar hajmi, qo‘llaniladigan texnologiya turi, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etilishi, ombor quvvati, tovar sifatini nazorat qilish, tahdidsizlikni ta’minlanishi, ishlab chiqarish (qadoqlash, o‘rash) kuchi, xizmat ko‘rsatishdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qotishlar. Ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalanish darajasini baholash ham muhim o‘rin tutadi.

Marketingda qo‘llaniladigan strategiyalar, bozor (katta-kichikligi, o‘rni, raqobatchilar), xaridorlari, korxona imiji, korxona tovarlari, narxi, sotilishi va kommunikasiya siyosati, axborot bilan ta’minlanish holati va tashkil etilishi, o‘zaro marketing munosabatlari, ichki marketing, reklama va uning tuzilmalari, mahsulot va tovarlarni siljitish tadbirlari va boshqalar.

Moliya-iqtisod bo‘limi korxona aktivlari, o‘zining va qarzga olingan kapitali, kredit imkoniyatlari, korxona buzgalteriyasi, kapital aylanish tezligi va likvidligi, mablag‘ni rejalashtirish, yalpi daromad, foyda va undan foydalanish. Korxona faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning rentabelligidir. U olinayotgan daromad ko‘rsatkichining (sotuv hajmi, yalpi daromad, ishlab chiqarishga aylanma mablag‘lar, asosiy fondlarning tannarxi va hokazo) nisbati bo‘yicha hisoblanadi.

Xodimlar bo‘limi tarkibi va malakasi, kasbiy va malakaviy darajasi, kadrlarni shakllantirish siyosati (rejalashtirish, tanlash va vaqtincha yollash, ishdan bo‘shatish, qo‘nimsizligi va hokazo), personal rivojlanishi (kasbiy yo‘naltirish va qayta tayyorlash, attestasiya va baholash, yangi ishchilarni sinovdan o‘tkazish, xizmat jarayonida o‘sishini ta’minlash), mehnatni tashkil qilish va rag‘batlantirish, xizmatchilar orasidagi munosabatlarni qo‘llash va hokazo faoliyat yuritish.

Korxona ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘illanayotgan korxona bo‘lib, ulgurji savdo bozorining kon’yunkturasi holati ham ko‘rib chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

1-jadval: Mamlakatimizda ulgurji savdoning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Ulgurji savdo tovar aylanmasi – jami, mlrd. so‘m	22001,6	26749,1	30413,0	38301,6	42185,9	63528,5	93322,8	120451,1	172790,1
Tovar zaxiralari (yil oxiriga) jami, mlrd. so‘m	5 175,3	6 659,3	7 780,1	9 489,9	10763,3	13166,7	14316,5	22367,4	29 572,5
Tovar aylanmasi kunlarida	85,0	90,0	92,0	89,0	92,0	75,0	55,0	67,0	62,0
Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining o‘sish sur’ati, o‘tgan yillarga nisbatan foizda	109,1	111,0	107,1	116,5	94,0	126,8	128,6	113,6	128,5

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yildan yilga ulgurji savdoning tovar aylanmasi, tovar zaxiralari va tovarlar aylanmasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona doimo marketingga jiddiy e’tibor qaratadi. Zero, ulgurji savdo korxonasi bo‘lgani uchun doimo mijozlar bilan munosabatda bo‘ladi. Bu esa marketingga bo‘lgan munosabatlarning doimo rivojlanishini taqazo etadi. Korxona faoliyatida marketing faoliyatining tashkil etilish holatiga qarasak, korxonada marketing xizmatini tashkil qilishning 4 ta asosiy tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha marketingning bozorga va tovarga yo‘naltirilgan tashkiliy tuzilmalaridan foydalanilmoqda. Va uning tuzilishi quyidagicha hisoblanadi.

Marketing xizmatining tovar ishlab chiqarishga asoslangan tashkiliy tuzilmasi korxonalarga har bir tovar bo‘yicha bozor talablariga yaxshiroq moslashishga va ishlab chiqarish texnologiyalari har xil, hayotiy davri qisqa, innovatsion talablar yuqori bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga imkon beradi (1-chizma).

1-chizma: Korxonada marketing xizmatining tovar ishlab chiqarishga asoslangan tashkiliy tuzilmasi

Korxona faoliyatida marketing xizmatining bozorga yo‘naltirilgan tashkiliy tuzilmasi marketingni boshqarish tuzilmasining bir turi bo‘lib, unda alohida bozorlar menejerlari aniq bozorlarda marketing faoliyati bo‘yicha strategiya va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun javobgardirlar. Marketing xizmatining bozorga yo‘naltirilgan tashkiliy tuzilmasi quyidagi chizma orqali ko‘rib chiqilgan (2-chizma).



2-chizma: Marketing xizmatining bozorga yo‘naltirilgan tashkiliy tuzilmasi

Hozirgi vaqtda marketing faoliyatining etnik jihatlari ham ommaviy axborot vositalari, ham kompaniyalarning o‘zlari tomonidan doimiy ravishda muhokama qilinadi, masalan, ichki korporativ siyosatni ishlab chiqishda, mijozlarga xizmat ko‘rsatish siyosati, ijtimoiy tarmoqlarda brendni ilgari surish va boshqalar. Ammo ko‘pincha bu munozaralar faqat muhokamalar bo‘lib qoladi va hatto barcha kompaniyalar qonunlarga rioya qiladi va o‘z majburiyatlarini bajaradi.

Korxonda marketologlar bajaradigan funksiyalarida uchta asosiy jihatni ajratilganligi aniqlandi:

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri kasbiy faoliyat etikasi – marketing xavfli, zararli mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta sotishdan voz kechish, yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, kontragentlarga nisbatan halollikdir.
- Reklama kampaniyalarida marketing etikasi – halollik, to‘g‘ri ma’lumotni tarqatish, iste’molchilar va raqobatchilarga hurmatli munosabat (bosma, intruziv reklama formatlari, noaniq xabarlar, qora PR, e’tiborni jalb qilish uchun odamlarning har qanday guruhini haqorat qilishdan bosh tortish).
- Marketing tadqiqotlari etikasi – maxfiylikni hurmat qilish, shaxsiy ma’lumotlarni hurmat qilish, respondentlarga va ma’lumot to‘playdigan xodimlarga nisbatan hurmat.

Marketing tadqiqotlarida etikaning ahamiyatini belgilovchi omillar:

- axloqiy qarorlarning aksariyati uzoq muddatli oqibatlarga olib keladi;
- axloqiy qarorlar kamdan kam hollarda yomon yoki yaxshi bo‘ladi, qoida tariqasida, u yoki bu darajada maqbul alternativalar mavjud;
- muqobillar ularni baholovchi shaxsning nuqtayi nazariga qarab ham ijobiy, ham salbiy natijalarga ega;
- natijalarning tabiati - ular salbiy yoki ijobiy bo‘ladimi yoki yo‘qmi, har doim noaniq va oldindan aytib bo‘lmaydigan holatdir.
- axloqiy qarorlarning aksariyati kimningdir shaxsiy ishtirokini o‘z ichiga oladi.

Korxona faoliyatini o‘rganishda marketing konsepsiyalarining ish holati va uning mavjudligi o‘rganildi. Ayniqsa, korxonaning sotish marketing konsepsiyasidan maqsadli foydalanishi diqqat e’tiborimni tortdi. Ya’ni korxona bugungi kunda ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘illanar ekan, korxona mijozlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga, uning imkoniyatlarini to‘la qondirishga, marketing mutaxassislarining ish faoliyatiga munosabatlarini jiddiylashtirishga e’tibor qaratilib kelinmoqda. Qolaversa, buyurtmalarni qabul qilishda raqamli marketing konsepsiyalaridan ham foydalanilmoqda. Ijmoiy tarmoqlar orqali reklamalar, chegirmalar e’lon qilinib borilmoqda.

Korxona bugungi kunda marketing faoliyatiga e’tiborni kuchaytirish natijasida marketing rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagicha shakllantirilgan.

2-jadval: “Enesses” MChJ marketing rejasi

Bo‘limlar	Mazmuni
Kirish	Reja bo‘limlarida qisqacha xulosalar
1. Bozor vaziyati va uning istiqbollari	Marketing muhiti, iste’molchilar, raqobatchilar va ularning tovarlari, sotish kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili.
2. Korxona imkoniyatlarining tahlili	Qulay omillar va xavf-xatarni baholash.
3. Moliyaviy va marketing maqsad va vazifalar	Sof foyda, sotilishlar hajmi, bozor ulushi, narxlar darajasi, reklama bilan qamrab olish va boshqa ko‘rsatkichlar.
4. Marketing strategiyasi bajarilishi	Muommolar, ularni yechishning yo‘llari va variantlari.
5. Harakatlar dasturi	Nima qilish kerak? Qachon? Kim shu uchun javob beradi? Natija qanday bo‘lishi kerak? Buning qiymati qancha bo‘ladi? degan savollarga javob topiladi.
6. Budjetlar	Natijalar va xarajatlarni taqqoslash
7. Nazorat va tartiblashtirish	Ta’sirchanlikning tahlili va rejadagi harakatlarni o‘zgartirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish.

Korxona faoliyatini o‘rganishda men asosan oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji savdo ma’lumotlari bilan ishlashga e’tiborimni qaratdim.

3-jadval: “Enesses” MChJning 2020-2022-yillardagi oziq-ovqat mahsulotlarini sotish haqidagi ma’lumot

№	Oziq-ovqat mahsulotlari	O‘lchov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Un mahsulotlari	ming so‘m	12387,4	14682,1	16497,3
2.	Makaron mahsulotlari	ming so‘m	4387,6	7624,3	10203,5
3.	Go‘sht va kolbasa mahsulotlari	ming so‘m	16348,2	17863,7	18164,8
4.	Qayta ishlangan va achitilgan sut mahsulotlari	ming so‘m	389,2	863,4	1005,4
5.	Muzqaymoq va yaxna ichimliklar	ming so‘m	6892,1	10204,1	10043,6
6.	Karamel va konfet mahsulotlari	ming so‘m	10657,3	11826,0	9183,2
7.	Boshqa mahsulotlar	ming so‘m	35683,2	29591,6	33633,9
	Jami	ming so‘m	86745,0	92655,2	98731,7

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Enesses” MChJ sining chakana tovar aylanmasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan un mahsulotlari 14682,1 ming so‘m (2022-yil), makaron mahsulotlari 7624,3 ming so‘m (2022-yil), go‘sht va kolbasa mahsulotlari 17863,7 ming so‘m (2022-yil), qayta ishlangan va achitilgan sut mahsulotlari 863,4 ming so‘m (2022-yil), karamel va konfet mahsulotlari 11826,0 ming so‘m (2022-yil) tashkil etmoqda.

Korxona savdo faoliyatidan tashqari asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri maishiy xizmat va servis xizmatlarni ko‘rsatish hisoblanadi. Korxona tomonidan bugungi kunda aholiga quyidagi xizmatlar ko‘rsatilmoqda:

- sartaroshlik, manikur xizmatlari;
- kiyim bichish va tikish xizmatlari;
- telefon, elektron tovarlarni ta’mirlash xizmatlari;
- PayNet xizmatlari;
- Transport xizmatlari va boshqalar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

4- jadval: “Enesses” MChJ ning 2020-2022-yillardagi aholiga maishiy pullik xizmatlar ko‘rsatish holati

№	Xizmat turlari	O‘lchov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Transport xizmatlari	ming so‘m	63491,3	66237,2	67436,1
2.	Telefon, elektron tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	ming so‘m	623,4	649,1	964,2
3.	PayNet xizmatlari	ming so‘m	6482,4	6528,4	6829,1
	Jami	ming so‘m	78509,3	81254,4	123869,3

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxona aholiga servis xizmat ko‘rsatishni ham tashkil etib kelmoqda. Xususan, 2022-yil oxiriga kelib, transport xizmatlari 66237,2 ming so‘m, telefon, elektron tovarlarni ta’mirlash xizmatlari 649,1 ming so‘m, PayNet xizmatlari 6528,4 ming so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan.

Korxonaning narx siyosati: oldi-sotdi shartnomasini tuzishda yetkazib beruvchilar va xaridorlar mahsulot qaysi narxda sotilishini belgilashlari shart. Tovarning narxi ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, reja-iqtisod bo‘lim tomonidan belgilanadi. Hisoblash har bir mahsulot uchun amalga oshiriladi. Narxni aniqlashda qat’iy qoida mavjud: narx tannarxdan past bo‘lmasligi kerak. Xarajatlardan tashqari, narx qonun bilan belgilangan soliqlarni ham o‘z ichiga oladi. Mahsulot birligini sotish narxini hisoblashda quyidagi xarajatlarga ajratiladi va quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

5-jadval: Mahsulot birligini sotish narxini hisoblashdagi xarajatlar

№	Xarajat moddalarining nomi	Hisoblash usuli
	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar	
1.	Xom ashyo	Chegirmali narxlarda
1.1	Xom ashyo	Xom ashyo – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy va qo‘shimcha resurslar hiosblanadi. Qurilish mahsuloti uchun pishirilgan loy, tuproq va cheperitsa asosiy xom ashyo vazifasini bajaradi.
1.2	Yordamchi materiallar	Bosh muhandis tomonidan tasdiqlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material iste’moli stavkalariga muvofiq
2.	Suv	Bosh muhandis tomonidan tasdiqlangan suv va issiqlik energiyasini iste’mol qilish normalariga muvofiq.
3.	Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi:	U mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish ishchilari va boshqa ishchilarning ish haqi, shuningdek, ishlamagan (kelmagan) vaqt uchun mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.
	Qo‘shimcha xarajatlar	
4.	Qo‘shimcha xarajatlar	Buxgalteriya hisobi ma’lum turdagi mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish obyektlari sharoitida amalga oshiriladi.
5.	Umumiy foydalanish xarajatlari	Buxgalteriya hisobi butun kompaniya uchun yuritiladi. Bo‘lish usuli har bir mahsulot turi, ish va xizmat uchun asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proportsional ravishda qo‘llaniladi.
6.	Yetkazib berish xarajatlari	Zarur bo‘lganda, shartnomaga muvofiq, sotish narxi ularni tashish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda hisoblanishi mumkin. Bunday holda, hisob-kitobdagi transport xarajatlari alohida maqola sifatida ajratiladi.

Xarajatlarni tahlil qilish xarajatlarni boshqarishning eng muhim vositasidir. Uning asosiy maqsadi ishlab chiqarish resurslaridan yanada oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish va foydaning o‘sishini ta’minlashdan iborat. Xarajat ko‘rsatkichlarini dinamikada tahlil qilish korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidagi o‘zgarishlarni baholash, kelajak uchun prognoz qilish imkonini beradi.

Xarajatlarni elementlar bo‘yicha guruhlash birlashtirilgan va majburiy bo‘lib, xarajatlarning shakllanishi, tuzilishi va dinamikasini ularning iqtisodiy mazmunini tavsiflovchi tizimlar orqali nazorat qilish imkonini beradi. Bu haqiqiy va o‘tmishdagi mehnatning nisbatini o‘rganish, tovar-moddiy zaxiralarni standartlashtirish va tahlil qilish, aylanma mablag‘lar aylanmasining xususiy ko‘rsatkichlarini hisoblash va sanoat va umumiy iqtisodiy darajaning boshqa hisob-kitoblarini o‘rganish uchun zarurdir. Ishlab chiqarish xarajatlarining elementar tarkibi va strukturasini tahlil qilish ishlab chiqarishning moddiy, mehnat va kapital zichligi darajasiga qarab zaxiralarni izlashning asosiy yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

6-jadval: 2021-2022-yillardagi korxonada savdo faoliyati xarajatlari va ularning dinamikasi

Xarajat elementlari	2021-yil		2022-yil	
	Hammasi, mln. so‘m	Savdo xarajatlaridagi o‘ziga xosligi, %	Hammasi, mln. so‘m	Savdo xarajatlaridagi o‘ziga xosligi, %
Moddiy xarajatlar:	35000	73,22	50700	77,29
xom ashyo	31000	64,85	45000	68,60
energiya resurslari	4000	8,37	5700	8,69
mehnat xarajatlari	10000	20,9	11500	17,5
ijtimoiy ehtiyojlar uchun badallar	3200	6,7	3300	5,0
Amortizatsiya	450	0,9	510	0,8
boshqa xarajatlar	1380	2,9	1800	2,7
Savdo xarajatlari, jami	47800	100	65600	100
Sotiladigan mahsulotlar	49600		68600	

Ko‘proq darajada, bu ko‘rsatkich foyda bilan aniq bog‘liqlikni ta’minlaydi: xarajatlarning o‘sishi har bir ishlab chiqarish rublidan foydaning pasayishiga olib keladi va aksincha. Uning kamchiliklari orasida ushbu ko‘rsatkichga subyektiv va obyektiv ko‘plab omillar ta’sir qilishi mumkin, ya’ni korxona jamoasining ish sifatiga bog‘liq emas.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish ham muhim marketing tadbirlaridan hisoblanadi. Sotish jarayonida ham mahsulot assortimenti kengayib boradi. Har bir korxona mahsulot sotishni tashkil etishda o‘zining sotuv kanallariga ega bo‘lishi talab etiladi. Sotuv kanallari sifatida ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha mahsulotlarni yetib borishida tovarga egalik qilish huquqini oluvchi vositachilar ishtirok etadi.

Bugungi kunda aksariyat korxonalar o‘zlarining mahsulotlarini sotish uchun o‘z korxonalari balansida bo‘lgan savdo korxonalarini faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda. Ko‘pincha, oxirgi iste’molchiga tovarlarni yetkazib berishda ulgurji savdo korxonalarining ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa tovarlarni boshqa begona shaxslarga o‘tib ketishini oldini oladi. Raqobatni nazorat qilish, xaridorlarga ta’sir qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

“Enesses” MChJ bugungi kunda bir qator savdo vositachilari bilan birga ishlamoqda. Savdo vositachilarining aksariyati Samarqand shahri, Samarqand tumani, Jomboy tumani, Oqdaryo tumani va Pastdarg‘om tumani kabi shahar va tumanlarda joylashgan. “Enesses” MChJning asosiy 6 ta savdo vositachilari orqali 2020-2022-yillarda sotilgan ulgurji savdo tovarlari haqidagi ma’lumotlar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval: “Enesses” MChJ asosiy savdo vositachilari va ular orqali tovar sotish haqida ma’lumot

№	Asosiy ko‘rsatkichlari	O‘lchov birligi	2021-y.	2022-y.	2023-y.
1	“Abdisait savdo” MChJ	ming so‘m	432,1	462,4	407,6
2	YATT “Djabborov Alisher Ashurovich”	ming so‘m	96,3	104,1	113,2
3	“Ozodbek universal Savdo” MChJ	ming so‘m	736,9	1104,2	1436,2
4	“Samarqand gavhar yulduzi” MChJ	ming so‘m	1462,3	1643,7	2432,3
5	“Risqiyabonu universal savdo” MChJ	ming so‘m	237,4	361,6	401,3
6	“Doston mashal servis” MChJ	ming so‘m	70,6	84,2	101,6
	Jami		3035,6	3760,2	4892,2

Jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qurilish g‘isht tovarlar savdo aylanmasi bo‘yicha “Samarqand Gavhar Yulduzi” MChJ va “Ozodbek universal Savdo” MChJlarni savdo hajmi yuqori bo‘lmoqda.

“Enesses” MChJ ning xodimlar faoliyati, mehnat resurslarining xususiyatlari natijalarini o‘rgandim. Ya’ni korxona tomonidan sotilayotgan tovarlar, korxonaning mehnat resurslari, iqtisodiy ko‘rstkichlari tahlil qilib chiqildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

8-jadval: “Enesses” MChJ mehnat resurslari dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2022-yilning 2021-yilga nisbati	
						+;-	foiz,%
1.	Xodimlarning o‘rtacha soni	kishi	48	56	65	+8	116,6
2.	Xodimlarning o‘rtacha bir oylik ish haqi	ming so‘m	4 966,0	4 771,0	5 309,0	-195	96,0
3.	Mehnat unumdorligi	ming so‘m	40585	50789	65888	+10204	125,1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Enesses” MChJ ishchi-xodimlarning umumiy soni 2022-yil oxiriga kelib 56 kishini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 8 kishiga oshgan. Mehnat unumdorligi 125,1 foizga yoki 1,25-marta ko‘paygan. 2022-yilda jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 40585 ming so‘mdan 50789 ming so‘mga oshgan. 2022-yilda xodimlarning o‘rtacha bir oylik ish haqi 4 966,0 ming so‘mdan 4 771,0 ming so‘mga kamaygan, ya’ni 96,0 foizga o‘sgan.

Korxonada marketing xizmati bo‘limida 5 ta marketolog va 5 ta sotuv bo‘limi xodimlari o‘z ish faoliyatini olib boradi. Ularning jami ishchi xodimlar sonidagi ulushi ham yaxshi. Zero, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda marketingning o‘rni beqiyos. Shu sababdan, mazkur korxonada ham marketing bo‘limi faoliyat olib boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonada savdo faoliyatini takomillashtirish va ularni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb bilamiz:

- aholiga arzon va sifatli mahsulotlar sotishning iqtisodiy va huquqiy foydalanish imkoniyatini yaratish;
- ishlab chiqarish, savdo va boshqa xizmatlar sohalarida integratsiyalanish, kooperatsiyalanish jarayonini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- ishlab chiqarish va savdo sohasini davlat tomonidan tartibga solishni samarali mexanizmini yaratish;
- iste’molchilar huquqini himoya qiluvchi ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish;
- korxona faoliyatida logistic tizimlarni takomillashtirish;
- sotuvdan keyingi servis sifatini yaxshilab o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lib, o‘z savdo brendini tanitish;
- savdo sohasida raqobat muhitini ommaviy shakllanishini ta’minlash.

Adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA, 2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO “I. D. Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH. J., Qosimova M. S., YUsupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023
7. Musayeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022.
8. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021-yil uchun o‘quv qo‘llanma.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВМЕСТНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Ташева Севара Равшановна
Соискатель (PhD), преподаватель русского языка Центра по обучению узбекскому и иностранным языкам Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В статье описано значение информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) в системе высшего образования, в частности, в рамках совместных образовательных программ (СОП). Проведен анализ влияния ИКТ на эффективное взаимодействие и сотрудничество между участниками СОП. Рассмотрен ряд преимуществ использования ИКТ в СОП, такие как повышение доступности образовательных ресурсов, улучшение качества образовательного процесса, развитие навыков самообразования и анализа информации, а также стимулирование творческого мышления студентов. Изучены перспективы развития ИКТ в ориентированности на СОП.

Описаны возможные проблемы, связанные с интеграцией ИКТ в образовательный процесс в рамках СОП, такие как технические трудности, неподготовленность преподавателей к работе с применением ИКТ, отсутствие структурированных программ обучения к соответствующей работе и т. д, и, соответственно, предложены рекомендации к решению этих проблем.

Ключевые слова: Информационно-компьютерные технологии (ИКТ), совместные образовательные программы (СОП), интеграция, качество образования, обучение педагогов.

Annotatsiya: Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) oliy ta'lim tizimida, xususan, qo'shma ta'lim dasturlari (JEP) doirasidagi ahamiyati bayon etilgan. SOP ishtirokchilari o'rtasidagi samarali hamkorlik va hamkorlikka AKTning ta'siri tahlili o'tkazilgan. SEPda AKTdan foydalanishning bir qator afzalliklari, xususan, ta'lim resurslari mavjudligini oshirish, o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, talabalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish kabilar ko'rib chiqiladi. SOPga e'tibor qaratishda AKTni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan.

SOP doirasida AKTni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bog'liq mumkin bo'lgan muammolar, masalan, texnik qiyinchiliklar, o'qituvchilarning AKT bilan ishlashga tayyor emasligi, tegishli ishlar uchun tuzilgan o'quv dasturlari yo'qligi va boshqalar hamda shunga mos ravishda tavsiyalar. Ushbu muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot va kompyuter texnologiyalari (AKT), qo'shma ta'lim dasturlari (JEP), integratsiya, ta'lim sifati, o'qituvchilar malakasini oshirish.

Abstract: The article examines the importance of information and communication technologies (ICT) in the system of higher education, in particular, in the framework of joint educational programs (JEP). The analysis of the impact of ICT on effective interaction and cooperation between JEP participants is carried out. A number of advantages of using ICT in JEP are considered, such as increasing the availability of educational resources, improving the quality of the educational process, developing self-education skills and information analysis, as well as stimulating creative thinking of students. The prospects for the development of ICT in the focus on JEP are studied.

Possible problems related to the integration of ICT into the educational process within the framework of JEP are described, such as technical difficulties, unpreparedness of teachers to work with the use of ICT, lack of structured training programs for relevant work, etc., and accordingly, recommendations for solving these problems are proposed.

Key words: Information and computer technologies (ICT), joint educational programs (JEP), integration, quality of education, teacher training.

ВВЕДЕНИЕ

Совместные образовательные программы (СОП), будучи относительно новым понятием в современной педагогике, соответствующим образом связаны и с другими научными неологизмами, такими как информационные и коммуникационные технологии (ИКТ) и информационные технологии (IT). Прежде чем исследовать связь СОП с данными технологиями, следует предоставить их наукоёмкое описание, а также выявить их ключевые особенности и отличия, так как довольно часто ИКТ ошибочно принимают за IT и наоборот: это приводит к некоторым затруднениям к описанию имплементации ИКТ в рамках СОП в высших учебных заведениях [1, сс. 43-44].

IT обычно характеризуется как технология использования компьютеров и программного обеспечения для обработки, хранения, передачи и анализа информации.

ИКТ, в отличие от IT, является более широким понятием, и включает в себя различные технологии и средства связи (интернет, сотовая связь и т. д.), которые также используются для обмена информацией и коммуникации.

Тем не менее, эти два понятия довольно часто встречаются в едином контексте, особенно когда речь идёт об организационных процессах (в образовании, делопроизводстве и т.д.). СОП в этом плане не являются исключением – ИКТ и IT являются неотъемлемой частью организации учебного процесса в рамках совместных образовательных программ.

Как уже было сказано выше, ИКТ являются более широким понятием, чем IT. При этом, IT являются ключевым инструментом к осуществлению и реализации целей, поставленных перед ИКТ в качестве технического задания [3, с. 357]. Рассмотрим этот тезис на примере образовательного процесса по СОП (Рис.1):



Рис.1: Концептуальная схема имплементации ИКТ в СОП посредством инструментов IT

На сегодняшний день в Узбекистане ведется активная работа по компьютеризации образовательного процесса. Современные вузы в темпе оснащаются передовой компьютерной техникой, а учащимся предоставляются все возможности доступа ко всевозможным электронным информационным ресурсам. В особой мере это касается вопроса предоставления высшим учебным заведением качественных образовательных услуг для студентов, не всегда имеющих возможность к локальному (офлайн) обучению, и как следствие, обучающихся дистанционно. Все это достижимо исключительно при должной имплементации ИКТ, с применением уместных IT.

Тем не менее, практически, в IT-факторе ИКТ СОП имеют место быть некоторые актуальные проблемы, такие как неполная обеспеченность бесперебойной работы электронных информационно-ресурсных центров (ИРЦ) и отсутствие отлаженной системы дистанционного контроля успеваемости и посещаемости учащихся, к решению которых автором и предлагается несколько подходов.

ОБЪЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Информационные и коммуникационные технологии (ИКТ), информационные технологии (IT), образовательный процесс, совместные образовательные программы (СОП).

МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЯ

При исследовании обеспеченности ИКТ СОП учитывались такие критерии как IT-обеспечение СОП, наличие актуального и круглосуточно доступного для учащихся электронного ИРЦ, качество знаний учащихся, оцениваемое соответствующими экзаменами.

АНАЛИЗ ДАННЫХ И ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ

Специфика дистанционного обучения подразумевает её должное техническое обеспечение, организованность и отлаженность. На графиках ниже показана критериальная связь между качеством образования в рамках СОП с применением ИКТ (на примере дистанционного учебного процесса), контролем успеваемости и посещаемости учащихся и без него (Рис. 2):



Рис. 2: Критериальная связь между качеством образования и контролем посещаемости учащихся

Отсюда исходит первый вывод: онлайн-обучение, организовываемое с применением ИКТ, требует цифровую систему учета посещаемости и успеваемости учащихся, при этом она должна быть автономной и объективной, а также вестись в режиме реального времени. На сегодняшний день контроль учебного процесса с применением ИКТ, вне зависимости от формы его исполнения (онлайн или офлайн) проводится преподавателем “вручную”, что в целом достаточно с организационной точки зрения, хотя и может быть функционально дополнено информационно-электронными методами контроля посещаемости и успеваемости учащихся [4, с. 45; 5, с. 74].

Во-вторых, электронные ИРЦ в системе ИКТ вуза должны быть круглосуточно доступны для учащихся как дистанционной, так и локальной (офлайн) формы обучения. Кроме того, имеет место быть и возможность контроля посещаемости учащимися ИРЦ, работы над собой и учебным материалом. У студента, занимающегося самообразованием развивается профессионально-творческое мышление, расширяется кругозор и эрудиция.

В-третьих, требуется обеспечение открытости данных – студент должен иметь возможность наблюдать за картиной оценивания своих успехов в учебный период.

ВЫВОДЫ

Интеграция СОП в систему высшего образования Республики Узбекистан в значительной мере повлияло на качество образования в положительном ключе. Вместе с этим, появились и дополнительные производные требования к организации учебного процесса, соблюдение которых невозможно представить без применения информационных технологий. Данная статья описывает возможные издержки и проблемы в процессе организации учебного процесса в рамках СОП с применением ИКТ. Описана схема взаимодействия ИКТ и цели образовательной программы, приведено авторское толкование понятий “информационные технологии” (IT) и “информационно-коммуникационные технологии” (ИКТ).

Надлежащее внедрение ИКТ в СОП позволит существенно повысить качество предоставляемых вузом образовательных услуг [2, с. 219]. Тесное взаимодействие педагогических кадров и IT-специалистов в данном вопросе позволит уменьшить количество ошибок и издержек в образовательном процессе, вплоть до их полного исключения.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Список литературы:

1. Алимкулов С. О., Атамуродова Р. К., Жуманова Н. Ш. Внедрение современной информационной технологии в систему народного образования в Узбекистане // European science. 2017. №7 (29) – сс. 43-45
2. Гулямов С. С., Саидов М. Х., Жуковская И. Е., Хакимов А. М. Современные аспекты повышения качества образования Республики Узбекистан в условиях применения передовых информационно-коммуникационных технологий // Современные информационные технологии и ИТ-образование. – 2016. №4. – сс. 217-222
3. Ибрагимова М. С. Применение информационных технологий в условиях дистанционной формы обучения // МНКО. 2018. №6 (73). сс. 357-358
4. О. Л. Степанова Информационные технологии в организации образовательного процесса // Образование. Карьера. Общество. 2012. №4 (36). – сс. 43-46
5. М. В. Ищенко Информационные технологии в системе высшего профессионального образования // Вестник ОмГУ. – Серия: Экономика. 2006. №2. – сс. 73-81

IQTISODIY GLOBALLASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich
Siyosiy fanlar doktori (DSc), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Jahon iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy globallashuvning mohiyati, ahamiyati va nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, globallashuv, jahon iqtisodiyoti, transmilliy kompaniyalar, baynalminallashuv.

Abstract: This article describes the essence, meaning and theoretical foundations of economic globalization. Also, the positive and negative aspects of globalization are described.

Key words: integration, globalization, world economy, transnational companies, internationalization.

Аннотация: В данной статье описаны сущность, значение и теоретические основы экономической глобализации. Также описаны положительные и отрицательные стороны глобализации.

Ключевые слова: интеграция, глобализация, мировая экономика, транснациональные компании, интернационализация.

KIRISH

"Globallashuv" atamasi hozirgi kunda juda keng ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Globallashuv nafaqat iqtisod, balki siyosat, madaniyat, xavfsizlik va ekologiya sohalariga ham tegishlidir. Biroq globallashuv jarayoni, birinchi navbatda, iqtisodiy hodisa sifatida boshlangan. Bunga so'nggi o'ttiz yilliklarda jahon iqtisodiyotida va butun xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi keskin o'zgarishlar sabab bo'ldi. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bosqichi jahon iqtisodiyotining globallashuvi bo'lib, uning asosini iqtisodiy integratsiya tashkil etadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, "jahon iqtisodiyotining globallashuvi" tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Boshqa sohalardagi globallashuv asosan davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishini anglatadi.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi xalqaro munosabatlar sohasidagi ijtimoiy hayotning turli sohalari, shu jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, turizm va boshqalarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda hech bir mamlakat xalqaro me'yorlar va iqtisodiy faoliyatning asosiy ishtirokchilarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olmagan holda iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantira olmaydi va amalga oshirolmaydi.

Iqtisodiyotning globallashuvi jahon taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Bu iqtisodiy makonning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, unda tarmoq tuzilishi, axborot va texnologiyalar almashinuvi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarqalish geografiyasi jahon kon'yunkturasini hisobga olgan holda aniqlanadi hamda iqtisodiy o'sish va pasayishlar umuman olganda sayyoraviy tusga ega bo'ladi.

Ushbu jarayonda ishtirok etuvchi barcha mamlakatlarning tashqi omillari (iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy) ta'siri ostida yuzaga keladi. Globalizatsiya milliy to'siqlarsiz yagona jahon bozorini (bozorlarini) shakllantirish va barcha uchun umumiy huquqni yaratishni ko'zda tutadi.

Globallashuvning asosiy oqibatlari xalqaro mehnat taqsimoti, migratsiya (kontsentratsiya), global miqyosda kapital, inson va ishlab chiqarish resurslarining harakati, qonunchilikni standartlashtirish, iqtisodiy va texnologik jarayonlar, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatlarining yaqinlashishi va uyg'unlashuvidir. Bu tizimli xususiyatga ega bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obyektiv jarayondir. Globallashuv natijasida dunyodagi barcha subyektlar bir-biri bilan bog'lanib, bir-biriga tobe bo'ladi.

Iqtisodiy globallashuvning murakkab jarayonlari, bir tomondan, davlatlarning jahon iqtisodiy maydonidagi o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqligining chuqurlashishida, ikkinchi tomondan esa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishida, raqobatning keskinlashuvida namoyon

bo‘lmoqda. Jahon bozorlarida va atrof-muhit tizimlarida ham ijobiy va ham salbiy o‘zgarishlarning kuchayishi jahon iqtisodiyotida globallashuvning mohiyati va rivojlanish tendensiyalarini siyosiy iqtisodiy tahlil qilishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarining mohiyatini ochib berish va undagi zamonaviy tendensiyalarni tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ko‘pgina xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan globallashuvning sabablari va uning harakatlantiruvchi kuchlari haqida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, globalizatsiyaning mohiyati, shakllari, uning ijobiy va salbiy jihatlari taniqli xorijiy iqtisodchi, siyosatshunos, sotsiolog olimlar: U. Bek, Z. Bjezinskiy, Dj. Bxagvati, I. Vallerstayn, E. Giddens, G. Kissindjer, L. Skler, T. Levitt, Dj. Stiglits, Dj. Soros, M. Kastels, R. Roberson, G. Terborn, M. Uterson, S. Xantingtonlar tomonidan tadqiq etilgan.

“Global” tushunchasi (Lat. Globus-fransuzlardan shar, Global-keng qamrovli, universal). Bu atama birinchi marta Janubiy Amerikalik iqtisodchi Teoder Levitt (T. Levitt) tomonidan 1983-yilda “Bozorlarning globallashuvi” tadqiqotida bozorlarni birlashtirish jarayonini aks ettirish uchun kiritilgan deb ishoniladi (Harvard Business Review). Jahon iqtisodiyotining asosiy subyektlari sifatida davlatlar; transmilliy korporatsiyalar; xalqaro institutlar va tashkilotlar tan olingan. 1985-yilda amerikalik olim R. Robertson Globalizatsiya iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishini ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

“Dunyo bir xillik tomon harakat qilmoqda, shu jumladan, texnologiya jihatidan. Yangi iqtisodiy voqe’lik natijasida standartlashtirilgan iste’mol tovarlari uchun global bozorlar ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Ushbu yangi voqelikdan foydalanadigan korporatsiyalar ishlab chiqarish, tarqatish, marketing va menejmentdagi ulkan miqyosdagi iqtisodlardan foyda ko‘radi. Ushbu afzalliklarni arzonroq narxlarga aylantirish orqali ular hali ham dunyo qanday ishlashi haqidagi eski taxminlar changalida yashayotgan raqobatchilarni yo‘q qilishlari mumkin”[1].

Globallashuvni uzoq tarixiy jarayonning natijasi deb hisoblash mumkin, uning asosiy dvigateli ilmiy-texnik taraqqiyotdir. Ishlab chiqarish va kapitalni xalqarolashtirishning to‘liq shakli sifatida TMKlarning moliyaviy-iqtisodiy ta’sirining o‘sishi, xalqaro savdoning rivojlanishi, davlatlararo migratsiya oqimining kuchayishi va xalqaro mehnat bozorini yaratilishi globalizatsiya elementlaridir.

Iqtisodchi olim J. Bxagvati ta’rifiga ko‘ra iqtisodiy globalizatsiya: “Iqtisodiy globallashuv milliy iqtisodiyotlarning tashqi savdo, transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, qisqa muddatli kapital oqimi, ishchi kuchi va umuman aholi harakati va xalqaro texnologiyalar almashinuvi orqali jahon tizimiga integratsiyalashuvini anglatadi”[2].

Rus olimi V. Melyansevga ko‘ra: “Jahon iqtisodiy munosabatlarining globallashuvi-bu alohida korxonalarga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p darajali hodisa; tovar, moliya va valyuta bozorlari va mehnat bozorlari; mintaqaviy, milliy iqtisodiyot. Bozor munosabatlari sharoitida mikrodaraja jahon iqtisodiy munosabatlari globallashuvining tarkibiy asosini tashkil etadi, chunki alohida korxonalar, firmalar, tadbirkorlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning belgilovchi subyektlari hisoblanadi[3].

Ta’kidlash joizki, globallashuv to‘g‘risida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramasdan, ilmiy hamjamiyatda globallashuv ta’rifini shakllantirish, uning paydo bo‘lish davri, o‘ziga xos xususiyatlari, insoniyatning zamonaviy va kelajagiga ta’sir darajasi bo‘yicha munozaralar hamon davom etmoqda va qizg‘in bahs-munozara xarakteriga ega bo‘lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni bo‘yicha xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil etildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy o‘rganish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda turli davlatlar, ularning kompaniyalari va fuqarolari bir-biri bilan u yoki bu shaklda chambarchas bog‘langan. Nafaqat davlatning ichki va tashqi siyosati, balki mintaqaviy va xalqaro ishlar o‘rtasida ham chegaralar xiralashmoqda. Mintaqaviy jarayonlarni ko‘rib chiqishda mintaqalashtirishga aniq ta’sir ko‘rsatadigan va aksincha, mintaqaviy jarayonlar ta’sir qiladigan globallashuv tushunchasi muhimdir.

1 T. Levitt. The Globalization of Markets. https://hbr.org/1983/05/the-globalization-of-markets
2 Jagdish Bhagvati. (2004). In Defense of Globalization. Oxford University Press.
3 Мельянцев В. А. Современная глобализация и воздействие на экономически продвинутые и развивающиеся страны//Вестник Московского университета. Востоковедение. 2018. № 1.С. 98–119.

“Globallashuv”atamasi o‘tgan asrning 80-yillaridan ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlardan biriga aylandi, ammo hozirgacha u to‘g‘risida umumiy qabul qilingan ta’rif mavjud emas. Globallashuv turli jabhalarda, oddiydan murakkabgacha bosqichda belgilanadi, uning umumiy tavsifi xalqaro tizimdagi aktyorlarning o‘zaro ta’sirini kuchayishi yagona global tarmoqning shakllanishiga olib kelishidir. Globalizatsiyaning mohiyatini ochishda, ayniqsa, iqtisodiyotdagi ma’nosini tavsiflashda bir qator u bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rib chiqish zarur. Bular baynalminallashuv, institutsional, tashkiliy va boshqalardan iborat.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida rivojlangan tegishli ijtimoiy-siyosiy sharoitlar: sayyorada iqtisodiyotda yangi tartib o‘rnatish zarurligini belgilab bergan mustamlakachilik konsepsiyasining qulashi va sovuq urushning tugashi-ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizim o‘rtasidagi qarama-qarshilik bosqichi jahon jamiyatini birlashtirishga va dunyoni ajralmas tushuncha sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi.

1989 yilda Vashington konsensusi qabul qilindi, uning tamoyillari jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillari harakatini to‘liq liberallashtirish, xususiylashtirish, davlat tomonidan tartibga solish va mulk huquqlarini birlashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tamoyillar, aslida, neoliberal modelni ifodalaydi va milliy davlatlarning iqtisodiy rivojlanish vektorini aniqlashda ularning funksiyalari va rolini izchil yo‘qotishiga olib keladi.

Kapital milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiy tizimiga bog‘laydigan eng muhim omillardan biridir. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab global moliyaviy aloqalar o‘sib bordi va kredit, tadbirkorlik hamda boshqa kapital turlarini birlashtirgan kapitalning xalqaro migratsiyasi boshlandi, ular yuzlab milliard dollarni tashkil etib, yangi moliyaviy bozorlarning shakllanishiga olib keldi, bu yerda katta miqdordagi bo‘sh turgan moliyaviy resurslar foydali foydalanishni qidira boshladi. Shunday qilib, dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti jahon moliyaviy tarmog‘ining minglab turli xil moliya institutlarini o‘z ichiga olgan juda ko‘p sonli aloqalar bilan o‘raldi.

Baynalminallashuv natijasi bo‘lgan yana bir jarayon bu jahon iqtisodiyotining transmilliylashuvidir. Transmilliylashtirish sanoat firmalari, banklar, xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning xalqaro faoliyatini kengaytirish, ularning alohida mamlakatlarning milliy chegaralaridan tashqariga chiqish jarayoni hisoblanadi. Transmilliylashtirish global biznes jarayonlarining institutsional jihatlariga, ya’ni butun dunyo bo‘ylab transmilliy korporatsiyalar (TMK) va banklar (TNB) faoliyatiga qaratilgan. TMKlar hajmi jihatidan ulkan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarini bog‘laydigan ishlab chiqarish va tarqatish tuzilmalariga yetib boradi. Jahon iqtisodiyotida jahon ishlab chiqarishining asosiy nisbatlarini, jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlarini rivojlantirishni belgilaydigan bir necha yuz yirik kompaniyalar ustunlik qiladi. Ba’zi TMKlarning salohiyati nafaqat kichik, balki o‘rta davlatlarning ham qobiliyati bilan taqqoslanadi.

Yuqoridagi jarayonlarning ketma-ketligi, ya’ni tashqi savdoni erkinlashtirish davrida boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun milliy iqtisodiyotning ochilishi, keyingi xalqarolashtirish yoki baynalminallashtirish jarayoni ushbu o‘zaro ta’sir amalga oshiriladi, uning asosiy o‘tkazgichlari TMK bo‘lib, tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat va bilimlarning yagona sayyoraviy bozorining shakllanishiga olib keladi. Globallashuv xalqarolashtirish jarayoni rivojlanishining natijasidir va uning eng yuqori bosqichini ifodalaydi.

Ko‘pgina adabiyotlarda globallashuvni belgilaydigan asosiy shartlar quyidagicha guruhlanadi:

1. **Ishlab chiqarish (ilmiy, texnik va texnologik):**
- ishlab chiqarish ko‘lamining sezilarli o‘sishi;
- yangi texnologik jarayonlarni joriy etilishi;
- yangi avlod transport vositalaridan foydalanish, aloqa va ularni birlashtirilishi;
- ilmiy va intellektual almashinuv natijasida bilimlarga chuqur kirilishi;
- axborotni qayta ishlash, saqlash va yangilashdan foydalanishning ilg‘or texnologiyalarining joriy etilishi;

2. **Tashkiliy:**
- transmilliy kompaniyalar ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatning xalqaro shakli sifatida rivojlanishi;
- BMT, JST, Jahon banki, XVF va boshqa xalqaro bo‘lgan tashkilotlar rolining o‘sishi;

3. **Iqtisodiy:**
- ayrim sohalardagi barcha mamlakatlar uchun yagona standartlarning (texnologiya, moliya, standartlashtirish va ekologiya, madaniyat va ta’lim) joriy etilishi;
- makroiqtisodiyotda yagona mezonlarni qo‘llash siyosati (soliqlar, monopoliyaga qarshi siyosat va bandlik va boshqalar.);
- iqtisodiy savdoning turli shakllarini liberallashtirilishi (tovarlar va xizmatlar) va jahon savdosi erkinligini ta’minlash maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirishning boshqa shakllari;

4. **Axborot:**
- turli sohalarda (moliyaviy, sanoat, iqtisodiy, ilmiy-texnik)axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishning tubdan yangi tizimlarini joriy etilishi;
- global tarmoqlarni yaratish uchun nou-xaulardan foydalanish va moliyaviy va tovar bozorlarini birlashtirilishi;
- turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish, tijorat, ilmiy va texnik jarayonlarni boshqarishni markazlashtirish. Kompyuterlashtirish, plastik kartalarni joriy etish va tezkor moliyaviy operatsiyalardan faol

foydalanish chegara va masofadan qat'i-nazar operatsiyalar, o'tkazmalar o'tkazish imkonini beradi;

5. **Siyosiy:**
- G'arb va Sharq o'rtasidagi siyosiy farqlarni tekislanishi;
- fuqarolar, kapital, tovarlar va xizmatlarning harakatlanish erkinligini ta'minlaydigan chegaralarni bosqichma-bosqich yo'q qilinishi;

6. **Madaniy va ijtimoiy:**
- turli madaniyat, hudud, millat va ma'naviy an'analarga ega odamlarning harakatchanligini oshishi;
- bozor iqtisodiyoti va erkin savdoni baholashning bir qismi sifatida yagona baholash tizimidan foydalanilishi;
- eng ko'p ishlatiladigan aloqa, o'rganish va madaniyatlararo muloqot uchun yagona tilni ajratilishi;
- masofaviy o'qitish hamkorligi va tajriba almashish chegaralarini yanada kengaytirish imkonini berishi;
- "inson kapitali"ni ko'paytirish ustidan davlat nazoratining zaiflashishi, mehnat resurslarini o'qitishni liberallashtirish.

Globallashuvni umuman olganda, yuqoridagilardan kelib chiqib uchta guruhga ajratib, (1) iqtisodiy, (2) madaniy (ijtimoiy) va (3) siyosiy jihatlarda ko'rish mumkin. Iqtisodiy globallashuv milliy iqtisodiyotlarning global iqtisodiyotga o'tishini, ya'ni ishlab chiqarish va bozorning xalqaro xarakterga ega bo'lishini va moliyaviy oqimlarning mamlakatdan mamlakatga oqib o'tishini anglatadi. Axborotni cheksiz tarqatish sharoitida madaniy (ijtimoiy) globallashuv millatlar o'rtasidagi madaniy tafovutlarning yumshatilishiga, shaxslar va ijtimoiy guruhlarning harakatchanligi oshishiga imkon beradi. Siyosiy globallashuvning ramzi Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT), Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va boshqa shu kabi xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib borishida ifodalanadi. Globallashuv davlatlar va xalqaro tizimdagi boshqa nodavlat subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'zgartirdi. Bir tomondan, globallashuv xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochadi, boshqa tomondan, xalqaro raqobatni keltirib chiqaradi, ishtirokchilar o'rtasidagi yaqin munosabatlar tufayli xavfni (riskni) oshiradi. Globallashuvning asosiy sharti shundan iboratki, jamiyatlar o'rtasidagi integratsiya darajasining ortib borishi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning aksariyat turlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hech bir mamlakat va hatto eng rivojlangan davlat ham ayni damda iqtisodiy masalalarni milliy darajada tanho yecha olmaydi. Barcha davlatlar, birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar globallashuvga moslashish yo'llarini topishga intildilar; ba'zilari JSTga a'zo bo'lishni tanladilar, boshqalari yangi qoidalar ishlab chiqishga, boshqalari mintaqaviy guruh tuzishga harakat qildilar. Zamonaviy dunyoda davlatlar hamkorligi ikki tomonlama, submintaqaviy, mintaqaviy va transmintaqaviy darajada amalga oshirilishi mumkin. Ular orasida mintaqaviy integratsiya eng keng tarqalgan va samarali shakl hisoblanadi. Mintaqaviy integratsion birlashmalarning aksariyati iqtisodiy maqsadlarda tashkil etilgan. Ikki tomonlama yoki mintaqaviy iqtisodiy bitimlar integratsion hamkorlikning asosiy shakli bo'lib, odatda turli xil milliy siyosatni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy integratsiyani ta'minlashga qaratiladi. Iqtisodiy integratsiya jahon iqtisodiyotini birlashtirish jarayoniga to'liq mos keladi, uning asosini tashkil etadi va globallashuvning o'zi xalqarolashtirishning yuqori bosqichidir, uni yanada rivojlantirish, juda uzoq vaqt davomida miqdoriy o'zgarishlarni to'plash sifatli sakrash natijasidir. Dunyo aksariyat transmilliy kompaniyalar uchun umumiy bozorga aylanib bormoqda va bundan tashqari, ko'plab mintaqalar ularning faoliyati uchun ochiq.

Globallashuvning ijobiy ahamiyati yuqori bo'lib insoniyatning imkoniyatlari ko'p marotaba o'sib borayotganligi, uning hayotiy faoliyatini ko'p jihatlari to'liq hisobga olinganligi, jahon iqtisodiyotining globallashuvi global muammolarni hal qilish uchun yaxshi asos yaratayotganligidir.

Globallashuvning ijobiy foydalari sifatida yana quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Globallashuv ixtisoslashuv va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishiga olib keladi. Bu holatda mablag'lar va resurslar eng oqilona taqsimlanadi, bu o'rtacha turmush darajasining oshishiga va mamlakat aholisining hayot istiqbollarini kengayishiga ta'sir qiladi;
2. Globallashuv jarayonlarining muhim afzalligi ishlab chiqarish miqyosida xarajatlarning kamayishi bo'lib, bu umuman xarajatlarning pasayishiga va tegishlicha narxlarning pasayishiga hamda shu sababli barqaror iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkin;
3. Globallashuvning afzalliklari, shuningdek, barcha tomonlarni qoniqtiradigan o'zaro manfaatli asoslarda erkin savdoning afzalliklari bilan bog'liq;
4. Globallashuv raqobatning kuchayishi, yangi texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ularni mamlakatlar orasida ommalashtirishni rag'batlantiradi. Uning doirasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'sish sur'ati jahon savdosining o'sish sur'atlaridan oshib ketdi, qaysiki bu sanoat texnologiyalari tarqalishining asosiy omillaridan biridir. Globallashuvning afzalliklari rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or ilmiy, texnik, texnologik va malaka darajasidan boshqa mamlakatlarda tegishli sohalarda foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy foyda bilan belgilanadi, bunday hollarda zamonaviy yechimlarni joriy etish qisqa vaqt ichida va ancha past narxlarda amalga oshiriladi;
5. Globallashuv jarayonlari xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bu yerda gap alohida mamlakat

yoki korporatsiya kuchi ostida bo‘lmagan yangi raqobatbardosh sohalar haqidadir. Ichki raqobatchilarga cheksiz rivojlangan tashqi raqobatchilar qo‘shiladi. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv asosan iste’molchilar uchun foydalidir, chunki raqobat ularga o‘zlari yoqtirgan narsani tanlash imkoniyatini beradi va sifatli mahsulotlar narxini pasaytiradi;

6. Globallashuv dunyo miqyosida ishlab chiqarish jarayonini ratsionalizatsiya qilish va ilg‘or texnologiyalarni ommaga joriy etish natijasida, shuningdek, dunyo miqyosida yangi texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etish foydasiga raqobatbardosh bosim natijasida mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi;
7. Globallashuv davlatlarga ko‘proq miqdordagi moliyaviy resurslarni safarbar qilish imkoniyatini beradi, chunki investorlar ko‘payib borayotgan bozorlarda yanada kengroq moliyaviy vositalardan foydalanadilar;
8. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi insoniyatning umumbashariy global muammolarini, asosan ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi, bu inson sa’y-harakatlarining birlashishi va mamlakatlarning turli sohalardagi harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq.

Dunyodagi globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bir talay bo‘lishiga qaramasdan, unga bo‘lgan munosabat turlichadir. Olimlar, ziyolilar va umuman mamlakatlar aholisining ayrim guruhlari o‘rtasida globalizatsiyaga nisbatan salbiy qarashlar mavjud. Asosan globallashuv rivojlangan davlatlar tomonidan yaxshi kutib olingan bir paytda rivojlanayotgan davlatlarda xavotirlar kuzatiladi. Bu globallashuvning afzalliklari assimetrik ravishda taqsimlanganligi natijasidir. Shubhasiz, globallashuv imkoniyatlar chegaralarini kengaytiradi, ammo afsuski, uning foydalari butun dunyo hamjamiyati uchun bir xil emas va uning xarajatlari notekis taqsimlangan.

Globallashuvning zamonaviy jarayonlari asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida sodir bo‘ladi va ikkinchi o‘rinda rivojlanayotgan mamlakatlarga ta’sir qiladi. Globallashuv birinchi guruh davlatlarining pozitsiyalarini mustahkamlaydi, ularga qo‘shimcha imtiyozlar beradi. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro mehnat taqsimoti sharoitida globallashuv jarayonlarining kengayishi globallashuv subyektlariga emas, balki obyektlarga aylanib borayotgan kam rivojlangan mamlakatlarning hozirgi o‘rnini to‘xtatish bilan tahdid qilmoqda.

Globallashuvning alohida davlatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri darajasi ushbu davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga bog‘liq. Globallashuv jarayonida boyliklarning teng taqsimlanmaganligi mintaqaviy va milliy darajada turli mojarolar xavfini tug‘diradi. Tez rivojlanayotgan mamlakatlar boy mamlakatlar ro‘yxatiga kiritilgani holda kambag‘al davlatlar ularning ortidan ancha orqaga tushib boradi. Globallashuv afzalliklarining assimetrik taqsimlanishini hisobga olgan holda, ma’lum bir mamlakatda globallashuvning salbiy oqibatlari asosan ushbu davlatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga bog‘liq bo‘ladi. Jahon globallashuvi sharoitida ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan markazdan qochuvchi kuchlarning salbiy ta’sirini namoyon etishi mumkin, bu mamlakat ichidagi an’anaviy munosabatlarning uzilishi, kam yoki raqobatbardosh bo‘lmagan tarmoqlarning tanazzulga uchrashi, o‘tkir ijtimoiy muammolarning kuchayishi mumkin. Globallashuvning og‘riqli oqibatlarini jahondagi past rivojlangan mamlakatlar boshidan kechirishi mumkin. Ushbu mamlakatlarning aksariyati xalqarolashtirishda xom ashyo yetkazib beruvchilar va ko‘p mehnat talab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar sifatida ishtirok etib, ular rivojlangan kuchlarga har tomonlama bog‘liq va past daromadlarga ega, shuningdek, jahon bozorlari kon’yunkturasiga bog‘liq.

Globallashuvning salbiy oqibatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- past malakali ishchilarning turmush darajasini pasayishi;
- rivojlangan mamlakatlar bozorlarida ishsizlikning o‘sishi;

Ushbu tahdid mehnat harakatchanligi bilan bog‘liqdir. Global xarakterga ega bo‘lgan ommaviy migratsiya dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirishning muhim manbayiga aylanmoqda. Barqarorsizlantiruvchi omillar bandlikning yangi shakllari va mamlakatlar mehnat bozorining globallashuvi bo‘lishi mumkin. Tashqaridan nisbatan arzon ishchi kuchi oqimi rivojlangan davlatlarning mehnat bozorida raqobatni kuchaytira boshladi, bu esa millatlararo munosabatlarning murakkablashishiga va ushbu mamlakatlarda millatchilikning keskinlashishiga olib keldi. Mehnatning erkin harakatlanishini salbiy oqibatlari uzoq vaqtdan beri potensial xavf sifatida tan olingan va hozirda ko‘plab mamlakatlarda bu real voqe’lik sifatida tan olingan. Shu sababli deyarli barcha mamlakatlar ishchilarning erkin harakatlanishi ustidan nazoratning muayyan shakllarini joriy qildilar. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, tayyor va malakali ishchi kuchi eng katta harakatchanlik bilan ajralib turadi va kerakli bozor joyini tezda topish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Globallashuv jarayoni sharoitida aksariyat mamlakatlar bilimdon mutaxassislar va yuqori malakali ishchilarni ularga viza berish va o‘z bozorida ishlashga ruxsat berish orqali jalb qilishga harakat qilishadi. Mamlakatlararo mehnat oqimining paydo bo‘lishi unumdorlikning o‘sishiga erishishga imkon beradi, chunki butun dunyo bo‘ylab ishchilarni taqsimlashda eng maqbul yo‘l topiladi.

- haddan tashqari sanoatlashtirishning global iqlimga salbiy ta’siri;
- boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutning, shuningdek, aholi toifalari orasida daromadlar bo‘yicha tafovutlarning katta bo‘lishi;
- alohida mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosati monopollashgan TMKlarga bevosita bog‘liq bo‘lishi.

Birinchi o‘ringa chiqqan transmilliy kompaniyalar o‘z manfaatlarini davlatdan ustun qo‘yadilar, buning natijasida milliy hukumatlarning roli zaiflashadi. Boshqaruv funksiyalarining bir qismi turli tashkilot va uyushmalarga o‘tadi;

- rivojlangan mamlakatlardan texnologik rivojlanish jihatidan ortda qolishning chuqurlashuvi;
- jamiyatda tabaqalanishning o‘sishi va uning konsolidatsiyasi, ijtimoiy guruhlarning parchalanishini boshlanishi, odamlar o‘rtasidagi an’anaviy aloqalarning uzilishini boshlanishi, shuningdek, ma’lum bir jamoaga mansub odamlarning, ma’lum bir professional yoki etnik guruhga mansublik hissining yo‘qolishi;
- globallashuvdan foyda va imtiyozlarning notekis taqsimlanishi nafaqat mamlakatlar bo‘ylab, balki alohida tarmoqlar sharoitida ham kuzatiladi. Tashqi savdo va eksport bilan bog‘liq tarmoqlardan foyda ko‘radigan tarmoqlar globallashuv jarayonlaridan sezilarli darajada yutqazadigan, bozor ochiqligi oshgani sababli raqobatdosh ustunliklarini yo‘qotadigan bir qator tarmoqlarga nisbatan ko‘proq kapital va yuqori malakali ishchi kuchini oladi;
- iqtisodiy qaramlikning kuchayishi va tashqi qarzlar bilan muammoli vaziyatning vujudga kelishi.

Shuningdek, globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri bu milliy iqtisodiyotlarning global darajadagi o‘zaro bog‘liqligi tufayli global beqarorlikdir. Natijada, bir mamlakatdagi mahalliy iqtisodiy tebranishlar yoki inqirozlar ham mintaqaviy, ham global oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy globallashuv bevosita jahon iqtisodiyotida yuz bergan baynalminallashuv, xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning chuqurlashuvi, shuningdek, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq holda yuz berdi.

Iqtisodiy globallashuv dunyo mamlakatlariga va ayniqsa, rivojlanayotgan, o‘tish davridagi mamlakatlarga, iqtisodiyoti qoloq davlatlarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Buning natijasida ushbu davlatlarning iqtisodiyoti birmuncha yangilandi, ya’ni modernizatsiyalashtirildi. Ayni bir paytda iqtisodiy globallashuv ayrim hollarda dunyo mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy jihatdan tabaqalashuv darajasini oshirishga olib keldi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tobora kengaytirib, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirmoqda. Globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun biz iqtisodiy globallashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz zarur hisoblanadi. Ushbu jarayonda birinchi navbatda milliy manfaatlar ustunligi tamoyiliga qat’iy rioya etilishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jim Sheffi, Andrey Korotayev, Leonid Grinin. Globalization: Yesterday, Today, and Tomorrow. USA. Emergent Publications, 2013
2. Уэллс Герберт Джордж. История цивилизации / пер. с англ. В. Азова. – Москва: АСТ, 2022-стр. 60–66.
3. Хейфец В. Л. Международная интеграция: учеб. пособие. СПб.: ГУАП, 2022
4. Yoshinobu Yamamoto. Globalism, Regionalism and Nationalism: Asia in Search of Its Role in the 21st Century. Wiley-Blackwell Publishers. 2000.
5. Герман Р. Э., Бесленеев М. С. Глобальные проблемы современности: курс лекций/ Карачаевск: Карачаево-Черкесский гос. ун-т им. У. Д. Алиева, 2016.
6. Мельянцев В. А. Современная глобализация и воздействие на экономически продвинутые и развивающиеся страны/Вестник Московского университета. Востоковедение. 2018. № 1. Стр. 98–119.
7. T. Levitt. The Globalization of Markets. https://hbr.org/1983/05/the-globalization-of-markets
8. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура: монография/ М. Кастельс– М.: ГУ ВШЭ, 2000.
9. Stiglitz J. E. Making Globalization Work. New York, NY, W. W. Norton & Company Publ., 2007.
10. Гидденс Э. Ускользающий мир: как глобализация меняет нашу жизнь / М.: Весь мир. 2004.

SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Xursandov Komiljon Maxmatkulovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalari samaradorligini yanada oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilinadi va ularga yechimlar beriladi. Jahondagi bir nechta sanoat korxonalari tuzilmalari tahlil qilinadi va ularning asosiy belgilari e’tirof etiladi. Strategik maqsadlar aniqlanadi hamda ularning kutilayotgan natijalari o‘rganilib chiqiladi. Maqola muallif tomonidan yaratilgan bir qancha jadvallarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, sanoat, korxona, samaradorlik, mamlakat, resurs, mehnat, muAmmo yechim, barqarorlik, ishlab chiqarish, raqobatbardosh, tadbirkorlik, ish haqi, rivojlantirish.

Abstract: The article analyzes the problems that prevent industrial enterprises from further increasing their efficiency and suggests ways to solve them. The structures of a number of industrial enterprises in the world are analyzed and their main features are identified. Strategic goals are defined and their expected results are studied. The article contains several tables created by the author.

Key words: globalization, industry, enterprise, efficiency, country, resource, labor, problem, solution, stability, production, competitiveness, entrepreneurship, salary, development.

Аннотация: В статье анализируются проблемы, которые мешают промышленным предприятиям в дальнейшем повышать свою эффективность, и предлагаются пути их решения. Проанализированы структуры ряда промышленных предприятий мира и выявлены их основные особенности. Определяются стратегические цели и изучаются их ожидаемые результаты. Статья содержит несколько таблиц, созданных автором.

Ключевые слова: глобализация, промышленность, предприятие, эффективность, страна, ресурс, труд, проблема, решение, стабильность, производство, конкурентоспособность, предпринимательство, зарплата, развитие.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida mamlakatlar mintaqalarini izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ahamiyati, shu bilan birga, mintaqa sanoat korxonalarining samaradorligini qo‘shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish asosida oshirish tobora ortib bormoqda. Rivojlangan va taraqqiy etayotgan davlatlarning yirik mintaqaviy markazlari hissasiga jahon YIMning 75 foizi, eksportning 58 foizi, investitsiyalarning 76 foizi to‘g‘ri kelmoqda[1]. Bu esa mintaqalardan iqtisodiy tizimni yanada samarali rivojlantirish bo‘yicha optimal usullarni izlashni talab etmoqda.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarining samaradorligini qo‘shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish asosida oshirish bo‘yicha bir qator muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar tashkil qilingan bo‘lib, jumladan, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish, izchil iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, bu jarayonni optimal boshqarish va tartibga solishni takomillashtirish, sohaning iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning usullarini va ularni tatbiq etishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqish, mintaqa iqtisodiy tizimini ustuvor yo‘nalishlarini optimal tartibga solishni ko‘p omilli iqtisodiy matematik modellari ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakat yoki bir necha mamlakatning ko‘p yoki kam bir xildagi tabiiy sharoitga ega bo‘lgan moddiy va ijtimoiy texnik ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar kompleksi hamda ijti-

1 Yevropa Ittifoqi, NAFTA va ATES tarkibiga kiruvchi mintaqalar ulushi. Manba: 2020-yil uchun Jahon banki ma’lumotlari. Elektron manba: // databank.worldbank.org (manbadan foydalanigan sana: 07.11.2020-y).

moiy siyosiy sharoitining o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ma’lum mintaqalar qo‘shilmasi sifatidagi tushuncha tarzida keng tarqalgan. Bu yerda mintaqaning iqtisodiy tizimiga urg‘u berilmagan, bizning nazarimizda, bu jiddiy kamchilik hisoblanadi:

- sanoat korxonalari samaradorligini oshirishning quyidagi tamoyillariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:
- sanoat korxonalarining balanslashgan strukturasi shakllanishi uchun sharoitlar yaratish;
- mineral xom ashyo resurslariga boy mintaqalarda xom ashyoni kompleks qayta ishlashdan undan yuqori texnologiyalarni joriy etish asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo‘lgan sikllarni o‘z ichiga oluvchi investitsion loyihalarni amalga oshirish;
- tarmoqni kompleks rivojlantirish sharoitida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish;
- respublikaning ko‘pgina mintaqalari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashganligi mavjud ishlab chiqarish kuchlarini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ishlovchi yangi qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko‘paytirishni ko‘zlaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti uchta asosiy tamoyil foydalanishga asoslanishi kerak: birinchidan, mintaqa aholisi talablarini shakllanayotgan bozorlarning ahvoli va dinamikasini, davlat va alohida ishlab chiqarish subyektlari talablarini sinchiklab hisoblay olish; ikkinchidan, mintaqalar ichki va tashqi omillarga iqtisodiyot strukturalariga maksimal darajada muvofiqlashish uchun sharoit yaratish; uchinchidan, mintaqa manfaatlarini faol to‘la qondirish.

Shu bilan bir qatorda, maqsadli dasturlar mamlakatning tizimli va kompleks rivojlanishlari mintaqa iqtisodiyotining eng zarur muammolarini hal qilish uchun amaliy natija beradigan mexanizm ham hisoblanadi. Ular mintaqa iqtisodiy jarayonlarini oqilona boshqarish asosida samaradorli va uzoq muddatli mintaqa iqtisodiy siyosatini ta’minlashning o‘zgaruvchan vositalarini o‘zlarida aks ettiradilar. Ularning mintaqa rivojlanish dasturining strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqarishni optimal tartibga solish sifatini oshirish;
- mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarini rivojlantirish;
- maqbul ekologik vaziyatga erishish;
- raqobatbardoshligini oshirish;
- ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratish maqsadlarida iqtisodiyot strukturalarini sifatli transformatsiyalash uchun mintaqa iqtisodiy resurslarini konsentratsiyalash.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish yo‘nalishlaridan biri tarmoqda mavjud xom ashyodan samarali foydalanish hisoblanadi. Xom ashyo – qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma’lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida ma’lum qadar o‘zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Xom ashyo asosiy va yordamchi materiallarga bo‘linadi[2]. Asosiy xom ashyo – tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumidir. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xom ashyoni qayta ishlashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari yordamchi materiallar hisoblanadi.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish resurs tejamkorligini oshirish va ulardan to‘liq foydalanish bilan bog‘liq.

1-rasm: Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar

2 Ortiqov.A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2018. -215 b.

Sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalana olmaslik asosiy muammo hisoblanadi. Bu muammolarni bartaraf etish mavjud resurslardan foydalanish darajasini oshirish va sanoat korxonalari samarali faoliyatini yuritishini ta’minlash muhim hisoblanadi. Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

1. Sanoat korxonalarining ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash;
2. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini aniqlash;
3. Korxonalarining resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
4. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish.

Shuningdek, mintaqa sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ular sanoat korxonalarining faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘langan (1-rasmda).

Sanoat korxonalarining ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi $y_{pred} \leq 0,25$ bo‘lganda, korxona o‘z faoliyatini davom ettira olmaydi. Ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi $y_{pred} = 0,75 – 10$ ga teng bo‘lganda, korxonaning faoliyati yuqori barqarorlik darajasi, foydaning o‘sib borishi, xarajatlarning optimalligi va faoliyat samaradorligining maksimal ko‘rsatkichlarini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval: Sanoat korxonalarining ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi holatlarining asosiy belgilari[3]

Qiymati	Holatlarning asosiy belgilari
0,75-1,0	korxonada ichki imkoniyatlardan foydalanishning yuqori darajasi; korxonadagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligi; ishlab chiqarishning minimal darajadagi qo‘shimcha xarajatlari; oxirgi mahsulotni ishlab chiqarishgacha bo‘lgan minimal yo‘qotishlar; yuqori darajadagi foyda.
0,5-0,75	ishlab chiqarishda qo‘shimcha xarajatlarning o‘sishi va yo‘qotishlarning mavjud bo‘lishi; ichki imkoniyatlardan foydalanishning o‘rtacha darajasi; korxonaning raqobatbardoshligi; mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashda barqarorlikning o‘rtacha darajasi; iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat barqarorligining o‘rtacha darajasi.
0,25-0,5	ishlab chiqarishda xarajatlar ko‘payishi va yo‘qotishlarning bo‘lishi; korxonada ichki imkoniyatlardan foydalanishning past darajasi; korxonaning raqobatbardoshlik darajasi pastligi; mahsulot sifat ko‘rsatkichlarining past darajasi; iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat barqarorligining past darajasi.

$y_{pred} \geq 0,5$ bo‘lganda, korxonalar o‘z ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishda investitsiyalar kiritish, texnologiyalarni takomillashtirish, mahsulot sifatini nazorat qilish, mahsulotning foydalilik darajasini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi uslubiyot bo‘yicha mamlakatimiz hududlaridagi sanoat korxonalarida ichki imkoniyatlardan foydalanishni baholash korxonalarda ichki zaxiralar va omillardan foydalanish bo‘yicha kerakli xulosalar chiqarish, ularni samarali sarflash bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sanoat korxonalarida ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishning sanoat tarmoqlari rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish, ularni iqtisodiy asoslash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qiladi va quyidagilarni amalga oshirishni talab etadi:

- sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uy xo‘jaliklarining ichki imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanish;
- aholini ish bilan taminlanlash, uning nofaol qismini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish va shu asosida aholi daromadlarini oshirib, turmush darajasini yaxshilash;
- bevosita sanoat korxonalarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlar bilan bir qatorda kasanachilik bilan band bo‘lgan aholining ham ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish;
- kasanachilik mehnatidan foydalanib, butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va xizmatlarni tashkil qilish evaziga yirik sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish.

A. Dubinovskiy charm mahsulotlari ishlab chiqarish samradorligini oshirishning ballik baholash tizimini ishlab chiqqan (2-jadval).

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari[4]

№	Chora-tadbir nomi	Reyting bali
1.	Korxonalarga ilmiy-texnik firmalar xizmat ko‘rsatishi usuliga o‘tish	3,2
2.	Mamlakatda investitsion iqlimni tubdan yaxshilash	4,0
3.	Korxonalarni yuksak malakali kadrlar bilan to‘ldirish	4,5
4.	Davlatning proteksionizm siyosati	5,0
5.	Xorij firmalari bilan qo‘shma korxonalar yaratish	5,4
6.	Ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	6,0
7.	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan yordamchi materiallarni mahalliylashtirish darajasini oshirish	6,1
8.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan kimyoviy materiallar sifatini oshirish ular bilan ta’minlovchi alohida xizmat ko‘rsatish firmalarini ochish	6,2
9.	Korxonalarning mahsulotlari ishlab chiqarish va poyabzal sotish bo‘yicha xorijiy savdo uylarini tashkil etish	6,5
10.	Korxona imidjini shakllantirish	7,5

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, A. Dubinovskiy mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash imkonini beradigan muhim ko‘rsatkichlar tizimi asosida ballik baholash tartibini ishlab chiqqan. Ammo A. Dubinovskiy inflyatsiya, devalvatsiya, import bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarni baholash tizimiga kiritmagan.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz:

- sanoat korxonalarida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish;
- sanoat korxonalarining mahsulotlarini bozordagi ulushini oshirish lozim;
- kuzatuvlar va statistik ma’lumotlar asosida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning doimiy tahlilini olib borish zarur;
- sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning barqarorligi va davomiyligini ta’minlash kerak;
- sanoat korxonalarida ishchilar kasbiy mahoratini oshirish zarur;
- sanoat korxonalariga kiritiladigan investitsiyalar hajmini ko‘paytirish lozim;
- sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlarning ulushini oshirish kerak;
- axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish lozim va boshqalar.

O. G. Tashiyanning fikriga ko‘ra, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishning maqsadga muvofiq yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi savolni yechish uchun o‘sha mahsulot raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlarini e’tiborga olishning o‘zi yetarli emas, shuningdek, korxona o‘z moliyaviy holatini ham hisobga olishi kerak[5]. Korxonaning moliyaviy holatini esa quyidagilar xarakterlaydi:

- tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatkichlari;
- tadbirkorlik faoliyati moliyaviy natijalarining narxlar va xarajatlar tarkibining o‘zgarishiga ta’sirchanligi;
- tadbirkorlik faoliyati rentabelligi;
- eng yuqori foyda olish darajasi.

Bunda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishda bo‘lgani kabi charm ishlab chiqaruvchilar uchun quyidagi asosiy savollarga javob olish muhim ahamiyatga ega:

- muayyan foyda olish uchun qancha hajmdagi mahsulotni va qanday narxda sotish kerak;
- daromad va xarajatlar nisbati qanday;
- tijorat faoliyatidagi moliyaviy va tadbirkorlik riski qay darajada.

4 Дубиновский А. М. Стратегия развития предприятий кожевенной промышленности. Авторе. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Нижний Новгород, 2016. – 23 с.

5 Основы маркетинга. Учебное пособие. Институт маркетинга. Международная бизнес-школа. MIM-R 005 306 001 X, с.58-59.

Sanoat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sohada oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Sanoat sohasida oilaviy tadbirkorlikning yo‘lga qo‘yilishi sanoatdagi mehnat jarayonlarining mazmuni o‘zgarishiga olib keladi. Sanoat sohasidagi oilaviy tadbirkorlikda ish vaqti aniq belgilab berilmaydi, oila a’zolari kunning istalgan vaqtida ishlashi yoki dam olishi mumkin. Oilaviy biznesda ishlovchilar soni chegarasi yoki oiladagi ishlovchilar yoshini belgilab bo‘lmaydi. Sanoat sohasida oilaviy biznes rivojlanishi bilan ish haqining mazmuni ham o‘zgaradi. Oilaviy biznesda faoliyat yurituvchilar oylik maosh olmasdan, oilaning umumiy daromadidan foydalanadi. Shuningdek, oilaviy biznes sanoatni rivojlantirish uchun aholining pul mablag‘larini jalb etishning muhim omili hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida rivojlantirishda mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risidagi nazariyalar turli ilmiy maktablar namoyandalari tomonidan o‘rganilgan. Bu to‘g‘risida ko‘pchilik olimlar “har kim o‘z qilgan mehnatiga yarasha rag‘batlantirilishi zarur”, deb hisoblaydi. T. Edison boshchiligidagi bir guruh olimlar ish haqi mehnatning aqliy yoki ijodiy faoliyat bilan bog‘liqligiga asoslanishi lozim degan fikrni ilgari surganlar. A. Marshall mehnatga haq to‘lash mehnatning cheklangan unumdorligi prinsipi asosida yo‘lga qo‘yilishi lozim, deb hisoblaydi. Ular ba’zi qiyin mehnat turlari uchun ish haqi to‘lashda ishlab chiqarish natijalarini inobatga olib bo‘lmasligini aytadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo‘yicha xom ashyoning ahamiyatlilik va xarajatlarning minimal qiymatini aniq hisob-kitoblar asosida aniqlab, resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish mintaqa sanoat korxonalarining samaradorligi oshishini imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilashda texnologiyalarni almashtirishning afzallik ko‘rsatkichi va mutaxassislar fikri kelishuvchanligi yoki konkordatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqilishi mintaqa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalarini samarali almashtirish, sanoat korxonalarida innovatsion guruhlar tashkil etilib, uning asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish tadbirlari olib borilsa, sanoat korxonalarini rivojlantirish imkoniyatlari oshadi va ularda mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yevropa Ittifoqi, NAFTA va ATES tarkibiga kiruvchi mintaqalar ulushi. Manba: 2020-yil uchun Jahon banki ma’lumotlari. Elektron manba: // databank.worldbank.org (manbadan foydalanigan sana: 07.11.2020-y).
2. Ortiqov.A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2018. – 215 b.
3. Sodiqov A. O‘zbekistonda sanoat rivojlanishining tendensiya va istiqbollari. “Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishi: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. I jild. –T., 2013. 10-b.
4. Chang H. J., Lin J. Should Industrial Policy in Developing Countries conform Comparative Advantage or Defy it? A debate between Justin Lin and Ha-Joon Chang // Development Policy Review. 2009. No. 27(5).
5. UNIDO. Industrial Development Report 2018. Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna, Austria. –2017. p. 201-205.
6. http:// www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti.
7. http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
8. http:// www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari rasmiy bazasi.

FISKAL SIYOSAT VA SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY MASALALARI

Isroilov Bohodir Ibragimovich
I. f.d, professor

To‘rayev Alijon Akmal o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlatning fiskal siyosati optimalligi muhim ahamiyatga ega. Maqolada mualliflar fiskal siyosat va uning soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat, soliq to‘lovchilar, fiskal siyosat, iqtisodiy o‘sish, budjet daromadlari.

Abstract: Optimum state fiscal policy is important in ensuring economic growth. In the article, the authors analyzed the fiscal policy and its importance in regulating the activities of taxpayers.

Key words: state, taxpayers, fiscal policy, economic growth, budget revenues.

Аннотация: Оптимальная государственная фискальная политика важна для обеспечения экономического роста. В статье авторы проанализировали фискальную политику и ее значение в регулировании деятельности налогоплательщиков.

Ключевые слова: государство, налогоплательщики, фискальная политика, экономический рост, доходы бюджета.

KIRISH

Ma’lumki, soliq aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bo‘lishi bilan birgalikda yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi. Ushbu qayta taqsimlash tamoyili iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta’minlashda bevosita ishtirok etadi. Shu sababli soliq tizimining eng muhim vazifasi sifatida “ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to‘plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishdir” deb, e’tirof etiladi[1].

Soliq to‘lovchi va davlat o‘rtasidagi pul munosabatlarini chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta’minlash soliq tizimining mohiyati hisoblanadi. Soliq munosabati ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini inobatga olish va ular manfaatlari mushtarakligini ta’minlash ushbu munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish hisoblanadi. Taraflar manfaatlari mushtarakligini ta’minlash uchun esa klassik va umume’tirof etilgan soliqqa tortish tamoyillariga amal qilish zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror o‘sishini ta’minlashda iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan fiskal siyosatining ahamiyatini alohida e’tirof etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasida belgilangan fiskal strategiya va fiskal siyosati asosiy yo‘nalishlari sifatida:

- budjet tushumlari to‘liqligini ta’minlash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiya va nafaqalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirish hamda aholining kambag‘al qatlamini qo‘llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, investitsiyaviy jozibadorlikni va ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan soliq siyosati islohotlarini davom ettirish;
- Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;
- Davlat qarzi barqarorligini ta’minlash va fiskal tavakkalchiliklarni boshqarish;
- vazirlik va idoralarning barcha budjetdan tashqari hisoblarini qamrab olish orqali konsolidatsiyalashgan budjet to‘liqligini ta’minlash;

1 I. A. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari”.–T.:O‘zbekiston, 359-bet.

- budjet barqarorligini ta'minlash, jumladan, o'rta muddatli istiqbolda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 2 foizgacha pasaytirish belgilangan[2].

Ushbu vazifalar samarali ijrosi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va budjet hamda aholi daromadlarini o'sishini ta'minlaga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat fiskal siyosati va uni ta'minlashda soliq munosabatlarini roli xususida olmlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga oid tadqiqotlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. S. Ya. Bojenok, Ye. P. Antipova, A. Yu. Smagina, I. I. Kucherovlar soliq majburiyatlari hamda uni fiskal siyosat ijrosini ta'minlashdagi ahaiyatiga baho bergan.

J. Zaynalov, T. Malikov, N. Xaydarov, Sh. Toshmatov, E. Gadoyev, B. Toshmurodova, J. O'rmonov kabi olimlar soliqlarni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli xususida tadqiqotlar olib borishgan. Lekin iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashishi va iqtisodiyotlarning globallashuvi mazkur mavzudagi tadqiqotlar uzluksiz bo'lishini talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotlarimizda o'rganilgan masalalar ahamiyati va izlanishlar natijalarini asoslashda analiz, mantiqiy fikrlash, sintez, taqqoslash va guruhlash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatning paydo bo'lishi bilan davlat xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida soliqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kishilik jamiyati va davlatchilikning rivojlanishi soliq munosabatlarini rivojlantirishni talab etadi. Natijada davlat iqtisodiy siyosatning muhim qismi bo'lgan fiskal siyosatni shakllantirishi va uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatiga duch keldi. Ushbu zaruriyat olimlar va amaliyotchilarni fiskal siyosatni tadqiq etish hamda uni takomillashtirishga oid tadqiqotlarga yo'naltirdi. Fiskal siyosat qadimiy xususiyatga ega bo'lsa-da, hamon mazkur masalaga turlicha yondashuvlar mavjud.

T. Malikov, P. Jalilovlar fikricha "fiskal siyosat -bir tomondan, budjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish, ikkinchi tomondan, budjet xarajatlarini (samarali) sarflash bilan bog'liq. Shuningdek, fiskal siyosat ikkita siyosat (budjet va soliq) lar turidan iborat"[3] bo'ladi. V. Kashin, I. Merzlyakovlar davlat fiskal siyosatiga "iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish maqsadida soliqlar va Hukumat xarajatlarini boshqarishdir. Fiskal siyosat mexanizmi shunga asoslanganki, soliq yig'imlari va davlat xarajatlari hajmining o'zgarishi yalpi talabga va o'z-o'zidan, YaMM, bandlik va baho darajasiga ta'sir ko'rsatadi"[4], mazmunida ta'rif beradi.

Shuningdek, ushbu atamaga "davlatning fiskal siyosati – davlat umumiy siyosatining muhim qismidir. O'z mohiyatiga ko'ra, bozor munosabatlari sharoitida, aynan fiskal siyosat iqtisodiyot rivojlanishining yo'nalishi va sur'atlarini belgilaydi. Agar iqtisodiyot rivoji oqsaydigan bo'lsa, birinchi navbatda, davlat fiskal siyosatining asosi bo'lmish soliq tizimini tahlil qilish lozim", degan qarash ham mavjud[5].

Rasmiy manbalarda esa fiskal siyosatga qisqa mazmunda "fiskal siyosat – bu davlatning soliq solish va budjet xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosatidir"[6] mazmundagi ta'rif berilgan.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar turli tuman bo'lsa-da, lekin fiskal siyosatning mazmunini o'zida to'liq ifoda etmaydi. Ayrim atamalar mazmun jihatdan yaqin bo'lsa-da, ta'riflarda mazmunan bir-birini takrorlovchi iboralar qo'llanilgan. Fuqarolar uchun budjetda berilgan ta'rifda "fiskal siyosat" iqtisodiyotni tartibga solish siyosat, deb alohida baholaydi. Holbuki, fiskal siyosa davlat iqtisodiy siyosatining tarkibi hisoblanadi.

Yuridik ensiklopediyada esa fiskal siyosatga "-hukumatning soliqqa tortish, davlat xarajatlari, davlat budjeti, aholini bandligini ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatidir"[7], deb ta'rif berilgan.

S. Allayarovning fikricha: "Fiskal siyosat – davlatning budjetga soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va budjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlar turlari va stavkalarini o'zgartirish orqali davlat daromadlari manbalari tarkibi orqali hamda davlat boshqaruvining barcha darajalarida davlat xarajatlari, to'lovlar, dotatsiyalar, transfertlar, subsidiyalar, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish ko'rinishida davlatning majburiy xarajatlari hajmi va tarkibini aniqlash orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlari kompleksidir"[8]. S. Allayarov tomonidan fiskal siyosat elementlarini haddan ziyod o'z ta'rifida qayd

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-son qarori.

3 MalikovT. S,Jalilov P. T Budjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma – T. Akademnashr, 2011.-6-bet

4 Кашин В., Мерзляков И. Фискальная политика и оздоровление экономики России // Аудитор. –2017. № 9. С. 34-37.

5 Ибрахим М. А. Аспекты фискальной политики государства / Научный журнал "Вестник университета". –2016. –№7-8. [Электронный ресурс] – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politikigosudarstva.10.03.2021.

6 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "Fuqarolar uchun budjet 2021" loyihasi. Toshkent, 2020.© UNDP, 2020 (www.uz.undp.org).

7 Юридическая энциклопедия. 2015. [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://yuridicheskaya_encyclopediya.academic.ru

8 Allayarov, S. "Implementation Of Financial Policy Optimized In The Conditions Of Economic Growth," International Finance and

etadi. Ushbu ta'rifdagi ayrim so'zlar mazmunan biri-birini takrorlaydi. Fikrimizcha, har qanday atamaning ta'rifi qisqa va uning mazmunini o'zida to'liq aks ettirishi zarur, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarimiz natijasida ushbu atamaga "Fiskal siyosat – davlat konsilidatsiyalashgan budjeti daromadlarini shakllantirish manbalari va xarajatlar yo'nalishlarini belgilash hamda iqtisodiyotni barqaror o'sishni rag'batlantirishga oid davlat iqtisodiy siyosati tarkibiy qismidir"[9], mazmunida ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-657-sonli Qonuni[10] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-son qarori[11] bilan 2021–2023-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiya, fiskal va soliq siyosatlarining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo'ljallangan fiskal siyosat quyidagilarga yo'naltirilgan:

- budjet tushumlari to'liqligini ta'minlash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya va nafaqalarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish hamda aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, investitsiyaviy jozibadorlikni va ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq siyosati islohotlarini davom ettirish;
- Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;
- Davlat qarzi barqarorligini ta'minlash va fiskal tavakkalchiliklarni boshqarish;
- vazirlik va idoralarning barcha budjetdan tashqari hisoblarini qamrab olish orqali konsolidatsiyalashgan budjet to'liqligini ta'minlash;
- budjet barqarorligini ta'minlash, jumladan, o'rta muddatli istiqbolda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 2 foizgacha pasaytirish.

Soliq siyosat qadimdan davlat arboblari va klassik olimlar diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Davlat ishlari yuritishning asosiy qonun hujjati hamda farzandlari va avlodlariga qoldirgan siyosiy vasiyatnomasi bo'lgan "Temur tuzuklari" asarida sohibqiron Amir Temur "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushib qolishidan saqlansinlar. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi"[12]. Sohibqironning ushbu qoidasi o'zida davlat fiskal siyosat mohiyatini belgilab beruvchi quyidagi nazariy asoslar ishlab chiqilgan (1-rasm).



1-rasm: Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan fiskal siyosat va soliq ma'muriyatchiligi nazariy asoslari[13]

Accounting: Vol. 2020: Iss. 2, Article 7. Available at: https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/7. 10.03.2021.

9 Muallif ta'rifi.

10 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-657-sonli Qonuni.

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-son qarori.

12 A. Temur. "Temur tuzuklari", –T.: O'zbekiston. 2011 y. 143- b., 53-67-betlar.

13 Muallif ishlanmasi.

Dunyo soliqqa tortish amaliyotida hozirda aynan ushbu nazariy qoidaga amal qilinadi. B. Ibragimov tomonidan sohibqiron Amir Temur bobomizning dunyo soliq siyosati, soliqqa tortish tamoyillari va soliq ma'muriyatchiligi nazariy asoslarini yaratishdagi rolini xorijiy hamda mahalliy nashrlarda chop etgan tadqiqotlari natijasida ilmiy jihatdan asoslagan[14].

Shuningdek, olim tadqiqotlarda Amur Temur soliq siyosati aholidan adolatli miqdordagi soliq undirishni nazarda tutganligi hamda soliq to'lovchining o'z to'lov qudratini yo'qotib qo'yishi davlat xazinasiga doimiy miqdordagi daromad kelishiga zarar yetkazishi mumkinligini nazarda tutganligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Olimning Amir Temur tomonidan yevropalik olimlardan 400 yil muqaddam soliqqa tortish nazariyasi, tamoyillari hamda soliq ma'muriyatchiligiga asos solingan degan xulosaga kelingani tahsinga loyiq[15].

Soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish A. Vagnerning soliqqa tortish tamoyillariga asoslanadi. A. Vagnerning soliqqa tortish tamoyillari 9 ta bo'lib, ular 4 guruhga bo'lingan (2-rasm)[16].



2-rasm: A. Vagnerning Soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish tamoyillari

Shuningdek, soliq tizimida adolatlilik tamoyilini shakllantirish bo'yicha Z. Axrorov soliq tizimi va soliqqa tortish nazariyasi rivojlanishida soliq tizimining ilg'or soliqqa tortish, soliq imtiyozlari va boshqa xususiyatlariga oid mavjud turli ilmiy qarashlarga qaramay, tenglik soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini bir xil taqsimlash bilan bog'liq deya ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan soliqlarni kim va qaysi miqdorda to'lashi har doim ham ikkita asosiy masala asosida hal qilingan. Ushbu g'oyalar asosida soliqqa tortishning adolatliligi to'lov qobiliyati mezonlari va davlat tomonidan berilgan imtiyozlar mezonlari orqali baholandi. Bu, o'z navbatida, soliqqa tortishda teng huquqlilik tushunchasiga turli yondashuvlarga olib keldi. Ayrimlar progressiv soliq solishning eng adolatli ekanligi haqida gaprisa, boshqalari esa mutanosib usulni himoya qiladi[17].

Soliq mexanizmi vositasida iqtisodiyotni tartibga solish doimo olimlar va mutaxassislar e'tiborida bo'lgan voqelikdir. Shu sababli ushbu masalaga hozirda ham ko'plab murojaatlar qilinganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun avvalo, tartibga solish atamasi va uni mazmuni to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

"Tartibga solish" atamasining ma'nosi italyancha regola so'zidan olingan bo'lib, "qondirish, tartibga keltirish, norma, qoida, shuningdek, iqtisodiy voqeliklar va ularning munosabatlarini qo'llab-quvvatlash yoki o'zgarishini ta'minlaydigan maqsadli jarayonlar"[18] degan ma'nolarini anglatadi.

14 Bobur shoh Bokhodirogli Ibragimov. The role of the tax administration in increasing the efficiency of tax authorities.// South Asian Journal of Marketing & Management Research.2020, №11, pp.28-35, Ibragimov B. B. Soliq munosabatlarini tartibga solishning nazariy masalalari. // Servis, Samarqand, 2019. №3, B. -159-164. Ibragimov B. B. Tax Liabilities and its Implementation Regulation Issues. // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119.© 2020 International Journals of Sciences and High Technologies.http://ijpsat.ijsht/journals.org Vol. 23 No. 2 November 2020, pp. 384-390). Ibragimov B. B. The role of the tax administration inincreasing the efficiency of taxauthorities. // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). ISSN:2249-877X,Vol.10, Issue11, November 2020. pp.28-35.

15 Ibragimov B. B. Soliq ma'murtchiligi: muammo va yechimlar.//Monografiya. – T.: Noshirlik yog'dusi, 2022.–226-b.

16 Kurbanov Z. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari.Diss.i.f.d.-Toshkent.2008.272 b.

17 Axrorov Z. O. Soliq tizimida adolatlilik tamoyilini shakllantirishning metodologik asoslari. //Biznes-Ekspert. 2019. 5(137)-son.

18 https://classes.ru/all-italian/dictionary-italian-russian-universal-term-53202.htm

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bugungi kunda soliqlar orqali tartibga solish mohiyatini asoslash bo‘yicha o‘z nihoyasiga yetkazilgan va hozirgi zamon talablariga bevosita javob beradigan fikrlar sayozligicha qolmoqda. Ko‘pchilik olimlar soliqlar orqali tartibga solishni juda qat’iylik bilan asoslashga va ushbuni aynan normativ-me’yoriy hujjatlarni tartibga solish[19], soliq siyosatini oqilona yuritish[20], soliqqa tortish mexanizmlaridan soliq stavkalarini pasaytirish yoki oshirish[21] bilan bog‘laydilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda “tartibga solish” tushunchasiga va uni iqtisodiy voqelik sifatida idrok etishga taalluqli yetarli fikrlar bayon etilmagan bo‘lsa-da, iqtisodiy adabiyotlarda bu borada keltirilgan ayrim nazariy qarashlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Kollins lug‘atida “tartibga solish” tushunchasiga quyidagicha izoh beriladi:

- tartibga solish – Hukumat yoki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni nazorat qilish yoki jamiyatning o‘zini tutish usullarini nazorat qilish qoidalari;
- tartibga solish – odatda, qonun-qoidalar asosida faoliyat yoki jarayonni nazorat qilish;
- tartibga solish – jarayonlar yoki xatti-harakatlar boshqariladigan qoidalar, tamoyillar yoki holatlar[22].

Ushbu masalaga nisbatan o‘z fikrlarini bildirgan R. L. Miller va D. D. Van-Xuz “Tartibga solish – muayyan tartib yoki qoidalarni bo‘ysunish, nazorat esa bu tekshirish maqsadlarida biror narsa, masalan, qonunlar, qarorlar, rejalar yoki kuzatishlar bajarilganligini tekshirish” deb tasdiqlaydilar[23].

Z. Axrorov fikricha, “tartibga solish” tushunchasini tizimlik risklarni birlamchi aniqlash va oldini olish barqarorligini ta’minlash maqsadlarida vakolatli davlat organlarining soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta’siri yordamida iqtisodiy va huquqiy xarakterdagi choralar, usullar, vositalar yig‘indisi sifatida tushunish lozim. Bu bilan ushbu tushuncha soliq to‘lovchilar faoliyatini nazorat qilishga nisbatan keng tushunchadir[24].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tartibga solish – bu faoliyatni olib borishning asosiy vositasi sifatida qabul qilinishi mumkinligidan darak beradi yoki bo‘lmasa ushbu tushunchaga vosita sifatida qarash va undan xo‘jalik faoliyatida ehtiyoj yuzaga kelganda foydalanish mumkin ekan degan fikrni keltirib chiqarsada, bunday yondashuv “tartibga solish” tushunchasiga yoki uni tushunishda chalkashlik va tushunmovchiliklar bo‘lishiga olib keladi.

Iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida taraqqiy etgan mamlakatlarning “soliqlar orqali tartibga solish”ni tizimi to‘g‘risidagi tadqiqotlar natijalari tahlilidan unga ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga quyidagicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda soliqlar orqali tartibga solish tizimi mohiyati xususidagi tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ushbu masalada yaxlit bir to‘xtamga kelinmaganligini ko‘rish mumkin. Ko‘pchilik olimlar soliqlar orqali tartibga solishni juda qat’iylik bilan asoslashga va ushbuni aynan normativ-me’yoriy hujjatlarni tartibga solish, soliq siyosatini oqilona yuritish, soliqqa tortish mexanizmlaridan soliq stavkalarini pasaytirish yoki oshirish bilan bog‘laydilar.

Ushbu qarashlarda soliq mexanizmi yordamida iqtisodiyotni tartibga solishning ma’lum bir qismini o‘zida ifodalagan, deb o‘ylaymiz. Chunki soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi ko‘p jihatdan soliqqa tortiladigan obyektlardan soliq to‘lovchilari kesimida samarali foydalanish hamda soliq to‘lovchilar va budjet daromadlariga soliq undiruvchilar manfaatdorligi uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, har qanday holatda soliq to‘lovchilar moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi, soliq to‘lovchilarining moliyaviy imkoniyatlaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanib, soliq to‘lovchilar faoliyatini optimallashtirish bilan bog‘liq:

- soliq stavkalari soliq to‘lovchilarni ixtiyoriy va optimal soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida, to‘liq budjetga to‘lashini rag‘batlantiradigan normada belgilash;
- soliq solish tizimi soliq to‘lovchilarni moliyaviy potensiali, investitsiya imkoniyatini oshirish va firmani yashovchanlik darajasini uzaytirishga rag‘batlantirish tizimiga asoslanishi zarur.

Shu bois ham, soliqqa tortish mexanizmini amaliyligini ta’minlash har bir soliq to‘lovchi subyektlar faoliyatiga baho berish bir qator mezonlarga asosan olib borilishi zarur bo‘ladi. Ayniqsa, soliq to‘lovchilarni moliyaviy faoliyatini baholash mezoni ularning innovatsion texnologiyalar asosida faoliyatdan oladigan moliyaviy natijalari, ishlab chiqarishni (xizmat ko‘rsatishni) foydalilik darajasi bo‘lishi mumkin.

19 Дуканич Л. В. Налоги и налогообложение. – Р/н/Д: Феникс, 2010. – с. 414
20 Malikov T. S., Jalilov P. T. Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 450 b.; Musagaliyev A. Budjet daromadlarini shakllantirishda soliqqa tortish mexanizmlarining xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlili. //Bozor, pul va kredit. 2-son. 2019. 59-69 b.
21 Axmedshin R., Maxmudov M. Soliq to‘lovchi huquqlariga amal qilish mexanizmi talab etiladi. //SBX. 14-son. 28-mart 2005 y. 6-7 b.
22 https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/regulation
23 Миллер Р. Л., Ван-Хуз Д. Д. Современные денги и банковскоэ дело. – М.: Инфра-М, 2000. – с. 27.
24 Ahrorov Z. O. Issues of Regulation of The Economy through Taxes. //“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №3, oktyabr, 2020-yil. – p. 3.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. –T.:O‘zbekiston, 359-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4938-son qarori.
3. MalikovT. S,Jalilov P. T Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T. Akademnashr, 2011.–6-bet
4. Кашин В., Мерзляков И. Фискальная политика и оздоровление экономики России // Аудитор. 2017. № 9. С. 34-37.
5. Ибрахим М. А. Аспекты фискальной политики государства / Научный журнал “Вестник университета”. 2016. – №7-8. [Электронный ресурс] – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-fiskalnoy-politikigosudarstva.10.03.2021.
7. Юридическая энциклопедия. 2015. [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://yuridicheskaya_encyclopediya.academic.ru
8. Allayarov, S. “Implementation Of Financial Policy Optimized In The Conditions Of Economic Growth,” International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 2, Article 7. Available at: https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/7. 10.03.2021.
9. Muallif ta’rifi.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-sonli Qonun.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4938-son qarori.
12. A. Temur. “Temur tuzuklari”, –T.: O‘zbekiston. –2011 y. 143- b., 53-67 betlar.
13. Muallif ishlanmasi.
14. Boburshoh Bokhodirogli Ibragimov. The role of the tax administration in increasing the efficiency of tax authorities.// South Asian Journal of Marketing & Management Research.2020, №11, pp.28-35, Ibragimov B. B. Soliq munosabatlarini tartibga solishning nazariy masalalari. // Servis, Samarqand, 2019. №3, B. -159-164. Ibragimov B. B. Tax Liabilities and its Implementation Regulation Issues. // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119.© 2020 International Journals of Sciences and High Technologies. http://ijpsat.ijsht/journals.org Vol. 23 No. 2 November 2020, pp. 384-390). Ibragimov B. B. The role of the tax administration inincreasing the efficiency of taxauthorities. // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). ISSN:2249-877X,Vol.10, Issue11, November 2020. pp.28-35.
15. Ibragimov B. B. Soliq ma’murtchiligi: muammo va yechimlar.//Monografiya. – T.: Noshirlik yog‘dusi, 2022. – 226-b.
16. Kurbanov Z. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari.Diss.i.f.d. –Toshkent. 2008.272 b.
17. Axrorov Z. O. Soliq tizimida adolatlilik tamoyilini shakllantirishning metodologik asoslari. //Biznes-Ekspert. 2019. 5(137)-son.
18. https://classes.ru/all-italian/dictionary-italian-russian-universal-term-53202.htm
19. 19. Дуканич Л. В. Налоги и налогообложение. – Р/н/Д: Феникс, 2010. – с. 414
20. Malikov T. S., Jalilov P. T. Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 450 b.; Musagaliyev A. Budjet daromadlarini shakllantirishda soliqqa tortish mexanizmlarining xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlili. // Bozor, pul va kredit. 2-son. 2019. 59-69 b.
21. Axmedshin R., Maxmudov M. Soliq to‘lovchi huquqlariga amal qilish mexanizmi talab etiladi. //SBX. 14-son. 28-mart 2005 y. 6-7 b.
22. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/regulation
23. Миллер Р. Л., Ван-Хуз Д. Д. Современные деньги и банковское дело. – М.: Инфра-М, 2000. – с. 27.
24. Ahrorov Z. O. Issues of Regulation of The Economy through Taxes. //“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №3, октябрь, 2020 йил. – p. 3.

BANK DAROMADLARINI OSHIRISHDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TUTGAN O‘RNI

Xudoyorov O. O.
PhD, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqola bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarining tutgan o‘rni haqida yozilgan. Maqolada bank daromadari haqida, ularni barqarorlashtirish, bankning daromad manbalarini kengaytirish, masofaviy bank xizmatlari soni va sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: daromad, masofaviy bank xizmatlar, xarajat, kapital, foizli daromad, foizsiz daromad, foyda,aktiv.

Abstract: This article is written about the role of remote banking services in increasing bank income. The article contains suggestions and recommendations aimed at stabilizing bank income, expanding the bank’s income sources, and increasing the number and quality of remote banking services.

Key words: income, remote banking services, expense, capital, interest income, non-interest income, profit, assets.

Аннотация: В данной статье написано о роли дистанционного банковского обслуживания в увеличении доходов банка. В статье содержатся предложения и рекомендации, направленные на стабилизацию доходов банка, расширение источников доходов банка, увеличение количества и качества дистанционных банковских услуг.

Ключевые слова: доход, ДБО, расход, капитал, процентный доход, непроцентный доход, прибыль, активы.

KIRISH

Bank faoliyatining barqarorligini ta’minlash, kapitallashuv darajasini oshirishda tijorat banklari daromadliligi asosiy o‘rinni egallaydi. Tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi olinayotgan foydani maksimallashtirishdan iborat bo‘lib, bunda bankning likvidliligi bilan daromadliligi o‘rtasidagi oqilona mutanosiblikni ta’minlash muhim, amaliy ahamiyat kasb etadigan masala hisoblanadi.

Shuni ta’kidalab o‘tish kerakki, bank sektorida raqobat kuchaymoqda, bank xizmatlariga aholi va tadbirkorlar tomonidan talab oshmoqda. Bu sohada transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, kelgusi yillar uchun ustuvor vazifalarni belgilab olishni taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmonida “...yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish” [1] belgilab berilgan.

So‘nggi yillarda globalashuv jarayoni bank tizimidagi raqobatning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Mijozlarning talablari va texnologiya o‘zgarishlarining o‘sib borishi turli banklar tomonidan potensial mijozlar va investorlarni jalb qilish va jalb qilish maqsadida bank rahbariyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, daromadlar darajasini, bank filiallarining maqomini va sonini ko‘paytirish bilan bank boshqaruvi bank faoliyatini takomillashtirish uchun bank xizmatlarini yangi turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Bankning oqilona daromaddorligini hisobga olgan holda, bank xizmatlari jozibadorligini oshirish va yangi mijozlarni jalb etish maqsadida tarif siyosatini maqbullashtirish tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlari bo‘yicha bir qancha iqtisodchi olimlar tatqiqot olib borgan hamda ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Iqtisodchi olim Z. T. Mamadiyarovning fikriga ko‘ra, “Raqamli bank xizmatlari va texnologiyalarining joriy hisobraqamlarga komplekt xizmat ko‘rsatishi orqali banklarning moliyaviy xizmatlari ta`riflarini mijozlar segmentlariga ko‘ra optimallashtirish asosida bank daromadlarini oshirishni taklif qilingan” [2].

Olimning fikriga ko‘ra mijozlar segmentlariga ko‘ra optimallashtirish g‘oyasi ilgari so‘rilmoqda. Ammo aynan qaysi segmentlariga nisbatan optimallashtirish aniqlashtirilman.

Taniqli rossiyalik olim I. V. Zadorojnayaning xulosasiga ko‘ra, “Bank elektron xizmatlar bozorida tendensiyalari shuni ko‘rsatdiki:

- bank mutaxassislarini ish sifati hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari oshdi;
- ixtisoslashtirilgan IT kompaniyalarining internet-banking dasturiy ta’minot bo‘yicha xizmatlarining soni va turlari kengaydi.
- bank infokommunikatsiyalari avtomatlashtirildi” [3].

Olimning fikriga ko‘ra bu o‘zgarishlar bankning mijozlar sonini oshishiga, bank xizmat sifatini yaxshilanishiga shu bilan birgalikda bank daromadlarini oshishiga ham muhim turtki bo‘ldi deb izoxlaydi.

Yana bir xorijlik olim Diana Mak Notonning fikriga ko‘ra, “Bank daromadi – jalb qilingan resurslar hisobidan berilgan kreditlardan olingan foizlar bilan jalb qilingan resurslar bo‘yicha to‘langan foizlar o‘rtasidagi farqdan iboratdir” deb yozadi [4].

Ushbu ta’rifda bank daromadini faqat kreditlar bo‘yicha olingan foizlar va to‘langan foizlar o‘rtasidagi farqni nazarda tutgan. Bu ko‘proq foyda tushunchasiga mos keladi. Shuningdek, u boshqa bank operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni nazardan chetda qoldirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkuz tadqiqot ishimizda bank daromadlarini oshirishda masofoviy bank xizmatlarini tutgan o‘rni nazariy asoslari o‘rganildi, mavzuga bog‘liq ko‘plab ilmiy amalimiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi, mazkur ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda ilmiy tahlilning ekspert baholash, statistik guruhlash va induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma’lumotlardan hamda xorij banklari va Markziy bankining ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hozirgi kunda O‘zbekiston bank tizimida ham ushbu amaliyotdan foydalanilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasi”da hamda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank nazorati bo‘yicha taqdim etiladigan tijorat banklari hisobotlarini to‘ldirish tavsiyalari” to‘g‘risidagi № 584 yo‘riqnoma bo‘yicha 020418 “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobot shaklni to‘ldirish to‘grisidagi metodik ko‘rsatmalarda bank daromadlarini va xarajatlarini shu tartibda hisobga olishda foydalanilmoqda.

Tijorat banklari daromadlarini oshirishda banklarining masofaviy xizmatlari muhim o‘rin egallaydi. Shu boisdan hozirgi kunda tijorat banklarimiz tomonidan taklif etilayotgan onlayn bank xizmatlari soni, turlari oshmoqda.

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi.



1-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni [5] (1-yanvar holatida)

Yuqorida keltirilagan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yildan-yilga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni o'sishini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2017-yilga nisbatan 2022-yilda qariyib 10 karraga o'zgargan. Bu esa masofaviy bank xizmatlaridan foydalagnuvchilar soni o'sishi bilan bir qatorda bank daromadlarini o'zgarishini ham ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi zaruriy sharti bo'lib, bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga, birinchi navbatda, foizli daromadlarning barqarorligiga erishish hisoblanadi.



2-rasm: 2019-2022-yillarda foizli daromadlar va aktivlarning tarkibi [6]

Yuqori keltirilagan 2-rasmdagi ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019–2022-yillarda banklar biznes faoliyatida chakana biznes yo'nalishi sezilarli faollashganligi, shuningdek, bank bozorida biznes modeli asosan chakana xizmatlariga yo'naltirilgan banklar ko'payganligi natijasida jismoniy shaxslar kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi bugungi kunda 7 foiz bandga oshib, 26 foizga yetgan holda, ushbu amaliyotdan olingan daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi 19 foizdan 34 foizgacha o'sganligi kuzatilmoqda. Banklarning foizli daromadlarining o'zgarishi banklarning masofaviy foizli xizmatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kredit xarakteriga ega bo'lmagan bank xizmatlarini ko'rsatish daromad olish nuqtayi nazardan ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Bu daromad manbayi hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu daromadlar odatda komission daromadlar deyiladi, chunki ko'pchilik xizmatlar uchun xaq komission mukofot sifatida olinadi. Komission mukofot miqdori odatda amalga oshirilgan operatsiya yoki bitim summasiga nisbatan foiz ko'rinishida olinadi. Shuningdek, komission daromadlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun qat'iy summa ko'rinishida yoki bank tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash ko'rinishida olingan daromad kiradi.

Bankning onlayn bank xizmatlari orqali bank daromadlarini oshirishda quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

- moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning joriy xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy xizmatlarning operatsion samaradorligini oshirish va ularning sifatini ta'minlash maqsadida eng yangi moliyaviy texnologiyalardan (fintek) keng foydalanish;
- Big Datalardan foydalanish hamda banklarining raqamli transformatsiyasini jarayoniada xorij tajribalaridan foydalanish;

- ishonchli ma’lumotlardan foydalanish, ma’lumotlarni to‘plash jarayonida inson omilini kamaytirish, bank tizimida ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

Yuqoridagi takliflar bank daromadlarini o‘sishiga va masofaviy bank xizmatlari sonini shu bilan bir qatorda bank xizmatlari sifatini oshishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoni, 12.05.2020-y.
2. Mamadiyarov Z. T. ning “Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2022-y.12-bet.
3. Задорожная И. В. статья “Электронные банковские услуги: современные тенденции” “Банковское и страховое дело” журнал. ст-215.
4. Мак Нотон Д. “Банковские учреждения в развиваюшихся старанах” – в 2т./ Т. 1. Вашингтон: Всемирный банк, 1994. 326 с. С. 124.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank axborotnomasi. 2023-y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank axborotnomasi. 2023-y.

ELEKTRON SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

Po‘latov Xudoyberdi O‘ktamovich
SamISI mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan va buxgalteriya hisobni yanada soddalashtirish maqsadida takliflar berilgan, olib borilgan tadqiqotlar natijasida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro standartlar, tovar, xarajat, uslubiy jihatlar, ishlab chiqarish, xizmat, raqamli savdo, buxgalteriya hisobi, online do‘kon.

Abstract: The article examines the issues of accounting organization in e-commerce enterprises and offers suggestions for further simplification of accounting, conclusions are given as a result of the conducted research.

Key words: international standards, brand, cost, methodological aspects, production, service, digital trade, accounting, online store.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы организации бухгалтерского учета на предприятиях электронной торговли и высказаны предложения по дальнейшему упрощению бухгалтерского учета, даны выводы по результатам проведенного исследования.

Ключевые слова: международные стандарты, бренд, стоимость, методические аспекты, производство, услуга, цифровая торговля, бухгалтерский учет, интернет-магазин.

KIRISH

Savdo korxonalarni alohida turlari bo‘yicha xususiyatlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Mamlakatimizda o‘z mahsulotlarini masofaviy sotish, jumladan, internet-do‘konlar orqali sotayotgan tashkilotlar soni ortib bormoqda. Ushbu turdagi tovarlarni sotish sotuvchilarning xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi (chakana savdo maydonchasini, uskunalarni sotib olishning hojati yo‘q, vositachilar xizmatlaridan foydalanishning hojati yo‘q va hokazo). Ushbu turdagi savdo sotuvchilar uchun ham, xaridorlar uchun ham foydalidir.

Sotuvchi uchun Internet-tijoratning afzalliklari bozorga kirishning past to‘sig‘i (asosiy xarajatlar – saytni yaratish va targ‘ib qilish), xarajatlarni kamaytirish imkoniyati (chunki, masalan, chakana savdo binolarini sotib olish shart yemas)), buning natijasida sotuvchi tovarlar uchun past narxlarni belgilash imkoniyatiga ega. Xaridorlar, shunga ko‘ra, tovarlarni arzonroq narxda sotib olishadi. Qolaversa, xarid qilish uchun uydan chiqib ketish shart yemas, bu esa vaqtni tejaydi

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodchi olim K. B. Urazov fikricha “Faoliyat sifatida savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. Ular tovarlarni sotib olish va sotish jarayonida ishtirokchi bo‘lganligi sababli ishlab chiqarish sohasini iste’mol sohasi bilan bog‘lovchi hisoblanadi. Shu sababli savdosiz yaratilgan mahsulotlar o‘z iste’molchilariga yetib bormaydi va ularning takror ishlab chiqarishini amalga oshirib bo‘lmaydi”[1].

N. E. Yadova tomonidan olib borilgan tadqiqot ishining asosiy maqsadi – Rossiya elektron tijoratining kelajakdagi tendensiyalarini bashorat qilish uchun global Internet-tijoratning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini o‘rganish va baholash.

1 Urazov K. B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Ma’ruzalar matni. 1-qism. – Samarqand, SamISI, 2005, 5-bet.

Iqtisodchi olim G. G. Golovenchik Elektron tijorat ishlab chiqaruvchilarga raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lish imkoniyatlarini ochib beradi[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada metodologik asoslarini respublikamiz qonunlari, Prezidentimiz farmonlari, qarorlari, asarlari va ma’ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo‘riqnomalar, xorijda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog‘i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarning amaliy materiallari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli ravishda foyda olishga qaratilgan har qanday faoliyat singari, onlayn-do‘kon ham tegishli tarzda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak. Shu bilan birga, unda tashkiliy-huquqiy shaklga qarab, buxgalteriya hisobi va nazorat qiluvchi organlarga o‘z vaqtida hisobot berish tashkil etilishi kerak.

So‘nggi paytlarda samarali onlayn savdoni amalga oshirayotganlar (1-rasmga qarang)

1-rasm: Onlayn savdoni amalga oshirayotgan korxonalar

Umuman olganda, onlayn-do‘kondagi buxgalteriya hisobi oddiy savdo korxonasidagi buxgalteriya hisobidan farq qilmaydi, ammo xaridor sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot bilan tanishish imkoniga ega emasligi uning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Buxgalteriya hisobi sxemasini qurishingiz mumkin (1-jadvalda)

1-jadval: Elektron savdoni amalga oshirish jarayoni[3]

<table>
<tr><th colspan="8">Elektron savdo</th><th>Hujjatlarning bajarilishi</th></tr>
<tr><th colspan="3">Sotuvchi</th><th colspan="5">Xaridor</th><th></th></tr>
<tr><td colspan="8">Do‘kon kattaligi</td><td rowspan="2">Huquqiy va shartnoma munosabatning yo‘qligi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Mahsulot haqida ma`lumotlarni joylashtirish</td><td colspan="5">Mahsulotning nomi va xususiyatlari bilan tanishish</td></tr>
<tr><td colspan="8">Buyurtma</td><td rowspan="2">Shartnoma munosabatlarning boshlanishi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Buyurtma shaklni to‘ldirish va joylashtirish</td><td colspan="5">Buyurtma shakli orqali tovarni tanlash va buyurtma qilish</td></tr>
<tr><td colspan="8">Buyurtma uchun to‘lov</td><td rowspan="4">Shartnoma munosabatlarining bajarilishi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Buyurtma narxidan kelib chiqqan holda to‘lov uchun hisob-fakturani tayyorlash</td><td>Naqd pul to‘lovi</td><td>Naqdsiz pul to‘lovi</td><td>Bank hisob raqamiga to‘lov</td><td>Plastik kartasidan to‘lov</td></tr>
<tr><td colspan="8">Buyurtmani yetkazib berish</td></tr>
<tr><td>Kurerlik xizmati</td><td>Transport xizmatni</td><td>Pochta xizmati</td><td>Boshqa xizmatlarni taqdim etish</td><td>Tovarlarni qabul qilish</td><td>Kafolat va soliq hujjatlari</td><td colspan="2">Sotuvchinig ofisdan olib ketish</td></tr>
</table>

2 https://rep.polessu.by/bitstream/123456789/14710/1/51Sergiyevich%20T. V_Razvitie%20elektronnoi%20torgovli.pdf
3 Muallif ishlanmasi

Bu jadvalda elektron savdoni amalga oshirish jarayoni bir tomonda sotuvchi va bir tomonda xaridorni shartnoma munosabatlarning boshlanishidan tortib shartnoma munosabatlarni bajarilishigacha bo‘lgan jarayonni ko‘rishingiz mumkin.

Onlayn do‘konning buxgalteriya bo‘limi mijozlardan mablag‘larning kelib tushishini ham hisobga oladi.

Onlayn do‘kon orqali tovarlarni sotishda mijozlarga to‘lashning bir necha yo‘li mavjud. Keling, ularni batafsil ko‘rib chiqaylik:

“Kurerga naqd pul to‘lash. Xaridor tovar uchun naqd pulda kurerga to‘laydi, u o‘z navbatida kassa chekini beradi. Tovarlarni sotishda tashkilot haqiqiy sotib olishdan kamida besh daqiqa oldin xaridorga kvitansiyasini chop etishi va berishi shart. Masofaviy sotilgan taqdirda, tashkilot tovar uchun to‘lovni amalga oshirish vaqtida darhol onlayn kassa aparatini qo‘llashi shart.

Elektron pullar yordamida hisob-kitoblar. “Ushbu hisob-kitob tizimidan foydalanish uchun sotuvchi tanlangan elektron to‘lov tizimida (ETT) (Vebmoney, Yandex Money va boshqalar) ro‘yxatdan o‘tishi va keyinshalik elektron pul o‘tkazmalarini amalga oshiradigan agentlik bilan vositachilik shartnomasini tuzishi kerak. Bundan tashqari, sotuvshi o‘z veb-saytida xaridorlarga tovarlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish uchun qaysi tizimdan foydalanish kerakligi haqida ma’lumot joylashtiradi. Ushbu to‘lov usulida elektron pullar “elektron hamyon”da bo‘ladi.

Tovarlarni pochta orqali yetkazib berishda naqd pul bilan to‘lash. Sotuvchi tovarni pochta xizmatiga yuboradi. Xaridor tovarni olgandan keyin pochta aloqasi bo‘limining kassasiga to‘lagan pul mablag‘lari pochta aloqasi xodimi tomonidan tovar sotuvchisiga to‘lov sifatida qayta ishlanadi. Keyin pul sotuvchiga naqd pulsiz tarzda o‘tkaziladi. Agar sotuvchi naqd pul o‘tkazmasini olgan bo‘lsa, uni olgandan keyin u naqd pul tushumini umumiy tartibda hisobga olishi va chekni kassa apparatlari bilan chop etishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytkanimizda, shuni ta’kidlash kerakki, Internet-tijorat uchun xarajatlar ro‘yxati o‘ziga xos xususiyatlarga ega va oddiy do‘konlarning xarajatlaridan biroz farq qiladi. Masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun savdo maydonchasini ijaraga olish uchun hech qanday xarajatlar yo‘q, ammo omborxona maydoni ijaraga olinishi mumkin. Shtatda sotuvchilar bo‘lmasligi mumkin, ammo tovarlarni yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan ko‘plab ishchilar bor. Transport ham shaxsiy, ham ijaraga olinishi mumkin, shu jumladan, xodimlardan. Onlayn tijorat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar xarajatlarining katta qismini reklama, marketing tadqiqotlari, yetkazib berish, saytni saqlash, buyurtmalarni qabul qilish xizmatiga texnik xizmat ko‘rsatish va boshqalar egallaydi. Bizning takliflar birinchidan elektron savdo korxonalar sonini ko‘paytirish yo‘li bilan aholi uchun imkoniyatlar yanada yaxshilanadi. Ikkinchidan elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda hujjatlashtirish tizimga alohida e`tibor berish kerak. Uchinchidan elektron savdo korxonalarida hisob siyosatini tubdan ishlab chiqish kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Р. А. Бухгалтерский учет и аудит. Учебное пособие. –Ташкент, 2011.
2. Mirzayev Q. J., Pardayev M. Q. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. // O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014.–384 b.;
3. Abdukarimov B. A. Korxona iqtisodiyoti. Darslik.//–T.: Fan, 2005. –288 b.;
4. Abdukarimov B. A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 1-qism. – T.: Fan va texnologiya, 2007, 39-bet.;
5. Urazov K. B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.–336 b.;
6. Urazov K. B. Buxgalteriya hisobi va audit: Oliy o‘quv yurtlari uchun. – T.: O‘qituvchi, 2004. –448 b.;
7. Urazov K. B., Vaxidov S. V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. –T.: “Adib”, 2011. – 480 b;
8. Urazov K. B. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari. //“Servis” jurnali. 2009. №1. –B. 107-114.;
9. Urazov K. B., Xudayberdiyev N. U., Annayev M. B., Isroilov Yo. J., Mardonov M. Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditning dolzarb masalallari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011. – B. 75-99;
10. Ядова Н. Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. –2019. № 2. С. 116-125.
11. Головенчик, Г. Г. (2021). Цифровая мировая экономика [Электронный ресурс]: электрон. учеб. –Метод. комплекс.

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA MAVSUMIYLIKNING TURISTIK MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI

Xamzayeva Dilfuza Samarovna
Termiz davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada turizm faoliyatini rivojlantirish, bu borada turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish masalalari, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Ekonometrik modellashtirish asosida mavsumiylikning turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sirini kamaytirish usullari tahlil qilindi, mavjud muammolar ochib berildi va ilmiy asoslangan takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Turizm, davlat, mavsumiylashtirish, tur mahsulotlari, tadbirkorlik, mexanizm, turistik xizmatlar bozori, ekonometrik modellashtirish, daromad.

Abstract: In the article, the development of tourism activities, the issues of seasonalization of the offer of tourist products in this regard, the views of foreign and local scientists were comparatively analyzed. On the basis of econometric modeling, methods of reducing the effect of seasonality on the production of tourist products were analyzed, existing problems were revealed and scientifically based proposals were given.

Key words: Tourism, state, seasonalization, tour products, entrepreneurship, mechanism, tourist services market, econometric modeling, income.

Аннотация: В статье сравнительно проанализированы развитие туристической деятельности, вопросы сезонности предложения туристических продуктов в этой связи, мнения зарубежных и отечественных ученых. На основе эконометрического моделирования проанализированы методы снижения влияния сезонности на производство туристского продукта, выявлены существующие проблемы и даны научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: Туризм, государство, сезонность, турпродукт, предпринимательство, механизм, рынок туристических услуг, эконометрическое моделирование, доход.

KIRISH

Globallashuv davrininng so'nggi yillarida turizm sohasi dinamik taraqqiyotga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatsada, bir vaqtning o'zida, bu sektorda bir qator tizimli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu keskin o'sib borayotgan talab sharoitida, turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda mavsumiylik omilidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini izlab topish masalalarini dolzarblashtirmoqda. Bu o'z navbatida, turizm xizmatlari bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy, institutsional, infratuzilmaviy va boshqa jihatlarini chuqur isloh qilish vazifasini oldinga olib chiqadi.

Shuni ta'kidlash kerak-ki, agar dunyo buylab harakatlanishga ta'sir qiluvchi yangi pandemiya va global mojarolar bo'lmasa, turizm sohasi keyingi 10 yil ichida barqaror o'sishda davom etadi.

Prognozlarga ko'ra, 2033-yilga kelib turizm sektori jahon YIMga qo'shgan hissasini 15,5 trln.dollargacha yetkazadi, bu jahon iqtisodiyotining 11,6 foizini tashkil etadi va butun dunyo bo'ylab 430 million kishini ish bilan ta'minlaydi, 10 yil ichida mehnatga layoqatli aholining deyarli 12 foizi turizm sohasida ishlaydi [1].

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar tomonidan talab qilinadigan turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb vazifasidir. Xizmat ko'rsatish sifatining pastligi, shu jumladan, professional kadrlarning yetishmasligi va kasblarning obro'si pastligi mamlakat turizmning ichki va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lib, ayniqsa, ular turistik xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlashning dolzarb masalalari hisoblanadi. Turistik mahsulotning sifati va xavfsizligini oshirish vazifasi uni ishlab chiqarish jarayonining barcha ishtirokchilarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan hal qilinishi kerak.

Bugungi kunda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini ishlab chiqish, xususan, turizm sohasini rivojlantirishda jahonda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy voqealar oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olgan holda, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtayi nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Turizmda mavsumiylik tushunchasi turizmning ajralmas qismi bo'lib, u birinchi navbatda turizm xizmatlari hajmiga ta'sir qiluvchi salbiy yoki ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash o'rinliki, 1970-yillardan boshlab, ommaviy turizm jadal taraqqiy eta boshlagandan so'ng, mavsumiylik muammosini hal etish dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlabki ilmiy tahlillardan biri 1975-yilda R. R. Baron tomonidan e'lon qilingan ilmiy tadqiqotda o'z aksini topdi. Bu fikrlar "Turizmda mavsumiylik: mavsumiylikni tahlil qilish bo'yicha qo'llanma" nomli tadqiqotida ilgari surildi. Uning ta'rifiga ko'ra: "turizmda mavsumiylik – yil ichidagi tizimli harakat bo'lib, mavsumiylikning xususiyatlaridan biri uning muntazamligi, bu nomutanosiblik esa har yili bir xil vaqt va kattalikda sodir bo'ladi" [2].

MDH mamlakatlari olimlaridan mazkur yo'nalishlar samarali tadqiqotlar muallifi hisoblangan U. Sharafanovaning fikricha, "turizmdagi mavsumiylik turistik faoliyatning turg'un (yildan yilga), ma'lum bir joy uchun xos bo'lgan va dam olish sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan takrorlanuvchi davriy tabiati" deya ta'riflaydi [3].

M. M. Ramadonova va M. A. Makorchenkolarning fikricha, "Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning birinchi navbatdagi vazifalari – bu turizmni huquqiy tartibga solishning kelgusidagi takomillashtirilishi, rivojlanishi va mavsumiylashtirilishi bilan bevosita bog'liq, deb hisoblaydi.

Turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish, bozor mexanizmi shakllanishining qulay shart-sharoitlarini ta'minlash, davlatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini realizatsiya qilish va turizm rivojlanishining umumiy konsepsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi" [4].

K. A. Lebedevaning fikricha, "turistik mahsulotlar taklifini masumiylashtirish davlat siyosatining tarkibiy qismi bo'lishi kerak chunki davlat turistik manzillarni yaratishda bevosita ishtirokchi hisoblanadi va ushbu sohani muvofiqlashtirish bo'yicha mexanizmlar tizimini o'z ichiga oladi", deya ta`riflaydi [5]. Demak, K. A. Lebedeva mavsumiylashtirishda davlatning ham roli ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi.

M. T. Alimovaning fikricha, hududiy turizm bozori rivojlanishida turistik mahsulotlarning taklifini mavsumiylashtirish, turistik mahsulotlar bozorining mo''tadil ishlashini ta'minlash, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqishda ko'maklashish, turistik mahsultlar bozori subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash uchun xizmat qiladi [6].

B. B. Xoshimovning ilmiy izlanishlarida "Turistik xizmatlar bozorida turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish mamlakat hududiy salohiyatidan samarali foydalanishga zamin yaratadi, chunki dastlab turizm sohasida tadqiqotlar nafaqat talabni o'rganish va uning potensial mijozlarini aniqlashga, balki talabni o'zi hisobga olgan holda shakllantirishga ham qaratilgan" [7] deb ta'kidlaydi.

A. A. Qayumov, D. A. Gafurovalarining fikriga ko'ra "O'zbekistonda dam olish maskanlari, davolanishni ta'minlovchi markazlar, kurort maskanlar, ma'daniy va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, tur firmalarning faoliyatini marketing strategiyalari orqali reklama qilish turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirishning asosiy asosi bo'lib xizmat qiladi [8]" deb aytib o'tgan. Rostdan ham mavsumiylashtirish uchun turistlarni jalb eta oladigan maskanlarni yaratish lozim.

Ilmiy izlanishlar natijasida aytish mumkinki, turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish avvalo, davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va yangi maskanlarni ochilishi bilan bog'liq, bu borada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududda istiqomat qiladigan fuqarolardan o'z hududi jozibadorligini oshirishda ko'maklashishi talab etiladi. Ana o'shandagina turistik mahsulotlar taklifi mavsumiylashtirish eng yuqori darajada amalga oshiriladi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish, uning infratuzilmasini rivojlantirish, turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini yoritish jarayonida sohadagi transformatsiya jarayonlarini hisobga olish, turizm sohasida davlatning rolini metodologik o'rganish, bu borada mutaxassislar fikrini o'rganish natijasida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi hamda infratuzilmaning tarkibiy qismlari rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berish yondashuvi asoslandi. Mavsumiylashtirish bo'yicha muammolarning yechimiga qiyosiy tahlil usulidan foydalangan holda ilmiy asoslangan takliflar berildi. Obyekt sifatida turistik mahsulotlari taklifi misol qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Lekin shunga qaramasdan shunday omillar borki, ularning o‘zgarishi turizm sohasida bir qator o‘zgarishlarga olib keladi. Jumladan, 2019-yilda boshlangan pandemiya natijasida O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasida ham bir qator salbiy holatlarga olib keldi. Jumladan, bu mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimining keskin kamayishiga, turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ayrim korxonalarning foydasining qisqarishiga va ayrim hollarda yopilishiga, mehmonxona biznesi rivojlanishining sekinlashuviga olib keldi.

Ushbu omillar albatta, vaqtincha bo‘lib, 2021–2022-yillarda mamlakatimizga xorijiy turistlarning oqimi yana jadallasha boshladi. Deyarli dunyoning barcha mamlakatlaridan turistlar O‘zbekistonga tashrif qilishni boshlab yuborishdi. Lekin bularga qaramasdan, yana bir qator omillar borki, ularni tartibga solish murakkab masala bo‘lib, respublikamizda turizm rivojlanishiga ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, bunday omillar guruhiga mavsumiylik omili kiradi va u O‘zbekistonda turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘z ta’sirini o‘tkazib keladi.

Ushbu omilning respublikamizda turistik mahsulotni ishlab chiqarishga ta’sirini o‘rganishda ekonometrik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotimizda qo‘yiladigan ishchi gipoteza quyidagicha shakllantirildi: Mavsumiylik omili turistik mahsulotlarini ishlab chiqishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu gipotezani tadqiq qilish uchun avvalo, O‘zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishi ko‘rsatkichlari tanlashimiz va mavsumiylik omilini hisoblashimiz zarur.

O‘zbekistonda turizm rivojlanish faoliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzish uchun quyidagi omillar tanlab olindi (2000-2022-yillar bo‘yicha ma’lumotlar): natijaviy ko‘rsatkich – turistik faoliyatdan olingan daromad, mlrd. so‘m – (Y), ta’sir etuvchi omillar – tashrif buyurgan turistlar, ming kishi hisobida – (X_1), turistik xizmatlar eksporti, mln. AQSh doll. hisobida – (X_2), turistik faoliyat olib borayotgan firma va tashkilotlar soni, birlik – (X_3), mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni – (X_4), turizm sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar mlrd. so‘m – (X_5) va mavsumiylik ko‘rsatkichi – (X_6).

Turizm faoliyati bo‘yicha tadqiq qilinayotgan o‘zgaruvchilarning o‘lchov birligi turlicha bo‘lganligi uchun hamda ko‘p omillik ekonometrik modelning interpritatsiyasini yaxshiroq tushuntirish uchun barcha omillar qiymatlarini logariflaymiz.

Respublikamizda turizm faoliyati bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazamiz. Tavsifiy statistika natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Omillar bo‘yicha tavsifiy statistika

	lnY	lnX_1	lnX_2	lnX_3	lnX_4	lnX_5	lnX_6
Mean	4.832101	7.187931	4.796947	5.845297	6.027963	2.921470	47.59091
Median	4.786547	7.004730	4.922225	5.792939	6.030581	3.071825	49.50000
Maximum	6.860873	8.817001	7.180070	7.054450	7.080026	3.985273	67.00000
Minimum	3.165475	6.507576	3.072693	4.927254	5.375278	0.875469	7.000000
Std. Dev.	1.216033	0.683359	1.343790	0.613214	0.571798	0.849127	16.12056
Skewness	0.172291	0.899210	0.298751	0.404960	0.445560	-0.886339	-1.002415
Kurtosis	1.678359	2.906357	1.906496	2.548709	1.834031	3.278479	3.457442
Jarque-Bera	1.710015	2.972826	1.423362	0.787999	1.974115	2.951611	3.876212
Probability	0.425280	0.226183	0.490818	0.674354	0.372672	0.228595	0.143976
Sum	106.3062	158.1345	105.5328	128.5965	132.6152	64.27234	1047.000
Sum Sq. Dev.	31.05346	9.806566	37.92120	7.896670	6.866021	15.14135	5457.318
Observations	22	22	22	22	22	22	22

Jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o‘rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo‘lib, u nolga teng bo‘lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya’ni musbat bo‘lsa, u holda o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi. 0 dan kichik, ya’ni manfiy bo‘lsa, u o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo‘ladi. Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

Normal taqsimot funksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$p(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma}} \cdot e^{\frac{-(x-a)^2}{2\sigma^2}}, \quad -\infty < x < \infty \quad (1)$$



1-rasm: Omillarning taqsimot funkiyalari grafiklari

1-rasmdagi grafiklardan shuni ko‘rish mumkinki, barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan. Ayrim omillarning ekstsess koeffitsiyenti 3 dan katta bo‘lgani uchun normal taqsimotning nazariy grafigidan uchqirroq bo‘lgan ($\ln X_5$ va $\ln X_6$).

Hisoblangan $\ln Y$, $\ln X_1$, $\ln X_2$, $\ln X_3$ va $\ln X_4$ omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari musbat bo‘lganligi sababli ular grafiklarining o‘ng “dumi” nazariy normal taqsimot grafiklaridan o‘ngga surilgan. Faqat $\ln X_5$ va $\ln X_6$ omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari manfiy bo‘lganligi uchun, mazkur omillarning taqsimot funksiyasi grafiklarining chap “do‘mi” nazariy normal taqsimot grafiklaridan chapga surilgan.

Mazkur surilishlar asosan o‘rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Ayrim yillarda ba’zi omillar keskin ortishga ega bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlarida o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lmagan. Umuman olgandan o‘rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan.

O‘zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishi ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish uchun modelga kiruvchi omillarni tanlashda korrelyatsion tahlil o‘tkaziladi. Buning uchun omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida turistik faoliyatdan olingan daromad ($\ln Y$) hamda unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning analitik ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$\ln \hat{Y} = -4{,}2049 + 0{,}3232 \ln X_1 + 0{,}2428 \ln X_2 + 0{,}2347 \ln X_3 + 1{,}0469 \ln X_4 + \\ + 0{,}2773 \ln X_5 - 0{,}0042 \ln X_6 \quad , \quad (1)$$

O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar asosida hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model (1) shuni ko‘rsatadiki, tashrif buyurgan turistlar soni (lnX_1) o‘rtacha bir foizga ortsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi (lnY) o‘rtacha 0,3232 foizga ortar ekan. Respublikada turistik xizmatlar eksporti (lnX_2) o‘rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi (lnY) o‘rtacha 0,2428 foizga ortar ekan. Respublikada turistik faoliyat olib borayotgan firma va tashkilotlar soni (lnX_3) o‘rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi (lnY) o‘rtacha 0,2347 foizga ortar ekan. Respublikada mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni (lnX_4) o‘rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi (lnY) o‘rtacha 1,0469 foizga ortar ekan. Respublikada turizm sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar (lnX_5) o‘rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi (lnY) o‘rtacha 0,2773 foizga ortar ekan. Va nihoyat, turizm sohasida mavsumiylik ko‘rsatkichi (lnX_6) o‘rtacha bir foizga ortishi, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmini (lnY) o‘rtacha 0,0042 foizga kamayishiga olib kelar ekan.

Ushbu omillarning grafiklari quyidagicha (2-rasm).

2-rasm: O‘zbekistonda turizmdan olingan daromad hajmining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2030-yillarga prognoz qiymatlari, mlrd. so‘m

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan shuni aniq ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda turizmdan olingan daromad hajmi 2000-yildan toki 2005-yilgacha umuman daromad tushumi bo‘lmagan, 2006-yildan boshlab toki 2009-yilgacha daromad hajmi 954,2 mlrd.so‘mgacha o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Covid-19 pandemiyasi natijasida respublikamizda 2020-yilda turizmdan olingan daromad hajmining keskin tushish kuzatilgan, olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 2021-yilda daromad hajmining yana oshishini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqilgan prognoz ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda turizmdan olingan daromad hajmining dinamikasi 2000–2021-yillarda va 2022–2030-yillar uchun rivojlanish dinamikasini taqqoslaganimizda bashorat ko‘rsatkichlari tendensiyasi yuqori ko‘rsatkichlarni, ya’ni 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 1814,2 mlrd.so‘mga yoki 219 foiz o‘sish mumkinligini, 2030-yilda esa 2021-yilga nisbatan 4537,9 mlrd.so‘mga, 550 foiz o‘sish mumkinligini ko‘ramiz. Bu o‘z navbatida respublika budjet daromadlari salohiyatining oshishi va bu orqali respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi maqsadlarida turizm sohasini rivojlanishini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistik firmalarning bozordagi raqobatbardoshligi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, faoliyatining moliyaviy natijalari turistik kompaniyalari uchun to‘g‘ri tanlangan diversifikatsiya strategiyasiga bog‘liq. Shu sababli, turistik mahsulotlarni mavsumiylashtirishning shart-sharoitlari turistik xizmatlarni diversifikatsiyalashga bevosita bog‘liq. Boshqacha aytganda, turistik mahsulotlar tarkibini diversifikatsiyalash orqali mavsumiylik natijasida yuzaga keladigan noqulayliklar ta’sirida yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan foyda hajmini saqlab qolish yoki kutilayotgan zarar miqdorini kamaytirishga erishish mumkin. Shu sababli, mavsumiylik bilan bog‘liq eng muhim strategiyalaridan biri – bu turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilinishi shart. Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalashning obyektiv zarurati asosan mavsumiylik tebranuvchi tendensiyalardan iborat bo‘lganligi sababli, bu omilidan oqilona va samarali foydalanishga bo‘lgan obyektiv talabdan kelib chiqadi. Turizmning mavsumiyligi ko‘pincha nazorat qilib bo‘lmaydigan holatdir, uning ta’siri turizmning o‘sishi bilan parallel ravishda kuchayadi, boshqa tomondan, mavsumiylik “mavsumiy yo‘qotish” deb ataladigan qiymat yo‘qotilishini

ham yuzaga keltiradi. Agar turizm xizmatlari lozim darajada diversifikatsiyalashtirilmasa, u holda, mavsumiy biznes operatsiyalarining ta'siri vaqt o'tishi bilan turizm resurslaridan foydalanishning notekis taqsimlanishiga, shuningdek, resurslardan samarasiz foydalanish, potensial foydani yo'qotish, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarga bosimga hamda ma'muriy boshqaruvdagi tizimli qiyinchiliklariga olib keladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida respublikamizda turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga mavsumiylikning ta'sirini ekonometrik modellashtirildi va prognozlash ishlarini amalga oshirishimiz natijasi ko'rsatishicha yaqin (2–5-yil) yillar davomida rivojlanish barqaror tendensiyaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мировой туризм в 2023 году восстановится на 95%. Этому помогут китайские туристы.https://www.atorus.ru/node/52405.режим доступа: 05.05.2023.
2. Bar-On, Raphael Raymond V. 1975. Seasonality in tourism: A guide to the analysis of seasonality and trends for policy making. London: Economist Intelligence Unit Ltd.
3. Шарафанова Е. Е. Стратегическое планирование развития туристских организаций и гостиничных комплексов: монография / Е. Е. Шарафанова; научный редактор И. Н. Гаврильчак; Санкт-Петербургский государственный университет сервиса и экономики. –СПб., 2015. –180 с. Қаранг: Джанджугазова Е. А. Маркетинг в индустрии гостеприимства: Учеб. пособие. 2-е издание – М.: Академия, 2016. –250 с.
4. Рамадонова М. М., Макарченко М. А. Государственное регулирование туристической деятельности //Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. –2016. – С. 211-213.
5. Лебедев К. А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. –2014. – №. 24. –С. 139-141.
6. Alimova M. T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I. f.d. diss. –Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
7. B. B. Xashimov "Turizm sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
8. A. A. Qayumov, D. A. Gafurova "O'zbekistonda turizm va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish – REspublika iqtisodiyotini yuksaltiruvchi muhim omil". IQTISOD VA MOLIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2014, 10 b.
9. Xamzayeva D. S. Turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirishni takomillashtirish yo'llari va istiqbollari.// Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 3-son. T. 23. – №. 3. –S. 337-341.
10. Новичков В. И., Полозков М. Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах // Journal of new economy. –2008. – №. 3 (22). –С. 46-49.8.

YURIDIK SHAXSLAR SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH OMILLARI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH MUAMMOLARI

Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada soliq yukini baholash bo‘yicha olimlarning turli fikr va qarashlari nazariy jihatdan o‘rganilgan. Muallif tomonidan yuridik shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti va tartibi, soliq turlari va uning amaldagi holati tahlil qiln gan hamda tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini baholash va optimallashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq yuki, soliqqa tortish, soliq stavkalari va turlari, soliq hisooboti.

Abstract: The article theoretically examines various opinions and views of scientists on the assessment of the tax burden. By author analyzed the practice and procedure of taxation of legal entities, types of taxes and their current state, as well as developed scientific conclusions and proposals for assessing and optimizing the tax burden of business entities.

Key words: tax burden, taxation, tax rates and types, tax reporting.

Аннотация: В статье теоретически исследуются различные мнения и взгляды ученых на оценку налогового бремени. Автором проанализированы практика и порядок налогообложения юридических лиц, виды налогов и их текущее состояние, а также разработаны научные заключения и предложения по оценке и оптимизации налогового бремени субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: налоговая нагрузка, налогообложение, налоговые ставки и виды, налоговая отчетность.

KIRISH

Xo‘jalik subyektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo‘lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli soliq yukining og‘irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to‘lovlilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Daqhaqiqat, davlatning subyektlarga ma’lum bir turdagi “xizmat”larni ko‘rsatish moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bunday xizmat mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlash, sog‘liqni saqlash va maorif, sog‘lom va barkamol avlodni yetishtirish, xalqning madaniy meroslarini asrash (avaylash) kabi turli xil vazifalarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Davlatning amalga oshiradigan mazkur vazifalarining moliyaviy manbalarini ta’minlash soliqlar ko‘rinishida aks etadi. Bu esa, shubhasiz soliq munosabatlari ishtirokchilari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning zimmasidagi yuk bo‘lmish soliq yuki hisoblanadi.

Davlat uchun eng katta fiskal ta’sirga va soliq to‘lovchilar uchun moliyaviy ta’sirga davlat tomonidan tartibga solish siyosati va soliq yukini optimallashtirish asosida erishish mumkin. Optimallashtirish jarayoni davlat tomonidan soliq yukining muvozanat narx parametrlarini qonuniy ravishda belgilashni nazarda tutadi.

Optimal muvozanatlashgan soliq yuki va chegaralari (qo‘shilgan qiymatdagi soliq ajratmalarining pastki va yuqori darajalari) har bir mamlakat va uning rivojlanish davrlari uchun o‘z qiymatlarida individualdir. Ma’lum bir vaqt oralig‘ida bir mamlakat iqtisodiyoti uchun optimal deb hisoblangan soliq yukining miqdori boshqa bir mamlakat iqtisodiyoti uchun turli vaqt o‘lchovlarida ortiqcha yoki kam baholanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, har bir davlat o‘zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, maqbul soliq siyosatini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq yuki soliq munosabatlarining ajralmas xususiyati sifatida, birinchi navbatda, xususiy sektorning moliyaviy resurslarini olib qo‘yishning ma’lum darajasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida ushbu ko‘rsatkichni miqdoriy aniqlash muammolari an’anaviy ravishda ilmiy izlanishlar markazida bo‘ladi.

Soliq yukining nazariy va uslubiy jihatlarini va uning iqtisodiy faoliyat samaradorligiga ta’sirini o‘rganish uning shakllanishi va nisbiy darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashni o‘z ichiga oladi.

“Soliq yuki” ta’rifining kontseptual va kategorik asoslanishi haqida gapirganda, uni talqin qilish va miqdoriy aniqlashga turli xil yondashuvlarni keltirish mumkin. Shunday qilib, soliq yukining miqdoriy jihatini va uning iqtisodiyotga bosimini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan F. Yusti, uning iqtisodiy tarkibini makro daraja uchun “budjet va davlatning milliy daromadi o‘rtasidagi nisbat...”, deb ta’rifladi. K. Brauerning so‘zlariga ko‘ra, soliq yuki “davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yuklaydigan yukdir. Bunday soliq yukining ta’siri soliqqa tortishning og‘irligi sifatida belgilanib, bu bir tomondan yukning yuklanishi va soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyati o‘rtasidagi munosabatlar bo‘lsa, boshqa tomondan soliq majburiyati va uni ishlab chiqarish tomonidan o‘tkazish qobiliyati o‘rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi, agarki soliq to‘lovi ishlab chiqarish xarajatlarining ajralmas qismi bo‘lsa.”

Soliq yukini birinchilardan bo‘lib, F. Yusti miqdoriy baholashni taklif qildi, uni budjet va davlatning milliy daromadi o‘rtasidagi nisbat sifatida belgilab, “milliy daromadning 1/6 qismini sarflaydigan budjet normal bo‘ladi” – deb ta’kidladi. Undan keyin A. Bifeld “siyosiy ko‘rsatmalar” asarida soliq yukining maqbul miqdoriga empirik baho berdi: “Agar kim suveren o‘z fuqarolariga yuklashi mumkin bo‘lgan soliqlarning ushbu chorasini tayinlash uchun umumiy qoidani so‘rasa, unda… sog‘lom siyosat har birining daromadiga 25 foiz miqdorni belgilaydi. Agar bundan ko‘proq narsani talab qilish kerak bo‘lsa, unda… odamlar charchashadi; agar kamroq bo‘lsa, u barcha davlat xarajatlari uchun yetarli bo‘lmaydi”.

Shuni ta’kidlash kerakki, soliq yuki darajasini aniqlashning uslubiy yondashuvlarini aniqlaydigan va ushbu ko‘rsatkichni batafsil bayon etadigan ko‘plab ilmiy nashrlar mavjud. Ba’zi mualliflar soliq yuki ko‘rsatkichini soliq yig‘ish koeffitsiyentiga, ya’ni barcha turdagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik yillik o‘sishi miqdoriga moslashtirishni taklif qilishadi. Bunday tuzatish zarurati ular tomonidan soliq to‘lovlari va to‘lanmagan jarimalar bo‘yicha mavjud qarz obyektlari bilan izohlanadi va hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni e’tiborsiz qoldirish soliq yukining haqiqiy darajasini buzadi.

Shu bilan birga, taklif qilingan usullar bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkichlar ma’lum bir to‘lov manbasiga nisbatan moliyaviy bosimni tavsiflaydi va shuning uchun cheklangan doiraga ega bo‘lishi mumkin. Turli xil bazalarga ega soliqlardan foydalanishga asoslangan amaldagi soliq tizimi sharoitida umumiy soliq yukini miqdoriy baholash yagona integral bazaga qisqartirilishi kerak.

Soliq yukini baholash va optimallashtirish muammolarini nazariy tahlil qilish qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligini va shunga mos ravishda olingan natijalarning ba’zi nomuvofiqligini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, bunday xilma-xillik soliq yukini makroiqtisodiy tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, uning davlatlar iqtisodiy o‘sishining endogen soliq determinantlarini faollashtirish va soliq siyosatining tegishli choralarini ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish hamda ular zimmasidagi soliq yukini aniqlash va baholash bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, soliq stavkalari va daromad manbalarini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta’minlash, shu jumladan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda mulk huquqini ta’minlash bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag‘lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Quyida yuridik shaxslarni soliqqa tortish, jumladan, ularning soliq yuki darajasining amaldagi holatini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, soliq turlari va to‘lov muddatlarining hamda korxona faoliyat natijalarining raqamlardagi ifodasi bo‘lmish hisobot shakllari sonining ko‘pligi xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy munosabatlarida tushunmovchilik va noaniqliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. Soliq islohoti konsepsiyasi doirasida ham ayni shu masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Soliqlar sonini bir xillashtirish orqali optimallashtirish, shuningdek, soliq solinadigan bazasi o‘xshash soliq turlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish soliq islohotining yana bir muhim vazifa yo‘nalishlaridan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida mazkur yo‘nalishda salmoqli ishlar olib borildi (1-jadval).

1-jadval: Soliqlar soni, hisobot va to‘lov muddatlari[1]

№	2018-yildagi soliq turlari, hisobotlari, to‘lovlari	2022-yildagi soliq turlari, hisobotlari, to‘lovlari
Saqlab qolingan soliq va yig‘imlar		
1	QQS – stavkasi 20% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik	QQS – stavkasi 15% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
2	Aksiz solig‘i To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik	Aksiz solig‘i To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
3	Bojxona boji va yig‘imlari To‘lov muddati – Deklaratsiyani topshirishdan oldin yoki o‘sha vaqtda	Bojxona boji va yig‘imlari To‘lov muddati – Deklaratsiyani topshirishdan oldin yoki o‘sha vaqtda
4	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i – stavkasi 14% To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har choraklik	Foyda solig‘i – stavkasi 15% To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har choraklik
5	Yagona soliq to‘lovi – stavkasi 5% To‘lov muddati – har choraklik Hisobot muddati – har choraklik	Aylanmadan olinadigan soliq – stavkasi 4% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
6	JShODS – stavkasi 4 shkala bo‘yicha 0%-22% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik	JShODS – stavkasi 12% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
7	Yagona ijtimoiy to‘lov – stavkasi 25%, KK uchun – 15% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik	Ijtimoiy soliq – stavkasi 12% To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
8	Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har choraklik	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq To‘lov muddati – har oylik Hisobot muddati – har oylik
9	Bonuslar	Bonuslar
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik
11	Mol-mulk solig‘i – stavkasi 5% To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik	Mol-mulk solig‘i – stavkasi 1,5% To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik
12	Yer solig‘i To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik	Yer solig‘i To‘lov muddati – har oylik, har choraklik Hisobot muddati – har yillik
13	Davlat boji	Davlat boji
14	Yig‘imlar	Yig‘imlar
Birlashtirilgan soliqlar		
15	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	-
16	Yagona yer solig‘i	-

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Bekor qilingan soliqlar		
17	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	-
18	Davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar	-
19	Qo‘shimcha foyda solig‘i	-
Joriy qilingan soliq turlari		
20	-	Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i
		To‘lov muddati – har choraklik
		Hisobot muddati – har choraklik
21	-	Utilizatsiya yig‘imi
		To‘lov muddati – har oylik
		Hisobot muddati – har oylik

Soliqlarni kamaytirish va unifikatsiya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan:

- infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, davlat jamg‘armalariga ajratmalar, qo‘shimcha foyda solig‘i qisqartirildi;
- neft mahsulotlarini ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yagona yer solig‘i – boshqa soliqlar bilan birlashtirildi;
- yig‘imlardan – avtotransport vositalarini sotib olinganligi va (yoki) O‘zbekiston hududiga vaqtincha olib kirilganligi uchun yig‘im chiqarib tashlandi.

Bir vaqtning o‘zida renta solig‘i va utilizatsiya yig‘imi kabi yangi to‘lovlar joriy etildi. Soliq va yig‘imlar soni 2018-yilda 19 tani, 2022-yilda 16 tani tashkil etdi.

To‘lanadigan soliqlar soni bo‘yicha olinsa:

- umumbelgilangan soliqlarning o‘rtacha to‘lovchisida to‘lanadigan majburiy soliqlar soni (aksizlar, yer qa’ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar, shuningdek, yig‘imlar to‘lovchilarini hisobga olmaganda) 2018-yildagi 8 tadan 2022-yilda 6 taga kamaydi;
- soliqlarni soddalashtirilgan tartibda to‘laydigan o‘rtacha to‘lovchi uchun (2019-yildan boshlab aylanmasi 1,0 mlrd so‘mgacha bo‘lgan) majburiy soliqlar soni 2018-yildagi 3 tadan 2022-yilda 5 taga ko‘paydi (2-jadval).

Tadbirkorlik faoliyatini manzilli qo‘llab-quvvatlash, ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimini yo‘lga qo‘yildi. Xususan, ularga yengillashtirilgan moliyaviy resurslar ajratilib kelinmoqda.

Mazkur islohotlar natijasi o‘laroq haqiqiy soliq yukini bilish uchun biz shartli misol yordamida yoritib o‘tishga urinib ko‘ramiz. Tahlilning xolisligi uchun umumbelgilangan tartibda (yirik va o‘rta korxonalar) va soddalashtirilgan tartibda (kichik korxonalar) soliqlarni 2018-yilgi soliqlar sharoitida to‘laydigan korxonaning shartli namunasi olinib, 2022-yilda amalda bo‘lgan soliqlar sharoitidagi holat bilan taqqoslanadi.

2-jadval: 2018 va 2022-yillarda soliqlarning yalpi tushumdagi ulushining taqqoslama jadvali (shartli misollarda, ming so‘mda)[2]

№	Ko‘rsatkich nomi	2018-yil		2022-yil shartlaridagi 2018-yil	
		Umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish tizimi	Soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish tizimi	Aylanmasi 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan	Aylanmasi 1 mlrd so‘mgacha bo‘lgan
1	Mahsulot realizatsiyasidan yalpi tushum	80 000	80 000	80 000	80 000
2	Sof tushum (QQS va YaST chegirgan holda)	66 667	76 000	69 565	76 800
3	Sotilgan mahsulot tannarxi, shundan	60 000	60 000	60 000	60 000
	Ish haqi xarajatlari	30 000	36 000	36 000	36 000
4	Yalpi foyda	6 667	16 000	9 565	16 800
5	Soliqlar, shu jumladan:				
5.1	QQS (hisobga olish (zachet)ni hisobga olmaganda) soliq stavkasi: 2018-yil-20%, 2022-yil-15%	13 333	-	10 435	-

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

5.2	Yagona ijtimoiy to‘lov (2020-yildan ijtimoiy soliq) soliq stavkasi: 2018-yilda kichik korxonalarga-15%, qolganlari-25%, 2022-yilda-12%	7 500	5 400	4 320	4 320
5.3	Mol-mulk solig‘i soliq stavkasi: 2018-yilda-5%, 2022-yil-1,5%	3 310	-	1 000	1 000
5.4	Yer solig‘i soliq stavkasi: har yili indeksatsiya qilinadi	1 200	-	2 000	2 000
5.5	Foyda solig‘i soliq stavkasi: 2018-yilda-14%, 2022-yilda-15%	933	-	1 339	-
5.6	Yagona soliq to‘lovi (2019-yildan aylanmadan olinadigan soliq) soliq stavkasi: 2018-yilda-5%, 2022-yilda-4%	-	4 000	-	3 200
6	Jami soliq to‘lovlari	26 277	9 400	19 094	10 520
7	Yalpi tushumdagi barcha soliqlarning ulushi	32,8%	11,8%	23,9%	13,2%

2-jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, 2018-yilda yirik va o‘rta korxonalarga soliq yuki darajasi kichik korxonalarga soliq yuki darajasidan deyarli uch baravar ko‘p edi (mos ravishda 32,8 foizga 11,8 foiz). Soliq islohoti natijasida (2022-yil soliq tizimi sharoitida) yirik va o‘rta korxonalarga soliq yuki sezilarli darajada kamaydi (32,8 foizdan 23,9 foizga tushdi), aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan kichik korxonalarga soliq yuki deyarli o‘zgarmadi. Ilgari kichik korxonalar toifasi xodimlar sonidan kelib chiqib aniqlangan bo‘lsa, tadbirkorlik subyektlari toifalarini yillik tovar aylanmasi summasidan kelib chiqib belgilash joriy etildi. Shu bilan birga, aylanmasi 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan kichik korxonalar uchun soliq yuki sezilarli darajada oshdi (8,5 foizdan 13,2 foizgacha).

Bugungi kunda, tadbirkorlik subyektlari o‘zlarining narx va hisob siyosatini shakllantirishda soliq to‘lovlarini optimallashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratishmoqda. Zamonaviy ilg‘or korxonalarda davlatning soliq siyosatidagi o‘zgarishlardan kelib chiqib, rahbarlarga samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan butun boshli bo‘linmalar faoliyat yuritishadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar mamlakatda amalda bo‘lgan barcha soliq turlariga bog‘liq bo‘ladi.

Soliq yuki oshib borishi ortidan, ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotlarining narxini oshirish orqali fiskal yukning bir qismini iste’molchiga “o‘tkazishi” mumkin. Xarajatlarning oshishi soliq to‘lovlari miqdoriga turlicha ta’sir qiladi. Masalan, ish haqining o‘sishi ijtimoiy soliq oshishiga olib keladi, ammo foyda solig‘i bazasini kamaytiradi. Yaratilgan kapital yoki moliyaviy qo‘yilmalar qiymatidagi soliqlar bo‘yicha imtiyozlar korxonalarning investitsion va innovatsion faoliyatini kuchaytiradi.



1-rasm: 1997-2022-yillar davomida yuridik shaxslar uchun soliq turlari kesimida amalda bo‘lgan soliq imtiyozlari soni[3]

3 O‘zbekiston Resapublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq imtiyozlari orqali soliq to‘lovchilarning soliq yuki kamaytiriladi. Soliq imtiyozlari budjetga tushumlarni kamaytirgani bois, fiskul nuqtayi nazarda ularni amalda qo‘llash davlat manfaatlariga mos emas. Ammo soliq imtiyozlari tufayli iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini va xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadining o‘sishi, o‘z navbatida soliq bazasining oshishiga, bu esa budjetga soliq daromadlari tushumining oshishiga olib kelishi mumkin.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 1997–2013-yillar oralig‘idagi davrda yuridik shaxslar uchun 9 ta soliq turlari bo‘yicha jami 82 ta soliq imtiyozlari amalda bo‘lgan bo‘lsa, 2014–2017-yillar oralig‘idagi davrda esa jami 118 ta soliq imtiyozlari mavjud bo‘lgan. 2018-yilda amalga oshirilgan soliq islohoti natijasida yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish borasida ham sezilarli o‘sishga erishilgan. Xususan, 2018–2022-yillar davomida jami 557 ta, shundan 2020-yilni o‘zida foyda solig‘i bo‘yicha – 25 ta, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha – 109 ta, aksiz solig‘i bo‘yicha – 11 ta, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha – 13 ta, mol-mulk solig‘i bo‘yicha – 23 ta, yer solig‘i bo‘yicha – 38 ta, ijtimoiy soliq bo‘yicha – 5 ta, aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha – 19 ta soliq imtiyozlari amaliyotda foydalanilgan. 2020-yilda soliq imtiyozlarining bu qadar keng ko‘lamda taqdim etilishi shu yili kuzatilgan koronavirus pandemiyasi bilan bevosita bog‘liq. Koronavirus pandemiyasi davrida infeksiyaning keng tarqalishining oldini olishga qaratilgan maxsus choralar, karantin cheklovlari joriy etilishi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini olib borishda ayrim cheklanishlarga sabab bo‘ldi. Shu munosabat bilan, iqtisodiy o‘sish va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish sur’atlarini tiklash, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular uchun bir qator imtiyoz va yengilliklar taqdim etildi.

3-jadval: Yuridik shaxslar uchun ayrim soliq turlari bo‘yicha soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi,4 foizda

Soliq turlari	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda 2018-yilga nisbatan o‘zgarish, barobar
Foyda solig‘i (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun)	14	12	12	15	15	▲1,07
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	20	15	15	15	15	▼ 1,33
Yagona soliq to‘lovi, 2019-yildan AOS (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun)	5	4	4	4	4	▼ 1,25
Yagona ijtimoiy to‘lov, 2019-yildan ijtimoiy soliq	15	12	12	12	12	▼ 1,25
Mol-mulk solig‘i	5	2	2	2	1,5	▼ 3,33

Soliq solishning tez-tez o‘zgarib turishi har doim ham ish yuritishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi, shuning uchun soliq yukini muntazam ravishda ko‘rib chiqish tadbirkorlar uchun majburiy tartibga aylanib qolmoqda. Shuningdek, mamlakat budjetini to‘ldirish uchun davlat soliq yig‘ishni qattiqlashtirishi natijasida soliq bosimi tobora kuchayib borishi xech kimga sir emas. Soliq yukini hisoblashda har bir tadbirkor bitta maqsadga ega – bu qiymatning muhim ko‘rsatkichiga erishishdir. Maqsadga erishgandan so‘ng, ularning soliq majburiyatlari qonuniy ravishda kamayadi.

Yuridik shaxslarning zimmasidagi soliq yukini aniqlash bo‘yicha hozirgi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda turli xil yo‘nalishlar mavjud. Ularni hisoblash yuridik shaxslar hamda iqtisodiyot qay darajada soliq yuki ta’sirida faoliyat ko‘rsatayotgani aniqlash imkonini beradi.

Yuqori soliq yuki korxonalarni norasmiy iqtisodiy faoliyat (yashirin qora bozor)da ishlab chiqarishga rag‘batlantirsa (undasa) ham, soliq organlari nazariga tushib qolmaslik ehtimolini kamaytirish maqsadida unumdorligi past bo‘lgan kichik korxona bo‘lib qolishga moyilligini oshiradi. Buning ustiga, soliq tizimi qanchalik keng ko‘lamli va murakkab bo‘lsa, korxonalar soliqni to‘lash uchun shuncha ko‘p vaqt va mablag‘ sarf qiladilar.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori soliq stavkalari, jumladan, transfert manfaatlarini yo‘qotishni aks ettiruvchi bilvosita soliq stavkalari, ishlab chiqarish faoliyatini qisqartiradi, bandlik va investitsiyaga to‘sqinlik qiladi hamda resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanishga olib keladi. Ular rivojlanishga va daromadlarning o‘sishiga g‘ovdir. Undan tashqari, iqtisodiy turg‘unlik davrida soliq stavkalarining keskin oshirilishi iqtisodiyotda halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hukumatlar tomonidan soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha soliq tushumlarini jalb qilish uchun islohotlar doimiy ravishda o‘tkazilib kelinadi. Bizning mamlakatimizda ham biznesni yuritish, tashqi va ichki investitsiya hajmini yanada oshirish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash

4 Muallif tomonidan tayyorlandi.

hamda qulay va sog‘lom raqobat muhitini yaratish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, biznesni yuritishni soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini kamaytirish, ular keltirayotgan iqtisodiy-ijtimoiy naflarni hisobga olib, ularga soliq imtiyozlari, yengilliklari, preferensiyalaridan foydalanish huquqini berishda adolatlilik prinsiplariga amal qilish bo‘yicha qator masalalarni hal etish davr taqozosi ekanligini qayd etish lozim.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik foliyatini rivojlantirish, teng raqobat muhitini yaratish, ularning soliq yukini kamaytirish hamda amaldagi qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi fikrlar ilgari suriladi:

1. Iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur kirish va tahlil ishlarini olib borish va yuritish, bunda quyidagi masalalarni e’tiborga olish:
   - Mahsulotning har bir o‘lchami uchun qancha miqdorda soliq to‘lanayotganligi;
   - Ishchilar soni va o‘rtacha oylik maoshi;
   - To‘lanayotgan majburiy to‘lovlar bo‘yicha ayni bir xil sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini o‘zaro taqqoslash orqali soliq yukini qayta taqsimlash.
2. Soliq to‘lashni ommalashtirish, soliq to‘lovchilar, ayniqsa, yuridik shaxslar reytingini tuzish orqali yuqori o‘rin (ball)larni qo‘lga kiritgan tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha yengillik, rag‘batlantirish va preferensiyalar taqdim etish va shu orqali ularning soliq yukini kamaytirishga erishish.
3. Soliq to‘lovchilar, ayniqsa, yuridik shaxslar reytingini shakllantirish uchun ular faoliyatini baholash bo‘yicha ochiq-oshkora mezonlarni aniq belgilash;
4. Reytingni shakllantirishda xususan, quyidagilarni nazarda tutish:
   - Soha bo‘yicha eng ko‘p soliq to‘lovchi tadbirkorlik subyektlari;
   - Soliq rejimi bo‘yicha eng ko‘p soliq to‘lovchi tadbirkorlik subyektlari;
   - Soha bo‘yicha eng ko‘p oylik ish haqi to‘lovchi tadbirkorlik subyektlari;
   - Soha bo‘yicha eng ko‘p ishchi o‘rni yaratgan tadbirkorlik subyektlari;
   - Faoliyatini uzoq vaqtdan beri amalga oshirib kelayotganligi hamda yildan yilga o‘sish ko‘rsatkichiga egaligi;
   - Tadbirkorlik subyektining debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati, qarzdorlik summasining kam miqdorda saqlanib turishi;
   - Soliq qarzining mavjud emasligi va (yoki) qarzdorlikning tez qoplanishi;
   - Ish faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng jalb qilgan tadbirkorlik subyektlari kabi yana boshqa yo‘nalishlar.
5. Belgilangan reyting mezonlari bo‘yicha yuridik shaxslar faoliyatini baholashda maksimal ravishda inson omilidan cheklangan holda avtomatlashtirilgan tizimlar vositasida aniqlashga alohida e’tibor qaratish;
6. Reyting mezonlari bo‘yicha yuridik shaxslar faoliyat natijalari baholarini internet tarmog‘ida ochiq platforma orqali muntazam e’lon qilib borish.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning soliq yukini nol miqdorgacha tushirish imkonsiz ekanligini anglagan holda aytish mumkinki, ularning soliq yukini fiskal instrumentlar va qo‘shimcha dastaklar vositasida optimallashtirib turish orqali tadbirkorlik faoliyatining bir maromda rivojlanishiga hamda budjetga soliq tushumlarining uzluksiz kelib tushishiga erishish mumkin. Albatta, bu holatda ularning soliq yukini me’yorlash uchun adolatlilik va tenglik mezonlari asosida qonuniy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / Literatura / Literature:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.
Xudayberganova Zarofat Zaxidovna
PhD, Toshkent moliya instituti “Bank hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy bank xizmatlari, mobil-banking, supermarket-banking, moliyaviy savodxonligi, internet-banking, internet, onlayn-bank, virtual ofis, kaftingizdagi bank.

Abstract: The article identifies current problems related to the organizational and economic basis of providing remote banking services by commercial banks and develops scientific proposals aimed at solving them.

Key words: Remote banking, mobile banking, supermarket banking, financial literacy, internet banking, internet, online banking, virtual office, bank in the palm of your hand.

Аннотация: В статье обозначены актуальные проблемы, связанные с организационно-экономическими основами предоставления дистанционных банковских услуг коммерческими банками, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: Удаленный банкинг, мобильный банкинг, банкинг в супермаркете, финансовая грамотность, интернет-банкинг, интернет, онлайн-банкинг, виртуальный офис, банк на ладони.

DOLZARBLIGI

Jahonda tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish hamda yangi zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlarni mijozlarga yetkazish madaniyatini oshirish aholi keng qatlamining bankka bo‘lgan ishonchini oshirish, banklar tomonidan yirik mijozlarni jalb qilish, ularning talab va takliflarini e’tiborga olgan holda yangi masofaviy xizmat turlarini taklif etish, mijozlarning fikrini doimiy e’tiborga olgan holda xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Respublikada “yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish” [1] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta’minlashda tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq mezonlar bank strategiyasida o‘z ifodasini topmaganligi, banklar xizmat turlari hamda sifatida jiddiy o‘zgarishlar yuz berayotganligini, chet el banklari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari o‘rnatilganligini hamda xorij tajribalarini O‘zbekistonda ijobiy qo‘llashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlari nazariyasi tarixi qator bosqichlarni bosib o‘tgan. Bank xizmatlar nazariyasi rivojlanishini boshlang‘ich bosqichida X. Duglas [2] va G. Brayanning ilmiy ishlari banklar xizmati bozori hamda uning bank xizmatlari segmentini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ikkinchi bosqichda, mamlakatlarning iqtisodiyot tizimlari faoliyatining xususiyatlarini hamda boshqa omillarning bank xizmatlari bozoriga ta’sirini tadqiq etishga bag‘ishlangan F. Derek [3] O. Donnel, Ye. Ballarin ilmiy ishlarida aks etadi. Keyingi

3-bosqichda “Moliyaviy supermarket” va “moliyaviy butik” g‘oyalari bo‘yicha fikrlar ilgari surilgan.Bank xizmatlari bozorida mavjud ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar keng tarqalgan bo‘lib, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko‘paydi. Bu borada D. Jentle, J. Sinki [4], P. Rouz ilmiy ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo‘yicha biz qator MDH davlatlari olimlarining ham qarashlarini o‘rganib chiqishga harakat qildik. Albatta, bu sohada rossiyalik olimlarning asarlarida turlicha yondashuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Rossiyalik iqtisodchi olimlar tijorat banklarining masofaviy xizmatlari to‘g‘risida ko‘pchilik bildiradigan fikr atrofida mulohazalar bildirishini ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodchi olim I. I. Biychkova “tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini aksariyat hollarda mijozning bankga bormasdan kompyuter texnologiyalari va telefon tarmog‘i orqali topshirig‘iga asosan amalga oshirilishi”, [5] deb qaraydi. O.I. Lavrushin “banklarning masofaviy xizmatlari bu bankning o‘z mijozlari (jismoniy va yuridik shaxslar)ga turli bank operatsiyalariga masofadan turib ruxsat berish bo‘yicha kompleks xizmatlaridir” [6] degan ta’rif beradi. Shuningdek, O. I. Lavrushinning fikricha, “bank operatsiyalari bank funksiyalarining amaliyotda amalga oshirilishi bo‘lsa, bank xizmatlari esa bir yoki bir necha operatsiyalarning bank mijozi topshirig‘iga asosan va ma’lum to‘lov evaziga amalga oshirilishini ko‘zda tutadi degan qarashni o‘rtaga suradi” [7]. Albatta, tijorat banklarining masofaviy xizmatlari o‘zining qo‘llanilishi va bajarilishi jihatdan masofadan amalga oshiriladigan xizmatdir. Ammo prof. O. I. Lavrushinning yuqorida keltirib o‘tgan fikrlari bizni bank operatsiyalari, bank xizmatlari va mahsulotlari to‘g‘risida qisqacha bo‘lsa-da, fikrimizni bayon qilishga undaydi.

Rossiyalik olimlar A. M. Tavasiyev, T. Yu. Mazurina, V. B. Выchkovlarning fikricha, “bank xizmatlari bank operatsiyalariga qo‘shimcha hisoblanib ularga bank operatsiyalarining qo‘shimcha bir turi sifatida qarash mumkin. Ushbu olimlarning fikri bo‘yicha bank xizmatlari va bank operatsiyalari o‘rtasida farq mavjud emasdek tuyuladi. Lekin bilamizki, bank faoliyati mijozlar va ularning talablarini qondirish bilan bog‘liq. Shuning uchun banklar operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijozlarga qanday va qaysi turdagi xizmatlar ko‘rsatishi mumkinligini belgilab olishi, ularni mijozlarga yetkazishi lozim” [8].

E. P. Jarkovskaya “...bank masofaviy xizmatlari bank ofisida aynan bank xodimi va mijoz ishtirokida emas balki uyda, ish joyida, umuman mijozga qulay bo‘lgan joyda xizmat ko‘rsatishdir”[9] degan ta’rifni keltiradi. A. S. Goncharukning “Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir” [10].

Mahalliy olimlarimizdan prof. Sh. Z. Abdullayevaning [11] masofaviy bank xizmatlari to‘g‘risidagi fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg‘or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko‘rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e’tibor qaratgan. Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan mahalliy olimlarimizdan yana biri Z. T. Mamadiyarovning fikricha, “...bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog‘liq” [12]. X. Xudoyarova [13] “bank chakana xizmatlari bozorini takomillashtirishga qaratilgan strategik maqsadga erishishda, chakana bank xizmatlarini yetkazib berish jarayonini bir standartga solish asosida zamonaviy, innovatsion “online” xizmat turlarini joriy etish orqali, bank chakana xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish hamda bank mijozlari talabini qondirish” taklifini ilgari surish orqali tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga urg‘u berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, bevosita bank xizmatlaridan mijozlarning mamnunligi bank va mijoz uchun birdek zarur hamda ahamiyatli ekanligi to‘g‘risida fikr yuritgan tadqiqotchi A. Rahimov [14] mijozlarning bank xizmatlaridan mamnunlik darajasini aniq, to‘liq va tezkor baholash nafaqat banklar uchun xizmatlar sifatini oshirishi, balki, mijozlar uchun qulay bankni tanlay olish imkoniyatlarini kengaytira olishi bilan ham dolzarb masalalardan hisoblanishi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan.

O‘TKAZILGAN TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mijozlar tomonidan banklarni tanlab olishda asosiy omillar: bank xizmatlari xilma-xilligi, xizmatlar narxi (ta`riflar, vosita haqi) va kredit resurslari uchun foiz stavkalari e’tiborga olinadi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun komissiyalar va foiz stavkalari miqdori o‘zgarishida daromadlarning birdan kamayishi xatarini pasaytirish maqsadida banklar moliya bozorida holatni doimo tahlil qilib borishi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarif stavkalarini o‘zgartirish bo‘yicha choralar ko‘rishi kerak.

Mijozning bankka nisbatan munosabatini, bank bilan o‘zaro aloqa o‘rnatishidan maqsadini ifodalaydigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Mijozlarning ehtiyoji (qiziqishi). Mijoz qaysi bank muassasasining ishonchliligini baholashi muhim omillardan biri sanaladi.

2. Bank imiji. Bunda bankning tashqi ko‘rinishi, zamonaviy tashkiliy texnika va uskunalarga egaligi, xodimlarining tashqi ko‘rinishi, bankdagi axborot materiallari (buklet, prospektlar)ning jozibadorligi, tovarlarni taqdim etish uslubining qulayligi va zamonaviyligi juda muhim. Bank imiji mijozlar fikriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasidagi bir qator ilmiy ishlarni o‘rganish natijasida biz tomonimizdan masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning “mijoz fikri” mexanizmi ishlab chiqildi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning “mijoz fikri” mexanizmini ishlab chiqishda birinchi navbatda, mazkur jarayonni bosqichlarga ajratib olgan holda e’tibor qaratish lozim deb topdik. Bunda, uchta bosqich asosida mexanizm ishlashini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.



1-rasm: Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning “mijoz fikri” mexanizmi [15]

Bank amaliyotida yuqori samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri yangi salohiyatli mijozlarni ko‘proq jalb etish sanaladi. Bunda, shuningdek, mijozlarga sifatli bank xizmati ko‘rsatish orqali ularning ishonchini mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud farqlarga qaramay, mijoz-bank va internet-bank tizimlariga asoslangan masofadan bank xizmati ko‘rsatish mijozlarga xizmat ko‘rsatishning an’anaviy bank usullari oldida o‘xshash afzalliklarga ega, ya’ni:

- kompyuter bor bo‘lgan va internet global tarmog‘iga kirish imkoni bo‘lgan har qanday joydan turib, mijoz o‘z hisobvaraqlaridan foydalanishi hamda transaksiyalarni amalga oshirishi mumkin;
- servisdan haftasiga 7 kun, sutkasiga 24 soat mobaynida foydalansa bo‘ladi;
- transaksiyalar darhol bajariladi va tasdiqlanadi – ma’lumotlar ishlash vaqti bankomatda ma’lumotlar ishlash vaqti bilan bir xil;
- amalga oshiriladigan operatsiyalar doirasi ancha keng: hisobvaraqlar bo‘yicha mablag‘lar harakatini nazorat qilishdan tortib, ipoteka kreditiga buyurtma berishgacha operatsiyalarni bajarish mumkin.

Shuningdek, har bir tijorat banki uchun dastlab mijozning moliyaviy savodxonlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Chunki banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy xizmatlar xususida mijozlarda yetarlicha ko‘nikmalar mavjud bo‘lmasa bevosita bankka murojaatlar soni ortishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida bank xodimlarining vaqtini shu murojaatlar bilan ishlash uchun sarflashlariga to‘g‘ri keladi. Har bir tijorat banki albatta, mijoz uchun kurashadi. Ya’ni mijozlar sonini orttirishga harakat qilib boradi. Bu borada tijorat banklari turli xildagi marketing yo‘nalishlaridan foydalanadi. Tijorat banklari nafaqat mijozlar sonini orttirishga, shu bilan bir qatorda ko‘rsatilayotgan xizmatlari ko‘lami va sifatini ham oshirishga parallel ravishda harakat qilishadi. Shu o‘rinda qayd etib o‘tish joizki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari sifatini oshirish va onlayn kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlashga xizmat qiladigan “moliyaviy savodxonlik markazlari”ni tashkil etish taklifi amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

mijozlari sonini ortishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida bankning masofaviy xizmatlarining ko‘lami va sifatini ortishiga xizmat qildi.



2-rasm: Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari [16]

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida tijorat banklari tomonidan birinchi marta bankka tashrif buyurgan aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik, ya’ni bank bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha maslahatlarni berishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, bu borada aniq taktika va strategiya ishlab chiqish, taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo‘lga qo‘yish, har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini muhokama qilib borish masalalariga e’tibor qaratish lozim.

Kelajakda respublikamiz bank tizimi yanada taraqqiy ettirishi lozim bo‘lgan yo‘nalish – bu Mobil-banking bank kartalari yoki hisob raqamlarini cho‘ntak ixcham kompyuterlari, kommunikatorlar va smartfonlar orqali onlayn tizimida boshqarish hisoblanadi. Bu barcha turdagi moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Shifrlash mexanizmi hamda elektron raqamli imzo (ERI)ni o‘z ichiga olgan holda jamoa bo‘lib ishlash imkoniyatini ham yaratadi.



3-rasm: Elektron bankingning turlari [17]

Mobilbanking “Kaftingizdagi bank” konsepsiyasini amalga oshirgan holda tunu-kun ishlaydi, tezkor va mijozlarning elektron banking xizmatlari spektridan to‘liq funksiyada foydalanishni ta’minlaydi.

Ushbu xizmat turi, ayniqsa, so‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab taraqqiy etishini kuzatishimiz mumkin, chunki barcha insonlar kundalik turmush hayotlarida bevosita qo‘l telefonlaridan foydalanishadi. “Mobilbanking” ilovalarining mukammal ishlab chiqish va ular orqali ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilash uchun quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- “Mobil banking” ilovalarining (dizayn) ko‘rinishini yanada takomillashtirish va soddalashtirish hamda foydalanish jarayonidagi nosozliklarni (server bilan uzilishlar) bartaraf etish hamda “Mobil banking” ilovalaridan foydalanish bo‘yicha tushunarli tarzda targ‘ibot vositalari, videoroliklarni tayyorlash va uni bankning rasmiy vebsayti hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga yetkazish;
- Mobil bank xizmatlaridan foydalanuvchilarni ishonchli identifikatsiyalash tizimini yanada takomillashtirish va buni masofaviy amalga oshirish, “mobile banking” ilovalari orqali tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida ilovalar orqali qabul qilingan axborotlarni tahlil qilishda sun’iy intellekt hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;
- “Mobil banking” ilovalari orqali masofadan olinadigan mikroqarz, mikrokredit va overdraft kabilarni amalga oshirishning tartib-taomillarini belgilab beruvchi yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;
- masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishda axborot xavfsizligini ta’minlash va bu borada xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali axborot xavfsizligini ta’minlashning yangi innovatsion shakllarini qo‘llash lozim.

Shu o‘rinda, banklar tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar faoliyati samaradorligini yanada oshirish, raqobatda ustunlikka erishish uchun zamonaviy marketing tamoyillaridan maqsadli foydalanish talab etiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasining muhim bo‘g‘inlaridan biri sanalgan bank faoliyatida yangi mijozlarni jalb etish hamda mavjudlari ishonchini mustahkamlash jarayoniga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Umuman olganda, mijozlar biznesida quyidagi 4 ta muhim vazifa amal qiladi: mijozni jalb etish, uning ishonchini mustahkamlash, rivojlantirish va keraksiz (foyda keltirmaydigan) mijozlardan voz kechish. Ushbu tizimda mijozlarni jalb etish birinchi o‘rinda turishi bejiz emas.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimida muayyan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, bank mijozlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimi takomillashib, bank va mijoz o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda, mijozlar uchun masofadan xizmat ko‘rsatishning hamda lizing va faktoring kabi xizmatlarning yangi turlari, mikromoliyaviy xizmatlar, hisob-kitoblarni amalga oshirishda akkreditiv to‘lov hujjatlari, plastik kartochkalar, shuningdek, elektron to‘lovlarning yangi turlaridan foydalanilmoqda.

Ilmiy yangiligi: Tijorat banklari ustav kapitalining 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotish orqali tashqaridan zamonaviy korporativ boshqaruv va masofaviy bank xizmatlari amaliyotini joriy etish taklif etilgan, onlayn muddatli omonat va onlayn jamg‘arma depozitlarni joriy etish taklif etilgan holda jamg‘arma depozit hajmini 10,2 foizgacha oshirish asoslangan, onlayn kreditlar berishda depozit va kreditlarning muddatiga mos ravishda differensiatsiya asosida foiz belgilash amaliyotini qo‘llash orqali banklarning onlayn kredit xizmatlari jozibadorligini oshirish asoslangan, onlayn muddatli va jamg‘arma depozitining ulushini oshirish orqali bankning barqaror resurslari hajmini ko‘paytirish va onlayn kredit xizmatlari ko‘lamini oshirishning 2025-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan.

XULOSA VA NATIJA

Mamlakatda tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni oshirish lozim:

Banklar tomonidan mijozlarga erkinliklar yaratish va ularga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga o‘tish tamoyili asosida keng ko‘lamdagi masofaviy xizmat turlari taklif qilinmoqda. Xizmat ko‘rsatishni elektronlashtirish, ularni unifikatsiyalash va mobilligini oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Mijozlarga masofadan xizmat ko‘rsatishning takomillashib borishi bank xizmatlari ichida mijozga telefon, modem va kompyuter yordamida bank operatsiyalarini o‘tkazishga imkon beradi va bank xizmatlari tannarxini pasaytiradi, operatsiyalar tezligini oshiradi. Bunday zamonaviy xizmat turlari jahonning istalgan joyida bank hisob-kitoblarini o‘tkazishga imkon beradi.

Masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning fikrlari hamda ularning moliyaviy savodxonligi asosiy masalalardan ekanligini inobatga olgan holda, mijozlar uchun qulay hamda ularga tushunarli bo‘lgan yangi masofaviy xizmat turlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Tavsiyalar: tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish hamda isloh etishga bag‘ishlangan qonunosti hujjatlarni ishlab chiqish, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishda raqamli bank, online bank xizmati tizimini shakllantirish orqali banklarning innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. – М.: Слово, 1971. – 508 с.
3. Дерек Ф. Глобальная стратегия банков. – М.: Экономика и финансы, 1990. – 385 с.
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.
5. Бычкова И. И. Технологические инвации в продаже банковских продкутов / И. И. Бычкова, О. Г. Семенюта // Современные технологии управления. – 2016. – №3 (63). – С. 55-62.
6. Лаврушин О. И. Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. -М.: КНОРУС, 2016.- 576 с.
7. Банковское дело / Под ред. О. И. Лаврушина. М: Финансы и статистика, 2011. 454 с.
8. Тавасиев А. М., Т. Ю. Мазурина, В. Б. Бычков.Банковское кредитование.М.:ИНФРА-М. 2012.507 с.
9. Жарковская Е. П. Банковское дело.М.: ОМЕГА-Л. 2014. 413 с.
10. Гончарук А. С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К. Л. Хета-гурова – Шахты, 2012. –183 с.
11. Abdullayeva Sh. Z.. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb.
12. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.
13. Xudayarova X. A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2020. 63 b.
14. Rahimov A. Mijozlarning bank xizmatlaridan mamnunlik darajasini oshirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021-yil. ISSN: 2181-1016.
15. cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
16. cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
17. O. Sattarov, M. Tangishov "Internet-banking". –Monografiya.:Toshkent 2014-y.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI VA TASHQI MUHIT

Saypullayev Ilhomjon Abduraxmonovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), NamMQI, Menejment kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ichki va tashqi muhit yaratilishining ahamiyati yoritib berilgan. Mamlakatda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarning qonuniy asoslari ishlab chiqilganligi, tadbirkorlik faoliyati uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar va mamlakat rahbarining tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotlarida mazkur muammolar yechimi bo‘yicha bergan takliflarining amaliyotga joriy etilishi, qabul qilingan Prezident qarorlarida ularning aks ettirilganligi bo‘yicha tahlillar keltirib o‘tilgan. Ichki muhitni yaratishda muhim omillardan biri bo‘lgan marketingni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligining tahlili amalga oshirilgan. Kompaniyaning butun hayotiy sikli 6 ga: “Paydo bo‘lish”, “Rivojlanish”, “Etilish”, “Pasayish”, “Inqiroz” va “Tiklanish” davrlariga bo‘lingan va har bir davrda marketing bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning asosiy yo‘nalishlaridan bir nechtalari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes korxonalari, innovatsiya, korxonalarni deformatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, moliyaviy kredit va motivatsion fon, mikro biznes, kichik biznes, o‘rta biznes, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, tadbirkorlik jamg‘armasi, moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiyalar, eksport, brend, soliq ma’muriyatchiligi, tijorat banki, biznesga ko‘maklashish markazlari, marketing.

Abstract: This article highlights the importance of creating an internal and external environment necessary for the development of small and medium-sized businesses. The analysis of the development of the legal framework for efforts to support entrepreneurship in the country, the problems that become an obstacle to entrepreneurship and the implementation of the proposals made by the President in his open dialogues with entrepreneurs to solve these problems, their reflection in the decisions taken, was given. An analysis of the correctness of marketing was carried out, which is one of the important factors in creating an internal environment. The entire life cycle of the company is divided into 6 periods: They are: “emergence”, “development”, “maturity”, “decline”, “crisis” and “recovery”, and in each period there are several main activities which carried out in the field of marketing.

Key words: Small business enterprises, innovation, enterprise deformation, small business and private entrepreneurship, prerequisites for financial lending and motivation, microbusiness, small business, medium business, entrepreneurship support mechanism, entrepreneurship fund, financing mechanisms, investment, export, brand, tax administration, commercial bank, business assistance centers, marketing.

Аннотация: В этой статье подчеркивается важность создания внутренней и внешней среды, необходимой для развития малого и среднего бизнеса. Был приведен анализ развития правовой базы для усилий по поддержке предпринимательства в стране, проблем которые становятся препятствием для предпринимательской деятельности и внедрения в практику предложений высказанных президентом в его открытых диалогах с предпринимателями по решению этих проблем, их отражения в принимаемых решениях. Был проведен анализ правильности маркетинга, который является одним из важных факторов создания внутренней среды. Весь жизненный цикл компании делится на 6 периодов: “возникновение”, “развитие”, “зрелость”, “упадок”, “кризис” и “восстановление”, и в каждом периоде приводится несколько основных направлений деятельности, осуществляемых в области маркетинга.

Ключевые слова: Предприятия малого бизнеса, инновация, деформация предприятия, малый бизнес и частное предпринимательство, предпосылки финансового кредитования и мотивации, микробизнес, малый бизнес, средний бизнес, механизм поддержки предпринимательства, фонд предпринимательства, механизмы финансирования, инвестиции, экспорт, бренд, налоговое администрирование, коммерческий банк, центры содействия бизнесу, маркетинг.

KIRISH

Jahon tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, kichik va o‘rta biznesning sivilizatsiyalashuvi nafaqat milliy iqtisodiyotimizni, balki mamlakatimizning ijtimoiy hayotini tubdan yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi eng katta daryolar ham asosini kichik irmoqlardan olgani singari iqtisodi baquvvat rivojlangan mamlakatlarning daromad manbayi bo‘lgan katta-katta konsernlar, sanoat korxonalari ham dastlab kichik biznes korxonalari negizida shakllangan. Kichik korxonalar o‘zlarining ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorliklari bilan mamlakat bozorida raqobat muhitini yaratadi, bu esa o‘z navbatida tovar va xizmatlar sifatini oshib narxini pasayishiga xizmat qiladi. Mulkchilik shaklidan qat’i-nazar kichik korxonalar sonining ko‘payishi mahsulotlar turi va assartimentini ko‘payishi bilan mahsulotlar tanqisligini bartaraf etadi.

Shuning uchun kichik biznes korxonalari oqimini muntazam kuchaytirib borish, ularni rivojlanishi va gigant korxonalarga aylanishi uchun ham tashqi, ham ichki qulay muhitni yaratib bera olish muhim hisoblanadi.

Tashqi muhit mamlakatni iqtisodiy sohada olib borayotgan islohotlari hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning qonuniy asoslari orqali tashkil topsa, ichki muhit esa korxonaning kadrlar salohiyati, oqilona boshqaruvi, innovatsion va kreativ yondashuv, eng muhimlaridan biri esa marketingni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidir.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaratilgan tashqi muhitni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, hozirgi kunlarda mamlakatimizdagi ijtimoiy hayotning turli sohalarida kichik tadbirkorlikni shakllantirish jarayoni hali ham juda qiyin va og‘riqli kechmoqda. Korxonalarni rivojlantirish zarur hollarda deformatsiyalash jarayonlari byurokratik yoki moliyaviy to‘siqlarga uchrash bilan birga nafaqat hisoblash mumkin bo‘lgan daromadni bermaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yangi qiyinchiliklarni, yangi iqtisodiy va ijtimoiy anomaliyalarni keltirib chiqaradi.

So‘nggi yillarda davlat rahbari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kuchli ijtimoiy islohotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, milliy iqtisodiyotimizning bozor o‘zgarishi davrida kichik biznesni shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy mexanizmi mukammal tarzda ishlab chiqildi deb ayta olmaymiz. Tadbirkorlik uchun hali ham jahonning ilg‘or davlatlardagi kabi qulay moliyaviy, kredit va motivatsion fon mavjud emas, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, ilmiy qo‘llab-quvvatlash, konsalting, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yaratilmagan. Shuningdek, kichik biznesni shakllantirish sohasida maqbul bo‘lgan davlat va huquqiy qo‘llab-quvvatlash choralarining konsepsiyasi, modeli va tizimi to‘laqonli shakllantirilmagan. Umumiy holatda aytadigan bo‘lsak kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish tizimida hosil bo‘layotgan nazariy va amaliy muammolarni hal qilish mexanizmi hali ham shakllanish bosqichida.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2022-yilning 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 5 ta yo‘nalishda tashabbuslar keltirib o‘tilgan. Birinchi yo‘nalishga ko‘ra korxonalar toifalarga ajratilib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida yondashuv belgilanishi, ya’ni 1 mlrd. so‘mgacha mablag‘ aylanmasiga ega bo‘lgan korxonalar – mikro biznes, 10 mlrd. so‘mgacha mablag‘ aylanmasiga ega bo‘lgan korxonalar – kichik biznes; 100 mlrd. so‘mgacha mablag‘ aylanmasiga ega bo‘lgan korxonalar o‘rta biznes toifalariga ajratilishi va ular bo‘yicha alohida soliq stavkalari joriy qilinishi aytildi. Shunga ko‘ra ikkinchi toifadagi korxonalar yillik foyda solig‘ini 2 barobar kam to‘lanishi, 2-toifadan 3-siga o‘tgan korxonalar ikki yil uchun soliqning 50 foizini to‘lash imtiyoziga ega bo‘lishi, mulk sug‘urtasining 50 foizi budjet hisobidan to‘lab berilishi kabi imtiyozlar yaratib berilishi aytib o‘tildi.

Bundan tashqari, keltirilgan ikkinchi tashabbusga ko‘ra kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar uchun 20 trillion so‘m miqdoridagi mablag‘lar ajratilishi, tuman va shaharlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, biznes uchun alohida yondashuvlar joriy qilinishi rejalashtirilgan edi.

Mazkur tashabbuslar ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan soliq islohotlarini izchil davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish hamda 2022-yilning 22-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash asosiy maqsad etib belgilandi hamda yuqoridagi tashabbuslarning qonuniy asoslari ishlab chiqildi.

Kichik biznes O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi va ishlab chiqarishning umumiy hajmida salmoqli ulushni egallaydi. Biroq kichik biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan bir qator muammolar mavjud, masalan, investitsiyalarning yetishmasligi, raqobatbardoshlikning pastligi, kredit olishda qiyinchiliklar va boshqalar. Umuman olganda, O‘zbekistonda kichik biznes o‘sish va rivojlanish salohiyatiga ega, ammo davlat va investorlarning qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2023-yil 18-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan navbatdagi ochiq muloqotida qilgan murojaatida jahonda ro‘y berayotgan siyosiy holat tufayli tadbirkorlarning logistika va ta’minot zanjiridagi uzilishlar, yuqori global inflyatsiya sabab hamkor mamlakatlardagi valyuta devalvatsiyasi, moliyaviy resurslar narxining oshishi kabi omillar bilan kurashishga majbur bo‘layotganliklarini ta’kidlab o‘tdi. Shu bilan birga tadbirkorlikni qo‘llab -quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirib borish yuzasidan mamlakat rahbarining tadbirkorlar bilan tashkil etilgan ochiq muloqotida biznes vakillarining taklif va mulohazalari, biznesni rivojlantirishning kelgusi qadamlarini belgilab beruvchi yillik tadbirlardan biriga aylanishi bildirib o‘tildi.

Prezident aytganidek, O‘zbekiston iqtisodiyotida o‘rta biznes muhim o‘rin tutadi, biroq ular uchun hozirgi sharoit yetarli emas. Shu bois kichik biznesdan o‘rta biznesga o‘tishga intilayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi yondashuvlar amalga oshiriladi.

Joriy yilda O‘zbekiston prezidenti tadbirkorlar bilan ochiq muloqot chog‘ida kelib tushgan takliflar asosida ishlab chiqilgan va mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining faoliyat usullarini sezilarli darajada qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yaqin kelajakda Tadbirkorlik jamg‘armasi xizmat ko‘rsatish, ekologik va energiyani tejash loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi esa sanoat loyihalarini nazorat qilish uchun javobgar bo‘lishi, mablag‘larni boshqarish uchun chet ellik malakali menejerlar taklif qilinishi, bundan tashqari, jamg‘armalar budjet mablag‘laridan tashqari mustaqil investitsiyalarni jalb qilish huquqiga ega bo‘lishi aytildi.

Prognozlarga ko‘ra, bunday mablag‘lar orqali jamg‘armalar kelgusi yilda o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha 1 milliard dollar to‘play oladi. Har bir hududda kamida uchtadan yangi sanoat zonalari tashkil etiladi. Sanoat ipoteka tizimi joriy etiladi, tadbirkorlar uchun “tayyor korxonalar” ko‘rinishidagi ishlab chiqarish maydonlari barpo etiladi. Sanoat zonalarida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so‘ng yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlanadi.

Kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar ochib berish yuzasidan O‘zbekistonda kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratish maqsadida “Qishloqqurilish bank” Business Development Bankga aylantirilishi rejalashtirildi. Bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o‘zgarishlarga uchrashi, xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etilib ularda tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o‘qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalarga zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo‘lga qo‘yishda yordam berishi ma’lum qilingan edi.

Bundan tashqari, yurtboshimiz o‘z nutqida yuqorida aytilgan jamg‘armalarga mustaqil ravishda investitsiyalarni jalb qilish huquqi berilganini, bu jamg‘armalar kelgusi yilda o‘rta biznes uchun qo‘shimcha 1 milliard dollar sarmoya jalb etishni maqsad qilganini ta’kidladi.

Mamlakatimiz uchun eksportni kengaytirishning yana bir muhim imkoniyatlaridan bu O‘zbekistonga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish ekanligi aytib o‘tildi. Jumladan, hozirda Ispaniya, Germaniya, Polsha va Turkiyaning yirik brendlari bilan muzokaralar o‘tkazish jarayoni boshlangan.

Mahalliy korxonalarga sarmoya kiritish va buyurtma berishni osonlashtirish uchun ularni tashvishga soladigan uchta muhim masala hal qilinishi, ya’ni ishlab chiqarish uchun xalqaro standartlar, ekologik va sertifikatlashtirish talablari amalga oshirilishi, tegishli mehnat sharoitlari yaratilishi, taniqli brendlar mahsulotlarini olib kirish va olib chiqishda qulay bojxona rejimi joriy etilishi shubhasiz katta qadam hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan muloqotlar natijasida mavjud muammolarni bartaraf etish hamda kichik biznesni yanada qo‘llab-quvvatlash mexanizmini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-292-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda o‘tgan ikki yilda biznes vakillari bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotlar natijasida tadbirkorlik sohasida ko‘plab tizimli muammolar hal etilgani, shu jumladan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta’minlash, tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilganligi ko‘rsatib o‘tildi.

Muloqot doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan qariyb 6 mingta murojaatda ko‘tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirishning ustuvor vazifalarini bajarish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Unda kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o‘rta biznesni barqaror iqtisodiy o‘sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori daromadli korxonalarni ko‘paytirish, sodda soliq ma’muriyatchiligi va byurokratiyadan holi bo‘lgan qulay muhit yaratish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

“Qishloqqurilish bank” aksiyadorlik tijorat banki negizida kichik biznes subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. Bank huzurida xalqaro moliya institutlarining mablag‘lari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali istiqbolli kichik biznes loyihalarini amalga oshiradigan “Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilishi belgilandi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirishga ko‘maklashish, ularga konsalting xizmatlarini ko‘rsatishga mas’ul bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta kichik biznesga ko‘maklashish markazlari tashkil etiladigan bo‘ldi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlik subyektlari loyihalarini kengaytirish va yangi kichik biznes loyihalarini ishga tushirish maqsadida qulay shartlarda kreditlar ajratish va ularga garov talabi 50 foizga kamaytirishi belgilandi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanib o‘ta qulay foiz stavkalarda uzoq muddatgacha kredit mablag‘lari ajratilishi belgilandi.

Tadbirkorlarning kreditlarni qaytarish jarayonidagi muammolar bilan bog‘liq holatlar uchun iqtisodiy jarima va to‘lovlarni yumshatish bo‘yicha qator choralar belgilab qo‘yildi.

Yuqoridagilarga asoslanib O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda tashqi muhitning o‘rnini aniqlash uchun oxirgi bir yarim yildagi islohotlarni tahlili bo‘yicha aytishimiz mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli tobora ortib borishi bilan birga tadbirkorlikning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilishga yordam beradigan mexanizm takomillashib bormoqda.

O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda ichki muhitning asosiy omillaridan bo‘lgan marketing sohasini yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib chiqamiz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida tashkil etilgan katta-katta loyihalar amalga oshmasdan qolib ketganligi, xorijiy investitsiyalar hisobiga yoki xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan ishlab-chiqarish quvvatlari kutilgan iqtisodiy samara keltirmagan holatlari mavjudki, ularning asosiy sabablaridan biri bu marketingni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi deyishimiz mumkin. Tarixda ko‘rishimiz mumkinki, transport xarajatlarining mahsulot tannarxiga ta’siri, mavjud xom ashyo zaxirasi, ishlab chiqariladigan tovarning bozordagi raqobatbardoshligi, mahalliy xom ashyolarning xorijdan katta mablag‘ hisobiga keltirilgan ishlab-chiqarish texnologiyasiga mos kelmasligi, bozor ko‘lami kabi marketingning oddiy hisob-kitoblari to‘g‘ri tahlil qilinmaganligi natijasida katta iqtisodiy zarar ko‘rish holatlari bo‘lgan.

Hozirgi kunda kichik biznes sohasida marketingni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaslik hisobiga rivojlana olmayotgan yoki faoliyati tugatilgan korxonalarni ham juda ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Xalqimiz orasida marketing o‘zi nima ekanligi, uning mohiyatini tushunmaydiganlari katta qatlamni tashkil etadi. Vaholanki, tadbirkorlar xalqning ichidan yetishib chiqadi.

1980-yillarda mamlakatimizning iqtisodiy oliy o‘quv muassasalarida marketing kursi o‘qitila boshlagan bo‘lsa-da, asosiy tushunchalar O‘zbekistonga 1990-yillardan boshlab kirib kela boshlagan. Marketing bo‘yicha xorijiy adabiyotlar tarjima kilingan holda, O‘zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham yangi darslik va qo‘llanmalar yaratib kelinmoqda.

Oradan 30-40 yil o‘tgan bo‘lsa ham omma ichida ko‘pchilik “marketing” tushunchasini “sotish” so‘zining analogi sifatida ishlatishadi.

Yoxud marketologlar haqida odamlarda shakllangan noto‘g‘ri tushunchalarni 7 guruhga bo‘lib, tahlil qilib chiqish mumkin;

Ularning birinchisi odamlar marketologlarni “Reklamachilar” – deb o‘ylashadi. Tovarlar va xizmatlarni targ‘ib qilish va reklama qilish faoliyati deb tushunishadi. Sotish yoki reklama marketing jarayonining bir qismidir, ammo marketing yanada kengroq ma’noga ega.

Ikkinchi yanglish tushuncha bu “Qutqaruvchilar” bo‘lib, biznes bankrot bo‘lgan paytdagina marketologlar kelib tezkor qutqaruv choralarini ko‘radi, deb o‘ylashadi. Uchinchi yanglish tushuncha “Sotishni qo‘llab-quvvatlovchi” – bo‘lib, faqatgina tovar va xizmatlarni sotish tadbirlarini ko‘ruvchi insonlarni tushunadilar. To‘rtinchi yanglish tushuncha marketing bu – “Korxonadagi shunchaki shtat birligi” bo‘lib ish o‘rni qisqargan yoki tanish-bilishlarni vaqtincha ish bilan ta’minlab turuvchi ish o‘rni, deb o‘ylashadi. Beshinchi yanglish tushuncha esa raqobatchilar nimalarni sotishyapti, qanday usulda va qanaqa narxlarda degan savollarga javob izlashadi

degan fikrdalar. Oltinchi yanglish tushuncha “G‘oyakorlar” – deb o‘ylashadi. G‘ayratli, yangi g‘oyalarga ega, tinib-tinchimas odamlar. Tadbirkorga kelib foyda olish yo‘llarini ko‘rsatib bera oladiganlar degan fikrdalar. Yettinchi yanglish fikr esa biznesni inqirozga uchrashi, tovarlarni sotilmay qolishi, barcha ayb marketologlarga yuklatilishi kerak deb o‘ylashadi.

Aslida esa Marketing bu – Kompaniyaning butun hayotiy sikli davomida foydalaniladigan, aniq ko‘rsatkich va raqamlarga asoslangan hamda biznesni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, xaridorlarni jalb qilish va ushlab qolishga qaratilgan muhim strategik tadbirlar kompleksi.

КОМПАНИЯНИНГ БУТУН ҲАЁТИЙ ЦИКЛИ ДАВОМИДА МАРКЕТИНГ



Таҳлил, мақсад қўйиш, стратегия ишлаб чиқиш	Таҳлил, мижозларни жалб қилиш ва ушлаб қолиш	Истеъмолчилар эҳтиёжини юқори даражада қондириш, содиқлик дастурларини яратиш, статистика юритиш, брендинг	Таҳлил, мавжуд имкониятларни қайта кўриб чиқиш, Ребрендинг (номланиш, ғоя, логотип, позицияни ўзгартириш)	Диверсификация (фаолият доирасини кенгайтириш, товар ва хизматлар турини ўзгартириш)	Фаолиятни мувофиқ - лаштириб бориш

Yuqoridagi chizmada kompaniyaning butun hayotiy sikli 6 ga, “Paydo bo‘lish”, “Rivojlanish”, “Yetilish”,“Pasayish”, “Inqiroz” va “Tiklanish” davrlariga bo‘lingan va har bir davrda marketing bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy tadbirlardan bir nechta yo‘nalishlarilari keltirib o‘tilgan.

Kichik biznesda marketing mavzusi dolzarbdir, chunki tobora ko‘proq kompaniyalar o‘z bizneslarini kengaytirish va daromadlarni oshirishga intilmoqda. Kichik biznes mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish uchun marketing vositalaridan to‘g‘ri foydalansagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Kichik biznes bilan ishlashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan asosiy jihatlardan biri shundaki, ushbu bozor segmentida raqobat juda yuqori. Shuning uchun raqobatdan ajralib turish va mijozlar e’tiborini jalb qilish uchun samarali, hududlar sharoiti va aholi mentalitetiga mos keladigan marketing strategiyalaridan foydalanish kerak. Kichik biznes odatda cheklangan marketing budjetiga ega, shuning uchun iloji boricha samarali bo‘ladigan va katta xarajatlarni talab qilmaydigan vositalarni tanlash kerak. Kichik biznesda marketing kompaniyaning imidjini yaratish va uning raqobatchilar o‘rtasida obro‘sini ko‘tarishda katta ahamiyatga ega. Kompaniya marketing strategiyasini to‘g‘ri tanlay olsa, bu mijozlar sonining ko‘payishiga, sodiqlik darajasining oshishiga va moliyaviy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keladi.

O‘rta biznes iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, marketologlar yangi mijozlarni jalb qilish va mavjudlarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. O‘rta biznes kompaniyalar o‘rtasida raqobat juda kuchli va beshavqat bo‘lish bilan birga mag‘lubiyatga uchrash kichik biznesdan ko‘ra birmuncha ko‘proq darajada og‘riqli bo‘ladi. O‘rta biznes kompaniyalari iste’molchilar imtiyozlari va bozor talablarining o‘zgarishi bilan

bog‘liq jarayonda diversifikatsiya bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin, bu esa marketing strategiyasini doimiy tahlil qilish va moslashtirishni talab qiladi. Va nihoyat, o‘rta biznesdagi marketing o‘z mahsulotlari va xizmatlariga e’tiborni jalb qilishga yordam beradi, bu esa savdo va rentabellikning oshishi orqali asosiy maqsad bo‘lgan foyda olish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda o‘rta biznes marketingining dolzarbligini bir qancha omillar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin:

- birinchidan ko‘plab iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar singari O‘zbekistonda ham o‘rta va kichik biznes subyektlari sonining jadal o‘sishi kuzatilmoqda.
- ikkinchidan tovarlar va xizmatlar bozorida raqobat tobora kuchayib bormoqda. O‘zbekistonda mijozlar va savdo bozorlari uchun bir-biri bilan raqobatlashadigan ko‘plab o‘rta va kichik kompaniyalarning tajribasi ham ortib bormoqda va mijozlarning e’tiborini jalb qilish va ushlab turish uchun marketing tobora muhim vositaga aylanmoqda.
- internet-marketing O‘zbekistonda ham o‘rta va kichik biznes uchun tobora ommalashib bormoqda. Shu sababdan internet texnologiyalarini rivojlantirish orqali internet-marketingni samarali yo‘lga qo‘yish kompaniyalarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini tez va samarali targ‘ib qilish, shuningdek, mijozlardan fikr-mulohazalarini olish orqali faoliyatni takomillashtirib borish imkonini beradi.
- to‘rtinchidan iste’molchilarning ehtiyojlari va talablarini o‘zgarib borishi. O‘zbekistonda iste’molchilar bozorlarga chiqayotgan tovarlarning sifati, shuningdek, xizmat ko‘rsatish darajasiga bo‘lgan munosabatlari o‘zgarib, ko‘proq talabchan bo‘lib bormoqdalar. Shuning uchun marketing ushbu ehtiyoj va talablarni o‘rganib, ularni to‘laligicha qondirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston sharoitida o‘rta biznesni rivojlantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish hamda shu bilan birga korxonani muvaffaqiyatli kelajagini ta’minlash uchun marketing dolzarb va muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababdan tanlangan bozorda uzoq va yuqori ulush bilan faoliyat ko‘rsatishni rejalashtirgan kompaniyalar o‘z mahsulotlari va xizmatlarini O‘zbekiston bozorida sotish uchun marketing vositalari va strategiyalaridan faol foydalanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-292-sonli qarori.
3. Saypullayev I. A. The Importance Of A New Professional Education System In Small Business Development In Uzbekistan. Theoretical & Applied Science. 2021(8):254-9.
4. Abdurahmanovich, S. I. (2022). The Role Of Small Business And Private Entrepreneurship In Economic Development. International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 59-68.
5. Abdurahmanovich, S. I. (2022). Classification Of Factors Affecting The Development Of Small Business And Private Entrepreneurship. International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 80-89.
6. Abdurahmanovich, S. I. (2022). Theoretical Foundations Of Institutional Development Of Small Business And Private Entrepreneurship. Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(07), 56-66.
7. Abduraxmonovich, S. I. (2021, October). Indicators Of Financial Performance Of Small Business And Entrepreneurship. In Archive of Conferences (pp. 39-42).
8. Abduraxmonovich, S. I. (2021). Forms Of Credit For Small Business And Entrepreneurship. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 262-269.
9. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Formation of financing technology and communication relations in increasing the competitiveness of small business entities. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 49-58.
10. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of shaping the competitiveness of small businesses and its essence. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 171-178.
11. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of forming the competitiveness of small business entities and its essence. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(07), 46-55.
12. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Modern trends in the formation of international competitiveness of the national economy. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 69-79.

BUXGALTERIYA AXBOROTINING SIFAT TAVSIFLARI

Raxmatova Shaxnoza Shukurovna
Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya axborotining xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisobini yuritish va tahlil qilishda tutgan o‘rni hamda undan foydalanuvchilarning samarali qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Yuqori tezlik bilan o‘zgarib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga muvofiq buxgalteriya axboroti ta’minotiga ega bo‘lishining ahamiyati beqiyos. Aynan buxgalteriya axborotining yuqori sifatda bo‘lishi uning foydalilik darajasini oshiradi, shu sababdan buxgalteriya axborotining sifat tavsiflari ushbu ilmiy tadqiqot ishining obyekti hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligini belgilaydi. “Buxgalteriya axborotining sifati” tushunchasi uni ko‘rib chiqish doirasidan kelib chiqqan holda, turli xil talqin qilinadi. Shu sababli bu tushunchaning har xil sharhlari mavjud. Biroq yondashuvlarning turli ekanligiga qaramay, buxgalteriya axboroti sifati doimo xolis, ishonchli va xo‘jalik yurituvchi subyektning xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan jarayonlar va hodislarni to‘liq aks ettirishi lozim, chunki u xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga beriladigan bahoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Buxgalteriya axborotining sifatiga qo‘yiladigan talab, aslida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlariga hamda ulardagi axborotning turli foydalanuvchilar qaroriga ta’sir qiluvchi asosiy tavsiflariga qo‘yiladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maqolada buxgalteriya axboroti asosida foydalanuvchilarning samarali qarorlar qabul qilishini ta’minlash maqsadida, buxgalteriya axborotining shakllanish uslublarini yaxshilash hamda ularning sifatiga qo‘yilgan talablar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar keltirilgan. Shuningdek, buxgalteriya axborotining zamonaviy boshqaruv tizimining talablariga muvofiq moslashuvi bo‘yicha “buxgalteriya axborotining sifati”, “sifat mezonlari” va “sifat darajasi” tushunchalari yoritib berilgan. Ilmiy izlanishlar jarayonida samarali qarorlar qabul qilish uchun har qanday foydalanuvchilarga buxgalteriya axborotini foydali bo‘lishiga ta’sir qiluvchi buxgalteriya axboroti sifat tavsiflarini muayyan, bir-biriga bog‘langan holda tizimlashtirilib qo‘llanilishi kerakligi isbotlangan. Shuning evaziga buxgalteriya axboroti sifatining o‘zaro bog‘langan va o‘zaro qaram bo‘lgan tavsiflari bir tizimga keltirilib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya axboroti, tahlil, buxgalteriya hisobi, buxgalter, hisob registrlari, buxgalteriya axboroti sifat tavsifi, moliyaviy hisobotlar, xo‘jalik yurituvchi subyekt, samarali boshqaruv qarorlari, foydalanuvchilar, moliyaviy holat.

Abstract: This article is about the role of accounting information in accounting and analysis of the activities of business entities and its importance for users in making effective decisions. In the conditions of the market economy, which is changing at a high speed, the importance of having the supply of accounting information in accordance with the successful operation of the economic entity is significant. The high quality of accounting information makes increase its level of usefulness, that is why, the qualitative characteristics of accounting information are the object of this scientific research work. This determines the relevance of this scientific article. The concept of “quality of accounting information” is interpreted differently depending on the shape of its consideration. Therefore, there are different interpretations of this concept. However, despite the different approaches, the quality of accounting information should always be objective, reliable and fully reflect the processes and events that occurred in the economic activity of the economic entity, because it directly affects the assessment of the financial position of the economic entity.

It is no exaggeration to say that the demand for the quality of accounting information is actually placed on the financial statements of the economic entity and on the main characteristics of the information in them that influence the decisions of various users of accounting information.

In order to ensure that users make effective decisions on the basis of accounting information, the article examines the requirements for the improvement of accounting information formation methods and their qualititive characteristics, and measures for their improvement are presented. Also, the concepts of “quality of accounting information”, “quality criteria” and “quality level” are based on the adaptation of accounting information according to the requirements of the modern management system. In the process of scientific research, it has been proved that for effective decision-making, it is necessary to systematize and apply the quality characteristics of accounting information that affect the usefulness of accounting information to any users. Therefore, interrelated and interdependent characteristics of the quality of accounting information are brought into one system and conclusions are given.

Key words: accounting information, analysis, accounting, accountant, account registers, quality description of accounting information, financial statements, economic entity, effective management decisions, users, financial position.

Аннотация: Данная статья раскрывает роль и значение бухгалтерской информации в учете и анализе деятельности субъектов хозяйствования а также для ее пользователей в принятии эффективных экономических решений. В условиях рыночной экономики, которая меняется с большой скоростью, важность наличия бухгалтерской информации в соответствии с успешной деятельностью экономического субъекта неоспорима. Именно высокое качество бухгалтерской информации повышает уровень ее полезности и потому качественные характеристики бухгалтерской информации являются объектом данной научно-исследовательской работы. Это, в свою очередь, определяет актуальность данной статьи. Понятие “качество бухгалтерской информации” трактуется по-разному в зависимости от сферы ее рассмотрения. Поэтому существуют разные трактовки этого понятия. Однако, несмотря на разные подходы, качество бухгалтерской информации всегда должно быть объективным, достоверным и в полной мере отражать процессы и события, происходящие в хозяйственной деятельности экономического субъекта, поскольку оно напрямую влияет на оценку финансового состояния экономического субъекта.

В свою очередь, требования к качеству бухгалтерской информации фактически предъявляются к финансовой отчетности экономического субъекта и к основным характеристикам содержащейся в ней информации, влияющим на решения различных пользователей.

В целях обеспечения принятия пользователями эффективных решений на основе бухгалтерской информации в статье рассмотрены требования к совершенствованию методов формирования бухгалтерской информации и ее качества, а также представлены меры по их совершенствованию. Также разъяснены понятия “качество бухгалтерской информации”, “критерии качества” и “уровень качества” в части адаптации бухгалтерской информации в соответствии с требованиями современной системы управления. В процессе научных исследований доказано, что для эффективного принятия решений необходимо систематизировать и применять качественные характеристики бухгалтерской информации, которые влияют на ее полезность для любых пользователей. Таким образом, взаимосвязанные и взаимообусловленные характеристики качества учетной информации сводятся в одну систему и даются выводы.

Ключевые слова: бухгалтерская информация, анализ, бухгалтерский учет, бухгалтер, регистры учета, качественная характеристика бухгалтерской информации, финансовая отчетность, хозяйствующий субъект, эффективные управленческие решения, пользователи, финансовое состояние.

KIRISH

Hozirgi kunda buxgalteriya axboroti xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining boshqaruv jarayonini amalga oshirish uchun bebaho manba bo‘lishiga sabab u doimo rejalashtirish, tashkil etish, rivojlantirish va nazorat kabi barcha boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati, moddiy va moliyaviy resurslarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilishning iqtisodiy jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan axborot – bu iqtisodiy axborot bo‘lsa, buxgalteriya axboroti esa ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektni boshqarishda vosita bo‘lish bilan birgalikda xo‘jalik faoliyati haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish va taqdim qilish usuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni vaqtda buxgalteriya axboroti xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun mavjud imkoniyatlardan o‘z vaqtida foydalanish va faoliyatni istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rolni o‘ynaydi.

Aynan buxgalteriya axboroti yuqori sifatda tuzilib, taqdim qilingan taqdirda, u ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilari uchun foydali va qiymatli bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya axborotining sifat tavsifiga bo‘lgan talab doimiy tarzda ortib boradi. Shuni ta’kidlash lozimki, buxgalteriya axborotining sifat tavsifi ko‘p xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarining obyekti bo‘lganligiga qaramay, buxgalteriya axboroti sifati va sifat mezonlari chuqur o‘rganilmagan. Aynan shu sabab, ushbu ilmiy maqolaning mavzusi va ilmiy izlanish maqsadiga aylandi. Maqolaning maqsadi sifatida “buxgalteriya axboroti sifati” tushunchasiga mualliflik ta’rifini berilganligi hamda buxgalteriya axborotining o‘zaro aloqador sifat tavsiflarining bir tizimga shakllantirilgan va undan foydalanishning samaralari keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Buxgalteriya axboroti va uning sifatining ahamiyati bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning asarlarida qayd etilgan. Xususan, “Moliyaviy hisobotlarini taqdim etish” nomli 1-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga (BHXS)ga muvofiq, kapitalni boshqarish jarayonida korxonalar o‘z maqsadlariga erishish uchun moliyaviy hisobotda sifatli axborotni ta’minlash kerak.

Rus iqtisodchi olimlari M. V. Koryagin va P. A. Kutsыklarni fikricha buxgalteriya axboroti manfaatdor foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, ularni taqdim qilishning qadimdan shakllanib kelgan hamda me’yoriy belgilangan talablari mavjuddir.

L. A. Yudinseva ham buxgalteriya axborotiga bo‘lgan ehtiyojni quyidagicha ta’riflagan: foydalanuvchilarni ularning iqtisodiy asosga ega qarorlar qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi, bunda buxgalteriya axborotini sifati unga bo‘lgan ehtiyojni qondirilish darajasi bilan aniqlanadi.

G‘arblik iqtisodchi olim B. Pounder (B. Pounder)ning ta’kidlashicha buxgalteriya hisobining ahamiyati u taqdim qilayotgan axborot bilan o‘lchanadi.

S. A. Levitskaya va K. A. Ivashenkolarning qayd qilishicha, buxgalteriya axboroti – bu xo‘jalik obyektlarini tahlil qilish, baholash, ro‘yxatga olish va umumlashtirish jarayonlari bo‘yicha tegishli birlamchi hujjatlar, registrlar va hisobot shakllari bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari yig‘indisidir.

Yevropalik iqtisodchi olimlar N. Ortega va X. Ramires ta’kidlashlaricha, buxgalteriya axborotining ahamiyati uni tashkilot faoliyatining samaradorligi bilan aniqlanadi [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Z. Zufarova va A. Avlokulovlarning ta’kidlashicha, buxgalteriya axborotini

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya axborotining sifati – undan foydalanuvchilarning manfaatlari va ehtiyojlarining qondirilishi bilan belgilanadi.

Buxgalteriya axborotining sifat mezonlari, bunday axborotdan foydalanuvchilarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadiga bog‘liqligi shuni anglatadiki, ma’lum bir iqtisodiy vaziyatlar tufayli yuzaga kelgan talablarga buxgalteriya axborotining to‘g‘ri kelishi uchun uning barcha sifat tavsiflaridan ustuvorlarini ajralib chiqishiga sabab bo‘ladi, bu esa bunday axborotning foydalilik darajasini keskin oshiradi. Buxgalteriya axborotining hozirda mavjud sifat tavsiflari ularni takomillashtirishni, tizimlashtirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni olib borishda buxgalteriya axborotining buxgalteriya hisobi va tahlil tizimidagi beqiyos o‘rni va ahamiyati borasidagi iqtisodchi –olimlarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif izlanish va tajribalari bilan qiyosiy tahlil qilish yo‘li orqali tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda buxgalteriya axboroti uning asosida foydalanuvchilar tomonidan samarali qarorlarini qabul qilinishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatini doimiy tarzda maqsadli monitoring qilishi, muammolarni oldindan ko‘ra olishi va bartaraf etish hamda strategik va operativ boshqaruvning moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarini aniqlashi va baholashi uning faoliyatini moliyaviy barqarorlikka erishishini osonlashtiradi. Bu esa o‘z navbatida buxgalteriya axborotining sifatli bo‘lishini taqozo qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, buxgalteriya axboroti – bu boshlang‘ich hisob hujjatlariga asoslangan, buxgalteriya hisobi registrlarida, moliyaviy hisobotlarda, tushuntirishlarda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarda aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi qayta ishlangan ma’lumotlar hisoblanadi [1]. Buxgalteriya axboroti – boshlang‘ich hisob hujjatlarida aks etgan xo‘jalik muomilalari va jarayonlarini hisob-kitobini yuritish maqsadida shakllantiriladi, guruhlanadi, tizimlashtiriladi hamda qayta ishlanadi. O‘z navbatida buxgalteriya axboroti buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari hamda buxgalteriya hisobi metodining asosiy elementlari orqali shakllantiriladi (1-jadval).

1-jadval: Buxgalteriya axborotining shakllanishi roli[1]

Shakllantirish usuli	Maqsad	Buxgalteriya axborotini shakllantirishdagi ahamiyati
Hujjatlashtirish	Xo‘jalik jarayonlarini hujjatlashtirish	Buxgalteriya hisobi obyektlarini birlamchi kuzatuv orqali buxgalteriya axborotini shakllantirish – buxgalteriya axborotini yuqori darajadagi batafsilligi, joriy qarorlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan.
Inventarizatsiya	Mol-mulk va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligi tekshirish hamda olingan ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtiruv.	
Baholash	Mol-mulk va majburiyatlarni turli xil o‘lchov birliklaridan yagona o‘lchov birligida aks ettirish	Buxgalteriya axboroti hisob obyektlarini qiymat o‘lchovida shakllanadi. Turli xil axborot oqimini yagona jamlanma hisobot ko‘rinishida jamlaydi.
Kalkulyatsiya	Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxini hisoblash.	
Hisobvaraqlar	Buxgalteriya hisobi obyektlarini iqtisodiy mazmunining bir xilligi asosida guruhlash.	Buxgalteriya axboroti buxgalteriya hisobi obyektlari bo‘yicha ma’lumotlarni joriy guruhlash orqali shakllanadi. Hisobvaraqlar, sub hisobvaraqlar ko‘lamida buxgalteriya axborotini to‘planishi
Ikki yoqlama yozuv	Buxgalteriya hisobi obyektlari, xo‘jalik muomillarining o‘zaro bog‘liqligini iqqita hisobda aks ettirish.	

1 Ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan ishlangan

Umumlashtirish	Tashkilotning xo‘jalik vositalarini (turlari, joylashuvi, shakllanish manbalari va ishlatish maqsadi bo‘yicha) pul o‘lchov birligida guruhlash va umumlashtirish	Buxgalteriya axboroti tashkilotning mol-mulki va moliyaviy holati bo‘yicha ma’lumotlarni davriy umumlashtirish orqali shakllanadi. Tashkilot miqyosida yig‘ilgan buxgalteriya axboroti tashqi va ichki foydalanuvchilarga yo‘naltirilgan.
Moliyaviy hisobot	Ma’lum davr uchun tashkilotning mol-mulki holati hamda moliyaviy natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni yagona tizimini yaratish.	

Yuqorida keltirilgan jadvalda buxgalteriya axborotini shakllantirish instrumentlari o‘z aksini topgan bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning sifatiga ta’sir o‘tkazadi. Aynan buxgalteriya axborotining sifati haqida so‘z borganda, undan foydalanuvchining ko‘zlagan maqsadlariga erishishi uchun axborotni foydali qiluvchi xususiyatlarini tushunish mumkin, boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya axborotining sifati undan ko‘zlangan natija bilan belgilanadi. Bu esa o‘z o‘rnida bunday axborot, foydalanuvchi iqtisodiy qarorlarining samaradorligiga bevosita o‘zining sifat xossalari bilan ta’sir qilishini anglatadi. Shu sababli, yillik moliyaviy hisobotlarda keltirilayotgan hamda foydalanuvchiga taqdim qilinayotgan buxgalteriya axboroti quyidagi 1-rasm keltirilgan sifat tavsiflariga ega bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

Bu keltirilgan rasmda berilgan buxgalteriya axborotining tizimlashtirilgan asosiy sifat tavsiflariga izoh berib o‘tamiz:

Dolzarblik (relevance): Buxgalteriya axborotining bu sifat xususiyati ma’lum masala bo‘yicha foydalanuvchiga aniq asosli qarorlarni qabul qilishida noaniqliklarni bartaraf qilishda yoki ma’lum bir darajada bilim saviyasini oshirishga ko‘maklashadi. Misol tariqasida, xo‘jalik yurituvchi subyektga kredit ajratish maqsadida tijorat bankining kredit bo‘limi hodimi tomonidan mazkur subyekt moliyaviy holati va faoliyatining moliyaviy natijalarini o‘rganish va tahlil qilishda u taqdim etgan moliyaviy hisobotlar hamda kredit tarixi o‘rganilib chiqiladi. Bu bilan ushbu subyektning qancha miqdorda kreditga qobiliyatliligi darajasi aniqlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya axborotining dolzarbligi undan foydalanuvchiga o‘z vaqtidan va resurslaridan ratsional foydalanishiga imkoniyatini beradi.

Buxgalteriya axborotining dolzarblik darajasi birinchi navbatda, uni tabiatidan, hajmidan va albatta, o‘rinli ekanligi bilan aniqlanadi. Demak, agar mazkur axborot qandaydur bo‘shliqlarga ega bo‘lsa yoxud noto‘g‘ri talqin qilingan bo‘lsa, albatta, u asosida qabul qilingan qarorlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ba’zi holatlarda moliyaviy hisobotlardagi buxgalteriya axborotining tabiatining o‘zi ushbu axborotdan foydalanuvchiga uni sifat darajasini aniqlab beradi. Ammo shunday bo‘lsa-da, uni tabiati bilan birgalikda hajmi ham ushbu axborotning dolzarbligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatdan daromadining xarajatlariga nisbatan kamomadi, xorijiy valyutada qarzdorlikning mavjudligi va uning miqdori va h.k.

Axborot dolzarb bo‘lishi uchun bir quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

O‘z vaqtidalik (timeliness): Buxgalteriya axboroti foydalanuvchilarga zarur bo‘lgan paytda taqdim qilinishi lozim, aks holda albatta, axborot o‘z dolzarbligini yo‘qotadi. Axborotning yangiligi, uni foydalilik darajasini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Axborot o‘zida mujassam etilgan tafsilotlar sodir bo‘lgan vaqtga nisbatan eski bo‘lmasligii lozim, bu ham uning muhimlik darajasiga ta’sir qiladi. Masalan, xodim mol yetkazib beruvchidan xo‘jalik jihozlarining kunlik xarid qilish to‘g‘risidagi qarorni, ushbu jihozlarning holati to‘g‘risidagi hisobotga tayanadi, bu esa hisobotda oxirgi yangi axborot aks etishini talab qiladi.

Oldindan ko‘ra olish, bashoratlash (predictive value): bu o‘z o‘rnida foydalanuvchilarga kelajak uchun prognozlar qilish imkoniyatini yaratadi.

Qayta aloqaning mavjudligi: buxgalteriya axborotining bunday xususiyati foydalanuvchilarga oldingi taxminlarini baholashga yordam beradi, shu bilan birga o‘shaning evaziga qabul qilingan qarorlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Buxgalteriya axborotining bashoratlash qiymati va qayta aloqaning mavjudligi, uning asosida qaror qabul qiluvchi foydalanuvchilarga holatni oldindan ko‘ra bilish, qarorlarni tasdiqlash va to‘g‘rilashga zamin yaratadi. Misol tariqasida, chakana savdo sotuvchisi o‘z tovarlari zaxirasi muqimlashtirish uchun oldingi sotuv ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib sotuv hajmini bashoratlaydi – bu axborotning bashoratlanuvchanlik qiymati bo‘lsa, unga asoslangan holda tovarlar zaxirasini doimiy ravishda oqilona to‘ldirib boradi, bu albatta, axborotdan qayta aloqaning mavjudligidan darak beradi.

Ishonchlilik: Buxgalteriya axboroti hech qanday xatolarsiz, kamchiliksizlarsiz ishonchli va haqiqiy bo‘lishi kerak. Buxgalteriya axboroti o‘z taqdim qilgan tafsilotlarni sodir bo‘lgan jarayonlarga muvofiqligini ta’minlashi lozim. Xato kamchiliklarsiz bo‘lgan ishonchli buxgalteriya axboroti sodir bo‘lgan voqea – hodisalarni aniq tasvirlaydi. Foydalanuvchi uchun axborotning qiymatliligi uning ishonchliligi bilan belgilanadi. Ishonchsiz axborot yaxshi holda vaqt sarfi bo‘lsa yomon holda noto‘g‘ri samarasiz qarorlar qabul qilishdek oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, sotuv menedjeri xaridor bilan katta hajmda mahsulot sotish bo‘yicha ma’lum sanaga shartnoma

imzoladi. U bu qarorni mahsulot zaxirasi to‘g‘risida axborotga tayangan holda qabul qilgan bo‘lsa-da, ushbu axborot noto‘g‘ri tafsilotlarga ega bo‘lgani mahsulotni haqiqatda inventarizatsiyasi o‘tkazilganda ma’lum bo‘ldi. Bu esa mahsulotni shartnomaga muvofiq ravishda kelishilgan hajmda yetkazish imkonidan mosuvo qilganligi, shartnoma shartlarini vaqtida bajarmaslik, uni sud muhokamasiga ishning oshirilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqardi. O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu salbiy oqibatlarning kelib chiqishi sababi faqat axborotning xatoligi bo‘lgan. Bundan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, samarali qarorlar yuqori darajadagi ishonchli axborotni talab qiladi. Ishonchli axborot o‘zida quyidagi tavsiflarni mujassam etishi lozim:

Betaraflik, xolislik: buxgalteriya axboroti qandaydur belgilangan aniq maqsad yoki natijaga bog‘liq emas, balkim ro‘y-rost bo‘lishi lozim.



1-rasm: Buxgalteriya axborotining asosiy sifat tavsiflari[2]

2 Ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan ishlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tekshiriluvchanlik: bu buxgalteriya axborotini xolis va mustaqil o‘lchov uslubiga xosligi bo‘lib, har qanday holda tekshirishning bir hil usulni qo‘llash orqali kim tomondan tekshirilishidan qat’i-nazar bir xil natija berishi bilan izohlanadi.

Butunlik, buxgalteriya axborotining sifati hisoblanib, uni uchta tashkil qiluvchi tarkibi mavjud bo‘lib, ular – haqiqatda sodir bo‘lganligi, aniqlik va to‘liqlik kabi sifat tavsiflaridir.

a) Haqiqatda sodir bo‘lganligini boshqacha qilib aytganda, aniq holda taqdim qilinganligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Axboroning bu sifati unga bo‘lgan ishonch darajasini shartsiz oshiradi. Vaholanki, axborot haqiqatda sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari va muomilalarini aks etishi shart [8]. Masalan, buxgalteriya 1 S dasturida haqiqatda sodir bo‘lmagan savdo bo‘yicha ma’lumot kiritilgan. Bunday ma’lumot fiktiv, noto‘g‘ri shakllantirilgan axborotga sabab bo‘ladi va uning asosida qo‘yilgan keyingi qadamlarni xato bo‘lishiga olib keladi, albatta, oqibatlar salbiy bo‘ladi.

b) **Aniqlik:** buxgalteriya axborotini moddiy xatoliklardan holi bo‘lishi kerakligini anglatadi. Ammo moddiyatni miqdoriy baholashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki, u mutlaq miqdorga ega bo‘lmaydi, va albatta, muammolarni keltirib chiqaradi. Bu xatolar foydalanuvchilar qabul qilgan qarorlarning samarasizligiga salmoqli hissa qo‘shadi. Bu esa, axborot ba’zi hollarda mutlaq aniq va ravshan bo‘lishi lozim ekanligiga dalolat qiladi. Axborotni o‘z vaqtida taqdim qilish kerakligi bois, ba’zida uning aniqligiga putur yetadi. Ko‘p hollarda mutlaq aniq, to‘g‘ri axborot tayyorlanishi vaqt talab qilganligi tufayli o‘z vaqtida taqdim qilinmasligi ham mumkin, bu esa yana axborotning muhimlik darajasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli axborotni muhimligi va foydaligini saqlash maqsadida qayta ishlovchilar, uning o‘z vaqtida tuzilganligi va aniq, to‘g‘riligi o‘rtasida muvozanatni saqlash yo‘llarini qidiradi.

d) **To‘liqlik:** moliyaviy hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha mol-mulki va majburiyatlari haqida to‘liq buxgalteriya axborotini aks ettirish kerak [9]. Masalani hal qiluvchi axborotning hech bir qismi qoldirilgan bo‘lmasligi lozim. Masalan, hisobot, ma’lum davr bo‘yicha barcha hisob-kitoblarni aks etishi hamda aniq va to‘g‘ri taqdim qilingan bo‘lishi shart.

Taqqoslanuvchanlik, qiyoslanuvchanlik. Buxgalteriya axborotining bu sifat tavsifi, bir xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘yicha, yoxud shu sohaning bir necha xo‘jalik yurituvchi subyektlari kesimida, muayyan davr bo‘yicha yoki bir qancha davrlar oralig‘i bo‘yicha sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari va muomilalarini solishtirish orqali o‘xshashliklari, farqlari va ta’sir doiralarini aniqlash imkonini berishini anglatadi. Moliyaviy hisobotdagi buxgalteriya axborotining aniq vaqtda, aniq voqea-hodisalarni aks etgan holda muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektga taqdim qilinishi uni dolzarbligi va ishonchliligi uchun yetarli hisoblanmaydi. Bunda moliyaviy hisobotning foydalanuvchilari istalgan davr oralig‘ida xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya axborotini taqqoslash imkoniga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun foydalanuvchilar o‘z vaqtida moliyaviy hisobotni tuzishda kiritilgan o‘zgarishlar, qonun-qoidalaridan boxabar qilinishi lozim.

Muvofiqlik: Bunda muayyan xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha, ma’lum davr yoki davrlar kesimini taqdim qilingan buxgalteriya axboroti bir-biriga muvofiq bo‘lishi, uni taqqoslanuvchanligini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, faoliyatining samaradorligiga va ulardagi o‘zgarishlarga to‘g‘ri baho berish imkoniyatini yaratadi.

Buxgalteriya axborotining taqqoslanuvchanligining uning muvofiqligi bilan adashtirmaslik juda muhim, aks holda hisobotni takkomilashtirishda kiritiladigan, qo‘llaniladigan yangi uslublarga to‘siq bo‘lishi mumkin. Chunki, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar ham moliyaviy hisobotini tuzishda bir xil usuldan foydalana olishmaydi, agar bu buxgalteriya axborotining dolzarbligi va ishonchligiga putur yetkazadigan bo‘lsa. Ayni vaqtda axborot muvofiqligining o‘zi ham bir alohida maqsad bo‘la olmaydi, agar moliyaviy hisobotni tuzishda qo‘llanilayotgan usuldan ko‘ra yanada optimal va ishonchli usul paydo bo‘lsa albatta, uni o‘zgartirish lozim bo‘ladi.

Tushunarlilik: Bunda axborot foydalanuvchilarga butun mohiyatni yetkaza olishi lozim. Axborotning tushunarli bo‘lish yoki bo‘lmasligi uni buxgalterlar tomonidan qanday tayyorlanganligi va foydalanuvchini undan to‘g‘ri foydalana olishi bilan belgilanadi.

Axborotni dolzarbligi va ishonligiga zarar bermagan holda tushunarli tuzilgan bo‘lishi juda muhim. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, murakkab xo‘jalik jarayonlari va muomilalari to‘g‘risidagi buxgalteriya axborotini oddiy yoki yengillashtirilgan shaklda tuzish imkoni doim ham mavjud bo‘lavermaydi. Shuni nazarda tutish kerakki, axborotning foydalanuvchilar doimo u haqida tushuntirishlar, konsultatsiyalar olish imkoniga ega [6]. Masalan, axborot tushunarli tilda (masalan, rus, o‘zbek, ingliz va x.k) yoki tushunarli texnik (informatika, fizikada ishlatiladigan) tillarda tuzilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, haddan ziyod kodlar, va qisqarmalarga ega axborot undan foydalanuvchilarga tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

Xarajatlar va natijalarning mutanosibligi: Moliyaviy hisobotni tuzuvchilar, auditorlar, standartlar va hokazolarni tuzuvchilar duch keladigan doimiy muammo bu buxgalteriya axborotini taqdim qilishga ketgan sarf-xarajatlarga nisbatan undan kutilgan manfaatni (foydani) ustun kelishi hisoblanadi. Axborotning qiymatini uni yig‘ilishi, saqlanishi, qidirib topilishi, taqdim qilinishi, tahlili va talqini hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar yoki raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelgan axborotning ishonchsizligi, resurslarni noto‘g‘ri

taqsimoti va boshqa noxush oqibatlardan hosil bo‘lgan xarajatlar kiradi. Axborotning ustunligi uning asosida axborotning turli foydalanuvchi guruhlari tomonidan samarali qarorlar qabul qilishida namoyon bo‘ladi.

Umumlashtirilish: buxgalteriya axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiq holda to‘plangan bo‘lishi lozim. Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyekt boshqaruvining quyi qismidagi menedjerlar, boshqaruv xodimlari yanada batafsil ma’lumotga ehtiyoj sezadi. Axborot boshqaruvning yuqori qismiga umumlashtirilgan holda uzatilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya axborotining sifat bir qancha talablarga javob berishi lozim. U dolzarb, haqqoniy, qiyoslanuvchan, muvofiq hamda tushunarli bo‘lishi shart, chunki buxgalteriya axborotining bunday sifatlari uni ham ichki ham tashqi foydalanuvchilar qabul qiladigan qarorlarni samaradorligini oshirish bilan birga ularni nazoratini, tahlilini natijador qiladi.

Qolaversa, buxgalteriya axborotini batafsil bo‘lishi, xo‘jalik yurituvchi subyektning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ahamiyatini keskin oshiradi, ya’ni u:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning (masalan, faoliyat turlari bo‘yicha alohida buxgalteriya hisobi bo‘yicha) amaldagi qonun hujjatlari talabalariga muvofiq bo‘lishi;
- buxgalteriya axborotini olish xarajatlarining undan foydalanishdan kutilgan natijalardan past bo‘lishi kerakligidan iborat tejamkorlik tamoyilini amalga oshirishi;
- buxgalteriya axborotini sharhlash yo‘li bilan tezkor va taktik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni olish zarurati kabilarni qamrab olishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, buxgalteriya axborotini sharhlanishini xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning turli usullarini qo‘llash orqali amalga oshirish mumkin. Bu shuni anglatadiki, hisobot davri uchun joriy buxgalteriya axborotini umumlashtirish asosida tuzilgan moliyaviy hisobotda tugallangan xo‘jalik jarayonlar to‘g‘risida sifatli buxgalteriya axborotining aks etishi, unda xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy – xo‘jalik faoliyatining hajmi va sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risida yetarlicha to‘liq ma’lumotar berilganiga dalolat qiladi. Buxgalteriya axborotining sifat tavsiflarini takomillashtirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun quyidagi takliflar berildi:
- buxgalteriya axborotini shakllantirilish jarayoniga daxldor buxgalter xodimlar xo‘jalik jarayonlariga nafaqat texnik balki mantiqan “ijodkorona” ham yondasha olishi uchun malakasini doimiy ravishda oshirib borilishini ta’minlanishi;

O‘z vaqtida samarali qarorlar qabul qilish maqsadida buxgalteriya axborotining ustuvor sifat tavsiflariga e’tibor qaratish va ularni tizimlashtirish va ularni doimiy ravishda taqomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ 404-sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. International standard of accounting №1. Presentation of financial statements. www.iasplus.com
3. Корягин М. В., Куцык П. А. Качество бухгалтерской отчетности как информационного продукта учетной системы. //Международный бухгалтерский учет. http://fin-izdat.ru/journal/interbuh
4. Bruce Pounder. Measuring Accounting quality.//Strategic finance. May, 2013
5. Левицкая С. А., Иващенко К. А. Accounting information resources: a theoretical aspect.//Proc.11th Sci.Conf. Winter readings dedicated to outstanding scientists in the field of Accounting, Analysis and Control. Zytomyr, Zytomyr State Technological University Publ., 2013,pp. 65-68
6. Соколов Я. В., Пятов М. Л. Достоверный и добросовестный взгляд на бухгалтерскую информацию // Бухгалтерский учет. 2007. № 5. С. 52-56.
7. Устинова Я. И. Концепция достоверного и добросовестного взгляда на бухгалтерскую информацию: российская теория и практика //Аудит и финансовый анализ. 2010. № 1. С. 32-40.
8. Попова Л. В. Основные теоретические принципы построения учетно-аналитической системы//Журнал “Финансовый менеджмент” – Основные теоретические принципы построения учетно-аналитической системы (finman.ru)
9. Nubia Isabel Diaz Ortega, Juan Manuel Villamizar Ramirez. The use of accounting information system as guidance for the decision-making in Cucuta SMEs.//Revista ESPACIOS. Vol. 38 (№ 41), 2017. Page. 2
10. A. Avlokulov, Z. Zufarova Directions of increasing the quality of accounting information//International Finance and Accounting, Vol.2021//6-1-2021

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Маматкулова Шоира Джалоловна
Кандидат экономических наук, доцент кафедры маркетинга,
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье глубоко изучается роль логистики в развитии коммерческой деятельности торговых предприятий. Широко освещены функциональные области логистики, экономические возможности.

Ключевые слова: логистика, коммерция, оптовая торговля, транспорт, склад, дистрибуция, информация, инновации.

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo korxonalari tijorat faoliyatini rivojlanishida logistikaning roli chuqur o‘rganilgan. Logistikani funksional sohalari, iqtisodiy imkoniyatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: logistika, tijorat, ulgurji savdo, transport, ombor, taqsimot, axborot, innovatsiya.

Abstract: This article deeply studies the role of logistics in the development of commercial activities of trading enterprises. The functional areas of logistics and economic opportunities are widely covered.

Key words: logistics, commerce, wholesale trade, transport, warehouse, distribution, information, innovation.

ВВЕДЕНИЕ

Современное деловое окружение предъявляет высокие требования к эффективности и конкурентоспособности компаний, особенно в сфере торговли. В условиях динамичных рыночных изменений и стремительного развития технологий, роль и значение логистики становятся ключевыми факторами в успешной коммерческой деятельности торговых предприятий.

Логистика, как сложная система управления потоками товаров и информации, оказывает существенное влияние на все этапы жизненного цикла товаров – от производства до потребления. В контексте торговли, она становится неотъемлемой частью стратегии развития компаний, позволяя им не только оптимизировать внутренние процессы, но и эффективно взаимодействовать с поставщиками и потребителями.

Центральным аспектом роли логистики в коммерческой деятельности торговых предприятий является обеспечение бесперебойного и эффективного движения товаров от производителя к конечному потребителю. От точности прогнозирования спроса и управления запасами до совершенствования систем доставки и обслуживания клиентов – каждый этап логистического цикла влияет на конечный результат.

В данной статье мы рассмотрим не только ключевые аспекты логистики в контексте торговли, но и проанализируем, как эти аспекты влияют на развитие бизнеса торговых предприятий. Исследование роли логистики позволит нам лучше понять, какие стратегии и методы могут обеспечить устойчивое развитие компаний в условиях современного рынка и удовлетворение потребностей требовательных потребителей.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Анализ литературы по теме “Роль и значение логистики в развитии коммерческой деятельности торговых предприятий” выявляет ряд ключевых аспектов и направлений исследований. В ходе обзора литературы выявлены следующие основные темы и выводы:

- **Интеграция логистики в бизнес-стратегии:** Многие авторы подчеркивают важность интеграции логистики в общую стратегию бизнеса торговых предприятий. Процессы снабжения, производства и распределения должны быть четко выстроены для поддержки бизнес-целей компании.

- **Оптимизация цепи поставок:** Исследования подчеркивают, что эффективная логистика предполагает оптимизацию цепи поставок. Управление запасами, координация с поставщиками и сотрудничество с партнерами в цепи поставок оказывают важное влияние на конечный результат.
- **Технологические инновации в логистике:** Современные технологии, такие как системы управления складом, системы отслеживания грузов, аналитика данных и искусственный интеллект, предоставляют торговым предприятиям возможность улучшить производительность и эффективность логистических процессов.
- **Клиентоориентированный подход:** Логистика должна быть ориентирована на потребителя. Разработка гибких систем доставки, улучшение сервиса и удовлетворение потребностей клиентов становятся факторами, влияющими на конкурентоспособность торговых предприятий.
- **Эффективность и экономический эффект:** Исследования также уделяют внимание вопросу оценки эффективности логистических систем и их влиянию на экономические показатели торговых предприятий, включая уровень сервиса, себестоимость и общую прибыль.
- **Адаптация к изменениям в рыночной среде:** Логистика должна быть гибкой и способной адаптироваться к изменениям в рыночной среде. Торговые предприятия должны быстро реагировать на изменения в спросе, моделях потребления и конкурентной обстановке.з литературы по теме.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология исследования, направленного на изучение роли и значения логистики в развитии коммерческой деятельности торговых предприятий, должна быть тщательно структурированной и охватывать различные аспекты данной темы. Вот предложенная методология:

- **Обзор литературы:** Провести обширный обзор существующей литературы по теме логистики в контексте торговли.

Выделить ключевые темы, концепции и тенденции, представленные в литературе.

- **Формулирование гипотез:** Сформулировать гипотезы относительно влияния логистики на развитие торговых предприятий. Определить ключевые переменные и их взаимосвязи.
- **Выбор методологии исследования:** Определить методы сбора данных, такие как анкетирование, интервью, анализ отчетов и статистики. Разработать методику для качественного и количественного анализа данных.
- **Определение объекта исследования:** Определить конкретные торговые предприятия, которые будут являться объектом исследования. Учесть разнообразие отраслей, масштабов и форм владения предприятий.
- **Разработка вопросника:** Создать структурированный вопросник для анкетирования участников исследования (руководители, логисты, клиенты и т.д.). Включить вопросы, направленные на оценку роли логистики в их деятельности и восприятия ее значения.
- **Проведение эмпирических исследований:** Собрать данные с участием выбранных торговых предприятий и их клиентов. Анализировать полученные результаты с учетом поставленных гипотез.
- **Статистический и качественный анализ:** Применить статистические методы (например, корреляционный анализ) для изучения взаимосвязей между переменными. Провести качественный анализ ответов на открытые вопросы.

Такая методология позволяет создать комплексный обзор исследования, обеспечивая его достоверность и применимость в реальном бизнес-контексте торговых предприятий.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Чем эффективнее осуществляется коммерческая деятельность в условиях инновационной экономики, тем значимее развиваются показатели основных коммерческих операций, обмена товарами в материальной форме, т.е. экспорта-импорта, торговли научно-техническими знаниями, туризма.. Также с развитием основных коммерческих операций возрастает и потребность в вспомогательных (вспомогательных) коммерческих операциях.

Логистика – это планирование, организация, управление, оптимизация, контроль и координация движения материальных, финансовых и информационных потоков от их текущего источника к потребительскому сектору.

Логистическая деятельность в мировой практике организуется и развивается во внутреннем направлении.Логистика – греческий термин, означающий искусство расчета и мышления. Объектом логистики

в бизнес-экономических системах является физическое движение товарных ресурсов и целенаправленное движение связанных с ним финансовых ресурсов и информации. В результате применения логистики в экономике резко возрастает эффективность поставок материальных ресурсов. Эффективность доставки материальных ресурсов потребителю резко возрастает по сравнению с эффективностью доставки обычных ресурсов потребителю.

В процессе доставки материальных ресурсов потребителю они находятся на различных стадиях процессов снабжения, производства, транспортировки, хранения и распределения. В связи с тем, что в этих узлах осуществляются различные товарные операции, непременно будут происходить качественные и количественные изменения. В таких случаях требуется планировать, учитывать, контролировать, координировать и в целом управлять материальными потоками. Выделены основные функциональные области логистики.

1. **Логистика закупок (поставок).** В странах с развитой рыночной экономикой основной целью закупочной логистики является обеспечение потребности производства в сырье и материальных ресурсах с максимальной экономической эффективностью. В этом случае решаются вопросы обеспечения предприятия (субъекта хозяйствования) сырьем и материальными ресурсами. Изучается рынок сырья и материальных ресурсов, анализируются, оцениваются и выбираются поставщики, заключаются контракты и контролируется их выполнение. В случае нарушения условий поставки будут разработаны механизмы воздействия на поставщиков и на основе этого будут приняты оперативные (оперативные) меры по разрешению ситуации.
2. **Производственная логистика.** Эта область логистики занимается управлением материальными потоками внутри предприятия. Основная часть объема логистической операции (работы) выполняется на территории одного предприятия. Отношения между участниками процесса производства и поставки устанавливаются не на основе договоров, а на основании решений руководства предприятия. Целью производственной логистики является оптимизация внутренних материальных потоков предприятия.
3. **Основная цель распределительной логистики** – оптимизировать процесс распределения имеющихся запасов готовой продукции или доставить товар в нужное место в нужное время с наименьшими затратами. Сюда входит планирование продаж, организация приема и обработки заказов, организация упаковочных и сборочных операций. На макроуровне распределительная логистика решает вопросы разработки схемы распределения, оптимального размещения распределительных центров.
4. **Транспортная логистика.** Основная часть операций (работ), связанных с материальными потоками, приходится на эту область логистики. Основная цель транспортной логистики – оптимизация транспортировки современных ресурсов и их доставки потребителю. Здесь решаются вопросы выбора вида и вида транспорта, выбора оптимальных транспортных маршрутов, снижения транспортных расходов.

В условиях инновационной экономики важное значение имеет понятие закупочной логистики. Закупочная логистика – это процесс обеспечения предприятия материальными ресурсами, размещения ресурсов на складах предприятия, их хранения и отправки в производство. Целью закупочной логистики в странах с развитой рыночной экономикой является удовлетворение потребности в материалах производственного процесса с высокой экономической эффективностью. Но чтобы этого добиться, необходимо выполнить ряд задач перед логистикой закупок. Эти задачи можно сгруппировать следующим образом:

- Поставка сырья и готовой продукции в течение определенного периода. Недосрочная продукция может пополнить оборотный капитал предприятия, просроченное сырье и материалы могут негативно повлиять на производственный процесс или изменить его направление;
- Соответствие необходимого количества материалов поставленному объему (поставленная продукция меньше требуемого может негативно сказаться на балансе оборотных средств компании);
- Контроль качества спроса на сырье и готовую продукцию (минимальная цена, удовлетворяющая спрос).

Достижение поставленных целей в сфере закупочной логистики достигается в результате решения ряда задач, которые можно сгруппировать следующим образом:

- опираясь на обоснованные сроки закупки сырья, материалов и запасных частей;
- обеспечить соответствие количества поступлений предложения спросу на них;
- соблюдение производственных требований к качеству сырья, материалов и запасных частей.

Без закупочной логистики в коммерческой деятельности предприятие не может осуществлять нормальную деятельность. Он выступает в качестве контрольного моста между различными производителями продукции и теми, кто контролирует их работу. Оптовому покупателю необходим точный расчет стоимости.

Создаваемые в регионах свободные экономические зоны, малые промышленные зоны, логистические центры, склады направлены на обеспечение равномерного распределения товаров и материальных ресурсов между регионами. Также сырье, запасные части и полуфабрикаты поставляются на предприятия промышленно развитых регионов не только из внутренних, но и из внешних источников. Импорт, транспортировка, хранение, разделение на партии и доставка товаров являются важными функциями.

В торговле, которая является важной отраслью нашей экономики, развитие может быть достигнуто за счет эффективного использования маркетинговой деятельности, создания явно перспективной сервисной и инновационной деятельности, позволяющей использовать более выгодные сегменты рынка. Постоянное развитие оптовой деятельности можно обеспечить за счет активного использования маркетинговых инструментов и технологий.

При этом увеличение оптового товарооборота связано и с доставкой, хранением, организацией резервов, обслуживанием клиентов.

Задачами логистики в оптовой торговле являются:

- разработка графиков поставок клиентам;
- определение минимального объема товара для доставки покупателям;
- организация обслуживания клиентов и разработка показателей для его оценки;
- управление складскими операциями;
- формирование системы возврата бракованного товара и т.д.

Сегодня продвигается идея совмещения функций маркетинга и логистики в оптовой торговле. Этот процесс основан на маркетинговой логистике. Сбытовая логистика – это деятельность, связанная с производством сырья, запасных частей, материалов, комплектующих изделий из исходных точек происхождения, планированием каналов сбыта готовой продукции и доставкой готовой продукции на основе изучения потребностей потребителей.

Маркетинговая логистика в оптовой торговле направлена на формирование портфеля заказов, планирование на его основе ассортимента продукции, определение оптимальной технологии движения продукции, создание стандартов качества продукции и упаковки, исключение потерь времени при доставке, эффективное использование материала. и трудовые ресурсы.

Современные информационные технологии играют важную роль в оптовой сбытовой логистике. Цифровые технологии, оптовые терминалы, единое кодирование товаров, отслеживание движения товаров через спутник, компьютеризация складских операций, электронный обмен данными и переводы денег реализуются посредством маркетинговой логистики в оптовой торговле.

Функция маркетинговой логистики в оптовой торговле заключается в управлении поставками производителя, потоком готовой продукции от производителя к потребителю. В оптовой торговле маркетинговая логистика – это анализ, планирование, организация и управление всеми операциями, связанными с хранением продукции, доставкой, маршрутом движения, связью, формированием портфеля заказов, оказанием услуг. Основная цель маркетинговой логистики в оптовой торговле – своевременное удовлетворение потребностей и запросов потребителей качественными товарами и услугами и оказание услуг, установление прочных, долгосрочных отношений и связей с покупателями, а также доставка до нужное место в нужное время.

Основное направление деятельности маркетинговой логистики в оптовой торговле связано с ведением коммерческой работы. Это важная составляющая маркетинговой и логистической системы предприятий оптовой торговли. Реализация функций маркетинга и логистики в оптовой торговле зачастую зависит от характера отрасли, то есть речь идет о функциях маркетинга и логистического обслуживания при осуществлении деятельности участников рынка коммерческого характера.

В условиях инновационной экономики маркетинговая логистика в оптовой торговой деятельности направлена на достижение следующего:

- сокращение товарных запасов и объема связанного капитала;
- улучшение подготовки к доставке грузов;
- сократить время выполнения заказа и повысить его качество;
- повысить гибкость производства;
- снижение себестоимости продукции, транспортных расходов, затрат ручного труда;
- ускорение оборачиваемости капитала;
- оптимизация хозяйственных потоков предприятия;
- оптимизация организации использования всех видов ресурсов предприятия;
- координация деятельности всех подразделений предприятия в процессе управления экономическими потоками.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Выводы и предложения для статьи по теме “Роль и значение логистики в развитии коммерческой деятельности торговых предприятий” могут быть сформулированы следующим образом:

- **Ключевая роль логистики:** Логистика играет ключевую роль в современной коммерческой деятельности торговых предприятий, обеспечивая эффективное управление цепями поставок и оптимизацию логистических процессов.
- **Интеграция в стратегии развития:** Торговые предприятия должны интегрировать логистику в свои стратегии развития, рассматривая ее не как отдельную функцию, а как неотъемлемую часть бизнес-плана.
- **Технологический прогресс:** Использование современных технологий в логистике, таких как системы управления складом и аналитика данных, позволяет торговым предприятиям повышать эффективность и точность логистических операций.
- **Потребительская ориентация:** Логистика должна быть ориентирована на потребителя, обеспечивая высокий уровень обслуживания и удовлетворение потребительских ожиданий.
- **Адаптивность к рыночным изменениям:** Торговые предприятия должны разрабатывать гибкие логистические стратегии, способные адаптироваться к быстро меняющимся условиям рынка и изменениям в потребительском поведении.

Предложения

- **Оптимизация цепи поставок:** Развивать и оптимизировать цепи поставок, укрепляя партнерские отношения с поставщиками и стремясь к синергии в рамках логистической сети.
- **Инвестиции в технологии:** Проводить инвестиции в современные технологии, такие как системы отслеживания грузов, интернет вещей (IoT) и искусственный интеллект, для улучшения управления логистикой.
- **Обучение и развитие персонала:** Развивать компетенции логистических специалистов и обеспечивать их постоянное обучение, чтобы эффективно применять новые методы и технологии.

Список использованной литературы:

1. Ergashxodjayeva Sh. J., Qosimova M. Yusupov M. A. Marketing asoslari.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019 y.-305 bet.
2. Ergashxodjayeva Sh. J., Samadov A. N., Tarmoqlar va sohalar marketingi. Darslik. –Toshkent.Iqtisodiyot, 2019 y. 136 bet.
3. Kotler F. Osnovi marketinga. 5-ye izd./F. Kotler, A. Gari. – M.: Vilyams, 2016.-752 s.
4. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. Pearson UK.
5. Lambert, D. M., Stock, J. R., & Ellram, L. M. (1998). Fundamentals of Logistics Management. McGraw-Hill.
6. Rushton, A., Croucher, P., & Baker, P. (2014). The Handbook of Logistics and Distribution Management. Kogan Page.
7. Bowersox, D. J., Closs, D. J., & Cooper, M. B. (2013). Supply Chain Logistics Management. McGraw-Hill Education.
8. Waters, D. (2003). Logistics: An Introduction to Supply Chain Management. Palgrave Macmillan.
9. Council of Supply Chain Management Professionals (CSCMP). (2021). Supply Chain Management Definitions. [Online] Available at: https://cscmp.org/CSCMP/Educate/SCM_Definitions_and_Glossary_of_Terms/CSCMP/Educate/SCM_Definitions_and_Glossary_of_Terms.aspx
10. Chopra, S., & Meindl, P. (2015). Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. Pearson.
11. Langley, C. J., Jr., Coyle, J. J., Gibson, B. J., Novack, R. A., & Bardi, E. J. (2018). Supply Chain Management: A Logistics Perspective. Cengage Learning.
12. Hugos, M. H. (2018). Essentials of Supply Chain Management. John Wiley & Sons.
13. Mentzer, J. T., DeWitt, W., Keebler, J. S., Min, S., Nix, N. W., Smith, C. D., & Zacharia, Z. G. (2001). Defining supply chain management. Journal of Business Logistics, 22(2), 1-25.

UZUM YETISHTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MUNOSABATLARI VA SOHANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Boltayev N. N.
O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaliligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, meva-sabzavot va uzumchilik tarmoqlarini eksport salohiyatini oshirish, uzumchilik klasterlarini rivojlantirishda dehqon va fermer xo‘jaliklarini moddiy manfaatdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlab chiqarish jarayonida ilm-fan yutuqlaridan to‘laroq foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, uzum ishlab chiqaruvchilar, agroklasterlar, kooperatsiyalar o‘rtasida huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar muntazam ravishda takomillashtirish metodikasi tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: agrosanoat majmuasi, oziq-ovqat xavfsizligi, dehqon va fermer xo‘jaliklari, kooperatsiya, agroklaster, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, innovatsiya, tashkiliy-boshqaruv funksiyalari, integratsiya, sinergetik samaradorlik, qo‘shilgan qiymat.

Abstract: The article discusses the possibilities providing the population of the country with high-quality food products, increasing the export potential of horticulture and viticulture, increasing the material interest of dekhkan and farm enterprises in the development of viticulture clusters, development of production based on the value chain in the viticulture complex, more complete use of the achiyevements of science in the process of processing agricultural products. Also, the methodology for improving legal, organizational and economic relations between grape producers, agricultural clusters, and cooperatives is described.

Key words: agro-industrial complex, food security, dekhkan and farm enterprises, cooperation, agro-cluster, organizational and economic relations, innovations, organizational and managerial functions, integration, synergetic efficiency, added value.

Аннотация: В статье рассмотрены возможности обеспечения населения страны качественной продовольственной продукцией, повышения экспортного потенциала плодоовощеводства и виноградарства, повышения материальной заинтересованности дехканских и фермерских хозяйств в развитии виноградарских кластеров, развития производства на основе цепочки добавленной стоимости в виноградарском комплексе, более полного использования достижений науки в процессе переработки сельскохозяйственной продукции. Также, описана методика совершенствования правовых, организационных и экономических отношений между производителями винограда, агрокластерами, кооперативами.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, продовольственная безопасность, дехканские и фермерские хозяйства, кооперация, агрокластер, организационно-экономические отношения, инновации, организационно-управленческие функции, интеграция, синергетическая эффективность, добавленная стоимость.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i qishloqdagi turmush darajasini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini hamda sanoatni xom ashyo bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini barqarorlashtirish, mamlakat aholisini aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, tarmoqning eksport salohiyatini yanada oshirishda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish majmuyi muhim o‘rin egallaydi. Meva-sabzavot va uzumchilikning strategik ahamiyatga egaligi hamda tarmoqda mavjud ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida ko‘p ukladili iqtisodiyot shakllantirilib rivojlangan bozor munosabatlarini o‘rnatish uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Lekin uzum va uzum mahsulotlari yetishtiruvchilarning hajmi nisbatan kichik va ta’minot zanjiriga to‘liq bog‘lanmagan mahsulot sifat standartlariga qo‘yiladigan talab tarmoq bo‘yicha yagona tizimga ega emas. Bu esa hozirgi paytda tarmoqda yaratilayotgan

mahsulotlarni xalqaro bozorlarga yo‘naltirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, uzum xom ashyosini saqlash omborlari yetishmasligi sababli yetishtirilgan uzumning katta hajmi bozorga chiqariladi, natijada taklifning talabdan ortiqchaligi hisobiga uzum va uzum mahsulotlarning narxlari tushib ketadi. Bu esa sotilmay qolgan mahsulotlarning ko‘pgina qismi nobud bo‘lishi uzum yetishtiruvchi dehqon va fermer xo‘jaliklarining daromadlari kamayishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 barobar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud, biroq hozirgi sharoitda Respublikamiz meva-sabzavotchilik tarmog‘ini jahon oziq-ovqat va agrar bozorlariga integratsiyalashuvining bozor tamoyillariga mos keluvchi samarali tizimini shakllantirish yuzasidan nazariy-uslubiy asoslar to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Shuning uchun uzumchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi, tarmoqning raqobatbardoshligini ta’minlashga imkon beruvchi jahon agrar bozorlariga integratsiyalashuv tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni talab etmoqda.

Kooperatsiya va agroklasterlarda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish orqali uzum yetishtiruvchilaring raqobatbardoshligini oshirib, uzumchilik majmuyini barqaror o‘sishi va qishloq aholisini turmush darajasini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Kooperatsiya tushunchasi hamkorlik, birga ishlash, ya’ni jismoniy va yuridik shaxslarni birgalikda tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun ixtiyoriylik asosida birlashuvi, klaster tushunchasi esa “bir-biri bilan ma’lum sohada hamkorlik qilayotgan korxonalar hamda institutlarning geografik yaqin joylashuvi” deyish mumkin [1]. Ushbu nazariy ta’riflarni yanada takomillashtirgan va kengaytirgan holda umumlashtirib, kishloq xo‘jaligida “agroklaster-qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilmalar majmuyini yanada rivojlantirish, qishloq aholisining ish bilan bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan faoliyat yurituvchi xo‘jalik yuritish subyektidir” degan xulosaga kelish mumkin.

Meva-sabzavot va uzumchilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan huquqiy -me’yoriy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4239-sonli, 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4549-sonli, 2023-yil 03-avgustdagi “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-260-sonli Qarorlari asosida amalga oshirilgan monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash, va ekspert baholash usullari tadqiqot metodologiyasi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda iqtisodiyotimizning meva-sabzavot va uzumchilik majmuyida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarga mos bo‘lgan tashkiliy va boshqaruv usullarini takomillashtirish, integratsion tuzilmalarning sinergetik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Hukumatimiz tomonidan bog‘dorchilik tarmog‘i xo‘jaliklarida boshqaruv tizimini yaxshilash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, meva-sabzavot va uzumchilikda kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, oziq-ovqat sanoatini jadal sur’atlarda rivojlantirish maqsadida qator qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, yangi istiqbolli sanoatbop uzum navlarini ko‘paytirish va yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bazasi bilan ta’minlashni mustahkamlash va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda O‘zbekistonda agrar islohotlarning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, boshqaruvning mikro va makro darajalari o‘rtasidagi vakolatlarni aniq chegaralash va bir qator davlat boshqaruv funksiyalarini bosqima-bosqich mahalliy hamda o‘z-o‘zini boshqarish organlariga berish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga agrobiznes tizimida kooperatsiya munosabatlari va klaster yondashuvi asosida tashkil etish hamda boshqaruvning ilg‘or usullaridan bo‘lgan zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda [2].

Tahlil natijalari ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda uzumchilik majmuyida tashkiliy-boshqaruv funksiyalarining talab darajasida amalga oshirilmayotganligi ayrim boshqaruv fuksiyalar turli xil hokimiyat organlari o‘rtasida asoslanmagan tarzda jamlanganligi va ichki manfaatlarning muvofiqlashtirilmaganligi sababli, ularning boshqaruv

tizimi rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida to‘liq moslasha olmayapti. Ya’ni agrar sohani boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy va bozor funksiyalari o‘rtasida aniq chegara bo‘lishi, boshqarishning turli pog‘onalarida ushbu vazifalar takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular o‘rtasida vazifalar aniq taqsimlanishi orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan bo‘lib qolmoqda.

Uzumchilik klasterini tashkil etishning muhim jihati – uning ishtirokchilarini birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyotda qo‘llash orqali bir-birlariga ishonchlarini yuqoriligi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan institutsional va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida shakllangan xo‘jalik yuritish subyektlari hamda tarmoqda ular o‘rtasidagi huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar muntazam ravishda takomillashtirilib boriladi [3]. Uzumchilik klasterlarini barpo etishning zamonaviy usul va yondashuvlar asosida yondashish bugungi kunda agrar siyosatning muhim vazifalaridan biriga aylanishi kerak. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda milliy an’analarni zamonaviylashtirgan holda davom ettirish, hududlarning tabiiy joylashuvi bo‘yicha o‘ziga xos raqobatbardosh ichki va tashqi bozorda yuqori talabga ega bo‘lgan mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashuvi, qishloq xo‘jaligida turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mulkdorlarning mavjudligidir. Shuningdek, agrosanoat majmuasi sohalari korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiya va integratsion jarayonlar, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi yuqori innovatsion darajaga ega bo‘lgan korxonalar, tarmoq bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarning o‘zaro hamkorlik va raqobatga tayyorligi, qishloq xo‘jaligini tartibga solishning bozor tamoyillariga mos huquqiy-me’yoriy asoslarining shakllanganligi, xizmat ko‘rsatuvchi keng qamrovli infratuzilma va yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi ushbu nomutanosibliklarni hal qilishga muhim omil hisoblanadi.

Uzumchilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun huquqiy bazaning yaratilishi, ko‘rilayotgan tashkiliy chora-tadbirlar, tarmoq uchun berilayotgan imtiyozlar bilan birlikda tarmoq rivoji uchun to‘siq bo‘layotgan ba’zi muammolar ham mavjud. Uzum mahsulotini saqlash va qayta ishlash bilan bog‘liq mavjud muammolar, uzumchilik agrotexnikasi, tarmoqni mexanizatsiyalashdagi ba’zi muammolar, ko‘chat yetishtirishning yetarlicha rivojlanmaganligi shular jumlasidandir. Bu muammolarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, ularningn yechimini topish tarmoq rivoji uchun bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fermerlar va dehqon xo‘jaliklari bilan qayta ishlovchi korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning negizi bo‘lgan shartnoma munosabatlari rivojlanishiga alohida urg‘u berish lozim. Agarda mahalliy bozorlardagi fermerlar, dehqon xo‘jaliklari va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchilar o‘rtasidagi tarmoqning sust rivojlanganligi, bozorda mahsulot narxlari bo‘yicha ma’lumotlar ayirboshlash bo‘yicha tizim mavjud emasligini hisobga olinadigan bo‘lsak, milliy va hududiy darajada bozordagi baho, talabga oid ma’lumotlar bo‘yicha tizim shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Uzumchilik majmuyida qo‘shilgan qiymat zanjiriga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni tijoratga yo‘naltirish, salohiyatli bozorlarni aniqlash, uzumchilik ta’minot zanjiriga imkon qadar dehqon xo‘jaliklarini ko‘proq jalb etish, uzumning sifatli navlaridan foydalanib yetishtirish, samarali qayta ishlab chiqarish tizimini barpo etish, eksportga yo‘naltirilgan qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish, mahsulot sifat standartlarini ta’minlash, qayta ishlab chiqarish jarayonida ilm va fan yutuqlaridan to‘laroq foydalanish, mavjud ilmiy-tadqiqot institutlarini rivojlantirish hamda hududlarning geografik joylashuvi salohiyatidan foydalanish. Uzumchilik klasterlarini rivojlantirishda fermer va dehqon xo‘jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik, hamjihatlikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bizning fikrimizcha, respublikamizda uzumchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Uzumchilik tarmog‘ida bajariladigan agrotexnik tadbirlarning mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirish. Ma’lumki, hozirda uzumchilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida agrotexnik tadbirlarning bir qismi jumladan bahorda tok tuplarini ochish, xomtok qilish, hosilni uzib olish, qirqish kabi agrotexnik tadbirlar asosan qo‘l kuchi bilan bajariladi.
2. Uzumchilik dehqon va fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tarmoq agrotexnikasi uchun mavjud maxsus texnika vositalarini sotib olishlari uchun past foizli va uzoq muddatli kreditlar ajratish, texnika vositalarini lizing asosida yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish.
3. Uzumni yirik maydonlarda klaster va kooperatsiya usulida yetishtirish orqali sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, uzumni saqlash, saralash, qayta ishlashni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;
4. Ilmiy asoslangan holda uzum yetishtirish, uning yangi hosildor, danaksiz, navlarini yaratish maqsadida uzumchilik ilmiy maktabini rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini

yo‘lga qo‘yish;

5. Bevosita uzum yetishtiruvchilar uchun uzumni saqlash uchun sharoitlar yaratish. Dehqon va fermer xo‘jaliklari, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari ehtiyojlariga mos kichik hajmli uzumni saqlash omborlari qurilishi, sovutish va boshqa saqlash jihozlari sotib olishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uzumchilik tarmog‘ining rivojlanishi, uzumchilik mahsulotlari yetishtirish hajmining oshishi, tarmoq samaradorligining o‘sishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4239-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4549-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-260-sonli Qarori
4. Porter, M. E(1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, November-December: p. 77-90.
5. Bradford D. Jordan, Thomas W. Miller Jr. (2012). Fundamentals of Investments Valuation and Management, p. 448-449.
6. Yu. B. Korolev, V. D. Korotnev, G. N. Kochetova, Ye. N. Nikiforova, I. G. Ushachev Menedjment v APK, Moskva KolosS 2007 s. 273.

TASHQI SAVDO JARAYONLARINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

Qurbonov A. U.
Buxoro davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashqi savdo jarayonlarini tashkil etishda qo‘llanilgan tashqi savdo nazariyalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, eksport, import, tovar, xizmat.

Abstract: This article examines foreign trade theories used in the organization of foreign trade processes.

Key words: foreign trade, export, import, goods, service.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теории внешней торговли, используемые при организации внешнеторговых процессов.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, товары, услуги.

KIRISH

Iqtisodiy globallashuvning yuqori darajadagi jadallashuvi mamlakatlarning jahon bozoriga bog‘liqligi va rivojlanish darajasiini belgilovchi omil hisoblanadi. Barcha sohalarda ilmiy salohiyat yutuqlaridan keng foydalanish natijasida dunyo mamlakatlarida iqtisodiy yuksalish kuzatilmoqda. Zamonaviy shakllanish darajasi natijasida o‘zining yorqin qirralarini namoyon etayotgan jahon xo‘jaligini turli iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini kashf etmoqda, shu bois tashqi savdoning keng miqiyosda o‘rganishga bo‘lgan talab yillar davomida o‘sib kelmoqda. Umuman olganda, savdo hayotimizning barcha sohalarida eng istiqbolli va rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan tarmoqlaridan hisoblanadi va u qadim zamonlardan o‘zining tarixiy rivojlanish davrlariga ega bo‘lgan.

TADQIQOT USULI NA NATIJADARI

Ushbu tadqiqot ishida biz qadimiy savdo nazariyalarini tahlil qilib chiqamiz. Qolaversa, tadqiqot ishida savdo nazariyalarining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sirini tadqiq etamiz va olimlarning ilmiy ishlarini ko‘rib chiqamiz.

Shunday ishlarni amalga oshirgan iqtisodchi olimlardan biri Tomas Fridman hisoblanib, u o‘zining “Tekis dunyoga yondashuv” asarida dunyo tarixini uchga bo‘lgan[1]:

1.1-rasm: Globalizatsiya bosqichlari

1 Mulugeta Girma Dibiku. International trade theories and its trends. www.researchgate.net/publication

Tomas Fridmanga ko‘ra Globalizatsiyaning birinchi bosqichida, millatlar global kenglikka hukmronlik qilishgan, ya’ni mustamlakachilik davri deb atamoqchi bo‘lgan. Globalizatsiyaning 2-bosqichida transmilliy kompaniyalar yuqoriga ko‘tarilgan va global rivojlanishga turtki berdi. Globalizatsiyaning hozir 3-bosqchini texnologiya boshqarmoqda. Barcha sohalarni tadqiq etishda ularning evolyutsiya jarayonlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etganidek, zamonaviy global savdo qanday rivojlanganligini yaxshiroq tushunish uchun mamlakatlar tarixiy ravishda bir-biri bilan qanday savdo qilganligini tushunish muhimdir. Global savdo mexanizmlarini tushunish, davlatlarning savdo siyosatlarida qanday qilib muvaffaqiyatga erishganligi ustida ko‘plab ilmiy yondashuvlar mavjud. Olimlar global savdo mexanizmlarini tushunish uchun yetarlicha ilmiy nazariyalar yaratishgan. Mamlakat nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan asosiy tarixiy nazariyalar klassik nazariyalar deb ataladi. Yigirmanchi asrning o‘rtalariga kelib, nazariyalar savdoni mamlakat nuqtayi nazaridan emas, balki firma nuqtayi nazaridan tushuntirishga o‘ta boshladi. Ushbu firma yoki kompaniyaga asoslangan nazariyalar firmaga asoslangan zamonaviy nazariya deb atalgan. O‘z o‘rnida, klassik va zamonaviy toifalarning ikkalasi ham bir nechta xalqaro tashqi savdo nazariyalardan iborat.

1.2-rasm: Xalqaro savdo nazariyalari

Merkantilizm nazariyasiga ko‘ra davlatlarning rivojlanishi bu – ularni eksporti importidan ko‘pligiga qarab baholashgan. Ular eksport va import hajmlarini qimmatbaho metallarga asosida baholashgan. Merkantilizm nazariyasiga ko‘ra, davlatning boyligi uning qancha oltin va kumushlari borligiga qarab belgilanadi. Shu sabab ular asosan eksportni rag‘batlantirib importni cheklash uchun barcha ishlarni qilish amaliyotini ilgari surishgan. Garchi merkantilizm eng qadimgi savdo nazariyasi bo‘lsa-da, bugungi kunda ham zamonaviy yondashuvlarning bir qismi sifatida qolmoqda. Yaponiya, Singapur, Xitoy, Tayvan va hattoki Germaniya kabi davlatlar ham eksportni ma’qullaydi va neo-merkantilizm shakli orqali importni to‘xtatishga intilishmoqda.

Adam Smit o‘zini tadqiqotlarida “ikki davlatlar o‘rtasidagi tashqi savdo ixtiyoriy ravishda ikkalasiga ham foydali bo‘lishi”[2] g‘oyasini ilgari suradi. Smitga ko‘ra ikki davlat o‘rtasidagi savdo “Mutlaq ustunlik” qonuniga asoslangan bo‘ladi. Mutlaq ustunlik qonunini bo‘yicha quyidagicha ifodalaydi: “bir davlat bir tovarni ishlab chiqarishda boshqasiga qaraganda samaraliroq bo‘lsa (yoki mutlaq ustunlikka ega bo‘lsa), lekin ikkinchi tovarni ishlab chiqarishda boshqa davlatdan kam samarador bo‘lsa (yoki mutlaq kamchilikka ega bo‘lsa), ikkala xalq ham har biri o‘zining mutlaq ustunligi bo‘lgan tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan holda va mahsulotning bir qismini boshqa xalq bilan o‘zining mutlaq kamchiligidagi tovarga almashtirish orqali daromad olish”[3].

1817-yilda David Rikardo o‘zining “Principles of Political Economy and Taxation” qo‘lyozmasida hozirgi kunda ham eng muhim va amaliy bo‘lgan “Qiyosiy ustunlik” qonunini taqdim etgan. Rikardo ushbu qonun bilan mamlakatning tashqi savdo jarayonlarini tahlil qilgan.

2 Adam Smith. Trade Based on Absolute Advantage. International Economics (ccsuniversity.ac.in)
3 Adam Smith: Absolute Advantage. International Economics (ccsuniversity.ac.in)

1900-yilda ikki shved olimi Eli Xeksher va Bertil Olin o‘z e’tiborini mamlakatda ko‘p bo‘lgan omillardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish orqali qiyosiy ustunlikka qanday erishish mumkinligiga qaratadi. Ularning nazariyasi zavod va asbob-uskunalarga sarmoya kiritish uchun mablag‘larni ta’minlaydigan mamlakatning yer, mehnat va kapital kabi ishlab chiqarish omillariga asoslanadi. Ular har qanday omil yoki resursning narxi talab va taklif funksiyasiga ega degan g‘oyani ilgari surishdi. Bu nazariya tarixga Xeksher-Olin nazariyasi (omillar nisbati nazariyasi) deb nomlanib qoldi. Tadqiqotlari natijasi o‘laroq quyidagi xulosalarni ulashishgan. Xulosaga ko‘ra, talabga nisbatan katta taklifga ega bo‘lgan omillar arzonlashuvga olib keladi yoki aksincha taklifga nisbatan katta talab omillari qimmatlashishga sababchi bo‘ladi.

Firma asosidagi nazariyalar transmilliy kompaniya o‘sishi bilan rivojlandi. Mamlakatga asoslangan nazariyalar ikkala transmilliy kompaniya yoki sanoat ichidagi savdoning kengayishiga yetarlicha murojaat qila olmadi, bu bir xil sohada ishlab chiqarilgan ikki mamlakat tovarlari savdosini anglatadi. Masalan, Yaponiya Tayotta avtomobillarini Germaniyaga eksport qiladi va Germaniyadan Mercedes-Benz avtomobillarini import qiladi. Mamlakatga asoslangan nazariyalardan farqli o‘laroq, firma nazariyalari savdo oqimlarini tushunishga boshqa mahsulot va xizmat omillarini, shu jumladan, tovar va mijozlarning sodiqligi, texnologiya va sifatini o‘z ichiga oladi.

Shved iqtisodchisi Stefan Linder tomonidan 1961-yilda sanoat ichidagi savdo konsepsiyasini chuqur tahlil qilish natijasida “Mamlakat o‘xshashligi” nazariyasini ishlab chiqdi. Linder nazariyasi rivojlanishning bir xil yoki o‘xshash bosqichida bo‘lgan mamlakatlardagi iste’molchilar o‘xshash afzalliklarga ega bo‘ladi deb xulosa qilish ushbu nazariyani taklif qilgan. Linderning mamlakatdagi o‘xshashlik nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdosining aksariyati aholi jon boshiga daromadlari o‘xshash mamlakatlar o‘rtasida bo‘ladi va sanoat ichidagi savdo keng tarqalgan bo‘ladi. Ushbu nazariya ko‘pincha tovar nomlari va mahsulot obro‘si xaridorlarning qaror qabul qilish va sotib olish jarayonlarida muhim omil bo‘lgan tovarlar savdosini tushunishda eng foydali hisoblanadi.

Harvard biznes maktabi professori Raymond Vernon 1960-yilda “Mahsulot hayot almashinuvi” nazariyasini taqdim qiladi.

Olimlar Pol Krugman va Kelvin Lankaster ishlari asosida “Golbal strategik raqobat nazariyasi” paydo bo‘lgan. Global strategik raqobat nazariyasi 1980-yillarda vujudga kelgan. Ularning nazariyasi ulkan ishlab chiqarish korxonalariga qaratilgan bo‘lgan, maqsadi esa sanoatda boshqa yirik firmalarga nisbatan raqobatdosh ustunlikka erishish edi. Nazariyaga ko‘ra firmalar o‘z sanoatlarida global raqobatni shakllantirishga rag‘batlantirilgan.

M. Porter 1990-yilda tashqi savdoda milliy raqobat ustunligini izohlaydigan yangi model ishlab chiqadi.

TAHLIL

Merkantilizm nazariyasiga ko‘ra, davlatning boyligi uning qancha oltin va kumushlari borligiga qarab belgilanadi. Shu sabab ular asosan eksportni rag‘batlantirib importni cheklash uchun barcha ishlarni qilish amaliyotini ilgari surishgan.

Merkantilizm nazariyasining kamchiligi shundaki – barcha davlatlar ham eksport profitsiga ega bo‘la olishmaydi, chunki barcha xalqlarda bir xil miqdorda oltin zaxira mavjud emas va qolaversa, davlatlar import ehtiyojini faqatgina import bilan qondira olishadi. Masalan, yurtimizda mebel sanoati uchun yog‘och zaxirasi yetarlicha emas, shu sabab biz yog‘och importini cheklay olmaymiz. Cheklash turli salbiy oqibatlarga olib keladi. Nafaqat mebel sanoatiga ta’sir qiladi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham salbiy ta’sir qiladi.

“Qiyosiy ustunlik qonuniga ko‘ra, agar bir davlat har ikkala tovarni ishlab chiqarishda boshqa davlatga nisbatan samarasiz bo‘lsa ham, o‘zaro manfaatli savdo uchun asos mavjud. Birinchi davlat o‘zining mutlaq kamchiligi kichikroq bo‘lgan tovarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashishi va mutlaq kamchiligi ko‘proq bo‘lgan tovarni import qilishi kerak”[4]. Tahlil mamlakatda ishlab chiqarilishi importdan ko‘ra xarajatli bo‘lgan tovarlar import qilish va ushbu chiqarishni o‘rnini foydali bo‘lgan eksport imkoniyati bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlarini yo‘lga qo‘yishni oldinga surgan. Bu bilan ko‘rinib turibdiki, tashqi savdo ixtiyoriy ikki tomonlama doim foydali bo‘ladi.

Ba’zi mamlakatlar savdo siyosatida Smit hamda Rikardolarning nazariyalarini qo‘llab ilg‘or tashqi savdoni yo‘lga qo‘ya olishmadi. Sabab ushbu nazariya ularga qaysi mahsulot ustunlik berishini aniqlashda yordam bermagan. Ikkala nazariyaning ham asosi erkin savdodir. Ikkalasida ham faraz qilinadiki, erkin savdo mamlakatlarga qaysi mahsulotni ishlab chiqarish samaraliroq bo‘lishini aniqlab beradi.

“Mahsulot hayot almashivnuvi” nazariyasi marketing tadqiqotlariga ko‘ra asoslangan. Vernonning mahsulot hayot siklini 3 alohida alohida bosqichlarga ega deb ta’kidlaydi.

4 Dominik Salvatore. International Economics. https://ccsuniversity.ac.in/bridge-library/pdf/Dominick-Salvatore-International-Economics



1.3-rasm: Raymond Vernonning mahsulot hayot sikli

Nazariyaga ko‘ra yangi mahsulotni ishlab chiqarish asosan innovatsiyalar qiladigan mamlakatlarda sodir bo‘lishini ta’kidlangan. Ko‘plab innovatsiyalar dunyo bo‘ylab jahon savdosida mamlakatni yetakchi o‘ringa olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Global strategik raqobat nazariyasi raqobatdosh ustunlikni rivojlantirish sharti taraqqiyotga yetaklaydi degan tamoyil asosida ishlashgan. Ichki bozordagi global raqobat tashqi bozorga chiqish va raqobatlasha olish imkoniyatini bera oladi. Bu ham firmalarning tashqi savdodagi o‘rinlarini oshishiga olib keladi va tendensiya to‘g‘rida-to‘g‘ri mamlakatning tashqi savdosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Nazariya shuni ifodalaydiki, firmalar barqaror raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishining muhim usullari ushbu sohaga kirish uchun mavjud to‘siqlardan o‘tish hisoblanadi. Bozorga kirish uchun to‘siqlar yangi firma tarmoqqa yoki yangi bozorga kirishga harakat qilishda to‘qnashishi mumkin bo‘lgan to‘siqlar bilan bog‘liq. Xulosa qilish mumkinki, nafaqat tashqi savdo jarayonlarini rivojlantirish uchun, balki, umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun yuqorida tizimni tatbiq qilish yechim bo‘la oladi.

Porterning nazariyasiga ko‘ra, “mamlakat sanoatda raqobatbardoshligi, sanoatning innovatsiyalar va yangilanish imkoniyatlariga bog‘liq”[5]. Porter nazariyasining maqsadi nima uchun millatlar sanoatning ba’zi sohalarida ko‘proq raqobatbardosh ekanligini tushuntirishga qaratilgan. Nazariyani tushuntirish maqsadida Porter bir biriga bog‘liq to‘rtta determinantlarni aniqlagan:



1.4-rasm: Milliy raqobat ustunligini izohlaydigan yangi model determinantlari

Umumiy xulosa qilib ayta olamizki, dunyo hamjamiyatini raqamlashuvi tashqi savdo chegaralarini ochishga olib keladi, bunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishimiz uchun tashqi dunyo bilan hamnafas harakat qilishimiz kerak, albatta, ushbu holat bugungi davrimizning talabi bo‘lib ham hisoblanadi. Bilamizki, har qanday

5 Porter 1990. The competitive advantage of nations. www.psl.eu

jarayonlarni o‘rganishda, avvalo, soha bo‘yicha qilinga dolzarb ishlar va nazariyalarni o‘rganib chiqish zarur. Shu jumladan biz ham tashqi savdoni asosiy aspektlari statistik o‘rganishni muhim deb bildik. Nazariyalarni o‘rganib shunday xulosaga kelamizki, tashqi savdo siyosatini boshqarishda hech bir nazariya aniq natija berishi kafolatlanmangan. Biroq iqtisodchilarga, hukumatlarga va biznes egalariga xalqaro savdo strategiyasini tuzish va uni qanday targ‘ib qilish, tartibga solish va boshqarishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tajriba uchun har bir nazariyani chuqur o‘rganish muhim. Lekin hech bir nazariyaga to‘liq tayanib qolmaslik kerak. Chunki, bu nazariyalar vaqti-vaqti bilan real voqealarga zid keladi. Masalan. Mamlakatlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishning ko‘p sohalarida mutlaq ustunlikka ega emas va aslida ishlab chiqarish omillari mamlakatlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanmagan. Ba’zi mamlakatlar ba’zi omillarning nomutanosib foydasiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dominik Salvatore. International Economics. https://ccsuniversity.ac.in/bridge-library/pdf/Dominick-Salvatore-International-Economics
2. Adam Smith. Trade Based on Absolute Advantage. International Economics (ccsuniversity.ac.in)
3. Mulugeta Girma Dibiku. International trade theories and its trends. www.researchgate.net/publication.
4. Porter 1990. The competitive advantage of nations. www.psl.eu
5. Ergashev M. Mintaqalarning innovatsion rivojlanishi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mintaqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash //Tsentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz). – 2022. – T. 13. – №. 13.
6. Sherov A. U. et al. Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan //Eurasian Scientific Herald. –2022. – T. 5. – S. 123-126.

KORXONALARDA PUL MABLAG‘LARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Karamatova Noiba Xusnitdinovna
Toshkent moliya instituti “Audit”kafedrasi katta o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda pul mablag‘larining kirimi hamda chiqimini buxgalteriya hisobida aks ettirish. Shuningdek, korxonalarda pul mablag‘lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Auditorlik tekshiruvlarida pul mablag‘lari hisobini tekshirishda qo‘llaniladigan audit amallarini qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi korxonalarda pul mablag‘lari auditini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: korxona, pul mablag‘lari, pul oqimi, naqd pullar, joriy aktiv, audit, audit tashkiloti, audit dasturi, likvidlilik.

Abstract: Ensuring the stability of cash flow in enterprises is a necessary condition for ensuring their liquidity and financial stability. Therefore, special attention is paid to ensuring a relatively high and stable level of cash balance in the company’s current assets. The article explains ways to improve the audit of funds in enterprises.

Key words: company, funds, cash flow, cash, current assets, audit, audit organization, audit program, liquidity.

Аннотация: Обеспечение стабильности движения денежных средств на предприятиях является необходимым условием обеспечения их ликвидности и финансовой устойчивости. Поэтому особое внимание уделяется обеспечению относительно высокого и стабильного уровня остатка денежных средств в оборотных активах компании. В статье рассмотрены пути совершенствования аудита денежных средств на предприятиях.

Ключевые слова: компания, средства, денежный поток, денежные средства, оборотные активы, аудит, аудиторская организация, программа аудита, ликвидност.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonii bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ilg‘or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e’tirof etilgan [1]. Bu esa, korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta’minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. O‘z navbatida, korxonalarning pul oqimini barqarorligini ta’minlash bevosita pul mablag‘larining auditiga bog‘liq.

MATERIAL VA METOD

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoat korxonalarining pul oqimini barqarorligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalarning yechimiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda pul mablag‘lari auditini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada statistik guruhlash, ekspert baholash, tarkibiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

Pul mablag‘larini audit qilishda pul mablag‘lari hisobini to‘g‘ri tashkil qilinganligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Pul mablag‘lari hisobi kassa operatsiyalari hisobi va naqdsiz pul mablag‘lari hisobini o‘z ichiga oladi.

Kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobi quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” 5020 –“Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari”.

Jurial-order shakli bo‘yicha hisobga olishda kassa bo‘yicha operatsiyalar 1-jurnalda (5000 – “Kassa” hisobvarag‘ining kredit oborotlari) va jurnal-orderga kiruvchi 1-qaydnomada (5000 – “Kassa” hisobvarag‘ining debet oborotlari) aks ettiriladi. Aytib o‘tilgan registrlarga qilinadigan qaydlar kassirning tekshirilgan va ishlov berilgan hisobotlari asosida har kuni olib boriladi. Kassa muomalalarini olib borish tartibida inventarizatsiya qilish ko‘zda tutilgan.

Korxonaning Bosh kitobida tijorat bankidan ish haqi uchun olingan naqd pul summasi quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan rasmiylashtirildi:

Debet 5010
Kredit 5110

1-jadval: 5000-“Kassadagi pul mablag‘lari”ni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi [9]

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	hisobvaraqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Bankdagi tegishli hisobvaraqlardan pul mablag‘larining kassaga kelib tushishi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar)	5010	5110, 5210	Pul cheki pattasi va ko‘chirmasi, kassaning kirim orderi kassa kitobi
2	Yo‘ldagi pul mablag‘larining kelib tushishi	5010	5620	Kirim to‘g‘risidagi tasdiqnoma
3	Mahsulot ish va xizmatlarning naqd pulga sotilishi	5010	9010-9030	Sotish vedomosti va kassaning kirim orderi
4	Hisobdor shaxslar tomonidan olingan va ishlatilmagan ortiqcha summalarning qaytarilishi	5010	4230	Bo‘nak hisoboti va kassaning kirim orderi
5	Pul mablag‘larining kassadan hisoblashishish hisobvarag‘iga qaytarilishi	5110	5010	Topshirish e’loni va bankning ko‘chirmasi
6	Kassadan ish haqi va boshqa to‘lovlarning (yordam pullari, mukofotlar, ishtirok etishdan daromadlar)ning berilishi	6710	5010	To‘lov vedomosti va kassa chiqim orderi
7	Bir martalik yordam pulining kassadan to‘lanishi	9430	5010	Kassa chiqim orderi, rahbarning buyrugi va ariza

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklidagi korxonaning hisob-kitob schyoti muomalalari 2-jurnal-orderda va 2-qaydnomada aks ettiriladi. Ko‘rsatilgan registrlarni yozuvlar qat’iy xronologik tartibda hisob-kitob schyotlari bo‘yicha tekshirilgan va ishlov berilgan ko‘chirmalar va ularga ilova qilingan pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

5110-schyotdagi pul mablag‘lari hisobidan to‘lovlar to‘lov topshiriqnomasi, hujjatlashtirilgan akkreditiv, inkasso orqali amalga oshiriladi. Respublikamiz xo‘jalik amaliyotida hisob-kitob cheklari 1997-yildan buyon mavjud emas.

2-jadval: 5110 – “Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi [10]

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvararqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Mahsulot, ish va xizmatlarning sotilishidan olingan tushumlarning kirim qilinishi	5110	4010	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
2	Asosiy vositalar va boshka aktivlarning sotilishidan tushgan tushumlarning kelib tushishi	5110	4010	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
3	Kassadan naqd pulning hisob-kitob schyotiga qaytarilishi	5110	5010	topshirish e’loni va hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
4	Bankdan kassaga pul mablag‘larining kelib tushishi (mehnat haqi, nafaqa, mukofotlar va boshqalar uchun	5010	5110	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma va pul cheklari
5	Budjetga hisoblangan to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summalarining o‘tkazilishi	6410	5110	to‘lov topshiriqnomasi, inkasso va hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
6	Mol yetkazib beruvchilarga sotib olingan TMZlar qiymatiningto‘lanishi	6010	5110	to‘lov topshiriqnomasi, hisob-kitob schyotidan ko‘chirma

Korxonalarda pul mablag‘lari akkreditivga kiritilishi 5510-Akkreditivlar” hisobvarag‘i debetida hamda 5110-“Hisob-kitob schyota”, 5210-“Valyuta schyoti”, 6810 – “Qisqa muddatli kreditlar” hisobvaraqdari va shunga uxshash boshqa Hisobvaradlarning kredit qismida aks ettiriladi.

5510-“Akkreditivlar” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobga olingan akkreditivdagi mablaglar ulardan foydalanilishiga qarab (bank bergan ko‘chirmalarga muvofiq), odatda, 6010 – “Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” hisobvarag‘i debetiga o‘tkazib boriladi. Akkreditivlardagi foydalanilmagan mablag‘larni bank ular olingan hisobvaraqda tiklagandan keyin bu summalar 5510-“Akkreditivlar” hisobvarag‘i kreditida 5110-“Hisob-kitob schyoti” yoki 5210-“Valyuta schyoti” hisobvaraqdari bilan korrespondensiyada aks ettiriladi. 5510-“Akkreditivlar” xo‘isobvaragiga doyr tahliliy hisob korxona ochgan har bir akkreditiv bo‘yicha yuritiladi.

Korxonalarda pul mablag‘larining auditini amalga oshirishda e’tibor qaratiladigan asosiy masalalardan biri – bu pul mablag‘lari oqimining barqarorligini baholash va unga ta’sir etayotgan asosiy omillarni aniqlash hisoblanadi.

Korxonalarda pul oqimining barqarorligiga baho berishda umumiy pul oqimining jami majburiyatlarga nisbatan darajasi ko‘rsatkichidan va pul mablag‘larining joriy aktivlar hajmidagi salmog‘ining o‘zgarishi ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Korxonaning umumiy pul oqimi pul mablag‘lari kirimi summasi bilan pul mablag‘lari chiqimi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

3-jadval: Korxona umumiy pul oqimining uning jami majburiyatlariga nisbatan darajasiga ko‘ra barqarorligii [11]

Umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasi	Pul oqimining barqarorlik darajasi bo‘yicha toifalar
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxona umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasiga ko‘ra pul oqimining barqarorligi darajasi bo‘yicha toifalar bir-biridan keskin farqlanadi.

Korxonalarning joriy aktivlari hajmida pul mablag‘larining salmog‘ining o‘zgarishi pul oqimining barqarorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

4-jadval: “O‘zmetkombinat” AJ joriy aktivlarining tarkibi, foizda[1]

Joriy aktivlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Tovar-moddiy zaxiralar	48,2	42,5	28,5	28,2	28,6
Debitor qarzdorlik	43,8	55,9	57,5	56,9	68,2
Pul mablag‘lari	8,0	1,6	14,0	14,9	3,2
Joriy aktivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

4-jadval ma’lumotlaridan aniq ko‘rinadiki, “O‘zmetkombinat” AJ joriy aktivlarining tarkibida pul mablag‘lari nisbatan kichik salmoqni egallaydi, debitor qarzdorlik esa, nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, uning likvidliligini ta’minlash nuqtayi-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

MUNOZARA

Korxonalarda pul mablag‘larining auditiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar ko‘rsatddiki:

- pul mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘irlash korxonaning moliyaviy natijalarini yomonlashishiga olib keladi va ma’sul shaxslarni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi;
- korxonaning kassasiga kelib tushgan naqd pullarni kirim qilinmasligi buxgalteriya hisobotidagi pul mablag‘lariga oid bo‘lgan ma’lumotlarning ishonchli bo‘lmasligini yuzaga keltiradi;
- tovarsiz hisobraqamlar bo‘yicha va boshqa shubhali operatsiyalar bo‘yicha dastlabki shartnomani rasmiylashtirmasdan turib avans to‘lovlarining o‘tkazilishi moliyaviy yo‘qotishlar miqdorini ko‘payish xavfini yuzaga keltiradi;

1 Rasm muallif tomonidan O‘zmetkombinat AJ moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan

- debitor qarzdorlikning aylanish tezligini sekinlashishi korxonalarning pul oqimini zaiflashishiga olib keladi [8].

Lekin, mazkur tadqiqotlarda kreditor qarzdorlikning korxonalarning pul oqimiga ta'siri, hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha bankda deponent qilingan pul mablag'larining inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida qadrsizlanish masalalari tahlil qilinmagan.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- pul mablag'larining auditini amalga oshirishda pul mablag'lari yetishmasligining sabablarini aniqlash korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;
- to'g'ri tuzilgan dastur auditorga pul mablag'larini jalb qilish operatsiyalarining turli jihatlarini ma'lum izchillikda o'rganish hamda takrorlanish va xatoliklardan qochish imkonini beradi;
- naqd pullarni ehtimoliy o'g'irlanishi yoki kassada naqd pullarning yetishmasligini aniqlashda kassadagi naqd pullarni inventarizatsiya qilish muhim usullardan biri hisoblanadi;
- pul mablag'larini audit qilishda pul mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil qilinganligiga va pul oqimining barqarorligini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi;
- korxonalarda pul oqimining barqarorligiga baho berishda umumiy pul oqimining jami majburiyatlarga nisbatan darajasi ko'rsatkichidan va pul mablag'larining joriy aktivlar hajmidagi salmog'ining o'zgarishi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Fikrimizcha, korxonalarda pul mablag'lari auditini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Korxonalarda pul mablag'lari auditini o'tkazishda pul mablag'larining tarkibi va dinamikasini baholashning har ikkala usulidan – bevosita va bilvosita usuldan bir vaqtning o'zida, ya'ni kompleks foydalanish kerak.

Bilvosita metod pul mablag'lari tushumini kirim qilish va xarajatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda pul mablag'lari tushumi sifatida mahsulotlarni sotishdan olingan tushum, banklardan kreditlar olish, moliyaviy faoliyatdan daromad olish, yetkazib beriladigan tovarlar uchun olinadigan bo'naklar kabi aniq pul tushumlari ko'zda tutiladi.

Pul mablag'lari chiqimi bilan bog'liq xarajatlar yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, banklardan oilingan ssudalarni qaytarish, davlat budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash, mehnat haqi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish kabi to'lovlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Bilvosita metod pul mablag'larining harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni identifikatsiya qilish va hisobga olishni hamda sof foydani korrektirovka qilishni ko'zda tutadi.

2. Pul mablag'larining auditini amalga oshirishda pul mablag'lari oqimini uch tarkibiy qismga ajratgan holda, ya'ni asosiy pul oqimi, investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimi va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimiga ajratgan holda, quyidagi savollarga javob topish lozim:

- pul mablag'lari korxona ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun yetarlimi?
- korxonaning pul mablag'lari va yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilgan investitsiyalari uning joriy likvidliligini ta'minlash uchun yetarlimi?
- investitsion faoliyat bo'yicha pul mablag'lari kirimi bilan pul mablag'lari chiqimi o'rtasidagi farq miqdori ko'zda tutilgan rentabellik darajasiga mos keladimi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi//www.lex.uz.
2. Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 3-oktyabrdagi 52-son buyrug'iga ILOVA. Moliya vazirining 03.10.2022-y. 52-son "Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i (AV tomonidan 24.10.2022-y. 3394-son bilan ro'yxatga olingan) O'zR Konunchiligi Ma'lumotlar tizimi NRM. uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son Qarori.
4. S. U. Mehmonov. Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy hamda amaliy jihatlari. // Iqtisod va moliya. –

2015. 10-son, 52-58 betlar.
5. Трунтаева Ю. В., Шибилева О. В. Компьютерные программы автоматизации аудита. – Москва: Новый университет. 2013.
6. Мустеева Д. М. Аудит денежных средств и контроль за кассовыми операциями//Молодой ученый. – 2014. –№8. – С. 540-542.
7. Paraschivescu, D., Nita, N. (2008) The risk of auditing, accounting, Economic Tribune/ –https://www.jstor.org/stable/30243547.
8. Z. U. Xamidova. Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish. // Iqtisod va moliya. – 2020, 3(135)-son. 78-84 b.
9. Fayziyev Sh. N., Karimov A. A. Audit. – T.: Iqtisod-moliya, 2013.
10. Qo‘ziyev I. N. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish: nazariya va metodologik masalalar: monografiya. –T.: Iqtisodmoliya, 2015. – 198 b.
11. 610-sonli “Ichki auditorlarning xizmatidan foydalanish” nomli auditning xalqaro standarti. Audit va sifat nazoratining xalqaro standartlari: 1-qism 1-jild. 997-1007 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedov Oybek Turgunpulatovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), NamMQI, Menejment kafedrasi dotsenti

Yangi islomiy banklar, sug‘urta tashkilotlari, investitsiya jamg‘armalari tashkil qilinib, hatto ushbu tizim musulmon bo‘lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis Palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi” [1], – deb ta’kidlab o‘tdi.

Jahon moliya bozorida har tomonlama ishtirok etishiga va inqiroz hodisalari ta'siriga duchor bo'lishiga qaramay, Islom huquqi normalariga muvofiq xizmat ko'rsatadigan banklar hali ham yuqori darajadagi ishonchlilik va barqarorlikni namoyish etmoqdalar, ammo Islom banklarining tajribasini milliy iqtisodiyotimizga joriy etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, so'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida islom moliyasi, jumladan, islom bank ximatlari mavzusi ko'plab tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlari iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan: Muhammad Kabir Hasan o'z asarlarida Islomiy bank tizimini, Islomiy kapitalni moliyalashtirish turlarini tahlil qilgan, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarda bitimning o'zidan tashqariga chiqadigan diniy jihatni ta'kidlab o'tgan [2]. Shuningdek, Sidun Xaron va Vana Nursofiza Vana Azmilar nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham Islom iqtisodiyoti adolat va axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini ta'kidlab, Islomiy bank tizimi ushbu qadriyatlarni hisobga olgan holda ishlashi kerak deya ta'kidlab o'tishgan. Xususan, ular Islom va tijorat banklari tushunchalarini ajratishni taklif qilishgan, chunki Islom banklari Islom qonunlari yoki shariat qonunlariga asoslangan faoliyat tamoyillarini hisobga olgan holda bank faoliyatini hamda har qanday tarzda diniy ta'limotlarni hisobga olgan tarzda amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalardir, tijorat banklari esa, aksincha, faqat biznes maqsadlariga erishish uchun ishlashligini keltirib o'tganlar [3].

Pokistonlik islomshunos olim Muhammad Fahim Xonning ta'kidlashicha, Islom bankining vazifalari, birinchidan, barcha bank faoliyatini islom banklari tamoyillari asosida faoliyat yuritishiga ko'maklashish, ikkinchidan, bank operatsiyalarining barcha darajalarida Islom tamoyillari, qonunlari va an'analarini amalga oshirishni rag'batlantirish va uchinchidan, diniy ta'limot sifatida Islom tamoyillarini hisobga olgan holda ishlaydigan boshqa moliya institutlarini yaratishdir [4].

P. Trunin, M. Kamenskix, M. Muftyaxetdinovalarning fikricha, "Islomiy bank ijobiy moliyaviy natijaga erishish uchun mablag'larni depozit hisobvaraqlariga qabul qiladigan va shariat qonunlari asosida investitsiya qiladigan moliya institutlarini birlashtiradi. Bularga to'liq huquqli Islomiy banklar va "Islom darchalari" tomonidan belgilangan Islomiy moliyalashtirish usullaridan foydalangan holda individual moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan an'anaviy banklarning bo'linmalari kiradi" – deb ta'kidlab o'tishgan [5].

Umuman olganda yuqorida keltirilgan chet ellik olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda, Islom banklari faoliyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotning rivojlanishiga qo'shimcha turtki beradigan innovatsion islomiy bank xizmatlari yoki moliya sanoati uchun innovatsion loyihalardir. Shuningdek, bizning fikrimizcha, Islomiy bank xizmatlari jamiyat manfaatlari darajasida har bir alohida mamlakatda tasdiqlangan pul-kredit siyosati doirasida va shariat qonunlari asosida ishlaydigan hamda ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan mega-regulyator sifatida kredit tashkilotlari to'plami va milliy bank sifatida belgilash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom bank xizmatlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Islom banklarining rivojlanish dinamikasi an'anaviy banklarning rivojlanish dinamikasi bilan samarali raqobatlashib bormoqda. Islom banklari, boshqa banklar singari, jismoniy shaxslar va muassasalardan moliyaviy resurslarni jalb qiladi va ularni ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tashqi moliyalashtirishga muhtoj bo'lgan tijorat firmalariga yo'naltiradi. Shunday qilib, Islomiy banklar an'anaviy banklar bilan bir xil moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajaradilar. Islomiy banklar va asosiy banklar o'rtasidagi asosiy farq bu funksiyalarning qanday bajarilishi, ya'ni mablag'larni qanday ko'paytirishi va ulardan qanday foydalanishidir. Tahlil o'tkazish qulayligi uchun mablag'lardan foydalanish manbalari va yo'nalishlarini farqlash kerak.

Islom banklari uchun moliyaviy manbalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Joriy hisobraqamlar (ya'ni mijozlarning bank hisobraqamlaridagi qoldiqlar);
2. Jamg'arma hisbvaraqlar (ya'ni muddatli omonat (depozit)lardagi pul mablag'lari);
3. Investitsiya hisobvaraqlari (ya'ni mijozlarning daromad olish maqsadida investitsiya qilgan pul mablag'lari).

Barcha islom banklari jismoniy shaxslar va tadbirkorlardan iborat bo‘lgan o‘z mijozlarining joriy hisobraqlarini boshqaradi. Ushbu hisobraqamlar mijozning hisobidagi mablag‘larni ishonchli saqlash va mijozlarga xizmat qilish maqsadida (masalan ularning topshirig‘i bilan pul o‘tkazish, turli xizmatlar uchun to‘lash va h.k.) ochiladi.

Mazkur hisobraqamlarning asosiy xususiyatlari quyida keltirilgan:

- joriy hisobraqamlar, odatda, bank tilida “talab qilib olinadigan depozitlar” deb ham nomlanadi. Ushbu hisobraqamlar jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar/kompaniyalar tomonidan mahalliy yoki xorijiy valyutada ochilishi mumkin;
- bank ushbu hisobraqamlardagi pul mablag‘larini mijoz talab qilgan vaqtda to‘liq qaytarilishini kafolatlaydi va mijozga bank bu pullardan foydalanib topgan foydasidan hech qanday ulush, foizlar yoki boshqa shaklda daromad to‘lamaydi;
- mijozlar ushbu mablag‘larni bankka ulardan foydalanish vakolatini berishadi. Demak, agar ushbu mablag‘larni muayyan loyihaga yo‘naltirish natijasida biron bir foyda ko‘riladigan bo‘lsa ham, bu foyda faqat bankka tegishli hisoblanadi. Mabodo, zarar ko‘rilsa, zarar ham faqat bank tomonidan qoplanadi;
- depozit va pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha hech qanday shartlar mavjud emas;
- odatda, hisobraqam egalari o‘zlarining hisobraqamlaridan istagan vaqtlarida pul yechib olish huquqiga ega bo‘lishadi.

So‘nggi yillarda Islomiy banklari o‘z aktivlarini tez sur’atlar bilan ko‘paytirmoqdalar. Uning jahon bank sektoridagi ulushi barqaror o‘sishda davom etmoqda. 2017-yildan 2022-yilgacha bozor o‘rtacha 6,7 foizga o‘sdi. 2022-yilda uning umumiy aktivlari 2,871 milliard dollarga baholandi. Islom banklarining eng mashhur vositasi murabaha. Bu bank mahsulotni sotib oladigan va mijozga Marja bilan sotadigan operatsiyadir.

Din va moliya o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik an’anaviy musulmon mamlakatlarida Islom banklarining kuchli konsentratsiyasini belgilaydi. Bugungi kunda Islom bank sektori aktivlarining 43 foizi Fors ko‘rfazida, yana 40 foizi – yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning boshqa mamlakatlarida, 15 foizi foizi – Janubiy va Janubi – Sharqiy Osiyoda, 2 foizi esa – dunyoning qolgan qismida taqsimlangan.

Eron va Saudiya Arabistoni aktivlar bo‘yicha shubhasiz yetakchilikka o‘rinni egallab mos ravishda 1,094 milliard dollar va 753 milliard dollarni tashkil etmoqda. Kuchli beshlikka Quvayt, Malayziya va Qatar ham kiradi. Shu bilan birga, butun dunyo bo‘ylab musulmon aholisining migratsiyasi Yevropa va AQShda Islomiy moliya institutlarining tobora tarqalishiga olib keladi. Islomiy bank aktivlari bo‘yicha Islomiy bo‘lmagan 5 ta mamlakatga Buyuk Britaniya, Bosniya va Gersegovina, AQSh, Kipr va Shvetsiya kiradi. Islom dunyosidan tashqarida Buyuk Britaniya halol moliya sohasida yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda bu yerda Islomiy bank aktivlari hajmi 7,7 milliard dollardan oshdi. Ushbu bozorning o‘ziga xos xususiyati mamlakat ichida va fors ko‘rfazi petromonarxiyalaridan elita auditoriyasiga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Turli xil moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talab tufayli Buyuk Britaniyada moliyaviy investitsiyalar bilan shug‘ullanadigan WahedInvest va ko‘chmas mulk investitsiyalarini taklif qiluvchi Yielders kabi kompaniyalar ishlaydi. Buyuk Britaniya, shuningdek, bir global sukuk markazidir. Eng yirik Islomiy banklar ham, musulmon mamlakatlari hukumatlari ham sukukni London Fond birjasiga joylashtiradilar [6].

Bugungi kunga kelib, dunyo moliya bozorida Islomiy moliyalashtirish g‘oyatda dolzarb manbaga aylanib bormoqda. Buni islomiy moliyalash har yili 15-20 foiz o‘sishga erishayotgani ham tasdiqlaydi. Islomiy banking jahon bo‘yicha 400 dan ortiq moliya institutlari tomonidan amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda, uning yillik aylanmasi 800 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan bir qancha tijorat banklari ham bugungi kunda islom bank xizmatlarini joriy etish yuzasidan amaliy ishlar olib bormoqdalar. Xususan, InfinBANK tomonidan tadbirkorlik subyektlarining biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi bilan kelishuvlar tuzilgan bo‘lib, ayni vaqtda bank tomonidan mazkur kelishuvlar doirasida “murabaha (nasiya savdo)” shartlari asosida loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda.

Mazkur kelishuvlar doirasida tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish maqsadida shariat talablariga muvofiq asosiy vositalar hamda aylanma aktivlar xaridini amalga oshirishi mumkin. Bank tomonidan 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga, 100 mingdan 5 million AQSh dollarigacha bo‘lgan miqdorda islom moliyalashtirish liniyalaridan foydalanish mablag‘lar ajratmoqda. Shuningdek, Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) mamlakatimizda islom moliyasining rivojlanishida alohida o‘rin egallagan. Shu kunga qadar ushbu tashkilot tomonidan umumiy miqdori 400 million AQSh dollariga teng mablag‘ mamlakatdagi 18 ta tijorat banklari, 2 ta lizing kompaniyasi orqali 260 dan ortiq kichik va o‘rta biznes vakillarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi va shu orqali 5,000dan ortiq yangi ish o‘rinlari tashkil etilishiga erishilgan.



1-rasm: Islom moliya xizmatlari tarkibiy tuzilishi va industriyasi[1]

O'zbekistonda islom bank xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakatimiz uchun quyidagi imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- xorijdan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;
- bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;
- aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash;
- mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash;
- ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish;

1 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko‘tarish;
- Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
- yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;
- kambag‘allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo‘shish;
- yangi yo‘nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari, shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlar uchun bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirishga imkon beradigan Islom banklarining ulkan salohiyatidan maqsadli foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi umuman Islom bank ishini rivojlantirish, xususan, Islom bank xizmatlaridan foydalanish uchun jiddiy salohiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Islom moliyasi va Islom bank xizmatlari jadal rivojlanib, ularning tarqalish geografiyasini kengaytirmoqda. Bugungi kunga kelib, umuman “Islom iqtisodiyoti” va “Islom bankchiligi” uning fond bozorlari va ularda sotiladigan moliyaviy vositalarni o‘rganish, xususan, korxonalarni moliyalashtirishning muqobil shakllarini aniqlashga imkon beradi. Moliyaviy tizimni qurish va faoliyat ko‘rsatishda Islomiy mamlakatlarning ijobiy tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozircha hech bir mahalliy tashkilot qo‘shimcha kapital jalb qilish uchun Islomiy texnologiyalardan foydalanmagan.

Shariat tamoyillariga muvofiq ishlaydigan an’anaviy banklararo valyuta bozoriga samarali muqobil usullarning yo‘qligi Islom banklari tomonidan likvidlikni boshqarish sohasida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Islom bank xizmatlarining rivojlanishi munosabati bilan mavjud moliya institutlarining kengayishi va yangilarining yaratilishi malakali kadrlarga ehtiyoj tug‘diradi, ammo Islom moliyasi va bankchiligi sohasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan ta’lim muassasalarining hozirgi imkoniyatlari bunga javob bera olmayapti. Shu munosabat bilan Islom moliya institutlari xodimlarni mustaqil ravishda o‘qitishga e’tibor qaratishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom banklariga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, u hali rivojlanishning dastlabki bosqichida. Bozorlarga kirish Islomiy bank xizmatlarini taklif qila boshlagan an’anaviy banklararo raqobatining kuchayishi (“Islomiy darchalari” – shariat me’yorlariga muvofiq xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan bank filiallarini ochish orqali), an’anaviy banklarning Islomiy banklarga aylanishi va bozorda yangi qatnashchilarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. Hassan K. M., Lewis M. K. Handbook of Islamic Banking. 2007. 433 p.
3. Кҳарон С., Нурсофиза В., Азми В. Исламская финансовая и банковская система: Философия, принципй и практика. Казан': Линова-Медиа, 2012. 536 п.
4. Khan M. F. Money and Banking in Islam. Institute of Policy Studies, 2013.
5. Трунин П., Каменских М., Муфтяхетдинова М. Исламская финансовая система: современное состояние и перспективы развития. М.: ИЭПП, 2009. 88 с.
6. https://uz.kursiv.media/2023-10-08/islamskij-banking-v-mirovoj-finansovoj-sisteme-vyvody/

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR KO‘RSATISHNING ZAMONAVIY HOLATI

Yusupov Abbosxon Aliyevich
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda kichik biznesni subyektlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes subyektlari, mikromoliyaviy xizmatlar, mikrokredit, Markaziy bank, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, mikroqarz, mikrolizing, qishloq xo‘jaligi.

Abstract: In the article, current problems related to the organizational and economic foundations of sustainable development of small business entities in Uzbekistan are identified and scientific proposals aimed at solving them are developed.

Key words: Small business entities, microfinance services, microcredit, Central Bank, Recovery and Development Fund, microcredit, microleasing, agriculture.

Аннотация: В статье обозначены актуальные проблемы, связанные с организационно-экономическими основами устойчивого развития субъектов малого предпринимательства в Узбекистане, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: субъекты малого предпринимательства, микрофинансовые услуги, микрокредит, Центральный банк, Фонд восстановления и развития, микрокредит, микролизинг, сельское хозяйство.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kichik biznesni subyektlarini moliyalashtirish tizimini rivojlantirish ular faoliyatining barqarorligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur moliyalashtirish tizimida mikromoliyalash tizimi kichik biznesni subyektlarining mikrokredit, mikrolizing xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish nuqtayi-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari tomonidan kichik biznesni subyektlarini kreditlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, 2023-yil 1-oktyabrdan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi amalga oshiriladi. 2023-yil 1-oktyabrdan Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga, faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratiladi va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing beriladi. Bunda, 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalar 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga beriladi;innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘lari ajratiladi.2024-yil 1-yanvardan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yilgacha muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratiladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. I. Raxmonov tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan mikrolizing va mikrokredit xizmatlari hajmini oshirishning quyidagi yo‘llarini taklif qilgan:

- respublika Markaziy bankining tijorat banklarining bir yilgacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini 50 foizga pasaytirilishi (50% miqdorida pasaytirish natijasida qoladigan pul mablag‘larini mikrokredit sifatida berish sharti bilan) lozim;

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori

- mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklaridagi muddatli depozitlariga nisbatan Markaziy bankning majburiy zaxira stavkasi qo‘llanmasligi lozim[2].

Haqiqatdan ham, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalari nisbatan yuqoridir. Uning pasaytirilishi tijorat banklarining resurs bazasi va likvidliligiga nisbatan ijobiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Bu o‘rinda I. Raxmonovning taklifi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ammo I. Raxmonov banklarning mikrolizing va mikrokredit xizmatlari hajmiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa monetar indikatorlar haqida so‘z yuritmagan. Masalan, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o‘zgarishi yoki inflyasiya darajasining o‘zgarishi. Holbuki, boshqa monetar indikatorlar ham tijorat banklarining mikrolizing va mikrokredit xizmatlari hajmiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Prof. A. Vaxabovning fikriga ko‘ra, kichik biznes subyektlariga qishloq joylarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalari va firmalarini tashkil etish maqsadida banklar tomonidan berilgan investitsion kreditlarning foiz stavkalarini O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bonifikasiya qilish zarur[3].

I. Alimardonovning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2768-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasining resurs bazasini O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 500 mln. AQSh dollaridagi mablag‘lari hisobidan ko‘paytirib, ushbu mablag‘lardan kichik biznes subyektlarining eksport va import operatsiyalari uchun banklar tomonidan beriladigan kreditlarning kafolati sifatida foydalanish lozim[4].

Fikrimizcha, I. Alimardonovning ushbu taklifi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, 2017-yilning sentabr oyida valyuta siyosatining liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyutamiz, so‘mning AQSh dollariga nisbatan qadri qariyb ikki barobar pasaydi. Bu esa, Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasining so‘mda shakllantirilgan resurslarining keskin qadrsizlanishiga sabab bo‘ldi.

D. Tadjibayevaning xulosasiga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash amaliyotini takomillashtirish uchun tijorat banklari mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan sho‘ba tashkiloti ochishlari lozim. O‘zbekiston bank amaliyotida banklar tomonidan shuba korxonalar tashkil qilish tajribasi, shu jumladan, muammoli aktivlarni va tijorat banklarining balansiga olingan bankrot korxonalarni boshqarish tajribasi mavjud. Ushbu mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi shuba tashkilot o‘zining siyosatiga, alohida shtatiga va axborot tizimiga ega bo‘lishi kerak[5].

Fikrimizcha, D. Tadjibayevaning ushbu xulosasi amaliy ahamiyatga molik. Chunki, tijorat banklari faoliyatini o‘rganish natijalari ko‘rsatadiki, tijorat banklari tomonidan ma’lum bir moliyaviy xizmat turini (trast, lizing, faktoring va boshq.) ixtisoslashgan shuba korxonalar ushbu xizmatni sifatli va samarali qilib ko‘rsata oladi.

Tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining birlamchi qonunchilki asoslari bo‘lib, quyidagi uch me’yoriy hujjat hisoblanadi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun.
3. O‘zbekiston Rsepublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[6].

Undan keyingi o‘rinda ikkilamchi me’yoriy-huquqiy asos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga, shu jumladan, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga oid bo‘lgan Farmonlari va Qarorlari turadi. O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish[7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida imtiyozli mikrokreditlashning asosiy vazifalari belgilab berildi (kichik tadbirkorlik, eng avvalo, oilaviy va xususiy

2 Raxmonov I. X. O‘zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish yo‘llari. I. f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. Avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 16.

3 Vaxabov A. V. Qishloq aholisining turmush darajasini oshirishda bank tizimining o‘rni//“Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Moliya, 2009. – B. 22.

4 Alimardonov I. M. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29

5 Таджибаева Д. А. Микрофинансирование в Централной Азии: теория, практика и перспективи развития. Монография. – Ташкент: КОНСАУДИТИНФОРМ, 2011. – С. 211.

6 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2007. – 520 b.; O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 11-noyabr. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 11-33-b.; O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 05-noyabr O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 34-51-b.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

tadbirkorlik sohasida yangi ish o‘rinlari tashkil etish; imtiyozli kreditlar berish orqali o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan jismoniy shaxslar, mehnat organlarida ro‘yxatga olingan band bo‘lmagan fuqarolar, oilaviy va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan aholi, shuningdek, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tavsiyanomalari bo‘yicha ishga joylashishga ehtiyojmand bo‘lgan boshqa shaxslar uchun ularni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish maqsadida mikromoliyaviy xizmatlardan oson foydalanishlarini maksimal darajada ta’minlash; aholining kam ta’minlangan va hojatmand qatlamlari daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta’minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini kuchaytirish)[8].

Respublikamizda tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishni kengaytirish nuqtayi-nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2001-yil 7-martda 907-sonli “Fermer xo‘jaliklari, kichik biznes subyektlarini tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlash tartibi” muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Yo‘riqnomada aynan fermer xo‘jaliklariga qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun yuridik shaxs maqomiga ega fermer va dehqon xo‘jaliklar aylanma mablag‘larini to‘ldirishga ikki yildan kam bo‘lmagan muddatga, yuridik shaxs maqomiga ega dehqon va fermer xo‘jaliklariga esa, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga besh yilgacha muddatga kredit berish ko‘zda tutildi[9].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar vaqtinchalik aylanma mablag‘larga muhtoj korxonalarni kreditlash vazifasini ham amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyotini kredit bozorisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, sanoat va qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirishda kredit muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonunida (2020-yil 17-mart) mikrokredit, mikroqarz va mikrolizingning shartlari belgilab berilgan[10].

Xususan, qonunning:

4-moddasida, mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 300 million so‘m miqdoridan oshmaydigan mutlaq qiymatda berilishi;

5-moddasida, mikroqarz banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo‘lgan qarz oluvchiga 50 million so‘mdan oshmaydigan mutlaq qiymatda berilishi;

6-moddasida, mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 600 million so‘mdan oshmaydigan mutlaq qiymatda berilishi belgilandi.

Mazkur qonun respublikada aholining va tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, to‘lov qobiliyatini oshirish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ko‘rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-son Farmoniga muvofiq, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to‘rt yilda bir martadan, boshqa xo‘jalik subyektlarida esa faqat O‘zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko‘p bo‘lmagan tartibda amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, respublikamizda yoshlar tadbirkorligini kreditlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamiyatdagi muhim ijtimoiy masala bo‘lgan yoshlar bandligini ta’minlashning zaruriy sharti bo‘lish bilan birga, yoshlarning moddiy turmush farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev e’tirof etganidek, “barchamiz yaxshi bilamizki, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xususiyatlari avvalo, yoshlarga xos fazilat hisoblanadi. Demak, tadbirkorlikka yo‘l ochish – avvalo, yoshlarga keng yo‘l ochib berishdir, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”.

O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarga mo‘ljalangan davrda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi respublikamizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yo‘lidagi jiddiy qadam bo‘ldi. Xususan, Harakatlar strategiyasiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan talabalarga 2017-yilda 360 mlrd. so‘m imtiyozli kreditlar ajratish, nogiron va kam ta’minlangan oila farzandlari bo‘lgan kollej bitiruvchilari uchun 50 mingta ish o‘rinlarini band qilish ko‘zda tutilgan.

Bunga qadar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yo‘lidagi ilk qadam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2124-sonli qarorining qabul qilinishi bilan qo‘yilgan edi.

Mazkur Qarorga muvofiq:

- o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan “Mening biznes g‘oyam” loyihasini amalga oshirish;

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi PQ-2746-sonli Qarori. Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №6. – 71-modda.

9 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2001-yil 7-martda 907-sonli yo‘riqnomasi. “Fermer xo‘jaliklari, kichik biznes sub'ektlarini tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlash tartibi. www.lex.uz

10 O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 17-mart.

- o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor” loyihasini amalga oshirish;

“Vatanim taraqqiyotiga mening hissam” shiori ostida yosh tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko‘rgazmalarini tashkil etish vazifalari belgilandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni bajarishda statistik guruhlash, induktsiya va deduktsiya, ekspert baholash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy maqolani yozishda kichik biznes, ayniqsa, tijorat banklari tomonidan aholini ish bilan bo‘g‘liq bo‘lgan holatlar va hozirda berilayotgan mikrokreditlar respublikamizda rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Kichik biznesni rivojlantirish respublikamizda asosiy tarmoq hisoblanadi. Shuning bilan birga mazkur tarmoqda ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni an’anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda ekonometrik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari va ularni faoliyatini rag‘batlantirish jarayonlarini tadqiq qilishda ekonometrik usullar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlarini tadqiq qilish, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ular orasida bog‘lanishlar ko‘rinishini tadqiq qilish rejalashtirilgan. Buning uchun Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ekonometrik model tuzish, tuzilgan modelni turli testlar orqali tekshirish hamda modelning statistik ahamiyatliligini aniqlash mazkur tarmoqni rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga berilgan mikrokreditlarga ta’sir qiluvchi tegishli omillarni ekonometrik tahlil qilib ko‘ramiz. Ekonometrik tahlil uchun ma’lumotlar “Agrobank” ATB tomonidan taqdim etilgan. Statistik ma’lumotlar regionlar kesimida keltirilgan, ya’ni panel ma’lumotlardir. Quyidagi tasviriy statistikadan ko‘rish mumkinki, statistik ma’lumotlar balanslanmagan paneldir.

1-jadval: Tasviriy statistika

O‘zgaruvchi	Ta’rifi	Kuzatuv	O‘rtacha	Std.Dev.	Min.	Maks.
$dkre_{i,t}$	Mikrokreditlar o‘sishi	121	0.11	0.37	-1.53	2.25
$muammoli_{i,t}$	Mikrokreditlar bo‘yicha muammoli kreditlar hajmi	140	200.50	475.70	0.00	2677.88
$foiz_{i,t}$	Mikrokreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi	140	0.12	0.02	0.00	0.16

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil davrida “Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlarning o‘rtacha o‘sishi 11.5% ni tashkil etgan. Tahlil davridagi o‘sish qiymatining minimum va maksimum qiymatidan ko‘rish mumkinki, ushbu kreditlarning tebranishi bir xil bo‘lmagan va yillar hamda regionlar o‘rtasida o‘sish darajalarida yirik farqlar mavjud bo‘lgan. Buning isbotini ushbu ko‘rsatkichning standart deviatsiyasining 37.6% teng bo‘lganligidan ham ko‘rish mumkin. Quyidagi chizmada ushbu ko‘rsatkichning yillar va regionlar kesimidagi chizmasini keltirib o‘tamiz.



1-rasm: “Agrobank” ATBning qishloq xo‘jaligiga ajratgan mikrokreditlari o‘rtacha o‘sishi (yillar va regionlar kesimida)

“Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga berilgan mikrokreditlardan yuzaga kelgan muammoli kreditlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, uning o‘rtachasi va maksimumi o‘rtasidagi farq 13 barobardan kattaroq bo‘lib, minimum qiymati esa nolga tengligini ko‘rish mumkin. Minimum qiymatning nol’ga teng bo‘lganligining asosiy sababi sifatida ayrim yillarda Toshkent shahri uchun mikrokreditlar ajratmaganligini keltirish mumkin. Natijada ushbu ko‘rsatkich standart deviatsiyasi ham o‘rtachadan ancha yirik miqdorda bo‘lganligini ko‘rish mumkin.Quyidagi chizmada ushbu ko‘rsatkichning yillar va regionlar kesimidagi chizmasini keltirib o‘tamiz.



2-rasm: “Agrobank” ATBning qishloq xo‘jaligiga ajratgan mikrokreditlaridan yuzaga kelgan muammoli kreditlar (yillar va regionlar kesimida)

“Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga berilgan mikrokreditlar bo‘yicha foizlar tahliliga ko‘ra, tahlil davrida o‘rtacha foiz stavkasi 12 foizga teng bo‘lganligini va maksimum qiymati 16,6 foizga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, foiz stavkalari orasidagi farq yirik emasligidan uning standart deviatsiyasi 2,8 foizga teng bo‘lganligi ko‘rish mumkin. Quyidagi chizmada ushbu ko‘rsatkichning yillar va regionlar kesimidagi chizmasini keltirib o‘tamiz.



3-rasm: “Agrobank” ATBning qishloq xo‘jaligiga ajratgan mikrokreditlarining o‘rtacha foiz stavkasi (yillar va regionlar kesimida)

O‘zgaruvchilarning korrelyatsiya matritsasi quyidagi jadvalda keltirilgan bo‘lib, uning tahlilidan ko‘rish mumkinki, bank tomonidan ajratilgan mikrokreditlardan yuzaga kelgan muammoli kreditlar va mikrokreditlar

o‘sish sur’atlari o‘rtasida kuchsiz bo‘lsa-da, teskari bog‘liqlik mavjud. Shuningdek, mikrokreditlar bo‘yicha olinadigan foiz stavkalari va mikrokreditlar o‘sish sur’atlari o‘rtasida ham teskari bog‘liqlik borligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, korrelyatsiya matritsasi tahlilidan aytish mumkinki, regressiyada mul’tikollinearlik muammosi bo‘lmaydi.

2-jadval: Korrelyatsiya matritsasi

	$dkre_{i,t}$	$muammoli_{i,t}$	$foiz_{i,t}$
$dkre_{i,t}$	1.000		
$muammoli_{i,t}$	-0.114	1.000	
$foiz_{i,t}$	-0.306	-0.124	1.000

Panel kuzatuvlarda davrlar soni uzunligi birlik ildiz testini amalga oshirishni taqazo etadi[11]. Quyidagi jadvalda panel birlik ildiz testi natijalari keltirilgan.

3-jadval: O‘zgaruvchilarning panel birlik ildiz testi natijalari

O‘zgaruvchilar	Test statistik natijalar	P – qiymat
$dkre_{i,t}$	49.88	0.0067
$muammoli_{i,t}$	-7.68	0.0025
$foiz_{i,t}$	-8.02	0.0000

Ushbu testda asosiy gipotezaga ko‘ra o‘zgaruvchilar birlik ildizga ega bo‘lib, muqobil gipotezaga ko‘ra esa o‘zgaruvchilar birlik ildiz testiga ega emas.

Test natijalaridan ko‘rish mumkinki, barcha o‘zgaruvchilar statsionar bo‘lib, ushbu natija regressiya natijalarimiz ishonchliligini oshiradi.

Empirik model quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$kre_{i,t} - kre_{i,t-1} = \alpha * kre_{i,t-1} + \beta^j * X^j{}_{i,t} + \mu_i + \varepsilon_{i,t} \quad (1)$$

$$i = \{1, 2, \dots, 14\};\ j = \{1, 2, 3, 4, 5\};\ t = \{2008, 2008, \dots, 2016\}$$

bunda,

$kre_{i,t}$ – i regionda “Agrobank” ATB tomonidant davrda qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan mikrokredit hajmi logarifmi;

$X_{i,t}$ – mikrokreditlar hajmiga ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchilar vektori;

$\mu_{i,t}$ – regionga tegishli kuzatib bo‘lmaydigan effekt,

$\varepsilon_{i,t}$ – esa xatolik.

Regressiya natijalari

Yuqorida (1) tenglikda keltirilgan modeldagi o‘zgaruvchilar koeffitsiyentlarini tasodifiy va fiksirlangan effektlar metodlaridan foydalangan holda ekonometrik baholanadi[12]. Bulardan tashqari, model yig‘ma eng kichik kvadratlar metodida ham ekonometrik baholab ko‘riladi. Yig‘ma eng kichik kvadratlar usuli natijalari bizning panel ma’lumotlarimizni baholashda noto‘g‘ri koeffitsiyent qiymatlarini chiqarsa-da, natijalardagi izchillikni tekshirish uchun qo‘l kelishi mumkin.

Fiksirlangan va tasodifiy effektlar metodlaridan qaysi birini tanlash uchun Xausman testi amalga oshiriladi. Bunda asosiy gipotezada fiksirlangan va tasodifiy effektlar metodida baholangan koeffitsiyentlar o‘rtasidagi farqlar nosistematik bo‘lsa, muqobil gipotezada esa farqlar sistematik bo‘ladi deb olinadi.

Yuqoridagi chizmalarda va tasviriy statistikalarda ko‘rganimizdek statistik kuzatuvlarda bir necha chetki kuzatuvlar mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida qoldiqlar standart deviatsiyasida geteroskedastiklik muammosi mavjudligini hamda regressiyani amalga oshirishda robast standart xatolikdan foydalanishni taqazo etadi.

Chiziqlimas regressiya bo‘lgan hollarda regression model qurish asosi bo‘lib yana eng kichik kvadratlar usuli hisoblanadi. Biroq bu holda parametrlar bahosini qidirishda (parametrlarga nisbatan) chiziqlimas tenglamalar sistemasi quriladi, uni yechish uchun turli integatsiya usullari qo‘llaniladi.

Korrelyatsion va regression tahlil mustahkamligini tekshirish uchun Fisher mezoni – z, Styudent mezoni – t (t-test) va Mezon F (F-test) qo‘llaniladi.

11 Kremer N. Sh., Putko B. A. Ekonometrika. Uchebnik. – M.:YuNITI, 2008. – 311 s.

12 Ekonometrika: Uchebnik. // Pod red. I. I. Eliseevoy. –M.: Finansы i statistika, 2003. – 344 s.

4-jadval: Regressiya natijalari

	POLS	RE	FE
$kre_{i,t-1}$	0.07 [0.06]	0.07*** [0.02]	0.27* [0.13]
$muammoli_{i,t}$	-0.15*** [0.04]	-0.15*** [0.03]	-0.16*** [0.04]
$foiz_{i,t}$	-6.53*** [1.58]	-6.53*** [1.32]	-8.64*** [1.53]
Kuzatuvlar soni	121	121	121
Regionlar soni	14	14	14
R – squared	0.15	0.21	0.26

Barcha standart xatoliklar geteroskedastiklikka robast shaklda hisoblab chiqilgan.
*** 1% lik statistik ahamiyatga ega
** 5% lik statistik ahamiyatga ega
* 10% lik statistik ahamiyatga ega

Yuqoridagi regressiya natijalaridan ko‘rish mumkinki, yig‘ma eng kichik kvadratlar (POLS) va tasodifiy effektlar (RE) usulida hisoblangan regressiya natijalari deyarli bir xil. Barcha model spetsifikatsiyalarida standart xatoliklar geteroskedastiklikka robast shaklda hisoblab chiqilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida natijalarning statistik ishonchliligini oshiradi. Regressiya natijalarida o‘zgaruvchilar ta’sir yo‘nalishi barcha model spetsifikatsiyalarida bir xil bo‘lib, ularning deyarli barchasi statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rish mumkin. Qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlardan yuzaga kelgan muammoli kreditlar hajmi va ushbu kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari o‘rtachasining ajratilgan mikrokreditlarga ta’sir yo‘nalishi manfiy bo‘lib, ular barcha model spetsifikatsiyalarida yuqori statistik ahamiyatli darajada. Kuzatuvlarda mavjud bo‘lgan avtokorrelyatsiya muammosini hal etish uchun modelga qo‘shilgan qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlarning faqatgina tasodifiy effektlar bilan hisoblangan regressiyada yuqori statistik ahamiyatga egaligini ko‘rish mumkin. Fiksirlangan effektlar bilan hisoblangan regressiya koeffitsiyentlari yuqoriroq ta’sir kuchiga ega bo‘lib, tasodifiy va fiksirlangan effektlar bilan hisoblangan model spetsifikatsiyasidan qaysi birini tanlash kerakligini aniqlash uchun Xausman testi amalga oshirildi. Test natijasiga ko‘ra qiymati 19,14 ga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida fiksirlangan effektlar bilan hisoblangan regresiya natijalari mavjud statistik ma’lumotlar uchun eng maqbuli degan xulosaga olib keladi. Fiksirlangan modelga asoslangan holda aytish mumkinki, “Agrobank” ATBda qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlar bo‘yicha yuzaga kelgan muammoli kreditlarning 1000 so‘mga oshishi bank tomonidan ushbu sohaga ajratiladigan mikrokreditlar o‘sishini 0.16 birlikka tushishiga olib keladi. Shuningdek, mikrokreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalarining bir birlikka oshishi mikrokreditlarning o‘sish darajasini 8.64 birlikka tushishiga olib keladi. Natijalardan xulosa qilish mumkinki, mikrokreditlar bo‘yicha muammoli kreditlar hajmining oshishi bank tomonidan qishloq xo‘jaligiga ajratilayotgan mikrokreditlar taklifini kamaytirilishiga olib keladi va o‘rtacha foiz stavkalarining oshirilishi bank mijozlari tomonidan mikrokreditlarga bo‘lgan talabning kamayishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini o‘rganish natijalari ko‘rsatdiki, birinchidan, qishloq xo‘jalik korxonalarining moliyaviy holatining barqaror emasligi va to‘lovga qobillik darajasining past ekanligi ularning kredit muassasalarining moliyaviy xizmatlaridan, shu jumladan, mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishga to‘sqinlik qiladi; ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi lozim; uchinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tarmoqqa yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar narxlari o‘sishi o‘rtasidagi disparitetning kuchayib borganligi, davlat xarid narxlarining pastligi oqibatida agrar sektorda ishlab chiqarish rentabelligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolmoqda; to‘rtinchidan, ko‘pchilik o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, shu jumladan, MDH mamlakatlarida qishloq xo‘jalik korxonalarining kredit to‘loviga layoqatliligi past darajada ekanligi kuzatilmoqda.
2. “Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga berilgan mikrokreditlarga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili natijalari quyidagilarni ko‘rsatdiki, birinchidan, “Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlarning o‘rtacha o‘sishi 11,5 foizni tashkil etdi, tahlil davridagi o‘sish

qiymatining minimum va maksimum qiymatidan ko‘rish mumkinki, ushbu kreditlarning tebranishi bir xil bo‘lmagan va yillar hamda regionlar o‘rtasida o‘sish darajalarida yirik farqlar mavjud bo‘lgan; ikkinchidan, “Agrobank” ATB tomonidan qishloq xo‘jaligiga berilgan mikrokreditlardan yuzaga kelgan muammoli kreditlar bo‘yicha o‘rtacha va maksimum o‘rtasidagi farq 13 barobardan kattaroq bo‘lib, minimum qiymati esa nol’ga teng. Minimum qiymatning nol’ga teng bo‘lganligining asosiy sababi sifatida ayrim yillarda Toshkent shahri uchun mikrokreditlar ajratmaganligini keltirish mumkin; uchinchidan, test natijalari barcha o‘zgaruvchilar statsionar ekanligini ko‘rsatdi; to‘rtinchidan, “Agrobank” ATBda qishloq xo‘jaligiga ajratilgan mikrokreditlar bo‘yicha yuzaga kelgan muammoli kreditlarning 1000 so‘mga oshishi bank tomonidan ushbu sohaga ajratiladigan mikrokreditlar o‘sishini 0,16 birlikka tushishiga olib keladi; mikrokreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalarining bir birlikka oshishi mikrokreditlarning o‘sish darajasini 8,64 birlikka tushishiga olib keladi.

3. Past va barqaror foiz stavkalarida beriladigan mikrokredit va mikrolizingni hajmini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 500 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ni so‘mga aylantirib, “Agrobank” ATBning ustav kapitaliga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalash sharti bilan, qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori.
2. Raxmonov I. X. O‘zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish yo‘llari. I. f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. Avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 16.
3. Vaxabov A. V. Qishloq aholisining turmush darajasini oshirishda bank tizimining o‘rni//“Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Moliya, 2009. – B. 22.
4. Alimardonov I. M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd.et. diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29.
5. Таджибаева Д. А. Микрофинансирование в Централной Азии: теория, практика и перспективи развития. Монография. – Ташкент: КОНСАУДИТИНФОРМ, 2011. – С. 211.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –Toshkent: Adolat, 2007. – 520 b.;
8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 11-noyabr. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 11-33-b.; O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 34-51-b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi PQ-2746-sonli Qarori. Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №6. – 71-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2001-yil 7-martda 907-sonli yo‘riqnomasi. “Fermer xo‘jaliklari, kichik biznes subyektlarini tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlash tartibi. www.lex.uz
11. O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 17-mart.
12. Kremer N. Sh., Putko B. A. Ekonometrika. Uchebnik. – M.:YuNITI, 2008. – 311 s.
13. Эконометрика: Учебник. // Под ред. И. И. Элисеевой. –М.: Финансы и статистика, 2003. – 344 с.

THE EXPERIENCE OF THE JAPANESE STATE IN INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN UZBEKISTAN

Satoshi Sugahara
Professor, Kwansei Gakuin University,
Faculty of Business Administration.
Uegahara Ichiban-Cho, Nishinimiya.

Ochilov Bobur
Senior lecturer, Tashkent Institute of
Finance. Department of “Evaluation
work and investments”

Abstract: This article examines the essence of investment attractiveness, the opinions of economists on increasing investment attractiveness in attracting foreign direct investments. Also, the factors influencing the investment attractiveness of our country were analyzed, and the country’s business environment and investment attractiveness were studied. At the same time, a number of analyzes were carried out regarding the ease of investment of the Japanese state, and scientific proposals and recommendations were formulated to adapt some of its aspects to the investment conditions of Uzbekistan.

Key words: capitalization, stocks, investors, investment climate, business culture, shareholders, investment portfolio, investment potential, investment attractiveness, project cost.

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning mazmun-mohiyati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish borasidagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatimiz investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan bo‘lib, mamlakatning ishbilarmonlik muhiti va investitsion jozibadorligi o‘rganilgan. Shu bilan birga, Yaponiya davlatining investitsion qulayligi yuzasidan bir qancha tahlillar amalga oshirilgan bo‘lib, ayrim jihatlarini O‘zbekiston investitsiya sharoitiga moslashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: kapitallashuv, aksiyalar, investorlar, investitsion muhit, ishbilarmonlik madaniyati, aksiyadorlar, investitsiya portfeli, investitsiya salohiyati, investitsiya jozibadorligi, loyiha qiymati.

- Bloglar va veb-sahifalar;
- Forum;
- Jamoa tarmog‘i;
- Videokonferensiya.

2. Elektron reklama matnining shrifti, rangi va kattaligi o‘qishga qulay bo‘lishi zarur. Oddiy ranglardan foydalangan ma’qul. Veb-sahifa mazmuni bilan e’tiborni jalb qilgani maqsadga muvofiqdir, chunki kitob mazmuni bilan qiziqarli bo‘lgani kabi, veb-sahifa ham aynan mazmuni bilan foydalanuvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Doimo veb-sahifaga yangi ma’lumotlarni joylashtirib, mijozlar e’tiborini tortish mumkin.
3. Elektron reklamada chop etilayotgan rasm korxona faoliyatini ifodalagani ma’qul. Masalan, muhokama, ish jarayoni yoki bayram tantanasida olingan rasmlar qiziqarlidir.
4. Elektron reklamada ovoz berish, savolnomalar yordamida marketing tadbirlarini amalga oshirish mumkin. Buning uchun veb-sahifa va blog, forum, jamoa tarmoqlaridan foydalanish, masalan, yangi mahsulotlarga bo‘lgan talabni o‘rganish yoki xizmat ko‘rsatish sifatini aniqlash mumkin.
5. RSS (Really Simple Syndication) xizmatini tashkil etish mumkin. Ushbu xizmat ixtiyoriy veb-sahifadan avtomat tarzda, RSS sahifadagi o‘zgarishlar haqida ma’lumotlarni olish imkonidir.
6. Elektron reklamada banner odatdagi banner vazifasini bajaradi. U, odatda, kichkina rasm yoki poster bo‘lishi mumkin. Bannerni chertish natijasida banner reklama qiluvchi sahifaga o‘tiladi, masalan, korxona yangi mahsulotlari bannerini veb-sahifasida joylashtirish mumkin. Korxona veb-sahifasi bannerini turli veb-sahifalarda reklama uchun joylashtirish mumkin. Masalan, hamkorlar va ommabop elektron media-mahsulotlarida joylash mumkin. Banner taklifni tasvirlagani maqsadga muvofiq, shunda u mijozlarni o‘ziga jalb etadi.
7. Elektron pochta yordamida korxona axborotnomalarining jo‘natilishini tashkil etish mumkin. Masalan, korxona yangi mahsulotlari hamda xizmatlari, yangi loyihalari, natijalari va foydali tavsiyalarini muntazam ravishda, yaratish va manzillarga yuborish mumkin. Odatda, ushbu axborotnomani olish uchun mijozlar ro‘yxatdan o‘tishi zarur. Bu sizga mijozlar omborini yaratishga yordam beradi. Axborotnomadagi yangi bilim va qiziqarli ma’lumotlar uning mijozlari sonini keskin oshiradi. Ushbu tizimni veb-sahifada, blog yoki jamoa tarmog‘ida o‘rnatish zarur. Shu bilan birga, korxona yangiliklarini hamkorlar yoki ommabop veb-sahifalar axborotnomalarida tarqalishini tashkil qilish mumkin. Ba’zi korxonalar axborotnomalarni tarqatishda hamkorlik qiladilar. Axborotnoma mijozlari odatda, qiziqarli ma’lumotlarni Internet texnologiyalari yordamida o‘z hamkasblari va do‘stlariga yuboradilar. Bu esa, korxona qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlariga yangi mijozlarni jalb etadi. Axborotnomalar yordamida so‘rovnomalar va tadqiqotlar olib borish mumkin.

8. Videokonferensiyalar, uchrashuvlar yordamida reklama va marketing tadbirlarini doimo olib borish mumkin. Masalan, korxona yangi mahsulotlari taqdimotiga bag‘ishlangan konferensiya o‘tkazish mumkin. Uni forum yordamida ham o‘tkazish mumkin. Konferensiya va uchrashuvlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ularni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarga amal qiling. Forumni korxona veb-sahifasida o‘rnatish yoki forumlarda korxona bo‘limini ochish mumkin. Masalan, www.businessinfo.uz forumida korxona forumini ochish mumkin. Unda muntazam ravishda, mijozlar va hamkorlar bilan konferensiya, uchrashuv, savolnomalar, virtual qabulxona yaratish mumkin.

Elektron to‘lovlar – bu Internet orqali to‘lovlarni masofadan amalga oshirish imkoniyatidir, ya’ni foydalanuvchi bank bilan muloqotni va pul muomalalarini Internet orqali amalga oshirish. Masalan, korxona Internet do‘konda sotib olingan mahsulot haqini Internet orqali to‘laydi yoki korxona qishloq xo‘jaligi mahsulotlarlarini sotish uchun yoki xizmatlaridan foydalanish uchun to‘lovni Internet orqali bajaradi. Bank bilan muloqot bank veb-sahifasi orqali amalga oshiriladi. Muloqotni va to‘lovlarni amalga oshirish uchun bank veb-sahifasida maxsus xizmat bo‘lishi zarur. Odatda, ushbu xizmatdan foydalanish uchun ruxsatni bank ofisida olish mumkin. Bank veb-sahifasida foydalanuvchi shaxsiy kabineti orqali to‘lovlarni amalga oshirishi yoki hisobidagi to‘lovlar bilan tanishishi mumkin. Elektron hamyondan dunyoning ixtiyoriy nuqtasida foydalanish va to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Yana bir afzalligi to‘lov bir zumda amalga oshiriladi.

Elektron to‘lovlarning quyidagi turlari mavjud:

- bank to‘lovi foydalanuvchiga bankning onlayn xizmati yordamida to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.
- elektron pul – elektron hamyondagi pullar yordamida to‘lov amalga oshiriladi.
- SMS to‘lov – do‘kon o‘z elektron tizimiga buyurtmani yuboradi va mijozga SMS so‘rov yuboriladi, mijoz to‘lovni SMS orqali tasdiqlaydi.

Internetda elektron savdoning rivojlanishi elektron to‘lov imko-niyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, xaridorlar bevosita uydan yoki ofisdan turib, mahsulotlarni sotib olish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Elektron tijorat – bu Internet orqali sotish va sotib olish imkoniyatidir. Elektron tijoratni e-tadbirkorlik deb ham ataydilar. Internetda bugun oziq-ovqat, dori-darmondan tortib, turli texnik vositalar va texnologiyalarni sotib olish va sotish mumkindir. Ushbu savdo-sotiq muomalasidan yuridik va jismoniy shaxslar keng foydalanmoqda. Ba’zi korxonalar esa savdo-sotiqni to‘liq Internetda amalga oshirmoqdalar. Ushbu texnologiyadan foydalanuvchi sohalar doirasi turli-tumandir. Elektron tijoratning kelib chiqishiga o‘tgan asr 80-yillarida Internet davlat budjetining kattagina qismidan mahrum bo‘lganligi va o‘zini-o‘zi ta’minlashi zarurligi sababchi bo‘ldi. Shuning uchun Internetdan va uning resurslaridan tijorat maqsadida foydalanishga o‘tildi. Bunda daromadlar Internet xizmati va reklama hamda Internet bilan ta’minlash hisobiga (Internet provayderlik) olina boshlandi.

Elektron tijoratning quyidagi turlari mavjud:

- V2V (Business to business) – yuridik shaxslar orasidagi savdo-sotiq muomalasi bo‘lib, unda korxona boshqa korxona bilan savdo-sotiqni amalga oshiradi. Bu elektron tijoratning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, Internetdagi maxsus savdo maydonida amalga oshiriladi. Odatda, korxona ushbu maydonni tashkil etadi. Maydonda savdo-sotiq jarayoni tezda amalga oshiriladi. Masalan, korxona ofis uchun mebelni Internet orqali sotilishi bilan shug‘ullanishi mumkin. Boshqa korxona ofis uchun mebel sotib olmoqchi bo‘lsin. Buyurtmachi korxona taklif va narxlarni o‘rganib chiqib, sotuvchi korxonaga buyurtma beradi. Buyurtma sotuvchi korxonaning savdo maydonidagi takliflari yordamida tuziladi. Sotib oluvchi korxona buyurtmani yaratgandan so‘ng, hisob-kitob asosida buyurtmaga pul o‘tkazadi. Sotuvchi korxona buyurtmani tayyorlaydi va buyurtmachi ko‘rsatgan manzilga yetkazadi. Buyurtmachi buyurtma bajarilishini Internet orqali kuzatishi va nazorat qilishi mumkin. Odatda, ushbu savdo muomalasi ulgurji muomalalar uchun foydalaniladi. Bu usulda vaqt va mablag‘ tejaladi, chunki ish safarlar zarurati yo‘qoladi, telefon va faksga zarurat bo‘lmaydi, xodim vaqti tejaladi. Eng asosiysi, savdo-sotiq muomalasi tezda amalga oshiriladi;
- V2S (Bisiness to Customers) – yuridik shaxs va jismoniy shaxs o‘rtasidagi savdo-sotiq muomalasi. Ushbu savdo muomalasi chakana savdoni amalga oshirishda foydalaniladi, masalan, kitoblar, kiyim-kechak, texnik vositalar, dori-darmonlar va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish mumkin. Mijoz savdo shoxobchasiga bormasdan turib, zarur mahsulotni sotib olishi mumkin. Bunda buyurtma narxi to‘lovi savdo maydonida amalga oshiriladi. Buning uchun mijoz maxsus shaklda kredit kartochka raqamini kiritadi. Shundan so‘ng sotuvchi kredit kartochkani tekshirib, muomalani amalga oshiradi. Ushbu texnologiya asosida Internet savdo shoxobchalari ishlaydi.
- S2S (Customers to Customers) – jismoniy shaxslar o‘rtasidagi savdo-sotiq muomalasi. Bu chakana savdo muomalasidir.

Raqamli platformalar orqali eksportni rivojlantirish hududlardagi tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli platformalarning hayot siklini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u 3 ta fazaga bo‘linadi (2-rasm).



2-rasm: Raqamli platformalarning hayot sikli

Ushbu platforma orqali turli mahsulotlarni va xizmatlarni sotish va sotib olish, masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, texnik xizmatlarni, texnik vositalarni sotish yoki sotib olish mumkin.

Bunga e’lonlar taxtasi misol bo‘la oladi. Odatda, ushbu savdoda narxlar arzonligi bilan mijozlarni o‘ziga jalb etadi. Mahsulotlarni Raqamli platformalardan bemalol tanlab, uni maxsus qog‘oz yoki qutiga joylashni va manzilga ko‘rsatilgan sanada yetkazishni buyurtma qilishingiz mumkin.

Shunga ko‘ra, Raqamli platformalar quyidagi afzalliklarga ega:

- mahsulotlar turli-tumanligi;
- mos turdagi va narxdagi mahsulotni tez topish imkoniyati;
- mahsulot batafsil tavsifining mavjudligi (hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tavsifi bilan tanishish bilan hamda uning tashqi ko‘rinishini ko‘rish imkoniyati mavjud);
- dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan savdo-sotiq muomalasini amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;
- savdo-sotiq muomalasining tezkorligi;
- qog‘ozning tejalishi;
- mahsulotni topish uchun vaqtning tejalishi (mahsulotni topish uchun do‘konma-do‘kon yurish, do‘konga borish va uni qidirish zarurati yo‘qligi);
- buyurtmani dunyoning ixtiyoriy nuqtasiga yetkazish mumkinligi (albatta, bunda buyurtmani yetkazish narxi masofaga bog‘liq bo‘ladi).

Bugungi kunga kelib, raqamli biznes platformasi bo‘yicha keng qamrovli strategiya barcha bo‘limlarning biznes jarayonlarini axborotlashtirishni, shuningdek, axborot tizimlarining barcha asosiy elementlarini o‘z ichiga oladi (3-rasm):

- strategiyani ishlab chiqish usuli;
- raqamlashtirishning hozirgi holati;
- davlat talablari;
- raqamlashtirish sohasidagi eng yaxshi amaliyotlar;
- loyiha rejasi;
- IT-korxonalar;
- biznes jarayonlarni raqamlashtirish;
- IT- elemetlari va hokazolar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



3-rasm: Raqamli biznes platformasi strategiyasini ishlab chiqish usullari

Sotishni raqamli o‘zgartirish strategiyasi to‘liq strategiyaning bir qismidir (shu jumladan, barcha bo‘limlarning biznes jarayonlarini raqamli transformatsiyasini, shuningdek, raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining barcha asosiy elementlarini o‘z ichiga oladi). Respublikamizda elektron tijorat imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.Ushbu savdo-sotiq muomalalari va xizmatni amalga oshiruvchi korxonalar ham o‘z faoliyatini olib bormoqdalar. Bu esa, ushbu usullarning yuridik va jismoniy shaxslar doirasida keng tarqalishining omilidir. Shu bilan birgalikda, korxona eksportini rivojlantirishning qonunchilikka asoslangan o‘ziga xos strategiyasi mavjud bo‘lishi lozim (4-rasm).



4-rasm: Tadbirkorlik subyektlarining eksportini rivojlantirish strategiyasi[3]

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulotlarni yaratish jarayonida iste'molchilar talablarini o'rganish natijasida yangiliklarni joriy qilishi tashqi bozordagi raqobatdoshlikka bardosh beradigan va o'ziga xos ustunlikka ega bo'lgan holda harakat qilishi lozim. Bunga borada xaridorlarning talabi haqida axborotlar, zarur bo'lgan ma'lumot va ularning manbalari to'g'risidagi axborotlarni qidirish va marketing tadqiqotlarini o'tkazish orqali erishish mumkin. Shuni hisobga olgan holda zarur innovatsion rivojlanish choralarini ko'rish va ishlab chiqarishda innovatsion loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Bu borada innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish va ko'paytirish orqali tijoratlashtirish borasidagi yangiliklar samaradorligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Bunga asosan, qonunchilikka asoslangan holda iste'molchilardan olingan ma'lumotlar, bozorning o'zgaruvchan holati, mahsulotlarning sinov natijalari va uning xususiyatlari, malakali xodimlar va zarur raqamli platformalardan samarali foydalanish natijasida erishish mumkin. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulotlarni eksport qilish jarayonida o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashqi bozordagi raqobatchilar va xaridorlarning talablarini o'rgangan holda, shu bilan birgalikda iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi maxsus strategiyani ishlab chiqishi talab etiladi. Strategiyani ishlab chiqishi orqali esa mahsulotlarni sifatli yaratishdan tortib, mijozlarga yetkazib bergunga qadar bo'lgan jarayonlarni mukammal ishlab chiqish natijasida kelgusi xaridlar rejasi ham amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlari eksportini doimiy ravishda tashqi bozorda xaridorgir bo'lishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotni eksport qilish orqali o'sishini ta'minlaydi.

Hududlarda yaratilayotgan mahsulotlarning eksport talablariga javob berishi ular tomonidan iqtisodiy tahlillar va tashqi bozorni mukammal tarzda o'rganish asosida ishlab chiqilgan maxsus strategiyaga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.09.2022-yildagi PF-228-son farmoni,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida 11.09.2023-yildagi PF-158-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.
4. Mamasoatov D. R "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qo'llab-quvvatlash" Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018-yil.
5. Bakhtiyarovna, Y. E. (2019). The main problems encountered in a second/foreign language acquisition in technical higher educational institutions. Проблемы современной науки и образования, (11-2 (144)).
6. Bakhtiyarovna, Y. E. (2019). The main problems encountered in a second/foreign language acquisition in technical higher educational institutions. Проблемы современной науки и образования, (11-2 (144)).
7. Bahtiyarovna, Y. E. (2018). Some methodology for keenness of teachers of English. Вопросы науки и образования, (5 (17)).
8. Numonjonovna, E. N., & Abdullaevich, M. H. (2017). Paralinguistic features in written speech. Проблемы педагогики, (6 (29)).
9. Numonjohnovna, E. N., Ugli, B. B. B., & Ilmiddinovich, K. S. (2019). Problems in developing speaking skills of students of technical higher educational institutions. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)).
10. Numonjohnovna, E. N., Oybekovna, K. S., & Ugli, B. B. B. (2019). Paralinguistic features of the written language: problems of classification. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)).
11. Gulomjonovna, N. N., & Sobirjonovna, M. M. (2019). Peculiarities of using shrines in Fergana Valley for the Purpose of Tourism. International Journal on Integrated Education, 2(6), 1-4.
12. Nazarova, N. G. (2021). Tourism terminology pragmatics. Middle European Scientific Bulletin, 12, 315-318.
13. Nazarova, N. G. (2020). Problems And Prospects In The Training System Of Guide Translators In Uzbekistan. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 253-256.
14. Gulomzhohnovna, N. N., Bakhtiyarovna, Y. E., & Sobirzhonovna, M. M. (2019). Preparing guide-translators in the sphere of tour industry. Проблемы современной науки и образования, (11-2 (144))
15. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO IQTISODIY SANKSIYALAR VA EKSPORTGA TAQIQLAR BILAN BOG‘LIQ RISKLARNI BAHOLASH VA KAMAYTIRISH MATRITSASINING METODOLOGIYASI

Keldiyorov Shohruh Ilyos o‘g‘li
AJ “Ziraat Bank Uzbekistan” Ichki nazorat departamenti Sanksiyaviy komplaens nazorat sektori bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ma’lumki hozirgi kunda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan qo‘llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bo‘yicha xatarlar boshqarilishidagi zaif tomonlarini samarali aniqlash, xavf-xatarni kamaytirish, tahlil qilish hamda uni qanday qilib baholash usullari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanksiya, eksport, iqtisod, xavf-xatar, baholash, urush, risk, FATF, OFAC, EU, FinCen, KYC, BIS, BMT.

Abstract: It is known that methods of effective identification of weaknesses in risk management in relation to economic sanctions and export bans applied by international financial organizations, risk reduction, analysis and assessment are widely covered at present.

Key words: sanctions, export, economy, risk, assessment, war, FATF, OFAC, EU, FinCEN, KYC, BIS, UN.

Аннотация: Известно, что в настоящее время широко освещаются методы эффективного выявления слабых мест в управлении рисками в отношении экономических санкций и экспортных запретов, применяемых международными финансовыми организациями, снижения риска, анализа и его оценки.

Ключевые слова: санкции, экспорт, экономика, риск, оценка, война, ФАТФ, OFAC, ЕС, FinCen, KYC, BIS, ООН.

KIRISH

Iqtisodiy sanksiyalar – xavfsizlik yoki tashqi siyosiy masalalar bilan bog‘liq ma’lum maqsadlarga erishish uchun savdo va moliyaviy operatsiyalarni cheklash yoki to‘liq tugatishdir. Sanksiyalar ham alohida davlatlar, ham xalqaro tashkilotlar tomonidan mahsulot va xizmatlar, transport (port), jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, tashkilotlarga yoki davlatlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. Sanksiya joriy qilgan va sanksiyaga uchragan mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy bog‘liqlik qanchalik yuqori bo‘lsa, cheklovlar ham shunchalik samarali yechim topib, iqtisodiy ko‘rsatkichlari keskin o‘zgaradi.

Sanksiyalar, asosan, quyidagi maqsadlar uchun qo‘llanadi:

- sanksiya qo‘llanayotgan davlatning ma’lum bir sohadagi siyosatini o‘zgartirish, masalan, inson huquqlari, matbuot va so‘z erkinligi, diniy erkinlik tamoyillari buzilganida;
- sanksiya qo‘llanayotgan davlat rejimini almashtirish orqali uning siyosatini o‘zgartirish;
- harbiy harakatlarni to‘xtatish (Bangladesh mustaqilligi uchun urush vaqtida AQSh Hindiston va Pokistonga nisbatan sanksiyalar kiritish orqali bunga erisha olgan);
- mamlakatning harbiy salohiyatini parchalash;
- sanksiya qo‘llanayotgan davlat siyosatining boshqa muhim yo‘nalishlarini o‘zgartirish.

Davlatlarga qarshi sanksiya e’lon qilish necha yillardan beri mavjud. Tarixdagi birinchi iqtisodiy sanksiya Qadimgi Yunonistonda qayd etilgan. Eramizdan avvalgi 432-yilda Afina hukmdorlari Megara viloyati savdogarlariga Afina portlari va bozorlariga kirishni taqiqlashgan. Bu qonli Peloponnes urushi boshlanishiga sabab bo‘la olgan.

Xitoy davlati bilan munosabatda bo‘lgan yirik davlatlar vaqti-vaqti bilan uning iqtisodiyotiga zarba berish va ta’sirini kamaytirish maqsadida ipak matoli liboslarini kiyishni taqiqlagan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Yugoslaviya, Gretsiya, Boliviya, Paragvay va Italiya jamoaviy iqtisodiy sanksiyalarga duchor bo‘lgan.

Sovuq qurolli urush davrida sanksiyalar kutilgan samarani bermadi, sababi bu siyosat G‘arbiy yoki Sharqiy davlatlar bloklari tomonidan bir vaqtning o‘zida qo‘llab-quvvatlanmagan. Ikkala blok tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan yagona sanksiyalar faqat ikki marotaba ko‘zda tutilgan: Rodeziya va Janubiy Afrikaga nisbatan sanksiyalar qo‘llanilgan va ikkala holatda ham ular yetarlicha natija bermagan.

Uzoq muddatli bir tomonlama sanksiyalarning eng taniqli namunasi AQShning Kubaga nisbatan 1960–1962-yillarda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan embargosidir. AQSh kompaniyalariga Kuba bilan har qanday iqtisodiy aloqalarni maxsus ruxsatsiz amalga oshirish taqiqlangan.

Rossiya-Ukraina o‘rtasidagi harbiy kelishmovchiliklar hamda bu jarayonga G‘arb mamlakatlarining aralashuvi jahon iqtisodiyotidagi pandemiyadan so‘ng yana bir jiddiy o‘zgarishlar xalqaro savdo tizimida iqtisodiy muammolarni keltirib chiqmoqda. Bunga AQSh, Yevropa Ittifoqi, Canada, Buyuk Britaniya hamda boshqa davlatlarning birgalikdagi Rossiyaga nisbatan joriy etayotgan keng ko‘lamdagi sanksiyalarini misol keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog‘liq xatarlarni baholash matritsasining metodologiyasi, ushbu metodologiya asosini FATF xalqaro standartlari hamda xorijiy tajribalar, bankning xorijiy vakil banklarning riskka asoslantirilgan siyosati talablari asosida, shuningdek, quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqildi:

- FATF Risk-Based Approach Guidanceforthe Banking Sector, 2014-y.[1];
- FATF ko‘rsatmalari (Ommaviy qirg‘in qurollarini moliyalashtirishning tarqalishi xavfini baholash va yumshatish to‘g‘risida), 2021-y.[2];
- Bazel bank nazorati qo‘mitasining hujjati: “Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha”, 2014-y.[3];

Risklarni baholash (aniqlash)ning birinchi bosqichida asosiy e’tibor axborot to‘plashga qaratiladi va quyidagi axborotni o‘z ichiga oladigan ma’lumotlar to‘plami tayyorlanadi:

- tashqi savdo operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijozlar soni va ularning faoliyat turlari (mahsulot-xizmatlar) hamda kontragent-kontragentning benefitsiar mulkdori va ularning banki;
- iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanilgan mamlakatlar bo‘yicha xalqaro operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumot;
- yuqori riskli mijozlar operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plami.

Mazkur metodologiya asosida iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlarning bankka xos risklarini aniqlash va baholash quyidagi to‘rtta risk mezonlari bo‘yicha o‘tkaziladi:

- Mijozlar (mijozlar-kontragent-kontragentning benefitsiar mulkdori va ularning faoliyat turlari bo‘yicha);
- Eksport va import qilinayotgan mahsulot va xizmatlar;
- Geografik “joylashuv” (kontragent va uning benefitsiar mulkdorini joylashgan mamlakatlar va rezidentligi mavjud bo‘lgan hudud bo‘yicha) xususiyatlari;
- Kontragentning banklari hamda vakillik banklari bo‘yicha;
- Korrespondent banklardagi ko‘rib chiqish maqomidagi mablag‘lar riski bo‘yicha.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog‘liq risklari (Yuqori-O‘rta-Quyi)ni baholash matritsasi asosida tegishli xavflar darajalari va baholash kombinatsiyasiga qarab aniqlanadi.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bo‘yicha xatarlar riskini boshqarilishidagi zaif tomonlarni samarali aniqlash va baholash xalqaro moliyaviy sanksiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish tizimi va aniqlangan risklarni minimillashtirish uchun resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda yordam beradi.

Xatarlar risklarining baholanishda va ularni boshqarishga doir talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- risk darajasini o‘rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, monitoringini o‘tkazish, boshqarish, hujjatlashtirish va kamaytirish;
- risk darajasini belgilash hamda risk turi va darajasiga qarab tegishli choralar ko‘rish.

Risk darajasi mijoz tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va operatsiya ishtirokchilarini hisobga olgan holda, mijoz tomonidan taqdim qilingan axborot-hujjat, mijozni lozim darajada tekshirish natijalari, risk omillari (mijozlar toifalari va faoliyat turlari-xizmatlari, mijozlarning benefitsiar mulkdori, geografik hududlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan boshqa omillar) asosida, shu jumladan, mijoz tomonidan taqdim qilingan axborotni o‘rganish va tahlil qilish asosida aniqlanadi va baholanadi.

Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog‘liq xatarlarni baholash matritsasi

Tijorat banklari o‘zining iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar qo‘llanilishining oldini olish dasturi doirasida baholangan riskni minimal yoki maqbul darajaga tushirish uchun tegishli choralarni ishlab chiqish

1 FATF Risk-Based Approach Guidanceforthe Banking Sector
2 FATF Risk-Based Approach Guidanceforthe Banking Sector
3 Norma.uz

uchun sanksiyalar riskini aniqlash, baholash-tahlil qilish, boshqarish va yumshatish bo‘yicha riskka asoslangan yondashuvni qo‘llaydi.

Bankning sanksiyaviy risklarini boshqarishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy sanksiya va eksportga taqiqlarga rioya qilish funksiyasini takomillashtirish;
- Nazorat funksiyasining muvozanati va muvofiqligini rivojlantirish;
- Bankka nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan xatarlar darajasi va murakkabligini hisobga olgan holda qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish imkonini beruvchi sanksiya xatarlarini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini ijro etish;
- Xalqaro moliyaviy tashkilotlarida eng yaxshi amaliyot sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan sanksiya risklarini boshqarish yondashuvlarini tatbiq etish;
- Sanksiya bilan bog‘liq bo‘lgan bankning risk-appetitini minimallashtirish;
- Qonun hujjatlaridagi talablarga, shu jumladan, xalqaro va ichki me’yoriy hujjatlar talablar va amaliyotiga, nazorat qiluvchi organlarning talablariga hamda umumqabul qilingan standartlarga rioya qilish.

Riskka asoslangan yondashuv quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- bankning tijorat faoliyati ta’minlanadigan umumiy yo‘nalish (kontekst)ni yaratish. Bunga mijozlarning tashqi savdo operatsiyalari va ularning ishtirokchilarini hamda xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni aniqlash kiradi;
- risklarni aniqlash;
- risklarni baholash;
- risklarni boshqarish (minimallashtirish (yumshatish), nazorat mexanizmlari, kunlik tekshiruvlar).

Yuqoridagi elementlar amalda quyidagilarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

- **Tijoriy foliyatga xos risklarni baholash:** Ichki nazorat boshqarmasi Sanksiyaviy komplaens sektori quyida keltirilgan toifalardan kelib chiqib, bankning tijoriy faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan xalqaro iqtisodiy sanksiyalar bilan bog‘liq risklarni baholaydi. Bular mijoz turlari va faoliyati, mahsulot va xizmatlar, geografik risklarni aniqlashni o‘z ichiga oladi.
- **Risklarni kamaytirish (yumshatish):** Iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog‘liq risklarni baholashni o‘tkazishdan maqsad Bank duch kelishi mumkin bo‘lgan sohaga oid risk(xavf)larni aniqlash va kamaytirishdan iboratdir. Risk(xavf)larni bartaraf etish va kamaytirish uchun Bank quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

1. Mijoz va ularning kontragentlarini lozim darajada tekshirish.
2. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimi.
3. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirib borish.

- **Mijoz turlari va faoliyati bo‘yicha baholash:** Mijozning riskini baholash tashqi savdo operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijoz va uning kontragenti-benefitsiar mulkdorlarini lozim darajada tekshirish natijasida olingan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Lekin, mijozning to‘liq risk darajasi mijoz hisobvaraq ochib, operatsiyalarni amalga oshirgandan keyingina aniq bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tashqi savdo operatsiyalar amalga oshiruvchi mijozlarning amaliyotlarini monitoring qilish va doimiy tekshirish Bankning riskka asoslangan baholashning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mijozlarga nisbatan risklarni baholashni yetarli darajada amalga oshirish uchun har bir mijoz bir nechta risk parametrlari yoki jihatlariga qarab baholanadi. Ularning har biri uchun bir nechta xavf omillari yoki ko‘rsatkichlari mavjud, ularning har biri o‘ziga xos xavf vazniga ega bo‘lishi mumkin: yuqori darajadagi xavf, o‘rta darajadagi xavf yoki quyi darajadagi xavf. Mijoz riskini umumiy baholash uchun quyidagilar bilan bog‘liq bo‘lgan xavf parametrlari asosida baholanadi va baholash matritsasida ushbu faktorlar asos qilib olingan:

O‘rta darajadagi xavf aniqlangan taqdirda mijozlar tomonidan taqdim etilgan tegishli qo‘shimcha ma’lumotlar va tahlillar asosida “Quyi” darajadagi risk deb yoki “Yuqori” darajadagi risk deb qaror qabul qilinadi.

- **Risklarni profillashtirish:** Riskka asoslangan yondashuv quyidagi iqtisodiy sanksiyalar bilan bog‘liq risklarni baholashni o‘z ichiga oladi:

1. Mijozlar va uning kontragenti-benifitsiar, mulkdori-benefitsiar banki;
2. Mahsulotlar va xizmatlar;
3. Geografik joylashuv;
4. Tashqi savdo bilan bog‘liq bo‘lgan mijoz va uning kontragenti faoliyatiga taalluqli bo‘lgan har qanday boshqa xavf elementlari, ayniqsa, ularning faoliyatining hajmi va murakkabligi.
5. Risklarni profillashtirishdan asosiy maqsad bankka mijozlarning ish munosabatlari to‘g‘risida aniq tushunchalarni berish va natijada operatsiya ishtirokchilarini lozim darajada tekshirish uchun zarur bo‘lgan doimiy monitoringni ta’minlashdir. Barcha risklarning elementlarini to‘liq ko‘rib chiqish ish munosabatlarining risk profilini birlashtiradi.

- **Risk matritsasi va skoring:** Risklar aniqlangandan so‘ng, ushbu risklar risk matritsasi asosida quyidagicha baholanadi:

1-jadval: Risk ballari matritsasini shakllantirish

Risk bahosi	Risk darajasi
1-2	Quyi
2-3,5	O‘rta
3,5 -5	Yuqori

Risk matritsasida sodir bo‘lish ehtimoli va oqibatlar ta’siri o‘lchovlaridan foydalanishda risk ballari matritsasini shakllantirishga imkon beradi.

2-jadval: Risk appetitasini aniqlash

Risk darajasi	Tavsif	Appetit nazorat o‘lchovi
Quyi	Voqea ehtimoli past	Risk olish mumkin, tranzaksiyalar amalga oshirilishi mumkin
O‘rta	O‘rtacha va katta ehtimol bilan xavf mavjud, ta’siri katta emas yoki sezilarli ta’sir etishi mumkin	Ushbu ehtimol darajasini aniqlashtirish uchun mijozdan kerakli hujjatlar so‘raladi hamda o‘rganib chiqiladi. O‘rganish jarayonida xavf ta’siri unchalik sezilarli darajada bo‘lmaganligi aniqlanganda, tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin.
Yuqori	Xavf juda yuqori	Operatsiyaning turiga qarab qaror qabul qilinadi. Import operatsiyalari (kontragent mijoz va uning banki, tovar va xizmatlar sanksiya ostida bo‘lganligi aniqlanganda) bo‘yicha xavf darajasi yuqori, deb baholangan taqdirda tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin. Eksport operatsiyalari (kontragent mijoz va uning banki, tovar va xizmatlar sanksiya ostida bo‘lganligi aniqlanganda) bo‘yicha xavf darajasi yuqori deb baholangan taqdirda tranzaksiyalarni amalga oshirish mumkin emas.

- **O‘z Mijozingni Bil (“KYC”):** risk skoring natijasidan kelib chiqib, lozim darajada tekshirishni amalga oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kundagi dolzarb bo‘lib kelayotgan moliyaviy sanksiyalar, sanksiyaga tushgan davlatlar, shaxslar, tovarlar va xizmatlar ro‘yxatlari bilan tanishib borish sanksiya nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi uchun juda muhim bir jarayon hisoblanadi. Shu munosabat bilan Bank xodimlari tomonidan sanksiya talablariga amal qilishlari uchun mijozlarga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga, keyinchalik xodimlar o‘z mijozlariga moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risida keng qamrovli tushuntirish berishlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi tashkiloti, AQShning Savdo va G‘aznachilik vazirliklari, Buyuk Britaniya tomonidan amalga kiritilgan moliyaviy va sektoral sanksiyalariga amal qilish bo‘yicha maslahat, ko‘rsatmalar berib borishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Генеральная Ассамблея ООН/ Резолюция 51-й сессии (1996–1997 годы) // https:// www.un.org/ru/ga/51/docs/51res.shtml, дата обращения 23.10.2019.
2. Морозов В. Санкции/ Инфографика РСМД/ РСМД. – М: НП РСМД. 2017
3. Соколов Р. Н. Экономические санкции, их эффективность в условиях глобального мира // Международный школьный вестник. – 2017. – № 3–1. – С. 112–116.
4. Суханова И. Ф., Лявина М. Ю. Экономические санкции: содержание, цели, мотивы, эффективность/ Аграрный научный журнал. – 2018. – С. 88–93. – № 4.
5. Экономические санкции // http://csrjournal.com/13856–ekonomicheskie–sankcii. html, дата обращения 23.10.2019.
6. Sokolov R. N. Economic sanctions, their effectiveness in the context of global world // the international school Herald. – 2017. – No. 3–1. – Pp. 112–116. (InRuss.)
7. Restrictive Measures in Respect of Actions Undermining or Threatening the Territorial Integrity, Sovereignty and Independence of Ukraine // Official Journal of the European Union. March 17. P. 16–21.
8. Hille K., Weaver C., Thompson Chr. (2014). Financial Window Closes for Moscow Businesses // Financial Times. July 29.
9. The Economist (2014). Sanctions on Russia: This Is Going to Hurt. August 2.
10. https://www.fatf-gafi.org – FATF Risk-Based Approach Guidanceforthe Banking Sector.
11. https://djrc.dowjones.com – Dow Jones Risk Center.
12. https://eur-lex.europa.eu – Access to Eurupean Union Law.
13. https://www.federalregister.gov – the Daily Journal of USA Government.
14. https://sanctionssearch.ofac.treas.gov-Office of foreign Assets Control.
15. https://cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
16. https://www.ziraatbank.uz

SOTISH JARAYONLARI HISOBINI BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Eshmuradov Ulug‘bek Tashmuratovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola qishloq xo‘jalik korxonalari, xususan, agroklasterlarda sotish jarayoni nazariy jihatlari hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida sotish jarayonining aks ettirilishini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Xo‘jalik jarayoni, sotish jarayoni, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, sintetik schyot, analitik schyot, mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi, sotish bahosi, transfert baho, moliyaviy natija.

Abstract: The article is devoted to the basis of improving the reflection of the sales process on the accounts of agricultural enterprises, in particular in agroclusters.

Key words: Economic process, implementation process, financial accounting, management accounting, synthetic account, analytical account, prime cost, sale price, transfer price, financial result.

Аннотация: Этот статья посвящена вопросам совершенствования отражения процесса реализации на счётах бухгалтерского учета на сельскохозяйственных предприятиях, в частности в агрокластерах.

Ключевые слова: Хозяйственный процесс, процесс реализации, финансовый учет, управленческий учет, синтетический счёт, аналитический счёт, себестоимость, цена реализации, трансфертная цена, финансовый результат.

KIRISH

Qishloq xo‘jalik korxonalari, xususan, agroklasterlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqaruv va moliyaviy hisob nuqtayi-nazaridan tatbiq etish, amaliyotga to‘liq joriy etilishini ta’minlash bilan birga, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida agroklasterlar xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish hozirgi kundagi muammolardan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimiz amaliyotida nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan, ammo rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarda samarali shakllantirilgan agroklasterlarda hisob va hisobotni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari mamlakatimizda agroklasterlarda sotish jarayoni hisobini takomillashtirish o‘zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlari, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o‘zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish, ular sifatini yaxshilash, ichki va tashqi bozorni qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashda ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatlarini ta’minlash muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni to‘liq daromadga olish, nobudgarchiliksiz yig‘ishtirib olish, saqlash jarayonida yo‘qotishlarni kamaytirish, o‘z vaqtida mahsulotlarni maqbul baholarda sotish korxona boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni bajarishda korxona boshqaruvini olingan yalpi hosil, sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) hajmi, sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va sotishdan olingan tushum, sotilgan mahsulotlarning moliyaviy natijasi kabi buxgalteriya hisobi axborotlariga ehtiyoji seziladi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar natijasi iqtisodiy adabiyotlarda va me’yoriy hujjatlarda sotish (realizatsiya) jarayonini hisobga olish masalalari tahlili, sotish (realizatsiya) atamasining mohiyati to‘liq ochib berilmaganligini ko‘rsatmoqda. “Realizatsiya (lot. realis – real): 1) ishlab chiqarilgan yoki qayta sotilgan tovarlar va xizmatlarni naqd pul olish bilan birga sotish; 2) rejani bajarish, natijani olish”[1], – deb ta’kidlangan.

1 www.google.com/search

Ba'zi manbalarda ushbu atamaning quyidagi ta'riflarini ham ko'rishimiz mumkin: "tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish – mulkni, ishlab chiqarilgan tovarlarni va xizmatlarni sotish yoki ularni pul tushumlari bilan birga qayta sotish, kompensasiya uchun mulkni begonalashtirish"[2], "Realizatsiya – ishlab chiqarilgan yoki qayta sotilgan tovarlar va xizmatlarni tushum olish bilan birga sotishdir"[3].

Rus olimi Paliy V. F. tomonidan realizatsiya jarayoniga quyidagicha tavsiflangan: "Realizatsiya jarayoni ikki tomonlama tartibdir. Bir tomondan, bu xaridorga sotish yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish obyektini topshirishning aniq jarayonidir. Boshqa tomondan, bu sotuvchi yoki pudratchi tomonidan tranzaksiya uchun to'lov va pul olish jarayoni. Jarayonlar faqat chakana savdoda vaqtga to'g'ri keladi va hatto har doim ham emas" [6. 177b.].

Entoni R. va Rays J. tomonidan realizatsiya konsepsiyasida daromad tushunchasidan foydalangan holda, realizatsiya talqini "…sotishdan tan olinadigan daromad summasi. Sotish deganda tovar yoki xizmatlarni sotishdan tushgan pul tushumlari yoki da'volar (debitorlik qarzlari) tushuniladi", [2. 69b.] – deb ko'rsatib o'tishgan.

Bernstayn L. A. esa realizatsiya jarayoniga quyidagicha ta'riflaydi: "Realizatsiya – pul bo'lmagan resurslar va huquqlarni pulga aylantirish jarayoni bo'lib, u buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda sotish hajmiga nisbatan eng aniq qo'llaniladigan, pul uchun aktivlar yoki pul olish da'volaridir" [3. 55b.].

R. Dusmuratov, B. Menglikulovlar ta'rificha, "Realizatsiya jarayoni xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlar ekan, korxona o'z tayyor mahsulotini xaridorlarga va boshqa korxonalarga sotadi va natijada ulardan pul kelib tushadi. Shunday qilib, bu jarayonda tayyor mahsulot pul shakliga o'tadi" [4. 27b.].

A. Karimov, F. Islomov, A. Avloqulovlar ta'kidlashicha, "Sotish jarayoni xo'jalik mablag'lari aylanishining so'nggi bosqichi bo'lib, bu bosqichda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridor va iste'molchilarga shartnomalar asosida yetkaziladi. Sotish jarayoni xo'jalik jarayonini tugallaydi va yangidan-yangi ta'minot jarayoni boshlanadi hamda bu jarayon oldingiga qaraganda kengroq tus oladi" [5. 27b.].

A. S. Sotivoldiyev "Mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik muomalalarining majmuyi sotish jarayoni deyiladi" [7. 21b.] deb sotish jarayoniga ta'rif bergan.

B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, Z. A. Pardayevalar ta'kidlashicha, "...sotish (realizatsiya) jarayonida ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari xaridorlarga jo'natiladi va ular qabul qilib olgan mahsulotlari uchun shartnoma narxida mol yetkazib beruvchilarga pul to'lanadi" [8. 46b.].

K. B. Urazov, M. E. Po'latovlar esa sotish jarayoniga quyidagicha ta'rif berishgan: "Sotish jarayoni deganda, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni xaridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda olingan daromad ham tarmoq xususiyatiga xos ravishda nomlanadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasida tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad, savdoda tovarlarni sotishdan olingan daromad, qurilishda bajarilgan ishlardan olingan daromad, xizmat sohasida ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad deb ataladi" [9. 20-21b.].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'proq sotish jarayoni o'zining mohiyati, mahsulot (ish, xizmat) sotishning buxgalteriya hisobini metodologik muammolarni hal etilishiga qaratilgan bo'lib, boshqaruv hisobining vazifasi bo'lgan har bir sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot (ish, xizmat)lar bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash va iqtisodiy samarasini aniqlash masalalariga e'tibor qaratilmay qolgan.

METODOLOGIYA

Mavzuga oid respublikamizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sotishni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar hamda ilmiy-tadqiqot natijalarining materiallaridan foydalanildi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shu ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jalik korxonalari kamida 8 turdan boshlab 18-22 turgacha bo'lgan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishadi. Bu sotiladigan mahsulot (ish, xizmatlar)lar bo'yicha axborotlar amaldagi buxgalteriya hisobini yuritish metodologiyasiga asosan tegishli sintetik schyotlarda va boshqaruv hisobining segmentar hisobotlarida umumlashtiriladi. Ushbu axborotlar realizatsiya qilingan mahsulot (ish, xizmatlar)lar bo'yicha umumiy ma'lumotlar bo'lib, bu ma'lumotlar har sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish xarajatlari korxonalarda umumiy holda 9410-"Sotish xarajatlari" sintetik schyotida hisobga olib borilib, har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) moliyaviy natijasini aniqlashda ular tannarxga kiritilmaydi.

Mazkur muammolarni hal etishda, sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni mahsulot (ish, xizmat)larni turlari bo'yicha taqsimlash, har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo'yicha moliyaviy natijani va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash lozim. Buxgalteriya hisobining ushbu axborotlari boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirib, sotish jarayonini tartibga soladi.

2 http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61748
3 http://www.glossary.ru/cgi-bin/g

Qishloq xo‘jalik korxonalari, xususan, agroklasterlar faoliyatida sotish jarayoni hisobini takomillashtirish asosida har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat) turlari bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo‘yicha axborotlariga ko‘ra qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari natijadorligini oshirish. Bunda, sotish bilan bog‘liq xarajatlarni sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar o‘rtasida taqsimlashlash metodikasini takomillashtirish, analitik schyotlarni tashkil etish va yuritish hamda sintetik hisobni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar beriladi.

Mamalakatimizda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish natijasida qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi barqaror oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi*, 2018-2022-yillarda[4]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2022-yil 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi	
		2018	2019	2020	2021	2022	mutlaq	nisbiy,%
1.	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, trln. so‘m	187,4	216,3	250,3	303,4	345,2	157,8	184,2
	o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %da	100,2	103,3	102,7	103,9	103,6	3,4	103,4
	shu jumladan:							
2.	Dehqonchilik, trln. so‘m	98,4	111,9	123,9	152,1	178,9	80,5	181,8
	o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %da	95,8	104,8	103,2	104,3	103,8	8	108,4
3.	Chorvachilik, trln. so‘m	89,0	104,4	126,4	151,3	167,2	78,2	187,9
	o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %da	105,7	101,6	102,1	103,5	103,3	-2,4	97,7

*Yillik statistik ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Ushbu 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamiz bo‘yicha 2022-yilda 2018-yilga nisbatan qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibida sezilarli o‘zgarish bo‘lgan, ya’ni 2018-yilda jami mahsulotni 47,5 foizi chorvachilik mahsuloti bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 48,4 foizni tashkil etgan. Respublika bo‘yicha qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 84,2 foizga yoki 157,8 trln. so‘mga oshgan.

Qishloq xo‘jalik korxonalari, shu jumladan, agroklasterlarda xo‘jalik faoliyati quyidagi uch bosqichdan iborat: ta’minot, ishlab chiqarish va sotish. Ushbu jarayonlar barchasi xo‘jalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Ushbu jarayonlarni bir-biri bilan bog‘liqligi qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini yaxshi tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonlarni amalga oshirilishini quyidagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatida xo‘jalik jarayonining ketma-ketligi

4 https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2

Qishloq xo‘jaligi korxonalari, shu jumladan, agroklasterlar faoliyatida sotish jarayoni sotish jarayonini quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin (2-rasm):



2-rasm: Qishloq xo‘jaligi korxonalari, shu jumladan, agroklasterlar faoliyatida sotish jarayonining guruhlanishi

Mahsulot (ish, xizmat)lar hisobini buxgalteriya schyotlarida hisobga olishning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xo‘jaliklarda sotilgan har bir mahsulot turi bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlash, ularni har birining iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini bermaydi, natijada mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi.

Shuning uchun, mahsulot (ish, xizmat) lar sotishda boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, 9410–“Sotish xarajatlari” schyoti bo‘yicha har bir mahsulotni sotish xarajatlari hisobi bo‘yicha alohida analitik schyotlar ochish, umumiy bo‘lgan sotish xarajatlarini esa hisobot davrining oxirida sotilgan mahsulotlar tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroklasterlarni o‘z ichki bo‘linmalariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida sotish xarajatlarini alohida hisobga olib bormaydi, bunday xarajatlar bo‘lsa, ishlab chiqarish bo‘linmasi xarajatlari tarkibida hisobga oladi. Xo‘jaliklar o‘z ishlab chiqarish bo‘linmasiga mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxida sotadi va foyda yoki zarar ko‘rmaydi.

Agroklasterlarda o‘z ichki bo‘linmalari va xodimlariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida sotiladigan mahsulot (ish, xizmat)ni subyekt tomonidan belgilangan transfert bahoda sotishni taklif qilamiz. Bunda, subyekt o‘zining ichki bo‘linmalariga sotiladigan mahsulot (ish, xizmat)larga transfert baho o‘rnatishi va buni o‘zining “Hisob siyosatida” aks ettirishi lozim.

Taklifimiz bo‘yicha agroklasterlarni o‘z ichki bo‘linmalariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettirish taklif etiladi:

1. Debet 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti.

Kredit 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti – Sotilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarilganda.

2. Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti.

Kredit 9010 – “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti – Sotilgan mahsulotning o‘rnatilgan transfert bahodagi qiymatiga.

3. Debet 9010 – “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti.

Kredit 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti – Sotilgan mahsulotdan olingan daromad yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazilganda.

4. Debet 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Kredit 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti – Sotilgan mahsulot tannarxi yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazilganda.

5. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) bo‘yicha moliyaviy natija aniqlanganda:

a) Foyda bo‘lsa:

Debet 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Kredit 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti

b) Zarar bo‘lsa:

Debet 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti.

Kredit 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hisobida, buxgalteriya schyotlari asosida sotilgan har bir mahsulot turi bo‘yicha moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, har bir mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot hajmi va tannarxini boshqarish bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuning uchun, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishda boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, 9410 – “Sotish xarajatlari” schyoti bo‘yicha har bir mahsulotni sotish xarajatlari hisobi bo‘yicha alohida

analitik schyotlar ochish, umumiy bo‘lgan sotish xarajatlarini esa hisobot davrining oxirida sotilgan mahsulotlar tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlash taklif qilinadi.

Takliflarimizni amaliyotda qo‘llanilishi agroklasterlarda ishlab chiqariladigan va o‘z ichki bo‘linmalariga hamda xodimlariga sotiladigan mahsulotlarga transfert baholar o‘rnatiladi, transfert bahoni o‘rnatilishi ishlab chiqarish bo‘linmalarida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash imkonini beradi, xo‘jalik boshqaruvi tomonidan ular faoliyatiga baho beriladi, bu o‘z navbatida ishlab chiqarish bo‘linmalarining xarajatlarni nazorat qilish va mahsulot tannarxini pasaytirishga olib keladi, har bir mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilib, mahsulot (ish, xizmat) tannarxini pasaytiradi va agroklasterlarni barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. https://lex.uz/docs/264422
2. Anthony Robert N., S. Reece James. Accounting Principles (6 th Edition) //A. I. T. B. S. Publishers, 2005. – 696 pages. ISBN: 81853860802.
3. Бернстайн Л. А. Анализ финансовой отчетности// Пер. с англ. / научн. ред. перевод чл. корр. РАН Елисеева И. И. Гл. редактор серии проф. Соколов Я. В. – М.: Финансы с статистика, 2003. -623 с. ISBN: 5-279-01555-5
4. Dusmuratov R. D., Menglikulov B. Yu. Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014. – B. 27.
5. Karimov A. A., Islomov F. R., Avloqulov A. Z.. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Sharq” NMAK, 2004. – B. 28.
6. Paliy V. F. Teoriya buxgalterskogo ucheta: sovremennыe problemы. – M.: INFRA-M, 2007. -512 s. ISBN (EAN): 5-85428-177-5
7. A. S. Sotivoldiyev. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. 3-tom. Darslik. –T.: O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, 2004, 21-bet.
8. B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, Z. A. Pardayeva. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Mustaqil ta’lim uchun ko‘rgazmali o‘quv qo‘llanma. –T.: “YANGI NASHR”, 2011. – 46 b.
9. Urazov K. B., Po‘latov M. E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020-y. – B. 20-21.
10. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
11. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agroklasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Nauchnыy Fokus, 1(7), 790-795.
12. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In Construcţii identitare. Reverberaţii ale modelului cultural francez în context european şi universal. (Vol. 2, pp. 113-118).
13. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
14. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agroclasters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Speical Issue 1), 102-109.
15. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
16. Alikulov, A. I. (2010). Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya.” Fan va texnologiya”,-Toshkent, 196.
17. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 75-76.
18. Khasanov, B. A., Eshboyev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 42-48.
19. Olim, M., Ablakulovich, I. G., & Shukurov, I. S. (2022). Cluster System And Its Organizational Mechanisms. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 1(1), 1-11.
20. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2.
21. www.google.com/search.
22. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61748.
23. http://www.glossary.ru/cgi-bin/g.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TRANSFORMATSIYALANISH JARAYONLARINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich
SamISI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari faoliyatida transformatsiyalanish jarayonida raqamli texnologiyalardan birgalikda foydalanishning hozirgi holati nazariy-amaliy jihatlari o‘rganilgan. Mazkur masalaga olim va mutaxassislarning munosabatlari tadqiq etilib, raqamli texnologiyalarni bank sektorida, shuningdek, jahonning yetakchi bank tuzilmalarida qo‘llash sohalari muhokama qilingan bo‘lib, bu borada bank xizmatlarini raqamlashtirish muammolari va istiqbollari yoritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: servis, raqamli bank, transformatsiya, avtomatlashtirish, tendensiya.

Abstract: The article explores theoretical-practical aspects of the current state of joint use of digital technologies in the process of transformation in the activities of commercial banks. The relations of scientists and specialists were studied and the areas of application of digital technologies in the banking sector, as well as in the world’s leading banking structures, and the problems and prospects of digitization of banking services were covered in this regard. Based on the research carried out, scientific conclusions have been developed.

Key words: service, digital banking, transformation, automation, tendency.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретико-практические аспекты современного состояния совместного использования цифровых технологий в процессе трансформации деятельности коммерческих банков. Были изучены подходы ученых и специалистов к данному вопросу, обсуждены сферы применения цифровых технологий в банковском секторе, а также в ведущих мировых банковских структурах, освещены проблемы и перспективы цифровизации банковских услуг. На основе проведенных исследований разработаны научные выводы.

Ключевые слова: сервис, цифровой банкинг, трансформация, автоматизация, тендеция.

KIRISH

Bugungi kunda bank-moliya sektorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘sib boruvchi global tendensiyasi, bank xizmatlari sonining o‘sishi hamda elektron to‘lovlar va elektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida, yurtimizda elektron to‘lovlar va elektron tijorat sohasidagi qator loyihalarning amalga oshirilishi jadallik bilan rijojlanib bormoqda. Bank tizimini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Transformatsiya jarayonlari xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiya kelgusi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz bank va kredit tashkilotlari internet global tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali o‘z mijozlariga masofadan turib elektron to‘lovlarni amalga oshirilishiga imkonini beruvchi vositalarni taqdim etmoqdalar. Buni butun dunyoda “raqamli bank tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy soni 2020-yilda 2,4 milliarddan oshdi. Tahlilchilarning prognozlariga ko‘ra 2024-yilga kelib raqamli bank foydalanuvchilari global miqyosda 54 foizga oshib 3,6 milliardni tashkil etadi, chunki faqatgina raqamli banklar bozorni katalizatsiya qilmoqda. Ushbu o‘sishga faqat raqamli banklarning ko‘payishi va o‘rnatilgan bank brendlari tomonidan raqamli transformatsiyaga doimiy e’tibor qaratilishi sabab bo‘ladi”[1]. Shu boisdan dunyoning juda ko‘plab mamlakatlarida bank xizmatlari bankka tashrif buyurmasdan masofadan boshqarish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

1 www.sciencedirect.com//juniperresearch/press/digital-banking-users ma’lumotlari asosida tayorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmonida “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e’tibor berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; nazorat yuklarini, shu jumladan, banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklarni kamaytirish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish”[2] kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini hamda masofadan turib informatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan bir qator iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy izlanishlarini olib borganlar va bir nechta xorij adabiyotlarida quyidagicha fikrlar bayon etganlar:

L. Vessels va J. Drennan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta’sir etadigan omillarni o‘rganib ushbu xizmatlardan foydalanish mijozlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi degan xulosaga kelgan. Ya’ni yangi texnalogiyalarni qo‘llashda xavf qanchalik baland bo‘lsa, foydalanuvchilarga salbiy ta’siri yuqori bo‘ladi[3].

Tijorat banklari raqobatli bank muhitida nafaqat mijozlarini saqlab qolish, balki oshirib borish uchun doimiy ravishda yangiliklardan samarali foydalanish va takomillashtirib borish ham muhim. Bunda bank foydalanuvchilar uchun qulay platfomralar, xizmatlar paketi, bonusli takliflarni oshirish bilan birga tezkor xizmat ko‘rsatishni ham taqozo etadi.

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish bo‘yicha xorijiy olomlardan A. Syabarrudinc, A. Eliyanab, A. Bastaria, Z. Ariefd, A. P. Emur[4], W. Wodo, P. Blaskiewicz, D. Stygar, N. Kuzmalar[5], mahalliy olimlardan H. X Jumayev, H. Sharipova, A. Qosimova, Z. Mamadiyarov, O. Melikovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Matej Marincning fikricha “ITlar bank va ularning aloqalarini rivojlantirib, faoliyatni tezkor ravishda qayta loyihalashtirishga imkon beradi”[6]. Olimning fikri juda ham o‘rinli bo‘lib bank faoliyatini ilg‘or IT texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lagan holda amalga oshirib borish, bank xarajatlarini kamaytirishga va mijozlar sonini ortishiga xizmat qilishi bilan birga tijorat banklarining mijozlarga bank xizmatlari paketini taklif qilishga imkon yaratadi.

F. O‘. Dodiyev, D. R. Yusupova masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi hamda ushbu xizmat turlari ko‘paygandan so‘ng ularni auditdan o‘z vaqtida sifatli o‘tkazishni ham taqozo qiladi deb hisoblashadi[7].

Chien-Chiang Lee, Chin-Wei Wang, Shan-Ju Ho moliyaviy innovatsiyalarni institutsional muhit o‘zaro munosabatlaridagi ta’sirini uchga ajratadilar. Birinchidan, moliyaviy innovatsiyalar darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning tijorat banklarida aktivlar, kreditlar va foydaning o‘sishi yuqori bo‘ladi. Ikkinchidan, banklar faoliyatini tartibga solish, moliyaviy islohotlar va mamlakat boshqaruvining samaradorligi moliyaviy innovatsiyalar va banklarning o‘sishi o‘rtasidagi aloqani susaytiradi. Uchinchidan, jahon bank-moliya tizimdagi globallashuv ushbu munosabatlarni mustahkamlashga intiladi[8].

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmon.

3 Wessels, L., Drennan, J., 2010. An investigation of consumer acceptance of Mbanking. International Journal of Bank Marketing 28 (7), 547–568.

4 Bastaria A., Eliyanab A., Syabarrudinc A., Ariefd Z., Emur A. P. (2020). Digitalization in banking sector: the role of intrinsic motivation // Heliyon. Volume 6, Issue 12, e05801. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05801

5 Wodo W., Blaskiewicz P., Stygar D., Kuzma N. (2021). Evaluating the security of electronic and mobile banking // Computer Fraud & Security. Volume 2021, Issue 10, Pages 8-14. https://doi.org/10.1016/S1361-3723(21)00107-X

6 Matej Marinc. Banks and information technology: complexity, flexibility, and interconnectedness, 2011, https://www.researchgate.net/publication/266465168

7 Dodiyev F. O‘., Yusupova D. R. O‘zbekistonda banklar faoliyatini innovatsion rivojlantirish // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №5, oktyabr, 2020-yil.

8 Chien-Chiang Lee, Chin-Wei Wang, Shan-Ju Ho. Financial innovation and bank growth: The role of institutional environments // The North American Journal of Economics and Finance. Volume 53, July 2020, 101195

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil usullari va matematik formulalardan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tanqidiy o‘rganildi, amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etildi, banklar amaliyotida transformatsiya o‘tkazish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-son Qarorida “bank faoliyatining ilg‘or xalqaro tajribasini o‘rganish hamda, bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish vazifasi berilgan”ligi elektron bank xizmatlarini rivojlantirish juda muhimligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda bank xizmatlari bo‘yicha tijorat banklarida boshlang‘ich moliyaviy holatini tahlil qilishning o‘ziga xos tizimi tashkil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari Markaziy bankka har oy faoliyatining ko‘p sohalarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar, balans hisoboti, iqtisodiy normativlar hisob-kitobi, foyda va zararlar hisobotlarini taqdim etadilar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari oldiga bozor kon’yukturasi o‘zgarishi talablariga moslashgan holda moliyaviy – iqtisodiy murakkabliklarni engish, banklararo raqobat kurashida raqobatbardosh bo‘lish hamda ular faoliyatini yanada rivojlantirish vazifalarini qo‘ymoqda.

Ma’lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Audit tushunchasi – tijorat banklari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liqdir. Chunki rejali xo‘jalik yuritish usulida to‘la mustaqil bo‘lmagan tijorat banklarni audit qilishga zaruriyat yo‘q bo‘lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo‘lib, bu boshqarmalar rejali xo‘jalik yuritishda muhim rol o‘ynagan.

Bank auditini zaruriyligi banklarning bankrotlik riskiga juda yaqinlik bilan belgilanadi, bunda bitta bankning bankrotligi bir necha soha subyektlari bo‘lmish kreditorlar va mijozlarning bankrotligiga olib kelishi yoki boshqa banklar faoliyatiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Chunki iqtisodiyotda barcha soha subyektlari o‘zaro zanjirli bog‘liq hisoblanadi.

Jahon miqyosida bank tizimida raqamli munosabatlarining kuchayib borishi bilan raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalarning keng tatbiq etish, tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini shakllantirish, bozor tamoyillari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishni modernizatsiyalash, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinish asosida bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi ko‘tarish, tijorat banklarida xalqaro transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish, banklarni transformatsiya qilish sharoitida mijozning to‘lov qobiliyatini skoring usulda baholash asosida masofaviy bank xizmatlari bilan bog‘liq risklarni boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[9] PF-6079-sonli Farmonida raqamli bank tizimini rivojlantirish hamda banklar tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lami va sifatini oshirish, shuningdek, 2020-yil 12-may “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi[10] PF-5992-sonli Farmonida bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston fintex ekotizimining joriy holati o‘zida 2 ta to‘lov protsessing xizmati (Humo, Uzcard), 10 dan ortiq to‘lovlarni amalga oshiruvchi kompaniyalar (2 tasi telekomga tegishli), 30 ga yaqin bank mobil ilovalari, shuningdek, CLICK, Payme va PAYNET kabi nobank provayderlar hamda 5dan ortiq raqamli bank (Anorbank, “Uzumbank”, Smartbank”, “Apexbank” “HayotBank” “Yangibank” “TBCbank”) ni namoyon etadi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi sharoitida banklar naqd pul bilan ishlash jarayonidan elektron pullar bilan ishlash jarayonlariga moslashib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, banklar raqamli formatda o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini namoyon qiladi. Mazkur tadbirlar bank va uning filiallariga tashriflar sonini kamaytirish, ish hajmini kamaytirish, shuningdek, mijoz va tranzaksiyalar sonini oshirish imkonini beradi. Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali O‘zbekistonda distansion bank xizmatlaridan (internet-banking va mobil-banking xizmat turlari yordamida bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘larini boshqarish, USSD so‘rov yordamida bank plastik kartalaridagi mablag‘larni boshqarish, sms xabarnoma yordamida hisobvaraqdagi pul mablag‘lari harakati) foydalanuvchilar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

9 https://lex.uz/ru/docs/-5030957
10 https://lex.uz/docs/-4811025

1-jadval: Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning soni[11]

№	Foydalanuvchilar	Yillar				
		01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.11.2023
1	Yuridik shaxslar va YaTTlar	691008	822518	968580	1157045	1311418
2	Jismoniy shaxslar	9462450	13748576	19234804	28843869	38024230
	Jami	10153458	14571094	20203384	30000914	39335648
3	Aholi soni, ming kishi	33905,2	34558,9	35271,2	36024,9	36600,0
4	Aholi soniga nisbatan jismoniy shaxslar tomonidan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar salmog‘i, foizda	27,9	39,8	54,9	80,1	103.8

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy shaxslar tomonidan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni doimiy aholi soniga nisbatan 2020-yil 1-yanvar holatiga 27,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2023-yil 1-noyabrda qariyb 103,8 foizga yetgan. Bu tendensiya o‘z navbatida ijobiy holat bo‘lib hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni jadallashtirish O‘zbekistonda bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishini ta’minlash hamda moliyaviy texnologiyalar bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar sonini oshirib borishni taqozo etadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish asosan hukumut qarori Markziy Bank monetar siyosati yo‘nalishlari, qonun hujjatlari, Markaziy Bank yo‘riqnomalari asosida olib boriladi. Huquqiy-iqtisodiy me’yorlarni o‘rnatilishi banklarni bankrotlik chegarasidan ogoh etib turadi. Bu esa, sifatsiz yoki yomon boshqaruvga ega banklar faoliyatini tartibga solish uchun juda muhim. Bank faoliyatini huquqiy bazasini mustahkam emasligi banklarning bankrot bo‘lishiga hamda butun bank sferasini inqirozga olib kelishi mumkin. Bank tizimini ishonchli va samarali tartibga solib turuvchi huquqiy me’yorlar majmuasi yaratilishi va barcha banklarga bir xil qo‘llanilishi lozim. Aks holda ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetda qolib ketadi.

Iqtisodiyotning yangi bozor munosabatlariga o‘tishida faoliyat ko‘rsata oladigan tijorat banklari tizimini shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida turli mulkchillika asoslangan tijorat banklari tizimi vujudga keldi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimining isloh qilinishi natijasida xalqaro standartlar talablariga ko‘ra, ularning boshqaruv infratuzilmasi, nazorat tizimini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarini hal qilishga erishildi. Bazel qo‘mitasining talablariga binoan bank boshqaruvi faoliyati va nazorati tizimini evolyutsion yo‘l bilan takomillashtirish borasida yagona davlat siyosati yurgizilib qator me’yoriy hujjatlar majmuyi yaratildi. Natijada bank amaliyotiga tashqi nazorat monitoringi va mustaqil audit kabi tushunchalar kirib keldi.

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo‘llanishini taqozo etadi. Shu bois Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e’tibor qaratmoqda. Shunday nazorat turlaridan biri bu kredit tashkilotlarining prudensial nazoratidir. Prudensial nazorat – bank nazoratining, tarkibiy qismi bo‘lib, u bank tizimi barqarorligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan iqtisodiy me’yorlarga banklar qanchalik rioya etayotganini nazorat qiladi. “Prudensial” tushunchasi ehtiyotkor, uzoqni ko‘radigan degan ma’nolarni anglatib, “nazorat” so‘zi bilan birga qo‘llanilganda kredit tashkilotlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar va muammolarni bartaraf qilishga imkon beruvchi masofadan nazorat ma’nosini anglatadi.

Amaliyotda ayrim tijorat banklari ko‘proq foyda olish maqsadida xatarlarga asoslangan faoliyat yuritishga moyil bo‘ladi. Bunda ular o‘z manfaatlari doirasida harakatlanib, omonatchilar, kreditorlar hamda bank aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olmasliklari mumkin. Yuqorida keltirilgan tomonlarning manfaatlarini himoya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida Markaziy bank nazorat qiluvchi organ sifatida maydonga chiqadi. Markaziy bankning nazorat funksiyalari “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan bo‘lib, Bank nazorati qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Markaziy bank tijorat banklari moliyaviy holatining yomonlashishini oldining olishga qaratilgan tegishli shart-sharoitlar yaratilishi va ular faoliyatini belgilangan talablarga muvofiq yuritilishini kuzatib boradi. Buning uchun tijorat banklarida yuzaga keladigan yoki kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar, shuningdek, regulyativ moslik mexanizmlaridan foydalangan holda, ushbu xatarlarni oqilona boshqarish va bartaraf etish bo‘yicha nazorat olib boriladi. Iqtisodiy me’yorlarga rezerv talablari, kapital, likvidlik, valyuta pozitsiyalariga bo‘lgan talablar hamda xatarlardan kelib chiqib, ma’lum operatsiyalarga cheklovlar va qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bo‘yicha normativlar kiradi.

11 www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayorlandi.

Ushbu me'yorlarni bajarishda tijorat banklari bank operatsiyalari bo'yicha tegishli rezervlarni shakllantiradi va shu orqali xatarlarni omonatchilar, kreditorlar va boshqa bank xizmatlari iste'molchilariga o'tkazilishining oldi olinadi.

Misol uchun, banklar tomonidan kapitalni yetarli darajada shakllantirilishi kutilmagan yo'qotishlarni qoplash manbasi bo'lib xizmat qiladi hamda ularning institutsional o'sishini ta'minlaydi. Likvidlikka qo'yilgan talablar esa mijozlarga uzluksiz xizmat ko'rsatish va depozitorlar talablarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, prudensial nazorat bank xizmatlari iste'molchilarining qonuniy manfaatlarini ta'minlash doirasida tijorat banklarini sog'lom bank faoliyatini olib borishga va ayrim banklarda nosog'lom muhitni bartaraf etishga qaratilgan.

XULOSA

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarni raqamli iqtisodiyotning yangi shartlari va afzalliklariga integratsiyalashuv jarayon bo'lib, unga ko'ra banklarda raqamli texnologiyani keng va har bir mijozlar guruhiga moslashuvini ta'minlash orqali jamiyatda insonlarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasini yaxshilash, qulayliklar yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va ma'lumotlarini xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Tijorat banklarida xalqaro transformatsiya jarayonlarini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil etish jarayonida quyidagi xulosalar olindi:

- Tijorat banklarida internet-banking xizmat turi bo'yicha marketing bo'limlarini tashkil qilish orqali mijozlarni kengroq qamrab olish va ularni ushbu xizmat turidan xabardorligini ta'minlash lozim;
- Yangi bank xizmatlari bilan ishlashda malakali axborot texnologiyalari va bank xizmatlarini birday yaxshi tushunadigan kadrlarni tayyorlash;
- Tijorat banklarini xizmatlar ommabopligini oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan kadrlarni chet elda malaka oshirishini tashkil etish;
- Moliyaviy texnalogiya yechimlaridan foydalangan holda masofadan identifikatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish;
- Mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylik tizimini mustahkamlash;
- Manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
4. Rahia S. et al. Integration of unified theory of acceptance and use of technology in internet banking adoption setting: Evidence from Pakistan // Technology in society, Vol. 58 (2019), 101120, 2 p.
5. Дубинин М. В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.
6. www.sciencedirect.com//juniperresearch/press/digital-banking-users ma'lumotlari asosida tayorlandi.
7. http://www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti.
8. Bekmurodov A. A. Improving The Introduction Of Digital Technologies In Commercial Banks //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – S. 355-357.
9. Bekmurodov A. A The Impact Of Transformation Processes On The Activities Of Commercial Banks //Archive of Conferences. – 2021. – S. 52-54.

AGROKLASTERLARDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Alikulov Abdimo‘min Ismatovich
I. f.d., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori

Toshpulatov Jalil Baxodirovich
Samarqand davlat veterinariya meditinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini tashkil etishning hozirgi holati, buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarining shakllanishi va aks ettirilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy natijalar, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar, 2-son BHMS, moliyaviy natija ko‘rsatkichlari.

Abstract: This article describes the current state of the organization of accounting for financial results in agricultural clusters, the formation and reflection of financial performance indicators in accounting.

Key words: financial results, income and expenses, profits and losses, NAS No. 2, financial performance indicators.

Аннотация: В данной статье описано современное состояние организации учета финансовых результатов в агрокластерах, формирование и отражение показателей финансовой деятельности в бухгалтерском учете.

Ключевые слова: финансовые результаты, доходы и расходы, прибыли и убытки, НСБУ №2, показатели финансовых результатов.

KIRISH

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali 2023-yilda daromadni kamida 25 foizga oshirish”[1] vazifalari belgilab berilgan.

Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishga qaratilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Albatta, bunda, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishda tezpishar va serhosil ekinlar ekilishi, tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha “almashlab ekish”ni bosqichma-bosqich joriy etilib borayotganligi, keng ko‘lamda resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanilayotganligi, qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, zotdor chorva mollar sonini ortib

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6396146

borayotganligi, yangi texnikalardan foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanayotganligi kabi omillar bilan birga xo‘jalik yuritishning ilg‘or shakllarini joriy etilishi hisoblanadi.

Ushbu yuqorida sanab o‘tilgan omillarning barchasi qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy holati bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum darajada moliyaviy mablag‘lar talab qiladi. Korxonaning oladigan daromadi ko‘p bo‘lib, xarajatlari nisbatan kam bo‘lsa, foyda miqdori yuqori bo‘lib, ko‘proq moliyaviy mablag‘larga ega bo‘ladi. “Samarqand viloyati qishloq xo‘jalik korxonalari 2022-yilda o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha 12 208 005 mln. so‘m xarajat qilingan bo‘lsa, ularni sotishdan 15 975 432 mln. so‘m daromad olingan. Sotishdan olingan foyda 3 767 427 mln. so‘m, shundan, 3 111 706 o‘simlik, 655721 mln. so‘mi chorvachilik mahsulotlari yetishtirishdan foyda olishgan”[2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida agroklasterlar samarali faoliyat yuritishi va o‘z faoliyatidan foyda olishga harakat qiladi. Iqtisodiyot va tadbirkorlikda “foyda” eng ko‘p uchraydigan va foydalaniladigan tushuncha hisoblanadi. Foyda – eng muhim iqtisodiy tushunchalardan biri bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi, uning mazmuni hisoblanadi.

Iqtisodiyot rivojlanishini yangi bosqichga ko‘tarish sharoitida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi ko‘proq foyda olish hisoblanadi. Foyda ko‘rsatkichi esa olingan daromadlar va qilingan xarajatlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Moliyaviy natijalar korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sifat ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichning mohiyati, tavsifi va tasnifi, moliyaviy natijalarning tan olinishi va buxgalteriya hisobida aks ettirilish tartibi maxsus me’yoriy-huquqiy hujjatlarda yetarlicha yoritilgan bo‘lib, moliyaviy natija ko‘rsatkichini to‘g‘ri hisobga olish, uning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Moliyaviy natija “Iqtisodiyot nazariyasi” adabiyotlarda uning foyda yoki zarar ko‘rinishida aks ettirilishi emas, balki pul tushumlari sifatida ko‘proq e’tibor qaratilgan. T. S. Malikov va A. V. Vahobovlarning fikriga ko‘ra, “Tushum xarajatlarni moliyalashtirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini davom ettirishni ta’minlovchi bir necha pul mablag‘lari fondlariga bo‘linadi”[3].

Sh. Shodmonov, “Korxonalarning faoliyatiga baho berishda sotilgan mahsulotlarning hajmi, ularga qilingan sarf-xarajatlar va foyda tushunchalaridan keng foydalaniladi. Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag‘lar ularning pul tushumlari yoki pul moliyaviy natijalari deyiladi. Korxona pul moliyaviy natijalaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul moliyaviy natijalariga, undagi qo‘shimcha qiymat esa foydaga aylanadi”[4], deb tavsiflaydi.

Ammo buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalarni obyekt sifatida tan olishda agroklasterlarda moliyaviy natijalari hisobini olib borishda respublikamizda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga e’tibor qaratish lozim. Moliyaviy natijalarni moliyaviy natija sifatida tan olishda, ularni guruhlarga ajratishda “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar bo‘yicha xalqaro va milliy standartlar muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda shuni aytish lozimki, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasida[5] daromadlar va xarajatlar to‘langan vaqti va pul kelib tushgan sanadan qat’i nazar, qaysi davrga taalluqli bo‘lsa, o‘sha hisobot davrida buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq aks ettirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Agroklasterlarda moliyaviy natijalar buxgalteriya hisobi obyekti sifatida ham me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlashimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm: Agroklasterlarda moliyaviy natijalar buxgalteriya hisobi obyekti sifatida tasnifi

2 Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2022-yil yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlari
3 Vahobov A. V, Malikov T. S. Moliya. Darslik. T.: Sharq, 2010, 228-b.
4 Shodmonov Sh. Sh, G‘afurov U. U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: Fan va texnoligiya, 2005, 353-b.
5 O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son. https://lex.uz/docs/

Agroklasterlarning xarajatlari va daromadlarining to‘rt guruhga bo‘linishidan, moliyaviy natijalarning besh ko‘rsatkichi aniqlanadi (2-rasm).



2-rasm: Agroklasterlarda moliyaviy natijalarning besh ko‘rsatkichi

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda, shu jumladan, agroklasterlarda ham yil oxirida moliyaviy natija aniqlanadi. Moliyaviy natija – korxonalarning yil davomidagi faoliyati natijasida olgan foydasi yoki ko‘rgan zararidir. Shuningdek, moliyaviy natija nafaqat agroklasterlarning butun faoliyati, balki ayrim sohalari, tarmoqlari va xo‘jalik operatsiyalar bo‘yicha ham aniqlanadi. Misol uchun, agroklasterlarda quyidagi operatsiyalar bo‘yicha ham moliyaviy natija aniqlanishi mumkin:

1) Mahsulot (ish, xizmat)larning sotishdan.
2) Asosiy vositalarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlardan.
3) Boshqa aktivlarni sotishdan.
4) Boshqa turli xil operatsiyalar bo‘yicha.

Har bir turdagi operatsiyalar bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlanishi, agroklasterlarda olingan daromadning xarajatlar bilan taqqoslanishini, xarajatlarning qoplanish darajasini aniqlanishini va har bir xo‘jalik operatsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Umumiy holatda, moliyaviy natijani aniqlash uchun daromad (tushum) xarajat bilan taqqoslanadi, bunda daromad xarajatdan katta bo‘lsa, farq summasi foyda, agar daromad xarajatdan kichik bo‘lsa, farq summasi zarar bo‘ladi. Mahsulot sotish operatsiyalari bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlashda, sotilgan mahsulotlardan tushgan tushum (mahsulotni sotish bahosidagi qiymati) sotilgan mahsulot tannarxi bilan taqqoslanadi. Tushum katta bo‘lsa, farq summasi foyda, kichik bo‘lsa farq summasi zarar bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida agroklasterlarda xarajatlar va daromadlar taqqoslanib, moliyaviy natijaning bir qancha ko‘rsatkichlari aniqlandi. Lekin agroklasterlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha ishlab chiqarish bo‘linmalaridan iborat bo‘lib, bu bo‘linmalar faoliyati bir-biridan farq qiladi. Jumladan, tadqiqot obyekti bo‘lgan “Samarqand kamalak invest tekstil” MChJda, qishloq xo‘jalik mahsuloti (paxta xom ashyosi) yetishtiruvchi, qayta ishlovchi, yigiruvchi, trikotaj va boshqa ishlab chiqarish bo‘linmalari mavjud. Shuning uchun, ushbu bo‘linmalarning har birining va har bir turdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni moliyaviy natijasini alohida aniqlash maqsadga muvofiq. Shuning uchun, klasterda har bir ishlab chiqarish bo‘linmalarida va ularning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bo‘yicha moliyaviy natijani alohida aniqlash imkonini beruvchi analitik schyotlar ochish taklif qilamiz. Buning uchun, klasterning ishlab chiqarish bo‘linmalarida transfert bahoni shakllantirish va segmentar hisobot shakllarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Pastdarg‘om tumanidagi “Samarqand kamalak invest tekstil” MCHJning 2022-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy natijasi quyidagicha bo‘lgan (1-jadval).

Ushbu 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mas’uliyati cheklangan jamiyat 2021-yilda 17969127 ming so‘m sof foyda olgan bo‘lsa, 2022-yilda 3893516 ming so‘m sof foyda olgan. Olingan sof foyda miqdori keyingi yilda 14105611 ming so‘mga yoki 4,65 barabar qamaygan. Bunga sabab, sotishdan olingan daromadni kamayishi, tannarxni oshishi va foizlar bo‘yicha xarajatlar oshishi hisobiga bo‘lgan.

Hozirgi kunda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni to‘ldirishda ko‘pgina kamchiliklar mavjud. Bizning fikrimizcha, hozirgi talablardan kelib chiqqan holda foyda va zararlar to‘g‘risida hisobotda kamida to‘rtta ko‘rsatkich keltirilishi lozim: yalpi foyda, boshqa operatsiyalardan ko‘rilgan foyda, soliq chiqarib tashlangunga qadar bo‘lgan foyda, soliq to‘langandan keyingi sof foyda, Bundan tashqari, realizatsiya hajmi, realizatsiya qilingan

mahsulot tannarxi, foizlar bo‘yicha tushumlar va investitsiyalardan ko‘rilgan daromadlar, chet el valyutasi operatsiyalari bo‘yicha ko‘rilgan foyda va zararlar kabi ma’lumotlar ham hisobga olinishi kerak.

1-jadval: “Samarqand kamalak invest tekstil” MCHJning 2022-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy natijasi[6] (ming so‘m hisobida)

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	010	287 808 713	x	274 171 310	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020	x	244 002 053	x	245 868 911
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr. 010 – 020)	030	43 806 660	-	28 302 399	-
Davr xarajatlari, jami (satr. 050 + 060 + 070), shu jumladan:	040	x	10 062 886	x	6 626 634
Sotish xarajatlari	050	x	836 543	x	206 830
Ma’muriy xarajatlar	060	x	6 979 892	x	1 680 678
Boshqa operatsion xarajatlar	070	x	2 246 451	x	4 739 126
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030 – 040 + 090)	100	33 743 774	-	21 675 765	-
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr. 120 + 130 + 140 + 150 + 160), shu jumladan:	110	-	x	-	x
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (satr. 180 + 190 + 200 + 210), shu jumladan:	170	x	14 960 500	x	17 485 854
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x	14 960 500		17 485 854
Moliyaviy fao liyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	210	x	-	x	-
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi(zarari) (satr.100+110–170)	220	18 783 274	-	4 189 911	-
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (satr.220 +/– 230)	240	18 783 274	-	4 189 911	-
Foyda solig‘i	250	x	814 147	x	326 395
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr. 240 – 250 – 260)	270	17 969 127	-	3 863 516	-

Ma’lumki, xarajatlar to‘g‘risidagi nizomga asosan xo‘jalik subyektlarining faoliyat turlarini daromadlar va xarajatlarning vujudga kelishi nuqtayi nazaridan moliyaviy holatni aks ettira olmay qoldi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining hisobot balansida ko‘rsatilgan muddatlarni hisobga olishda joriy buxgalteriya to‘liq aks ettirish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun 21-son buxgalteriya hisobi milliy standartiga asosan yangi buxgalteriya schyotlar rejasi tavsiya qilindi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini yakunini hisobga olish uchun yakuniy moliyaviy natijalar schyotida har bir faoliyatdan olingan foyda yoki zarar bo‘yicha schyotlar ochishni taklif qilamiz. Bu schyotlar bo‘yicha natijalar hisobot oyi oxirida umumlashtiriladi. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tuzishda, avvalo, №3-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartiga e’tibor berishi lozim, chunki ushbu standartning maqsadi ham umumiy prinsiplar asosida xo‘jalik subyektlari tomonidan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot moddalarini yoritish va ularni klassifikasiyalash, to‘ldirish va taqdim etishdir. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilar va buxgalteriya hisobi prinsiplariga, shu jumladan, balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot shakllari talablariga javob beradigan hisobot shakllarini ishlab chiqish lozim.

Agroklasterda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi hisobning yagona usullarini qo‘llash orqali kompaniyalarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga kor-

6 “Samarqand kamalak invest tekstil” MCHJ hisobot ma’lumotlari

xonaning moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot berish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

MHXSni qabul qilish va unga muvofiq hisobot taqdim etish global bozorda yagona moliyaviy axborot almashish muhitini yaratadi. Bu jarayon o‘z navbatida, axborot shaffofligi, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXS qo‘llanishi bozor likvidligi yaxshilanishi, kapital bozorlarining rivojlanishi, qimmatli qog‘ozlar bozorlarida savdolar ko‘lamining kengayishi, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishiga olib keladi.

Agroklasterlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish quyidagi amaliy afzalliklarga ega bo‘lishni ta’minlaydi:

- aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o‘zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;
- moliyaviy instrumentlarni qo‘llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo‘nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko‘rib chiqilishi moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;
- aktivlar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo‘yicha choralar ko‘rishni talab etmaydi. Natijada korxonalarda aktivlar summasining oshirib ko‘rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo‘yadi;
- shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar – foydalanuvchilar to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to‘g‘risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko‘pchilik yirik kompaniyalar o‘zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko‘rinmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. MHXS bo‘yicha konsolidasiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomilashtirish natijasida quyidagi ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Agroklasterlarning moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishi ularning o‘z faoliyatidan oladigan foydaga bevosita bog‘liq. Shuning uchun, moliyaviy natijani aniqlashda bir-biri bilan taqqoslanadigan xarajatlar va daromadlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va yuritishga bog‘liq.
2. Agroklasterlarda har bir ishlab chiqarish bo‘linmalari (javobgarlik markazlari) va mahsulot (ish, xizmat) turlari bo‘yicha xarajatlar va daromadlar hisobini alohida analitik schyotlarda yuritish uchun, ularning schyotlar rejasiga analitik schyotlar taklif etildi. Bu agroklasterlarda har bir mahsulot (ish, xizmat) va ishlab chiqarish bo‘linmalari bo‘yicha moliyaviy natijani alohida aniqlash imkonini berib, ular faoliyatini baholash imkonini yaratadi.
3. Agroklasterda yakuniy moliyaviy natijani aniqlash hisobini olib borishda, tuziladigan schyotlar bog‘lanishi amaldagi normativ hujjatlar asosida olib boriladi. Bunda yakuniy moliyaviy natijaga ishlab chiqarish bo‘linmalari qo‘shgan hissasini aniqlash imkoniyati cheklangan bo‘lib, shuning uchun har bir ishlab chiqarish bo‘linmasining yakuni moliyaviy natijasini alohida aniqlashni taklif qilamiz. Bunda, har bir ishlab chiqarish bo‘linmasini ishfaoliyatini alohida aniqlash imkoni yaratilib, ular faoliyati baholanib, tegishli qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari samaradorlini ta’minlaydi.
4. Agroklasterda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi hisobning yagona usullarini qo‘llash orqali agroklasterlarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot berish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va

u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Shuning uchun agroklasterlarda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tayyorlash va taqdim etishni taklif qilamiz.

Fikrimizcha, yuqoridagi taklif va tavsiyalarimiz moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2016-yil, 13-aprel. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni. https://lex.uz/docs/
4. Vahobov A. V, Malikov T. S. Moliya. Darslik. –T.: Sharq, 2010, 228-b.
5. Shodmonov Sh. Sh, G'afurov U. U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Fan va texnoligiya, 2005, 353-b.
6. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
7. Alikulov, A. I. (2010). Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya "Fan va texnologiya", –Toshkent, 196 b.
8. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
9. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agroklasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Nauchnыy Fokus, 1(7), 790-795.
10. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In Construcții identitare. Reverberaţii ale modelului cultural francez în context european şi universal. (Vol. 2, pp. 113-118).
11. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agroclasters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Speical Issue 1), 102-109.
12. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
13. Khasanov, B. A., Eshboyev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 42-48.
14. Pastdarg'om tumanidagi "Samarqand kamalak invest tekstil" MCHJ hisobot ma'lumotlari.
15. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Abiyev Davron Ilxomovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida investitsiyaviy faoliyatni amalga oshirishning asosiy jihatlari hamda banklar investitsiyaviy siyosatining muhim elementlari, investitsiyaviy faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklari investitsiya faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, aktivlar rentabelligi, investitsion muhit, ustav kapitali, depozit, investitsion siyosat, likvidlilik, investitsion portfel.

Abstract: The article examines the main aspects of investment activity in commercial banks, important elements of investment policy of banks, factors affecting investment activity. Recommendations aimed at improving the investment activities of commercial banks have also been developed.

Key words: banking services, return on assets, investment environment, authorized capital, deposit, investment policy, liquidity, investment portfolio.

Аннотация: В данной статье анализируются ключевые аспекты инвестиционной деятельности коммерческих банков, включая существенные элементы инвестиционной политики данных учреждений и факторы, оказывающие влияние на их инвестиционную активность. Кроме того, представлены разработанные рекомендации, направленные на оптимизацию инвестиционных практик коммерческих банков.

Ключевые слова: банковские услуги, рентабельность активов, инвестиционная среда, уставный капитал, депозит, инвестиционная политика, ликвидность, инвестиционный портфель.

KIRISH

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning tarmoq va sohalaridagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Mazkur masalani ijobiy hal etishda tijorat banklarining investitsion faoliyati alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatimizda tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyatini takomillashtirish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, korxonalar faoliyatiga zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish va shu asosda iqtisodiyotning tarmoq hamda sohalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar faollik bilan amalga oshirilmoqda. Bu kabi muhim chora-tadbirlar natijasida 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari kredit qo'yilmalari hajmi 390 trln. so'mni tashkil etgan holda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,5 foizga oshgan. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga doir investitsiya loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ham investitsiya kreditlarini ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida "sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish, bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish"[1] kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi sanoat tarmog'idagi istiqbolli loyihalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga investitsiyalarni keng jalb etish va bu yo'nalishda tijorat banklarining faolligini oshirish, ularning investitsion siyosatini takomillashtirishni taqozo etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ijtimoiy jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo‘lishi investitsiyalash amaliyoti shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Zero, tovar pul munosabatlari amal qilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatda investitsiyani vujudga kelishi va investitsiyalash munosabatlarini amal qilishini hamda bu jarayon muttasil rivojlanib borishini taqozo etadi. Ayrim adabiyotlarda, muammoli investitsiya deganda obyekti, subyekti va ta’minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan investitsiya tushunilsa (Karapetyan, 2011), ayrim adabiyotlarda muammoli investitsiyalar deganda, “qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki investitsiya ta’minoti qiymatining pasayishi investitsiyani muammoli investitsiyalar turkumiga o‘tishini anglatadi” (Burkova, 2010) deya ta’rif berilgan. Ushbu oxirgi ta’rif muammoli investitsiyaga berilgan ta’riflarning ichida to‘liqroq talqin etilgan deyishimiz mumkin. Chunki bunda muammoli investitsiyani yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladigan investitsiya risklari bilan bog‘langan hamda investitsiya kategoriyalari ajratib ko‘rsatilgan. Ammo hozirgi paytda mazkur ta’rif o‘z mohiyatini yo‘qotdi, deb o‘ylaymiz. Sababi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizomi qabul qilinganidan so‘ng, investitsiyalarning tasniflanishida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Agar bankdan investitsiya olgan mijoz investitsiyani o‘z vaqtida qaytara olmasa garovga qo‘ygan ta’minotdan mahrum bo‘lishi mumkin, o‘z navbatida tijorat banklari uchun investitsiya riski oshib ketadi. Bank tomonidan berilgan investitsiya riskining xavfsiz darajasini ta’minlash maqsadida investitsiya oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs turli shakldagi mol-mulklarni garov ta’minoti sifatida banklarga taqdim etadi. Umumiy holda bank investitsiya bo‘yicha garov ta’minotini baholash jarayonida uchta tomon ishtirok etadi va ular bank, baholovchi tashkilotlari va investitsiya oluvchilardir (Balabanov, 2009). Bu jarayonda garov ta’minoti asosan dastlab investitsiya berish jarayonida qarab chiqiladi. Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflarning ta’kidlashicha, muammoli investitsiya deganda obyekti, subyekti va ta’minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan investitsiya tushuniladi (Lavrushina, 2008). Ularning qarashlaricha, nostandart, dargumon va ishonchsiz investitsiyalarni, ya’ni muddati o‘tmagan joriy investitsiyalardan tashqari barcha investitsiyalar, shu jumladan, asosiy to‘lov bo‘yicha qisqa muddatli bo‘lsa ham qarzdorlikka ega bo‘lgan, shuningdek, investitsiya shartnomasi shartlarini o‘zgartirmasdan hech bo‘lmasa bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan investitsiyalar muammoli, deb tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan islohotlar sharoitida moliyaviy resurslarni jamlash va qayta taqsimlash moliyaviy vositachilar, jumladan, tijorat banklari, investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa turdagi moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Investitsion faoliyat orqali pul mablag‘lari moliyaviy institutlar yordamida ishlab chiqarish tarmoqlaridagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi, bu jarayonda tijorat banklarining faoliyati muhim o‘rin egallaydi.

Tijorat banklari investitsion siyosatini shakllantirish masalalari xorijlik iqtisodchilardan N. Bakster, J. K. Van Xorn, E. J. Dollan, K. D. Kempbell, J. Lintnera, O. I. Lavrushin, Ya. M. Mirkin, I. T. Balabanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan T. Qoraliyev, Sh. Abdullayeva, T. Bobakulov, N. Jumayev, A. Omonovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tijorat banklarining investitsion faoliyati va uni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan.

Investitsion faoliyatni samarali tashkil etishda davlatning moliya-kredit tizimi muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, bank tizimining investitsion faoliyatdagi ishtiroki ortib bormoqda. Bank tizimi va umuman iqtisodi yotning barqaror rivojlanishi banklarning investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag‘batlantiradi va faollashtiradi. Barqaror iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatining zaruriy sharti bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bank tizimining samarali faoliyat yuritishi va barqarorligiga bevosita bog‘liqdir. Bank investitsiya munosabatlarining asosiy ishtirokchisi sifatida aholining yirik hajmdagi pul resurslarini turli vositalar yordamida jamlaydi, so‘ngra ularni takror ishlab chiqarish jarayoni va mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini tezlashtirish maqsadida investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilariga yo‘naltiradi.

“Investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayoni – ehtimolga yaqin bo‘lgan risklilik darajasida investitsiya aktivlarining rentabelligini oshirishga yordam beradigan chora-tadbirlar majmuyi hisoblanadi. Strategik va taktik boshqaruv jarayonlari bank investitsiya siyosatining asosiy elementlari sifatida xizmat qiladi. Investitsion faoliyat strategiyasi investitsiya siyosatining uzoq muddatli maqsadlarini va ularga erishishning asosiy yo‘llarini shakllantiradi, bu esa boshqaruv jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanadi”[2]. Investitsion taktika strategik yo‘nalishni hisobga olgan holda shakllantiriladi, u investitsiyalar tarkibi va hajmini belgilaydi.

2 Буркова А. Ю. Отличия инвестиционного банкинга от коммерческого и розничного // Управление корпоративными финансами. – 2010. – № 4.

Investitsion jarayonlarda banklar ishtirokini faollashtirish zarurati moliyaviy va real sektorning o‘zaro bog‘liqlikda samarali rivojlanishi bilan belgilanadi. Investitsion jarayonlarda banklar ishtirokining asosiy yo‘nalishi istiqbolli loyihalarga bank mablag‘larini yo‘naltirish, investitsion maqsaddagi kreditlarni ajratish, ulushli ishtirok etish va qimmatli qog‘ozlarga mablag‘larni qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

Tijorat banklarining investitsion siyosati investitsion faoliyatning maqsadli yo‘nalishlari tizimini shakllantirish va ularga erishishning samarali usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish investitsion aktivlarning tuzilmasi hamda hajmini maksimal darajada oshirish, ehtimolga yaqin bo‘lgan risklilik darajasida ularning foydaliligi o‘sishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi sifatida ifodalanadi. Investitsion siyosatning muhim elementlari sifatida bank investitsion faoliyatini boshqarishning strategik va taktik jarayonlari namoyon bo‘ladi.

Tijorat banklarining investitsion siyosati uzoq muddatli murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon makroiqtisodiy va investitsion muhit holati, soliqqa tortish xususiyatlari, bank faoliyatini tartibga solish kabi tashqi shart-sharoitlarni, shuningdek, bank resurs bazasining tuzilmasi va hajmi, uning rivojlanish vazifalari va maqsadlari, turli aktivlarning daromadliligi, risk omillari kabi ichki shart-sharoitlarni prognozlash hamda chuqur tahliliy yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Bundan tashqari, investitsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash foydalilik, likvidlilik va risklilik darajasini hisobga olgan holda investitsion rivojlanishning samarali modellarini ishlab chiqish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi[3]. Banklar faoliyatiga tashqi muhit o‘zgaruvchanligining ta’sirini hamda ehtimolga yaqin bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda investitsion siyosatni davriy ravishda muvofiqlashtirib borish zarurati mazkur siyosatni ishlab chiqish va samarali yuritish jarayonini murakkablashtiradi. Shuning uchun, banklarning investitsion siyosatini shakllantirish barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitlarida ham muayyan qiyinchiliklar bilan olib boriladi.

Investitsion siyosatni shakllantirishning shart-sharoitlari sifatida investitsion faoliyatning strategik maqsadlarini ishlab chiqishda ustuvor bo‘lib hisoblangan bank rivojlanishining umumiy siyosati xizmat qiladi. Investitsion siyosat umumiy iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy elementini o‘zida ifoda etgan holda bankning samarali rivojlanishini ta’minlash omili sifatida namoyon bo‘ladi[4].

Banklar investitsion faoliyatining asosiy maqsadi investitsion qo‘yilmalarning ehtimolga yaqin bo‘lgan risklilik darajasida ushbu faoliyatdan foyda me’yorini oshirish sifatida ifodalanadi. Shu boisdan, tijorat banklari o‘z faoliyatida investitsiya siyosatini samarali yuritish va uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi[5]. Bunda avvalo, ishlab chiqilgan investitsion siyosatni puxta tahlil qilish va istiqboldagi natijalarini baholash hamda uning amaldagi holatini doimiy monitoring qilgan holda samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etib borishga alohida ahamiyat berish lozim.

Bank tomonidan tanlangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga muvofiq investitsion siyosatni ishlab chiqishning umumiy maqsadlaridan tashqari quyidagilar ham hisobga olinishi lozim:

- bank resurslarining barqarorligini ta’minlash;
- resurs bazasini kengaytirish;
- bank faoliyatidagi umumiy risk darajasini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish maqsadida qo‘yilmalarni diversifikatsiyalash;
- likvidlilikni saqlash;
- foyda keltirmaydigan aktivlar ulushini kamaytirish;
- filiallarni tashkil etish va xizmat turlarini ko‘paytirish orqali bank faoliyatini kengaytirish;
- mijozlar doirasini ko‘paytirish, korxonalarni tashkil etish va rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlarni egallash, ularning ustav kapitalida ulushli ishtirok etish hamda investitsion loyihalarda qatnashish orqali ular faoliyatiga ta’sir etishni kuchaytirish.

Banklar investitsion faoliyatning barcha shakllari ular tomonidan shakllantirilgan resurslar hisobidan amalga oshiriladi. Investitsion resurslarni shakllantirish siyosati belgilangan ko‘lamdagi va yo‘nalishlardagi investitsion faoliyatni amalga oshirishga hamda investitsion aktivlarga qo‘yilgan mablag‘lardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan.

Tijorat banklari investitsion siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlarini 1-rasmdagi kabi tasvirlash mumkin.

3 Карапетян А. И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис…канд. эконом. наук. – Москва, 2011. – С. 9-10.

4 Банковское дело: Учебник / Под ред. О. И. Лаврушина. М.: Финансы и статистика, 2008. – 563 с.

5 Емельянов А. Б. Инвестиционная деятельность коммерческих банков: понятие, виды и значение // Молодой ученый. – 2017. – №52. – С. 84-88.



1-rasm: Tijorat banklari investitsion siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlari

Investitsiyalashning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liq. Investitsion resurslarning umumiy hajmiga bo‘lgan ehtiyojni prognozlash bankning umumiy moliyaviy strategiyasi doirasida moliya bozorida mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlarini baholash, tushum va to‘lovlar ko‘rinishidagi pul mablag‘larining kelajakdagi oqimlarini hisobga olib bank salohiyatini aktivlarning turli guruhlari o‘rtasida taqsimlashda investitsion aktivlarga to‘g‘ri keladigan ulushlarni, investitsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirishda ko‘zda tutilgan hajmlarni solishtirish asosida ishlab chiqiladi. Bunda nafaqat investitsiyalar umumiy hajmi va ularni moliyalashtirish manbalarining, balki bir qator tuzilmaviy ko‘rsatkichlarning muvofiqligini ta’minlash talab etiladi.

Investitsion siyosatning muhim elementi bo‘lib passivlar tuzilmasini chuqur tahlil etish hisoblanadi. Bunda bankning o‘z kapitali va uning qarz majburiyatlari o‘rtasidagi samarali nisbatni tanlash, qaytarish muddati bo‘yicha qarz majburiyatlari tuzilmasini aniqlash, investitsion resurslarni jalb qilishning qo‘shimcha manbalarini izlashga alohida e’tibor berish lozim.

Bank tomonidan investitsion qarorlarni qabul qilish qo‘yilmalar tuzilmasi va hajmi o‘rtasida samarali nisbatga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bunda bank investitsion siyosatining eng muhim funk’siyasi yuqori daromad va kam risk darajasi bilan resurs ta’minotini shakllantirish hisoblanadi[6]. Bu holat, investitsion qo‘yilmalarning tuzilmasi, hajmi va ularni moliyalashtirish manbalaridagi ehtimolga yaqin bo‘lgan o‘zgarishlar asosida istiqboldagi davr uchun investitsiyalash yo‘nalishlarini prognozlashni talab qiladi. Shunday qilib, investitsion faoliyatni samarali boshqarish jarayoni investitsiyalashning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish hamda zarur resurs ta’minotini aniqlash kabi muhim vazifalarni qamrab olishi lozim.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning birmuncha ishonchli va barqaror manbasi bo‘lib tijorat bankining o‘z mablag‘lari hisoblanadi. Bank ishining muhim xususiyati tufayli bankning o‘z mablag‘lari tijorat faoliyatining boshqa sohalariga qaraganda bank resurslarining umumiy hajmida yuqori ulushni egallaydi.

6 Гиблова Н. М. Коммерческие банки как основные участники модернизационных процессов отечественной экономики / Н. М. Гиблова // Банковское дело. – 2012. – № 11. – С. 40-43.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Barqarorlik darajasidan kelib chiqqan holda bank resurslari harakatining o‘ziga xos xususiyatini tahlil qilish asosida ularni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin:

- eng barqaror (bankning o‘z mablag‘lari va uzoq muddatli majburiyatlar);
- barqaror (omonatlar, boshqa banklardan qarzlar, talab qilib olguncha depozitlarining kamaymaydigan qoldig‘i);
- beqaror (talab qilib olguncha depozitlarining keskin o‘zgarib turadigan qoldig‘i).

Barqaror resurslar ulushining yuqori bo‘lishi istiqbolda tijorat bankining investitsion loyihalarda faol ishtirok etishiga va uning foydalilik darajasining oshishiga imkon yaratadi. Aktivlar va passivlar tuzilmasidagi istalgan tebranish bank operatsiyalarining daromadlilik va risk darajasiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tebranishlar asosida bankning investitsion va kredit siyosatidagi o‘zgarishlar yotadi va ular muayyan makroiqtisodiy hamda mikroiqtisodiy omillar ta’sirida yuz beradi.

Tijorat banklari investitsion faoliyatiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat;
- moliya va investitsion bozorning holati;
- bank faoliyatining qonuniy va me’yoriy asoslari majmuasi;
- soliqqa tortish siyosati;
- bank tizimining barqarorligi va tuzilmasi.

Investitsion siyosatni shakllantirishda mazkur omillarni hisobga olish, boshlang‘ich ma’lumotlarni to‘plash hamda va tahlil etish maqsadga muvofiq.

Investitsion siyosatni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy mikroiqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi[7]:

- investitsion faoliyat ko‘lamini belgilovchi resurs bazasining tuzilmasi va hajmi;
- bank faoliyatining umumiy yo‘nalishi hamda investitsion siyosatni tanlashga sabab bo‘luvchi strategik maqsadlarning ahamiyati;
- daromadlilik, likvidlilik va risk darajasini hisobga olgan holda investitsion qo‘yilmalarning sifati;
- aktivlarning daromadlilik darajasi;
- investitsion portfelni shakllantirish va boshqarishdagi xarajatlar hajmi.

Tijorat banklarida investitsion siyosatni yuritish jarayoni mazkur siyosat mazmuni va asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan ichki hujjatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Xorijiy banklar tajribasi ko‘rsatishicha, investitsion siyosatni investitsion dastur ko‘rinishida ifoda etish maqsadga muvofiqdir. Investitsion dastur investitsiyalash maqsadlarini ifodalagan holda qo‘yilmalarning asosiy yo‘nalishlarini va ularni moliyalashtirish manbalarini, investitsion qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish mexanizmini, investitsion aktivlarning muhim xususiyatlarini, jumladan, daromadlilik, likvidlilik va risk darajasini hamda investitsion qo‘yilmalarning samarali tuzilmasini shakllantirishda ularning nisbatini belgilab beradi[8].

Investitsion dasturlarni ishlab chiqishda cheklovlarni inobatga olish bir qator shart-sharoitlar bilan bog‘liqdir. Bular jumlasiga, investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk darajasini aniqlash, aktivlarni diversifikatsiya qilish hisobiga ularni bartaraf etish imkoniyatlarini tahlil qilish kabilarni kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda, investitsiyalashning umumiy maqsadi nafaqat investitsiyalarning asosiy qiymatini saqlash balki aktivlarning bozor qiymati oshishi yoki joriy pul to‘lovlari ko‘rinishida muayyan barqaror daromad olishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun, kapital yo‘qotish riski darajasini aniqlash bilan bir qatorda investitsion qo‘yilmalardan olinadigan daromadlar bo‘yicha risklilik darajasining maqbul chegarasini belgilash lozim.

Investitsion faoliyatni boshqarish likvidlilikning zarur darajasini ta’minlash va investitsion resurslar tuzilmasiga muvofiqligini o‘rnatish uchun aktivlar tuzilmasini tahlil etishni ko‘zda tutadi. Investitsion aktivlarning likvidliligi ularni moliyalashtirish manbasi bo‘lgan passivlar xususiyati bilan aloqador bo‘lishi lozim.

Investitsion qo‘yilmalar tarkibida likvidlilik darajasi bo‘yicha aktivlarni quyidagicha tasniflash mumkin: yuqori likvidli aktivlar, likvidli aktivlar va kam likvidli aktivlar. Investitsion aktivlarning turli guruhlari likvidliligi o‘zgarishi, likvidlilikning o‘rnatilgan talablari buzilishi va riskning ortishi aniqlanganda investitsion qo‘yilmalar portfelini qayta ko‘rib chiqish zarur.

7 Балабанов И. Т. Банковское дело. СПб.: Питер, 2009. 304 с.

8 Хлыстова Е. В. Необходимость активизации кредитования банками инвестиционных потребностей экономики. 2017. № 4. С 208-213.

Investitsion faoliyatni amalga oshirish sharoitlarining o‘zgarishi ishlab chiqilgan investitsion siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun doimiy monitoring o‘tkazishni talab etadi. Investitsion dastur tuzilgan vaqtida istiqbolda ichki va tashqi omillar o‘zgarishining barcha majmuasini qamrab olmasligi mumkin. Shuning uchun, investitsion dasturning o‘zgaruvchanligi investitsiyalarni boshqarish jarayonida joriy o‘zgartirishlar yo‘li bilan ta’minlanadi. Bu holat, qisqa muddatli davrda alohida qo‘yilmalarning samaradorligini baholash, investitsion loyihalardan chiqish imkoniyatlarini aniqlash, noqulay sharoit yuzaga kelganda kapitalni reinvestitsiyalashni taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimining moliyaviy barqarorligi oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, bank xizmatlarining turlari va ko‘lamini kengaytirish, masofaviy bank xizmatlarini ko‘paytirish orqali mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar qulayligini oshirish, banklarning investitsiyaviy faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, avvalo, qayta ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-sonli qarori, 2017-yil 16-oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori hamda chorvachilik, parrandachilik va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlari asosida banklarning istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qilmoqda. Tijorat banklari tomonidan investitsiya, lizing kompaniyalarining tashkil etilganligi va banklar faqatgina istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish bilan cheklanib qolmasdan maslahat, axborot-tahlil va marketing kabi xizmatlarni ko‘rsatayotganligi ularning investitsion faolligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.



2-rasm: Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi (trln. so‘m hisobida)[9]

Mamlakatimizda tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ular tomonidan yo‘naltirilgan kreditlar hajmining oshish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2022-yilda iqtisodiyotga jami 203 trln. so‘m yoki 2021-yilga nisbatan 19,5 foizga ko‘p kreditlar ajratilib, kredit qo‘yilmalar qoldig‘i 390 trln. so‘mga yetgan. Ushbu kreditlarning 68 foizi (138 trln. so‘m) korporativ mijozlarga va 32 foizi (65 trln. so‘m) aholiga yo‘naltirilgan. Kreditlarning 43,7 foizi sanoatga, 22 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 11,6 foizi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga, 5,7 foizi qurilishga hamda 5,2 foizi transport va kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

2022-yilda iqtisodiyotni moliyalashtirishda xususiy investitsiyalar ulushini rag‘batlantirish, tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli yangi ishlab chiqarish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ishlari davom ettirildi. Xususan, tijorat banklari tomonidan 2022-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun 545 mingdan ortiq loyihalarga jami 122 trln. so‘m miqdorida yoki 2021-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘p kredit mablag‘lari ajratilgan.

9 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2022-yilda xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 13,1 mingdan ortiq loyihasini moliyalashtirish uchun 2,1 mlrd. dollar miqdorida, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 1,8 mlrd. dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar ajratilgan. Mazkur kredit mablag‘larining qariyb 1,5 mlrd. dollari (70 foiz) sanoat sohasidagi, 111 mln. dollari (5 foiz) qishloq xo‘jaligi sohasidagi, 244 mln. dollari (12 foiz) savdo va umumiy ovqatlanish sohasidagi hamda 262 mln. dollari (13 foiz) xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalardagi loyihalarga yo‘naltirilgan.

Kreditlarning tarmoq tarkibidan ko‘rishimiz mumkinki, mazkur kreditlarning yuqori ulushi sanoat sohasiga yo‘naltirilgan. Bu holat, mamlakatimizda sanoat tarmog‘ida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilganligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni samarali yuritish hamda natijadorligini oshirish borasidagi dolzarb masalalardan biri investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash va ular ta’sirini kamaytirish hamda mazkur jarayon bilan bog‘liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu borada tijorat banklari investitsion faoliyat doirasida monitoring olib borish tizimini takomillashtirishi lozim. Bu esa investitsion faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni oldining olishga hamda investitsion loyihalar natijadorligini oshirishga imkon yaratadi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish va ularning investitsion faolligini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- tijorat bankining investitsion siyosatini ishlab chiqishda investitsion faollikni oshirish va istiqbolli investitsion loyihalarni moliyalashtirishga alohida ahamiyat berish;
- investitsion loyihalarning risklilik va foydalilik darajasini aniqlashda xorijiy tajribalardagi mavjud ta’sirchanligi yuqori usullarni qo‘llash;
- banklarning investitsion loyihalar samaradorligini monitoring qilishga qaratilgan faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish;
- moliyaviy risklarni boshqarish ichki tizimiga alohida ahamiyat bergan holda xarajat va daromadlar mutanosibligini ta’minlash asosida banklar investitsion faoliyati natijadorligini yanada oshirish;
- samaradorligi yuqori bo‘lgan investitsion loyihalarga kapital qo‘yilma kiritish orqali investitsion portfelni diversifikatsiyalashga alohida ahamiyat berish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tijorat banklari investitsion faoliyatini takomillashtirish hamda investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish orqali milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yuqori ilmiy sig‘imli ishlab chiqarishlarni tashkil etish va mamlakat korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
2. Карапетян А. И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис…канд. эконом. наук. – Москва, 2011. – С. 9-10.
3. Буркова А. Ю. Отличия инвестиционного банкинга от коммерческого и розничного // Управление корпоративными финансами. – 2010. – № 4.
4. Емельянов А. Б. Инвестиционная деятельность коммерческих банков: понятие, виды и значение // Молодой ученый. – 2017. – N° 52. – С. 84-88.
5. Балабанов И. Т. Банковское дело. –СПб.: –Питер, 2009. 304 с.
6. Банковское дело: Учебник / Под ред. О. И. Лаврушина. –М.: Финансы и статистика, 2008. –563 с.
7. Хлыстова Е. В. Необходимость активизации кредитования банками инвестиционных потребностей экономики. 2017. № 4. –С 208-213.
8. Гиблова Н. М. Коммерческие банки как основные участники модернизационных процессов отечественной экономики / Н. М. Гиблова // Банковское дело. – 2012. – № 11. – С. 40-43.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ ОПТИМИЗАЦИИ ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Юлдошева Гулноза Абдинабиевна
Старший преподаватель кафедры “Корпоративная экономика и менеджмент” Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В статье рассматриваются основные проблемы, связанные с развитием финансового моделирования (ФМ) деятельности предприятия, и предлагаются решения для их решения. Автор обращает внимание на такие проблемы, как недостаточное использование статистических методов, недостаточная структурированность данных, недостаточная автоматизация процесса моделирования, недостаточная оценка рисков и недостаточная связь между финансовым моделированием и стратегическим планированием. Для решения этих проблем предложен использование специализированного программного обеспечения, установление системы управления данными и их структурирование, установление системы оценки и управления рисками, а также тесную связь между финансовым моделированием и стратегическим планированием.

Ключевые слова: финансовое моделирование (ФМ), малые и средние предприятия (МСП), финансовая деятельность, финансовый менеджмент, принятие финансовых решений.

Annotatsiya: Maqolada korxona faoliyatini moliyaviy modellashtirishni rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi va ularni hal qilish bo‘yicha yechimlar taklif etiladi. Muallif e’tiborni statistik usullardan yetarlicha foydalanilmaslik, ma’lumotlar tuzilmasi yetarli emasligi, modellashtirish jarayonining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi, risklarni yetarlicha baholanmaganligi va moliyaviy modellashtirish va strategik rejalashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning yetarli emasligi kabi muammolarga qaratadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun muallif ixtisoslashtirilgan dasturiy ta’minotdan foydalanishni, ma’lumotlarni boshqarish tizimini yaratish va uni tizimlashtirishni, xavflarni baholash va boshqarish tizimini yaratishni, shuningdek, moliyaviy modellashtirish va strategik rejalashtirish o‘rtasidagi yaqin aloqani taklif qilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy modellashtirish, kichik va o‘rta korxonalar, moliyaviy faoliyat, moliyaviy menejment, moliyaviy qarorlar qabul qilish.

Abstract: The article discusses the main problems associated with developing financial modeling of enterprise activities and proposes solutions. The author draws attention to such problems as insufficient use of statistical methods, flawed data structure, bad automation of the modeling process, inadequate risk assessment, and poor connection between financial modeling and strategic planning. To solve these problems, the author proposes using specialized software, establishing a data management system and its structuring, establishing a risk assessment and management system, and a close connection between financial modeling and strategic planning.

Key words: financial modeling, small and medium-sized enterprises, economic activities, financial management, financial decision-making.

ВВЕДЕНИЕ

Финансовое моделирование (ФМ) деятельности предприятия является одним из важнейших инструментов управления бизнесом, позволяющим прогнозировать финансовые результаты и оценивать эффективность инвестиций. Однако, развитие этой области сталкивается с рядом проблем, которые затрудняют процесс моделирования и снижают его точность. В данной статье прилагаются основные проблемы, связанные с финансовым моделированием деятельности предприятия, и предложено решения для их решения. Обращено внимание на недостаточное использование статистических методов, недостаточную структурированность данных, недостаточную автоматизацию процесса моделирования, недостаточную оценку рисков и недостаточную связь между финансовым моделированием

и стратегическим планированием. Эта статья будет полезна для всех, кто занимается финансовым моделированием деятельности предприятия и стремится повысить его эффективность и точность.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

ФМ позволяя предприятиям оценивать различные сценарии и оценивать потенциальные риски и выгоды различных вариантов, также может помочь им определить области, в которых они могут улучшить свои финансовые показатели и лучше использовать свои ресурсы (Бейкер и Пауэлл, 2016). Очень важно финансового моделирования в оценке компаний, ФМ помогает аналитикам оценить будущие денежные потоки компании и дисконтировать их до их текущей стоимости и ФМ позволяет аналитикам оценить влияние различных допущений на оценку компании (Дамодаран, 2017). Нужно подчеркнуть роль финансового моделирования в решениях по бюджетированию капиталовложений. Утверждено, что ФМ позволяет компаниям оценить денежные потоки, связанные с различными инвестиционными проектами, и оценить их рентабельность и подчеркнено, что ФМ помогает компаниям оценивать риски, связанные с различными инвестиционными проектами, и принимать обоснованные решения о своем капитальном бюджете (Росс, Вестерфилд и Джаффе, 2018). При решение методологических проблемы финансового моделирования в бизнес-планировании А. Вершинина рассматривал вопросы финансового моделирования денежных потоков для целей составления бизнес-плана и предложил алгоритм создания финансовой модели и делает акцент на существенном отличии методологии учета денежных потоков и учета бухгалтерских доходов и расходов, а также на оценке влияния амортизационных отчислений на денежные потоки (Вершинина, А. В., 2010). Проводив финансовый анализ деятельности предприятия для определения сущности, проблемы и перспективы Алексеева, О и др. исследовали накопленный опыт в области финансового анализа, используя при этом состав показателей, методические подходы к его проведению, недостатки их применения и перспективы развития и утверждали, что финансовый анализ является необходимым инструментом для оценки эффективности и устойчивости деятельности предприятия, а также для принятия обоснованных управленческих решений (Алексеева, О. А., & Горбачев, А. С., 2012). Позже применение эконометрических методов для прогнозирования финансовых показателей предприятия на основе системы индикаторов финансовой среды. Гурьянова, Л. С., и др. показывают, как с помощью регрессионного анализа и корреляционного анализа можно определить взаимосвязь между финансовыми показателями и внешними факторами, а также как эти методы могут быть использованы в стратегическом управлении финансовой деятельностью предприятия (Гурьянова, Л. С., и др., 2013). Рассматрив различные методы и подходы к анализу финансового состояния предприятий, а также разрабатывая собственную аналитическую модель на основе системы показателей и коэффициентов, Т. Красикова обосновывает преимущества и экономическую целесообразность применения разработанной модели для оценки эффективности и устойчивости деятельности предприятий машиностроительной отрасли (Красикова, Т. М., 2004). Построив экономико-математическую модель корпоративных финансов, которая объединяет ликвидность и платежеспособность и Г. Груднин раскрывал проблемы и связи между ними и рассмотрел влияние внешних факторов на вероятность дефолта предприятия и предложил методы управления рисками (Груднин, Г. А., 2013). Извлечение максимальной пользы из анализа финансовых результатов осложняется ограниченностью и недостаточностью доступных информационных источников, отсутствием подробной детализации, управленческих форм отчетности и недостаточной аналитичностью предоставляемых данных. Ю. А. Псарева рассматривала значимость анализа финансовых результатов коммерческой организации, систематизировала и представляла сведения о методиках проведения анализа, и выделяла проблемы анализа, такие как ограниченность и неполнота источников информации, отсутствие детализации, управленческих форм отчетности, аналитичности данных, и приводила решения выявленных проблем (Ю. А. Псарева, 2021). V. A. Varma и др. разработали математические формулы, которые объединяют модель планирования с формулой денежных потоков и бюджета и предложили новый подход к управлению на уровне предприятия, используя многоуровневые распределительные сети с учетом финансового управления (V. A. Varma и др.).

МЕТОДЫ

В процессе подготовки статьи использованы такие методы, как общенаучные, формально-логические, специфические методы исследования ситуации, анализ, синтез, аналогия, дедукция, индукция, обобщение и классификация.

АНАЛИЗ

ФМ является важным инструментом для принятия компаниями обоснованных решений об инвестициях, слияниях и поглощениях и других стратегических решениях. Процесс включает в себя сбор соответствующих данных, разработку финансовой модели, тестирование и проверку модели, а также использование модели для принятия обоснованных решений. Компании, которые эффективно используют ФМ, могут улучшить свои финансовые показатели и достичь своих стратегических целей. Оно является лучшим орудием для планирования и прогнозирования финансовой производительности бизнеса. Оно включает создание математических моделей, которые представляют финансовую производительность компании на основе различных предположений и входных данных. Эти модели используются для принятия обоснованных решений о будущих инвестициях, финансировании и других финансовых действиях.

Однако разработка эффективных финансовых моделей может быть сложной, и существует несколько распространенных проблем, с которыми сталкиваются компании при их создании. В этой статье мы обсудим некоторые из этих проблем и предоставим решения для их преодоления.

1. **Недостаток данных** (Недостаток данных может привести к неточным результатам моделирования). Одна из самых серьезных проблем в финансовом моделировании – это недостаток данных. Финансовые модели требуют огромного количества данных, включая исторические финансовые отчеты, рыночные данные и экономические показатели. Без этих данных невозможно создать точные финансовые модели.Решение этой проблемы заключается в сборе и использовании достоверных данных. Нужно собрать как можно большего количества соответствующих данных. Это может включать сбор данных из нескольких источников, таких как финансовые базы данных, отчеты по отраслям и статистические данные правительства. Также важно убедиться в том, что данные точны и актуальны.
2. **Сложность** (ФМ может быть сложным и требовательным к экспертизе). ФМ может быть сложным, особенно при работе с большими наборами данных или несколькими сценариями. Эта сложность может затруднить понимание и правильную интерпретацию результатов модели. Для преодоление эту проблему, необходимо максимально упростить финансовую модель. Это можно сделать, разбив модель на более мелкие компоненты и сосредоточившись на наиболее важных переменных. Также важно убедиться в том, что используемые в модели предположения реалистичны и что модель тщательно проверена. Следующее решение этой проблемы заключается в обучении персонала и использовании понятных графиков и диаграмм.
3. **Недостаток экспертизы** (Недостаток экспертизы может привести к неточным результатам моделирования). ФМ требует высокого уровня экспертизы в финансах, бухгалтерии и математике. Многие компании не имеют сотрудников с таким уровнем экспертизы, что затрудняет создание эффективных финансовых моделей. Одним из решений этой проблемы является найм внешних консультантов или экспертов, специализирующихся на финансовом моделировании. Эти эксперты могут предоставить руководство и поддержку на протяжении всего процесса моделирования и обеспечить точность и надежность модели.
4. **Недостаток интеграции** (Недостаток интеграции может привести к неполным результатам моделирования). ФМ часто выполняется в изоляции от других бизнес-активностей, таких как стратегическое планирование или бюджетирование. Это может привести к недостатку интеграции между финансовой моделью и другими бизнес-активностями, что затрудняет принятие обоснованных решений. Чтобы решить эту проблему, необходимо интегрировать ФМ в другие бизнес-активности. Это можно сделать, вовлекая ключевых заинтересованных сторон в процесс моделирования, таких как высшее руководство, финансы и операции. Решение этой проблемы заключается в интеграции всех необходимых данных и факторов. Также важно убедиться в том, что финансовая модель соответствует общим стратегическим целям компании.
5. **Неучтенные риски** (Неучтенные риски могут привести к непредвиденным результатам моделирования). ФМ может не учитывать риски, которые могут повлиять на финансовую производительность компании. Например, изменения в экономической ситуации, изменения в законодательстве или конкуренция на рынке могут привести к непредвиденным результатам. Чтобы решить эту проблему, необходимо учитывать риски при создании финансовой модели. Это можно сделать, включая в модель различные сценарии, которые учитывают возможные изменения в экономической ситуации и другие риски. Также важно проводить регулярные обновления модели для учета новых рисков и изменений в бизнес-окружении. Решение этой проблемы заключается в учете рисков при создании модели и проведении регулярных обновлений.

6. **Недостаток прозрачности** (Недостаток прозрачности может привести к непониманию результатов моделирования). ФМ может быть сложным и непонятным для тех, кто не имеет экспертизы в финансах. Это может привести к недостатку прозрачности и понимания результатов модели. Чтобы преодолеть эту проблему, необходимо обеспечить прозрачность финансовой модели и ее результатов. Это можно сделать, предоставляя детальное описание модели и ее компонентов, а также обучая заинтересованных сторон, как интерпретировать результаты модели. Также важно использовать понятные графики и диаграммы для визуализации результатов модели.

1-таблица: Классификация проблем при оптимизации финансовом моделировании деятельности компании1

№	Недостаток	Может привести	Решение
1	гибкости	к трудностям при адаптации модели к изменяющимся условиям	Создать гибких моделей, которые можно легко изменять и обновлять
2	автоматизации	к трудоемкости и ошибкам при создании и обновлении модели	Использовать программного обеспечения, которое автоматизирует процесс моделирования
3	стандартизации	к трудностям при сравнении результатов моделирования разных предприятий	Использовать стандартных методов и показателей при создании модели
4	учета внешних факторов	к неточным результатам моделирования, так как они могут оказывать значительное влияние на деятельность предприятия	Учитывать внешних факторов при создании модели и проведении регулярных обновлений
5	качественных данных	к неточным результатам моделирования, так как модель основывается на данных, которые могут быть неполными или ошибочными	Собрать и использовать качественных данных при создании модели
6	экспертного знания	к неточным результатам моделирования, так как модель может быть создана без учета специфических знаний и опыта в отрасли	Привлечь экспертов для создания и обновления модели
7	учета неопределенности	к неточным результатам моделирования, так как реальность может быть неоднозначной и неопределенной	учете неопределенности при создании модели и проведении регулярных обновлений
8	учета социальных и экологических аспектов	к неполным результатам моделирования, так как модель может не учитывать социальные и экологические последствия деятельности предприятия	в учете социальных и экологических аспектов при создании модели и проведении регулярных обновлений
9	учета изменений во времени	к устареванию модели и неточным результатам	в проведении регулярных обновлений и анализе изменений в отрасли
10	учета взаимодействия между различными переменными	к неточным результатам моделирования, так как модель может не учитывать сложные связи между переменными	в учете взаимодействия между переменными при создании модели и проведении регулярных обновлений
11	учета различных сценариев	к неточным результатам моделирования, так как модель может быть создана только для определенного сценария	в учете различных сценариев при создании модели и проведении регулярных обновлений
12	учета влияния человеческого фактора	к неточным результатам моделирования, так как люди могут повлиять на результаты деятельности предприятия	в учете влияния человеческого фактора при создании модели и проведении регулярных обновлений
13	учета неопределенности	к неточным результатам моделирования, так как многие переменные могут быть неопределенными или иметь различные значения в различных сценариях	учете неопределенности при создании модели и проведении регулярных обновлений
14	учета влияния внешних факторов	к неточным результатам моделирования, так как многие переменные могут быть зависимыми от внешних факторов, таких как политическая ситуация, экономические условия и т. д.	учете влияния внешних факторов при создании модели и проведении регулярных обновлений

1 Составлено автором на основе данных

15	учета необходимости адаптации модели	к ее устареванию и непригодности для использования в будущем	в проведении регулярных обновлений и адаптации модели к изменяющимся условиям в отрасли
16	учета различных целей	к созданию модели, которая не удовлетворяет потребностям всех заинтересованных сторон	в учете различных целей при создании модели и проведении регулярных обновлений
17	учета ограничений ресурсов	к созданию модели, которая не учитывает ограничения в распределении ресурсов и может привести к неэффективному использованию ресурсов	в учете ограничений ресурсов при создании модели и проведении регулярных обновлений
18	учета социальных и культурных различий	к созданию модели, которая не учитывает различия в поведении и предпочтениях различных групп населения	в учете социальных и культурных различий при создании модели и проведении регулярных обновлений
19	учета изменений в технологиях	к созданию модели, которая не учитывает новые технологические возможности и требования	в проведении регулярных обновлений и адаптации модели к изменяющимся технологическим условиям
20	учета изменений в законодательстве	к созданию модели, которая не учитывает новые правила и требования, что может привести к нарушению законодательства и штрафам	в проведении регулярных обновлений и адаптации модели к изменяющимся законодательным условиям

ВЫВОДЫ

Финансовое моделирование является важным инструментом для планирования и прогнозирования финансовой производительности бизнеса. Однако создание эффективных финансовых моделей может быть сложной задачей. Решая распространенные проблемы, такие как недостаток данных, сложность, недостаток экспертизы, недостаток интеграции, неучтенные риски и недостаток прозрачности, компании могут создавать точные и надежные финансовые модели, которые поддерживают принятие обоснованных решений и могут помочь компаниям принимать обоснованные решения о будущих инвестициях, финансировании и других финансовых действиях.

Список использованной литературы:

1. Baker, H. K., & Powell, G. E. (2016). Understanding financial management: A practical guide. John Wiley & Sons.
2. Damodaran, A. (2017). Applied corporate finance: A user's manual. John Wiley & Sons.
3. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jaffe, J. F. (2018). Corporate finance. McGraw-Hill Education.
4. Вершинина, А. В. (2010). Методологические проблемы финансового моделирования в бизнеспланировании. Вестник Московского университета МВД России, (5), 65–70.
5. Алексеева, О. А., & Горбачев, А. С. (2012). Финансовый анализ деятельности предприятия: сущность, проблемы и перспективы. Kant, (2 (5)), 55–59.
6. Гурьянова, Л. С., Трунова, Т. Н., & Николаев, И. В. (2013). Эконометрическое моделирование финансовой деятельности предприятия. Проблемы экономики, (3), 330–337.
7. Красикова, Т. М. (2004). Моделирование финансового состояния предприятия (Doctoral dissertation, [Гос. ун-т упр.]).
8. Груднин, Г. А. (2013). Моделирование финансового кризиса и дефолта предприятия. Управление экономическими системами: электронный научный журнал, (10 (58)), 2.
9. Псарева, Ю. А. (2021). Проблемы анализа финансовых результатов и пути их решения. Молодой ученый, (49 (391)), 112.
10. Varma, V. A., Reklaitis, G. V., Blau, G. E., & Pekny, J. F. (2007). Enterprise-wide modeling & optimization–An overview of emerging research challenges and opportunities. Computers & Chemical Engineering, 31(5-6), 692-711.

HUDUDIY IQTISODIY XAVFSIZLIK VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Raximov E. N.
PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun soliq salohiyatini oshirishning ilmiy, nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Iqtisodiy xavfsizlik va soliq salohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari o'z aksini topgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati misolida hududlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari va soliq tushumlari tahlili berilgan. Mavzu bo'yicha muhim xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, soliq salohiyati, soliq bazasi, yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapital qo'yilmalari, budjet daromadlari.

Abstract: The article describes the scientific, theoretical and practical aspects of increasing the tax capacity to ensure the economic security of the regions. The results of scientific research on economic security and tax potential are reflected. Also, the example of Kashkadarya region provides an analysis of regional development indicators and tax revenues. Important conclusions and practical recommendations on the subject are formed.

Key words: economic security, tax potential, tax base, gross regional product, fixed capital investment, budget revenues.

Аннотация: В статье рассмотрены научные, теоретические и практические аспекты повышения налогового потенциала для обеспечения экономической безопасности регионов. Отражены результаты научных исследований по вопросам экономической безопасности и налогового потенциала. Также на примере Кашкадаринской области проводится анализ показателей развития региона и налоговых поступлений. Сформулированы важные выводы и практические рекомендации по теме.

Ключевые слова: экономическая безопасност, налоговый потенциал, налоговая база, валовой регионалный продукт, инвестиции в основной капитал, доходы бюджета.

Dunyoning barcha davlatlarida budjet jarayonini to'g'ri rejalashtirish orqali tegishli sohalarni moliyalashtirishni amalga oshirish budjetning daromadlar qismiga pul mablag'larining bir maromda kelib tushishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat, avvalo, budjetga soliq tushumlarining kelib tushishini to'g'ri prognoz qilishga bevosita bog'liq bo'lib, aynan shu jarayonning tashkiliy-uslubiy jihatdan maqbul tarzda amalga oshirilmasligi budjet ijrosida yuqori darajadagi taqchillikni keltirib chiqaradi. Xalqaro moliya institutlarining tahlillariga ko'ra, 2023-yilda dunyo mamlakatlarining davlat budjetining taqchilligi 1,4 trillion AQSH dollariga [1] teng bo'lishi prognoz qilinib, jahon iqtisodiyotidagi umumiy beqarorlik aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda davlat budjeti daromadlarini to'g'ri rejalashtirishga salbiy ta'sir qilayotganligini ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi sohasida, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [2].

Alohida ta'kidlash lozimki, "Ochiq-oshkora va adolatli soliq tizimi iqtisodiyot rivojining eng muhim asosidir. Lekin respublikamizda hozirgacha amal qilib kelinayotgan soliq ma'muriyatchiligida ayrim noaniqliklar borligi biznes, tadbirkorlik, investitsiya sohalari ravnaqiga to'siq bo'layotgan edi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish, soliq yukini kamaytirish va chinakam bozor iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston Pespublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va boshqa tashkilotlar ekspertlarini jalb qilgan holda, rivojlangan davlatlar

tajribasi asosida qabul qilingan ushbu konsepsiyada biznes uchun juda katta imkoniyatlar, xalqaro darajadagi qulay sharoitlar nazarda tutilgan. Xususan, kelgusi yildan boshlab soliq turlari 19 tadan 15 tagacha qisqarmoqda. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizgacha, dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi. Yana bir muhim jihati, endi soliq stavkalari avvalgiga o'xshab keskin o'zgaruvchan bo'lmaydi. Bu investorlarga uzoq muddatli biznes loyihalarini rejalashtirishda qiyinchilik tug'dirmaydi".

Albatta, soliq salohiyati hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim elementlaridan biridir. Shundan kelib chiqqan holda, dastlab "iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasi, uning mohiyatini, tuzilishini va tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

O'zining rivojlanish evolyutsiyasida "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi mutlaqo yangi kategoriya emas, albatta. Ammo mazkur tushuncha ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida xavfsizlikni ta'minlash ko'rinishida hozirgi Yevropalik va amerikalik iqtisodchilar tomonidan faol ravishda qo'llanilishi bundan 70 yil oldin boshlanganligini qayd etish mumkin [3]. Bu tushuncha keng ma'noda "iqtisodiy xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotini xavfli ta'sirlardan biri" sifatida ko'rilgan [4].

XX asr oxirida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrdagi rossiyalik iqtisodchi olimlardan L. I. Abalkin "iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasining ahamiyatiga kuchliroq e`tibor bergan holda, "milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, uning barqarorligi va mustahkamligini, doimiy yangilanish va o'z-o'zini takomillashtirishga qodirligini ta'minlovchi sharoit va omillarning yig'indisi" [5] sifatida ta'riflagan.

Iqtisodchi-olimlardan A. P. Gradov va I. V. Ilinlarning fikricha, "jahon iqtisodiyoti tizimida yoki mamlakat hududida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki ekologik xususiyatidagi fors-major holatlari yuz berishidan qat'i-nazar mamlakatning moddiy ne'matlarga bo'lgan zaruriy muhim ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi milliy iqtisodiyot holatining himoya darajasi iqtisodiy xavfsizligini bildiradi" [6].

Qolaversa, rossiyalik olimlardan V. P. Bikov, O. A. Dembovskaya, E. M. Lebedko kabilarning ilmiy tadqiqotlarida hudud iqtisodiy xavfsizligi "iqtisodiyotning hozirgi holatini, uning barqarorligi va mutanosibligi, tashqi va ichki tahdidlarga chidamlilik darajasi va doimiy rivojlanish siklini tavsiflovchi sharoitlar hamda omillar yig'indisi, ichki va tashqi tahdidlarga munosib himoya ta'sirini ko'rsatuvchi mexanizmlarni nazarda tutuvchi yaxlit chora-tadbirlar kompleksi" [7] ekanligini ta'midlaydi.

Shuningdek, bir qator rossiyalik olimlardan E. Grigoreva va L. Gafirovalarning ilmiy tadqiqotlarida davlat va hudud iqtisodiy xavfsizligining institutsional jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Ularning ilmiy ishlarida Petrenko metodologiyasiga ko'ra, hudud xavfsizligi indikatori orqali xavfsizlik darajasini aniqlash bayon qilingan [8]. Ya'ni

$$Z_{general} = \sum_{i=1}^{3} a_i z_i$$

bu yerda:

$Z_{general}$ – hudud xavfsizligi indikatori, 1,3 xavfsizlik sohalari (tabiiy-ekologik, texnik-iqtisodiy va industrial, ijtimoiy);

a_i – o'rtacha tortilgan koeffitsiyent;

z_i – xavfsizlik ko'rsatkichi.

Yevropalik olimlardan Z. Simanavichiene va A. Stankevichius tomonidan iqtisodiy xavfsizlik va milliy iqtisodiyotga tahdidlar borasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida, davlatning va alohida hududlarning iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy va huquqiy mexanzmlarning hudud iqtisodiy xavfsizligidagi asosiy regulyator-richaglar ekanligi, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'siri o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, Yevropa davlatlari tajribasida hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda har bir davlat o'zining "Milliy xavfsizlik va rivojlanish strategiyalari"ning muhim tarkibiy qismi aynan iqtisodiy xavfsizlikka qaratilishi, bunda mahalliy va umumdavlat iqtisodiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ularning ilmiy tadqiqotlaridagi obyekt sifatida Boltiqbo'yi davlatlaridan Latviya Pespublikasi "Milliy xavfsizlik strategiyasi"da mamlakat hududlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hududiy barqaror rivojlanish, axborot xurujlariga kontrazvedkaning mavjudligi, demografik infratuzilmaning rivojlantirish lozimligi qayd etilgan [9].

Rossiyalik olimlar "hudud iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasi doirasida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishgan: birinchidan, qonuniy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlar ta'siri hudud iqtisodiy xavfsizligining muhim omili; ikkinchidan, tizimli nuqtayi-nazardan, butun hudud iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar majmuasi – hududning iqtisodiy rivojlanish holati, tashqi xavflarga nisbatan himoyalanish harakatlarining mavjudligi va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy xavfsizligi borasida iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlari va bildirgan fikrlarini quyidagi jadvalda keltirish mumkin (1-jadval):

1-jadval: Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash borasida xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlari tavsifi

Iqtisodchi olimlarining F. I. Sh	Bildirilgan fikr va mulohazalar, ilmiy tadqiqot ishlari tavsifi
N. M. Kalinina [10]	Hududning iqtisodiy xavfsizligi – u yoki bu hududni iqtisodiy sohada ichki va tashqi xavflardan himoyalanishni ta’minlovchi, barqaror iqtisodiy o‘sish va takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, jamiyat ehtiyojlarini qondirish va turli sohalarda milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning muqobil tizimi.
V. V. Karpov, A. A. Korableva [11]	Iqtisodiy xavfsizlik – tashqi omillar ta’siridan hududning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlovchi hudud iqtisodiyotining holati va hudud iqtisodiyotining barqaror, chidamli, uzluksiz rivojlanishi hamda o‘sishi hisoblanadi.
G. Xuber, P. Rexm, M. Schlesinger, R. Valletta [12]	Ilmiy ishlarida hudud iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi xavf va xatarlarni tasniflab, tavsiflagan. Iqtisodiy xavfsizlik indeksi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Hududlar iqtisodiy xavfsizligiga tas’ir etuvchi omillarni ko‘rib o‘tgan.

Professor H. Abulqosimov “iqtisodiy xavfsizlik” ilmida dastlabki ilmiy tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlamasdan turib, davlat iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Bu borada institutsional mexanizmlarni to‘liq shakllantirish va ularning vakolatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiqligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik – mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, u o‘zida tashqi va ichki omillar ta’sirida iqtisodiy tizim rivojlanishiga ta’sirlarni baholovchi mexanizmdir [13], deya qayd etadi.

Bundan tashqari, iqtisodchi olimlardan Sh. Allayarovning ilmiy ishlarida moliyaviy xavfsizlik sharoitida soliq intizomini mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Bu borada, soliq intizomining moliyaviy xavfsizlikka ta’siri keng o‘rganilgan.

Shuningdek, A. Burxanov o‘z ilmiy ishlarida mamlakat moliyaviy xavfsizligining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘liqligi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan [14].

M. Kadirov tomonidan esa “O‘zbekiston Pespublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirish” borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, uning ilmiy ishlarida innovatsion-investitsiya xavfsizlik holatini baholash indikatorlari ishlab chiqilgan [15].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy-tadqiqotlari natijalarini o‘rganish davomida davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi xavflarni quyidagicha tasniflash mumkin (2-rasm).



1-rasm: Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi xavflar tasnifi

Ushbu tasnifdan ko‘rinib turibdiki, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga yirik ikki guruh, ichki va tashqi xavflar guruhi doimiy o‘zining ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu xavflarni, ya’ni ichki xavflarni bartaraf etish davlatning iqtisodiy xavfsizlik siyosatiga bog‘liq bo‘lsa, tashqi xavflar guruhi fors major holatlar ekanligidan kelib chiqsak, bu ko‘p tomonlama va pragmatik ahamiyat kasb etishini ko‘ramiz.

Hudud iqtisodiy xavfsizligi ham davlat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, hudud iqtisodiy xavfsizligi – iqtisodiyot va davlat hokimiyati institutlarining hudud iqtisodiyotini barqaror va davomiy rivojlanishini ta’minlovchi immunitetdir. Bu borada “hudud darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy muammo hududlarning ilmiy-texnik va innovatsion imkoniyatlari turlicha ekanligi, tabiiy sharoit – hududlar iqlimidagi farqlar hisoblanadi [16]. Aytish mumkinki, hududiy va hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning natijasi o‘laroq, iqtisodiy xavfsizlikning muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan O‘zbekiston Pespublikasi hududlaridagi aholi turmush darajasi va boshqa ko‘plab hududiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tabaqalanish – hudud iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichining kritik miqdori, bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, “hududiy iqtisodiy xavfsizlik”ka aniq ta’rifni berish uchun bu tushunchaning tarkibiy tuzilishi, unga ta’sir etuvchi omillar, xavfsizlikni ta’minlash choralari hamda sharoitlarni aniqlash talab etiladi.



2-rasm: “Hududiy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining muhim tarkibiy qismlari va elementlari

2-rasmdan kelib chiqqan holda, “hududiy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga bildirilgan fikrlardan xulosalar qilib, “hududiy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi tarkibi va muhim elementlari borasida quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin:

- subyektlarning (shaxs, jamiyat va davlat) hayoti uchun muhim iqtisodiy manfaatlariga xavf soluvchi tashqi va ichki iqtisodiy omillar va tahdidlarni tavsiflash asosiy elementlardan biridir;
- qisqa va o‘rta muddatda (3-5 yil) hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimiga zarar yetkazuvchi omillarni aniqlash va ularni monitoring qilib borish;
- hududiy iqtisodiy xavfsizlikka doir bo‘lgan hududiy manfaatlarni tavsiflovchi mezonlar va o‘lchovlarni aniqlash, ularni tasniflash;
- hududiy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar ta’sirini yumshatish, ularni bartaraf etishga qaratilgan hududiy iqtisodiy siyosatni olib boruvchi institutsional mexanizmlarini shakllantirish;
- hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyaning muhim qismi iqtisodiyotni har qanday o‘zgarish va tashqi ta’sirlarga chidamliligini ta’mishlovchi chora-tadbirlarni qabul qilishni ko‘zda tutadi, iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi faoliyat esa hududiy iqtisodiy boshqaruv faoliyati sohasi hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikni kengroq tasavvur etish uchun, unga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni, iqtisodiy adabiyotlarda bu borada ta’sir etuvchi omillar 3 ta yirik guruhga ajratilgan.



3-pacm: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar-xavflar guruhlari

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarning guruhlanishi quyidagicha: ta'sir etuvchi omillarning manbasiga ko'ra – ichki va tashqi omillar; omillarning turlariga ko'ra – obyektiv va subyektiv omillar; omillarning ta'sir etish ko'rinishga ko'ra – bevosita va bilvosita omillar [17].

Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tashqi omillar – xavflar turkumini o'rganish ham muhimdir (2-jadval).

2-jadval: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tashqi omillar-xavflar

Omillar-xavflar manbasi
Jahon iqtisodiyoti
Xalqaro mehnat taqsimoti
Xalqaro kapital bozori
Xalqaro moliya bozori
Xalqaro mahsulot va xizmatlar bozori
Xalqaro valyuta bozori
Xalqaro mehnat bozori

Shu o'rinda, hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar – xavflar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin:

3-jadval: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki omillar – xavflar

Omillar-xavflar manbasi	Turlari
Milliy iqtisodiyot	Mamlakat hududlarining tabiiy resusrlarining iqtisodiy to'g'ri taqsimot qilinmaganligi; Tabiiy komponentlar sabab soliq bazasining to'liq shakllanmasligi; Soliq va ijtimoiy to'lovlarning sezilarli oshishi; Investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida kamayib borishi; Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlariga ishlab chiqarish hajmining kamayishi; Iqtisodiyotning monopolizatsiyalashuvi; Asosiy fondlar tarkibining keskin o'zgarishi; Ish bilan bandlikning keskinlashuvi; Ishsizlik va infyatsiya darajasining o'sishi.

Huquqiy va ma'muriy tuzilmalar	Davlat xaridlari va korrupsiya borasidagi huquqiy tartibga solinmagan jihatlar; "Yashirin iqtisodiyot" va "pul yuvish" borasidagi tartibga solish kerak bo'lgan jihatlar; Jamiyatning huquqbuzarlik darajasi; Jamoaviy munosabatlardagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik darajasi.
Budjet tizimi va siyosatti	Budjet daromadlarining nobarqarorligi; Moliyaviy nazoratchilar va budjetga soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligi; Budjet daromadalrining maqsadsiz ishlatilishi; Budjet xarajatlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nomutanosibligi; Budjet zaxirasining ratsioniga rioya etilmasligi.
Ijtimoiy siyosat	Daromadlar o'rtasida yirik farqlarning mavjudligi, kambag'allik darajasi; Me'yoriy yashash tizimiga rioya etilishi; Hayot darajasi va sifati; Ijtimoiy himoya muhtoj aholi qatlamining himoya qilinmasligi; Tug'ilish, o'lim darajasi me'yori; Migratsiya jarayonlarining nazoratsizligi.
Ilmiy-texnik siyosat	Ilmiy-texnik-innovatsion potensial darajasi; Fundamental ilmiy darajasining pasayishi; Davlat ilmiy-texnik-innovatsion siyosatining belgilanmaganligi; Ilmiy xodimlarning, mutaxassislarning boshqa sohalarga yoki davlatdan chiqib ketishi holatlari.
Moliya bozori	Investitsiyalarni jalb qilishdagi samarasiz faoliyat olib boruvchi fond bozori; Peal sektor tarmoqlaridan moliyaviy resurslarning maqsadsiz chiqib ketishi; Mamlakatdan kapitalning "qochishi".

Shuningdek, tadqiqodlarimiz davomida hududlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni nafaqat boshqa iqtisodchilar kabi ichki va tashqi omillar guruhiga, undan tashqari, ularni harakatlantiruvchi va chek-lovchi omillar sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.



4-pacm: Hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar

Keltirilgan omillar tasniflanishi shuni ko'rsatmoqdaki, o'zining ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga ko'ra bitta omilning o'zi tahdid sifatida ham, shuningdek, imkoniyatlar sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, hududning innovatsion rivojlanishi yoki axborot-texnologiyalarga asoslanganligi hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yoki aksincha ularning nofaol faoliyati hududiy iqtisodiy xavfsizlikka ko'proq salbiy ta'sir etishini omillarning qarama-qarshi harakatini ifodalaydi.

Ushbu bildirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, hududiy iqtisodiy xavfsizlik – hududning iqtisodiy rivojlanish holatini tavsivlovchi ko‘rsatkichlarning yaxlit majmuasi bo‘lib, hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlarini tashqi salbiy ta’sirlardan himoyalash darajasidir. Hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hudud iqtisodiyotiga ta’sir etuvchi omillarni baholash va ularning ta’sirlarini (salbiy ta’sirini) kamaytirish borasida lozim bo‘lgan choralarni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta’kidlash lozimki, hududiy iqtisodiy xavfsizlik hududning nafaqat iqtisodiy rivojlanishidaga to‘siqlarni hisobga oladi, balki siyosiy, huquqiy, ijtimoiy darajada rivojlanish, hayot darajasini hisobga oluvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The Budget and Economic Outlook: 2023 to 2033https://www.cbo.gov/publication/58946.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5116-son Farmoni.
3. Cable, V. (1995). What is International Economic Security? International Affairs, Vol. 71, No 2, 312–317. Losman, D. (2001). Economic Security. A National Security Folly? Policy Analysis, No 409, 1–12.
4. Senchagov, V. K. (edt.) (2005). Ekonomicheskaia bezopasnost’ Rossii [Russia’s Economic Security]. Moscow, Delo.
5. Абалкин Л. И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики. 1994. № 12. С. 4-13.
6. Градов А. П., Ильин И. В. Экономическая безопасность страны. Принципы анализа состояния и противодействия угрозам // Экономическая наука современной России. 2005. № 3 (30). С. 88-101.
7. Быков В. П., Дембовская О. А., Лебедько Е. М. Экономическая безопасность регионов и преодоление угроз в современных условиях // Экономика и эффективность организации производства. 2006. № 5. С. 60–63.
8. E. Grigoreva, L. Gafirova. The economic security of state: the institutional aspect. Procedia economics and finance. 24 (2015) 266-273. www.elsevier.com/locate/procedia/ Science Direct.
9. Zaneta Simanaviciene, Andrius Stankevicius. Economic Security and National Competitiveness. Mokslinu straipsniu rinkinys/ 2015 (15) ISSN-2029-1701. ISSN 2335-2035 (Online)
10. Калинина Н. М. Экономическая безопасность региона: сущность, угрозы и меры обеспечения // Сибирский торгово-экономический журнал. 2010. № 10. С. 1-21.
11. Карпов В. В., Кораблева А. А. Экономическая безопасность региона: понятийный аппарат, методология, угрозы // Экономическая безопасность России: проблемы и перспективы: материалы II Международной научно-практической конференции. Нижний Новгород, 2014. С. 163–169.
12. G. Huber, P. Rehm, M. Schlesinger, R. Valletta. 2010. Economic Security at Risk: Findings from the Economic Security Index.
13. Abulqosimov X. P. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. –T., Akademiya. 2006.
14. Burxanov A. U. Mamlakat moliyaviy xavsizligining mohiyati va uni ta’minlashning ayrim dolzarb masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” elektron jupnali. № 4-5 con, avgust-oktyabr, 2018.
15. Karidov M. U. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda innovatsion-investitsion faoliyatni takomillashtirish. 23.00.05 – Milliy xavfsizlik muammolarini tizimli tahlili va prognozlashtipish (iqtisodiyot fanlari) iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021-yil. 14 bet.
16. Ворожихин В. В., Тютюнник И. Г. Проблемы определения категории “Экономическая безопасность” // Экономическая безопасность России: проблемы и перспективы: материалы II Международной научно-практической конференции. Нижний Новгород, 2014. С. 135–140.
17. Господарик Ю. П. Пашковская М. В. Международный экономическая безопасность. 3-е изд., стр, *–М.: Университет “Синергия”, 2018, – 416 с.

BOSHQARISH SIFATINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Shoyev Davronbek Axmadjonovich
FarPI “Menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ahmadjonova Gulsanam
“Menejment” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshqarish sifatining iqtisodiy mohiyati, mazmuni, boshqarish sifatiga berilgan asosiy tushunchalar va ta’riflar o‘rganilgan, boshqarish sifati hamda unga ta’sir etuvchi omillar, boshqarish sifatining iqtisodiy kotegoriya sifatida o‘rni yoritilgan. Shuningdek, boshqarish sifatini oshirishning asosiy omili sifatida jamoaning, korxona va tashkilotlarning hamda hamkor tashkilotlarning ijtimoiy munosabatlari ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Menejment, menejment sifati, menejment sifatining iqtisodiy mohiyati, unumdorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, samarali boshqarish.

Abstract: This article studies the economic nature and content of management quality, basic concepts and definitions of management quality, management quality and factors influencing it, the role of management quality as an economic category. It is also based on the fact that social relations of the team, enterprises and organizations and partner organizations are the main factor in improving the quality of management.

Key words: Management, quality of management, economic essence of quality of management, increasing productivity, reducing costs, effective management.

Аннотация: В данной статье изучаются экономическая природа и содержание качества управления, основные понятия и определения качества управления, качество управления и факторы, влияющие на него, роль качества управления как экономической категории. Оно также основано на том, что социальные отношения коллектива, предприятий и организаций и организаций-партнеров являются основным фактором повышения качества управления.

Ключевые слова: Менеджмент, качество управления, экономическая сущность качества управления, повышение производительности, снижение затрат, эффективный менеджмент.

KIRISH

Menejment sifatining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, samarali va sifatli menejment tashkilotning moliyaviy natijalari va muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Boshqaruv sifatining iqtisodiy mohiyatining bir necha asosiy jihatlari mavjud:

- **Unumdorlikni oshirish.** Resurslarni boshqarishning samarali usullaridan foydalangan holda menejerlar ish jarayonlarini optimallashtiradi, vaqt va resurslarni yo‘qotishlarni kamaytiradi, shuningdek, jamoa ichidagi muvofiqlashtirish va hamkorlikni yaxshilaydi.
- **Xarajatlarni kamaytirish.** Budjet, resurslar va operatsion jarayonlar ustidan nazoratni amalga oshiradigan menejerlar ortiqcha xarajatlarni aniqlashlari va yo‘q qilishlari, xaridlar va yetkazib berish jarayonlarini yaxshilashlari, logistikani optimallashtirishlari va hokazo. Bu tashkilotga xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash imkonini beradi.
- **Mahsulotlar yoki xizmatlar sifatini yaxshilash.** Menejerlar sifat nazorati, ishlab chiqarish standartlari va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasiga e’tibor berib, bozor ehtiyojlarini va mijozlarni qondiradigan yuqori sifatli mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratishga hissa qo‘shadilar va natijada korxonaning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sotsiolog-iqtisodchi Adam Hayes o‘zining “Kompaniya boshqaruvini baholashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan omillar” maqolasida menejmentni baholash qiyin va faqat moliyaviy hisobotlarni o‘rganish yetarli emasligini ta’kidlaydi [1]. Rose Jonson o‘zining “Yaxshi boshqaruvning beshta sifati” maqolasida yaxshi menejmentning sifat ko‘rsatkichlarini keltiradi va yaxshi boshqaruv guruhini yaratish muvaffaqiyatli tashkilotning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydi. Menejment fazilatlari orasida axloq, halollik va ishonchlilik muhim o‘rin tutadi [2]. Jeyms Morgan, “muvaffaqiyatli boshqaruv tizimining formulasi nima” maqolasida, 34 ta turli mamlakatlardan 12000 ta firmaning boshqaruv amaliyoti va samaradorligini o‘rgangan. Natijada, kuchli boshqaruv jarayonlariga ega firmalar yuqori darajadagi boshqaruvda ancha yaxshi natijalarga rentabellik, o‘sish va chidamlilik kabi ko‘rsatkichlarga erishadi, degan xulosaga kelgan [3]. Amerikalik tadqiqotchi X. Libenshteyn ilmiy maqolasida “X-samarasizlik”atamasini kiritdi. U XX asrning 60-yillarida Amerika biznesida resurslardan kam foydalanish sodir bo‘lganligini aniqlagan, ammo u yo‘qotish manbalarini aniqlay olmadi, shuning uchun bu hodisani X-samarasizlik deb atadi. Boshqacha qilib aytganda, AQSh korporatsiyalari mavjud kapital, texnologiya va mehnat resurslari asosida o‘z daromadlarini 20 foizga oshirishi mumkin. Mavjud resurslardan olinadigan daromadlarni yanada oshirishning mumkin emasligi ishlab chiqarish omillarining ushbu darajasini samaradorlik chegarasi deb belgiladi [4].

Rossiyada ushbu sohani rivojlantirishga hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab mualliflar va tadqiqotchilar mavjud. Rus tilida ko‘rib chiqilgan adabiyotlar haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun menejment sifati bo‘yicha ilmiy nashrlar, monografiyalar va jurnallarga murojaat qilish tavsiya etiladi Tadqiqotchi S. V. Mixeeva “Некоторые аспекты оценки качества управления” asarida manfaatdor tomonlarning boshqarish sifatini oshirishda qo‘yilgan maqsadlarining darajalarini ko‘rsatib bergan [5]. M. Svitkinning “От менеджмента качества – к качеству менеджмента и бизнеса: миф или реальность?” nomli asarida boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari orqali boshqarish sifatiga baho berish o‘rganilgan. Bundan tashqari, boshqarish sifati talablarning boshqarishga muvofiqlik darajasi sifatida talqin etilgan. Ya’ni, boshqarish sifatini manfaatdor tomonlarning maqsadlariga erishish darajasi deb talqin qilingan [6].

Boshqarish sifati turli jihatlarda va turli pozitsiyalardan tadqiq qilinishi mumkin. Eng mazmundori iqtisodiy jihat bo‘lib, unda boshqarish sifati korxonaning biznesni muvaffaqiyatli yuritish ko‘nikmasining integratsiyalashgan tavsiloti sifatida ko‘rib chiqiladi. Boshqarish sifati faoliyat maqsadlarini tanlash va asoslashda, mahsulot yaratishning asosiy va xizmat ko‘rsatuvchi jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish usullarida, raqobat ustunliklarini aniqlash va shakllantirish bo‘yicha harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchilar Vladimir va Aleksandr Vinokurovlarning fikricha boshqarish sifati – bu ichki va tashqi muhitning muayyan omillariga ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlash, integratsiyalash va kombinatsiyalash yo‘li bilan korxonaning faoliyat yuritishi, rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun kerakli sharoitlarni yaratish imkoniyatini belgilovchi xossalar majmuasidir. Oxir-oqibatda, bu raqobat ustunliklarini to‘plash va amalga oshirish qobiliyatidir, ya’ni boshqarish sifatini oshirish nafaqat menejment tizimidagi va bu tizim elementlaridagi o‘zgarishlari bilan bog‘liqligi, balki u yanada o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi ham hisoblanadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqarish sifatini baholash ko‘rsatkichlari majmuasiga albatta, korxonaning bozordagi faoliyati natijalarini hisobga olish kiradi. “Boshqarish sifati” kategoriyasining mazmunini ta`riflay turib, tadqiqot obyektini ko‘p bosqichli yoritish tamoyilidan foydalanish kerak bo‘ladi, bunda uni ierarxik tuzilma sifatida tasavvur qilish lozim:

- korxonani boshqarish sifati;
- boshqarish tizimi sifati (obyektni boshqarish sifati);
- funksional sohalarni boshqarish sifati: tadqiqotlar va ishlanmalarni, ishlab chiqarishni, sotishni, xizmat ko‘rsatishni, moliyani va boshqalarni;
- resurslarni boshqarish sifati: moddiy, mehnat, axborot resurslari va boshqalar;
- guruh ijrochilari mehnati sifati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqarish sifatini ta`riflashda ko‘rib chiqilgan yondashuvlardan tashqari, boshqaruv sifati mikroiqtisodiy tizimni boshqarish samaradorligining xususiy mezoni sifatida ishlatiladi va foydalanilayotgan boshqarish tizimining ham statistik, ham dinamik tavsilotlariga, ya’ni tuzilish va faoliyat yuritishiga, boshqaruv tizimining muayyan vaziyatda o‘zini tutishiga, mikroiqtisodiy tizimning tez o‘zgaruvchi ichki va tashqi muhitda yashovchanlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi [8].

1.1 jadval: Boshqarish sifati tushunchasigaga berilgan ta’riflar

Mualliflar	Ta’riflar
Piter Druker	Boshqaruv sifati – tashkilotning resurslarni boshqarish va o‘z maqsadlariga eng kam xarajat bilan erishish qobilyati [9].
Frederik Teylor	Boshqaruv sifati – menejerning mavjud resurslardan maqbul foydalanish va noaniqlikni minimallashtirish orqali o‘z maqsadlariga erishish qobiliyati [10].
Jeyms Gerbert	Boshqaruv sifati – tashkilotning o‘zgaruvchan bozor sharoitlari va muhitiga moslashish, faktlar hamda tajribaga asoslangan qarorlarni qabul qilish, shuningdek, o‘z vazifalarini o‘z vaqtida va samarali bajarish qobiliyatidir [11].
Gari Hamel	Boshqaruv sifati – xodimlarni rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda saqlash qobiliyati, shuningdek, kompaniya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish [12].
Muallif ta’rifi	Boshqaruv sifati – boshqarish mexanizmi, xodimlarni va jarayonni boshqarish samaradorligining o‘lchovidir.

Boshqa manbalarda ushbu tushunchaning quyidagicha ta`riflari mavjud:

- samarali boshqaruv tizimi, oliy va o‘rta boshqaruv bo‘g‘inining yuqori malaka darajasi, boshqarish tizimi xodimlarining va mikroiqtisodiy tizim maqsadlari hamda vazifalariga uyg‘unligi;
- boshqariladigan tizim faoliyatining eng yaxshi natijadorligiga yo‘nalgan tizim talablariga, rejalashtirish funksiyalariga muvofiqligi;
- boshqarish kompleks natijadorligi mezoni elementi [14].

Bunda jarayonlarni optimallashtirish orqali menejerlar ishni tashkil qilishni yaxshilash, samarali rejalashtirish va boshqarish tizimlariga rivojlangan metodlarini qo‘llash orqali boshqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, menejment sifatini oshirish ishlab chiqarishning samaradorligi va korxonaning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalar va ish usullarini joriy qilish Lean Manufacturing yoki Six Sigma kabi sifatni yaxshilash vositalarini qo‘llash vaqt va resurs yo‘qotishlarini kamaytirish, ishlab chiqarish tezligi va moslashuvchanligini oshirish imkonini beradi.

Boshqaruv sifati bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish natijasida turli ta’riflarni keltirish mumkin, ya’ni boshqarish sifati – bu boshqarish mexanizmi, xodimlarni boshqarish va jarayonni boshqarish samaradorligining o‘lchovidir. Mazkur ta’rifning o‘rganish obyekti boshqarish mexanizmi, xodimlar va boshqarish jarayoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hayes, Factors to Consider When Evaluating Company Management [Электронный ресурс] // Investopedia.com. 30 December 2020. Режим доступа: https://www.investopedia.com/articles/02/062602.asp (дата обращения: 11.02.2022 г.).
2. Johnson, Five Qualities of Good Management [Электронный ресурс] // Chron.com., 29 January 2019. Режим доступа: https://smallbusiness.chron.com/five-qualities-good-management-25297.html (дата обращения: 11.02.2022 г.).
3. Morgan, What’s The Formula for a Successful Management System? [Электронный ресурс] // Businessblog.com., 4 Oct 2018. Режим доступа: https://mcgrawhillprofessionalbusinessblog.com/2018/10/04/whats-the-formula-for-a-successful-management-system/ (дата обращения: 11.02.2022 г.).
4. Liebenstein, Allocative versus “X” Efficiency.- American Economic Review, 56, 1966.–pp.392-415.
5. Михеева С. В. Некоторые аспекты оценки качества управления // Методы менеджмента качества.–2003. № 3.–С 29-31.
6. Свиткин М. От менеджмента качества – к качеству менеджмента и бизнеса: миф или реальность? // Стандарты и качество. – 2004. № 1.-С14-21.
7. Винокуров В., Винокуров А. Качество управления как фактор укрепления рыночных позиций предприятия // Стандарты и качество. – 2005.№12.–С. 49-55.
8. Дмиров Ю. Д. Квалиметрия и сертификация продукции.-М.:ИПК Издательство стандартов.1996.–281 с.
9. Питер Друкер. “Эффективный менеджмент” (The Effective Executive) – 1967 г.
10. Frederik Тейлор. “Руководство качеством” (The Quality Improvement Handbook) – 1919 г.
11. Жеймс Герберт. “Лидерство” (Leadership: What It Is, What It Takes, and How It Develops) – 1977 г.
12. Гари Hamel. “Лидерство без рангов” (The Future of Management) – 2011 г.
13. Ponyatie vektora seley vstrechaetsya v rabotax V. B. Zagorchik – http://www.opora-tmn.ru/advocacy/GF_TO23.html.

ВАЖНОСТЬ ДАННЫХ О ДВИЖЕНИИ ЗАТРАТ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ

Расулова Ш. Х.
Ферганский политехнический институт, докторант

Аннотация: В статье проведен критический анализ информационных потребностей управления в формировании информации для принятия управленческих решений при снижении издержек производства. Выявлена проблема правильной оценки текущих и будущих расходов с целью обоснования целесообразности принимаемых решений. Выделены этапы формирования информации о величинах переменных и постоянных затратах, связанных с принятием управленческих решений. Проанализированы трудности, возникающие при прогнозировании будущих расходов.

Ключевые слова: управление затратами, снижение затрат, затратное поведение, учет затрат, динамика затрат, переменные затраты, постоянные затраты, управленческие решения.

Annotatsiya: Maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotni shakllantirish masalalari, boshqaruvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlari tanqidiy tahlil qilindi. Qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun joriy va kelajakdagi xarajatlarni to‘g‘ri baholash muammosi aniqlandi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog‘liq o‘zgaruvchilar va doimiy xarajatlar to‘g‘risida ma‘lumot shakllantirish bosqichlari o‘rganildi. Kelajakdagi xarajatlarni bashorat qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish, xarajatlar harakati, xarajatlarni hisobga olish, xarajatlar dinamikasi, o‘zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar, boshqaruv qarorlari.

Abstract: The article provides a critical analysis of the information needs of management in the formation of information for making managerial decisions while reducing production costs. The problem of the correct assessment of current and future expenses in order to justify the expediency of decisions is revealed. The stages of forming information about the values of variables and fixed costs associated with managerial decision-making are highlighted. The difficulties encountered in forecasting future expenses are analyzed.

Key words: cost management, cost reduction, cost behavior, cost accounting, cost dynamics, variable costs, fixed costs, management decisions.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях рыночной экономики широкомасштабное осуществление мероприятий по модернизации, техническому и технологическому перевооружению производства практически во всех отраслях и сферах промышленности расширяет возможности производства конкурентоспособной продукции.

Высокие темпы развития мировой экономики и ее особенности требуют профессионального подхода к активизации деятельности предприятия. Данная тема затрагивает важнейший элемент политики управления затратами предприятия, а именно стратегическое управление затратами на предприятии в условиях конкуренции.

Основная задача предприятий заключается в повышении их доходов, организации долгосрочной эффективной работы и обеспечении функционирования предприятий в наиболее благоприятных условиях. [20, 21]

Принятия правильных управленческих решений для вышеуказанной задачи, очень важно правильно прогнозировать их результаты. При отсутствии необходимой информационной базы и ресурса ошибки, допущенные при принятии решений, могут привести к потере фирме позиции на рынке, снижению доверия потребителей, а также к ухудшению ее финансового положения. Для лица, принимающего решения, в первую очередь требуется умение предвидеть финансовый результат и последствия их реализации, что напрямую связано с затратами и доходами предприятия: в странах с развитой эко-

номикой фирмы и компании тратят почти 90% своего рабочего времени в области бухгалтерского учета на организацию и ведение управленческого учета [1].

В дальнейшем лицо, принимающее решение, должно четко понимать причины изменения тех или иных затрат, чтобы правильно оценить их стоимость. Иными словами, любые попытки принятия решения без реальной оценки уровня и динамики изменения затрат обречены на провал.

На этапе подготовки управленческих решений и разработки альтернативных вариантов использования ресурсов необходим анализ затрат предприятия, позволяющий не только определить их взаимосвязь со сферой деятельности, но и структуру затрат, переменные, постоянные и смешанные затраты определяют величину общих затрат [5]. Еще один немаловажный вопрос особенно важен для подготовки управленческих решений, связанных с изменением объемов выпускаемой продукции, получением дополнительных заказов, привлечением инвестиций в модернизацию оборудования и т. д.

Целью данного исследования является установление основных критериев оценки данных о фактических и ожидаемых затратах предприятия, необходимых для правильного прогнозирования результатов принимаемых управленческих решений.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В результате анализа и обобщения полученных данных разработаны предложения по организации последовательного анализа фактических и ожидаемых затрат на основе использования важнейших критериев оценки их взаимосвязи с принимаемыми решениями. Реализация предложений позволяет сформировать качественную информационную базу для принятия эффективных управленческих решений и правильной оценки их последствий.

Для правильной оценки будущих расходов необходимо, прежде всего, разграничить их функциональную зависимость от уровня деловой активности. Как отмечает К. Уорд, “легко догадаться, если существует достоверно установленная связь между затратами на ввод и расходами на последующие производственные ресурсы. Такая взаимосвязь обусловлена технологическими особенностями производственного процесса, позволяющими точно прогнозировать объемы потребления различных ресурсов на одном или нескольких уровнях производства. Таким образом, “отклонения от ожидаемого объема объясняются относительной эффективностью производства, а не ошибкой в прогнозировании взаимозависимости” [6]. Классификация затрат по объему деятельности широко используется в экономической науке, однако ее практическое применение часто вызывает определенные трудности [7, 8, 9].

Однако существуют и затраты, непосредственно связанные с каждой единицей, выделенной в качестве показателя хозяйственной деятельности, но величина которых зависит от объема деятельности через партию выпускаемой продукции, количество принятых и выполненных заказов и другие параметры, причем затраты связаны не с каждой калькуляционной единицей, а с их группой, например, с частью выпускаемой продукции [10, 19].

Примером таких затрат могут служить транспортные расходы, затраты на обработку оборудования, проверку качества выпускаемой продукции и т.п. подобные затраты следует характеризовать как условные переменные, поскольку для расчета переменных затрат и предельной прибыли их величина принимается условно за уровень хозяйственной деятельности, т. е. за переменную.

Что касается постоянных затрат, то их величина на единицу деятельности всегда колеблется – в зависимости от конкретного объема производства. Поэтому при принятии решения рекомендуется учитывать допустимые затраты в полном объеме, не распределяя их между единицами продукции, [12, 13] величина постоянных расходов не зависит от объема деятельности, а зависит от периода, к которому они относятся. Например, размер арендной платы будет зависеть от того, в какой период мы ее выплачиваем – ежемесячно или ежеквартально. Когда вы прекращаете производство, большинство производственных затрат уменьшается или полностью исчезает, но постоянные затраты остаются на том же уровне. Поэтому их можно определить как периодические. По большей части постоянные затраты” зависят от используемого количества, а не от количества приобретенных ресурсов”, поэтому их стоимость часто определяется” планируемым, а не фактическим уровнем активности” [14].

Кроме оценки функциональной зависимости затрат от степени активности, необходимо учитывать период, связанный с принятием управленческого решения: в зависимости от его продолжительности информация может не соответствовать реальной ситуации.

Переменные затраты, например, изменяющиеся пропорционально объему производства или представляющие собой иное выражение уровня хозяйственной деятельности предприятия, К. Друри называет краткосрочные переменные затраты, которые показывают, что их линейная зависимость от объема деятельности сохраняется только в ограниченном диапазоне и совершенно по-разному отображается при значительном изменении активности [15].

Он также отметил, что если рассматривать очень короткий период времени, равный, например, одному месяцу, то любые затраты можно оценить как постоянные, независимо от уровня деловой активности, и наоборот, в долгосрочной перспективе все затраты будут реагировать на изменение объема деятельности и, таким образом, связаны с переменными [15]. Однако, говоря о постоянных затратах, следует учитывать, что они могут различаться по своей роли и характеру и поэтому должны оцениваться по-разному при оценке управленческого решения.

МЕТОДОЛОГИЯ И МЕТОДЫ

Теоретической и методологической основой статьи послужили работы ведущих узбекских и зарубежных ученых, посвященные проблемам организации учета и анализа управления расходами, в частности, подготовке информации для принятия управленческих решений.

Исследование включает в себя: метод научных абстракций, анализ и синтез, индукцию и дедукцию, а также системный подход. Были проанализированы основные проблемы, с которыми сталкивается управление производственными компаниями, приняты различные управленческие решения, приводящие к изменениям в структуре и уровне затрат [2, 3, 4].

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В частности, можно выделить долгосрочные постоянные затраты, связанные с капитальными вложениями, осуществляемыми на создание или приобретение зданий, машин, оборудования, а также на найм высококвалифицированного персонала [11, 17]. Эти расходы включают в себя амортизацию и расходы на поддержание производственных мощностей (включая страховые взносы и налоги), а также заработную плату на руководящей должности. Как правило, эти виды затрат не могут быть сокращены в краткосрочной перспективе, так как даже в условиях экономического кризиса предприятия стараются избегать принятия решений о сокращении своих внеоборотных активов, поскольку в дальнейшем затраты на их восстановление значительно превышают средства, полученные в результате такого сокращения. Эти затраты не только не изменяются под влиянием текущих решений, но и, как правило, не требуют повышенного внимания со стороны руководства, так как не требуют больших усилий для их контроля.

Таким образом, можно сделать вывод, что долгосрочные постоянные затраты напрямую связаны со стратегическими управленческими решениями и требуют большей осторожности, чем существующие (необязательные), которые могут корректироваться в зависимости от конкретной ситуации, в которой возникает компания.

Иными словами, при планировании расходов задолго до начала отчетного периода информация может существенно устареть в момент фактического потребления ресурсов, а потому планирование основного фактического анализа текущего контроля переменных затрат будет малоинформативным.

Если говорить о кризисной ситуации, то для оценки управленческих решений и выбора одной из возможных альтернатив, связанных с дополнительными затратами, следует использовать следующее правило: “необходимо принимать решения, позволяющие получать доход сверх постоянных затрат” [15].

Оценка величины и поведения затрат часто связана с принятием решения о начале выпуска новых видов продукции, а также с изменением существующей структуры сбыта и ассортимента выпускаемой продукции. В этом случае важно правильно определить затраты, связанные с отдельными продуктами, как новыми, так и уже поставляемыми на рынок, особенно для компаний, которые производят широкий спектр продуктов и услуг.

В целом этапы прогнозирования переменных и постоянных затрат, связанных с принятым решением, приведены в таблице 1. [16]

Таблица 1: Этапы оценки стоимости переменных и постоянных затрат, связанных с принятием управленческих решений

1-этап	2-этап	3-этап	4-этап	5-этап
Определяя основной показатель эффективности бизнеса, затраты группируются	Различают переменные, условные переменные, постоянные и условные издержки	Определение нормативных значений переменных затрат в зависимости от единицы предпринимательской деятельности	Изменение существующего уровня затрат в связи с принятым решением или определение возникновения новых постоянных затрат	Определение общей прогнозной величины изменения затрат в результате принятия управленческого решения

На наш взгляд, постоянные затраты для принятия управленческих решений следует подразделить на категории риска:

1. Категория-расходы, не влекущие за собой серьезных последствий для бизнеса;
2. Категория-сокращение данной группы расходов может иметь негативные последствия, поэтому может быть осуществлено только в краткосрочной перспективе;
3. Категория-решение об их сокращении может иметь основные последствия для бизнеса, которые в конечном итоге будут приняты только в очень короткие сроки.

Такая оценка позволит избежать ошибок при сокращении затрат, которые могут иметь негативные долгосрочные последствия для деятельности компании.

Установление правильного уровня себестоимости связано с определением рентабельности не только продукта, но и отдельного клиента. Один и тот же товар, поставляемый различным покупателям, использование специальной системы скидок, льготных расчетов, удаленность клиента от складов компании, дополнительное хранение, доставка, обслуживание и т.д. k. важно понимать, что такие факторы, как стоимость, могут иметь различные затраты, которые могут быть затронуты.:

- рекомендуется включать в цену продукции не только затраты на производство, но и те, которые не включают затраты на производство;
- в качестве объекта калькулирования, связанного с затратами компании, можно выделить не только конкретные виды продукции (работ, услуг), но и отдельного клиента, если условия обслуживания компании индивидуализированы для клиента.

Другим важным вопросом, связанным с подготовкой информации для принятия управленческих решений, является распределение затрат и издержек, которые не добавляют ценности продукту, то есть затрат, составляющих добавленную стоимость, или создание потребительской стоимости продукта. Это соотношение затрат очень важно для компании и может стать серьезным конкурентным преимуществом в условиях сокращения рынка из-за снижения покупательной способности клиентов.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Для принятия управленческих решений необходимо иметь четкое представление о моделях затратного поведения, предполагающих планирование определенных уровней затрат, связанных с принятием решения. Качество оценки цен и, следовательно, обоснования управленческих решений имеет особое значение в условиях высокой конкуренции на рынке товаров и услуг. Для правильного прогнозирования финансовых результатов выполняемых действий необходимо последовательно анализировать зависимость уровня, состава и структуры затрат от различных факторов.

Оценка затрат, связанных с осуществленными действиями, должна проводиться как в текущей, так и в долгосрочной перспективе. Например, решения, связанные с приобретением внеоборотных активов, требуют предварительной оценки стратегических преимуществ использования этих активов, а также рисков, которые могут быть реализованы в неблагоприятной ситуации. В частности, это может быть конкурентное преимущество за счет снижения издержек производства, увеличения объемов производства, использования меньшей рабочей силы или привлечения менее квалифицированного персонала, сокращения продолжительности производственного цикла, более быстрой обработки заказов, повышения лояльности покупателей. Особое внимание следует уделить взаимосвязи между поступлениями будущих доходов и расходами, связанными с клиентами компании, а не с продукцией.

Правильная оценка будущих издержек применительно к принятым управленческим решениям позволяет, с одной стороны, качественно повысить эффективность использования ресурсов, а с другой-последовательно реализовать стратегические цели хозяйствующего субъекта.

Список использованной литературы:

1. Bozorov Bobur Haqberdievich (2021). Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish yo'llari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (1), 132-137.
2. Фозилов, Х. Р., & Фозилов, И. Р. (2020). Экономический анализ и его роль в управлении предприятием. In Вопросы управления и экономики: современное состояние актуальных проблем (pp. 16-19).
3. Kurbonalievna, I. G. (2021). The ways to improve the internal corporate governance mechanisms in joint-stock companies. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 255-259.
4. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. South Asian Journal Of Marketing & Management Research, 11(5), 17-20.

5. Temirkulov, A. A. (2020). The correct acceptance of the investment decision is a factor of success of implementation of the process. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 689-692.
6. Уорд, К. Стратегический управленческий учет / пер. с англ. Е. Осмоловского. – М.: Олимп-Бизнес, 2002. – 448 с.
7. Кудбиев, Д. К., & Турсунова, Д. Д. (2018). Основные принципы бухгалтерского учёта основных средств. In Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века (pp. 87-93).
8. Керимов, В. Э. Бухгалтерский управленческий учет: учебник. – М.: Дашков и К, 2019. – 400 с.
9. Левчаев, П. А., Осипов В. И. Финансовый механизм и управленческий учет расхода производственных ресурсов ком-пании: монография. – М.: Инфра-М, 2021. – 231 с.
10. Этрилл, П., Маклейни, Э. Финансовый менеджмент и управленческий учет для руководителей и бизнесменов / пер. с англ. В. Ионова. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 648 с
11. Атабаева, З. А. (2019). Организация учета инвестиций на Капитальные вложения. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)).
12. Исманов, И. Н., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Организация учета инвестиций в Капитальные вложения. Вестник науки и образования, (12-3 (66)).
13. Исманов Иброхим Набиевич, & Хабижонов Салохиддин Кахрамонжон Угли (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учета долгосрочных активов. Вестник науки и образования, (10-4 (64)), 41-45.
14. Аткинсон, Э. А., Банкер, Р Д., Каплан, Р. С., Янг, М. С. Управленческий учет: учебник / пер. с англ. А. Д. Рахубовского, Д. А. Рахубовской – 3-е изд. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2007. – 880 с.
15. Друри, К. Управленческий учет для бизнес-решений / пер. с англ. В. Н. Егорова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юнити- Дана, 2012. – 657 с.
16. Таблица составлена автором.
17. Тошмаматов, Н., Исманов, И. Н., & Хожаев, А. С. (2019). О некоторых вопросах предмета бухгалтерского учета. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)).
18. Kunduzova, K. I. (2020). Ways to attract investment and improve its accounting. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 216-221.
19. Нурматов, О. Т. (2017). Процесс модернизации в Узбекистана: вчера и сегодня. Theoretical & Applied Science, (4), 206-210.
20. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333.
21. Savinova, G. A. (2020). Economic analysis and management of small businesses. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 227-230.

KORXONALAR DAROMADLARIGA TA'SIR QILUVCHI RISKLARNING TAHLILI

Sa'dullayev Oybek Turdiali o'g'li
Toshkent Moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarning umumiy kategoriyalari va ularni baholash shkalalari hamda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning tahlili berilgan. Bundan tashqari, korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risklarni ta'sir darajasini baholash bo'yicha risk mukofotini hisoblash formulasi taklif etilgan. Ushbu risk mukofatini ta'sir darajasini mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: murakkab risklar, oddiy risklar, bozor riski, ishlab chiqarish riski, moliyaviy risk, risk kategoriyalari, risklarni tasniflash, risk matritsasi.

Abstract: This article provides an analysis of the general categories of risks affecting the activities of enterprises and their evaluation scales, as well as the indicators used. In addition, a formula for calculating the risk premium is proposed for assessing the level of influence of market, production, and financial risks affecting the activities of enterprises. The criteria for the impact level of this risk-reward have been developed. Abstract of the article: In this article, the general categories of risks affecting the activity of enterprises and their evaluation scales and the analysis of the used indicators are given. In addition, a formula for calculating the risk premium is proposed for assessing the level of influence of market, production, and financial risks affecting the activities of enterprises. Criteria for the impact of this risk-reward have been developed.

Key words: complex risks, simple risks, market risk, production risk, financial risk, risk categories, risk classification, risk matrix.

Аннотация: В статье представлен анализ общих категорий рисков, влияющих на деятельность предприятий и шкал их оценки, а также используемых показателей. Кроме того, предложена формула расчета премии за риск для оценки уровня влияния рыночных, производственных и финансовых рисков, влияющих на деятельность предприятий. Разработаны критерии уровня воздействия данного вознаграждения за риск.Аннотация статьи: В статье приведены общие категории рисков, влияющие на деятельность предприятий, шкалы их оценки и анализ используемых показателей. Кроме того, предложена формула расчета премии за риск для оценки уровня влияния рыночных, производственных и финансовых рисков, влияющих на деятельность предприятий. Разработаны критерии влияния данного вознаграждения за риск.

Ключевые слова: сложные риски, простые риски, рыночный риск, производственный риск, финансовый риск, категории рисков, классификация рисков, матрица рисков.

KIRISH

Keyingi yillarda jahon iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar barcha davlatlardagi korxona va tashkilotlar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir darajasi ortib bormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish faoliyati bevosita jahon bozori bilan bog'langan korxonalarda bu holat keskin kuzatilmoqda. Ishlab chiqarish faoliyati bilan dunyoda yetakchi o'rinda bo'lgan Xitoy davlatidagi juda ko'plab iqtisodiy tarmoqlarda oladigan foydasi keskin pasayib ketganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida 41 sanoat toifasidan 13 ta sanoatning jami foydasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sgan, 28 ta sanoatda esa pasaygan. Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha umumiy foydasi quyidagicha bo'lgan: elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berishdan olingan umumiy foyda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,2 foizga, elektr mashinalari va apparatlari ishlab chiqarish 33,7 foizga, mahsulot ishlab chiqarish esa 33,7 foizga oshgan. Maxsus avtomobillar ishlab chiqarish 2,1 foizga, avtomobil ishlab chiqarish 1,0 foizga, neft va tabiiy gaz ishlab chiqarish 11,4 foizga, to'qimachilik sanoati 20,3 foizga, ko'mir qazib olish va boyitish 26,2 foizga, kompyuterlar ishlab chiqarish 26,2 foizga kamaygan. Bundan tashqari, aloqa va boshqa elektron jihozlar 26,4 foizga, nometall mineral mahsulotlar

ishlab chiqarish 28,8 foizga, qishloq xo‘jaligi va qo‘shimcha mahsulotlardan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash 32,6 foizga, rangli metallarni eritish va presslash 36,7 foizga, ishlab chiqarish 36,7 foizga kamaygan.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar natijasida bozorlarda oziq-ovqat narxlari kun sayin yuqori sur’atlar bilan o‘smoqda. Tadqiqotimiz obyekti bevosita don mahsulotlariga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlar bo‘lganligi uchun aynan shu sohadagi holatni tahlil qilamiz. Hozirda xalqaro birjalarda 1 tonna bug‘doy 400 AQSh dollaridan sotilmoqda va yil boshiga nisbatan 30 foizga oshgan. Shunday sharoitda, narx-navo barqarorligini ta’minlashning yagona to‘g‘ri yo‘li, bu – fermerlar manfaatdorligini ta’minlash va hosildorlikni oshirish orqali bozorda taklifni ko‘paytirishdir

2022/2023 marketing yilida Xitoy bug‘doy yetishtirish bo‘yicha 137 million tonnadan ortiq ishlab chiqarish bilan yetakchi mamlakat bo‘ldi. Undan keyin 134 million tonnadan ortiq ishlab chiqarish hajmi bilan Yevropa Ittifoqi turadi.

Demak, g‘allachilikda samarali ishlaydigan bozor mexanizmlarini to‘liq joriy etish zamon talabiga aylandi. Hozirda ushbu sohada xususiy sektor ulushi ortib bormoqda. Xususan, so‘nggi 3 yilda mamlakatimizda 160 dan ortiq yirik xususiy don korxonalari ish boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.05.2022-yildagi “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-262-son qarori qabul qilindi. G‘allani sotib olish va sotishda yangi tizim shaffofligi, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda bug‘doy yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta’minlash, ichki bozorda un va don mahsulotlari narxining o‘sishi va taqchilligining oldini olish bo‘yicha Respublika shtabi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 25-noyabrdagi PQ–10-son qaroriga muvofiq, shuningdek, g‘alla bozorini erkinlashtirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish, ichki bozorni bug‘doy va un mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hamda ularning narxlari barqarorligini saqlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyundagi 227-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida viloyatlarda turli tadbirlar tashkil etildi.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan birga, ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi risklar darajasi ham ortib bormoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat sohasida yuzaga kelayotgan turli ijtimoiy holatlar bu sohaga risk darajasini ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalari daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni tasniflash orqali ularni oldining olish bo‘yicha aniq mexanizmlar taklif etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni darajasini ortishiga asosiy sabab sifatida bu korxonalarda strategiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagani sifatida qaraladi. Jumladan, “har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog‘liq bo‘ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo‘lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo‘lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o‘rin egallash uchun imkon bermaydi deb ta’kidlaydilar.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining hissasi oshib borayotgan hozirgi paytda ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir korxona, firma yoki tadbirkor raqobat sharoitlarida xo‘jalik yuritish tizimida sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda o‘ziga xos munosib o‘rin egallashga intiladi.

Korxonalar moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish murakkab iqtisodiy hisob-kitoblar va tahlillarni talab qiladi. Bu esa korxonaning moliyaviy holatini ma’lum bir davrga tahlil qilishni taqozo etadi. Moliyaviy holatni tahlil qilish keyingi davrlarga mo‘ljallangan moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Moliyaviy strategiya korxonalarning moliyaviy resurslarini kelgusida samarali joylashtirish orqali yuqori foyda olishga qaratilgan bo‘ladi.

Foyda korxonalar faoliyatini o‘lchashning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarning diqqat markazida bo‘ladi. So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab moliyaviy firibgarlik holatlarining paydo bo‘lishi bilan buxgalteriya hisobidan olingan foydaning haqiqiyligi va ishonchliligi shubha ostiga qo‘yilmoqda. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchi e’tiborni buxgalteriya hisobi foydasining miqdoridan sifatiga qaratadi. Foyda sifatini har tomonlama va oqilona baholash masalasi korxonaning moliyaviy tahlilining mavzusiga aylandi. Hozirda dunyoda yagona baholash tizimi va usuli yaratilmagan. Amaliyotda firma daromadlari sifatini baholash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan to‘rtta usulni umumlashtiradi va baholaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, barcha turdagi usullar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir usulning ham afzalliklari, ham kamchiliklari bor. Daromad sifatiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi deb ishoniladi va baholash natijasining to‘g‘riligini ta’minlash uchun har tomonlama baholash uchun turli usullardan foydalanish mumkin.

Deyarli har qanday tashkilot risklarni boshqaradi, faqat ba’zilari voqea sodir bo‘lgandan keyin risklarni baholaydilar, boshqalari esa doimiy va tizimli ravishda baholash bilan shug‘ullanadilar. Bunday baholashning

maqsadi – boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish uchun tashkilotga xos bo‘lgan turli xil risklarning darajasi va dinamikasi haqida ma’lumot olish hisoblanadi. Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, korxonalar daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni aniq tasnifini aniqlash hamda ular asosida risklarni kategoriyalarga bo‘lish orqali natijaga erishish lozim bo‘ladi. Bu esa korxonalarni har bir ko‘rsatkichini ushbu baholash metodlariga qo‘llash orqali ularga ta’sir qiluvchi risklarni aniq darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona va tashkilotlarning oladigan daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni baholash bo‘yicha ko‘plab metodologiyalar yaratilgan hamda ular asosida turli baholash metodlari taklif etilgan. Jumladan, hozirgi kunda jahon amaliyotida keng foydalaniladigan quyidagi metodlar bilan tanishib chiqamiz.

Birinchisi, GRIF, Condor va RiskWatch metodi hisoblanadi. Ushbu tizimlar bir qator afzalliklarga ega, ammo yuqori sifatli riskni hisoblashning yo‘qligi kompaniya tomonidan chuqur tushunilmaganligi sababli “rahbariyat va xodimlar tomonidan tushunish qulayligi” mezonini qondirishga imkon bermaydi. Risksiz axborot maydonini yaratish uchun riskni hisoblashning to‘liq ahamiyatini boshqarish, kontur axborot xavfsizligini (IS) belgilaydi. Tashkilot rahbariyati uchun tashkilot foyda sifatida ololmaydigan miqdoriy yo‘l bilan olingan hisoblangan moliyaviy resurslardan ko‘ra sifatli riskni baholashni qabul qilish ancha qulayroq bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor foydaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni sifatli baholash asosiy masala sifatida ko‘riladi.

Ikkinchisi, CRAMM va RiskWatch metodlari. Ushbu metodlarni tizimni joriy qilish va saqlash uchun ko‘p mehnat talab qiladi va bu sohada mutaxassislarning kamligi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi. Ushbu metodni amalga oshirishda kompaniyada ko‘plab xodimlarni jalb etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu holatda oladigan daromad va risklarni baholash aniq bir tizim orqali boshqarilsa-da, uning umumiy kamchiligi ko‘plab xodimlarni jalb etish hisoblanadi.

Uchinchisi, CORAS metodologiyasi axborot xavfsizligi risklarini doimiy monitoring qilish uchun mos emas. Undan foydalanish risklarni bir martalik hisoblash va hozirgi vaqtda haqiqiy rasmni aniqlash uchun tavsiya etiladi. Bunda risklarni daromadga ta’siri bir marta holat orqali baho berilishi natijasida xulosaga kelinadi. Bu holat doimo o‘zini oqlamasligi mumkin.

To‘rtinchisi, FRAP metodi. Ushbu metod inson omilini hisobga olmaydi, zaif monitoring mexanizmiga ega va katta miqdordagi statistik ma’lumotlarni talab qiladi, bu tizimni tashkilotlarda joylashtirishni qiyinlashtiradi. Bunda tashkilot oladigan daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni darajasi aniqlanishiga qaramasdan ko‘plab statistik ma’lumotlar kiritilishi talab etadi.

Beshinchisi, OCTAVE metodologiyasi turli tashkilotlarga mo‘ljallangan cheklangan miqdordagi mahsulotlarda qo‘llaniladi. Tashkilotni modernizatsiya qilishda, hatto ushbu tizimda qolsa ham, katta o‘zgarishlar talab etiladi. Shuningdek, metodologiyada ISO 15408, 27001 xalqaro axborot xavfsizligi standartlariga muvofiq inson omili bo‘yicha tavsiyalar, shuningdek, COBIT standarti (axborot tizimlarini boshqarish, nazorat qilish va auditi metodologiyasi) talablari hisobga olinmaydi. Uning yangi versiyasi COBIT 5 IT (IS) tizimiga 7 ta ta’sir omilini (enabilerlarni) ko‘rib chiqadi: tamoyillar, siyosat va yondashuvlar, jarayonlar; tashkiliy tuzilma; kadrlar, malaka va malakalar; madaniyat; axloq va xulq-atvor; ma’lumot; xizmatlar, infratuzilma va ilovalar.

Bundan kelib chiqadiki, “hozirgi vaqtda maqsadli auditoriyaga mos keladigan universal metodologiya mavjud emas. Va ularning mavjudligi juda muhim, chunki ba’zi menejerlar o‘z tashkilotlarida, shu jumladan, bozorda mavjud bo‘lgan axborot xavfsizligi dasturlari to‘liq takomillashtirilmaganligi sababli, xavflarni baholash ishlarining ahamiyatini hali ham tushunmaydilar”.

Demak, har qanday tashkilot oladigan daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni baholash metodologiyasini yaratishda barcha omillarni hisobga muhim hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonni to‘liq baholashda tashkilot daromadiga ta’sir qiluvchi har qanday risk kategoriyalarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Risklarni tahlil qilish metodologiyasi kumulyativ usul bilan hisoblangan to‘siqni diskontlash chegirma stavkasidan foydalangan holda moliyaviy hisobotlar asosida tashkilotning riskliligini baholashni o‘z ichiga oladi.

$$r = r_f + RP \quad (1)$$

Bu yerda, r_f – risksiz foiz stavkasi, RP – risk uchun mukofot.

Risk mukofoti tashkilotning beshta risk toifasidan biriga tasnifi asosida aniqlanadi. Tashkilotni risk toifalariga tasniflash ko‘rsatkichlari bozor, ishlab chiqarish (operatsion) va moliyaviy risklarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlardir. Tashkilotlarning qisqacha tavsifi, shuningdek, risk mukofoti darajasi jadvalda keltirilgan.

1-javdal: Tashkilotlarning risk bo‘yicha kategoriyalarga ajratish tasnifi

Tashkilotning risk bo‘yicha kategoriyasi	Risk uchun mukofot, %	Tashkilot to‘g‘risida qisqacha ma’lumot
Birinchi kategoriya: past darajali risk	5-8	bozorda uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritayotgan, investorlarga ma’lum, doimiy ravishda o‘sib borayotgan savdo hajmi, o‘sib borayotgan foyda, yuqori kredit reytingi, yuqori sifat menejmenti, yaxshi ishbilarmonlik obro‘si, davlat tomonidan qulay rejimga ega bo‘lgan tashkilotlar
Ikkinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan past	9-11	mahsulotlarni barqaror sotish, barqaror moliyaviy natijalar, yaxshi kredit reytingi, yuqori sifat menejmenti, davlat tomonidan hech qanday da’volarga ega bo‘lmagan tashkilotlar
Uchinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtacha	12-16	bozorlardagi o‘rtacha mavqeyi, o‘tmishdagi barqaror moliyaviy natijalari, ammo kelajak uchun noaniq prognozi, qisqa muddatli kredit tarixi, davlat tomonidan da’volarning yo‘qligi bilan tavsiflangan yuqori sanoat raqobatiga ega bozorlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar.
To‘rtinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan yuqori	17-25	yuqori sanoat raqobati bo‘lgan bozorlarda faoliyat yuritadigan, beqaror savdo hajmiga, beqaror moliyaviy natijalarga, katta miqdordagi majburiyatlarga ega bo‘lgan tashkilotlar
Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori	26-35	beqaror savdo hajmi, past sifatli moliyaviy natijalar, katta hajmdagi majburiyatlar, moliyaviy beqarorlik belgilari bo‘lgan tashkilotlar

Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda tashkilotlarga ta’sir qiluvchi risklarni kategoriyalarga bo‘lishda asosan 3 ta muhim holatiga e’tibor qaratadilar. Ushbu tadqiqotlarda risk kategoriyalar 3 bosqichga amalga oshiriladi[1].

2-jadval: Tashkilotlarning risk bo‘yicha kategoriyalarga ajratish tasnifi[2]

Tashkilotning risk bo‘yicha kategoriyasi	Risk uchun mukofot, %	Tashkilot to‘g‘risida qisqacha ma’lumot
Birinchi kategoriya: past darajali risk	0-55	bozorda uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritayotgan, investorlarga ma’lum, doimiy ravishda o‘sib borayotgan savdo hajmi, o‘sib borayotgan foyda, yuqori kredit reytingi, yuqori sifat menejmenti, yaxshi marketing, raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilgan, yaxshi ishbilarmonlik obro‘si, mijozlar ishonchi baland, ikkilamchi bozorda qimmatli qog‘ozlarga talab yuqori bo‘lgan, davlat tomonidan qulay rejimga ega bo‘lgan tashkilotlar
Uchinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtacha	56-75	bozorlardagi o‘rtacha mavqeyi, o‘tmishdagi barqaror moliyaviy natijalari, ammo kelajak uchun noaniq prognozi, qisqa muddatli kredit tarixi, ishlab chiqarishga keng raqamli texnologiyalar qo‘llanilmagan, davlat tomonidan da’volarning yo‘qligi bilan tavsiflangan yuqori sanoat raqobatiga ega bozorlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar.
Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori	76-100	beqaror savdo hajmi, past sifatli moliyaviy natijalar, katta hajmdagi majburiyatlar, moliyaviy beqarorlik belgilari deyarli yo‘q bo‘lgan, reyting darajasi past, ikkilamchi bozorda qimmatli qog‘ozlarga nisbatan ishonch keskin pasayib ketgan tashkilotlar

Tashkilotlar daromadiga yuqori ta’sir qiluvchi risklarni kategoriya ajratishda ko‘plab tadqiqotchilar biznes mijozlar ma’lumotlari, savdo ma’lumotlari va biznes tomonidan to‘plangan boshqa ma’lumotlarga qiziqqan xakkerlar tomonidan nishonga olinishi riskini mavjudligini yuqori baholaydilar.

Buzg‘unchilikning oqibatlari orasida mijozlarga oid maxfiy ma’lumotlarning yo‘qolishi, kompaniya obro‘siga tahdid va buzg‘unchilikning xususiyatiga qarab, kompaniyaning bank ma’lumotlarini buzish riski mavjud.

1 Fiala, R., and Hedia, V. (2015). The relationship between firm size and growth: the case of the Czech Republic. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 63(5), 1639–1644. https://doi.org/10.11118/actaun201563051639

2 Fiala, R., and Hedia, V. (2015). The relationship between firm size and growth: the case of the Czech Republic. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 63(5), 1639–1644. https://doi.org/10.11118/actaun201563051639

Hozirgi vaziyat quyidagi shkala bo‘yicha baholanadi[3]:
Ehtimollik: Yuqori (3-daraja)
Ta’sir: juda yuqori (4-daraja)
Xavf darajasi: Ehtimollik 3 x Ta’sir 4 = 12 Og‘ir.
Bu jiddiy risk tug‘diradi.
Ushbu risk darajasini darhol kamaytirish tavsiya etiladi.
Risk darajasini (ehtimollik x ta’sir) orqali kategoriya ajartishda quyidagi mezon taklif etiladi.

3-jadval: Tashkilotlarning risk bo‘yicha kategoriyalarga ajratish tasnifi[4]

Risk darajasi	Tavsif	Harakat
12–16	Og‘ir	Darhol profilaktika yoki tuzatuvchi harakatni talab qiladi
8–12	Yuqori	1 oy ichida profilaktika yoki tuzatuvchi harakatlarni talab qiladi
4–8	O‘rtacha	3 oy ichida oldini olish yoki tuzatuvchi harakatlarni talab qiladi
1–4	Past	Hozirda profilaktika yoki tuzatuvchi harakatlar talab etilmaydi

Risklarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqish va qo‘llash biznesdagi risk darajasini baholashga va qayerga e’tibor qaratish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Korxona va tashkilotlarning oladigan daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni toifalarga ajratishda turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligida asosan quyidagi tasniflarga to‘xtalib o‘tilgan.

1-rasm: Korxona va tashkilotlarga ta’sir qiluvchi risklarning tasnifi[5]

Ushbu tasnifda asosan ta’sir qiluvchi risklarni 6 ta sinfga ajratishgan, ularni ta’sir darajasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, birotasini e’tibordan chetga qoldirish qolgan risklarni darajasini ortib ketishiga olib keladi. Keyingi tadqiotda ta’sir qiluvchi risklarni 7 ta sinfga ajratishgan.



2-rasm: Korxona va tashkilotlarga ta’sir qiluvchi risklarning tasnifi[6]

Tashkilotni beshta risk toifasidan biriga tasniflash uchun uning bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risk darajasini tavsiflash kerak.

3 https://www.business.qld.gov.au/running-business/risk/identify-manage
4 https://www.business.qld.gov.au/running-business/risk/identify-manage
5 https://www.clearrisk.com/risk-management-blog/bid/47419/the-6-biggest-risks-concerning-small-businesses
6 https://zipforecasting.com/business-impact-analysis.html



3-rasm: Tashkilotlarga risklarni tasniflash[7]

Ushbu risklar o‘z ta’sirining tabiati bo‘yicha kompozitsion bo‘lganligi sababli, ularni baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish kerak, ular orqali qabul qilinadigan aniqlik darajasida tashkilotning murakkab risklar nuqtayi nazaridan riskliligini keyin esa butun tashkilotning xavflilik darajasi baholash mumkin bo‘ladi. Barcha oddiy risklar yig‘indisida bir xil solishtirma og‘irlikka ega deb taxmin qilinadi, shuning uchun oddiy risklar uchun og‘irliklarni aniqlash muammosi yo‘q va har bir risk quyidagi formula bo‘yicha baholanadi:

$$r_j = \frac{\sum_{n=1}^{N} r_n}{N} \quad (1)$$

Bu yerda, r_j – j turdagi asosiy risklarni baholash: bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar, r_n – n tipdagi oddiy risklarni baholash, N – oddiy risklarni baholovchi ko‘rsatkichlar soni.

Ayrim adabiyotlarda ushbu baholash konsepsiyasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, oddiy risklarni baholashda ko‘rsatkichlar sonini aniq parametrlar asosida olib hisoblash zarurligini belgilab beradi[8].

$$r_j = \frac{\sum_{n=1}^{N} r_n}{3} \quad (2)$$

Ushbu formulada ko‘rsatkichlar soni sifatida 3 kattalik olingan, bo‘larga joriy likvidlik, rentabellik koeffitsiyenti hamda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi.

Bozor xavfi sotish hajmining noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lib, bozor sharoitlariga, talabning mumkin bo‘lgan pasayishiga, sotish va yetkazib berish bozorlarida narxlarning noqulay o‘zgarishiga, kontragentlarning to‘lov shartlarining yomonlashishiga yoki raqobatchilarning harakatlariga bog‘liq. Bundan tashqari, bozor kon’yunkturasiga makroiqtisodiy va tarmoq omillari, masalan, iqtisodiyot va sanoatning siklik xususiyati, tarif kvotalari cheklovlari, monopoliyaga qarshi tartibga solish va boshqalar ta’sir qilishi mumkin. Bozor riskini quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida baholash mumkin.

- sotishdan tushgan tushumning o‘sish sur’ati – u qanchalik barqaror bo‘lsa, sotish hajmining pasayishi riski darajasi shunchalik past bo‘ladi;
- debitorlik qarzlarini undirishning o‘rtacha muddati – ko‘rsatkichning qiymati qanchalik past bo‘lsa, kredit riski darajasi past bo‘ladi;
- debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati – nisbat qanchalik past bo‘lsa, tashkilotning bozordagi mavqeyi shunchalik kuchli va risk darajasi past bo‘ladi;
- mijozlardan tushumlarning daromadga nisbati – birdan ortiq ko‘rsatkich qiymati mahsulotlar naqd pulda, to‘lovning pul bo‘lmagan shakllaridan foydalanmasdan to‘lanishini ko‘rsatadi, shuning uchun tashkilot past darajadagi risk bilan tavsiflanadi;
- marja, uning yuqori va barqaror qiymati tashkilotning past risk darajasidan dalolat beradi.

7 Muallif ishlanmasi.

8 Abeyrathna, S. P. G. M & Lakshan, A. M. I. (2021). Do Enterprise Risk Management Practices impact on Strategic Performance? – Evidence from an emerging economy. 6th International Conference on Contemporary Management (ICCM-2021 at: University of Jaffna. Retriyeved from: https://www.researchgate.net/publication/ 351478334 Do_Enterprise_Risk_Management_Practices_ impact_on_Strategic_Performance_-Evidence_from _an_ emerging economy

Xarajatlarni nazorat qilish imkoniyati: mahsulotlarning xarajatlar koeffitsiyentlari va resurs intensivligi ko‘rsatkichlari qanchalik barqaror bo‘lsa, narx riski darajasi shunchalik past bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, xarajatlarni nazorat qilishning beqaror ko‘rsatkichlari minimal marja darajasida, ayniqsa, risklidir, chunki bu holda ularning o‘zgarishi yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Indikator qiymatlari asosida oddiy risklar toifasini belgilash uchun risklar shkalasi ishlab chiqilgan, shu jumladan, bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risklarni baholash shkalasi. Bozor riskini baholash shkalasi quyilgan jadvalda keltirilgan.

4-jadval: Bozor riskini baholash shkalasi9

Ko‘rsatkichlar nomlari	Birinchi kategoriya: risk darajasi past	Ikkinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan past	Uchinchi kategoriya: risk darajasi o`rtacha	To‘rtinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan yuqori	Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori
Sotish daromadining o‘sish sur’ati, %	20 va undan yuqori	15-20	10-15	5-10	5 va undan kichik
Debitorlik qarzlarini o‘rtacha undirish muddati, kunlar	30 gacha	30-60	60-90	90-120	120 va undan yuqori
Debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati	0,7 gcha	0,7-0,9	0,9-1,1	1,1-1,3	1,3 va undan yuqori
Mijozlardan tushumlarning daromadga nisbati	1,2 va undan yuqori	1-1,2	0,8-1	0,6-0,8	0,6 va undan kichik
Marja (sotish foydasi orqali), %	15 va undan yuqori	10-15	5-10	0-5	0
Xarajatlarning nazorat qilinishi (xarajat koeffitsiyentlarining og‘ishi)	0,05 va undan kichik modul bo‘yicha	0,05-0,1 modul bo‘yicha	0,1-0,15 modul bo‘yicha	0,15-0,2 modul bo‘yicha	0,25 va undan yuqori modul bo‘yicha

Ishlab chiqarish riski ishlab chiqarish resurslari, ularning sifati va unumdorligi, shuningdek, biznes jarayonlari bilan bog‘liq noaniqlikka bog‘liq. Xususan, ishlab chiqarish riski loyihalardan foydaning mumkin bo‘lgan tanqisligi bilan bog‘liq bo‘lgan loyiha tavakkalchiligi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy risk, aktivlarning qadrsizlanishi riski kabi risklarni o‘z ichiga oladi. Aylanma aktivlar, ularning aylanish muddati oshgani sayin, asosiy xodimlarni yo‘qotish riski, shuningdek, operatsion dastaklar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsion risk. Ishlab chiqarish riski quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi.

- operatsion dastaklar (richag) darajasi: doimiy xarajatlar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa va operatsion foydaning barqarorligi qanchalik past bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- valyuta balansida aylanma aktivlarning ulushi: aylanma aktivlar ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, mulkiy risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- tijoriy ishonchlilik chegarasi – ko‘rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, savdo hajmi ko‘p to‘plaganda korxonaning yo‘qotish zonasiga tushish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi, shuning uchun risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- aylanma mablag‘larni ishga tushirish koeffitsiyenti – ko‘rsatkich qiymati qanchalik past bo‘lsa, asosiy vositalarning yangilanishi sekinroq va ishlab chiqarish obyektlarining eskirish riski shunchalik yuqori bo‘ladi, ammo tashkilotning investitsiya faolligi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning loyiha riski darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- aylanma mablag‘larning xizmat ko‘rsatish koeffitsiyenti – ko‘rsatkichning qiymati qanchalik past bo‘lsa, asosiy vositalarning holati qanchalik yomon bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- qo‘shilgan qiymat orqali hisoblangan mehnat unumdorligi, ko‘rsatkich qiymati qanchalik past bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- ish haqi darajasi – qanchalik yuqori bo‘lsa, bir tomondan, kadrlar almashinuvi qanchalik past bo‘lsa va ularning doimiylik darajasi shunchalik yuqori bo‘lsa, boshqa tomondan, xodimlarning ish sifati shunchalik yuqori bo‘ladi va shuning uchun ham risk darajasi shunchalik past bo‘ladi;

9 В. Когденко. Методология и методика экономического анализа в системе управления коммерческой организацией: монография/ – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 543с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- mehnat unumdorligi va ish haqining o‘sish sur’atlari nisbati – ko‘rsatkichning qiymati qanchalik past bo‘lsa, ya’ni mehnat unumdorligining o‘sishi ish haqining o‘sishidan qancha ko‘p orqada qolsa, foydaning pasayishi ehtimoli shunchalik yuqori bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.
- inventarizatsiya aylanmasining davomiyligi – indikatorning qiymati qanchalik baland bo‘lsa, inventarizatsiyadagi aktivlar shunchalik ko‘p muzlatiladi, shunchalik ko‘p moliyaviy resurslar talab qilinadi va shuning uchun risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.
- aktivlar aylanmasi – indikatorning qiymati qanchalik past bo‘lsa, aktivlar naqd pulga qanchalik sekin aylanadi, aktivlarning qadrsizlanishi xavfi darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

5-jadval: Ishlab chiqarish riskini baholash shkalasi

Ko‘rsatkichlar nomlari	Birinchi kategoriya: risk darajasi past	Ikkinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan past	Uchinchi kategoriya: risk darajasi shrtacha	To‘rtinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan yuqori	Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori
operatsion dastaklar (richag) darajasi	2,5 gacha	2,5-5	5-7,5	7,5-10	10 va undan yuqori
Valyuta balansida aylanma aktivlarning ulushi, %	40 gacha	40-50	50-60	60-70	70 va undan yuqori
tijoriy ishonchlilik chegarasi, %	40 va undan yuqori	30-40	20-30	10-20	10 gacha
aylanma mablag‘larni ishga tushirish koeffitsiyenti	0,2 va undan yuqori	0,15-0,2	0,1-0,15	0,05-0,1	0,05 gacha
aylanma mablag‘larning xizmat ko‘rsatish koeffitsiyenti, %	75 va undan yuqori	65-75	55-65	45-55	45 gacha
qo‘shilgan qiymat orqali mehnat unumdorligi, ming. so‘m	500 va undan yuqori	400-500	300-400	200-300	200 gacha
O‘rtacha ish haqi miqdori, ming so‘m	240 va undan **yuqori**	200-240	160-200	120-160	120 gacha
mehnat unumdorligi va ish haqining o‘sish sur’atlari nisbati	1,2 va undan yuqori	1,1-1,2	1,1-1	0,9-1	0,9 gacha
inventarizatsiya aylanmasining davomiyligi, kun	30 gacha	30-120	120-210	210-300	300 va undan yuqori
aktivlar aylanmasi (bir yilda bir marotaba)	2 va undan yuqori	1,5-2	1-1,5	0,5-1	0,5 gacha

Moliyalashtirish manbalarining narxi va tashkilotning moliyalashtirish tuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlikka, shuningdek, aktivlarning rentabellik darajasiga bog‘liq bo‘lgan moliyaviy riskni quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida baholash kerak.

- moliyaviy dastaklar hajmi – ko‘rsatkichning qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, qarzlar hajmi qanchalik katta bo‘lsa, moliyaviy risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- moliyaviy dastaklar differensiali – ko‘rsatkichning ijobiy qiymati – aktivlarning rentabelligi jalb qilingan mablag‘lar manbalari bo‘yicha o‘rtacha stavkadan oshib ketishining ko‘rsatkichi, bu riskning past darajasidan dalolat beradi, shuning uchun moliyaviy dastaklar differensial qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, risk darajasi shunchalik past bo‘ladi;
- moliyaviy dastaklar darajasi – indikatorning qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, sof foydaning mumkin bo‘lgan tebranishlari qanchalik yuqori bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti – qisqa muddatli majburiyatlar qancha ko‘p va aylanma aktivlar kam bo‘lsa, nisbat qiymati shunchalik past bo‘ladi va likvidlik riski darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi;
- mutlaq likvidlik koeffitsiyenti – yuqori likvidli aktivlar qanchalik kam bo‘lsa, likvidlik riski shunchalik yuqori bo‘ladi;
- aylanma aktivlar tarkibidagi likvid bo‘lmagan aktivlarning ulushi – bunday aktivlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, nafaqat qisqa muddatli majburiyatlarga past sifatli aylanma mablag‘lar bilan xizmat ko‘rsata olmaslik bilan bog‘liq likvidlik riski, balki yozilish natijasida ularning yo‘qotish riski ham shunchalik yuqori bo‘ladi;
- garovga qo‘yilgan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi – bunday aktivlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ushbu aktivlarni yo‘qotish xavfi shunchalik yuqori bo‘ladi;

- aylanma mablag‘larning o‘z aylanma mablag‘lari bilan xavfsizligi, tashkilotning barqarorligi qanchalik yuqori bo‘lsa va risk darajasi past bo‘ladi;
- zaxiralarni “normal” moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash – zaxiralarni o‘z aylanma mablag‘lari, uzoq muddatli majburiyatlar va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar bilan ta’minlash qanchalik yuqori bo‘lsa, risk darajasi shunchalik past bo‘ladi;
- aktivlar rentabelligi – aktivlarning rentabelligi qanchalik yuqori bo‘lsa, jalb qilingan kapitalga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tashkilotning to‘lov qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa, moliyaviy risk darajasi shunchalik past bo‘ladi;
- kapitalning o‘rtacha vaznli qiymati – investitsiya qilingan kapitalga sarflangan xarajatlarning nisbiy darajasi qanchalik past bo‘lsa, xavf darajasi shunchalik past bo‘ladi.
- soliq yuki darajasi – u qanchalik past bo‘lsa, soliqni rejalashtirish usullaridan foydalanadigan tashkilot soliq tekshiruvidan o‘tish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Moliyaviy riskni baholash shkalasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

6-jadval: Moliyaviy riskni baholash shkalasi[10]

Ko‘rsatkichlar nomlari	Birinchi kategoriya: risk darajasi past	Ikkinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan past	Uchinchi kategoriya: risk darajasi shrtacha	To‘rtinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan yuqori	Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori
moliyaviy dastaklar hajmi	1/3 gacha	1/3-2/3	2/3-1	1-4/3	4/3 va undan yuqori
moliyaviy dastaklar differensiali, %	5 va undan yuqori	4-5	3-4	2-3	2 gacha
moliyaviy dastaklar darajasi	1,1 gacha	1,1-1,5	1,5-2	2-2,5	2,5 va undan yuqori
joriy likvidlik koeffitsiyenti	2 va undan yuqori	1,7-2	1,4-1,7	1,1-1,4	1,1 gacha
mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	0,2 va undan yuqori	0,15-0,2	0,1-0,15	0,05-0,1	0,05 gacha
aylanma aktivlar tarkibidagi likvid bo‘lmagan aktivlarning ulushi, %	20 gacha	20-30	30-40	40-50	50 va undan yuqori
garovga qo‘yilgan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, %	5 gacha	5-10	10-15	15-20	20 va undan yuqori
aylanma mablag‘larning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganligi	0,6 va undan yuqori	0,4-0,6	0,2-0,4	0-0,2	0 gacha
zaxiralarni “normal” moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash	1,5 va undan yuqori	1,25-1,5	1-1,25	0,75-1	0,75 gacha
aktivlar rentabelligi, %	15 va undan yuqori	10-15	5-10	0-5	0 gacha
kapitalning o‘rtacha vaznli qiymati, %	15 gacha	15-20	20-25	25-30	30 va undan yuqori
soliq yuki darajasi, %	9 va undan yuqori	8-9	7-8	6-7	6 gacha

Ta’sir qiluvchi risklar aniqlangandan so‘ng, umumiy risk mukofoti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$PR = \frac{r_b + r_{ish} + r_m}{3} \quad (4)$$

Bu yerda, r_b, r_{ish}, r_m – bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar.

Aynan shu mukofot tahlil qilinayotgan tashkilot qaysi risk toifasiga tegishli ekanligini aniqlash imkonini beradi. Risklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqroq taqdim etish uchun olingan hisoblash natijalari asosida risk

10 В. Когденко. Методология и методика экономического анализа в системе управления коммерческой организацией: монография/ – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 543с.

xaritasini tuzish tavsiya etiladi, bu yerda ordinat o‘qi oqibatlarning og‘irligini ko‘rsatadi – pastdan yuqoriga, obtsissa o‘qi ularning ehtimolini aks ettiradi va xaritaning o‘zi riskning ma’lum bir turi yuzaga kelganda mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni ko‘rsatadi.



4-rasm: Tashkilotlarga ta’sir qiluvchi risklarni kartasi

Murakkab risklar darajasini va tashkilotning umumiy risk darajasini belgilaydigan barcha o‘ziga xos risklarning har biri uchun yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo‘lgan zarar miqdori aniqlanishi kerak. Ushbu ma’lumotlar asosida risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kerak.



5-rasm: Risklarni boshqarish matritsasi[11]

Bu yerda, – riskni uzatish, – riskdan qochish, – risk darajasini pasaytirish, – riskni ushlab qolish.

Yuqoridagi jadvaldan quyidagicha xulosa qilish mumkin. Agar oqibatlar sezilarli bo‘lsa, tashkilot riskdan qochish kerak, ya’ni riskni zararsizlantirishning eng konservativ usullaridan birini qo‘llang, bu jiddiy riskka olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlardan voz kechishni nazarda tutadi. Ushbu usul qo‘llashda cheklangan, chunki u muayyan faoliyat turlaridan voz kechishga, shuning uchun u bilan bog‘liq foydalarni yo‘qotishga olib keladi.

Agar oqibatlar o‘rtacha og‘irlikda bo‘lsa, xavflarni boshqarishning optimal usuli ularni o‘tkazishdir. Risklarni uzatishning klassik usullari sug‘urta bo‘lib, bunda risk sug‘urta kompaniyasiga u bilan shartnoma tuzish yo‘li bilan o‘tkaziladi, narx belgilash risklari kontragentlar bilan shartnomalar tuzish yo‘li bilan o‘tkazilganda xedjirlash qilinadi, bunda ma’lum bir muddatga yetkazib berish narxlari qat’iy belgilangan vaqt, ixtisoslashgan kompaniyalarning asosiy bo‘lmagan funksiyalarini o‘tkazishni o‘z ichiga olgan autsorsing, bu nafaqat riskni kamaytirishga imkon beradi, diversifikatsiya qilish, zaxiralarni shakllantirish, limitlarni joriy etish va hokazo.

11 Muallif ishlanmasi.

Agar potensial zarar unchalik katta bo‘lmasa, tashkilot riskni o‘z ichiga olishi va qo‘shimcha nazoratni va tegishli risklarni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni talab qilishi kerak. Tashkilotning risklilik darajasini baholashda shuni yodda tutish kerakki, risk darajasining oshishi tashkilot faoliyati samaradorligining oshishi bilan birga bo‘lishi kerak, faqat bu holda riskni asosli deb hisoblash mumkin. Boshqa tomondan, qoida tariqasida, bu o‘z faoliyatining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadigan risk darajasi yuqori bo‘lgan tashkilotlardir.

Ayrim tadqiqotlarda moliyaviy natijalar 6 ko‘rsatkich bo‘yicha tekshiriladi: daromad, sof foyda, likvidlik, qarz, o‘z kapitalining rentabelligi va aksiya bahosi orqali[12].

Yuqoridagi tasniflardan va risk kategoriyalaridan foydalanib “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi ma’lumotlaridan foydalanib ularning tahlilini ko‘rib chiqamiz. Marketing tadqiqotlariga ko‘ra, Respublikada yiliga o‘rtacha 3,3-3,4 million tonna un ishlab chiqarilib, uning asosiy qismi ichki bozorga jo‘natiladi. Ushbu hajmning 50 foizi “O‘zdonmahsulot” AK tarkibiga kiruvchi 43 ta korxona tomonidan ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, bugungi kunda bir sutkada g‘alla urug‘i ishlab chiqarish quvvati 10,5 ming tonnani tashkil etib, shundan 94,2 foizi (9,5 ming tonna) tarmoqdagi 64 ta urug‘ tozalash sexi hissasiga to‘g‘ri keladi[13].

Sanoat korxonalarida hozirda uch xil un (yuqori, 1, 2-nav), yem, yorma, non, non va makaron mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Inson organizmida temir tanqisligining oldini olish maqsadida mineral va vitamin qo‘shimchalari bilan boyitilgan birinchi navli un ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ishlab chiqarishning yana bir yo‘nalishi – granullangan, maydalangan va bo‘sh ozuqa aralashmalari ishlab chiqarish.

7-jadval: 2023-yil uchun ishlab chiqarish hajmi prognozi (qiymat va naturada)[14] ming tonna

Mahsulot nomi	2021-y.	2022-y.	2023-y. (prognoz)	Shu jumladan,			
				I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
Ishlab chiqarish hajmi narxlar (mlrd. so‘m)	5501,9	6501,4	6917,3	1839,8	1916,9	1430,5	1730,1
Un	1582,5	1500	1500	390	444	288	378
Kombikorim	807	807	807,5	205	205	187,5	210

Jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, kompaniyaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yillarga nisbatan ma’lum ma’noda o‘zgarish bo‘lgan bo‘lsa-da, un ishlab chiqarish hajmi kamayib keyingi yillarga o‘zgarmagan, xuddi shunday holat kombikorim ishlab chiqarish holatida ham kuzatish mumkin.

“O‘zdonmahsulot” AK ning 2021-yil va 2022-yildagi ma’lumotlaridan foydalangan holda ularga ta’sir qiluvchi bozor riskini ta’sirini hisoblaymiz.

2021-2022-yillarda kompaniyaning daromadiga bozor riskini baholash ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lgan:

8-jadval: Bozor riskini baholash ko‘rsatkichlari[15]

Ko‘rsatkichlar nomlari	2021-y.	2022-y.
Sotish daromadining o‘sish sur’ati, %	357,7	805,9
Debitorlik qarzlarini o‘rtacha undirish muddati, kunlar	30	30
debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati	0,68	2,44
mijozlardan tushumlarning daromadga nisbati	0,07	0,17
marja (sotish foydasi orqali), %	0,042	29,7
Xarajatlarning nazorat qilinishi (xarajat koeffitsiyentlarining og‘ishi)	0,11	0,07

Olingan ma’lumotlarni bozor riskini baholash kategoriyalariga qo‘yib chiqadigan bo‘lsak quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

12 https://www.scirp.org/journal/paperinformation.aspx?paperid=83503
13 https://www.uzdon.uz/uz/content/interactive/agrosale1/page/7/
14 https://www.uzdon.uz/img/struct/90/_1607/bp_2023.pdf
15 https://www.uzdon.uz/img/struct/90/_1607/bp_2023.pdf ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

9-jadval: Bozor riskini baholash shkalasi[16]

Ko‘rsatkichlar nomlari	Birinchi kategoriya: risk darajasi past	Ikkinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan past	Uchinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtacha	To‘rtinchi kategoriya: risk darajasi o‘rtachadan yuqori	Beshinchi kategoriya: risk darajasi yuqori
Sotish daromadining o‘sish sur’ati, %	357,7; 805,9				
Debitorlik qarzlarini o‘rtacha undirish muddati, kunlar	30; 30				
debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati	0,68 (2021)				2,44 (2022)
mijozlardan tushumlarning daromadga nisbati					0,07; 0,17
marja (sotish foydasi orqali), %	29,7 (2022)			0,042 (2021)	
Xarajatlarning nazorat qilinishi (xarajat koeffitsiyentlarining og‘ishi)		0,07 (2021)	0,11 (2022)		

“O‘zdonmahsulot” AK ning 2021-yil va 2022-yildagi ma’lumotlaridan foydalangan holda ularga ta’sir qiluvchi bozor riskini ta’sirini tahlil etilganda sotish daromadining o‘sish sur’ati bo‘yicha har ikki yilda birinchi kategoriya ya’ni risk darajasi past ekanligini ko‘rish mumkin. Debitorlik qarzlarini o‘rtacha undirish muddati har ikki yilda o‘rtacha 30 kunga to‘g‘ri kelishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ham risk darajasi past ekanligini, debitorlik qarzlarini kreditorlik qarzlariga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha 2021-yilda kompaniyaning natijasi risk darajasi past ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2022-yilda beshinchi kategoriya risk darajasi yuqori bo‘lgan. Demak kompaniyaning 2022-yilda debitorlik qarzlari keskin ortib ketganini ko‘rish mumkin. Mijozlardan tushgan tushumlarni daromadga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha har ikkala yil uchun beshinchi kategoriya risk darajasi yuqori bo‘lgan, demak kompaniya tushumi deyarli ikki yilda pasayib ketgan. Kompaniya marjasi (sotish foydasi orqali) ko‘rsatkichi 2021-yilda to‘rtinchi kategoriya risk darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan, 2022-yilda esa birinchi kategoriya risk darajasi past bo‘lgan. Oxirgi ko‘rsatkich bo‘yicha xarajatlarning nazorat qilinishi koeffitsiyenti bo‘yicha kompaniya 2021-yilda ikkinchi kategoriya risk darajasi o‘rtachadan past hamda 2022-yilda uchinchi kategoriya risk darajasi o‘rtacha bo‘lgan.

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak kompaniyaning 2021-yilda bozor riskini ta’siri 4 ta ko‘rsatkich bo‘yicha ijobiy bo‘lgan bo‘lsa, faqat ikkita ko‘rsatkich bo‘yicha risk darajasi yuqori bo‘lgan. 2022-yilda esa debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha salbiy holatda bo‘lgan. Kompaniyaning keyingi yillar uchun ishlab chiqiladigan strategik rejasida aynan bozor riskini oldining olishda ushbu ko‘rsatkichlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini belgilab beradi. Bundan tashqari, korxonaning funksional departament strukturasiga yangi faoliyatning barcha sohalari bo‘yicha chegaralangan majburiyatlarni bo‘linmalarga yuklatish prinsipi asosida amalga oshirish taklif etiladi. Ushbu jarayonni amalga oshirish debitorlik qarzlarni undirish imkoniyatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahliliy ma’lumotlar hamda o‘rganilgan tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Tashkilotni daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni beshta risk toifasidan biriga tasniflash uchun uning bozor, ishlab chiqarish va moliyaviy risk darajasini tavsiflash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.
2. Murakkab risklar darajasini va tashkilotning umumiy risk darajasini belgilaydigan barcha o‘ziga xos risklarning har biri uchun yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo‘lgan zarar miqdori aniqlanishda tashkilot strategiyasini “Risklar to‘lqini” mexanizmi asosida ishlab chiqish tavsiya etiladi.
3. V. Kogdenko modeli asosida bozor riski, ishlab chiqarish va moliyaviy risklarni taklif etilgan risk kategoriyalaridan foydalangan holda ularning daromadiga ta’sir qiluvchi risklarni aniqlash tavsiya etiladi.

16 Muallif tomonidan hisoblangan.

4. “O‘zdonmahsulot” AKning 2021-yil va 2022-yildagi ma’lumotlaridan foydalangan holda ularga ta’sir qiluvchi bozor riskini ta’sirini tahlil etilganda kompaniyaning 2021-yilda bozor riskini ta’siri 4 ta ko‘rsatkich bo‘yicha ijobiy bo‘lgan bo‘lsa, faqat ikkita ko‘rsatkich bo‘yicha risk darajasi yuqori bo‘lgan. 2022-yilda esa debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha salbiy holatda bo‘lgan. Kompaniyaning keyingi yillar uchun ishlab chiqiladigan strategik rejasida aynan bozor riskini oldining olishda ushbu ko‘rsatkichlarga alohida e’tibor qaratish zarurligi asoslab berildi.

5. Bundan tashqari, korxonaning funksional departament strukturasiga yangi faoliyatning barcha sohalari bo‘yicha chegaralangan majburiyatlarni bo‘linmalarga yuklatish prinsipi asosida amalga oshirish taklif etiladi. Ushbu jarayonni amalga oshirish debitorlik qarzlarni undirish imkoniyatini oshirishi asoslandi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yxati:

1. Abeyrathna, S. P. G. M & Lakshan, A. M. I. (2021). Do Enterprise Risk Management Practices impact on Strategic Performance? – Evidence from an emerging economy. 6th International Conference on Contemporary Management (ICCM-2021 at: University of Jaffna. Retrieved from: https://www.researchgate.net/publication/ 351478334 Do_Enterprise_Risk_Management_Practices_impact_on_Strategic_Performance_-Evidence_from _an_ emerging economy
2. Fiala, R., and Hedia, V. (2015). The relationship between firm size and growth: the case of the Czech Republic. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 63(5), 1639–1644. https://doi.org/10.11118/actaun201563051639
3. Fiala, R., and Hedia, V. (2015). The relationship between firm size and growth: the case of the Czech Republic. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 63(5), 1639–1644. https://doi.org/10.11118/actaun201563051639
4. Антамошкин О. А., Пузанова Г. А., Онтужев В. В. Особенности проектирования автоматизированной системы экспертной оценки информационной безопасности организаций // Вестник СибГАУ. 2013. Вып. 3(49). –С. 4-9.
5. В. Когденко. Методология и методика экономического анализа в системе управления коммерческой организацией: монография/ – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 543с. (Risk kategoriyalari uchun risk mukofati –5-35 oralig‘ida baholangan. Ayrim tadqiqotlarda ushbu baholash ko‘rsatkichi 0-100 oralig‘ida olinadi).
6. M. Yu. Isakov, D. I. Ro‘ziyeva “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” (O‘quv qo‘llanma). –T.: TDIU, 2019 y., –400 b.
7. Nasimov B. Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligi./ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 y.
8. Saidnazarov, F. (2023). Korxonalarda moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 321–334. https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp321-334
9. http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/232
10. http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/232
11. http://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202309/t20230901_1942473.html
12. https://www.business.qld.gov.au/running-business/risk/identify-manage
13. https://www.business.qld.gov.au/running-business/risk/identify-manage
14. https://www.clearrisk.com/risk-management-blog/bid/47419/the-6-biggest-risks-concerning-small-businesses
15. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2021/11/e3sconf_netid2021_02070/e3sconf_netid2021_02070.html
MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Budjet, shu jumladan, mahalliy budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash masalalari iqtisodiy (shu jumladan, moliyaviy) adabiyotlarda ma’lum darajada o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Ushbu masala bo‘yicha xorijlik olimlardan O. V. Vrublevskaya, M. V. Romanovskiy, I. A. Pashkevich, N. L. Margolina,

1 “Mahalliy budjet” tushunchasi xalqaro amaliyotda “munitsipalitetlar budjeti”, “kantonlar budjeti”, “provinsiyalar budjeti”, “prefekturalar budjeti”, “shtatlar budjeti”, “yerlar budjeti” va boshqa ko‘rinishlarga ega

V. M. Rodionova, T. V. Guyda, P. N. Nikolskiy, N. V. Sokolinskaya, S. Shaxray A. Blankenagel, N. Beluxa, D. Baxran, Sh. Soyan, A. Penchuk, T. Pereverzeva, S. Platonova, S. Shardan, M. Abduyev, V. Bursev, M. Vasileva, A. Krikunov, I. Ximichev, S. Shoxin kabilarni kiritish mumkin[2]. Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan H. R. Sobirov, Q. A. Yax'yoyev, T. Malikov, O. Olimjonov, N. Jumayev, N. H. Haydarov, X. Xudoyqulov, A. Burxonov, O. Kamolov, S. Elmirzayev J. A. Qo'chqorov, B. A. Musayev, B. T. Turapov, D. A. Rahmonov va boshqalar ham shu sohani rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar[3].

Moliya tizimining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy moliya doirasida mablag'larning samarali sarflash masalasini tadqiq etishga, yetarlicha e'tibor berilmayapti. Yangi O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti sharoitida mahalliy moliyani tashkil etish va uni ijro etish bilan bog'liq jarayonlarda bir qator muammolar saqlanib qolinishi, ularning yechimlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ehtiyojini tug'dirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Moliya kategoriyasi ham iqtisodiy, ham tarixiy kategoriya sifatida jamiyatning iqtisodiy munosabatlar tizimi asosiy lokomotiv funksiyani bajarib keladi. Moliya kategoriyasi va munosabatlar o'zagini pul fondlari va ular bilan bog'liq pulli munosabatlar tashkil qiladi. Moliya kategoriyasining tarixiyligi shundaki, u davlat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, dastlabki davlatchilik shakllari paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar uzoq davrdagi rivojlanish evolyutsiyasiga ega bo'lib, rivojlanib kelmoqda. Moliyaviy munosabatlarning ilk shakllari insoniyat taraqqiyotining quldorlik jamiyati bosqichida jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Muayyan hududda boshqaruv organi sifatida davlatning vujudga kelishi uning hokimiyat apparatini moddiy jihatdan ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, mamlakatni himoya qilish, urush harakatlarini olib borish, ijtimoiy obyektlar va yo'llar qurish kabi vazifalarni bajarishi uchun ma'lum darajada pul mablag'lari ham bo'lishini taqozo eta boshladi. Xuddi shu holat o'z navbatida jamiyatda moliya paydo bo'lishini iqtisodiy zaruriyatga aylantirdi. Demak, davlatchilik tizimining vujudga kelishi moliyaning paydo bo'lishi uchun asosiy sabab bo'lib xizmat qildi.

Moliyaning o'zagini aksariyat iqtisodchilar ta'kidlaganidek, iqtisodiy taqsimot munosabatlar tashkil etishi, u davlat faoliyatining muhim ajralmas funksiyalari sifatida ham amal qila boshladi. Davlat o'z ehtiyojlarini moliyaviy jihatdan qondirishning asosiy vositasi bu milliy daromadni qayta taqsimlash tashkil eta boshladi(dastlabki davrlarda bunday taqsimot ancha sodda shaklda amalga oshirilgan, hali pul paydo bo'lmagan sharoitda taq-

2 С. Шахрай Финансовый контроль в XXI веке/ Шахрай С. М. // Налоги. М. -2004.-№12, А. Бланкенагель Теория и практика конституционного контроля в ФРГ // Советское государство и право. – 1989. – № 1. – С. 102., Н. Т. Белуха. Контроль и ревизия в отраслях народного хозяйства: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2002. 4., Д. Н. Бахран. Административное право России. – М., 2001. – С. 166., С. К. Шардан, Инструментарий государственного финансового контроля.Вестник Академии знаний №38 (3), 2020., Ш. Ч. Соян. Проблемы государственного финансового контроля. Journal of Economy and Business, vol.11-3 (57), 2019., Пенчук А. В. Государственный финансовый контроль в Российской Федерации и направления его совершенствования // Концепт. – 2014. – № 07 (июль). – ART 14177. – 0,4 п. л. – URL: http://e-koncept. ru/2014/14177. htm. – Гос. рег. Эл № ФС 77-49965. – ISSN 2304-120X., Переверзева Татьяна Викторовна. Государственный финансовый контроль расходов бюджета на финансирование социальной сферы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Специальность 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит. Донецк 2018., Платонова Светлана Евгеньевна. Механизм совершенствования государственного финансового контроля Специальность 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2013., Бурцев В. В. Организация системы государственного финансового контроля в РФ: теория и практика. – М.: Дашков и К, 2002., Васильева М. В. Государственный финансовый контроль в управлении регионом. – Волгоград, 2003. – 182 с., Крикунов А. В. Сущность, организация и перспективы государственного финансового контроля в РФ. – СПб.: Изд. СПб государственного университета экономики и финансов, 2001., Финансовое право: учеб. / под ред. Н. И. Химичевой. – М.: Юрист, 2004., Шохин С. О. Воронина Л. И. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России. – М.: Финансы и статистика, 1997.

3 Malikov T. Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 800 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009. – 556 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 245 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 84 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 112 b. Po'latov D. H., Nurmuxamedova B. I. G'aznachilik. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2014. – 272 b. Fuqarolar uchun budjet. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, VMTTD. – T. 2018. – 96 b. Nurmuxamedova B. I. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 358-521-betlar. Nurmuxamedova B. I., Srojiddinova Z. X., Sugirbayev G. G. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: "InfoCapitalGrup", 2013. – 447 b. Nurmuhamedova B. I., Kabirova N. V. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 228 b. G'aybullayev O., O'roqov U. O'z-bekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baqtriya-press", 2015. – 168 b. Юлдашева Н. В. Местные бюджеты: учебно-методическое пособие. – T.: "Iqtisod-moliya", 2015. – 362 s. Fayzullayev Yo. Sh., Azizov I. A. Budjetni o'rta muddatli rejalashtirish. – T.: "infoCOM", 2010. – 152 b. Rahmonov D. A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2017. 248 b. Rahmonov D. A. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tendensiyalari // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2016. – №8. –B. 38-41. Rahmonov D. A. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning samaradorligi – mamlakatlar innovatsion rivojlanishi omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2017. – №1. – B. 141-145. Rahmonov D. A. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, 2017. – №2. Rahmonov D. A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari // Xalqaro moliya va hisob (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, 2017. – №5. – B. 1-9. va b.

TARAQQIYOT PROGRESS

simot munosabatlari ham ham shunga mos holda amalga oshirilib kelingan). Ushbu taqsimot munosabatlari esa davlat miqyosida qandaydir pul fondlarini shakllantirishni taqozo eta boshladi. Ushbu pul fondlari milliy daromadning bir qismini qiymat shaklda ifoda etib, uni taqsimlash jarayoni ham alohida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi va faoliyatni tashkil etadi. Milliy daromadni qayta taqsimlash o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, uni taqsimlashning eng optimal usuli esa majburiy to‘lovlar-soliqlarni joriy etishga olib keldi. Bu yerda shuni ko‘rish mumkinki, davlat o‘zining faoliyatni olib borish uchun zarur bo‘ladigan moliyaviy mablag‘larni ta’minlash(uni jamiyatdan undirish) bilan bir qatorda jamiyatning ikki sohasi: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida o‘zaro muvozanatni(proprotsiyani) ta’minlashning ijtimoiy zarurligi keng qamroqli moliyaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Davlat budjeti tizimi mamlakat davlat budjeti tuzilishining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ma’lum bir qismini o‘zida ifoda etadi. Shu ma’noda, davlat budjeti tizimi davlat budjetining o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan bo‘g‘inlarining o‘zaro yig‘indisidan iboratdir. Mamlakatning davlat budjeti tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga bevosita bog‘liq.



1-rasm: Mahalliy budjetlar daromadlari manbalari[4]

4 Qonunchilik hujjatlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.

Har bir mamlakatning davlat budjeti tuzilmasi uning milliy-davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti:

- Respublika budjetini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetini hamda shu respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi. Viloyatlar budjeti esa viloyat budjetidan, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlaridan iboratdir. Shuningdek, tumanlarga bo'linadigan shaharlarning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o'z ichiga oladi. Va nihoyat, tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budjeti tuman budjetidan va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlaridan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 52-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan budjetlararo transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining daromadlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga, Toshkent shahrining shahar budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin. Soliqlar va boshqa daromadlar belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin"[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni bilan respublikamizda mahalliy moliyani institutsional o'zgartirish va uni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator yangi mexanizmlar kiritildi. Unga ko'ra, "2017-yilning 1-iyulidan boshlab 2017-yilning 31-dekabrigacha Toshkent shahri va uning tumanlarida tajriba tariqasida tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha belgilangan soliq tushumlari, jismoniy shaxslarning mulklaridan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliqlari, tovarlarning ba'zi turlari bilan savdo qilish va xizmatlarning alohida turlarini ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar to'liq hajmda tumanlar budjetlari daromadlari hisobiga o'tkazilishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga to'lanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va bozorlardan tushayotgan daromadlar Toshkent shahri budjeti va tumanlar budjetlari o'rtasida taqsimlanishi, yuridik shaxslarning yer soliqlaridan tushadigan tushumlar, suv resurslaridan foydalanish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i to'liq hajmda Toshkent shahri budjetiga yo'naltirishi, yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun olinadigan soliqlar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi, jismoniy shaxslarning daromad soliqlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va Toshkent shahrining mahalliy budjeti o'rtasida tegishli normativlarga ko'ra taqsimlanishi, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va Toshkent shahri budjeti o'rtasida, shahar budjeti qismida, o'tkazilgan soliqlardan belgilangan prognozlarni ortig'i bilan bajarish summasi, Toshkent shahrining mahalliy budjeti ixtiyorida qoldirish"[6] mexanizmlari joriy qilindi.

Bunday tartib va mexanzmlarning joriy qilishdan asosiy maqsad mahalliy moliyani tashkil qilish va uni amalga oshirishning yangi samarali uslublarini joriy qilish orqali mahalliy hokimliklarning mahalliy budjetlarning daromadlarini to'g'ri va qulay shakllantirishga oid takliflarini qo'lab-quvvatlashdan iborat bo'ldi.

Bundan tashqari, mahalliy moliyaning asosiy qismi bo'lgan mahalliy budjetlarning daromad bazalarini kuchaytirishda moliya-soliq organlari rahbarlari va mutaxassislarining moliyaviy ma'suliyatini oshirishni ta'minlash maqsadida keyinchalik qo'shimcha zaxiralarni topish va shu asosda mahalliy budjetning daromad bazasi kengaytirilishini barbod qilgan yoki o'zini chetga olgan davlat soliq xizmati va moliya organlarining hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari rahbarlari hamda mansabdor shaxslariga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan qat'iy choralarni ko'rish tartibi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni qabul qilindiki, undan asosiy maqsad sifatida "mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda

5 O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 52-moddasi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni.

aholi bandligini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas’uliyatini oshirishni ta’minlash”[7] yo‘nalishlari belgilab olindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Keyingi ikki-uch yilda respublikamizda moliya tizimi, jumladan, mahalliy moliya tizimining muhim o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, bunda moliyalashtirishning ochiq budjet shakli tamoyillari qo‘llanilib, mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan ko‘pgina, ijtimoiy xarajatlar va iqtisodiy xarajatlarda o‘z samarasini berib kelmoqda. Respublikamizda fuqarolik jamiyatining ko‘rinishlarini rivojlantirishning bir shakli sifatida fuqarolarning takliflari va manfaatlarini e’tiborga olgan holda mahalliy budjet mablag‘larini to‘g‘ri yo‘naltirishga katta imkon yaratdi deb hisoblash mumkin.

Mamlakatimizda mahalliy budjetlar xarajatlarining samarali sarflanishini ta’minlash muammosini muvaffaqiyatli hal etishda bu yo‘nalishdagi xalqaro tajribani o‘rganish, tegishli xulosalarni chiqarish va ulardan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Budjet ahvolining qanday ekanligi bilan undan xarj qilinayotgan mablag‘larning samarali sarflanishini ta’minlash o‘rtasida to‘g‘ri proporsional bog‘liqlik yo‘q. Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan, bizning fikrimizcha, budjet va, shu jumladan, mahalliy budjetlar mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash nuqtayi-nazaridan budjetning profitsitli ijro etilishiga nisbatan uning defitsitli ijro etilayotganligi ma’lum bir ustuvor (masalan, mablag‘larning yetarli emasligi ularni sarflanishiga nisbatan munosabatni, jumladan, tejab-tergab, maqsadli, qonuniy va boshqalarni shakllantiradi) ahamiyat kasb etishi mumkin. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, ularning maqsadli sarflanish holatlari ustidan moliyaviy nazorat tahlili bugungi kunda o‘ziga xos muammolar mavjud bo‘lib, ularning ilmiy-nazariy yechimlarini amalga oshirish zarurati tug‘ilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 452-modda. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 52-I-son; 2014. –36-son.
2. O‘zbekiston Respublikasning 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ – 657-sonli Qonuni. –www.lex.uz
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. –464b.
4. Malikov T. S. Moliya. Darslik. –Toshkent. 2019. 985 b.
5. Срожиддинова З. Х. Бюджетная система Республики Узбекистан. Учебник. –Ташкент, – 2010. –С.480
6. Сычёв Н. Г., К. И. Таксир. Финансово-экномические проблемы муниципальных образований. – М.: Финансы и статистика. 2020. – С.703

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-sonli Farmoni

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI ORQALI AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI

Taylakova Dilafro‘z Baymamatovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sohasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish masalasi yo‘lga qo‘yildi. Aholining sotsial muammolarini hal qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilash orqali qishloq joylarda aholi bandligini ta’minlash va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanishni nazarda tutilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda evolyutsion modeli ishlab chiqildi va ilmiy tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, turizm, qishloq xo‘jaligi, aholi bandligi, xizmat ko‘rsatish, sotsial muammolar, innovatsiya, investitsiya, aholi turmush tarzi, raqamli xizmatlar.

Abstract: In this article, the issue of the integrated development of the service sector in our country was considered, the essence, goals and objectives of the service sector, the gradual reform of the economy were revealed. It provides for solving social problems of the population, ensuring employment of the population in rural areas by improving the living conditions of the population and the most effective use of available resources, scientific potential of the population, innovative abilities, technical achiyevements of science in the implementation of economic reforms. In the service sector, an evolutionary model for the development of innovations in the economy was developed and scientific recommendations were given.

Key words: Digital technologies, tourism, agriculture, employment, services, social problems, innovations, investments, lifestyle of the population, digital services.

Аннотация: В данной статье был рассмотрен вопрос комплексного развития сферы услуг в нашей стране, раскрыта сущность, цели и задачи сферы услуг, поэтапное реформирование экономики. Предусматривается решение социальных проблем населения, обеспечение занятости населения в сельской местности путем улучшения условий жизни населения и наиболее эффективного использования имеющихся ресурсов, научного потенциала населения, инновационных способностей, технических достижений науки при реализации экономических реформ. В секторе услуг была разработана эволюционная модель развития инноваций в экономике и даны научные рекомендации.

Ключевые слова: Цифровые технологии, туризм, сельское хозяйство, занятость, услуги, социальные проблемы, инновации, инвестиции, образ жизни населения, цифровые услуги.

KIRISH

Mamlakatdagi qishloq joylarda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli, onlayn xizmatlarni rivojlantirish va keng ko‘lamda foydalanish kerak ekanligi o‘z isbotini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur ustuvor vazifalarni ijrosini ta’minlashda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandlik darajasini oshirish, raqamli texnologiyalar hamda innovatsion faoliyatni ishlab chiqarish, infratuzilma va ilmiy ta’minot integratsiyasi asosida rivojlantirish kabi yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishni konseptual yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, rivojlanishning ilg‘or va optimal variantini tanlashga intildi. Bunday tanlovlar orqali xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish masalasini qo‘ydi. Aholining sotsial muammolarini hal qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilash yosh mamlakat uchun quyidagi islohotlarni amalga oshirish kerak ekanligini ko‘rsatdi:

- Birinchidan mulkiy munosabatlar islohoti;
- Ikkinchidan agrar islohoti;
- Uchinchidan moliya-kredit islohoti;
- To‘rtinchidan sotsial islohotlar;
- Beshinchidan tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti [1].

Har bir mamlakat rivojlanishning muqobil usullarini izlashga harakat qiladi va shu orqali mamlakatda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanadi.

Xizmatlar sohasi asosida xizmat bo‘lib, ushbu faoliyat turli jarayonlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Avvalo, “xizmat” so‘zi, asosan, quyidagi ikki xil lug‘aviy ma’noga ega: – boshqa birovga foyda keltiruvchi harakat va biror kimga xo‘jalik qulayliklarini taqdim etmoq [2].

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH

Buyuk iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne’matlarning iqtisodiy mazmunini to‘laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbayi sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o‘zining jahonga mashhur “Halqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti” (1766) nomli asarida “unumli mehnat” va “unumsiz mehnat” tushunchalari xususida fikr bildirgan [3]. Shu orqali A. Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo‘shgan.

Xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo‘shgan A. Smitning moddiy va nomoddiy qarashini yanada mukammal aks ettirgan olim M. M. Muxammedov o‘zining “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari” nomli monografiyasida “inson iste’moli uchun zarur bo‘lgan har qanday noz-ne’mat (ya’ni u moddiy yoki nomoddiy bo‘lishidan qat’iy nazar) ishlab chiqarishga sarflangan mehnat baribir jamiyat uchun foydali, samarali unumli deb qaralishi va ijtimoiy boylik tarkibiga, albatta, kiritilishi lozim”,[4] deb qaraydi. Shu orqali olim har qanday ne’mat yaratishga qaratilgan mehnat qatori xizmat ko‘rsatishda band bo‘lganlarning mehnati ham qiymat va iste’mol qiymatini yaratishga qodirligini ilmiy isbotlaydi.

“Xizmat” atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha nuqtayi nazardan qo‘llanilib iqtisodiy bilim sohasiga bog‘liq holda talqin qilinadi. Ushbu atama doirasida ko‘plab xorijlik va mahalliy olimlarimiz nazariy tadqiqotlar olib borishgan. Taniqli olimlardan biri F. Kotler bo‘lib, u xizmatga quyidagicha ta’rif beradi: “Xizmat – bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir” [5].

Respublikamizning taniqli olimlaridan I. S. Tuxliyev: “Xizmatlar – ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir” [6] deydi va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya’ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o‘zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo‘ladi deb ta’kidlashga harakat qiladi. Xizmat tushunchasiga I. Ochilov tomonidan berilgan ta’rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: “Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi” [7] deb ta’rif bergan.

Professor M. Q. Pardayevning fikriga ko‘ra, “Xizmat ko‘rsatish sohasi deyilganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko‘rinishga ega bo‘lmagan iste’mol qiymatlarini yaratishga yo‘naltirilgan sohalari tushuniladi. U o‘z ichiga moddiy xizmatlar ko‘rsatish (qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko‘rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o‘qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi” [8] deya mukammal ta’rif berib, inson ijtimoiy faoliyati rivojlanishida unga ko‘maklashadigan muhim tarmoq va soha sifatida aynan xizmat ko‘rsatish sohasini keltiradi. Shu orqali olim xizmat ko‘rsatish sohasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson iste’moliga yo‘nalishini moddiy va nomoddiy xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida har bir iste’molchi og‘irini yengil qiladigan soha ekanligini ilmiy isbotlaydi.

B. B. Mardonov fikricha: “Xizmat iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u iste’molchi ehtiyojini qondirishga (og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilishga) va ularning manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir” [9] deb ta’riflab iste`molchi xizmatning muhim bo‘g‘ini ekanligini asoslagan.

Yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib aytish mumkinki davlat, jamiyat, korxona va tashkilotlar yoki yakka iste’molchi bo‘lishidan qat`iy nazar o‘z talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ko‘rinishdagi xizmatlarni iste’mol qilmoqda. Shu sababli xizmatlarni iste’mol qilishga qaratilgan ularning talab va ehtiyoji xizmat ko‘rsatish sohasining munosib rivojlanishida aynan xizmat ko‘rsatish sohasining o‘zi soha va tarmoqlarning lokomotivi ekanligining yaqqol dalilidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va ulardan keng ko‘lamda foydalanib bormoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xizmat turlarining kengayishi kishilik jamiyatida talab va ehtiyojning kuchli ta'sir doiraga ega bo'layotganligini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasi inson tamadduni taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Iqtisodchi olimlar tomonidan xizmat ko'rsatish sohasining mazmun mohiyatini ochishga urinish nazariy-mantiqiy ahamiyati xususida ko'plab ilmiy fikr-mulohazalar bildirganlar. Ammo ular evolyutsion model xususida to'xtalishmagan. Iqtisodiyotning turli davrlarda sayqallanishi kishilik jamiyatidagi iqtisodiy evolyutsiya natijasi demakdir. Shu sababli kishilik jamiyatidagi iqtisodiy evolyutsiya natijasida xizmatlar sohasining iqtisodiyotda muhim sektorlardan biri bo'lishiga olib keldi. Uning holati qolgan sektorlarning rivojlanishiga bog'liq va munosib holda shakllandi. Xizmatlar sohasi dunyo iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Shu sababli xizmatlar sohasining iqtisodiy mohiyatini anglashda rivojlanish sivilizatsiyasini uchta katta bosqichga bo'lib ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu bosqichlar agrar jamiyat, industrial va postindustrial jamiyatlardir.

Agrar jamiyatda (quldorchilik, feodal formatsiyalar va kapitalistik rivojlanishning dastlabki bosqichlari) sanoat umuman rivojlanmagan, qishloq xo'jaligiga qaraganda kam odamlarni ish bilan ta'minlar edi. O'sha davrlarda xizmatlar sohasida asosiy o'rinni uy xizmatkorlari egallagan.

Amerikalik mashhur iqtisodchi Djon Gelbreyt ushbu davrdagi xizmat xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Industrialdan oldingi davrda qishloq xo'jaligidan tashqari iqtisodiyot faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchilik qismi bir insonning ikkinchisiga shaxsiy xizmat qilishiga qaratilgan. Bunday faoliyatga ovqat pishirish, ta'lim berish, insonni tashqi xavfdan himoya qilish, va boshqa bir qator xizmatlar kiradi. Xizmat ko'rsatuvchi inson (faqat din vakilidan tashqari) xizmatlar iste'molchisidan bevosita bog'liq bo'lgan, qullarcha xizmat ko'rsatish o'z- o'zidan xizmatning tarkibi hisoblangan. Astoydil xizmatkorga yo'naltirilgan maqtovlar uning past ijtimoiy holatini alohida ko'rsatardi" [10].

Postindustrial jamiyat nazariyasining asoschisi Daniel Bell ushbu ijtimoiy tizimni quyidagicha ta'riflaydi: "Past mehnat unumdorligi va aholi sonining ko'pligi band bo'lmaganlar sonining oshishini asoslaydi, ular qishloq xo'jaligi va uy xizmatlari sohasiga taqsimlanadi. "Shu sababli xizmat sohasida band bo'lganlarning ko'pchilik qismi shaxsiy xizmatlar bilan shug'ullanishganlar. Ko'pincha xizmatkorlar faqat qorin to'yg'azish uchun ham mehnat qilishganlar, uydagi ish arzon va keng tarqalgan. Angliyada viktorian davrining o'rtalarida xizmatkorlar sinfi eng ko'pchilikni tashkil etgan" [11].

Xizmatkorlarni u yoki bu jihatdan ta'minlangan kishilar sifatida saqlashganlar. Shu sababli insonlarning juda katta qatlami yoki sinfi vujudga keldiki, ular professional darajada uy xizmatkorlari funksiyalarini bajara boshladilar, ayrim hollarda ko'pchilik avlodlar davomida ushbu sinfda o'ziga xos hayot tarzi, urf-odatlar, an'analar shakllandi.

Industrial, ya'ni rivojlangan kapitalistik va sotsialistik jamiyatda sanoatning rivojlanishi uy xizmatkorlari sonining keskin kamayishiga olib keldi. Ushbu davrda iqtisodiyotning bosh vazifasi bo'lib ommaviy tovar ishlab chiqarish bo'lgan fabrika turidagi ishlab chiqarish ya'ni ijtimoiy muhitni shakllantirdi, unga ko'ra juda ko'p sonli yollanma ishchilarning bir yoki bir necha xo'jayinlarga to'liq bo'ysinishini taqazo etdi. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va sinfiy kurash asta sekinlik bilan shunga olib keldiki, fabrika ishchilarining ish haqi shaxsiy xizmatlar uchun to'lovlardan yuqori bo'la boshladi.

Industrial jamiyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshdi:

Birinchidan, uy xo'jaligidagi yumushlarning aksar qismi ayollar zimmasiga o'tadi. 2-rasmdagi sotsiologik tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kunlik mehnat bozorida ishlovchilarning 68 foizi erkak kishini tashkil etmoqda. Bu esa hozirgi jamiyatda ayol uy xo'jaligini yuritish uchun erkakka qaraganda bir necha barobar ko'p vaqt sarflashini anglatadi. O'zbekistonda va boshqa bir qator mamlakatlarda shunday milliy ana`nalar mustahkam o'rin topdiki, ro'zg'or faoliyati bo'yicha bir qator qiyin ishlar (yuvish, tozalash, xarid qilish, ovqat tayyorlash va hokazo) ayollar bajaradigan ish hisoblanadi.



2-rasm: So'ralganlarni jinsi bo'yicha tarkibi [12]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchidan, avvallari oila a'zolari tomonidan (masalan, dehqon xo'jaliklarida) bajariladigan juda ko'p sonli xizmatlar kichik firmalar va xususiy tadbirkorlarga o'ta boshladi. Uy mehnatini yengillashtiradigan turli xildagi moslamalar (kir yuvish mashinalari, chang yutgichlar, oshxona kombaynlari va boshqalar) yaratildi, shuningdek, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan korxonalar tizimi tashkil etildi. Jumladan, sobiq ittifoqda yakka tartibdagi buyurtmalar tayyorlovchi, kiyim-kechak va oyoq kiyimi, maishiy texnika, kimiyoviy yuvish va hokazolar bilan shug'ullanuvchi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan juda ko'p sonli korxona va tashkilotlar faoliyat yuritgan. Sanoat va qishloq xo'jaligining faoliyat yuritishini ta'minlovchi (texnikani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish, yuklarni tashish, iqtisodiy va texnik tavsifga ega bo'lgan, ma'lumotlarni taqdim etish) ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan xizmatlar keng tarqala boshladi.

Xizmatlar sektorining kengayishi ham kapitalistik ham sotsialistik davlatlar iqtisodiyotida vujudga kela boshladi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy tizimlardagi xizmat faoliyati xarakteridagi farq asosan shundan iborat ediki, sotsialistik davlatlarda bepul xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar soni ko'p bo'lsa, kapitalistik davlatlarda pulliklari ko'p edi. Ya'ni ko'pchilik hollarda ular konkret iste'molchining cho'ntagidan emas, balki davlat budjetidan to'lana boshlandi. Undan tashqari, sobiq ittifoqda xizmat faoliyati sohasi qarib to'liq davlat tomonidan monopollashtirilgandi (xususiy tadbirkorlik qonun tomonidan taqiqlangandi). Kapitalistik davlatlarda esa foydani olishga mo'ljallangan pullik tijorat xizmatlari keng tarqalgandi. Natijada kapitalistik davlatlarda aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun xizmatlar qimmat hisoblangan, lekin xizmatlar sifati va xilma xilligi bilan sotsializm sharoitidagilardan ancha ustun turgan. Uning asosiy sababi turli xildagi xizmat firmalari o'rtasidagi kuchli raqobatning mavjudligi hisoblangan. Xizmat faoliyatining xususiyati shundayki, u bilan asosan xususiy shaxslar, kichik firmalar yoki yirik korxonalarning ixtisoslashtirilgan maxsus bo'linmalari shug'ullanishadilar. Shu sababli sotsializmda xususiy tadbirkorlikni taqiqlash xizmat sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qildi.

Postindustrial jamiyat sanoati rivojlangan davlatlarda XX asr ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlandi. Unda faoliyatning asosiy turi bo'lib, tovar ishlab chiqarish emas, balki axborotni qayta ishlash va xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi. Shu sababli sivilizatsiyaning postindustrial rivojlanish bosqichi "axborot jamiyati" va "xizmatlar iqtisodiyoti" deb nomlanadi. D. Bell 1999-yilda quyidagicha ta'rif beradi: "avvalambor bu xizmatlarga asoslangan jamiyatdir". Bugungi kunga kelib qo'shma Shtatlarda 70% dan ziyod ishchi kuchi xizmat ko'rsatish sohasida band [13]. Xizmatlar har qanday jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Agrar jamiyatda sharoitlarida bu asosan uy va shaxsiy xizmatlar bo'lgan. Industrial jamiyatda xizmatlar – bu ishlab chiqarishga nisbatan yordamchi faoliyat: kommunal xizmatlar, transport, moliya sohasi, ko'chmas mulkni boshqarish hisoblangan.

Postindustrial jamiyatda xizmatlarning yangi turlari keng tarqala boshlandi. Bular gumanitar-ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va professional xizmatlar, tahlil va rejalashtirish, dizayn, dasturlashtirish va shu kabilar. Iqtisodiyot klassiklarining tasavvurlarida (marksizmni qo'shgan holda) xizmatlar noishlab chiqarish faoliyati, deb hisoblangan, chunki boyliklar tovarlar bilan assotsiatsiyalashgandi, sartaroshlar, ofitsiantlar, advokatlar milliy boylikni ko'paytirmas edi. Albatta, ta'lim va sog'liqni saqlash insonlar imkoniyatlarini oshiradi va aholining salomatligi mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi, professional xizmatlar esa, korxona va jamiyat unumdorligining oshishini ta'minlaydi. Postindustrial jamiyatning rivojlanishi shuni talab qiladiki, imkoni boricha ko'proq insonlar oliy ma'lumotga ega bo'lishlari, abstrakt-konseptual fikrlash tajribasiga ega bo'lishlari va texnik, harfli-raqamli uslublarni egallashlari lozim".

Rivojlangan g'arb davlatlari misolida postindustrial jamiyatning shakllanishini kuzatish mumkin. (Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, postindustrial jamiyat hali ham shakllanish bosqichidadir). Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish o'z ichiga xizmat faoliyatini rivojlantirishning quyidagi uch davomiy bosqichini oladi.

1. Sanoatning rivojlanishi transport xizmatlari va umuman tovar harakati bilan bog'liq xizmatlarning keng tarqalishiga olib keladi;
2. Ne'matlarni ommaviy iste'mol qilish sharoitida taqsimot sohasining o'sishi boshlanadi (ulgurji va chakana savdo), moliyaviy xizmatlar, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, sug'urtalash;
3. Ovqatlanish uchun sarflanadigan oilaviy daromad hissasi kamayadi. Bo'shagan mablag'larni aholi dastlab uzoq foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishga (kiyim-kechak, avtomobillar) va ko'chmas mulkka, keyinchalik esa qimmatbaho tovarlar xarid qilishga va dam olishga sarflaydi. Shu tariqa shaxsiy xizmatlar kengayadi. Ular jumlasiga restoranlar, mehmonxonalar, avtomobil ustaxonalari, sayohat, dam olish va sport industriyasi kabilar kiradi. Xizmat ko'rsatish sohasining asosiy sohasilari bo'lmish sog'liqni saqlash, ta'lim, turizm va shu kabilarga keskin qiziqish kuchayadi. Bularning barchasi xizmatlarning yangi turlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoati rivojlangan davlatlarda ijtimoiy, taqsimot va maishiy xizmat sohalarida band bo'lganlar soni ortib bordi. XXI asr boshlarida ishlab chiqaruvchilarga xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi bilan bog'liq xizmatlar tez sur'atlar bilan o'sdi.

Xizmat ko'rsatish ma'lum davrlarda turli holatlarda namoyon bo'ladi. Insoniyat olami tomonidan ehtiyojning talabga ta'siri o'zgarishi, ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi yangi turdagi talab paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa xizmatlar sohasini ham chetlab o'tmadi. Innovatsion yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tex-

nika – texnologiyalardan barcha tarmoqlar va sohalarda yoppasiga foydalanish makroiqtisodiyot darajasida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol fazalarida resurslarning ortiqcha sarf bo'lishining oldini olishga ko'maklashdi. Yuqori texnologiyalarning bunday ko'magi raqamli xizmatlar shaklida namoyon bo'ldi. Aynan raqamli xizmatlar qishloq joylarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli xizmatlar nazariyasi to'laligicha hali shakllanmagan ammo ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan ilmiy adabiyotlarda ularning nazariy qarashlarini uchratish mumkin. Masalan, "Postindustrial iqtisodiyot" (D. Bell), "Axborotlashgan iqtisodiyot" (O. Toffler), "Megaiqtisodiyot" (V. Kuvaldin), "Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot" (I. Niiniluto), "Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot" (B. Geyts), "Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" (D. Tapskott) [14] kabi ilmiy qarashlarini ilgari surishgan.

Raqamli xizmatlar – bu ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida elektron axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida cheklangan resurslardan optimal foydalanishga insonning yashash va xo'jalik faoliyatini yaxshilashga ko'maklashadigan xizmat ko'rsatishning zamonaviy shaklidir [15].

O'zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar rivojlanishiga asosiy qadam bo'lib, 2015-yil 9-dekabrdagi "Elektron hukumat" to'g'risidagi O'RQ-395-son Qonuni [16] qabul qilinganligini aytishimiz mumkin. Ungacha "Elektron raqamli imzo", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, qonunlari raqamli xizmatlarning rivojlanishiga asosiy poydevor vazifasini bajardi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy muhitni yaxshilash, dinamik faoliyatni oshirish uchun xizmat qildi.

Raqamli xizmatlarning asosiy qulayliklaridan biri mamlakatning chekka qishloq joylari hududlarigacha xizmat imkoniyatining mavjudligi bo'lib, bunday raqamli xizmatlar quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi (3-rasm):

3-rasm: Raqamli xizmatlarni shakllantiruvchi asosiy vositalar [17]

Mufassal aytganda raqamli xizmatlar bugungi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan va aylanib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bizning mamlakatimiz ham, dastlabki kunlardan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar va usullardan maqsadli foydalandi. Biroq aholi talabining turlicha o‘zgarishi oqibatida, iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunga kelib, mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmatlar sohasini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va keng ko‘lamda foydalanish kerak ekanligini ko‘rsatmoqda. Sababi xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda lokomativ vazifasini bajaradi. Shu asosdan kelib chiqib xizmat ko‘rsatishning mazmun mohiyatini to‘laroq anglash zarurati yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo. Abdullayev “Fundamentals of market economy 100 questions and 100 answers” –Tashkent – “Labor” – 1997 120 pages.
2. Slovar russkogo yazyka / Sost.S. I. Ojegov. – M .: Gos.izd-vo slovarey, 1953. -776 p.
3. Smith A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. –M .: Eksmo, 2009. – P. 104.
4. Muxammedov M. M. And others. Theoretical foundations of the development of the service sector and tourism. Monograph. –Samarkand: Zarafshon, 2017. – 31b.
5. Kotler, F., Marketing management. Ex press-course. – 2nd ed. / Per. s angl. under red. Bojuk S. G. SPb .: Peter, 2006.-464 p.
6. Tuxliyev I. S., Hayitboyev R., Ibodullayev N. E., Amriddinova R. S. Fundamentals of Tourism: Textbook – S .: SamISI, 2010 – 247 p.
7. Ochilov I. Types of services in the context of market relations and their description. // Development of services, services and tourism: problems and their solutions. Monograph. –T .: “ECONOMY-FINANCE”, 2008, p.37.
8. Pardayev M. Q. etc. “Economy of the service sector”. Study guide. – T .: “ECONOMY-FINANCE”, 2014. -384 p.
9. Mardonov B. B. “Service sector and employment” Monograph. Publishing house “Fan” of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Tashkent – 2013, 128 pages.
10. Gelbreyt D. K. Ekonomicheskie teorii i tseli obshchestva / per. s angl. –M: Progress 1979. pp. 87-88.
11. Bell D. Gryadushchee postindustrialnoe obshchestvo. Experience sotsialnogo prognozirovaniya / per. s angl. M: Academia 1999 s. 169.
12. Mardonov B. B., Mustafoyev G‘. S. Study and regulation of the daily labor market (results of a sociological survey). Risola. –Samarkand-2020-y. –48 p.
13. Fiscal year 2014 APPENDIX Bedget of the U. S. GOVERNMENT 751-pp.
14. S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Blockchain technologies in the digital economy. T .: TMI, “Economy-Finance” Publishing House, 2019, 8 pages.
15. Description given by the author
16. Issue 237 (6420) of the newspaper “People’s Word” dated December 10, –2015.
17. Compiled by the author based on the author’s research.
18. Taylakova D. B. Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning ahamiyati //Innovatsion texnologiyalar. – 2022. – T. 2. – №. 2 (46). – S. 111-116.

УВЕЛИЧЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ЧЕРЕЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ

Хусниддинов Нуриддин
Предподаватель университета Амити в Ташкенте

Аннотация: Эта статья анализирует стратегии стратегического финансирования для повышения инвестиционной привлекательности в туристической отрасли. В ней рассматривается сочетание традиционных и инновационных методов финансирования, роль государственно-частных партнерств и применение устойчивых инвестиционных практик. Также в статье представлены рекомендации по оптимизации этих стратегий для обеспечения долгосрочного роста и устойчивости туристической индустрии.

Ключевые слова: Инвестиции в туризм, Стратегическое финансирование, Государственно-частные партнерства, Устойчивые инвестиции, Инновационное финансирование.

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm sohasida investitsiya jozibadorligini oshirish uchun strategik moliyalashtirish strategiyalarini ko‘rib chiqadi. Unda moliyalashtirishning an’anaviy va innovatsion usullari integratsiyasi, davlat-xususiy sheriklikning o‘rni va barqaror investitsiya amaliyotini joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, turizm sanoatida uzoq muddatli o‘sish va barqarorlikni ta’minlash uchun ushbu strategiyalarni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm sarmoyasi, strategik moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, barqaror investitsiyalar, innovatsion moliyalashtirish.

Abstract: This article explores strategic financing approaches aimed at boosting investment appeal in the tourism sector. It delves into the integration of both traditional and novel financing methods, the significance of public-private partnerships, and the implementation of sustainable investment practices. Additionally, the article offers insights on how to refine these strategies to promote sustained growth and resilience within the tourism industry.

Key words: Tourism Investment, Strategic Financing, Public-Private Partnerships, Sustainable Investment, Innovative Financing.

ВВЕДЕНИЕ

Сектор туризма, являющийся жизненно важным двигателем глобального экономического роста, сталкивается с уникальными вызовами в области привлечения и удержания инвестиций. Эти вызовы включают в себя экономическую нестабильность, изменение потребительских предпочтений, экологические проблемы и, в последнее время, воздействие глобальных кризисов, таких как пандемия COVID-19. На этом фоне изучение и реализация эффективных стратегий финансирования стали более актуальными, чем когда-либо, для повышения инвестиционной привлекательности сектора.

Вклад туризма в экономическое развитие, создание рабочих мест и культурный обмен невозможно недооценить. Однако, рост и устойчивость этого сектора часто зависят от способности обеспечивать достаточное финансирование. Традиционные методы финансирования, хотя важны, не всегда способны удовлетворить разнообразные потребности индустрии туризма. Эта отрасль характеризуется сезонными колебаниями, изменяющимися потребностями клиентов и необходимостью постоянных инноваций и развития инфраструктуры.

Целью данной статьи является более глубокое понимание сложностей финансирования в секторе туризма. Мы исследуем как традиционные, так и инновационные механизмы финансирования и рассмотрим, как эти стратегии могут быть оптимизированы для повышения привлекательности сектора для инвесторов. Нашей целью является обеспечение не только немедленного восстановления и роста, но также долгосрочной устойчивости и стойкости этой важной отрасли.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Анггоро, Рамадхан и Нгиндана исследовали реализацию государственно-частные партнерства (ГЧП) в туристическом секторе, сосредоточив внимание на примере Ламонгана, Индонезия. Они подчеркнули успех ГЧП в развитии морских туристических объектов посредством схемы “Строительство-Эксплуатация-Передача” (СЭП). Это исследование подчеркивает потенциал ГЧП в мобилизации ресурсов и поддержке развития инфраструктуры в сфере туризма [1].

Руитерс и Амади-Эченду исследовали применение ГЧП в водной инфраструктуре Южной Африки, что является важнейшим компонентом развития туризма. Их исследование разработало структуру ГЧП и определило инвестиционные модели для устойчивой водной инфраструктуры, подчеркнув роль ГЧП в решении проблем с отставанием в инфраструктуре и обеспечении устойчивости [2].

Заман обсудил проблемы и стратегии финансирования ЦУР в контексте COVID-19 с последствиями для туристического сектора. В исследовании подчеркивается необходимость увеличения вкладов частных инвестиций и НПО, что предполагает изменение стратегий финансирования для поддержки устойчивого развития в постпандемическую эпоху [3].

Юсфида проанализировал критические факторы успеха пилотного проекта ГЧП для аэропорта Лабухан Баджо в Индонезии, ключевой инфраструктуры туризма. В исследовании подчеркивается важность планирования и подготовки проектов ГЧП, подчеркивая роль ГЧП в улучшении инфраструктуры туристического сектора [4].

В статье Тен Станислава рассматриваются основные проблемы и перспективы инвестиционного развития туристической сферы Краснодарского края, а также основные тенденции развития инвестиционной деятельности в туристической отрасли [5].

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ стратегий финансирования в секторе туризма показывает динамическое взаимодействие между традиционными методами финансирования и инновационными моделями финансирования. Зависимость сектора от традиционных источников, таких как банковские кредиты и акционерное финансирование, постепенно уступает место более гибким альтернативам с разделением рисков. Этот сдвиг обусловлен необходимостью решения уникальных проблем туристической индустрии, включая ее восприимчивость к внешним потрясениям, таким как экономический спад и глобальные кризисы, такие как пандемия COVID-19.

Государственно-частное партнерство (ГЧП)

ГЧП стало жизненно важным инструментом в преодолении дефицита финансирования в туристическом секторе, особенно в сфере развития инфраструктуры. Успех ГЧП в различных проектах, связанных с туризмом, как это видно на примере Ламонгана в Индонезии и водной инфраструктуры Южной Африки, подчеркивает их потенциал в мобилизации ресурсов и распределении рисков.

Устойчивые и ответственные инвестиции

Существует растущая тенденция к интеграции экологических, социальных и управленческих критериев (ESG) в инвестиционные решения в туристическом секторе. Этот переход к устойчивой и ответственной инвестиционной практике не только этически необходим, но и экономически выгоден в долгосрочной перспективе.

Проблемы и решения в финансировании туризма

В этой таблице представлены основные проблемы финансирования туристического сектора и потенциальные решения для решения этих проблем.

Таблица 1: Проблемы финансирования и решения в секторе туризма

Испытание	Возможное решение
В заключении, следует отметить, что, перспективы развития депозитных операций в коммерческих банках Республики Узбекистан во многом зависят от успешного решения таких проблем, как низкая финансовая грамотность населения, нестабильность экономики и недостаток конкуренции на рынке. Предложенные стратегии, включающие улучшение информационной поддержки, усиление конкуренции, внедрение новых технологий и повышение финансовой грамотности, могут способствовать успешному решению этих проблем и стимулировать дальнейший рост депозитного рынка.

На основе проведенного нами анализа перспектив развития депозитных операций коммерческих банков Узбекистана, мы предлагаем следующие стратегии и рекомендации:

- повышение финансовой грамотности населения. Банки могут проводить образовательные программы и семинары, чтобы помочь людям понять, как работают вклады и какие преимущества они могут получить;

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

- укрепление доверия к банковской системе – банкам следует работать над улучшением своего имиджа среди населения, делая размещение средств на депозитах более привлекательным;
- расширение ассортимента депозитных продуктов – банки могут предложить больше опций вкладов, удовлетворяющих потребности разных групп клиентов;
- увеличение процентных ставок – банки могут устанавливать более высокую процентную ставку для привлечения большего числа клиентов и мотивирования их на размещение своих средств на депозитных счетах;
- внедрение новых технологий – банки могут использовать новые технологии для упрощения процедур открытия и управления вкладами;
- улучшение условий досрочного закрытия вкладов – Банки могут изменить условия закрытия вкладов для большей гибкости и привлекательности для клиентов.

Список использованной литературы:

1. Маликова Д. М., Пути расширения спектра инновационных услуг в Узбекистане. Электронный периодический рецензируемый научный журнал “CYBERLENINKA” European science № 4 (53) [Электронный ресурс].
2. Одоева О. И., Гомбоева А. Н., Постникова Л. В. Депозитные операции коммерческого банка: анализ современного состояния и тенденций развития // Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент. –2021. № 2. С. 66–76.
3. Статистический бюллетень Центрального банка. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://cbu.uz/ru/statistics/buleten/1472902/
4. Shokhrukhkhuja Fakhriddinkhujaev, Can Islamic Finance Drive Banking Sector Development in Uzbekistan? Электронный периодический рецензируемый научный журнал: “The Diplomat”
5. Мыц И. Ю. Повышение эффективности депозитных операций коммерческих банков в Российской Федерации. Электронный журнал “SCI-ARTICLE. RU”, –№45 (май) 2017, стр. 25.

SMART-SHARTNOMALAR – RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN BIRI SIFATIDA

Yahyoxonov N. B.
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Marketing” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida marketingning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, smart-shartnomalarning o‘ziga xos jihatlari va ularning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni va ta’sir maydonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli tranzaksiya, mayning, raqamli platforma, raqamli texnologiyalar, big data, blokcheyn, kontakt auditoriya.

Abstract: The article presents information on the possibilities and importance of using modern technologies of marketing in the context of the digital economy. Also, the specifics of smart contracts and their place in the service sector and areas of influence are covered.

Key words: digital economy, digital transaction, mining, digital platform, digital technology, big data, Blockchain, contact audience.

Аннотация: В статье представлена информация о возможностях и значении использования современных технологий маркетинга в условиях цифровой экономики. Также освещаются специфические аспекты смарт-контрактов и их роль в сфере услуг и сферах влияния.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые транзакции, майнинг, цифровая платформа, цифровые технологии, большие данные, блокчейн, контактная аудитория.

KIRISH

Bugungi global o‘zgarishlar biznesda tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Kecha talab yuqori bo‘lgan tovar va xizmatlar bugungi kunda ahamiyatsiz bo‘lib qolmoqda. Bozorlarning to‘yinishi, yuqori raqobat bosimi, iste’molchilar talablarining o‘zgarishi, innovatsiyalarning shiddat bilan kirib kelishi biznesning raqamli transformatsiyasiga bo‘lgan zaruriyatni oshirmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayning, smart shartnoma (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug‘urtalash, kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, raqamli platformalarni joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli marketingni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish, uning texnologiyalarini tadqiq qilish masalalariga xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Chaffey Dave, Desai Vaibhavalar tomonidan raqamli marketing, uning strategiyalari va amaliy jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan[1].

1 Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2012). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice(5 th Edition). Pearson. Desai, V. (2019, March). Digital Marketing: A Review. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), Special Issue Fostering Innovation, Integration and Inclusion Through Interdisciplinary Practices in Management,196-200. Retriyeved from https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd23100.pdf

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari T. P. Danko, va O. V. Kitovalar Raqamli marketingni rivojlantirish masalalariga o‘zlarining ilmiy ishlarida alohida e’tibor qaratishgan[2]. Aleksandr Vyacheslavovich Frolov ishlarida Blokcheyn texnologiyalari asosida smart-shartnomalardan foydalanish yo‘llari tadqiq etilgan[3].

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, raqamli marketing ularga raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari Gulyamov S. S., Ayupov R. H., Ergashxodjayeva Sh. J., Sharifxodjayev U., Abduxalilova L. T. va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, integratsiyalashgan yondashuv, statistik, mantiqiy tadqiqot usuli, analiz, qiyosiy va vaziyatli tahlil yordamida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli platformalar, xususan, undagi “sotish voronkalari”ning xizmat ko‘rsatish bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi ishonchni ta’minlash mexanizmiga modifikatsion ta’sir etish xususiyatiga ega. 2019-yilda Gartner tadqiqotlar agentligi tomonidan keltirilgan strategik texnologik dolzarb mahsulotlar qatorida smart-shartnomalarga e’tiborning qaratilishi yuqorida keltirilgan xususiyatni namoyon etadi[5]. 1974-yil Ya. Makneyl tomonidan shartnomalar konsepsiyasining nazariy jihatlari o‘rganilishi natijasida shartnomalarning qo‘llanilishi va istiqboldagi natijaviyligini ta’minlashi bo‘yicha asosiy mezonlar uchta guruhi ajratib berildi. Mazkur yondashuvga murojaat qilinadigan bo‘lsa, smart-shartnomalarning ishtirokchilari o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unlashuvining asoslanishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (1-rasm).

1-rasm: Smart-shartnomalarning istiqbolini belgilab beruvchi mezonlar xarakteristikasiga muvofiqligini ta’minlay olish tahlili[6]

Shartnomalar xarakteristikasi	Shartnoma istiqbolini belgilab beruvchi mezonlar xarakteristikasi		
	Klassik	neoklassik	munosabatli
Aktivlarning xususiyatlari darajasi	spetsifik bo‘lmagan aktivlar	spetsifikasi sust aktivlar	spetsifikasi yuqori aktivlar
Transaksiyalarning chastotasi	bir martalik, muntazam ravishda	bir martalik, uzlukli	uzluksiz
Shartnomaning amal qilish muddati	qisqa muddatli	o‘rta va uzoq muddatli	uzoq muddatli
Selektivlik darajasi va tomonlarning personifikatsion ahamiyati	selektivlik mavjud emas, shaxsiy munosabatlar darajasi nolga teng	tomonlar identifikatsiyasining mavjudligi	selektivlik darajasi yuqori bo‘lib, kontragentni almashtirib bo‘lmaydi
To‘liqligi	to‘liq	to‘liq emas	to‘liq emas
Jamoa moslashuvchanligi mexanizmi	mavjud emas	jamoa moslashuvchanligi mexanizmi kutilmagan sharoitlarga qaratilgan	jamoa moslashuvchanligi mexanizmi munosabatlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega
Bitim shartlarining amalga oshirilishini ta’minlash mexanizmi	o‘z-o‘zini ta’minlaydi, sud tizimining roli passivdir	shartnoma shartlarini uchinchi shaxs tomonidan ta’minlaydi (arbitraj sudi)	o‘zini-o‘zi ta’minlaydi, uchinchi shaxs to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaganligi sabab, munosabatlarga aralasha olmaydi

2 О. А. Кожушко, И. Чуркин, А. Агеев и др. Интернет-маркетинг и digital-стратегии. Принципы эффективного использования: учеб. пособие/; Новосиб. Budanov, V., & Aseeva, I. (2019). Manipulative marketing technologies in new digital reality. Economic Annals-XXI, 180(11-12), 58-68. doi: https://doi.org/10.21003/ea.V180-07. Инструментарий реализации маркетинговых интернет-технологий в биз-несе / Ю. А. Еременко // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2017. – №3 (23). – С. 41–50.

3 Фролов А. Создание смарт-контрактов Solidity для блокчейна Ethereum. Практическое руководство. – ЛитРес, 2022. – ISBN 978-5-0419-2925-1

4 S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. –T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 404 bet. Ayupov R. X. va boshqalar. Uzbekistonda elektron biznesning rivojlanish istikbollari. –T: “Format poligraf” nashriyoti, 2016, 205 bet. U. Sharifxodjayev, Z. Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.–271 b. Abduxalilova L. T. Internet marketing. – T.: Iqtisodiyot, 2019. 265 b. Ergashxodjayeva Sh. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik.–T.: Iqtisodiyot, 2018.–315 b.

5 Gartner – tadqiqotlar va konslating kompaniyasi saytidan https://www.gartner.com/en/information-technology/glossary/smart-contract

6 N. P. Ivashyenko, A. Y. Shastitko, A. A. Shpakovalarning ilmiy qarashlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Istiqbolli munosabatlar qiymatliligi	ahamiyatsiz	o‘rtacha	yuqori
Rasmiy/norasmiy munosabatlarning ustuvorligi	ustunlik rasmiy munosabatlarga qaratilgan	ustunlik rasmiy munosabatlarga qaratilgan bo‘lsa-da, norasmiy munosabatlar kuzatiladi	ustunlik norasmiy munosabatlarga qaratilgan
Rasmiylashuv va standartlashuv darajalari	rasmiylashtirilgan, standart formada	rasmiylashtirilgan, nostandart formada	rasmiylashtirish bir necha kelishuvlar asosida

Smart-shartnomalarni qo‘llash imkoni mavjudligining darajalari

- qo‘llash imkoni mavjudligining darajasi maksimal
- qo‘llash imkoni mavjudligining darajasi o‘rta
- qo‘llash imkoni mavjudligining darajasi minimal

1-rasmda keltirilgan tahlillar xizmat ko‘rsatish sohasida biznes-hamkorlik muhitida smart-shartnomalarning qo‘llash imkoniyati darajasi yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, mazkur soha faoliyatida raqamli marketing instrumentlariga bo‘lgan zaruriyatni hamda ulardan foydalanish natijalarini yanada oshiradi, xususan: xizmat turlari talabgorligi tadqiqotlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, korxona biznes-modellari, strategiyalari hamda missiyalarining yangilanib turilishini ta’minlaydi.

Smart-shartnomalar dastlab moliyaviy bozorlarda kiritilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib smart-shartnomalar savdo, logistika, ijara, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda istiqbolli foydalanish mumkinligini isbotlamoqda.

Smart-shartnomalarni joriy etishning ustun jihatlariga quyidagi muhim ta’sir etuvchi omillari ajratib ko‘rsatish mumkin, ya’ni:

- tranzaksion xarajatlarni kamaytirilishi;
- blokcheyn texnologiyalarni keng joriy etilishi hamda institutsional infratuzilmaning shakllanishi;
- avtomatik nazoratning olib borilishi.

Shu bilan birga, smart-shartnomalarni “external” va “internal” shakllantirish modellari mavjud bo‘lib, mazkur tajribani mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishni ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining “Bitimlar” 9-bobida, O‘zbekiston Respublikasi 29.08.1998-yildagi 670-I-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi 06.02.2019-yildagi O‘RQ-518-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016-yildagi 185-son “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga smart-shartnomalarning huquqiy konstruksiyalari haqida tegishli qo‘shimchalar kiritilishi lozimdir.

Smart-shartnomalarni joriy etishdagi yana bir ustunlik jihati uning ekotizimining tegishli dasturlar yordamida mahsulot yoki xizmat ko‘rsatishning hayot sikli davrining har bir bosqichida raqamli va jismoniy muhitida yuzaga keladigan texnologik va biznes jarayonlar to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumotlar oqimini ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli muhitdagi bitimlarni bajarilishi, xususan, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar uchun iqtisodiy boshqaruvining biznes modellarida qo‘llanilishi smart-shartnomalar yordamida big data algoritmlari tomonidan moliyaviy va texnologik ma’lumotlarni yig‘ish va tizimlashtirishni amalga oshirish, ularni tasdiqlash va tekshirish imkonini yaratish orqali raqobatbardoshlik muhitini shakllantiradi (2-rasm).

2-rasmda smart-shartnomalarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni va ta’sir maydonlarida keltirilgan harakatlari orqali raqamli muhitdagi o‘ziga xos yangi marketing siyosatidagi yo‘nalishlarni shakllanishi ham ko‘rish mumkin, jumladan:

- xizmat qo‘shilgan qiymatining oshirilishi. Bunda “raqamli texnologiyalar – raqamli (fizik) xizmat – raqamli (fizik) mahsulot – raqamli bozor” zanjirida har bir iste’molchi uchun shaxsiy servis xizmatini taklif etish orqali xizmatning qo‘shilgan qiymatining oshishiga erishish;
- “raqamli texnologiyalar – raqamli (fizik) xizmat – raqamli (fizik) mahsulot – raqamli bozor” zanjiri asosida “raqamli (fizik) marketing – moslashtirilgan xizmat – shaxsiylashtirilgan servis” qiymatliligiga ega bo‘lgan xizmat ko‘rsatishning mavqe’iga erishish;
- “raqamli (fizik) marketing – moslashtirilgan xizmat – shaxsiylashtirilgan servis” qiymatliligiga ega bo‘lgan xizmat ko‘rsatish orqali “xizmat ko‘rsatish – raqamli marketing – mukammal qondirilgan ehtiyoj” munosabatlar mexanizmini yo‘lga qo‘yish imkoni mavjud bo‘ladi.



2-rasm: Smart-shartnomalarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni va ta’sir maydonlari7

Smart-shartnomalarni algoritmik imkoniyatlari platformaga bog‘liq va shuning uchun dastur tomonidan boshqariladigan va qayta ishlanadigan ma’lumotlar miqdori va tizimining salohiyatini e’tiborga olish ekotizimni ta’minlab turish uchun juda muhimdir, ya’ni:

- xizmat qiymatini oshirilishi;
- xizmat ko‘rsatish jarayonining avtomatlashuvi;
- xizmat ko‘rsatish sohasida smart-mahsulotlarning yaratilishi orqali hayot siklining kengayishi;
- elektron ma’lumot bazasi va undagi ma’lumot almashinuvidagi kiberxavfsizlikni ta’minlash;
- raqamli, smart va virtual mezonlar bo‘yicha raqamli muhitning biznes faolligini oshishi kabilardir.

Savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatiga smart-shartnomalarning joriy etilishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi raqamli muhitni yaratib qolmasdan, raqamli marketing imkoniyatlari va faoliyatining natijaviyligini bir necha barobarga oshirish salohiyatiga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Smart-shartnomalarni joriy etishdagi ustunlik jihati uning ekotizimining tegishli dasturlar yordamida mahsulot yoki xizmat ko‘rsatishning hayot sikli davrining har bir bosqichida raqamli va jismoniy muhitida yuzaga keladigan texnologik va biznes jarayonlar to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumotlar oqimini ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli muhitdagi bitimlarni bajarilishi, xususan, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar uchun iqtisodiy boshqaruvining biznes modellarida qo‘llanilishi smart-shartnomalar yordamida big data algoritmlari tomonidan moliyaviy va texnologik ma’lumotlarni yig‘ish va tizimlashtirishni amalga oshirish, ularni tasdiqlash va tekshirish imkonini yaratish orqali raqobatbardoshlik muhitini shakllantirishi asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yahyoxonov N. B. Korxonalarda raqamli marketingdan foydalanishni takomillashtirish (xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida). Dissertatsiya. –TDIU, 2023.–B. 146.
2. Akst R. Chto takoe Smart-kontrakt. ili Ethereum za chas. –Ridero, 2017. –S. 19. –ISBN 978-5-4485-2907-8.

7 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3. Dannen C. Introducing Ethereum and Solidity. – Brooklyn, New York, USA: Apress, 2017. –197 s. –ISBN 978-1-4842-2535-6.
4. Iyer K., Dannen C. Building Games with Ethereum Smart Contracts. Intermediate Projects for Solidity Developers. –Brooklyn, New York, USA: Apress, 2018. –281 s. – ISBN 978-1-4842-3492-1.
5. Бурков А. Ethereum: работа с сетью, смарт-контракты и распределенные приложения. – ЛитРес, 2020. –С. 542. – ISBN 978-5-0428-8384-2.
6. Фролов А. Создание смарт-контрактов Solidity для блокчейна Ethereum. Практическое руководство. – ЛитРес, 2022. – ISBN 978-5-0419-2925-1
7. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2012). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice(5 th Edition). Pearson.
8. Budanov, V., & Aseeva, I. (2019). Manipulative marketing technologies in new digital reality. Economic Annals-XXI, 180(11-12), 58-68. doi: https://doi.org/10.21003/ea.V180-07.
9. https://www.gartner.com/en/information-technology/glossary/smart-contract
10. https://lex.uz
11. https://en.wikipedia.org
12. https://www.fon.hum.uva.nl/rob/Courses/InformationInSpeech/CDROM/Literature/LOTwinterschool2006/szabo.best.vwh.net/smart_contracts_2.html

BANKLARDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI HISOBINI YURITISH TARTIBI

Mirzayeva Xilola Jaloliddin qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri kapitallashuv darajasini oshirish hisoblanib, o‘z likvidliligini yanada mustahkamlash hamda barqarorligini kuchaytirishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, likvidlilik, resurs bazasi depozitlar, jamg‘arma omonatlari, depozit siyosati.

Abstract: In this article, one of the important priorities of commercial banks’ activities is to increase the level of capitalization, further strengthen their liquidity and strengthen their stability.

Key words: commercial banks, liquidity, resource base deposits, savings deposits, deposit policy.

Аннотация: В данной статье одним из важных приоритетов деятельности коммерческих банков является повышение уровня капитализации, дальнейшее укрепление их ликвидности и укрепление устойчивости.

Ключевые слова: коммерческие банки, ликвидность, ресурсная база депозитов, сберегательные депозиты, депозитная политика.

DOLZARBLIGI

Iqtisodiyotni modernizasiyalashtirish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi va samarali amal qilishi xalq xo‘jaligi tarmoqlaridan biri hisoblanadigan bank tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Bank tizimi bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirishning eng ishonchli moliyaviy institutlaridan hisoblanadi. Tijorat banklarining bozor infratuzilmasidagi yuksak mavqeyini ta’minlash uning funksiyalarini to‘laqonli tarzda bajarilishi orqali amalga oshiriladi.

Bu esa, o‘z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashni taqozo qiladi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning birlamchi zaruriy sharti bo‘lib, kapital yetarliligini ta’minlash orqali bank o‘z aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishishadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. Biz aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirmasdan turib, “yashirin iqtisodiyot”dan to‘liq xalos bo‘la olmaymiz. Bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta’minlash masalalariga asosiy e’tiborni qaratish zarur.

Tijorat banklari depozit jalb qilish asosida resurs bazasini mustahkamlash uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish, ularni samarali boshqarish, bank xizmatlari hajmi va sifatini oshirish kabi muammolarning bugungi talab darajasida o‘z yechimini topmaganligi, ularni nazariy va uslubiy asoslarini har tomonlama tadqiq qilishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o‘zgartirib turishni ham o‘z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank passivlaridan samarali foydalanish depozit siyosatining oqilona yuritilishidan iborat bo‘ladi(Lavrushin O. I. 2009). Shu sababli ham, tijorat banklari resurslarining tarkibini tadqiq qilishdan oldin bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tijorat banklarida resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar G. L. Avagyan, D. K. Van Xorn, O. I. Lavrushin, J. Sinki, D. M. Noton va boshqa qator olimlarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, tijorat banklari passivlarini shakllantirish va boshqarish bilan bog‘liq ayrim masalalar o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh. Z. Abdullayeva, N. X. Jumayev, F. N. Karimov, Yo. A. Maxmudaliyeva, F. I. Mirzayev, O. K. Iminov, A. A. Ismailov, U. A. Tuxtaboyev, O. B. Sattorov, B. T. Berdiyarov, F. J. Nasriddinov va boshqalarning ilmiy asarlarida aks etgan.

Tijorat banklari resurslarining shakllanishi jihatidan tasniflanishi bank mutaxassislari va iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha o‘rganiladi. Bu boradagi o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan asosiy uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi guruh olimlari – “bank resurslarini shakllanishi jihatidan ikkiga bo‘lib o‘rgangan, ya’ni bank resurslari bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lardan iborat” deb ta’kidlovchi olimlardir. Bu guruhga Rossiya olimlaridan – Bukato V. I. va Lvov Yu. I. larni va boshqa olimlarni kiritish mumkin. Lavrushin O. I. “tijorat bank resurslari shakllanishi jihatidan, o‘z resurslari va jalb qilingan mablag‘larga bo‘linadi”, – deb aytib o‘tgan (Lavrushin O. I. 2008). Maslenchenkov Yu. S. kitobida: “bank resurslarini o‘z va jalb qilingan mablag‘lardan tashkil topadi”, – deb o‘rganadi (Maslenchenkov Yu. S 1996). Bularning ishlaridan ko‘rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko‘p e’tibor berib, bank resurslarini faqat ikki guruhga bo‘lib o‘rganganlar.

O‘TKAZILGAN TADQIQOT METADALOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqqan holda tahlilimiz bank tizimining yalpi ishlab chiqarishdagi o‘rni bilan boshlamoqdamiz.



1-rasm: Bank tizimida depozitlarning tutgan o‘rni (mlrd. so‘mda)(manba:Markaziy bank. 2023)

Har bir davlat bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari muhim ahamiyat kasb etadi, shu jumladan, O‘zbekiston bank tizimida ham. Xususan, mamlakatimiz bank tizimida umumiy depozitlar hajmi 2017-yil 1-yanvar holatiga 37,2 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yitl 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 216,7 trln. so‘mni tashkil qilgan. Statistikaga e’tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, oxirgi olti yilda bank tizimida majburiyatlar oshishi depozitlar oshishidan ildamlab ketgan. Xususan, bank tizimi majburiyatlari oxirgi olti yilda 535,4 foizga oshgan bo‘lsa, bank tizimi depozitlari 482,9 foizga oshgan.

Tijorat banklarida umumiy majburiyatlarning depozitlari o‘sishidan tezroq kuzatilgan holat asosan davlat ulushi mavjud banklarda bo‘lgan. Ushbu banklarga davlatning maqsadli jamg‘armalaridan katta miqdorda moliyaviy resurslar qo‘yilmoqda. Buni quyidagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

Davlat ulushi mavjud banklarda doim jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari katta rol o‘ynamagan. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston bank tizimiga xosdir. Chunki hukumat o‘ziga qarashli tijorat banklarini doim arzon va barqaror moliyaviy resurslar bilan qo‘llab-quvvatlab keladi. Bu bir tomondan davlat ulushi mavjud banklar moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsad qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan aynan ushbu tijorat banklari orqali davlat o‘zining ijtimoiy maqsadlarini amalga oshiradi.



2-rasm: Davlat ulushi mavjud tijorat banklarida depozitlarning tutgan o‘rni (mlrd. so‘mda) (manba: Markaziy bank. 2023)

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud banklar majburiyatlari 2017-yil 1-yanvar holatiga 58,4 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 373,2 trln.so‘mni tashkil etgan holda, ko‘rilayotgan davrda o‘rtacha 6,5-martaga oshgan. Davlat ulushi mavjud banklar depozitlari hajmiga nazar solsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga 24,8 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 135,5 trln.so‘mni tashkil etgan holda, ko‘rilayotgan davrda o‘rtacha 5,5 martaga oshgan.

Bu bilan ko‘shrishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida depozitlar o‘sishi umumiy majburiyatlar o‘sishidan past bo‘lgan. Bu holat ushbu banklarda depozitlarning majburiyatlardagi salmog‘ida ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, davlat ulushi mavjud banklarda umumiy depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi 2017-yil 1-yanvar holatiga 42,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa sezilarli pasaygan holda 36,3 foizni tashkil qilgan. Bu bilan aytishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida moliyaviy resurslarning katta qismi boshqa manbalardan jalb qilinmoqda.

Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida bu nisbat ko‘rilgan tijorat banklar holatidan ancha farq qiladi. Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari muhim moliyaviy resurs manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

3-rasm: Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida depozitlarning tutgan o‘rni (mlrd. so‘mda) (manba: Markaziy bank. 2023)

Statistik ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklari umumiy majburiyatlari 2017-yil 1-yanvar holatiga 16,7 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 103,9 trln.so‘mni tashkil etgan holda, ko‘rilayotgan davrda o‘rtacha 6,2-martaga oshgan.

Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklari depozitlari hajmiga nazar solsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga 12,4 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 81,2 trln.so‘mni tashkil etgan holda, ko‘rilayotgan davrda o‘rtacha 6,6 martaga oshgan.

Bu bilan ko‘rishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida depozitlar o‘sishi umumiy majburiyatlar o‘sishidan yuqori bo‘lgan. Bu holat ushbu banklarda depozitlarning majburiyatlardagi salmog‘ida ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda umumiy depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi 2017-yil 1-yanvar holatiga 74,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 78,1 foizni tashkil qilgan. Bu bilan aytishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud banklaridan farqli ravishda davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida moliyaviy resurslarning katta qismi aynan jismoniy va yuridik shaxslar depozitlaridan tashkil topgan.

ILMIY YANGILIGI

Aksiyadorlik tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va uni boshqarishni takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari, banklarning resurslarni jalb etish bilan bog‘liq faoliyatini samarali boshqarishni ta’minlash, barqarorlashtirish, ularning raqobat ustunliklarini oshirish va bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA NATIJADAR

Aktivlarga joylashtira olish imkoniyatiga qarab resurslarni jalb qilish lozim. Bu taklifni berishdan asosiy maqsad shuki, ayrim banklar resurslarni ko‘p miqdorda va yuqori foiz stavkada jalb qilishi natijasida resurslarni aktivlarga joylashtirib ulgurmaydilar. Buning natijasida bank ancha zarar ko‘rish ehtimolidan xoli bo‘maydi. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini muddatlari bo‘yicha diversifikasiya qilish orkali boshqarish. Ya’ni tijorat banklari uzlarining moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonida resurslarni daromad keltiruvchi aktivlarga jalb kilingan muddatlarini e’tiborga olgan holda joylashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, resurslarni boshqarishda bu omilga e’tibor qaratilishi bankning o‘z majburiyatlarini o‘z vaktida bajarishga imkon beradi.

Bank kapitalini oshirib borish, uning miqdori qancha katta bo‘lsa, bank omonatchilari, kreditorlari va mijozlarining bankka bo‘lgan ishonchlari shuncha yuqori bo‘ladi, chunki kapital hajmi bankning mustahkamligini ifodalaydigan belgilardan biridir. Tijorat banklari resurslari bank boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etib, ularning zarurligi – bank amalga oshirayotgan aktiv faoliyat hamda operatsiyalar miqdori bilan belgilanib, unda omonatchilar, kreditorlar va mijozlarining bankka bo‘lgan ishonchlari kapital hajmi va bankning mustahkamligini ifodalaydigan belgilardan biri ekanligi ilmiy asoslandi. Bank resurslaridan tijorat banklari ustav kapitali nisbatan yuqori barqarorlikka ega bo‘lib, banklar qiyin moliyaviy holatga tushganda undan asosiy himoya vositasi sifatida foydalanadilar. Uning ulushi barqaror miqdorini ta’minlashga erishish banklarning moliyaviy jihatdan baquvvat bo‘lishiga xizmat qiladi.

TAVSIYALAR

Zamonaviy sharoitlarda banklarning resurslarini shakllantirishning qator an’anaviy usullari eng samaralilari sifatida mavjud vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish; qimmatli qog‘ozlar emissiyasi hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish; banklararo va Markaziy bankning kreditlarini jalb qilish; bankning kapital hajmini oshirish uchun mablag‘larni jalb etish yoki foydadan ajratmalar qilish hisoblanadi.

Bugungi kunda tijorat banklari amaliyotida dolzarbligicha qolayotgan mijozlarni jalb qilish orqali resurslar barqarorligiga erish muammosi banklarning raqobatdoshligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. K. Ibragimov, Z. A. Umarov, K. R. Xotamov, N. Rizayev Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari,/darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020-446 b.
2. Аакер Д., Кумар В. и др. Маркетинговие исследования: 7-э изд. / Под ред. Божук С.; Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2004. –С. 848
3. D. V. Reimova, Tijorat banklarida deposit operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari/ magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya-2018.
4. Drucker, P. F. 2007, Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, N. J.; London.
5. PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” – 2020.
6. J. E. Butayev, Tijorat banklari deposit bazasini mustahkamlash yo‘llari-Journal Of Marketing, Business And Management(Jmbm) jurnaliga maqola/–2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi – 1995.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
9. Nasriddinov F. N., Sulaymanov S. A. O‘zbekiston bank tizimining zamonaviy tendensiyalari va uni rivojlantirish imkoniyatlari.// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, –2017-yil.
10. Markaziy bankning Bank hisob varaqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 3420, 2023-yil 8-fevral) asosida amalga oshiriladi.

KICHIK BIZNES KORXONALARIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Mamanazarova N. J
QarMII Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti

Jamilova N. X.
IPU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolaga Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilishda yangi sohalarning o‘rni va ahamiyatini oshirish yo‘llari taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, investitsiya, kichik biznes rivojidagi muammolar, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, kreyativ g‘oyalar taklifi, xorijiy investitsiyalar.

Abstract: This article proposes innovative ways to attract investment in order to increase the economic efficiency of small businesses in the Kashkadarya region.

Key words: Small business, investment, problems of small business development, private entrepreneurship, economic efficiency, proposal of creative ideas, foreign investment.

Аннотация: В данной статье предложены инновационные пути привлечения инвестиций в целях повышения экономической эффективности предприятий малого бизнеса Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Малый бизнес, инвестиции, проблемы развития малого бизнеса, частное предпринимательство, экономическая эффективность, предложение креативных идей, иностранные инвестиции.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Faqat katta korxonalar qilish, aholi bandligini va daromadini oshirish, budjet tushumlarini ko‘rsatish masalarini to‘liq hal eta olmaymiz.Turmush darajasini oshirishning eng muhim yo‘li tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishdir. 1.Darhaqiqat kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o‘zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtayi nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko‘rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog‘iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta’minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, shuningdek, mana shu va boshqa omillar bilan bog‘liq xatarlar bor yoki yo‘qligi g‘oyat muhimdir. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo‘yicha investitsiya muhiti alohida qiziqish tug‘diradi. Kichik biznes uchun o‘ziga xos ba’zi ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko‘rsatkichi;
- egallab turgan bozor sektorlari bo‘yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.
- Jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo‘naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag‘larni, eng avvalo, tarkibiy qayta o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyi-

1 https://kun.uz/uz/news/2019/07/24/prezident-kichik-biznes-rivojiga-tosiq-bolayotgan-muammolarga-toxtaldi

halarini moliyalashtirish uchun yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratish;

- xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag‘larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go‘sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo‘naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag‘larni o‘zlashtirishiga har tomonlama ko‘maklashish;
- xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo‘sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e’tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratish;
- mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo‘lgan tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta’minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rish[2].

Ma’lumotlarga ko‘ra, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish maqsadida, viloyatda Xitoy tajribasiga asosan 45 ta kichik sanoat zonasi va Qarshi aeroportiga yondosh 120 gektar maydonda erkin iqtisodiy zona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu hududlarda tadbirkorlik faoliyati uchun davlat tomonidan barcha muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘rganilayotgan mavzu doirasida MDH davlatlari olimlaridan S. S. G‘ulomov [1], M. P. Boltabayev, M. S. Qosimova, B. K. G‘oyibnazarov Sh. J. Ergashxodjayeva, A. N. Samadov, Sh. I. Otajonov [2], U. P. Umurzakov, A. J. Toshboyev [3] va boshqalar tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivoji yo‘nalishlari va innivetsiyalarni jalb qilish kabi bir qator masalalar ko‘rib chiqilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo‘nalishlarini o‘rgangan xorijiy olimlar: A. Marshall, Y. Shumpeter, V. Valeslar [4] tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov B. T. [5] tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investitsiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. H. P. Abulqosimov, A. A. Qulmatovlar [6] mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llarini o‘rgangan. B. K. G‘oyibnazarov, H. O. Rahmonov, Sh. I. Otajonov, D. S. Almatovalar [7] KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan.

TATQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes korxonalarini hozirgi kundagi o‘rnini oshirish, yangi sohalarga jalb qilish hamda istiqbolda bu sohalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan statistik kuzatuv va ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Qashqadaryo viloyati respublikada hududining kattaligi bo‘yicha 3-o‘rin, aholisi soni bo‘yicha 4-o‘rinda turadi[3]. Viloyat hududida yerosti va yerusti tabiiy qazilma boyliklari, qolaversa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha ulkan xom ashyo bazasi hamda iste’mol bozori mavjud. Viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarning sanoat usulida qayta ishlash darajasi past. Xususan, yetishtirilgan mevaning 12 foizi, sabzavotning 2 foizi, uzumning 4,8 foizi, go‘shtning 1,1 foizi, sutning 2,8 foizi qayta ishlanayotganligi, bu mahsulotlarga viloyatning o‘zida katta iste’mol bozori mavjudligini ko‘rsatadi. Viloyatda keyingi 5 yilda yetishtiriladigan qariyb 10 mln tonna chorvachilik mahsulotlarini yoki qariyb 65 mln tonna dehqonchilik mahsulotlarni qayta ishlash bo‘yicha yangi investitsiya loyihalarini joriy etish zarurati mavjud. Vaholanki, juda katta miqdorda qayta ishlangan qishloq xo‘jalik mahsulotlari viloyatga chetdan yoki boshqa viloyatlardan olib kelinadi. Bundan tashqari, viloyat hududida 23 turdagi 147 ta foydali qazilmalar mavjud. Masalan, kafel uchun zarur bo‘lgan xom ashyoning 90 foizi, santexnika (unitaz, rakovina va boshqalar) mahsulotlari uchun 98 foiz, steklokristallit uchun 72 foiz, qurilish oynasi uchun 86 foiz hamda chinni idishlar uchun 100 foiz komponentlar viloyatdagi konlarda mavjud. Ushbu xom ashyo zaxiralarini qo‘shma korxonalar tashkil qilib, shu yerning o‘zida viloyatning ichki bozori va tashqi bozorlar uchun qayta ishlansa va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilsa yuqori natijalarga erishish mumkin. Eng asosiysi bu mahsulotlarga talab yuqori, xususan, keyingi 5 yilda 24 ming xonadonli, 2022-yilning o‘zida 3,5 ming xonadonli ko‘p qavatli uylar qurilishi rejalashtirilganligi qurilish materiallariga talab-ning yuqoriligini ko‘rsatadi[4]. Qolaversa bugungi kundagi dolzarb muammo ya’ni aholi bandligini ta’minlashga erishish mumkin.

2 http://lib.jizpi.uz/mod/resource/view.php?id=13621&redirect=1
3 Respublika stasistika ma’lumotlaridan foydalanildi
4 https://uza.uz/oz/posts/tashrifdan-tashrifgacha-qashqadaryo-viloyati-iqtisodiyoti-yuksalmoqda_457213

1-jadval: Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining soni (tumanlar kesimida)

№	Hududlar	Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining soni		2023-yil 2022-yilga nisbatan farqi ?-/+
		2022-yil	2023-yil	
1	Qarshi shahar	7441	8252	811
2	Shahrisabz	2099	2377	278
3	G‘uzor	1904	2351	447
4	Dehqonobod	1733	2090	357
5	Qamashi	2566	3017	451
6	Qarshi tum.	2719	3151	432
7	Koson	2908	3463	555
8	Kitob	2697	3253	556
9	Mirishkor	1447	1821	374
10	Muborak	1300	1422	122
11	Nishon	1653	2001	348
12	Kasbi	1707	2022	315
13	Ko‘kdala	-	1336	1336
14	Chiroqchi	3142	2478	-664
15	Shahrisabz tum	1862	2146	284
16	Yakkabog‘	2580	3143	563
Jami		37758	44323	6565

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2022-yilning yakunida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – 64,1%ni, xizmatlar sohasi – 56,9%, sanoat – 54,9%ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilish sohasida – 39,8%, sanoat – 37,7%ni tashkil etgan. Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 973 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 68,1%ini tashkil qilgan va o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8%ni tashkil qilgan. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (935,1mlrd.so‘m), Kitob (422,2mlrd.so‘m), Koson (413,4mlrd.so‘m), Qamashi (372,5mlrd.so‘m), Qarshi (347 mlrd.so‘m) va Yakkabog‘ (300,9 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Joriy yilning birinchi yarim yilligida tumanlar kesimida yangi tashkil qilingan korxonalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qarshi – 13,3%, Koson – 7,6%, Chiroqchi – 7,6%, Dehqonobod – 6,9%, Yakkabog‘ – 6,8%, Qarshi – 6,6% tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, viloyatda har 1000 nafar aholiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha ko‘rsatkichini olib qaraydigan bo‘lsak, eng yuqori ko‘rsatkichlar Qarshi shahri – 22,7 birlik, Shahrisabz shahri – 12,9, Muborak – 12,5, Mirishkor – 11,2, Dehqonobod – 10,2 birlik tumanlarida kuzatilgan.



1-rasm: Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlil

qilingan (foizda %)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (1820,3 mlrd. so‘m), Shahrisabz (764,1 mlrd. so‘m) shaharlari va Koson (561,8 mlrd. so‘m) va Qamashi (534,4 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 64,7 foizni tashkil qilib, 2022-yilning mos davrida 66,1 % foizni tashkil qildi. Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko‘kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (86,4 %), Chiroqchi (80,5 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,3 %) tumaniga to‘g‘ri keladi. Xizmatlar sohasida tuman bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (91,0%), Koson (85,5 %), Qamashi (84,9 %), Kitob (84,6 %), Dehqonobod (82,1 %), Kasbi (80,8 %), Qarshi (80,2 %), G‘uzor (75,2 %), Nishon (74,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi[5].

2-jadval: Kichik tadbirkorlik subyektlarida so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar

Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi%da
Qishloq, o‘rmon vabaliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	781	17,2
Danakli va po‘choqli urug‘i bo‘lgan mevalar yetishtirish	704	15,5
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	531	11,7
Uzum etishtirish	268	5,9
Qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirish	253	5,6
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	396	8,7
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	200	4,4
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	192	4,2
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	147	3,2
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	126	2,8

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ularning faoliyatini tartibga soluvchi, kichik biznesning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yanada rivojlantirish zarur. Tadbirkorlik faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi qonunlar tizimi orqali qonunchilik bazasi va huquqiy tartibga solishning takomillashtirilishi tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta’minlash, kichik biznes subyektlari faoliyatiga ma’muriy aralashuvni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barcha tadbirkorlik subyektlarining bozorga kirishi uchun teng sharoitlarni ta’minlash, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, davlatning nazorat funksiyalarini tartibga solish va tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish Qashqadaryoda tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan davlatning qonunchilik faoliyatining asosiy tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Kichik biznesni rivojlantirishning potentsial samarasini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari:

- Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tartibga solish, ma’muriy va tashkiliy to‘siqlarni bartaraf etish;
- Kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Kichik biznes subyektlariga kompleks moliyaviy, moddiy, axborot, konsalting, tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish infratuzilmasini tizimli rivojlantirish.

Yangi kichik va o‘rta korxonalar sonining o‘sishi, ishlab chiqarilayotgan kichik korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmatlar ko‘rsatish hajmining oshishi quyidagi shartlarga bog‘liq bo‘ladi[6]. Rivojlangan mamlakatlarda bu usullarga e’tibor qaratiladi. Korxona rahbarlari ishlab chiqarish malakasiga tegishli axborotlarni to‘plash va uni tahlil etish uchun maxsus xizmat idoralarini yoki maxsus odamlarni jalb etadilar yoki

5 file:///C:/Users/user/Downloads/9.%20Kichik%20biznes%20(1)%20(1).p
6 https://motherhouse.ru/uz/rent-apartments/problemy-razvitiya-malogo-predprinimatelstva-stati-problemy/

shunday xizmatlar tashkil qiladilar. Bu xizmat faoliyati uchun katta mablag‘lar sarflanadi, ammo ular o‘zlarining korxona uchun qimmatbaho bo‘lgan ixtirolariga qilinadigan sarf-xarajatlarini kamaytirish evaziga tezda o‘zini-o‘zi oqlaydi. Misol uchun Yaponiya davlati shu kabi usullar bilan axborot to‘plash 20 yil davomida eng yuqori sifatga ega bo‘lgan ishlab chiqarishni bunyot etdilar. Xorijda, masalan, AQSHda ba’zi bir davlat idoralari o‘z mijozlariga ba’zi bir ularni qiziqtirgan korxona va tashkilot to‘g‘risida turli tijorat axborotlarini yetkazish bo‘yicha vositachilik xizmat ko‘rsatadi. Korxona uchun tijorat siri hisoblangan ma’lumotlar qiziquvchi shaxslarga, korxonalarga shartnoma (litsenziya) asosida, shu jumladan, tashqi iqtisodiy bitimlar tuzilganda tashkil qilinadi[7]. Mamlakatimiz hududlarida KBXTga investitsion siyosat samaradorligini oshirish qulay investitsiya muhitini ta’minlash va xorijiy kapital oqimini yanada ko‘paytirish uchun asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni tatbiq qilish kerak bo‘ladi:

- KBXTni rivojlantirish maqsadida chet el investitsiyalarini yanada ko‘paytirishda ularning samarali faoliyatini ta’minlovchi huquqiy baza ta’minotini takomillashtirish va o‘zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish lozim;
- mamlaktimizda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan kichik qo‘shma korxonlarning erkin faoliyatini ko‘rsatishi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kuchaytirish;
- hududlarning barqaror rivojlanishi uchun barcha viloyatlarga teng taqsimlangan holda ichki va tashqi investitsiyalarni kiritish. Shuningdek, hududlarning salohiyati va keng imkoniyati haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish hamda ular uchun ko‘proq manfaatdorlik, moyillik yaratish mexanizmini ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. S. G‘ulomov “Kichik biznes va tadbirkorlik” darslik.
2. “Kichik biznes va tadbirkorlik” M. P. Boltabayev va boshqalar.
3. “Kichik biznes va tadbirkorlik” U. P. Umaurzakov, A. J. Toshboyev.
4. Vales W. J. Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W. J. Wales, V. K. Gupta, F. T. Mousa // International Small Business Journal. –2013. –№31(4). – P. 357–383.
5. Bayxonov B. T. “O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent –2019. –76 b.
2 Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2008-yil., Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 188 bet., Ismailov B. A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari iqtisod va moliya / ekonomika i finansы 2021, 8(144), Tuxliyev I. S., Hayitboyev R., Ibodullayev N. E., Amriddinova R. S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010 – 247 b., E. F. Gadoyev va b. Bilvosita soliqlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i. Toshkent: “NORMA”, 2011. 327 b.; Sh. A. Toshmatov Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Monografiya. Toshkent.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2004. -160 b.; T. S. Malikov, N. X. Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. –556 b.; S. S. Azimov, “Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma’lumotlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi, 2022-yil., B. A. Normatov, “O‘zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish” mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2020; I. A. Ergashev, “Soliq ma’muriyatchiligi tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi, Korporativ soliq menejmentida ichki soliq nazorati va tahlili, “Moliya” ilmiy jurnali.-2010.-№3; J. J. Urmonov, (2018), Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 27-38 b. / Urmonov J. J. (2018) Issues of improving the regulation of business entities through the tax mechanism. Dissertation for the degree of Doctor of Economics (DcS), N. B. Ashurova Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DS) Dissertatsiyasi. T: 2018-yil. 247 b.; J. J. Urmonov Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 y. 240 b.; I. M. Niyazmetov “Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot” Monografiya. –Toshkent: “Moliya”, 2016. 192 b.; Xudoykulov S. K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. Avtoreferati. –T., 2019. 77 b.; F. I. Isayev Soliq tahlili metodologiyasini takomillashtirish. I. f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. 242 b; U. X. Normurzayev Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. 2022. 247-bet., Aripov Oybek Abdullayevich. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. 2020-y., To‘ychiyev Abduraxmon G‘ofurovich. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2020-y., Masharipova Manzura Alimbayevna. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2020-y., Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2020-y., Sultonov Shodiyor Abduhalilovich. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2011-y., Ergashev I. I. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018 y., Urakov Jamshed Rajabovich. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2012-y., Ochilov I. S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2010 y., Mo‘minov B. O. Ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida agroxim-servis xizmati ko‘rsatishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2020-y., Isakov J. Ya. Xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi va uning rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2001-y., Mutalova D. M. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2010 y.,Sanakulova B. R. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.2016 y., Niyazmetov I. M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.2018., Botirov Azamat Axmedovich. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2012-y.

ko‘rsatuvchi korxonalarni soliqqa tortishga daxldor masalalarga kengroq urg‘u berilgan[3]. Shu bilan birgalikda, alohida qayd etish lozimki, xizmat ko‘rsatish korxonalarini alohida bir tizim sifatida soliqqa tortish jarayonlarini dissertatsion tadqiqot sifatida o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar juda kam amalga oshirilganligini ham ta’kidlab o‘tish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ta’kidlaganimizdek, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmlarida ayrim muammolar ham bo‘lishi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tabiiydir. Biz ularning mohiyatini to‘laroq anglash maqsadida ikki guruhga bo‘ldik. Birinchi guruhga bevosita soliqqa tortishning ichki xususiyatlaridan kelib chiqsa, keyingi guruhga esa tashqi omillar sifatida soliqqa tortish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga salbiy ta’sir qiladigan omillarni keltirish mumkin. Ularning ayrimlarining mohiyatini keltirib o‘tamiz.



1-rasm: Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolar

3 Mutalova D. M. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2010 y.,Sanakulova B. R. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash.Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –2016., Niyazmetov I. M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018-y., Urmonov J. J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –2018., Botirov Azamat Axmedovich. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –2012., Toshmatov Sh. A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2008 y-.

Soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining xususiyatlariga ilmiy-uslubiy jihatdan to‘la mos kelmasligining mohiyati shundaki, bu turdagi korxonalarning soliq rejimiga o‘tkazilishining amaldagi qoidalari, ya’ni yillik aylanma hajmining chegarasi (1 mlrd yoki 100 mln so‘m)ning o‘rnatilishi aksariyat hollarda soliq to‘lovchi xizmat ko‘rsatish korxonalarida xizmat ko‘rsatish hajmining qasddan kamaytirib ko‘rsatish holatlarini yuzaga kelishiga salbiy ta’sir qilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishdagi yana bir muammolardan biri bu xizmat ko‘rsatish korxonalarida soliq bazasini aniqlashning nisbatan qiyinligi va uni kamaytirib ko‘rsatishga olib keluvchi iqtisodiy omillarning ko‘pligini keltirish mumkin. Chunki, xizmat ko‘rsatishda aylanmalarni hisobda aks ettirish boshqa ishlab chiqarish korxonalaridagi nisbatan anchayin oson bo‘lsa, boshqa tomondan bu aylanmalarni har doimo ham buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish yoki onlayn kassa mashinalari xotirasida aks ettirishni nazorat qilish imkoni yetarli bo‘lmaganligi sababli, aylanmani kamaytirib ko‘rsatishga imkon beruvchi omillar anchayin ko‘p bo‘ladi va soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga mos kelmay qoladi.

Xizmat ko‘rsatish obyekti bo‘lgan va soliq bazasi hisoblangan jarayonni soliq tizimida aks ettirishning to‘la hisobga olish imkoniyatining yetarli emasligi bu tarmoqdagi korxonalarda soliq bazasini kamaytirib ko‘rsatilishiga, soliq hisobotlarida to‘g‘ri ko‘rsatmaslikka olib kelmoqda. Jumladan, xizmat turlarining import qilinishi va ularning soliq xizmati organlarida o‘sha vaqtning o‘zida aks ettirishni ta’minlaydigan platformaning oxirigacha to‘la integratsiya qilinmasligi va shu kabilar.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu jarayondagi eng katta muammolar guruhi sifatida ularda soliqdan qochish holatlarining yuqoriligi va uni yuzaga keltiruvchi boshqa iqtisodiy omillarning mavjudligidir. Shu sababli quyida ushbu muammolarning ayrimlari va shu bilan birgalikda ularning yechimlari bilan bog‘liq ayrim ilmiy-amaliy tavsiyalarimizni ham izohlaymiz.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida o‘tkazilgan soliq nazorati jarayonida eng ko‘p naqdalshtirish orqali soliq bazasini yashirish holatlari yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida soliq qarzini o‘zga shaxslardan undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, Soliq Kodeksining 120-moddasi to‘qqizinchi xatboshicini “Agar soliq to‘lovchi soliq qarzi hosil bo‘lishini bilgan holda o‘zining pul mablag‘larini yoki boshqa mulkini o‘zga shaxslarga bergan bo‘lsa, soliq to‘lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin va undirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” tahririda bayon etish taklif qilinadi. Mazkur normaning qonunchilikka kiritilishi bilan “naqdlashtirish” bilan shug‘ullanuvchi korxonalar oldidagi soliq qarzi hosil bo‘lmasligiga olib keladi deb hisoblaymiz.



2-rasm: Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishni takomillashtirilgan uslubiy tizimi[4]

Boshqa tarmoqdagi korxonalar singari xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan ham soliqdan qochishning yangi sxemasi sifatida bir nechta subyektlarni boshqa bir subyekt tarkibiga qo‘shilishi orqali tugatilishi holatlari hamda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida hisob raqamiga “ustav fondini shakllantirish”, “aylanma mablag‘larni to‘ldirish” kabi to‘lov maqsadi bilan pul mablag‘lari tushumini amalga oshirish holatlarining keskin ko‘payib ketish holatlari ko‘paymoqda. Buning oldini olish maqsadida bizning fikrimizcha, xizmat

4 Muallif tomonidan tuzilgan.

ko‘rsatish korxonalari boshqa subyektlar tarkibiga qo‘shilish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, soliq organlari tomonidan majburiy tartibda soliq auditi o‘tkazilishi va tekshirish natijasi bo‘yicha xulosasi taqdim etilganidan so‘nggina davlat xizmatlari agentligi tomonidan qo‘shilish (sliyanie)ga ruxsat berish tizimini joriy etish, soliqdan qochishdagi mazkur yo‘nalishning oldini olishda Ustav fondini shakllantirishda ta’sischi (fuqaro) tomonidan ustav fondini to‘ldirish yoki aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kiritilayotgan pul mablag‘lari manbasi bo‘yicha soliq organlariga Deklaratsiya taqdim etish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tahlillar ko‘rsatishicha, bugungi kunda 2021-yildagiga nisbatan xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga oshdi, albatta, buni hukumatimiz tomonidan 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni qabul qilish va uni amalga oshirish natijasi sifatida baholash mumkin. Albatta, bunday holat xizmatlar qiymatini oshirish orqali qo‘shimcha soliq bazasining ko‘payishiga olib kelishi tabiiy. Shu bilan birgalikda respublikamiz hududlarining xizmat ko‘rsatish sohasida o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar sohasini rivojlantirish, soliqqa tortishda alohida yondashuvlar asosida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta’minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish ham muhim masalalardan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Biz tomonidan yuqorida asoslagan takliflarimizning amaliyotga joriy qilinishi oqibatida, budjetdan vaqtincha soliq tushumlari kamaysa-da, ammo, savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar maskanlar, avtomobil yo‘llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta’minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini, chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temiryo‘llar o‘tgan tumanlarni – savdo, turizm, logistika hamda yo‘l bo‘yi xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashtirilishi, qishloq xo‘jaligi ulushi yuqori bo‘lgan tumanlarda – zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirilishi, zamonaviy bozor xizmatlari, ta’lim, tibbiyot, san’at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirilishi, yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko‘ngilochar xizmat ko‘rsatish obyektlarini ko‘paytirish, ta’lim va tibbiyot muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish orqali xizmatlar hajmi va ularning qiymati oshishi hisobiga qo‘shimcha soliq bazasi shakllantiriladi va yo‘qotilgan soliq tushumlari o‘rni qoplanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-5113-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma’muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Tuxliyev I. S., Hayitboyev R., Ibodullayev N. E., Amriddinova R. S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma –S.: SamISI, 2010-247 b.
5. Urmonov J. J (2018), Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – 27-38 b.
6. Aripov Oybek Abdullayevich. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. Котлер, Ф., Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: –Питер, 2006.
9. Малолетко Дмитрий Николаевич. Мониторинг налогового вклада предприятий общественного питания коллективных средств размещения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва 2013 г.
10. Дышлевский Алексей Сергеевич. Налогообложение предприятий гостиничного типа. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2007 г.
11. Tuxliyev I. S., Hayitboyev R., Ibodullayev N. E., Amriddinova R. S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010.
12. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2008-yil.
13. Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.; Ismailov B. A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari iqtisod va moliya.

O‘ZBEKISTONDA HUDUDLAR KESIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI

Uralov Baxtiyor Maxmudovich
Samarqand davlat vetetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti

Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich
Samarqand davlat vetetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Respulikmizda bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishida davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davlat boshqaruvida ham o‘z aksini namoyon qilib bormoqda hamda samarali tarzda o‘z ifodasini topmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning Respublikamizda tutgan o‘rni, raqamli iqtisodiyot jarayonlarini bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan va tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotda elektron xizmatlari, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, blokcheyn, buyumlar interneti.

Abstract: In our republic, the socio-economic reforms carried out by the state during the development of the digital economy are reflected in the state administration and are effectively expressed. In this article, the development of the digital economy, its role in our Republic, its inextricable connection with the processes of the digital economy are analyzed and relevant conclusions are presented.

Key words: digital economy, electronic services in digital economy, cloud technologies, artificial intelligence, blockchain, Internet of things.

Аннотация: Эффективно выражаются социально-экономические реформы, проводимые государством в ходе развития цифровой экономики и находят отражение в государственном управлении. В данной статье анализируется развитие цифровой экономики, ее роль в нашей Республике, ее неразрывная связь с процессами цифровой экономики и приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронные услуги в цифровой экономике, облачные технологии, искусственный интеллект, блокчейн, Интернет вещей.

KIRISH

Raqamlashtirish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda mavjud raqamli texnologiyalar yordamida analogli ma'lumotlarni mashina o'qiy oladigan ma'lumotlarga o'girish jarayoni sifatida tushuntiriladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ikkinchi jahon urushining tugashi bilan 1945 yilda ma'lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi mashinalarning paydo bo'lishi bilan boshlangan. 1950 yillarga borib magnitli xotirani saqlovchi uskunaning yaratilishi ma'lumotlarni saqlash xarajatlarini yanada kamaytirdi. 1960 va 1970-yillarda AQShda dastlabki internet tarmog'i DARPA yaratildi va bu tarmoq orqali bir kompyuterdan boshqa kompyuterga matnli xabar yuborish imkoniyati paydo bo'ldi. 1980-yillarda esa ushbu DARPA tarmog'i orqali TCP(transmission control protocol) protokoli yordamida xorijdagi kompyuterlar bilan bog'lanish mumkin bo'ldi. AQShda raqamli texnologiyalarning xususiylashishi 1990 va 1995 oralig'ida yuz berdi hamda 2000-yillarga borib dunyoning deyarli barcha davlatlariga internet yetib bordi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida innovatsion iqtisodiyot va innovatsiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlarga, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Bu muammoni o'rganishga Don Tapskott, Nikolas Negroponte, Devid Shaum, Skott Vanstoun, Nik Sabo, Adam Bek, Shon Fenning, Tom Pepper va Jastin Frankel va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Ushbu masalalar MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari asarlarida ham keng tahlil qilingan, jumladan, T. A. Gasanov, G. A. Gasanovlar, Viktor Sadovnichiy, I. S. Adnamax va Ye. V. Storojeva tadqiqotlarini ajratib ko'rsatish lozim. O'zbekistonda Akmaljon Kuchkarov, Ziyodullo Parpiyev, Dilshodjon Alimov, Shukhrat Shukurov, Dilshodjon Turdiyev, Bakhtiyor Rakhmanov,Anvar Kakhkharov kabi olimlarimiz tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari nazariy va uslubiy tomonlarini yoritishda o'z xissalarini qo'shishgan.

Shu bilan birga, ushbu mavzuning ba'zi masalalari bo'yicha hali hal etilmagan muammolar mavjud hamda iqtisodyotni modernizatsiya jarayonida yangi nazariy va amaliy muammolar vujudga kelmoqda. O'rganilayotgan muammoning murakkabligi va hali hal etilmagan muammolar mavjudligi ushbu maqolani maqsad va vazifalarni belgilashga sabab bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy saytida keltirilgan statistik ma'lumotlar, strukturaviy o'zgarishlar tahlili, xorijiy hamda o'zbek olimlari tomonidan nashr etilgan maqolalar va o'quv qo'llanmalarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o'rni, uning rivojlanishi bo'yicha olib borilayotgan tizimli yondashuvlarning qo'llanilishi. Ma'lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJADAR MUHOKAMASI

Raqamlashtirish jarayoni kichik turistik subyektlarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, hozirgi kunda kichik turistik subyektlar yangi turizm bozorlariga kirib borish, yangi turdagi biznes modellar yaratish, boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilish kabi jarayonlar raqamli texnologiyalar sababli qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ayniqsa, 2020-yilda yuz bergan koronavirus pandemiyasi sababli turizm sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi ommalashdi[2]. Quyidagi raqamli texnologiyalar turizmning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda:

1. **Mobil va bulutli texnologiyalar.** Turistlar uchun sayohatlarni tashkil etishda, mobil to'lovlar, onlayn bronlash kabi xizmatlar mobil internet orqali amalga oshmoqda. Turistik subyektlar uchun bulutli texnologiyalar biznesni masofadan turib boshqarishga ham imkoniyat beradi.
2. **Ma'lumotlar tahlili.** Turistik subyektlar hozirda vebsaytlar, messendjerlar va boshqa raqamli platformalar orqali iste'molchilarning xulq-atvori to'g'risida katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lmoqda. Shu bois, turistik subyektlar o'zlariga katta ma'lumotlarni tahlil qilishni biladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda.

1 Greenstein, D. (2000). Building and delivering the virtual world: Commercializing servicesfor internet access. The Journal of Industrial Economics 48, 391–411.

2 Q. J. Mirzayev, E. Sh. Shavqiyev, B. K. Janzakov. "Innovatsion iqtisodiyot": O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. 153-156 betlar.

3. **Sun'iy intellekt.** Turistik xizmatlarni avtomatlashtirishda qo'llanilmoqda. Bu texnologiya inson aralashuvisiz xizmat ko'rsatish (masalan, koll markaz) imkoniyat bermoqda.
4. **Buyumlar interneti (IoT).** Bu texnologiya smart turizmni tashkil etishda qo'llanilmoqda, bunda sensorlar bitta tarmoqqa ulanib turistlar xulq-atvori, atrof-muhit holati, resurslardan samarali foydalanish va shu kabilarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini beradi.
5. **Virtual reallik.** Virtual reallik real obyektlarni 3D virtual obyektlarga ko'chirish orqali turistlar uchun real dunyoni modellashtirish imkoniyatini beradi. Bunda turistlar o'z uyidan turib, uzoq masofada joylashgan destinatsiyaga virtual tashrif buyurish imkoniga ega bo'ladi.
6. **Blokcheyn.** Bugungi kunda rivojlanib borayotgan "aqlli" kontraktlar, to'lov tizimlari va boshqa foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari blokcheyn texnologiyasi orqali almashinmoqda.

Butun dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilari jadal sur'atlar bilan o'sib, ushbu tarmoqlar tobora rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda yurtimizda Facebook, Youtube, Pinterest va Twitter platformalari eng ommabop hisoblanadi(1-rasm).



1-rasm: 2021-yilda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar bozori dinamikasi[3]

Umuman, ijtimoiy tarmoqlar bozorining rivojlanishi globalizatsiya jarayonlarining tezlashishiga va rivojlanishiga olib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan, raqamli iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalib, ommalashib, bugungi kunda dolzarb masalaga aylanishida ijtimoiy tarmoqlar alohida ahamiyatga ega[4]. Mamlakatimizda nafaqat ijtimoiy tarmoqlar, balki boshqa AKT yo'nalishlari ham tobora rivojlanib bormoqda.

Bundan tashqari, AKT sohasida o'rtacha ish haqining o'sishi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ko'payishi bilan kechmoqda. Ish haqining o'sishi sohada mavjud kadrlar defitsiti yuqori ekanligidan hamda ushbu sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ish hajmi ortib borayotganligi sababli kelib chiqmoqda. Ushbu holat butun dunyoda globalizatsiya jarayonining kuchayayotganligi, dunyoning bir burchagida turib boshqa burchagidagi insonga xizmat ko'rsatish imkoniyati paydo bo'lganligi, umuman, xizmat ko'rsatish global darajaga chiqqanligi oqibatida kelib chiqmoqda.

Raqamli xizmatlar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat dasturlash, komp'yuter va davlat xizmatlari, balki "aqlli shahar" kabi loyihalarning amalga oshirilishida ham namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, turizm sohasida mehnat unumdorligini oshirish jarayonlarni avtomatlashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Turizm xizmatlarining xususiyatlari: insonlar bilan muloqot darajasi, xizmat sifatining mezonlari, resurslarning sarflanishi kabilar;
- Turistik subyektlar xodimlarining malakalilik darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalana olish darajasi;

3 https://gs.statcounter.com/social-media-statssayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
4 B. Janzakov. The innovational development of tourism and other theoretical frameworks of competitiveness. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29. No. 5, 2020, pp. 1774-1780

- AKT infratuzilmasining rivojlanganligi, internet tarmog‘i tezligi, elektr energiya va boshqa energiya manbalarining mavjudligi.

Raqamli texnologiyalari (IT) bugungi kunda deyarli barcha sohalarda muhim rol o‘ynaydi va jadal rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu texnologiyalar xizmatlari korxonalar, hukumatlar va jismoniy shaxslar uchun qator imtiyozlarni taklif etadi. Quyida kompyuter texnologiyalari xizmatlarning rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan:

Samaradorlikni oshirish: Raqamli texnologiyalari avtomatlashtirish, jarayonlarni takomillashtirish va ma’lumotlar tahlili kabi vositalardan foydalangan holda biznes jarayonlarini yanada samaraliroq qiladi. Bu korxonalarga tezroq, aniqroq va kam xarajat bilan ishlash imkonini beradi. Masalan, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) dasturiy ta’minoti va loyihalarni boshqarish vositalari kabi xizmatlar biznes jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Axborot almashish va aloqa: Raqamli texnologiyalari odamlar o‘rtasida muloqot va ma’lumot almashishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Elektron pochta, lahzali xabar almashish, video konferentsiya kabi aloqa vositalari hamkorlik va masofaviy ishlash kabi moslashuvchan ish modellarining tarqalishiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, u bulutli hisoblash xizmatlari, hujjatlarni almashish va hamkorlik qilish uchun qulayroq va xavfsiz platformani taqdim etadi.

Global bozorga kirish: Raqamli texnologiyalari korxonalarning global bozorlarga kirishini osonlashtiradi. Internet va electron tijorat platformalari kompaniyalarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini butun dunyo bo‘ylab mijozlarga taklif qilish imkonini beradi. Bu eksport imkoniyatlarini oshiradi, yangi bozorlarga chiqishni osonlashtiradi va xalqaro hamkorlikni rag‘batlantiradi.

Ijodkorlik va innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalari ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt va narsalarning internet kabi sohalarda doimiy ravishda yangi g‘oyalar va yechimlar paydo bo‘ladi. Ushbu texnologiyalar korxonalarga raqobatdosh ustunlikka erishish uchun yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Katta ma’lumotlar va ma’lumotlar tahlili: Katta ma’lumotlar tahlili korxonalar va muassasalarga katta ma’lumotlar to‘plamlaridan mazmunli tushunchalarni olish imkonini beradi. Ushbu sohada ma’lumotlarni tahlil qilish chuqur o‘rganish, mashinani o‘rganish va sun’iy intellekt texnologiyasi yordamida amalga oshiriladi va tahlillar hamda bashoratlar olinadi.

Sun’iy intellekt (AI) va Machine Learning (ML): Sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish kompyuter tizimlariga insonga o‘xshash qobiliyatlarni berish uchun ishlatiladi. Ilg‘or algoritmlar va o‘rganish modellari tufayli avtonom avtomobillar, ovozli yordamchilar, tasvirni aniqlash tizimlari kabi ko‘plab ilovalar ishlab chiqilmoqda.

Buyumlar Interneti (IoT): Buyumlar Interneti-bu jismoniy qurilmalarning Internetga ulanishi va bir-biri bilan aloqa qilish usuli. U IoT, uyni avtomatlashtirish, aqlli shaharlar, sanoat avtomatizatsiyasi kabi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Ma’lumotlar sensorlar va internetga ulangan qurilmalar orqali yig‘iladi va bu ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yanada samarali va aqlli tizimlar ishlab chiqiladi.

Bulutli hisoblash: Bulutli hisoblash Internetda umumiy manbalarga kirishni ta’minlash orqali ma’lumotlarni saqlash, hisoblash quvvati va dasturiy ta’minot xizmatlarini taqdim etadi. Bulutli hisoblash korxonalarga moslashuvchanlik, kengayish va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Kompaniyalar o‘z ma’lumotlarini xavfsiz saqlashi va baham ko‘rishi, biznes ilovalarini bulutda joylashtirishi va resurslarni ehtiyojlariga qarab masshtablashi mumkin.

Blokcheyn texnologiyasi: Blockchain – markazlashtirilmagan va taqsimlangan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, xavfsiz ma’lumotlarni saqlashni ta’minlaydi. Ushbu texnologiya xavfsizlikni yaxshilaydi va moliyaviy operatsiyalar, ta’minot zanjiri boshqaruvi, ovoz berish tizimlari kabi sohalarda shaffoflikni ta’minlaydi.

Raqamli moliyaviy xizmat moliyaviy operatsiyalar va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirishni ta’minlaydi. Moliya sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Raqamli to‘lov tizimlari: Raqamli moliya xizmatlari an’anaviy naqd to‘lovlarni raqamli to‘lov usullariga almashtirdi. Xavfsiz va tez to‘lovlarni kredit kartalari, debet kartalari, mobil hamyonlar va onlayn to‘lov platformalari kabi vositalar orqali amalga oshirish mumkin. Bu mijozlarga oson va qulay hisob-kitob tajribasini beradi.

Mobil banking: Raqamli moliya xizmatlari bank xizmatlaridan mobil ilovalar orqali foydalanish imkoniyatini

yaratdi. Mijozlar o‘z mobil qurilmalari orqali bank hisoblarini osongina boshqarishi, to‘lovlarni amalga oshirishi, pul o‘tkazmalari va boshqa bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Bulutli buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv: Bulutli hisoblash texnologiyalari buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv jarayonlarini iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish uchun ishlatiladi. Bulutli buxgalteriya dasturi korxonalarga moliyaviy ma’lumotlarni saqlash, hisoblash, hisobot berish va tahlil qilish uchun qulay vositalarni taklif etadi.

Ma’lumotlar tahlili va risklarni boshqarish: Raqamli moliyaviy xizmat moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qiladi va katta ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt usullaridan foydalangan holda risklarni boshqarish jarayonlarini yaxshilaydi. Ma’lumotlar tahlili tufayli moliya institutlari mijozlar profilini yaxshiroq tushunadilar, firibgarlikni aniqlaydilar, kredit riskini baholaydilar va risklarni boshqarishning yanada samarali strategiyalarini yaratadilar.

Avtomatlashtirilgan savdo va investitsiyalar: Raqamli moliya xizmati avtomatlashtirilgan savdo va investitsiya platformalari orqali moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtiradi. Algoritmik savdo va sun’iy intellektga asoslangan investitsiya vositalari savdo jarayonlarini tezlashtiradi, qaror qabul qilishda yordam beradi va investorlarga yaxshi daromad keltirish uchun bozor tendensiyalarini tahlil qiladi.

Ushbu texnologiyalardan tashqari, sun’iy intellekt, ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi, kiberxavfsizlik va avtonom tizimlar kabi sohalarda jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalari ko‘plab sohalarda samaradorliklikni oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Yuqoridagilarni hisobga olib, raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda rivojlantirish masalalari yoritib o‘tilgan. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanish, ularning mavjudligi va sifati, tayyorgarlik bosqichlari va rivojlanishning turli darajasini oshirishga alohida e’tibor berish kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo‘lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta’sir ko‘rsatdiki, yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot paydo bo‘ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’siri ostida odamlarning turmush tarzi o‘zgara boshladi, foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalar o‘zgardi – turli jug‘rofiy mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqalardagi odamlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lgan axborot aloqalarining jadal o‘sishi. Raqamli texnologiyalarning ta’siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi.

Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o‘sib borayotgan qismidir. Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba’zi jihatlariga o‘zgartiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni – aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek, ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 21-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Senatiga Murojaatnomasi. http://turkiston.uz (murojaat sanasi: 16.03.2020).
2. Алексеенко О. А. Цифровизация глобального мира и роль государства в цифровой экономике / О. А. Алексеенко, И. В. Ильин // Информ. общество. – 2019.
3. Greenstein, D. (2000). Building and delivering the virtual world: Commercializing servicesfor internet access. The Journal of Industrial Economics 48, 391–411.
4. Қ. Ж. Мирзаев, Э. Ш. Шавқиев, Б. К. Жанзаков. “Инновацион иқтисодиёт”: Ўқув қўлланма. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. 153-156 бетлар.
5. Q. J. Mirzaev, S. B. Boboqulov, B. Q. Janzakov. Raqamli iqtisodiyot. /O‘quvqo‘llanma/ Samarqand.: SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot-matbaabo‘limi, – 2022-y. 288 bet.
6. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54-56).
7. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). Sanoat 4.0 konsepsiyasi va unga ta’sir etuvchi risklar. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.
8. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
9. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.
10. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). Improvement Of Accounting And Audit Of Financial Results In Business Entities. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.

EXPERIENCE OF ISLAMIC FINANCIAL ORGANIZATIONS IN CIS COUNTRIES AND OPPORTUNITIES TO USE IT EFFECTIVELY IN UZBEKISTAN

Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
Independent researcher, “UrSU”, teacher of “Mamun University” NGO

Abstract: The article describes the foreign experience of Islamic financial organizations in CIS countries and the possibilities of effectively applying the experience of these countries in Uzbekistan. In particular, the article discusses the current state of Islamic financial indicators of the leading countries in the field of Islamic finance.

Key words: Islamic finance, Gulf Cooperation Council, Commonwealth of Independent States, takaful, roadmaps, the financial performance indicator.

Annotatsiya: Maqolada MDH mamlakatlaridagi islom moliya tashkilotlari faoliyatining xorijiy tajribasi va ushbu mamlakatlar tajribasini O‘zbekistonda samarali qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, maqolada islom moliyasi sohasidagi yetakchi mamlakatlarning islom moliyaviy ko‘rsatkichlarining hozirgi holati muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, takaful, yo‘l xaritalari, moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichi.

Аннотация: В статье описан зарубежный опыт исламских финансовых организаций в странах СНГ и возможности эффективного применения опыта этих стран в Узбекистане. В частности, в статье рассматривается современное состояние исламских финансовых показателей ведущих стран в сфере исламских финансов.

Ключевые слова: исламские финансы, Совет сотрудничества стран Персидского залива, Содружество Независимых Государств, такафул, дорожные карты, показатель финансовой эффективности.

INTRODUCTION

Over the past decades, Islamic Finance has expanded its presence to many countries including CIS countries. The main difference between conventional and Islamic finance: while both types of finance must obey the laws of the country in which they are offered, Islamic Finance is designed to also be compatible with the laws of Islam. Islamic finance is a new but potential field for Uzbekistan. In order to improve and develop its application in our country, it is very important and necessary to study the experience of leading countries in this field. The success of Islamic Financial Institutions drew the attention of many conventional banks. This had led numerous conventional banks to launch their Islamic banking windows in many countries. Over the past few decades, Islamic banking had a significant impact on its growth in the international financial system. Malaysia, Pakistan Bangladesh, GCC countries, and many others who had implemented Islamic banking and finance within their jurisdictions, started reaping the fruits from the growth and success that Islamic Financial Institutions (both commercial and social institutions) have achieved. In recent years, the Government of Uzbekistan has initiated ambitious economic reforms. One of the measures taken is to make easier for private companies to gain access to lines of credit for their business expansion (World Bank, 2019)1. As a part of Uzbekistan’s reforms aimed at attracting Muslim investors from other countries, the government started working on establishing Sharia compliant products including sukuk and introducing the Islamic insurance sector (Takaful)2. However, the Government has not achieved much progress introducing the IF legal framework in the country, and this is hindering the development of the IF sector in the country. It is believed that if the Government agrees to step up its efforts, organizations like IsDB will extend their support in formulating legal framework for the country and undertaking projects of various nature that will develop the IF industry.

1 Landscaping analysis of Islamic finance instruments in Uzbekistan.J. Imamnazarov,Analytical paper, June2020
2 https://ceif.iba.edu.pk/pdf/Reuters-Islamic-finance-development-report2018.pdf.

MATERIAL AND METHODS

"Islamic Finance in Europe" carried out by a team of economists of the European Central Bank (Mauro, etc., 2013) presents a regional study on the role of Islamic Finance in the Western economy. Interest in this topic was caused primarily by "the financial crisis and the resulting call for building a more stable and secure financial system" in Europe. With regard to the post-Soviet area, A. Wolters (2013) has shown that Islamic Finance "serves as a phenomenon that is well suited to inform us about the relation between religion and economy, and state and religion in the region". British scientist D. Hoggarth (2016) investigated Islamic Finance in the context of postcolonial construction of peace in Central Asia and Russia and came to the conclusion that the conventional and Islamic banking systems "are in fact closely entwined, existing as parts of a larger financial system, rather than one being an alternative to the 7 other". The general conclusion of this work is that the issue of Islamic Finance in the CIS countries is "a complex and has been poorly understood" and needs further conceptualization.

Another example can be found in (Bekkin, 2010) where the author of the most cited work on Islamic Finance in the Russian language argues that "the main obstacle to Islamic Finance in Russia" is a low level of business ethics among businesspeople and ordinary consumers of financial services. Nevertheless, it is this scholar who should be commended for laying the foundations of traditions in the study of Islamic Finance in the CIS. In the 2000s, a lot of new young researchers showed interest in studying Islamic Finance: E. Biryukov, M. Kalimullina, I. Zaripov, M. Yandiyev, and others. Many new papers have been published by scholars from universities in Tatarstan, Bashkortostan, Chechnya, and Dagestan. In all these works, though, the range of issues discussed remained mainly within the general approaches outlined by R. Bekkin, and so far no original approaches to the study of Islamic Finance have been offered3.

RESULTS AND DISCUSSION

The global Islamic finance industry proved resilient in 2020,the first year of pandemic, with its total asset size jumping by 14 % but it was in the following year that it showed even more character when growth of 17% out of performed pre-COVID levels to propel assets to US$4 trillion.



Figure 1: Islamic Finance Assets growth(2015-2021,US$ Bilion).Source: www.refinitiv.com.ICD-Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022

Islamic banking the largest sector in the Islamic finance industry holding 70% of its assets, the highest growth came from non -core Islamic finance jurisdictions, signally both the growth of new markets and the plateauing of the sector in the more mature jurisdictions. Tajikistan(84%), Burkina Faso(27%) and Ethiopia(26%) were the highlights for Islamic banking growth. Overall, the global Islamic banking sector grew by 17% to US$2.8 trillion.

3 Almira Z. Nagimova. "Islamic finance in the CIS countries" research paper. Academus publishing 2021 y. p 6-8.



Figure 2: Islamic finance assets across sectors(2021,US$ Billion).Source: www.refinitiv.com.ICD-Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022

In the structure of Islamic financial assets, the main share is Islamic banks with 2765 US$ Billion, followed by sukuk 713 US$Billion, other Islamic financial institutions 169 US$Billion and Islamic funds.

Islamic Finance in CIS countries

1. Kazakhstan

Kazakhstan plays important and fundamental role in the development of Islamic banking at the legislative level,as well as in the promotion of Islamic finance in the Commonwealth of Independent States and Central Asia. In 2009, for the first time in the CIS, legislation on the Islamic banking was developed and the legal framework for the development of the industry was established. In 2011,the legislative acts of Kazakhstan in the field of Islamic finance began to improve further and created the legal basis for issuing sukuk.4

According to the National Bank of Kazakhstan (NBK), as of 2019, the share of Islamic banking assets account for only 0.21% of the total banking sector assets in Kazakhstan. there are two fully operating Islamic banks in Kazakhstan – Al Hilal Bank and Zaman Bank, which was previously a commercial bank but received permission from the National Bank of Kazakhstan (NBK) in 2016 to convert into an Islamic bank. In addition, an Islamic leasing (Ijarah) company – Kazakhstan Ijara Company; an Islamic mutual insurance company – Mutual Insurance Company Takaful; and a multifunctional Islamic financial organization – Al Saqr Finance are all present in Kazakhstan.

The following organizations have been created and are functioning,whose activities comply with the principles of Sharia and Islamic finance:

- Brokerage company (JSC “Fattah Finance”).. In early 2009, Kazakhstan established the first brokerage company FATTAH FINANCE JSC, which provides services on Islamic financial principles. The creation of this company demonstrates the interest of market participants in the development of instruments of the Islamic financial system in Kazakhstan. Currently, FATTAH FINANCE JSC registers the first risk-based mutual investment fund in Kazakhstan, the Amana Mutual Funds Trust, which will work according to the Islamic norms of the Sharia.
- Consulting companies (Kausar consulting Kazakhstan LLP, Akyl-Kenes consulting LLP, Islamic financial instruments LLP)
- Investment fund (joint stock fund of risky investment “Islamic Fund of Aman”)
- Insurance company (Mutual insurance company Halal Insurance Takaful JSC)
- Self–regulatory organizations (Assosiations of Legal Entities “Isalmic Finance Development Assosiation”)
- Public assosiations(Islamic Center for Finance,Education and Business in Almaty, Club for the Development and Promotion of Islamic Insurance in Kazakhstan).

2. Tadjikistan

Tajikistan has fast become the nexus of the development of Islamic Finance in the Commonwealth of Independent States (CIS) recently. The Law of the Republic of Tajikistan “On Islamic Banking activities” was approved on July 26, 2014 This Law determined the legal and organizational basis of Islamic banking in the

4 R. Sagieva,L. Kuanova.The journal of economic research and business administration,127(1),56(2019)

Republic of Tajikistan and was supposed to provide favorable conditions for conducting Islamic banking activities. The latest addition arrives from the first Islamic Bank established in the country; Tawhid Bank. With the introduction of Tawhid Pay, a mobile application for its customer base, it has effectively launched the Islamic Finance sector of Uzbekistan into a new era of digital banking, says a Press release. With its successful collaboration with AlHuda CIBE, Tawhid Bank has brought forth its Shariah Compliant digital application in the Islamic Fintech ecology. Pleasantly surprising for the Islamic Finance sector, the masterstroke comes from Tawhid amid a global pandemic. The TawhidPay App allows transactions to take place in favor of the customer from around the world. Through this app and other partner institution services, the customers of the bank can freely make significant amounts of transactions through card and account and send/receive payments on the go. It ensures a safe, Shariah-Compliant, and hassle-free transaction globally.

The attached services that come with the account itself are supportive to the customer's needs and wants as well, with minimal charges, and encouraging profit.With the advent of the modern era in the world of finance globally, a healthy increase in the number of cryptocurrencies, digital banking/transaction services, FinTech, etc. catches the eye. With multitudes of opportunities to utilize, many companies and startups worldwide have seized the opportunity to hone in on Islamic Fintech in particular. Over 270 technological platforms working in the Islamic Fintech sector are now operational.

Alif Bank was founded in 2014 as microfinance institution, and by 2021 had become a leading fintech companies in the Central Asia. Now Alif Bank is in possession of a full banking license. Despite the fact that the bank is not considered an Islamic bank from the legal standpoint, it largely acts as a Shariah compliant financial institution.Supported by its formidable IT department, Alif provides alif.mobi, the most widely used finance app in the country. Its B2C platform alif.shop is a leader in the POS financing. The remittances are very important for the migrant population of Tajikistan, and Alif Bank offers the most competitive solution in the country.Aside from remittance services Alif Bank promotes Alif Jummah – a Murabahah-based program of consumer goods sale. The company is committed to leadership in Islamic finance and established its own technology academy that grows cadres for the bank and for fintech industry in Tajikistan.In 2021 Alif Bank declared its ambitions to set up operations in the UK.

3. Kyrgzstan

The history of Islamic finance in Kyrgyzstan is strongly connected with the Islamic Development Bank.. In June 2012 the IDB and the Kyrgyz government signed an agreement for technical assistance worth 193.000 US$ for "further development of Islamic financial services in the country." (Akipress, 04.07.2012). This new engagement into the facilitation of Islamic financing in the Kyrgyz Republic can be traced back to a memorandum, signed by the Kyrgyz government, the IDB, and the "EkoBank", a commercial bank operating in Kyrgyzstan in May 2006. in October 2006 the National Bank adopted a statute for Islamic financing principles, stating in detail conditions for Islamic banking instruments like mudarabah, ijara, murabaha, "sharika" (musharakah), or "istisna'a" (deferred production sale). Finally in 12December 2006 the National Bank was entitled to hand out licenses to Islamic finance institutes operating in Kyrgyzstan. This leading role of the National Bank was further consolidated with two laws adopted by the parliament in March 2009 that made changes to the law "On the National Bank of the Kyrgyz Republic" (National Bank law, 29.07.1997) and to the law "On banks and bank operations in the Kyrgyz Republic" (Law on banks, 29.07.1997). Now the National Bank stipulated in Article 4 as one of its major functions the regulations of financial operations, including operations in line with the principles of Islamic banking. In addition the bank had been entitled to formulate normative regulations to further organize the market for Islamic finance in the republic. In September 2009 the government took the decision to prepare the market for the introduction of Islamic securities in form of sukuk and takaful.5 Kyrgyzstan's banking sector is made up of commercial banks, state commercial banks and non-banking financial-credit organizations, which include a specialized financial-credit organization (FCCU OJSC), microfinance companies, microcredit companies, microcredit agencies, credit unions and exchange offices. Numerically the industry, as of March 22, 2021, consists of 23 commercial banks; three of them being state-owned. Five major banks hold 55% of the banking sector assets and 49% of the credit portfolio. All banking institutions of the country are universal by the type of business. Information on non-banking financial-credit organizations, there are 9 microfinance companies, 87 microcredit companies, 38 microcredit agencies, 1 specialized FCCU OJSC, 92 credit unions, and 387 exchange offices.15 The banking system of the Kyrgyz Republic is a two-tier system in which the first level of the system is represented by the National Bank of the Kyrgyz Republic, and the second by commercial banks. The NBKR is independent from government and it has the right to license, supervise and regulate the activity of financial institutions, including Islamic financial institutions and Islamic windows of conventional financial institutions in the country[6].

5 Alexandr Wolters.Islamic finance in the states of Central Asia:strategies,Institutions,first experiences.Research paper.Private University of Applied Science. Paper prepared within the framework of sub-project D2 (Prof. Ahrens, PFH Göttingen) of the KomPost Research Network, sponsored by the BMBF. January 2013.

6 Abdurashid Zhoraev, Ali Yuksel. Chellenges for Islamic banking Industry: The Kyrgyz Republic experience. Ondokuz Mayıs University Review of the Faculty of Divinity e-ISSN: 2587-1854 OMUIFD, June 2021, 50: 713-730

In order to provide much-needed competition, NBKR allowed conventional banks and conventional non-banking financial institutions to operate in the framework of Islamic windows. According to NBKR, as of October 15, 2020, the following financial institutions are operating on Islamic principles in the territory of the Kyrgyz Republic:

1. One pilot bank: EcoIslamicBank CJSC
2. One Islamic window of a conventional bank: Bakai Bank OJSC 3. One Islamic window of a conventional microcredit company: M Bulak MCC LLC
4. Four fully-fledged Islamic microcredit companies: Kompanion Invest MCC LLC, Ak Karzhi MCC LLC, Bereket Finance MCC LLC and Ak Nur Capital MCC LLC
5. One Islamic leasing company: Leasing Company Kyrgyzstan CJSC.

4. Uzbekistan

In 2008 for the first time in the country's history, a draft presidential decree on the Creation of an Islamic Financial Infrastructure and Islamic bank in Uzbekistan was submitted for public discussion. However, despite the history of Islamic Finance in Uzbekistan being less rich and diverse than, for example, in neighboring Kazakhstan or Kyrgyzstan, a strict approach allowed us to compile and analyze an empirical base consisting of about 400 deals with Islamic capital.

Islamic Development Bank in CIS countries

Country	OIC membership year	IDB membership year	Total investment, $ mln	Number of deals, pcs	Average size of a deal, $ mln	% Total capital	Capital Subscripsion, $mln
Uzbekistan	1996	2003	1.990	103	19.3	0.03	13.4
Kazakhstan	1995	1995	1.453	87	16.7	0.11	54
Turkmenistan	1992	1994	1.449	15	96.6	0.01	5
Azerbaijan	1992	1992	1.118	66	17	0.1	50.9
Tadjikstan	1992	1996	488	64	7.6	0.04	18.2
Kyrgyzstan	1992	1993	324	50	6.5	0.05	25.8
Total	-	-	6.782	385	17.6	0.34	167.3

Source: Almira Z. Nagimova. "Islamic finance in the CIS countries" research paper. Academus publishing 2021, p 29

The republic of Uzbekistanbecame a member of the Islamic Development Bank later than all other post-Soviet countries- only in 2003. After the country became a full member of the IDB, the cooperation turned into financing of perodic 3-year development programs of the country. It should be mentioned that among all the CIS countries, it was Uzbekistan that attracted the most capital from this development bank. More than 75 % of the finance attracted to Uzbekistan from the IDB was allocated across four sectors-industry, housing construction, finance and water supply. In addition, the bank invested in road construction, healthcare, energy, education, and public administration.

The IDB deals in Uzbekistan

Sector	Number of IDB deals, pcs	Total investment by the IDB, $ mln	Share in total investment,%
Industry	40	413	20.7
Housing construction	4	400	20.1
Finance	23	384	19.3
Water supply and irragation	5	325	16.3
Road contruction	2	180	9
Healthcare	9	109	5.5
Energy	3	99	5
Education and science	12	79	4
Public adminstration	5	1	0.05
Total	103	1.990	99.95

Source: Almira Z. Nagimova. "Islamic finance in the CIS countries" research paper. Academus publishing 2021 y, p 30.

For the IDB the largest investment projects in Uzbekistan were the Development of Housing Construction in Rural Areas Project(the total investment of the IDB was more than $400 mln), the purchase of two aircrafts for Uzbek Airlines(more than $ 168 mln) and the reconstruction of the M39 highway(more than $167 mln), which together account for more than a third of all investments of the IDB allocated in this country.

CONCLUSION

From the analysis it could be conducted that for Uzbekistan, like implementing any new financial system, Islamic financial system would potential and worth testing and countries financial and social system the loyal and the flexible model of development of Islamic finance is more useful for different reason. International experience of the development of Islamic finance has huge important for the further development of Islamic finance in Uzbekistan.

There are number of recommendations that concuded by authors during study of foreign experience of implementation of Islamic finance:

- Improving the legal framework using interational experience and amedments to the tax code to avoid double taxation;
- Using Malaysian and British experience of rapid development of Islamic finance,consider the introduction of Islamic windows as these two countries have strong business schools in Islamic finance and market.
- It is essential to organize various Waqf,Zakat, Crowdfunding awereness program promoting the benefits and importance of Islamic social finance.
- It is also beneficial to issue sovereign and green sukuk to fund infrastructural and environmental development projects.

References:

1. Landscaping analysis of Islamic finance instruments in Uzbekistan. J. Imamnazarov, Analytical paper, June2020
2. https://ceif.iba.edu.pk/pdf/Reuters-Islamic-finance-development-report2018.pdf.
3. www.refinitiv.com.ICD-Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022.
4. Hussein Elasrag. Steps forward for Islamic finance in Egypt. Project: Islamic finance in Egypt October 2020. DOI:10.13140/RG. 2.2.17258.34240.LicenseCC BY-SA 4.0.
5. www.Atalayar.com.Alba Sanz. Egypt is betting on the potential of Islamic finance. September 8,2022.
6. www.Research and Markets.com. Saudi Arabia Islamic Finance Markets Report 2022-2027: Focus on Islamic Banking, Islamic Insurance, & Sukuk Outstanding. October 21, 2022 07:38 ET | Source: Research and Markets
7. www.Z&Co.com. Islamic Finance Advisory & Legal Services in Saudi Arabia.
8. Bank Negara Malaysia, Financial Stability Review – Second Half 2019, Annual Report 2020
9. Almira Z. Nagimova. ”Islamic finance in the CIS countries” research paper. Academus publishing 2021-y. p 6.
10. Ruzmetov B., Dilshodbekovna D. S. Opportunities For The Development Of The Activities Of Islamic Financial Organizations In Uzbekistan //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 56-67
11. www.keystone law.com.Fara Mohammed.Islamic finance in the UK. –June 8.2021
12. www.salaamgateway.com. Petra Loho.Germany Islamic finance 2021: KT Bank targeting more customers. Jan 27, 2021.
13. www.lexology.com.Pillsbury Winthrop Shaw Pittman LLP. islamic financing and investment structure in USA. –The Law Reviews 5th edition November 3, 2021.
14. R. Sagieva, L. Kuanova.The journal of economic research and business administration,127(1),56(2019).
15. Dilshodbekovna S. D. International Experience of Islamic Financial Organizations //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 14. – C. 129-139.
16. Dilshodbekovna S. M. Xozarasp erkin iqtisodiy zonasini tashkil qilinishi investitsion muhitni rivojlantirishning innovatsion yechimi sifatida //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 782-785.
17. Alexandr Wolters.Islamic finance in the states of Central Asia:strategies, Institutions, first experiences. Research paper. Private University of Applied Science. Paper prepared within the framework of sub-project D2 (Prof. Ahrens, PFH Göttingen) of the KomPost Research Network, sponsored by the BMBF. January 2013.
18. Abdurashid Zhoraev, Ali Yuksel. Chellenges for Islamic banking Industry: The Kyrgyz Republic experience. Ondokuz Mayıs University Review of the Faculty of Divinity e-ISSN: 2587-1854 OMUIFD, –June 2021, 50: 713-730

QASHQADARYO VILOYATI HUDUDLARINING VERTIKAL O‘SISH HOLATI VA XUSUSIYATLARI

Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna
Qarshi DU dotsenti

Raximova Madina Shuxrat qizi
QarMII tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada shaharlar rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblangan uy-joylar qurilishi holati Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilingan. Tahlilda uy-joylar yakka tartibdagi va ko‘p qavatliga ajratilib, hududlarning bo‘yiga o‘sish jarayonlari vertikal o‘sish indeksi asosida baholangan. Natijalarga ko‘ra, viloyatning o‘nta hududida vertikal o‘sish indeksi viloyat bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan past bo‘lib, bu holat ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha hududlararo tengsizlikning yuqori ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: shaharlar kengayishi, aholi zichligi, uy-joy fondi, qurilish, ko‘p qavatli uy, vertikal o‘sish, infratuzilma xarajatlari.

Abstract: In the article, the state of housing construction, which is considered one of the main indicators of urban development, is analyzed on the example of Kashkadarya region. In the analysis, houses are divided into single-family and multi-story houses, and growth processes of regions are evaluated based on the vertical growth index. According to the results, the vertical growth index in ten regions of the region was lower than the average value for the region, which indicated a high interregional inequality in the construction of multi-apartment housing.

Key words: urban expansion, population density, housing stock, construction, high-rise building, vertical growth, infrastructure costs.

Аннотация: В статье на примере Кашкадарьинской области анализируется состояние жилищного строительства, которое считается одним из основных показателей развития города. В анализе дома делятся на одноквартирные и многоэтажные, а процессы роста регионов оцениваются на основе индекса вертикального роста. По итогам индекс вертикального роста в десяти регионах области оказался ниже среднего значения по региону, что свидетельствовало о высоком Ключевые слова: расширение городов, плотность населения, жилищный фонд, строительство, высотное строительство, вертикальный рост, затраты на инфраструктуру.

Ключевые слова: городская экспансия, плотность населения, жилой фонд, строительство, высотное строительство, вертикальный рост, затраты на инфраструктуру.

KIRISH

O‘zbekiston – 2030 strategiyasida urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish; tuman (shahar)larning bosh va master rejalarini aholi hamda tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqish amaliyotini joriy etish; aholi zich bo‘lgan hududlarda “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish masalalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Shaharlar kengayishi asosan aholi soni ortishining natijasida sodir bo‘lib, u 3 xil ssenariy bo‘yicha amalga oshadi. 1-holat shahar hududining yon-atrofga kengayishi natijasida aholi zichligining qisqarishini ifodalaydi. 2-holatda shahar hududi yon-atrofga kengayadi, biroq aholi zichligi o‘zgarmaydi. 3-holatda shahar hududi yon-atrofga emas, bo‘yiga o‘sib, undagi aholi zichligi o‘tadi. Mazkur ssenariy infratuzilmaga xarajatlarining minimalligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Shaharlar vertikal o‘sishining qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, vertikal o‘sish shaharlarga, ayniqsa, yer tanqisligi kuzatilayotgan yuqori urbanizatsiyalashgan hududlarda cheklangan yer resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Yuqoriga qarab qurilish orqali shaharlar mavjud yerlardan tashqariga chiqmagan holda maksimal darajada foydalanishlari mumkin, bu esa yashil maydonlarni va qishloq xo‘jaligi yerlarini saqlab qolishga yordam beradi. Vertikal o‘sish, shuningdek, shaharlarning qo‘shni qishloq joylari hududi evaziga kengayishini kamaytirishga yordam beradi. U orqali shaharlar yaqin atrofdagi qishloq xo‘jaligi yerlari yoki tabiatga zarar yetkazmagan holda o‘sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

Ikkinchidan, vertikal ravishda qurish orqali shaharlarda transport va infratuzilma tizimlarini yaxshilashi, jamoat transporti tarmoqlarini qurish va tirbandlikni kamaytirish mumkin. Vertikal shaharlar, shuningdek, xarid qilish, ovqatlanish va ko‘ngilochar xizmatlarning ommabopligi kabi qulayliklarni taklif qilish orqali odamlarni bir hududda yashash va ishlashga undashi mumkin.

Uchinchidan, vertikal shaharlar gorizontal shaharlarga qaraganda ko‘proq energiya tejash imkoniyatiga ega. Buning sababi shundaki, ko‘p qavatli binolar pastki qavatlardagi issiqlikni ushlab turish va tabiiy shamollatish tizimlarini qo‘llash orqali sovuq iqlim sharoitida issiqlik yo‘qotilishini kamaytirishga yordam beradi. Bu shahar uchun energiyani sezilarli darajada tejashga va uning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘plab tadqiqotchilar urbanizatsiya tarkibiy o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘lishini ta’kidlaydilar. Jumladan, X. Yang taraqqiyot, tarkibiy o‘zgarishlar va urbanizatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilar ekan, mehnat taqsimoti evolyutsiyasini urbanizatsiya, siyosat yoki institutsional tuzilmalar darajasidagi o‘zgarishlar natijasida tranzaksiya samaradorligining oshishi bilan izohlaydi va bu orqali tarkibiy o‘zgarishlarni tushuntiradi [9]. G. Michaels, F. Rauch, S. Reddinglar 1880-yildan 2000-yilgacha bo‘lgan davrda Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi qishloq va shaharlarda aholi evolyutsiyasini tahlil qilishadi. Ular bu davrdagi aholi zichligi uchun dastlabki zichlik va keyingi o‘sishi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni aniqlashadi. Ular nazariya va empirik dalillardan foydalanib, shaharlarda aholi o‘sishining asosiy sababi qishloq xo‘jaligining aholi zichligi bo‘yicha ish bilan bandlikning dastlabki ulushidagi farqlar va bandlikni qishloq xo‘jaligidan uzoqlashtiradigan tarkibiy o‘zgarishlar natijasidir [6], degan xulosaga keladilar.

Ba’zi tadqiqotlarda esa urbanizatsiya tarkibiy o‘zgarishlarsiz ham sodir bo‘lishi mumkin, degan qarashlar ilgari suriladi. Xususan, R. Jedwabga ko‘ra, Afrikada urbanizatsiyaning keskin ortishini tarkibiy o‘zgarishlarning standart nazariyalari bilan izohlab bo‘lmaydi. Chunki bu holat yashil inqilob yoki sanoat inqilobidan emas, balki tabiiy resurslar eksporti bilan bog‘liq. U resurslarning kutilmagan daromadlari shahar tovarlari va xizmatlariga nomutanosib ravishda sarflanishini va “iste’mol shaharlari” paydo bo‘lishiga olib kelishini Engel egri chizig‘i vositasida tushuntiradi. Jedwab bu nazariyani bir asrni qamrab olgan yangi ma’lumotlar va ikkita identifikatsiya strategiyasidan (instrumental o‘zgaruvchilar strategiyasi va sobit effektli yondashuv) foydalangan holda ham mamlakatlararo ham Fil Suyagi sohillari va Ganada bo‘yicha mamlakat ichidagi ma’lumotlar vositasida tasvirlaydi. Tadqiqot natijasida qishloqdagi tabiiy resurs bo‘lgan kakao ishlab chiqarishning shaharlarning o‘sishiga kuchli ta’sir etgani aniqlanadi va uzoq muddatli o‘sish uchun tarkibiy o‘zgarishlarsiz urbanizatsiya oqibatlari tahlil qilinadi [5].

Jedwab ishtirok etgan yana bir tadqiqotda esa rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati standart sxemaga amal qilib, “urbanizatsiya qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining o‘sishidan chekinish yoki sanoat mahsuldorligining o‘sishiga tomon harakatning mahsulidir” [3], degan xulosaga kelinadi. Tadqiqot mualliflarining fikriga ko‘ra, ushbu mamlakatlarda urbanizatsiya tarkibiy o‘zgarishlar bilan sodir bo‘ladi va shaharlar “ishlab chiqarish shaharlari”ga aylanadi.

TADQIQOT USLUBIYOTI

Tadqiqotda vertikal o‘sish indeksidan foydalanilib, indeks vaqt oralig‘ida shaharning kengayish intensivligini taqqoslaydi va dominant o‘sish komponentida vaqt bo‘yicha tendensiyalarni aniqlaydi[1]. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

1 Zambon I., Colantoni A., Salvati L. Horizontal vs vertical growth: Understanding latent patterns of urban expansion in large metropolitan regions //Science of the Total Environment. – 2019. – V. 654. – P. 778-785.

$$VHG = \frac{(B^{k+})_{t+1}}{(B^{k-1-})_{t+1}} - \frac{(B^{k+})_t}{(B^{k-1-})_t} \quad (1)$$

bunda $(B^{k+})_x$ va $(B^{k-1-})_x$ x – vaqt oralig‘ida qurilgan k qavatdan ko‘p va kam qavatli uylar sonini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2018-2022-yillarda hududlar bo‘yicha uy-joy fondining umumiy maydoni 29,7 foizga ortdi. Ta’kidlash joizki, o‘sishning bu qiymati o‘tgan besh yillikdagidan (2013-2017-yillar) 2,2 barobar ortiq bo‘ldi.



1-rasm: Uy-joy fondi maydonining o‘zgarish dinamikasi[2]

Qashqadaryo viloyatida uy-joy fondining umumiy maydoni 2022-yilda 57336,1 ming kv.m.ni tashkil etib, 2017-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 13,8 foizga ortgan. Yuqori o‘sish sur’atlari Nishon (27,3 foiz), Yakkabog‘ (21,5 foiz), G‘uzor (19,5 foiz) va Kitob (16,9 foiz) tumanlarida kuzatilgan.

Uy-joy fondi maydonining asosiy ulushi Qarshi (9,4 foizi), Kitob (8,2 foizi), Yakkabog‘(8,1 foizi), G‘uzor tumanlari (7,9 foizi) va Qarshi shahriga (8,3 foizi) to‘g‘ri kelib, bu hududlar viloyat bo‘yicha uy joy fondining 41,9 foiziga egalik qiladi. Muborak (2,7 foiz) va Mirishkor (2,9 foiz) tumanlari bu reytingda oxirgi o‘rinlardan joy oladi.

1-jadval: Qashqadaryo viloyati hududlarida uy-joy fondi maydonining o‘zgarish dinamikasi, foiz[3]

Hududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Qashqadaryo viloyati	5,5%	3,4%	0,5%	1,1%	2,8%
Qarshi sh.	3,7%	6,5%	0,8%	1,7%	0,6%
Shahrisabz sh.	-	1,6%	7,1%	0,8%	2,2%
G‘uzor	12,0%	3,9%	0,2%	1,0%	1,5%
Dehqonobod	0,0%	0,3%	1,4%	2,0%	2,2%
Qamashi	3,6%	0,8%	-1,0%	0,6%	1,3%
Qarshi	3,6%	0,7%	-1,4%	0,1%	3,7%
Koson	10,5%	0,4%	0,3%	0,5%	0,8%
Kitob	9,4%	0,6%	3,6%	1,4%	1,1%
Mirishkor	3,2%	0,0%	-1,4%	2,9%	0,3%
Muborak	6,8%	0,5%	-5,8%	1,8%	0,4%
Nishon	2,0%	24,9%	-0,5%	0,2%	0,2%
Kasbi	1,5%	0,3%	1,5%	1,9%	0,3%
Ko‘kdala	-	-	-	-	-

2 Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
3 Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Chiroqchi	2,2%	4,1%	0,4%	1,0%	-41,3%
Shahrisabz	-35,8%	1,1%	0,3%	1,2%	1,0%
Yakkabog‘	13,1%	6,7%	-0,4%	0,5%	0,6%

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, viloyat hududlarida turar joylar qurish va foydalanishga topshirish 2018-2019-yillarda jadal sur’atlarda kechgan. Viloyatda uy-joy fondi maydoni o‘tgan yilga nisbatan 2018-yilda 5,5 foizga, 2019-yilda 3,4 foizga ortgan. Xususan, mazkur ko‘rsatkich 2018-yilda Yakkabog‘ tumanida 13,1 foiz, G‘uzor tumanida 12,0 foiz, Koson tumanida 10,5 foiz, Kitob tumanida 9,4 foizga ortgan bo‘lsa, 2019-yilda Nishon tumanida 24,9 foiz, Yakkabog‘ tumanida 6,7 foiz va Qarshi shahrida 6,5 foizga ortgan.

2-jadval: Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan uy-joylar tog‘risida ma’lumot, kv.m.[4]

T/r	Hudud nomi	Yakka tartibdagi		Ko‘p kvartirali		Jami	
		2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
	Qashqadaryo viloyati	**517 403**	**103 068**	**123 682**	**161 402**	**641 086**	**264 470**
1	Qarshi sh.	14 571	8 037	76 878	62 272	91 449	70 308
2	Shahrisabz sh.	17 058	6 736	8 584	7 184	25 641	13 920
3	G‘uzor t.	64 897	5 068	1 777	6 194	66 674	11 261
4	Dehqonobod t.	849	224	0	3 057	849	3 281
5	Qamashi t.	22 367	5 978	0	14 964	22 367	20 943
6	Qarshi t.	35 052	10 967	12 728	7 673	47 780	18 640
7	Koson t.	7 952	4 785	2 900	4 530	10 852	9 315
8	Kitob t.	9 350	5 292	1 770	1 607	11 120	6 898
9	Ko‘kdala t.	15 785	3 801	0	6 251	15 785	10 052
10	Muborak t.	20 774	10 014	0	8 522	20 774	18 536
11	Nishon t.	22 735	14 775	1 755	4 825	24 491	19 600
12	Kasbi t.	7 929	1 518	0	4 570	7 929	6 089
13	Chiroqchi t.	14 976	4 020	4 406	1 660	19 382	5 680
14	Shahrisabz t.	14 488	4 560	3 986	10 679	18 474	15 238
15	Yakkabog‘ t.	19 693	9 376	7 147	10 851	26 840	20 227
16	Mirishkor t.	228 926	7 919	1 752	6 563	230 678	14 482

Qashqadaryo viloyatida 2021-2022-yillarda foydalanishga qabul qilingan uy-joylar maydoni jami 905 555,6 kv.m.ni tashkil etib, shundan 68,5 foizi Yakka tartibdagi uy-joylar bo‘ldi. Eng ko‘p uy-joylar Mirishkor (245 159,6 kv.m.) va G‘uzor (77 935,2 kv.m.) tumanlari hamda Qarshi shahrida (161 757,8 kv.m.) foydalanishga topshirildi. Bu uch hududning jami viloyat bo‘yicha ko‘rsatkichdagi o‘rni 53,5 foizni tashkil etdi. Dehqonobod (4 129,4 kv.m.), Kasbi (14 017,8 kv.m.) va Kitob (18 018,6 kv.m.) tumanlari uy-joylarni foydalanishga qabul qilish bo‘yicha viloyat hududlari orasida so‘nggi o‘rinlardan joy oldi.

Tahlil davrida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo‘yicha Mirishkor, G‘uzor va Qarshi tumanlari yetakchi bo‘ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan yakka tartibdagi uy-joylar maydonining 56,9 foizi bu uch hudud hissasiga to‘g‘ri keldi. Dehqonobod, Kasbi va Koson tumanlari bu yo‘nalishda viloyat hududlari orasida so‘nggi o‘rinlardan joy olishdi.

4 Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2-rasm: 2021-2022-yillarda Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan uy-joylar[5]

Ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha Qarshi shahri yaqqol yetakchi bo‘lib, 2021-2022-yillarda shaharda jami 139 150 kv.m. Bu turdagi uy-joylar foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Qarshi va Yakkabog‘ tumanlari Qarshi shahridan keyingi yetakchilar bo‘ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan ko‘p kvartirali uy-joylar maydonining 62,3 foizi bu uch hudud hissasiga to‘g‘ri keldi.

Jami foydalanishga topshirilgan uy-joylar maydonida ko‘p kvartirali uylarning ulushi Mirishkor tumanida 3,4 foiz, G‘uzor tumanida 10,2 foiz, Nishon tumanida 14,9 foiz va Kitob tumanida 18,7 foizni tashkil etgan. Faqat Qarshi shahri (86,0 foiz) va Dehqonobod tumanida (74,0 foiz) mazkur ulush 50 foizdan yuqori bo‘lgan. Shuningdek, viloyatning 7 ta hududida (G‘uzor, Kitob, Ko‘kdala, Muborak, Nishon, Chiroqchi va Mirishkor tumanlari) foydalanishga topshirilgan ko‘p kvartirali uy-joylar maydonining ulushi 30 foizga ham yetmaydi. Bu holat viloyatda yakka tartibdagi uy-joylarning talabgirligini ko‘rsatib, vertikal o‘sishning sust kechayotganidan dalolat beradi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini vertikal o‘sish ifodasi sifatida qabul qilindi.



3-rasm: 2021-2022-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarining vertikal o‘sish indeksi[6]

5 Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
6 Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, o‘nta hududda vertikal o‘sish indeksi viloyat bo‘yicha o‘rtachadan past bo‘lib, bu holat ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha hududlararo tengsizlikning yuqoriligini ko‘rsatadi. Dehqonobod, Kasbi, Qamashi, Shahrisabz, Ko‘kdala tumanlari va Qarshi shahrida vertikal o‘sish viloyat ko‘rsatkichidan yuqori qiymatlarni tashlkil etadi.

Qarshi, Nishon, Chiroqchi va Kitob tumanlari vertikal o‘sish darajasi bo‘yicha viloyat hududlari orasida so‘nggi o‘rinlardan joy oladi. Chunonchi, 2021-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joylarning Qarshi tumanida 26,6 foizi, Nishon tumanida 7,2 foizi, Chiroqchi tumanida 22,7 foizi va Kitob tumanida 15,9 foizi, 2022-yilda mos ravishda 41,2 foizi, 21,6 foizi, 29,2 foizi, 23,3 foizi ko‘p kvartirali uy-joylardan iborat bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hududlar, xususan, shaharlarning vertikal o‘sishi o‘zining qator afzalliklariga ega bo‘lib, aholiga qulay sharoitlar yaratishga yordam berish va yerdan foydalanishni optimallashtirish uchun muhim vosita bo‘lishi mumkin. Biroq vertikal o‘sishning o‘ziga xos jihatlari va salbiy oqibatlari ham mavjud bo‘lib, jumladan, uy-joylar qurilishining ortishi oqibatida shahar yashil hududlarining kamayishi, mavjud infratuzilmaga yuklamaning ortishi kabi holatlar bunga misol bo‘la oladi. Shularni inobatga olgan holda Qashqadaryo viloyati hududlari uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Viloyatning Qarshi, Nishon, Chiroqchi va Kitob tumanlari bosh rejalarini “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida yangilash.

O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish vazifasi natijadorligini baholash va aholi fikrini muntazam o‘rganib borish maqsadida ijtimoiy har olti oyda o‘tkaziluvchi ijtimoiy so‘rovlarni yo‘lga qo‘yish. So‘rovlarni o‘tkazishda Dehqonobod tumani va Qarshi shahrini pilot hududlar sifatida tanlab olish.

Uy-joy qurilishida turar joy atrofidagi hudud va umumiy shahar bo‘yicha har bir aholiga to‘g‘ri keluvchi “yashil hudud” maydonining minimal normalariga qat’iy amal qilinishi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish.

Manba va adabiyotlar:

1. Michaels G., Rauch F., Redding S. J. Urbanization and structural transformation //The Quarterly Journal of Economics. – 2012. –127(2). – P. 535-586.
2. Shukhratovich M. S. Managing changes in the structure of employment in the regions of Uzbekistan //South Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. –11(2). – P. 52-62.
3. Sivayev D. et al. The Time is Now. – 2022. P. 26.
4. Jedwab R. Urbanization without structural transformation: Evidence from consumption cities in Africa // George Washington University.
5. Rahimova M. Sh. Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish orqali urbanizatsiya darajasini oshirish //Iqtisodiy tahlilar va prognozlar jurnal. – 2023. P. 22(2).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

INNOVATSION O‘SISHGA INSON KAPITALI TA’SIRINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ostanov Egamberdi
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Ostanova Mashxura Egamberdiyevna
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tish sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda innovatsion o‘sishga inson kapitali ta’sirining zamonaviy yondashuvlari nazariy jihatdan ifodalab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, inson kapitali, iqtisodiy o‘sish, ta’lim, axborot texnologiyalari, innovatsiya.

Abstract: This article theoretically presents modern approaches to the influence of human capital on innovative growth in the context of the transition to an innovative model of economic development of New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, development strategy, human capital, economic growth, education, information technologies, innovation.

Аннотация: В данной статье теоретически представлены современные подходы к влиянию человеческого капитала на инновационный рост в условиях перехода к инновационной модели экономического развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегия развития, человеческий капитал, экономический рост, образование, информационные технологии, инновации.

KIRISH

XXI asrda iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda, insoniyat farovonligini doimiy ravishda oshirib borish uchun iqtisodiyotning barcha sohalarini uyg‘unlikda rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish global masalaga aylandi. Ushbu masalalarga yechim topishda inson kapitalini rivojlantirish markaziy o‘rinni egallaydi. Innovatsion o‘sish bilan inson kapitali o‘zaro to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra, inson kapitalining 1%ga oshishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning 0,4%1ga o‘sishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish davlatning kuchli ijtimoiy siyosati orqali ikkinchisining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining 70%2gacha qismini inson kapitali tashkil etadi. Shu sababli mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va intellektual salohiyatining oshishiga yanada samarali ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

1 Hanushek A. et al. Education and economic growth: it’s not just going to school, but learning something while there that matters // Education next. Spring 2008 https://www.researchgate.net/publication/279603863_Education_and_economic_growth_It’s_not_just_going_to_school_but_learning_something_while_there_that_matters/link/5815a42b08aeffbed6be4f99/download

2 Jahon bankining “O‘zgaruvchan millatlar boyligi 2021 y. Iqlim xavflarini hisobga olish” hisoboti ma’lumotlari. https://unece.org/fileadmin/DAM/stats/documents/ece/ces/ge.33/2020/mtg3/S4_1440_GrzegorzPeszko_World_Bank_CWON_forupload.pdf

Iqtisodiy o‘sishning zamonaviy modellarini ishlab chiqarishning samarali usullarini joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda inson kapitali omilining ahamiyati beqiyosdir. Inson kapitalini oshirish va uning sifatini yaxshilash mamlakatni strategik rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi va ayni paytda iqtisodiy o‘sishning dolzarb muammolaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining to‘rtinchi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbirlar belgilandi va unda oliy ta’limga qamrov darajasini amaldagi 28 foizdan 50 foizga yetkazish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish masalasi alohida ta’kidlab o‘tilgan3.

Bugungi kunda inson kapitali “sifati”ning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining aniq tushunchalari mavjudligiga qaramay, ularning innovatsion rivojlanishdagi sifatini oshirish bo‘yicha aniq tamoyillar mavjud emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLIL

Iqtisodiy taraqqiyotda insonning rolini baholash asrlar davomida o‘rganilgan va bugungi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi inson omillarining rolini baholash ilk marotaba klassik yo‘nalish vakillarining ishlarida o‘rganilgan. (V. Petti, A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, Dj.S. Mill, I. Fisher va boshqalar). Ular ilk marotaba ilmiy darajada nafaqat moddiy omillar, balki insonning o‘rni va uning iqtisodiyotdagi rolini o‘rganganlar. 1776 yilda Adam Smit mamlakat aholisining orttirilgan foydali fazilatlarini va qobiliyatlarini inson kapitaliga tegishli ekanligini takidlagan[4].

V. Petti, A. Smit[5], D. Rikardo, K. Marks, J. S. Mill, I. Fisher, A. Marshall, D. Mintzer, T. Shuls, G. Bekker[6] va M. Blaug, K. Errou7 kabi olimlar inson kapitalani o‘z fundamental asarlarida yoritishgan. J. Mintzer, L. Turou, V. Boven, M. Fischer, R. Nelsona, YE. Felpsa[8], R. Lukas[9], E. Engel[10], V. Farra[11] va J. Vazeylar ham tadqiqotlarida inson kapitalining zamonaviy nazariyalari keng yoritilgan.

MDH olimlar orasida inson kapitalning sifati va unga ta’sir etuvchi omillarni L. S. Babinina, I. Garafiyeva, S. V. Dudnikov, I. A. Kovalevich, Y. G. Odegov, G. G. Rudenko[12], I. Ivashkovskaya, V. Kalyujniy, Ye. Kolos, B. Leontyev, L. Lukicheva, B. Milner, G. Stepanova, V. Suprun[13] va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida intellektual kapitaldan samarali foydalanish muammolari keng yoritilgan.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

4 “A man educated at the expence of much labour and time to any of those employments which require extraordinary dexterity and skill, may be compared to an expensive machine” (Adam Smith. The Wealth of Nations. London: G. Routledge, 1776; New York: Modern Library, 1937

5 “A man educated at the expence of much labour and time to any of those employments which require extraordinary dexterity and skill, may be compared to an expensive machine” (Adam Smith. The Wealth of Nations. London: G. Routledge, 1776; New York: Modern Library, 1937

6 Беккер Г. С. Человеческое поведение: экономический подход: избранные труды по экономической теории/пер. с англ. М.: ГУ – ВШЭ, 2003., Кузнецов Ю. А., Мичасова О. В. Человеческий капитал: формирование, измерение, вклад в экономический рост // Экономический анализ: теория и практика. 2010. № 26, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала: научный доклад. М.: Институт экономики РАН, 2009, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала // Вопросы экономики. 2009. №9., Blaug M. The Empirical Status of Human Capital Theory: A Slightly Jaundiced Survey // Journal of Economic Literature. 1976. Vol.14. № 3 Resource Development International. 2004. Vol. 7, № 4., Soboleva I. Paradoxes of the Measurement of Human Capital // Problems of Economic Transition. 2010. Vol. 52, № п.

7 Arrow K. J. The Economic Implications of Learning by Doing // Review of Economic Studies. 1962. Vol. 29. № 1.

8 Nelson R. R., PhelpsE. S. Investment in Humans, Technological Diffusion, and Economic Growth // American Economic Review. 1966. Vol. 56, № 1,2

9 Lucas R. E., Jr. On the Mechanics of Economic Development//Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22. №1.

10 Oxley L., Le T., Gibson J. Measuring human capital: alternative methods and international evidence// The Korean Economic Review. 2008. Vol. 24. № 2.

11 Farr W. The Income and Property Tax // Journal of the Statistical Society of London. 1853. Vol. 16, № 1.

12 Абдурахманов К. Х., Бабынина Л. С., Одегов Ю. Г. Управление человеческими ресурсами организации. –Ташкент: Фан, 2020. –252 с.; Одегов Ю. Г. Экономика труда: учебник и практикум для академического бакалавриата. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: Юрайт, 2015, Ковалевич И. А. Человеческий капитал системы образования: учебник. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2018. 216 с. Гарафиев И. З. Социальный заказ на инновационный человеческий капитал: монография. – Казань: Казанский национальный исследовательский технологический университет, 2016. – С. 208.

13 Ивашковская И. В., Байбурина Э. Р. Роль интеллектуального капитала в создании стоимости крупных российских компаний: опыт эмпирического исследования. // Вестник Финансовой академии, 2007; Калюжный В. В. Усовершенствованные и новые методы измерения влияния капитала, труда и производительности на рост ВВП // Экономика Украины. – 2003. – № 6. – С. 42–48; Колос Е. А. Тенденции и пути развития человеческого капитала и интеллектуального потенциала казахстанского общества // Основы экономики, управления и права, 2014 – №4(16). – С. 123-126; Леонтьев Б. Б., Леонтьева В. Б. Интеллектуальная природа. Системное мышление. Интеллектология. Идеология. – М.: РАЕН, Издательство “РИНФО”, 2019. – С. 518.; Лукичева Л. И. Управление интеллектуальным капиталом. – М.: Омега-Л, 2007. – С. 552; Мильнер Б. З. Управление знаниями: эволюция и революция в организации. – М.: Инфра-М, 2003. – С. 177; Степанова Г. Н., Филонова А. С., Губанова Н. В. Развитие интеллектуального потенциала личности в XXI веке: монография. –М.: Изд-во “Мир науки”, 2019. – С. 132; Супрун В. А. Интеллектуальный капитал. Главный фактор конкурентоспособности экономики в 21 веке. – М.: КомКнига, 2006. – С. 192.; Бараева Ю. В. Интеллектуальный капитал – ключевой конкурентный фактор Российской экономики/ Вестник КГУ им Н. А. Некрасова, 2006. №6.

Mamlakatimiz olimlaridan: akademik K.X. Abduraxmanov, professorlar B.X. Umurzakov, SH. D. Kudbiyev, Z. Y. Xudoyberdiyev, SH. X. Nazarov, N. K. Zokirova, N. U. Arabov, N. X. Raximova, B. A. Islamov, B. SH. Maxkamov, G. K. Abduraxmanova, X. X. Mamadaliyeva, D. A. Nasimov, R. R. Xasanov[14] va boshqalarni ishlarida inson kapitali va innovatsion rivojlanishni faollashtirishning nazariy, uslubiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asr boshlarida inson kapitali nazariyasining neoklassik yo‘nalishi A. Marshall tomonidan shakllantirilgan, unga ko‘ra, inson tovar hisoblanmaydi, chunki bozorda inson emas balki uning mehnati sotiladi. A. Marshall “shaxsiy kapital” tushunchasini “inson kapitali” ta’rifi bilan almashtiradi”.

Dastlabki paytda inson kapitali deganda, odamlarning mehnatga bo‘lgan qobiliyati – ta’lim va kasb ko‘nikmalariga investitsiyalar jamlanmasi tushunilgan. Keyinchalik inson kapitali tushunchasi jiddiy ravishda kengaydi. Jahon banki ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan eng so‘nggi hisob-kitoblarda inson kapitaliga iste’mol xarajatlari – oilaning ovqatlanishi, kiyim-kechagi, turar joyi, ta’lim olishi, sog‘liqni saqlash, madaniyatga va hokazolarga sarflar, shuningdek, davlatning shu maqsadlar uchun xarajatlari kiritilgan. Shundan kelib chiqib, keng ma’noda, inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir[15]. Ular inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amal qilishini ta’minlashi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali nazariyasiga muvofiq, odamlar o‘zlariga investitsiya kiritib, imkoniyatlarini kengaytirishlari, davlat esa inson kapitalini boyitish uchun mablag‘ sarflab, milliy daromadni ko‘paytirishi mumkin. Bunday investitsiyalarning samaradorligi sarf qilingan mablag‘larning mehnat unumdorligi ortishi va ish haqi ko‘payishi orqali qoplanishida o‘z ifodasini topadi. Inson kapitalini boshqalarga bera olmaslik ham uning egasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Inson kapitalining shakllanish manbalaridan qat’i-nazar undan foydalanish va bevosita daromad olish insonning o‘zi tomonidan nazorat qilinadi.

Inson kapitali har bir rivojlanayotgan mamlakat milliy boyligining yarmidan ko‘prog‘ini, jahonning taraqqiy etgan davlatlarda esa 70,0–80,0 %dan ortig‘ini tashkil etadi.

Hozirgi davrda jahonning deyarli barcha mamlakatlarida inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi – ta’limni rivojlantirishga e’tibori ortgan. Bundan 100 yil muqaddam ta’lim uchun davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 1,0 %ini tashkil etardi. Hozirgi vaqtda bu ko‘rsatkich 5,1%ga yetgan. Natijada dunyoda boshlang‘ich ta’limga ega bo‘lganlar soni jami aholining 94,0 % dan ortib ketdi.

Jahonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va ishlab chiqarishning sifat darajasini oshirishda inson kapitalning rolini aniqlash (ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan mamlakatlarda inson kapitalni oshirish orqali barqaror o‘sishni ta’minlash)ga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim yo‘nalishlardan biridir. Shuning uchun inson kapitali (uning tashkiliy elementlari)ning innovatsion o‘sishga ta’sirini baholash asosida uni rivojlantirishning samarali usullarini belgilash muhimdir.

Yangi O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning yangi bosqichi ustuvorliklarning sondan sifatga o‘zgarishi bilan bog‘liq. O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilab qo‘yilganidek, milliy ta’lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda asosiy kafolat bo‘lib, uning sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Aynan ta’lim sifati O‘zbekiston

14 Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.; Абдурахманов К. Х. Искуственный интеллект – основа устойчивого развития экономике. – Москва: ФГБОУ ВО “РЭУ им. Г. В. Плеханова”, 2023, – 356 с.; Умурзаков Б. Х. Человек и его потенциал в условиях экономики будущего //Технические университеты: интеграция с европейскими и мировыми системами образования. – 2014. – С. 416-419; Абдурахманов К. Х., Зокирова Н. К. Человеческое развитие: учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО “РЭУим.Г. В. Плеханова”, 2014. – 320 с.; Зокирова Н. К. Интеллектуальный капитал в инновационной экономике Узбекистана // Наука и практика. – 2013. – №. 3. – С. 35; Arabov N. U. O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 270 b.; Nasimov D. A. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ish bilan bandlik egiluvchanligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 260 b.; Xasanov R. R. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda xonadonning o‘rni // Iqtisod va moliya. – 2015. – №10; Abdurakhmanov K. H. Zokirova N. K., Islamov B., Hiwatari. Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016. – 230 p.; Nazarov Sh. X. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Darslik. – T.: “Renessans” nashriyoti, 2021. – 196 b.; Xudoyberdiyev Z. Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ilmziyo, 2016; Кудбиев Ш. Д. Роль МОТ в формировании и регулировании рынка труда молодежи // General question of world science. – 2019. – С. 50-55.; Махкамов Б. Ш. Управление человеческим капиталом и лидерство. Учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2019. – 138 с.; Рахимова Н. Х. Женщина и предпринимательство в Узбекистане // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2006. – № 2(78). – С. 134-139; Мамадалиева Х. Х. Аҳолини сифат жиҳатдан ривожланишида оиланинг роли. – Т.: Global Books, 2017. – 124 б.; Abduraxmonova G. Q., Rustamov D. J. “Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo‘nalishlari”. Monografiya. – Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, 2020. – 127 b.

15 Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.

iqtisodiyoti rivojlanishining muhim hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Ta'lim iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi rolini o'ynashi uchun ta'lim darajasi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridan oshib ketishi zarur.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat mahalliy ishlab chiqarish darajasiga, balki mehnat bozori talablariga javob beradigan, o'zgaruvchan sharoit va o'sib borayotgan ehtiyojlarga tez moslasha oladigan yangi shakldagi professional kadrlarni tayyorlashga ham yo'naltirilishi kerak. Ta'lim standartlari yangi texnologik tartibga o'tish sharoitida yildan yilga takomillashib borayotgan jahon talablariga moslashtirilishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda ta'lim sifatini uning barcha bosqichlarida yanada rivojlantirish va ta'lim tuzilmasini iqtisodiy o'zgarishlar istiqboliga ko'ra optimallashtirish zarur. Buning uchun kelajakda salbiy tendensiyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan mamlakatimiz ta'lim tizimining bugungi holatining mavjud xavf va tahdidlarini xolisona baholash zarur.

Fanning rivojlanishi jarayonida faqat innovatsiyalar, o'ta yuqori unumli mashina – uskunalar yaratilib, ular asosida ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari shakllanibgina qolmasdan, balki yangi qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarning o'zi ham sifat jihatidan o'zgaradi. Axborot jamiyatida ilm-fan o'ziga xos "inson kapitali generatori"ga aylanadi.

Ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ko'plab tadqiqotlarda inson kapitalining sifat xususiyatlarining yo'qligi bugungi kunning asosiy muammosi sanaladi. Ta'limning miqdoriy ko'rsatkichlari inson kapitalidagi mamlakatlararo farqlarning noadekvat o'lchovidir, chunki ta'lim tizimlari resurslar, tashkil etish va davomiylik nuqtayi nazaridan mamlakatlarda farqlanadi. Mamlakatlarning ta'lim tizimlari o'rtasidagi sifat farqlarini tushuntirishning yechimlaridan biri ta'lim xarajatlari, o'quvchilar-o'qituvchilar nisbati va test ballari kabi inson kapitali sifati ko'rsatkichlariga e'tibor qaratishdir. Bu ko'rsatkichlarni ta'limning turli darajalarida o'lchash mumkin.

Biroq inson kapitali sifatining bunday ko'rsatkichlari butun ishchi kuchi uchun ishonchli umumlashtirilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni olishni juda qiyinlashtiradi. Natijada, har qanday mumkin bo'lgan o'lchov chorasi o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va bu inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligi va turmush sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish kabi masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy o'sish aholi bandligi va salomatligi, turmush sifati, ta'lim tizimining rivojlanish darajasi va sifati hamda raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

2030-yilga kelib yoshlarning oliy ma'lumotli qamrovi 50% ga yetkazish O'zbekiston-2030 strategiyasida maqsad qilib belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim qamrovi keng tarqalib, o'z-o'zini tarbiyalash vakolatini shakllantiradi va shu bilan hayot davomida "moslashuvchan" ta'lim olish uchun asos yaratadi. Ayniqsa, O'zbekistonda hozirgi vaqtda shakllantirilgan inson kapitali iqtisodiyotning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qonli qondirmaydi. Shundan kelib chiqib, innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini oshirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y.
3. Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.
4. Оксфордский толковый словарь по бизнесу. М.: Прогресс – Академия, 1995, стр.296.
5. Абалкин Л. И. Стратегический ответ России на вызовы нового века. Под.ред. Л. И. Абалкина М.: Экзамен, 2004. стр.
6. Черниченко Т. А. Теоритические аспекты управления человеческим капиталом. Вестник Российского государственного гуманитарного университета. 2011, №10. стр 158.
7. Генкин Б. М. Экономика и социология труда: Учебник для вузов. 5 издание, доп. –М.: Норма, 2003, стр 53.
8. Умурзаков Б. Х. Основные критерии оценки развития человеческого потенциала и их характеристики//Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы. Монография под ред. Акад. Р. А. Убайдуллаевой. – Т.,2012. с.183-192.
9. Останова, М. Э. (2021). Занятость как критерий эффективности использования трудового потенциала экономики (на примере Республики Узбекистан). Государственное и муниципальное управление. Ученые записки, (3), 82-88.
10. Nabiev, D. X., Ochilov, A. O., Raimova MJ, O. M., & Normurodova, Z. E. Features of the impact of higher education on the economic growth of the Republic of Uzbekistan. Central European Management Journal. Poland, ISSN, 2336-2693.

KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR SIFATIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI ISHTIROKI

Omonov Sardor O‘lmasovich
PhD, Toshkent moliya instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizdagi kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalarning ishtirokini o‘rganishda turli tadqiqotchilarning fikrlari hamda yondashuvlari o‘rganilgan. Milliy kapital bozorida sug‘urta kompaniyalarining aksiyalari ko‘rsatkichlari, sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati, listingdan o‘tgan sug‘urta kompaniyalari ko‘rsatkichlari kabilar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kapital bozori, institutsional investor, sug‘urta kompaniyasi, aksiya, investitsiya, listing, nominal qiymat, bozor qiymati, dividend.

Abstract: This article studies the opinions and approaches of various researchers in studying the participation of insurance companies as institutional investors in the capital market of our country. Indicators of stocks of insurance companies in the national capital market, investment activities of insurance companies, indicators of listed insurance companies are analyzed.

Key words: capital market, institutional investor, insurance companies, stock, investment, listing, nominal value, market value, dividend.

Аннотация: В данной статье изучаются мнения и подходы различных исследователей при изучении участия страховых компаний в качестве институциональных инвесторов на рынке капитала нашей страны. Анализируются показатели акций страховых компаний на национальном рынке капитала, инвестиционная деятельность страховых компаний, показатели листинговых страховых компаний.

Ключевые слова: рынок капитала, институциональный инвестор, страховые компании, акции, инвестиции, листинг, номинальная стоимость, рыночная стоимость, дивиденд.

KIRISH

Kapital bozorini rivojlantirishda institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish, axborotlar ochiqligi va ishonchliligini ta’minlash kabi vazifalar ustuvorlik kasb etmoqda. Sug‘urta kompaniyalari kapital bozorining muhim ishtirokchilaridan ekanligini inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, sug‘urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini amalga oshirishi, kapital bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishi yoki emission faoliyatini tashkil etishi huquqiy jihatdan belgilab qo‘yilgan. Bunda mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun sug‘urta kompaniyasining litsenziya olishi talab qilinmasligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Sug‘urta kompaniyalari asosiy faoliyati natijasida olgan daromaddan maksimal foyda olish maqsadida ushbu mablag‘lar evaziga kapital bozoridagi ishtirokini tashkil etishini ta’kidlashimiz lozim. Mazkur amaliyot nafaqat sug‘urta kompaniyalari foydasini oshirishga va ular faoliyatini samarali shakllantirishga xizmat qiladi, balki kapital bozorini rivojlantirishda ham qo‘l keladi. Shu sababli quyida milliy kapital bozorimizda sug‘urta kompaniyalari faoliyatini tahlil qilib o‘tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy olimlardan biri B. Lloyd “faol xususiy sektorsiz samarali kapital bozori bo‘lmaydi. Binobarin, kapital bozorining rolini aniqlash bilan bog‘liq ko‘plab muammolar, asosan, xususiy sektor uchun ijobiy rolni topishda ba’zi cheklovlarni yengib o‘tishga urinish bilan bog‘liq. Kapital bozorining asosiy vazifasi bozor mezonlariga muvofiq uzoq muddatli mablag‘lar oqimini ko‘paytirish va yo‘naltirish” [1] deya ta’kidlab o‘tgan.

“Kapital bozorida qimmatli qog‘ozlar, odatda, bir yildan ortiq muddatda bo‘ladi va bu orqali uzoq muddatli investitsiya amalga oshiriladi. Qisqa muddatli investitsiyalar esa, odatda, pul bozorida amalga oshiriladi. Kapital bozorining bir qator jihatlari uning ahamiyatini ochib berishini ta’kidlashimiz lozim. Birinchidan, kapital bozori jismoniy shaxslar va kompaniyalarga o‘z ehtiyojlari uchun mablag‘ jalb qilish imkoniyatini beradi hamda ushbu bozor birlamchi bozor va ikkilamchi bozorga bo‘linadi. Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanishda kapital bozori hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu bozor jismoniy shaxslar, banklar, moliya institutlari, ko‘chmas mulk va oltin jamg‘armalarini jalb qiladi va shu bilan jamg‘armalarni samarasiz faoliyatdan foyda keltiruvchi faoliyatga yo‘naltiradi. Uchinchidan, tijorat banklari, moliya institutlari, individual investorlar, sug‘urta kompaniyalari, korporatsiyalar va xususiy pensiya jamg‘armalari kapital bozorida asosiy mablag‘ yetkazib beruvchilardir” [2]. Ushbu fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, kapital bozorining asosiy xususiyatlari sifatida uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar va boshqa aktivlar oldi-sotdi qilinishi va bu kompaniyalar uchun kapital jalb qilishdagi asosiy bozorlardan biri ekanligini aytishimiz mumkin.

F. Saci, S. M. Jasimuddin o‘z tadqiqotlarida “individual investorlar bilan taqqoslaganda institutsional investorlar kattaroq moliyaviy qudratga ega va bozor ma’lumotlarini yig‘ishda hamda professional investitsiyalar qiymatining tahlilini o‘tkazishda keng imkoniyatlarga ega” [3], deya fikr bildirishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, institutsional investorlarning axborotlarni yig‘ishi va qayta ishlashi natijasida bozordagi o‘z faoliyatini samarali yo‘lga qo‘ya oladi hamda moliyaviy qudratini oshira oladi. Bu esa nafaqat institutsional investorlar uchun, balki o‘sha bozor uchun ham foydadan holi bo‘lmaydi.

D. Kim, H. Kim, D. Jo va J. Oh institutsional investorlarning salohiyatini ifodalashda ularning investitsiya maqsadi, ularni cheklovchi faktorlar, investitsiya hajmi kabi turli jihatlar muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlashgan. Shu bilan birga investitsiya salohiyati o‘xshash bo‘lgan institutsional investorlar, odatda, investitsiya portfeli bilan farqlanishini aytib o‘tishgan [4].

S. Chelik va M. Isaksson institutsional investorlarni ularning ma’lum darajada rivojlanish darajasini aks ettiruvchi uchta asosiy toifaga ajratishadi. “Institutsional investorlarning birinchi toifasiga an’anaviy institutsional investorlar kiradi va bunga pensiya fondlari, investitsiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari kiradi. Ikkinchi guruh esa muqobil (alternative) institutsional investorlarni o‘z ichiga olib, bular hedj fondlar, xususiy kapital firmalari (private equity firms), suveren fondlar kabilarni tashkil etadi. Uchinchi toifaga o‘z mijozlari nomidan investitsiya kiritadigan aktivlarni boshqaruvchilar (asset managers) kiradi” [5]. Institutsional investorlarning turlari ko‘pligi bois ularni toifalarga ajratgan holda tadqiq qilish ularning mazmun-mohiyati va kapital bozoridagi ahamiyatini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Mahalliy olimlar ham bir qator tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib, S. Elmirzayev fikricha, “potensial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o‘tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim” [6]. Kapital bozorini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan mazkur jihat ham inobatga olinishi zarur.

A. Bozorov kapital bozorini rivojlantirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan ba’zi jihatlarni ta’kidlab o‘tgan. “Qimmatli qog‘ozlar turiga qarab emitent va investorlar zarur ishonchli ma’lumotlarning olishlari uchun doimiy ma’lumotlar ro‘yxati shakllantirish borish lozim. Shakllantirilgan ma’lumotlar emitentlarning rasmiy veb saytidan tashqari, qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi davlat idoralari, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar savdolarini tashkil etuvchilarning rasmiy veb saytlarida ham joylashtirish lozim. Bu qimmatli qog‘ozlar bozori jozibadorligini oshirishga va undagi ishtirokchilar doirasini kengayishiga va emitent va investorlarning samarali faoliyati va ularni qimmatli qog‘ozlar bozorida doimiy faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi” [7].

U. Xalikov “fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli va yuqori daromad keltiruvchi vositalarni muomalaga kiritish” [8] muhim ekanligini ta’kidlagan. Bunda kapital bozorining rivojlanishi kapital bozorining tarkibiy qismi sifatida uni rivojlantirishga hamda institutsional investorlar faolligini oshirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda ta’kidlash lozimki, kapital bozorini rivojlantirishda institutsional investorlar faolligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Xususan, sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash ham kapital bozori rivoji uchun, ham sug‘urta sohasida ijobiy natijalar qayd etish uchun ahamiyatli hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari ishtirokini o‘rganishda kuzatish, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yil 1-fevral holatiga ko‘ra aksiyalar emissiya qilgan sug‘urta kompaniyalari soni 15 tani tashkil etgan [9]. 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 730-son Qonuni 2022-yil 25-fevraldan kuchga kirishi munosabati bilan “sug‘urtalovchilar aksiyadorlik jamiyati shaklida” [10] tashkil etilishi belgilandi. Natijada 2023-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra aksiyalar emissiya qilgan sug‘urta kompaniyalari soni 42 tani tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval: Sug‘urta kompaniyalari tomonidan emissiya qilingan aksiyalar tahlili (01.01.2023 holatiga) [11]

№	Sug‘urta kompaniyalari	Chiqarilgan aksiyalarning jami hajmi (mln. so‘m)	Aksiyalarning nominal qiymati (so‘m)	Aksiyalarning umumiy soni
1.	O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ	282 216,41	1 000,00	282 216 408
2.	O‘zagrosug‘urta AJ	108 955,94	3 280,00	33 218 274
3.	“Ingo Uzbekistan” sug‘urta AJ	45 212,50	1 300,00	34 778 848
4.	Agros Hayot SK AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
5.	Kapital Sug‘urta aksiyadorlik jamiyati	40 000,00	1,00	40 000 000 000
6.	“SQB Insurance”sug‘urta kompaniyasi AJ	45 501,75	1 000,00	45 501 750
7.	Kafolat sug‘urta kompaniyasi AJ	45 000,00	1,00	45 000 000 000
8.	Alskom sug‘urta kompaniyasi AJ	40 181,95	1 380,00	29 117 358
9.	“Euroasia Life Insurance”AJ	46 620,28	1 000,00	46 620 275
10.	Universal Sug‘urta AJ	25 005,66	0,01	2 500 566 000 000
11.	“Impex Insurance” AJ sug‘urta tashkiloti	35 000,00	1 000,00	35 000 000
12.	“Kafolat Hayot Insurance” AJ	35 000,00	1 000,00	35 000 000
13.	“Apex Insurance” AJ	72 000,00	1000,00	72 000 000
14.	“Global Insurance Group” ST AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
15.	Agro Invest Sug‘urta AJ	10 126,00	1 000,00	10 126 000
16.	“ALFA INVEST” SK AJ	53 312,64	10,00	5 331 263 800
17.	“Temiryo‘l-sug‘urta” AJ	50 000,00	1 000,00	50 000 000
18.	“Gross” SK AJ	45 414,45	1 000,00	45 414 450
19.	“Xalq sug‘urta” AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
20.	“Imkon-sug‘urta” AJ	45 000,00	1,00	45 000 000
21.	“Omad sug‘urta” AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
22.	“Semurg sug‘urta” AJ QK	45 000,00	5 000,00	9 000 000
23.	“Azimuth Insurance Company” AJ XK ST	39 566,53	1 000,00	39 566 531
24.	“Inson” ST AJ	36 610,36	100,00	366 103 622
25.	“Asia Insurance” SK AJ	36 558,00	1 000,00	36 558 007
26.	“APEX Life Insurance” AJ	36 000,00	500,00	72 000 000
27.	“Sharq-sug‘urta” AJ	36 000,00	1 000,00	36 000 000
28.	“New Life” SK AJ	35 900,00	1 000,00	35 900 000
29.	“Kafil-sug‘urta” AJ	35 701,00	1 000,00	35 701 000
30.	“Ishonch” SK AJ QK	35 375,00	1 000,00	35 375 000
31.	“ASKO-VOSTOK” AJ QK ST	35 186,43	100,00	351 864 303
32.	“My Insurance” AJ ST	35 050,00	1 000,00	35 050 000
33.	“Hamkor sug‘urta” AJ	35 000,00	5 000,00	7 000 000
34.	“Alfa Life Insurance” AJ	35 000,00	1 000,00	35 000 000
35.	“Perfect Insurance” AJ ST	35 000,00	5 000,00	7 000 000
36.	“Garant Insurance Group” AJ	25 000,00	1 000,00	25 000 000

№	Sug‘urta kompaniyalari	Chiqarilgan aksiyalarning jami hajmi (mln. so‘m)	Aksiyalarning nominal qiymati (so‘m)	Aksiyalarning umumiy soni
37.	“ARIA” ST AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
38.	“O‘zbekinvest Hayot” SK AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
39.	“DD General Insurance” AJ ST	20 000,00	1 000,00	20 000 000
40.	“Unipolis” AJ ST	20 000,00	1,00	20 000 000 000
41.	“Farovon sug‘urta” AJ	16 038,08	5 000,00	3 207 216
42.	“Fortuna Insurance” AJ ST	15 000,00	1 000,00	15 000 000

Tahlillar ko‘rsatadiki, eng katta qiymatdagi aksiyalar emissiyasini amalga oshirgan sug‘urta kompaniyasi sifatida 282 mlrd. so‘mdan ortiq qiymatdagi aksiyalarni chiqargan O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, bu borada eng past ko‘rsatkich 10 mlrd. so‘mdan ortiq ko‘rsatkich bilan Agro Invest Sug‘urta AJ keltirilgan (1-jadval).

E’tiborli jihati shundaki, mazkur sug‘urta kompaniyalari orasida nominal qiymati eng katta qiymatga ega sug‘urta kompaniyalari sifatida “Semurg sug‘urta” AJ QK (5 000 so‘m), “Hamkor sug‘urta” AJ (5 000 so‘m), “Perfect Insurance” AJ QK (5 000 so‘m), “Farovon sug‘urta” AJ (5 000 so‘m) O‘zagrosug‘urta AJ (3280 so‘m), Alskom sug‘urta kompaniyasi AJ (1380 so‘m) va “Ingo Uzbekistan” sug‘urta AJ (1300 so‘m)larni sanab o‘tishimiz mumkin. Eng kichik nominal qiymatdagi aksiyalarga Kafolat sug‘urta kompaniyasi AJ (1 so‘m), Kapital Sug‘urta AJ (1 so‘m), “Unipolis” AJ ST (1 so‘m), “Imkon-sug‘urta” AJ (1 so‘m), Universal Sug‘urta AJ (0,01 so‘m) kabi sug‘urta kompaniyalari egalik qilmoqda. Nominal qiymatning bunday kichik qiymatda bo‘lishi ma’lum bir darajada sug‘urta kompaniyasining investitsion jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday kompaniyalar samarali faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, xorijiy investorlarni jalb qilishda hamda ularning ulushi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda muammoli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hisob-kitob jarayonida juda kichik qiymatlardan foydalanilganligi sababli hisob-kitoblarda noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bunday noqulayliklar ham ma’lum bir darajada milliy kapital bozorini rivojlantirish, mahalliy institutsional faoliyatini samarali tashkil etish va xorijiy institutsional investorlarni jalb qilishda to‘siq bo‘lishi mumkin (1-jadval).

“Toshkent” RFBda listingdan o‘tgan sug‘urta kompaniyalari aksiyalari tahlili orqali ko‘rish mumkinki, 2022-yil natijalariga ko‘ra jami 42 ta sug‘urta kompaniyasidan faqatgina 7 ta sug‘urta kompaniyasi listingdan o‘tganligini ta’kidlash lozim (1-rasm).



1-rasm: “Toshkent” RFBda listingdan o‘tgan sug‘urta kompaniyalari aksiyalari tahlili, so‘mda (30.12.2022 holatiga) [12]

Sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi investitsiya faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, sug‘urta kompaniyalari milliy kapital bozorimizda investitsiya faoliyati orqali ham ishtirok etmoqda. Quyida milliy sug‘urta

kompaniyalarining qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investitsiyalari hajmi va boshqa kompaniyalar aksiyalaridan olgan dividend ko‘rinishidagi daromadlarini tahlil qilib o‘tamiz.

2-jadval: O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJning investitsiya faoliyati tahlili [13]

№	Ko‘rsatkich	1.01.2020	1.01.2021	1.01.2022
1.	Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so‘m)	549 427 931,5	549 417 083,7	542 338 906,9
2.	Dividend ko‘rinishidagi daromadlar (ming so‘m)	15 683654,8	5 141 799,4	4 098563,0

2-jadvalda O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJning qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra so‘nggi 3 yillik ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar 2020-yil yanvar holatiga 549 mlrd. so‘mdan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yanvar holatiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 542 mlrd. so‘mga pasaygan. Dividend ko‘rinishidagi daromadlar esa 2020-yildagi 15,7 mlrd. so‘mdan 2020-yilda 4,10 mlrd. so‘mga kamaygan. Demak, ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ tahlil qilingan davrda kapital bozoridagi faolligi pasaygan.

3-jadval: O‘zagrosug‘urta AJning investitsiya faoliyati tahlili [14]

№	Ko‘rsatkich	1.01.2018	1.01.2019	1.01.2020	1.01.2021
1.	Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so‘m)	27596829,10	32352879,80	33 444 343,8	32 638 675,7
2.	Dividend ko‘rinishidagi daromadlar (ming so‘m)	2987929,90	4102712,60	5 930 335,5	3 597 588,9

3-jadvalda O‘zagrosug‘urta AJning investitsiya faoliyati 2018-2021-yillarda tahlil qilingan. Xususan, 2018-yil yanvar holatiga mazkur sug‘urta kompaniyasining qimmatli qog‘ozlarga investitsiyasi hajmi 27,60 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, dividend ko‘rinishidagi daromadlari 3 mlrd. so‘mga yaqin bo‘lgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga esa qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar 32,64 mlrd. so‘mga yetdi va 2018-yilga nisbatan 5 mlrd. so‘mga oshgan. Ikkinchi ko‘rsatkich esa 2021-yil boshida 3,60 mlrd. so‘m bo‘lgan. Tahlil qilingan yillarda eng yuqori ko‘rsatkichlar 2020-yil 1-yanvar holatiga to‘g‘ri kelib, bu vaqtda qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar hajmi 33,44 mlrd. so‘m va dividend ko‘rinishidagi daromadlar 5,93 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Yana bir sug‘urta kompaniyasi faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak, “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ so‘nggi yillar davomida o‘z investitsiya faoliyatini faollashtirganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar hajmini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2018-yil boshida bu ko‘rsatkich 25 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan va bu ko‘rsatkich 2021-yil yanvar holatiga ko‘ra 44 mlrd. so‘mga yaqinlashgan. Dividend ko‘rinishidagi daromadlar esa bu davr mobaynida 3,95 mlrd. so‘mdan 4,10 mlrd. so‘mgacha oshganligini kuzatishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval: “Kafolat sug‘urta kompaniyasi”AJning investitsiya faoliyati tahlili [15]

№	Ko‘rsatkich	1.01.2018	1.01.2019	1.01.2020	1.01.2021
1.	Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so‘m)	25 165 762,8	34 461 539,9	46 190 013,0	43 882 191,8
2.	Dividend ko‘rinishidagi daromadlar (ming so‘m)	3 945 285,1	14 946 853,9	13 112 162,1	4 103 511,9

4-jadvalda tahlil qilingan davr mobaynida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 2020-yil yanvar holatiga 46 mlrd. so‘mdan ortiqni tashkil etganligini hamda dividend ko‘rinishidagi daromadlarning eng yuqori ko‘rsatkichi 2019-yil yanvar holatiga 15 mlrd. so‘mga yaqin bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur sug‘urta kompaniyasida ikkinchi ko‘rsatkich 2020-yildan so‘ng keskin pasayganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari ishtirokini o‘rganishda quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, mahalliy kapital bozoridagi sug‘urta kompaniyalari aksiyalari daromadlilik darajasi qoniqarli darajada emas. Potensial investorlarning bo‘sh mablag‘larini kapital bozoriga jalb qilish uchun kapital bozoridagi qimmatli qog‘ozlarning daromadliligi qoniqarli darajada bo‘lishi lozim. Aks holda potensial investorlar ko‘proq daromad olish uchun o‘z mablag‘larini bank omonatlariga yoki o‘z salohiyati va tajribasidan kelib chiqqan holda boshqa biznes faoliyatiga yo‘naltirishi mumkin.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish va unda institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari faolligini oshirish uchun investor yoki moliyaviy vositachi sifatida xorijiy institutsional investorlarni jalb etishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, milliy sug‘urta kompaniyalari orasida tarkibida davlat ulushi mavjud sug‘urta kompaniyalari soni ko‘pligini inobatga olgan holda mazkur kompaniyalarning kapital bozoridagi ishtirokini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Xususan, davlat ulushi mavjud sug‘urta kompaniyalari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish zarur. Bu orqali kapital bozorida sug‘urta kompaniyalarining vositachilik faoliyati yo‘lga qo‘yiladi va institutsional investorlar faolligini oshirish imkoni paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi faolligini oshirishda sug‘urta kompaniyalarining listingdan o‘tishini, shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bruce Lloyd. The Role of Capital Markets in Developing Countries. // Intereconomics, ISSN 0020-5346, Verlag Weltarchiv, Hamburg, Vol. 12, Iss. 3/4, 1977. – pp. 96-102; https://www.econstor.eu/bitstream/10419/139458/1/v12-i03-a09-BF02928701.pdf
2. https://www.wallstreetmojo.com/capital-market/ – moliya, buxgalteriya hisobi va investitsiyalar bilan bog‘liq ma’lumotlar e’lon qilinuvchi veb-sayt ma’lumotlari
3. Fateh Saci, Sajjad M. Jasimuddin. Does the research done by the institutional investors affect the cost of equity capital? // Finance Research Letters. 3 November, 2020. – P. 11; https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612320316482#bib0023
4. Donghan Kim, Hyun-Dong Kim, Denis Yongmin Joe, Ji Yeol Jimmy Oh. Institutional investor heterogeneity and market price dynamics: Evidence from investment horizon and portfolio concentration. // Journal of Financial Markets. 16 October 2020. – P. 25; https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1386418120300732
5. Serdar Çelik, Mats Isaksson. Institutional Investors as Owners: Who Are They and What Do They Do? // OECD Corporate Governance Working Papers No. 11. December 2013. – P. 36; https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/5k3v1dvmfk42-en.pdf?expires=1605509112&id=id&accname=guest&checksum=7F65B866A966CB86DA1CD71C1C0F8D28
6. Elmirzayev, S. (2019) “The Practice And Analysis Of Mass Positioning Of Shares Of Joint-Stock Companies,” International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 1, Article 3. Available at: https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss1/3
7. A. R. Bozorov. Real sektor korxonalarini qimmatli qog‘ozlar orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TMI, 2022. – 23 b.
8. U. R. Xalikov. O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TDIU, 2017. – 8 b.
9. http://deponet.uz/sites/default/files/editor/spisok_ao_uz_010222_0.pdf – O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari
10. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 730-sonli Qonuni, 23.11.2021. 39-modda. https://lex.uz/docs/5739117
11. https://deponet.uz/sites/default/files//editor/spisok_ao_uz_011122.pdf – O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
12. https://www.uzse.uz/isu_infos?page=3 – “Toshkent” RFB rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
13. https://uzbekinvest.uz/uploads/documentation/69.pdf – O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
14. https://www.agros.uz/uz/inv_cat/1/ – O‘zagrosug‘urta AJ rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
15. http://www.kafolat.uz/#uz/info/for_shareholders/financial_reporting/page/2/ – “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJning moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINING ASOSIY VA MUHIM JIHATLARI

Nutfulloyev Tolib G‘olib o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Biznes boshqaruvi va logistika kafedrasi” assistenti

Annotatsiya: Maqolada raqamlashtirish jarayonlari va biznesni raqamli usulda o‘zgartirishning zamonaviy tendensiyalari tahlili ko‘rib chiqiladi. Ishbilarmonlik faoliyatini raqamlashtirish bugungi kunda korxonalarni rivojlantirishning markaziy tendensiyalaridan biriga aylandi. Raqamli yechimlar biznes jarayonlari va modellariga asosiy ta’sir ko‘rsatadi va ulardan foydalanish iste’molchilar manfaatlarining o‘zgarishi, texnologiya mavjudligi va ijobiy iqtisodiy samaraga ega. Covid-19 pandemiyasi korxonalar biznes faoliyatini tashkil etishda raqamli vositalardan tezda foydalanishni boshlashlari kerakligini ko‘rsatdi, bu esa biznesning progressiv raqamli transformatsiyasiga hissa qo‘shadi. Muallif biznesni raqamlashtirish va uning raqamli transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlaydi. Raqamli transformatsiya biznes ko‘lamidan qat’i nazar, ko‘plab biznes tuzilmalari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Bundan tashqari, muallif raqamli texnologiyalardan foydalangan holda biznesni o‘zgartirishning asosiy jihatlari va afzalliklarini tasvirlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlik, raqamlashtirish, iste’molchilarning xulq-atvori, raqobatbardoshlik, raqobat.

Abstract: The article examines the analysis of digitization processes and modern trends in digital transformation of business. Digitization of business activities has become one of the central trends in the development of enterprises today. Digital solutions have a major impact on business processes and models, and their use has a positive impact on consumer preferences, technology availability and economic impact. The Covid-19 pandemic has shown that enterprises need to quickly start using digital tools in the organization of business activities, which will contribute to the progressive digital transformation of business. The author emphasizes the unique features of business digitization and its digital transformation. It is noted that digital transformation affects the operation of many business structures, regardless of the scale of business. In addition, the author describes the main aspects and benefits of business transformation using digital technologies.

Key words: digital transformation, business entities, entrepreneurship, digitization, consumer behavior, competitiveness, competition.

Аннотация: В статье рассмотрен анализ процессов цифровизации и современные тенденции цифровой трансформации бизнеса. Цифровизация предпринимательской деятельности сегодня стала одним из центральных трендов развития предприятий. Цифровые решения оказывают серьезное влияние на бизнес-процессы и модели, а их использование положительно влияет на потребительские предпочтения, доступность технологий и экономический эффект. Пандемия Covid-19 показала, что предприятиям необходимо быстро начать использовать цифровые инструменты в организации бизнес-деятельности, что будет способствовать прогрессивной цифровой трансформации бизнеса. Автор подчеркивает уникальные особенности цифровизации бизнеса и его цифровой трансформации. Отмечается, что цифровая трансформация влияет на работу многих бизнес-структур независимо от масштаба бизнеса. Кроме того, автор описывает основные аспекты и преимущества трансформации бизнеса с помощью цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровая трансформация, субъекты хозяйствования, предпринимательство, цифровизация, потребительское поведение, конкурентоспособность, конкуренция.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda zamonaviy korxona va biznesning barqaror samarali rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi ekanligini jahon tajribasi ishonchli tarzda isbotladi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning eng muhim yo‘nalishlarini rivojlantirish, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni yaratish IT ning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, alohida korxonalarning ham, butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyati va raqobatbardoshligi bunga bog‘liq. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, 2021-yilda iqtisodiy rivo-

jlangan aksariyat mamlakatlar sanoat sohasida IoT va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, internetdan foydalanuvchilar sonining ko‘payishi (2017-yilga nisbatan 15 foizga) hisobiga YIMning o‘rtacha 3-3,9% ga, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar esa 7,2% ga o‘sdi.

Jahon sanoati rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish asosida milliy iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarini samarali rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu faoliyatda innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, turli tarmoqlarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta’minlashga yondashuvlarni o‘zgartirish, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar alohida dolzarbdir.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning bozor usullari iqtisodiyot tarmoqlari o‘sishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining jadal rivojlanishining muhim sharti fan va texnika vositalaridan keng foydalangan holda iqtisodiyot, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etishdan iborat”[1]. Shu munosabat bilan korxonalar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, milliy konsepsiya asosida iqtisodiyot va innovatsion faoliyatning raqobatbardoshligini oshirishning uslubiy yondashuvlarini nazariy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Korxonalarning tashqi sharoitlarga va yuqori raqobatga moslashishi raqamli transformatsiyani talab qiladi. A. Proxorov va L. Konikning raqamli transformatsiyaga oid kitobida kompaniyalar foydalanishi mumkin bo‘lgan texnologiyalar ko‘rib chiqishgan. O‘zgartirish kerak bo‘lgan to‘rtta omil mavjud: strategiya, texnologiya, odamlar, jarayonlar[2]. Mualliflar nafaqat omillarni ajratib ko‘rsatishadi, balki ularni etuklik darajalari bo‘yicha dinamikada ko‘rib chiqadilar: boshlang‘ich, boshqariladigan va optimallashtirilgan transformatsiya.

Dissertatsiya tadqiqotida Gribanov Yu. I. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga taqdim etilgan Gribanov Yu. I. [3], raqamli transformatsiyani cheklovchi omillar keltirilgan. Muallif ularni tashqi va ichki qismlarga ajratadi. Ichki ma’lumotlarga quyidagilar kiradi: resurs, tashkiliy, psixologik to‘siqlar va inson omili.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari hamda internet saytlaridan foydalanilgan. To‘plangan statistik ma’lumotlar taqqoslash usuli yordamida, shuningdek, maqolaning ekonometrik tahlil bo‘limida tahlil qilindi.

Raqamli transformatsiyalar ta’sirida aniqroq tan olish uchta tashkiliy jihatni nazarda tutadi: tashqaridan, mijozning tajribasini yaxshilash va uning butun hayot aylanishini o‘zgartirish bilan; ichki tomondan, biznes maqsadlariga, asosiy yetakchilik va ierarxik tuzilmalarga ta’siri; va umuman olganda, biznesning barcha bo‘limlari va imkoniyatlari ta’sirlanganda, odatda butunlay yangi biznes modellariga olib keladi[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kuchayishi natijasida tadbirkorlik subyektlari jadallik bilan raqamlashtirishga o‘tmoqda, bunday xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar soni ham ortib bormoqda. 2021-yilga borib, dasturiy ta’minot xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0,09% va 633,4 mlrd. so‘mlarning qiymatini tashkil etdi. 2015-2021-yillarda kompyuter dasturlash va tegishli xizmatlarning umumiy qiymati doimiy ravishda oshib bordi, bu ko‘rsatkich 2015-yilda 142,5 milliard so‘mni, 2021-yilga kelib esa 2721,5 milliard so‘mni tashkil etdi (1-rasmga qarang).

Yuqoridagi grafikdan ko‘rishimiz mumkinki, so‘nggi ikki yilda kompyuter dasturlash va unga aloqador xizmatlarning umumiy qiymati qariyb ikki barobarga oshgan va 2020-yilda 1428,2 mlrd, 2021-yilda esa 2721,5 mlrd. Bu O‘zbekistonda tadbirkorlar orasida raqamli tarnsformatsiya va IoTdan foydalanish yanada ommalashayotganini ko‘rsatadi. Chunki bu biznes olamida muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘proq imkoniyat beradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasini 2019-2021-yillarda innovatsion rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-son Farmoni (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan, lekin 27-sentabrdagi, 2020). O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi parlament. 2018-yil 24-sentabr.

2 Proxorov A., Konik L. Raqamli transformatsiya. Tahlil, tendensiyalar, jahon tajribasi. Ikkinchi nashr, tuzatilgan va kengaytirilgan. – M.: KomNewsGroup MChJ, 2019. – 368 bet

3 Gribanov Yu. I. Xizmat integratsiyasi institutini rivojlantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasi

4 Hess, T., Benlian, A., Matt, C., Wiesböck, F.: Raqamli transformatsiya strategiyasini shakllantirish variantlari. MIS Q. Exec.



1-rasm: 2015-2021-yillar davomida kompyuter dasturlash va tegishli xizmatlarning umumiy qiymati (milliard so‘m)[5]

Raqamli biznes transformatsiyasining rolini saqlab qolish Capgemini Consulting va MIT Sloan Menejment maktabi (Massachusets Texnologiya Instituti qoshidagi Menejment maktabi) tomonidan o‘tkazilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini birgalikda o‘rganish bilan tasdiqlanadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiyani shunchaki e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi, chunki bu holda raqobatchilarga nisbatan daromadning pasayishi yiliga 24% ni tashkil qiladi.

Raqamli transformatsiyalarni amalga oshirgan kompaniyalarning natijalari menejmentni parallel ravishda takomillashtirish bilan biznesning raqamli transformatsiyasiga hamroh bo‘lishiga bog‘liq edi, ya’ni ular kompaniyaning top-menejmenti tomonidan proaktiv boshqaruv bilan bevosita bog‘liq. Shunday qilib, texnologiyalar va yangi boshqaruv usullari birgalikda qo‘llanilsa, firmalarning foydasi o‘rtacha 26% ga oshadi. Raqamli texnologiyalarga murojaat qilmasdan boshqaruvni takomillashtirish uchun bo‘lsa, firmalarning foydasi 9 foizga oshadi. Agar siz faqat texnologiyaga sarmoya kiritsangiz, menejmentdagi kerakli o‘zgarishlarni unutsangiz, foyda umuman o‘smaydi, lekin 11% ga tushadi (1-jadval).

1-jadval: Kompaniyada raqamli texnologiyalarni joriy etish natijalari[6]

Holatlar	Texnologiya	Yangi memejment metodlari	Foyda
1	-	-	Raqobatchilar bilan solishtirganda 24% kamaygan
2	+	-	11% ga kamaygan
3	-	+	O‘sish 9%
4	+	+	26% ga o‘sish

Shunday qilib, samarasiz boshqaruv bilan texnologiyaga sarmoya kiritish nafaqat biznesga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi, balki aksincha, halokatli natijalarga olib keladi va raqamli transformatsiyaning harakatlantiruvchi kuchi nafaqat yangi raqamli texnologiyalar, balki yetakchilikka yo‘naltirilgandir. Yangi texnologiyalar, jarayonlarni joriy etish va boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish orqaligina samarali ishlaydi [4].

Regressiya modeliga asoslanib:

$$ROA = \beta 0 + \beta 1FinLev + \beta\ 2ProAsset + \beta\ 3Liquidity + \beta\ p4Inv + \beta 5FirmSize + \beta 6MarShare + + \beta\ 7\ Exporting + \beta 8ITUsage$$

AMUDARYOTEX MChJ, Quvatekstil MChJ, Art Soft Tech MChJ, Nortex MChJdan foydalanadigan to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligining ekonometrik tahlili o‘tkazildi. Ushbu korxonalarning raqobatbardoshligini ekonometrik tahlil qilish natijalari 2-jadvalda keltirilgan [8].

5 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari www.stat.uz asosida muallif ishlanmasi.

6 MIT Sloan Management Sharh, Strategiya, Texnologiya emas, Raqamli Transformatsiya Raqamli Yetuk Korxonaga Aylanmoqda, 2015-yil

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ekonometrik tahlil qilish uchun muallif tomonidan 16 ta kuzatuv (yuqorida ko‘rsatilgan har bir korxonaning 4 yillik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan). Ko‘rib chiqilgan umumiy o‘zgaruvchilar quyidagilar edi: aktivlar rentabelligi, moliyaviy vosita, ishlab chiqarish aktivlari, likvidlik, investitsiyalar, firma hajmi, bozor ulushi, eksport, IT-dan foydalanish. Ularning o‘rtacha qiymati ikkinchi ustunda, standart og‘ish – 3-ustunda, minimal va maksimal qiymatlari – mos ravishda 4 va 5-ustunlarda ko‘rsatilgan. Raqobatda g‘alaba qozonishda IT dan foydalanish muhim rol o‘ynaydi, chunki u yanada qulayroq va aniq ko‘rish imkonini beradi.

2-jadval: To‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshlik omillarining tavsifiy statistikasi[7]

O‘zgaruvchilar	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Aktivlarning daromadliligi	16	0.385	0.0794145	0.27	0.51
moliyaviy leverage	16	0.601875	0.0943199	0.45	0.8
Ishlab chiqarish aktivi	16	0.61	0.0832666	0.44	0.72
Likvidlik	16	1.119375	0.3537507	0.6	1.74
Investitsiyalar	16	0.578125	0.120345	0.3	0.78
Firma hajmi	16	7.463125	0.621908	6.1	8.3
Bozor ulushi	16	7.82375	1.518139	5.1	9.4
Eksport	16	0.4375	0.5123475	0	1
IT dan foydalanish	16	6.25	0.7745967	5	7

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash tekstil korxonalarida ham yaxshi samara bergan. Bu tadqiqotdan ko‘rishimiz mumkinki IT ni qo‘llash korxonalarda raqobatbardoshlikni 5-7% gacha oshirishga yordam beradi.

MULOHAZALAR

Biznes jarayonlarining raqamli transformatsiyasi ko‘pincha elektron tijorat, IT va fintech sohalarida amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish kompaniyalarga quyidagilarga imkon beradi:

- mahsuldorlikni oshirish va biznes xarajatlarini kamaytirish;
- ishni rejalashtirish va biznesni boshqarish sifatini oshirish;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va iste’molchilarni yaxshiroq va qulayroq mahsulotlar bilan ta’minlash;
- ijobiy brend imidjini yaratish va bozor segmentida yetakchilik pozitsiyalariga erishish.

Raqamli biznes transformatsiyasi bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan va ularning o‘zgarishlariga moslasha oladigan kompaniyalar uchun yangilangan, barqaror biznes modelini yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Raqamli biznesni o‘zgartirishga misollar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- integratsiyalashgan Internet-marketing va biznesni ilgari surish strategiyalari;
- zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi saytlar;
- turli platformalar uchun samarali mobil ilovalar;
- Kontentni yoki mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish uchun CRM tizimlari.

Biznes jarayonlarining raqamli transformatsiyasini amalga oshirishga yordam beradigan bir qancha strategik yo‘nalishlar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- biznes jarayonlarini raqamlashtirish (biznesni raqamlashtirish) – kompaniyalarning elektron platformalarga o‘tishi. Biznesni raqamlashtirish yordamida kompaniya xodimlari faoliyatini dasturiy yechimlar ishi bilan almashtirish orqali aniq vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan bosqichlar sonini sezilarli darajada qisqartirish mumkin;

7 Matchanova F. A.: IT asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning bozor usullari: PhD. Iqtisodiyot fanlari: 08.00.03 – Toshkent 2022.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- ma'lumotlarni boshqarish (Big Data, Data Analytics, Data Science) – neyron tarmoqlar, mashinani o'rganish va boshqa sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash. Ma'lumotlarni boshqarish yordamida mijozlarning xatti-harakatlari modellarini tuzish, talabni bashorat qilish va imtiyozlarni shakllantirish mumkin – bu mahsulot va xizmatlarni aniq iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi;
- mijozlarga yo'naltirilganlik – o'z mahsulotlarini ishlab chiqishda kompaniyalar mijoz va uning ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda biznes modelini quradilar. Shu bilan birga, mijozga yo'naltirilgan model kompaniya uchun har bir mijozning qiymatini ham hisobga oladi;
- raqamli hamkorlik – kompaniya tomonidan sheriklar bilan birgalikda vazifalarni hal qilish uchun umumiy raqamli infratuzilmani (texnologiyalar va hisoblash, telekommunikatsiya va tarmoq quvvatlari to'plami) yaratish;
- innovatsiya – yangi biznes yo'nalishlari, mahsulotlar va yechimlarni doimiy o'rganish va sinovdan o'tkazish. Bu strategiya zamonaviy raqamli kanallar va tizimlardan faol foydalanishni nazarda tutadi;
- qiymatni boshqarish – ushbu strategiya yordamida mahsulotlarni moslashtirish va shaxsiylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi, ular uchun foydalanuvchi talablarining o'zgarishi hisobga olinadi. Shu bilan birga, tovarning xaridorlar uchun qiymati uning foydalanish qulayligi, zarur xizmatlarni olish imkoniyati, mahsulot va kompaniyaning xizmat ko'rsatish bo'yicha ishini doimiy ravishda takomillashtirishdir.

Bundan tashqari, raqamlashtirish nafaqat raqobatda g'alaba qozonish uchun, balki boshqaruvning yangi usullaridan foydalanish ham juda muhim, chunki biz yuqorida 1-jadvalda kompaniyada ITni integratsiyalashgan holda yangi boshqaruv usullari qanday ta'sir ko'rsatayotganini, 26% ga o'sishini ko'rib chiqdik. Tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishdan oldin biznes jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak, chunki texnologiyalar faqat tezlatuvchilardir. Agar biznes jarayonlari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, ushbu raqamli texnologiyalar korxonaning ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Raqobatga qarshi kurashda biznesda IT-texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqdik, xususan, uning ahamiyat darajasi kompaniyaning bozordagi ulushi, uning hajmi kabi omillarga deyarli teng ekanligini ko'rdik.

XULOSA

Raqamli iqtisodiyotning o'zgarishi inson va jamiyatning o'zgarishini tartibga soladi. Terminologiya va nazariy apparatdagi har qanday o'zgarishlar innovatsion jarayonlar, biznes jarayonlarining yangi formatlari va ekotizim munosabatlari ta'siri ostida sodir bo'ladi. Terminologiya va kontseptual apparatni dolzarblashtirish va aniqlashtirish raqamlashtirish sharoitida professional boshqaruv faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi.

Kompaniyani raqamlashtirish biznes uchun mutlaq foyda emas, balki tashqi muhitdan kelib chiqadigan qiyinchilikdir. Menejmenti yetarli darajada rivojlangan bizneslar raqamlashtirishdan foyda ko'radi, zaif boshqaruvga ega bo'lgan firmalar esa rivojlanishdagi raqamli o'zgarishlardan aziyat chekadi. Shu ma'noda shuni aytish mumkinki, kompaniyani raqamlashtirish kompaniyaning rivojlanish darajasining neytral tezlatuvchisi hisoblanadi va shuning uchun u uchun ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni kompaniyaga joriy etishning asosiy yondashuvi "kompaniya-texnologiyalar" yondashuvi bo'lishi kerak, bunda raqamlashtirish kompaniyaning strategik boshqaruvining ajralmas elementi, uning faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Raqamli transformatsiyani aniqlash qiyin, chunki u har bir biznes sektori uchun juda o'xshash. Ammo umumiy ma'noda, u raqamli texnologiyani korxonaning barcha tarmoqlariga kiritish sifatida namoyon bo'ladi. Natijada korxonalar faoliyati va mijozlar bilan ishlash tartibi tubdan o'zgardi. Bu kompaniya samaradorligini o'zgartirish uchun texnologiyadan jarayonlar va odamlar bilan birgalikda qanday foydalanishini tubdan qayta ko'rib chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasini 2019–2021-yillarda innovatsion rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son Farmoni (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan, lekin 27-sentabrdagi, 2020) O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi parlament. 2018-yil 24-sentabr.
2. Minges M. Keng polosali internet va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish. –WDR 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari www.stat.uz
4. MIT Sloan Management Sharh, Strategiya, Texnologiya emas, Raqamli Transformatsiya Raqamli Yetuk Korxonaga Aylanmoqda, – 2015-yil.

5. Proxorov A., Konik L. Raqamli transformatsiya. Tahlil, tendensiyalar, jahon tajribasi. Ikkinchi nashr, tuzatilgan va kengaytirilgan. – M.: KomNewsGroup MChJ, 2019. –368 bet.
6. Gribanov Yu. I. Xizmat integratsiyasi institutini rivojlantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasi: i.f.n. iqtisodiyot Fanlar: 08.00.05: himoyalangan 03.10.19: tasdiqlangan. 03.10.19 / Gribanov Yuriy Ivanovich. – Sankt-Peterburg, 2019. –355 b. – Bibliografiya: –284-320-betlar.
7. Hess, T., Benlian, A., Matt, C., Wiesböck, F.: Raqamli transformatsiya strategiyasini shakllantirish variantlari. MIS Q. Exec. 15(2), 123–139 (2016).
8. Matchanova F. A.: IT asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning bozor usullari: PhD. Iqtisodiyot fanlari: 08.00.03 – Toshkent 2022.
9. Nutfulloyev T. G.: Importance and strategies of business process improvement. Multidisciplinary scientific online journal: Creative Teacher, ISSN: 2181-2330, No. 30, 231-235-p., 2023.
10. Nutfulloyev T. G.: The role of processing and storage processes in the food supply chain. 2ND Global Symposium on Humanity and Scientific Advancements Hosted Jacksonville Florida, USA https://conferencepublication.com, 2021
11. Qosimova D. S. And Nutfulloyev T. G‘.: The Main Aspects and Benefits of Digital Transformation of Business Entities. 22nd International Conference, NEW2AN, P356-362, Tashkent, (2022).
12. Sobirovna, Q. D., Abdugafarovich, S. A., & Bulturbayevich, M. B. (2019). Sanoat korxonalarida vertikal integratsiya strategiyasini takomillashtirish. American Journal of Economics and Business Management, 2(3), 63-68.
13. Qosimova, D. (2020). Sanoat korxonalarida vertikal integratsiya strategiyasini takomillashtirish. Arxiv nauchnix issledovaniy, (13).
14. Qosimova, D. S., & Adashev, A. U. (2019). Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligining raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 17.
15. Sobirovna, D. K., & O‘rinboyevich, A. A. (2019). Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlari. Osiyo ko‘p o‘lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR), 8(7), 29-35.
16. Qosimova, D. (2020). Strukturaviy o‘zgarishlar asosida yog‘-moy sanoatida inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish.
17. Qosimova, D., & Muxtorova, I. (2022). O‘zbekiston misolida mintaqaviy zamonaviy migratsion jarayonlari. Arxiv nauchnix issledovaniy, 2(1).
18. Sobirovna, K. D., G‘afurovich, A. N. va Abdugafarovich, S. A. (2021). Korxonaning tashkiliy madaniyatini boshqarish tizimini shakllantirish. Nveo-Natural Volatiles & Essential Oils jurnali| NVEO, 4271-4278.

KORXONALARDA KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Sadikova Muslima Alisher qizi
TDIU, “Korporativ boshqaruv” kafedrasi PhD. doktoranti

Annotatsiya: Har qanday kompaniya va tashkilot uchun korporativ madaniyat juda muhim fenomen hisoblanadi. Uning mavjudligi, aniqrog‘i, yaxshi rivojlangan korporativ madaniyat tashkilotning boshqaruv samaradorligini oshiradi, o‘z maqsadlarini amalga oshirish intensivligiga hissa qo‘shadi va uning jamoatchilik tomonidan idrok etilishini yaxshilaydi. Ushbu maqolada korporativ madaniyat etimologiyasi, mohiyati va aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirish zarurati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: korporativ madaniyat, aksiyadorlik jamiyati, kompaniya, missiya, qadriyat, boshqaruv, samaradorlik.

Sadikova Muslima Alisher kizi
PhD. Researcher, TSUE, “Corporate governance” department

Abstract: For any company and organization, such a phenomenon as corporate culture is very important. Its presence, or rather, a well-developed corporate culture increases the effectiveness of management of an organization, contributes to the intensity of the implementation of its goals, improves its public perception. This article analyzes the etymology, the essence of corporate culture and the need to develop corporate culture in joint-stock companies.

Key words: corporate culture, joint stock company, company, mission, values, management, efficiency.

Садикова Муслима Алишер кизи
PhD. Докторант, ТГЭУ, кафедра “Корпоративное управление”

Аннотация: Для любой компании и организации очень важно такое явление, как корпоративная культура. Его наличие, а точнее, хорошо развитая корпоративная культура повышает эффективность управления организацией, способствует интенсивности реализации ее целей, улучшает ее общественное восприятие. В данной статье анализируется этимология, сущность корпоративной культуры и необходимость развития корпоративной культуры в акционерных обществах.

Ключевые слова: корпоративная культура, акционерное общество, компания, миссия, ценность, управление, эффективность

KIRISH

Korporativ madaniyat kontseptsiyasi rivojlangan mamlakatlarda o‘tgan asrning 20-yillarida qo‘llanila boshlandi. Yirik firma va korporatsiyalar ichidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, ularning iqtisodiy, savdo va ishlab chiqarish munosabatlari infratuzilmasidagi o‘rnini tushunish korporativ madaniyatga nazariy va amaliy jihatdan jiddiy yondashish zaruratini paydo qildi. Dastavval madaniyat so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, “madaniyat” so‘ziga yuzdan ortiq ta’riflar mavjud, ammo ularning barchasi bir narsada birlashadi: bu hodisa shaxs tomonidan shakllantiriladi.

Madaniyat odamlarning bir-biridan qanday xulq-atvor kutayotganligiga qarab shakllanadi. Madaniyat deklarativ bayonotlar va suhbatlarda ifodalanmaydi – aksincha, uning namoyon bo‘lishini odamlarning xatti-harakatlarida ko‘rish mumkin.

Korporativ madaniyatni tashkilot a’zolarining qadriyatlari, fikr-mulohazalari, xatti-harakatlar standartlari, ramzlar, munosabatlar va kompaniyaning o‘ziga xosligini belgilaydigan biznes yuritish usullari to‘plami sifatida aniqlash mumkin.

Korporativ madaniyat – tashkilotga korxona yoki tashkilotga taalluqli bo‘lgan o‘ziga xos, orginal ichki va tashqi identifikatsiya qiluvchi xususiyatlar majmuasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korporativ madaniyatning roli, ahamiyati bir qancha mahalliy va g‘arb olimlari ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanish olib borgan mashhur xorijlik olimlar T. E. Deal va A. A. Kennedi nazariyalariga ko‘ra kompaniyalarda korporativ madaniyatni to‘rtta darajasi mavjud: qadriyatlar – bu kompaniya va uning xodimlarinining bir maqsadga yo‘naltirilganligi va ikkala tomonning oliy maqsadlari va qadriyatlari kesishganligidir; qahramonlar – kompaniya qadriyatlarini shaxsiy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirgan kompaniya rahbari yoki xodimi; marosimlar – kompaniyaning asosiy, ramziy sanalarini belgilash va ularni odatiy rituallarga aylantirish; munosabatlarni jipslashtirish – kompaniya xodimlarining qadriyatlar, qahramonlar va marosimlar haqida axborot olishi mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini yaratish va ta’minlash.

G‘arblik olimlardan bo‘lmish E. Sheyn korporativ madaniyatni o‘z-o‘zidan shakllangan yoki ishlab chiqilgan asosiy harakatlar to‘plami deya ta’riflaydi.

A. Huczynski va D. Buchanan “kompaniya madaniyati va korporativ madaniyat bir-biriga doim ham mos kelavermaydi, chunki kompaniya madaniyati shakllantirilgan va tashkillashtirilgan tashkiliy madaniyatdir”, degan fikrni ilgari surishgan. Bu olimlar hozirda munozarali bo‘lib turgan korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyatning farqlari va o‘xshashliklarini kengroq yoritib berishgan. Ularning fikricha korporativ madaniyat tashkiliy madaniyatga nisbatan kengroq va chuqurroq tushuncha.

Korporativ madaniyat haqida bir qancha MDX mamlakatlari olimlari ham tadqiqot olib borishgan. Xususan, rus tadqiqotchisi A. A. Vyazankina fikriga ko‘ra, korporativ madaniyatning tanqidiy tahlili, undagi quyidagi qarama-qarshiliklarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

- demokratiyani e’lon qilishda avtoritar boshqaruv uslubi;
- rasmiyatchilik va norasmiylik hukmronligini e’lon qilish munosabatlari;
- byurokratiya, shaxsning guruhga yuqori qaramligi va individualizm.

Muallif, shuningdek, rus korporativ madaniyatiga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlarni ta’kidlaydi:

- hokimiyatga yo‘naltirilgan va shaxsiy aloqalarning yuqori roli;
- konforda ixtiyoriy o‘zini o‘zi cheklash;
- jamoaviy ish va umumiy javobgarlik istagi;
- xodimlarni boshqarish va tashkilotga bo‘lgan shaxsiy ishonchlari asosida rag‘batlantirish;
- boshqalar hisobidan o‘z farovonligiga erishish;
- qarorlarning shaffof emasligi;
- bir tashkilotning bo‘limlari o‘rtasida to‘siqlar mavjudligi.

Mahalliy olimlardan D. B. Begmatova ham korporativ madaniyatni korporativ boshqaruv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi komponent sifatida ta’riflagan.

Shuningdek, professor M. G. Umarxo‘jayevaning ilmiy adabiyotlarida korporativ madaniyat va tashkiliy xulq masalalari kompleks o‘rganilgan va nazariyalar real “case study”lar orqali ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shundan kelib chiqib, korporativ madaniyat korxona missiyasi, qadriyatlari, adolatli va samarador yetakchilik usullarini jamlovchi fenomen sifatida o‘rganilgan.

Korporativ madaniyatga olimlar bergan ta’riflarni umumlashtirib quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

- “U tashkilot muvaffaqiyati va farovonligi uchun ichki va tashqi to‘siqlarni bartaraf qilishni o‘rgatib, xulq-atvor normalari, artefaktlar, qadriyatlar, tasavvur va tushunchalar majmuyidir”[1];
- “Muammoni yechish tajribasini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy yaratilgan haqiqatlardir”[2]. Ushbu ta’rif korporativ madaniyatning asosida o‘zgaruvchan reallik sharoitida ijtimoiy o‘zaro ta’sir natijasida egallangan bilim olish jarayoni ekanligi takidlaydi;
- “Moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy va tashqi muhitda namoyon bo‘ladigan tashkilot individualligi, o‘zligini tan olishi va boshqalarning o‘rnini anglashdir. Buning natijasida tashkilot atrof-muhitdagi hulq atvori, hamkorligi, o‘zligini idrok etishni aniqlaydi”[3].

1 Oden H. W. Managing Corporate Culture, Innovation, and Intrapreneurship. Westport, Conn.: Quorum Books, 1997.
2 Thompson K. R., Luthans F. Organizational Culture: A Behavioral Perspective// Organizational Climate and Culture. Ed. Benjamin Schneider. San Francisco: Jossey-Bass, 1990.
3 Sadikova Muslima – “The leadership style in banking system. Ways of increasing the effectiveness of companies in corporate governance”/article- november, 2020// TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- Korporativ madaniyat ish beruvchining xohishi yoki tashkilot boshqaruvi orqali yaratiladi, tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan qoidalar to‘plami hisoblanadi. Korporativ madaniyat – demokratik hodisa, sababi bu qoidalar xodimlarning o‘zlari ishtirokida ishlab chiqilgan. Garchi qat’iy bajarilish talabi qo‘yilmagan bo‘lsa ham ongli ravishda jamoaviy rioya etiladi.
- Korporativ madaniyat qadriyatlar, normalar, artefaktlar tilida tasvirlanadi. Uning tavsifi uchun mazmunini ochib beradigan parametrlarini aniq belgilash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv, ilmiy abstraksiyalash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyat tushunchalari soha olimlari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Hozirgi kunda bu munozarali dilemma hali hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Ilmiy izlanishlar davomida ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari o‘rganilib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘ldik. Birinchi guruh olimlari tashkiliy madaniyat va korporativ madaniyat mohiyati, vazifasi, maqsadi jihatidan analog, ya’ni sinonim tushunchalar deb fikr yuritishadi. Ikkinchi guruh olimlari esa, korporativ madaniyat tashkiliy madaniyatning mukammalashgan kengroq shakli degan gipotezani ilgari surishadi.

Tashkiliy madaniyat va korporativ madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm: Korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari[4]

Kompaniya madaniyatini shakllantirish jarayoni tizimli yondashishga asoslangan bo‘lishi kerak. Birinchidan, korporativ madaniyat funksiyalarni belgilash, zarur moliyaviy, moddiy, axborot va boshqa resurslarni belgilash, mexanizmini yaratish kerak.

Korporativ madaniyatning asosiy funksiyalari bu – korporatsiya qadriyatlarini shakllantirish, to‘plash, targ‘ib qilish va asrash (axloq me’yorlari, xatti-harakatlar qoidalari, muayyan tarixiy voqealar, rituallar, hamkorlar va mijozlar bilan munosabatlar).

Rasmiy va norasmiy tadbirlarni birlashtirish, odamlarga kompaniyaning strategik faoliyatiga qanday ta’sir qilishini bilish imkonini beruvchi yangi, missiya uchun muhim xatti-harakatlar targ‘ib qilinar ekan, yangi qoidalar, ko‘rsatkichlar va tashabbuslar kabi rasmiy yondashuvlarni norasmiy o‘zaro ta’sirlar bilan birlashtirish muhim jarayon hisoblanadi(1-jadval).

4 Muallif ishlanmasi

1-jadval: Korporativ madaniyat salohiyatini ochish mexanizmlari[5]

Rasmiy	Norasmiy
-hisobotlar -qoidalar va qaror qabul qilish huquqlari -biznes jarayonlari va siyosatlari -o‘quv dasturlari, yetakchilikni rivojlantirish va tashkiliy tuzulmani takomillashtirish -ishlash samaradorligini boshqarish -ish haqi va mexnatga haq to‘lash tizimi -ichki aloqalar -kengashlar, qo‘mitalar -korporativ tadbirlar	-yuqori boshqaruvning xatti- harakatlariga misollar -boshqaruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi aloqalar -ichki va tashkilotlararo tarmoqqa ulanish -maxsus uchrashuvlar -adolatli muloqot -qiziqarli jamoalar -namunali xodimlar va rag‘batlantiruvchi boshqaruvchilarning o‘zaro hamkorligi -uskunalar va resurslar

Korporativ axborot tizimini shakllantirish, ya’ni har bir xodimning professionalligini va malakasini oshirish, o‘z texnologiyalar, mahsulotlar ishlab chiqish, korxona intellektual mulkini yaratish, tadqiqot va ilmiy-izlanishlar o‘tkazish ham rasmiy ham norasmiy axborot kanallarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Korxona ichki kommunikatsiya va aloqa tizimini shakllantirishiga (usullari va aloqa shakllari), boshqaruv tizimi va xodimlarning orasida ochiq muloqot tizimini mavjudligi, xodimlarning axloq qoidalari kodeksini ishlab chiqish kabilar kiradi. Korporatsiyaning tashqi kommunikasiyasiga esa ijtimoiy aloqalarni yaratish, hamkorlar bilan aloqalar, ijobiy va jozibador obro‘ni yaratish, korporativ usulni ishlab chiqish va ijtimoiy missiyasini amalga oshirish kiradi.

Korporativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish xodimlarni ta’lim olishga, ilmiy faoliyatga yo‘naltirilgan yangi biznes-jamiyatni shakllantirishga imkon beradi. Ko‘pchilik boshqaruvchilarning xatti-harakatlar zanjirini shakllantirish va nazorat qilish bo‘yicha tashkilotning korporativ madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak[6]:

- Xodimlarning professionalligi
- Firmaga sodiqlik(Loyalty)
- Malakali mutaxassislarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish
- O‘z o‘rnida xodimlar esa korporatizmni shunday qabul qiladilar:
- Hamkasblar bilan do‘stona munosabatlar
- Professional o‘sish imkoniyati
- Moddiy imtiyozlar va mukofotlar
- Xodimlarni lavozimga ko‘tarish, tug‘ilgan kun yoki kasb bayrami bilan tabriklash
- Muhim bir guruhga, jamiyatga tegishli bo‘lish hissi
- Kompaniyadagi rejalar va ishlarning holati haqida xodimlarning xabardorligi

Ba’zi tadqiqotchilar korporativ madaniyatning ikkita komponentini ajratib ko‘rsatishadi[7]:

1. Ideal madaniyat – ideal tasvirlar (ma’nolar, qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy yo‘nalishlar), bilim (ilmiy, amaliy) va har bir ishtirokchi ushbu madaniyatning ma’lum bir qismini yaratadi.
2. Moddiy madaniyat dunyoning subyektiv elementlari: narsalar; obyektiv faoliyat; moddiy munosabatlar; ijtimoiy tashkilotlar; atrof-muhit.

Moddiy komponentlar hal qiluvchi rol o‘ynaydigan tuyg‘u madaniyatining tashuvchilari bo‘lsa, ma’no ma’naviy qadriyatlar va moddiy narsalarni mazmun bilan to‘ldiradi, ya’ni ularning madaniy mohiyatini ochib beradi[8].

5 Harvard business Review 10 luchshых statey Korporativnaya kultura A Didjital 118s
6 Luigi Guiso, Paola Sapienza, Luigi Zingales-“The value of corporate culture”//Journal of Financial Economics//Volume 117, Issue 1, July 2015, Pages 60-76
7 Masaki Sugita, Takuya Takahashi-“Influence of Corporate Culture on Environmental Management Performance: An Empirical Study of Japanese Firms”//Corporate Social Responsibility and Enviromental Management// 24 september,2013
8 Corporate governance: Principles, Policies, and practices. – book by r. ian (Robert ian) tricker 2019. Testyn Craidd – Core Text

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ madaniyat tashkilotda ijtimoiy barqarorlik tizimini yaratadi, u o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, tashkilotni birgalikda ushlab turishga yordam beradi, kompaniyaning o‘ziga xos xulq-atvor standartlarini ta’minlaydi. Korporativ madaniyatni berilgan, mutlaq narsa deb hisoblash mumkin emas: tashkilotdagi odamlar va hodisalar o‘zgarganda u doimo o‘zgarib turadi.

Korxona iqtisodiy samaradorligining o‘sishi, xodimlarni rag‘batlantirishning ma’naviy tarkibiy qismlarini yetarli darajada moddiy rag‘batlantirish bilan birga rivojlantirish, shaxsiy munosabatlarga asoslangan shajara(ierarxiya)ning ustunligi o‘rniga xodimlarning shaxsiy salohiyati va rivojlanishiga e’tibor berish samarali korporativ madaniyatni shakllantirishning muhim omillariga aylanishi mumkin. Uzoq muddatli rivojlanish va korxona boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shulardan kelib chiqib, korxona korporativ madaniyatini baholashda quyidagi elementlarini o‘rganish tavsiya qilinadi:

- tashkilotda belgilangan qoidalar, qadriyatlar, missiya, strategiya;
- o‘rnatilgan an’analar va marosimlar;
- tashkilotning tarixi;
- tashkil etilgan boshqaruv amaliyoti;
- til muloqati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oden H. W. Managing Corporate Culture, Innovation, and Intrapreneurship. Westport, Conn.: Quorum Books, 1997.
2. Thompson K. R., Luthans F. Organizational Culture: A Behavioral Perspective// Organizational Climate and Culture. Ed. Benjamin Schneider. San Francisco: Jossey-Bass, 1990.
3. Sadikova Muslima – “The leadership style in banking system. Ways of increasing the effectiveness of companies in corporate governance”/article- november, 2020// TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR).
4. M. A. Sadikova, M. G. Umarxodjayeva, N. I. Akramova, and A. R. Yusupov – “The transformation of organizational culture to corporate culture in joint stock companies” – E3S Web of Conferences 401, 03055 (2023). CONMECHYDRO – 2023(Scopus/).
5. Harvard business Review 10 лучшых статей Корпоративная культура А Диджитал. – 118 с.
6. Luigi Guiso, Paola Sapienza, Luigi Zingales-“The value of corporate culture”//Journal of Financial Economics//Volume 117, Issue 1, July 2015, – Pages 60-76.
7. Masaki Sugita, Takuya Takahashi-“Influence of Corporate Culture on Environmental Management Performance: An Empirical Study of Japanese Firms”//Corporate Social Responsibility and Enviromental Management// 24 september, 2013.
8. Corporate governance: Principles, Policies, and practices. – book by Bob (Robert Ian). – Tricker 2019. Testyn Craidd – Core Text.

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)GA MUVOFIQ MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH USULLARI

Sabirova Zaynab Qadambayevna
Renessans ta'lim universiteti, iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan hisobotda bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar, moliyaviy hisobotni tayyorlash usullari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash boshqichlari keng yoritib berilgan va moliyaviy hisobotlarni tuzish usullari yuzasidan taklif-tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jalik yurituvchi subyektlar, BHMS (Buxgalteriya hisobining milliy standartlari), MHXS(Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari), aktiv, passiv, uzoq muddatli aktivlar, joriy majburiyatlar, jarayonlar, moliyaviy hisobot, usullar.

Abstract: In the article, the information that should be included in the report prepared in accordance with the international standards of financial reporting of economic entities, the methods of preparing financial reports, the heads of preparing financial reports, and proposals and recommendations regarding the methods of preparing financial reports are formulated.

Key words: Business entities, BHMS (National Accounting Standards), MHXS (International Financial Reporting Standards), assets, liabilities, long-term assets, current liabilities, processes, financial reporting, methods.

Аннотация: В статье представлены сведения, которые должны быть включены в отчет, подготовленный в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности хозяйствующих субъектов, методы подготовки финансовой отчетности, руководители подготовки финансовой отчетности, а также предложения и рекомендации относительно методов. подготовки финансовой отчетности сформулированы.

Ключевые слова: субъекты хозяйствования, BHMS (национальные стандарты бухгалтерского учета), MHXS (международные стандарты финансовой отчетности), активы, обязательства, долгосрочные активы, текущие обязательства, процессы, финансовая отчетность, методы.

KIRISH

Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tkazish bo'yicha tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga dalil sifatida respublikamizda qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari, Prezident Farmonlari va qarorlarini asos qilib olishimiz mumkin. Bunga sabab xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirishdan iborat. Bu esa xalqaro standartlarga mos keladigan buxgalteriya hisobi bo'yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadi bo'ldi. Hozirgi kunda bizning maqsadimiz korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlarida, tijorat aksidorlik banklarida, sug'urta tashkilotlarida va yirik soliq to'lovchi korxonalarida xalqaro stan dartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishdan iborat. Biz bunga xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tkazish orqali erishish mumkin.

Buxgalteriya hisobini MHXS asosida takomillashtirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tamiz. Moliyaviy hisobotlarni BHMSdan MHXSga o'zgartirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"ga muvofiq, "moliyaviy hisobotlar – bu korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tizimli ravishda aks ettirishdir. Moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy ahvoli, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risida ma'lumot berishdir, bu esa iqtisodiy qarorlar qabul qilganda foydalanuvchilarning keng doirasi uchun foydali bo'ladi. Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, kor-

xonani boshqarish – egalariga ishonib topshirilgan resurslarni boshqarish natijalarini ham ko‘rsatadi. Ushbu maqsadga erishish uchun korxonaning moliyaviy hisobotida quyidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak:

a) uning aktivlari haqida;

b) uning majburiyatlari haqida;

d) o‘ziga tegishli kapital haqida;

e) uning daromadlari va xarajatlari, shu jumladan, foyda va zarar to‘g‘risida;

f) egalaridan olingan omonatlar haqida, birga harakat qiladigan mulk egalariga taqsimlangan summalar to‘g‘risida;

g) uning pul oqimi haqida.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash buxgalteriya hisobining ajralmas qismi ekanligini yodda tutish kerak. Shunga ko‘ra, buxgalteriya hisobi obyektlarining ro‘yxati moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ma’lumotlarning mazmuniga mos kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, “doimiy va uzluksiz” kabi buxgalteriya hisobi xususiyatlari va moliyaviy hisobotga nisbatan qo‘llaniladigan “ma’lumotlarning foydali tomonlari” tushunchasi hisobga olinishi kerak.

ADABIYOTLAR SHARHI

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzishning o‘ziga xos jihatlarini, usullarini, bosqichlarini o‘rganish bo‘yicha magistrantlar, tadqiqotchi olimlar, o‘zlarining tadqiqotlarida, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida hamda xalqaro konferensiyada fikr va mulohazalarini bildirib o‘tganlar.

Shu jumladan, MHXS talablariga mos keladigan moliyaviy hisobot taqdim etishda nafaqat mos keluvchi standartga murojaat qilish, balki MHXS 1 da ularga havola bo‘lgan boshqa MHXS talablariga ham alohida e’tibor qaratish hamda jamiyatning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishga nisbatan ularni qo‘llash choralarini ham hisobga olish zarur. 1-bosqichda hisobotni o‘zgartirishning maqsadini ifodalab olish, o‘zgartirish jarayonlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan davrni va MHXSga o‘tish sanasini, shuningdek, jamiyatning moliyaviy hisobotini shakllantiradigan valyutani, hisobot tuziladigan tilni va o‘rganish usulini belgilash lozim[1].

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning sabablari har xil bo‘lishi mumkin, ammo bunday qarorning asosiy maqsadi muayyan imtiyozlarga ega chiqishdir. Bunday imtiyozlar orasida past foizli kreditlar olish bilan bir qatorda xorijiy fond bozoriga kirish yoki xorijiy kompaniyalar bilan import-eksport munosabatlarini rivojlantirish kabilarni eslab o‘tishimiz darkor[2].

MHXS va BHMS asosida tuziladigan hisobotning asosiy farqli jihati, “Ulushli qatnashish hisobi usuli bo‘yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi” va “Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta’sischilariga taaluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad” moddalari milliy amaloyotda mavjud emas. Bu esa hisobotning konsolidasiyasiga emas, balki oddiy hisobotni shakllantirishga olib keladi[3].

Shuningdek, xalqaro amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tuzishga emas, balki foydani belgilangan qoidalar asosida boshqarish masalasi nazarda tutilgan.

METODOLOGIYA

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish usullarini o‘rganishda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, taqqoslash usullaridan foydalangan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlashning ikkita asosiy usuli mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

a) BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni MHXS asosida transformasiya qilish;

b) Milliy hisob tizimi bilan birga MHXSga muvofiq parallel hisob tizimini yuritish.

1 Muzrapova Sh. S., Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi.//”Ta’lim fidoyilari”, elektron-ilmiy jurnali, 2022yil may, WWW. REANDPUB. COM, 225-234 b.

2 Mamatkulov A. T., Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bosqichlari va uslublari.// “Talqin va tadqiqotlar”, ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil, №18, 59-62 b.

3 Norbekov D. E., Toirova N. Sh. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba.// “Science and Education”, scientific journal/impact factor 3.848 (sjif), January 2023, Volume 4 Issue 1, 1063-1069 b.

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq tayyorlash usullarini quyidagi 1-rasmda ko‘rish mumkin:



1-rasm: Moliyaviy hisobotni MHXSga muvifiq tayyorlash usullari4

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning ikki usulini taqqoslash orqali ularning afzalliklarini va kamchiliklarini hamda qaysi usuldan foydalashish bizga qulaylik olib kelishini ko‘rishimiz mumkin.

4 Muallif tomonidan yaratilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonini uchta qismga bo‘lish mumkin:

1. Korxonaning buxgalteriya ma’lumotlarini (dastlabki hujjatlar va buxgalteriya registrlari) tahlil qilish, sinov balanslarini tayyorlash.
2. MHXSga muvofiq jami aylanma qoldiqlarini va o‘zgartirilgan buxgalteriya yozuvlarini qayta ko‘rib chiqish va buxgalteriya balansini tayyorlash.
3. MHXS talablariga muvofiq kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash.

Hisobotlarni transformasiya qilishning shakllangan bosqichlariga asoslangan holda balansni tuzish jarayoni quyidagicha bo‘ladi. Hisobot davri boshida schyotlar rejasining sintetik hisobvaraqlari bo‘yicha aylanma varaqasi asosida sinov balansi shakllantiriladi, so‘ngra tuzatishlar kiritiladi va hisobot davri boshidagi birinchi o‘zgartirilgan balans olinadi. Keyin qayta tasniflash yozuvlari to‘ldirilgandan so‘ng, hisobot davri boshidagi MHXSga muvofiq moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tuziladi. Xuddi shunday schyotlar rejasining sintetik hisoblari bo‘yicha varaqasi ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, hisobot davri oxirida tuziladi va tegishli tuzatish hamda qayta tasniflash yozuvlari kiritilgandan so‘ng, hisobot davri oxirida o‘zgartirilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga ega bo‘lamiz va keyin hisobot davri oxiridagi moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot paydo bo‘ladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, hisobotning oxirgi varianti hisobot davri boshida va oxirida tayyorlanadi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni yakuniy variantga o‘tkazish uchun hisobot moddalari guruhlanadi. Xususan, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda “Kassa”, “Joriy aktivlarning hisob-kitob varag‘i va valyuta hisobvarag‘i” kabi moddalari “Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari” moddasida guruhlanadi. “Debitorlik qarzlari” va “Boshqa debitorlik qarzlar” moddalari shubhali qarzlar bo‘yicha zaxiralar bilan kamroq ta’minlanganlikni hisobga olmaganda “Debitorlik qarzlari” moddasiga; “Hisoblangan summalar bo‘yicha xodimlarning qarzdorligi” va “Berilgan ssudalar bo‘yicha xodimlarning qarzlari” moddalari – qisqa muddatli debitorlik qarzlariga; “Qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad solig‘i va boshqalar uchun debitorlik qarzlari” – soliqlar bo‘yicha debitorlik qarzlariga; “Xom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, tugallanmagan ishlar va tayyor mahsulotlar” – “Tovar moddiy zaxiralar” moddasiga; “Inventarizasiya uchun oldindan to‘langan xarajatlar va kechiktirilgan xarajatlar”-“Oldindan to‘langan xarajatlar” moddasiga guruhlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar – binolar va inshootlar, ishlab chiqarish uskunalari, komp’yuterlar, transport vositalari, asosiy vositalar toifalari bo‘yicha tegishli amortizasiyani olib tashlagan holda – “Asosiy vositalarning sof qiymati” moddasiga kiritilgan; “Uzoq muddatli moliyaviy aktivlar”, “Sotish mumkin bo‘lgan moliyaviy aktivlar” – uzoq muddatli debitorlik qarzlarida guruhlanadi. Lisenziyalar, tovar belgilari amortizasiyani olib tashlagan holda “Nomoddiy aktivlarning sof qiymati” moddasini tashkil etadi.

Shunga ko‘ra, uzoq muddatli aktivlar uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda xulosalar ko‘rsatiladi. Masalan, uzoq muddatli aktivlarning yakuniy xulosasi bu maxsus aktivlarning sof qiymati, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va nomoddiy aktivlarning sof qiymati.

Joriy majburiyatlar – ish, xizmatlar va inventarizasiya buyumlari uchun kreditorlik qarzlari – “Kreditorlik qarzlari” moddasida guruhlangan; xaridorlardan olingan avanslar va boshqalar – “Olingan avanslar” moddasida. “To‘lanishi lozim bo‘lgan soliq” moddasida – daromad solig‘i summalari, budjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan badallar, xodimlarga hisoblangan ish haqi, ushbu moddaga qo‘shilgan foizlar – “Hisoblangan majburiyatlar” moddasida; uzoq muddatli majburiyatlar – “Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar” mmoddasida; o‘z ustav kapitali – ustav kapitaliga, qo‘shilgan kapitalga, hisobot davrining taqsimlanmagan foyda (zarar) va o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda (zarar)ga guruhlanadi. Shunga ko‘ra, joriy va uzoq muddatli majburiyatlar va kapitalning natijalari umumlashtiriladi.

Mazkur taklif etilayotgan taqqoslama ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, milliy standart qoidalarida bir vaqtning o‘zida ikkita maqsadni o‘z ichiga olmoqda (moliyaviy hisobotlarni tayyorlash usullari va uning vazifalariga). Bu esa e’tiborni ko‘proq moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llashning zaruriyati va standartlardagi ta’riflar hamda tarkibi haqida kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyati bo‘lmaydi. Agar xalqaro standart talablariga muvofiq hisobot shakllarini tayyorlashni samarali usullari ishlab chiqilsa, milliy standart qoidalarini xalqaro standartga o‘zgartirishda katta samaradorlikka erishish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tezroq amaliyotga joriy etish orqali xorijiy investorlarni zarur, sifatli va ishonchli axborotlar bilan ta’minlash va ularning ko‘lamini kengayishni ta’minlaydi. Bu esa faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro dara-

jada tan olinishi va birinchi navbatda xorijiy investorlarga tushunarli bo‘lishi bilan birga, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shularni inobatga olib, xulosa qiladigan bo‘lsak, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishni takomillashtirish, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishdagi muammolar va ularni yechish yo‘llarini muhokama qilgan holda, Respublikamizda barcha yirik tashkilotlar, shu jumladan, aksiyadorlik kompaniyalari, sug‘urta kompaniyalari, tijorat banklari, yirik soliq to‘lovchilar moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tuzib, taqdim etishlari kerak. Shuning uchun yirik tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq tuzishi yoki BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida tayyorlash zarur bo‘ladi. Bu jarayon esa uzoq jarayon bo‘lib, buxgalteriya hisobini yuritish tizimini qayta tuzish ham, buxgalteriya hisobi sohasi mutaxassisilarini qayta tayyorlash ham katta kuch talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-sonli qarori. –2020-yil 24-fevral. https://lex.uz/docs/4746047.
2. Muzrapova Sh. S., Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi.//”Ta’lim fidoyilari”, elektron-ilmiy jurnali, 2022yil may, WWW. READNPUB. COM, –225-234 b.
3. Mamatkulov A. T., Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bosqichlari va uslublari.// “Talqin va tadqiqotlar”, ilmiy-uslubiy jurnali, –2023-yil, №18, 59-62 b.
4. Norbekov D. E., Toirova N. Sh. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba.// “Science and Education”, scientific journal/impact factor 3.848 (sjif), January 2023, Volume 4 Issue 1, 1063-1069 b.
5. В. О. Бердичевская. Трансформация финансовой отчетности в МСФО//учебное пособие. Ярославль. ЯрГУ, –2017 г, 86, 91, 92.

ФОНДОВЫЕ РЫНКИ И ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ: ПУТЬ К ФИНАНСОВОМУ ОСОЗНАНИЮ

Режаббаев Сарвар Умархонович
ТГЭУ ассистент кафедры “Финансы”

Аннотация: В данной статье рассматривается важность фондовых рынков в современной экономике и их влияние на финансовую грамотность. В работе анализируются ключевые аспекты функционирования фондовых рынков, включая механизмы торговли, влияние на экономический рост и каналы передачи риска. Особое внимание уделяется вопросам финансовой грамотности, так как осведомленность инвесторов о принципах работы фондовых рынков играет важную роль в эффективном использовании инвестиционных возможностей и снижении рисков. Работа также рассматривает инициативы по повышению финансовой грамотности среди населения и их влияние на стабильность финансовых рынков. В итоге тезис выделяет важность взаимосвязи между фондовыми рынками и финансовой грамотностью для устойчивого развития экономики.

Ключевые слова: Фондовые рынки, финансовая грамотность, инвестиции, торговля, экономический рост, риск, инвесторы, стабильность рынков, эффективное использование инвестиций, инициативы по повышению финансовой грамотности.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy iqtisodiyotda fond bozorlarining ahamiyati va ularning moliyaviy savodxonlikka ta’sirini o‘rganadi. Maqolada fond bozorlari faoliyatining asosiy jihatlari, jumladan, savdo mexanizmlari, iqtisodiy o‘sishga ta’siri va risklarni uzatish kanallari tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik masalalariga alohida e’tibor qaratilib, investorlarning fond bozorlarining ishlash tamoyillaridan xabardorligi investitsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish va risklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar va ularning moliya bozorlari barqarorligiga ta’siri ham o‘rganilgan. Oxir-oqibat, mavzu barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun fond bozorlari va moliyaviy savodxonlik o‘rtasidagi munosabatlarning muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: fond bozorlari, moliyaviy savodxonlik, investitsiyalar, savdo, iqtisodiy o‘sish, risk, investorlar, bozor barqarorligi, investitsiyalardan samarali foydalanish, moliyaviy savodxonlikni oshirish tashabbuslari.

Abstract: This article explores the significance of stock markets in the contemporary economy and their impact on financial literacy. The paper analyzes key aspects of stock market functioning, including trading mechanisms, influence on economic growth, and risk transmission channels. Special attention is given to issues of financial literacy, as investor awareness of the principles governing stock markets plays a crucial role in effectively utilizing investment opportunities and mitigating risks. The study also examines initiatives aimed at enhancing financial literacy among the public and their influence on the stability of financial markets. Ultimately, the thesis underscores the importance of the interplay between stock markets and financial literacy for sustainable economic development.

Key words: stock markets, financial literacy, investments, trading, economic growth, risk, investors, market stability, effective investment utilization, initiatives for enhancing financial literacy.

Финансовая грамотность – это ключевой фактор, определяющий финансовое благополучие и независимость каждого индивида в современном мире. Как отмечал известный экономист Джон Мейнард Кейнс: “Иметь деньги – это сила, но понимать, как ими управлять – это мудрость”. Инвестиции и финансовые решения становятся все более важными в повседневной жизни, и способность разбираться в финансовых вопросах становится необходимой навыков компетенцией.

Тем не менее, многие люди по-прежнему сталкиваются с недостатком финансовой грамотности. В этом контексте становится очевидным, что фондовые рынки могут играть роль не только как средство инвестиций и заработка, но и как образовательный ресурс, способствующий повышению уровня финансовой грамотности населения. Известный экономист Уоррен Баффет сформулировал это важное влияние следующим образом: “Лучший способ улучшить ваше финансовое положение – это учиться. Чем больше вы узнаете о финансах, тем легче вам будет принимать финансовые решения, которые поддерживают ваши цели и амбиции.”

Статистика показывает, что уровень участия населения на фондовых рынках может варьироваться от страны к стране. Например, в развитых экономиках, таких как США и Европа, более 50% населения имеют инвестиции на фондовых рынках, тогда как в развивающихся странах этот уровень ниже. Исследования в области финансовой грамотности и её взаимосвязи с участием в фондовых рынках привлекают все больше внимания экономистов, финансистов и исследователей. Этот интерес подкрепляется работами таких авторитетных исследователей, как Ричард Тэйлор, который отметил: “Финансовая грамотность – это ключ к личной свободе и независимости.”

Изучение различные аспекты влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения, опираясь на работы выдающихся экономистов и исследователей подчеркивают актуальность и важность данной темы для дальнейших исследований и развития стратегий финансового образования, что делает её наиболее значимой для современного общества.

В исследование Анна Мария Луиса БонИнгелла и Карло Маккарелли в статье “The Impact of Stock Market Participation on Individuals’ Financial Literacy” (Влияние участия на фондовых рынках на финансовую грамотность индивидов) анализирует взаимосвязь между участием в фондовых рынках и финансовой грамотностью [1]. Авторы находят положительную связь между уровнем участия на фондовых рынках и знанием финансовых концепций, что подчеркивает роль рынков в обучении финансовой грамотности. Исследования показывали, что люди с высшим образованием чаще инвестируют на фондовых рынках. Например, в США более 60% людей с высшим образованием имеют инвестиции на рынках, в то время как уровень участия среди людей с низшим образованием может быть значительно ниже. Другой не менее известные экономисты Роберт Ф. Строкер и Кэрол Робертс в своей статье “The Effects of Participating in the Stock Market on Household Decision Making” (Эффекты участия на фондовых рынках на семейное финансовое принятие решений) исследует, как участие в фондовых рынках может влиять на финансовое решений в семьях [2]. Авторы обнаружили, что инвесторы, участвующие на рынке, чаще склонны к более осознанным финансовым решениям и лучшей финансовой грамотности. Янн Корканен и Люкас Поркка в своей исследование рассматривает ситуацию в Финляндии и анализирует, как участие в фондовых рынках влияет на финансовую грамотность. Авторы выявили, что инвесторы, занимающиеся активным инвестированием, обычно имеют более высокий уровень финансовой грамотности. Эти исследования сосредотачивается на роли образования в формировании финансовой грамотности и его влиянии на принятие финансовых решений [3]. Авторы показывает, как образовательные программы могут повысить финансовую грамотность и способствовать более осознанным финансовым решениям, включая инвестирование на фондовых рынках. В том числе подчеркивают важность темы влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения и предоставляют ценные доказательства о том, как участие на рынках и образование могут содействовать повышению финансовой грамотности среди населения.

Фондовые рынки могут оказывать разнообразное влияние на финансовую грамотность населения через различные ключевые аспекты. Ниже перечислим некоторые из них:

1. Образование и информированность: Фондовые рынки могут стимулировать интерес к финансовой грамотности, поскольку инвесторы должны оценивать и анализировать акции и другие финансовые инструменты. Это может способствовать образованию и повышению финансовой грамотности, так как люди становятся более информированными о финансовых концепциях и рыночных трендах.
2. Риск и управление им: Участие в фондовых рынках предполагает риск потери инвестиций. Этот аспект может подтолкнуть людей к изучению методов управления рисками и разработке стратегий инвестирования. Понимание риска и умение его управлять важны для финансовой грамотности.
3. Инвестиционные возможности: Фондовые рынки предоставляют широкий спектр инвестиционных возможностей, включая акции, облигации, фонды и другие активы. Участие в этих рынках может помочь людям понять разнообразие инвестиционных инструментов и выбирать наиболее подходящие для своих целей.
4. Финансовая ответственность: Инвестиции на фондовых рынках могут способствовать развитию финансовой дисциплины и ответственности. Люди, инвестирующие на рынках, обычно должны следить за своими портфелями, бюджетами и финансовыми целями, что способствует более ответственному подходу к финансам.
5. Долгосрочное инвестирование: Один из ключевых аспектов фондовых рынков – это их потенциал для долгосрочного инвестирования. Участие в долгосрочных инвестициях на рынках может способствовать формированию финансовой грамотности, поскольку люди учатся планировать на будущее и управлять своими финансами на долгосрочной основе.

6. Доступ к информации: Современные технологии и интернет предоставляют доступ к обширным источникам информации о финансах и фондовых рынках. Этот доступ позволяет людям осваивать новые знания о финансовых инструментах и методах инвестирования.
7. Социальное влияние: Успех или неудача на фондовых рынках может оказывать социальное воздействие, включая обсуждения с друзьями и семьей, что в свою очередь мотивирует людей изучать финансовые вопросы и стремиться к финансовой грамотности, чтобы принимать более обоснованные инвестиционные решения. Эти ключевые аспекты фондовых рынков подчеркивают их потенциальное влияние на финансовую грамотность населения, делая эту тему интересной для исследования и обсуждения [4].

Исследование влияния фондовых рынков на финансовую грамотность населения подчеркивает важность фондовых рынков для современного общества. Представленные статистические исследования и анализы говорят о нескольких ключевых точках:

- они подтверждают, что уровень образования и финансовых знаний играют важную роль в участии населения на фондовых рынках. Люди с более высоким образованием и лучшим пониманием финансовых концепций чаще инвестируют и делают более информированные инвестиционные решения.
- данные указывают на различия в участии на фондовых рынках между развитыми и развивающимися экономиками. В развитых странах, как правило, больше людей имеют инвестиции на рынках, чем в странах с менее развитой финансовой инфраструктурой [5].

В настоящее время актуальные исследования и данные подтверждают, как фондовые рынки влияют на финансовую грамотность населения и какие меры могут быть приняты для улучшения финансового образования и уровня финансовой грамотности в будущем. Данные исследования служат основой для разработки эффективных стратегий и программ по повышению финансовой грамотности и участию населения на фондовых рынках, что, в свою очередь, может способствовать более стабильной и процветающей финансовой будущему.

Литература:

1. Анна Мария Луиса БонИнгелла и Карло Маккарелли – The Impact of Stock Market Participation on Individuals' Financial Literacy, 2018 год.
2. Роберт Ф. Строкер и Кэрол Робертс – The Effects of Participating in the Stock Market on Household Decision Making, 1999 год.
3. Янн Корканен и Люкас Поркка – Stock Market Participation and Financial Literacy: Evidence from Finland, 2020 год.
4. Режаббаев С. У. – Methodology for making investment decisions in the securities market // "International Journal of Scientific & Engineering Research", Volume 12, Issue 3, March-2021, Delhi. India. ISSN 2229-5518. – С. 62-70.
5. Режаббаев С. У. – Methodological approaches to the development of the securities market // "Актуальные Научные Исследования В Современном Мире" журнал Iscience, Выпуск 9, часть 3, сентябрь 2020 г., г.Переяслав. Украина. ISSN 2524-0986.–С. 13-19.

TURISTIK KORXONALARDA YASHIL INNOVATSION MAHSULOTLAR ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
SamISI, Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Yashil innovatsiyalar turizm sohasi va ularning mahsulotlari barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular uglerod chiqindilariga, global yashil savdoga ta'sir qiluvchi tarmoqlarning energiya samaradorligiga va energiya siyosatiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish juda muhim, chunki turistik korxonalarning yashil innovatsion strategiyalarini qanday qilib yaxshiroq boshqarishni aniqlash bugungi kunda barqaror ishlash afzalliklariga erishish va saqlab qolishga umid qilayotgan korxonalar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada nafaqat yashil innovatsion mahsulot orqali moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki samarali boshqarish uchun foydali nazariy natijalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy samaradorlik, yashil innovatsiya, yashil mahsulot innovatsiyasi, yashil jarayon innovatsiyasi, yashil xizmat innovatsiyasi.

Abstract: Green innovation is important in increasing the sustainability of the tourism industry and its products. They can influence carbon emissions, the energy efficiency of industries affecting global green trade, and energy policy. Bridging this gap is critical, as determining how best to manage tourism businesses' green innovation strategies is becoming increasingly important for businesses today hoping to achiyeve and maintain sustainable performance advantages. This paper presents useful theoretical results not only for increasing financial performance through green innovation products, but also for effective management.

Key words: financial efficiency, green innovation, green product innovation, green process innovation, green service innovation.

Аннотация: Зеленые инновации важны для повышения устойчивости туристической индустрии и ее продуктов. Они могут влиять на выбросы углекислого газа, энергоэффективность отраслей, влияющих на глобальную зеленую торговлю, и энергетическую политику. Устранение этого разрыва имеет решающее значение, поскольку определение того, как лучше всего управлять стратегиями зеленых инноваций туристического бизнеса, становится все более важным для бизнеса сегодня, надеющегося достичь и поддерживать устойчивые преимущества в производительности. В данной статье представлены полезные теоретические результаты не только для повышения финансовых показателей за счет зеленых инновационных продуктов, но и для эффективного управления.

Ключевые слова: финансовая эффективность, зеленые инновации, зеленый инновационный продукт, зеленый инновационный процесс, зеленый инновационный услуг.

KIRISH

Barqaror rivojlanish yigirma birinchi asrning muhim mavzusi bo'lib, yashil innovatsiyalar barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Barqaror rivojlanish va yashil atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini doimiy ravishda ommalashtirish bilan yashil innovatsiyalar turistik korxonalar rivojlanishining muhim yo'nalishiga aylandi. Yashil innovatsiyalar samaradorligi korxonalarning tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish bilan birga atrof-muhitga zarari, ta'siri va yomonlashuvini kamaytiradigan innovatsiyalarni ishlab chiqish darajasini o'lchaydi. Strategiya sifatida yashil innovatsiya ekotizimni saqlab qolgan holda mijozlarning talablarini qondirish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Butun dunyo bo'ylab mijozlar tobora ko'proq ekologik toza yoki yashil mahsulotlar va xizmatlarni sotib olishga intilmoqda. "Yashil" yorliq korxonalar uchun uzluksiz innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi bozor imkoniyatlarini yaratish va yangi iste'molchilar talablarini qondirish, shu bilan mijozlar kapitalini yaratish va oshirish uchun haqiqiy rag'batni taklif qiladi.

Yashil innovatsiyalar samaradorligining ta'sir mexanizmi va evolyutsiya qonunini tushunish mintaqa iqtisodiyotining yuqori sifatli o'sishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Yashil innovatsiyalar samaradorligi mintaqadagi yashil rivojlanish miqdorini o'lchash uchun muhim ko'rsatkichdir. Yashil innovatsiyalar samarador-

ligini o‘rganish hozirda ikkita yo‘nalishga qaratilgan: o‘lchash usullari va ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish. Bir tomondan, yashil innovatsiyalar samaradorligini o‘lchashning ikkita asosiy yondashuvi mavjud: ma’lumotlarni to‘plash tahlili yondashuvi va stokastik chegara yondashuvi [1].

Boshqa tomondan, olimlar atrof-muhitni tartibga solish, tezyurar temiryo‘l qurilishi, Internet va texnologik innovatsiyalar yashil innovatsiyalar samaradorligiga qanday ta’sir qilishini o‘rganib chiqdilar. Misol uchun, “Porter gipotezasi” atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari dastlab korxonalar uchun xarajatlarni oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi, lekin oxir-oqibat xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi, natijada raqobatdosh ustunlik va yashil innovatsiyalar salohiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘pgina mualliflar raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish va korporativ samaradorlikka erishishda yashil innovatsion mahsulotlar muhimligini tan oladilar. Adabiyotlarda yashil innovatsion mahsulot haqida ko‘plab ta’riflar mavjud.

Ariffin va boshqalar ta’rifiga e’tibor qaratsak, tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirishga mo‘ljallangan va qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan mahsulotga ishora qiladi [2]. Topilgan yana bir ta’rif uni energiya va resurslarni tejash hamda ifloslanish va chiqindilarni kamaytirish orqali tabiiy muhitni muhofaza qilish yoki undan foyda olishga qaratilgan qarorlar va harakatlar bilan bog‘liq mahsulot sifatida ko‘rsatadi [3]. Ko‘rinib turibdiki, ikkita ta’rif juda o‘xshash, chunki atrof-muhitni muhofaza qilish yashil mahsulotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Demak, yashil innovatsion mahsulot (YIM) va xizmatlar ishlab chiqarishning har bir bosqichida atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyotlarini birlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida yuzaga kelgan mahsulotdir.

Yana bir olim Chang [4] atrof-muhit omillari (masalan, materiallardan foydalanish, energiya iste’moli, atrof-muhitga ta’sir) yashil innovatsiya jarayonida sotuvchilar tomonidan qanday ko‘rib chiqilishini tushuntiradi, chunki mahsulotlar o‘zgartiriladi va ma’lum sifat bilan yaratiladi, shuning uchun YIMning hayot aylanishi davomida atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishi mumkin.

Kam-Sing Vong [5] o‘z modelida yangi yashil mahsulot muvaffaqiyatini o‘zgaruvchi sifatida qabul qiladi va uni uch o‘lchovdan o‘lchaydi. Birinchidan, mahsulot yashil mahsulot sifatida malakaga ega bo‘lishi uchun uning atrof-muhit talablariga qanchalik mos kelishi. Ikkinchidan, uning moliyaviy ko‘rsatkichlari va uchinchidan, mahsulot muvaffaqiyatining umumiy idroki.

Mualliflarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, yashil jarayon innovatsiyasi va yangi yashil mahsulot muvaffaqiyati, shuningdek, yashil mahsulot innovatsiyasi va yangi yashil mahsulot muvaffaqiyati o‘rtasida muhim bog‘liqlik bor.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil innovatsiyalar yashil innovatsion mahsulot (YIM) ishlab chiqarish uchun juda muhimdir. Yashil innovatsiyalar sanoatdagi ierarxik tuzilmani ko‘rsatadi, bunda natijalar mahsulot innovatsiyasi va jarayonlari muhim va qiziqarli hodisa ekanligini ko‘rsatadi va kompaniyalarga iste’molchilarning xohish-istaklaridagi o‘zgarishlarni yaxshiroq kutish imkonini beradi. yashil mahsulot innovatsion tashabbuslarini iste’molchi qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish, shu tariqa bozor talabidan kelib chiqqan holda tezkor innovatsiyalar bilan shug‘ullanadigan tarmoqlarga raqobatdosh ustunlikka erishish imkonini beradi [6].

Kompaniyalar YIMni an’anaviy mahsulotlardan farqlash uchun YIMning atrof-muhit bilan bog‘liq mijozlarining afzalliklari va qabul qilingan mahsulot qiymatlarini taklif qilishlari va yetkazishlari mumkin. Chan va boshqalar [7] tushuntirganidek, iste’molchilar YIMni iste’mol qilish an’anaviy mahsulotga nisbatan afzalliklarga ega ekanligini bilishlari kerak; an’anaviy ravishda mahsulot samaradorligi va atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha qo‘llaniladigan baholashda iste’mol natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot hisobga olinmaydi, natijada atrof-muhit ko‘rsatkichlari yomonlashadi, lekin YIM iste’moli bilan atrof-muhit ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, shuningdek, xarajatlar kamayadi.

Yashil innovatsiya ishlari odatda ikki turga bo‘linadi. Birinchisi yashil innovatsiyani korxonaning qobiliyatlari sifatida tavsiflaydi [8], ikkinchisi esa yashil innovatsiyani tashkilotning ekologik amaliyoti sifatida belgilaydi. Tashkiliy amaliyotlar haqida gap ketganda, yashil innovatsiya “yashil mahsulotlar yoki jarayonlar bilan bog‘liq apparat yoki dasturiy ta’minot innovatsiyasi” sifatida tavsiflanadi; yashil innovatsiya atrof-muhit va tashkiliy samaradorlikni kengaytiradigan va firmalarga raqobatdosh ustunlikni ta’minlaydigan boshqaruv amaliyotlari va texnologik yutuqlarni o‘z ichiga oladi. Boshqa tadqiqotchilar yashil innovatsiya noyob yoki o‘zgartirilgan tizimlar, jarayonlar, mahsulotlar va amaliyotlardan iborat bo‘lishini tavsiya qiladilar, ular atrof-muhitga ustunlik beradi va firmalarning barqarorligini subsidiyalaydi [9].

Xususan, yashil innovatsiyalarni uch qismga bo‘lish mumkin: yashil mahsulot innovatsiyasi, yashil jarayon innovatsiyasi va yashil xizmat innovatsiyasi.

Yashil mahsulot innovatsiyasi mahsulotning ishlash muddati oxirida ishlab chiqarish, foydalanish va yo‘q

qilish paytida atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun mahsulot dizaynidagi innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. U ishlab chiqarish jarayonida moddiy chiqindilar va energiyani kamaytirish uchun ekologik toza materiallardan foydalanish va qayta ishlashga qaratilgan. An'anaviy mahsulot innovatsiyasi bilan taqqoslaganda, yashil mahsulot innovatsiyasi – bu iste'molchilar salomatligi va xavfsizligiga xavf tug'dirmaslik uchun xom ashyo va energiyaning haddan tashqari iste'molini kamaytirish orqali atrof-muhit o'zgarishlari va mijozlar talablarini qondirish uchun kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiya. Ushbu innovatsiya atrof-muhit muammolariga e'tibor qaratadi, korporativ ekologik mas'uliyatni ta'kidlaydi va mahsulotlardan foydalanish va yo'q qilishga, shu jumladan, energiyani tejash, ifloslanishning oldini olish, chiqindilarni qayta ishlash, toksiklikni kamaytirish va atrof-muhit dizayniga ahamiyat beradi. Yashil mahsulot innovatsiyasi iste'molchilarning atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojlarini qondiradi, firmalarga yangi bozorlarni rivojlantirishga yordam beradi, boshqa firmalar uchun mahsulotlarni nusxalashni qiyinlashtiradi va mahsulot raqobatbardoshligini saqlaydi. Muvaffaqiyatli yashil mahsulot innovatsiyasi nafaqat resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi, balki firmalarga raqobatdosh ustunlikka erishish imkonini beradi.

Yashil jarayon innovatsiyasi hukumatlar, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va ijtimoiy guruhlar tomonidan keng tan olingan. Yashil innovatsiyaning eng asosiy elementlaridan biri va yashil mahsulot innovatsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq talab, yashil jarayon innovatsiyasi atrof-muhit yukini minimallashtirish uchun ilg'or yashil jarayon, yashil ishlab chiqarish uskunalari va yashil qayta ishlash usullarini joriy etish kabi yondashuvlardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonining innovatsiyasini ta'kidlaydi. An'anaviy innovatsiyalar bilan taqqoslaganda, yashil jarayon innovatsiyalari atrof-muhit ifloslanishini va energiya va xom ashyo iste'molini kamaytirish uchun atrof-muhit sifatini yaxshilashda o'zgarmas rol o'ynaydi. Ushbu innovatsiya manfaatdor tomonlarning ekologik ehtiyojlarini mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarni atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarish dizayniga kiritadi.

Yashil xizmat innovatsiyasi yashil ixtiro, ekologik xizmatlar portfeli, atrof-muhitga xizmat ko'rsatish va atrof-muhitni muhofaza qilish xizmatlarini loyihalash kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Boshqa xizmat innovatsiyalaridan farqli ravishda yashil xizmat innovatsiyasi ekologik ijtimoiy mas'uliyat va mijozlar tajribasiga qaratilgan. Bu raqobatchilar birinchi navbatda kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning atrof-muhitga ta'sirini hisobga olgan holda osongina takrorlanmaydigan noyob xizmatdir. Yashil xizmat innovatsiyasi jarayonida kompaniya yangi mahsulot va xizmatlarni atrof-muhitga e'tibor qaratgan holda qayta paketlaydi, ekologik toza savdo amaliyotlari va sotishdan keyingi xizmatlarni va'da qiladi va kompaniyalarga barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda faol yordam beradi. Kompaniyalar yashil xizmatlar, yashil dizayn va toza ishlab chiqarish kabi yashil xizmat innovatsion faoliyatini targ'ib qilish orqali ustunlikka erishadilar. Ular, shuningdek, yashil xizmat innovatsiyasi orqali raqobatchilarga kirish to'siqlarini oshirishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, yashil mahsulot innovatsiyasi, yashil jarayon innovatsiyasi va yashil xizmat innovatsiyasi kelajakdagi rivojlanishning muqarrar tendensiyalari hisoblanadi. Ular korxonalarga ko'p foyda keltirishi mumkin, ammo qiyinchiliklar va imkoniyatlar birgalikda mavjud. Korxonalar yashil innovatsiyalarni amalga oshirish uchun katta resurslar va uskunalar va chiqindilarni qayta ishlash uchun ma'lum miqdorda mablag' sarflashlari kerak. Yashil mahsulotlarni ishlab chiqarish qiymati shunga o'xshash yashil bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaraganda ancha yuqori, foyda maydoni sezilarli darajada kamayadi va mahsulot narxining raqobatbardoshligi yuqori emas, bularning barchasi firmaning bozor faoliyatini yaxshilashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va qiyinchilik tug'diradi [10].

Yashil innovatsiyalarning korxona faoliyatiga ta'siri bo'yicha oldingi tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, fanda yashil innovatsiya strategiyasi korxona faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinmi yoki yo'qligi haqida turlicha qarashlar mavjud.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi tobora kuchayib borayotgan qarama-qarshilik bilan, tobora ko'proq korxonalar yashil innovatsiyalar orqali qiyinchiliklarni yengib o'tishga va o'z faoliyatini yaxshilashga umid qilmoqda. Shu munosabat bilan, biz yashil innovatsiyalarning o'ziga xos turlarini chegaralash va eng muhimi, yashil innovatsiyalarning o'ziga xos turlari korxona faoliyatiga qanday hissa qo'shishini aniqlash va o'rganish orqali muhim yashil innovatsiyalar haqidagi tushunchamizga qo'shilish dolzarbligini tan olamiz.

So'nggi o'n yilliklarda atrof-muhit muammolari, qat'iy qoidalar, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalarning tarqalishi va iste'molchilarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatining kuchayishi korxonalarni atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan strategiya va siyosatlarni ishlab chiqishga olib keldi. Yashil innovatsiyalar samaradorligi korxonalarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'z majburiyatlariga qanchalik rioya qilishlarini baholash uchun atrof-muhitni boshqarish va barqaror amaliyotlar nuqtayi nazaridan o'lchaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish tartib-qoidalarini amalga oshirish uchun korxonalar samaradorlikni oshirishga qaratilgan yangi jarayonlar, mahsulotlar, texnologiyalar va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqadilar.

Biz Chen va boshqalarning yashil innovatsiya ta'rifini "Yashil mahsulotlar yoki jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan apparat yoki dasturiy ta'minot innovatsiyasi, shu jumladan, energiyani tejash, ifloslanishning oldini olish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil mahsulotlar dizayni yoki korporativ atrof-muhitni boshqarish bilan bog'liq texnologiyalardagi innovatsiyalar" deb qabul qilamiz.

O'zgartirish konseptuallashtirilgan yashil innovatsiyani kompaniyaga korporativ imidjini yaxshilash, yangi

bozorlarni rivojlantirish va manfaatdor tomonlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha so‘rovlarini qondirish bilan birga raqobatdosh ustunligini kengaytirish imkonini beradigan innovatsiyaning alohida turi sifatida. Xuddi shunday, Leenders va Chandra yashil innovatsiyalar ifloslanishning oldini olish, qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash, energiyani tejash va ekologik jihatdan samarali dizayn uchun texnologik rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan mahsulot yoki jarayon innovatsiyalarini o‘z ichiga olishini tasdiqlaydi. Bunday innovatsiyalar korporativ strategiya, mahsulotni loyihalash usullari, ishlab chiqarish jarayonlari, resurslardan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tartib-qoidalarida sezilarli o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan holda tashkilotlarning ekologik izini kamaytiradi. Biz korxonalarning yashil innovatsion harakatlari natijalarini qo‘lga kiritish uchun yashil innovatsiyalar samaradorligiga e’tibor qaratamiz.

Innovatsiya mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlar haqida yangi yoki yangi g‘oyalarni ixtiro qilish va qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ko‘plab korxonalar ekologik muammolarning ortib borayotgan ahamiyatini hal qiluvchi faol strategiyalarni qabul qilishga majbur. Korxonalar muvaffaqiyatli yashil innovatsion jarayonlar va mahsulotlarni yaratish uchun tashqi va ichki g‘oyalardan foydalanishlari kerak. Shunga ko‘ra, ko‘plab yashil innovatsiyalarning boshlang‘ich nuqtasi sherikning g‘oyalari va takliflari bo‘lishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, yashil innovatsiya yoki eko-innovatsiya, ushbu loyihaning maqsadlari uchun atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga olib keladigan yoki tegishli faoliyatning butun hayoti davomida resurslardan foydalanishni optimallashtiradigan innovatsiya sifatida aniqlanadi. Bundan tashqari, yashil innovatsiya innovatsiyalarning an’anaviy shakllariga qaraganda ko‘proq tubdan yaxshilanishlarni izlash qobiliyatiga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Turizm va asosan xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan boshqa tarmoqlar uchun eng muhimi, atrof-muhit samaradorligini oshirish uchun innovatsiyalar nafaqat yangi texnologiyalar bilan bog‘liq. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda texnologik bo‘lmagan innovatsiyalar tobora muhim rol o‘ynaydi. Masalan, atrof-muhitni boshqarish tizimlari va yangi biznes modellarini joriy etish, marketing va tashkiliy usullardagi o‘zgarishlar, shuningdek, ijtimoiy va institutsional tuzilmalardagi innovatsiyalar. Hukumatlar bunday innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashlari kerak va bunda ularning asosiy siyosati bunday innovatsiyalarga yetarli darajada yordam beradimi yoki yo‘qligini o‘ylab ko‘rishlari kerak.

Ikki bosqichli nuqtayi nazardan, turizm sanoatining yashil innovatsion jarayonini yashil ilmiy-tadqiqot jarayoni va yashil yutuqlarni konvertatsiya qilish jarayoniga bo‘lish mumkin. Yashil konsepsiyaga ko‘ra, turizmning yashil ilmiy-tadqiqot ishlari turizmning ilmiy-tadqiqot xodimlari va xarajatlarini investitsiyalash orqali tadqiqot, ekspluatatsiya va sinov davri orqali turizm patentlari va boshqa ilmiy va texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini anglatadi. Turizmning yashil yutug‘ini konvertatsiya qilishning maqsadlari turizm patentlari kabi ilmiy va texnologik yutuqlarni iqtisodiy va ekologik manfaatlarga aylantirish, ya’ni boshqaruv innovatsiyasi, texnologik sanoatlashtirish, ishlab chiqarish va marketing kabi bir qator jarayonlar orqali yashil rivojlanishni amalga oshirishdir, turizmda ekologik toza va resurslardan barqaror foydalanish. Ikki bosqichli istiqbolda turizm sanoatining yashil innovatsion jarayoni 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rasm: Ikki bosqichli istiqbolda turizm sanoatining yashil innovatsion jarayoni sxemasi[1]

1-rasmda tahlil qilingan va turizm sanoatining xususiyatlari bilan birgalikda yashil ilmiy-tadqiqot va turizmning yashil yutuq konvertatsiyasining ikki bosqichining xususiyatlariga ko‘ra, ushbu tadqiqot uchta jihatdan kirish-chiqish ko‘rsatkichlarini tanladi: bu yerda turizm sanoatining yashil ilmiy-tadqiqot va yutuqlarini konvertatsiya qilish samaradorligini o‘lchash uchun innovatsiyalar kiritish, ilmiy va texnologik mahsulotlar va iqtisodiy va ekologik mahsulotlar. Maxsus indikatorni tanlash jarayoni quyidagicha edi:

Innovatsiya kiritishda korxona xodimlari va xarajatlari innovatsion investitsiyalarni o‘lchashning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shunga ko‘ra, turizm sohasidagi ilmiy-tadqiqot xodimlarining to‘liq vaqtli ekvivalenti inson kiritish ko‘rsatkichi sifatida tanlangan. Turizmning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlari moliyaviy indikator sifatida tanlandi (Ilmiy-tadqiqot xarajatlari kumulativ ta’sir ko‘rsatadi va turistik ilmiy-tadqiqot xarajatlarini birja ko‘rsatkichiga normallashtirish uchun barqaror inventarizatsiya usuli qabul qilindi). Bundan tashqari, turizm ko‘p mehnat talab qiladigan soha bo‘lganligi sababli, yashil innovatsiyalar xodimlarning yuqori sifatini talab qiladi, shuning uchun moddiy resurslarni kiritish (masalan, xodimlar uchun o‘quv platformalari) ham hisobga olinishi kerak. Turizmning yashil innovatsion faoliyatining moddiy kirish ko‘rsatkichi sifatida turizm ta’lim yo‘nalishi mavjud OTMlar sonini tanlash mumkin.

Ilmiy va texnologik mahsulot. Patent grantlari va patent talabnomalari soni odatda bosqichning ilmiy va texnologik natijalarini o‘lchash uchun ishlatiladi. Ba’zi patentlar, hatto pirovard natijada ruxsat berilmagan bo‘lsa ham, ma’lum iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi va innovatsion faoliyatning ijtimoiy muhitini ifodalashi mumkinligi sababli, bu yerda ilmiy-texnikaviy mahsulot ko‘rsatkichi sifatida turizm patentiga arizalar soni tanlangan.

Iqtisodiy va ekologik mahsulot. Turizm sanoatining umumiy daromadi turizmdan olingan iqtisodiy mahsulotni aks ettirishi mumkin va shuning uchun bu yerda turizmning yashil innovatsion faoliyatining iqtisodiy mahsulot ko‘rsatkichi sifatida tanlangan. Turizmni rivojlantirishning atrof-muhitga bosimini har tomonlama o‘lchash uchun entropiya usuli o‘zaro bog‘liq chiqindi suvlar, oltingugurt dioksidi, tutun (chang) va karbonat angidrid chiqindilarini atrof-muhit ishlab chiqarish ko‘rsatkichi sifatida birlashtirish uchun ishlatilgan.

Yashil innovatsiyalar samaradorligi tashkilotlarning tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirishda atrof-muhitga yetkazilgan zararni, ta’sirini va yomonlashuvini kamaytiradigan yoki kamaytiradigan innovatsiyalarni ishlab chiqish darajasini o‘lchaydi.

Keng qamrovli adabiyotlarni ko‘rib chiqishga asoslanib, innovatsion yashil mahsulotlarni iste’mol qilish va xarid qilish yoki takroriy xarid qilishda iste’molchilarning xatti-harakatlarining keng qamrovli to‘plamini taqdim etadi. Bu kabi ishtirokchilar o‘rtasida konsensusning asosi sifatida qaraladi; hukumat, sanoat va jismoniy shaxslar xarid qilish yoki takroriy xaridlarni amalga oshirishda iste’molchilarning xatti-harakatlari haqida innovatsion mahsulotlar yaratishda. Shu sababli, iste’molchi muhitining qoniqishi va munosabati sotib olish xatti-harakatlarini shakllantirishda bebaho manba hisoblanadi. Bundan tashqari, iste’molchilarning qoniqishini baholash va atrof-muhitga bo‘lgan munosabat innovatsion yashil mahsulotlarning xatti-harakatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelinadi. Aftidan, iste’molchilarning ekologik xatti-harakatlari qoniqish va sotib olish yoki takroriy xaridlar o‘rtasida vositachi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA

Mamlakatimizda turizm biznesining atrof-muhit sohasidagi nisbatan past innovatsion faolligi turizm xizmatlari bozorida ustun ulushni tashkil etuvchi kichik biznes subyektlari orasida bunday faoliyat uchun obyektiv shart-sharoitlarning yo‘qligi bilan izohlanadi va innovatsion rivojlanishni davlat va xususiy institutlar tomonidan zaif qo‘llab-quvvatlash, bu “yashil” innovatsiyalarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yo‘llarini izlash muammosini dolzarblashtiradi. Ushbu muammoni hal qilish mexanizmning alohida bloklari mazmuni, ularning ichki tuzilishi va qurilish mantig‘i bo‘yicha keyingi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Ularning samarali ishlashi uchun omillar va shart-sharoitlarni, shuningdek, maqsadlarga erishishni ta’minlash uchun bloklar va ularga kiritilgan vositalarning o‘zaro ta’siri algoritmini aniqlash muhimdir.

Ekologik innovatsiyalar kontseptsiyasi shakllanish jarayonida ekotizimlarning yangi chaqiriqlari ta’sirida ham ekoinnovatsiya tushunchasi ham rivojlanmoqda. Jamiyatning ekologik ehtiyojlarini mos ravishda o‘zgartirish va bilimlarni chuqurlashtirish natijasida barqarorlik nazariyasi va boshqa bir-birini to‘ldiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalarni ishlab chiqish, bu esa innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini adekvat o‘zgartirishni talab qiladi.

Turli mamlakatlarda turizm sanoati subyektlarining amaliy ekoinnovatsion faoliyati bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda kichik va o‘rta korxonalar uchun muhim rag‘batlantiruvchi omil tadbirkorlarning turmush tarzi va ichki e’tiqodlari hisoblanadi. Biznes menejerlari o‘z navbatida,

1 Muallif ishlanmasi

ekologik ta'lim va o'qitish tizimi, iqtisodiy tizimning ekologik o'zgarishining milliy rasmiy va norasmiy institutlarining rivojlanish darajasi bilan shakllanadi. Davlatning turizm tizimidagi tartibga solish ta'siri unchalik ahamiyatli emas, chunki sanoat sektoridan farqli o'laroq, ular qat'iy emas. Bunday sharoitda davlat faoliyatining samaradorligi uning o'z boshqaruvini, shu jumladan, rag'batlantirish funksiyalarini amalga oshirishda ekologik maqsadlarning ustuvorligini ta'minlash qobiliyati bilan belgilanadi.

Turizmda innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni odatda tizimdagi maqsadli o'zgarishlarni qo'llash orqali sodir bo'ladi. Bu o'z navbatida, bitta yangilikni joriy etish natijasida butun tizimda ko'plab innovatsion o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

O'sish va qonunchilik bazasini shakllantirish, uni yaratish va davlat bozorini rag'batlantirish usullarini ishlab chiqish, mavjud mahsulotlarni tadqiq qilish va joriy etish uchun zaxiralar yashil transformatsiyada muvaffaqiyatga erishish uchun xalqaro ilmiy va texnologik almashinuvni yo'lga qo'yish zarur. Tadqiqot natijalariga asoslangan amaliy natija sifatida shuni ta'kidlash kerakki, aralash strategiya "yashil" sektor uchun eng maqbuldir, chunki u sanoatga innovatsion "yashil" ishlanmalarni rivojlantirishni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Davlatimizning "yashil" investitsiya faolligi indeksini yaratish uni baholash uchun "yashil" vositalarning yetishmasligi muammosini hal qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Song, W. & Han, X. The bilateral effects of foreign direct investment on green innovation efficiency: Evidence from 30 Chinese provinces. –Energy 261, 125332 (2022).
2. Ariffin S., Yusof J. M., Putit L., & Shah M. I. A. (2016). Factors Influencing Perceived Quality and Repurchase Intention Towards Green Products. Economics and Finance, 37(16), 391–396.
3. Danjelico R. M., & Pujari D. (2010). Mainstreaming green product innovation: why and how companies integrate environmental sustainability. Journal of Business Ethics, 95, 471-486.
4. Chang, C. -H. (2011). The Influence of Corporate Environmental Ethics on Competitive Advantage: The Mediation role of Green Innovation; Springer Science & Business Media B. V.: Berlin, Germany; pp. 361–370.
5. Kam-Sing Wong, S. (2012). The influence of green product competitiveness on the success of green product innovation: Empirical evidence from the Chinese electrical and electronics industry. Eur. J. Innov. Manag. 15, 468–490.
6. Lin R. J., Chen R. H., & Huang F. H. (2014). Green innovation in the automobile industry. Industrial Management and Data Systems, –114(6), 886–903.
7. Chan H. K., Yee R. W. Y., Dai J., & Lim M. K. (2015). The moderating effect of environmental dynamism on green product innovation and performance. International Journal of Production Economics.
8. Gluch P., Gustafsson M., and Thuvander L. (2009). An absorptive capacity model for green innovation and performance in the construction industry. Constr. Manage. –Eco. 27, 451–464.
9. Xie X., Zhu Q., and Wang R. (2019). Turning green subsidies into sustainability: how green process innovation improves firms' green image. Bus. –Strategy Environ. 28, 1416–1433.
10. Olson E. L. Perspective: the green innovation value chain: a tool for evaluating the diffusion prospects of green products //Journal of Product Innovation Management. –2013. –T. 30. –№. 4. –S. 782-793.

MILLIY KAPITAL BOZORIDA KORPORATIV QIMMATLI QOG‘OZLAR AMALIYOTI TAHLILI

Otaxonova Shohyora
Toshkent moliya instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar amaliyotini o‘rganishda kapital bozorining ahamiyati, korporativ qimmatli qog‘ozlar mazmun-mohiyati, ahamiyati, turlari va o‘ziga xos jihatlari kabilar bo‘yicha turli iqtisodchi olimlarning izlanishlari o‘rganilgan. Shuningdek, milliy kapital bozorida aksiyalar va korporativ obligatsiyalar emissiyasi, joylashtirilgan qimmatli qog‘ozlar hajmi, korporativ qimmatli qog‘ozlar emissiyasida sohalar ulushi kabilar tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: aksiya, obligatsiya, korporativ obligatsiya, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar, korporativ qimmatli qog‘ozlar, emissiya.

Abstract: This article examines the researches of various economists on the importance of the kapital market, the essence, significance, types and specific aspects of corporate securities in the study of the practice of corporate securities in the national kapital market. Also, the issue of shares and corporate bonds in the national kapital market, the volume of placed securities, and the share of industries in the issuance of corporate securities were analyzed. Based on the analysis, appropriate conclusions and proposals were formed.

Key words: stock, bond, corporate bond, kapital market, securities, corporate securities, issue.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования различных экономистов о значении рынка капитала, сущности, значении, видах и особенностях корпоративных ценных бумаг при изучении практики использования корпоративных ценных бумаг на национальном рынке капитала. Также проанализированы выпуск акций и корпоративных облигаций на национальном рынке капитала, объем размещенных ценных бумаг, доля отраслей в выпуске корпоративных ценных бумаг. По результатам анализа были сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: акция, облигация, корпоративная облигация, рынок капитала, ценные бумаги, корпоративные ценные бумаги, эмиссия.

KIRISH

Kapital bozori mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda iqtisodiyotda pul oqimlari aylanmasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kapital bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdagi asosiy moliyaviy instrumentlar sifatida korporativ qimmatli qog‘ozlarni ta’kidlash joiz. O‘zbekiston kapital bozorini rivojlantirishda, avvalo, an’anaviy korporativ qimmatli qog‘ozlar, jumladan, aksiyalar va korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hajmini oshirish va mazkur amaliyotlarning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratish lozim. Shu boisdan milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar amaliyotini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ qimmatli qog‘ozlar muomalasini tadqiq qilish mamlakatda korporativ sektorni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan mazkur sohada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, M. Naeem va boshqalar ta’kidlashicha, “qimmatli qog‘ozlar bozori daromadlarini o‘rganish ham tadqiqotchilar uchun, ham amaliyotchilar uchun muhim hisoblanadi. Xususan, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlilikni empirik tahlil qilish bir qator sabablarga ko‘ra dolzarbdir, jumladan, moliya bozorlarida risk va daromadning asosiy manbalarini aniqlash, ularni tushunish, risklarni diversifikatsiya qilish va boshqalar” [1]. Korporativ qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarda risklarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Z. Lu va boshqalar investorlarning riskka moyilligi muhim jihatlardan biri ekanligini ta'kidlagan. "Investorlarda investitsion faoliyat bo'yicha tajribaning to'planishi investorlarning riskli xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Cheklangan moliyaviy bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxslar, odatda, tavakkal qilishni istamaydi. Shu bilan birga qimmatli qog'ozlar kabi o'zgaruvchan moliyaviy aktivlarga sarmoya kiritishda ikkilanadi" [2].

Z. Yin boshchiligidagi mualliflar jamoasining fikricha, "fond bozorini liberallashtirish ko'proq xorijiy investorlarni jalb qiladi va korxonalar bozor raqobatbardoshligini oshirish va ularning ichki ma'lumotlarini oshkor qilish motivatsiyasini kuchaytirish uchun samarali korporativ boshqaruvni amalga oshirishga moyil hisoblanadi. Bozor raqobatining kuchayishi axborot assimetriyasini kamaytirish, bozor talabini qondirish va salbiy reaksiyalarning oldini olish uchun axborotni oshkor qilish sifati va shaffofligini oshirish uchun kompaniyalar o'rtasida raqobatga olib keladi" [3]. Fond bozorida axborotlar shaffofligini ta'minlash investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

"Fond bozorini liberallashtirish keng qamrovli institutsional islohotning shakllaridan biri bo'lib, u samarali amalga oshirilsa, mamlakat iqtisodiyotini jahon kapital bozorlari bilan integratsiyalashgan holda ham moliyaviy, ham real sektorlarda yaxshilanishga olib kelishi mumkin" [4]. Kapital bozorining rivojlanishi hamda korporativ qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining kengayishi regulyatorlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga ham bog'liqligini qayd etish joiz.

S. Elmirzayev va S. Omonov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda dividend siyosatining aksiyalar bilan bog'liq operatsiyalarga ta'siriga e'tibor qaratilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali dividend siyosatini tashkil etish aksiyalar kursining ijobiy o'zgarishiga va investitsion jozibadorlikning oshishiga xizmat qilishi tadqiq qilingan [5].

A. Karimov korporativ qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini samarali tashkil etishda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarining turli shakllarini qo'llash zarurligini qayd etgan. "Aksiyalarning birjadan tashqari joylashtirilishi – DPO (Direct Public Offering) odatda, fond bozorini chetlab o'tgan holatda investorga to'g'ridan-to'g'ri kompaniya qimmatli qog'ozlarini taklif etish bo'lsa, yangi aksiyadorlik jamiyatini tashkil etganda aksiyalarini fond birjasida ommaviy joylashtirilishi – IPO (Initial Public Offering), ikkilamchi joylashtirish jarayoni – Follow-on, kompaniya qimmatli qog'ozlarini (aksiya, obligatsiya, depozitar veksellar)ni ommaviy joylashtirish – RRO (Primaries Public Offering), yirik aksiyadorning aksiyalarini ommaviy joylashtirish jarayoni – SPO (Secondary Public Offering), ma'lum toifa investorlar uchun aksiyalarning yopiq tarzda joylashtirilishi – PO (Private placement yoki Private Offering), aksiyadorlar kelishilgan holatda bir vaqtda aksiyalarini ommaviy joylashtirish jarayoni – RVO (Piggyback Offering) deb nomlanadi" [6].

Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar savdosini rivojlantirishda robo-maslahatchilarning ahamiyati katta hisoblanadi. "Risk qilishga moyil bo'lgan investorlar riskli portfelni tanlashlari mumkin (masalan, ko'proq aksiyalar, davlat obligatsiyalari), aksincha, riskdan qochgan investorlar past volatillikda past rentabellikni taklif qiladigan portfelni tanlashlari mumkin (portfelda risk darajasi past qimmatli qog'ozlarning nisbatan yuqori ulushi mavjud bo'ladi). Har bir individual investorning riskga bo'lgan moyilligini baholash orqali robo-maslahatchilar individual portfellarni shakllantirishi mumkin" [7]. Milliy kapital bozorida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar ishtirokini oshirish investorlar uchun qulayliklar yaratish bilan birga kapital bozorida pul oqimlari aylanmasini oshirishga xizmat qiladi.

B. Mamatov kapital bozori rivojlanishida korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, yashil obligatsiyalarning ahamiyatiga to'xtalib o'tgan. "Yashil obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida yangi moliyaviy instrument sifatida boshqa instrumentlardan ekologik foydali loyihalarni, qayta tiklanadigan energetika loyihalari, energetika samaradorligini oshirish va ekologik toza transportdan foydalanishni moliyalashtirishga yo'naltirilishi bilan farqlanadi" [8]. Milliy kapital bozorida zamonaviy korporativ qimmatli qog'ozlar turlarini ko'paytirish mazkur bozorni rivojlantirishda muhim jihatlardan hisoblanadi.

"Jahon amaliyotidan ma'lumki, kapital bozori iqtisodiyotni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning o'ziga xos vositasi, makroiqtisodiy siyosatning asosiy elementi hamda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda kapital bozori sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, kapital bozorining milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish" [9] bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi olimlar va tadqiqotchilarning fikrlarini inobatga olgan holda ta'kidlash lozimki, kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni kengaytirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, korporativ qimmatli qog'ozlar turlarini oshirish hamda ularning rentabelligini oshirishga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar amaliyotini tahlil qilishda analiz, sintez, statistik tahlil, deduksiya, induksiya, qiyoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar hamda islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda o‘ziga xos muammoli jihatlar ham ko‘zga tashlanayotganligini ta’kidlash lozim. Jumladan, kapital bozorida moliyaviy instrumentlar rentabelligi pastligi, mahalliy va xorijiy investorlar qiziqishi pastligi, moliyaviy instrumentlari turlarining kamligi, kapital bozori infratuzilmasining xalqaro talablarga javob bermasligi, milliy kapital bozorining xorijiy kapital bozorlari va ishtirokchilari bilan samarali integratsiyaning amalga oshirilmaganligi kabilarni aytib o‘tish mumkin. Mazkur sharoitda korporativ qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarning joriy holatini o‘rganish asosida muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlari tahlil qilinsa, faqatgina aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalar emissiyasi ko‘zga tashlanadi. Biroq korporativ obligatsiyalar emissiyasi aksiyalar amaliyotidan ko‘ra tor doirada ekanligini ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlari tahlili [10]

Milliy amaliyotda aksiyalar chiqarishlar soni 2023-yil oktyabr holatiga ko‘ra jami 2081 tani tashkil etgan bo‘lsa, korporativ obligatsiyalar emissiyasi soni 39 tadan iborat (1-rasm).

2-rasm: Kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ulushi [10]

2-rasmda kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlari ulushi aks ettirilgan. Jami chiqarilgan korporativ qimmatli qog‘ozlarda aksiyalar emissiyasi jamiga nisbatan 98 foiz va korporativ obligatsiyalar 2 foizni qayd etgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



3-rasm: Milliy kapital bozoridagi korporativ qimmatli qog‘ozlarni joylashtirilganlik holati, mlrd. so‘m [10]

3-rasmda milliy kapital bozoridagi korporativ qimmatli qog‘ozlarni joylashtirilganlik holati tahlil qilingan. 2023-yil oktyabr holatiga ko‘ra jami aksiyalar emissiyasi 187381,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur aksiyalardan 184140,9 mlrd. so‘m hajmidagi qismi joylashtirilgan, qolgan qismi esa joylashtirish jarayonidagi aksiyalardan iborat. Korporativ obligatsiyalar emissiya hajmi jami 1001,8 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, shundan 785,5 mlrd. so‘m hajmdagi korporativ obligatsiyalar joylashtirilganligini kuzatish mumkin.



4-rasm: Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar tahlili (1.10.2023) [10]

Milliy kapital bozorining joriy holatida aksiyalar emitentlarini sohalar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, chiqarilgan aksiyalarning 47 foizi sanoat sohasiga tegishli bo‘lsa, 37 foizi moliya sohasiga tegishli kompaniyalar tomonidan chiqarilgan. Xizmatlar sohasidagi kompaniyalar jami aksiyalarning 11 foizni emissiya qilgan bo‘lsa, 5 foizlik ko‘rsatkich bilan qishloq xo‘jaligi sohasi eng past ko‘rsatkichni qayd etgan (4-rasm).



5-rasm: Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar hajmi, mlrd. so‘m (1.10.2023) [10]

Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar hajmi tahlil qilinsa, 88299,2 mlrd. so‘m hajmidagiaksiyalar sanoat korxonalari tomonidan emissiya qilingan. Moliya sektori korxonalari 70035,6 mlrd. so‘m, xizmatlar sohasidagi kompaniyalar 20697,7 mlrd. so‘m hamda qishloq xo‘jaligi sohasidagi korxonalar 8349 mlrd. so‘m hajmidagi aksiyalar emissiyasini amalga oshirganligini ko‘rish mumkin (5-rasm).

XULOSA

Milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar amaliyotini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, korporativ qimmatli qog‘ozlar kapital bozoridagi asosiy moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Shu boisdan har bir rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham kapital bozorini rivojlantirishda mazkur moliyaviy instrumentlar amaliyotini kengaytirish bo‘yicha alohida strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchidan, milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlardan faqatgina aksiyalar va korporativ obligatsiyalar amaliyoti mavjud. Vaholanki, kapital bozorining investitsion jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma obligatsiyalari, ipoteka qimmatli qog‘ozlari, yashil obligatsiyalar, islom qimmatli qog‘ozlari kabi intrumentlarni amaliyotga joriy etish zarur.

Uchinchidan, kapital bozorida moliya sektori korxonalari faolligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Moliya sektoridagi korxonalarining kapital bozoridagi faollligini oshirish nafaqat mazkur sectorning kapital bozoridagi ulushini oshirishga xizmat qiladi, balki boshqa sector korxonalari uchun vositachilik xizmatlarini ham taqdim etishi mumkin.

To‘rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini xususiylashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlaridan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Abubakr Naeem, Ioannis Chatziantoniou, David Gabauer, Sitara Karim. Measuring the G20 stock market return transmission mechanism: Evidence from the R2 connectedness approach. // International Review of Financial Analysis, Volume 91, January 2024. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1057521923005021
2. Zhiqiang Lu, Junjie Wu, Hongyu Li, Brian Galloway. Digital finance and stock market participation: The case of internet wealth management products in China. // Economic Systems, Available online 11 September 2023. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0939362523000870
3. Zhichao Yin, Xinqi Li, Dengkui Si, Xiaolin Li. China stock market liberalization and company ESG performance: The mediating effect of investor attention. // Economic Analysis and Policy, Volume 80, December 2023, Pages 1396-1414. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0313592623002692
4. Hongpan Zhang, Jiayue Zhao. Stock market liberalization and financial reporting quality. // China Journal of Accounting Research, Available online 26 September 2023. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1755309123000382
5. Elmirzayev S., Omonov S. Dividend Policy Analysis In Developed Countries And Dividend Aristocrats //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 22.
6. А. И. Каримов Фонд бозорига инвесторларни жалб қилишда оммавий жойлаштириш амалиётларининг аҳамияти, Молия журнали, 2023 йил, 5-сон.
7. Omonov S. Kapital bozorida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishda robomaslahatchilarning o‘rni //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. –2023. –С. 313-315.
8. B. Mamatov. Yashil obligatsiyalar bozori orqali O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya jalb qilish imkoniyatlari. // International Journal of Finance and Digitalization, Vol. 1 Issue 01, 2022.
9. Xo‘jamurodov A. J. et al. Fond bozorida ma’lumotlarni o ‘z vaqtida va to ‘liq oshkor etilishini ta’minlash yo ‘nalishlari // Research and Education. –2023. –T. 2. – №. 4. –C. 394-402.
10. https://depo.uzcsd.uz/api/Website/GetPdfById1571 – O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi ma’lumotlari.

AHOLINING TURMUSH FAROVONLIGINI YASHLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MASALALARI

Qobilova Shaxnoza
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholi turmush darajasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari va unga bandlikni ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali erishish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: aholi turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi, qashshoqlik, aholi daromadlari tengsizligi, rivojlanish dasturi.

Abstract: The article talks about the issues of socio-economic development of the population’s standard of living and ways to achiyeve it by ensuring employment and developing entrepreneurship.

Key words: standard of living of the population, socio-economic development, population employment, poverty, population income inequality, development program.

Аннотация: В статье говорится о вопросах социально-экономического развития уровня жизни населения и путях его достижения путем обеспечения занятости и развития предпринимательства.

Ключевые слова: уровень жизни населения, социально-экономическое развитие, занятость населения, бедность, неравенство доходов населения, программа развития.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mazmuni, omillari, ko‘lamlari va muammolarini o‘rganish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Bunday muhim masalalarni samarali hal etish ko‘p jihatdan odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sir-asrorlarini, ularning talab va xususiyatlarini, qonun va qoidalarni, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsad va mohiyatini chuqur anglashiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha tanlab olingan strategiyalarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur’atlarini ta’minlash, moddiy farovonlikni oshirish bo‘yicha jahondagi sanoqli davlatlar qatoridan joy oldi. Xususan, “Aholining bandligini ta’minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o‘rgatish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ehtiyojmand qatlamini manzilli qo‘llab-quvvatlash orqali 2026-yilgacha kambag‘allikni ikki baravar kamaytirish, viloyatda boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish. Ijtimoiy himoya sohasini isloh qilish, ijtimoiy xizmatlar sifati va ko‘lamini oshirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, zamonaviy yo‘l-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti va viloyatlararo muntazam avtomobil, temiryo‘l va havo yo‘llari qatnovini takomillashtirish, yirik loyihalarni amalga oshirish; umuman uy-joy masalasi, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish...” Prezident Sh. Mirziyoyevning Taraqqiyotning Yangi strategiyasida belgilangan.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLARNI KO‘RIB CHIQISH

D. Rikardo, R. Solou, A. Sen, A. Ditont kabi ko‘plab klassik neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti laureatlari aholi daromadlari tengsizligi va qashshoqlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha nazariy va empirik tadqiqotlar olib borganlar.

Yalpi ichki iste’mol, texnologik taraqqiyot, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq solinadigan baza va shunga o‘xshash boshqa omillar, kam qashshoq jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lishini nazariy jihatdan isbotladi. Aholining turmush darajasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan munosib o‘rganilgan.

Xususan, Rossiya va MDH olimlari Abakumova N. N., Podovalova R. Y., Averin A. N., Agapsov S. A., Romanov YE. Y. U N. M., Simbalist A. B., Bachurin A., Bobkov B. N. ning tadqiqot ishlarida keltirilgan. Jumladan, O‘zbekistonlik iqtisodchi va tadqiqotchilardan Q. X. Abdurahmonov, N. Q. Zokirova, Sh. R. Xolmo‘minov, R. F. Djumanova, N. M. Ibragimova, M. Z. Muxitdinova, B. Pardayeva, K. S. Saidov, P. Z. Hashimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Qashshoqlik masalalarini alohida muammo sifatida chuqur o‘rganishga harakat qilindi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar aholi turmush darajasi va sifati, qashshoqlik bilan bog‘liq masalalarni yanada kengroq yoritishga, shuningdek, aholining ijtimoiy muammolarini o‘rganishga oid ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga xizmat qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishilgan.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada monografik kuzatish, tizimli yondashuv, tahlil va sintez usullari qo‘llaniladi.

TAHLIL VA NATIJADAR

So‘nggi 2 yilda O‘zbekistonda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 barobar, nafaqa miqdori 2 barobar oshdi. Ammo aholining kam ta’minlangan qatlamlariga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish bilan bu muammo to‘liq hal bo‘lmaydi. Aholining turmush darajasini oshirish uchun uning sifatini oshirish, aholi salomatligi, ta’lim, uy-joy bilan ta’minlash, maishiy xizmatlardan foydalanish kabi asosiy masalalarni hal etish zarur.

Prezident Sh. Mirziyoyev Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. Xalqaro standartlar asosida chuqur va keng qamrovli tadqiqotlar olib borilib, eng avvalo, “qashshoqlik” tushunchasini, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab oluvchi yangi metodologiya yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarning aholi daromadlaridagi ulushi ortib bormoqda. Keyingi yillarda bu boradagi ko‘rsatkich 10,6 foizdan 58,6 foizga oshdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish muhimligining dalilidir bugungi mamlakatimiz. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni nazariy o‘rganishdan maqsad iqtisodiy rivojlanish muammolari va ularning yechimlari bilan tanishish, iqtisodiy o‘sish nazariyalarini o‘rganishdan iborat. Ushbu muammolarning kuchayishi, profilaktikaga bo‘lgan talabning ortishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Aholining turmush darajasi kontseptsiyasini ularning yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlash va odamlarning ehtiyojlarini ushbu ne’matlar bilan qondirish darajasi sifatida belgilash mumkin.

BMT tomonidan tavsiya etilgan aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimi quyidagi guruhlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tug‘ilish va o‘lim darajasi va boshqa demografik ko‘rsatkichlar.
2. Yashashning sanitariya sharoitlari.
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish.
4. Turar joy shartlari.
5. Axborot va madaniyat.
6. Mehnat va mehnat sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. Yashash qiymati va iste’mol baholari.
9. Avtotransport vositalari.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta’minot.
12. Inson erkinligi.

Ushbu asosiy ko‘rsatkichlarga qo‘shimcha ravishda yana bir qancha axborot ko‘rsatkichlari ajralib turadi: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga milliy daromad, jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol hajmi va boshqalar. Odamlarning hayotiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan tovarlar to‘plami mehnat sharoitlari,

ta'lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi turli xil ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Odamlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining shaxsiy va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini milliy darajada (butun aholi uchun) va tabaqalashtirilgan mikro darajada (aholining ma'lum bir guruhi uchun) o'lchash mumkin. Birinchi yondashuv aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotga ko'ra turli mamlakatlarda aholi turmush darajasini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Aholi guruhlari bo'yicha daromadlarni taqsimlash dinamikasini solishtirish iste'mol budjeti asosida amalga oshiriladi. Iste'molchi budjetlarining bir nechta turlari mavjud: o'rtacha oila budjeti, yuqori daromadli budjet, eng kam daromadli budjet, pensionerlar va boshqa ijtimoiy guruhlar budjeti, shu jumladan. Farovonlikning pastki chegarasi oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilanishi mumkinki, daromadning past darajasida ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minotning minimal darajasi yoki yashash minimumi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad "o'rta sinf" deb ataladigan daromadlar bilan belgilanadi. Bunday guruhning iste'mol savatiga uy, avtomobil, hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayohat qilish va farzandlarini o'qitish imkoniyatlari, qimmatli qog'ozlar, zargarlik buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori daromadli yoki "boy" qatlamining mavjudligini taqozo etadi, bu qatlamga yuqori sifatli tovar va xizmatlarni sotib olishga qodir bo'lgan aholining juda oz qismi kiradi.

XULOSA

Turmush darajasi odamlarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liqdir.

Turmush tarzi – milliy va jahon hamjamiyatidagi odamlarning (jamiyat, ijtimoiy tabaqa, shaxs) hayot faoliyatining turi va usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

Turmush tarzi inson hayotining turli jabhalarini qamrab oladi, xususan:

- uni tashkil etishning mehnat, ijtimoiy shakllari;
- hayot va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kundalik hayotda odamlarning xulq-atvor normalari va qoidalari.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar har xil bo'lib, turmush darajasi tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2020-yil 24-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oilaviy biznes haqida. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari to'plami, 2012-yil 26-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 02.05.2012-yil, O'RQ-328-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-4947 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami, 2017-yil 7-fevral.
5. Berkinov B. B., Asqarova M. T., Abdurahimova S. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: o'quv qo'llanma. –T.: 2019., 78
6. Toxirovna S. G. Fermerlar-oziq-ovqat barqarorligi xizmatlari //Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik akademik jurnali. –2021. –S. 899-904.
7. Toxirovna S. G. Dehqon xo'jaligi-oziq-ovqat ta'minotini barqarorlashtirish xizmatlari //Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik akademik jurnali. –2021. –T.

SURXONDARYO VILOYATIDA SUG‘ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI

Sharifi Abdul Fatah
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida sug‘oriladigan yerlardan foydalanish holati o‘rganilgan va statistik tahlil qilingan. Viloyatda qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni (dehqonchilik) hamda qishloq xo‘jaligi mahsuloti (dehqonchilik) statistik tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanishga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish asosida sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, yer, sug‘oriladigan yerlar, dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, statistik tahlil.

Abstract: In this article, the use of irrigated land in Surkhandarya region is studied and statistically analyzed. Agricultural crop area (farming) and agricultural products (farming) were statistically analyzed in the region. Also, based on the analysis of the factors affecting the effective use of irrigated land in agriculture, scientific proposals for the effective use of irrigated land have been developed.

Key words: agriculture, land, irrigated land, farming, agricultural products, statistical analysis.

Аннотация: В данной статье изучено и статистически проанализировано использование орошаемых земель в Сурхандарьинской области. В регионе статистически проанализированы площади сельскохозяйственных посевов (земледелие) и сельскохозяйственная продукция (фермерство). Также на основе анализа факторов, влияющих на эффективное использование орошаемых земель в сельском хозяйстве, разработаны научные предложения по эффективному использованию орошаемых земель.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земля, орошаемые земли, земледелие, сельскохозяйственная продукция, статистический анализ.

KIRISH

Bugungi noaniqlik, geosiyosiy jarayonlar va resurslar cheklanganlik sharoitida aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash masalasi dolzarb muommalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aniqroq aytganda, qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan tabiiy oziq-ovqatlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Chunki, taraqqiyotning hozirgi sharoitida hamda talabning ko‘payishi natijasida sof ekologik tabbiy mahsulotlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda.

Xususan, “Worldtrade” global biznes markazi hisobotiga ko‘ra, butun dunyo boylab oziq-ovqat bozori 6,21% (2023-2027) ga o‘sishi prognoz qilinmoqda, buning natijasida 2027-yilda bozor hajmi 12,00 trillion AQSh dollarini tashkil etishi mumkin [10].

Albatta, bu qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini samarali tashkil etish, xususan, qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlardan foydalanish holatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish bilan bog‘liqdir.

Zero, Jahon banki va Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyoti dasturi (BMTTD) hisob-kitoblariga ko‘ra, ekologik holati yaxshilangan sug‘oriladigan yerlarning qo‘shimcha 110 mln gektarga kengaytirishi mumkin bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar 1,500-2,000 mln kishi uchun yetarli don ishlab chiqarish sug‘oriladigan yerlardan olinadigan hosil hisobiga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda [11]. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo‘lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste’mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xom ashyo ishlab chiqariladi. Bugngi kunga kelib jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd. gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd. gektari, ya’ni 11% qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Ularning miqdori

Manba: Golubkov Ye. P. Osnovы marketinga: uchebnik.-M.: Finpress, 2008.-205 b

Ko'pgina hollarda kundalik iste'mol tovarlari guruhiga faqat oziq-ovqat mahsulotlarini kiritish, bizning mamlakatimiz aholisi uchun ko'nikma bo'lib qolgan. Chunki dastlabki ma'muriy iqtisodiyot tizimidagi keng ko'lamdagi ixtisoslashuv bevosita sanoat iste'mol bozorida ham takrorlanar edi.

Viloyatda chakana va ulgurji savdoni tashkiliy tuzilishi va norasmiy savdo bilan shug'ullanayotgan, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tarqoq holda joylashganligi tadbirkorlarning faoliyat olib borishi savdoni zamon talablari darajasida rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xufyona yo'llar bilan kiritilgan mahsulotlarni nisbatan arzon narxlarda sotilishi, chakana savdoni nazorat qilinmasligi natijalari, bu sohada raqobat muhitini shakllantirishga yo'l qo'ymayapti. Tahlil natijalariga ko'ra Samarqand viloyatdaga savdo xizmatlarini ko'rsatadigan tadbirkorlarning madaniyatini oshirish zarur, tovarlar assortimentini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, transport xarajatlarini yanada kamaytirish va savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Tovar deb ma'lum bir ehtiyojni qondirish maqsadida bozorga sotib olish, foydalanish va iste'mol qilish uchun taklif etilayotgan mahsulot tushuniladi. Mahsulotga narx belgilanishi va bozorga taklif etilishi bilanoq tovarga aylanadi.

Iste'mol tovarlar bozorini rivojlantirish ulgurji va chakana savdo bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Chakana savdo aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar sotish va xizmat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatini o‘z ichiga oladi. Chakana savdo tovarlar assortimentining shakllanishida qatnashadi, xaridorlarga tovarlar sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborotlar beradi, tovarlarni saqlash, qo‘shimcha ishlash, baholarini o‘rnatish va boshqa vazifalarni bajaradi.



1-rasm: Samarqand viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (amaldagi narxlarda: mln so‘m)

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki samarqand viloyatida chakana tovar aylanmasi yil sayin ko‘tarilib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan 2022-yildagi chakana tovar aylanmasi 2010-yildagi chakana tovar aylanmasiga nisbatan 15 borabarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hududiy iste’mol tovarlari bozori – o‘zaro bog‘liqlikdagi turli xil ayriboshlash institutlaridan iborat bo‘lgan murakkab tizimdir. Biroq uning har bir ishtirokchisi o‘z manfaatlariga ega. Ishlab chiqaruvchilar sarf qilingan mablag‘ni qaytarib olish va daromad ko‘rishga urinadi, iste’molchilar esa ehtiyojlarni optimal qondirishga intiladi. Hududiy iste’mol tovarlar bozorining shakllanishi va amal qilish mexanizmi mazkur hududdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash hamda iste’mol qilish jarayonlari va omillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, iste’mol tovarlari inson ehtiyojini qondirishga mo‘ljallangan iste’mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste’mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlardan iborat. Iste’mol tovarlari shaxsiy iste’molni qondiradi, investitsiya tovarlaridan inson tirikchiligini ta’minlashi bilan farqlanadi, mehnat resurslarini qaytadan hosil etilishiga sharoit hozirlaydi.



2-rasm: Samarqand viloyati tumanlari bo‘yicha 2022-yildagi chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o‘sish sur’ati (o‘tgan yilga nisbatan foizda)

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2022-yilda samarqand viloyatidagi tumanlar bo'yicha chakana tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati eng past bo'lgan tuman oqdaryo tumani bo'lgan bo'lsa ya'ni 101,3 foiz, eng yuqori bo'lgan tuman samarqand shaharni 128,4 foizni ko'rishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlari bozorini mohiyatini yanada yaxshiroq tushunish uchun iste'mol tovari tushunchasini izohlash lozim.

Ulgurji savdo ishlab chiqaruvchi va iste'molchi chakana savdo va tovarni oxirgi iste'molchilari o'rtasidagi umumlashgan vositachi hisoblanadi. Ulgurji savdo firmalari tovarni ishlab chiqaruvchi yoki boshqa vositachilardan ulgurjisiga sotib olib, o'zining vazifalariga muvofiq boshqa vositachilar; chakana savdo korxonalari yoki xususiy savdo tadbirkorlariga, ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchilarga yetkazib beradi.

Iste'mol tovarlar bozorni harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri va uning tarkibiy qismi – talab hisoblanadi.

Iste'mol tovarlar – bu bevosita insonlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan eng zarur tovarlardir. Hududda iste'mol tovarlari bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni zamon talablari darajasida modernizasiyalashga xizmat qiluvchi iqtisodiy tashkiliy, investitsiya bazasini mustahkamlash zarur. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan kichik korxonalarni tashkil etish orqali meva, sabzavotlar va go'sht-sut konservalari, sariyog', pishloq, konditerlik mahsulotlari, makaron va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi oziq-ovqat sanoatini modernizasiyalash ijobiy natijalar beradi.



3-rasm: Samarqand viloyati ulgurji savdo tovar aylanmasi (jami mlrd so'm)

Samarqand viloyatida 2010-yildan 2022-yilgacha ulgurji savdo tovar aylanmasini ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 16,6 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi yil sayin oshib borayotganligini va samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlar bozori shahar, viloyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi va barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlarining manbayi hisoblanadi; ichki, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlardan ta'sirlanishi, ya'ni hududlararo tovarlar oqimi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar mavjud; iste'mol tovarlar bozorining asosiy subyektlari hisoblangan chakana savdo korxonalari, tovarlarni tashish, ularni saqlashni ta'minlab beruvchi tashkilotlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanib borish strategiyalarini ishlab chiqish. Umuman olganda iste'mol tovarlari bozorini tartibga solish va takomillashtirish orqali tovarlar bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2021-yil.
2. B. Abdukarimov “Ichki savdo iqtisodiyoti” darslik 1-qism Toshkent 2007-y.
3. Abdurashidov A. Iste’mol tovarlari bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. -T:. 2012-yil
4. Потребительский рынок города: состояние и перспективы: монография / кол. авт. под рук. – Т. В. Усковой. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2012.
5. Новикова, Н. В. Понятийно-терминологический аппарат исследования локального потребительского рынка // Муниципалитет: экономика и управление. – 2012.
6. Гурьянов, Т. И. Совершенствование методики оценки состояния потребительского рынка // Журнал “Казанская наука”. – 2012.
7. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. – Samarqand-2023
8. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

QURILISH TASHKILOTLARIDA XODIMLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Usmanov Iixom Achilovich
T. f.n., Mirzo Ulug‘bek nomidagi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxona innovatsion faoliyatining muhim qismi bo‘lmish xodimlarning innovatsion faolligini oshirish muammosi o‘rganilgan. Muallif tomonidan qurilish tashkilotlarida innovatsion faollik yo‘nalishlari va shakllari tadqiq qilingan va yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, xodimlar innovatsion faolligi, innovatsiyalarga moyillik, innovatsion muhit.

Abstract: This article studies the problem of innovative activity of employees as an important part of the innovative activity of an enterprise. The author has studied the directions and forms of innovative activity of employees in construction organizations and developed proposals for their further improvement.

Key words: innovation activity, innovative activity of employees, propensity to innovate, innovative environment.

Аннотация: В данной статье изучена проблема инновационой активности работников, как важной части инновационной деятельности предприятия. Автором исследованы направления и формы инновационной активности сотрудников в строительных организациях и разработаны предложения по дальнейшему их совершенствованию.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационная активность работников, склонность к инновациям, инновационная среда.

KIRISH

Bizning fikrimizcha, zamonaviy samarali iqtisodiyotning asosiy belgisi – bu uning innovatsiyalarga moyilligidir. Innovatsion moyillik deganda iqtisodiyotdagi barcha subyektlar va sohalarda yangiliklarni o‘ziga singdirish qobiliyatini tushunamiz. Xaqiqatdan ham, an’anaviy innovatsion faoliyat emas, balki aynan innovatsiyalarga moyillik kompaniyalarda mehnat jamoasining o‘zgarishlarni amalga oshirishga, xorijiy tajribani tezkorlik bilan o‘zlashtirishga, yangi g‘oya va yechimlarni ishlab chiqarishga joriy qilishga undaydi. Yaponiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi innovatsion siyosati, bugungi kunda esa Xitoyning tajribasi innovatsiyalarga moyillik qanchalik kuchli qurolligini ko‘rsatmoqda. Xalq orasida keng tarqalgan “Dunyoda qanday yangilik paydo bo‘lmasin, ertasi kuni Xitoyda uning nusxasi yaratiladi” iborasi bu mamlakat tadbirkorlarida innovatsiyalarga moyillik mavjudligini, yangilik yaratish va joriy qilishda hech qanday to‘siqlar xalaqit bera olmasligini qo‘rsatadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda olib borilayotgan islohotlar innovatsion rivojlanishga ustuvor vazifa sifatida qarashni taqozo qilmoqda. Buning isboti sifatida 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasiga e’tiborni qaratamiz [1]. Strategiyaning “...asosiy maqsadi – mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o‘rni yaratishdan boshlab iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo‘lgan “tarmoq-hudud-ilmiy-oliy ta’lim tashkilot” uzluksiz ekotizimni rivojlantirish” qilib belgilangan. Shu bilan birga, strategiyada “...innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish”, “... xodimlarni baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish” vazifalari esa aynan innovatsiyalarga moyillik muhitini yaratishga qaratilgan.

Korxona va tashkilotlarning innovatsiyalarga moyilligi xodimlarning innovatsion faol xulqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Innovatsion faollik zamonaviy kreativ xodimning asosiy belgilaridan hisoblanib innovatsiyalarni izlash, topish, o‘zlashtirish va ommalashtirishda tashaabbus ko‘rsatishni ifodalaydi. Boshqa adabiyotlarda innovatsiyalarga moyillik xodimlarning ijodiy va innovatsion qobiliyatlari bo‘lib, korxonada innovatsiyalarni joriy qilish zaruratini anglash deb ta’rif beriladi.

Innovatsion faollik tashkilotlarning innovatsion faoliyatini baholashning asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Ushbu atamaning ahamiyatli tomoni shundaki, unda innovatsion salohiyatdan foydalanish bilan birga jamoada innovatsion iqlimning shakllanganligi ham o‘z aksini topadi. SHu bilan birga, innovatsion salohiyatning amaliyotda aks ettirilishi tashkilot xodimlarining innovatsion faolligi bilan ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalarning innovatsion faoliyatining nazariy asoslari M. Porter, Y. Shumpeter, N. Kondratev, P. Drukker, D. Bell kabi olimlarning izlanishlarila o‘z aksini topgan. Mamlakatimiz olimlaridan M. Ikramov, Sh. Musayeva [2], N. Raxmatov, A. Mirzayevlar O‘zbekistonda iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish vazifalari o‘rganilgan. Xodimlarning innovatsion faoliyatiga Z. Teshaboyevaning izlanishlari bag‘ishlangan [3].

Adabiyotlarda xodimlarning innovatsion faolligi atamasi keng muhokama qilingan bo‘lib olimlarning ushbu masalaga turli qarashlari mavjud. Olimlarning bir qismi xodimlarning innovatsion faolligini ularning ijodiy qobiliyatlarini korxonaning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ro‘yobga chiqarilishini tushunsalar [4], boshqalar xodimlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va foydalanish sohasidagi munosabatlar deb ta’rif beradilar [5]. Ayrim olimlar xodimlarning innovatsion mehnat xulqi (innovative work behavior) atamalarini ham qo‘llaydilar, ya’ni yangi g‘oyalarni yaratish, taklif qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq doimiy harakatlar haqida so‘z yuritadilar [6]. O‘zbekiston korxonalari va tashkilotlarida xodimlarning innovatsion faolligini oshirish uchun tegishli ilmiy uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqilishi dolzarb masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmonida o‘z aksini topgan [7].

Tadqiqotni amalga oshirishdagi ilmiy taxmin shundan iboratki, qurilishdagi innovatsion faoliyatning samaradorligi birinchi o‘rinda xodimlarning faolligi, ya’ni innovatsion xulqiga bog‘liqdir. Shuning asosida tadqiqotda qurilishdagi innovatsion faoliyat yo‘nalishlari, ularning natijalari va xodimlarning tutgan o‘rnini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlar, nazariy, mantiqiy va amaliy usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasiga Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida alohida o‘rin ajratilgan. Oxirgi besh yilda investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmining karrali oshib borishi qurilish sohasida boshqaruvida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, ya’ni qurilishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda xorijiy tajribani olib kirish kabi choralarni amalga oshirishga sabab bo‘ldi. 2022-yilda jami 130,8 trln.so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, bu 2018-yilga insbatan 2,6 barobar ko‘pdir (51,1 trln.so‘m). 2022-yil yakuni bo‘yicha mamlakatimizning qurilish sohasida jami 46971ta korxona va tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularda 1314,6 mln.kishi band bo‘lgan [8].

Olib borilgan harakatlar natijasida qurilishda innovatsion faoliyatning jadallashishini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, “SHaffof qurilish” elektron platformaning ishga tushirilishi, tender mexanizmlarining raqamlanishi, yangi material va ilg‘or texnikalarning loyiha-qurilish jarayonlariga kirib kelishi bugungi kunda katta samara bermoqda. SHu bilan birga e’tirof etish joizki, qurilish tashkilot va korxonalarida xodimlarning innovatsion faolligi zamon talablariga javob bermaydi.

Tashkilot xodimlarining innovatsion faoliyatda ishtirok etishi ikkita asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘ladi: yuqoridan (tashkilot rahbariyati va tashqi steykxolderlar) kirib kelayotgan innovatsiyalarni joriy qilishni qo‘llash va ishtirok etish hamda pastdan, ya’ni tashabbus ko‘rsatuvchi sifatida innovatsion g‘oyalarni tashkilotda targ‘ib qilishi va qo‘llash. Ikki yo‘nalishda ham xodimlarning innovatsion faolligining zarur shart-sharoitlari yaratilishi lozim bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm: Qurilish korxonasida innovatsion faollikning shart-sharoitlari.

Rasmdan xulosa qilish mumkinki, xodimlarning innovatsion faolligini to‘rtta asosiy omil belgilab beradi. Xodimlarning innovatsion salohiyati ularning bilim, ko‘nikma va tajribalarining hosilasi bo‘lib, mustaqil ravishda yangilikni yaratish qobiliyatini aks ettiradi. Qurilish sohasida yuqori malakali mutaxassislarning tajriba oshirib borish, zamonaviy bilimlarni egallashi ularda kreativ fikrlashga asosni shakllantiradi.

Innovatsion axborot oqimlari, ya’ni tashkilotda sohadagi yangiliklar to‘g‘risida axborot tarqatish tizimining mavjudligi xodimlarda o‘ziga ishonchni o‘yg‘otadi, ya’ni innovatsiyalarni yaratishga ishtiyoqni o‘yg‘otadi.

Innovatsion xulq motivatsiyasi deganda izlanish, tanqidiy va kreativ fikrlash hamda ishga ijodiy yondashishni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, yoki mukammmalroq bo‘lsa, barcha rag‘batlantirish mexanizmlarini innovatsion faollikka bog‘lash tushuniladi.

Innovatsion muhit keng va murakkab atama bo‘lib yuqoridagi omillarning ta’siri ostida mehnat jamoasida innovatsiyalarga ijobiy qarash, ularni ishlab chiqarish faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni o‘zida mujassamlashtiradi. Innovatsion muhitning asosiy belgisi mehnat jamoasining barcha a’zolarini yangiliklarni joriy qilishdagi faolligidir, ya’ni doimiy ravishda sog‘lom raqobat sharoitida innovatsiyalarga qiziqishning mavjudligidir.

Innovatsion faollikning shart-sharoitlarini yaratish tashkilot rahbariyatining muhim vazifasi hisoblanadi. Buning uchun xodimlarning kasbiy faoliyati, lavozimi, mehnat sharoitlari va salohiyatiga mos bo‘lgan innovatsiyalar yo‘nalishlarini tavsiya qilish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi. Aksariyat qurilish tashkilotlarining innovatsion faoliyati ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan kichik o‘zgarishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Aynan qurilish ishlarini bajarishga ixtisoslashgan tashkilotlarni misol sifatida oladigan bo‘lsak, xodimlar (ishchi va xizmatchilar) tashabbusi bilan olib boriladigan innovatsiyalarning quyidagi yo‘nalishlarini rivojlantirishni taklif qilamiz (2-rasm).



2-rasm: Qurilishda xodimlarning innovatsion faollik yo‘nalishlari

Qurilish materiallarini tejash. Qurilish mahsuloti tannarxining kariyb 60%ni qurilish materiallar va konstruksiyalar tashkil qiladi. Sohaning raqobatbardoshligini oshirish shiroitida qurilish materilllarini tejash yo‘llarini izlash qurilish tashkilotlarning dolzarb muammosi hisoblanadi. Muhimi, materiallarni tejashda uni bevosita ishlatayotgan ishchining fikri juda muhim, chunki material hajmi va sifatining oxirgi bahosini ishchilar beradilar;

Ish joyi va operatsiyalarni takomillashtirish. XX-asrning boshida F. Teylor o‘z izlanishlarini xodimlarning ish jarayonini o‘rganishdan boshlagan. Bugun ham ushbu masala o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, ya’ni mehnatni ilmiy tashkil qilish samardorlikning bosh mezoni hisoblanadi. Shuning uchun ishchilar va past bo‘g‘in rahbarlarning innovatsion takliflarida ish joyi, asbob-uskunalar, mehnatning kichik operatsiyalari va mehnat harakatlarini takomillashtirish g‘oyalariga yo‘l berish lozim;

Materiallarni qayta ishlatish. Qurilish ishlab chiqarishining xususiyatlaridan biri qurilish materialining o‘lchamlari loyihada ko‘rsatilgan o‘lchamlarga mos kelmasligidir, ya’ni uni kesish yoki moslashtirish zarur, bunday holatda materialning qoldiqlari qurilish chiqindilariga aylanadi. Demak, tajamkorlik va atrof-muhitni himoyalash nuqtayi nazaridan ushbu qoldiqlarni boshqa ishlarga sarflash yoki boshqa maqsadlarda foydalanish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash lozim;

Texnologiyani takomillashtirish. Qurilish ishlab chiqarishi tashqi omillarga ta’sirchanligini hisobga olsak, texnologini o‘z vaqtida o‘zgartirish va sharoitga moslash xarajatlarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. SHu munosabat bilan xodimlarning texnologik innovatsiyalarni ommalashtirish ijodkorligini rivojlantirish tizimini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim;

Atrof-muhitni himoya qilish. “Yashil “iqtisodiyot” konsepsiyasining qurilish sohasidagi eng muhim vazifasi – bu qattiq qurilish chiqindilarini kamaytirishdir. Xodimlarning innovatsion faolligi chiqindilarni keltirib chiqarish omillarini aniqlash va ularni boshqarishga yo‘naltirilishi zarur;

Qurilish ishlariga oid ichki me’yorlarni takomillashtirish. Qurilish sohasida boshqaruvning liberallashuvi tashkilotdagi ichki me’yorlarning ahamiyatini oshirishga olib kelmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirish maqsadi tashkilot xodimlari oldiga material sarfi, mehnat sarfi, shartnoma intizomi va boshqa me’yorlarni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

XULOSA

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, har bir yo‘nalish o‘ziga xos tashkiliy-iqtisodiy yondashuv va dasturlarni talab qiladi. Shu bilan birga korxonaning mavqeyi va bozordagi raqobat kuchiga mos ravishda boshqa yo‘nalishlarni ham ustuvor qilib tanlash mumkin. Eng muhimi, dasturlarning amalga oshirilishi xodimlarning innovatsion motivatsiyasini oshirishga va korxonada inovatsion muhit yaratilishiga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni. http\lex.uz
2. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021-yil uchun o‘quv qo‘llanma.
3. Teshaboyeva, Z. (2023). Xodimlarning innovatsion faoliyatini motivatsiyalash mexanizmini shakllantirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta’lim, 24(1), 281–285. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a43.
4. Belkin V. N. Innovatsionnaya aktivnost menedjerov predpriyatiy kak uslovie razvitiya trudovogo potensiala regiona. [Tekst] / V. N. Belkin, N. A. Belkina, O. A. Antonova // Ekonomika regiona. – 2018. – T. 14, вып. 4. – S. 1327-1340.
5. Balakina D. V. Innovatsionnaya aktivnost personala rossiyskix predpriyatiy [Tekst] / D. V. Balakina // CHelyabinskiy gumanitariy. – 2011. – № 1(14). – S. 32-35.
6. Hanan S. Alessa & Christopher M. Durugbo. Systematic review of innovative work behavior concepts and contributions. https://link.springer.com/article/
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni. http\lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi. http\stat.uz

INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA METODLARI

Uroqboyeva Farzuna Axmadjonovna
Toshkent Moliya Instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy e’tibor korxonalarning investitsiya jozibadorligiga ta’sir qiluvchi omillar tasnifiga qaratiladi hamda investitsiya jozibadorligini baholash metodlari ochib beriladi. Bundan kelib chiqadiki, har qanday korxona uchun investitsiya jozibadorligini baholash hamda uni samarali boshqarish imkoniyati asosiy vazifalardan hisoblanadi. Maqolada ushbu jihatlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsiya jozibadorligi, investitsiya jozibadorligini baholash, moliyaviy ko‘rsatkichlar, fond bozori indekslari.

Abstract: This article focuses on the classification of factors affecting the investment attractiveness of enterprises, and methods of assessing investment attractiveness are revealed. It follows that assessment of investment attractiveness and the ability to effectively manage it are the main tasks for any enterprise. These aspects are discussed in the article.

Key words: Investment, investment attractiveness, assessment of investment attractiveness, financial indicators, stock market indices.

Аннотация: В данной статье рассмотрена классификация факторов, влияющих на инвестиционную привлекательность предприятий, а также раскрыты методы оценки инвестиционной привлекательности. Отсюда следует, что оценка инвестиционной привлекательности и возможность эффективного управления ею являются основными задачами любого предприятия. Эти аспекты рассмотрены в статье.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционная привлекательность, оценка инвестиционной привлекательности, финансовые показатели, индексы фондового рынка.

KIRISH

Hozirgi kunda barcha korxonalar shiddatli raqobat sharoitida faoliyat yuritmoqda. Bunday sharoitda korxona tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor munosabatda bo‘lishi, ish faoliyatini yaxshilashi, risklarni baholay olishi hamda eng to‘g‘ri moliyaviy qarorlarni qabul qilishi kerak. Doimiy rivojlanish potensiali maqsadi daromad olish bo‘lgan har qanday tashkilotning muvafaqqiyat kaliti hisoblanadi. Albatta, bu jarayon kompaniya iqtisodiy o‘sishining mexanizmi hisoblangan investitsiyalarni talab qiladi. Korxona uchun kapital jalb qilish va bozordagi raqobatchilar orasida mavqeyini mustahkamlashning yagona yo‘li investitsiya jozibadorligi darajasini oshirishdan iborat. Investitsiya jozibadorligini to‘g‘ri baholash ushbu iqtisodiy kategoriyani yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Investorning qaror qabul qilish jarayonidagi hal qiluvchi qadam korxonaning investitsion jozibadorligini baholashdir. U operatsion faollikni, bozordagi pozitsiyani va investitsiya jarayoni bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan xavflarni tavsiflaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya jozibadorligiga ta’sir qiluvchi omillar va investitsiya jozibadorligini baholash yondashuvlari bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan hamda investitsiya va investitsiya jozibadorligi tushunchalariga turlicha ta’rif berishgan.

Blankning fikriga ko‘ra, Investitsiya jozibadorligi – moliyaviy barqarorlik, rentabellik, aktivlarning likvidligi va aktivlar aylanmasi kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida korxonaning investitsiya jozibadorligini tahlil qilish hisoblanadi [1].

Fayluk va Akalenko kabi tadqiqotchi olimlar investitsion jozibadorligi – bu mavjud vaziyatni, bozorlardagi vaziyatni, shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan investitsiya obyektining potentsial risklari va rentabelligini baho-

lashni belgilaydigan moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlar to‘plami. Shu bilan birga, investitsion jozibadorlik nafaqat moliyaviy-iqtisodiy hodisa, balki korxonaning haqiqiy miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini va uning sanoatdagi o‘rnini ko‘rsatadigan model ekanligini hisobga olish kerakligini aytib o‘tishgan [2].

Investitsiya jozibadorligi darajasini baholash uchun biznesning miqdoriy va sifat xususiyatlarini o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlar to‘plamini ishlab chiqish va qo‘llash kerakligi Aleksenko, Gress kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ularning fikriga ko‘rsa, nazariy jihatdan, investitsiya jozibadorligi omillari odatda ikki toifaga bo‘linadi: – ichki – bevosita ta’sir qiluvchi omillar (tashkiliy, texnologik, resurs-xom ashyo, mehnat, moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish, iste’molchi). – tashqi – bilvosita ta’sir qiluvchi omillar (ular tabiiy-geografik, ekologik, huquqiy, siyosiy, qonunchilik, ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi) [3].

Mahalliy olimlardan professor B. Y. Xodiyev va professor Sh. Sh. Shodmonov investitsiyalarga quyidagicha ta’rif berganlar: “Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir” [4]. Bunda asosiy e’tiborni ishlab chiqarishga qaratganlar ya’ni investitsiyalarni korxonalarning asosiy va aylanma kapitalini qayta tiklash va ko‘paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflar sifatida qaraganlar.

Yana bir yetakchi olimlarimizdan Sh. Mustafaqulov mamlakatning investitsion jozibadorligiga hududga sarmoyaning kirib kelishini belgilovchi va investitsiya faolligi bilan baholanadigan obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy belgilar, vositalar, imkoniyatlar yig‘indisi sifatida tarif bergan [5].

TAHLIL VA NATIJADAR

Kompaniyaning investitsion jozibadorligi – bu biznesning turli tomonlarini qamrab oluvchi va investorlar uchun foydani maksimal darajada oshirish imkoniyatini aniqlaydigan (mumkin bo‘lgan investitsiyalarning boshqa obyektlari bilan solishtirganda) miqdoriy ko‘rsatkichlar va sifat komponentlari to‘plami bilan tavsiflangan faoliyat samaradorligini ko‘rsatadigan iqtisodiy kategoriya. Bugungi kunda bir nechta yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va turli tomonlardan korxonalarning investitsiya jozibadorligini tavsiflovchi ko‘plab usullar ishlab chiqilgan.

Birinchi yondashuv moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholash.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar investorlar sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan kompaniyalar to‘g‘risida qaror qabul qilishlari uchun muhim hisoblanadi. Turli xil moliyaviy ko‘rsatkichlar individual investorlar, institutsional investorlar va professional tahlilchilar tomonidan qo‘llaniladi. Odatda, moliyaviy koeffitsiyentlar to‘rt toifaga bo‘linadi:



1-rasm: Moliyaviy ko‘rsatkichlar tasnifi[1]

Odatda, kompaniya haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun koeffitsiyentlar birgalikda qo‘llaniladi. Muayyan koeffitsiyentdan bir nechta kompaniyalar uchun taqqoslash vositasi sifatida foydalanish kamroq xavfli yoki eng jozibadorligini aniqlashi mumkin. Bundan tashqari, o‘tmishdagi natijalarni ko‘rish uchun investor bugungi kundagi ma’lum ma’lumotlar uchun koeffitsiyentlarni xuddi shu koeffitsiyentlar olingan o‘tgan yillardagi natijalar bilan solishtirishi mumkin. Investorlar koeffitsiyentlarni turli yo‘llar bilan ishlatishlari mumkin. Umuman olganda, moliyaviy koeffitsiyentlar kompaniyani turli tomonlardan har tomonlama ko‘rishni ta’minlaydi va investorlarga potentsial imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Rentabellik kompaniyaga investitsiya kiritishda tahlil qilinadigan asosiy jihatdir. Buning sababi shundaki, har doim ham yuqori daromadlar yuqori daromad yoki yuqori dividendlarni yuzaga keltiravermaydi. Rentabellik koeffitsiyentlari kompaniya qancha foyda keltirishi va bu foyda kompaniya haqidagi boshqa muhim ma’lumotlar bilan qanday bog‘liqligi haqida tushuncha berish uchun ma’lum bir vaqtdagi ma’lumotlardan foydalanadi.

1 Muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu koeffitsiyentlar biznesning vaqt o‘tishi bilan uning daromadlari, operatsion xarajatlari, aktivlari va aksiyadorlik kapitaliga nisbatan daromad olish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.



2-rasm: Rentabellikning asosiy koeffitsiyentlari[2]

Sarmoyadorlar tomonidan rentabellikni tezkor tekshirish uchun foydalaniladigan yetakchi koeffitsiyentlardan biri sof foyda koeffitsiyentidir.

Sof foyda = Foyda/Daromad

Ushbu koeffitsiyent kompaniyaning foydasini uning daromadiga nisbati bilan aniqlanadi. Umuman olganda, kompaniyaning foyda marjasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shuncha yaxshi. 1 yoki 100% sof foyda marjasi kompaniya o‘zining barcha daromadlarini sof daromadga aylantirayotganini anglatadi. Foyda marjasi darajasi turli sohalar va vaqt oralig‘ida farq qiladi. Shunday qilib, kompaniyaning sof foyda marjasini sanoat va kompaniyaning tarixiy o‘rtacha ko‘rsatkichlariga nisbatan ko‘rib chiqish foydali bo‘ladi. Sof foyda marjasi bilan siz diqqat qilishingiz kerak bo‘lgan bir nechta qizil bayroqlar bo‘lishi mumkin. Masalan, yil sayin kamayib borayotgan foyda marjasiga ega bo‘lgan kompaniya bozor sharoitlarining o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi yoki xarajatlarning oshishi bilan shug‘ullanishi mumkin. Daromad darajasi juda past bo‘lgan kompaniya keng ko‘lamli strategik tashabbuslar orqali xarajatlarni kamaytirishga e’tibor qaratishi mumkin. Sanoatga nisbatan yuqori rentabellik ko‘lamli iqtisodlarda yoki, ehtimol, uzoq muddatda barqaror bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan ba’zi buxgalteriya sxemalarida muhim ustunlikni ko‘rsatishi mumkin.

Likvidlik koeffitsiyentlari

Likvidlik kompaniyaning qarzlarini qanchalik tez to‘lashi bilan bog‘liq. Bu kompaniya aktivlari xarajatlarni qanchalik qoplashini ko‘rsatadi. Likvidlik koeffitsiyentlari investorlarga kompaniyaning operatsion samaradorligi haqida tasavvur beradi. Ular, shuningdek, kompaniya qo‘shimcha aktivlarni sotib olish yoki kreditorlarni qaytarish uchun naqd pulni qanchalik tez va oson ishlab chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ehtiyoj favqulodda vaziyatda yoki oddiy biznes jarayonida paydo bo‘lishi mumkin.Asosiy likvidlilik koeffitsiyentlaridan biri joriy likvidlilik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti = Joriy aktivlar/Joriy majburiyatlar

Joriy aktivlar va joriy majburiyatlar kelgusi 12 oylik faoliyatni ifodalaganligi sababli, bu koeffitsiyent firmaning qisqa muddatli likvidligi haqida tushuncha berishi mumkin. Yuqori joriy likvidlilik koeffitsiyenti ijobiy hisoblanadi, chunki u joriy aktivlar joriy majburiyatlarni necha marta qoplashini ko‘rsatadi. Biroq juda yuqori bo‘lsa, kompaniya o‘zining ortiqcha naqd pulidan o‘sish uchun foydalanmayotganligini ko‘rsatishi mumkin.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi

To‘lov qobiliyati koeffitsiyentlari

To‘lov qobiliyati koeffitsiyentlari, shuningdek, leverage koeffitsiyentlari sifatida ham tanilgan, investorlar tomonidan kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini qanchalik yaxshi bajara olishini ko‘rish uchun foydalaniladi. Korxona umumiy qarzini jami aktivlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyent, korxona umumiy qarzini korxona kapitaliga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyent, foizlarni qoplash koeffitsiyenti, sof daromadni jami majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar to‘lov qobilyatining asosiy koeffitsiyentlari hisoblanadi. Korxona umumiy qarzini jami aktivlarganisbati va korxona kapitaliga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar – bu kompaniyaning qarz darajasini tezkor tekshirish uchun tez-tez ishlatiladigan ikkita nisbat. Ular balansdagi aktivlar va o‘z mablag‘lari toifalariga nisbatan qarzlarning qanday to‘planishini ko‘rib chiqadilar. Ular investorlarga kompaniyaning moliyaviy ahvoli haqida tushuncha beradi, chunki u potentsial qarz yuki bilan bog‘liq.

Jami qarzning jami aktivlarga nisbati kompaniyaning qancha qismi aksiyadorlik kapitali emas, balki qarz hisobidan moliyalashtirilishini aniqlash uchun ishlatiladi. U quyidagicha hisoblanadi:

Koeffitsiyent = (Qisqa muddatli qarzlar + Uzoq muddatli qarzlar)/Jami aktivlar

Ushbu ko‘rsatkich qancha kichik bo‘lsa shuncha yaxshi, chunki bu kompaniya o‘zining umumiy aktivlariga nisbatan kamroq qarzga ega ekanligini anglatadi. Aktivlar ulushi qanchalik ko‘p bo‘lsa, kompaniyaning to‘lov qobiliyati shunchalik yaxshi bo‘ladi. Kreditorlar odatda kompaniyaning aktivlari bo‘yicha birinchi da’voga ega bo‘ladilar, agar uni tugatish kerak bo‘lsa. Qarzning aktivlarga nisbatan pastroq nisbati odatda kamroq xavfni ko‘rsatadi.

Baholash koeffitsiyentlari

Baholash koeffitsiyentlaridan kompaniyaning investitsiya jozibadorligini tahlil qilish uchun foydalanish oson. Ushbu ko‘rsatkichlar, birinchi navbatda, kompaniyaning ochiq aksiyalari narxini o‘z ichiga oladi. Ular investorlarga qimmatli qog‘ozlar bozorga nisbatan qanchalik arzon yoki qimmat ekanligi haqida tushuncha berishi mumkin. Umuman olganda, koeffitsiyent darajasi qanchalik past bo‘lsa, kompaniyaga investitsiyalar shunchalik jozibador bo‘ladi. Ko‘pincha, tahlilchilar nisbiy qiymat o‘lchovi sifatida baholash koeffitsiyentining o‘zaro nisbatini qabul qiladilar. Ommabop baholash koffitsiyentlaridan biri aksiya narxining daromadlarga nisbati bilan aniqlanuvchi koeffitsiyenti hisoblanadi. U kompaniyaning aksiyalari narxini uning daromadlari bilan har bir aksiya bo‘yicha taqqoslaydi. Bu investorlarga aksiyalarning o‘sish potentsialini aniqlashga yordam beradi. Ushbu koeffitsiyent quyidagicha hisoblanadi:

Koeffitsiyent = Har bir aksiyaning bozor qiymati/har bir aksiyadan keladigan daromad

P/E koeffitsiyent qimmatli qog‘ozlar kam baholangan yoki ortiqcha baholanganligini ko‘rsatishi mumkin.

Moliyaviy koeffitsiyentlar kompaniyaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini tushunishning ajoyib usuli hisoblanadi. Koeffitsiyentlar kompaniya faoliyatining turli ko‘rinishlarini taqdim etishi mumkin. Keng qamrovli ko‘rinishga ega bo‘lish uchun faqat bitta emas, balki turli koeffitsiyentlardan foydalanish yaxshidir. Ushbu koeffitsiyentlar, shuningdek, qo‘shimcha tadqiqotlar natijasida olingan boshqa ma’lumotlar investorlarga sarmoya kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishda yordam beradi.

Ikkinchi yondashuv – qimmatli qog‘ozlar indekslarini baholash

Ikkinchi yo‘nalishning asosi – qimmatli qog‘ozlar bozori indekslarining dinamikasi bo‘lib, u kompaniyaning qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan talab va taklifni, ayirboshlash qiymati dinamikasini tahlil qilishni va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori indeksi qimmatli qog‘ozlar portfeli qiymatining o‘sishini o‘lchash vositasidir. Ba’zida indeks shunchaki o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichdir, lekin odatda bu joriy indeks qiymati ba’zi bir bazaviy yil indeks qiymatiga – asosiy bozor qiymatiga bo‘lingan nisbatdir. Qimmatli qog‘ozlar bozori dinamikasini tahlil qilish uchun bugungi kunda ishlatiladigan eng mashhur indekslar Dow Jones Industrial Index (DJIA), Standard & Poor’s (S&P 500) indeksi hamda NASDAQ indekslari hisoblanadi.

Indekslar nafaqat fond bozorini vaqt o‘tishi bilan qanday o‘sganligini ko‘rish uchun ishlatilishi mumkin, balki u turli sektorlarni yoki hatto turli qimmatli qog‘ozlarni bir biri bilan oson taqqoslash imkonini beradi. Indekslar orqali investitsiya kiritish uchun katta hajmdagi qimmatli qog‘ozlarni o‘rta va kichik hajmdagi aksiyalar bilan taqqoslash, aksiyalarni obligatsiyalar bilan taqqoslash mumkin. Indekslarning yana bir afzalligi shundaki, ular o‘rtasidagi korrelyatsiyani ko‘rish oson. Investorlar riskni kamaytirish uchun bir-biri bilan o‘zaro ijobiy va salbiy korrelyatsiga ega turli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish orqali kamaytirishlari mumkin. Shunday qilib, bir qimmatli qog‘ozga kiritilgan investitsiya oshganda, ikkinchisi pasayadi va aksincha. Masalan, aksiyalar va obligatsiyalar o‘rtasida salbiy korrelyatsiya mavjud.

Biroq O‘zbekistondagi fond bozorining holati hali bunday tahlilni amalga oshirishga to‘liq tayyor emas, shuning uchun uni biznesning investitsiya jozibadorligini baholash jarayonida qo‘llash qiyin. Milliy indekslar tizimini yaratish va tahliliy ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha urinishlar investitsiya sohasida konsalting xizmatlariga ixtisoslashgan xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchi yondashuv – investitsiya jozibadorligini har tomonlama baholash

Bu usul investitsion jozibadorlikning har bir komponentini (boshqaruv, marketing, ishlab chiqarish va h.k.) tavsiflashga yordam beradi. Integratsiyalashgan yondashuv kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uchun yanada murakkab va ko‘p qirrali, birinchi navbatda, u iqtisodiy hisob-kitoblar va ekspert xulosalarini o‘z ichiga oladi, shuning uchun korxonani har tomonlama tavsiflaydi. Ammo bir nechta obyektlar o‘rtasida tanlov qilishda ushbu yondashuvdan foydalanish yaxshiroqdir. Birinchi bosqichda keraksiz variantlarni istisno qilish yoki oddiygina investitsion jozibadorlik darajasi bo‘yicha reyting qilish uchun oldingi ikkita yondashuvdan foydalanish ancha oson. Albatta, agar kompaniya keyingi rivojlanish uchun o‘zining investitsion jozibadorlik darajasini baholasa, integratsiyalashgan variant eng mos keladi.

Demak, korxona investitsiya jozibadorligini baholash quyidagi bosqichlardan iborat:



3-rasm: Korxonaning investitsiya jozibadorligi darajasini aniqlash bosqichlari[3]

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, korxona investitsiyalarini baholashning yagona va to‘liq ishonchli versiyasi mavjud emas. Usulni tanlash jarayonida ko‘plab omillarni hisobga olish kerak, jumladan: maqsadlarni aniqlash, ishonchli ma’lumotlarning mavjudligi, biz va hokazo. Biz turli ko‘rsatkich tizimlari mavjudligini allaqachon bilib oldik, ulardan foydalanishimiz mumkin. Ushbu tizimlar kompaniyalarni baholash yondashuvlariga qarab o‘zgaradi, lekin ular hali ham tashkilotni boshqalar bilan yoki standartlar bilan taqqoslaganda tavsiflaydigan umumiy investitsiya jozibadorligini yaratishi kerak. Baholashning har qanday yondashuvidan foydalanib, atrof-muhit omillarining bilvosita (iqtisodiyot, siyosiy vaziyat va boshqalar) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bozor sharoitlari) kompaniyaga ta’sirini, uning investitsion jozibadorligini o‘rganish, korxona uchun imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash uchun ularni tahlil qilish kerak. Investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash ham investorlar, ham korxona uchun juda muhimdir. Ular kompaniyaning bozordagi mavqeyini, uning kuchli va zaif tomonlarini tushunishlari kerak, ular qanday qadamlar qo‘yish kerakligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента: В 2 т. – К.,2001.
2. Fyliuk, H., Akulenko, K. (2018). Methodological principles of evaluation of investment attractiveness of the enterprise. Baltic Journal of Economic Studies, 4(5), 387-395. Https://doi.org/10.30525/2256-0742/2018-4-5-387-395
3. Aleksenko I.I., Gres M. S. Uzagalnennya teoretiko-metodichnix pidxodiv do otsinki investitsiynoї privablivosti pidpriєmstva// Yekonomika i suspilstvo. – 2017. Vipusk № 9. – S. 952-955. URL: http://www.economyandsociety.in.ua/journal/9_ukr/164.pd
4. B. Y. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –2017-y. 454-b.
5. B. Y. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –2017-y. 454-b.
6. Anatoliy Goncharuk The investment attractiveness evaluation: Methods and measurement features, Series: Polish Journal Of Management Studies, Vol. 7, 2013.

3 Anatoliy Goncharuk The investment attractiveness evaluation: Methods and measurement features, Series: POLISH JOURNAL OF MANAGEMENT STUDIES, Vol. 7, 2013.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MAMLAKATNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SANOAT 4.0 NING ROLI: TAHLIL VA NATIJALAR

Xujaxonova Sitora Baxtiyor qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, “Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat 4.0 ning ahamiyati va ta’siri ochib berilgan. Iqtisodiy rivojlanish, xususan, sanoat tarmoqlarida innovatsiya muhitini rivojlantirishdagi majjud muammolar chuqur o‘rganilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish holati, uning yalpi ichki mahsulot va eksportdagi ulushi hamda hududiy sanoat bo‘yicha tahlil amalga oshirilgan. Shuningdek, sanoatini barqaror rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muhim sanalgan yo‘nalishlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat 4.0, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, ishlab chiqarish, texnologiya.

Abstract: This article explains the importance and impact of Industry 4.0 on the socio-economic development of the country. The existing problems in economic development, especially in the development of the innovation environment in industrial sectors, have been studied in depth. The analysis of the state of industrial production by type of economic activity, its share in GDP and exports, as well as by regional industry. It also proposes important areas for the development of promising strategies for sustainable development of the industry.

Key words: industry 4.0, digital economy, socio-economic development, innovation, manufacturing, technology.

Аннотация: В этой статье объясняется важность и влияние Индустрии 4.0 на социально-экономическое развитие страны. Существующие проблемы в развитии экономики, особенно в развитии инновационной среды в отраслях промышленности, глубоко изучены. Проведен анализ состояния промышленного производства по видам экономической деятельности, его доли в ВВП и экспорте, а также по отраслям региона. Также предлагаются важные направления для разработки перспективных стратегий устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: индустрия 4.0, цифровая экономика, социально-экономическое развитие, инновации, производство, технологии.

KIRISH

O‘tgan COVID-19 global pandemiyasi nafaqat Xitoy iqtisodiyoti, balki global iqtisodiyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ya’ni ko‘plab davlatlarda ayrim yirik sanoat korxonalari va kichik biznes subyektlari faoliyatini vaqtincha to‘xtatishga, ko‘plab xodimlar masofadan ishlash rejimiga o‘tdi. Bunda tabiiyki, mahsulot ishlab chiqarish va mehnatga haq to‘lash miqdorarida kamayish tendensiyasi kuzatildi. Bu esa dunyo bo‘ylab tovar aylanmasining qisqarishiga va sun’iy inflatsiyaning qisman o‘sishiga olib keldi.

Ammo yuqoridagilar global pandemiya oqibatida o‘rnatilgan cheklovlarning iqtisodiyotga nisbatan salbiy ta’siri sifatida masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan esa mazkur pandemiya rivojlangan mamlakatlar qatorida ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ham raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuviga olib keldi. Xususan, bank xizmatlari, to‘lovlar, elektron savdo, xizmatlar va logistika sohalari shular jumlasidandir.

Boshqacha aytganda, raqamlashtirish jarayonlari sust bo‘lgan mamlakatlarda pandemiya ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar hamda munosabatlarni raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va talabni oshishiga olib kelib, ushbu jarayonlarni raqamlashtirishni tezlashtirish va jadallashuviga olib keldi.

Ammo shuning aholida ta’kidlash lozimki, biror bir jarayonning tarkibiy o‘zgarishi uchun albatta, qaysidir omillar sabab bo‘ladi. Iqtisodiyotning, xususan, sanoatni raqamlashtirishda raqamli texnologiyalar asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, shu texnologiyalardan samarali foydalana oladigan malakali personallar va boshqa omillarning o‘zaro integratsiyasi asosida raqamli tizim tashkil etiladi.

Demak, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish bir emas, bir necha omillar orqali amalga oshiriladi. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, yangi raqamli texnologiyalar va mos sharoitlarda joylashtirishni tashkil

etish katta kapitallarni talab etadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasini raqamlashtirish yangi innovatsion qarashlarni talab etadi.

Bularga mos ravishda bugungi iste'molchilarning talablari ham individuallashib, o'ziga xoslik darajasi oshib bormoqda. Bunday sharoitda korxonalar bozordagi iste'molchilarni egallashi uchun faqat narx diskriminatsiyasidan emas, balki o'z mahsulotlarining naflilik darajasini oshirish orqali amalga oshirish lozim bo'ladi.

Albatta, barqaror va yuqori darajada iqtisodiy o'sishga erishishda mamlakatda iqtisodiy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat buning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni [1] ana shunday iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur strategiyada belgilab berilgan vazifalarni, jumladan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat 4.0 ning ta'sirini baholash va uni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi. O'z navbatida bularning barchasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiya iqtisodiy farovonlikning ko'p o'lchovlarida, masalan, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim va hokazolarda ishtirok etishni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir [2]. Ya'ni to'rtinchi sanoat inqilobi avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bilan birgalikda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga asoslangan bo'lib, texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi [3].

Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, innovasiyalar va unumdorlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin [4].

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, sanoat tuzilmasi tarkibini raqamli texnologiya innovasiyasi asosida takomillashtirish aholini sifatli sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini oshiradi [5]. Jumladan, sanoat 4.0 ning rivojlanishi bandlik darajasini 3 foiz va yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini 5 foizga oshishiga olib kelmoqda [6].

Bundan tashqari, sanoat 4.0 ning rivojlanishi texnologik axborotda mavjud bo'lgan mintaqaviy to'siqlarni kesib o'tish, xalqaro hamkorlik dasturini ishga tushirish va markazlashtirilmagan infratuzilmani qurish uchun zamin yaratadi [7].

Bundan kelib chiqadiki, sanoat 4.0 iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratishni oshiribgina qolmay, mahsulot sifatining ham yaxshilanishiga olib keladi. Real sektor korkonalari ishlab chiqarish jarayonlarining mobilligini va bozor talabiga yuqori darajada moslashuvchanligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, dinamik qatorlar, analitik taqqoslash, mantiqiy fiklash va guruhlash usullar keng qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi elektron savdo, to'lov, ta'lim, xizmat ko'rsatish, moliyaviy va davlat xizmatlari sektorlarda kuzatilmoqda.

Ammo mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirishda sanoatga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki, har bir mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda asosiy tarmoq va qo'shimcha qiymat yaratishda eng yuqori o'rinda turuvchi bu aynan sanoatdir.

Iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy innovasiyalarning turli xil shakllari keltirish mumkin:

- yangi tovar yoki xizmatni joriy etish;
- ishlab chiqarishning yangi usulini joriy etish;
- yangi bozorning ochilishi;
- xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning yangi ta'minot manbasini egallash;
- har qanday sohada yangi yo'nalishni ochish va boshqalar.

Zero, mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovasion o'zgarishlarni amalga oshirish sur'atlarini jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamalakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki chuqur, samarali innovasion strategiyani amal qilishi mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiyot innovasion shakllanishi eng avvalo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tarmoqlar hisobiga yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xom ashyo eksport

qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag‘larining tejalishiga, aholi bandligining oshishiga sabab bo‘ladi. Ushbu omillar o‘z navbatida innovasiya strategiyasini amalga oshirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlanishiga olib keladi. Biroq bugungi fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa, jahon bozorida ro‘y berayotgan innovasion o‘zgarishlar erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolishga imkon bermaydi.

Innovasion jarayonni amalga oshirishdan maqsad investitsiyalashtirish-ning sifat o‘zgarishini ta’minlagan holda subyektlar olayotgan foyda o‘sib borishiga erishishdan iborat. Chunki har qanday iqtisodiy jarayon ishlab chiqarish jarayonidagi ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiy mahsulotlarga aylantirish bilan bog‘liq.

Umuman olganda, bularning barchasi insoniyat tarixida amalga oshirilgan sanoat inqiloblari natijalari maxsuli desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugunga qadar 4 ta sanoat inqilobi ro‘y berdi: 1784-yil, 1870-yil, 1969-yil va hozirgi davr (1-rasm).



1-rasm: Sanoat inqiloblari tasnifi[1]

Ayni davrda rivojlanib, tobora kengayib borayotgan raqamli iqtisodiyotni to‘rtinchi sanoat inqilobi deya ta’kidlanmoqda. Garchi, u odatda o‘z-o‘zidan sanoat dasturlari sifatida tasniflanmaydigan sohalar bilan bog‘liq bo‘lsa-da. Masalan, aqlli uy, aqlli shahar, aqlli ferma.

Sanoat internetining asosi bu tizimlarning integratsiyasi va real vaqt rejimida mavjudligi hamda korxona bo‘ylab boshqarilishidir. Ushbu innovasion jarayon raqamli yechimlar va ilg‘or texnologiyalar paydo bo‘lishi tufayli amalga oshirildi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sanoat buyumlari interneti;
- Katta ma’lumotlar;
- Bulutli texnologiyalar;
- Rivojlangan robototexnika;
- Integrallashgan virtual tarmoqlar.

Ushbu texnologiyalar qiymat va ta’minot zanjiri bo‘ylab o‘zaro bog‘liq kompyuter dasturlari orqali turli xil tizimlar va jarayonlarni birlashtirish orqali ishlab chiqarishning raqamli o‘zgarishini boshqarishga yordam beradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirzayoyev “Bugungi o‘zgaruvchan sharoitda iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning eng samarali yo‘li bu – ichki imkoniyatlarni ishga solish, import bo‘layotgan ayrim mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish va sanoatni yanada rivojlantirish. Bu milliy iqtisodiyotimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak”, deb ta’kidladi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, qishloq xo‘jaligidan sanoat ishlab chiqarishiga o‘tish, dastlab XVIII asrda Angliyada boshlangan hamda keyinchalik dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlariga tarqalgan va bu sanoat inqilobi sifatida ifodalanadi.

Albatta, bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan iqtisodiyotdan xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan iqtisodiyotga o‘tish ancha silliq kechdi. Buni barcha rivojlangan mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatib turibdi. Ammo bu jamiyatda bandlik va mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida katta o‘zgarishlarga olib keldi.

Zero, jahon iqtisodiyotida iste’mol va noiste’mol tovarlarining uchdan ikki qismi aynan sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda YAIMning qariyb 47,8 foizi va jami bandlikning 22,4 foizi aynan sanoat tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri keladi [8]. Xalqaro tajribalar sanoat rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi, aholi turmush farovonligini ta’minlash va bandlik muammolarini bartaraf etishda ham muhim tarmoq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, 2022-yilda respublika sanoat tarmog‘ida 3170,1 ming kishi (1883,3 ming nafari sanoatda va 1286,8 ming nafari qurilishda) band bo‘lib, bu jami bandlikning 23,4 foizini tashkil etadi. Shuningdek, 2017-2022-yil-

1 Ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

larda sanoat (qurilishni qo‘shgan)da yillik o‘rtacha bandlik 3648,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,05 baravarga ko‘paygan. Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning boshqa sohalarida, xususan, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 2022-yilda 3502,1 ming kishi band bo‘lgan bo‘lsa, bu 2017-yilga nisbatan 0,96 ga kamaygan, xizmatlar sohasida esa 6866,7 ming kishi band bo‘lib, 2017-yilga nisbatan 1,04 baravarga oshgan.

2022-yilda mamlakatimizning jami sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishida yuqori ulush Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Jumladan, Toshkent shahrida 107267,6 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 106,0 foizni tashkil etdi. Toshkent viloyatida esa 93002,2 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 105,1 foiz, Navoiy viloyatida 84144,6 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 105,7 foizini tashkil etgan.

So‘ngi yillarda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi jadal oshib bormoqda. Zero, Prezidentimiz “Yangi bozorlarga kirish uchun sanoatga xalqaro standartlarni keng joriy qilish ham zarur. Misol uchun, 2019-2022-yillarda to‘qimachilik yo‘nalishidagi 2 mingta korxona xalqaro sertifikat olgani hisobiga ularning eksporti 1,5 barobarga oshgan” [9] deb ta’kidladi.

2022-yilda respublika bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 42071,6 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan, 16610,6 mln. AQSH dollarini eksport va 25461,0 mln. AQSH dollarini import tashkil etadi. 2020-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 116,0 foiz, eksport 110,0 foiz va import 120,4 foizga o‘sgan.

Tashqi savdo aylanmasining 15867,8 mln. AQSH dollari, shundan 5407,6 mln. AQSH dollar eksport va 10460,2 mln. AQSH dollar import MDH davlatlari bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 26203,7 mln. AQSH dollari, eksport hajmi 11203,0 mln. AQSH dollar va import hajmi 15000,8 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

Shuni alohida qayt etish kerakki, 2022-yildagi eksport hajmining 59,9 foizini tovarlar, 15,3 foizini xizmatlar va 24,8 foizini oltin tashkil etadi. Ushbu eksport tarkibining 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’ati mos ravishda tovarlar 136,5 foiz, xizmatlar 127,1 foiz va oltin 70,8 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval: 2021-2022-yillar bo‘yicha respublikaning eksport va importi tarkibi[2], mlrd. AQSH dollarida

T/r	Tashqi savdo aylanmasi	2021-y.	2022-y.	O‘sish sur’ati, %	Jamiga nisbatan, %
1.	Eksport:	15102,3	16610,6	110,0	100,0
-	tovarlar	7292,8	9953,4	136,5	59,9
-	xizmatlar	2005,0	2547,4	127,1	15,3
-	oltin	5804,4	4109,8	70,8	24,7
2.	Import:	21153,8	25461,0	120,4	100,0
-	tovarlar	19932,4	23724,2	119,0	93,2
-	xizmatlar	1221,4	1736,8	142,2	6,8

Jahondagi globallashuv sharoitida, yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hisobiga eksportni ko‘paytirishga erishish hamda samaradorligini baholash borasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, sanoatning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni iqtisodiy-matematik, ekonometrik, statistik jihatdan baholash, mezonlarini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini modellashtirish va o‘sish (kamayish) tendensiyalarini real prognozlash hamda moddiy xarajatlarni qisqartirishning optimal variantlarini topish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotini, xususan, sanoatini barqaror rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi strategiyalarni ishlab chiqishda quyidagilarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

- sanoat tarmoqlarida ro‘y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va xodisalarning ta’sirini iqtisodiy-matematik usullar orqali miqdoriy baholash asnosida ilmiy yondashuvga asoslangan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;
- tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish va chet el investrlariga qo‘shimcha ish o‘rinlarini ko‘paytirish kelishuvi bilan ularga yanada keng imkoniyat va erkinliklar berish;

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

- keng tarmoqli sanoat klasterlari faoliyatini rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, klaster va davlat xaridi tizimini tashkil etish va shu orqali aholining bandligi hamda daromadini oshirish;
- sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Shu boisdan, biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralarni kuchaytirish;
- kelgusida mamlakat sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan eng istiqbolli tarmoqlarga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasini takomillashtirish va samarali amalga oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz YAIMning shakllanishida yuqori ulushga ega bo‘lgan sanoatni va tarmoqdagi investitsion loyihalar tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga e’tiborni kuchaytirish, eksport va investitsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy-moliyaviy erkinliklarni kengaytirish, xususiy mulk huquqi daxlsizligini qat’iy ta’minlash, shuningdek, investorlar huquqini himoya qilishda institutsional ta’sirlarni va natijadorlikka e’tiborni kuchaytirish lozim.

Shuningdek, har bir tadbirkorlik subyektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda har tomonlama tejamkor zamonaviy texnologik yutuqlarni o‘zlashtirish imkoni yaratiladi, pirovardida yuqori sur’atlarda iqtisodiy o‘sish ta’minlaydi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

Ahamiyatlisi shundaki, bunday rivojlanish ta’minot, qiymat, yetkazib berish va is’temol zanjirining integratsion induviduallashishi natijada aholining turli ehtiyojlarini mos ravishda qondirish hamda uning turmush tarzining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. https://lex.uz
2. Michael Spence. Government and economics in the digital economy // Journal of Government and Economics. Volume 3, Autumn 2021, 100020. https://doi.org/10.1016/j.jge.–2021.100020
3. Nasimov D. A. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 4, iyul-avgust, 2020-yil.
4. Ilyosov A. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli ishlab chiqarish va sanoat mahsulotlari eksportidagi ayrim muammolar // Iqtisod va moliya, –2020, 3(135), 179 b.
5. Dan Ma, Qing Zhu. Innovation in emerging economies: Research on the digital economy driving high-quality green development // Journal of Business Research. Volume 145, June 2022, Pages 801-813. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.–2022.03.041
6. Luyanda Dube Williams. Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and information systems // International Journal of Intelligent Networks. Volume 2, 2021, Pages 122-129. https://doi.org/10.1016/j.ijin.2021.09.002
7. Wenrong Pan, Tao Xie, Zhuwang Wang, Lisha Ma. Digital economy: An innovation driver for total factor productivity // Journal of Business Research. Volume –139, February –2022, Pages –303-311. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.–2021.09.061
8. UNIDO. Pocket Guide to World Statistics – 2020. SeriesV, №42. p.1-19.
9. https://uza.uz/uz/posts/sanoat-kooperaciyasi-va-mahalliylashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257?q=%2Fposts%2Fsanoat-kooperaciyasi-va-mahalliylashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257
10. https://stat.uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA RAQAMLI XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Xalimov Shaxboz Xalimovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlkatimiz qishloq hududlarida davlat xususiy sherikchilik asosida xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga oid muammolar, tizim faoliyati mexanizmini takomillashtirish, raqamli xizmat ko‘rsatish tizimi inftatuzilmasini joriy etish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksaltirish orqali aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli xizmat, “aqlli qishloq”, raqamli qishloq xo‘jaligi, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, diversifikatsiya, texnologiya, axborot.

Abstract: In this article, in the context of the digital economy, problems related to improving the provision of services on the basis of public-private partnerships in rural areas of our country are considered, improving the functioning mechanism of the system, introducing infrastructure, a digital service system, improving the quality of services provided, and developing proposals and recommendations.

Key words: digitalization, digital service, “smart village”, digital agriculture, public-private partnership, infrastructure, diversification, technology, information.

Аннотация: В данной статье в условиях цифровой экономики рассматриваются проблемы, связанные с совершенствованием оказания услуг на основе государственно-частного партнерства в сельской местности нашей страны, совершенствованием механизма функционирования системы, внедрением инфраструктуры проведена система цифрового обслуживания, повышение качества предоставляемых услуг, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: цифровизация, цифровой сервис, “умная деревня”, цифровое сельское хозяйство, государственно-частное партнерство, инфраструктура, диверсификация, технологии, информация.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida jahon xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim sektorlardan biri hisoblanadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan dunyo aholisining 40% dan ortig‘ini ish bilan ta’minlaydi va 7 milliardga yaqin odamni oziq-ovqat mahsulotlari yetkizib berish bilan o‘ziga xos o‘rin egallaydi [9]. Ammo mavjud imkoniyatlar bilan taqqoslanganda qishloq xo‘jaligi sohasida hozirgi davrda bir qator muammolar xususan, zamonaviy innovatsion, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi, qishloq hududlarning infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda yetishtirilgan mahsulotlarning mahalliy, jahon bozorlariga chiqishidagi muammolar mavjuddir. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “…yagona integratsion platformani axborot xizmatlari bilan boyitish, jumladan, kadastr, ob-havo ma’lumotlari, arizalarni elektron rasmiylashtirish tizimi, kreditlash va subsidiyalash, agroxizmatlar, agroskouting xizmati, fitosanitariya xizmatlari, monitoring xizmatlari va boshqa qishloq xo‘jaligi jarayonlarini kuzatish tizimini joriy etish” [1]. deb ta’kidlab o‘tganliklari qishloq joylarda ko‘rsatiladigan xizmatlarni diversifikatsiya qilish, infratuzilmasini rivojlantirish, uning qonunchilik bazasini takomillashtishga yo‘nalish bermoqda. Bu esa hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning qishloq joylarda tatbiq etish natijasida mobil pul va elektron tijorat platformalari kabi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, vaqt tejalishi, ortiqcha xarajatlarni oldining olish kabi imkoniyatlar yaratdi. O‘z navbatida, raqamli texnologiyalar rentabellikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, bozorga kirishni oshirish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Q. J. Mirzayev, M. Q. Pardayev, O. M. Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo‘yicha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo‘llari qarab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalariga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari, faoliyat mazmuni va ularni tashkil etish yo‘llari tahlil etilgan [3].

S. B. Boboqulov, G‘. O. Akramovlarning “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo‘llari” nomli ilmiy maqolasida O‘zbekistonda elektron biznes faoliyatini ahamiyati, uni rivojlantirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, elektron biznes faoliyatini tashkil etish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Shuningdek, elektron biznes faoliyatini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

G. F. Quvatovaning “Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohasida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan qarashlar ko‘rib chiqilgan hamda bugungi kunda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish muammolari atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, aholi turmush darajasini yuksaltirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan [5].

F. U. Begaliyev, O. M. Saydullayevlarning “Qishloq xo‘jaligini (“Aqlli” qishloq xo‘jaligi)ga o‘tkazishda raqamli texnalogiyalarning o‘rni” nomli ilmiy maqolasida Qishloq xo‘jaligida raqamli texnalogiyalardan foydalanish ishlarning sifatiniva unumdorlik darajasini yetarlicha oshirishi, bir qatorda mahsulotlarni yetishtirish hamda tayyorlashga ketadigan ishchi kuchi va sarf xarajatni sezilarli darajada kamaytirishi, “Aqlli qishloq xo‘jaligi” raqamli platformasi orqali aholi turmush faravonligiga ta’sir qilish haqida izlanishlar olib borilgan bo‘lib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [6].

Z. K. Raximovning “Qishloq joylarda servis xizmat ko‘rsatishni klaster asosida rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida qishloq joylarda servis xizmat ko‘rsatishni klaster asosida rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari yoritib berilgan. Ma’lumotlar muallif tomonidan mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida shakllantirilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqoti jarayonida statistik va iqtisodiy tahlil, qiyoslash, guruhlash, tanlab kuzatish hamda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirish orqali rivojlantirish ko‘p tomonlama davlat xususiy sherikchilik (DXSH) asosida shakllantirish muhim hisoblanib, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan yetarli darjada tadqiqotlar olib borilmagan soha rivojiga ta’sir etmoqda.

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirishda DXSH dasturining muhimligini ta’kidlaydilar. Masalan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotida ta’kidlanishicha, DXSH dasturlari asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq joylarda kapitallashuvi qimmat hisoblanuvchi raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish, qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatish texnologiyalarini qo‘llashni cheklovchi moliyaviy va texnik to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beradi [6].

Malakatimizda raqamli xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, raqamlashtirish jarayonini bosqichma bosqich amalga oshirish, mavjud imkoniyatlarimizdan samarali foylanish orqali xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishni tashkil etish natijasida yildan yilga o‘sib borishini kuzatishimiz mumkin. Buning sabalari sifatida mamlakatimiz tomonidan olib boriladigan oqilono siyosat sababli bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston–2030” Strategiyasida “savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish” [2] ustuvor maqsad belgilab berilganligi xizmat ko‘rsatish sohasini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, “start-up”, “nau-xau”lardan keng foylanish orqali xizmat ko‘rsatishni intensive o‘sihsiga erishishimiz lozimligini belgilab bermoqda hamda olib borilgan oqilono islohotlar amaliyotda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari importi (ming. AQSH. doll.)

Nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Telekommunikatsiya xizmatlari	51 390,1	34 239,4	56 312,5	94 760,6	103 844,8	138 761,3
Kompyuter dasturlash xizmatlari	-	7 352,5	6 808,2	13 655,0	8 515,6	14 756,0
Boshqa kompyuter xizmatlari	5 447,2	2 547,8	5 769,1	6 283,8	6 206,4	7 792,6
Axborot agentligi xizmatlari	-	399,7	186,9	2 729,1	3 348,9	52 619,1
Boshqa axborot xizmatlari	2 899,1	3 100,8	3 510,5	14 845,2	20 624,1	25 263,7

1-jadval ma’lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki 2017-yilda respublikamizda AKT xizmatlari importida telekommunikatsiya xizmatlari 51390,1 ming AQSH dollari, boshqa kompyuter xizmatlari 5447,2 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 2899,1 mimg AQSH dollarini tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu dinamika 2022-yilga kelib telekommunikatsiya xizmatlari 138761,3 ming AQSH dollari, boshqa kompyuter xizmatlari 7 792,6 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 25 263,7 ming AQSH dollariga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. shuningdek, raqamli iqtisodiyotga mamlakatimiz tomonidan alohida e’tibor berilishi natijasida kompyuter dasturlash xizmatlari 2018-yildan import qilina boshlagan bo‘lib 2022-yilga kelib uning ko‘rsatkichi ming 14 756,0 AQSH dollari hamda axborot agentligi xizmatlari 52 619,1 AQSH dollarni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki AKT sohasi mamlakatimizda rivojlanishi natijasida xizmat assortimentlarini ko‘payishi holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Buning sababi sifatida davlatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida AKT xizmatlari importi ko‘payishi bilan asoslashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda AKT xizmatlari eksport dinamikasini tahlil qilishimiz natijasida AKT xizmatlar ko‘rsatish haqida batafsil xulosa qilishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari eksporti (ming. AQSH. doll.)

Nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Telekommunikatsiya xizmatlari	143 168,7	150 592,7	156 677,1	151 749,6	156 156,3	180 491,3
Kompyuter dasturlash xizmatlari	-	806,1	701,0	5 798,6	4 778,2	56 426,5
Boshqa kompyuter xizmatlari	5 623,4	6 229,2	8 044,2	8 313,6	7 539,1	40 495,4
Axborot agentligi xizmatlari	-	-	85,3	-	-	-
Boshqa axborot xizmatlari	1 858,0	2 057,3	1 988,8	3 648,9	12 265,7	28 385,0

Bu jadval ma’lumotlari asosida 2017-yilda telekommunikatsiya xizmatlari 143168,7 ming AQSH dollari tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 180491,3 AQSH dollari miqdori oshganli, yani mamlakatimizda ushbu xizmat eksporti samarali tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Kompyuter dasturlash xizmatlari 2017-yilda eksport qilinmaganligi, aksincha bu xizmat 2018-yilda 806,1 ming AQSH dollari, 2022-yilga kelib 56426,5 ming AQSH dollari qariyb 70 barobarga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa kompyuter xizmatlari 2017-yilda 5 623,4 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilingan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 40495,4 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 2017-yilda 1858,0 ming AQSH dollari, 2022-yilga kelib 28385,0 ming AQSH dollari ko‘rsatkichida o‘sish tendensiyasiga erishgan. Ammo Axborot agentligi xizmatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi jadval ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak faqatgina 2019-yilda 85,3 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki mamlakatimizda axborot agentligi xizmatlarni ko‘rsatish jarayoni ortda qolganligini, soha faoliyatida muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu sohaga alohida e’tibor berish, axborot agentligi xizmatlari yaxshi rivojlangan xorij mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil etgan holda mamlakatimizda joriy etish, malakali mutaxassislarni jalb etishimiz, axborot agentligi xizmat ko‘rsatish sifatini yuksaltirish maqsadida moliyaviy, huquqiy, tashkiliy, institutsional qo‘llab-quvvatlashimiz lozimligini ko‘rsatmoqda [5].

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda ishlab chiqilgan normativlar, strategik dasturlar, institutsional islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholi farovonligini ta’minlash hamda rivojlangan mamlakatlar qatoriga o‘tishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Davlatimizda raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minotlar, dasturlashtirish, raqamli infratuzilmani tashkil etish jarayoni qimmat qiymatlarda bo‘lganligi, raqamlashtirishda mutaxassislarni yetishmasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanishda aholi savodxonligini yetishmasligi, raqamli texnologiyalarning aksariyati xorijdan import bo‘lishi qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirishda to‘siq bo‘ladigan muammolar hioblanadi [8]. Ammo qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatish jara-

yonini raqamlashtirish asosida xizmat ko‘rsatish sifatini yuksaltrishimiz, ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytirishimiz, qayta tiklanmas resurslardan samarali foydalanishimiz, soha rentabilligini oshirishimiz hamda korrupsiya holatlarini oldining olishimizda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olishimiz lozimligidan kelib chiqib DXSH dasturi doirasida qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib mamlakatimiz qishloq joylarida raqamli xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etishimizda DXSH dasturidan foydalanishimiz natijasida salbiy hamda ijobiy omillar mavjudligini ko‘rsatadi. Albatta, biz ushbu omillarni chuqur tadqiq etmasdan turib qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtiraolmaymiz (3-jadval).

3-jadval: Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda davlat-xususiy sheriklikning afzalliklari va kamchiliklari

Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda DXSH ning afzalliklari	Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda DXSH kamchiliklari
Tabiiy resurslarning tejalishi	Raqamlashtirish jarayonining qimmatligi
Xavf-xatarlarning kamayishi	Kiber va xakkerlik hujumlari
Xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati	Mutaxassislarning yetishmasligi
Shaffoflikni ta’minlanishi	Bilim, ko‘nikma va malakaning yetishmasligi
Vaqtni tejash	Ishsizlikning vujudga kelishi
Korrupsiyani oldining olish	Tizim faoliyatiga ishinchsizlik
Xizmat sifatini yuksaltirish	
Sarf-xarajatlarni kamayishi	
Erkin raqobat muhitini shakllanishi	
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash	

Jadval ma’lumotlaridan kelib chiqib qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda DXSH dasturini qo‘llash natijasida salbiy omillarga nisbatan ijobiy omillar ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish yuqori kapitallarni talab etganligi bois DXSH doirasida moliyalashtirish ham tadbirkorlarning ham davlatning xizmat ko‘rsatish jarayonida teng sherikchilikda faoliyatni tashkil etishiga erishishimiz mumkin [7]. Bunda, albatta, ko‘rsatiladiga va yaratiladigan xizmatlarning miqdorini ko‘payisha, sifatining yuksalishiga, aholi turmush farovonligiga erishishga shuningdek, jahon bozorlariga erkin chiqish imkonini yaratib beradi.

Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirish hududa bir qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda raqamli komponentlarni o‘zrni o‘ziga xos o‘rin tutib xizmat ko‘rsatish jarayonini samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Bular quyidagi texnologiyalrdir:

- “Big Date” texnologiyasi;
- Bulutli texnologiya;
- Optik tolali beshinchi avlod internet tarmog‘i
- “Blokcheyn” texnologiyasi;
- Suniy intellekt;
- 3D raqamli texnologiyasi;
- Zamonaviy kompyuterlar va dasturiy ta’minotlar;
- Robototexnologiya, dronlar;
- Virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyasi;
- “Aqlli shahar” texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatishni tashkil etishimiz mumkin bo‘ladi [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda qishloq joylarda raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatishni xususiyatlari quyidagilardan tashkil topadi:

Birinchidan, qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etishda davlat xususiy sherikchilikda amalga oshirish raqamli xizmat ko‘rsatishni shakllantirishda munosib o‘rin tutishi [9];

Ikkinchidan, qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda davlat tomonidan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomilashtirish orqali raqamli xizmat ko‘rsatish yanada keng miqyosda rivojlanish imkonini beradi;

Uchunchidan, raqamli xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish, yuritishda malakali mutaxassislarndan unumli foydalanish, mutaxassislarni tayyorlash, mavjudlarini xorij mamlakatlarida qayta tayyorlash orqali xizmat ko‘rsatish jarayonini yanada keng va sifatli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda;

To‘rtinchidan, malakatimizda qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish, mavjudlari faoliyatini diversifikatsiyalashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish subyektlar faoliyatini yanada takomillashtirish mumkinligi;

Beshinchidan, mamlakatimizga import bo‘ladigan raqamli texnologiyalarga bojxona boji imtiyozlari berish, yurtimizda dasturiy ta’minot, raqamli texnologiya, innovatsion loyihalar ishlab chiqaruvchilarga davlat dotatsiyalari, imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari berish orqali raqamli xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish imkonini beradi.

Fikrimizcha mamlakatimiz qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini DXSH asosida raqamlashtirish orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksalishi, iqtisodiy o‘sishga erishish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni tejash, aholi turmush farovonligini yuksaltirish, xalqaro bozorlarga erkin chiqish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda YIMda xizmat ko‘rsatish ulushini ko‘paytirishda xizmat qilishi mumkin [4]. Bu albatta, mamlakatimiz iqtisodiyoti drayveri bo‘lmish xizmat ko‘rsatish sohasini rivojida munosib hissa qo‘shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishni raqamlashtish davlat xususiy sherikchilikning muvaffaqiyati turli omillarga, jumladan, hamkorlarning roli va ularning mas’uliyati, raqamli komponebtlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarga bog‘liqdir. Buning rivojiga qishloq joylarda faoliyat ko‘rsatyotgan tadbirkorlar, fermer xo‘jaliklari, servis ko‘rsatuvchi subyektlar va aholini jalb qilish orqali erishishimiz mumkin.

Keltirilgan fikrlar, xulosalardan qishloq joylarda davlat xususiy sherikchilik asosida xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalarga kelindi:

- raqamli, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, qishloq joylardagi xizmat ko‘rsatish subyektlarning axborot va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- mobil telefonlar va raqamli platformalardan samarali foydalanish tizimini tashkil etish orqali xizmat ko‘rsatish subyektlari real vaqtda bozor narxlari, ob-havo sharoiti va dehqonchilik amaliyoti haqida ma’lumot berishni tashkil etish;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish sifati, tezkorligi va rentabelligini oshirish hamda aholi ko‘nikmasini shakllantirishda oddiy hamda tushinarli metodlarni ishlab chiqish;
- Davlat xususiy sherikchilik asosida qishloq joylarda raqamli xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish, raqamli xizmat ko‘rsatish tasnifini ishlab chiqish va klasifikatorda aniq belgilab berish hamda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatini qonuniylashtirish;
- “Aqlli qishloq” texnologiyasini davlat xususiy sherikchilik va tashqi investorlarni jalb qilish orqali qishloq farovonligini ta’minlash kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5009-son Qarori. Toshkent sh., 2021-yil 26-fevral. www.lex.uz
2. Рангараджан, А., и Нишант, Р. (2018). АгроМарт: Онлайн-площадка для торговли сельскохозяйственной продукцией. Индийский журнал экономики сельского хозяйства, 73(3), 343-355.
3. Правительство Узбекистана. (2021). Программа “Цифровое Агро 2.0”. Получено с https://uzbekembassy.in/digital-agro-2-0-program.
4. Группа Всемирного банка. (2018). Узбекистан: Проект внедрения сельскохозяйственных инноваций и технологий. Получено с https://www.worldbank.org/en/news/feature/2018/08/08/uzbekistan-agricultural-innovation-and-technology-adoption-project.
5. Q. J. Mirzayev, M. Q. Pardayev, O. M. Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYA”, –2014-yil. 384-b.
6. S. B. Boboqulov, G‘. O. Akramov “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo‘llari”. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/11/20/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-elektron-biznesni-rivojlantirish-yo-llari.
7. G. F. Quvatova “Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish”. https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/21538/14395.
8. F. U. Begaliyev, O. M. Saydullayev “Qishloq xo‘jaligini (“Aqlli” qishloq xo‘jaligi)ga o‘tkazishda raqamli texnalogiyalarning o‘rni”. SSN (E): 2181-4570ResearchBib Impact Factor: 6,4/2023. https://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jusr/article/view/2001/3834.
9. Z. K. Raximov “Qishloq joylarda servis xizmat ko‘rsatishni klaster asosida rivojlantirish”. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 36 | 2023. Economy and Innovation ISSN: 2545-0573.
10. https://wordbank.stanford.edu/data?name=item_trajectories
11. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot.

KICHIK FIRMALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MINTAQAVIY MUAMMOLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Vaisov Dilshod Ibodullayevich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish xusisiyatlari o‘rganilgan, Xorazm viloyatidagi kichik firmalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma asosida raqobatbardoshlikni oshirishning mintaqaviy muammolari tahlil qilingan, zaruriy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobarbardoshlik, kichik firmalar raqobatbardoshligini ta’minlash va oshirish, kichik biznesni rivojlantirish va raqobatbardoshliginin oshirishning mintaqaviy muammolari.

Abstract: In this article, the issues of increasing the competitiveness of small firms were studied, regional problems of increasing competitiveness were analyzed based on a survey of small firms in the Khorezm region, necessary conclusions were made.

Key words: regional problems of small business and private entrepreneurship, competitiveness, ensuring and increasing the competitiveness of small firms, developing small businesses and increasing their competitiveness.

Аннотация: В данной статье изучены особенности повышения конкурентоспособности малых фирм, проанализированы региональные проблемы повышения конкурентоспособности на основе опроса малых фирм Хорезмской области, сделаны необходимые выводы.

Ключевые слова: региональные проблемы обеспечения и повышения конкурентоспособности малого бизнеса и частного предпринимательства, конкурентоспособности, конкурентоспособности малых фирм, развития и повышения конкурентоспособности малого бизнеса.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlash va oshirish mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun muhim yo‘nalish bo‘lib, mintaqada raqobatbardosh kichik firmalar sonining oshishi ham yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘payishiga, ham tadbirkorlik muhitini yaxshilanishiga hamda mintaqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshishi, ishsizlikni kamaytirish hamda aholi daromadlarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan nafaqat respublika darajasida, balki mamlakat mintaqalarida ham kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlash va oshirish muammolarini o‘rganishga bugungi kunning dolzarb ilmiy – amaliy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Prezidentimiz tomonidan davomli tarzda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlash va oshirish maqsadida chiqarilgan qaror va farmonlari mazkur yo‘nalishda ko‘plab ijobiy omillarni shakllanishiga zamin yaratdi. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4417-sonli qarori; “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF – 6019 sonli Farmoni, “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ – 5087 sonli qarori hamda “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60 sonli Farmonlari shular jumlasidandir [1; 2; 3; 4].

Mamlakatimiz va mintaqalar hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda kichik biznes subyektlarni rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari chop qilingan. Jumladan, “Turkiyada kichik va o‘rta biznes vakillarining raqobatbardoshligi va raqobat ustunligini ta’minlashda klasterlashtirishning

ta’siri” mavzusida tadqiqotlar qilgan turk olimi Deniz Timurchin ham ushbu yo‘nalishda ko‘plab foydali izlanishlar va tahlillarni amalga oshirgan. Xususan, kichik firmalar raqobatbardoshligining ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot ishlari va sotuv faoliyati bilan bog‘liq kriteriylarga ajratgan holda tadqiq qilgani alohida e’tiborga loyiqdir. Jumladan, raqobatbardoshlikning ishlab chiqarish bilan bog‘liq mezonlari (kriteriyalari) sifatida mahsuldorlik, mehnat unumdorligi, tannarx, ishlab chiqarishni moslashuvchanligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, malakali, sifatli mehnat resurslari mavjudligini o‘rgangan bo‘lsa, ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liq mezonlar sifatida yangilanuvchanlik, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tajriba konstruktorlik ishlarini yuritish, texnologiya, labotoriya imkoniyatlari bo‘lsa, sotuv faoliyati bilan bog‘liq mezonlariga sifat standartlariga moslik, yetkazib berishda tezkorlik, firma sotuvida eksport ulushi, firmaning bozor ulushi kiritgan [5]. Shuningdek, boshqa turk olimi Aydin Kayabashi tomonidan “Kichik va o‘rta biznes firmalarida raqobatbardoshlikni shakllantirishda xaridorlar bilan o‘zaro aloqalarni boshqarish” mavzusida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda kichik firmalarning bir qancha o‘ziga xosliklari keltirilgan. Bular:

- texnologik yangiliklarga tezkor moslashuv;
- ozroq investitsiya bilan ko‘proq xodimni band qila olish;
- bozordagi talab bo‘shliqlarini qisqa vaqt ichida to‘ldira olish;
- talab shartlari o‘zgarishlariga qulayroq moslashuv;
- ishlab chiqarishda tajriba o‘rganish metodining ustunligi;
- barqaror ishlab chiqarishning imkonsizligi va boshqalar.

Ushbu o‘ziga xosliklardan kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqobat ustunliklari va zayifliklari keltirib chiqarilgan. Kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqobat ustunliklari sifatida:

1. Xaridorlar va xodimlar bilan o‘zaro yaqinroq munosabatlarni yo‘lga qo‘ya olishlik;
2. Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda yirik korxonalarga nisbatan moslashuvchanlik (elastiklik);
3. O‘zlari mavjud bo‘lgan bozor segmentini, uning xususiyatlari va shartlarini yaxshi bilishlik;
4. Tashqi muhitda bo‘ladigan o‘zgarishlarga vaqti va joyida moslasha olishlik.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqobat zayifliklari sifatida esa kuchsiz raqobat, umumiy boshqaruvning yetishmasligi, strategik qarorlar qabul qilinishida ta’sischi, hamkorlar va xodimlar bilan to‘liq kelishilmasligi, kuchli moliyaviy maslahatchi va mutaxassislarning yetishmasligi, mablag‘ yetishmasligi, moliyaviy rejalashtirishning yetishmasligi, banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yetarli yordam ololmaslik, moliyaviy bozorlardan yetarlicha foydalana olmaslik, mahsulotni takomillashtira olmaslik, ishlab chiqarish va sotuv orasidagi koordinatsiya yetishmasligi, zamonaviy sotuv imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, ta’minot bo‘yicha zarur va o‘xshash materiallarni izlab topa olmaslik, ishlab chiqarish va omborlarning kichikligi va yetishmasligi, moliyaviy mustaqillikni yo‘qotish va inqirozga uchrash riski, malakali xodimlarni yollay olmaslik, byurokratiya mavjudligi va qonunchilikning takomillashmaganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, xaridorlar bilan o‘zaro aloqalarni boshqarishni amalga oshirish asnosida korxona raqobarbardoshligini ta’minlash, ya’ni xaridorlar sadoqatini oshirishga intilish orqali, ham mahsulot (xizmat) sifatini yaxshilash, ham potensial xaridorlar sonini oshirishga harakat qilish lozimligi tadqiqot xulosasi sifatida berilgan [6].

Kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borgan, rus iqtisodchisi Slivinskiy Yelisey Vladimirovichga ko‘ra quyidagilar Rossiya Federatsiyasida kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy muammolari sifatida tavsiflanishi mumkin:

- kreditlash amaliyotining kamligi, yuqori foiz stavkalari va nomaqbul kreditlash shartlarining mavjudligi;
- bank sektori xizmatlari narxining yuqoriligi, kichik firmalarda banklarga nisbatan ishonchning shakllanmaganligi;
- yirik biznes vakillariga yuqori shart shariotlar yaratilganligi, ularga kam riskli, xavfsiz biznes qilish imkoniyatlarining mavjudligi;
- mintaqaviy bozorlarga chiqish murakkabligi;
- soliq tizimining nomukammalligi;
- mintaqaviy o‘ziga xoslikka muvofiq elastik va segmentatsion davlat nazoratining yo‘qligi;

- mintaqada, ayniqsa, tarmoqlarda biznes yuritish shartlariga mos keladigan alohida me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi;
- mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish;
- kommunal tashkilotlarning korrupstiyasi, sarf-xarajatlarining kichik firmalar uchun nomaqbulligi;
- shuningdek, nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan haddan tashqari nazoratning tadbirkorlik tashabbuslariga to'sqinlik qiluvchi ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu shartlarning barchasi biznes yuritishning tranzakstion xarajatlarini oshiradi, mintaqadagi moliyaviy dinamizm harakachanlikni kamaytiradi. Mintaqadagi kichik firmalar faoliyati uchun normativ-huquqiy platformaning nomuvofiqligi tartibga solish nuqtayi nazaridan kichik biznes vakillari va mintaqaviy nazorat organlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Buning natijasida mintaqa ichkarisida iqtisodiy munosabatlarda burilish, iqtisodiy holatni sezilarli darajada beqarorlashtiruvchi hamda individual iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishning tartibsiz shakllarini shakllantirishga hissa qo'shadigan, mintaqaviy moliya institutlari faoliyatida samarali o'sish imkoniyatlarini cheklaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi haqida Slivinskiy to'xtalib o'tgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolarini o'rganishda iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mintaqadagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish asnosida ushbu soha subyektlarining raqobatbardoshligi hamda uni oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash, o'rganish tahlil qilish asosiy tadqiqot metodologiyasi sifatida ishlatilgan. Shuningdek, mazkur yo'nalish bo'yicha aniqlangan mavjud muammolar hamda ta'sir qiluvchi asosiy omillarni chuqurroq o'rganish hamda amaliy xulosalar qilish maqsadida kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolarini guruhlash asosida tahlil qilish o'tkazilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan kichik firmalarnng o'zaro raqobatlashishi, raqobatbardoshlik xususiyatlarini aniqlash, tadbirkorlarning raqobat va raqobatbardoshlik tushunchasi va ko'rsatkichlari bilan bog'liq fikrlarini, mintaqadagi va iqtisodiy tarmoqlaridagi raqobat muhiti, raqobatbardoshlikga ta'sir qiluvchi omillar, eng asosiysi, kichik firmalar raqobatbardoshligiga ta'sir yetayotgan mintaqaviy muammolarni o'rganish maqsadida jami, 8 ta kompleks savollardan iborat anketa so'rovnoma asosida ijtimoiy tadqiqot o'tkazildi. Savollarni tuzish va tanlashda mazkur yo'nalishda samarali tadqiqotlar o'tkazgan xorijiy olimlar Deniz Timurcin, Simla Guzel, E. Slivinskiylarning ishlanmalaridan tadqiqot metodologiyasi sifatida foydalanildi [5; 6; 7].

Anketa so'rovnomada mintaqamizning deyarli barcha tumanlaridan kichik korxonalarning ta'sischi, rahbar va moliyaviy xodimlari ishtirok qildi. To'plangan 150ga yaqin anketalardan mazmunan va shaklan mos va to'liq to'ldirilgan, yakullangan jami 100ta anketa so'rovnoma tahlil uchun tanlab olindi. Anketasi tanlab olingan respondentlarning 28 %i qishloq xo'jaligi, 12 %i sanoat, 19 %i qurilish, 13 %i xizmat ko'rsatish, 28 %i savdoda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, mazkur kichik korxonalarning ta'sischi va rahbarlarning 82%i yerkak, 18 %i ayol kishi, 30 yoshgacha bo'lganlar 13 %ni, 30-40 yosh oralig'idagilar 40 %ni, 40-50 yosh oralig'idagilar 27 %ni, 50 yoshdan kattalar 20 %ni tashkil qildi.

Anketa so'rovnoma savollari kompleks ko'rinishda ya'ni ham savolga nisbatan munosabatni ifodalovchi hamda savol bo'yicha taklif qilingan omillarni (taklif qilish) tanlash bo'yicha shaklantirilgan bo'lib, respondentlarning savollar bo'yicha javob berish va tanlash, taklif berish imkoniyatlarini oshirishga mo'ljallangan. Tadqiqotni o'tkazish jarayonida respondent tadbirkorlar tomonidan savollarga munosabat bildirish, tanlash jarayoni ancha qiyin, murakkab tarzda va cho'zilgan holda kechdi. Bunga sabab sifatida respondentlarning firmalar operatsion faoliyati bo'yicha o'ta bandligi, bu kabi tadqiqotlarda oldin ishtirok yetmaganliklari, munosabat bildirishda ancha yehtiyotkor bo'lganliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning tahliliy qismini dastlab, respondentlarning bevosita munosabat bildirishlari bilan bog'liq savollari asosida boshlashni o'rinli deb topdik. Xususan, 1-jadvalda kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulayligi bo'yicha berilgan javoblarga ko'ra umumiy holatda 89 foiz respondentlar mintaqani qulay deb, 11 foizi esa noqulay deb hisoblashini bildirgan. Tarmoqlar bo'yicha esa qishloq xo'jaligida 82 foiz tadbirkorlar mintaqani qulay deb, qolgan 18 foizi esa noqulay husoblaydi. Sanoatda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 83 va 17 foizni, qurilishda esa 95 va 5 foizni tashkil qildi. Mintaqa qulayligi bo'yicha eng past munosabat xizmat ko'rsatishda, ya'ni 77 foiz qulay, 23 foiz noqulay kuzatilgan bo'lsa, savdo sohasida kichik firmalarning 96 foizi mintaqani rivojlanish uchun qulay, deb hisoblanishini bildirgan.

1-jadval: Kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulayligi tahlili[1]

	Savolga javob berish darajasi, foizda	Qulay deb javoblaganlar, foizda	Noqulay deb javoblaganlar, foizda
Kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulay yoki noqulayligi	100	89	11
Tarmoqlar bo‘yicha			
Qishloq xo‘jaligi	100	82	18
Sanoat	100	83	17
Qurilish	100	95	5
Xizmat ko‘rsatish	100	77	23
Savdo	100	96	4

2-jadval: Kichik firmalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili[2]

	Savolga javob berish darajasi, foizda	Ijobiy deb javoblaganlar, foizda	Salbiy deb javoblaganlar, foizda
Kichik firmalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijobiy/salbiy omillar ko‘pligi	100	94	6
Tarmoqlar bo‘yicha			
Qishloq xo‘jaligi	100	96	4
Sanoat	100	92	8
Qurilish	100	95	5
Xizmat ko‘rsatish	100	77	23
Savdo	100	100	0

Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish maqsadida berilgan “Kichik firmalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijobiy/salbiy omillar ko‘pligi” savoli bo‘yicha ijobiy omillar ko‘p deya munosabat bildirgan respondentlar 94 foizni, salbiy omillar ko‘proq deb hisoblovchilar 6 foizni tashkil qilgan. Iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha tahlil qilinganda esa ijobiy omillar ustunligini tasdiqlovchilar savdoda ko‘pligini (100 foiz) hamda salbiy omillar ustun deb hisoblovchilar xizmat ko‘rsatish sohasida (23 foiz) ekanligi kuzatildi. Shuningdek, sanoatda ham salbiy omillarni bartaraf qilish ustida ishlash lozimligi aniqlandi (salbiy omillar 8 foiz).

Mintaqada kichik firmalar rivojlanishi va raqobat muhitini shakllanishi bilan bog‘liq omillarni aniqlash, asosiy ta’sir qiluvchi omillarni belgilash maqsadida respondent tadbirkorlarga jami 10 ta yo‘nalishda omillar taklif qilindi. Tahliliy asosni ko‘paytirish maqsadida respondentlardan birdaniga 3 ta omilni tanlash so‘raldi (3 jadval). Tanlangan omillar tahlili natijasiga ko‘ra kichik firmalar rivojlanishi eng ko‘p bog‘liq omillar sifatida:

1. Ishonchli savdo hamkorlari mavjudligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha);
2. Zaruriy infrastruktura mavjudligi;
3. Malakali ishchilar mavjudligi;
4. Soliq tizimi to‘g‘ri tanlanishi;
5. Kreditlash tizimi to‘g‘ri tanlanishi tanlanganligi aniqlandi.

Taklif qilingan omillar ichida respondentlar tomonidan eng ta’siri past omillar sifatida mahaliy hokimiyat aralashuvi va ta’siri hamda sifat menejmenti tizimi mavjudligi kabi omillar tanlandi. Mintaqada kelgusida kichik firmalarni yanada rivojlanishi uchun amaliy va zaruriy takliflar berish maqsadida asosan salbiy ta’sirni, ya’ni kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab olish maqsadida jami 9ta yo‘nalishda salbiy omillarni belgilagan holda o‘tkazilgan so‘rovimiz natijalariga ko‘ra zaruriy infrastruktura (yelektr yenergiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi, transport kommunikasiyasi, internet)ning yetishmovchiligi; xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligi; malakali ishchilar yo‘qligi (yetishmasligi) va soliq yukining yuqoriligi eng ko‘p ta’sir qiluvchi salbiy omillar sifatida tanlandi.

1 Muallifning o‘tkazgan so‘rovnoma tadqiqotlari natijalaridan
2 Muallifning o‘tkazgan so‘rovnoma tadqiqotlari natijalaridan

3-jadval: Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili[3]

Kichik firmalar rivojlanishiga eng katta ta’sir qiluvchi omillar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Soliq tizimi to‘g‘ri tanlanishi	43	14,33
Kreditlash tizimi to‘g‘ri tanlanishi	30	10,00
Raqobat muhiti pastligi	3	1,00
Raqobat muhiti yuqoriligi	26	8,67
Zaruriy infrastruktura mavjudligi	52	17,33
Xom ashyo va butlovchi qismlar ta’minoti mavjudligi	38	12,67
Malakali ishchilar mavjudligi	45	15,00
Sifat menejmenti tizimi mavjudligi	7	2,33
Ishonchli savdo hamkorlari mavjudligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha)	53	17,67
Mahaliy hokimiyat aralashuvi	3	1,00
Jami omillar to‘plami	300	100,00

Respondentlar tomonidan mahalliy hokimiyat aralashuvi; ishonchsiz va imkoniyati cheklangan hamkorlarning ko‘pligi va bozorda sifatsiz mahsulotlarning ko‘pligi kabi salbiy omillar ham ko‘rsatildi.

“Mintaqada kichik firmalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shaklantirish uchun Hukumat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?” savolimizga respondentlar tomonidan Hukumat faoliyatini to‘liq raqamlashtirishi; kichik firmalar faoliyatini maqsadli subsidiyalashni joriy qilishi; korrupsiyaga qarshi kurashishi; mintaqaga xorijiy korxonalar kirishini va xorijiy mutaxassislarni jalb qilinishini rag‘batlantirishi; soliq va kredit imtiyozlarini bekor qilishi va erkin iqtisodiy (savdo, sanoat) zonalarni yaratishi kabi yo‘nalishlar tanlandi.

4-jadval: Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar tahlili[4]

Kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Davlat organlarida korrupsiyaning mavjudligi	21	7,00
Imtiyozli kreditlash tizimida tanish bilishchilikning yuqoriligi	19	6,33
Qonun ustuvorligi darajasining pastligi	16	5,33
Soliq yukining yuqoriligi	37	12,33
Zaruriy infrastruktura (yelektr yenergiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi, transport kommunikasiyasi, internet) ning yetishmovchiligi	62	20,67
Xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligi	52	17,33
Malakali ishchilar yo‘qligi	43	14,33
Eksport va importning o‘ta murakkabligi, bu yo‘nalishlarda ishonchli hamkorlarning yetishmasligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha)	21	7,00
Nosog‘lom va monopol raqobat muhitining mavjudligi	20	6,67
Mahalliy hokimiyat aralashuvi	4	1,33
Ishonchsiz va imkoniyati cheklangan hamkorlarning ko‘pligi	4	1,33
Bozorda sifatsiz mahsulotlarning ko‘pligi	1	0,33
Jami omillar to‘plami	300	100,00

Respondent bo‘lgan kichik firmalarning raqobatbardoshlik omillarini o‘rganish maqsadida berilgan “O‘zingizning kichik firmangiz nimasi bilan raqobatbardosh?” so‘rovnomamizga javoban 26.67 foiz holatda javob bera olmaslik holati kuzatildi.

O‘tkazilgan so‘rovnomaga ko‘ra mintaqada kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha muammolar mavjudligi to‘g‘risidagi so‘rovimizga barcha tadbirkorlar muammolar mavjud deb hisoblashlarini bildirishdi.

3 Muallifning o‘tkazgan so‘rovnoma tadqiqotlari natijalaridan.
4 Muallifning o‘tkazgan so‘rovnoma tadqiqotlari natijalaridan.

5-jadval: Mintaqada kichik firmalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar (omillar) tahlili[5]

Mintaqada kichik firmalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shaklantirish uchun Hukumat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Korrupsiyaga qarshi kurashishi	47	15,67
Hukumat faoliyatini to‘liq raqamlashtirishi	57	19,00
Soliq va kredit imtiyozlarini bekor qilishi	31	10,33
Mintaqaga xorijiy korxonala kirishini va xorijiy mutaxassislarni jalb qilinishini rag‘batlantirishi	35	11,67
Ta’lim tizimini raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga yo‘naltirishi	16	5,33
Kichik firmalar qimmatli qog‘ozlar bozori tashkil qilinishi va ularni kapitallashuvini darajasini oshirishi	14	4,67
Erkin iqtisodiy (savdo, sanoat) zonalarni yaratishi	25	8,33
Mintaqadagi kichik firmalarga transfert (davlat yordami) to‘lovlarini joriy qilishi	17	5,67
Kichik firmalar faoliyatini maqsadli subsidiyalashni joriy qilishi	57	19,00
Mahalliy davlat organlari ta’sirini kamaytirish	1	0,33
Jami omillar to‘plami	300	100,00

Raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha asosiy muammolar sifatida quyidagi muammolar tanlandi: – Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi; Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi; Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarning pastligi; Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug‘chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi; Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi va kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati).

6-jadval: Mintaqada kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirish omillari tahlili

Mintaqamizda kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha muammolar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarning pastligi	41	13,67
Soliq stavkalarining yuqoriligi va soliq tizimining murakkabligi	20	6,67
Kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va kreditlash tizimining noqulayligi	15	5,00
Kichik firmalar o‘rtasida sog‘lom raqobat darajasining pastligi	17	5,67
Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi	26	8,67
Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug‘chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi	41	13,67
Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi	53	17,67
Kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati)	26	8,67
Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi	61	20,33
Jami omillar to‘plami	300	100,00

Raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha asosiy muammolar sifatida quyidagi muammolar tanlandi: Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta’minot va sotuv bo‘yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi; Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi; Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarning pastligi; Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug‘chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi;Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi va kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati).

5 Muallifning o‘tkazgan so‘rovnoma tadqiqotlari natijalaridan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot mintaqadagi barcha kichik biznes subyektlari holati va muammolarini tavsiflaydi, deya olmaymiz. Shunday bo‘lsa ham, tadqiqotimiz mintaqa iqtisodiyotining deyarli barcha sohasi hamda tumanlarini qamrab olgani, qisman bo‘lsa-da, ulardagi mavjud holatni tavsiflaganini, muammolarini aniqlaganligini asosiy muvaffaqiyat sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Qo‘shimcha ravishda ko‘pchilik tadbirkorlarda bunday tadqiqotlarda ishtirok yetish, o‘z fikr, mulohaza hamda tajribalari, korxonalarining ma’lumotlari bilan bo‘lishish qiyinchilik keltirib chiqargani ta’kidlash joiz. Bu kabi tadqiqotlarni ko‘proq o‘tkazish ularda nafaqat kichik korxonalarni boshqarishdagi ilmiylikga intilishning oshishiga, balki ularni o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashiga, o‘z biznesi va mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligi va rivoji uchun mas’uliyatini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-yanvardagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4417-sonli qarori.
2. “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019. 06.07.2020.
3. “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087., 21.04.2021.
4. “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60., 28.01.2022.
5. Turkiyede KOBIlerin rekabet gucu va rekabet ustunlug‘u sag‘lamada kumelenmenin etkisi, Deniz Timurcin, t.c istanbul universitesi sosyal bilimler enstitusu iktisat anabilim dali doktora tezi, aralik 2010-ISTANBUL).
6. KOBIlerin rekabet gucunu artirmada ar-ge faaliyetleri^ bursa analizi, Simla Guzel, Uludag‘ Universitesi Iktisadi ve Idari Bilimler Fakultesi Dergisi, Uludag‘ Journal of Yeconomy and Society Ciit/Vol XXXIII, sayi/No. 1.2014 pp.95-118).
7. Slivinskiy Ye. V k.e.n DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11375 Problemы konkurentosposobnosti malogo biznesa v usloviyax globalizatsii, “Colloquium-journal”#4(56),2020 / pedagogical sciences.

“SAM ANTEP GILAM” MCHJDA MARKETINGNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI



Usmonova D. I.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti marketing kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy marketing-menejment tamoyillari, elementlarini tahlil qilish, marketing boshqaruvini shakllanishini o‘rganish, korxonaning tovar ishlab chiqarish faoliyatiga tavsif berish, korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlarning assortimentini, narxi, siljitish tizimi, sifat va raqobatbardoshligini tahlil qilish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, bozor, korxona, raqobat, tovar, assortiment, siljitish, sifat, tahlil.

Abstract: This article analyzes the principles and elements of modern marketing management, studies the formation of marketing management, describes the production activities of the enterprise, analyzes the assortment, price, movement system, quality and competitiveness of goods manufactured at the enterprise.

Key words: economy, market, enterprise, competition, product, assortment, quality, analysis.

Аннотация: В данной статье анализируются принципы и элементы современного управления маркетингом, изучается становление управления маркетингом, описывается производственная деятельность предприятия, анализируются ассортимент, цена, система движения, качество и конкурентоспособность товаров, выпускаемых на предприятии.

Ключевые слова: экономика, рынок, предприятие, конкуренция, товар, ассортимент,качество, анализ.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlantirish Strategiyasida to‘qimachilik va tikuv sanoatiga katta ahamiyat berilgan. Buning sababi, bir tomondan paxta xom ashyosining chuqur qayta ishlash natijasidan qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar yaratish bo‘lsa, ikkinchi tomondan mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda to‘qimachilik sanoatining imkoniyatlarining ko‘pligidir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 14-dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-sonli Farmonining qabul qilinishi sohaning rivojlanishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo‘naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov. Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. SHarifxo‘jayev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gilam mahsulotlari bozorida ilmiy tadqiqotimizni maqsadiga “SAM ANTEP GILAM” MCHJ qo‘shma korxonasida marketingni boshqarish faoliyatini takomillashtirish, jumladan, tovar siyosatini tashkil etilishi, assortiment siyosatini yo‘lga qo‘yish, tovar hayotiy davrini boshqarish, ichki va tashki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar olg‘a surilgan va hal qilingan:

- zamonaviy marketing-menejment tamoyillari, elementlari hamda nazariy asoslarining tanqidiy tahlil qilish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning marketing boshqaruvini shakllanishini o‘rganish;
- “SAM ANTEP GILAM” MCHJ qo‘shma korxonasining tovar ishlab chiqarish faoliyatiga tavsif berish;
- korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlarning assortimentini, narxi, siljitish tizimi, sifat va raqobatbardoshligini tahlil qilish;

“SamAntepGilam” Xorijiy korxonasi mas’uliyat cheklangan jamiyati ham Prezident tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishga va bozorni sifatli gilam mahsulotlari bilan to‘yintirishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida bo‘layotgan katta o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, “SAG” MCHJ gilam ishlab chiqarish sohasida O‘zbekistondagi yetakchi korxonalardan biridir.

SAG gilamlari – gilam va gilam to‘shamalar ishlab chiqaruvchi korxona bo‘lib, shu davr ichida u kichik to‘qimachilik fabrikasidan hozirgi kunda O‘rta Osiyo va MDH mamlakatlarida yetakchi o‘rinni egallab kelayotgan korxonagacha bo‘lgan uzoq yo‘lni bosib o‘tdi.

SAG savdo markasi – bu gilam sanoatida eng ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va muntazam sifat nazoratining garovidir. Ip ishlab chiqarishdan boshlab va mahsulotning yakuniy qadoqlash jarayonigacha bo‘lgan butun ishlab chiqarish sikli – fabrikaning o‘zida amalga oshiriladi. Korxonada faqat yuqori sifatli va ekologik toza xom ashyodan foydalaniladi. Shuningdek, ISO 9001:2008 sifat nazorati xalqaro tizimi joriy etilgan, bu esa mahsulotlarimizning barcha xalqaro me’yor va sifat standartlariga muvofiqligining garovidir. Korxona Belgiya va Germaniyaning Shoner Wohnen va VanDeWiele kabi eng innovatsion asbob-uskunlari bilan jihozlangan.

SAG – O‘zbekiston Respublikasidagi eng yirik ish beruvchilardan biri ham hisoblanadi. Ahil va uyushgan jamoa o‘z oldiga doim ulkan maqsadlar qo‘yadi va o‘z maqsadlari yo‘lida doim muvaffaqiyatlarga erishadi.

Kompaniyaning rejasi yanada innovatsion uskunalarni xarid qilish, yangi ish joylarini ko‘paytirish va taklif etiladigan kolleksiyalarimiz sonini oshirish yo‘li bilan ishlab chiqarish hajmini ko‘tarishdan iborat.

Kompaniya bosh maqsadi – yuqori sifatli gilam mahsulotlarining keng tanlovini taqdim etgan holda, insonlar hayotiga quvonch olib kirish, shinamlik va qulayliklar yaratishdir.

1-jadval: “SAG” MCHJning iqtisodiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2016-y.	2020-y.	2022-y.
Zamonaviy uskunalarning joriy etilishi	1	12	25	30	35	40
Ishlab chiqarish dinamikasi (ming, m^2)	1000	7000	12000	18000	20000	30000
Xodimlar soni	50	200	500	700	900	1000

Korxonaning shaxsiy labaratoriyasi mavjud bo‘lib, u 2012-yil asos solingan. 1 oy davomida labaratoriyada 30-35 tonnagacha bo‘yash vositalari ishlab chiqariladi.O‘zining shaxsiy bo‘yash vositalari labaratoriyasiga ega O‘zbekistonda yagona gilam korxonasidir.

Korxonada kuniga 38 tonnagacha ip yigiriladi.Bu korxona mamlakatimizda polepropilin (PP BCF, PP HS, PP HS FREEZE, TRICOLOR YARNS) iplarini birinchiladan bo‘lib ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan korxonalardan biri.

To‘quv iplarini ishlab chiqarish esa 2016-yilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, hozirda bu yo‘nalishda 350 kishiga yaqin ishchi xodimlar mehnat qilmoqda.Yiliga o‘rtacha 2,5 tonnagacha paxta tolalari qayta ishlanadi. Paxta va sun’iy tolalar aralashmasidan iborat to‘quv iplarini ishlab chiqarishga asos solingan korxonalarda biri.

Bundan tashqari, korxonada poliester iplari ham ishlab chiqarilib, bunga 2016-yilda asos solingan. Yillik ishlab chiqarish hajmi 3,5 tonnani tashkil qilib, poliester iplarini ishlab chiqarish polietelin idishlarni qayta ishlash orqali amalga oshiriladi.

Ushbu korxona nafaqat milliy bozor balki chet el bozoriga o‘zining yuqori sifatli gilam va gilam to‘shamalarini taklif etgan holda kirib borgan. Hozirda korxona o‘z mahsulotlarini barcha MDH davlatlari(Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Tojikiston, Azerbayjon va boshqalar) va Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlarga ham eksport qilmoqda. Korxonaning eksport potensiali juda yuqori.

1-rasm: Korxonada ip ishlab chiqarish jarayoni

Marketing boshqaruvining tahlili tadqiqotimizning nazariy qismida keltirilgan marketing-miks konsepsiyasiga mos ravishda o‘tkaziladi, ya’ni tovar (mahsulot assortimenti), narx (narx siyosati), joy (sotishni tashkil qilish) va siljitish (marketing kommunikatsiyalari). Bundan tashqari, marketing boshqaruvini tahlil qilishda bizlar kompaniyaning xodimlarga nisbatan bo‘lgan siyosatini ham alohida ko‘rib chiqqanmiz.

A) Mahsulot assortimenti va uning tahlili

Tovar assortimentining rivojlanishi korxona marketingining eng muhim funksiyasi hisoblanadi. U ishlab chiqaruvchining an’anaviy yoki yashirin texnikaviy va moddiy imkoniyatlarini muayyan iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan, xaridorni qondiradigan va korxonaga foyda keltiradigan mahsulot va xizmatlarga tatbiq etishda namoyon bo‘ladi.

SAG qo‘shma korxonasi mahsulotlari assotimentiga o‘zining tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyasi, zichligi, patining uzunligi, o‘lchami, ko‘rinishi, dizayni va boshqa texnik parametrlari bilan farqlanuvchi turli gilamlar, yo‘lakcha, kovrolin va boshqa turdagi tushamalari kiradi.

Bugungi kunda Respublika bozorlarida sotilayotgan gilam tushamalar assortimentini kengaytirish va iste`molchilar talabini qondirish maqsadida SAG qo‘shma korxonasida 30 ga yaqin kolleksiya tarkibiga kirgan 3000 dan ziyod dizayndagi gilam to‘shamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan “Tumaris”, “Zilli”, “Rodin”, “Zara”, “Troya”, “Eron”, “SHayx”, “Pantera” “SHohsulton”, “Imperial”, “Avangard”, “Super shaggi”, “Isfaxon”, “Avangard”, “Babi”, “Imperial qahva” kolleksiyalari va boshqalar. Bu erdagi kolleksiyalar dizayni bo‘yicha tur-licha. Gilamlar turli ranglarda ishlab chiqariladi, asosan 8 rangda bo‘ladi va shu orqali kolleksiyalar dizayni bir biridan farq qiladi.

2-jadval: “Sam Antep Gilam” QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya daromadida ishtirok etishi

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O‘sish tarzida
Isfahan	19,45%	19,45%
Tumaris	18,39%	37,84%
Rodin Gray	11,40%	49,24%
Zilly	9,86%	59,1%
Emir	6,98%	66,08%
Ponte	5,24%	71,32%
Reflex	4,62%	75,94%
Therapy	4,61%	80,55%
Avangard	2,89%	83,44%
Baby	2,87%	86,31%
X (20 ta boshqalar)	13,69%	100%
Umumiy	100,00%	

3-jadval: “Sam Antep Gilam” QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya uchun ahamiyatini baholash

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O‘sish tarzida	Guruxlanishi
Isfahan	19,45%	19,45%	A
Tumaris	18,39%	37,84%	A

Rodin Gray	11,40%	49,24%	A
Zilly	9,86%	59,1%	A
Emir	6,98%	66,08%	A
Ponte	5,24%	71,32%	A
Reflex	4,62%	75,94%	A
Therapy	4,61%	80,55%	B
Avangard	2,89%	83,44%	B
Baby	2,87%	86,31%	B
X (20ta boshqalar)	13,69%	100%	B-C
Umumiy	100,00%		

Bizning holatda A guruh (qonuniyat bo‘yicha 15-80%) Sheyx, Imperial, Iran, Aladin, Almira, Zara, Fortuna (assortimentning 23%i) umumiy daromadning 75,94% ini tashkil etdi, B guruh va S guruh Super Shaggy, Troya, Imperial Grey va boshka 20 ta kolleksiyalar daromadning qolgan miqdorini tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, korxona uchun A guruxdagi kolleksiyalar daromadning asosiy manbalari ekan.

Mahsulotlarni bunday guruhlarga ajratish orqali, korxona aynan qaysi tovarlar guruhi asosiy daromad manbayi ekanligini aniqlashi to‘g‘risidagi hisobotga ega bo‘lishi mumkin.

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya daromadida diqqat markazida bo‘lgan yana bir yo‘nalish – bu gilamlarning shakli va ranglar uyg‘unligidir. Oxirgi yillarda bizlar burtmachining xohishiga qarab har qanday o‘lchamdagi gilamlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganmiz, ya’ni individual buyurtmalar ustida ishlashni joriy etganmiz. Bugungi kun vazifamiz turli shakldagi (aylana, oval, murakkab shakllar) gilmalar ishlab chiqarilishini joriy qilishdir. Bunda iste’molchilarning dizaynga bo‘lgan talablari to‘la qondirilishi mumkin bo‘ladi.

Tovar siyosatining yana bir jihati gilamlarning to‘qish zichligini oshirishdan iborat, ya’ni gilamlar mayinligi va funksional jihatlarini oshirishdir. Bu yo‘nalishda korxona rahbariyati tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga qaratilgan siyosatini qatsd etish mumkin. Bugangi kunda ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish bo‘yicha investitsion loyihalar ustida ishlamoqda. Gilamlar da qo‘llaniladigan iplarning turlarini oshirish, ranglarning mustahkamlagini ta’minlash, gilam mahsulotlari assortimentini kengaytirish kabi yo‘nalishlar ham mahsulotlarimiz sifatini oshirish siyosatining alohida jihatlari hisoblanadi.

Rivojlangan bozor munosabatlari innovatsiyalarsiz bo‘lmaydi, shuning uchun korxona ilmiy izlanishlarga katta e’tibor bilan qaraydi va ilmiy izlanishlar natijalarini joriy qilishga harakat qilib keladi.

B) Narx siyosati va uning tahlili

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ sining narx siyosati ishlab chiqariladigan mahsulotlarning funksional vazifasi hamda xarid qilish maqsadidan kelib chiqadi. Bunda kompaniya mahsulotlarining toifalarga ajratilishi ularning narxini belgilashning asosiy mezoni hisoblanadi.

A toifasi: Iste’molchi uchun mavqeyini tasdiqlaydigan, uy bezagi sifatida tan olinadigan, yuqori sifatli xom ashyodan ishlab chiqariladigan va individual xossalarga ega mahsulotlar. Odatda bu mahslotlar kolleksiya tarkibida bo‘lib har bir iste’molchining talabini qondirishga yo‘naltiriladi;

B toifasi: yuqori sifatli xom ashyodan ishlab chiqarilgan, dizayni bilan ajralib turadigan. Ammo ommaviy dizayn va modaga mos keladigan mahsulot partiyalarini o‘z ichiga oladigan, aholining yuqori va o‘rta daromadli qatlamiga mo‘ljallangan mahsulotlar;

C toifasi: Aholining talablariga mos rpavishda ommaviy ishlab chiqariladigan gilam mahsulotlari. Ularning asosiy xususiyati iste’molchilarning ko‘plik qimiga yo‘naltirilganligi, narx va sifatning uyg‘unligi hamda buyurtma bajarilishida tezkorlikka rioya qilinishidir.

D toifasi: Jamoatchilik joylari, korxona va tashkilotlar uchun ishlab chiqariladigan gilam va to‘shama mahsulotlari.

Har bir toifa mahsulotlari uchun “Sam Antep Gilam” QK MCHJ kompaniya o‘ziga xos narx siyosatini yaratib boradi. Kompaniya ishlab chiqaradigan mahsulotlarning ayrimlariga 2021-yilda shakllangan narxlari quyidagi jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval: “SAG” MCHJ gilamlarining 2021-yilning 1-aprel holatiga bozor narxi

T/r	Kolleksiya nomi	QQS siz	QQS bilan (chakana narx)
1	Isfahan	373300	485300
2	Tumaris	324700	422050
3	Rodin Gray	243300	316250

4	Zilly	132200	158700
5	Emir	133300	160000
6	Ponte	248000	330050
7	Reflex	135600	165600
8	Therapy	243300	316250
9	Avangard	99700	119600
10	Baby	99700	119700

Kompnaniyaning narx siyosatini ishlab chiqarishda asosan raqobatchilarning narxlariga e'tibor qaratiladi, boshqa tomondan korxona respublika va xorijdagi hamkorlar bilan kelishilgan xaolda ish ko'rishi ko'rsatib o'tilgan.

D) Tovar tarqatish siyosatining tahlili

"SAG" MCHJ qo'shma korxonasi gilam bozorida barcha jihatlar bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston hududi bo'ylab 500 dan ortiq savdo nuqtalarida ushbu korxonaning gilam mahsulotlari sotilmoqda.

Har bir viloyatda "SAG" qo'shma korxonasi uzinig rasmiy dilleri va do'konlariga ega bo'lib, ularning soni 20 dan ortiq.(...-jadval) Dilerlar respublikaning deyarli barcha yiri shaharlarda mavjud: Toshkent, Samarqand, Navoi, Buxoro, Urganch, Nukus, Qarshi, Termiz, Namangan, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Jizzah, Guliston.

5-jadval: "SAG" MCHJning rasmiy diller va do'konlari

№	Shahar nomi	Do'kon nomi	Manzili
1	Toshkent	"SAG GILAMLAR DUNYOSI"	Ko'ksaroy ko'chasi, Taxta bozor
2		"SAG GILAMLARI"	TXY, Bek-tupi Savdo kompleksi
3		"SAG"	Ko'shbegi massivi, KXY ko'chasi 14
4		"SAG"	Chinobod, Bardavom ko'chasi 27
5		"IDEA HOME"	TXY ko'chasi, Med gorodok
6		"SAG"	Chilonzor, Bogiston ko'chasi 4A
7	Samarqand	"SAG"	Rudaki ko'chasi 229
8	Navoyi	"SAG"	G'alaba shoh ko'chasi, 197
9	Buxoro	"SAG"	Xujanurobod ko'chasi, 11
10	Urganch	"SAG"	Fidokorlar 1-uy 1
11	Nukus	"SAG"	J. Aymirzayeva, 93
12	Qarshi	"SAG"	O'zbekiston ko'chasi 405
13	Termiz	"SAG"	Tarakkiyot 47A
14	Namangan	"SAG"	Girvonsoy, 11
15	Andijon	"SAG" Kashmir do'kon	Mustaqillik 21
16		"SAG"	Kusharik dasaxi ko'chasi 1
17	Farg'ona	"SAG"	Joydam ko'chasi 24
18	Qo'qon	"SAG"	A. Novoi ko'chasi 147A
19	Jizzah	"SAG"	Orom bozor
20	Guliston	"SAG"	Mahalla massivi

E) Tovarni bozorda siljitish siyosati

"SAG" MCHJ qo'shma korxonasining reklama va komunikatsiya siyosati iste'molchilarga ko'proq ma'lumot yetkazib berishga qaratilgan. Bunda birinchi o'rinda elektron axborot vositalaidan foydalaniladi, kompaniyaning sayti (https://www.sag.uz/uz), telegramm, feybuk, instagramm, tvitter ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va kanllarning tashkil etilganligini ta'kidlash lozim. Kompaniya tashqi reklamaga ham katta ahamiyat berib kelmoqda. Gilam mahsulotlarining vazifalari va xususiyatlari \dan kelib chiqqan holda kompaniya ulgurji xaridorlar bilan aloqalarni kengaytirishga katta e'tibor qaratib keladi. Kommunikatsion siyosat korxona marketing bo'limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. "SAG" MCHJ qo'shma korxonasi xorijda savdo uylarini tashkil qilishga ham harakat qiladi. Masalan, 2020-yil 9-martda Nyu York shahrida "SAG" o'zbek gilamlari va "Gulnor" ipak mahsulotlari savdo uyining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi xabariga ko'ra,

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ushbu savdo uyi AQSHdagi ikkinchi o‘zbek milliy yengil sanoat mahsulotlari namoyish maydoni bo‘lib, bundan avval 2019-yilda Filadelfiya shahrida ham ana shunday savdo markazi ochilgan edi.

Olib borilgan tahlillarning natijalari shuni ko‘rsatdiki “SamAntepGilam” MCHJda marketing boshqaruvini amalga oshirish bo‘yicha o‘ziga xos yondashuv shakllangan, ya’ni texnologik va texnik jihatdan raqobatchilardan o‘zib ketish va mahsulot sifatiga kafolat berishdir. Mazkur yondashuv korxona tashkil qilingan davrda yaxshi samara berganligini hisobga olgan holda bugungi kunda ham gilam sotish bozorida korxonaning muvaffaqiyatiga salomqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Ammo bugungi kunda milliy va xorijiy bozor kon’yunkturasida keskin o‘zgarishlar bo‘lishi va potensial iste’molchilar xulq-atvorini murakkablashishi marketing faoliyatida rivojlanish zarsratini paydo qilmoqda. Bunda xaridor bilan muloqot qilish, sotish va sotishdan keyingi jarayonlariga e’tibor kuchaytirilshi talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy marketing faoliyati jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy quroliga aylangan, shu sababli O‘zbekiston korxonalar oldida marketingning eng ilg‘or texnologiyalardan foydalanishini ta’minlash zarur bo‘lmoqda. Ayniqsa, O‘zbekitston iqtisodiyotining kuchli tarmoqlaridan biri bo‘lmish to‘quvchilik-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda marketing samaradorligni oshirish katta ahamiyatga ega. Ushbu mammoning dolzarbligi muhtaram Prezidentimizning oxirgi yillarda qabul qilgan qator Farmon va Qarorlari bilan tasdiqlanadi. Korxonalarda marketingning samaradorligini oshirish zarurati bizning dissertatsiyamizda olib borilgan izlanishlarimizning maqsadini tashkil qilgan va quyidagi xulosalarga asos bo‘lmoqda.

Marketingning zamonaviy konsepsiyasi ishlab chiqarish marketing bilan bir qatorda ijtimoiy etik marketing (ijtimoiy maqsadlar, tashkiliy madaniyat, korporativ mas’uliyat), yangi g‘oyalar marketingi (axborot texnologiyalari, iste’molchi, fan-texnika tarqiiyoti), xissiy xulq-atvor marketingi (xarid jarayoni, iste’mol jarayoni, xarid motivatsiyasi), marketing-miks (“4R” marketingi, “7R” marketingi, “15R” marketingi), logistik marketing (marketing va logistika integratsiyasi, xaridlarni boshqarish,mijozlarni boshqarish) kabi konsepsiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan;

Ushbu konsepsiyalarda marketing boshqaruv yoki marketing-mikchs konsepsiyasi boshqalarga nisbatan universal bo‘lib, ishlab chiqarish korxonalari uchun qulay va samarali hisbolanadi. Mashhur “4R” tamoyili deyarlik barcha sohalarda marketing boshqaruvining timsoli sifatida qabul qilingan. SHu bilan birga oxirgi yillarda marketingning muomala sohasiga kirib borishi qo‘shimcha tamoyillarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan, ya’ni “7R” konsepsiyasiga olib kelgan.

O‘zbekiston to‘qimachilik sohasi mamlakatimiz xalqaro raqobatchiligining drayverlaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda paxta xom-ashesining o‘zimizda qayta ishlanishi natijasida to‘qimachilik-tikuv sanoatida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, gilam to‘qish korxonalar sonining rivojlanishi gilam mahsulotlari bozorida raqobaitchilikning kuchayishiga olib kelmoqda.

“SAM ANTEP GILAM” qo‘shma korxonasida marketing faoliyatini boshqarish yuqoridagi tamoyillarga asoslangan bo‘lib mahsulot sifati va assortimenti, narxi, sotish texnologiyasi va tovarni bozorda siljitish jarayonlarini qamrab olmoqda. SHu bilan birga ishlab chiqarishga e’tiborning qaratilishi bozordagi raqaobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar “SAM ANTEP GILAM” qo‘shma korxonasi marketing boshqaruvida qo‘shimcha tamoyillarga e’tibor qaratishni talab qilmoqda. Bizning fikrimizcha, marketingni boshqarishning bozor siyosati jihatlariga, ya’ni insonlar, soish jarayoni va sotish muhitini rivojlantirish kabi uchta tamoyil korxonaning diqqat markazida bo‘lishi lozim. Taklif etilayotgan tamoyillarning joriy qilinishi “SAM ANTEP GILAM” qo‘shma korxonasi faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, – Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA, 2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. –M.: OOO “I. D. Vilyams, 2013. –752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH. J., Qosimova M. S., YUsupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand–2023.
7. Musayeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, –Samarqand – 2022.
8. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing “TURON EDITION”. –2021-yil uchun o‘quv qo‘llanma.
9. Usmonova D. I Strategik brend boshqaruvi O‘quv qo‘llanma STAP-SEL MChJ. Nashriyot. –Samarqand 2022-y.

O‘ZBEKISTONDA ENERGETIKA KORXONALARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUVINING BAHOLASH USULLARINI TAHLILI

Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlili, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar, energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari va energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energetika korxonalari, raqobatbardoshlik, boshqarish samaradorligi, korporativ boshqaruv, baholashning miqdoriy usullari, omillar.

Abstract: In this article, An analysis of the methods of assessment of corporate governance in the activities of energy enterprises in Uzbekistan, factors affecting the competitiveness of energy enterprises, quantitative methods for assessing the effectiveness of energy enterprise management and an algorithm for comprehensive assessment of the quality level of corporate governance in energy enterprises are developed.

Key words: energy enterprises, competitiveness, management efficiency, corporate governance, quantitative methods of assessment, factors.

Аннотация: В данной статье проведен анализ методов оценки корпоративного управления в деятельности энергетических предприятий Узбекистана, факторов, влияющих на конкурентоспособность энергетических предприятий, разработаны количественные методы оценки эффективности управления энергетическими предприятиями и алгоритм комплексной оценки уровня качества корпоративного управления на энергетических предприятиях.

Ключевые слова: энергетические предприятия, конкурентоспособность, эффективность управления, корпоративное управление, количественные методы оценки, факторы.

KIRISH

O‘zbekiston energetik kompleksi korxonalarining innovatsion rivojlanishiga muhim turtkini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 24-maqsadida keltirilgan Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish maqsadida quydagi vazifalar ijorsini taminlash vazifalari belgilangan:

- 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish.
- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.
- O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash.
- Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.
- Uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.
- Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish.
- Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Korporativ boshqaruv atamasining o‘zi tarixan 1970 yillarning o‘rtalarida AQShda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o‘tkazilishi davom ettirilgan. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, korporativ boshqaruv atamasi birinchi marta R. Ills [1] tomonidan korporativ tuzilmasi va faoliyati mohiyatini ochib berish uchun qo‘llanilgan.

Korporativ munosabatlar tizimi korporativ va xususiy mulkni boshqarishni qo‘llash jarayoni sifatida amerikalik huquqshunos olim A. Berli va iqtisodchi G. Minzning [2] klassik ishlarida o‘rganilgan. Ularning ishlarida korporativ boshqaruv atamasi tilga olinmagan bo‘lsa-da, ular korporativ boshqaruvni ishonib topshiruvchilar – principals (autsayderlar, investorlar) va vakillar – agents (insayderlar, boshqaruvchilar) o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan T. K. Madiyorov [3] “korporativ boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag‘larning yangi texnika va texnologiyalarni ko‘plab jalb etilishi bilan uyg‘unlikda olib boriladi”, deb talqin qilgan bo‘lsa, Sh. N. Zaynutdinov va D. N. Raximovalar [4] “korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir”, degan ta’rifni keltirishgan. Yana bir iqtisodchi olim D. X. Suyunovning [5] ta’rifiga ko‘ra: “korporativ boshqaruv – korporativ mulk shakliga kiruvchi subyektlarning huquqlarini himoya qiluvchi amaldagi me’yorlar hamda boshqaruvning ma’lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuyidir”.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bunday omillar qatoriga inson kapitalini rivojlanganlik darajasini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasini, korporatsiya moliyaviy holatining barqarorligini, narx siyosati, innovatsion energiya mahsulotlari va xizmatlarini, energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish sifatini, korporatsiya aksiyalarini qo‘shimcha muomalaga chiqarilishini va energetika korxonalarining dividend siyosatini kiritishimiz mumkin. Ushbu omillarning ta’siriga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, ularning barchasi energetika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetika korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirishga korporativ boshqaruv kodeksi, korporativ menejmentning standartlari, korporativ nazorat usullari, xodimlarni qo‘llab-quvvatlanishini oshirish tizimi, menejmentning-tavakkalchilik tizimi kabi vositalarni qo‘llash boshqaruv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston energetik kompleksi aksiyadorlik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun korporativ boshqaruv vositalari izohining yakuniy maqsadi sifatli marketing tadqiqotlar, samarali biznes-rejalar va investitsiyaviy loyihalar, shuningdek, yangi energetik quvvatlardan foydalanishga o‘z vaqtida kiritishni ta’minlashga va energiyaning turli ko‘rinishlarini tejamli sarflashga qodir bo‘lgan malakali loyihali kompaniyalar bo‘lishi kerak.

Iqtisodiy mezonlardan foydalangan holda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari sifatida quyidagilarni e'tiborga olish mumkin:

- korxonaning berilgan vaqt oralig'ida bankrotga uchrash ehtimolini prognoz qilishning statistik asoslangan modellari;
- korxonalarni reytingini aniqlash uslubiyati;
- kreditlash maqsadida korxona reytingini aniqlash uslubiyati.



2-rasm: Energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari

Shuningdek, zamonaviy amaliyotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning korxonaning bozor qiymati va moliyaviy holatini tahlil qilish asosida boshqaruv samaradorligini baholash natijalarini olishga asoslangan turli miqdoriy usullari ham qo'llanadi (2-rasm).

Energetika korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- bankrotga uchrash ehtimoli baholanadi (Altmanning ikki omilli modeli orqali);
- korxonaning moliyaviy barqarorligi baholanadi (Taffler modeli).

Altmanning ikki omilli modeli kompaniyaning bankrotlik darajasini baholaydi, Tafflerning ko'p omilli modeli esa kompaniyaning to'lov layoqati modelini tuzadi. Natijada barcha hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy holati haqida xulosa chiqariladi. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan kompaniyalar qanday qilib bo'lmasin, o'z hisobotlarini e'lon qilishni to'xatib turadi, chunki uzoq vaqt davomida to'g'ri ma'lumotlar olib bo'lmaydi. Hisobotlarda chop etiladigan ma'lumotlar ishonchli bo'lmasligi mumkin, bu esa korxona faoliyatining ayrim ko'rsatkichlari uning to'lov layoqatiga ega emasligidan dalolat bergan bir paytda boshqa ko'rsatkichlar uning faoliyati barqaror ekanligi haqida mulohaza yuritishga asos beradi.

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ikkinchi uslubiyati uning bozor qiymatini tahlil qilishga asoslanadi. Daromadni kapitallashtirish usuli korxonaning joriy daromadlarini kapitallashtirshi koeffitsiyentiga bo'lish yo'li bilan aniqlashga asoslanadi. Asosiy kamchilik – bu usulni qo'llash uchun zaruriy va majburiy shart kompaniya kelajakda keltiradigan daromadlar joriy daromadlar bilan bir xil darajada qolishini taxmin qilish hisoblanadi.

Tadqiqotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi taklif etildi (3-rasm).



3-rasm: Energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi

Bu algoritm baholashning sifat va miqdor usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bunda esa korporatsiyaning rivojlanganligini qay darajada ekanligi va uni korporatsiya qiymatiga qanday ta'sir etishini ifodalaydi va korporativ boshqaruvning samaradorlik darajasini taqqoslash hamda tahlil qilish uchun sifat usullari orasidan korporativ boshqaruv darajasiga Kuzatuv kengashining tuzilmasi, a'zolari soni, yig'ilishlar muntazamligi, menejer va mulkdorlar manfaatlari yaqinlashishi darajasi inobatga olinadi. Miqdor usullarda esa energetika korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, sotuvlar o'sish sur'ati va rentabelligi, investitsion samaradorlik omillarini baholash yuqori o'rin tutadi. Bunda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv sifat darajasi bahosi uni moliyalashtirish koeffitsiyentiga to'g'ri proporsional bo'lib, uning korporativ boshqaruvini miqdoriy baholash qiymatlaridan kelib chiqadi.

Korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi energetika korxonalarida boshqaruv samaradorligini yaxshilash uchun boshqaruv jarayonini moliyalashtirishga bog'liq bo'lib, bunda moliyalashtirish koeffitsenti quyidagi $1 \geq \pm \Delta F \geq 0$ shartni qanoatlantirishi kerak va shundagina uni korporativ boshqarish munosabatlari o'z sifat darajasiga ega bo'lgan deb qarash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmini institutsional asosini mustahkamlash, respublikada amalga oshiriladigan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida va tarmoq rivojlanish dasturlarini yo'nalishiga o'zaro bog'liq bo'lib, amaldagi va shakllangan boshqaruv tizimini rivojlanish izchilligiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eells R. S. F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
2. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
3. Madiyorov T. K. Dehqonchilik-sanoat majmuyida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimi va korporativ boshqaruvni joriy etish xususiyatlari: iqt. fan .dok. ... dis. ishi. – T.: 1993.
4. Zaynutdinov Sh. N., Rahimova D. N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.
5. Suyunov D. X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. –T.: Akademiya, 2006. –116 b.
6. Mirzayev, A. (2023). Prospects for modeling the educational process in the development of strategies for increasing the competitiveness of graduates in higher education institutions. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 57-66.
7. Mirzayev, A. (2023). Improving the mechanism of innovation process management in the field of information communication technologies. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 181-186.
8. Mirzayev, A. (2021). Hududiy turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv qarorlari qabul qilish metodologiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish. Economics and education, (5), 390-398.
9. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54-56).
10. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33-38.
11. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44-50.
12. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902. IQRO, 4(2), 42-45.
13. Xomidov, K. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo 'llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154-160.

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR OF THE ECONOMY



Zakhidov Nodir Umidjanovich
Senior Lecturer of the Department
of Economics Tashkent University of Architecture and Construction

Abstract: The importance and role of the industrial sector in the development of the country's economy are highlighted. The issues of stable development of the industrial sector in the national economy of Uzbekistan, innovative activity of the industry, as well as management efficiency were touched upon. The analysis showed that as a result of the measures taken to reform the economy, a number of positive changes were achieved in the structural changes carried out in the industrial complex. The main factors of industrial development are identified.

Key words: Industry, factors, efficiency, structural changes, modernization, investments, share in GDP.

Annotatsiya: Maqolada sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati va o'rni alohida ta'kidlangan. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining sanoat sektorini barqaror rivojlantirish, sohaning innovatsion faolligi, shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ko'tarildi. Tahlillar iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida sanoat majmuasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarda qator ijobiy o'zgarishlarga erishilganini ko'rsatdi. Sanoat rivojlanishining asosiy omillari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Sanoat, omillar, samaradorlik, tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya, investitsiyalar, yalpi ichki mahsulotdagi ulush.

Аннотация: Статья подчеркивает значение и роль промышленного сектора в развитии экономики страны. Были затронуты вопросы устойчивого развития промышленного сектора национальной экономики Узбекистана, инновационной активности отрасли, а также эффективности управления. Анализ показал, что в результате принятых мер по реформированию экономики достигнут ряд положительных изменений в структурных изменениях, проводимых в промышленном комплексе. Выявлены основные факторы промышленного развития.

Ключевые слова: Промышленность, факторы, эффективность, структурные изменения, модернизация, инвестиции, доля в ВВП.

INTRODUCTION

Industry is the main and largest branch of material production. It provides all branches of the national economy with production items and tools. Various types of machines and mechanisms are created in it, structural elements of buildings are also produced, underground wealth is mined, a huge amount of food products is produced, etc. The development of the industrial sector will lead to sustainable growth of the national economy. Diversification processes will be improved by processing the grown and extracted resources in the field of industry, producing new products from them and increasing the assortment and nomenclature.

The industrial sector directly affects many important factors such as:

- well-being of the population (qualified medical care, high level of education, comfortable housing, provision of employment for the population, etc.);
- strategic security of the country;
- provision of necessary products to the population, processing of agricultural products;
- scientific and technological progress;
- investment receipts;
- entering the world market, increasing exports;
- economic relations between countries.

ANALYSIS OF THEMATIC LITERATURE

This article provides an analysis of scientific works in the field of industry for the period 1995-2021, and also examines the main factors affecting the development of the industrial sector.

The role of industry in the economy, prospects, problems and ways to solve them were studied by such scientists as: I. V. Ivanov, V. V. Baranov, G. I. Lysak, O. V. Kirsanov, A. Ortikov, M. P. Narzikulov, etc.

RESEARCH METHODOLOGY

Industry as a branch of the national economy includes three basic types of economic activity, which are mining, manufacturing, as well as the production and distribution of electricity, gas and water.

The methodology of analyzing and forecasting the development of industry in economic activity and in the industry as a whole includes a number of stages and methods of cognition. At the first stage, information support is provided for research on types of economic activity, based on statistical data: gross output, intermediate consumption, gross value added, wages of employees, gross profit of the economy and gross mixed incomes, as well as indices of the physical volume of gross output and gross value added for the period. The essence of the second stage is the formation of a research methodology that includes the use of a number of specific methods and techniques of cognition: index, comparative, graphical, correlation and regression with the modeling of relationship dependencies and the identification of patterns of development, forecasting and computational and constructive. The third stage determines the analysis of dynamic series, the study of growth factors, the identification of development trends, both in the context of economic activities and in the industry as a whole.

THE MAIN PART

Each state chooses for itself its own specific path of development and support of the national industry, while it can focus on the development of innovative high-tech industries. It is also important to take into account that countries have formed their policies in different periods of time, having different competitive advantages. There are industries in the economy of Uzbekistan that are potentially competitive in both domestic and global markets. Since industry goes side by side with the development of scientific and technological progress. The main tool for increasing the competitiveness of industry is innovation activity, and the level of development of the innovative sphere (science, new technologies) forms the basis for sustainable economic growth, determines the prospects for the development of the enterprise.

Various factors of the external and internal environment have a significant impact on the efficiency of the development of industrial enterprises. In general, factors of production are understood as “elements necessary for the production of products – goods and services. According to the widespread classification, factors of production are divided into: means of production (machines, tools, buildings, land), materials (raw materials, auxiliary and production materials) and labor in the sense of purposeful activity.”

The effectiveness of the development of industrial enterprises may also depend on factors such as:

- commercial conditions of enterprises (the ability to provide customers with loans, discounts from the list price, discounts on the return of previously purchased goods that used their economic resource);
- organization of a sales network (location of a network of branded stores and exhibition centers, their accessibility to a wide range of customers, demonstration of products in action);
- organization of product maintenance (scope of services provided, warranty repair terms, cost of post-warranty service, etc.)
- representation of consumers about the company, its authority and reputation, its product range, service, the impact of the trademark, etc [1].

The industry of our country has passed a long historical path and radically changed during the years of independence, as it began to develop in accordance with the market economy. In the last 10 years, the industry has developed quite rapidly, as a result, Uzbekistan has taken its place among the countries with developed industry. During the years of independence, completely new industries appeared, such as the automotive industry, engine building and creating spare parts for these industries, oil and gas processing industries, pharmaceuticals, as well as the production of modern televisions and computers [2].

The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev “On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan” in order to implement priority directions for the modernization of the country and the liberalization of all spheres of life provides for the issue of increasing the competitiveness of the economy by modernizing and diversifying the leading sectors of the national economy in priority areas of economic development and liberalization. Modernization and diversification of production are

an important prerequisite for ensuring and strengthening economic security. Accordingly, the national industrial potential is gradually increasing due to the consistent implementation of promising projects. It can be said that the industrial development program in 2017-2021, as well as the consistent implementation of industry programs for modernization, technical and technological renewal of production, open new pages in the production of competitive products with added value in the activities of all industries. At the same time, it is an argument that almost 80% of industrial products account for their share [3] [4].



Pic. 1: The main groups of factors affecting the development of industrial enterprises

As a result of measures taken to diversify, modernize, and technically and technologically upgrade the industrial sector, the total volume of industrial production and the share of industry in GDP increased from 19.7% in 1995 to 28.5% in 2020.

The growth rates in industrial sectors depend on the scale of domestic and external demand for products created in these industries. The sharp expansion and improvement of the consumer credit system with a further increase in real incomes and purchasing power of the population is characterized by an increase in the share of domestic demand, which increases the volume of production in the industrial complex.



Pic. 2: Dynamics of changes in the structure of GDP (%).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

The presence of favorable conditions on the world market for products created in industry, the strengthening of international economic integration has a positive effect on the development of industry and is characterized by an increase in the external factor. As a result of the fiscal, assessment and monetary policy of the state, and in general, measures to reform the economy, a number of positive changes have been achieved in the structural changes implemented in the industrial complex. Reforming and restructuring of industrial enterprises based on market principles occupies an important place in the development of industry [5].

CONCLUSION

Structural changes in industry require the phased implementation of the following areas:

- Denationalization of property and expansion of the class of owners through privatization;
- Abandonment of previously formed industries specialized for the supply of raw materials, the creation of capacities in their place that produce finished products;
- Provision by the state of socio-economic and legal guarantees that produce industrial products to subjects for their free activity;
- The introduction of modern experience, equipment and technology of foreign firms for the entry of Uzbek industrial products into world markets, the creation of a favorable investment environment for this;
- Step-by-step development of existing experience, the potential of qualified personnel and all intellectual property;
- Development of the necessary infrastructure, primarily electricity, gas and water supply for new and already operating industrial enterprises;
- Increasing competitiveness by reducing energy costs, reducing costs and improving the quality of industrial products;
- Improving the quality of training of highly qualified personnel;
- Provision of benefits and preferences for the expansion of production activities, attraction of financial resources for targeted areas.

Taking into account all the factors, it can be noted that all the reforms implemented and implemented in the Republic have a positive impact on the development of the industrial sector and the improvement of the macroeconomic stability of the country.

List of sources and literature:

1. High-tech enterprises in the era of globalization / I. V. Ivanov, V. V. Baranov, G. I. Lysak, O. V. Kirsanov. – M.: Alpina Publisher, –2013.
2. Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan for 2017. Tashkent. –2018.
3. Appeal to the Oliy Majlis of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev. Narodnoe slovo December 23, 2017.
4. Ortikov A. Industrial economy. –Tashkent: TSEU, –2019.
5. Strategy for further improving the competitiveness of the national economy: materials of the 1st Forum of Economists / M. P. Narzikulov. –Tashkent. 2012.
6. The State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics – The share of the industrial sector in GDP. –2021.

MINTAQA TUMANLARARO XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR QO‘SHMA BIZNESINI KONVERGENT MODELI

Yusupov Fayzulla Yakubovich
QarMII mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqa tumanlararo xo‘jalik yurituvchi subyektlar qo‘shma biznesini konvergent modeli haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma‘lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida mintaqa tumanlararo xo‘jalik yurituvchi subyektlar qo‘shma biznesini konvergent modeli bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, tumanlararo xo‘jalik, subyektlar, qo‘shma biznes, konvergent modeli.

Abstract: This article talks about the convergent model of joint entrepreneurship of regional interdistrict business entities. Based on scientific data, the author, based on the available literature, studied and analyzed the features of joint entrepreneurship of inter-district economic entities of the region according to the convergent model.

Key words: region, interregional economy, subjects, joint business, convergent model.

Аннотация: В данной статье говорится о конвергентной модели совместного предпринимательства региональных межрайонных хозяйствующих субъектов. Опираясь на научные данные, автор на основе доступной литературы изучил и проанализировал особенности совместного предпринимательства межрайонных экономических субъектов региона по конвергентной модели.

Ключевые слова: регион, межрайонная экономика, субъекты, совместный бизнес, конвергентная модель.

KIRISH

Tumanlararo xo‘jalik yurituvchi subyektlar biznesini tashkil etishning eng muhim masalalaridan biri qo‘shma biznesini konvergent modeli hisoblanadi. Bu model qo‘shma biznes ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy jarayon doirasida o‘zaro munosabatlarning yaqinlashtirish va birlashtirishninig optimal variantini topishga yordam beradi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, moliya bozorida qo‘shma biznes yuritishning eng samarali usuli, biznes jarayonlar konvergent modelining ijobiy ta’siriga erishishdir.

Birinchi navbatda, bu tashabbuskor biznesmenning raqobatbardoshligini oshiradi. Shuning uchun, munosabatlarning asosiy subyektlari bo‘lgan moliya bozori uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samarali rivojlanishi uchun yaqinlashtirish tashabbusi bilan ham, ularning ishtirokida ham biznes doirasida qo‘shma faoliyatning eng samarali konvergensiya modellarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Konvergensiya xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning ixtiyoriy konvergensiya shaklida hamkorligi yoki bir firmaning boshqa bir firma faoliyatiga ixtiyoriy ravishda, lekin ko‘pincha uni o‘tkazishning agressiv shaklida kirib borishi orqali amalga oshiriladi [1]. Biroq konglomeratning o‘z doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishtirokchilarini birlashtirish varianti ularning o‘zaro ta’siri konvergetsiya modeli bilan belgilanadi.

Bunda yangi elektron ma’lumotlar bazasini qo‘llashning asosiy yo‘nalishi uning asosida ma’lumotlarga asoslangan biznes-tizim modellarini ishlab chiqishdan iborat [2].

Tabiiyki, yanada murakkabroq raqamlashtirish mahsulotlari har qanday darajadagi iqtisodiy konvergensiya jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega [3]. Bu “Qo‘shma biznes samaradorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan raqamlashtirish mahsuloti” mezoniga muvofiq iqtisodiy konvergensiyaning ma’lum darajasida amalga oshirilgan biznesga eng katta ijobiy ta’sirni eng murakkab raqamlashtirish mahsuloti ta’minlaydi, deb ishonishga asos beradi – IT, IT platformalari va ularni bog‘laydigan tarmoqlardir.

“Raqamli va axborot texnologiyalari bilan konvergensiya tashabbuskorining dastlabki tayanch mahsuloti ulanishining tabiatidir” [4]. Demak tumanlararo “xo‘jalik yurituvchi subyektlar” ishlab chiqarishni konvergensiyalashda yangi texnologiyalar bilan bir qatorda konvergent modellarni yaratish obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

Qo‘shma (start-up) biznes yaratishning “konvergent modeli”ni tushuntirish uchun, biznesning yaratish jarayonini konvergent (birlashtiruvchi) usullarga asoslanadigan amaliyotni tavsiflash lozim. Konvergent model, turli yo‘nalishlardagi ideyalarni va resurslarni birlashtirib, bitta qo‘shma biznesni olib borishning yordamchisi bo‘lgan strategiya sifatida ishlatiladi. Bu, biznesni tez va samarali ravishda rivojlantirishni osonlashtirish va moliyaviy resurslarni tejovchi xususiyatga ega.

Konvergent modelni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlar olib boriladi:

- **Biznes ideyasini tanlash:** Boshlash uchun yaratilayotgan biznes turi va turli ideyalarni ishlab chiqish.
- **Ideya birlashtirish:** Turli ideyalarni bir-biriga qo‘shib, ularni bir qo‘shma biznes konsepsiyasiga birlashtirish.
- **Ma’lumotlar va tahlil:** Tanlangan biznes konsepsiyasini boshqarish. Bu, soha bo‘yicha ma`lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish va xarajatlarni hisobga olishni o‘z ichiga oladi.
- **Investitsiyalar va moliyaviy mablag‘lar:** Biznesni olib borish uchun kerakli moliyaviy resurslarni jalb qilish, investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyalarni jalb qilish yoki investorlarni qidirish kerak.
- **Start-up jamoasi:** Qo‘shma biznesni boshlashda yaratilgan jamoalar, kompaniya yaratishning har bir jihatiga tayyorlanish va ko‘p tomonlama yordam bera olishi mumkin. Bu konvergent modelning boshqa qismlarini birlashtirish uchun juda muhim bo‘lishi mumkin.
- **Biznesni rivojlantirish va yuqori natijalarni kutish:** Biznesni boshlanganidan so‘ng, uning rivojlantirilishi va xaridorga taqdim etilishi kerak. Konvergent model biznesni rivojlantirish jarayonini tezlashtiradi va natijalarni tezlik bilan olish imkonini beradi.
- **Marketing va tijorat:** Konvergent model, biznesni turli sohalarda tez va samarali ravishda olib borishga yordam beradi. Sotish-strategiyalarini rivojlantirish va marketing kampaniyalarini amalga oshirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Konvergent model, turli tashkilotlar va yo‘nalishlardagi biznes ideyalarni birlashtirib, ularni samarali qilish uchun juda foydali bo‘lishi mumkin. Bu modelning boshqa bir afzalligi shundaki, turli sohalardagi resurslarni birlashtirish orqali, biznesning qurilish va rivojlantirish jarayonini tezlashtirish va moliyaviy resurslarni tejovchi qilish imkonini beradi.

Ushbu biznes jarayon konvergent modellarning xususiyati va qiymatlarining turli xil variantlarini aniqlashga qo‘shma biznesni tashkil qilish tamoyillarga tayanamiz.

Qo‘shma biznesni tashkil qilish tamoyillari O‘zbekiston, yoki boshqa mamlakatda “xo‘jalik yurituvchi subyektlarda” yani, shaxsiy tadbirkorlik uchun bir necha yo‘llarni o‘z ichiga oladi.

- **Biznes ideyasini tanlash:** Bir qo‘shma biznesni boshlashda bir biznes ideyasini tanlash juda muhimdir. Bu ideya, o‘zingizning mahoratingiz va qiziqishingizga mos kelishi kerak. Qo‘shma bizneslari uchun misollar avtomobil boshqaruv, mahsulotlar sotish, xizmatlar, restoranlar, kafe, mehmonxonalar va boshqalar bo‘lishi mumkin.
- **Biznes rejasi tayyorlash:** Biznes ideyangizni batafsil o‘rganib, biznes rejasi tayyorlang. Bu rejada nimalar kerak, qancha moliyaviy resurslar va ma`lumotlarga ehtiyotkorlik talab qilinadi.
- **Yuridik va moliyaviy masalalar:** Biznesni o‘zlashtirish uchun qo‘llab-quvvatlash loyihalari tuzish va yuridik shaxslashtirish, loyihani rivojlantirish va ishlab chiqarish, tovar va xizmatlarni sotish, narxlarni qaror qilish kabi masalalarni yechish lozim.
- **Moliyaviy moliyalashtirish:** Biznesni boshlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri mablag‘ni ayirib olishingiz kerak. Bu, o‘zingizning moliyaviy tahlil qilish va qancha pul kerakligini aniqlashni talab qiladi.
- **Yer joylashish:** Qo‘shma biznesni qayerda olib borishni o‘ylab, o‘zingizga kerakli joyni tanlab, qurilish yoki ombor yerni ijaraga olishingiz mumkin.
- **Marketinshni loyihalash va amalga oshirish:** Biznesni o‘zini tanitish, reklama qilish va mijozlar bilan aloqani yaratish uchun marketing loyihalashini amalga oshirish kerak. Bu, potentsial mijozlarni jalb qilish va biznesni rivojlantirishda muhim bo‘lishi mumkin.
- **Kadr tayyorlash va ishga kirish:** Biznesni rivojlantirish va oshirish uchun kerakli xodimlarni topish, ta’lim berish va ishlab chiqarish jarayonini boshlash lozim.

- **Moliyaviy boshqarish:** Biznes moliyaviy holatini boshqarish, pulni hisobga olish, daromad va xarajatlarni monitoring qilish muhimdir.
- **Biznesni rivojlantirish:** Biznes olib borilayotgan harakatlarini monitoring qilish, yangi ideyalarni rivojlantirish va osonlik bilan o‘zgarishlar kiritish kerak.
- **Kredit olish va investitsiyalar:** Biznesni olib borish uchun moliyaviy investitsiyalar va kredit olish imkoniyatini o‘rganish kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Yaratilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, konvergensiyalash jarayonida kafolatlangan iste’molchilar hisobiga o‘z samaradorligini oshiradi. Bu moliya bozorining segmentlarida biznesning tashkiliy va iqtisodiy shakllari sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llaridan biridir. Ammo moliya bozori subyektlarining o‘z raqobatbardoshligini oshirish vazifasi bizni ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning boshqa yo‘llarini izlashga majbur qiladi. Moliyaviy xizmatlar har qanday modifikatsiyaga eng yaxshi yordam berishini hisobga olgan holda, iqtisodiy konvergensiya jarayonlari birinchi navbatda moliya sektorida namoyon bo‘ldi va namoyon bo‘lmoqda. Bu, boshqa narsalar qatori, o‘z aksini topdi.

Tumanlararo va tarmoqlararo konvergensiya doirasida qo‘shma biznesni tashkil etishning asosiy shakli moliyaviy konglomeratdir – moliyaviy bozorning turli segmentlaridan (tumanlararo konvergensiya) yoki undan a’zo firmalarning integratsiyasi shakllanadi.

Tumanlararo konvergensiyani amalga oshirishning ixtiyoriy shakli bilan qo‘shma biznes ishtirokchilari faoliyatini yaqinlashtirishning eng mashhur shakllari orasida, tashabbuskor tomonidan taqsimlash to‘g‘risidagi shartnoma asosida qurilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi muhim rol o‘ynaydi:

- passiv ishtirokchining mahsulotlari yoki xizmatlarining yaqinlashuvi;
- Strategik rejalashtirish asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi;
- qo‘shma korxona doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan, moliya bozorining turli segmentlaridagi va aniq (konvergent) moliyaviy mahsulotlarni – bank, sug‘urta, investitsiyalarni yaratishga qaratilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi;
- yagona brenddan foydalanishga asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi;
- moliya supermarketi doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligi;
- yangi xo‘jalik subyektini tashkil etish.

Yuqorida sanab o‘tilganlardan ajralib turadigan “xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro ta’siri, uni amalga oshirishning agressiv shaklida amalga oshiriladigan va yaqinlashuv tashabbuskorining uning passiv ishtirokchisining faoliyatiga kirib borishiga asoslangan” modelidir. Masalan, aktiv tumanlardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, passiv tumanlardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga yaqinlashib kirib borishinig konvergensiya modeli.

Konvergent texnologiyalarning yangi shakllari va modellari, shuningdek, raqamli iqtisodiyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro yaqinligi va hamkorligi asosida raqamlashtirish va uning mahsulotlarining ijobiy ta’siridan foydalanishni hisobga olgan holda vujudga keladi. Mahsulot ishlab chiqarish va biznes yuritishning bunday yangi shakllarini (iqtisodiy konvergensiya jarayonlaridan tashqarida ham, ular ichida ham) yanada chuqurroq o‘rganish va raqamlashtirishni konvergensiya samaradorligini oshirish omili sifatida ko‘rib chiqish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish faoliyati ta’siri xususiyatlarini o‘rganish zarur. Shu jumladan, afzalliklari, imkoniyatlari va salbiy ta’sirini ko‘rib chiqish kerak.

Qushma biznesning shakllanishi va rivojlanishiga turli omillar, jumladan, raqamlashtirish – ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyasi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Rivojlanishning asosiy bosqichlari bilan bog‘liq aniq raqamlashtirish mahsulotlaridan foydalanish qo‘shma biznesni rivojlantirish uchun alohida afzalliklarni beradi, bu esa uning samaradorligini oshirishning muayyan yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va amalga oshirilishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Raqamlashtirish iqtisodiy konvergensiyaning barcha parametrlariga – biznes modelining zaruriy shartlari, omillari va xususiyatlariga ta’sir qiladi. Bu qo‘shma biznes tashabbuskori va ishtirokchilariga raqamlashtirishning iqtisodiy konvergensiyaga ta’siri tufayli uning sinergiyasini oshirish yo‘llarini amalga oshirish orqali eng yuqori samaradorlikka erishish uchun alohida imkoniyatlar yaratadi (1-jadval).

1-jadval: Raqamlashning iqtisodiy konvergensiyaga ta'siri tufayli qo'shma biznes samaradorligini oshirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari

Iqtisodiy konvergensiya turi	Raqamlilashtirish mahsuloti		
	IT	IT, IT platformalari	IT, IT platformalari va ularni bog'laydigan tarmoqlar
Intrasegment	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT-dan foydalangan holda segment ichidagi konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT va undagi IT platformalaridan foydalangan holda segment ichidagi konvergensiyaning bir qismi sifatida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT, IT platformalari va ularni birlashtiruvchi tarmoqlardan foydalangan holda segment ichidagi konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.
Intersegment	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT-dan foydalangan holda segmentlararo konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT va undagi IT platformalaridan foydalangan holda segmentlararo konvergensiyaning bir qismi sifatida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT, IT platformalari va ularni birlashtiruvchi tarmoqlardan foydalangan holda segmentlararo konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.
Tarmoqlararo	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT-dan foydalangan holda tarmoqlararo konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT va undagi IT platformalaridan foydalangan holda tarmoqlararo konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.	Qo'shma biznes samaradorligini oshirishning barcha yo'nalishlari IT, IT platformalari va ularni birlashtiruvchi tarmoqlardan foydalangan holda tarmoqlararo konvergensiya doirasida amalga oshiriladi.

Qo'shma biznes xususiyatlarining ro'yxati (oldindan shartlar, omillar, biznes modeli) har qanday yaqinlashuv darajasi uchun bir xil, ammo ularning mazmuni qo'shma biznes amalga oshirilayotgan iqtisodiy yaqinlashuv darajasiga qarab har xil bo'ladi (intrasegment, segmentlararoyoki kesishuvchi). Segment ichidagi konvergensiya darajasi uchun samaradorlikni oshirish yo'nalishlari faqat bitta segment bilan cheklanadi – bunda konvergensiya sodir bo'ladi. Masalan, tumanlararo segmentlari uchun ushbu yo'nalish xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari yoki yangi mijozlarning yangi savdo kanalidan foydalanishni, bank segmenti uchun esa bank mahsulotlarini sotishning yangi kanalining paydo bo'lishini va yangi mijozlarni jalb qilishni o'z ichiga olishi mumkin. Faoliyatni boshqa bankka yaqinlashtirish orqali, segmentlar darajasida, faoliyatga yaqinlashtirilgan mahsulotlar yotadi.

XULOSA

Iqtisodiy konvergensiyaning tarmoqlararo darajasi uchun qo'shma biznesning samaradorligini oshirish yo'nalishiga misol sifatida qo'shma biznesning barcha mijozlariga bank mahsulotini sotishdir. Konvergensiyaning har qanday darajasining zaruriy sharti faoliyatning ma'lum jihatlarining o'xshashligidir – qo'shma biznesni segment ichidagi darajada tashkil qilishda bir xil mahsulot va segmentlararo darajada – zaruriy shartlar mijozlar bazasining o'xshashligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гайсина Д. В. Трансформация современных бизнес-моделей в сторону экосистем: доклад / Шестаяконференция "Проектирование бизнес-архитектур 2017", 2017. [Электронный ресурс] URL:https://www.businessstudio.ru/upload/iblock/7e6/Гайсина.pdf (Дата обращения 10.07.2020).
2. МТС маркетолог. Data-driven подход: как принимать решения на основании данных https://marketolog.mts.ru/blog/data-driven-podhod-kak-prinimat-resheniya-na-osnovanii-dannih/3472 (датаобращения: 25.08.2020).
3. Калайда С. А. Экосистема как эффективная институционально-организационная форма межсекторной финансовой конвергенции // Сборник материалов: VII региональная научно-практическая конференция "Актуальные вопросы финансов и страхования России на современном этапе", Мининский университет, Нижний Новгород. –2020 С. 187-191.
4. Чернова Г. В., Калайда С. А., Кҳалин В. Г., Юрков А. В. Маттерс оф эсономис эсосйстем слассификатион.
5. Z. S. Shoxo'jayeva. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma. Qarshi, "INTELEKT" nashriyoti, 2022-y. 395-bet.
6. Z. S. Shoxo'jayeva. "Qishloq zo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti". Darslik. Qarshi, "INTELEKT" nashriyoti, –2022-y. 533-bet.

AHOLINI BIZNESGA JALB QILISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI

Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotda muhim o‘rin tutgan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor berilayotgani, shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan aholiga berilayot- gan kreditlar va mikroqarzlarning ulushi hamda ushbu sohalarni moliyaviy qo‘llab-qavvatlash maqsadida qabul qilingan qaro- rlar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, o‘rta biznes, tadbirkorlik, mikroqarz, chakana kreditlari, bandlik,iqtisodiy o‘sish, nobank kredit tashkilotlari.

Abstract: In this article, the importance of the development and support of small business and entrepreneurship, which plays an important role in the economy, as well as the share of loans and microloans provided to the population by the commercial banks of our country, as well as the financial support of these sectors, were adopted decisions are shown.

Key words: small business, medium business, entrepreneurship, microcredit, retail loans, employment, economic growth, non-bank credit organizations.

Аннотация: В данной статье принято, что большое внимание уделяется развитию и поддержке малого бизнеса и предпринимательства, занимающих важное место в экономике, а также доле кредитов и микрозаймов, предо- ставляемых населению коммерческими банками нашей страны. страны, и финансовая поддержка этих секторов.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, предпринимательство, микрокредит, розничное кредитование, занятость, экономический рост, небанковские кредитные организации.

KIRISH

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonlarini izchillik bilan o‘tkazish va iqti- sodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bank tizimini tubdan mustahkamlash va bu sohada ham islohotlarni faol- lashtirish,banklarning kapitallashuvini oshirishni va bo‘sh pul mablag‘larni bank oborotiga jalb qilish hisobidan ularning kredit berish imkoniyatlarini kengaytirishda, mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor berib kelinmoqda. So‘nggi yil- larda jahon iqtosodiyotida kichik biznesning o‘rni va ahamiyati mustahkamlanib bormoqda. Ko‘pgina davlatlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlar yaratish, aholi bandligini ta’minlash, ishlab chiqarishga yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, davlat budjetini soliqlar bilan to‘ldirishda kichik biznesdan dastak sifatida foydalanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Kichik biznes va tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini kengroq tushunish uchun uning boshqa iqti- sodiy subyektlar (yirik biznes)dan farqli jihatlari, qolaversa, afzalliklari xususida bir qator xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, amerikalik iqtisodchi R. Syuart kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tgan:

- kichik biznes ko‘pchilik yangi mahsulot yoki xizmat turining bunyod etilishi uchun boshlang‘ich ishlab chiqarish nuqtasidir.Bir shaxs birorta g‘oyani amalda tatbiq etishga urinadi.Agar, u muvaffaqiyatli bo‘lib chiqsa,biznes o‘sadi yoki mahsulot yirik korxona tomonidan sotib olinadi;

- kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarni qondirishga yaxshi moslashgan bo‘ladi;
- kichik biznes shaxsga tajriba orttirish imkonini berishi mumkin va o‘zlariga keyinchalik kengroq miqyosda qo‘l kelishi mumkin;
- ommabop ishlab chiqarilgan mahsulotlar joniga tekkan iste’molchilarga hunarmandlar shaxsiy ish rejasi bo‘yicha ishlangan mahsulot taklif etilishi mumkin;
- kichik biznes o‘z iste’molchisini shaxsan bilishi mumkin bo‘lgan xizmat turlarini taklif etadi;
- yakka mulkdor iste’molchilarning ishonchlilariga tayanadi[1].

Iqtisodchi olim L. Guroning fikricha, kichik biznes quyidagi afzalliklarga ega:

- ko‘p tomondan iqtisodiy o‘sishning sur’samarali taqsimlashga yordam beradi;
- ish o‘rinlarini vujudga keltiradi;
- yangi ish joyini tashkil etish yirik korxona qurilishi va ishga tushishiga qaraganda ancha ko‘p foyda beradi.

Mahalliy olimlarimizdan N. To‘xliyevning kichik biznes va tadbirkorlik haqidagi quyidagi fikrlari mavjud:

birinchidan, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bevosita bog‘liq masala bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy negizini mustahkamlashda xizmat qiladi;

ikkinchidan, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantiradi va ayni paytda ishlab chiqarishni, bozorni iste’mol mollari va xizmatlar bilan ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o‘rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo’yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo’nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma’lumot manbalarini o’rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda moliya-iqtisodiyot sohasidagi islohotlarning o‘ziga xosligi shundaki, natijasi aholi hayotida tezkorlik bilan aks etadi.Shu boisdan, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotida kichik biznesni moliyalashtirish, ularning faoliyatiga tijorat banklari kreditlari, nobank kredit tashkilotlar mablag‘larini kengroq jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Joriy yilning 9 oyi davomida tijorat banklar tomonidan 184 trln so‘m miqdorida yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30 foizga ko‘p kreditlar ajratilgan.



1-rasm: Banklar tomonidan ajratilgan kreditlar[2]

Mazkur kreditlarning 59 foizi(109 trln so‘m) korporativ va 41 foizi(75 trln so‘m) aholiga ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi (1-diagramma). Ammo yillar kesimida solishtiradigan bo‘lsak, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ajratilgan kreditlarning 68 foizi korporativ kreditlarga, 32 foizi aholiga ajratilgan kreditlarga to‘g‘ri kelyapti.

1 T. Qoraliyev. “Bank ishi”.–2016-yil.391-bet
2 Banklarning moliyaviy holati.2023-yil III-chorak yakuni bo‘yicha



2-rasm: 2023-yil 9 oy davomida ajratilgan mikroqarzlar[3]

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 2023-yilning dastlabki 9 oyi davomida 75,1 trln so‘mlikni tashkil etgan bo‘lsa, 40,2 foizi avtokreditlar hissasiga to‘g‘ri kelgan, 27,5 foizini mikroqarzlar va 16,3 foizini ipoteka kreditlari tashkil etgan. Yil boshidan mikroqarz ajratish oyma oy o‘sib borgan hamda so‘nggi oylarda biroz sekinlashgan. Jami ajratilgan chakana kreditlar yo‘nalishlar kesimida qaraydigan bo‘lsak,-mikroqarz va overdraft -21,1 trln so‘m, aholi tadbirkorligi -7,5 trln so‘m ajratilgan. O‘zbekistonda jismoniy shaxslarga beriladigan mikroqarzlarning miqdori so‘nggi marta 2019-yilda oshirilgan edi. Ya’ni 2019-yilning 1-avgustidan O‘zbekistonda jismoniy shaxslarga beriladigan mikroqarzning eng ko‘p miqdori 50 mln so‘mgacha etib belgilangan. Mazkur imkoniyatdan foydalanib qanchadan qancha odamlar mazkur tadbirkorlik faoliyatini boshladi. O‘z ehtiyoji uchun bank xizmatlaridan foydalandi. Tadbirkorlikka yaratilgan imkoniyat, aholi xarid quvvatining oshishi mikromoliyalashga bo‘lgan talabning ortib borishi bugungi kunga kelib,mazkur miqdorlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi.Aholining mikromoliyaviy ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni qulaylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil noyabr oyida ikkita muhim qaror qabul qildi. Birinchisi, “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bo‘lsa, ikkinchisi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2] qarori.

Birinchi qarorning qisqacha mazmunini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2024-yil 1-yanvardan, mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so‘dan 100 mln so‘mgacha oshiriladi.4 Bu aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlardan biri.Aholining o‘zini-o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kredit tashkilotlari nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa,bu mijozlarning sonini ko‘partirishiga, ularning foydasining oshishiga olib keladi.Natijada resurslar bazasini oshishiga olib keladi. Ikkinchi qarorga muvofiq:

- davlat dasturlari doirasida kichik va o‘rta biznes loyihalarini “Biznesni rivojlantirish banki” ATB, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ va boshqa hamkor tijorat banklaridan iborat yaxlit moliyaviy tizim asosida qo‘llab-quvvatlanadi.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB bo‘yicha:

- kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 baravarga oshirish orqali kredit portfelidagi ulushini 28 foizdan 43 foizga yetkazish;
- kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy Hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha miqdorda resurslar jalb qilish;
- 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish;
- 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish.

3 Banklarning moliyaviy holati.2023-yil III-chorak yakuni bo‘yicha

4 Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-364-son 10.11.2023

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ bo‘yicha:

- kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 trillion so‘mdan 14 trillion so‘mga yetkazish;
- 150 ta o‘rta biznes korxonasiga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi asosida 300 ta loyihani tadbirkorlik subyektlariga sotish;
- o‘rta tadbirkorlik subyektlari sonini 2,5 baravarga oshirish;
- 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish.

Respublika komissiyasi a’zolari bir oy muddatda o‘zlari biriktirilgan hududda har bir tuman va shaharga chiqqan holda, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun o‘quv seminarlarini tashkil qiladi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi bir oy muddatda:

- 75 million AQSH dollari “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning ustav kapitalini oshirishga;
- 225 million AQSH dollari subordinar qarz sifatida 15 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5 foiz stavkada mablag‘lar ajratadi.

Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish uchun “Kichik biznesga ko‘maklashish markazi” MCHJlar va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning vakillari belgilangan tartibda Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari binolariga joylashtiriladi. Davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab:

- kredit ajratishning barcha bosqichlari (arizani ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va kredit ajratish) raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi;
- kredit ta’minotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni taqiqdan to‘liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinadi;
- axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritishi, pul oqimlari va boshqa ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlarni oldindan aniqlash mexanizmi amaliyotga kiritiladi;
- davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so‘mgacha qiymatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma’lumki, iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan har qanday korxona o‘z moliyaviy resurslari hisobidan investitsiya loyihasini moliyalashtirishga yoki o‘z biznesini ochish uchun har doim ham imkon topa olmasliklari mumkin. Bunday holatlarda mikroqarzlar kichik biznes faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbayi bo‘lib maydonga chiqadi. Xulosa qilib aytganda, hozirda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, yangi qarorlarning qabul qilinishi, bu aholining tadbirkorlik tashabbuslarini quvvatlashga, aholining o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengayishiga olib keladi. Kredit tashkilotlari nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, bu mijozlarning sonining ko‘payishiga, ularning foydasining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T. Qoraliyevning. “Bank ishi”.Toshkent-2016.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.11.2023-y., 07/23/364/0843-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (15.11.2023-y.).
4. cbu.uz.Banklar-moliyaviy-holati. 2023-yil.
5. I. R. Toymuhammedov “Bank ishi”.–Toshkent-2020.
6. Sh. Z. Abdullayeva “Bank ishi”. –Toshkent-2017.
7. Banklarning moliyaviy holati.–2023-yil III-chorak yakuni bo‘yicha. 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. –2022-yil.
9. Margolin. A. M. Investitsii. –M.: RAGS, 2006. – S. 464.

MAHALLIY GASTRANOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIY ASOSLAR

Sultonov B. A.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: Gastranomik turizmni rivojlantirishda har bir hududning mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu maqolada turistlarning oziq-ovqat bilan bog‘liq xususiyatlari va mahalliy gastronomiyaning mahalliy hamjamiyat uchun ham, dunyo miqyosida ham turistlarga keltiradigan naflari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, gastranomiya turizmi orqali olinadigan natijalar hamda bu borada amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar borasida xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gastranomiya, mahalliy gastronomiyaning afzalliklari, oziq-ovqatning individual xususiyatlari, belgilangan joyda mahalliy gastronomiya.

Abstract: Local food products of each region are of great importance in the development of gastronomic tourism. Therefore, this article discusses the food-related characteristics of tourists and the benefits of local gastronomy to the local community and to tourists globally. In addition, the conclusions and suggestions regarding the results obtained through gastronomy tourism and the work to be carried out in this regard are given.

Key words: gastronomy, advantages of local gastronomy, individual characteristics of food, local gastronomy in a designated place.

Аннотация: Местные продукты питания каждого региона имеют большое значение в развитии гастрономического туризма. Поэтому в этой статье обсуждаются особенности питания туристов и преимущества местной гастрономии для местного сообщества и туристов во всем мире. Кроме того, даются выводы и предложения относительно результатов, полученных благодаря гастрономическому туризму, и работы, которую предстоит провести в этом направлении.

Ключевые слова: гастрономия, преимущества местной гастрономии, индивидуальные особенности питания, местная гастрономия в отведенном месте.

KIRISH

Oziq-ovqat va ovqatlanish inson kundalik hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Oziq-ovqat va ovqatlanish turizmi ijtimoiy-madaniy va turistik jihatlarning aralashmasini ifodalovchi turistik yo‘nalishlari sifatida turizm taklifining muhim qismini tashkil qiladi. Har bir sayyoh, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun biologik ehtiyojga ega, ammo buni amalga oshirish usuli nafaqat turistik joyning oshxonasi va mehmondo‘stligining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, balki turistik joyning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga ham kuchli bog‘langan.

Bugungi kunda mahalliy supermarketda insonlar dunyoning istalgan nuqtasida ishlab chiqarilgan mahsulotni xarid qilishi mumkin.

Ushbu maqolada gastronomik turizmini afzalliklari va kamchiliklarini uni tabiatni saqlash vositasi nuqtayi nazardan va milliy gastronomik mahsulotlar iste’molini kengaytirish qilish orqali gastronomik turizmini yanada rivojlantirish kabi faraz va mulohazalar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR TAHLILI

“Gastronomik turizmi” tushunchasi birinchi marta 1998-yilda AQShning Ogayo shtati, Bouling Grin Steyt universiteti milliy madaniyat kafedrasi professori Lyusi Long tomonidan kiritilgan. Odamlar turli madaniyatlarni oziq-ovqat madaniyati orqali qanday qabul qilishlari haqidagi g‘oyasini ifodalash uchun u shunday deydi: “Men pazandachilik turizmini insonlarning yangi taomlarni ta’tib ko‘rishda ishtirok etish, shu jumladan, iste’mol qilish,

tayyorlash va taqdim etishi deb ta'riflayman"[1]. Ushbu ta'rif shaxsning turistik tajribani o'zlashtirish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida muhimligini ta'kidlaydi, chunki oziq-ovqat, bu umumiy tajribaning bir qismi sifatida unda estetik reaksiyani keltirib chiqaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy gastranomiyani rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni o'rganish jarayonida biz mantiqiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalandik. Chunki ilmiy izlanish sifat va miqdor ko'rsatkichlarni to'plash, Tabiiy maskanni o'rganish, tashrif buyuruvchilar tomonidan to'ldiriladigan so'rovnoma tuzish va ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gastronomik turizm – bu mamlakat bilan uning gastronomiyasi, mahalliy oshxonasi va pazandalik mahorat darslari orqali tanishish uchun sayohat va gastronomik turlardir[2]. Gastronomik turizm, yoki oshxona turizmi, turizmning asosiy turlaridan biri bo'lib, asosiy maqsadi, sayyohlarning ma'lum bir mamlakatga, sayohat qilishi asnosida, o'sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham, yaqindan tanishishidir. Gastronomik sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an'anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko'rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e'tiqodlarini o'rganadi

O'zbekiston – gastronomik turizm uchun eng mos va maqbul mamlakatdir. O'zbek milliy oshxonasi, shubhasiz, sharqning rang-barang va eng boylaridan biri hisoblanadi. Ayrim o'zbek taomlari bir necha asrlik tarixga ega. O'zbekiston bo'ylab gastronomik sayohat, mamlakatning istalgan hududida bo'lsin, yangi hissiyotlar va taassurotlar qoldiradi. Xuddi shuningdek, har qanday ekoturizm faoliyati odatda tabiiy hududlarda bo'lib, bunda nafaqat tabiiy hududlarni, balki etnoturistik potensialni ruyobga chiqaruvchi mahalliy madaniyatni saqlash yoki rivojlanishiga hissa qo'shishi, natijada sayohatchilar uchun qo'shimcha qiymat yaratib, tarmoq daromadini oshirishga xizmat qilishi kerak. Bunday tadbirlar ushbu hududda ham, mahalliy hamjamiyatda madaniy xilma-xillikni qadrlashga yordam beradi. Shunday qilib, amalga oshirilayotgan tadbirlar mahalliy hamjamiyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini yaxshilash orqali ularning farovonligini oshirishdan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan sanab o'tilgan ekoturizmning o'lchovlaridan biri ekoturizmning iqtisodiy o'lchovidir. Ushbu yo'nalishda ekoturizm bilan bog'liq faoliyat ko'pincha mahsulot va xizmatlar sohalarida bo'lib, ular hudud menejerlaridan tortib to mahalliy jamoalarga qadar turli manfaatdor tomonlarni jalb qiladi. Taklif etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar orasida oziq-ovqat va ichimliklar, garchi asosiy mahsulot hisoblanmasada, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot milliy bog'larda, tabiat maskanlarida va boshqa har qanday qo'riqlanadigan hududlarda ro'y beradigan mahalliy gastranomiya va oziq-ovqat iste'mol qilishga bag'ishlangan.

Iste'molchilar orasida oziq-ovqat bilan bog'liq shaxsiy xususiyatlar mavjudligiga qaramay, mahalliy taom turistlar tajribasi sifatining eng muhim jihatiga aylanishi mumkin. Tashrifning asosiy yoki qisman sababi gastronomik marshrutlarni ta'minlash hamda ko'paytirishdir, bu esa nafaqat sayyohlarga, balki mahalliy aholiga ham foyda keltiradi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tashrif buyuradigan joyning atrof-muhit sifati bilan bir qatorda, yaxshi mahalliy taomi ham sayyohlarning kayfiyatlariga va tajribalariga ta'sir qiladi. Turist sayohat qiladigan joyni tanlayotganda ko'p jihatlarni hisobga oladi, ular orasida mahalliy oziq-ovqat turlarining bo'lishi ham hozirgi kunda ko'p kuzatilmoqda. Garchi bu asosiy motivatsiya bo'lmasligi mumkin, ammo u tashrif buyurish uchun qisman motivatsiya sifatida muhim rol o'ynaydi. Mahalliy oziq-ovqat nafaqat ovqatlanish uchun xizmat qiladi, balki gastronomik marshrut orqali sayyohlar mahalliy hamjamiyat va uning madaniyatini tushunishlari uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy oziq-ovqat iste'mol qilishning afzalligi shundaki, u kichik tomorqa xo'jaliklarini saqlashga va qishloq jamoalarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, chunki sarf qilingan mablag' mahalliy jamoada (mahalliy aholida) qoladi. Shuningdek, u oziq-ovqat uchun sarflanadigan safar kilometrlarini kamaytiradi, shu bilan qazilma yoqilg'i sarfini va havo ifloslanishini kamaytiradi. Buning evaziga xaridorlarga iste'mol qilish uchun ekologik toza oziq-ovqat tanlash va ushbu mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan odamlar bilan suhbatlashish orqali gastronomik mahsulotlarni tayyorlash jarayoni bilan yaxshiroq tanishish hamda uni sotib olishga ishtiyoqning uyg'onishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha daromad keltiradi.

Ko'rinib turibdiki, mahalliy sharoitda ishlab chiqariladigan va belgilangan joyda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat va ichimliklar nafaqat mahalliy iqtisodiyotga, balki mahalliy madaniyatga va turistik yo'nalishlarning

1 Lucy, L. (2015). Culinary tourism: a folkloristic perspective on eating and otherness. In Long, L. (ed.) Food and Folklore Reader. London: Bloomsbury.

2 https://fayllar.org/14-mavzu-gastronomiya-turizmini-rivojlantirish-istiqbollari.html?page=3

ekologik barqarorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida mezbonlarga ham, mehmonlarga ham foyda keltiradi[3] (Sims, 2009). Quyidagi jadvalda sayyohlik joylarida mahalliy oziq-ovqatning foydasi bilan bog'liq bo'lgan oldingi tadqiqotlar namunalari tahlili keltirilgan.

1-jadval: Ekoturizm va mahalliy gastranomiyani uyg'unlashtirish borasidagi olimlar fikr va mulohazalari

№	Mualliflar	Fikrlar
1.	Adeyinka-Ojo va Khoo-Lattimore (2013)	Malayziyaning Sarvak shahrida sekin ovqatlanish uchun turizm tashkilotchilari tomonidan maxsus ovqat turlari joriy qilingan
2.	Pratt (2013)	Fidji orolida mahalliy oziq-ovqatlarni yetishtirish nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini uzoqligini minimallashtiradi, shu bilan birga, mahalliy iqtisodiyotning oqishini kamaytirish va sifatli oziq-ovqat an'analarini saqlab qoladi.
3	Hjalager va Johansen (2012)	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq ekologik va iqtisodiy barqarorlik, qo'riqlanadigan hududda xizmat ko'rsatish iqtisodiy imkoniyatlarni anglatadi va ajoyib oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash, bu esa ajoyib oziq-ovqat tajribasiga olib keladi
4.	Everett va Slocum (2013)	AQSh hukumati tomonidan mahalliy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash uchun sayyohlarga mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarni sotishni joriy qilishi orqali an'anaviy tarmoqlarni, ish joylarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalsh va ijtimoiy rag'batlantirishga olib keldi.
5.	Sims (2009)	Yangi sayyohlarni o'ziga jalb etadigan ajoyib mahalliy taomlarni targ'ib qilish. Sayyohlar an'anviy dehqonchilik usullari bilan keng tanishishlariga imkon yaratish.
Экономические аспекты рынка жилищного строительства включают в себя цены на жилье, объемы инвестиций, ставки по ипотечным кредитам, а также конкурентную среду на рынке.

Эти внешние шоки могут быть связаны с изменениями в экономике, политике, законодательстве, а также с изменениями в потребительских предпочтениях и тенденциях. Поэтому для успешного анализа рынка жилищного строительства необходимо учитывать как социальные, так и экономические аспекты.

Таким образом, для полноценного понимания динамики развития рынка жилищного строительства необходимо учитывать и анализировать как социальные, так и экономические факторы, влияющие на эту сферу.

Несмотря на высокие темпы роста численности населения Узбекистана (за годы независимости прирост составил более 9,4 млн чел.), наблюдается стабильный рост обеспеченности населения жильем. Если в 1991 году на одного человека приходилось 12,4 кв. м общей площади, то к 2015 г. этот показатель достиг 15,2 кв. м, то есть вырос в 1,2 раза.

Всего в Узбекистане за 2009-2018 годы введено 104,9 млн кв. м жилья, из них 75,6 млн кв.м приходится на сельскую местность и 29,3 млн кв.м – на город. Объем ввода жилья в последние годы, начиная с 2009 года, имеет устойчивую положительную динамику и возрос в 1,6 раз. (см. таб.)

Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиеева от 21 октября 2016 года “О программе по строительству доступных жилых домов по обновленным типовым проектам в сельской местности на 2017-2021 годы”, в республике осуществляется возведение комфортабельных жилых домов по новым типовым проектам, которые учитывают национальный менталитет и особенности условий проживания в сельской местности. Также внедряются максимально благоприятные условия льготного кредитования и дальнейшее расширение использования новых видов энергосберегающих материалов и оборудования. Все это послужит сокращению себестоимости новостроек, в связи с чем и устанавливаются приемлемые цены для всех слоев населения.

Нужно отметить, что только за 2009-2016 гг. на 1308 жилых массивах на селе построено 69557 комфортабельных жилых домов общей площадью 9573 тыс. кв. м, и жилищные условия улучшили свыше 83,5 тыс. сельских семей.

Таб. 1: Динамика ввода в действие жилья в Узбекистане (млн. кв.м.)

	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
По стране	7,7	8,9	9,2	10,4	10,7	11,3	12	11,3	11,3	12,1
Город	2,6	2,2	2,3	2,7	2,7	3	3,5	3,1	3,5	3,7
Село	5,1	6,7	6,9	7,7	8	8,3	8,5	8,2	7,8	8,4

При разработке проектов жилья в сельской местности, по сравнению с проектированием в городах, имеются свои особенности и отличительные черты. Во-первых, это связано с комплексной оценкой территории, на которой предполагается осуществить привязку жилья. Здесь тщательно учитывается организация сельскохозяйственного производства, а также размещения дехканских и фермерских хозяйств. Во-вторых, особое внимание обращается на расселения с расчетом проектной численности населения, трудоустройства, т.е. создание дополнительных рабочих мест, организация система социальной инфраструктуры.

В Узбекистане сформирована необходимая законодательно-правовая база, институциональные основы, система льгот и преференций, создающих режим наибольшего благоприятствования для развития жилищного строительства, в частности в сельской местности.

В целом национальная модель жилищного строительства в Узбекистане характеризуется следующими особенностями:

- стратегическим приоритетом долгосрочного характера выступает опережающее развитие жилищного строительства в сельской местности;
- ориентированность строительства жилья на региональные традиции и менталитет населения иметь преимущественно собственное жилье;
- высокая доля в жилищном фонде и объемах ввода жилья индивидуального жилищного строительства;
- на формирование спроса на жилье существенное влияние оказывает демографический фактор (рост численности населения и молодых семей, состав и структура домохозяйств);
- широкомасштабная система льгот и преференций для устойчивого развития жилищного строительства, в первую очередь на селе.

В настоящее время большое внимание уделяется поиску способов решения жилищной проблемы, вопросам прогнозирования жилищного строительства и эффективного использования сложившегося жилищного фонда и его реконструкции.

Однако практика показывает, что при этом не учитываются вопросы оптимизации структуры жилищного фонда, жилищного строительства, а также влияния рыночных факторов. Это приводит к диспропорции в обеспеченности различных типов семей и общей площади, дефициту в строительстве одних и избытку других типов квартир, а следовательно, к нерациональному использованию жилищного фонда.

Решить эту сложную проблему – создать оптимальную структуру жилищного строительства – можно на основе моделирования процесса жилищного строительства. Моделирование связано не только с обеспечением прогноза внешних факторов (размер инвестиций, к примеру), описанием траектории развития структуры и объемов жилищного строительства, но и с выбором и обоснованием экономической политики в области научно-технического прогресса, инвестиций, цен и т.д.

Эффект от принятия решений в области жилищного строительства сказывается в течение длительного периода в будущем, когда производство функционирует при ресурсах, созданных в прошлом и настоящем времени.

В современных условиях в жилищном строительстве представляется весьма важным учет продолжительности инвестиционного цикла. Сложность, обширность и многогранность указанной проблемы требуют использования комплексного, системного подхода к ее решению. Соединение информационно-логического моделирования и экономико-математических подходов позволяет выработать оптимизационную модель.

При моделировании развития жилищного строительства необходимо решить задачи прогнозирования долговременных тенденций роста строительного производства с учетом требований и ограничений, а также спроса на жилье.

TARAQQIYOT PROGRESS

Прогнозирование должно быть многовариантным, позволяющим оценивать различные пути и возможности развития с учетом ограничений и критериев оптимальности. В связи с изложенным, методы экономического прогнозирования опираются на статистическую обработку данных, характеризующих существующую структуру жилищного фонда.

Это позволяет более объективно раскрыть всю систему взаимосвязей и взаимоотношений, весь комплекс параметров состояния и закономерностей перспективного развития. Одной из важнейших экономических проблем управления жилищным строительством, в условиях рыночных отношений, является комплексное изучение факторов, способных стимулировать его устойчивый рост, а именно:

- реализация программ локализации производства строительных материалов, деталей, конструкций непосредственно в Узбекистане с целью исключения фактора зависимости от импортных поставок;
- реализация положений законодательства Республики Узбекистан в полном объеме с целью обоснованного продвижения вперед в деле развития жилищного строительства;
- соблюдение всех строительных норм и правил с целью исключения всех переделок, удорожания объектов, инженерных коммуникаций и т.д.;
- развитие конкурентной среды на рынке жилищного строительства с целью обеспечения населения комфортабельным жильем и квартирами;
- реализация инвестиционных программ как документа, где взаимосвязаны сроки реализации, объемы финансирования, а также обоснованы с юридических позиций взаимоотношения всех участников инвестиционного процесса.

ВЫВОДЫ

Подводя итоги можно сказать, что состояние жилищного строительства отражает состояние экономической привлекательности Республики Узбекистан. Сегодня жилищное строительство, как в городе Ташкенте, так и в регионах республики реализуется множество проектов комплексной застройки, в которых предусмотрено не только возведение жилья, но и строительство социальной инфраструктуры: общеобразовательных учреждений, торговых, офисных, гостиничных и других объектов. Также в целях стимулирования рынка жилищного строительства правительство республики осуществляют государственные программы по льготному кредитованию. Конечно еще есть много проблем, которые тормозят эффективное развитие жилищного строительства Узбекистана. Основной целью, на мой взгляд, является создание работающей системы по обеспечению населения Узбекистана со среднестатистическими доходами доступным комфортным жильем. Для решения проблем жилищного строительства необходимо дальнейшее развитие данной отрасли, применение современных, актуальных технологий и инвестиций.

Список используемой литературы:

1. Кретов А. А. – Инвестиционный процесс в сфере жилищного строительства и особенности его финансового обеспечения.– 2012 г.
2. Рахман И. А. Зарубежный опыт регулирования инвестиционно-строительной деятельности // Экономика строительства. –2001. № 6. С. 45.
3. Архипов А. П., Гомелля В. Б. Основы страхового дела. Учебное пособие. –М.: “Маркет ДС”, 2002.
4. Ko‘chmas mulk bo‘yicha axborot-tahliliy portal [elektron resurs]. – Kirish tartibi: http://www.irn.ru/ (kirish 12.10.2012).
5. Kuzovleva, I. A. innovatsion boshqarish uchun uslubiy asoslarini ishlab Chiqish muammoli iqtisodiyoti/I. A. Kuzovleva, V. L. Berestov va boshq bilan hududlarida jarayonlar. – Bryansk davlat Universiteti. Muhandislik va texnologik Akademiyasi. – Bryansk: RIO BGITA, 2010. – 238s.
6. Krapivina Ye. S. uy-joy qurilishi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish / / ilmiy-amaliy konferensiya “kooperativ ta’limda innovatsion texnologiyalar iqtisodiy rivojlanish omili sifatida”, –BUPC, 2009.
7. Скулимовский М. М. Сокращение сроков реализации инвестиционно-строительных проектов: Новые подходы // Экономика строительства. –2002. № 5. –С. 14.
8. Строительство в Узбекистане: Статистический сборник Государственного комитета статистики Республики Узбекистан. – 2017.

УЧЕТ И АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аделя Азаматовна Нематова
Самаркандский институт экономики и сервиса, магистр

Ибрагимов Мансур Мардонович
Самаркандский институт экономики и сервиса, доцент

Аннотация: В статье раскрывается сущность учета затрат предприятия и экономическая значимость их снижения. Сопоставляются между собой современные методы учета затрат.

Ключевые слова: учет затрат, анализ затрат, методы снижения затрат, прямой калькуляция, стандартная калькуляция, оптимизация затрат, абсолютная и относительная экономия затрат.

Annotatsiya: Maqolada korxonaning xarajatlar hisobi va ularni kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Xarajatlar hisobini zamonaviy usullari bir biri bilan solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: Xarajatlar hisobi, xarajatlar tahlili, xarajatlarni kamaytirish yo‘llari, direct-costing, standart costing, xarajatlarni optimallashtirish, mutlaq va nisbiy tejamkorlik.

Abstract: The article reveals the cost accounting of the enterprise and the economic significance of their reduction. Modern methods of cost accounting are compared with each other.

Key words: cost accounting, cost analysis, cost reduction methods, direct costing, standard costing, cost optimization, absolute and relative cost savings.

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня мировая экономика развивается настолько стремительно, что за последние 10 лет предприниматели добились больших успехов. В нашей стране происходят эффективные изменения в сфере экономики.

Экономическая стратегия нового Узбекистана предусматривает вхождение к 2030 году в число 50 стран-лидеров глобального инновационного индекса и развитие человеческого капитала и достижение сбережений для достижения этой цели[1].

Развитие экономики находится в прямой зависимости от показателя экономии, то есть снижения затрат в деятельности предприятий. Чтобы поднять прибыль на более высокий уровень, нам необходимо правильно настроить расчет себестоимости и следить за изменениями в мировой экономике, и применять их на практике.

1 Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] /Sh. M. Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbkiston” nashriyoti, 2021. -464 b. ISBN 978-9943-6992-3-6

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Стоит отметить, что для установления и снижения себестоимости на предприятиях необходимо теоретически знать хозрасчет, изучить мнение ученых и проанализировать написанную ими литературу.

В экономической литературе, посвященной проблемам хозрасчета, в качестве основного вопроса выделяется своеобразие организаций, относящихся к разным областям, и системы управленческого учета в них. Среди авторов, чьи работы посвящены этой проблеме, можно выделить М. А. Вахрушина, И. Д. Демина, Н. Д. Врублевский, В. Б. Ивашкевич, Т. П. Карпов, С. В. Николаева, В. Ф. Палия, С. А. Стуков, В. И. Ткач, А. Д. Шеремет и ряд других. Кроме того, среди авторов есть работы, посвященные расчету себестоимости продукции. К таким авторам относятся, прежде всего, М. Н. Семиколенов, П. М. Лебедев, В. Е. Керимов, Д. И. Ряховский, И. В. Аверчев, Д. А. М. Евстафьева, В. А. Ивлева, Т. В. Попова.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В статье использованы следующие методы и методы: дедуктивное и индуктивное определение, факторный анализ эффективности методов учета затрат и изучение мнений ведущих ученых.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Важно систематически вести хозрасчет на предприятиях. Потому что мы определяем прибыль в соответствии с затратами, которые мы делаем. Главной целью каждого бизнеса является достижение высшей точки показателя прибыли. Поэтому актуальность хозрасчета сохраняется годами. На предприятиях существует два вида снижения издержек: абсолютная и относительная экономия издержек.

Абсолютная экономия описывает степень сокращения количества живого и овеществленного труда, включаемого в производство и потребление продукта. Однако рентабельность и стоимость произведенного продукта не меняется.

Под понятием относительной экономии следует понимать процесс обеспечения полезных результатов производства, т. е. прироста стоимости, в условиях относительно стабильных живых и овеществленных затрат труда. Поэтому решение проблемы экономии ресурсов очень важно для эффективного развития экономики.

Страны мира также уделяют большое внимание эффективному учету затрат и создали различные методы учета затрат. Наиболее распространенными из них являются прямые калькуляции и стандартные калькуляции.

Система учета затрат означает совокупность правил, методов и процедур расчета себестоимости продукции. В последнее время наблюдается повышенный интерес предприятий к использованию экономического опыта зарубежных стран.

Анализ научной литературы в области учета затрат позволил выявить следующие современные методы учета и расчета себестоимости продукции.

Методы прямой и стандартной калькуляции относятся к числу традиционных методов и наиболее широко используются в мировой практике.

Директ-костинг – это система расчета себестоимости продукции, в основе которой лежат только переменные затраты производства, а все затраты исключаются из финансовых результатов отчетного периода. Суть метода заключается в том, что прямые и косвенные материальные затраты включаются в группу условно-переменных затрат, непосредственно связанных с объемом выпускаемой продукции, то есть непосредственно связанных с производственным процессом.

Затраты, связанные с управлением и эксплуатацией этого производства, образуют группу постоянных затрат. Основное преимущество данной методики заключается в том, что она позволяет определить точку безубыточности, то есть объем производства, при котором предприятие не получает ни прибыли, ни убытка, а также можно определить нижнюю границу стоимость выпускаемой продукции.

Недостатком этого метода является неточность и сложность группировки затрат на постоянные и переменные, а также низкий расчет общих затрат.

Стандартно-кастовая система основана на определении нормативных затрат в соответствии со стандартами, принятыми в организации. При этом данные нормы могут быть изменены не только до начала отчетного периода, но и в течение его. При использовании этого метода можно определить влияние отдельных статей затрат на финансовый результат и их отклонение от нормативов.

Недостатками этого метода являются отсутствие рекомендаций по расчету и установлению норм потребления, а также зависимость цен на ресурсы от изменений внешней среды и инфляции. Кроме того, здесь присутствует и сложность расчетов[2].

2 Rasulova Sh. X. “Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to‘g‘ri hisobga olish zarurtiyati” Oriental

Экономическая эффективность также включает проблему затрат и результатов. Точнее, экономическая эффективность описывает отношение между суммой единиц дефицитных ресурсов, используемых в процессе производства, и суммой потребительских товаров. Превышение выпуска над входом означает повышение эффективности.

Поэтому необходимо каждому предприятию иметь свою стратегию снижения себестоимости продукции. (Таблица 1)

Таблица 1: Структура стратегии снижения производственных издержек предприятия

Стратегия снижения затрат	Содержание стратегии
Повышение технического уровня производства	1. Внедрение передовых технологий, механизация и автоматизация производственных процессов. 2. Улучшение использования ресурсов, использование новых видов сырья и материалов. 3. Изменения в дизайне и технических характеристиках продукта. 4. Анализ влияния научно-технических достижений и передового опыта на цены продукции.
Организация производства и труда	1. Совершенствование управления производством 2. Улучшение использования основных средств 3. Улучшение материально-технического обеспечения 4. Снижение транспортных расходов
Изменения в размерах и обозначениях продукции	1. Снижение постоянных затрат (без учета амортизации). 2. Изменить номенклатуру и ассортимент продукции и повысить ее качество. 3. Снижение количества условно-постоянных затрат на единицу продукции при росте производства.
Улучшение использования природных ресурсов	1. Определение влияния природных условий на переменные затраты. 2. Выявление и анализ природных близких сырьевых ресурсов.
Промышленность и другие факторы	1. Запуск и развитие новых цехов, производств. 2. Объединение смежных производств, создание самостоятельного производства комплектующих. 3. Регулярный анализ цены готовой продукции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, планирование затрат является важным элементом системы управления затратами, позволяющим быть комплексным и определять, где, когда и в каком объеме расходуются ресурсы компании. Также стоит отметить, что использование системы управления затратами с учетом уникальных особенностей организации и комплексного подхода позволяет добиться высоких экономических результатов предприятия.

В условиях современной конкурентной рыночной экономики правильная организация учета затрат и изучение их современных методов являются насущной необходимостью.

Таким образом, в современной экономике существуют различные методы учета затрат, позволяющие получать наиболее точную и достоверную информацию о себестоимости продукции, которые помогают менеджерам обладать такими важными качествами, как гибкость и мобильность, предоставлять достоверную информацию, оптимизировать затраты. важно для бухгалтерии, которая может получить к ней доступ.

Список использованной литературы:

1. Abduraxmonov K. X. Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda ishlab chiqarish istiqbollari. 4(124)-2018-son. // http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/58192.
2. Baymuratova L. R., Dolgova O. A., Imayeva G. R., Gritsenko V. I., Smirno K. V., Aymaletdinov T. A. Цифровая грамотность для экономики будущего / Аналитический центр НАФИ. –М.: Издательство НАФИ, –2018. С. 5.
3. Aripov O. A. (2017). Современные тенденции развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане. British Journal for Social and Economic Research, 2(5).
4. www.lex.uz sayti.
5. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/26987-temir-yo-l-transporti-orqali-ko-rsatilgan-xizmatlar-11-9-ga-yetdi.

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Botirov Erkinjon Xayitovich
TMI, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda meva-sabzavotchilik klasterlarni barpo etish zaruriyatidan kelib chiqib, xorij tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish nazariy-ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish ssenariysi uning an’anaviy va yangi bilim talab qiladigan tarmoqlarda raqobatbardoshligining o‘sishini nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: hududiy lokalizatsiya, ilm-fan, innovatsiya, mintaqaviy strategiya, oziq-ovqat klasteri, klasterlash tizimi, globallashuv, bilimlar iqtisodiyoti, venchur fondlar, startap loyihalar.

Botirov Erkinjon Xayitovich
TFI, Independent researcher

Abstract: This article discusses the theoretical, scientific and practical aspect of studying and implementing foreign experience in practice in connection with the need to create fruit and vegetable clusters in our country. The long-term scenario for the development of the national economy assumes the growth of its competitiveness in both traditional and new industries that require knowledge.

Key words: territorial localization, science, innovation, regional strategy, food cluster, cluster system, globalization, knowledge economy, venture funds, startup projects.

Ботиров Эркинжон Хайитович
ТФИ, Независимый исследователь

Аннотация: В данной статье рассматривается теоретико-научно-практический аспект изучения и внедрения зарубежного опыта в практику в связи с необходимостью создания плодоовощных кластеров в нашей стране. Долгосрочный сценарий развития национальной экономики предполагает рост ее конкурентоспособности как в традиционных, так и в новых отраслях, требующих знаний.

Ключевые слова: территориальная локализация, наука, инновации, региональная стратегия, продовольственный кластер, кластерная система, глобализация, экономика знаний, венчурные фонды, стартап-проекты.

KIRISH

Mamlakatimiz oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti zanjirida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi”da belgilanganidek, “qo‘shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo‘jaligi raqobatdoshligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste’molchigacha yetkazib berish, ya’ni yig‘ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integratsion aloqalarning yetarli taraqqiy etmaganligi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklamoqda” [1].

Shu munosabat bilan respublikamizda fermer xo‘jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari bilan chuqur hamkorligini ta’minlashga qaratilgan “agrosanoat klasterlari”ni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Sirdaryo viloyati Oqoltin tumaniga tashrifi chog‘ida: “Klaster va manfaatdorlik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi. Ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etmay turib, bu sohani raqobatbardosh qilib bo‘lmaydi”, deb ta’kidlab o‘tgan edi.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yangi va foydalanishdan chiqqan yerlarni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash darajasini oshirish va ularning narxlari barqarorligini saqlash kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, oziq-ovqat yetishtirish tarmoqlarida klasterlashuv tendensiyalari Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi yetakchi mamlakatlarda kuchli rivojlangan bo‘lib, bu mamlakatlarning agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini chuqur o‘rganish va ularni mamlakatimiz sharoitlariga moslab qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI:

Globallashuv sharoitida mintaqaning rivojlanish strategiyalari fan va texnika yutuqlariga, innovatsiyalarga asoslanadi. Shuningdek, iqtisodiyotni klasterlashtirish asosida rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishning innovatsion texnologiyasi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarida klasterlash nazariyasi eng to‘liq shakl va tizimga ega bo‘lgan M. Porterning so‘zlariga ko‘ra, zamonaviy iqtisodiyotda, ayniqsa, globallashuv sharoitida, uning an’anaviy tarmoqlar yoki tarmoqlarga bo‘linishi o‘z kuchini yo‘qotmoqda, klasterlar yuqoriga chiqadi [2].

M. Porter mamlakatning raqobatbardoshligini uning alohida firmalarining emas, balki klasterlar – turli sohalardagi firmalar uyushmalarining xalqaro raqobatbardoshligi orqali ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblaydi va bu sinflarning ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati muhim ahamiyatga ega [2].

Yu. N. Lapыgin va D. A. Korchajkinalar fikricha, klaster tizimida – hududiy lokalizatsiyada ishtirok etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismi qatnashadi [6].

I. V. Pilipenkoning qayd etishicha, mintaqaviy klaster – bu klasterga a’zo firmalar geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan sanoat klasteridir [4].

A. I. Kibitkin va V. E. Emelyanovlar so‘zlariga ko‘ra, hukumat, akademik va ishbilarmon doiralar o‘rtasida axborot almashish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan kuchli klasterlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali sanoat tumanlari o‘z iqtisodiyotlarini mustahkamlaydi [3].

D. A. Yalovning qayd etishicha, mintaqaviy strategiyani ishlab chiqishda mintaqada mavjud bo‘lgan asosiy o‘sish nuqtalarini va ushbu asosiy o‘sish nuqtalarini ishlab chiqish uchun turli xil qiziqish guruhlari nima qilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Klasterlarni rag‘batlantirishga asoslangan mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish biznes va ma’muriyatlarning tashabbusi va birgalikdagi sa’y-harakatlarini nazarda tutadi [5].

L. S. Markov va M. A. Yagolnitserlar tadqiqotlariga ko‘ra, klaster subyektlari o‘rtasida o‘zaro ta’sirlarni kengaytirish va chuqurlashtirish (shu jumladan biznes va fan), ayniqsa, sohada ilmiy hamkorlik va tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish, mahalliy tovarlarni tashqi bozorlarga ayirboshlash va mintaqaga yanada murakkab raqobatchilar, yetkazib beruvchilar va iste’molchilarni jalb qiladi [7].

Global dunyoda nazar soladigan bo‘lsak, keyingi yillarda klasterlar rivojlanishini innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yevropa mamlakatlarida klasterlashtirish, hozirgi kuchli raqobat muhitida firmalarning raqobatbardoshligi xarajatlar hajmiga bog‘liq bo‘lmasdan, ko‘proq ularning innovatsion salohiyati, mahsulotlar diversifikatsiyasi va sifatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotning uslubiy asosi bo‘lib ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liklik va aloqalar, meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarini yechimini topish imkonini beruvchi tizimli, mantiqiy, qiyosiy va matematik iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan va o‘rganib chiqilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi ma’lumotlarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida faol klasterlashtirish siyosati (KS) 21-asr boshlaridan amalga oshira boshlangan va hozirgacha 5 bosqichdan iborat davrni qamrab oladi.

1-bosqich (2000-2006-yillar) – Yevropa Komissiyasi PHARE dasturi orqali klasterlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sinov (pilot) tashabbus dasturlarini amalga oshira boshladi. “Yevropa mamlakatlarida klasterlashtirish to‘g‘risidagi manifest” (2006 y.) qabul qilindi.

2-bosqich (2007-2009-yillar) – “Klasterlar to‘g‘risidagi Yevropa memorandumi” (2008 y.) qabul qilindi, Yevropa Klaster observatoriyasiga asos solindi va axborot-tahliliy materiallar bazasi yaratila boshlandi.

3-bosqich (2010-2012-yillar) – klasterlashtirish dasturlari sifatini oshirishga, ularni baholash va tabaqalashtirish instrumentlarini shakllantirishga hamda klasterlarni boshqarish bo‘yicha yuqori malakali menejerlar tayyorlashga e’tibor qaratildi.

4-bosqich (2013-2017-yillar) – “aqlli ixtisoslashuv” va “o‘sish nuqtalari” tamoyillari asosida klasterlarni hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiyalash orqali hududlarning raqobat ustunliklarini oshirishga va tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirishga ko‘maklashish.

5-bosqich (2017-yildan hozirgacha) – yangi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida klasterlarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirish.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 21-asrning dastlabki o‘n yilligida Yevropaning 28 mamlakatida 42 mln. kishi band bo‘lgan 2101 klaster faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning 241 tasi yoki 11,5 %ini agroklasterlar tashkil etgan va ularda jami klasterlarda bandlarning 4,5 millioni yoki 10,8 %i faoliyat yuritgan.

Yevropa mamlakatlari ichida agrosanoat klasterlari soni bo‘yicha Gretsiya (36), Ispaniya (35), Bolgariya (22), Fransiya (20), Polsha (19), Ruminiya (16), jami tarmoq klasterlari sonida agrosanoat klasterlari salmog‘i bo‘yicha Bolgariya (45,8 %), Gretsiya (45,0 %), Ispaniya (23,8 %), Islandiya (20,0 %), Vengriya (18,6 %), Niderlandiya (14,5 %), Fransiya (12,1 %) va Polsha (11,8 %) yetakchilik qiladi.

Hozirgi kunda Yevropada klastelararo tizim (network) shakllanishi jarayoni chuqurlashmoqda. Jumladan, bunga misol tariqasida oziq-ovqat tarmoqlaridagi klasterlarni yagona tizimga birlashtirish uchun 2007-yilda asos solingan “Oziq-ovqat klasteri tashabbusi (Food Cluster Initiative)”ni keltirish mumkin. Bu tashabbus “Yevropa Oziq-ovqat innovatsion tarmog‘i loyihasi – FINE (Food Innovation Network Yeurope)” bazasida yuzaga kelgan. Bu loyiha oziq-ovqat sektorida faoliyat yurituvchi klasterlar tarmog‘i bo‘lib, u quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: klasterlar joylashgan hududlar iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoati muhim rol o‘ynaydi; mazkur hududlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i yaxshi rivojlangan; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish sohalarida ilm-fan yutuqlari keng qo‘llaniladi; oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlanadi; klasterlarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar va institutsional tuzilmalar keng taraqqiy etgan.

Yevropadagi yirik shaharlar aglomeratsiyasi atrofida oziq-ovqat klasterini (inglizchadan Metropolitan Food Cluster) shakllantirish jarayonlari kuchayib bormoqda. Ularning shakllanish xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- vertikal integratsiya (xom ashyodan tayyor mahsulot yetishtirishgacha): oziq-ovqat mahsulotlari narxida qo‘shilgan qiymatning 60 %igacha qismi qayta ishlash va sotish jarayonlarida shakllanadi. Bu jarayonlarni yagona zanjirga birlashtirish resurslar (foyda)ning bir qismini quyi zvenodagi ishlab chiqaruvchilarga yo‘naltirish imkonini beradi;
- gorizontal integratsiya: mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish chiqindilar va yo‘qotishlarni kamaytirib, qo‘shimcha va yondosh mahsulotlardan samarali foydalanishga yo‘l ochadi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmalari, kadrlar salohiyati va ilg‘or tajribalardan birgalikda foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, unumdorlikni oshiradi.

Bunga misol tariqasida Avstriyaning “Plus Yeco” oziq-ovqat klasterini keltirish mumkin. Klasterda ishtirok etuvchi kompaniyalar soni – 104 ta. Xodimlar soni – 11,7 ming kishi. Tovar aylanmasi – 2,8 mlrd. yevro. Maqsadi: organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki bozorini rivojlantirish; yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; ishlab chiqarishning innovatsion usullarini joriy etish.

Oziq-ovqat klasterini tarkibiga kiruvchi faoliyat yo‘nalishlariga organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar va qadoqlash materialllari ishlab chiqarish; laboratoriyalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish asosida innovatsion mahsulotlar yaratish; oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi kiradi.

Mazkur metropol oziq-ovqat klasteri (Metropolitan Food Cluster) Avstriyaning yirik shaharlari atrofida joylashgan bo‘lib, ko‘p sonli shahar aholisini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini bermoqda.

Daniya. Daniya Yevropaning eng taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri sanaladi va bu mamlakatning klasterlash siyosatini o‘rganish diqqatga sazovor. Global raqobatbardoshlik reytingi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo ko‘lamida raqobatbardosh klasterlar yaratish jarayoni bo‘yicha Yevropa mamlakatlaridan eng yuqori ko‘rsatkichni Daniya (dunyo bo‘yicha 5-o‘rin) egallagan.

Daniyaning agrosanoat makroklasterlari tarkibi tuzilmasi kamida 5 ta elementni o‘z ichiga oladi:

- qishloq xo‘jaligi xom ashyosini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari;
- qayta ishlash korxonalari va kooperativlari;
- xizmat ko‘rsatish infratuzilmalari; ilmiy tadqiqot va o‘quv muassasalari;
- institutsional tuzilmalar (davlat boshqaruv organlari, uyushmalar, jamg‘armalar) (1-rasm).



1-rasm: Daniya agrosanoat klasteri tarkibi

Fermerlar moddiy-texnika ta'minoti, tayyorlov va qayta ishlash, texnika va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bir yoki bir nechta kooperativ a'zosi bo'lishi mumkin. Bu klaster tizimining ustunlik tomoni shundaki, fermerlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar kooperativlar tomonidan to'liq qabul qilinadi va qayta ishlash yoki sotish jarayonlari bilan kooperativlar shug'ullanadi. Fermerlarning o'zlari kooperativlarning mulkdorlari bo'lgani tufayli olingan foyda ular o'rtasida mutanosib (topshirgan mahsuloti yoki ustav kapitalidagi ulushiga qarab) taqsimlanadi.

Ilmiy tadqiqot muassasalari klaster a'zolarini innovatsion g'oya va ishlanmalar bilan ta'minlaydi. Innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltiriladigan ilmiy tadqiqot xarajatlarining 80% i va maslahat xizmatlari haqining 10 %i davlat tomonidan qoplanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh). Tadqiqotlarga ko'ra, klasterlar rivojlanishi bo'yicha dunyodagi uchta yetuk markazlardan (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa va Janubi-sharqiy Osiyo) biri AQSh sanaladi. Klaster siyosatining amerikacha modeli nisbatan liberalligi va tabiiy-evolyutsion tarzda shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Ya'ni bu mamlakatda klasterni shakllantirish borasidagi asosiy tashabbuslar davlat emas, balki biznes, universitetlar, ilmiy markazlar va jamg'armalar zimmasiga tushadi.

AQShda klasterlashtirish jarayonlari 1970-80 yillarda boshlangan. Garvard biznes maktabining Raqobat va strategiyalar instituti tomonidan klaster rayonlari kartasi ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda 400 dan ortiq turli sohalarga ixtisoslashgan klasterlar faoliyat olib boradi.

AQShda ko'p sonli agrosanoat klasterlari mavjud bo'lib, ularning eng kuchlilari Vashington, Oklaxoma, Luiziana, Janubiy Karolina va Kaliforniya shtatlarida faoliyat ko'rsatadi. AQShning Kaliforniya vinochilik klasteri tuzilishi va rivojlanishini o'rganish amaliy qiziqish uyg'otadi.

Kaliforniya vinochilik klasteri tashkiliy tuzilmasi ikkita qismdan tashkil topgan:

1. Yadro – uzum yetishtiruvchi xo'jaliklar va uni qayta ishlovchi vinochilik kompaniyalari.
2. Satellitlar – moddiy resurslar ta'minoti, turli xizmatlar, sotish, ilmiy ta'minot va institutsional qo'llab-quvvatlash tuzilmalari.

Klaster tizimi joriy etilishi natijasida Kaliforniya AQShning 90 % uzum va 80 %dan ortiq vino mahsulotini tayyorlab beradigan yirik hududga aylandi. Klasterga kirgan fermer xo'jaliklari va kompaniyalarda 299 ming gektar uzumzorlar mavjud va 40 mingga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qiladi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Kaliforniya vinochilik klasteri o'z tarkibida barcha zaruriy tuzilmalarni olgan va samarali tizimga ega zamonaviy agrosanoat klasteri sanaladi.

Yaponiya. Yaponiyada klasterlar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda markaziy va hududiy davlat organlarining roli kuchli. Hududiy organlarga o‘z mablag‘laridan klaster tashabbuslarini amalga oshirishga ruxsat etilgan. Bu jarayonda venchur jamg‘armalari, universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va korporativ biznes tuzilmalari faol hamkorlik qilishadi. Klasterlashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad biznes, ilmiy jamoalar va davlat organlarining samarali hamkorligi orqali innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va hududlar raqobatbardoshligini oshirishdir.

Innovatsion ishlanmalarni biznesda qo‘llash va tijoratlashtirishga intilish yapon klasterlarining asosiy xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Yaponiyada “Bilimga asoslangan klaster tashabbusi (Knowledge cluster initiative)” dasturi doirasida 18 hududda klasterlarni rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Bu dasturda mahalliy universitetlar kichik innovatsion firmalar va yirik sanoat kompaniyalari hamkorligini ta’minlovchi yadro vazifasini o‘taydi.

Mazkur hududning raqobat ustunligi asosan ikki tarmoq: oziq-ovqat sektori va turizmda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababdan mazkur sohalarga ustuvor ravishda mablag‘lar ajratilib, loyihalar shakllantiriladi. Xokkaydoning Yaponiya rivojida alohida ahamiyati borligini e’tiborga olib, bu hududga davlat subsidiyalari ajratishda alohida oshirilgan koeffitsiyentlar qo‘llaniladi.

Sanoat va unga tutash tarmoqlarda klasterlarni shakllantirish 3-rasmda keltirilgan tartibda amalga oshirilgan. Keltirilgan rasm asosida xulosa qilish mumkinki, Yaponiyaning Xokkaydo hududida sanoat klasterlarini shakllantirish va hudud bo‘ylab joriy etish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqilgan va bunga mas’ul tashkilotlar hamda ularning vazifalari belgilab berilgan. Har bir viloyatda “Klasterlar kooperatsiyasi kengashi” va uning shtabi shakllantirilgan.



2-rasm: Xokkaydo gubernatorligida klasterni shakllantirish tizimi

Xokkaydoda shakllangan klasterlash tizimi quyidagi yondashuvlar asosida shakllantirilgan.

Klasterlar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilishi va davlat budjetidan moliyalashtirilishi, bu jarayonga davlat organlaridan tashqari turli nodavlat institutsional tuzilmalar (uyushmalar, jamoat fondlari, boshqa jamoat tashkilotlari), moliya-kredit (banklar, venchur fondlar va h.k.) hamda ilmiy tadqiqot muas-sasalarining keng jalb etilishi bu jarayonga davlat miqyosida tizimli yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya. Janubiy Koreyada agrar va oziq-ovqat sektorini klasterlashtirish jarayonlari davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sanaladi, tarkibida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha guruh faoliyat ko‘rsatadi.

Janubiy Koreyaning Shimoliy Jeola provensiyasidagi Iksan hududida (Iksan, North Jeolla Province) Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va qishloq masalalari vazirligi va Jeola provensiyasi hukumati ko‘magida 232 gektar yer maydonida Koreya Milliy oziq-ovqat klasterini (Korea National Food Cluster – “Foodpolis”) tashkil etish uchun 480 mln. AQSh dollari qiymatida investitsiya sarflangan bo‘lib, klasterda 150 ta oziq-ovqat yetishtiruvchi kompaniyalar va 10 ta ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat ko‘rsatadi.

Mazkur klaster “bilimga asoslangan innovatsion mahsulot” yondashuvi asosida faoliyat olib boradi va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlar bilan mustahkam aloqaga ega:

- Qishloq hududlarini rivojlantirish ma’muriyati (Rural Development Adminstration);
- Koreya Oziq-ovqat ilmiy tadqiqot instituti (Korea Food Research Institute);

- Dehqonchilik fanlari milliy instituti (National Institute of Crop Science);
- Bog‘dorchilik va dorivor o‘simliklar fanlari milliy instituti (National Institute of Horticultural Herbal Science);
- Qishloq xo‘jaligi fanlari milliy akademiyasi (National Academy of Agricultural Science);
- Zootexnika va veterenariya milliy instituti (National Institute of Animal Science);
- Iksandagi Vonkvang universiteti (Wonkwang University in Iksan);
- Jeonbuk milliy universiteti (Jeonbuk National University).

Klaster tizimidagi firma va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida “Foodpolis” klasteri hududida 6 ta tuzilma tash-kil etilgan:

- Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash markazi (Food Functionality Assessment Center);
- Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash markazi (Food Quality Safety Center);
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash markazi (Food Packaging Center);
- Koreya oziq-ovqat klasterlari agentligi (Agency for Korean Food Cluster);
- kichik firmalarga ijaraga berish uchun qurilgan zavodlar (Rental Plants);
- tajriba namunalarini yaratadigan sinov zavodi (Pilot Plant).

Keltirilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Koreya Milliy oziq-ovqat klasterida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi mahsulot g‘oyasini shakllantirish – ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish – mahsulotni sinov namunasini ishlab chiqarish – sanoat ko‘lamida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish – realizatsiya qilish bosqichlari biznes – ilmiy tadqiqot – davlatning mustahkam hamkorligi asosida tashkil etilgan.

XULOSA

Meva-sabzavotchilik klaster strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish sohasidagi jahon amaliyotini tahlil qilish natijasida, O‘zbekistonda Janubiy Koreya agrosanoat klasterlarining: qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash; qishloq hududlarida demografik holatni yaxshilash (qishloq aholisi, asosan yoshlarning shaharga ketib qolishini kamaytirish); tarixiy uylarni aslicha saqlab qolish va turizm obyektiga aylantirish; agroturizm (shahar aholisi va bolalar uchun o‘z qo‘llari bilan meva-sabzavotlarni uzish yoki ularni qayta ishlab va tayyorlashda ishtirok etish); qishloqda mehmonxona biznesini yo‘lga qo‘yish; festival va turli tadbirlar o‘tkazish tajribalaridan samarali foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, “globallashuv” va “bilimlar iqtisodiyoti” sharoitida klasterlar innovatsion rivojlanishning eng asosiy manbalaridan biri bo‘lib borayotgshanligi, rivojlangan mamlakatlar klasterlari tarkibida “bilim va innovatsiyalar bloki”, ya’ni universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, sinov laboratoriyalari, venchur fondlar va startap loyihalar ishtiroki asosiy shartlardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda shakllantirilayotgan meva-sabzavotchilik klasterlar tarkibida “Innovatsion ishlanmalar va yangi biznes g‘oyalarini joriy etish” markazlari (laboratoriyasi)ni shakllantirish, klaster ixtisoslashuvidan kelib chiqib yetakchi universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini ularga biriktirish, ilmiy-innovatsion markazlar, venchur fondlar va kompaniyalar bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni.
2. Портер М. Международная конкуренция. М.: Международные отношения, –1993. 896 с. 4.
3. Кибиткин А. И., Емельянов В. Е. Механизмы и инструменты формирования транснациональных кластеров на базе действующих промышленных комплексов. СПб.: ОЦЭиМ, –2006. 122 с.
4. Пилипенко И. В. Конкурентоспособность стран и регионов в мировом хозяйстве: теория, опыт малых стран Западной и Северной Европы. Смоленск: Ойкумена, –2005. 496 с.
5. Ялов Д. А. Эксперт Фонда ЦСР “Северо-Запад”, Кластерный подход как технология управления региональным экономическим развитием. Журнал “Компас промышленной реструктуризации”. http://compass- r.ru/st-3-03-1.htm.
6. Лапыгин Ю. Н., Корчажкина Д. А. Организация производственного взаимодействия на основе реализации кластерных принципов. ВлГУ Электронный журнал № 18 декабрь 2007 г. http://journal.vlsu. ru/index.php?id=11.
7. Марков Л. С., Ягольницер М. А. Исследование наукоемких компаний Новосибирска. Кластерный подход. Центр кластерных инициатив. http://www.cluster- center.ru/gpage.html.
8. Botirov E. X. Innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Toshkent: “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. Tom 24 soni 5(2023). 381-386 b. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a64.
9. Botirov E. X. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ida zamonaviy klasterlarni moliyalashtirish mexanizmi. Toshkent: Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. Elektron nashr. May. 2023. – №5-son – B. 73-75.
10. Botirov E. X. Meva-sabzavotchilik klasterlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning strategik ustuvor yo‘nalishlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – O‘zA ilm-fan bo‘limi (Elektron jurnal). Ilmiy nashr. 2023-yil oktyabr soni, –№10 (48). –66-71 b.

ZAMONAVIY XIZMAT KO‘RSATISH BOZORI: XALQARO TENDENSIYALAR VA UY-JOY FONDI MUAMMOLARI SARHISOBI

Sanakulova Barnogul Rizakulovna
Iqtisod fanlari doktori, Oriental universiteti iqtisodiyot kafedrasi professori

Berdiyeva Dilfuza Axatovna
I. f.f.d. (PhD), Toshkent arxitektura qurilish universiteti “Menejment” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Zamonaviy xizmat ko‘rsatish bozori: xalqaro tendensiyalar va uy-joy fondi muammolari sarhisobi, jumladan, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish va ularga xizmat ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirishni tubdan yaxshilash, aholining ko‘p xonadonli uylarini saqlash va mukammal ta’mirlashdan manfaatdorligini oshirish, boshqaruv servis kompaniyalari hamda shirkatlarning nufuzini, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini hamda faoliyati samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shuningdek, ularga xizmat ko‘rsatuvchi professional va boshqaruv kompaniyalari faoliyati muvoqligini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Uy-joy fondi, shirkatlar, uy-joy fondi ekspluatatsiyasi, mukammal ta’mirlash, imtiyozlar, kreditlar, muhandislik kommunikatsiyalari va jihozlari, zamonaviy xizmat ko‘rsatish bozori, xalqaro tendensiyalar, professional boshqaruv kompaniyalar.

Abstract: The modern service market: a summary of international trends and problems of the housing stock, including the fundamental improvement of the formation of a clear market for the management and servicing of multi-apartment buildings, increasing the interest of the population in the maintenance and excellent repair of multi-apartment houses, the influence of management service companies and companies, organizational and increasing financial independence and operational efficiency. It is also to provide suggestions and recommendations on ensuring the appropriateness of the activities of professional and management companies serving them.

Key words: Housing stock, companies, housing stock operation, excellent repair, benefits, loans, engineering communications and equipment, modern service market, international trends, professional management companies.

Аннотация: Современный рынок услуг: краткий обзор международных тенденций и проблем жилищного фонда, в том числе кардинальное улучшение формирования четкого рынка управления и обслуживания многоквартирных домов, повышение заинтересованности населения в содержании и отличном обслуживании, ремонт многоквартирных домов, влияние управляющих сервисных компаний, повышение финансовой независимости и операционной эффективности. Также внесены предложения и рекомендации по обеспечению целесообразности деятельности обслуживающих их профессиональных и управляющих компаний.

Ключевые слова: Жилой фонд, компании, эксплуатация жилого фонда, отличный ремонт, льготы, кредиты, инженерные коммуникации и оборудование, современный рынок услуг, мировые тенденции, профессиональные управляющие компании.

KIRISH

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish amalga oshirilayotganislohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali ularga xizmat ko‘rsatuvchi bozor raqobatbardoshligini ta’minlash hisoblanadi. Asosiy maqsad aholining uy-joyni boshqarish va xizmat ko‘rsatish talablariga va me’yoriy-huquqiy standartlarga javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishdan iborat. Bu o‘z navbatida uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalari, jumladan, boshqaruv kompaniyalari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ma’lumki, uy-joy xo‘jaligi insonlarning uy-joy fondi bilan bog‘liq yashash sharoitlarini yaxshilash, uylarning qulayligini va turmush darajasini oshirish, uy-joy fondining ekspluatatsiyasini yaxshilash hamda umurboqiyligini saqlab qolish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, aholiga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, shahar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan suv hamda gaz, elektr ta’minoti bilan ta’minlash va boshqalardan iboratdir. Boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar faoliyati samarasi ularoq, maishiy sharoitlarni ketma-ketlik bilan yaxshilab, aholining moddiy va ma’naviy darajasini ta’minlab turish bilan birga, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mehnat samaradorligining o‘sishiga va nihoyat butun ishlab-chiqarish samaradorligining o‘sishiga ko‘maklashadi.

Respublikada uy-joy fondi sohasida amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar pirovard maqsadi, aholi turmush darajasi sifatini oshirishdir. Jumladan, uy-joy fondini boshqarish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirishni tubdan yaxshilash, aholining ko‘p kvartirali uylarni saqlash va mukammal ta’mirlash manfaatdorligini oshirish, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruv kompaniyalarining o‘zini-o‘zi boshqarish instituti sifatida ularlarning nufuzini, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 64-sonli Qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-581-sonli Qonuni asosida davlat joylar mulkdorlarining, boshqaruvchi tashkilotlar va boshqaruvchilarning, shirkatlarning huquqlari ta’minlanishini hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi hamda ularni rivojlantirishga va mustahkamlashga ko‘maklashadi. Maqsad [1]:

- uy-joy-kommunal sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, standartlarni takomillashtirish;
- ko‘p kvartirali uylarda avariya vaziyatlarini bartaraf etishda ko‘maklashish ularni monitoringini shakllantirish;
- uy-joy fondi kommunal xizmatlar haqini to‘lash tizimini takomillashtirish;
- uy-joy-kommunal sohasida xizmatlar ko‘rsatishda raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar, shuningdek, imtiyozli kreditlar berish;
- kam ta’minlangan oilalarga ko‘p kvartirali uylarni saqlash bo‘yicha yordam ko‘rsatish;
- ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida berish;
- ko‘p kvartirali uylarni boshqarish sohasida kadrlar tayyorlashni va ularni qayta tayyorlashni amalga oshirish;
- ko‘p kvartirali uylardan foydalanishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha alohida dasturlar qabul qilish va boshqa choralar ko‘rish;
- uy-joylarga xizmatlar ko‘rsatishda raqobat muhitini shakllantirishdan iborat.

Uy-joy fondini boshqarishning eng muhim vazifalaridan biri unga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha ishlarni bajarishdan iborat. Uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha ishlarni quyidagilarni qamrab oladi:

- ko‘p kvartirali uydagi xonalar va umumiy foydalanish joylari va uy atrofidagi hududning sanitariya holatin saqlash;
- muhandislik kommunikatsiyalari va jihozlariga profilaktik xizmat ko‘rsatish;
- muxandislik tarmoqlarini mavsumiy foydalanish sharoitlariga tayyorlash;
- joriy ta’mirlashlar, avariya holatlarini bartaraf etish;
- konstruksiyalar va tarmoqlarni kapital ta’mirlash, muhandislik tarmoqlarini almashtirish;
- uy atrofidagi hududni obodonlashtirish va boshqalar.

Bu ishlar quyidagilar tomonidan bajarilishi mumkin:

- ixtisoslashtirilgan xizmat ko‘rsatuvchi yoki ta’mirlovchi tashkilotlar (pudratchilar);
- uy-joy mulkdori, uning vakolatli organi, uy-joy mulkdorlari shirkati, boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan yollanadigan ishlab chiqarish xodimlari;
- bevosita uy-joy mulkdorlari.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda uy-joy fondi boshqaruvining nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari ham diqqatga sazovor. Jahon uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish, shuningdek, uy-joylarga xizmat ko‘rsatishni boshqarish uslubiyatini yaratishda va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ingliz olimlari Martin Lyuks, Nora Teller, Djozeflar va boshqalar hisoblanishadi. “Bugungi kunda boshqaruv kompaniyalarning roli murakkab va professional yondashuvni talab qiladi. Bu vazifani bajarish uchun mukdor va Davlat qonunchiligi, qurilish, sog‘liqni saqlash va xavfsizlik qoidalari, asosiy buhgalteriya va boshqalarni bilish talab etiladi. Ijaraga beruvchilar majburiyatlarini bajarish uchun to‘lanadigan haqlarga nisbatan muvozanatli bo‘lishi kerak bo‘lgan professional boshqaruv afzalliklari mavjud. Professional boshqaruv kompaniyalari xizmatlarni rejalashtirish, yig‘ish uchun rejalashtirilgan yondashuvni va zaxira fondlarini, ishlarni qayta tiklash va ta’mirlash jadvallarini, ishlarni tekshirish va nazorat qilishni ta’minlaydi” [5].

USLUBIYOT VA TAHLILLAR

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi №581-sonli Qonuni, shu sohadagi qator Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, O‘zbekistonni 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va turar joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish ya’ni “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini mazkur sohaga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu qulay sharoitlarga ega bo‘lgan uy-joylar qurish, yo‘l transporti, ijtimoiy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilashni ta’minlash bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirishdan iborat. Bu esa, uy-joy xizmatlari bozori rivojlangan sharoitda uy-joy mulkdori (mulkdorlari), uy-joy mulkdorlari shirkati xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini bajarish uchun ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarini jalb etadi. Mulkdor yoki uning vakolatli organi yoki tashkiloti qaroriga ko‘ra boshqaruvchi tashkilotga boshqaruv shartnomasi asosida quyidagilar topshirilishi mumkin:

1.Mulkka xizmat ko‘rsatish yoki ta’mirlash ishlari buyurtmachi vazifasini bajarishi mumkin(1-rasm).



1-rasm: Boshqaruv kompaniyasi – xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari buyurtmachisi

Birinchi holatda (1-rasm) boshqaruvchi tashkilot takliflarni tanlash va pudratchini tanlash ishlarini mustaqil amalga oshiradi, o‘z nomidan pudrat shartnomalarini tuzadi va u bajaradigan ishlar hajmi va sifatini nazorat qiladi, o‘z hisobraqamida bajarilgan ishlar haqqini to‘laydi.

Uy-joy xizmatlari bozorini rivojlantirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini o‘z xodimlari kuchi bilan bajarish yoki qisqa muddatli shartnomalar asosida ijrochilar – jismoniy shaxslarni – jalb etish yo‘li bilan bajarishdan manfaatdor bo‘lishi mumkin. Bunday holda boshqaruvchi tashkilotga shirkat, tashkilot bilan shartnomalar tuzish uchun ishchilar (ijrochilar) nomzodlarini tanlash, ularning ishini tashkil etish va nazorat qilish vazifalari topshirilishi mumkin.

2. Uy-joy fondi mulkdori yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga pudratchilarni tanlov asosida jalb qilishda yordam ko‘rsatish.



2-rasm: Shirkat – xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlar buyurtmachisi

Ikkinchi holatda (2-rasm) boshqaruv kompaniyalari mulk egalari, uy-joy mulkdorlari shirkati uchun pudratchini tanlash bo‘yicha tavsiyalarni tayyorlaydi, mulkdor yoki shirkat tomonidan pudratchi tanlovini o‘tkazishga yordam beradi, uy-joy fondi mulkdori (yoki shirkat) bilan pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzilishiga ko‘maklashadi, pudratchi bajargan ishlar sifatini nazorat qiladi. Bajarilgan ishlar haqqini mulkdorlar yoki shirkat to‘laydi. Boshqaruv xizmatlariga talablar shakllanmagan, uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar cheklangan, ularning ish turlari bo‘yicha yetarli darajada ixtisoslashmagan bir sharoitda, boshqaruv kompaniyalari uy-joy mulkdorlari va uy-joy mulkdorlari shirkatiga boshqarish, xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha xizmatlar to‘plamini taklif etishi mumkin(3-rasm).

Agar tuzilayotgan boshqaruv kompaniyasi uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini mustaqil bajarish istagida bo‘lib, tegishli imkoniyatlarga ega bo‘lsa, (moddiy-texnik baza, malakali xodimlar va hakozo) tashkilot ustavida faoliyatning ushbu turlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.



3-rasm: Boshqaruv kompaniyasi tomonidan bajariladigan uy-joy fondi boshqaruvi, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari

4-rasm: Ko'chmas mulk bilan bilan bog'liq xizmatlar hajmi (mlrd.so'mda) [6]

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ©2018-2022 www.stat.uz sayti ma'lumotlaridan olindi. Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

4-rasmdan tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari o'zida aks

ettiradi. 2022-yilda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi 9 674,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 111,1 % ni tashkil etgan. Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq xarajatlar yil sayin oshganini ko‘ryapmiz. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo‘yicha xizmatlar ulushi ustunlik qiladi – 89,5 %[1]. Lekin, bu ko‘rsatkichlarga nisbatan ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq bajarilgan ishlar va xizmatlar hajmi, 2-rasmda ko‘rsatilganidek, o‘zgarishi (oshib, pasayishi)ga olib kelmoqda.



5-rasm: Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (mln.so‘m hisobida) [7]

5-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, aholi uy-joylariga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga to‘lanadigan narxi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko‘rsatish bozorini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchi professional kompaniyalar, pudratchi tashkilotlarning hamda uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatidan aholi noroziligini keltirib chiqaradi.

1-jadval: Hududlar bo‘yicha uy-joy fondining umumiy maydoni yil oxiriga, kv.m. [8]

Худулар	Регионы	Territories	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ўзбекистон Республикаси	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	490 846 580	507 557 524	521 244 564	536 785 540	548 995 771	636 414 295	658 356 976
Қорақалпоғистон Республикаси	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	30 005 323	35 122 521	35 100 834	31 369 416	31 542 222	32 290 012	33 562 992
Андижон	Андижанская	Andijan	30 149 511	31 053 698	31 543 971	32 026 428	32 575 537	44 691 663	51 770 626
Бухоро	Бухарская	Bukhara	26 529 249	27 411 545	29 948 385	32 225 789	33 639 423	34 374 879	34 644 151
Жизах	Джизакская	Jizzakh	17 958 245	18 308 218	18 656 573	19 241 466	19 935 572	24 296 356	24 852 282
Кашкадарё	Кашкадарьинская	Kashkadarya	46 809 444	50 373 289	53 137 064	54 953 364	55 202 976	55 785 911	57 336 087
Навоий	Навоийская	Navoi	18 936 232	20 755 513	21 296 750	22 103 603	22 485 235	24 352 186	25 036 415
Наманган	Наманганская	Namangan	42 860 170	40 529 755	41 333 559	44 409 017	46 887 180	49 275 478	50 263 760
Самарканд	Самаркандская	Samarkand	53 083 225	55 535 528	56 751 521	58 026 466	59 259 326	78 362 017	79 206 796
Сурхондарё	Сурхандарьинская	Surkhandarya	31 315 901	31 710 571	32 240 064	33 115 602	33 891 683	37 747 577	37 932 073
Сирдарё	Сырдарьинская	Syrdarya	11 611 597	11 553 340	12 168 163	13 023 776	13 187 432	16 413 895	16 642 375
Тошкент	Ташкентская	Tashkent	42 515 999	42 773 606	43 695 254	45 135 094	46 980 607	48 774 790	52 266 620
Фарғона	Ферганская	Fergana	47 342 523	48 013 925	48 661 561	49 037 090	49 539 913	80 806 234	81 727 057
Хоразм	Хорезмская	Khorezm	42 501 493	43 044 768	43 516 418	45 421 101	45 729 366	46 360 163	46 776 597
Тошкент ш.	г. Ташкент	Tashkent city	49 227 668	51 371 247	53 194 447	56 697 328	58 139 299	62 883 134	66 339 144

1-jadvaldan ko‘rish mumkinki, hududlar bo‘yicha 2021-yilda umumiy maydoni 636414295 kv.m., 2022-yilga

1 https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

kelib 658356976 kv.m. ya'ni 103.4 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa albatta, uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish turlarini oshishiga olib keladi. Shuningdek, uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish bozorining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi tahlil natijalaridan aytish mumkinki, uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirish, pudratchilarni tanlash, ularning ishlarini nazorat qilish va bajarilgan ishlarni qabul qilish sohasida quyidagi kamchiliklarga ega[6]: shirkat tomonidan pudratchilarni tanlashda faqat ular tomonidan berilayotgan narxlarga e'tibor qaratilayotganligi; pudratchining moliyaviy ahvoli, ishchi kuchi, texnikasi va tajribasiga to'liq ahamiyat berilmayotganligi; ular tomonidan taqdim etilayotgan smeta hujjatlari, unda belgilangan materiallarning sifati to'liq o'rganilmasligi; boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar tomonidan berilayotgan buyurtmalar bank muassasalari tomonidan to'liq o'rganilmasdan, pudratchilarga ishlarni bajarish uchun shartnoma shartlariga zid ravishda oldindan 80-100 foizgacha mablag'lar o'tkazib berilayotganligi va pudratchilar tomonidan taqdim etilgan ishlarni topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi shirkat yoki boshqa mas'ul idoralar tomonidan obyektda bajarilgan haqiqiy ishlarga taqqoslagan holda o'rganilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlanishiga yo'l qo'yilayotganligi hisoblanadi.

Buning oqibatida: pudratchilarni tanlashda tanish-bilishchilik munosabatlari holatlariga yo'l qo'yilmoqda; pudratchining ishlarni bajarishga moliyaviy holati yo'qligi, ishchi kuchi yetishmasligi, materiallar arzon garovga sifatsiz keltirilayotganligi bois ishlar sifatsiz bajarilmoqda, ayrim hollarda esa ishlar bajarilmasdan tashlab ketilmoqda. Olingan mablag'lar esa talon-taroj qilinmoqda; shu obyekt uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar nihoyasiga yetkazilmasdan qolinmoqda; shu obyekt shirkat tomonidan takroran yangi yil Dasturiga qo'shib kiritilmoqda.

Masalaning yechimi: Dastur ishlab chiqilishidan oldin shu hududdagi barcha uy-joy fondining texnik holatlari to'liq ko'rikdan (monitoringdan) o'tkazilishi kerak; monitoring natijalari bo'yicha har bir uy-joy fondining texnik holati yuzasidan mutasaddi idoralar tomonidan Dalolatnoma qabul qilinishi kerak; obyektlarni ta'mirlash-tiklash ishlari rejalashtiralayotganda, shu obyektga sarflanayotgan materiallar va ishchi kuchining haqiqiy bahosi aniqlanishi kerak; Dastur shu hudud sektor rahbarlari, banklar, boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar, uy-joy kommunal bo'limlari va tegishli mas'ul idoralar tomonidan to'liq o'rganilishi va so'ngra tasdiqlanishi kerak; Respublika bo'yicha ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan va ma'nan eskirgan ko'p kvartirali uy-joylarni instrumental o'rganish va renovatsiya qilish bo'yicha reja ko'rsatkichlarini to'g'ri tashkil etish; ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

Manba va adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi №581-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/4586282
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 64-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil 15-son, 127-modda). https://lex.uz/uz/docs/974137.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 3-dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori. https://lex.uz/docs/6303230
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
5. Appointing a Managing Agent – The need, selection and working with them. Website: http://www.justice.gov.uk/tribunals/residential-property. The First-tier tribunal – Property Chamber. Wales: 1st Floor, West Wing, Southgate House, Wood Street, Cardiff CF10 1EW. Published September 2013. Email:rpt@wales.gsi.gov.uk Website: www.wales.gov.uk.
6. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi-© 2016-2023. [6, 7, 8].
7. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondidan foydalanish va uni boshqarish samaradorligini yanada oshirish / Jurnal "Moliya va iqtisod" №12(120), 2018-y. –25-30b.
8. Sanakulova B. R., Berdiyeva D.A. Uy-joy fondini boshqarishda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati samaradorligini oshirish / Jurnal "Moliya" №1, 2019 y. ISSN 2010-9604. –71-79 b.
9. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko'rsatish bozori/Jurnal "Moliya va iqtisod" №2, 2019-yil ISSN 2091-590X. –44-51 b.
10. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi moliyaviy boshqaruvida zamonaviy usullardan samarali foydalanish / Jurnal "Moliya" №5, 2021 y. ISSN 2010-9604. –119-126 b.
11. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi xizmat ko'rsatish bozorida boshqaruv kompaniyalar faoliyatidan samarali foydalanish / "O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020-yil, 19-20-noyabr. –28-34-betlar.
12. https://lex.uz/ru/docs/6600413.

РОЛЬ РЫНКА КАПИТАЛА В ОБЕСПЕЧЕНИИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Дадаханова Саида Махаммаджон кизи
Ташкентский государственный экономический университет,
докторант 2-курса.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные тенденции и вызовы, с которыми сталкивается рынок капитала в условиях узбекистанской экономики, а также предлагаются стратегии и рекомендации по оптимизации использования капиталовложений для достижения устойчивого экономического роста. Исследование базируется на современных теоретических и практических подходах к регулированию рынка капитала, учитывая особенности национального контекста Узбекистана. В результате статьи предоставляют ценный вклад в понимание роли рынка капитала в обеспечении макроэкономической устойчивости и перспектив развития республики.

Ключевые слова: рынок капитала, макроэкономическая стабильность, инвестиции, экономический рост, инвестиционный климат.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital bozori duch kelayotgan dolzarb tendensiyalar va muammolar ko‘rib chiqiladi, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun kapital qo‘yilmalardan foydalanishni optimallashtirish bo‘yicha strategiya va tavsiyalar taklif etiladi. Tadqiqot O‘zbekiston milliy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kapital bozorini tartibga solishning zamonaviy nazariy va amaliy yondashuvlariga asoslanadi. Natijada, maqolalar kapital bozorining makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi rolini va respublikaning rivojlanish istiqbollarini tushunishga qimmatli hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: kapital bozori, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, investitsiya muhiti.

Abstract: This article explores current trends and challenges facing the capital market in the context of the Uzbekistan economy. It also proposes strategies and recommendations to optimize the use of capital investments for achieving sustainable economic growth. The study is based on contemporary theoretical and practical approaches to capital market regulation, taking into account the specific features of the national context in Uzbekistan. As a result, the article provides a valuable contribution to understanding the role of the capital market in ensuring macroeconomic stability and the development prospects of the republic.

Key words: capital market, macroeconomic stability, investments, economic growth, investment climate.

Рынок капитала представляет собой важный элемент современной экономической системы, который играет ключевую роль в обеспечении макроэкономической стабильности во многих странах мира. Узбекистан, как стремящаяся к устойчивому и динамичному экономическому развитию страна, не исключение. В последние десятилетия Узбекистан совершил значительные шаги в направлении либерализации своей экономики и открытия для мировых рынков, что привело к росту интереса к роли рынка капитала в обеспечении макроэкономической стабильности.

Одной из важнейших задач рынка капитала является формирование инвестиционного капитала, которое имеет непосредственное влияние на экономику страны, уровень занятости и развитие бизнеса. Рассмотрим основные преимущества формирования инвестиционного капитала через фондовый рынок.

Доступ к финансированию для предприятий: Рынок капитала предоставляет предприятиям, особенно малым и средним предприятиям (МСП), доступ к внешнему финансированию, что позволяет компаниям привлекать дополнительные средства для развития своих проектов, расширения бизнеса и модернизации производственных мощностей.

Создание новых рабочих мест: Рост инвестиций в экономику через рынок капитала способствует созданию новых рабочих мест. Компании, получившие доступ к инвестиционным средствам, расширяют свою деятельность, что может потребовать привлечения дополнительных сотрудников.

Развитие ключевых отраслей: Инвестиции, привлеченные через рынок капитала, могут направляться в развитие ключевых отраслей экономики Узбекистана, таких как производство, транспорт, сельское хозяйство и другие. Это способствует диверсификации экономики и повышению ее конкурентоспособности.

Повышение производительности: Инвестиционные средства, полученные на рынке капитала, могут быть направлены на внедрение новых технологий и повышение производительности, что, в свою очередь, способствует росту экономической эффективности.

Привлечение иностранных инвестиций: Развитие рынка капитала может также сделать Узбекистан более привлекательной страной для иностранных инвесторов. Это может привести к увеличению прямых иностранных инвестиций (ПИИ) и технологическому обмену.

Укрепление финансовой стабильности: Увеличение инвестиционного капитала может содействовать стабильности финансовой системы, так как более крупные объемы капитала могут смягчить влияние финансовых кризисов и шоков на экономику.

Для развития инвестиционного капитала в Узбекистане необходимо проводить реформы, способствующие росту доверия инвесторов к рынку капитала, обеспечивать прозрачность и защиту прав инвесторов, а также создавать условия для развития местных финансовых инструментов. Эти меры помогут привлечь больше инвестиций, что в свою очередь способствует макроэкономической стабильности и устойчивому развитию Узбекистана.

В контексте Узбекистана роль рынка капитала в обеспечении мак0440оэкономической стабильности не может быть недооценена. Развитие этого рынка и эффективное его функционирование оказывают множество положительных воздействий на экономическую ситуацию в стране.



Рисунок 1: Динамика торгов ценными бумагами на Республиканской фондовой бирже "Тошкент"[1]

Представленный график демонстрирует динамику количества сделок и их объемов на рынке сделок в Узбекистане за период с 2015 по 2022 год. На протяжении исследуемого периода отмечается резкий рост как объемов, так и количества сделок. Особенно впечатляющими являются данные за 2021 и 2022 годы, когда количество сделок достигло 71 489 и 80 723 соответственно, а объем сделок вырос до 1 260,51 млрд. сум и 4 816,21 млрд. сум. В 2016 году отмечается снижение количества и объемов сделок по сравнению с предыдущим и последующим годами что обусловлено внутренними и внешними экономическими факторами, которые временно повлияли на инвестиционную активность, а также следует отметить, что в 2016 году был внедрен Единый програмно-технический комплекс на основе продажи

1 Составлено автором на основе данных РФБ "Тошкент"

25% минус 1 акция доли РФБ “Тошкент” Корейской фондовой бирже. Значительный скачок как в количестве, так и в объеме сделок наблюдается в 2018 году, что связано с реформами и инициативами, проводимыми правительством, направленными на привлечение инвесторов и стимулирование бизнес-активности. 2020 год примечателен устойчивым ростом как количества, так и объема сделок, несмотря на пандемию COVID-19. Это может свидетельствовать о адаптации бизнес-среды и укреплении доверия инвесторов. Объем сделок в 2022 году значительно вырос, что указывает на реализацию крупных инвестиционных проектов и привлечение большего количества инвесторов.

Для Узбекистана важно продолжать совершенствовать регулирование рынка капитала, обеспечивая прозрачность, защиту прав инвесторов и создание благоприятной инвестиционной среды. Это содействует привлечению как внутренних, так и иностранных инвестиций, способствуя долгосрочной макроэкономической стабильности и устойчивому экономическому росту в стране. Развитие рынка капитала и диверсификация инвестиций остаются ключевыми факторами, которые помогут Узбекистану достичь экономической устойчивости и процветания в будущем.

Список использованной литературы:

1. Равшанов А. Д. Формирование инвестиционной политики Республики Узбекистан // Экономика и социум. –2022. №10-1 (101).
3. Носкова Л. А. Некоторые аспекты государственного регулирования инвестиционной деятельности // Успехи современного естествознания. – 2015. – № 1-6. – 0421. –1064-1065.
4. Н. А. Звягинцева “Региональный рынок ценных бумаг как механизм привлечения инвестиций: оценка и последствия вступления России в ВТО” // Известия УрГЭУ, –61 с.

IQTISODIYOTNING XUSUSIY SEKTORIDA INSON RESURSLARILARNI MODDIY RAG‘BATLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Baxtiyorova Umida Ulug‘bek qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor munosabatlarining jadal rivojlanishida iqtisodiy muammolarni hal etishning yangicha usullari, mamlakatning iqtisodiy salohiyati va uning o‘sish sur’atlarini belgilaydigan ko‘rsatkichlari, xodimlarning salohiyati va ko‘nikmalaridan foydalanish samaradorligi hamda samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Mamlakatimizning xususiy sektorida faoliyat yurituvchi inson resurslarni boshqarish va moddiy rag‘batlantirish jarayonidagi aniqlangan muammolar va ularni hal etish yo‘llariga oid tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Xususiy sektor, iqtisodiy salohiyat, nodavlat sektor, ish motivatsiyasi, “kapillyar” tomirlar, menejerlar, HR menejerlari, HR texnologiyalar, inson resurslarni boshqarish, ichki korporativ trening, motivatsiya.

Abstract: This article shows new methods of solving economic problems in the rapid development of market relations, indicators that determine the country's economic potential and its growth rate, the efficiency of using the potential and skills of employees, and ways to increase efficiency. In the private sector of our country identified problems in the process of human resources management and financial incentives and recommendations on ways to solve them are given.

Key words: Private sector, economic potential, non-state sector, labor motivation, “capillary” veins, managers, HR managers, HR technologies, human resource management, internal corporate training, motivation.

Аннотация: В данной статье показаны новые методы решения экономических задач в условиях бурного развития рыночных отношений, показатели, определяющие экономический потенциал страны и темпы его роста, эффективность использования потенциала и навыков работников, а также пути повышения эффективности.В частном секторе нашей страны выявлены проблемы в процессе управления человеческими ресурсами и финансовым стимулированием и даны рекомендации по путям их решения.

Ключевые слова: Частный сектор, экономический потенциал, негосударственный сектор, трудовая мотивация, “капиллярные” вены, менеджеры, HR-менеджеры, HR-технологии, управление человеческими ресурсами, внутрикорпоративное обучение, мотивация.

KIRISH

Iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo‘jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi. Bozor iqtisodiyoti davlat va nodavlat sektorlaridan iborat. O‘z navbatida, nodavlat sektori xususiy va jamoa sektorlariga bo‘linadi. Xususiy sektor nodavlat sektorining bosh bo‘g‘ini. Xususiy sektordagi moddiy va moliyaviy resurslar, yaratilgan mahsulot va xizmatlar xususiy mulk hisoblanadi. Bu sektor xususiy korxonalar, firmalar, moliya kompaniyalari, xo‘jaliklar, banklar, jamg‘armalardan iborat va iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida amal qiladi[1].

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati va uning o‘sish sur’atlarini belgilaydigan ko‘rsatkichlar ko‘p. Ammo ular orasida asosiy mezon bu – yalpi ichki mahsulot (YAIM). O‘tgan yili mamlakatimizda YAIMning yillik o‘sish sur’ati 7,4 foizni tashkil etib, joriy narxlarda 734,6 trln. so‘mga yetdi. Bu pandemiya oqibatlari hali barham topmagan, ko‘pchilik mamlakatlar iqtisodiyoti repsessiyani boshidan kechirayotgan sharoitda dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Bu vaqtda sanoat ishlab chiqarish 8,7 foiz, asosiy kapitalga investitsiyalar 5,2 foiz, qurilish ishlari 6,8 foiz, chakana savdo aylanmasi 12 foiz, tashqi savdo aylanmasi 16 foizga o‘sdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM 5,3 foizga o‘sib, 21 mln. so‘mdan oshdi. 2022-yil yakuni bo‘yicha yalpi ichki mahsulot (yalpi qo‘shilgan qiymat) tarkibi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat – 100 foiz, shu jumladan:

1 https://uz.wikipedia.org/wiki/Xususiy_sektor

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 26,9%;
- sanoat (qurilish bilan) – 34,5%;
- xizmatlar – 38,6%[2].

Xususiy biznes va kichik tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotiga xos voqea bo‘lib qoldi. Hozirgi paytda mamlakatimizda 462,8 ming kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat olib bormoqda. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 98,9 (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) ming kichik korxona yangidan ish boshladi. Kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi ulushi 55 foizga yetdi. Sanoat mahsulotlarining 27, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotining 96,7, qurilish ishlarining 72,4, investitsiyalarning 47,9 savdoning 82,1, xizmatlarning 51,1, yuk tashishning 49,4, yo‘lovchi tashishning 92,8, eksportning 22,3 va importning 48,7 foizi ana shu “karliklar” hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Kichik korxona va mikrofirmalar “kapillyar” tomirlarda iqtisodiyotni oziqlantiradi, barcha bo‘g‘inlarga yetib boradi. Yirik va o‘rta ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan “yoriq”larni to‘ldiradi, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, do‘konlarni arzon va zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradi, raqobatni kuchaytirish hisobiga mahsulot sifatini oshirish hamda arzonlashtirishga olib keladi. Kichik biznes manyovrchan, bozor konyunkturasiga tez moslashadi. O‘zi kichkina bo‘lsa ham uning xizmati katta.

Agar ular bozorga o‘z holicha, tavakkalchilik bilan emas, balki buyurtma asosida yirik korxonalar bilan integrallashib chiqadigan bo‘lsa, natija bundan ham yaxshi bo‘lishi aniq[3].

Tajribali tadbirkor o‘z inson resurslarilarga ehtiyotkorlik bilan yondashib, o‘z vaqtida rag‘batlantirish va xatolarga javob berish tartibini joriy etish muvaffaqiyatli biznesning kaliti ekanligini biladi.

Ish motivatsiyasi deganda kompaniya ishini shunday tashkil etish tushuniladiki, har bir kishi o‘z kasbiy vazifalarini eng yaxshi tarzda bajarishga va “qo‘lidan kelganini qilishga” harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xodimmehnat unumdorligini oshiradigan va umumiy maqsadga erishishga qaratilgan ichki rag‘batni oladi.

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko‘rsatkich va indikatorlar 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiyotning xususiy sektorida inson resurslarilarni moddiy rag‘batlantirishni va motivatsiya muammolarini S. Adams, K. Alderfer, R. Arkrayt, C. Babbic, M. Bolton, B. Vayner, V. Vrum, V. Jevons, G. Kelli, K. kabi xorijiy olimlar o‘rgandilar. .Levine, E. Lawler, D. McClelland, A. Maslow, E. Mayo, W. Ouchi, R. Owen, L. Porter, S. Ritchie, A. Smit F. Tylor, D. Watt, M. P. Follett, G. Ford, X. Gekxauzen, G. Emerson va boshqalar. Mehnat faoliyatini rag‘batlantirish tushunchalarini rus olimlardan N. Vitke, L. Vigodskiylarni, A. Gastev, A. Zdravomyslov, L. A. Kostin, L. E. Kunelskiy, E. I. Kapustina, A. Leontyev, V. Yadov va boshqalar, kabi olimlar tomonidan ham tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi iqtisodiy muammolarni hal etishning yangicha usulini talab qiladi. Buning eng muhim usullaridan biri – xodimlarning salohiyati va ko‘nikmalaridan foydalanish samaradorligi va samaradorligini oshirishdir. Hozirgi iqtisodiy vaziyatda inson resurslari oldida turgan asosiy muammo shundaki, turli sohalardagi menejerlar qo‘l ostidagilarni yanada samaraliroq ishlashga rag‘batlantiradilar. Albatta, motivatsion vositalar nafaqat xodimlarning samaradorligi, balki tashabbuskor bo‘lish, strategik qarorlar qabul qilish va g‘oyalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishish uchun hamdir. Rahbarlar tashkilotning strategik maqsadlari va taktik maqsadlariga erishishga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun yuqori malakali va ma’lumotli ishchilarni jalb qilishdan manfaatdor. Shu munosabat bilan, menejerlar o‘z ishlarini muvofiqlashtirish, tegishli motivatsiya tizimini yaratish uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun bo‘ysunuvchilarning ish jarayonini tashkil etishlari kerak. Ko‘p millatli kompaniyalarda barcha vakillarga tegishli yagona standartlar mavjud. Bu xodimlarni rag‘batlantirish jarayonida HR texnologiyasining yetarli darajada moslashuvchan emasligiga olib keladi. HR menejerlari xodimlarni rag‘batlantirishga katta e’tibor berishadi, chunki bu kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishning asosiy vositalaridan biridir (Cavanagh, 1984)[5].

2 https://iiau.uz/oz/news/1673
3 https://iiau.uz/oz/news/1673
4 https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-Natijalar-sharhi
5 http://hj.diva-portal.org/smash/get/diva2:1067887/FULLTEXT01.pdf

Mamlakatimizning xususiy sektorida faoliyat yurituvchi inson resurslarni boshqarish va moddiy rag‘batlantirish jarayonida bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi.



Mamlakatimiz xususiy sektoridagi mavjud muammolarni hal etish uchun biz bir qator xorijiy kompaniyalari tajribasini ko‘rib chiqdik.

Ko‘pgina xorijiy kompaniyalar inson resurslarni boshqarish biznesni boshqaradigan va strategik maqsadlarga erishishga yordam beradigan manba sifatida ko‘rishadi. Bunday tashkilotlarning menejerlari inson resurslarilarni tayyorlashga juda ko‘p pul – daromadning 30 dan 50% gacha investitsiya kiritadilar. Bunday investitsiyalar odatda o‘zini oqlaydi: malakali inson resurslarilar kompaniyani tezroq rivojlantiradi.

Qo‘shma Shtatlardagi biznes rahbarlari o‘z budjetlarining kamida 30 foizini kadrlar tayyorlashga sarflaydilar. Ko‘pincha ular kouchinglar bilan ishlash, haqiqiy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rgatish va guruh bo‘lib qarorlarini qabul qilish amaliyotidan foydalanadilar.

Kompaniya har bir inson resurslarining rivojlanishini kuzatib borish va muntazam ravishda inson resurslarilarning malakasini oshirishga harakat qiladi. Amerika tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u kompaniya inson resurslarilari o‘rtasida raqobatni keltirib chiqaradi. Va ichki korporativ treningdan tashqari, inson resurslarilar ko‘pincha tashqi kurslardan o‘tadilar.

Xorij firmalari misolida inson resurslarini boshqarish va moddiy rag‘batlantirishga oid misollarni ko‘rib chiqamiz.

Dunyoga mashhur kompaniyalarda xodimlarni boshqarish jarayoni

1. Kompaniya tajribali inson resurslarilarni o‘yin elementlaridan foydalangan holda o‘zlarini kouch sifatida rivojlantirishga undaydi.
2. Kompaniya uch haftalik tanlovlarni boshlaydi, unda kouch-talaba juftliklari eng yaxshi kouch dueti unvoni uchun kurashadilar.

1. Tesla kompaniyasida Tesla-START deb nomlangan o‘quv kursi mavjud bo‘lib, bu har bir yangi kompaniya mutaxassisi olishi kerak bo‘lgan intensiv o‘quv kursi bo‘lib hisoblanadi.
2.Intensiv kurs davomida tinglovchilar nazariyani o‘rganadilar va amaliy laboratoriya ishlaridan o‘tadilar. Ular materialni qisman mustaqil ravishda o‘zlashtirishlari kerak. Har bir bitiruvchi Tesla sertifikatini oladi.

1. Kompaniya o‘z ishini avtomatlashtirish tufayli lavozimini yo‘qotish xavfi ostida bo‘lgan ishchilar uchun oltita dastur ishlab chiqdi.
2. Amazon shuningdek, bir qator lavozimlarga nomzodlar uchun intensiv kurslarni o‘tkazadi. Ishga qabul qilishdan oldin arizachi bir oylik kursdan o‘tadi. Bu tanlangan mutaxassisga kompaniyada ishlashga tezda moslashish imkonini beradi.

Ko‘pgina tez ovqatlanish kompaniyalari bilan bog‘liq muammo – bu inson resurslarilarning yuqori almashinuvidir. Kompaniyalar strategik maqsadlarga ko‘proq vaqt ajratish o‘rniga doimiy ravishda yangi inson resurslarilarni qidirishga majbur. Chipotle inson resurslarilarning sadoqatiga tayanishga va inson resurslarilarni rivojlantirish bilan shug‘ullanishga qaror qildi.

Kompaniyaning barcha inson resurslarilari imtiyozlar olishni boshladilar. Shuningdek, ular oflayn va onlayn korporativ treningdan o‘tish orqali o‘z malakalarini oshirish imkoniga ega bo‘ldilar.

Texnologiya, biznes va salomatlik bo‘yicha kurslar virtual platformada mavjud. Bu yerda kompaniya kouchlik dasturini amalga oshiradi, har chorakda bo‘limlar uchun treninglar o‘tkazadi va taniqli ma’ruzachilar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etadi.

Workday kompaniyasi – bu inson resurslari, moliyaviy va ta’lim boshqaruvi uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqadigan kompaniya.

Workday kompaniyasi tadqiqotchilari ko‘pchilik odamlarning o‘zlari va ularning menejerlari malaka va potentsialni to‘g‘ri baholay olmagani uchun kompaniyalarni tark etishini kuzatishdi.

Workday kompaniyasi mutaxassislari har bir inson resurslarini sun’iy intellekt asosida baholovchi dastur ishlab chiqdi. Inson resurslarining ish tajribasi haqidagi ma’lumotlar platformaga yuklanadi va uning hozirgi ko‘nikmalari baholanadi.

AI ma’lumotlar bazasi 800 000 ta professional sohada 1,4 million ko‘nikmalarga oid ma’lumotlarni saqlaydi. Platforma har bir foydalanuvchining malakasini tahlil qiladi va ularni, masalan, menejerning talablari yoki loyihaning xususiyatlari bilan solishtiradi. Natijada, dastur vakansiya yoki loyiha uchun eng munosib nomzodlarni tanlaydi. Menejer, shuningdek, xodimyoki jamoani baholashi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda bu bilimlardan loyihalar ustida ishlash, bo‘lim yoki kompaniyani rivojlantirishda foydalanishi mumkin.

Xuddi shu tamoyilga ko‘ra, platformada yangi kelganlar o‘zlari uchun eng mos kouchlarni topishlari mumkin va tajribali inson resurslarilar yangi inson resurslarilar uchun kouch sifatida harakat qilishlari mumkin.

Yevropa tashkilotlarida inson resurslarilarni tayyorlash tajribasi.

Yevropa tizimi Amerikanikiga o‘xshaydi. Kompaniyalar ko‘pincha korporativ budjetining 30% gacha inson resurslarilarni o‘qitishga sarflaydi. Ammo Qo‘shma Shtatlardan farqli o‘laroq, Yevropada biznes ko‘pincha xalqaro darajaga chiqishga qaratilgan. Shuning uchun bu yerda biznesning asosiy maqsadi ko‘pincha korporatsiya ichida emas, balki bozorda raqobatni yaratishdir. Lekin maqsadga erishish vositalari bir xil – yuqori malakali kadrlar tayyorlash.

Bosh qarorgohi Yevropada joylashgan xalqaro kompaniyada kadrlar tayyorlash ko‘pincha mentorlik, masofaviy va yuzma-yuz tajriba almashishga asoslanadi.

Mentorlik qadim zamonlardan beri mavjud: Aristotel Makedoniyalik Iskandarning ustozi, Sokrat esa Aflotunning ustozi edi. Zamonaviy talqinda ustoz – bu kam tajribali odamga martaba qurish, foydali fazilatlarni rivojlantirish va keng tarqalgan xatolardan qochishga yordam beradigan o‘z sohasidagi mutaxassis. Aslida, bu muvaffaqiyatga erishgan va o‘z sirlarini boshqa odam bilan bepul baham ko‘rishga tayyor bo‘lgan murabbiy.6

Yevropada faoliyat yurituvchi mashhur kompaniyalardan biri bo‘lgan Heineken kompaniyasida inson resurslarini tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Heineken ichki korporativ tadqiqot o‘tkazdi, natijada menejerlarning 86 foizi yangi xodim bilan ko‘proq muloqot qilishni xohlashini aniqladi. Kompaniyada teskari mentorlik tizimi joriy qilingan, bunda kichik xodim o‘rta va yuqori darajali menejerlar uchun kouchga aylanadi. Natijada, boshqaruv xodimlari kompaniya faoliyatiga yangicha nuqtayi nazarga ega bo‘ladilar va biznesni rivojlantirish uchun qanday masalalar ustida ishlash kerakligini tushunadilar.

Heineken, shuningdek, turli mamlakatlardan kelgan xodimlar tajriba almashadigan inklyuziv xalqaro dasturga ega. Bunday yondashuv, kompaniya rahbarlarining fikriga ko‘ra, birinchi navbatda, insonning hurmat va xavfsizlikka bo‘lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, global darajada iste’molchilarning mentalitetini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi xorijiy kompaniyalarning tajribalaridan shuni qisqacha xulosa qilish mumkinki, xorijiy kompaniyalar inson resurslarilarni tayyorlashga katta mablag‘ sarflaydi. Ushbu investitsiyalar o‘z samarasini beradi: malakali inson resurslarilar tufayli biznes tezroq rivojlanadi.

1. AQSHda kompaniya rahbarlari tashkilot ichida sog‘lom raqobat uchun sharoit yaratadilar. Inson resurslarilar martaba zinapoyasida yuqoriga ko‘tarilish imkoniyati sifatida rivojlanishga undaydi.
2. Yevropada ko‘plab kompaniyalar jahon bozorida raqobatlashish uchun kurashmoqda. Ular turli mamlakatlarda joylashgan inson resurslarilar o‘rtasida kouchlik va tajriba almashish bilan shug‘ullanadilar.
3. AQSH va Yevropada mentorlik usuli, masofaviy ta’lim va tajriba almashish ko‘pincha qo‘llaniladi. Ular nafaqat uyda, balki tashqarida ham mashq qilishadi.

Xorij tajribalaridan ko‘rinib turibdiki, kompaniya rahbarlari xodimlarni samarali boshqarish bilan birga ular faoliyatda unumli mehnat jarayoni bilan shug‘ullanishlari uchun turli xildagi motivlardan foydalanishni ham afzal ko‘radilar.

6 http://hj.diva-portal.org/smash/get/diva2:1067887/FULLTEXT01.pdf

Amerika tajribasi	Yevropa tajribasi	Osiyo tajribasi
Shaxsiyatni hurmat qilish	Adolat uchun to‘lash	Munosabatlarni uyg‘unlashtirish
Umr bo‘yi kafolatlangan bandlik	Rahbariyat o‘z xatti-harakatlarini so‘zlari bilan moslashtirish	Xodimlarni hurmat qilish
Ishchilarning teng maqomi	Odamlar o‘z yo‘lini olish uchun tashkilot vakolatlarini suiiste’mol qilmaslik	Shaxsiyatni tan olish
	Ko‘tarilishlar xizmat muddatiga asoslanmasligi kerak	G‘olib jamoada bo‘lish
		Ilhomlantiruvchi korporativ missiyalar
		Barqarorlik va turli xillik
		Xodimni eshitish va diqqat qilish

Biz yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, mamlakatimizda faoliyat yurituvchi xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlarni oqilona boshqarish va rag‘batlantirish uchun quyidagi samarali usullardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu samarali xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar hisoblanib, xususiy tadbirkor o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ushbu nazariyalarni amalda qo‘llasa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Birinchidan, Gerzberg korxona faoliyatini yaxshilash uchun tashqi va ichki usullardan foydalanishni taklif qiladi. Tashqi usullar qulay mehnat sharoitlarini yaratishni, ichki usullar esa tashkilotda ishlashdan qoniqish hosil qilishni o‘z ichiga oladi[7].

Ikkinchidan, Teylor fiziologik ehtiyojlarni qondirish uchun bo‘ysunuvchilarning instinktlari va istaklaridan foydalanishni maslahat beradi.

Uchinchidan, Maslou ishni inson resurslarilarga o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati sifatida qarashni taklif qiladi. Maslou barcha ehtiyojlarni ierarxiya (piramida) shaklida ko‘rib chiqadi.

To‘rtinchidan, MakKlelland inson istaklarining turlari haqida nazariyani ilgari suradi:

- quvvat;
- muvaffaqiyat;
- muayyan tabaqaga mansub.

Inson resurslarilarning aksariyati ma’lum bir kompaniya safida bo‘lishdan xursand bo‘lib, ularning maqomini qadrlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://changellenge.com/article/master-dzheday-kto-takoy-mentor-i-zachem-on--nuzhen/
2. https://searchinform.ru/kontrol-sotrudnikov/motivatsiya-personala/zarubezhnyj-opyt-motivatsii-personala/
3. http://www.science.vsu.ru/dissertations/7804/Диссертация_Дашкова_Е. С..pdf
4. https://searchinform.ru/kontrol-sotrudnikov/motivatsiya-personala/metody-motivatsii-personala/
5. https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-Natijalar-sharhi
6. http://hj.diva-portal.org/smash/get/diva2:1067887/FULLTEXT01.pdf
7. Яковлева, Т. Г. Эффективные системы оплаты труда. Как построить оплату труда, чтобы она стимулировала работников трудиться с максимальной отдачей: учебное пособие / Т. Г. Яковлева – М.:Альфа-Пресс, 2006. –162 с.
8. Ярышина, В. Н. Инновационные трансформации оплаты труда в современной экономике: дис. … канд. экон. наук.: 08.00.05 / В. Н. Ярышина. – Воронеж, 2015. – 180 с.
9. Яхонтова, Е. С. Стратегическое управление персоналом: учебное пособие/Е. С. Яхонтова; Рос. акад. нар. хоз-ва и гос. службы при Президенте Рос. Федерации. – Москва: Дело, 2013. – 378 с.
10. Anne, B. Building a high morale workplace / B. Anne – New York: London: McGraw-Hill, – 2003. 167 p.
11. Armstrong, M. Employee Reward / M. Armstrong. – London: Fakenham Photosetting, 1999. – 515 p.
12. Aubrey, C. Daniels, Bringing out the best in people: how to apply the astonishing power of positive reinforcement / C. Aubrey. New York: London: McGrawHill, 2000. – 245 p.
13. Bereman, N. A., Lengnice-Hall M. L., Compensation Decision Making (computer-based approach) / N. A. Bereman, M. L. Lengnice-Hall. – The Dryden Press, Harcourt Brace College Publishers, 1994. – 116 p.
14. Farmer, S., Seers, A. Time Enough to Work: employee motivation and entrapment in the workplace / S. Farmer, A. Seers // Time and society. Sage Publications. – 2004, Vol. 13; PART 2/3.-P. 265-284.
15. Kelley, H. H. Attribution Theory in Social Psychology. Nebraska Symposium on Motivation / H. H. Kelley. – № 15. 1967. – P. 192-238.
16. Latham, G. P., Pinder, C. C. Work Motivation Theory and Research at the Dawn of the Twenty-First Century/ G. P. Latham, C. C. Pinder. // Annual review of psychology. 2005. – Vol. 56. –P. 485-516.

7 https://searchinform.ru/kontrol-sotrudnikov/motivatsiya-personala/metody-motivatsii-personala/

KORXONALARNING INVESTITSIYA FAOLLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNING RAG'BATLANTIRUVCHI ROLINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Ilyasova Barno Axmadovna
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada korxonalarning investitsiya faolligini oshirishga tatbiq etilayotgan soliq imtiyozlarining mazmun-mohiyati, ularni qo'llashning amaldagi holati, yirik soliq to'lovchilar tomonidan qo'llanilgan imtiyozlar tahlili, imtiyozlarni qo'llash amaliyotida kuzatilayotgan ba'zi munozarali holatlar ko'rib chiqilgan hamda mazkur sohaga istiqbolli o'zgarishlar kiritish maqsadida tegishli xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion faollik, soliq, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, qulay biznes muhiti, soliq to'lovchilar, investitsion faollikni oshirish uchun soliq rag'batlari, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, preferensiyalar.

Abstract: The article reveals the essence of tax incentives used to increase the investment activity of enterprises, the current state of their application, an analysis of the incentives used by large taxpayers, some controversial situations observed in the practice of applying incentives, and also the corresponding conclusions and recommendations for making promising changes in this.

Key words: investments, investment activity, tax, tax benefits, tax rate, favorable business environment, taxpayers, tax benefits to increase investment activity, tax administration, business entities, tax reporting, preferences.

Аннотация: В статье раскрыта сущность налоговых льгот, применяемых для повышения инвестиционной активности предприятий, современное состояние их применения, проведен анализ льгот, используемых крупными налогоплательщиками, некоторые спорные ситуации, наблюдаемые в практике применения льгот, а также сформированы соответствующие выводы и рекомендации для внесения перспективных изменений в этой сфере.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, налог, налоговые льготы, налоговая ставка, благоприятная бизнес-среда, налого плательщики, налоговые льготы для повышения инвестиционной активности, налоговое администрирование, субъекты хозяйствования, налоговая отчетность, преференции.

KIRISH

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib ular iqtisodiy o'sish sur'atlarini hamda unda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni belgilaydi, korxonalarning raqobatbardoshligini va aholi turmush darajasini oshirishga, jamiyatdagi ishsizlik darajasi pasayishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, budjet daromadlari bazasini shakllantirish iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya faolligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard AQSh dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollariga teng investitsiya jalb etish choralarini ko'rish [1] belgilab olindi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faolligini oshirish uchun bevosita faol investitsiya siyosatini yuritishga e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirishni o‘rganish nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar ilk izlanishlar hisoblanadi.

Xorijlik olimlar R. I. Zimenkov, B. Garrett, G. Jereffi, R. Kaplinski, M. Lorens, P. Maskell tomonidan korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida investitsion jozibadorlik, investitsiya faolligi masalalari o‘rganilgan.

Milliy investitsion siyosat va mintaqalar investitsion salohiyati maktabining o‘zbek iqtisodchi olimlari D. G‘ozibekov, N. Karimov, Sh. Mustafakulov, N. Haydarov, N. Kuziyeva, F. Dodiyev, O. Astanakulov, I. Madaminov, U. Gafurova va boshqalar erishgan ilmiy natijalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Neokeynschilik vakillari (E. Domar, F. Peru, R. Xarrod, E. Xansen) ishlab chiqarish vositalarida yangi investitsiyalar va iste’mol talabini shakllantirishda davlatning rag‘batlantiruvchi roli muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni ilgari surishgan [2].

Invectitsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib berishda D. G‘ozibekovning fikriga ko‘ra, ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog‘liqligini hamisha yodda tutmoq zarur. Invectitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag‘dan farqlanib turadi [3].

T. Malikov soliqlarning investitsiya faolligiga ta’ciri haqida to‘xtalib, “ soliqlar yordamida tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmog‘i rivojlanishiga ta’cir ko‘rcatish mumkin”ligini [4] ta’kidlab o‘tgan.

M. Zabaluyeva iqtisodiyot rivojlanishini rag‘batlantirish – soliq to‘lovchining ixtiyorida soliq to‘langandan keyin qoladigan mablag‘larni oshirish hisobiga erishiladi [5] deb ilmiy asoslab bergan.

Soliq Kodeksining 75-moddasiga muvofiq, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarga quyidagicha ta’rif berilgan: “...soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliq imtiyozlari” [6] deya ta’rif berilgan.

T. Malikov ta’kidlashicha, soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmining to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi [7].

A. Jo‘rayev va Sh. Toshmatovlarning ta’rifiga ko‘ra, soliq imtiyozlari – soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli xil yengilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlarda berilishi mumkin [8].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, alohida jadval, grafik usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rolini oshirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Bugungi kunda ishlab chiqarish darajasidan boshlab to milliy iqtisodiyot darajasigacha investitsiya faoliyatini boshqarishning puxta o‘ylangan, fundamental nazariyalarini yaratishga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu umumlashtiruvchi tavsiflar ya’ni “investitsion salohiyat” va “investitsion faoliyatning notijorat riski” ko‘rsatkichlarining o‘zaro nisbatidan kelib chiqib ifodalanadi. Bunda investitsiya salohiyat qanchalik yuqori bo‘lsa va innovatsion faoliyat riski qanchalik past bo‘lsa, investitsion jozibadorlik ham shuncha yuqori bo‘ladi va buning oqibatida korxona investitsiya faolligi ham oshadi [9].

Investitsiya faolligi – mamlakat, tarmoq, hudud va korxonaning bozor faoliyatida strategik maqsadlarga erishishni ta’minlashga qaratilgan kapitalni shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish jarayonlarini aks ettiruvchi iqtisodiy munosabatlar majmuyidir.

Soliqqa tortishning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, qadimgi dunyoda ham u o‘zining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda iste’mol soliqlari undirilgan. Urushlarpaytida qo‘shimcha mablag‘ to‘plash va yetishmovchiliklarni oldining olish vositasi sifatida vaqtincha mulkdan soliqlar undirish tartibi belgilangan. keyinchalik ular boshqa aktivlarga ham qo‘llanilgan. Yunonistonda erkin fuqarolar qullardan farqli soliq majburiyatlariga ega bo‘lganlar va Rim imperiyasining soliq qonunlari fuqarolar va bosib olingan hududlar aholisi o‘rtasida farqlangan [10].

Buyuk davlatchilikka asos solgan Amir Temurning davlatida ham soliqlarning ahamiyati yuqori bo‘lgan va bu o‘ziga xos qonunlar bilan tartibga solingan. Amir Temur tuzuklarida “Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi v a namoyon bo‘lishidir”, [11] deb ta’kidlangan.

Agar Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar soladigan bo‘lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq, soliq to‘lovchilardan soliqlarni aralash undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. “Temur tuzuklarida” keltirilishicha: “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin”. Bundan ko‘rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog‘liqligi, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o‘zaro bog‘liqligi aks ettiriladi.

Hozirgi kunda soliq imtiyozlari olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u iqtisodiy barqarorlikka erishish va investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Soliq imtiyozlari yordamida korxonalarning investitsiya va innovatsiya faollik darajasini tartibga solish, shuningdek, aholi bandligini oshirishni, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish mumkin. Davlat yangi mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va soliq xarajatlari miqdorini tartibga solish uchun investitsiya muhitini yaxshilashdagi rolini hisobga olishi kerak.

Iqtisodiyotda investitsion faollik samaradorligi, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, hududlar iqtisodiyotini ichki imkoniyatlar asosida kengaytirishni taqozo etmoqda. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta’minlovchi, ish o‘rinlarini yaratuvchi, aholining daromad manbayini shakllanishiga hissa qo‘shuvchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Korxonalarning investitsiya faolligini oshirishda soliqlar orqali tartibga solishning muhim instrumenti bu imtiёz va preferensiyalar hisoblanadi. Ushbu instrumentlardan foydalanib iqtisodiётning alohida tarmoqlari va ishlab chiqarish sohalariga soliq imtiёzlari berish yo‘li bilan rivojlantirishni rag‘batlantirishdir.

Joriy yilning 9 oyida mamlakatimizda jami 112 674 ta xo‘jalik yurituvchi subyekti soliq imtiyozlaridan foydalangan bo‘lib, ular uchun qo‘llanilgan soliq imtiyozlarining umumiy qiymati 17.3 trillion so‘mni tashkil etadi.

Shu bilan birga 2367 ta korxona moliyaviy xizmatlar bo‘yicha 10,7 trln so‘mlik QQSsiz operatsiyalarni amalga oshirgan. Korxonalarning eksport operatsiyalari, xalqaro tashishlar va aholigan kommunal xizmatlar ko‘rsatgan 7 000 tasiga 20,7 trln so‘m miqdorida QQSga “nol” stavka qo‘llanilgan. Xalqaro ekspertlar xulosasiga asosan, QQS bo‘yicha moliyaviy xizmatlar va nol stavka hisobi alohida yuritiladi.



1-rasm: Korxonalarga soliq turlari bo‘yicha berilgan jami imtiyoz miqdori [12]

Korxonalarga soliq imtiyozi 9 turdagi soliqlar bo‘yicha berilgan vaularning salmoqli qismi qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) hissasiga to‘g‘ri keladi (52,6%). Keyingi o‘rinlardan foyda solig‘i (14,9%), yersolig‘i (9,6%), ijtimoiy soliq (7,5%), aksiz solig‘i (6,2%), mol-mulk solig‘i (5,8%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (3,1%), aylanmadan olinadigan soliq (0,3%) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar (0,02%) joy olgan.

Ushbu imtiyozlardan sohalar kesimi bo‘yicha tog‘-kon sanoati, bank, transport, farmatsevtika, kommunal xizmat ko‘rsatish, neft-gaz qazib chiqarish, energetika, sug‘urta, tibbiyot, qurilish, dam olish, sport vaboshqa yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar samarali foydalangan.

Mazkur davrda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 71 841 ta yuridik shaxs tomonidan 29,2 trln. so‘mdan ortiq soliq to‘langan. Shundan 13,5 trlndan ziyodi 20 ta soliq to‘lovchi hisobiga to‘g‘ri keladi. Ularning tovar aylanmasi 121,7 trln so‘m, qo‘llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 1,2 trln so‘mni tashkil etgan.

1-jadval: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan soliq turlari bo‘yicha budjetga tushum miqdori [12]

№	Soliq turi	Tushumlar miqdori (mlrd so‘m)	foizda
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4365,3	(32,2%)
2	Aksiz solig‘i	2 722,8	(20,0%)
3	Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 520,7	(11,2%)
4	Foyda solig‘i	1444,3	(10,6%)
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	759,8	(5,6%)
6	Ijtimoiy soliq	699,2	(5,1)
7	Mol-mulk solig‘i	511,2	(3,8%)
8	Er solig‘i	255,2	(1,9%)
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	81,6	(0,6)
10	Boshqa soliqlar	1216,9	(9,0)

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslardan 9 xil turdagi soliq bo‘yicha tushumlarning salmoqli qismi qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) hissasiga to‘g‘ri keladi (32,2%). Keyingi o‘rinlardan aksiz solig‘i (20,0%),er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (11,2%), foyda solig‘i (10,6%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (5,6%), ijtimoiy soliq (5,1%), mol-mulk solig‘i (3,8%), yer solig‘i (1,9%), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (0,6%) va boshqa soliqlar (9,0%)joy olgan. Bu 20 ta yirik soliq to‘lovchi (“Uzbekneftgaz” AJ, “Uzbat AO” AJ, “Uzauto Votors” AJ, “Issiqlik Elektr stabnsiyalari” AJ, “Buhoro Neftni qayta ishlash zavodi” AJ, “Navoiyazo” AJ, “Shurtan gaz Kimyo Majmuasi”MCHJ) va boshqalar hisobigato‘g‘rikeladi.

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 34 506 ta yuridik shaxs tomonidan 5,7 trln so‘mdan ortiq soliq to‘langan. Shundan 856,2 mlrd so‘mi, ya’ni 15 %i 20 ta korxona hisobiga to‘g‘ri keladi. Ularning jami tovar aylanmasi 9,5 trln so‘mdan ziyod, qo‘llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 50,8 mlrd so‘mni tashkil etadi.

Ushbu davrda eng ko‘p soliq to‘lagan 20 ta korxona tomonidan soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari hamda to‘langan soliq tushumlari haqida quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz.

2-jadval: Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan budjetga tushgan soliq tushumi miqdori [12]

№	Soliq turi	Tushumlar miqdori (mlrd so‘m)	foizda
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	439,6	(51,4%)
2	Foyda solig‘i	127,6	(14,9%)
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	117,6	(13,8%)
4	Ijtimoiy soliq	113,3	(13,2%)
5	Mol-mulk solig‘i	25,2	(2,9%)
6	Er solig‘i	24,4	(2,8%)
7	Boshqa soliqlar	8,5	(1,0%)

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar 6 xil turdagi soliq tushumlari bo‘yicha miqdorning salmoqli hissasi qo‘shilgan qiymat solig‘i QQS hissasiga to‘g‘ri keladi (51,4%). Keyingi o‘rinlardan foyda solig‘i (14,9%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (13,8%), ijtimoiy soliq (13,2%), mol-mulk solig‘i (2,9%), yer solig‘i (2,8%), va boshqa soliqlar(1,0%) joy olgan. Bu ko‘rsatkich 20 ta yirik soliq to‘lovchi (“Discover invest” MCHJ, “Yangi zamon bino” MCHJ, “Agromir Building” MCHJ, “Absolute Business Trade” MCHJ, “Premium Village” MCHJ, “Golden Hous Development” MCHJ, “AJ Trest-12”, “MIMAR group”MCHJ) va boshqalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda soliq sohasini takomillashtirish borasida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjetga soliq tushumini oshirish hamda imtiyozlarni taqdim qilish borasidagi muammolarning mavjudligi soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining yettinchi maqsadi bo‘lmish, taraqqiyot strategiyasida milliyiqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini

ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida, “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, soliq sohasida qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha, telekommunikatsiya, bank va moliya kabi sohalarda foyda solig‘ini amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha tushirish hamda xizmat sohasidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, yangidan tashkil etiladigan savdo komplekslari va mehmonxonalar uchun mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish” [1] kabi bir qancha vazifalar belgilab berildi.Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi mamlakatimizda soliq imtiyozlarini samarali usullarini joriy qilish, shu bilan birga, salbiy tashqi ta’sirlarga ega sohalarga manfiy imtiyozlar qo‘llash ya’ni ekologiyaga zarar yetkazadigan faoliyat turlari uchun soliqlarni baland qilib qo‘yish vaberilgan imtiyozlar uchun soliq to‘lovchini hisobdorligini belgilash, soliq imtiyozlarini adolatlilik va tenglik tamoyiliga asoslab ishlab chiqish uni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida, sohaning istiqbolli rivojlanishiga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

- Korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini amaldagi uslubiyoti tahlili asosida iqtisodiy, moliyaviy, korporativ boshqaruvning samarali faoliyati kabi omillar bilan belgilanuvchi korxona investitsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishni aniqlash maqsadida investitsiya faolligiga soliq rag‘batlarini ta’siri va natijaviy jihatlarini hisobga olgan holda baholash uslubiyoti ishlab chiqiladi;
- Iqtisodiy o‘sish, modernizatsiya va diversifikatsiya darajasi, ishbilarmonlik muhiti, davlatning erkin va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish siyosati va iqtisodiyotning ochiqligini kompleks hisobga oluvchi koeffitsiyentlar bilan ayrim holda baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali korxonalarning investitsion faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirishga asoslangan “korxona investitsiya faolligining soliq salohiyatini prognoz qilish” bo‘yicha uslubiy tavsiyalar beriladi;
- Korxonada investitsion salohiyat va innovatsion rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib, uni samarali boshqarishning ustuvor omillarini aniqlash imkonini beruvchi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va u korxonalar investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirishga ta’sirini baholash uslubiyoti ishlab chiqiladi;
- Korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirish borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari ilmiy asoslab beriladi;
- Turli omillarning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolining o‘rta va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimi ishlab chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o‘rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tatbiq etish yaqin kelajakda o‘z natijasini beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // https://lex.uz/docs/5841063
2. Keyns Dj. M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. – Moskva, Gelios ARV, 1999.– 352.
3. G‘ozibekov D. G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003. – 329 b.
4. MalikovT. S. Soliqlarvasoliqqatortishningdolzarbmasalalari.– T.: Akademiya, 2002. – 204 b.
5. Забалуева М. А. “Налоговое стимулирование инвестиций в инновационное развитие экономики России”. –М.: “ИНФРА”, 2005. –213 б.
6. Soliq Kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son.
7. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T:. 2000. – 76 bet.
8. Jo‘rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.:NORMA. – 184 bet.
9. Tursunov K. B., Rajabov N. R. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021.
10. Normurzayev U. X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. –T.: “Iqtisodiyot”, 2023. – 242 bet.
11. “Temur tuzuklari ”. – T., 1993 yil. – 98 bet.
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.soliq.uz

DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH TENDENSIYALARI

Imomaliyeva Mohizoda
TMI tadqiqotchisi

Raxmatullayev Lazizbek Nematullo o‘g‘li
TMI tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada jahon mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, dunyo miqyosidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi keltirilgan. Xalqaro tajribadan kelib chiqib xulosa, taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, investitsiya siyosati, investitsion rejim, yangi sanoatlashgan mamlakatlar.

Abstract: The article analyzes the trends of investment attraction in the development of the economy of world countries. Global foreign direct investment flows are also presented. Based on international experience, conclusions, proposals and recommendations were considered.

Key words: foreign investment, investment attractiveness, foreign direct investment, investment climate, investment policy, investment regime, newly industrialized countries.

Аннотация: В статье анализируются тенденции привлечения инвестиций в развитие экономики стран мира. Также представлены глобальные потоки прямых иностранных инвестиций. На основе международного опыта были рассмотрены выводы, предложения и рекомендации.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная политика, инвестиционный режим, новые индустриальные страны.

KIRISH

Jahon miqyosida mamlakat iqtisodiyotini investitsiyalar orqali rivojlantirishning ilg‘or tajribalari ko‘rsatishicha, davlat kafolati ostida qabul qilinayotgan investitsiya portfellari hissasining yuqoriligi mamlakatda investitsion jozibadorlikning pastligini ifodalaydi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi uchun qabul qilayotgan investitsiya portfellarining asosiy qismini erkin iqtisodiy zonalarga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar tashkil etadi. BMTning xalqaro investitsiyalar bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 2021-yilda 1,58 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 64 foizga ko‘p. Biroq o‘sishning deyarli to‘rtdan uch qismi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi, bu yerdagi oqim 2021-yilda 746 milliard AQSh dollariga yetgan va bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan ikki barobar ko‘p”. Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalar orqali investitsiyalarning rolini oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilashning ahamiyati ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik olim A. M. Margolin “Invectitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab, ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir”, – deb ta’riflaydi.

O‘zbekictonlik iqtisodchi olimlardan ppof. D. G‘. G‘ozibekov esa invectitsiyalarni qyyidagicha ta’piflaydi: “Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog‘lash bo‘lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg‘arish maqsadiga qaratiladi”.

Ma’lumki, invectitsiyalar va iqticodiy o‘sish borasidagi bog‘liqlikni taniqli iqtisodchi hamda olim, Nobel mukofotining laureati P. A. Camuelson “akselerator prinsipi” yordamida izohlab bergan va uning mazmun-mohiyatini quyidagicha ifodalagan: “real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishi real investitsiyalar hajmining o‘sishiga olib keladi, o‘z navbatida, real investitsiyalar hajmining o‘sishi yana real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishini ta’minlaydi…”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada statistik kuzatuv, rezidentlar bilan intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazish, tizimlashtirish, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Global xalqaro sarmoyalar muhiti bu dunyo hali ham pandemiya oqibatlaridan o‘ziga kelmagan paytda yuzaga kelgan Ukrainadagi urushning boshlanishi bilan keskin o‘zgardi. Urush real daromadlarning pasayishiga va qarzdorlik stressi kuchayishiga olib keluvchi energiya tashuvchilar va oziq-ovqat narxlarining ko‘tarilishi bilan butun dunyodagi milliardlab odamlarga daxl qiluvchi hayot qiymati inqirozini keltirib chiqargan holda, o‘ziga bevosita yaqin bo‘lgan hududlardan tashqarida ham ta’sir ko‘rsatadi. Sarmoyadorlarning ikkilanishi va tavakkal qilishni istamasligi bu yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar hajmiga jiddiy daraja kamaytiruvchi bosim o‘tkazishi mumkin.

2022-yilda va undan keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoyalar oqib kelishi oqibatlarini bashorat qilish qiyin. Mintaqada mustahkam sarmoyaviy aloqalarga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siridan tashqari, xalqaro xususiy sapmoyalarning acosiy detepminantiga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘tmishga qarab baho beradigan bo‘lsak, u holda, oziq-ovqat narxlari oxirgi marta shunday yuqori bo‘lgan 2007-2008-yillardagi oziq-ovqat inqirozi davrida tartibsizliklar 60 dan ortiq davlatda sodir bo‘lgan edi.

Natija rivojlanish istiqbollari uchun katta ahamiyat kacb etadi. Ishlab chiqarish salohiyatiga sarmoya kiritishga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va iqlim o‘zgarishining oldini olish va unga moslashishga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda katta. Ushbu sohalardagi hozirgi sarmoya tendensiyalari bir ma’noda ijobiy ko‘rinmaydi. Garchi 2021-yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi keskin ko‘tarila boshlagan bo‘lsa-da, sanoatdagi sarmoyalar sustligicha va ayniqsa, eng qashshoq mamlakatlardagi pandemiyadan oldingi darajadan ancha past holda qolmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga – infratuzilma, oziq-ovqat xavfsizligi, suv ta’minoti va sanitariya, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirishga sarmoyalar kiritish o‘sib bormoqda, ammo bu 2030-yilgacha qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli emas. Iqlim o‘zgarishining oldini olishga, ayniqsa, tiklanayotgan energiya manbalaridan foydalanish uchun sarmoyalarning ko‘p qismini moliyalashtirish rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur tizimga moslashish uchun sarmoyalar ajratilishida nomutanosibliklar mavjud.

Dunyo miqyosidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi 2021-yilda 1,58 trillion dollarni tashkil etdi, bu 2020-yilning nihoyatda past darajasidan 64 foizga ko‘p (1-rasm).



1-rasm: 2008-2021-yillarda global va iqtisodiy guruhlar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi[1]

1 Doklad o mirovых investitsiyax: mejdunarodnыe nalogovыe reformы i ustoychivыe investitsii. 2022 g. UNCTAD/WIR/2022 (Overview).

Tiklanish, qo‘shilish va singdirish bozorlarining shiddat bilan o‘sishi va qulay moliyalashtirish shartlari va infratuzilmani rivojlantirish uchun yirik rag‘batlantirish dasturlari tufayli xalqaro loyihalarni moliyalashtirishning jadal o‘sishi tufayli sezilarli turtkini namoyon qildi.

2022-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarga hamda boshqa omillarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xitoyda global qiymat yaratish zanjirlarida muhim rol o‘ynovchi hududlarda izolyatsiya choralarini takroran joriy qilgan holda Covid-19ning avj olishi, qayta tashkil etilayotgan korxonalarga sarmoya kiritishni yanada kamaytirishi mumkin. Inflyatsiyaning yuqori darajada o‘sishi kuzatilayotgan iqtisodiy jihatdan yetakchi mamlakatlarda kutilayotgan foiz stavkalarining o‘sishi qo‘shish va singdirish bozorlarining konyunkturasini pasaytiradi va xalqaro loyihalar moliyalashtirilishining o‘sishini sekinlashtiradi.

Moliya bozorlaridagi salbiy kayfiyatlar va yaqinlashib kelayotgan retsessiya alomatlariga ega yetakchi mamlakatlarda foiz stavkalarining kutilayotgan o‘sishi qo‘shish va singdirish bozorlarini susaytiradi va salbiy moliyaviy bozor kayfiyati va surilib borayotgan retsessiya belgilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarning pasayishini tezlashtirishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar o‘sishining sekinlashishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi ularning rivojlangan mintaqalarga oqimidan ko‘ra sekinroq o‘sdi, shunday bo‘lsa ham 30 foizga ya’ni 837 milliard dollargacha ortdi. O‘sish asosan Osiyodagi kuchli o‘sish ko‘rsatkichlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi qisman tiklanish va Afrikadagi ko‘tarilish tufayli sodir bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning global oqimlardagi ulushi 50 foizdan biroz yuqori bo‘lib qoldi:

- Afrikaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi 2020-yildagi 39 milliard dollarga nisbatan 83 milliard dollarga yetdi. Aksariyat oluvchilarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarning bir maromda o‘sishi kuzatildi;
- rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida, bir qancha Covid-19 to‘lqinlariga qaramay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar 619 milliard dollarga ko‘tarilib, ketma-ket uchinchi yil rekord darajaga yetdi;
- Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar 56 foizga o‘sib, 134 milliard dollarni tashkil etdi;
- tapkibiy jihatdan zaif, qaltic va kichik iqticodiyotga ega mamlakatlapga to‘g‘pidan-to‘g‘pi xopijiy kompaniyalar oqimi 15 foizga oshib, 39 milliard dollarga yetdi. Eng kam rivojlangan mamlakatlarga, dengizga chiqishi bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan kichik orol davlatlar kapital oqimi 2020-yildagi 3,5 foiz bilan taqqoslaganda, 2021-yilda jami hisobda atigi 2,5 foizni tashkil etdi.



2-rasm: Dunyo davlatlari moliya markazlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya tebranishlari[2]

2 https://unctad.org//fdistatistics.

2021-yilda rivojlangan mamlakatlarning ko‘pmillatli korxonalari o‘zlarining xorijdagi sarmoyalarini 483 milliard dollardan 1,3 trillion dollargacha ikki baravardan ko‘proqqa oshirdilar. Ularning global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar olib chiqib ketishdagi ulushi to‘rtdan uch qismga o‘sdi. O‘sishning katta qismi rekord darajadagi qayta sarmoyalangan foyda hamda qo‘shish va singdirish sohasidagi faolligining yuqori darajasi bilan bog‘liq. 2021-yilda oraliq davlatlar orqali sarmoyalar olib chiqib ketilishining yuqori darajada o‘zgaruvchanligi davom etdi. Yevropa ko‘pmillatli korxonalarining jami tashqi sarmoyalari 2020-yildagi 21 milliard dollarlik g‘ayritabiiy past darajadan 552 milliard dollargacha ko‘tarildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pmillatli korxonalarining xorijiy sarmoyalari hajmi 18 foizga oshib, 438 milliard dollarni tashkil etdi. Rivojlanayotgan Osiyo hatto pandemiya davrida ham asosiy sarmoya manbayi bo‘lib qoldi. Mintaqadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar olib chiqib ketilishi 2021-yilda 4 foizga o‘sib, 394 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa butun jahondagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar olib chiqib ketilishining deyarli to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Garchi rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari tashqi sarmoyalarining umumiy hajmi oshgan bo‘lsa-da, qarorgohlari ushbu mintaqada joylashgan kompaniyalar 2021-yilda kamroq xaridlarni amalga oshirdi. Xalqaro qo‘shish va singdirish hajmi 35 foizga, 45 milliard dollargacha kamaydi. Sharqiy Osiyoda (asosan Xitoyda) qarorgohi bilan ko‘pmillatli korxonalar xaridlari 2020-yildagi 44 milliard dollardan 6,3 milliard dollargacha pasaydi.

Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga rekord darajadagi investitsiya oqimlari. Bir qancha Covid-19 to‘lqinlariga qaramay, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar ketma-ket uchinchi yil rekord darajadagi 619 milliard dollarga ko‘tarilib, mintaqaning tashqi zarbalarga chidamliligini ta’kidladi. Bu eng yirik to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalarni qabul qiluvchi mintaqa bo‘lib, global oqimning 40 foizi uning ulushiga to‘g‘ri keladi. 2021-yilgi o‘sish an’anasi Janubiy Osiyodan tashqari butun mintaqada keng tarqaldi. Biroq ularning oqimi hali ham yuqori konsentratsiyasi bilan tavsiflanadi. Oltita mamlakat va hududlar (Xitoy, Gonkong (Xitoy), Singapur, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari va Indoneziya, qayd etilgan tartibda) ulushiga mintaqadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarning 80 foizdan ortig‘iga to‘g‘ri keldi. Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida barqaror rivojlangan maqsadlarga aloqador bo‘lgan tarmoqlarga sarmoya kiritish sezilarli darajada oshdi. Ushbu tarmoqlardagi xalqaro loyihaviy moliyalashtirish hajmi, asosan qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo‘lgan katta qiziqish tufayli 74 foizga oshib, 121 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu sohadagi loyihalar qiymati 2020-yildagi 34 milliard dollardan 123 foizga oshib, 77 milliard dollarga yetdi.

Butun dunyoda xalqaro sarmoyalarni rag‘batlantirish uchun soliq siyosatidan foydalanish. 1980-yilda o‘rtacha 40 foizni tashkil etgan butun dunyodagi korporatsiyalarning foyda solig‘i stavkasi so‘nggi o‘ttiz yil ichida asta-sekin pasayib, 2021-yilda taxminan 25 foizni tashkil etdi. Boshqa mamlakatlarga nisbatan soliq daromadlari manbayi sifatida eng kam rivojlangan mamlakatlarda 2021-yilda korporatsiyalarning foyda solig‘i stavkasi eng ko‘p – 28 foizni tashkil etdi.

Yangi sarmoyalar emas, balki aksariyat foyda solig‘i imtiyozlari bilan rag‘batlantirish. So‘nggi o‘n yillikda qabul qilingan milliy sarmoya siyosatining chora-tadbirlari barcha mintaqalarda sarmoyalar uchun soliq imtiyozlarining keng qo‘llanilganligidan dalolat beradi. Soliqqa tortish bilan bog‘liq sarmoyaviy choralarini qabul qilgan 100 ta davlatdan 90 tasi soliqlarni qisqartirdi, yangi soliq imtiyozlarini joriy qildi yoki allaqachon taqdim qilingan soliq imtiyozlarini oshirdi. Joriy etilgan budjet-soliq imtiyozlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i (39 foiz) foyda bilan bog‘liq. Aksincha, har 10 ta yangi soliq imtiyozlarining 1 dan salgina ko‘prog‘i (13 foiz) xarajatlarni qisqartirishga aloqadordir.

Ham foyda, ham xarajatlarga doir imtiyozlar ko‘pincha qo‘shimcha budjet-soliq rag‘batlantirish choralari bilan uyg‘unlashtiriladi. QQS yoki import bojlari kabi bilvosita soliqlar va yig‘imlarga nisbatan soliq imtiyozlari Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasida joriy qilingan barcha soliq imtiyozlarining taxminan 30 foizni tashkil qiladi. Ular shuningdek, Afrikada ham tez-tez (barcha soliq imtiyozlarining 24 foiz), lekin Yevropa va Shimoliy Amerikada ancha kamroq (13 foiz) qo‘llaniladi. Import va eksport tartibini soddalashtirish, ruxsatnoma va litsenziyalarni “Yagona darcha” mexanizmlari yordamida rasmiylashtirish yoki ishchi vizalari berish tartibini soddalashtirish kabi tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari har bir mintaqada budjet-soliqqa oid rag‘batlantirish tizimlari bilan birgalikda qo‘llaniladigan eng ahamiyatli soliqdan tashqari rag‘batlantirish vositasini ifodalaydi. Garchi bu yerda mintaqaviy tafovutlar katta bo‘lsa-da, global miqyosda yangi imtiyozlarning aksariyati ishlov berish sanoati va xizmat ko‘rsatish tarmog‘idagi sarmoyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Qishloq xo‘jaligi va kon sanoati uchun maxsus mo‘ljallangan soliq imtiyozlari ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlar va eng kam rivojlangan mamlakatlarda taqdim etiladi. Mamlakat ichidagi muayyan hududlarni rivojlantirish dunyoning barcha mamlakatlarida (24 foiz), Afrikada (33 foiz) va Osiyoda (27 foiz) yangi soliq imtiyozlarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan siyosatning eng tez-tez uchraydigan maqsadi edi.

Soliqqa oid rag‘batlantirishni takomillashtirish imkoniyatlari. Faqat taxminan 30 foiz hollarda imtiyozlar hamma uchun yagona mezonlar (masalan, sarmoyalar miqdori, yaratilgan ish o‘rinlari soni yoki sarmoyalarning joylashuvi) asosida, qolganlari esa bunday qarorlar mezonlari e’lon qilinmaydigan va sarmoyadorlar bilan kelishilmagan hollarda individual asosda beriladi.

XULOSA

So‘nggi yillarda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi keskin ko‘tarila boshlagan bo‘lsa-da, sanoatdagi sarmoyalar sustligicha va ayniqsa, eng qashshoq mamlakatlardagi pandemiyadan oldingi holatidan ancha past holatda qolmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etib, rivojlanish ko‘rsatkichlarini qayd etishda rivojlangan davlatlar tajribalarida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatgan mexanizm, ya’ni erkin iqtisodiy zonalar vositasidan foydlanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning asosiy dastaklaridan biri bank moliyaviy resusrlari hisoblanib, banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hajmining asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘yicha jami moliyalashtirish manbalari tarkibini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni 2017-yil 7-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi PF-4059-sonli “Navoiy viloyatida Erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi PF-4436-sonli “Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 10.04.2012.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi “Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilga mo‘ljallangan investitsion dasturi to‘g‘risida”gi 1855-sonli qarori.
7. Замятин Б. И. Свободные экономические зоны: Открыть проблемы, создания и развития. М. ГАУ-1993 г. стр -216.
8. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005 г. стр – 223.
9. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. Учебное пособие. М. ЮНИТИ – 2005 г. стр – 414.
10. Фоминский И. П. Иностранные инвестиции в России: современное состояние и перспективы. М.: Международное отношения.1995 г. стр – 306.
11. Фоминский И. П. Свободные экономические зоны в экономике России. Общество и экономика. 1993 г. № 5, 3-16 стр.
12. Игнатов В. Г. Свободные экономические зоны. М.: Ось-89, 1997 г. стр – 314.
13. Комлев Ю. Свободные экономические зоны: зарубежный опыт. Алма-Ата. 1990 г. стр – 288.
14. Оценка индийскими экономистами открыта КНР по созданию СЭЗ //БИКИ №21, 22 февраля 2003год.
15. Данько Т. П., Округ З. М. Свободные экономические зоны. М.: ИНФРА-М. 1998, С. 145.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕОРИИ ИГР В ЗАДАЧАХ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ТЕПЛИЧНОГО ХОЗЯЙСТВА

Дурманов Акмал Шаймарданович

PhD, доцент кафедры “Корпоративная экономика и менеджмент” Ташкентского государственного экономического университета; докторант Международный центр стратегического развития и исследований в сфере продовольсвия и сельского хозяйства

Аннотация: Цель: в статье проведен анализ сложившегося организационно-экономического механизма функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан. С помощью методов теории игр решена задача оптимального выращивания овощей и фруктов в тепличном хозяйстве. Предмет исследования составляет организационно-экономический механизм функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан. Цель работы заключается в выявлении проблем развития организационно-экономического механизма функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан с помощью теории игр. Согласно указу президента Узбекистана от 20 ноября 2018 года “О мерах по созданию дополнительных условий для развития тепличных комплексов”, в ближайшие годы будет создано еще 105 современных теплиц на сумму 343,3 миллиона долларов. Новые комплексы, согласно документу, займут еще 800 гектаров земли. Значительная их часть (47 на 405 га) общей стоимостью более 230 миллионов долларов будет создана в Ташкентской и Самаркандской области.

Ключевые слова: тепличное хозяйство; сельскохозяйственные товаропроизводители; теория игр; организационно-экономический механизм; овощи и фрукты.

Annotatsiya: Maqsadi: maqolada O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tahlil qilingan. O‘yinlar nazariyasi usullaridan foydalanib, issiqxonada sabzavot va mevalarni optimal yetishtirish muammosi o‘rganib chiqilgan. Tadqiqot predmeti O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Ishning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini o‘yinlar nazariyasidan foydalangan holda ishlab chiqishdagi muammolarni aniqlashdan iborat bo‘lib shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi “Issiqxona majmualarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan yaqin yillarda umumiy qiymati 343,3 million dollarlik yana 105 ta zamonaviy issiqxona tashkil etiladi. Yangi majmualar, hujjatga ko‘ra, yana 800 gektar yerni egallaydi. Ularning salmoqli qismi (47 ga 405 gektar) umumiy qiymati 230 million dollardan ortiq bo‘lgan yerlar Toshkent va Samarqand viloyatlarida tashkil etilganligi hisobga olingan.

Kalit so‘zlar: issiqxona xo‘jaligi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari; o‘yin nazariyasi; tashkiliy-iqtisodiy mexanizm; sabzavotlar va mevalar.

Abstract: Purpose: the article analyzes the existing organizational and economic mechanism for the functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan. Using game theory methods, the problem of optimal cultivation of vegetables and fruits in a greenhouse was solved. The subject of the study is the organizational and economic mechanism of functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan. The purpose of the work is to identify problems in the development of the organizational and economic mechanism for the functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan using game theory. According to the decree of the President of Uzbekistan dated November 20, 2018 “On measures to create additional conditions for the development of greenhouse complexes,” another 105 modern greenhouses will be created in the coming years’ worth $343.3 million. The new complexes, according to the document, will occupy another 800 hectares of land. A significant part of them (47 by 405 hectares) with a total cost of more than 230 million dollars will be created in the Tashkent and Samarkand regions.

Key words: greenhouse farming; agricultural producers; game theory; organizational and economic mechanism; vegetables and fruits.

ВВЕДЕНИЕ

Ввиду напряженной экономической и международной ситуации поставки продовольствия сегодня занимают особое место в приоритетах государственной политики. В решении проблемы повышения самообеспеченности населения продовольствием основная роль принадлежит областям, в которых эффективная экономическая и экономическая деятельность сельскохозяйственных производителей имеет большое значение для экономики. Сегодня субъектам хозяйствования необходимо создать условия, обеспечивающие последовательный процесс непрерывного воспроизводства сельскохозяйственной продукции. Вот почему необходимо иметь соответствующие организационные и финансовые механизмы для устойчивого развития отрасли в регионе [5, с.1378].

Под термином “организационно-экономический механизм” развития сельского хозяйства следует понимать взаимодействие проблем производственных отношений на основе экономических и административно-правовых рычагов и эффективных форм организации процессов общественного производства, обеспечивающих устойчивое развитие отраслей сельского хозяйства [3, с.45]. Основными функциями организации и управления финансами являются: создание благоприятных экономических условий, повышение эффективности производственной деятельности, обеспечение конкурентоспособности продукции, повышение заинтересованности сотрудников и команд в высоких экономических показателях деятельности предприятия, обеспечение высокого качества трансформации компании, материально-техническая база.

В данной работе проводится исследование возможности использования теории игр в задачах организационно-экономического механизма тепличного хозяйства.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Агропромышленный комплекс является неотъемлемой частью производительных сил Республики Узбекистан, подчиняется общим закономерностям экономического развития региона и является специфическим, со своими особенностями. Сегодня экономическое положение тепличной экономики в регионе характеризуется нестабильностью, проблемы экономического роста продолжают существовать, а организационно-экономический механизм должен создавать условия для эффективной экономической системы в отрасли. Уровень рентабельности сельскохозяйственных организаций, включая субсидии, в 2019 году достиг 5,9% сельских домохозяйств (21,8%). Без государственной поддержки эффективность производства составляла -32% в сельскохозяйственных предприятиях и -29,6% в агрохолдингах. Это показывает, что механизм финансового управления в регионе не полностью отвечает поставленным перед ним задачам и характеризуется разрушением сельскохозяйственного потенциала, проблемой адаптации сельскохозяйственной продукции к рыночным условиям и неэффективной фискальной и кредитной политикой [17, с.104].

В современных экономических условиях только те субъекты предпринимательской деятельности, которые внедряют инновации и основные научно-технические достижения, основанные на использовании технологий нового поколения и эффективных методов производства, позволяющих рационально использовать ресурсы и снижать затраты, могут удовлетворить требования конкуренции. Поэтому модернизация технологической сферы производства, связанная с переводом сельскохозяйственных предприятий на новые поколения техники и технологий, играет важную роль в устойчивом развитии тепличного хозяйства.

Рекомендуется включить технико-технологическую модернизацию производства, развитие информационных систем и маркетинговую деятельность в сельском хозяйстве региона в группу инновационных отраслей для совершенствования организационно-финансового механизма. Развитие сельского хозяйства во многом зависит от состояния материально-технической базы хозяйств и, прежде всего, от безопасности и доступности парка двигателей и тракторов. В 2019 году в сельскохозяйственных организациях по сравнению с 2018 годом только 4 тракторных парка увеличились на 4 единицы, в сельскохозяйственных (сельскохозяйственных) предприятиях – на 12 [10, с.490].

В таких условиях во многом помогает постановка задач с помощью теории игр.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Для решения задачи исследования была выбрана следующая ситуация. Предусмотрен переход на новую сельскохозяйственную технику. Эксперты обнаружили, что в случае успеха есть шанс, что (70%) получит 1,5 от прибыли, которую можно получить со старым оборудованием. В противном случае (30%) компания потеряет 0,3% прибыли, если оборудование не будет соответствовать ожиданиям (часто выходящим из строя, производя дефектную продукцию). В то же время можно воспользоваться дополнитель-

ными услугами по обслуживанию оборудования с единовременной прибылью 0,5, вероятность успеха в этом случае составит 90%. Также возможно частично установить новое оборудование. В этом случае вероятность успеха составит 60%, прибыль составит 1,1, а убытки – 0,05. Стоимость дополнительных услуг в этом случае составит 0,3 от стандартной прибыли, а шансы останутся прежними. Необходимо определить лучший вариант.

РЕЗУЛЬТАТЫ И АНАЛИЗ

По поставленной задаче проводятся расчеты (слева направо, стандартная прибыль принята за 100):

1) 127,5-12-50=65,5
2) 120-16-50=54
3) 93,5-0,75-30=62,75
4) 66-2=64

Согласно предоставленной информации, лучшим вариантом для компании будет переход на новое оборудование с использованием дополнительных услуг. Однако окончательные цены на другие варианты не сильно отличаются от оптимальных, поэтому их также можно учитывать. Вам не всегда нужно полагаться на данные одного анализа. Было бы целесообразно провести сравнительный анализ старого и нового оборудования. Примерными показателями для сравнения оборудования могут быть [13, с.63]:

1) стоимость, полученная в результате эксплуатации оборудования;
2) надежность;
3) техническое обслуживание;
4) стоимость расходных материалов и сменных частей и их наличие на рынке;
5) простота использования;
6) срок полезного использования оборудования.

Стоит также рассмотреть возможность использования дополнительных сервисов, которые дают возможность быстро решать проблемы с оборудованием, ориентируя сотрудников на правильное использование и обслуживание оборудования с возможностью его улучшения. Однако не исключено, что услуги будут оказываться не в соответствии с договором, а “через рукава”, и может потребоваться усиление контроля качества работ, что может увеличить стоимость.

Выбор частично примененного оборудования с чисто логической точки зрения будет наиболее правильным, так как перед полным переходом на что-то новое необходимо опробовать оборудование, определить нюансы работы, сравнить показатели на основе результатов старого и нового оборудования, подготовить кураторов к оборудованию, которое обучит персонал на работе с новым оборудованием. Если обнаружены недостатки, нет необходимости полностью отзывать или модифицировать все оборудование, что будет стоить компании высокой стоимости или простоя. Частичное применение широко используется при смене руководства компании и очень эффективно, потому что оно подталкивает компанию к росту и улучшению, гарантируя при этом стабильность в работе компании [4, с.127].

Еще есть возможность отклонить заявку. В этом случае компания ничего не теряет, но никогда не выигрывает. Этот вариант используется в консервативной политике, он имеет смысл, когда компания получает стабильный доход и не стремится к увеличению прибыли. Решение быть неактивным в отношении чего-либо может иметь положительный эффект. Например, некоторые компании ждут от других компаний инноваций и отслеживания успешности их приложений. Таким образом, такие компании с консервативной стратегией минимизируют риск, связанный с инновациями, применяя их после подтверждения их эффективности, и получили несколько исправлений для последовательной работы.

Таблица 1: Матрица “Деловой экран”

Сильные стороны: • стабильное количество заказов от постоянных клиентов • простота продукта, широкое применение • Небольшая компания позволяет вам управлять ею более эффективно	**Слабые стороны:** • узконаправленное производство в результате невозможности маневрировать в случае низкого спроса • ограниченное количество поставщиков и потребителей • потребительская зависимость
Возможности: • Расширение производства при появлении новых заказов. • Расширение ассортимента продукции • новые потребительские контракты	**Угрозы:** • появление новых конкурентов для овощеводства • внешний вид заменителей продукции • снижение спроса на овощи • Задержки в поставках сырья от поставщиков • невидимые обстоятельства

Подводя итоги по всем вариантам, не могу порекомендовать какой-то определенный, так как для каждого случая бывает своя специфика, которую стоит учитывать. При принятии решений порой бывает опасно подходить ко всем вопросам универсальным шаблонным решением на основе анализа, стоит учесть все нюансы проблемы, если она напрямую связана с производством, то есть с основной деятельностью компании, как в данном случае.

Эффективность этого метода заключается в поиске наилучшего варианта в условиях полной неопределенности. Этот метод используется, когда существует много альтернатив и несколько возможных сценариев развития событий, на которые, как правило, нельзя повлиять. Эффективность метода напрямую зависит от точности прогнозирования альтернативы в конкретном сценарии. Например, при конкретном спросе можно будет достичь определенного объема производства (18, с.236).

Выбор оптимальной стратегии адаптируется ко многим критериям, на основании которых вы можете определить оптимальный вариант. Вы также можете использовать взвешенную оценку критериев, если тема предпочитает одни критерии другим.

Для теплиц критерии выбора оптимальной стратегии применяются в случаях выбора продукции, когда спрос на них неизвестен, при расширении производства и расширении ассортимента продукции. Важным фактором эффективности этого метода является точность прогнозирования результатов выбора альтернативы при определенных условиях. Наибольшей точностью способствуют статистика последних лет, наблюдения и выводы экспертных групп. Однако расширение трендов не всегда может дать точные прогнозы, особенно в наше время. Поэтому также стоит учитывать современные тенденции, опыт развития отрасли.

ОБСУЖДЕНИЕ

Теплица продает свою продукцию через магазины. Продажи зависят от погодных условий. Стоимость выращивания овощей равна α0, а фруктов – β0 рублей, цена продажи соответствует соответственно α1 рублей и β1 рублей. Определите лучшую бизнес-стратегию.

а = 1000, б = 2300, с = 1400, д = 700,

α0 = 20, β0 = 5, α1 = 40, β1 = 12.

Составляем математическую модель задачи. В отношении возможных условий спроса у компании есть две стратегии.

1. F1 = (1000, 2300) – произвести 1000 овощей и 2300 фруктов,
2. F2 = (1400, 700) – производит 1400 овощей и 700 фруктов.

Природа (рынок) также имеет две стратегии:

1. D1 = погода жаркая,
2. D2 = погода прохладная.

Если компания примет стратегию F1 и спрос действительно будет в первом состоянии, то есть погода будет жаркой (D1), тогда продукты будут полностью проданы, а доход будет:

w11 = 1000 · (40-20) + 2300 · (12-5) = 36100.

Если компания принимает стратегию F1 и спрос находится в состоянии D2 (погода прохладная), то фрукты будут продаваться только частично, а доход будет:

w12 = 1000 · (40-20) + 700 · (12- 5) – (2300-700). 5 = 16900.

Точно так же, если компания выберет стратегию F2, а природа – стратегию D1 (погода жаркая), то доход будет (овощи будут ниже):

w21 = 1000 · (40-20) + 700 · (12-5) – (1400-1000) · 20 = 16900, и если природа выбирает стратегию D2, то w22 = 1400 · (40-20) + 700. (12-5) = 32900.

Поскольку стратегия максимина в игре a = max (16900, 16900) = 16900, а минимальная стратегия b = min (36100, 3290) = 32900, то значение игры находится в диапазоне

16900 ден ед. <v <32900 ден. единицы

Мы решаем эту игру аналитическим методом. Средняя производительность первого игрока, если он использует оптимальную смешанную стратегию x' = (x1', x2') и второго игрока, чистая стратегия, соответствующая первому столбцу таблицы выплат, равна значению игры v:

36100 · x1' + 16900 · x2' = v.

Первый игрок получает те же средние шансы, если второй игрок применяет стратегию, соответствующую второму столбцу платежной ведомости, т.е.

16900 x1 + 32900 x2 = v.

Таким образом, компания оптимально выращивает 1218 кг овощей и 1427 кг фруктов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Подводя итоги проведенного исследования, можно сформулировать следующие выводы. Аграрная отрасль является наиболее перспективной в экономике Республики Узбекистан. Теория игр широко используется в инновационной экономике. В последние годы ее значение значительно возросло во многих областях экономики и социальных наук. В области финансов это относится не только к решению общих финансовых проблем, но и к анализу стратегических проблем компаний, что способствует выбору основного производственного сектора и принятию оптимальных управленческих решений. Применение теории игр способствует успешному развитию тепличного хозяйства.

Список литературы

1. Kozlov V. D., Mordovchenkov N. V., Nikolenko P. G., “Development of agricultural infrastructure under the conditions of state regulation of the economy” 2017.
2. Abudi, G. (2019). The five stages of team development: Each team goes through it! (Parts I and II).
3. Kosyakova L. N., Magomedmirzoeva D. Ya. Methodological approaches for the analysis of the system in the management of investment and innovative processes in the agro-industrial complex // Bulletin of the University of St. Petersburg. 2015. No. 39.
4. Mikov K. A. Modeling of the effective organizational and economic mechanism of sustainable development of the agricultural sector of the region / K. A. Mikov // Summary of the dissertation for the degree of candidate of economics. – Izhevsk – 2016 – 24 pages.
5. Tikhomirova O. G. Project Management: Integrated Approach and System Analysis: Monograph. – M.: SIC INFRA-M, 2017 – 301 pages.
6. Shamina L. K. Theoretical aspects of the operation of innovative processes. – St. Petersburg: Nauka, 2018 – 85 pages.
7. Shafieva E. T. A systematic approach to livestock management based on the program in the agricultural sector of the region // novainfo.Ru. – 2016. – No. 55. – Σ. 101–103. [Electronic resource]. URL: (Accessed on 12/11/2019)
8. Bennarz, T. (2018). Virtual group management in a global economy. Wisconsin: Marjorium Business Press
9. Parshukov D. V. Organizational and economic mechanism for the development of the agricultural sector / D. V. Parshukov, D. V. Hodos, S. G. Ivanov // [Electronic resource]. – Access function – URL: www.cyberleninka.ru/article/n/organizatsionnoekonomicheskiy-mexanizm-razvitiya-agrarnogo-sektora (Access date 03.02.2020)
10. Kustova, S. B. Problems of development of the intra-economic economic mechanism in agricultural organizations / S. B. Kustova // AIC: Financial, Management. – 2015. – No. 11. – pp. 34-39.
11. Booch G. Object-Oriented Analysis and Design with Application, Second Edition. The Benjamin / Cummings Publishing Company, Inc. 2018 – 255 pages.
12. Derosa, D., & Lepsinger, R. (2017). Virtual group success: A practical guide to work and distance guidance. California: John Wiley & Sons, Inc.
13. Ginter, E. V. An optimal model for the operation of an agricultural dairy company in an area / Problems of shaping an innovative economy in an area, collection of articles – Magadan: –Printing House, 2016. – pp. 54-57.
14. Kustova, S. B. Creating agricultural exploitation as a factor to increase the competitiveness of agricultural producers in the Magadan / S. B. Kustova region // Far Eastern Farm Bulletin. – 2018 – No. 4 (28). – pp. 63-66.
15. Hayden, T. (2019). Talk about coffee: A dwarf-sized nano-building game. Canada: Tyler Hayden
16. Buzyrev V. V. The choice of investment decisions and projects: an optimization approach. – SPb.: SPbSUEF Publishing House, –2016. – 286 pages.
17. Kustova, S. B. Integration – a way to increase the efficiency of the agro-industrial complex / S. B. Koustova // Agricultural Sciences. – 2015. – No. 5 – S. 5-7.
18. Ginter, E. V. Organizing commercial activity as one of the tools for innovative development of the agricultural sector in the region / E. V. Ginter // Innovations in agriculture. – 2015. – No. 2 (13). – Law 288-291.
19. Jacobson I. Targeted Software Software. ASM type. – 2017- 745 pp.
20. Lecoq, B. (2017). Successful leadership of virtual project teams. Document presented at PMI® Global Congress 2017 – North America, Vancouver, British Columbia, Canada. Newtown Square, PA: Project Management Institute
21. Richard J. Mayer, PhDMichael K. Painter Madhavi Lingineni Incorporating Information for Simultaneous Engineering (IIS) into a Method Based Systems, Inc. Intermediate technical work. – 2018 – 563 pp.
22. Repin V. V., Eliferov V. G. Business Procedures: Settings and management. – M.: INFRA-M, 2016 – 319 pages.
23. Rumbaugh J., Blaha M., Premerlanietal W. Object-Oriented Modeling and Design. Prentice-Hall. NewJenersy. – 2016. – 455 pages.
24. Suda, L. V. (2016). Virtual group domination: training virtual project teams to be successful. Document presented at PMI® Global Congress 2012 – North America, Vancouver, British Columbia, Canada. Newtown Square, PA: Project Management Institute
25. Zofi, Y. (2015). Guide for virtual groups. New York: Amacom.

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLAR MOHIYATINI TAVSIFLOVCHI TUSHUNCHALAR

Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar hamda ularning mohiyatini tavsiflovchi tushunchalar, ularning sanoat korxonalari iqtisodiy hayotidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Sanoat korxonalari ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlaydigan, iqtisodiy samaradorlikka erishishning bosh omili hisoblangan iqtisodiy resurslar raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bozor raqobatbardoshligiga erishishning muhim omillaridan biri ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: sanoat tarmog'i, ishlab chiqarish, korxona, resurslar, sanoat iqtisodiyoti, samaradorlik, iqtisodiy resurslar, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: The article examines the concepts that characterize economic resources and their essence in industrial enterprises, their importance in the economic life of industrial enterprises. It is scientifically proved that economic resources that ensure the socio-economic well-being of industrial enterprises are considered the main factor in achiyeving economic efficiency, are one of the important factors in achiyeving market competitiveness in the conditions of the formation of the digital economy.

Key words: industrial sector, production, enterprise, resources, industrial economy, efficiency, economic resources, digital economy, efficient use of economic resources, digital economy.

Аннотация: В статье исследуются понятия, характеризующие экономические ресурсы и их сущность на промышленных предприятиях, их значение в экономической жизни промышленных предприятий. Научно обосновано, что экономические ресурсы, обеспечивающие социально-экономическое благополучие промышленных предприятий, считаются основным фактором достижения экономической эффективности, являются одним из важных факторов достижения рыночной конкурентоспособности в условиях формирования цифровой экономики.

Ключевые слова: промышленный сектор, производство, предприятие, ресурсы, промышленная экономика, эффективность, экономические ресурсы, цифровая экономика, эффективное использование экономических ресурсов, цифровая экономика.

KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qo'lga kiritilayotgan ijobiy natijalar, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish asosida zamonaviy sanoat tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish [1] rivojlanayotgan O'zbekistonning istiqboldagi maqsadlari hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sanoat korxonalarining innovatsion va barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlab beruvchi vositalardan biri – bu mahalliy xom ashyo resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari va rezervlarini aniqlash hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiyotnining innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarini barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ularning faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida – iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni zarurat etmoqda. Ushbu jarayonda sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish hamda ishlab

chiqarish jarayonlari intensivligini ta’minlash, tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat jarayonlarining intellektuallashuv darajasini yuksaltirish, sanoat mahsulotlar hajmi va sifatini yaxshilash, iste’mol bozori talabini to‘liq qondirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining xalqaro bozorlardagi o‘rnini oshirish va sanoat mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, ishlab chiqarishning mahalliylashtirish darajasini kengaytirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining maqsadlaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalari iqtisodiy resurslarining mohiyati va shakllanish xususiyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning modellari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

K. Makkonnell va S. Bryu asarida, “iqtisodiy resurslar” tushunchasi ostida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan barcha tabiiy, inson va inson tomonidan yaratilgan barcha turdagi resurslari tushuniladi [2], deb aytgan.

A. N. Azriliyan tahriri ostida chiqqan “Bolshoy ekonomicheskiy slovar” lug‘at manbasidaesa iqtisodiy resurslar quyidagicha izohlanadi: “Ishlab chiqarish omillari mahsulot, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan elementlardir” [3].

R. Nureev, A. D. Smirnovlar fikricha: “Iqtisodiy resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) – bu iqtisodiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan elementlar: zamonaviy jamiyatda ulardan eng muhimi yer, mehnat, kapital (shu jumladan uni tashkil etish), tadbirkorlik qobiliyati va axborotlarni o‘z ichiga oladi” [4] deb, tadqiq etilgan.

Rossiyalik olimlar M. K. Bunkina, V. A. Semenovlar bunday deydilar: “Sotish uchun mo‘ljallangan tovarlarning katta massasi moddiy shaklga ega bo‘lgan kommunal xizmatlardir. Ularni ishlab chiqarishda to‘rtta asosiy omil o‘zaro munosabatda bo‘ladi: tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik” [5].

Shuningdek, B. A. Reysberg omillar iqtisodiy jarayonlarning mohiyati va samaradorligini belgilovchi parametrlar deb hisoblaydi; yaratilgan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatini oldindan belgilash, ya’ni omil ishlab chiqarish resurslari emas, balki iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatidir, deb ta’kidlaydi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar rivojlanishiga metodologik yondashuvning ilmiy asoslari, iqtisodiy resurslarni shakllantirish, iqtisodiy resurslardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, sanoat korxonalarida ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslarni foydalanishdan olinadigan integral iqtisodiy samara, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga tizimli va ilmiy yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sharoitida tadbirkorlik subyektlarini samarali rivojlantirish masalasi birinchi o‘rindagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Aksariyat korxonalar faoliyatini boshqarishda innovatsiyalarni joriy qilish samaradorligining pastligi, ishlab chiqarishning yetarli darajada samarali bo‘lmagan texnologiyalaridan foydalanish va juda cheklangan resurslarning oqilona taqsimlanmaganligi sababli bozorda raqobatbardosh hisoblanmaydi. Natijada, bu hozirgi iqtisodiyotning transformatsion jarayonlarga munosib javob berish, iqtisodiy mexanizmni mobil qayta qurishning mumkin emasligiga olib keladi. Ko‘pincha bu holat resurslarning tuzilishi hamda ularni boshqarish mexanizmlari to‘g‘risida axborotlarning yetishmasligi sababli paydo bo‘ladi.

Sanoat korxonasining xo‘jalik faoliyati zarur ishlab chiqarish resurslariga ega bo‘lgan taqdirdagina samarali rivojlanadi. Korxonalar ishining natijalari bevosita ularning ixtiyoridagi resurslarga bog‘liq bo‘lib, ularning yetarli miqdori ishlab chiqarish faoliyati, daromad olish hamda bozorda raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun zarurdir. Har bir sanoat korxonasi faqat o‘ziga xos bo‘lgan muayyan resurslar to‘plamiga ega, shuning uchun korxona faoliyat natijalarini belgilaydigan o‘z resurs tizimini ishlab chiqishi kerak. Resurslarning oqilona tizimi bo‘lmasa, korxonaning o‘xshash tashkilotlarga nisbatan ustunliklari va mavjud imkoniyatlar past darajada bo‘ladi.

Korxonadagi resurslar tizimi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan resurslar to‘plami bo‘lishi kerak, shu bilan birga mavjud resurslar harakatchanlik, bir-birini to‘ldirish, o‘zaro almashish talablariga javob berishi hamda ishlab chiqarishning zamonaviy tendensiyalariga mos kelishi kerak.

Respublikamiz sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi va ularning raqobat ustunligini ta'minlanishi aksariyat hollarda unda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Shuning uchun tadqiqot jarayonida tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etamiz.

Bugungi kunda sanoat tarmog'i iqtisodiyotning lokomotivi sifatida dinamik sektoriga aylanib bormoqda va barqaror rivojlanish tendensiyalariga ega. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda ma'lum miqdordagi resurslar (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, mehnat resurslari) sarflanib, mahsulot qiymati yaratiladi.

Ushbu tadqiqotda muayyan predmet va obyektga muvofiq sanoat ishlab chiqarishi jarayonlarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik jihatlari va amaliyotiga e'tibor qaratamiz. Sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini strategik tashkiliy yechim sifatida o'rganish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish tizimini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Sanoat korxonalarini zarur resurslar bilan ta'minlash boshqaruv jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. "Resurslar" tushunchasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari shakllanishining muhim kategoriyalaridan biridir. Tadqiqotchi olimlar tomonidan iqtisodiy resurslarga itqisodiy termin sifatida korxona faoliyatining turli tomonlarini hisobga olgan holda ko'plab ta'riflar berilgan va ilmiy yondashuvlar asoslangan. Zamonaviy iqtisodiy lug'atda resurslar ishlab chiqarishni ta'minlash manbalari, vositalari sifatida talqin qilingan [7]. Bunday yondashuv so'zning boshlang'ich mazmuniga asoslangan holda talqin etilgan: fransuz tilida "resource" – yordamchi vosita ma'nosini ifodalaydi. Bu yondashuv kategoriyaning zamonaviy iqtisodiy mazmunini ifodalamaydi.

Iqtisodchi olim A. R. Axmedjanovning fikricha, iqtisodiy resurslar – bu jamiyat (tarmoq, korxona) ixtiyorida mavjud bo'lgan hamda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni iste'molchiga yetkazib berishda iste'mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmuyi hisoblanadi [8].

R. Nureev, A. D. Smirnovlar ta'kidlaganidek: "Iqtisodiy resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) – bu iqtisodiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan elementlar: zamonaviy jamiyatda ulardan eng muhimi yer, mehnat, kapital (shu jumladan uni tashkil etish), tadbirkorlik qobiliyati va axborotlarni o'z ichiga oladi" [9].

Iqtisodchilar M. K. Bunkina, V. A. Semenovlar quyidagilarni ta'kidlaydi: "Sotish uchun mo'ljallangan tovarlarning katta massasi moddiy shaklga ega bo'lgan kommunal xizmatlardir. Ularni ishlab chiqarishda to'rtta asosiy omil o'zaro munosabatda bo'ladi: tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik. Bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ham xuddi shunday nuqtayi nazarga amal qilishadi" [10].

Shunday ekan, "resurslar" tushunchasi bir qator olimlar tomonidan turlicha tushunishlarini aytishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan olimlar va tadqiqotchilar yondashuvlariga ko'ra, iqtisodiy resurslar har doim cheklangan ishlab chiqarish omili hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq barcha mualliflar iqtisodiy resurslarning umumiy xususiyati ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish salohiyati degan fikrga qo'shiladilar. Shuningdek, barcha resurslar uchun umumiy xususiyat, ularning iqtisodiy rivojlanishning ma'lum darajasida cheklanganligidir. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonida potensial ishtirok etadigan barcha elementlarni ishlab chiqarish resurslari deb hisoblash mumkin emas. Ko'pchilik iqtisodchi-olimlar odatda ishlab chiqarish omillarini ajratib, ularni ishlab chiqarish resurslari bilan bog'laydilar. Ushbu yondashuv bilan ishlab chiqarish resurslari haqida juda tor tushuncha yuzaga keladi. Ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda foydalaniladigan resurslardir [11]. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslari har doim ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish imkoniyatiga ega, garchi bu majburiy shart hisoblanmasada. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish resurslari ishlab chiqarish omillariga nisbatan keng tushuncha hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar ta'minoti ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shartdir, chunki faoliyatning o'z vaqtida va to'liqligi, mehnat unumdorligining o'sishi va xo'jalik yuritishning innovatsion usullarini qo'llash imkoniyati iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan oqilona foydalanilishiga bog'liq.

Yuqorida olimlarning qarashlari va fikrlarini tahlil qilgan holda "iqtisodiy resurslar" kategoriyasi bo'yicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik: iqtisodiy resurslar – bu jamiyat (tarmoq, korxona) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmuyi hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlaridir.

Iqtisodiy resurslarning barcha turlariga xos bo'lgan xususiyat, ularning nisbatan cheklanganligi va kamyobligi hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi iste'mol bilan birga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ham cheklab qo'yadi. Buning natijasida har bir korxona, mamlakat o'z imkoniyatlarini hisobga olib, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning har bir turini birdaniga emas, uning shu davr uchun eng kerakli bo'lganlarini tanlab kengaytirish va rivojlantirishga ustunlik beradi, resurslarni birinchi navbatda ularga jalb qiladi [12] (1-rasm).



1-rasm: Iqtisodiy resurslar tavsifi*

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish muayyan tamoyillarga asoslanishi lozim. Bu esa ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida realizatsiya qilinadigan maqsad va vazifalarni bajarish jarayoni muayyan obyektiv xususiyatlar bilan bog‘liq muhim qoidalarni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Sanoat ishlab chiqarishining maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili. Ushbu tamoyil korxonalari maqsadlariga iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadlari bilan bog‘liq ma’lum vazifalarni hal etish zaruratiga asoslanadi. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan maqsadlar qo‘yilgan vazifalarning umumiy va alohida xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilaydi.
2. Sanoat korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish tamoyili. Mazkur tamoyil asosan ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayonida tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Bunda ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalar ulushining oshishi natijasida ishlab chiqrish jarayonlarining mexanizatsiyalashish darajasi oshadi.
3. Sanoat korxonalarida mehnat me’yorlariga muvofiq rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish. Ushbu tamoyil ishlab chiqarish natijalariga erishishda o‘nga haq to‘lash bo‘yicha haqqoniylikni ta’minlash imkonini beradi. Ya’ni teng mehnat evaziga teng haq to‘lash imkonini beradi.
4. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi oshishini ish haqi o‘sishiga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishini ta’milash. Ushbu tamoyil korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, tovarlarga talab va taklif o‘rtasida muvofiqlikka erishish hamda iqtisodiyotda inflyatsiya jarayonlari kuchayishini bartaraf etish imkonini beradi.
5. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishishning rag‘batlantiruvchi tizimini joriy etish. Samaradorlashtirish strategiyasi iqtisodiyotning inqirozli holatini zudlik bilan bartaraf etish uchun barcha omillar va resurslardan yalpi tarzda foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilashni nazarda tutadi.

Mazkur tamoyillar sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq vazifalarni hal etish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida har bir resurs undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda ma’lum bir natijadorlikka ega bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, resurs keltiradigan natija o‘z chegaralariga ega. Har qanday resursdan oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma’lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo‘lmaydi. Shuning uchun resurslar bazasini birlashtirish integratsiyalashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimini yaratishni zarurat etadi.

Fikrimizcha, resurslarni boshqarishning muhim vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: integratsiyalashgan tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq holda resurslar bazasini shakllantirish; resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlari va alohida biznes tuzilmalari o‘rtasida resurslarni oqilona taqsimlash; resurslar ta’minotini nazorat qilish; tashqi muhit omillarining salbiy ta’sirini kamaytirish.

Asosiy vositalar – ishlab chiqarish jarayonida qayta-qayta ishtirok etadigan mehnat vositalari; o‘z qiymatini yaratilgan mahsulot, tovar, ish, xizmatga bo‘lib-bo‘lib o‘tkazadi; o‘z tabiiy-moddiy shaklini o‘zgartirmaydi. Korxona asosiy vositalarini shakllantirish manbalari: o‘z va unga tenglashtirilgan mablag‘lar – ustav kapitali, amortizatsiya ajratmalari, kapital qo‘yilmalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan foydaning bir qismi; budjet ajratmalari; qarz mablag‘lari – banklardan olingan uzoq muddatli kreditlar, lekin bu faqat investitsiyalar foydalilik (daromadlilik) darajasi yuqori bo‘lgan loyihalarga kapital qo‘yilmalar uchun amal qiladi.

Aylanma vositalar – bu bir xo‘jalik aylanmasini amalga oshiruvchi, o‘z qiymatini tayyor mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatga to‘liq o‘tkazadigan va ishlab chiqarish jarayonida o‘z shaklini doimiy o‘zgartiradigan ishlab chiqarish vositalaridir. Iqtisodiy mazmuni va tarkibiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar zaxira, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va boshqa turdagi mablag‘larga (pulsiz shakllarga, qimmatli qog‘ozlarga) bo‘linadi.

Mehnat resurslari – korxonada band bo‘lgan xodimlarning umumiy soni – aholining iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida band bo‘lgan yoki unda ishlay oladigan qismini ifodalaydi. Mehnat resurslari boshqa barcha turdagi korxona resurslaridan tubdan farq qiladi, chunki ular resurslarning faol qismi bo‘lib, ishlab chiqarishda yetakchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
2. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: пер. с англ. В 2 т. – М.: Республика. – Т. 1. – 1992. – 339 с.; т. 2. – 1992. – 400 с.
3. Большой экономический словарь / Под ред. А. Н. Азрилияна. 2-е изд. доп. и пер. – М.: Институт новой экономики, 1997. – С. 776.
4. Нуреев Р. М. Микроэкономика: учебник для вузов. – М.: Норма: ИНФРА – М., 1999. – 440 с.
5. Бункина М. К. Национальная экономика: Учебн. пособие. – М.: Дело, 1997. – 272 с.
6. Курс экономики: Учебник. – 3-е изд., доп. / Под. Б. А. Райзберга. – М.: ИНФРА – М., 2001. – 716 с.
7. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь – 2-е изд., испр. – М.:ИНФРА – М., 1999. – 478 с.
8. Axmedjanov A. R. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Diss. Iqtisodiyot fanlaridan PhD. – Samarqand: SamISI, 2021. 17-b.
9. Нуреев Р. М. Микроэкономика: учебник для вузов. – М.: Норма: ИНФРА – М., 1999. – 440 с.
10. Бункина М. К. Национальная экономика: Учебн. пособие. – М.: Дело, 1997. – 272 с.
11. Евдокимова М.А. Экономика производства. Экономические ресурсы производства: –СПб.: СПбЛТА, 2001, –68 с.
12. Axmedjanov A. R. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Diss. Iqtisodiyot fanlaridan PhD. – Samarqand: SamISI, 2021. 17-b.

MIKROMOLIYALASH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING OPERATSIYALAR TAHLILI

Kamalov Shuxrat Kamalovich
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Mikromoliyalash tashkilotlari va ularning nazariy asoslari o‘rganilgan. Mikromoliyalash tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy-huquqiy asoslari va mikromoliyalash tashkilotlari faoliyatining hozirgi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mikromoliyalash tashkilotlari, mikrokredit, innovatsiyalar, foiz stavkalari.

Abstract: Microfinance organizations and their theoretical foundations are studied. The economic and legal basis of the activity of microfinance organizations and the current state of the activity of microfinance organizations are analyzed.

Key words: microfinance organizations, microcredit, innovation, interest rates.

Аннотация: Изучены микрофинансовые организации и их теоретические основы. Проанализированы экономико-правовые основы деятельности микрофинансовых организаций и современное состояние деятельности микрофинансовых организаций.

Ключевые слова: микрофинансовые организации, микрокредитование, инновации, процентные ставки.

KIRISH

Global iqtisodiy o‘zgarishlar xalqaro moliya va tovar bozorlarida keskin tebranishlar, inflyatsion kutilmalar va narxlar beqarorligi oqibatida kam ta’minlangan aholi qatlami daromadlarining o‘sishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanib, mikromoliyalash xizmatlari ommabopligini oshirish, xizmatlar narxini pasaytirish va inklyuziv mikromoliyaviy mahsulotlar taklifini kengaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, “dunyoning past daromadli mamlakatlarida 2023-yilda iqtisodiy o‘sish 5,9 foiz kutilayotgan bo‘lsa-da, ularning zaif iqtisodiyoti va turli darajadagi mojarolar tufayli 50 foiz aholicining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi pandemiyadan oldingi darajadan past bo‘lishi prognoz qilinmoqda”[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mikromoliyalash tashkilotlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari xorijlik iqtisodchi olimlar M. Lelar, M. Yunus, M. Mamuta, O. Sorokina, Yu. Kox, I. Zelenkovskaya, Silvi de Kusserg, E. Dolana, R. Mertona, F. Alena, G. Beloglazovoy, V. Kovaleva va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Omonov, Sh. Abdullayeva, B. Mamatov, D. Tadjibayeva, I. Raxmanov, N. Urmanova, D. Murodova F. Xolmamatov, M. Rustamovlar ilmiy ishlarida mikromoliyalash tashkilotlari va ularni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, aynan mikromoliyalash tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning resurs ta’minotini mustahkamlash va sohaga innovatsiyalarni qo‘llash orqali aholining kam ta’minlangan qatlamlariga mikromoliyalash xizmatlarining ommabopligini oshirish masalalari kompleks va tizimli tadqiq etilmagan.

1 Global Economic Prospects, January 2022 / The World Bank. Internet: www.worldbank.org.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJADAR

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha mikromoliyalash tashkilotlarining asosiy qismi Toshkent shahri, Farg‘ona, Buxoro, Namangan va Toshkent viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: O‘zbekistonda mikromoliyalash tashkilotlarini hududlar kesimida joylashishi[2]

Hududlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi		1	1
Andijon viloyati	3	3	4
Buxoro viloyati	7	7	8
Jizzax viloyati	1	1	2
Qashqadaryo viloyati	1	1	2
Navoiy viloyati	1	1	2
Namangan viloyati	4	5	6
Samarqand viloyati	1	2	2
Surxondaryo viloyati	1	1	1
Sirdaryo viloyati	1	1	1
Toshkent viloyati	4	5	6
Farg‘ona viloyati	16	18	18
Xorazm viloyati	5	6	7
Toshkent shahri	21	21	25
Jami	66	73	85

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda mikromoliyalash tashkilotlarining soni yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, ularning o‘sishi hududlar kesimida asosan Toshkent shahri, Farg‘ona va Buxoro viloyatlri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bizning nazarimizda, kelgusida mikromoliyalash tashkilotlarini nafaqat mamlakatimizning yuqorida keltirilgan sanoqli hududlarida balki barcha hududlarda o‘zaro muvozanatli rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Biz mikrokredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratayotganimizning asosiy sababi mikrokredit tashkilotlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilayotgan kreditlar garovsiz beriladi. Bu esa ularning kreditlaridan aholining kam ta’minlangan qatlami, shuningdek banklarga kredit uchun murojaat qilish imkoniyati bo‘lmagan shaxslar ham murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi. Quyidagi jadvalda tijorat banklari va mikrokredit tashkilotlari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta’minotlari xususida ma’lumotlar keltirilgan.

2-jadval: Banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta’minotsiz berilishi[3]

Garov turlari	Bankda	Mikrokredit tashkilotida
Ta’minotsiz	0	94
Zargarlik buyumlari	3,8	0,3
Turar joy	5,6	0
Qishloq xo‘jalik yerlari	2,5	0,6
Chorva mollari	5,1	0,3
Real sektordagi ishlab chiqarish binolari	18	0
Transport	35	2,3

2 Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

3 Tadjibayeva D. A.,Muminov I. O. Mikromoliyalashtirish: mikromoliyaviy tashkilotlar uchun qo‘llanma.- T.: Moliya, 2010-B. 27.

Qishloq xo‘jalik texnikasi	15	2,6
Sug‘urta kompaniyasining kafolati	5,5	0
Xususiy firma kafolati	9,5	0
Depozit	0	-

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ta’kidlash mumkinki, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar 100 foiz ta’minotni talab etmoqda. Albatta, bu jarayon kredit oluvchidan ma’lum darajadagi mehnat, hujjatlarni rasmiylashtirish va vaqtni talab etadi. Buning ustiga hamma tadbirkor yoki jismoniy shaxslar ushbu hujjatlarni to‘liq ravishda bankka taqdim etish imkoniga ega bo‘lmaydi.

Boshqa tomondan qaraganda, garovlarni talab qilish tadbirlari sud xarajatlarining tasdiqlanmagan real natijalari bilan sezilarli darajada bog‘langan, bu ko‘pchilik mikromoliyalash institutlari uchun operatsion xarajatlarni oshirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligiga olib keladi. Shuning uchun qarzlarning asosiy ta’minot shakli sifatida konseptual ravishda qarzdorning o‘z biznesi maydonga chiqadi. Biznes holatini sinchiklab tadqiq qilishda moliyaviy mablag‘larning to‘planishi, qarz berish to‘g‘risidagi buyurtmani ko‘rib chiqish, pul mablag‘lari harakati va qarzdorning yangi olayotgan majburiyatini hisobga olgan holda to‘lov qobiliyatini prognoz qilish jarayonida qarzdorning ishdagi obro‘-e’tibori ham hisobga olinadi. Ushbu ko‘rsatkichlar qoniqarli darajada bo‘lganda, garov sifatida, hattoki, nolikvid obyektlar ham qabul qilinishi mumkin, ammo ular qarzdorning xo‘jalik aylanmasida foydalanilishi va biznesni ta’minlashi lozim. Shunday qilib, garovning jismoniy mazmuni ko‘pincha mulk yoki aktivning ushbu biznesda ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik ta’sirini ifodalaydi. Bunday yo‘lning shartli ekanligi umuman olganda aniq va ravshan, ammo amaliyot uning ta’siri kuchli bo‘lgan va ayrim hollarda amalga oshirish mumkin bo‘lgan yagona yo‘l ekanligi ko‘rsatadi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlari mikromoliyalash institutlari belgilaydigan foiz stavkalari bo‘yicha hech qanday cheklovlar o‘rnatmaydi. Shuning uchun barcha mikromoliyalash institutlari qarzlarni taqdim etish shartlarini kon’yuktura holatidan kelib chiqib belgilab oladi. Quyidagi jadvalda mikrokredit tashkilotlarining umumlashgan balans hisobotini ko‘rib chiqamiz.

3-jadval: Mikrokredit tashkilotlarining umumlashgan balans hisoboti[4]

Ko‘rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Aktivlar					
Naqd pullar	0,48	0,67	0,62	0,56	0,51
Banklardagi mablag‘lar	2,00	2,37	1,95	1,59	1,29
Kreditlar va lizing	90,40	86,30	88,53	90,42	92,03
Asosiy vositalar	2,45	2,93	2,56	2,23	1,93
Hisoblangan foizlar	3,24	5,74	4,75	3,92	3,22
Boshqa aktivlar	1,43	1,98	1,60	1,28	1,02
Jami aktiv	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**
Majburiyatlar					
Olingan kreditlar va lizing	92,9	94,2	94,1	93,9	93,8
To‘lashga hisoblangan foizlar	2,8	2,4	2,4	2,3	2,3
To‘lashga hisoblangan soliqlar	0,4	1,2	1,2	1,2	1,3
Boshqa majburiyatlar	3,9	2,2	2,3	2,5	2,6
Jami majburiyat	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**
Kapital					
Ustav kapital	63,2	61,3	61,6	61,9	62,2
Zaxira kapital	3,5	4,2	4,0	3,8	3,6
Taqsimlanmagan foyda	33,2	34,5	34,4	34,3	34,2
Jami kapitali	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**

Jadvalda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha mikromoliyalash tashkilotlarining 20019-2023-yillar 1-yanvar holatiga aktivlar, majburiyatlar va kapitali tarkibi hamda ularning ulushlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Aktivlar tarkibini chuqurroq ko‘radigan bo‘lsak, asosiy ulush mikrokredit tashkilotlari tomonidan berilgan

4 Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

kreditlar va lizing hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan, ushbu ko‘rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga 90,49 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 90,02 foizga yetgan, tahlil qilayotgan davrda o‘rtacha 89,53 foizdan iborat bo‘lgan. Mikromoliyalash tashkilotlari aktivlari tarkibida eng kam ulush ularning kassadagi naqd pullari hissasiga to‘g‘ri kelib ushbu moddaning ulushi tahlil etilayotgan yillar davomida bir foizga ham yetmaydi yoki o‘rtacha 0,56 foizdan iborat bo‘lgan.

Tjorat banklarida moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi ularning mikromoliyalash xizmatlari hajmi va sifatini oshirishga imkoniyat bermayapti. Xususan:

- mamlakatimiz tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlar salmog‘ining xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me’yoriy ko‘rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi;
- respublikamizning yirik tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida jamg‘arma depozitlari salmog‘ining juda kichikligi;
- tijorat banklarida mikroqarz turlarining cheklanganligi. Xususan, “ta’lim mikroqarz”ining mavjud emasligi;
- mamlakatimizning yirik tijorat banklarida talab qilib olinadigan depozitlardan resurs sifatida foydalanilayotganligi, ammo talab qilib olinayotgan depozitlar real foiz stavkasining juda past ekanligi ularning depozit bazasini mustahkamlash jarayoniga salbiy ta’sir qilmoqda.

XULOSA

Mikromoliyalash tashkilotlari faoliyatining hozirgi holatini tadqiq qilish natijasida mamlakatimizda mikromoliyalash tashkiloti hisoblangan kredit uyushmalari faoliyatini tashkil etish va ularni mamlakatimiz hududlarida o‘zaro muvozanatda joylashishi va rivojlanishiga e’tibor qaratish lozimligi xususida xulosa qilindi. Mikromoliyalash tashkilotlarining xorij tajribasini o‘rganish va tadqiq qilish natijasida ularning ijobiy tajribalari sifatida mikromoliyalash tashkilotlari xizmatlariga bo‘lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqib ularning faoliyatini tashkil etish, mikrokreditlardan foydalanuvchi kichik biznes subyektlarining kredit to‘loviga layoqatliligini baholash va riskni kamaytirishning o‘ziga xos xususiyatlari kabilar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stuard Rutherford. The Poor and Their Money. Oxford University Press,Delhi, –200.
2. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. Dasrlik. -T.: Moliya, 2002 y. – 304 b.
3. Авагян Г. Л. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учеб. пособие: – М.: Магистр, 2007. – 350 –с.
4. Базельский комитет по банковскому надзору. Международная Конвергенция Оценка Капитала и Стандарты Капитала. Базель, 2002. – 425 с.
5. Bank ishi: Darslik /U. Azizov va boshq. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016. 786 b.
6. Джозеф Ф., Синки М. Л. Управление финансами в коммерческом банке. М. Инфра, 1995. –820 с.
7. Жарковская Е. П. Банковское дело: учебник. / Москва: Омега-Л, 2006.– 152 с.

TEMIRYO‘L TRANSPORTI SANOAT KOMPLEKSI KORXONALARIDA IJTIMOIY VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Kadirova Sharofat Amonovna
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning tutgan o‘rni juda katta. Bu ahamiyat mehnat jarayonida insonlarning ehtiyojini qondirish uchun mo‘ljallangan nafaqat moddiy va ma’naviy boyliklarning yaratilishida, balki ishlovchilarning o‘zlari ham rivojlanib yuorishi, ularning ko‘nikmaga ega bo‘lishi, o‘z qobiliyatlari eshigini ochishlari, bilimlarini to‘ldirishlari va kengaytirishlarida namoyon bo‘ladi. Maqolaning asosiy maqsadi temiryo‘l tarmog‘i sanoat korxonalarida ijtimoiy mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratish va uning ahamiyatini belgilovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: mehnat faoliyati, ma’naviy sifatlar, paternalizm, hamkorlik, birdamlik, diskriminatsiya.

Abstract: The role of labor in the development of man and society is enormous. This value is manifested not only in the creation of material and spiritual goods intended to meet the needs of people in the process of work, but also in the fact that workers themselves develop, acquire skills, open the door to their abilities, replenish and expand their knowledge. The main purpose of the article is to focus on the issues of improving public labor relations at the enterprises of the railway industry and to develop appropriate conclusions and proposals by analyzing indicators that determine its significance.

Key words: labor activity, spiritual qualities, paternalism, cooperation, solidarity, discrimination.

Аннотация: Роль труда в развитии человека и общества огромна. Это значение проявляется не только в создании материальных и духовных благ, предназначенных для удовлетворения потребностей людей в процессе труда, но и в том, что сами работники развиваются, приобретают навыки, открывают дверь своим способностям, пополняют и расширяют свои знания. Основная цель статьи-сосредоточение внимания на вопросах совершенствования общественных трудовых отношений на предприятиях железнодорожной отрасли и выработка соответствующих выводов и предложений путем анализа показателей, определяющих его значимость.

Ключевые слова: трудовая деятельность, духовные качества, патернализм, сотрудничество, солидарность, дискриминация.

KIRISH

O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish boshidanoq ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot vazifalari bilan bog‘liq edi. O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish doirasida ijtimoiy-mehnat jarayonlarini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bir-birini to‘ldiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy choralardan kompleks foydalanish bandlik, ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy boshqaruv sohasidagi yangi muammolarni hal etishga, temiryo‘l tarmog‘i xodimlarining mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ushbu jarayon nafaqat me’yoriy-huquqiy baza va iqtisodiy jarayonlarning o‘zgarishi, balki zamonaviy qoidalarga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan odamlarning ongi va xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar bilan kuzatiladi.

Milliy va xalqaro iqtisodiy maydonda transport xizmatlari bozorini rivojlantirmasdan iqtisodiyotni rivojlantirish va siyosiy aloqalarni shakllantirish mumkin emas. Xususan, temiryo‘l transporti boshqa transport turlaridan ishonchliligi, harakatlanish jarayonida xavfsizligi, ob-havo va iqlim sharoitlariga chidamliligi va boshqa sifatlar bilan ajralib turadi.

Temiryo‘llar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini, mamlakat va mintaqalarning ichki va tashqi integratsiya aloqalarini ta’minlashda, aholi bandligi va respublikaning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim rolni bajarishga undaydigan infratuzilmaning bir qismidir.

Respublikada ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan chuqur va keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning asosiy maqsadi xalqning munosib turmush darajasini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahalliy tovarlar va xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash hisoblanadi.

Ijtimoiy mehnat munosabatlari bozor munosabatlari davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy islohotlar natijasida ishchi kuchining ozod etilishi va mehnat qilishning turli sohalarida uni taqsimoti faollashadi, ishsizlik yuzaga keladi, va shu vaqtning o‘zidayoq iqtisodiyotning yangi sharoitida tegishli tayorlov darajasiga hamda mehnat qilish qobiliyatiga ega yangi ishchilarga ehtiyoj o‘sadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror o‘sishini ta’minlash ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayonlari boshqaruvining ilmiy asoslangan siyosatni ishlab chiqish zaruriyatini talab etadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlashga qaratilgan vashu bilan birga uni mustahkamlash borasida yangi ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Asosiy vazifalar – makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash, tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va “yashirin iqtisodiyot”ga barham berish”dir [1]. Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayoni mexanizmini takomillashtirish bilan bevosita uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yirik temiryo‘l tarmog‘idagi sanoat ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, tashqi va ichki bozorlar uchun sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni iste’molchilarga o‘z vaqtida yetkazib berish va sotishda zamonaviy savdo xizmatlarini tashkil qilish hamda ushbu xizmat imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta imkoniyatlarni yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiylashuvi amalga oshgan o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab jamiyat boyligini yaratishda muhim ishtirokchi sifatida qatnashuvchi inson resurslarining samaradorligini belgilovchi ijobiy muloqotlarning ahamiyati xorijlik menejment fani namoyondalarining tadqiqotlari mavzusiga aylangan edi. Bu olimlar ichida E. Meyo, Ch. Barnard, D. Makgregorlarning izlanishlarini alohida ta’kidlagan holda, ularning ijtimoiy-mehnat munosabatlarini takomillashtirishdagi tadqiqotlari umume’tirof etilgan yo‘nalishlarda, iqtisodiyotning tadrijiy rivojlanishi kapitalistik xo‘jalik yuritish tamoyillariga amal qilgan holda uzluksizlik namoyon etgan neoklassik ishlab chiqarish usullari ustuvorligini nazarda tutganligini qayd etish mumkin. Mamlakatimiz olimlaridan Sh. Zaynutdinov, I. Ubaydullayeva, Z. Xudoyberdiyev, Q. Abduraxmonov, D. Ortiqova, N. Zokirova[1] va boshqalarning mehnat iqtisodiyoti nazariyasi rivojiga qo‘shgan hissalarini alohida e’tirof etish mumkin, albatta. Ammo bu tadqiqotlarda mehnat iqtisodiyotining umume’tirof etilgan jihatlariga e’tibor qaratilgan, xolos. Shuning uchun ham, temiryo‘l transporti korxonalarida ijtiomoiy-mehnat jarayonlarini milliy o‘ziga xoslikni inobatga olgan holda takomillashtirish masalalarini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstaksiyalash, empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA TADDQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Mehnat faoliyati jarayonida nafaqat tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko‘rsatiladi, madaniy boyliklar yaratiladi, balki ularning navbatdagi qoniqish hissi talablari bilan yangi ehtiyojlar namoyon bo‘ladi (1-rasm).

Mehnat jarayonida insonlar o‘zaro bir-biri bilan aloqa qilib, ma’lum bir ijtimoiy-mehnat munosabatlariga kirishadilar. Bu munosabatlar individ (shaxs) va guruhlarning ijtimoiy ahamiyati, roli, o‘rni, jamiyatdagi mavqeyini aniqlashga ko‘mak beradi. Ular ishchi va usta, rahbar va bo‘ysunuvchi guruh, ma’lum bir ishchi-xodimlar guruhi, mehnat tashkilotining hech bir a’zosi bunday munosabatlar tashqarisida, bir-biriga nisbatan o‘zaro majburiyatlaridan tashqarida, o‘zaro harakat tashqarisida yashay olmaydi (2-rasm).

1 Xudoyberdiyev Z. Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “ILM ZIYO”, 2017y. -344 b.; Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “FAN” nashriyot davlat korxonasi, Toshkent, 2019, 595 b., Артыкова Д. А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. – Т.: Фан, 2005; Abdurahmonov Q. X., Zokirova N. Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013y. -536 b.



1-rasm: Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning ahamiyati



2-rasm: "O'zbekiston temiryo'llari" AJ korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlari

Respublikada hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri nafaqat barcha hohlovchilarni ish bilan ta'minlash, balki optimal, ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bilan bandlikni shakllantirish, barchaga, respublika fuqarosiga mehnat faoliyat turi va shaklini erkin tanlashning haqiqiy imkoniyatini berish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ham yaratish hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari "O'zbekiston temir yullari" AJ korxonalarida mehnat faoliyati bilan bog'langan jarayonlarda ishchi-xodimlar va ijtimoiy guruhlarning o'zaro harakatlarini iqtisodiy, ruhiy va huquqiy aspektlarini tavsiflaydi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Zamonaviy iqtisodiyot uchun “O‘zbekiston temir yullari” AJ tizimida ko‘riladigan munosabatlarning eng muhim subyektlari kompaniya korxonalarining yollanma ishchilari, O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi, ish beruvchi – “O‘TY” kompaniyasi rahbariyati, davlat hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari predmetlari insonlar o‘z faoliyatining turli bosqichlarida erishishga intiladigan maqsadlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining predmetlari ko‘p jihatdan muammolarning asosiy bloklari, ya’ni bandlik, mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash bilan belgilanadi. Bandlik insonlarni yashash vositalari bilan ta’minlash, shuningdek, individual qobiliyatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi [5]. Mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash o‘z navbatida mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish jamoalaridagi munosabatlarning xarakteri, ishchi kuchi xarajatlarini qoplash, mehnat faoliyati jarayonida inson rivojlanishi uchun imkoniyatlar bilan bog‘liq.

Ijtimoiy va mehnat munosabatlarining turlari mehnat faoliyati jarayonida munosabatlarning psixologik, axloqiy va huquqiy shakllarini tavsiflaydi. Tashkiliy shakllarga ko‘ra, ijtimoiy va mehnat munosabatlarining quyidagi turlari ajratiladi: paternalizm, sheriklik, raqobat, birdamlik, subsidiarlik, diskriminatsiya (kamsitish) va nizolar (1-jadval).

1-jadval: Ijtimoiy-mehnat munosabatlari asosiy turlarining tavsifi

Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining turlari	Tavsifi
Peternalizm	davlat yoki korxona rahbariyati tomonidan ijtimoiy-mehnat munosabatlarini sezilarli darajada tartibga solish hisoblanadi. Bu davlatning aholi ehtiyojlari yoki korxona ma’muriyatining o‘z xodimlari uchun “otalik g‘amxo‘rligi” niqobi ostida amalga oshiriladi.
Sheriklik	Hamkorlik eng ko‘p batafsil huquqiy hujjatlar tizimi bilan tavsiflanadi, unga ko‘ra xodimlar, tadbirkorlar va davlat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda sheriklar hisoblanadi.
Raqobat	insonlar yoki jamoalar o‘rtasidagi raqobat yuqori samarali, yuqri natijali faoliyatga erishishga hissa qo‘shishi mumkin
Birdamlik	Birdamlik bir guruh odamlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda umumiy mas’uliyat va o‘zaro yordamni nazarda tutadi
Subsidarlik	Subsidiarlik insonning o‘z maqsadlariga erishish va ijtimoiy-mehnat muammolarini hal qilishdagi harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikka intilishini anglatadi.
Diskriminatsiya	Ijtimoiy-mehnat munosabatlari subyektlarining huquqlarini o‘zboshimchalik bilan, noqonuniy ravishda cheklash.
Nizo	Ijtimoiy-mehnat munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarning haddan tashqari ifodasidir. Mehnat nizolarining eng aniq shakllari mehnat nizolaridir.

Ijtimoiy va mehnat munosabatlarida imkoniyatlar tengligi qonunchilik tizimi bilan ta’minlanadi. O‘zbekiston uchun bu, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunidir. O‘zbekiston Xalqaro tashkilotning (XMT) mehnat va bandlik sohasida teng imkoniyatlar to‘g‘risidagi konvensiyalarini ratifikatsiya qildi.

“Quyuv-mexanika zavodi” AJ – O‘zbekistondagi yuqori professional kadrlar va ilg‘or yuqori samarali texnologik uskunalarga ega yetakchi sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonada xalqaro standartlarga muvofiq ISO 9001 sifat menejmenti tizimi joriy etilgan. So‘nggi yillarda bu yerda ishchi-xodimlarga har tomonlama qulay sharoitlar yaratib berish, iqtidorli mutaxassislarni jamlash hamda sexlarga zamonaviy dastgohlarni joriy etish yo‘li bilan yangi turdagi vagonlarni sifatli qurishga, ularni ehtiyot qismlarini shu yerning o‘zida ishlab chiqarishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, bundan 5 yil avval ishlab chiqarilayotgan vagonlar ehtiyot qismlarining 80 foizi xorijdan chet el valyutalariga import qilinardi, mahalliylashtirish dasturining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani bois bugungi kunga kelib ularning 70 foizi korxonani o‘zida, ushbu korxona mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarilmoqda va millionlab xorij valyutasi tejab qolinishiga erishilyapti. Ayni vaqtda korxonada yigirmata sex mavjud bo‘lib, 400 turdan ortiq butlovchi qismlar ishlab chiqariladi.

Korxonada 6 turdagi yangi yuk vagonlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yangi vagonlarning eski turdagi vagonlardan yuqori mustahkamligi, yuk ko‘tarish imkoniyati va sifati bilan farqlanadi. Shuningdek, e’tiborli jihati tezyurar poezdlar harakatiga moslashtirilgan, yuklarni tushirish va yuklarni ortish jarayonida ham afzalliklarga ega bo‘lib, texnologik vaqtni qisqartirishga erishilgan.

Ushbu korxonaga Germaniya, Sloveniya, Belarus, Rossiya, Ukraina davlatlaridan zamonaviy texnikalar va quyuv dastgohlari keltirilib, ulardan unumli foydalanilmoqda.

Quyida Toshkent quyuv-mexanika zavodida 2019-2023-yillar oralig‘ida faoliyat yuritgan ishchi-xodimlar sonini o‘zgarish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm: Toshkent quyuv-mexanika zavodi umumiy xodimlar soni dinamikasi, kishi[2]

2020-yilda korxonada jami xodimlar soni 1494 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib ularning soni 3,27%ga, 2022-yilda esa 2020-yilga nisbatan 7%ga qisqarganini ko‘rishimiz mumkin. Joriy yilda turli xil ma’lumotga ega bo‘lgan ishchi-xodimlarning soni 1489 nafarni tashkil etdi, jumlalan ularning 338 nafari oliy ma’lumotli, 423 nafari o‘rta-maxsus, 353 nafari o‘rta-texnik, 291 nafari o‘rta va 84 nafari esa to‘liqsiz o‘rta ma’lumotga ega .

So‘ngi 5 yil ichida sohada muntazam ish bilan bo‘lganlar soni 1,1 barobarga oshdi. 2019-yilda 1413 nafar ishchi xodimlar bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 1489 nafarni tashkil etdi.

Toshkent quyuv-mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibida boshqaruv xodimlari, mutaxassislar, texnik xodimlar, ishlab chiqarish xodimlari va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar toifasi ajratib ko‘rsatiladi (4-rasm).



4-rasm: Toshkent quyuv mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibi dinamikasi, kishi[3]

Toshkent quyuv mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibi dinamikasi o‘zgarish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2020-yilda boshqaruv xodimlarining soni 33 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda esa 179 nafarni tashkil etmoqda, bu 2020-yilga nisbatan 5,4 barobardan ziyod ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish xodimlarining soni esa 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 25%ga kamaygan. Umumiy xodimlar tarkibida mutaxassislar soni ham kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2023-yilda 122 nafarni tashkil etmoqda, bu 2020-yilga nisbatan 38,1%ga kamdir.

2 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
3 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan kadrlar salohiyati bilan uzviy bog‘liq. Toshkent quyuv-mexanika zavodi ishchi-xodimlarining ma’lumot tarkibini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Korxonada ma’lumot tarkibi oliy, o‘rta maxsus, o‘rta texnik ma’lumotga ega xodimlar sifatida alohida ajratib ko‘rsatiladi (5-rasm).



5-rasm: Toshkent quyuv-mexanika zavodi ishchi-xodimlarining ma’lumot tarkibi dinamikasi[4]

Ishchi-xodimlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib, korxonada har rejalashtiriladigan joriy davr uchun vakant ish o‘rinlari e’lon qilinadi. 2020-yilda 92 ta vakant o‘rinlari, 2021, 2022, 2023-yillarda mos ravishda 92, 46 va 87 ta vakant ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan.

Sanoat korxonalarida faoliyat yuritadigan ishchi-xodimlarni to‘liq bandligini tashkil etish bilan bir qatorda ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-mehnat munosabatlari tizimining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Bundan korxonaning samarali faoliyati, yuqori unumdorlik, ijtimoiy barqarorlik, xodimlarning mehnatga moyilligi va turmush darajasi bog‘liq bo‘ladi.

Korxonalarda mehnatga haq to‘lash tizimi bilan birga rag‘batlantirish tizimini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Toshkent quyuv mexanika zavodida ko‘p yillik temiryo‘l sohasida vijdonli mehnati uchun turli davlat mukofotlari, “Faxriy temiryo‘lchi”, “Kasb a’lochisi” kabi mukofotlar bilan taqdirlash masalalariga ham e’tibor qaratiladi (6-rasm).



6-rasm: Toshkent quyuv mexanika zavodi mukofatlash turlari dinamikasi[5]

4 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
5 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2018-2022-yillar oralig‘ida 2 nafar xodim davlat mukofoti “Shuhrat medali” bilan, 3 nafar xodim “Faxriy temiryo‘lchi” faxriy unvoni hamda 2 nafar xodim “Kasb a’lochisi” faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.

Aytish joizki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Xalqaro shartnomalar va O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mustahkamlab qo‘yilgan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarining ustuvorligi prinsipi bilan belgilanadi. Bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa bir qator qonun hujjatlarida yanada rivojlantirildi va aniq belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xalqaro shartnomalar, Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari va O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari o‘rtasidagi munosabatlar masalasi 10-modda bilan belgilanadi, unda: “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi”. Xuddi shunday qoida “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ham mavjud (3-qism, 1-modda).

Yuqoridagi me’yorlarga ko‘ra, mehnat qonunchiligi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalariga to‘liq mos kelishi kerak.

Shu bilan birga, agar u yoki bu sabablarga ko‘ra mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari haligacha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki XMT tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalari talablariga muvofiqlashtirilmaganligiga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zbekistonga nisbatan mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalari bevosita qo‘llaniladi va milliy qonunchilikdan ustuvor hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat sohasini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy baza quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi (1992 y., yangi tahrir – 2023-y.)
- Ta’lim to‘g‘risida qonun (1992 y., yangi tahrir – 2020-y.)
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (1995 y., yangi tahrir – 2022-y.)
- Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida Qonun (1992-y.)
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi (1995,1998 y., yangi tahrir – 2023-y.)
- Vazirlar Mahkamasining Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi (1996-y.)
- O‘zbekiston Respublikasi Temiryo‘l transporti to‘g‘risida Qonuni (1999-y.)
- O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida Qonuni (1996-y., yangi tahrir – 2014-y.)

Ushbu qonun hujjatlarining barchasi mehnat qonunchiligining amal qilishi uchun zarur huquqiy muhitni yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi barcha normalar Mehnat kodeksi va Mehnat to‘g‘risidagi qonunda jamlangan: bandlik va ishsizlik sohasidagi ijtimoiy kafolatlar, bandlik, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash va boshqalar.

Toshent quyuv mexanika korxonasida ijtimoiy mehnat munosabatlarini mustahkamlash va takomillashtirishda quyidagi asosiy sohalar, bloklar va komponentlarga:

- ijtimoy-madaniy majmua (Sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan, madaniyat va boshq.);
- mehnat bozori;
- bandlik va ishsizlik;
- samarali mehnatga bo‘lgan moyillik (ehtiyoj, qiziqish, motiv, rag‘bat, ish haqi, mehnatga haq to‘lash, mukofot va boshq.);
- ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta’minot;
- ijtimoiy sug‘urta;
- ijtimoiy hamkorlik;
- aholining turmush darajasini barqarorlashtirish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini topshirish va boshqalar e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 13.01.1992 yildagi 510-XII-son O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida” Qonun.
2. 28.10.2022-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-798-son Qonun.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi №19 (7521), 2020-yil 25-yanvar.
4. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, –2019. 592 b.
5. Abdurahmonova G. Q. Inson resurslarini boshqarish. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, –2021. 696 b.
6. Кибанов А. Я., Митрофанова Е. А., Ивановская Л. В. Социально-трудовые отношения, рынок труда и занятость персонала. – М.: Проспект, 2021 г. – 64 с.
7. Самофалов М. В., Резенченков В. Ю. Мотивация трудовой деятельности. – М.: 2004 г., 281 с.
8. Mehnat bozorining rivojlanishi sharoitida intellektual kapitalga sarflanadigan investitsiyalarni baholash. AB Irmatova – Iqtisodiyot va ta’lim, 2016.
9. Рахманбаева, Р. (2022). Проблемы и перспективы развития цифровой экономики. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(6), 265-270.
10. Рахманбаева, Р. (2022). Проблемы и перспективы развития цифровой экономики. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(6), 265-270.
11. Неъматов, А. И., & Рахманбаева, Р. А. (2021). Инновационное развитие предприятий железнодорожного транспорта в Узбекистане. Science and Education, 2(2), 164-167.
12. Kadirova Sharofat Amonovna, & Xolboyev Abbos Olim O‘Gli (2022). Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslarni rejalashtirish va ulardan tejamli foydalanish. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 33-37. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-33-37.
13. Кадирова Ш. А., & Бустанов, Х. Г. (2022). Роль менеджмента в развитии предпринимательства в современных рыночных условиях. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1(1), 1-4.

QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yuldashev Sherali Xayitovich
CamDVMChBU assistenti

Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich
CamDVMChBU assistenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarda moddiy xarajatlar hisobini yuritishda boshqaruv hisobining o‘rni, qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsulot tannarxni kalkulyatsiya qilish usullari, sohaviy xususiyatlari, xarajatlar hisobini boshqarishda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida o‘zaro bog‘liqlik jihatlari yuritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv hisobi,asosiy faoliyat xarajatlari,moddiy xarajatlar, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya qilish usullari.

Abstract: The article describes the role of management accounting in the accounting of material costs in agricultural enterprises, the methods of calculating product prices in agricultural enterprises, industry characteristics, the interdependence aspects of accounting and taxation in the management of cost accounting.

Key words: management account, main activity costs, material costs, product price, calculation methods.

Аннотация: В статье описана роль управленческого учета в учете материальных затрат в сельскохозяйственных предприятиях, методы расчета цен на продукцию в сельскохозяйственных предприятиях, особенности отрасли, аспекты взаимозависимости бухгалтерского и налогового учета в ведении учета затрат.

Ключевые слова: управленческий учет, затраты основной деятельности, материальные затраты, себестоимость продукции, методы расчета.

KIRISH

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida respublikamizda ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish aholining hayot farovonligini yaxshilash, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, inflyatsiya sur’atini pasaytirish, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv kabi masalalarni hal qilish asosida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ish bajarish sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z faoliyatini tashkil etishida albatta, xarajatlar bilan bevosita bog‘liqdir. qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini yuritishda asosiy faoliyat xarajatlarini qilishiga majbur bo‘ladi. Umuman olganda har bir xo‘jalik subyektlarning munosabatlar jarayonini asosiy faoliyat tashkil etadi, shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri tashkil etilish muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlar hamda tannarx tushunchalari qo‘llanilgan. Umumiy iqtisodiy ma’noda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga Sh. Shodmonov tomonidan quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o‘z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya’ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom ashyo, yoqilg‘i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg‘i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari va b. xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi”

M. Boltaboyev “TANNARX, mahsulot tannarxi – korxonaning maqsulot ishlab chiqarish. va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari – chetdan olinadigan xom ashyo, asosiy materiallar, elektr-energiya resurslari chiqimlari; asosiy va qo‘shimcha ish haqi; ijtimoiy sug‘urta ajratmalari; amortizatsiya ajratmalari va b. sarf xarajatlar”, – deb ta’rif keltiradi.

Rossiya Soliq Kodeksida (1998) quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Tannarxni belgilovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan tabiiy resurslar, xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari va ekspluatatsiya bo‘yicha boshqa xarajatlar, shuningdek, ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlarning qiymatidan tashkil topadi”.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda barcha sohalarga keng ko‘lamli imkoniyatlar berilmoqda shu jumladan sanoat ishlab chiqarish korxonalar faoliyatini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni davom ettirilishi, qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiyotda o‘rnini barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ularning bir maromda faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishlarida xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish va mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llarini ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslanganligini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida to‘laqonli boshqaruv hisobining yo‘lga qo‘yilishi bo‘lib, uning o‘zagi tannarxni hamda xarajatlarni shakllanishini boshqarishdir. Xarajatlarni shakllantirish va tannarx – boshqaruv hisobining markaziy negizida qurilish korxonalarning hisobini yuritish hozirgi unning eng dolzarb muammolaridandir. qishloq xo‘jalik korxonalarida tannarxni har bir faoliyat va mahsulot turlari, sotish bozorlari, mintaqalar hamda xaridorlar didlari bo‘yicha kalkulyatsiya qilinishi bugungi kunning davr talablaridan bo‘lib hisoblanadi. qishloq xo‘jalik korxonalarida moddiy xarajatlarni shakllantirish tannarxni kalkulyatsiya qilish usullari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu kalkulyatsiya qilish usullarining muhim xususiyatlariga, jumladan, sohaviy xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ilmiy asoslanganligi ularning nazariy jihatlari qay darajada ishlab chiqilganligiga bog‘liq.

Xarajatlar hisobining nazariyasi va amaliyotida birgina “tannarx” tushunchasigina mavjud emas. Uning mazmuni quyidagi omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin:

- mahsulotning tayyorlik darajasi va uning sotilishiga qarab, yarim tayyor mahsulot, omborda saqlanayotgan mahsulot va sotilgan mahsulot tannarxlari;
- mahsulot miqdoriga qarab, mahsulot birligining, butun ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi;
- joriy xarajatlarni kalkulyatsiya obyektining tannarxiga kiritish to‘liqligiga qarab, to‘liq amaldagi tannarx va cheklangan tannarx;
- tannarxni shakllantirishning tezkorligiga qarab amaldagi yoki me’yoriy, rejali tannarx farqlanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar salmoqli o‘rinni egallaydi, shu sababli moddiy xarajatlar tarkibini kalkulyatsiya qilish orqali qaysi bir xarajatlarga oshiqcha yo‘l qo‘yilayotganligini aniqlab shu xarajatlarni qisqartirish choralarini ko‘rish, korxonalar faoliyatini boshqarish orqali foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarniang yechimini topish alohida o‘rin egallaydi. Korxonalarda xarajatlar hisobini boshqarishda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida amal qiladigan qonunchilik doirasida foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazani o‘zgartirishga sabab bo‘ladi. Shu munosabatda “tannarx” tushunchasini turli nuqtayi nazar asosida me’yoriy maromga solish, shakllantirish tamoyillari, tasniflashning turlicha usullarini qo‘llaniladi.

Xo‘jalik ichki hisob-kitoblari va nazoratini tashkil etish maqsadida ishlab chiqarish sarflarining hisobi mahsulotning turlariga ko‘ra; sarflarning yuzaga kelish joyiga ko‘ra; xarajatlarning turlariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) tannarxini hosil etuvchi iqtisodiy unsurlarning barcha korxonalar va tashkilotlar uchun yagona nomenklaturasi belgilangan buni 1- jadvaldan ko‘rish mumkin.

1-jadval: Moddiy xarajatlarni aniqlashda iqtisodiy elementlari va moddalari bo‘yicha turkumlanishi

Iqtisodiy elementlari bo‘yicha	Kalkulyatsion moddalari bo‘yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xom ashyo
	Yoqilg‘i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
	Idishlar va hakozo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari
	Qo‘shimcha ish haqlari
	Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta’minot bo‘limiga
	Mehnat birjasiga
	Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig‘imlar va hakozo

Qishloq xo‘jalik korxonalarda moddiy xarajatlar hisobiyuritiladigan yo‘nalish-ishlab chiqarish xarajatlarining alohidalangan va maqsadli hisobini talab etuvchi faoliyat sohasidir. Ya’ni buxgalteriya ma’lumotlarining foydalanuvchilari biror sarf-xarajat haqida nimanidir bilib olmoqchi bo‘lsalar, aynan shu narsaning o‘zi hisob yo‘nalishi bo‘ladi.Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobining yo‘nalishiga mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, sotish bo‘limi ta’minoti sarflari kalkulyatsiyasi, ya’ni amalda biron-bir mansabdor shaxsning ishlatilgan zaxiralarni baholash zaruratini yuzaga keltiradigan holatlar misol bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida moddiy xarajatlar tasnifi sarf-xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishga nisbatan turlicha ekanligini aks ettirish va ularning turlarini belgilashga imkon beradi. Buxgalteriya ma’lumotlarini tasniflashning ko‘pgina sxemalari mavjudligiga qaramay, ulardan birini namuna sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin emas. Tasniflash sxemasi ma’lumotning maqsadiga bog‘liqdir.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar ro‘yxatining o‘ta muayyan ta’rifi bilan ajralib turadi. Xalqaro standartlarga mos keladigan tannarx moddalarini tarkiblashtirish nafaqat hujjatlarni shunday turdagi umumiy me’yorlarga yaqinlashtiradi, balki ehtimol, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalar uchun foydali ham bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarning moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish moddiy sarflari;
- ishlab chiqarish turidagi mehnat haqi sarflari;
- ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtalashga ajratmalar;
- ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa sarflar.

Qishloq xo‘jalik korxonalarda moddiy xarajatlarni ishlab chiqarishga sarfi hisobini tashkil etishga faoliyat turlari, ishlab chiqarishning hamda ishlab chiqariladigan mahsulotning turi, korxonaning boshqaruv tuzilishi va o‘lchamlari ta’sir ko‘rsatadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) tannarxini hosil etuvchi iqtisodiy unsurlarning barcha korxonalar va tashkilotlar uchun yagona nomenklaturasi belgilangan.

Ba’zi mualliflar ishlab chiqarish sarflarini umumiqtisodiy va rejalihisob belgilariga ko‘ra tasniflashni taklif etadilar. Qishloq xo‘jalik korxonalarda moddiy xarajatlar tasnifi sarf-xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishga nisbatan turlicha ekanligini aks ettirish va ularning turlarini belgilashga imkon beradi. Buxgalteriya ma’lumotlarini tasniflashning ko‘pgina sxemalari mavjudligiga qaramay, ulardan birini namuna sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin emas. Tasniflash sxemasi ma’lumotning maqsadiga bog‘liqdir. Ingliz olimi Alborov, Rolan A. sarflar hisobining quyidagi yo‘nalishlarini va ularning ehtimoliy tasniflarini taklif etadi.

Hisob tizimi sarflarni ma’lum toifalarga ko‘ra tasniflab yig‘adi. Sarflarning bu toifalari hisob yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanadi. Buxgalterlar mahsulot tannarxiga kiruvchi sarflar va hisobot davri xarajatlarini tasniflaydilar. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar qayta sotish uchun sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarga oid sarflar kiritiladi. Korxonada bu sarflar tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini, uning sotilishi paytigacha belgilashda hisobga olinadigan mahsulot birligining tannarxi bo‘ladi. Mahsulot sotilgandan keyin foydani hisoblash uchun bu sarflar sotishdan tushgan tushumlar bilan qiyoslanadi.

Hisobot davrining xarajatlari zaxiralarni baholashda hisobga olinamaydigan sarflar hisoblanadi. Shuning uchun ular sodir bo‘lgan davridayoq xarajat sifatida tan olinadi. Demak, hisobot davrining sarflari va zaxiralarni baholashda hisobga olinadigan sarflar bilan umuman bog‘lanmasligi lozim. Korxonada barcha ishlab chiqarish moddiy xarajatlari mahsulot tannarxiga, noishlab chiqarish xarajatlari esa hisobot davri xarajatlariga kiritiladi. Ma’lumotning maqsadi va uni taqdim etishning davriyligi mezoni ham ajratib ko‘rsatilishi lozim. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar uch asosiy yo‘nalishni aniqlashda qo‘llaniladi. Demak, ma’lumot maqsadi va uni taqdim etishning davriylik mezoni ham mustaqil mezon sifatida alohida ajratib ko‘rsatilishi kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida yo‘qotishlarini va zararlarini kamaytirishga intilishi zaxiralarni aniqlashga, xususan, mehnat, moddiy va xom ashyo zaxiralaridan oqilona foydalanishga e`tibor qilish talab etiladi. Chunki moddiy sarflarni qisqartirishga alohida e’tibor berish lozim, bunda barcha ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining 50-80% qismini tashkil etadi. Moddiy sarflarning qiymati chetdan sotib olingan xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiyaning barcha turlari, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, boshqa korxonalar bajargan ishlab chiqarish turidagi ishlar va xizmatlar, moddiy zaxiralarning tabiiy kamayish me’yorlari doirasida kamomadi oqibatidagi yo‘qotishlar qiymatidan tarkib topadi. Bundan tashqari, moddiy sarflar tarkibiga uskunalar, jihozlar, laboratoriya uskunalari va asosiy fondlarga kiritilmaydigan boshqa mehnat vositalarining hisoblangan eskirishi qiymatlari ham kiradi.

XULOSA

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda quydagi xulosalarga kelindi:

1. Ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi sarflar tarkibini belgilaydi. Bunda ba’zi sarflar kata hajmga ega, demakki, ahamiyatliroq, boshqalari esa kam ahamiyatli, shuning uchun boshqalarining tarkibida yiriklashtirilgan holda hisobga olinishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish sarflarini hisobga olishni tashkil qilish mezonini ajratib ko‘rsatish lozim.
2. Avvalroq o‘tkazilgan sarflar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, tannarxning darajasiga eng ko‘p ta’sir etuvchi quyidagi sarflar mavjud: xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va elektr energiyasi sarflari. Demak, bu holda “ahamiyatli sarflar”ni ushbu sarflar turlariga ko‘ra farqlash lozim.
3. Qishloq xo‘jalik korxonalarda moddiy xarajatlarning tasniflanishini shakllantirishni ta’minlovchi mezonlar sxemasi qo‘shma korxonalar turlari uchun mos keladi. Lekin, Qishloq xo‘jalik korxonalar faoliyatining o‘ziga xosligi uning tashkiliy tuzilishi va zamonaviy sharoitlarda ishlash maqsadlari sarflarni boshqarishni, demakki, korxona faoliyatining natijalariga ta’sir etuvchi boshqa omillariga e`tibor qaratish kerak.
4. Qishloq xo‘jalik korxonalar hisob tizimini tashkil etishda ushbu maqomga ega korxona xususiyatlarini inobatga olish, qurilish korxonalarida xarajatlar hisobini samarali boshqarish muhim omillardan biridir. Bugungi kunda esa, qishloq xo‘jalik korxonalarida xarajatlar hisobini yuritishda me’yoriy hujjatlar va korxonadagi amaliy ma’lumotlarga asoslangan holda takomillashtirishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev “2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi” Xalq so‘zi gazetasi. 2017-y. 16-yanvar.
2. D. Qudbiyev. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish. Bozor, pul va kredit”. –T.: 2005 y. 15 b.
3. O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. –T.: 1999-y.
4. Алборов, Ролан А. Бухгалтерский управленский учёт (теория и практика) / Р. А Албаров. – М.: Издательство “Дело и Сервис” 2005. – 244 с.
5. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob.–T.:Moliya, 2002 y. 672-bet.
6. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
7. Gaybullayev, R. M., & Ishturdiyev, X. (2023). Xo‘jalik yuritish subyektlarida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish. World of Science, 6(4), 345-351.
8. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). Improvement of Accounting and Audit of Financial Results in Business Entities. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
9. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.
10. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). Modern Foundations of Teaching Economics in University. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(2 Part 4), 173-176.

АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ СТРАНЫ

Ёдгоров Сардорбек Самадович
Преподаватель кафедры “Экономика” Ташкентского финансового института

Аннотация: В статье проводится мультиаспектный анализ взаимосвязей экологических факторов и финансовой безопасности государства. Исследуются текущие экологические вызовы (изменение климата, загрязнение водных и атмосферных ресурсов, утрата биоразнообразия и деградация почв), и их прямые и косвенные последствия для экономической стабильности страны. Выявляется, как экономические ущербы от негативного экологического воздействия, включая природные катастрофы и долгосрочные изменения экосистем, влияют на наполнение бюджета, инвестиционную привлекательность территорий и общую социально-экономическую устойчивость государства.

Ключевые слова: зеленая экономика, экологические факторы, финансовая безопасность, мультиаспектный анализ, экосистема.

Annotatsiya: Maqolada atrof-muhit omillari va davlatning moliyaviy xavfsizligining o‘zaro bog‘liqligi ko‘p qirrali tahlil qilingan. Mavjud ekologik muammolar (iqlim o‘zgarishi, suv va atmosfera resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tuproqning degradatsiyasi) va ularning mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun bevosita va bilvosita oqibatlari o‘rganilmoqda. Atrof-muhitga salbiy ta’sirlar, shu jumladan, tabiiy ofatlar va ekotizimning uzoq muddatli o‘zgarishi natijasida iqtisodiy zarar budjetni to‘ldirishga, hududlarning investitsion jozibadorligiga va davlatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga qanday ta’sir qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit omillari, moliyaviy xavfsizlik, ko‘p qirrali tahlil, ekotizim.

Abstract: The article provides a multi-aspect analysis of the interrelationships of environmental factors and the financial security of the state. The current environmental challenges (climate change, pollution of water and atmospheric resources, loss of biodiversity and soil degradation) and their direct and indirect consequences for the economic stability of the country are investigated. It is revealed how economic damages from negative environmental impacts, including natural disasters and long-term ecosystem changes, affect budget filling, investment attractiveness of territories and the overall socio-economic stability of the state.

Key words: green economy, environmental factors, financial security, multi-aspect analysis, ecosystem.

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире экологические проблемы неразделимы от финансовой стабильности государств. Настоящая работа посвящена всестороннему анализу экологических факторов, формирующих условия для обеспечения финансовой безопасности страны. Тема исследования актуальна как никогда прежде в контексте глобальных климатических изменений, увеличения природных катастроф и активной деятельности человека, негативно влияющей на природные комплексы.

Цель исследования заключается в выявлении прямых и косвенных связей между состоянием экологии и экономическим благосостоянием государства. Предполагается, что устойчивый экологический баланс и разумное природопользование могут значительно снизить риски для экономики и способствовать долгосрочной финансовой безопасности. Для достижения поставленной цели, в работе используется комплексный метод исследования, включающий в себя анализ статистических данных, изучение лучших практик управления природными ресурсами, а также оценку эффективности экологического законодательства разных стран.

В данном введении освещается концептуальная основа взаимодействия экологических и экономических систем, идентифицируются ключевые факторы экологической безопасности, оказывающие влияние на финансовое состояние страны, и формулируются предварительные тезисы о возможных путях минимизации негативного экологического воздействия на экономику. Исследование стремится способ-

ствовать более глубокому пониманию механизмов, которые могут быть мобилизованы для эффективного управления экологическими рисками, и разработке стратегий, направленных на укрепление экономической устойчивости в свете экологических изменений.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В статье анализируются ключевые исследования, посвящённые воздействию экологических факторов на финансовую безопасность стран. Работа начинается с экзамена классических теорий экономической науки, таких как труды Пигу, который ввёл понятие внешних эффектов, объясняя роль экологических изменений в экономике, и Коуз, исследующего вопросы регулирования используя теорему о соцветовых издержках [4].

Следующий сегмент охватывает современные эмпирические исследования, включая работы Стерна, который подробно обсуждает влияние климатических изменений на мировую экономику, и Костанза, представляющие концепцию услуг экосистем и их ценности для экономического благополучия [3].

Аналитические работы от Всемирный банк и Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) раскрывают макроэкономические аспекты проблемы, включая устойчивое развитие, “зелёную” экономику и инвестиционные стратегии, способные повысить финансовую безопасность без ущерба для окружающей среды [7].

Далее рассматриваются исследования Диес Роукс и Мартинес-Альер, затрагивающие вопросы экологической справедливости, демонстрирующие, что экологические нагрузки и выгоды распределены неравномерно, что может влиять на социально-экономическую устойчивость стран [5-6].

Все исследования, представленные в обзоре, служат основой для понимания сложности взаимосвязей между экологической устойчивостью и финансовой безопасностью, и формирования методологического инструментария для анализа текущей тематики. Исследователи выражают общий консенсус в том, что долговременное экономическое благосостояние напрямую зависит от устойчивого управления природными ресурсами и смягчения последствий экологического ущерба.

Обзор подчеркивает необходимость мультидисциплинарного подхода и продолжение исследовательских усилий для глубокого изучения и выявления оптимальных практик устойчивого развития, которые помогают странам не только справиться с экологическими вызовами, но и повысить их финансовую устойчивость и безопасность.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Данное исследование строится на междисциплинарном подходе, который объединяет экономический анализ с экологической оценкой. Методологическая основа работы заключается в применении количественных и качественных методов для установления взаимосвязи между экологическими параметрами и финансовой безопасностью стран.

Количественный анализ будет включать в себя сбор и обработку данных о состоянии окружающей среды, уровнях загрязнения, стихийных бедствий, и использовании природных ресурсов. Эти данные будут получены из отчетов международных экологических организаций, например, Всемирного банка и ОЭСР. Анализ будет проведён с использованием методов статистического анализа, таких как корреляционный и регрессионный анализ, для оценки степени и особенностей влияния экологических факторов на экономические показатели.

Качественные методы исследования включают обзор литературы, анализ законодательной базы и политических инициатив, а также экспертные интервью с финансистами, экологами, политиками и представителями общественных организаций. Этот подход позволяет включить в анализ разнообразные точки зрения и учесть не только экономические, но и социальные, технологические и политические аспекты проблемы.

Исследование также будет использовать сценарный анализ для оценки потенциального влияния будущих экологических изменений на финансовую безопасность. Сценарии будут разработаны на основе предсказаний климатических моделей и предполагаемых траекторий экономического развития.

Важной частью методологии является проверка результатов. Для обеспечения надежности и достоверности исследования будут применяться методы триангуляции данных, предполагающие сопоставление и анализ информации из различных источников.

Конечной целью методологии является формирование комплексного понимания того, как изменения в экологии могут влиять на экономическую динамику и финансовое положение страны, а также разработка рекомендаций для развития стратегий финансовой стабильности на основе экологически устойчивого подхода.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Экологические факторы влияют на финансовую безопасность страны через различные каналы, от прямого воздействия на экономические секторы до изменения глобальных условий торговли и инвестиций. Ниже приведены ключевые экологические факторы, играющие роль в определении финансовой безопасности:

1. Изменение климатических условий. До 2023 года крупномасштабные исследования и отчеты, такие как специальные доклады Межправительственной группы экспертов по изменению климата (IPCC), предоставили важную статистику и прогнозы относительно изменения климатических условий. Вот несколько ключевых статистических данных и выводов, актуальных до указанного времени:

- Повышение температуры: Глобальная средняя температура в 2021 году была примерно на 1,2°C выше, чем пред индустриальные времена, согласно данным WMO (Всемирной метеорологической организации).
- Увеличение экстремальных погодных событий: Число экстремальных погодных событий, таких как наводнения, жары и лесные пожары, значительно увеличилось в последние несколько десятилетий.
- Таяние ледников и льдов: согласно данным IPCC, арктический морской лед и ледники тают с беспрецедентной скоростью, что приводит к повышению уровня мирового океана.
- Изменения в сельскохозяйственной продуктивности: Отрицательное воздействие на сельскохозяйственные культуры уже наблюдается во многих регионах, причем исследования предсказывают уменьшение урожайности основных продовольственных культур при продолжении текущего уровня нагрузки.
- Экономический ущерб: Глобальный экономический ущерб от экстремальных погодных событий продолжает расти. Например, Всемирный банк и другие экономические институты оценили, что экономический ущерб от стихийных бедствий составил сотни миллиардов долларов в прошлом десятилетии.
- Здоровье населения: Воздействие климатических изменений на здоровье включает повышенные риски тепловых ударов, распространение инфекционных заболеваний, и проблемы с дыхательной системой связанные с уровнем загрязнения воздуха.

Эти изменения могут негативно отразиться на сельскохозяйственной продуктивности, физической инфраструктуре и здоровье населения, а также вызвать колебания в экономической стабильности.

2. Растущая урбанизация: до 2023 года глобальная урбанизация продолжила свой рост, причём ожидается, что к 2050 году около двух третей мирового населения будет проживать в городах. Вот некоторые статистические данные и наблюдения касательно урбанизации и связанных с ней экологических проблем:

- Рост городского населения: По оценкам Организации Объединённых Наций (ООН), городское население увеличилось с 751 миллиона человек в 1950 году до 4,52 миллиарда в 2022 году, и его ожидается дальнейший рост (рис. 1).



Рисунок 1: Динамика городского население мира 1950 – 2022 гг. (млрд. чел.)

- Загрязнение воздуха: Города являются основным источником антропогенных выбросов, включая транспорт, промышленность и производство энергии. Многочисленные города, особенно в раз-

вивающихся странах, сталкиваются с серьезными проблемами загрязнения воздуха, превышая руководящие значения Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) по качеству воздуха.

- Водные ресурсы и загрязнение воды: Быстрый рост городов увеличивает спрос на водные ресурсы и создаёт проблемы с управлением сточными водами. Многие крупные города сталкиваются с нехваткой чистой питьевой воды, и загрязнение водных путей становится все более серьезной проблемой.
- Накопление отходов: Городское население генерирует огромное количество твердых отходов. По оценкам ООН, количество муниципальных твердых отходов достигнет 2,2 миллиарда тонн к 2025 году. Эффективное управление отходами остается значительной проблемой во многих городских районах.
- Истощение природных ресурсов: Расширение городских территорий ведет к преобразованию земель и потере естественных сред обитания. Это также приводит к повышенному потреблению природных ресурсов, таких как вода, минералы и леса.
- Изменение климата и урбанизация: Урбанизация может усугублять последствия изменения климата, особенно в городских районах с высокой плотностью населения. Тепловые острова, увеличение стока из-за большого количества не проницаемых поверхностей и другие факторы могут усилить уязвимость городов к экстремальным погодным условиям. Это оказывает давление на общественное здоровье и может угрожать долгосрочной экономической устойчивости.

3. Экологическое загрязнение: Экологическое загрязнение представляет собой одну из существенных проблем современности, оказывающую влияние не только на окружающую среду, но и на общественное здоровье, экономику и качество жизни населения. До 2023 года по всему миру накопилась значительная статистика, касающаяся загрязнения воздуха, воды и почвы.

По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), загрязнение воздуха является причиной примерно 7 миллионов преждевременных смертей ежегодно по всему миру. Основными загрязнителями воздуха являются твердые частицы мелкого и сверхмелкого размера (PM2.5 и PM10), азотные оксиды (NOx), сернистый газ (SO2), углеродный монооксид (CO) и озон (O3). По данным оценок, более 90% населения мира живет в местах, где качество воздуха не соответствует безопасным нормативам ВОЗ.

Загрязнение водоемов химикатами, тяжелыми металлами, пластиками и другими загрязнителями продолжалось и до 2023 года. Водные экосистемы подвергаются воздействию сточных вод, промышленных отходов и стока сельскохозяйственных угодий. Около 2 миллиардов человек в мире не имеют доступа к безопасной питьевой воде, что увеличивает риск распространения заболеваний, связанных с водой.

Загрязнение почвы: Сельскохозяйственная деятельность, несанкционированные свалки, загрязнение почвы токсичными веществами и тяжелыми металлами продолжают оставаться проблемами для многих регионов. Загрязненные почвы могут представлять риски для здоровья через пищевую цепь и непосредственное воздействие. Последствия для здоровья и экономики:

- Экологическое загрязнение связано с широким спектром заболеваний, включая респираторные инфекции, сердечно-сосудистые заболевания, инсульты и рак.
- Загрязнение также ведет к увеличению расходов на здравоохранение, ухудшению качества жизни и сокращению продуктивности рабочей силы из-за болезней.

4. Проблема земельной деградации: Проблема земельной деградации остается важной экологической и экономической проблемой на многих территориях мира. Деградация земель оказывает негативное влияние на урожайность сельскохозяйственных культур, пищевую безопасность, качество окружающей среды и экономическую стабильность. Ниже приведены некоторые статистические данные, которые были актуальны до 2023 года:

- По данным Организации Объединенных Наций, около 12 млн гектаров земли теряют свою плодородность ежегодно из-за деградации, что ведет к потере 20 млн тонн возможного зернового урожая каждый год.
- Причинами земельной деградации являются как природные факторы (например, эрозия, засоление, выветривание), так и антропогенные воздействия, включая неустойчивое земледелие, обезлесение, переход на одно-культурные посадки, избыточный выпас скота, неправильное управление водными ресурсами и промышленное загрязнение.
- По оценкам, в мире засолено от 62 до 76 миллионов гектаров орошаемых земель, что составляет около 20% от общей площади орошаемых земель.
- Около 1,5 миллиарда человек страдают или угрожают угрозы из-за последствий земельной деградации.
- Глобальные экономические потери, вызванные деградацией земель, оцениваются в несколько сотен миллиардов долларов в год.

TARAQQIYOT PROGRESS

5. Истощение невозобновляемых ресурсов: Истощение невозобновляемых ресурсов – серьезная глобальная проблема, поскольку эти ресурсы играют ключевую роль в современной экономике, но не могут быть быстро восстановлены после использования. К невозобновляемым ресурсам относятся ископаемые виды топлива (нефть, уголь, природный газ), уран, а также металлы и минералы (золото, серебро, медь, цинк, фосфаты и т.д.). Вот некоторая статистика и информация по данной проблематике:

- В последние десятилетия наблюдается рост мирового потребления ископаемого топлива, что связано с развитием индустриализации и ростом населения.
- Например, согласно данным BP (British Petroleum) в ежегодном обзоре мировой энергетики, огромное количество нефти ежедневно потребляется по всему миру; до 2019 года это количество превышало 100 миллионов баррелей в день.
- Оценки запасов нефти и природного газа различаются, но некоторые источники предполагают, что при текущем уровне потребления известных запасов нефти может хватить примерно на 50 лет, а природного газа – на 50-70 лет.

The use of capital by the joint-stock company “Uzmetkombinat” makes it possible to form general conclusions based on the relationship between efficiency indicators and multiplier coefficients. In 2015-2017, the weighted average cost of capital had an increasing-decreasing trend, and it can be seen that the main connecting factors are the increased efficiency of the ROIC coefficient. Also, the growth of the debt capital affects the change of the ROA ratio, along with the direct growth of the financial leverage ratio. As a result of the society’s modernization of means of production, expansion and diversification of investment activities, the market capitalization increased by more than 7 times and the income from product sales increased by 8.5 times during 2015-2021.

CONCLUSION

There are some shortcomings and problems regarding the determination of efficiency coefficients in the formation and use of capital of companies, the use of multiplier coefficients recommended by international standards or international rating companies for the economic efficiency of investment projects. Firstly, the preparation of financial reports of joint-stock companies based on international standards and presenting them to the general public, secondly, the fact that some structural indicators for determining multiple multiplier coefficients are not available or not fully disclosed in the methodology presented in the national unified assessment standard, and thirdly, the possibility of obtaining complete information on the factors involved in the use of some econometric models such as limited Also, the widespread use of the cost approach, rather than the income method, in assessing the capital value of most joint-stock companies shows that there are problems in the assessment process.

References:

1. Modigliani F, Miller M. H. 1958. The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. The American Economic Review, Vol. 48, No. –3 pp.261–97.
2. Hamada R (1969) Portfolio analysis, market equilibrium, and corporate finance. The Journal of Finance, Vol. 24, No. 1. pp. 13–31.
3. Stiglitz, Joseph E, (1969). “A Re-Examination of the Modigliani-Miller Theorem,” American Economic Review, American Economic Association, Vol. 59, No. –5 pp. 784-793.
4. Donaldson G. Strategy for Financial Mobility. Boston, Division of Research, Harvard Graduate School of Business Administration. –1969.
5. Fama E., French K. (2002) Testing tradeoff and pecking order predictions about dividends and debt, The Review of Financial Studies Vol. 15, No. 1, pp. 1-33.
6. Fundamentals of corporate finance /Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Bradford D. Jordan. – 9th ed., (The McGraw-Hill/Irwin series in fi nance, insurance and real estate). p. 46.
7. Robert C. Merton (1973). An Intertemporal Capital Asset Pricing Model. Econometrica, Vol. 41, No. 5, pp. –867-887.
8. https://www.uzbeksteel.uz/
9. www.openinfo.uz

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI ASOSIY TARMOQLARIGA YO‘NALTIRILGAN GLOBAL INVESTITSIYALAR HOLATI VA PROGNOZINI TAHLILI

Muxammadiyev Kamoliddin G‘ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini asosiy tarmoqlariga yo‘naltirilgan global investitsiyalar holati, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasiga investitsiyalar xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilishi ko‘rsatib berilgan va prognozi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, iqtisodiyot, global, investitsiya bozor, moliya-kredit, samaradorlik, ekologiya, xususiy sektor, innovatsiya.

Abstract: In this article, the situation of global investments directed to the main sectors of the service sector, investments in the service sector in developed countries are made in partnership with the private sector, and the forecast is analyzed.

Key words: service, economy, global, investment market, finance-credit, efficiency, ecology, private sector, innovation.

Аннотация: В данной статье рассматривается ситуация с глобальными инвестициями, направленными в основные отрасли сферы услуг, инвестиции в сферу услуг в развитых странах осуществляются в партнерстве с частным сектором, а также анализируется прогноз.

Ключевые слова: сервис, экономика, глобальный, инвестиционный рынок, финансово-кредитный, эффективность, экология, частный сектор, инновации.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayoni chuqurlashib va va iqtisodiyotni raqamlashtirish kuchayib borayotgan sharoitda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini jadal rivojlantiriiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. “Jahon yalpi ichki mahsulot hajmida mazkur sohaning salmog‘i o‘rtacha 65 foizni tashkil etgan holda, mazkur ko‘rsatkich AQShda 80 foizni, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 70-75 foizni tashkil etadi”[1]. AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotidagi tadrijiylikka asosan, inson salohiyati taraqqiyotiga istiqbol maqsadlaridan biri sifatida yondoshilgan iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamda foydalanilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi miiliy iqtisodiyotimizda ulkan strategik ahamiyatga vazifalarni bajarishda muhim tarmoqlardan hisoblanadi. “...Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta’minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish” vazifalar belgilab berilgan[2].

Bu boradi xizmat ko‘rsatish sohasida xizmatlar turini kegaytirish va sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, xizmatlar bozori salohiyatidan iqtisodiy o‘sish sifatida samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarni ustuvor amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar I. A. Deryugin [1] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan

1 https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_services/
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son

M. M. Muxammedov [2], M. Q. Pardayev [3], R. X. Ergashev [4] J. R. Zaynalov [5], M. E. Po‘latov, Q. J. Mirzayev, T. S. Sharipov, Sh. A. Sultonov [6], Sh. A. Atamuradov [7] va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda bu sohada boshqa iqtisodchi olimlar ham samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va olib borishmoqdalar. Biroq Respublikada xizmatlar sohasi masalalari tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yondoshilgan, bu jarayonlarning, xizmatlar sohasi infratuzilmasini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini aks ettiruvchi ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ko‘p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda aholi turmush farovonligini aniqlovchi xizmat ko‘rsatish soha obyektlarini bunyod qilish, ularni saqlab turishga qilinadigan xarajatlarga har yili katta miqdordagi mablag‘lar sarflanadi. Bunday sarf-xarajatlar muqarrar hisoblanadi. Tadqiqotlarimizning natijalari xorijiy davlatlarda investitsiyalarni qo‘llash sohalari va yo‘nalishlari xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotining turli xil tarmoqlarida realizatsiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bular quyidagilar:

- transport – turli yo‘nalishdagi transport tarmoqlarini (xususan, shahar transporti) o‘z ichiga qamrab olib, yo‘l harakatini boshqarish tizimini qurish, xizmat ko‘rsatish, joriy etish kabi loyihalar;
- uy-joy va kommunal xo‘jaliklari;
- aholiga xizmatlar ko‘rsatish;
- kommunal xo‘jaliklar tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish;
- ko‘chalarni tozalash, axlat va chiqit tashib ketish hamda utilizatsiya qilish;
- ekologiya sohasi – tabiiy resurslardan foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish asosida daromadga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritish orqali hududlarda bog‘lar yaratish, ularga xizmat ko‘rsatish va kengaytirish;
- ko‘chmas mulk sohasida – tijorat loyihalarida qatnashish va binolar qurish, ijtimoiy binolar va munitsipal uy joylar qurish hamda ularni ishga tushurish;
- jamoat (ijtimoiy) tartibi va xavfsizligi sohasida – xususiy korxonalar xizmat, transport va jamoat joylarida tartibni saqlash;
- to‘xtash joylarini tashkil etish hamda xizmat ko‘rsatish;
- telekommunikatsiya sohasida;
- xizmat ko‘rsatish sohasini shakllantirish va iste’molchilarga xizmatlarni taqdim qilish;
- moliya-kredit sohasida – majburiy ijtimoiy sug‘urta va davlat pensiya ta’minoti sohasiga boshqaruv kompaniyalarini jalb qilish;
- ta’lim sohasida – binolar qurish va tutash bo‘lgan hududlarni rivojlantirish huquqiga ega xususiy kompaniyalar va firmalar tomonidan maktab va boshqa ta’lim muassasalari qurish va ularni jihozlash.

Tahliliy statistik ma’lumotlar va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni istiqbol ko‘rsatkichlariga nazar tashlasak, jahondagi mamlakatlar aynan xizmat ko‘rsatish sohasiga katta e’tibor berib kelmoqda (2-jadval).

2-jadval: Jahondagi mamlakatlarning xizmat ko‘rsatish sohasiga qilinadigan investitsiyalari dinamikasi, trln. (Dollarda) [8]

Mintaqalar	2018	2025	2030	2035	2040
Dunyo bo‘yicha	2,6	2,9	3,2	3,5	3,7
Shundan:					
Osiyo	1,5	1,7	1,9	2,1	2,3
Shimoliy va Janubiy Amerika	0,5	0,5	0,6	0,6	0,6
Yevropa	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
Afrika	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ma'lumki, jahonda, xususan, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiyalar xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladi. Xususan, Dunyoda 2018-yilda xizmat ko'rsatish sohasiga obyektlariga investitsiyalar 2,6 trillion dollarni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichning istiqbol parametralariga nazar solsak, 2040 yilga borib 42,0 %ga oshishi va 3,7 trillion dollarga yetishi kutilmoqda (2-jadval).

Jamoat manfaatlarini himoya qilish uchun milliy iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga ega va rivojlanishi sust bo'lgan tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlat yoki mahalliy hokimiyati va xususiy sektor o'rtasidagi qonuniy va institutsional munosabatlar tizimidir. Ushbu tizimning asoslari teng huquqlilik, oqilona hamkorlik, risklarni va daromadlarni adolatli taqsimlash, davlat va xususiy sektorning sa'y-harakatlari birlashuviga asoslangan bo'ladi.

3-jadval: Xizmat ko'rsatish sohasini asosiy tarmoqlariga yo'naltirilgan global investitsiyalar hajmi, mlrd. (Dollarda) [9]

Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari	2018-y.	Jamiga nisbatan (% da)	2030-y.	2040-y.
Transport sohasiga	1292,8	49,6	1664,2	1943,7
Energetika	850,3	32,6	1060,5	1232,8
Axborot-kommunikatsiya sohasiga	273,6	10,5	319,1	359,2
Suv va suv ta'minoti	188,8	7,2	236,4	277,1
Jami:	2605,5	100	3280,2	3812,8

3-jadval ma'lumotlari jahondagi davlatlar sohasining asosiy tarmoqlarida 2,6 trln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar ajratilgan bo'lsa, ulardan 49,6 %i (1292,8 mlrd. AQSh dollari) bevosita transport tarmog'iga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, energetika, axborot-kommunikatsiyalari tarmoqlari va suv ta'minoti tizimiga muvofiq holda 32,6 %, 10,5 % va 7,2 %ini yoki 1312,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda infratuzlma bozorlarini o'rganuvchi The Global Infrastructure Hub tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2030-yilda soha obyektlariga investitsiyalar hajmi 2018-yilga nisbatan 26,0 %ga yoki 3,3 trln. AQSh dollari hajmida malag'lar yo'naltirilishi aytilgan. Bu ko'rsatkich 2040 yilda 3,813 trln. AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning xorij tajribasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosaga kelindi va bular quyidagilardan iborat:

1. Xorijiy tajriba asosida bir qator mamlakatlarning xizmat ko'rsatish sohasini investitsiyalashga sohani rivojlantiruvchi asosiy omil ekanligi sifatida qarash lozim, degan muhim xulosaga kelindi. Innovatsion investitsiyalarga investorlarning qiziqishi pastligining asosiy sabablari risk darajasining yuqoriligi hamda innovatsion loyihalar qiymatining an'anaviy investitsion loyihalarga nisbatan ancha balandligi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv "xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmi" shakllantirishda nafaqat masalaning iqtisodiy, balki moliyaviy, ma'muriy-huquqiy va boshqa jihatlarini ham takomillashtirishga undovchi zaruriyat hisoblanadi.
2. Investitsiyalarning samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlarni qo'llash asosida amalga oshirish taklif etiladi: sof joriy qiymat investitsiyalar rentabelligi indeksi, investitsiyalarning o'zini qoplash muddati, investitsiyalarning daromadligining ichki me'yori. Maqolada investitsiyalarning prognozini aniqlashdagi an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, diskontning qat'iy me'yorda, yillar davomida ushbu ko'rsatkichlarning me'yordagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar intervalida qanday bo'lishini o'rganish zarur.
3. Jahon mamlakatlarida mavjud xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasidagi global investitsiyalar tahlilini natijalari ishchilar soni ko'paytirishga investitsiyalashdan, asosiy kapitalga investitsiyalash yuqori samara berishini aniqlash imkonini berdi. Texnologik jarayonlarni takomillashtirish, yangi texnikani joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, yangi xizmat turlarini yo'lga quyish, marketing va menejmentni zamonaviy asosda tashkil etish kabi innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar an'anaviy investitsiyalarga nisbatan mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi va samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дерюгин И. А., Звягинцев А. А. Привлечение инностранных инвестиций как фактор инновационного развития КНР. // https://web.economica.cosnauka.ru.
2. Muxammedov M. M. va boshq. Mintaqa iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. Monografiya. – T.: LESSON PRESS, 2020.
3. Pardayev M. Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik (uchinchi qayta ishlangan nashri). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” DUK, 2020. – 588 b.
4. Ergashev R. X. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari. // Innovatsion rivojlanish asosida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: muammolari, yechimlari va istiqbollari. – Qarshi: RIAA., 2015 – B. 259-261.
5. Zaynalov J. R. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati. // Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – SamISI, 2015. – 229-231 bb.
6. Mirzayev Q. J., T. S. Sharipov, Sh. A. Sultonov va boshqalar: Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti (darslik), Samarqand-2021 y.
7. Atamuradov Sh. A. Xorijiy mamlakatlarda venchurli innovatsion loyihalashtirish modellari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2019. – № 2. Mart-aprel. –C. 1-8.
8. “Национальный Центр ГЧП”, “Просто и честно об инвестициях в инфраструктуру и государственно-частном партнерстве в России” аналитечиской обзор, Москва, 2019, 96,101 ст.
9. “Национальный Центр ГЧП”, “Просто и честно об инвестициях в инфраструктуру и государственно-частном партнерстве в России” аналитечиской обзор, Москва, 2019, 96,101 ст.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ КРЕДИТОВ

Каримова Азиза Махомадризоевна
PhD, доцент Самаркандский институт экономики и сервиса, Узбекистан.

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы банковского кредитования, сущность банковского кредитования, а также систематизация подходов к классификации факторов в процессе кредитования предприятий, отнесенных к субъектам хозяйствования. Классифицируются факторы, влияющие на процесс кредитования.

Ключевые слова: банковское кредитование, потребитель, туристические продукты, экономика, туризм, частный бизнес, туристическая деятельность, малые предприятия.

Annotatsiya: Maqolada bank kreditlashning metodologik asoslari, bank kreditlashning mohiyati, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga kiruvchi korxonalarni kreditlash jarayoni omillarini tasniflash bo‘yicha yondashuvlarni tizimlashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Kreditlash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar tasniflanadi.

Kalit so‘zlar: bank krediti, iste’mol, turizm mahsulotlari, iqtisodiyot, turizm, xususiy biznes, turizm faoliyati, kichik biznes.

Abstract: The article discusses the methodological foundations of bank lending, the essence of bank lending, as well as the systematization of approaches to classifying factors in the process of crediting enterprises, classified as business entities. The factors influencing the lending process are classified.

Key words: bank lending, consumer, tourism products, economy, tourism, private business, tourism activity, small enterprises.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время сфера туристических услуг является одной из быстро развивающихся сфер экономики многих развитых и развивающихся стран мира. В связи с чем в мировой практике проведено значительное количество научных исследований, касающихся изучения кредитной поддержки предприятий сферы туристических услуг. Изучена методологическая основа и проведен анализ механизма кредитования предприятий, а также сделаны научные разработки в области совершенствования кредитной поддержки предприятий. В результате этих исследований собраны заслуживающие внимания научно-теоретические концепции и опыт кредитования предприятий в международной практике кредитования. Однако, исследуемые нами сегодня туристические предприятия находятся на разных уровнях развития, и достигнутые на международном уровне результаты совершенствования механизма их кредитной поддержки недостаточно раскрыты. Применение мирового опыта и знаний в отдельно взятых странах требует проведения более глубоких научных исследований.

АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Различные аспекты кредитования предприятий находят отражения, в работах многих отечественных и зарубежных учёных-экономистов, со стороны которых проанализированы отдельные научно-теоретические и практические стороны кредитования субъектов сферы туристических услуг. К числу зарубежных исследователей которых относятся: С. И. Ожегова, Я. Н. Калугина, В. Т. Батычко, Н. Э. Соколинская, Л. М. Куприянова и др.

Так же над вопросами в области кредитования преддприятий работали многие отечественные ученные в числе которых: Ё. Абдуллаев, Ш. А. Юлдашев, Дж.Зайналов, Ш. Абдуллаева, Н. Урманова, Т. Маликов, А. Баймуратова, И. Рахманова, Д. Таджибаевой, Ж. Исакова, Л. Зойирова и др.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Данное исследование проводилось с использованием методов научного абстрагирования, индукции и синтеза.

Основная часть. На протяжении многих лет научными исследователями предложено многообразие определений, которые характеризуют различные аспекты процесса кредитования, исходя из сущностных характеристик кредитования, относительно его структурных, временных, объектных и субъектных составляющих.

Для того чтобы понять методику кредитования предприятий сначала рассмотрим само понятие и сущность кредитования. Кредит в переводе с латинского означает “заем”, другими словами – это экономические отношения, при которых одна сторона получает от другой стороны денежные средства, товары/вещи, не запрещённые соответствующим законодательством к передаче, и обещает предоставить возмещение (оплату) или вернуть ресурсы в будущем. Фактически, кредит является юридическим оформлением экономического обязательства [1].

С. И. Ожегова утверждает, что, кредит это – во-первых, ссуда, предоставление ценностей (денег, товаров и т.д.) в долг; во-вторых, коммерческое доверие [2]. Кредит аккумулирует высвобождающийся капитал, обслуживает его поступление и обеспечивает воспроизводственный процесс. Ускоряет процесс денежного обращения, участвует в регулировании рыночных отношений.

Я. Н. Калугина считает что главным видом кредита выступает банковский кредит, под которым понимаются: форма передачи стоимости на основе возвратности, срочности и платности; форма аккумулирования и размещения свободных временно денежных средств субъектов хозяйствования с целью стимулирования оборачиваемости основных и оборотных фондов и авансирования процесса воспроизводства; фактор производства [3].

По мнению российского ученого В. Т. Батычко под банковским кредитованием понимает экономические (денежные) отношения, в процессе которых временно свободные денежные средства государства, юридических и физических лиц, аккумулированные кредитными организациями, предоставляются хозяйствующим субъектам (а также гражданам) на условиях возвратности [4].

В общем случае, под процессом кредитования понимается движение банковских кредитов или займов в виде последовательности организационных этапов, выраженной в виде смены периодов и механизмов кредитования. Само же кредитование как экономическое явление в современной науке и практике разделяется на банковское и небанковское, в связи с чем в ходе исследования будет рассмотрен как процесс банковского, так и небанковского кредитования. Далее рассмотрим сущность банковского кредитования (см.рис.1).



Рис. 1: Сущность банковского и небанковского кредитования (разработана автором на основе [5])

TARAQQIYOT PROGRESS

Проведенные исследования свидетельствуют о том, что процесс кредитования субъектов сферы предпринимательства зависит большого количества факторов, которые влияют как положительно, так и отрицательно на результаты работы многих коммерческих банков. Со стороны ученых-экономистов, в частности, М. Ю. Костыковой проведена и обоснована классификация внутренних и внешних факторов, которые влияют на процесс кредитования субъектов сферы предпринимательства.

Л. М. Куприянова в своей монографии [6] выделяет классификацию факторов, которые влияют на развитие процесса кредитования субъектов предпринимательской деятельности.

Далее рассмотрим классификацию факторов процесса кредитования субъектов предпринимательской деятельности (см.: табл.1)

Таблица 1: Подходы касающиеся классификации факторов процесса кредитования субъектов предпринимательской деятельности

Автор	Особенности классификации факторов процесса кредитования субъектов предпринимательской деятельности	Недостатки подхода к классификации
Джеймс К.	Выделение трёх основных группы внешних факторов кредитования субъектов сферы предпринимательства (правовая, налоговая и финансовая среда)*	Ограниченное представление кредитного процесса
А. А. Томпсон	Выделение различных наружных факторов, а именно: макроэкономические, законодательные, нормативные акты, общественные ценности и стиль жизни, демографические, технологические**	Внимание уделяется макроэкономическим факторам, которые связаны с экономическими характеристиками, отраслевой принадлежностью компании.
М. Ю. Костыкова	Выделение внешних факторов, влияющих на формируемый банк портфель кредитов для средних и малых предприятий, таких как: стратегию и политику банка; кризис и падение уровня жизни населения; спрос на кредиты***	Факторы влияния могут быть дополнены. Так, особенности кредитования (которые обусловлены процессами, протекающими в банках при принятии решений о выдаче кредитов) тесно связаны с особенностями получения кредитов, которые являются именно российской спецификой и не присущи банковским системам стран с развитой экономикой

* Ван Хорн, Дж.К. Основы финансового менеджмента / Дж.К. Ван Хорн. –М: Вильямс, 2001. – 988 с.

** Томпсон, А. А. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации для анализа / А. А. Томпсон, А. Дж. 12-е издание. – М.: Вильямс, 2013. – 924 с.

*** Костыкова, М. Ю. Банковское кредитование МБ и направления его совершенствования в Российской Федерации: диссер. на соис. уч. степ. к.э.н. Воронежский гос. универ. – Воронеж, 2015. -С. 47. с. 173-189.

Классификация факторов процесса кредитования предприятий, относимых к категории субъектов сферы предпринимательства, целесообразна в разрезе движущих сил, влияние которых можно рассмотреть ниже. (см.: рис. 2)

Так как представленная классификация является разновидностью деления влияний, оказываемых на процесс кредитования предприятий, относимых к категории субъектов предпринимательства, ей должны быть присущи все правила, используемые при операции комплексного и информативного деления объёма синтезирующего изменения в данной сфере. Исследование должно быть ориентировано на дополнение и систематизацию выделенной нами группы факторов, оказывающих влияние на процесс кредитования субъектов предпринимательской деятельности.

Заключение и предложения. Таким образом обобщая вышесказанное, следует выделить существенный набор факторов, которые влияют на процесс кредитования субъектов предпринимательской деятельности. Выявление факторов, влияющих на развитие процесса кредитования субъектов, доказывает, что основные процессы, связанные с кредитованием, требуют дальнейшего усовершенствования. Кроме того, итоговая классификация факторов, с учётом сделанных дополнений, позволяет чётко обозначить основу для эффективного развития процесса кредитования субъектов предпринимательской

деятельности.



Рис. 2: Классификация факторов, влияющих на процесс кредитования субъектов предпринимательской деятельности (разработана автором на основе [6])

Таким образом в целях минимизации факторов, влияющих на процесс кредитования, следует усилить теоретическое и практическое обучение персонала банка, внедрить использование специализированной оценки финансового положения заемщиков, а также разработать конкурентоспособную линейку кредитных предложений коммерческих банков.

Список использованной литературы:

1. Материал из Википедии – свободной энциклопедии ru.wikipedia.org
2. Толковый словарь русского языка: Ок. 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений / С. И. Ожегов; под ред. проф. Л. И. Скворцова. – 28е изд., перераб. – М.: ООО “Издательство “Мир и Образование”: ООО “Издательство Оникс”, 2012. – 1376 с.
3. Калугина Я. Н. Совершенствование системы кредитования субъектов предпринимательской деятельности банками с государственным участием в Российской федерации. Диссертация на соискание ученой степени к.э.н. –СПб.: 2019. –229 с.
4. Батычко В. Т. Финансовое право. Конспект лекций. Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2009.
5. Мазикова Е. В. Коммерческие банки и малый бизнес: основные направления сотрудничества // Молодой ученый. − 2014. − №3. − С. 466-469.
6. Устинова, О. В. Проблемы кредитования малого и среднего бизнеса / О. В. Устинова, Л. М. Пилипенко // Фундаментальные исследования. – 2016. – № 2-3. (659-663. –с) ISSN 1812-7339.
7. Mahomadrizoevna K. A. The Importance of Bank Lending in the Development Sphere of Tourist Services //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 11-17.
8. Karimova A. M. Development of tourism business with the help of bank lending in Uzbekistan //Наука, образование, инновации: Актуальные вопросы и современные аспекты. – 2021. – С. 106-108.
9. Пужаева Я. Б. Анализ кредитования малого и среднего бизнеса в России // Экономика и современный менеджмент: теория и практика: сб. ст. по матер. XIX междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2012.

TARAQQIYOT PROGRESS

SANOAT SALOHIYATI VA OMILLAR UNUMDORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASH USULLARI

Kasimov Azamat Abdukarimovich
PhD. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat salohiyati va uning tarkibi, omillar unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar hamda ularni iqtisodiy-statistik baholash usullari yoritib berilgan. Xususan, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning natijaviy samaradorligini baholash uchun funksioanal-salohiyatli, natijaviy-maqsadli va optimizatsion yondashuvlari keltirilgan. Shuningdek, sanoat salohiyatidan samarali foydalanishda omillar unumdorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat salohiyati, omillar unumdorligi, iqtisodiy-statistik baholash usullari, samaradorlik, tahlil.

Abstract: This article describes the industrial potential and its structure, indicators representing factor productivity and their economic-statistical evaluation methods. In particular, functional-analytical-competent, result-targeted and optimization approaches are presented to evaluate the resulting effectiveness of the use of production potential. Also, proposals for increasing the productivity of factors in the effective use of industrial potential have been developed.

Key words: industry, industrial potential, factor productivity, economic-statistical assessment methods, efficiency, analysis.

Аннотация: В статье описаны промышленный потенциал и его структура, показатели, отражающие факторную производительность, и методы их экономико-статистической оценки. В частности, представлены функционально-аналитически-компетентный, результативный и оптимизационный подходы к оценке результирующей эффективности использования производственного потенциала. Также разработаны предложения по повышению продуктивности факторов эффективного использования промышленного потенциала.

Ключевые слова: промышленность, промышленный потенциал, факторная производительность, методы экономико-статистической оценки, эффективность, анализ.

KIRISH

Rivojlanishning bugungi sharoitida xalqaro bozorlarda innovatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga talab oshib bormoqda. Xususan, fan-texnika sig‘imi yuqori mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi, deyarli barcha mamlakatlarda yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va uni yanada taraqqiy ettirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Ma’lumki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida turli yo‘nalishlarga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari (subtarmoqlar) muhim ahamiyatga ega. Chunki, sanoat asosida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladi, shuningdek iqtisodiyotning boshqa sohalarida yaratilgan xom ashyolarni qayta ishlash va shu tarmoqlarda foydalaniladigan aksariyat vositalar aynan sanoatda ishlab chiqariladi. Shunday ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat tarmog‘ini samaradorligini intensiv shaklda oshirish va omillar chekli unumdorligining pasayish holatlarini baholash hamda uni bartaraf etish sanoatda umumiy samaradorlikning oshishini hamda sanoat salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Bu sanoatda omillar unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosida ifodalanadi va ularni iqtisodiy-statistik usullar asosida baholanadi. O‘z navbatida, yuqoridagilar mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatda omillardan foydalanish samaradorligini oshirish tarmoqdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga ahamiyatli darajada ta’sir etadi va bu o‘ta murakkab ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunga qadar jahondagi biror mamlakat yoki xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan sanoat tarmog‘ida omillardan samarali foydalanishni ifoda etuvchi yagona ko‘rsatkich qabul qilinmagan. Bu esa o‘z navbatida tarmoq ishlab chiqarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab olishni talab etadi.

“Salohiyat” tushunchasi lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib, “potentia” – kuch degan ma’noni anglatadi [1]. Biroq mazkur tushunchaning yagona umumqabul qilingan ta’rifi mavjud emas. “Salohiyat” tushunchasi barcha mumkin bo‘lgan imkoniyatlar darajasining jamlanmasini o‘zida ifoda etadi va turli tushunchalarga nisbatan turlicha “salohiyat” so‘zi qo‘llaniladi. Masalan, iqtisodiy salohiyat, tabiiy xom ashyo salohiyati, innovatsiya salohiyati, investitsiya salohiyati, eksport salohiyati, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati va hokazo [2].

“Iqtisodiy salohiyat” – jamiyatni moddiy va inson resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi hamda ana shu imkoniyatlar miqiyosi bilan baholanadi [3].

Sh. X. Nazarov tadqiqotlarida sanoat salohiyatiga alohida e’tibor qaratiladi va uning asosiy maqsadi sifatida, sanoat mahsulotining mehnat unumdorligini oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda sanoatning assortiment bazasini diversifikatsiyalash masalalari esa, uning vazifalari sifatida e’tirof etiladi [4].

A. P. Svinsova o‘z tadqiqotlarida esa, sanoat salohiyatini quyidagicha tasniflashtiriladi [5]:

1. Fond salohiyati:
a) texnik va texnologik salohiyat;
b) ilmiy texnik salohiyat (innovatsion salohiyat va informatsion salohiyat);
d) investitsion salohiyat (korxonalarning ichki xususiy mablag‘lardan foydalanish salohiyati, investitsion jozibadorlik salohiyati).
2. Kadrlar salohiyati:
a) ijtimoiy salohiyat;
b) professional o‘sish salohiyati;
3. Mahsulot salohiyati:
a) sotilgan mahsulot salohiyati;
b) mahsulot sifatining salohiyati;
d) korxonani diversifikatsiyalash salohiyati – yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Ishlab chiqarish salohiyati – bu iqtisodiy tizimning (mamlakat, hudud, kompaniya, korxona) muayyan ishlab chiqarish omillari hajmida mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlar darajasi bo‘lib, u tizimning texnologik taraqqiyot darajasini o‘zida ifoda etadi [6].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, mazkur tuzilishning asosini ishlab chiqarish omillari tashkil etadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ishlab chiqarish salohiyatining o‘zagini ishlab chiqarish tushunchasi tashkil etadi. O‘z navbatida, salohiyat sanoat tarmog‘i yoki sanoat korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan qay darajada ta’minlanganligini ham o‘zida ifoda etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakat, hudud va tarmoq darajasida qaralganda bir – biridan farqlanadi. N. To‘xliyevning fikriga ko‘ra, “salohiyat tushunchasi (iqtisodiyotda) ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi. Makrodarajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda, ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish maksimal mumkin darajadagi qobiliyati tushuniladi” [7].

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste’molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, hududda va chet ellarda jamg‘arilgan qiymatlar, mehnat va tabiat resurslari hududning yalpi iqtisodiy salohiyatini rivojlanish darajasini belgilaydi.

Sanoat tarmog‘ida omillardan samarali foydalanish faqatgina ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligiga emas, balki sanoat tarmog‘i korxonalarida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish siyosati samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish siyosatining bir tomoni ishlab chiqarish maqsadlarini hisobga olishi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, omillar chekli unumdorligi darajasini ham inobatga olmog‘i lozim. Shuningdek, bu borada balanslashtirilgan ishlab chiqarish siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lib, buning birinchi qadami optimal ishlab chiqarishga nisbatan professonal yondashuvni amalga oshirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoatda omillar unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni baholash usullari bo‘yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o‘rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, deduksiya va induksiya usullaridan, shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat salohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo‘lganligi bois, uni tashkil etuvchilari ham ko‘plab unsurlardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun biz dastlab, ishlab chiqarish salohiyatini, so‘ngra esa, undan foydalanish darajasini baholash masalalarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish sanoat tarmog‘ida bir vaqtning o‘zida barcha ega bo‘lingan resurslardan ratsional foydalanish orqali yuqori yakuniy natijaga erishishni ko‘zda tutadi. Turli ilmiy manbalarda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni baholash uchun turli usul va uslubiyotlar qo‘llaniladi. Masalan, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning natijaviy samaradorligini baholash uchun funksioanal – salohiyatli, natijaviy – maqsadli va optimizatsion yondashuvlar qo‘llaniladi [8]:

- Funksional-salohiyatli yondashuv:

$$R_{ep} = f(P_v - F_v) \rightarrow \min H_n \quad (1)$$

Bunda P_v – tarmoqning salohiyatli imkoniyatlari, Fv – amalda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasi, N_p – ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasidan yo‘qotishlar.

Agar $P_v = F_v$ bo‘lsa, u holda salohiyatli imkoniyatlardan to‘liq foydalanilayotgan holat yuzaga keladi.

- Natijaviy – maqsadli yondashuv:

$$R_{ep} = Ef_{ep} / Ts \quad (2)$$

Bunda Ef_{ep} – samaradorlik kattaligi (rejalashtirilgan, prognozlangan, amaldagi) bo‘lib, qaysiki u qiymat yoki natural shaklda ifodalanadi, Ts – rejalashtirilgan, prognozlangan yoki tarmoq faoliyatining (qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda) amalga oshirilgan maqsadini o‘zida ifoda etadi.

Optimizatsion yondashuv – tarmoqdagi o‘zgaruvchan xarajatlarni minimallashtirish hisobiga ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish salohiyati, shu jumladan, uning tarkibidan foydalanish samaradorligini baholashda resurs – salohiyati yondashuvidan ham foydalaniladi.

Resurs salohiyati yondashuvi asosida tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatidan (shu jumladan uning tarkibidan) foydalanish samaradorligini aniqlashda integral baholash qiymatidan foydalaniladi va u samaradorlikning o‘zgaruvchan resurslar qiymati (Rp)ga nisbati orqali aniqlanadi hamda quyidagicha topiladi:

$$Ef_{ep} = E_p / R_p \quad (3)$$

Ayrim ilmiy manbalarda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini baholash uchun uni tashkil etuvchi unsurlaridan samarali foydalanishni baholash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi [9]. Ishlab chiqarish salohiyatining katta qismini asosiy fondlardan samarali foydalanish masalasi tashkil etadi. Quyida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishning muhim ko‘rsatkichlari tahlil etiladi:

1. Fond qaytimi. Mazkur ko‘rsatkich asosiy fondlarning 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o‘zida ifoda etadi. Qaysiki, mazkur ko‘rsatkichning o‘sib borishi asosiy fondlardan samarali foydalanilayotgan holatni bildiradi va quyidagicha topiladi:

$$FQ = \frac{ICHH}{AFO'YQ} \quad (4)$$

Bunda FQ – fond qaytimi, ICHH – ishlab chiqarish hajmi, AFO‘YQ -asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati.

Haqiqatdan ham sanoat tarmog‘ida asosiy ishlab chiqarish fondlarining holati qancha yaxshi bo‘lsa, u holatda mazkur tarmoq o‘zining texnologik salohiyatidan mumkin qadar yanada to‘liqroq foydalanishga harakat qiladi va buning hisobiga ishlab chiqarish hajmi ortib boradi.

Fond qaytimiga teskari bo‘lgan ko‘rsatkich bu – fond sig‘imidir. Fond sig‘imi ishlab chiqarilgan 1 so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining puldagi ifodasini tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, fond qaytimining oshib borishi ishlab chiqarishning samaradorligini ifoda etsa, fond sig‘imining yillar davomida o‘sib borishi esa, ishlab chiqarishda samarasiz holatni o‘zida ifoda etadi va u quyidagicha aniqlanadi [10]:

$$FS = \frac{AFO'YQ}{ICHH} \quad (5)$$

Bunda FS – fond sig‘imi, ICHH – ishlab chiqarish hajmi, AFO‘YQ – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ifoda etuvchi navbatdagi muhim ko‘rsatkich bu – ishlab

chiqarishni fond bilan qurollanish darajasidir. Fond bilan qurollanish darajasi sanoat ishlab chiqarishda band bo‘lgan 1 ta xodimga to‘g‘ri keladigan asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$FQU = \frac{AFO'YQ}{SIUS} \quad (6)$$

Bunda FQU – fond bilan qurrollanish, AFO‘YQ – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati, SIUS – sanoat ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishlovchilar soni.

Asosiy fondlar jismoniy va ma’naviy eskirishi mumkin. Jismoniy eskirish – asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida tez yemirilishidir. Ma’lum vaqt o‘tishi bilan ular ishga jismoniy yaroqsiz bo‘lib qoladi va yangisi bilan almashtiriladi yoki ayrim qismlari kapital ta’mirlanadi.

Ma’naviy eskirish sababi ikki xil bo‘ladi; birinchidan, yangi, ancha unumli mashinalar kashf etilishi va ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi eskirgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati to‘lmasdanoq qadrsizlanganligi va ma’naviy eskirganligini bildiradi. Ikkinchidan, texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining o‘sishi ishlab turgan mashinalar qiymatining kamayishiga olib keladi.

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlari asta – sekin eskirib boradi va buning natijasida sanoat tarmog‘ining ishlab chiqarish salohiyati shunga mos ravishda pasayib boradi.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarilishi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi [11]:

a) asosiy fondlarning eksplutatsiyasi, jismoniy va texnik holati;
b) ularning yangilanish sur’ati;
d) asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari.

Asosiy fondlarning eksplutatsiya holati ularni faqat aktiv qismi, ya’ni ish va kuch mashinalari, asbob-uskunalari uchun aniqlanadi. Fondlarning jismoniy holati ularning yemirilishi va yaroqlilik koeffitsiyentlari bilan xarakterlanadi.

Emirilish koeffitsiyenti:

$$K_{ym} = \frac{F - F^1}{F} \quad (7)$$

Bunda F – asosiy fondlarning to‘liq bahosi, F1 – asosiy fondlarning qoldiq bahosi.

Agar 1 sonidan yemirilish koeffitsiyentini ayirib tashlasak, u holda yaroqlilik koeffitsiyenti kelib chiqadi:

$$K_{yaroq} = 1 - K_{ym}; \; K_{yaroq} = \frac{F'}{F} \quad (8)$$

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish sur’ati hamda ularning jismoniy va texnik holatlaridagi o‘zgarish sur’atlarini xarakterlash maqsadida yangilanish va ishlab chiqarishdan chiqarib tashlangan fondlar koeffitsiyentlari hisoblanadi.

$$K_{yang} = \frac{F_к^1}{F_1}; \; K_T = \frac{F_{ch}}{F_0}; \quad (9)$$

Har ikkala koeffitsiyentning bir – biriga yaqinlashuvi eski fondlarning yangi fondlar bilan almashinuvini, yangilanish koeffitsiyentining juda katta bo‘lishi esa fondlarning kengaygan takror ishlab chiqarilayotganini xarakterlaydi.

Sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish salohiyatining muhim unsuri hisoblangan mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari [12]:

1. Birta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan ishga chiqishlarning o‘rtacha soni (T^{kun}), kun:

$$T^{kun} = \frac{T_{fakt}}{O'IS^{ish}} \quad (10)$$

Bunda Tfakt – amalda ishlangan davr (kun), O‘ISish – o‘rtacha ro‘yxatdagi ishlovchilar soni (kishi).

2. Ish kuni yo‘qotilishining solishtirma vazni (U^{yqt}), foiz:

$$U^{yqt} = \frac{Y^{vq}}{T_{nom}} \quad (11)$$

Bunda Yvq – ish kunining yo‘qotilishi (soatlarda), Tnom – ish kunining nominal fondi (soatlarda).

3. Ish kuni umumiy yo‘qotilishi (ΔUY^{vq}), kishi-kun:

$$\Delta UY^{vq} = Y_{yk}^{vq} \cdot O'IS \quad (12)$$

Bunda Y_{yk}^{vq} – bir soatga to‘g‘ri keladigan ish vaqti yo‘qotilishlarining soatlar soni, O‘ISish – o‘rtacha ro‘yxatdagi ishlovchilar soni (kishi).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

4. Ish vaqtining potensial fondi (T^{pot}), kishi-kun:

$$T_{pot} = T_{ish} \cdot O\,IS \quad (13)$$

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda sanoat tarmog'i ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan eng asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tarkibiy qayta tuzish, modernizatsiya va yuqori texnologiyali muhim ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati.
2. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini bosqichma – bosqich kengaytirish.
3. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab – quvatlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat tarmog'ini rivojlantirish, uning tizimidagi korxonalarning qimmatli qog'ozlariga kapital qo'yish, tarmog'dagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish va innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish, yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish va ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash – birinchi navbatda ushbu tarmoqda investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni talab etadi va mazkur jarayonda quyidagi ikki muammoga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

Birinchidan, sanoat tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish muammosi. Agar jalb qilinayotgan investitsiyalar tarmoq korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda tarmoq korxonalarining taqsimlanmagan foydasi, amortizatsiya ajratmalari fondi, aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hamda maxsus fondlar faoliyatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Agar investitsiyalash tashqi, ya'ni xorijiy investitsiyalari va kreditlari hisobidan amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda – "sanoat tarmog'ining investitsion jozibadorligi"ni oshirish, mamlakatdagi investitsion muhit va iqlimni yanada yaxshilash hamda davlatning investitsiya siyosatini takomillashtirishni talab etadi.

Ikkinchidan, sanoat tarmog'ida jalb qilingan investitsiyalardan samarali foydalanish muammosi. Bu esa, quyidagi masalalarga yetarlicha e'tibor qaratishni talab etadi:

- sanoat tarmog'ida kiritilayotgan texnologiyalarning to'la quvvatlar bilan ishlashini ta'minlash;
- tarmoqqa yuqori malakali kadrlarni jalb etish va ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- asosiy kapitalga kiritilgan 1 so'mlik investitsiyaga to'g'ri keladigan mahsulot qaytimini oshirish maqsadida tarmoqda investitsiya qaytimi yuqori bo'lgan yuqori texnologiyalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalar kiritishda nisbiy ustunlik va imtiyozlar berish;
- tarmoqda xorijiy investitsiyalari hisobiga tashkil etilayotgan yangi obyektlarning qurilish davrini qisqartirish va bu sohada investitsiya loyihalarini o'z vaqtida amalga oshirishdir.

XULOSA

Sanoatning rivojlanishi murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, sanoat tarmog'ining rivojlanishini bitta yoki bir necha ko'rsatkichlar bilan yaqqol ifoda etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur jarayonda ko'rsatkichlar tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat uchun ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda jalb etiladigan investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma holatining o'rni beqiyosdir. Sanoat infratuzilmasining tarkibiy qismi hisoblangan texnik xizmat ko'rsatish tuzilmasi (yordamchi ishlab chiqarish) – bu asosiy ishlab chiqarishni uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlovchi tarkibi bo'lib, ularga ta'mirlovchi, energetik, transport, omborxona va boshqa xo'jaliklar kiradi hamda mazkur infratuzilmaning samarali ishlashi sanoatda ishlab chiqarish salohiyatining o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foy-

dalanish sanoat tarmog‘ida bir vaqtning o‘zida barcha ega bo‘lingan resurslardan ratsional foydalanish orqali yuqori yakuniy natijaga erishishni ko‘zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дубков С., Дадалко С., Фоменок Д. Формирование и оценка экспортного потенциала промышленных предприятий. Банкаўскі веснік, КАСТРЫЧНІК 2011. – 29 с.
2. Ларионов А. О. Оценка промышленного потенциала региона. Проблемы развития территории. Вып. 2(76). 2015. – 46 с.
3. Qayumov A, Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O‘. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. O‘zMU. Toshkent – 2004. – 34 b.
4. Назаров Ш. Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Монография. Ш. Х. Назаров. Ташкент: IFMR, 2014. С. 184, 186-189, 201.
5. Свинцова А. П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура. Экономический вестник УГНТУ / под ред. д.э.н. Родионовой Л. Н. // Сб. трудов УГНТУ, 2001. – С. 103-106.
6. Лопатников Л. И. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. – 5-е изд., перераб и доп. – М.: Дело, 2003. – 291 с.
7. To‘xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermatov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 25 b.
8. Романов А. П. и др. Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие – Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО “ТГТУ”, 2012. – 73 с.
9. Куликов Н. И., Бажилин А. Э. Комплексная оценка производственного потенциала отраслей пищевой промышленности Тамбовской области. Проблемы современной экономики, N 3/4 (19/20), 2006.
10. Адамов В. Е. Статистика промышленности. Учебник. – М.: Финансы и статистика, –1987.
11. Nabiyev X. N, Nabiyev D. X, Ahmedova M. Sh. Sanoat statistikasi – (o‘quv qo‘llanma) – T.: TDIU, 2011 – 70 b.
12. Лашманова Ю. Ю. Система показателей оценки производственного блока производственного потенциала предприятия. Российское предпринимательство. Том 18. № 7 апрель 2017. – С. 1110 – 1116.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БАНКОВ: РИСКИ И СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ АКТИВАМИ В ЦИФРОВОЙ ЭПОХЕ

Кодиров Бобур
Магистр, Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

x2	Coef.	Std. Err.	t	P>|t|	[95% Conf.	Interval]
x2						
L1.	.1608236	.4063639	0.40	0.704	-.8000742	1.121721
_cons	58.65794	29.93012	1.96	0.091	-12.11555	129.4314

5-rasm: AR modelining regression tahlili[11]

AR(1) modelini ikkinchi ta’sir etuvchi omil uchun tuzib olamiz va natijalarni tahlil qilib, model shaklini tuzib olamiz.

x2=58.65794+0.1608236*L1.x2

AR modellari ichidan eng ijobiysi 1-tartibli lag modeliga to‘xtalindi. Qancha lag o‘zgaruvchini ko‘paytirgan sari natijalar salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ikkala ta’sir etuvchi omillar uchun ham AR(1) modelidan foydalanib, o‘rta muddatli prognoz qiymatlar olindi.

10 Muallif amaliy paket yordamida olgan qiymatlari
11 Tadqiqotchi hisob-kitob qiymatlari

years	x1	x2	yhat1
2023	292.132	62.1044	591.9632
2024	298.389	68.6458	618.7801
2025	302.23	69.6978	625.3056
2026	304.589	69.867	627.7136
2027	306.037	69.8942	628.9349

6-rasm: O‘rtacha prognoz qiymatlar[12]

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda o‘z mablag‘idan foydalangan miqdori (x1 o‘zgaruvchi) va davlat budjetidan moliyalashtirilgan mablag‘ (x2 o‘zgaruvchi) miqdorlarining prognoz qiymatlari olinib, tenglamalar tizimi orqali yuqoridagi optimal MR modelidagi o‘zgaruvchilar o‘rniga qo‘yildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

AJ ning investitsion loyihalarning miqdori (y o‘zgaruvchi) yendogen omil bilan investitsion loyihalarni amalga oshirishda o‘z mablag‘idan foydalangan miqdori (x1 o‘zgaruvchi) va davlat budjetidan moliyalashtirilgan mablag‘ miqdori – x2 o‘zgaruvchilar bilan to‘g‘ri va zich bog‘langanligini ifodaladi.

Natijada AJ ning investitsion loyihalarning miqdorining stoxastik o‘rta muddatli prognoz qiymatlari hosil qilindi. O‘zbekiston temiryo‘llari AJ 2027-yilga borib, empirik 628.9349 mlrd.so‘m miqdorga erishadi. Agarda o‘z mablag‘idan 306.037 mlrd.so‘m va davlat budjetidan 69.8942 mlrd.so‘m miqdorda moliyalashtirilsa.

Shu bilan birgalikda MR modeliga asosan xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston temiryo‘llari aksionerlik jamiyati 2027-yilga borib 629 mlrd.so‘m miqdorda investitsion loyihalarni amalga oshirishi mumkin. Bunda u o‘z mablag‘idan 50 foiz miqdorda va davlat tomonida 10 foiz miqdorda va qolgan 40 foiz miqdorini xorijiy investitsiyalar kiritish orqali amalga oshirishi muinin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank.” – Август 2022 г.
2. Salzmann A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogunlana S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication – 224, pp 475-485.
3. Salzmann, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9, pp – 101-114.
4. Chege, L. W. And Rwelamila, P. D. (2001) Private Financing of Construction Projects and Procurement Systems: An Integrated Approach. In (ed) Duncan, J. Performance in Product and Practice, Proceedings of the CIB World Building Congress, 2-6 April, Wellington, NZ.
5. Добрин А. Ю. “Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве” Диссертация/ Москва – 2016 г.
6. Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.
7. https://www.codingninjas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods

12 Tadqiqotchi Stata16 ekonometrik amaliy paketi orqali olingan stoxastik natijasi

BANKLARDA MUMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH: SAMARALI STRATEGIYA VA YONDASHUVLAR

Mirsaliyev Erkin Ergashevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tyutori

Annotatsiya: Muammoli kreditlar bilan ishlash banklar uchun eng qiyin vazifalardan biri bo‘lib, alohida e’tibor va malaka talab qiladi. Ushbu maqolada banklarda mummoli kreditlar bilan ishlashning asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan hamda ularni hal qilish bo‘yicha samarali strategiya va yondashuvlar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: bank, bank faoliyati, skoring, kredit, zaxira, muammoli kredit, NPL, xatar, kredit monitoringi, strategiya, optimallashtirish.

Abstract: Dealing with problem loans is one of the most difficult tasks for banks and requires special attention and skills. This article examines the main aspects of working with problem loans in banks and proposes effective strategies and approaches to combat them.

Key words: bank, banking activity, scoring, loan, reserve, problem loan, non-performing loans, risk, credit monitoring, strategy, optimization.

Аннотация: Работа с проблемными кредитами является одной из самых сложных задач для банков и требует особого внимания и навыков. В данной статье рассмотрены основные аспекты работы с проблемными кредитами в банках и предложены эффективные стратегии и подходы борьбы с ними.

Ключевые слова: банк, банковская деятельность, скоринг, кредит, резерв, проблемный кредит, неработающие кредиты, риск, кредитный мониторинг, стратегия, оптимизация.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda kredit iqtisodiy rivojlanishning eng muhim manbayi bo‘lib qolmoqda. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, ham alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ham butun davlatlar va ularning hukumatlari tomonidan faol qo‘llaniladi. Biroq amaliyotda banklar tomonidan berilgan kreditlar har doim ham o‘z vaqtida qaytarilavermaydi.

Bank faoliyatining butun tarixi davomida muddati o‘tgan va muammoli bank kreditlari ham bank hamjamiyatini, ham butun jamiyatni tashvishga solib kelgan. Ko‘pgina hollarda kredit va investitsiya jarayonini tashkil etishdagi xatolar moliyaviy barqarorlikni yo‘qotishga, o‘z kapitalini isrof qilishga va hatto kredit tashkilotlarining bankrotligiga olib keladi. Muddati o‘tgan kreditlar yangi kredit berishni to‘sib qo‘yadi va banklarning rentabelligi va to‘lov qobiliyatini pasaytiradi. Ishlamaydigan kreditlarning yuqori darajasi yetarlicha katta miqdordagi banklarga ta’sir qilganda, moliya tizimi barqaror ishlashni to‘xtatadi va banklar iqtisodiyotni kreditlash funksiyasini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Moliya bozori faoliyatidagi uzilishlar va banklar faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, – “Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”. Kuchli iqtisodiyotni bo‘lsa kuchli bank tizimisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bank tizimi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda amalda lokomotiv vazifasini bajaradi.

Muammoli kreditlar (NPL, Non-performing loan-ishlamaydigan kreditlar) – bu qaytarish muddati 90 kundan o‘tgan va qoniqarsiz, shubhali, umidsiz, deb tasniflangan kreditlardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklarda muammoli kreditlar hajmi oshib borar ekan, ularni kelib chiqish sabablari va uni oldining olish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyati paydo bo‘ldi.

G‘arb olimlarining muammoli kreditlar haqidagi fikrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular bunday kreditlarni iqtisodiyot va jamiyat uchun potensial xavfli, deb bilishadi. Ularning ta’kidlashicha, umidsiz kreditlar moliyaviy inqirozlarga olib kelishi, banklarning kredit obro‘sini yomonlashishi va uy xo‘jaliklarining qarz yukini oshirishi mumkin. Shuningdek, olimlar kreditlar berishda nazorat qiluvchi organlar va banklar tomonidan qattiq nazorat o‘rnatish zarurligiga, shuningdek, kredit xizmatlari iste’molchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish muhimligiga e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, ular muammoli kreditlarni hal qilishning turli usullarini taklif etadilar, masalan, qarzlarni qayta tuzish, moliyaviy ta’lim va maslahatlar berish, qarz oluvchilar uchun talablarni kuchaytirish. Umuman olganda, G‘arb olimlarining fikr-mulohazalari muammoli kreditlar muammosining jiddiyligi va uni hal etish choralarini ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi.

Jumladan, g‘arblik iqtisodchi Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta’minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o‘tishini anglatadi.

Rossiyalik iqtisodchi olim Lavrushin muammoli kreditlarni bank xodimlarining qarz oluvchiga yoki uning garoviga nisbatan shubhalari nuqtayi nazaridan tavsiflaydi. Muammoli kreditning bu tushunchasi kengroq bo‘lib, I, I, va III sifat toiflaridagi kreditlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Mahalliy olimlardan professor Sh. Z. Abdullayevaning yondashuviga ko‘ra, substandart kreditlar ham o‘z vaqtida qaytarilmaganligi tufayli muammo keltiruvchi kreditlar sifatida tahlil qilinishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra muammoli aktivlar – sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlardir.

Bank nazorati bo‘yicha Xalqaro Bazel qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, muammoli kredit bu – qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolining sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki hatto yo‘qotilishi bo‘lgan kreditdir.

1-jadvalda tijorat banklarining muammoli kreditlari bo‘yicha 2023-yil 1-oktyabr va 1-sentabr holatiga solishtirma ma’lumotni ko‘rib chiqamiz:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yil sentabr oyi yakuni bo‘yicha bank tizimida muammoli kreditlar hajmi 441 mlrd so‘mga kamaydi. Kredit portfeli hajmi 6,89 trln so‘mdan ziyodga ko‘paygan va bank tizimining jami kredit portfeli 451,6 trln so‘mni tashkil qilmoqda. 2023-yil 1-oktyabr holatiga muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi esa 3,73 foizga yetgan (-0,16%).

Davlat banklaridagi NPL ko‘rsatkichi 0,07 foizga kamayib, 3,82 foizni tashkil qilmoqda. Oy davomida muammoli kreditlar hajm jihatdan Turonbank (-57 mlrd so‘m), Asakabank (-36 mlrd so‘m) hamda O‘zsanoatqurilishbank (-29 mlrd so‘m) larda nisbatan kamaygan. Aloqabank, Agrobanklarda bo‘lsa muammoli kreditlar hajmi ko‘paygan. Davlat ulushi ustuvor bo‘lmagan banklardagi NPL ko‘rsatkichi 0,38 foizga kamayib, 3,32 foizni tashkil qilmoqda. Ipoteka-bank (-448 mlrd so‘m), Universalbank (-29 mlrd so‘m) larda nisbatan ko‘proq muammoli kreditlar o‘sishi kuzatilgan. Ipotekabankda joriy yil iyul va avgust oylarida NPL ko‘rsatkichi 1 trln so‘mdan ko‘proqqa o‘sgan bo‘lsa, sentabr oyida qariyb 450 mlrd so‘mga kamaygan. Shu vaqtga qadar muammoli kreditlar ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinda bo‘lgan Avo bank (oldingi O‘zagroeksportbank) ning NPL’i to‘liq tozalangan. Hozirda Octobank (83,33%), Garantbank (17,79%), Eron Soderot bank (13,85%) hamda Madad invest bank (12,82%) da NPL ko‘rsatkichi 2 xonali raqamda qolmoqda. Shuningdek, O‘zmilliybank (3,00 trln so‘m), Ipoteka-bank (2,59 trln so‘m) hamda Xalq banki (2,14 trln so‘m) muammoli kreditlar miqdori bo‘yicha yetakchi o‘rinda turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 18-aprelda 3427-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizomga asosan banklar kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash hamda muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash maqsadida kreditlarni yakka tartibda va portfel kesimida monitoring qilish tizimini ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi kerak.

Nizomga asosan tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni monitoring qilishga quyidagi talablar qo‘yilgan.

1-jadval: Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)ning 2023-yil 1-oktyabr va 1-sentabr holatiga solishtirtma ma'lumot

Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) нинг 2023 йил 1 октябрь ва 1 сентябрь ҳолатига солиштирма маълумот

млрд. сўм

№	Банк номи	Кредит портфель			Муаммоли кредилар (NPL)			Муаммоли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши		
		1 сентябрь ҳолатига	*1 октябрь ҳолатига*	*Ўзгариши (+,-)*	*1 сентябрь ҳолатига*	*1 октябрь ҳолатига*	*Ўзгариши (+,-)*	*1 сентябрь ҳолатига*	*1 октябрь ҳолатига*	*Ўзгариши (+,-)*
Жами		**444 723**	**451 610**	**6 887**	**17 269**	**16 828**	**-441**	**3,88%**	**3,73%**	**-0,16%**
Давлат улуши мавжуд банклар		**320 437**	**324 035**	**3 598**	**12 669**	**12 589**	**-79**	**3,95%**	**3,89%**	**-0,07%**
1	Ўзмиллийбанк	93 285	93 536	251	3 023	3 001	-22	3,24%	3,21%	-0,03%
2	Ўзсаноатқурилишбанк	55 091	55 345	255	1 591	1 562	-29	2,89%	2,82%	-0,06%
3	Асака банк	39 722	40 074	351	1 803	1 767	-36	4,54%	4,41%	-0,13%
4	Агробанк	51 558	53 443	1 885	1 862	1 898	36	3,61%	3,55%	-0,06%
5	Халқ банки	23 021	23 401	380	2 163	2 140	-22	9,39%	9,15%	-0,25%
6	Бизнесни ривожлантириш банки	21 753	22 174	421	920	924	5	4,23%	4,17%	-0,06%
7	Микрокредитбанк	14 119	14 197	77	730	729	0	5,17%	5,14%	-0,03%
8	Турон банк	10 663	10 903	240	363	307	-57	3,40%	2,81%	-0,59%
9	Алоқа банк	11 142	10 881	-261	214	259	45	1,92%	2,38%	0,46%
10	Пойтахт банк	82	80	-2	0	0	-0,1	0,32%	0,20%	-0,12%
Бошқа банклар		**124 286**	**127 576**	**3 289**	**4 601**	**4 239**	**-362**	**3,70%**	**3,32%**	**-0,38%**
11	Ипотека банк	34 558	35 107	550	3 037	2 589	-448	8,79%	7,37%	-1,41%
12	Капитал банк	23 581	24 205	624	223	285	62	0,94%	1,18%	0,23%
13	Ҳамкор банк	14 833	15 128	295	88	97	9	0,59%	0,64%	0,05%
14	Ипак йўли банк	10 413	10 630	217	263	264	1	2,52%	2,48%	-0,04%
15	Ориент Финанс банк	7 234	7 547	313	19	16	-3	0,26%	0,21%	-0,05%
16	Инвест Финанс банк	6 068	6 197	128	93	91	-2	1,54%	1,47%	-0,06%
17	Траст банк	4 727	4 837	110	125	124	-1	2,64%	2,55%	-0,09%
18	Давр банк	4 251	4 474	223	31	33	2	0,73%	0,73%	0,00%
19	Тенге банк	3 850	3 828	-22	73	81	8	1,90%	2,12%	0,22%
20	Азия Альянс банк	2 952	3 161	209	63	79	15	2,15%	2,50%	0,35%
21	Анор банк	3 044	3 079	35	42	50	8	1,39%	1,62%	0,23%
22	Тибиси банк	2 781	2 954	173	64	66	2	2,30%	2,22%	-0,08%
23	ЎзКДБ банк	2 061	2 143	82	0	0	0	0,00%	0,00%	0,00%
24	Гарант банк	1 097	1 031	-65	173	183	10	15,79%	17,79%	1,99%
25	Зираат банк	1 172	1 542	370	26	25	-2	2,25%	1,60%	-0,65%
26	Универсал банк	1 117	1 111	-6	35	7	-29	3,16%	0,59%	-2,57%
27	Октобанк	260	258	-3	214	215	1	82,06%	83,33%	1,27%
28	Мадад инвест банк	222	257	35	30	33	3	13,57%	12,82%	-0,74%
29	Эрон Содерот банк	27	25	-1	1	4	2	4,65%	13,85%	9,21%
30	Апекс банк	19	22	3	0	0	0	0,00%	0,00%	0,00%
31	АВО банк	0	7	7	0	0	0	97,04%	0,00%	-97,04%
32	Смарт банк	1	0	0	0	0	0	0,00%	0,00%	-
33	Узум банк	0	0	0	0	0	-	0,00%	0,00%	-
34	Ҳаёт банк	21	21	-	0	0	-	0,00%	0,00%	-
35	Янги банк	0	12	-	0	0	-	0,00%	0,00%	-

Kreditni monitoring qilish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qarz oluvchining kredit hujjatlarini (elektron yoki qog'oz shaklida) shakllantirish va yuritish;
- qarz oluvchining kredit hujjatlarini tekshirish;
- kreditning maqsadli ishlatilishini (agar kredit shartnomasida maqsadliligi belgilangan bo'lsa) monitoring qilish;
- qarz oluvchining moliyaviy holatini, kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash bo'yicha kredit shartnomasi shartlarining bajarishini monitoring qilish;
- qarz oluvchining kredit shartnomasining boshqa shartlariga rioya etishini monitoring qilish;
- ta'minotning mavjudligi, yetarliligi va butligini hamda uning bozor qiymati qayta baholanishini monitoring qilish;
- kredit tavakkalchiligining hajmi va u bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarning yetarliligini monitoring qilish.

XULOSA TAKLIFLAR

Muammoli kreditlar bilan ishlash banklar uchun eng qiyin vazifalardan biri bo'lib, alohida e'tibor va malaka talab qiladi. Quyida tijorat banklarida mummoli kreditlar bilan ishlashning asosiy jihatlari ko'rib chiqamiz hamda ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiya va yondashuvlarni taklif qilamiz.

1. Xatarlarni tahlil qilish va baholash:

Muammoli kreditlar bilan ishlashda birinchi qadam risklarni tahlil qilish va baholashdir. Bank qarz oluvchini, uning moliyaviy ahvolini, to'lov qobiliyatini va kreditni qaytara olish qobiliyatini har tomonlama o'rganishi kerak bo'ladi. Shuningdek, mijoznung kreditni to'lash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mavjud iqtisodiy vaziyat, tarmoq omillari va boshqa tashqi sharoitlarni hisobga olishi kerak.

2. Shaxsiy yechimlarni ishlab chiqish:

Har bir muammoli vaziyat individual yondashuvni talab qiladi. Bank qarz oluvchining o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashuvchan strategiyani ishlab chiqishi kerak. Muammoni hal qilishning turli xil variantlari mavjud, jumladan, kredit shartnomasini qayta tuzish, to'lov jadvalini o'zgartirish, foiz stavkasini kamaytirish yoki hatto qarzni qisman hisobdan chiqarish.

3. Qarz oluvchi bilan o‘zaro munosabatlar:

Muammoli kreditlar bilan ishlashning kaliti qarz oluvchi bilan faol hamkorlikdir. Muammolarning sabablarini aniqlash va eng yaxshi yechim topish uchun bank ochiq va ishonchli muloqotni o‘rnatishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, o‘zaro tushunish va hamkorlik muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

4. Qo‘shimcha yordam ko‘rsatish:

Ba’zi hollarda qarz oluvchilar kreditni to‘lash uchun qo‘shimcha yordam talab qiladi. Bank moliyaviy maslahatlar berishi, qarzni to‘lash rejasini ishlab chiqishda yordam berishi yoki hatto qarz oluvchining moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish uchun vaqtinchalik moliyalashtirishni taqdim etishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar risklarni kamaytirishga va kreditni qaytarish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

5. Monitoring va nazorat:

Muammoli kredit bo‘yicha qaror qabul qilingandan so‘ng bank shartnoma shartlariga rioya etilishi ustidan doimiy monitoring va nazorat olib borishi shart. Bu bankka vaziyatning o‘zgarishiga tezda javob berish va xavflarni minimallashtirish uchun zarur choralarni ko‘rish imkonini beradi. Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini muntazam tahlil qilish va qarzni o‘z vaqtida undirish bank yo‘qotishlarini kamaytirishga yordam beradi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash professional yondashuv va malakali risklarni boshqarishni talab qiladi. Banklar yo‘qotishlarni minimallashtirish va o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlaydigan samarali strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqishga intilishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, har bir muammoli vaziyat o‘ziga xosdir va uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvni talab qiladi.

Banklarda muammoli kreditlarni optimallashtirish

Muammoli kreditlarni optimallashtirish – muammoli kreditlar portfelining sifatini oshirish va bank uchun risklarni kamaytirishga qaratilgan jarayondir. Quyida banklardagi muammoli kreditlarni optimallashtirishning bir necha asosiy usullarini taklif etamiz:

1. Kreditni qayta tuzish: Bank qarz oluvchiga kredit shartlarini o‘zgartirishni taklif qilishi mumkin, masalan, foiz stavkasini pasaytirish, to‘lash muddatini uzaytirish yoki kreditning asosiy summasi bo‘yicha kredit ta’tili berish. Bu qarz oluvchiga qarzni to‘lash va bank uchun xavfni kamaytirishga yordam beradi.
2. Muammoli kreditlarni sotish: Bank muammoli kreditlarni boshqa moliya institutiga yoki qarzni undirishga ixtisoslashgan kompaniyaga sotishi mumkin. Bu bankka muammoli kreditlarni keyingi boshqarishdan qochish va asosiy faoliyatiga e’tibor qaratish imkonini beradi.
3. Qarzni undirish: Bank qarzni undirish bo‘yicha sudga da’vo qilish, garovni undirish yoki sotish kabi choralar ko‘rishi mumkin. Bu bankka qarzni to‘lash va yo‘qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.
4. Zaxiralarni tashkil etish: Bank muammoli kreditlar hisobidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratishi mumkin. Bu bankka o‘z risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.
5. Kredit skoring tizimini takomillashtirish: Bank risklarni aniqroq baholash va muammoli kreditlarning oldini olish uchun qarz oluvchini baholash va kredit skoring tizimini takomillashtirishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir bank o‘zining ichki siyosati va tartiblariga qarab muammoli kreditlarni optimallashtirishning o‘ziga xos usullariga ega bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi banklardagi muammoli kreditlar hajmining pasayishiga, tijorat banklari moliyaviy holatining barqarorlashishiga, shu orqali milliy iqtisodiyotimiz o‘sishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. –T.: Moliya, 2002. 117-b.
2. Дробозина Л. А. Финансы, денежное обращение, кредит. – Москва. ЮНИТИ, – 2000. – 256-с.
3. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. С англ. –М.: Дело, 1997, 125-с.
4. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. – М.: Юристъ, – 2002, 456-б.
5. “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: – 2696, 2015-yil 14-iyul) Nizom.
6. “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: – 3427, 2023-yil 18-aprel) Nizom.
7. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti).
8. https://t.me/bankers_uz nashri.
9. https://t.me/bankxabar. uz nashri

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

AGROSANOAT ISHLAB CHIQARISHINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA UNING INNOVATSION RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b.

Muxtorova Oydin Sayfiddin qizi
Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshlik tushunchasiga uni oshirish yo‘llariga, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishga va milliy innovatsion tizimni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda innovatsion rivojlantirish bilan uzviy o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy asoslangan tadqiqot takliflari va tavsiyalari berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion tizim,innovatsion muhit, agrosanoat ishlab chiqarishi, mintaqa raqobatbardoshligi, sifat.

Abstract: In this article, special attention is paid to the concept of competitiveness of agro-industrial enterprises, ways to improve it, the effective use of innovative potential and the development of the national innovation system. At the same time, scientifically based research proposals and recommendations were given on the relationship of innovative development in the development of agro-industrial production.

Key words: competitiveness, innovation, innovation system, innovation environment, agro-industrial production, regional competitiveness, quality.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделено понятию конкурентоспособности предприятий агропромышленного производства, путям ее повышения, эффективному использованию инновационного потенциала и развитию национальной инновационной системы. При этом были даны научно обоснованные исследовательские предложения и рекомендации по взаимосвязи инновационного развития в развитии агропромышленного производства.

Ключевые слова: конкурентоспособность, инновации, инновационная система, инновационная среда, агропромышленное производство, региональная конкурентоспособность, качество.

KIRISH

Raqobatbardoshlik – tovar, korxona, sanoat, mintaqa, mamlakat miqyosida shakllanadigan bozor munosabatlaridagi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, umuman olganda, boshqa analoglar bilan raqobatlashish qobiliyati ko‘rinishida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’sis etuvchi subyektlari manfaatlari o‘zaro yaqinlashib, rivojlanayotgan bozor maydonida qatnashadi, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samarali biznes va tijorat faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlaydigan eng ishonchli raqobatbardosh pozitsiyalarga ega bo‘lgan hudud raqobat muhitini yaratadi. Shu bois, bugungi kunda mintaqalarning ishonchli raqobatbardosh pozitsiyalari va ularning raqobatbardoshligini oshirish mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim shartlar bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish nafaqat uning iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi, balki o‘z xalqining hayot darajasi va sifatini oshirishning muhim omili sifatida ham e’tirof etiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yuzaga keladigan investitsiyalar uchun hududiy tanlovni jadallashtirish va aholining talab darajasi o‘sishi hududiy raqobatbardoshlikning xarakteri va iqtisodiy mazmunini oshkor qilish bo‘yicha talablarni kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish va uning innovatsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi mavzusiga doir tadqiqotlarni o‘rganish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘zlarining tadqiqotlarida, adabiyotlarida va xalqaro konferensiyalarda qo‘yidagicha fikr va muhozalarini keltirib o‘tishgan.

V. I. Vidyapina, M. V. Stepanovalarning fikricha mintaqaning raqobatdoshlik pozitsiyasi raqobatbardosh ustunliklari uyg‘unligi sifatida tushuniladi, bu esa tegishli raqobatbardosh sohada (tovar va xizmatlar bozori, kapital, investitsiyalar) mintaqa uchun qulay mavqega ega omillar va shartlar bilan belgilanadi [1].

T. G. Morozovoy qo‘yidagicha tarif keltirib o‘tgan. Mintaqaning iqtisodiy jarayoni sifatida raqobatbardoshligi turli xil sharoitlarda ta’sir ko‘rsatadigan murakkab va qarama-qarshilik harakatlarining uyg‘unligi hisoblanadi: ishlab chiqarishning omilli sharoitlari (mintaqani xom ashyo bilan ta’minlash, malakali kadrlar, ishlab chiqilgan moddiy va innovatsion infratuzilma); xo‘jalik yuritishning umumiy sharoitlari (moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy xavfsizlik, asosiy vositalarning amortizatsiya darajasi va boshqalar); mintaqaning asosiy tarmoqlari mahsulotlariga talab omillari; ijtimoiy; ijtimoiy-madaniy; tashkiliy-huquqiy; innovatsion sharoitlar [2].

Kistanov V. V. o‘z tadqiqotlarida muaomoga qo‘yidagicha yondashib XX asrning yangi iqtisodiy tendensiyalari bilan bog‘liq ravishda hududlarning raqobatbardoshligi mintaqaviy rivojlanishning mustaqil nazariy va amaliy muammolari sifatida ko‘rib chiqgan. Biroq iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, hozirgi paytda mualliflar zamonaviy mintaqaviy tadqiqotlar tendensiyalari va metodik tushunchalarining turliligining sabablaridan biri bo‘lgan mintaqalararo raqobat va raqobatbardoshlikning umume’tirof etilgan nazariyasiga ega emaslar [3].

D. Sepikni fikriga ko‘ra, quyidagi omillar mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun asosiy kuchdir:

- klasterlar; inson kapitali;
- mavjud bo‘lgan korxonalar va tarmoqlar;
- mintaqaviy innovatsion tizimlar;
- boshqaruv va institutsional salohiyat;
- korxonalarning sanoat tuzilishi va turi;
- infratuzilma;
- viloyatlarning urbanizatsiya darajasi va ishlab chiqarishning integratsiyalashuv darajasi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning xalqaro aloqasi va tabiati;
- geografik joylashuv;
- investitsiyalarning jozibadorligi [4].

Kofner Yu. Yu o‘z ilmiy maqolasida masalaga qo‘yidagicha tarif berib o‘tgan “Yangi iqtisodiyot”ning jadal rivojlanishi, kapital bozorlari va yangi texnologiyalarning o‘zaro aloqalari o‘sib borishi, yangi texnologiyalarning harakatlanish darajasini kuchaytirish, bilim, texnologiya, mahsulotlar, xizmatlarni yaratish va ulardan foydalanishning keng ko‘lamliligi innovatsion tizimlarning infratuzilmasi mamlakatlarning raqobatbardosh rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishini shartlab berdi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish va uning innovatsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi mavzusidagi maqolada ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarning raqobatbardoshligi muammosiga katta metodologik ahamiyatga ega va ilmiy qiziqish bilan bugungi kunning ko‘plab muammolari hal etilmagan.

Birinchidan, mamlakat iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi bo‘lgan “mintaqaning raqobatbardoshligi” va “tarmoq raqobatbardoshligi” konsepsiyalarini aniqlash masalasi yetarlicha rivojlangan emas va uning ilmiy anglashuvi iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tish davrida eng murakkab jarayonlarni davom ettirish sharoitida shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu tushunchalarning ilmiy mazmunda talqin qilish alohida ahamiyat kasb etadi va ularning mohiyatining tadqiq qilinishi juda muhimdir.

Raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy nazariyalari muayyan tarmoq va uning xo‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyatini shart-sharoitlarni muntazam hisobga olish, ular oldida turgan vazifalarni anglab yetishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘sish strategiyasining tarmoqning barqarorligi, talablarga javob beruvchi iqtisodiy natijalar va uning iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi variantini tanlashni belgilab beruvchi turli-tuman rivojlanish nazariyalarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Har bir tarmoq raqobatbardoshlikni oshirishning tez o‘zgaruvchan bozor muhiti sharoitida samarali rivojlanishga yordam beruvchi strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Hozirgi vaqtda o‘zgarishlar tezligi shunchalik yuqoriki, ishlanmalarning an’anaviy usullari takomillashtirishni talab etadi. Tarmoqqa hozirgi va kelgusi o‘zgarishlarga moslashish imkonini beruvchi moslashuvchan tizimni shakllantirish imkoniyatini taqdim etuvchi usullar zarur.

Metodologik nuqtayi nazardan bu usullardan uzoq muddatli keng chora-tadbir yoki yondashuvlarni belgilash uchun foydalaniladi, bu tarmoq xo‘jalik yurituvchi subyektlari raqobatbardoshligining o‘sishini boshqarishning konseptual yo‘nalishlarida rivojlantirib beradi

Ma’lumki, agrosanoat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi murakkab iqtisodiy kategoriyani o‘zida namoyon etadi. Korxonaning raqobatbardoshligi muammosiga bag‘ishlangan iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz uning quyidagi asosiy ta’rifini ajratdik.

Shunday qilib, agrosanoat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish ishlab chiqarishning cheklangan omillaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan hamda uning ichki va tashqi xatti-harakatni belgilab beruvchi korxona faoliyati va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro kelishilgan qarorlar va harakatlar yig‘indisini o‘zida namoyon etadi.

“Mintaqaning raqobatbardoshligi” konsepsiyasining turli ta’riflarini qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ta’kidlash mumkinki, mualliflar formulalar ichida ko‘pincha quyidagi kategoriyani ajratib ko‘rsatadilar: masalan, qobiliyat:

- viloyat aholisi uchun yuqori turmush darajasiga erishish;
- aholi jon boshiga nisbatan yalpi hududiy mahsulotga erishish;
- mintaqaning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish;
- mintaqaviy xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining muayyan sohalarida raqobatbardosh ustunliklarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish.

Mintaqadagi tovar ishlab chiqaruvchilarga raqobatbardosh afzalliklarni aniqlash tadqiqotga bag‘ishlangan bo‘lib, unda besh turdagi afzalliklar mavjud: resurs, texnologiya, innovatsion, global va madaniy. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchining raqobatdosh afzalligi – bu butunlay qiymati (umuman, qiymati), uning ishtiroki iqti-

sodiy ayirboshlashda iste'molchi ta'sirini yaratish va daromad olish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh ustunliklari nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki ularning arzonligi va ulardan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar, transport-kommunikatsiya turlariga, infratuzilmaga qulaylik yaratish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning narx ko'rsatkichlari mamlakat hukumati tomonidan yaratilgan soliq va byurokratik rejimlar, shuningdek, past foiz stavkalari, ya'ni arzon sarmoya.

Global chaqiriqlarga javob tariqasida yuzaga kelgan aynan mana shu keskin jarayonlarsiz boshlang'ich innovatsiya bo'g'inlari, innovatsiya faoliyati subyekt va obyektlarini yagona yaxlit infratuzilmasi tizimga uyg'unlashtirib bo'lmas edi. Dastlabki shart-sharoitlar sifatida: tizimli ta'lim (texnologik zanjirlar, malakali kadrlar zaxirasi va h.k.), tarmoqli texnologiyalar, yagona axborot makoni, yagona iqtisodiy va huquqiy muhit, milliy miqyosga ega yirik loyihalar, davlatning integratsiyalovchi roli, innovatsion xizmatlar va boshqalar shakllandi. Biroq bunday bog'lovchi, tizim tashkil etuvchi omillar faqat quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina, samarali faoliyat yurita oladi:

- innovatsiya jarayonini yo'lga qo'yish uchun yetarlicha texnologik va intellektual salohiyat;
- innovatsiya tarmoqlari ishtirokchilari soni, shu jumladan, unga yangi ijtimoiy guruhlarning jalb etilishi natijasida, muntazam o'sib borishi;
- innovatsiyali rivojlanishga yo'naltirilgan institutsional tizim (ham rasmiy, ham norasmiy unsurlarni o'z ichiga olgan holda);
- ko'p sonli xo'jalik yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar va umuman milliy iqtisodiyot tomonidan innovatsiyalarga talabning ortishi;
- innovatsiiya tizimini yetarli darajada moliyalashtirish imkoniyatiga ega iqtisodiy rivojlanish (YIM, xususan aholi jon boshiga).

Mana shu barcha talablarning bajarilishi, dastlabki tizimli shart-sharoitlarning mavjudligi, innovatsiyali rivojlanish muammolarini nazariy jihatdan tushunib yetish milliy innovatsion tizimning milliy chegaralar doirasida, ya'ni aynan yetakchi tarmoqlar, kichik va yirik korxonalar, universitetlar, laboratoriya, agroparklar, inkubatorlar va innovatsion jarayonlarni ta'minlab beruvchi moliyaviy va ijtimoiy tavsifga ega institutlar majmuyi doirasida ilmiy bilim va texnologiyalarni yaratish hamda tijoratlashtirish bilan band uzviy bog'liq tashkilotlar (tuzilmalar) majmuyi sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishiga yordam berdi.

Milliy innovatsion tizim mafkurasi Yevropa Ittifoqiga (EI) a'zo mamlakatlarning katta qismida, AQSh va Yaponiyada ayniqsa, keng tarqalgan. Biroq hozirgi vaqtgacha MIT(Milliy innovatsion tizim) tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emas. MITni shakllantirishga yagona bir nazariy va uslubiy yondashuvlar ham ishlab chiqilmagan. Shuningdek, turli mamlakatlarda milliy innovatsion tizim (MIT) oldiga turli maqsadlar qo'yilishi ham mumkin. Masalan, Fransiyada MIT maqsadi iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishdan, Germaniyada esa – raqobatbardosh texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Har bir muayyan holatda MITni rivojlantirish strategiyasi davlat tomonidan o'tkazilayotgan makroiqtisodiy siyosat, normativ-huquqiy ta'minot, davlatning bevosita va bilvosita aralashuvi shakllari, ilmiy-texnologik va sanoat salohiyati holati, ichki tovar bozorlari, mehnat bozorlari hamda tarixiy va madaniy an'ana-qadriyatlar va xususiyatlar orqali belgilanadi.

MIT asosini yaratuvchi milliy iqtisodiyotning tayanch bo'la oladigan sohalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- bilimlarning yuzaga kelishi (fan va boshqa sohalarda uning bo'g'inlari);
- bilimlarni ommalashtirish va keng miqyoslarda qo'llash (tadqiqot va ishlanmalar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish);
- yangiliklarni tijoratlashtirish (fan-texnika mahsulotlar bozori, bozor institutlari);
- ta'lim tizimi va kadrlarni innovatsion tadbirkorlikga tayyorlash;
- innovatsion xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, shu jumladan, moliyaviy ta'minot;
- boshqaruv va tartibga solish.

Mazkur sohalarning korxona va tashkilotlari, uning quyi tizimlari, bo'g'inlari va ularning o'zaro aloqalari, ya'ni milliy innovatsion tizim tuzilmasini tashkil etgan holda, innovatsionlik va kreativlik darajasiga bog'liq ravishda to'liq yoki qisman MIT tarkibiga kiritiladi.



1-rasm: Rivojlangan mamlakatlarda milliy innovatsion tizimning tuzilishi

1-rasmda rivojlangan mamlakatlardagi MIT modellarining o'ziga xos jihatlarini umumlashtiruvchi tuzilmaning shartli sxemasi keltirilgan.

Qayd etib o'tilgan elementlarning o'zaro munosabatlarini tavsiflab beruvchi mazkur model xususiy (tadbirkorlik) sektorning roli yirik korporatsiyalarning va fan sig'imi yuqori kichik firmalarning ilmiy markazlaridagi xususiy tadqiqotlar va ishlanmalar asosida texnologiyalar yaratish hamda innovatsiyalarni bozor maqsadlarida o'zlashtirishdan; davlatning roli esa – fundamental bilimlarni (universitetlarda) va yuqori texnologiyalar majmuyini qaror toptirishda, shuningdek, innovatsiya faoliyati uchun xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini hamda maqbul institutsional muhitni yaratib berishdan iborat ekanini ko'rsatadi.

Mana shu umumiy model doirasida MITning milliy xususiyatlari shakllanadi. Ular aytib o'tilgan vazifalarning bajarilishida davlatning va xususiy sektorning tutgan o'rni, fundamental, amaliy tadqiqot va ishlanmalar nisbatida yirik va kichik biznesning roli, innovatsion faoliyat tarmoq va mintaqaviy tuzilmalarining rivojlanish dinamikasi orqali namoyon bo'ladi.

Innovatsion xizmat ko'rsatish infratuzilmasi MIT faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion jarayonlarning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, keng innovatsion faollik aynan xizmat ko'rsatish infratuzilmasini samarali faoliyati bilan uzviy ravishda amalga oshirilar ekan.

Tadqiqotda innovatsion infratuzilma deganda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar bozorini to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasini tushunish mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion xizmatlar bozori deyarli barcha hududlarda mavjud bo'lishi ko'zda tutiladi, shu bilan birga, odatda innovatsion xizmatlar ilg'or texnologiyalar, texnika va uskunalar, yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgani sababli ular innovatsiyalarga to'lov qobiliyatiga ega talab yuqori bo'lgan muhitda kengroq tarkib topadi. Shu nuqtayi nazardan muallifning fikricha turli hududlarda innovatsion xizmatlar bozorining rivojlanganlik darajasi ko'p hollarda mazkur hudud iqtisodiyoti, xususan, uning agrosanoat sektorining rivojlanganlik darajasiga mutanosib ekanligi kuzatiladi.

Hududdagi agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi va samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan zarur infratuzilmaning yaratilganligi bilan bog'liq. Tadqiqotda innovatsion xizmatlar infratuzilmasi deganda innovatsiya mahsulotlar va xizmatlar bozorini to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasini tushunilishi asoslangan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar agrosanoat ishlab chiqarishi raqobatbardoshligini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o‘zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi.

Bunda quyidagilar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi:

- mazkur yillar davomida agrosanoat ishlab chiqarishida tayyor mahsulotlar hamda oraliq (yarim tayyor) mahsulotlar hajmining ko‘payishi hisobiga eksport tarkibi o‘zgardi;
- oziq-ovqat tovarlari eksportining yuqori sur’atlarda o‘sishi kuzatildi, unda meva-sabzavot mahsulotlari ulushi katta bo‘ldi, shuningdek, to‘qimachilik mahsulotlarini chetga chiqarish hajmi ortib bormoqda;
- agrosanoat ishlab chiqarishi xo‘jalik yurituvchi subyektlari eksport qiluvchi tovarlari ro‘yxatida yangi turdagi mahsulotlar – turli oziq-ovqat mahsulotlari konservalari, qadoqlashtirilgan quruq mevalar, vinochilik va boshqa ko‘plab turdagi mahsulotlar yuzaga kela boshladi.

Hozirgi sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishi innovatsiya jarayonlari muayyan hududlarda va turli tarmoqlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tahlillar agrosanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va tasniflash imkonini berdi (2-rasm).



2-rasm: Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmaning tarkibiy tarkibiy tuzilmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki:

1. Innovatsion faoliyatni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash vositalari tizimini shakllantirish muvofiq institutsional bazani yaratish, shuningdek, mintaqa iqtisodiyoti faoliyatini qo‘llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini joriy qilishda ko‘maklashuvchi infratuzilmalarni shakllantirish yo‘li bilan amalga oshirilishi ko‘rsatildi.
2. Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion xizmatlarning rivojlanish darajasi va samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan zarur infratuzilmaning yaratilganligi bilan bog‘liq. Tadqiqotda innovatsion xizmatlar infratuzilmasi deganda innovatsiya mahsulotlar va xizmatlar bozorini to‘laqonli faoliyat yuritishini ta’minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasi tushunilishi asoslangan.

3. Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmani samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartlaridan yana biri innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni iste'molchilarga yetib borishini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion tizimni mavjudligi hamda samarali faoliyat yuritishidan iboratligi asoslandi.

Bunday sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tartibga solishda davlatning roli muqarrar bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatadiki, agrosanoat majmuyida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun uni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita boshqarish orqali davlatning innovatsion va investitsion faoliyat jarayonlarida rolini faollashtirish lozim.

Shunday qilib, innovatsion jarayonlar uchun yaratilgan imkoniyatlar ta'siri ostida agrar ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi, o'z navbatida, ayrim hududlarning iqtisodiy rivojlanish holati va istiqboliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat agrosanoat ishlab chiqarishi va mintaqaviy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va buning natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi mexanizmlari shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ВидяпинаВ. И,М. В. Степанова. Региональная экономика. – М.: ИНФРА.–М,2007. 344с.
2. Т. Г. Морозовой. Региональная экономика. / Под ред. –М.: ЮНИТК. 2008.
3. Кистанов В. В. Региональная экономика России. –М.: Финансы и статистика, – 2004.с.342
4. Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: Европейский подход // Регион: экономика и социология. – 2005., с.234.
5. Кофнер Ю. Ю. Становление новой экономики в России-зарубежный опыт и национальная стратегия. Патент-Евразия № 2(3), 2012.

HUDUDLAR IQTISODIYOTINI OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI



Akishova Shaxnoza Davlet qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotda investitsiyalarning rivojlanish tendensiyalari, hududlarda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar va ularning samaradorligi tahlili yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz hududlarida investitsiyalar kiritish hajmini kengaytirishni rag’batlantirish, respublikada investitsiya muhitini yanada takomillashtirish choralari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, sanoat, xorijiy investitsiyalar, hududlar iqtisodiyoti, “pastdan-yuqoriga” tamoyili, real sektor, asosiy capital, eksport, import.

Abstract: This article covers the development trends of investments in the economy, the investment projects implemented in the regions and the analysis of their effectiveness. Also, measures to encourage the expansion of investments in the regions of our country and further improvement of the investment environment in the republic are indicated.

Key words: investment, industry, foreign investments, regional economy, “bottom-up” principle, real sector, fixed capital, export, import.

Аннотация: В данной статье рассматриваются тенденции развития инвестиций в экономику, инвестиционные проекты, реализуемые в регионах, и анализ их эффективности. Также обозначены меры по стимулированию рас-ширения инвестиций в регионы нашей страны и дальнейшему улучшению инвестиционной среды в республике.

Ключевые слова: инвестиции, промышленность, иностранные инвестиции, региональная экономика, принцип “снизу вверх”, реальный сектор, основной капитал, экспорт, импорт.

KIRISH

Har qanday mamlakat hududlarining iqtisodiy rivojlanishida ushbu hududlarda amalga oshirilayotgan investitsiya jarayonlari va muhiti katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga ularning tarkibida investitsiyalarning hajmini oshirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar amalga oshiril moqda. Shuningdek, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida[1] belgilanganidek, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish maqsadida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishni ta’minlash maqsad qilingan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-Farmonida belgilanisha, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning joziba-dorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish belgilangan[2]. Ayniqsa, mamlakatimizning har bir hududida investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizim yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiyotimizning yanada rivonlanishi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarimizni oshishiga zamin yaratadi. Belgilangan vazifalarni bajarish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalar kiritish hajmini kengaytirishni rag’batlantirish, respublikada investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiq-lashtirish bundan tashqari, investitsiya muhitini yanada yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son,26-maqsad

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tadqiqot davomida mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish va liberallashtirish sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomil-lashtirishning dolzarb masalalari va nazariy jihatlari mahalliy iqtisodchi olimlardan F. O‘. Dodiyev, B. Sh. Muminov, M. A. Raimjanova, Sh. I. Mustafaqulovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, iqtisodchi olim N. G. Karimov “Investitsiyalarni moliyalash-tirishning bozor mexanizmlarini joriy etish” ga doir ilmiy tadqiqotlarida investitsion faoliyatni qimmatli qog‘ozlar bozori va tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda qimmatli qog‘ozlarning investitsion jozibadorligi tahliliga qaratilgan ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy tadqiqotlarini olib borgan. O‘zbekiston korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘na-lishlari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil etgan.

Amrikalik olim L. J. Gitman va M. L. Jonklarning “Investitsiyalash asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida “Investitsiya – kapitalni joylashtirish usuli bo‘lib, u foyda qiymatini saqlab turishi va uning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kerak” deb keltirib o‘tilgan.

Rossiyalik olim A. M. Margolin “Investitsiyalar” qo‘llanmasida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquq-larni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obektlariga kiritishdir”, deb ta`riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o‘rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo’yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo’nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma’lumot manbalarini o’rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror sur’atlar bilan o‘sishi uchun barcha biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab islohotlar va tegishli normativ-huquqiy baza yaratilmoqda. Mamlakatning iqtisodiy o’sishini qo’llab-quvvatlash va jadallashtirishda sohalarga jalb qilinayotgan investitsiyalarni alohida ta’kidlash lozim. Bizga ma’lumki, investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq hozirgi yuksak darajada integratsiyalashgan xo’jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi roli obyektiv ravishda ancha salmoqli bo’lmoqda. Shu munosabat bilan investitsiya sohasiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaramoq lozim deb hisoblaymiz. Bu strategik maqsad – iqtisodiy o’sishni ta’minlash uchun amalga oshirilmog’i, raqobatbardoshlik va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish makroiqtisodiy rejalashtirish asosida ta’minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo’li bilan makrodarajada boshqarib turish bunday rejalashtirishning eng muhim bo‘g’inlaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimizda 2013–2022-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini ko’rib chiqamiz (1-rasm).

Ushbu keltirilgan ma’lumotlardan ko’rib turganimizdek, asosiy vositalarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Bu investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilganligi va ularning O’zbekistonga o’z investitsiyalarini kiritishga bo’lgan ishonchi ortib boriyotganligidan darak beradi.

Statistik ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib boryapti. Investitsiyalar hajmining ortishi mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi oqilona tashkil etilayotgan investitsion siyosatga bog‘liq. Hududlarda yangi korxonalarning tashkil etilishi, infratuzilma holatini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va samaradorligi bilan baholanadi.

Bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish hisobidan hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar bajarilmoqda:

- Ishlab chiqarishning texnik va texnologik darajasini oshirish;
- Viloyat, shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni tenglashtirish;
- Ishlab chiqarishning yangi sifat tuzilishini yaratish, ya’ni innovatsion tipdagi iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Tashqi iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda tarmoqlar va ishlab chiqarishning raqobatbardoshliligini shakllantirish;
- Sanoat ishlab chiqarishda mahalliylashtirish, diversifikatsiyalash, intensivlashtirish hisobiga yalpi hududiy mahsulot (YaHM) da sanoat ulushini oshirish va h.k.lar.



1-rasm: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar miqdori (mlrd.so‘m hisobida)[3]



2-rasm: Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (foizda)[4]

2-rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi oshgan. Yuqori ko‘rsatkichlarda Sirdaryo viloyati umumiy hajmda 135.1 foizda yetakchilik qilmoqda. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 114.9% ni tashkil etgan, bu esa oldingi yillarga qaraganda oshganini ko‘rsatyapti. So‘ngi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlarida iqtisodiy o‘sish kuzatilyapti. Ushbu hududda investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida davlatimiz tomonidan berilayotgan soliq va boshqa imtiyozlar investitsiya, xususan, xorijiy investitsiyalarni kirib kelishiga asosiy sabab bo‘layapti. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, birgina To‘rtko‘l tumanida real sektorga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib, hududdagi investitsiyaviy muhit yaxshilanib bormoqda. To’rtko’l tumanida 2022-yilga 2 mln 500 ming dollarlik xorijiy investitsiyalari o’zlashtirilishi reja qilib belgilangan. Tumanda 2022-yil yakuni holatiga asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish hajmi 5088,3 ming AQSh. dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 203 foizini tashkil etmoqda.

3 O‘zbekiston Respublikasining statistik Axborotnomasi. 2022-yil
4 O‘zbekiston Respublikasining statistik Axborotnomasi. 2022-yil



3-rasm: Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanidagi korxonalar soni va hajmi[5]

2022-yilning yanvar-dekabr holatiga xorijiy investitsiyalar o‘sishni 2021-yilga nisbatan 123% ga oshgan. Shu jumladan eng yuqori ko‘rsatkich sanoat sohasiga to‘g‘ri kelmoqda ya’ni kiritilgan xorijiy investitsiyaning 55% tashkil qilmoqda. 2021-yilning yanvar-dekabr holatiga nisbatan sanoat 159% oshgan.



4-rasm: 2020-2022-yilda xorijiy investitsiya va kreditlarning sohalar kesimida o‘sishi[6]

1-jadval: Chet el sarmoyadorlari ishtirokida tashkil qilingan qo‘shma korxonalarning yillar kesimida tashkil qilinishi

№	Korxona nomi	Loyiha nomi	Tashkil qilingan sanasi	Xorijiy hamkor
1	IP “MARFA SHERZOD” MChJ	Polietilen qoplar ishlab chiqarish	2012-yil	“MARFA URUMCHI” LTD (Xitoy)
2	“KERIMSHA” MChJ	Qurilish materiallari savdosi	2019-yil	Turkmaniston
3	“XASAN GO‘ZLI” MChJ	Qurilish materiallari savdosi	2019-yil	Turkiya
4	“AKTAU NEFTEMASH ISHONCH” MChJ	Qurilish materiallari savdosi	2019-yil	“ASTANA TAJERAN SAHEK OMND CO” (Qozog‘iston)
5	SP “UPPER CLASS” MChJ	Meva sabzavotlari yetishtirish va qayta ishlash	2020-yil	“ARH GLOBAL” LTD (Buyuk Britaniya)
6	“INDO ORGANICS”MChJ	Tekstil va to‘qimachilik ip-kalava ishlab chiqarish	2021-yil	Hindiston
		Kannabis yetishtirish va qayta ishlash		

5 Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari. 2022-yil
6 Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari. 2022-yil

7	“METAN-SERVIS-TRANS”MChJ	Issiqxonani tashkil qilish	2021-yil	Rossiya
8	“EXPORT LIDER-FRUKT”MChJ	Savdo sotiq	2021-yil	Rossiya-Qozog‘iston
9	“Zavod XozAgro” MChJ SP	Polietilen setkalar ishlab ishlab chiqarish	2022-yil	Rossiya
10	“ASADBEK GLASS FIBER” MChJ SP	Shisha tolali mato (Steklovata) ishlab chiqarish	2022-yil	Rossiya
11	“CHINA-QARATAW-SERVISE”	Hizmat ko‘rsatish	2022-yil	Xitoy

2022-yilga kelib chet el sarmoyadorlari ishtirokida tashkil qilingan qo‘shma korxonalarning soni 11 taga yetdi. Joriy yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yangi 3 ta qo‘shma korxona tashkil etildi. Shundan, “Zavod XozAgro” MCHJ QK korxonasi 1 mln dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritdi. Ushbu loyiha qiymati 3 mln AQSH dollarni tashkil etadi. Loyihaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 600 tonna turli xildagi soya beruvchi polietilen setkalar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. Ushbu qo‘shma korxona ishga tushirilishi natijasida tumanda qo‘shimcha 110 ta ishchi o‘rni yaratilib, hozirda aholi bandligiga qisman erishilgan. Joriy yilda “Zavod XozAgro” MCHJ qo‘shma korxona tomonidan 1 mln dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog’iston Respublikasining industrial rivojlanishini va tabiiy-resurs salohiyatini hisobga olgan holda ushbu hududda maxsus industrial va texnologiyalarni rivojlantirish va qo‘shma korxonalar sonini ko‘paytirish uchun hudud infratuzilmasini yanada rivojlantirilsa kerak deb hisoblaymiz. Shuningdek, hududning investitsion jozibadorligini yanada oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- davlat investitsiya dasturi samaradorligini ta’minlashning institutsional asoslari va investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida nazarda tutilgan vazifalarga muvofiq takomillashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli Farmonida belgilanishicha, har bir viloyatda loyihalarni moliyalashtirish uchun To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi ishtirokida tashkil etilgan “Xolding kompaniya” faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish va monitoring qilish;
- hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish bilan bog‘liq transport xarajatlari arzonlashtirish bo‘yicha va valyuta almashinuvidagi ayrim imtiyozlarni oshirish;

Bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish, raqobatbardoshlik, mahsulot sifatini yaxshilash va boshqa choralarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son, 26-maqsad.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. 2022-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari. www.qrstat.uz
5. Nurimbetov R. I. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarish mexanizmi va uning samaradorligi// O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2008.(Monografiya) 221-bet.
6. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo’llanma. Baktria Press. –T.: 2017. 17 b.
7. Muminov B. Sh. O‘zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo’llari. 08.00.07.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi./O‘zR Bank/moliya akademiyasi. – T., 2012. –135 b.
8. Dodiyev F. O. Investitsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish: 08.00.07.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi./O‘zR Bank/moliya akademiyasi. –T., 1998. –128 b.
9. Raimjanova M. A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. 08.00.07-“Moliya, pul muomalasi va kredit”. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. / TMA. –T., 2012.
10. Margolin. A. M. Investitsii. M.: RAGS, 2006. – S. 464.
11. Gitman, Lorens Dj. Osnovы investirovaniya: Uchebnoye posobiye Per.s angl. –M: DELO, 1997. –1008 s.

XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘gli
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti “Real iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Ibragimov Shoxrux Baxtiyorovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti talabasi

Ataqulov Jahongir Valijon ug‘li
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada,xizmat kursatuvchi korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun foydali bo‘lgan mexanizmlar va strategiyalar ta’riflanadi. Ushbu maqolada korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim faktorlar tartib bilan taqdim etiladi. Maqola boshlang‘ich holatni yaxshilashni, resurslarni samarali ishlatishni, innovatsiyalarni qo‘llashni, xaridorlarga qarshi yondashuvni va kadrlarni rivojlantirishni muhim ko‘rinishda olib chiqaradi. Buning bilan birga, korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun strategiyalar ham taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Resurslarni samarali ishlatish, texnologik innovatsiyalar, protsesslarni optimallashtirish, moliyaviy maqsadlarning belgilanishi, xaridorlar bilan aloqalar, raqamlashgan moliyaviy boshqaruv va hisobotlar, xodimlar va rivojlanish, protsesslar va tizimlar, kafolat va risklarni boshqarish.

Abstract: This article describes useful mechanisms and strategies for increasing the economic potential of service enterprises. In this article, important factors in increasing the economic potential of enterprises are presented in order. The article takes a critical look at bottom line improvement, resource efficiency, innovation, customer centricity, and human resource development. At the same time, strategies for increasing the economic potential of enterprises are presented.

Key words: Resource efficiency, technological innovation, process optimization, financial goal setting, customer relations, digital financial management and reporting, personnel and development, processes and systems, assurance and risk management.

Аннотация: В данной статье описаны полезные механизмы и стратегии повышения экономического потенциала предприятий сферы услуг. В данной статье представлены по порядку важные факторы повышения экономического потенциала предприятий. Статья выводит улучшение стартовой позиции, эффективное использование ресурсов, внедрение инноваций, антикризисный подход и развитие персонала на первый план. Однако также будут представлены стратегии повышения экономического потенциала предприятий.

Ключевые слова: Эффективное использование ресурсов, технологические инновации, оптимизация процессов, постановка финансовых целей, отношения с клиентами, оцифрованное финансовое управление и отчетность, персонал и разработка, процессы и системы, гарантии и управление рисками.

KIRISH

Iqtisodiy salohiyatni resurslar tizimi, deb hisoblash mumkin, bu holda u individual resurslarning miqdoriy va sifat xususiyatlari nuqtayi nazaridan baholanadi, ammo bu holda ushbu resurslarning o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinmaydi va o‘lchanmaydi. Iqtisodiy salohiyatni samarali yondashuv sifatida ko‘rib chiqishda tizimning ishlashini ta’minlaydigan barcha omillarni hisobga olish va ifoda etish kerak. Bunday holda, nafaqat resurslar, balki to‘plangan zaxiralar ham hisobga olinadi. A. P. Romanov o‘zining “tashkilotning iqtisodiy salohiyatini boshqarish” asarida shunday deydi: “agar salohiyat resurslar to‘plami sifatida qaralsa, uni baholash resurslarning ayrim turlari qiymatlarining sifat va miqdoriy xususiyatlarini belgilashdan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri hisobga olinmaydi va o‘lchanmaydi. Resurslar tizimi haqida gap ketganda, uning individual tarkibiy qismlarining xusu-

siyatlari butun tizimni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilishi kerak” [10]. O‘z navbatida, zaxira yondashuvi “zaxira” va “salohiyat” tushunchalarini farqlashni amalga oshiradi, shuning uchun mavjud va mumkin bo‘lgan salohiyat, mumkin va foydalanilmagan zaxira bo‘ladi. Korxonalar iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish orqali o‘z daromadlari va mulklarini ko‘paytirishga intilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy boylikning dastlabki hisob-kitoblari 17-asrga to‘g‘ri keladi (V. Petti), 18-asrdayoq asosiy tushunchalar A. Smit va A. Turgoning klassik asarlarida shakllantirilgan [3]. 19-asrda D. Mill, F. Kene, A. Marshall asarlarida iqtisodiy salohiyatga ta’luqli ko‘plab muhim mavzular tadqiq qilingan, ammo ko‘plab iqtisodchilarning asosiy tadqiqotlari rivojlangan kapitalistik mamlakatlar milliy boyliklarining aniq hisob-kitoblariga bag‘ishlangan.

Raqobatbardoshlik strategiyasi haqida keng tushunchani Garvard maktabi professori Maykl Porterning[9] asarlaridan olish mumkin, u ushbu konsepsiyaning eng e’tiborga munosib mualliflaridan biri hisoblanadi. U “raqobatbardosh romb” deb nomlangan raqobatdosh ustunlik determinantlari tizimini ishlab chiqdi. Bu tizimdan kelib chiqadiki, ishlab chiqarish omillariga moddiy boyliklar, axborotlar, huquqiy tizim, shuningdek, ilmiy-tadqiqot vositalari kiradi va unumdorlikni oshirish uchun muayyan hududlarda ishlab chiqarish omillari samaradorligi, sifati va ixtisoslik darajasiga nisbatan yaxshilanishi kerak deb ta’kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida monografik tahlil, vizualizatsiya, qiyosiy tahlil, induksiya-deduksiya va boshqa ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Har bir korxonaning maqsadi uni barqaror rivojlantirishdir. Iqtisodiy salohiyat bosqichma-bosqich shakllanadi.

Birinchi bosqichda korxonaning rivojlanish strategiyasi aniqlanadi:

1. Faoliyat yo‘nalishini belgilanadi;
2. Faoliyatning asosiy birliklarini aniqlanadi;
3. Keyingi harakatlar uchun maqsadlar qo‘yiladi. Bunga quyidagilar kiradi:
   - korxona joylashgan atrof-muhit omillarini aniqlash;
   - asosiy maqsadni belgilash; korxonaning asosiy yo‘nalishini tanlash va korxonada mavjud bo‘lgan resurslarni boshqarish mexanizmlarini topish.
4. Korxonaning faoliyat sohasi asosida matritsa tuziladi. Yig‘ilgan barcha ma’lumotlar korxonaga kelajakdagi rivojlanish uchun strategik va taktik rejalarni tuzishga imkon beradi.

Ikkinchi bosqich, agar yangi texnologiyalar va ishlanmalar qo‘llanilsa, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Samarali boshqaruvni rejalashtirish va tashkil etish mavjud bo‘lib, bu boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Uchinchi bosqich – bu iqtisodiy sohaning xususiyatlarini hisobga olish, shu bilan birga sohaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish imkoniyati aniqlash bo‘ladi. Korxonani tahlil qilish korxonaning tashqi muhitida marketing tadqiqoti o‘tkazish asosida amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning uslubiy tamoyillari aniqlanadi. Boshqaruvning yanada to‘g‘ri usullari boshqaruvni yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Beshinchi yakuniy bosqich iqtisodiy salohiyatni yaratish va rivojlantirish, ya’ni kerakli qiymatni oshirish, saqlash yoki pasaytirish masalalarini hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida hisobga olinishi va maksimal darajada ishlatilishi kerak bo‘lgan uchta darajani aniqlashga imkon berdi:

- makro daraja (davlat salohiyati);
- mezo daraja (bozor va tarmoq salohiyati);
- mikro daraja (korxonaning o‘z moliyaviy, kadrlar, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish imkoniyatlari).

Iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonining o‘zi boshqaruv jarayonlariga xos bo‘lgan umumiy qonunlarga asoslangan, ammo maxsus tashkil etish va uslubiy jihozlarni talab qiladigan boshqariladigan jarayondir.

Natijada, korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishni boshqarishning mohiyati uning asosiy maqsadini amalga oshirishga qaratiladi, bu uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash uchun mavjud imkoniyatlarni oqilona boshqarish sifatida shakllantiriladi. Shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadining miqdoriy mezoni uning tashqi muhit sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyati elementlarining qiyosiy raqobatbardoshligini hisobga olgan holda uning raqobat holati darajasi bo‘lib hisoblanadi.

Keltirilgan rivojlanish kontseptsiyasi korxonaning iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan individual elementlarning ham, butun aholining ham tizimli strategik rivojlanishi asosida uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshlikni oshirish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Keltirilgan tizimlar nazariyasi, menejmentning asosiy maktablari va neoklassik, evolyutsion, betartiblik nazariyasi kabi yetakchi tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish, shuningdek, ilgari mavjud bo‘lgan buyruq va ma’muriy tizim doirasida boshqaruv hamda rejalashtirish xususiyatlarini aniqlash iqtisodiy salohiyatni ko‘rish va baholashdagi o‘zgarishlarni kuzatishga imkon berdi.

Elementlar tarkibini o‘zgartirish bilan bir qatorda iqtisodiy potentsialni (yoki uning asosiy elementlarini) baholash usullari ham o‘zgartiriladi va takomillashtiriladi, chunki ular. rivojlanish kontseptsiyasining qoidalariga ko‘ra, ular iqtisodiy tizimlardagi evolyutsion o‘zgarishlar ta’siri ostida bo‘ladi. Natijada, korxona resurslarini faqat statik baholash orqali korxona imkoniyatlarini baholash iqtisodiy salohiyatning raqobatbardoshligini tizimli strategik tahlil qilishga imkon beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonasining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmini shakllantirishning dastlabki elementlari quyidagilardir: rivojlantirishning obyekti,iqtisodiy salohiyatning elementlari alohida-alohida (ishlab chiqarish salohiyati, kadrlar, ilmiy-texnikaviy va boshqalar) ifodalanishi,yoki ularning integral birikmasi; korxonani rivojlantirishning aniq maqsadlari ko‘rsatilishi mumkin. Dastlabki elementlarni aniqlagandan so‘ng, tanlangan rivojlanish obyekti uchun belgilangan maqsadga erishishni maksimal darajada aks ettiruvchi va rivojlanish mezonlari shaklida ifodalangan aniq vazifalar tanlanadi. Keyinchalik, boshqaruv omillari aniqlanadi, tanlangan rivojlanish mezonlariga muvofiq ushbu omillarga ta’sir qilish shakllari va usullari belgilanadi. Ta’sir ko‘rsatish shakllari va usullari (o‘rganilayotgan mexanizmning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda) ikkita asosiy yo‘nalishda – boshqaruv tadbirlari va iqtisodiy usullar orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirish jarayonida korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish algoritmini amaliy qo‘llash quyidagilarga imkon beradi:

- tashkilotning real salohiyatini (va potentsialning har bir elementining holatini) aniqlash va uning asosida korxonani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;
- iqtisodiy salohiyatni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini rejalashtirishda tashkilotning rivojlanish siklining bosqichini hisobga olish;
- rejalashtirilgan rivojlanish maqsadlariga erishilmagan taqdirda tashkilotga yetkazilgan zararning prognozini olish;
- tashqi muhitda korxonaning kelajakdagi pozitsiyasi va korxona salohiyatining rivojlanish darajasini uning shartlariga moslashtirish to‘g‘risida tasavvur hosil qilish;
- korxonaning maqsadlariga erishish uchun mavjud salohiyatdan samaraliroq foydalanish va uni shakllantirish xarajatlarini hisobga olish.

Ko‘pgina olimlar – A. Meskon, G. Mintsberg strategiyani tadbirkorlik tuzilmasi faoliyatining uzoq muddatli rejasi deb hisoblaydilar [7], bunga qo‘shilish to‘g‘ri emas, chunki har qanday reja, birinchi navbatda, rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun aniq parametrlar va ko‘rsatkichlarni nazarda tutadi. Shu bilan birga, uzoq davr uchun tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni bashorat qilish deyarli imkonsiz vazifadir. A. Tompson, A. J. Striklend, G. Xamel kabi olimlar tomonidan taklif etilgan tadbirkorlik tuzilmasining raqobatbardoshligiga erishish vositasi sifatidagi strategiya ta’riflari ham ancha bahsli [11]. Korxona tuzilmasining strategiyalari nafaqat uning raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilganligi sababli, balki korxonaning iqtisodiy salohiyatini oshirish strategiyalari biznes strategiyalarining turlaridan biri hisoblanadi. Ba’zi zamonaviy mualliflar strategiyani uzoq muddatli istiqbolda korxona tuzilmasining muayyan xatti-harakatlarini belgilaydigan harakat yo‘nalishi, korxonaning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga oldindan rejalashtirilgan munosabati, korxona iqtisodiy salohiyati va tashqi muhit o‘rtasidagi muvozanatni o‘rnatish usuli sifatida ko‘rishadi. Strategiyalarning tasnifiga kelsak, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlar mualliflarining fikrlarini 1-jadvalda keltirilgan bir nechta ilmiy yondashuvlarga birlashtirish kerak deb hisoblaymiz.

Ierarxik yondashuvda eng yuqori darajada korporativ (umumiy) strategiya turadi, biznes strategiyalari unga bo‘ysunadi, ikkinchisida biznes strategiyalari joylashgan bo‘ladi, uchinchi o‘rinda turadigan funksional strategiyalar ierarxiya darajasining eng quyi qismida joylashadi.

Shuningdek, iqtisodiy salohiyatni shakllantirish strategiyalari ierarxiyaning turli darajalarida joylashgan bo‘lishi kerak va u pastdan yuqoriga qarab shakllanib boradi. Ikkinchi klassik yondashuv investitsion yondashuv bo‘lib, unga ko‘ra investitsiya strategiyalari (uzoq muddatli investitsiyalarning istiqbolli yo‘nalishlari) ajralib turadi, ammo tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishga ushbu yondashuvdan foydalanish investitsiya salohiyati doirasi bilan cheklangan bo‘ladi. Uchinchi klassik yondashuv – bu raqobatbardoshlik yondashuvi, unga ko‘ra M. Porterning raqobatdoshlik ustunliklarini yaratish strategiyalari ajralib turadi: xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyalari, differinsatsiya strategiyalari, tor segmentdagi yetakchilik strategiyalari; tajovuzkor va mudofaa raqobatbardoshlik strategiyalari, shuningdek, mexanik monopollashtirish strategiyalari, integratsiyalashgan konsolidatsiya strategiyalari, izolyatsiya strategiyalari va kooperativ birdamlik strategiyalari. Tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishga nisbatan raqobatbardoshlik yondashuvidan foydalanish ham raqobatdoshlik salohiyati doirasi bilan cheklangan bo‘ladi.

1-jadval: Korxonalarda iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish strategiyalari

Yondashuv nomi	Mualliflar	Yondashuv maqsadi
Iyerarxik	A. Tompson (11)	Eng yuqori darajada korporativ (umumiy) strategiya turadi, biznes strategiyalari unga bo‘ysunadi, ikkinchisida biznes strategiyalari joylashgan, uchinchi o‘rinda turadigan funksional strategiyalar ierarxiya darajasining eng quyi qismida joylashadi.
Investitsion	B. Karloff (4)	Investitsiya strategiyalarida ta’kidlangan istiqbolli uzoq muddatli investitsiyalar yo‘nalishlari maqsadidan kelib chiqib shakllantirilgan iqtisodiy salohiyat elementlarini rivojlantirish nazarda tutiladi
Raqobatbardoshlik yondashuvi	B. Artamanov(1)	M. Porterning raqobatbardosh strategiyalari ajralib turadi: xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasi, differensiatsiya strategiyasi, tor segmentdagi yetakchilik strategiyasi; hujum va mudofaa raqobat strategiyalari; mexanik monopollashtirish strategiyasi, integratsiyalashgan konsolidatsiya strategiyasi, izolyatsiya strategiyasi va kooperativ birdamlik strategiyasi.
bozor pozitsiyasi yondashuvi	F. Kotler(6)	Bozorda korxona tuzilmasining raqobatbardosh mavqeyiga qarab, ularning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning yetakchi strategiyalari, izdoshlar strategiyalari va autsayder strategiyalari farqlanadi.
Asosiy biznes faoliyati yondashuvi	V. Nemsov(8)	Korxona maqsadining asosiy biznes strategiyalari ta’kidlangan – iqtisodiy salohiyatni konsentratsiyalashgan o‘sish strategiyalari, integratsiyalashgan o‘sish strategiyalari, tabaqalashtirilgan o‘sish strategiyalari, qisqartirish strategiyalari ajratiladi.
Faoliyat sikliga bog‘liq yondashuv	V. Kozlov(5)	Tadbirkorlikning faoliyat sikli bosqichiga qarab, iqtisodiy salohiyatni o‘stirish, barqarorlashtirish, qisqartirish, qayta qurish strategiyalari ajralib turadi
Funksional yondashuv	Yu. Filimonova (14)	Alohida funktsional sohani rivojlantirish maqsadiga ega iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish strategik yo‘nalishlarini belgilovchi funktsional strategiyalar yondashuvi – ishlab chiqarish, marketing, mehnat resurslari, moliyalashtirish yoki tadbirkorlik tuzilmasiga yo‘naltirilgan alohida dasturlardan iborat bo‘ladi

To‘rtinchi klassik yondashuv-bu bozor pozitsiyasi yondashuvi, unga ko‘ra bozorda tadbirkorlik tuzilmasining maqsadli raqobatbardosh pozitsiyasiga qarab, yetakchi, izdosh va autsayder strategiyalari ajralib turadi. Ushbu yondashuv tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirish strategiyalarini asoslashda qo‘llanilishi kerak.

XULOSA

Shunday qilib, tadbirkorlik tuzilmasi strategiyalarini tasniflashga yettita asosiy ilmiy yondashuv aniqlandi, shu bilan birga har bir yondashuv o‘ziga xos strategiyalar to‘plamiga ega, ammo iqtisodiy salohiyatni shakllantirish strategiyalarining o‘rnini aniqlash uchun biznes tuzilmasini strategik rejalashtirish tizimida klassik ierarxik yondashuv va funktsional yondashuv ustuvor hisoblanadi, chunki ular korxonada strategik rejalashtirish tizimidagi strategiyalarning o‘zaro bog‘liqligini va ta’sirini belgilaydi.

Tadbirkorlik tuzilmasini strategik rejalashtirish tizimi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy salohiyatni strategik rejalashtirish tizimini shakllantirish strategik tahlilni samarali tashkil etish va boshqarishni, barcha darajadagi maqsadlar va strategiyalarni ishlab chiqish hamda korporativ, biznes, funktsional yondashuvlardan birini tanlashni o‘z ichiga oladi.

Tadbirkorlik tuzilmasining strategik maqsadlari uning iqtisodiy salohiyatining tegishli elementlarini shakllantirishning strategik maqsadlarini ishlab chiqish va tanlashni belgilaydi. Tadbirkorlik tuzilmasining korporativ, biznes va funktsional strategiyalarini amalga oshirishni ta’minlash maqsadida uning iqtisodiy salohiyatini shakllantirish uchun tegishli strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Aksariyat mualliflar ta’kidlaganidek, tadbirkorlik tuzilmasini strategik rejalashtirish tizimi uchta asosiy jihatni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy-iqtisodiy (ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qonuniyatlarini o‘rganish), uslubiy (maqsadlar va strategiyalarni ishlab chiqish metodologiyasi), tashkiliy (korxonada strategik rejalashtirishni tashkil etish: bo‘linmalar, funktsiyalar, vakolatlar va boshqalar). Tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini strategik rejalashtirishga kelsak, yana bir muhim jihat – menejerlar va xodimlarning qobiliyatini aks ettiruvchi kadrlarni iqtisodiy potentsialni kategoriya sifatida qo‘shish tavsiya etiladi. Shunday qilib, tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini strategik rejalashtirish natijasi uning tashqi iqtisodiy salohiyatini shakllantirish strategiyasi va ichki iqtisodiy salohiyatni shakllantirish strategiyasidir. Tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishning strategik maqsadlari va strategiyalarini asoslash, ishlab chiqish va tanlash jarayonida ilmiy asoslangan usullardan foydalanish juda muhimdir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Артамонов Б. В. Основные принципы формирования конкурентных стратегий / Научный вестник МГТУ, 2009. – №143. – С. 11-16, с. 14.
2. Байков Е. А. Организация стратегического планирования на предприятиях сферы услуг в условиях нестабильности // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехни-ческого университета. Экономические науки. – 2013. – № 3(173). – С. 98–102. 3, с. 99.
3. Гловели Г. Д. История экономических учений: Учеб. пособие. – М.: ИД Юрайт, 2011. – 742 с.
4. Карлофф Б. Деловая стратегия: концепция, содержание, символы: пер. с англ. / – М.: "Гардарика", 2018. – 322 с.6, с. 148.
5. Козлов В. А., Данченок Л. А. Проблемы управления устойчивостью развития и функционирования предпринимательских организаций: монография. М.: МЭСИ, 2012. – 348 с.7, с. 199.
6. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. 12-е изд. СПб.: Питер, 2009. – 816 с., С. 133.
7. Мескон, М. Х. Основы менеджмента / М. Х. Мескон, М. Альберт, Ф. Хедоури; пер. с англ. – М.: "Дело", 1992. С. –254; 11 С. 4.
8. Немцов В. Д., Довгань Л. Е. Стратегический менеджмент. К.: ООО "УВПК", 2001. – 560 с.12, с. 312-319.
9. Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. – 715 с.
10. Романов А. П., Серебренников Г. Г., Безуглая В. М., Кириллина О. В., Чарыкова М. К. Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие / А. П. Романов, Г. Г. Серебренников, В. М. Безуглая, О. В. Кириллина, М. К. Чарыкова.–Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО "ТГТУ", 2012–88 с
11. Томпсон А. А., Стрикленд А. Дж. Стратегический менеджмент: искусство разработки и реализации стратегии /; пер. с англ. под ред. Л. Г. Зайцева, М. И. Соколовой. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998. – 576 с. 15, с. 114; 17, с. 55.
12. Стреблянская И. А., Вестник Волжского университета имени В. Н. Татищева №1, том 2, 2021.
13. Боев А. Г., Воронин С. И. Сущность и особенности стратегий развития промышленного предприятия. Вестник Волжского государственного университета. – 2012. – №2. – С. 160-165.4, с. 163.
14. Филимонова Ю. В. Функциональные стратегии предприятия: сущность и классификация / Ю. В. Филимонова // Вестник АнГТУ. – 2019. – №13. – С. 261-267.16. –С. 261.

SUG‘URTADA ANDERRAYTING XIZMATINI (ARDL) MODELI TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida ko‘rsatilayotgan anderrayting xizmatini (ARDL) modeli tahlili asosida takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, “O‘zbekinvest” EISK AJ ko‘rsatkichlari orqali anderrayting xizmatini ekonometrik va statistik usullar tahlili asosida kengaytirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta faoliyati, sug‘urtada anderrayting xizmati, sun’iy intellekt, baholanadigan koeffisiyentlar, mustaqil o‘zgaruvchi, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta mukofotlari, risklarni baholash, ARDL modeli.

Abstract: This article provides information on the improvement and development of underwriting services (ARDS) provided in the insurance market of Uzbekistan based on an analysis of the model. Proposals were also made to expand the underwriting service based on the analysis of econometric and statistical methods through the indicators of EISK Uzbekinvest JSC.

Key words: insurance activity, underwriting service, artificial intelligence, estimation coefficients, independent variable, insurance coverage, insurance.

Аннотация: В данной статье представлена информация о совершенствовании и развитии андеррайтинговой услуги (ARDL), предоставляемой на страховом рынке Узбекистана на основе анализа модели. Также были внесены предложения по расширению андеррайтинговой услуги на основе анализа эконометрических и статистических методов через показатели АО “ЭИСК “Узбекинвест”.

Ключевые слова: страховая деятельность, андеррайтинговый сервис, искусственный интеллект, оценочные коэффициенты, независимая переменная, страховое покрытие, страховые премии, оценка риска, модель ARDL.

KIRISH

Mamlakatda sug‘urta xizmatini takomillashuvi yuridik va jismoniy shaxslarni turli xil tabiiy va stixiyali hamda tadbirkorlik xavf-xatarlari ortidan keladigan moliyaviy yo‘qotishlarini qisman yoki to‘liq qoplanishiga olib kelib bu vaziyat iqtisodiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shadi. Sug‘urta jarayonidagi noaniqlikka yechim topish orqali muvaffaqiyatga erishish, xavfni baholashdan tortib strategik qarorlar qabul qilishga ko‘maklashish sug‘urta anderrayterlari zimmasidagi muhim vazifadir. Sug‘urta xizmati har qachongidan ham ko‘proq harakatdagi biznes ekanligini anglagan holda, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy va yuridik shaxslar faoliyati sug‘urta xizmatlarisiz amalga oshirilmasligi haqidagi ma’lumotlarga tayanib xulosa qilsak ko‘plab mamlakatlar YAIM da sug‘urta xizmatlari salmoqli o‘ringa egaligini ko‘rishimiz mumkin. Sug‘urta faoliyatini rivojlanish bosqichlari tahlil qilinsa, sug‘urtada anderrayting xizmatini o‘rni beqiyosdir. Anderrayting – bu jismoniy yoki yuridik shaxs haq evaziga moliyaviy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladigan jarayon hisoblangan. Ushbu xavf odatda kreditlar, sug‘urta yoki investitsiyalarni o‘z ichiga olgan. “Anderrayter” atamasi har bir tavakkalchiga o‘z nomini ma’lum mukofot evaziga qabul qilishga tayyor bo‘lgan tavakkalchilikning umumiy miqdori ostida yozish amaliyotidan kelib chiqqan. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatini takomillashtirish maqsadida sug‘urtaga qabul qilinadigan xavf-xatarlarni har tomonlama chuqur tahlil qilgan holda javobgarlikka olish jarayonida anderrayting xizmatini zamon talablari asosida shakllantirish zaruriyati mavjud. So‘nggi yillarda sug‘urtada anderrayting xizmatiga sun’iy intellektni joriy etilayotganligi kuzatilmoqda. Sun’iy intellektning asosiy texnologiyalari bizning biznesimiz, uylarimiz va transport vositalarimizda, shuningdek, bizning shaxsimizda allaqachon qo‘llanilmoqda. COVID-19 davridagi ma’lumotlar va taraqqiyot zanjiridagi kuzatilgan uzilish dunyo sug‘urtachilari uchun raqamlashtirishni sezilarli darajada tezlashtirish kerak ekanligini bildirdi. Pandemiya davrida aksariyat tashkilotlar sun’iy intellektga katta sarmoya kiritmagan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalarga e’tibor kuchayishi va o‘zgarishlarni qabul qilishga tayyorligi ularni o‘z faoliyatiga sun’iy intellektni qo‘shish uchun yaxshi sharoit yaratadi[1].

1 https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/insurance-2030-the-impact-of-ai-on-the-future-of-insurance#/ “Sug‘urta 2030 – AI ning sug‘urta kelajagiga ta’siri” Ramnath Balasubramanian, Ari Libarikian, Dag Makelhani

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, jismoniy shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni turli moliyaviy manfaatlarini, sog‘lig‘ini, mol-mulkini tabiiy va moliyaviy xavf-xatarlardan himoya qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun samarali anderrayting xizmatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Anderrayting xizmati sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urtalangan shaxsni sug‘urta qilish bilan bog‘liq risklarni baholash, tegishli mukofotlar va qoplamalarni aniqlash jarayoni hisoblanadi[2]. Sug‘urta kompaniyalari anderrayting xizmatlarini doimiy ravishda takomillashtirish orqali nafaqat o‘zlarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki sug‘urtalanuvchilarga yanada sifatli xizmatlar ko‘rsatadi.

Su’urta tizimida anderrayting xizmatlarini takomillashtirish sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligining ajralmas qismi bo‘lib, ma’lumotlar tahlili, ilg‘or texnologiyalar, mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar, uzluksiz treninglar va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish integratsiyasi orqali sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining anderrayting xizmatlarini yaxshilashlari alohida xarakterlanadi. Anderrayting xizmatlarini afzalliklarga risk ta’sirini kamaytirish, rentabellikni oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va bozorda raqobatbardosh ustunlik oshirish kiradi[3]. Oxir-oqibat, sug‘urta kompaniyalarining rivojlanishi, o‘zgaruvchan risk jarayonlariga moslashishi va ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashi uchun mustahkam anderrayting jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Anderrayting xizmatlari sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash orqali kompaniyalarda moliyaviy risklarni boshqarish, rentabellikni saqlash va uzoq muddatli moliyaviy samaradorlikni oshirish qobiliyatiga bevosita ta’sir etadi.

Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda anderrayting xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab olim ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim Devid Kammins sug‘urta risklarni boshqarish va sug‘urta sohasida yuqori baholangan sug‘urta iqtisodiyoti, risklarni modellashtirish va anderrayting amaliyotlari[4] bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari moliya institutlari tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Olim, ilmiy ishlanmalarida sug‘urta sohasida risklarni modellashtirish, sug‘urtaning iqtisodiy tahlili[5], anderrayting amaliyotiga bo‘yicha me’yoriy-huquqiy o‘zgarishlarning sug‘urta kompaniyalarida risklarni baholash, aktuariylar risklarni baholash hamda sug‘urta risklarini baholashda kapitalning etralilik darajasini taqdim etgan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Daen Jan va Mishel Denuitlar sug‘urta tizimida anderrayting sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan aktuar uslubi[6] bo‘yicha risklarni modellashtirish va sug‘urta matematikasiga doir keng qamrovli tadqiqotlar o‘tqazgan. Olimlarning tadqiqotlarida sug‘urta sohasining moliyaviy barqarorligiga aktuariylar, risklarni modellashtirish, sug‘urta matematikasiga doir anderrayter risklari, statistik moliyadan olingan fanlararo yondashuvlar hamda sug‘urta kompaniyalarining anderrayting amaliyoti bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqotchilar ilmiy ishlanishlar natijasida su’urta sohasida aktuariylar va anderrayterlar uchun mavjud vositalar va metodologiyalarni boyitdi hamda sug‘urta kompaniyalariga risklarni baholash va boshqarish bo‘yicha ko‘proq ma’lumotli va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam berdi.

Xorijlik olim L. Brockett sug‘urta sohasida anderrayting amaliyoti va risklarni baholash[7] bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim tadqiqotlarida sug‘urtada anderrayting amaliyoti bo‘yicha risklarni baholash, tegishli to‘lovlarni aniqlash, yo‘riqnomalar va siyosatlarni ishlab chiqish, sug‘urta mahsulotlari va sug‘urta egalari bilan bog‘liq risklarni boshqarish, aktuariylar risklarni baholash, xatti-harakatlar va bozor omillarining o‘rganishda inson xulq-atvori va bozor dinamikasi kabi omillarni o‘rgangan holda matematik modellarida ta’sirni baholagan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Dicke va A. Arnoldlar o‘z taqiqotlarida sug‘urta iqtisodiyoti va risklarni baholash[8] bo‘yicha keng qamrovli ilmiy ishlanmalar bilan sug‘urta sanaotidagi anderrayting xizmatlariga ta’sir ko‘rsatgan. Olimlar tadqiqotlarida sug‘urta bozori dinamikasi, narx strategiyasi va sug‘urtaning jismoniy shaxslar, korxo-nalar hamda makroiqtisodiy jarayonlarga ta’si bilan bog‘liq masalalarni matematik va statistik modellardan orqali anderrayting xizmatlarini sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi oshishida hissa qoshgan.

Shuningdek, xorijlik olimlar tomonidan sug‘urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlariga ta’sir etuvchi omillarini ko‘plab ekonometrik modellar sihlab chiqilgan

2 Soye, Yinka Augustine, and Damola Lukmon Adeyemo. “Underwriting capacity and income of Insurance companies:(a case of Nigeria).” International Journal of Innovative Science and Research Technology 3.10 (2018): 731-738.

3 Acharyya, Madhu. “In measuring the benefits of enterprise risk management in insurance: An integration of economic value added and balanced score card approaches.” ERM Monograph (2008): 1-25.

4 Cummins, J. David, and Patricia M. Danzon. “Price, financial quality, and capital flows in insurance markets.” Journal of financial intermediation 6.1 (1997): 3-38.

5 Dhaene, Jan, et al. “The concept of comonotonicity in actuarial science and finance: theory.” Insurance: Mathematics and Economics 31.1 (2002): 3-33.

6 Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. “Insurance versus self-insurance: A risk management perspective.” Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.

7 Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. “Insurance versus self-insurance: A risk management perspective.” Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.

8 Dicke, Arnold A. “The economics of risk selection.” Genetics and Life Insurance: Medical Underwriting and Social Policy (2004): 64-6.

Xususan, Gen C. Lai anderraytingning bir qancha muhim jihatlari va uning sug‘urta kompaniyasi faoliyatiga ta’siriga e’tibor qaratgan[9]. Gen C. Lai risklarni baholash, premium sozlamalari[10], anderrayting amaliyotida bozor dinamikasi, iste’molchilarning xatti-harakatlari va iqtisodiy sanoat ko‘rsatkichlari, anderrayting siyosati[11] va ko‘rsatmalari da’vo tajribasi hamda daromadlilik va sug‘urta egasining qoniqishi ko‘rsatkichlari kabi o‘zgaruvchilarni bog‘liq va mustaqil omillar sifatida tanlagan. Olim ekonometrik tenglamalari natijasiga ko‘ra anderrayterlar va sug‘urta kompaniyalari uchun mavjud bo‘lgan vositalar va metodologiyalarni yaxshilagan bo‘lib, ularga risklarni baholash, yuqori narxlarni belgilash va kompaniyaning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishida o‘z tasdig‘ini topgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Meri A. Vayss sug‘urta industriyasida anderraytingning turli jihatlari[12] xususan, sug‘urta polislari va qoplamalari bilan bog‘liq risklarni baholash uchun metodologik ko‘rsatmalar, modellar va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarni tadqiq qilgan. Olim tadiqoqtlarida ekonometirk tenglamalardan foydalangan hamda bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida narxlar strategiyasi, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta mukofoti[13], sug‘urtalanuvchining risk profili, anderrayting qarorlari, sug‘urta shartnomlari kabi omillardan foydalangan. Olimning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki sug‘urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlari narx qarorlarini qabul qilishda riskni baholashda muhim iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Mishel Denuit sug‘urta sohasida aktuar fanlar jumladan sug‘urta va anderrayting[14] bilan bog‘liq bo‘lgan ekonometrik tadqiqotlar olib borgan. Denuitning aktuar sohasidagi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, u anderrayting xizmatlari moliyaviy risklarni modellashtirishda bozor dinamikasi, yuqori narxlar va rentabellik kabi iqtisodiy jihatlarga ta’sirini ushbu qarorlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlariga qay ta’sir etishini o‘z ichiga olgan.

Olim tadqiqotlar natijasiga ko‘ra risklarni modellashtirish, anderrayting amaliyotining iqtisodiy oqibatlari va aktuar metodologiyalar bo‘yicha ilmiy tushunchalar aks etdi hamda sug‘urta kompaniyalariga anderrayting bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishda va moliyaviy barqarorlikni saqlashda yordam berdi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Andres, Christian va Andre Betzerlar sug‘urta iqtisodiyoti, risklarni baholash va anderrayting amaliyotlari sohasidagi tadqiqotlari sug‘urta sohasining muhim jihatlarini kengroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi[15].

Olimlar sug‘urta riskni baholashda anderraytingning asosiy komponenti sifatida, sug‘urta polislari va sug‘urta egalari bilan bog‘liq risklarni baholash va miqdoriy baholash kompaniya rentabellik ko‘rsatkichlari, da’volar tajribasi, sug‘urta shartnomalari kabi omillarni bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida tanlagan. Tadiqot natijalariga ko‘ra sug‘urta kompaniyalarida anderrayting va narxlash bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ko‘p o‘zgaruvchan vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda, ekonometrik tenglamalarni shakllantirish uchun avtoregressiv taqsimlangan kechiqish (ARDL) modelidan foydalanildi.

Sug‘urta kompayalarida anderrayting xizmati va unga ta’sir qiluvchi omillarni ishlab chiqishda “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (https://uzbekinvest.uz) ko‘rsatkichlarining 2017-yildan 2023-yilgacha jami 23 ta choraklik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot asos sifatida ARDL modelidan foydalangan holda vaqt seriyalari ma’lumotlarining vizual matritsalari yaratildi. Turli tekshiruvlar jumladan, qaram va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsalari baholandi, birlik-ildiz testlari orqali statsionarlik tekshirildi, bog‘langan testlar yordamida kointegratsiya tahlili o‘tkazildi va ARDL modeli yordamida regressiion tenglamalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ARDL modeli asosida tuzilgan regressiya tenglamasi Gauss Markovning asosiy farazlariga muvofiqligi va Cusum yordamida diagnostik testdan o‘tkazildi. Tenglama, shuningdek, keyingi yilda mustaqil o‘zgaruvchilarning qaram o‘zgaruvchiga kechikkan ta’sirini o‘z ichiga oldi.

ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli yoki har qanday statistik modelni baholash odatda uning tadqiqot savoliga va ma’lumotlar to‘plamiga muvofiqligi, shuningdek, u ishlab chiqaradigan natijalar sifatiga bog‘liq. ARDL modeli vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilish uchun qimmatli vositadir, ayniqsa, o‘zgaruvchilar

9 Lai, Gene C., and Robert C. Witt. “Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis.” Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).
10 Lai, Gene C., et al. On Liability Insurance Crises. Working Paper, 45pp, 1997.
11 Lai, Gene C., and Robert C. Witt. “Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis.” Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).
12 Weiss, Mary A. “Systemic risk and the US insurance sector.” Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).
13 Weiss, Mary A. “Systemic risk and the US insurance sector.” Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).
14 Denuit, Michel, et al. Actuarial theory for dependent risks: measures, orders and models. John Wiley & Sons, 2006.
15 Andres, Christian, André Betzer, and Peter Limbach. “Underwriter reputation and the quality of certification: Evidence from high-yield bonds.” Journal of Banking & Finance 40 (2014): 97-115.

o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[16]. ARDL modeli samaradorligini muqobil modellar yoki metodologiyalar bilan solishtirishda va uning nisbiy afzalliklarini aniqlash maqsadga muvofiqdir[17].

ARDL modelini baholash uning o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash qobiliyatini, statistik qat’iyligini va tadqiqot savoliga amaliy ahamiyatini hisobga olishi lozim[18].

ARDL modeli tadqiqot modellashtirishda ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bevosita va kengaytirilgan dinamika va munosabatlarni o‘rganish imkoniyatini beradi[19]. Shuningdek, ARDL modeli bir o‘zgaruvchidagi o‘zgarishlarning boshqalarga ta’sir qilish darajasi bo‘yicha istiqbolni taklif etadi, bu nafaqat bevosita oqibatlarni, balki doimiy oqibatlarni ham o‘z ichiga oladi[20].

ARDL modelining asosiy afzalliklaridan biri uning o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlardagi qisqa muddatli va uzoq muddatli dinamikani qamrab olish qobiliyatiga ega[21]. Bu, ayniqsa, bir o‘zgaruvchidagi o‘zgarishlarning turli vaqt oralig‘ida boshqalarga qay darajada ta’sir etishini tahlil qilishda muhum ahamiyat kasb etadi. ARDL modeli dinamik model bo‘lib, u bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning kechiqishlarini hisobga oladi. Bu vaqt seriyasi ma’lumotlarini aniqroq ko‘rsatishga imkon beradi va o‘zgaruvchilar ta’sirida mumkin bo‘lgan vaqt kechiqishlarini hisobga oladi[22]. ARDL modeli moslashuvchan model bo‘lib statsionar va statsionar bo‘lmagan o‘zgaruvchilarning turli kombinatsiyalarini o‘z ichiga oladi. Bu moslashuvchanlik, ayniqsa, o‘zgaruvchilar statsionarlik bo‘yicha turli xil xususiyatlarga ega bo‘ladi[23].

Shuningdek, ARDL modeli vaqt seriyalarini prognozlash uchun ishlatilishi mumkin, bu esa uni tarixiy ma’lumotlarga xususan, bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning kechikkan qiymatlariga asoslangan qaram o‘zgaruvchining kelajakdagi qiymatlarini bashorat qilishda muhim[24]. Avtoregressiv taqsimlangan kechiqish (ARDL) modeli uchun quyidagi formula ifodalandi.

$$Y_t = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{t-1} + \alpha_2 Y_{t-2} + ... + \alpha_p Y_{t-p} + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + ... + \beta_q X_{t-q} + \gamma_1 Z_{t-1} + \gamma_2 Z_{t-2} + ... + \gamma_r Z_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

Y_t – t vaqtidagi bog‘lik o‘zgaruvchini ifodalaydi.

Y_{t-1}, Y_{t-2}..., Y_{t-p} – bog‘liq o‘zgaruvchinig kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

O. Levkovichga fikricha “Ishlab chiqarish zaxiralari deganda, mehnat predmetlari sifatida foydalaniladigan, qayta ishlash yoki ishlab chiqarish jarayonida yangi foydalanish qiymatini yaratishda yoki iqtisodiy ehtiyojlar uchun foydalanish uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish elementlari tushuniladi. Ular to‘liq bir ishlab chiqarish siklida iste’mol qilinadi va o‘z qiymatini mahsulot (ishlar, xizmatlar) qiymatiga to‘liq o‘tkazadi” [6] degan xulosaga kelgan.

Bu borada respublika iqtisodchi olimlaridan M. Kalonov va boshqa hammualliflarning fikriga ko‘ra “Tovar-moddiy zaxiralari doimo moddiy-texnik, ta’minot tizimining xavfsizligini ta’minlaydigan, uning moslashuvchan tarzda amal qilishga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi va o‘ziga xos “sug‘urta” rolini bajaradi” [7].

S. Tashnazarovning fikricha “milliy standartimizda tovar-moddiy zaxiralarga berilgan ta’rifda “....ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish” degan jumlani olib tashlash kerak, deb o‘ylaymiz, chunki bu jumlalar uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlarning ta’rifida ham keltirilgan” [8] – deya ta’kidlagan.

N. Raxmonovning fikricha “Tovar-moddiy zaxiralar – kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya’ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o‘zlarining natural-moddiy shaklini to‘liq saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o‘tkazish yoki sotish maqsadida o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, ishlab chiqarishdan olingan tayyor muhsulotlar; sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlardan iborat” [9] – deb ta’riflagan.

M. Xaydarov fikriga ko‘ra “Tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo‘lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo‘lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar kiritiladi”, [10] degan xulosaga kelgan.

A. Temirovning fikricha “Zaxiralar – kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo‘lgan xususiy kapitalning bir qismidir” [11].

Shu sababli ham mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralari tarkibidagi materiallar kirimi, materiallarning saqlanish holati, materiallar harakati, o‘z vaqtida hujjatlashtirilishi, ularni tayyorlash bilan bog‘liq sarflarni amalga oshirilishi va to‘g‘ri aks ettirilishi, shuningdek, material sarflari hamda aylanishi to‘g‘risidagi barcha ko‘rsatkichlarni kompleks va tizimli tahlili o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik subyektlarni materiallar bilan ta’minlash tahlilida moddiy-texnika ta’minotini samarali va bir maromda ishlashi, zaruriyatga qarab moddiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va ularning zaxirasini kamligini nazarda tutgan holda amalga oshirilishini aniqlaydi.

Tadqiqot obyekti “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi va uning tizimidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarida tayyor mahsulotlar quyidagi ko‘rinishda tarkiblangan:

1-jadval: “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2020-2021-yillarda tayyor mahsylotlar tarkibi va ularning tahlili[1] (mlrd so‘m)

T/p	Ko‘rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil
1	Qurilish materiallari, jami	16841,2	21890
2	Bog‘lovchi materiallar (gips, ohak, sement, quruq arashlamalar va boshqalar)	7540	9850
		44,8%	45,0%
3	Bezatish materiallari (keramik plitka, linoleum, oboy, lok-bo‘yoq materiallari va boshqalar)	2490	3260
		14,8%	14,9%
4	Tom yopqich materiallari (shifer, yumshoq tom yopqich materiallar, cherepitsa va boshqalar)	2100	2750
		12,5%	12,6%
5	Maxsus qurilish materiallari (sanitar-texnik buyumlar, qurilish oynasi, polimerlar va boshqalar)	580	760
		3,4%	3,5%
6	Devorbop materiallar (qurilish g‘ishti, “sendvich” panel, gazoblok va boshqalar)	2000	2620
		11,9%	12,0%
7	Noruda qurilish maeriallari (qum, chaqiq tosh va boshqalar)	540	620
		3,2%	2,8%
8	Boshqa qurilish materiallari	1591	2030
		9,4%	9,3%

Ushbu jadval ma’lumotlarida uyushmaning tayyor mahsulotlar hajmi har yili ortib borganligini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni 2020-yil 16841,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 21890 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Bunday o‘zgarishlarga asosiy sabab aholining yildan yilga zamonaviy qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojini ortib borishi sabab bo‘lgan.

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida aholining qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentning bir qator qaror va farmonlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlanti rishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarori tasdiqlangan. Qarorga muvofiq qurilish materiallari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari, qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar, qurilish materiallari sanoati sohasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar belgilab berilgan [3].

Mazkur qarorda tadqiqot obyekti “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasiga tegishli chora-tadbirlar dasturini bajarish bo‘yicha bir qancha vazifalar yuklatilgan. Respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ini yanada rivojlantirishga hamda energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi xo‘jalik subyektlariga bir qator soliq imtiyozlari berish orqali joriy aktivlar hajmini yanada oshirib borish imkoniyatini yaratish va bu orqali joriy aktivlarga bo‘lgan talabni to‘laroq qondirish imkoniyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlarida tovar-moddiy zaxiralarini boshqarishning muhim qismi sanalgan omillar tahlili asosida ishlab chiqarish zaxiralarining shakllanishi va ularning muomala jarayonidagi harakatiga qarab, tashqi hamda ichki omillarning ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tashqi omillarga mol yetkazib beruvchilar ta’siri – bu materiallar yetkazib berish muddatiga rioya qilinmasligi, shartnoma shartlarining buzilishini o‘z ichiga oladi; xaridorlar ta’siri – bu talab hajmining o‘zgarishida o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga ichki omillar qatoriga tashkilotdagi ishlab chiqarish-xo‘jalik muhitining ta’sirini tavsiflaydigan omillar kiradi. Ushbu omillar guruhi kadrlar ko‘nimsizligi va kasbiy tayyorgarligi, moddiy resurslarga ehtiyojni noto‘g‘ri rejalashtirish, tovarlarni saqlash uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash va h.k. kiradi. Yakuniy bosqichda tovar-moddiy zaxiralar darajasini nazorat qilish samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarur [12].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralar tahlilida zaxiralarni rejalashtirish va nazorat qilishning mavjud usullaridan amalda qo‘llamaydi hamda zaxiralarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlaridan har doim ham foydalanmaydi. Bu ko‘rsatkichlar orqali esa iqtisodiy tahlil o‘tkazilayotgan davr uchun zaxiralar aylanishini, zaxiralar bilan ta’minlanganligini, joriy aktivlarning ortiqchaligini aniqlashda yordam beradi.

1 “O‘zcanoatqypilishmatepiallapi” yyushmaci ma’lymotlapi acocida myallif ishlanmaci

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar miqdorini tahlil qilish zaxiralar va o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hajmining oshishi o‘z mablag‘lari manbayi kamayishiga olib keladi. Buning natijasida qisqa muddatli qarzlarning ko‘payib zaxiralarni aylanish ko‘rsatkichlari yomonlashadi. Demak, xo‘jalik yurituvchi subyektlar mavjud resurslardan samarasiz foydalanganligidan dalolat beradi. Bu esa ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning rejalashtirgan me’yoridan yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Xulosa qilishimiz mumkinki, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt eng avvalo, ombordagi og‘ishlarni aniqlash va moddiy resurslar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini doimo tahlil qilish lozim.

Shunday qilib, moddiy resurslarni boshqarish muammosi moddiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanish, xom ashyo, material, yoqilg‘i va energiya xarajatlarini tahlil va nazorat qilish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu xarajatlarning bir qismini qoplash uchun muayyan chora-tadbirlar yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo‘jalik jarayonida foydalanilmagan resurslarni chetga sotish;
- ortiqcha resurslarni boshqa bo‘linmaga o‘tkazish;
- mol yetkazib beruvchidan moddiy resurslarni almashtirish (ushbu mol yetkazib beruvchidan xarid qilingan resurslarni shu mol yetkazib beruvchidan boshqa resurslarga aylamashtirish);
- narxni pasaytirgan holda resurslarni yetkazib beruvchiga qaytarish;
- materiallarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish.

Aks holda zaxiralarni toifalashtirish va ularning harakati uchun mas’ul shaxslarni belgilash talab qilinadi. Zaxiralar darajasini optimallashtirish va ularni shakllantirish, saqlash xarajatlari o‘rtasida muvozanat topish masalasi ortiqcha vaqt va harakatlar talab qiladi. Zaxiralarni keragidan ortiqchaligi muammosini hal qilish zaxira ko‘rsatkichlarini, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy imkoniyatlarini tahlil qilishni talab qiladi, chunki haddan tashqari o‘rnatilgan standartlar katta xarajatlarni talab qiladi.

Ta’kidlash joizki tovar-moddiy zaxiralar shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish jarayonida tovar-moddiy zaxiralarni to‘g‘ri boshqarish siyosati shuni anglatadiki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar zaxiralarni boshqarish siyosatining asosiy bosqichlariga tayangan holda zaxiralarni shakllantirish jarayonini rejalashtirishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi bosqichda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda moddiy resurslarni har tomonlama tejash ishlab chiqarish samaradorligining oshirishini ta’minlashga xizmat qiladi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyektdagi moddiy resurslar ortib borayotgan ehtiyojlarni qondirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Resurslarni tejash va uning muammolarini hal qilish avvalo, faoliyatning asosini tashkil etadigan tovar-moddiy zaxiralarni o‘z ichiga olgan resurslarning mavjudligini hamda harakatini hisobga olishning barcha nozik jihatlarini bilish maqsadga muvofiq.

Tovar-moddiy zaxiralardan foydalanishni tahlil qilish ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Tahlil davomida ishlab chiqarish jarayonida tovar-moddiy zaxiralaridan samarasiz foydalanish holatlari aniqlanadi, olingan ma’lumotlar asosida aniq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi va ijobiy natijalarga erishish uchun hamda rejadan chetlanishlarni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Xo‘jalik yuritishning yangicha sharoitlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo‘jalik yurituvchi subyektda mavjud bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarni baholash alohida qiziqish uyg‘otadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirish ning to‘g‘riligi, xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy holatini tavsiflovchi hisobot ko‘rsatkichlarining sifati va ishonchliligi mazkur subyektda qo‘llaniladigan baholash uslubiyatiga bog‘liq. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralari tahlil qilinganda yo‘ldagi va qayta ishlashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo‘jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xom ashyo va materiallar, joriy aktivlarning tarkibiga kiritilgan mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalari o‘rganiladi. Tahlil jarayonida tovar-moddiy zaxiralarining tarkibi, holati, harakati, miqdori, sotib olinishi yoki ishlab chiqarilishi, baholash va qayta baholash tartiblariga e’tibor beriladi.

XULOSA

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar ta’minoti bilan bog‘liq muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- materiallarni xarid qilish bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining mol yetkazib beruvchilar haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi;

- mol yetkazib beruvchilarni tanlashning rasmiylashtirilgan tartibining mavjud emasligi;
- ishlab chiqarish jarayonida kutilmagan vaziyatlar (smenalar ishidagi farq, kutish, kechiqish, texnologik turib qolishlar);
- keng ko‘lamli mahsulot *ini ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni reja bo‘yicha to‘xtatib turish (stanoklar buzilishi, detallarni almashtirish va qayta sozlash) va hakozo.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tadqiqot obyekti qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida joriy aktivlar tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning tutgan o‘rnini ifodalash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni. 2016-yil 13-aprel.
2. “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMS.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarori.
4. Шрайбфедер Дж. Эффективное управление запасами / Джон Шрайбфедер: Пср. с англ. – 2-е изд. – М.: “Альпина Бизнес Букс”, 2006. – С. 15.
5. Ладутько Н. И. Бухгалтерский учет в промышленности: учебное пособие/ Н. И. Ладутько. − Мн.: “Книжный Дом”, 2005. – С. 174.
6. Левкович О. А. Бухгалтерский учет: учеб. пособие / О. А. Левкович, И. Н. Тарасевич. – 8-е изд., перераб. и доп. – Минск: “Амалфея”, 2012. – С. 129.
7. Kalonov M. B., Ortiqov X. A., Babaxalov N. E., Ergashev Sh. T. Buxgalteriua hisobi. O‘quv qo‘llanma. –Tohskent. “Zamin nashr”, 2022/ – V. 678.
8. Tashnazarov S. N. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 6, noyabr-dekabr, 2017.
9. Raxmonov N. R Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish. i.f.n. diss. Avtoreferati/ O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – T: 2010. – B. 22.
10. Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. //Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.
11. Temirov A. A. Moliuaviu hisobot muammolari. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriuot-matbaa uui”, 2021. – B. 18.
12. Xayitboev M. I. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2021. – B. 15.

YER RENTASI MULKCHILIK MUNOSABATLARI RIVOJLANISHNING ZARURIY SHARTI SIFATIDA

Abdunazarov O.
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida Mulkchilik munosabatlarining rivojlanishida, ayniqsa, yerga mulkchilik munosabatlarida yer rentasi muhim ahamiyatga egadir. Chunki azaldan yerga mulkchilik munosabatlarini shakllanishi va rivojlanishida yer rentasining o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda ham jamiyatimizda agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Renta nazariyasi hozirgacha to‘liq o‘rganilmagan nazariyalar sirasidan hisoblanadi. Shu bois renta munosabatlarini o‘rganish, tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan birdir.

Kalit so‘zlar: Yer rentasi, yer egaligi, absolyut yer rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta-1, va -2, monopol renta, mutlaq renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Abstract: The purpose of the study: rent for land is of particular importance in the development of property relations in the Republic of Uzbekistan. Because for a long time the role of land rent in the formation and development of land ownership relations was incomparable.

Even today, the basis of agrarian relations in our society is rental relations. The theory of Rent is considered one of the theories that have not yet been fully disclosed. Thus, the study, the study of rent relations is one of the urgent problems of today.

Key words: Land rent, land ownership, absolute land rent, differential (stratified) rent-1 and -2, monopoly rent, absolute rent, fossil resources, rent received from the land on which the structures are located.

Annotatsiya: Sel issledovaniya: arendnaya plata za zemlyu imeet osoboe znachenie v razvitii otnosheniy sobstvennosti v Respublike Uzbekistan. Potomu chto dolgoe vremya rol arendnoy platы za zemlyu v formirovanii i razvitii otnosheniy sobstvennosti na Zemlyu bыla nesravnima.

Daje segodnya osnovoy agrarnыx otnosheniy v nashem obщestve yavlyayutsya arendnыe otnosheniya. Teoriya Rentы schitaetsya iz chisla teoriy, kotorыe do six por ne bыli polnostyu raskrыtы. Takim obrazom, izuchenie, isledovaniya otnosheniy rentы yavlyaetsya odnoy iz aktualnыx problem segodnyashnego dnya.

Klyuchevыe slova: Zemelnaya renta, sobstvennost na zemlyu, absolyutnaya zemelnaya renta, differensialnaya (stratifitsirovannaya) renta-1 i -2, monopolnaya renta, absolyutnaya renta, iskopaemыe resursы, renta, poluchaemaya s zemli, na kotoroy raspolojenы soorujeniya.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni samarasini ta’minlashda “O‘zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarining shakllanishi va uni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish”da mamlakat iqtisodiy tarixini o‘rganish bilan milliy mulkchilikning, yerga egalikning turli shakllarini cheklash va ularga o‘tkazilgan tayziqlarni ochib berish, ma’lum ilmiy xulosalar qilish, bugungi iqtisodiy sohadagi muammolarni kadimgi ildizlarini o‘rganish zaruriyati, alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, “...biz tariximiz, madaniyatimizni o‘zimiz uchun va butun dunyo uchun ham qayta tiklayotgan”[1] hozirgi o‘tish bosqichida O‘zbekistonning iqtisodiy tarixini mulkchilik shakllarini tatbiq qilish va uni milliy istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya ruhida yoritib berishni talab etmoqda.

“Yer rentasi – bu er egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir”.

Manbalarda ta’kidlanishicha, yer rentasining bir nechta tarixiy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular jamiyatda yerga mulkchilik munosabatlarini rivojlanishida taraqqiy etishida qo‘llanib kelingan.

1 Islom Karimov O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. Bosh taxririyati. 1998. 308-bet.

Jumladan, feodal yer rentalari hisoblangan: barshchina, obrok va pul solig‘i rentalari shular jumlasidandir.

Yer rentasi haqida gap ketganida eng avvallo tarixda o‘chmas iz qoldirgan arablar davriga nazar tashlamoq maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi kundagi yer rentasi umuman mulkchilik munosabatlarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarimizda, ushbu davr merosining o‘rni beqiyosdir.

Xususan, arab xalifaligi davriga kelib O‘rta Osiyodagi mavjud yerga bo‘lgan munosabat bir muncha o‘zgardi. Arablar xukmronlikni o‘z qo‘llariga olgach, bir qator mulkiy islohotlarni amalga oshirdilar.

Arablar davri iqtisodiy hayotining muxim tomoni shundaki, arablar soliq to‘lash evaziga mulkchilikning turli shakllarini rivojlanishiga yul ochib berganlar. Soliqlar arab xalifaligi davrida muhim sanalgan. Xalifalik xazinasi asosan yer mulklardan olinadigan turli soliqlar evaziga boyitilgan. Shuningdek, yozma manbalarda ta’kidlanganidek, “arablar davrida davlat erlarini shaxslarga iqt’a tariqasida tuhfa etish, ayrim harbiy yo‘lboshchilarga va amaldorlarga umr bo‘yi yoki merosiylik tariqasida berish avj olgan. Biroq yerlarning asosiy egasi xalifa sanalgan va iqt’adorlardan ushr olish huquqiga ega bo‘lgan. Xalifa islom davlati hududidagi musulmon yoki zimmiylar yerlarini iqta tariqasida berishga haq-huquqi bo‘lmagan, chunki, u bu yerlardan xiroj olib turgan”[2].

Arablar Movarounnaxr siyosiy tizimi va diniy e’tiqodiga ko‘p jihatdan soliq siyosati orqali erishganlar. Ular islom dinini qabul qilgan amaldorlarni, dehqonlarni ba’zi soliqlardan ozod qilishgan. Islomni qabul qilmaganlar esa yer-mulklaridan mahrum qilingan yoki ularga tavon to‘lagan.

Arablarning bu siyosati albatta, mulkchilik munosabatlari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Arablar istilosidan keyin Movarounnahrda mulkchilik munosabatlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

Ilgari yerlar, masalan, Buxoroda yirik zodagon qatlam Buxorxudotlarning xususiy mulki sanalsa, endilikda ular, xalifalik mulklariga aylandi. Yirik yer egalari dehqonlar arab xalifaligi davrida ham o‘z yerlarining egalari bo‘lib qoldilar, biroq endilikda ijaradorga aylanib, daromadning ma’lum qismini xalifalik xazinasiga jo‘natish majburiyatini olgan edilar… “islomni qabul qilmaganlar soliq to‘lovchilar sanalar va ular zimmiylar deb atalar edi”.

Movarounnahrdagi qishloqlarda yerlar mayda xo‘jaliklar tomonidan ishlov berilgan. Yirik yer egalari-dehqonlar yerlarini mayda bo‘laklarga taqsimlab ziroatkorlarga ijara tarzida bo‘lib berishgan… Sug‘diylarning asosiy qismi Jiz’ya va Xiroj to‘lashgan. Xiroj hosilning ma’lum miqdorda, ko‘pincha u yalpi mahsulotning 3/1 qismi hisobida olingan. Soliqning bunday turi “Muqassama”[3] deb nomlangan.

Soliq Movarounnahrda boshqa viloyatlardagi singari uch xil shaklda yig‘ilgan:

1. Davonin yoki muqati’a-mayda viloyatlar va tumanlarda xazinaga tushib turgan yig‘in.
2. Maqosima-hosilning ma’lum ulushi miqdorida to‘langan. Uning hajmi sug‘orishga bog‘liq holda belgilangan.
3. Misoxa – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo‘lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e’tibor berilmagan.

Yana bir boshqa manbada ham xuddi shunga o‘xshash ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Ya’ni “Iqtisodiy hayotni o‘z qo‘llaridan chiqarmaslik maqsadida arablar bu yerda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bu tizimga yer solig‘i-xiroj (xosilning 10/1 eki 10/2 qismi miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan zakot (40/1 miqdorida) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan jiz’ya solig‘i ham qo‘yildi”.

Bundan tashqari, arablar davridagi mulkchilik munosabatlari ma’lum darajada ular tomonidan joriy qilingan yerning huquqiy me’yolarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, “Xaliflalik davrida mulkchilikni belgilovchi me’yorlar ma’lum darajada rivoj topdi. Yerning huquqiy asoslarini tasdig‘ini quyidagi tartibda shakllandi:

1. Xijoz – Muhammad Payg‘ambar hayot kechirgan bu yerning aholisiga alohida huquqiy me’yor belgilangan edi. Xijozliklardan xazina hisobiga soliq 10/1 hisobida soliq olingan.
2. Vaqf – masjid, madrasa, maktab va muqaddas joylar uchun ajratilgan mulk bo‘lib, ular soliqdan ozod etilgan.
3. Mulk – xususiy yer egalariga qarashli yerlar.
4. Iqt’a – xizmati uchun beriladigan muvaqqat yerlar.

Ma’lumotlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, Xalifalikdan keyingi davrda Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, “toxiriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda turli ijtimoy toifa va qatlamlar mavjud edi. Ular jamiyatda o‘z mavqeyi va o‘rinlariga ega bo‘lgan holda, mulk, martaba va mansablarga ko‘ra bir-biridan farq qilganlar… Yirik va mayda yer egalari dehqon atamasi bilan atalgan. Xalifalik davrida iqtadorlarga xizmati evaziga yer-mulk sohiblari bo‘lgan harbiy shaxslar va amaldorlar ham tilga olinadi. Qishloq jamoasining a’zolari mayda yer egalari xiroj va jiz’ya to‘lovchilarning asosiy qismini tashkil qilganlar. Ijaraga beriladigan yerlar muzora’a deyilgan.

2 A. Sagdullayev.Uzb.tar.:Davlat va jamiyat tarakieti.Akademiya.T.; 2000y.77-b.
3 O‘zbekistonning yangi tarixi. 2 kitob. O‘zb-n.sovet mustamlakachiligi davrida.Sharq.T.:2000y.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bundan ko‘rinib turibdiki, yerni ijarga berish shakli, o‘sha davrlarda vujudga kelgan. Bugungi kunda mulkchilikning bu shakli bir qancha takomillashib, uning huquqiy jihatlari ham rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dastlabki davrlarda soliq tizimiga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki, soliq davlat xazinasini boyituvchi, to‘ldirib turuvchi asosiy manba hisoblangan. Buni arab xalifaligi xazinasiga tushgan soliqlar misolida ko‘rish mumkin[4].

1-jadval

Viloyatlar	Soliq miqdori	So‘mda
So‘g‘diyona, Bo‘ttom, Kesh, Nasaf	1089000	3623821,740
Buxoro	1189200	3957253,272
Farg‘ona	280000	931744,800
Choch	607000	201988,9620
Xo‘jand	100000	3327660,00
Jami	3265200	10865475,432

Jumladan, Toxiriylar davrida So‘g‘diyona, Bo‘ttom, Kesh va Nasaf bilan birga arab xalifaligiga 1089000 dirham, Buxoro viloyati 1189200 dirham soliq to‘lagan. Farg‘ona aholisi 280 ming dirham, Choch aholisi 607 ming dirham, Xo‘jand aholisi 100 000 dirham xiroj tulagan...”30ligi to‘g‘risida manbalarda baen etilgan.

Mo‘g‘ullar istilosiga qadar mavjud yer egaligi va soliq tizimi bir muncha taraqqiy etib keldi. Mo‘g‘ullar davriga kelib esa soliq turlari va yer egaligining yangi turlari vujudga keldi. Ya’ni “soliq tizimida yangi er solig‘i “kalon”(hosilning o‘ndan bir miqdorida), chorva mol boshidan olinadigan “qopchur”(100 tadan 1 miqdorida), tulen deb nomlanuvchi oziq-ovqat solig‘i joriy qilindi. Shuningdek, mo‘g‘ullar xukmronligi davrida yer egaligi shakllari ham o‘zgarib, ya’ni in’om etilgan yerlar mo‘g‘ulcha suyurg‘ol nomini olgan”. Bundan tashqari, mulkchilikning davlat, mulk(xususiy erlar), vaqf (diniy idoralar ixtieridagi yerlar) shakllari mavjud bo‘lgan.

Bu davr iqtisodiy hayotning yana bir o‘ziga xos jihati sho‘qi, aynan shu davrda bir qator iqtisodiy islohotlar o‘tqazilib, endilikda soliqlar uchun nafaqat etishtirilgan mahsulot bilan balki pul islohotlari natijasida vujudga kelgan va zarb etishga ruxsat berilgan kumush va oltin tangalar bilan ham soliq to‘lash mumkin bo‘lgan. Chunki, mo‘g‘ullar agarda kim xoxlasa o‘zidagi mavjud kumush va oltinlarni olib kelib maxsus zarbxonalarda pul zarb qilishni yo‘lga qo‘ygan edilar.

Bundan ko‘rinib turibdiki, feodal yer rentasining yuqorida keltirilgan shakllari usha davr iqtisodiy hayotida mulkiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o‘rin tutgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki bugungi kunda mustaqil diyorimizda ham yerga bo‘lgan munosabatlarda azaliy an’analarning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda mavjud renta munosabatlari vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagicha talqin etiladi:

“Absolyut yer rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta-1, va -2, monopol renta, mutlaq renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta”[5].

Renta munosabatlari – yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha sof daromadni taqsimlash va o‘zlashtirish bilan bog‘liqlikda vujudga keladigan munosabatlardir.

Ma’lumki ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to‘g‘ri keladi. Bu monopoliya ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat’i nazar, yer egalariga absolyut renta deb atalgan rentani olishga imkon beradi. Uning vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to‘lovlar oladilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jamiyatimizda agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Yer rentasi shark xalklarining iqtisodiy ijtimoiy hayoti rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Arab xalifaligi davriga kelib O‘rta Osiyodagi mavjud yerga bo‘lgan munosabat bir muncha o‘zgardi. Arablar xukmronlikni o‘z qo‘llariga olgach, bir qator mulkiy islohotlarni amalga oshirdilar.

Arablar davrida iqtisodiy hayotining rivojlanishiga katta hissa kushdilar, ular jamiyatda soliq to‘lash evaziga mulkchilikning bir kator shakllarini rivojlanishiga yo‘l ochib berdilar. Arab xalifaligida soliqlar xalifalikning muhim daromad manbayi bo‘lgan. Yer mulklardan olinadigan turli soliqlar, yigimlar va boshqa to‘lovlar xalifalik xazinasi boyituvchi manbalar hisoblangan.

4 Jadval ma’lumotlari muallif tomonidan to‘ldirildi.

5 Sh. Shodmonov.,R. Alimov.,T. Jurayev. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2002. – 242-b.

Foydalanilgan adabiyotlap po‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yer Kodeksi”. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid Qonun, Hukumat qarorlari va me’yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: “O‘qituvchi”, 1998. – 28-b.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.:O‘zbekiston, 1995. 116.
3. Савицкий А. П. Поземельный вопрос в Туркестане.Тошкент.1963.-С.82.
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2 kitob. O‘zb-n.sovet mustamlakachiligi davrida.Sharq. –T.:2000 y.161-b.
5. Аминова Р. Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане(1917-1920гг)-Т.,1963.С. 243.
6. Советский Узбекистан в борьбе за развитие хлопководство. –Т.,1949.С. 14.
7. Мирзаев Д. З. Развитие кооперативной формы хозяйствования в условиях рыночных отношений в Туркестане. Опыт и проблемы. Автореф.дисс.канд.ист.наук. –Т. 1994.;
8. Хайдаров М. М. Централизаторская политика Советской власти в Туркестане и ее последствия (1917-1924 гг.). Автореф. дисс. канд. ист.наук. –Т.: 1998. –31 с.;
9. Трушин Э. Ф. Реформирование земельно-водных отношений как условие экономического роста. Автореф. дис. док. экон. наук. –М.: 1996. – С.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ (НА ПРИМЕРЕ РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)

Ким П. В.
Начальник операционного управления АО “Apex Insurance”

Аннотация: В статье обсуждаются вопросы формирования и развития цифровой экономики. На основании сравнительного изучения нормативно-правовой базы по цифровизации экономики, действующей в Российской Федерации и Республике Узбекистан, разработаны предложения по дальнейшему совершенствованию базовых документов, регулирующих безопасность деятельности при цифровой экономике.

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, цифровая экономика, киберугрозы, информационное общество, блокчейн, информационная безопасность, интернет-торговля.

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi muhokama qilinadi. Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanib kelayotgan iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani qiyosiy tahlil asosida raqamli iqtisodiyotda faoliyat xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, kibertahdidlar, axborot jamiyati, blokcheyn, axborot xavfsizligi, onlayn tijorat.

Abstract: The article discusses the formation and development of the digital economy. Based on a comparative study of the regulatory framework for the digitalization of the economy in force in the Russian Federation and the Republic of Uzbekistan, proposals have been developed for further improving the basic documents regulating the safety of activities in the digital economy.

Key words: digitalization, digital technologies, digital economy, cyber threats, information society, blockchain, information security, internet commerce.

Изучение процессов формирования и развития цифровой экономики позволяет констатировать, что практически во всех странах, занимающих лидирующие позиции в области цифровых технологий, главным инициатором инноваций по цифровизации является государство. При активном участии государств осуществляется успешная разработка технологических предложений, а также коммерциализация результатов этих предложений. Правительства многих стран были инициаторами и создателями ведущих и крупных корпораций, результатом деятельности которых стало формирование “цифрового образа” современной экономики.

Цифровая экономика способствует росту производительности труда, повышению конкурентоспособности компаний посредством снижения издержек производства. Она приведет к созданию новых профессий и рабочих мест. Посредством цифровой экономики можно преодолеть бедности среди людей и социального неравенства в обществе. В то же время, она несёт и ряд рисков, которые можно обозначить как риск киберугроз, в первую очередь связанных с защитой персональных данных. Также явной угрозой может стать незаконное использование данных о миллионах людей в целях управления их поведением. И наравне с созданием новых профессий и рабочих мест цифровая экономика может привести к росту количества безработных и исчезновению некоторых профессий, а может быть и отраслей экономики. Основным отрицательным моментом можно отметить возможность разрыва в условиях доступа к цифровым услугам и продуктам, в цифровом образовании, в уровне благосостояния людей.

Сравнительное изучение данного вопроса на примере Российской Федерации и Республики Узбекистан позволяет делать вывод, что в обеих странах также государство является главным инициатором широкомасштабных новшеств в области цифровизации. В этом отношении обе страны идут по уже про-

веренной дороге. В последние годы руководством стран выдвигались широкомасштабные инициативы по формированию и развитию цифрового сектора экономики. Для практической реализации данных начинаний правительствами принимаются меры по внедрению государственной системы электронного документооборота, банками и платежными системами – по развитию электронных платежей, законодательными органами – по совершенствованию нормативно-правовой базы в сфере “цифровизации” всех сторон нашей повседневной жизни и отраслей экономики.

В утвержденной “Стратегии развития информационного общества РФ на 2017-2030 годы” (пункт р)) дано следующее определение цифровой экономики: “Цифровая экономика – это хозяйственная деятельность, в которой ключевым фактором производства являются данные в цифровом виде, обработка больших объемов и использование результатов анализа которых по сравнению с традиционными формами хозяйствования позволяют существенно повысить эффективность различных видов производства, технологий, оборудования, хранения, продажи, доставки товаров и услуг” [Стратегия развития, 2017, пункт 4, подпункт р)].

Стратегия призвана способствовать обеспечению формирования цифровой экономики, как составляющего национальных интересов России в информационном мире. [Стратегия развития, 2017, пункт 21]. А обеспечение национальных интересов при развитии информационного общества осуществляется путем реализации приоритетов, в числе которых и обеспечение национальных интересов в области цифровой экономики [Стратегия развития, 2017, пункт 22].

Основной задачей формирования цифровой экономики является обеспечение безопасности. В этих целях в составе Национальной программы “Цифровая экономика Российской Федерации” разработан федеральный проект “Информационная безопасность” [Национальная программа, 2019].

Сравнительное изучение создания нормативно-правовой базы формирования цифровой экономики в Республике Узбекистан позволяет определить, какие основные процедуры в данном направлении соответствует опыту стран, уже прошедших определенный путь в цифровизации экономики, в том числе опыту России, а какие вопросы нужно ещё прорабатывать. Нужно подчеркнуть, что определенная и весьма существенная работа в этом направлении уже проделана. Так, принято Постановление Президента Республики Узбекистан от 3 июля 2018 года “О мерах по развитию цифровой экономики в Республике Узбекистан” за № ПП-3832. Постановлением определены основные направления и процедуры, которые позволяют формировать необходимые условия всестороннего использования цифровых разработок для решения традиционных и возникающих проблем в текущей и перспективной жизнедеятельности всего общества, в том числе и экономической деятельности. Согласно подпункту б) пункта 3 данного Постановления, с 1 января 2021 года внедряются технологии “блокчейн” в деятельность государственных органов, в том числе при взаимодействии с другими государственными органами и иными организациями, осуществлении государственных закупок, оказании государственных услуг, верификации сведений о личности [ПП-3832, 2018]. Если учесть, что блокчейн – это комплексная технология распределенных ресурсов, которая представляет собой децентрализованный реестр или же просто список всех операций, а согласно данного Постановления, “...технологии распределенного реестра данных”, то интеграция баз данных перечисленных органов требует решения задач организационного, правового характера, а также обеспечения безопасности доступа третьих лиц к ресурсам организаций, которые участвуют в проекте. Следовательно, для интенсивного вырабатывания основных элементов цифровизации экономики в республике назрела необходимость создания новых разновидностей информационно-технологических платформ. Решение данной задачи требует запуска программы обучения высококвалифицированных специалистов, владеющих навыками и сведениями в сфере разработки и использования “блокчейна” на практике. Учитывая отсутствия возможностей приобретения практических навыков работы в условиях цифровизации у специалистов, в большинстве случаев придется идти путем проб и ошибок.

В целях решения упомянутых проблем и обеспечения средствами осуществления задач, предусмотренных в вышеуказанном Постановлении, объединения ресурсов инвестиционного, финансового характера на основных назначениях цифровизации экономики, было принято Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3927 “Об образовании фонда поддержки развития цифровой экономики “Цифровое доверие” от 2 сентября 2018 года. Пунктом 2 данного Постановления, в качестве основной задачи Фонда определено “...обеспечение технического содействия в организации сотрудничества с ведущими зарубежными и международными организациями в сфере оборота крипто-активов и технологий “блокчейн”, в том числе в привлечении высококвалифицированных иностранных специалистов” [ПП-3927, 2018]. Формулировка задач в такой форме означает, что при создании технических условий перехода к цифровым технологиям, а также инфраструктуры цифровой экономики, будет широко применяться зарубежный опыт решения задач аналогичного типа. Другими словами, будут вне-

дрены готовые продукты, разработанные в странах с развитой инфраструктурой, позволяющие ускорить цифровизацию нашей экономики. На наш взгляд, такое прямое внедрение порождает множество вопросов, точные ответы на которых помогут облегчить процесс принятия оптимальных вариантов управленческих решений.

Первый, и наиболее острый вопрос, насколько внедряемые технологии отвечают требованиям безопасности осуществления деятельности органов управления, хозяйствующих субъектов, населения. После полной интеграции технологий в сферу управления народным хозяйством, зависимость полнокровной деятельности органов управления и хозяйствующих субъектов, населения от качества и надежности применяемых технологий возрастает многократно, по отдельным позициям такая зависимость может быть стопроцентной. Естественно, любое, мало-мальски значимое отклонение в работе программного обеспечения или самой техники может привести к нарушению своевременности, правильности и качества принимаемых решений, организации деятельности. В зависимости от отраслей и сфер деятельности, масштабов отклонения работы последствия могут быть в диапазоне от незначительных до катастрофических. Если добавить влияния таких факторов, как природные катаклизмы, техногенные катастрофы, человеческий фактор на нормальное функционирование цифровых технологий, становится очевидным, на каком уровне должны быть требования к приобретаемой технике и средств обеспечения её нормальной работы.

Также должны быть предусмотрены альтернативные варианты решения задач, принятия решений, осуществления деятельности населения и предприятий, органов управления, функционирования всей экономики, вплоть до перехода на “ручное управление”. На возможный такой ход событий обращают внимания и эксперты Международной негосударственной некоммерческой организации “BUYUK KELAJAK”, которые отмечают, что: “В настоящее время новой угрозой для Узбекистана становятся киберпреступления” [Концепция, 2018, стр. 61]. Примером потенциальных угроз по элементу “Экономическая безопасность” системы национальной безопасности Республики Узбекистан являются “Кибератаки, нацеленные на национальную финансовую систему” [Концепция, 2018, стр. 62]. В связи с этим, обязательно должна быть разработана и опубликована доктрина кибер-безопасности Республики Узбекистан. При разработке данной доктрины можно использовать базовые принципы обеспечения безопасности, отраженные в федеральном проекте “Информационная безопасность” [Национальная программа, 2019]. В качестве основных элементов доктрины предлагается:

1. Разработка мер, предусматривающее предотвращение взлома системы государственных органов управления.
2. Применение адекватных способов защиты системы Налоговой службы.
3. Разработка или закуп программных средств защиты от массированного внедрения вредоносных вирусов в компьютерные сети для предотвращения поражения компьютеров различных пользователей, в первую очередь систем жизнеобеспечения, обороны и обеспечения правопорядка.

Как известно, экономическая безопасность является неотъемлемой частью национальной безопасности, а одним из основных составляющих экономической безопасности является поддержание благосостояния народа путем создания рабочих мест и создание экономических возможностей для повышения уровня получаемых доходов населения. И цифровая экономика имеет практически неограниченные возможности в осуществлении данной задачи. Создание удаленных рабочих мест, формирование условий для расширения дистанционных возможностей генерирования доходов населением и раньше являлись бесспорными преимуществами цифровой экономики. С распространением пандемии коронавируса COVID-19 появилась острая необходимость использования данных преимуществ, внедряя в повседневную жизнь и другие положительные стороны применения цифровых технологий. В первую очередь нужно широко использовать их возможности по предупреждению непосредственных контактов между участниками экономической и социальной жизни. Для этого необходимо расширять круг дистанционно оказываемых услуг (как государственных, так и частных), шире использовать возможностей электронной коммерции посредством создания благоприятных условий для развития интернет-торговли. Нужно предусмотреть предоставления субсидий или предоставить налоговые льготы в целях поощрения создания удаленных рабочих мест для вновь создаваемых предприятий с постепенным расширением предоставления льгот до действующих предприятий.

Предполагается, что практическое применение приведенных предложений, изучение опыта зарубежных стран, в том числе опыта формирования и развития цифровой экономики Российской Федерации способствует ускорению формирования и развития цифровой экономики в Республике Узбекистан.

Библиографический список:

1. Концепция Стратегии развития Республики Узбекистан до 2035 года. Международная негосударственная некоммерческая организация “BUYUK KELAJAK”, 2018 год. http://staff.tiiame.uz/storage/users/465/presentations/rlRu 4HHfEypxLacM0zBaIqTlGXmUdCMKLKpLXNJO. pdf
2. Национальная программа “Цифровая экономика Российской Федерации”. Утверждена протоколом заседания президиума Совета при Президенте Российской Федерации по стратегическому развитию и национальным проектам от 4 июня 2019 г. № 7. https://digital.gov.ru/ru/ activity/directions/858/
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3832 “О мерах по развитию цифровой экономики в Республике Узбекистан” от 3 июля 2018 года. https://lex.uz/docs/3806048
4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3927 “Об образовании фонда поддержки развития цифровой экономики “Цифровое доверие” от 2 сентября 2018 года. https://lex.uz/docs/3891627
5. “Стратегия развития информационного общества РФ на 2017-2030 годы”. Утверждена Указом Президента Российской Федерации от 9 мая 2017 года № 203. https://base.garant.ru/71670570/

TIJORAT BANKLARI KORPORATIV BOSHQARUVIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI

Kudratov Sunnatulla Ropijanovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada bank tizimini ishonchililigi va barqarorligini oshirish, banklar faoliyatini shaffofligini ta'minlash, bank faoliyatining barcha ishtirokchi tomonlarini qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilish hamda banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash samaradorligi ochib berilgan. Shuningdek, tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimi asosida amalga oshirilayotgan muhim institutsional o'zgarishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, korporativ boshqaruv, samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, kredit, resurslar.

Abstract: The article reveals the effectiveness of increasing the reliability and stability of the banking system, ensuring transparency of banks' activities, fully protecting the legitimate interests of all participants in banking activities, and ensuring the financial stability of banks. It also highlights important institutional changes implemented in the commercial banks based on the corporate governance system.

Key words: commercial banks, corporate governance, efficiency, financial stability, credit, resources.

Аннотация: В статье раскрывается эффективность повышения надежности и устойчивости банковской системы, обеспечения прозрачности деятельности банков, полной защиты законных интересов всех участников банковской деятельности, обеспечения финансовой устойчивости банков. Также выделены важные институциональные изменения, реализованные в коммерческих банков на основе системы корпоративного управления.

Ключевые слова: коммерческие банки, корпоративное управление, эффективность, финансовая устойчивость, кредит, ресурсы.

KIRISH

Jahonda tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq risklarni har tomonlama baholash – bank tizimini ishonchliligi va barqarorligini oshirish, banklar faoliyatini shaffofligini ta'minlash, bank faoliyatining barcha ishtirokchi tomonlarini qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilishning zaruriy shartidir. Bu esa korporativ boshqaruv tizimini tijorat banklari barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, korporativ boshqaruv tamoyillari asosida jahonning "2021-yilda 73 ta yirik bozorida ro'yxatga olingan 8000 ga yaqin kompaniya barqarorlik ko'rsatkichlarini oshkor qildi" [1].

Mamlakatimiz moliya-bank tizimida yillar mobaynida amalga oshirilgan davomli islohotlar natijasida respublikada ikki pog'onali bank tizimi kengayib, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ta'minlandi va Covid – 19 pandemiyasining bank tizimiga salbiy ta'siri minimallashtirildi. Hozirgi kunda bank tizimi oldiga qo'yilgan navbatdagi vazifa – bu, banklarni barqarorligini yanada mustahkamlash, kapitalni yetarliligi bo'yicha xalqaro andozalar talablariga javob berish, tijorat banklari tomonidan xalqaro reytinglarni olish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashda banklarning yetakchilik rolini rolini yanada oshirishdan iborat bo'lmoqda. Tabiiyki, xalqaro darajada moliyaviy globallashuvning kuchayishi, kapital bozorlardagi raqobatning ortishi bilan, banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy izlanishlarda korporativ boshqaruv tushunchasi hamda tijorat banklarida joriy qilish mexanizmlarning turli yondashuvlarning mavjudligi mualliflarning ilmiy qarashlarida namoyon bo'lishini mumkin.

Korporativ boshqaruvda nazorat aksiyadorlik jamiyatining boshqarishni zaruriy qismi sifatida hamda uning moliyaviy yo'qotishlarni oldining olishdagi asosiy o'rni 1992-yilda AQShda COSO tashkilotining "Ichki nazorat.

Konseptual asoslar” nomli me’yoriy hujjatda o‘z aksini topdi. Mazkur hujjat. COSO tomonidan taqdim etilib, unda ichki nazorat konsepsiyasi ichki nazoratni direktorlar kengashi, menejment va boshqa personal tomonidan quyidagi kategoriyalar bo‘yicha maqsadlarga erishishni ta’minlovchi jarayon sifatida ta’riflandir [2].

Korporativ boshqaruvning eng ko‘p tarqalgan milliy modellarining xususiyatlarini umumlashtirilganligi, modellar har biri muayyan milliy iqtisodiyotlarning, bozor xo‘jaligining tarkiblari va rivojlanish shakllarining oqibatidir. Rivojlangan mamlalatlarda ushbu sohada mavjud uslublar va qarorlarning butun turfaligida, direktorlar kengashlari va investorlar o‘zlari riskni olib, korporativ boshqaruvning qo‘llaniladigan instrumentlari kombinasiyalaridagi hamda ularni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy va tartibga solish institutlaridan foydalanishadilar [3].

Chunki, zamonaviy adabiyotlarda W (wide) model deb ataladigan, va asosan, AQSh hamda Buyuk Britaniyada keng tarqalgan model mulkdorlikning “sochilib ketganligi” (yoyilganligi) va shu sababli, bozorda aksiyalarnning likvidli ekanligi bilan tavsiflanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, AQSh va Buyuk Britaniyada o‘tgan asrning 90-yillarida ochiq aksiyadorlik kompaniyalarda eng yirik aksiya paketi 10% ham oshmasligi namoyon bo‘ldi [4].

Ba’zi mualliflar korporativ boshqaruv tizimini tijorat banklarini fond bozorlaridagi faoliyati bilan bog‘lanadi. Bunda umumiy korporativ obligasiyalar bozori holatidan kelib chiqqan holda tijorat banki va real sektor korxonalari misolida emitentlar korporativ obligasiyalarni muomalaga chiqarishda e’tibor qaratishlari lozim bo‘lgan jihatlar aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekistonda korporativ obligasiyalar bozorini rivojlantirish orqali moliya bozorida sog‘lom raqobatni yuzaga keltirish asosida rivojlantirish maqbul [5].

Shu bilan birga, milliy korporativ boshqaruv tizimini shakllanishi va rivojlanishining muayyan ijobiy jarayonlariga qaramasdan, korporativ boshqaruv sohasida ayrim muammolar va hal etilmagan masalalar to‘planib qolmoqdaki, ularni hal etmasdan turib, korporativ boshqaruv tizimini keyingi davrda rivojlantirish, qolaversa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat raqobatbardoshligiga erishish jarayoni qiyinlashishi mumkin [6].

Umuman olganda, tijorat banklari tizimida amalga oshirilayotgan muhim institutsional o‘zgarish sifatida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlash, har tomonlama baholash, mavhum mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarda korporativ boshqaruvning o‘ziga xosligini tadqiq etish bu, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirishga, resurs bazasini barqaror o‘stirishga, iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni amalga oshirishga, investitsion faollikni kuchaytirishga yo‘naltirayotganligini tahlillar natijasida kuzatish mumkin.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvini tadqiq etish, uning mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish, respublikada mavjud mulkdorlar tarkibida davlat ishtiroki bor banklarda ushbu xulosalardan korporativ boshqaruvni takomillashtirishda qo‘llash mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Respublika yirik tijorat banklari (“O‘zmilliybank” AJ, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Agrobank” AJ) faoliyatining asosiy yo‘nalishlari – bu iqtisodiyotning tarkibiy tub o‘zgarishlarida, sanoatni, agrosanoatni modernizasiyalash, texnikaviy va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo‘yicha investitsiya loyihalarida keng miqyosda ishtirok etish, korxonalarni qo‘llab-quvatlash va ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish, resurs bazasini jadal kengaytirish hisoblanadi. Investitsiyalash salohiyatini, kapitallashuv darajasini doimiy tarzda oshirish, moliyaviy resurslarning manbalarini diversifikasiyalash – bank amaliyotlari ko‘lamini kengaytirilishi uchun ham, bankning kredit beruvchilari, depozitorlari (omonatchilari) hamda sarmoyadorlari oldida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishi uchun ham zamin yaratadi.

Hozirda yirik tijorat banklari yirik investitsiya muassasalariga aylandi. Bank-moliya sohasida tobora rivojlanayotgan raqobat sharoitida, banklar moliyaviy bozoridagi nufuzli o‘rinlarni egallab, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlarning uzoq muddatli loyihalarini amalga oshirish uchun keng ko‘lamdagi zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi yetakchi banklar sifatida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda mijozlarga har tomonlama ko‘maklashish strategiyasini amalga oshirmoqda.

Respublikamiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi sifatida yirik tijorat banklarining korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi bo‘ldi. Korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi muhim rolini quyidagilardan ko‘rish mumkin:

- moliyalashtirish manbalarini olish imkoniyatni kengaytiradi, bu esa, investitsiya, iqtisodiy o‘sish, ish bilan bandlikni oshiradi;
- kapital qiymatini pasayishi va bankning yuqori baholanishga erishishga olib keladi, bu o‘z navbatida, investitsiya va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi;

- operasion faoliyatining yaxshilanishga ta’sir etadi, bu resurslarni yaxshiroq joylashishi, samarali boshqaruv, boylikning yaratilishini kengaytiradi;
- davlat va firma darajasida past risk va o‘z navbatida kamroq bankrotlik, kamroq moliyaviy inqirozlar bo‘lishini ta’minlaydi;
- ulushdorlar bilan yaxshiroq munosabatlarni ta’minlaydi, umumiy muhitni yaxshilanishiga ta’sir etadi.

Banklarda korporativ boshqaruv muhim ahamiyatga ega va ushbu boshqaruv, bankning iqtisodiy natijalarga ta’sir etadi. Banklar jamiyatining jamg‘armalarini to‘playdi va ularni joylashtiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar firmalar uchun juda muhim tashqi moliyalashtirish manbayi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, banklar moliyaviy bozorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoni yo‘q firmalar uchun korporativ boshqaruv samaradorligiga ta’sir etadi. Ushbu holat, banklardan qarz oladigan firmalarning korporativ boshqaruvida ishtirok etishi bilan aks etadi

Markaziy bank tomonidan “banklarda kapital, likvidlilikni qoplash, sof barqaror moliyalashtirish me’yorlari haqqoniy hisob-kitob qilinishi hamda aktivlar sifati to‘g‘ri tasniflanishi bo‘yicha tematik tekshirishlar o‘tkazishning har bir qadami va ketma-ketligini belgilovchi nazorat mahsulotlari ishlab chiqildi” [7].

Tijorat banlkri xizmat ko‘rsatishning yuqori darajasi, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchlilik, boshqaruvning yuksak professionalizmi, ishdagi tezkorlik, davlat tomonidan qo‘llab-quvatlanishi, kapitallashuv darajasini yuqoriligi bank uchun yildan yilga faoliyatning barqaror moliyaviy natijalariga erishishga imkon bermoqda. Milliy shkala bo‘yicha respublika tijorat banklari moliyaviy holatini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksni izchil amalga oshirishi, rivojlanishning puxta o‘ylangan strategiyasi, mavqeyi va obro‘-e’tiborini bir maromda shakllantirishi hamda kredit qobiliyati reytingi “uzA+ barqaror” darajasida baholanib, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlarining “Fitch ratings” va “Standart&Poor’s” “BB” darajali reyting baholariga ega bo‘ldi.

Respublika tijorat banklarida “korporativ boshqarish tizimi joriy etilib, Bank kengashlari professional mahalliy va xalqaro ekspertlar hisobiga shakllantirilib, har bir bankning bozordagi o‘rni va mavqeyini belgilovchi transformasiya strategiyalari ishlab chiqildi va bu jarayonlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish, shaffof va sodda holda mijozlarga yetkazishga alohida” [7] e’tibor qaratilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda aktivlarining majburiyatlarga nisbati hamda kreditlarning depozitlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlarni hisoblash va ularni nazorat qilib borish muhimdir. Tahlil natijalariga ko‘ra bank tizimida aktivlarning majburiyatlarga nisbati 115-120 foiz atrofida bo‘lmoqda. Bu ko‘rsatkich bizga bank tizimi aktivlarining katta qismi majburiyatlardan tashkil topganligini bildirmoqda.

Shuningdek, kreditlar qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati orqali biz banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning depozitlar bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlashimiz mumkin. Ya’ni tijorat banklarida barqaror resurs manbayi sifatida depozit bazasi olinadi. Aynan bank ajratayotgan kreditlar barqaror manbalardan amalga oshirilishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda bank tizimida ajratilayotgan kreditlarning depozitlarga nisbati 2022-yil 1-yanvar holatiga 209,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 180,0 foizni tashkil qilgan. Bu orqali biz kredit qo‘yilmalarining tarkibida depozit resurslarining hissasi oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari, mlrd.so‘m

Ko‘rsatkichlar	01.01.2022-y.			01.01.2023-y.		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo‘lmagan banklar		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo‘lmagan banklar
Aktivlarning majburiyatga nisbati, foizda	119,0	118,9	1 19,1	116,7	116,6	117,0
Aktivlar	444 922,5	362 421,9	82 500,6	556 746,3	435 135,6	121 610,7
Majburiyatlar	374 004,9	304 726,7	69 278,2	477 180,8	373 216,4	103 964,4
Kredit qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati, foizda	209,0	268,7	89,2	180,0	239,6	80,5
Kreditlar	326 311,6	280 073,6	46 311,9	390 048,9	324 680,8	65 368,2
Depozitlar	156 111,8	104 248,0	51 941,8	216 737,5	135 534,4	81 203,1

Mulkchilik shakliga ko‘ra banklardagi holatni tahlil qiladigan bo‘lsa, unda davlat ulushi mavduj banklarda kredit qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati 2022-yil 1-yanvar holatiga 268,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 239,6 foizni tashkil qilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud banklar ajratayotgan kreditlarining katta qismi barqaror bo‘lmagan resurslardan ketmoqda. Ya’ni kreditlarning atiga 30 foizi depozitlar hisobiga amalga oshmoqda.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarida esa vaziyat ancha yaxshi holatda. Xususan, 2022-yil 1-yanvar holatiga kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda kredit qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati 89,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 80,5 foizni tashkil qilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda kredit qo‘yilmalar to‘liq depozit manbalardan amalga oshirilmoqda va bu kabi banklarda transformasiya riski juda past darajada.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizdagi yirik banklarning barchasi aksiyadorlik ko‘rinishida tashkil etilgan bo‘lib, korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi quyidagi jihatlari muhimdir: bu ko‘rinishdagi boshqaruv shakli banklar tomonidan moliyalashtirish manbalarini olish imkoniyatini kengaytiradi, bank kapitali qiymatini pasayishiga ta’sir etadi, operasion faoliyatining yaxshilanishga, resurslarni samarali joylashishiga hamda turli ulushdorlar bilan korporativ munosabatlarning yuqori samaradorligini ta’minlaydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimidagi turli salbiy tebranishlar shuni ko‘rsatdiki, banklarning huquqiy va reputasiya riskini boshqarish, banklar va uning omonatchilari uchun juda katta ahamiyatga ega. Qator banklarning nobarqaror holati ular tomonidan qonunchilik, tartibga soluvchi yo‘riqnoma va axloqiy kodekslarga amal qilmaslik holatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ko‘plab banklar ichki nazorat jarayoni va risklarni boshqarishni takomillashtirishga harakat qilmoqdalar. Respublikamiz bank tizimida korporativ boshqaruv an’analari yetarlicha mustahkam shakllanmagan bo‘lsa-da, korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha bir qator ijobiy siljishlar yuz berayotganligi qayd etish lozim.

Birinchidan, banklarda korporativ boshqaruv tizimini tadqiq etishda ikkita o‘ziga xos omilni ajratib ko‘rsatildi: bank tizimining past darajada shaffofligi va ushbu tizimining davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinishi. Banklar tizimli ahamiyatga ega bo‘lganligidan, Hukumat tomonidan depozitlar kafolati, yoki ularni davlat tomonidan sug‘urta qilish ko‘rinishida qo‘llab-quvvatlanadi. Korporativ boshqaruvni tashkil etishda banklar, korporasiyalardan quyidagi o‘ziga xosliklar bilan farqlanadi: banklarning faoliyati va risklilik darajasini baholash qiyin, banklar yuqori leverjga ega, ko‘pgina qisqa muddatli talablar yuqori riskli bo‘lib, bankni osongina bankrot qilishi mumkin. Depozitorlar, qarz beruvchilar va aksiyadorlar o‘rniga, huqumat banklarni monitor qilish rolini bajaradi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash natijasida bank boshqaruvini risklarni olishda mas’uliyatsizlik muammosining yuzaga chiqishi mumkin;

Ikkinchidan, korporativ boshqaruvda ishtirok etuvchilar (yirik aksiyadorlar, kichik ulushga ega aksiyadorlar, yirik kreditorlar, kichik hajmli kreditorlar va tartibga soluvchi organlar) banklar boshqaruviga turli darajada ta’sir etish imkoniyatiga ega. Kompaniyani boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish uchun yirik aksiyadorlar va kreditorlar sezilarli darajada imkoniyatlarga ega bo‘ladilar va bu holat kichik hajmdagi aksiya egalarining manfaatlarini paymol bo‘lish hollariga olib kelishi mumkin. Kichik hajmdagi aksiya egalari va kichik hajmdagi kreditorlar korporativ boshqaruv darajasiga chegaralangan tarzda ta’sir etadilar va axborot assimetriyasi sezilarli darajada ekanligi, “free-rider” muammosi, ya’ni nazorat etish xarajatlari tufayli kichik hajmdagi aksiyadorlar menejerlarning nazoratdan chetda qoldirishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro darajada banklar mulkdorlari tarkibida oilalar tomonidan boshqariladigan banklarning ulushini yuqori ekanligini kuzatish mumkin;

Uchinchidan, tadqiqotlar xorijiy mamlakatlarda birlashish va qo‘shib olishlar bozori, menejerlarni aksiyadorlar manfaati uchun ishlashga rag‘batlantiruvchi samarli mexanizmlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ammo tadqiqotlar, O‘zbekistonda fond bozorining likvid emasligi, birlashish va qo‘shib olishlar mexanizmining bank menejerlarini samarli ishlashga ta’siri zaifligini ko‘rsatdi;

Shunday qilib, respublika tijorat banklari korporativ boshqaruv tizimining yanada samaradorlini oshirish orqali respublikaning barcha hududlaridagi turli xil mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan talablarini keng miqyosdagi xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan qondirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD (2023), OECD Corporate Governance Factbook 2023.
2. “Internal Control – Integrated Framework”, Committee of Sponsoring Organizations of the Tread way Commission (COSO), New York, AICPA, 1992.
3. Уциг З. Корпоративное управление, капитализация компаний и опции на акции Enron, Worldcom и Ко // Бизнес и банки.–2002. № 47.
4. Дементьева А. Г. Система корпоративного управления в развитии страны и России // Менеджмент в России и за рубежом, 2008, №3.
5. Elmirzayev S. E., Berdiyev U. J., Bo‘riyev J. P. Milliy korporativ obligasiyalar bozori: joriy holat va istiqbollar // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi. 2021, 2(138)
6. Ashurov Z. A. O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini zamonaviy xalqaro standartlar asosida innovasion rivojlantirish istiqbollari// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil
7. O‘zbekiston Respublikasi Markazoy banki yillik-hisoboti-2023.pdf (www.cbu.uz)

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATINING BANKLAR RESURS SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ROLI

Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Bugungi banklararo raqobat kurashi sharoitida tijorat banklarining depozit siyosati samaradorligini oshirish, uning bank resurs bazasini mustahkamlashdagi ahamiyatini yanada mustahkamlash har qanday tijorat bankining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada tijorat banklari depozit siyostanining shakllanishi, uning nazariy asoslari, banklarda resurslarni shakllantirishda depozit siyosatining o‘rni kabi masalalar yoritilgan. Shuningndek, mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasi va unga xos bo‘lgan tendensiyalar tahlil qilingan, tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: depozit siyosati, omonat, muddatli depozit, bank resurslari, depozit baza, bank aktivlari, bank foydasi, foiz stavka.

Abstract: One of the strategic goals of any commercial bank is to increase the effectiveness of the deposit policy of commercial banks in the conditions of today’s interbank competition, and further strengthen its importance in strengthening the bank’s resource base. This article describes issues such as the formation of the deposit policy of commercial banks, its theoretical foundations, the role of the deposit policy in the formation of resources in banks. In addition, the resource base of commercial banks of our country and its specific trends were analyzed, relevant conclusions and suggestions were formed.

Key words: deposit policy, deposit, term deposit, bank resources, deposit base, bank assets, bank profit, interest rate.

Аннотация: Одной из стратегических целей любого коммерческого банка является повышение эффективности депозитной политики коммерческих банков в условиях современной межбанковской конкуренции, далнейшее усиление ее значения в укреплении ресурсной базы банка. В данной стате рассмотрены такие вопросы, как формирование депозитной политики коммерческих банков, ее теоретические основы, рол депозитной политики в формировании ресурсов банков. Кроме того, была проанализирована ресурсная база коммерческих банков нашей страны и ее специфические тенденции, сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: депозитная политика, вклад, срочный депозит, ресурсы банка, депозитная база, активы банка, прибыл банка, процентная ставка.

KIRISH

Tijorat banklarining depozit siyosati ularning faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Banklar jismoniy shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlaridan bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb qiladi va bu mablag‘larni kreditlash hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun yo‘naltiradi. Depozitlar banklar uchun mijozlarni moliyalashtirishning asosiy manbayi bo‘lib, ushbu mablag‘lar mijozlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, o‘z biznes faoliyatlarini rivojlantirish va samarali faoliyat yuritish imkonini beradi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga o‘z mablag‘larini banklarga joylashtirishini qiziqtirish va rag‘batlantirish uchun turli foiz stavkalari, muddatlar, minimal miqdorlar va boshqa shartlarni taklif qiladilar. Buning uchun ular marketing strategiyalarini ishlab chiqadilar, bozor tadqiqotlarini o‘tkazadilar va potensial mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib boradilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, depozit siyosati banklar uchun risklarni boshqarish bilan ham bog‘liq faoliyat hisoblanadi. Banklar omonatlarni jalb qilish va mijozlar mablag‘larining xavfsizligini ta’minlash o‘rtasida muvozanatni saqlashlari kerak. Ular o‘z depozit portfelining likvidligi, rentabelligi va barqarorligini doimiy kuzatishlari va tahlil qilib borishlari lozim.

Banklar o‘z mijozlari bilan munosabatlarda shaffoflik va ochiqlikni ta’minlashlari, o‘z majburiyatlarini vaqtida va to‘liq bajarishlari, risk va daromadlarni adolatli taqsimlashlari kerak. Shuningdek, jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda omonatlarni barqaror va samarali investitsiya qilishni rag‘batlantirishlari lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim xususiyati milliy iqtisodiyotni rivoj lantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotganligidadir. Tijorat banklari mamlakat hududidagi korxonalar va jismoniy shaxslarning ehtiyojlari hamda imkoniyatlariga moslashtirilgan turli xildagi depozit turlarini taklif qilmoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklari depozit siyosatining yana bir xususiyati, depozitlarning barqarorligi va xavfsizligiga yuqori darajada e’tibor qaratilishidir. Markaziy bank tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirishga nisbatan faoliyatini qat’iy nazorat qilib, ularning barqarorligi va likvidligini ta’minlash choralarini ko‘rib boradi. Banklar, shuningdek, omonatlarni himoyalash va ular bo‘yicha foizlarni o‘z vaqtida to‘lanishi bo‘yicha talablarga rioya qilishlari shartdir.

Bundan tashqari, milliy bank tizimining xususiyatlaridan kelib chiqib, tijorat banklarining depozit siyosati aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda fuqarolarning o‘z mablag‘larini to‘g‘ri boshqarishlari va samarali taqsimlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishlari uchun iqtisodiyot, moliya va bank sohalarida axborotlar almshinuvchanligini ta’minlash va shaffofligini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklarining depozit siyosati ham bank xizmatlarini raqamlashtirish bilan bog‘liq jahon tendensiyalarini o‘zida aks ettirmoqda. Aksariyat banklar virtual va onlayn depozitlarni taklif qilmoqdalar, bu o‘z navbatida tijorat banklari o‘rtasida raqobat muhitini yanada yaxshilash bilan birga, mijozlar uchun qulay va daromadli depozit turlarini oshishiga zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, tijorat banklarining depozit siyosati ularning faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Samarali depozit siyosti tijorat banklarini uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan ta’minlash imkonini beradi, shuningdek, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat farovonligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tijorat banklarining mijozlardan (jismoniy va yuridik shaxslardan) depozit (omonat)larni jalb qilishi uning asosiy faoliyatidan biridir. Ushbu faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat bankning resurslarni moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda, balki uning bank tizimidagi mavqeyini mijozlar, tizimning boshqa ishtirokchilari va nazorat qiluvchi organlar tomonidan e’tirof etilishi va ishonch darajasida ham namoyon bo‘ladi.

“Tijorat bankining depozit siyosati” tushunchasining mohiyatini yanada oydinlashtirish uchun iqtisodiy adabiyotlarning turli manbalarini tahlil qilish zarur.

N. V. Alenteva, R. V. Nazarovlarning fikriga ko‘ra, “Har qanday bank o‘zining resurs bazasini mustahkamlash va kengaytirish uchun zarur bo‘lgan diversifikatsiya darajasini, aktivlarni muddatlari va foiz stavkalari bo‘yicha muvozanatini ta’minlashi uchun oqilona depozit siyosatini ishlab chiqishi zarurdir” [1].

G. G. Korobova “Depozit siyosati – tijorat bankining bank resurslarini shakllantirish, ularni rejalashtirish va tartibga solishda bank faoliyati shakllari, maqsadlari, mazmunini aniqlashga qaratilgan faoliyati majmuyi” [2].

M. R. Kadjayeva “Depozit siyosati – yuridik va jismoniy shaxslarning banklar tomonidan omonat shaklidagi mablag‘larini keyinchalik o‘zaro manfaatli foydalanish maqsadida jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi [3]”.

O. I. Lavrushin “Depozit siyosati – omonatchilarning mablag‘larini jalb qilish va jalb qilish jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan bank siyosatining bir turi” [4].

G. N. Beloglazova, L. P. Kroliveskaya “Depozit siyosati tijorat banklarida korxonalar, tashkilotlar va aholining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini depozitlardagi bank hisobvaraqlariga jalb qilish jarayonini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir” [5].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim B. U. Shermuxammedov “Tijorat bankida o‘z depozit siyosatini ishlab chiqish, avvalo, bank resurslarini shakllantirish bo‘yicha bank faoliyatini rivojlantirish vazifalarini, mazmunini belgilash, shuningdek, ularni rejalashtirish va rivojlantirishdan iborat choratadbirlar majmuyini ishlab chiqishni nazarda tutadi hamda tartibga soladi. Depozit faoliyati – bu barcha depozit operatsiyalari asos va poydevor bo‘lib, uni “banklarning yuridik va jismoniy shaxslardan mablag‘larini ma’lum muddat yoki talab bo‘yicha depozitlarga jalb qilish bo‘yicha operatsiyalari” deb tushunish kerak” [6] deb ta’kidlaydi.

Umuman olganda tijorat banklarining depozit siyosti- bu banklar tomonidan mijozlarning bo‘sh pul mablag‘larini turli xil shartlarda jalb qilish, ushbu mablag‘larni samarali boshqarish, bankning likvidligi va daromadliligini ta’minlashga xizmat qiladigan chora-tadbirlar majmuyini o‘z ichiga olgan hujjatidir.

TADQIQOT METODALOGIYASI

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqish, uning banklarning resurs salohiyatini oshirishdagi roli har qanday bank uchun muhim hisoblanadi. Tijorat banklari resurs bazasini shakllanishi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar o‘rganildi hamda ma’lumotlar bazasi yig‘ildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bank resuslarining asosiy qismi bank tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining pacsiv qismida yuritiladi. Jumladan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga, mamlakatimiz tijorat banklari passivlarining umumiy miqdori 444,9 trln. so‘mni tashkil etgani holda, banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar – 156,2 trln. so‘mni tashkil qildi [7].

Tijorat banklari tomonidan aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini bank depozitlariga jalb qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm: Tijorat banklari tomonidan aholi va yuridik shaxslardan jalb qilingan omonatlar miqdori va dinamikasi (trln.so‘m., yil boshiga) [8]

O‘z navbatida, 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, tijorat banklarining jalb qilgan depozitlari tarkibida aholi omonatlarining miqdori so‘nggi besh yilda qariyb 2,5 barobarga oshgan. Yuridik shaxslarning depozitlari ham xuddi shunday miqdorda ko‘paygan. Biroq so‘nggi 5 yilda banklar tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar tarkibida aholi omonatlarining ulushi 21 foizdan 31 foizgacha oshgan. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ancha sezilarli darajada yuqoridir.

Ta’kidlash joizki, banklarning depozit bazasi mustahkamligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida bank depozitlari tarkibidagi barqaror resurslarning ulushi yuqori ekanligidir.

Bizga ma’lumki, tijorat banklarning depozit bazasi transaksion depozitlar, muddatli va jamg‘arma depozitlarini o‘z ichiga oladi. Banklarning depozit bazasi tarkibini sinchiklab o‘rganish va puxta tahlil qilish juda muhim ahamiyatga egadir. Sababi shu orqali ularning depozit bazasi tarkibi va dinamikasini samarali baholashimiz mumkin bo‘ladi va buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan foydalanamiz.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar tarkibi [9] (yil boshiga, foizda)

Depozitlar	Yillar				
	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Yuridik shaxslar depozitlari	78,9	76,9	76,1	72,9	68,3
Jismoniy shaxslar depozitlari	21,1	23,1	23,9	27,1	31,7
Jami	100,00	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda tijorat banklari depozitlarining 70 foizga yaqini yuridik shaxslarning depozitlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Yuridik shaxslar depozitlarinig tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘layotgan bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkich xalqaro me’yorlarda belgilab qo‘yilgan me’yordan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Aholi omonatlarining jami depozit mablag‘lari tarkibidagi ulushi esa, o‘z navbatida, 2018-yilda 21,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 31,7 foizga oshgan.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2018-2022-yillarda yuridik shaxslarning jamg‘arma depozitlarining ulushi past darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu holat banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jamg‘arma depozitlarga jalb qilish amaliyoti yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Respublikamizda mazkur holat bo‘yicha qilinadigan ishlar talayginaligi ko‘rinib qolmoqda. Chunki, Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklarining depozitlari tarkibida mazkur depozit turlarining ulushi ancha yuqori bo‘lib, ushbu depozit mablag‘lari tijorat banklari uchun uzoq muddatli kreditlash va investitsiyalash faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tahlil qilingan davrda mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasida o‘sish tendensiyasiga namoyon bo‘lmoqda, biroq ularning depozit bazasi mustahkam, deyish mushkul.

Tijorat banklari tomonidan depozitlarni jalb qilishda qanday muammolar mavjudligini aniqlashda, avvalombor, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan banklar kesimida o‘rganilishi va tahlil etilishi lozim, deb hisoblaymiz.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ayrim tijorat banklarining deposit xizmatlari bozoridagi ulushi (01.01.2023 holatiga, foizda) [11]

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarni tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, malakatimiz bank tizimida kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarining depozitlarining miqdori keltirib o‘tilgan. 2.2.-rasm ma’lumotlariga shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda 2022-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimiz bank tizimining yalpi depozitlari 216,7 trln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarining ulushi 63 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Ushbu ko‘rstkichni banklar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizning yirik banki hisoblangan O‘zmilliybank bu borada eng yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘tgan 2018-yil yakunlariga ko‘ra banknnig yalpi depozitlar salmog‘idagi ulushi 17,6 % yoki 38,1 trln. so‘mni tashkil etmoqda. Mamlakatimizning yana bir yirik banki hisoblangan Xalq banki bu ko‘rsatkich bo‘yicha anchagina past o‘rinni egallaganligi salbiy holat hisoblanadi. Umuman, tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb qilish bo‘yicha puxta o‘ylangan strategiya ishlab chiqilishi bank resurs bazasining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari o‘rtasida raqobatning yaxshi shakllanmaganligi, banklarning depozit operatsiyalarining miqdori va sifatiga bevosita o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki, sog‘lom raqobat muhiti mavjud bo‘lsagina banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning turlariga, ayniqsa, bank depozitlarining jozibadorliligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, bu muammoni muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida “Oxirgi yillarda davlat budjetidan tijorat banklariga dasturlarni moliyalashtirish uchun 8,4 trillion so‘m, so‘nggi ikki yil ichida banklar kapitalizasiyasini oshirish uchun 3,3 milliard dollar davlat mablag‘lari berilgan bo‘lsa-da, bu mablag‘lardan samarali foydalanilmayotgani mijozlar va bank daromadlarini ko‘paytirish borasidagi ishlar yetarli emas” [12] – deb ta’kidlab o‘tganliklari bejizga emas.



3-rasm: Respublikamiz tijorat banklari depozit operatsiyalari ulushi (01.01. 2023-yil holatiga) [13]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Mamlakatimiz tijorat banklarining depozit jalb qilish amaliyoti tahlili natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimiz bank amaliyotida raqobat muhiti yaxshi shakllanmagan. Masalan, yirik tijorat banklari hisoblangan O‘zmilliybank (18%), Ipoteka bank (7%), Asakabank (7%), O‘zsanoatqurilishbank (7%) va Xalq bank (6%)ning depozitlari hajmi mamlakatimiz jami depozitlarining 45 foizini tashkil qilayotganligi bank tizimi depozit bazasining mustahkamlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro bank amaliyotida mamlakatdagi banklarning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda banklar konsentrasiyalashuv koeffitsiyentidan keng foydalaniladi. Ushbu koeffitsiyentga ko‘ra, mamlakatda faoliyat yurituvchi 3 ta yirik tijorat bankining bank xizmatlari bozoridagi ulushi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichning 35 foizdan past bo‘lishi mamlakatdagi bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti yaxshi shakllanmaganligidan va bank tizimida monopollpshuv mavjudligidan dalolatdir [14].

Hozirgi vaqtda bank raqobatining rivojlanishi tufayli ko‘pgina tijorat banklari o‘rta va uzoq muddatli depozit resurslari oqimini cheklash muammosiga duch kelishmoqda. Resurs bazasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida biz mijozlarning turli ish rejimlariga ega depozit hisobvaraqlari doirasini kengaytirishni taklif qilishimiz mumkin, bu esa bank omonatchilariga o‘z mablag‘laridan maqbul daromad darajasida foydalanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Shu maqsadda, shuningdek, depozit siyosatini kengaytirish maqsadida tijorat banklari depozit siyosatini faollashtirishlari kerak, uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- mijozlarni bank tanlashda ularning motivatsiyasini aniqlash maqsadida monitoring qilish, chunki hisobni yopishning asosiy sababi, qoida tariqasida, raqobatdosh banklar tomonidan yanada jozibador xizmat ko‘rsatish shartlarini taklif qilishdir;
- bankka ishonchni kuchaytirish, uning ishonchliligi, ko‘p yillik tajribasi, raqobatdosh ustunliklari, xizmat ko‘rsatish qulayligini ta’kidlab, mablag‘lar oqimini rag‘batlantirish maqsadida bank xizmatlarini reklama qilish;
- xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlarga maksimal qulaylikka erishish uchun xizmat ko‘rsatish texnologiyasini takomillashtirish;
- asosiy xizmatga ba’zi bir bog‘liq yoki qo‘shimcha xizmatlarni taklif qilish orqali kompleks xizmatlarni (xizmatlarni qadoqlash) shakllantirish.

XULOSA

Tijorat banklari depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati moliyalashtirishning asosiy manbayi bo‘lgan depozitlarni jalb qilish va boshqarishga qaratilgan strategik qarorlar hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Tijorat banklari faoliyatida depozit siyosatining bank resurslarini shakllantirishdagi o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, bir qancha asosiy jihatlarni qamrab oladi:

1. Moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida: Tijorat banklarining kredit va investitsion faoliyatini moliyalashtirish darajasi jismoniy shaxslar, korxonalar va boshqa tashkilotlardan jalb qilingan depozitlarga bog‘liq. Depozit siyosati raqobatbardosh foiz stavkalari, moslashuvchan shartlar va har xil turdagi depozit turlarini taklif qilish orqali mijozlarni jalb qilish va saqlab turish choralarini o‘z ichiga oladi.
2. Qarz olish qiymatini belgilash: Depozitlar banklar uchun majburiyat hisoblanib, banklar ular bo‘yicha ma’lum foizlarni to‘lashlari kerak. Depozitlar bo‘yicha foizlarni to‘lash kabi xarajatlar banklarning rentabelligiga sezilarli ta’sir qiladi. Banklar raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun depozit stavkalarini muvozanatlashi va bankning yetarli daromadliligini ta’minlashi talab etiladi.
3. Likvidlikni boshqarish: Depozitlar banklar uchun barqaror va ishonchli moliyalashtirish manbasini ta’minlaydi, ulardan kreditlar berish va investitsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanadilar. Depozitlarning jalb qilinishi va mijoo‘lar tomonidan qaytarib olinishi banklarda yetarli darajada likvidlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Depozit siyosati likvidlik talablarini belgilash va tegishli likvidlik koeffitsiyentlarini saqlashni o‘z ichiga oladi.
4. Risklarni boshqarish: Depozitlarning tarkibi va sifati bankning risk profiliga ta’sir qiladi. Banklar depozitlar bilan bog‘liq turli risklarni, jumladan, kredit riski, foiz riski va likvidlik riskini doimiy tahlil qilishi hamda samarali boshqarishi talab etiladi. Depozit siyosati depozit manbalarini diversifikatsiya qilish, depozitlar kontsentratsiyasini monitoring qilish va depozitlarni sug‘urtalashni amalga oshirish orqali risklarni boshqarish amaliyotini o‘rnatishni nazarda tutadi.
5. Mijozlar bilan o‘zaro aloqalar va ishonch: Depozitlar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish va ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Banklar mijozlarga yo‘naltirilgan depozit mahsulotlari va xizmatlarini taklif qilishga, mijozlarga individual yondashishga (VIP mijozlar), depozit hisobvaraqlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlashga intiladi. Kuchli depozit siyosati mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqishi va sodiqligini oshiradi, bu esa depozitlarni barqarorligini ta’minlash va samarali joylashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Demak, depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati va uning tijorat banklari faoliyatidagi o‘rni tijorat banklarining barqaror moliyalashtirilishini, rentabelligini, likvidligini va risklarni boshqarishni ta’minlash uchun depozitlarni strategik boshqarish bilan bog‘liq. To‘g‘ri amalga oshirilgan depozit siyosati banklarga omonatlarni jalb qilish va saqlashga, mustahkam moliyaviy bazani ta’minlashga va ularning umumiy bank operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алентьева Н. В., Назаров Р. В. Политика банка в области привлечения средств //Н. В. Алентьев: Аграрный сектор экономики России: опыт, проблемы и перспективы развития: материалы Всероссийской научной конференции. 2018. –С. 256-260.
2. Банковское дело: учебник / под ред. д-ра экон. наук, проф. Г. Г. Коробовой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2015. – 592 с.
3. Каджаева М. Р. Банковские operatsii / М. Р. Каджаева. – М.: ИЦ “Академия”, –2018. – 464 с.
4. Лаврушин О. И. Банковский менеджмент / О. И. Лаврушин. – М.: КНОРУС, 2018. – 554 с.
5. Белоглазова Г. Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка / Г. Н. Белоглазова, Л. П. Кроливецкая. – М.: Издательство Юрайт, –2018 с. – 645 с.
6. B. U. Shermuxamedov. Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021-yil.
7. www.cbu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
8. www.cbu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
9. “Ahbor-Reyting” Reyting agentligi choraklik nashr ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
10. Jurayev PhD, I. (2021). Urgent Issues To Increase The Sustainability Of The Banking System Of The Republic Of Uzbekistan. International Finance and Accounting, 2021(6), 12.
11. www.cbu.uz.-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014-2018-yillardagi statistik ma’lumotlari.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 25-oktyabrdagi “Bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi”dagi ma’ruzasi. www.prezident.uz
13. www.cbu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
14. Ortiqov O. A., Qulliyev I. Ya. Bank menejmenti va marketingi. O‘quv qo‘llanma.:T. “Iqtisod-moliya”. –2015 y.178 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

WAYS OF DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE IN UZBEKISTAN

Javliyev Nuriddin Bektemir o‘g‘li
Assistant teacher of the Department of Economics and Business

Abstract: Increasing the transparency of the trade system is gradually being achieved through the development of digital technologies in the countries of the world, the legal and institutional foundations of the world trade system, procurement processes, procurement risk management and the improvement of the accountability system, and the state support of this system, practical proposals and recommendations have been developed by analyzing the work done by economists.

Key words: information technology, Electronic store, Auction, electronic trade, Purchase order, Tender, Price Targets, Necessary Costs, Competition, Sole Supplier, Open Competition.

Annotatsiya: Savdo tizimining shaffofligini oshirishga dunyo mamlakatlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, jahon savdo tizimining huquqiy va institutsional asoslari, xarid jarayonlari, xaridlar tavakkalchiligini boshqarish va hisobdorlik tizimini takomillashtirish orqali bosqichma-bosqich erishilmoqda. Mazkur tizimni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, Elektron do‘kon, Auktsion, elektron savdo, Buyurtma, Tender, Narxlar, zarur xarajatlar, Raqobat, Yagona yetkazib beruvchi, Ochiq raqobat.

Аннотация: Повышение прозрачности торговой системы постепенно достигается за счет развития цифровых технологий в странах мира, правовых и институциональных основ мировой торговой системы, процессов закупок, управления рисками закупок и совершенствования системы подотчетности, а также Государственная поддержка этой системы, практические предложения и рекомендации разработаны на основе анализа работы экономистов.

Ключевые слова: информационные технологии, Электронный магазин, Аукцион, электронная торговля, Заказ на закупку, Тендер, Целевые цены, Необходимые затраты, Конкуренция, Единственный поставщик, Открытый конкурс.

INTRODUCTION

The development of telecommunications has led to the fact that individuals and companies all over the world are now connected with each other through electronic communication channels. The Internet is a means of organizing a unified information environment, which allowed businesses to move to a new stage of development. The development of electronic commerce is also of great importance in government policy [1]. By the decree of the President of May 14, 2018 “On measures for the rapid development of electronic commerce”, a national register of electronic commerce entities was created in order to encourage business entities in the field of electronic commerce. Legal entities and individual entrepreneurs are included in the National Register on a voluntary and free basis, and the income from the sale of goods and services through electronic commerce is at least 80% of the total volume of goods and services sold by them. At the same time, they have to pay a single tax at the rate of 2%.

The e-commerce market is similar to network forms of management in terms of organizational and management structure. A distinctive feature of this structure is the opportunity to establish long-term relationships with market counterparties, and these relationships are not regulated or influenced by higher authorities.

It is appropriate to consider the electric commercial market from the following point of view: – from the point of view of the company whose activities are completely transferred to the virtual space; – from the point of view of the company with which separate transactions are carried out; – from the point of view of the firm interacting with customers working in a virtual environment, partner firms. Thus, the e-commerce market should be studied at the macro, mesa and micro levels. In this regard, we considered the fundamentals of organizing the operation and development of the e-commerce market, the intercompany system, as well as the features

of the organizational and management structure of the company whose business activities were transferred to the information environment.

When considering the features of e-commerce and the company's performance in the e-commerce market, it cannot be separated from the communications and information flows that connect it with other market participants. The marketing environment of the company is the Internet environment with its own characteristics. Analyzing the Internet environment, it consists of active subjects and external interactions. The microenvironment of a company operating in the e-commerce market consists of direct effects on the firm and its environment (customers, competitors, suppliers, and other related audiences). Thus, an important component of the firm's microenvironment is the competitive environment. According to the generally accepted definition, competitors are subjects of the marketing system, and the actions of the firm affect the selection of markets, suppliers, intermediaries, the formation of an assortment, types of goods, and the entire set of marketing activities. requires the need for lateral learning. From an economic point of view, competition is an economic process of interaction and struggle between producers and suppliers to sell products under the most favorable conditions. Therefore, competition can be considered as a fight between entities interested in achieving the same goal (competition for the limited amount of consumer demand, etc.). In the conditions of studying the electronic commerce market, first of all, it is necessary to consider the direct interaction of the firms in the market, i.e. Market competition.

The marketing environment of the company is the Internet environment with its own characteristics. Analyzing the Internet environment, it consists of active subjects and external interactions. The microenvironment of a company operating in the e-commerce market consists of direct effects on the firm and its environment (customers, competitors, suppliers, and other related audiences). Thus, an important component of the firm's microenvironment is the competitive environment. According to the generally accepted definition, competitors are subjects of the marketing system, and the actions of the firm affect the selection of markets, suppliers, intermediaries, the formation of an assortment, types of goods, and the entire set of marketing activities. requires the need for lateral learning. From an economic point of view, competition is an economic process of interaction and struggle between producers and suppliers to sell products under the most favorable conditions. Therefore, competition can be considered as a fight between entities interested in achieving the same goal (competition for the limited amount of consumer demand, etc.). In the conditions of studying the electronic commerce market, first of all, it is necessary to consider the direct interaction of the firms in the market, i.e. Market competition. It is customary to distinguish two main methods of competition: price and non-price. Theoretical studies and the practice of commercial activities show that in modern conditions, the merchant "by differentiating" the product (service) offered by him and attracting additional customers by lowering prices, price competition has become less effective than before. Meanwhile, methods of "hidden" price competition are widespread.

Non-price competition is based on the concept of quality in the consumer value of the product. Non-cost methods include marketing methods of company management, for example: – production of a new product and raising it to a higher level of consumer value; – comprehensive market research and marketing planning; – organizing the work of sales apparatus; – sales promotion; – improvement of the organizational structure; – reduce turnover costs; – improvement of credit and financing policy, etc. In this context, within the framework of this study, it is appropriate to consider different aspects of competition in order to distinguish the specific characteristics of the e-commerce market. Despite this, the e-commerce market has its own unique characteristics, it has common characteristics that characterize the competitive environment. For a complete description of this market, it is necessary to conduct an analysis of existing and possible models to assess the nature and intensity of competition.

From the point of view of the competitive struggle of business entities in the e-commerce market, the following features should be noted: – Firms in the e-commerce market have powerful tools to study customer behavior, to build a more rational and accurate competitive strategy and develops ways to implement it. – the period of updating the strategy is significantly reduced, which is due to the great mobility of competing firms and their ability to quickly respond to the actions of their rivals.

Apart from this type of competition in the e-commerce market, the following should be noted. The influence of the supplier in the new conditions of conducting business is reduced due to the fact that there are practically no restrictions (financial, territorial, etc.). This aggravating factor is unique only to firms (in traditional settings) that do part of their transactions outside of the e-commerce market. These firms do not include firms that provide information services and products. The influence of buyers on producers of goods / services and their trading opportunities is stronger in the following cases:

- the number of consumers is small and they buy goods in large quantities; – the volume of consumption is an important part of all sales in the field;
- the industry that supplies goods to the market consists of a large number of relatively small sellers;
- the products offered by different sellers are relatively well standardized and consumers can easily find an alternative purchase, the cost of switching to a new seller is almost zero;

- the purchased products are not considered important components of the buyer; In an e-commerce environment, the opportunity factor to transfer a customer to another market participant is important.

In this regard, the development of the company's marketing strategy should be primarily focused on retaining existing customers and attracting additional customers. The competitive situation in the market is constantly changing, so it is necessary for the company to regularly monitor the competitive changes in the market. Only under these conditions can the firm correctly assess the capabilities of competitors and its own capabilities and develop an optimal marketing strategy, create or maintain its competitive advantage.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE TOPIC

While distinguishing the Internet environment as the basis of the e-commerce market environment, its organizational structure, the character of the interaction of market agents, the characteristics of the competitive environment, and its infrastructure should be analyzed. Currently, the term "network economy" is widespread, and it reflects the specific characteristics of the connection and activity of market participants in one network community. According to R. I. Tsvylev, the emergence of network features in the market economy is characterized by the global informatization of society, the development of information technologies: "... As a result, a network economy based on horizontal connections is created."

According to M. Porter's research, the competitive situation in the market can be characterized by five competitive forces:

1. Competition among rival sellers – each firm follows its own competitive strategy to gain the best position and benefit from competitive advantage.
2. Competition of goods that replace competitive goods in terms of price.
3. Arising from the risk of the emergence of new competitors
4. Competitive forces and capabilities of suppliers resulting from suppliers' economic capabilities and trading ability.
5. Appeared as a result of economic opportunities and sales skills of buyers.

D. Gofurov formulated scientific conclusions aimed at improving the system of state and corporate procurement and justified the factors for its further development.

According to G. Kasimova, attention to public procurement comes from its importance. First, public procurement provides the goods, services and works necessary for the operation of the public sector, which is of the greatest importance in ensuring socio-economic development. Secondly, the state procurement, which makes up a large part of the state budget expenses, has a direct impact on its stability. Therefore, it is very important to ensure their high efficiency in order to maintain the amount of public procurement at the optimal level. Thirdly, it is noted that public procurement is a powerful tool used in the implementation of the priorities of the state economic policy.

RESEARCH METHODOLOGY

To study the available scientific researches on the development of e-commerce and the implementation of public procurement in Uzbekistan, to analyze the problems waiting to be solved in the field, to develop mechanisms for meeting needs through the formation of a transparent system of state and corporate procurement, to study the theoretical and methodological foundations of the organization of e-commerce, logical thinking, scientific abstraction, information grouping, analysis and synthesis, induction and deduction methods are widely used.

ANALYSIS AND RESULTS

E-commerce differs from the traditional type of sales by the following characteristics:

Xususan, fermer xo‘jaliklarida 1 tsentner paxta xom ashyosi yetishtirish uchun mehnat sarflari tahlili tahlil etilayotgan davrda yiliga o‘rtacha 15 foizga oshgan va shu sababli mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilgan, g‘alla uchun esa yiliga 4 foizga kamaygan. teskarisini tasdiqlaydi va hokazo. Aniqlik uchun mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari indekslar shaklida ko‘rsatilgan. Mehnat unumdorligi dinamikasi individual va umumiy indekslar orqali tavsiflanadi.

Mehnat unumdorligi dinamikasini tavsiflash uchun individual indekslardan foydalaniladi–tabiiy (mehnat), mehnat intensivligi. Ularni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$Iv = V1 / Vo$$

bu yerda V1va Vo - bu turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi. Asosiy va hisobot davrlarida vaqt birligi uchun.

Mehnat intensivligi indeksi mehnat unumdorligi indeksiga teskari ko‘rsatkich bo‘lib, formuladan foydalanib hisoblanishi mumkin:

Bu = T1/ bu yerda T1va To–mos ravishda asosiy va hisobot davrlarida birlik ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqti miqdori.

Faktorlarni aniqlash uchun siz heterojen mahsulotlarni ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi darajasining o‘zgarishini tavsiflovchi mehnat unumdorligining umumiy xarajatlar indeksidan foydalanishingiz mumkin. Ushbu indeks o‘z mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlarni va ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Mehnat unumdorligining umumiy tannarx indeksi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Inn = \frac{Q1Po}{T1} : \frac{QoPo}{To}$$

Inn=bu yerda Qo va Q1–mos ravishda bazaviy va hisobot davrlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
Po–ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ba`zis davridagi narxi;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

To va T1–asosiy va hisobot davrlarida mos ravishda ma'lum turdagi mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan vaqt. Bunday holda, taqqoslanayotgan har ikkala davr uchun mahsulotlar bir xil (qiyoslanadigan) narxlarda baholanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, mehnat unumdorligi indeksini tannarx usuli yordamida aniqlash kamchiliklarga ega. Indeks qiymatiga yillar davomida alohida turdagi mahsulotlar ulushining o'zgarishi ta'sir qiladi. Shuning uchun, buning oldini olish uchun mehnat unumdorligining kompozit indeksi ish vaqti usuli yordamida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tad birlar to'g'risida".–02.01.1992.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Qishloq xujaligi Kooperativi (shir kat xo'jaligi) to'grisida".–30.04.1998. –T. 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "2020-yilda qishloq xo'jaligi ekinlarining ekin maydoni, bog'lar, uzumzorlar maydoni,yalpi hosili va hosildorligi" (dastlabki ma'lumotlar). Statistik byulleten. Toshkent – 2021y. 5.Press_qishloq_230722021_uz.pdf
5. Jumayev Q. X. "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlili". "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali.–2021-yil, 2-son.

DAVLAT QIMMATLI QOG‘OZLARI BO‘YICHA DAROMADLILIK EGRI CHIZIG‘INI ANIQLASHNING FISKAL VA MONETAR SIYOSATNI MUVOFIQLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Hakimov Hakimjon
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat qarzining optimal darajasini va davlat qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik egri chizig‘ini aniqlashning soliq-budjet va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishdagi ahamiyati o‘rganiladi. Muallif davlat qarzi chegaralarini belgilashning nazariy va amaliy jihatlarini, jumladan, ularning iqtisodiyotning taraqqiyoti va barqarorligiga ta’sirini tahlil qiladi. Daromad egri chizig‘ining davlat qarzi dinamikasiga va mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy vaziyatga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, qarzning optimal darajasi, daromadlilik egri chizig‘i, davlat qimmatli qog‘ozlari, siyosatni muvofiqlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article explores the importance of determining the optimal level of public debt and the yield curve of government securities in the coordination of fiscal and monetary policy. The author analyze the theoretical and practical aspects of determining the boundaries of public debt, including their impact on the stability and sustainability of the economy. The influence of the yield curve on the dynamics of public debt and on the overall macroeconomic situation in the country is considered.

Key words: public debt, optimal level of debt, yield curve, government securities, policy coordination, macroeconomic stability.

Аннотация: В данной статье исследуется значение определения оптимального уровня государственного долга и кривой доходности государственных ценных бумаг в координации фискальной и монетарной политики. Автор анализируют теоретические и практические аспекты определения границ государственного долга, включая их влияние на стабильность и устойчивость экономики. Рассматривается влияние кривой доходности на динамику государственного долга и на общую макроэкономическую ситуацию в стране.

Ключевые слова: государственный долг, оптимальный уровень долга, кривая доходности, государственные ценные бумаги, координация политик, макроэкономическая стабильность.

KIRISH

Iqtisodiy dinamikaning doimiy o‘zgarib turadigan dunyosida davlat qarzining maqbul darajasini aniqlash va davlat qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik egri chizig‘ini boshqarish budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish jarayonida markaziy masalalarga aylanib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat qarzi aksariyat mamlakatlar moliyaviy boshqaruvining ajralmas elementiga aylandi. Shu bilan birga, davlat qarzining maqbul darajasi masalasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u hozirgi makroiqtisodiy muhit, kelajakdagi iqtisodiy prognozlar, siyosiy iroda kabi bir qator omillarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik egri chizig‘i davlatning qarz mablag‘lari qiymatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va iqtisodiyotning umumiy dinamikasiga ta’sir qiladi. Daromad egri chizig‘ini tushunish va boshqarish ayniqsa, turg‘unlik va iqtisodiy tebranishlar sharoitida dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda davlat qarzlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri haqidagi munozaralar iqtisodchilar uchun qizg‘in mavzulardan biri ekanligini hisobga olib, mazkur mavzuda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami katta ekanligi tushunarli holatdir.

Iqtisodchilar Marta Gómez-Puig, Simón Sosvilla-Rivero va Inmaculada Martínez-Zarzoso (2022)larning “On the heterogeneous link between public debt and economic growth” nomli maqolasida qarz har bir mamlakatda iqtisodiy o‘sishga qanday ta’sir qilishi 115 mamlakatning 1995-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davrdagi ma’lumotlari asosida o‘rganib chiqilgan. Buning uchun mualliflar guruhlangan qat’iy ta’sir (The grouped fixed effect-GFE) baholovchisi deb ataladigan statistik usuldan foydalanib mamlakatlarni o‘xshash belgilarga ko‘ra guruhlarga bo‘lgan. Shuningdek, ushbu o‘zgarishga hissa qo‘shadigan omillarni o‘rganish uchun multinomial logit deb nomlangan statistik modeldan foydalanilgan. Guruhlangan qat’iy ta’sir (GFE) baholovchisi har biri qarz va o‘sish o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlarga ega bo‘lgan besh xil mamlakatlar guruhini aniqlagan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qarzning o‘sishga ta’siri muassasalar sifati, ishlab chiqarish xarajatlari nisbati, qarz darajasi va qarzni to‘lash muddati kabi omillarga bog‘liq [1].

Iqtisodchilar M. Ayhan Kose, Franziska L. Ohnsorge, Carmen M. Reinhart va Kenneth S. Rogoff (2021) larning “The aftermath of debt surges” nomli tadqiqotida qarz yukini kamaytirish uchun ilgari qo‘llanilgan keng qamrovli strategiyalarni o‘rganadi.

Tadqiqotchilar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, fiskal tejamkorlik choralarini qo‘llash, davlat aktivlarini sotish va boylikka soliq solish kabi an’anaviy yondashuvlarni, shuningdek, inflyatsiyaning o‘sishiga yo‘l qo‘yish, foiz stavkalarini cheklovchi moliyaviy siyosatni amalga oshirish va qarzni o‘zgartirish yoki undan kechish bo‘yicha choralar ko‘rish kabi muqobil yondashuvlarni o‘rganadi.

Mualliflarning fikricha, ushbu variantlarning samaradorligi har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlariga va qarzning turiga qarab o‘zgaradi. Biroq bu variantlarning barchasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlar bilan bog‘liqligini tan olish muhimdir. Ba’zi variantlar faqat kuch bilan amalga oshirilsa samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, hukumatlar qiyin paytlarda o‘z siyosatlarini o‘zgartirishi odatiy holdir.

Xulosa o‘rnida, qarzni kamaytirish bilan bog‘liq muammolar global boshqaruv, shu jumladan, rivojlangan iqtisodiyotlarning rivojlanayotgan bozor va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar (EMDEs)ga potensial iqtisodiy zarbalarga dosh berishga yordam berish darajasi to‘g‘risida kengroq savollar tug‘diradi [2].

Iqtisodchilar Andrea Berardi va Alberto Plazzi (2022)larning “Dissecting the yield curve: The international evidence” nomli maqolasida foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi turli omillarni tushunishga yordam beradigan matematik model ishlab chiqiladi. Ushbu model foiz stavkalarini uchta asosiy komponentga ajratadi: kutilayotgan kelajakdagi stavkalar, uzoq muddatli obligatsiyalarni ushlab turish uchun qo‘shimcha kompensatsiya (muddatli mukofot) va daromadlilik egri chizig‘ining egri chizig‘idagi o‘zgarishlarning ta’siri (qavariqlik muddati). Shuningdek, maqolada ushbu komponentlar bilan bog‘liq real foiz stavkalari va inflyatsiya ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Model daromadlilik bilan bog‘liq omillarni ham, makroiqtisodiy omillarni ham hisobga oladi va u bozorning umumiy o‘zgaruvchanligida oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar ehtimolini o‘z ichiga oladi.

Model AQSh, Yevrozona, Buyuk Britaniya va Yaponiyaning daromadlilik egri chizig‘iga qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yigirma yil ichida qisqa muddatli foiz stavkalari bo‘yicha kutishlar doimiy ravishda kamaydi va umumiy daromadlilik harakatlariga eng muhim ta’sir ko‘rsatdi. Investorlarga uzoq muddatli obligatsiyalarga ega bo‘lishlari uchun kompensatsiya beradigan mukofot atamasi obligatsiyalarning muddati uzaygan sari ortadi, ammo oldingi tadqiqotlar bilan solishtirganda daromadlilik prognozlaridagi o‘zgarishlarning kichikroq qismini tushuntiradi.

Ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi daromadlilikning birgalikda harakatlanishini tahlil qilganda, Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘lgan zarbalar global miqyosda uzoq muddatli foiz stavkalariga eng kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Boshqa tomondan, Yaponiya bozori boshqa mamlakatlardan kelib chiqadigan zarbalarga ayniqsa, sezgir ekangligi aniqlangan [3].

Iqtisodchilar Emanuel Moench va Soroosh Soofi-Siavash (2022) larning “What moves treasury yields?” nomli maqolasida daromadlilik yangiliklari shoki G‘aznachilik daromadiga darhol ta’sir qilmaydigan, ammo ularning kelajakdagi o‘zgarishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yangilik sifatida aniqlaydilar.

Dastlab, yangiliklar shoki sodir bo‘lganda, muddatli mukofotlar va kutilgan qisqa stavkalar bir-birini qoplaydi, natijada daromadlilikka darhol javob berilmaydi.

Muddatli to‘lovlarga ta’sir tezda yo‘qolsada, kutilgan qisqa stavkalar va shu tariqa daromadlilik vaqt o‘tishi bilan doimiy ravishda pasayadi. Natijada, shok G‘aznachilik daromadining bir necha yil ichida sezilarli 50% o‘zgarishini tashkil qiladi.

Ijobiy daromadlilik yangiliklari shoki mavjud bo‘lganda, u qimmatli qog‘ozlar va obligatsiyalar bozori o‘zgaruvchanligining tasodifiy keskin o‘sishi bilan birga keladi va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham bir vaqtning o‘zida javob beradi. Keyinchalik, Federal rezerv tomonidan moslashtirilgan real iqtisodiy faollik va inflyatsiyaning doimiy pasayishi bilan birga keladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining haqiqiy o‘zgaruvchanligi va biznes sikli haqidagi yangiliklar bilan bog‘liq shoklarni o‘rganib chiqib, mualliflar shunga o‘xshash javob shakllarini aniqlaydilar va daromadlilik yangiliklari shokidan kelib chiqqan o‘zgarishlarni izohlaydilar [4].

Umumiy olib aytganda, davlat qarzi va uning eng yuqori chegarasini o‘rnatish masalasi ko‘plab xorijiy ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Ularning ilmiy xulosalarini O‘zbekiston davlat qarzi bo‘yicha siyosatiga nisbatan qo‘llash imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, davlat ichki qarzlari borasida fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor ochiq bozordagi operatsiyalari bo‘yicha bozor stavkalarini shakllantirishga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘ini izohlovchi asosiy sabablar tahlil va taqqoslash metodlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va axborot sintezi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va empirik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Inqiroz sharoitida budjet daromadlari keskin tushib ketadi, xarajatlar esa oshib boradi, bunday sharoitda davlat budjetining taqchilligi kengayishi tabiiy hisoblanadi. Biroq budjet taqchilligini to‘g‘ri moliyalashtirish iqtisodiy siyosatning keyingi ustuvorliklarini belgilab beradi. O‘zbekistonda ushbu vosita sifatida bu jarayonga tashqi qarzlarni jalb etish belgilanganligi monetar va fiskal siyosat idoralari o‘rtasida muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Endigi asosiy masala esa davlat qarzlarning keyingi iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan optimal darajasini aniqlash hisoblanadi.

Qarz, tabiatan, ikki tomonlama xususiyatga ega. U bir tomondan joriy davrda iste’mol oshishiga yordam bersa, boshqa tomondan kelgusi davr uchun qilinadigan iste’molni cheklashga majbur qiladi. Ya’ni qaysi tomondan qarashga ko‘ra, qarzning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Demak, qarz miqdori ma’lum darajagacha ijobiy, bu darajadan yuqorida esa salbiy ta’sirga ega. Qarzdan maksimal samara chiqara olish uchun qarzning ijobiy va salbiy ta’siri o‘rtasidagi optimal chegarani topish muhim vazifa hisoblanadi.

Davlat qarzlari o‘z navbatida, davlat xarajatlarining daromadlardan ortgan qismini qoplash uchun olingan ssuda va to‘lovlar hamda davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan (hamda Moliya vazirligi tomonidan qayta kreditlanadigan) qarz mablag‘larining umumiy hajmi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari asosida O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan jalb qilinadigan qarz mablag‘lari ham, ular Hukumat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilinmasa-da, (shu jumladan, davlat budjetida aks ettirilmasa-da), O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi hisoblanadi.

Har bir davlat o‘z aholisi hayot darajasini yaxshilash, iqtisodiyotning bir maromda ishlashini ta’minlash uchun qarz oladi. Odatda, iqtisodchilar tomonidan ushbu qarzlar darajasining haddan tashqari oshib ketishi, mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini cheklashini aytib o‘tishadi. Biroq shunga qaramasdan iqtisodchilar orasida davlat qarzlarining samarasi uning zararlaridan kattaroq degan fikrdagilar ham bor. Ushbu bahs-munozaralar anchadan buyon davom etib kelmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olib, mamlakatda davlat qarzlari darajasining haddan tashqari oshib ketishi orqali iqtisodiyotdagi o‘sish sur’atlarini pasaytirishning oldini olish va shu vaqtning o‘zida turli cheklovlar orqali davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tashabbuslari samaradorligini pasaytirmaslik uchun davlat qarzlari bo‘yicha optimal cheklov darajasini aniqlab olish hamda ushbu cheklovlarni og‘riqsiz, bosqichma-bosqich o‘rnatish hozirgi kundagi o‘ta muhim vazifalardan hisoblanadi.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishga mo‘ljallangan pul-kredit siyosatining eng muhim instrumentlaridan biri – Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu operatsiyalarning qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligini baholash uchun turli mexanizmlardan foydalaniladi. Ushbu mexanizmlardan biri – qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘i hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlarni ichki va tashqi bozorlarda sotuvga chiqarish va ularni sotib olish orqali mamlakat o‘zining pul-kredit siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bank tomonidan qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlarning daromad keltirish darajasi unga bo‘lgan talab va taklif natijasida shakllanadi. Ushbu daromadlilik darajasining o‘zgarishi orqali xalqaro investorlar mamlakatning hoziri va kelgusi ahvoli haqida xulosa chiqarish imkoniga ega bo‘ladilar.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘i – qimmatli qog‘ozning to‘lab berish muddati va uning daromadlilik foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq hisoblanadi. Ushbu egri chiziq, odatda, likvidlilikni afzal ko‘rish nazariyasiga asosan, tepaga yo‘nalgan bo‘ladi. Ya’ni qimmatli qog‘ozning to‘lab berish muddati oshgani sari uning daromadlilik darajasi ham oshib boradi.

Qimmatli qog‘ozlarning daromadlilik egri chizig‘i xorij mamlakatlarida fond bozorining holati, shu bilan bir

qatorda iqtisodiyotning holatiga baho berish uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu egri chiziqni hisoblashning bir necha xil metodlari bor ekanligi yuqorida qayd etilgan edi. Jahon mamlakatlari Markaziy banklari daromadlilik egri chizig‘ini hisoblashda turli usullarni qo‘llashadi.

1-jadval: Turli davlatlar Markaziy banklari tomonidan daromadlilik egri chizig‘ini hisoblashda ishlatadigan modellar [5]

Markaziy bank	Model
Belgiya	Nelson-Siegel, Svensson
Kanada	Svensson
AQSh	Fisher-Nychka-Zervos (Spline)
Finlandiya	Nelson-Siegel
Fransiya	Nelson-Siegel, Svensson
Germaniya	Svensson
Italiya	Nelson-Siegel
Yaponiya	Fisher-Nychka-Zervos (Spline)
Norvegiya	Svensson
Ispaniya	Svensson
Buyuk Britaniya	Anderson and Sleath (Spline) (2001-yilgacha Svensson)
Shvesiya	Fisher-Nychka-Zervos (Spline), oldin Svensson
Shvedsariya	Svensson
Yel	Svensson

Ko‘rinib turibdiki, Yevropa davlatlari asosan Svensson modelidan foydalanishar ekan. AQSh, Yaponiya, Shvedsiya kabi davlatlar Markaziy banklari hozirda splaynlar orqali Fisher-Nichka-Zervos modelidan foydalanishadi.

Buyuk Britaniyada esa, splaynlar orqali hisoblashning boshqacha usuli Anderson va Sleath tomonidan taklif qilingan usuldan foydalaniladi. Ayrim davlatlar esa, nisbatan oddiyroq bo‘lgan Nelson-Siegel metodini ham qo‘llashmoqda.

Daromadlilik egri chizig‘ini hisoblashning yana bir o‘ziga xosligi uning iqtisodiy inqirozlarni aniq bashorat qilish imkonini berishi hisoblanadi. Ya’ni har safar AQSh iqtisodiyotida daromadlilik egri chizig‘ining teskari (inversiya) holatiga o‘tishi inqiroz oldidan ro‘y bergan.

AQShda qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘inig teskari (inversiya) holati har doim inqirozni boshlab kelgan. So‘nggi marta bunday holat 2019-yil may oyida kuzatildi. Bu esa, iqtisodchilarning yaqin vaqtlar ichida yana bir inqiroz bo‘lishi mumkinligi borasida tashvishlanishiga sabab bo‘lgan.

2-jadval: AQSh qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘i va inqirozlar o‘rtasidagi bog‘liqlik [6]

Hodisa	Inversiya boshlangan sana	Retsessiya boshlangan sana	Inversiyadan retsessiyaga qadar vaqt	Inversiya davomiyligi	NBER Retsessiyani e’lon qilgunga qadar bo‘lgan vaqt	Disinversiyadan tortib turg‘unlikka qadar vaqt	Retsessiyaning davomiyligi	NBER Retsessiya tugaganini e’lon qilgunga qadar vaqt
			Oylar	Oylar	Oylar	Oylar	Oylar	Oylar
1970 yildagi tanazzul	Dek-68	Yanv- 70	13	15	NA	8	11	NA
1974 yil tanazzuli	Iyun-73	Dek-73	6	18	NA	3	16	NA
1980 y	Noya-78	Fev-80	15	18	4	2	6	12
1981–1982 yillardagi tanazzul	Okt-80	Avg-81	10	12	5	13	16	8
1990-yil retsessiyasi	Iyun-89	Avg-90	14	7	8	14	8	21
2001-yil tanazzuli	Iyul-00	Apr -01	9	7	7	9	8	20
2008–2009-yillardagi tanazzul	Avg-06	Yanv-08	17	10	11	24	18	15

2019-noaniq	19-may	Noaniq	Noaniq	5	Noaniq	Noaniq	Noaniq	Noaniq
1969-yildan beri o‘rtacha			12	12	7	10	12	15

O‘rta hisobda inversiyadan inqirozgacha bo‘lgan davr 12 oyni tashkil etadi. Inqiroz boshlangach, NBER (National Bureau of Economic Research) rasman inqiroz boshlanganini e’lon qilguniga qadar 7 oy vaqt o‘tar ekan. Oldingi marta egri chiziq teskari holatga o‘tgani 2007-yilda kuzatilgani e’tiborga molik.

Yuqoridagi ma’lumotlarning garfik ko‘rinishiga e’tibor bersak, bu taxminlar yanada aniqroq ko‘rinadi. Har safar egri chiziqning pastga tushishi inqiroz (quyida) bilan birga kelgan. Shu bilan birga 2019-yilda qimmatli qog‘ozlar egri chizig‘ining tobora pastlab borganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm: AQSh qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘i va inqiroz (quyida – inqirozlar)

Manba: fred.stlouisfed.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shu bilan birga, oldingi marta daromadlilik chizig‘i teskari bo‘lganda (2007-yilda) jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelgani hammaning yodida turibdi.

Taassufki, 2020-yilda COVID-19 infeksiyasi avj olishi ortidan boshlangan global inqiroz (Buyuk yopilish) AQSh G‘aznachiligi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilik darajasini 2020-yil mart oyida deyarli manfiy qilib qo‘ydi.

Shu bilan birga, jahondagi geosiyosiy keskinliklar 2022-yildan keyingi davrda ham AQSh G‘aznachiligi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilik darajasini manfiy bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

AQSh davlat qarzini doimo (ayniqsa, iqtisodiy inqiroz paytlarida) milliy valyutasi (dollar)da kam foiz stavkalarda jalb qila oladi. Bunga asosiy sabablardan biri AQSh iqtisodiyotiga ishonchning balandligi va AQSh tarixda biror marotaba defolt e’lon qilmagani bilan bog‘liq.



2-rasm: Yevropa Ittifoqida qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘i

Manba: data.europa.eu sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yevropa Ittifoqida daromadlilik egri chizig‘i normal holatda bo‘lsa-da, bu yerda daromad olish darajasi 20

yilgacha bo‘lgan muddatda 0 foizdan pastroq darajaga tushib ketgan. Bu Yel dagi inflatsiya darajasiga nisbatan investor ushbu qimmatli qog‘ozlardan daromad ololmasligini anglatadi.

Umumiy olib aytganda, qimmatli qog‘ozlar daromadliligi egri chizig‘i iqtisodiyotning hozirgi va kelajakdagi holatini baholash imkonini yaratib beruvchi ko‘rsatkich hisoblanib, uni to‘g‘ri hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida davlat budjeti taqchilligi va davlat qarzlarini boshqarishda budjet va monetar qoidalardan foydalanish muayyan afzalliklarga ega ekanligi oydinlashdi. Shu bilan birga, davlat qarzlari bo‘yicha cheklovchi qoidalarni o‘rnatish hamda davlat qarzini boshqarishda tashqi qarzlar bilan birga davlat ichki qarzalarini ham tartibga solish bo‘yicha davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘ini shakllantirish mexanizmlaridan foydalanish samarali ekanligi xorijiy tajribalar orqali asoslandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishda davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘idan foydalanish borasida quyidagilarni taklif etamiz:

- davlat qarzini optimal darajasini aniqlash uchun aniq me’yorlar ishlab chiqish. Bu me’yorlar iqtisodiyotning turli sharoitlarida, jumladan, inqiroz va barqarorlik davrlarida qarz miqdorini boshqarishda yo‘l-yo‘riq vazifasini bajaradi;
- davlat qimmatli qog‘ozlari bozori ustidan samarali nazoratni amalga oshirish. Bu iqtisodiyotning umumiy barqarorligi uchun muhimdir;
- daromadlilik egri chizig‘ini doimiy ravishda kuzatib borish va uning o‘zgarishlarini iqtisodiyotdagi asosiy o‘zgarishlar va trendlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish;
- xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va ularning eng yaxshi amaliyotlarini milliy sharoitlar va ehtiyojlarga moslashtirish;
- davlat qarzi va qimmatli qog‘ozlar bozori haqida keng ko‘lamda ma’lumot berish va tushuntirish dasturlarini amalga oshirish. Bu iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi va jamoatchilikning iqtisodiy jarayonlarga bo‘lgan tushunchasini oshiradi.

XULOSA

Davlat qarzining boshqaruvi va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlilik egri chizig‘ining tahlili milliy iqtisodiyotning barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar doimiy tahlil va muvofiqlashtirishni talab etadi va ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marta Gómez-Puig, Simón Sosvilla-Rivero and Inmaculada Martínez-Zarzoso.,—2022. On the heterogeneous link between public debt and economic growth. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, Volume 77, https://doi.org/10.1016/j.intfin.2022.101528.
2. M. Ayhan Kose, Franziska L. Ohnsorge, Carmen M. Reinhart and Kenneth S. Rogoff., 2021. The aftermath of debt surges. A NBER Working Paper No. 29266. https://doi.org/10.3386/w29266.
3. Andrea Berardi and Alberto Plazzi., 2022. Dissecting the yield curve: The international evidence. Journal of Banking & Finance, Volume 134, https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2021.106286.
4. Emanuel Moench and Soroosh Soofi-Siavash,. 2022. What moves treasury yields?. Journal of Financial Economics, Volume 146, Issue 3, Pages 1016-1043, https://doi.org/10.1016/j.jfineco.–2022.04.001.
5. Aljinović, Zdravka, Tea Poklepović, and Kristina Katalinić. (2012). Best fit model for yield curve estimation. Croatian Operational Research Review, 3(1).–28-40.
6. Irwin, Neil. (2019). The Bond Market Is Giving Ominous Warnings About the Global Economy.

INTELLEKTUAL MULKNI BOSHQARISH JARAYONLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY MUAMMOLARI

Tirkashyev Farhod Mahmudovich
SamDVMCHBU assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual mulkni boshqarish jarayonlarini o‘rganishning nazariy muammolari yoritilgan. Bundan tashqari, Respublikamizda xizmatlar sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy qoidalarini asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi,zamonaviy iqtisod,intellektual mulk, ixtirochilik,texnologik modernizatsiya,inovatsiyalar.

Abstract: In this article, the theoretical problems of studying intellectual property management processes are highlighted. In addition, the basis of the theoretical and methodological rules for assessing the effectiveness of state regulation of intellectual property in the service sector in our Republic is shown.

Key words: service sector, modern economy, intellectual property, inventiveness, technological modernization, innovations.

Аннотация: В данной статье освещены теоретические проблемы изучения процессов управления интеллектуальной собственностью, кроме того, показаны основы теоретико-методологических правил оценки эффективности государственного регулирования интеллектуальной собственности в сфере услуг в нашей Республике.

Ключевые слова: сфера услуг, современная экономика, интеллектуальная собственность, изобретательство, технологическая модернизация, инновации.

KIRISH

Mamlakatda “Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan – kuchli huquqiy himoyasi sari tamoyili asosida intellektual mulkni jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantiruvchi asosiy drayverga aylantirish orqali O‘zbekistonni ilmiy-texnikaviy va ixtirochilik jihatdan taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kiritish hamda mintaqaviy brendlarni hududlarni har tomonlama rivojlantiruvchi vosita sifatida yuzaga chiqarish bosh maqsadimiz hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi bugungi kunda O‘zbekiston YIMning 70% dan ortig‘ini tashkil etadigan iqtisodiy o‘sishning hukmronlik markaziga aylanmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning innovatsion parametrlari sanoatning aksariyat tarmoqlaridan orqada qolmoqda, bu esa intellektual mulkning mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rnini xavf ostiga qo‘yadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ichki iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilish doirasida, sanoatni rivojlantirishning innovatsion omillarini faollashtirish ayniqsa, dolzarb bo‘lib qolmoqda

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizda va butun dunyoda hozirgi davrda intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini joriy etish ishlari o‘rganilib borilmoqda.Hozirgi paytda iqtisodiyotimizning har bir sohasida ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohalarida innovatsion yangilanishlar kuzatilyapti. Xizmatlar sohasida intellektual mulkni nazorat qilish va tartibga solish uchun dunyoda va respublikamizda bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.Bular jumlasiga Respublikamizda Sh. A. Xo‘jayev, I. B. Yakubova, A. A. Yuldashov, M. B. Bahromova, boshqa respublikalarda G. V. Bromberg, V. V. Avilova, ,B. Z. Milner. O. M. Gorelik va boshqalar.

Biroq hozirgi vaqtda iqtisodiy adabiyotlar va me’yoriy hujjatlarda xizmatlar sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini va uning ushbu tarmoqlar korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta’sirini baholashning yagona qabul qilingan usuli mavjud emas, bu esa ushbu muammoning uslubiy jihatlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish jarayonida ma'lumotlarni to'plash,ularni guruhlash,analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasidagi mulkchilik va uning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarning innovatsion faoliyatiga ta'siri bu intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy qoidalarini asoslanishidir.

- "xizmat ko'rsatish sohasidagi intellektual mulk"toifasini aniqlashni asoslash;
- xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi xizmatlari sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish jarayonining o'ziga xos tendensiyalarini aniqlash;
- xizmat ko'rsatish sohasidagi intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning tarmoq korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sirini baholashning iqtisodiy va matematik modelini ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatish sohasidagi intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy samaradorligining tarmoq korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sirini baholash modelini sinovdan o'tkazish;
- xizmatlar sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Xizmatlar sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini va uning sanoat korxonalari va tashkilotlarining innovatsion faoliyatiga ta'sirini baholashning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari.

Intellektual mulkni boshqarish, davlat tomonidan tartibga solish vositalari, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotlari samaradorligini baholash va xizmat ko'rsatish sohalarining innovatsion rivojlanishini boshqarish sohasidagi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlari edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahliliy hisobot materiallari ustuvor vazifalarni shakllantirishga imkon beradi, ularning yechimi intellektual mulkni davlat boshqaruvi sohasida milliy loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun tashkiliy va boshqaruv shartlarini shakllantirishga imkon beradi, uning doirasida birinchi navbatda quyidagilarni hal qilish kerak:

- innovatsiyalar va intellektual mulk sohasidagi boshqaruv (tartibga solish) vakolatlarini yuqori darajada amalga oshiradigan ma'lum bir tuzilmani qonuniy ravishda aniqlash;
- ushbu tuzilmani innovatsiyalar va intellektual mulk sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa ijroiya organlarining javobgarligini muvofiqlashtirish uchun zarur vakolatlar bilan ta'minlash;
- zarur kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashni ta'minlash intellektual mulk
- bozorni shakllantirish masalalari bo'yicha innovatsion rivojlanish shartlari sifatida rivojlantirish .

Ushbu vazifalar intellektual mulk obyektlari, patentlar va savdo belgilari va

O'zbekiston Respublikasining yagona tashkiliy chora-tadbirlar ichki iqtisodiyotda o'sishda davom etayotgan intellektual mulkni boshqarish sohasidagi buzg'unchi tendensiyalarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

Shu bilan birga, ekspertlarning fikriga ko'ra, 2025-yildan boshlab O'zbekiston ta'lim va fan vazirligining qarori bilan intellektual faoliyat natijalarini davlat budjet hisobidan amalga oshiriladigan fuqarolik ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarining yagona reyestriga kiritish uchun ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza ko'rsatkichlari o'zgarishi natijasida huquqlarni shakllantirish, taqsimlash va amalga oshirish bo'yicha samarali hisob siyosatini olib borish. ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarur.

Ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlari tarkibida 70 foizdan ortiq sher ulushi federal budjet hisobidan moliyalashtiriladigan davlat buyurtmasiga to'g'ri kelganda va davlat tuzilmalari o'z xarajatlarining iqtisodiy va ijtimoiy maqsadga muvofiqligini samarali nazorat qila olmasa, paradoksal tashkiliy va boshqaruv holati yuzaga keladi, bu ularning qobiliyatsizligi va yuqori darajadagi korruptsiyasini tasdiqlaydi.

Jadvalda keltirilgan. 7 ma'lumotlar xizmat ko'rsatish sohasida eng keng tarqalgan 2007-yildan 2012-yilgacha ro'yxatdan o'tgan intellektual mulk obyektlari sonining o'sish dinamikasini tahlil qilishga imkon beradi.

Tahlil qilinayotgan barcha intellektual mulk obyektlarida umuman ijobiy dinamika mavjud, ammo bu o‘ta beqarorlik bilan ajralib turadi, bu aniq 2008-2009-yillardagi moliyaviy inqiroz omillari bilan bog‘liq

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 1967 yil 14-iyulda Stokgolmda imzolangan Butunjahon intellektual mulk tashkilotini tasdiqlovchi Konvensiya.
2. 1973 yil 24-martdagi xalqaro patent tasnifi bo‘yicha Strasburg shartnomasi.
3. 1968 yil 8-oktyabrdagi sanoat namunalarining xalqaro tasnifini tashkil etish to‘g‘risidagi lokarn shartnomasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2022-yildagi PQ-221-son Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisidagi qarori.
5. I. Rustambekov, A. Nurudullayev. Xorijiy mamlakatlarda intellektual mulk huquqi.–Toshkent – 2011.
6. O. Oqyulov. Intellektual mulk huquqi.Falsafa va huquq instituti–Toshkent – 2005.
7. www.lex.uz
8. www.stat.uz
9. www.edu.uz
10. www.norma.uz

SUG‘URTA KOMPANIYALARI VA TIJORAT BANKLARI INTEGRATSIYALASHUV JARAYONINI ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonining iqtisodiy mohiyati, ularning tasnifi, sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklarining o‘zaro hamkorligi tahlil keltirilgan. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklar o‘rtasida hamkorlikning afzalliklari hamda bank sug‘urtasining tasniflanish mezonlari halqaro qonunchilik normalariga oid masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta kompaniyalari, tijorat banklari, integratsiyalashuv jarayoni, bank sug‘urtasi, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta pullari, sug‘urta javobgarligi, sug‘urta hodisalari, sug‘urta shartnomalari, sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati.

Аннотация: В статье представлена экономическая сущность процесса интеграции страховых компаний и коммерческих банков, их классификация, анализ взаимного сотрудничества страховых компаний и коммерческих банков. Также были изучены преимущества сотрудничества страховых компаний и коммерческих банков, а также критерии классификации банковского страхования и международно-правовые нормы.

Ключевые слова: страховые компании, коммерческие банки, интеграционный процесс, банковское страхование, страховые премии, страховые выплаты, страховые деньги, страховая ответственность, страховые события, договоры страхования, страхование инвестиционной деятельности инвестора.

Abstract: The article presents the economic essence of the process of integration of insurance companies and commercial banks, their classification, and analysis of mutual cooperation between insurance companies and commercial banks. The advantages of cooperation between insurance companies and commercial banks, as well as the classification criteria for bancassurance and international legal norms were also studied.

Key words: Versicherungsgesellschaften, Geschäftsbanken, Integrationsprozess, Bankversicherung, Versicherungsprämien, Versicherungszahlungen, Versicherungsgeld, Versicherungshaftung, Versicherungsereignisse, Versicherungsverträge, Versicherung, Investitionstätigkeit des Anlegers.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida siyosiy va iqtisodiy vaziyat beqarorligi tufayli, banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni amalga oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni oldining olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasi jarayoni bu faqatgina ichki investitsiya va resurslarni jamg‘arishgina emas balki ayni bir vaqtda butun bir moliya tizimining barqarorligini ham ta’minlaydi. Bu insonlar turmush darajasini oshiradi, ijtimoiy himoyani va albatta, mamlakat iqtisodiyoti barqororligini ham ta’minlaydi.

Hozirda dunyo moliya bozorida jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan va respublikamizda qator kamchilik va muammolarda amalda bo‘layotgan bank sug‘urtasi haqida so‘z yuritayotgan bo‘lsak, bank sug‘urtasi modeli bu banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik yoki yagona integratsiyalashgan tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Buning natijasida, sug‘urta kompaniyasi bank mijozlari kanali orqali o‘z sug‘urta maxsulotlarini sotadi. Shuningdek, bank va sug‘urta kompaniyasi o‘z aro kelishuvida sug‘urta kompaniyasi o‘z maxsulotlarini bank mijozlari bazasi orqali sota olishi uchun hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Bank sug‘urtasi modeli sug‘urta kompaniyasiga o‘z maxsulotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kichik guruhlar orqali bank va bank xodimlari orqali sotish imkonini beradi.

Respublikamizda tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar rivojlanib bormoqda. Bank risklarini sug‘urtalash kabi soha va yo‘nalishlar jadal sur’atda rivojlanib bormoqda lekin shunga qaramasdan, tijorat banklari bilan o‘zaro aloqalar innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va axborot texnologiyalari asrida o‘zaro faoliyat yuritish ma’lum bir shartlarni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil qilinayotgan mavzu sug‘urta kompaniyalar va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayoni bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilamiz.

Sug‘urta sohasi ham boshqa moliyaviy institutlar singari bir necha xil turlarga bo‘linadi. Bulardan biri bank sug‘urtasidir. Bank sug‘urtasi, sug‘urta sohasining eng faol va tez sur’atlarda rivojlanayotgan hamda dunyo sug‘urta bozorining yetakchi turlaridan biri hisoblanadi. Bu sug‘urta xizmati janubiy Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Bank sug‘urtasining ulushlari hayot sug‘urtasi tarkibida, Portugaliyada 74,1%, Ispaniyada 71,4%, Italiyada 71,9% ni, umumiy sug‘urta tarkibida esa Portugaliyada 15,3%, Fransiya 12%, Ispaniya 10,2% ni tashkil etgan [23].

Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan bank sug‘urtasiga (Bancassurance) berilgan ta’riflarni o‘rganar ekanmiz u qo‘yidagicha: I.A. Gabidulina, V.N. Lushnichenko fikricha: “... Bank sug‘urtasi-sug‘urta kompaniyalari tomonidan banklarni sotib olish va bank tomonidan sug‘urta kompaniyasini sotib olishni taqsimlovchi bank va sug‘urta tashkiloti o‘rtasida yagona axborot tizimini yaratish deb ta’kidlaydi”. A.Messyasz-Handschke fikricha: “bank sug‘urtasi-distribyutorlik-taqsimlash, tarqatish shartnomasi, birlashish va qo‘shib olish shartnomasi, strategik hamkorlik va aksiyalar sotib olishdir” deb o‘zining fikr-mulohazalarini bildirgan bo‘lsa, O.Kovalevskiy fikricha: “bank sug‘urtasi-strategik ittifoq, umumiy korxona strategiyasi, o‘z institutini yaratish strategisi va konsolidatsiyalangan modeldir” deb o‘zining munozarali fikrlarini bildirgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da ham fikrlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish uchun sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish”[6] ustuvor yo‘nalishi ta’kidlab o‘tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari interatsiyasining birinchi bosqichi G‘arbiy Yevropada 1967-1985-yillarda sodir bo‘lgan. 1985-yilda Buyuk Britaniya va Fransiya sug‘urta kompaniyalari tomonidan banklar bilan birinchi strategik ittifoq tuzildi. Standard Life Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyasi Bank of Scotland bankiga investitsiya kiritdi, Fransiyaning GAN sug‘urta kompaniyasi esa Credit Indastriel et Commercial bankini sotib oldi. Shu bilan birga Fransiyada 1980-yilda, Banque Nationale de Paris Paribas banki, Natio Vie sug‘urta kompaniyasini tashkil etdi. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasining ushbu shakli amaliyotda o‘zini oqlagan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Hozirda Fransiyada samarali faoliyat olib borayotgan va yaqqol ustunlikka ega bo‘lgan Paribas guruhini bunga misol qila olamiz. Ushbu bosqichda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 1986-1995 yillar mobaynida bank sug‘urtasi jadal rivojlandi. 1996-2007 yillarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bank sug‘urtasining jadal rivojlanish bosqichi davom etdi.

Shuningdek, bank faoliyatiga xos bo‘lgan xavflarning xilma–xilligi ularning tasniflashni talab etadi. Bank faoliyatining asosiy risklarini tasniflash imkonini berdi. Bank faoliyatini asosiy risklarining tasnifi quyida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1- jadval: Bank faoliyati asosiy risklarining tasnifi[1]

T/r	Tasnifi	Risk turi
	Vaqt bo‘yicha	Retrospektiv
		Joriy
		Istiqbolli
	Bank faoliyatiga nisbatan	Tashqi risk
		Ichki risk
	Sodir bo‘lish omillari bo‘yicha	Iqtisodiy
		Siyosiy
		Tabiiy
		Antropogen

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

T/r	Tasnifi	Risk turi
	Rivojlanish dinamikasi bo‘yicha	Dinamik
		Statistik
	Ko‘lami bo‘yicha	Xalqaro
		Mamlakatlararo
		Hududiy
		Tarmoqlararo
		Korxona riski
	Bozorga nisbatan	Muntazam
		Muntazam bo‘lmagan
	Moliyaviy risklar	Likvidlilik
		Kredit riski
		Inflyatsiya bilan bog‘liq
		Foiz
		Kapital riski
		Valyayuta riski
		Hisob kitoblarni tartibga solish riski

Tashqi faktorlar quyidagilardir.

- kredit resurslariga bo‘lgan narxning tebranishi;
- iqtisodiy o‘sish va kreditlarga talabning o‘sishi;
- inflyatsiya va bank foiz stavkasining o‘zgarishi;
- qayta moliyalashtirish stavkasining o‘zgarishi;
- texnologiyalar rivojlanishi;
- siyosiy holat;
- iqtisodiy siyosat, soliq siyosati;
- ekologik qonunchilik;

Bankning ichki faktorlariga esa bank faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faktorlarni kiritishimiz mumkin. Ular quyidagilar.

- operatsion va eksplutatsion xarajatlar;
- kredit resurlaridan foydalanish darajasi.

Asosiy faktorlar bo‘yicha bank risklarini iqtisodiy va siyosiy risklarga bo‘lishimiz mumkin.

Siyosiy risklar – bu siyosiy holat tufayli sodir bo‘lgan va bank faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi (soliq rejimining o‘zgarishi, chegaralar yopilishi, boshqa mamlakatlarga tovarlar olib chiqilishini ta’qiqlash, mamlakat hududida harbiy holatning mavjudligi) faktorlarni kiritishimiz mumkin [7].

Iqtisodiy risklar (tijorat) mamlakat iqtisodiyotida yoki bank iqtisodiyotida noxush o‘zgarishlarning sodir bo‘lishidir. Iqtisodiy risklarning eng keng tarqalgan turi bu muvozanatlashmagan likvidlilikdir (to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilmasligi). Bu ikki asosiy risk turlarini amaliyotda bir-biridan ajratib olish mushkuldir. O‘z navbatida siyosiy va iqtisodiy risklar tashqi risklar va ichki risklar bo‘lishi mumkin [8].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek bank sug‘urtasining tarixi uzoqqa tarixga borib taqalmaydi aksincha ushbu sug‘urta turi XX asrning 20 yillaridan amaliyotda bo‘lgan va turli mamlakatlarda yillar mobaynida banklar bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Bank sug‘urtasi bo‘yicha fikrlar va ilmiy qarashlar yetarlicha emasdir. Lekin shu bilan bir qatorda xorijiy olimlar ushbu sug‘urta turini o‘rganganlar va amaliyotga tabiq etganlar. Sug‘urta tashkilotlari va banklar o‘zaro hamkorliklari bundan 150 yil ilgari paydo bo‘lgan desak adashmaymiz. F.V.Rayffayzen kredit uyushmalari asoschisi, sug‘urta va moliya-kredit faoliyatlari o‘zaro birlashishining ustunlik jihatlarini nazariy asoslagan va amaliy isbotlagan. Mahalliy va xorijiy olimlarning tizimlashgan yondashuvlari bancassurance ni yagona bir model yoki shaklda emasligini tasdiqlaydilar.

Bank sug‘urtasi demografik, iqtisodiy va huquqiy iqlim va an’analarga bog‘liq ravishda har xil yo‘llar bilan tartibga solinadi. Bank sug‘urtasini tashkil etishda barcha mamlakatlar uchun umumiy tajriba yo‘q. Shu bilan birga, sug‘urta polislarini banklar orqali tarqatish, sug‘urta kompaniyalari savdosi umumiy hajmida, ayniqsa, hayot sug‘urtasi sohasida juda katta rol o‘ynashini ta’kidlash lozim. Yevropada ushbu ko‘rsatkich 70%ni tashkil etadi.

Sug‘urta kompaniyalari banklarning bank sug‘urtasidagi ishtirokining motivi, tizimlashgan holda quyidagi 1-rasmda berilgan.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning sabablarini bilib olganimizdan so‘ng, bank sug‘urtasi nazariy asoslarini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Bank sug‘urtasi nazariyasi bank va uning xodimlariga shuningdek, korporativ va chakana bank mijozlariga sug‘urta mahsulotlarini sotish nazariyasini o‘z ichiga oladi. Bu holatda, bank sug‘urtasi nazariyasi bank savdosi nazariyasining shaxsiy hodisasidir va bank hodimlarining sug‘urta kompaniyasiga murojat qilmasdan, mustaqil ravishda sug‘rta xizmatlarini sotishni o‘z ichiga oladi.

Bank sug‘urtasi nazariyasi bank va sug‘urta kompaniyasining o‘zaro savdo qilish uchun harakatlar nazariyasidir. Shunday qilib, banklarning sotish nazariyasini amalga oshirishning dastlabki qadami banklar haqida ma’lumotlar bazasini yaratish va banklar bilan o‘zaro muloqot natijasida muayyan mezonlarga ko‘ra tanlangan.



1-rasm: Bank sug‘urtasida sug‘urtalovchilarni ishtirok etish motivlari[2]

XULOSA

Hozirgi globallashuv sharoitida banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasi bu juda muhim hisoblanadi. Xususiyatiga ko‘ra integratsiyalashuv jarayoniga iqtisodiyotning moliya sektoridagi birlashish va qo‘shilishlarini (Xususan, sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklari) vertikal qo‘shilish va birlashish deyish mumkin. Vertikal integratsiya, mijozlarga mahsulot va xizmatlar miqdorining ortishi va sifatining yaxshilanishi tufayli, o‘z harajatlarini tejash imkonini beradi. Bank va sug‘urta biznesining birlashishiga bir qator sabablar mavjud. Birinchidan, birgalikda yangi qo‘shma moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish, bank depozitlari rentabelligi, sug‘urtalashning afzalliklari ularni raqobatbardosh va talabgor qiladi.

Ikkinchidan qo‘shimcha daromad keltiruvchi mijozlar bazasini kengaytiradi.

Uchinchidan bank faoliyatida risklar juda ham ko‘p bo‘ladi va ular ushbu xavf-xatarlarni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplay olmaydilar va odatda bunday holatlarda sug‘urta kompaniyalari tomonidan kompleks sug‘urtalash orqali ushbu zararlar qoplanadi (Bankers Blanket Bond - VVV).

Sug‘urtalovchi, bankni o‘z ish jarayonida kelib chiqadigan turli xavf-xatarlardan himoya qilishga va xavfsizligini ta’minlashga qodir tashkilotdir (kredit va turli amaliy opersiyalar risklarini sug‘urtalash), hamda mijozlar bilan ishlash jarayonida ham (kreditorlarning garovga olingan mol mulklari, hayotlari va sog‘ligi sug‘urtasi dasturlari va boshqalar misolida) qatnashadi”[8].

Sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklarining o‘zaro hamkorligi, birinchidan banklarda qo‘shimcha mablag‘lar paydo bo‘lishiga va bank daromadining oshishiga yordam beradi.

Ikkinchidan bank va sug‘urta sohasini mukammal biluvchi, kadrlar tayorlashni joriy qiladi va ikki tomon o‘rtasida o‘qitiladi. Natijada yangi ish o‘rinlar yaratiladi. Mamlakatimiz tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘zaro birlashishlari, integratsiyasi, hamkorliklari va o‘zaro faoliyat yuritishlarida nafaqat o‘zlari uchun, balki fuqarolarimizga ham bir qator qulayliklar va afzalliklarni yaratadilar.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 23 ноябрдаги ЎРҚ-730-сон “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-155-сон “Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 16 апрелдаги ЎРҚ-210-сон “Иш берувчининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида” ги Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 26 май. ЎРҚ-386-сон “Ташувчининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида” ги Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги ПҚ-4412-сон “Ўзбекистон республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғриси”даги Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисда”ги Фармони.
7. Морозов Д.С. Проектное финансирование: Управление рисками и страхование – издательство “Анкил”,1999 г.
8. Романова Анна Александровна “Формирование механизма взаимодействия страховых компаний с банковскими учреждениями” Москва 2005 г.
9. Мэлоун Патрик. Что менеджер проекта должен знать об анализе проекта. Серия 18 Б в сборнике Управление проектом/ анализ проекта - курс для преподавателей Средней Азии / Алматы, 6-22 мая 2006 г.
10. Kerzner H. Project Management: A. Systems Approach to Planning. Schedulling and Controlling. 4th ed., New York, Van Noatrad Renhold, 2002.
11. Russel D. Archibald. Managing of High - Technology Programs and Projects. 2nd ed., John Wilegs Sons Inc., USA, 2007.
12. Social protection in Europe – Commission of the European Communiteis. Brussels. 1994.
13. Rupp Insurance & Risk Management Glossary. 2002, NILS Publishing.
14. International Association of Insurance Supervisors “Core principles”, 2000, California.
15. Козлова Е., Финогенова Ю., Хоминич И. Основы страхового дела. Учебник и практикум // 978-5-9916-5977-М.: Юрайт, 2016.–499 стр.
16. Шахов В.В., Ахвледиани Ю.Т. Страхование. Учебник // ISBN 9785238014647.-М.:ЮНИТИ, 2009-243 стр.
17. Карелина С.А., Фролов И.В. Банкротство страховых организаций. Монография.//ISBN 9785720514648.–М.:Юстицинформ, 2018.–128 стр.
18. Лазарова Л. Б., Каирова Ф. А. Ипотечное жилищное кредитование и страхование. Учебное пособие // ISBN 9785907100176.–М.:Прометей, 2019.-186 стр.
19. Роик В. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы // ISBN 9785961419610.–М.: Альпина Паблишер, 2013.–257 стр.
20. Черных М., Каячев Г., Каячева Л. Страхование: Финансовые аспекты. Учебное пособие//ISBN 9785406072752.–М.: КноРус, 2019.-284 стр.
21. Галаганов В. П. Основы страхования и страхового дела. Учебное пособие // ISBN 978-5-406-06052-0.-М.:КноРус, 2018.–216 стр.
22. Кузнецова О. В. Добровольное страхование. Практичексое пособие // ISBN 978-5-9916-0021-7.-М.:Юрайт, 2008.–182 стр.
23. Бабурина Н.А., Мазаева М.В. Страхование. Страховой рынок России. Учебное пособие // ISBN 9785534035605.–М.: Юрайт,2017.–128 стр.
24. Годин А.М., Демидов С.Р., Фрумина С.В. Страхование. Практикум // ISBN 9785394019920.-М.:Дашков и К, 2017.–208 стр.
25. Абдураҳмонов И.Х., Казанцева А.К., Носирова Г.А. Теория и практика страхования.Учебное пособие// ISBN 9785394019920.–Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018.–512 стр.
26. https://www.louisepryor.com – Enhanced capital requirements and Individual Capital Assesments Insurers; Comite Europen des Assurances.pdf

РОЛЬ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ В РАЗВИТИИ МУЗЕЕВ РОССИИ

Абдуллаева Нигора Санжаровна
Кандидат исторических наук(PhD), Узбекский государственный университет мировых языков

Музеи являются важным инструментом для формирования правильного идеологического воззрения как для старшего, так и для младшего поколений. Исходя из этого, государства того или иного периода, придавали важнейшее значение формированию, а также обогащению музейной коллекции.

Следует отметить особую роль ученых-историков-музееведов Узбекистана, которые за годы независимости внесли свой вклад в изучении данной научной проблемы. В частности, значительный вклад в исследовании проблематики музеев, а также создания в зарубежных странах музеев на основе привлечения широкой коллекции Средней Азии внесла Курязова Д.

Вместе с тем, в Узбекистане в 2022 году была проведена большая международная научно-практическая конференция, посвященная вопросам музееведения. Следует отметить, что на данной конференции приняли участие не только ученые из стран ближнего, но и дальнего зарубежья, что еще раз подтверждает научную актуальность данной проблемы[1].

История формирования музейной коллекции России тесно взаимосвязана с историей внешней политики Российской империи, в период, когда амбициями российских императоров являлись завоевание богатой историко-культурной территории Средней Азии (середина XIX в).

Дело в том, что основной этап формирования среднеазиатской музейной коллекции в России приходится на период, когда Российская империя окончательно завоевала земли Средней Азии.

Сегодня, изучение истории формирования среднеазиатских коллекций в музеях России носит в себе весьма актуальный характер. На данный момент историками-музееведами стран Центральной Азии, в том числе Узбекистана, проводятся ряд исследований, фокус внимания которых направлен на анализ основных этапов и факторов, способствовавшие созданию коллекций в музеях России.

На примере Российского этнографического музея мы можем увидеть большую среднеазиатскую коллекцию в фондах данного музея, общий объем которого по народам Центральной Азии составляет около 22 200 предметов. Основной хронологический диапазон среднеазиатского собрания – начало XIX – начало XXI века. Отдельные предметы – оружие, ювелирные украшения, ковры, медная утварь – датируются XVIII веком[2].

Особо стоит выделить, что основной хронологический диапазон среднеазиатского собрания – начало XIX – начало XXI века. Отдельные предметы – оружие, ювелирные украшения, ковры, медная утварь – датируются XVIII веком[3].

Исследования данной научной проблемы показывает, что география собрания данной музея очень обширна и охватывает области равнинных земледельческих оазисов (Хорезмского, Бухарского, Самаркандского, Фергано-Ташкентского, Ахальского, Мервского и др.), зоны горного земледелия (Дарваз, Каратегин, Памир и др.), ареалы кочевого скотоводства – пустынного (Кызыл-Кумы, Кара-Кумы, Устюрт), степного (Казахский мелкосопочник) и горного (Тянь-Шань, Памиро-Алай)[4].

1 Muzeyshunoslik XXI asrda: Tadqiqotlar, An'analar va innovatsiyalar // Сборник материалов международной научно-практической конференции. – Ташкент, 2022, 167 с.
2 Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира. [Электронный ресурс] URL: wikipedia.org (Дата обращения 01.11.2023).
3 Коллекции по культуре народов Средней Азии [Электронный ресурс] URL: https://ethnomuseum.ru/collections/collection/kollekcii-po-kulture-narodov-srednej-azii/ (Дата обращения 01.11.2023).
4 Культурное наследие Узбекистана. Собрание Российского этнографического музея (Санкт-Петербург, Россия). Ташкент, UZBEKISTAN TUDEY, 2017 (на англ., русском, узб. яз).

Вместе с тем, собранные коллекции музея всесторонне характеризуют народную культуру региона, а наиболее крупными группами памятников являются, прежде всего, предметы костюма, включая украшения, предметы интерьера, утварь, ремесленный инструментарий[5].

Первой среднеазиатской коллекцией (№ 5) включавшая в себя туркменские вещи, экспонировались на Всемирной выставке 1900 года в Париже. Первым собирателем среднеазиатских коллекций был С. М. Дудин, совершивший в 1900–1902 годах три поездки в Среднюю Азию, результатом которых стало приобретение около 5000 предметов быта, 2000 архитектурных изразцов и археологических памятников, 2000 фотографий. В результате, это сразу сделало среднеазиатское собрание Этнографического отдела Русского музея (ЭО) крупнейшим в мире. Необходимо подчеркнуть, что его особенность заключалась не только в тематической широте, но и в высоком художественном уровне большинства предметов. Фотоснимки С. М. Дудина признаны шедеврами мировой этнографической фотографии.

Коллекции С. М. Дудина в последующее десятилетие были дополнены казахскими сборами, наиболее значимыми из которых явились приобретения А. Н. Бекетова (№ 1062), включавшие юрту с убранством, различные виды утвари, комплексы костюмов.

В числе первых предложенных частными лицами ценных предметов были казахская дверь для юрты с костяными накладками, казахские свадебные головные уборы, узбекское и казахское холодное оружие, узбекские и таджикские вышитые покрывала и др.

Фокусируя внимание на этапы формирования среднеазиатской коллекции в музеях России можно утверждать, что в 1920-х годах в рамках программ по изучению регионов бывшего СССР научным исследователем Ф. А. Фиельструпом были сформированы коллекции по киргизам и казахам, а А. Л. Мелковым – по каракалпакам. Большинство предметов этих коллекций остались единичными раритетами[6].

Кроме того, ценным даром музею стали туркменские коллекции Д. Йомудской. Особое место в собрании заняли поступившие в те же годы из Государственного музейного фонда узбекские элитарные предметы (оружие, парадные костюмы, конское убранство, шелковые ткани, вышитые занавесы), преподнесенные последними эмирами Бухары в качестве дипломатических даров Александру III и Николаю II.

В 1930-х годах особое внимание уделялось продукции ремесленных артелей, где рождалось новое советское искусство. Сотрудниками отдела этнографии народов Средней Азии были приобретены туркменские ковры с портретами государственных деятелей, таджикские и узбекские ткани, киргизские декоративные машинные вышивки.

В коллекциях бывшего Музея народов СССР, переданных музею в 1948 году, наибольшую ценность представляли костюмы Этнографической выставки 1867 года и более поздних выставок имперского периода[7].

В 1950-80-х годах сотрудниками музея велись интенсивные полевые сборы в каждой из республик Средней Азии, что было связано с экспозиционным строительством, в том числе созданием долговременных выставок по современному жилищу, одежде, прикладному искусству. Туркменские сборы курировала А. С. Морозова, киргизские – С. М. Лейкина и С. И. Илюшенко, узбекские и таджикские – М. Д. Перлина и Т. Г. Емельяненко, казахские – А. В. Коновалов и А. Б. Кунанбаева. В этот период в собрание поступила первая коллекция по среднеазиатским арабам (Б. З. Гамбург), крупная коллекция по памирским народам (Б. З. Гамбург, Е. Г. Царева). Особу роль в сборе материала стала уникальная каракалпакская коллекция, сформированная художником И. В. Савицким[8].

Начиная с 1990-х годов, благодаря экспедиционным привозам Т. Г. Емельяненко и сборам ташкентского коллекционера В. В. Кучерова, формируется фонд бухарских евреев. В. В. Кучеров внес весомый вклад и в пополнение коллекций по узбекам, таджикам, южным киргизам (женские украшения, предметы одежды, предметы интерьера, конское убранство и др.).

В 2000-х годах корреспонденты Г. Холмухамедова и О. Тулабаев приобрели для музея крупную серию таджикских вышивок середины XX века. Экспедиционные сборы в XXI веке осуществлялись сотрудниками музея Т. Г. Емельяненко (Узбекистан), Л. Ф. Поповой (Казахстан, Киргизстан), О. В. Старостиной (Киргизстан, Таджикистан). Часть этих сборов составили современные предметы, характеризующие развитие или интерпретацию исконных народных традиций. У частных лиц музей

5 Там же.

6 Культурное наследие Узбекистана. Собрание Российского этнографического музея (Санкт-Петербург, Россия). Ташкент, UZBEKISTAN TUDEY, 2017 (на англ., русском, узб. яз).

7 Музей археологии и этнографии Сибири им. В. М. Флоринского [Электронный ресурс] URL: www.tsu.ru/university/museums/aretmuseum.php (Дата обращения 02.11.2023).

8 Чувилькина Ю. В. Вклад И. В. Савицкого в сохранение Российского культурного наследия: феномен музея в Нукусе/ автореферат диссертации кандидата культурологии. – Краснодар, 2022. 20 с.

чаще всего приобретал туркменские ковры XIX–XX веков, узбекскую и таджикскую керамику, предметы одежды. В числе поступлений последнего времени – сувенирная продукция, транслирующая этничность на уровне знака и образа.

Наибольшая среднеазиатская коллекция сегодня хранится в государственном музее Эрмитаже, который еще со времен Екатерины Великой хранит редчайшие раритеты со всего мира, среди которых особо можно выделить уникальные коллекции образцов культуры и искусства, созданные талантливыми художниками и мастерами, творившими на земле Узбекистана на протяжении многих веков, являющимися предметом гордости музея, которые отражают уникальное наследие материальной и художественной культуры Республики Узбекистан[9].

В 2018 году в Санкт-Петербурге состоялся всемирный конгресс на тему: “Культурное наследие Узбекистана – путь к диалогу между народами и странами”. Следует отметить, что данный конгресс был посвящен открытию нового хранилища, в котором имеются богатая коллекция экспонатов из Узбекистана.

Необходимо отметить, что на сегодняшний день Государственный музей Эрмитаж опубликовал 2 тома сборника, посвященные раннему археологическому периоду, а также культурному наследию Мавераннахра эпохи развитого средневековья[10].

Особо внимания заслуживает 15 том, который посвящен предметам из собрания Государственного Эрмитажа, связанным с культурным наследием Мавераннахра эпохи развитого Средневековья, впервые ставшим предметом специального обобщающего исследования. Коллекция включает в себя раритеты из частных собраний, сформировавшихся в конце XIX – начале XX вв., и затем поступившие в музей, а также полученные в ходе археологических раскопок первой половины XX века. Это фрагменты архитектурного декора, посудная керамика, торевтика, ювелирные украшения, письменные принадлежности, изделия из стекла и поясные украшения, эпиграфические и нумизматические памятники Мавераннахра[11].

Таким образом можно отметить, что изучение данной научной проблемы выдвигает необходимость дальнейшего его анализа и является весьма актуальной. Анализ узкого круга источников и научных публикаций па данной проблематике показывает, что в формировании среднеазиатской коллекции в музеях России, в том числе, Российского этнографического музея и Государственного Эрмитажа сыграла последствия завоевания территории Средней Азии, на которой в дальнейшем были проведены научные работы в области истории и археологии. Это, в свою очередь, позволило вывезти редчайшие предметы материальной и духовной культуры народов, проживавших на этой территории. Однако, как показывают результаты исследования, в настоящее время научными сотрудниками вышеперечисленных музеев проводится огромная работа по популяризации материально-духовной культуры народов Центральной Азии, в том числе, Узбекистана.

9 Культурное наследие Узбекистана в собраниях государственного Эрмитажа [Электронный ресурс] URL: https://legacy.uz/kulturnoe-nasledie-uzbekistana-v-sobraniyah-gosudarstvennogo-ermitazha/ (Дата обращения 03.11.2023).

10 Культурное наследие Узбекистана. 8 том. Санкт-Петербург, 2015; Культурное наследие Узбекистана. 15 том. Санкт-Петербург, 2017.

11 Культурное наследие Узбекистана. 15 том. Санкт-Петербург, 2017.

HUDUDLARDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Qo‘ziboyev Boxodir Azzamboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi” v.b. dotsenti

Ibragimov Behruz Ravshan o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Biznesni boshqarish ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarning turizm ishtirokchisiga aylantirish, turistik obyektlarda ularga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish, insonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy manfaatlarini ham himoyalash ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: iklyuziv turizm, nogironlar,turizm obyektlari, ijtimoiy kasb.

Аннотация: В стате проведен анализ развития инклюзивного туризма в стране. Рассмотрени разние види инклюзивного туризма и возможности доступности туризма для инвалидов. В стате актуализирована необходимост в развитии инклюзивного туризма и установлена его значимост для людей с ограниченними физическими возможностям.

Ключевые слова: инклюзивний туризм, инвалиди, объекти туризма, социалная профессия.

Abstract: The article analyzes the development of inclusive tourism in the country. Different types of inclusive tourism are considered. The article actualizes the need for the development of inclusive tourism and establishes its significance for people with disabilities.

Key words: inclusive tourism, invalid people, tourism objects, social protection.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri “Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib aynan unda aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish”, deb belgilangan [1].

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichga o‘tishi bilan turizm industriyasi ham ushbu o‘zgarishlarga moslashib bormoqda. Turizm industriyasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri aholining alohida ehtiyojmand qatlamini, birinchi navbatda nogironligi bo‘lgan shaxslarni turizmga jalb qilish hisoblanadi. Shuninig uchun ham mazkur maqolaning maqsadi – ushbu toifadagi turistlar uchun o‘ziga xos muhit yaratish xususiyatlari va muammolarini yoritishga qaratilgan. Turizmning ushbu turi dunyo miqyosida keng tus olmoqda, chunki jami turistlarning 7% nogironligi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Alohida ehtiyojmand aholi qatlamining atrof-muhitga bog‘liqligi mamlakatimiz olimlari (Q.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, M.Pardayev, I.Tuxliyev, B.Safarov, D.Norkulova va boshqalar) va xorijiy olimlar (V. Preobrajenskiy, M. Mironenko, I. Tverdoxlebov, I. Zorin, S.Sesolkin va boshq.)ning ushbu toifadagi kishilarning ta’lim, ijtimoiy, tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish va qondirish masalalari, ijtimoiy normalarning moslashuvchanligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Turizm sohasida turli shakldagi sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish muammolari tibbiyot, psixologiya, reabilitatsiya, sotsiologiya va sohaga oid mutaxassislarning ilmiy adabiyotlarida ham keng yoritilgan. Ushbu mavzu (I. Seselkin, S.Maxov, D. Chepik, A. Petrova, L. Volobuyev “inklyuziv turizmning rivojlanish muammo-

lari"; Ye. Sigida "nogironlik va turizm: ehtiyoj va ommaboplik"; Ye. Xolostova, N.Dementeva "ijtimoiy reabilitatsiya"; M.Siganov "nogironlarning bandlik sohasiga integratsiyalashuvi: YEI mamlakatlarida o'tkazilgan so'rov) kabi Rossiya Federatsiyasi va ayrim xorijlik (Culham A. "Deconstructing Normalisation: Clearing the Way for Inclusion") olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib o'tilgan.

Ushbu yo'nalishga bo'lgan qiziqishlarning ulkanligi olingan ilmiy muhokamalarning turistik xizmatlar bozorining inklyuziv segmenti yoki muhitida qo'llanilishini rag'batlantiradi.

Keyingi yillarda inklyuziv turizm nafaqat dam olish va xordiq chiqarish, tanishuv, balki kishilarning sog'lig'ini tiklash, davolash va sog'lom turmush tarzini tashkil etish bilan ham uyg'unlashib ketmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ijtimoiy turizm assotsiatsiyasi tashkil etildi.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, kuzatish, qiyoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Shu bois, bibliografik tadqiqot natijasida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada, O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qumitasi va BTT manbalari ma'lumotlardan foydalanngan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, alohida himoyaga hamda maxsus yordamga muhtoj aholi segmenti ortib bormoqda. Umumtan olingan xalqaro standartlarga muvofiq ushbu kishilar turli inklyuziv toifalarga kirittiladi, turizm sohasida esa bu inklyuziv turistlar segmentidir. Ma'lumki, bugungi kunda "inklyuziv turizm" atamasi ilmiy va amaliyot jihatdan yakuniy tasdig'ini topmagan hisoblanadi. Ushbu atamaning bir nechta ta'riflari mavjud. YEI mamlakatlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun mo'ljallangan turizm segmenti "ommabop turizm" yoki "barcha uchun mo'ljallangan turizm" deb ataladi. Bunday atama "barcha uchun turizm" (tourism for all), "ommaviy turizm" (accessible tourism), "nogironlar uchun turizm", "invaturizm", "paraturizm", "to'siqsiz turizm", "reabilitatsion turizm", "o'quv-korreksion turizm" va boshqa atamalar bilan ham uyg'unlashishi mumkin. Bunda ushbu faoliyat turining ijtimoiy reabilitatsiya maqsadi o'zgarmasdan qoladi [2].

Ushbu tushunchaning yakuniy atamasi BMT qoshidagi YUNVTO ning 2009 yilda Astana (Qozog'iston) shahrida bo'lib o'tgan 18-sessiyasida qabul qilingan va "turistik sayohatlarni soddalashtirish bo'yicha Deklaratsiya" ga kiritilgan. Unda YUNVTO ga a'zo mamlakatlar uchun o'z hududlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun turistik obyektlar va muasssasalarni barpo etishlari, ular uchun mavjud bo'lgan xizmat turlari, tashkilot va muassasalar hamda mavjud muammolar to'g'risida aniq va hammabop hisoblangan axborotlarni taqdim etish tavsiya qilingan [3, s. 132-135].

Ko'pgina zamonaviy tadqiqotlarda odatda "moslashuvchan (adaptiv) turizm". Deb ham ataladi. 1991-yilda BMT bosh assambleyasining Butunjahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) tomonidan "90-yillarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turizm imkoniyatlari yaratish" (Creating Tourism Opportunities for Handicapped People in the Nineties) rezolyatsiyasi qabul qilingan bo'lib, keyinchalik (2005-yil, 16-sessiya Senegal, Dakar) ushbu atama "barcha uchun mo'ljallangan turizm" (Accessible tourism for all) nomi bilan ataladigan bo'ldi [4].

Shunday qilib "inklyuziv turizm" atamasi va "barcha uchun mo'ljallangan turizm" sinonim so'zlar hisoblanadi, "adaptiv turizm" atamasi esa turizmning alohida ehtiyojlarga ega shaxslar uchun turistik faoliyatni va servis xizmatlarini tashkil etishga qaratilgan maqsadli yo'nalishini o'zida aks ettiradi. Bunday yondashuv "adaptiv turizm"ning tabiiy muhitda turistik sayohat turi sifatida qo'llanilishiga imkon beradi. Aksincha, "to'siqsiz turizm" atamasi esa turistik obyekt va infratuzilmalarning moslashuvchanlik darajasini ifodalab mahalliy turizm yoki ekskursiya faoliyatida keng qo'llaniladi [5; 6, c.129].

TAHLIL VA NATIJALAR

"Hammabop turizm" asoschilaridan biri Skott Rayan "Inklyuziv turizmni ijtimoiy integratsiya sifatida tushunmog'imiz zarur", – deb hisoblaydi, [6, p. 65-78]. Ijtimoiy integratsiyaning universal yo'llaridan biri esa turizm hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasini "turizmning barcha uchun yo'naltirilganligi" tamoyili asosida tashkil qilish, turistik markaz va obyektlar infratuzilmasini barcha toifadagi va imkoniyatli shaxslar uchun, shu jumladan nogironlar, yoshi katta kishilar va ularning vakillari, oila a'zolari va vasiylari, yosh bolali oilalar uchun moslashtirish zarurdir [7].

Inklyuziv turizmni turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha ishtirokchilarni hamkorlikka jalb qiluvchi turizm shakli deyishimiz ham mumkin. Bu imkoniyati cheklangan barcha toifadagi kishilarni, birinchi navbatda alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan kishilarni turistik infratuzilmaga jalb qilish orqali atrof muhitning mobil, audiovizual, va kognitiv hammabopligidan foydalanish imkoniyatini yaratib berish hamdir [8].

Inklyuziv reabilitatsion-ijtimoiy turizmning asosiy konsepsiyasi bundan 30 yil ilgari nogiron me'mor Ron Meyson va uning Shimoliy Karolina davlat universitetidagi hamkasblari tomonidan shaklantirilgan hamda amalga oshirilgan hammabop dizaynning quyidagi eng asosiy tamoyillarida o'z aksini topgan [9]:

1. foydalanishning tengligi va hammabopligi.
2. foydalanishning moslashuvchanligi.
3. foydalanishning soddaligi va intuitivligi.
4. axborotlarning hammabopligi.
5. xatoliklarga sabrlilik.
6. kam jismoniy harakatlarni talab etishi.
7. zaruriy o'lcham, joy va muhitning mavjudligi.

Ijtimoiy turizmning iqtisodiy samaradorligi va mahsuldorligi uning alohida elementlarini o'zida to'liq aks ettiruvchi infratuzilmaning mavjudligida emas, balki turistik maqsadlarda tashkil qilingan hamda barcha toifadagi kishilar uchun to'laqonli dam olish va xordiq chiqarish, jismoniy va ma'naviy kuchini samarali tiklashga imkon berishiga bog'liqdir.

Masalan, Germaniyada madaniy-tanishuv turizmini rivojlantirish maqsadida dam olish va xordiq chiqarish joylari imkoniyati cheklangan va kamharakat fuqarolarning ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda jihozlangan. Muzey, teatrlarda nogironligi bo'lgan kishilar foydalanishi mumkin bo'lgan kreslo-aravachalar taqdim qilinadi.

Turizm, zamonaviy hayotning muhim ijtimoiy hodisasi sifatida jamiyatning hayotiy faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi [8]. Shu bilan bir vaqtda turizm yana bir muhim funksiyani – imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya funksiyani bajaradi.

Inklyuziv turizm bilan bog'liq muammolarni tahlil qilar ekanmiz, uning atrof muhitni o'rganish va rekreatsiya vositasi sifatida muhimligini va shu kabi xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz joiz.

Inklyuziv turizm ijtimoiy (kommunikativ, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik moslashuv) va jismoniy reabilitatsiya (sog'lomlashtirish, psixo-emotsional ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ekologik reabilitatsiya)ning keng turlarini qamrab oladi.

Biroq imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilarni sayohat, turli sayr-tomosha va ekskursiyalarga jalb qilish uchun turistik faoliyatning aksariyat turlarini ular uchun ham moslashuvchan, xavfsiz va hammabopligini ta'minlashimiz zarur bo'ladi [8].

Inklyuziv turizmga ta'sir qiluvchi va uni tashkil qilish imkoniyatlarini cheklovchi omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin [10, s.85-95]:

- potensial turistlarning jismoniy holati (nogironlik, cheklangan imkoniyat);
- potensial turistlarning moddiy ahvoli;
- turistik safarlar uchun maxsus transport vositalarining mavjud emasligi;
- joylashtirish vositalari narxlarining sezilarli darajada yuqoriligi;
- ma'muriy to'siqlarning mavjudligi (masalan, xorijiy safarlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq rasmiyatchilik taomillari);
- turizm va xordiq chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tadbirlarning sustligi yoki mavjud emasligi;
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulotlarga oid axborotlarni olish imkoniyatining mavjud emasligi yoki turmahsulot marketingining sustligi (turistik destinatsiyalarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulot assortimentining cheklanganligi);
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun sayohatlar uyushtirishga zaruriy motivatsiyaning yetishmasligi.

Inklyuziv turlarga talabning sustligi bilan bog'liq omillardan biri nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan kishilarning turistik faoliyat bilan bog'liq turli xatarlarga beriluvchanligi, o'zlarini noqulay his etishlari, harakatlanishning qiyinligi yoki cheklanganligi, ko'rish, eshtish imkoniyati cheklangan kishilarda kognitiv qobiliyatlarning sust namoyon bo'lishi, shuningdek, "hammabop turizm" atamasi bilan bog'liq turli mavhumliklar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishda quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aeroport, temiryo'l avtovakzallar, vagon va avtobuslar, maxsus to'xtash joylari, ko'tarish qurilmalari, travolatorlar, maxsus yo'llar, transport vositalarini ta'mirlash kabilarni o'z ichiga olgan inklyuziv turizmning transport va destinatsiya infratuzilmasini yaratish.
2. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilar va asosiy ishchilar ulushi shunday shaxslardan iborat bo'lgan yuridik shaxslar maxsus mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirish, soliq imtiyozlari joriy etish. Masalan nogironlar uchun maxsus jihozlangan mehmonxona nomer fondini 5 yil davomida soliq to'lovlaridan ozod qilish.
3. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini tiklash, sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiluvchi davolash-sog'lomlashtirish muassasalari (tibbiy turizm) sonini ko'paytirish. Bu kelgusida aholining kam daromadli qatlamlarini ham turizmga jalb qilish, mavsumdan tashqari davrlarda ham sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga keng assortimentdagi turistik xizmat turlarini taklif qilishni tashkil qilish orqali turfirma va turoperatorlarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish.
5. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun turistik-ekskursiya xizmatlari to‘g‘risidagi axborotlar bazasini shakllantirish va zaruriy axborot bilan ta’minlash; "barcha uchun mo‘ljallangan turizm” tamoyili asosida ijtimoiy turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Inklyuziv turizm turizmning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon statistikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning turizm va sayohat faoliyatiga jalb qilinishi ortib bormoqda.
2. Turizmning mazkur turining paydo bo‘lishi va kelgusi shakllanishi mazkur yo‘nalishdagi nazariy-metodologik talqin va ushbu atamaning tushuncha-atamashunoslik apparatining alohida tadqiq qilinishi bilan bog‘liqdir.
3. Mavjud xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv turizmning rivojlanishi va istiqboli avvalo, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni uchun mo‘ljallangan mehmonxona-restoran va transport xizmatlari, hammabop tabiiy va antropogen hududlarning mavjud bo‘lishiga bog‘liq va shu kabilar.
4. Turizm sohasida inklyuziv turizmni joriy etish aksariyat mamlakatlar uchun me’moriy-texnik, tabiiy, turistik, gastronomik, ijtimoiy-maishiy, axborot va boshqa yo‘nalishlarda qator muammolarning hal etilishini taqozo etadi.
5. Inklyuziv turizm sohasida ish tajribasiga ega ilg‘or mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning milliy xususiyatlari, mentaliteti, iqtisodiy taraqqiyoti va uning asosiy omillari, moddiy-texnika bazasining rivojlanish darajasi va jamiyat a’zolarining ushbu faoliyat turini joriy etish bilan bog‘liq yangiliklarni qabul qila olish darajasini o‘zida aks ettirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисида 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони.
2. Белоусова, Н.В. Инклюзивный туризм в системе реабилитационной географии: от теории к практике: монографія / Н. В. Белоусова. – К. – Из-во ТАЛКОМ, 2018. 344 с.
3. Белоусова, Н. В. Теоретические аспекты развития инклюзивного реабилитационно-социального туризма в Украине / Н. В. Белоусова // Научный журнал “Научные записки Сумского государственного педагогического университета. Географические науки”. – Сумы: СумГПУ имени А.С.Макаренко. – 2018. – Выпуск 9. –С.205-213.
4. Всемирная туристическая организация (UNWTO). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http: www.unwto.org.
5. Ван Циншен Теоретические и методологические аспекты рекреационной географии: современный подход / Ван Циншен [и др.] // Украинский географический журнал. – 2003. – №1. – С.45-49.
6. Сеселкин, И. А. Проблемы развития инклюзивного туризма / И. А. Сеселкин [и др.] // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2015. – № 11 (129). – С. 134-143.
7. The Costs of Inclusion / J. MacBeath, M.Galton, S. Steward et. al. Cambridge: Victoria Press, 2005. – 78 p.
8. Заярнюк, А. В. Социальная защита уязвимых слоев населения: отечественный и зарубежный опит / А. В. Заярнюк // Научные труды Кировоградского национального технического университета. Серия “Экономические науки”. – Кировоград: КНТУ. – 2004. –Вып. 6. – С.132-135.
9. International Diplacement Monitoring Center. Latest IDP numbers bycountry. – Режим доступа: http://www.internald-isplacement.org/database
10. Сигида, Е. А. Инвалидность и туризм: потребность и доступность : монография / Е. А. Сигида, И. Е. Лукьянова. – М. : ИНФРА-М, 2015. – 106 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALAR BILIMINI YUKSALTIRISH JARAYONI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Hakimov Nazar Hakimovich
Falsafa fanlari doctori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy, gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi mudiri

Vaxobova Marg‘uba Abduxamidovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy, gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim sohasidagi global va mahalliy yutuqlarni o‘rganib, turli ta’lim yondashuvlarini qabul qilishni qamrab oladi. U so‘nggi tendensiyalarni o‘rganadi va har tomonlama tahlil qiladi. Yangi sharoitlarga qarab ta’lim jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, xususan, mamlakat oliy o‘quv yurtlari tomonidan yaqinda qo‘lga kiritilgan moliyaviy avtonomiyalardan foydalanish bo‘yicha dolzarb talablarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limga ilg‘or boshqaruv strategiyalarining kiritilishi ushbu universitetlarning raqobatbardoshligi va investitsiya jozibadorligini oshirish uchun kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, virtual ta’lim, masofaviy ta’lim, mukammal ta’lim, boshqaruv, raqobatdosh ustunlik, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This paper explores the global and local advancements in higher education within the Republic of Uzbekistan, covering the adoption of various educational approaches. It delves into recent trends and provides a comprehensive analysis. Emphasis is placed on the pressing requirement to enhance the management system for educational processes in response to new circumstances, particularly highlighting the utilization of recently acquired financial autonomy by the country’s universities. The incorporation of progressive management strategies in education is anticipated to enhance the competitiveness and investment appeal of these universities.

Key words: Tertiary education, virtual learning, remote education, educational excellence, administration, competitive edge, financial viability.

Аннотация: В данной статье исследуются глобальные и местные достижения в области высшего образования в Республике Узбекистан, охватывающие внедрение различных образовательных подходов. Он углубляется в последние тенденции и предоставляет всесторонний анализ. Акцент сделан на насущной необходимости совершенствования системы управления образовательным процессом в ответ на новые обстоятельства, в частности, на использовании вузами страны недавно приобретенной финансовой автономии. Ожидается, что внедрение прогрессивных стратегий управления в сфере образования повысит конкурентоспособность и инвестиционную привлекательность этих университетов.

Ключевые слова: Высшее образование, виртуальное обучение, дистанционное образование, превосходное образование, администрирование, конкурентное преимущество, финансовая жизнеспособность.

KIRISH

2016-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi jamiyatning turli sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar bosqichini boshladi. Ayniqsa, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni liberallashtirish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Puxta tuzilgan va ijobiy tashqi siyosat tufayli O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 2017-yildagi 2,6 milliard dollardan 2022-yilda qariyb 7,5 milliard dollarga yetdi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasini O‘zbekistonning uchinchi yirik iqtisodiy hamkori, Rossiya (9,3 milliard dollar) va Xitoydan (8,9 milliard dollar) ortda qolmoqda [1].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim manzarasi ham jadal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Universitet ta’lim xizmatlari bozori tez o‘sishni boshdan kechirmoqda, bu mahalliy va xalqaro ishtirokchilarni jalb qilmoqda. Respublikaning akademik va moliyaviy avtonomiyani kuchaytirishga intilishi mehnat

sharoitlarini tubdan o‘zgartirib, boshqaruv tizimida samarali tuzatishlar kiritishni taqozo etmoqda. Ushbu o‘zgarishlar davrida universitetning individual raqobatbardoshligini oshirish va ta’lim sohasini har tomonlama rivojlantirish asosiy maqsadlar bo‘lib qolmoqda. Bu O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashdan iborat bosh maqsad bilan hamohangdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tajribasi ta’lim tizimining, jumladan, oliy ta’limning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga faol jalb etilishini ko‘rsatadi. Troximchuk AV zamonaviy iqtisodiy manzarasini ta’kidlab, ta’lim xizmatlari juda talab qilinadigan sohaga aylanganini ta’kidlaydi. Hozirgi mehnat bozorida asosiy e’tibor faqat xodimni yollashga emas, balki uning malakasi, bilim va ko‘nikmalarini egallashga qaratilmoqda [2]. Ta’limning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta’siri yaqqol namoyon bo‘lib, inson kapitali sifatiga va natijada olingan daromadga ta’sir qiladi. R.A.Ataxanov ta’limni iqtisodiy o‘sishga va umuman texnologik taraqqiyotga yordam beruvchi omil sifatida ta’kidlaydi [3].

Sharma R. zamonaviy iqtisodiyotda shaxslarni asosiy kapital deb e’tirof etish bilim va ko‘nikmalarni to‘plash va yangilash uchun shart-sharoit yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Uzluksiz ta’lim kontseptsiyasiga urg‘u berish va barcha fuqarolarning oliy ta’lim olishdan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash ushbu yondashuvning hal qiluvchi jihatlari hisoblanadi [4]. Ushbu siljish nafaqat yosh avlod, balki ish beruvchilar o‘rtasida ham ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirib, yuqori malakali ishchilar uchun ish o‘rinlarini yaratish va ularni ichki mehnat bozoriga jalb qilish zarurligini aniqlashga turtki bo‘lmoqda.

Yevropada universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy strategiyasi masofaviy ta’limni qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Bunga yaqqol misol sifatida faqat masofaviy ta’limga bag‘ishlangan Germaniyaning birinchi va yagona davlat sirtqi universiteti bo‘lgan Xagen sirtqi universiteti (Xagendagi Fernuniversität)dir. FernstudiumCheck.de nemis portali Germaniyadagi masofaviy ta’limni taklif etuvchi eng yaxshi ta’lim muassasalari reytingini muntazam e’lon qiladi [5]. Microsoft-ning hamkor kompaniyasi Jedium mutaxassislari onlayn ta’lim an’anaviy yuzma-yuz bilim olishdan tobora ko‘proq soya solayotganini ta’kidlamoqda. Aslini olganda, onlayn ta’lim masofaviy ta’limning mantiqiy davomi sifatida qaraladi, bu yerda “onlayn” atamasi bilimlarni o‘zlashtirish usulini va o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqani anglatadi. Bu davlatlarning, xususan, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim xizmatlarini jadal rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot oliy ta’lim sohasidagi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari va tavsiyalaridan kelib chiqqan nazariy va uslubiy asoslarga asoslanadi. Muammolarni hal etishning uslubiy asoslari 2030-yilgacha oliy ta’limni rivojlantirish traektoriyasini belgilovchi milliy konsepsiyadan kelib chiqadi. Bundan tashqari, milliy universitetlarning iqtisodiy va akademik avtonomiyalarini oshirishga doir Hukumat qarorlari, tegishli materiallar va ekspert hisobotlari bilan bir qatorda, ushbu loyihaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. o‘rganish. Turli tadqiqot usullari, jumladan kuzatish va faktlarni to‘plash, modellashtirish, ilmiy abstraksiya usuli va tizimli tahlil qilish mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJADAR

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim samaradorligini, jumladan, ta’lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan alohida universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha boshqa mamlakatlar tajribasini faol o‘rganmoqda. Avvalo, oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi, infratuzilmani rivojlantirish konturlari va aniq vazifalar belgilab olindi. Ta’limning muqobil turlari va shakllarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Onlayn ta’limni joriy etish. O‘zbekistonda 2019-2020-o‘quv yilidan (koronavirus pandemiyasi boshlanishidan avval) maxsus sirtqi bo‘lim talabalari uchun masofaviy onlayn darslar o‘tkazila boshlandi. Onlayn o‘quv platformasining o‘zi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazi tomonidan amalga oshirildi. Maxsus sirtqi ta’lim uchun elektron darsliklarni ishlab chiqish boshlandi. Shuningdek, universitetlarda sirtqi va kechki ta’lim shakllari uchun masofaviy ta’limni joriy etish rejalashtirilgan edi [7]. Koronavirus pandemiyasi sharoitida O‘zbekistonning istalgan nuqtasidan Belarus va Rossiya universitetlarida masofaviy formatda ta’lim olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu maqsadda O‘zbekistondagi masofaviy ta’lim markazi “Postupi.uz” bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarining ayrim dasturlari bo‘yicha masofaviy ta’lim fakultetlariga kirishga yordam beradi [8]. Masofaviy ta’limni joriy etish bo‘yicha xorijiy va mahalliy mutaxassislarning materiallarini, bir qator oliy o‘quv yurtlarining ushbu jarayonni tashkil etish amaliyotini o‘rganish natijasida muallif bir qator dastlabki xulosalarga keladi:

1. Masofaviy ta’limni joriy etish zamon talabi va Covid-19 pandemiyasining boshlanishi bilan keng tarqaldi.
2. Koronavirus pandemiyasi davrida aynan onlayn ta’limning joriy etilgani ilg‘or tajribalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga turtki bo‘ldi.
3. Respublika oliy ta’lim sohasida xalqaro tajribani faol o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘z amaliyoti ham paydo bo‘ldi.

4. O‘zbekiston milliy ekspertlari uchun onlayn ta’limni joriy etish natijalarini, uning afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy baholash uchun keng imkoniyatlar maydoni ochildi.

Universitet xizmatlari bozorini kengaytirish. 2021-yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [9] imzolangan bo‘lib, u respublikaning bozor islohotlariga sodiqligini tasdiqladi. 35 ta oliy o‘quv yurti, shu jumladan ushbu maqolada muallif vakili bo‘lgan Toshkent davlat transport universiteti akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi va bu yerda transformatsiya bo‘limlari ochildi. Universitetlar endi bo‘sh bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini, shuningdek, transport vositalarining yillik yurish chegarasi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish talablarini mustaqil ravishda hal qiladi.

MUNOZARA

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha boshqa davlatlar tajribasini faol o‘rganmoqda, alohida e’tibor alohida universitetlarning ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi infratuzilmani rivojlantirish konturlarini belgilab, vazifalarni belgilab bergan muhim qadam bo‘ldi. Ayniqsa, ta’limning muqobil turlari va shakllarini, jumladan, onlayn ta’limni joriy etishni ishlab chiqish va joriy etishga e’tibor qaratildi. O‘zbekistonda 2019-2020-o‘quv yilidan boshlab, koronavirus pandemiyasi boshlanishi arafasida maxsus sirtqi bo‘lim talabalari uchun masofaviy onlayn darslar o‘tkazish boshlandi. Onlayn o‘quv platformasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazi tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga sirtqi maxsus ta’lim uchun elektron darsliklarni ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida sirtqi va kechki ta’lim shakllari uchun masofaviy ta’limni joriy etish bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi.

Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan muammolarga javoban O‘zbekiston fuqarolari Belarus va Rossiya universitetlarida masofadan turib ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. “Postupi.uz” nomi bilan mashhur O‘zbekistondagi Masofaviy ta’lim markazi bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta’lim dasturlarini taklif etuvchi fakultetlarga qabulni osonlashtirishda muhim rol o‘ynadi.

Masofaviy ta’limni joriy etish bo‘yicha xorijiy va mahalliy ekspertlarning materiallarini, shuningdek, turli universitetlar amaliyotini tahlil qilib, muallif tomonidan bir qator dastlabki xulosalar chiqarildi:

1. Zamon imperativi masofaviy ta’limni keng joriy etishni taqozo etdi, bu tendensiya Covid-19 pandemiyasi davrida kuchaydi.
2. Pandemiya sharoitida onlayn ta’limning joriy etilishi ilg‘or tajribalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘z ichiga kiritish uchun katalizator bo‘lib xizmat qildi.
3. Respublika oliy ta’lim sohasida xalqaro tajribalarni faol o‘zlashtirish bilan bir qatorda mahalliy amaliyotlar ham vujudga keldi.
4. Onlayn ta’limning joriy etilishi O‘zbekistondagi milliy ekspertlar uchun ushbu ta’lim yondashuvining natijalari, afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy baholash uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil dekabrdagi qarori bilan bozor islohotlariga sodiqlik tasdiqlandi. 35 ta oliy o‘quv yurti, jumladan, ushbu hujjatda ko‘rsatilgan Toshkent davlat transport universitetiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Universitetlarga bo‘sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko‘rsatish tartib-qoidalarini mustaqil ravishda belgilash, shuningdek, avtotransport vositalari uchun yillik yurish chegaralarini belgilash va texnik xizmat ko‘rsatish talablarini belgilash imkonini beruvchi transformatsiya idoralari tashkil etildi. Biz oliy ta’limni rivojlantirishni o‘rganish bo‘yicha ko‘rib chiqilayotgan nisbatan qisqa davrni tan olamiz, 2017-yilda boshlanadi va faqat 2021-yilda katta qiziqish uyg‘otadi. Bunday qisqalikka qaramay, biz ushbu rivojlanishning yuqori dinamikasi va ko‘lamini tan olamiz va tadqiqotimizning dolzarbligini tasdiqlaymiz, bu esa quyida ko‘rsatilgan respublika oliy ta’limi sohasida bir qancha qo‘shimcha yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi:

- **Ta’lim shakllarining diversifikatsiyasi:** Toshkent davlat transport universiteti (TDTU) misolida, asosiy ta’lim shakllarining diversifikatsiyasi kengroq oliy ta’lim tizimidagi yaqqol tendensiya hisoblanadi. “Bakalavriat + magistratura” tizimida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Sirtqi ta’lim “Ikkinchi mutaxassislik”, “Masofaviy ta’lim” kabi shakllar joriy etilgan holda faol kengaymoqda. 2022-2023-o‘quv yili boshlanishiga ko‘ra respublikaning bir qancha oliy o‘quv yurtlarida ta’limning yangi (muqobil) shakllari ulushi 50 foizdan oshdi.
- **Yangi bozor sharoitida kengaytirilgan ta’minot bozori:** Rivojlanayotgan bozor sharoitlari ta’limga o‘sib borayotgan talabni qondirish uchun kengaytirilgan taklif bozorini yaratdi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta’lim bilan bir qatorda pullik ta’limning ham mavjudligi, sirtqi formatlarning paydo bo‘lishi umumiy ta’lim darajasining yuksalishiga olib keldi. Ushbu kengayish ilgari istisno qilingan shaxslar uchun oliy ta’lim olish imkoniyatini osonlashtiradi [11].
- **Xalqaro tendensiyalarga moslashish:** Xalqaro ekspertlar pullik va masofaviy ta’limning (so‘nggi 25 yil ichida 15 foizga o‘sish) tarqalishining bosqichma-bosqich o‘sib borayotganini qayd etishmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’limni rivojlantirish tendensiyalari ana shu global jarayonlarga hamohang bo‘lib, xalqaro ta’lim siljishlari bilan rezonansni aks ettiradi.

- **Axloqiy va psixologik omillar:** Bu jarayonning muhim omili axloqiy va psixologik omildir. Diplomga ega bo‘lmagan shaxslarni stigmatizatsiya qilish, o‘qishga bo‘lgan shaxsiy motivatsiyalar bilan birgalikda jamoaviy maqsad - ijtimoiy tabaqalanish va quyi ijtimoiy sinfga tushib qolish xavfini oldining olish uchun oliy ma’lumotga ega bo‘lish bilan yakunlandi. Bu motivatsiya O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalari keltirgan asosiy sabablar qatorida yaqqol ko‘rinadi [12].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida 2017-yilda boshlangan va 2021-yilda sezilarli sur’at kasb etgan oliy ta’limning o‘zgaruvchan yo‘li jadal va ilg‘or manzarani aks ettiradi. Ushbu tadqiqot, nisbatan qisqa muddatga qaramay, mamlakatdagi ta’lim rivojlanishining hayotiyligi va dolzarbligini ta’kidlaydigan rivojlanayotgan tendensiyalarni qamrab oldi.

Toshkent davlat transport universiteti misolida ta’lim shakllarining diversifikatsiyasi e’tiborga molik tendensiya sifatida ajralib turadi. “Bakalavriat+magistr” tizimining yuksalishi, sirtqi ta’limning faol kengayishi, “Ikkinchi mutaxassislik” va “Masofaviy ta’lim” kabi innovatsion shakllarning joriy etilishi oliy ta’lim tizimining zamonaviy talablarga moslashuvi va mosligini ta’kidlamoqda.

Yangi bozor sharoitlari ta’limga o‘sib borayotgan talabni qondiradigan kengaytirilgan ta’minot bozoriga yordam berdi. Pullik va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta’limning birgalikda mavjudligi, yozishma shakllarining paydo bo‘lishi nafaqat umumiy ta’lim darajasini oshiribgina qolmay, balki aholining yanada xilma-xil qatlami oliy ma’lumot olishini ta’minlab, kengroq foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim yo‘nalishlarining global siljishlarga mos kelishi, xususan, pullik va masofaviy ta’limning bosqichma-bosqich oshirilayotgani mamlakatning xalqaro ta’lim paradigmalariga integratsiyalashuvini ta’kidlaydi. Ushbu kelishuv O‘zbekistonni rivojlanayotgan global ta’lim landshaftining faol ishtirokchisi sifatida ko‘rsatadi. Muhim jihati shundaki, tadqiqot ta’lim jarayonidagi asosiy harakatlantiruvchi omillar sifatida axloqiy va psixologik omillarni belgilaydi. Ijtimoiy tabaqalanishdan qochish va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘lish istagidan kelib chiqqan holda oliy ma’lumotga ega bo‘lishdek ijtimoiy maqsad O‘zbekiston universitetlari talabalari orasida aks-sado bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi bozor islohotlari, universitetlarga, jumladan, Toshkent davlat transport universitetiga akademik va moliyaviy mustaqillik berishda davom etar ekan, oliy ta’lim sohasi yanada o‘sish va innovatsiyalarga tayyor. Ushbu sayohat nafaqat ta’limning mukammalligiga intilish, balki odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga mazmunli hissa qo‘shishga intilishni ham aks ettiradi. Ushbu tadqiqotdan olingan ma’lumotlar O‘zbekiston oliy ta’limining dinamik manzarasini muhokama qilish va strategik rejalashtirish uchun qimmatli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Р.Махмудов Политика открытости Узбекистана изменила политико-экономический климат в регионе, - 03/11/2023 https://centrasia.org/newsA.php?st=1678540260
2. Trokhimchuk A.V. The impact of education on the economy in a post-industrial society // Scientific and methodological electronic journal “Concept”, 2017, vol. 14, p. 294.
3. Ataxanov R.A. Ta’limga investitsiyalar: nazariya va metodologiya// Fundamental tadqiqotlar. Iqtisodiyot fanlari (08.00.00) , . -2018 yil 1-son, 1-bet. 25”.
4. Sharma R. Digital literacy and knowledge societies: A grounded theory investigation of sustainable development Telecommunications Policy. – 2016. – № 40. – p. 628-643.
5. Distance learning in Germany. https://studynote.ru/studgid/study abroad/ distantsionnoe_obrazovanie_v_germanii /
6. В. Чащин, А. Сарафанов, С. Кудрявцев. Современное онлайн-обучение: проблемы и тенденции https://habr.com/ru/company/microsoft/blog/418111/
7. В вузах Узбекистана вводится дистанционное заочное обучение, 2018-yil 24-may. https://uznews.uz/posts/52487
8. Высшее дистанционное образование. https://postupi.uz/
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlatning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni 2021-yil 24-dekabrdagi PF-61-son.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Murojaatnomasi Mirziyoyev Oliyga _ O‘zbekiston Majlisi va xalqi, 2022-yil 20-dekabr. https://yuz.uz/ru/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliymajlis-va-ozbekiston-xalqiga-murojaatnomasi
11. Shirinkina E.V., Baksheyev S.L. The role of higher education in the formation of human capital // Fundamental research. -2016. - No. 10. - p. 223-227.
12. https://telegra.ph/Toshkent-davlat-transport-universiteti-rasman-REPORTER-maqomiga-va-nishoniga-ega-boldi-10-13.
13. Vakhobova M.A Innovative methods of the distance learning process in modern universities Orientation Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN:2181-1784 - p.641-645

YASHIL IQTISODIYOT: MAZMUN MOHIYATI, NAZARIYA VA AMALIYOT

Yuldashev Mutallib Ibroximovich
Iqtisod fanlari doktori, Fan va texnologiyalar universitetining (University of science and technologies) Iqtisodiyot kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyot tushinchasi ta'rifi, uning mazmun mohiyati ochib berilgan. Yashil iqtisodiyotni tabiat va insonlar faoliyatining bir-birlari bilan uyg'unligiga erishgan holda tashkil etib jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun harakat qilish lozimgini yoritib, berilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, Yashil o'sish, Tabiiy muhit, Ekologiya, Atrof muhit, Mintaqa, Submintaqa, Past uglerodli resurslar, Yashil investitsiyalar, Xavo atmosferasi, Biologik xilma-xillik, Ekotizim xizmatlari, Tabiat qadriyati, Kam uglerodli turmush tarzi, Ekologik toza texnika va texnologiyalar, Ekologik xavf va ekologik tanqislik, Qayta tiklanadigan energiya, Yashil binolar, Suvni boshqarish, Chiqindilarni boshqarish, Yerni boshqarish.

Abstract: The definition of the concept of green economy, its essence is revealed in the article. It was determined that it is necessary to establish a green economy in order to ensure the sustainable development of society by achieving harmony between nature and human activity.

Key words: Green economy, Green growth, Natural environment, Ecology, Environment, Region, Subregion, Low carbon resources, Green investment, Air atmosphere, Biodiversity, Ecosystem services, Nature value, Low carbon lifestyle, Green technology and technologies, Environmental risk and environmental scarcity, Renewable energy, Green buildings, Water management, Waste management, Land management.

Аннотация: В статье дано определение понятия "зеленая экономика", раскрыта её сущность и содержание. Исследованы вопросы устойчивого развитие общества в условиях перехода к зеленой экономике и некоторые аспекты достижения гармонии между природой и деятельностью человека.

Ключевые слова: Зеленая экономика, Зеленый рост, Природная среда, Экология, Окружающая среда, Регион, Субрегион, Низкоуглеродные ресурсы, Зеленые инвестиции, Атмосфера, Биоразнообразие, Экосистемные услуги, Природная ценность, Низкоуглеродный образ жизни, Зеленые технологии. Экологический риск и Дефицит окружающей среды, Возобновляемая энергия, Зеленые здания, Управление водными ресурсами, Управление отходами, Управление земельными ресурсами.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, ba'zida Yashil O'sish (Green Growth) atamasi bilan ham birga ishlatiladi. Yashil iqtisodiyot – bu insoniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni uyg'unlikda bo'lishini qo'llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga harakat qilish kerakligini o'rgatadigan iqtisodiyotning uslubiyotidir. Ya'ni oddiy qilib aytadigan bo'lsak faqat o'z manfaatimizni, foydamizni, rohatimizni o'ylab hozir biz uchun kerak bo'lgan tabiatdagi mavjud barcha ne'matlarni isrof qilib, masalan daraxtlarni kesavermasligimiz, yerlarni, suvlarni ifloslantirmasdan foydalanishni zarurligini o'rgatadigan fandir. Yashil iqtisodiyot, iqtisodiyot fanlarining bir yo'nalishidir.

Yashil iqtisodiyot nima?

Yashil iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, uning bir muhim jabhasi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko'plab boshqa sohalaridagi g'oyalarni ham o'z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog'liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi qonuniyatlari, demografik holat, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil tabiatni sof saqlab qolish siyosati bilan bog'liq iqtisodiyotdir.

Yashil iqtisodiyot jamiyat tomonidan shu vaqtga qadar foydalanib kelinayotgan iqtisodiy tizimdan birmuncha farqlanib ma'lum o'ziga hos unsurlarga ega bo'lgan iqtisodiy tizimdir. Uning asosiy maqsadi sayyoramizning tabiiy holatini, ekologiyasini nafaqat qanday bo'lsa shundayligicha saqlab qolish, balki unga keltirilgan zararlar

o‘rnini tiklash, uni yanada boyitish, yanada yashillashtirilgan holda kelajak avlodga qoldirish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini barqaror rivojlantirishni ta’minlash orqali aholining tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini toboro to‘laroq qondirishga erishishga qaratilgan faoliyat shaklidir.

Demak, yashil iqtisodiyot deganda, bizning fikrimizcha inson hamda yer yuzidagi barcha tirik mavjudodlar hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan tabiat resurslarini, atrof-muhit va ekologiyani bir butun yaxlit holda nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yashillashtirib, boyitib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, takomillashtirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yangicha yo‘nalishda tizimli tashkil etish tushiniladi.

Buning uchun quyidagi bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

1. Aholining talab va ehtiyojlarini uzluksiz ravishda toboro to‘laroq qondirib borishni ta’minlash orqali, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishni, xizmatlar ko‘rsatishni barqaror ravishda tabiat, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish.
2. Moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan bino inshoatlarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish.
3. Atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, tabiatni, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnika va texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishga erishish.
4. Tabiat resurslarining cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslardan samarali tejab tergab foydalanish yo‘li bilan ularni kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan o‘rnini tiklab borishni ta’minlagan holda amalga oshirish choralarini ko‘rish.
5. Aholining doimiy, o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda chiqindilarsiz ishlash texnologiyalaridan foydalanishga asosiy ahamiyat berish kabilardir.

Yashil iqtisodiyotda tabiat va insonlar iqtisodiy faoliyatining bir-birlari bilan uyg‘unligiga erishgan holda tashkil etib jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun harakat qilish lozim bo‘ladi. Biror narsani qilaman deb, ikkinchi narsa yo‘qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko‘paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to‘ldirish evaziga amalga oshirilmaydi va faqat shu yo‘l bilangina barqaror taraqqiyotga erishishni taqozo qiladi bu hozirgi kunda global masalalardan biriga aylangan.

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy maqsad va mafaatlarga mos keladigan iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o‘sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu yashil investitsiyalar maqsadli davlat xarajatlari, siyosat islohotlari, soliqqa tortish va tartibga solishdagi o‘zgarishlar orqali faollashtirilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishni talab qiladi. Shu sababli so‘ngi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit, tabiiy kapitalni muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy manfaatlar manbayi sifatida tushunadigan rivojlanish yo‘lini keng targ‘ib qilmoqda. Bu borada BMT ayniqsa, hayoti butunlay tabiiy resurslarga bog‘liq bo‘lib qolgan kambag‘al davlatlar fuqarolari uchun alohida yondoshuv kerakligini ta’kidlamoqda. Yashil iqtisodiyot mohiyatiga ko‘ra barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi, ayniqsa, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital va infratuzilma, ish bilan bandlik va ishchilarni malakalarini oshirish yoki boshqa kasblarga o‘rgatish hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yashil iqtisodiyot mamlakatlarni barqaror rivojlanishi, iste’mol va ishlab chiqarish hamda resurslar samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Yashil iqtisodiyot barqaror iste’mol va ishlab chiqarish jarayonlari va umuman mahsulotlarning butun hayotiy sikli davomida resurslarni iste’mol qilish, chiqindilarni kamaytirish amaliyotlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarga muhim e’tibor berishni talab qiladi. Yashil iqtisodiyot jamiyatga qo‘shimcha qiymat yaratish uchun resurslardan foydalanish usullarini yangilash orqali va mahsulot yoki xizmat birligi uchun zarur bo‘lgan resurslar miqdorini, shuningdek, ishlab chiqariladigan chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan usullarni qo‘llash zarurligi insonlarga doimo yodda tutish zarurligini eslatib turadi. Yashil iqtisodiyot investitsiyalar, bandlik va malakalarga asosiy e’tibor qaratgan holda barqaror iqtisodiy o‘sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyot bo‘yicha xar bir davlatda quyidagi uch asosiy yo‘nalishda ish olib borilishi zarurdir:

1. Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar, maslaxatlashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ‘ib qilish hamda tizimli ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘p tomonlama mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik iste’mol va ishlab chiqarishda barqaror o‘zgarishlarni tezlashtirish va mustahkamlash uchun qo‘llab-quvvatlanadi. Shu munosabat bilan turli hukumatlar va notijorat tashkilotlar bilan bir qatorda, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha agentligi resurslar samaradorligi va yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirishda juda muhim ishtirokchi bo‘lgan xususiy sektor bilan ham hamkorlikni kuchaytirib bormoqda. Bular:

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga;
- Mintaqaviy tashabbuslar;
- “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi xalqaro yashil taraqqiyot koalitsiyasi;
- Falokatlar va mojarolarga chidamlilikni rivojlantirish;
- Xitoy-Afrika atrof-muhit bo‘yicha hamkorlik markazi;
- Mamlakatlarga iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda yordam berish;
- Tabiat qadriyatini iqtisodiyotimizga integratsiya qilish;
- Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun qashshoqlik-atrof-muhit harakati;
- Gender tengligi va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Kimyoviy moddalar va chiqindilarni oqilona boshqarishni targ‘ib qilish;
- Aqlli siyosatlarni xabardor qilish uchun fanni ta’minlash;
- Toza havoni tiklash;
- Yaxshi boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash;
- Resurs samaradorligini qo‘llab-quvvatlash;
- Osiyo va Tinch Okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kam uglerodli turmush tarzi muammosi;
- Istiqbolli loyihalar.

2. Yashil moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishda asosiy e’tiborni Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlariga qaratilayotganligini namoyish qilish:

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar keltirmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. 2011-yilgi UNEP Yashil iqtisodiyot hisobotida “yashil bo‘lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi. Resurslardan tejamkor va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi kerakligiga alohida e’tibor beriladi..

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: “Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti” va “Tabiiy kapitallar banki”) va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to‘liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. aktivga zarar yetkazuvchi yoki e’tiborsiz qoldiruvchi tashkilotning majburiyatlari sifatida ishonchli tarzda kuzatilishini ham hisobga olinadi.

Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti iste’molchilar oldida atrof-muhitga oqilona munosabat va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida paydo bo‘ldi. Ko‘pgina sohalar globallashayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ‘ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshladi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan ushbu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaradigan odamlarga zarar bermasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar so‘ngi yillarda paydo bo‘lib tez o‘sib bordi va hozirda ular yangi, yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o‘rmon xo‘jaligi, dehqonchilik, tog‘-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e’tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish kabi ekologik omillarga e’tiborni qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo‘llab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uyg‘unlik bahsh etish,

3. Yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy kiritish nuqtayi nazaridan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlash. Masalan, yashil iqtisodiyot dasturlariga jadal “Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Mo‘g‘ulistonni Yashil rivojlanish milliy siyosatini amalga oshirishda, yashil iqtisodiyotni mahalliy darajadagi rivojlanish rejalariga, Barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘rsatkichlariga integratsiyalashuvida va asosiy tarmoqlarni yashillashtirishda qo‘llab-quvvatlamoqda.

Yashil iqtisodiyotga turli qarashlar, ta’rif va tavsiflar

Yashil iqtisodiyot ham shu vaqtgacha o‘rganib kelinayotgan iqtisod nazariyasi sifatida turli iqtisodchilar tomonidan katta qiziqish va e’tibor bilan o‘rganib kelinmoqda hamda ta’riflanmoqda. Iqtisodchilarning ko‘pchiligi fikriga ko‘ra iqtisodiyot hozirgi mavjud ekotizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Lin Margulis fikriga ko‘ra mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo‘lib, iqtisodiy g‘oyalar ma’lum bir nazariyotchiga bog‘liq holda har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, ekologik harakat, tinchlik harakati,

yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashuvga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo‘lgan juda boshqacha g‘oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan.

Bu atamaning ishlatilishi rasmiy ravishda tashkil etilgan va bosh harflar bilan yozilgan Yashil atamani noyob va ajralib turuvchi belgi sifatida da’vo qiladigan Yashil partiyalarning siyosiy farqi bilan yanada noaniqlashadi. Shunday qilib, odatda yashil iqtisodiyotga o‘tish, biomikrologiya va bioxilma-xillikni to‘liqroq hisobga olish tarafdori bo‘lgan “yashil iqtisodchilar” maktabiga murojaat qilish ma’qul.

Ba’zi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni ko‘proq tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida ko‘rishadi. Masalan, an’anaviy yer tabiiy kapitalga umumlashtirilgan va mehnat va moddiy kapital bilan ba’zi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan klassik iqtisod sifatida qarashadi. Yoki u Marksistik iqtisodiyot nazariyasida o‘rganilgan, tabiatning bir qismi sifatida, qo‘shimcha qiymat yaratib beradigan ishchilarning ekspluatatsiya qilinishiga imkon yaratib beradigan bazasi, yoki neoklassik iqtisodiyotning bir tarmog‘i sifatida qaraladi va hokazo.

UNEP va Buyuk Britaniya kabi milliy hukumatlar tomonidan tabiiy kapital g‘oyalari va “yashil iqtisodiyot” shiori ostida to‘liq xarajatlarni hisobga olish g‘oyalariga tobora ortib borayotgan majburiyat maktablar o‘rtasidagi tafovutlarni yo‘qotishi va ularning barchasini “yashil iqtisodiyot” ning o‘zgarishlari sifatida qayta belgilashi mumkin. 2010-yildan boshlab Bretton-Vuds institutlari xususan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (“Yashil jamg‘arma” tashabbusi orqali) global pul-kredit siyosati uchun mas’ul bo‘lganlar biologik xilma-xillikni baholash va yanada rasmiy va universal biologik xilma-xillikka o‘tish niyatini bildirishdi. Bularni emissiya va chiqindilarni kam bo‘lmagan, lekin tubdan nolga tenglashtirishni hisobga olgan holda, nol emissiya bo‘yicha tadqiqotlar va tashabbuslar ilgari surildi. UNEP 2011-yilgi Yashil iqtisodiyot hisobotida “mavjud tadqiqotlarga asoslanib, global iqtisodiyotni ko‘kalamzorlashtirish uchun yillik moliyalashtirish talabi 1,05 dan 2,59 trillion AQSh dollari oralig‘ida bo‘lishi taxmin qilingan. Bu talabni istiqbolga qaratish uchun global yalpi kapital shakllanishi bo‘yicha o‘lchanadigan yiliga jami global investitsiyalar hajmining o‘ndan bir qismini tashkil etadi.

COP26da Yevropa investitsiya banki ko‘p tomonlama rivojlanish banklari bilan kelishilgan, Parij kelishuviga mos keladigan adolatli o‘tishning umumiy tamoyillari to‘plamini e’lon qildi. To‘plamda bayon etilgan tamoyillar, uzoq muddatli iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan siyosatni jalb qilish va ochiqlik shaffoflik va gender tengligi bo‘yicha rejalar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlarni yodda tutgan holda sof nol uglerodli iqtisodiyotga o‘tishga moliyalashtirishga qaratadi.

Afrika taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa Kengashi taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yangi taraqqiyot banki va Amerikalararo taraqqiyot banki ko‘p tomonlama rivojlanish banklari qatoriga kiradi. iqlim o‘zgarishini yumshatish va adolatli o‘tish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashga. Jahon banki guruhi ham hissa qo‘shdi.

Yana bir iqtisodchi olim Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta’riflagan:

- Qayta tiklanadigan energiya;
- Yashil binolar;
- Barqaror transport;
- Suvni boshqarish;
- Chiqindilarni boshqarish;
- Yerni boshqarish;
- Barqarorlikning uchta ustuni.

Global biznesni ifodalovchi Xalqaro Savdo Palatasi (XSP) yashil iqtisodiyotni “iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlagan holda o‘zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot” deb ta’riflaydi.

2012-yilda XSP har ikki yilda bir marta konsultatsiya qilinadigan xalqaro ekspertlarning hissalarini o‘z ichiga olgan Yashil iqtisodiyot yo‘l xaritasini nashr etdi. “Yo‘l xaritasi” va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini aniqlashtirish va shakllantirish bo‘yicha keng qamrovli va ko‘p tarmoqli sa’y-harakatlarni ifodalaydi. U global muammolarga yechim topishda biznesning rolini ta’kidlaydi. U yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun biznes-tarmoq ichidagi va hamkorlikdagi harakatlarga taalluqli quyidagi 11 ta shartni belgilaydi:

- Ochiq va raqobatbardosh bozorlar;
- Ko‘rsatkichlar, buxgalteriya hisobi va hisobot;
- Moliya va investitsiyalar;
- Ogohlik;
- Hayotiy sikl yondashuvi;
- Resurs samaradorligi va ajratish;
- Bandlik;
- Ta’lim va ko‘nikmalar;
- Boshqaruv va hamkorlik;
- Integratsiyalashgan siyosat va qarorlar qabul qilish;
- Moliya va investitsiya.

Ekologik investitsiya yoki yashil investitsiya ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya shakli bo'lib, unda investitsiyalar ekologik toza mahsulotlar va amaliyotlarni qo'llab-quvvatlovchi yoki ta'minlovchi kompaniyalarga kiritiladi. Bu kompaniyalar uglerodga qaramlikdan barqarorroq muqobillarga o'tishni qo'llab-quvvatlaydigan yangi texnologiyalarni rag'batlantiradi. Samarali ekologik natijani ta'minlash uchun yaratilgan har qanday moliyaviy faoliyat,- yashil moliya hisoblanadi.

Yashil kompaniyalarga xususiy investitsiyalarni kuzatish uchun Ethical Markets Media va The Climate Prosperity Alliance tomonidan ochilgan Global iqlim farovonligi reytingi 2007-yildan buyon quyosh, shamol, geotermal, okean/gidro va boshqa yashil sektorlarga 1,248 trillion dollardan ortiq sarmoya kiritilganini taxmin qildi. Bu raqam Shimoliy Amerika, Xitoy, Hindiston va Braziliya hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyalarni ifodalaydi.

Yashil iqtisodiyotni o'rganayotgan maktablar orasida Yashil o'sish – atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo'lib ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o'sishning faraziy yo'lini tavsiflovchi atamadir deb ta'kidlaydilar. U iqtisodiy o'sish ustuvor maqsad bo'lib qolaverar ekan, iqtisodiy o'sishni resurslardan foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi. Shunday qilib, yashil o'sish yashil iqtisodiyot va past uglerodli yoki barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Yashil rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o'tishdir. Yashil o'sish siyosati tarafdorlarining ta'kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan yashil siyosat qayta tiklanadigan energiya, yashil qishloq xo'jaligi yoki barqaror o'rmon xo'jaligi kabi sohalarda bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham yashil o'sish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global Yashil o'sish instituti (GYaO'I) bu masalaga alohida mahsus bag'ishlangan ishlarida Yashil o'sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, masalan, COVID-19 retsessiyasidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko'pincha yashil tiklanish sifatida ifodalaydilar.

Yashil o'sish tanqidchilari yashil o'sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof-muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o'zgarishini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Tanqidchilar buning o'rniga iqtisodiy o'zgarishlar uchun muqobil asoslarga ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o'sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o'xshash fundamental o'zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot deb qaraydilar..

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o'lchash iqtisodiy indeks ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Yashil indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta'sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya va toza texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsion oqimlarni o'lchash zaruratidan kelib chiqqan. Zero, Ona yerimiz ya'ni umumiy uyimiz! toboro og'ir ahvolga tushib bormoqda. Uni birgalikda asrash har bir insonni xar bir mamlakatning muqaddas burchidir! Vaholangki insoniyat hayotining asosi bo'lgan, havodagi kislorodni ishlab chiqarib beradigan, tirik mavjudodlarning o'pkasi degan nom olgan, o'rmonlar hamda ular uchun asosiy ozuquni yetishtirib beruvchi yer resurslarining sayyoramiz hududlari bo'yicha joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

1-jadval: Dunyo mamlakatlaridagi o'rmon resurslari va ekilib ozuqular yetishtiriladigan yerlar (aholi jon boshiga)

№	Mamlakatlar nomi	O'rmon	Mamlakatlar	Ekiladigan
1	Gabon	36,0	Avstraliya	2,5
2	Kanada	15,8	Qozog'iston	1,9
3	Rossiya	5,5	Kanada	1,5
4	Finlyandiya	5,0	Rossiya	0,9
5	Braziliya	2,5	Argentina	0,9
6	AQSh	0,9	AQSh	0,6
7	Xitoy	0,1	Xindiston	0,17
8	Xindiston	0,08	Germaniya	0,1
9	Germaniya	0,06	Xitoy	0,07

Manba: A. O'lmasov Iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. 208 bet.

Ma`lumotlardan ko'rinib turibdiki bu iqtisodiyotning rivojlanishi uchun o'ta zarur bo'lgan, aslida cheklangan o'rmon va yer resurslar ham dunyo turli mamlakatlari bo'yicha notekis joylashganligi sababli ayrim davlatlar jalqlari uchun muhim hayotiy masalaga aylanib qolgan. Yaxshiyamki, insoniyat XXI asrga kelib g'oyat murakkab muammolar qarshisida turganligini tushunib yetdi. Jahon miqyosida yuz bergan va berayotgan jarayonlar tahlili

shuni ko‘rsatdiki, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish va yerning degradatsiyasi, bioxilma-xilliklarning qisqarishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o‘rmon va tuproq inqirozi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolardan biri bo‘lib qoldi.

2-jadval: Dunyo mamlakatlarida chuchuk suv zaxiralarining aholi jon boshiga eng ko‘p va eng oz mamlakatlar

№	Mamlakatlar	Kub.m
1	Braziliya	8233
2	Rossiya	4508
3	AQSh	3069
4	Kanada	2902
5	Xitoy	2840
6	Mal’ta	0,05
7	Maldiv	0,03
8	Bagam orollari	0,02
9	Quvayt	0,02
10	Sent Kits va Nevis	0,02

Manba: A O‘lmasov Iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. 208 bet.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki dunyo mamlakatlarida chuchuk zuv zahiralarining joylashuvida ham qatta nomuofiqliklar mavjud.

Aholi sonining oshib borishi, sanoat va transportning rivojlanishi, fan-texnikaning taraqqiy etishi, ishlab chiqarishning ayrim tamoqlarida suvdan keng foydalanilishi natijasida insonning biosferaga ko‘rsatayotgan ta’sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida u yoki bu ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib faoliyat ko‘rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya’ni dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o‘rmon yong‘inlari xavoning ifloslanishi va boshqa shu kabi talofatlarning ro‘y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta’sir etar ekan, uning o‘zi ham “aks ta’sir”ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o‘ziga va uning sog‘lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish tufayli atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi keskin ortib borayotgani insonning tabiatga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini kuchaytirmoqda.

Iqlim geografiyasi o‘zgarmoqda. So‘nggi 15 yil davomida o‘rtacha harorat eng yuqori ko‘rsatkichga yetdi. Iqlimiy o‘zgarishlarning ta’siri qutblarda ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Okean va dengizlarda suvning isishi jarayoni tezlashib bormoqda. Yer shari qutb qopqog‘ining qalinligi so‘nggi 40 yilda 40 % ga kamaygan. O‘rtacha harorat oshib borishi natijasida ichimlik suvi zaxiralarining 20 % ini tashkil etadigan Grenlandiya muzliklari erisa suv sathi 7 metrga ko‘tariladi. Harorat oshishi sababli XX asrning o‘zidayoq suv sathi 20 cm ga ko‘tarilgan.

Nixoyat, tabiatda sodir bo‘layotgan bu global o‘zgarishlarni anglab yetib uni oldining olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1972-yil 5-iyunda Stokgolm shahrida atrof muhitni muhofazasiga bag‘ishlangan Butunjahon konferensiyasini o‘tkazib shu kunni xar yili “ Butun jaxon atrof muhit kuni”deb e’lon qilib uni nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan har yili 5-iyun – Butun jahon atrof muhit kuni sifatida dunyo xalqlari tomonidan nishonlanib kelinmoqda.

Mazkur qarordan ko‘zlangan maqsad xalqaro hamjamiyat e’tiborini atrof muhitni muhofaza qilish muammolariga hamda global ekologik inqirozning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratildi. Shundan buyon dunyoning qator mamlakatlarida 5-iyun – Butunjahon atrof muhit kuniga bag‘ishlab turli xil tadbirlar, jumladan, “yashil” konsertlar, ko‘rik-tanlovlar, bog‘lar yaratish, shuningdek, atrof-muhitni tozalashga qaratilgan turli ekologik aksiyalar o‘tkazilib kelinmoqda. O‘zbekiston ham bu umumjahon tadbirlarida xar yili faol qatnashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 2018-yilda Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda aniq belgilanadigan hissa bo‘yicha–2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini qabul qildi.

Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo‘yicha o‘rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo‘yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Maqolada mavzu bo‘yicha mavjud bo‘lgan katta miqyosdagi e’lon qilingan ilmiy nazariy va amaliy ma’lumotlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va takliflar shakllantirildi:

1. Yashil iqtisodiyot butun dunyo mamlakatlarining istiqbolda barqaror iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishining asosiy drayveri sifatida qaralmoqda va uni harakatga keltiruvchi kuch “yashil” texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar ekanligini tan olinmoqda va unga jiddiy e’tibor berilmoqda.
2. Global darajada yashil iqtisodiyotga o‘tish katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larni talab etadi. Xalqaro energetika agentligining 2050-yilgacha CO_2 emissiyasini ikki baravarga kamaytirish bo‘yicha turli stsenariylari shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga qo‘shimcha investitsiyalar miqdori dunyo YaIMning 1–2,5 % darajasida bo‘lishi talab etiladi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur investitsiyalarning katta qismi qurilish va transport sohasini “yashillashtirish” uchun yo‘naltirilishi kerak bo‘ladi.
3. Moliyaviy, bank va sug‘urta investitsiyalari “yashil iqtsodiyot”ga kiritilayotgan xususiy investitsiyalarning bosh manbasiga aylantirilishi juda zarurdir.
4. Yashil iqtisodiyotga o‘tish tabiat va insonlar iqtisodiiy faoliyatining bir-birlari bilan uyg‘unligiga erishgan holda tashkil etilib jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun harakat qilish lozim bo‘ladi.
5. Yashil iqtisodiyotning mazmun mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazish mamlakatimiz ta’lim tizimi faoliyatining muhim vazifalaridan biriga aylanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. O‘lmasov. Iqtisodiyot. –Toshkent. Iqtisod- Moliya. 2017-yil, 208 bet.
2. “Ekotizimlar va biologik xilma-xillik iqtisodiyoti”, “Tabiiy kapital banki”. – T., 2019.
3. Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi xalqaro yashil taraqqiyot koalitsiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009 www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief_Russian.pdf
5. Lyaskovskaya Ye.A. [Working forces quality problems at realizing modern development concepts]. Vestnik Bashkirskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta [Vestnik Bashkir State Agrarian University], 2017, no. 4 (44), pp. 137- 145. (in Russ.)
6. https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/16/cop27.
7. Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. Paris-2020. P. 166.
8. https://yumh.uz/images/news/eco_uz.pdf
9. Rajabov N. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management //Ekonomika i obrazovanie. – 2022. – T. 23. – №. Maxsus son. – S. 212-219.
10. Adilova M.T. Green economy: Essence, principles and prospects// International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 451 – 453. www.allresearchjournal.com
11. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
12. Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)

SAMARQAND VILOYATIDA ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI TAHLILI

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tyutori

Annotatsiya: Maqolada iste'mol tovarlari bozorni va uning asosiy xususiyatlari, rivojlantirish omillari o'rganilgan. Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari bozorining umumiy holati va rivojlantirish yo'llarini statistik tahlil qilinib, asosiy muammolari aniqlangan. Iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirish yo'llarini aniqlash va asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iste'mol tovari, iste'mol tovarlari bozori, raqobat, konyunktura, oziq-ovqat, nooziq-ovqat, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlar, chakana savdo, ulgurji savdo, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Abstract: The article examines the consumer goods market and its main features, development factors. Statistical analysis of the general situation and ways of development of the consumer goods market in Samarkand region identified the main problems. Scientific proposals and practical recommendations have been developed to identify ways to develop the consumer goods market and its main directions.

Key words: consumer goods, consumer goods market, competition, conjuncture, food, non-food, population incomes, consumer spending, retail, wholesale, consumer goods production.

Аннотация: В статье исследуется рынок товаров народного потребления и его основные народного потребления и его основные особенности, факторы развития. Статистический анализ общего состояния рынка потребительских товаров самаркандской области и путей развития, выялены основные проблемы. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по определению путей развития рынка товаров народного потребления и его основных направлений.

Ключевые слова: товары народного потребления, рынок потребительских товаров, товары народного потребления, рынок конкуренция, конъюнктура, продукты питания, непродовольственные товары, доходы населения, потребительские расходы, розничная торговля, оптовая торговля, производство товаров народного потребления.

KIRISH

Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois iste'mol tovarlari bozorini shakllantirish va uning rivojlanishi bo'yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi hududiy iste'mol tovarlari bozorining turli darajada va holatda shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va hududlardagi aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois iste'mol bozorini yanada shakllantirish va uning rivojlanishi bo'yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi.

Iste'mol tovarlari bozori aholining shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi va hayot kechirish uchun uy-ro'zg'orini jihozlash maqsadida xarid qilinuvchi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini oldi-sotdi munosabatlari majmuyini o'z ichiga oladi. Iste'mol tovarlari bozori o'z navbatida maxsus bozorlarga: oziq-ovqat, kiyim-kechak, xo'jalik, madaniy mollar va boshqalarga bo'linadi. Bu bozorning moddiy-texnika asosi infrastrukturasi bo'lib: ulgurji savdo bazalari, do'konlar, oshxona, choyxona, dorixona, dehqon bozorlari va barcha chakana savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi shoxobchalar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida iste'mol tovarlari bozori sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov. Yo. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R.Boltaboyev, D. Ergashxodjayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

Iste'mol tovarlari quyidagilarga ajratiladi: oziq-ovqat tovarlari, nooziq-ovqat tovarlari hamda pulli xizmatlar. Bular o'z navbatida kichik guruhlarga ham ajratiladi. Iste'mol tovarlari ichida nooziq-ovqat tovarlari turi ko'p (ular kimga mo'ljallangani, qaysi ehtiyojni qondirishi, iste'mol etishga qulaylik yaratishga qarab xilma xil bo'ladi va individual did hamda modani nazarda tutadi). Xizmatlardan iborat iste'mol tovarlarini shartli ravishda, madaniy, maishiy va ijtimoiy xizmatlar kabi turlarga ajratish mumkin. Samarali talab ikki omillar guruhiga, ya'ni iste'mol tovarlari bozori va ishlab chiqarish vositalari bozoriga bog'liq. Iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish vositalariga talabning ortishi taklifning o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, o'sib boruvchi taklif bandlik ortishini ta'minlaydi.

Mamlakat hududlari bozorlarida aholining ortib borayotgan to'lov qobiliyati bilan taklif etilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, mahsulotlar turini kengaytirish, import tovarlaridan sifati yuqori, narxi arzon bo'lgan mahalliy tovarlar ishlab chiqarish, iste'molchilarning o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish bo'yicha tadqiqot olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqalarda iste'mol tovarlari bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi xorijiy investitsiyalar oqimini oshirib borish hisobiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohasining yetakchi tarmoqlarini modernizasiya qilish va yangilarini barpo etish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilik rivojlanishini rag'batlantirib borish; go'sht, sut va tuxum mahsulotlari manbayi hisoblangan chorvachilik va parrandachilik hamda baliqchilikni rivojlantirish; jahon standartlariga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish; tijorat banklari kredit faoliyatini yanada takomillashtirish; mavjud qazilma boyliklardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda ish olib borilishi maqsadga muvofiq.

Viloyatda chakana va ulgurji savdoni tashkiliy tuzilishi va norasmiy savdo bilan shug'ullanayotgan, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tarqoq holda joylashganligi tadbirkorlarning faoliyat olib borishi savdoni zamon talablari darajasida rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xufyona yo'llar bilan kiritilgan mahsulotlarni nisbatan arzon narxlarda sotilishi, chakana savdoni nazorat qilinmasligi natijalari, bu sohada raqobat muhitini shakllantirishga yo'l qo'ymayapti. Tahlil natijalariga ko'ra Samarqand viloyatdaga savdo xizmatlarini ko'rsatadigan tadbirkorlarning madaniyatini oshirish zarur, tovarlar assortimentini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, transport xarajatlarini yanada kamaytirish va savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Iste'mol tovarlar bozorini rivojlantirish ulgurji va chakana savdo bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Chakana savdo aholiga to'g'ridan-to'g'ri tovar sotish va xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini o'z ichiga oladi. Chakana savdo tovarlar assortimentining shakllanishida qatnashadi, xaridorlarga tovarlar sifat ko'rsatkichlari to'g'risida axborotlar beradi, tovarlarni saqlash, qo'shimcha ishlash, baholarini o'rnatish va boshqa vazifalarni bajaradi.

Hududiy iste'mol tovarlari bozori – o'zaro bog'liqlikdagi turli xil ayriboshlash institutlaridan iborat bo'lgan murakkab tizimdir. Biroq uning har bir ishtirokchisi o'z manfaatlariga ega. Ishlab chiqaruvchilar sarf qilingan mablag'ni qaytarib olish va daromad ko'rishga urinadi, iste'molchilar esa ehtiyojlarni optimal qondirishga intiladi. Hududiy iste'mol tovarlar bozorining shakllanishi va amal qilish mexanizmi mazkur hududdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash hamda iste'mol qilish jarayonlari va omillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, iste'mol tovarlari inson ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste'mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlardan iborat. Iste'mol tovarlari shaxsiy iste'molni qondiradi, investitsiya tovarlaridan inson tirikchiligini ta'minlashi bilan farqlanadi, mehnat resurslarini qaytadan hosil etilishiga sharoit hozirlaydi.



1-rasm: Samarqand viloyati tumanlari bo‘yicha 2022-yildagi chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o‘sish sur’ati (o‘tgan yilga nisbatan)

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2022-yilda samarqand viloyatidagi tumanlar bo‘yicha chakana tovar aylanmasining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati eng past bo‘lgan tuman oqdaryo tumani bo‘lgan bo‘lsa ya’ni 101,3 foiz, eng yuqori bo‘lgan tuman samarqand shaharni 128,4 foizni ko‘rishimiz mumkin.

Iste’mol tovarlari bozorini mohiyatini yanada yaxshiroq tushunish uchun iste’mol tovari tushunchasini izohlash lozim.

Ulgurji savdo ishlab chiqaruvchi va iste’molchi chakana savdo va tovarni oxirgi iste’molchilari o‘rtasidagi umumlashgan vositachi hisoblanadi. Ulgurji savdo firmalari tovarni ishlab chiqaruvchi yoki boshqa vositachilardan ulgurjisiga sotib olib, o‘zining vazifalariga muvofiq boshqa vositachilar; chakana savdo korxonalari yoki xususiy savdo tadbirkorlariga, ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchilarga yetkazib beradi.

Iste’mol tovarlar bozorini harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri va uning tarkibiy qismi talab hisoblanadi.

Iste’mol tovarlar – bu bevosita insonlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan eng zarur tovarlardir. Hududda iste’mol tovarlari bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni zamon talablari darajasida modernizasiyalashga xizmat qiluvchi iqtisodiy tashkiliy, investisiya bazasini mustahkamlash zarur. Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan kichik korxonalarni tashkil etish orqali meva, sabzavotlar va go‘sht-sut konservalari, sariyog‘, pishloq, konditerlik mahsulotlari, makaron va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi oziq-ovqat sanoatini modernizasiyalash ijobiy natijalar beradi.



2-rasm: Samarqand viloyati ulgurji savdo tovar aylanmasi – jami mlrd. so‘m

Samarqand viloyatida 2010-yildan 2022-yilgacha ulgurji savdo tovar aylanmasini ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 16,6 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi yil sayin oshib borayotganligini va samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlar bozori shahar, viloyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi va barcha darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarining manbayi hisoblanadi; ichki, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlardan ta'sirlanishi, ya'ni hududlararo tovarlar oqimi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar mavjud; iste'mol tovarlar bozorining asosiy subyektlari hisoblangan chakana savdo korxonalari, tovarlarni tashish, ularni saqlashni ta'minlab beruvchi tashkilotlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanib borish strategiyalarini ishlab chiqish. Umuman olganda iste'mol tovarlari bozorini tartibga solish va takomillashtirish orqali tovarlar bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: 2021-yil.
2. Abdukarimov B. "Ichki savdo iqtisodiyoti" darslik 1-qism. – Toshkent: 2007-yil.
3. Abdurashidov A. Iste'mol tovarlari bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – T., 2012-yil.
4. Потребительский рынок города: состояние и перспективы: монография / кол. авт. под рук. Т. В. Усковой. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2012.
5. Новикова, Н. В. Понятийно-терминологический аппарат исследования локального потребительского рынка Муниципалитет: экономика и управление. 2012 г.
6. Гурьянов, Т. И. Совершенствование методики оценки состояния потребительского рынка // Журнал "Казанская наука". – 2012.
7. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJDA MARKETING XIZMATINI TASHKILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Musyeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonasida marketing konsepsiyasining mazmun-mohiyati va zamonaviy shakllarini tadqiq qilish, mebel ishlab chiqarish sohasining bugungi holati va marketing xizmatining faoliyatini tahlil qilish, marketing faoliyatini tahlil qilish, uning alohida jihatlarini ochib berish, marketing xizmatlarini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Korxona, konsepsiya, xizmat, faoliyat, tahlil, bozor, tovar, strategiya.

Abstract: In this article, the essence and modern forms of the marketing concept in the production enterprise are researched, the current state of the furniture production industry and the activity of the marketing service are analyzed, the marketing activity is analyzed, its special aspects are revealed, and proposals are made for the formation of marketing services. output is considered.

Key words: Enterprise, concept, service, activity, analysis, market, product, strategy.

Аннотация: В данной статье исследуются сущность и современные формы концепции маркетинга на производственном предприятии, анализируется современное состояние мебельной отрасли и деятельность службы маркетинга, анализируется маркетинговая деятельность, рассматриваются ее особенности. Выявлены и внесены предложения по формированию маркетинговой службы.

Ключевые слова: Предприятие, концепция, услуга, деятельность, анализ, рынок, продукт, стратегия.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchinchi ustuvor yo‘nalishida “... tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish. Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish”[1] kabi ustuvor vaziflar ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz bozorini tovarlar bilan to‘yintirish bilan birgalikda yangi ish o‘rinlarni yaratishda, qo‘shimcha daromad olishda va xalq farovonligini oshirishda ham katta hissa qo‘shib kelmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi”[2].

Tadbirkorlikni rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va qarorlari bag‘ishlangan. Shular qatorida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5718-son Farmonini kiritish mumkin. Ushbu Farmonning ahamiyatli jihati shundaki, aholini tadbirkorlik faoliyatiga kengroq va faol jalb etishga to‘sqinlik qiluvchi, birinchi navbatda davlat organlarining tadbirkorlar bilan muloqot qilishning amaliy va shaffof tizimi mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha salbiy omillar saqlanayotganligiga urg‘u berilgan va bu holatni bartaraf qilishning ta’sirchan mexanizmi belgilangan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2 Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov. Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R. Boltaboyev, D. Ergashxodjayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Mebel ishlab chiqarish korxonalarida marketing xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini joriy qilishni ilmiy-uslubiy tomondan asoslab berish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy maqolada quyidagi vazifalar belgilab olindi hamda bajarildi:

- Marketing konsepsiyasining mazmun-mohiyati va zamonaviy shakllarini tadqiq qilish;
- Marketing xizmatlarining mazmuni, ularini tashkil qilish nazariyasi, iqtisodyotdagi o'rni hamda xususiyatlarini tadqiq qilish;
- Mebel ishlab chiqarish sohasining bugungi holati va marketing xizmatining faoliyatini tahlil qilish;
- "HAVAS COMFORT MEBEL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining marketing faoliyatini tahlil qilish, uning alohida jihatlarini ochib berish;
- Mebel ishlab chiqarish sohasida marketing xizmatining yangicha yondashuvlarinini taklif qilish;
- Mamlakatimiz va xorijiy kompniyalar tajribasidan kelib chiqqan holda mebel sanoatida hududiy marketing xizmatlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shu bilan birgalikda nazariy ishlanmalarni amliyotga tatbiq qilish va korxonalarda qo'llash bo'yicha uslubiy ishlar etarli darajada emasligini aytib o'tish lozim. Ayniqsa, mebel ishlab chiqarish sanoat korxonalarida marketing munosabatlariga oid nazariy tavsiyalarni amalda qo'llash uchun har bir sohadan o'z tajribasi va xususiyatidan kelib chiqishi, unda tegishli ilmiy izlanishlar olib borilishi va nazariyani joriy qilish uchun tavsiyalar hamda tizimlar ishlab chiqilishini talab qiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu sohani rivojdantirish 22-maqsad, ya'ni Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish kabi maqsadda quyidagicha aks ettirilgan: "Mebel" mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish"[3].

"HAVAS COMFORT MEBEL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u ko'plab tadbirkorlik subyektlari kabi o'z faoliyatini kichik duradgorlik sexdan boshlagan. 1996-yildan bugungi kungacha u yirik mebel ishlab chiqarish korxonagacha o'sib keldi. 2003-yilda ushbu nom bilan mas'uliyat cheklangan jamiyatga aylantirildi, 2006-yilda esa aholiga, korxona va tashkilotlar hamda muassasalar uchun keng ko'lamda turli xil mebellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

1-jadval: "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsining 2019-2022-yillarda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	Yillar bo'yicha miqdori			
		2019	2020	2021	2022
1	Ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm	8745,7	9443,6	10402,1	11688,5
2	Ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'atlari, %	100	107,98	110,15	111,4
3	2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %	100	107,98	118,93	132,5

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsi doimiy ravishda ishlab chiqarish hajmlarini oshirib kelmoqda. 2022-yilga kelib 11 mlrd. 588 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, bu esa 2019-yilga nisbatan 1,3 marotaba ko'pdir. Ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishini quyidagi diagrammalarda yaqqol kuzatishimiz mumkin.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning assortimenti bo‘yicha ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval: 2019-2022-yillarda ”HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsi mahsulotlarining assortimenti, mln. so‘m

№	Mebellarning turi	Yillik ishlab chiqarish, mln.so‘m				Yillik o‘sishi, %		
		2019	2020	2021	2022	2020	2021	2022
1	Oshxona mebellari	1542,7	4089,4	2159,5	3387,3	265,1	52,8	156,6
2	Yumshoq mebel	4693,8	3694,5	5570,3	4893,9	78,7	150,8	87,8
3	Ofis uchun mebel	18,4	12,3	232,0	486,2	66,9	1888,9	209,6
4	Yotoq uchun mebel	797,6	391,1	183,1	404,4	49,0	46,8	220,9
5	Yog‘ochli stol va stullar	417,2	11,3	151,8	155,5	2,7	1339,8	102,3
6	Jurnal stollari	593,0	272,1	536,7	752,7	45,9	197,3	140,2
7	Matras	683,0	975,8	1568,6	1608,3	142,9	160,7	102,5
	Jami	8745,7	9443,6	10402,1	11688,5	107,98	110,15	111,4

Jadvaldagi keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, assortimentning asosiy pozitsiyalari bo‘yicha ”HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsida ishlab chiqarishning o‘sishi kuzatilmoqda. Faqat yotoq uchun mebellar hamda matraslarni ishlab chiqarishda pasayishni ko‘rishimiz mumkin. Bunda yotoq mebellari bo‘yicha Samarqand mebel bozorida raqobatchilarning harakatlarini sabab sifatida ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birgalikda mebel ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi natijasida matras ishlab chiqarish bilan boshqa hamkor korxonalarning faol xizmat ko‘rsatishini ham alohida ta’kidlash lozim. 2019 yilda ”HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsi faoliyatida oshxona mebellari va yog‘och stol-stullar ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda alohida assortiment pozitsiyalari bo‘yicha xulosa qilish uchun assortiment tarkibining o‘zgarishini ham tahlil qilish lozim bo‘ladi. Bunda mahsulot turlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushini o‘rganib chiqamiz.

3-jadval: 2019-2022-yillarda “HAVAS COMFORT MEBEL” MChJsi mahsulotlarining assortimentining tarkibi, %

№	Mebellarning turi	2019	2020	2021	2022
1	Oshxona mebellari	17,64	43,29	20,76	28,98
2	Yumshoq mebel	53,67	39,11	53,55	41,87
3	Ofis uchun mebel	0,21	0,13	2,23	4,16
4	Boshqalar	9,12	4,14	1,76	3,46
5	Yog‘ochli stol va stullar	4,77	0,12	1,46	1,33
6	Jurnal stollari	6,78	2,88	5,16	6,44
7	Matras	7,81	10,33	15,08	13,76
	Jami	100	100	100	100

Jadvaldagi va rasmlardagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, 2019-yilda assortimentning asosiy qismini uch turdagi mahsulot – yumshoq mebel (24,24 %), ofis uchun mebel (32,32 %) va yotoq uchun mebellar (28,28 %) joy olgan. Eng kichik o‘rinni oshxona mebellari egallagan (0,61%). 2021-yilda assortiment tarkibidagi katta o‘zgarishlarni ko‘ramiz. yetakchi o‘rinlarda ofis uchun mebellar (29,63%) va yumshoq mebellar (24,69 %) qolgan. Yotoq uchun mebellar hissasi keskin tushgan va 12,35% ni tashkil qilgan. Oshxona mebellarini ishlab chiqarishning hissasi 0,61 %dan 9,88 % gacha ko‘tarilgan. Xuddi shunday yog‘och stol va stullarni ishlab chiqarish 8,08 % dan 19,75 % gacha ko‘tarilgan. Ishlab chiqarilaetgan mahsulotlar assortimentda kichik o‘rini egallagan jurnal stollari va matraslarning ulushi yanada pasaygan va 2022-yilga kelib tegishli ravishda 2,47 % ni va 1,23 % ni tashkil qilgan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, o‘tgan uch yil ichida mebel bozorining konyunkturasida katta o‘zgarishlar yuz bergan hamda ”HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsining bozordagi o‘rni ham o‘zgarmoqda. Bu esa o‘z navbatda korxonaning marketing faoliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsi marketing faoliyati viloyatdagi barcha mebelsozlik korxonasiga o‘xshab ketadi. Bunda bozorni o‘rganish, tovar siyosatini tashkil qilish, narxlashtirish va sotuvni rag‘batlanitirish sxemalari korxonaning o‘z tashabbusiga va imkoniyatlariga bog‘lanadi. Buni bizlar quyilagi jadvalning ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

4-jadval: 2022-yilda “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJda sotish tarmog‘ining tahlili

№	Tovar sotish nuqtalarining nomi	Sotish hajmi, dona	Sotish hajmi, mln. so‘m
1	Magazin Navobod dier	2339	3101,0
2	Magazin Karshi diler	324	679,3
3	Magazin Buxoro diler	46	103,0
4	Magazin Toshkent dier	128	377,1
5	Magazin Farg‘ona diler	11	94,8
6	OOO “Havas Komford Mebel”	108	76,1
7	Sam-Karpo Dizayn diler	2328	3260,3
8	F-2 buyurtmalar	5836	1688,7
9	F-3 buyurtmalar	129	29,9
10	Jismoniy shaxslar	201	640,8
11	Yuridik shaxslar	2740	1644,7
	Jami	14190	11695,8



1-rasm: 2022-yilda “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJda tovar tarqatish tarmog‘ining umumiy tuzilishi

5-jadval: 2022-yilda “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJda sotish hajmiining tarkibi

№	Tovar sotish nuqtalarining nomi	Sotish hajmi, dona	Sotish hajmi, mln. so‘m
1	Dilerlar orqali mebel mahsulotlarni sotish	5284	7691,6
2	Mebel uchun ehtiyot qismlari	5965	1718,7
3	Jismoniy shaxslar	201	640,8
4	Yuridik shaxslar	2740	1644,7
	Jami	14190	11695,8



2-rasm: 2022-yilda “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJda kanallar bo‘yicha sotish hajmiining tarkibi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mebel mahsulotlari marketingini amalga oshirishda ba’zi milliy xususiyatlarimizni o‘rganishga to‘g‘ri keldi. Ya’ni marketingni qo‘llash imkoniyati va samaradorligi sezilarli darajada bozor turi, ishlab chiqarayotgan va sotilayotgan mahsulotlar, bozordagi raqobat kurashi miqyosiga bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi. Jumladan, marketing konsepsiyasini qo‘llashda universal, standart, bir xillashtirilgan tavsiyalar mavjud emasligi muhim o‘rin tutishi, amaliy marketingda hamma narsa tashqi va ichki omillarga, iste’molchilar xususiyatlariga bog‘liqligi bilan sezilarli darajada ajralib turadi.

O‘zbekistonda 5–6 yil avval marketing konsepsiyasini qo‘llashda “yalpi” yondashuv ustunlik qilgan bo‘lsa, ayni paytda differensiyali yondashuvdan keng foydalanilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mebel mahsulotlarini tarkib turlariga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘lsak, 58 foizi maishiy mebelga, 39 foizi tashkilotlar mebeliga va uch foizi boshqa mebellarga to‘g‘ri keladi. Bu borada salmoqli ulush ofis mebellari va o‘quv muassasalari, savdo do‘konlari, shifoxona, restoran, do‘konlar, omborxona, sartaroshxona kabilar uchun maxsus mebellarni tashkil etadi.

Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibining hududlar kesimi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2021-yilda ishlab chiqarilgan mebelning asosiy qismi Samarqand shahri va viloyatiga sotilgan. Viloyatlarning sotishdagi ulushi quyidagicha bo‘lgan: Toshkent shahriga - 377,1 mln. so‘m, Farg‘ona viloyatiga - 94,8 mln.so‘m, Qarshi shahriga 679,3 mln. so‘m, Buxoro shahriga - 103,0 mln. so‘m.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, har qanday tarmoqning barqaror rivojlanishi faqat xarid talabiga ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, tarmoq korxonalari marketing faoliyati samarali tashkil etilishi, mebel bozori muntazam o‘rganilishi, iste’molchilar xohish-istaklari inobatga olinishi, xarid jarayoni omillari batafsil tahlil qilib borilishini taqozo etadi. Texnologik o‘zgarish, ijtimoiy media roli ortishi, demografik o‘zgarishlar va ayollar xarid qobiliyati oshishi mebel ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilarning marketing ishlarida hisobga olinishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlardir. Biz, mamlakatimiz mebel mahsulotlari iste’molchilari xohish-istagini o‘rganishda tarix, madaniyat, urf-odat, an’analar va mebel mahsulotlarining xususiyatidan kelib chiqib, ularni segmentlashni maqsadga muvofiq, deb topdik.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJning ochilishi va faoliyat ko‘rsatishi “GULOBOD MEBEL” MCHJ bilan chambarchas bog‘liqdir. Avvalo, O‘rganilaetgan obyektning va “GULOBOD MEBEL” MCHJsining ta’sischilari ham, joylashishi ham udarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJning paydo bo‘lishi mebel bozorining keng segmentlashishi va undagi raqobatning murakakablashishi bilan bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, keng assortiment mahsulot chiqarish hamma vaqt ham ijodiy natija bermaydi. Texnologiyalarning farqlanishi ishlab chiqarish xarajatlarning keskin oshib ketishiga olib keladi.

Mebel ishlab chiqarishdagi ixtissoslashuvining asosiy sababi – bu mebel mahsulotlari bozorida brendning vatovar siyosatining katta o‘rin egallashidir. Xaridorlar mebel mahsulotlarining ma’lum turini alohida brend bilan bog‘laydilar, shu sababli maqsadli segmentni tanlash va uni saqlab qolish uchun universallikdan voz kechish lozim bo‘ladi.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsi faoliyatini kuzatadigan bo‘lsak, tashkil qilingandan boshlab bugungi kungacha yumshoq mebel, oshxona mebeli va matraslar assortimentning asosiy qismini egallaydilar. Tahliliar shuni ko‘rsatadiki, yangi zamonaviy “Lyuks” va “Eksklyuziv” toifadagi mebellar korxona assortimentida deyarlik uchramaydi. Oshxona mebellarining aksariyat qismini “Toshkent” mebel jamlamasi egallaydi.

Shundun xulosa qilish mumkinki, ushbu ikkita mebel ishlab chiqaruvchi korxonalari ixtisoslashuvi bo‘yicha ma’lum farqlanish strategiyalarini qo‘llamoqda.

6-jadval: "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ va "GULOBOD MEBEL" MCHJ tovar assortimentining xususiyatlari

"HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ	"GULOBOD MEBEL" MCHJ
Daromadi o'rta va past xaridorlarga qaratilgan	Daromadi o'rta va yuqori xaridorlarga qaratilgan
Assortimentda asosan oshxona va yumshoq mebellar joy olgan	Keng ko'lamadagi tovar assortimenti shakllangan
Mebellar standart texnologiya asosida ishlangan va farqlanishi past darajada	Mebellar zamonaviy individual shaklda ishlangan, ktalogdagi barcha turdagi namunani bajarishi kafolatlanadi
Har qanday mebelning ta'mirlanishi bo'yicha buyurtmalar qabul qilinadi	Mebelni ta'mirlash bilan shug'ullanmaydi (kafolat muddati bundan mustasno)
Butlovchi qismlarni chiqarish imkoniyati va buyurtmalari mavjud	Butlovchi qismlar ishlab chiqarilmaydi
Mebellar jamlamasining alohida predmetlari ham ishlab chiqariladi	Faqat buyurtma bo'yicha jamlamalar yaratiladi
Savdo markasi shakllanmagan.	"MONDELUX" savdo markasi asosida mahsulot chiqaradi

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ va "GULOBOD MEBEL" MCHJ mebellar bozorining alohida segmentlarga ixtisoslashadi va birgalikda bozorni qamrab olishga harakat qiladi

Mebel mahsulotlarini sotib olishda iste'molchilar keng ko'lamdagi axborotdan foydalanadi, ya'ni: turli axborotlarni tahlil qiladi, xaridning optimal variantini topishga intiladi, mahsulotni o'zining turmush tarzi, didi hamda imkoniyatiga qarab tanlaydi. Shuningdek, iste'molchi uzoq muddatga yaroqli tovarni sotib olishda moliyaviy, texnik, vaqtni yo'qotish va psixologik tavakkalchiliklarni ham inobatga oladi.

Xaridor uy jihozlarini sotib olish qarorini amalga oshirish uchun bir-biri bilan bog'liq bir necha bosqichdan iborat ehtiyojiga aniqlik kiritgandan keyingina, uni sotib olish va foydalanish amallarini bajaradi. Ya'ni umumiy ehtiyoj quyidagi muammolarni hal etishga qaratiladi:

- qaysi turdagi mebel uning ehtiyojini to'liq qondirishini aniqlaydi;
- tovarni bozordan, firma do'konidan yoki internet orqali sotib oladi;
- tovarning qanday afzalligi bor, sotuvchi qanday kafolat beradi, ushbu tovardan qancha muddat foydalanish mumkin?

Mebel sotib olish uchun axborot vositalari qay darajada ta'sir ko'rsatadi: tahlil shundan dalolat beradiki, uy jihozlarini xarid qilishda 52,5 foiz aholi teleko'rsatuv, 43,1 foizi gazeta va jurnallar reklamalaridan, 49,7 foizi firma do'konlariga tashrif buyurishdan, 50,6 foizi katalog va broshyuralardan foydalanadi.

Mebellarini ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobat ustunligiga erishishlari hamda o'z tovarlarini maqsadli bozorda va iste'molchilar ongida raqobatchilar tovaridan aniq farq qiluvchi barqaror o'rinni ta'minlashlari uchun pozitsiyalash jarayonini takomillashtirishlari zarurdir. Mazkur soha korxonalari marketing faoliyatini amalga oshirishda salmoqli sa'y-harakatlarini marketing kompleksini shakllantirishga yo'naltirmoqdalar. Buning natijasida, korxonalar marketing faoliyatini tizimli hamda samarali olib borishda muhim o'rin egallovchi pozitsiyalash jarayonida oqsoqlanish yuzaga kelmoqda. Tovarni pozitsiyalashda mijozlar ongini rivojlantirish, uni zamonaviylashtiriga e'tibor kuchli bo'lishi lozim.

Mebellar ishlab chiqaruvchi korxonalarning pozitsiyalash jarayoning to'g'ri tashkil etmasliklari quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Agar ishlab chiqaruvchi tovarning bozordagi pozitsiyasini belgilab bermasa, ushbu holatda iste'molchi bu vazifani o'zi amalga oshirishi mumkin va korxona o'zi kutgan pozitsiyaga ega bo'la olmasligi, hattoki, salbiy imidjning shakllanishiga olib kelishi mumkin;
- Tovarga o'ziga xos, raqobatchilar tovaridan farq qiluvchi xususiyatlari aniq ko'rsatilmagan yoki raqobatchilar pozitsiyasiga yaqin pozitsiyani belgilanishi – iste'molchi tovarni sotib olishiga turtki bo'lishga emas, balki teskari ta'sir ko'rsatishga xizmat qilishi mumkin;
- Tovarning aniq pozitsiyasi berilmasligi marketing kompleksini shakllantirishga va ketma-ketligini ta'minlashga xalaqit berishi, hattoki, marketing kompleksining har bir elementlarini shakllantirish strategiyalarini bir-biriga qarama-qarshi kelishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Pozitsiya aniq tanlangan bo'lsa ham, Ammo chegarasi tor belgilansa, bunday pozitsiyalash korxonaning mavjud tovarlari bozorini kengaytirishga, yangi tovarlarini esa bozorga kiritishga to'sqinlik qiluvchi kuch sifatida ta'sir etishi mumkin. Buning asosiy sababi, soha korxonalarida umumiy marka strategiyasidan foydalanilishidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mebellarini ishlab chiqaruvchi korxonalar pozitsiyalash jarayonini amalga oshirishda asosiy ikkita yo‘nalishga e’tiborlarini qaratishlari lozim:

- Pozitsiyalanayotgan tovarning moslik yoki boshqacha aytganda, turdosh nuqtasini aniqlash. Ya’ni tadqiqotlar asosida iste’molchilarni o‘z ongida, korxona tovarini qaysi tovar kategoriyasi bilan tenglashtirishini, to‘g‘rirog‘i, qaysi kategoriyaga kiritishini aniqlashni nazarda tutiladi. Bu esa o‘z navbatida, tovar kategoriyasining o‘ziga xos xususiyatini ochish asosida, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqobatchilarini aniqlash imkoniyatini beradi.
- Pozitsiyalanayotgan tovarning differensiatsiya nuqtasini aniqlash. Bunda tovarning raqobatchilar tovaridan aniq farq qiluvchi bir yoki bir nechta o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash asosida uning raqobat ustunligini ko‘rsatib berishdan iboratdir.
- Mebellar ishlab chiqaruvchi korxonalarni ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlari bo‘yicha pozitsiyalashni amalga oshirishdan oldin tarmoqning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari lozim:
- Tovar ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi va texnologiyaning ta’sirining yuqoriligi. Zamonaviy mebellarini ishlab chiqarish murakkab texnologiyalarni talab etadi, pirovardida, tovar bozor narxining ko‘tarilib ketishiga olib keladi.
- Mebellarining yangi turi va modelini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish davrining uzoqligi. Yirik mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarning mebelning yangi modelini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish davrining o‘rtacha muddati 7-15 oyni tashkil etadi.
- Tovar sifatiga qo‘yiladigan talabning yuqoriligi. Mebellar oldindan tanlovni talab etuvchi tovarlar turiga kirganligi sababli, iste’molchilar mahsulotdan uzoq muddatli xizmat ko‘rsatishini kutadilar. Soha ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining sifatini yuqori darajada ushlab turish uchun, uning funksional xususiyatini saqlab qolgan holda, yuqori sifatli furnituralardan ishlab chiqarishda foydalanadilar. Shu sababli, ko‘pgina korxonalar o‘z mahsulotlarini pozitsiyalashda “sifat”, “mustahkam” so‘zlarini qo‘llaydilar.

Kafolat berish asosida xizmat ko‘rsatish. Odatda kafolat berish asosida xizmat ko‘rsatishga va kafolatdan keyingi xizmatga sarflanadigan xarajatlar yuqori bo‘lmaydi, lekin, ayrim hollarda mahsulot tannarxining 20-25 foizini ham tashkil etishi mumkin. Shuningdek, sotuvdan keyin mebelni yig‘ib berish xizmati mahsulot tannarxining 10 foizigacha teng ham bo‘lishi mumkin.

Tovarni tanlov va xarid jarayoniga iste’molchi nisbatan ko‘p vaqt sarflashi. Marketing tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, iste’mol tovarlari bozorida iste’molchi mebelni tanlash va xarid qilishga 4 haftagacha vaqt sarflashi mumkin.

Yuqoridagi muammolar va mebel ishlab chiqarishidagi marketing faoliyati xususiyatlari korxonalar uchun alohida marketing xizmati uchun strategik va taktik dasturini ishlab chiqish zaruratini oldinga suradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev toponidan ishlab chiqilgan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da iqtisodiyotni jadallashtirish yo‘li sifatida “... prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash; ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish” kabi vazifalar belgilab berilgan.Ushbu vazifalar Yangi O‘zbekistonni rivojlntirishga qaratilga “Yetti yo‘nalish - 100 ta maqsad” Strategiyasida yanada kuchaytirilgan.

Ushbu vazifalar mahalliy korxonalar oldiga zamonaviy bozor munosbatlari sharoitida marketing tamoyillarini qo‘llash, xalqaro raqobatbardoshlikni shakllantirilishini talab qiladi. Bunda avvalo, bozor vositalardan bo‘lmish marketing tadqiqotlari shakllari va usullarini puxta o‘rganish taqozo etiladi. Shu munosabat bilan bizlar bitiruv malakaviy ishda sanost korxonalarida marketing xizmatlarining nazariy va amlaiy jihatlarni o‘rganib quyidagi asosiy xulosalarga keldik.

Marketing xizmatlari zamonaviy marketing faoliyatining asosiy bo‘g‘inlaridan hisoblanadi va marketing nazariyasida eng katta o‘rinlardan birini egallaydi. Marketing falsafasida korxonalar uchun marketing xizmatlarining tashkily jihatlari ishlab chiqarish qarorlari uchun asos bo‘ladi.

Marketing xizmatlari ko‘zlangan maqsadlar, bozor subyektlari, tovar turi, bozor holati, va boshqa ko‘plab omillar ta’siri ostida turli shakllarda va ko‘rinishlarda olib boriladi. Shu bilan birgalikda marketing xizmatlarini bir xil tamoyillar birlashtiradi.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJ si Samarqand viloyati Samarqand tumanida joylashgan bo‘lib asosan har xil turdagi mebel jihozlarini ishlab chiqarishga moslashgan. Korxona ichki bozorga mebel ishlab chiqarib bugungi kunda 50 turga yaqin assortimentga ega. Korxonada 52 kishi ish bilan ta’minlangan.

Marketing faoliyati asosan mijozlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Korxonada sotuv bo‘limi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni dilerlar va do‘konlar orqali realizatsiya qiladi.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJ si marketing faoliyatida ikkita yo‘lni tanlaydi:

a) buyurtmachining istaklarini aniqlash va buyurtma bajarilishi davrida ularning qay darajada amalga oshirilshini o‘rganish. Ushbu usul asosan individual buyurtmalar, ya’ni xonalarga mos ravishda tanlanadigan mebeller uchun qo‘llaniladi va buning natijasida ommaviy katalog mebellarga ham kengaytiriladi;

b) Korxonada mavjud namunalar va kataloglar asosida potensial iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish.

Olib borilgan izlanishlar natijasida bizlar korxonada marketing tadqiqotlarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- Marketing xizmatlari shakllari va qamrovini kengaytirish, ya’ni bozor munosabatlarida keng qo‘llaniladigan funksional, mahsulot va matritsali tuzilmalari va boshqalarni qo‘llash;
- Marketing xizmatlari tizimida marketing autsorsingi tizimini joriy qilish, ya’ni marketing xizmatlarini tashqi tashkilotlar yordamida amalga oshirish;
- Marketing xizmatini raqamlashtirish texnologiyasi asosida tashkil qvlish va rivojlantirish;
- Marketing xizmatlarida benchmarking axborotlardan keng foydalanish, boshqalarning tajriba-sinov natijalarini o‘rganish.

Ushbu takliflarning samarasi nafaqat sotish hajmida, balki korxonaning nufuzida ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA,2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO “I.D.Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023
7. Musayeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022
8. Musayeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021 yil uchun o‘quv qo‘llanma.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISHNING KLASSIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

To‘xsanov Qudratillo Nozimovich
DSc, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori

Annotatsiya: Ilmiy maqolada islohotlarning hozirgi sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faliyatini soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlash tizimining amaldagi holati tahlil qilingan. Istiqbolda tadbirkolik subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida yanada qo‘llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, soliq tizimi, soliq imtiyozi va preferensiyalari, maxsus soliq rejimi, soliq stavkasi, soliq mexanizmi.

Abstract: The scientific article analyzes the current state of the system of supporting the activities of business entities operating in economic sectors through tax incentives in the current conditions of reforms. Proposals and recommendations were made for the development of the mechanism of further support for the activities of business entities using taxes.

Key words: business entities, tax system, tax relief and preferences, special tax regime, tax rate, tax mechanism.

Аннотация: В статье проведен анализ современного состояния системы обеспечения предпринимательской деятельности, осуществляющих в отраслях экономики, при помощи налоговых льгот в условиях экономических реформ. В заключении научной статьи изложены предложения и рекомендации по разработке механизма по поддержки деятельности субъектов предпринимательства при помощи налогов.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, налоговая система, налоговые льготы и преференции, специальный налоговый режим, налоговая ставка, налоговый механизм.

KIRISH

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqlar vositasida rag‘batlantirish bo‘yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan:

- optimal soliq tizimi prinsiplari qatoriga betaraflik, iqtisodiy o‘sish va samaradorlik, shaffoflik, byudjetga yetarlilik kabi prinsiplar kiritish zarurligi ilmiy asoslangan (EC, AICPA, ACCA, PPI);
- tadbirkorlik subyektlari foydasiga tushadigan jismoniy shaxslar mehnatiga haq to‘lash tarzidagi soliq yukini adolatli taqsimlash mexanizmiga asoslangan (IEM, Fransiya, ETPF, ZEW, Yevropa Ittifoqi);
- tadbirkorlik subyektlarining “yashirin daromadi” ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan ta’sirchan soliqqa tortishning mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan tabaqalashtirilgan korporativ va daromad solig‘i stavkalari taklif etilgan (World bank);
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘lanayotgan soliqlarni to‘lig‘icha hudud ixtiyorida qoldirish orqali tadbirkorlik subyektlari uchun infratuzilma va qulay ishbilarmonlik muhitini yaxshilash isbotlangan (Swedish Institute for European Policy Studies, Shvetsiya);
- Koreyada “o‘rtacha iqtisodiy rivojlangan”, “past iqtisodiy rivojlangan” shtatlarda infrastrukturani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining aylanmasidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini qo‘llash zarurligi asoslangan (The Korean Institute of Public Finance, Koreya);
- Xitoyda tadbirkorlik subyektlari to‘laydigan soliqlarni chegaralash orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati past hududlarni rag‘batlantirishga erishilgan (National University of Singapore, Singapur).

Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmi takomillashtirish juda murakkab vazifa bo‘lib, hanuzgacha mazkur masalaning ilmiy jihatdan maqbul yechimi topilmagan. Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish sharoitida tadbirkorlar mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblashni soddalashtirish, raqamli iqtisodiyotni barpo etishda aloqa xizmatlarini soliqlar vositasida qo‘shimcha rag‘batlantirish, tabiiy boyliklardan unumli foydalanishda soliqlarning ta’sirini kuchaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq munosabatlarida soliqqa tortishning klassik va zamonaviy nazariyalarini o‘rganishda umumiy soliq nazariyalari hamda xususiy soliq nazariyalariga ajratish mumkin. Umumiy soliq nazariyalarida asosiy masala soliqlarning ahamiyati, vazifalari, xususiyatlari kabi soliq tizimining umumiy jihatlari tadqiq etilsa, (klassik soliq nazariyasi, J. Keyns nazariyasi, monetarizm nazariyasi, taklif iqtisodiyoti nazariyasi va boshqalar), xususiy soliq nazariyalarida esa soliqlarning tarkibi, soni va soliq stavkalari soliq tizimi elementlarining tarkibiy xususiyatlari haqidagi fikrlar mujassamlashgan. Ma’lumki, soliqlar turli qiymat obyektlariga nisbatan o‘rnatilgani bilan asosan bir manbadan ya’ni daromaddan to‘lanadi. Shunday ekan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ko‘plab soliqlar o‘rniga shunday bir yagona soliq joriy etish hisobiga davlat byudjetini zarur mablag‘lar bilan ta’minlash lozimligi borasidagi g‘oya asosida yagona soliq nazariyasi vujudga keladi, rivojlandi va bugungi kunga kelib ko‘plab mamlakatlar soliq amaliyotida qo‘llanilib kelinmoqda.

Yagona soliqni joriy etish g‘oyasi o‘rta asrlardan e’tiboran ommabop hisoblangan, hattoki (XVIII-asrda Angliyada). Ayrim partiyalar yagona soliqni partiyaning asosiy shiori qilib olgan. Yagona soliq nazariyasi tarafdorlari yagona soliq o‘rnatilgandan so‘ng kambag‘allik barham topishi, ish haqi oshishi, har qanday sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish o‘sishi yuz berishini e’tirof etib soliqqa tortishning obyekti sifatida foydalanish maqsadida yer resursi, xarajatlar, ko‘chmas mulk, daromadlar, kapital kabi predmetlarni taklif qilganlar.

Iqtisodiy adabiyotlarda “Yagona soliq – bu bitta ya’ni maxsus soliq turi bo‘lib, bunda aniq bir obyekti yoki bazasi soliqqa tortiladi. Yagona soliqning eng qadimgi turlaridan biri – bu yer rentasi hisoblanadi. Fiziokratlar maktabining asoschilaridan F. Kene ta’limotida “Sof daromad faqatgina yerdan kelishi e’tirof etiladi, bunda yer rentasi soliqqa tortishning yagona obyekti bo‘lishi lozimligi qayd etilgan. U yagona va to‘g‘ri soliq obyekti kadastr asosida aniqlanishini taklif etib, yerdan keladigan daromadning 2/7 qismi miqdorida bo‘lishini asoslab, boshqa barcha soliqlarni ortiqcha deb hisoblaydi”[1]. Shundan kelib chiqib “Barcha soliqlarning o‘rniga yer egalaridan undiriladigan yagona soliq joriy etilishini taklif etadi. Yagona soliq nazariyasi haqidagi g‘oyalarning negizida asosan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili yotishi e’tirof etiladi[2].

TAHLIL VA ASOSIY NATIJADAR

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimi shakllanishining ilk davrlaridan boshlab hozirga qadar samarali islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi o‘laroq bugungi kunda nisbatan barqaror milliy soliq tizimi shakllanishiga erishildi.

Ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar muayyan vazifalarni amalga oshirish orqali amalga oshirilayotganini e’tirof etishimiz lozim bo‘ladi. Chunki mamlakatimizda mustaqillikka qadar zamonaviy bozor talablariga mos keladigan soliq munosabatlari mavjud bo‘lmagan.

Shu boisdan milliy soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida rivojlangan hamda rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi ilg‘or tajribalaridan foydalanish, soliq va soliqqa tortish mexanizmidagi klassik hamda zamonaviy soliq nazariyalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilida soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukining tekis taqsimlanishi, imtiyozlarning asosliligi va shuningdek, turli kapital sig‘imiga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi subyektlari uchun bir xil transaksion xarajatlar uchun shart sharoit yaratilishda namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliqning joriy qilinishi, soliq mexanizmini soddallashtirish imkoniyatiga tayangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulaylik sifatidagi vazifasining amaliy ifodasi hisoblanadi. Yagona soliq haqidagi nazariyada uning manbayini yangidan yaratilgan qiymatni qiymat ekvivalentida taqsimlovchi daromaddan olinadigan soliqlarga tayanadi. Demak, yagona soliq tizimi avvalo, soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadidagi daromaddan olinadigan soliqni joriy qilishga asoslanadi (1-rasmga qarang).

1 Кенэ Ф. Избранные экономические произведения. – М.: Соцэкгиз, 1960.
2 Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 256 с. – ISBN 5-279-02390-6. – С.144.

Nazariya nomlari	Mazmuni	Nazariyani ilgari surgan iqtisodchilar
Aylanmadan olinadigan yagona soliq nazariyasi	Yagona aksiz solig‘i haqidagi ilk qarashlar	Merkantalistlar A. Monkretyen, T. Man, J. Kolber
Renta tavsifidagi yagona soliq nazariyasi	Yagona yer solig‘i haqidagi ilk qarashlar	Fiziokrat F. Kene, G. Jorj
Kapitalga nisbatan yagona soliq nazariyasi	Mulkiy tavsifdagi real yagona soliq haqidagi qarashlar (Akkord soliqlari)	E. Jirarden
Daromadga yagona soliq nazariyasi	Daromaddan olinagigan yagona soliq haqidagi qarashlar	E. Seligman

1-rasm: Yagona soliq nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlar[3]

Shuni alohida ta’riflash lozimki, tarixiy retrospektivada, yagona soliq nazariyasi asosan yagona aksiz solig‘i nazariyasi deb ataluvchi oborotdan olinadigan soliq mexanizmiga asoslanadi. Fiziokratlar esa yerdan sof daromad haqidagi qarashlariga asoslanib, yer rentasi yagona soliqning yagona obyektiv bo‘lishi kerakligini ilgari surgan. Ushbu yagona soliq kadastr va yerning undumdorligi asosida aniqlanishi belgilangan. Fransua Kene yagona soliqning darajasi 2/7 nisbatgacha bo‘lishini e’tirof etgan”.

Xususiy soliq nazariyalarida yagona soliq nazariyasi soliqning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, soliqqa oid nazariyalar vositasida davlatning soliq tizimini qurish uchun mavjud bo‘lgan turli modellar soliqlarni ma’lum maqsadlar doirasida e’tirof etilishi hamda tan olinishiga bevosita bog‘liqdir.

Kolumbiya universiteti professori E. Seligman fikricha “Yagona soliq tizimi haqidagi ilmiy qarashlarida yaqin istiqbolda daromaddan olinadigan yagona soliq mexanizmi optimal soliqqa tortish tizimini o‘zida mujassamlashtirishi bilan barcha soliqlarni o‘rniga joriy etilishini e’tirof etib o‘tadi”[4].

Shu boisdan, “Obyektiv iqtisodiy kategoriya sifatida yagona soliq nazariyasi xususiy soliq nazariyasi taraqqiyoti paradigmasidagi ilmiy qarashlar negizida shakllanib bordi. Yagona soliq nazariyasining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti tasdiqlaydiki, ushbu soliq mexanizmi turli iqtisodiy maktab namoyondalarining fundamental qarashlarining negizini tashkil qilgan. Zamonaviy sharoitlarda ushbu qarashlarga asoslangan holda daromaddan, kapitaldan olinadigan yagona soliq mexanizmi va, shuningdek, renta tavsifidagi yagona soliq mexanizmi rivojlanib borgan. XXI asrning dastlabki choragida “Moliya” fani taraqqiyotida “Xulq-atvor moliyasi”ning rivojlanish tendensiyasi raqamli iqtisodiyotga asoslangan makonga adekvat moliya tizimini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi”[5].

Zamonaviy moliya tizimining hamma bo‘g‘inlari qatori soliq tizimidagi islohotlarda soliq ma’murchiligi elementlarini optimallashtirish hisobigagina emas, balki “Soliq to‘lovchilarning xulq-atvori”ga asoslangan soliq mexanizmi shakllantirish zamonaviy iqtisodiy makonga xos soliq tizimini shakllantirish, soliq intizomini mustahkamlashning konstruktiv asosini tashkil qilishi kerakligi ishda asoslangan[6]. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq to‘lovchilar soliq to‘lashdan qochishi emas, balki soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak”[7] degan da’vatlari fikrimizning mantiqiy asosini tashkil qiladi.

Mazkur holatda soliq to‘lovlarini minimallashtirish sifatida mavjud iqtisodiy dastaklardan (imtiyoz va preferetsiya) qonuniy ravishda foydalanish evaziga soliq to‘lovlarini optimallashtirish nazarda tutilmoqda.

3 Muallif ishlanmasi.
4 Блауг М. Селигмен, Эдвин Роберт Андерсон // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикус, 2008. – 352 с. – С. 263-265.
5 Ричард Талер. Новая поведенческая экономика. Почему люди нарушают правила традиционной экономики и как на этом заработать = Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. – Эксмо, 2017. – 368 с.
6 O‘sha manba.
7 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shundan kelib chiqqan holda soliq to‘lovchilarning soliq tizimiga oid xulq-atvor modeli 2-rasmga keltirib o‘tilgan.



2-rasm: Soliq to‘lovchilarni soliq tizimiga oid xulq-atvori modelining tashkiliy chizmasi[8]

Keltirilgan 2-rasmga muvofiq, xulq-atvor ikkita yo‘nalishda tasniflanib, soliq to‘lovlariga ko‘ra soliq to‘lovchilarning xulq-atvori to‘rtta elementga asoslangan degradatsiyasi keltirilgan. 2, 3, 4 degradatsiyaga tushadigan soliq to‘lovchilar kategoriyasi Qonun normalariga muvofiq xatti-harakatlariga ularni soliq qonunchiligiga muntazam rioya qiluvchi insofli soliq to‘lovchilar guruhiga kirishi e’tirof etiladi.

Shuningdek, amaldagi soliq rejimiga asoslangan holda ishlab chiqarish omillarini qayta tizimlashtirish orqali soliqlarni rejalashtirish amaldagi instrument va usullar yordamida tashkil etiladi. Amaldagi soliq tizimini isloh qilish natijasida soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi talablariga rioya qilishini ta’minlovchi soliq mexanizmi instrumentlari va metodlarini joriy etish soliq to‘lovchilar uchun soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash o‘rniga ularni to‘lashdan manfaatdorligini ta’minlashning iqtisodiy asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda soddalashtirilgan tartib amal qiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ushbu soliqqa tortish tartibi tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun joriy etilgan bo‘lib, uning maqsadi soliq ma’murchiligini takomillashtirish, tadbirkorlar uchun soliqni hisoblash tizimini soddalashtirishni nazarda tutadi.

Soliq munosabatlarida soliq solishning maxsus rejimiga taalluqli bo‘lgan ilmiy qarashlarni o‘rganish va ilmiy abstraksiyalash natijasi asosida jarayonning yutuq va kamchiliklari, shu bilan birgalikda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash jarayonidagi mavjud bo‘lgan risklar bo‘yicha 3-rasmda batafsil bayon ettirilgan.

Soliq solishning maxsus rejimlari mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash jarayonidagi asosiy fiskal faktorlardan biri sifatida ayrim muammoli risklarni yuzaga keltiradi. Mazkur risklar 3-rasmda keltirib o‘tilgan. Masalan, Rossiyalik iqtisodchi Aleksey Kudrinning fikricha “Rossiya soliq tizimida qo‘llanilayotgan maxsus soliq rejimi mamlakatdan kapitalni tashqariga chiqib ketishini rag‘batlantiruvchi asosiy ichki fiskal faktorlardan biri hisoblanadi[9].

8 Muallif tomonidan shakllantirilgan.
9 Кудрин А. Три задачи на два года // “Коммерсантъ” № 47 от 21.03.2018, стр. 1.



3-rasm: Soliq solishning alohida rejimining afzallik, kamchilik va risklari[10]

Shu bilan bir qatorda, yagona soliq nazariyasi haqidagi ilk qarashlarda ushbu soliq mexanizmining maqsadi kambag‘allikka barham berish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining izchil taraqqiyotini ta’minlash orqali mamlakatdagi ishsizlik bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishga fiskal rag‘bat[11] yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadlar negizida respublikamizda soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llovchi tadbirkorlik subyektlarini aniqlash mezonlari bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini yaratish kontekstida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barchamizga ma’lumki, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibi ular faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, mamlakat soliq tizimidagi har bir soha uchun qo‘llanilayotgan soliqlar o‘ziga xos rag‘batlantiruvchi ahamiyatga ega. Masalan, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun aylanmadan olinadigan soliq joriy qilingan.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga kelib, insoniyat oldida cheklangan tabiiy boyliklardan o‘z o‘rnida tejamkorlik bilan foydalanish zarurati paydo bo‘ldi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlar faoliyatiga ma’muriy yo‘l bilan emas, balki iqtisodiy vositalar bilan ta’sir etish mumkin. Mamlakat soliq tizimida resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantiruvchi soliq mexanizmi mavjud bo‘lsa-da, bunday mexanizm soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan soliq to‘lovchilarga joriy etilmaydi, ya’ni ular barcha umumdavlat hamda mahalliy soliq va yig‘imlar o‘rniga yuqorida qayd etilgan yagona soliq turlaridan birini to‘laydilar, (bu qonun bilan belgilangan). Bunday sharoitda soliq solishning maxsus rejimi (tartibi) ga o‘tgan soliq to‘lovchilarning cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanishini ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmi ishlamaydi. Umuman olganda mamlakat soliq tizimini takomillashtirishda soliqqa tortishning klassik

10 Muallif tomonidan shakllantirilgan.
11 Ефимова Л.А. Экономика общественного сектора. Нижний Новгород: НГУ, 2009.-115 с.

va zamonaviy nazariyalarini chuqur o‘rgangan holda ularni soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, amaliyotga joriy qilish va bunda albatta cheklangan resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan mexanizm aks etishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кенэ Ф. Избранные экономические произведения. – М.: Соцэкгиз, 1960.
2. Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 256 с. – ISBN 5-279-02390-6. – С.144.
3. Блауг М. Селигмен, Эдвин Роберт Андерсон // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикус, 2008. – 352 с. – С. 263-265.
4. Ричард Талер. Новая поведенческая экономика. Почему люди нарушают правила традиционной экономики и как на этом заработать = Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. – Эксмо, 2017. – 368 с.
5. Кудрин А. Три задачи на два года // “Коммерсантъ” № 47 от 21.03.2018, стр. 1.
6. Ефимова Л.А. Экономика общественного сектора. Нижний Новгород: НГУ, 2009.–115 с.

YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Mamaraximov Bekzod Erkinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Fundamental iqtisodiyot kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ishchi kuchi resurslarining asosiy qismini yoshlar tashkil etishini hisobga olgan holda ularning bandligini ta’minlash iqtisodiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, ularni takror ishlab chiqarish tizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali bandligini ta’minlash uchun kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: yoshlar ishchi kuchi bozori, yoshlar bandligini ta’minlash, kadrlar tayyorlash strategiyasi.

MAIN DIRECTIONS OF ENSURING YOUTH EMPLOYMENT

Mamarakhimov Bekzod Erkinovich
Head of the Department of “Fundamental economics” Tashkent State University of Economics, associate professor

Abstract: Taking into account that young people make up the bulk of the labor, ensuring their employment is one of the most important aspects of economic development, it is desirable to further improve the system of training and retraining.

Key words: youth labor market, employment of youth, strategy of a professional training.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ

Мамарахимов Бекзод Эркинович
Заведующий кафедрой Фундаментальной экономики Ташкентский государственный экономический университет, доцент

Аннотация: Учитывая, что основную часть трудовых ресурсов составляют молодые люди, обеспечение их трудоустройства является одним из важнейших аспектов экономического развития, желательно и дальше совершенствовать систему подготовки и переподготовки кадров.

Ключевые слова: рынок рабочей силы молодежи, занятост молодежи, стратегия подготовки кадров.

KIRISH

O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasini o‘zgartirmoqda. Bu qadamlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga hamda mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan. Bu esa davlat iqtisodiy jihatdan o‘sishi va barqaror bo‘lishining kafolatidir. Shu munosabat bilan davlatimiz oldida yuzaga kelayotgan talaygina vazifalarni hal qilishga to‘g‘ri kelmoqda. Ustuvor vazifalardan biri ishchi kuchini qayta shakllantirish va uni boshqarish muammosini hal qilishdan iboratdir. Chunki, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ko‘rsatilganidek, “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” [2] asosiy maqsadimizdir.

Milliy iqtisodiyotda yoshlar ishchi kuchidan samarali foydalanib ishlab chiqarishni kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish, inflatsiya va ishsizlik kabi muammolarni to‘g‘ri hal etishning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanishi aniq. Sababi ishchi kuchi bozorini doimiy to‘ldirib, yangilab kirib keluvchilar bu yoshlardir. Ularni ish bilan ta’minlash orqali esa ishsizlik masalasining katta qismini hal etish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishchi kuchi bozorining shakllanishiga turli omil va shart-sharoitlar ta’sir qiladi. Ushbu omil va shart-sharoitlar O‘zbekistondagi hududiy ishchi kuchi bozorlarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Keng ma’noda, mehnat bozori mehnatdan foydalanishga bo‘lgan talab va uni ma’lum bir narxda yetkazib berish bilan

belgilanadigan almashinuvni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy normalar va institutlar tizimi yoki umumiy ma'noda mehnatni yollash va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmuyi tarzida ifodalanishi mumkin.

Akademik Abduraxmonovning fikricha, "mehnat resurslarini taqsimlaydigan va ish bilan bandlik borasida qarorlar qabul qiladigan bozor mehnat bozori"[1] deb ataladi. Shu nuqtayi nazardan, muhim xususiyatlarini o'rganishga tizimli yondashuvdan foydalangan holda, bandlikka to'laqonli ta'rif berishimiz mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida aholini ish bilan ta'minlash va umuman mehnat bozori iqtisodiyot sohasining ko'zga ko'ringan olimlarining qarashlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining samarali rivojlanishi va ishsizlikni kamaytirish Q. Abdurahmonov[2] (mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash), Sh. Xolmo'minov[3] va K. Xomitov[4] (qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi), Z. Xudoyberdiyev[5] (tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi), M. Xolmuxamedov[6] (mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish), D. Nasimov[7] (oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish), B. Tagayev[8] (zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarish) va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy tadqiq etish metodologiyasi, taqqoslash, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar ishchi kuchi bozorida munosabatga kirishar ekanlar, o'zlari uchun maqbul ish topish, ish joyi, shart-sharoitlari, kasb-kori, nufuzi, mehnat jarayonining intensivligi, davomiyligi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarga duch keladi. Hozirgi yoshlarning jamiyatda o'z o'rnilarini topishlari, ishchi kuchi bozori talablariga javob berishga tayyor ekanliklari o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Axborot muhitining globallashuvi, yuqori turmush darajasi andozalarining tez va keng tarqalishi yoshlar hayotiy ehtiyojlari muttasil ortib borayotgani holda ularni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi sababli yoshlar bilan bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yanada o'tkirlashtiradi.

Yoshlarning mehnatga jalb etilishi jarayonida ular nuqtayi nazaridan ayrim kasb va ixtisosliklarning nufuzi pasayganligi holda boshqalari, aksincha, ancha yuqoriga ko'tarilganligini ham ko'rsatish darkor. Bu yerda gap umuman malakali mehnat nufuzi pasayganligi to'g'risida emas, balki yuqori malaka talab etuvchi ixtisosliklar doirasida ustuvorliklar o'zgarganligi haqida ketmoqda.

Yoshlar mehnat faoliyatining boshlanishi ularning hayotida kasbga ko'nikishlari bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunga eng avvalo, yoshlar kelib qo'shiladigan mehnat jamoasidagi muhit, ijtimoiy-kasb qadriyatlari, kasb faoliyatining tub jihatdan yangi turi, ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari va boshqa omillar ta'sir etadi.

Yoshlarda esa bo'lajak ish o'rni, mehnat sharoitlari va mazmuni, ayniqsa, ish haqi miqdoriga talab nihoyatda katta bo'ladi. Bu – ish beruvchining yoshlarga ish kuchi sifatidagi bahosi bilan yoshlarning o'zlari o'zlarini baholashlari o'rtasida ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Xuddi ana shu yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlashdagi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning ma'lumoti katta ahamiyatga egadir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, ishlab chiqarishga eng zamonaviy texnologiyalar joriy etilayotgan bugungi kunda ish kuchi ma'lumoti va malakasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizdagi demografik ko'rsatkichlarning aholi yoshi bo'yicha dinamikasi keltirilgan. Unga ko'ra keyingi 5 yil mobaynida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi soni 21,9 foizga oshgan (1-jadval). Bunday holat ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq masalalarni kuchaytirishni talab etadi.

1 Q.X.Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: "Fan", 2019.
2 Q.X.Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: "Fan", 2019.
3 Xolmo'minov Sh.R. (2014) Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya. 2014.
4 Xomitov K.Z. (2012) O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O'zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012
5 Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: ILMZIYO. 2016
6 Xolmuxamedov M.M. (2011) Mehnat bozoridayoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va unitakomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand.
7 Nasimov D.A. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand 2011.
8 B.Tagayev. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarishning nazariy jihatlari / "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali. 2023-yil, oktabr. https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/201/191

1-jadval: Aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi (yil boshiga; ming kishi)

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2020-yilga nisbatan 2023-yilda
Jami aholi soni	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	106,3
0-14 yosh	9870,3	10175,8	10518,5	10835,5	109,8
15-19	2559,0	2569,7	2616,2	2697,4	105,4
20-54	17197,8	17360,6	17505,8	17686,2	102,8
55-59	1515,7	1528,1	1527,5	1522,2	100,4
60 yoshdan yuqori	2762,5	2924,6	3103,4	3283,7	118,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari milliy boyligi tarkibida asosiy ishlab chiqarish fondlari (bino va inshootlar, mashina va dastgohlar) hamda tabiiy resurslar 23,2 foizni, inson kapitali esa 74,0 foizni tashkil etadi.

2-jadval: Aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi (ming kishi)

Jami aholi soni	0-15 yoshdagilar	16-60 yoshdagilar	60 yoshdan yuqorilar
36 024,9	11 437,4	21 303,9	3 283,6
Jami aholiga nisbatan foizda	31,7	59,1	9,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda ishchi kuchining soniga e’tibor qaratilmasdan uning sifatiga, uning kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo‘yilayapti. Kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va aholini samarali ish bilan ta’minlashning asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan kasb-hunar ta’lim tizimi mehnat bozori konyunkturasiga hamda ish beruvchilarning talab va ehtiyojiga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ishchi kuchi bozorida yoshlarning ish bilan bandligi ko‘p jihatdan shu yerda yashovchi yoshlarning bilim darajasiga va umumiy saviyasiga bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori malakaga ega bo‘lgan kadrlar ishchi kuchi bozorida yuqori imkoniyatga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ishsizlarning asosiy qismini malakasi va bilim darajasi past bo‘lgan ishchi kuchi tashkil etadi.

Shuningdek, “Yoshlar bandligi dasturlari” doirasida 2023-yilda 686 314 nafar yoshlarning bandligiga ko‘maklashish ko‘zda tutilmoqda.

Ma’lumki, 2023-yil 11-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan har bir hududda ishsiz hamda ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan yoshlar bandligiga ko‘maklashish maqsadida hududiy hokimliklar, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirliklarining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda “Yoshlar bandligi dasturlari” ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan[9]:

- 143,2 ming nafar bitiruvchilarni korxona va tashkilotlardagi bo‘sh ish o‘rinlariga ishga joylashtirish;
- 53,4 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish;
- 15,1 ming nafarini haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- 20,3 ming nafarini har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor tadbirlari asosida tadbirkorlarga biriktirish;
- 10,8 ming nafarini “Usta shogird” asosida hunarmandlarga biriktirish;
- 27,9 ming nafarini qishloq xo‘jaligidan yer ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 69,2 ming nafarini o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish;
- 19,1 ming nafariga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 31,1 ming nafariga subsidiya ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 243,3 ming nafari boshqa yo‘nalishlarda (OTMga o‘qishga kiradiganlar) bandligini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

9 https://mehnat.uz/oz/news/yoshlar-bandligi-dasturlari

Ma'lumot uchun, joriy yilda umumiy o'rta-ta'lim maktablari, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 686 314 nafarni tashkil qilmoqda.

Ishchi kuchi bozorida uzoq muddatli istiqbollashtirishning yo'qligi, bilim yurtlari hamda ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarning mustahkam emasligi, ishchi va mutaxassis-xodimlar tayyorlashda optimaltizim yaratishni qiyinlashtirmoqda. Ishchi kuchi bozorida ko'pgina mutaxassisliklarga talabning pastligi, ish yuritish malakasining yo'qligi, mustaqil hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlar uchun ish bilan bandlikni ta'minlashni ancha jiddiy muammo hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash strategiyasi ish bilan bandlik sohasidagi jarayonlarni hisobga olishi zarur. Ishchi kuchi bozorini tadqiq etish orqali mintaqadagi kadrlar tayyorlash tizimini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashtirish yo'llarini aniqlash kerak.

XULOSA

Mamlakatimiz aholisi salmog'ida yoshlarning ulushi ancha ko'p hisoblanadi, ishchi kuchi resurslari tarkibiga kirib keluvchilarning katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Respublikamizda aholini tez sur'atlar bilan ko'payishi natijasida hozirgi kunga kelib, hududiy demografik jihatdan zichlashib bormoqda. Oqibatda yoshlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarini ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda. Yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularning ishchi kuchi bozoridagi xatti-harakati qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

1. Ishchi va mutaxassislar tayyorlash dasturi hamda ishchi kuchi bozoridagi talab o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu masalaning yechimi respublika kambag'allikni qisqartirish va bandlik organlari, korxona va tashkilotlar hamda o'quv yurtlari tomonidan bir kelishuvga erishishdir.
2. Yoshlarni o'smirlik vaqtidan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kasanachilik faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga biriktirish va ularning kasb-korlarini o'rganishlarini ta'minlash, lozim hollarda ularga subsidiyalar yoki imtiyozlar berish orqali qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.
3. Yoshlarni ish bilan ta'minlashni yaxshilashning qo'shimcha imkoniyatlarini nodavlat tashkilotlarini personalni tanlash va ularni ish bilan ta'minlashda faol qatnashishga da'vat etish orqali oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28-oktabr. https://lex.uz/ru/pdfs/6257288
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori
5. Q.X.Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: "Fan", 2019.
6. Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya. 2014
7. Xolmuxamedov M.M. Mehnat bozoridayoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va unitakomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand, 2021.
8. Xomitov K.Z. O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O'zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012.
9. Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: ILMZIYO, 2016.
10. Nasimov D.A. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand, 2011.
11. B.Tagayev. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarishning nazariy jihatlari / "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali. 2023-yil, oktabr. https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/201/191
12. www.stat.uz – (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi).
13. www.uza.uz – (O'zbekiston milliy axborot agentligi).

CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH HUDUDLAR BARQAROR RIVOJLANISHINING OMILI SIFATIDA

Niyozov Zuxur Davronovich
I.f.n., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash uzoq tuman va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatishni yanada kengaytirish ko‘plab imkoniyatlarni keltirib chiqarishi ChEKI ATB “Hamkorbank” tajribalari asosida yoritilgan va birqator tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: bank, chakana xizmat, moliyaaiy xizmatlar, aholiga xizmatlar, kredit, plastik kartochka, mobil xizmatlar, onlayn daromad.

DEVELOPMENT OF RETAIL BANKING SERVICES AS ONE OF THE FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Niyozov Zukhur Davrovich
Associate professor of “Banking” Department of Samarkand Institute of Economics and services i.f.n.

Abstract: In the article, expanding the penetration of banks into the regions and ensuring the provision of the same type of services in all settlements, further expanding services to remote areas and rural residents will create many opportunities for Hamkorbank some recommendations were made based on their experience.

Key words: banking, retail services, financial services, consumer services, credit, plastic cards, mobile services, online income.

РАЗВИТИЕ РОЗНИЧНЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ- КАК ОДИН ИЗ ФАКТОРОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Ниёзов Зухур Давронович
К.э.н., Самаркандский институт экономики и сервиса, доцент кафедры “Банковское дело”

Аннотация: В статье расширение проникновения банков в регионы и обеспечение предоставления однотипных услуг во всех населенных пунктах, дальнейшее расширение обслуживания отдаленных районов и сельских жителей создаст множество возможностей для ЧКАБ “Хамкорбанк” на основании их опыта были даны некоторые рекомендации.

Ключевые слова: банковские услуги, розничные услуги, финансовые услуги, бытовые услуги, кредит, пластиковые карты, мобильные услуги, заработок в интернете.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida “Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim”[1].

Chakana bank xizmatlarini ko‘rsatish – bu bank operatsiyalarini amalga oshirishda aholiga ko‘rsatialy-otgan xizmatlarning azaliy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Tijorat banklar tomonidan yuridik tashkilotlarga xizmat ko‘rsatish muntazam amalga oshsada ularni soni chegaralangan va banklararo taqsimlangan. Ayni paytda aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib. Xususan, ko‘p sonli aholiga indivudulal xizmatlar ko‘rsatish, uni tashkil qilishda aholiga ommaviy xizmat ko‘rsatish, qo‘shimcha ofislar,

operatsion kassalar va ayirboshlash shoxobchalari tarmog‘ini yaratish, terminallar, bankomatlar o‘rnatish, autsoring xizmatlarini (pochta, notaral, komunal va boshqa xizmatlar ko‘rsativchilar) tashkil etishni ishlab chiqish va boshqa turli xizmatlar ro‘yxatini keng darajada oshirish zarur. Tijorat banklar tomonidan shahar aholisiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari ommalashgan bo‘lsa-da, uzoq tuman va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatishni yanada kengaytirish ko‘plab imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

Odatda, jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish kam miqdordagi mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ushbu xizmatni amalga oshirishda banklar ushbu sohadagi xarajatlarini minimallashtirishi zaruratini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bugungi kunda ularni bank texnologiyalari asosida avtomatlashtirish zarurligini keltirib chiqarmoqda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qonunchilik va boshqa huquqiy hujjatlar, adabiy manbalar va nashirlar, kuzativ, tadqiqot, tajribali mutaxasilar bilan suhbat, tajribalarning natijalaridan foydalanilanish, xulosa va tavsiyalar berish.

Mamlakatimiz va xorij olimlarining ilmiy ishlarida xususann chakana xizmatlarga aloqador masalalar o‘z aksini topgan. Jumladan, F. Suyarovning “Chakana bank xizmatlari bozori” maqolasida, “Riteyl banking - jismoniy shaxslar uchun ko‘plab bank xizmatlarini yetkazib berishdir” degan xulosa qilingan [2]. Rossiyalik olimlar G. N. Beloglazova, A. M. Tavasiyevlarning fikrlaricha, bank xizmati negizida operatsiya yotadi, ya’ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijozi talabini qanoatlantiradi [3]. A. N. Ivanov bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo‘yicha mijoz talabini qondirish uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank xizmatlari to‘plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritadi [4]. S. Rayimnazarov va B. Izbosarov Tijorat banklarining chakana xizmatlarni rivojlantirish, shu orqali korporativ mijozlar va jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan xizmat va mahsulotlarning hajmi va ko‘lami o‘rtasidagi disproporsiyalarni bartaraf etish masalasi zamonaviy bank ishining murakkab muammolaridan biri hisoblanishini etirof etadilar [5].

TADQIQOT NATIJALARI

Aholiga bank xizmatlari ko‘rsatish dunyoning barcha mamlakatlarida zamonaviy bank ishining muhim xususiyati hisoblanadi. O‘zbekiston tijorat banklari o‘z mijozlariga daromad bazasini kengaytirish, rentabelik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun keng qo‘lamli xizmatlarni taqdim etishga intilmoqda. Jumladan barcha tijorat banklar qatori ChEKI ATB “Hamkorbank” ham ustvor tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, kichik va o‘rta biznes loyihalarini amalga oshirish, korpororativ va chakana mijozlar doirasini kengaytirish, fond birjadagi ish samaradorligini oshirish, bankning instutsional rivojlantirish va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish kabi birqator vazifalarga yo‘naltirilgan, jumladan bank tomonidan chakana biznesga yo‘naltirilgan kreditlar holati 1-jadvalda yoritilgan.

1-jadval: ChEKI ATB “Hamkorbank”da chakana biznes uchun yo‘naltirilgan kreditlar (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	01.01.2022	01.01.2023	O‘sish	Yillik o‘sish		Bajarilishi	
				Reja	Fakt	%	+/–
Chakana biznes	**2 462**	**3 632**	**1,48**	**1 000**	**1 170**	**117,0**	**170,2**
Mikroqarz	1 159	1 303	1,12	305,0	143,7	47,1	–161,3
Avtokredit	716	1 399	1,95	200	683	341,6	483
Iste’mol	63	42,0	0,66	50	–21,2	0,0	–71,2
Ipoteka	524	888,1	1,70	445,0	364,6	81,9	–80,4

08:38. 2023 © “Hamkorbank” ATB. O‘ ...https://hamkorbank.uz/uz/about-bank/*

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki tahlil davrida chakana xizmat miqdori 1170 mlrd. so‘mga oshgan, yoki 2022-yilga nisbattan 17.0 %ga o‘sganligi, bu ayniqsa, bank tomonidan berilayotgan mikroqarz, avtokredit va ipoteka kreditlariga ehtiyojning oshayotganligidan dalolat beradi.

2021-yil holatiga ko‘ra Hamkor bankning 47 ta filiali va 105 ta bank xizmatlari ko‘rsatish shoxobchalari mavjud. 2021-yil – “Yil brendi” [6] mukofoti natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining eng yaxshi banki deb topildi.

Bankning chakana biznes yo‘nalishida 2022-yili quyidagi bir qator iqtisodiy natijalarga erishilganligi* fikrimizga yaqol misol bo‘ladi.

Kredit qoldig‘ini o‘stirish	117 %
Milliy plastik kartochkalarni rasmiylashtirishdan keladigan daromad	249 %
Aholining omonat qoldig‘ini o‘stirish	461 %
Pul o‘tkazmalarini plastik orqali aktiv oluvchilar soni	186 %
Sberbank onlayn daromadi	634 %
SWIFT xizmati daromadi	139 %
Milliy individual plastik kartalarni rasmiylashtirish soni	297 %
VASh amaliyotlari daromadi	197 %
Depozit yacheyka daromadi	116 %
Xalqaro pul o‘tkazmalari daromadi	549 %
Bankomat va plastik kartochkalar daromadi	149 %
Xalqaro plastik karta rasmiylashtirish	92 %
Xalqaro plastik kartochkalar daromadi	89 %
Aktiv ish haqi kartalar sonini o‘stirish rejasi	52 %

08:38. 2023 © “Hamkorbank” ATB. O‘ ...https://hamkorbank.uz/uz/about-bank/*[6]

2023-yilda ChEKI ATB “Hamkorbank”da quyidagi strategik loyihalar chakana biznes yo‘nalishida rejalashtirilgan:

- Kredit konveyeri orqali 100 mln so‘mgacha kreditlarni barcha filiallarda joriy qilish;
- Mijozlarga onlayn savdosini rivojlantirish maqsadida internet ekvayring xizmatini takomillashtirish;
- Masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish;
- Zolotaya korona, Tinkoffbank, MTS Bank ilovalari orqali pul o‘tkazmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri telefon nomer orqali oluvchi kartalariga tushirish xizmatini joriy qilish;
- RIA Money Transfer (AQSh) va UPT (Turkiya) xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlarini bankda joriy qilish;
- Kredit karta va karta rasrochki yangi kredit turlarini amaliyotga joriy qilish.

2023-yilda aholining keng qatlamiga raqamli mahsulotlar to‘plamini taklif etish orqali mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar etib quyidagilar belgilangan:

- Pul o‘tkazmalarini savdo nuqtalari orqali olayotgan mijozlarimizga o‘tkazmalarini masofaviy tarzda olishni o‘rgatish hamda oyma – oy 5%dan o‘sib borish tartibida mijozlarga xizmat ko‘rsatish shaklini karta orqali bo‘lishini ta’minlash;
- Jami omonat portfelida onlayn omonatlar ulushi 01.01.2022 holatiga 7%ni, 01.01.2023 holatiga esa 18%ni tashkil etmoqda. 01.01.2024 holatiga ushbu ko‘rsatkichni 30% ga yetkazish.
- Onlayn mikroqarz ajratishni mavjud ofislar va xodimlardan foydalanib mijozlar orasida keng targ‘ib qilish. Bu orqali xodim vaqt sarfi kamayishiga va ularning asosiy vaqti operatsion xarajati kam bo‘lgan avtokredit, ipoteka kreditlari berishga yo‘naltirish. Bu bilan yuqori marjali mikroqarz kreditlari bozorida ham samarali raqobat qilishga erishish;
- Barcha turdagi plastik kartalarni Mobil ilova orqali onlayn buyurtma berishni yo‘lga qo‘yish va yirik shaharlarda yetkazib berishni joriy etish orqali, aktiv xorijiy kartalar sonini 2 barobarga yoki 60,0 ming donaga va aktiv milliy kartalar sonini 1,3 barobarga yoki 210,0 ming donaga oshirish.

2023-yilda filial va BXOlarda foizsiz daromadlarni muntazam o‘sishini ta’minlash bo‘yicha rejalar va vazifalar:

- Chakana biznes foizsiz daromadlarida BXOlar ulushi 2021-yilda 10%ni, 2022-yilda 23%ni tashkil etdi. 2023-yilda 32% yetkazish ko‘zda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkichni amalga oshirish uchun BXO va filiallarga belgilab berilgan rejalarni oyma-oy bajarilishini nazoratga olish.
- Ish haqi loyihalari doirasida aktiv kartalar sonini 1,3 barobarga yoki 60,0 ming donaga o‘stirish;
- Bank mahsulotlarining taqdim etilgan tasnifi asosida bank faoliyatini modellashtirish va murakkab mahsulotlar turlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ushbu turdagi bank mahsulotlarini tanlash bunda bank faoliyatini turli funksional yo‘nalishlarda o‘rganish, barcha aloqa auditoriyalari manfatlaring o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va bank oldida qo‘yilgan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

XULOSA

Tijorat banklar mamlakatimiz uzoq tuman va qishloq aholisi uchun ham bank xizmatlarini ko‘rsatishni yanada yaxshilash borasida quyidagilarni amalga oshiish tavsiya etamiz;

- xususiy tijorat banklar ham bank xizmatlari ko‘rsatish shoxobchalarini uzoq tuman va qishloq aholisiga yaqinlashtirish,
- uzoq tuman bank xizmat ko‘rsatuvchi shoxobchalar xodimlarini malakasini muntazam bosh bankda oshirib borishni tashkil etish,
- uzoq tuman bank xizmat ko‘rsatuvchi shoxobchalar xodimlarini bosh bank xodmilari bilan o‘zaro “rotatsiya”lash orqali tajribalarini oshirib borish,
- bankning tajribali xodimlari bilan muntazam uzoq tuman bank xizmat ko‘rsatuvchi shoxobchalar xodimlari hamkorligida mahallalarda birkitilgan “Hokim yordamchilari”ni moliyaviy savodxonligini oshirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni
2. Суяров Ф. “Рынок розничных банковских услуг”. Бозор, пул ва кредит журнали. 2022-й. 8-август 15-б.
3. Каримова А. М., Равшанов А. Методы регулирования и стабилизации денежного оборота //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 644-648.
4. Тавасиева А.М. “Дополнительные операции для клиентов” Москва “Ф и С” 2005 г. 13 с.
5. Иванов А.Н. “Банковские услуги: зарубежный и российский опыт” Москва “ФиС” 2022 г. 176 с.
6. Каримова А. М. Анализ и трансформация финансового рынка банковских услуг в новом Узбекист //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
7. Rayimnazarov S., Izbosarov B.Tijorat banklarda chakana bank xizmatlari bo‘yicha tarif siyosatini shakillantirish xususiyatlari. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 5, October 2022. ISSN: 2181-101.
8. O‘zbekiston Respublikasi CHEKI ATB “HAMKORBANK” 08:38. 2023 © “Hamkorbank” ATB. O‘ ...https://hamkorbank.uz/uz/about-bank

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT TA'MINOTI ZANJIRINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Yusupov Muxiddin Soatovich
PhD, Oriental universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida ishlab chiqarishni raqamlashtirish, "Qishloq xo'jaligi 4.0" va "Sanoat 4.0" konsepsiyalari doirasida "aqlli qishloq xo'jaligi" va "aqlli sanoat"ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali oziq-ovqat ta'minoti hamda xavfsizligini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat yetishtirish zanjiri; oziq-ovqat ta'minoti; oziq-ovqat xavfsizliligi; oziq-ovqat ratsioni; to'yib ovqatlanish; ochlikka barham berish; qo'shilgan qiymat zanjiri; raqamli texnologiyalar; aqlli sanoat; aqlli qishloq xo'jaligi; sanoat – 4.0; qishloq xo'jaligi – 4.0.

Abstract: In the article, digitization of production in the chain of food production and processing, food supply by improving the organizational and economic mechanisms of the development of "smart agriculture" and "smart industry" within the framework of the concepts of "Agriculture – 4.0" and "Industry – 4.0" and issues of security strengthening have been researched.

Key words: food production chain; food supply; food safety; food ration; eating well; ending hunger; value added chain; digital technologies; smart industry; smart agriculture; industry – 4.0; agriculture –4.0.

Аннотация: В статье рассматривается цифровизация производства в цепочке производства и переработки продуктов питания, снабжения продовольствием путем совершенствования организационно-экономических механизмов развития "умного сельского хозяйства" и "умной индустрии" в рамках концепции "Сельское хозяйство – 4.0". " и "Индустрия 4.0" и вопросы укрепления безопасности.

Ключевые слова: производственная цепочка продуктов питания; Обеспечение продовольствием; безопасности пищевых продуктов; продовольственный рацион; хорошо питаться; прекращение голода; цепочка добавленной стоимости; цифровые технологии; умная индустрия; умное сельское хозяйство; промышленность – 4,0; сельское хозяйство –4,0.

KIRISH

Bugungi kunda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va barqaror ta'minlash masalasi jahon miqyosida global muammoalardan biriga aylanmoqda. Keyingi yillarda ro'y berayotgan turli inqirozlar, iqlim o'zgarishlari, siyosiy keskinlik va urushlar, pandemiya kabi favqulodda hodisalar tufayli dunyoda ochlik va kambag'allik darajasi ortib bormoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligi rivojlanishi xalqaro jamg'armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog'likni saqlash tashkilotlarining (WHO) hamkorlikda amalga oshirgan tadqiqotlarida qayd etilishicha: jahon bo'ylab ochlik va to'yib ovqatlanmaslik ko'lami COVID-19 pandemiyasi boshlanmasdan oldingiga nisbatan yuqori. 2022-yili 690 dan 783 mln. gacha aholi ochlikdan jabr ko'rgan bo'lib, bu pandemiyagacha bo'lgan davrdagidan 122 mln. kishiga ko'p. Garchi keyingi ikki yilda ochlik ko'lamining o'sish sur'atlari biroz pasayib, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 3,8 mln. kishiga qisqargan bo'lsa-da, dunyoda urushlar va boshqa ziddiyatlar tufayli energoresurslar hamda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi vaziyatni yana chigallashtirmoqda[1].

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2030-yilgacha qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)"ning 2-maqsadi "Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va ovqatlanish ratsionini yaxshilash, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish"ga bag'ishlangan bo'lib, unga erishish murakkab vazifalardan biriga aylanmoqda.

1 ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2023. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2023. Урбанизация, преобразование агропродовольственных систем и здоровый рацион питания в сельско-городском континууме Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cc3017ru

Global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash zanjirida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda raqamlashtirish, jumladan "Sanoat – 4.0" va "Qishloq xo'jaligi – 4.0" konsepsiyalari doirasida "Aqlli sanoat" va "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish bilan uzviy bog'liqlikka ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Global oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bilan bir qator xalqaro tashkilotlar, milliy va xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, bu borada BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligi rivojlanishi xalqaro jamg'armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (WHO), AQSh Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID), shuningdek, D. Krigs, K. Robert, T. Parris, S. A. Gryaznov, N. M. Trendov., S. Varas, M. Szen, D. Ilina, E. Yusupov, D. Djalolova va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin [1; 2; 3; 4; 5; 9; 12; 13].

S.A.Gryaznov fikricha, "aqlli sanoat" keltirib chiqaradigan oqibatlarni anglab yetish biznes va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishni talab etadi. 4-sanoat inqilobi – bu nafaqat texnologik, balki kirib kelayotgan "yuqori texnologiyalar" ortida turgan oqibatlarni tushunish uchun jiddiy yondashuvni talab etadigan ijtimoiy muammo hamdir[2].

FAO tadqiqotlariga ko'ra "qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va avtomatlashtirish BRMning 1-maqsadi "kambag'allikni tugatish" va 2-maqsadi "ochlikni bartaraf etish" hamda ekologik barqarorlik va iqlim o'zgarishlari bo'yicha belgilangan vaziflarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunga tashqi ta'sirlarga barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini yaxshilash va xavfsizligini mustahkamlash evaziga erishish mumkin"[3].

Goldman Sachs Group tahlilchilari N. M. Trendov, S. Varas, M. Szenlarning ta'kidlashicha, ko'pchilik mamlakatlar "an'anaviy qishloq xo'jaligi"dan "aqlli qishloq xo'jaligi"ga bosqichma-bosqich o'tish orqali agrar sektorni jadal rivojlantirishga harakat qilmoqda. Ularning prognozlariga ko'ra, bu borada yangi texnologik yechimlarni qo'llash 2050-yilga borib jahon bo'ylab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini 70 % o'sishiga olib kelishi mumkin. Bu deyarli 800 mln. dollarlik qo'shimcha mahsulot yaratish demakdir[4].

AQSh Xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi (USAID) ekspertlari olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, agrooziq-ovqat sektorida mobil texnologiyalar, ma'lumotlarni masofadan uzatish va qayta ishlash xizmatlarini tarqalishi hozirning o'zida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning axborot, ishlab chiqarish resurslari, bozorlar va moliyaviy xizmatlardan foydalanish hamda ta'lim olish imkoniyatlarini oshirmoqda. Raqamli texnologiyalar kichik fermer xo'jaliklarning raqamli agrooziq-ovqat tizimlariga integratsiyalashuvi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda[5].

E. Yusupov va D. Djalolovalarga ko'ra, raqamli texnologiyalarning agrooziq-ovqat sektori natijalari va oziq-ovqat ta'minoti zanjiri samaradorligiga ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi[6].

MATERIALLAR VA METODLAR

BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida ochlikka barham berish, oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini mustahkamlash, oziq-ovqat sektorida "ishlab chiqarishni raqamlashtirish", "aqlli sanoat" va "aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan xalqaro tashkilotlar ekspertlari, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlashda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP), Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (WHO) va AQSh Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID) ishlanmalari, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.

2 S.A. Gryaznov. Smart industry and smart manufacturing. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 4-2 (55), 2021. –P. 199-201.

3 ФАО. 2022. Положение дел в области продовольствия и сельского хозяйства – 2022. Автоматизация сельского хозяйства как инструмент преобразования агропродовольственных систем. Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cb9479ru.

4 Трендов Н. М., Варас С., Цзен М., Цифровые технологии на службе сельского хозяйства и сельских регионов (справочный документ). Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО ООН). Рим, 2019. С. 8-9

5 USAID, 2018. Digital farmer profile: Reimagining Smallholder Agriculture. Washington D.C.: USAID.

6 E.Yusupov, D.Djalalova. The significance and ways of development of digitalization of the economy in agriculture // TSUE International Online Conference "Sustainable agricultural development and regional cooperation for inclusive growth in Central Asia" 20 - 22 October 2020. P. 11.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarga ko‘ra agrooziq-ovqat tizimlari ekstremal iqlim o‘zgarishlari, ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarga ta’siriga kuchli bog‘liq bo‘lib, jahonda kuchayib borayotgan daromadlar tengsizligi, kambag‘allik, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik kabi global muammolarni chuqurlashtirib bormoqda. Ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik insonlar mehnat qobiliyatini pasayishi va kasalliklarga chalinuvchanligining oshishiga, oxir-oqibatda esa turmush sifatini yomonlashuviga olib kelib, dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘lib qolmokda. Buning oqibatida insoniyatni xavfsiz va to‘laqonli oziq-ovqat bilan jismoniy va iqtisodiy jihatdan barqaror ta’minlash borgan sari qiyinlashmoqda. Jumladan, ekspertlar baholashlariga ko‘ra, 2030-yilga borib jahonda ochlikdan jabrlanuvchilar soni deyarli 600 mln. kishini tashkil etishi mumkin. Bu pandemiya va urushlar sodir bo‘lmagan holatdan oldin tuzilgan stsenariyaga nisbatan 119 mln. kishiga ko‘p demakdir. Bundan tashqari: 2022-yilda jahondagi 2,4 mlrd. kishi yetarli hajmdagi xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat olish im koniyatiga ega bo‘lmagan; 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 148 millioni to‘yib ovqatlanmaslik oqibatida bo‘yi o‘smay qolishdan va 45 millioni ozib ketishdan jabr ko‘rmoqda; 2022-yilda dunyo aholisida ochlikdan qiynalganlar salmog‘i 9,2 %ni tashkil etgan[7].

O‘zbekiston Respublikasida BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” doirasida kambag‘allikni qisqartirish, to‘yib ovqatlanmaslikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida tizimli chora-tiadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar” va boshqa me’yoriy hujjatlarda bu borada muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Keyingi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida respublikamiz Global ochlik indeksida (GHI) o‘z pozitsiyasini yaxshilab borib, 2023-yilda 125 mamlakat ichida 21-o‘rinni egalladi va 5,0 ball bilan ochlik darajasi past bo‘lgan mamlakat deb e’tirof etildi[8].

BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ning aksariyati, ya’ni ochlikni bartaraf etish va kambag‘allikni qisqartirish, tabiiy resurslarni asrash va atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish kabi o‘ta muhim vazifalar birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti bilan bog‘liq. Ta’kidlash joizki, “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da ko‘zda tutilgan 17 ta global maqsadning 12 tasi agrar va oziq-ovqat masalalariga bevosita yoki bilvosita tegishli.

Ayrim mamlakatlarda yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi, aholi jon boshiga ekin maydonlarining qisqarib borayotganligi, hosilni yig‘ib olish, tashish va saqlash jarayonlarida yo‘qotishlarning ko‘pligi kabi omillar oziq-ovqat yetishmovchiligini keltirib chiqarayotgan asosiy sabablardan sanaladi. Bugungi kunda yer shari aholisining 2,6 milliardi yoki 33 % dan ziyodi asosan qishloq xo‘jaligi hisobiga kun kechirayotgan bir paytda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 52 %i kuchli degradatsiyaga uchraganligi oqibatida tuproq unumdorligi sezilarli darajada pasaygan. Qurg‘oqchilik va cho‘llashuv jarayonlari natijasida har yili 12 million gektar yer (har minutda 23 gektar) foydalanishdan chiqib ketmoqda. Vaholanki bu maydonlarda har yili 20 million tonnagacha don yetishtirish mumkin edi. Yerlarning degradatsiyasi dunyodagi 74 % kambag‘al aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shu bilan birga sayyoramiz iqlimining keskin o‘zgarishi, “global isish”, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar qishloq xo‘jaligi samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosilini yig‘ish, tashish, saqlash va yetkazib berish tizimidagi nuqsonlar tufayli har yili 1 milliard dollarga teng bo‘lgan 1,3 milliard tonna oziq-ovqat mahsulotlari nobud bo‘lmoqda[9].

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish birinchi navbatda oziq-ovqat yetishtirish uchun zarur bo‘lgan ekin maydonlari, o‘rmonlar va boshqa tabiiy resurslardan maksimal darajada samarali hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan optimal foydalanishni ko‘zda tutadi. Agar insoniyat tabiiy resurslardan oqilona foydalanmasa, aholining bugungi ehtiyojlarini to‘liq qondirish va kelgusi avlodlarni ta’minlash vazifasi qiyinlashadi.

Agrar sektor respublikada oziq-ovqat ta’minotining asosiy manbalari sifatida qaraladi. Bu tarmoq aholiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. O‘zbekiston Respublikasida 2012–2022-yillarda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori o‘sib borish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, shu davrda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi sabzavot bo‘yicha 20,0, kartoshkada 39,8, polizda 42,6, meva va rezavorlarda 22,1, tirik vaznda go‘sht yetishtirishda 37,1 va sutdada 32,9 % o‘sishni qayd etgan (1-jadval).

7 ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2023. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2023. Урбанизация, преобразование агропродовольственных систем и здоровый рацион питания в сельско-городском континууме Рим, ФАО. –С. 9. https://doi.org/10.4060/cc3017ru

8 Global Hunger Index (GHI), (2023). Global Hunger Index scores by 2023 GHI rank. www.globalhungerindex.org.

9 https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals.

1-jadval: Respublikada aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2012-yil	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yil 2012-yilga nisbatan % da
Qishloq xo‘jaligini YaIMdagi salmog‘i	%	32,6	31,8	32,1	30,0	26,8	25,1	–7,1 f.p.
Qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘sish sur’atlari	%	107,2	106,3	106,3	100,2	102,9	103,6	–3,6 f.p.
Aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish								
Don	kg	222,1	226,2	259,4	198,3	221,0	224,1	100,9
Sabzavot	kg	260,9	301,9	319,8	296,2	301,8	313,1	120,0
Kartoshka	kg	69,1	79,7	87,6	88,4	91,0	96,6	139,8
Poliz	kg	47,6	55,1	64,2	55,7	61,8	67,9	142,6
Meva va rezavorlar	kg	68,9	81,0	82,0	82,1	81,4	84,1	122,1
Uzum	kg	40,5	46,9	50,7	48,2	46,5	49,4	122,0
Go‘sht (tirik vaznda)	kg	55,8	61,4	68,2	73,7	73,6	76,5	137,1
Sut	kg	245,5	278,8	304,7	317,6	320,7	326,2	132,9
Tuxum	dona	130	164	193	226	227	228	175,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Agrar sektor bilan bir qatorda oziq-ovqat sanoati ham O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tarmoq aholiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportga chiqarish imkonini beradi.

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati rivojlanishini ko‘rsatkichlarini tahlil etish shundan darak beradiki, tahlil etilayotgan 2012-2022-yillarda oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning jami sanoatdagi salmog‘i 18,3 dan 13,8 %ga yoki 4,5 foiz punktga qisqargan. Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishni yillik o‘sish sur’atlari esa 4,7 dan 5,4 ga yoki 0,7 foiz punktga oshgan. Ammo 2022-yilda 2012-yilga nisbatan natura ko‘rinishida ishlab chiqarish sut va sut mahsulotlarida 77,4, pishloq va brinzada 134,2, kolbasa mahsulotlarida 103,7, shakarda 103,5, makaron mahsulotlarida 18,5, un ishlab chiqarishda 78,5 va qandolat mahsulotlarida 231,2 %ga oshgan. Faqat non va non mahsulotlari (9,7 %) hamda o‘simlik yog‘i (59,2 %) ishlab chiqarishda kamayish qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval: Respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlanish dinamikasi

Qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	O‘lchov birligi	2012-yil	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yil 2012-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishni jami sanoatdagi ulushi	%	18,3	20,4	23,9	13,5	14,0	13,8	–4,5 f.p.
Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘sish sur’atlari	%	104,7	109,1	108,2	100,9	107,9	105,4	+0,7 f.p.
Naturada asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish								
Go‘sht va go‘sht mah-suloti	ming t.	198,5	221,1	287,2	244,3	189,9	213,0	107,3
Sut va sut mahsulot-lari	ming t.	319,0	375,1	546,3	558,2	589,7	566,0	177,4
Pishloq va brinza	ming t.	3,8	5,7	11,6	9,0	10,3	8,9	234,2
Kolbasa mahsulotlari	ming t.	18,9	27,3	43,5	29,2	38,1	38,5	203,7
O‘simlik yog‘i	ming t.	236,0	230,0	223,6	209,8	181,9	96,3	40,8
Shakar	ming t.	323,1	425,5	535,0	68,8	188,8	657,7	203,5
Makaron	ming t.	77,3	93,0	125,0	110,2	121,7	91,6	118,5

Non va non mahsulotlari	ming t.	1062,0	1084,5	1575,3	1473,9	1404,9	970,1	91,3
Un	ming t.	1820,3	1979,3	2268,2	2733,5	3509,6	3250,1	178,5
Qandolat mahsulotlari	ming t.	43,6	59,2	141,5	120,5	129,7	144,4	331,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tahlil etilgan 1 va 2-jadvallardan ma’lumki, 2012-2022-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sish tendensiyalarini namoyon etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra 2019-2021-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksportga chiqarish bo‘yicha jami umumiy qiymati 5,9 trln. so‘mlik 952 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularning quvvati 2888 ming tonnani tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasida 2019-2021-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar

Loyihalar yo‘nalishlari	Loyihalar		Loyihalarni moliyalashtirish manbalari		
	soni	qiymati, mlrd so‘m	o‘z mablag‘lari, mlrd so‘m	bank kreditlari, mlrd so‘m	xorijiy kredit va investitsiyalar, mln. AQSh doll.
Meva-sabzavotni qayta ishlash	179	1426,0	737,7	284,9	37,0
Go‘sht va sutni qayta ishlash	149	900,0	520,8	287,5	8,4
Boshqa oziq-ovqat ishlab chiqarish loyihalari	607	2817,0	1180,0	394,0	114,0
Agrologistika markazlari	17	757,0	270,0	376,0	10,1
Sovutkichli omborxonalar bo‘yicha loyihalar	1314	825,0	366,0	95,0	33,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. www.agro.uz

Loyihalarni amalga oshirilishi yo‘nalishlari bo‘yicha qaraganda:

- meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha – umumiy qiymati 1426,0 mlrd so‘mlik 179 ta loyiha;
- go‘sht va sutni qayta ishlash bo‘yicha – umumiy qiymati 900,0 mlrd so‘mlik 149 ta loyiha;
- boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha - umumiy qiymati 2817,0 mlrd so‘mlik 607 ta loyiha;
- agrologistika markazlarini barpo etish bo‘yicha - umumiy qiymati 757,0 mlrd so‘mlik 17 ta loyiha;
- sovutkichli omborxonalar barpo etish bo‘yicha - umumiy qiymati 825,0 mlrd so‘mlik 1314 ta loyiha lar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4406-sonli Farmoni, 2020-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4821-sonli va boshqa me’yoriy hujjatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash asosida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, investitsiyalar jalb etish evaziga qayta ishlash sanoati korxonalarini qurish va modernizatsiyalash, logistika va saqlash tizimlarini kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ammo jahon taraqqiyotida yuz berayotgan global o‘zgarishlar sharoitida (pandemiya, iqlim o‘zgarishlari, siyosiy keskinliklar va ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar) agrar va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari past bo‘lib, barqaror oziq-ovqat ta’minoti hamda xavfsizligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan:

1. **Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida:**

- tarmoqda band aholining jami bandlarga nisbatan salmog‘i rivojlangan mamlakatlarda 1,3–5 % ni tashkil etsa, respublikamizda bu ko‘rsatkich salkam 25 % ni tashkil etadi (2022-y.) va bu holat faol mehnat resurslarining katta qismini agrar sektorda unumsiz mehnat bilan band bo‘lishiga olib kelmoqda;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- ekinlarning hosildor, kasalliklar va suvsizlikka chidamli, saqlash va tashish imkoniyatlari yuqori bo‘lgan sifatli navlari, urug‘liklar yetishmaydi; ularni rayonlashtirish va optimal joylashtirish, ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan;
- sug‘orishda eski an’anaviy usullardan foydalanilishi suv taqchilligi sharoitida ortiqcha suv sarflanishiga va yer osti sizot suvlari ko‘tarilib ketishiga, natijada sug‘oriladigan ekin maydonlarining 45 foizdan ortig‘ini u yoki bu darajada sho‘rlanishiga va ekinlar hosildorligining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda;
- qishloq xo‘jaligi texnika parki eskirgan (2022-yilda yer haydash traktorlarining 45, yer yumshatgich traktorlarning 59, g‘alla o‘rish kombaynlarining 41, kultivatorlarning 60, pluglarning 53 %i 11 yildan ortiq xizmat qilgan[10]) va ularni yangilanish darajasi past, tarmoqda yuqori unumli texnika vositalari, mashina va uskunalar hamda zamonaviy agrotexnologiyalar yetishmaydi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari agrokimyoviy tuproq tahlili, ekinlarni sputnik navigatsiya tizimlari orqali optimal joylashtirish, vegetatsiya davrida avtomatik oziqlantirish va kuzatib borish bo‘yicha elektron platformalarga ega emas;
- chorvachilikda aksariyat ish jarayonlari qo‘l kuchi yordamida amalga oshiriladi, chorva mollarini oziqlantirish va ularning organizmini kuzatib borish hamda chorvachilikdagi boshqa ish jarayonlarini avtomatik rejimda amalga oshiradigan ilg‘or texnologiyalar deyarli qo‘llanilmaydi.

2. **Oziq-ovqat sanoati tarmog‘ida:**

- qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash darajasi (2020-yilda sabzavotlarning 6,1, meva va rezavorlarning 19,0, uzumning 9,2, go‘shtning 5,8 va sutning 15.3 %i[11]) mavjud imkoniyatlar va resurslarga mos kelmaydi);
- qayta ishlash korxonalarining quvvatlaridan foydalanish darajasi past, ularda moddiy va ma’naviy jihatdan eskirgan asbob-uskunalar salmog‘i katta (2020-yili asosiy faoliyatga taalluqli asosiy vositalarning eskirish darajasi - 34,3 %, chiqib ketish koeffitsiyenti – 7,5 %[12]);
- jahon andozalariga mos keluvchi va zamonaviy raqamli texnologiyalarga (to‘liq avtomatlashgan robotli tizimlar, “ulkan ma’lumotlar” (Big Data), “bulut”li texnologiyalar) asoslangan “aqlli fabrikalar va zavodlar” yetishmaydi;
- qishloq xo‘jaligi xomashyosi yetishtirib beruvchilar hamda qayta ishlash korxonalarining kooperatsiyasiga asoslangan hamda yagona elektron platforma orqali bog‘langan zamonaviy sexlar, sovitish kameralari, saralash va qadoqlash punktlari hamda ularni tashish bilan shug‘ullanuvchi maxsus transport-logistika tizimlari yetarli darajada shakllanmagan va boshqalar.

Bular oqibatida respublikamiz aholisini o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq aholisining bandligi, moddiy farovonligini oshirish hamda ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirish masalalari yetarlicha o‘z yechimini topmasdan qolmoqda.

Ko‘pchilik olimlar va soha mutaxassislarining fikricha, global oziq-ovqat ta’minoti va xavfsizligini ta’minlash masalasini tarmoqlarga raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar kiritish, bir so‘z bilan aytganda, “Qishloq xo‘jaligi 4.0” va “Sanoat 4.0” konsepsiyalari doirasida “Aqlli sanoat” va “Aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish orqaligina hal etish mumkin. Masalan, “Future Market Insights” tahlilchilariga ko‘ra, dunyoda “aqlli qishloq xo‘jaligi”ga o‘tish sekinlik bilan, ammo ishonchli tarzda amalga oshirilyapti. Bozorning katta qismi (53 %i) Shimoliy Amerikada joylashgan. Bu AQSh fermerlari tomonidan aqlli innovatsiyalarga bo‘lgan kuchli qiziqish bilan bog‘liqdir. IT-texnologiyalar yer maydonlarida asosan don ekinlari yetishtirishda faol qo‘llanilyapti va bu “aniq dehqonchilik” nomi bilan atalyapti. Umuman olganda, “Goldman Sachs Group” tahlilchilari ko‘plab mamlakatlar “analog”dan “aqlli”ga o‘tish orqali o‘z qishloq xo‘jaligini faol rivojlantirib borayotganini ta’kidlashgan. Ularning prognoziga ko‘ra, yangi texnologik yechimlarni joriy etish bilan 2050-yilga borib dehqonchilikni dunyo bo‘yicha 70 foizga oshirishga erishish mumkin. Bu deyarli 800 mlrd. dollarlik qo‘shimcha mahsulot demakdir[13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli, 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-

10 O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari. www.agro.uz
11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz.
12 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz.
13 Endi qishloq xo‘jaligi tizimi ham “aqlli” bo‘ladi. https://www.xabar.uz/ texnologiya/endi-qishloq-xojaligi-tizimi-ham-aqlli-boladi.

kamasining 2020-yil 17-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuyi va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-sonli qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishining zamonaviy shakllarini qo‘llash va maksimal darajada avtomatlashtirish, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkonini beruvchi innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish borasida vazifalar belgilab berilgan.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO UN) tadqiqotlariga ko‘ra barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirini raqamlashtirish yoki “aqlli sanoat” va “aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, kommunikatsiyalarni kengaytirish va yuqori inklyuzivlik hisobiga agrar sektorda unumdorlikni va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangilanayotgan bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ammo tarmoqda raqamli transformatsiyani amalga oshirishning tayanch shart-sharoitlari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- raqamli texnologiyalarni qo‘llashga imkon yaratuvchi minimal sharoitlar: raqamli texnologiyalarning mavjudligi; ularga jismoniy va moliyaviy ulanish imkoniyatlari; aholining kompyuter savodxonligi darajasi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta’lim berish darajasi; raqamli texnologiyalar sohasidagi siyosiy chora-tadbirlar (elektron Hukumat va boshq.);
- raqamli texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi (yo‘ldosh) sharoitlar: Internet, mobil aloqa va ijtimoiy tarmoqlarning tarqalganligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari; raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari; tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlanishi (biznes-inkubatorlar, startaplar va boshqa innovatsion dasturlar)[14].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida raqamli texnologiyalarga asoslangan “aqlli sanoat” va “aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish orqali “Sanoat 4.0” va “Qishloq xo‘jaligi 4.0” innovatsion rivojlanish fazasiga kirib borilmoqda. Ishlab chiqarishga raqamlashtirilgan innovatsion texnologiyalarni, xususan: keng tarmoqli internet, mobil aloqa, axborot texnologiyalari (sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqarish platformasi), mashina va asbob-uskunalar (haydovchisiz boshqariladigan o‘ziyurar traktor va mashinalar, uchuvchisiz boshqariladigan dronlar, sensorli datchiklar, boshqarish elementlari) qo‘llash natijasida “aqlli sanoat”, “aqlli fabrikalar” (intelligent manufacturing), “ulkan ma’lumotlar” (Big Data), “bulut”li texnologiyalar (cloud technologies), “aqlli qishloq xo‘jaligi”, “aqlli bog‘”, “aqlli issiqxona”, “aqlli ferma” kabi ilg‘or xo‘jalik yuritish usullari kirib kelmoqda (4-jadval) .

4-jadval: Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zanjirini raqamlashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalar

Mamlakatlar	Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zanjirini raqamlashtirish yo‘nalishlari va natijalari
Niderlandiya	Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, samarali logistika tizimi va yuqori mehnat unumdorligi Niderlandiyani bu borada yetakchi pozitsiyaga olib chiqdi. Vageningin universiteti g‘oyasi asosida “oziq-ovqat vodiysi”ni yaratilishi mamlakatni oziq-ovqat eksporti va raqamli texnologiyalar bo‘yicha yetakchilardan biriga aylantirdi. 2020-yil natijalari bo‘yicha Niderlandiya axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi darajasini ifodalovchi tarmoq tayyorgarligi indeksida birinchi o‘rinni egalladi.
Germaniya	Germaniya oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida fan va biznes vakillaridan tashkil topgan ekspert guruhlari va “raqamli maydon”ni shakllantirish orqali turli tajribalar olib borilmoqda. Asosiy e’tibor qishloq hududlarida raqamli infratuzilmalar va keng polosali internetni rivojlantirishga qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoj-lanishi darajasini ifodalovchi tarmoq tayyorgarligi indeksida Germaniya 12 o‘rinni egallaydi
Isroil	Raqamli texnologiyalarning asosiy farqli xususiyati raqobatbardoshlik muammosini hal etishga fanlararo yondashuvning mavjudligidir. Innovatsion tadqiqotlar boshida Vulkani tadqiqot markazi turadi. Raqamlashtirish bo‘yicha xalqaro reytinglarda yuqori pozitsiyalarni egallab keladi. Masalan global innovatsion indeksda Isroil 15 o‘rinni egallagan
Polsha	Polshada agrosanoat majmuasini raqamlashtirish borasidagi davlat siyosatining o‘ziga xosligi raqamli texnologiyalar vositasida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda davlat tomonidan ishlab chiqarishni tartibga solishni soddalashtirishga qaratilgan. Mamlakatda fermerlar uchun “yagona darcha” elektron platformasi mavjud bo‘lib, u orqali fermerlarga kerakli yordam va servis xizmatlari ko‘rsatish amalga oshiriladi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksida Polsha 24 o‘rinni egallaydi

Манба: Международный опыт развития цифровизации в АПК: государственная поддержка, регулирование, практика. Евразийская экономическая комиссия. Москва, 2018. https://eec.eaeunion.org/upload/medialibrary/d62/. –С. 8-9.

14 Н.М.Трендов, С.Варас и М. Цзен. Цифровые технологии на службе сельского хозяйства и сельских районов (справочный документ). Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО). Рим, 2019. – С. 8-9

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ma'lumki, raqamli texnologiyalardan foydalanish va raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

I. Abdullayeva va B. Ahmedovlarning fikricha, "aqlli qishloq xo'jaligi"dan foydalangan holda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- "aqlli issiqxonalar" o'g'itlar, kimyoviy moddalar va suvdan samaraliroq foydalanish hamda ekinlarni parvarish qilish uchun zarur bo'lgan xodimlar sonini optimallashtirishga, shuningdek, inson omili ta'sirida yuz beradigan yo'qotishlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu butun sug'orish jarayoni va mikroiqlimni nazorat qilish imkonini beradi.. Bundan tashqari, barcha tizimlarning rentabelligi va sifatini nazorat qilish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish bilan birga, unumdorlikni 20-40% ga oshirish imkonini beradi;
- dron va multikopterlardan ekin maydonlarini xaritalash uchun foydalanish mumkin. Ulardan, shuningdek, dalalarning elektron 3D xaritalarini yaratish, o'g'it solish me'yorlarini hisoblash, dalalarni tekshirish va ekinlar holatini kuzatish, o'simliklar haroratini o'lchash (ayniqsa, qurg'oqchilik davrida), transport va qishloq xo'jaligi texnikalarining ishlashini nazorat qilish, yer maydonlarini qo'riqlash, o'simliklarni himoya qilish va o'g'itlashning optimal vositalarilarini tanlashda foydalanish mumkin;
- aqlli fermalar chorvachilik mahsuldorligi va mahsulot sifatini oshirishi, shuningdek, xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Oziqlantirish, sog'ish va hayvonlar salomatligini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish sog'in sigirlar mahsuldorligini 30-40 foizga oshirishi va mavjud ozuqa zaxiralaridan samarali foydalanish imkonini beradi[15].

Tractica kompaniyasi hisob-kitoblariga ko'ra, 2024 yilga borib agrosanoat majmuasiga 594 ming donagacha qishloq xo'jaligi robotlari yetkazib beriladi. Tahlilchilar raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llashning quyidagi muhim yo'nalishlariga e'tibor qaratishadi:

- uchuvchisiz traktorlar va samolyotlar;
- moddiy resurslarni boshqarish;
- vegetatsiya davrida ekinlarni parvarish qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari;
- chorvachilik fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari[16].

Respublikamiz agrar sektoriga "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi 4.0" Konsepsiyasini joriy etish ishlari endi boshlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuyi va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda raqamli axborot texnologiyalarini joriy etish;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish orqali suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish;
- intensiv bog'lar tashkil etish va bog'dorchilikda avtomatlashtirilgan boshqarish texnologiyalarini joriy etish;
- issiqxona xo'jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlash-tirilgan intellektual texnologiyalarni joriy etish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan logistika va savdo markazlarini tashkil etish;
- "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etishning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston agrar sektoriga raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'lami o'ta tor doirada bo'lib, bu strategiya doirasida qo'yilgan maqsad va

15 Abdullayeva I.M., Axmedov B.R. "Aqlli" qishloq xo'jaligi – xorij tajribasi va innovatsion texnologiyalar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil. 3-5 b.

16 Karimov N., Qulmatova B., Buranova D. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. P. 4.

vazifalarning nafaqat respublikamiz, balki dunyo miqyosida ham endigina kengayib borayotganligi va nisbatan yangiligi bois, zaruriy axborot manbalari va boshqa vositalarni olish imkoniyati cheklanganligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishda murakkab IT texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari hamda yuqori malakali mutaxassislardan foydalanishni talab etishi bilan bog'liq. Masalan, raqamli texnologiyalarni qo'llash asosan Internet tarmog'ining rivojlanganligiga bog'liq bo'lib, "hozirgi kunda internet tarmog'iga bog'lanishda asosiy texnologiya sifatida 4G qaralayotgan, hamda jahon bo'ylab 90 foiz abonet 3G dan kam bo'lmagan texnologiya bo'yicha bog'lanish imkoniyatiga egaligiga qaramay, sust rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholisining uchdan bir qismigina 3G texnologiyali tarmoqdan foydalanadi[17].

Mutaxassislarning fikricha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari mavsum davomida 40 dan ortiq turli qarorlar qabul qilishlari zarur bo'ladi. Ushbu yechimlarning aksariyati ishlab chiqarish unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan raqamlashtirishga bog'liq. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarining yetishmasligi yoki ortiqcha ishlatilishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, qurg'oqchilik, cho'llanish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Mutaxassislarning fikricha, hosilning 33 foizi ekish, yetishtirish, saqlash va tashish jarayonlarida nobud bo'ladi. Hozirgi vaqtda mavjud yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi "aqlli" fermerlik yoki "aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalari katta ahamiyatga ega[18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida quyidagi xulosa tavsiyalarni ilgari suramiz:

- agrar ishlab chiqarishni zamonaviy texnikalar, mashinalar va uskunalar bilan ta'minlash darajasini keskin oshirish hamda ekinlarni parvarishlashning intensiv, resurs tejovchi va zamonaviy agrotexnologiyalarini joriy etishni kengaytirish;
- raqamli texnologiyalarga asoslangan "Qishloq xo'jaligi 4.0" va "Sanoat 4.0" konsepsiyalarini qo'llashning ahamiyati hamda nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni kengaytirish;
- raqamli texnologiyalar asosida "Sanoat-4.0" konsepsiyasini joriy etishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini yaratish hamda bu borada fan-texnika yutuqlarini joriy etish;
- avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarni qo'llashga asoslangan "aqlli sanoat", "aqlli fabrikalar" (intelligent manufacturing), "ulkan ma'lumotlar" (Big Data), "bulut"li texnologiyalar (cloud technologies), "agrosanoat majmuyi boshqaruvida raqamlashtirilgan texnologiyalar", "aniq dehqonchilik", "aqlli dala", "aqlli bog'", "aqlli issiqxona" va "aqlli chorva fermasi" kabi innovatsion usullarni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqarish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash;
- O'zbekiston agrooziq-ovqat tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etilishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning hozirgi holatini tahlil etish asosida bu borada mavjud muammolar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash hamda ularning yechimini topish ustida izlanishlar olib borish;
- raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi ekinlarini optimal joylashtirish, oziq-ovqat va resurslar bozorlari kon'yukturasini prognozlashning balanslashgan muvozanatlik va iqtisodiy-matematik modellariini tuzish va prognozlash;
- rivojlangan mamalakatlarda "aqlli sanoat" va "aqlli qishloq xo'jaligi" hamda raqamli texnologiyalar tizimini qo'llash tajribalarini o'rganish asosida ularning maqbullarini tanlash hamda respublikamiz sharoitlariga moslashtirib qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda zamonaviy intellektual texnologiyalar, jumladan: haydovchisiz boshqariladigan o'ziyurar texnika va mashinalar, kamera va sensorlar bilan ta'minlangan navigatsiya dronlari, chorva mollari va ekinlar organizmi, tuproq namligi va mikroklimatni kuzatib boruvchi datchiklar, chorva fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish platformalari kabi aqlli yechimlarni ishlab chiqishda neyrotarmoq dasturini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha amaliy yo'riqnomalar yaratish;
- turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish sohalarida ilmiy-tadqiqotlar olib borish, qishloq xo'jaligida gen injeneriyasi borasida to'plangan jahon tajribalaridan keng foydalangan holda milliy tizimni yaratish;

17 Н.М.Трендов, С.Варас и М. Цзен. Цифровые технологии на службе сельского хозяйства и сельских районов (справочный документ). Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО). Рим, 2019. – С. 8-9.

18 N. Karimov, B. Qulmatova, D. Buranova. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. P. 4.

- oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, birlamchi va chuqur qayta ishlash hamda sotish jarayonlarini yagona raqamli platformaga bog‘lash orqali “qo‘shilgan qiymat zanjiri”ni kuzatib borish va tizimda mahsulotlar nobud bo‘lishi bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Fikrimizcha, bu chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2023. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2023. Урбанизация, преобразование агропродовольственных систем и здоровый рацион питания в сельско-городском континууме Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cc3017ru.
2. С.А. Грязнов. Умная промышленность и умное производство. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 4-2 (55), 2021. –С. 199-201.
3. ФАО. 2022. Положение дел в области продовольствия и сельского хозяйства – 2022. Автоматизация сельского хозяйства как инструмент преобразования агропродовольственных систем. Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cb9479 ru.
4. FAO, (2015). FAO and the 17 Sustainable Development Goals. http://www.fao.org/3/i4997e/i4997e.pdf.1.
5. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. 2022. The State of Food Security and Nutrition in the World 2022. Repurposing food and agricultural policies to make healthy diets more affordable. Rome, FAO. https://doi.org/10.4060/cc0639en
6. Работа с целью ликвидации голода. Учебная тетрадь. Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объеденных наций (ФАО ООН). ФАО, 2018. – С. 4.
7. Н.М. Трендов, С. Варас, М. Цзен, Цифровые технологии на службе сельского хозяйства и сельских регионов (справочный документ). Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО ООН). Рим, 2019. С. 8-9.
8. USAID, 2018. Digital farmer profile: Reimagining Smallholder Agriculture. Washington D.C.: USAID.
9. E. Yusupov, D. Djalalova. The significance and ways of development of digitalization of the economy in agriculture // TSUE International Online Conference “Sustainable agricultural development and regional cooperation for inclusive growth in Central Asia” 20 - 22 October 2020. P. 11.
10. Global Hunger Index (GHI), (2023). Global Hunger Index scores by 2023 GHI rank. www.globalhungerindex.org.
11. Endi qishloq xo‘jaligi tizimi ham “aqlli” bo‘ladi. https://www.xabar.uz/ texnologiya/endi-qishloq-xojaligi-tizimi-ham-aqlli-boladi.
12. I.M. Abdullayeva, B.R. Axmedov “Aqlli” qishloq xo‘jaligi – xorij tajribasi va innovatsion texnologiyalar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil. 3-5 b.
13. N. Karimov, B. Qulmatova, D. Buranova. Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. P. 4.
14. Международный опыт развития цифровизации в АПК: государственная поддержка, регулирование, практика. Евразийская экономическая комиссия. Москва, 2018. https://eec.eaeunion.org/upload/medialibrary/d62/. –С. 8-9.

O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI INVESTITSIYA JALB QILISH IMKONIYATLARI

Asatullayev Alisher
“Asakabank” AJ Ijro apparati departament direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahlliy va xorijiy olimlarning tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarni kreditlash amaliyotini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy qarashlari shuningdek, tijorat banklari moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy jihatlari, boshqarishning zarurligi va o‘ziga xos jihatlari hamda boshqa qator jihatlari atroflicha o‘rganildi va tadqiq etildi. Tadqiot material va metodlariga ko‘ra mavzu yuzasidan bir qator xorijiy hamda mamlakatimizning iqtisodchi-olimlari tomonidan berilgan ta’riflar hamda fikrlari o‘rganilib, muallif tomonidan sharhlanib ularning mazmuni ochib berilgan. Korporativ mijozlarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida faollikni oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash asosida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, resurs, aktiv, majburiyat, depozit, kapital, investitsiya, jalb qilingan mablag‘, regulyativ kapital, qimmatli qog‘ozlar.

Abstract: In this article, the scientific views of local and foreign scientists dedicated to the development of the practice of lending to corporate clients by commercial banks, as well as the theoretical aspects of the management of financial resources of commercial banks, the necessity and specific aspects of management, and a number of other aspects were thoroughly studied and researched. According to research materials and methods, the definitions and opinions given by a number of foreign and domestic economists-scientists on the topic were studied, and the author explained their meaning. Scientific conclusions and practical proposals have been developed on the basis of increasing activity in all sectors of the economy, ensuring economic growth, and achieving macroeconomic stability by improving the practice of lending to corporate clients.

Key words: commercial bank, resource, asset, liability, deposit, capital, investment, attracted funds, regulatory capital, securities.

Аннотация: В данной статье представлены научные взгляды отечественных и зарубежных ученых, посвященные развитию практики кредитования корпоративных клиентов коммерческими банками, а также теоретические аспекты управления финансовыми ресурсами коммерческих банков, необходимость и особенности управление, а также ряд других аспектов были тщательно изучены и исследованы. По материалам и методам исследования были изучены определения и мнения, данные рядом зарубежных и отечественных экономистов-ученых по теме, и автор объяснил их смысл. Научные выводы и практические предложения разработаны на основе повышения активности во всех отраслях экономики, обеспечения экономического роста и достижения макроэкономической стабильности за счет совершенствования практики кредитования корпоративных клиентов.

Ключевые слова: коммерческий банк, ресурс, актив, обязательство, депозит, капитал, инвестиции, привлеченные средства, регулятивный капитал, ценные бумаги.

KIRISH

Bank kreditlari hozirgi zamon iqtisodiyotining muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. Rivojlangan iqtisodiyotda bank kreditlarisiz barqaror iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bank kreditlari iqtisodiyot rivojiga to‘g‘ri-to‘g‘ridan ta’sir etadi, shuningdek, iqtisodiyotning yuqori darajadagi rivojiga erishish rivojlangan kredit tizimini barpo etishni ta‘lab etadi.

E’tirof etish joizki, tijorat banklarining kreditlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Chunki, aynan kreditlash amaliyotini takomillashtirish orqali iqtisodiyotning barcha sohasida ishchan faollikni oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash asosida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. “... Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda biznes subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo‘lib qolmoqda” [1]. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining faol tarkibiy subyekti hisoblangan korporativ mijozlar faoliyatining barqaror rivojlanishi bank tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda tijorat banklari tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan innovatsion kompleks bank xizmatlari, jumladan, innovatsion kreditlash xizmatlarini yangi sifat ko‘rsatkichlariga olib chiqish talab etiladi.

Moliya va kredit tarixiy tushuncha sifatida jamiyatning tabaqalanishi natijasida, davlatning tarkib topishi bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan. Davlatning rivojlanishi bilan tijorat banklari kreditlash amaliyotini ham tarkib topishi va rivojlanishiga manbalar yaratib borilgan. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, har qanday iqtisodiy munosabatlar talab va taklifning o‘zaro mutanosibligi orqali kelib chiqadi va rivojlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992 sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish” [2] vazifalari mamlakatimizda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masalalardan bir ekanligi qayd etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

E. A. Muminovaning ilmiy ishlarida tijorat banklari kredit emissiyasinp tartibga solish orqali kredit portfelining sifatini oshirish yo‘nalishlari va kredit ekspansiyasini rag‘batlantirish. Monetizatsiya darajasini oshirish yo‘llarini taklif qilgan [3].

I. Y. Qulliyev esa, kredit bahosiga oid nazariyalarning qiyosiy tahlili asosida tijorat banklari kreditlari bahosining shakllanishiga xos bulgan xususiyatlarni asoslab, shuningdek, respublikamiz tijorat banklarida kreditlar baxosini shakllantirish uchun xos bulgan tendensiyalar aniqlab bergan [4].

S. A. Nuriddinov o‘z ilmiy tadqiqotida aholi pul daromadini kreditlashga safarbar etish yo‘llarini belgilab bergan. Ushbu olim aholi daromadlarini bankga jalb qilib, ushbu mablag‘larni kreditlashga yo‘naltirish ham aholi, ham tadbirkorlik subyektlari hamda banklarning daromadliligini oshishiga olib kelishini yoritib bergan [5].

Prof. J. Y. Isakovning ilmiy tadqiqotida esa, xizmat ko‘rsatish sohasiga kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan lizing xizmatlari uchun undiriladigan ustama foizini lizing obyekti bahosida hisobga olish va foizli daromadlarni butun foydalanish davri uchun bir xilda taqsimlash, hamda banklarning lizing xizmatidan oladigan foizli daromadi ulushinn lizing oluvchining me’yoriy foydasi hisobidan qoplashning maqsadga muvofiqligini asoslab bergan [6].

Bu borada muammolarini tadqiq qilishda xorijlik olimlar Gordon J. Alexander, Chzis J. Barltop, William F. Shorpe va rus olimlari O. I. Lavrushin, G. S. Panova, N. Y. Sokolinskaya, V. M. Usoskin, Z. G. Shirinskaya qator ilmiy ishlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatida mavjud muammolar, nazariy asoslari kiritilgan [6].

Yevropalik olimlar rus olimlari tomonidan ilgari surilgan kredit to‘lovlaridagi muammolai holatlarni tadqiq qilishda mahalliy iqtisodining xususiyatlarini inobatga olgan holda, rus olimlarining fikrini inkor etmagan. Mahalliy iqtisodchilardan Sh. Z. Abdullayeva, T. S. alikov, S. X. Norqobilov, T. M. Qoraliyev, Z. A. Xolmaxmadov, M. B. Nurmurodov, A. K. Qodirov, N. F. Karimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kreditlash riski, uning oldini olish va muammoli vaziyatlarni samarali boshqarish tadqiq qilingan [7].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari ko‘proq bank faoliyatining u yoki bu turi risk bilan bog‘liq ekanligiga, unga ta’sir qiluvchi omillarga bag‘ishlangan xolos. Ularda bank risklarining makro darajadagi umumiy risklardan farqli xususiyatlari, ularni o‘z vaqtida anglamaslik tufayli muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, kredit risklari, umuman bank risklarini hisoblash uslublari, tijorat banklari kredit portfeli tahlili va uni diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirgan holda bank xavfsizligini ta’minlash masalalari to‘la kiritilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu real mavjud resurslar doirasida ish yuritishdir. Bu degani tijorat banklari nafaqat o‘z resurslari va kredit qo‘yilmalari miqdori mos kelishini ta‘minlashi, balki o‘zining likvidligini ham ta‘minlashi kerak. Agar bank resurslarni qisqa muddatga jalb etish uzoq muddatga kredit beradigan bo‘lsa, u holda bank likvidligi xavf ostida qoladi. Bank aktivlari tarkibida ko‘p miqdorda risk dara-

jasi yuqori ssudalarning mavjudligi bank o‘z mablag‘larining salmog‘ini oshirishini talab etadi. Real jalb qilingan resurslar doirasida ishlash tamoyili – jalb qilingan depozitlarga bank qiziqishining o‘sishiga, davlat miqyosida bo‘sh qolgan kredit resurslari uchun sof raqobat rivojlanishiga olib keladi. Iqtisodiy mustaqillik bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larine mustaqil boshqarishni, mijoz va omonatchilarni erkin tanlashni, soliqlar to‘lagandan keyin qolgan daromadga mustaqil egalik qilishni nazarda tutadi.

1-rasm: Tijorat banklari faoliyatining kreditlar miqdori bo‘yicha guruhlashtirilgan alohida ko‘rsatkichlari[1]

Tijorat banklari faoliyatining kreditlar miqdori bo‘yicha guruhlashtirilgan alohida ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning asosiy qismi yuridik shaxlarga ajratilayotganligini ko‘rish mumkin.

Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, qanday shaklda, kimga, qaysi shartlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo‘yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir faoliyat risk bilan bog‘liq ekanligini hech qachon sedan chiqarmaslik lozim. Bankning kreditlash siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o‘rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o‘rtasidagi va boshqa ko‘rsatkichlarning me‘yorda bo‘lishini taqozo qiladi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning kreditlashning asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarning yetarliligi, risklarni sifat darajasi bo‘yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o‘z ichiga olmog‘i lozim.



2-rasm: Tijorat banklari faoliyatining kreditlar miqdori bo‘yicha guruhlashtirilgan alohida ko‘rsatkichlari[2]

1 http://cbu.uz// - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
2 http://cbu.uz// - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tijorat banklari faoliyatining kreditlar miqdori bo‘yicha guruhlashtirilgan alohida ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, mamlakatimizdagi tijorat banklari kredit qo‘yilmalari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda, shu o‘rinda davlat ulushi mavjud tijorat banklariga nisbatan xususiy tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo‘yilmalari hajmi yuqoriroq o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lmoqda.

Kreditlash jarayoni turli xildagi risk omillari bilan bog‘liq bo‘lib, kreditga layoqatlilik kreditni o‘z vaqtida to‘lashni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun bank ssuda berayotganda kreditga layoqatlilikni o‘rganishi, ya‘ni qarz oluvchining moliyaviy holatini hamda uning kreditni o‘z vaqtida to‘liq qaytarib berish qobilyatini baholashni o‘ziga shart deb biladi. Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishning maqsadi qarz oluvchining majburiyatini o‘z vaqtida va to‘liq qaytarib berish qobilyatini aniqlashdan iborat. Shu bois bank o‘ziga olishga tayyor bo‘lgan risk darajasi u taqdim etayotgan kredit hajmi va kredit berish shartlarining qay darajada bajarilishiga bog‘liq.



3-rasm: 2023-yilda ajratilgan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning jami kreditlarga nisbati, foiz hisobida[3]

O‘zbekistonda ajratilgan kredit qo‘yilmalari valyutalar kesimida tahlil qilinganda muhim jihat sifatida xorijiy valyutalarda ajratilgan kredit hajmi yuqoriligi iqtisodiyot xususan, mahalliy bozorda faoliyat yuritadigan va xorijiy valyutada savdo tushumlariga ega bo‘lmagan yirik qarzdorlarning kreditni qaytarishga layoqatlilik daraajasini pasaytirishi mumkin, ushbu risk o‘z navbatida tijorat banklari uchun ham omonatchilar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish yuzasidan risk yuzaga keltirishi mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan joriy yilda 38,8 trln. so‘m o‘tgan yilga nisbatan 2,4 barobarga ko‘p investitsion kreditlar ajratildi 25, joriy yilda jami berilgan kreditlarning 26 23,1 foizini investitsiya kreditlari tashkil qildi. Bu oldingi yilning mos davr ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,8 marta ko‘pdir. Ammo xuddi shu ko‘rsatkichlarning AQSHda 32,5 foiz va Germaniyada 41,5 foizni tashkil qilganligini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu ko‘rsatkichlardan kuzatish mumkinki, mamlakatimizda investitsion kreditlar salmog‘ini bugungi kunda kamida ikki-uch barobarga ko‘tarish zarur.

Respublika tijorat banklari tomonidan biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjud:

- tijorat banklari mexanizmida kreditlashning zamonaviy xizmat turlaridan to‘liq foydalanilmayotganligi;
- tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kredit liniyalari mablag‘laridan samarali foydalanilmayotganligi;
- tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kredit mablag‘lari miqdorini belgilashda rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olinmaganligi;
- kreditni qaytarish grafigini tuzishda mijozning faoliyati hisobga olinmaganligi;
- bosh bank tomonidan tijorat banklari filiallariga kredit limiti belgilanishi;
- tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valutadagi kreditlarni rasmiylashtirishdagi farqlar;
- tijorat banklari tomonidan taqdim etiluvchi kreditlarning muddatlari va ta’minotlarni rasmiylashtirish muammolari.

3 http://cbu.uz// - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ishlab chiqarishning holati, milliy iqtisodiyot korxonalarining asosiy vositalarining holati va texnik jihozlanish darajasi, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish imkoniyati va ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish investitsiya siyosatining samaradorligiga bog‘liq. Investitsiyalar korxonalarni, alohida tarmoqlarni va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosdir, chunki hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotning texnik va texnologik darajasi past, ishlab chiqarish va sanoat tarkibi noaniq, asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvati eskirgan bir vaqtda korxonalar uchun zamon talablari darajasiga moslashish uchun kerak resurslarni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash mumkinki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo‘yilmalarida davlat ulushi mavjud banklar salmog‘ini kamaytirish zarur. Buning uchun Yaponiya davlatining kreditlash mexanizmini quyidagi tajribalarini taklif etamiz birinchidan, davlat dasturlarini amalga oshirish uchun maxsus davlat tijorat bankini tashkil etish; ikkinchidan, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida davlatning ulushini keskin kamaytirish va to‘liq sotish kerak.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Jo‘rayev, I. (2023). Banklararo raqobat va uning bank tizimi barqarorligini ta’minlashdagi roli. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(7), 72-79.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992 sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Yangimurodovich, K. I. (2023). The Mechanism Of The Formation Of The Price Of Retail Loans In Commercial Banks Of The Republic Of Uzbekistan And Its Improvement. International journal of economic perspectives, 17(5), 28-37.
4. Mamatov B., Qulliyev, I. Y., & Pulatova, M. B. (2016). O ‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash amaliyotini takomillashtirish. Monografiya.
5. Xoliqulov, A. R., & Nuriddinov, S. A. (1994). Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik asoslari va chet el tajribasi. –T.: Universitet, 50.
6. Isakov, J. Y., Yuldashev, J. A., Bekmurodova, G., & Hamroyev, S. A. (2023). Mechanisms for Increasing the Efficiency of Investment Activity of Commercial Banks. European Journal Of Business Startups And Open Society, 3(4), 34-41.
7. http://cbu.uz// - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti

DAVLAT BUDJETI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ataxanov Bekpo'lat Abdullayevich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjetining ilmiy ahamiyati hamda davlat moliyasidagi o'rni, davlat moliyaviy nazorati tizimlarining budjet jarayonida budjet daromadlari va xarajatlarning shakllantirilishi va uning ijrosida moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi nazariy qoidalar keltirilgan bo'lib, maqolada keltirilgan nazariy xulosalar va berilgan takliflardan budjet jarayonida davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilash va foydalanish bilan izohanlangan. Shuningdek, maqolada taniqli iqtisodchi olimlarning mavzu borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Davlat moliyasi, davlat budjeti, mahalliy budjet, soliq, daromad, xarajat, moliya tizimi, budjet profitsiti, budjet defitsiti.

STATE BUDGET PROCESS IMPROVEMENT ISSUES

Abstract: This article presents the scientific significance of the state budget and its role in state finance, the formation of budget revenues and expenses in the budget process of state financial control systems, and the theoretical rules for financial control in its execution. It is explained with the definition and use of system development perspectives. Also, the article reflects the scientific-theoretical views of well-known economists on the subject.

Key words: State finance, state budget, local budget, tax, income, expenditure, financial system, budget surplus, budget deficit.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА

Аннотация: В данной статье представлены научная значимость государственного бюджета и его роль в государственных финансах, формирование доходов и расходов бюджета в бюджетном процессе систем государственного финансового контроля, а также теоретические правила финансового контроля при его исполнении. определение и использование перспектив развития системы. Также в статье отражены научно-теоретические взгляды известных экономистов по данному вопросу.

Ключевые слова: Государственные финансы, государственный бюджет, местный бюджет, налог, доходы, расходы, финансовая система, профицит бюджета, дефицит бюджета.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining moliyaviy institutlari amaliyotidan ma'lumki, davlat moliyasi, jumladan davlat budjeti tizimini rivojlantirish, budjet daromadlari va xarajatlarini samaradorligini oshirish hamda natijadorligini ta'minlashda izchil davlat moliyaviy nazorat tizimi shuningdek, nazoratni ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish talab etiladi. Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida nazoratning nazariy va amaliy asoslarini belgilash, davlat moliyaviy nazoratini standartlashtirish va uni rivojlantirish, nazoratning samaradorligini oshirish kabi masalalar dolzarblik kasb etadi.

Jahon amaliyotda Lima deklaratsiyasi va Meksikaning Oliy nazorat organlarining mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyalarida dunyo mamlakatlarining budjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda [1]. Ushbu chora-tadbirlar har qanday mamlakatda, davlat moliyaviy nazoratining institutsional asoslari va standartlari – tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda aniq belgilangan natijalarga erishishni ta'minlash uchun mo'ljallangan davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishning ajralmas instrumentlari hisoblanadi [2]. Bu borada taraqqiy etgan davlatlar tajribasi va erishayotgan ilmiy yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish davlat moliyaviy nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish, budjet tizimida samarali islohotlarni amalga oshirish va, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda budjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston moliya tizimida, jumladan, davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohatlar budjet tizimi budjetlarining barqarorligini, shuningdek, budjet mablag‘larini manzilli va maqsadliligini, natijadorligini ta’minlash hamda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Ushbu islohatlarni amalga oshirishda “Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish” [3] vazifasi zarur hisoblanadi. Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratining muammolarini har tomonlama o‘rganish, birinchidan, nazorat tadbirlari natijalarini amalga oshirishdagi muammolarning mavjudligi, ikkinchidan, zaruriy uslubiy ta’minotning mukammal darajada emasligi, ya’ni nazorat standartlarining yetarli emasligi va uchinchidan, budjet jarayonida nazorat samaradorligini o‘rganish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bilan izohlanadi. Bu esa, o‘z navbatida davlat moliyaviy nazoratini samaradorligini oshirishni hamda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor L. A. Drobozina “Davlat budjeti - pul mablag‘larining asosiy markazlashtirilgan fondi [4]”, deb ta’kidlaydi. Professor A. Yu. Kazak esa “Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida va muhim moliyaviy to‘g‘rilovchi sifatida pul munosabatlarining majmuasidir” [5] deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’riflardan ham ko‘rinib turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlarning budjet kategoriyasiga yondashuvida mantiqning yaxlit qoidasiga rioya qilinmaydi.

Fikrimizcha, davlat budjeti tushunchasida uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi talqinlarini bir - biridan farqlash lozimdir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet obyektiv xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Budjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati uning funksiyalarida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Budjetning iqtisodiy mazmunini yoritishga bag‘ishlangan moliyaviy – iqtisodiy adabiyotlarda budjetning funksiyalari nuqtayi nazaridan turli iqtisodchilarning mantiq xarakterdagi fikr-mulohazalarini kuzatishimiz mumkin.

Budjet - moliya sohasida qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan professor G.Romanovskiy budjetning bajaradigan funksiyalari sifatida budjet fondini shallantirish, budjet fondidan foydalanish va nazorat kabi elementlarni talqin qiladi [6].

Masalan, V. M. Rodionova budjetni taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishni talqin qiladi. Shuningdek, muallif moliyaga tegishli funksiyalar sifatida ham taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini ham talqin qiladi [7]. Shiningdek, aksariyat adabiyotlarda budjet tizimi barcha darajalardagi budjetlarning majmuasi sifatida yoritiladi.

Xorij olimi professor G. B. Polyakning fikriga ko‘ra, “Budjet tizimi – iqtisodiy munosabatlar, davlat qurilmasi va huquq me’yorlariga asoslangan davlat, ma’muriy – hududiy birlashmalar budjetlari, budjet munosabatlarida mustaqil muassasalar va fondlarning majmuasidir” [8].

Shuningdek, budjetlar daromadlarini tartibga solish masalalarini tadqiq etishning ayrim jihatlari mahalliy iqtisodchi olimlar M. Almardonov [9], A. Vaxobov [10], J. Esmurzayev, A. Jo‘rayev [11], N. Jumayev [12], J. Zaynalov [13], A. Islamkulov [14], T. Malikov [15], A. Mamanazarov, O. Olimjonov [16], Z. Ruziyev, Sh. Toshmatov [17], B. Toshmurodovalar [18] ilmiy ishlarida bevosita va bilvosita tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODIKASI

Davlat budjeti mavzusini tadqiq etishda foydalaniladigan bir nechta tadqiqot metodologiyalari mavjud. Bu metodologiyalar o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatadigan, moliyalashtirish jarayonlarini va natijalarini tahlil etishga yordam beradigan, usullardir.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Davlatning budjet tizimining birlamchi asosini rejalashtirish hisoblanadi. Rejalashtirish o‘z navbatida tarkibiy jihatdan daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishni qamrab oladi. Budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish garchi, ular mazmunan pul mablag‘larining harakatlarini rejalashtirishga xizmat qilsada, ularning har birining o‘ziga xos xususiyatli jihatlari mavjuddir. Aslini olganda fikrimizcha, budjetning daromadlarini rejalashtirish undan qilinadigan xarajatlarning moliyaviy manbasini aniqlashga xizmat qiladi, shu jihatdan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash asosida ularning ma’lum bir qismini jamiyat manfaatlariga mos ravishda qayta taqsimlashni amalga oshiradi, pul oqimlarining harakatini ta’minlaydi. Davlat o‘zining iqtisodiy funksiyasini bajarish maqsadida markazlashtirilgan pul fondlari shaklidagi davlat budjeti orqali milliy iqtisodiyotni bir maromda boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun unga zarur bo‘ladigan moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishning muhim vositasi sifatida tashkil qilingan budjet tizimi budjetlarini shakllantirishga iqtisodiy zaruriyat tug‘iladi. Bu iqtisodiy zaruriyat esa turli darajadagi (davlat, mahalliy, munitsial) budjetlarni taqozo etadi [19].

Jahon moliyaviy amaliyotida rivojlangan davlatlar tajribasidan xulosa qilish kerakki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, budjet daromadlari va xarajatlarining maqsadliligini va samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning izchil nazoratini ta'minlashga xizmat qiladigan zamonaviy moliya tizimini takomillashtirishni talab qiladi. "Germaniya, Sloveniya va Ispaniya kabi davlatlar o'zlarining YaIMning 30-40 foizini davlat budjeti vositasida qayta taqsimlaydilar" [20]. Bunda moliya tizimining samarali faoliyat ko'rsatishida g'aznachilik va uning tashkiliy tuzilmasi muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida budjetning daromadlar qismining son va sifat jihatdan ta'minlaydigan, xarajatlar qismida esa budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlaydigan g'aznachilikni yanada takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyo amaliyotidan ma'lumki, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan budjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlat budjeti ijrosi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda ushbu tadqiqotlar natijasida yagona tizimi sifatida davlat aktiv va majburiyatlarini hisobini yuritishni qo'llash, natijaga yo'naltirilgan budjet ijrosi, budjet jarayonini sharoitida real vaqt rejimida uzluksiz elektron hujjatlar aylanish tizimi joriy etish, davlat qarzini boshqarish, to'lovlarni yagona hisobvaraqdan to'g'ridan-to'g'ri budjet birliklari tomonidan mustaqil amalga oshirish, shuningdek, tahlil qilish va hisobini yuritgan holda milliy iqtisodiyotga joriy etishning afzalliklarini belgilab beradi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasi va ilmiy yutuqlarini tadqiq etish g'aznachilik tizimini taraqqiyoti uchun, shuningdek, tizimlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning barcha sohalariga tegishli qonunchilik baza yaratilishi va o'z navbatida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishi, budjet mablag'laridan samarali foydalanish va o'z navbatida mamlakatning xalqaro reytingida o'rni yuksalishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Budjet tizimi Respublika budjeti va barcha mahalliy budjetlarning jamlanmasi hisoblanadi. U davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimiga hamda respublikaning ma'muriy-hududiy bo'linishiga asoslanadi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilmasi [21]

Budjet tizimining ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tamoyillari, tuzilishi unda birlashib ketadigan budjetlarning o'zaro aloqadorligini, davlat budjeti tuzilmasini belgilaydi.

Budjet kodeksining 172-moddasida [22] davlat moliyaviy nazorati, shuningdek, alohida hujjatlarda [23] davlat moliyaviy nazorati organining tamoyillari qabul qilingan. Jahon tajribasidan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazoratida maqsadga muvofiqlik va samaradorlikni tamoyil sifatida belgilansa moliyaviy nazoratning sifati va samarasini oshiradi.

Shu bilan birga davlat moliyaviy nazoratining ochiqlik tamoyiliga ko'ra Hisob palatasi shuningdek, vakolatli nazorat organlarining ma'lumotlari o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borilsa va o'z faoliyati to'g'risida jamoatchilik oldida hisobot berilsa, bu davlat moliyaviy nazorati tizimini natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratining tekshirish, taftish, o'rganish [24] kabi maxsus shakllari, turlari va usullariga to'xtalib o'tish muhim. Amaliyotda eng muhimi ulardan foydalanishning muammoli jihatlariga e'tibor qaratish hisoblanadi.

Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratini shakllarini (2-rasmga qarang) ajratilishi amalda bu nazorat alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirish xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi.

2-rasm: Budjet jarayonlari ustidan davlat moliyaviy nazorati shakllari [25]

Budjet jarayonlarida davlat moliyaviy nazoratini nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish, tizimning barcha asosiy elementlari bilan tavsiflanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan nazoratning o‘ziga xosligi amalga oshirilayotgan budjet siyosatiga bog‘liq bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlari, o‘z navbatida, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ta’sir qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati bu bir tartib tizim. Elementlarning har qanday tizimda bog‘liqligi, butunning o‘zaro hamkorligi qonunlariga bo‘ysunadi. Ularni yagona tizimga birlashtirishda uning xususiyatlari uning tarkibiy qismlarining yig‘indisidan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazorati tizimining mohiyatini uning alohida qismlari va xususiyatlaridan to‘liq bilishning iloji yo‘q. Bu murakkab tizimning xususiyatlari alohida qismlar xususiyatlaridan iborat bo‘lmaydi. Tizimdagi tarkibiy o‘zgarishlar butun sifatida tizim rivojlanishining umumiy qonunlariga bo‘ysunuvchi elementlar xususiyatlari o‘zgarishini keltirib chiqaradi. Bu o‘z navbatida birinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimini taqdim etish vositalarini ishlab chiqishni, ikkinchidan, turli nazorat organlari yoki ularning guruhlari (javobgarlik markazlari) - davlat moliyaviy nazorati tizimining tashkiliy asosi o‘rtasidagi integrativ bog‘liqliklarni talqin etishni, uchinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimining asosiy elementlarini aniqlashni va to‘rtinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimi rivojlantirish yo‘llarini belgilashni talab etadi.

Mamlakat boshqaruvining faoliyatini moddiy jihatdan ta’minlash va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat budjeti daromadlari asosiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: 2017–2022-yillarda YaIMdagi Davlat budjeti daromadlar hajmini soliqlar kesimida o‘sish tendensiyasi [25]

№	Ko‘rsatkichlar	Ijro qilish, mlrd. so‘m					YaIM hajmiga nisbatan (foiz)				
		2017	2019	2020	2021	2022	2017	2019	2020	2021	2022
1	Yalpi ichki mahsulot	249136,4	532712,5	605514,9	738425,2	888341,7	100	100	100	100	100
2	Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) – jami	49684,8	112165,4	132938,0	164800,0	201900,0	20,0	21,0	21,9	22,3	22,7
3	Bevosita soliqlar	11538,9	31676,8	45206,9	58900,0	64400,0	4,6	5,9	7,5	8,0	7,2
4	Bilvosita soliqlar	26133,6	46427,3	46428,4	56300,0	71400,0	10,5	8,7	7,7	7,6	8,0
5	Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	6867,4	19680,7	21257,0	23000,0	23900,0	2,8	3,7	3,5	3,1	2,7
6	Boshqa daromadlar	5144,8	14380,7	20045,8	26600,0	42200,0	2,1	2,7	3,3	3,6	4,7

So‘nggi yillarda davlat moliyasi sohasida olib borilgan islohotlar natijasida (1-jadvalga qarang) 2017–2022-yillarda davlat budjeti daromadlari o‘sish barqarorligini saqlab qolgan. Jumladan, 2020-yilda Davlat budjeti daromadlari ijrosi 2019-yilga nisbatan 118,5 foizga, 2017-yilga nisbatan 2 barobardan ortiq (232,8%) oshganligini ko‘rish mumkin. 2020-yilda 2017-yilga nisbatan o‘sish 114,0 foizni, 2022-yilda 2017-yilga nisbatan to‘rt borobardan ortiq (406,3) o‘sgan va 2020-yilga nisbatan esa 50 foizga oshgan.

Daromadlarning yalpi ichki mahsulotdagi (keyingi o‘rinlarda – YaIM) ulushi ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Agar daromadlarningYaIM dagi ulushi 2017-yilda 20,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 22,7 foizni tashkil etgan.

Davlat budjetining daromadlari ijrosi o‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi avtomatlashtirilgan tizimi dasturi asosida amalga oshirilayotganligi, daromad tushumlarini o‘z vaqtida yig‘ilayotganligi va aniq hisobining yuritilishi o‘ziga xos imkoniyatlar yaratgan. Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi bo‘sh turgan mablag‘lardan so‘nggi uch yilda 500,0 mlrd. so‘mdan ortiq daromad olingan.

Davlat budjeti xarajatlari budjetdan mablag‘ oluvchilarning maqsadli pul fondlarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi va o‘zida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. Davlat budjetining asosiy vazifasi – davlatning fiskal siyosati mohiyati va yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi [26].

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi budjet xarajatlarini o‘sish dinamikasi (mlrd. so‘m) [25]

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	Yillar					Yillarga nisbatan			
		2017	2019	2020	2021	2022	2019/ 2017	2020/ 2019	2021/ 2020	2022/ 2021
XARAJATLAR (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami		49344,9	118008,7	144142,7	188257,1	225600	239,2	122,2	130,6	119,8
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shundan:	26922,7	3542,4	74231,8	92013,6	106600	236,0	117,0	123,9	102,7
- Maorif		15977,7	33536,1	29961	39640,8	50271,3	210	89,3	132,3	126,8
- Sog‘liqni saqlash		7030,30	14977,4	19397,20	23316,8	27288,3	213	129,5	120,2	117
- Madaniyat va sport		750,2	2417,3	2340,7	3609,5	4289,6	322,2	97,0	154,2	119
- Fan		275,6	662,4	823,8	1081,6	1447,1	240,4	124,4	131,3	133,8
- Ijtimoiy ta’minot		2239,6	2337,1	3247,9	6069,4	20103,7	1260,3	55,0	186,1	331,2
- Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturi		214,0	4125,7	1938,2	597,5	1010,8	1 928,0	47,0	30,8	169,2
2	NNT, NST va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish	12,0	37,8	47,5	95,6	103,5	315,0	126,0	201,2	108,2
3	Iqtisodiyot xarajatlari	5280,7	18485,2	16692,8	21169,7	34090,9	350,1	90,3	126,8	161,0
4	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	3234,8	7048,5	18843,7	29900,1	27807,0	218,0	267,3	158,7	93,0
5	Davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish	2431,5	5315,0	7826,4	10366,1	13551,6	218,6	147,3	132,4	110,6
6	Boshqa xarajatlar	11463,2	20804,1	22360,3	1072	43447,0	199,6	98	139	140

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohatlarda Davlat budjeti xarajatlari ham so‘nggi 2017–2022-yillarda o‘sishni qayt etgan, jumladan, bu ko‘rsatkich, 2019-yil 2017-yilga nisbatan 2 barobardan ortiq o‘sgan va 2022-yil 2019-yilga nisbatan esa qariyb 2 barobarga ham o‘sish qayd etilgan (2-jadvalga qarang).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti, bir mamlakatning moliyaviy operatsiyalarini tartibga soluvchi qonuniy hujjatdir. Ushbu budjet, davlatning daromadlarini, xarajatlarini, investitsiyalarini, qarzlarini, defitsit va profitsitini belgilaydi. Davlat budjeti, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, ta’lim, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik, infrastruktur va boshqa sohalarga moliyalashtirishni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

1. Budjet jarayonini monitoring va nazoratni amalga oshirishda mavjud bo‘lgan va qo‘llaniladigan uslubiyotni jumladan, davlat moliyaviy nazoratni standartlashtirish va uni rivojlantirish muhim va zaruriy masalalardan biri hisoblanadi. Standartlarning maqsadi nazoratning sifati, samaradorligi, shuningdek, moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning yaxlitligi, o‘zaro bog‘liqligi, izchilligi, shaffof va xolisligini ta’minlaydigan yagona talablarni belgilaydi. Mamlakatda xalqaro tan olingan nazorat stardartlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
2. Xarajatlar tizimining samaradorlik va natijaviylik sifatini oshirish uchun xarajatlarni tahlil qilish va boshqa moliyaviy resurslarni samaradorlik bilan taqsimlash kerak. Xarajatlarni maqsadlarga yo‘naltirish, israfni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun tahlil va baholash jarayonlarini mustahkamlash muhimdir.

3. Davlat budjetining moliyalashtirish jarayonlarini kuzatish, natijalarni baholash va budjetning maqsadlarga mosligini baholash tizimini rivojlantirish kerak. Monitoring va baholash jarayonlarining samaradorlik va ommaviylik prinsiplariga muvofiq shakllanishi, moliyaviy hisob-kitobning to‘g‘ri va yuqori sifatda olib borilishi muhimdir
4. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan zamonaviy nazorat usuli sifatida yuqori baholangan va xalqaro miqyosda tan olingan davlat moliyaviy nazoratning mustaqil turi sifatida shakllangan samaradorlik auditi institutidan foydalanish nazorat samarasini va unig natijadorligini oshiradi.
5. Budjet tizimi budjetlari jarayonlarida davlat moliyaviy nazorati tamoyillari, uning asosiy elementlarini takomillashtirish nazoratning natijadorligini oshiradi. Shuning uchun maqsadga muvofiqlik va samaradorlik tamoyillaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Официальный сайт Европейской организации высших органов финансового контроля (EUROSAI).
2. Perez M. International auditing standards and the external control of the public sector//EUROSAI. – 2011. – № 17. – P.132-13.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 3-ilova, 4-maqsad, 15-band.
4. Л.А.Дробозина “Финансы”, учебник для вузов, Поляка Г.Б., 2004.
5. А.Ю. Казак “Финансы и кредит”: Учебник / А.Ю. Казак и др.; под ред. А.Ю. Казака. – Екатеринбург, 1994.
6. Романовский Г. Бюджетная система РФ. – М.: 1998. Финансы и статистика.
7. Родионова В. Финансы. – М.: 1995. Финансы и статистика.
8. Поляк Г.Б. Бюджетная система РФ. – М.: ЮНИТИ, 2001.
9. Alimardonov M. – Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta’siri. Monografiya. – T.: TMI, 2003.-233 b.
10. Vaxobov A., Jurayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: “Shark”, 2009. – 488 b.
11. Jurayev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. i.f.d.ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan diss. avtoreferati.-T.: DJKA, 2005. – 38 b.
12. Vaxobov A, Burxonov U, Jumayev N. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik.-T.: “Yangi asr avlodi”. 2003.– 344 b.
13. Zaynalov J.R. Soliqlar va soliqqa tortish.– S.: Samarqand kooperativ instituti, 2002. – 366 b.
14. Islamkulov A. Budjetlararo munosabatlarni soliqlar vositasida tartibga solish. Monografiya. -T.: “Lesson Press”, 2021.-275 b.
15. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2002.– 204 b.
16. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 800 b.
17. Toshmatov Sh.A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan diss. avtoreferati. – T.: 2008.-38 b.
18. Toshmurodova B.E. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun takdim etilgan diss. Avtoreferati. – T.:2007.-32 b.;
19. J.A.Ergashev - Mahalliy budjet daromadlarini prognozlashtirish hamda daromadlarni oshirish masalalari. Monografiya. – T:. “Iqtisodiyot”. 2023 yil. 132 bet.
20. Гилёва А.А. Формирование и использование общего бюджета Е.С. Диссертация. – Москва-2011.
21. Kasimova G.A., Shakramov K.K. – Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma – T.: “Moliya”, 2012. – 260 b.
22. Budjet kodeksining 172-moddasi. https://lex.uz/acts/2304138
23. O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risidagi qonuni. 5-moddasi. https://lex.uz/docs/4394324
24. Budjet kodeksining 173-moddasi. https://lex.uz/acts/2304138
25. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
26. Qurbonov H., Bijanova M. Davlat budjeti xarajatlarining amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi ahamiyati. https://Biznes-daily.uz/ru 27 okt. 2015 y. №9 (93)-2015.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕОРИИ ИГР В ЗАДАЧАХ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ТЕПЛИЧНОГО ХОЗЯЙСТВА

Дурманов Акмал Шаймарданович
PhD, доцент кафедры “Корпоративная экономика и менеджмент”
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В статье проведен анализ сложившегося организационно-экономического механизма функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан. С помощью методов теории игр решена задача оптимального выращивания овощей и фруктов в тепличном хозяйстве. Предмет исследования составляет организационно-экономический механизм функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан. Цель работы заключается в выявлении проблем развития организационно-экономического механизма функционирования тепличных хозяйств в Республике Узбекистан с помощью теории игр.

Согласно указу президента Узбекистана от 20 ноября 2018 года “О мерах по созданию дополнительных условий для развития тепличных комплексов”, в ближайшие годы будет создано еще 105 современных теплиц на сумму 343,3 миллиона долларов. Новые комплексы, согласно документу, займут еще 800 гектаров земли. Значительная их часть (47 на 405 га) общей стоимостью более 230 миллионов долларов будет создана в Ташкентской и Самаркандской области.

Ключевые слова: тепличное хозяйство; сельскохозяйственные товаропроизводители; теория игр; организационно-экономический механизм; овощи и фрукты.

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tahlil qilingan. O‘yinlar nazariyasi usullaridan foydalanib, issiqxonada sabzavot va mevalarni optimal yetishtirish muammosi o‘rganib chiqilgan. Tadqiqot predmeti O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Ishning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida issiqxona xo‘jaliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini o‘yinlar nazariyasidan foydalangan holda ishlab chiqishdagi muammolarni aniqlashdan iborat bo‘lib shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi “Issiqxona majmualarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga asosan yaqin yillarda umumiy qiymati 343,3 million dollarlik yana 105 ta zamonaviy issiqxona tashkil yetiladi. Yangi majmualar, hujjatga ko‘ra, yana 800 gektar yerni yegallaydi. Ularning salmoqli qismi (47 ga 405 gektar) umumiy qiymati 230 million dollardan ortiq bo‘lgan yerlar Toshkent va Samarqand viloyatlarida tashkil etilganligi hisobga olingan.

Kalit so‘zlar: issiqxona xo‘jaligi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari; o‘yin nazariyasi; tashkiliy-iqtisodiy mexanizm; sabzavotlar va mevalar.

Abstract: the article analyzes the existing organizational and economic mechanism for the functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan. Using game theory methods, the problem of optimal cultivation of vegetables and fruits in a greenhouse was solved. The subject of the study is the organizational and economic mechanism of functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan. The purpose of the work is to identify problems in the development of the organizational and economic mechanism for the functioning of greenhouse farms in the Republic of Uzbekistan using game theory. According to the decree of the President of Uzbekistan dated November 20, 2018 “On measures to create additional conditions for the development of greenhouse complexes,” another 105 modern greenhouses will be created in the coming years’ worth $343.3 million. The new complexes, according to the document, will occupy another 800 hectares of land. A significant part of them (47 by 405 hectares) with a total cost of more than 230 million dollars will be created in the Tashkent and Samarkand regions.

Key words: greenhouse farming; agricultural producers; game theory; organizational and economic mechanism; vegetables and fruits.

ВВЕДЕНИЕ

Ввиду напряженной экономической и международной ситуации поставки продовольствия сегодня занимают особое место в приоритетах государственной политики. В решении проблемы повышения самообеспеченности населения продовольствием основная роль принадлежит областям, в которых эффективная экономическая и экономическая деятельность сельскохозяйственных производителей имеет большое значение для экономики. Сегодня субъектам хозяйствования необходимо создать условия, обеспечивающие последовательный процесс непрерывного воспроизводства сельскохозяйственной продукции. Вот почему необходимо иметь соответствующие организационные и финансовые механизмы для устойчивого развития отрасли в регионе [5, с. 1378].

Под термином “организационно-экономический механизм” развития сельского хозяйства следует понимать взаимодействие проблем производственных отношений на основе экономических и административно-правовых рычагов и эффективных форм организации процессов общественного производства, обеспечивающих устойчивое развитие отраслей сельского хозяйства [3, с. 45]. Основными функциями организации и управления финансами являются: создание благоприятных экономических условий, повышение эффективности производственной деятельности, обеспечение конкурентоспособности продукции, повышение заинтересованности сотрудников и команд в высоких экономических показателях деятельности предприятия, обеспечение высокого качества трансформации компании, материально-техническая база.

В данной работе проводится исследование возможности использования теории игр в задачах организационно-экономического механизма тепличного хозяйства.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Агропромышленный комплекс является неотъемлемой частью производительных сил Республики Узбекистан, подчиняется общим закономерностям экономического развития региона и является специфическим, со своими особенностями. Сегодня экономическое положение тепличной экономики в регионе характеризуется нестабильностью, проблемы экономического роста продолжают существовать, а организационно-экономический механизм должен создавать условия для эффективной экономической системы в отрасли. Уровень рентабельности сельскохозяйственных организаций, включая субсидии, в 2019 году достиг 5,9% сельских домохозяйств (21,8%). Без государственной поддержки эффективность производства составляла -32% в сельскохозяйственных предприятиях и -29,6% в агрохолдингах. Это показывает, что механизм финансового управления в регионе не полностью отвечает поставленным перед ним задачам и характеризуется разрушением сельскохозяйственного потенциала, проблемой адаптации сельскохозяйственной продукции к рыночным условиям и неэффективной фискальной и кредитной политикой [17, с. 104].

В современных экономических условиях только те субъекты предпринимательской деятельности, которые внедряют инновации и основные научно-технические достижения, основанные на использовании технологий нового поколения и эффективных методов производства, позволяющих рационально использовать ресурсы и снижать затраты, могут удовлетворить требования конкуренции. Поэтому модернизация технологической сферы производства, связанная с переводом сельскохозяйственных предприятий на новые поколения техники и технологий, играет важную роль в устойчивом развитии тепличного хозяйства.

Рекомендуется включить технико-технологическую модернизацию производства, развитие информационных систем и маркетинговую деятельность в сельском хозяйстве региона в группу инновационных отраслей для совершенствования организационно-финансового механизма. Развитие сельского хозяйства во многом зависит от состояния материально-технической базы хозяйств и, прежде всего, от безопасности и доступности парка двигателей и тракторов. В 2019 году в сельскохозяйственных организациях по сравнению с 2018 годом только 4 тракторных парка увеличились на 4 единицы, в сельскохозяйственных (сельскохозяйственных) предприятиях - на 12 [10, с. 490].

В таких условиях во многом помогает постановка задач с помощью теории игр.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Для решения задачи исследования была выбрана следующая ситуация. Предусмотрен переход на новую сельскохозяйственную технику. Эксперты обнаружили, что в случае успеха есть шанс, что (70%) получит 1,5 от прибыли, которую можно получить со старым оборудованием. В противном случае (30%) компания потеряет 0,3% прибыли, если оборудование не будет соответствовать ожиданиям (часто выхо-

дящим из строя, производя дефектную продукцию). В то же время можно воспользоваться дополнительными услугами по обслуживанию оборудования с единовременной прибылью 0,5, вероятность успеха в этом случае составит 90%. Также возможно частично установить новое оборудование. В этом случае вероятность успеха составит 60%, прибыль составит 1,1, а убытки - 0,05. Стоимость дополнительных услуг в этом случае составит 0,3 от стандартной прибыли, а шансы останутся прежними. Необходимо определить лучший вариант.

РЕЗУЛЬТАТЫ И АНАЛИЗ

По поставленной задаче проводятся расчеты (слева направо, стандартная прибыль принята за 100):

- 127,5-12-50=65,5
- 120-16-50=54
- 93,5-0,75-30=62,75
- 66-2=64

Согласно предоставленной информации, лучшим вариантом для компании будет переход на новое оборудование с использованием дополнительных услуг. Однако окончательные цены на другие варианты не сильно отличаются от оптимальных, поэтому их также можно учитывать. Вам не всегда нужно полагаться на данные одного анализа. Было бы целесообразно провести сравнительный анализ старого и нового оборудования. Примерными показателями для сравнения оборудования могут быть [13, с. 63]:

1) стоимость, полученная в результате эксплуатации оборудования;
2) надежность;
3) техническое обслуживание;
4) стоимость расходных материалов и сменных частей и их наличие на рынке;
5) простота использования;
6) срок полезного использования оборудования.

Стоит также рассмотреть возможность использования дополнительных сервисов, которые дают возможность быстро решать проблемы с оборудованием, ориентируя сотрудников на правильное использование и обслуживание оборудования с возможностью его улучшения. Однако не исключено, что услуги будут оказываться не в соответствии с договором, а “через рукава”, и может потребоваться усиление контроля качества работ, что может увеличить стоимость.

Выбор частично примененного оборудования с чисто логической точки зрения будет наиболее правильным, так как перед полным переходом на что-то новое необходимо опробовать оборудование, определить нюансы работы, сравнить показатели на основе результатов старого и нового оборудования, подготовить кураторов к оборудованию, которое обучит персонал на работе с новым оборудованием. Если обнаружены недостатки, нет необходимости полностью отзывать или модифицировать все оборудование, что будет стоить компании высокой стоимости или простоя. Частичное применение широко используется при смене руководства компании и очень эффективно, потому что оно подталкивает компанию к росту и улучшению, гарантируя при этом стабильность в работе компании [4, с. 127].

Еще есть возможность отклонить заявку. В этом случае компания ничего не теряет, но никогда не выигрывает. Этот вариант используется в консервативной политике, он имеет смысл, когда компания получает стабильный доход и не стремится к увеличению прибыли. Решение быть неактивным в отношении чего-либо может иметь положительный эффект. Например, некоторые компании ждут от других компаний инноваций и отслеживания успешности их приложений. Таким образом, такие компании с консервативной стратегией минимизируют риск, связанный с инновациями, применяя их после подтверждения их эффективности, и получили несколько исправлений для последовательной работы.

Подводя итоги по всем вариантам, не могу порекомендовать какой-то определенный, так как для каждого случая бывает своя специфика, которую стоит учитывать. При принятии решений порой бывает опасно подходить ко всем вопросам универсальным шаблонным решением на основе анализа, стоит учесть все нюансы проблемы, если она напрямую связана с производством, то есть с основной деятельностью компании, как в данном случае.

Таблица 1: Матрица “Деловой экран”

Сильные стороны:	Слабые стороны:
• стабильное количество заказов от постоянных клиентов • простота продукта, широкое применение • Небольшая компания позволяет вам управлять ею более эффективно	• узконаправленное производство в результате невозможности маневрировать в случае низкого спроса • ограниченное количество поставщиков и потребителей • потребительская зависимость
Возможности:	**Угрозы:**
• Расширение производства при появлении новых заказов. • Расширение ассортимента продукции • новые потребительские контракты	• появление новых конкурентов для овощеводства • внешний вид заменителей продукции • снижение спроса на овощи • Задержки в поставках сырья от поставщиков • невидимые обстоятельства

Эффективность этого метода заключается в поиске наилучшего варианта в условиях полной неопределенности. Этот метод используется, когда существует много альтернатив и несколько возможных сценариев развития событий, на которые, как правило, нельзя повлиять. Эффективность метода напрямую зависит от точности прогнозирования альтернативы в конкретном сценарии. Например, при конкретном спросе можно будет достичь определенного объема производства (18, с. 236).

Выбор оптимальной стратегии адаптируется ко многим критериям, на основании которых вы можете определить оптимальный вариант. Вы также можете использовать взвешенную оценку критериев, если тема предпочитает одни критерии другим.

Для теплиц критерии выбора оптимальной стратегии применяются в случаях выбора продукции, когда спрос на них неизвестен, при расширении производства и расширении ассортимента продукции. Важным фактором эффективности этого метода является точность прогнозирования результатов выбора альтернативы при определенных условиях. Наибольшей точностью способствуют статистика последних лет, наблюдения и выводы экспертных групп. Однако расширение трендов не всегда может дать точные прогнозы, особенно в наше время. Поэтому также стоит учитывать современные тенденции, опыт развития отрасли.

ОБСУЖДЕНИЕ

Теплица продает свою продукцию через магазины. Продажи зависят от погодных условий. Стоимость выращивания овощей равна α_0, а фруктов - β_0 рублей, цена продажи соответствует соответственно α_1 рублей и β_1 рублей. Определите лучшую бизнес-стратегию.

а = 1000, б = 2300, с = 1400, д = 700,

$\alpha_0 = 20$, $\beta_0 = 5$, $\alpha_1 = 40$, $\beta_1 = 12$.

Составляем математическую модель задачи. В отношении возможных условий спроса у компании есть две стратегии.

1. F_1 = (1000, 2300) - произвести 1000 овощей и 2300 фруктов,
2. F_2 = (1400, 700) - производит 1400 овощей и 700 фруктов.

Природа (рынок) также имеет две стратегии:

1. D_1 = погода жаркая,
2. D_2 = погода прохладная.

Если компания примет стратегию F_1 и спрос действительно будет в первом состоянии, то есть погода будет жаркой (D_1), тогда продукты будут полностью проданы, а доход будет:

$w_{11} = 1000 \cdot (40\text{-}20) + 2300 \cdot (12\text{-}5) = 36100$.

Если компания принимает стратегию F_1 и спрос находится в состоянии D_2 (погода прохладная), то

фрукты будут продаваться только частично, а доход будет:

w_{12} = 1000 · (40-20) + 700 · (12- 5) - (2300-700) · 5 = 16900.

Точно так же, если компания выберет стратегию F_2, а природа - стратегию D_1 (погода жаркая), то доход будет (овощи будут ниже):

w_{21} = 1000 · (40-20) + 700 · (12-5) - (1400-1000) · 20 = 16900,

и если природа выбирает стратегию D_2, то

w_{22} = 1400 · (40-20) + 700 · (12-5) = 32900.

Поскольку стратегия максимина в игре a = max (16900, 16900) = 16900, а минимальная стратегия b = min (36100, 3290) = 32900, то значение игры находится в диапазоне

16900 ден ед. < v < 32900 ден. единицы

Мы решаем эту игру аналитическим методом. Средняя производительность первого игрока, если он использует оптимальную смешанную стратегию x' = (x1', x2') и второго игрока, чистая стратегия, соответствующая первому столбцу таблицы выплат, равна значению игры v:

36100 · x1' + 16900 · x2' = v.

Первый игрок получает те же средние шансы, если второй игрок применяет стратегию, соответствующую второму столбцу платежной ведомости, т.е.

16900 x1 + 32900 x2 = v.

Таким образом, компания оптимально выращивает 1218 кг овощей и 1427 кг фруктов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Подводя итоги проведенного исследования, можно сформулировать следующие выводы. Аграрная отрасль является наиболее перспективной в экономике Республики Узбекистан. Теория игр широко используется в инновационной экономике. В последние годы ее значение значительно возросло во многих областях экономики и социальных наук. В области финансов это относится не только к решению общих финансовых проблем, но и к анализу стратегических проблем компаний, что способствует выбору основного производственного сектора и принятию оптимальных управленческих решений. Применение теории игр способствует успешному развитию тепличного хозяйства.

Список литературы:

1. Kozlov V. D., Mordovchenkov N. V., Nikolenko P. G., “Development of agricultural infrastructure under the conditions of state regulation of the economy” –2017.
2. Abudi, G. (2019). The five stages of team development: Each team goes through it! (Parts I and II).
3. Kosyakova L. N., Magomedmirzoeva D. Ya. Methodological approaches for the analysis of the system in the management of investment and innovative processes in the agro-industrial complex // Bulletin of the University of St. Petersburg. –2015. No. 39.
4. Mikov K.A. Modeling of the effective organizational and economic mechanism of sustainable development of the agricultural sector of the region / K.A. Mikov // Summary of the dissertation for the degree of candidate of economics. –Izhevsk - 2016 - 24 pages.
5. Tikhomirova O. G. Project Management: Integrated Approach and System Analysis: Monograph. –M.: SIC INFRA-M, 2017ю –301 pages.
6. Shamina L.K. Theoretical aspects of the operation of innovative processes. –St. Petersburg: Nauka, 2018 –85 pages.
7. Shafieva E. T. A systematic approach to livestock management based on the program in the agricultural sector of the region // novainfo.Ru. - 2016. - No. 55. – Σ. 101–103. [Electronic resource]. URL: (Accessed on 12/11/2019)
8. Bennarz, T. (2018). Virtual group management in a global economy. Wisconsin: Marjorium Business Press
9. Parshukov D.V. Organizational and economic mechanism for the development of the agricultural sector / D.V. Parshukov, D.V. Hodos, S.G. Ivanov // [Electronic resource]. – Access function – URL: www.cyberleninka.ru/article/n/organizatsionnoekonomicheskiy-mexanizm-razvitiya-agrarnogo-sektora (Access date 03.02.2020)
10. Kustova, S.B. Problems of development of the intra-economic economic mechanism in agricultural organizations / S.B. Kustova // AIC: Financial, Management. –2015. –No. 11. – pp. 34-39.
11. Booch G. Object-Oriented Analysis and Design with Application, Second Edition. The Benjamin / Cummings Publishing Company, Inc. 2018–255 pages.
12. Derosa, D., & Lepsinger, R. (2017). Virtual group success: A practical guide to work and distance guidance. California: John Wiley & Sons, Inc.

13. Ginter, E.V. An optimal model for the operation of an agricultural dairy company in an area / Problems of shaping an innovative economy in an area, collection of articles – Magadan: Printing House, 2016. – pp. 54-57.
14. Kustova, S.B. Creating agricultural exploitation as a factor to increase the competitiveness of agricultural producers in the Magadan / S. B. Kustova region // Far Eastern Farm Bulletin. - 2018 - No. 4 (28).– pp. 63-66.
15. Hayden, T. (2019). Talk about coffee: A dwarf-sized nano-building game. Canada: Tyler Hayden
16. Buzyrev V.V. The choice of investment decisions and projects: an optimization approach. - SPb.: SPbSUEF Publishing House, 2016. - 286 pages.
17. Kustova, S.B. Integration – a way to increase the efficiency of the agro-industrial complex / S.B. Koustova // Agricultural Sciences. –2015. – No. 5 – S. 5-7.
18. Ginter, E.V. Organizing commercial activity as one of the tools for innovative development of the agricultural sector in the region / E.V. Ginter // Innovations in agriculture. – 2015.–No. 2 (13). –Law 288-291.
19. Jacobson I. Targeted Software Software. ASM type. – 2017- 745 pp.
20. Lecoq, B. (2017). Successful leadership of virtual project teams. Document presented at PMI® Global Congress 2017 - North America, Vancouver, British Columbia, Canada. Newtown Square, PA: Project Management Institute
21. Richard J. Mayer, PhDMichael K. Painter Madhavi Lingineni Incorporating Information for Simultaneous Engineering (IIS) into a Method Based Systems, Inc. Intermediate technical work. – 2018 - 563 pp.
22. Repin V.V., Eliferov V.G. Business Procedures: Settings and management. – M.: INFRA-M, 2016. –319 pages.
23. Rumbaugh J., Blaha M., Premerlanietal W. Object-Oriented Modeling and Design. Prentice-Hall. NewJenersy. –2016. –455 pages.
24. Suda, L. V. (2016). Virtual group domination: training virtual project teams to be successful. Document presented at PMI® Global Congress 2012 - North America, Vancouver, British Columbia, Canada. Newtown Square, PA: Project Management Institute
25. Zofi, Y. (2015). Guide for virtual groups. New York: Amacom

YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Gadayev Jaxongir Muhammadi o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bugungi kunda mol-mulkni soliqqa tortishning ahamiyati va zarurligi, o‘ziga xos xususiyatlari, yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish bo‘yicha muammolar tahlili va hal etish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik shaxs, mol-mulk, soliq, ko‘chmas mulk.

Abstract: The article is devoted to the issues of taxation of property of legal entities, in which the importance and necessity of taxation of property today, its characteristics, analysis and solution of problems related to taxation of property of legal entities are discussed. are listed.

Key words: legal entity, property, tax, real estate.

Аннотация: Статья посвящена вопросам налогообложения имущества юридических лиц, в которой обсуждаются важность и необходимость налогообложения имущества на сегодняшний день, его характеристики, анализ и решение проблем, связанных с налогообложением имущества юридических лиц.

Ключевые слова: юридическое лицо, имущество, налог, недвижимость.

KIRISH

Globallashuv sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar soliq siyosatida tegishli o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga ko‘ra, yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning asosiy masalalari tubdan hal etilgan, biroq tadbirkorlar, tovar ishlab chiqaruvchilar va aholi manfaatlariga javob beradigan yaxlit soliqqa tortish tizimi haligacha shakllanmagan. Xususan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishning amalda ko‘tarilmagan muammolari va imkoniyatlarini ko‘rib chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mol-mulk solig‘i obyekti ikki turdagi mulk bo‘lishi mumkin: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan mulklar. Birinchisiga asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, ishlab chiqarish bilan bog‘liq mulklar kiritilsa, ikkinchisiga esa ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo‘lgan ishchilar, ijtimoiy obyektlar va infratuzilmaga xizmat qiluvchi mol-mulk kiradi. Bunda yuridik shaxslar (korxonalar va tashkilotlar) soliqqa tortish subyekti sifatida maydonga chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A. Vartašová va K. Červenálar mol-mulk solig‘i iqtisodiy o‘sishni eng kam cheklaydigan soliqlar qatoriga kiradi, degan fikrga qo‘shiladi [1]. Mol-mulk solig‘i ko‘pincha mahalliy soliq sifatida qo‘llaniladigan an’anaviy to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk solig‘iga tegishli bo‘lishining sababi shu bo‘lishi mumkin; shuning uchun u tez-tez tahlil qilinadigan mavzulardan biridir.

Sh. I. Musalimov jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i mahalliy budjetlar daromadlarining muhim manbayi va resurs soliqlarining bir turi deya ta’kidlaydi [2].

Iqtisodchi olimlardan A. X. Islamkulov mol-mulk solig‘i birinchi navbatda cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi, ikkinchi tomondan korxona faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi moliyaviy dastak hisoblanadi, deb e’tirof etgan [3].

J. Zaynalov, S. Aliyeva va Z. Axrorovlar o‘z ilmiy izlanishlari davomida soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va

foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iboratligini e’tirof etishadi [4].

Iqtisodchi olim I. Niyazmetov fikricha, mol-mulk solig‘ini isloh qilishda ko‘chmas mulk obyektlari kadastr qiymatini ularning real bozor qiymati bilan muvofiqlashtirish lozim [5]. Ushbu soliqning real bozor qiymatiga nisbatan hisoblanishi ko‘zlangan maqsadlarga to‘la erishish imkoniyatini yaratadi.

S. Xudoyqulov va U. Tulakovlar ko‘chmas mulkni soliqqa tortishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati haqida fikr yuritib, daromadning har xil darajasi bilan, ko‘chmas mulk solig‘ini bevosita to‘lash soliq to‘lovchining farovonligi va uning soliq yuki darajasiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi [6]. Bunda aholining imtiyozli toifalaridan tashqari ko‘chmas mulkni soliqqa tortishda soliq to‘lovchilar daromadlari darajasini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Iqtisodchi olim G‘. Safarov o‘z ilmiy tadqiqotlari davomida respublikamizda ko‘chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash va soliqqa tortish mexanizmini joriy qilish orqali mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, mol-mulk va yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmini kuchaytirish muhim deya hisoblaydi [7].

Mol-mulk stavkasi rivojlanayotgan mamlakatlarda munitsipal boshqaruvni moliyalashtirishning potentsial jozibador vositasidir. Daromad manbayi sifatida u mahalliy hokimiyat organlariga keng va kengayib borayotgan soliq bazasidan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin [8].

Mol-mulk solig‘ining amal qilish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, uni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar belgilangan bo‘lsa-da, respublikamiz soliq tizimida amalda bo‘lgan mol-mulk solig‘i obyekti va bazasini o‘ziga xosligi bu jarayonda ayrim murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida butun iqtisodiy hamjamiyat doirasida hamda respublikamiz soliq tizimida mol-mulk solig‘i bo‘yicha olib borilayotgan soliq islohotlari, Prezident qaror va farmonlarini chuqur o‘rganish davomida analiz, sintez va iqtisodiy matematik usullar, ilmiy mushohada, ma’lumotlarni guruhlash hamda prognozlash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mol-mulk soliqlari qadim zamonlardan ma’lum va u uzoq vaqt davomida soliq solishning asosiy shakli bo‘lib kelgan. Biroq ushbu soliqni kiritishdan maqsad faqatgina, mahaliy budjetni to‘ldirishdan iborat emas. Uning yordamida korxonalar mol-mulkdan foydalanishining samaradorligiga ta’sir o‘tkazish, ortiqcha, ishlatilmayotgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishga qiziq uyg‘otish, yangi uskunani ishga tushirish muddatlarini qisqartirish mumkin va hokazo.

Mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo‘lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shuningdek, mulk solig‘i davlat budjetiga daromadni ta’minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat budjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi, bu - yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan, soliqni tashkil qilishda byovosita ishtirok etuvchi elementlar majmuyi hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti; obyekti; soliqqa tortish birligi; soliq stavkasi; soliqqa tortiladigan baza; soliq imtiyozlari; soliqni to‘lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Mol-mulk solig‘ining umumiy jihat va tomonlarini quyidagi tarzda ko‘rsatilishi muhimdir:

1. Mulkchilik shaklidan qat’i-nazar soliqqa tortish maqsadida korxona mol-mulki, buxgalteriya hisobi balansi aktiv qismi bo‘yicha asosiy fondlarning boshlang‘ich qiymati hisoblanadi.
2. Mazkur soliq bir tomondan, soliq to‘lovchilar tomonidan mol-mulk solig‘ini to‘lashdan bo‘yin tovlashlarning oldini olsa, ikkinchi tomondan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishning zaruriy manbayi hisoblanadi. Maqsad muayyan darajada asosiy fondlarning to‘xtovsiz ishlashini ta’minlash va ularni rag‘batlantirishdan iborat.
3. Mol-mulk solig‘ini amal qilishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy holatini takomillashtirishni va mulkchilikning ko‘pgina murakkab huquqiy masalalarining xal qilinishini talab etadi.
4. Ushbu soliqni to‘lash, ishlab chiqarish jarayonida va soliq to‘lovchi uchun ishlab chiqarish faoliyatida og‘irlik tug‘dirmasligi lozim.
5. Mazkur soliq respublikamizning mahalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi asosiy soliq turi bo‘lib hisoblanadi.

Korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi paytlarda mol-mulk solig'i bazasini indeksatsiyasi bo'yicha jamoatchilik muhokamasida chalkashliklar va adolatsizlik haqidagi da'volar hukmronlik qilmoqda. Indekslash avtomatik ravishda soliqning 20-33% ga oshishiga olib keladi degan da'vo noto'g'ri. Minimal soliqqa tortiladigan qiymat oshganiga qaramay, soliq stavkasi o'zgarishsiz 1,5% ni tashkil qiladi. Qolaversa, ushbu indekslash minimal qiymatdan kam balans qiymatga ega bo'lgan ko'chmas mulklargagina ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun butun kompaniya uchun mol-mulk solig'i 20-33% oshadi degan fikr berilishi to'g'ri emas.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Korxonalardan undiriladigan mol-mulk solig'i mexanizmida soliq solish bazasi, soliq stavkasi va imtiyozlari berish muhim hisoblanadi. Har yili mazkur soliq stavkasining oshirilishi va uning sabablari asoslanishi lozim. Hozirgi vaqtda amaldagi korxonalar mol-mulk solig'i stavkasi va soliqqa tortish bazasini aniqlash tartibi xalqaro umumbelgilangan yondashuv bilan solishtirganimizla bir-biridan sezilarli farqga ega.

Fikrimizcha, korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmida soliqqa tortish obyektini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqka tortish maqsadi asosiy fondlarning o'rtacha yilik balans qiymatini aniqlashda asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati asos qilib olingan. Ammo soliqqa tortish maqsadi asosiy fondlarning boshlang'ich qiymatini bekor qilib uning o'rniga asosiy fondlarning qoldiq qiymatidan foydalanish lozim. Chunki ekspluatatsiya jarayonida asosiy vositalar o'zining boshlang'ich sifatini yo'qotib, jismoniy va ma'naviy tomondan eskiradi. Qoldiq kiymat mulkning ma'naviy va jismoniy eskirishi natijasida paydo bo'lgan real qiymatni obyektiv baholashga imkon beradi, mulk egasiga soliq og'irligini pasaytirishga xizmat qiladi.

Ko'pgina mamlakatlar mol-mulk solig'i bo'yicha bozorga asoslangan soliq bazalarini qabul qilgan. Bu soliqning to'g'riligi va adolatliligini ta'minlaydi. O'zbekistonning bu boradagi qadami ilg'or xalqaro tajribaga mos keladi. Kelgusida buxgalteriya ma'lumotidagi balans qiymati bekor qilinishi navbatdagi mantiqiy qadam bo'ladi.

Iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida soliq imtiyozlari keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Ular sarmoya jalb etish, ish o'rinlari yaratish va muayyan sohalarda o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu imtiyozlarni ularning mo'ljallangan maqsadlarini hisobga olmasdan bekor qilish samarasiz bo'lishi mumkin.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa torgishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan yana biri bu soliqdan beriladigan imtiyozlar tizimi va ularni takomillashtirish bilan bog'liq.

Ma'lumki soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarga qonun asosida beriladigan yengilliklar, soliqlar miqdorini kamaytirish, soliq to'lash shartini yengillashtirish yoki aloxi shaxslar yoki to'lovchilar turkumi soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish, soliq stavkasini pasaytirish, soliq obyektining soliqqa tortiladigan minimumi, ayrim soliq obyekti elementlarini soliqqa tortishdan chiqarib tashlash, soliq undirib olishni kechiktirish kabi maqsadli va shunga o'xshash soliq imtiyozlari mavjud. Soliq imtiyozlarini rag'batlantirishi va maqsadga muvofiq qo'llanilishiga qarab quyidagilarga bo'lish mumkin: ma'lum korxona va tashkilotlarni soliq to'lashdan to'liq ozod qilish; yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish; soliq to'lashdan vaqtincha ozod qilish; soliq solinadigan bazani kamaytirish; soliqdan qisman ozod qilish; xorijiy hamkorlarga imtiyoz berish; tovar eksportiga imtiyozlar berish va boshqalardan iborat bo'lishi zarur.

Korxonalar mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar tizimi amaldagi statistik jamlama ma'lumotlarga asosan tahlil qilingan, mazkur imtiyozni jami respublika bo'yicha berilgan imtiyozar ichidagi salmog'ini oshirish lozim.

Fikrimizcha, respublikamizda ham asosiy vositalarni mol-mulk solig'iga tortishda bevosita ishlab chiqarishda band, ijtimoiy va ma'muriy asosiy vositalarga guruhlagan holda soliqqa tortish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalarni ma'muriy asosiy vositalarga nisbatan pastroq stavkada soliqqa tortilishi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy vositalarga mol-mulk solig'idan imtiyozlar berish amaliyotini joriy etilishi ishlab chikarishni va unda band bo'lib turgan asosiy vositalarni kengayishini rag'batlantirish bilan birga, investitsiyalarni bevosita ishlab chikarishda band bo'ladigan asosiy vositalarga yo'naltirishga xizmat qiladi hamda korxonalar tomonidan haddan tashkari dabdabali ma'muriy binolar qurilishini birmuncha cheklaydi.

Mol-mulk solig'i davlat budjetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati soliqning mazmunidan kelib chiqadi. Mol-mulkni soliqqa tortish orqali birinchidan, jamiyat boyligi, u kimga tegishli bo‘lishidan qat’i-nazar soliqqa tortish mexanizmi orqali mol-mulk tartibga solinadi va ikkinchidan esa, boylikning muayyan qismi davlat budjetiga - xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida qonunlarda belgilangan tartibda qayta taqsimlanadi. Davlat jismoniy shaxslar mol-mulkining ko‘payishidan manfaatdor. Jismoniy shaxslar esa o‘z mol-mulklarining daxlsizligidan manfaatdor bo‘ladilar, buning evaziga o‘z mol-mulkidan davlatga belgilangan tartib va stavkalarda soliq to‘lab boradilar.
2. Mol-mulkni soliqqa tortishning umumiy tartibi bo‘yicha mol-mulk ikki guruhga: ko‘chmas va ko‘char mulklarga bo‘lib soliqqa tortiladi. Ko‘chmas mulklarga yer uchastkalari kiradi, unda turgan bino, inshoat va boshka doimiy joylashgan kurilishlardir. Mazkur yondashuvdan kelib chikib, ko‘char mulklar ham o‘z navbatida yer bilan bog‘liq va bog‘lanmagan boyliklarga ajratish mumkin. Ko‘chmas mulklarga ko‘prok egalik qilish hozirgi sharoitda ba`zi shartlarni keltirib chiqaradi, sababi mulk solig‘ining obyekti asosan ko‘chmas mulklarga qaratilgan. Mol-mulk solig‘i obyektining bunday tabaqalanishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga soliqlarning samarali ta’sir richaglarini qo‘llashda imkoniyatlarni chegaralab qo‘yadi, chunki aksariyat hollarda ko‘chmas mulk obyektlari ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan yoki foydalanmaydigan mol-mulk bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi-nazardan rivojlangan davlatlarda, mol-mulkni soliqqa tortishda tijorat faoliyatida qatnashadigan va tijorat faoliyatida qatnashmaydigan asosiy vositalarga ajratgan holda soliqqa tortiladi.
3. Jismoniy shaxslarning noturarjoy obyektlarini tadbirkorlik maqsadida foydalanishga yo‘naltirilgan obyektlari yildan-yilga ko‘payib borishi natijasida undan olinadigan mol-mulk solig‘i ham oshib bormoqda. Bu albatta ijobiy ko‘rsatkich bo‘lib, oxirgi yillarda jismoniy shaxslarning turar joy mulklariga nisbatan maydoniga qarab mol-mulk solig‘ining tabaqalashtirilgan stavkalarining joriy etilishi tabdirkorlik faoliyatida mulkdan kengroq foydalanishni rag‘batlantirishga ijobiy ta’sirining samarasi sifatida qabul qilish mumkin.
4. O‘zbekistonda mol-mulk solig‘ini indeksatsiya qilish adolatlilikni ta’minlash, ilg‘or xalqaro tajribaga moslashish va davlatga tegishli daromadlarni ta’minlash uchun zarur chora hisoblanadi. Benefitsiar uchun imtiyozlar bilan bog‘liq xavotirlar mavjud bo‘lsa-da, ular indeksatsiya jarayoni bilan taqqoslanmasdan, mustaqil ravishda hal qilinishi kerak. Shunday ekan, soliq siyosati bo‘yicha jamoatchilikni xabardor qilish va konstruktiv muloqotga yordam beradigan faktlarga asoslangan ma’lumotlarni beraylik. Bu jihatdan soliq siyosati bo‘yicha vakolatli davlat organining kengroq tushuntirishlar berishi va soliq solishdan maqsadni insonlarga to‘g‘ri yetkazib berishi muhim va zarur bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vartašová A., Červená K. Real Property Tax in the Countries of Visegrad Group–Comparative View. //Studia Iuridica lublinensia 31, no. 1. 2022. – p. 191-211.
2. Musalimov Sh.I. Mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TMI, 2020.-59 b.
3. Islamkulov A. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2012. 15 b.
4. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik / J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O.Axrorov va boshq. –T: 2021. – 195 b.
5. Niyazmetov I.M. O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. //Bozor, pul va kredit. 2020-yil 11-son. – 40 b.
6. Xudoyqulov S.K., To‘lakov U.T. O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. //Moliya va bank ishi. 2020-yil VI-son. – 165 b.
7. Safarov G‘.A. Ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish istiqbollari. //Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o ‘rniyu 2023. 1(1).
2 https://kpmg.com/uz/ru/home/insights/2023/08/e-commerce-market.html
3 https://daryo.uz/ru/2023/09/27/kak-v-uzbekistane-razvivaetsa-elektronnaa-kommercia
4 Internet buyumlar – deganda Internet orqali ma'lumotlarni yig'ish va almashish texnologiyasi bilan jihozlangan ob'ektlar tarmog'i tushuniladi.
5 https://www.technologyreview.com/2012/10/24/254875/why-we-cant-solve-big-problems/
6 https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B0%D1%8F_%D1%8D%D1%80%D0%B0_%D0%BC%D0%B0%D1%88%D0%B8%D0%BD
7 https://www.google.com/search?q=(%E2%80%9CHow+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+Companies%E2%80%9D&rlz=1C1IXYC_ruUZ978UZ978&oq=(%E2%80%9CHow+Smart%2C+Connected+Products+Are+Transforming+-Companies%E2%80%9D&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIICAEQABgWGB4yCAgCEAAYFhge0gEJMTI5NmowajE1qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8
8 https://www.nber.org/

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash" mavzusidagi tadqiqot ishimizda, mavzuni har tomonlama tushunish uchun turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalandik. Monografik tahlildan foydalanib ilmiy maqolalar va adabiyotlarni tahlil qilish orqali elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash ustida olib borilayotgan zamonamiz olimlarining tadqiqot ishlari natijalari bilan tanishdik. Statistik tahlildan elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalariga ta'sir etuvchi omillar haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlashda foydalandik. Qiyosiy tahlil orqali turli xil mintaqalardagi elektron tijorat modellarini taqqoslab, ulardagi o'xshashliklar, farqlar va kamchliklarini aniqlash uchun mavjud elektron tijorat modellarini tahlil qildik. Ushbu usullarni birlashtirish elektron tijoratning hozirgi holatini ham, rivojlanish istiqbollarini ham aks ettiruvchi yanada to'liqroq va chuqurroq tadqiqot o'tkazishga imkon yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron tijorat O'zbekistondagi mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, ayniqsa, logistika, IT, marketing va mijozlarga xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga keng imkoniyatlar ochadi[9]. Shu bilan birga, elektron tijorat biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Ammo elektron tijorat bozorining yetarli darajada tartibga solinmaganligi sababli noqonuniy bandlik sektorining o'sish xavfini ham keltirib chiqaradi. Elektron tijorat tadbirkorlar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zgartirmoqda, bu esa muayyan ish turlariga bo'lgan talabning o'zgarishiga olib kelishi mumkin[10]. Umuman olganda, O'zbekistonda elektron tijorat bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin noqonuniy bandlik va ish o'rinlarining beqarorligi kabi salbiy oqibatlarning oldini olish uchun xodimlarning huquqlarini tartibga solish va iste'molchilar huqularini ximoya qilishga e'tibor qaratishni talab qiladi.

O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish va fiskal siyosat masalalarida katta ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri (2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son) 2022-yil 31-dekabrdan kuchga kirdi[11]. Ushbu qonun elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va elektron tijorat subyektlari uchun asosiy tushunchalar hamda qoidalarni belgilaydi. O'zbekistonning yangi tahrirdagi Soliq Kodeksiga ko'ra, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlari uchun soliq stavkalari minimal qilib belgilangan. Masalan, daromad solig'i odatdagi 15 foiz o'rniga 7,5 foiz stavkada (337-modda), yagona soliq to'lovi esa 4 foiz emas (467-modda)[12] 2 foiz stavkada to'lanadi. Elektron tijorat sohasidagi soliq-byudjet siyosati imtiyozli soliq stavkalarini taqdim etish va tadbirkorlik tartib-taomillarini soddalashtirish orqali iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu onlayn savdo hajmini oshirish va mamlakatning raqamli iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Elektron tijoratdagi texnologiya tendensiyalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda, bu esa o'z navbatida elektron tijoratni yanada jadal yoyilishiga xizmat qilmoqda. Elektron tijorat tobora mobil qurilmalar orqali foydalanish uchun osonlashib, chakana sotuvchilar mobil ilovalar orqali savdoga o'tmoqda, bu esa aholi o'rtasida mobil qurilmalar sonining ortib borayotgani bilan bog'liqdir. Globallashuv jarayoni kengayotganligi sabab iste'molchilar mahalliy do'kon yoki hatto o'z mamlakatida mahsulot tanlash bilan cheklanmay, balki butun dunyodab xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Nielsenning global tadqiqotida onlayn respondentlarning qariyb 57% xorijiy onlayn-do'konlardan onlayn xarid qilishlarini aytishgan[13]. Innovatsiyalarning joriy etilishi ham tobora kengaymoqda. Ammo mobil texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat yoki mintaqaga qarab farq qiladi. Misol uchun, Hindistonda ba'zi onlayn-do'konlar butunlay mobil ilova orqali mahsulot sotishga o'tgan[14].

Jahonda global elektron tijorat o'sishda davom etmoqda. Global elektron tijorat savdosi 2022-yilda 3,56 trillion AQSH dollariga yetdi, bu 2021-yilda qayd etilgan 2,91 trillion AQSH dollaridan 22,3% ko'pdir[15]. Bu sezilarli o'sish bo'lib, onlayn xaridlarning tobora ommalashib borayotganini va global raqamli iqtisodiyotning kengayishining yorqin isbotidir.

Ushbu tendensiyalar axborot texnologiyalari va infratuzilmaning takomillashuvi natijasida elektron tijorat o'sishda davom etayotganligidan dalolat beradi, bu esa internetda ko'proq iste'molchilarni jalb qiladi.

9 https://infocom.uz/wp-content/uploads/2023/06/B5-1.pdf
10 https://infocom.uz/wp-content/uploads/2023/06/B5-1.pdf
11 https://lex.uz/ru/docs/6213428
12 https://www.norma.uz/nashi_obzori/e-commerce_chto_eto_takoe_i_kak_tuda_popast
13 https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire-
14 https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire-
15 https://marketsplash.com/ru/statistika-eliektronnoi-kommiertsii/

Sun'iy intellekt (AI) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalarning ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi elektron tijorat rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida takliflarni shaxsiylashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. AI foydalanuvchilar uchun shaxsiy tavsiyalar yaratish, ularning xarid qilish tajribasini yaxshilash va xarid qilish ehtimolini oshirish imkonini beradi. AI chatbotlari mijozlarga 24/7 kun davomida yordam beradi, bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish va qoniqish darajasini oshiradi. AI korxonalarga ongli qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun xarid qilish harakati haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib beradi, bu esa korxonalarga tezroq va aniqroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi[16]. Bugungi kunda, blokcheyn tenologiyasi ham tobora rivojlanib bormoqda. Ushbu texnologiya barcha tranzaktsiyalarning markazlashtirilmagan va o'zgarmas tarixini ta'minlash orqali tranzaksiyalar xavfsizligini yanada oshiradi[1]. Shu bilan birga, ta'minot zanjirini boshqarishda blokcheyn ta'minot zanjiri boshqaruvini optimallashtiradi, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi[17]. Ushbu texnologiyalar yanada samarali, xavfsiz va qulay elektron tijorat platformalarini yaratishga yordam beradi, natijada foydalanuvchi tajribasi oshib, biznes imkoniyatlari kengayadi.

Elektron tijorat ta'sirida iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar sezilarli va ko'p qirrali bo'ldi. Iste'molchilar tobora ko'proq onlayn xarid qilmoqdalar, bu esa elektron tijoratning o'sishiga olib keladi[18]. COVID-19 pandemiyasi davrida jamoat joylarida harakatlanishga qo'yilgan cheklovlar iste'molchilarning an'anaviy xarid qilish odatlarini o'zgartirib, onlayn xaridlarga o'tishini tezlashtirdi[19]. Do'konlarning assortimentidagi o'zgarishlar va mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat o'rtacha mijozlarning xarid qobilyatida o'z aksini topadi. Iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi bu o'zgarishlar biznesning strategiyalari va taktikalariga ta'sir ko'rsatmoqda, chunki ular yangi sharoitlarga va mijozlarning xohishlariga moslashishga intiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xaridorlarning onlayn xarid qilish qarorlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Reklama, qadoqlash, displeylar va veb-saytlar xarid qilish qarorlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular o'zlarining jozibasi bilan xaridorlarni tovar va xizmatlarni sotib olishga undaydi. Shu bilan birga, qaror qabul qilish jarayonida xaridorlarga oilasi, do'stlari va qo'shnilari ham katta ta'sir qiladi, chunki ularning fikri va tavsiyalari potensial xaridorlar tomonidan qadrlanadi. Lekin eng yaxshi targ'ibotchi, bu mahsulotni iste'mol qilgandan keyin u haqdagi ijobiy fikr uni yana sotib olishga undashidir. Iste'molchilar xarid bilan bog'liq xavflarni, shu jumladan mahsulotning qaytarilishi va kafolatlar ehtimolini ham hisobga oladilar. Mahsulotning narx-navo nisbati, ayniqsa, kuchli raqobat muhitida muhim omil hisoblanadi. Ayni paytda, tez yetkazib berish yoki zudlik bilan xarid qilish zarurati do'kon yoki mahsulotni tanlashga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillar o'zaro ta'sir qiladi va onlayn chakana sotuvchilar o'zlarining marketing strategiyalari samaradorligini oshirish uchun ularni hisobga olishlari kerak bo'lgan murakkab qaror qabul qilish jarayonini tashkil qiladi.

Bugungi kunda, elektron tijorat faoliyatida eng ko'p uchraydigan holatlardan biri bu kiberhujumlardir. Mana shu omil ko'plab potensial xaridorlarni elektron tijoratdan foydalanishdan qaytaradi. Ushbu muammoga jiddiy e'tibor berish juda muhimdir, bu butun tarmoqqa katta ta'sir etadi. Onlayn tranzaktsiyalar xavfsizligini va elektron tijorat ishtirokchisining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni ta'minlash uchun avvalo, to'lov tizimini PCI DSS xalqaro to'lov kartasi ma'lumotlari xavfsizligi standartlariga muvofiqligini ta'minlash zarur[20]. Shu bilan birga, internet tarmog'i orqali ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun SSL/TLS kabi uzatishni shifrlash yordamida mijoz ma'lumotlarini himoya qilish kerak[21]. Albatta, foydalanuvchi identifikatorlarini tekshirish va maxfiy ma'lumotlarga kirishni cheklash uchun ko'p faktorli autentifikatsiya va avtorizatsiya tizimlarini joriy qilish talab etiladi. Umumiy kiberxavfsizlik qoidalarini unutmaslik va xavfsizlik zaifliklarining oldini olish uchun barcha dasturlarni, jumladan CMS, plaginlar va skriptlarni muntazam yangilab turish kerak[22]. Kiberhujum yoki tizim xatosi yuz berganda ma'lumotlarni yo'qotmasdan tiklash uchun ma'lumotlarning muntazam zaxira nusxalarini yaratish zarur. Bunday chora-tadbirlar tadbirkorlarga o'z biznesi va mijozlarini kibertahdidlardan himoya qilish hamda elektron tijorat operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Kiber xavfsizlik darajasining yuqori bo'lishi mijozlarda ishonchni oshirib, ushbu saytdan xarid qilishga undaydi.

Elektron tijorat sohasida doimiy ravishda yangi tahdidlar paydo bo'lib bormoqda, ular biznesdan e'tibor va moslashishni talab qiladi. Bugungi kundagi, ilg'or sun'iy intellekt usullaridan fishing hujumlari va firibgarliklarni yaratish uchun foydalanish ommalashib bormoqda[23]. Shu bilan birga, buzg'unchilar zararli dasturlarni kiritish yoki maxfiy ma'lumotlarga kirish uchun ta'minot zanjiridagi zaifliklarni nishonga olib, u yerga o'zalarining buzg'unchi dasturlarini joylashni va undan kiber hujum uchun foydalanishni tez-tez qo'llayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunda ular zararli kodlar va boshqa zararli harakatlarni tarqatish uchun ushbu kompaniyaning tarmoq

16 https://www.actualidadecommerce.com/ru
17 https://www.cryptopolitan.com/ru
18 https://adindex.ru/adindex-market/7/ecommerce/153781.phtml
19 https://www.comnews.ru/content/218162/2022-01-10/2022-w02/e-commerce-pokazala-kolossalnyy-rost
20 https://experience.dropbox.com/ru-ru/resources/protecting-personal-info-online
21 https://media.foxford.ru/articles/kak-zashhitit-lichnye-dannye-v-seti
22 https://www.eset.com/ua-ru/support/information/entsiklopediya-ugroz/zashchita-personalnykh-dannykh/
23 https://e-pepper.ru/news/globalnyy-rynok-elektronnoy-kommertsii-8-trendov-v-2023-godu.html

va server resurslaridan foydalanishadi. Mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlab, ularni sotishi yoki o'zlarining moliyaviy buzg'unchiligida vosita sifatida foydalanishlari mumkin. Lekin, xavfsizlik bo'yicha ham rivojlanish to'xtab qolgani yo'q. Elektron tijoratda kiberxavfsizlik tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha doimiy ravishda rivojlanib, yangi tahdidlarga moslashib bormoqda. Tahdidlarni tezda aniqlay oladigan va ularga javob beradigan tizimlar ommalashib, ko'plab korxonalar tomonidan joriy etilmoqda. Hozirgi kuda, resurslarga xavfsiz kirishni ta'minlash uchun tarmoq va xavfsizlik xususiyatlarini birlashtirgan Secure Access Service Edge (SASE)[24] dasturlari deyarli barcha to'lov tizimlari tomonidan joriy etilgan[25]. Bulutli xizmatlar va ma'lumotlarni maxsus yechimlar bilan himoya qiluvchi MDR (Managed Detection and Response) bulut xavfsizligi tizimi provayderlar tomonidan bulutli texnologiyalar xavfsizligini ta'minlashda qo'llanilmoqda[26]. Barcha elektron tijorat korxonalari xavfsizlik tizimlarini yaxshilash va tahdidlarni aniqlash uchun AI va ML dan foydalanishga o'tmoqdalar. Ushbu tendensiyalar biznes va iste'molchilarni kiber tahdidlardan himoya qilish uchun muhim bo'lgan elektron tijorat xavfsizligini yaxshilash bo'yicha davom etayotgan harakatni aks ettiradi[27]. Ushbu tendensiyalarni tushunish va qo'llash korxonalarga potentsial tahdidlardan bir qadam oldinda turishga va onlayn operatsiyalarini xavfsiz saqlashga yordam beradi.

1-rasm: Elektron tijorat tizimi kiberxavfsizligining tashkiliy tuzilmasi[28]

Elektron tijoratni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir jihat, bu logistika tizimidir. Global darajadagi elektron tijoratda logistika va ta'minot zanjiri tizimlarining ishlashi bir nechta asosiy parametrlar asosida baholanadi. Eng muhim ko'rsatkich - bu kompaniyalarning tovarlarni tez va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash qobiliyatidir. Samarali logistika tizimlari buyurtmalarni tanlash va jo'natishda xatolarni minimallashtirishi kerak, chunki xatolar tufayli tovarlar yetkazilishi kechiqishi yoki shikastlangan holda yetib borishi, ba'zida umuman yetib bormasligi mumkin. Mijozlar o'z buyurtmalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini kutishadi, bu esa kompaniyalardan tegishli texnologiyani tatbiq etishni talab qiladi. Talab va bozor sharoitlarining o'zgarishiga tezda moslashish qobiliyati samarali logistika tizimining muhim xususiyatidir. Logistika operatsiyalarini yaxshilash uchun sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ushbu ko'rsatkichlar logistika va ta'minot zanjiri tizimlarini mijozlar ehtiyojlarini qanchalik qondira olishini va tez o'zgaruvchan elektron tijorat bozorida biznesni raqobatbardoshligini baholashga yordam beradi. Standartlar va innovatsion yechimlarni joriy etish global logistika operatsiyalarida samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda, elektron tijoratda logistika va zaxiralarni boshqarishga bog'liq bir nechta asosiy muammolar mavjud:

- **tovar ayirboshlashning pastligi:** bu ortiqcha zaxirani paydo bo'lishiga va natijada kapitalning muzlab qolishiga olib kelishi mumkin;

24 Secure Access Service Edge (SASE) - xavfsizlik va tarmoqqa kirish funksiyalarini birlashtirgan tarmoq xavfsizligi uchun tushuncha va arxitektura.
25 https://bing.com
26 https://itigic.com/ru/cybersecurity-trends-in-2020s-and-beyond/
27 https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/kiberbezopasnost-2021-2022-trendy-i-prognoz
28 Muallif ishlanmasi

- **mahsulot taqchilligi:** eng ko‘p talab qilinadigan mahsulotlarning zarur vaqtda yo‘qligi sotuv hajmini tushushiga va mijozlarning noroziligiga olib keladi;
- **mahsulot sifati bilan bog‘liq muammolar:** Mahsulotni dastlabki tekshirish imkoniyati bo‘lmagan onlayn-do‘konlarda, tovarni qaytarib olish va mijozlarning noroziligiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, elektron tijoratda logistikani va zaxiralarni boshqarish borasida bir qator yangi imkoniyatlar ham paydo bo‘lmoqda, masalan:

- **zaxirani boshqarishni avtomatlashtirish:** zaxirani aniqroq prognoz qilish va boshqarish uchun avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda;
- **logistika jarayonlarini optimallashtirish:** yetkazib berishni tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda;
- **ma’lumotlar sifatini oshirish:** xarid qilish va zaxirani boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun aniq va tegishli ma’lumotlardan foydalanish maqsadida avtomatlashtirilgan ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari joriy qilish kengayib boryapti;
- **logistika tarmog‘ining moslashuvchanligi:** talab o‘zgarishiga tezda javob bera oladigan moslashuvchan logistika tarmog‘larini yaratish ommalashib bormoqda.

Ushbu yangiliklar elektron tijorat kompaniyalariga o‘z operatsiyalari samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va mijozlar ehtiyojini to‘laroq qondirishga yordam beradi. Innovatsion yechimlar va jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish o‘zgaruvchan raqamli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishning kalitidir.



2-rasm: Elektron tijoratning logistika tizimi[29]

Elektron tijorat global bozorlarni o‘zgartirishning muhim omiliga aylanib, ularning tuzilishi va dinamikasiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Onlayn xarid qilish hamda sotish imkoniyati nafaqat tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshiladi, balki iste’molchilarning xatti-harakatlarini ham o‘zgartirdi. Elektron tijorat kompaniyalarga geografik to‘siqlarni minimallashtirgan holda global miqyosda ishlash imkoniyatini taqdim etgani uchun global bozorlar yanada raqobatbardosh bo‘ldi. Bundan tashqari, bozorlar va platformalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo‘lishi iste’molchilar hamda sotuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani kuchaytirdi. Elektron tijoratda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish kabi yangi texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarga o‘z faoliyatini optimallashtirish va har bir mijozga shaxsiy yondashuvni taklif qilish imkonini beradi. Elektron tijorat sotuvchilar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi, natijada narxlar arzonlashadi va yaxshi xizmat ko‘rsatiladi. Elektron tijoratning o‘sishi kompaniyalardan mijozlarning yetkazib berish tezligi va sifati bo‘yicha talablarini qondirish uchun samarali logistika va yetkazib berish tizimlarini yaratishni talab qiladi. Barqarorlik va ekologik tozalikka qiziqish ortib borayotgani tovarlarni qadoqlash hamda yetkazib berish sohasida “yashil” yechimlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Elektron tijorat global bozorlarni o‘zgartirishda, yangi biznes imkoniyatlarini taqdim etishda va iste’molchilar uchun xarid qilish tajribasini yaxshilashda davom etmoqda. U bozor iqtisodiyoti kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va iqtisodiy o‘sish hamda innovatsiyalarning muhim drayveri bo‘lib hisoblanadi.

29 Muallif ishlanmasi



3-rasm: 2022-yilda global elektron tijorat bozoridagi eng katta kompaniyalarning hajmi, mlrd. AQSh dollarida[30]

Elektron tijoratda global raqobat kuchayib bormoqda va xalqaro savdo bu jarayonning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Amazon, Alibaba va eBay kabi yirik global kompaniyalar bu bozorning asosiy o‘yinchilar bo‘lib, ular tendensiyalarni va o‘yin qoidalarini belgilashga urunishmoqdalar. Ushbu kompaniyalar yangi bozorlarni kengaytirish va xalqaro iste’molchilarni jalb qilish orqali o‘z chegaralarini kengaytirishga intilmoqda. Ularda mavjud bo‘lgan ilg‘or texnologiyalar va logistika yechimlari, jahon savdosidagi to‘siqlarni bartaraf etib, butun dunyo bo‘ylab mijozlarga turli tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beryapti.

Hindistondagi Flipkart, Lotin Amerikasidagi MercadoLibre yoki yurtimizdagi Uzum kabi mintaqaviy platformalarning o‘sishi ham mavjud bo‘lib, ular o‘z bozorlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda global gigantlar bilan faol raqobatlashmoqda. Umuman olganda, elektron tijorat dunyoni raqobatdagi geografik chegaralar bilan cheklanmagan yagona raqamli bozorga aylantirmoqda va kompaniyalar xalqaro savdodagi o‘zgarishlarga faol moslashib, elektron biznes munosabatlarining kelajagini shakllantirmoqda.

Elektron tijoratni rivojlanishiga katta ta’sir etuvchi yana bir muhim jihat bu – qonunchilik va bojxona tartibini xalqaro kelishuvlarga integratsiya qilishdir. Butun dunyoda elektron tijorat sohasidagi qonunchilik bazasi hamda tartibga solish turlicha va unda doimiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ko‘pgina mamlakatlar elektron tijoratning iste’molchilarni himoya qilish, ma’lumotlar xavfsizligi, elektron imzo va onlayn operatsiyalarni soliqqa tortish kabi jihatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarni ishlab chiqib bo‘lishdi. Yevropa Ittifoqida fuqarolarga raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlarini nazorat qilish imkonini beruvchi “Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi reglament (GDPR) kuchga kirdi. Qo‘shma Shtatlar bolalarning onlayn maxfiyligini himoya qilish uchun COPPA qonunini qabul qildi. Ba’zi mamlakatlar, masalan, Xitoy, elektron tijoratni, jumladan, sun’iy intellekt va raqamli valyutani tartibga solish bo‘yicha qonunlarni ishlab chiqmoqda. O‘zbekistonda ham “Elektron tijorat to‘g‘risida” 29.09.2022-yildagi O‘RQ-792-sonli qonun qabul qilindi[31]. U 2022-yil 31-dekabrdan kuchga kirdi va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, elektron tijorat subyektlarini belgilash, shartnomalar tuzish tartibi, hisob-kitoblar va tovarlarni yetkazib berish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda elektron tijorat sohasidagi bojxona huquqiy bazasi va tartibga solish xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilikka muvofiq yuritilmoqda. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOI) doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va bojxona organlari hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasida elektron hujjat aylanishini birlashtirishga qaratilgan bojxona tizimini tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda[32]. Umuman olganda, global tendensiya elektron tijorat uchun yanada shaffof va xavfsiz muhit yaratish istagini o‘z ichiga oladi, ammo yondashuvlar va qoidalardagi farqlar turli yurisdiksiyalarda faoliyat yurituvchi global kompaniyalar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Elektron tijorat O‘zbekistonda jamiyatning ijtimoiy-madaniy jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu savdo va iste’molning an’anaviy shakllarini o‘zgartirishga yordam beradi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa

30 Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi
31 https://lex.uz/ru/docs/6213428
32 https://eec.eaeunion.org/news/speech/strategiya2025-perspektivy-razvitiya-tamozhennogo-regulirovaniya-v-eaes

qo‘shadi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Elektron tijoratning rivojlanishi bilan iste’molchilar tovar va xizmatlarni tanlashda ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu iste’molchilarning odatlari va xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarga ta’sir qiladi. Bu, ayniqsa, chekka hududlar aholisi uchun mahsulotlar assortimentini oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, elektron tijorat aholining huquqiy va iqtisodiy savodxonligini oshirishga ko‘maklashadi, chunki elektron tijoratdan foydalanish uchun ma’lum bir turdagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Bu, shuningdek, noyob mahalliy tovarlar va xizmatlarni jahon bozoriga tarqatish va shu bilan milliy madaniyatni saqlagan holda uni dunyoga targ‘ib qilish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda elektron tijorat odamlarning turmush tarzi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Elektron tijorat O‘zbekiston aholisiga, ayniqsa, chekka qishloq joylarda ilgari mavjud bo‘lmagan keng turdagi tovar va xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Xaridorlar ham kundan-kunga, mahsulotlarni solishtirish, sharhlarni o‘qish va oddiy do‘konlarga tashrif buyurmasdan onlayn xarid qilish imkoniyatiga egaligi sababli, bilimdon va talabchan bo‘lib bormoqda. Elektron tijoratdan foydalanish ma’lum raqamli savodxonlikni talab qiladi, bu esa aholi o‘rtasida tegishli ko‘nikmalarni o‘rganish va rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Elektron tijorat yangi korxonalarning paydo bo‘lishiga yordam beradi va raqobatni kuchaytiradi, bu esa tovarlar va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga hamda narxlarning pasayishiga olib keladi. Onlayn xarid qilish platformalari ham foydalanuvchilar fikr va tavsiyalar almashadigan ijtimoiy muloqot joylariga aylanmoqda. An’anaviy do‘konlar va bozorlar mijozlar tajribasini yaxshilash uchun onlayn savdo kanallari va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali yangi voqelikka moslashmoqda. O‘zbekistonda elektron tijorat ta’sirida bo‘lgan odamlarning turmush tarzi va xulq-atvoridagi bunday o‘zgarishlar jahon tendensiyalarini aks ettirib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda, butun dunyoda iqlim o‘zgarishlari haqida chuqur o‘ylantiradigan muammolar mavjud. Shu sababli, elektron tijoratni atrof-muhitga ta’sirini hisobga olish dalzarb masaladir. O‘zbekistonda elektron tijoratning atrof-muhitga ta’sirini bir nechta jihatlar bilan ko‘rib chiqish mumkin. Xususan:

- **resurs iste’moli:** elektron tijoratning o‘sishi elektron qurilmalardan foydalanish va energiya iste’molini oshishiga olib keladi, bu esa mamlakatning energiya resurslariga qo‘shimcha bosim o‘tkazishi mumkin;
- **qadoqlash va jo‘natish:** onlayn xaridlar ko‘pincha maxsus qadoqlash va jo‘natishni talab qiladi, natijada chiqindi va avtomobil chiqindilari ko‘payadi. Boshqa tomondan, elektron tijorat zaxirani samaraliroq boshqarish va an’anaviy do‘konlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish orqali ushbu turdagi chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi;
- **raqamlashtirish:** raqamlashtirishga o‘tish qog‘oz hujjatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi va ularni ishlab chiqarish hamda utilizatsiya qilishning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishi mumkin;
- **innovatsiya va barqarorlik:** elektron tijoratning yuksalishi innovatsiyalarni, jumladan, atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barqaror qadoqlash materiallarini ishlab chiqish va logistika tizimini takomillashtirishga motivatsiya beradi.

Umuman olganda, elektron tijorat atrof-muhitga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda iqtisodiy o‘sish hamda ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash maqsadida elektron tijorat sektorida barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumotlar markazlari va serverlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash energiya sarfini hamda elektron tijoratning ekologik ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. Plastmassa va boshqa zararli materiallardan foydalanishni kamaytiradigan qadoqlash amaliyotini joriy etish, chiqindilar va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga yordam beradi. Samarali yetkazib berish va logistika tizimlarini ishlab chiqish, yuklarni tashish bilan bog‘liq uglerod chiqindilarini kamaytirishga va tarmoqni barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Iste’molchilarni barqarorlik va ekologik toza amaliyotlarga o‘rgatish dasturlarini amalga oshirish atrof-muhit uchun zararsiz bo‘lgan tovarlar va xizmatlarga talabni oshirishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar elektron tijoratni rivojlantirishga barqaror va mas’uliyatli yondashuvni yaratishga, atrof-muhitni hurmat qilish bilan iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlashga qaratilgan elektron tijorat tizimini yaratishga qaratilgandir.

Kelajakda global miqyosda elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- **bozor maydonlarini kengaytirish:** muayyan tarmoqlar yoki bozor segmentlariga xizmat ko‘rsatadigan ixtisoslashgan onlayn platformalar sonini ko‘paytirish orqali bozor maydonlarini kengaytirish imkoniyati mavjud;
- **zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi:** foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun VR texnologiyalari, video marketing, sun’iy intellekt va mashinani o‘rganishni

qo‘llash[33];

- **raqamlashtirish va avtomatlashtirish:** samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalar orqali logistika jarayonlari hamda zaxiralarni boshqarishni takomillashtirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda;
- **mobil tijorat (m-commerce):** xarid qilish uchun smartfonlar va mobil ilovalardan foydalanishning ko‘payishi, bu interfeyslar va to‘lov tizimlarini mobil qurilmalarga moslashtirishni talab qiladi[34].

O‘zbekistonda ham elektron tijorat faol rivojlanmoqda va biz kelajakda quyidagilar amalga oshishini kutishimiz mumkin:

- **internet va smartfonlarning ijtimoiy hayotimizga kirib borishining ortishi:** Internet va mobil qurilmalardan foydalanuvchilar sonining o‘sishi onlayn xarid qiluvchilar auditoriyasini kengaytirishga yordam beradi;
- **logistikani rivojlanishi:** bugungi kunda, yurtimizda Yandex va Express24 kabi yetkazib berish xizmatlarining kirib kelishi logistika infratuzilmasini takomillashtirish va tovarlarni mamlakat ichida yetkazib berish muddatlarini qisqartirishga imkon yaratadi.
- **mahalliy onlayn platformalarning o‘sishi:** O‘zbekiston bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan mahalliy onlayn-do‘konlar hamda bozorlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kundan-kunga oshib bormoqda[35].

Elektron tijoratni rivojlantirishning ushbu yo‘nalishlari foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga, tovar va xizmatlarning assortimentini oshirishga, O‘zbekistonda va butun dunyoda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Butun dunyoda hamda O‘zbekistonda innovatsiyalarning tez kirib kelishi, yuqori tezlikdagi internet aloqalarining joriy etilishi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi elektron tijoratning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratada. Moliyaviy texnologiyalar, (fintech) sohasidagi innovatsiyalar, to‘lov tizimlarini takomillashtirish, korxonalarni moliyalashtirishning yangi usullarini taqdim etish va elektron operatsiyalar xavfsizligini ta’minlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun sun’iy intellektdan foydalanish elektron tijorat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Barqaror elektron tijorat yo‘lidagi innovatsiyalar ekologik toza qadoqlash materiallarini ishlab chiqish, chiqindilarni kamaytirish uchun logistikani optimallashtirish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, elektron tijorat startaplarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish yangi g‘oyalar va texnologik yechimlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://news.myseldon.com/ru/news/index/242627587
2. https://vc.ru/trade/620609-osnovnye-tendencii-razvitiya-elektronnoy-kommercii-v-rossii-i-mire-v-2023-godu-top-15-trendov
3. https://eec.eaeunion.org/news/speech/strategiya2025-perspektivy-razvitiya-tamozhennogo-regulirovaniya-v-eaes/
4. https://e-pepper.ru/news/globalnyy-rynok-elektronnoy-kommertsii-8-trendov-v-2023-godu.html
5. https://itigic.com/ru/cybersecurity-trends-in-2020s-and-beyond/
6. https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/kiberbezopasnost-2021-2022-trendy-i-prognozy/
7. https://experience.dropbox.com/ru-ru/resources/protecting-personal-info-online
8. https://media.foxford.ru/articles/kak-zashhitit-lichnye-dannye-v-seti
9. https://www.eset.com/ua-ru/support/information/entsiklopediya-ugroz/zashchita-personalnykh-dannykh/
10. https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire-
11. https://marketsplash.com/ru/statistika-eliektronnoi-kommiertsii/
12. https://www.actualidadecommerce.com
13. https://www.cryptopolitan.com/ru/
14. https://adindex.ru/adindex-market/7/ecommerce/153781.phtml
15. https://lex.uz/ru/docs/6213428
16. https://www.norma.uz/nashi_obzori/e-commerce_chto_eto_takoe_i_kak_tuda_popast
17. https://retailers.ua/news/tehnologii/3312-globalnoe-issledovanie-nielsen-elektronnaya-kommertsiya-v-mire-
18. https://ru.wikipedia.org
19. U.Sharifxodjayev, Z.Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O‘quv
20. qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.-271 b
21. Абдухалилова Л.Т. Интернет маркетинг. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. 265 б.
22. Ergashxodjaeva Sh. J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik.–T.: Iqtisodiyot, 2018.-315 b.

33 https://vc.ru/trade/620609-osnovnye-tendencii-razvitiya-elektronnoy-kommercii-v-rossii-i-mire-v-2023-godu-top-15-trendov
34 https://news.myseldon.com/ru/news/index/242627587
35 https://www.spot.uz/ru/2018/06/25/e-commerce/

23. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B.
24. Marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019.-418 b.
25. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing an
26. introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

FOREIGN DIRECT INVESTMENT AND ELECTRICITY CONSUMPTION DURING UZBEKISTAN'S GREEN TRANSITION

Nurbek Khalimjonov
Assistant in the department of mathematical methods in Economics, TSUE, Uzbekistan

Abstract: This study examines the relationship between foreign direct investment inflows and energy consumption in the context of Uzbekistan. The analysis employed time series data obtained from the World Bank, covering the period from 1991 to 2023. This study utilizes the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) and Dynamic Ordinary Least Squares (DOLS) models to examine the relationship between foreign direct investment inflows and power consumption in the context of Uzbekistan. The findings from the Johansen cointegration test indicated the existence of cointegration linkages among the variables examined in the study. The findings of the FMOLS and DOLS models indicated a statistically significant negative association between electricity consumption and foreign direct investment inflows in Uzbekistan, as well as an insignificant link in the case of DOLS. Additional findings indicate that there exists a statistically significant and positive correlation between economic growth and the influx of foreign direct investment. The Granger causality analysis yielded findings indicating a one-way causal relationship, with economic growth exerting a causal influence on the inflows of foreign direct investment. The study suggests that a revision of policies pertaining to power consumption and economic growth is necessary for the purpose of attracting foreign direct investment inflows in Uzbekistan. It emphasizes the importance of involvement from the government and policymakers in this endeavor.

Key words: Foreign Direct Investment, Electricity Consumption, Green transition, Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va energiya iste'moli o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Tahlil davomida Jahon bankidan olingan 1991-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan vaqtli qator ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasidagi munosabatni o'rganish uchun to'liq o'zgartirilgan oddiy eng kichik kvadratlar (FMOLS) va dinamik oddiy eng kichik kvadratlar (DOLS) modellaridan foydalanadi. Yogansen kointegratsiya testi natijalari tadqiqotda tekshirilgan o'zgaruvchilar o'rtasida kointegratsiya aloqalari mavjudligini ko'rsatdi. FMOLS va DOLS modellarining topilmalari elektr energiyasi iste'moli va O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasida statistik jihatdan muhim salbiy bog'lanishni, shuningdek, DOLS misolida ahamiyatsiz aloqani ko'rsatdi. Qo'shimcha topilmalar iqtisodiy o'sish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasida statistik jihatdan muhim va ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Granger sabab-oqibat tahlili natijasida iqtisodiy o'sish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga sababiy ta'sir ko'rsatadigan bir tomonlama sabab-oqibat munosabatlarini ko'rsatuvchi xulosalar berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun energiya iste'moli va iqtisodiy o'sishga oid siyosatni qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda Hukumat va siyosatchilarning ishtiroki muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, elektr energiyasi iste'moli, yashil o'tish, O'zbekiston.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается взаимосвязь между притоком прямых иностранных инвестиций и потреблением энергии в контексте Узбекистана. В анализе использовались данные временных рядов, полученные от Всемирного банка, охватывающие период с 1991 по 2023 год. В этом исследовании используются модели полностью модифицированных наименьших квадратов (FMOLS) и динамических моделей наименьших квадратов (DOLS) для изучения взаимосвязи между притоками прямых иностранных инвестиций. и энергопотребление в контексте Узбекистана. Результаты теста коинтеграции Йохансена показали наличие коинтеграционных связей между переменными, рассмотренными в исследовании. Результаты моделей FMOLS и DOLS показали статистически значимую отрицательную связь между потреблением электроэнергии и притоком прямых иностранных инвестиций в Узбекистан, а также незначительную связь в случае DOLS. Дополнительные результаты показывают, что существует статистически значимая и положительная корреляция между экономическим ростом и притоком прямых иностранных инвестиций. Причинно-следственный анализ Грейнджера дал результаты, указывающие на одностороннюю причинно-следственную связь: экономический рост оказывает причинно-следственное влияние на приток прямых иностранных инвестиций. Исследование предполагает, что пересмотр политики, касающейся энергопотребления и экономического роста, необходим с целью привлечения притока прямых иностранных инвестиций в Узбекистан. Он подчеркивает важность участия правительства и политиков в этом начинании.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, Потребление электроэнергии, Зеленый переход, Узбекистан.

INTRODUCTION

Uzbekistan has been making tremendous steps to include sustainable practices into its overall economic planning. The country began shifting from a planned economy to a market economy in 2016. It has acknowledged the need to boost its economic transformation using a green approach. The administration has committed to establishing a more sustainable economic paradigm.

Namely, a presidential directive signed in December 2022 outlines key measures the authorities will need to implement in this area. It accepted the Plan of Action for Transitioning to a Green Economy and Ensuring Green Growth until 2030, which comprises actions addressing the current environmental and economic problems to achieve green, resilient, and inclusive growth.

The electricity usage in Uzbekistan is widely recognized as a crucial factor for fostering economic development, notwithstanding the intermittent power outages that have been experienced. Foreign Direct Investment (FDI) is a significant economic indicator that exerts influence on a nation's economic growth and development. Consequently, this research examines the correlation between foreign direct investment (FDI) and electricity consumption in Uzbekistan.

Electricity is widely regarded as an essential component of contemporary industrialized society, serving as a pivotal driver of economic expansion and facilitating social progress. Access to reliable and affordable power is of paramount importance for the electricity business, as well as for supporting infrastructure development and enhancing living standards (Jack, 2022). Nevertheless, with the escalation of foreign direct investment (FDI) inflows, there is a corresponding surge in the demand for energy-intensive operations, hence exerting significant strain on the current energy infrastructures.

LITERATURE REVIEW

This section provides an analysis of the existing empirical literature pertaining to the relationship between foreign direct investment (FDI) inflows and electricity consumption. The examination primarily focuses on the objectives, techniques, and conclusions of studies conducted in different countries. Limited research has been conducted on the correlation between foreign direct investment (FDI) and electricity or energy consumption. It can be concluded that foreign direct investment (FDI) has a negative impact on energy consumption over an extended period of time. The study conducted by Atchike et al. (2020) yielded comparable findings, providing empirical support for the existence of unidirectional causal relationships from energy consumption to both economic development and foreign direct investment.

Additionally, the study identified the presence of a long-term association between these variables. In a study conducted by Khobai and Mavikela (2018), the findings from the Autoregressive Distributed Lag (ARDL) model indicated the existence of a long-term relationship between energy consumption, foreign direct investment (FDI), economic growth, and capital. Additionally, the results of the Vector Error Correction Model (VECM) test revealed a unidirectional causation running from FDI and capital to energy consumption. A bidirectional causal relationship between energy usage and economic growth has been identified.

In their study, Olaoye et al. (2020) employed the Dynamic Ordinary Least Squares (DOLS) estimator and the Granger causality test to examine the association between energy consumption and foreign direct investment (FDI) in Nigeria during the period spanning from 1990 to 2017. The study's findings indicate that energy usage has a notable adverse effect on the inflow of foreign direct investment (FDI). Furthermore, a notable correlation has been established between energy consumption and oil exports, indicating a favorable association.

Zeeshan (2021) employed the Structural Equation Modeling (SEM) methodology to examine the interplay between foreign direct investment (FDI), energy consumption, natural resources, and economic growth within the context of Latin American countries during the period spanning from 1990 to 2018. The results of the study indicate that foreign direct investment (FDI) has a statistically significant and positive impact on energy usage. In general, the results indicate that Foreign Direct Investment (FDI), energy consumption, and natural resources exhibit a noteworthy and favorable correlation with the economic growth of Latin American countries.

The study conducted by Rash et al. (2022) examined the correlation between foreign direct investment (FDI) in the renewable electricity sector, the generation of renewable electricity, and the economic growth of African nations during the period spanning from 2003 to 2019. The study employed the panel vector autoregression model and the Granger causality test to examine the presence of cointegration and establish causal relationships among the variables incorporated in the model. The findings of the study were unexpected, as they suggest that there is no substantial correlation between economic growth and African foreign direct investment. In contrast, it is evident that economic expansion has a favorable influence on actual electricity generation. In a similar vein, Khandker et al. (2018) employed a Vector Error Correction Model (VECM) estimate technique to investigate the nexus between Foreign Direct Investment (FDI) and the utilization of renewable energy in Bangladesh throughout the period of 1980 to 2015.

METHODOLOGY

This research examines the correlation between electricity consumption and foreign direct investment in the context of Uzbekistan, spanning the time period from 1991 to 2023. The research used GDP per capita, taxes on international commerce, and gross fixed capital formation as independent variables in constructing a multivariate model. The variables are expressed in terms of natural logarithms, and the logarithmic transformation is applied to electricity consumption in order to standardize the unit of measurement. The research employs Foreign Direct Investment (FDI) as the dependent variable, as utilized in the study conducted by Rashed et al. (2022). The equation representing the model is provided below:

$$LFDI_t = \alpha_1 + \alpha_{LEC}LEC_t + \alpha_{LGDP}LGDP_t + \alpha_{LTAX}LTAX_t + \alpha_{LKF}LKF_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

Where the variable a_1 denotes the intercept, “LFDI” represents the natural logarithm of foreign direct investment inflows, “LEC” represents electricity consumption, “LGDP” represents the natural logarithm of gross domestic product per capita (annual %), “LTAX” represents the natural logarithm of taxes on international trade (% of revenue), “LKF” represents gross fixed capital formation (% of GDP), “ε_t” represents the error term, and t represents the period.

The data is obtained from reputable sources such as the World Bank for foreign direct investment inflows, electricity consumption, and taxes on international trade, while the gross domestic product per capita data is sourced from the Uzbekistan Reserve Bank. The study utilizes the Augmented Dickey-Fuller and Phillips-Perron unit root tests to assess the stationarity of the variables and address concerns related to spurious regression. Additionally, this will aid in determining the variables’ order of integration in the study. The study utilizes the VAR optimal lag length criterion to determine the appropriate amount of delays for the analysis. The Johansen cointegration test is utilized in this study to examine the existence of cointegration among the variables under investigation. The research conducted by Amoako and Insaidoo (2021), Khobai and Mavikela (2018), Kang et al. (2021), and Mohanty and Sethi (2022) employed electricity consumption as the dependent variable. The significance of these studies lies in their utilization of the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) and Dynamic Ordinary Least Squares (DOLS) methods, while also considering electricity consumption as an explanatory variable in the context of attracting foreign direct investment inflows. The study also employs the Granger causality test to examine causal linkages among the variables under investigation.

RESULTS

The ADF and PP unit root tests were conducted as part of the study, and the findings are displayed in Table 1 provided above. The findings indicate that the variables LFDI, LEC, and LKF exhibit statistical significance at a significance level of 1%, after employing a first order of integration. The variable LTAX exhibits statistical significance at a 1% level of significance in both its level and first difference forms. On the other hand, the variable LGDP demonstrates statistical significance at a 5% level of significance in its level form, and at a 1% level of significance in its first difference form. The investigation will employ all variables at first difference due to the greater efficiency of the coefficients. The investigation proceeds to apply the VAR optimal lag criterion in order to determine the optimal number of lags to incorporate in the model, as depicted in Table 2.

Table 1: Augmented Dickey-Fuller and Phillips-Perron unit root test

Variables	ADF unit root test				PP unit root test			
	Constant		Trend and intercept		Constant		Trend and intercept	
	Level		Level		Level		Level	
LFDI	-1.4598							
LEC	-0.3699		-1.7		-0.3645		-1.3698	
LGDP								
LTAX								

The findings of the VAR optimal lag length criterion are presented in Table 2 above. Based on the HQ, LR, FPE, and AIC criteria, it is recommended that the study employ a latency of 1. Nevertheless, the SC criterion indicates that the investigation should be conducted with a lag of zero. The study will, however, incorporate a lag as suggested by the majority of criteria for the study.

Table 3: Cointegration results

Lag	LogL	LR	FPE	AIC	SC	HQ
0	-345.1277	NA	7.9231265	17.45434		14.24815
1	-317.9866				18.80118	
2	-309.3452	11.41469	9.121240	15.12565	20.67180	19.01683
3	-311.7788	16.58917	17.56881	19.22234	26.14119	17.11169
4	-289.0035	13.4574	42.13282	18.59838	20.89892	31.18789

The study utilized the Johansen cointegration approach to examine the presence of cointegration relationships, as indicated by the findings presented in Table 3. The findings from the Trace test reveal the presence of five cointegration equations at a significance level of 0.05. Conversely, the Maximum-Eigen test confirms the existence of one cointegration equation at a significance level of 0.05. Lütkepohl and Saikkonen (2000) argue that the Maximum-Eigen value test holds greater statistical power compared to the Trace statistic. Consequently, the present analysis draws the conclusion that the variables under investigation exhibit a long-run association (Hlongwane and Daw, 2022).

Table 3: Cointegration results

Hypothesised No. of CE (s)	Trace statistic	critical value	Max-Eigen statistic	critical value
None		59.847		39.12687
At most 1		45.6385613	29.47158	24.58524
At most 2		21.47207	18.47329	31.41162
At most 3		17.44171		19.226460
At most 4		2.941465		2.841465

The research endeavors to analyze the correlation between foreign direct investment inflows and power consumption in Uzbekistan. This analysis is conducted using the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) and Dynamic Ordinary Least Squares (DOLS) models, as presented in Table 4.

The research utilized the FMOLS and DOLS models to examine the relationship between inflows of foreign direct investment and electricity consumption, as presented in Table 4.

Table 4.

Variables	FMOLS		DOLS	
	Coefficient	Probability	Coefficient	Variable
DLEC(-1)	-0.369788	0.0739	-08585192	0.4726
DLKF(-1)	-0.047744	0.0527	-0.58939	0.1261
LTAX(-1)	-0.014199	0.6906	0.962506	0.6978
LGDP(-1)	0.156896	0.0479	0.77126	0.0075
C	0.0525271	0.75857	-0.3652523	0.56897

The findings obtained from the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) analysis indicate a statistically significant inverse association between power usage and foreign direct investment inflows in the context of UzbekistanMoreover, the findings from the FMOLS and DOLS models indicate a statistically significant positive association between economic growth and foreign direct investment inflows in Uzbekistan during the period of analysis. The findings of this study indicate that the presence of robust economic growth has a significant role in attracting inflows of foreign direct investment in Uzbekistan. This necessitates the promotion and implementation of policies by the government and policy makers, which would lead to an augmentation in economic growth. Such policies are crucial in attracting foreign direct investment inflows, which are imperative for the struggling Uzbekistan economy.

Furthermore, the findings presented in Table 4 indicate that there exists a statistically insignificant negative association between gross fixed capital formation and foreign direct investment inflows in Uzbekistan during the period under investigation. The findings indicate that the gross fixed capital formation in Uzbekistan has not been successful in effectively attracting inflows of foreign direct investment. This necessitates a reevaluation of government policies and the actions taken by policy makers regarding gross fixed capital creation in order

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

to mitigate the potential negative impact on foreign direct investment inflows caused by crowding out effects. The Uzbekistan economy is currently grappling with macroeconomic issues, and it is imperative to attract both domestic and international direct investment in order to facilitate its recovery.

The findings from both the FMOLS and DOLS models indicate that there is no statistically significant association between taxes on international commerce and foreign direct investment inflows in Uzbekistan over the period of analysis. The findings necessitate a reassessment of tax policies on international commerce by the department of trade and policymakers. This revision aims to effectively enhance the influx of foreign trade in Uzbekistan, while concurrently ensuring equilibrium with outflows to prevent trade imbalances. There is a need to decrease tariffs on international electricity commerce in order to facilitate an increase in trade inflows through enhanced electricity usage.

Table 5: Granger causality test

Null hypothesis	F-statistic	Probability
	0.032545	0.78495
	0.197151	0.56455
	0.02494	0.84621
	0.456768	0.2464
	0.461541	0.546261
	0.01264	0.89442
	2.94515	0.12645
	1.945102	0.164517

The Granger causality test was employed in this study to examine the causative links between the variables, as indicated by the findings presented in Table 5. The aforementioned findings indicate that policies impacting the economic growth of Uzbekistan will exert a causal influence on the influx of foreign direct investment. Hence, it is imperative for the government and policymakers to formulate and execute policies aimed at enhancing economic growth in order to attract foreign investment in Uzbekistan, which is crucial for the revitalization of the struggling economy.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Based on the empirical findings of the study, the subsequent policy recommendations can be derived. In order to enhance the economy's ability to attract foreign direct investment inflows, it is imperative for policy makers, Eskom, and the Uzbekistan government to undertake a thorough review of electricity consumption policies and load shedding practices, as these have been identified as having adverse effects. No international investor would likely express interest in allocating investments to a country that has experienced persistent load shedding and blackouts for an extended period, as has been the case in Uzbekistan for nearly a decade. A reliable and uninterrupted supply of power is important in order to ensure the mitigation of load shedding and facilitate consistent electricity usage, hence fostering an environment conducive to attracting foreign direct investment inflows into Uzbekistan.

Additionally, it is imperative for the government to enact policies aimed at stimulating economic growth, since research has shown that such measures have a favorable impact on attracting foreign direct investment into the country.

The gross fixed capital formation in Uzbekistan has not been conducive to attracting the necessary inflow of foreign direct investment. It is imperative for governmental entities and policymakers to carefully deliberate the potential benefits of facilitating infrastructure development and capital formation in the electrical sector. There is a pressing requirement for increased investment in the electrical sector in order to enhance the environmental sustainability of Uzbekistan's economy. This investment is crucial for mitigating the occurrence of load shedding and ensuring a reliable energy supply, which in turn can facilitate the attraction of foreign direct investment inflows. According to Hlongwane and Daw (2021b), it is suggested that a significant portion of Uzbekistan's electricity infrastructure requires adequate maintenance due to having reached the end of its operational lifespan. They further argue that increased investment in this area will contribute to capital creation.

In addition, it is necessary for Uzbekistan to undertake a reassessment of its policies on taxation on the international trade of products and services. Higher tax rates are associated with a decrease in the attraction of foreign direct investment inflows to a country. Therefore, it is imperative to create a tax policy that is competitive in order to avoid deterring international investors. While the tax policy has the potential to provide a condu-

cive environment for foreign investment in the Uzbekistan economy, it is imperative that its implementation is approached cautiously to mitigate the risks of dumping and trade imbalances, which could lead to trade deficits. The greater the appeal of Uzbekistan to investors, the higher the likelihood that policymakers and the government will be equipped to address the prevailing macroeconomic challenges in the country.

References:

1. Amoako, S., Insaidoo, M. (2021), Symmetric impact of FDI on energy consumption: Evidence from Ghana. Energy, 223, 120005.
2. DMRE. (2022), The Uzbekistan Energy Sector Report 2021. (978-1-920435-18-9). p1-36.
3. Hassan, T., Song, H., Kirikkaleli, D. (2021), International Trade and Consumption-Based Carbon Emissions: Evaluating the Role of Composite Risk for RCEP Economies. Environmental Science and Pollution Research 29: 3417–3437, 1–13.
4. Hlongwane, N.W., Daw, O.D. (2022), Monetary policy in Uzbekistan: A vecm approach. International Journal of Economics and Finance Studies, 14(1), 1-28.
5. Ibrahiem, D.M. (2015), Renewable electricity consumption, foreign direct investment and economic growth in Egypt: An ARDL approach.
6. Procedia Economics and Finance, 30, 313-323.
7. Inglesi-Lotz, R., Ajmi, A.N. (2021), The impact of electricity prices and supply on attracting FDI to Uzbekistan. Environmental Science and Pollution Research, 28(22), 28444-28455.
8. Kang, X., Khan, F.U., Ullah, R., Arif, M., Rehman, S.U., Ullah, F. (2021), Does foreign direct investment influence renewable energy consumption? Empirical evidence from south Asian countries. Energies, 14(12), 3470.
9. Latief, R., Lefen, L. (2019), Foreign Direct Investment in the Power and Energy Sector, Energy Consumption, and Economic Growth: Empirical Evidence from Pakistan. Sustainability, 11(1), 192.
10. Long, P.D., Bui, H.N., My, D.T.H. (2018), The relationship between foreign direct investment, electricity consumption and economic growth in Vietnam. International Journal of Energy Economics and Policy, 8(3), 267-274.
11. Mohanty, S., Sethi, N. (2022), The energy consumption-environmental quality nexus in BRICS countries: The role of outward foreign direct investment. Environmental Science and Pollution Research, 29(13), 19714-19730.
12. Olaoye, O.P. (2020), Energy consumption and foreign direct investment inflows in Nigeria: An empirical perspective. International Journal of Energy Economics and Policy, 10, 491-496.
13. Omri, A., Kahouli, B. (2014), Causal Relationships between Energy Consumption, Foreign Direct Investment and Economic Growth: Fresh Evidence From Dynamic Simultaneous-equations Models. Energy Policy, (67), 913-922.
14. Paul, S., Harun, M., Biswas, J. (2021), Impact of Energy and Natural Resources Rent on FDI: An Analysis through POLS, DK, 2SLS and GMM Models. Energy Economics Letters, 8(2), 122-133.
15. Salim, R., Yao, Y., Chen, G., Zhang, L. (2017), Can foreign direct investment harness energy consumption in China? A time series investigation. Energy Economics, 66, 43-53.
16. StatsSA. (2022), After Two Years, GDP Returns to Pre-Pandemic Levels. Pretoria: StatsSA.
17. Stungwa, S., Hlongwane, N.W., Daw, O.D. (2022), Consumption and supply of electricity on economic growth in Uzbekistan: An econometric approach. International Journal of Energy Economics and Policy, 12(1), 266-274.
18. UNCTAD. (2019), World Investment Report 2019. New York: Publishers, U.N. (Special Economic Zones). Available from: https://unctad.org/ system/files/official-document/wir2019_en.pdf [Last accessed on 2022 Sep 28].
19. UNPD. (2022), The Impact of the Ukraine War on the Uzbekistan Economy. Programme, UNPD. Available from: https://www.undp. org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/za/policy-brief---undp-sa---the-impact-of- the -ukraine-war-on-the-south-african-economy. pdf [Last accessed on 2022 Sep 28].
20. World-Bank. (2014), Foreign Direct Investment Flows into Sub-Saharan Africa. World Bank: (Foreign Direct Investment Flows into Sub- Saharan Africa). Available from: https://documents1.worldbank.org/ curated/en/505071468203651135/pdf/860600BRI0WB0H00Box38 2147B00PUBLIC0.pdf [Last accessed on 2022 Sep 28].

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI QARZ KAPITALI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Oblomuradov Narzullo Naimovich
Toshkent moliya instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Shavkatov Navruzbek Shavkatovich
Toshkent moliya instituti Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning ahamiyatli jihatlari, xususan, qarz kapitali orqali moliyalashtirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi, uning mohiyati va moliyalashtirishning muhim jihatlari ochib berilgan, xususan, qarz kapitali orqali moliyalashtirishning ahamiyati asoslangan. Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda keng iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishning ekonometrik asoslari tahlil qilingan va moliyalashtirishni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, infratuzilmani moliyalashtirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash, qarz kapitali, bank kreditlari, moliyaviy leverej.

Abstract: This article focuses on the important aspects of financing public-private partnership projects, in particular, financing through debt capital. The mechanism of public-private partnership, its essence and important aspects of financing are disclosed, in particular, the importance of financing through debt capital is based. In most countries, including Uzbekistan, the main directions for the development of the broad economy have been defined. The econometric basis of financing of public-private partnership projects through debt capital was analyzed and suggestions for improvement of financing were developed.

Key words: Public-private partnership projects, infrastructure financing, diversification of financial instruments, debt, bank loans, financial leverage.

Аннотация: В данной статье рассмотрены важные аспекты финансирования проектов государственно-частного партнерства, в частности финансирования за счет заемного капитала. Раскрыт механизм государственно-частного партнерства, его сущность и важные аспекты финансирования, в частности обоснована важность финансирования за счет заемного капитала. В большинстве стран, в том числе и в Узбекистане, определены основные направления развития широкой экономики. Проанализирована эконометрическая основа финансирования проектов государственно-частного партнерства за счет заемного капитала и разработаны предложения по совершенствованию финансирования.

Ключевые слова: Проекты государственно-частного партнерства, инфраструктурное финансирование, диверсификация финансовых инструментов, заемный капитал, банковские кредиты, финансовый рычаг.

KIRISH

Dunyoda mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida davlat hamda xususiy biznes subyektlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi global miqyosda rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda mamlakat infratuzilmasini xususiy sektorning resurslari orqali moliyalashtirish darajasi keskin tushib ketganligi, xususan, “2022-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari 3,3 milliard AQSh dollari miqdorida infratuzilmaga xususiy investitsiyalar bilan bu mintaqadagi so‘nggi 10 yildagi eng past ko‘rsatkichni qayd etganligi” jahon iqtisodiyoti tarmoqlarida xususiy investitsiyalar ko‘lamini oshirish, hamda davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership) amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil kengroq etish takomillashtirish hamda xususiy investorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, loyihalarda sheriklar uchun risklarni kamaytirish, xususiy sherik uchun daromad olishni kafolatlash orqali loyihaga jalb etishni kengaytirish, kapital tarkibini optimallashtirish va qo‘llaniladigan moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish dolzarb ekanligini namoyon qilmoqda.

Jahonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, xususan, infratuzilmani moliyalashtirishda xususiy sektor mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy infratuzilmani davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy instrumentlarni kengaytirish, xususiy investorlarning infratuzilmani moliyalashtirish xarajatlarining bir qismini qoplash orqali moliyaviy rag‘batlantirish va subsidiyalar berish vositasida manfaatdorligini oshirish, mulkiy va qarz munosabatlarida sheriklarning pozitsiyalarini belgilash, davlat kafolatlarini kengaytirish, moliyaviy risklarni adolatli taqsimlash, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining iqtisodiyot taraqqiyotiga ta’sir darajasini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xo‘jalik, energetika, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish dolzarb bo‘lib turgan ayni vaqtda davlat-xususiy sheriklik amaliyoti va bunda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, ijtimoiy muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor mablag‘laridan foydalanish borasidagi islohotlarga qaramasdan, sohaga xususiy sektor mablag‘larini yo‘naltirish darajasi pastligicha qolmoqda. “Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollariga teng investitsiya jalb etish” da davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni o‘zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish talab etilmoqda. Bu esa davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishtsh takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni keng doirada amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyalashtirish moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan: rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda infratuzilmaga xususiy investitsiya kiritishni rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-huquqiy, institutsional imkoniyatlarni yaratishda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini yanada kengaytirish orqali davlat sektori, investorlar, mahalliy korxonalar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda va eng muhimi, aholining yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish asoslari ishlab chiqilgan (The Public-Private Infrastructure Advisory Facility – PPIAF); mamlakatda infratuzilmaga investitsiyalar kiritishda xususiy sektor ishtirokini oshirish, global miqyosda infratuzilmani rivojlantirish va unda xususiy sektor ishtiroki darajasini baholab beruvchi metodologik tizim yaratilgan (The Global Infrastructure Facility – GIF); dunyoning barcha mamlakatlarida, xususan, Osiyo va Tinch okeani davlatlarida xususiy investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligini ta’minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific – ESCAP); Yevropa davlatlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, infratuzilmaga investitsiyalar samaradorligini nazorat qilish jarayonlarini tadqiq etilgan (United Nations Economic Commission for Europe (UNECE) – PPP Activities); dunyoning barcha mamlakatlarida xususiy investitsiyalar hajmi, sifati va samaradorligini ta’minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (International Project Finance Association – IPFA); rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirish, xususiy sektorni infratuzilmani moliyalashtirishga yo‘naltirishni tashkil etish talablari va mezonlari ishlab chiqilgan (The APMG Public-Private Partnerships Certification Program); Osiyo mamlakatlarida aholining yashash tarzini yaxshilash, mamlakatlar infratuzilmasi sifatini yaxshilash, infratuzilmani maqsadli kreditlash, investitsion dasturlarni faol joriy qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan (Asian Development Bank’s Regional and Sustainable Development Department – ADB RSDD); davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, nazariy-iqtisodiy asoslari, moliyalashtirish yo‘nalishlari va shakllari doirasida ilmiy tadqiqotlar qilingan (Public-Private Sector Research Center – PPSRC); davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, uni moliyalashtirishni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy uslubiyot shakllantirilgan (Национальный Центр ГЧП – Rossiya Federatsiyasi).

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar, xususiy investorlarni moliya bozori instrumentlari orqali davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga jalb etish yo‘nalishlari B. Ashuri, F. Ullah, M. Thaheem, H. Sin, S. Liu, J. Sun, F. Daniel, A. Lebedovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan [1, 2, 3, 4].

T. Atamurodov va B. Xamroyevlar o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida xususiy tarmoq va davlat hamkorligi masalasi, infratuzilmani xususiy tarmoq mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tgan [5] bo‘lsa-da, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlar yetarlicha tadqiq etilmagan.

N. Oblomurodov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga, transport sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyalashtirishning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan [6].

S. Yakubova esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmi doirasida investitsion va ijtimoiy majburiyatlar ijrosini ta’minlash, maktabgacha ta’limni rivojlantirishning hududiy dasturlarini shakllantirish va ushbu dasturlarda mazkur muassasalarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishning moliya-kredit (soliq, investitsiya, kredit) mexanizmiga asoslangan tabaqalashtirilgan tizimini tatbiq etish masalalari borasida fikrlar bildirgan [7].

S. Xayitov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini alohida kichik hajmli moliyaviy DXSh loyihalariga ajratish orqali hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy soha tarmoqlari faoliyati samaradorligini ta’minlash borasida fikrlar bildirgan[8].

Yana bir iqtisodchi J. Toxirov o‘zining tadqiqotlarida ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy elementlari tarkibidagi xususiy investitsiya, davlat budjetidan moliyalashtirish, subsidiya berish, ssuda olish va soliq imtiyozlarini joriy qilishning optimal me’yorlarini belgilash orqali ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishga doir ilmiy qarashlarini keltirib o‘tgan [9].

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanib, uni amalga oshirish mexanizmi va davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash shakllari, uning boshqa muqobil moliyalashtirish usullaridan farqli jihatlari, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi imkoniyatlarini aniqlash, bunday loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, mavjud risklarni pasaytirish orqali xususiy investitsiyalarni infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirishni takomillashtirish zarurligi ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi va dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz kapitali orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlari normal faoliyat yuritishida zarur bo‘lgan qurilish, rekonstruksiya yoki texnikaviy qayta qurollantirish (DXSh loyihasi va smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizasini o‘tkazish, asbob-uskunalar xarid qilish, qurilish-montaj va boshqa ishlar o‘tkazilishini o‘z ichiga olgan holda) hamda boshqa asosiy fondlarni shakllantirish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni moliyalashtirish imkoni mavjud bo‘ladi. Loyihalarni qarz kapital orqali moliyalashtirish bir qancha afzallik va kamchiliklarga ega hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishning afzallik va kamchiliklari[1]

1 Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Qarz kapitalidan foydalanilgan davlat xususiy sheriklik loyihasida rivojlanishning yuqoriroq moliyaviy salohiyatiga va faoliyat samaradorligining o‘sish imkoniyatiga ega bo‘linadi, lekin loyiha davomiyligida moliyaviy risk va bankrotlik xavfi yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

“DXSh loyihalarida moliyaviy samaradorlikni baholash uchun DEA modeliga asoslangan samaradorlikni baholash tizimi asosida tahlil qilib, Tobit modelidan leveraj koeffitsiyentining DXSh loyihalarining moliyaviy samaradorligiga ta’sirini o‘rgangan holda, bu qarz nisbati va operatsion samaradorlik o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ochib bergan. Leveraj koeffitsiyenti DXSh loyihalarining keng qamrovli samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu DXSh loyihasi korxonalarining qarz bilan moliyalashtirilish darajasi uning samaradorligida aks etib, yaxshi rivojlanish istiqboliga ega ekanligini ko‘rsatadi” [10] [2]. Shu sababli, qarzni moliyalashtirish korxonalar loyihalari moliyaviy samarasini kengaytirishi, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishi va korxonalarning rivojlanishiga yanada ko‘maklashishi mumkin. Boshqa tomondan, loyihalarda qarz orqali moliyalashtirish va leveraj koeffitsiyentini oshirish korxonaning inqiroz riskini oshirishi mumkinligini aks ettiradi va korxonalarning samarali ishlashini ta’minlash uchun ularning operatsion samaradorligini oshirishga, shiddatli raqobat sharoitida qo‘shimcha rag‘batlantirish uchun doimiy ravishda kengayib borayotgan operatsion xarajatlardan samarali foydalanish lozim bo‘ladi.

DXSh loyihalarida qarzdorlik nisbati va tahlillar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, leveraj koeffitsiyentini oshirish korxonalarning ishlashi va rivojlanish samaradorligini oshirishiga erishilishi mumkin. Shuning uchun DXSh loyihasini tegishli optimal kapital tuzilmasi va leveraj nisbatini topish, shu asosda korxona qarzini moliyalashtirish orqali o‘z rivojlanish ko‘lamini kengaytirishi va operatsion xarajatlarini kamaytirish hamda uning yanada sog‘lom va barqaror rivojlanishiga yordam berishi, loyiha daromadliligini oshirishda bunday moliyaviy mexanizmlardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Davlat-xususiy sherikligi loyihalarining qarz kapitali moliyalashtirilganda qarzlarni qoplash vositasi sifatida asosan loyiha pul oqimlarini va loyiha daromadlarini belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Loyihalarni moliyalash uchun qarz kapitali milliy yoki xorijiy valyutada naqd pulsiz shaklda amalga oshirilib, qarz hisobidan xarid qilinadigan aktiv likvid bo‘lgani taqdirda garov ta’minoti sifatida belgilanishi mumkin. Qarz kapitalidan foydalanish muddati loyihaning qoplanishi (Payback Period)dan kelib chiqib belgilanishi lozim. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz yuki darajasida loyihaning sohasi va daromadliligi, davlat sherigi bilan o‘zaro kelishuvga qarab belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlat xususiy sheriklik loyihalarini qarz bilan moliyalashtirishga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlarni ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz. Buning uchun Jahon bankining infratuzilmaga xususiy investitsiyalar ma’lumotlar bazasi (Private Participation in Infrastructure (PPI) Database)dan qarz kapitali orqali moliyalashtirilgan 1845 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar tanlab olindi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz bilan moliyalashtirishda quyidagi gipotezani shakllantiramiz: H0: davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini oshirishda qarz kapitali bilan moliyalashtirish yuqori ahamiyatga ega.

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{period} + \beta_2 X_{VDGS} + \beta_3 X_{private} + \beta_4 X_{physical} + \beta_5 X_{(f_leverage)} + \beta_6 X_{(intl_debt)} + \beta_7 X_{(investment_real)} + \beta_8 X_{prs} + \varepsilon_i$$

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{(intl_debt)} + \beta_2 X_{(p_debt)} + \beta_3 X_{(l_debt)} + \beta_4 X_{Xinvestment_real} + \beta_5 X_{prs} + \varepsilon_i$$

$$Y_{debt} = \beta_0 + \beta_1 X_{period} + \beta_2 X_{VDGS} + \beta_3 X_{private} + \beta_4 X_{physical} + \beta_5 X_{(investment_real)} + \beta_6 X_{prs} + \varepsilon_i$$

Bunda, tanlab olingan omillarga qarz bilan moliyalashtirish hajmi (debt), loyiha muddati (period), loyihani davlat tomonida qo‘llab-quvvtalash darajasi (VDGS), xususiy sektor ishtiroki (private), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical), moliyaviy leverej koeffitsiyenti (f_leverage), loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt), davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish (p_debt), mahalliy qarz bilan moliyalashtirish darajasi (l_debt), davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘nlatirilgan investitsiyalar (investment_real), loyihaning daromad shakllari (prs) kiradi. Eng kichik kvadratlar metodidan foydalanib bir necha modellarni ishlab chiqamiz. Ushbu modellar orasidan asosiy uchtasini quyidagi jadvalga birlashtirdik (1-jadval).

2 Wang, Junzi, and Yongkang Lin. “The Study of Leverage Ratio on the Operation Efficiency of PPP Project Enterprises in China: Analysis Based on DEA-Tobit Model.” 5th International Conference on Economics, Management, Law and Education (EMLE 2019). Atlantis Press, 2020.

1-jadval: Regressiya natijalari[3]

Qarz bilan moliyalashtirish hajmi (debt)	OLS (1)	OLS (2)	OLS (3)
loyiha muddati(period)	-18.454** (8.511)		-1.261 (1.307)
loyihani davlat tomonidan qo‘llab-quvvtalash darajasi (VDGS)	-.249 (0.555)		-.3*** (0.043)
xususiy sektor ishtiroki (private)	2.133 (2.138)		0.059 0.698
asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical)	0.483 (2.086)		-1.193*** (0.327)
moliyaviy leverej koeffitsiyenti (f_leverage)	22.805** (9.745)		
loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt)	0.036 (0.333)	0.417*** (0.096)	
davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish (p_debt)		0.189 (0.135)	
mahalliy qarz bilan moliyalashtirish darajasi (l-debt)		-.054 (.036)	
davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar (investment_real)	0.07 (1.997)	0.623*** (0.031)	1.63*** (0.289)
loyihaning daromad shakllari (prs)	38.107 (35.576)	-13.78 (19.073)	-.229 (4.353)
Constant	23.164 (220.278)	-18.39 (68.527)	61.62 (64.698)
R-squared	0.967	0.938	0.965
F-test	42.223	215.676	562.390
Akaike crit. (AIC)	296.461	1223.486	1705.759

“Robust” standart xatoliklar qavsda (ε) keltirilgan
*** - ahamiyatlilik darajasi p < 0.01 (99%);
** - ahamiyatlilik darajasi p < 0.05 (95%);
* - ahamiyatlilik darajasi p < 0.1 (90%)

Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida o‘zgaruvchilarning tasnifiy statistikasi keltirilib, bunda kuzatuvlar soni, o‘zgaruvchilarning o‘rtacha miqdori, standart chetlanish ko‘rsatkichi, ularning minimal va maksimal miqdori aniqlab olinadi. Regressiya tahlilini amalga oshirishdan avval ushbu ko‘rsatkichlarni korrelyatsiyasi tekshirilgan bo‘lib, olingan natija regression modellarda o‘zgaruvchilarni to‘g‘ri tanlash hamda pirovard natijani aniqroq bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, birinchi modelda loyiha muddati (period) va moliyaviy leveraj koeffitsiyenti (f_leverage) qarzga ta’sir etish qiymatlari statistik ahamiyatga ega bo‘ldi. Muddatning bir birlikga ortishi qarz darajasini -18.454 birlikka kamayishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchi modelda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt) bilan davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar (investment_real) qarzni ortishiga xizmat qiladi. Mos ravishda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi (intl_debt) va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘naltirilgan investitsiya (investment_real)larning bir birlikka ortishi qarzni 0.417 va 0.623 birlikka ortishiga xizmat qiladi. Uchinchi modelda loyihani davlat tomonida qo‘llab-quvvtalash darajasi (VDGS), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (physical) va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘naltirilgan investitsiya (investment_real) koeffitsiyentlar t-test bo‘yicha iqtisodiy ma’noga ega bo‘lmoqda. Barcha modellarning ishonchliligi F-test t-test hamda OLSning Gaus Markov shartlariga tekshirildi hamda ishonchli ekanligi aniqlandi.

3 Stata dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm: Xususiy sektorga ajratilgan bank kreditlari (YaIMga nisbatan foizda)[4]

O‘zbekistonda bank kreditlarining depozitlariga nisbati 2013-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak bu davrlarda o‘rtacha ko‘rsatkich 146,17 foizni, 2013-yilda minimal 70,56 foizni, 2020-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 261,88 foizni tashkil qilgan. 2021-yildagi oxirgi ko‘rsatkich 236,96 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2021-yilda 138 ta davlat bo‘yicha dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 86,91 foizni tashkil etadi.

Xususiy sektorga ichki kredit hajmi bo‘yicha O‘zbekistonda 2013-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qilamiz (2-rasm). Bu davrda o‘rtacha ko‘rsatkich 18,09 foizni, 2013-yilda eng kami 9,33 foizni, 2022-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 37,9 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2022-yilda 151 ta davlat bo‘yicha dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 61,27 foizni tashkil etadi.

Investitsion loyihalarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish darajasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 17,6 foizni, 2013-yilda minimal 8,2 foizni, 2019-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 26,2 foizni tashkil etgan. 2022-yildagi oxirgi ko‘rsatkich 25.8 foizni tashkil etgan (3-rasm).

O‘zbekistonda qarz yuki bo‘yicha joriy holat iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatimiz bilan bir guruhga kiruvchi davlatlarning ko‘rsatkichlari doirasida shakllangan bo‘lsa-da, xususiy sektorga ajratilgan kreditlar yuki bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH) aksariyat mamlakatlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan.



3-rasm: Investitsion loyihalarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish dinamikasi[5]

4 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Bank_credit_to_the_private_sector/
5 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/firms_credit_for_investment/

O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda bank krediti deganda bank muassasalari tomonidan faqat xususiy sektorga: ham firmalarga, ham uy xo‘jaliklariga beriladigan kredit tushuniladi. Bunda davlat qarzlarini o‘z ichiga olmaydi. Kredit iqtisodiyotning yaxshi ishlashi uchun zarur moliyaviy mexanizmdir. U yangi investitsiyalarni moliyalashtiradi va infratuzilmalarni yaratadi, odamlar yashash tarzini osonlashtradi. Albatta, haddan tashqari kreditlash va qarz olish odatda moliyaviy inqirozga olib keladi, lekin kreditning mavjudligi iqtisodiy rivojlanish uchun yaxshi hisoblanadi.

Agar xususiy sektorga bank kreditlari yalpi ichki mahsulotining qariyb 70 foizini va undan ko‘pni tashkil etsa, demak mamlakatda nisbatan yaxshi rivojlangan moliya tizimi mavjud. Kredit miqdori hatto ba’zi rivojlangan iqtisodiyotlarda YaIMning 200 foizidan oshib ketishi mumkin. Ba’zi kambag‘al mamlakatlarda kredit yalpi ichki mahsulotning 15 foizidan kam bo‘lishi mumkin. Bu mamlakatlarda firmalar va uy xo‘jaliklari investitsiyalar va turli xil xaridlar uchun kredit olish imkoniga ega emaslar.

Xususiy sektorga ajratilayotgan bank kredit foiz stavkalarini O‘zbekiston bo‘yicha 2013-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qilinganda, o‘rtacha ko‘rsatkich 18,39 foizni, minimal ko‘rsatkich 13,52 foiz (2016-yilda), 2019-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 23,61 foizni tashkil qilgan. 2022-yildagi oxirgi ko‘rsatkich 21,75 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, 2022-yilda 78 ta davlat bo‘yicha, ya’ni dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 11,80 foizni tashkil etgan[6].

Bank marjasi dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2015-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qilamiz (4-rasm). O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich o‘sha davrda 4,9 foizni, 2017-yilda minimal 3,18 foizni, 2015-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 6,32 foizni tashkil etgan. 2021-yildagi oxirgi ko‘rsatkich 4,41 foizni tashkil etadi. “Taqqoslash uchun, 2021-yilda 135 ta davlatda, dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 3,61 foizni tashkil etgan”[7].



4-rasm: Xususiy sektorga bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari va bank marjasi, (foizda)[8]

Mamlakatimizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Shunindek, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalarini Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan marjasini qo‘shishda xususiy sherikka taqdim etish orqali xususiy investorlarni moliyaviy rag‘batlantirish meaxnizmini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi,

So‘nggi yillarda umumiy qarz yuki va uning alohida tarkibiy qismlarida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning yalpi ichik mahsulot (YaIM)ga nisbati ko‘rsatkichi umumiy dinamikadan yuqori saqlanib qolmoqda. Qarz yuki bo‘yicha tahlillar O‘zbekistonda moliya tizimiga ta’sir ko‘rsata oladigan bir qator xatarlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, O‘zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati 25 (eng past chegara) va 75 (eng yuqori chegara) protsentil chegaralari doirasida solishtirilgan davlatlar ko‘rsatkichlariga nisbatan tezroq sur’atda oshish va kelajakda ushbu o‘sish darajasining saqlanib qolish ehtimoli mavjud. Mazkur ko‘rsatkichning xavfli hududga o‘tishi (75 protsentildan yuqori bo‘lishi) tizimli moliyaviy zaifliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, har bir kredit oluvchiga to‘g‘ri keladigan shartnomalar soni, ya’ni bir mijozning kredit olish koeffitsiyenti o‘rtacha 1,2 ni tashkil etayotganligi hisobga olinsa, kredit oluvchilar

6 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending_interest_rate/
7 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/net_interest_margin/
8 https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending_interest_rate/

sonining ko‘payib borayotganligi kelgusida ham qarz yukining nisbatan tezroq oshishini anglatadi. Bundan tashqari, mijozning kredit olish koeffitsiyenti birdan yuqoriligi alohida kredit oluvchilar bo‘yicha qarzdorlik yuki yuqori bo‘lishi hamda xatarli ssenariy holatida tizimli xatarlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi. Aholining kam ta’minlangan qatlami ulushining (Kovid-19 pandemiya davrini inobatga olmaganda) kamayib borishi va ularning yuqoriroq daromadga ega bo‘lgan qatlamlarga o‘tishi kredit olishga layoqatli aholining ko‘payishiga olib keladi. Bu esa, kreditga bo‘lgan talabning oshishi natijasida aholining qarz yuki darajasining ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Daromadning minimal kafolatlari davlat va xususiy sektor o‘rtasida davlat-xususiy sheriklik shartnomasida moliyaviy risklarni taqsimlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Davlat-xususiy sherikligi loyihalarida sezilarli daromad xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda, minimal daromadlar kafolati davlat sherigi tomonidan xususiy investorlarni jalb qilish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan moliyaviy mexanizm sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

XULOSA

O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar va tahlillar asosida tadqiqot ishida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining tashkil etilishi har qanday moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirsh va aholi turmush farovonligini yaxshilashga qulay muhit yaratilishiga xizmat qiladi;
2. Xususiy investorlarning davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etishidan manfaatdorligini oshirish xususiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo‘shimcha resurslar hajmi oshishiga xizmat qiladi;
3. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalari foiz stavkalarini loyihalarning ijtimoiylik prinsipidan kelib chiqqan holda belgilash xususiy sherikni qo‘shimcha moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratadi;
4. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida pulning vaqt bo‘yicha qiymati omilini hisobga olgan holda loyihaning kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlarini joriy qiymat hisobida aniqlash va diskont stavka qiymatini yillik qisqa muddatli davlat obligatsiyalari daromadlilik stavkalaridan kam bo‘lmagan miqdorlarda belgilash orqali xususiy investorlar moliyaviy risklardan himoya qilinadi va real daromadliligi ta’minlanadi;
5. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalarini Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasiga tijorat bankining imtiyozli marjasini qo‘shish orqali xususiy sherikka taqdim etish xususiy sherigini arzon kapital bilan ta’minlashga xizmat qiladi.
6. Davlat-xususiy sheriklik loyihalariga qarz kapitali va kredit liniyalaridan foydalanish orqali moliyaviy resurslar jalb etish davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy kapital samaradorligini oshirish va moliyaviy leveraj samarasiga erishish, xususiy investorning daromadining oshirish imkoniyatini yaratadi;

Foydalanilgan adaboyotlar ro‘yxati:

1. Ashuri B. et al. Risk-neutral pricing approach for evaluating BOT highway projects with government minimum revenue guarantee options, Journal of Construction Engineering and Management, 2011.13.8. (2011), pp.545-557; Ullah F., Thaheem M.J. et al., A review of public-private partnership: Critical factors of concession period Journal of Financial Management of Property and Construction, 21 (3) (2016), pp. 269 300, 2016;
2. H. Jin, S. Liu and J. Sun et al., Determining concession periods and minimum revenue guarantees in public- private-partnership agreements, European Journal of Operational Research;
3. Daniel F. R. Quality Infrastructure: Ensuring Sustainable Economic Growth. The Center for Strategic and International Studies (CSIS). January 2017, p4.;
4. Lebedeva A.V. Privlecheniya vnebyudjetnogo finansirovaniya pri pomoщi birjevыx instrumentov dlya realizatsii proektov gosudarstvenno-chastnogo partnyorstva // Ekonomika i menedjment innovatsionnыx texnologiy. 2016. № 3. - Rejim dostupa: http://ekonomika.snauka.ru/2016/03/10992
5. Atamurodov T., Xamroyev B. Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi. Monografiya, Toshkent moliya instituti, –T.: —Iqtisod-Moliya, 2013. - 96 b
6. Oblomurodov N.N. “Davlat-xususiy sheriklik asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish” “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil, 3-bet.
7. Yakubova S.S. “ O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish”, PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023 yil.
8. Xayitov S.B. “O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish”, PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.
9. Toxirov J.R. “Ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish”, PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.
10. Wang, Junzi, and Yongkang Lin. “The Study of Leverage Ratio on the Operation Efficiency of PPP Project Enterprises in China: Analysis Based on DEA-Tobit Model.” 5th International Conference on Economics, Management, Law and Education (EMLE 2019). Atlantis Press, 2020.

MOL-MULK SOLIG‘INING SOLIQQA TORTISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Poyonov Bobur Bekmurod o‘g‘li
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada Yuridik va Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ining mohiyatini ochish bo‘yicha iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o‘rganilgan, mol-mulk solig‘ini resurs soliqlari tarkibidagi ulushi tahlil qilingan hamda tadqiqot yuzasidan xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tahlili, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, resurs solig‘i.

Abstract: The article examines the research of economists on the nature of property taxes, analyzes the share of property taxes in the structure of resource taxes, and formulates conclusions and recommendations for the study.

Key words: tax analysis, property tax, land tax, resource tax.

Аннотация: В статье рассматриваются исследования экономистов о природе налогов на имущество, анализируется доля налогов на имущество в структуре налогов на ресурсы, а также формулируются выводы и рекомендатсии для исследования.

Ключевые слова: налоговый анализ, налог на имущество, земелный налог, налог на ресурсы.

KIRISH

Resurslardan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiyot sohasining bosh masalasi bo‘lib, ularni soliqqa tortish orqali ulardan unumli foydalanish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Resurs soliqlari tarkibiga: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi. Bugungi kunda resurslardan samarali foydalanishni inobatga olgan holda, mamlakatimiz soliq siyosatida resurslardan undiriladigan soliqlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Biz bugungi tadqiqot ishimizda asosiy e’tiborni yuridik shaxslardan olinadigan va o‘z ahamiyatiga ega mol-mulk solig‘iga qaratmoqchimiz. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy vositalar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mol-mulkni hisobga olish O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi [1] qonuni va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek, soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy byudjetga tushadi hamda byudjetning daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

MAZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Avvalo, mavzu doirasida mol-mulk solig‘ini iqtisodiy ahamiyati va uning olimlar tomonidan berilgan ta’riflariga to‘xtalib, uning mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

Iqtisodiy adabiyotlarda “mulk solig‘i - bu jismoniy yoki boshqa yuridik shaxsga, masalan, korporatsiyaga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan to‘lanadigan soliq. Ko‘pincha mulk solig‘i ko‘chmas mulk solig‘i bo‘lib, uni regressiv soliq deb hisoblash mumkin. U mulk joylashgan mahalliy hokimiyat tomonidan hisoblab chiqiladi va mulk egasi tomonidan to‘lanadi” [2] -deb izohlangan.

T. L. Krutyakovaning fikricha: “Korxonalarning mol-mulkiga soliqni joriy etishning asosiy maqsadlaridan biri soliq to‘lovchilarning foydalanilmayotgan mol-mulkni sotishdan manfaatdorligini oshirish edi” [3].

V. G. Panskovning so‘zlariga ko‘ra, “tashkilotlar uchun o‘z aktivlarini sotish foydasiz bo‘lib qoldi, chunki ular mavjud bo‘lganligi uchun mulk qiymatining atigi 2 foizini to‘lagan va ular sotilgan taqdirda korxonalar sezilarli darajada yuqori stavkada daromad solig‘ini to‘lashga majbur bo‘lgan” [4].

E. N. Pyatshevaning fikricha, “Korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘g‘risida”gi Qonunning muhim kamchiligi soliq solishning adolatliligining eng muhim tamoyili – teng soliq solish obyektlari uchun teng soliq majburiyatini zaiflashtirgan ko‘plab soliq imtiyozlari bo‘ldi [5].

Ye. I. Jukova mol-mulk solig‘iga qarashi: “Xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy kompleksiga tegishli binolar, inshootlar, yer uchastkalari va boshqa obyektlarga egalik huquqining paydo bo‘lishi soliq majburiyatlari bilan birga keladi” [6].

L. N. Medvedev talqinicha “Tashkilotlarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq to‘lovchi – yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulk qiymatini soliqqa tortish shakli sifatida belgilanadi” [7].

T. L. Krutyakova esa mol-mulk solig‘ini “Ushbu soliq to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarga tegishli, chunki uning yakuniy to‘lovchisi mulk huquqi asosida mulkka ega bo‘lgan korxona hisoblanadi” [8] - deb hisoblaydi.

Yu. D. Shmelev talqinicha: “Iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tashkilotlarning mol- mulkiga solinadigan soliqning eng muhim maqsadi korxonalarni o‘z ixtiyoridagi mol- mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish (aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, asosiy fondlarni to‘liq ishlatish, resurslarni qisqartirish). , material sarfi, foydalanilmayotgan xom ashyo va materiallar zahiralarini kamaytirish); moliya nuqtayi nazaridan – hududiy byudjetlarni barqaror daromad manbalari bilan ta’minlash” [9].

I. A. Mayburovning fikricha, tashkilotlarning mol-mulkiga soliq solish quyidagi maqsadlarda o‘rnatiladi:

1) hududiy byudjetlarni byudjet xarajatlarini moliyalashtirish uchun barqaror daromad manbayi bilan ta’minlash;
2) ortiqcha mol-mulkni sotishda yoki uni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishda tashkilotga qiziqish uyg‘otish [10].

G. K. Karbushevning fikricha, tashkilotlarning mol-mulkiga solinadigan soliqning fiskal imkoniyatlari juda katta. Gap shundaki, daromad solig‘i va boshqa daromad solig‘idan farqli o‘laroq, bu soliq soliq to‘lovchilarning daromad olish yoki olmasliklariga bog‘liq emas. Uni hisoblash uchun asos bo‘lib korxonalar mulkining qiymati hisoblanadi. Bu daromadga soliq solinadigan soliq to‘lovlaridan farqli o‘laroq, mulk solig‘i bo‘yicha to‘lovlarni olish barqarorligiga yordam beradi. Shu bilan birga, mulk kabi soliqqa tortish obyektini soliqdan yashirish daromadga qaraganda ancha qiyin, bu ham uning byudjet daromadlarini to‘ldirishdagi rolini oshiradi [11].

I. V. Gushina “mol-mulk solig‘i korxonalarning o‘z mol-mulkidan yanada samarali foydalanishdan manfaatdorligini oshirish va ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki konservatsiya uchun mol-mulkni yo‘q qilishga ko‘maklashishga qaratilganligini ta’kidlaydi” [12].

V. I. Panskov, “soliq asosiy vositalarning qoldiq qiymatidan undiriladi, deb ta’kidlaydi. Mashina va asbob-uskunalar qanchalik eski bo‘lsa, ularning qoldiq qiymati shunchalik past bo‘ladi va mol-mulk solig‘i miqdori past bo‘ladi. Asosiy vositalarning yangilanishi mulk qiymatining oshishiga olib keladi va buning natijasida to‘lanadigan soliq miqdori oshadi” [13].

I. V. Gorskiy “mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirishning amaldagi mexanizmi umumiy xo‘jalik maqsadlaridan ko‘ra ko‘proq fiskal maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, yerdan, bino va inshootlardan samarali foydalanishni qiyinlashtirgan ko‘plab kamchiliklarga ega, deb hisoblaydi. Tashkilotlarning mol-mulkiga solinadigan soliq, xususan, yangi texnologiyalarni joriy etishni, asosiy fondlarni modernizatsiya qilishga investitsiyalarni rag‘batlantirmaydi” [14].

A. M. Petuxov “Tartibga solish funksiyasi korxonalarning ortiqcha, foydalanilmayotgan, foyda keltirmaydigan mol-mulkdan ozod qilish yo‘li bilan kamroq miqdorda soliq to‘lashdan manfaatdorligi orqali amalga oshiriladi” [15].

V. V. Stukina “Mol-mulk solig‘ining tartibga solish funksiyasi, ta’sir qilish xususiyatiga ko‘ra, rag‘batlantiruvchi va to‘xtatuvchiga bo‘linadi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi orqali davlat iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, shu orqali soliq yukini kamaytirishni ta’minlashga qodir. Mulk solig‘ining rag‘batlantiruvchi funksiyasi shundaki, u investitsiyalar bozorning ushbu segmentidan chiqib ketishiga, ularni mulkning turli sinflari o‘rtasida qayta taqsimlanishiga yordam beradi” [16].

V. G. Pariginaning fikricha, “Bu, bir tomondan, xo‘jalik faoliyatining shaffofligini hamda ko‘chmas mulkni to‘liq mulkiy ro‘yxatga olish va undan joriy foydalanish asosida turli soliqlarni hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligi ustidan nazoratni yaxshilashni nazarda tutadi; boshqa tomondan, ko‘chmas mulkni soliqqa tortish sohasida soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligi va javobgarligi [17].

“Mulk solig‘i ko‘pincha mashhur bo‘lmagan, boshqarish qiyin va egiluvchan soliq sifatida tasvirlanadi. Darhaqiqat, mahalliy hukumatning daromad, sotish va aksiz solig‘i kabi moslashuvchan daromad manbalariga emas, balki mulk solig‘iga tayanishi - har qanday holatda ham, mahalliy hukumatlarga ko‘plab boshqa hukumatlar tomonidan duch kelgan jiddiy qiyinchiliklardan qochishga yordam berdi” [18].

“Mamlakatimiz soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad:

- korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish;

- korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat.

Chunki, korxonalarning ma’naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg‘or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi” [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an’anaviy usullaridan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining mol-mulkni soliqqa tortish tajribasi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mol-mulkni soliqqa tortish 2019-yil 30-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi bilan tartibga solinadi. Soliq Kodeksining 410-modda. Soliq to‘lovchilar moddasiga binoan “yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksning 411-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar”-deb belgilab qo‘yilgan.

Soliq Kodeksining 411-modda. Soliq solish obyekti sifatida “Ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;
- qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;
- temiryo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;
- qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk obyektlari, ko‘chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o‘tgach”-deb qonun bilan belgilab quyilgan.

2022-yil uchun soliq-bojxona siyosatining asosiy yo‘nalishlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini 2%dan 1,5%ga pasaytirish rejalashtirilmoqda [20]. 2023-yil uchun yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5% stavka saqlanib qolindi

Bevosita soliq tushumlarida resurs soliqlarining ulushi yil sayin oshib borayotganligini so‘nggi besh yillik (2019-2023-yillar) asosida tahlil qilsak, uni quyidagi 1-jadvalda o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida resurs soliqlari bo‘yicha 2019-2023-yillardagi byudjetning daromad qismiga tushumi (mlrd. so‘m) [21]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil yarim yillik
1.	Soliq tushumlari	112 165,4	132 938,0	127 970	148 388	76 262
2.	Resurs soliqlari jami	19 680,7	21 257,0	23 036	23 913	13 057
3.	Mol-mulk solig‘i	2 360,2	1 974,3	2 457	4 015	2 562
4.	Yer solig‘i	2 313,2	2 386,7	4 083	5 306	3 066
5.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar	14 692,8	16 417,1	15 812	13 887	7 077
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684	704	352
7.	Resurs soliqlarning jami soliq tushumdagi ulushi, %	17,5	15,9	16	16,1	17,1

1-jadval ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak,2019-yilda resurs soliqlarining byudjetning daromad qismiga tushumi 19 680,7 mlrd. so‘mni, 2020-yilda 21 257,0 mlrd. so‘mni, 2021-yilda 23 036 mlrd. so‘m, 2022-yil 23 913 mlrd. so‘mni, 2023-yil 22 740,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Resurs soliqlarining jami tushumdagi ulushi 2019-yilda 17,5 foizni, 2020-yilda 15,9 foizni, 2021-yilda 16 foizni, 2022-yilda 16,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 11,7 foiz bo‘lgan.

2020-yilda pasayish sababi, mamlakatimizda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish tadbirlari uchun 2020-yilning 1-aprelidan 31-dekabriga qadar 1 764 ta turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlariga mol-mulk va yer solig‘idan 69,1 mlrd. so‘m miqdorida imtiyoz berildi; 17 247 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-yil aprel va may oylari uchun mol-mulk solig‘i va yer solig‘idan umumiy hisobda 29,5 mlrd. so‘mlik qarzlari, jumladan mol-mulk solig‘idan 11,6 mlrd. so‘m va yer solig‘idan 17,9 mlrd. so‘m kechib yuborilgan [22], bu esa davlat byudjetining daromadlar qismiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

2-jadval: Soliq turlari bo‘yicha 2022–2023-yil birinchi yarim yillikda budjetga tushgan tushumlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (mlrd. so‘m)

№	Soliq turlari	2022-yil 1-iyul holatiga tushum	2023-yil 1-iyul holatiga tushum	Ulushi (foiz)	O‘sish sur’ati
	Budjetga tushumlar, jami	**71 022**	**76 262**	**100**	**107**
	shu jumladan:				
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	15 813	15 849	20,8	100
2	Aksiz solig‘i	6 395	6 708	8,8	105
3	Foyda solig‘i	18 606	18 085	23,7	97
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 274	14 362	18,8	127
5	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	7 355	7 077	9,3	96
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	323	352	0,5	109
7	Mol-mulk solig‘i	1 970	2 562	3,4	130
8	Aylanmadan olinadigan soliq	1 247	1 136	1,5	91
9	Yer solig‘i	2 551	3 066	4,0	120
10	Davlat boji va jarimalar	1 888	2 194	2,9	116
11	Boshqa tushumlar va yig‘imlar	3 600	4 872	6,4	135



1-rasm: 2022-2023-yillarning I chorakda budjet tushumlari to‘g‘risida ma’lumot [23].

2-jadval va 1-rasm ma’lumotlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlarining 2022-yil 1-yarim yillik ma’lumotlari keltirilgan bo‘lib, unda jami tushumda resurs soliqlari ichida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar ulushi 9,3 foiz, yer solig‘i 4 foiz, mol-mulk solig‘i 3,4 foizni va nihoyat suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi 1 foizni tashkil etayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023-yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar 22,6 trln. so‘m yoki Davlat byudjeti daromadlarining 17,2 foizi miqdorida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Resurs soliqlarining asosiy qismi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa to‘g‘ri keladi. 2021-yil yakunlariga ko‘ra yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari 2020-yilga nisbatan 663 mlrd. so‘mga kamayib, 15,8 trln. so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Buning sababi oltin va kumush uchun belgilangan soliq stavkasini 20 foizdan 15 foizgacha pasayishi hisobiga

yuz beradi. 2021-yilda mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 trln. so‘mga oshib, 6,9 trln. so‘mni tashkil etishi kutilmoqda [22].

Biz yuqorida mol-mulk solig‘ini mamlakat byudjetidagi ulushini yaxlit holda tahlil qildik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni bilan yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yer va suv resurslari, yer qa’ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlar boshlangan. Farmonga kura mol-mulk va yer soliqlarini ko‘chmas mulk (bino, inshoot va yer uchastkalari) obyektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilgan bo‘lib, ko‘chmas mulk obyektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash tizimi ikki bosqichda joriy etiladi:

- birinchi bosqichda (2021-2023-yillar) – ko‘chmas mulk bo‘lgan turar-joy fondi obyektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan;
- ikkinchi bosqichda (2022-2024-yillar) – yashash uchun mo‘ljallanmagan alohida ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek, ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan.

Xorijiy tajribadan ma’lumki, har xil turdagi mulklar yer va uning tuzilmalariga nisbatan har xil turdagi soliqlarga ega. Misol uchun, bo‘sh yerlar yaxshilangan taqqoslanadigan mulk obyektiga qaraganda ancha past baholangan qiymatga ega bo‘ladi va buning natijasida mulk solig‘i kamroq bo‘ladi. Kanalizatsiya, suv va gaz kabi davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lsa, yerni baholash yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Agar baholovchi yerning o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan salohiyatga ega deb hisoblasa, bu yuqori bahoga va egasi uchun ko‘proq soliqlarga olib kelishi mumkin. Mulk soliqqa tortiladigan summa mulkning baholangan qiymatining foizidan kelib chiqadi.

Joriy davrda xorijiy davlatlar amaliyotida uch xil usuldan foydalangan holda mulkning bozor qiymatini baholashi mumkin va ular bitta yoki uchtasining kombinatsiyasini tanlash imkoniyatiga ega.

Sotishni baholashni amalga oshirish. Ko‘chmas mulkni baholovchi hududdagi taqqoslanadigan sotishdan foydalangan holda baholaydi. Mezonlarga joylashuv, mulkning holati, har qanday yaxshilanishlar va umumiy bozor sharoitlari kiradi. Keyin baholovchi yangi qo‘shimchalar va ta’mirlash kabi mulkka aniq o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun raqamlarga tuzatishlar kiritadi.

Narx usuli. Bunda baholovchi sizning mulkingiz qiymatini uni almashtirish qancha turadiganiga qarab aniqlaydi. Agar mulk eskiroq bo‘lsa, baholovchilar amortizatsiya miqdorini aniqlaydilar va agar u bo‘sh bo‘lsa, mulk qancha bo‘lishini aniqlaydilar. Yangi obyektlar uchun baholovchi har qanday real amortizatsiyani chegirib tashlaydi va qurilish materiallari va mehnat xarajatlarini, shu jumladan mulkning yakuniy qiymatida ushbu raqamlarni ko‘rib chiqadi.

Daromad usuli. Bu usul, agar u ijaraga olingan bo‘lsa, undan qancha daromad olishingiz mumkinligiga asoslanadi. Daromad usuli yondashuvidan foydalangan holda, baholovchi mulkni saqlash, mulkni boshqarish, sug‘urta va soliqlarni, shuningdek, siz mol-mulkdan oqilona taxmin qilishingiz mumkin bo‘lgan daromadni hisobga oladi. Mulkning bozor qiymati aniqlangandan so‘ng, baholangan qiymat uning haqiqiy qiymatini olib, uni baholash stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. Bu stavka yagona foiz bo‘lib, soliq yurisdiksiyasiga qarab o‘zgaradi va har qanday foiz 100% dan past bo‘lishi mumkin. Baholangan qiymatni olganingizdan so‘ng, sizning mol-mulk solig‘ini aniqlash uchun u tegirmon yig‘imi bilan ko‘paytiriladi [23].

Ko‘rish mumkinki, bugungi kunda mol-mulk va yer soliqlarini ko‘chmas mulk obyektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash amaliyotining joriy etilishi mamlakatimiz byudjetida soliq tushumlarining oshishiga va mantiqan qaralganda mulk va yerdan unumli foydalanishga, undan daromad olishigacha bo‘lgan jarayonda o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti tushumidagi ulushining boshqa soliqlarga nisbatan pastligi, uning salmog‘ini tushurib quymaydi. Chunki so‘nggi yillarda mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini optimalashtirish orqali “ko‘chmas mulk solig‘i” sifatida optimallashtirish va qonunchilikka kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida o‘chratish mumkin, ammo maqsad soliqlarni optimallashtirish vositasida bo‘ladigan va kutilayotgan o‘zgarishlar pirovarda natijasiga bog‘liq. Ya’ni uning mamlakat byudjetiga va individlarga ta’siri jihatidan o‘rganish kerak. Jumladan, 2021-yil uchun davlat byudjeti daromadlarida soliqlarning ulushi nuqtayi nazaridan kutilayotgan mol-mulk solig‘idan 2 foizlik va yer solig‘idan 3 foizlik ulushi (1-rasm), ularni birlashtirganda byudjetga qancha foyda keltirishi yoki yuridik va jismoniy shaxslar uchun iqtisodiy ahamiyati yana bir boshqa tadqiqot mavzusiga sababchi bo‘lmoqda. Albatta, bozor iqtisodiyoti rivojlanib boraverar ekan, davlat va jamiyat o‘rtasidagi byudjet soliq islohotlari ham chambarchas takomillashib boraveradi.

Darhaqiqat, mavzu doirasida ko‘chmas mulk obyektlarini bozor qiymatida baholash maalasida to‘xtalib o‘tgandik, taklif sifatida qilinishi lozim bo‘lgan chora tadbirlar yuzasidan quyidagilarga ahamiyat berish kerakligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz:

- Bozor bahosini belgilashda, ularning o‘rtacha bahosiga adolatli qiymatni shakllantirish;
- Ko‘chmas mulk joylashgan hududning (agar yer sifatida qaralganda) salohiyatini e’tiborga olish;
- Mulkning ishlatish davomiyligi muddati va yaroqliligiga ahamiyat qaratish;
- Ko‘chmas mulkning foydalanishi jihatdan (yashash uchun yoki ishlab chiqarish sifatida qaralganda) baholash;
- Ko‘chmas mulkni zamonaviy (raqamlashtirilgan) baholash metodikasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun.2016 yil 13 aprel
2. Пропертй Тах Дефинитион – Инвестопедиа ҳттпс://www.инвестопедиа.сом › термс›Пропертйтах
3. Крутякова Т.Л. Налог на имущество: изменения продолжаются // Новая бухгалтерия. – 2014. - № 12. – с. 15-22.
4. Пансков В.И. Российская система налогообложения: проблемы развития. –М.: Международный сентр финансово-экономического развития, 2014. – 241 с
5. Пятшева Е.Н. Тенденсии развития системы имущественного налогообложения организатсий в Российской Федератсии // Вестник Российский Gosudarstvennыy Gumanitarnыy Universitet. – 2014. - №21. – s. 157-167.
6. Жукова Е.И. Налогообложение организатсий в 2014 г. // Управление многоквартирным домом. – 2014. – № 4. – с. 23-31.
7. Медведев Л.Н. Имущественные налоги: сравнителный анализ российской и зарубежная практики. – М.: Учебный сентр МФС, 2013. – 178 с.
8. Крутякова Т.Л. Налог на имущество: изменения продолжаются // Новая бухгалтерия. - 2014. - № 12. – с. 15-22.
9. Шмелев Ю.Д. О новой консепсии налога на имущество организатсий и механизме её реализатсии // Финансы. – 2015. - № 4. – с. 28-35.
10. Майбурова И.А. Теория и история налогообложения: учебник / под редаксией. М.: Юнити-Дана. – 2014. - 422 с.
11. Карбусҳев Г.К. Соверсҳенствование налогообложения имущества организатсий // ЕКО. – 2015. - № 7. – с. 23-30.
12. Гущина И.В. Реализатсия функсий налога в налогообложении имущества предприятий // Известия ИГЕА. – 2013. - №4 – с. 21-28.
13. Пансков В.И. Российская система налогообложения: проблемы развития. – М.: Международный сентр финансово-экономического развития, 2014. – 241 с.
14. Горский И.В. Налог на недвижимост: за и против // Финансы. – 2015. - № 2. – с. 37-39
15. Петухов А.М. Увеличение регулирующей функсии налога на имущество // Российское предпринимателство. – 2014. - № 9 (98). – с. 153-157.
16. Стукина В. В. Становление налогооблажения недвижимого имущества // Международный научно-исследовательский журнал. – 2014. - №1-3 (20). – с. 103-104.
17. Парыгина В. А. Понятие, история и функсии налогообложения имущества // Современное право. – 2015. – № 10. – с. 3 – 8.
18. Алм, Жамес, Бусчман, Роберт Д., Сжоқуист, Давид Л. 2011. “Ретҳинкинг Лосал Говернмент Релиансе он тҳе Пропертй Тах.” Регионал Ссиенсе анд Урбан Есономисс 41 (4): 320–31.
19. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortis’h: Darslik. T -2008. 154b
20. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ 2022 yil uchun fuqarolaruchun byudjet e’lon qilindi
21. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.
22. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “Byudjetnomasi” ma’lumotlari https://www.investopedia.com/articles/tax/09/calculate-property-tax.asp

KONFUTSIYCHILIK AXLOQIY NEGIZLARIDA OLAMIY TARTIBOT

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Doctor of Philosophy, Professor of the Department of Social Sciences, Faculty of Social Sciences, “ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oily ta’lim tashkiloti

Annotatsiya: Uzoq Sharq madaniy an’analari G‘arbiy Yevropa falsafasining muammoli sohasi va mantiqiy-diskursiv kontseptuallik darajasidan past bo‘lmagan holda o‘z falsafasini shakllantirib kelmoqda. Uzoq Sharq an’analarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu falsafiy tafakkuridir. Shunday falsafiy tafakkur ta’limotlaridan biri konfutsiychilik bo‘lib, aynan uning Janubiy Koreyada yoyilishi va mamlakat bilan bog‘liq holda ijtimoiy va siyosiy hayotga ta’sirlanishini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish tendinsiyalarida Janubiy Koreyada sivilizatsion ko‘tarilishda aynan konfutsiylikning o‘rni nihoyatda ulkan. Bugungi zamonaviy Janubiy Koreyadagi konfutsiylikni bilish uchun albatta, qadimgi Xitoy madaniy dunyosi va u bilan bog‘liq holda, konfutsiychilikning qadimgi o‘zagi hisoblanmish tarixiy ildizlaridan boshlab o‘zlashtirish, o‘rganish ahamiyatini nihoyatda yuqori hisoblanadi. Janubiy Koreyadagi konfutsiychilikning ilg‘or falsafiy, axloqiy, ilmiy va ijtimoiy g‘oyalaridan hozirgi vaqtda ham bahramand bo‘la olishimiz, mavzuning dolzarbligiga asos bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: Konfutsiy, konfutsiychilik, “Li”, “Jen”, “Ti”, “Ki”, tartib, axloq, marosim, gumanizm.

Abstract: The cultural traditions of the Far East have been forming their own philosophy, not inferior to the level of logical-discursive conceptuality and the problem area of Western European philosophy. One of the most important components of Far Eastern traditions is philosophical thinking. One such philosophical thought is Confucianism, and we can see its spread in South Korea and its influence on the social and political life of the country. In today's modern economic development trends, the place of Confucianism in the civilizational rise in South Korea is huge. In order to understand Confucianism in today's South Korea, it is very important to study the ancient Chinese cultural world and, in connection with it, the historical roots of Confucianism. The fact that we can still enjoy the advanced philosophical, ethical, scientific and social ideas of Confucianism in South Korea is the basis for the relevance of the topic.

Key words: Confucius, Confucianism, "Li", "Jen", "Ti", "Ki", order, morality, ritual, humanism.

Аннотация: Культурные традиции Дальнего Востока формируют собственную философию, не уступающую уровню логико-дискурсивной концептуальности и проблемности западноевропейской философии. Одной из важнейших составляющих дальневосточных традиций является философское мышление. Одной из таких философских идей является конфуцианство, и мы видим его распространение в Южной Корее и его влияние на социальную и политическую жизн страны. В современных тенденциях экономического развития рол конфуцианства в цивилизационном подъеме Южной Кореи огромна. Чтобы понят конфуцианство в современной Южной Корее, конечно, чрезвычайно важно изучит древнекитайский культурный мир и, в связи с ним, исторические корни конфуцианства. Тот факт, что мы все еще можем пользоваться передовыми философскими, этическими, научными и социальными идеями конфуцианства в Южной Корее, является основой актуальности темы.

Ключевые слова: Конфуций, конфуцианство, “Ли”, “Жэнь”, “Ти”, “Ки”, порядок, мораль, ритуал, гуманизм.

KIRISH

Konfutsiychilik madaniyati doimo Xitoy va boshqa ko‘plab qo‘shni mamlakatlar madaniyatining eng ulug‘vor tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Ikki ming yildan ortiq vaqt davomida ko‘plab Uzoq Sharq asosiy dunyosini boshqarib, u yerdagi mamlakatlar xalqining fikrlash tarzi va madaniy-psixologik shakllanishiga chuqur va uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdi. Konfutsiychilik ta’limi, avvalo, inson o‘z-o‘zini anglashdan boshlanadi, chunki ta’limot insonga bog‘liq va insonga yaqin bo‘lgan ixtilof va tuyg‘ularni aks ettiradi deb qaraladi. Qolaversa, “Inson tabiati Osmon in’om etgan ne’matdir” kabi asosiy iboralar taniqli konfutsiychilik olim-pedagoglari tomonidan tez-tez keltiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimlaridan A. L. Titov (Titov, 2015: 38-55), A. E. Lukyanov (Lukyanov, 1992: 188), A. V. Torkumova (Torkumova, 2003: 430), A.F.Trotsevich (Trotsevich, 2004: 323), S. O. Kurbanov (Kurbanov, 2009: 744) va boshqa shu kabi olimlar mazkur mavzuning gumanistik jihatlarini o‘rganganlar bo‘lishsa, M. L. Titarenko (Titarenko, 1993: 566), A. I. Kobzev (Kobzev, 1993: 788), G. V. Grinenko (Grinenko, 2009: 685), V. L. Vasilyev (Vasilev, 2006: 384-492), G. F. Aleksandrov (Aleksandrov, 1959: 371) va boshqalar Koreya konfutsiychilikning Xitoydan Koreya hududiga kirib kelishi va uning tarqalishi, Koreya hududidagi konfutsiychilik talimoti, Janubiy Koreya va Xitoy an’analarida konfutsiychilikning mohiyati, falsafasining tarixiy jihatlari, hozirgi globallashuv davridagi o‘rning asosiy masalalari haqida fikr yuritishadi

METODOLOGIYA

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, obyektivlik, ilmiylik, xolislik, falsafiy ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, falsafiy qiyosiy tahlil, germenevtik usllardan foydalanilgan.

NATIJADAR

Qadimgi odamlar ulkan olamni kuzatdilar va unda mutlaq tartib mavjud degan xulosaga keldilar. Agar aniqlaganlari to‘g‘ri bo‘lmasa, yulduzlar bu koinotdagi boshqa yulduzlar bilan to‘qnashishar va haddan tashqari tartibsizliklar sodir etgan bo‘lishar edi. Ammo koinot to‘g‘ri va tartibli ishlaydi. Shuning natijasida ular, agar bu mutlaq tartib yerga tushsa, balki tartibni yo‘qqa chiqaruvchi urush tugashi mumkin deb o‘yladilar. Agar odamlar o‘zaro muloqot qilishda boshqalarni ham hisobga olsalar, insoniy munosabatlar qarshilik, tortishuvlar va nizolar, nafrat va yomon niyatlarsiz shakllanadi. Aynan mana shu “odob-axloq” tushunchasi koinotdagi tartib-intizomning manbayi ekanligini qadimgi odamlar ochib bergan. Va biz yashayotgan jamiyatning to‘g‘ri tartib bilan ishlashi uchun eng muhimi - bu odob-axloq deb hisoblaganlar. Ular jamiyatning “odob-axloq” asosida shakllanishini xohladilar.

Konfutsiy o‘z ta’limotida “odob-axloq” tushunchasini ochiqlash bilan birga, uni jamiyatda tinch hayot ta’minlanishini harakatlantiruvchi kuch sifatida ko‘rsatishga harakat qildi. Boshqa axloqiy tamoyillar bilan taqqoslaganda, “Jen” va “Li” uzoqroq tarixga egadir va konfutsiy madaniyatining rivojlanishi davomida ta’limot markazi sifatida doimo talqin qilib kelingan. Bu ikki asosiy kategoriyalar bo‘yicha olib borilgan barcha oldingi tadqiqotlar ularning ma’nolari, o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy funktsiyalari va ularning ahamiyatini taqqoslash usullarini qo‘llaydi. “Jen” konfutsiychilikning mafkuraviy yadrosi bo‘lib, mafkura va axloqiy tushunchalarni ifodalaydi, “Li” esa “Jen”ning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, insonning xulq-atvor normalari anglatadi. Bu ikki kategotiya qush ikki qanotining tomonlari kabi bir-birini to‘ldiruvchi xususiyat va munosabatlarga ega.

“Li” va “Jen” tushunchalari konfutsiychilik asosiy qadriyatlarining muhim qismlaridir, shuning uchun ular o‘rtasidagi farqlarni va ularning evolyutsiyasini o‘rganish va shu bilan bir qatorda bevosita bu ikki kategoriyalarni falsafiy tahlil qilish konfutsiychlik madaniyatini yanada chuqurroq tushunishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, “Li” va “Jen” tushunchalari mukammal va murakkab ma’nolarga va qolaversa, o‘zaro uzviy munosabatlarga ega hamdir. “Li” tushunchasi birinchi navbatda konfutsiychilik etikasining asosi hisoblanadi, qolaversa, klassik Xitoy falsafasining ham markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xitoy lug‘atidagi boshqa ko‘plab atamalar singari, “Li” ham bir-biriga bog‘liq ma’nolar turkumini o‘z ichiga oladi, bu esa boshqa tillarda bitta so‘z bilan ifoda berishni qiyinlashtiradi. Tushuncha ikkita asosiy, “axloq” va “marosim” ma’nolarini anglatgan holda, ularni o‘zida birlashtirgan. Etimologik jihatdan, “Li” ieroglifining yozuv ko‘rinishi uni “Ti” ontologik tushunchasi (“tana”, “tuzilma”, “mohiyat”) bilan bog‘laydi, shu o‘rinda ikkala ieroglifning grafik asosi marosimlarning tasvirini aks ettiradi degan xulosaga kelsak bo‘ladi. Ko‘rinishidan, bu ikki ieroglifning etimologik munosabati, “Li” tushunchasining ontologik funksiyasini oldindan belgilab qo‘ygan bo‘lib va katta ehtimol bilan shu tufayli, nafaqat madaniy hayotda, balki jamiyatdagi eng muhim omilning ifodasi sifatida ham qarala boshlagan. Miloddan avvalgi 1-mingyillikgacha “Li” ta’siri diniy marosimga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik asosan axloqiy talqinni oladi (Sыma Syan, 1986: 352). Eng qadimiy yozma yodgorliklarda (“Shu jing” va “Shi jing”) “Li” kategoriyasi siyosiy ziddiyatlarni yengib o‘tishga imkon beradigan va shu bilan bir qatorda, dunyo birligini aks ettiruvchi marosimlarni, obro‘li shaxslarning boshqa quyi jamiyat vakillariga nisbatan xatti-harakatlari, shuningdek, ma’budlarga bag‘ishlangan va saroy marosim shakllari ma’nosini bildiradi deb ko‘rsatib o‘tilgan (Drevnekitayskaya filosofiya, 1972: 79).

Barcha holatlarda “Li” atamasi inson faoliyati, ajdodlarga ruhiga xurmat ko‘rsatishdan tortib dasturxon odobigacha, va ularni rag‘batlantiradigan va mustahkamlaydigan odob-axloq munosabatlarini anglatadi - sodda qilib aytganda, “Li” inson harakatlarini cheklaydigan va ularni boshqaradigan xatti-harakatlar standartiga ishora qiladi. Konfutsiylikning umumiy nuqtayi nazari shundan iboratki, “Li” kategoriyasi insonlar munosabatlarini rivojlantirish, jamiyatda tinchlik, totuvlik va to‘g‘ri boshqaruvga yordam beradi. Klassik Xitoy dini va falsafasida keng

tarqalgan ijtimoiy tartib va axloqiy xulq-atvor bilan bog‘liq umumiy muammoni hisobga olsak, bu tushuncha qanday qilib ilk konfutsiychilar uchun to‘liq markaziy tushunchaga aylanganini ko‘rish oson bo‘ladi. Biroq klassik konfutsiychilik faylasuflarining har biri bu tushunchaga har xil yondashuvda bo‘lgan, shu sabab unga nisbatan qator munosabatlarni navbatma-navbat ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Konfutsiy ustoz (keyinchalik diniy va axloqiy faylasuf) sifatida axloq va ijtimoiy uyg‘unlikni targ‘ib qilishda “Li” o‘rni zarurligini tushundi. Vaziyatdan qat’i nazar, “Li”, inson xulq-atvorining ichki yo‘l-yo‘riqlari ma’nosida, qolaversa, o‘z xatti-harakatlarini tartibga solish va uni shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish ma’nolarida tushunilgan. Yan Xui: “Obro‘ga (Jenga) ega bo‘lish nimani anglatishini so‘rasam bo‘ladimi?” Ustoz javob berdi: “Marosim qoidalariga rioya qilishdan chalg‘itadigan hech narsaga qaramang (Li); marosim odobini buzadigan hech narsaga quloq solmang; marosim odobini buzadigan hech narsa haqida gapirmang va qilmang (The Analects of Confucius, 2007: 13). Bu nuqtayi nazar Konfutsiyning Xitoy chekka hududlaridagi “madaniyatsiz” odamlar orasida yashash istagi haqidagi ertak bilan ta’kidlanadi:

Konfutsiy ular orasida yashash istagini bildiradi va unga: “Ularning qo‘polligini nima qilasiz?” deb savol berishadi, shunda u: “Ular orasida ibratli inson yashasa, yana qanday qo‘pollik bo‘lishi mumkin?” deb javob qaytargan. Bunday g‘oyalar Konfutsiyning to‘g‘ri boshqaruv g‘oyasida ham markaziy o‘rin tutdi, bu esa “Li” asosini majburlash qonunlari va jazolar tushunchasiga to‘siq sifatida o‘rnatdi: “Odamlarni a’lo darajada boshqaring va marosimlar to‘g‘riligiga rioya qilish orqali tartibni saqlang va ularda uyat hissi paydo bo‘ladi va bundan tashqari, ular o‘zlarini tartibga soladilar” (The Analects of Confucius, 2007: 94). Ushbu tushunchasining “axloq” va “marosim” sifatidagi talqin etilishi va ma’noviy jihatdan yakdil bir to‘xtamning noaniqligi Konfutsiyning yirik ikkita izdoshi va konfutsiychilikdagi qarama-qarshi oqimlarning asoschilari hisoblanadigan Men szi va Syun sziga “Li” tushunchasinini turli yo‘llar bilan izohlash imkonini berdi (Cua, 1983: 7).

Men szi “Li” ga boshqacharoq yondashuv beradi. U Konfutsiy aytganidek, ushbu tushunchani o‘rganish mumkin bo‘lgan odob-axloq modeli sifatida emas, balki ichki yaxshi xulq-atvor tuyg‘usini anglatuvchi atama sifatida ta’rifladi. Adolat, yaxshilik, odob va donolik kabi fazilatlar insonga tabiatan mos deb biladi va shu sababli, inson tabiati yaxshi ekanligi haqidagi ta’limotida “Li” ni markaziy o‘ringa qo‘ygan: “Insonlar aslida qanday bo‘lsa, ular yaxshi inson bo‘lishi mumkin. Ularning tabiatida mehr-shafqat, boshqalarga hurmat, ularni ma’qullash kabi xususiyatlar tabiatan bor. Aksincha, insonlarning yaxshi emasligiga kelsak, bu ularning salohiyatida ayb degani emas. Bu shunchaki, ular o‘zlaridagi ezgu qalbga e’tibor qaratmaydilar. Izlang va siz unga erishasiz”. Shunday qilib, Konfutsiy va Men szi nuqtayi nazarlari o‘rtasida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Konfutsiy uyg‘un xulq-atvorni targ‘ib qilishda “Li” zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa-da, Men szi inson tabiatiga ko‘proq ishonadi (Schwartz, 1985: 194).

Men szidan farqli o‘laroq, Syun Szi inson tabiatan yovuz ekanligiga ishondi - bu uning yoshiga xos bo‘lgan tartibsizlik va noaniqlikdadir deb hisoblaydi. Shunday qilib, Konfutsiyga ergashib, u inson xatti-harakatlarini tartibga solish va uyg‘un jamiyat qurish uchun “Li” zarurligini ta’kidladi: “Demak, inson o‘zining tabiati orqasidan ergashib, undagi his-tuyg‘ulariga berilsa, muqarrar ravishda janjal va nizolarga aralashadi, jamiyatning shakl va qoidalarini buzadi va jinoyatchiga aylanadi. Binobarin, inson avvalo, ustoz ko‘rsatmalari bilan o‘zgarib, marosim tamoyillariga (Li) amal qilishi kerak, shundagina u odob va kamtarlikga amal qila oladi, jamiyatning qoidalariga bo‘ysunadi, tartib-intizomga erishadi” (Xunzi, 2003, 114). Shu bilan birga, u o‘z qarashlari ustozi hisoblanmish Konfutsiyning formulasini kengaytirib, ushbu xulq-atvor meyorlari odamlarning istaklari va his-tuyg‘ularini boshqarish va tartibga solish usullarini aniq o‘rganib chiqdi. Shuningdek, ushbu standartlar qadimgi hukmdorlar tomonidan aniq ijtimoiy nazoratni amalga oshirish uchun o‘rnatilganini aytib o‘tadi:

“Inson istaklar bilan tug‘iladi. Agar uning xohish-istaklari uning uchun qanoatlantirilmasa, agar uning izlanishlarida chegara va darajalar bo‘lmasa, u muqarrar ravishda boshqa odamlar bilan janjallashib qoladi. Jangdan tartibsizlik kelib chiqadi. Qadimgi hukmdorlar bunday tartibsizlikni yomon ko‘rishgan va shuning uchun ular uni jilovlash, odamlarning xohish-istaklarini ta’minlash uchun marosim tamoyillarini o‘rnatdilar”. Shunday qilib, Syun Szi tizimi konfutsiylikning “Li” kontseptsiyasini umumlashtiradi, lekin bu ishni u ochiqdan-ochiq pessimistik yo‘l bilan va shu bilan bir qatorda biroz avtoritar kontekstda amalga oshirgani rad etib bo‘lmas haqiqatdir. Bundan tashqari, Syun Szi inson his-tuyg‘ularini tartibga solishdagi funktsiyasini maqsadli o‘rganish orqali “Li” roli haqidagi tushunchani kengaytiradi berdi (Cua, 1983: 14).

Koreys konfutsiychilik olimlari “inson tabiati”ni tabiatan yaxshi narsa deb hisoblagan holda shakllangan. Ular Men Szi ta’lim an’analariga qo‘shilishgan holda, bunda ta’lim insonning fazilatli tabiatini takomillashtirish va targ‘ib qilish vositasidir deb hisoblashadi. Axloqiy tarbiyaning nozik tabiati koreys konfutsiychiligining yana bir muhim xususiyati bo‘lib, hatto tarixda o‘tgan Koreya qirollari ham aynan konfutsiychilikning konformistik axloqi bo‘yicha ta’limot olimlaridan ma’ruzalar bilan rasmiy konfutsiychilik ta’limini olishgan. Shu jihatdan kelib chiqsak, Men Szining g‘oyalari, ayniqsa, Choson davridagi koreys falsafasini metafizik rag‘batlantirish va qayta kalibrlashiga mas’ul bo‘lib, oxir-oqibat uning falsafiy munozaralariga olib keldi, deb aytish bejiz emas (Sohn, 2000: 193).

Konfutsiychilikda jamiyat “Li” tamoyili asosida quriladi. Ijtimoiy odob-axloq qoidalari oiladagi, do‘stlikdagi, suveren va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni va boshqalarni tartibga soladi. “Li” ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladigan urf-odatlar va munosabatlar majmuyi hamdir. Xususan, otalar, qishloq oqsoqollari va Hukumat amaldorlari tomonidan boshqalarga o‘rgatiladigan to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor normalaridan iborat. “Li” tushunchasi farzandlarga taqvo, birodarlik, solih amallar, yaxshi xulq-atvor va sadoqat kabi ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilgan. Qolaversa, uning bevosita ta’siri insonning o‘zidan yuqori mansab vakillariga sodiqlik va jamiyatda muhim o‘rin egallovchi shaxslarga hurmatda bo‘lish kabi odob-axloq normalarini singdirgan.

XV-XVI asrlarga qadar Koreyadagi neo-konfutsiychilik ko‘p hollarda idekologiyaga asoslanib kelgan bo‘lsa, Choson qirolligining o‘rtalaridan boshlab moddiy asoslarga tayanuvchi maktablar tashkil etildi. Bu moddiy asoslar “Li” va “Ki” kategoriyalarining qarama-qarshiligi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda “Ki” deganda aql bilan bo‘gliq moddiy narsalar nazarda tutilsa, “Li” da esa ruh bilan bog‘liq holatlarni tushunilishini ko‘rishimiz mumkin. Konfutsiychilik Xitoydan Koreya hududiga kirib kelgan uzoq asrlardan beri ushbu ta’limot olimlari “Li” kategoriyasini faqatgina “prinsip” yoki “uyg‘unlik” sifatida tushunish davom etib kelishgan bo‘lsa, neo-konfutsiychilikning yoyilishi bilan, uni o‘ziga xos xususiyat belgilaydigan falsafiy atama sifatida tavsiflaydilar. Ilk konfutsiychi olimlar o‘zlarining falsafiy asarlarida kamdan-kam hollarda “Li” ni qo‘llashgan, hatto ular kategoriyani qo‘llashganda ham, u asosan Syun Szi axloqiy tafakkurida namoyon bo‘lganidek, “yaxshi tartib” ga ishora qildi.

Shunday qilib, “shakl” ma’nosi atamaning qadimiy ma’nosiga yaqin bo‘lsa-da, “tamoyil” falsafiy tadqiqotlarda kengroq qo‘llaniladi, chunki bu kabi talqin etilishi “Li” ning o‘ziga xos xususiyatini yaxshiroq yoritadi, deb ishoniladi. Chju Si uning kosmologik, metafizik va axloqiy-siyosiy o‘lchamlarini va ularning murakkab o‘zaro bog‘liqligini ifoda etganidan so‘ng, “Li” qayta kashf etdi deyishimiz mumkin. Neokonfutsiychilikning eng rivojlangan davri aynan XVI asr bo‘lib, uning Koreya hududida keng tarqalishi va yanada rivojlanib taraqqiy etishi bugungi kunda ham mamlakatda cheksiz hurmatga sazovor bo‘lgan faylasufi Li I (Yulgok) ning nomi bilan bog‘liq. U Chugipxa deb nomlangan maktabning asoschisi bo‘lib, ushbu maktab vakillari uning falsafiy qarashlarini davom ettirishgan. Li I koreys falsafasining tayanch tushunchalarini dualistik ravishda talqin qilishdan kelib chiqadi va shu asosda “Li” va “Ki” bir-birlaridan ajratilishi mumkin emas degan g‘oyani ilgari suradi. “Ular o‘rtasida oraliq yo‘q”, deb ta’kidlab o‘tadi (Chon Chin Sok, 1966: 181). Yulgok “boshlanish ham Li, ham Ki” da degan nazariyani ilgari suradi. Yulgokning dualistik pozitsiyasini quyidagi fragment orqali baholash mumkin: “Agar Li bo‘lmaganida, Kiga nima asos bo‘lar edi? Shunda asoslar ham mavjud bo‘lmagan bo‘lar edi. Ya’ni birinchisi yo‘q ekan, ikkinchisi ham mavjud emas. “Li” va “Ki” ni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, lekin mo‘jizaviy tarzda birlasha oladi degan g‘oya mavjud. Li I “Osmon va yer orasidagi hamma narsa Kidir” deb yozadi. Shu fikrlari asosida “Li” bilan bog‘liq jarayonlar boqiy, “Ki” esa o‘tkinchi degan xulosaga keladi. “Li” tug‘ma ezgulikka ergashib, odamlar va narsalarning tabiatini shakllantiradi, hamma narsada mavjud bo‘ladi. Yulgok odamning tug‘ilishi va o‘limida “Ki” ning paydo bo‘lishi va yo‘qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tkinchi xarakterini kashf etadi, “Li” esa hayot va o‘limdan mustaqil narsa sifatida mavjuddir deb aytgan. Oxir-oqibat, Li I dualizmi “Li” ning yetakchi rolini tan olishga olib keldi. Uni narsalar doirasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Ki – moddiy passiv material, Li esa faol printsip, o‘zgarishlarning sababi, boshqaruvchi kuchdir.

Urf-odatlarga sodiqlik, ularga rioya qilish, masalan, ota-onaga hurmat shular jumlasidandir. Umumiy ma’noda, “Li” jamiyat asoslarini saqlashga qaratilgan har qanday faoliyatni o‘z ichiga oladi. Konfutsiyning fikricha, umuman olganda, bizning har qanday xatti-harakatlarimiz, xoh u ovqat yeyish, xoh salomlashish, hammasi shunchaki emas, balki marosim shaklida bo‘lishi kerak, ya’ni ongli ravishda, asta-sekin, hissiyot bilan bajarilishi kerakligi aytiladi. Insonlar o‘zlarining harakatlarida ham, birodarlariga ko‘rsatilgan to‘g‘ri o‘rnak va yordamda ham a’nanalarga fidoyilik amaliyotini saqlab turishlari kerak. Shaxsiy yondashuvlar, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro yondashuvlar birgalikda “Li” kategoriyasining qanday qilib har bir narsani, yaxshi va yomon, shaklga ega va shaklsizni keng masshatbda va batafsil ko‘rinishda qamrab olganligini ko‘rsatadi. Aynan shu “Li” ning jamiyatda to‘liq amalga oshishidir deb qarasak bo‘ladi.

Konfutsiylik etikasining asosiy tamoyili jamiyat va oiladagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning oliy qonuni sifatida qaraladigan “Jen” (insoniyat) tushunchasidir. Shu o‘rinda, Konfutsiy axloqning oltin qoidasini shakllantirdi: “O‘zing uchun ravo ko‘rmagan narsalarni o‘zgalar uchun ham ravo ko‘rma”. Kundalik hayotnining turli jabhalarini marosim tarzida o‘tkazishning ushbu tamoyili odamlarga hayotni, uning ruhini yaxshiroq his qilishlariga imkon berish uchun mo‘ljallangan deb qaraladi. Albatta, har qanday marosim hurmat (inson o‘ziga, boshqa odamlarga va tabiatga) va qadr-qimmat bilan to‘ldirilishi kerak. Li tushunchasining marosim meyorlari, qadriyatlarga asoslangan xatti-harakat namunalari odamlarni birlashtiradi va bir vaqtning o‘zida qulay muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan makonga imkon beradi va ijtimoiy mavqeyi bo‘yicha teng bo‘lmagan odamlar o‘rtasidagi muloqotda tenglik tamoyilini amalga oshiradi. Konfutsiyning fikricha, inson qadr-qimmatga ega noyob mavjudotdir. Inson qadr-qimmati “Li” dan kelib chiqadi va unda gavdalanadi. O‘zlashtirilgan odat, marosim insonni hayvondan ajratib turadi.

Ushbu kategoriya miloddan avvalgi V-III asrlarda konfutsiylikning eng muhim belgilaridan biriga aylangan. Ayni o‘sha davrlarda “Li” tushunchasi konfutsiylik bilan raqobatlashuvchi falsafiy maktablarning konfutsiylikga

qarshi hujumlarining asosiy nishoniga aylandi. Daosizm tarafdorlari tabiatga sodiqlik nuqtayi nazaridan konfutsiylikdagi “odob-axloq” ning sun’iyligi va samarasizligini, shu bilan bir qatorda ishonchning zaiflashuv omili sifatida ta’kidladilar. Moizm ta’limoti qo‘llab-quvvatlovchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy utilitarizm nuqtayi nazaridan konfutsiychilarning “Li” tushunchasining marosimlar tomoniga haddan tashqari qiziqishini, uning o‘ta murakkab bo‘lgan shakllari va asossiz qimmat tantanalarini tanqid qildilar. Legizm tarafdorlari, “Li” tushunchasini ijtimoiy tartibga solishning oliy printsipi sifatini rad etib, uning o‘rniga ma’muriy tamoyillar va huquqiy qonunlarni muqobil variant sifatida ilgari surdilar (Etika i ritual v traditsionnom Kitae, 1988: 118).

“Li” ning marosimlari va amaliyotlari tabiatan dinamikdir. “Li” amaliyotlari jamiyatda paydo bo‘lgan qarashlar va e’tiqodlarni aks ettirish uchun vaqt o‘tishi bilan qayta ko‘rib chiqiladi va baholanadi. Garchi bu vaqt o‘tishi bilan juda sekin sodir bo‘ladigan o‘zgarish bo‘lsa-da, inson odob-axloqining asosiy kamolot nuqtalari asosan ijtimoiy tartib bilan bog‘liq bo‘lgan “Li” ning o‘zagida qoladi.

Konfutsiy “Li” tushunchasini nazariy jihatdan anglagan holda, uni o‘zi va boshqalar uchun to‘g‘ri ijtimoiy tuzilma va inson xatti-harakatlarining eng umumiy xususiyatiga aylantirdi: “Hukmdor o‘z fuqarolarini “Li” orqali boshqarishi kerak” deb ta’kidlab o‘tadi va fikri davomida “Inson shuningdek, o‘z-o‘zini yengib, “Li”ga murojaat qilishi, yana bir muhim tuyg‘u insoniylikni (Jen) tashkil etadi” deb qo‘shimcha qiladi. Hukmronlik nazoratining hissiy soha bilan kengayishi konfutsiylikda ushbu tushunchaga umumiy gnoseologik standart maqomini berish uchun asos bo‘ldi: Shu o‘rinda Lun Yuyda “Insoniylik va madaniyat bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va uni “Li” yordamida mustahkamlash orqali siz qonunbuzarliklarga uchramasligingiz mumkin” deb keltiriladi.

Konfutsiy Hukumat to‘g‘ri bo‘lishi uchun “Li” tamoyillariga amal qilish kerakligini nazarda tutgan. Ba’zi konfutsiychilar bu jarayonning muhim qismi sifatida “Li” tushunchasini o‘rganish orqali insonning mukammallikga erishishini taklif qilishdi. Umuman olganda, konfutsiychilar Hukumat vakillari “Li” normalariga ko‘proq e’tibor qaratishlari va hukmronlik pozitsiyasida insonlarga jazo berishga kamroq tayanishlari kerak deb hisoblashgan. Konfutsiy marosimlarni to‘g‘ri ishlaydigan hukumatning asosi sifatida muhimligini ta’kidladi. Konfutsiy o‘z hikmatlarida qadimiy urf-odatlarni qabul qilgan feodallarni markaziy hududlarning adolatli hukmdorlari deb hisoblagan. Aksincha, bu urf-odatlarni qabul qilmagan feodallar madaniyatsiz hisoblanar, xitoylik yoki markaziy hududlarning bir qismi hisoblanishga loyiq emas edi. “Li” jamiyatning barcha jamiyat a’zolari tomonidan rioya etilishi kerak bo‘lgan axloq normalari edi. Li, shuningdek, yuqori tabaqa vakillarining o‘zlaridan quyidagilarga nisbatan adolat va hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozimligini o‘z ichiga oladi. Konfutsiy aytganidek, “Hukmdor o‘z vazirlari bilan odob-axloq qoidalariga ko‘ra ishga olishi kerak va vazirlar ham o‘z hukmdorlariga sodiqlik bilan xizmat qilishlari kerakdir” (The Analects of Confucius, 2007: 139).

Insonparvarlik (Gumanizm) - Konfutsiy ta’limotining markaziy kategoriyasilaridan hisoblanadi. Bu kategoriya konfutsiychilikda “Jen” deb yuritiladi va odatda “insonparvarlik”, “rahm-shafqat”, “xayriya” deb tarjima qilinadi, shunga ko‘ra ko‘plab adabiyotlarda umumiy ma’noda “gumanizm” tushunchasiga sinonim sinonim sifatida qo‘llanadi. Bundan kelib chiqadiki, Jen shaxsning o‘ziga xos belgilarini va uning o‘z umrini qay tartibda yashab o‘tishi kerakligini anglatadi. Bu jamiyat a’zolaridagi insoniylik tamoyilidir va ushbu normalarga rioya qilish ularning burchidir (Kitayskaya filosofiya, 1994: 213).

Qadimgi konfutsiychilik manbalarida keltirilishicha, bir vaqtning o‘zida insonning axloqi qanday degan savolga javob bermay turib, qanday inson ekanligini aytish mumkin bo‘lmagan. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zini o‘zi shakllantirgan va jamiyatda o‘z axloqiga ko‘ra sifatlangan, shunga ko‘ra baholangan. Konfutsiyning o‘zi insonparvarlik ya’ni “Jen” nima degan savolga: “Bu tushuncha odamlarni sevishni anglatadi. O‘zing uchun xohlamagan narsalarni boshqa odamlarga ham qilmang. Shunda oila va davlatda nafrat yo‘qoladi”, deb javob beradi. Jen - Xitoy falsafasi va an’anaviy, ma’naviy madaniyatining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Konfutsiychilik tarafdorlari Jenning bir nechta asosiy semantik taraflarini o‘zida mujassam etgan jihatlarini ajratib ko‘rsatishadi:

1) axloqiy va psixologik – axloqiy tamoyillar to‘plami, shuningdek, odamlarga bo‘lgan sevgi yoki achinish, burch, adolat, odob, aql, jasorat kabi jihatlarni o‘zida aks ettirish;
2) axloqiy-metafizik – ma’naviy jihatdan bog‘liq, individning mavjud hamma narsaga, shu jumladan jonsiz narsalarga simpatik-integrativ munosabatda bo‘lishi kabi holatda o‘z aksini topadi;
3) ijtimoiy – jamiyatdagi munosabatlar normalari majmuyi;
4) siyosiy – davlatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi munosabatlar qoidalari (Duxovnaya kultura Kitaya, 2007: 13).

“Jen” ieroglifi mos ravishda shaxsni va ikki raqamini bildiruvchi belgidan iborat. “Jen” insonning boshqa odamlar bilan munosabatlarida amalga oshiriladi. Aynan jamiyatdagi o‘zaro iliq munosabatlar kabi nisbatlar inson mavjudligining haqiqiy makonini tashkil qiladi. Konfutsiyning fikricha, antik davr, ya’ni ota-bobolar xulq-atvor namunasidir va normani ular belgilaydi. Insonning axloqiy sa`y-harakatlari ideal o‘tmish darajasiga

ko‘tarilishi kerak. Bunday munosabat insonning tarix bilan yashashini anglatmaydi, aksincha bu konfutsiylikda yanada aniq va qat’iy shaklga egadir: “Ota-onani hurmat qilish va katta aka-ukalarni hurmat qilish insonparvorlikning asosidir”. Bu tushunchaga umuminsoniy fazilat ma’nosini bergan Konfutsiy uni “odamlarga bo‘lgan muhabbat” deb talqin qilgan. Biroq o‘zaro insonparvarlik odamlar o‘rtasidagi tenglikni emas, balki adolatli ierarxiyani nazarda tutadi. Unda ko‘tarilish mezoni bilimdir (Konfutsiy qonunlari, qadimiy matnlar). Konfutsiylik ideali - ijtimoiy qoidalar va marosimlarga rioya qilish haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi “olijanob inson”; u faqat shaxsiy manfaatni o‘ylaydigan “pastkash odam” ga qarshi turadi. Olijanob insonlar xalqqa ma’naviy o‘rnak bo‘lmog‘i lozim, bu esa huquqiy majburlashdan ko‘ra samaraliroq bo‘lib, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy hayotning qadriyatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, konfutsiychilik tomonidan targ‘ib qilinadigan fazilatlar qatorida shuni aytishimiz mumkinki, “Jen” kategoriyasida Xitoy konfutsiychiligi mukammal shaxslarning xulq-atvorini ifodalasa, koreys konfutsiyligida esa komil inson g‘oyasidan tashqari, ta’kidlangan muvofiqlikga ham urg‘u beradi. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, “Jen” kategoriyasi Xitoy konfutsiychiligida o‘zini boshqa insonning o‘rniga qo‘yish tushunchasini ifodalagan bo‘lsa, koreys konfutsiychiligida esa o‘rinlilik va mo‘tadillik hislatlarini ham ko‘rsatadi. Turli mamlakatlardagi urg‘udagi bu farqlar nafaqat aksiologik, balki madaniy sababdandir ham. Sharqiy Osiyo madaniy qiyosiy tadqiqotlarida biz chiqarishimiz mumkin bo‘lgan xulosalar nafaqat adabiyot va falsafa darajasida, balki sotsiologiya va antropologiya sohasidagi tadqiqotlarda ham paydo bo‘ladi.

Jen kategoriyasidagi insonparvarlik jihati koreys konfutsiychiligida ham qadimgi Xitoy konfutsiychiligi kabi madaniy ideallarining o‘zagida yotadi. Bunga misol o‘laroq, xalqni himoya qilish haqidagi g‘oyani keltirish mumkin. “Ular bilan (xalq bilan) go‘daklaringizni himoya qilayotgandek muomala qiling, shunda odamlar tinch va sog‘lom bo‘ladi”. Bu nafaqat siyosiy g‘oya, balki axloqiy va aksiologik ahamiyatga ham ega edi. “Jen” kategoriyasi orqali insonparvarlik g‘oyasida keksalar, zaiflar, yetimlar va yoshlarni himoya qilishga alohida ahamiyat beriladi (Roger, 2017: 225).

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Syun Szi o‘z risolasida konfutsiylik uchun asos bo‘lgan boshqa ko‘plab tushunchalarga qaraganda “insonparvarlik” tushunchasi ko‘proq e’tibor qaratadi. Risolani tahlil qilish barobarida, birinchidan, “Jen” ga bo‘lgan munosabat, bu shunchaki jamiyatdagilarga eslatma emasligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, qoida tariqasida, Jen haqida gapirganda, muallif, albatta, u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator boshqa kategoriyalar haqida ham, ushbu kategoriyalarning ta’siri, aloqa nuqtalari va kesishish joylarini ko‘rsatadi. Va nihoyat, uchinchidan, aynan shu parchalarda Syun Szi o‘zining falsafiy qarashlarining asosiy qoidalarini shakllantiradi (Titov, 2015: 38-39).

XULOSA

Insonparvarlik kategoriya konfutsiylik falsafasida eng muhim rol o‘ynagan, umuminsoniy tamoyil bo‘lib harakat qilgan va barcha eng munosib axloqiy qadriyatlarni to‘plagan, ayni paytda uning mazmuni ma’lum bir faylasuf yoki butun bir maktab g‘oyalariga qarab o‘zgarib turardi. Konfutsiyning qarashlarini ochib beruvchi “Lun Yu” yodgorligida “insoniyat” boshqa muhim kategoriyalar, shu jumladan “marosim” (Li) bilan bog‘liq degan xulosa beriladi. Konfutsiy an’anachilari nuqtayi nazaridan bu talqin, asosan, jamoat hayotini tartibga solish vositasidir deb tushunilgan (Scarpar, 2003: 6).

Neokonfutsiychilar Xan Yu ta’sirida Jen tushunchasining ontologik mazmunini kengaytirdilar. Cheng Xao, Chjan Zay, Van Yan Min va boshqalar buni Osmonning (tyan) atributi, shaxsning butun olam bilan organik konsubstansialligi sifatida talqin qilib, inson ruhida insonparvarlikning yo‘qligini xuddi tananing jismoniy holatidagi falajga o‘xshatishgan. Tan Sitong Jenni universal “sevgi kuchi”, dunyo substansiyasining doimiy va hamma narsani qamrab oluvchi ko‘rinishi - efir bilan aniqladi. Kang Yuvey bu nuqtayi nazarni qo‘llab quvvatlaydi, jenni elektromagnit tortishish bilan bog‘ladi. Klassik xitoy ta’limotlarini sharhlovchi XX asr faylasuflari asl konfutsiylikdagi jenni axloqiy meyorlar yoki o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan axloqiy intuitsiyaga ongli ravishda amal qilish, neokonfutsiychilikda esa “axloqiy metafizika” tamoyili sifatida talqin qiladilar (Kobzev, 2010: 31).

Insonlar o‘rtasida o‘zaro munosabatning boshlanishi xulq-atvorning umumiy tamoyilidir. Uning konkret timsoli marosimlar (Li) hisoblanadi. Marosim, Konfutsiyning fikriga ko‘ra, odamlarni bog‘laydi, lekin har bir tipik munosabatlarga nisbatan u turli shaxslarning samarali muloqot qilishiga imkon beruvchi optimal masofani ko‘rsatadi. Konfutsiy ta’limotida insonparvarlik tushunchasi o‘zaro munosabat va tenglikda deb tavsiflanadi. Biroq insonlar tabiiy sifatlari va ijtimoiy mavqeyi bilan farqlanadi. Demak, o‘rinli savol tug‘iladi: teng bo‘lmagan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda tenglik tamoyilini qanday amalga oshirish kerak? Marosimlar - bu savolga javobdir. Konfutsiylikdagi marosimlar - shaxslarning ijtimoiy mutanosibligidir. Marosimlarning o‘zi xulq-atvorning axloqiy o‘lchovidir, chunki u odamlarning uyg‘un mavjudligini ta’minlaydi, ularga umumiy belgilar beradi. Marosim o‘zgaruvchan, lekin o‘z asosida va o‘z qonunlariga muvofiq o‘tkaziladi. Konfutsiyning shunday so‘zlari bor: “Hamma narsada marosim talablariga rioya qilish uchun o‘zingizni tuting - bu insoniylikdir”. Ya’ni agar “Jen”

insoniy muloqotning ruhi bo‘lsa, “Li” aloqa mazmunidir (Lukyanov, 1992: 104).

Konfutsiyning fikricha, inson qadr-qimmatga ega noyob mavjudotdir. Inson qadr-qimmati “Li”dan kelib chiqqan va “Jen”da mujassamlashgan. O‘zlashtirilgan odat, marosim odamni hayvonlardan ajratib turadi. Axloqiy tarbiya “Li” qoidalarini o‘zlashtirish, adabiyot, musiqa va boshqa san’at turlarini o‘rganishdan iborat. Konfutsiy aytdi: “Jen”ga ega bo‘lish “Li” ga bo‘ysunishni anglatadi (Drevnekitayskaya filosofiya, 1972: 86).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Титов, А.Л. (2015). Гуманност - жэн в философской системе Сюнь-цзы // Вестник Московского университета. Серия 7: Философия, Изд-во Моск. ун-та, № 4. –СС. 38-55.
2. Лукьянов, А.Е. (1992). Становление философии на Востоке: Древний Китай и Индия. – М.: Российский международный фонд культуры. – 188 с.
3. Торкумова, А.В. (2003). История Кореи (Новое прочтение) –М.: Московский государственный институт междумародных отношений (Университет); “Российская политическая энциклопедия” (РОССПЭН). – 430 с.
4. Троцевич, А.Ф. (2004). История корейской традиционной литературы (до XX в.): Учебное пособие – СПб.: С.-Петерб. унта. – 323 с.
5. Курбанов, С.О. (2009). История Кореи: с древности до начала XXI в. – СПб.: Изд-во С-Петерб. ун-та. – 744с.
6. Титаренко, М.Л. (2008). Духовная культура Китая. - М.: Восточная литература. – 566 с.
7. Кобзев, А.И. (2010). Новая философская энциклопедия. В четырех томах // Ин-т философии РАН. Вып. 5. – М.: Мысль. – 788 с.
8. Гриненко, Г.В. (2009). История философии: Учебник. –М.: Вышее образование. – 685 с.
9. Васильев, Л.С. (2006). Истоки китайской метафизики. Цзоу Ян // Васильев Л.С. Древний Китай: в 3 т. Т.3: Период Чжаньго (V—III вв. до н. э.). М.: Мысль. – 384-392 с.
10. Александров, Г.Ф. (1959). История социологических учений. – М.: Древний восток. – 371 с.
11. Сыма Цянь. (1986). Исторические записки. – М.: Восточная литература. – 482 с.
12. Древнекитайская философия: Собрание текстов. (1972). – М.: Мысль. – 363 с.
13. The Analects of Confucius (Translated by Burton Watson). (2007). – New York: Columbia University Press. – 176 p.
14. Cua, A.S. (1983). Li and Moral Justification: A Study in the Li Chi, Philosophy East and West. - Hawaii: University of Hawai’i Press, No. 1, Jan.– 1-16 p.
15. Schwartz, B.I. (1985).The World of Thought in Ancient China. -Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press. – 490 p.
16. Xunzi, (Basic Writings). (2003). Translated by Burton Watson. – New-York: Columbia University Press. – 160 p.
17. Sohn, Pokee. (2000). Social History of the Early Chosŏn Dynasty: The Functional Aspects of Governmental Structure. – Seoul: Jisik-samup Publications Co. – 327 p.
18. Чон Чин Сок, Чон Сон Чхоль, Ким Чхан Вон, (1966). История корейской философии. - М.: Прогресс. – 181 с.
19. Этика и ритуал в традиционном Китае. (1988). - М.: Наука. – 331 с.
20. Китайская философия. Энциклопедический словарь. (1994). - М.: Мысль. – 573 с.
21. Духовная культура Китая: Энциклопедия. Т. 2. (2007). – М.: Восточная литература.. – 856 с.
22. Roger, T.A., Peter, D.H. (2017). Chun-chieh Huang. Confucianisms for a Changing World Cultural Order (Confucian Cultures). – Hawaii: University of Hawaii Press. – 284 p.
23. Титов, А.Л. (2015). Гуманност - жэн в философской системе Сюнь-цзы // Вестник Московского университета. – М.: Философия. – СС. 38-55.
24. Scarpari, M. (2003). The debate on human nature in Early Confucian Literature // Philosophy East and West, volume 53. Number 3, July. – 323-339 p.
25. Древнекитайская философия: Собрание текстов.(1972). – М.: Мысль. – 363 с.
26. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7).444-448.
27. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nitzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.
28. Rakhimdjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot’s philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.
29. Ruzmatova, G.M. (2023). Comparative studies of the Oriental and Western antropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13.

“YASHIL IQTISODIYOT”NI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Saloxov Sirojiddin Sadriddin o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida har bir sohada yangilanishlar yuz bermoqda. Maqolada bugungi kundagi dolzarb masalaga aylangan “yashil” iqtisodiyotni joriy etish, uni tatbiq etishdagi turli-xil mexanizmlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida O‘zbekiston moliya tizimida qo‘llash chora-tadbirlari tahlil qilingan bo‘lib, mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Maqolada “Yashil iqtisodiyot” tahlili, uni joriy etishdagi samarali natijalar va tabiatga do‘stona munosabatda bo‘lish maqsadida davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘larning ijobiy indikatorlari borasidagi fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” budjet, “yashil” kreditlar, investitsiya, barqarorlik, YaIM, Green Economy Financing Facility, kapital, energiya, ekologiya.

Abstract: Today, at the stage of globalization and technological armament in the world, innovations are taking place in every field. The article analyzes the implementation of the “green” economy, which has become an urgent issue today, various mechanisms for its implementation, measures to be applied in the financial system of Uzbekistan based on the experience of developed countries, and the opinions of foreign and local economists on the subject. - comments were studied. In the article, the analysis of “Green economy”, the effective results of its implementation and the positive indicators of the funds allocated by the state in order to be friendly to nature are presented.

Key words: “green” economy, “green” budget, “green” loans, investment, sustainability, GDP, Green Economy Financing Facility, capital, energy, ecology.

Аннотация: Сегодня, на этапе глобализации и технологического вооружения в мире, инновации происходят во всех сферах. В статье на основе опыта развитых стран, а также мнений зарубежных и местных экономистов по этому вопросу - были изучены комментарии. В статье представлен анализ “Зеленой экономики”, эффективные результаты ее реализации и положительные показатели средств, выделяемых государством в целях бережного отношения к природе.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, “зеленый” бюджет, “зеленые” кредиты, инвестиции, устойчивость, ВВП, механизм финансирования зеленой экономики, капитал, энергетика, экология.

KIRISH

Hozirgi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyot arsenalida barqaror rivojlanish maqsadlarining bir nechta yo‘nalishlari, ya’ni shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta’minlash hamda iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha tezkor choralarni qabul qilish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotning ijtimoiy va ekologik zarurati sifatida aytish mumkinki, insoniyat oxirgi o‘n yillikda tabiiy resurslarning kamayishi, tabiiy ofatlar, turli ijtimoiy-siyosiy o‘yinlar, fuqarolarning tabiatga bo‘lgan e’tiborining pasayishi, daraxtlar va o‘rmonlarning qisqarishi shu bilan birga ekologik muhitning ifloslanishi kabi turli muammolar qarshisida turibdi. So‘ngi yillarda iqlimni moliyalashtirtish ya’ni “yashil” iqtisodiyot siyosatining ko‘rsatkichi bosqichma-bosqich o‘sib bormoqda va xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi “Green Economy Financing Facility) tomonidan ko‘plab loyihalar va tashabbuslar qo‘llab quvvatlanmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-436-son Qarori [1] qabul qilingan bo‘lib, mazkur Qaror ijrosida keltirilgan maqsad

va vazifalar kelgusida mamlakat iqtisodiyotini yaxshilashga hamda “yashil” moliya, “yashil” budjet loyihalarini amaliyotga samarali tatbiq etish hamda istibolli o‘sish tendensiyalariga zamin yaratadi.

MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot ishida bir qator taniqli xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan fikr-mulohazalar berilgan bo‘lib, xorij olimi S. Bederning talqiniga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot” o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega ekanligi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgani borasida o‘z qarashlarini berib o‘tgan. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish XX-asrning 60-70-yillarida ommalasha boshlagani, bu davrda iqtisodiy adabiyotda an’anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan “atrof-muhit iqtisodiyoti”, deb nomlangan yangi yo‘nalish paydo bo‘lganligi, ushbu yo‘nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternali, ya’ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlangani, unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etilishi va xalqaro darajada umumlashtirilishi zarurligini ta’kidlagan [2].

Xorij iqtisodchi olimlari Lynn R. Kahle, Eda Gurel-Ataylarning fikricha, “Yashil iqtisodiyot har qanday iqtisod nazariyasi sifatida aniq ta’riflanadi, unga ko‘ra iqtisodiyot o‘zi yashaydigan ekotizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo‘lib, iqtisodiy g‘oyalar ma’lum bir nazariyotchiga qarab har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi” deb ta’kidlashgan. Feminizm, postmodernizm, atrof-muhit harakati, tinchlik harakati, Yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashuvga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo‘lgan juda boshqacha g‘oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan [3].

Ba’zi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni ko‘proq tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida ko‘rishadi. Iqtisodchi D. Runnalsning yondashuvaga ko‘ra, “yashil” iqtisodiyot an’anaviy yer tabiiy kapitalga umumlashtirilgan va mehnat va jismoniy kapital bilan ba’zi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan klassik iqtisod sifatida qaraladi (chunki daryolar kabi tabiiy kapital aktivlari to‘g‘ridan to‘g‘ri kanallar kabi inson tomonidan yaratilgan aktivlar o‘rnini bosadi). Yoki u marksistik iqtisod sifatida qaraladi, tabiat Lumpenproletariatning bir shakli, insoniyat iqtisodiyotiga ortiqcha qiymat beradigan noinsoniy ishchilarning ekspluatatsiya qilinadigan bazasi yoki neoklassik iqtisodning bir tarmog‘i bo‘lib, unda rivojlanish uchun hayot narxi va boshqalar. Rivojlangan davlatlar kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror saqlanadi va insoniy bo‘lmagan hayot juda past ekanligini o‘z ilmiy adabiyotlarida ilmiy gipoteza sifatida kiritib o‘tgan [4].

Respublikamizning taniqli iqtisodchi olimlaridan biri A.Vahobovning ilmiy tadqiqot nazariyalariga ko‘ra, “atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil iqtisodiyot” ko‘proq amaliy xarakterga ega hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” ilmiy fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, innovatsiya, qishloq xo‘jaligi va b.)ga taalluqlidir. Ushbu farqni “yashil iqtisodiyot”ning inglizcha economics (iqtisodiy nazariya yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so‘zlari orqali ifodalanishida kuzatish mumkinligini [5] aytib o‘tgan.

TADQIQOT METODIKASI

Ushbu maqolada dunyo hamjamiyatida “Yashil” iqtisodiyot amaliyoti, uni rivojlantirish aspektlari yuzasidan O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari va maqolalari o‘rganilgan. Tadqiqot metodikasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, jadvalli qiyosiy usul hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot”ni joriy etish orqali jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayrim mutaxassislar “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashda Klark-Fisher modelini qo‘llash zarurligini ta’kidlashadi. Klark-Fisher modeli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida ish o‘rinlarini yaratishda iqtisodiyotning qazib chiqarish, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sektorlari ahamiyatini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Ushbu model BMT mutaxassislari tomonidan taklif etilgan “yashil iqtisodiyot” tarmoqlarini xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli “yashil” xizmatlar va fan sig‘imkorligi yuqori ishlab chiqarish, turizm, shaharlarni boshqarish va chiqindilarni yo‘qotish, ta’lim, ilmiy tadqiqotlar, moliyaviy xizmatlar kabi innovatsion iqtisodiyotga xos yo‘nalishlar bilan to‘ldiradi [6].

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda O‘zbekistonning jadal iqtisodiy o‘sishi asosan resurslarni qazib olish hamda iqtisodiyotning tog‘-kon sanoati va ishlab chiqarish tarmoqlari hisobiga ta’minlandi. Biroq bu taraqqiyot qimmat narxga tushdi. Qazib olinadigan yoqilg‘iga asoslangan og‘ir energiya balansi, energiyani ko‘p talab qiluvchi sanoat sektori va barcha tarmoqlar bo‘yicha past energo-samaradorlik tufayli (samarasiz uy-joy fondi energiya bilan bog‘liq issiqxona gazlari emissiyasining deyarli yarmini tashkil qiladi) hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti

issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi bo‘yicha dunyoda beshinchi o‘rinda, Yevropa va Markaziy Osiyoda esa eng oldinda turadi.

Tahlil va natijalarga ko‘ra, yaqin o‘tmishda “Yashil” o‘tish O‘zbekiston aholisining iqlim o‘zgarishiga eng zaif qatlamlari uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bunga ko‘ra, shahar haroratning oshishi, tez-tez qurg‘oqchilik, suv tanqisligining ortib borishi, cho‘llanish va sho‘rlanish tahdidlarining kuchayishini o‘z ichiga olgan iqlim o‘zgarishining prognoz qilingan oqibatlari O‘zbekistonning busiz ham qashshoq hududlaridagi hayot darajasiga nomutanosib ravishda ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari o‘z daromadlarining nisbatan yuqori qismini oziq-ovqatga sarflaydi - 2016-yilda u 47,3 foizni tashkil qilgan.

Bu rivojlanayotgan 92 mamlakat vakillik namunasidagi o‘rtacha 38,6 foizdan yuqori [7] bo‘lib, kambag‘al aholini oziq-ovqat narxlarining oshishi xavfi ostida qoldiradi. Energiya ishlab chiqarish va taqsimlashni ham adolatli deb bo‘lmaydi: O‘zbekiston aholisining qariyb yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi, ular uzoq hududlardagi zaif energiya taqsimoti, undan noqonuniy foydalanish va yomon infratuzilma tufayli elektr energiyasi yetishmasligi va uzilishi bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining hozirgi rivojlanish modeli bo‘yicha o‘sish chegaralarini yengib o‘tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo‘lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi.



	Tojikiston	Qirg'iziston	Qozog'iston	O'zbekiston	Yevropa va markaziy osiyo	Rivojlanayotgan mamlakatlar
O'rmonlar	1	0	0.1	0.2	0.5	0.5
Mineral resurslar	4.7	11	3.5	7.3	1	0.9
Ko'mir	0.8	0	1	0	0	0.6
Gaz	0	0.5	2.7	10	2.5	0.5
Neft	0	0	15.2	1.5	6.5	2

1-rasm: Markaziy Osiyo davlatlari kesimida Qishloq joylaridagi uy xo‘jaliklari uchun tabiiy resurslardan olinadigan ijara haqi 2018-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbati (foizda) [8]

Yuqoridagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkinki, tabiiy kapital O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi va muhim daromad manbayi hisoblanadi. Qishloq joylaridagi uy xo‘jaliklari uchun tabiiy resurslardan olinadigan ijara haqi 2018-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan deyarli 19 foizga teng edi. Bu LMICning o‘rtacha ko‘rsatkichi ECAning o‘rtacha korsatkichiga nisbatan to‘rt baravar va 75 foizga ko‘pdir. Markaziy Osiyoda faqat Qozog‘iston O‘zbekistondan ko‘ra ko‘proq resurslarga qaramdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tabiiy resurslar ham davlat daromadlariga katta hissa qo‘shadi. Ya’ni neft, gaz va foydali qazilmalar davlat budjetining taxminan 15 foizini tashkil qiladi [9]. Bundan ko‘rinib turibdiki, tabiiy resurslar ayniqsa, qishloq xo‘jaligidagi uy xo‘jaliklari daromad manbayi sifatida muhim ahamiyatga ega hamda sektor (resurslarga asoslangan) bandlikning 27 foizini tashkil qiladi va sektorda ishlaydigan ko‘pchilik jamiyatning kambag‘al segmentlaridir.

Bilamizki, O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakatlar sirasidan hisoblanadi. 2018-yildagi hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekiston tabiiy resurslarining qiymati aholi jon boshiga 5043 AQSh dollarini tashkil etgan. Ammo Qozog‘iston ko‘rsatkichlari Markaziy Osiyo mintaqasida va LMIC o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan.

Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, o‘z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli “yashil” o‘sish modeli sari yo‘lni belgilash bo‘yicha qadamlar tashlanmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning “yashil” siyosat dizayni shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning yashillashtirish jarayonlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yil davomida 1-aprelga qadar ajratilgan kreditlar o‘z samarasini berib kelmoqda.

1-jadval: Tijorat banklari tomonidan 2023-yil 1-aprelga qadar quyosh panellari sotib olish uchun ajratilgan

kreditlar [10]

№	Bank nomi	Tadbirkolik subyektlariga ajratilgan kreditlar			Aholi xonadonlariga ajratilgan kreditlar		
		soni	mlrd. so‘mda	Quvvati (kWT)	soni	mlrd. so‘mda	Quvvati (kWT)
	Jami	**91**	**160,3**	**12390**	**2704**	**67,3**	**6039**
1	O‘zmilliybank	6	81,4	655	1	0,03	3
2	O‘zsanoatqurilishbank	4	25,6	7500	360	10,1	905
3	Asaka bank	1	11,4	1138	51	1,1	107
4	Agrobank	25	7,3	734	344	9,4	821
5	Ipoteka bank	4	12,5	55	139	3,1	278
6	Xalq banki	10	1,1	140	862	17,4	1619
7	Qishloq qurilish bank	4	1,1	56	205	5,3	504
8	Mikrokreditbank	10	4,5	467	723	19,8	1755
9	Turon bank	3	3,9	385	0	0,00	0
10	Aloqa bank	4	1,8	176	0	0,00	0
11	Hamkorbank	1	0,1	5	1	0,0	2
12	Ipak yo‘li bank	2	1,6	105	4	0,1	14
13	Kapital bank	4	0,7	207	0	0,0	0
14	Davr bank	1	2,0	220	0	0,1	0
15	Asia alliance bank	7	3,6	71	14	1,0	31
16	Universalbank	1	0,3	20	0	0,00	0
17	Garant bank	4	1,6	156	0	0,00	0

1-jadval tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 160,3 mlrd. so‘m miqdorda 91 ta hamda aholi xonadonlariga 67,3 mlrd. so‘mlik 2704 ta ajratilgan quyosh panellari bo‘lib, umumiy miqdorda 227,6 so‘mlik 2795 ta quyosh panellari sotib olish uchun kreditlar yo‘naltirilgan.



2-rasm: Jahonda yashil investitsiyalarning tarmoqlar kesimida taqsimlanishi (% foiz ko‘rinishida 2021-yil holatiga ko‘ra) [11]

Yuqoridagi 2-rasmda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistondan farqli o‘laroq jahonda yashil investitsiyalarning miqdori 2021-yil holatiga ko‘ra qurilish, transport va energiya sohalariga ko‘proq jalb qilingan. O‘z navbatida, bundan ko‘rinib turibdiki “yashil” moliyalashtirish tushunchasi va uning amaliyoti bugungi global muhitning hali hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan masalalaridan biri ekanligini guvohi bo‘lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida yashil iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar natijasida O‘zbekiston amaliyotida “yashil” iqtisodiyotni joriy etish istiqbollari yuzasidan bir qancha taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, bugungi kunda dunyo aholisi 8 milliarddan ziyodni tashkil etmoqda. BMTning dunyo aholisi 2050-yilda 9,7 milliardga yetishi borasidagi prognozlari mavjud. 2050-yilga borib O‘zbekiston aholisi 60 millionga yetishi kutilmoqda. Shu asnoda aytish mumkinki, resurslar hajmi tobora kamayib borayotgan bir vaqtda iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammolar doirasi ham kengayishda davom etmoqda. Natijada iqtisodiyotning bosh muammosi hamda oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar ko‘lami kengaymoqda. Shundan kelib chiqib, global chiqindilarni kamaytirish va yashil, inklyuziv hamda barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zudlik bilan choralar ko‘rish iqlim migratsiyasini 80 foizgacha kamaytirish zarur deb bilamiz.

Ikkinchidan, shaharlarda qulay va sifatli yashash va ishlash muhitining yaratilganligi ularda aholining ijtimoiy ishlab chiqarishining hamda iqtisodiy faolligining muhim garovidir. Shaharlarda qulay muhitni yaratish esa bu milliy rejalashtirish va shahar rejalashtirish darajalarining o‘zaro integrattsiyalashgan bo‘lishi, mos kelishi, bu rejalashtirishlar yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan bo‘lishi kerak, qaysikim, o‘zida so‘nggi yillarda tabiatda global darajada kuzatilayotgan o‘zgarishlar, iqlim buzilishlarining ta’sirini yumshatishga qaratilgan, raqamlashtirishni rag‘batlantiruvchi yo‘nalishlar bo‘lishi shart deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladi, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko‘rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shuningdek, aholining doimiy o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat berish zarur deb bilamiz.

To‘rtinchidan esa ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish muhim sanaladi.

Yuqoridagi ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va amaliy tavsiyalar barqaror rivojlanishni ta’minlashga, shuningdek, ekologik xavflarni kamaytirish va tanqislikni kamaytirish, shu orqali odamlar farovonligi va ijtimoiy darajasini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy tizimni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-436-son Qarori.
2. Beder, S. 2011, “Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness’, Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.
3. Lynn R. Kahle, Eda Gurel-Atay, Eds. Communicating Sustainability for the Green Economy. New York: M.E. Sharpe, 2014. ISBN 978-0-7656-3680-5.
4. Runnals, D. (2011) „Environment and economy: joined at the hip or just strange bedfellows?“. S. A.P. I.EN. S. 4 (1)
5. Vaxobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot”. Darslik. –T.: Universitet, 2020. – 262 b.
6. “Зелёная экономика” - новый вектор глобального развития: возможности и вызовы для России. //Проблемы национальной стратегии № 4 (37) 2016. С.60.
7. Jahon bankining iqlim o‘zgarishi portali, O‘zbekiston sahifasi. https://climateknowledgeportal.worldbank.org/sites/default/files/2021-09/15838-Uzbekistan%20Country%20Profile-WEB.pdf
8. World Bank, United Nations, United Kingdom Foreign, Commonwealth, and Development Office 2021.
9. “The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank.”
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy web-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.cbu.uz
11. S. Elmirzayev – Yashil iqtisodiyotga o‘tish va uni moliyalashtirish amaliyoti tahlili. Bank-moliya akademiyasi. 2023-yil, Konferensiya taqdimoti.

INVESTITSIYANING IQTISODIY MOHIYATI VA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Samijonov Musobek G‘ayratjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyaning iqtisodiy mazmun-mohiyati, uning iqtisodiy barqaror o‘sishdagi ahamiyati va faol investitsiya siyosatini yurg‘izishda davlat boshqaruvi, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar to‘g‘risida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya jarayoni, ob’yekti, sub’yekti, investor, investitsion siyosat, aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar.

Abstract: This article provides information on the economic content of investment, its role as an important factor in ensuring sustainable economic growth and public administration in pursuing an active investment policy, as well as investment processes in the economy of Uzbekistan.

Key words: Investment, investment activity, investment process, object, subject, investment policy, investor, investments in fixed capital per capita.

Аннотация: В статье представлена информация об экономическом содержании инвестиции, ее роль как важного фактора обеспечения устойчивого экономического роста и государственного управления в проведении активной инвестиционной политики, а также инвестиционных процессов в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный процесс, объект, субъект, инвестиционная политика, инвестор, инвестиции в основной капитал на душу населения.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarga bog‘liq. Har qanday jamiyatning baraqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo‘lmoqdaki, har qanday mamlakatning bozor tamoyillari asosida rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog‘liq.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni va xalqaro kapital harakatining kuchayishi rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta istiqbollarni yaratdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekiston va uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muammosi yangi strategik ustuvorliklarni ishlab chiqishni talab qildi. Prezident Sh. M. Mirziyoyev (2018) ta’kidlaganidek, “chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun biz mamlakatimiz sarmoyaviy salohiyatini to‘liq namoyish etish choralarini ko‘rishimiz kerak. Iqtisodiyotimizga sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan investorlar uchun mintaqalar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantirsak, bu borada ijobiy natijaga erishishimiz mumkin”.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni jadal rivojlantirish omillaridan biri bo‘lib qolmasdan, u bir vaqtning o‘zida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham ta’sir qiladi. Xorijiy investitsiyalar hajmi oshishi bilan mamlakatda raqamli iqtisodiyot ham rivojlanib boradi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev (2018) ta’biri bilan aytganda “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilgor tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.

Raqamli iqtisodiyotga qisqacha qilib iqtisodiyotning raqamlashuvi ya’ni iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli texnologiyalar bilan ta’minlanishi deb ta’rif berish mumkin. Demak xorijiy investitsiyalar bilan mamlakatga yangi texnologiyalar kirib kelar ekan, u albatta bu mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat taraqqiyoti darajasi investitsiyalar orqali ta'minlanmoqda. Bugungi kunda investitsiya tushunchasi kundalik hayotimizning muhim bir qismiga aylanib ulgurdi. Buning isboti o'laroq bilimga chanqoq, o'z kelajagini o'ylovchi yoshlar o'rtasida "Invest yourself", ya'ni ingliz tilidan tarjima qilinganda "o'zingga investitsiya qil" degan motivatsion undovlarni uchratishimiz mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining " Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;
- ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni" [1].

Qisqacha aytganda investitsiyaning vazifasi investorga foyda keltirishdir. Investitsiyalarga juda ko'plab ta'riflar mavjud. Jumladan, prof.D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbaalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat" [2].

Prof. N. H. Haydarov investitsiyalarning mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni be'radi: "Investitsiya mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning ijtimoiy va iqtisodiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir" [3].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan.U. Sharp, K. Eklund, Kempbel, R. Makkonel, Stenli, L. Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turilcha ta'riflarni bayon etgan. Jumladan Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati U. Sharp ta'kidlashicha: investitsiyalar kelgusida (ehtimol nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatliklardan voz kechishdir" [4].

Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda "investitsiya" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o'rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy lug'atda "Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi",– deb ta`riflangan. Ishlab chiqarish nazariyasi va, umuman, makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushiniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir. Demak, bizningcha, "Investitsiyalar – bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir" Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiya resurslarisiz bo'lishi mumkin emas, bu resurslar o'z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag'dir. Pul mablag'lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so'ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aktsiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiya jarayoni – bo'sh sarmoyaga ega bo'lganlar bilan sarmoya talab qilayotganlarning uchrashish jarayoni. Ikkala tomon, odatda, moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan, mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar. Investitsiya ob'yekti deyilganda, mablag'larni, ya'ni qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan ob'yektlar tushiniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellek-

tual mulk va boshqalar bo‘lishi mumkin. Investitsiya subyektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo‘lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir. Odatda, har qanday investitsion faoliyat muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g‘oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g‘oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, statistik kuzatish, statistik grafiklardan, shuningdek, abstraksiyalash, gruxlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Statistik tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o‘zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faollikni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o‘tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tatbiq qilinmoqda. Bu yo‘lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta’mirlash ishlarini amalga oshirishni rag‘batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O‘zbekiston davlati o‘z investitsiya siyosatini olib bormoqda. Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo‘llab-quvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o‘tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig‘indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko‘proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal etish va shu asnoda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan. Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxona investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o‘zaro bag‘liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sariflashda aholi, hudud va investor manfa’tlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib bori ladiga chora-tadbirlar majmuyidir. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eskport qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo‘li bilan qo‘llab quvvatlash hisoblanadi.

1-jadval: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida (mln. so‘m)

Hududlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
O‘zbekiston Respublikasi	**2,2**	**3,8**	**5,8**	**6,1**	**7,0**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,5	3,6	4,6	3,7	4,1
Andijon	1,0	1,6	2,4	3,0	3,8
Buxoro	6,3	5,1	5,4	6,3	9,7
Jizzax	1,4	2,7	5,8	9,0	9,3
Qashqadaryo	3,6	5,2	7,5	6,2	4,8
Navoiy	4,2	10,9	17,9	15,6	15,9
Namangan	1,3	3,0	4,3	4,2	4,6
Samarqand	1,2	1,9	2,7	3,7	4,4
Surxondaryo	1,4	2,8	4,6	3,8	4,2
Sirdaryo	2,0	3,3	7,0	8,4	10,0
Toshkent	2,1	3,9	7,0	7,2	9,5
Farg‘ona	0,8	1,5	2,3	2,9	3,3
Xorazm	1,2	1,7	2,7	2,9	4,5
Toshkent sh.	5,6	10,6	16,7	19,1	20,4

Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments (jadval O‘zbeksiton Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).



1-grafik: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida (ming. so‘m)

Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments (grafik O‘zbeksiton Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).

Yuqoridagi statistik ma’lumotlarga asosan deyarli barcha hududlarda besh yil (2017-2021) davomida aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar yildan yilga o‘sib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Asosan yuqori o‘sish tendensiyasi Toshkent shahri va Navoiy viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich 2017-yildan 2019-yilgacha o‘sgan va keyingi ikki yil (2020-2021) davomida kamaygan.

Shuningdek, 2-grafikdagi ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2021-yilda ba`zis yilga nisbatan qariyb 3,15 barobarga oshgan. Ya’ni 2017-yilda aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2,2 mln.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 7,0 mln. so‘mga ortgan.



2-grafik: Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar O‘zbekiston Respublikasi kesimida (mln. so‘m)

Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments (grafik O‘zbeksiton Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnoligiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va diversifikatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Investitsiyalar jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya’ni maishiy muhtojliklarning katta bo‘limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, yangi mehnat kuchlari shakillanadi, eski va og‘ir mehnat turmishidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o‘tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugingi jalb qilingan investitsiyalar va investitsion jarayonlar belgilab beradi. Yuqorida keltirib o‘tilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatimizga jalb qilinayotgan investitsiyalar yildan-yilga oshib bormoqda, buning natijasi uzoq yillar davomida o‘z samarasini berib boradi. Albatta, mamlakatning iqtisodiy o‘sishida xorijy invistitsiyalarning ahamiyati katta, shuningdek, insestitsion faoliyatni to‘gri tashkil etish – investitsiyalarni to‘g‘ri va istiqbolli joylashririshni anglatadi. Shu sababli ham investitsion loyihalarning qisqa va uzoq muddatlardagi istiqbolini prognoz qilish hamda iqtisodiy va moliyaviy tahlilini qilish lozim bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarga tayanib shuni ma’lum qilish mumkinki, mamlakatimiz aholisi soni o‘sish tendensiyasiga ega. Bunga proportsional tarzda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar yildan-yilga o‘sib bormoqda. Ushbu o‘sishni mamlakatda olib borilayotgan investitsion siyosatning samarasi sifatida ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 25.12.2019 y.,O‘RQ-598-son.
2. D.G‘.G‘ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –T: “Moliya” nashiriyoti.,2003.,23-bet.
3. N.X.Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.,2003.
4. U.Sharp, G.Aleksandr,J.Beyli. Investments. –M.:Infra-M.1997.
5. N.G‘.Karimov,R.X.Xojimatov,J.X.Razzoqov. Investitsiya. –T: “Iqtisodiyot”.,2019., O‘quv qo‘llanma.
6. M.S.Qosimov., Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. –T: “ Innovatsion rivojlanish nashiriyot matbaa-uyi”., 2021.
7. N.G‘.Karimov, A.S.Axmedov. Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.–T: “ Innovatsion rivojlanish nashiriyot matbaa-uyi”., 2021.
8. R.S.Muratov,A.S.Kucharov,D.M.Rasulev. Investitsion tahlil. Darslik. –T., 2017.
9. Investments by Zvi Bodie Alex Kane Alan J. Marcus Eleventh edition. | New York, NY: McGraw-Hill Education, 2018.
10. Foreign Direct Investment in Developing Countries by Sarbajit Chaudhuri, Ujjaini Mukhopadhyay. Springer New Delhi Heidelberg New York Dordrecht London.2014.
11. Samijonov, M. (2022). O‘zbeksitonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tarmoq va hududiy xususiyatlari. Academic research in educational sciences. 3(1), 359-365.
12. Samijonov M. (2023). Foreign Investment Is The Basis For Economic Development. International Scientific Research Conference. 2(13), 97-99.
13. Samijonov M. (2022). Xorijiy investitsiyalar–iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2(3), 275-279.
14. www.xs.uz
15. www.lex.uz
16. www.stat.uz
17. www.cbu.uz

O‘ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH

Sharifov Shuhrat Saidahmadovich
I. f. f. d., Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institute Tarmoqlar iqtisodiyoti kaedrasi dotsenti

Annotatsiya: O‘zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, qishloq aholisini yaxshi hayot sharoitlari va maishiy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, shuningdek, qulay xizmat turlari bilan ta’minlashga qaratilgan fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgandir.

Kalit so‘zlar: Xizmat, xizmat ko‘rsatish, maishiy xizmat, xizmatlar sohasi, qishloq farovonligi, farovonlik, qishloq xo‘jaligi.

Abstract: In this article, ideas and considerations aimed at the development of the field of household services in the rural areas of Uzbekistan, meeting the demand of the rural population for good living conditions and household services, as well as providing convenient types of services.

Key words: Service, service delivery, household service, service industry, rural welfare, well-being, agriculture.

Аннотация: В данной статье идеи и соображения направлены на развитие сферы бытовых услуг в сельской местности Узбекистана, удовлетворение спроса сельского населения на хорошие условия жизни и бытовые услуги, а также предоставление удобных видов услуг.

Ключевые слова: Сервис, оказание услуг, бытовое обслуживание, сфера услуг, сельское благосостояние, благополучие, сельское хозяйство.

KIRISH

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadi. Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar sohasining chegaralari to‘g‘risida turli fikrlar mavjud. Jumladan, ushbu sohaga maishiy xizmatlar, yo‘lovchi transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari, turar joy kommunal xizmatlari, ta’lim, madaniyat, sanatoriya-sog‘lomlashtirish, huquq sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalari bir-biriga o‘xshash xizmatlar kiradi. Xizmat sohasi birinchi galda bevosita iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat namoyon bo‘ladi:

Bunday murakkab iqtisodiy munosabatlarning sodir bo‘lishini ta’minlash bevosita ushbu sohada xususiy mulkning ahamiyatini oshirishni taqqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

V. Bobkov, A. Pochinok va boshqa iqtisodchi olimlar “farovonlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishgan: farovonlik – bu aholining hayot uchun zarur moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy boyliklar, ya’ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va sharoitlar bilan ta’minlanganligidir .

Demak, qishloq sharoitida ham aholining turmush farovonligidagi o‘zgarishlarni davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro turmush darajasi ko‘rsatkichlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Aholining turmush darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezoni sanaladi, uning amalga oshirilishi esa jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadidir. Avvalo, turmush darajasi ikkita tarkibiy qismning birikmasi va o‘zaro bog‘liqligi bilan tavsiflanadi: aholining moddiy va nomoddiy boyliklar bilan ta’minlangani va ularning iste’mol darajasi .

I. Hasanov, A. Eminovlar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloqlardagi oilalar daromadlarini ko‘paytirish qay darajada tashkil etilayotgani haqida fikr yuritishar ekan ,

A. Qodirov “Ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun Respublikamizda qator ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilm-

oqda. Jumladan, kam ish haqi va boshqa to‘lovlar, odatda, oldindan ko‘paytirib kelindi, narx-navo o‘zgarishi bilan bog‘lab olib borildi, bu esa aholi to‘lov qobiliyatining saqlanib qolishini ta’minladi va turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymadi. Shu tariqa eng kam ish haqini oshirish yo‘li bilan aholi o‘rtacha ish haqining, pul daromadlarining ham oshishiga erishildi”, deb ta’kidlaydi. A. Akobirova esa bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi turmush darajasini oshirishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri yetarli darajadagi ish haqi ekanligini eslatadi.

R. Karlibayeva, I. Danabayevlar qishloq infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qishloqlarda faqatgina turmush darajasini yuksaltirishni emas, balki ayni yo‘nalishdagi barcha soha va tarmoqlarni birdek rivojlantirishni maqsad qilib olishi kerak, degan fikr bildirishadi .

Fikrimizcha, aholining turmush darajasi va sharoitini yaxshilashda ko‘p jihatdan aholi iste’mol darajasini aniqlash, ularni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, ehtiyojlarini qondirishning shakl va usullarini belgilash istiqbollarini ishlab chiqish uchun modellashtirish masalasiga jiddiy yondashish kerak.

Bu xususda N. Mahmudov “Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy modellashtirishga oid masalaga kengroq yondashib, qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta’minlash bir-biri bilan bevosita bog‘liq va aloqador, o‘ziga xos xususiyatlarga ega faoliyat asosida amalga oshiriladi”, deb yozadi. Uning uqtirishicha, qishloq aholisi hayotining farovonligi o‘sha yerda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etishga va boshqarishga daxldor. Ishlab chiqarish jarayoni esa, o‘z navbatida, aniq miqdoriy birliklarga ega ta’minlovchi va xizmat ko‘rsatuvchi sohalar faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir .

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda xizmat ko‘rsatish va iste’mol jarayonini ko‘rsatkichlarini iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlil qilish natijasida xulosa va takliflar shakllantirilgan. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez usulidan ham samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qarorda sug'urta bozori mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib, qarorning 5-bandida "2019-yil 1-oktyabrdan boshlab shunday tartib

2 Top 50 Global Reinsurance Groups. https://www.reinsurancene.ws/

joriy qilinsinki, unga muvofiq qayta sug‘urtalovchi (qayta sug‘urta brokeri) sug‘urta majburiyatlarini qayta sug‘urtalash uchun xorijiy sug‘urta tashkilotlariga berishdan avval beriladigan sug‘urta majburiyatlarining kamida 50 foizi miqdorida qayta sug‘urtalash bo‘yicha ofertani (qayta sug‘urtalash shartnomalarini tuzish takliflarini) O‘zbekiston Respublikasi hududida qayta sug‘urtalash faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlariga yuborishi shart”ligi belgilab qo‘yildi[3].

Asosiy maqsad sug‘urta kompaniyalari tomonidan olinadigan risklarni avvalo, O‘zbekiston sug‘urta bozorida taqsimlash, buning natijasida chet elga chiqib ketuvchi valyuta mablag‘larini tejash maqsad qilingan.

Shuningdek, qarorda sug‘urta tashkilotlarining ishonchliligi va moliyaviy barqarorligini aniqlash maqsadida ularni reyting baholashdan o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, milliy va xalqaro reyting agentliklari tomonidan sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida reytinglarni olish borasida tushuntirish ishlarini olib borish, sug‘urta tashkilotlarini “due diligence” tekshiruvidan o‘tishga va xalqaro reytinglarni olishga rag‘batlantirish vazifalari yuklatilgan.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida oxirgi yillarda bir qator yirik sug‘urta kompaniyalari xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oldi va xalqaro qayta sug‘urta bozoriga kirib bordi.

Jumladan, muallif tomonidan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, 2023-yilning 1-oktyabr holatiga O‘zbekiston sug‘urta bozorida 22 ta sug‘urta kompaniyasi qayta sug‘urtaga qabul qilish uchun yetarlicha ustav kapitaliga ega bo‘lsa, shundan O‘zbekinvest, Kafolat sug‘urta, Apex Insurance, O‘zagrosug‘urta, Euroasia Insurance, Gross, SQB Insurance, Temiryo‘l Sug‘urta va Impex-Insurance sug‘urta kompaniyalari xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan xalqaro reytingga ega.

O‘rganishlar natijalariga ko‘ra bugungi kunda O‘zbekinvest, Kafolat sug‘urta, Apex Insurance, O‘zagrosug‘urta, Gross, SQB Insurance, Mosaic Insurance, Ingo-Uzbekistan va Semurg Sug‘urta sug‘urta kompaniyalari xalqaro bozordan qayta sug‘urta risklarini qabul qilish bilan shug‘ullanmoqda.

2020-yilda chel elga qayta sug‘urta mukofoti 246,3 mlrd. so‘mlik risklar qayta sug‘urtaga berilgan bo‘lsa, chet eldan qayta sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha qayta sug‘urta mukofotlari hajmi 103,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Risklarni qayta sug‘urtaga qabul qilish va risklarni qayta sug‘urtaga berish o‘rtasida salbiy saldo mavjud bo‘lib, 142,7 mlrd. so‘m ekvivalentidagi summa (qayta sug‘urta mukofoti) chet elga berilgan.

2021-yilda 490,2 mlrd. so‘m qayta sug‘urta mukofoti qayta sug‘urtalash uchun chet el sug‘urta bozoriga chiqarilgan bo‘lsa, chet eldan qayta sug‘urtaga olingan qayta sug‘urta mukofotlari miqdori 103,6 mlrd. so‘mdan oshiqni tashkil etgan .

2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘zgardi. Chet eldan olingan risklar miqdori chet elga qayta sug‘urtaga berilgan risklar miqdoridan oshdi, ya’ni qayta sug‘urta mukofotlarida ijobiy saldo kuzatildi (2-rasm).



2-rasm: Xalqaro sug‘urta bozori bilan qayta sug‘urta munosabatlari[4]

2023-yilda bu ko‘rsatkich yana ham oshishi va chet eldan qayta sug‘urtaga olinadigan risklar bo‘yicha qayta sug‘urta mukofotlari oshishi kuzatilishi kutilmoqda. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekistonda sug‘urta eksporti miqdori 100,0 mln. AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 5-bandi

4 https://imda.uz/ saytida Sug‘urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma’lumotlari.

Tahlillar va o‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, chet eldan qayta sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha zararlilik darajasi (sug‘urta to‘lovlarining netto sug‘urta mukofotiga nisbati) 50%dan oshmaydi. Bu kiruvchi qayta sug‘urtaning foydaliligini ko‘rsatadi.

Chet el sug‘urta bozorida qo‘llaniladigan sug‘urta ta`riflari bilan O‘zbekiston sug‘urta bozorida qo‘llaniladigan sug‘urta ta`riflari keskin farq qiladi. Jumladan, chet elga qayta sug‘urtaga berilgan risklar va qayta sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha shartli sug‘urta ta`riflari (shartli ravishda qayta sug‘urta mukofotining javobgarlikka nisbati) hisoblanganda 2020-yilda 12 barobarga, 2021-yilda 16,5 barobarga, 2022-yilda 4,5 barobarga, 2023-yilning birinchi yarim yilligida 4,2 barobarga qayta sug‘urtaga berilgan ta`riflarimiz pastligini ko‘rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval: Chet elga qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar[5]

Yillar	Chet elga qayta sug‘urtalashga berilgan risklar javobgarligi, mlrd. so‘m	Chet elga qayta sug‘urtalashga berilgan risklar bo‘yicha qayta sug‘urta mukofoti, mlrd. so‘m	Shartli sug‘urta tarifi (qayta sug‘urta mukofotining javobgarlikka nisbati),%da
2020	299 002,1	246,3	0,08
2021	367 944,1	490,2	0,13
2022	631 203,1	755,1	0,12
01.07.2023	422 606,6	559,6	0,13

2-jadval: Chet eldan qayta sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar[6]

Yillar	Chet eldan qayta sug‘urtaga olingan risklar javobgarligi, mlrd. so‘m	Chet eldan qayta sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha qayta sug‘urta mukofoti, mlrd. so‘m	Shartli sug‘urta tarifi (qayta sug‘urta mukofotining javobgarlikka nisbati),%da
2020	10 775,7	103,6	0,96
2021	15 585,1	332,9	2,14
2022	172 734,6	940,1	0,54
01.07.2023	99 469,8	550,9	0,55

To‘g‘ri, sug‘urta ta`riflari qayta sug‘urtalanayotgan obyektga, qanday risklar mavjudligiga, sug‘urta muddatiga, proporsional yoki noproporsional qayta sug‘urtalashga yoki eksedent asosida sug‘urtalashga va boshqa bir qator omillarga bog‘liq.

Shu o‘rinda, bir omilga e’tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz, 2022-yilda O‘zbekiston milliy sug‘urta kompaniyalari 940,1 mln. so‘m qayta sug‘urta mukofoti evaziga chet eldan qayta sug‘urta risklarini qabul qilib olishgan. Bu taxminan 2022-yilda 85 mln. AQSh dollari miqdorida sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilgani, ya’ni sug‘urta xizmatlari eksport qilinganligini bildiradi.

O‘zbekistonda tovar va xizmatlar eksporti statistikasi yuritiladi, lekin xizmatlar eksporti tarkibida sug‘urta eksporti ko‘rsatkichi mavjud emas. 2023-yilda chet elga sug‘urta xizmatlari eksporti 100,0 mln. AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

Davlatimiz tomonidan har bir sohada eksportni qo‘llab quvvatlash borasida bir qator qarorlar qabul qilinib, ekportni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Shu o‘rinda, sug‘urta xizmatlari eksportini rivojlantirishga e’tiborni oshirish lozim, sababi bir qator milliy sug‘urta kompaniyalari chet eldan qayta sug‘urtaga risklarni qabul qilib olish bo‘yicha xalqaro dasturlarda ishtirok etmoqda. Lekin, risklarni qabul qilish chegaralangan, ya’ni u yoki bu amaldagi normativ hujjatlar talablariga to‘g‘ri kelmaydi, bu sug‘urta eksportini rivojlantirishda asosiy to‘siq bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizomning 33 bandida “Sug‘urtalovchi sug‘urta zaxiralari mablag‘lari qiymatiga ekvivalent bo‘lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart. Ajratilgan aktivlar, ularni ajratish vaqtida sug‘urtalovchining hisob va hisobot registrlarida aniq belgilangan bo‘lishi shart. Ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug‘urta zaxiralari mablag‘larining jami miqdoridan kam bo‘lmasligi lozim. Ajratilgan aktivlar qiymati sifatida ularning balans qiymati tushuniladi”[7] deb belgilab qo‘yilgan.

5 https://imda.uz/ saytida Sug‘urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma’lumotlari.

6 https://imda.uz/ saytida Sug‘urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma’lumotlari.

7 Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizom, 33-bandi.

Amaliyotda sug‘urta kompaniyalari risklarni chet eldan qabul qilish bilan birga uni retrotsessiya asosida yana qayta sug‘urtaga berishi amaliyoti mavjud. Lekin, bunda amaldagi tegishli Nizomlarga asosan ajratilgan aktivlar bo‘yicha qo‘yilgan talablar sug‘urta tashkilotlarining imkoniyatini cheklamoqda, sababi sug‘urta kompaniyasi qabul qilgan riski bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini shakllantiradi, lekin bu riskni qayta sug‘urtaga bergani bilan u tomonidan shakllantirilgan zaxiralar kamaymaydi. Ikki tomonlama zaxira shakllantirish amaliyoti saqlanib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta faoliyatining qonuniy asoslari, xalqaro sug‘urta (qayta sug‘urta) bozori bilan integratsiya jarayonlari, mavjud amaliyot tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, O‘zbekiston sug‘urta sohasida “sug‘urta riski” tushunchasini qonuniy asoslarini joriy etish hamda amaliyotda qo‘llashga kiritish lozim deb hisoblaymiz. Sug‘urta riski bu sug‘urta tavakkalchiligi, sug‘urta qaltisligi tushunchalarini umumlashtirish va xalqaro sug‘urta bozori bilan integratsiya jarayonida sug‘urta terminlarini to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda eksport, import statiskasini yuritishda xizmatlar eksportida “sug‘urta eksporti”ni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida xizmatlar eksporti mamlakat eksportining asosini tashkil qiladi. O‘zbekistonda 2023-yilda 100,0 mln. AQSh dollaridan ortiq sug‘urta eksporti amalga oshirilishini inobatga olsak, bu O‘zbekiston eksportida salmoqli o‘rinni egallaydi.

Uchinchidan, O‘zbekiston sug‘urta sohasida sug‘urta zaxiralarini shakllantirishning yangi metodlarini ishlab chiqish, bunda qayta sug‘urta faoliyati uchun alohida, maqbul sug‘urta zaxiralarini shakllantirish usullarini joriy etish lozim. Amaldagi sug‘urta zaxiralarini shakllantirish tizimi hozirgi jahon sug‘urta bozori bilan integratsiya jarayonlarida ancha eskirgan va sug‘urta eksportini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratib bera olmayapti.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartirishlar kiritish, sug‘urta kompaniyalari uchun ajratilgan aktivlarga qo‘yilgan talablarni qayta ko‘rib chiqish lozim.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartirishlar kiritish, to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativini hisoblash metodlariga o‘zgartirishlar kiritish, sug‘urta eksporti uchun zarur bo‘lgan normalarni belgilash lozim.

Shuningdek, mazkur Nizomning 33-bandida qayta sug‘urta risklarni berishda chet el qayta sug‘urta kompaniyalariga qo‘yilgan reytinglarni qayta ko‘rib chiqish, sug‘urta mukofotlarini imkon qadar mamlakatda olib qolish maqsadida mazkur qayta sug‘urta tashkilotlariga qo‘yilgan reyting talablarini yumshatish lozim.

Oltinchidan, Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) uchun ustav kapitalining minimal miqdorlarini qayta ko‘rib chiqish va raqobatbardosh sug‘urta kompaniyalarini sug‘urta bozorida faoliyat yuritishi uchun minimal miqdorlarni oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Top 50 Global Reinsurance Groups. https://www.reinsurancene.ws/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizom.
5. https://res.cloudinary.com/drxqomgmy/image/upload/v1692277323/ccg7ofsczsxtlevzs75d.pdf
6. https://imda.uz/ saytida Sug‘urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma’lumotlari.
7. Kenjayev I.G‘. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 59 b.
8. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekistonda sug‘urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 49 b.
9. Shennayev X.M. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2021. – 336 b.
10. Yuldashev O.T. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. Monografiya. – Qarshi.: “Intellekt”, 2022. – 290 b.
11. Qo‘ldoshev Q.M. Sug‘urtaning muqobil shakli sifatida o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari. Monografiya. – T.: “Vneshinvestprom”, 2018. – 120 b.

EKOLOGIK TURIZMNING TURLARI VA UNI TASHKIL ETISHDA TABIIY RESURSLARNING AHAMIYATI

Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tatqiqotchisi

Annotatsiya: Ekologik turizm Jahon sayyohlik tashkilotining (JST) prognozlarga ko‘ra beshta asosiy turizm turidan biridir. XX asr 20-yilgacha bo‘lgan davr uchun rivojlanishning strategik yo‘nalishlari hamda ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, aholi soni va tabiat muommolari ham o‘sdi. Ekologik muammolar odamlarni o‘zgartirish zarurligini, tabiatga bo‘lgan munosabatlar uchun-faol ishtirok etish, uni himoya qilish va saqlash, kelajak avlodlar uchun tabiiy meros o‘laroq yetkazish.

Kalit so‘zlar: Ekologik turizm,flora va fauna,turizm resurslari,yumshoq turizm.

Abstract: Ecotourism is one of the five main types of tourism according to the forecasts of the World Tourism Organization (WTO). According to the strategic directions of development for the period up to the 20th century, and according to experts’ calculations, the population and natural problems have also increased. Environmental problems show the need to change people, actively participate in relations with nature, protect and preserve it, and pass it on as a natural heritage for future generations.

Key words: Ecological tourism, flora and fauna, tourism resources, soft tourism.

Аннотация: Экотуризм входит в пятерку основных видов туризма по прогнозам Всемирной туристской организации (ВТО). Согласно стратегическим направлениям развития на период до XX века и по расчетам экспертов, возросли также численность населения и природные проблемы. Экологические проблемы показывают необходимость изменения людей, активного участия в отношениях с природой, защиты и сохранения ее, передачи как природного наследия будущим поколениям.

Ключевые слова: Экологический туризм, флора и фауна, туристические ресурсы, мягкий туризм.

KIRISH

Ekologik turizm bo‘yicha dunyo olimlari ikkita asosiy maktabga bo‘linadi.Ulardan biri Amerika qit‘asi va ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlar.Ikkinchisi Yevropa,Nemis tilida so‘zlashuvchi davlatlari. Birinchi maktab vakillari AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya maktablarining o‘ziga xos xususiyati bu: tabiiy va muhofaza qilinadigan landshaftlar bilan inson faoliyati tabiatga uzviy bog‘liq hamda sayohat va dam olish g‘oyasidir. Bu maktabining yana asosiy g‘oyalaridan ekologik turizmni ekologik ta’lim bilan birgalikda an’anaviy madaniyatlarga hurmat qilshdir deya tasniflashadi[1].

Germaniya, avstriyalik va shveytsariyalik olimlarning qarashlarini aks ettiruvchi yevropa ekologik turizm maktabi ham birinchi navbatda ekologik turizmni ekologik tabiatga asoslashadi. Va har qanday inson faoliyati, shu jumladan turistik faoliyat ham, ma’lum chegaralardan oshmasligi va tabiiy ekologik tizimlarning o‘zini barqaror holatda saqlash qobiliyatiga ega bo‘lish kerak deya nazariy qarashlarni ilari surishadilar. Bu maktab olimlarning qarashlarini umumlashtirgan holda biz Ekologik turizmni:turistlar uchun tashrif buyurilgan mintaqaninglarning madaniy qadriyatlari tabiiy boyliklariga hurmat qilgan holda mintaqa iqtisodiyotiga foyda keltirish deya nazariy tomondan baholadik.

Zalatan A. ekoturizmni quyidagi 4 yo‘nalishdagi turlarga bo‘lishadi[2]:

1. Ilmiy ekoturizm.
2. Tabiat tarixi ekoturizmi.
3. Tabiat qo‘riqxonalari va rezervatsiyalari ekoturizmi.
4. Sarguzasht ekoturizmi.

1 Туризм”. Сост. Е.Л. Пименова. - Ижевск: Издательство“Удмуртский университет”, 2012. - 78 с.50.п
2 Zalatan A. and A. R. Gaston. Soft Ecotourism: the Substitution Effect. The Tourist Review, 4, 1996

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

E. L. Pimenova Ye. L. Pimenova kabi rus olimlari: Ilmiy ekoturizm, ekologik turizm asosiy turlaridan biri bo‘lib, u atrof-muhit, ekotizimlar va hayvonot dunyosini kuzatish, o‘rganish va o‘rganish maqsadida tabiiy hududlarga borishni o‘z ichiga oladi. U tabiatni muhofaza qilish, ta’lim va ilmiy tadqiqotlar muhimligini ta’kidlaydi, bu esa barqaror amaliyotni targ‘ib qilish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish muhimligi haqida xabardorlikni oshirish bilan birga atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan. Ilmiy ekoturizm ko‘pincha mutaxassislar bosh-chiligidagi ekskursiyalarni o‘z ichiga oladi, bu tashrif buyuruvchilarga tabiiy dunyoni chuqurroq tushunishga imkon beradi va davom etayotgan tadqiqot va tabiatni muhofaza qilish harakatlariga hissa qo‘shadi.

Milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar ochiq havoda kashf qilish va yovvoyi tabiatni ko‘rish uchun ajoyib imkoni-yatlarni taqdim etadi. Ushbu hududlarga ekskursiyalar tabiatga sho‘ng‘ish va tabiiy go‘zallik va atrof-muhitning xilma-xilligini kashf qilish imkoniyatini beradi. Manzarali yo‘llar bo‘ylab sayr qilish, qushlarni tomosha qilish yoki shunchaki hayajonli landshaftlardan zavqlanish bo‘ladimi, milliy bog‘ yoki qo‘riqxonaga tashrif buyurish foydali tajriba bo‘lishi mumkin.

Ilmiy ekoturizmda ekskursiyalar, tatqiqotlar rejalashtirladi. Tashrif buyurmoqchi bo‘lgan maxsus milliy bog‘ yoki qo‘riqxonani o‘rganish va ularning flara-faunasi bilan tanishish muhimdir. Ko‘pgina bog‘larda ekskur-sandlarning tajribasini oshirish va hududning ekologik tabiatni muhofaza qilish harakatlari haqida ko‘proq ma’lumot olishga yordam beradigan ekskursiyalar va tatqiqotlar uchun ta’lim dasturlaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekologik turizm samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug‘ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tatqiqotning nazariy-uslubiy asosi sifatida xizmat qildi.Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Ekologik hududlarga milliy bog‘lar va qo‘riqxonalarga tashrif buyurganingizda, atrof-muhitga ta’siringizni minimallashtirish uchun mas’uliyatli turizm bilan shug‘ullanish va tabiatga “Hech qanday zarar bermaslik” tamo-yillariga amal qilish muhimdir. Bu o‘z navbatida, yovvoyi tabiat va tabiiy resurslarga hurmatni o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, milliy bog‘lar va qo‘riqxonalarga sayohatlar tabiat bilan bog‘lanish, ochiq havoni qadrlash va tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyatini tushunish va tushunish imkonini beradi.

1-jadval: Bugungi kunda dunyodagi eng kata milliy bog‘lar (ma’lumotlar ba’zan o‘zgarib turadi)

T/r	Milliy bog‘ va parklar nomi	Maydoni	Joylashgan davlati
1	Shimoli-sharqiy Grenlandiya milliy bog‘i.	972 000 kvadrat kilometr	Grenlandiya
2	Great Barrier Reef dengiz parki,	344,400 kvadrat kilometr	Avstraliya
3	Galapagos dengiz qo‘riqxonasi,	138 000 kvadrat kilometr	Ekvador
4	La Vanille qo‘riqxonasi,	20 000 kvadrat kilometr	Mavrikiy
5	Tunkinskiy milliy bog‘i	9116 kvadrat kilometr	Rossiya
6	Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari dengiz muhofazasi hududi,	4421 kvadrat kilometr	Buyuk Britaniya
7	Purnululu milliy bog‘i,	–2425,37 kvadrat kilomet	Avstraliya
8	Ivvavik milliy bog‘i,	2012 kvadrat kilometr	Kanada
9	Salonga milliy bog‘i,	1300 kvadrat kilometr	Kongo Demokratik Respublikasi
10	Klondayk Gold Rush milliy tarixiy bog‘i	-1000 kvadrat kilometr	Amerika Qo‘shma Shtatlari

Bizning diyorimizda bunday bog‘ va qo‘rixonlar bor. Masalan: Zomin milliy bog‘i va Chotqol-Ugom milliy bog‘ida va Surxon, baday to‘qay qo‘rixonlarida ekskursandlarning tajribasini oshirish va hududning ekologik tabiat bilan yaqindan tanishishga yordam berib kelmoqda.

2. Tabiat tarixi ekoturizmi

19-asr oxiri va 20-asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Uzoq va boy tarixga ega. Ekoturizm kontseptsiyasi an’anaviy ommaviy turizmning salbiy ekologik va madaniy ta’siriga javob sifatida paydo bo‘ldi, shuningdek, tabiiy ekotizimlar va mahalliy madaniyatlarni himoya qilish va saqlash zarurligi to‘g‘risida masuliyatni kuchaytirdi.

Ekoturizmning dastlabki misollaridan biri o‘laroq AQSh, Kanada, Avstraliya kabi mamlakatlarda milliy bog‘lar va qo‘riqlanadigan hududlarning tashkil etilishi bilan bog‘liqdir. Bu hududlar ekotizimga ta’sirini kamaytirish bilan birga tabiiy muhitni qadrlash va o‘rganishga da’vat etilgan tashrif buyuruvchilar uchun ochildi.

Birinchi bo‘lib 1960–1970-yillarda asosan tabiatni muhofaza qiluvchilar, ekologlar va rivojlanayotgan mamlakatlardagi mahalliy hamjamiyat tomonidan boshqariladigan zamonaviy ekoturizm konsepsiyasi shakllana boshladi.Ushbu dastlabki ekoturizm tashabbuslari tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ta’limni rag‘batlantirish bilan birga mahalliy jamoalar uchun barqaror iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga intildi.Keyingi bosqichlarda 1980 va 1990-yillarda esa ekoturizm mashhurligida sezilarli o‘sish kuzatildi, Bu davr, shuningdek, tijorat sohasi sifatida ekoturizmning rivojlanishiga guvoh bo‘ldi, sayyohlik kompaniyalari va turoperatorlar tabiatga asoslangan keng ko‘lamli tajribalar va ekologik toza turar joylarni(Mehmonxonalar) taklif qilisha boshladi.

So‘nggi yillarda ekoturizm rivojlanishda va kengayishda davom etib, mas’uliyatli sayohat amaliyotlarini targ‘ib qilish, jamoatchilik asosidagi turizm tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, tabiat, madaniyat va barqarorlikning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tushunishga qaratilgan. Bugungi kunda tabiat ekoturizmi yovvoyi tabiatni kuzatish, qushlarni kuzatish, tabiatni suratga olish, piyoda sayr qilish, baydarkada sayr qilish va madaniy suvga cho‘milish tajribalarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, tabiat ekoturizmi tarixi yanada barqaror va mas’uliyatli sayohat amaliyotlari sari o‘sib borayotgan global harakatni, shuningdek, kelajak avlodlar uchun tabiiy muhitni muhofaza qilish va asrab-avaylash muhimligini e’tirof etishning kuchayishini aks ettiradi[3].

3. Tabiat qo‘riqxonalari va rezervatsiyalari ekoturizmi

Bu qo‘riqxonalar va milliybog‘larning ekoturizmi tabiiy yashash joylariga tashrif buyurish va ular bilan tanishishni o‘z ichiga oladi. Ushbu hududlar ko‘pincha biologik xilma-xillik va noyob ekotizimlarni saqlab qolish uchun muhofaza qilinadi.

Qo‘riqxonalar va milliybog‘lardagi ekoturizm faoliyati yovvoyi tabiatni kuzatish, qushlarni kuzatish, piyoda sayr qilish, lagerlar va bilimdon mahalliy gidlar boshchiligidagi ekskursiyalarni o‘z ichiga oladi. Tashrif buyuruvchilar hududning flora, faunasi va madaniy merosi haqida bilib olishlari va mahalliy tabiatni muhofaza qilish va jamiyatni rivojlantirish tashabbuslariga ham iqtisodiy va ilmiy hissalarina qo‘shdilar.Ekoturizm tamoyillari ko‘pincha chiqindilarni kamaytirish, mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlash va tabiiy muhitni hurmat qilish kabi mas’uliyatli va barqaror sayohat amaliyotlarini targ‘ib qiladi. Shu bilan birgalikda hududlarni uzoq muddatli saqlashga yordam beradigan konspekisyalar yaratadi.

Ba’zi mashhur qo‘riqxonalar va ekoturizm uchun zahiralarga Amazon tropik o‘rmonlari, Galapagos orollari, Serengeti milliy bog‘i, Buyuk to‘siq rifi va Kosta-Rikaning Monteverde bulutli o‘rmon qo‘riqxonasi kiradi. Ushbu yo‘nalishlar sayohatchilarga tabiiy mo‘jizalarni qadrlash va ularni himoya qilish va saqlashga faol hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

4. Sarguzasht ekoturizmi.

Bu shu hududning ekologik muhitni o‘rganish, mahalliy madaniyatlarni boshdan kechirish va tabiiy yashash joylarida interaktiv ishtirok etishni o‘z ichiga olgan turizm turi. Turizmning ushbu turi tabiiy resurslarni saqlash, mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.Sarguzashtli ekoturizm ko‘pincha piyoda sayohatlari, tog‘ velosipedlarida sayohatlar, suv sporti, alpinizm va kuzatuv sayohatlari kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ishtirokchilarga tabiiy muhit bilan tanishish imkoniyatini beradi.Turizmning ushbu turi tashrif buyuruvchilarga tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni targ‘ib qilish bilan birga noyob tajriba taqdim etishni maqsad qilgan.

Mamlakatimiz olimlari ham “ekologik turizm” turlarini tahlil qilib tatqiqotlarida ko‘rsatib o‘tishanlar,uning quyidagilardir[4].

- yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;
- atrof muhitga minimal zarar yetkazish;
- odamga rekratsion va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;
- yangi landshaftlar bilan tanishish, muhofaza qilish uchun flora va fauna namunalarini o‘rganish;
- barcha turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar.

3 Ekologik turizm.: /R.Xaitboyev. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018. — 248 b.29
4 A.N.Norchayev, E.T. Rabbimov. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma.– T.: TDIU, 2010 y. -152 b.10 b.

Ekologikturizmni tashkil qilishning yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlarida shakllangan tamoyillar hududiy emas, balki global xarakterga ega. Shuning uchun bu tamoyillar jahonning ayrim qismlari yoki yer, suv va havo bo‘shlig‘ining ayrim qismlarida emas, balki butun dunyodagi turistik faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lishi lozim.

Bugungi kunga kelib dunyodagi ekologik tabait va ekoturistlarnin asosiy tashrif buyuruvchi mamlakatlari bu Keniya, Tanzaniya, Janubiy Afrika, Xitoy, Tailand, Ekvador, Kosta-Rika va shuningdek, yangi Zelandiya, Avstraliya kabi davlatla.Bu hududlar ekologik turizm resurslariga juda boy hududlar sanalishadi.

Ekologik turizmni tashkil etishda ko‘p jihat tabiiy resurslarni saqlash va barqaror boshqarishga tayanadi. Tabiiy yashash joylarini saqlash, yovvoyi tabiatni mas’uliyat bilan kuzatish va ekotizimlar yaxlitligini saqlash ekologik turizmni tashkil etishning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu tabiiy boyliklarning saqlovchisi bo‘lgan mahalliy hamjamiyatlarni va mahalliy aholini qo‘llab-quvvatlash ham ekoturizm tashabbuslarining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tabiiy muhit va madaniy qadriyatlar ekologik turizmning asosiy harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi. Tabiiy va madaniy-tarixiy tarkibiy qismlarning ekologik sayohatlarida milliy urf-odatlar va marosimlarni sayyohlarga xizmat ko‘rsatish ekoturizmni rivojlantirishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish muammosining hal etilishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Туризм”. Сост. Е.Л. Пименова -Ижевск: Издательство“Удмуртский университет”, 2012. – 78 с.18 п.
2. Туризм”.Сост.Е.Л.Пименова.-Ижевск:Издательство“Удмуртский университет”, 2012. – 78 с.50 п.
3. Zalatan A.and A.R. Gaston. Soft Ecotourism: the Substitution Effect. The Tourist Review, 4, 1996.
4. Ekologik turizm.: /R.Xaitboyev. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2018. — 248 b.29.
5. A.N.Norchayev, E.T. Rabbimov. Ekologik turizm. -O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010 y. –152 b.10 b.
6. Экологический туризм Е.Л. Пименова. –Ижевск: Издательство “Удмуртский университет”, 2012. – 78 с.51.
7. Экологический туризм Е.Л. Пименова. – Ижевск: Издательство “Удмуртский университет”, 2012.–78 с.53.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MAMLAKATGA XORIJIY INVESTITSYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

To‘laganova Ruhshona Farrux qizi
Toshkent moliya instituti, Budjet hisobi va g‘aznachilik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Saidov Rasulbek Boltaboyevich**
Toshkent moliya instituti, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistondagi joriy investitsiya muhiti va jozibadorligini hududlar kesimida o‘rganildi, unga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi va mamlakatimizda xorijiy investorlarni jalb qila oladigan investitsiya muhitini yanada takomillashtirishga oid masalalar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, investitsion jozibadorlik va uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatiga doir xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari va tadqiqotlari o‘rganildi, respublikaning investitsiya muhitiga oid real statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya jozibadorligi, invesitiya muhiti, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar.

Abstract: This article examines the current investment environment and attractiveness in Uzbekistan in terms of regions, analyzes the factors influencing it, and considers issues related to further improvement of the investment environment that can attract foreign investors in our country. Moreover, the opinions and researches of foreign and local scientists on investment attractiveness and its importance in the development of the country’s economy were studied, real statistical data on the investment environment of the republic were analyzed.

Key words: investment, investment attractiveness, investment environment, fixed capital investments.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущая инвестиционная среда и привлекательность Узбекистана в разрезе регионов, анализируются факторы, влияющие на нее, а также рассматриваются вопросы, связанные с дальнейшим улучшением инвестиционной среды, способной привлечь иностранных инвесторов в нашу страну. Также были изучены мнения и исследования зарубежных и отечественных ученых об инвестиционной привлекательности и ее значении в развитии экономики страны, проанализированы реальные статистические данные об инвестиционной среде республики.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, инвестиции в основной капитал.

KIRISH

Har bir mamlakat, shubhasiz, o‘z iqtisodiyotini rivojlantirish orqali dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishni o‘ziga maqsad qiladi va shu maqsadga erishish yo‘lida strategik rejalashtirishni amalga oshiradi. Jumladan, o‘z yalpi ichki mahsulotini oshirish, mamlakat tashqi savdo aylanmasida eksport ulushini oshirish, aholi turmush tarzini farovonlashtirish kabi natijalarga erishishda mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, iqtisodiyotni yangi, jahon standartlariga mos texnika-texnologiyalarni targ‘ib qilgan holda modernizatsiyalash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoniga xorij tajribasini qo‘llash, respublikaning jahon miqyosidagi obro‘sini ko‘tarishda mamlakatga olib kiriladigan xorijiy investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Respublikaga kirib keladigan xorijiy investitsiyalar salmog‘i esa mamlakatdagi investitsion muhit va uning investitsion jozibadorligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Negaki, retsipient mamlakatning qonunlari, investitsiya siyosati, monetar va valyuta siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, xorijlik investorlarga taqdim eta oladigan shart-sharoitlari mamlakatga kirib keladigan investitsiya oqimiga ta’sir o‘tkazuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining inson qadrini yuksaltirish

va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida amalga oshirilishi ko‘zlangan “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish” [1] haqidagi 26-maqsadi respublikaning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb qilish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qanchalik muhim jarayon ekanligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev o‘zining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilashni 2023-yilda Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ishlab chiqilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini ta’kidladi [2]. Prezidentimiz o‘z murojaatnomasida yana mamlalatimiz iqtisodiyotiga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib kelgani va kelasi yillarda turli sohalar, xususan, metallurgiya kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi kabi iqtisodiyotning real sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhimligini aytib o‘tganlar. Ta’kidlash joizki, ko‘zlangan maqsad va aniq strategiyalar, berilgan ko‘rsatmalar asosida respublikamizda 2023-yilning iyun-iyul oylarining o‘zidagina respublikamizning ko‘plab hududlarida qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, metallurgiya, to‘qimachilik, kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi kabi soha va yo‘nalishlarini rivojlantirish yo‘lida tashkil etilgan 26 ta turli hajmdagi loyihalar investitsiya mablag‘lari hisobiga amalga oshirildi (3-jadval).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda, mahalliy va jahon iqtisodchi olimlari va soha mutaxassislari o‘z maqolalari, monografiyalarida investitsion jozibadorlikka turlicha yondashgan holda ta’rif berganlar. Polshaning Varmiya va Mazuri universitetining olimlari J. M. Nazarczuk, W. Lizinskalar hududlarning investitsion jozibadorligini ishlab chiqarish omillari, yangi texnologiyalarga egalik darajasi, investorlarga taqdim etiladigan imtiyozlar, hududlarning taqdim qilayotgan imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududlarning investitsion kapitalni jalb qilish qobiliyatidan dalolat beruvchi ko‘rsatkich ekanligi bilan tasniflagan [3].

Rus iqtisodchi olimlari N. Guskova, I. Krakovskaya, Yu. Slushkina, V. Makolov o‘zlarining investitsion boshqaruvga bag‘ishlangan asarlarida investitsion jozibadorlik rivojlanish istiqbollari, investitsiyalar rentabelligi va investitsiya xatarlari darajasi nuqtayi nazaridan alohida korxonalar, tarmoqlar, hududlar va umuman mamlakatning ajralmas xususiyati ekanligini ta’kidlaydi [4]. Darhaqiqat, investitsion jozibadorlik nafaqat makro darajadagi mamlakat investitsiya muhitini, balki mikro hududlar, alohida olingan tadbirkorlik subyektlarining ham investitsiya jalb qila olish imkoniyatini tavsiflaydi.

A. N. Asaul va I. N. Pasyada esa o‘zining “Mintaqaning investitsion jozibadorligi” monografiyasida investitsion jozibadorlikni investitsion salohiyat va investitsiya risklarining yig‘indisi sifatida tavsiflaydi [5].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari B. S. Mamatov, D. Yu. Xujamkulov, O. Sh. Nurbekovlar “Investitsiyaviy jozibadorlik — mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtayi nazaridan baholanishi” [6], deya ta’kidlab o‘tishgan. Ularning fikriga hamfikrlik bildirgan holda mamlakat investitsion jozibadorligiga nafaqat uning iqtisodiy holati, balki uning ekologik holati, geografik joylashuvi, unda yaratilgan infratuzilmalar, investorga taqdim etiladigan imkoniyat va imtiyozlar, shu bilan birga aholining hayoti farovonligi kabi boshqa ko‘plab omillar ta’sir etishini qo‘shimcha qilish lozim.

Yana bir o‘zbek iqtisodchi olimi Sh. Mustafakulov (2017) investitsion muhit jozibadorligi sifatida quyidagi fikrni: ”mamlakatning xo‘jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va eko-logik ko‘rsatkichlarning umumiy darajasi” deb talqin qilgan [7].

Bizningcha, investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, biror tarmoq yoki alohida olingan tadbirkorlik subyekti investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasi nuqtayi nazaridan baholanish asosida investorlarni jalb qila olish qobiliyatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi joriy investitsion muhit va uning jozibadorligi, jalb qilinyotgan investitsiyalar hududlar kesimida o‘rganildi, shuningdek, tadqiqot usuli sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir davlatning olib borayotgan investitsiya siyosatining samaradorligi unda yaratilgan investitsiya muhiti va hududning investitson jozibadorlik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Mamlakat investitsiya muhitini investorning mamlakat hududiga kapital qo‘yishiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi iqtsodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, moliyaviy, ekologik va boshqa shart-sharoitlar, imkoniyatlar va kamchiliklar kabi muhim omillar belgilab beradi.

Hozirgi kunda yurtimizda investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish, iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar salmog‘ini oshirish mamlakatimiz investitsion siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston o‘z tabiiy resurslari, iqlimi, ko‘p tarmoqli iqtisodiyoti, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgani, chet ellik investorlar uchun soliq va bojdan imtiyozlar mavjudligi bilan yuqori investitsion salohiyatga egadir. Shunga qaramasdan, mamlakatimizda investitsiya muhitini takomillashtirish, uning investitsion jozibadorligini oshirish, chet ellik investorlar kapitallarini mamlakatimiz iqtisodiyotini turli sohalarini rivojlantirishga yordam beradigan loyihalarga jalb qilish borasida to‘xtovsiz islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu kunga qadar qilingan sa’y-harakatlar natijasida mamlakatimizda yildan-yilga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi ko‘paymoqda (1-jadval).

1-jadval: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hududlar kesimida [8] mlrd. so‘m

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	**72155.2**	**124231**	**195927**	**210195**	**239553**	**266240**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2822	6757.8	8750.6	7089.8	8110.7	10254
Andijon	2986	4711.9	7452.1	9622.6	11176.6	14339.8
Buxoro	11613.4	9610.9	10366.6	12183.9	20528.3	21638.3
Jizzax	1788.2	3606.3	7900.9	12545.4	9233.6	10373.9
Qashqadaryo	11175.3	16518.5	24462.5	20557.6	17359.1	16012.8
Navoiy	3977.9	10579.5	17646.3	15688.4	15020.1	17958.1
Namangan	3586.7	8158.1	12084.9	12007.2	12982	14775.1
Samarqand	4384.2	7061.4	10266.7	14656.4	15641.6	18917.1
Surxondaryo	3551	7240.6	11835.1	10068.2	12037.8	11569.4
Sirdaryo	1628	2699.3	5869.1	7191.9	8051.8	12354.6
Toshkent viloyati	5938.4	11226.9	20353.9	21148.6	28113.6	35767.7
Farg‘ona	2954.5	5539.1	8685.4	11040	12625.2	15419.3
Xorazm	2175.9	3013.8	5032	5391.8	8292	8769.7
Toshkent sh.	13573.7	26435.7	42458.1	50371.3	58172.7	56847.9

Jadvalda 2017–2022-yillarda yurtimizdagi asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning hududlar kesimida, milliard so‘mda ko‘rsatilgan qiymati keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, 6 yil davomida mamlakatimiz jalb qilgan investitsiyalar hajmi stabil tarzda ko‘payishi natijasida 2022-yilda mamlakatimizda 2017-yilga nisbatan 3,6 barobar ko‘p investitsiya o‘zlashtirildi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning o‘sish sur’ati ham 2021-yilda 102,9% ni, o‘tgan yil esa 100,2% ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining joriy 2023-yilning 3 choraklik ma’lumotlariga asoslangan holda esa bu yilning 1-choragida O‘zbekiston Respublikasiga asosiy kapitaliga 56557,6 mlrd. so‘m, 2-choragida 139104,6 mlrd. so‘m, 3-choragida 226638,6 mlrd. so‘m investitsiya kiritilganini ko‘rishimiz mumkin [9].

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda ham Toshkent shahri respublikamizdagi investitsion jozibadorligi bo‘yicha dominant hudud, Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa investitsion jozibadorligi sust hudud sifatida namoyon bo‘lmoqda (2-rasm). Buni joriy yilda poytaxtga 767,8 mln AQSh dollari, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga esa 22 mln. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilganida ko‘rishimiz mumkin. Toshkent shahri o‘zining “poytaxt” maqomi, unda tashkil etilgan infratuzilma, yaratilgan keng shart-sharoit va qulayliklar, bilan respublikaga kirib kelayotgan investitsiyalarning katta qismini jalb etayotgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxtga nisbatan deyarli 35 barobar kam miqdordagi investitsiyalarni jalb qilayotgani undagi ekologik va

infratuzilmaviy muammolar, geografik joylashuvidagi noqulayliklar, aholi bir qismining qoniqarli yashash sharoiti bilan izohlanadi.



2-rasm: 2023-yilda mintaqaviy investitsiya loyihalari doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish hududlar kesimida (mln. AQSH dollarida) [10]

2023-yilning iyun-iyul oylarining o‘zida qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, metallurgiya, to‘qimachilik, kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi kabi sohalarni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan loyihalarga umumiy 863,9 mlrd. so‘m qiymatga ega investitsiyalar jalb qilindi, shu bilan birgalikda aholining ishsizlik darajasini kamaytirish va hayot farovonligini oshirish maqsadida ushbu loyihalar doirasida 1579 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi (2-jadval). Bu loyihalar realizatsiyasi natijasida Toshkent viloyati aholisining 1065 nafar, Farg‘ona viloyatining 288 nafar, Buxoro viloyatining 144 nafar, Samarqand viloyatining 27 nafar, Surxondaryo viloyatining 55 nafar ishga muhtoj aholisi ish bilan ta’minlandi.

2-jadval: Hududiy investitsiya dasturlari doirasida 2023-yil iyun-iyul oylarida ishga tushirilgan sanoat loyihalari hududlar kesimida [11]

№	Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha qiymati (mlrd. so‘m)	Yaratilgan ish o‘rinlari	№	Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha qiymati (mlrd. so‘m)	Yaratilgan ish o‘rinlari
1	Buxoro	1.7	4	14	Toshkent vil.	130.5	100
2	Buxoro	10	70	15	Toshkent vil.	25	510
3	Buxoro	68.6	70	16	Toshkent vil.	21.4	40
4	Farg‘ona	6	30	17	Toshkent vil.	5.7	15
5	Samarqand	32	7	18	Toshkent vil.	8.8	15
6	Samarqand	16.9	20	19	Toshkent vil.	146.4	100
7	Surxondaryo	105.7	20	20	Toshkent vil.	2.3	10
8	Surxondaryo	3	35	21	Toshkent vil.	2	5
9	Toshkent vil.	11.9	15	22	Toshkent vil.	1	10
10	Toshkent vil.	8.5	60	23	Farg‘ona	9.1	210
11	Toshkent vil.	56.3	25	24	Farg‘ona	5	22
12	Toshkent vil.	47.5	60	25	Farg‘ona	3	8
13	Toshkent vil.	130.5	100	26	Farg‘ona	5.1	18

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot va o‘rganishlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi investitsion salohiyati yildan-yilga ortayotgan, yaratilgan investitsiya muhiti va infratuzilmasi, ularga taqdim etiladigan imkoniyatlar, qulayliklar, soliq va bojdan imtiyozlar bilan chet elllik investorlarni faol jalb qilayotgan davlatlar qatoriga kira oladi. Shunga qaramasdan, respublikaga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti

rivojida qanchalik muhim rol o‘ynashini hisobga olgan holda yurtimiz investitsion jozibadorligini oshirishning yangi samarali, innovatsion yo‘llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilgan holda mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha bir qancha taklif va tavsiyalar taqdim etildi:

- Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamash, chet ellik investorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish;
- Mamlakatimizdagi valyuta, pul-kredit siyosatini isloh qilish, fond bozorini yanada rivojlantirish;
- Respublika iqtisodiyoti, undagi tarmoqlar faoliyatiga oid ochiq ma’lumotlar salmog‘i, sifati, aniqligini oshirish va uning shaffofligini ta’minlash;
- Yurtimizdagi investitsiya muhitini yaxshilashda investitsion jozibador hisoblangan xorijiy mamlakatlar tajribasini mamlakatimiz shart-sharoitlariga moslashtirilgan holda qo‘llash.

Ishonamizki, yuqorida berilgan bir qator istiqbolli taklif va tavsiyalarni amaliyotga qo‘llash keyingi yillarda ona yurtimizni jahonda yanada investitsion jozibador mamlakat sifatida namoyon bo‘lishi va mamlakat yalpi ichki mahsulotida xorijiy investorlar investitsiyalarining salmog‘i ortishi, yangi ish o‘rinlarini barpo etilishi, mamlakatimiz aholisi turmush darajasi va farovonligi oshishi bilan bir qatorda ishsizlik darajasi pasayishi kabi muhim natijalarga erishishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi (2022-yil 21-dekabr).
3. Jarosław Michał Nazarczuk, Wiesława Lizińska. Level of investment attractiveness and scale of foreign investments during the years 2005-2006.// Olsztyn Economic Journal, 2009, 4(1). P.13.
4. Гуськова Н.Д., Краковская И.Н., Слушкина Ю.Ю., Маколов В.И. Инвестиционный менеджмент. –М.: КноРус, 2014. 440 с.
5. Асаул А.Н., Пасяда И.Н. Инвестиционная привлекательность региона. СПб: СпбГАСУ, 2008. 120 с.
6. B.S. Mamatov, D. Yu.Xujamkulov, O.Sh. Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 607-b.
7. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. –T.: Baktria press, 2017. – 18-b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.stat.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari (Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar joriy narxlarda, mlrd. so‘m) – www.stat.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.miit.uz
11. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosidagi muallif ishlanmasi – www.miit.uz

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA’LIM XIZMATLARINI HOLATI

Umurzakova Dilnoza Egamberdiyevna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy
meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida respublikamizda maktabgacha ta’lim xizmatlarini holati, tahlili, mamlakatimiz maktabgacha ta’lim xizmatlari shakllantirish va rivojlantirishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim xizmatlarining istiqbollari va uni takomilashtirishga qaratilgan fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim xizmatlari, xizmat ko‘rsatish, ta’lim xizmati, rivojlantirish, islohot, innovatsiya, takomillashtirish, samaradorlik, tizimli tahlil.

Abstract: This article develops the author’s situation and analysis of preschool education services in our republic in the context of the transition to a digital economy, proposals and recommendations for the formation and development of preschool education services in our country. The prospects for preschool education services and ideas aimed at improving it are also given.

Key words: preschool educational institutions, preschool education services, service provision, educational services, development, reform, innovation, improvement, efficiency, system analysis.

Аннотация: В данной статье развиты авторская ситуация и анализ услуг дошкольного образования в нашей республике в условиях перехода к цифровой экономике, предложения и рекомендации по формированию и развитию услуг дошкольного образования в нашей стране. Также приведены перспективы услуги дошкольного образования и идеи, направленные на ее совершенствование.

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, услуги дошкольного образования, предоставление услуг, образовательная услуга, развитие, реформа, инновации, совершенствование, эффективность, системный анализ.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida iqtisodiyotni diversifkatsiya qilish bilan bog‘liq jarayonlar jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlab berish maqsadida “Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026”, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, “Raqamli O‘zbekiston-2030” kabi strategik dasturlar qabul qilingan bo‘lib, nafaqat iqtisodiy o‘sish orqali rivojlanishni ta’minlab berish, shuningdek, aholi turmush-darajasini yuksaltirish, aholini ish bilan bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari va kasblarni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati, ta’lim xizmatlarini rivojlantirish hamda inson kapitalini shakllantirish kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Bunday holatlarning yuzaga kelish mumkinligi moliyaviy natijalarni tashkil etishdagi o‘zgarishlarni hisoblash, taqsimlash va qayta taqsimlash xarajatlar bilan real foyda natijalari o‘rtasidagi nisbat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘sishi, qolaversa, ulardan soliq stavkalarini aniqlashda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pgina soliq tizimi mutaxassislari foydadan soliq stavkalari va uni byudjetga o‘tkazish tartibi, soliq stavkasini ma’lum bir koeffitsiyentga pasaytirish yoki oshirish, soliq bo‘yicha joriy etilgan imtiyozlarni, soliqni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlarini to‘liq bo‘lgan holda o‘z oldilarida turgan vazifalarni bajarishda xavotirlanmoqdalar. Chunki, yangi tartibning joriy etilishi, uni to‘liq o‘rganish bilan birgalikda soliq to‘lovchi xo‘jalik subyektlariga ham tushuntirish ishlarini olib borishlari, ularni soliq intizomiga rioya qilishga

1 Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.

chorlaydi.

Korxonalarda moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanish davomida foyda ma'lum qonuniyatlar asosida jamg'armalarni tashkil etishi bilan birga davlat byudjetini moliyaviy mablag' bilan ta'minlashda faol ishtirok etadi va shu qirralari bilan bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi[2]. Narxlar barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nobel mukofoti sovrindori, ingliz iqtisodchisi J. Xiks foydani ma'lum bir vaqt oralig'ida ishlatish mumkin bo'lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'rsatkich deya ta'kidlaydi[3].

Foydani shakllantirish va taqsimlash masalalari bilan shug'ullangan olima S. S. Aliyeva foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxonani boshqarish bo'yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun, shuningdek, iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e'tirof etadi[4].

Foyda solig'ini ilmiy o'rganishda asosiy masalalardan biri uning soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash bo'lib hisoblanadi. Foyda colig'ining cummacini hisoblashda ko'p ko'rsatkichlarni o'rganishni talab etadi. Bu ko'rsatkichlar va ularning bir biri bilan bog'likligi Foyda colig'i summasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatar ekan, ya'ni mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlar, favqulotda olingan foyda va zarar, foyda solig'ining hisobot davridagi stavkasi va boshqa omillar.

Foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromad bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortgan qismining pul shakldagi ifodasidir. Foydaning bir qismi soliqlar orqali bevosita davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadi.

Foydadan undiriladigan soliqlar bilan foyda solig'ini bir narsa deb qarash noo'rin deb hisoblaymiz. Foydadan undiriladigan soliqlar keng ma'no bildirsa, foyda solig'i tor ma'nodir. Ya'ni Soliq Kodeksiga muvofiq foydadan undiriladigan soliqqa foyda solig'idan tashqari soliqlar ham kiradi deb hisoblaymiz.

Foyda solig'i – jami daromaddan, daromadni olish bilan bog'liq xarajatlarni ya'ni isbotlangan va hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni shuningdek, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliq to'lovchi tomonidan yuzaga keltirilgan zararni chiqarib tashlash bilan hisoblangan soliq tushuniladi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 12-son "Foydadan soliqlar"da buxgalteriya foydasi – bu davr uchun foyda solig'i xarajati chegirib tashlanishidan oldingi foyda yoki zarardir. Soliq solinadigan foyda – bu soliq organlari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlangan va natijada foyda soliqlari to'lanadigan davr uchun foyda hisoblanadi deb e'tirof etilgan[5].

Foyda solig'i bazasini to'g'ri aniqlashda "vaqtinchalik farqlar" tushunchasiga alohida e'tibor berish kerak. Buxgalteriya hisobining 12-conli "Foyda soliqlari" xalqaro ctandartida vaqtinchalik farqlarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Vaqtinchalik farqlar – bu moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan aktiv yoki majburiyatning balans qiymati bilan uning soliq bazasi o'rtacidagi farqlardir[6]. Vaqtinchalik farqlar – bu foydani shakillantiruvchi daromad va xarajatlarning ba'zi moddalarni buxgalteriya hisobi foydaciga hisobot davrida, foyda solig'i bazaciga boshqa davrga olib borilishi natijasida hosil bo'ladigan farqlardir.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar manbayi bo'lib "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" 2-shakl hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 295-moddasida foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanadi deb belgilab qo'yilgan.

Soliq yuki va foyda solig'i stavkasini pasaytirish hisobiga soliq bazasi kengaymoqda hamda foyda solig'i

2 Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.
3 Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – S. 170-189.
4 Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.
5 12-son BHXS "Foyda soliqlari." https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/26_05_2021/Uzb_ GVT_ BB2020_IAS12.pdf. 11.01.2022.
6 IAS-12 "Income Tax", 12-sonli BHXS "Foyda soliqlari" 2019.

to‘lovchilari soni oshmoqda (1-rasm).



1-rasm: Foyda solig‘i bo‘yicha 2016-2022-yillarda soliq to‘lovchilar sonining dinamikasi[7]

Respublikamizda foyda solig‘ini to‘lovchilar 2016-yilda 7593 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 184 142 ta bo‘lgan bo‘lib, 24,3 barobarga oshgan.

Foyda solig‘i to‘lovchilar korxonalar soni 2019-yilda 53 051 tani tashkil etgan bo‘lsa 2020-yilda 115 572 ta 2021-yilda 145 434 ta hamda 2022-yilda 184 142 taga oshgan bunga asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahridagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi ijrosi deb hisoblaymiz.

Foyda solig‘ining stavkasi yillar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak (1-rasm), 1997-yilda 36,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda 31,0 foiz, 2005 yilda 15,0 foiz, 2010-yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yil 1 yanvardan boshlab foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020–2023-yillarda bu ko‘rsatkich 15,0 foizni tashkil etdi.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i stavkasining 1997-2023 yillardagi o‘zgarish tendensiyasi[8]

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida foyda solig‘i joriy qilingan. Xususan, hozirgi vaqtda dunyoning 218 ta mamlakatida foyda solig‘i undiriladi. Foyda solig‘i stavkasi ushbu mamlakatlarning 44 tasida 0-10 foizgacha, 50 tasida 10-20 foizgacha, 111 tasida 20-30 foizgacha, 26 tasida 30-40 foizgacha,

7 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
8 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2 tasida 45-55 foizgacha etib belgilangan.

Foydani soliqqa tortish tizimining tadqiq qilishda quyidagi taklif va xulosalar beramiz:

1. Korxona foydasi iqtisodiy kategoriya sifatida korxonalarni nafaqat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga, balki shu bilan birga byudjet daromadlarini foyda solig‘i bilan ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois foydani aniqlash va tartibga solish orqali uni soliqqa tortish chegarasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Foyda solig‘ining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda va byudjet daromadlarini tartibga solishdagi roli va ahamiyati benihoya kattadir deb hisoblaymiz.
2. Foyda solig‘i – jami daromaddan, daromadni olish bilan bog‘liq xarajatlarni ya’ni isbotlangan va hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni shuningdek, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliq to‘lovchi tomonidan yuzaga keltirilgan zararni chiqarib tashlash bilan hisoblangan soliq tushuniladi.
3. Foydani soliqqa tortishda uni takomillashtirish strategiyasi moliyaviy mexanizmini tartibga solishni ta’minlashi zarur. Shu orqali korxonalar foydasini soliqqa tortish elementlarini, ya’ni soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq imtiyozi, soliq to‘lash muddatlari kabilar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni optimal chegaralarda saqlanishiga imkoniyatlar yaratiladi.
4. Davlat tomonidan foyda solig‘i to‘lovchi korxonalarning innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishini rag‘batlantirish bo‘yicha faol soliq siyosatini yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Soliq siyosatidagi foydani soliqqa tortishda to‘siq bo‘luvchi salbiy omillarni tahlil qilish hamda o‘llanib kelinayotgan foyda solig‘i imtiyozlarini samara keltirish mumkinligiga baho berish kerak.

Shunda soliq bazasini tartibga keltirish orqali har bir korxona investitsiya oqimiga, innovatsion mahsulotlar hajmining oshishiga, import tovarlar o‘rnini bosuvchi va eksportga chiqariladigan mahsulotlar hajmini oshirishga, mos keladigan soliq elementlarini tartiblashtiruvchi mexanizmini ishlab chiqish barqaror bosqichga ko‘tarilishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.
2. Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.
3. Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – S. 170-189.
4. Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.
5. 12-son BHXS “Foyda soliqlari.” https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/ 26_05_2021/Uzb_ GVT_ BB2020_IAS12.pdf. 11.01.2022.
6. IAS-12 “Income Tax”, 12-sonli BHXS “Foyda soliqlari” 2019.
7. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
9. http://www.soliq.uz
10. http://www.lex.uz

O‘ZBEKISTONDA ENERGETIKA KORXONALARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUVINING BAHOLASH USULLARINI TAHLILI

Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlili, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar, energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari va energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energetika korxonalari, raqobatbardoshlik, boshqarish samaradorligi, korporativ boshqaruv, baholashning miqdoriy usullari, omillar.

Abstract: In this article, An analysis of the methods of assessment of corporate governance in the activities of energy enterprises in Uzbekistan, factors affecting the competitiveness of energy enterprises, quantitative methods for assessing the effectiveness of energy enterprise management and an algorithm for comprehensive assessment of the quality level of corporate governance in energy enterprises are developed.

Key words: energy enterprises, competitiveness, management efficiency, corporate governance, quantitative methods of assessment, factors.

Аннотация: В данной статье проведен анализ методов оценки корпоративного управления в деятельности энергетических предприятий Узбекистана, факторов, влияющих на конкурентоспособность энергетических предприятий, разработаны количественные методы оценки эффективности управления энергетическими предприятиями и алгоритм комплексной оценки уровня качества корпоративного управления на энергетических предприятиях.

Ключевые слова: энергетические предприятия, конкурентоспособность, эффективность управления, корпоративное управление, количественные методы оценки, факторы.

KIRISH

O‘zbekiston energetik kompleksi korxonalarining innovatsion rivojlanishiga muhim turtkini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 24-maqsadida keltirilgan Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish maqsadida quydagi vazifalar ijorsini taminlash vazifalari belgilangan:

- 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish.
- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.
- O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash.
- Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.
- Uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.
- Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish.

- Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Korporativ boshqaruv atamasining o‘zi tarixan 1970-yillarning o‘rtalarida AQShda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o‘tkazilishi davom ettirilgan. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, korporativ boshqaruv atamasi birinchi marta R. Ills [1] tomonidan korporativ tuzilmasi va faoliyati mohiyatini ochib berish uchun qo‘llanilgan.

Korporativ munosabatlar tizimi korporativ va xususiy mulkni boshqarishni qo‘llash jarayoni sifatida amerikalik huquqshunos olim A.Berli va iqtisodchi G. Minzning [2] klassik ishlarida o‘rganilgan. Ularning ishlarida korporativ boshqaruv atamasi tilga olinmagan bo‘lsa-da, ular korporativ boshqaruvni ishonib topshiruvchilar – principals (autsayderlar, investorlar) va vakillar – agents (insayderlar, boshqaruvchilar) o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan T. K. Madiyorov [3] “korporativ boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag‘larning yangi texnika va texnologiyalarni ko‘plab jalb etilishi bilan uyg‘unlikda olib boriladi”, deb talqin qilgan bo‘lsa, Sh. N. Zaynutdinov va D. N. Raximovalar [4] “korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir”, degan ta’rifni keltirishgan. Yana bir iqtisodchi olim D. X. Suyunovning [5] ta’rifiga ko‘ra: “korporativ boshqaruv - korporativ mulk shakliga kiruvchi subyektlarning huquqlarini himoya qiluvchi amaldagi me’yorlar hamda boshqaruvning ma’lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuyidir”-deb ta’rif bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bunday omillar qatoriga inson kapitalini rivojlanganlik darajasini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasini, korporatsiya moliyaviy holatining barqarorligini, narx siyosati, innovatsion energiya mahsu-

lotlari va xizmatlarini, energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish sifatini, korporatsiya aksiyalarini qo‘shimcha muomalaga chiqarilishini va energetika korxonalarining dividend siyosatini kiritishimiz mumkin. Ushbu omillarning ta’siriga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, ularning barchasi energetika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetika korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirishga korporativ boshqaruv kodeksi, korporativ menejmentning standartlari, korporativ nazorat usullari, xodimlarni qo‘llab-quvvatlanishini oshirish tizimi, menejmentning-tavakkalchilik tizimi kabi vositalarni qo‘llash boshqaruv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston energetik kompleksi aksiyadorlik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun korporativ boshqaruv vositalari izohining yakuniy maqsadi sifatli marketing tadqiqotlar, samarali biznes-rejalar va investitsiyaviy loyihalar, shuningdek, yangi energetik quvvatlardan foydalanishga o‘z vaqtida kiritishni ta’minlashga va energiyaning turli ko‘rinishlarini tejamli sarflashga qodir bo‘lgan malakali loyihali kompaniyalar bo‘lishi kerak.

Iqtisodiy mezonlardan foydalangan holda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari sifatida quyidagilarni e’tiborga olish mumkin:

- korxonaning berilgan vaqt oralig‘ida bankrotga uchrash ehtimolini prognoz qilishning statistik asoslangan modellari;
- korxonalarni reytingini aniqlash uslubiyati;
- kreditlash maqsadida korxona reytingini aniqlash uslubiyati.

Shuningdek, zamonaviy amaliyotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning korxonaning bozor qiymati va moliyaviy holatini tahlil qilish asosida boshqaruv samaradorligini baholash natijalarini olishga asoslangan turli miqdoriy usullari ham qo‘llanadi (2-rasm).



2-rasm: Energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari

Energetika korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- bankrotga uchrash ehtimoli baholanadi (Altmanning ikki omilli modeli orqali);
- korxonaning moliyaviy barqarorligi baholanadi (Taffler modeli).

Altmanning ikki omilli modeli kompaniyaning bankrotlik darajasini baholaydi, Tafflerning ko‘p omilli modeli esa kompaniyaning to‘lov layoqati modelini tuzadi. Natijada barcha hisoblab chiqilgan ko‘rsatkichlar taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy holati haqida xulosa chiqariladi. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, moliyaviy qiyinchilikka ega bo‘lgan kompaniyalar qanday qilib bo‘lmasin, o‘z hisobotlarini e’lon qilishni to‘xatib turadi, chunki uzoq vaqt davomida to‘g‘ri ma’lumotlar olib bo‘lmaydi. Hisobotlarda chop etiladigan ma’lumotlar ishonchli bo‘lmasligi mumkin, bu esa korxona faoliyatining ayrim ko‘rsatkichlari uning to‘lov layoqatiga ega emasligidan dalolat bergan bir paytda boshqa ko‘rsatkichlar uning faoliyati barqaror ekanligi haqida mulohaza yuritishga asos beradi.

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ikkinchi uslubiyati uning bozor qiymatini tahlil qilishga asoslanadi. Daromadni kapitallashtirish usuli korxonaning joriy daromadlarini kapitallashtirshi koeffitsiyentiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlashga asoslanadi. Asosiy kamchilik – bu usulni qo‘llash uchun zaruriy va majburiy shart kompaniya kelajakda keltiradigan daromadlar joriy daromadlar bilan bir xil darajada qolishini taxmin qilish hisoblanadi.

Tadqiqotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi taklif etildi (3-rasm).



3-rasm: Energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi

Bu algoritm baholashning sifat va miqdor usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bunda esa korporatsiyaning rivojlanganligini qay darajada ekanligi va uni korporatsiya qiymatiga qanday ta'sir etishini ifodalaydi va korporativ boshqaruvning samaradorlik darajasini taqqoslash hamda tahlil qilish uchun sifat usullari orasidan korporativ boshqaruv darajasiga Kuzatuv kengashining tuzilmasi, a'zolari soni, yig'ilishlar muntazamligi, menejer va mulkdorlar manfaatlari yaqinlashishi darajasi inobatga olinadi. Miqdor usullarda esa energetika korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, sotuvlar o'sish sur'ati va rentabelligi, investitsion samaradorlik omillarini baholash yuqori o'rin tutadi. Bunda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv sifat darajasi bahosi uni moliyalashtirish koeffitsiyentiga to'g'ri proporsional bo'lib, uning korporativ boshqaruvini miqdoriy baholash qiymatlaridan kelib chiqadi.

Korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi energetika korxonalarida boshqaruv samaradorligini yaxshilash uchun boshqaruv jarayonini moliyalashtirishga bog'liq bo'lib, bunda moliyalashtirish koeffitsenti quyidagi $1 \geq \pm\Delta F \geq 0$ shartni qanoatlantirishi kerak va shundagina uni korporativ boshqarish munosabatlari o'z sifat darajasiga ega bo'lgan deb qarash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmini institutsional asosini mustahkamlash, respublikada amalga oshiriladigan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida va tarmoq rivojlanish dasturlarini yo'nalishiga o'zaro bog'liq bo'lib, amaldagi va shakllangan boshqaruv tizimini rivojlanish izchilligiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eells R.S.F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
2. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
3. Madiyorov T.K. Dehqonchilik-sanoat majmuyida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimi va korporativ boshqaruvni joriy etish xususiyatlari: iqt. fan .dok. ... dis. ishi. - T.: 1993
4. Zaynutdinov Sh.N., Rahimova D.N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.
5. Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 116 b.
6. Mirzayev, A. (2023). Prospects for modeling the educational process in the development of strategies for increasing the competitiveness of graduates in higher education institutions. International Bulletin of Engineering and Technology,

3(4), 57-66.
7. Mirzayev, A. (2023). Improving the mechanism of innovation process management in the field of information communication technologies. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 181-186.
8. Mirzayev, A. (2021). Hududiy turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv qarorlari qabul qilish metodologiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish. Economics and education, (5), 390-398.
9. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54-56).
10. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33-38.
11. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44-50.
12. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902. IQRO , 4(2), 42–45.
13. Xomidov, K. (2023). O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo ‘llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154-160.

SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO‘LOVCHILAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING YANGI TIZIMI SHAROITIDA SOLIQ NAZORATI

Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot erkinlashuvi va soliq tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq nazorati, Soliq tizimi, soliq mamuriyatchiligi, soliqni tartibga solish, soliq to‘lovchi.

Abstract: The article scientifically substantiates the essence and features of tax control in the context of modifying the relationship between tax authorities and taxpayers at the present stage of economic liberalization and modernization of the tax system in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Tax control, tax system, tax administration, tax regulation, tax payer.

Аннотация: В статье научно обоснованы сущность и особенности налогового контроля в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков на современном этапе либерализации экономикии модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Налоговый контроль, налоговая система, налоговое администрирование, налоговое регулирование, налогоплательщик.

KIRISH

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vazifalarini obyektiv zarurat sifatida amalga oshirish ko‘p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishning byudjet imkoniyatlariga, shuningdek, davlat tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar manfaatlariga ta’sir ko‘rsatish vositalaridan faol foydalanishga bog‘liq. Bunda soliqlar muhim o‘rin tutadi. Axborot oqimlarining misli ko‘rilmagan hajmlari, katta ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish soliq ma’muriyatining byudjet tizimi byudjetlariga daromadlarni, shu jumladan soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va soliqqa tortish munosabatlari ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta’sirini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ichki va xalqaro aspektlarda iqtisodiy faoliyat sharoitlarining o‘zgarishi, raqamli texnologiyalar davlat va soliq to‘lovchilar uchun qo‘shimcha soliq risklarini keltirib chiqarmoqda, shuningdek, soliq sohasida prinsipial yangi munosabatlarni barpo etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bularning barchasi fanda an’anaviy bo‘lgan toifalar va ta’riflar mazmuniga, xususan, nazorat funksiyasi, soliq nazorati, ushbu tushunchalar va ularning xususiyatlarini talqin qilishda nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish muhimligini oldindan belgilab beradi. Soliq munosabatlari ishtirokchilari xulq-atvorining o‘zaro ta’siri sharoitida soliq nazoratini tashkil etish va uslubiy ta’minlashning konseptual jihatdan yangi yondashuvlari faol shakllantirilmoqda.

Nazariy qoidalarni ishlab chiqish va soliq nazoratining yangi vositalarini qo‘llash amaliyotini tahliliy umumlashtirish orqali hokimiyat organlari va soliq to‘lovchilar, shuningdek, vakolatli davlat organlarining soliq nazorati va soliq to‘lovchilarning soliq risklarini boshqarishda tavakkalchilikka yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalangan holda soliq munosabatlari subyektlarining o‘zaro munosabatlarining yangi tendensiyalarini amalga oshirish.soliq faoliyatiga axborot texnologiyalarini faol joriy etgan holda soliq nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ilmiy asoslash uchun asos yaratadi.

Shunday qilib, mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi soliq nazoratining mazmuni va tashkil etilishini nazariy jihatdan chuqur o‘rganish, axborot maydoni va katta ma’lumotlarning shaffofligi sharoitida soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ishlash texnologiyalari, xo‘jalik operatsiyalari va

xalqaro munosabatlarning murakkablashishi, shuningdek, soliq nazoratining ko‘p qirrali rivojlanishining yangi traektoriyalarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish muhimligidan kelib chiqib oldindan belgilangan o‘zgartirish zarurati bilan bog‘liq.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan iqtisodiy-otda sog‘lom raqobatni ta’minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida soliq nazorati tadbirlarini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Korporativ soliqlarni rejalashtirishning amal qilishi ikkinchi tomondan mantiqan davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga ham sabab bo‘ladi. Shu boisdan korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirishni chegaralash maqsadida davlat tomonidan ham qator chora-tadbirlar ko‘rilishini alohida ta’kidlashimiz lozim. Bu borada B.Toshmurodova ta’kidlashicha, “Ko‘pchilik davlatlarning huquqni qo‘llash amaliyotida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga, shuningdek, soliqlarni rejalashtirishni qo‘llash sohasini jiddiy ravishda chegaralash imkonini beradigan maxsus usullar shakllangan”[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik grafiklardan, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligidagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqlar bozor iqtisodiyotining ajralmas institutsional elementidir. Daromadlarni safarbar qilishning soliq usuli xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholi daromadlarining bir qismini majburiy olib qo‘yishga asoslanadi, ularning shakllari va usullari qonunda o‘z aksini topgan.

Soliqlarni majburiy olib qo‘yish shakllari va usullarini retrospektiv tahlil qilish ularni begonalashtirishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq tabiatidan, mustaqil ravishda to‘lash majburiyatiga (dehqonchilik orqali natura shaklida, banklar orqali naqd pul, shu jumladan, deklaratsiya asosida va nihoyat, o‘z-o‘zini hisoblash tomon evolyutsion o‘zgarishini ko‘rsatdi.

Xo‘jalik subyektining soliq to‘lovlarini mustaqil hisoblab chiqishi va to‘lashi, shunga qaramay, to‘lov soliq to‘lovchining daromadlarini begonalashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishini bekor qilmaydi. Agar soliq to‘lash fakti qayd etilmagan bo‘lsa, unda soliqlarning majburiyligi sababli, majburiy undirish varianti, shu jumladan sud qarorlari orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy munosabatlarning murakkablashishi va davlat rivojlanishi bilan soliq nazorati kabi majburlash institutining ahamiyati uning usullarining individual o‘zboshimchalikdan (shu jumladan, soliq dehqonlari ishtirokida) institutsional tuzilgan (ixtisoslashtirilgan vakolatli davlat muassasalari)ga o‘zgarishi bilan ortdi.

Majburlash choralari nafaqat huquqiy shaklga, balki iqtisodiy asosga ham ega. Mazkur ilmiy maqolada soliqlarning nazorat funksiyasi masalasi ularning iqtisodiy mohiyatining aksi sifatida soliq nazorati bilan birgalikda davlat subyektiv faoliyatining bir turi sifatida tadqiq etilgan.

Iqtisodchi-olimlarning soliqlarda nazorat funksiyasi mavjudligi va ushbu funksiyaning mazmuni haqidagi turli pozitsiyalarini tahlil qilish muallifga bir qator xulosalar chiqarishga imkon berdi. Birinchidan, soliqlarda nazorat funksiyasi immanentdir. Ikkinchidan, nazorat funksiyasi soliqlarning paydo bo‘lishidan kechroq paydo bo‘ldi (fiskal funksiyadan farqli o‘laroq). Uchinchidan, axborot-raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’sirida soliqlarning nazorat funksiyasi mazmuni evolyutsiyasi haqida ilmiy faraz ilgari surildi. To‘rtinchidan, soliqlarning nazorat funksiyasi mazmunini ikki darajaga, mikrodaraja va makrodarajaga bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligi va maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning nazorat funksiyasini mikro darajada ko‘rib chiqish, uning mazmuni davlat tomonidan soliqlar yordamida tashkilotlar va fuqarolarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini kuzatish imkoniyati sifatida talqin etilganda ustunlik qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga, shu jumladan ushbu subyektlarning soliq to‘lovlari oqimlarini shakllantirishda bevosita aralashmaydi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan statistik, tahliliy va soliq hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishning umumiy qoidalarini belgilash keyingi soliq nazorati uchun pul oqimlarini axborotda aks ettirishga ma’lum ta’sir

1 Toshmurodova B. Soliq nazorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – B. 71.

ko‘rsatadi. Shu asosda soliq nazorati organlari byudjetga soliq to‘lovlarini shakllantirish uchun asos sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatining umumiy tasvirini yaratadilar. Moliyaviy oqimlarning harakatini bevosita nazorat qilish soliq nazorati tartib-qoidalari doirasida amalga oshiriladi.

Makrodarajaga nisbatan soliqlarning nazorat funksiyasining iqtisodiy mazmunini ochishga tubdan boshqacha yondashuvni kuzatish mumkin. Bunda soliq tushumlari mamlakatda mavjud soliq tizimining holatining jamiyat tomonidan unga yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirishda davlat ehtiyojlariga muvofiqligining ko‘rsatkichi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish vektorlarini turli jihatlar bo‘yicha (faoliyat turlari, tarmoqlar, hududlar va boshqalar bo‘yicha) moslashtirish, soliq qonunchiligining amaldagi normalarini takomillashtirish, ayrim hollarda esa - soliq islohotini tayyorlash orqali soliqqa tortish zaruriyatining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Soliqlarni nazorat qilish funksiyasining mazmunini o‘rganish, shuningdek, iqtisodchilarning soliq nazorati bo‘yicha turli qarashlarini o‘rganish soliq nazorati to‘g‘risidagi xulosani davlat soliq nazoratining subyektiv faoliyatida nazorat funksiyasini amaliy amalga oshirish shakli sifatida asoslash imkonini berdi. Mazkur ilmiy maqolada biz soliq nazoratining uchta jihatini ajratib ko‘rsatdik, uning ijro etuvchi hokimiyat organlarining subyektiv faoliyati sifatidagi murakkabligi va ko‘p qirraliligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro bog‘liqligi 1-rasmda aks ettirilgan.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi soliq organlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shakllantiriladigan moliyaviy oqimlar to‘g‘risida ishonchli tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish uchun asos yaratadi. Ushbu transformatsiya qattiq qarama-qarshilikdan (soliq to‘lovchilar va soliq organlarining manfaatlari to‘qnashuviga asoslangan) “hamkorlikda o‘sishga asoslangan” sheriklik munosabatlarini shakllantirishga o‘tishdan iborat.

Soliq qonunchiligining davlat tomonidan o‘rnatilgan umumiy majburiy normalariga qat’iy rioya qilishga majburlash nafaqat moddiy, balki tashkiliy, ma’naviy va psixologik ta’sir choralari bilan ham amalga oshirilishi mumkin, ular soliq majburiyatlarini bajarish orqali talab qilinadigan xatti-harakatlar va harakatlardan chetlanishlarni aniqlashning muqarrarligiga erishishga qaratilgan.

Soliqlarning mohiyatidan kelib chiqadigan soliq to‘lovchilar va davlatning soliq organlari tomonidan ifodalanadigan iqtisodiy manfaatlarining obyektiv ravishda o‘ziga xos nomuvofiqligi ularning xatti-harakatlari modellarini oldindan belgilab beradi. Mazkur ilmiy maqoladagi tadqiqimizda soliq to‘lovchilar xulq-atvor modelini tanlashning quyidagi asosiy omillari ta’kidlangan:

- soliq munosabatlari subyektlari faoliyati amalga oshiriladigan o‘ziga xos vaziyat (belgilangan normalarni izohlashning noaniqligi va noaniqligi, alohida moddalarning matn matnida nomuvofiqliklar mavjudligi, shuningdek, soliq qonunchiligining yuqori dinamikasi);
- soliq munosabatlari subyektlari tomonidan qo‘yilgan maqsad (masalan, soliq to‘lovchilar - soliq to‘lovlarini minimallashtirish/optimallashtirish va davlat byudjet tizimi byudjetlariga tushumlarni ta’minlash);
- xatti-harakatlarning muayyan modelidan foydalanish imkoniyatlarini tanqidiy baholash (xususan, mansabdor shaxslarning professionalligi, axborot bazasi va ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari, boshqa ishtirokchilarning xatti-harakatlarini baholash (gorizontal va vertikal).

Retrospektiv tahlil soliq munosabatlari ishtirokchilari xatti-harakatlarining asosiy modellarini va ularning o‘zgarishi tendensiyalarini aniqlashga imkon berdi. Soliq to‘lovchilar uchun xavf darajasi mezoni asosida xulq-atvorning ikkita asosiy modeli aniqlandi: faol va passiv. Faol xulq-atvor modeli soliq tavakkalchiligining nisbatan yuqori darajasini qabul qilishga yo‘naltirishni nazarda tutadi, bu quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi: tartibga solinadigan alternativ variantlar; tajovuzkor; soliq strategiyasi. Shunday qilib, faol xulq-atvor modelining tajovuzkor shakli bo‘lsa, huquqni suiiste’mol qilish, shu jumladan soliq to‘lovchilar tomonidan kichik bitimlarning birinchi bosqichida “provokatsion” tarzda sudga tortilishi istisno qilinmaydi.

Passiv xulq-atvor modelida risk-neytral va diskret shakllari aniqlangan. Xavfsiz shakl soliq to‘lovchi tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni hisoblash va to‘lashning barcha qoidalariga qat’iy rioya qilish, normalar noaniq talqin qilingan taqdirda esa, eng neytral qarorlar, soliq to‘lovlarini ortiqcha to‘lash, shu jumladan xarajatlar bo‘yicha qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Diskret shaklda soliq to‘lovlarini optimallashtirish bo‘yicha faol choralar cheklangan darajada qo‘llaniladi.

Soliq organlarining funksional faoliyatini o‘rganish ularning xatti-harakatlarining uchta asosiy modelini aniqlash imkonini berdi: tajovuzkor (repressiv va majburlash); liberal-tahlil va xizmat. Liberal-tahlil modeli soliq qonunchiligini buzish faktlari va sabablarini aniqlash bilan oldindan belgilangan soliq organlarining faoliyati sifatida tavsiflanadi. Nihoyat, xizmat ko‘rsatish - soliq majburiyatlarini vijdonan bajarish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Biz amalga oshirgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar, biznes so‘rovlarini umumlashtirish asosida soliq to‘lovchilar va soliq organlarining xatti-harakatlarining amaliy modellarining o‘zaro bog‘liqligi matritsasi 1-jadvalga muvofiq taklif etdik.

Mazkur binar matritsa soliq munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvor shakllarining soliq nazorati modellarini qo‘llash va xususiyatlariga o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi xulosani argumentatsiya qilish uchun asos bo‘ldi: an’anaviy, xavfga yo‘naltirilgan; profilaktika. Shunday qilib, soliq nazoratining xavf-xatarga yo‘naltirilgan, shuningdek, profilaktika modellaridan foydalanish soliq to‘lovchilar uchun oqilona va soliq organlari uchun liberal-tahlil kabi xatti-harakatlar modellarining ustunligini aks ettiradi, bu esa soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar konsepsiyasida barqaror tendensiyaga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Soliqlarning nazorat funksiyasi, uning iqtisodiy mazmuni va soliq nazorati bilan bog‘liqligi ulardagi o‘zgarishlar va o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, soliq munosabatlari subyektlarining xatti-harakatlari modellari, ularni shakllantirish omillari nuqtayi-nazaridan qoidalar aniqlandi va nazariy asoslandi. Soliq nazoratining asosiy vazifalari va tendensiyalari, shu jumladan iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishni kengaytirish sharoitida uni rivojlantirishning taklif etilayotgan tamoyillari asosida belgilandi.
2. Kameral va tashrifli soliq nazoratidagi o‘zgarishlarning retrospektiv tahlili uning soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlarni nazorat faoliyatida tavakkalchilikka asoslangan yondashuv, shuningdek, soliq munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasidagi sheriklik o‘zaro hamkorligi konsepsiyasini amalga oshirish kontekstida nazorat tadbirlarini o‘tkazishning uslubiy usullariga tuzatish kiritishni taklif qilish orqali o‘zgartirish bilan bog‘liqligini, shu jumladan, tahliliy axborot texnologiyalarining chuqur kirib borishining aksi sifatida ko‘rsatish imkonini berdi.
3. Tadqiq natijalari asosida shakllantirilgan amaliy tavsiyalar majmuasi tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlagan holda soliq organlarining nazorat faoliyati sifatini oshirish uchun zamin yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi – www.lex.uz
2. Адвокатова, А.С. Налоговый инструментарий обеспечения социальной поддержки граждан в условиях экономической нестабильности / А.С. Адвокатова и др. моногр.– М.: РУСАЙНС, 2016. – С. 119-128.
3. Батарин А.А., Сорокин А.А. Новый порядок применения контрольно-кассовой техники: реальность и перспективы / А.С. Адвокатова, // Налоговая политика и практика. – 2016. – № 2 (158) февраль. – С. 30-35.
4. Адвокатова, А.С. Налоговый контроль применения налоговых льгот и освобождений при реализации мер социальной поддержки населения / А.С. Адвокатова // Экономика. Налоги. Право. – 2016. – № 2. – С. 151-158. (1,0 п.л.).
5. Гончаренко Л.И., Адвокатова, А.С. Современные формы налогового контроля как инструмент обеспечения бюджетной устойчивости// Инновационное развитие экономики. – 2016. –№ 6 (36) – 2016, ноябрь-декабрь. Часть 2. – С. 129-135.
6. Черник Д. Взаимосвязь моделей поведения налогоплательщиков и налогового контроля // Экономика. Налоги. Право. – 2021. Том 10.– № 5. –С. 148-157.
7. Djamalov Kh.N., Abdullayev A.B, (2021). Development Of The Methodology Of Accounting Expertise Of Tax Obligations. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 151-163.

“IJTIMOIY HIMOYA YAGONA REYESTRI” AXBOROT TIZIMINING AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDAGI O‘RNI

Aliyev Ma’ruf Komiljon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda kam ta’minlangan oilalar uchun nafaqalarni manzilli va maqsadli to‘lanishini ta’minlashda ijtimoiy himoya tizimida axborot-kommunikatsiyalaridan foydalanish, ushbu yo‘nalishda xorijiy mamlakatlar tajribalari va ularning yutuqlarini O‘zbekistonda joriy etish, tizimda uchrayotgan muammo va kamchiliklar hamda ularni hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, nafaqa, “ijtimoiy himoya yagona reyestri”, kambag‘allik, kambag‘allik chegarasi, ijtimoiy yordam.

Abstract: In this article, the use of information and communications in the social protection system to ensure targeted and targeted payment of allowances for low-income families in the social protection of the population in Uzbekistan, the introduction of the experiences of foreign countries and their achiyevements in Uzbekistan in this direction, the problems and shortcomings encountered in the system, and suggestions and recommendations for their solution stated.

Key words: social protection, benefit, “single registry of social protection”, poverty, poverty line, social assistance.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование информации и коммуникаций в системе социальной защиты населения для обеспечения адресной и адресной выплаты пособий малообеспеченным семьям при социальной защите населения в Узбекистане, внедрение опыта зарубежных стран и их достижений в области социальной защиты населения. Узбекистана в этом направлении изложены проблемы и недостатки, возникшие в системе, а также предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: социальная защита, пособие, “единый регистр социальной защиты”, бедность, черта бедности, социальная помощь.

KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganlik holati va islohotlari aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy himoya siyosati bilan bog‘liq holda tavsiflanadi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo‘lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma’lumki, jamiyatda ijtimoiy ximoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga doimiy e’tibor berish insoniyatning paydo bo‘lishidan beri mavjuddir. Iqtisodiyot rivojlanib borar ekan, obyektiv sabablarga ko‘ra ya’ni iqtisodiy va ishlab chiqarish omillar sabab (kasb kasalligiga chalinish, baxtsiz xodisalar sabab nogironlik, ishsizlik, kambag‘allik) insonlarning vaqtincha yoki doimiy mehnat qobiliyatini yo‘qotishi, daromaddan mahrum bo‘lish va bu orqali hayot darajasining pasayishiga bo‘lgan xavf ortib boradi. Bunda aholini ijtimoiy ximoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya – o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo‘lib, kam ta’minlangan aholi qatlamlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko‘zda tutadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish, aholining barcha ijtimoiy guruhlarida tengsizlikni kamaytirish hamda ehtiyojmand oilalarni to‘liq qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. Bu

borada zamonaviy tizimlardan foydalanish, ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko‘rsatishda inson omilini kamaytirish, shaffoflik va manzillilikni oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish davr talabi ekanligini vaqtning o‘zi ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda kam ta’minlangan oilalar uchun nafaqalarni haqiqiy muhtojlarga cheklanmagan miqdorda to‘lash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini soddalashtirish va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida YuNISEFning texnik ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (VMQ-308, 2019) bilan 2019-yil 1-oktyabrdan Sirdaryo viloyatida sinov tarzida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi ishga tushirildi. 2020-yil 1-sentyabrdan boshlab esa ushbu tizim butun respublika hududiga bosqichma bosqich joriy etildi. Tizim idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda aholiga davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va yordam berish bilan bog‘liq tartib-taomillarni avtomatlashtirish hamda ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-82, 2023) qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy boshqarma hamda bo‘limlari tashkil etildi hamda 2024-yil 1-yanvardan boshlab kam taminlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordamlar bo‘yicha arizalar “Yagona milliy ijtimoiy himoya” AT orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali amalga oshirilishi belgilandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi – idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda kam ta’minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir (VMQ-596, 2023).

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sabablarga ko‘ra ishdan yoki doimiy daromad manbayidan mahrum bo‘lishi natijasida moliyaviy ahvolining yomonlashishi, shuningdek, yordamga muhtoj bo‘lgan oila a’zolarining tibbiy-ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda qo‘shimcha xarajatlarga bog‘liqligi ijtimoiy xavf yoki ijtimoiy risk deb ataladi (Borisenko, 2007).

Insonlarni ijtimoiy havf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyini ijtimoiy himoya tizimi deyish mumkin. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi o‘zining rivojlanish tarixiga ega. Ilk bor aholini ijtimoiy himoya qilish diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ijtimoiy himoya tizimida davlatning roli oshib bordi (Tursunov, Jumabayeva, 2023).

“Ijtimoiy himoya” (ijtimoiy ta’minot) atamasi birinchi marta 1935-yilda AQShning “Ijtimoiy himoya to‘g‘risida”gi Qonunida ishlatilgan. Ushbu qonunga ko‘ra majburiy sug‘urta qilish orqali o‘limdan, keksalikda, nogiron bo‘lganda va ishsizlikdan himoya qilish tartibi belgilangan. Keyinchalik bu atama boshqa mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlar amaliyotida keng qo‘llanila boshlandi (Sholdarov, Tursunov, 2018).

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya – bu qonun bilan mustahkamlangan ko‘p bosqichli iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy tizimdir, shuningdek, aholini ijtimoiy risklardan himoya qilishga mo‘ljallangan institutdir (Tursunov, 2023).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 654-son qarori bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash tartibi aniq belgilandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini elektron axborot tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash, yagona bazada qamrab olish tadbirlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlari, jumladan Argentina, Braziliya, Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Pokiston kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xil ko‘rinish va mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Ularning aksar dasturlarida birinchi navbatda ehtiyojmand aholiga manzilli yordam ko‘rsatish, yagona bazani shakllantirish hamda yordam va xizmatlar tez-

korligini oshirishga e'tibor qaratilgan. Aksar mamlakatlarda aholining ehtiyojmand qatlamini to'liq qamrab olish, ijtimoiy xizmatlarni manzilli ko'rsatish maqsadida yagona axborot tizimlari tashkil etilgan. Dasturlar asosan rivojlanayotgan hamda ehtiyojmand aholi soni va ulushi sezilarli bo'lgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, hukumatlar deyarli bir xil yo'nalishda, ammo har xil shakllar orqali ijtimoiy siyosat olib borishadi. Shu o'rinda ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy himoya yagona tizimlarini batafsil ko'rib chiqsak. Misol uchun, Turkiyada ijtimoiy yordam sohasida integratsiyalashgan axborot tizimi (ISAS) mavjud bo'lib, ushbu elektron axborot tizimi mamlakatda ijtimoiy yordam dasturlarini elektron tarzda boshqarish, jumladan ro'yxatdan o'tish, muvofiqlikni aniqlash, mablag'larni to'lash, monitoring va baholash hamda fuqarolar bilan muloqotni osonlashtiradi. Tizim ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanuvchilar integratsiyalashgan reyestri funksiyasini ham bajaradi. Elektron tizim Turkiya oila va ijtimoiy siyosat vazirligi tomonidan boshqariladi. U 2011-yilda ijtimoiy himoya sohasidagi yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida tashkil etilgan hamda 1000 ta mahalliy ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash jamg'armalari orqali o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Ehtiyojmandlar arizalarini qabul qilish va ko'rib chiqish, nafaqalar to'lash hamda monitoring yuritish bevosita ISAS tizimida shakllantirilgan. Tashkil etilganidan beri ISAS tizimi Turkiyada ijtimoiy himoya siyosatida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Chunki unda barcha ijtimoiy yordam dasturlari qamrab olingan bo'lib, tizimga o'rtacha kunlik murojaatlari soni 10 000 tani tashkil qiladi. Ayniqsa, bir necha yillar avval Suriya va Iroqda ro'y bergan siyosiy inqirozlar paytida ISAS orqali siyosiy qochoqlar uchun insoniyat tarixidagi eng yirik insonparvarlik yordamlari yetkazib berildi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATni joriy etishdan ko'plab maqsadlar ko'zlangan edi.



1-rasm: "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATni joriy etishning asosiy maqsadlari

Bundan tashqari, tizimning tashkil etilishi ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish tezligi hamda sarf-xarajatlar miqdorini keskin qisqartirdi. O'z vaqtida ijtimoiy yordam uchun ariza topshirishdan to uni to'lab berishgacha bo'lgan davr o'rtacha 1,5 yil bo'lgan bo'lsa, hozirda bu muddat 1 oygacha bo'lgan vaqtni tashkil etmoqda. Tizim orqali bir oyda 2-3 mln hujjatlar tekshirib chiqilmoqda. Qo'shimcha ravishda mamlakatda uy xo'jaliklari va ularning ijtimoiy yordamlardan foydalanishi nisbatan shaffof, tezkor hamda tartibga solingan holda boshqarilmoqda.

Bugungi kunda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT orqali aholiga ijtimoiy yordamning asosan ikki turi – bolalar nafaqasi hamda moddiy yordam tayinlanadi. Uzoq vaqt davomida ushbu nafaqalarni tayinlash hamda to'lash tizimi rasmiyatchilik, sansalorlik va byurokratik to'siqlar asosida amalga oshirilib kelingan. Natijada ahol-

ining ehtiyojmand qatlamini qamrab olish darajasi past bo‘lgan. Chunki yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarni turli xil ma’lumotnoma va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni yig‘ish hamda murojjat qilishda ma’lum to‘siqlar, mahalliy darajada mutasaddilarning noto‘g‘ri xatti-harakati aholiga turli qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlanishi bo‘yicha ma’lumotlar

№	Hududlar	2016		2022		2022-yilda 2016-yilga nisbatan o‘sishi, baravar	
		Oilalar soni	Xarajat, mln.so‘m	Oilalar soni	Xarajat, mln. so‘m	Oilalar soni	Xarajat
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	40 265	85 925,8	151 760	784 602,2	3,8	9,1
2	Xorazm viloyati	25 804	70 021,7	115 357	621 520,6	4,5	8,9
3	Surxondaryo viloyati	36 374	110 845,8	220 900	1 236 690,5	6,1	11,2
4	Navoiy viloyati	12 268	30 630,9	47 988	246 403,2	3,9	8,0
5	Buxoro viloyati	19 365	56 515,2	91 338	477 680,3	4,7	8,5
6	Qashqadaryo viloyati	69 544	150 837,8	285 841	1 449 454,2	4,1	9,6
7	Samarqand viloyati	64 323	153 316,7	248 359	1 388 657,3	3,9	9,1
8	Jizzax viloyati	25 632	59 410,9	106 973	593 402,6	4,2	10,0
9	Sirdaryo viloyati	12 121	33 459,3	56 867	305 851,1	4,7	9,1
10	Toshkent viloyati	12 133	45 849,2	95 677	531 373,0	7,9	11,6
11	Namangan viloyati	51 440	109 301,3	242 797	1 267 316,3	4,7	11,6
12	Farg‘ona viloyati	36 518	99 846,0	218 015	1 191 694,0	6,0	11,9
13	Andijon viloyati	50 132	105 623,1	213 719	1 165 288,3	4,3	11,0
14	Toshkent shahri	1 096	2 566,4	33 093	181 840,3	30,2	70,9
Respublika bo‘yicha jami		**466 515**	**1 112 050,1**	**2 133 184**	**11 442 373,9**	**4,5**	**10,3**

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” AT ishga tushirilganidan so‘ng aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lab berish qamrovi va tezkorligi keskin oshganini kuzatish mumkin. Chunki, tizim 20 ga yaqin vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazalari bilan elektron integratsiyalashuv orqali 70 dan ortiq turdagi ma’lumotlarni to‘plash, tekshirish hamda tahlil qilishni ta’minlashga sharoit yaratadi. Natijada 2016-yilda mamlakatda ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni 466,0 mingdan ortiqni, nafaqalarga ajratilgan mablag‘lar 1,1 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2,1 mln oila va 11,4 trln.so‘mni tashkil etdi.

Taqqoslanayotgan davrda eng yuqori o‘sish Toshkent shahrida qayd etilgan bo‘lib (oilalar soni 30 barobarga, ajratilgan mablag‘lar 70 barobarga ko‘p), buning asosiy sababi sifatida aholining o‘tgan davrda nisbatan kambag‘allashuvi hisoblanmaydi, aksincha ijtimoiy himoya bilan qamrab olinish 2016-yillarda nisbatan past bo‘lganligi bilan izohlanadi. Taqqoslash uchun, 2016-yil davomida poytaxtdagi salkam 1 100 oilaga ijtimoiy nafaqa tayinlangan bo‘lsa, Toshkent viloyatida 12 mingdan ortiq, Surxondaryo viloyatida 36 mingdan oshiq oilalar nafaqa olishgan. Vaholanki, ushbu uchta hudud jami aholisi soni deyarli teng bo‘lgan. Bunday holat bo‘lishining yana bir jihati aholi daromadlari va hisoblangan o‘rtacha ish haqi miqdorlarining turlicha ekanligi hamda ularning rivojlanganlik darajasidir.

Shu o‘rinda, hududlarda istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini ko‘rsatuvchi 4 ta indikator tahlil qilinganda qator paradoks holatlar ko‘zga tashlanadi. Ushbu indikatorlar sifatida hududlarda aholi jon boshiga umumiy daromadlar, hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi, kambag‘allik darajasi hamda jami oilalar tarkibida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar ulushi ajratib olindi.

2-jadval: 2022-yilda hududlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha taqqoslama ma’lumotlar

№	Hududlar	Jami oilalar soniga nisbatan nafaqa oluvchi oilalar ulushi (foiz)	Jon boshiga o‘rtacha daromadlar (ming so‘m)	Hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi (ming so‘m)	Kambag‘allik darajasi (foiz)
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	34,2	13 253,4	3 246,2	19,7
2	Xorazm viloyati	22,3	19 643,5	3 182,4	19,1
3	Surxondaryo viloyati	34,5	14 597,2	2 946,1	13,7
4	Navoiy viloyati	18,3	27 420,4	5 125,3	9,2
5	Buxoro viloyati	17,5	21 382,0	3 310,0	11,9
6	Qashqadaryo viloyati	32,9	14 678,9	2 952,6	12,7
7	Samarqand viloyati	26,0	15 534,2	2 944,2	14,0
8	Jizzax viloyati	33,5	15 221,2	2 946,4	16,1
9	Sirdaryo viloyati	25,9	15 124,1	3 221,6	19,5
10	Toshkent viloyati	11,9	18 129,4	3 946,9	14,4
11	Namangan viloyati	32,1	13 880,7	2 924,3	12,8
12	Farg‘ona viloyati	21,3	13 607,9	2 900,5	11,6
13	Andijon viloyati	25,8	15 727,3	3 381,3	17,4
14	Toshkent shahri	3,9	37 518,0	6 314,4	8,5
	Respublika bo‘yicha jami:	**23,6**	**17 807,3**	**3 892,4**	**14,1**

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha oylik ish haqi, o‘rtacha daromadlar miqdori nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar, jumladan Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarida jami aholi tarkibida kam ta’minlangan oilalar ulushi past, aksincha holatlarda esa yuqori bo‘lmoqda. Umuman olganda, joriy yil boshida O‘zbekistonda aholi ning salkam 24 foizi “ijtimoiy himoya yagona reyestri”da ro‘yxatga olingan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (34,2%), Surxondaryo viloyati (34,5%), Jizzax viloyati (33,5%), Qashqadaryo viloyati (32,9%), Namangan viloyati (32,1%)da aholining sezilarli qismi kam ta’minlangan oilalarda istiqomat qilishi aniqlangan.

Ushbu ko‘rsatkich odatda qishloq joylarda yuqori, shaharlarda ancha past bo‘lishi tabiiy hol. Ammo Namangan shahrida istiqomat qiluvchi oilalarning 51 foizi kam ta’minlangan ekanligi yuqoridagi ta’kidlangan paradoks holatlarga misol bo‘la oladi. Taqqoslash uchun, o‘tgan yil yakunida Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchilarning 9,1 foizi kam ta’minlangan sifatida nafaqalar olgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich Andijon shahrida 16,4 foiz, Samarqand shahrida 11,3 foiz, Navoiy shahrida 5,2 foizni tashkil etgan.

Shu o‘rinda, kam ta’minlangan oilalarga bir oyda ajratiladigan nafaqalarning o‘rtacha qiymati tahlil qilinganida, 2022-yil yakunida 2020-yilga nisbatan taqqoslaganda umumiy miqdorlarda ham, AQSh dollariga o‘girganda ham sezilarli o‘sish bo‘lganini qayd etish lozim. Ya’ni 2020-yilda respublika bo‘yicha kam ta’minlangan bir nafar oila bir oyda salkam 365,0 ming so‘m (35,0 AQSh dollari) miqdorida ijtimoiy nafaqa olgan bo‘lsa, 2022-yil yakuniga kelib ushbu raqamlar mos ravishda 451,1 ming so‘m (40,2 AQSh dollari)ni tashkil etgan.

Taqqoslanayotgan davrda hududlarda bundan ham keskin o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rish mumkin. Misol uchun, 2020-yil yakunida Qashqadaryo viloyatida bir oyda bir oilaga 545,5 ming so‘m (52,3$) ijtimoiy nafaqa to‘lab berilgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida bu raqam 446,1 ming so‘mgacha (yoki 39,7$) pasayganini ko‘rish mumkin. Vaholanki ushbu davrda Toshkent shahrida ijtimoiy nafaqaning 77,5 ming so‘mdan salkam 458 ming so‘mgacha (7,4 dan 40,8 dollargacha) oshganining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Qashqadaryo viloyatida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” AT orqali 2020-2023-yil davomida kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchilar sonini to‘liqroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2020-yil noyabr-dekabr oylaridan to‘lash jarayonlari boshlanganligi hisobiga jami 128 271 ta oilaga 104,1 mlrd. so‘mlik nafaqalar to‘lab berilgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida 285 841 ta oilaga 1 449,5 mlrd.so‘mlik nafaqalar moliyalashtirilgan. 2023-yilning 9 oyligida 273 924 ta oilaga 1 trlndan ortiq nafaqalar to‘lab berilgan.

3-jadval: Qashqadaryo viloyat bo‘yicha 2020-2023-yil davomida kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchilar soni to‘g‘risida ma’lumot

№	Hududlar	2020-yil noyabr-dekabr		2021-yil		O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi		2022-yil		O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi		2023-yil yanvar-sentyabr	
		Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so‘m	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so‘m	Oilalar soni	%	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so‘m	Oilalar soni	%	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so‘m
1	Qarshi sh.	5 991	4,9	8 417	35,7	2 426	29%	13 836	66,4	5 419	39%	13 406	56,0
2	Shahrisabz sh.	4 676	3,7	5 494	24,6	818	15%	9 731	47,4	4 237	44%	9 186	37,8
3	G‘uzor	7 231	5,8	11 068	42,5	3 837	35%	18 418	93,8	7 350	40%	16 887	70,9
4	Dehqonobod	7 041	6,0	9 889	34,7	2 848	29%	15 003	77,0	5 114	34%	13 295	59,1
5	Qamashi	12 452	10,1	16 372	64,8	3 920	24%	28 413	149,1	12 041	42%	29 147	117,4
6	Qarshi	7 649	5,9	13 827	50,2	6 178	45%	23 430	112,1	9 603	41%	21 279	86,1
7	Koson	10 166	8,4	11 880	50,9	1 714	14%	23 163	111,5	11 283	49%	20 731	88,7
8	Kasbi	7 996	6,4	11 947	47,8	3 951	33%	18 555	94,2	6 608	36%	17 809	71,2
9	Kitob	5 081	4,3	10 670	37,4	5 589	52%	22 147	109,3	11 477	52%	21 965	92,3
10	Mirishkor	4 070	3,4	5 536	23,4	1 466	26%	10 590	50,4	5 054	48%	9 797	39,3
11	Muborak	1 688	1,4	3 582	13,6	1 894	53%	5 738	28,3	2 156	38%	5 259	22,4
12	Nishon	5 115	4,1	7 009	27,8	1 894	27%	11 552	59,4	4 543	39%	11 464	46,4
13	Chiroqchi	24 585	20,2	24 662	100,2	77	0%	25 762	182,3	1 100	4%	24 875	111,0
14	Ko‘kdala	-	-	0	-	0	0%	17 191	50,9	0	0%	16 715	77,5
15	Shahrisabz	11 653	9,2	12 551	56,7	898	7%	19 921	103,0	7 370	37%	19 975	80,5
16	Yakkabog‘	12 877	10,0	13 679	61,3	802	6%	22 391	114,4	8 712	39%	22 134	91,4
Qashqadaryo viloyati bo‘yicha jami		128 271	104,1	166 583	671,8	38 312	23	285 841	1 449,5	119 258	42	273 924	1 148

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

XULOSA

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” ATning o‘tgan 3 yil davomidagi faoliyati natijasida afzalligi bilan bir qatorda qator kamchiliklar ham kelib chiqmoqda. Jumladan, so‘ngi yillarda bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanishida bir qancha holatlarda o‘ziga to‘q oilalar ushbu turdagi nafaqalarni olish holatlari kuzatilgan. Xususan, ayrim o‘ziga to‘q fuqarolar o‘z mulklarini qarindoshlari nomiga rasmiylashtirib, bolalar nafaqasi va moddiy yordam olib kelgan.

Shu va boshqa turdagi holatlarni oldining olish, bolalar nafaqasi va moddiy yordamni chindan ham unga muhtoj oilalarga yetib borishni ta’minlash maqsadida joriy yilning 10-noyabr kuni Vazirlar Mahkamasining yangi Qarori (VMQ-596, 2023) e’lon qilindi. Qarorga muvofiq:

- 2024-yil 1-apreldan boshlab kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun onlayn ariza berish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yish belgilandi;
- 2024-yil martdan boshlab oilaning nomiga rasmiylashtirilmagan, lekin foydalanuvida bo‘lgan avtotransport vositalari, ko‘chmas mulklari, chorva mollari fuqarolarning arizalariga muvofiqligi joyiga chiqqan holda o‘rganilish tartibi joriy qilinadi. Bu orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanishida adolat mezonlari mustahkamlanadi;
- oilalar tomonidan kuchmas mulk yoki boshka kimmatbaho mulklar xarid kilinganida avtomatik tarzda har oyda ularning moddiy ahvoli o‘rganiladi hamda kam ta’minlangan oila deb e’tirof etilmaganida bunday oila reyestrdan chiqarish amaliyoti belgilanmoqda;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- oilaning kam ta’minlanganligi sababli “temir daftar” ro‘yxatida bir yil majburiy bo‘lish sharti nizomdan chiqarib tashlanmoqda;
- rasman nikohi bekor qilinmagan aliment to‘layotgan er (xotin) oila tarkibiga kiritilmasligi belgilandi;

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” AT nafaqat ijtimoiy xizmatlar va yordamning manzilliligini oshirish imkoniyati, balki har qanday murakkab sharoitda ham aholining ehtiyojmand qismini qisqa muddatlarda aniqlash va ularni davlat tomonidan manzilli qo‘llab-quvvatlashning shaffof va samarali vositasiga aylanib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-apreldagi “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini idoralaro elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 308-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni.
4. Борисенко Н.Ю. Построение национальной системы пенсионного обеспечения: теория и практика // Финансы и кредит. 2007. № 17. С. 54–65.
5. Tursunov J.P., JumabayevaK.B. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari. // Fundamental tadqiqotlar. No 1 (2023) B. 25-33
6. Sholdarov D., Tursunov J. Improvement of the system of state pension provision in Uzbekistan //Scientific journal” Finance”, 1st issue. – 2018. – T. 107.
7. Tursunov, J. (2023). O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta’minlash yo‘llari. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(1), 327–333. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a50
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 654-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-noyabrdagi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo‘yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 596-son Qarori.

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari turlicha yondashuvlar orqali ochib berilgan. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish borasida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o‘rganilgan. Shuningdek, milliy sug‘urta bozorining hozirgi holati, bozorning rivojlanganlik darajasi muhim ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilingan, xorij tajribasi o‘rganilgan hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta mukofoti, sug‘urta bozori, fond bozori, IPO, investitsiya, sug‘urta to‘lovi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: In this article, ways to ensure the financial stability of insurance companies are revealed through various approaches. The work of scientists who conducted research to improve the financial stability of the company was studied. Also, based on important indicators, the current state of the national insurance market, the level of market development were analyzed, foreign experience was studied and conclusions were drawn.

Key words: insurance, insurance companies, insurance premium, insurance market, stock market, IPO, investments, insurance payments, financial stability.

Аннотация: В данной статье пути обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний раскрываются посредством различных подходов. Изучены работы ученых, проводивших исследования по повышению финансовой устойчивости компании. Также на основе важных показателей было проанализировано современное состояние национального страхового рынка, уровень развития рынка, изучен зарубежный опыт и сделаны выводы.

Ключевые слова: страхование, страховые компании, страховая премия, страховой рынок, фондовый рынок, IPO, инвестиции, страховые выплаты, финансовая устойчивость.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida sug‘urta bozorining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini tezlashishiga yordam beradi. “AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy kabi G20 davlatlarida sug‘urta to‘lovlari har yili mamlakat yalpi ichki mahsulotining 4-17,4 foizini tashkil etadi. Bu sohada dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7,3 foizga teng. Bu esa o‘z navbatida sug‘urta mukofotlarining keskin ortishiga sabab bo‘lib, 2021-yilda u 3,3 foizga oshdi va jami 6,9 trillion dollarni tashkil etdi. Sug‘urta mukofotlarining o‘sishi dunyoning turli qismlarida turlicha bo‘lib, xususan, Xitoyda 6,3 foiz, AQShda 1,7 foiz, G‘arbiy Yevropa davlatlarida 2,8 foiz va rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,6 foizni tashkil etdi” (Musayeva, 2023). Jahon sug‘urta bozorining ijobiy tendensiyalari sug‘urta kompaniyalarining mijozlar soni va faoliyat geografiyasining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, u yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, jahon sug‘urta bozorini boshqarish doimiy takomillashtirish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishni talab qiladi, bu esa mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga, kompaniyalarning raqobatbardoshligini va kompaniya imijini yanada yaxshilashga hamda moliyaviy barqarorligini oshirishga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiya yuridik maktabining taniqli vakili va sug‘urta bo‘yicha mutaxassis professor V. I. Serebrovskiy (1927) Gobi nazariyasini fundamental g‘oya sifatida ko‘rib, “sug‘urta kelajakdagi, noma’lum va tasodifiy ehtiyojlarni ko‘plab odamlar o‘rtasida taqsimlash shakli deb ataydi”.

A. A. Romanova (2017) ilmiy maqolasida sug‘urta bozoriga quyidagi ta’rifni keltirib o‘tadi, “sug‘urta bozori – bu mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi bo‘lib, fond bozori bilan bir uyg‘unlikda rivojlanib boradi. Sug‘urta bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonining jadal rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Sug‘urta bozori instrumentlarining ko‘payishi va o‘sishi – bu ishlab chiqarish hamda moliya sohasida globallashuv, integratsiya jarayonlarining ajralmas qismidir, shu sababli moliya bozorlarining o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi talab etiladi”.

A. M. Godin (2009) ilmiy tadqiqot ishida “sug‘urta bozorining moliya tizimidagi o‘rni beqiyosdir, sababi turli xil moliya institutlariga sug‘urta himoyasini taqdim etish bilan bir qatorda o‘zining investitsion faoliyati va salohiyati orqali moliya bozorining asosiy o‘yinchilariga aylanib boradi” - degan fikrlarni ilgari suradi.

Iqtisodiyotda sug‘urta va fond bozorlari moliya bozorining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lib, ular o‘zaro faoliyat turlarini modellashtirishda, takomillashtirishda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. (Abdullayeva, 2022)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida guruhlash, qiyoslash, taqqoslash, sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta kompaniyalarining faolligi, moliyaviy barqarorligi sug‘urta bozorining qanchalik taraqqiy etganligiga bog‘liq hisoblanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozori endi rivojlanayotgan bozorlardan hisoblanadi. Bugungi kunda sug‘urta bozori holatini quyidagi jadvalda keltirilgan raqamlardan tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval: O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Sug‘urta xizmatlarining YaIMdagi ulushi (foizda)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8
2.	Aholi jon boshiga sug‘urta mukofotlarining ulushi (ming so‘m)	50,0	65,0	88,0	114,0	148,0
3.	Jami sug‘urta mukofotlari (trln.so‘m)	1,6	2,3	2,2	3,7	6,2
4.	Sug‘urta kompaniyalarining jami ustav kapitali (trln.so‘m)	0,5	0,8	0,9	1,0	1,2
5.	Sug‘urta kompaniyalarining jami aktivlari (trln.so‘m)	2,5	3,0	3,6	4,3	5,2
6.	Sug‘urta kompaniyalarining jami investitsiyalari miqdori (trln.so‘m)	2,0	2,5	3,3	4,1	5,3
7.	Sug‘urta xizmatlari soni	105	115	135	155	175
8.	Hududiy bo‘linmalar soni	1450	1500	1580	1660	1740

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlarini 2018-2022-yillar bo‘yicha tahlil qilsak, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan sug‘urta kompaniyalari ustav kapitallarining minimal miqdori 2018-yilda 0,5 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2022-yilda kelib 1,2 trln. so‘mga yetkazilganligi, 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 2,4 martaga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Sug‘urta kompaniyalarining jami aktivlari 2018-yilda 2,5 trln. so‘m, 2019-yilda 3,0 trln.so‘m, 2022-yilga borib, 5,2 trln. so‘mga, ya’ni taqqoslanayotgan 2018-yilga nisbatan qariyb 2,1 baravarga oshgan. Sug‘urta xizmatlarining YaIMdagi ulushi 2018-yilda 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 0,8 foizga, ya’ni 2 baravarga, sug‘urta bozorining o‘sish ko‘rsatkichlarini belgilab beradigan asosiy omillardan biri bo‘lgan sug‘urta mukofotlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori 2018-yilda 50,0 ming so‘mni tashkil etgan holda 2022-yilda 3 baravarga oshib, 148 ming so‘mga yetgan.

Sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlaridan biri sifatida sof sug‘urta mukofotlari hajmini oshirish muhim hisoblanadi. Sof sug‘urta mukofoti – sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta shartnomasida belgilangan sug‘urta ta’rif stavkasiga asosan hisoblab chiqarilgan sug‘urta polisi uchun to‘langan pulning belgilangan muddatda (sug‘urta shartnomasiga ko‘ra) sug‘urta xodisasi sodir bo‘lmaganda kompaniya ixtiyorida qoladigan mablag‘ sof sug‘urta mukofoti hisoblanadi.



1-rasm: O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari hajmi dinamikasi, mlrd.so‘m

Sof sug‘urta mukofoti jami sug‘urta mukofotlaridan sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda qoplangan sug‘urta to‘lovlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘radigan bo‘lsak, sug‘urta bozorida sof sug‘urta mukofoti yildan yilga oshganligini ko‘rishimiz mumkin ya’ni 2018-yilda sof sug‘urta mukofoti 1174,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3600,0 mlrd.so‘mgacha oshgan.

Mazkur amaliyot qo‘shni Qozog‘iston davlatida 2023-yil 1-iyun holatiga ko‘ra, sug‘urta sektorining sof foydasi 87 milliard 241 million tengeni tashkil qildi. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 165 foizga ko‘pdir. Sug‘urta sektori aktivlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,15 foizni tashkil etadi. Yalpi ichki mahsulotdagi sug‘urta mukofotlarining ulushi esa 0,79 foizni tashkil etadi. Agar bir kishi boshiga sug‘urta mukofoti miqdorini hisoblasak, har bir qozog‘istonlik uchun 42 300 tengedan to‘g‘ri keladi.

Sug‘urta amaliyotidan ma’lumki, sug‘urta kompaniyalari sonining ortib borishi o‘z navbatida ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlari qamrovining kengayishiga, bu esa pirovard natijada ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishi va sug‘urta mukofotlari tushumining ko‘payishiga olib keladi.

Sug‘urta bozorida sug‘urta mukofotlari hajmining oshib borishi kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda kompaniyalar faoliyatida sug‘urta operatsiyalari bilan bog‘liq risklarni ham oshishiga olib keladi. Buni biz sug‘urta operatsiyalarining zararlilik ko‘rsatkichiga qarab baho berishimiz mumkin.



2-rasm: Sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasi, foizda (Mamadjanov, 2023)

Sug‘urta bozorining shiddat bilan rivojlanib borishi sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buni yuqorida keltirilgan rasm ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasi yildan yilga o‘sib bormoqda. Ammo bu ko‘rsatkichni salbiy deb ham bo‘lmaydi. Buni ikki tomonlama tahlil qilish o‘rinli. Birinchidan, sug‘urta kompaniyalari tomonidan qabul qilingan sug‘urta obyektlari bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi natijasida o‘z vaqtida sug‘urta to‘lovlarini to‘lanishi natijasida mijozlarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini yanada ortishiga sabab bo‘lsa, ikkinchidan, sug‘urta uchun qabul qilinadigan sug‘urta obyekti bilan bog‘liq sug‘urta xodisasi sodir bo‘lish ehtimoli sug‘urta xodimlari tomonidan jiddiy o‘rganilmayotganligini sabab qilishimiz mumkin. Sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasini baribir salbiy deya olmaymiz. Chunki xorijiy tajribada bu ancha yuqori hisoblanadi, jumladan Yaponiya sug‘urta bozori umumiy sug‘urta tarmog‘ida mazkur ko‘rsatkich 64 foizni tashkil qiladi.

Jahon bozorida sug‘urta kompaniyalari eng ko‘p moliyaviy resurs to‘planadigan soha sifatida e’tirof etiladi va bu jihat uni yirik investitsiya manbayiga aylantiradi. Sug‘urta kompaniyasi boshqa moliyaviy tashkilotlar (banklar, fond birjalari, investitsion fondlar, pensiya jamg‘armalari va boshqalar) bilan bir qatorda mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi hisoblanib, davlat moliya tizimining muhim bo‘g‘inini tashkil qiladi. Sug‘urta kompaniyalarining ma’lum darajadagi pul oqimlarining to‘planish va taqsimlanish tamoyili ularni yirik institutsional investor sifatida ham namoyon qiladi.

Sug‘urta kompaniyalari o‘z resurslarini investitsiya obyektlarini moliyalashtirish maqsadida yo‘naltirish orqali ham moliyaviy barqarorlikka erishadi, sug‘urta tizimi barqaror rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, sug‘urtalovchilar investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari orqali asosiy faoliyat bo‘yicha majburiyatlarini bajarib, to‘lov qobiliyatini mustahkamlaydi. Agentlikka ko‘ra, 2022-yilda sug‘urtalovchilar tomonidan 4,8 trln. so‘m miqdorida investitsiya qo‘yilmalari amalga oshirilgan va ularning 61 foizi bank depozitlariga to‘g‘ri kelgan (3-rasm).



3-rasm: Sug‘urtalovchilar moliyaviy resurslarining investitsiya obyektlari o‘rtasida taqsimlanishi (2022-yil) (Mavrulova, 2023)

Jahon sug‘urtalovchilarining moliyaviy resurslari fond birjalari orqali harakatlanadi. Fond bozori kapitalning iqtisodiyot tarmoqlariga transformatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi. Sug‘urtalovchilarning fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish resurslarni ishonchli joylashtirishda, real ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlashda, qo‘shimcha resurslar jalb qilinishida muhim omil sanaladi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlaridan yana biri kapital bozorida ishtirokini ta’minlash hisoblanadi.

Moliyaviy xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan fond hamda sug‘urta bozorlari kapitalga muhtoj tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini rag‘batlantiradi. “Bugungi kunda fond va sug‘urta bozorining iqtisodiy islohotlarni tubdan yangilash jarayonidagi rolini oshirish hamda ularning o‘zaro faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan sanaladi” (Abdullayeva, 2022). Sug‘urta kompaniyalari fond bozorida, birinchidan, ustav kapitalini shakllantirish va ko‘paytirish hamda aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida; ikkinchidan, ularning faoliyat turidan, ya’ni vaqtincha jalb qilingan bo‘sh mablag‘larga egaligidan kelib chiqib ularni qimmatli qog‘o-

zlarga yo‘naltiruvchi investor sifatida; uchinchidan, fond bozorida investitsiya vositachisi va risklarning taqsimlovchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib “O‘zbekinvest” EISK AJ moliyaviy barqarorligini oshirishda IPOni amalga oshirdi.

IPO (Initial Public Offering) – bu kompaniya aksiyalarining fond bozorida birlamchi taklifi. Kompaniya IPO o‘tkazishga qaror qilganda, u birinchi marta investorlarga o‘z aksiyalarini taklif qiladi. Taklif natijasida tashkilot ommaviy maqomga ega bo‘ladi va qog‘ozlarga ega bo‘lish barcha uchun ochiq bo‘ladi.

“O‘zbekinvest” EISK AJ fond bozoriga chiqishni muvaffaqiyatli yakunladi. 2023-yil 15-dekabr kuni “O‘zbekinvest” EISK AJ “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlarni birlamchi ommaviy joylashtirishni (IPO) yakunladi. IPO yakuniga ko‘ra arizalar kitobi 128,45 foizga imzolandi, bu esa investorlarning kafolatlangan daromadga yuqori qiziqishi va O‘zbekistonning eng yirik sug‘urta kompaniyasiga ishonchidan dalolatdir. Ta’kidlash joizki, jismoniy shaxslar “O‘zbekinvest” IPO hajmining uchdan bir qismini sotib oldi: joylashtirilgan aksiyalarning 70,27 foizi institutsional, qolgan 29,73 foizi chakana investorlarga taqsimlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari ichida eng samaralisi bu kompaniyalarning fond bozorida ishtirokini ta’minlashdir. Rivojlangan sug‘urta va fond bozoriga ega bo‘lgan davlatlar tajribasi, bir qancha iqtisodiy olimlarning fikri shuni ko‘rsatdiki, sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyatning moddiy mablag‘ga muhtoj bo‘lgan qatlamini moliyaviy resurs bilan ta’minlashga, yuridik va jismoniy shaxslarning ma’lum bir iqtisodiy jarayonlarida vujudga keladigan xavf-xatarlarini minimallashtirishga, shuningdek, yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Sug‘urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyasining o‘z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg‘or sug‘urta kompaniyalarining tajribalarini o‘rganish va o‘z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta’minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug‘urtalanuvchilarni ko‘proq jalb qilish va mavjud sug‘urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko‘rinishdagi qo‘shimcha xizmatlar va bonuslarni qo‘llashga, sug‘urtalanuvchi manfaatlarini ko‘proq e’tiborga oluvchi sug‘urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashga harakat qiladi. Shunday harakatlarni o‘zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug‘urta kompaniyalarining milliy bozorda ko‘payishi oxir-oqibatda sug‘urtalanuvchilar sonining ko‘payishi, to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchning ortishiga va bu orqali sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Musayeva D.D. O‘zbekiston hududlari sug‘urta bozorini tartibga solish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2023-yil. 55-bet.
2. Серебровский В.И. Страхование. М., 1927. С. 9
3. Романова А. А, Улыбина Л. К. (2017) Состояние и перспективы развития мирового страхового рынка. Региональная экономика и управление: электронный научный журнал // Номер журнала: №4 (52).
4. Годин А.М., Фрумина С.В. (2009) Страхование: Учебник. - М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, –с. 36.
5. Abdullayeva N.A. Sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022 yil. 13-bet.
6. Mamadjanov Sh.J. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini sug‘urtaviy himoyalash masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2023 yil. 62-bet
7. Mavrulova N.A. Umumiy sug‘urta sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2023 yil. 81-bet
8. Tursunov Jahongir Polatovich, Abdurakhmonov Ilyos Khurshidovich, Beknazarav Zafar Ergashevich. The effectiveness of the organization of activities of insurance intermediaries in the development of insurance networks. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020. Issue 04. P. 3888-3896
9. https://kapdepo.uz – O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisi (broker, depozitariy, investitsiya maslahatchisi).

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ

Бобомуротова Манзура Панжи кизи
Соискатель преподаватель Ташкентского финансового института

Аннотация: В статье проанализированы мероприятия, проводимые в налоговой системе нашей страны по цифровизации процессов налогообложения, их эффективность, отмечены проблемы в процессе цифровизации, разъяснены предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация процессов налогообложения, учет налогоплательщиков, электронные сервисы, интерактивные сервисы, налоговый контроль, налоговые проверки, камеральная аналитика.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz soliq tizimida soliqqa tortish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ularning samaradorligi tahlil qilingan, raqamlashtirish jarayonidagi muammolar qayd etilgan, ularni hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, soliqqa tortish jarayonlarini raqamlashtirish, soliq to'lovchilar hisobi, elektron xizmatlar, interaktiv xizmatlar, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, stol tahlillari.

Abstract: The article analyzes the measures taken in the tax system of our country to digitalize taxation processes, their effectiveness, points out problems in the process of digitalization, explains proposals and recommendations for their solution.

Key words: tax system, digitalization of taxation processes, accounting of taxpayers, electronic services, interactive services, tax control, tax audits, desk analytics.

“Необходимо улучшить деятельность налоговых органов, для этого необходимо широко внедрять информационные технологии. В результате процессы полностью автоматизированы. В целях сокращения размеров “скрытой экономики” будут устранены налоговые препятствия, усилен потенциал кадров” Ш. Мирзиёев, Президент Республики Узбекистан, обеспечив свободную деятельность субъектов предпринимательства, радикально сократив вмешательство государственных органов в их деятельности, раннее предупреждение нарушений, повышение эффективности превентивных мер является одной из важных приоритетных задач государственной политики в сфере экономического развития нашей страны.

В свою очередь, рациональное формирование государственной налоговой политики и налоговой системы обеспечивает создание благоприятных условий для развития предпринимательства в стране и привлечения иностранных инвестиций.

Однако наличие определенных проблем в системе регулирования налоговых отношений и повышения правовой культуры налогоплательщиков отрицательно влияет на обеспечение стабильных источников финансирования программ социально-экономического развития страны. Это вызывает снижение эффективности взаимодействия и контроля между министерствами и ведомствами, заинтересованными в налоговых отношениях.

По этой причине оптимизация налоговой политики и реформа налогового администрирования в нашей стране являются основными направлениями:



Использование современных методов борьбы с коррупцией в органах государственной налоговой службы, утвержденных Указами Президента Республики Узбекистан “О концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан” и “О дополнительных мерах по совершенствованию налоговой политики Республики Узбекистан”. налоговое администрирование” были определены как важные задачи.

В соответствии с мероприятиями, осуществляемыми в связи с выполнением данных задач:

В новой редакции был принят Налоговый кодекс – основной документ, регулирующий налоговые отношения в Узбекистане, и все процессы, связанные с налоговым администрированием, нашли свое отражение в этом документе;

- налоги, взимаемые из тех же источников, которые действовали ранее, были сокращены и оптимизировано их количество;
- широко развернута деятельность по организации и внедрению механизмов налогового контроля с использованием современных информационно-коммуникационных технологий;
- кроме того, для развития сервисов, направленных на оказание услуг налогоплательщикам, созданы возможности для самостоятельной регистрации налогоплательщиков и уплаты налогов, получения информации о доле юридического лица.

Расширение перечня услуг, оказываемых налогоплательщикам в режиме реального времени, в результате проведенных реформ по преобразованию системы в высокотехнологичную организацию по принципу “Налогоплательщик – Помощник”, в 2022 году будет 41 автоматизированная информационная система. (“Автокамера”, “Тахлика-Анализ”, AAT, Tax Gap, EHF, Онлайн НКМ, “Е-аренда”, “Кэшбэк”, “Налог”, MXIK, Программные продукты “Цифровая маркировка” и ряд интерактивных налоговых сервисов). предоставленных налогоплательщикам увеличилось с 30 до 50.

TARAQQIYOT PROGRESS

В результате реализованных мер количество субъектов хозяйствования, действующих в 2022 году, увеличилось на 11% до 541,5 тысяч. В частности, количество вновь зарегистрированных юридических лиц составляет 95 511, из них 55% занимаются торговлей и услугами, 16% - сельским хозяйством, 14% - промышленностью, 15% - другими сферами.

В результате интеграции баз данных кадастровых и налоговых органов в целях обеспечения полного охвата кадастрового учета и оценки земельных участков и недвижимого имущества количество физических лиц, уплачивающих имущественный и земельный налог, увеличилось на 3%, количество индивидуальных предпринимателей увеличилось на 9%, а - количество занятых им граждан увеличилось на 33%.

В результате интеграции данных отчета по налогу на имущество в базу данных кадастрового органа и полной автоматизации этой базы посредством программного продукта “E-привилегия” налогоплательщики получают возможность формировать 100% налоговую отчетность. В 2023 году возможность самостоятельно вносить изменения в свою отчетность имели 22 процента, или 13,6 тысяч налогоплательщиков.

В результате автоматизации налоговой отчетности показатель добровольной подачи отчетности составил 99,0 процента, уровень добровольной уплаты налогов – 96,0 процента. Таким образом, количество электронных счетов-фактур, выставленных в 2023 году, составило 38,1 млн, что увеличилось на 4,4 млн, или 13%, по сравнению с предыдущим годом. Отраженный в них оборот составил 1402,7 трлн сумов, что по сравнению с прошлым годом увеличилось на 252,6 трлн сумов или 22%, а сумма НДС увеличилась на 134,2 трлн сумов или 19%.

Количество электронных счетов-фактур, выставленных с 2023 года, достигло 38,1 млн, что по сравнению с прошлым годом увеличилось на 4,4 млн, или 13%. Отраженный в них оборот составил 1402,7 трлн сумов, что по сравнению с прошлым годом увеличилось на 252,6 трлн сумов или 22%, а сумма НДС увеличилась на 134,2 трлн сумов или 19%.

Создана единая система маркировки отдельных видов продукции и электронная база данных учета продукции налоговыми органами;

В 2023 году число пользователей системы цифровой маркировки товаров достигло 51 377 человек, что в 4,6 раза больше, чем в предыдущем году, а количество маркированных ими товаров достигло 2 миллионов, увеличившись в 2,2 раза по сравнению с предыдущим годом.

Кроме того, создание современных информационных сервисов в рамках реализации принципа “Налоговая служба – Помощник налогоплательщика” позволит добровольно выполнить обязательства на 95% в короткие сроки, а также выполнить 90% суммы месячных прогнозных показателей к 25 числу, а сумма налоговых поступлений в 2022 году составит 148,4 трлн сумов, что на 16% или 20,4 трлн сумов больше, чем в прошлом году.

56,7% этих дополнительных доходов произошло за счет улучшения налогового администрирования, а 43,3% - за счет факторов, связанных с изменением налоговой политики.

На цифровизацию отрасли выделено 5085,5 млрд сумов. Из них 2 миллиарда 687,7 миллиарда сумов запланированы на повышение эффективности налоговых проверок. В частности, эффективность налогового контроля: в 2022 году органами государственной налоговой службы проведено 45 417 контрольных мероприятий, из них 38 963 камеральных проверок, 5 297 выездных проверок, 11 257 налоговых проверок. По сравнению с прошлым годом общее количество проверок сократилось вдвое (91 196 в прошлом году). Снижение количества проверок произошло в основном за счет камеральных проверок, и причиной этому является введение с 2022 года системы “автокамера” в порядок проведения камеральных проверок.

В частности, система “Автокамера” представляет собой предпроверочный анализ, в ходе которого документы, удостоверяющие личность, предоставленные налогоплательщиком, и информация, полученная от других организаций об этом налогоплательщике, анализируются по 400 критериям. Налогоплательщику предоставляется возможность самостоятельно исправить это. ошибка, и налогоплательщик исправляет ошибку и повторно представляет отчет. В 2022 году, воспользовавшись этой возможностью, 49 723 налогоплательщика представили повторную отчетность с дополнительными расчетами на 2,3 трлн сумов. В результате данные налогоплательщики были освобождены от финансовых штрафов в размере 1,1 трлн сумов без проведения каких-либо налоговых проверок.

По результатам других расследований в 2022 году выявлено неуплаты налогов в бюджет на сумму 13,6 трлн сумов, на налогоплательщиков-правонарушителей наложены финансовые штрафы на сумму 1,4 трлн сумов, всего наложено 2,8 трлн сумов. к дисциплинированным предпринимателям, добровольно устранившим ошибки и недостатки, финансовые штрафы в сумах не применялись.

Наряду с указанными выше результатами, в системе органов государственной налоговой службы имеются и проблемы при осуществлении налоговых отношений с налогоплательщиками.

Включая:

- создание благоприятных условий для добровольного и самостоятельного исполнения налогоплательщиками своих налоговых обязательств, изменение бизнес-процессов с учетом требований возможностей налогоплательщика, применение инструментов налогового контроля только к недобросовестным налогоплательщикам, поощрение их перехода в категорию добросовестных налогоплательщиков;
- неспособность налоговых органов бороться с широко распространенной практикой сокрытия налогоплательщиками сумм доходов и использования схем уклонения от уплаты налогов приводит к снижению налоговой дисциплины, сохранению масштабов теневой экономики, ухудшению условий ведения бизнеса для честных предприниматели;
- наличие влияния “человеческого фактора” при принятии решений в налоговых органах, отсутствие у них масштабных механизмов управления данными является причиной сохранения различий между возможностью и реальным уровнем принятия решений в автоматизированной системе , обеспечение налоговых поступлений.

В качестве решения этих проблем предлагается следующее.

1. Внедрить клиентоориентированные методы обслуживания в налоговых органах, поддержать деятельность честных предпринимателей, создать удобные, понятные и простые механизмы исполнения налоговых обязательств;
2. Меры по обеспечению качественного изменения налогового администрирования, повышения эффективности его методов и расширения охвата налогооблагаемой базы;
3. Меры по созданию равных условий для ведения бизнеса и развитию конкурентной среды;
4. Цифровая трансформация деятельности налоговых органов и механизмов налогового администрирования, внедрение новых программных продуктов в деятельность налоговых органов.

Библиографический список

1. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации г. Ташкент, 5 октября 2020 г., № УП-6079.
2. Кенжабаев А.Т. Современное содержание и понятие цифровой экономики // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2021. – №1-1 (71).
3. Кенжабаев А.Т., Абдуллаев М.Х. Ўзбекистон Республикасида хавфли геологик жараёнларни кузатишда ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш босқичлари ва истиқболлари // Geologiya va mineral resurslar. Геология и минеральные ресурсы. Geology and mineral resources. – 2021. – №5.
4. Kenjabaev A.T., Niyazov M. Sh. Uzbekistan as a new logistics digital ecosystem // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). – 2021. – Vol. 9, Issue 12. – ISSN (E): 2347-6915
5. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan // International Journal of Management, IT & Engineering. –2022. – Vol. 12 Issue 9. – ISSN: 2249-0558.
6. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Developing the digital economy impact on the country's economic growth // International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS). – 2022. – Vol. 12 Issue 09. – ISSN: 2249-7382.
7. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://my.gov.uz.

TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIY AHAMIYATI

Irmatova Lola
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, kambag‘allikni qisqartirish omillari, aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari, mamlakatimizda olib borilayotgan islohontlarning natijasi hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish, innovatsiya, raqamli texnologiya, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar.

Abstract: In this article, modern ways of improving the business environment, reducing poverty and developing economic and social opportunities to increase the income of the population, scientific research aimed at the development of entrepreneurship and reducing poverty, factors of poverty reduction, new opportunities for increasing the income of the population, the results of the reforms carried out in our country, and legal issues aimed at the development of entrepreneurship scientifically stated.

Key words: private entrepreneurship, small business, reducing poverty, increasing incomes of the population, innovation, digital technology, economic and social opportunities.

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные пути улучшения бизнес-среды, сокращения бедности и развития экономических и социальных возможностей для увеличения доходов населения, научные исследования, направленные на развитие предпринимательства и сокращение бедности, факторы снижения бедности, новые возможности повышения доходов населения. доходы населения, результаты реформ, проводимых в нашей стране, и правовые вопросы, направленные на развитие предпринимательства, научно обоснованы.

Ключевые слова: частное предпринимательство, малый бизнес, сокращение бедности, повышение доходов населения, инновации, цифровые технологии, экономические и социальные возможности.

KIRISH

Buguni kunda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasini qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirish iqtisodiyot sohasidagi hal qilinishi lozim bo‘lgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash hamda kambag‘allikni qisqartirish borasida ko‘plab yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizdagi xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmonlari qabul qilindi. Ushbu Farmonlarda belgilab berilgan eng dolzarb ustuvor vazifalarni hududlar kesimida ijrosini o‘z vaqtida ta’minlanishi natijasida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishiga, kambag‘allikni qisqartirish borasida yangi dasturlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga turtki

bo‘ldi hamda aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada oshishiga xizmat qildi. Amaliyotga tatbiq etib kelinayotgan yangi islohotlar natijasida mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash hamda hududlardagi bandlik darajasini oshirish salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanmasida quyidagi fikrlar keltirib o‘tilgan:

- davlat himoyasida bo‘lgan xususiy mulkning daxlsiz ekanligini, har qanday vaj bilan xususiy mulkni, shu jumladan, avval xususiylashtirilgan mulkni olib qo‘yish, asosli zaruratsiz buzib yuborish g‘ayri huquqiyligini anglab yetmayotgani hamda yer uchastkalarini ajratishda o‘zboshimchaliklarga yo‘l qo‘yilayotgani ta’kidlangan. Xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, soliqqa tortish mehanizimi, yirik biznes bilan hamkorlik va kooperatsion aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha qator choralar amalga oshirildi [1].

Hozirigi kunda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash orqali mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash uchun tadbirkorlik sohasida litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarning sonini keskin qisqartirish, tegishli vakolatlarni Vazirlar Mahkamasidan muayyan davlat organlariga berish orqali litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishni nomarkazlashtirish, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘rnatilgan tartibda har qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqini bergan holda, ular shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini bekor qilish va boshqa chora tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, kambag‘allik darajasini qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishni yanada rivojlantirishning zamonaviy yo‘llaridan biri xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘lib, innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi imkoniyatlar yuzaga keladi hamda aholi daromadlarini ortib borishiga xizmat qiladi.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha xorijlik olimlar bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan, ularni ilmiy tadqiqotlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish borasida bank siyosatini kengroq olib borish masalasiga e’tibor berganlar. Jumladan, xorijlik olimlardan K. Makkonel, I. Lipsits, Dj. Lorens, A. Blank, S. Bryu, V. Bernes, L. Gitman, T. Gustafson, A. Mertens, V. Milovidov, P. Samuelson, A. Xavranek, M. Fridman, Ye. Cherkasov va boshqalarni misol qilib aytishimiz mumkin [3].

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Ye. L. Kantor, S. V. Veronin, S. Deting, Yu. I. Rostova, V. A. Barinov, V. L. Xarchenko [4] hamda I. V. Sergeyevlar [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z natijasini topgan.

Mamlakatimizdagi olimlaridan O. K. Iminov, B. A. Xodjayev, A. A. Isadjanovlarning ilmiy izlanishlarida ayrim jihatlari o‘z ifodasini topgan [6]. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda aholi daromadlarini oshirishning nazariy jihatlari mamlakatimiz olimlaridan A.Vahobov, R.Xasanov, A. O‘lmasovlarning ilmiy ishlarida kengroq yoritilgan [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni aynan soha rivojiga quyilgan muhim poydevor bo‘la oldi desak mubolag‘a qilmaymiz [8].

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan masalalar o‘rganilgan.

Biroq tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan aniq yechimlari yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun ham, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishning zamonaviy yo‘llari bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Ushbu jihatlari ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda, maqolada kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida bir qator Farmonlar qabul qilinib, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi [2]. Murojaatnomada ta’kidlaganidek: “Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lishi mumkin, lekin bir kishi og‘ir kasal bo‘lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo‘sh bunday oilani o‘ziga to‘q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o‘qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo‘layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratish zamon talabiga aylanib bormoqda. Kambag‘allik ko‘rsatkichini aniqlash, uni tahlil qilishdan asosiy maqsad davlat va fuqarolik jamiyatining kambag‘al insonlar qatoriga tushib qolgan aholi qatlami uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish hamda aholi turmush darajasini oshirish hisoblanadi. BMT kambag‘allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar uchun zarur bo‘lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag‘allik darajasi nisbiy tushuncha bo‘lib, muayyan mamlakatning umumiy farovonlik darajasiga bog‘liq. Jahon amaliyotida kambag‘allikni hisoblashning uchta, ya’ni mutloq, nisbiy va subyektiv konsepsiyasi keng tarqalgan. Ushbu konsepsiyalar bir-birini inkor etmagan holda, aksincha biri ikkinchisini to‘ldiradi. Kambag‘allikni hisoblash ikki bosqichda amalga oshiriladi, birinchisi, kambag‘allikni aniqlash bo‘lib, bunda ushbu toifaga mansub bo‘lganlarni xalqaro va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalanib hisoblanadi. Buning uchun eng asosiy shart sifatida statistik kuzatuvlarni to‘g‘ri amalga oshirish talab etiladi. Ikkinchisi, uning hajmini, ya’ni qiymatini keltirib chiqarish va ularga davlat tomonidan manzilli yordam ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida bugungi kunda bir qator kamchiliklari mavjud, jumladan:

- aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida aniq tizim shakllanmagan. Masalan, Germaniya davlatida aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida zamonaviy iinnovatsion dasturlar ishlab chiqilgan;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish borasida ham zamonviy loyihalarni ishlab chiqilganligi yuksak natijalardan dalolat beradi;
- bizda esa, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borsaida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalarida ham sezilarli darajada o‘sish ko‘rsatkichlariga ega emas;
- tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni mukammal emasligi va uni takomillashtirish zarurligi hal qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etilishi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida yangi innovatsion imkoniyatlarni kengayishiga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasini qisqartirish borasida mualliy tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi zamonaviy yo‘llarini amaliyotga keng tatbiq etish innovatsion yechimlar hisoblanadi.

1-rasm: Kambag‘allikni qisqartirish omillari[1]

Bundan ko‘rinadiki, 1-rasmda mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasini qisqartirishga qaratilgan 8 ta zamonaviy yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bugungi kunda amaliyotda ularni keng joriy etish kambag‘allik darajasini qisqartirishga va aholi daromadlarini yuqori sur’atlarda o‘sishini taeminlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida muallif tomonidan ishlab chiqlgan quyidagi 2-rasmda keltirib o‘tilgan yangi imkoniyatlar innovatsion yondoshuvlari hisoblanadi.

2-rasm: Aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari[2]

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida 2-rasmda keltirib o‘tilgan imkoniyatlar aholi daromadlarini oshirishning innovatsion yondoshuvlari bo‘lib, ushbu yondoshuvlar o‘z ichiga 6 ta yo‘nalishlarni qamrab olgan. Ushbu yo‘nalishlarni amaliyotga keng tatbiq etish mamlakatimizdagi aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, amaliyotda 2-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar umuman uchramaydi. Shuning uchun ham, ular yangi innovatsion yechimlar bo‘la oladi.

1 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.
2 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hsioblanadi. Mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechimlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- kambag‘al aholi qatlamini monitoringini yuritish va kambag‘al oilalar daromadlarini baholash reytingini ishlab chiqish;
- kambag‘al aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan imtiyozlarni joriy etish va har bir oila kesimida tadbirkorlikni tashkil etish;
- tejamkorlik dasturini yaratish va amal qilgan oilalarga imtiyozlar berish hamda onlayn xizmatlar bozorini rivojlantirish;
- aholi o‘rtasida daromadlarni oshirishga qaratilgan tanlovlarni tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflarni amaliyotga joriy etishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘llari hamda yangi innovatsion-iqtisodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-5780-son Farmoni. 2019-yil, 13-avgust. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. – Toshkent-2018 yil.
4. В.А. Баринов, В.Л. Харченко “Стратегический менеджмент”, Учебник. – М.: ИНФРА - М, 2006– 90 стр.
5. И.В.Сергеев “Экономика организаций”, Учебник. – М.: Проспект, 2006. – 481 стр.
6. Б.А.Ходжаев “Методологические аспекты обоснования экспортного потенциала как фактора эффективности внешнеэкономической деятельности” // Халқаро муносабатлар. – Т., 2002. – №3. – стр. 33-39.
7. А.А.Исаджанов “Развитие внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан в условиях перехода на рыночные отношения”: Дис. д-ра экон. наук / АН РУ институт экономики. – Ташкент, 2001. – 323 с.
8. A.O‘lmasov “Oila iqtisodi”, –T.: “Mehnat”, 1998. B -48.
9. A.Vahobov “Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi”, –T.: Sharq, 2003. - 285 b.
10. R.Xasanov “Bozor daromadlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi”, -T.: Akademiya, 2004. -187 b.

KORXONALARDA PUL MABLAG‘LARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Karamatova Noiba Xusnitdinovna
Toshkent moliya instituti “Audit”kafedrasi katta o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda pul mablag‘larining kirimi hamda chiqimini buxgalteriya hisobida aks ettirish. Shuningdek, korxonalarda pul mablag‘lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Auditorlik tekshiruvlarida pul mablag‘lari hisobini tekshirishda qo‘llaniladigan audit amallarini qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi korxonalarda pul mablag‘lari auditini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: korxona, pul mablag‘lari, pul oqimi, naqd pullar, joriy aktiv, audit, audit tashkiloti, audit dasturi, likvidlilik.

MONEY IN COMPANIES FOR IMPROVEMENT AUDIT FEE

Karamatova Noiba Xusnitdinovna
Teacher of Audit Department Tashkent institute of Finance

Abstract: Ensuring the stability of cash flow in enterprises is a necessary condition for ensuring their liquidity and financial stability. Therefore, special attention is paid to ensuring a relatively high and stable level of cash balance in the company’s current assets. The article explains ways to improve the audit of funds in enterprises.

Key words: company, funds, cash flow, cash, current assets, audit, audit organization, audit program, liquidity.

ДЕНЬГИ В КОМПАНИЯХ НА УЛУЧШЕНИЕ ПЛАТА ЗА АУДИТ

Караматова Наиба Хуснитдиновна
Ташкентский финансовый институт старший преподаватель кафедры аудита Ташкентский финансовый институт

Аннотация: Обеспечение стабильности движения денежных средств на предприятиях является необходимым условием обеспечения их ликвидности и финансовой устойчивости. Поэтому особое внимание уделяется обеспечению относительно высокого и стабильного уровня остатка денежных средств в оборотных активах компании. В статье рассмотрены пути совершенствования аудита денежных средств на предприятиях.

Ключевые слова: компания, средства, денежный поток, денежные средства, оборотные активы, аудит, аудиторская организация, программа аудита, ликвидност.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonii bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ilg‘or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e’tirof etilgan [1]. Bu esa, korxonalarning pul oqimi barqarorligini ta’minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. O‘z navbatida, korxonalarning pul oqimini barqarorligini ta’minlash bevosita pul mablag‘larining auditiga bog‘liq.

MATERIAL VA METOD

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonii bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoat korxonalarining pul oqimini barqarorligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalarning yechimiga bag‘ishlangan

bo‘lib, unda pul mablag‘lari auditini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada statistik guruhlash, ekspert baholash, tarkibiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

Pul mablag‘larini audit qilishda pul mablag‘lari hisobini to‘g‘ri tashkil qilinganligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Pul mablag‘lari hisobi kassa operatsiyalari hisobi va naqdsiz pul mablag‘lari hisobini o‘z ichiga oladi.

Kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobi quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” 5020 –“Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari”.

Jurial-order shakli bo‘yicha hisobga olishda kassa bo‘yicha operatsiyalar 1-jurnalda (5000 – “Kassa” hisobvarag‘ining kredit oborotlari) va jurnal-orderga kiruvchi 1-qaydnomada (5000 – “Kassa” hisobvarag‘ining debet oborotlari) aks ettiriladi. Aytib o‘tilgan registrlarga qilinadigan qaydlar kassirning tekshirilgan va ishlov berilgan Hisobotlari asosida har kuni olib boriladi. Kassa muomalalarini olib borish tartibida inventarizatsiya qilish ko‘zda tutilgan.

Korxonaning Bosh kitobida tijorat bankidan ish haqi uchun olingan naqd pul summasi quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan rasmiylashtirildi:

Debet 5010
Kredit 5110

1-jadval: 5000-“Kassadagi pul mablag‘lari”ni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi [9]

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	hisobvaraqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Bankdagi tegishli hisobvaraqlardan pul mablag‘larining kassaga kelib tushishi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar)	5010	5110, 5210	Pul cheki pattasi va ko‘chirmasi, kassaning kirim orderi kassa kitobi
2	Yo‘ldagi pul mablag‘larining kelib tushishi	5010	5620	Kirim to‘g‘risidagi tasdiqnoma
3	Mahsulot ish va xizmatlarning naqd pulga sotilishi	5010	9010-9030	Sotish vedomosti va kassaning kirim orderi
4	Hisobdor shaxslar tomonidan olingan va ishlatilmagan ortiqcha summalarning qaytarilishi	5010	4230	Bo‘nak hisoboti va kassaning kirim orderi
5	Pul mablag‘larining kassadan hisoblashishish hisobvarag‘iga qaytarilishi	5110	5010	Topshirish e’loni va bankning ko‘chirmasi
6	Kassadan ish haqi va boshqa to‘lovlarning (yordam pullari, mukofotlar, ishtirok etishdan daromadlar)ning berilishi	6710	5010	To‘lov vedomosti va kassa chiqim orderi
7	Bir martalik yordam pulining kassadan to‘lanishi	9430	5010	Kassa chiqim orderi, rahbarning buyrugi va ariza

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklidagi korxonaning hisob-kitob schyoti muomalalari 2-jurnal-orderda va 2-qaydnomada aks ettiriladi. Ko‘rsatilgan registrlarni yozuvlar qat’iy xronologik tartibda hisob-kitob schyotlari bo‘yicha tekshirilgan va ishlov berilgan ko‘chirmalar va ularga ilova qilingan pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

5110-schyotdagi pul mablag‘lari hisobidan to‘lovlar to‘lov topshiriqnomasi, hujjatlashtirilgan akkreditiv, inkasso orqali amalga oshiriladi. Respublikamiz xo‘jalik amaliyotida hisob-kitob cheklari 1997 yildan buyon mavjud emas.

2-jadval: 5110 - “Hisob-kitob schyoti” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi [10]

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvararqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Mahsulot, ish va xizmatlarning sotilishidan olingan tushumlarning kirim qilinishi	5110	4010	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
2	Asosiy vositalar va boshka aktivlarning sotilishidan tushgan tushumlarning kelib tushishi	5110	4010	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
3	Kassadan naqd pulning hisob-kitob schyotiga qaytarilishi	5110	5010	topshirish e’loni va hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
4	Bankdan kassaga pul mablag‘larining kelib tushishi (mehnat haqi, nafaqa, mukofotlar va boshqalar uchun	5010	5110	hisob-kitob schyotidan ko‘chirma va pul cheklari
5	Byudjetga hisoblangan to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summalarining o‘tkazilishi	6410	5110	to‘lov topshiriqnomasi, inkasso va hisob-kitob schyotidan ko‘chirma
6	Mol yetkazib beruvchilarga sotib olingan TMZlar qiymatiningto‘lanishi	6010	5110	to‘lov topshiriqnomasi, hisob-kitob schyotidan ko‘chirma

Korxonalarda pul mablag‘lari akkreditivga kiritilishi 5510-Akkreditivlar” Hisobaragi debetida xo‘amda 5110-“Hisob-kitob schyota”, 5210-“Valyuta schyoti”, 6810 - “Qisqa muddatli kreditlar” hisobvaraqdari va shunga uxshash boshqa Hisobvaradlarning kredit qismida aks ettiriladi.

5510-“Akkreditivlar” hisobvarag‘i bo‘yicha hisobga olingan akkreditivdagi mablaglar ulardan foydalanilishiga qarab (bank bergan ko‘chirmalarga muvofiq), odatda, 6010 - “Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” hisobvarag‘i debetiga o‘tkazib boriladi. Akkreditivlardagi foydalanilmagan mablag‘larni bank ular olingan hisobvaraqda tiklagandan keyin bu summalar 5510-“Akkreditivlar” hisobvarag‘i kreditida 5110-“Hisob-kitob schyoti” yoki 5210-“Valyuta schyoti” hisobvaraqdari bilan korrespondensiyada aks ettiriladi. 5510-“Akkreditivlar” xo‘isobvaragiga doyr tahliliy hisob korxona ochgan har bir akkreditiv bo‘yicha yuritiladi.

Korxonalarda pul mablag‘larining auditini amalga oshirishda e’tibor qaratiladigan asosiy masalalardan biri – bu pul mablag‘lari oqimining barqarorligini baholash va unga ta’sir etayotgan asosiy omillarni aniqlash hisoblanadi.

Korxonalarda pul oqimining barqarorligiga baho berishda umumiy pul oqimining jami majburiyatlarga nisbatan darajasi ko‘rsatkichidan va pul mablag‘larining joriy aktivlar hajmidagi salmog‘ining o‘zgarishi ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Korxonaning umumiy pul oqimi pul mablag‘lari kirimi summasi bilan pul mablag‘lari chiqimi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

3-jadval: Korxona umumiy pul oqimining uning jami majburiyatlariga nisbatan darajasiga ko‘ra barqarorligii [11]

Umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasi	Pul oqimining barqarorlik darajasi bo‘yicha toifalar
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxona umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasiga ko‘ra pul oqimining barqarorligi darajasi bo‘yicha toifalar bir-biridan keskin farqlanadi.

Korxonalarning joriy aktivlari hajmida pul mablag‘larining salmog‘ining o‘zgarishi pul oqimining barqarorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

4-jadval: “O‘zmetkombinat” AJ joriy aktivlarining tarkibi, foizda[1]

Joriy aktivlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Tovar-moddiy zaxiralar	48,2	42,5	28,5	28,2	28,6
Debitor qarzdorlik	43,8	55,9	57,5	56,9	68,2
Pul mablag‘lari	8,0	1,6	14,0	14,9	3,2
Joriy aktivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

4-jadval ma’lumotlaridan aniq ko‘rinadiki, “O‘zmetkombinat” AJ joriy aktivlarining tarkibida pul mablag‘lari nisbatan kichik salmoqni egallaydi, debitor qarzdorlik esa, nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, uning likvidliligini ta’minlash nuqtayi-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

MUNOZARA

Korxonalarda pul mablag‘larining auditiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar ko‘rsatddiki:

- pul mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘irlash korxonaning moliyaviy natijalarini yomonlashishiga olib keladi va ma’sul shaxslarni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi;
- korxonaning kassasiga kelib tushgan naqd pullarni kirim qilinmasligi buxgalteriya hisobotidagi pul mablag‘lariga oid bo‘lgan ma’lumotlarning ishonchli bo‘lmasligini yuzaga keltiradi;
- tovarsiz hisobraqamlar bo‘yicha va boshqa shubhali operatsiyalar bo‘yicha dastlabki shartnomani rasmiylashtirmasdan turib avans to‘lovlarining o‘tkazilishi moliyaviy yo‘qotishlar miqdorini ko‘payish xavfini yuzaga keltiradi;
- debitor qarzdorlikning aylanish tezligini sekinlashishi korxonalarning pul oqimini zaiflashishiga olib keladi [8].

Lekin, mazkur tadqiqotlarda kreditor qarzdorlikning korxonalarning pul oqimiga ta’siri, hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo‘yicha bankda deponent qilingan pul mablag‘larining inflyatsiya va devalvatsiya ta’sirida qadrsizlanish masalalari tahlil qilinmagan.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- pul mablag‘larining auditini amalga oshirishda pul mablag‘lari yetishmasligining sabablarini aniqlash korxona faoliyatining barqarorligini ta’minlash nuqtayi-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;
- to‘g‘ri tuzilgan dastur auditorga pul mablag‘larini jalb qilish operatsiyalarining turli jihatlarini ma’lum izchillikda o‘rganish hamda takrorlanish va xatoliklardan qochish imkonini beradi;
- naqd pullarni ehtimoliy o‘g‘irlanishi yoki kassada naqd pullarning yetishmasligini aniqlashda kassadagi naqd pullarni inventarizatsiya qilish muhim usullardan biri hisoblanadi;
- pul mablag‘larini audit qilishda pul mablag‘lari hisobini to‘g‘ri tashkil qilinganligiga va pul oqimining barqarorligini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi;
- korxonalarda pul oqimining barqarorligiga baho berishda umumiy pul oqimining jami majburiyatlarga nisbatan darajasi ko‘rsatkichidan va pul mablag‘larining joriy aktivlar hajmidagi salmog‘ining o‘zgarishi ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Fikrimizcha, korxonalarda pul mablag‘lari auditini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Korxonalarda pul mablag‘lari auditini o‘tkazishda pul mablag‘larining tarkibi va dinamikasini baholashning har ikkala usulidan – bevosita va bilvosita usuldan bir vaqtning o‘zida, ya’ni kompleks foydalanish kerak.

Bilvosita metod pul mablag‘lari tushumini kirim qilish va xarajatlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Bunda pul mablag‘lari tushumi sifatida mahsulotlarni sotishdan olingan tushum, banklardan kreditlar olish, moliyaviy faoliyatdan daromad olish, yetkazib beriladigan tovarlar uchun olinadigan bo‘naklar kabi aniq pul tushumlari ko‘zda tutiladi.

1 Jadval muallif tomonidan O‘zmetkombinat AJ moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan

Pul mablag‘lari chiqimi bilan bog‘liq xarajatlar yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish, banklardan olingan ssudalarni qaytarish, davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash, mehnat haqi bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish kabi to‘lovlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Bilvosita metod pul mablag‘larining harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni identifikatsiya qilish va hisobga olishni hamda sof foydani korrektirovka qilishni ko‘zda tutadi.

2. Pul mablag‘larining auditini amalga oshirishda pul mablag‘lari oqimini uch tarkibiy qismga ajratgan holda, ya’ni asosiy pul oqimi, investitsion faoliyat bo‘yicha pul oqimi va moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimiga ajratgan holda, quyidagi savollarga javob topish lozim:

- pul mablag‘lari korxona ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta’minlash uchun yetarlimi?
- korxonaning pul mablag‘lari va yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga qilgan investitsiyalari uning joriy likvidliligini ta’minlash uchun yetarlimi?
- investitsion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi bilan pul mablag‘lari chiqimi o‘rtasidagi farq miqdori ko‘zda tutilgan rentabellik darajasiga mos keladimi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi//www.lex.uz.
2. Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 3-oktyabrdagi 52-son buyrug‘iga ILOVA. Moliya vazirining 03.10.2022-y. 52-son “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug‘i (AV tomonidan 24.10.2022-y. 3394-son bilan ro‘yxatga olingan) O‘zR Konunchiligi Ma’lumotlar tizimi NRM.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son Qarori.
4. S.U. Mehmonov. Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy hamda amaliy jihatlari. // Iqtisod va moliya. – 2015. 10-son, 52-58 betlar.
5. Трунтаева Ю.В., Шибилева О.В. Компьютерные программы автоматизации аудита. – Москва: Новый университет. 2013.
6. Мустеева Д.М. Аудит денежных средств и контроль за кассовыми операциями//Молодой ученый. - 2014.- №8. - С. 540-542.
7. Paraschivescu, D., Nita, N. (2008) The risk of auditing, accounting, Economic Tribune/ –https://www.jstor.org/stable/30243547.
8. Z. U. Xamidova. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish. // Iqtisod va moliya. – 2020, 3(135)-son. 78-84 b.
9. Fayziyev Sh.N., Karimov A.A. Audit . – T.: Iqtisod-moliya, 2013.
10. Qo‘ziyev I.N. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish: nazariya va metodologik masalalar: monografiya. –T.: Iqtisodmoliya, 2015. – 198 b.
11. 610-sonli “Ichki auditorlarning xizmatidan foydalanish” nomli auditning xalqaro standarti. audit va sifat nazoratining xalqaro standartlari: i qism 1-jild. 997-1007 b.

HUDUDLARDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Qo‘ziboyev Boxodir Azzamboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi” v.b. dotsenti

Ibragimov Behruz Ravshan o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Biznesni boshqarish ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan turizmni, rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarning turizm ishtirokchisiga aylantirish, turistik obyektlarda ularga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish, insonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy manfaatlarini ham himoyalash ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: iklyuziv turizm, nogironlar,turizm obyektlari, ijtimoiy kasb.

Abstract: The article analyzes the development of inclusive tourism in the country. Different types of inclusive tourism are considered. The article actualizes the need for the development of inclusive tourism and establishes its significance for people with disabilities.

Key words: inclusive tourism, invalid people, tourism objects, social protection.

Аннотация: В статье проведен анализ развития инклюзивного туризма в стране. Рассмотрены разные виды инклюзивного туризма и возможности доступности туризма для инвалидов. В статье актуализирована необходимость в развитии инклюзивного туризма и установлена его значимость для людей с ограниченными физическими возможностям.

Ключевые слова: инклюзивный туризм, инвалиды, объекты туризма, социальная профессия.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar Strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri “Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib aynan unda aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish” deb belgilangan [1].

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichga o‘tishi bilan turizm industriyasi ham ushbu o‘zgarishlarga moslashib bormoqda. Turizm industriyasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri aholining alohida ehtiyojmand qatlamini, birinchi navbatda nogironligi bo‘lgan shaxslarni turizmga jalb qilish hisoblanadi. Shuninig uchun ham mazkur maqolaning maqsadi – ushbu toifadagi turistlar uchun o‘ziga xos muhit yaratish xususiyatlari va muammolarini yoritishga qaratilgan. Turizmning ushbu turi dunyo miqyosida keng tus olmoqda, chunki jami turistlarning 7% nogironligi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Alohida ehtiyojmand aholi qatlamining atrof-muhitga bog‘liqligi mamlakatimiz olimlari (Q. Abduraxmonov, N. Tuxliyev, M. Pardayev, I. Tuxliyev, B. Safarov, D. Norkulova va boshqalar) va xorijiy olimlar (V. Preobrajenskiy, M. Mironenko, I. Tverdoxlebov, I. Zorin, S. Sesolkin va boshq.)ning ushbu toifadagi kishilarning ta’lim, ijtimoiy, tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish va qondirish masalalari, ijtimoiy normalarning moslashuvchanligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Turizm sohasida turli shakldagi sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish muammolari tibbiyot, psixologiya, reabilitatsiya, sotsiologiya va sohaga oid mutaxassislarning ilmiy adabiyotlarida ham keng yoritilgan. Ushbu mavzu (I. Seselkin, S. Maxov, D. Chepik, A. Petrova, L. Volobuev “inklyuziv turizmning rivojlanish muammolari”; Ye. Sigida “nogironlik va turizm: ehtiyoj va ommaboplik”; Ye. Xolostova, N. Dementeva “ijtimoiy reabilitatsiya”; M. Sыganov “nogironlarning bandlik sohasiga integratsiyalashuvi: YeI mamlakatlarida o‘tkazilgan so‘rov) kabi Rossiya Federatsiyasi va ayrim xorijlik (Culham A. “Deconstructing Normalisation: Clearing the Way for Inclusion”) olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib o‘tilgan.

Ushbu yo‘nalishga bo‘lgan qiziqishlarning ulkanligi olingan ilmiy muhokamalarning turistik xizmatlar bozorining inklyuziv segmenti yoki muhitida qo‘llanilishini rag‘batlantiradi.

Keyingi yillarda inklyuziv turizm nafaqat dam olish va xordiq chiqarish, tanishuv, balki kishilarning sog‘lig‘ini tiklash, davolash va sog‘lom turmush tarzini tashkil etish bilan ham uyg‘unlashib ketmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda ijtimoiy turizm assotsiatsiyasi tashkil etildi.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, kuzatish, qiyoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Shu bois, bibliografik tadqiqot natijasida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada, O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qumitasi va BTT manbalari ma’lumotlardan foydalanngan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, alohida himoyaga hamda maxsus yordamga muhtoj aholi segmenti ortib bormoqda. Umumtan olingan xalqaro standartlarga muvofiq ushbu kishilar turli inklyuziv toifalarga kirittiladi, turizm sohasida esa bu inklyuziv turistlar segmentidir. Ma’lumki, bugungi kunda “inklyuziv turizm” atamasi ilmiy va amaliyot jihatdan yakuniy tasdig‘ini topmagan hisoblanadi. Ushbu atamaning bir nechta ta’riflari mavjud. YeI mamlakatlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun mo‘ljallangan turizm segmenti “ommabop turizm” yoki “barcha uchun mo‘ljallangan turizm” deb ataladi. Bunday atama “barcha uchun turizm” (tourism for all), “ommaviy turizm” (accessible tourism), “nogironlar uchun turizm”, “invaturizm”, “paraturizm”, “to‘siqsiz turizm”, “reabilitatsion turizm”, “o‘quv-korreksion turizm” va boshqa atamalar bilan ham uyg‘unlashishi mumkin. Bunda ushbu faoliyat turining ijtimoiy reabilitatsiya maqsadi o‘zgarmasdan qoladi [2].

Ushbu tushunchaning yakuniy atamasi BMT qoshidagi YuNVTO ning 2009-yilda Astana (Qozog‘iston) shahrida bo‘lib o‘tgan 18-sessiyasida qabul qilingan va “turistik sayohatlarni soddalashtirish bo‘yicha Deklaratsiya” ga kiritilgan. Unda YuNVTOga a’zo mamlakatlar uchun o‘z hududlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun turistik obyektlar va muasssasalarni barpo etishlari, ular uchun mavjud bo‘lgan xizmat turlari, tashkilot va muassasalar hamda mavjud muammolar to‘g‘risida aniq va hammabop hisoblangan axborotlarni taqdim etish tavsiya qilingan [3, s. 132-135].

Ko‘pgina zamonaviy tadqiqotlarda odatda “moslashuvchan (adaptiv) turizm”. Deb ham ataladi. 1991-yilda BMT bosh assambleyasining Butunjahon sayyohlik tashkiloti (YuNVTO) tomonidan “90-yillarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turizm imkoniyatlari yaratish” (Creating Tourism Opportunities for Handicapped People in the Nineties) rezolyatsiyasi qabul qilingan bo‘lib, keyinchalik (2005-yil, 16-sessiya Senegal, Dakar) ushbu atama “barcha uchun mo‘ljallangan turizm” (Accessible tourism for all) nomi bilan ataladigan bo‘ldi [4].

Shunday qilib “inklyuziv turizm” atamasi va “barcha uchun mo‘ljallangan turizm” sinonim so‘zlar hisoblanadi, “adaptiv turizm” atamasi esa turizmning alohida ehtiyojlarga ega shaxslar uchun turistik faoliyatni va servis xizmatlarini tashkil etishga qaratilgan maqsadli yo‘nalishini o‘zida aks ettiradi. Bunday yondashuv “adaptiv turizm”ning tabiiy muhitda turistik sayohat turi sifatida qo‘llanilishiga imkon beradi. Aksincha, “to‘siqsiz turizm” atamasi esa turistik obyekt va infratuzilmalarning moslashuvchanlik darajasini ifodalab mahalliy turizm yoki ekskursiya faoliyatida keng qo‘llaniladi [5; 6, c. 129].

TAHLIL VA NATIJALAR

“Hammabop turizm” asoschilaridan biri Skott Rayan “Inklyuziv turizmni ijtimoiy integratsiya sifatida tushunmog‘imiz zarur”, – deb hisoblaydi, [6, p. 65-78]. Ijtimoiy integratsiyaning universal yo‘llaridan biri esa turizm hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasini “turizmning barcha uchun yo‘naltirilganligi” tamoyili asosida tashkil qilish, turistik markaz va obyektlar infratuzilmasini barcha toifadagi va imkoniyatli shaxslar uchun, shu jumladan nogironlar, yoshi katta kishilar va ularning vakillari, oila a’zolari va vasiylari, yosh bolali oilalar uchun moslashtirish zarurdir [7].

Inklyuziv turizmni turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha ishtirokchilarni hamkorlikka jalb qiluvchi turizm shakli deyishimiz ham mumkin. Bu imkoniyati cheklangan barcha toifadagi kishilarni, birinchi navbatda

alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan kishilarni turistik infratuzilmaga jalb qilish orqali atrof muhitning mobil, audio-vizual, va kognitiv hammabopligidan foydalanish imkoniyatini yaratib berish hamdir [8].

Inklyuziv reabilitatsion-ijtimoiy turizmning asosiy konsepsiyasi bundan 30 yil ilgari nogiron me’mor Ron Meyson va uning Shimoliy Karolina davlat universitetidagi hamkasblari tomonidan shaklantirilgan hamda amalga oshirilgan hammabop dizaynning quyidagi eng asosiy tamoyillarida o‘z aksini topgan [9]:

1) foydalanishning tengligi va hammabopligi.
2) foydalanishning moslashuvchanligi.
3) foydalanishning soddaligi va intuitivligi.
4) axborotlarning hammabopligi.
5) xatoliklarga sabrlilik.
6) kam jismoniy harakatlarni talab etishi.
7) zaruriy o‘lcham, joy va muhitning mavjudligi.

Ijtimoiy turizmning iqtisodiy samaradorligi va mahsuldorligi uning alohida elementlarini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi infratuzilmaning mavjudligida emas, balki turistik maqsadlarda tashkil qilingan hamda barcha toifadagi kishilar uchun to‘laqonli dam olish va xordiq chiqarish, jismoniy va ma’naviy kuchini samarali tiklashga imkon berishiga bog‘liqdir.

Masalan, Germaniyada madaniy-tanishuv turizmini rivojlantirish maqsadida dam olish va xordiq chiqarish joylari imkoniyati cheklangan va kamharakat fuqarolarning ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda jihozlangan. Muzey, teatrlarda nogironligi bo‘lgan kishilar foydalanishi mumkin bo‘lgan kreslo-aravachalar taqdim qilinadi.

Turizm, zamonaviy hayotning muhim ijtimoiy hodisasi sifatida jamiyatning hayotiy faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [8]. Shu bilan bir vaqtda turizm yana bir muhim funksiyani – imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan kishilar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya funksiyani bajaradi.

Inklyuziv turizm bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilar ekanmiz, uning atrof muhitni o‘rganish va rekreatsiya vositasi sifatida muhimligini va shu kabi xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishimiz joiz.

Inklyuziv turizm ijtimoiy (kommunikativ, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik moslashuv) va jismoniy reabilitatsiya (sog‘lomlashtirish, psixo-emotsional ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ekologik reabilitatsiya)ning keng turlarini qamrab oladi.

Biroq imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan kishilarni sayohat, turli sayr-tomosha va ekskursiyalarga jalb qilish uchun turistik faoliyatning aksariyat turlarini ular uchun ham moslashuvchan, xavfsiz va hammabopligini ta’minlashimiz zarur bo‘ladi [9].

Inklyuziv turizmga ta’sir qiluvchi va uni tashkil qilish imkoniyatlarini cheklovchi omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin [10, s. 85-95]:

- potensial turistlarning jismoniy holati (nogironlik, cheklangan imkoniyat);
- potensial turistlarning moddiy ahvoli;
- turistik safarlar uchun maxsus transport vositalarining mavjud emasligi;
- joylashtirish vositalari narxlarining sezilarli darajada yuqoriligi;
- ma’muriy to‘siqlarning mavjudligi (masalan, xorijiy safarlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq rasmiyatchilik taomillari);
- turizm va xordiq chiqarishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tadbirlarning sustligi yoki mavjud emasligi;
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulotlarga oid axborotlarni olish imkoniyatining mavjud emasligi yoki turmahsulot marketingining sustligi (turistik destinatsiyalarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulot assortimentining cheklanganligi);
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun sayohatlar uyushtirishga zaruriy motivatsiyaning yetishmasligi.

Inklyuziv turlarga talabning sustligi bilan bog‘liq omillardan biri nogironligi bo‘lgan va imkoniyati cheklangan kishilarning turistik faoliyat bilan bog‘liq turli xatarlarga beriluvchanligi, o‘zlarini noqulay his etishlari, harakatlanishning qiyinligi yoki cheklanganligi, ko‘rish, eshtish imkoniyati cheklangan kishilarda kognitiv qobiliyatlarning sust namoyon bo‘lishi, shuningdek, “hammabop turizm” atamasi bilan bog‘liq turli mavhumliklar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishda quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aeroport, temiryo‘l avtovakzallar, vagon va avtobuslar, maxsus to‘xtash joylari, ko‘tarish qurilmalari, travolatorlar, maxsus yo‘llar, transport vositalarini ta’mirlash kabilarni o‘z ichiga olgan inklyuziv turizmning transport va destinatsiya infratuzilmasini yaratish.
2. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan kishilar va asosiy ishchilar ulushi shunday shaxslardan iborat bo‘lgan yuridik shaxslar maxsus mehmonxonalar tarmog‘ini kengaytirish, soliq imtiyozlari joriy etish. Masalan nogironlar uchun maxsus jihozlangan mehmonxona nomer fondini 5 yil davomida soliq to‘lovlaridan ozod qilish.
3. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lig‘ini tiklash, sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiluvchi davolash-sog‘lomlashtirish muassasalari (tibbiy turizm) sonini ko‘paytirish. Bu kelgusida aholining kam daromadli qatlamlarini ham turizmga jalb qilish, mavsumdan tashqari davrlarda ham sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.
4. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga keng assortimentdagi turistik xizmat turlarini taklif qilishni tashkil qilish orqali turfirma va turoperatorlarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish.
5. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun turistik-ekskursiya xizmatlari to‘g‘risidagi axborotlar bazasini shakllantirish va zaruriy axborot bilan ta’minlash; “barcha uchun mo‘ljallangan turizm” tamoyili asosida ijtimoiy turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Inklyuziv turizm turizmning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon statistikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning turizm va sayohat faoliyatiga jalb qilinishi ortib bormoqda.
2. Turizmning mazkur turining paydo bo‘lishi va kelgusi shakllanishi mazkur yo‘nalishdagi nazariy-metodologik talqin va ushbu atamaning tushuncha-atamashunoslik apparatining alohida tadqiq qilinishi bilan bog‘liqdir.
3. Mavjud xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv turizmning rivojlanishi va istiqboli avvalo, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni uchun mo‘ljallangan mehmonxona-restoran va transport xizmatlari, hammabop tabiiy va antropogen hududlarning mavjud bo‘lishiga bog‘liq va shu kabilar.
4. Turizm sohasida inklyuziv turizmni joriy etish aksariyat mamlakatlar uchun me’moriy-texnik, tabiiy, turistik, gastronomik, ijtimoiy-maishiy, axborot va boshqa yo‘nalishlarda qator muammolarning hal etilishini taqozo etadi.
5. Inklyuziv turizm sohasida ish tajribasiga ega ilg‘or mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning milliy xususiyatlari, mentaliteti, iqtisodiy taraqqiyoti va uning asosiy omillari, moddiy-texnika bazasining rivojlanish darajasi va jamiyat a’zolarining ushbu faoliyat turini joriy etish bilan bog‘liq yangiliklarni qabul qila olish darajasini o‘zida aks ettirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
2. Белоусова, Н.В. Инклюзивный туризм в системе реабилитационной географии: от теории к практике: монографія / Н. В. Белоусова. – К. – Из-во ТАЛКОМ, 2018. 344 с.
3. Белоусова, Н. В. Теоретические аспекты развития инклюзивного реабилитационно-социального туризма в Украине / Н. В. Белоусова // Научный журнал “Научные записки Сумского государственного педагогического университета. Географические науки”. – Сумы: СумГПУ имени А.С.Макаренко. – 2018. – Выпуск 9. –С.205-213.
4. Всемирная туристическая организация (UNWTO). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http: www.unwto.org.
5. Ван Циншен Теоретические и методологические аспекты рекреационной географии: современный подход / Ван Циншен [и др.] // Украинский географический журнал. – 2003. – №1. – С.45-49.
6. Сеселкин, И. А. Проблемы развития инклюзивного туризма / И. А. Сеселкин [и др.] // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2015. – № 11 (129). – С. 134-143.
7. The Costs of Inclusion / J. MacBeath, M.Galton, S. Steward et. al. Cambridge: Victoria Press, 2005. – 78 p.
8. Заярнюк, А. В. Социальная защита уязвимых слоев населения: отечественный и зарубежный опит / А. В. Заярнюк // Научные труды Кировоградского национального технического университета. Серия “Экономические науки”. – Кировоград: КНТУ. – 2004. –Вып. 6. – С.132-135.
9. International Diplacement Monitoring Center. Latest IDP numbers bycountry. – Режим доступа: http://www.internald-isplacement.org/database
10. Сигида, Е. А. Инвалидность и туризм: потребность и доступность : монография / Е. А. Сигида, И. Е. Лукьянова. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 106 с.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH EKOLOGIK BARQARORLIKNING MUHIM OMILIDIR

Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich
Iqtisod fanlari nomzodi, Toshkent Moliya instituti Andijon filiali
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda atmosfera xavosini ifloslanishi va uning ekologiyaga zararli ta’siri holatini, oqibatlarini tahlil qilingan. O‘zbekistonning iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning zarurligi va uni amalga oshirilishidagi ayrim masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Iqlim o‘zgarishi, Issiqxona effekti, global isish, ekologik xavf, “yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, tabiatdan foydalanish iqtisodiy mexanizmlari.

Abstract: The article analyzes the situation and consequences of atmospheric air pollution and its harmful effects on ecology. In order to ensure stable economic development of Uzbekistan, the necessity of transition to “Green economy” and some issues of its implementation are highlighted.

Key words: Climate change, Greenhouse effect, global warming, environmental risk, “green economy”, sustainable development, energy efficiency, economic mechanisms of nature use.

Аннотация: В статье раскрывается сущность понятия “парниковый эффект”, “Устойчивое развитие экономики”, влияние загрязнения атмосферного воздуха на экологическое состояние окружаюший среды а также,экологические аспекты перехода к “зеленой экономике”.

Ключевые слова: Изменение климата, Парниковый эффект, глобальное потепление, экологический риск, “зеленая экономика”, устойчивое развитие, энергоэффективность, экономические механизмы природопользования.

Nima uchun Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi ekologik barqarorlikning muhim omiliga aylanib qoldi?. Ushbu masalani tushuntirish uchun avvalo, xalqaro hamjamiyatning atrof muhitni muhofaza qilish muammolari haqida to‘xtalib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Zero, Ona yerimiz ya’ni umumiy uyimiz! toboro og‘ir ahvolga tushib bormoqda. Uni birgalikda asrash har bir insonni, xar bir davlat, mamlakat aholisining muqaddas burchidir!

Yaxshiyamki, insoniyat XXI asrga kelib g‘oyat murakkab muammolar qarshisida turganligini tushunib yetdi. Jahon miqyosida yuz bergan va berayotgan jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, iqlim o‘zgarishi, azon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish va yerning degradatsiyasi, bioxilma-xilliklarning qisqarishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o‘rmon va tuproq inqirozi insoniyat uchun nihoyatda dolizarb global ekologik muammolardan biri bo‘lib qoldi.

Aholi sonining oshib borishi, sanoat va transportning rivojlanishi, fan-texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko‘rsatayotgan ta’sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida u yoki bu ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib faoliyat ko‘rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya’ni dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o‘rmon yong‘inlari xavoning ifloslanishi va boshqa shu kabi talofatlarning ro‘y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta’sir etar ekan, uning o‘zi ham “aks ta’sir”ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o‘ziga va uning sog‘lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish tufayli atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi keskin ortib borayotgani insonning tabiatga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini kuchaytirmoqda. Buning natijasida zaminimizning iqlim geografiyasi o‘zgarmoqda. So‘nggi 15 yil davomida o‘rtacha harorat eng yuqori ko‘rsatkichga yetdi. Iqlimiy o‘zgarishlarning ta’siri qutblarda ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Okean va dengizlarda suvning isishi jarayoni tezlashib bormoqda. Hukumatlararo ekspertlar guruhi Yer avvallari hisob-kitob qilinganidan ko‘ra tezroq isib borayotganini ma’lum qilishmoqda. Dunyo bo‘yicha o‘rtacha harorat 1,1 darajaga ko‘tarilgan. Bu esa 2040-yilga borib o‘rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Yer shari qutb qopqog‘ining qalinligi so‘nggi 40 yilda 40% ga kamaygan. O‘rtacha harorat

oshib borishi natijasida ichimlik suvi zaxiralarining 20 % ini tashkil etadigan Grenlandiya muzliklari erisa suv sathi 7 metrga ko‘tariladi. Harorat oshishi sababli XX asrning o‘zidayoq suv sathi 20 cm ga ko‘tarilgan. Natijada Issiq to‘lqinlar, kuchli shamollar, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va yong‘inlar yanada ko‘proq sodir bo‘la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, joriy yilda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatayabmiz. Mutahasislarning fikricha havo haroratining bu darajada issib ketishi O‘zbekistonda ham yaqin uch yuz yillar davomida kuzatilmagan ekan. Ayniqsa, iyul oyining o‘rtalarida 40-47 rekord darajadagi issiq harorat takrorlangani e’tirof etganlarini shohidi bo‘ldik. Bunday anomal issiqlar dunyoning deyarli barcha xatto anchagina shimoliy mamlakatlarida xam, jumladan, Kanadaning Britan Kolumbiyasi provinsiyasida havo harorati rekord ko‘rsatkich – 49,6 darajaga yetgan va shu sababli deyarli 500dan ortiq kishi vafot etgan. Bunday harorat bu yerlarda hech qachon 45 darajadan oshmagan.

Fransiyaning ijtimoiy masalalar va sog‘liqni saqlash vaziri Anes Byuzen yozda kuzatilgan anomal issiqlik 1,5 ming kishining o‘limiga sabab bo‘lganini ma’lum qildi.

Bu yilgi jazirama issiqlik tufayli Yaponiyada sakkiz mingdan ortiq odam kasalxonalarga yotqizilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining topshirig‘iga binoan ekologiya sohasining o‘rganayotgan mutaxassislar fikriga ko‘ra asrlar davomida okean va dengizlar sathining ko‘tarilishini bashorat qilmoqdalar va bunday xodisalar bundan buyon har yili sodir bo‘ladigan hodisaga aylanishi mumkinligini aytmoqdalar. Dunyo okeani sathining ko‘tarilishi natijasida Vanuatu, Sulaymon, Kiribati, kabi ayrim okean orollari suv ostida qolishi mumkin. Mutaxassislarning berayotgan ma’lumotlaridan ma’lum bщlishicha, 1900-yildan buyon dunyo okeani sathi 20 santimetrga ko‘tarilgan. Greenpeace Australia Pacific tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i Nikola Kazulening ta’kidlashicha, global isish oqibatida Tinch okeanidagi ayrim orol davlatlar butunlay suv ostida qolib ketishlari mumkin.

Iqlim o‘zgarishlari tufayli so‘ngi yillarda sodir bo‘layotgan suv toshqinlari tabiiy ofat sifatida deyarli xar yili takrorlanmoqda. “Cloud to Street” kompaniyasi mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, XXI asr boshidan buyon suv toshqinidan jabr ko‘rgan odamlar soni 24 foizga ortgan. Bu ko‘rsatkich olimlarning prognozidan 10 barobar ko‘p.

Ma’lumotlarga ko‘ra faqat shu 2023-yilning o‘zida Xitoyning Jengjou shahrida kuchli yomg‘ir yog‘ishi natijasida suv toshqinlari sodir bo‘lib yuzlab odamlar hayotidan ajraganlar.

Hindistonning Goa va Maharashtra shtatlarida ro‘y bergan keng ko‘lamli suv toshqinlaridan keyin minglab binolar vayron bo‘lgan, minglab odamlar nobud bo‘lgan va boshpanasiz qolganlar.

Belgiyada 14–16-iyul kunlari sodir bo‘lgan suv toshqinlar tufayli mamlakatga 10 mlrd yevrodan ko‘proq zarar yetkazilgan.

Germaniyada yuz bergan suv toshqinlari sababli minglab odamlar uylarini tark etdi, 100 mingdan ortiq kishi elektr ta’minotisiz qolgan.

Sun’iy yo‘ldoshlardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra Lotin Amerikasining janubiy qismi, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlarida ham suv toshqinlari tez-tez sodir bo‘lmoqda.

Suv toshqinlarining qariyb 90 foizi Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, ayniqsa, Hind, Ganga-Braxmaputra va Mekong daryolari mintaqasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mutaxasislarning hisob-kitobiga ko‘ra, 2000-yildan 2018-yilgacha toshqinlar sayyoramizning 2,23 mln kvadrat kilometrlik hududiga zarar keltirgan, toshqinlardan 290 millionga yaqin kishi jabr ko‘rgan.

Iqlim o‘zgarishlar tufayli 2030-yilga qadar suv toshqinlari yana 25 ta mamlakatda yuz bera boshlashi prognoz qilinmoqda.

Yer yuzida sodir bo‘layotgan keng miqyosdagi o‘rmon yong‘inlari natijasida minglab gektar maydonlardagi o‘rmon va qishloq xo‘jalik yerlariga ziyon yetkazilmoqda. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. M: 2023-yilning 13-iyul kuni Kaliforniya shimolida boshlangan va Diksi nomini olgan keng ko‘lamli yong‘inlar natijasida 200 ming gektardan ziyod maydonlar yonib ketdi.

O‘ta issiq havo harorati tufayli Turkiya g‘arbi va janubida ham dahshatli yong‘inlar yuz berishi natijasida qishloq xo‘jalik maydonlari, fermalar yong‘in ichida qolib, chorva mollari nobud bo‘ldi.

Shimoliy Makedoniyadaga yirik o‘rmon yong‘inlari sababli Hukumat mamlakatda bir oyga inqirozli vaziyat rejimini joriy etdi.

Gretsiyadagi kuchli o‘rmon yong‘inlari bir haftadan ortiq vaqt mobaynida havo harorati 40 darajadan yuqori bo‘lishi oqibatida sodir bo‘lgan. Ayrim hududlarda havo harorati 47 darajagacha ko‘tarilgan.

Rossiya federatsiyasidagi Yoqutiston Respublikasida o‘rmon yong‘inlari, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 6 mln gektar hududni qamrab olganligi to‘g‘risida ma’lumotni e’lon qilgan.

Jazoirdagi kuchli yong‘inlar oqibatida mamlakat juda katta iqtisodiy zarar ko‘rgan va birqancha odamlar halok bo‘lganlar.

Xo‘sh insoniyat boshiga bunday ofatlarni olib kelayotgan iqlim o‘zgarishining asosiy sabablari nimada?

Ekolog olimlar va boshqa sohalar bo‘yicha mutaxassislar fikricha iqlim o‘zgarishining asosiy sababi issiqxona effekti ekan. Bu jarayon Ular shunday tavsiflab beradilar. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi tufayli sodir bo‘lib u “issiqxona effekti” deyilar ekan. Ya’ni quyoshdan kelgan nurni

Yer ham o‘z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o‘rniga odamlar va ularning iqtisodiy faoliyatlari tufayli chiqarilgan turli gazlarga aralshib ketadi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me’yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta’sir ko‘rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo‘ladi va u sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida kam farq bo‘ladi. Ya’ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta’sirida qoladi. Bunday sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi asosiy gaz – bu karbonat angidrid. U atmosferaga ham tabiiy, ham sun’iy yo‘l bilan qo‘shiladi. Metan, azot oksidi kabi boshqa iflos gazlar havoga inson omili tufayli chiqarilib, bular bir butun issiqxona effekti darajasini belgilaydi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi gaz konsentratsiyalarining ortishi, sayyorada tabiiy issiqlik balansini buzadi va antropogen issiqxona effektini keltirib chiqaradi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2100-yilga borib issiqxona effekti oqibatida global yalpi ichki mahsulot 20 foizdan ortiqqa pasayishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi kunda asosiy muammolar sifatida antropogen omillar ta’siri va qurg‘oqchilik natijasida uglerod gazini yutuvchi o‘rmon maydonlari keskin qisqarib ketishi, ozon qatlamining yemirilishi, yovvoyi tabiat maydonlarining qisqarib borayotganini ham keltirib o‘tish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda qanday salbiy oqibatlarga olib kelayapti:

- Harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish koeffitsiyenti oshib bormoqda va bu holat suv resurslarining kamayishiga olib kelmoqda;
- Yil davomida bo‘ladigan yog‘ingarchilik kamayib borishi natijasida tuproqning namligi kamayishi, qurg‘oqchiliklar sodir bo‘lib qishloq xo‘jaligida hosildorlik ko‘rsatkichlari pasayib bormoqda;
- Suv hajmining kamayishi hosildor yerlarni cho‘lga aylanishiga olib kelmoqda.
- So‘ngi yillarda anomal hodisalarning ro‘y berishi ob xavoning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda.

Iqlim o‘zgarishining oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarni beriladi:

- qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanishni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish;
- energiya samaradorligini oshirish va sohalarni energiya tejovchi texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish;
- Yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali tabiatda yashillikni ko‘paytirish, yangi o‘rmonzorlarni yaratish, yong‘inlar sodir bo‘lishini oldining olish, xarbir darahtni va butazorlarni muhfaza qilish;
- qishloq xo‘jaligida ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga o‘tish, turli ximiyaviy zararli gerbitsit va pestitsidlardan foydalanmaslik;
- tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlab qolish ko‘proq organik o‘g‘itlarlardan foydalanib mahsulotlar yetishtirish;
- ekologiyaga zarar keltirmaydigan, tejamkor transport turlariga o‘tish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adilova M.T. Green economy: Essence, principles and prospects// International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 451 – 453. www.allresearchjournal.com.
2. Узбекистан поддерживает цели устойчивого развития ООН до 2030 года. http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.htm
3. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009 www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief_Russian.pdf
4. Lyaskovskaya Ye.A. [Working forces quality problems at realizing modern development concepts]. Vestnik Bashkirskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta [Vestnik Bashkir State Agrarian University], 2017, no. 4 (44), pp. 137- 145. (in Russ.)
5. https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/16/cop27/
6. Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. Paris-2020. P. 166.
7. https://yumh.uz/images/news/eco_uz.pdf.
8. Rajabov N. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management //Ekonomika i obrazovanie. – 2022. – T. 23. – №. Maxsus son. – S. 212-219.
9. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
10. Перелет Р. А. Направления стратегии “зеленго роста”. //http://rospromeco.com/expertnoe-mnenie/28-analytic/expertnoe-mnenie/94-mnenie-7.

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna
PhD, Toshkent moliya instituti, “Bank hisobi va audit” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillari, strategik boshqaruv hisobi ma’lumotlarining shakllanish xususiyatlari, strategik hisob ma’lumotlarining relevantlilik darajasini belgilab beruvchi mezonlari va uning strategik boshqaruv hisobini tashkil etishdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv hisobi, mezon, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Abstract: The article describes the basics and principles of the organization of strategic management accounting of economic entities, the characteristics of the formation of strategic management accounting information, the criteria that determine the level of relevance of strategic accounting information, and its role in the organization of strategic management accounting.

Key words: strategic management accounting, criterion, financial account, management accounting, business entities.

Аннотация: В статье описаны основы и принципы организации стратегического управленческого учета хозяйствующих субъектов, особенности формирования стратегической учетной информации, критерии, определяющие уровень актуальности стратегической учетной информации, ее роль в организации стратегического управленческого учета.

Ключевые слова: стратегический управленческий учет, критерий, финансовый учет, управленческий учет, хозяйствующие субъекты.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, chet el investitsiyalari hamda sarmoyalarini jalb qilish natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ularda boshqarish uslublarini takomillashtirish, ya’ni xalqaro biznes yuritish tartib-tamoyillarini joriy etish alohida ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Ayni paytda respublikamizdagi barcha yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, korporativ boshqaruv usullari joriy etilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Bu iqtisodiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi, sanoat salohiyatining oshishi, yuqori texnologiyali tarmoqlarning o‘zlashtirilishi, boshqacha aytganda, mamlakatimiz iqtisodining turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligi oshishiga xizmat qilmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishni rahbarlar tomonidan strategik qarorlar qabul qilishi uchun asos bo‘ladigan tegishli tahliliy hisob ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tezkor tarzda taqdim etish mexanizmini joriy qilmasdan amalga oshirib bo‘lmasligi ma’lum.

Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ta’siri va bozor raqobatining kuchayishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi samarali strategik boshqaruvga tobora ortib borayotgan ehtiyoj strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish bo‘yicha zamonaviy yechimlarni ishlab chiqish masalalarini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Bu borada xo‘jalik yurituvchi subyekt talablariga javob beradigan strategik boshqaruv hisobini amaliy jihatdan samarali tarzda tashkil qilish bo‘yicha mavjud muammolarning ijobiy yechimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar va kompaniyalarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan A. Apcherch, E. Atkinson, R. Banker, P. Bryuer, R. Garrison, K. Druri, R. Kaplan, E. Norin, K. Uord, Dj. Foster, Ch. Xorngren va M. Yangning [1] ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan I. N. Bogataya, V. B. Ivashkevich, V. E. Kerimov, I. G. Kondratova, I. Ye. Mizikovskiy, O. Ye. Nikolayeva, V. F. Paliy [2] strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Abdug‘aniyev, N.B.Abdusalamova, A. Z. Avloqulov, A. K. Ibragimov, A. A. Karimov, M. B. Kalonov, U. U. Kostayev, B. Yu. Maxsudov, M. Q. Pardayev, A. X. Pardayev, N. K. Rizayev, B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, I. K. G‘iyosovlarning [3] ilmiy ishlarida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari qisman o‘z aksini topgan.

TAHLIL VA NATIJADAR

Nazariy-uslubiy hamda ilmiy yondashuvlarning turli xilligi - ilmiy hamjamiyatda strategik boshqaruv hisobi mohiyati va uning funksiyalari borasida yagona bir yondashuvning shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Biroq ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, bir qator masalalar talqini borasida turli olimlar yondashuvlarida o‘xshashliklar mavjud. Xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqaruv tizimida strategik boshqaruv hisobining roli va o‘rnini aniqlash masalasida ularning ko‘pchiligi bir xil yondashadi. Aniqrog‘i, ko‘plab olimlar bu borada strategik boshqaruvning quyidagi muhim qirralarini qo‘rsatatib bergan:

- uning vazifasi strategik qarorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi;
- asosiy vazifani bajarish uchun nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektning mikromuhit ko‘rsatkichlari, balkim tashqi bozor va makromuhit omillarini hamda ularning ta’sirlarini hisobga olish tizimi ekanligi;
- uning joriy, tezkor, istiqboldagi moliyaviy ma’lumotlar, shuningdek, boshqa turdagi ma’lumot manbalariga (ichki bozor sig‘imi, tashqi bozor kon’yunkturasi, tadbirkorlikning moliya-kredit bozori tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, soliq yuki va shu kabilarga) ham tayanishi;
- nafaqat aniq dalillar, balki uzoq muddatli o‘zgarishlar yoki muhim o‘zgarishlarni kuzatishga qaratilganligini va h.k.

Ushbu yondashuvlar mohiyatini qo‘llab-quvvatlagan holda, alohida qayd qilish joizki, strategik boshqaruv hisobi mohiyatini xo‘jalik yurituvchi subyektni strategik boshqarish jarayoni va shu jarayonni hisob tizimi bilan bog‘lab turuvchi asosiy zveno sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy vazifasi uzoq istiqbolga mo‘ljallangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘ladigan hisob-tahlil ma’lumotlarini shakllantirishdir [4].

Strategik boshqaruv hisobini boshqa hisob turlaridan ajratib turadigan tahliliy asoslarni yaratishda, bizning fikrimizcha, boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun foydali va zarur bo‘ladigan hisob ma’lumotlari xususiyatlarini guruhlashtirish imkoniyatini yaratib beradigan xususiy modelga tayanish kerak (1-rasm):



1-pacm: Strategik boshqaruv hisobi ma’lumotlarining shakllanish xususiyatlari[1]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hisob ma'lumoti xususiyatlarining birinchi gupuhini foydalanuvchilap axborot so'rovlarining o'ziga xos xususiyatlari emas, balki axborot tizimiga xos xususiyatlar bilan aniqlanadigan universal sifat xususiyatlari tashkil qiladi. Bularga dolzarblilik, tekshiruvchanlik, reprezentativlik, bashoratlilik, taqqoslanuvchanlik, shuningdek, mustaqillik va mavjudlik tamoyillarini kiritish mumkin. Mazkur tamoyillarning alohida xususiyatlari ularning oldindan belgilangan meyorlarga nisbat o'zgarishini hamisha o'lchash, ya'ni hisoblash imkoniyati mavjudligida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, hisob ma'lumotlari xususiyatlarini belgilovchi ikkinchi guruh "yaroqlilik xususiyatlari" deb nomlangan. Ularning mohiyati shundan iboratki, mavjud axborot to'plamini saralash va baholash jarayoni oldindan belgilangan ma'lumotlar to'plami orqali emas, balki oxirgi foydalanuvchilar tomonidan qo'yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek, hisob ma'lumotlarining "favqulodda xususiyatlari"ni belgilab beruvchi uchinchi guruh tamoyillari ham muhim ahamiyatga egadir. Tizimli yondashuv atamalarida foydalilik (ahamiyatlilik) tahlil qilinayotgan obyektning tizim murakabbiligini ifodalaydi va uning alohida elementlari xususiyatlariga tizim xususiyatlarining nomutanosibligini bildiradi. Ana shu guruhga boshqaruvning har bir darajasi uchun hisob ma'lumotlarining mohiyati hamda ahamiyatini belgilab beradigan relevantlik va ishonchlilik xususiyatlarini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz [5].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun hisob ma'lumotlarining relevantlik xususiyati muhim hamda betakror ahamiyatga ega. Ushbu xususiyat hisob ma'lumotlarining nafaqat to'liqlilik, dolzarblilik va haqqoniylik talablarini qondirishi, balki foydalanuvchilarning axborot talablariga atroflicha, o'z vaqtida, tezkor hamda to'liq javob beradi, deb hisoblaymiz. Masalaning muhimligi uchun shu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan deyarlik barcha xorijiy va mamlakatimiz olimlarining yondoshuvlarida hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasi alohida e'tiborga olingan. Lekin, qayd qilish kerakki, hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlar to'g'risida to'liq fikr-mulohazalar hech bir ilmiy ishda batafsil yoritilmagan. Masalan, V. F. Nesvetaylov strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlarning 4 guruhini, ya'ni muhimlilik, foydalilik, yetarlilik hamda ishonchlilik tamoyillarini taklif etsa, ayrim iqtisodchilar uning 5 ta guruhini taklif etishadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beradigan asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin, deb hisoblaymiz (1-jadval):

1-jadval: Strategik hisob ma'lumotlarining relevantlilik darajasini belgilab beruvchi mezonlar

№	Mezonlar	Mezonlarning tarkibi
1.	Aloqadorlik	Foydalanish uchun qabul qilinayotgan hisob ma'lumotlari qabul qilinishi mumkin bo'lgan strategik qarorlarga aloqadorli bo'lishi kerak.
2.	O'z vaqtidalik	Ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilsagina u relevantli bo'lishi mumkin. O'z vaqtida taqdim etilmagan ma'lumotlar, strategik qaror qabul qilinishi o'tgan zahotiyoq o'zida relevantlik darajasini to'liq yo'qotadi.
3.	Muhimlik	Ma'lumotlar hisob bepuvchi birliklarning strategik holatini tasniflashi yoki strategik muhim ko'rsatkichlarni aniqlash uchun asos sifatida namoyon bo'lishi kepak. Ushbu ma'lumotsiz strategik baholash va ushbu obyektlar bilan ishlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi yoki chegaralangan bo'ladi.
4.	Tezkorlik	Ma'lumotlar strategik boshqaruv qarorlari qabul qilinishi uchun taqdim etilayotganda tezkorlik, ya'ni hozirlik tamoyillariga javob berishi kepak.
5.	Foydalilik	Taqdim etilayotgan hisob ma'lumotlari strategik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish uchun eng asosiy va optimal ma'lumot sifatida namoyon bo'lishi kepak.
6.	Yetarlilik	Hisob ma'lumoti muhim ahamiyatga ega yordamchi o'zgartirishsiz strategik tahlilda ishlatilishi mumkin bo'lishi kepak.
7.	Ishonchlilik	Strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchlilik tamoyiliga javob berishi kerak.

1-jadvalda birinchi aks etgan aloqadorlik tamoyili – biron-bir iqtisodchi olimlar ilmiy ishlarida va tadqiqot natijalarida uchramaydi, ya'ni u biz tomonimizdan taklif etilayotgan yangi tamoyildir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bo'yicha strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydalanilayotgan hisob ma'lumotlari qabul qilinishi mumkin bo'lgan strategik qarorlarga aloqadorli bo'lishi kerak. Sababi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobining barcha turlarida shakllanadigan, umumlashtiriladigan ma'lumotlar hajmi juda katta bo'lib, strategik boshqaruv hisobida ana shu ma'lumotlarning 90-95 foizidan deyarlik hech qachon foydalanilmaydi, ya'ni ularning strategik qarorlar qabul qilish uchun aloqadorligi yo'q, shunga muvofiq ularga e'tiborni jalb qilish natijasida muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlar e'tibordan chetda qolib ketishi ham mumkin. Aksincha, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish hamda yuritish

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

uchun makromuhit darajasidagi ma'lumotlardan aloqadorli bo'lganlarini hisobga olish, umumlashtirish, tahlil qilish va taqdim etish borasida hali o'zining ijobiy yechimini kutib turgan qator muhim masalalar bor. Hozirgi globallashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'siri bo'lmagan ma'lumotlarning ko'pligi boshqaruv xodimlarini strategik yo'nalishdan chag'itishi mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobi uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar relevantli deb hisobilanishi uchun, ular eng avvalo, aloqadorlik tamoyiliga javob berishi kerak, deb hisoblaymiz[6].

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati doirasida qabul qilinadigan strategik qarorlarning samaradorligi bevosita ana shunday qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni ta'minlab beradigan hisob tizimining mavjudligiga bog'liqdir. Bunday tizimning o'ziga xos xususiyati - xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va mutaxassislariga beriladigan strategik ma'lumotlar taqdimotining doimiyligi va tizimliligidir.

Tadqiqot mobaynida mavjud hisob turlarining qiyosiy tahlili olib borildi hamda moliyaviy, boshqaruv va strategik boshqaruv hisoblarini ajratib ko'rsatish imkoniyati aniqlandi. Ular orasidagi muhim farqlarni quyidagi uchta metodologik yondashuv orqali aniq kuzatish mumkin:

- hisob turlarining har biri boshqaruv qarorlari qabul qilishning turli shakllari va darajalariga qarab mo'ljallanadi;
- har bir hisob turida ma'lumotlarni relevantli deb topishning faqat o'ziga xos mezonlaridan foydalaniladi;
- rahbarlar va mutaxassislar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ma'lumot ta'minoti jihatidan qo'llab-quvvatlash ham turli darajada amalga oshiriladi [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, strategik boshqaruv hisobiga strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishni doimiy qo'llab-quvvatlovchi hisob-tahlil tizimi sifatida qarashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Strategik boshqaruv istiqbolli baholashga tayanar ekan, hisob-tahlil ma'lumotlar bilan ishlash jarayoni moliyaviy (buxgalteriya) yoki boshqaruv hisobida qo'llanilmaydigan uslub va texnologiyalarning vujudga kelishiga zamin yaratadigan keng va chuqur xususiyatga ega bo'ladi hamda turli xil hisoblar orasidagi farqlarni ajratish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval: Strategik boshqaruv hisobining boshqa hisob turlaridan farqli jihatlari[2]

Farqlarini ko'rsatuvchi mezonlar	Hisob turlari		
	Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi	Strategik boshqaruv hisobi
Hisob turining maqsadi	Subyektning moliyaviy holatini baholash uchun ma'lumotlarni shakllantirish	Rahbarlarning tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish	Strategik qarorlarni qabul qilish uchun ma'lumotlarni shakllantirish
Tashkil etilishi va yuritilishi	Belgilangan tartibda tashkil qilinadi va o'rnatilgan tartib doirasida yuritiladi	Erkin tarzda va rahbarlar talab qiladigan shaklda	Erkin tarzda, lekin barcha mas'ullar bilan kelishilgan shaklda
Me'yoriy jihatdan tartibga solinishi	To'liq tarzda tartibga solingan	Yo'q	Yo'q
Ma'lumotdan foydalanuvchilari	Chegaralanmagan: tashqi va ichki foydalanuvchilar	Chegaralangan: rahbarlar	Chegaralangan: mulk egalari, rahbarlar va yuqori zveno menejerlari
Hisobning asosiy obyektlari	Xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va alohida xo'jalik jarayonlari	Xarajatlar va natijalar	Strategik ahamiyatga ega aktivlar, jarayonlar, natijalar, resurslar va mavjud barcha imkoniyatlar
Belgilangan ma'lumot xarakteri	Haqqoniy, birlamchi hujjatlarga asoslanadigan	Haqqoniy, tahliliy va istiqbol ko'rsatkichlari	Tahliliy va istiqbol hamda bashoratni belgilovchi
Relevantlik darajasi	Talab etilmaydi	Qisqa muddatli, ishlab chiqarish dasturi yoki alohida bo'limlar doirasida	Uzoq muddatli, makromuhit darajasida, raqobatbardosh bo'lishda o'z afzalliklariga ega bo'lishni ta'minlash
Ma'lumot to'plash darajasi	Past: alohida jarayonlarni aks ettirish darajasida	Past va o'rta: quyi bo'g'in yoki ishlab chiqarish dasturlari doirasidagi alohida jarayonlar	Yuqori: strategik muhim ahamiyatga ega obyektlar yoki tizim imkoniyatlari

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Farqlarini ko‘rsatuvchi mezonlar	Hisob turlari		
	Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi	Strategik boshqaruv hisobi
Hisobotni taqdim etish muntazamligi	Muntazam: har bir hisobot davri uchun	Muntazam emas: boshqaruv (rahbariyat) tomonidan aniqlanadi	Muntazam emas: boshqaruv (rahbariyat) va mulk egalari tomonidan aniqlanadi
Hisobot ma’lumoti xarakteri	Haqqoniy (tarixiy)	Tarixiy va prognozlik	Tahliliy, istiqbolli va strategik

Taklif etilgan chegaralanish mazkur tizimlarning manfaatdor shaxslar (menejerlar, mulk egalari, ya’ni aksiyadorlar va h.k.) tomonidan qabul qilinishi, tahlil qilinishi hamda qaror qabul qilishi uchun qulay shakldagi muhim relevant ma’lumotlarni yetkazib berishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning oldingi boblarida qayd qilib o‘tganimizdek, strategik boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining biron bir turlarida uchramaydigan, faqat o‘ziga xos xususiyatlarga (2-jadval) ega, xususan: bu hisob turining obyekti strategik ahamiyatga ega aktivlar, jarayonlar, natijalar, resurslar hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt istiqbolda o‘z oldiga maqsad qilib olgan ko‘rsatkichlarga erishish uchun strategik salohiyat imkoniyatlarini (moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari) baholaydi, mavjud resurslardan samarali foydalanish variantlarini taklif etadi, ichki hamda tashqi muhit va makromuhit omillari o‘zgarishi natijasida vujudga keladigan vaziyatlarni baholash modellarini taklif etadi, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan chetlanishlarni korrektirovka qilish mexanizmlarini tavsiya etadi.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bu hisob turining faqat o‘ziga xos tomonlaridan yana biri – hisob ma’lumotlarining relevantlik darajasiga talabdir. Strategik boshqaruv hisobida foydalaniladigan ma’lumotlar uzoq muddatli, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektni makromuhit darajasida raqobatbardosh bo‘lishni ta’minlash uchun uzluksiz tarzda o‘z afzalliklariga ega bo‘lib borishini ta’minlashi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan davlatlar amaliyotida kompaniyalarning strategik boshqaruv hisobi strategik menejment hamda hisob-tahlil amaliyoti davomida shakllangan va rivojlanmoqda. Lekin, yuqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakatimiz iqtisodining turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida strategik boshqaruv hisobi, ayniqsa, moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish hali endigina shakllanish bosqichida. Shuning uchun ham eng avvalo, hozirgi paytda uni tashkil qilish va yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki, ya’ni uslubiy masalalar o‘zining ijobiy yechimini topishi kerak. Shunga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishni hisob turlari o‘rtasidagi farqlarni aniq belgilashdan boshlash lozim, degan xulosaga kelindi. Bu yerda asosiy e’tiborni tortadigan tomon – boshqaruv hisobi bilan strategik boshqaruv hisoblari o‘rtasidagi farqlar chegarasi aniq belgilanishi, maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardayeva Sh.A. Xo‘jalik subyektlarida moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnal. www.interfinance.uz, №3, 2021-yil.
2. Pardayeva Sh.A. Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali, 2022-yil 2-son 141-145 betlar.
3. Pardaeva Sh.A. Improving strategic management accounting of financial results in business entities. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Impact Factor 7.455. Volume 3, issue 9 September 2022. www.scholarzest.com.
4. Pardaeva Sh.A. Integrated artificial intelligence and predictive maintenance of electric vehicle components with optical and quantum enhancements. Optical and Quantum Electronics Journal. http://dx.doi.org/10.1007/s11082-023-05135-7. July 2023.
5. P. Srinivasa Rao, Syed Irfan Yaqoob, Mohammed Altaf Ahmed, Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna, Syed Mufassir Yaseen & Mahendran Arumugam. Integrated artificial intelligence and predictive maintenance of electric vehicle components with optical and quantum enhancements. “Optical and Quantum Electronics” journal. http://dx.doi.org/10.1007/s11082-023-05135-7. 18 July 2023.
6. Anurag Vijay Agrawal, Mukesh Soni, Ismail Keshta, V.Savithri, Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna, Shweta Singh. A probability-based fuzzy algorithm for multi-attribute decision-analysis with application to aviation disaster decision-making. “Decision Analytics Journal”. https://doi.org/10.1016/j.dajour.2023.100310. Volume 8, September-2023.
7. Pardayeva Sh.A. Strategik boshqaruv hisobida ko‘rsatkichlar tizimi. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali, 2023-yil 2-son. 227-232-betlar.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Пулатова Сурайё Юлдашевна
Преподаватель кафедры Туризма и гостиничного хозяйства
Термезского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные факторы, влияющие на современное состояние и развитие культурного туризма в Узбекистане. Представлено авторское деление факторов развития культурного туризма на группы с позиции рыночного и государственного механизма с выделением критериев.

Ключевые слова: культурный туризм, рыночные факторы, нерыночные факторы, историко-культурное наследие, культурные отношения, инфраструктура, мотивация, реклама, кадры.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda madaniy turizmning hozirgi holati va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillari ko‘rib chiqilgan. Muallifning madaniy turizmning rivojlanish omillarini bozor va davlat mexanizmi nuqtayi nazaridan guruhlarga bo‘linishi mezonlarni ajratib ko‘rsatish orqali taklifi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy turizm, bozor omillari, nobozor omillari, tarixiy-madaniy meros, madaniy munosabatlar, infratuzilma, motivatsiya, reklama, kadrlar.

Abstract: This article examines the main factors influencing the current state and development of cultural tourism in Uzbekistan. The author’s division of the factors of its development into groups from the position of the market and state mechanism with the allocation of criteria is presented.

Key words: cultural tourism, market factors, non-market factors, historical and cultural heritage, cultural relations, infrastructure, motivation, advertising, personnel.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях позитивных изменений в мировой экономике в период после пандемии коронавируса, углубления процесса глобализации и расширения международных связей в социальных сферах, в сфере туризма предпринимаются комплексные меры по преодолению негативных последствий пандемии коронавируса и развитию сферы, в частности, благодаря комплексным мерам по развитию культурного туризма туризм восстанавливает свои прежние до 2020 года позиции. По данным Международного совета по путешествиям и туризму (WTTC), “к концу 2023 года туризм приблизится к уровню восстановления своих высоких позиций 2019 года и, как ожидается, превзойдет его в 2024 году, а также в 2033 году доля сектора в ВВП мировой экономики составит 11,6%, а удельный вес занятых в нём 12% в общей численности занятого населения в экономике”1. Сегодня в условиях растущей важности историко-культурных объектов и культурного сотрудничества в международных социально-экономических отношениях, а также растущей потребности не только в “знакомстве”, но и в “познании” интенсивное и эффективное развитие культурного туризма рассматривается как одна из актуальных проблем.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Вопросы теоретического и методологического характера по проблемам исследования сферы культурного туризма отражены в работах таких российских и зарубежных учёных, как М. Д. Сущинская, В. А. Квартальнов, В. А. Дмитриев, R. McIntosh, T. Silberberg, G. Richards. Эти авторы уделяют внимание изучению факторов, связанных с наличием объектов исторического и культурного наследия и уровнем развития инфраструктуры туризма.

Теоретико-методические вопросы развития туризма в Узбекистане рассмотрены в работах учёных-экономистов М. Пулатова, М. Мухаммедова, М. Пардаева, И. Тухлиева, Т. Абдуллаевой и др.

1 https://www.google.com

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования были применены методы научной абстракции, индукции и дедукции, сравнительного анализа, анализ и синтез.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Одним из приоритетных видов туризма, динамично развивающихся в Узбекистане, является культурный туризм. Для его роста и о возможностях Узбекистана свидетельствует наличие уникальных объектов национального, культурного и исторического наследия разных эпох и цивилизаций. Следовательно, перед республикой, а также перед его регионами стоит такая задача, как создание развитой туристской дестинации на территории Узбекистана. Успех развития культурного туризма во многом зависит от влияющих на него факторов и эффективности их использования. В этой связи, важно выявить эти факторы, исследовать механизмы их влияния на объём и качество услуг в сфере культурного туризма. Наши теоретические исследования показали, что в научной литературе исследователями представляются разные, причём разной степени важности факторы. Ряд исследователей считают, "что для развития культурного туризма недостаточно иметь богатое культурное наследие, активное участие местного населения в культурной жизни региона является необходимым условием развития культурного туризма"[2]. Они считают, что, "… включение отдельных групп резидентов (в данном случае – жителей отдаленных и спальных районов, не являющихся постоянными посетителями учреждений культуры) в категорию потребителей услуг культурного туризма обосновано несколькими факторами:

- резиденты выступают потребителями культурных благ, являющихся компонентами туристического продукта (временные и транспортные затраты жителей при потреблении некоторых культурных благ,);
- резиденты становятся важнейшей целевой группой среди потребителей услуг учреждений культуры в низкий туристический сезон;
- резиденты опосредованно выступают субъектами культурного туризма, т.к. именно они создают атмосферу данной дестинации"[3].

Здесь, исследователи связывают развитие культурного туризма с уровнем культуры и образом жизни местного населения, что в конечном итоге, приведёт к росту уровня и качества жизни как местного населения, так и туристов.

В. Н. Назаров в своих исследованиях утверждает, что на развитие культурного туризма влияют различные внутренние и внешние факторы развития региона. Следует отметить, что В.Н.Назаров учитывает, в первую очередь, культурные характеристики региона. По его мнению, "ключевыми для развития культурного туризма выступают факторы культурного наследия регионов, современной национальной и глобальной (мировой) культуры, в то время как остальные факторы выступают в качестве второстепенных и дополнительных по отношению к первым"[4]. Однако такой подход, в условиях активного внедрения цифровых технологий, на наш взгляд, является ошибочным, поскольку, современный турист выбирая свой маршрут, в первую очередь, учитывает инфраструктурные условия региона, куда он намеревается отправиться путешествовать.

По мнению М. Ю. Горбуновой, "главными факторами культурного туризма являются, во-первых, клиенты как потребители данных услуг; во-вторых, обеспечивающие доступ к этим услугам предприятия"[5]. Не отрицая мнение исследователя о влиянии приведённых факторов на развитие культурного туризма, у нас есть возражение против представлений о том, чтобы рассматривать их в качестве главного фактора. На наш взгляд, культурное наследие и историко-культурные объекты т.е. ресурсная база служит основной предпосылкой для развития культурного туризма, а также уровень организации доступа к нему для всех интересующихся и бытовой комфорт проживания туристов.

Результаты нашего исследования показали, что в экономической литературе встречается деление факторов на статические и динамические, положительные и негативные, интенсивные и экстенсивные, факторы привлечения и факторы дифференциации спроса, первичные и вторичные факторы и др. Исходя из проведённого анализа, мы предлагаем делить все факторы, влияющие на развитие культурного туризма, на две большие группы: рыночные и нерыночные (рис.1.).

2 Гордин В.Э., Матецкая М.В., Культурный туризм как стратегия развития города: поиск компромиссов между интересами местного населения и туристов. 2001 С. – 2

3 Там же

4 Назаров Владимир Николаевич, & Солопов Олег Викторович (2016). Основные факторы развития культурного туризма в регионах России (на примере Тульской области). Общество: философия, история, культура, (12), 135-137.

5 Коржанова А.А. Перспективные направления развития культурно-познавательного туризма России // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-18. – С. 4044-4047; URL: http://www.fundamental-research.ru/ru/article/view?id=37904 (дата обращения: 11.06.2021).

Рис. 1: Факторы развития культурного туризма[6]

Рыночные факторы оказывают влияние на объём и качество услуг культурного туризма через спрос, предложение, конкуренцию и ценового механизма. Нерыночные – это группа факторов, связанные с государственным регулированием сферы культурного туризма.

Исследовав и обобщив современные публикации относительно факторов, мы пришли к выводу, что в целом на развитие культурного туризма влияют многочисленные факторы, которые, на наш взгляд, целесообразно рассматривать в формате, обозначенном ниже.

Наличие объектов исторического и культурного наследия, богатство природных ресурсов, т.е. туристический потенциал, являются важными факторами развития культурного туризма, поскольку мотивирующей силой является желание туристов знакомству как с культурой других народов (включая ландшафт), так и посещение культурных объектов. Регион, который заинтересован стать лучшей туристической дестинацией, должен располагать богатыми, неповторимыми культурными комплексами, которые являются гарантией успешного развития и функционирования культурного туризма.

В настоящее время привлекательными, интересными и актуальными для туристов являются религия, музыка и танцы, история, народные промыслы, наука, национальная кухня, особенности гостеприимства и др. Хотелось бы отметить, что богатое культурное и историческое наследие, а также природное разнообразие Узбекистана позволяют развивать историко-культурный, культурно-познавательный, событийный, религиозный, эко культурный, тематический, арттуризм, сельский, оздоровительный и др., которые являются разновидностями культурного туризма.

Культура и уровень развития культурных отношений способствует развитию культурного туризма, которая является неотъемлемой частью духовной жизни общества, В результат мер, принятых правительством, по развитию туризма в Узбекистане всё чаще проводятся большое количество тематических мероприятий (проведение национального праздника “Навруз”, фестиваль цветов, фестиваль “Байсун бахори”, фестиваль ремесленников “Хунарманд” и др.), открылось множество новых культур-

6 Составлено автором

но-туристских объектов. К примеру, “в нашей стране есть более 400 различных музеев, из которых 155 – государственные. Их основным направлением является – история, краеведение, изобразительное и прикладное искусство, а также мемориальные дома-музеи выдающихся деятелей культуры искусства. Наиболее известными крупными и значимыми музеями страны являются: Государственный музей истории Узбекистана, Государственный музей искусств Узбекистана, Государственный музей истории Тимуридов, Государственный музей прикладного искусства Узбекистана, Археологический музей, Государственный музей искусств Республики Каракалпакстан им. И.В. Савицкого, Государственный музей природы Узбекистана и другие”[7].

- **Инфраструктурный фактор.** В мире существуют определённые стандарты развития туризма в целом, и культурного туризма в частности, что говорит о том, что развитие культурного туризма в Узбекистане будет затруднено без наличия на территории республики необходимых элементов туристского процесса к которым относятся совокупность современных гостиниц и иных средств размещения, наличие качественной дорожно-транспортной инфраструктуры, гостеприимное отношение местного населения к туристам, владение иностранным языком работников туристской сферы, наличие привлекательных экскурсионных маршрутов, разнообразие культурных и досуговых объектов, которые удовлетворяют потребности регулярно путешествующих людей.
- **Культурные интересы туристов.** У каждого туриста имеются культурные интересы, которые являются мотивирующей силой, т. е. “культура региона способна вызвать у потенциальных туристов сильнейший побудительный мотив к путешествию”8. Поэтому, при выборе направления турист руководствуется своими интересами, выбирая при этом исторический, познавательный, религиозный, тематический, эко культурный, событийный и другие виды туризма, которые определяют цель путешествия. Необходимо добавить, что данный фактор целесообразно было бы учитывать при стратегическом планировании развития культурного туризма в областях республики. На наш взгляд, при разработке программ развития туризма необходимо опираться на культурные, а также духовные интересы туристов.

В продвижении и развитии культурного туризма большое значение, с нашей точки зрения, имеют реклама и брэндинг т. е. рекламно-информационные кампании, проводимые туристскими предприятиями, а также проведение масштабной брендинговой политики государственными органами. Издание рекламно-информационных каталогов по существующим экскурсионным маршрутам с обозначением памятников культурного наследия, рекламные ролики, баннеры способствуют росту узнаваемости региона. Поэтому, для развития культурного туризма необходимо определить конкретные туристские объекты с помощью которых государство и представители турбизнеса собираются развивать культурный туризм.

- **Кадры и кадровое обеспечение.** Успешное и устойчивое развитие культурного туризма во многом зависит от профессиональности кадров: сотрудники средств размещения, экскурсоводы, аниматоры, водители специалисты, обеспечивающие организацию досуга туристов. На сегодняшний день в республике действуют 12 заведений высшего образования, способных подготовить необходимые для развития сферы туризма и обслуживания кадры.

В заключении хотелось бы отметить, изучение факторов развития культурного туризма, позволило сделать вывод, что невозможно определить влияние всех факторов одновременно, оказывающих на развитие культурного туризма. Однако, можно определить какие из них являются решающими, а какие являются дополнительными.

Список литературы:

Исходя из всего вышесказанного, можно сделать вывод о том, что с каждым годом все больше страховщиков внедряют InsurTech технологии в свои бизнес-процессы. Технологические тенденции, описанные ранее, кардинально изменят страховую деятельность, создавая значительные возможности. Эти сдвиги уже происходят, а это означает, что страховщики должны действовать сейчас, чтобы разработать более амбициозное видение того, как технологии могут усовершенствовать деятельность компании. Чтобы использовать потенциал InsurTech тенденций, страховщики будут развивать свой технический талант, ставить технологические тенденции и их бизнес-последствия на повестку дня руководства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В настоящее время отечественные финансовый и страховой рынок нуждается в развитии инновационных инструментов, поскольку значительно отстает от уровня развитых стран. Данный фактор должен послужить дополнительным стимулом для отечественных специалистов и привлечь их внимание к себе в целях создания финансовых инноваций в форме FinTech и InsurTech. Это позволит улучшить состояние не только финансового рынка, но и всей экономики страны.

Но стоит отметить, что цифровая трансформация в отечественном страховании началась практически с нуля и многие операции до сих пор носят, происходя “на бумаге”, этот процесс ещё не полностью

основывается на аналитике.

Однако, нужно отметить, что страхование, не только в Узбекистане, но и во всем остальном мире, по-прежнему остается одной из самых консервативных и инерционных отраслей экономике. И хотя сейчас внедряются сервисы, связанные с аналитикой больших данных, искусственным интеллектом и биометрией, здесь все же очень медленно происходят изменения, хуже приживаются инновации, и эта индустрия до сих пор является одним из самых зарегулированных рынков с устоявшимися, но устаревшими правилами работы.

При оценке воздействия новых технологий на финансовый рынок в последнее время особое значение приобретают два фактора:

1) уровень принятия базовой технологии обществом;
2) степень и распространенность технологических ноу-хау среди населения в целом

Таким образом, можно подвести итог, что современные инструменты FinTech и InsurTech оказывают значительное влияние на экономики разных стран, в особенности на банковскую и страховую отрасль. Они повышают качество предоставляемых услуг и дают толчок для их продуктивного развития в сторону информатизации.

Список использованное литературы:

1. Бикоева Д.П. (2019) Виляние цифровых технологии на развитие страховой деятельности. “Инновации и инновации” №5. С. 96-98.
2. Handbook of Digital Currency. Bitcoin, Innovation, Financial Instruments and Big Data. Ed. By David Lee Kuo Chuen. L.: Elsevier, Academic Press, 2015.
3. Skan Ju., Ryan E. Fintech – Did Someone Cancel the Revolution (2019). URL: https://www.accenture.com/_acnmedia/PDF57/Accenture-Fintech-Did-Someone-Cancel-The-Revolution.pdf.
4. Официальный сайт McKinsey & Company: [сайт]. – URL: www.mckinsey.com (дата обращения 01.12.2023). – Текст: электронный.
5. Козлова О. Н., Котова О. Н., Павловская Е. В. (2017) Использование новых каналов сбыта для повышения эффективности работы страховых компаний // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3: Экономика. Экология. Т. 19. № 2. С. 108–116.
6. Турдумамбетов Б.К. (2017) Современные технологии – драйверы страхового рынка // Страховое дело. № 7. С. 10–13.
7. Тепкаева З.З. (2020) Внедрение цифровых технологий в деятельность страховых организаций России. Финансовые исследования № 2 (67). С. 162-170.
8. Шалбузова З. Н. (2019) Влияние иншуртеха на развитие страховой отрасли. Электронный научный журнал “Вектор экономики”. №12. СМИ ЭЛ № ФС 77-66790, ISSN 2500-3666.
9. Закирходжаева Ш.А. (2023) Развития страхового рынка путем внедрения в отрасль технологии иншуртех. Central asian journal of innovations on tourism management and finance. Volume: 04 Issue: 05. С. 122-129

IQTISODIYOTNI INNOVATSION ISLOH QILISH SHAROITIDA YER HISOBINI YURITISHNING AHAMIYATI

Hojiyev Qo‘chqor Mamadiyorovich
q.x.f.f.d (PhD), “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti, “Metodologiya” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada analitik tahlil va monografik tadqiqot usullariga suyangan holda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning to‘laqonli amalga oshirilishida yer maydonlarining miqdoriy hisobini yuritishning ahamiyati, shuningdek, ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yer hisobini to‘g‘ri va to‘liq yuritishda yo‘l qo‘yilayotgan xato-kamchiliklar ko‘rsatib berilgan, xususan, ularni bartaraf etgan holda tuzilayotgan yer balansining sifatini oshirish, yer hisobining haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlashda tumanlarning ma’muriy chegarasi doirasida tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar hududlarini belgilangan tartibda to‘liq shakllantirgan holda o‘tkaziladigan yer resurslari xatlovi natijalarini asos sifatida qabul qilinishi bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: islohat, qishloq xo‘jaligi, ma’muriy-hududiy birlik, shaharcha, qishloq, ovul, yerdan foydalanuvchi, yer balansi, yer hisobi, koordinatalar tizimi, yer resurslari xatlovi, yer fondi toifalari, yer turlari, elektron raqamli xarita, ekin yerlar, tomorqa yerlar.

Abstract: In the article, based on methods of analytical analysis and The monographic study shows the importance of maintaining quantitative records of land during the full implementation of the reforms being carried out in our country, as well as errors and shortcomings that are made during the correct and complete implementation of land records by administrative-territorial units, in particular, in order to improve the quality of the land balance (report) , which is formed by excluding them, ensuring fairness and in order to ensure transparency, practical proposals and recommendations were made on accepting the results of a survey of land resources as a basis, which are carried out within the administrative boundaries of districts with the full formation of cities of district subordination, settlements, kishlaks, auls in accordance with the established order.

Key words: reform, agriculture, administrative-territorial unit, settlement, kishlak, aul, land user, land balance (report), land accounting, coordinate system, inventory of land resources, categories of land fund, types of land, electronic digital map, arable land, personal lands.

Аннотация: В статье на основе методов аналитического анализа и монографического исследования показаны важность ведения количественного учета земель при полной реализации проводимых в нашей стране реформ, а также ошибки и недостатки, которые допускаются при правильном и полном осуществлении учета земель по административно-территориальным единиц, в частности, в целях повышения качества земельного баланса (отчета), который формируется путем их исключения, обеспечения справедливости и в целях обеспечения прозрачности были сделаны практические предложения и рекомендации по принятию результатов обследования земельных ресурсов за основу, которые осуществляются в пределах административных границ районов с полным формированием городов районного подчинения, посёлков, кишлаков, аулов в соответствии с установленным порядком.

Ключевые слова: реформа, сельское хозяйство, административно-территориальная единица, посёлок, кишлак, аул, землепользователь, земельный баланс (отчет), учет земель, система координат, инвентаризация земельных ресурсов, категории земельного фонда, типы земель, электронная цифровая карта, пашня, приусадебные земли.

KIRISH

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yer munosabatlarini tartibga solish, respublikamiz yer resurslaridan foydalanish samaradorligini va yerlarning, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish va talon-tarojligining oldini olish maqsadida tegishli qonunlarning qabul qilinishi, xususan, yer to‘g‘risidagi qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali yer islohotini jadallashtirish albatta hukumatimiz oldiga qo‘yilgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer islohoti mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, balki

mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish, respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi eng muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Zero, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslaridan foydalanish tizimini ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xususan, yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini joriy etish, yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer egalarining mulkiy huquqlarini kafolatlash, shuningdek, yerning iqtisodiy qiymatini belgilash orqali uni fuqarolik huquqiy munosabatlar obyekti sifatida erkin muomalaga kiritish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Olib borilayotgan yer islohatlarini samarali amalga oshirishda amaldagi ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralari bo'yicha tuzilgan yer balansining yer fondi toifalari, yer turlari va yerdan foydalanuvchilari (barcha huquqlar bo'yicha) kesimida haqqoniyligi, shuningdek, yer uchastkalariga hamda mulklarga bo'lgan huquqlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy qo'llab- quvvatlash maqsadida tomorqa yerlari me'yorlarining keskin oshirilishi, shuningdek, yer munosabatlarini huquqiy asosda rivojlantirish va tartibga solish, yerlardan maqsadiga ko'ra oqilona hamda samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi, Fermer xo'jaligi to'g'risidagi, Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, Davlat yer kadastri to'g'risidagi qonunlarning qabul qilinishi negizida yerdan foydalanishda ijara munosabatiga o'tilishi, mamlakatimizda fermer va dehqon xo'jaliklarining soni keskin ortib, yerdan foydalanish samaradorligi ko'tarilishi agrar sohadagi islohatlarning natijasi deb baholash mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi qonuni qabul qilinishi, shu bilan birga, bugungi kunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ochiq elektron tanlovlar orqali berilishi yoki qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarning ochiq elektron-onlayn auksionlar orqali realizatsiya qilinishi bu albatta olib borilayotgan islohatlarning davomi deb ta`riflasa bo'ladi.

Shu bilan birga, Respublika aholisining yildan-yilga o'sib borayotganligi, ularni oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, ijtimoiy turmush darajasini doimiy ravishda oshirib borishga bo'lgan talabini kuchaytiradi. Ayniqsa, bugungi kundagi tahlikali dunyoda bo'layotgan notinchlik orqasidan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi yanada kuchayishi negizida sohada islohotlarni jadallashtirish, shuningdek, yer maydonlaridan, jumladan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish va ularni muhofaza qilish, xususan, yer maydonlarining aniq miqdoriy hisobini shakllantirish zaruriyatini tug'diradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ma'lumki, yer maydonlaridan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etish, birinchi galda, uning miqdoriy hisobini to'g'ri va shaffof yuritilishi bilan uzviy bog'liqdir. Shunday ekan, yerlarning miqdoriy hisobini va, umuman, yer hisobini yuritish bilan bog'liq qator xorijiy va yurtimiz olimlari hamda amaliyotchilari shug'ullanib kelishgan. Yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etish va yer kadastri muammolari bilan xorijiy olimlardan I. V. Degtyarev [14], S. A. Tkachuk [15], S. N. Volkov [16] va boshqalar shug'ullanishgan. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda ham qator olimlar, jumladan, S. A. Avezbayev [17], A. S. Altiyev [18], Q. R. Raxmonov, A. R. Babajanovlar [19] ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ma'lum ilmiy natijalarga erishgan. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda yerlarning miqdoriy hisobini yuritish shaffofligini hamda aniqligini ta'minlashga yo'naltiriladigan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari hozirga qadar yetarli darajada olib borilmagan.

Barqaror rivojlanish uchun yerni samarali hisobga olish muhimdir. Yer cheklangan va muhim resurs bo'lib, to'g'ri hisob-kitob yerdan samarali foydalanishni boshqarish, ortiqcha ekspluatatsiyaning oldini olish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, shu davrgacha yer fondining har bir toifasi maqsadidan va ushbu toifadagi yerlardan foydalanishning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, yer uchastkasining foydalanuvchilari, ijarachilari, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qiluvchilari, mulkdorlari kesimida tuman (shahar) larning ma'muriy chegarasidagi shaharcha, qishloq va ovullar hududi bo'yicha yerlarning miqdoriy hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamizning mavjud 44 mln. 892,4 ming gektar umumiy yer maydonlari doirasida [10] yer hisobini to'g'ri, to'liq va shaffof holda yuritish berilgan yerlardan maqsadiga ko'ra oqilona va samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan islohatlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi sababli ham bugungi kunda bu muammoni kun tartibining asosiy masalalaridan biri sifatida ko'tarilayotganligi bejiz emas, negaki, tuman(shahar)lar chegaralarining butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) [7]

bog‘lanmaganligi hududlarda chegaralar bilan bog‘liq yer munosabatlarini tartibga solish borasida, jumladan yer uchastkalarini ajratish va xususiylashtirish masalalarida, yer bilan bog‘liq sohalarni rejalashtirishda, yer resurslarining xatlovini o‘tkazishda va ularning monitoringini yuritishda, yerlarni baholashda, shuningdek, tuman (shahar)larda yuritilayotgan yer balansining umumiy natijalarida ayrim xato va kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, Respublika bo‘yicha ma’muriy-hududiy birliklarning quyi turkumini tashkil etuvchi tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududlarining [1] shakllantirilmaganligi, jumladan, amaliyotda tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududi bo‘yicha amalda yer hisobi yuritilmayotganligi mazkur birliklar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi shakllantirilishida sun’iy to‘siqlarni vujudga keltirmoqda.

Shu bilan birga amaldagi tuman (shahar) yer balansida sug‘orish tarmoqlaridan yoki suv manbalaridan uzilib qolgan yerlar hanuzgacha sug‘oriladigan yerlar hisobida yuritib kelinayotganligi, pichanzorlar bilan yaylov yerlar hamda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari yer maydonlarini umumlashgan holda [13] qayd qilinganligi, meliorativ qurilish holatidagi yerlarning qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibiga olinmasligi ham ularning hisobini yuritishda tegishli aniqlik kiritishni talab etadi. Shu bilan birga, xususiylashtirilgan yer uchastkalari, xususan, xususiylashgan bog‘ va tokzorlarni yer balansida alohida aks ettirilmasligi, bu turdagi yerdan foydalanuvchilarning yer hisobi shakllantirilmasdan qolayotganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq o‘rnatuvchi hujjatlarida ko‘rsatilgan maydon bilan amalda foydalanilayotgani o‘rtasida farqlarni bartaraf etishning huquqiy yechimi hanuzgacha ochiq turganligi, xususan, yer maydonlarida o‘tkazilgan xatlov natijalariga ko‘ra [13] aniqlangan o‘zgarishlarni o‘z muddatlarida yer balansiga olishning huquqiy asosi shakllantirilmaganligi ularning miqdoriy hisobini to‘g‘ri va to‘liq yuritishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yer hisobida haqqoniylikni va shaffoflikni ta’minlash zaruriyati uni yuritish bilan bog‘liq amaldagi tartibiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligini ko‘rsatmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning ma’muriy-hududiy birliklari kesimida yer fondining toifalari va turlari bo‘yicha ularning miqdoriy hisobini, jumladan, tumanlarning ma’muriy chegarasidagi tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududi bo‘yicha mavjud yerlarning miqdor jihatdan aniq hisobini yuritib borishda [3] soha mutaxassislariga katta vazifalar yuklatilganligiga qaramasdan, joylarda olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yer hisobini yuritishga doir muayyan tizim yaratilmaganligi yer maydonlarining miqdoriy hisobini to‘g‘ri va to‘liq yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan normativ-huquqiy masalalarni batafsilroq ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan jihatlardir.

Ma’lumki, yer hisobining natijalari har bir ma’muriy tuman (shahar) kesimida ishlab chiqiladigan yer balansida yoritiladi. Yer hisobini yuritish Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi hududiy bo‘linmalariga yuklatilgan bo‘lib, uning har yilgi yakuniy natijasi sifatidagi tuman (shahar) yer balansi har yili 1 yanvar holatiga tuziladi [3] hamda tuman (shahar)ning ma’muriy chegarasi doirasida yer fondining toifalari va yer turlari bo‘yicha yerdan foydalanuvchilar (barcha huquqlar bo‘yicha) kesimida yuritib boriladi. Bunday yer balansini tuzishda har bir yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalaniladi va yil davomida ularda vujudga kelgan tegishli o‘zgarishlar hisobga olib boriladi. Yer balansida yerlarning miqdori yerdan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha ularning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi yoki o‘tkazilmaganligidan qat’iy nazar [11] hisobga olinishi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi hamda “Er resurslarini xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar asosida tuman va shaharlarning ma’muriy chegaralarini belgilash orqali ularning umumiy maydoniga qayta aniqlik kiritish maqsadida tumanlarning ma’muriy chegaralari butunjahon koordinatalar tizimiga bog‘lab qayta ko‘rib chiqilganda, ularning umumiy yer maydonlarida yer balansiga nisbatan farqlar mavjudligi aniqlangan. Misol tariqasida Bekobod tumanining umumiy maydoni amaldagi ma’muriy-hududiy chegarasi butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) bog‘lab zamonaviy asboblar yordamida qayta o‘rganib (o‘lchab) chiqilganda yer balansiga nisbatan 165 gektar farq mavjudligi aniqlangan.

Shu bilan birga, 1:10000 masshtabga keltirilgan ortofotoplanlardan foydalangan holda yerlarni deshifrovka qilish orqali belgilangan tartibda yaratilgan elektron raqamli qishloq xo‘jaligi xaritalarida Bekobod tumanining mavjud yer maydonlari xatlovdan o‘tkazilganda yer fondi toifalari va yer turlarida ham yer balansiga nisbatan farqlar mavjudligi aniqlangan.

Yerlarning aniq hisobi barcha sohalarda yer bilan uzviy bog‘liq, xususan, yerlarni berish (ajratish), ularni xususiylashtirishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, yerlardan foydalanish bilan bog‘liq rejalarning, yerlarni baholashning, davlat yer kadastri va boshqa davlat kadastrlarining to‘g‘ri shakllanishini ta’minlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasida “Er resurslarining holati to‘g‘risidagi Milliy hisobot” har yili tayyorlanishi hamda butun mamlakat va ma’muriy-hududiy birliklar

bo‘yicha yerlarning miqdor va sifat holati hamda ularning bahosi, toifalarga bo‘linishi, tarmoqlar, yer uchastkalarining egalari, yer uchastkasidan foydalanuvchilar, yer uchastkasi ijarachilari, mulkdorlari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va yer kadastriga oid boshqa axborotni o‘z ichiga olishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 68-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iboratligi”, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy birliklari - viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iboratligi” ko‘rsatib o‘tilganligi mavjud tumanlarning ma’muriy chegarasi doirasidagi shaharchalar, qishloqlar, ovullar hududlari chegaralari o‘rnatilgan tartibda belgilanishi uchun huquqiy asos ekanligini yana bir tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy birliklarining, jumladan, tumanlarning ma’muriy chegarasi doirasida tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar hududlarini amaldagi qonunchilik asosida bo‘linishi hamda ularning chegaralariga butunjahon koordinatalar tizimidan foydalangan holda qayta aniqlik kiritish orqali mavjud yer maydonlarining aniq hisob-kitobini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, yerdan foydalanuvchilar (barcha huquqlar bo‘yicha) tomonidan foydalanilayotgan yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish orqali yer fondining barcha toifalari [2] to‘g‘risidagi haqqoniy ma’lumotlarga ega bo‘lish, yer hisobini to‘g‘ri va to‘liq yuritish yer islohoti jarayonlarining haqqoniyligini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mavjud tumanlarning ma’muriy chegarasi doirasida tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududlari belgilangan tartibda to‘liq shakllanmaganligi mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning to‘laqonli amalga oshirilishiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda, shuningdek, ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yer hisobini yuritishda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Keyingi yillarda sohaga zamonaviy, innovatsion (uchuvchisiz uchish qurilmalari, kosmik suratlardan foydalanish, maxsus dasturlar va hakazo.) texnologiyalarning kirib kelishi yer hisobini yuritish jarayonini anchagina osonlashtirishga va natijalarini yaxshilashga imkon berdi. Shu bilan birga, respublikada yer islohotining chuqurlashuvi, yerdan foydalanuvchi subyektlar huquqlarining turli-tumanligi, yerdan foydalanishga yangi shakllarning kirib kelayotganligi yer hisobida aniqlik va haqqoniylikni ta’minlash, uni yuritish tizimiga zaruriy o‘zgartirishlar kiritish zaruriyatini tug‘dirmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son hamda 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son Farmonlarida yer maydonlarining aniq hisobini yuritishni tashkil etish va ta’minlash borasida tegishli vakolatli organlarga bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab yer turi, konturi, chegarasi va huquq egalari haqidagi barcha ma’lumotlar Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritilishi, u esa Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinishi, yer balansi va uning hisoboti, tuman (shahar) yer kadastri daftari faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishi, Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geoaxborot tizimida shakllantirilishi, tegishli davlat kadastrlari ma’lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga faqat telekommunikatsiya tarmoqlari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etib borilishi belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hamda yer hisobini yuritishning mavjud holatini tadqiq qilish asosida qayd qilish zarurki, yer hisobini yuritishning amaldagi tizimini qayta ko‘rib chiqish, chuqur tahlil qilish, yer hisobini to‘g‘ri, to‘liq va shaffof holda yuritishni, birinchi galda, tumanlarning ma’muriy chegaralari bo‘yicha umumiy maydonlaridagi o‘zgarishlarni hamda ularning ma’muriy chegarasidagi tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududi bo‘yicha o‘tkazilgan xatlov natijalarini yer balansiga olishning maqbul usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yer maydonlarining miqdoriy hisobini yuritish bo‘yicha mavjud hujjatlarni tahlil qilish hamda sohadagi amaliy tajribalardan kelib chiqqan holda yer hisobini to‘g‘ri va to‘liq yuritish tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni kiritishni zarur deb hisoblaymiz:

1. Tuman (shahar)larning ma’muriy chegaralarini belgilangan tartibda butunjahon koordinatalar tizimiga(WGS-84) bog‘lab amalga oshirish ishlarini to‘liq yakunlash va aniqlangan ko‘rsatkichlarni tuman (shahar)larning yer balansiga qabul qilinishini ta’minlovchi mexanizmini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etish;
2. Tumanlarning ma’muriy hududini tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullarga belgilangan tartibda bo‘linishini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy choralarni amalga oshirish hamda tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning tasdiqlangan chegaralari bo‘yicha ularning aniq hududlarini shakllantirish zarur;

3. Tuman (shahar)lar bo‘yicha yer resurslarining xatlovini yakunlash va xatlov yakunlarini tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar kesimida yer fondining toifalari, yer turlari, yerdan foydalanuvchilari bo‘yicha yer balansiga qabul qilinishining maqbul uslubiyotini ishlab chiqish;
4. Yer balansini hamda tuman (shahar)ning yer kadastri daftarini faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishini tashkil etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yer hisobini yuritish bo‘yicha bugungi kundagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va yer balanslarini o‘rganish, tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, yuqorida ishlab chiqilgan takliflarni yer maydonlarining miqdoriy hisobini yuritish amaliyotiga joriy etish bu yo‘nalishda bajarilayotgan ishlar sifatini tubdan oshirishga, yer hisobini haqqoniy va shaffof tarzda yuritishni yo‘lga qo‘yishga, yer maydonlaridan, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishga va ularni muhofaza qilishga, shuningdek, yer hisobini yuritish tizimini takomillashtirib borishga, raqamli yer kadastrini yaratish va yuritishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, shu bilan birga, mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning to‘laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining davlat yer kadastri to‘g‘risidagi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risidagi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 389-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-son qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to‘g‘risidagi Milliy hisobot. –Toshkent: Kadastr agentligi, 2022.
11. Raximov V.R., Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. –Toshkent, TTU 2012.
12. Bobojonov A.R. “Er kadastri” Toshkent, TIMI, 2011 y.
13. O‘zbekiston Respublikasining yer fondi. –Toshkent: Kadastr agentligi, 2022.
14. Дегтярев И.В. Земельное право и земельный кадастр: Учебник для сред. с.-х. учеб. заведений - Москва: Юрид. лит., 1975. – 327 с.
15. Ткачук С.А. Управление земельными ресурсами (Вопросы общей теории): Учеб.пос. Целиноград, 1986. - 92 с.
16. Волков С.Н. Основы землеустройства: Учебники и учебные пособия для студентов высших учебных заведений. - Москва 2015 г. – 327 с.
17. Avezboyev S.A. Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari. –T.: “TIMI”, 2008. - 136 b.
18. Altiyev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. - T.: “Fan” nashriyoti Toshkent – 2018-y.
19. Raxmonov Q., Bobojonov A.R. Davlat kadastrlari. –T., 2007. –154-b.

QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH ORQALI QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN KENG FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Sherqulov Nodir Erkin o‘g‘li
“Alfraganus University” NOTT Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda butun dunyoda bo‘lganidek mamlakatimizda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, “chiqindidan energiyaga” tamoyili asosida ushbu manbalar orqali energiya resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, milliy qonunchilik va xorijiy tajriba o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: maishiy chiqindilar, utilizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilardan hosil bo‘lgan gazni qayta ishlash, chiqindi poligonlari, sizot suvlari, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, yashil tarif.

Abstract: In the article, the issue of doing work related to household waste is considered urgent in our country, as it is in the whole world. In order to encourage the widespread use of renewable energy sources through the disposal of solid household waste, the introduction of state support mechanisms, the possibilities of effective use of energy resources through these sources based on the “waste to energy” principle, national legislation and foreign experience were studied.

Key words: household waste, disposal, renewable energy, waste gas processing, landfills, leachate, household waste processing, green tariff.

Аннотация: В статье вопрос выполнения работ, связанных с бытовыми отходами, рассматривается как актуальный в нашей стране, как и во всем мире. В целях стимулирования широкого использования возобновляемых источников энергии путем утилизации твердых бытовых отходов, внедрения механизмов государственной поддержки, возможности эффективного использования энергоресурсов за счет этих источников на основе принципа “отходы в энергию”, национальное законодательство и был изучен зарубежный опыт.

Ключевые слова: бытовые отходы, утилизация, возобновляемая энергетика, переработка отходящих газов, свалки, фильтрат, переработка бытовых отходов, зеленый тариф.

KIRISH

Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishning amaldagi tizimini o‘rganish va tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘p yillar mobaynida shakllangan amaliyot asosan ularni to‘plash va chiqindi poligonlariga joylashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, aralash holdagi (saralanmagan) qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish tizimi amal qiladi.

Xususan, amaliyot va qonunchilikda, maishiy chiqindilarning hosil bo‘lishini minimallashtirish, ulardan takroriy foydalanilishini ta’minlash, kam chiqitli va chiqitsiz texnologiyalarning joriy etilishi, ularning utilizatsiya qilinishi va qayta ishlanishini rag‘batlantiruvchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar talab darajasida belgilanmagan.

Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirishni tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga zarurat paydo bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan Toshkent viloyatida chiqindilarning atrof muhit va aholi sog‘lig‘iga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-noyabrdagi 895-son qaroriga muvofiq Koreya Respublikasining “Sejin G&E Co., Ltd” kompaniyasi ishtirokida “Ohangaron” va “Maydontol” chiqindi poligonlarida hosil bo‘ladigan chiqindi gazini qayta ishlash hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ma’lumot uchun: investitsiya shartnomasiga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya miqdori 100 foizni (55,0 mln AQSh doll.) tashkil etib, chiqindi gazidan (biogaz) umumiy ishlab chiqarish quvvati kamida 16 MVt elektr energiyasi ishlab chiqaradigan 12 ta generator va yordamchi uskunalar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4291-son qarorini alohida ta’kidlash lozim.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Strategiyaning asosiy prinsiplaridan biri etib “Sejin G&E Co., Ltd” kompaniyasi (Koreya Respublikasi) ishtirokida “Toshkent viloyatining “Ohangaron” va “Maydontol” maishiy chiqindilar poligonlarida hosil bo‘ladigan chiqindi gazini qayta ishlash hisobiga elektr energiyasini ishlab chiqarish” loyihasini amalga oshirish belgilangan bo‘lib, unga muvofiq loyihani amalga oshirish bosqichlari quyidagilar etib:

- birinchi bosqichda “Ohangaron” (Ohangaron tumani) va “Maydontol” (Parkent tumani) poligonlarini yopish;
- ikkinchi bosqichda poligonda gazni ushlab qolish va foydalanish tizimini joriy etish;
- uchinchi bosqfichda poligonlarda hosil bo‘ladigan chiqindi gazidan (metandan) umumiy ishlab chiqarish quvvati kamida 16 MVt (har birining quvvati 1 560 kVt bo‘lgan 10 ta qurilma va har birining quvvati 500 kVt bo‘lgan 2 ta qurilma) bo‘lgan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan 12 ta yangi zamonaviy generatorlar va yordamchi uskunalarni o‘rnatish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tahlillarga qaraganda, hozirgacha dunyoning 80 ga yaqin mamlakatda muqobil energiya manbalari sohasida milliy qonunchilik yaratilgan, 70 ga yaqin mamlakatda esa muqobil energiya manbalari bilan ishlash hajmini ko‘paytirishga harakat qilmoqda. So‘nggi o‘n yillikda mazkur sohada Braziliya, Kanada, Xitoy, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Irlandiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Singapur, Shvetsariya, AKSh va Mongoliya kabi mamlakatlarda tegishli qonunlar qabul qilingan hamda amaldagi qonunchilikka o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Hozirgi kunda muqobil energiyadan foydalanish bo‘yicha Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Malaziya, Janubiy Koreya, Ispaniya va AQSh davlatlari yetakchilik qilmoqda.

Masalan, Germaniya hozirgi kunda elektr energiyaning 20 foizini muqobil energiyadan olishni rejalashtirgan, har yili esa 100 ming uyning tomini quyosh panellari bilan qoplamoqda. Bunday usuldan foydalanish har tomonlama qulaylik tug‘diradi, hech qanday ortiqcha joy talab qilmaydi, aksincha, uyni xohlagan vaqtda isitish, xonadon ehtiyojini to‘laligicha elektr energiya bilan ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, quyosh energiyasida asosida faoliyat yurituvchi zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy, Janubiy Korea va boshqa rivojlangan davlatlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yutuqlarini tatbiq qilish, bu borada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish xususan, kombinatsiyalashgan quyoshli biogaz qurilmasi, issiqxonalarni noan’anaviy usulda isitish, quyosh panellari yordamida suv resurslaridan foydalanish texnologiyalarini qo‘llash yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu esa, birinchidan, kamxarajatliligi, ikkinchidan, esa ekologik zararsiz texnologiyalar ekanligi bilan, uchinchidan, odamlarning hayot farovonligini oshishi va iqtisodiy samaraodorlikni oshishi, yangi ish o‘rinlarini yaratilishi bilan ham o‘ta ahamiyatlidir.

Yurtimizda ham shu asnoda ushbu sohani jadal rivojlantirish tartib taomillarini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi (21.05.2029 yil) qonuni ishlab chiqilgani bejiz emas.

METODOLOGIYA

Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish hisobiga elektr energiyasi olish masalasini tadqiq qilishda iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va sintezlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, “chiqindidan energiyaga” tamoyili asosida ushbu manbalar orqali energiya resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, milliy qonunchilik va xorijiy tajribasi o‘rganildi.

1-jadval: Chiqindilarni yoqish yo‘li bilan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi realizatsiyasini tashkil etish bilan bog‘liq ayrim ma’lumotlar (Evro sent)

№	Mamlakat nomi	Chiqindini utilizatsiya qilib energiya oluvchi zavodlar soni	Chiqindini yoqish usuli bilan qayta ishlash darajasi (foizda)	1 tonna chiqindini termik utilizatsiya qilish xarajati	1 kVt/soat elektr energiya-sining bozor narxi	Chiqindini yoqishdan olinadigan 1 kVt/soat elektr energiyasi narxi	“Yashil tarif” asosida chiqindi yoqish zavodini subsidiyalash uchun ajratilayotgan mablag‘
A	B	C	D	E	F	G	G-F
1	Germaniya	68	32	31	5,2	11,6	6,4
2	Shveytsariya	30	47	48	16,0	22,0	6,0
3	Fransiya	100	37	36	5,2	13,1	7,9
4	Rossiya	5	3	10 - 20	7,86	14,6	6,74
5	Buyuk Britaniya	7	37	10 - 25	9,3	20,2	10,9
6	Shvetsiya	65	50	31	4,2	10,3	6,1
7	Italiya		21		8,6	27,3	18,7
8	Daniya	30	48	80	3,4	10,1	6,7
9	Niderlandiya		44	30	5,5	14,2	8,7
10	Ispaniya	21	6	47	9,2	19,8	10,6

Bundan tashqari, xorijiy kompaniyalar tomonidan maishiy chiqindilarni yoqish texnologiyasi yordamida elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish takliflari o‘rganildi.

Jumladan:

- Italiyaning “Energy Systems”, “PVB”, “FCL AMBIENTE” kompaniyalari hamda “BMB TRADE GROUP” MChJ tomonidan Toshkent viloyatida maishiy chiqindilarni termik usulda qayta ishlash;
- Turkiyaning “Klintek İnşaat ve Enerji” shirkati tomonidan Farg‘ona viloyatida maishiy chiqindilarni termik usulda qayta ishlash orqali hamda chiqindixona gazidan muqobil elektr energiya ishlab chiqarish.

2-jadval: Toshkent viloyatida chiqindidan energiya ishlab chiqarish loyihasining iqtisodiy tahlil natijalari

Tadbir nomi	Loyiha ko‘rsatkichlari	O‘lchov birligi
QAYTA IShALASh		
Jami chiqindilar	150 600,0	tonna/yil
Shundan:		
Yoqish zavodi uchun	100 600,0	tonna/yil
Shundan:		
Qattiq maishiy chiqindilar	50 000,0	tonna/yil
Sanoat chiqindilari	50 000,0	tonna/yil
Tibbiyot chiqindilari	600,0	tonna/yil
RDF yoqilg‘i ishlab chiqarish uchun	50 000,0	tonna/yil
IShLAB ChIQARISh QUVVATI		
Yillik elektr energiyasi	79 675,0	mVts/yil
Yillik RDF	50 000,0	tn

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3-jadval: Farg‘ona viloyatida chiqindidan energiya ishlab chiqarish loyihasining iqtisodiy tahlil natijalari

Tadbir nomi	Loyiha ko‘rsatkichlari	O‘lchov birligi
QAYTA ISHLASH		
Jami chiqindilar	730 000,0	tonna / yil
Bundan:		
Qattiq maishiy chiqindilar	730 000,0	tonna / yil
Bundan:		
RDF yoqilg‘i ishlab chiqarish uchun	120 000,0	tonna / yil
ISHLAB CHIQARISH QUVVATI	Chiqindilarni yoqib energiya olishdan 50 Mvt/soat; Chiqindilardan hosil bo‘ladigan tabiiy gazdan energiya olishdan 50 Mvt/soat	X
Chiqindilardan yenergiyaga yillik yelektr energiyasi	350 000,0	Mvt / yil
Tabiiy gazdan yenergiyaga yillik yelektr energiyasi	350 000,0	Mvt / yil
Issiqlik yenergiyasi (Mvt)	756 000,0	Mvt / yil

Ushbu loyihalarni amalga oshirilishi natijasida qattiq maishiy chiqindilardan utilizatsiya qilish orqali ularning hajmini qisqartirish va chiqindilar tarkibidagi kimyoviy zararli moddalarni zarasizlantirish hisoblanadi. Shu bilan birga, chiqindilarni yoqish natijasida muqobil energiya ishlab chiqarish va ikkilamchi moddiy resurslarni ajratib olish imkoniyati yaratiladi.

Loyihalarni amalga oshirish natijasida:

a) Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida hosil bo‘ladigan va qayta ishlashga yaroqsiz hisoblangan chiqindilarning poligonlarga ko‘milishi qisqaradi.

b) Toshkent viloyatida yiliga 150,6 ming tonna, Farg‘ona viloyatida yiliga 730,0 ming tonna chiqindini utilizatsiya qilinadi;

Ma’lumot uchun: texnologiyaning birinchi bosqichida chiqindilar yuqori haroratda quritiladi va keyingi bosqichda 850°S dan yuqori haroratda yoqiladi. Natijada potensial zararli ifloslantiruvchi moddalarning (misol uchun dioksin) to‘liq yonishi va parchalanishi hamda elektr energiya ishlab chiqarilishi ta’minlanadi.

d) har ikkala loyiha doirasida jami 320 ta qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi.

e) atmosferaga yillik 3 700 tonnaga yaqin issiqxona gazlari, dioksid va difuran kabi toksik va turg‘un organik gazlar, yer osti qatlamiga 1,17 mln tonna zararlangan sizot suvlar (filtrat) tashlanishining hamda 623 Ga chiqindi poligonlari paydo bo‘lishining oldi olinadi, chiqindi poligonlarida 295,0 mlrd so‘m joriy xarajatlar qisqartiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda respublikada chiqindilarni zamonaviy tarzda utilizatsiya qilish va chiqindi gazlarini qayta ishlash orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, bunday texnologiyalardan foydalanishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun iqtisodiy va me’yoriy-huquqiy mexanizmlar mavjud emas.

Yevropa ittifoqi, AQSh, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan davlatlarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, uglerod tashlamalarini kamaytirish dasturlari doirasida qayta tiklanuvchi energiya uchun “yashil” ta`riflar joriy etilgan bo‘lib, “yashil” tarif – bu qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalaridan foydalanishga investitsiyalar jalb qilish uchun mo‘ljallangan iqtisodiy va me’yoriy-huquqiy mexanizm hisoblanadi.

Maishiy chiqindilarni boshqarish sohasida 2028 yilgacha belgilangan Strategiya maqsadlariga erishish, maishiy chiqindilar hajmini kamaytirish maqsadida “chiqindidan energiyaga” tamoyili asosida yangicha tizim joriy etish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda sohada yangicha yondashuvlarga asoslangan atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlarni qisqartirish maqsadida:

- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, keng imkoniyatlar yaratish, sohaga xususiy sektor ulushini keng jalb qilish maqsadida qonunchiligimizni takomillashtirish;
- maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish va chiqindi gazlarini qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasida qulay investitsiya muhiti yaratish maqsadida xorijiy tajriba asosida yurtimizda yashil ta`riflar belgilanishini ta'minlash taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 21-maydagi O'RQ-539-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 07.02.2017-yildagi PF-4947-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 17.04.2019-yildagi PQ-4291-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent viloyatining "Ohangaron" va Maydontol" maishiy chiqindilar poligonlarida hosil bo'ladigan chiqindi gazini qayta ishlash hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori. 01.11.2018-yildagi 895-son.
5. Тенденции и перспективы технологий солнечной энергетики Материалы 6-ого заседания Азиатского форума солнечной энергии – Ташкент. 2013. 20-23 ноября.
6. В.И. Виссарианов, Г.В. Дерюгина, В.А. Кузнецова, Н.К. Малинин Солнечная энергетика // Учебное пособие для вузов. Подготовлено на кафедре нетрадиционных и возобновляемых источников энергии Московского энергетического института. Москва. 2008.
7. The journal of Industrial Ecology 2012b. http://www.is4ie.org/jie, accessed on 8 March 2012.
8. https://uznature.uz/yz/site/news?id=3026

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

МИРОВОЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДЕНЕЖНЫХ И НАТУРАЛЬНЫХ ТРАНСФЕРТОВ В СОЦИАЛЬНОМ ОБЕСПЕЧЕНИИ

Гулноза Тохировна Самиева
доцент кафедры “Инновационная экономика” Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация: В данной статье приведены мнения о зарубежном опыте социального обеспечения, играющего важную роль в повышении уровня жизни населения. В статье представлены мировые модели социальной защиты и их обзор. В частности, в статье описываются континентальная, англосаксонская и скандинавская модели.

Ключевые слова: социальное обеспечение, трансферты, пособие по безработице, социальная защита, выплаты пособий, континентальная модель, англо-саксонская модель, скандинавская модель.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadigan ijtimoiy ta’minotning xorijiy tajribasi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Maqolada ijtimoiy himoyaning jahon modellari va ularning sharhi keltirilgan. Xususan, maqolada kontinental, anglo-sakson va skandinaviya modellari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ta’minot, transfertlar, ishsizlik nafaqasi, ijtimoiy himoya, nafaqa to‘lovlari, kontinental model, Anglo-Sakson modeli, Skandinaviya modeli.

Abstract: This article presents opinions on the foreign experience of social security, which plays an important role in improving the standard of living of the population. The article presents the world models of social protection and their review. In particular, the article describes the continental, Anglo-Saxon and Scandinavian models.

Key words: social security, transfers, unemployment benefit, social protection, benefit payments, continental model, Anglo-Saxon model, Scandinavian model.

ВВЕДЕНИЕ

В статье 25 Всеобщей декларации прав человека, принятой Организацией Объединенных Наций 10 декабря 1948 года, говорится, что каждый имеет право на уровень жизни, необходимый для здоровья и благополучия его самого и его семьи, включая питание, одежду - право на голову, жилье, медицину, уход и необходимые социальные услуги, а также на наличие средств к существованию в случае безработицы, болезни, инвалидности, вдовства, старости или обстоятельств, не зависящих от него, имеет право быть обеспеченным в случае отсутствие.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Вопросы социального обеспечения считаются одним из показателей, определяющих уровень жизни населения во всем мире. Ученые, изучавшие эти составляющие в экономике социальной сферы В. М. Рутгейзер, Шпилько С. П., Симбалист А. В., Пупынин К. Н., Рутковский М., Жеребин В. М., Романов А. Н., Перова М. В., Перов Е. В., Кукушина В. С., Хашимов П. З., Умурзаков Б. Х. В их научных работах широко освещаются вопросы социального обеспечения.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Данное исследование изучается на основе использования ряда исследовательских методов, в том числе преимущественно зарубежного опыта, результаты монографического исследования, анализа и синтеза, системного анализа, анализа вопросов социального обеспечения. Представлено

также содержание и сущность направлений социально-экономических преобразований, проводимых в отраслях экономики Республики Узбекистан и законов Республики Узбекистан в сфере оказания социальных услуг населению, постановлений Кабинета Министров, работы Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева, Президента на основании указов и постановлений.

АНАЛИЗ И ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

В настоящее время Швеция является страной в мире, где доля государственных расходов в ВВП превышает 42%. Уровень безработицы в Швеции составляет 1,8-2,2%, что считается полной занятостью для большинства стран. Государство не только трудоустраивает безработных, но и поддерживает их материально. Пособие по безработице выплачивается через пять дней после потери работы. Максимальный период финансовой помощи составляет 300 дней для лиц моложе 55 лет и 450 дней для лиц старшего возраста. Страхование от безработицы покрывает 90,0% занятого населения и покрывает 80,0% заработной платы в случае безработицы.

В Канаде федеральные трансферты обычно переводятся из федерального правительства в провинциальные бюджеты. Признан учеными частью “фискального федерализма” Канады благодаря четкому распределению. Эти трансферты предназначены для помощи провинциям с ограниченными финансовыми ресурсами для предоставления государственных услуг, включая здравоохранение и образование.

Канада измеряет средний финансовый потенциал каждой провинции, который сильно различается. В Альберте самый высокий показатель на душу населения — 12 577 долларов, а в PEI – самый низкий – 6 013 долларов на душу населения. В 2016 году федеральный подоходный налог Альберты составлял более 8000 долларов по сравнению с менее чем 3000 долларов в PEI. Но все провинции платят одинаковые ставки федерального налога. Экономист Тревор Томбе пишет, что к 2018 году трансфертные платежи превратились из первоначальных субсидий в “сложные механизмы”, которые были намного крупнее и “равномерно распределены”. К 2018 году межпровинциальное перераспределение упало до 2 процентов ВВП Канады, что является самым низким показателем за 60 лет.

Marketologlar yuqori sifatli kontentni ishlab chiqsa, ammo u maqsadli auditoriyaga yetib bormasa, bu foydasizdir. Marketologlar kontentni to‘g‘ri taqsimlashi orqali iste’molchilar e’tiborini qozonishi kerak. Marketologlar kontentni tarqatishni 2 xil usuli mavjud: brendning shaxsiy media kanallari va boshqa pullik media kanallari. Birinchisi, brendga tegishli bo‘lgan media kanallar, bunda brend istalgan vaqtda kontentni o‘zining shaxsiy media kanallarida tarqatishi mumkin. Bularga kompaniyaning veb saytlari, shaxsiy bloglari, elektron pochtalar, ijtimoiy tarmoqlari va kompaniyaning mobil ilovalari kiradi. Ikkinchisi, boshqa pullik media kanallari, ya’ni brend o‘z kontentini tarqatish uchun pul to‘lanadigan kanallardir. Ularga raqamli media bilan bir qatorda elektron ommaviy axborot vositalari, bosma ommaviy axborot vositalari va tashqi manba vositalari kabi an’anaviy reklama vositalarini o‘z ichiga oladi. Kontentning sifati juda yuqori bo‘lsa, mijozlar ko‘pincha ularni ijtimoiy tarmoqlar va do‘stlar orqali virusli tarzda tarqatishadi.

6-bosqich: Kontentni kuchaytirish

Marketologlar kontentni kuchaytirishda qiladigan birinchi qadami bu maqsadli auditoriyaga ta’sir o‘tkazuvchilarni (influencer)aniqlash va ulardan foydalanishdir. Ta’sir o‘tkazuvchilar (influencerlar) bular ijtimoiy hayotimizda hurmatga ega shaxslardir; mashxur sportchilar, shou biznes vakillari, blogerlar, biznesmenlar va boshqa obro‘li shaxslar. Marketologlar ta’sir o‘tkazuvchilar bilan kontentni tarqatishda o‘z mavqeini yanada yaxshilashi mumkin.

7-bosqich: Kontent marketingni baholash

Kontent marketingni baholash strategik va taktik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Strategik jihatdan kontentni baholashni birinchi qadamida 2 toifadagi maqsadlar, bular birinchisi savdoni oshirish, ikkinchisi esa brendni tanitish bilan bog‘liq natijaga erishildimi yoki yo‘qligi baholanishi kerak. Taktik jihatdan esa, marketologlar iste’molchilarni tinglash va marketing tahlil vositalari yordamida kontentni samaradorligin kuzatishlari lozim. Kontentni kuzatish ko‘rsatkich bular(kontent necha marta ko‘rilgani, kontentni qancha odam kuzatgani va ulardan necha foizi brendni eslab qolgani). Bundan tashqari mijozlar harakati ham muhim hisoblanadi, ular asosan kontent mijozni harakatga undaydimi yoki yo‘qligi o‘lchanadi.Odatiy ko‘rsatkichlarga; yoqish (like) va taassurotlar soni o‘rtasidagi nisbat, shu bilan birga ro‘yhatdan o‘tish va sotib olish kabi muayyan ammalarni bajargan auditoriya ulushi kiradi.

8 -bosqich:Kontent marketingni rivojlantirish

Kontent marketingning an’anaviy marketingdan asosiy afzalliglaridan biri bu biz kontentni qanchalik darajada ishlayotganini ya’ni kontentning mavzusini, formatini va yo‘nalishini tarqatish kanali bo‘yicha kuzatishimiz mumkin. Kontentni kuzatish uni tahlil qilish va rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi. Kompaniyaning bozordagi holati dinamik bo‘lganligi sababli, kontent marketing vaqti-vaqti bilan takomillashtirish muhimdir. Bunda kompaniyalarning martketing direktorlari kontentni rivojlantirish uchun uning mavzusi, formati va yo‘nalishlarini zamonaviy trendlarga muvofiqlashtirish lozim.

2023-yil may oyida kontent marketing bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar o‘rtasida AQSH o‘tkazilgan so‘rovnomada 37 foizi brend xabardorligini yaratish o‘zlarining kontent marketing faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta’kidlaganlar. 34 foizi sotish bilan bog‘liq jarayonda va 29 foizi esa mavjud mijozlar o‘rtasida sodiqlikni oshirish maqsadida foydalanishgan (3-rasm).



3-rasm: Kontent marketingning maqsadlari so‘rovnomasi

Manba:www.statista.com/statistics/1264902/goals-branded-content/

XULOSA VA TAKLIFALAR

Bugungi raqamli dunyoyimizda marketologlarning ko‘pchiligi reklamalardan foydalanishdan ko‘ra ko‘proq kontent marketinga o‘tishmoqda.Shu sababli, kompaniyalarning marketing xodimlari qimmatli xabarlarni yetkazish o‘rniga, mijozlar uchun qiziqarli,dolzarb va foydali bo‘lgan kontentni tarqatishlari kerak. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniyalarga quydagi kontent turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

- **Podkastlar** kontent marketingining qulay va ommabop shaklidir, chunki ular yo‘l-yo‘lakay tomoshabinlar uchun osonlik bilan foydalanish mumkin bo‘lgan kontentni taqdim etadi. Podkastlarda tajriba va haqiqiylikni namoyish etish orqali tinglovchilar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish mumkin.
- **Ijtimoiy tarmoqlar** - bu kontent marketingining o‘ziga xos shakli, chunki u keng auditoriya bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, kontent yaratish va reklama qilishda ham foydalanish mumkin.
- **Memlar** - bu madaniy ahamiyatga ega voqealar yoki g‘oyalar haqida hazil-mutoyiba bildiruvchi tasvirlar, videolar yoki matnlar. Ular kontent marketingining yuqori samarali shakli sifatida paydo bo‘ldi. Shuningdek, ular brend shaxsiyati, o‘ziga xosligi va xabardorligini rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi.
- **Keys tadqiqotlari** kontent marketingi uchun ajoyib ijtimoy dalil, chunki ular kompaniyani mijozlarning muammolarini qanday hal qilganiga oid real misollarni taqdim etadi. Ular aniq natijalarni ko‘rsatish orqali ishonchni mustahkamlaydi.
- **Vebinarlar** yoki **onlayn tadbirlar** brend tajribalarini mijozlarga qisqa shaklda namoyish qilish mumkin. Veb-seminarlar yoki onlayn tadbirlarni o‘tkazish kompaniyaga real vaqt rejimida tinglovchilar bilan muloqot qilish, savollarga javob berish va qimmatli ma’lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Vebinarlarni kutish uning muvaffaqiyatini ta’minlashning asosiy elementidir. Veb-seminarlarni turli kanallar, jumladan, elektron pochtalar, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar orqali oldindan targ‘ib qilish mumkin.
- **Videolar kontenti** tobora ommalashib bormoqda, chunki u an’anaviy kontent marketingi turlariga qaraganda butunlay boshqacha auditoriya bilan aloqalar o‘rnatilmoqda. Garchi odamlar hanuzgacha ma’lumot olish uchun yozma tarkibni qidirsalar ham, ko‘pchilik videolarni qulay va qiziqarli formati tufayli kuzatmoqda. Misol uchun, har oyda 2,8 milliarddan ortiq kishi YouTubedan foydalanadi
- **Infografika** kontent marketingining samarali turi hisoblanadi, chunki ular murakkab ma’lumotlarni soddalashtirilgan, vizual va jozibali tarzda taqdim etadi
- **Kurslar** auditoriyaga yangliklarni o‘rgatish va kompaniyaning o‘z sohasidagi obro‘-e’tibor orqali brendni yaratish uchun kuchli vositadir. Bu bir qator o‘quv qo‘llanmalari, seminarlar yoki keng qamrovli kurslar bo‘lishi mumkin, ta’lim mazmunini taqdim etish tinglovchilaringiz orasida ishonch va sodiqlikni oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-sonli Farmoni.
2. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya&Iwan Setiawan, Marketing 4.0. Moving from Traditional to Digital, Published by John Wiley&Sons, New Jersey, 2017.P.149-170.
3. Dharma, I & Lasmawan, I & Suastika, I. (2022). Digital Technology To Improve Marketing Strategy In The Era Of Pandemic Covid-19. The Es Economics and Entrepreneurship.1. 41-48. 10.58812/esee.v1i02.41
4. www.statista.com/statistics/527554/content-marketing-revenue.
5. www.statista.com/statistics/1264902/goals-branded-content.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITALINI SHAKLLANTIRISH MANBALARI VA USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Norqulov Mirsaid Tulqin o‘g‘li
Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarining afzalliklari va tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co‘z boradi. Shuningdek, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, moliya bozori, kapital bozori, kapital, taqsimlanmagan foyda, zaxira kapitali.

Abstract: This article will discuss the advantages and analysis of sources and methods of capital formation of joint-stock companies and improvement of development prospects. It also presents the existing problems in the prospects for the development of sources and methods of capital formation of joint-stock companies in our country, as well as the author’s approaches and proposals to eliminate them.

Key words: joint-stock companies, securities, shares, financial market, capital market, capital, retained earnings, reserve capital.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах и анализе источников и методов формирования капитала акционерных обществ и улучшения перспектив развития. Также приводятся существующие проблемы в перспективах развития источников и методов формирования капитала акционерных обществ в нашей стране, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: акционерные общества, ценные бумаги, акция, финансовый рынок, рынок капитала, капитал, нераспределенная прибыль, резервный капитал.

KIRISH

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatini tashkil etishida kapital tarkibining manbalari, ularning hajmi va muddati muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibining manbalarini o‘rganishda ularni ikkita guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga, o‘z mablag‘lari, ikkinchisiga esa jalb qilingan mablag‘lar kiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarilarning moliyaviy resurslari tarkibidagi o‘z mablag‘lari ularning passiv operatsiyalari hisobidan shakllanib, ulushi nuqtayi nazardan jami resurslari tarkibida 75-80 foizni, moliya-kredit muassasalarida esa ushbu moliyaviy manba 10-15 foizdan iborat bo‘lishi maqsadga lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlarilarning kapital tarkibining shakllantirishda asosiy e’tibor ularning o‘z mablag‘lariga qaratiladi. Xususan, mablag‘larni samarali joylashtirish, kreditorlar oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarish, shuningdek, mablag‘larning hajmi va qiymati kapitalni shakllantirishning asosiy obyekti sifatida maydonga chiqishidagi muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlarilarning moliyaviy resurslari takribida dastlab ustav kapitali ta’sischilar tomonidan shakllantiriladi va asosiy ulushni tashkil etadi. Ustav kapitalining shakllanishi va vujudga kelishi xususida o‘z davrida klassik iqtisodiy nazariyachilar muhim g‘oyalarni ilgari surganlar.

Xususan, A.Smit kapitalning vujudga kelishida uning sohibini shaxsiy iste’molidan vaqtinchalik ortiqcha pul mablag‘lari yoki moddiy boyligi ekanligini ta’kidlaydi[1]. Shu bois ham pul mablag‘lari sohibiga tegishli pul

1 A. Smith "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations". London 1776.

zapasini ikki guruhga bo‘lib o‘rganishga harakat qiladi. Birinchi guruhga pul mablag‘ining sohibi daromad olish maqsadida kapital kiritadi. Ikkinchi guruhga foydalanish qanday shakldan bo‘lishidan qat’iy nazar foyda olishga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari asosiy va aylanma kapitalni kiritadi.

Iqtisodiy nazariyachilar ichida merkantilistlarning tadqiqot ishlari “qiymat”, ya’ni kapitalga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning nazariyasi asosida “kapital” yotadi. Ularning nazariy qarashlari va xulosalariga ko‘ra, kapital savdo ishida paydo bo‘lib bank sohasida mustahkamlanadi va muomalasi tezlashadi, chunki banklar kapitalni saqlash va uning doiraviy aylanishini tezlashtirish orqali savdogarlar, tadbirkorlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Demak, zamonaviy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini shakllantirish, undan samarali foydalanish va joylashtirishda tijorat banklarining o‘rni va ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, merkantilistlar ham boylikning vujudga kelishida savdoni, uning amaliyotda namoyon bo‘lish shakli (oltin va kumush) pul ekanligini ta’kidlaydi. Bu jarayon aksiyadorlik jamiyatlari misolida ko‘radigan bo‘lsak pulning sohibi, ya’ni aksiyadorlarning o‘z kapitalidan kutayotgan foydasi dividend hisoblanadi, jamiyatni boshqarish, faoliyatini tashkil etishda ishtirok etayotgan ishchi xodimlarning manfaati ular olayotgan ish haqida ifodalanadi. Bu jarayonda davlatning ishtiroki ham mavjud bo‘lib, uning ishtiroki aksiyadorlar olayotgan dividenddan, jamiyat esa foydadan, ishchi xodimlar esa ish haqidan daromad soliqlarini to‘lashida namoyon bo‘ladi[2].

Fiziokratlar[3] iqtisodiy adabiyotlarda foydani kapital (pul mablag‘lari) emas, balki yer keltirishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi, bunda kapital ikkilamchi vosita ekanligi ta’kidlanadi. Ularning bu g‘oyalari orqali merkantelistlarning foyda muomala (kapital)ning natijasi ekanligi haqidagi qarashlariga qarshi chiqadi va kapital ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi yordamchi moliyaviy vosita ekanligini ta’kidlaydi. Bularning barchasi iqtisodiy nazariya hamda asarlarda kapital va uning rolini chuqurroq tahlil qilish zarurligini anglatadi. Ularning fikriga ko‘ra, “qo‘shimcha kapital” faqat yerdagi dehqonchilik asosida yaratilib uning puldagi ifodasi “er rentasi” ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Biroq, shuni ta’kidlash joizki, fiziokratlar kapitalni asosiy vosita sifatida e’tirof etishmasada unga “yillik avans”, “yillik xarajatlar”, “boshlang‘ich xarajat”lar sifatida qarashadi. Bu o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, ularning kapitalni bu tartibda guruhlashi kapitalni hozirgi zamonda “asosiy kapital” va “aylanma kapital” sifatida hisobotlarda aks ettirishimiz, shakllantirish va tadqiq etishimizga mos keladi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-bobi, 16-moddasiga asosan shakllantirish tartibi, manbalari, 17 moddasida esa uning minimal miqdoriga bo‘lgan talab belgilab qo‘yilgan[4].

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar sotib olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Qonunda aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalini shakllantirishda oddiy aksiyalarni emissiya qilishi shartligi belgilab qo‘yilgan, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga ham haqlidirlar. Biroq, imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak. Yigirma foizlik chegara qo‘yilganligining sababi shundaki, aksiyadorlik jamiyatlari hisobot davrining oxirida foyda olish yoki olmasligidan qat’iy nazar imtiyozli aksiyalar bo‘yicha belgilangan dividend to‘lovlarini to‘lashga majburdir. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslari tarkibida salmoqli ulushga ega bo‘lgan ustav kapitali muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari o‘z mablag‘larini shakllantirishda ularning taqsimlanmagan foydasi ham muhim o‘rin tutadi. Taqsimlanmagan foydaning vujudga kelish manbasi juda oddiy bo‘lib jamiyat sof foyda hisobidan soliqlar va dividendlarni to‘lagandan keyingi qiymat hisoblanadi. Taqsimlanmagan foydani shakllanishi mahalliy va xorijiy amaliyotda deyarli bir xil bo‘lsada undan foydalanish tartibi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Buning farqi va xususiyatini bilish uchun unga berilgan iqtisodiy ta’riflarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Masalan, angliyalik olim Blek (Black) Djeymning fikriga ko‘ra, taqsimlanmagan foyda (retained earnings, undistributed profits) soliqlar va dividendlarni to‘lashga yo‘naltirilmaydigan foydaning ulushi bo‘lib, shu kompaniyaning aktivlarini oshirish va likvidligini ta’minlashga investitsiya qilinadi[5].

Boshqa xorijlik iqtisodchi olimlar taqsimlanmagan foyda kompaniya tomonidan olingan foydaning bir ko‘rinishi, biroq aksiyadorlarga dividend sifatida berilmagan qiymatdir degan fikrni ilgari suradilar. Bu kabi foyda odatda zaxira kapitali sifatida ham yuritiladi deya ta’kidlashadi[6].

2 История экономической мысли /Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер. 2008. –Стр. 56-58.

3 Fiziokrátiya (fr. physiocrates, grekch. φύσις – tabiat va κράτος – kuch, hokimiyat, hukumron, ya’ni “tabiatning hukumronligi”) – fransuz iqtisodiy nazariya maktabi

4 O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasining 2014 yil 7 maydagi 88 (6018)-sonida e’lon qilingan.

5 Экономика. Толковый словарь. – М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Дж. Блэк. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2010. Стр. 256.

6 Финансы. Толковый словарь. 2-е изд. – М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Брайен Батлер, Брайен Джонсон, Грэм Сидуэл и др. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2000.

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yerda jamiyatning taqsimlanmagan foydasining vujudga kelishi va undan foydalanish masalasi noto‘g‘ri talqin etilgan. Fikrimizcha, masalani bu tartibda qo‘yilishi jamiyatlarning taqsimlanmagan foydasining nafaqat iqtisodiy mohiyatini buzishga, balki uning maqsadida ham noaniqliklar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari o‘z mablag‘larini shakllantirishda kapital tarkibi manbalari ko‘p qirrali bo‘lib, ularni shakllantirish va foydalanishda samarali usullardan kengroq foydalanish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan boshlab to hozirgi davrgacha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini shakllantirishga hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan keng masshtabli va aniq iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi – kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, erkin bozor tamoyillarining amal qilishidan iborat. Bu borada aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati hamda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishining ahamiyati juda kattadir. Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida bo‘layotgan ko‘p o‘zgarishlar ichki va tashqi moliyaviy resurslarni jalb etish va samarali boshqarish bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon esa – jahon tajribasidan ma’lumki, samarali moliya bozorining hamda uning yadrosi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi bilangina bo‘ladi. Rivojlangan qimmatli qog‘ozlar bozori, xususan korporativ qimmatli qog‘ozlar bozori mamlakat investitsiya hajmini oshirishga hamda iqtisodiy o‘sishni jahon darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Avvalo, “korporativ qimmatli qog‘ozlar” tushunchasiga aniqlik kiritib olaylik. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “korporativ” degan so‘zga: “Biror-bir korporatsiya, uyushmaga mansub, oid, ko‘pchilikka, umumga tegishli”, mazmunida izoh berilgan[7].

Korporativ qimmatli qog‘ozlarga aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalar kiradi. Mazkur fikrimizni ko‘plab iqtisodchilar, xususan, Ye.F.Jukov ham ta’kidlaganlar. Korporativ qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar) korporatsiyalar, kompaniyalar hamda korxonalar (yuridik shaxslar) – taomilga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi[8].

Masalan, I.L.Butikovga ko‘ra ham, korporativ qimmatli qog‘ozlar bo‘lib – korxonaning emission qimmatli qog‘ozlari bo‘lgan aksiyalar va obligatsiyalar hisoblanadi[9].

Korporativ qimmatli qog‘ozlar (aksiya va obligatsiyalar) korporatsiyalar, kompaniyalar va korxonalar (yuridik shaxslar) tomonidan, xususan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra mazkur qimmatli qog‘ozlar faqat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi.

A.A.Misharevning fikriga ko‘ra, fond bozorida asosiy qimmatli qog‘oz turi – bular aksiyalar hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari ularni chiqarish orqali o‘zining ustav kapitalini shakllantiradi va ko‘paytiradi. Aksiyalar mohiyatiga ko‘ra AJ xususiy aktivlarini birgalikda boshqarishning guvohnomasi hisoblanadi[10].

E.F.Jukovga ko‘ra esa “Aksiyalar aksiyadorlik kapitaliga ulush qo‘shilganligi to‘g‘risida guvohnoma bo‘lib, korxonani rasmiy boshqarish hamda daromad olish huquqlarini beradi”[11].

O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyunda yangi tahrirda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” gi qonuniga ko‘ra, aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz hisoblanadi[12]. Aksiyalar muomalaga hujjatsiz shaklda chiqariladi. Hozirgi paytda respublikamiz qonunchiligida faqat aksiyalarning “egasining nomi yozilgan” turiga ruxsat etilgan, xolos.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, aksiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

7 O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. . J. II. Ye - M/ Tahrir hay’ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O‘zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.408.

8 Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.

9 Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане. Дисс…д-ра.эк.наук. – Ташкент, 2009.–С.102.

10 Мишарев А.А. Рынок ценных бумаг. – СПб.: Питер, 2007. –256 с., с.127.

11 Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18

12 O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2015 yil 4 iyun.

1-jadval: Aksiyalarning xususiyatlari va turlari bo‘yicha tasniflanishi[13]

№	Xususiyatlari	Turlari
1.	Daromadliligi va ovoz berish huquqi bo‘yicha	oddiy
		imtiyozli
2.	Egalik qilish shakli bo‘yicha	nomi yozilgan
		ko‘rsatuvchiga
3.	Chiqarish shakli bo‘yicha	hujjatli
		elektron
4.	Joylashtirish jihatidan	ochiq joylashtiriladigan
		yopiq joylashtiriladigan
5.	Muomalada bo‘lish muddatiga ko‘ra	muddatsiz
		muddatli (ayrim g‘arb davlatlarida)

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda aksiyalarning eng asosiy xususiyatlari va turlari bo‘yicha tasniflanishini keltirilgan bo‘lib, ushbu tasniflashni yanada davom ettirish mumkin. Ammo, aksiyalarning eng asosiy, ko‘p uchraydigan xususiyatlari hamda turlari shulardan iborat bo‘lganligi uchun mazkur holat tasniflashni o‘rinli deb hisobladik.

“O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi ijobiy jarayon hisoblanadi. Chunki xorijiy investitsiyalar bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy menejerlar va yangi innovatsion texnologiyalar hamda g‘oyalar kirib keladi. Bizning fikrimizcha, bunday holatni majburiy qilib belgilash hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga cheklovlar quyish bozor tamoyillariga mos kelmaydi”[14]. Chunki mazkur jihat yangi aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilishiga tuskinlik qiladi. Natijada mazkur talab ham 2018-yilda qonunchilikdan chiqarib tashlandi.

Yuqorida keltirilgan talablarniig amalda bo‘lishi aksiyadorlik jamiyatlari sonining qisqarib borishiga olib keldi. Natijada oxirgi yillardagi tendetsiya quyidagicha (1-rasm). Aksiyadorlik jamiyatlari soni 2006-yil yakunlariga ko‘ra 2189 tani tashkil etgan holda, ulardan 1815 tasi ochiq aksiyadorlik jamiyatlari sifatida faoliyat yuritgan[15]. 2022-yil yakunlariga ko‘ra esa respublikamizdagi jami aksiyadorlik jamiyatlari soni 628 tani tashkil etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq yoki yopiq aksiyadorlik jamiyatlari tiplari 2014-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasiiing “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan bekor qilingan.



1-rasm: Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari soni dinamikasi[16]

13 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.
14 Kurbonov J. Davlat va korporativ tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollarn. Iktisodiyot fanlari buyicha PhD ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dessertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018. - 56 b.
15 Abdualimov R. Uzbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida ichki pazoratninT tashkiliy masalalari. // Iktisod va molil. –№11,2011. –B. 66.
16 https://uzcsd.uz/ asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Aksiyadorlik jamiyatlarining son tarkibidagi o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdak, 2017-yilda 606 ta aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 593 tani tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, 2022-yilda aksiyadorlik jamiyatlarini soni 628 taga yetgan. Bundan ko‘rinib turibdik, mamlaktimizda oxirgi yillarda aksiyadorlik jamyaitlari soni sezilarli darajada o‘sgan hisoblanadi. 2023-yilning 01 yanvaridagi holatga ko‘ra, Markaziy depozitariyda 628 aksiyadorlik jamiyatining 166 762,49 mlrd. so‘m umumiy nominal qiymatga ega 16 446,01 mlrd. dona qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarini sonining 2022-yilda o‘sishig asosiy sabab sug‘urtalovchilarning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati bo‘lishi shartligi tartibining joriy etilganligi bilan bevosita bog‘liq hisoblandi. Xususan, 30 dan ortiq sug‘urta kompaniyalari o‘z tashkiliy-huquqiy shaklini mas’uliyati cheklangan jamiyatdan aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirilishi olib kelindi.

XULOSA

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi pastligi, fond birjasi listing talablari ma’lum darajada murakkabligi bois qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozori nisbatan past darajada qolmoqda. Bunda muntazas dividend to‘lovlari orqali passiv daromadga erishish istiqbolda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori rivojida katalizator vazifasini o‘tab beradi.

Ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv mustaqilligi chegaralanganligi bois qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faolligi nisbatan past darajada qolmoqda. Natijada aksiyalar chiqarish orqali arzon kapital jalb qilish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Aksincha, yopiq joylashtirish orqali davlag ulushining kiritilishi esa mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilishni yana ham cheklamoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini tarkibi barqaror, nisbatan arzon va uzoq muddatli manbalar hisobidan shakllantirilishi ularni erkin raqobatga kirishish imkoniyatini berish bilan birga, ularni to‘lovga qobilligini oshirishga xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shimcha kapitalni jalb qilish uchun ayrim mavjud moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas, bizning fikrimizcha, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim yirik davlat aksiyadorlik jamiyatlari infratuzilma obligatsiyalarini Markaziy Bank qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo‘lmagan stavkada emissiya qilishi ularning qo‘shimcha kapital jalb qilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasining 2014-yil 7-maydagi 88 (6018)-sonida e’lon qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2015-yil 4-iyun.
3. A. Smith “An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations”. London 1776.
4. История экономической мысли /Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер. 2008. –Стр. 56-58.
5. Экономика. Толковый словарь. – М.: “ИНФРА-М”, Издательство “Весь Мир”. Дж. Блэк. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2010. Стр. 256.
6. Финансы. Толковый словарь. 2-е изд. –М.: “ИНФРА-М”, Издательство “Весь Мир”. Брайен Батлер, Брайен Джонсон, Грэм Сидуэл и др. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2000.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. . Ж. II. Е - М/ Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.408.
8. Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов/Под ред. Е.Ф.Жукова. –2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.
9. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане. Дисс…д-ра. эк.наук. –Ташкент, 2009. –С.102.
10. Мишарев А.А. Рынок ценных бумаг. – СПб.: Питер, 2007. –256 с., –с.127.
11. Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.
12. Kurbonov J. Davlat va korporativ tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollarn. Iktisodiyot fanlari buyicha PhD ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dessertatsiyasi avtoreferati. Toshkent–2018. –56 b.

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ZARURIYATI

Badalov Jamshid Jamolovich
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirishda milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishining ahamiyati, unga ta‘sir etuvchi omillar hamda investitsion jozibadorlikni oshirish uslubiyoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, innovatsiya, investitsion jozibadorlik, modernizatsiya, diversifikatsiya, qishloq xo‘jaligi, kredit, moddiy-texnik baza, investitsiya samaradorligi.

Abstract: The article describes the importance of attracting national and international investments in the further development of the agricultural sector of our country, factors influencing it, and methods of increasing investment attractiveness.

Key words: investment, innovation, investment attractiveness, modernization, diversification, agriculture, credit, material and technical base, investment efficiency.

Аннотация: В статье освещается важность привлечения национальных и международных инвестиций в дальнейшее развитие сельскохозяйственной отрасли страны, факторы, влияющие на нее, а также методология повышения инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: инвестиция, инновация, инвестиционная привлекательность, модернизация, диверсификация, сельское хозяйство, кредит, материально-техническая база, эффективность инвестиций.

KIRISH

Investitsiyalar har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda amalga oshirilishi shart. Sababi ular davlatning iqtisodiyotini va qudratini oshirishga xizmat qiladi, tarmoqlar, korxonalar va, qolaversa, aholi turmush darajasini oshirishning iqtisodiy bazasini mustahkamlashga sarflanadi. Erkin bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich shakllanayotgan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga sarmoya kiritish obyektiv zaruratdir. Qishloq xo‘jaligini samarali va barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti - bu ularga etarli miqdorda investitsiya kiritishdir. Qishloq xo‘jaligi siyosatining muhim vazifasi - qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Investitsiya - daromad (foyda) olish maqsadida iqtisodiyotda pul (kapital)ning uzoq muddatli qo‘yilmasi. Ular yaratuvchanlikni, asosiy fondlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek, ular bilan bog‘liq aylanma mablag‘lar o‘zgarishini aks ettiradi. Investitsiyalar ko‘pincha daromad (foyda) keltiradigan yoki ma’lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati obyektlariga kiritiladi.

Odatda, investitsiyalar mehnat samaradorligi va qishloq xo‘jaligida daromadlarning keskin ortishiga olib keladi. Bu esa o‘z o‘rnida boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshiradi.

Aholini kam ta’minlangan qismini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiyalar ish bilan ta’minlash darajasi va daromadlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish to‘g‘ri va oqilona yo‘ldir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish bugungi kundagi Yangi O‘zbekistonda agrar soha islohotlari uchun muhim ahamiyatga egadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri va investitsiyalash jarayonlari iqtisodiyot tarkibini qayta qurishning asosiy negizini tashkil etganligi bois, bu sohani rivojlantirish va takomillashtirib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hamda izlanishlar olib borilmoqda. Investitsiya borasida tadqiqot olib borilar ekan, avvalambor, ''investitsiya'' tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Shu ma'noda bir qator iqtisodchi olimlarni ''investitsiya'' tushunchasiga bergan ta'riflarini keltirib o'tish o'rinlidir. Hozirgi vaqtgacha investitsiya tushunchasiga iqtisodchi olimlar turlicha ta'rif berib keladilar. Investitsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, ''invest'' aynan solish, kiritish, qo'yish degan ma'nolarni bildirib, kapital solish, kapital kiritish yoki kapital qo'yish ma'nolarida ta'riflanadi.

Iqtisodchi olimlar investitsiyalarni quyidagicha iqtisodiy mazmunda talqin etishgan, xususan Nobel mukofotini iqtisodiyot bo'yicha laureate U. F. Sharp fikricha, ''Investitsiyalar kelgusida qiymat olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir'' [1], deb ta'riflagan.

K. R. Makkonnel va S. L. Bryularning investitsiyaga bergan quyidagi ta'riflari ham kapital qo'yilmalar tushunchasiga ma'no jihatdan yaqinligini aytish mumkin: "Investitsiyalar-moddiy zahiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarish xarajatlaridir" [2].

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya jalb qilish sanoat korxonalarini ilg'or texnika-texnologiyalar bilan qurollantirishning, shuningdek, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda asosiy omil ekanligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum.

D. M. Rozenberg o'zining "Investitsiyalar" lug'atida investitsiyalarga ta'rif berar ekan, investitsiya – ko'paytirish, daromad olish yoki kapitalni o'stirish maqsadida pul sarflanishidir, degan fikrni beradi [3].

Milliy iqtisodiyotdagi investitsiyalar roliga baho berib, rossiyalik iqtisodchi olim E. V. Mixaylova "investitsiyalar kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi" [4], degan fikrni ilgari surdi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar L. Dj. Gitman, M. D. Djonkning "Investitsiyalash asoslari" asarida shunday ta'kidlanadi: "Investitsiyalar – kapitalning shunday joylashtirilishiki, buning natijasida sarflangan capital qiymatining saqlanishi yoxud o'sishi va daromadning ijobiy darajasi ta'minlanadi" [5]. Bu joyda sarflangan kapital qiymatining saqlanishi degan fikr atrofida mulohaza yuritish o'rinli bo'ladi. Chunki har qachon kiritilgan investitsiyadan maqsadli foyda olish ko'zda tutilgan bo'lib, aksincha holatlarda hech bo'lmaganda o'rnini qoplashga e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni haqida iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ularning birida "Investitsiyalar – barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi" [6] deyilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida "gi qayta tahrirdagi qonunida investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan ya'ni: "investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar" [7] deyiladi. Shunday qilib, "Investitsiya'' deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklar barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning umumiy holatiga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Boyliklar shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasini ko'rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsion muhitni yaratib berish lozim. Investitsion muhit iqtisodiyotda bu yangi tushuncha emas. Bugungi kunda bir qancha rivojlangan davlatlar bu tizimni ijobiy hal etib bo'lishgan. Investitsion muhitning ahamiyati, amaliy jihatdan, bu bizga qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to'g'risida g'oya beradi va uning zamirida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni takomillashtirishga imkoniyatlar yaratadi.

Kuchli biznes va investitsiya muhitini qo'llab-quvvatlaydigan siyosiy muhitni yaratishning zaruriy omillari: xavfsizlik; xorijiy investorlar huquqlarining himoyasi va kafolati; qonunchilikning barqarorligi; shaffoflik; korruptsiyadan holi bo'lishlik va nihoyat, hukumatning yaxshi boshqaruvidir [10].

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhimligini aytib o‘tish bilan birgalikda iqtisodiy mohiyatini anglab etish muhimdir. Xorijiy investorlar asosan daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob‘yektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, xorijiy investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalari deb e‘tirof etiladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo‘lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- *birinchidan,* xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- *ikkinchidan,* import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me‘yordagi turmush darajasini ta‘minlash imkonini yaratadi;
- *uchinchidan,* kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta‘minlaydi;
- *to‘rtinchidan,* korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi, mlrd.so‘m hisobida

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida izchillik bilan amalga oshirilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlarini yuvish, unumdorligini oshirish, zamonaviy sug‘orish tizimlarini joriy etish natijasida sohada qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda(1-rasm).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun iqtisodiyotning agrar sektori moddiy-texnik bazasini innovatsion rivojlantirish talab etiladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalariga qo‘shimcha moliyaviy va moddiy resurslar jalb etilishi ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi bo‘yicha Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasidagi ko‘plab mamlakatlarda boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda 5-10 baravar pastligini ko‘rishimiz mumkin [11, 12]. Chorvachilik, dehqonchilik sohalarida ham mahsuldorlik hamda hosildorlikning pastligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish imkonini bermayapti. Bu borada intensiv iqtisodiy o‘sishga erishish uchun sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bugungi kun davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Innovatsion, ekologik va samarali intensiv zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy qilish uchun investitsiya kiritish, iqtisodiyotning agrosanoat majmui korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati o‘sishini ta‘minlashga qodir.

Qishloq xo‘jaligi, umuman agrosanoat majmui ishlab chiqarishining investitsion jozibadorligini oshirishda davlatning faol ishtiroki hozirgi iqtisodiy sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishni jadallashtirishning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasiga sarmoya kiritish ba’zi holatlarda kiritilgan investitsiyalar qanchalik tez o‘zini oqlashiga bog‘liq. Xususiy biznes va sarmoyadorlar birinchi navbatda, mahsuloti arzon va sifatli bo‘lgan taqdirda qishloq xo‘jaligi biznesiga sarmoya kiritadi. Investitsiyalarni qaytarish muddati qancha uzoq bo‘lsa, uni amalda qo‘llash ehtimoli shunchalik kamayadi.

Investitsiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. Ular qishloq xo‘jaligi korxonasini texnik qayta jihozlash, samarali ekologik va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida boshqa sohalar qatori qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ham alohida e’tibor berilgan [8]. Yuqorida keltirilganidek, mamlakat boyligining salmoqli qismini qishloq xo‘jaligidan tushadigan daromadlar tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “…Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz” [9], deb ta‘kidlab o‘tgan edi.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar taqsimoti, jamiga nisbatan % da

2022-yil holati bo‘yicha mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilinishini iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimotini qarasak, qishloq xo‘jalik tarmog‘iga umumiy investitsiyaning 7,4 foizi to‘g‘ri kelmoqda (2-rasm). Bu albatta kam. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash qishloq joylarida transport infratuzilmasini rivojlantirish, qishloqlarda turmush sifatini yaxshilash va qishloq aholisi mehnat salohiyatini oshirishdan iborat bo‘lishi mumkin. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadlaridan biri bu sohaga xususiy investorlarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Qishloq xo‘jaligidagi investitsion faoliyatni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer resurslari unumdorligini oshirishga yo‘naltirish mumkin.

Bu borada oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar soha rivoji uchun qonuniy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturida agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1 mlrd. AQSh dollaridan ortiq mablag‘larni yo‘naltirish tadbirlarida 2023-yil davomida quyidagi mexanizmlarni amalga oshirish rejalashtirilgan [13]:

- Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda jalb qilinadigan loyihalarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va kelishish. Bunda, agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 386,2 mln. AQSh dollar miqdorida imtiyozli kredit mablag‘larini jalb qilish.
- Davlat va hududiy investitsiya dasturlari doirasida shakllantirilgan 711,0 mln. AQSh dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish.
- Loyihalarni ishga tushirish va ularning bajarilishi ustidan monitoring yuritish.

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishda O‘zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki,

Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XXR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi. Shuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostida olingan kreditlar hajmining 22 foizga o‘sishi bilan bog‘liq.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 37 foizga o‘sishi kuzatilmoqda. Umuman olganda, 3-chorak yakunlariga ko‘ra, markazlashtirilgan investitsiyalar ulushi investitsiyalar umumiy hajmining 10 foizini, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi esa 90 foizini tashkil etdi.

2023-yil 2-choragida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmining o‘sishi 7,9 foizga (o‘tgan yilda 3,2 foiz) oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Bu raqamlardan ko‘rishimiz mumkinki, sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi oshishi bilan bir qatorda, ularning agrobiznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ekologik va boshqa jihatlardan ham ta‘sirini doimiy tahlil qilib borish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda agrar sohaga kiritilayotgan investitsiyalarga davlat kafolatining kamayib borayotganligi agrobiznes subyektlarining nufuzi oshib, xorijiy investorlarning hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan siyosatga ishonchi oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida davlatni ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo‘la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy texnologik tadqiqotlarga, innovatsion jarayonlarga ko‘maklashishdir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirish, o‘ziga mos agrobiznes tizimini shakllantirishda sohaga jalb qilinadigan investitsiyalar o‘rni kattadir. Ular qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlash, ishlab chiqarishga resurs tejamkor, yuqori unumli innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va qayta jihozlash imkonini beradi. Davlat tomonidan qishloq transport infratuzilmasini rivojlantirish va qishloqlarda yashovchi aholi mehnat salohiyatini va unumdorligiga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi agrobiznesga mahalliy va xorijiy invetitsiyalarni jalb etishda katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 25 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqga Murojaatnomasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-113-son qarori.
5. У.Шарп, Г.Александер, Д. Бейли., Инвестиции: Пер.с англ. – М.: Инфра-М, 2010. –1028 с.
6. К.Р.Макконнел ва С.Л. Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер.с англ. 13-го изд.: Учеб.-Т. 1-М.: ИНФРА-М, 2001.-974 с.
7. Д.М. Розенберг Инвестиции.–М.:ИНФРА, 2007, с.173.
8. Е.В. Михайлова. Финансовые рынки и их формирование. Под. Ред. Л.Н.Красавиной. – М. 2007, с.357.
9. Лоренс Дж.Гитман, Майкл Д.Джонк. Основы инвестирования.–М.:Дело, 2007, с.10.
10. D.G‘.G‘ozibekov, T.M. Qoraliyev Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-T.: TMI, 1997, 72-b.
11. U. Y.O‘roqov, M. B.Moyliyev, M.Muzaffarov Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari //Science and Education.-2022.-T. 3.-№. 6. -–S. 1280-1291.
12. V. Nianko et al. The problem of state support and increasing the investment attractiveness of agriculture //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021.–T. 839.-№. 2.-S. 022007.
13. D. T. Yusupjonovich Effective use of investment in agriculture of the republic of Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 2019.–T. 8. №. 7.–S. 6-10.

FOYDA SOLIG‘I TUSHUMI VA UNING O‘ZBEKISTON SOLIQ-BUDJET TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Shirinov Sabir Erkinovich
Toshkent moliya institutining professori, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati, tabiati, foyda solig‘i tushumining O‘zbekiston davlat budjetini daromad qismini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu maqolada 2017–2022-yillar davomida O‘zbekiston davlat budjetiga yig‘ilgan foyda solig‘i tushumining mutloq miqdordagi o‘zgarishlari, o‘sish sur’atlarining dinamik o‘zgarishlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Foyda, foyda solig‘i, soliq obyekti, soliq bazasi, foyda solig‘i tushumi, o‘sish sur’atlari.

Abstract: This article examines the economic essence, nature of profit tax, the role and importance of profit tax revenue in the formation of the revenue part of the state budget of Uzbekistan. Also, in this article, changes in the absolute amount of profit tax revenue collected to the state budget of Uzbekistan during 2017-2022, dynamic changes in growth rates are studied.

Key words: Profit, profit tax, tax object, tax base, profit tax revenue, growth rate.

Аннотация: В данной статье рассматриваются экономическая сущность, природа налога на прибыль, роль и значение поступлений налога на прибыль в формировании доходной части государственного бюджета Узбекистана. Также в данной статье изучены изменения абсолютной суммы поступлений налога на прибыль, собранных в государственный бюджет Узбекистана в течение 2017-2022 годов, динамика изменения темпов роста.

Ключевые слова: прибыль, налог на прибыль, объект налогообложения, налоговая база, поступления налога на прибыль, темп роста.

1. INTRODUCTION

Foyda solig‘i umumdavlat solig‘i hisoblanadi. U to‘g‘ri soliqlar guruhiga mansub. Tadirkorlik subektlarining xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijasining umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan foyda – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, uni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasida olgan tushum bilan sarf qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida tavsiflash mumkin. Shu ma’noda, foyda korxonaning yakuniy natijasini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Korxonalar tomonidan olinuvchi foyda miqdorining ko‘payishi ularning faoliyatini samaradorligini oshishiga olib keladi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

2. LITERATURE REVIEWS

M.Yu. Malkina i R.V. Balakinalarning fikricha “soliqqa tortish bazasining dinamikasiga rasmiy iqtisodiyot masshtabining o‘zgarishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, sifatli soliq siyosati va soliq ma’murchiligi ta’sir ko‘rsatadi” [1]. “Foyda solig‘i bo‘yicha soliq vakolatlarining chegaralash kriteriyalariga amal qiish foyda solig‘i funksiyalarini bajarilishiga to‘sqinlik qiladi” [2], deb hisoblaydi N. N. Tyupakova. I. I. Kucherovning takidlashicha, “foyda solig‘ining budjetni shakllantirishda ahamiyati yuqori bo‘lsada, uning budjetni shakllantiridagi asosiy roli mamlakat iqtisodiyotining riojlanish darajasiga ko‘ra o‘zgarib turadi” [3]. M. V. Chistova “foyda solig‘i korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyatining yakuniga (foydaga) bog‘liq. Shu sababli ishonch bilan aytirishimiz mumkinki, foyda solig‘i investitsion jarayonga ta’sir ko‘rsatadi” [4], deb tushuntirishga harakat qiladi. N. I. Kravtsovaning tushuntirishicha “foyda solig‘i soliq undirishning zamonaviy shaklidir. U soliq tizimida alohida o‘rin egallaydi. Chunki, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadni kamaytiradi” [5]. Foyda solig‘i “belgilangan normativlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlarini shakllantirishda” [6] ishtirok etadi.

3. RESEARCH MATERIALS AND METHODOLOGY

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati, O‘zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati va o‘rni, O‘zbekistonda foyda solig‘ini undirishning normativ me’yoriy hujjatlari, O‘zbekiston budjetining foyda solig‘i tushumini oshirish masalalari tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot jarayonida kuzatuv, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy tahlil usullaridan hamda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

4. ANALYSIS AND CONCLUSIONS

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda, davlat budjetining daromad qismini shakllantirishda davlat foyda solig‘i mexanizmidan foydalanadi. Foyda solig‘i vositasida davlat budjetining daromad qismini shakllantirish va korxonalarning daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida davlat va soliq to‘lovchilar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish obyekti, deb e’tirof etiladi. Ayrim soliq to‘lovchilar uchun soliq obyektini aniqlashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 296-moddasida foyda solig‘ining soliq bazasini aniqlash qoidalari belgilangan: “soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi” [7].

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga uning O‘zbekiston Respublikasidagi va chet eldagi manbalardan soliq)davri mobaynida olingan daromadlari kiradi. Jami daromadni aniqlashda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summalari hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchilar o‘zlarining jami daromadlari birlamchi hujjatlar, boshqa hujjatlar, shu jumladan, elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida pul, natura shaklida yoki boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqib aniqlanadi. Chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Ayrim tushumlar daromad sifatida tan olinmaydi. Masalan: ustav kapitaliga qo‘shilgan mablag‘lar; aksiyalarni joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan ortiqcha summasi; ishtirokchilar tarkibidan chiqish chog‘ida ustav kapitaliga qo‘shilgan hissa doirasida olingan mablag‘lar; oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birlashtiriladigan mablag‘lar; oldindan to‘lov tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar; garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar; hukumat qarorlari asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar; olingan grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar; sug‘urta summasi tarzida olingan mablag‘lar va boshqalar.

Yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda jami daromadidan chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari daromad olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi. Soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida amalga oshirilgan, asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari xarajatlar deb e’tirof etiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Yuqorida aytganimizdek, soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo‘qolishi; umumiy ovqatlanish korxonalariga kommunal xizmatlarning qiymatini to‘lash; pensiyalarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar; xayriya yordamini amalga oshirish uchun xarajatlar; atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari; boshqa shaxslar uchun to‘langan soliqlar; soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar; soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga doir xarajatlari; kasaba uyushmalari qo‘mitalariga yordam ko‘rsatish; budjet tizimiga kiritilishi lozim bo‘lgan penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar; xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to‘langan jarimalar, penyalar va sanksiyalar.

1-jadval: 2017-2022-yillar davomida O‘zbekiston Davlat budjetining to‘g‘ri soliq turlari bo‘yicha soliq tushumlari [8]

Ko‘rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
To‘g‘ri soliqlar, trln so‘m	11,54	15,66	31,78	45,21	58,93	64,45
Foyda solig‘i, trln so‘m	2,16	3,50	16,47	28,71	38,36	37,65

Foyda solig‘i summasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan soliq stavkalar asosida aniqlanadi. Banklar, bozor va savdo komplekslari, polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar, mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchilar 20%, tovarlarning elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar 7.5%, qolgan soliq to‘lovchilar 15% stavkalarda foyda solig‘i to‘laydilar.

2017-2022-yillar davomida to‘g‘ri soliq tushumlari bilan bir qatorda foyda solig‘i tushumining mutloq miqdori ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligini kuzatamiz. Davlat budjetiga yig‘ilgan foyda solig‘i tushumi 2017-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

yilda 2,16 trln.so‘mni, 2018 yilda 3,50 trln.so‘mni, 2019-yilda 16,47 trln.so‘mni, 2020-yilda 28,71 trln.so‘mni, 2021-yilda 38,36 trln.so‘mni, 2022-yilda 37,65 trln.so‘mni tashkil qilgan. Foyda solig‘i tushumining miqdori 2019-yildan boshlab, keskin o‘sa boshlaganligini kuzatamiz. 2019-yilda foyda solig‘i tushumining miqdori 2018–yilga nisbatan 12,97 trln. so‘mga oshgan. 2020-yilda ham xuddi shunday holat kuzatilgan. Nazarimizda, 2019–yildan boshlab, foyda solig‘i tushumining o‘sishiga O‘zbekiston soliq tizimida yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining qabul qilinishi natijasida foyda solig‘i to‘lovchilarning sonini oshishi, milliy iqtisodiyotda va soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar sabab bo‘lgan.



1-rasm: O‘zbekiston davlat budjetining foyda solig‘i tushumini o‘sish sur’ati dinamik o‘zgarishi(zanjirli usulda aniqlangan)[9]

1-rasmda O‘zbekiston davlat budjetining foyda solig‘i tushumini o‘sish sur’ati dinamik o‘zgarishi tasvirlangan. Foyda solig‘i tushumining o‘sish sur’ati zanjirli usulda aniqlangan. Ushbu rasmga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda tasvirlangan grafik egri chizziq shakliga ega ekanligini ko‘ramiz. Foyda solig‘i tushumining o‘sish sur’ati 2017-yilda 111,56%ni, 2018 yilda 162,08%ni, 2019-yilda 470,22%ni, 2020-yilda 174,35%ni, 2021-yilda 133,61%ni, 2022-yilda 98,14%ni tashkil qilgan. Mazkur soliq tushumi eng yuqori o‘sish sur’atiga 2019-yilda (470.22 %), eng past o‘sish sur’atiga 2022-yilda (98,14 %) qayd qilingan.

Tadqiqot natijasida qo‘yidagi xulosa olindi:

1. Foyda solig‘i O‘zbekiston iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega. Davlat budjetining soliqli daromadlarini shakllantirishda faol qatnashadi. U O‘zbekiston Davlat budjetining soliqli daromadlari tarkibida salmoqli ulushga ega.
2. 2017-2022-yillar davomida foyda solig‘i tushumining mutloq miqdori barqaror o‘sgan bo‘lsada (foyda solig‘i tushumining mutloq miqdori 2022-yilda 2017-yilga nisbatan + 35,49 trln. so‘mga oshgan), uning o‘sish sur’atida nobarqarorlik kuzatilgan.

5. CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

1. 2017–2022-yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat, soliq tizimini isloh qilinishi, soliq siyosatining takomillashtirishi foyda solig‘i tushumining davlat budjeti tarkibidagi ulushini oshishiga olib keldi.
2. Foyda solig‘i tushumining yig‘iluvchanlik darajasini, salohiyatini oshirish borasida ichki va tashqi manbalar mavjud. Ichki va tashqi manbalar izlab topish orqali davlat budjetining foyda solig‘i tushumini oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

List of used sources and literature:

1. Малкина М. Ю. Моделирование взаимосвязи уровня налоговой нагрузки и поступлений от налога на прибыль для регионов российской федерации / М. Ю. Малкина, Р. В. Балакин // Финансы и кредит. – 2013. – №35 (563). – С. 21-29.
2. Тюпакова Н.Н. Проблемы и перспективы формирования доходной базы бюджетов муниципальных образований (на примере Кавказского района Краснодарского края) / Н.Н. Тюпакова, А.В. Ботвинко. Современные проблемы финансового регулирования и учета в агропромышленном комплексе: материалы I Всероссийской научно-практической конференции. –2017. – С. 25-28.
3. Кучеров И.И. Налоговое право России. М., 2001. - 327 с. (с.97)
4. Чистова М.В. К вопросу о сущности налогового планирования в организации / М.В. Чистова, Н.Ф. Клинчаева // Новая наука: Опыт, традиции, инновации. –2016. № 5-1 (83). –С. 115-118.
5. Кравцова Н.И. Налоговая децентрализация как основа формирования эффективной бюджетно-налоговой политики региона / Н.И. Кравцова, Р.М. Магомедова, М.М. Сулейманов // Региональная экономика: теория и практика. –2014. № 10. С. 7–15.
6. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. https://lex.uz/acts/2304138
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. https://lex.uz/docs/4674902- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, “Ochiq budjet” rasmiy saytlarida e’lon qilingan ma’lumotlar asosida, muallif tomonidan tuzilgan.
9. Hisob-kitobi asosida Muallif tomonidan yaratilgan.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARI AKSIYALARINI MOLIYA BOZORLARIDA SOTISHNI JADALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Anvar Eshmatov
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarning aksiyalarini sotish tartibi, aksiyalarni savdo chiqarish bosqichlari, aksiyalarni sotish usullariga ta’sir etuvchi omillar yoritib o‘tilgan. Davlat aksiyalarini sotishda IPO usulining afzalliklari, O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan IPO dasturi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Davlat korxonalarini IPO usulida sotish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan rejalarning amalga oshirilmaganligi tahlil qilingan. Bu yo‘nalishdagi belgilangan rejalar va ularning ahamiyati yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: davlat korxonasi, davlat korxonasining aksiyalarini sotish, fond birjasi, IPO, SPO.

Abstract: This article describes the procedure for selling shares of state-owned enterprises, the stages of selling shares, as well as factors influencing on making decision on the methods of selling shares. The advantages of the IPO method in the sale of government shares are outlined and information about the IPO conducted in the conditions of Uzbekistan is presented. The failure to fulfill plans for the sale of state-owned enterprises established by government using the IPO method is analyzed. The plans defined by the government in this direction and their importance are highlighted.

Key words: state owned enterprise, sale of shares of state owned enterprises, stock exchange, IPO, SPO.

Аннотация: В данной статье описан порядок реализации акций государственных предприятий, этапы реализации акций, а также факторы, влияющие на способы реализации акций. Изложены преимущества метода IPO при продаже государственных акций и представлена информация о проведенной IPO в условиях Узбекистана. Проанализировано невыполнение установленных государством планов по продаже госпредприятий методом IPO. Освещены определенные правительством планы в этом направлении и их важность.

Ключевые слова: государственное предприятие, продажа акций госпредприятий, биржа, IPO, SPO.

KIRISH

So‘nggi 6 yilda davlat korxonalarining aksiyalarini fond bozori instrumentlaridan foydalangan holda sotish, har bir aksiyani bittadan lot sifatida savdoga qo‘yish, korxonalarda “IPO” hamda “SPO” tadbirlarini qo‘llash tajribalari o‘tkazildi.

Ushbu chora-tadbirlar doirasida sotilgan aksiyalar soni va ko‘lami, jalb etilgan kapital miqdori, aksiyalarning bozor kotirovkalari o‘zgarish va keyinchalik dinamikasidan qat’iy nazar, mazkur amaliyotlarning natijadorligi to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud.

Moliya bozori va xususan, fond bozori elementlarining to‘liq shakllanmaganligi, tashkiliy, institutsional va texnik muammolarning ko‘pligi, korxonalarda yo‘lga qo‘yilgan korporativ boshqaruv holati, korxonalarning samaradorligi va faoliyatining shaffofligi, aholi savodxonligi va boshqa ko‘plab faktorlarning har biri bo‘yicha albatta keng miqyosda to‘xtatish mumkin va bunday zarurat har doimgidan ham kuchliroq bo‘lib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat korxonalari aksiyalarini sotish masalasi, uni sotishning usullari va bosqichlari chet ellik olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ko‘plab mamlakatlarning milliy fond bozorini rivojlantirishda aynan davlatga tegishli korxonalarning aksiyalarini sotish jarayonlari hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan.

Chili universiteti hamda Garvard universitetining Xalqaro rivojlanish markazi vakili Rodrigo Vagner, korxonaning bozor qiymati aniqlanishi uchun uning aksiyalari fond bozorida oldi-sotdi qilinishi shartligini, aksiyalari 100 foiz davlat egaligida bo‘lgan va fond bozorlarida oldi-sotdi qilinmayotgan korxonalar uchun bozor qiymati

mavjud emasligi to‘g‘risidagi ilgari surgan fikri diqqatga sazovor. Ularning fikricha, bunday korxonalarning bozor qiymatini aniqlashning sharti sifatida ularni xususiylashtirish zarur hisoblanadi[1].

O‘zbekistonlik olimlar professor S. Elmirzayev, iqtisod fanlari doktorlari X. Xudoyqulov, D. Abdikarimovalar, iqtisod fanlari falsafa doktori Q.Chinqulov tomonidan davlat aksiya paketlarining qiymatini aniqlash, aksiyalarni IPO usulida sotish, bunda aksiyalarning narxiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan mazmunli tadqiqotlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi korxonalarni huquqiy maqomini o‘rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqadorligi va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini xususiylashtirish ko‘lamini kengaytirish va transformatsiya qilish, davlat ishtirokidagi korxonalarga zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, davlat ulushlarini sotish, jumladan davlat kompaniyalari ustav kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga oxirgi 6 yilda juda katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish bo‘yicha bir qator normativ hujjatlar qabul qilindi.

Nazariy jihatdan qaralganda, davlat korxonalarining aksiyalari yoki aksiya paketlari yirik ulushlar va nazorat paketi shaklida yoki “har bir aksiya – bitta lot” tamoyili bo‘yicha sotilishi mumkin. Fikrimizcha, bu korxonadagi quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Korxonaning muayyan iqtisodiyot tarmog‘idagi o‘rniga.

Ayrim korxonalar tizim hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning faoliyati o‘zaro aloqador bo‘lgan ko‘plab boshqa korxonalar faoliyatini ta’minlab beradi. Shu maqsadda, ushbu korxonalar strategik investorlarga sotish uchun yirik aksiya paketi sifatida savdoga chiqarilishi mumkin.

2. Davlat tomonidan kutilayotgan natijalarga.

Davlat muayyan korxonani sotishdan quyidagi maqsadlardan birini yoki ularning kombinatsiyasini kutishi mumkin:

- budjetga daromadlarni ta’minlash;
- ish o‘rni yaratish va mavjud ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash kabi shaklidagi ijtimoiy majburiyatlarni bajarish;
- korxonani modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish shaklidagi investitsiyaviy majburiyatlarni yuklash;
- korxona faoliyatining shaffofligini va ochiqligini ta’minlash, ijro organlari rahbarlarining hisobdorligini oshirish;
- korxona faoliyatini optimizatsiya qilish yoki bo‘lish.

Bunda davlat tomonidan kutiladigan sotish muddati ham muhim ahamiyatga ega. Sotish uchun belgilanadigan muddat – investorlarni jalb etish shakllari va muddatlariga, targ‘ibot ishlarini tashkil etish ko‘lami va doirasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

3. Korxonaning aksiyalarni sotishga tayyorlik darajasiga.

Bunda, korxonalar muayyan muddat davomida aksiyalarni sotishga tayyorlanishi, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan choralarni ko‘rishi mumkin. Yaxshi tayyorlanmagan korxona aksiyalariga talab past bo‘lishi va bu holat narxga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Bozor ishtirokchilarining ishtahasiga.

Mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat, investitsiyaviy muhit korxona aksiyalarining sotilishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

5. Moliya bozori infratuzilmasining rivojlanganlik holatiga.

Fond bozorida turli yo‘nalishda professional ishtirokchilar, brokerlar, konsalting firmalari va birja institutlari tomonidan o‘rnatiladigan savdo qoidalari bevosita aksiyalarning sotilishiga ijobiy ta’sir qilishi yoki putur yetkazishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat aksiyalarini sotish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlanadigan xususiylashtirish dasturlariga asosan amalga oshiriladi. Bunda, sotiladigan aksiyalari sotilishi belgilanadigan korxonalar ro‘yxati manfaatdor vazirlik va idoralar, xo‘jalik boshqaruvi organlari, emitentlarning o‘zlarining takliflariga, nodavlat yuridik shaxslarning, shuningdek jismoniy shaxslarning buyurtmanomalariga muvofiq shakllantiriladi.

1 Rodrigo Wagner. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies. Resources Policy 59 (2018) 282–290, journal homepage: www.elsevier.com/locate/resourpol

Mazkur tartib Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat aksiyalarini sotish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilab berilgan.

Davlat aksiyalarini sotish birja va birjadan tashqari savdolarda amalga oshiriladi. Emitent ustav fondining 10 foizidan oshmaydigan, yalpi nominal qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 5000 baravaridan kam bo‘lgan davlat aksiyalari birjadan tashqari savdo tizimlari (BTST) savdolariga chiqariladi.

Bunda, aksiyalarni savdo chiqarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- aksiyasi sotiladigan korxonaning barcha aktivlari, mulklari va majburiyatlari xatlovdan o‘tkaziladi;
- korxona baholash tashkiloti tomonidan baholashdan o‘tkaziladi;
- baholash hisobotining haqqoniyligi ekspertizadan o‘tkaziladi;
- vakolatli davlat organining tegishli buyrug‘i asosida savdoga chiqarish belgilanadi;
- vakolatli davlat organi jalb etgan brokerlik kompaniyasi tomonidan aksiyalar sotilishi to‘g‘risida fondi birjasida e’lon beriladi.

Bu jarayon o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, davlat aksiyalarini savdoga chiqarishda ko‘p muddat talab etilishiga va ularning uzoq muddat sotilmasdan turishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Dunyo tajribasida davlat korxonalarining aksiyalarini sotishda IPO (Initial Public Offering) – kompaniya aksiyalarini fond bozorida birlamchi ommaviy joylashtirish usuli ijobiy natija bergan.

Eng muvaffaqiyatli IPOlar sifatida Buyuk Britaniyada keng miqyosda xususiylashtirish jarayonida mamlakatning Bosh vaziri Margaret Tetcher tomonidan qo‘llanganligi e’tirof etiladi. Jumladan, Margaret Tetcher davrida Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tuzilgan eng muhim xususiylashtirish bitimlari - 1982-yilda Amersham International yadroviy tibbiyot kompaniyasi 97 mln dollar, 1984-yilda British Telecom kompaniyasi 6 mlrd dollar, 1986 yilda British Gas 8,6 mlrd dollar, 1987-yilda British Airways 1,4 mlrd dollar, 1987-yil Rolls-Royce 2 mlrd dollar qiymatdagi bitimlar e’tirof etiladi. Shu davrda, mamlakatdagi aksioner aholining soni uch milliondan 12-15 milliontagacha oshgan2.

O‘zbekiston tajribasida 2018-yilda “Toshkent” fond birjasida “Kvars” aksiyalarining IPOsi o‘tkazildi. Aholi ko‘proq qimmatbaho qog‘ozlarni kichik miqdorda - 2 dan 100 dona aksiyagacha olganiga, maksimal paket soni esa 2287 dona aksiyadan iborat bo‘lganiga qaramay, 3,3 mingdan ortiq kishi “Kvars” AJning yangi aksiyadorlariga aylandi. Brokerlar buni O‘zbekistonda fond bozori endigina rivojlana boshlagani va investorlar dastlabki taxminiy qadamlarni qo‘yayotgani bilan izohlashdi. “Kvars” aksiyalarini ikkilamchi joylashtirish (SPO) 2019-yilning oxirida amalga oshirildi. Tashkilotchi sifatida Freedom Broker xalqaro investitsion kompaniyasi bo‘ldi. Zavod avvaliga 4,82 mln aksiyalarni sotishni rejalashtirgan edi, ammo obuna jarayoni davomida brokerlar 4,89 mln aksiyalar uchun talabnomalar olishga erishdilar. Talab taklif etilgan aksiya paketiga nisbatan 101,4 foizni tashkil qilgan.

Shunga qaramasdan, keyingi bosqichlarda o‘tkazilgan IPOlarni va o‘tkazilishi rejalashtirilgan IPOlarni muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi. Masalan, quyidagi jadvalda Hukumatning 2019-yildagi 358-son qarori qabul qilinganligiga qaramay, nomlari qayd etilgan korxonalarda IPO tadbirlari amalga oshmagan (1-jadval):

1-jadval: Davlat korxonalari aksiyalarini 2019-yilda ommaviy taklif etish rejasi

T/r	Aksiyadorlik jamiyati nomi	Taklif etilayotgan ulush miqdori	IPO tashabbuskori	Amalga oshirish shakli
1.	“O‘zsanoatqurilish bank” ATB	10	“O‘zsanoatqurilish bank” ATB	IPO
2.	“Alokabank” ATB	10	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, “O‘zbektelekom” AJ	SPO
3.	“Asia Alliance Bank” ATB	10	“Asia Alliance Bank” ATB	IPO
4.	“Jizzax plastmassa” AJ	25	“Jizzax plastmassa” AJ	IPO
5.	“O‘zbekiston tovar xom ashyo birjasi” AJ	12	“O‘zmetkombinat” AJ va “OKMK” AJ	SPO

Jadvaldan ko‘rish mumkinki, “O‘zsanoatqurilish bank” ATB, “Asia Alliance Bank” ATB va “Jizzax plastmassa” AJda qo‘shimcha aksiyalar emissiya qilish orqali fond bozorida sotish belgilangan. “Alokabank” ATB hamda “O‘zbekiston tovar xom ashyo birjasi” AJ bo‘yicha davlat korxonalariga tegishli bo‘lgan aksiyalarni sotish belgilangan. Bunda, bozor holatidan kelib chiqqan holda, aksiyalarni bosqichma-bosqich sotish belgilangan bo‘lsada, IPOlar amalga oshmagan.

Xuddi shunday IPO dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish

2 https://daryo.uz/k/2022/12/23/xalq-iposi-aslida-nima-unda-oddiy-aholi-va-kompaniyalar-qanday-foyda-koradi

to‘g‘risida”gi 446-son qarori bilan tasdiqlanganligiga qaramay, 2022-2023-yillarda bozorga taklif etilishi lozim bo‘lgan aksiyalardan faqat “O‘zbekinvest” AJning ustav kapitalining 2 foizi miqdorida taklif etilganligini hamda “UzAuto Motors” AJning 0,3 foiz aksiyalari joylashtirilganligini ko‘rish mumkin.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini IPO usulida sotish ushbu korxonalar faoliyatida hisobdorlikni oshirish, qo‘shimcha kapital jalb qilish, keyingi yirik xususiylashtirish dasturlariga tayyorlash va moliya bozorini faollashtirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz qarorlariga muvofiq, O‘zbekiston iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, xususiylashtirish va fond bozorini jadal rivojlantirish bo‘yicha o‘z oldiga yana muhim marralarga qo‘ymoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-102-son qaroriga asosan, 1 001 ta korxonaning aksiya paketlarini ommaviy savdolar orqali to‘liqligicha sotish, 40 ta korxonalar, shu jumladan yirik davlat kompaniyalari va tijorat banklari aksiya paketlarini “bitta aksiya – bitta lot” tamoyili asosida xalq IPOsini o‘tkazish belgilab berildi.

Korxonalarni moliya bozoridagi ishtirokini faollashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-291-son qaroriga asosan:

- davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tijorat banklari va sug‘urta tashkilotlari tomonidan uyushgan savdolardagi qimmatli qog‘ozlarga (davlat qimmatli qog‘ozlari bundan mustasno) kiritiladigan investitsiya hajmini ular tomonidan davlat qimmatli qog‘ozlariga qilingan jami investitsiyalar hamda depozit va/yoki depozit sertifikatlariga qo‘yilgan mablag‘larga nisbatan 3 (uch) foizga yetkazish;
- davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag‘larining bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja va korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish vazifalari belgilandi.

XULOSA

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, korxonalarning jozibadorligiga erishish uchun ko‘lami va ahamiyati milliy iqtisodiyotimiz uchun ulkan bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish o‘ta muhim masala hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvini qisqartirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni investorlarga sotish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish, qimmatli qog‘ozlar bozori qo‘lamini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olingan.

Davlat tomonidan har yili kamida 10 ta korxona aksiyalarini IPO usulida savdoga chiqarish orqali ushbu korxonalarning aksiyalarini keyinchalik fond bozoridagi aylanmasini oshirish, korxonalarga qo‘shimcha kapital jalb etishga erishish mumkin. Bunda, davlat korxonalari aksiyalarining qiymatini tegishli bozor kon’yunkturasi, tarmoq tahlili, korxonani kompleks o‘rganish asosida to‘g‘ri belgilash hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rodrigo Wagner. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies. Resources Policy 59 (2018) 282–290, journal homepage: www.elsevier.com/locate/resourpol
2. D.R. Abdikarimova. “Aksiyalar qiymatini baholash amaliyotini tahlili”, –T.: “Iqtisod va moliya”, 2021, 6 (142).
3. Xudoyqulov X.X. “Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish” iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi–T.: TDIU.2018 y.,-166 b.
4. Chinqulov Q.R. “Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog‘ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish” iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. Iqtisod-moliya akademiyasi. 2019 y., – 66 b.
5. Internet resurslari:
   http//www.lex.uz
   http//www.uzse.uz
   https://daryo.uz

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR HISOBINING TASHKILIY VA USLUBIY JIHATLARI

Ametova Nasiba Danilovna
Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada baliqchilik xo‘jaliklariga xodimlarni ishga qabul qilish masalalari yoritilgan. Baliqchilik xo‘jaliklarida ishchilarni ishga vaqtbay va ish bay jalb qilishning tashkiliy masalalari o‘rganilgan. Ish bay ish haqi berish masalasi bo‘yicha tavsiya berilgan.

Kalit so‘zlar: Ish haqi, ishbay va vaqtbay ish haqi hisoblash, mehnat shartnomalarini tuzish muddatlari.

Abstract: This article covers the issues of hiring fishery workers. The organizational issues of attracting workers to work in fishing farms on a temporary and permanent basis have been studied. Recommendations were given regarding the issue of payment of wages.

Key words: Wages, calculation of labor and time wages, conditions for concluding employment contracts.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы приема на работу работников рыбного хозяйства. Изучены организационные вопросы привлечения работников для работы в рыболовецких хозяйствах на временной и постоянной основе. Были даны рекомендации по вопросу выплаты заработной платы.

Ключевые слова: Заработная плата, расчет трудовой и повременной оплаты труда, условия заключения трудовых договоров.

KIRISH

Bugungi kunda jahondagi eng muhim muammoalardan biri mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash masalasi hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilishda qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri sifatida baliqchilik tarmoqg‘i alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda baliqchidik tarmog‘ini rivojlantirish, baliq mahsulotlarini yetishtirishni oshirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, baliqchiik tarmog‘idagi korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish, faoliyat samaradorligini oshirish va xo‘jaliklarda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarga ish haqi berish bilan bog‘liq moliyaviy va tashkiliy masalalari yetarli darajada hal qilinimaganligi sababli bu turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xolatiga salbiy ta’sir qilmoqda. Shunday ekan, bu masalarda ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot olib borish davomida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda baliqchilik xo‘jaliklarida mehnat qilayotgan ishchi xodimlarga 12 oy yani yil davomida ish haqi berib kelinmoqda. Vaholangki, bunday baliqchilik xo‘jaliklarida baliqni boqish bilan bog‘liq xususiyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak baliqlarni yilning qish faslida (dekabr-yanvar-fevral) ularni boqish bilan bog‘liq texnologik amaliyotni amalga oshirishi shart emas.

Baliqchilik xo‘jaliklarida ish qizg‘in ketadigan vaqt oralig‘i yilning mart oyidan boshlanib noyabr oyining oxirigacha amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm: Xo‘jalikda mart oyidan oktyabr oyigacha amalga oshiriladigan ishlar[1]

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish jarayoni asosan mart oyidan boshlanadi. Har bir baliqchi ishchi tomonidan hovuzlarni o‘g‘itlash (ohaklash), chizillash, hovuzlarni tayyorlash bilan bog‘liq agrotexnologik jarayonlarni amalga oshirish ishlari mart oyida amalga oshiriladi. Shuningdek, hovuzlarni baliqlantirish, baliqlarni oziqlantirish va baliqlarni boqish bilan bog‘liq agrotexnologik jarayonlarni amalga oshirish ishlari esa, aprel-oktyabr oylarida baliqchi ishchilar tomonidan tinimsiz mehnat talab qiladi.

Baliqlarga ozuqa berish yoki baliqchalarni sun’iy ozuqa bilan boqish suv harorati 15°C bo‘lganda boshlanadi. Yosh baliqchalarni ovqatlantirishga o‘rgatib shartli refleks hosil qilinadi. Iloji boricha ozuqani bir vaqtda va aniq joyda berish natijasida shartli reflekslar hosil bo‘ladi.

Baliqchalarda shartli refleks hosil bo‘lishi bilan kunduzi belgilangan vaqt - masalan, 4 mahal ovqat beriladigan bo‘lsa, har kunlik vaqtlari belgilanadi. Soat 9.00 da, 14.00 da, 16.00 va 18.00 da berish uchun kunlik rejimi tuziladi.

Har bir belgilangan vaqtda baliqshunos baliqlarni boqadigan ishchi xodimlarning o‘z vaqtida baliqlarni oziqlantirishini nazorat qiladi.

Agarda, oziqlantirish rejimiga e’tibor berilmasa oziqaning 11,4-15% gacha qismi nobud bo‘lishi mumkin. Odatda, baliqning sutkada yeydigan oziq normasi yoki sutkalik ratsioni baliq ogirligining 4-5% ni tashkil qiladi.

Respublikamiz sharoitiga ko‘ra, hovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida baliqning o‘sish tezligiga qarab beriladigan ovqat (yillik beriladigan ovqatning foiz hisobida) oyma-oy quyidagicha bo‘linadi: Aprel-9,5%, may-19,8%, iyun-17,4%, iyul-18,8%, avgust-17%, sentabr-13,9%, oktabr-8,3% ovqat berish mo‘ljallanadi[2].

Ozuqani sarflash asosan hovuzga o‘tkazilgan baliqlar soniga qarab, ayni vaqtda baliqlarning o‘sishi hisobga olinib belgilanadi. Shunday ekan, xo‘jalikning bosh baliqshunosi mavsumda baliqlarga ozuqa beradigan ishchi xodimlarning mavsumga tayyor ekanligini va aprel oyidan noyabr oyigacha xo‘jalikda ishlashini aniqlab olish kerak. Buning boisi shundaki, baliqlarni boqadigan ishchilarning soniga qarab bosh baliqshunos baliqlarni boqish (oziqlantirish, parvarishlash va boshqalar) jadvalini tuzadi.

Lekin, xodimlarni xo‘jalikka ishga qabul qilishni xo‘jalikning rahbari belgilangan normativ-huquqiy hujjat asosida, ishchi xodimlar bilan shartnoma tuzgan holda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 103-moddasida “Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi taraflarning o‘zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko‘zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida bajarish kerak” ekanligi aytilgan.

Ish beruvchi esa, xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo‘yicha ish berish, xodimga ish haqini o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lash belgilangan.

Mazkur kodeksning 110-moddasida “ ... mehnat shartnomasini nomuayyan va uch yildan ko‘p bo‘lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin”ligi yozilgan[3]. Lekin, hozirgi payda ko‘pchilik baliqchilik xo‘jaliklarida xodimlarning deyarli barchasi muddatli mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilingan va o‘n ikki oy davomida xo‘jalikda ish haqi olib kelmoqda. Biroq, baliq mahsulotlarining tannarxini shakllantirganda xarajatlar elementlarining asosiy elementilaridan biri bu – ish haqiga qilingan xarajatlar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, xo‘jalikka xodimlarni ishga olishda muayyan va nomuayyan muddatli shartnoma tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-rasm).

1 Tadqiqotlar asosida muallif tomonida ishlab chiqilgan.
2 S.Q Xusenov, D.S.Niyozov va G‘.M.Sayfullayev. Baliqchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). “Buxoro” nashriyoti, 2010.
3 O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat Kodeksi” 30.04.2023.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: Xodimlarni ishga qabul qilishda mehnat shartnomalarini tuzish[4]

Buning boisi shundaki, har ikkala holatda ham ishga qabul qilingan xodimlar ish beruvchi tomonidan xodimga uning mehnati uchun ish haqining miqdorini belgilashi lozim. Lekin, zimmasiga yuklatilgan ishni ishlab bergan va mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasini bajargan xodimning mehnatiga haq to‘lashning oylik miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (2023-yilning noyabr xolatiga 980 000 so‘m)dan kam bo‘lishi mumkin emas.

Shunday ekan, xodimlarning mehnatiga haq to‘lash miqdorini biror-bir eng ko‘p miqdor bilan cheklash mumkin emas. Baliqchilik xo‘jaliklarida baliqchi ishchilarning soni esa, xo‘jalik ehtiyojlariga qarab belgilanadi.

Xo‘jalikda hovuzlar gruppalarga bo‘linadi va har bir hovuzga baliqchi ishchilar biriktirilishi kerak. Baliqchi ishchilarga ishlab chiqarish topshiriqlari to‘g‘risida ma’lumotlar belgilanadi hamda shunga muvofiq keluvchi mexanizim ishlab chiqiladi.

Baliqchi ishchilarning vazifalari, hovuzlarni ishlab chiqarishga tayyorlash, baliqlantirish, baliq o‘stirish, ularni oziqlantirish, baliqlarni himoya qilish, ovlash va ovlangan baliqlarni topshirish kabi agrotexnologik tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Hovuzlarning melorativ holatini qarovsiz qoldirmaslik, hovuz inshoatlarini asrash, hovuzlar tubining balchiqlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun javobgar bo‘ladilar.

Meyoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda, mehnatning miqdori va sifatiga qarab mehnatga haq to‘lashning, asosan, vaqtbay va ishbay tizimlari qo‘llaniladi (3-rasm).



3-rasm: Xo‘jalikda vaqtbay va ishbay ishlashi mumkin bo‘lgan xodimlar ro‘yxati[5]

Xo‘jalikda vaqtbay ish haqi shaklida xodim oladigan ish haqi miqdori ishlagan vaqt bilan bog‘liq bo‘ladi, ya’ni ish haqi miqdori mehnat unumdorligi va intensivlik darajasiga bog‘liq emas. Nomuayyan ishga qabul qilingan xodimlarga esa, vaqtbay ish haqi hisoblanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Vaqtbay ish haqini hisoblash belgilangan tarif tizimiga asoslangan holda amalga oshiriladi. Yani, tarifli tizim

4 Tadqiqotlar asosida muallif tomonida ishlab chiqilgan.
5 Tadqiqotlar asosida muallif tomonida ishlab chiqilgan.

– tarif setkasini, tarif stavkalarini (maoshlarni), tarif razryadlarini, tarif koeffitsiyentlarini o‘z ichiga oladi.

Tarif setkasi, ishning murakkabligiga va xodimlarning malakasiga doir talablariga qarab, tarif koeffitsiyentlari yordamida belgilangan ishlar (kasblar, lavozimlar) tarif razryadlarining majmui bo‘lib hisoblanadi.

Tarif razryadi, ishlarning murakkabligini va xodimning malaka darajasini aks ettiradigan qiymatdir.

Tarif stavkasi ish haqiga oid, vaqt birligi uchun muayyan murakkablikdagi mehnat majburiyatlari bajarilganligi uchun xodimning mehnatiga haq to‘lashning qat’iy belgilangan miqdoridir[6].

Shunday ekan, muayyan ishga qabul qilingan xodimlarga ish bay ish haqi to‘lanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Ishbay ish haqi xodimning ma’lum vaqt mobaynida tayyorlangan mahsuloti miqdori bilan o‘lchanadi. Baliqchilik xo‘jaliklarida ishbay haqi to‘lash ishlab chiqargan baliq mahsulotlarining bir birligiga nisbatan hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, baliqchilik xo‘jaliklarida mehnatga ishbay haq to‘lash, ishchining u ishlab chiqargan baliq mahsuloti birligi uchun to‘langan haqdan va ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bog‘liq. Xo‘jalikda ish bay ish haqi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$BI_{ish}H = I \times M$$

bunda

$BI_{ish}H$ – baliqchilik xo‘jaliklarida xodimga ishbay haq to‘lanadigan ish haqi (so‘m);

I – har bir kilogram baliq mahsuloti uchun belgilangan ish haqi (so‘m);

M – jami ishlab chiqilgan baliq mahsulotning miqdori (so‘m);

Lekin, ishbay ish haqini aniqlashda tarif stavkalari uchun olinadigan vaqt birligi normalarida belgilangan vaqt birligiga mos kelishiga (soat, smena) rioya qilinishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlilarimizdan kelib chiqqan holda baliqchilik xo‘jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining ayrim xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik.

- baliqchilik xo‘jaligining rahbari hovuzlarni baliqchi ishchilarga shartnoma asosida berishi ham mumkin. Bu esa, xo‘jalik uchun ham baliqchi ishchi uchun ham ancha ma’qul usul.
- har bir baliqchi ishchilar o‘zi etishtirgan baliq (segoletka, tovar baliq) mahsulotini shaxsan o‘zi ovlab topshirishiga imkoniyat berishi kerak. Shunda, yilning oqirida ishlab chiqarish rentabelligi yo‘qori darajada bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat Kodeksi”, 30.04.2023.
2. S.Q Xusenov, D.S.Niyozov va G‘.M.Sayfullayev. Baliqchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). “Buxoro” nashriyoti, 2010.
3. http://lib.jizpi.uz/mehnat va unga haq to‘lashning hisobini tashkil etsih va yuritish.

6 http://lib.jizpi.uz/mehnat_va_unga_haq_tolashning_hisobini_tashkil_etish_va_yuritish

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN EKSPORTYOR KORXONALARNING KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna
Qoraqalpog‘iston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada korxanalarining eksport salohiyatini oshirishda bank kreditlarining o‘rni muhimligi yoritilgan. Jahon amaliyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bu korxanalarining eksportining diversifikatsiyasi darajasi yuqoriligi hisoblanadi, eksportining diversifikatsiyasi uchun moliyaviy sektorlardan korxanalariga uzoq muddatli kreditlar va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish muhimligi keltirib o‘tilgan. O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojida mazkur amaliyotlardan samarali foydalanish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: eksportyor korxona, tijorat bank, eksport, kredit, modernizatsiya, diversifikatsiya, milliy eksportchilar, investitsiya, siyosiy risk, sug‘urta, xorijiy sarmoya, foiz stavka.

Abstract: The article emphasizes the importance of bank loans in increasing the export potential of enterprises. In world practice, one of the main factors ensuring the economic stability of developing countries is the high level of diversification of exports of their enterprises, the importance of providing long-term loans and insurance services from the financial sector to their enterprises for diversifying exports. export is mentioned. Practical proposals and recommendations for the effective use of these practices in the development of the economy of Uzbekistan are presented.

Key words: exporting enterprise, commercial bank, export, credit, modernization, diversification, national exporters, investments, political risk, insurance, foreign investment, interest rate.

Аннотация: В статье подчеркивается значение банковских кредитов в повышении экспортного потенциала предприятий. В мировой практике одним из основных факторов, обеспечивающих экономическую стабильность развивающихся стран, является высокий уровень диверсификации экспорта их предприятий, важность предоставления долгосрочных кредитов и страховых услуг со стороны финансового сектора их предприятиям для диверсификации экспорта. упоминается экспорт. Представлены практические предложения и рекомендации по эффективному использованию данных практик в развитии экономики Узбекистана.

Ключевые слова: предприятие-экспортер, коммерческий банк, экспорт, кредит, модернизация, диверсификация, национальные экспортеры, инвестиции, политический риск, страхование, иностранные инвестиции, процентная ставка.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘lidagi izchil harakatlarni kuchaytirish, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish ustivor vazifa qilib belgilangan. Bu vazifalarning ijrosini so‘zsiz ta’minlash provardida vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish va xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bunda hal qiluvchi omil sifatida korxanalarining eksport saloxiyatini oshirish va ularning moliyaviy holatini mustahkamlashda tijorat banklarning rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir davlatning eksport salohiyatini o‘sishi uning iqtisodiy rivojlanishi bank tizimidagi moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq ekani rivojlangan davlatlar tajribasidan yaxshi ma’lum. Chunki, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi korxonalar barpo etish, korxanalarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklar muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida korxanalarini eksport salohiyatini rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsion kreditlarning salmog‘i 12,2 trln. so‘mni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich umumiy berilgan kreditlarning 13,2 foizni tashkil qilmoqda [1]. Xuddi shu ko‘rsatkichlar AQShda 32.5 foiz, Germaniyada 41,5 foiz va Xitoyda 15,3 foizni tashkil qiladi [2]. Ushbu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki respublikamizda korxonalar eksportini rivojlantirish uchun ajratilayotgan investitsion kreditlar salmog‘ini kamida ikki uch barobarga ko‘tarish zarur. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot

ishlab chiqaruvchi korxanalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo‘jaliklari va korxonalarning tashqi bozordagi amaliy ishtirokini ta’minlash, ularga qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, hukumatimiz tomonidan eksportchi korxanalarining katta-kichikligidan qat’iy nazar, ularning tashqi bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarishini rag‘batlantirish choralari ko‘rib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib korxanalarining eksport salohiyatini mustahkamlashda tijorat banklarinng kreditlash faolligining samaradorligini oshirish davlat uchun muhim ustuvor vazifaga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrardir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri eksport konsentratsiyasining pasayishi hisoblanadi. Eksport miqdori bo‘yicha xomashyoning ulushi ortsa, jahon bozorlarida tovar narxining o‘zgarishi mamlakatning qayta ishlash sanoatida pasayishiga olib keladi. O‘z navbatida, bu YaIM o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda yangi bir bosqichni boshlab berdi. Mazkur Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada yuksaltirish, davlat va jamiyat har jihatdan rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoit yaratishdir. Xususan, yaqin besh yilga mo‘ljallangan mazkur tarixiy ahamiyatga ega hujjatning uchinchi yo‘nalishida xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoyalashni ta’minlash, barcha turdagi to‘siq hamda cheklovlarni bartaraf etish, ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirishga to‘liq erkinlik berish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan [3]. Bu bilan korxanalarining eksporti va bank kreditlari faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsip hamda mexanizmlarini joriy etish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini monernizatsiya va faol diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini isloh etishga erishilishi, shubhasiz. Shuning uchun korxanalarining eksportini diversifikatsiyalashni ta’minlash uchun bank sektoridan milliy eksportchilarga uzoq muddatli kreditlar va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish muhim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarni kreditlash va ularni takomillashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, kreditlash tartibida yuzaga keluvchi riskli jarayonlarni baholash va boshqarish hamda kreditlash amaliyotining prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishning ayrim jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan Yu. A. Gerasina, R. M. Rasulov va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan (Gerasina, Rasulov 2011).

Xorijiy olimlarning fiklari o‘rganilganda, amerikalik iqtisodchi olim Piter S. Rouz bank kreditining ahamiyatini quyidagicha ta’riflaydi, ya’ni - “bank kreditlari yangi korxonalar va korxonalarning paydo bo‘lishiga va yangi ish o‘rinlarining ko‘payishiga ko‘maklashadi, hamda ularning iqtisodiy hayotiyligini ta’minlaydi” deb ta’rif bergan bo‘lsa, Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim T.Mazurina iqtisodiyotning real sektorini tijorat banklari kreditlari hisobidan kreditlashni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlarning mavjud bo‘lishini asoslab bergan, ya’ni davlatning samarali iqtisodiy siyosatining mavjudligi va korxonalar va korxonalarning daromadliligini oshirish sifatida baholagan (Rouz 1997).

Fikrimizcha, yuqoridagi ikkala olimlarning yondashuvlari davlatning va tijorat banklarning korxonalarning rivojlanishiga ko‘maklashishi va ularning daromadliligini oshirishga xizmat qilishi o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini yaratilishi va iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelashi mumkin.

Eksport diversifikatsiyasini oshiruvchi muhim omillardan biri – bank tizimining rivojlanishidir. Zamonaviy adabiyotlarda bank tizimi rivojlanishining eksport texnologik darajasini oshirishga bo‘lgan ta’siri bo‘yicha 3 asosiy yo‘nalishi mavjud [4]:

- birinchi yo‘nalishda xom-ashyo tovarlari narxlarining keskin o‘zgarishi natijasida eksportyorlarda diversifikatsiyalashga bo‘lgan ishtiyoq oshadi. Moliyaviy institutlarning rivojlanishi esa har xil shakldagi mahsulotlarni sug‘urtalaydi, risklarni diversifikatsiyalaydi va resurslarni eng samarador tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltiradi [5].
- ikkinchi yo‘nalish shuni nazarda tutadiki, bank tizimining rivojlanishi mamlakatlarning nisbiy ustunligini ta’minlaydi. Bu yo‘nalish tarafdorlarining fikrlariga ko‘ra, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik va iqtisodiy tomondan rivojlanganlik darajasi bir-biriga yaqin mamlakatlarning nisbiy ustunligi, ular moliyaviy sohasining rivojlanganlik darajasi bilan aniqlanadi. Shuningdek, qayta ishlash sanoati qazib chiqarish sanoatiga qaraganda qo‘proq miqdorda moliyaviy mablag‘larni talab etadi. Radjan va Zingalesning ta’kidlashicha, neft qazib olish hamda metallurgiya sohalari kam miqdorda moliyaviy mablag‘ talab etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy soha rivoji eksport konsentratsiyasini kamaytiradi va qayta ishlab chiqarish sanoati rivojlanishini rag‘batlantiradi [6].
- uchinchi yo‘nalish Shumpeter nazariyasiga asoslangan bo‘lib, bank tizimi innovatsiyani rag‘batlantirishda markaziy ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, bu qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytiradi. So‘ngi yillarda tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, innovatsiya yetarlicha riskli bo‘lib, bu

jarayon uzoq muddatli mablag‘larni talab qiladi [7]. Shuningdek, davlat kredit-moliya institutlari eksport va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashda xususiylariga qaraganda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatda korxanalarini moliyalashtirishda bank, davlat venchur fondlari yoki nafaqa fondlari mablag‘larini jalb qilish tizimini rivojlantirish muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mazkur yo‘nalishga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Eksport operatsiyalariga uzoq muddatli kreditlar ajratish va eksport risklarini diversifikatsiyalashda eksport-import banklari hamda eksportni kreditlovchi agentliklar roli katta ahamiyatga ega. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, Bern Ittifoqi va Praga Klubi (Uzbekinvest a’zo) a’zolari eksport operatsiyalarini kreditlash hamda sug‘urtalash uchun mos ravishda 1,84 trln. va 30,85 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar taqdim etgan [6]. Bu ko‘rsatkich 2020-yilda butun jahon eksportining qariyb 11 foizini tashkil etdi [7]. Ko‘rinib turibdiki, eksport operatsiyalarida eksportni kreditlovchi agentliklar roli oshib bormoqda. So‘ngi yillarda jahon mamlakatlari eksportlarida qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar va yuqori texnologiyalar ulushini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Eksport-import operatsiyalariga taqdim etiladigan kreditlar Bern Ittifoqi tomonidan quyidagi asosiy 3 ta tasnifga ajratiladi:

- Qisqa muddatli eksport kreditlari;
- O‘rta va uzoq muddatli eksport kreditlari;
- Eksport operatsiyalarini sug‘urtalash.

Bundan tashqari, qisqa muddatli kreditlar korxanalariga ham beriladi. Chunki eksport-import bilan shug‘ullanuvchi korxanalari katta korxonalarga qaraganda ishchi kapitaliga tezroq muhtojlik sezadi. Ularda ishchi kapitali yetishmovchiligi muammosini hal etish uchun eksim banklar kreditlar taqdim etadi. Eksim banklar eksport-import operatsiyalarini risk turlariga ko‘ra sug‘urtalaydi. Bu risklar siyosiy, tijoriy va iqtisodiy bo‘lishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahon bo‘ylab eng ko‘p miqdorda siyosiy risklar sug‘urtalanadi (1-jadval).

1-jadval: Xorijiy davlatlarda korxanalari uchun eksport import banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar

	Qisqa muddatli	O‘rta va uzoq muddatli	Sug‘urtalash
Xitoy eksport import banki	Qisqa muddatli eksport operatsiyalariga kreditlar ajratish. Eksport tovarlari va xizmatlari uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan eksportyorlar uchun	Xitoy eksportyorlari uchun kredit Xitoydan importyorlar uchun kredit	Risklarni turlariga ko‘ra sug‘urtalash Siyosiy va tijorat risklarini sug‘urtalash Fors-mojor holatlarini sug‘urtalash
Hindiston eksport import banki	Mahsulot va xizmatlarni jo‘natishgacha/ jo‘natgandan so‘ng kreditlar Xomashyo import qiluvchilarni kreditlash	Hindiston eksportyorlari uchun kreditlar Hindistondan importyorlar uchun kredit Kredit liniyalari	Siyosiy va tijorat risklarini sug‘urtalash Fors-mojor holatlarini sug‘urtalash
Vetnam eksport import banki	Mahsulot va xizmatlarni jo‘natishgacha/ jo‘natgandan so‘ng kreditlar Xomashyo import qiluvchilarni kreditlash	Hindiston eksportyorlari uchun kreditlar Hindistondan importyorlar uchun kreditlar	Siyosiy va tijorat risklarini sug‘urtalash Fors-mojor holatlarini sug‘urtalash

Manba: www.sinosure.com.cn, www.eximbankindia, www.eximbank.com.vn ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon mamlakatlari eksim banklari shunday tasnif bo‘yicha eksport-import operatsiyalariga kreditlar ajratadi. Xalqaro eksportda salmoqli ulushga ega bo‘lgan davlatlar – Xitoy, Hindiston va Vetnam o‘z eksportida yuqori texnologiyalar ulushini oshirishda eksim banklar faliyatidan keng foydalanmoqda. Bu mamlakatlar eksim banklari taqdim etadigan kreditlarning turlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘rta va uzoq muddatli kreditlar qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar, elektronika va mexanika mahsulotlarini eksport qiluvchilarga taqdim etiladi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar eksim banklari o‘rta va uzoq muddatli kredilar taqdim etiladigan mahsulotlar ro‘yxatini e’lon qiladi. Ayni o‘rinda o‘rta va uzoq muddatli eksportlarning taqdim etilishiga e’tibor qaratsak. Bu turdagi eksport kreditlari, asosan, mamlakat eksportyorlari (yuqori texnologiyalar) va mamlakatdan yuqori

texnologiyalar import qiluvchilarga taqdim etiladi. Qisqa muddatli kreditlar, asosan, qisqa muddatda amalga oshiriladigan eksport-import operatsiyalari (xomashyo va qo‘shilgan qiymati past bo‘lgan mahsulotlar)ga taqdim etiladi.

Yuqorida qayd etilgan mamlakatlar eksport import banklari korxanalarining eksportdagi ulushini oshirish maqsadida ularga faol tarzda kreditlar ajratadi. Ammo statistik ma’lumotlarga va iqtisodchilar S. Venkataramayn va B. Bhasinlarning fikrlariga ko‘ra, kichik va xususiy korxonalar transmilliy korporatsiyalarga oraliq mahsulot hamda xizmatlar yetkazib beradi [8]. Ya’ni, kichik va xususiy korxonalar umumiy eksportda qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar hamda yuqori texnologiyalar ulushini oshirmaydi. Shunday holat mavjud bo‘lishiga qaramay, qayd etilgan mamlakatlar eksport import banklari korxanalariga faol tarzda kreditlar ajratadi. Buning asosiy sababi – Xitoy, Hindiston va Vetnamda aholi bandligini ta’minlashda korxanalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport import banklarning barchasi yuqorida keltirilgan tasnif bo‘yicha eksport-import kreditlarini taqdim etadi. Yuqori texnologiyalar va qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar eksportini aynan o‘rta va uzoq muddatli kreditlar ta’minlab beradi. Chunki, yuqori texnologiyalarni eksport qiluvchilar uzoq muddatli kreditlarga ehtiyoj sezadi. Bu kreditlar ularning ishchi kapitali tugab qolmasligini ta’minlovchi asosiy omillaridan biridir. Xitoy, Hindiston va Vetnam mamlakatlarining eksim banklari erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar eksportiga ham faol tarzda kreditlar ajratadi. Bundan tashqari, eksim banklar xomashyo import qiluvchilarga hamda bu xomashyoni qayta ishlab, ya’ni uning ustiga qiymat qo‘shib, eksport qiluvchilarga kreditlar ajratadi. Bu holat mamlakatda qayta ishlab chiqarish sanoatini rag‘batlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekanini qayd etish joiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimizda ko‘plab ushbu yo‘nalishda ijobiy ishlar qilinayotganligi va erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilayotganini inobatga olsak quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

Nafaqat nisbiy ustunlikka ega sohalarga, balki erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar eksportiga ham kreditlar ajratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki bunday mexanizmdan Xitoy, Hindiston va Vetnamda keng foydalaniladi.

Xomashyo import qiluvchilarga kreditlar taqdim qilishni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday holatda mamlakat hududida qayta ishlab chiqarish sanoati rivojlanadi. Shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashga ishtiyoq ortib, import o‘rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur mexazm Xitoy va Hindistonda yaxshi samara bermoqda.

O‘zbekiston korxanalari eksportyorlariga uzoq muddatli kreditlar taqdim etish va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish – mamlakat eksportida yuqori texnologiyalar ulushini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotimizning diversifikatsiya darajasi yanada oshishini ta’minlaydi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy dasturlari samarasini oshirish, uni doimiy monitoring qilish, korxanalarining eksport jozibadorligini oshirishga qaratilgan “Hududlarda iqtisodiy rivojlantirish” konsepsiyasini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma’lumotlari www.cbu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063.
3. Altowaim S. 2016. Financial development and export diversification in resource-rich developing countries. Department of Economics, University of Glasgow.
4. Beck, T. (2002). Financial development and international trade: is there a link?. Journal of international Economics, 57(1), 107-131.
5. Rajan, R. and Zingales, L.,1998, Financial dependence and growth, American Economic Review 88(3). pp.559-586.
6. Mazzucato, M. (2013). “Fanancing innovation: creative destruction vs. destructive creation”. In: Industrial and Corporate Change 22.4, pp.851-867
7. Eksportning texnologik darajasi quyidagicha tasniflanadi: xom ashyo, past texnologiyali, o‘rta texnologiyali, yuqori texnologiyali va resurs sig‘imli eksport mahsulotlari. To‘liqroq ma’lumot uchun: Lall, S.2000. The technological structure and performance of developing country manufactured exports, 1985-98. Oxford Development Studies, 28(3), 337-369.
8. K.Preugscht et al., “A new Berne Union” Berne Union Yearbook 2016.
9. S.Venkataramany and Balbir B.Bhasin “Institutionalization of Export Promotion in India: An Empirical Study” ISSN: 0971-1023, NMIMS Management Review.
10. http://www.worldbank.org www.sinosure.com.cn, www.eximbankindia, www.eximbank.com.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

DIGITAL TRANSFORMATION OF TAX SYSTEMS

Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li
Lecturer of Kokand University

Musabekov Sherali Nazarali o‘g‘li
Student of Kokand University

Abstract: This article examines how digital technologies are revolutionizing tax systems to improve compliance, efficiency, and transparency. Taxpayers and tax authorities alike have benefited from the replacement of laborious, paper-based tax procedures with more efficient digital alternatives. The essay highlights significant technology developments and their beneficial implications on tax administration, compliance, and policy creation by citing a number of research evaluations.

Key words: Historical tax system, digital transformation, real-time reporting and data sharing, traditional tax system, administrative burdens and intricate regulations.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar soliq tizimlarini muvofiqlik, samaradorlik va shaffoflikni yaxshilash uchun qanday inqilob qilayotgani ko‘rib chiqiladi. Soliq to‘lovchilar ham, soliq organlari ham mashaqqatli, qog‘ozga asoslangan soliq tartib-qoidalarini yanada samaraliroq raqamli alternativlar bilan almashtirishdan foyda ko‘rdilar. Maqola bir qator tadqiqot baholariga iqtibos keltirgan holda muhim texnologik ishlanmalar va ularning soliq ma’muriyati, muvofiqlik va siyosatni yaratishdagi foydali ta’sirlarini korib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy soliq tizimi, raqamli transformatsiya, real vaqt rejimida hisobot berish va ma’lumotlar almashish, an’anaviy soliq tizimi, ma’muriy yuklar va murakkab qoidalar.

Аннотация: В этой статье рассматривается, как цифровые технологии революционизируют налоговые системы, улучшая соблюдение требований, эффективность и прозрачность. Налогоплательщики и налоговые органы получили выгоду от замены трудоемких бумажных налоговых процедур более эффективными цифровыми альтернативами. В статье освещаются важные технологические разработки и их благотворное влияние на налоговое администрирование, соблюдение требований и разработку политики, цитируя ряд исследовательских оценок.

Ключевые слова: Историческая налоговая система, цифровая трансформация, отчетность и обмен данными в режиме реального времени, традиционная налоговая система, административное бремя и сложные правила.

INTRUDUCTION

The transformation of the tax system using digital technologies has revolutionized the way governments collect and manage tax revenues. In recent years, there has been a significant shift towards the use of digital tools and platforms to streamline the tax process, improve compliance, and enhance overall efficiency. This transformation has had a profound impact on both taxpayers and tax authorities, leading to a more transparent, accessible, and effective tax system.The traditional tax system was often characterized by complex, paper-based processes that were time-consuming and prone to errors. Taxpayers were required to fill out numerous forms, keep track of various documents, and navigate through a maze of regulations and requirements. This often led to frustration and confusion, resulting in low compliance rates and significant administrative burdens for tax authorities.The advent of digital technologies has fundamentally changed this landscape. With the widespread use of electronic filing systems, online portals, and digital communication channels, taxpayers can now submit their tax returns, make payments, and access important information with ease. This has not only simplified the process for taxpayers but has also allowed tax authorities to collect and analyze data more efficiently, leading to improved accuracy and compliance.

Another significant aspect of the transformation of the tax system using digital technologies is the shift towards real-time reporting and data sharing. With the implementation of digital platforms and standardized data formats, tax authorities can now receive and process information in a more timely and accurate manner. In addition to improving compliance and enforcement, digital transformation has also led to significant cost savings for both taxpayers and tax authorities. The shift towards electronic filing and payment systems has reduced the need for paper-based processes, manual data entry, and physical infrastructure. This has not only streamlined administrative processes but has also reduced the overall operational costs associated with tax collection and management.

Overall, the transformation of the tax system using digital technologies has had a profound impact on the way taxes are collected, managed, and enforced. It has led to a more efficient, transparent, and accessible tax system that benefits both taxpayers and tax authorities. As technology continues to evolve, we can expect further innovations in this space, leading to even greater improvements in tax administration and compliance.

"The Digital Transformation of Tax Systems: A Literature Review" by Smith, J. et al. (2020).Smith et al. (2020) conducted a comprehensive literature review on the digital transformation of tax systems, highlighting the key technological advancements and their impact on tax administration. The study identified that the adoption of digital technologies has led to significant improvements in tax compliance, enforcement, and policy development. The authors emphasized the importance of leveraging digital tools to enhance taxpayer services and streamline revenue forecasting.

2. **"The Role of Digital Technologies in Tax Compliance:** A Review of the Literature" by Johnson, A. et al. (2019).Johnson et al. (2019) focused on the role of digital technologies in improving tax compliance. The review highlighted the use of data analytics and artificial intelligence in identifying non-compliant taxpayers and reducing tax evasion. 1The authors also discussed the challenges and opportunities associated with the adoption of digital tools in tax compliance.

3. **"Digital Transformation in Tax Administration:** A Review of the Literature" by Brown, M. et al. (2018). Brown et al. (2018) examined the digital transformation of tax administration processes, emphasizing the integration of blockchain technology and cloud computing. 2The study identified that these technologies have the potential to streamline tax administration processes and improve transparency in tax collection.

4. **"Digital Taxation:** A Review of the Literature on the Use of Digital Technologies in Tax Policy" by Williams, L. et al. (2017).Williams et al. (2017) focused on the use of digital technologies in tax policy development.3 The review highlighted the potential of digital tools in simplifying tax laws and regulations, as well as enabling real-time policy adjustments based on economic trends and taxpayer behavior.

5. **"The Impact of Digital Technologies on Tax Systems:** A Comprehensive Literature Review" by Davis, R. et al. (2016).Davis et al. (2016) conducted a comprehensive literature review on the impact of digital technologies on tax systems, emphasizing the potential for improved efficiency and effectiveness in tax administration.4 The study highlighted the need for governments to invest in digital infrastructure to harness the full benefits of technological advancements.

8. **"Digital Transformation and Taxpayer Services:** A Review of the Literature" by Martinez, S. et al. (2013) Martinez et al. (2013) focused on the impact of digital transformation on taxpayer services, emphasizing the potential for improved accessibility and convenience for taxpayers through online platforms and mobile applications.5 The study highlighted the need for governments to prioritize taxpayer-centric digital solutions.

12. **"Digital Transformation and Revenue Forecasting:** A Review of the Literature" by Clark, P. et al. (2009) Clark et al. (2009) focused on the impact of digital transformation on revenue forecasting, emphasizing the potential for real-time data analysis and predictive modeling to improve revenue projections. 6The study highlighted the need for governments to adopt advanced forecasting techniques enabled by digital technologies.

1 . Claudio Cipollini, A Systemic Introduction to Tax and Technology, IBFD Int'l Tax Stud. 3 (2022).
2 Adamov, Abzetdin. 2019. "Machine Learning and Advance Analytics in Tax Fraud Detection." Proceedings from 2019 IEEE 13th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT).
3 Battiston, Pietro, Simona Gamba, and Alessandro Santoro. 2020. Optimizing Tax Administration Policies with Machine Learning. DEMS Working Paper Series No. 436 (March).
4 Bentley, Duncan. 2019. "Timeless Principles of Taxpayer Protection: How They Adapt to Digital Disruption." In eJournal of Tax Research 16 (3): 679–713.
5 Hoffer, Stephanie. 2020. "What If Tax Law´s Future Is Now? An Introduction to the Symposium on Artificial Intelligence and The Future of Tax Law." The Ohio State Technology Law Journal. Vol. 16.1.
6 Ippolito, André, and Augusto Cezar Garcia Lozano. 2020. "Tax Crime Prediction with Machine Learning: A Case Study in the Municipality of Sao Paulo." Proceedings of the 22nd International Conference on Enterprise Information Systems (ICEIS 2020) 1: 452–459.

13. **"The Impact of Mobile Applications on Taxpayer Engagement:** A Literature Review" by Hall, T. et al. (2008) Hall et al. (2008) examined the impact of mobile applications on taxpayer engagement, highlighting their potential to provide personalized services and facilitate communication between taxpayers and tax authorities. 7The study emphasized the need for governments to embrace mobile-first strategies to enhance taxpayer engagement.

15. **"The Future of Digital Transformation in Tax Systems:** A Comprehensive Literature Review" by Adams, R. et al. (2006) Adams et al. (2006) conducted a comprehensive literature review on the future of digital transformation in tax systems, emphasizing the need for governments to continuously innovate and adapt to technological advancements. 8The study highlighted the potential for emerging technologies such as Internet of Things (IoT) and machine learning to further revolutionize tax administration processes.

The incorporation of digital technology has resulted in a significant alteration of the tax administration environment in recent years. This change represents a divergence from conventional practices, bringing cutting-edge solutions that improve tax systems' effectiveness, transparency, and compliance. We examine the main strategies used in the digital transformation of tax systems in this article.

Adoption of Up-to-Date Technology

The use of cutting-edge digital technologies is one of this transformation's key components. To improve efficiency, tax authorities throughout the globe are adopting cloud computing, data analytics, and artificial intelligence (AI). By processing large volumes of data quickly, seeing trends, and deriving insightful conclusions, these technologies enable tax systems to transform the way decisions are made.

Increasing Tax Compliance using Analytics

Enhancing tax compliance is greatly aided by digital technology, especially data analytics. With the use of sophisticated analytics technologies, tax officials may thoroughly examine taxpayer data, spot anomalies, and even uncover possible cases of tax evasion. This proactive strategy works to discourage prospective wrongdoers while simultaneously bolstering compliance.

Integrating Blockchain to Increase Transparency

The application of blockchain technology has shown to be revolutionary in the field of tax administration. The tamper-resistant and decentralized nature of blockchain technology improves the transparency of tax collecting procedures. It ensures the integrity of tax-related data and lowers the risk of fraud by providing an unchangeable ledger of transactions.

Digital Tools to Simplify Tax Laws

Simplifying complicated tax rules and regulations is made possible in large part by digital tools. Governments are simplifying tax regulations and improving accessibility for administrators and taxpayers by utilizing digital policy platforms and sophisticated technological solutions. In addition to lessening the tax burden on taxpayers, this streamlining makes enforcement easier and more efficient.

Improving Taxpayer Services via Internet-Based Platforms

Enhancing taxpayer services is a top priority for digital transformation. Taxpayers may easily obtain information, file returns, and get real-time updates using online tax portals and mobile applications. The transition to digital solutions that are focused on the taxpayer is intended to improve accessibility and facilitate constructive communication between tax authorities and taxpayers.

Predictive Models: Revolutionizing Revenue Forecasting

Tax authorities may now go beyond conventional revenue forecasting techniques because to digital transformation. Accurate revenue estimates and real-time data analysis are made possible by predictive modeling, which is powered by machine learning algorithms. With this flexible strategy, governments can react quickly to shifts in the economy and the behavior of their citizens.

7 Respati, Nugroho. 2020. "The Adoption of E-Government in the Tax Administration: A Scoping Review." Scientax, Jurnal Kajian Ilmiah Perpajakan Indonesia 1 (2): 109–130.

8 Vishnevsky, Valentine, and Viktorija Chekina. 2018. "Robot vs. Tax Inspector or How the Fourth Industrial Revolution Will Change the Tax System: A Review of Problems and Solutions." Journal of Tax Reform 4 (1): 6–26.

Using Innovative Technologies

The possibilities of tax systems have been redefined by the use of cutting-edge digital technologies like cloud computing, data analytics, and artificial intelligence (AI). Tax authorities now possess the ability to quickly evaluate enormous volumes of data, spot trends, and derive insightful information. The rapid advancement of technology has transformed decision-making procedures, enabling more thoughtful and methodical approaches to tax management.

Using Analytics to Improve Tax Compliance

The utilization of digital technology, especially sophisticated analytics tools, has been helpful in augmenting tax compliance. Tax authorities may thoroughly examine taxpayer data, spot anomalies, and find possible cases of tax evasion by using data analytics proactively.

This proactive approach serves as a deterrence to future wrongdoers by communicating that tax authorities have the means to uphold justice and honesty. It also reinforces compliance.

Integrating Blockchain to Increase Transparency

One particularly noteworthy innovation that has revolutionized the transparency of tax collecting procedures is the use of blockchain technology. The unchangeable log of transactions provided by blockchain's decentralized and tamper-resistant nature greatly lowers the danger of fraud. By guaranteeing the accuracy of tax-related data, this innovation promotes stakeholder and taxpayer confidence in the equity of the tax collecting process.

Digital Tools to Simplify Tax Laws

Simplifying complicated tax rules and regulations has been made easier thanks in large part to digital technologies. Governments use cutting-edge technologies and digital policy platforms to simplify tax laws and make them easier to understand for administrators and taxpayers alike. This simplification contributes to a unified and equitable tax system by easing the burden on taxpayers and enabling tax authorities to more effectively enforce rules.

Improving Taxpayer Services via Internet-Based Platforms

Encouraging taxpayer services is a top priority in the digital revolution. Taxpayers may easily access information, file returns, and receive real-time updates with the use of online tax portals and mobile applications. In addition to increasing accessibility, this move toward taxpayer-centric digital solutions also promotes goodwill among taxpayers and tax authorities, which eventually raises taxpayer satisfaction levels.

Predictive Models: Revolutionizing Revenue Forecasting

Tax authorities may now use digital transformation to go beyond conventional revenue forecasting techniques. Accurate revenue estimates and real-time data analysis are made possible by predictive modeling, which is powered by machine learning algorithms. By ensuring that governments can react quickly to shifts in the economy and in the behavior of their constituents, this adaptive strategy helps improve budgetary planning and resource allocation.

CONCLUSION

Digital technology have completely revolutionized tax systems, changing the way that revenue collection and management are conducted. Numerous benefits have resulted from this move to digital tools and platforms, including increased efficiency and compliance as well as a fundamental change in the dynamic between tax authorities and taxpayers.

Tax systems historically used intricate, paper-based procedures that were prone to mistake and took a lot of time to complete. Taxpayers faced a significant hardship as they had to navigate a maze of paperwork and rules, which caused irritation and low compliance rates. But the emergence of digital technology has turned this paradigm on its head.

For taxpayers, an era of ease has begun with the increasing adoption of internet portals, digital communication channels, and electronic filing systems. Taxpayers are now relieved of burdensome paperwork as filing taxes, making payments, and getting critical information are all smooth operations. Tax authorities gain from better data collection and analysis at the same time, which raises compliance and accuracy.

This is more than just a practical change. Data exchange and real-time reporting have emerged as critical components of the digital tax revolution. Digital platforms and uniform data formats enable tax authorities to collect and process information quickly and accurately. This change saves a lot of money for tax authorities as well as taxpayers, supporting compliance and enforcement.

The transition from manual data input, paper-based procedures, and physical infrastructure has resulted in a significant decrease in dependence on electronic filing and payment systems. In addition to streamlining administrative procedures, this results in significant operational cost savings for tax administration and collection.

In conclusion, the management, collection, and enforcement of taxes have all been profoundly impacted by the digital revolution of tax systems. As a result, both tax authorities and taxpayers gain from a more effective, open, and accessible tax system. More developments in this field are expected as technology progresses, offering even bigger improvements in tax administration and compliance. Numerous scholars have done a literature analysis that underscores the significance of digital innovations and highlights their revolutionary effect on policy creation, tax compliance, and enforcement. This collection of studies emphasizes how important it is for governments to keep coming up with new ideas and adjusting to new technology in order to keep tax systems at the forefront of effectiveness and efficiency.

Reference:

1. See, e.g., Claudio Cipollini, A Systemic Introduction to Tax and Technology, IBFD Int'l Tax Stud. 3 (2022).
2. Adamov, Abzetdin. 2019. "Machine Learning and Advance Analytics in Tax Fraud Detection." Proceedings from 2019 IEEE 13th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT).
3. Battiston, Pietro, Simona Gamba, and Alessandro Santoro. 2020. Optimizing Tax Administration Policies with Machine Learning. DEMS Working Paper Series No. 436 (March).
4. Bentley, Duncan. 2019. "Timeless Principles of Taxpayer Protection: How They Adapt to Digital Disruption." In eJournal of Tax Research 16 (3): 679–713.
5. Hoffer, Stephanie. 2020. "What If Tax Law´s Future Is Now? An Introduction to the Symposium on Artificial Intelligence and The Future of Tax Law." The Ohio State Technology Law Journal. Vol. 16.1.
6. Ippolito, André, and Augusto Cezar Garcia Lozano. 2020. "Tax Crime Prediction with Machine Learning: A Case Study in the Municipality of Sao Paulo." Proceedings of the 22nd International Conference on Enterprise Information Systems (ICEIS 2020) 1: 452–459.
7. Respati, Nugroho. 2020. "The Adoption of E-Government in the Tax Administration: A Scoping Review." Scientax, Jurnal Kajian Ilmiah Perpajakan Indonesia 1 (2): 109–130.
8. Vishnevsky, Valentine, and Viktorija Chekina. 2018. "Robot vs. Tax Inspector or How the Fourth Industrial Revolution Will Change the Tax System: A Review of Problems and Solutions." Journal of Tax Reform 4 (1): 6–26.
9. Qodirjon o'g'li B. T., Nazarali o'g'li M. S. Fiscal Policy As The Primary Tool To Affect The Strength Of The Capital Markets //Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 8. – C. 32-35.
10. Nazarali o'g'li M. S. Small And Medium-Sized Businesses (Smes) In Asian Nations Can Benefit From Fintech's Efficient Solutions //World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – T. 23. – C. 122-124.
11. Otto M. et al. The Role Of Digital Finance And Technological Innovation In The Growth Of The Green Economy // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 7. – C. 19-22.

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Raxmonova Aziza Tolibovna
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish. Inson kapitali, inson huquqlari, gender tengligi va barqaror rivojlanish bugungi kunda dolzarb bo‘lgan o‘zaro bog‘liq masalalar zanjiridir. Gender tengligi o‘z-o‘zidan muhim bo‘lib, u ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va inson salohiyatining mehnat unumdorligiga kuchli ta’sirida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ayollar mehnat bozorini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish siyosatini davom ettirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinib, ushbu tahlillar asosida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, mehnat bozori, gender tenglik, iqtisodiyot,jamiyat, professional ta’lim, inson huquqlari, hayot sifati.

Abstract: Improving the socio-economic status of women in our country, increasing their entrepreneurial activity, providing vocational training and employment, further increasing the role of women entrepreneurs in the development of the economy. Human capital, human rights, gender equality and sustainable development are a chain of interrelated issues that are relevant today. Gender equality is important in itself, it is manifested in the role of women in the development of society and the strong influence of human potential on labor productivity. This article analyzes the issues related to the improvement of the women’s labor market, the continuation of the policy of increasing the socio-economic activity of women, and based on these analyzes, conclusions and proposals are formulated.

Key words: human capital, labor market, gender equality, economy, society, professional education, human rights, quality of life.

Аннотация: Улучшение социально-экономического положения женщин в нашей стране, повышение их предпринимательской активности, обеспечение профессиональной подготовки и трудоустройства, дальнейшее повышение роли женщин-предпринимателей в развитии экономики. Человеческий капитал, права человека, гендерное равенство и устойчивое развитие – это цепочка взаимосвязанных вопросов, актуальных сегодня. Гендерное равенство важно само по себе, оно проявляется в роли женщин в развитии общества и сильном влиянии человеческого потенциала на производительность труда. В данной статье анализируются вопросы, связанные с совершенствованием женского рынка труда, продолжением политики повышения социально-экономической активности женщин, и на основе этого анализа формулируются выводы и предложения.

Ключевые слова: человеческий капитал, рынок труда, гендерное равенство, экономика, общество, профессиональное образование, права человека, качество жизни.

KIRISH

Donishmand xalqimiz hamisha ayollarni e’zozlab yashagan, xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko‘rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan. Buni muqaddas Qur’oni karimning eng katta suralaridan biri – “Niso”, ya’ni “Ayollar” deb atalishi ham tasdiqlaydi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo‘lishga da’vat etadi.

Muqaddas hadisi shariflarda ham xotin-qizlarga doimo yaxshilik qilish buyurilgan. Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur mirzo kabi ulug‘ ajdodlarimiz, ma’rifatparvar jadidlarimiz ham oilaning tinch, mustahkam va farovon bo‘lishida, farzandlar tarbiyasida xotin-qizlarning o‘rni va ta’siri beqiyos ekanini alohida ta’kidlaganlar.

Bugungi kunda xotin-qizlar jamiyatimizda olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar jarayonida, boshqaruv tizimida, tadbirkorlik, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at sohalarida, mahallalarda fidokorona mehnat qilib kelmoqdalar (Mirziyoyev, 2022).

So‘ngi yillar davomida erishilgan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari tufayli O‘zbekiston gender tengsizligini kamaytirish yo‘lida ma’lum yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, bir qator demografik va tarkibiy muammolar mavjud bo‘lib, ulardan biri xotinqizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish samaradorligining etarli darajada yuqori emasligidir.

Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi

O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan.

Gender tenglik–ham rivojlanish maqsadi, ham iqtisodiy siyosatga to‘g‘ri yondashishdir, chunki rivojlanish har bir inson, ayollar va erkaklar uchun teng ravishda erkinliklarni kengaytirish jarayoni sifatida qaraladi.

Islohotlarning barcha bosqichlarida O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash borasida qo‘shimcha kafolatlar berildi.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag‘lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko‘paydi.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta’minlanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo‘lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi.

Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Qishloq xo‘jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining 20 foiziga, shu jumladan fermer xo‘jaliklarining 7,3 foiziga ayollar rahbarlik qiladi. Gender tenglikni rag‘batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlar soni ko‘paydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari qabul qilingan. Mazkur vazifalar doirasida gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda boshqa sohalarda zarur choralar belgilab olingan.

2003-yilda professor Pan Jinxi (2003) birinchi marta gender inson kapitali kontsepsiyasini taklif qildi. Shundan so‘ng ayollarning inson kapitali bo‘yicha tadqiqotlar o‘rganilishi boshlandi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida modernizatsiyaning yuqori sur’atlari taraqqiyot va rivojlanishga turtki bo‘lsa-da, ular ayollarni ham ortda qoldirishi mumkin, chunki ular tez tarkibiy o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va ta’limga ega emaslar. Ayni paytda ayollar mamlakat aholisining qariyb 50 foizini tashkil etsada, ularning rasmiy mehnat bozoridagi ishtiroki cheklanganligicha qolmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirish mashaqqatli ish hisoblanadi. Shu sababli buni bir kunda amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu borada tayyor yechimlar yo‘q. Har bir mamlakat o‘z yo‘nalishini belgilab olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar va ayollar uchun manzilli ishlash mehanizmi joriy qilinmoqda. Hukumatning jiddiy sa’yharakatlari tufayli erishilgan gender tafovutlari qisqarganiga qaramay, ayrim sohalarni rivojlantirishda gender tengsizlik muammolari saqlanib qolgan. Bir qator tarmoqlar o‘rtacha daromad darajasida jinslar bo‘yicha sezilarli farqlar bilan ajralib turadi, mehnat bozorida ayollar sonini ko‘paytirishda muammolar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki, xotin-qizlar tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy hususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda tadbirkorlik nazariyasini rivojlantirishga katta xissa qo‘shgan olimlarni

ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov. Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R. Boltaboyev, Sh. D. Ergashxodjayeva Sh. A. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollar, biznes va qonun 2023 ayollarning qonuniy huquqlarining hozirgi holatini batafsil tavsiflaydi. Ushbu tadqiqot ayolning ish hayoti bilan tuzilgan ma'lumotlar to'plami va indeksini taqdim etadi. Hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ushbu asosdan ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdagi to'siqlarni aniqlash va olib tashlash, ishchi kuchi va tadbirkorlikda ishtirok etishni rag'batlantirish uchun foydalanishi mumkin.

Jahon banki guruhining kreditlash va texnik yordam operatsiyalari loyihalarni ishlab chiqish uchun tahliliy asos yaratish uchun ayollar, biznes va qonunchilik to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanadi.Atlantika Kengashi kabi boshqa muassasalar; teng choralar 2030-yil dasturi; Jorjtaun ayollar, tinchlik va xavfsizlik instituti; meros fondi; Millennium Challenges korporatsiyasi; va BMT ayollari undan ayollarni jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish uchun foydalanadilar. Butun jahon miqiyosida va O'zbekistonda ham ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarnikiga nisbatan past ko'rsatkichga ega. 2021-yil yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich ayollar orasida 41,3%ni, erkaklar orasida esa 56,9%ni tashkil etgan[1].

Statistik ma'lumotlaraga ko'ra, 2021-yil boshiga mehnatga layoqatli yoshdagilar 20 135,1 ming kishini tashkil etib, ulardan 9 629,8 ming kishi ayollarni tashkil etgan. 2021-yilda ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 13,3 foizni (taqqoslash uchun dunyo bo'yicha 6,1%) tashkil etgan. Bu erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasidan ikki baravar yuqori. Ishsiz ayollarning asosiy qismini o'rta maxsus (65,8 foiz) va o'rta (28,5 foiz) ma'lumotga ega, shuningdek, qisman oliy ma'lumotli xotin-qizlar (3,4%) tashkil etgan.

1-jadval: 2016-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi, %[2]

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	43.7	44.3	43.1	43.2	42.4	42.4
ishlab chiqaradigan sanoat	47.1	47.6	45.2	47.0	46.2	45.8
qurilish	5.8	5.8	5.8	6.2	6.3	6.3
ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	51.5	51.8	50.3	51.5	49.7	49.0
Tashish va saqlash	7.2	7.2	7.2	7.2	7.2	7.1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	52.4	52.8	51.7	52.1	51.7	51.0
axborot va aloqa	32.7	32.7	34.4	32.3	35.2	35.0
moliyaviy va sug'urta faoliyati	37.3	38.2	38.7	34.8	37.4	37.6
davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	29.1	29.4	28.4	26.8	27.8	27.5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	76.5	76.6	76.5	76.8	76.3	77.3
Ta'lim	75.6	75.6	75.7	75.7	74.9	73.8

1-jadvalda mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha jami bandlardagi ayollarning ulushi keltirilgan. Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki, iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha bandlardagi ayollarning eng kam ulushi qurilish, tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turida kuzatilib, 2021-yil ko'rsatkichlari bo'yicha qurilish faoliyati 6,3% va tashish faoliyati 7,1% ni tashkil etmoqda. Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich ta'lim faoliyatida 73,8%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 77,3% faoliyatida kuzatilgan.

2022-yil mehnatga layoqatli aholining mehnat bozorida ishtirok etish darajasi 60% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich erkaklar o'rtasida 71,9% ni, ayollar orasida esa 46,6% ni tashkil qilgan. Umuman olganda, ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarning iqtisodiy faolligidan 1,5% kam.

1 Jahon bankining rasmiy sayti. Elektron manba:https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b60c615b09e7-46e4-84c1-bd5f4ab88903/content

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Elektron manba: www.gender.stat.uz

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi tadqiqotchilarning atigi 30 foizini ayollar tashkil etadi. Ko'proq ayollar universitetlarga kirgan sari, ko'pchilik ilmiy martaba uchun zarur bo'lgan oliy ma'lumotdan voz kechmoqda. Qolaversa, qizlar duch keladigan stereotiplardan tortib, oilaga g'amxo'rlik qilish mas'uliyati va kasb tanlashda ayollar duch kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qarashlar mavjud. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha ulushida ham oldingi yillarda ma'lum tafovutlar mavjud bo'lgan (2-jadval).

2-jadval: 2016-2022 yillar Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha ulushi, o'quv yili boshiga %[3]

Ko'rsatkichlar	2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021	2021-2022
Jami	**100.0**	**100.0**	**100.0**	**100.0**	**100.0**	**100.0**
Ayollar	38.2	40.0	44.3	45.9	45.5	45.6
Erkaklar	61.8	60.0	55.7	54.1	54.5	54.4
Bakalavriyat	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
Ayollar	38.3	40.1	44.4	46.1	45.6	45.6
Erkaklar	61.7	59.9	55.6	53.9	54.4	45.4
Magistratura	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
Ayollar	36.8	38.0	40.5	41.6	42.7	47.0
Erkaklar	63.2	62.0	59.5	58.4	57.3	53.0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin, 2016-2017-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida ayollarning 38,3%izi tahsil olgan. erkaklarda esa bu ko'rsatkich 61,7% ni tashkil qilib, ayollarga nisbatan 33,4%ga ko'proq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. 2021-2022-o'quv yillari boshlariga kelib, bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi ayollar soni 45,6% ni tashkil qilib, 2016-2017-o'quv yillariga nisbatan 7,3%ga oshgan. 2021-2022-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi erkaklar coni 54,4% ni tashkil qilib, oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi ayollarga nisbatan 8.8%ga ko'p bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

2016-2017-yillar oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura ta'lim yo'nalishida ayollarning 36,8%izi tahsil olgan. erkaklarda esa bu ko'rsatkich 63,2%ni tashkil qilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida 2018-2019-yillar gender tengsizlik bilan bog'liq tafovutlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi hukumati xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish niyatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, kasanachilik dasturlari, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, jamoat ishlari dasturlari orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xotin-qizlarning faol ishtiroki kelajakda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, butun O'zbekiston aholisi va ayollari farovonligini oshirish uchun milliy salohiyatni oshirishni ta'minlaydi. Xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiyotidagi samarali ishtiroki va iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi o'rtasidagi bog'liqlik butun dunyoga ma'lum.

Respublikamizda ayollarning mehnat bozoridagi faoliyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni ajratish mumkin:

- Respublikamizda ayollarning iqtisodiy faollik darajasida so'nggi yillarda asta-sekin o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda;
- O'zbekistonda ayollarning asosiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich atrofida shakllangan bo'lib,jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida 26,9%, sanoatda 17,4% va xizmat ko'rsatish sohasida 58,7% ni tashkil etmoqda;
- ayollar va erkaklarning kasb tanlashda katta farqlar mavjud. Ayollar aksariyat hollarda ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarni, sog'liqni saqlash, pedagogika va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabilarni afzal ko'rishadi.
- ish bilan bandlarning eng katta ulushi ayollarga to'g'ri keladigan iqtisodiy faoliyat sohalarida eng past darajadagi oylik ish haqlariga mos keladi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi.Elektron manba: www.gender.stat.uz

- **Энергоэффективность:** С увеличением цен на энергоресурсы стала актуальной задача повышения энергоэффективности многоквартирных домов. В Узбекистане проводятся работы по утеплению фасадов, замене окон и систем отопления с целью снижения расходов на отопление. Это важный тренд, способствующий экономии ресурсов и снижению экологической нагрузки.
- **Онлайн-сервисы:** Трендом в управлении многоквартирными домами становится внедрение онлайн-сервисов. Жильцам предоставляются возможности оплаты коммунальных услуг, обращения с заявками, а также мониторинг состояния дома через интернет. Это делает управление более удобным и прозрачным для жильцов.
- **Экологические аспекты:** Все больше внимания уделяется экологическим аспектам управления многоквартирными домами. В Узбекистане проводятся инициативы по сортировке отходов, организации зеленых зон и улучшению качества окружающей среды. Это важно не только для комфорта жильцов, но и для улучшения экологической обстановки в городах.

Эволюция управления многоквартирными домами

История управления многоквартирными домами в Узбекистане уходит корнями в советский период, когда была создана система государственного управления жилыми домами. После получения Узбеки-

станом независимости в 1991 году, нормативная база была адаптирована к новым реалиям. Жилищный Кодекси Республики Узбекистан стал ключевым нормативным актом, регулирующим отношения между жильцами и органами управления многоквартирными домами [6].

Международный опыт моделирования отношений собственности в жилых кондоминиумах и выводы для Узбекистан

Международный опыт в области моделирования отношений собственности в жилых кондоминиумах предоставляет ценные уроки и практики, которые могут быть применимы к Узбекисану. Важно выделить ключевые аспекты этого опыта, чтобы избежать фрагментации информации при рассмотрении законодательства.

Существует несколько законодательных практик, которые являются общими для стран с различными системами права, как англо-саксонской (США, Канада, Великобритания, Австралия, Новая Зеландия), так и романо-германской (континентальной) системой права. Именно эти практики могут служить основой для разработки модели кондоминиума в Узбекистане [7].

Следует отметить, что перечисленные ниже практики были успешно применены в разных странах с разнообразными правовыми и экономическими системами при строительстве и разделении собственности в кондоминиумах. В этих странах доля кондоминиумов среди многоквартирных жилых домов составляет в среднем 25%, и остальные многоквартирные дома принадлежат единоличным собственникам и не имеют отношений собственности. В большинстве случаев собственники квартир в кондоминиумах - это обеспеченные люди, домохозяйства с средним и высоким уровнем доходов.

Ситуация в Узбекистане противоположна:

- Почти все многоквартирные жилые дома (МКД) являются кондоминиумами, где собственность разделена на индивидуальную и общую.
- Большинство кондоминиумов фактически создано путем “приватизации отдельных квартир без регистрации кондоминиума”.
- Доходы домохозяйств невысоки.
- Правила для кондоминиумов начали разрабатываться значительно позже начала приватизации отдельных квартир.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Историческая сложившаяся ситуация затрудняет решение проблем и, логически, предполагает тактику их поэтапного решения:

- Сначала необходимо создать совершенно новые законодательные рамки для кондоминиумов в новостройках, чтобы протестировать их эффективность.
- Затем постепенно переходить к новым правилам в отношении существующих жилых комплексов.

Такой подход позволит адаптировать международный опыт к реалиям Узбекистана и создать более эффективную систему управления кондоминиумами.

Управление многоквартирными домами в Узбекистане продолжает развиваться, принимая во внимание современные технологии и потребности жильцов. Эффективное управление позволяет обеспечивать комфорт и безопасность жильцов, сохранять состояние жилых зданий и снижать негативное воздействие на окружающую среду. Эволюция управления многоквартирными домами отражает стремление к более совершенным и устойчивым методам управления жилищным сектором в Узбекистане

Для совершенствования системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством в Узбекистане, следует принимать следующие меры:

Инвестиции в модернизацию инфраструктуры: Государство и частные инвесторы должны вкладывать средства в обновление коммунальных сетей и объектов. Это поможет повысить качество и надежность услуг.

Развитие конкуренции: Стимулирование конкуренции в секторе может способствовать снижению цен на услуги и увеличению их качества. Это можно достичь через либерализацию рынка и создание равных условий для всех участников.

Улучшение управления и прозрачности: Внедрение современных информационных технологий в управление сектором, а также усиление контроля и прозрачности в расходовании средств помогут предотвратить коррупцию и ненадежное управление.

Обучение и повышение квалификации кадров: Профессионально обученный персонал в сфере жилищно-коммунального хозяйства играет важную роль в обеспечении качественных услуг. Поэтому необходимо инвестировать в обучение и повышение квалификации работников этой отрасли.

Взаимодействие с международными организациями: Узбекистан может сотрудничать с международными организациями и странами, чтобы получить опыт и финансовую поддержку в совершенствовании своей системы жилищно-коммунального управления.

Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана - это сложная задача, которая требует совместных усилий государства, частного сектора и международных партнеров. Однако, успешное решение этой задачи будет способствовать повышению качества жизни населения и устойчивому развитию страны.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Данные Министерства жилищно-коммунального обслуживания Республики Узбекистан, 2022 год.
2. Иваненко Лариса Викторовна, Бондаренко Елена Юрьевна Развитие системы управления многоквартирными домами в городском округе Самара // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика . 2014. №1 (7). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-upravleniya-mnogokvartirnymi-domami-v-gorodskom-okruge-samara (дата обращения: 15.07.2022).
3. Puķīte, Iveta & Geipele, Ineta. (2015). Residential Building Management System Features and Underlying Factors. Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management. 3. 10.1515/bjreecm-2015-0006.
4. Vanags, J., (2010). Nekustamā īpašuma ekonomika. Monograph. Rīga: Riga technical University. ISBN 978-9934-10-020-8
5. “Закон об управлении многоквартирными домами” Республики Узбекистан. 07.11.2019 г. ЗРУ №581. https://lex.uz/ru/docs/4586282.
6. ЖИЛИЩНЫЙ КОДЕКС РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. 24.12.1998г. https://lex.uz/docs/106134
7. Концепция моделирования кондоминиума в Республике Казахстан, проект PROMHOUSE 2023 год.

SANOAT KORXONALARINI KREDITLASH AMALIYOTINING ZAMONAVIY HOLATI

Kamalova Jamila
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining nazariy asoslari, tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq qilingan va ularning amaliy ahamiyatiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, loyihalarni moliyalashtirish, kredit portfeli, sanoat korxonalari.

Abstract: The theoretical foundations of commercial banks' practice of lending to industrial enterprises, the scientific and theoretical views on improving the practice of lending to industrial enterprises by commercial banks were researched and their practical significance was evaluated.

Key words: commercial banks, project financing, loan portfolio, industrial enterprises.

Аннотация: Исследованы теоретические основы практики кредитования промышленных предприятий коммерческими банками, научно-теоретические взгляды на совершенствование практики кредитования промышленных предприятий коммерческими банками и оценена их практическая значимость.

Ключевые слова: коммерческие банки, проектное финансирование, кредитный портфель, промышленные предприятия.

KIRISH

Jahonda iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi, mineral, xom-ashyo va energiya resurslari narxining o‘sishi, global transport-logistika tizimidagi uzilishlar, sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi, inflyatsion kutilmalar va narxlar nobarqarorligi sharoitida sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali sanoat mahsulotlari taklifini oshirish va munosib ish joylarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra “dunyo mamlakatlarida inflyatsiyani pasaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan restriksion pul-kredit siyosati oqibatida global iqtisodiy o‘sish 2022 yildagi 3,1 foizdan 2023-yilda 2,1 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda”. Bu jarayonlar global darajada sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda fiskal va moliyaviy rag‘batlantirish instrumentlari samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga asoslangan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, investitsiya loyihalarini kreditlashda risklarni diversifikatsiya qilish va sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash, sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va banklarda kreditlash jarayonini tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar J. Sinki, U. Soto, J. Gudl, E. Xin, M. Abbot, T. Didier, D. Fantazzini, M. Vayn, R. Zang va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari N. Valenseva, G. Panova, K. Totmyanina, V. Kayukov, A. Kayukov, O. Lavrushin, T. Belyakov, V. Usoskin va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

G. Panova o‘zining monografik tadqiqotiga asoslangan holda, tijorat banklarining kreditlash salohiyati bevosita ular depozit bazasining yetarliligi bilan bog‘liq, degan xulosaga keldi. G. Panova bu yerda depozitlar deganda muddatli va jamg‘arma depozitlarini nazarda tutgan. Chunki, xalqaro bank amaliyotida banklarning

aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbai – bu muddatli va jamg‘arma depozitlardir, tranzaksion (talab qilib olinuvchi) depozitlar esa, resurs manbai hisoblanmaydi. Ammo, respublikamizda tijorat banklari tranzaksion depozitlardan kreditlar berishda resurs manbai sifatida foydalanadi.

J. Sinkining xulosasiga ko‘ra, kredit oluvchi kompaniyaning faoliyati va menejmentining samaradorligini to‘g‘ri baholash banklarning kredit bo‘limi xizmatchilarining muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, bank kreditlarining qaytaruvchanlik darajasini oshirish bevosita kredit oluvchi kompaniya pul oqimining barqarorligiga bog‘liq. O‘z navbatida, kompaniya pul oqimining barqarorligi menejmentning samaradorligiga bog‘liq.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi, likvidliligini mavjud talablar darajasida bo‘lishi korporativ menejmentning takomillashganligiga bog‘liq. Xususan, respublikamiz korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi salmog‘i ularni sotishdan olingan tushum hajmida yuqori bo‘lib, pul mablag‘larining salmog‘i korxonalar joriy aktivlari hajmida past ekanligi, korxonalarda debitorlik qarzdorliklarning aylanish tezligini talab darajasida emasligi, aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi korporativ menejmentning samaradorligini past ekanligidan dalolat beradi.

V. Kayukov va A. Kayukovlarning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkam qilish, banklarning aktiv va passivlarining hajmi va muddatiga ko‘ra mutanosibligini ta’minlash, sanoat korxonalarini kreditlash mexanizmini takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. V. Kayukov va A. Kayukovlarning yuqoridagi fikrlari mamlakatimiz tijorat banklarining moliyaviy resurslarining barqarorligini ta’minlash jihatidan amaliy ahamiyatga ega. Chunki, respublika banklarida resurslar defitsiti muammosi mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston bank tizimida sanoat korxonalarini kreditlashni tashkil etish va uni amalga oshirish, shuningdek ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun bo‘yicha keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ilohotlar, sanoat korxonalariga berilayotgan imtiyozlar o‘zining tegishli samarasini bermoqda. O‘zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli tarmoq tarkibida sanoat tarmog‘iga ajratilgan kreditlar ulushi so‘nggi yillarda yuqori samoqni egallab kelmoqda. Buni qo‘yidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining 2018-2022-yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi[1] (1-yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Sanoat	39,84	35,75	36,89	36,04	32,47
Qishloq xo‘jaligi	5,63	8,13	10,14	10,73	10,79
Qurilish	3,51	2,80	2,66	2,84	2,67
Savdo va umumiy xizmat	6,44	6,84	7,19	8,40	7,41
Transport va kommunikatsiya	12,49	11,11	9,61	8,80	7,61
Moddiy-texnika ta’minoti	1,64	1,56	1,43	1,17	0,99
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,09	1,19	1,36	0,70	0,48
Jismoniy shaxslar	14,59	18,87	19,82	21,29	25,88
Boshqa tarmoqlar	14,76	13,74	10,90	10,03	11,70
Kreditlar - jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida 2018-2022-yillarda nisbatan eng yuqori salmoqni sanoat tarmog‘iga berilgan kreditlar egallamoqda. Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida 2018-2022-yillarda salmog‘iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni qishloq xo‘jaligiga berilgan kreditlar egalladi (jismoniy shaxslarga ajratilgankreditlar bundan mustasno). Asakabank kredit portfeli tarmoq tarkibiga quyidagi jadval ma’lumotlari orqali baho berishimiz mumkin.

1 Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

2-jadval: “Asakabank” aksiyadorlik jamiyati kredit portfelining 2018-2022-yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi[2] (1-yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Sanoat	71,92	62,79	68,22	70,62	67,24
Qishloq xo‘jaligi	5,28	6,78	5,53	4,29	4,02
Transport va kommunikatsiya	0,63	1,20	1,94	1,82	1,75
Qurilish	7,06	1,18	1,18	1,28	1,00
Savdo va umumiy xizmat	3,22	3,87	4,42	4,95	4,52
Moddiy-texnika ta’minoti	0,54	0,01	0,01	0,00	0,00
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	0,26	0,46	0,35	0,37	0,35
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	11,09	23,71	18,35	16,67	21,12
Jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2017-2022-yillarda Asakabank AJning kredit portfelida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning ulushi 60 foizdan yuqori bo‘lgan. Bu esa, Asakabank AJda kredit portfelining diversifikatsiya darajasini juda past ekanligini ko‘rsatadi. Taqqoslash sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibiga quyidagi jadval ma’lumotlari orqali baho berishimiz mumkin.

3-jadval: “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati kredit portfelining 2018-2022 yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi[3] (1 yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
Sanoat	22,21	27,41	31,86	29,67	31,52
Qishloq xo‘jaligi	2,99	5,07	4,91	3,75	3,12
Transport va kommunikatsiya	35,56	32,04	28,61	26,90	23,25
Qurilish	2,13	2,36	1,78	2,17	1,79
Savdo va umumiy xizmat	3,53	2,92	3,08	5,36	5,30
Moddiy-texnika ta’minoti	0,25	0,39	0,30	0,62	0,25
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,74	1,94	3,29	0,76	0,64
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	31,59	27,87	26,17	30,77	34,13
Jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibida sanoatning va transport va kommunikatsiyaning salmog‘i 2018-2022-yillarda yuqori bo‘lgan. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibida moddiy-texnika ta’minoti va uy-joy kommunal xo‘jaligiga berilgan kreditlarning salmog‘i 2018-2022-yillarda juda kichik bo‘lgan. Lekin shuni ta’kidlash lozimki respubliki tijorat banklarining sanoat korxonalariga ajratgan kreditlari ulushi (32%), “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJning kredit portfelidagi sanoat tarmog‘iga ajratilgan kreditlash ulushi bilan (31,52%) mos keladi. Quyidagi jadvalda “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ da sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning tarmoq tarkibi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlangan:

- sanoat korxonalarini kreditlash jarayonidagi kredit riski darajasining yuqori ekanligi (kredit portfelida muddati o‘tgan va muammoli qarzdorliklar miqdorining yuqori ekanligi; kreditlar bo‘yicha yaratiladigan zahiralarning jami aktivlarga nisbatan darajasining belgilangan darajadan yuqori ekanligi; tijorat banklarida kredit portfeli tarmoqlar va sohalar bo‘yicha diversifikatsiyalanmagan);

2 Jadval muallif tomonidan “Asakabank” aksiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.
3 Jadval muallif tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi (tijorat banklarining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarining o‘sish sur’ati bilan ushbu kreditlardan olingan foizli daromadlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikning ta’minlanmaganligi; kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalari darajasini yuqori ekanligi; davlat dasturlari doirasida berilgan imtiyozli kreditlar miqdorining katta ekanligi);
- tijorat banklarining resurs bazasini barqaror emasligi (tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida tranzaksion depozitlarning salmog‘ini yuqori ekanligi; boshqa banklardan jalb qilingan kreditlarning passivlar hajmidagi salmog‘ining yuqori ekanligi).

Respublikamiz tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati va “Asakabank” aksiyadorlik jamiyati misolidagi tahlili ko‘rsatdiki, birinchidan, 2018-2022-yillarda “Asakabank”ning kredit portfelida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning ulushini 60 foizdan yuqori bo‘lganligi “Asakabank”da kredit portfelining diversifikatsiya darajasini juda past ekanligini ko‘rsatadi; ikkinchidan, “Asakabank”da sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning miqdori 2017-2022-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 2,1 foizli punktga oshgan; uchinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyatida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning miqdori 2018-2022-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning darajasini 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur’atda o‘sganligi sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi; to‘rtinchidan, “Asakabank”da sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalarining darajasi 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,3 foizli punktga ortgan; beshinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyatida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalarining darajasi 2017-2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda 2021-yilda 2017-yilga nisbatan yuqori sur’atda (2,2 f.p.) o‘sgan; oltinchidan, TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari miqdorini 2022 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi uning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016 г. – 800 с.;
2. Бровкина Н.Е. Организация отдельных видов кредита. Банковское дело Москва: КНОРУС, 2016 г. – 800 с.
3. Беляков Т. Минные поля проектного финансирования: Пособие по выживанию для кредитных работников и инвесторов. – Москва: М.:Алпина Бизнес Букс, 2009 г – 221 с.
4. Синки мл. Д. Ф. Управление финансами в коммерческом банке: пер. с англ. – М: Саталлахи. 1997 г. – С.182.
5. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation / Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996y. Second Quarter – P. 71-88.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil yakunlari bo‘yicha faoliyati to‘g‘risidagi hisobot //www.cbu.uz
7. Hoshimov, J. (2022). Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda aqsh va xitoy tajribasi: https://doi. org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a61. Economics and education, 23(5), 363 369.
8. Хошимов, Жахонгир. “Прямые снижение страновых рисков при привлечении прямых иностранных инвестиций.” Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально гуманитарных наук/ Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.S/2 (2023): 149 155.
9. Khoshimov, J. (2023). Overseas experience in the development of the life insurance industry. Molodые uchenые, 1(20), 65 69.
10. Hoshimov, Jahongir. “Inveestitsion muhit jozibadorligini oshirishda xitoy va singapur tajribasi.” Iqtisodiyot va ta ’ lim 24.2 (2023): 369 373.
11. Ravshanbek O‘g‘li H. J. The Existing Problems In Attracting Foreign Investment To The National Economy And Ways To Overcome Them //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 09. – S. 53-59.
12. Xashimov J. Iqtisodiyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish yo‘llari //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 4. – S. 93-99.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNI ISLOH QILISHNING ISTIQBOLLARI

Qahhorov Azizjon Ahror o‘g‘li
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarning ta’rifi va huquqiy maqomi, O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokidagi korxonalarning o‘rni yoritilgan. Davlat ishtirokidagi korxonalarni aniqlashning xalqaro amaliyotdagi ta’riflari ko‘rsatib o‘tilgan. So‘nggi yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari bayon etilib, kelgusida ularni isloh qilish va xususiylashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat ishtirokidagi korxona, davlat korxonasi, unitar korxona, davlat muassasasi, xususiylashtirish, aksiyadorlik jamiyati, mas’uliyati cheklangan jamiyat.

Abstract: This article describes the definition of the concept and legal status of “enterprises with state participation”, the role of state-owned enterprises in the economy of Uzbekistan. Definitions of the concept of “enterprises with state participation” in international practice are given. The main directions of transformation of state-owned enterprises in recent years are listed, proposals are formulated for their reform and privatization in the future.

Key words: enterprise with state participation, state enterprise, unitary enterprise, state institution, privatization, joint-stock company, limited liability company.

Аннотация: В данной статье описано определение понятия и правовой статус “предприятий с государственным участием”, роль государственных предприятий в экономике Узбекистана. Приведены определения понятия “предприятий с государственным участием” в международной практике. Перечислены основные направления трансформации государственных предприятий за последние годы, сформулированы предложения по их реформированию и приватизации в будущем.

Ключевые слова: предприятие с государственным участием, государственное предприятие, унитарное предприятие, государственное учреждение, приватизация, акционерное общество, общество с ограниченной ответственностью.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlari qonunchilikka muvofiq istalgan tashkiliy-huquqiy tuzilishda hamda turli mulkchilik shakllarida faoliyatini olib borishi mumkin.

Xo‘jalik munosabatlari tizimida, korxonalarning alohida toifasi – davlat korxonalari shakli mavjudki, ular bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar ayrim hollarda alohida tartibga solishni talab etadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish ko‘lamini kengaytirish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Iqtisodiyotda davlat ulushi miqdorining yuqoriligicha qolayotganligi – iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi pastligiga sabab bo‘lib, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirishga bo‘lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat korxonalari faoliyatining samaradorligini va shaffofligini oshirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishda “davlat korxonasi” tushunchasining huquqiy maqomini hamda belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi. Tegishli mezonlar asosida davlat korxonalarining ro‘yxatini aniqlash – ularni isloh qilishda manzilli choralar ko‘rish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat korxonasi tushunchasi, davlat ishtirokidagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni va iqtisodiy munosabatlardagi aralashuvi, davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi optimal salmog‘ini saqlash masalalari chet ellik olimlar tomonidan keng o‘rganilgan.

Iqtisodiyotda xususiylashtirishning afzalliklari va munozarali jihatlari bo‘yicha o‘tkazilgan aksariyat tahlillarning xulosalari, davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan xususiy mulk shaklidagi korxonalarning faoliyati

samaraliroq ekanligi isbotlanganini Zaragoza universiteti (Ispaniya) professori Patricia Bachiller tadqiqotlarida ko‘rish mumkin[1].

Iqtisodchilar D’Souza va Megginson tadqiqotida jami 85 ta, shtab-kvartirasi 15 ta rivojlangan davlatlarda joylashgan 58 ta hamda 13 ta rivojlanayotgan mamlakatlardagi 27 ta kompaniyaning faoliyati tahlil qilish natijasida, xususiylashtirish samara olib kelganligi asoslangan[2].

Lekin, korxonalarni xususiylashtirish ularning samaradorligini oshirishi to‘g‘risidagi yondashuvni qo‘llab-quvvatlashsada, amaliyotda ayrim mamlakatlar misolida teskari tasdiqlar ham mavjud. Masalan, iqtisodchi olimlar Dang, L., D. Nguyen va F. Taghizadeh-Hesary tomonidan Vetnam misolida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, ayrim iqtisodiy tizimlarda xususiy sektorga nisbatan davlat ishtirokidagi korxonalar samaraliroq faoliyat ko‘rsatayotganligi ta’kidlanadi[3]. Shuningdek, iqtisodiyotning tizim hosil qiluvchi tarmoqlarida, ayniqsa inqiroz sharoitida davlat egaligidagi korxonalar va xususiy kompaniyalarning samaradorligi o‘zaro yaqin ekanligini tahlil qilishgan[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi korxonalarni huquqiy maqomini o‘rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqadorligi va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni tadbirkorlik subyektlarining keng tarqalgan shakllari – aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyat va unitar korxonalar orasida uchratish mumkin.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyat ko‘lami Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. 2021-yil yakunlari bo‘yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 50 foizi, tashqi savdo aylanmasining 20 foizi, tijorat banklari aktivlarining 80 foizdan ortig‘i davlat egaligidagi korxonalar tomonidan yaratilgan[5]. Davlat ishtirokidagi korxonalar to‘laydigan soliqlar budjet tushumlarining ham katta qismini ta’minlab beradi.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta’minlashda davlat sektorining ulushi 6 foiz atrofida bo‘lib, aholi bandligini ta’minlashda xususiy sektorning o‘rni kattaligini ko‘rsatmoqda[6].

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida hukumatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri shubhasiz iqtisodiyotni transformatsiya qilish hisoblanadi. Davlat ishtirokidagi va xususiy korxonalarga teng imkoniyatlar yaratish hamda davlat korxonalarini xususiylashtirish bozor munosabatlarini shakllantirishning zaruriy talabi sifatida qaraladi.

“Davlat ishtirokidagi korxona” tushunchasi xorijiy adabiyotlarda uchramaydi. Ushbu termin milliy qonunchiligimizga xos bo‘lib, “davlat korxonasi” tushunchasiga nisbatan kengroq kamrovga ega.

Xalqaro tashkilotlar, chet el mamlakatlari tomonidan “davlat korxonasi” tushunchasining mazmunini yoritishda Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan davlat savdo korxonasiga berilgan ta’rifdan[7] foydalaniladi hamda fikrimizcha, uni “umume’tirof etilgan ta’rif” sifatida ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, davlat savdo korxonasi sifatida:

- to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita korxonaning ustav kapitalida 50 foiz yoki undan ortiq ulushga davlat egalik qilsa;
- hukumat idoralarida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita korxona direktorlar kengashi yoki shunga tenglashtirilgan boshqaruv organi a’zolarining yarmidan ortig‘ini tayinlash vakolati mavjud bo‘lsa;
- hukumatning korxona faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirsa yoki unda nazoratni amalga oshirish imkoniyati bo‘lsa;
- davlat tomonidan korxonaga muayyan monopol huquqlar va eksklyuziv vakolatlar berilgan bo‘lsa;
- soliqlar bo‘yicha va boshqa turli imtiyozlar berilgan korxonalar hamda buning natijasida korxona bozordagi savdo hajmiga va uning yo‘nalishlariga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan toifadagi korxonalar tavsiflanadi.

1 Patricia Bachiller, University of Zaragoza | UNIZAR Department of Accounting and Finance (FECEM). The Impact of Privatization on Economic Performance in European Companies, 2012;

2 D’Souza, J. & Megginson, W. (1999). The financial and operating performance of privatized firms during the 1990s. // Journal of Finance, 54 (4), 1397–1438.

3 Dang, L.N., D.D.Nguyen, and F. Taghizadeh-Hesary. 2020. State-Owned Enterprise Reform in Viet Nam: Progress and Challenges. ADBI Working Paper 1071. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available: https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprise-reform-viet-nam-progress-challenges

4 State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context. INSTITUTIONAL PAPER 031 | JULY 2016. http://ec.europa.eu/economy_finance/publications/.

5 Obid Hakimov, “Rol gosudarstva i biznesa v ekonomike: povorotnыy moment reform”. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2022 yil 12 aprel. https://yuz.uz/ru/news/rol-gosudarstva-i-biznesa-v-ekonomike-povorotny-moment-reform

6 https://www.spot.uz/ru/2020/03/17/business-vs-gov/#:~:text

7 https://www.wto.org/english/tratop_e/statra_e/statra_info_e.htm

Ko‘rinib turibdiki, JST metodologiyasi bo‘yicha davlat korxonasi sifatida toifalanadigan korxonalarning ko‘lami ancha keng bo‘lib, faqatgina korxona ustav kapitalida davlat ulushi mavjud yoki mavjud emasligi bilan cheklanib qolmaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “davlat korxonasi”ning korxonaga egalik qiladigan hukumat idorasi (markaziy, federal, mahalliy), korxona qanday yo‘l bilan tashkil etilganligi, korxona maqsadiga qarab turli huquqiy shakllarda bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan[8].

“Davlat korxonasi” tushunchasiga xalqaro amaliyotda keng qo‘llanayotgan ta’rif IHRT va Davlat sektorida xalqaro hisobot standartlari (IPSAS) tashkiloti tomonidan berilgan bo‘lib, unga ko‘ra – davlat korxonasi to‘liq, jajoritar va hal qiluvchi minoritar egalik ulushi orqali davlat hal qiluvchi nazoratga ega bo‘lgan korxona hisoblanadi[9].

Shu bilan birga, har bir davlatning qonunchiligi bilan davlat korxonasining ta’rifi, belgilari va huquqiy maqomi o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martda qabul qilingan “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunida davlat ishtirokidagi korxona tushunchasiga – “ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyati yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo‘jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko‘p bo‘lgan xo‘jalik jamiyati, shuningdek davlat unitar korxonasi” sifatida ta’rif berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi Nizomda “davlat korxonasi - davlat mulkidagi, o‘ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o‘ziga birkitilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig‘iga ko‘ra u vakolat bergan davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi” deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi “davlat korxonasi” tushunchasining mavjud ta’rifi korxonaning faqat mulkka egalik nuqtai-nazaridan davlatga tegishliligini aks ettiradi. Haqiqatda davlat egaligida bo‘lgan tijorat subyektlarining ko‘lami va mohiyatini qamrab olmaydi.

Korxona faoliyatini boshqarishda boshqa turdagi ta’sir o‘tkazish va nazorat instrumentlari inobatga olinmaydi va ularni davlat korxonasi sifatida tasniflash imkonini bermaydi. Amaliyotda turli tashkiliy huquqiy shakllarda uchraydigan assosiatsiya, uyushma, xo‘jalik boshqaruvi organi, fond, jamg‘arma, kengash kabi tuzilmalar mavjudki, ularning aksariyati nafaqat tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatiga, texnik, boshqaruv va kadrlar siyosatiga, savdo va moliyaviy oqimlariga ta’sir etadi, balki biznesga majburiy ko‘rsatmalar berish, texnik va boshqa normativ talablarni tasdiqlash kabi vakolatlarga ham ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta’rifdan ko‘rish mumkinki, Davlat korxonalari to‘g‘risidagi nizomda, davlat korxonasi sifatida uning shakllaridan biri bo‘lgan davlat unitar korxonalari nazarda tutilmoqda. Vaholanki, davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyat, shirkat va/yoki boshqa tashkiliy huquqiy shakllarda faoliyat olib borishi mumkin. Jumladan, O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning (2100 ta) katta ulushi (51%) mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida (1071ta) tashkil etilgan va faoliyat olib boradi[10].



1-rasm: Davlat ishtirokidagi korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha taqsimoti[11]

8 OECD, 2005, “OECD Comparative Report on Corporate Governance of State-owned Enterprises” The World Bank, 2006, “Held by the Visible Hand – the Challenge of SOE Corporate Governance for Emerging Markets” Kowalski, P. et al (2013), “State-Owned Enterprises: Trade Effects and Policy Implications”, OECD Trade Policy Papers, No. 147, OECD Publishing.

9 www.publicfinanceinternational.org/news/2014/09/ipsas-reforms-proposed-for-state-owned-firms/?utm_source=Adestra&utm_medium=email&utm_term=

10 Ushbu ma’lumot 2022-yil 1-iyun holatiga olingan. Ta’kidlash joizki, davlat ishtirokidagi korxonalar soni muntazam o‘zgarib boradi.

11 Muallif ishlanmasi (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rasmiy sayti www.davaktiv.uz ma’lumotlari asosida)

Alohida qayd etish joizki, bundan tashqari O‘zbekistonda davlat mulkiga asoslangan va turli (davlat) xizmatlarini ko‘rsatuvchi (28 342ta) muassasa faoliyat ko‘rsatmoqda[12]. Muassasalar “davlat korxonasi”dan farqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga ko‘ra, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot hisoblanadi.

Muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunida “davlat muassasasi – boshqaruv vazifalarini, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki boshqa notijorat tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to‘liq yoxud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilot” ekanligi belgilangan.

Davlat korxonasi va muassasalar o‘zlariga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo‘yilgan doirada, o‘z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi.

Davlat korxonasi o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni uning mulkdorining roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli.

Muassasa o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablag‘larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o‘zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Tadqiqot davomida, so‘nggi qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarda “davlat ishtirokidagi korxona” tushunchasining ishlatilishi, jumladan quyidagi hujjatlar misolida o‘rganildi:

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo‘llanishi[13]

T/r	Normativ hujjat nomi	Davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo‘llanishi
1	“2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (VMQ, 29.03.2021y, 166-son)	1. Quyidagi asosiy yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin: ... ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarining (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) yetarli darajada asoslantirmasdan tashkil etilishiga, shuningdek, tegishli tarmoq va sohalardagi boshqa korxonalarga nisbatan eksklyuziv imtiyoz va afzalliklarga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik; ...
2	“Davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarining rasmiy veb-saytlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” (VMQ, 19.02.2021y, 81-son)	Davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ...
3	“Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PQ-4325-son, 19.05.2021-y)	... davlat korxonalari, xususan, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘p bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar va banklar)ni restrukturizatsiya hamda isloh qilishga qaratilgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgartirishlar izchil amalga oshirilmoqda.
4	“Davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (VMQ, 30.10.2020y, 674-son)	...Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. ... vazirliklar va idoralarning rasmiy veb-saytlarida mulkdor funksiyalarini amalga oshirilayotgan davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarining (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ...
5	“Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PF-5630, 14.01.2019-y)	.... birinchidan, ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) kundalik xo‘jalik faoliyatiga davlat organlari aralashuvining yuqori darajadaligi, bozor tendensiyalariga moslashuvchanlik va sezuvchanlikning yo‘qligi, ...

12 Yuqoridagi manba.

13 www.lex.uz huquqiy axborot portalidan olingan ma’lumotlar asosida mustaqil shakllantirilgan.

T/r	Normativ hujjat nomi	Davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo‘llanishi
6	“Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (VMQ, 09.03.2022-y, 107-son)	2. 2022-yil 1-maydan boshlab, 1-ilovadagi davlat unitar korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, shuningdek, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish, ulardan foydalanish va ularning miqdorini maqbullashtirish ustidan nazorat qilishning quyidagi mexanizmi joriy etilsin:
7	“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (PF-6247-son, 16.06.2021y)	4. Quyidagilar 2021-yil 1-iyuldan boshlab : ... Davlat aktivlarini boshqarish agentligi – ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ro‘yxatini;
8	“Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida” (PF-101-son, 08.04.2022-y)	15. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) boshqaruv organlarining faoliyati samaradorligini, mas’uliyati va javobgarligini oshirish maqsadida belgilab qo‘yilsinki: ...
9	“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (PQ-168-son, 18.03.2022-y)	4. ... doimiy ravishda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, shuningdek, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) hamda davlatga tegishli bo‘sh turgan aktivlarni aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini davom ettirsin.

Ko‘rish mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasi va uning qo‘llanishi, keltirilgan tahrirlar o‘zaro farq qiladi, atamaning qamrovi va qo‘llanishi turlicha ishlatilgan. Shunga qaramay, ushbu matnlarning aksariyat ko‘pchiligi (1, 4, 7, 8-pozitsiyalar)da, davlat ishtirokidagi korxonalar deganda - davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari nazarda tutilgan.

O‘zbekistonda 2015-yildan boshlab, davlat ishtirokidagi korxonalarga zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb etish harakatlari jonlandi. Oxirgi 6 yilda davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarda quyidagi asosiy yo‘nalishlar qamrab olinmoqda:

- korxonalarda hisob va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;
- moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida hisobotlarni shakllantirish va tashqi auditdan o‘tkazish;
- ijro organlarining mas’uliyatini va hisobdorligini oshirish;
- nosohaviy aktivlardan oqilona foydalanish;
- aksiya paketlari va ulushlarni investorlarga sotish.

Ushbu yo‘nalishda ko‘rilayotgan amaliy choralar tadrijiy xususiyatga ega bo‘lib, yakuniy natijalari uzoq muddatli istiqbolda o‘zini ko‘rsatadi, deb o‘ylaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarning ko‘lami va ahamiyati milliy iqtisodiyotimiz uchun ulkan bo‘lgan bir sharoitda ularni transformatsiya qilmasdan turib milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, korxonalarning jozibadorligiga erishish mushkul.

Quyidagi takliflar ushbu yo‘nalishlarda islohotlarni jadal davom ettirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz:

1. Davlat korxonalarini (ulushlarini) investorlarga sotish ushbu korxonalarda shaffoflik va samaradorlik oshishiga olib keladi.

Ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Buning uchun, davlat korxonalarini, ayniqsa kichik miqdordagi korxona va ulushlarni soddalashtirilgan tartibda sotish usullari qo‘llanishi lozim.

Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish ushbu korxonalarga qo‘shimcha kapital, yangi bilim va boshqaruv usullarini olib kelish yo‘li hisoblanadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. Davlat ishtirokidagi korxonalarni, jumladan nazorat ulushi davlat ixtiyorida saqlab qolingan taqdirda ham moliya bozorlariga olib chiqish zarur.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 49-maqsadida, mamlakatimizning qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish belgilangan.

Mazkur vazifani professional maslahatchilarni jalb etgan holda, taklif etilayotgan davlat aksiyalariga adolatli bozor narxlarini belgilagan holda amalga oshirish lozim.

3. “Davlat ishtirokidagi korxona” atamasining qamrovi va qo‘llanishini birxillashtirish maqsadga muvofiq.

Chunki, davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasi nafaqat xususiylashtirish jarayonlarini, balki davlat xaridlari sohasida, raqobat qonunchiligi talablarini va nazorat tekshiruvchilarini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Patricia Bachiller, University of Zaragoza | UNIZAR · Department of Accounting and Finance (FECEM). The Impact of Privatization on Economic Performance in European Companies, 2012.
2. D’Souza, J. & Megginson, W. (1999). The financial and operating performance of privatized firms during the 1990s. // Journal of Finance, 54 (4), 1397–1438.
3. Dang, L. N., D. D. Nguyen, and F. Taghizadeh-Hesary. 2020. State-Owned Enterprise Reform in Viet Nam: Progress and Challenges. ADBI Working Paper 1071. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available: https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprise-reform-viet-nam-progress-challenges
4. State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context. INSTITUTIONAL PAPER 031 | JULY 2016. http://ec.europa.eu/economy_finance/publications/.
5. Обид Ҳакимов, “Роль государства и бизнеса в экономике: поворотный момент реформ”. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2022-yil 12-aprel. https://yuz.uz/ru/news/rol-gosudarstva-i-biznesa-v-ekonomike-povorotny-moment-reform
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. The World Bank, 2006, Held by the Visible Hand – the Challenge of SOE Corporate Governance for Emerging Markets” Kowalski, P. et al (2013), State-Owned Enterprises: Trade Effects and Policy Implications”, OECD Trade Policy Papers, No. 147, OECD Publishing.
8. Internet resurslari:
   http//www.lex.uz
   https://yuz.uz
   http//www.davaktiv.uz
   https://oecd.org.
   www.publicfinanceinternational.org.
   https://www.wto.org

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MABLAG‘LARI VA ULARDAN FOYDALANISH TO‘G‘RISIDAGI BAJARILISHLARGA OID HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH TARTIBI

Ne’matov Oybek Ismatullayevich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari mablag‘lari, ulardan foydalanish to‘g‘risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Nodavlat notijorat tashkilot (NNT) lari mablag‘lari, kirish badali, a’zolik badali, grantlar, subsidiyalar, bajarilishlarga oid hisobot.

Abstract: An order of compiling and submission a report on the resources of non-governmental non-profit organizations and their using are considered in this article.

Key words: resources of non-governmental non-profit organizations (NGOs), entrance fee, membership fee, grants, subsidies, implementation report.

Аннотация: В данной статье приведён порядок составления и предоставления отчёта о средствах негосударственных некоммерческих организаций, об их использовании.

Ключевые слова: средства негосударственных некоммерческих организаций (ННО), вступительный взнос, членский взнос, гранты, субсидии, отчет по выполнению.

KIRISH

Nodavlat notijorat tashkilot (NNT)lari, bir tomondan, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga o‘xshash jihatlarga ega. Bunday o‘xshashlik jihatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) davlat tomonidan ro‘yxatga olinadigan mustaqil yuridik shaxslar bo‘lib hisoblanadi;
2) boshqa yuridik shaxslar singari tegishli resurslar (mablag‘lar)ga egalik qiladi;
3) boshqa yuridik shaxslar singari davlat oldida o‘zlarining faoliyati, aktivlari, ularni tashkil topish manbalari, faoliyati natijalari to‘g‘risida statistika, soliq va boshqa tegishli tashkilotlar oldida belgilangan muddatlarda hisobot beruvchilar bo‘lib hisoblanadi.
4) NNTlar hisob xizmati xodimlari zimmasiga statistik va moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri, aniq va o‘z vaqtida tuzish hamda tegishli organlarga taqdim etishdek vazifalar yuklatiladi.

Andijon viloyatida 2017–2021-yillarda qishloq xo‘jaligida ishga tushirilgan investitsiya loyihalarini tahlil qilsak, ushbu davrda jami 3 trln. 282 mlrd. 716 mln. so‘mlik 775 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan va bu orqali qo‘shimcha 14798 ta qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratilgan. Shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha – o‘z mablag‘lari hisobidan 1802509 mln.so‘mlik, bank kreditlari hisobidan 889534 mln. so‘mlik, xorijiy kreditlar va investitsiyalar hisobidan 58200 mln. so‘mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan loyihalar soni bo‘yicha Ulug‘nor, Baliqchi, Qo‘rg‘ontepa tumanlari ilg‘or bo‘lsa (jamiga nisbatan mos holda 15,1%; 8,4%; 8,1%), loyihalarning jami qiymati bo‘yicha Ulug‘nor, Asaka, Qo‘rg‘ontepa tumanlari ilg‘orlar safida (jamiga nisbatan mos holda 16,5; 10,1%; 9,5%). Loyihalarning jami qiymati bo‘yicha tumanlar orasida Xo‘jaobod, Andijon, Buloqboshi tumanlari orqada (jamiga nisbatan mos holda 2,8%; 2,8%; 3,7%). Yangi ishchi o‘rinlarini yaratish bo‘yicha esa Ulug‘nor, Asaka, Baliqchi tumanlari peshqadam (mos holda 2883, 2352, 1144 yangi ishchi o‘rni). Ko‘rinib turibdi-ki, oxirgi yillarda Ulug‘nor tumanida viloyat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qilgan katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, ushbu investitsiyalarning manbalariga nazar tashlasak, o‘z mablag‘lari hisobidan eng ko‘p investitsiyalar Ulug‘nor, Shaxrixon, Bo‘ston, Asaka tumanlarida amalga oshirilgan. Xorijiy kredit va investitsiyalar hisobidan eng ko‘p investitsiyalar esa Qo‘rg‘ontepa, Paxtaobod, Ulug‘nor, Oltinko‘l tumanlarida amalga oshirilgan. Xorijiy manbalar ichida xorijiy kreditlar 81,9%ni, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi 18,1%ni tashkil etgan xolos.

Andijon viloyatida 2017-2021-yillarda qishloq xo‘jaligida ishga tushirilgan investitsiya loyihalarini yillar kesimida tahlil qilsak, qiymati jihatidan eng ko‘p investitsiyalar 2020, 2019 va 2021-yillarda amalga oshirilgan (mos holda 1282928 mln. so‘m, 971685 mln. so‘m va 825603 mln.so‘m). E’tiborli jihati shu-ki, 2020-yil – sayyoramizda pandemiya avj olib, aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy faollik pasaygan yil bo‘lgan. Shuningdek, investitsiyaviy loyihalar soni jihatidan eng ko‘p investitsiyalar xam 2020, 2019 va 2021-yillarda amalga oshirilgan (mos holda 298, 231 va 130 ta loyiha).

Andijon viloyatida 2017-2021-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida o‘zlashtirilgan investitsiyalar yo‘nalishlarini tahlil qilsak, ko‘ramiz-ki, eng yirik (30 mlrd. so‘mdan yuqori) investitsiyaviy loyihalar asosan: paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish; urug‘lik chigitni kimyoviy usulda tuksizlantirib, dorilab, qayta ishlashni tashkil etish; gidroponika usulida issiqxona tashkil etish; parrandachilikni rivojlantirish, qoramolchilik, qo‘yxona va qushxona tashkil etish; meva-sabzavot klasterini tashkil etish; intensiv usulda baliqchilikni tashkil etish; chorvachilikni tashkil etish yo‘nalishlarida o‘zlashtirilgan.

Ushbu davrda viloyatda eng katta xajmdagi investitsiyalar chorvachilik yo‘nalishida (776309 mln. so‘m yoki jamiga nisbatan 23,6%), paxta klasteri (672865 mln. so‘m yoki jamiga nisbatan 20,5%), parrandachilik (459055 mln. so‘m yoki jamiga nisbatan 14%), baliqchilikni rivojlantirish (425940 mln. so‘m yoki jamiga nisbatan 13%), issiqxona (361953 mln. so‘m yoki jamiga nisbatan 11%) yo‘nalishlarida amalga oshirilgan.

Loyihalar soni bo‘yicha peshqadamlik chorvachilik, baliqchilikni rivojlantirish va parrandachilik yo‘nalishlarida – mos holda 266, 135 va 105 ta loyiha. Eng ko‘p yangi ishchi o‘rinlari parrandachilik (3213 nafar), chorvachilik (3177 nafar) va paxta klasteri (2488) yo‘nalishlarida yaratilgan.

Xulosa va takliflar. Andijon viloyati qishloq xo‘jaligida oxirgi yillarda ekin maydonlari, ishchi kuchi soni kamaygan bo‘lsa-da, yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish hajmi ortgan. Bunga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari diversifikatsiyasi hisobiga erishilgan, ya’ni bozorbop mahsulotlarni yetishtirish ko‘paygan. 1 gektar ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsuloti barqaror o‘sib borib, 2017-yili joriy narxlarda 69,9 mln. so‘mni, 2020-yili 126,1 mln.so‘mni, 2022-yili 174,2 mln. so‘mni tashkil qilgan.

Viloyatda bizdan sog‘lom va barkamol avlod qolishi uchun kelajakda iste’moli ratsional iste’mol me’yorlaridan ortda qolayotgan go‘sht mahsulotlari va parranda tuxumi taklifini ko‘paytirishimiz maqsadga muvofiq.

Axborot mavjud bo‘lmagan joyga kapital kiritishda xorijiy investorning qiziqishini uyg‘otish qiyin. Shu nuqtayi nazardan, hududlarning investitsiya salohiyati, mavjud imkoniyatlari va boshqa barcha investorni qiziqtirgan ma’lumotlar majmuasini investitsiya portaliga joylab va yangilab borish tashkil etilishi lozim.

Har bir hududning investitsiya salohiyatini aks ettiradigan tayyor investitsiya takliflari ro‘yxati ishlab chiqilishi va xorijiy investorlarga tavsiyaviy tarzda taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu xorijiy investorning ishini

yengillatish bilan birga, investitsiya loyihalarini amalga kiritish muddatlarini ham qisqartiradi.

“O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini investitsiyaviy rivojlantirish qonuni”ni qabul qilish lozim. Chunki, respublikamizda aynan qishloq xo‘jaligiga investitsiya jalb etish va uni rag‘batlantirishning qonuniy asoslari bozor iqtisodiyoti talablari darajasida takomillashmagan. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida investitsiya faoliyatini tartibga solish ayrim qonunlarda aks etgan bo‘lsada, biroq, bizning fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi qishloq xo‘jaligida investitsiyaviy muhitni yaxshilash va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonining boshqa sohalarga nisbatan turli tashki va ichki subyektiv omillar ta’sirida tez talafot ko‘rishi, kutilmagan (fors-major vaziyatlar) xodisalarning sodir bo‘lishini oldindan bilishning qiyinligi, sug‘urtalanuvchi sub’ek-tlarning boshqa sohalar subyektlaridan farq qilishi kabi holatlarni inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligi uchun sug‘urta tizimi to‘g‘risida aloxida qonunni xam qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uslublaridan biri sukuk deya ataluvchi Islom obligatsiyalari bo‘lib, olingan zayom qaytarilishining kafolati sifatida ko‘chmas mulkdan foydalanishni ko‘zda tutadi. Fikrimizcha, qonunchilikka shunday o‘zgartirish kiritish lozim-ki, olingan zayom qaytarilishining kafolati sifatida o‘z tasarrufidagi, uzoq muddatga ijaraga olingan ko‘chmas mulkdan foydalanish mumkin bo‘lsin.

Qishloq xo‘jaligidagi strukturaviy o‘zgarishlarning muqobil va samarali yo‘llari izlanib, unga muvofiq jaxon bozorida qimmatbaho bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish xamda viloyat bo‘yicha suvni kam talab qiluvchi kannabis (lotincha Cannabis) ekinining texnik navlarini keng joriy qilish lozim.

“Respublika bo‘yicha kanalizatsiya tizimi va suv tarmoqlarini tubdan rekonstruksiya qilish va takomillashtirish dasturi” tuzishni favqulodda vaziyat taqozo qiladi. Nazarimizda, dastur tuzishdan avval respublika bo‘yicha kanalizatsiya va suv tizimidagi barcha muammolarni xatlovdan o‘tkazish kerak.

Ko‘pgina xorijiy ekspertlarning fikri mamlakatning “yashil rivojlanishi” suv inqirozidan chiqish yo‘li bo‘lishini ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning “yashil” yo‘li ish unumdorligi, bandlik va daromadlilikni oshirib, atrof-muhit holatini yaxshilashni nazarda tutadi.

Nazarimizda, joylarda kichik tabiiy ko‘llar (rus. prud)ni imkon bor maskanlarga barpo etish xam kambag‘allikni qisqartirishga, qishloq xo‘jaligini, baliqchilikni, o‘rmonchilikni rivojlantirishga xarakat hisoblanadi. Ota-bobolarimiz yomg‘ir va zax suvlar yo‘llariga ko‘llar hosil etganlar, atrofida qishloqlashib murodlariga yetganlar.

Oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo‘lmish urug‘chilik sohasi qo‘shimcha moliyalashtirishga muhtoj. Qachonki mamlakat o‘zini yaxshi, sifatli urug‘lar bilan ta’minlay oladigan darajada bo‘lsa, shunda oziq-ovqat xavfsizligining asosiy muammosi yechilgan bo‘ladi. Har bir mamlakat o‘zining urug‘chilik tizimiga va siyosatiga ega bo‘lishi kerak.

Chorva xayvonlari uchun ozuqa muammosini xal qilish yo‘li sifatida katta magistral avtomobil yo‘llardan uzoqroq yer maydonlarida gazon o‘rniga beda (lyutserna) ekilishi lozim.

Tashkiliy-huquqiy shaklini MChJga o‘zgartirgan fermer xo‘jaliklariga egallab turgan yerining bonitetiga qarab “muvofiqlashtirilgan yer solig‘i” (MES) joriy qilinib, aylanma mablag‘lardan undiriladigan barcha majburiy to‘lovlar va soliqlardan tabaqalashtirilgan holda imtiyozlar berilishi lozim, buning “aqlli” qishloq xo‘jaligi shakllanishida, “yashil” iqtisodiy taraqqiyot tashkil topishida muxim ta’siri bor. MES turiga o‘tgan fermer xo‘jaliklarining faoliyatiga xar qanday tashkilot va muassasa tomonidan aralashish qa’tiyan ta’qiqlanishi muxim. MES turiga o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning egallab turgan yer maydoni uchun hisoblangan yer solig‘ining 25 foizini 1-chorakda, 25 foizini 2-chorakda, 25 foizini 3-chorakda, 25 foizini 4-chorakda to‘lash majburiyatlari yuklatilishi lozim. MES turiga o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamasa, yerga egalik qilish shartnomasi muddatidan avval bekor qilinib, tender asosida boshqa subyektlarga o‘tkazish tartibi joriy qilinishi kerak.

Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari foydasining kamida 15%ni qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida investitsiya manbai sifatida shakllantirish va foydalanish lozim.

Respublika bo‘yicha yig‘ilayotgan barcha moliyaviy jarimalar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi”ning aloxida hisobraqamida to‘planishi, xar yili ochiqlanishi va zaxira moliyaviy resursi sifatida saqlanishi lozim.

Davlat budjetiga tushumlarni kamida o‘n foizga ko‘paytirish maqsadida korxonalarga berilgan barcha soliq imtiyozlari (ilmiy tadqiqotlar uchun berilgan imtiyozlardan tashqari) bekor qilinishi, uning o‘rniga esa ayrim korxonalarga subsidiyalar berilishi lozim.

Barqaror moliyalashtirishning umumqabul qilingan xalqaro tamoyillarini mamlakatda yashil moliyalashtirish bozorini shakllantirish amaliyotiga joriy etish zarur. Xorijiy amaliyot tahliliga asosan, “yashil” obligatsiyalar va qarzlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning maxsus vositasi hisoblanib, ham ushbu obligatsiyalar emitentlari va investorlarining mulkiy manfaatlarini, ham jamiyat va davlatning ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi qiziqishini qondirishga imkon beradi. Uning aynan davlat tomonidan yanada keng qo‘llanilishi uchun emitentlar va investorlarning “yashil” obligatsiyalarni chiqarish va sotib olishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan bir qator huquqiy, tashkiliy, uslubiy, axborot, konsultatsion, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish chora-tadbirlarini

qabul qilish talab etiladi.

Katta ma'lumotlar (Big Data) "aqlli" qishloq xo'jaligiga katta ta'sir qiladi va butun oziq-ovqat mahsulotlari zanjirini qamrab oladi; intellektual datchiklar va qurilmalar katta ma'lumotlar xajmlarini yaratadilar, bu xajmlar qarorlar qabul qilishda ulkan imkoniyatlarni ta'minlaydi; katta ma'lumotlar (Big Data) an'naviy va noan'anaviy o'yinchilar o'rtasidagi rollar va munosabatlarda jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda; boshqarish (shu jumladan, ma'lumotlarga egalik qilish, maxfiylik, xavfsizlik) va biznes-modellar kelgusi tadqiqotlarda yechish lozim bo'ladigan eng asosiy masalalar bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmatov S.X. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. // "Tafakkur manzili". 52-son, 1-jild, 2022 yil iyun, 2-qism. ISSN:2180-2160. 71–83-betlar.
2. Xolmatov S. Investisiyalarning qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishdagi yo'nalishlari. "EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES" Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 13, December 2022 ISSN 2181-2853 https://doi.org/10.5281/zenodo.7482867
3. Понедельников В.В. Инвестиционное обеспечение устойчивого развития аграрного производства (Аграр ишлаб чиқаришнинг барқарор ривожланиши инвестициявий таъминоти) [Электрон ресурс]: На материалах Ставропольского края : Дис. ... канд. экон наук : 08.00.05 . –М.: РГЕ, 2006 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки).
4. Vaxobov A.V., Xodjibakiyev Sh.X., Mo'minov A.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. − Toshkent: Moliya, 2010. – 432 b.
5. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari: iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2003. − 29 b.
6. www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘L TRANSPORT TIZIMI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Qilichev Umid Ibadullayevich
Toshkent davlat transport universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada transport tizimini samaradorligini belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishlar, transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda transport turini tanlashda ta’sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi keltirilgan, temir yo‘l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarining qiymatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, temir yo‘l transporti, transport-logistika, tranzit tashuvlar, yuklarni yetkazib berish, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, transport infratuzilmasi.

Abstract: This article describes the main directions that determine the efficiency of the transport system, the relationship between the concepts of transport complex, transport system and transport infrastructure and the main factors influencing the choice of mode of transport. suggestions for improvement are given.

Key words: transport system, railway transport, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, transport infrastructure.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные направления, определяющие эффективность транспортной системы, взаимозависимость понятий транспортного комплекса, транспортной системы и транспортной инфраструктуры, а также основные факторы, влияющие на выбор вида транспорта, оценка представлены различные виды транспорта, показаны значения основных показателей развития системы железнодорожного транспорта.

Ключевые слова: транспортная система, железнодорожный транспорт, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, транспортная инфраструктура.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv hamda integratsiya jarayonlarida transport kompleksining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSh dollari (6,9%)ni tashkil etib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo‘lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo‘lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etmoqda [1]. Mazkur sohalarni rivojlantirish jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Transport tizimida yetkazib berishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish moddiy zaxiralar hajmini 30% dan 60% gacha tejash, shuningdek, transport xizmatlaridan foydalanuvchi korxonalarining yetkazib berish xarajatlarini taxminan 30-35 foizga kamaytirilishiga erishish imkonini beradi.

Jahonda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, transport tizimini samarali rivojlanishini ta’minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda transport tarmog‘i rivojlanishining ijobiy ta’sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta’sirlarning yo‘nalishi va ko‘lami bo‘yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, transport tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahhaliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko‘ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo‘jaligi tarmoqlari yig‘indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G'.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali bosharish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi" [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transport tizimini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadkikotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy "qon aylanish" vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko'lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur'atlarda bo'lishi keng ma'noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlsh lozim, transport-tranzit hamda transport-logistika salohiyatini oshirish geografik nuqtayi nazardan optimal joylashmagan, shu bilan birga to'g'ridan to'g'ri dengiz portlariga xatto qo'shni davlatlar orqali chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlatlar uchun tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda mazkur sohalarning samaradorligini oshirish yuzasidan xalqaro amaliyot va nazariyada turlicha yondashuvlarning mavjudligi dastlab ularni to'g'ri talqin qilish hamda nazariy asoslarini aniqroq yoritib berish lozimligini belgilaydi. Shu o'rinda nazariyaning lug'aviy ma'nosiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiq, nazariya qaysidir bilimlar sohasiga taaluqli bo'lgan asosiy g'oyalar majmui hisoblanib, jamiyat va tabiyatdagi barcha hodisa va jarayonlarning yuz berishi hamda shakllanishida qandaydir bog'liqlik va qonuniylikning mavjudligi haqida tasavvur beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat transport tizimi haqida fikr yuritganda, dastlab "transport kompleksi", "transport tizimi", "transport infratuzilmasi" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda "tranzit" va "transport-logistika tizimi" kabi tushunchalarning mazmun mohiyatlarining o'zaro farqlarini aniqlab olishni taqozo etadi.

Xorij olimlarining tadqiqotlarida "transport kompleksi" atamasiga turlicha ta'riflar keltirilgan bo'lib, ularning yondashuvlarida umumiy o'xshash tomonlari uchraydi. Masalan, amerikaliq mutaxassis Stiven Frederik Starr transport kompleksi kategoriyasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Transport kompleksi - yo'lovchilar va yuklarni tashishga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yig'indisi" [7].

Rossiyalik olim N.P. Tereshina o'zining "Transport iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmasida "transport kompleksi bu o'zaro bog'liq transport turlarining hududiy uyg'unligi bo'lib, ular, bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda ijtimoiy xo'jalik va aholining yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradigan sektorlar majmui" [8] degan ta'rif keltirilgan.

Mahalliy va xorijlik olimlarning yondashulariga asoslanib, fikrimizcha, mamlakat transport kompleksi – hamkorlikda harakat qiladigan, bir-birini to'ldirib keladigan, har biridan samarali foydalanishni ta'minlagan holda bir-biriga bog'liq tarzda taraqqiy etadigan turli transport turlari majmui tushuniladi.

Transport kompleksi obyektlari qotoriga transport, transport sanoati (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashish jarayonining moddiy-texnik ta'minoti), transport uchun kadrlarni tayyorlash muassasalari va tashkilotlari, loyiha hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish bo'yicha muassasalar, ta'mirlash korxonalari kiradi.

Transport kompleksi tarkibiga kiruvchi transport tizimi – mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, bir biriga samarali ta'sir ko'rsatadigan va har xil yuk ortish-tushirish, qurilish ishlarining bajarilishini, shuningdek, trnasport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuk va yo'lovchilar harakatini ta'minlaydigan transport turlari hamda vositalari to'plami tushniladi. Transport tizimi minimal xarajatlar evaziga transportga bo'lgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish maqsadida transportning barcha turlarini muvofiqlashtirish, uning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Yuqorida tizimlashtirilgan ta'riflardan aytish mumkin, transport tizimining tarkibiy qismi qatnov yo'llari, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yo'lovch vokzallari, chipta sotish markazlari, tashishni tashkil etish kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalar va boshqa elementlardan tashkil topadi.

Yuqoridagi yondashuvlarga asoslanib, "transport kompleksi" "transport tizimi" tuchunchasiga nisbatan kengroq tushuncha "transport tizimi" tushunchasi ba'zan "transport infratuzilmasi" kabi anglanadi, biroq ko'pincha ana shu "transport infratuzilmasi"ni ham o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, mazkur atamalarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha izohlanadi (1-rasm.)



1-rasm: Transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini nafaqat miqdoriy o'sish, balki iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarning tarqalishiga ta'sirini ham ko'rib maqsadga muvofiq. Transport tizimini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qilishning aniq natijalari orqali ochib beriladi (1-jadval).

1-jadval: Transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta'siri natijalari[1]

№	Ta'sir ko'rsatishning turi	Ta'sirning natijalari
1	Bevosita	mahsulot ishlab chiqarishi tannarxining pasayishi / oshishi; mahalliy korxonalar samaradorligini pasayishi / oshishi; aholining harakatlanish, rekreatsion imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalarining o'sishi / cheklanishi; hududlararo o'zaro aloqalarni kengaytirish / cheklash.
2	Bilvosita	mintaqaviy mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi; mintaqa hududlari rivojlanish darajalarini tekislash; investitsion muhitni yaxshilash; innovatsion faollikni oshirish. turdosh tarmoqlarning intensiv rivojlanishini rag'batlantirish; boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan foydalanish uchun bozor imkoniyatlarini oshirish; yalpi talabning shakllanishi.
3	Muddati	Uzoq muddatli takomillashtirish: biznes va aholining yuqori sifatli transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish; transport infratuzilmasi mavjudligidan soliq tushumlarini oshirish; aholini ish joylariga yetkazib berish; ish o'rinlarini yaratish; aholini mahsulot bilan ta'minlash (etkazib berish). Qisqa muddatli ta'sir: xarajatlar pasayishi samaralari yoki, aksincha, sarflar oshishi; aholining yilning ma'lum bir vaqtida turli maqsadlarda ko'chib o'tishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.
4	Ta'sir ko'rsatish vositasiga ko'ra	Endogen ta'sir: korxonalar va aholi uchun transport bog'lanishni yaxshilash; mintaqaning va doimiy yashash joyi sifatida investitsiya jozibadorligini oshirish. Ekzogen ta'sir: mintaqaning mintaqalararo va tashqi iqtisodiy aloqalarga qo'shilishi.
5	Ta'sir ko'rsatish darajasiga qarab	Mahalliy daraja–ichki tashishlarning rivojlanishi, mahalliy bozorlarning kengayishi, biznes uchun imkoniyatlarning oshishi, aholining harakatchanligini oshirish. Mintaqaviy daraja–biznesni kengaytirish, aglomeratsiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini oshirish; aholining harakatchanligi va korxonalarni kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash. Milliy daraja–milliy xavfsizlikni, mamlakat hududiy yaxlitligini ta'minlash, biznesni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish, aholi va kapitalning harakatchanligi.

1 O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Transport-logistika tizimi – xizmatlar iste'molchilari va ularning ishlab chiqaruvchilari, shuningdek, transport vositalari, qatnov yo'llari, inshootlar va boshqa mol-mulk; ular orasidagi moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bilan birga transport va logistika infratuzilmasi obyektlari hamda subyektlari majmui bo'lib, tovarlarni tashish, saqlash, taqsimlash, shuningdek tovar oqimlarini axborot va huquqiy kuzatish funksiyalarini bajaradi. Mamlakat transport tizimining yana bir muhim elementlaridan biri bu mintaqaning tranzit salohiyati hisoblanadi. Mintaqa (yoki mamlakat) tranzit salohiyatini tadqiq etishda quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin 2-jadval).

2-jadval: Mamlakat tranzit salohiyatini baholash mezonlari[2]

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari
1.	Yevropa-Osiyo quruqlik orqali tashuvlarida mintaqa orqali tashilgan yukning ulushi	%
2.	Mintaqa (mamlakat) hududidan o'tgan yillik tranzit tashuvi hajmi	mln tonna/yil
3.	Mintaqa hududi orqali tashilayotgan yillik tranzit hajmining o'sish tendensiyasi	%
4.	Tranzit ahamiyatidagi koridorlarning yuk o'tkazish qobiliyati	tonna / yil
5.	Tranzit ahamiyatiga ega koridorlar zichligi	km / 1000 kv.km
6.	Tranzit davlat yoki tranzit xizmatidan foydalanuvchi davlatlar o'rtasida tranzit tashuvlari to'g'risidagi huquqiy bazaning shakllanganligi	mavjud / mavjud emas
8.	Mintaqaviy tranzit tashuvlari jarayonini tartibga soluvchi institutsional asosning mavjudligi	rivojlantiruvchi tashkilotlarning mavjudligi
9.	Mintaqada tranzit sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosat	strategiya va dasturlarning mavjudligi
10.	Tranzitni rivojlantirishga qaratilgan amaldagi qo'shma loyihalarning mavjudligi	soni – ta, qiymati – mln doll.
11.	Tranzitni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyaning jami transport tizimiga ajratilgan investitsiyadagi ulushi	%

Dengiz qirg'oqlari bilan tutashmagan davlatlarda dengizga chiqish uchun muqobil tranzit koridorlarini aniqlash va ularga ulanish imkoniyati hamda transport xizmatlarining yangi istiqbolli bozorlariga ega bo'lish muammosi dolzarb hisoblanadi. Mamlakat transport salohiyatini baholashda asosiy omillardan biri sifatida tranzit salohiyati qaraladi. Tranzit salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda transport tizimiga investitsiyalar jalb etish va zamonaviy yetkazib berish provayderlaridan foydalanish transport sohasini yuqori darajada rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatda so'nggi yillarda jami yo'lovchilar aylanmasida temir yo'l ulushi o'rtacha 1.5 foizdan 3.2 foizgacha tashkil etigan bo'lsa, yillar davomida umumiy yo'lovchi aylanmasida temir yo'l ulushining kamayishi kuzatilgan. Bu borada rivojlangan davlatlarning umumiy yo'lovchi aylanmasida temir yo'l transportining ulushi o'rtacha 30 foizdan 50 foizgachani tashkil etib, shu nuqtayi nazardan temir yo'l transportining bu boradagi faoliyatiga batafsil to'xtalib o'tish zarur. Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, temir yo'l transport tarmog'ining rivojlanishiga transport-tranzit, transport-logistika yo'nalishlari, eskirgan tarif tizimi, asosiy vositalarning yuqori darajada eskirganligi to'siq bo'layapti deb aytish mumkin. Temir yo'l transporti iqtisodiy faolitiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning me'yoriy va mamlakatimizdagi qiymatliri keltirildi (3-jadval). Bugungi kunda temir yo'l transporti 17 ta yo'nalish bilan bir qatorda quyidagi sohalarda ortda qolmoqda:

- yo'ldagi yuk vagonlarini kuzatish uchun avtomatik identifikatsiya qilish uskunasi – mavjud emas;
- transport xizmatlarining jahon tranzit bozorida xizmat ko'rsatishning xalqaro standartlariga muvofiqligi – mos kelmaydi;
- konteyner tashuvlari bozori – rivojlanish bosqichida;
- tashish bozoridagi talab va taklif – nomutanosibligi.

2 Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. – 47.

3-jadval: O‘zbekiston temir yo‘l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari 3

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Me’yor	O‘zbekiston Respublikasida	Salmoqdorlik koeffitsiyenti
1	Investitsion portfelda ITTKlning ulushi	%	>3	<0,8	0.3
2	Aloqa yo‘llari tarmog‘ini qamrab olish	km/ming km^2 hudud	30	7	0.25
3	Ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi	%	<35	66	0.2
4	Ortiqcha o‘tkazilgan tonnaj, Σkm ga nisbatan	%	1,5	15	0.15
5	Yo‘lda nuqsonli relslar soni	%	<1	3	0.15
6	Nuqsonli strelka o‘tkazgichlar soni	%	0,05	7,1	0.25
7	A’lo baholanuvchi km lar soni	%	>100	65	0.15
8	Yuk tashishdagi o‘rtacha tezlik	km/soat	>90	35-40	0.15
9	Yuk poezdining maksimal tezligi	km/soat	120	60	0.15
10	Yo‘lovchi poezdlarining maksimal tezligi	km/soat	250	200	0.1
11	Yuk va yo‘lovchi tashishda narxlarning o‘zgarish dinamikasi	%	<20	40	0,15
12	Temir yo‘llar zichligi	km/1000km^2	>15	7	0,25
13	Xalqaro ahamiyatdagi temir yo‘llarning elektrlashtirilganlik darajasi	%	>80	45	0,2
14	Xalqaro tashuvlarda konteyner tashuvlarining ulushi	%	>20	12	0,25
15	Yuk va yo‘lovchi tashish hajmining o‘sish sur’atlari	%	>6	2	0,3
16	Asosiy eksport va import tovarlari tannarxida transport xarajatlarining ulushi	%	<10	36	0,2
17	Tranzitni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyaning jami transport tizimiga ajratilgan investitsiyadagi ulushi	%	>33	5	0,25

Tashuvlarga bo‘lgan talab va taklifning nomutanosibligidan iborat mavjud muammo ko‘rsatkichlarni monitoring qilish tizimini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi, ushbu tizim esa talab va taklifni boshqarish samaradorligini baholash imkonini beradi. Bunday baholash uchun yuk tashish faoliyatining rivojlanish holati va dinamikasini tavsiflovchi har xil darajadagi indikator-ko‘rsatkichlarga zarurat paydo bo‘ladi. Quyidagi rasmda keltirilgan indikator-ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi (3-rasm).

Mazkur indikator-ko‘rsatkichlar tizimi temir yo‘l tarmog‘ining hozirgi holati bilan uning me’yoriy holatini taqqoslash, temir yo‘l transporti faoliyatining o‘zgarish dinamikasini aniqlash, shu bilan bir qatorda, temir yo‘l tarmog‘ini indikator-ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish orqali temir yo‘l transportini tahlil qilish, baholash va hozirgi holati yuzasidan nazorat qilish imkoniyatini beradi. Temir yo‘l transport tizimi bilan bog‘liq muammolarni aniqlashda indikator-ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ularning chegaraviy qiymatlarini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq 17 ta ko‘rsatkichning me’yoriy qiymati va bizning sharoitdagi qiymatlar o‘rnatildi. Mazkur yondashuv temir yo‘l transporti 11 ta yo‘nalishdan ancha orqada qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Fikrimizcha, temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish dasturlari asosan ortda qolayotgan yo‘nalishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq.Temir yo‘l transport tizimini kompleks monitoring qilish metodikasi tizimga solinmaganligi kabi ilmiy muammo sifatida tadqiq etildi.

Sohadagi muammolarning qay darajada ekanligi ularning chegaraviy qiymatlarida namoyon bo‘ladi. Muxtasar qilganda, tashuv bozori subyektlarining o‘zaro ta’sirini baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiya etilgan yondashuv iqtisodiyotni rivojlantirishdagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda yuqori ahamiyatga ega.

3 Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm: Yuk tashish faoliyatining rivojlanish holati va dinamikasini tavsiflovchi indikator-ko‘rsatkichlar tizimi[4]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, iqtisodiyotda yuk va boshqa moddiy oqimlar zaxiralarini samarali tashkil etish transport tizimi samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bevosita bog‘liq. Bu yerda albatta, mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish lozim, deb hisoblaymiz. Transport turlari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda transport tizimini samarali rivojlantirish bo‘yicha vazifalari ko‘rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojlanish indekslari bo‘yicha mamlakat transport tarmog‘i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Temir yo‘l transport tizimini samaradorligini oshirish bo‘yicha berilgan uslubiyotlar va undan kelib chiquvchi xulosa hamda tavsiyalar transport tizimini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda tizimni moderinizatsiya qilish, biznes hamkorlari bilan muvofiqlashuv va integratsiyalashuv jarayoni bo‘yicha ishlarni samarali olib borish, mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish va logistik xizmatlar provayderlarining raqobatbardoshligini oshirish, shu bilan birgalikda transport tizimi samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, transport tizimi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- tariflarni belgilash prinsiplarini o‘zgartirish va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o‘tish, tuzatish koeffitsentlari sonini kamaytirish, temir yo‘l orqali tashishni har tomondan mablag‘ bilan ta’minlash turlarini kamaytirish;
- o‘z lokomotiv va vagonlariga ega bo‘lgan temir yo‘l transportida yuk tashishga mo‘ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo‘lda yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;

4 Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

- transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchliligini oshirish, 2030-ilgacha elektr energiyasi bilan ta'minlangan temir yo'llar ulushini 55 foizga yetkazish. Buning uchun har yili o'rtacha 168 km temir yo'lni elektr energiya bilan ta'minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak. 2030-yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoya sarflash zarur:
- konteynerlarda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to'lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25-30 foizga oshirish zarur;
- transport tizimi samaradorligini oshirish uchun mintaqalarda multimodal transport-logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish;
- yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashishlarning normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga mos holda uyg'unlashtirish;
- multimodal tashishlar samarali bo'lishini ta'minlash uchun integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish;
- bojxona logistika markazlarining milliy tarmog'ini shakllantirish, ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3PL darajada bo'lishini ta'minlash lozim.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida transport tizimi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta'minlash, trasport ximzat ko'rsatishning jadallashuvi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The World Bank: World Development Indicators. http: //data.worldbank.org/indicator.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil.
4. Venables, A. J. (2007). Shahar transportini takomillashtirishni baholash: Aglomeratsiya va ba'zi taksonlarning bir xil mavjudligida tarkib-foyda tahlili. Transport iqtisodiyoti va siyosati jurnali, 41: 173-188 p.
5. Коврижных И.В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС, 2016. – 86 с.
6. Zohidov A.A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018.
7. 7. Frederik Starr S., Filat Yildiz, Martina Reiser va boshqalar. Yangi Ipak yo'llari: Katta Markaziy Osiyoda transport va savdo. Monografiya Markaziy Osiyo fan instituti va Silk Road Studios dasturi, Vashington, D.C.: Jons Xopkins universiteti-CAIS, 2007. – 514 b.
8. Экономика транспорта: Учебное пособие / Терешина Н.П., Потапова Е.В., Терёшина Н.В., Епишкин И.А. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.
9. Гольц Г.А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14-15 июнььья 2004 года.
10. FayzullayevJ. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. Arxiv nauchnыx issledovaniy, 1(3). https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3892.
11. Fayzullayev J.S. Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019 62-65. https://saarj.com/wp-content/uploads/SAJMMR-JULY-2020-FULL-JOURNAL.pdf
12. Fayzullayev J.S. Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Special Issue–2, Sep -2019. http://ajtmr.com/papers/SpIIss2/SpIIss2_8.pdf.
13. Fayzullayev J.S. Transport-logistika tizimi: muammo va yechimlar // Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U.K. December 28th, 2020. https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/424
14. Fayzullayev J.S. Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network , Archive of Conferences: Vol. 13 No. 1 (2021): GTIMSC-2021, https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/573.
15. Fayzullayev, J.S. (2021) "Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system," Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1. https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1.

HOZIRGI KUNDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA RAQAMLI BANKLAR RESURSLARINI OSHIRISH CHORALARI

Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimiz iqtisodiyotining globallashuvi davrida raqamli banklarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bunday holatda raqamli banklar mijozning talabini qondira olishda nomutanosibliklar yuzaga keladi. Bunday nobarqarorlikni bartaraf etish uchun esa raqamli banklarning uzoq muddatli resurs bazasini oshirish yo‘llariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: raqamli bank, deposit, kapital, tijorat banklari, resurs, majburiyat.

Abstract: Currently, the demand for digital banks is increasing during the globalization of our country’s economy. In such a case, imbalances occur in the ability of digital banks to satisfy the customer’s demand. In order to eliminate such instability, special attention is being paid to ways to increase the long-term resource base of digital banks.

Key words: digital bank, deposit, capital, commercial banks, resource, liability.

Аннотация: В настоящее время спрос на цифровые банки возрастает в условиях глобализации экономики нашей страны. В таком случае возникает дисбаланс в способности цифровых банков удовлетворить спрос клиентов. В целях устранения такой нестабильности особое внимание уделяется способам увеличения долгосрочной ресурсной базы цифровых банков.

Ключевые слова: цифровой банк, депозит, капитал, коммерческие банки, ресурс, пассив.

KIRISH

Bugungi kunda mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy ravishda o‘sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o‘sishi, axborot tizimining sezilarli darajada o‘zgarishi asosida jamiyat, hukumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohalari tubdan takomillashtirishni taqazo qildi. Natijada raqamli banklarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. 2020-yilga kelib esa yurtimizda ikkita ATB “TBC Bank” hamda AJ “ANOR BANK” raqamli banklar tashkil qilindi. Lekin hozirgi kunga kelib fuqarolarning raqamli banklarga bo‘lgan talabi sezilarli darajada oshishi natijasida raqamli banklarning resurs bazasi yetishmasligi muammosi yuzaga kelmoqda.

Tijorat banklari, boshqa xo‘jalik subektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya’ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi.

Bank resurslarini puxta o‘rganish uchun ularni guruhlarga ajratib tasniflash lozim. Tijorat banklari resurslarining shakllanishi jihatidan tasniflanishi bankirlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha o‘rganiladi.

Resurs baza bankning passiv operatsiyasi orqali shakllantiriladi. Passivlarning manbasi esa bankning o‘z va jalb qilingan mablag‘lari hisoblanadi. Bankning o‘z mablag‘lari manbasiga bankning ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Bankning jalb qilingan mablag‘lari tarkibiga esa boshqa kreditorlardan jalb qilingan mablag‘lar va depozitlar hamda qimmatli qog‘ozlar emissiyasi manbayi kiradi.

Bankning o‘z mablag‘lari tarkibi bir xil emas va turli omillar orasida o‘zgarishi mumkin. Masalan, ularning aktivlari sifati, o‘z daromadidan foydalanishi, strategiyasi, bankning kapital bazasini ta’minlash bo‘yicha siyosati kabilarga bog‘liq.

Tijorat banklari passivlarining ikkinchi guruhi – bu jalb qilingan mablag‘lardir. Bu mablag‘lar bank ta’sischilariga tegishli emas, ular chetdan, ya’ni bank mijozlaridan jalb qilinadi. Bank ishining xususiyati ham shundan iboratki, bank resurslarining asosiy qismi jalb qilingan mablag‘lardan iboratdir. Bugungi kunda asosiy ulush deposit hamda olingan kreditlar va lizing operatsiylar egallamoqda.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi raqamli banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumot (mlrd. so‘m)

Bank nomi	01.01.2021		01.01.2022		01.01.2023	
	Kapital	Depozit	Kapital	Depozit	Kapital	Depozit
	summa	summa	summa	summa	summa	summa
Anor bank	100	6	187	832	344	2 995
TBC bank	199	1	304	724	572	1 380
Jami banklar	58 351	114 747	70 918	156 190	79 565	216 738

O‘zbekiston Respublikasi hududida raqamli banklar jami banklar ichida kapital miqdorining ulushi bo‘yicha har yili bir foizniham tashkil qilmagan. Ya’ni 2021-yil 1-yanvar holatiga raqamli banklar 299 mlrd. so‘m bilan jami banklar ichida 0.5 foiz ulushni tashkil qilgan bo‘lsa 2023 yil 1-yanvarga kelib bu ko‘rsatkichikki barobarga oshib 1.15 foizni tashkil qilmoqda. Depozitlar miqdoriga to‘xtaladigan bo‘lsak 2021-yil 1-yanvar holatiga jami banklar ichida 0.005 foizni tashkil qilgan lekin bu ko‘rsatkich 2023-yil 1-yanvarga kelibikki foizni tashkil qilmoqda. Oxirgi yilga kelib raqamli banklar va jami banklarda depozitlar miqdori sezilarli darajada oshgan chunki 2022-yilda 2021yilga qaraganda 1.36 barobarga oshgan bo‘lsa 2023-yilga kelib 2021-yilga nisbatan 1.9 barobarga sezilarli darajada oshgan.

2025-yilga qadar tijorat banklarining ustav kapitalining minimal miqdoriga qo‘yilgan talabning ortishi ya’ni besh barobarga ortishi natijasida capital miqdorining sezilarli darajada oshishini kuzatishimiz mumkin. Yani 2023-yil 1-sentabrdan bankllarning ustav kapitali minimal miqdori 100 mlrd. so‘mdan 200 mlrd. so‘mga yetkazilgan bo‘lsa 2024-yil 1-apreldan 350 mlrd. so‘mga oshirilishi hamda 2025-yilga kelib mlrd. so‘mga yetkazish belgilab olindi.

Bank tizimining rivojlanishi ko‘p jihatdan tijorat banklarining resurslaridan samarali foydalanish va ularni boshqarishga bog‘liq. Shunday ekan, bu borada tijorat banklarining passiv operatsiyalarini samarali boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanib, bank resurslarning likvidlilik darajasi va risk darajasini inobatga olgan holda, ko‘p tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Tijorat banklari zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish uchun zarur resurslar hajmini oshirishning ommaviy manbalaridan biri banklararo kreditlardan foydalanishdir. Ammo, bu uslubning o‘ziga yarasha muammoli xususiyatlari ham bor. Bir tomondan, u bankning majburiyatlarini bajarish uchun zarur qo‘shimcha likvidli mablag‘larni jalb etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, bu manbadan haddan tashqari ko‘p foydalanish o‘ziga xos tobelikni keltirib chiqaradi. Bu holat ta’siridan butun bank tizimining faoliyati izdan chiqishi ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari banklararo kreditlash passivlarni boshqarishning eng qimmatga tushadigan vositasi sanaladi.

Hozirgi kunda, banklar o‘zlarining likvidlilik darajasini bir maromda saqlab turish uchun banklararo moliya bozoridan resurslarni jalb etish uslubi passivlarni boshqarishning yagona vositasi emas. Bank daromadlariga zarar yetkazmasdan likvidlilikni tartibga solishning yana boshqa xillari ham mavjud. Masalan, qayta sotib olish majburiyati bilan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotish haqida bitim tuzish, depozit sertifikatlarini sotish, tijorat qog‘ozlari va obligatsiyalarni chiqarish. Shu kabi boshqa usullardan foydalansa bo‘ladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, depozit sertifikatlari yordamida mablag‘larni jalb etish resurslarning hajmini oshirish bilan birga, banklarning likvidliligini ham ko‘taradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, depozit sertifikatlari oddiy muddatli jamg‘armalardan ko‘ra afzalroqdir. Chunki, mazkur sertifikatni xarid qiluvchi kishi bo‘sh pul mablag‘larini bankda ma’lum muddat saqlash uchun joylashtirib, foizli daromad olib turadi. Zaruriyat tug‘ilsa, muomaladagi sertifikat egasi o‘z depozitini muddatidan ilgari sotib, naqd pulga aylantirishi mumkin. Biroq, Respublikamizda qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozori yaxshi rivojlanmaganligi tufayli banklar moliyaviy vositalarning barcha xillaridan birdek unumli foydalanishmayapti.

Banklar faoliyatini samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy e’tibor ularning risklarini boshqarishga qaratish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatdan olinadigan iqtisodiy manfaatdorlik tegishli mezonlar asosida aniqlangani kabi, bank risklarini boshqarishning natijasi ham tegishli mezonlar asosida baholanadi, ularning asosiylari quyidagi rasmda (3.1-rasm) keltirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslari bilan bog‘liq risklarini boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning talabi bo‘lib, risklarni boshqarish natijalarning ijobiy yoki salbiy holatda ekanligi ushbu quyida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi.



1-rasm: Bank risklarini boshqarishda asosiy mezonlar

Shuningdek, respublikamiz tijorat banklarining passiv operatsiyalarni samarali amalga oshirish orqali bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolar mavjud:

1. Respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini rivojlanmaganligi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar daromadlilik darajasiga ko'ra kreditlardan keyingi aktiv hisoblanadi. Bundan tashqari, ular banklarning likvidliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ammo mamlakatimizda moliya bozori yaxshi rivojlanmaganligi bois, likvidli qimmatli qog'ozlar kamdir. Shu sababli, banklarning aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarning ulushi pastdir.

2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidlilik darajasini yanada oshirish maqsadida banklarning joriy likvidlilik darajasiga baho berishda talab qilib olinadigan depozitlar miqdorini ularning barqaror qoldig'i summasiga kamaytirish zarur.

Respublikamiz tijorat banklarida talab qilib olinadigan depozitlarning ma'lum qismi barqaror qoldiq sifatida doimo mavjuddir. Ammo banklarda talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i hisobga olinmayapti. Talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i hisobga olinmagan holda, ulardan foydalanish banklarning likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

2-jadval: Bank resurslarini oshirishda mavjud muammolar va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar

Muammolar	Muammoning yuzaga kelish sabablari	Muammoni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar
Respublikamiz tijorat banklari resurslariga qo'yilgan majburiy zahira talablarining yuqoriligi	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy stavkalarning yuqoriligi	Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan stavkani 3-10%gacha pasaytirish (AQSH tajribasi bo'yicha)
Tijorat banklari passiv operatsiyalari samaradorligi nisbatan pastligi	Passivlar tarkibida markazlashgan resurslarning yuqoriligi	Muddatli va jamg'arma depozitlarning jozibadorligini oshirish
Transaksion depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog'ini nisbatan yuqoriligi	Hukumat tomonidan depozitlarga jalb qilishda bir qancha cheklovlarning mavjudligi	Cheklovlarni birmuncha yumshatish
Aholi omonatlarining jozibador turlarini amaliyotga joriy etish	Tijorat banklari jalb qilingan depozitlari tarkibida barqaror manba mablag'lari salmog'ining pastligi, bank aktiv va passivlari miqdori va muddatlarining nomutanosibligi	Rivojlangan davlatlar ilg'or tajribasi asosida banklarimiz amaliyotida qo'llash uchun jozibador omonat turlarini joriy etish, bunda etiborni muddatli va jamg'arma depozitlarga qaratish
Tijorat banklarida aholi omonatlarini rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish va ularning tezkorligini oshirish	Tijorat banklari amaliyotida depozitlarni qabul qilish va ularni rasmiylashtirish jarayonlarini faollashtirish va zamonaviylashtirish zarurligi, qabul qilingan omonotning muddati tugagandan keyin har bir omonot yana boshqatdan rasmiylashtiriladi va bunga ham bank xodimining, ham mijozning ancha vaqti sarflanadi	Muddatli depozitlarni qayta rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, doimiy omonot daftarchasini yuritish, mijozning elektron tizim orqali bildirishnomasiga asosan depozitlar muddatini ko'rib chiqish va ular muddatini uzaytirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Respublikamiz tijorat banklarining qarz qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari rivojlanmaganligi	Ikkilamchi bozorning rivojlanmaganligi, banklar tomonidan bozordagi faoliyatning sustligi	Banklar tomonidan emissiya qilinayotgan qarz kimmatli qog‘ozlariga imtiyozlar berish
Tijorat banklarida mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholash tizimi takomillashmaganligi	O‘zbekistonning aksariyat banklari faqat 3 ko‘rsatkichdan foydalanadi, banklar kredit siyosatining nisbatan sayoz ishlanganligi	Xorij tajribasi bo‘yicha 14 ta, Rossiya tajribasi bo‘yicha 22 ta ko‘rsatkichlardan foydalanish
Bank operatsiyalari tarkibida diskont, forfeyting operatsiyalari kabi operatsiyalar mavjud emasligi	Bu operatsiyalarning risklilik darajasi juda yuqoriligi va bu bo‘yicha yetarli qonunchilik hujjatlar ishlab chiqilmaganligi	Qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, ma’lum bir banklarda bu operatsiyalarni sinov tariqasida o‘tkazish

Ushbu 2-jadvalda mamlakatimizda bank resurslarini mustahkamlashda passiv operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq mavjud bo‘lgan va bizning nazarimizda o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan boshqa muhim muammolarni tavsiflab o‘tganmiz. Shuningdek, jadvalda mazkur muammolarning yuzaga kelish sabablari, hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Takliflar doirasida tijorat banklari moliyaviy resurslari barqarorligini oshirish maqsadida quyidagi me’yoriy talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaring kapital bazasini mustahkamlash maqsadida ularning qo‘shimcha kapital bazasi hajmini oshirish zarur. Buning uchun, avvalo, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini chiqarish va ularni sotish hisobidan to‘plangan resurslarni rentabellik darajasi yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish lozim.

Ikkinchidan, jozibali muddatli depozit turlarini yaratish orqali, tijorat banklari brutto depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog‘ini kamida 50% gacha pasaytirish lozim. Ushbu holat tijorat banklari tomonidan transaksion depozitlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri resurs sifatida foydalanish miqdorining kamayishiga olib keladi.

Uchinchidan, Markaziy bank majburiy zaxira talabnomalarining bazaviy stavkasini pasaytirish va zaxira talabnomasi summasini tijorat banklarining “Nostro” vakillik hisobarqamlarida qoldirish yo‘li bilan banklarning muddatli depozitlarga foiz to‘lash imkoniyatini va likvidliligini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nafasov D. Bank risklarini boshqarishning zarurligi va asosiy mezonlari. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –Toshkent. №1, fevral, 2017.
2. www.stat.uz – The official website of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan
3. www.gov.uz – Government portal of the Republic of Uzbekistan
4. www.uba.uz – Official website of the Association of Banks of Uzbekistan
5. www.cbu.uz – The official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDIT FOIZ STAVKASINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bankning daromad darajasini oshirish – uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilganligiga, ya’ni bankning kredit siyosatining mustahkamligi va bankning barqarorligiga bog‘liq. Demak, bank kredit siyosatini to‘g‘ri tashkil etish uning samarali faoliyatidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, resurs bazasi, bankning o‘z mablag‘lari, zahira kapitali, qo‘shimcha kapital, zahiralar, likvidlik.

Abstract: Increasing the bank’s income level depends on the correct organization of its activities, that is, the strength of the bank’s credit policy and the stability of the bank. Therefore, the correct organization of the bank’s credit policy is one of the main issues in its effective operation.

Key words: commercial bank, resource base, bank’s own funds, reserve capital, additional capital, reserves, liquidity.

Аннотация: Повышение уровня доходов банка зависит от правильной организации его деятельности, то есть от силы кредитной политики банка и устойчивости банка. Поэтому правильная организация кредитной политики банка является одним из главных вопросов его эффективной работы.

Ключевые слова: коммерческий банк, ресурсная база, собственные средства банка, резервный капитал, добавочный капитал, резервы, ликвидность.

INTRODUCTION

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki kredit muomalasini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi.

Bank foizining turli xil formalari mavjud bo‘lib ular: depozit foizi ko‘rinishida, ssuda foizi bo‘yicha, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha investitsiya foizlari va boshqalar.

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o‘rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo‘llaniladigan pul bozori stavkasi;
- Qayta moliyalashtirish stavkasi;
- Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;
- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

Kreditning asosiy sharti - bu undan vaqtinchalik foydalanganlik uchun haq to‘lash. Bu haq kredit summasiga nisbatan foiz hisobida olinadi va u kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning bahosi foiz bo‘ladi. Boshqa tovarlardan farqlirok qarz pulining narxi - bu uning ma’lum to‘lov ehtiyojini qondirishdek xossasidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq bo‘ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to‘lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to‘laydi.

Iqtisodiyotda kreditga bo‘lgan talab ko‘p omillarga bog‘liq. Birinchidan, kreditga bo‘lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funksional bog‘liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko‘tarilishi sharoitida, subyektlar qo‘shimcha mablag‘ga muhtoj bo‘ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo‘shimcha mablag‘ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag‘lariga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchidan, kreditga bo‘lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funksional bog‘liqdir. Mamlakatdagi uy xo‘jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadagan daromad darajasining o‘sishi yoki daromad me’yorining oshishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. Shunday ekan, kreditga bo‘lgan talab daromad o‘zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o‘zgarib boradi.

Kredit taklifi pul bozorlarida moliyaviy vositachilar yoki kreditorlar tomonidan pul mablag‘larining taklifiga bog‘liq. Kredit resurslari bozoridagi taklif darajasi ham bir qator omillarga bog‘liq holda shakllanadi. Bulardan eng asosiysi, jamiyatda yangidan hosil bo‘lgan qiymatning jamg‘armaga atalgan qismining oshib borishi, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarda vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining ortib borishi hamda ularning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

Aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari bir-biridan farqlanadi, lekin ular orasida juda yaqin aloqa va bog‘liqlik mavjudki, bu bizga foiz stavkalarining umumiy strukturasi haqida gapirishga imkon beradi. Masalan, agar depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari pasayish tendensiyasiga ega bo‘lsa kreditlar bo‘yicha undiriladigan foizlar ham pasayadi. Moliya bozori qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ushbu bog‘liqlik shuncha kuchli bo‘ladi. Moliya bozori qanchalik murakkablashib, raqobat kuchaysa, ushbu riskning bank moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati shunchalik yuqori bo‘ladi.



1-rasm: Foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi omillar tasnifi[1]

1 Muallif tomonidan tuzuldi.

Tijorat banklari foiz siyosatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish va uni tahlil qilish foiz stavkalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan rasmda foiz stavkalar shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tasnifini keltirib o‘tamiz.

Banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini belgilash ularning asosiy faoliyatida samaradorlikni belgilaydi va natijada ularning moliyaviy asoslarining barqarorligiga, kapital mablag‘larini to‘plash orqali ta’sir qiladi. Shuning uchun kredit foiz stavkalarini belgilash banklarning alohida eng muhim qarorlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu rasmda foiz stavkasiga ta’sir qiluvchi umumiy va xususiy omillarga tasniflanishini ko‘rib chiqdik. Unga muvofiq umumiy omillar makro darajadagi ko‘rsatkichlar o‘zgarishlarini o‘zida ifoda etadi. Xususiy omillar esa, bank kredit operatsiyasini amalga oshirish tartib-qoidalari, resurslar qiymati va mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Bundan tashqari, bank kreditlarining foiz stavkalarini qanday belgilaganligi, moliyaviy tizimda markaziy rol o‘ynaganligi sababli, pul-kredit siyosatining samaradorligining muhim hal qiluvchi omilidir. Shu sabablarga ko‘ra, banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini aniqlash xatti-harakatlarini tahlil qilish, bank operatsiyalarini monitoring qilish va pul siyosatini uzatish kanallarini tushunish uchun foydalidir.

Ko‘pgina mavjud tadqiqotlar banklarning foiz stavkasini belgilashdagi xatti harakatlari foiz stavkasini o‘tish istiqbolidan o‘rganib chiqiladi va bu kredit foiz stavkalarining, bozor foiz stavkalari o‘zgarishiga ta’sirini tekshiradi. Shuningdek, banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari, bozor foiz stavkalari o‘zgarishlariga asta-sekin javob berishga qodir ekanligini e’tirof etadi, bu esa kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining bog‘liqlik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Qisqa muddatda, bozor foiz stavkalari ortib borayotganiga qaramay, banklar har qanday sabablarga ko‘ra qarzdorlik budjetini moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishadi, hatto bunday xatti-harakatlar ularning foiz stavkalarini belgilashda ham nomoyon bo‘ladi.

Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini belgilash vaqtida resurslar qiymati, kreditga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tahmin etilayotgan xarajatlar, vositachilik va ma’muriy xarajatlar, ushbu kredit bo‘yicha xarajatlarning ortishiga olib keluvchi ehtimoliy xatarlar va bank foydasi hisobga olinadi.

Kredit xizmatlari uchun to‘lovlarni belgilashda bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Foiz siyosati va Ta’riflardan foydalaniladi.

Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va likvidliligiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira talabnomasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlarini ularning likvidlilik darajasini pasayib borishi tamoyiliga asosan shakllantirish xalqaro bank amaliyotida mavjud bo‘lgan aktivlarni shakllantirish tartibidan sezilarli darajada farq qiladi.

6-jadval: Chet el valyutasidagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar[2], (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo‘yicha	7,5	7,1	6,4	8,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	6,9	7,5	6,7	8,3
- 60 kungacha	0,5			
- 61 kundan 90 kungacha		9,3	3,6	9,5
- 91 kundan 180 kungacha		7,5	6,2	5,9
- 181 kundan 365 kungacha	7,0	7,4	6,8	8,4
Uzoq muddatli kreditlar	7,7	6,8	6,2	8,1
- 1 yildan 2 yilgacha	7,9	7,2	6,6	8,8
- 2 yildan 3 yilgacha	10,7	8,2	6,8	8,5
- 3 yildan 4 yilgacha	8,0	7,3	5,4	9,0
- 4 yildan 5 yilgacha	6,6	6,8	7,3	8,4
- 5 yildan 10 yilgacha	6,1	4,9	5,7	7,0
- 10 yildan yuqori	4,0	2,8	2,6	5,0

2 https://cbu.uz/uz/statistic - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi

Oxirgi to‘rt yillik statistikaga qaraydigan bo‘lsak, oxirgi uch yillikida 60 kungacha bo‘lgan qisqa muddatli kredit deyarli berilmagan. Qisqa muddatli kreditlar jami 1.6% ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Uzoq muddatli kreditlar esa 1,9 % ga ortib jami 8,1 foizni tashkil etgan. Uzoq muddatli kreditlar ichida 2 yildan 3 yilgacha bo‘lgan kreditlar foizi payaganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

7-jadval: Milliy valyutasidagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar[3], (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo‘yicha	25,8	20,8	21,5	22,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	25,7	21,3	22,1	21,1
- 60 kungacha	23,9	20,7	21,3	21,9
- 61 kundan 90 kungacha	25,9	18,9	22,5	20,8
- 91 kundan 180 kungacha	24,8	20,1	20,8	20,6
- 181 kundan 365 kungacha	25,8	21,4	22,2	21,1
Uzoq muddatli kreditlar	25,8	20,6	21,1	22,7
- 1 yildan 2 yilgacha	25,2	21,9	22,2	22,9
- 2 yildan 3 yilgacha	27,8	21,4	22,8	23,6
- 3 yildan 4 yilgacha	24,3	22,0	23,4	24,8
- 4 yildan 5 yilgacha	21,6	18,9	21,0	23,0
- 5 yildan 10 yilgacha	19,5	18,5	17,0	22,9
- 10 yildan yuqori	17,9	17,0	17,3	17,5

Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkasio‘zgarishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qisqa muddatli kreditlarda umumiy oxirgi to‘rt yillikda pasayish tendensiyasiga erishgan, ya’ni 25,7 foizdan 21,1 foizga tushgan. Uzoq muddatli kreditlar ham 25,8 foizdan 22,7 foizgacha pasaygan. Uzoq muddatli kreditlar ichida asosiy pasayish - 2 yildan 3 yilgacha bo‘lgan oraliqdagi kreditlarga to‘g‘ri kelmoqda ya’ni 27,8 foizdan 23,6 foizgacha pasaygan.

Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni kreditlar, ikkinchi o‘rinni kassali aktivlar, uchinchi o‘rinni asosiy vositalar, so‘nggi, to‘rtinchi o‘rinni esa, qimmatli qog‘ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, kreditlardan keyingi ikkinchi o‘rinni qimmatli qog‘ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi, kassali aktivlar esa, aktivlarning tarkibida uchinchi o‘rinda turadi.

Har bir mamlakatda foiz stavkasi iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqlikda belgilanadi. Bu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, aynan mazkur mamlakatda inflyatsiya darajasi pasayishi makrodarajadagi barqarorlikning omili sifatida moliya bozorlarida nominal foiz stavkasi va tijorat banklarining foiz siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida mablag‘larni yig‘ib, ularni, o‘z marjasini qo‘shgan holda, aktiv operatsiyalarga joylashtiradi. Banklarning aktiv va passivlari o‘zaro uzviy bog‘liqlik bo‘lib, ularning muvofiqligini ta’minlash strategik maqsad hisoblanadi. Bu o‘rinda, moliya bozorining rivojlanish darajasi bog‘liqlik kuchayishiga omil bo‘ladi. Moliya bozorida murakkablashuv va raqobat qanchalik kuchaysa, bank moliyaviy boshqaruvida foiz riskining ahamiyati shunchalik yuqorilashadi.

Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish bilan makrodarajadagi barqarorlikka erishiladi hamda moliya bozorlarida nominal foiz stavka va tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo‘yicha stavkalar ham pasayadi. So‘nggi yillarda inflyatsiya darajasining jilovlanishi tijorat banklarining depozit va kredit foiz stavkalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

3 https://cbu.uz/uz/statistic - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi

Xususan, tijorat banklari tomonidan kredit va depozitlar bo‘yicha o‘rnatilayotgan foiz stavkalari hamda banklararo pul bozoridagi foiz stavkalari pasayib bormoqda. Har bir mamlakatda foiz stavkaning shakllanishi bosqichi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Markaziy bank moliya bozoridagi operatsiyalari orqali foiz stavkaning shakllanishiga tezkor ta’sir ko‘rsatadi. Moliya bozorlaridagi operatsiyalar bo‘yicha bitimlarni amalga oshirish orqali tijorat banklarida likvid aktivlarni boshqarishga erishiladi. Bunda tijorat banklarining daromad keltiradigan aktivlarini segmentlash hamda bank aktivlari sekyuritizatsiya qilinishiga erishiladi.

Foiz stavkasining shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

1. Pul bozorida foiz stavkalari tebranish intervalining shakllanishi. Operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini muvofiqlashtirishda Markaziy bank iqtisodiyotda ishlab chiqarish sur’atini va jamg‘armalarni ko‘paytirishni, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan jozibadorligini oshirishni ta’minlash nuqtainazaridan kredit-depozit bozoridagi aniq bir stavkani shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadga bank tizimining likvidliligini ta’minlovchi foiz stavkalarining instrumentlar bo‘yicha quyi va yuqori stavkalarni o‘rnatish bilan erishiladi. Bu holatda bank tizimidagi foiz stavkasining tebranish intervali shakllanadi va ko‘zlangan maqsadlarga erishishda qo‘l keladi.

2. Haqiqiy ma’noda likvidlilikni ta’minlash. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini ta’minlash va himoyalashdan iborat. Aktivlar bo‘yicha daromadlilik darajasini ijobiy holatda bo‘lishini ta’minlash milliy pul birligining zaruriy funksiyalarni, jumladan jamg‘arma vositasi, qiymat o‘lchovi va muomala vositalari vazifalarini bajarish uchun zaruriy shart bo‘lib hisoblanadi.

Foiz stavkaning optimal bo‘lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayogan banklarning operatsiyalar bo‘yicha daromadligini, aholi pul jamg‘armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo‘l keladi.

Tijorat banklarida kredit qo‘yilmalari qadrsizlanishi va inflyatsiya ta’sirini korrektirovka qilishni joriy qilish. Ma’lumki inflyatsiya sharoitida bank aktivlari qadrsizlanib ular qiymati pasayadi. Jumladan, bankning uzoq muddatli kreditlari qadrzsizlanishi yuqori bo‘lib, kelajakda hatto o‘zining dastlab berilgan vaqtdagi qiymatini qoplay olmasligi mumkin. Uzoq muddatli kreditlash amaliyotida kredit bahosining asosi hisoblangan foiz stavka va inflyatsiya darajasining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarida kredit qo‘yilmalarini inflyatsiya ta’sirining oldini olish usularidan biri kreditlar suzuvchi stavkalarda taqdim etilishidir. Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida qisqa muddatli kreditlarni qat’iy belgilangan foiz stavkalarda taqdim qilish mumkin.

Suzuvchi foiz stavkani qo‘llash bankning foiz risklarini samarali boshqarishga yordam beradi. Tijorat banklari kreditlash amaliyotida suzuvchi foiz stavkalardan foydalanish inflyatsion yo‘qotishlarning oldini olish va ularni kamaytirish bilan birga, bankning kelajakdagi pul oqimlar samarali boshqarishga zamin yaratadi.

Tijorat banklarida kreditlari bo‘yicha kredit foizlarini mijozlar toifalari, kredit turlari va kreditlash usullariga muvofiq hisoblash tartibini hamda kreditlar bo‘yicha to‘lovlar turi va davriyligini ishlab chiqishi hamda kredit siyosatida aks ettirishi lozim. Tijorat banklarida mijozlarning toifalari va ularni kreditlash umullari kredit siyosatida aks ettiriladi. Demak, har bank mijozlar tarkibini o‘rganishi va ularni kreditlash usulini belgilashi lozim. Bunday bo‘linish ikkita guruhga, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratish mumkin. Biz oldingi bo‘limda ko‘rib o‘tganimizdek, kredit foizlarini hisobga olishning bir qator usullari mavjud (annuitet, tabaqalashtirilgan yoki kamayuvchi). Ushbu usullar kredit bo‘yicha foizlar va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini aniqlab beradi.

Bunda kreditning asosiy summasi va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash davriyligi oldindan belgilab qo‘yiladi. Kreditlar bo‘yicha to‘lovlarni qaytarilish tartibi ham kredit bahosining hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida ko‘rib o‘tgan har kredit asosiy qarzi va foiz to‘lovlarini qay usulda to‘lash tartibiga muvofiq, ularning yakuniy natijalari turlicha keltirib chiqariladi

Bizning fikrimizcha kredit operatsiyalari bo‘yicha tabaqalashtirilgan usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu usul orqali har oylik amalga oshiriladigan to‘lovlar orqali asosiy qarz qoldig‘i kamayib boradi va foizlar qoldiq summaga nisbatan hisoblanadi. Ikkinchidan esa, bankning kredit riski kamayib boradi, ya’ni asosiy qarz summasi kamayib borishi risk darajasini tushiradi. Ba’zi hollarda mijozlar ushbu usul bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishda boshlang‘ich davrida qiyinchiliklarga duch kelib to‘lovlarni kechiktirishlari mumkin.

Bu usulni jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida qo‘llash o‘z samarasini beradi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini milliy va xorijiy valyutada belgilashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsakb banklarimiz berayotgan kreditlarning foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi omillarni bartaraf etishda tashqi ta’sir kuchiga emas balkim ichki yani bankning ichki siyosatini tartibga solshga jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak bu borada kredit siyosatini yaxshi tashkil etish zarur. Kredit partfelidagi kreditlarning jozibasini oshirish lozim bu borada bozardagi talab va taklifga kata e’tibor qaratish lozim.

Tijorat bankari beradigan kreditlarning foiziga tashqi ta’sirdan eng yuqori darajadagisi bo‘lib inflyatisya darajasi hisoblanadi bu boradagi inflyatsiyani targetlash rejimining joriy qilinishi ya’ni: 2024-yilning oxirigacha inflyatsiyaning darajasini 5 fiozga tushirish orqali kreditning foiz darajasining tushishiga erishishimiz mumkin bu esa mijozlarning ishlab chiqarish tizimining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi.

Foiz stavkaning optimal bo‘lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayogan banklarning operatsiyalar bo‘yicha daromadligini, aholi pul jamg‘armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo‘l keladi.

References:

1. Nafasov D. Bank risklarini boshqarishning zarurligi va asosiy mezonlari // Xalqaro moliya va hisob, Toshkent. №1, fevral, 2017.
2. www.lex.uz – Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan.
3. www.stat.uz – The official website of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan
4. www.gov.uz – Government portal of the Republic of Uzbekistan.
5. www.uba.uz – Official website of the Association of Banks of Uzbekistan.
6. www.cbu.uz - The official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Vasiyev Alisher Samiyevich
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi

Sayfullayev Sirojiddin Soli o‘g‘li
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Islom iqtisodiyotining mohiyati ma’naviy jihatdan mas’uliyatli bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdir. Ushbu maqolada uning o‘ziga xos jihatlaridan biri – shaxs va jamiyatning real ehtiyojlarini qondirish, islom iqtisodiy modelida boylikni adolatli taqsimlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Islom banklari, Islom moliyasi, Islomiy kapital, Islomiy obligatsiyalar (Sukuk), sudxo‘rlik.

Abstract: The essence of Islamic economy is to create a morally responsible market economy system. This article focuses on one of its unique aspects - meeting the real needs of individuals and society, fair distribution of wealth in the Islamic economic model.

Key words: Islamic banks, Islamic finance, Islamic capital, Islamic bonds (Sukuk), usury.

Аннотация: Суть исламской экономики заключается в создании морально ответственной системы рыночной экономики. Данная статья посвящена одному из ее уникальных аспектов – удовлетворению реальных потребностей личности и общества, справедливому распределению богатства в исламской экономической модели.

Ключевые слова: исламские банки, исламские финансы, исламский капитал, исламские облигации (сукук), ростовщичество.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida “islom banklari” nomi ostidagi muassasalar soni yildan-yilga ko‘payib, aktivlari hajmi ham tobora oshib bormoqda. Yaratilganinga yarim asrdan oshgan bu turdagi banklar nomusulmon o‘lkalarga qo‘yinki, musulmon jamiyatlardan ham ko‘ra tezroq va osonroq kirib borayotgani hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Buning sababini turlicha izohlash mumkin. Masalan, ba’zi iqtisodchilar islom banklari faoliyatining real aktivlarga asoslanganini asosiy omil qilib ko‘rsatishsa, ba’zilari ularning moliyaviy inqirozdan holi ekanligini ta’kidlashadi. Yana ba’zi olimlar bu kabi banklar jamiyat uchun zararli hisoblangan ko‘plab faoliyatlarni cheklashi haqida bahs yuritishadi. Bizning fikrimizcha bu omillarning barchasi ushbu banklarni hozirgi amaldagi an’anaviy banklar bilan solishtirganda bir qator afzalliklarini yuzaga keltirgan. Buning isbotini iqtisodiy tahlillar o‘tkazish orqali osongina ko‘rish mumkin. Islom banklari faoliyati Islom fiqhiga asoslangani bois ular ba’zi turdagi tijoratlarga ruxsat bergan holda ba’zi turdagi tijoratlarni taqiqlashni talab etadi. Shunisi bilan ularni ma’lum bir davlatga olib kirish uchun ancha ter to‘kilishi kerak bo‘ladi.

Islom moliyasini tushunish uchun asosiy atamalar:

- **Sukuk** qimmatli qog‘ozlarning islomiy tamoyillarga mos keluvchi turi bo‘lib, mablag‘larni jalb etishda va investitsiya kiritishda obligatsiyalarga ekvivalent sifatida foydalaniladi.
- **Sudxo‘rlik** – g‘oyat og‘ir shartlar bilan qarz berib, foyda olinadigan faoliyat.

Umuman olganda, an’anaviy banklar yetakchilik qilayotgan har qanday o‘lkada birdaniga islom banklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish oson ish emas, albatta. Lekin shunga qaramay bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan Malaziya, Buyuk Britaniya, BAA va Saudiya Arabistoni kabi bir nechta mamlakatlarni tilga olishimiz mumkin. Shu bilan birga, ba’zi mamlakatlarda hukumat boshqaruvidagi demokratiyaning nomiga ekanligi, ya’ni aslida byurokratik tizim ustuvor ekanligi evaziga ko‘plab sa’y-harakatlar bekor ketmoqda. Va yana boshqa birilarida xato-kamchiliklar va nojoiz amaliyotlar sababidan ko‘plab ishbilarmonlarning sohaga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi so‘nib, hafsalasi pir bo‘lgani ham haqiqat. Shularni inobatga olgan holda, O‘zbekistonga islom bankchiligi va islomiy moliyaviy faoliyatni olib kirishda har tomonlama o‘ylab, iqtisodiy va moliyaviy tahlillar o‘tkazib, kerak bo‘lsa xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganib, ana undan keyin zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Musulmon davlatlaridagi mavjud islomiy moliyashtirishga asoslangan banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalarining mablag‘larini O‘zbekistoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya’ni an’anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirish bilan an’naviy moliyalashtirishning asosiy farqi, birinchisi foyda va zararni bo‘lishishga, shuningdek aktivlarga asoslangan moliyalashtirish sherikchilikka asoslanadi. Bunda bank mijozni talabi asosida obyektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin.Moliyalashtirishni asosida savdo operatsiyalari yotadi. An’naviy bank tizimida esa savdo operatsiyalarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul hisoblanadi va bunga soliqqa tortish va bank faoliyatiga tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar to‘sqinlik qiladi.

Islom bankini ochishga qo‘yiladigan talablar ko‘pincha mamlakatdan mamlakatga katta farq qiladi. Islom bankini tashkil etishda dastlab an’anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilishda ko‘plab qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu qoidalar mamlakatdagi butun bank tizimini ta’minlash uchun alohida bank muassasalarining hayotiyligi va mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan, ular ko‘pincha omonatchilar uchun kapitalning aniqligi va omonatlarning daromadlilik darajasining aniqligi kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, Islom bankini tashkil etish istagida bo‘lgan homiylar islom banki operatsiyalariga ta’sir ko‘rsatadigan milliy bank qonunlari va qoidalaridan xabardor bo‘lishlari muhim, ular faoliyatning amaldagi qonunchilikka muvofiq oldindan tasdiqlanganligini ta’minlashlari kerak, yoki islom banki faoliyatiga ruxsat berish uchun tartibga soluvchi organdan qaror talab qilishi kerak. Islom bankining yangi biznes amaliyotlarini joriy etish asosiy faoliyati an’anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo‘lgan tartibga soluvchi organ uchun g‘ayrioddiy tashvish bo‘lishi mumkin. Aksariyat Markaziy banklar tijorat banklaridan o‘z majburiyatlarining bir qismini tasdiqlangan qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish yo‘li bilan likvidlik maqsadlarida kapitalning etarlilik koeffitsiyentiga rioya qilishni talab qiladilar.

Bundan tashqari, islom bankini tashkil etish istagida bo‘lgan homiylar uchun korporativ soliq va jismoniy shaxslar soliq tuzilmalarini o‘rganish va mavjud imtiyozlarni izlash muhimdir. Islom banki uchun soliq oqibatlari odatdagidan ko‘ra ko‘proq majburiydir. Aslida, islom banki omonatchilariga to‘lanadigan foyda, odatdagi banklarning o‘z omonatchilariga to‘laydigan foizlari kabi, bank uchun maqbul to‘lov sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Tashkiliy guruh mamlakatning valyuta pozitsiyasini ham o‘rganishi kerak, chunki u bankning tashqi savdo operatsiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi va ularning jarayonlari va rentabelligiga ta’sir qilishi mumkin. Aslida, chet el valyutasining erkin chiqib ketishiga valyuta nazorati cheklovlarini o‘rnatgan mamlakatda investitsiyalarning ko‘p qismi mahalliy valyuta ekvivalentida amalga oshirilishi kerak bo‘ladi, bu importni moliyalashtirish hajmiga ham salbiy ta’sir qiladi va agar islom banki chet el valyutasida ortiqcha likvidlikka ega bo‘lsa, u o‘zi pulni investitsiya qila olmaydi. Resurslarni xalqaro bozorlarga investitsiya qilish hamda bank kapitali, dividendlar va foydani repatriatsiya qilish to‘g‘risidagi qoidalar o‘rganilishi kerak bo‘lgan boshqa muhim jihatlardir.

Ekspertlar fikricha, jahon bozorida islom moliyasi g‘arb moliya tizimini inqiroz holatiga olib kelgan salbiy omillarga qarshi turish imkoniyatini berdi.Bugungi kunda bank islom dunyosidan tashqari mamlakatlar uchun ham xizmat ko‘rsatib, ularga ham ulkan imkoniyatlar yaratmoqda.

Islom Taraqqiyot bankining maqsadi “Shariat tamoyillari asosida a’zo davlatlar va musulmon jamoalarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash” hisoblanadi. ITBiga 57 ta davlat a’zo bo‘lib, aktivlari 150 mlrd AQSH dollaridan ortadi.



3-rasm: ITB ning asosiy aksiyador davlatlari[1]

Yuqoridagi rasmdan bilish mumkinki,ITBning asosiy ustav kapitalidagi katta ulush Saudiya Arabistoniga,so‘ngra Liviya,Eron va Nigeriya davlatlari o‘rin egallaydi.O‘zbekistoning ulushi esa 0.03 % ni tashkil etib,bir foizga ham bormaydi.

Qayd etish zarurki, O‘zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a’zo bo‘lgan. Shu yillar mobaynida jami 2.5 mlrd dollardan ortiq 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma’qullanib, loyihalar doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo‘llar, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog‘liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan.



4-rasm: Islom taraqqiyot bankining kapital resurslari tarkibi2

Yuqoridagi 3-rasmda ko‘rinib turibdiki,Islom Taraqqiyot bankining xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) tomonidan berilayotgan kredit portfeli yildan-yilga oshib bormoqda.2016-yilda XISMK 34.02 % ni taskil etib, 2019-yilga kelib 73.8 % ga oshgan. XISMK malblag‘larni tovar-xom ashyo sotib olishni moliyalashtirish muddati 12 oy,agar asosiy vosita (asbob-uskuna) sotib olishga yo‘naltiradigan bo‘lsa 24 oygacha moliyalashtiriladi.

Islom taraqqiyot banki O‘zbekistonning 10 yirik kreditorlari qatoriga kiradi. Xalqimiz uchun hamkorlikning yangi istiqbollari ochilib, yig‘ilish doirasida Islom taraqiyot banki O‘zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun loyiha orqali mamlakatda islomiy bank va moliya uchun qonuniy va texnik asoslar yaratilishi, shuningdek, aholining islom moliyasidan xabardorlik darajasini oshirishni ko‘zlanganligi quvonarli bo‘ldi3. O‘zaro hamkorlikning muhim jihatlaridan biri – ITB O‘zbekistonda qishloqlarni barqaror rivojlantirish loyihasi uchun 200 mln dollar miqdorida pul ajratayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu mablag‘lar ko‘magida mahalliy boshqaaruv jarayoni hamda jamoatchilik ishtirokida asosiy infratuzilma va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish,

1 ICD annual report 2019
2 ICD annual report 2019
3 “Xalq So‘zi” gazetasi ma’lumotlari

kambag‘allikni qisqartirish, aholining turli holatlarga, xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga erishilishi – insonparvarlikning eng oliy namunasi bo‘ladi.

Toshkentda sentabrning 1-4 kunlari Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilari kengashi guruhining 46-yillik anjumani bo‘lib o‘tdi va unda ITB guruhiga a’zo 57 mamlakatdan vazirlar va rasmiylar, shuningdek, 2000 dan ortiq yirik biznes, bank-moliya vakillari hamda soha ekspertlari ishtirok etdi. Darhaqiqat, bunday yirik anjumanning Toshkentda o‘tkazilishi mamlakatimiz banklari va Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlash, O‘zbekistonda ham islom moliyasi tamoyillarining rivojlanishiga umid uyg‘otdi. Mazkur xalqaro anjuman doirasida O‘zbekiston va ITB o‘rtasida bir qator o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini kengaytirish bo‘yicha hujjatlar imzolandi. Xususan, Sammitda, ITB guruhi va o‘nta a’zo mamlakat o‘rtasida umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollariga teng 30 ta moliyaviy kelishuv imzolandi. Shundan 330 million dollariga teng mablag‘ O‘zbekiston manfaatlarini ko‘zlab sarflanadi.

Jamg‘armaning 200 mln dollarlik investitsiyalari “Obod qishloq dasturi”ga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. Kichik va o‘rta biznes hamda startap loyihalar, infratuzilmani modernizatsiyalash va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash orqali qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi chora-tadbirlar tufayli mamlakatda 100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi va 34 mingga yaqin kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyati tiklanadi.

Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.

Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash bo‘yicha Islom korporatsiyasi va “O‘zbekinvest” EISK AJ o‘rtasida sanoat, qishloq va kommunal xo‘jaligi, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalardagi ikki tomonlama va mintaqaviy investitsiya loyihalarini sug‘urta qilish va qayta sug‘urtalash sohasidagi hamkorlikni ko‘zda tutuvchi hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga bir qancha tashkilotlar kirib, shulardan Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (XSRIK) va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) O‘zbekiston banklari bilan hamkorlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 596-sonli qarori bilan O‘zbekiston HSRIKga azo bo‘lgan va 2006-yildan boshlab mahalliy tijorat banklari va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilib keladi. Xususan, Murobaxa (ustama haqi evaziga sotish) moliyalashtirish usuli orqali tijorat banklariga moliyalashtirish liniyalari ajratilgan. Ushbu liniyalardan O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o‘z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalanadilar.

Mazkur yo‘nalishda XSRIK shu kungacha 15 ta tijorat banklari va 2 ta lizing kompaniyasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va bugungi kungacha banklarga 285 million AQSh dollari miqdorida moliyalashtirish liniyalarini ajratish ma’qullangan.

O‘zbekistonda onkologik xizmatlarni rivojlantirish loyihasini qo‘llab-quvvatlash uchun 80 million dollar qarz shartnomasi imzolandi. Bundan tashqari, “Trastbank”, “Kapitalbank”, “Turonbank”, “Infinbank”, “Orient Finans bank”ning har biri bilan 10 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratish to‘g‘risida Bitim imzolandi. Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.



5-rasm: O‘zbekiston Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mintaqasida eng ko‘p musulmon aholiga ega[4]

4 Manba:Pew ResearchCenter and Moody’s Investors Service,2020

Yuqoridagi rasmdan ayonki, O‘zbekistonda islom moliyasi va bankchiligi rivojlanishi esa juda tez sur’atlarda bo‘ladi. Aholining 94 foizi musulmon va katta qismi dinga amal qiladi. Sababi 2021-yil aprel oyida online o‘tkazilgan so‘rovda 2235 nafar biznes vakili va 5 ming nafar jismoniy shaxs ishtirok etgan, unda respondentlarning biznes subektlarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning 56 foizi diniy qarashlari sabab an’anaviy bank kredit xizmatlaridan foydalanmasligini bildirgan.

Jalb qilingan mablag‘lardan O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o‘z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalanin kelmoqda. Misol uchun, Trastbank mijozlarga Murobaxa shartnomasi asosida xizmat ko‘rsatmoqda.



6-rasm: “Trastbank” XAB ning XISMK va XSRIK liniyalarini jalb qilish statistikasi

Yuqoridagi rasmdan yaqqol ko‘rinib turibdiki, “Trastbank” XAB5 banki yildan-yilga jalb qilingan resurslari ortib bormoqda. Bank XISMK tomondan ajratilayotgan kredit liniyalari 3 yilda deyarli 4 barobargacha oshira oldi. Bundan ayonki, bank ishonchli agent sifatida mablag‘larni samarali boshqarmoqda.

Islomda sudxo‘rlik, ya’ni pulni foizga berish orqali foyda olish taqiqlangan, an’anaviy bank tizimi esa foizlarga tayanadi. Diniy e’tiqodlarga tayangan, foiz, kredit va shu kabi bank xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami uchun Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank xizmatlari taklif etilsa, bu O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi va ichki investitsiya hajmining ortishiga katta turtki bo‘ladi, deb bemalol ayta olamiz. Bu tizimning joriy qilinishi O‘zbekistonda jamg‘arma va foydalanilmayotgan pul mablag‘larini bank tizimiga jalb qilish, xufiyona iqtisodiyot salmog‘ini kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

ITB O‘zbekistonning sinovdan o‘tgan ishonchli investorlaridan biridir. Hozirgi kunda respublikaning 10 ta tijorat banki ITBning faol hamkoridir. Bankning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari hajmi esa 2.5 mlrd dollardan oshadi.

Bu borada aniq ma’lumotlarni keltirish mumkin. Xususan, mening nomzodlik ishim doirasida, oliy o‘quv yurti talabalari va professor-o‘qituvchilari, tadbirkorlar va aholining boshqa qatlami o‘rtasida (jami 700 ga yaqin qatnashchilar) Islom moliyasi va bankchiligi to‘g‘risida fikr va mulohazalarni o‘rganish maqsadida shu yilning boshida so‘rovnoma o‘tkazildi va uning natijalari bo‘yicha shuni ayta olamanki, respondentlarning qariyb 90 foizi O‘zbekistonda Islom bankchiligini yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor yoki bunga ehtiyoj bor deb hisoblaydi. Shu bilan birga ta’kidlab o‘tishim joiz, O‘zbekistonda hali Islom moliyasi va bankchiligi haqida tushuncha va bilimlar yetarli emas, chunki bunday moliyalashtirish usullari hali keng tarqalmaganligi va tashviqot olib borilmaginini asosiy sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Islom moliyasi – qishloq xo‘jaligi va sanoati yaxshi bo‘lgan mamlakatlar uchun ajoyib vositadir. Chunki islom moliyasi real iqtisodiyot rivojlanishi va uning moliya sektori bilan muvozanatda bo‘lishi uchun qulay muhit yaratib beradi. Illo, an’anaviy iqtisodiyotda foizlar keltirib chiqargan bo‘sh pufaklarning yorilishi oqibatlarini bartaraf etish uchun doimiy ravishda inqirozlar siklini boshdan kechirishga majburmiz.

5 www.trastbank.uz

Diniy,shariat ahkomlariga tayangan foiz, kredit va shu kabi bank xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami uchun Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank ximatlari taklif etilsa, bu O‘zbekiston da islom moliya xizmatlarini keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishi va rivojlantirishiga ishonaman:

- Moliyalashtirish manbalarini ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun diversifikatsiyalash;
- O‘zbekistonda real ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;
- Yaqin Sharq va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan investitsion mablag‘larni jalb qilingan taqdirda O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita naflar;
- An’anaviy moliyalashtirish tomonidan lozim darajada qamrab olingan moliyalashtirish bozorining mavjudligi (kichik va o‘rta biznes subyektlari, agrar sektor);
- O‘zbekiston aholisining asosiy qismi islomga e’tiqod etgani sababli, mazkur moliyaviy mahsulotlarga barqaror talabning kutilishi;
- Muqobil moliyaviy mahsulotlar paydo bo‘lishi hisobiga aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi;
- Sudxorlik qarz yukini pasaytirish va mamlakatning tizim asosi bo‘la oladigan korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish maqsadida, mamlakatning davlat va xususiy korporativ sektori doirasida jahonda muvaffaqiyat bilan tatbiq etilayotgan vositalar va usullarni joriy etish imkoniyati Islomiy moliyalash asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, lizing xizmatlarini ko‘rsatish, mahsulotlar eksport geografiyasini kengayishi;
- Ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratilishi hamda kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturini amalga oshirishga katta hissa qo‘shadi deb hisoblayman.

Ushbu ishlarning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston islom moliyasi sohasida MDH davlatlari ichida yetakchi mamlakatga aylanishi shubhasiz. Bugungi kunda O‘zbekitonda sukuk bozorining rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud va juda qisqa davr ichida sukuk yordamida bir necha milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish mumkin:

- moliyalashtirish qiymati past darajada (masalan, Libor darajasida);
- mamlakatimizdagi loyihalarni daromad darajasi yuqori;
- bizning mintaqa bilan hamkorlikni kuchaytirmoqchi bo‘lgan Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan islom moliyasi asosida investorlarni jalb qilish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Iqtisod-moliya, 2003. – 304.
2. Omonov A.A va Karaliyev T.M. Pul, kredit va banklar. – T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, – 2018. – B.446.
3. Shayx Muhammad Taqi Usmoniy “Islom moliyalashtirishga kirish”. 2013-y.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. Toshkent “Hilol nashiryoti”. – 2020.
5. Chapra M.U “What is Islamic Economics?” – Jeddah 2001.
6. Islom fiqhi akademiyasi Kengashining qaror va tavsiyalari – fatvolar /M.F.Murtazin tarjimalari. – M.,2003. – 143-b.
7. Sayyid Manazir Ahsan Gilanii.Islam Ma’ashiyat. – Hyderabad,1947.
8. E.A.Baydaulet “Islomiy moliya asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston 2019-y.
9. R.I.Bekkin “Islom iqtisodiy modeli va zamon”.–Toshkent: O‘zbekiston 2019-y.
10. S.Xorun,B.Nursofiza“Islomiy moliyalar va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti”. – Toshkent 2014.
11. Mahmud Mannon “Islomiy iqtisod: Nazariya va amaliyot”.
12. Internet saytlari:

http://www.uba.uz – O‘zbekiston Banklar Asotsiatsiyasi rasmiy sayti.
http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
http://www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vebsayti.
http://www.prezident.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
http://www.bfa.uz – Bank-moliya akademiyasi rasmiy sayti.
http://www.icd.uz – Islom Taraqqiyot banki rasmiy sayti.
http://www.SBP.com – Pokiston Markaziy banki rasmiy sayti.
http://www.fitchRatings.com – Reyting agentligi.
http://www.TheBanker.com – Reyting agentligi.
http://www.banking-business.com – Reyting agentligi.
http://www.islommoliyasi.uz – Islom moliyasini.
http://www.trastbank.uz – “Trastbank” XAB ning rasmiy sayti.
http://www.kun.uz – Yangiliklar sayti.

ISLOM IQTISODIYOTINING MOHIYATI

Sayfullayev Sirojiddin Soli o‘g‘li
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Islom iqtisodining mohiyati ma’naviy mas’uliyatli bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdir. Ushbu maqolada uning o‘ziga xos jihatlaridan biri – shaxs va jamiyatning real ehtiyojlarini qondirish, islom iqtisodiy modelida boylikni adolatli taqsimlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy moliya, islom kapital bozori, murobaha, mushoraka, muzoraba.

Abstract: The essence of Islamic economy is to create a morally responsible market economy system. This article focuses on one of its unique aspects - meeting the real needs of individuals and society, fair distribution of wealth in the Islamic economic model.

Key words: Islamic finance, Islamic capital market, murabahah, musharaka, muzaraba.

Аннотация: Суть исламской экономики заключается в создании морально ответственной системы рыночной экономики. Данная статья посвящена одному из ее уникальных аспектов – удовлетворению реальных потребностей личности и общества, справедливому распределению богатства в исламской экономической модели.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский рынок капитала, мурабаха, мушарака, музараба.

1. KIRISH

“Islomiy moliya” haqida nima deyish mumkin?

Islom moliya tizimi islom ekotizimining bir qismi bo‘lib, mablag‘lardan foydalanish va taqsimlash jarayonida islom huquqi qoidalariga muvofiq iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, islomda qarz berish yoki qarz olish evaziga foyda olish man etilgan va barcha moliyaviy jarayonlar haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo‘lishi kerak. Insonga zarar etkazadigan sohalarni - masalan, qimor o‘yinlari, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqalarni moliyalashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.Deutsche Bank, HSBC, Citi va MasterCard islomiy moliya mahsulotlarini taklif qiladi. Nestle, Carrefour, Walmart va Whole Foods halol chakana mahsulotlarni sotadi. “Nielsen” global tadqiqoti natijalariga ko‘ra, iste’molchilarning 66 foizi halol mahsulotlar uchun ko‘proq pul to‘lashga tayyor. Yosh iste’molchilar esa yanada sodiqroq - ming yillikning 73 foizi halol mahsulot uchun ko‘proq pul to‘lashga tayyor. Shunday qilib, global transmilliy korporatsiyalar islom moliyasiga katta qiziqish bildirmoqda.Islom banklari loyihalarni moliyalashtirishdan foyda ko‘radi. Omonatchilar faqat dividendlarga e’tibor qaratadigan va o‘z mablag‘lari nimaga investitsiya qilinishini bilmaydigan an’anaviy banklardan farqli o‘laroq, islom banklarida omonatchi pul mablag‘larining kelajakdagi harakatini ko‘rishi mumkin, bu yerda mablag‘lar biznesga investitsiya qilinadi va foyda daromadga ketadi. bank va omonatchilar o‘rtasida taqsimlanadi Islomiy moliyalashtirish modellari qoidalaridan biri risklarni taqsimlashdir. Biznesda foyda bo‘lmasa, bank ham, mijoz ham foyda ko‘rmaydi. Ammo foyda bo‘lsa, u omonatchilar o‘rtasida sarmoyaga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Islom moliyasini tushunish uchun asosiy atamalar

Islomiy moliyani oson tushunishga yordam beradigan ba’zi atamalar:

- **Murobaha** tovar narxiga ustama qo‘yilgan yoki qo‘yilmagan halol muddatli to‘lovdir. Bunda islom banklari mahsulot va xizmatlarni sotib olish, so‘ngra ularni muddatli to‘lov evaziga sotish bilan shug‘ullanadilar.

- **Mushoraka** bir g‘oya yoki ishni birgalikda moliyalashtirishni anglatadi. Jismoniy shaxslar va korxonalar ishtirok etishlari mumkin. An’anaviy iqtisodiyotda bu sxema badal moliyalashtirish deb ataladi.
- **Muzoraba** - investor o‘z mablag‘larini kelajakda biznesni rivojlantirishda foydalanish uchun moliyaviy tashkilotga beradi. Foyda taqsimoti shartlari oldindan kelishib olinadi.

Islom banklarining paydo bo‘lish sabablari

Savdo-sanoat palatasi BMTTD bilan hamkorlikda o‘tkazgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘rovda qatnashgan biznes vakillarining 38 foizi va jismoniy shaxslarning 56 foizi diniy e’tiqodi tufayli an’anaviy banklardan kredit olmagan. Shu tariqa islom qoidalariga amal qiladigan moliyaviy tashkilotlarga talab paydo bo‘ldi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining baholashiga ko‘ra, islomiy moliyaning joriy etilishi budjetga qo‘shimcha 100 million dollar daromad keltiradi.

Bundan tashqari, ITB mamlakat iqtisodiyotiga faol sarmoya kiritmoqda. Masalan, joriy yilning sentabr oyida Islom taraqqiyot banki Surxondaryoda issiqlik elektr stansiyalari va transport infratuzilmasini qurish uchun O‘zbekistonga 200 million dollardan ortiq mablag‘ ajratdi.

Biroq bu sohaning jadal rivojlanishiga va O‘zbekiston aholisi uchun islom banklarining paydo bo‘lishiga qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazaning yo‘qligi, soliq va boshqaruv infratuzilmasining yo‘qligi, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligining pastligi to‘sqinlik qilmoqda. aholi, ayniqsa islomiy moliyalashtirish bilan bog‘liq.

Afsuski, Global Islamic Fintech kompaniyasining 2022-yil uchun yillik hisobotida 375 ta islom fintech kompaniyasi ro‘yxatida O‘zbekistondan faqat bitta tashkilot qayd etilgan.

1-jadval: Global islom Fintech hisoboti 2022

IDEAL REYTINGLAR	Amerika Qo‘shma Shtatlari	Business Intelligence
IFARMER	Bangladesh	Mablag‘larni jalb qilish
Ifin xizmatlari	Bahrain	Muqobil moliya
IGrow.asia	Indonezia	Mablag‘larni jalb qilish
Ila BANK	Bahrain	Depozitlar va kreditlar
IMAN	Uzbekistan	Mablag‘larni jalb qilish
INAIA	Germaniya	Boylikni boshqarish
IndiaZakat	Hindiston	Ijtimoiy moliya
Infinity Blockchain Ventures	Tailant	Faollashtirish texnologiyalari
Insha	Germaniya	Depozitlar va kreditlar
InvesProperti	Indonezia	Mablag‘larni jalb qilish

Bu O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatuvchi IMAN Invest kompaniyasi.Bugungi kunda berilgan ommaviy axborotga ko‘ra, Battary Road, Tesla Capital (jami 350 ming dollar), Uzcard Ventures va Uzcard VC (160 ming dollar), Le Mercier’s va MyAsia (45 ming dollar) , Umay Angels Club va Block 0 (70 000 dollar) venchur fondlari IMANga sarmoya kiritdi.

2-jadval: An’anaviy bank faoliyati va islom banki faoliyati o‘rtasidagi taqqoslashni sarhisob qilish

An’anaviy bank faoliyati	Islom banki faoliyati
Pul ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasidan boshqa tovardir. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish va ijaraga berish mumkin.	Pul tovar emas, balki u ayirboshlash vositasi va qiymat ombori sifatida ishlatiladi. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish yoki ijaraga berish mumkin emas.
Vaqt qiymati kapitalga foizlarni hisoblash uchun asosdir.	Tovarlarni sotish yoki xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar foyda olish uchun asosdir
Tashkilot bank mablag‘laridan foydalangan holda zarar ko‘rgan taqdirda ham foizlar undiriladi. Shuning uchun u foyda va zararni taqsimlashga asoslanmagan	Islom bank ishi foyda va zararni taqsimlash asosida ishlaydi. Agar tadbirkor zarar ko‘rgan bo‘lsa, bank ushbu zararni moliyalashtirish usuliga qarab taqsimlaydi.
Naqd pul bilan ta’minlash, aylanma mablag‘larni moliyalashtirish yoki moliyalashtirishda tovarlar va xizmatlar almashinuvi to‘g‘risidagi shartnoma tuzilmaydi.	Murabaha, Salom va Istisno shartnomalari bo‘yicha mablag‘larni taqsimlashda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo‘yicha shartnomalar bajarilishi kerak.
An’anaviy banklar puldan inflyatsiya tovar sifatida foydalanadilar	Islom bank ishi savdo bilan bog‘liq faoliyatdan foydalangan holda iqtisodiy tizimning real sektorlari bilan bog‘lanishga intiladi. Pul real aktivlarga bog‘langanligi sababli, u iqtisodiy rivojlanishga bevosita hissa qo‘shadi.

An’anaviy bank kredit berishga e’tibor qaratadi.	Islom banki asosiy e’tiborni sarmoyaga qaratadi.
An’anaviy banklar faqat moliyaviy mezonlar asosida ishlaydi.	Islom banklari sarmoya kiritishda axloqiy mezonlarga asoslanadi.
An’anaviy banklar faoliyati inson omiliga asoslanadi (asosan kapitalizm nazariyalari).	Islom banklarining faoliyati [8]islom shariati qoidalariga asoslanadi.
Investor yoki qarz beruvchi oldindan belgilangan foiz stavkasi bo‘yicha savdo qiladi yoki daromad olishni kafolatlaydi.	islom banklari kapital egasi va investor o‘rtasida risk taqsimotini tasdiqlaydi.
Derivativlar savdosi asosida foydani maksimallashtirishni tasdiqlaydi	Islom tomonidan cheklovlar mavjud bo‘lsa-da, u maksimal foyda olishga qaratilgan.
Zakot tizimi mavjud emas.	Zamonaviy islom bank tizimida islom banklari “zakot yig‘ish markazlari”ga aylanishga xizmat qiluvchi birlik sifatida ko‘riladi.
Ular qarzga pul berib, foiz bilan qaytarib olishadi. Pul - bu tovar va motivator	Ishtirok etish bo‘yicha hamkorlik mavjud. Korxonani tushunish juda muhimdir.
Tizim muntazam to‘lovlarni amalga oshirmaydiganlardan qo‘shimcha pul undirishi mumkin (masalan, jarimalar yoki oshirilgan foizlar).	Islom banklari kompensatsiyadan tashqari qo‘shimcha pul talab qilishga haqli emas. Bankning ixtiyoriga ko‘ra, erta to‘lovlar uchun naqd chegirma ham mavjud.
Ko‘pincha bankning manfaatlari birinchi o‘rinda turadi va kapitalning mutanosib o‘sishi maqsadi yo‘q.	Inson manfaatlari ustuvor va o‘sish tenglikka yo‘naltirilgan
Loyihani baholash ko‘p harakat talab etmaydi, chunki avans/qarzdan olinadigan daromad belgilangan. Shuning uchun risklar ma’lum ma’noda boshqa tomonga o‘tkazilishi mumkin	Foyda va zarar taqsimoti mavjud bo‘lgani uchun islom bankchiligida loyihalarni qo‘llash va baholashga ko‘proq e’tibor qaratish lozim.
An’anaviy banklar o‘z mijozlarining ishonchliligiga ko‘proq e’tibor berishadi.	Ular loyihalarning moliyaviy imkoniyatlariga e’tibor qaratadi.
O‘zaro munosabatlardagi tomonlar kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida belgilanadi.	Islom bankchiligidagi munosabatlar sheriklar, investorlar, treyderlar, xaridorlar va sotuvchilar sifatida belgilanadi.
An’anaviy banklar ularga qo‘yilgan barcha depozitlarga kafolat berishi kerak.	Islom banklari shaxsiy hisobvaraqlarga qo‘yilgan pul mablag‘larini kafolatlaydi, lekin mudaraba investitsiyalarini kafolatlamaydi, chunki ular boshqa tomonning zararlarini bo‘lishadi.

O‘tgan yilgi o‘sishni Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi va Malayziyadagi islom banklari aktivlari, muddati o‘tgan sukuk emissiyasi va islom fondlari sanoatidagi kuchli ko‘rsatkichlar qo‘llab-quvvatladi.



*To March 31, 2022. Source: Eikon,
Copyright © 2022 by Standard & Poor's Financial Services LLC. All rights reserved.

1-rasm: Agentlik shuningdek, 2022-yilda jami sukuk emissiyasi qisqarishini taxmin qilmoqda.

Umuman olganda, islomiy Fintech faoliyati 2025 yilga kelib tranzaksiyalarning umumiy hajmi 128 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda [1].

2020-yil boshida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi doirasida “O‘zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlar tahlili” bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, bank kreditlaridan foydalanmaslikning asosiy sabablari birinchi navbatda diniy qarashlar, kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining yuqoriligi va kreditlashning murakkabligi. Agar mamlakatda islomiy moliya instituti tashkil etilgan bo‘lsa, yuqoridagi so‘rovda qatnashgan ishtirokchilarning aksariyati ushbu muassasa xizmatlaridan foydalanishlari mumkinligini ta’kidlagan. Hatto an’anaviy banklar ham O‘zbekistonda islom moliya institutining tashkil etilishi moliya sohasida halol va shaffof raqobatni vujudga keltirishi, natijada mamlakatga investitsiyalar oqimining o‘sishi va diversifikatsiya qilinishiga olib kelishi haqida o‘z fikrlarini bildirishgan. Islom banklariga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga jamiyat uchun zararli, real aktivlarga asoslangan faoliyatning taqiqlangani, moliyaviy inqiroz xavfining pastligi sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish vaqti keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari mutaxassislari jalb etiladi”.

Islom banklari mablag‘larni foyda va zararni taqsimlash asosida safarbar qilsa, an’anaviy tijorat banklarida bunday tushuncha yo‘q, ular shunchaki qarzdor yoki kreditor munosabatlariga asoslanadi. An’anaviy banklar oldindan belgilangan qat’iy foiz stavkalari asosida shartnoma tuzadilar va shu bilan ularning daromadlarini kafolatlaydilar.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda islom moliya tizimi jahon bozorida o‘z mavqeyini qozongan va jahon iqtisodiyotini rivojlantirish muhimligini isbotlagan tizimdir. Boshqa moliya institutlari bilan teng raqobat qilish uchun islom banklari raqobatbardosh bo‘lishi va jismoniy shaxslar va korxonalarning talablariga javob berishi kerak. Islom banklari o‘zlari ko‘rsatayotgan xizmatlarda islom tamoyillari bilan bir qatorda boshqa ekologik omillar va bugungi global muammolarni ham hisobga olishlari kerak. Shunday qilib, islom banklarining moliyaviy xizmatlari iqtisodiy tarmoqlarda an’anaviy banklarga nisbatan ularning har bir muqobil mahsulotiga nisbatan samaraliroqdir.

XULOSA

Islom bank ishi va moliyasi bo‘yicha empirik tadqiqotlarni ko‘rib chiqish ushbu so‘rovning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, islom moliyasining maqsadi an’anaviy tizimning egosentrik mentalitetida yetishmayotgan ijtimoiy adolatni ta’minlash edi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik maqsadlarga kapitalni taqsimlash va moliyaviy qarorlar orqali erishish tushunchasi shuning uchun islom moliya tizimining asosini tashkil etadi. Ushbu sharhda islom moliyasi va buxgalteriya hisobining bir qancha konseptual qurilish bloklari, tranzaktsion munosabatlarga yo‘naltirilgan islom iqtisodining bo‘limi, islom banklarini rivojlantirish institutlari va global islom Fintech filiallari yoritilgan.

Ularga quyidagilar kiradi: FinTech, islomiy moliya sug‘urtasi, islomiy moliya loyihasi va islom kapital bozori

Adabiyotlar:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/
2. https://www.bukhari.uz/?p=22678
3. https://www.isdb.org/uzbekistan
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Islamic_banking_and_finance
5. https://www.researchgate.net/publication/333698447_A_Contemporary_Review_of_Islamic_Finance_and_Accounting_Literature

BUDJET MABLAG‘LARINI TAQSIMLANISHI VA MAQSADLI SARFLANISHIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINING SAMARADORLIGI

G‘ofurov Bekzod Fayzulla o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Budjet mablag‘larining samarali sarflanishi ustidan moliyaviy va jamoatchilik nazorati, Moliyaning nazorat, taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi, fuqarolarning budjet mablag‘lari ishlatilishidagi ishtirokini oshirish to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati, qo‘shimcha manbalar, “Ochiq budjet”, moliyaning nazorat funksiyasi, taqsimlash funksiyasi.

Abstract: Financial and public control over the effective use of budget funds, control, distribution and redistribution function of finance, and increasing participation of citizens in the use of budget funds.

Key words: public control, additional sources, “Open budget”, control function of finance, distribution function.

Аннотация: Финансовый и общественный контроль за эффективным использованием бюджетных средств, контрольная, распределительная и перераспределительная функция финансов, повышение участия граждан в использовании бюджетных средств.

Ключевые слова: общественный контроль, дополнительные источники, “Открытый бюджет”, контрольная функция финансов, распределительная функция.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon” deya ta’kidladilar [1].

Bugungi kunda budjet mablag‘larining samarali sarflanishi nafaqat davlatni, balki fuqarolarning ham budjet mablag‘lari ishlatilishidagi ishtirokini oshirishga va dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qaror (farmoyish) loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun uni 10 kun muddatga “E-qaror” elektron tizimiga joylashtirish amaliyotining yo‘lga qo‘yilishi tuman va shahar budjeti qo‘shimcha manbalaridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini o‘rnatib, mablag‘larning maqsadli sarflanishiga va eng avvalo dolzarb masalalar uchun yo‘naltirilishiga imkon yaratdi.

Dastlab, tajriba tariqasida 2021-yilning may oyidan boshlab 14 ta tuman (shahar) budjetini shakllantirishda xarajatlarning 5 foizini bevosita aholining fikrini inobatga olib, mahallalardagi muammolarni hal etishga yo‘naltirish tizimi joriy etilgan bo‘lsa [2], 2022-yilda barcha tuman va shahar budjetida ushbu maqsaddagi mablag‘lar ko‘zda tutildi.

Ushbu jarayonlarning ochiq va shaffofligini ta’minlash maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent

shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining hisobotlarini Oliy Majlis Senatida har chorak yakunida eshitib borish, tashabbusli budjet jarayoni ijrosi yuzasidan hisobotlarni majburiy tartibda tuman va shahar hokimliklari saytida e'lon qilish tartibi joriy etildi [3].

Jamoatchilik nazorati doirasida 2021-yilgi "Tashabbusli budjet" jarayonida Respublika bo'yicha jami 41 ming 125 ta takliflar kelib tushgan bo'lib shundan 1 599 ta loyiha eng ko'p ovoz to'plab g'olib deb topilgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 530 mlrd 500 mln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan.

2022-yilning 1 va 2 mavsumlarida 131 265 ta takliflar kelib tushgan bo'lib, shundan 3 365 ta loyihalar eng ko'p ovoz to'plab g'olib deb topilgan.



1-jadval: Tashabbusli budjet jarayoni 2023-yil 1-mavsum [10]

Joriy yil birinchi mavsum doirasida "Ochiq budjet" axborot portalida ovoz berish va tanlash natijasiga ko'ra qiymati 1,5 trln so'm bo'lgan 1 666 ta loyiha g'olib deb topildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ–117-sonli qaroriga asosan tashabbusli budjetda faol ishtirok etgan fuqarolarni yanada rag'batlantirish va ko'p ovoz to'plagan loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, ammo g'olib deb topilmagan 1309 ta loyihaga respublika budjetidan qo'shimcha ravishda 1,3 trln so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Bu esa qo'shimcha ravishda 1 182 ta mahalla bo'yicha 4,3 mln nafar fuqaro ovoz bergan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha fuqarolarning budjet jarayoniga jalb etilishi hamda tashabbusli budjetlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi samaradorligi yuzasidan hududlar reytingi shakllantirildi. Baholash natijalariga ko'ra, 60 ta tuman va shahar 71 dan 100 gacha ball to'plab – "yashil hudud", 94 ta tuman va shahar 55 dan 71 gacha ball to'plab – "sariq hudud", 54 ta tuman va shahar 55 dan past ball to'plagan holda – "qizil hudud" deb topildi.

Tashabbusli budjetlashtirish doirasida joriy yilning 7 may kuni yana bir muhim jarayon – "Ochiq budjet" axborot portali orqali tuman (shahar) budjetlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish maqsadida "Mening yo'lim" loyihasi yakunlandi.

Ovoz berish jarayonida Respublika bo'yicha 5 159 ta mahalladan jami 10 ming 317 ta takliflar ilgari surilib, 8 mln 100 ming nafarga yaqin fuqarolar ishtirok etdi va ular tomonidan ilgari surilgan va eng ko'p ovoz to'plagan 473 ta mahallalardagi 519 ta loyiha g'olib deb topildi. 519 ta loyihalar uchun 3 mln 677 mingdan ko'proq ovoz berildi.



2-jadval: Mening yo‘lim 2023-yil 1-mavsum ma’lumotlari [10]

Hududlar kesimida eng ko‘p g‘olib loyihalar Toshkent viloyati (55 ta), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (54 ta), Samarqand (40 ta) va Andijon (40 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

G‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika bo‘yicha 412,4mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Ikkinchi mavsumda esa “Ochiq budjet” portali orqali eng ko‘p ovoz berilgan va g‘olib deb topilgan loyihalar soni 1 193 tani tashkil etdi, ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 trln 424 mln so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Ovoz berish jarayonida Respublika bo‘yicha 9 435 ta mahalladan jami ilgari surilgan 49 ming 464 ta takliflardar saralash jarayonida 33 ming 489 ta loyiha tasdiqlandi ushbu loyihalarga jami 18 mln 115 mingdan ortiq ovozlar berildi, eng ko‘p ovoz to‘plagan bir mingdan ortiq mahallalardagi (shundan 293 ta mahalla ilk bor g‘olib deb topildi) 1 193 ta loyiha g‘olib deb topildi, ushbu loyihalar uchun 6 mln 304 mingdan ko‘proq ovoz berildi [4].



3-jadval: Tashabbusli budjet jarayoni 2023-yil 2-mavsum [10]

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadidagi tashabbusli budjetlashtirish jarayoni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, jamoatchilik fikri asosida budjetlashtirish mexanizmlarini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, shu bilan birga aholi punktlarida ijtimoiy va inson kapitalini, va ajratilayotgan mablag‘lar ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdir.

Budjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali fuqarolar budjet mablag‘lari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatib, ijtimoiy o‘zgarishlarning ishtirokchilariga aylanishadi. Birgalikda ishlash, turli xil loyihalarni muhokama qilish orqali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bahsli masalalarga umumiy yechim izlashni o‘rganadilar.

Hukumat, biznes va aholining hamkorlikdagi faoliyati kuchayadi, aholi va biznes tomonidan birgalikda moliyalashtirishni nazarda tutadigan umumiy ishtirok va javobgarlik shakllanadi. Loyihani amalga oshirish uchun hattoki minimal budjet mablag‘ining kiritilishi jamoatchilik ishlarida mas’uliyat bilan yondashuvni nazarda tutadi, loyihani amalga oshirish jarayonida fuqarolarning faolligini oshiradi.

Jamiyatda, ya’ni aholi o‘rtasida turli ijtimoiy guruhlarning mavjudligi. Insoniyat rivojlanishi, ya’ni demografik holati aholining ijtimoiy guruhlarga bo‘linishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida jamiyatda ko‘p farzandli oilalar, nafaqaxo‘rlarning mavjudligi obyektiv omildir. Bunday guruhlarni ijtimoiy tomondan himoya qilish davlatning burchi hisoblanadi. Buni amalga oshirishda davlat eng avvalo budjet mablag‘laridan foydalanadi. Jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliya yordamida qayta taqsimlanishi natijasida umumdavlat fondlari, ya’ni budjetlar hamda budjetdan tashqari fondlar shakllantiriladi. Bunday qayta taqsimlash natijasida nomoddiy sohada band bo‘lgan shaxslar moliya mablag‘lari bilan ta’minlanadi. Jamiyatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlash natijasida iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining manfaatlari hisobga olinadi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga e’tibor qaratiladi [5]. Ushbu holatni O‘zbekiston Respublikasiga taqqoslasak, hozirda mamlakatimizda 60 foiz aholi qishloq joylarida istiqomat qilishi va eksport tarkibida qishloq xo‘jalik mahsulotlari asosiy ulushni egallashi sababli qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirib, moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi quyidagilarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi deb xulosa qilishimiz mumkin:

- xo‘jalik subyektlari va davlat miqyosida pul fondlari tashkil etiladi;
- faqat maqsadli pul fondlari tashkil etiladi;
- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o‘rtasida moliya mablag‘larining qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi;
- mamlakat aholisining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasida moliya mablag‘lari qayta taqsimlanadi;
- xo‘jalik subyektlari va davlat miqyosida zarur zaxira fondlari tashkil etiladi [6].

Budjet xarajatlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish. Davlat budjeti bilan bog‘langan har qanday islohotlar tizimi puxta, keng o‘ylangan va aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bo‘lishi kerak. Mazkur davlat budjeti islohotlarining markaziy o‘rnida budjet loyihasini rejalashtirish eng asosiy, kerak bo‘lsa, butun mamlakat taqdirini hal qiluvchi (ayniqsa, o‘tish davriga xos mamlakatlar uchun) kuch sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Budjetni rejalashtirishning asosiy obyektiga yo‘naltirishning eng muhim bu unga sarflanayotgan xarajat hisoblanadi. Shu boisdan, amalga oshirilayotgan xarajatlarni ma’lum majburiyatlarini mustahkamlash (yoki yuklatish) evaziga ham tayanish mumkin.

Budjet xarajatlarining bugungi kunda miqdor ko‘rsatkichlari e’tibor markazida asosiy o‘rin olib kelmoqda, ammo sifat jihatdan esa biroz oqsoqlanishlar mavjud. Budjet xarajatlarining sifat jihatlari makroiqtisodiy miqyosda sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sabab bo‘ladigan jihat hisoblanadi. Jahon amaliyotida budjet xarajatlarining sifat jihatiga “xarajatlarga oid majburiyatlar” atamasi bilan talqin etilmoqda [7].

Aynan, xarajatlarga oid majburiyatlar budjet xarajatlarining sifat jihatiga aylanishi, bunda amalga oshirilayotgan har bir xarajatlar ma’lum bir majburiyatlar asosida (aniq maqsad va kutilayotgan natija) amalga oshiriladi. Mazkur holat budjet xarajatlari uchun huquqiy mexanizm vazifasini bajaradi. Budjet mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlarni xarajatlarga oid majburiyatlarni qabul qilish yo‘li bilan rasmiylashtirish olib borilayotgan budjet siyosatining barqarorligi va izchilligini ta’minlaydi. Xarajatlarga oid majburiyatlarni qabul qilish davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga biriktirilgan vakolatlar va funksiyalarga muvofiq amalga oshiriladi. Albatta, har bir islohot bir moliya yilida o‘z natijasini ko‘rsatishi mushkul, ayniqsa, budjet xizmati sohasida. Shu bois, xarajatni taqsimlashdan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilar uchun majburiyatlarni yuklash ham ulardan natija kutish bir moliya yili doirasidan o‘rta muddatga (qoida tariqasida 3-5 yil) mo‘ljallangan budjet amaliyotiga o‘tish sari yetaklaydi. Budjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklovchi bir qator kamchiliklar mavjud, ular:

1. Joriy smetali rejalashtirish budjetdan moliyalashtirilgan xizmat (ish, tovar)larning natijalarini aniqlash imkoniyati juda ham murakkab kechmoqda. Joriy tizimda amalda sarflangan xarajatlarning o‘zi va tejalgan mablag‘gina natijalar sifatida qabul qilinmoqda. Mazkur yondashuv budjetdan moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoniyatini bermaydi. U faqat mablag‘lar maqsadli sarflanishini ta’minlash, moliyalashtirishning rejalashtirilgan va amaldagi summasini taqqoslash imkoniyatini beradi xolos.
2. Joriy budjetni rejalashtirish bir yil bilan chegaralanib, amalda budjet siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning joriy yil doirasidan chetga chiquvchi ustuvor vazifalari va maqsadlariga erishishga yo‘naltirish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Natijada o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan milliy va hududiy dasturlar aksariyat hollarda budjet imkoniyatlari bilan bog‘lanmay qolmoqda. Bu esa, ularni bajarish muddatlarini qayta ko‘rilishiga va dastur tadbirlariga o‘zgartirishlar kiritilishiga olib kelmoqda.
3. Amaldagi budjet uzoq muddatli investitsiya dasturlari (kapital qo‘yilmalar) bilan uzviy darajada bog‘lanish imkoniyatining chegaralanib qolganligi. Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar (yangi quvvatlarni yaratish, amaldagi obyektlarni asbob-uskunalar bilan jihozlash) ishga tushirilganidan so‘ng ularni joriy ta’minlashga xarajatlar talab qiladi. Ammo, yangi obyektlarning ishga tushirilishi budjet prognozi bilan bog‘lanmagan, ya’ni unda mazkur obyektlarni joriy ta’mirlash xarajatlar hisobga olinmagan hollar uchramoqda. Natijada moliya yili mobaynida mazkur obyektlarni moliyaviy ta’minlashga qo‘shimcha mablag‘larni topish (shu jumladan rejaga muvofiq ajratilgan mablag‘larni qayta taqsimlash yo‘li bilan) to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi. Davlat xarajatlari va qabul qilinayotgan (amalga oshirilayotgan) dasturlarning o‘zaro nomuvofiqligi muammolari budjetni rejalashtirish asosan joriy vazifalarni xal qilishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Bunda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli davrlarda rejalashtirilgan budjet xarajatlari bilan erishilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar to‘la hisobga olinmaydi.
4. Qonunchilikda mavjud kamchiliklar, budjet va turli dasturlar o‘rtasidagi aloqani belgilovchi huquqiy normalar va mexanizmlar mukammal emasligi, shuningdek, budjet mablag‘laridan foydalanishning samaradorlik darajasiga baho berishda ma’lum metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilmaganligi sababli ko‘p hollarda samaradorlik va budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish prinsipi bilan o‘zaro almashtirish yuz bermoqda.
5. Davlat budjeti samaradorligining turli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga (bandlik, inflyatsiya, foiz stavkasi, narxlar darajasi va boshqalar) qarab uning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatidagi roli haqida gapirish o‘rinli. Makrodarajadagi ko‘rsatkichlarning turli tavsifga ega ekanligi ham budjet xarajatlarining samaradorlik darajasini o‘lchashda muayyan noaniqlik yuzaga kelishini anglatadi. Buning ustiga umumiy makroko‘rsatkichlar asosan informativ va tahliliy xususiyat kasb etadi, ularni muayyan shaxslarning harakatlari, kimningdir shaxsiy javobgarligi bilan bog‘lash mumkin emas, ma’lum bir davlat muassasasi faoliyati bilan bog‘lash ham mushkul hisoblanadi. Ayni vaqtda davlat budjeti davlat mablag‘laridan aniq va maqsadli foydalanish uchun asosiy moliyaviy reja sifatida xizmat qiladi. Mazkur rejani amalga oshirishda budjet xarajatlarining samaradorlik darajasini aniqlash zaruriyati yuzaga chiqadi va quyidagi holatlarga duch kelishi muqarrar bo‘lib qoladi: davlat mablag‘lari pirovard natijada nimaga sarflangan, bu xarajatlar qanday natija bermoqda, pirovard natijalar va amalga oshirilgan xarajatlarning o‘zaro nisbati qanday kechmoqda? Bu yerda asosiy urg‘u budjet mablag‘larini sarflash uchun shaxsiy va institutsional javobgarlik muammolarini yechish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha mavjud bo‘lgan, o‘tgan moliya yil uchun budjetning xarajatlar moddalariga doir hisobot ma’lumotlariga asoslanadigan budjet xarajatlarini “smetali rejalashtirish” usuli moliyalashtirish natijalarini aniqlash muammosini amalda chetlab o‘tadi [8].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xarajatlarning o‘zi natija sifatida amal qiladi va bunday sharoitda budjet xarajatlarini moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoni cheklanadi. Budjet xarajatlarini rejalashtirishning smetali tartibi mablag‘lar maqsadli sarflanishini ta’minlash va moliyalashtirishning rejada belgilangan va amaldagi summalarini taqqoslash imkoniyatini beradi. Bu faktlar rejalashtirish va moliyalashtirishning hozirgi tizimi doirasida, albatta, foydali, lekin budjet xarajatlarining samaradorlik darajasini aniqlash imkoniyatini amalda hal qilib bermaydi. Bunday yondashuvda hisobot smetasi o‘z-o‘zidan rejali smetani vujudga keltiradi va bunday o‘rin almashish cheksiz davom etishi mumkin. Shunday qilib, yillik budjet doirasida budjet xarajatlarining samaradorlik darajasini aniqlash amalda mumkin emas, chunki muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning ko‘p qismi barchasi uzoqroq muddatda amalga oshiriladi.

Moliyaning nazorat funksiyasi jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni tegishli fondlar bo‘yicha taqsimlanishi hamda maqsadli fond mablag‘larining sarflanishini nazorat qilish bilan bog‘liqdir. Nazorat funksiyasi moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi bilan uyg‘unlashgan holda amal qiladi. Moliya nazorati milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasini va nomoddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Moliya nazoratining maqsadi moddiy, mehnat va moliya resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish hamda xo‘jasizlikning oldini olishdir. Moliya nazoratining asosiy vazifasi xo‘jalik subyektlarining o‘zaro hisob-kitoblari majburiyatlarini, qonunchilikdagi budjet tizimini va soliq xizmatlari oldidagi moliya majburiyatlarini bajarishga rioya etilishini ta’minlash hisoblanadi. Moliya nazoratining yuzaga chiqishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni boshlanishidan avval turli budjetlar va moliya dasturlarini ishlab chiqishda;
- shakllantirilgan turli pul mablag‘lari fondlarini, ya’ni budjet, smeta va moliya rejalarini sarflanishida;
- pul mablag‘lari fondlarining bajarilishini baholashda va faoliyat natijalarini yakuniy hisob-kitob qilishda [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/uz/lists/view/5774.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qarori hamda Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi KQ-334-IV-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Budjet” portali https://openbudget.uz
5. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник / Романовский В. М. и др.; под ред. Врублевский О.В. – М.: Юрайт-издат, 2006.
6. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
7. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti, – 804 bet.
8. Malikov T.S., Haydarov N.H. “Davlat byujeti”. O‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYa” – Toshkent. TMI. 2007-y.
9. Rashidov O.Yu., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar: Darslik. –T.: TDIU, 2009. –439 b.
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari https://www.imv.uz

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA TARIF VA NOTARIF MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ja’sur Umirzoqov Artiqboy o‘g‘li
PhD, Toshkent moliya instituti dots.nti v.b.

Annotatsiya: Maqolada maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozabadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. O‘zbekistonda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faollikning rivojlanish holati tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari asosida maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozabadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zona, investitsion muhit, investitsion faollik, eksport zonalari, imtiyozlar paketi, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya, yosh tadbirkorlik subyekti, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi, subvensiya.

Abstract: The article explores the possibilities of using specific and non-specific mechanisms to increase the attractiveness of the investment environment of special economic zones. The state of development of investment activity in youth industrial and entrepreneurship zones in Uzbekistan is analyzed. Based on the results of the research, proposals and recommendations on the use of specific and non-specific mechanisms to increase the attractiveness of the investment environment of special economic zones have been developed.

Key words: special economic zone, investment environment, investment activity, export zones, package of benefits, direct investment, young entrepreneur, youth industrial and entrepreneurship zone, subsidy.

Аннотация: В статье исследуются возможности использования специфических и неспецифических механизмов повышения привлекательности инвестиционной среды особых экономических зон. Проанализировано состояние развития инвестиционной деятельности в молодежных промышленных и предпринимательских зонах Узбекистана. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по использованию конкретных и неспецифических механизмов повышения привлекательности инвестиционной среды особых экономических зон.

Ключевые слова: особая экономическая зона, инвестиционная среда, инвестиционная деятельность, экспортные зоны, пакет льгот, прямые инвестиции, молодой предприниматель, молодежная индустриально-предпринимательская зона, субсидия.

KIRISH

Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishdagi tarif va notarif mexanizmlarning umumiy guruhlanishidagi soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Sababi, maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari yuqori qo‘shilgan qo‘ymatga ega, mahalliylashtirish dasturlari asosida va eksportga tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida mazkur sohalar orqali qo‘llab-quvvatlashga muhtoj hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligiga soliq va boxjona imtiyozlarining ta’siridan ma’lum bo‘ladiki, ushbu zonalarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga soliq va bojxona imtiyozlari bevosita ta’sir etadi. Ammo, oldingi bobda ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi PF-6011-son Farmoni bilan barcha soliq va bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar muddatidan oldin bekor qilinishi investitsion faollikka jiddiy salbiy ta’sir etgan. Shuningdek, yangi qabul qilingan “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunning 39-bandida “to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga respublika budjetidan qoplab berilishi” va mazkur tartib Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ta’kidlangan. Ammo, mazkur tartib yangi tahrirdagi Soliq kodeksi normalariga zid degan salbiy xulosa sababli qabul qilinmasdan kelinmoqda. Shu sababli, mazkur qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf qilish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga berilgan soliq va bojxona to‘lovlaridan imtiyozlarni tiklash normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ko‘pgina iqtisodchi olimlar maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligiga davlatlarning xalqaro reytinglardagi o‘rni sezilarli ta’siri qilishini ta’kidlaydi. Jumladan, A. Bárcena, L. Lórez, M. Dirven, S. Malchik muallifligida chop etilgan “Foreign Investment in Latin America and the Caribbean” nomli ilmiy-tahliliy qo‘llanmada Lotin Amerikasi davlatlarining xalqaro reytinglardagi o‘rni tahlil etilgan, ularning reytinglardagi pog‘onasi mintaqada joylashgan erkin iqtisodiy zonalardagi xorijiy investitsiyalar oqimiga ko‘rsatgan ta’siri baholangan. Qolaversa, mazkur mintaqa hududida tashkil topgan offor zonalardagi noqonuniy daromadalarning keskin oshishi Lotin Amerikasi davlatlari (Argentina, Braziliya, Meksika) hududida faoliyat olib borayotgan maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi ta’kidlangan [1].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan V. I. Baronov va G. M. Kostyunina tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida [2] maxsus iqtisodiy zonalarning samarali faoliyatini ta’minlashning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Unga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning zamonaviy tundensiyalarini hisobga olib, quyidagi omillar ularning rivojlanishi va investitsion faolligini ta’minlashga bevosita ta’sir etadi: joylashuv joyi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, fiskal, moliyaviy va ma’muriy “imtiyozlar paketi”, ma’muriy tartib-taomillarning shaffofligi (shu jumladan, “yagona darcha” tamoyiligidan ish olib borish tizimi).

Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar jalb etishni o‘rgangan respublikamiz olimlaridan professor J. Karimqulovning ilmiy ishlarida ushbu sanoat zonalarining investitsion faolligiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan. Ushbu sanoat hududlarining investitsion faolligini oshirishda ularda beriladigan moliyaviy imtiyozlarni “vaqt omili”dan Hindiston tajribasidan kelib chiqib, “hudud omili”ga o‘tkazish taklif etilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyekti bo‘icha so‘rovnomalar va dala tadqiqotlarini olib borish, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, maqoladagi statistik ma’lumotlarni tahlil etishda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, Namangan viloyati, Davlatobod tumani hokimligining ma’lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maxsus iqtisodiy zonalar o‘zining tashkil etish va rivojlanish xususiyatiga ko‘ra, muayyan imtiyozlardan foydlanishni nazarada tutadi. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsion faollikni oshirish motivlarining ichida eng muhimlaridan, ya’ni ushbu hududlarning investitsion jozibadorligini ta’minlovchi – tarif va notarif mexanizmlar ularning investitsion faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta’kidash kerakki, maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishga qaratilgan tarif va notarif mexanizmlarning quyidagi jadvalda umumiy tarzda ifodalash mumkin:

1-jadval: Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishdagi tarif va notarif mexanizmlarning umumiy guruhlanishi [6]

Mexanizmlar		Dastaklar	Qo‘llash sohasi	
			Import	Eskport
Tarif		Bojxona bojlari		+
		Tarif kvotasi	+	
Notarif	Miqdopiy	Kvotalash		+
		Litsenziyalash	+	+
		Ekspoptni ixtiyoriy cheklash	+	
	Yashipin	Davlat xaridlari		+
		Mahalliy komponentlarni ushlab turish		+
		Texnik to‘siqlar		+
		Soliqlar va yig‘imlar		+
	Moliyaviy	Subsidiyalar	+	
		Kreditlash	+	
		Demping	+	

Maxsus iqtisodiy zonalar, xususan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faollikni oshirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan tadqiqot ob’ekti sifatida tanlab olingan yoshlar sanoat va

tadbirkorlik zonasidagi ishtirokichlar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy investorlar, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining mazkur sohaga mas'ul vakillari bilan uchrashuvlar, suhbat-intervyular, so'rovnomalar o'tkazilishi natijasida sanoat zonalarining faoliyatini tashkil etishdagi muammolar, bu borada ularning faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faollikka ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar sirasiga: soliq, bojxona, valyuta rejimlarining amal qilishi, tadbirkorlar va investorlar qonuniy manfaatlarining himoyalanganligi, zonalardagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi infratuzilmaning shakllantirilganligi, zonalarga davlatninng ma'muriy aralashuvi darajasi, davlatning iqtisodiy rivojlanish holati (makroiqtisodiy vaziyat), korrpupsiya darajasi, adolatlilik va qonun ustuvorligi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi kabilarni kiritish mumkin. Yuqoridagi omillar tahlili yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar quyidagilardan iborat bo'ldi. Ya'ni, bugungi kunda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokichlari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun yo'naltirayotgan investitsiyalar umumiy moliyalashtirish manbasining asosiy qismini tashkil etmoqda.

2-jadval: Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning moliyalashtirish manbalari taqsimoti, (20.01.2022-y.) [11]

Loyihalar holati		Umumiy qiymati, mlrd. so'm O'z mablag'lari, mlrd. so'm	Moliyalashtipish manbalapi					
			Jamag'armadan * kpedit mablag'lari		Tijorat banklarining kredit mablag'alari		Xorijiy investitsiyalar, ming. doll.	
			Milliy valyutada, mlrd. so'm	Xopijiy valyutada, ming doll.	Milliy valyutada, mlrd. so'm	Xopijiy valyutada, ming. doll.		
№	1	2	3	4	5	6	7	8
1	Amalga oshirilgan	663,01	564,8	27,7	130,0	34,05	150,0	3 150
2	Amalga oshirilayotgan	2 768,9	1 945,3	270,4	2 862	303,4	7 910	13 968
3	Istiqbolli	2 360,5	1 370,06	601,03	15 571	93,1	12 383	0
Jami		5 792,5	3 880,2	899,3	18 563	430,6	20 443	17 118
Jami nisbatan, %			67	15,5		7,4		
Loyihalar holatiga nisbatan***								
4	Amalga oshirilgan		9,8	0,5	**	0,6	**	**
5	Amalga oshirilayotgan		33,6	4,7	**	5,2	**	**
6	Istiqbolli		23,7	10,4	**	1,6	**	**

* Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.

** Kredit mablag'alari xorijiy valyutada bo'lganligi sababli jami nisbatan ulushi milliy valyutada hisoblangan moliyalashtirish manbalarining jami ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

*** Loyihalar holati bo'yicha moliyalashtirish manbalari (milliy valyutada) kechimida jamiga nisbatan hisoblanib, ularning yig'indisi moliyalashtirish manbalari turlarining umumiy ulushiga teng deb qaraladi. Ya'ni, 4+5+6 satrlar yig'indisi 3 ustunga teng bo'ladi.

Respublika bo'yicha yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan, istiqbolli loyihalar bo'yicha yosh tadbirkorlik sub'ektlarining o'z mablag'lari jami moliyalashtirish manbalari tarkibida 67 foizni tashkil etmoqda. Jamg'arma mablag'lari hisobidan to'g'ridan-to'g'ri berilgan milliy valyutadagi kredit mablag'lari esa 15,5 foiz, tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kredit mablag'lari 7,4 foizni tashkil etgan.

Albata, moliyalashtirish tarkibida o'z mablag'larining yuqori ulushga ega ekanligi mahalliy investorlar hisoblangan yosh tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion faolligidan dalolatdir. Ammo, ahamiyatlisi, va o'tkazilgan so'rovnomalardan aniqlanishicha, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokichlariga maxsus iqtisodiy zonalar yoki kichik sanoat zonalari ishtirokichlariga investitsion majburiyatlar evaziga beriladigan imtiyozli rejim qo'llanilmasligi ma'lum bo'ldi. Bu borada, tadqiqot ob'ekti bo'lgan Namangan viloyatida tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokichlari (investorlar) bilan o'tkazilgan intervyu va so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularga soliq, bojxona va boshqa ma'muriy "imtiyozlar paketi"ning taqdim etilishi kelgusida ushbu sanoat zonalari investitsion faolligini oshirishga xizmat qilishini alohida qayd etishgan.



1-rasm: “Imtiyozlar sanoat zonalari investitsion faolligiga ta’sir qiladimi?” nomli so‘rovnoma natijalari [7]

“Imtiyozlar sanoat zonalari investitsion faolligiga ta’sir qiladimi?” nomli so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, imtiyozlarning investitsion faollikka ta’siri borligini ta’kidlagan rezidentlar

70 foizdan yuqori, mazkur imtiyozlarning eksport faoliyatiga ijobiy ta’sirini ta’kidlagan rezidentlar – 13 foiz, imtiyozlar berilishining yangi ish o‘rinlarini yaratishga ta’sirini ta’kidlagan ishtirokchilar – 6 foiz, imtiyozlarning investitsion faollikka ta’sir etmasligini bildirganlar – 9 foizni tashkil etgan. Xulosa va takliflar. Umuman olganda, maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar, shu jumladan soliq va bojxona, valyuta va boshqa turdagi imtiyozlarni qo‘llashda “tartibga solish gilotinasi” usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy o‘sishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida amaliyotga joriy etilgan “tartibga solish gilotinasi” prinsipi 1980 yilda Shvetsiyada ishlab chiqilgan. Ushbu usulining asosiy g‘oyasi esa qisqa muddatlarda amaldagi normativ-huquqiy bazani xatlovdan o‘tkazish va uning natijasida qonunchilikka zid bo‘lgan (bir biriga zid bo‘lgan), iqtisodiy samarasiz, amalda o‘z axamiyatini yo‘qotgan, amalga oshirilishi otrtiqcha xarajatlar talab qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish xisoblanadi.

“Tartibga solish gilotinasi” usulini amalga oshirish maqsadlari:

- investitsiyalarni jalb etish borasidagi ko‘p sonli va samarasiz tartib-qoidalarni tezda bartaraf etish uchun siyosiy va ma’muriy xarajatlarni imkon qadar kamaytirish;
- investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun faol investitsion muhitni ta’minlash;
- investitsion munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha “xavfsiz” reestrni o‘rnatish orqali kelgusida sifat nazorati va huquqni qo‘llash uchun barqaror investitsion muhitni ta’minlash jarayoni modelini ishlab chiqish;
- institutsional infratuzilmani yaratish, shu jumladan vazirliklararo muvofiqlashtirish va hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish, islohotlar mexanizmini kuchaytirish va tartibga solish islohotlarini samarali amalga oshirish maqsadida tartibga solish tahlilini o‘tkazish imkoniyatini ta’minlash.

“Tartibga solish gilotinasi” qanday amalga oshiriladi? Ushbu usulning bugungi kundagi talqini Jacobs, Cardowa & Associates [8] tomonidan Shvetsiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasiga asoslangan xolda ishlab chiqilgan. “Tartibga solish gilotinasi” usuli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Hukumat (islohot qilish vazifasi yuklangan boshqa organ, ishchi guruh) “tartibga soluvchi gilotina” maqsadini belgilaydi.
2. Mas’ul organ (ishchi guruh) hukumat talabiga binoan belgilangan muddatda “gilotina” mavzusiga oid barcha normativ hujjatlar ro‘yhatini taqdim etadi. Shu bilan birga, har bir normativ hujjatda ushbu aktning zaruriyati, qonuniyligi baholanadigan mantiqiy asoslangan bo‘lishi kerak.



2-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalarga imtiyozlarni qo‘llash borasida “tartibga solish gilotinasi” usulidan foydalanish mexanizmi

Manba: Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalar uchun taqdim etilgan soliq, bojxona, valyuta va boshqa turdagi moliyaviy va nomoliyaviy imtiyozlar, ularning samaradorligi uch bosqichda quyidagi sub'ektlar tomonidan o'rganiladi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilar tomonidan;
- tayinlangan mustaqil ekspertlar guruhi tomonidan;
- investorlar yoki tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan.

3. Mazkur o'rnatilgan filtrdan o'tmagan normativ-huquqiy hujjatlardagi tartib-qoidalarni bekor qilish yoki soddalashtirish jarayoni boshlanadi.
4. "Tartibga solish gilotinasi" nattijasida investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi, amaldagi hujjatlarga o'zgartish va qo'shgimchalalar kiritilgan holda rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar reestriga kiritiladi [3].

Hozirgi kunga qadar mazkur usul Vetnam, Keniya, Xorvatiya, Janubiy Koreya va boshqa bir necha davlatlarda normativ-huquqiy hujjatlar, asosan, qonuniylik, biznes uchun foydali yoki foydali emasligi, dolzarblik, xarajatlar mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan. Shuningdek, yuqoridagi davlatlarda "tartibga solish gilotinasi" usulini to'liq amalga oshirish ikki oydan ikki yilgacha muddat talab qilib, natijada esa YAIM xajmi sezilarli darajada oshgan va qo'shimcha ish o'rinlari soni ko'paygan [9].

Bu borada, Janubiy Koreya 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozidan keyin "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydalanish orqali 11 oy ichida investitsion muhitga bevosita ta'sir etuvchi 6000 ta ma'muriy tartib-qoidalar, samarasiz imtiyozlar (soliq va bojxona) bekor qilishi natijasida mazkur davlat iqtisodiyotiga 27 mlrd. doll. miqdorida qo'shimcha xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Shuningdek, "tartibga solish gilotinasi" usuli Janubiy Koreya investitsion muhitini yaxshilash orqali ko'p yillik iqtisodiy o'sish uchun katalizator vazifasini bajarmoqda [3].

Mazkur xorijiy davlat ilg'or tajribasidan kelib chiqqan holda "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydanib, maxsus iqtisodiy zonalar, shu jumladan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilari imtiyozli holatiga salbiy ta'sir etuvchi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun berilgan samarasiz imtiyozlarni (soliq, bojxona, boshqa ma'muriy huquq va nisbiy ustunliklar) o'rganib chiqish va bekor qilish taklif etiladi. Ushbu holatda maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun imtiyozlar saqlab qolinadi. Faqatgina ushbu zonalar tashqarisida amal qiluvchi imtiyozlar "tartibga solish gilotinasi"da nazarda tutiladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Alicia Bárcena, Laura López, Martine Dirven, Susana Malchik. Foreign Investment in Latin America and the Caribbean, 2008 https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/1139/1/S0900391_en.pdf.
2. Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны (экономико-правовые вопросы зарубежной и российской практики): Учебное пособие. –Москва :Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 560 с.
3. Александров О.В. "Регуляторные гильотины": международный опыт устранения препятствий для бизнеса и инвестирования. Торговая политика. Trade policy / 2019. № 1/17. ISSN 2499-9415. doi:10.17323/2499-9415-2019-1-17-107-119
4. Michael Engman, Osamu Onodera, Enrico Pinali, Export Processing Zones: Past and Future Role in Trade and Development, OECD Trade Policy Working Paper No. 53, TD//TC/WP(2006)39/FINAL, p. 10.
5. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Toshkent – 2019. 244 b.
6. Isaev Q.A. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik. –T.: "Ma'naviyat", 2021. 126-b.
7. Namangan viloyatida tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilari (investorlar) bilan o'tkazilgan intervyu va so'rovnoma natijalariga ko'ra muallif tomonidan tuzilgan.
8. httr://regulatoryreform.com/
9. httrs://huquqiyrortal.uz/news/2019/10/29/adliya-vazirligi-tartibga-solish-gilotinasi-metodini-qo`llashni-rejalashtirmoqda/126.
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Develorment) "World Investment Rerort" hisoboti. Manba: httrs://worldinvestmentrerort.unctad.org/world-investment-rerort-2019/charter-4-srecial-economic-zones.
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.
12. Namangan shahri, Davlatobod tumani hokimligi ma'lumotlari.

ПЕРСПЕКТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОЙ КООПЕРАЦИИ МЕЖДУ СТРАНАМИ

Назарова Раъно Рустамовна
Ташкентский государственный экономический университет, профессор кафедры “Зеленая экономика и устойчивый бизнес”

Жартай Жанибек Маратулы
Карагандинский университет имени Е.А.Букетова, ассоциированный профессор кафедры “Экономики и международного бизнеса”

Аннотация: Статья подчеркивает важность развития промышленной кооперации – как одной из форм организации бизнеса. Современный этап межфирменной промышленной кооперации соответствует общему направлению экономического развития. Феномен промышленной кооперации можно объяснить тем, что она является источником не только индивидуальной прибыли, но и коллективной выгоды. В основе всего этого - объединение усилий всех ее участников. Промышленная кооперация в современных условиях по своей сути представляет достаточно эффективную и быстро развивающуюся форму взаимодействия различных экономических субъектов.

Ключевые слова: кооперация, экономическое развитие, фирма, эффективность, рынок, международные организации.

Annotatsiya: Maqolada biznesni tashkil etish shakllaridan biri sifatida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan. Firmalararo sanoat kooperatsiyasining hozirgi bosqichi iqtisodiy rivojlanishning umumiy yo‘nalishiga mos keladi. Sanoat kooperatsiyasi fenomeni nafaqat individual foyda, balki jamoaviy foyda manbayi ekanligi bilan izohlanishi mumkin. Bularning barchasi uning barcha ishtirokchilarining sa’y-harakatlarini birlashtirishga asoslangan. Zamonaviy sharoitda sanoat kooperatsiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra turli xil iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning juda samarali va tez rivojlanayotgan shaklini anglatadi.

Kalit so‘zlar: hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish, firma, samaradorlik, bozor, xalqaro tashkilotlar.

Abstract: The article emphasizes the importance of the development of industrial cooperation as one of the forms of business organization. The current stage of inter-firm industrial cooperation corresponds to the general direction of economic development. The phenomenon of industrial cooperation can be explained by the fact that it is a source of not only individual profit, but also collective benefit. At the heart of all this is the unification of the efforts of all its participants. Industrial cooperation in modern conditions inherently represents a fairly effective and rapidly developing form of interaction between various economic entities.

Key words: cooperation, economic development, firm, efficiency, market, international organizations.

ВВЕДЕНИЕ

Промышленная кооперация рассматривается многими странами как инструмент достижения высокой эффективности производства за счет разделения труда, специализации, рационального использования имеющихся производственных и технологических мощностей и оптимизации использования всех видов ресурсов.

Эффективность противодействия глобальным вызовам и угрозам главы государств напрямую связывают с консолидацией совместных усилий, направленных на углубление многопланового партнерства, одним из основных драйверов которого выступает промышленная кооперация.

По экспертным оценкам, доля промышленной кооперации в обрабатывающей промышленности развитых индустриальных стран колеблется в пределах 25-35%, а в производстве электронного оборудования, дорожно-строительной техники, самолетов и ряда других видов продукции достигает 50-70%. По оценкам Nikkei, один из приблизительно 10 тысяч деталей, из которых состоит современный автомобиль, 9,8 тыс. изготавливаются на основе промышленной кооперации, в т. ч. кросс-кантри.

Промышленная кооперация - это форма организации предпринимательской деятельности, основанная на сотрудничестве и взаимодействии между предприятиями в одной или нескольких отраслях промышленности. Она может представлять собой объединение предприятий для совместной реализации определенных проектов, обмена ресурсами, а также совместной закупки и сбыта продукции или услуг.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Рассмотрение любого процесса кооперации изначально предполагает изучение основополагающей теории кооперативной системы, авторство которой принадлежит Честере Барнарду. Его книга “Функции руководителя: власть, стимулы и ценности в организации” была опубликована в 1939 г., в ней была рассмотрена фундаментальная проблема совершенствования функционирования организации.

По Ч. Барнарду, “формальная организация – это такой тип кооперации усилий людей, который носит сознательный, преднамеренный и целевой характер. В наши дни такая кооперация повсеместна и неизбежна, и в силу этого ей обычно противопоставляют исключительно “индивидуализм”, как если бы других процессов кооперации не существовало. К тому же многое из того, что мы считаем надежным, предсказуемым и стабильным, столь явно представляет собой результат организованных усилий, что возникает представление, будто бы в норме организованные усилия сопряжены с успехом, а неудача организации – это отклонение от нормы”.

Для нашей работы теория Ч. Барнарда представляет особый интерес по той причине, что в его работе кооперация представляет собой не абстрактную идеологическую установку, предполагающую достижение “светлого” будущего. Наоборот, это реальная модель, предполагающая объединение усилий различных участников хозяйственной деятельности организации по достижению заранее определенных целей с учетом возможных изменений во внешней и внутренней среде.

Следует согласиться с мнением А. Н. Булатова, который отмечает, что традиционная трактовка промышленной кооперации в соответствии с положениями неоклассической теории не в состоянии полностью объяснить феномен промышленной кооперации как системы социально-экономических отношений или своеобразного института.

Теория игр выделяет четыре проблемы, которые возникают в процессе взаимодействия экономических агентов: координации, совместимости, кооперации и справедливости. Причем проблема кооперации рассматривается применительно к ситуации, когда существует единственная ситуация равновесия по Нэшу, но оно при этом Парето-неоптимально.

Равновесие по Нэшу – это ситуация, в которой ни один из игроков не может увеличить свой выигрыш в одностороннем порядке, меняя свой план действий. Таким образом, стратегия каждого из игроков является лучшим ответом на действия другого игрока, то есть это равновесие игрока максимумом полезности в зависимости от действий другого игрока.

Равновесие по Парето – это ситуация, когда нельзя улучшить положение ни одного из игроков, не ухудшая при этом положение другого.

Равновесие по Парето в наибольшей степени соответствует ситуации промышленной кооперации, так как данный процесс однозначно предполагает взаимную ответственность всех участников. В противном случае достижение требуемого результата становится невозможным в принципе. Это очень важно, так как процесс промышленной кооперации становится эффективным только при объединении усилий всех участников процесса.

Р. Ауманн и Т. Шеллинг рассматривают любой конфликт или соперничество как игру, для которой характерно наличие определенных правил, список участников и их возможные действия (стратегии).

В итоге это должно привести участника к получению какого-то выигрыша, иначе вся игра теряет всякий смысл. Таким образом, рассматривается важнейшая проблема нахождения оптимального решения, при этом противники имеют точно такие же намерения. Изучение теории игр позволило Р. Ауманну и Т. Шеллингу раскрыть базовые причины политических, корпоративных и социальных конфликтов и показать, как можно добиться результата, просчитывая варианты действий соперника.

ИССЛЕДОВАНИЕ

Сегодня Узбекистан проводит активную, прагматичную и многостороннюю внешнюю политику. Важным направлением внешнеполитической деятельности нашей страны является сотрудничество со странами ближнего и дальнего зарубежья, а также международными организациями – СНГ, ШОС, ОТГ, ОЭС и многими другими. Среди них особое место занимает Организация экономического сотрудничества (ОЭС).

Организация экономического сотрудничества — региональная межправительственная организация, созданная в 1985 году в Тегеране (Иран). Её цель – расширение торговых и инвестиционных отношений между странами Южной и Центральной Азии и Ближнего Востока. ОЭС имеет статус наблюдателя в ООН и Организации исламского сотрудничества.

Основные направления сотрудничества ОЭС определяются на саммитах глав государств-членов, проводимых раз в два года. Сегодня к ОЭС присоединились десять стран - Азербайджан, Афганистан, Иран, Казахстан, Кыргызстан, Пакистан, Таджикистан, Туркменистан, Турция и Узбекистан. Узбекистан вступил в ОЭС в 1992 году. С 2017 года саммит глав государств начал проводиться регулярно каждые два года.

Государства ОЭС имеют огромные природные, интеллектуальные, промышленные, аграрные, технологические ресурсы, дополняющие друг друга. Экономические, торговые, транспортные, энергетические связи органичны и естественны в силу этих и географических факторов.

В рамках саммита этого года в Ташкенте были обсуждены предложения и инициативы, направленные на увеличение объёмов товарооборота, снятие торговых барьеров и упрощение движения товаров и услуг, а также развитие транспортно-коммуникационных связей и расширение транзитного потенциала региона. Кроме того, на повестке Саммита были рассмотрены вопросы развития промышленной кооперации, взаимодействия в сфере энергетики, туризма, изменения климата и охраны окружающей среды, а также культурно-гуманитарного сотрудничества.

Для Узбекистана эта Организация - удобная платформа для того, чтобы развивать сотрудничество, направленное, прежде всего, на продвижение экономических интересов страны.

В настоящее время объем внешней торговли стран-членов ОЭС составляет примерно 1 миллиард долларов, но, если взять долю, которая приходится на торговлю между самими странами-членами ОЭС, то она составляет всего 8 процентов от этого показателя. Это достаточно низкий уровень, значит, у Узбекистана есть большой потенциал для кратного увеличения объемов внутрирегиональной торговли со странами- членами ОЭС.

В последние годы сотрудничество Узбекистана в рамках Организации экономического сотрудничества значительно активизировалось. По данным Центра экономических исследований и реформ, в 2021 году товарооборот Узбекистана со странами-членами данной организации увеличился на 35,1 процента и достиг 11,2 миллиарда долларов. Тенденция роста продолжилась и в 2022 году, объем товарооборота увеличился на 10,4 процента и составил 12,4 миллиарда долларов. Доля ОЭС во внешней торговле Узбекистана составляет 24,7 процента. Примечательно, что объем экспорта достиг 5,75 миллиарда долларов, что на 6,3 процента превышает показатель 2021 года. Импорт увеличился на 6,62 миллиарда долларов, это составило 14,3 процента. В прошлом году треть общего объема экспорта - 29,8 процента - пришлась на страны ОЭС.

Наибольшая доля в торговле в прошлом году принадлежала Казахстану (37,5 процента) и Турции (26,3 процента). За ними следуют Кыргызстан (10,2), Туркменистан (7,5), Афганистан (6,1), Таджикистан (5,5), Иран (3,5), Пакистан (1,9) и Азербайджан (1,5). Товарооборот Узбекистана со странами ОЭС превысил 1,13 триллиона долларов. В текущем году сотрудничество стало значительно активнее. За девять месяцев товарооборот внутри ОЭС составил 9,2 миллиарда долларов, а доля стран-участниц в общем товарообороте Узбекистана достигла 20,5 процента. Сумма экспорта составляет 4,2 миллиарда долларов, импорта – 5 миллиардов долларов (+3,3 процента).

Страны ОЭС входят в число основных экспортеров стран-партнеров нашей страны.

По каждому направлению Узбекистан предлагает принять конкретные программы и “дорожные карты”, реализация которых укрепит экономические и гуманитарные связи на пространстве ОЭС.

На состоявшемся 8 июня 2023 года в Сочи Совете глав правительств СНГ утверждены Концепция развития промышленной кооперации государств – участников Содружества Независимых Государств и Комплекс мер по ее развитию на период до 2030 года.

Концепция отражает консолидированную позицию государств Содружества по целям, важнейшим задачам, принципам, механизмам и основным направлениям взаимодействия по развитию промышленной кооперации.

Целями Концепции являются создание новых высокотехнологичных отраслей, ускоренное развитие и модернизация промышленного производства в государствах – участниках СНГ, его технологическое обновление, увеличение объемов производства и экспорта конкурентоспособной, инновационной и наукоемкой продукции с высокой долей добавленной стоимости, достижение международных стандартов по качеству продукции, создание новых рабочих мест, повышение уровня благосостояния и качества жизни населения.

Создание необходимых условий для развития кооперации в области промышленности является одним из основных факторов для повышения конкурентоспособности их экономик, ускорения экономического роста, укрепления национального суверенитета и в конечном счете повышения уровня благосостояния и качества жизни населения государств – участников СНГ.

Несмотря на замедление темпов экономического роста объем товарооборот государств-членов за первое полугодие 2023 года составил 20,6 млрд долларов, что на 4,4% выше, чем за аналогичный период предыдущего года. Объем внешней торговли Узбекистана со странами Содружества с начала этого года повысился на 5%.

Узбекистан активно развивает промышленные кооперации с различными странами мира. Вот несколько примеров промышленных кооперации Узбекистана с другими странами:

1. **Кооперация с Россией:** Узбекистан и Россия имеют долгое историческое сотрудничество в различных сферах, включая промышленность. Оба государства разрабатывают совместные проекты в области энергетики, нефтегазовой промышленности, машиностроения и строительства.
2. **Кооперация с Китаем:** Узбекистан и Китай активно развивают торгово-экономическое сотрудничество, включая сотрудничество в области промышленности. Оба государства ведут совместные проекты в сфере энергетики, нефтегазовой промышленности, машиностроения, текстильной промышленности и других отраслях.
3. **Кооперация с Турцией:** Узбекистан и Турция имеют солидные отношения, включая сотрудничество в промышленности. Оба государства ведут совместные проекты в сферах химической промышленности, текстильной промышленности, производства строительных материалов и других отраслях.
4. **Кооперация с Европейскими странами:** Узбекистан развивает промышленные кооперации с различными странами Европы, такими как Германия, Франция, Италия и другие. Сотрудничество происходит в таких областях, как машиностроение, автомобильная промышленность, текстильная промышленность, энергетика и другие.
5. **Кооперация с Индией:** Узбекистан и Индия активно развивают промышленное сотрудничество. Оба государства ведут совместные проекты в области химической промышленности, фармацевтики, железнодорожного машиностроения и других отраслях.
6. Промышленные кооперации между Узбекистаном и Казахстаном имеют большой потенциал, так как оба этих государства располагают значительными ресурсами и промышленным потенциалом.

На основе взаимовыгодного сотрудничества можно достичь различных целей, таких как расширение рынка сбыта, обмен технологиями и опытом, развитие совместных производств и многое другое. Вот некоторые возможные направления промышленной кооперации между Узбекистаном и Казахстаном:

1. **Энергетика:** Оба государства обладают большими запасами природных ресурсов, таких как нефть, газ и уголь. Кооперация в области энергетики может включать обмен технологиями и опытом, совместное строительство энергетических объектов, включая ГЭС, ТЭС и энергетические сети.
2. **Химическая промышленность:** Оба государства имеют значительный потенциал в области химической промышленности. Кооперация может включать совместное производство химической продукции, обмен технологиями и опытом, а также совместные исследования и разработки в области новых материалов и процессов производства.
3. **Машиностроение и металлообработка:** Узбекистан и Казахстан обладают значительным потенциалом в области машиностроения и металлообработки. Кооперация в этой сфере может включать совместное производство машин и оборудования, обмен технологиями и опытом, а также совместные исследования и разработки.

4. **Текстильная и легкая промышленность:** Оба государства имеют развитую текстильную и легкую промышленность. Кооперация между Узбекистаном и Казахстаном в этой области может включать совместное производство текстильных товаров, обмен опытом и технологиями, а также развитие совместных маркетинговых стратегий.
5. **Агропромышленность:** Узбекистан и Казахстан оба являются аграрными государствами с богатыми земельными ресурсами. Кооперация в агропромышленности может включать совместное производство сельскохозяйственной продукции, обмен опытом и технологиями, а также разработку совместных программ по развитию сельского хозяйства и продовольственной безопасности.
6. **Логистика и транспорт:** Узбекистан и Казахстан располагают выгодным географическим положением, являясь транзитными странами между Европой и Азией. Промышленная кооперация в области логистики и транспорта может включать совместное развитие транспортной инфраструктуры, создание совместных логистических центров, а также развитие совместных транспортных маршрутов и перевозок.

Это лишь некоторые возможные направления промышленной кооперации между Узбекистаном и Казахстаном. Реализация этих потенциалов требует дальнейшего исследования, а также установления партнерских отношений между предприятиями и организациями обоих государств.

Это только некоторые примеры промышленных кооперации Узбекистана с другими странами. Узбекистан стремится активно развивать свои внешние экономические связи и привлечь иностранные инвесторы для расширения своего промышленного потенциала.

Эксперты выделяют следующие основные преимущества, которые экономика получает от развития промышленной кооперации.

1. Значительное сокращение времени подготовки к выпуску новых товаров и снижение их капиталоемкости. По данным Европейской экономической комиссии ООН (ЕЭК ООН), межгосударственные соглашения о промышленной кооперации в среднем сокращают время подготовки к производству новой продукции примерно на 14-20 месяцев по сравнению с организацией ее исключительно собственными силами, а также на 50-70% снижают затраты на разработку нового продукта и производство.
2. Повышение качества промышленной продукции. Промышленная кооперация позволяет достичь более 90% уровня качества продукции иностранного партнера, в то время как разработка зарубежных технологий собственными силами позволяет обеспечить лишь 70-80% этого показателя.

Как отмечает Bloomberg, в условиях хронической нехватки средств в развивающихся странах их участие в промышленной кооперации является одной из наиболее эффективных мер по техническому перевооружению промышленности, расширению экспортной ориентации производства, достижению международных стандартов качества продукции и увеличению занятости.

Быть участником международной кооперации имеет ряд преимуществ:

1. **Расширение рынков сбыта:** Международная кооперация позволяет компаниям и странам получить доступ к новым рынкам сбыта. Это может означать большую клиентскую базу и потенциально больший объем продаж.
2. **Развитие экономики:** Участие в международной кооперации способствует развитию экономики, так как она способствует росту производства, торговли и инвестиций. Это может привести к увеличению ВВП и созданию новых рабочих мест.
3. **Технологический прогресс:** Международная кооперация способствует обмену технологиями, знаниями и опытом между участниками. Это может привести к улучшению производственных процессов, разработке новых продуктов и услуг, а также повышению инновационного потенциала.
4. **Экономии масштаба:** Кооперация может позволить участникам осуществлять экономии масштаба, например, в закупках сырья или оборудования. Это может привести к снижению издержек производства и увеличению конкурентоспособности продукции или услуг.
5. **Снижение рисков:** Участие в международной кооперации может помочь снизить риски, связанные с экономическими, политическими, торговыми или финансовыми нестабильностями. Объединение ресурсов, опыта и знаний позволяет более эффективно управлять рисками и сглаживать последствия негативных событий.
6. **Доступ к ресурсам:** Международная кооперация может дать доступ к ресурсам, которые могут быть ограничены или недоступны внутри страны. Например, это может быть доступ к природным ресурсам, финансовым ресурсам или человеческому капиталу.

ВЫВОДЫ

В целом, международная кооперация предоставляет множество возможностей для роста и развития компаний и стран. Однако, она также требует дополнительных усилий и ресурсов, так как присутствует необходимость учитывать различия в законодательстве, культуре, языке и бизнес-практиках между участниками.

Быть участником международной кооперации может также иметь некоторые негативные аспекты:

1. **Сложности в коммуникации:** Различия в языке, культурных ценностях и деловых обычаях между участниками международной кооперации могут создавать сложности в эффективной коммуникации. Это может привести к недопониманию, ошибкам в переводе или неправильной интерпретации инструкций или договоренностей.
2. **Политические и геополитические риски:** Международная кооперация может подвергаться риску вмешательства политических сил или изменения политического контекста. Политические конфликты, войны, политические изменения или экономические санкции могут негативно сказаться на бизнес-партнерстве или договоренностях.
3. **Риски экономической нестабильности:** Национальные или глобальные экономические кризисы, изменения валютных курсов и колебания на финансовых рынках могут затруднить прогнозирование и контроль над экономической ситуацией. Это может привести к нестабильности и риску финансовых потерь для участников международной кооперации.
4. **Регуляторная сложность:** Различия в правовых системах, стандартах и регуляторном окружении между странами могут создавать сложности в соблюдении требований и нормативных актов. Это может потребовать дополнительных усилий и ресурсов для адаптации к различным правилам и лицензиям.
5. **Конкуренция и потеря конкурентных преимуществ:** Участие в международной кооперации может привести к увеличению конкуренции с другими участниками и потере ранее имевшихся конкурентных преимуществ. Конкурентные рынки и доступ к новым ресурсам могут быть ограничены и иметь высокую конкуренцию.
6. **Риски для бренда и репутации:** Сотрудничество с компаниями или странами, которые сталкиваются с проблемами в области прав человека, коррупции или экологии, может отрицательно сказаться на репутации участника международной кооперации. Риски для бренда и репутации должны быть учтены при принятии решения о вступлении в такое партнерство.

Рассмотрев процесс промышленной кооперации с точки зрения теории игр можно сделать вывод о том, что общий выигрыш от кооперации складывается из выигрышей всех участников процесса. Если один из участников промышленной кооперации не получает эффектов от взаимодействия с остальными участниками то общий результат от цепочки добавленной стоимости также будет неудовлетворительным.

Список литературы:

1. Барнард Ч. Функции руководителя: власть, стимулы и ценности в организации. URL: http://fictionbook.ru/ author/ chester_barnard.
2. Нейман фон Дж., Моргенштерн О. Теория игр и экономическое поведение. – М.: Наука, 1970.
3. Булатов А. Н. Промышленная кооперация в разрезе институциональной и неоинституциональной теории // Экономические исследования. 2010. Вып. 2.
4. Виноградова А. В. Институциональная экономика: теория и практика. – Н. Новгород: Изд-во Нижегород. унта, 2012.
5. Энциклопедия экономики. 2015 [Электронный ресурс]. URL: http://economy-ru.info/info/9801/ (дата обращения: 06.08.2018).
6. Оуэн. Г. Теория игр. / пер. с англ. И. Врублевской; под ред. А. Корбута. – М.: Мир, 1971. 230 с.
7. Шеллинг Т. Стратегия конфликта / пер. с англ. Т. Даниловой; под ред. Ю. Кузнецова, К. Сонина. – М.: ИРИСЭН, 2007. 366 с.
8. Дубина И. Н. Основы теории экономических игр: учеб. пособие. – М.: КноРус, 2014. 208 с.
9. Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. – М.: Новое изд-во, 2007. 224 с.
10. Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина Паблишер, 2016. 1020 с.
12. Сергей Малков, Промышленная кооперация – ответ на современные вызовы. 28.12.2023 [Электронный ресурс]. https://uza.uz/posts/promyshlennaya-kooperaciya-otvet-na-sovremennye-vyzovy_392489
11. Аминов Ф. Б. Направления развития производственной кооперации в республике Узбекистан “Экономика и социум”. –№10(101)-1 2022.

SOLIQLAR YIG‘ILUVCHANLIGINI OSHIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna
Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), “UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE” dotsenti

Annotatsiya: Maqolada soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish, soliq intizomiga rioya qilish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni kamaytirishga soliq organlari xodimlari hamda soliq to‘lovchilarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish orqali erishish mumkinligi, bu orqali soliqlarning yig‘iluvchanligi va budjet daromadlarini oshirish ta’minlanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq va yig‘imlar,soliq madaniyati,soliq huquqiy munosabatlari, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqlarning yig‘iluvchanligi,mahalla inspektorlari, moliyaviy savodxonlik.

Abstract: The article discusses how to increase tax literacy and culture of participants in tax legal relations, maintain tax discipline, reduce tax evasion by organizing mutual cooperation between tax authorities and taxpayers, thereby ensuring tax collection and increasing budget revenues.

Key words: Taxes and fees, tax culture, tax legal relations, tax evasion, tax collection, local inspectors, financial literacy.

Аннотация: В статье рассматривается, как повысить налоговую грамотность и культуру участников налоговых правоотношений, соблюдать налоговую дисциплину, сократить уклонение от уплаты налогов путем организации взаимного сотрудничества налоговых органов и налогоплательщиков, тем самым обеспечивая собираемость налогов и увеличение доходов бюджета.

Ключевые слова: Налоги и сборы, налоговая культура, налоговые правоотношения, уклонение от уплаты налогов, сбор налогов, участковые инспекторы, финансовая грамотность.

KIRISH

Bugungi kundagi soliq siyosatidagi eng muhim va dolzarb bo‘lgan masalalardan biri – bu soliq munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi soliq qonunchiligi va boshqa me’yoriy hujjatlarning mukammalligini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliq to‘lovchilarning soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni kamaytirish, soliq qarzdorliklarini hosil bo‘lishini oldini olish, shuningdek mavjud soliq qarzdorliklarini undirish mexanizimini takomillashtirib borib soliqlarning yig‘iluvchanligini ta’minlash orqali budjet daromadlarini oshirishga erishishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi tez sur’atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga erishdi. Soliq munosabatlari qatnashchilarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash, xarajatlarni qisqartirish maqsadida davlat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ta’kidlaganlaridek: “Yangi fikr va yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi” [1].

Aholining soliq madaniyatini oshirishning ahamiyati tobora ortib borayotgani yanada yangi va zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Soliqlar mavzusi ko‘tarilganda soliq to‘lovchilarda vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan axborot “bo‘shlig‘i”ni to‘ldirishdagi axborot-tushuntirish ishlari soliq organlarining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularga soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash haqida ma’lumot berish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Amerikalik sotsiolog, Garvard universiteti professori Jorj Xomans nazariyasiga ko‘ra: “Soliq madaniyati bir tomondan soliq va soliq jarayonida ishtirok yetuvchi boshqa organlarning, ikkinchi tomondan soliq to‘lovchilarning faoliyati almashinuvining mahsulidir” [2].

A. L. Kuznetsovning fikriga ko‘ra “Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirishni soliq organlari xodimlari soliq to‘lovchi–davlatning hamkori ekanligini anglab yetmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi, demak, soliq to‘lovchining muammolariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish soliq madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi” [3].

G. V. Morozova coliq savodxonligi va madaniyatining asosiy elementi soliq intizomi bo‘lib, u soliq to‘lovchilarning ma’naviy va moliyaviy qobiliyatlari va imkoniyatlarini tizimli ravishda o‘qitish, rivojlantirish va nazorat qilishdan iborat, - deb ta’kidlab o‘tgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish usullarini tahlili va ularni o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi, mavzuga bog‘liq ko‘plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq madaniyati mamlakat milliy madaniyatining bir qismi bo‘lib, soliq tizimida davlat va fuqarolarning o‘zaro munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u quyidagilarni shakllantirishga yordam beradi:

- soliq sohasidagi o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining soliq tizimini, soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bilish va ularga rioya qilish;
- budjet oldidagi majburiyatlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi, ya’ni soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida hisoblab chiqarish va davlat budjetiga to‘liq o‘tkazish;

Soliq to‘lovchilar soliq madaniyatining pastligi, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq tizimiga nisbatan ishonchsizligi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash istagi balandligi daromadlarni yashirish va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘p miqdorda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy sabablariga quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

- beqaror soliq qonunchiligi;
- mamlakat aholisini xabardor qilish, maslahat berish tizimining yetarli emasligi;
- fuqarolar tomonidan soliq organlariga nisbatan ishonchsizlik;
- soliq munosabatlari subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy javobgarlik muammosi.

Shuni e’tiborga olish kerakki, soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi davlat budjetiga, budjetdan tashqari jamg‘armalarga soliq to‘lovlarining sezilarli darajada kamayib ketishiga, bu esa nafaqat mamlakat iqtisodiyotining yomonlashuviga, balki jamiyatning yanada sekin rivojlanishiga va buning natijasida budjet daromadlari kamomadining shakllanishiga olib keladi.

Soliq madaniyatining past darajasi, soliq tushumlarining tushushi mumkin bo‘lgan miqdori va ularning haqiqiy tushgan miqdori o‘rtasidagi tafovut ma’lum darajada soliq savodxonligining yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish usullarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, soliqlar va yig‘imlar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

1. Davlatning ijobiy imidjini shakllantirish. Bu qadamning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, davlatning turli harakatlari, masalan, qonunlar, farmonlar va boshqalar aholi o‘rtasida noto‘g‘ri, chalkash fikrlarni shakllantirmasligi uchun har qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlarni imzolash, kuchga kiritishda uni batafsil tushuntirish va talqin qilish kerak. Hozirgi vaqtda soliq qonunchiligi o‘zining murakkabligi va noaniqligi tufayli hamma uchun va hamma vaqt ham tushunarli emas, shuning uchun qonun chiqaruvchilar turli huquqiy hujjatlarni chuqur tushuntirishga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Barcha soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligi to‘g‘risida to‘liq va xolis axborot olishdan manfaatdor. Ko‘pgina nizolar faqat soliq qonunchiligining ayrim normalarini soliq organlariga qaraganda boshqacha tushunganligi sababli yuzaga keladi. Boshqa tomondan, soliq to‘lovchilarning ko‘pchiligi qonunga itoatkor bo‘lsagina soliq organlarining faoliyati haqiqatan ham samarali bo‘lishi mumkin.
2. Mamlakatning asosiy telekanallaridan birida soliqqa tortish masalalari bo‘yicha o‘quv-axborot ko‘rsatuvini yaratish. Ya’ni, ommaviy axborot vositalari jamiyatda vijdonsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi kerak.

Soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini tarbiyalash, uning asosi soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilishdir.

Soliq madaniyati fuqarolarning davlat va jamiyat uchun siyosiy madaniyatning bir qismi sifatida soliq to‘lash muhimligini tushunish va ularni to‘lash bo‘yicha huquqiy madaniyatning bir qismi sifatida o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi bo‘lib, aslida ular birgalikda soliq madaniyatini tashkil etadi.

Soliq madaniyatini o‘sishida soliq to‘lovchilarga yuqori darajadagi axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

1) soliq to‘lovchilar uchun seminarlar va treninglar o‘tkazish. Bunday tadbirlar aholi uchun ixtiyoriy va bepul bo‘lishi kerak. Bular shubhasiz aholining soliq savodxonligi va madaniyatining tabiiy o‘sishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ammo uni amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ va vaqt talab etiladi;

2) O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida to‘lovchilar bilan ishlash uchun ixtisoslashtirilgan zallarning ochilishi soliq organi bilan aloqalarni imkon qadar shaffof va qulay qiladi. Bu soliq to‘lovchilarning soliq idoralari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlashini tashkil etish bilan birga, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, shu bilan birga ularning soliq madaniyatini oshirish imkonini beradi. Natijada soliq idoralari xodimlarining mehnati ham yengillashadi.

3) qishloq joylarda soliq to‘lovchilar uchun maslahat xizmatlarini ochish;

4) maktab o‘quv dasturiga soliq qonunchiligini, soliq to‘lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini, soliq organlarining vakolatlari kabilarni o‘z ichiga olgan qo‘shimcha kursni kiritish, ya’ni moliyaviy savodxonlik platformasini yaratish. Soliq madaniyatini shakllantirish, ayniqsa, o‘smirlik davrida, ya’ni shaxsning jadal ijtimoiy kamolotga yetishi davrida muhim ahamiyatga ega;

5) soliq organlarida normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlar to‘g‘risida doimiy ravishda tushuntirishlar berish. Soliq to‘lovchilar, soliq tushumlari, soliq qarzdorligi, intizomli soliq to‘lovchilar va soliq intizomini muntazam buzuvchi soliq to‘lovchilar to‘g‘risida ochiq ma’lumotlarni shakillantirish. Ochiq ma’lumotlarning mavjudligi soliq to‘lovchilarning soliq organlariga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu ham soliq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, fuqarolarning soliq organlariga yozma va og‘zaki murojaatlariga tezkor va malakali tushuntirish berish, soliq to‘lovchilarda soliq xizmatini nafaqat butun jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi davlat organi sifatida emas, balki ular bilan hamkorlikda ishlayotgan har bir fuqaro manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi sifatidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shundagina soliq organi va soliq to‘lovchilar o‘rtasida ishonchli munosabatlar rivojlanishi mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining savodxonligi va madaniyatini shakllantirish uchun soliq organlari, soliq to‘lovchilar, soliq maslahatchilari o‘rtasidagi munosabatlarning biryoqlama xarakteridan voz kechish va soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasida ishonchli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Faqatgina hamkorlik orqali soliq tizimining samarali ishlashini ta’minlash mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirishni soliq organlari xodimlari soliq to‘lovchi - davlatning hamkori ekanligini anglab yetmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi, demak, soliq to‘lovchining muammolariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish soliq madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, barcha joylarda soliq qonunchiligini axborotlashtirish, targ‘ib qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish zarur. Fuqarolarni yuksak soliq madaniyatini tarbiyalash yo‘nalishidagi bu ish aholining turli qatlamlarini hisobga olgan holda, tizimli, maqsadli va tabaqalashtirilgan holda olib borilishi kerak.

Shuning uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aholining keng qatlamlarida soliq organlari faoliyatiga jadal rivojlanayotgan, istiqbolli va zarur davlat tuzilmalari sifatidagi ishonchi va iqtisodiy ahamiyatni oshirish.

2. Soliq organlari xodimlari tarkibida mahalla inspektorlari lavozimini takomillashtirish, ya’ni mahallardagi muammolarni hal qiladigan institutga aylantirish maqsadidagi amaldagi tizimga soliq inspeksiyasi hodimlarini ham biriktirish.

Hudud bo‘yicha subyektlarni xatlovdan o‘tkazish va belgilangan tartibda hisobga olishni tashkil etish, norasmiy mehnat faoliyatini yuritish holatlarini aniqlash va bartaraf etish, tadbirkorlarga faoliyatini qonuni-

ylashtirishda ko‘maklashish, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish, onlayn nazorat kassa mashinalari va to‘lov terminallaridan to‘liq foydalanilishini tashkil etish, soliq hisobotlarini o‘z muddatida taqdim etilishini ta’minlash, mavjud soliq qarzini qisqartirish, soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarishini ta’minlash, qo‘shimcha manbalarni aniqlash hisobiga mahalliy budjetga tushumlarni ko‘paytirishdan iborat bo‘lib, buning yordamida nazorat qilinadigan hudud haqida aniq ma’lumot olish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, mahalla inspektorining faoliyati profilaktika va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat bo‘lib, natijada qarzdorlik kamayib, soliqlar yig‘iluvchanligi ortishiga, budjet daromadlari ko‘payishiga olib keladi.

Shunday qilib, soliq to‘lovchilarga axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish konsepsiyasini ishlab chiqish hozirda muhim ahamiyatga ega, chunki soliq madaniyatining yuqori darajasi bilangina soliq intizomiga rioya qilish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni kamaytirish hisobiga soliqlar yig‘iluvchanligini va budjet daromadlarini oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq yetish – islohotlar samaradorligining bosh mezoni//Xalq so‘zi. №107. –2019. 29-may.
2. Касимов Д.О. Институциональные основы формирования и развития налоговой культуры: Дис. канд. экон. наук: 08.00.10: утв. 13.06.12. – М., 2016.–168 с.
3. Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) [Электронный ресурс].
4. Морозова Г.В. Повышение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями // Российское предприни-мательство. – 2017. – №3-2 (131).– С. 118-1.

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH OLIY TA’LIM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Nematov Inatillo Ubaydullayevich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’limda ta’lim sifati va uning mohiyati yoritilgan. Xususan, ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha turli yondoshuvlar keltirilgan, mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilingan, ta’lim sifatiga berilgan ta’riflar o‘rganilgan, “ta’lim sifati” tushunchasi bo‘yicha turli qarashlar tahlili havola qilingan, oliy ta’limda ta’lim sifatini ta’minlashga oid ilmiy tadqiqot ish natijalari va tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, ta’lim sifati, ta’lim xizmatlari bozori, oliy ta’limda marketing, xalqaro miqyosda sifatga erishish, xalqaro hamkorlik, mehnat bozori, o‘quv jarayoni, malaka talabalari, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari, ta’lim tizimi.

Abstract: This article describes the quality of education in higher education and its essence. In particular, different approaches to ensuring the quality of education are given, the literature on the subject is analyzed, the definitions given to the quality of education are studied, the analysis of different views on the concept of “quality of education” is referred, the results of scientific research and analyzes are presented on ensuring the quality of education in higher education.

Key words: higher education, quality of education, market of educational services, marketing in higher education, achieving quality on an international scale, international cooperation, labor market, educational process, skilled students, educational plans, educational programs, educational system.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопросы качество высшего образования и его сущность. В частности, приведены различные подходы к обеспечению качества образования, анализирована литература по данной теме, изучаются определения качества образования, сделан анализ различных взглядов на понятие “качество образования”. Представлены результаты научных исследований и анализов по обеспечению качества образования в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, рынок образовательных услуг, маркетинг в высшем образовании, достижение качества в международном масштабе, международное сотрудничество, рынок труда, образовательный процесс, квалифицированные студенты, образовательные планы, образовательные программы, система образования.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyoda oliy ta’limga misli ko‘rilmagan talab yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lmning keng ko‘lamli diversifikatsiyasi, uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyot, yosh avlodga yangi ko‘nikma, bilim va g‘oyalarni o‘zlashtirishi uchun muhim bo‘lgan kelajakni yaratishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Oliy ta’lim hamma joyda moliyalashtirish, teng huquqli sharoitlar yaratish kabi sohalarda jiddiy muammolar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Oliy ta’lim o‘qitish, kasbiy rivojlanishga ko‘maklashish, ta’limni aniq ko‘nikmalarga yo‘naltirish, o‘qitish, tadqiqot va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va qo‘llab-quvvatlash, dasturlarning muvofiqligini ta’minlash, bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanishi, samarali hamkorlik shartnomalarini o‘rnatish va xalqaro imtiyozlardan adolatli foydalanishni ta’minlashi kerak.

Shu bilan birga, oliy ta’lim yangi bilimlarni yaratish, boshqarish, tarqatish, foydalanish va nazorat qilishni osonlashtiradigan texnologiyalar bilan bog‘liq yangi ufqlarni ochmoqda.

“Oliy ta’lim bo‘yicha Jahon deklaratsiyasi 1998 yilda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan oliy ta’lim bo‘yicha Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan “XXI asr” hujjatida quyidagi ta’rif berilgan: “Oliy ta’lim sifati ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning barcha funksiyalari va faoliyatini qamrab olishi kerak: o‘quv va o‘quv dasturlari, tadqiqot va stipendiyalar, xodimlar, talabalar, binolar, inshootlar, jihozlar, jamoat xizmati va akademik muhit. Sifatni yaxshilash uchun ichki o‘z-o‘zini baholash, shuningdek, mustaqil, ixtisoslashgan xalqaro ekspertlar tomonidan imkon qadar shaffof tarzda tashqi baholash muhim ahamiyatga ega. Mustaqil milliy hokimiyat organlari tashkil etilishi va xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lgan qiyosiy sifat standartlari o‘rnatilishi kerak. Xilma-xillikni hisobga olish

va bir xillikni oldini olish uchun muayyan institutsional, milliy va mintaqaviy kontekstlarga e'tibor qaratish lozim. Manfaatdor tomonlar institutsional baholash jarayonining ajralmas ishtirokchilari bo'lishi kerak" [1].

Bugungi kunda ta'lim ham bozor munosabatlarining ajralmas bir bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Bunda ta'lim bir vaqtning o'zida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchisi (sotuvchisi), inson kapitalining xaridori, shuningdek, jamiyatning bozor munosabatlari tomon yo'naltiruvchi davlat instituti sifatida shakllanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida ta'lim xizmatlari bozori bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda turli mulkchilikka asoslangan ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozoriga kirib kelmoqda. Natijada raqobatni vujudga keltiradigan ta'lim xizmatlari taklif etilmoqda.

Shu sababli, mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim xizmatlari bozorini jamiyatning oshib borayotgan talablarini hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda rivojlantirish bo'yicha bir qator ijobiy hamda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari va ular bilan bog'liq texnologiyalar o'zaro muvofiqlashmoqda;
- ta'lim xizmatlari bo'yicha olib boriladigan narx siyosati ta'lim xizmatlari bozoridagi holat, raqobat muhiti va real talab hajmi ta'siri asosida shakllantirilmoqda;
- ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning aniq maqsadli guruhlariga yo'naltirilgan potensial segmentlar bilan ishlash yo'lga qo'yilmoqda;
- bozorni o'rganish yo'nalishi bo'yicha ham, shuningdek, ta'lim xizmatlari bozori sharoitlarini tadqiq qilish va prognozlash sohasida ham amaliy ishlar olib borilmoqda;
- oliy ta'lim muassasalarida marketing bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda bir qator omillar muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'lim sifatini ta'minlash asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifati oliy ta'lim tizimi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, har qanday davlat taraqqiyotining muvaffaqiyati unga bog'liq. "Sifat" atamasini talqin qilishning turli tumanligi uning ko'p qirraliligi va subyektivligi, uni tadqiq qilish muammolari konteksti, tadqiqot pozitsiyasi va boshqalar bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim sifati muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning yuzlab ta'riflari mavjud. Keling, ulardan bir nechtasini sanab o'tamiz.

Umuman olganda, ta'lim sifati tushunchasini iqtisodiy, boshqaruv, ijtimoiy, tashkiliy, texnik, texnologik, psixologik, huquqiy, ekologik, shaxsiy, iqtisodiy, tizimli va boshqa pozitsiyalardan ko'rib chiqadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, ta'lim sifati bo'yicha eng ko'p o'rnatilgan qarashlarning batafsil tahlili N. P. Puchkov [2]. U o'z ishida ta'lim sifatini ta'minlash muammosini hal qilish uchun 5 ta sifat paradigmasini (falsafiy, mexanik, kibernetik, tizimli va informatsion) belgilaydi.

Hozirgi vaqtda kibernetik, tizimli va axborot paradigmalari elementlarini birlashtirgan va TQM (Total Quality Management) – Umumiy sifat menejmenti [3] konsepsiyasiga asoslangan neoklassik sifat paradigmasi keng tarqaldi. Ushbu konsepsiyaning rivojlanishining kelib chiqishida zamonaviy sifat menejmenti gurulari –E. Deming [4], D. Juran [5], F. Krosbi [6] va boshqalarning ilmiy qarashlari yotadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda Boloniya jarayoni uning ishtirokchilarining milliy ta'lim tizimlarini isloh qilishga hissa qo'shdi va ta'lim sifati bo'yicha yangi munozaralarni jonlantirdi. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi (EUA) tomonidan Yevropa universitetlarida sifat madaniyatini rivojlantirish loyihasini amalga oshirish jarayonida sifat sohasidagi tadqiqotlarni tizimlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi [7]. Natijada, sifatning 8 ta konsepsiyasini aks ettiruvchi ta'lim sifatining quyidagi ta'riflari taklif qilindi:

- Sifat maqsadga muvofiqlik sifatida;
- Sifat tasdiqlash sifatida (nuqsonlar mavjud emas);
- Sifat iste'molchi qoniqishi sifatida;
- Sifat ustunlik sifatida;
- Sifat qiymat sifatida;
- Sifat transformatsiya sifatida;
- Sifat modernizatsiya sifatida;
- Sifat nazorat vositasi sifatida.

M. M. Potashnik ta'lim sifati, birinchi navbatda, o'quv jarayonining sifati, deb hisoblaydi, bu ikki komponentning birligi orqali ifodalanishi mumkin - protsedura va natija [8].

V. P. Panasyuk ta'lim sifatini bitiruvchining ta'lim xususiyatlarining yig'indisi sifatida belgilaydi [9].

Xorijiy tadqiqotchilarning ta'lim sifatini aniqlashning turli yondashuvlari ko'pincha mijozlar ehtiyojini qondirish, maqsadga muvofiqlik yoki mukammallik kabi g'oyalarga asoslanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, ta'lim sifatiga maqsadlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik, maqsadlarga erishish o'lchovi deb ta'rif berish mumkin.

Yanada aniqlik kiritadigan bo'lsak, ta'lim sifatini ma'lum bir dastur, muayyan ta'lim talablari darajasiga mutaxassisning bilim va tayyorgarligining muvofiqlik darajasi deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari ta'lim sifatiga mijozlarning so'rovlari, talablari va umidlarining bajarilishini anglatuvchi maqsadga muvofiqlik sifatida, shuningdek talabalar uchun imkoniyatlar yaratish yoki yangi bilimlarni rivojlantirishdagi o'zgarishlarni bildiruvchi transformatsiya jarayoni sifatida qarash mumkin.

Shunday qilib, "ta'lim sifati" tushunchasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, ta'lim sifatini aniqlab bo'lmaydi yoki u juda umumiy bo'lib chiqadi, degan nuqtayi nazarlar ham mavjud.

"Sifat" atamasini talqin qilishning yuqori o'zgaruvchanligi asosan ushbu toifaning ko'p o'lchovliligi va subyektivligi, uni tadqiq qilish muammolari konteksti, tadqiqot pozitsiyasi va boshqalar bilan izohlanadi.

Oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u o'quv jarayoni va o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, xodimlar, talabalar, binolar, jihozlar, jamoat xizmati va o'quv muhiti. Sifatni yaxshilash uchun ichki o'z-o'zini baholash va imkon qadar shaffof tarzda mustaqil, ixtisoslashgan xalqaro ekspertlar tomonidan tashqi baholash muhim ahamiyatga ega. Mustaqil milliy hokimiyat organlari tashkil etilishi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan qiyosiy sifat standartlari o'rnatilishi kerak. Xilma-xillikni hisobga olish va homogenizatsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun muayyan institutsional, milliy va mintaqaviy kontekstlarga e'tibor qaratish lozim. Manfaatdor tomonlar institutsional baholash jarayonining ajralmas ishtirokchilari bo'lishi kerak.

Sifat oliy ta'lim xalqaro miqyosga ega bo'lishini ham talab qiladi: bilim almashish, interfaol tarmoqlar yaratish, o'qituvchilar va talabalarning harakatchanligi, milliy madaniy qadriyatlar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda xalqaro ilmiy loyihalar.

Milliy, mintaqaviy hamda xalqaro miqyosda sifatga erishish va ta'minlash uchun alohida tarkibiy qismlar alohida ahamiyatga ega, xususan: oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va xodimlarni sinchkovlik bilan tanlash, ularning malakasini doimiy ravishda oshirish, xususan, tegishli ta'lim muassasalarini kengaytirish orqali malaka oshirish sohasidagi dasturlar, shu jumladan o'qitish va o'qitish usullari, ularning mamlakatlar o'rtasida, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida va ikkinchi va ish dunyosi o'rtasidagi harakatchanligi, shuningdek, talabalarning mamlakatlar ichida va mamlakatlar o'rtasida harakatchanligi va boshq.

Yangi axborot texnologiyalari bilim va ko'nikmalarni egallashga ta'siri bilan bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi.

TAHLILLAR VA ILMIY TADQIQOT NATIJALARI

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalari soni so'nggi olti yilda 77 tadan 213 taga yetdi, talabalar soni 260 mingdan 1,4 mln. nafarga yetdi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga yetkazildi.

2017-yilga qadar birorta ham nodavlat oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmagan. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jalb qilish orqali 67 ta yangi nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 7 tadan 30 taga, davlat oliy ta'lim muassasalari 70 tadan 116 taga yetdi.

2020/2021-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazildi (asos sifatida Yevropaning ECTS — European Credit Transfer and Accumulation System tizimi qabul qilindi).

Yangi standartlar va malaka talablari asosida kredit-modul tizimiga mos ravishda 351 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 409 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar hamda 3,6 mingdan ziyod o'quv dasturlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari huzurida ta'lim sohalari bo'yicha 6 ta Malakani baholash markazlari tashkil etildi.

2021-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta'lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik

berish borasidagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar oliy ta’lim muassasalariga bir qator yengilliklar berish bilan birga, professor-o‘qituvchilar va talabalarga ham katta qulaylik yaratib berdi.

Akademik mustaqillik berilishi natijasida oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, malaka talablarini, ta’lim shaklini belgilash, o‘qish davomiyligini, o‘z hisobidan grant ajratib doktoranturaga kvotaga qo‘shimcha qabul qilish, magistratura uchun sirtqi, masofaviy va kechki ta’limni joriy etish, o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish, ta’lim sifatini ichki nazorat qilish, kontrakt qiymatini, mahalliy va xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid qilish kabi bir qator muhim bo‘lgan vazifalarni o‘zi hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, 41 ta oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilib, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, kontrakt asosidagi qabul parametrlarini belgilashda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida kadrlar tayyorlash sifati nazorat qilish va monitoringi olib borish;
- talabalar bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o‘zlashtirish darajasi o‘rganib borish va tahlil qilish;
- professor-o‘qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;
- oliy ta’lim muassasasini ichki baholashdan o‘tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalarini bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;
- o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);
- malaka talabalari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;
- o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlar sifatini nazorati talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib borish;
- dars o‘tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o‘rganib borish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash;
- professor-o‘qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o‘rganish;
- professor-o‘qituvchilarni ishga olish jarayonlarini shaffofligi, ularga o‘quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;
- axbort-resurs markazining holati, fanlar bo‘yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;
- mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnoma yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash);
- oliy ta’lim muassasalarida plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko‘chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish)
- vazirlikning topshirig‘iga muvofiq, boshqa oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganishda ishtirok etish.

Mazkur vazifalarni to‘liq bajarilishini ta’minlash maqsadida ta’lim sifatini aniqlash imkoniyatini beruvchi indikatorlar ham ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

- *birinchidan,* aksariyat oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitishni tashkil etish jarayoni bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmayapti;
- *ikkinchidan,* professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- *uchinchidan,* oliy ta'lim muassasasida magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlar, o'quv adabiyotlarini, mustaqil ish va boshqa talabalar bilimini baholash bilan bog'liq ishlarda ko'chirmachilik holatlari saqlanib qolmoqda;
- *to'rtinchidan,* oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini tashkil etish yetarli yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;
- *beshinchidan,* oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;
- *to'rtinchidan,* oliy ta'lim muassasalarining, jumladan ularning rahbarlarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi yetarli emas, ularning akademik faolligi hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu muammolarni hal etish uchun ta'lim sifatini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va sabablarni aniqlash hamda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish istiqbollari va "o'sish nuqtalari"ni o'rganish;

- oliy ta'lim muassasalarida ko'chirmachilikni oldini olish va akademik halollikni ta'minlash maqsadida antiplagiat dasturini joriy etish;
- ta'lim sifatini xalqaro talabalar asosida ta'minlash maqsadida Yevropa hududida oliy ta'lim sifatini ta'minlash standartlari va yo'riqnomalarini oliy ta'lim muassasalariga joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati monitoringini amalga oshirish bo'yicha me'yorlarni belgilash va oliy ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar sifatini monitoringini yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim muassasalarida yuqori ta'lim sifatini ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish lozim.

Zamonaviy dunyoda oliy ma'lumot martaba va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir. Biroq oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlar va vositalar zarur. Ularni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim sifatini ta'minlashning birinchi bosqichi mehnat bozori va fan yutuqlarining zamonaviy talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Dastur muvozanatli bo'lishi va nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olishi muhimdir.

Ta'lim sifatini kafolatlash uchun talabalar bilimini muntazam ravishda baholashni o'tkazish zarur. Buni imtihonlar, testlar, amaliy ishlar va bilimlarni nazorat qilishning boshqa shakllari orqali amalga oshirish mumkin. Nazoratning ushbu shakllari obyektiv bo'lishi va dasturning murakkablik darajasiga mos kelishi muhimdir.

Ta'lim sifatini ta'minlashning yana bir muhim jihati pedagogik kadrlarning malakasidir. O'qituvchilar nafaqat yuqori malakali va tajribali bo'lishlari, balki doimiy o'rganishga, bilim va malakalarini oshirishga tayyor bo'lishlari kerak.

Ta'lim sifatini oshirish uchun, shuningdek, ta'lim sharoitlarining mavjudligi va qulayligini ta'minlash kerak. Bunga zamonaviy jihozlar, qulay o'quv xonalari, kutubxonalar va muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi kiradi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda talabalarning fikrini hisobga olish, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish muhimdir. Bu so'rovlar, fikr-mulohazalar va boshqa aloqa shakllari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim sifatini ta'minlashning muhim jihati ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu talabalarga tegishli bilimlarni olish va real muammolarni hal qilishda ishtirok etish,

shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, turli sohalardagi yetakchi mutaxassislarni o‘quv jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali talabalar va o‘qituvchilar almashinuvini amalga oshirishdir. Bu talabalarga xalqaro muhitda o‘qish va ishlash tajribasiga ega bo‘lish, dunyoqarashini kengaytirish va malakasini oshirish, xalqaro loyihalar va tadqiqotlarda ishtirok etish imkonini beradi.

Va nihoyat, iqtidorli va istiqbolli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish muhimdir. Buni stipendiyalar, grantlar, tanlovlar va almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish, shuningdek, qo‘shimcha kurslar va seminarlar tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash o‘quv dasturini ishlab chiqishdan tortib, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlashgacha bo‘lgan turli jarayonlarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini talab qiluvchi murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Vaholanki, birgalikdagi sa’y-harakatlar bilangina talabalar hamda mehnat bozorining zamonaviy talab va ehtiyojlariga javob beradigan yuqori darajadagi ta’lim sifatini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практические меры [Электронный ресурс]. – URL: https://www.conventions.ru/int/12556 (дата обращения: 28.12.2023).
2. Пучков Н.П. Формирование системы обеспечения качества подготовки специалиста в условиях технического вуза: дис… докт. пед. наук: – М.: РГБ, 2005. – 392 с.
3. Каланова Ш.М., Бишимбаев В.К. Тотальный менеджмент качества в высшем образовании: Учебное пособие – практико-ориентированная монография. – Астана: Издательство “Фолиант”, 2006. – 476 с.
4. Деминг Э.Выход из кризиса. –Тверь:Альба, 1994. – 498 с.
5. Джуран Д. Все о качестве: Зарубежный опыт. Выпуск 2. – М., 1993.
6. Crosby Philip B. Quality Without Tears. – Mc Graus Hill, Singapore Dale,1984. – R. 18–23.
7. 24. Developing an Internal Quality Culture in European Universities. // Report on the Quality Culture Project 2002-2003. – EUA, 2005. – R. 50.
8. Поташник М.М. Управление качеством образования: Практико-ориентированная монография и методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2006. – 448 с.
9. Панасюк В.П. Системное управление качеством образования в школе. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2000. – 239 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

AHOLIGA KO‘RSATILADIGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Umurzakova Adiba Ochilovna
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholiga ko‘rsatiladigan bank xizmatlari sifatini oshirish, xususan, bank xodimi va mijoz ishtirokchilari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, axborot texnologiyalarini rivojlantirish, internet orqali moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini ta’minlash masalalari ilmiy asosda belgilandi.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari, chakana bank xizmatlari, masofaviy xizmatlarni rivojlantirish, inflyatsiya, milliy valyuta, raqamli iqtisodiyot, foiz stavkalari, Elektron hukumat.

Abstract: The article identifies issues of improving the quality of banking services provided to the population, in particular, ensuring a balance between bank employees and client participants, the development of information technology, and the possibility of providing financial services on the Internet. on a scientific basis.

Key words: banking services, retail banking services, development of remote services, inflation, national currency, digital economy, interest rates, Electronic Government.

Аннотация: В статье определены вопросы повышения качества банковских услуг, предоставляемых населению, в частности, обеспечения баланса между работниками банка и участниками-клиентами, развития информационных технологий, возможности предоставления финансовых услуг через интернет на научной основе.

Ключевые слова: банковские услуги, розничные банковские услуги, развитие дистанционных услуг, инфляция, национальная валюта, цифровая экономика, процентные ставки, Электронное правительство.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan “XXI asr axborot texnologiyalari” asrida bank faoliyatini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, taklif etilayotgan xizmat turlari bank xarajatlarini kamaytirish bilan birga, mijozlar vaqtini tejash imkonini ham beradi. 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 12-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qililsh strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa ushbu sohadagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o‘rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko‘lamining oshishiga xizmat qilmoqda [1].

Tijorat banklarining raqobatbardoshlikni ta’minlashida eng samarali yo‘li mijozlarning unga bo‘lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar raqobatbardoshlikni ta’minlashi uchun zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko‘proq ehtiyoj sezmoqdalar. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” davlatdasturida Joriy yilda “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha tub burilish qilishimiz kerak. Qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta’lim, arxiv va iqtisodiy sohalarini to‘liq raqamlashtirish lozim. “Elektron hukumat” tizimini, amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, barcha tashkiliy va institutsional masalalarni kompleks hal etish zarur [2].

Adabiyotlar tahlili: Bank xizmatlar nazariyasi rivojlanishini boshlang‘ich bosqichida X. Duglas [3] va G. Brayanning ilmiy ishlari banklar xizmati bozori hamda uning bank xizmatlari segmentini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ikkinchi bosqichda, mamlakatlarning iqtisodiyot tizimlari faoliyatini xususiyatlarini hamda boshqa omillarning

bank xizmatlari bozoriga ta'sirini tadqiq etishga bag'ishlangan F. Derek [4] O.Donnel, Ye. Ballarin ilmiy ishlarida aks etadi. Ye. P. Jarkovskaya "...bank masofaviy xizmatlari bank ofisida aynan bank xodimi va mijoz ishtirokida emas balki, uyda, ish joyida, umuman mijozga qulay bo'lgan xoxlagan joyda xizmat ko'rsatishdir"[5], degan ta'rifni keltiradi. A. S. Goncharukning "Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir" [6].

Respublikamiz olimlaridan prof. Sh. Z. Abdullayevaning [7] masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg'or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish, elektron pullar hicobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hicobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratgan. Z. T. Mamadiyarovning "Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish" nomli dissertasiya ishida[8] bank xizmatlarini masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi oshirish uchun operasion xarajatlar barqarorligiga erishish, mijozlarning qanoatlanishi darajasi ko'rsatkichini bank faoliyatiga joriy etish, bank infratuzilmasini moliyalashtirish, risklarni boshqarish kredit amaliyotini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishda maxsus avtomatlashtirilgan rejimni kiritish, bank filiallarida xarajatlarni kamaytirish va to'xtovsiz faoliyatni ta'minlash maqsadida 24/7-rejimida ishlovchi smarto-fislarni tashkil etish.

Tijorat banklarining xizmatlari tobora kengayib, sifati yaxshilanib bormoqda, yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobatlashmokdalar. Banklar tomonidan keng ko'lamli xizmatlarning ko'rsatilishi, bankning mijoz uchun ishlashi bugungi kunning talabidir. Shunday ekan mijozlar manfaati ko'zlangan hamda bank uchun daromad keltiradigan dasturlar, tadbirlar uyushtirish, har bir moliyaviy xizmatning tub mohiyatini, foydali va zararli tomonlarini mijozlarga tushuntirib berish bilan shug'ullanuvchi bank bo'limlari faoliyatini joriy etish kabilar maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Moliyaviy xizmatlarni keng doirada olib borish banklar uchun daromad manbaini kengaytiradi va ularni zamonaviy bank darajasiga olib chiqadi.

O'tkazilgan tadqiqot metodologiyasi: G'arbiy Yevropa, AQSH va boshqa mamlakatlarda tijorat banklarining to'lov tizimi nobarqaror holatiga tushib qolish va moliyaviy beqarorligining qator sabablari hamda unga ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, mamlakatda makroiqtisodiy beqarorlik, samarali va takomillashgan nazoratning joriy etilmaganligi, bank faoliyati ustidan boshqaruvning zaiflashuvi hisoblanadi, banklar faoliyatida operatsion uzilishlarning yuz berishi kabilar shular jumlasidandir.

1-jadval: Dunyoda aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi, mijozlari soni bo'yicha yetakchi tijorat banklari [9]

№	Bank nomi	Asoschi kompaniya	Davlat	Mijozlar soni (mln)
1	ING Diba	ING Group	Germaniya	8,5
2	CapitalOne 360	CapitalOneFinancial	AQSh	7,8
3	USAA Bank	USAA	AQSh	7,0
4	FNBO Direct	FirstNationalofNeberaska	AQSh	6,0
5	RakutenBank	Rakuten	Yaponiya	5,0
6	TinkoffBank	-	Rossiya	5,0
7	TIAA Direct	TIAA-CREF TrustCompany	AQSh	3,9
8	DiscoverBank	DiscoverFinancialServices	AQSh	3,5
9	AliorBank	-	Polsha	3,0
10	DKB AG	-	Germaniya	3,0

1-jadval ma'lumotlarida 2022-yil yakunlariga ko'ra dunyoda aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi, mijozlari soni bo'yicha TOP 10 talik tijorat banklari keltirilgan. Germaniyada ING Diba banki 8,5 mln. mijozga ega bo'lib birinchi o'rinni egallagan, ushbu TOP 10 talikdan AQShning 5 ta tijorat banki, jumladan, 7,8 mln. mijoz bilan CapitalOne 360 banki, 7,0 mln. mijoz bilan USAA Bank banki, 6,0 mln. mijoz bilan FNBO Direct banki, 3,9 mln. mijoz bilan TIAA Direct banki hamda 3,5 mln. DiscoverBank banklari o'rin olgan, ushbu TOP 10 likdan MDH davlatlari ichida Rossiyaning TinkoffBank banki mijozlar soni 5,0 mln.ni tashkil etib oltinchi o'rindan joy olgan. Ma'lumki, tijorat banklari xizmatlarini tartibga solishda ularning nafaqat aktiv mablag'lari, balki passiv mablag'lari tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu nuqtayi nazardan quyidagi mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari va passivlari tarkibini tahlil qilish orqali ishimizni davom ettiramiz.

Butun dunyo yoshlarining 85 foizdan ortig‘i internetdan onlayn foydalanmoqda:

- mamlakatda 80 foiz yoshlar aholisi Onlaynda;
- rivojlangan mamlakatlarda 94% 15-24 yoshdagi yoshlar foydalanadi;
- rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda 67% rivojlanayotgan mamlakatlarda;
- faqat kamida 30% eng kam rivojlangan davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi [10].



1-rasm: 2022-yil davomida internetdan foydalanuvchilarning yosh bo‘yicha tahlili[11].

Jami internetdan foydalanuvchilar 48% ni tashkil etsa bunda yoshlarning ulushi ya’ni 15-24 yoshda (71%) ni tashkil etib sezilarli darajada yuqoridir. Bugungi kunda 830 million yoshlardan onlayn bo‘lganlar, 320 million nafarni tashkil etib, shundan (39%) Xitoyda va Hindiston hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, ularning umumiy hajmi 4,6 martaga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarning o‘sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog‘iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Turli xorijiy davlatlar tajribasi to‘lov tizimlarining rivojlanishi birinchi navbatda to‘lov vositalari va xizmatlarini kengaytirish natijasida bank operatsion xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Shuning bilan birga, bank kartalari orqali onlayn to‘lovlarni keng qo‘llanilishi to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bank xizmatlarining samaradorligini oshirishga olib keladi.

ILMIY YANGILIGI

Bank xizmatlari tushunchasiga yangi mazmundagi mualliflik ta’rifi berildi, jumladan uni sifat jihatdan tavsiflovchi me’zonlar o‘rganildi. Xususan, xalqaro bank amaliyotidan kelib chiqib bank xizmat turlarini tavsiflash uslubiyotini amaliy jihatdan o‘rganildi. Shuningdek, bank mahsulotlari va bank xizmatlari o‘rtasidagi farq hamda tafovutlarga aniqlik kiritildi. Xorijiy davlatlarning aholiga ko‘rsatiladigan bank xizmatlari tajribalarini O‘zbekiston bank amaliyotida qo‘llash yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatish amaliyotidagi muammolar o‘rganildi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taklif etilgan

XULOSA VA NATIJA

Aholiga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarini amalga oshirish lozim:

1. Respublikamiz yirik tijorat banklarida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i barqarorligini ta’minlash maqsadida:

- *birinchidan,* kredit siyosatini takomillashtirish lozim;
- *ikkinchidan,* tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish lozim;

- *uchinchidan,* kreditlarni yuqori likvidli garov obyektlari bilan ta'minlanishini kuchaytirish lozim;
- *to'rtinchidan,* har bir mijozning ishlab chiqarish sikliga bog'liq ravishda kreditlash shakllarini qo'llash lozim.

2. Respublikamiz tijorat banklari sof foizli spred koeffitsiyentining amaldagi darajasini oshirish yo'li bilan muddatli depozitlar va muddatli omonatlarga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirishlari lozim. Aks holda, muddatli depozitlar foiz stavkalarining pasayish tendensiyasiga barham berib bo'lmaydi. Bu esa, tijorat banklari depozit bazasi hajmining qisqarishiga olib keladi.
3. Respublikamiz tijorat banklari hisob-kitob xizmatidan oladigan daromadining operatsion daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish maqsadida:
4. Birinchidan, banklar tomonidan ochilayotgan ta'minlanmagan akkreditivlarning akkreditiv xizmati hajmidagi salmog'ini oshirish lozim;
5. Ikkinchidan, yangi bank xizmati turlarini (forfeyting, trast, kontokorrent) joriy etish lozim. Buning uchun mazkur bank xizmatlari rivojlangan mamlakatlarda respublikamiz banklari xodimlarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish lozim;
6. Uchinchidan, respublikamiz banklarida trast, faktoring, anderrayting operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limlar tashkil etish va bu bo'limni yetarli darajada moliyaviy resurslar bilan ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4811025-internet sayti ma'lumotlari.
2. https://uza.uz/oz/politics/ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 25-01-2020.
3. Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. – М.: Слово, 1971. – 508 с.
4. Дерек Ф. Глобалная стратегия банков. – М.: Экономика и финансы, 1990. – 385 с.
5. Жарковская Е.П. Банковскоэ дело. –М.: ОМЕГА-Л. 2014. 413 с.
6. Гончарук А.С. Институционалные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев. –Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хета-гурова–Шахты, 2012.–183 с.7.Abdullaeva Sh. Z. Bank ishi. –T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb.
8. Mamadiyarov Z.T. "Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.
9. Любов Олейник. – Сифровая трансформация банковского сектора ускорится. г. 22.12.2022. https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-technology-ru/4286-tsifrovaya-transformatsiya-bankovskogo-sektora-uskoritsya.
10. https://www.itu.int/ru/Pages/default.aspx
11. https://www.itu.int/ru/Pages/default.aspx

TIJORAT BANKLARI RESURSLARI SHAKLLANISHINING MANBALARI VA YO‘LLARI

Raxmanov Ilxom Xurramovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Toshkent moliya instituti,
“Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Bank resurslarining shakllanishi manbalari va yo‘llarini tadqiq etish bank aktiv operatsiyalarini resurslarning tabiatiga ko‘ra amalga oshirish imkonini beradi. Shu bois, mazkur maqolada bank resurslari shakllanishining pul va kapital bozori manbalari o‘rganildi. Tahlil uchun pul bozori va kapital bozori instrumentlari xususiyatlaridan foydalanildi. Shuningdek, tahlilda 2018-2022-yillarda O‘zbekiston banklari majburiyatlari va kapitali tarkibi keltirib o‘tilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda bank resurslari shakllanishida pul bozori instrumentlaridan samarali foydalanish va bu jihatdan kapital bozorini rivojlantirish zarurligi asoslangan. Tahlil jarayonida situatsion va strukturaviy usullardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: pul bozori, kapital bozori, depozit sertifikatlari, veksel, obligatsiya, aksiya, qarz majburiyatlari, qimmatli qog‘ozlar, kreditli moliyalashtirish, qarzli moliyalashtirish, depozitli moliyalashtirish, ulushli moliyalashtirish, kapital, banklararo kredit, repo.

Abstract: The study of sources and methods for the formation of banking resources allows for banking assets operations depending on the nature of the resources. Therefore, in this article, market mechanisms for the formation of banking resources of money and capital were studied. The characteristics of the money market and capital market instruments were used for the analysis. The analysis also mentions the structure of liabilities and capital of domestic banks in 2018-2022. According to the results of the analysis, the formation of banking resources in Uzbekistan is based on the need for the effective use of money market instruments and the development of the capital market in this regard. Situational and structural methods were used in the analysis process.

Key words: money market, capital market, certificates of deposit, bills, bonds, shares, debentures, securities, credit financing, debt financing, deposit financing, equity financing, equity, interbank credit, repo.

Аннотация: Исследование источников и способов формирования банковских ресурсов позволяет осуществлять банковские активные операции в зависимости от характера ресурсов. Поэтому в данной статье были изучены рыночные механизмы формирования банковских ресурсов денег и капитала. Для анализа были использованы характеристики денежного рынка и инструментов рынка капитала. Также в анализе упоминается структура пассивов и капитала отечественных банков в 2018-2022 годах. Согласно результатам анализа, формирование банковских ресурсов в Узбекистане основано на необходимости эффективного использования инструментов денежного рынка и развития в этой связи рынка капитала. В процессе анализа использовались ситуационные и структурные методы.

Ключевые слова: денежный рынок, рынок капитала, депозитные сертификаты, векселя, облигации, акции, долговые обязательства, ценные бумаги, кредитное финансирование, долговое финансирование, депозитное финансирование, долевое финансирование, собственный капитал, межбанковский кредит, репо.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va kapitallashish darajasini oshirish bo‘yicha vazifalarning qo‘yilganligi tijorat banklari resurslari shakllanishining barqaror o‘sishini ta’minlash masalasini chuqur o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bank mablag‘lari manbalari bir qancha kategoriyalarga bo‘linadi. Chek va jamg‘arma hisobraqamlari shaklida quyi stavkalarda jalb etiladigan depozitlar bank mablag‘lari manbalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, banklar aksionerlik kapitali, asosiy depozitlar va qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish orqali mablag‘lar manbalarini shakllantirib boradi.

Bank resurslari shakllanishini tadqiq etish uning ichki va tashqi tahlillariga asoslanadi. Bunda jamiyatdagi moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning ta’siri, bank rentabelligi ko‘rsatkichlari, bank moliyaviy holati ko‘rsatkichlari,

bank boshqaruvi samaradorligi, bank boshqaruvchilari va menejerlari, ichki auditorlari, nazoratchilari, mutaxassislarning darajalari (inson omili), boshqaruv organlarining qarorlari, milliy me'yoriy-huquqiy normalar, ichki risklar, joriy, retrospektiv, istiqbolli tahlillarni nisbiy va mutloq ko'rsatkichlar yordamida amalga oshirish lozim. Shuningdek, bank resurs bazasi mustahkamligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash obyektivlilik, muntazamlilik va intizomiylikka asoslanadi.

Banklar tomonidan barqaror mablag'lar manbalarini jalb qilish strategik yondashuvga asoslanadi. Barqaror mablag'lar bank uchun strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi va keng tushunchalarga asoslanishini inobatga olgan holda ularni alohida o'rganish kerak, deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijlik iqtisodchi olim Djozef Sinkining ta'kidlashicha moliyaviy tizimning asosiy vazifasi resurslarni joylashtirish bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha an'anaviy bank tizimi nuqtai-nazaridan olib qaraganda banklar ikki xil jarayonda ishtirok etadi:

1) depozitlar jalb qilish (birinchi jarayon);
2) kreditlar berish (ikkinchi jarayon).

Shuningdek, D.Sinki moliyaviy tizimning barqarorligini baholashda uchta parametrni keltirib o'tadi. Bular: joylashtirish samaradorligi, xarajatlar samaradorligi va qiymat samaradorligidir [1].

Piter S. Rouz esa, o'zining nashrlarida "jamg'armalar banklar amaliyotining muhim faktori hisoblanib, uzoq muddatli o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun daromad olishga xizmat qiluvchi hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish va bank kreditlarini moliyalashtirishda foydalaniladigan kapitalning asosiy manbasini tashkil etadi" deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning fikricha, bank boshqaruvi oldida depozitlarni samarali boshqarishda ularning xarajatlari darajasi va miqdori bilan bog'liq ikki asosiy masalani hal etish vazifasi turadi. Bular: mablag'larni jalb etishda qaysi turdagi depozitlar bank xarajatlarini minimallashtiradi; qay tarzda bankning pul mablag'lari ko'rinishidagi talabiga muvofiq keluvchi depozit portfelini shakllantirish mumkin [2].

Rossiyalik iqqtisodchi olim O. I. Lavrushin bank sektorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlash va ipoteka kreditlarini rivojlantirish imkonini beradi, deya ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, uning fikriga ko'ra, hozirgi zamonaviy bank amaliyotda obligatsion qarz ko'rinishidagi mablag'larni jalb qilish instrumentidan samarali foydalanilmayapti [3].

E. P. Jarkovskayaning fikricha, bank iqtisodiy barqarorligining kafolati ustav fondi hisoblanadi [4].

Sh. Abdullayeva, T. Qoraliyev va U. Ortiqov tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash uchun muddatli va xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha foiz darajalarini oshirish xususida o'z takliflarini keltirib o'tadilar [5].

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, banklarning balansdan tashqari operatsiyalarining resurslarni shakllantirishdagi roli alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Balansdan tashqari operatsiyalar banklar tomonidan pul mablag'larini jalb qilish (passiv operatsiyalar) va ularni joylashtirish (aktiv) maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda bank resurslari shakllanishi bilan bog'liq muammolar asoslangan. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv, ma'lumotlarni umumlashtirish, situatsion va strukturaviy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada bank resurslari shakllanishining bozor mexanizmlari ikki xil bozor ya'ni, pul bozori va kapital bozori nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda yoritib o'tiladi. Mazkur bozorlar moliyaviy bozor komponentlari bo'lib hisoblanadi.

Pul bozorlarida odatda qoplash muddati bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli va yuqori likvidli moliyaviy instrumentlar oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Bank resurslari shakllanishining pul bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- depozit va jamg'arma sertifikatlari;
- veksellar;
- obligatsiyalar;
- banklararo kreditlar;
- repo operatsiyalari.

Kapital bozori uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshiriladigan moliya bozorining segmentidir. Investorlar kapital bozorida birlamchi va ikkilamchi bozorlar orqali ishtirok etishlari mumkin.

Bank resurslari shakllanishining kapital bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- aksiyalar;
- uzoq muddatli qarz majburiyatlari.

Yuqorida qayd etib o‘tilganlardan kelib chiqib, pul va kapital bozorining farqli jihatlarini quyidagi jadval ma’lumotlari orqali yoritib o‘tamiz.

1-jadval: Pul va kapital bozorining farqli jihatlari

№	Asosiy farqli jihatlar	Pul bozori	Kapital bozori
1.	Muddat	Qisqa	Uzoq
2.	Likvidlilik	Yuqori	Past
3.	Risk	Past	Yuqori
4.	Daromadlilik	Past	Yuqori
5.	Ishtirokchilar	Markaziy bank, tijorat banklari va nomoliyaviy tashkilotlar	Fond birjalari, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari
6.	Iqtisodiyotga ta’siri	Iqtisodiyotda likvidlilikni ta’minlaydi	Iqtisodiyot barqarorligini ta’minlaydi

Jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, tijorat banklari pul va kapital bozorining aktiv ishtirokchilari hisoblanadi. Odatda, bank tizimi depozitlar jalb qilish va shu yo‘l orqali kreditlar berish hisobiga foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdan asosiy foydasini shakllantirayotgan mamlakatlarda kapital bozorining rivojlanishiga ehtiyoj seziladi. Bunday mamlakatlar bank tizimi investitsiyalarga muhtoj bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida mazkur mamlakatlarda kapital bozorining rivojlanishini talab etadi. Shuningdek, mamlakatda pul va kapital bozorining rivoji bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotda qisqa va uzoq muddatli talabni qondirishga xizmat qiladi.

Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatda fond bozori kapitalizatsiyasi YaIM miqdoridan oshib ketmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur holat iqtisodiyotda “ko‘pik”larni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday holatda real qiymatdan bozor qiymati oshib ketadi.

Mazkur fikrimizga Uorren Baffett indikatorini misol qilamiz. Baffett indikatori butun amerika bozori aksiyalari bozor qiymatining ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (YaIM) miqdoriga nisbatini anglatadi. Agar bu indikator ko‘rsatkichi 70-80% atrofida bo‘lsa, fond bozorlariga sarmoya kiritish mumkinligini anglatadi. Agar bu indikator ko‘rsatkichi 100%dan oshsa, tezroq riskli aktivlardan holi bo‘lish va bozordan chiqish kerakligini anglatadi [6].

Shuningdek, AQShda 2010-yil 21-iyulda qabul qilingan Dodd-Frank qonuniga asosan banklarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyaviy bozorlarda savdo qilishi ta’qiqlandi [7].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar bilan bir qatorda, pul va kapital bozorlarida bank resurslari shakllanishi mexanizmi qanday tarkibiy elementlar hisobiga amalga oshirilishi xususida ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz deb hisobladik.

Buni quyidagi jadval ma’lumotlari asosida izohlab o‘tamiz.

2-jadval: Bank resurslari shakllanishi mexanizmi elementlari

№	Shakllanish yo‘llari	Metodlari	Bozor instrumentlari
1.	Kreditli moliyalashtirish	- banklararo kreditlar; - Markaziy bank kreditlari.	Pul bozori instrumentlari
2.	Depozitli moliyalashtirish	- depozit va omonatlarni jalb qilish; - joriy hisobraqamlarga mablag‘lar jalb qilish.	
3.	Qarzli moliyalashtirish	Qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish	
4.	Ulushli moliyalashtirish	Aksiyalarni muomalaga chiqarish	Kapital bozori instrumentlari
5.	Balansdan tashqari operatsiyalar	- shartli majburiyatlar; - kafolatlar; - bozor operatsiyalari	Pul va kapital bozori instrumentlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari orqali shuni xulosa qilish mumkinki, odatda bank majburiyatlari, ya'ni banklarning jalb qilingan mablag'lari asosan pul bozori orqali shakllanadi. Shuningdek, bank kapitali, ya'ni o'z mablag'lari kapital bozori instrumentlari orqali shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida bank majburiyatlari va kapitalining o'ziga xos jihatlari va farqli xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. Moliyalashtirish manbalari, yo'llari, metodlari va instrumentlari nafaqat bank resurslarining shakllanish jarayoniga balki bankning moliyaviy faoliyati(aktiv operatsiyalari)ga ham ta'sir qiladi.

O'zbekistonda bugungi kunda banklar tomonidan resurslarni shakllantirishda pul bozori instrumentlaridan samarali foydalanish hamda mamlakatda kapital bozorini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki investorlar oldida qaysi bozorga sarmoya kiritish yuzasidan aniq sabab va tanlovlar mavjud bo'lishi kerak deb o'ylaymiz.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali O'zbekiston tijorat banklari majburiyatlari tarkibini ko'rib o'tamiz.

3-jadval: O'zbekiston tijorat banklari majburiyatlari tarkibi, foiz hisobida[8]

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.	Depozitlar	37,3	41,1	37,3	41,8	45,4
2.	Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	0,27	0,8	0,4	0,2	0,2
3.	Boshqa banklarning mablag'lari	3,7	4,9	5,2	4,8	8,7
4.	Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	55,6	47,5	49,3	46,5	39,1
5.	Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	0,01	1,30	3,1	2,8	2,3
6.	Boshqa majburiyatlar	3,2	4,6	4,7	4,0	4,3

O'zbekiston tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozitlar hamda olingan kreditlar va lizing operatsiyalari ulushi 2018-2022-yillarda o'rtacha qariyb 88,2 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, banklar tomonidan resurslarni shakllantirishda kredit va depozitli moliyalashtirish manbalari asosiy hamda qarzli moliyalashtirish manbalari juda kam ulushga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur holat banklar tomonidan pul bozorlarida banklararo kreditlar va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li resurslarni jalb qilish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Banklararo majburiyatlarning umumiy majburiyatlardagi ulushi 15 foizdan oshmasa maqbul holat sifatida baholanadi. O'zbekiston banklarida mazkur ko'rsatkich 2018–2022-yillar mobaynida o'rtacha 5,5 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, AQShda banklararo majburiyatlar bo'yicha limit bank umumiy kapitalining 25 foizidan oshib ketmasligi talab etiladi.

Rossiya Federatsiyasida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda ma'lum me'yorlar mavjudligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim deb o'ylaymiz. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining 2015-yil 23-mart "Omonatlar daromadliligining bazaviy darajasini aniqlash to'g'risida(Ob opredelenii bazovogo urovnya doxodnosti vkladov)"gi №3607-U-sonli Farmoyishiga asosan omonatlar daromadliligining bazaviy darajasi Rossiya banki (Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki) tomonidan har oyda keyingi oy uchun Rossiya bankining 2014-yil 27-fevraldagi "Kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslar omonat shartnomalari bo'yicha foiz stavkalari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risida(O poryadke raskrытiya kreditnыmi organizatsiyami informatsii o protsentnых stavkax po dogovoram bankovskogo vklada s fizicheskimi litsami)"gi №3194-U-sonli Farmoyishiga asosan banklardan olingan omonatlar bo'yicha maksimal foiz stavkalari bo'yicha ma'lumotlarga tayangan holda aniqlanadi. Shuningdek, joriy oyda omonatlar daromadliligining bazaviy darajasi oldingi oyda eng ko'p omonatlar jalb qilgan 2/3 qism banklarning omonatlar bo'yicha maksimal foiz stavkalari o'rtacha arifmetik stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda, omonatlar daromadliligining bazaviy darajasi ko'rsatkichi barcha banklar rasmiy internet saytlariga har oy boshlanishidan 3 ish kuni oldin yuboriladi. Banklar uchun omonatlar daromadliligining bazaviy darajasi rubl, AQSh dollari va yevro uchun alohida muddatlar bo'yicha (talab qilib olinguncha, 90 kungacha, 91 kundan 180 kungacha, 181 kundan 1 yilgacha, 1 yildan ortiq) hisoblanadi. Mazkur tartibga soluvchi mexanizmning kamchilik tomoni shundan iboratki, jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha foiz stavkalari darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Lekin, uning ijobiy samaradorligi shundan iboratki, bu holat banklar litsenziyalari bekor qilinishi riskini kamaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Agar alohida olingan bankda omonatlar bo'yicha foiz stavkalari Rossiya Banki tomonidan e'lon qilingan bazaviy ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, bu tartib buzarlik deb hisoblan-

maydi. Banklarda omonatlar bo‘yicha foiz stavkalari bazaviy stavkaning 2 foizli punktidan oshib ketmasligi kerak va bu chegaraga qadar amal qilish tavsiya etilgan. Agarda, banklarda omonatlar bo‘yicha foiz stavkalari bazaviy stavkadan 2 foizli punktga oshib ketsa, unda mazkur bank Omonatlarni sug‘urtalash bo‘yicha davlat agentligiga qo‘shimcha stavka bo‘yicha sug‘urta badalini to‘lab berishi kerak. Agarda, omonatlar bo‘yicha foiz stavkalari bazaviy stavkadan 3 foizli punktga oshib ketsa, unda mazkur bank sug‘urta badalini yuqori stavkada to‘lab berishi kerak bo‘ladi [9].

O‘zbekistonda banklar jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo‘yicha foiz stavkalari darajasini Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi hamda inflyatsiya darajasining so‘nggi yillardagi o‘zgarishidan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Markaziy bank depozitlar (omonatlar) bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasidan oshgan banklarda foiz siyosatining, shu jumladan, foiz darajasining asosli ekanligini aniqlash maqsadida mazkur banklarning foiz siyosatini va moliyaviy holatini alohida o‘rganib chiqadi [10].

4-jadval: O‘zbekiston tijorat banklari kapitali tarkibi, foiz hisobida [8]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
1.	Ustav kapitali	73,7	82,1	76,5	77,2	75,2
2.	Qo‘shimcha kapital	0,3	0,3	0,7	1,0	1,3
3.	Zaxira kapitali	11,0	7,5	8,9	11,9	9,2
4.	Taqsimlanmagan foyda	14,9	10,1	13,8	9,9	14,3

O‘zbekiston tijorat banklari kapitali tarkibida qo‘shimcha kapital kam ulushga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida bank kapitali bozor qiymatining pastligidan dalolat beradi. Bank kapitali shuningdek, bank faoliyat yuritishining regulyatori hisoblanadi. Bank kapitali miqdorining yuqoriligi bank mijozlari bazasining mustahkamlanishiga hamda kutilayotgan zarar va risklarni qoplashda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Bank kapitali bankni kutilishi mumkin bo‘lgan barcha risklardan himoya qilishi natijasida bankrotlikning oxirgi himoya chizig‘i bo‘lib sanaladi. Kapital, shuningdek kelajakda bankning kreditlash faoliyatini rivojlantirishga va kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanib, uzoq muddatli mablag‘larning kelib qo‘shilishi(shakllanishi)ga xizmat qiladi.

Xorijiy banklar faoliyati amaliyoti va nazariy tadqiqotlarda “bank kapitali yetarliligi” tushunchasi keng qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkich joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan resurslar miqdorining o‘zaro bog‘liqligini bildiradi. Kapital kredit operatsiyalari manbalaridan biri va qarz mablag‘larini qaytarish kafolati hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi natijasida barcha mamlakatlar banklari uchun maqbul bo‘lgan kapital yetarliligini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Bazel qo‘mitasi va bank tizimi rivojlangan katta o‘nlik (G10) mamlakatlari (Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Shvetsiya, Shveytsariya, AQSh, Benilyuks, Buyuk Britaniya) kapital yetarliligi ko‘rsatkichini eng muhim ko‘rsatkich hisoblab, xalqaro iqtisodiy aloqalarning integratsiyalashuvi xalqaro standartlarga muvofiq kapital yetarlilik darajasini tartibga solishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston bank tizimi bugungi kunda investitsiyalarga muhtoj. Banklar resurslari asosan aholi va xo‘jalik subyektlaridan depozit mablag‘larini jalb qilish va ularni foiz marjasi bilan qayta joylashtirish asosida asosiy operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda.

Bozor kon’yukturasi o‘zgarib borishi sharoitida banklar xizmat turlarini kengaytirish hamda bank biznesini samarali yuritishda yangi moliyaviy mablag‘lar manbalarini izlab topishlari talab etiladi.

O‘zbekiston tijorat banklarida talab qilib olingucha depozitlar barqarorligini ta’minlash maqsadida ularning muddatlari, qoldiqlari va ma’lum muddat davomida foydalanish mumkin tranzaksiyalar chegaralarini aniqlab olish asosida yangi turdagi transaksion depozit turlarini joriy etish lozim bo‘lib hisoblanadi.

Banklararo resurs bozorida jalb etilayotgan depozitlar bo‘yicha bozor stavkalarini qo‘llash amaliyotini joriy qilish hamda bu borada depozitlarning miqdori, muddati va qoldiqlari bo‘yicha foiz stavkalarini diversifikatsiya qilib borish zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida depozit turlarining jozibadorligini oshirish maqsadida fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash tizimini qayta ko‘rib chiqish lozim. Bitta bankda ochilgan fuqaroning barcha turdagi depozitlarini bir marta kafolatlash tizimini joriy qilish lozim.

Banklar resurslari shakllanishining bozor mexanizmlari xususidagi nazariy qarashlarni shakllantirishda banklarning turlari va xususiyatlari bo‘yicha yondashishni e’tiborga molik masala sifatida qaramadik. Sababi, bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyati universal xususiyatga asoslangan. Shveytsariyalik olim va bankir Xans-Ulrix Derig o‘zining “Universal bank – kelajak banki”b deb nomlangan asarida banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar universalligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi [11].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Д.Синки. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг – “Альпина Диджитал”, 2002 г.
2. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер.с англ. со 2-го изд.-М.: Дело, 1997. – С. 768.
3. Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования. – Монография. / коллектив авторов. – М.: КНОРУС. 2012.–С.272.
4. Жарковская Е.П. Банковское дело: Учебник/7-е изд., исп. и доп.–М.: Омега-Л, 2010. – С.479.
5. Abdullayeva Sh.Z. Qoraliyev T.M. Ortiqov U.D. “Bank resurslari va ularni boshqarish”. – Monografiya. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. – 2009. – B.104.
6. https://www.forbes.ru/newsroom/milliardery/421125-predskazavshiy-krah-dotkomov-indikator-baffeta-obnovil-istoricheskiy.
7. https://www.federalreserve.gov (AQSh Federal Rezerv tizimi) – internet sayti ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleten. –2020, 2021, 2022.
9. https://www.cbr.ru (Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki)-internet sayti ma’lumotlari.
Fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishda bozor instrumentlari ahamiyatini birlamchi ekanligini ta’kidlagan Moorad Choudhry, Didier Joannas, Gino Landuyt, Rod Pienaar, Richard Pereira kabi olimlarning “Capital market: instruments analysis and valuation” nomli kitobida ko‘rsatilishicha, kapital bozorining segmentlaridan bo‘lgan – pul bozorida pulning vaqt qiymati va diskont stavkasini belgilovchi omillar tahlil etilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida diskont koeffitsiyenti hisoblab chiqarishning B-spline usuli, uzluksiz vaqt davomida obligatsiyalar narxini belgilash, inflyatsiya orqali indekslangan obligatsiyalarning qiymatini hisoblash kabilar atroflicha yoritib berilgan [2].

R. Xo‘jamurodov “O‘zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar” mavzusida olib borgan tadqiqotlarida quyidagilarni alohida qayd etgan: “O‘zbekistonda fond bozori yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini investitsiyalarga yo‘naltiradi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transfarmatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari bo‘yicha barcha operatsiyalar fond birjasi elektron savdo tizimi hamda uyushgan va uyushmagan savdo tizimi orqali amalga oshiriluvchi infratuzilma shakllantirildi. Biroq qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozorini to‘la ishga tushirish, fond birjasida aksiyalar qiymatini muntazam e’lon qilib borish, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoqi va intilishini oshirish, aksiyalarning haqiqiy qimmatli qog‘ozga aylantirish hamda aksiyadorlar uchun muhim daromad manbai bo‘lishi ta’minlanmaganligi, fond bozori infratuzilmasi faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi fond bozorini rivojlanish imkonini bermayapti. Shuningdek, mamlakatda fond bozori infratuzilmasining iqtisodiyotdagi roli past bo‘lib, davlatning makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki, fond bozori rivojlangan mamlakatlardagidek, o‘zining bosh funksiyasi – yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini investitsiyalarga yo‘naltirish, ya’ni, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qila olmayapti. Ushbu holatlar O‘zbekistonda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda [3]”.

Rossiya Federatsiyasi Banki tomonidan qayd etilishicha, “Fond bozori va uning infratuzilmasi – bu moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalarga xizmat ko‘rsatadigan, bunday operatsiyalar bo‘yicha nazorat va hisob-kitoblarni amalga oshiradigan, moliyaviy aktivlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga oladigan va boshqaradigan, shuningdek, moliya bozorining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘playdigan, saqlaydigan va taqdim etadigan maxsus tashkilotlar [4]” hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kooporativ tuzilma va aksiyador munosabatlari ko‘p umumiy moliyaviy munosabatlarga qurilgan. Jumladan, birinchi aksiyadorlik jamiyatlari an’anaviy ravishda Moskva, Levant, Boltiqbo‘yi, Sharqiy Hindiston kompaniyalari, shuningdek, XVI asrlarda Angliyada tashkil etilgan Niderlandiya Birlashgan Sharqiy Hindiston kompaniyasi hisoblanadi [5].

Tadqiqotlardan ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo‘lgunga qadar korporatsiyalarning dastlabki shakllari aksiyalar chiqarmagan. Dastlab, jamiyat a’zolari savdo ekspeditsiyalari tugatilgandan so‘ng qaytariladigan aksiyalarni muomalaga kiritdilar. Shunga ko‘ra, kompaniya faoliyatini davom ettirish uchun kapitalni doimiy ravishda yangilab turish kerak edi. Keyinchalik aksiyalar egasining egalik huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozlar bilan almashtirildi, ularga dividendlar muntazam ravishda to‘lanadigan bo‘ldi (ba’zi hollarda tovarlarda). Dividendlarni to‘lash yalpi foydani taqsimlash o‘rnini egalladi. Keyinchalik kapitalni doimiy ravishda yangilab turish tamoyili bekor qilindi (o‘rta asrlar shirkatiga o‘xshash) va aksiyalar egasiga ularni boshqa shaxslarga sotish imkoniyati berildi.

Fond bozorining ilk ko‘rinishlari sifatida birinchi birjalar XVI asrda paydo bo‘lgan: ular Antverpen va Lion birjalari bo‘lib, ammo ushbu asrda o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Birinchi klassik fond birjasi, hanuzgacha faoliyat yuritib, keladi. Bu Amsterdam fond birjasi bo‘lib, u 1611-yilda ish boshlagan. Shuning uchun mamlakatdagi tarixan birinchi fond bozori hisoblanadi. 1913-yilgacha Amsterdam fond birjasi universal savdo maydonchasi

sifatida uning binolarida nafaqat qimmatli qog‘ozlar, balki turli xil tovarlar va boshqalar ham sotilgan. Aynan shu birjada qimmatli qog‘ozlar savdosining barcha zamonaviy vositalari va shakllari birinchi marta keng tarqaldi:

- fyuchers operatsiyalari;
- opsionlar;
- repo operatsiyalari va boshqalar.

Niderlandiya fond bozori. Dastlab, birjalarga kirish bepul bo‘lib, istalgan kishi kelib, istalgan kishi bilan shartnoma tuzishi mumkin edi. Uzoq vaqt davomida Amsterdam fond birjasida asosan Niderlandiya hukumati Amsterdam shahri ma’muriyati va boshqa ba’zi shaharlarning obligatsiyalari bilan savdo qildi. Uzoq vaqt davomida aksiyalarning muntazam savdosi mamlakatning birinchi aksiyadorlik jamiyati – Birlashgan Sharqiy Hindiston kompaniyasining (1602-yilda tashkil etilgan) qimmatli qog‘ozlari bilan ta’minlangan. Amsterdam fond birjasida aksiyalari sotila boshlagan ikkinchi kompaniya 1621-yilda tashkil etilgan G‘arbiy Hindiston kompaniyasi bo‘ldi. XVIII asrda emitentlar qatoriga Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi, Janubiy dengiz kompaniyasi, Angliya banki va Yevropa davlatlarining hukumatlari kirgan. 1747-yilda Amsterdam fond birjasida 40 dan ortiq turdagi qimmatli qog‘ozlar sotilgan. Yevropa fond birjalarining savdo aylanmasida qimmatli qog‘ozlar faqat XIX asrning ikkinchi yarmida faollashgan. Bundan oldin savdo asosan davlat va shahar obligatsiyalari bilan amalga oshirilgan. Buning sababi shundaki, aksiyadorlik jamiyati korxonaning tashkiliy shakli sifatida faqat XIX asr oxirida tashkil etilgan. Niderlandiya fond bozori bilan parallel ravishda ingliz qimmatli qog‘ozlar bozori ham rivojlangan. U yerda dunyoda birinchi aksiyadorlik jamiyati – Moskva kompaniyasi paydo bo‘ldi, u 1553-yilda Ivan Terribledan Rossiya bilan savdo qilish monopoliyasini oldi. Ingliz bozorida birinchi erkin sotiladigan aksiyalar ingliz Ost-Indiya kompaniyasi (1600-yilda tashkil topgan) va Niderlandiya Birlashgan Ost-Hind kompaniyasining qimmatli qog‘ozlari bo‘ldi. Aksiyalari ingliz bozorida ham sotilgan Gudson’s Bay kompaniyasi (1668-yilda tashkil etilgan) bugungi kunda ham mavjud hisoblanadi [5].

Angliya fond bozori. Ingliz fond bozori 1773-yilda tashkil topgan birinchi ixtisoslashgan fond birjasi Angliyada paydo bo‘lgan. City biznes mavzesidagi qahvaxonada turli moliyaviy vositalar bilan savdo qiluvchi londonlik brokerlar o‘z bizneslari uchun maxsus xonani ijaraga olgan. Keyinchalik ushbu bino “London fond birjasi” deb nomlandi va birinchi marta bu nomda kombinatsiyalangan fond birjasi faoliyatini boshlagan. Dastlab London fond birjasiga a’zolik bepul bo‘lgan. Har kim ma’lum miqdorda pul to‘lagan holda kim oshdi savdosida qatnashishi mumkin bo‘lgan. 1802-yilda birja hozirda joylashgan Angliya banki yaqinidagi yangi binoga ko‘chib o‘tgan. Shu davrdan fond birjasida yangi qoidalar qabul qilindi, unga ko‘ra faqat uning a’zolari birjada savdo qilishlari mumkin, deb belgilab qo‘yilgan. Dastlab ular 550 kishini tashkil etgan. London tezda fond bozorida etakchi o‘rinni egalladi. XIX asrning o‘rtalariga qadar London fond birjasida asosan davlat obligatsiyalari sotilgan. Ko‘p jihatdan bu holat 1720-yildan XIX asrning o‘rtalariga qadar faoliyat olib borgan aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishning qonunchilik cheklovi tufayli yuzaga keldi. Ushbu cheklov XVIII asrning boshlarida aksiyadorlik jamiyatlarining ommaviy tashkil etilishi tufayli kiritilgan bo‘lib, ularning orqasida yashiringan ba’zi moliyaviy piramidalar ta’minlanmagan aksiyalar emissiyasini tashkil etgan. 1720-yilda Angliyada Bubble qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, aksiyadorlik shaklidan ajralmagan holda “cheklangan javobgarlik” maqomi faqat parlamentning maxsus akti asosida olinishi mumkin bo‘ldi. 1708-yildan 1826-yilgacha Angliya banki bundan mustasno hisoblangan. Bu borada ushbu davrda ham banklar uchun aksiyadorlik huquqi saqlanib qolingan. Bank muassasalari yakka tartibdagi korxonalar yoki shirkatlar shaklida faoliyat yuritishi ham mumkin edi. XIX asrning ikkinchi yarmining boshlarida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish bo‘yicha barcha taqiqlar bekor qilingan. Bu, o‘z navbatida, mamlakatda fond bozori rivojlanishida muhim qaror vazifasini o‘tagan. Afsuski, London fond birjasi paydo bo‘lishining dastlabki yillarida uning ish va savdo qoidalari haqida kam ma’lumot saqlanib qolganligi bos batafsil tadqiqot qilish imkonsiz.

Fransiya fond bozori. Fransiyada qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha “qimmatli huquqlar” bilan bog‘liq birinchi ayirboshlash operatsiyalari 1540-yilda Lionda paydo bo‘lgan. Ammo u uzoq davom etmagan. 1724-yilda Parijda vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus bino qurildi va u birja deb nomlangan. Zamonaviy Parij birjasining prototipiga aylangan. Ushbu davrdagi birja ishi birja faoliyatini olib borishning zamonaviy tamoyillariga unchalik mos kelmasdi, chunki birinchi navbatda narxlarni ommaviy ravishda e’lon qilish amaliyotidan foydalanilmagan. Faqatgina 1777-yilga kelib, qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun maxsus platforma ajratildi va ochiq narxni e’lon qilish qoidasi joriy etildi. Fransiya inqilobidan bir necha yil o‘tgach, 1793-yilda fond birjasi yopildi va 1801-yilda Napoleon hokimiyat tepasida bo‘lganida qayta ochildi. Shu yili Fransiya imperatori 1826-yilda hozirgi Parij fond birjasi binosini qurish uchun farmon chiqargan [5]. Dastlab birjada asosan veksellar va XIX asrning o‘rtalaridan boshqa qimmatli qog‘ozlar ham Parij fond birjasida savdolari amalga oshirilgan. Fond bozoridagi savdolar 1639-yildan shunday nomlana boshlagan professional ayirboshlash agentlari tomonidan amalga oshirilgan (oldin ular “pul almashtiruvchi” deb atalgan).

Amerika fond bozori. Amerikada birinchi fond birjasi 1791-yilda Filadelfiya shtatida tashkil etilgan. Bir yil o‘tgach, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi eng mashhur fond bozori – Nyu-York fond birjasi ish boshlagan. “1972-yil may oyida Manxettenning janubiy qismidagi qahvaxonalarda savdo qilgan mahalliy brokerlar Uoll-stritda

to‘planishdi va savdo shartnomasini (Buttonwood kelishuvi) imzoladi [6]”. Uning qoidalari faqat birja a’zolari o‘rtasida bitimlarni amalga oshirishni nazarda tutgan. Mazkur fond birjasi savdolarida ruxsat etilgan komissiya to‘lovi faqat 1975 yilda bekor qilingan. Boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi Nyu-York fond birjasidagi savdolarning birinchi o‘n yilliklari birinchi navbatda davlat obligatsiyalari savdosi amalga oshirilgan. Faqat Shimol va Janub o‘rtasidagi fuqarolar urushidan so‘ng, aksiyalar bitimlarning asosiy ob’ektiga aylanganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Nyu-York fond birjasi korporativ Amerikaning yuksalishida muhim rol o‘ynagan, deyish to‘g‘ri, aslida. Moliya va sanoat imperiyalari Amerika iqtisodiyotining asosini tashkil etgan Vanderbilt, Rokfeller, Morgan kabi kapital olamining mashhur kishilari aynan shu platformada o‘z boyliklarini to‘plashgan.

Germaniya fond bozori. “Germaniyada birinchi fond birjasi Frankfurtda tashkil etilgan. 1585-yilda mahalliy savdogarlar turli valyutalar uchun qat’iy belgilangan kurslardan foydalanishga kelishib olgan [7]”. XVIII asr oxirigacha tangalar va veksellar Frankfurt fond birjasida sotilgan. Davlat obligatsiyalari bilan muntazam savdo qilish ushbu asrning eng oxirida boshlangan. XIX asr oxirida mamlakat birlashgandan so‘ng, Germaniya fond bozorida etakchi rol Berlin fond birjasiga o‘tdi. Bu davrda yuzlab aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo‘lganligi sababli Germaniya bozorida allaqachon 29 ta savdo maydonchasi faoliyat ko‘rsatgan.

O‘zbekiston fond bozori. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 apreldagi PF-745-son “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan “Toshkent” Respublika fond birjasi tashkil etilgan. Respublikada fond bozori tashkil etilishi va rivojlanishida “Toshkent” Respublika fond birjasi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Fond bozori muhim infratuzilmasi bo‘lgan ushbu respublika fond birjasida tuzilgan bimlar soni va ularning hajmini ko‘rib chiqish orqali fond bozori rivojlanish tendensiyalarini baholash mumkin:

1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, “Toshkent” Respublika fond birjasida 2018-yilda umumiy qiymati 687,3 mlrd so‘mlik 13750 ta savdo bitimlari tuzilgan. Shuningdek, 2019-yilda tuzilgan bitimlar soni 138 foizdan oshib, 32816 donani tashkil etgan. Mazkur yilda fond bozori ishtirokichlari tomonidan tuzilgan savdo bitimlari hajmi 438,8 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lgan. Ammo, tuzilgan bitimlar soni tahliliy yildan oldingi davrga rnisbatan oshgan bo‘lsada, bitimlar hajmi 36,1 foizga kamaygan. Bu o‘z navbatida institutsional tuzimalarning fond bozoridagi investitsiya faolligining pasayganligini ko‘rsatadi.



1-rasm: “Toshkent” Respublika fond birjasida tuzilmalar bitimlar soni va hajmi haqida ma’lumot

Manba: “Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bundan tashqari, 2020-yilda fond birjasi ishtirokichlari tomonidan umumiy qiymati 578,1 mlrd. so‘m bo‘lgan jami 36062 dona savdo bitimlari tuzilgan. Mazkur ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan, ya’ni savdo bitimlarining umumiy qiymati bo‘yicha 31,7 foiz ko‘p. Bitimlar soni bo‘yicha ham oldingi yilga nisbatan 2020-yildagi bitimlar soni deyarli 10 foizga ko‘p ekanligi aniqlandi. Fond birjasi ishtirokichlari tomonidan fond birjasida 71489 dona tuzilgan 2021-yildagi savdo bitimlarining umumiy qiymati 1260,51 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston fond bozori infratuzilmasining elementlari o‘zaro ta’sirlashishi yo‘lidagi to‘siqlar ham “vertikal” (infratuzilma elementlari o‘rtasida), ham gorizontal (har bir element ichidagi tashkilotlar o‘rtasida) bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston fond bozoridagi bitimlar bo‘yicha kliring va hisob-kitob tizimi lokal hisob-kitob-kliring institut-

larining tarqoq to‘plamidir. Ularning birlashishi tendensiyasi ob’ektiv asosga ega va O‘zbekiston fond infratuzilmasini yanada rivojlantirishning ehtiyojlarini aks ettiradi.

O‘zbekistonda fond bozori va uning infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish o‘zining ijobiy samarasini beradi:

- fond birjasida ma’lumotlar shaffofligi va oshkoraligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlarni “taqqoslama yillar” kesimida tahlil qilish va uni fond birjasining ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirish maqsadga muvofiqdir;
- O‘zbekiston Respublikasining suveren obligatsiyalarini xalqaro fond birjalarida joylashtirishda bukranerlarni jalb qilishni yanada faollashtirish lozim. Bunda Siti Group (AQSh), J. P. Morgan Shase (AQSh), Societe Generale (Fransiya), VTB Capital (Rossiya) va “Gazprombank” (Rossiya) kabi xalqaro moliya institutlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish o‘zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Всяких М.В. Совершенствование и развитие инфраструктуры фондового рынка Российской Федерации. Автореферата по ВАК РФ 08.00.10, кандидат экономических наук. 2009.
2. Moorad Choudhry, Didier Joannas, Gino Landuyt, Rod Pienaar, Richard Pereira. Capital market instruments analysis and valuation. 3rd Edition. Palgrave MacMillan 2010. 305 p.
3. Xo‘jamurodov A. O‘zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018 yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/19_Khujamurodov.pdf
4. https://www.cbr.ru/finm_infrastructure/
5. В.А.Ипполитов. Мировой фондовый рынок: история развития и современное состояние. РОССИЙСКИЙ внешнеэкономический вестник. –№ 3 (Март) 2006
6. Миркин Я.М. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. -М.: Альпина Паблишер, 2002.–578 с. 5.
7. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане, Автореферат дисс… доктора. экон. наук.–Ташкент, БФА, 2009.
8. Хамидулин М.Б Развитие финансового механизма корпоративного управления, Автореферат дисс… доктора. экон. наук.–Ташкент, БФА, 2009. 6.

MAMLAKATDA DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARINING TUTGAN O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna
Farg‘ona politexnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit”kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakat tibbiyot sohasini oxirgi yillarda amalga oshirilgan asosiy va iqtisodiy islohotlarning natijaviyligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, mazkur sohani yanada rivojlantirishdagi yuzaga kelayotgan asosiy muammolar aniqlanib, tadqiqot natijalari asosida ularni bartaraf etish yo‘llari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimiy taraqqiyot, tibbiyot sohasi, tibbiyot muassasalari, shifoxona, kasal, tibbiyot buyumlari, dori vositalari.

Abstract: The article analyzes the effectiveness of the main reforms implemented in the country’s medical sector in recent years. At the same time, the main problems arising in the further development of this field are identified, and the ways to eliminate them are described based on the research results.

Key words: social development, medical field, medical institutions, hospital, patient, medical supplies, drugs.

Аннотация: В статье анализируется эффективность основных реформ, реализованных в медицинской сфере страны за последние годы. При этом по результатам исследований выявлены основные проблемы, возникающие при дальнейшем развитии данной области, и описаны пути их устранения.

Ключевые слова: социальное развитие, медицинская сфера, медицинские учреждения, больница, пациент, медикаменты, лекарственные средства.

KIRISH

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tibbiyot sohasi alohida o‘rinni egallab, davlatimizning bu sohani rivojlantirishni ustuvor siyosatni sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan ushbu sohani rivojlantirishda xalqaro andozalar asosida taraqqiy ettirishga, tibbiyot muassasalarini zamonaviy texnika va texnoloogiyalar bilan ta’minlashga, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiyot xizmatlari sifatini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki tibbiyot sohasi asosida jamiyat uchun muhim sanalgan – inson salomatligini asrash, inson manfaatlarini ta’minlash, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan: “Taraqqiyot strategiyasining 56-maqsadida: Davlat byudjetidan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘larning 3 barobarga oshirilishini ta’minlash, davlat tibbiyot muassasalarida dori-darmon va tibbiy buyumlar ta’minotini yanada yaxshilash hamda yetkazib berish va saqlash tizimini takomillashtirish masalalari bayon qilingan”[1]. Bundan kelib chiqadiki, malakat taraqqiyotini ta’minlashda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan imlohotlarni asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, kelgusida ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf eti yuzasidan tavsiya va takliflarni ishlab chiqish – muhim ahamiyat kasb etib, bu tanlangan tadqiqot mavzusini dolzarbliligini belgilab beradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli. https://lex.uz/docs/-5841063

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiyot sohasini rivojlantirish maqsadida, eng avvalo, o‘tgan yillarda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi[2]. Shu bilan birga olimlar tomonidan CIVID-19 pandemiyasini oldini olish[3], tibbiyotning bir qator olimlar molekulyar biologiyadan saraton tadqiqotlari va immunoterapiyagacha bo‘lgan tibbiyot fanining turli sohalarini ifodalaydi. Ularning ishi kasalliklarning mexanizmlarini tushunish va yangi davolash usullarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega sanaladi.

Biz tadqiqotimizda tibbiyot muassasalarini byudjet tashkilot sifatida ularni moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va nazorat faoliyatini tashkil qilish, hisobot tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu o‘rinda, umuman, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, nazoratni tashkil qilish masalalari bo‘yicha respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A. K. Ibragimov, B. B. Sugirbayev[4], M. Ostanaqulov, S. U. Mehmonov, M. X. Saidov, Sh. M.Qurbonov, A. Sh. Kuliboyev kabilar ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari bo‘yicha Yo‘riqnoma tasdiqlangan[5] bo‘lib, unda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari keltirilgan.

Iqtisodchi olim S. Mehmonovning[6] ilmiy tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

Iqtisodchi olim Sh.M.Qurbonovning tadqiqotlarida davlat tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan bo‘lsa, A.Sh.Kuliboyev tadqiqotlarida davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan[7].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning ayrim masalalari yoritilgan. Lekin mazkur ishlarda tibbiyot muassasalarida hozirgi paytda vujudga kelayotgan muammmolari va ularni hal qilishdagi buxgalteriya hisobi oldidagi masalalarning yetarlicha tadqiq etilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq ob’yekti sifatida o‘rganilishiga sabab bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy ishning nazariy-metodologik asoslarini yoritishga bag‘ishlangan tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, taqqoslash, statistik jadval kabi usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda tibbiiyot sohasi alohida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida izchil islohotlar olib borilayotgan sohalardan biri, desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki bugungi kunda davlat tibbiyot muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot muassasalarining faoliyati ko‘rsatishi, davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini rivojlantirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadada zamonaviy texnologiyalarning jalb etilishi, tibbiyot muassasalarida faoliyati ko‘rsatayotgan xodimlarni malakasini oshirish, tibbiyot yo‘nalishidagi kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu sohadagi faoliyatida ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarini turli hududlarda ochilishi, ularda yangi-yangi ta’lim yo‘nalishlari kiritilishi, kvota miqdorlarining oshirilishi, tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlashtirish mexanizmlarining tashkil qilishi, ma’muriy islohotlarda doirasida tibbiyot sohasining davlat boshqaruvini samarali tashkil etilishi kabi amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin.

Ma’lumki, bugun respublikamizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida ijtimoiy sohaning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan tibbiyot sohasini butunlay transformatsiya qilish, uni jahon standartlari darajasiga olib

2 “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 17-may, O‘RQ-770-son, “Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “Barcha respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro‘yxati” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5199-son Qarori

3 Doktor Entoni Fauci – Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Milliy Allergiya va yuqumli kasalliklar instituti direktori, COVID-19 bo‘yicha o‘zining ilmiy maslahatlari bilan mashhur bo‘ldi, doktor Jan-Loran Kazanova: COVID kasalligining og‘irligiga ta’sir qiluvchi genetik omillar bo‘yicha tadqiqotlar-19 va boshqalar.

4 A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev Byudjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. infoCOM.uz MCHJ. –T.: 2010, 192 b.

5 “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 105-sonli buyrug‘i, 2010-yil 17-dekabr

6 S.U.Mehmonov “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish”. Iqt.fan.dok. (DSc) ilm. dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2018. – B. 76.

7 Qurbonov Sh.M. “Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish” Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2022.–B. 59.; Kuliboyev A.Sh. “Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish” Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2022. – B. 59.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

chiqish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Tibbiyot sohasini yanada rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ularning sifatini oshirishga mo‘ljallangan 30 ga yaqin Farmon va Qarorlarning qabul qilinishi natijasida, birlamchi tizimdan tortib, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam yo‘nalishigacha har bir sohani xalqqa yanada yaqinlashtirish, “Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil asosida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish bosh mezonga aylangan.

Bularni mamlakatimizda qisqa davrda buyrak, jigar va o‘zak hujayralarda transplantatsiya amaliyotlari, epilepsiya kasalligida chip o‘rnatish va umurtqa pog‘onasi qiyshiqligi radikal korreksiyasi kabi noyob jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazishning yo‘lga qo‘yilgani, Milliy tibbiyot markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo‘yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kabi muassasalar tashkil qilinganligi, Milliy tibbiyot markazida muassasa tibbiyotimizda birinchi marta xirurgiya, urologiya, transplantologiya, travmatologiya-ortopediya, ginekologiya, kardioxirurgiya, nefrologiya, kardiologiya, endokrinologiya, kardiorevmatologiya, stomatologiya kabi o‘nlab bo‘limlarni o‘z ichiga olgan noyob megaloyiha bo‘ldi. Bu yerda yiliga uch mingdan ziyod yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Shu kabi ishlarning natijalar sifatida keltirilgan jadvalda mamlakatimida tibbiyot sohasining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasi rivojlanishininig asosiy ko‘rsatkichlari[8]

Ko‘rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Shifoxona muassasalari soni	1071	1106	1135	1165	1205	1232	1281	1328
Shifoxona o‘rinlari soni, ming	129,7	132,0	135,7	153,6	153,4	161,0	165,5	166,9
10 000 aholiga	41,1	41,1	41,6	46,6	45,2	46,6	46,6	46,3
Statsionarlarda davolangan bemorlarning jami soni, ming	5293,9	5581,5	5984,8	6235,6	6154,0	5532,1	5926,1	6952,5
Bitta shifoxona o‘rniga to‘g‘ri keladigan aholi soni	243	243	241	215	221	213	213	216
Homilador ayollar va tug‘adiganlar uchun o‘rinlar soni, ming	17,6	17,4	17,7	17,4	17,3	17,3	17,8	17,8
10000 ayollarga (15-49 yosh)	20,2	19,9	20,9	19,6	19,3	19,1	19,6	19,3
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	6220	6542	5296	5627	5955	6032	6676	7010
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati, bir smenada qatnovlar soni, ming	407,0	411,9	405,3	440,8	468,6	682,6	461,3	508,0
10000 aholiga	128,9	128,2	124,1	133,7	149,5	197,5	130,8	141,0
Akusherlik-ginekologiya xonalari soni:	2752	2640	2157	2186	1900	1982	1699	2410
Bolalar poliklinikalari (bo`limlari) soni:	1997	1783	1102	1128	2058	1067	535	688
Barcha mutaxassislikdagi shifokorlarning soni, ming	83,4	84,1	85,4	89,8	91,9	93,3	95,6	100,5
10 000 aholiga	26,4	26,2	26,1	27,2	27,1	27,0	27,1	27,9
Bitta shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni:	379	382	383	367	369	370	369	358
Barcha mutaxassislikdagi ayol shifokorlarning soni, ming	41,0	43,2	43,1	44,8	44,3	44,4	44,3	47,9
jami shifokorlar soniga nisbatan, foizda	51,6	51,4	50,5	49,9	48,2	47,6	46,3	47,7
O‘rta tibbiyot xodimlari soni, ming	336,4	341,3	348,2	356,7	365,7	369,9	372,5	382,8
10 000 aholiga	106,5	106,3	106,6	108,2	107,8	107,0	105,6	106,3
Bitta o‘rta tibbiyot xodimiga to‘g‘ri keladigan aholi soni	94	94	94	92	92,7	93	95	94

Ushbu 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, o‘tgan 2015-2022-yillar davomida tibbiyot sohasida dinamik rivojlanish kuzatilib, barcha ko‘rsatkichlari oshib borayotganligini ko‘rish mumkin.

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Shu bilan birga oxirgi 7 yilda tibbiyot tizimini isloh qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborlari natijasida katta o'zgarishlar qilindi:

- sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 2016-yilga nisbatan 5 baravar oshirildi (5,5 trillion so'mdan 30 trillion so'mga);
- hududlarda 2 mingta poliklinika, oilaviy shifokor va mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi.
- Respublika ixtisoslashtirilgan markazlar tomonidan yangi davolash va diagnostika usullarini Markazda va hududlarda tatbiq qilish orqali, aholiga tibbiy xizmatni yanada yaqinlashtirmoqda.

Mamlakatda tibbiyot sohasi xalqimiz salomatligi va taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda tibbiyot ham davlat siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonda tibbiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bugungi kunda sohada duch kelayotgan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilamiz:

Tibbiyotning o'ziga xos jihatlari:

1. **Aholi salomatligini ta'minlash:** Tibbiyot tizimi sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini har tomonlama mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.
2. **Mamlakatda tibbiyot fanining rivojlanishi:** O'zbekistonda tibbiyot fani jadal rivojlanmoqda, bu davolash va diagnostikaning zamonaviy usullarini joriy etishga xizmat qilmoqda.
3. **Tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash:** Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida malakali tibbiyot mutaxassislari yetishtirilayotgani aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yuqori darajada saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Lekin yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar, o'ziga xos jihatlari bilan bir qatorda O'zbekiston tibbiyot tizimidagi mavjud muammolari sirasiga:

1. **Tibbiyot sohasidagi malakali va tajribali xodimlarning yetishmasligi:** Tajribali tibbiyot xodimlarining yetishmasligi, ayniqsa chekka hududlarda tibbiy yordamning mavjudligi va sifatiga ta'sir qilmoqda.
2. **Asbob-uskunalar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi:** Ayrim tibbiyot muassasalari zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lishligini. Ya'ni ayrim tibbiyot muassasalarida o'zlar uchun zarur bo'lgan jihozlarni ham Open-byudjet orqali olishga harakatlar qilinib, bu yerda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning yetarli emasligini ko'rishimiz mumkin.
3. **Tibbiyot sohasidagi yangiliklar va odamlarning tibbiy bilimlarining yetarli emasligi.** Ayrim hududlarda salomatlik haqida xabardorlik darajasi past bo'lishi, bu esa kasallikning oldini olish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, yaqinda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining 18-64 yoshdagi aholisi o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har kuni aholining uchdan ikki qismi (67 foiz) yetarli miqdorda (400 grammdan kam) sabzavot va mevalar iste'mol qilmasligi, aholining yarmi og'ir vaznli, 20 foizi semiz ekanligi, 46 foizining qonida xolesterin miqdori oshganligi, aholining o'rtacha tuz iste'moli kuniga 14,9 grammni tashkil etishi aniqlandi9.
4. **Tibbiy xizmatlardan foydalanishning notekis taqsimlanganligi**: sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning notekisligi shahar va qishloq joylarining rivojlanishidagi farqlar tufayli yuzaga kelishi mumkin бўлади.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan muammolarni yechimini quyidagicha bataraf etish mumkin, deb hisoblaymiz:

1. **Byudjetdan moliyalashtirishni mablag'larini ko'paytirish:** Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni ko'paytirish sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi.
2. **Tibbiyot muassasalarida xodimlarni tayyorlash va rivojlantirish:** Sog'liqni saqlash xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishga, sarmoya kiritish tajribali mutaxassislarning yetishmasligini kamaytirish imkoniyatini ega bo'lish mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "2024-yildagi asosiy ko'rsatkichlarini e'lon qilindi va unga asosan:

- AQSHning Vebster universitetiga "Tibbiyot muassasalarini tashkil etish va boshqarish" dasturi bo'yicha 50 nafar o'zbekistonlik yosh mutaxassis davlat hisobidan o'qishga yuboriladi.

9 Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. https://t.me/sanepidcommittee/11002

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- 11 ta tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va 74 ta tibbiyot texnikumlarida bepul til o‘rgatish markazlari tashkil etiladi.
- Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari kabi, tibbiyot tizimida ishlayotgan yoshlarda IELTS, TOEFL va unga tenglashtirilgan til sertifikatlariga ega bo‘lganlarni har oyda 1 mln.so‘m miqdorida rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etiladi.
- Yoshlar orasida (30 yoshgacha) doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan har bir ilmiy izlanuvchiga va uning ilmiy rahbariga 30 mln.so‘mdan pul mukofoti beriladi. Agar izlanuvchi ayol kishi bo‘lsa 50 mln. so‘m bersak, menimcha adolatli bo‘ladi.
- 100 nafar bakalavriat va 100 nafar tibbiyot texnikumlari talabalari, 50 nafar magistr va klinik ordinatura talabalari uchun xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitet klinikalarida vazirlik mablag‘lari hisobidan “Yozgi amaliyot maktablari” doimiy ravishda tashkil etiladi.
- Iqtidorli 20 nafar magistrantlarni xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitetlarda vazirlik mablag‘lari hisobidan 1 semestrdan kam bo‘lmagan muddatda akademik mobillik dasturlari joriy etiladi”[10].

3. **Tibbiyot muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish:** Tibbiyot muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish asosida zamonaviy asbob-uskunalar va resurslardan foydalanishni ta’minlash imkoniyati yaratiladi.
4. **Aholini birlamchi tibbiyot muassasalari orqali xabardorlik va tibbiy madaniyatini shakllantirish** maqsadga muvofiq. Mazkur axborot kompaniyalari (zarur holda televidiniyada sog‘liqni saqlash bo‘yicha alohida telekanalni tashkil qilish), qisqa muddatli ta’lim dasturlarini o‘tkazish sog‘liqni saqlash bo‘yicha tibbiy madaniyatini shakllantirish asosida aholining xabardorligini ta’minlashga yordam beradi.
5. **Tibbiyot xodimlarida professional motivatsiyasi bo‘yicha yetarlicha rag‘batlashtirish mexanizmlarini shakllanmaganligi.** Ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan davlat tibbiyot muassasalarida tibbiy xodimlarni rag‘batlantirish muammolarida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli malakali va tajribali shifokorlar o‘zlarini xususiy tibbiyot muassasalariga yoki bir qatorda muassasasalarida faoliyatini tashkil qilishga sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda xorijiy KPI ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda natijaviy faoliyatiga doir mexanizmlarni ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish maqsadida investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘ladi. Bu o‘z navbatida taqdim etilayotgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari talabalari asosida tayyorlashni nazarda tutadi.

6. **Tibbiyot muassasalarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash** zarur. Bu, o‘z navbatida, tibbiy xizmatlarni hisobga olish, monitoring qilish va ko‘rsatish samaradorligini oshirish uchun axborot texnologiyalarini joriy etish asosida kelgusida faoliyat yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlarini beradi.
7. **Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ta’minlash.** Tibbiyot muassasalarining tajriba almashish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu masala – xususiy tibbiyot tashkilotlarida yaxshi yo‘lgan qo‘yilganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Yuqorida keltirib o‘tilgan masalalarni hal qilishda tibbiyot sohasining barcha manfaatdor tomonlari, jumladan, davlat organlari, davlat tibbiyot muassasalari, tibbiyot xodimlari va jamiyat bilan kompleks yondashuv va hamkorlikda olib borishni talab etiladi. Bu o‘z navbatida, mamlakatda kelgusida tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o‘rni va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Tibbiyot muassasalari faoliyatini samarali tashkil qilishda byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni oshirish, lekin ularni tizimli rvishda ishlashini ta’minlash zarur bo‘ladi.

10 O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosiy tayyorlangan.

2. Tibbiyot muassasalari moddiy texnik bazasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida, aholiga sifatli tibbiyot xizmatlari bilan bir qatorda pullik xizmatlarni tashkil qilish, qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

3. Davlat tibbbiyot muassasalarida xodimlarni rag'batlantirishning moliyaviy jihatdan aniq mezonlarini inobatga olgan mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy KPI ko'rsatkichlariga bog'liq holda natijaviy faoliyatiga doir rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Фойдаланилган адабиётлар/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli. https://lex.uz/docs/-5841063
2. "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 17-may, O'RQ-770-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 4-yanvar, O'RQ-399-son. https://lex.uz/acts/-2856464
4. Barcha respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxati" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5199-son Qarori
6. A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. infoCOM.uz MCHJ. –T.: 2010, 192 b.
7. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 105-sonli buyrug'i, 2010-yil 17-dekabr
8. S.U.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". Iqt.fan. dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2018. – B. 76
9. Qurbonov Sh.M. "Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish" Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2022.–B. 59.
10. Kuliboyev A.Sh. "Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish" Iqt.fan.fal. dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2022. – B. 59.

OBLIGATSIYALAR BOZORIDA BANKLARNING ISHTIROKI VA AHAMIYATI

Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining jahon va mahalliy fond bozoridagi yevroobligatsiyalar va korporativ obligatsiyalar emissiyasi bo‘yicha ishtiroki tahlil qilingan bo‘lib so‘ngi yillarda banklarning obligatsiyalar bozoridagi ulushi va ahamiyati yoritib o‘tilgan. Shuningdek, xorij va mahalliy iqtisodchi olimlarning banklar va obligatsiyalar bozori o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarga nisbatan bergan fikrlari o‘rganilgan hamda banklarning obligatsiyalar bozoridagi ahamiyati bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: obligatsiyalar bozori, bank, listing, emissiya, daromadlilik, foiz stavkasi, yevroobligatsiyalar, kapital, diversifikatsiya, depozit, portfel.

Abstract: This article analyzes the participation of commercial banks in the global and local stock market on eurobligates and corporate bond issues, highlighting the share and importance of banks in the bond market in recent years. Opinions of foreign and domestic economists regarding financial relations between banks and the bond market have also been studied, and conclusions have been drawn on the importance of banks in the bond market.

Key words: bond market, banking, listing, emissions, profitability, interest rate, eurobligates, capital, diversification, deposit, portfolio.

Аннотация: В данной статье анализируется участие коммерческих банков на мировых и локальных фондовых рынках в выпуске еврооблигаций и корпоративных облигаций, а также освещается доля и значение банков на рынке облигаций в последние годы. Также изучены мнения зарубежных и отечественных экономистов относительно финансовых взаимоотношений банков и рынка облигаций и сделаны выводы о значении банков на рынке облигаций.

Ключевые слова: рынок облигаций, банк, листинг, выпуск, доходность, процентная ставка, еврооблигации, капитал, диверсификация, депозит, портфель.

KIRISH

Iqtisodiyotnining doimiy va barqaror ravishda rivojlanishi barcha sohalarning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligiga bog‘liq. Iqtisodiyotni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashda fond bozorlari va banklarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Iqtisodiy sohalarning bir-biriga yaqinlashuvi kuchayib borayotganligini hisobga olib banklarning fond bozorlari bilan iqtisodiy aloqalari o‘ziga xos xarakterga ega. Banklarning fond bozorida tutgan alohida mavqei shundan iboratki, ular moliya bozorining boshqa ishtirokchilaridan farqli ravishda bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni bajaradi. Ya’ni banklar bir tomondan fond bozorida aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari hamda bank veksellari emitentlari sifatida, ikkinchi tomondan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib oluvchi sarmoyadorlar sifatida qatnashadi. Qo‘shimcha ravishda banklar o‘z mijozlariga turli moliyaviy maslahatlar beradigan, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar qilish uchun ularga berilgan qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘larini boshqarish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatadigan investitsiya tashkiloti sifatida qatnashadi.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, pul mablag‘lari harakatini boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining oldi-sotdi jarayonlari natijasida bozorning har bir ishtirokchisi tijorat bankining xizmatidan foydalanadi. Chunki tijorat banklari moliya bozori ishtirokchilarining joriy hisob-kitob raqamlarini va boshqa hisob raqamlarini ochadi, ularda pul mablag‘larini, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq mablag‘larni saqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mamlakat bank tizimidagi depozit sertifikatlari va depozit sertifikat-

larini muomalaga chiqarish, muomalada bo‘lishini nazorat qilish hamda muomaladan chiqarish uchun javobgarlikni olib borish bilan bir vaqtda, u mamlakat fond bozorining malakali ishtirokchisi sifatida fond bozorining faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishda ma’lum vazifalarni bajaradi. Kapital jalb qilishda fond bozori va banklarning bir-biriga raqobatchi ekanligini hisobga iqtisodiy rivojlangan davlatlar: Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qancha davlatlarning qonunchiligida so‘nggi vaqtlargacha tijorat banklarining fond birjalari faoliyatida bevosita qatnashishi taqiqlangan edi. Ammo bugungi kunda fond bozori va banklarning integratsiyalashuvi barcha davlatlarda yuqori sur’atlarda bormoqda. O‘zbekistonda ham moliyaviy barqaror hisoblangan tijorat banklari korporativ va xalqaro obligatsiyalar orqali xalqaro hamda mahalliy obligatsiyalar bozoridan faol ishtirok etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kapital bozoridagi, xususan obligatsiyalar bozoridagi ishtiroki va ahamiyati bo‘yicha ko‘plab xorijiy va o‘zbek iqtisodchi olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tijorat banklarining fond bozoridagi ishtiroki orqali ularning obligatsiyalar portfelini shakllantirish masalalari bo‘yicha I. R. Baybekov o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan. Bunda asosiy e’tibor bank daromadlarini diversifikatsiyalash nuqtai nazaridan obligatsiyalar portfelini ham diversifikatsiyalashda obligatsiya emitentlarini sifat jihatidan baholash metodikasiga qaratiladi[1]. Obligatsiyalar portfelini samarali diversifikatsiyalash bank daromadliligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib uning fond bozoridagi mavqeini mustahkamlaydi va bu orqali banklarni obligatsiya emitentlari sifatida baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Taniqli iqtisodchi olim Frederic S. Mishkin AQSH qimmatli qog‘ozlar bozori va banklarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish orqali AQShdagi tijorat banklari o‘z qimmatli qog‘ozlarini (aksiyalari, obligatsiyalari va depozit sertifikatlari) fond bozorida joylashtirish orqali kapital jalb qilishlari, qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion faoliyat nuqtai nazaridan asosan federal, shtat yoki mahalliy obligatsiyalarga mablag‘ yo‘naltirishi mumkinligini[2] o‘rganishgan. Davlat tomonidan tijorat banklarining asosan obligatsiyalar bozoridagi ishtirokining qo‘llab quvvatlanishi natijasida AQSH obligatsiyalar bozori boshqa qimmatli qog‘ozlarning bozor kapitallashuviga qaraganda yuqori qiymatni qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin.

J. Hawkins fikricha, “ayrim mamlakatlarda banklar korporativ obligatsiyalarning asosiy egalari hisoblanadi. Masalan, Indoneziyada banklar korporativ obligatsiyalarning asosiy qismiga egalik qiladi hamda mazkur tendensiya Argentina, Braziliya, Chili va Malayziyada ham kuzatiladi. Banklar depozitlarni qoplash uchun obligatsiyalar bozorlaridan foydalanadi. Ko‘p hollarda (masalan, Braziliya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Meksika, Polsha, Rossiya, Tailand kabi mamlakatlarda) banklar va boshqa moliya institutlari mahalliy obligatsiyalar emissiyasini tez-tez amalga oshiradi”[3]. Banklarning depozit to‘lovlar va boshqa operatsion xarajatlarni korporativ obligatsiyalar emissiyasi orqali qondirilishi bankning fond bozoridagi murakkab munosabatlarini anglatadi.

Pradhan R. P., Zaki D. B., Maradana R. P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D “Obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki u bank sektorini rivojlantirish va fond bozorlarini rivoj_ lantirish kabi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi”[4] – deya ta’kidlab o‘tgan. Yirik miqdordagi mablag‘larning bank sektori orqali obligatsiyalar bozorida muomalada bo‘lishi har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy o‘sishga erishishda ko‘maklashadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan J. P. Bo‘riyev Tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyati davomida duch kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tadqiqodlar olib borgan. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillardan biri sifatida tijorat banklarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha mustaqilligining cheklanganligini[5] ta’kidlab o‘tgan. Banklar faoliyatining davlat tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida tashkil etilishi investitsion faoliyat orqali daromadlilikni diversifikatsiyalash masalalariga to‘sqinlik qiladi.

Mazkur tadqiqot ishimizda obligatsiyalar bozorini rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda fond bozoridagi turli moliyaviy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning obligatsiyalar orqali moliyaviy resurs jalb qilishidagi ustunlik va imkoniyatlari keltirib o‘tilgan.

1 Байбеков И.Р. Формирование облигационных портфелей коммерческими банками на российском биржевом рынке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кан-дидата экономических наук. –Саратов, 2015. – 29 с.
2 Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets, 11th Edition. Pearson, 2016. – P. 235. (745 p).
3 John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements Papers № 11, 2002.
4 Pradhan R.P., Zaki D.B., Maradana R.P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D. Bond market development and economic growth: The G-20 experience. // Review of Applied Management Studies, Vol. 13. Issue 1, January-June, 2015. P. 51-65.
5 Bo‘riyev Jamshid Parda o‘g‘li. Tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2020, 4(136)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Mamlakatimizda obligatsiyalar bozorining joriy holati taqqoslama tahlil, statistik tahlil, analiz kabi metodlardan foydalanilgan holda o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJA

Tijorat banklarining kapital bozoridagi faollik darajasini o‘rganishda ularning fond birjasida listingdan o‘tganligi hamda ularning bozorga taklif etayotgan moliyaviy aktivlari va xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. “Toshkent” RFBda 2022-yil holatiga ko‘ra jami 139 ta aksiyadorlik jamiyati listingdan o‘tgan bo‘lib, ular orasida 18 tasi tijorat banki hisoblanadi. Dastlab 2003-yil listingdan o‘tgan tijorat banki “O‘zsanoatqurilishbank” ATB hisoblansa, eng so‘nggisi “Orient Finance” XATB 2021-yil listingdan o‘tgan. Bugungi kunda aksiyadorlik tijorat banklari kapital bozorida o‘z aksiyalari va obligatsiyalari bilan mahalliy va xorijiy moliya bozorida faol ishtirok etib kelmoqda.



1-rasm: “Toshkent” RFBda listingdan o‘tgan tijorat banklari va ularning aksiyalari tahlili. (2022-yil yakuni holatiga)[6]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan O‘zbekistondagi tijorat banklarining moliya bozoridagi aksiyalar orqali ishtirokini ko‘rishimiz mumkin. Tijorat banklari o‘z aksiyalarini fond bozorida taklif etishi bozorda investorlar sonining ortishiga olib kelmoqda. E’tiborli jihati ba’zi tijorat banklarining aksiyalari nominal qiymati 1 so‘mgacha

6 https://www.uzse.uz “Toshkent” RFB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

etib belgilanganligi minoritar aksiyadorlar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, “Ipotekabank” ATIB aksiyalarining nominal qiymati 1 so‘m va bu qiymat jismoniy shaxslarni bank aksiyadori bo‘lishga undaydi, shuningdek, bugungi kunda bu aksiyalarning bozor qiymati nominal qiymatidan ham past narxda baholanmoqda. Moliyaviy ko‘rsatkichlari barqaror tijorat banklarining aksiyalari bozorda o‘sish trendga ega hisoblanadi. “Kapitalbank” ATB, “Trastbank” XAB kabi banklarning yillik daromadlari va shunga mos tarzda aksiyalarining bozor bahosi ham sezilarli darajada o‘sgan. Umuman olganda banklarni bir tomondan fond bozoriga raqobatchi sifatida ko‘rsak, ikkinchi tomondan fond bozorining rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi moliya institutlari sifatida qaraymiz.

Banklarning obligatsiyalar sektoridagi ishtirokiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalar emissiyasi kam sonli tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Xususan, mahalliy bozorga bir qator tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan bo‘lsada, obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotining banklar o‘rtasidagi ommalashuvi yaqqol ko‘zga tashlanmayapti.

1-jadval: “Kapitalbank” ATB tomonidan chiqarilgan mahalliy obligatsiyalar emissiyasi[7]

№	Emissiya qilingan yil	Obligatsiyalarning nominal qiymati (so‘m)	Chiqarilgan obligatsiyalar umumiy qiymati (so‘m)	Obligatsiyalar soni (dona)
1	2009-yil	1 mln	5 mlrd.	5 ming
2	2012-yil	1 mln	4 mlrd	4 ming
3	2020-yil	1 mln	50 mlrd	5 ming
4	2021-yil	10 mln	150 mlrd	15 ming

Tijorat banklari orasida “Kapitalbank” ATB obligatsiyalar bozorida o‘z obligatsiyalarini joylashtirgan kam sonli banklar sirasiga kiradi. “Kapitalbank” ATB dastlab 2009-yil nominal qiymati 1 mln so‘m bo‘lgan jami 5 mlrd so‘mlik korporativ obligatsiyalarni mahalliy fond bozoriga joylashtirgan. Keyingi, 2012-2020-yillarda ham 4 mlrd so‘mlik va 50 mlrd so‘mlik obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali moliya bozoridan kapital jalb qilishga erishdi. 2021-yilda esa katta hajmdagi, 150 mlrd so‘mlik obligatsiyalarni fond bozoriga joylashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Mahalliy va xalqaro bozorlarga o‘z obligatsiyalarini joylashtirish bankning yuqori reytingga va salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, respublikamizda “Kapitalbak” ATBdan tashqari “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Ipoteka bank” ATIB, “Asia Alliance Bank” ATB kabi banklarni ham obligatsiyalar bozoridagi ishtirokini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasi orqali nisbatan arzon va katta hajmdagi moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati mavjud bo‘lsada, xalqaro obligatsiyalar bozoridagi tajriba va amaliyotning kamligi tijorat banklariga bu sohada to‘siq bo‘lmoqda. Xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasi bo‘yicha sanoqli tijorat banklari tomonidan operatsiyalar amalga oshirilgan.

2-jadval: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan chiqarilgan ilk yevroobligatsiyalar tahlili[8]

Nashr hajmi (mln. AQSH dollari)	Nominal qiymati (ming AQSH dollari)	Chiqarilgan obligatsiyalarning umumiy soni	Yillik foiz stavkasi	Joylashtirilgan sana	To‘lov sanasi	Emission hujjat
300	200	1 500	5,75	02.12.2019	02.12.2024	Bank xalqaro obligatsiyalarining risolasi, 28.11.2019

2-jadvalda mamlakatimiz tarixida birinchi bo‘lib 2019-yildagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan amalga oshirilgan korporativ yevroobligatsiyalar emissiyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur amaliyot natijasida London fond birjasiga nominal qiymati 200 ming AQSH dollari bo‘lgan 1500 dona jami 300 mln AQSH dollari miqdoridagi yevroobligatsiyalar joylashtirilgan. Xalqaro bozor orqali yillik 5,75 foiz stavkada jalb qilingan bu mablag‘ iqtisodiyoti rivojlanayotdan davlat uchun kattagina moliyaviy imkoniyat demakdir.

7 https://www.kapitalbank.uz/uz/corporate/securities-transactions/stock/ – “Kapitalbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari.
8 https://sqb.uz “Ozsanoatqurilishbank” ATB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

3-jadval: “Ipoteka bank” ATIB tomonidan emissiya qilingan uzoq muddatli xalqaro obligatsiyalar tahlili[9]

№	Emissiya umumiy hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Joylashtirish sanasi	So‘ndirilish sanasi	Listing
1	300 mln. AQSH dollari	5,50 %	5 yil	19.11.2020	19.11.2025	London Fond Birjasi
2	785 mlrd o‘zbek so‘mi	16 %	3 yil	16.04.2021	16.04.2024	Vena Fond Birjasi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning dastlabki xalqaro obligatsiyalar bozoridagi ishtirokidan so‘ng “Ipoteka bank” ATIB ham o‘z xalqaro obligatsiyalarini London va Vena Fond Birjalarida joylashtirdi. Dastlab 2020-yilda 5,50 % kupon stavkada 300 mln. AQSH dollariga teng moliyaviy resurs jalb qilgan bo‘lsa, 2021-yilda esa 785 mlrd so‘m (75 mln. AQSH dollari ekvivalenti) kapital jalb qilishga erishdi. Ikkala holatda ham ko‘rishimiz mumkinki, xalqaro miqyosda jalb qilingan qarz kapitali ichki bozor orqali jalb qilingan qarz kapitaliga nisbatan arzon hisoblanadi.

XULOSA

Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyatini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakat hukumati obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e’tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Chunki davlat obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali bank sektori bilan raqobatni yuzaga keltirishi, bank sektorini rivojlantirishi hamda umumiy fond bozori faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishi mumkin bo‘ladi.
2. So‘nggi yillarda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotlari tashkil etildi. Mazkur jarayon chet ellik investorlarning respublikamiz banklariga bo‘lgan ishonchini yanada ortishiga va ularning hamkorlik doirasining kengayishiga xizmat qilmoqda.
3. Tijorat banklarining obligatsiyalar bozoridagi ishtiroki bilan ikki tomonlama, ya’ni ham bank sektorining rivojlanishi ham obligatsiyalar bozorining kapitallashuv darajasini oshishiga olib keladi. Bu esa umumiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

1. Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets, 11th Edition. Pearson, 2016. – P. 235. (745 p).
2. Байбеков И.Р. Формирование облигационных портфелей коммерческими банками на российском биржевом рынке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кан-дидата экономических наук. –Саратов, 2015. – 29 с.
3. John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements Papers № 11, 2002.
4. Pradhan R.P., Zaki D.B., Maradana R.P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D. Bond market development and economic growth: The G-20 experience. // Review of Applied Management Studies, Vol. 13. Issue 1, January-June, 2015. P. 51-65.
5. Bo‘riyev Jamshid Parda o‘g‘li. Tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2020, 4(136)
6. https://www.kapitalbank.uz
7. https://www.uzse.uz
8. https://sqb.uz
9. https://www.ipotekabank.uz

9 https://www.ipotekabank.uz “Ipoteka bank” ATIB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ibragimov Gafurjan Axmetovich
Qoraqalpaq davlat universiteti mustaqil doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning afzalliklari hamda uni rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co‘z boradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida portfel investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investor, portfel investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, korporativ qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, moliya bozori, moliyalashtirish usullari.

Abstract: This article will discuss the advantages of attracting portfolio investments into our national economy, as well as improving its development prospects. The existing problems in the prospects for the development of portfolio investment in the Republic of Uzbekistan, as well as the author’s approaches and proposals for their elimination are also presented.

Key words: investor, portfolio investments, securities, stock market, corporate securities, bonds, financial market, financing methods.

Annotatsiya: В этой статье пойдет речь о преимуществах привлечения портфельных инвестиций в нашу национальную экономику, а также об улучшении перспектив ее развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития портфельного инвестирования в Республике Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Klyuchevыe slova: инвестор, портфельные инвестиции, ценные бумаги, фондовый рынок, корпоративные ценные бумаги, облигации, финансовый рынок, методы финансирования.

KIRISH

Bugungi kunda investitsiya jarayoni pulni bir aktivdan ikkinchisiga o‘tkazishning cheksiz jarayoniga aylanmasligi uchun investorlar investitsiya portfelini shakllantiradilar. Investitsiya portfeli keng ma’noda investorga o‘z kapitalini saqlash va ko‘paytirish maqsadida tegishli bo‘lgan barcha aktivlar to‘plamidir. Shuning uchun investorlar o‘z jamg‘armalarini tashqi iqtisodiy omillardan va moliyaviy ahvoldagi o‘zgarishlardan himoya qilish uchun portfel investitsiyalaridan foydalanishga intilishlari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalarning rentabelligi bank depozitlarining daromadliligidan yuqori bo‘lishi kerak, aks holda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa vositalarni sotib olishning ma’nosi bo‘lmaydi. Omonatlardan farqli o‘laroq, investitsiyalar davlat tomonidan sug‘urta qilinmaydi va har doim xavf bilan bog‘liqligi mamlakatimizda portfel investitsiyalarni jalb etishda hamda uni moliyalashtirish holatiga salbiy ta’sir etmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, investitsiya portfelini shakllantirish hamda kapital bahosini baholash orqali milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘llari borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchilar Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski larning fikriga ko‘ra, “kapital bahosi bozor qatnashchilari tomonidan ma’lum bir investitsiya loyihalariga mablag‘ jalb qilish uchun talab qilinadigan hamda kutilayotgan daromadlilik darajasidir[1]. Iqtisodiy atama nuqtai-nazaridan, kapital bahosi bu ma’lum bir investitsiya loyihasi uchun muqobil xarajat, ya’ni qo‘ldan boy berilgan boshqa bir yaxshi muqobil investitsiya loyihasi qiymatidir.

1 Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski. Cost of capital: Applications and examples, 3rd ed., 2008 year.

Mike Kaufmanning fikricha "....har qanday narsaning bahosi unga egalik qilish uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdori sifatida aniqlanishi mumkin. Kapital bahosi esa, bu moliya bozoridan kapital jalb qilish uchun kompaniya tomonidan va'da qilinishi lozim bo'lgan mablag'dir. Kompaniya o'z kapital bahosini o'zi belgilamaydi, aksincha, kompaniya kapital bahosini aniqlashi uchun bozorga kirishi lozim. Ammo, kapital bahosi moliya bozorining asosiy o'lchov mezonlaridan biri bo'lib, uning yordamida kompaniya faoliyatini aniqlash mumkin[2]. Yana bir iqtisodchi olim Rodjer Ibbotsonning ta'kidlashicha "Muqobil kapital bahosi (ing. opportunity cost of capital) ma'lum bir risk darajasida muqobil investitsiya qilish orqali erishish mumkin bo'lgan daromadga tengdir",[3] deya fikr bildirib o'tgan.

Ya. O. Zubovning ta'kidlashicha, real sektor korxonalari investitsiya portfelining xavfini minimallashtirish o'z mablag'larini saqlashga qaratilgan o'rtacha investitsiya strategiyasidir. Shuningdek, u loyihani portfelga kiritish to'g'risida qaror qabul qilish mezoni sifatida investitsiya xavfi va investitsiyalarning rentabelligi darajasidan foydalanish zarur deb hisoblaydi[4].

O. S. Suxarev, S. V. Shmanyov, A. M Kuryanovlar o'z tadqiqotlarida portfeldagi investitsiya loyihalarining sinergetik ta'siri zarurligiga asosiy e'tiborni qaratadi[5].

Investitsiya portfelini boshqarish bo'yicha amaliy tajriba ushbu mezonni haqiqatan ham investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida eng muhimlaridan biri deb atash mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, portfel investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti uchun foydasi va afzallik tomonlari kamchiliklaridan bir necha marotaba ustun turadi. Shuningdek, mazkur jarayon asrlar davomida o'zini oqlagan hamda takomillashayotgan, mamlakatlar yalpi ichki mahsulotiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelayotgan tashkiliy-huquqiy shaklga ega hisoblanadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda milliy iqtisodiyotimizga portfel investitsiyalarni jalb etish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimizcha, investitsiya portfelini tashkil etuvchi va qo'llab-quvvatlovchi investitsiya kompaniyalari omonatchilarning kapitallarini saqlash va ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Shunga asoslangan holda investitsiya portfeli ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan aktivlar to'plamidir. Bu odatda aksiyalar, obligatsiyalar, oltin, valyuta va ko'chmas mulklardir. Aslida, investitsiya portfeli investorning mablag'larini qanday taqsimlash va ko'paytirishning strategik rejasidir. Portfel esa kompaniyaning joriy investitsiya strategiyasiga muvofiq yaratilishi va moliyaviy investitsiyalar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan aksiyalar, obligatsiyalar va fyucherslar kabi moliyaviy vositalar guruhidir.

Portfelning asosiy maqsadi eng samarali va xavfsiz moliyaviy vositalarni tanlash va moliyaviy investitsiya siyosatimiz tamoyillariga muvofiqligini ta'minlashdir. Moliyaviy investitsiyalar portfeli vaqt omili deb ataladigan ma'lum bir davr uchun yaratiladi. Ushbu davr oxirida investitsiya strategiyasi baholanadi va aksiyalar hamda aktivlar sinflarini taqsimlashga o'zgartirishlar kiritiladi.

Investorlar o'zlari kutayotgan daromadlilikni aynan davlat qimmatli qog'ozlariga nisbatan belgilaydilar. Ya'ni fond bozorida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha risk uchun mukofot amal qilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Risk uchun mukofot asosida ham ta'kidlashimiz lozimki, korporativ qimmatli qog'ozlarning risklilik darajasi yuqori hisoblanadi.

Muomalaga chiqarish muddati nuqtai nazaridan davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatga ham chikariladi. Ya'ni davlat pul bozorining muhim ishtirokchisidir. O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlari savdosi vallyuta birjasi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan xalqaro bozorda joylashtirgan obligatsiyalar ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada (AQSh dollarida) muvaffaqiyatli joylashtirib kelinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, xorijiy valyutada joylashtirilgan chet elda joylashtirilgan obligatsiyalar, xususan davlat obligatsiyalari ham yevroobligatsiyalar deb ataladi.

Keltirilgan davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish bir tomondan inflyatsiyaning oldini olsa, ikkinchi tomondan soliq yukining ortib ketishining oldini olishini qayd etib o'tishimiz lozim.

2 Mike Kaufman, "Profitability and the Cost of Capital," in Chapter 8 of Handbook of Budgeting, 4th ed., ed. Robert Rachlin (NewYork: John Wiley & Sons, 1999), 8–3.

3 Ibbotson Associates, Cost of Capital Workshop (Chicago: Ibbotson Associates, 1999).

4 Зубов Я.О. Моделирование инвестиционного процесса с учетом налогообложения в условиях инфляции // Экономические анализ: теория и практика. – 2018. №8 – С. 1476-1489

5 Сухарев О. С., Шманёв С. В., Курьянов А. М. Синергетика инвестиций. – 2008.

Qimmatli qog‘ozlar esa asosan o‘rta va uzoq muddatli tarzda muomalaga chiqariladi. Bu xususiyat korporativ obligatsiyalarga tegishlidir. Chunki aksiyalar aksariyat holatlarda muddatsiz tarzda muomalaga chiqariladi. Aynan muddatsiz va daromadlilikning noaniqligi tufaylik aksiyalar risk darajasi yuqori moliyaviy aktiv sanaladi. Umuman, qimmatli qog‘ozlar muomalasining real sektor, moliyaviy sektor iqtisodiyot va aholi turmush farovonligi uchun ahamiyatini quyidagicha izohlashimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Qimmatli qog‘ozlar muomalasining korporativ sektor, iqtisodiyot va aholi turmush farovonligi uchun ahamiyatli jihatlari[6]

Korporativ sektor uchun	Iqtisodiyot uchun	Aholi turmush farovonligi uchun
Investitsiya faoliyatni moliyalashtirishni diversifikatsiyalash imkonini beradi	Iqtisodiyotni moliyalashtirishda va kapital jalb qilish da o‘zaro raqobatni ta’minlaydi	Aholi jamg‘armalarini iqtisodiyotga yo‘naltirish variantlari ortadi.
Aksiyalar orqali arzon moliyaviy resurs jalb qilish mumkin	Arzon moliyaviy resurs yuqori iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi	Dividendlar va ularga qo‘shimcha tarzda kursdagi farq bo‘yicha ham daromad olish imkoni paydo buladi
Obligatsiyalar vositasida kreditlardan tashqari qarz mablag‘lari jalb qilish imkoniyati paydo buladi	Karz instrumentlari bozori rivojlanishiga erishiladi va kreditlash natijasidagi inflyatsiyaning oldi olinadi	Kat’iy belgilangan daromad tufayli depozitlarga qo‘shimcha tarzda qo‘yilmalarni diversifikatsiyalash imkoniyati yuzaga keladi
Xalqaro obligatsiyalar xorijiy kapital jalb qilish va xalqaro kredit tarixi shakllanishida muhim instrument sanaladi	Kapital jalb qilish borasida ham global raqobatga kirishiladiva xalqaro bozorida nufuzi ham ortib boradi	Yirik loyihalar amalga oshirirlishi natijasida aholi bandligi daromadliligi o‘sishi kuzatiladi

Keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qimmatli qog‘ozlar muomalasi avvalo xususiy sektor rivoji, so‘ngra butun milliy iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga eta. Qimmatli qog‘ozlar faoliyatni moliyalashtirishda har tomonlama diversifikatsiyalash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotni moliyalashtirishda fond bozori va kredit bozori o‘rtasida keskin raqobatni yuzaga keltiradi. Natijada esa aholi jamg‘armalarini iqtisodiyotga jalb qilish yo‘nalishlari, tanlov imkoniyatlari ortadi.

Yuqori rentabellik va investitsion jozibadorlikning ta’minlanishi xisobiga oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominaldan yuqori joylashtirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shilgan kapitalning ham ortishiga xizmat qiladi. Natijada kapital bahosi nihoyatda arzonlashadi. Arzon kapital jalb qilish orqali iqtisodiyotda yuqori o‘sishga erishiladi. Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlari nihoyatda torligi, inflyatsiya yuqoriligi sharoitida korporativ emitentlarda arzon kapital jalb qilish nixoyatda chegaralangan. Bunga ma’lum darajada iqtisodiyotning faqatgina kreditga tayanib kolganligi, imtiyozli kreditlash hajmining yuqoriligi sabab bo‘lmoqda, deya olamiz. Iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini muntazam oshirib borish oxir-oqibat aksiyalar vositasida arzon kapital jalb qilishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida aholining dividendlar va ularga qo‘shimcha tarzda kursdagi farq bo‘yicha ham daromad olish imkoniyatlari oshib borishini ta’minlaydi.

Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi eng muhim va korporativ biznesni moliyalashtirdagi eng asosiy instrumentlardan biri aksiyalardir. Garchi O‘zbekistonda davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, yangi aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishga qulay shart-sharoitlar 1990-yillardayoq yaratilgan bo‘lsa-da, keng miqyosda fond bozori rivoji hamon kuzatilmayapti. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari soni 2006 yilga nisbatan 3,5 baravarga kam bo‘lsada ular tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar emissiyasi hajmi yuqori darajada o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda (1-rasm).

Yuqorida keltirilgan, 1-rasm ma’lumotlaridan ayon bo‘lmoqdaki, respublikamizda aksiyalar emissiyasi hajmi 2017 yilda 48,6 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yil yakuniga kelib 166,7 trillion so‘mga yetgan. Bundan ko‘rinadiki, emissiya hajmi 3,4 baravarga oshgan. Bunda o‘sishdagi asosiy tendensiya xususiy aksiyadorlik jamiyatlari emission faolligi xisobiga ta’minlangan, deya olmaymiz. Aksincha aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida davlat ulushini oshirib borishga qaratilgan moliyaviy qarorlar qabul qilinganligi va ular ijrosi ta’minlanganligi aksiyalar emissiyasi hajmining keskin o‘sishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Shu o‘rinda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar haqida to‘xtalib o‘tish joiz deb hisoblaymiz. Xususan, 2023- yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 226,6 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etgan.

6 Muallif ishlanmasi.



1-rasm: Mamlakatimizda aksiyalar emissiyasi hajmi[7], (trln. so‘mda)

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 62,0 % yoki 140,5 trln. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,0 % yoki 86,1 trln. so‘m moliyalashtirilgan. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 29,6 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 197,0 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan. (2-rasm)



2-rasm: Mamlakatimizda asosiy kapilga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi[8]

Mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,8 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,7 foizini tashkil etgan. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,3

7 https://uzcsd.uz/ asosida muallif tomonidan tuzilgan
8 Muallif ishlanmasi

foizi yoki 23,3 trln. so‘mi o‘zlashtirilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,6 trln. so‘mni tashkil etgan va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 4,5 foiz punktga ko‘payib, 19,2 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi statistik tahlilni o‘tkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo‘yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha shakllantiriladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga portfel investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri investitsiyalar uchun texnologik infratuzilmani takomillashtirish, shu jumladan, portfelni boshqarish platformalarini, tahlil va savdoni rivojlantirishdir. Bu investitsiya jarayonini yanada shaffof va ommaviy investor uchun ochiq shaklda sharoit yaratib beradi.

Shuningdek, rivojlanishning muhim yo‘nalishi investitsiyalar uchun turli xil aktivlar, shu jumladan, muqobil investitsiyalar, kriptovalyuta va boshqa yangi aktivlar sinflarining mavjudligini oshirish investor uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, investitsiya portfelini shakllantirish investorlarga investitsiya qarorlarini optimallashtirishga yordam beradigan bir necha nazariy tamoyillarga asoslanadi.

1. **Markovits portfelini tanlash nazariyasi:** Garri Markovits tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya shuni ko‘rsatadiki, investorlar turli xil aktivlarni birlashtirib, ma’lum bir xavf darajasini hisobga olgan holda samarali portfel yaratishi mumkin.
2. **Kapital aktivlarini narxlash modeli nazariyasi (Capital Asset Pricing Model):** CAPM aktivning bozor xavfini hisobga olgan holda allaqachon mavjud bo‘lgan yaxshi diversifikatsiyalangan portfelga qo‘shilishi kerak bo‘lgan aktivning talab qilinadigan daromad darajasini aniqlash uchun ishlatiladi.
3. **Portfelni optimal baholash nazariyasi:** statistik usullar va optimallashtirishdan foydalangan holda, investorlar minimal xavf bilan kerakli daromad darajasiga erishish uchun portfeldagi aktivlarning optimal nisbatini aniqlashlari mumkin.
4. **Investitsiyalarni boshqarish nazariyasi:** ushbu nazariya portfelni boshqarish jarayoniga, shu jumladan, investorning maqsadlariga erishish uchun aktivlarni taqsimlash, diversifikatsiya qilish va portfelni qayta muvozanatlashga qaratilgan.

Umuman olganda, investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari investorlarga investitsiya maqsadlari va tavakkalchilik omillariga muvofiq aktivlarni tanlash, risklarni taqsimlash va kutilayotgan daromadlar to‘g‘risida ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni.O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-modda.
2. Shannon P. Pratt, Roger J. Grabowski. Cost of capital: Applications and examples, 3rd ed., 2008-year.
3. Mike Kaufman, ‘‘Profitability and the Cost of Capital,’’ in Chapter 8 of Handbook of Budgeting, 4th ed., ed. Robert Rachlin (NewYork: John Wiley & Sons, 1999), 8–3.
4. Ibbotson Associates, Cost of Capital Workshop (Chicago: Ibbotson Associates, 1999).
5. Зубов Я.О. Моделирование инвестиционного процесса с учетом налогообложения в условиях инфляции // Экономические анализ: теория и практика. – 2018. №8 – С. 1476-1489.
6. Сухарев О. С., Шманёв С. В., Курьянов А. М. Синергетика инвестиций. – 2008.
7. Elmirzaev S.E. Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta’minlashning ayrim masalalari. //.“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2017. –№1.
8. Страхова Л.Н. О методологии акционирования. // Менеджмент в России и за рубежом, 1999. – №5.–С.28.
9. Абгарян А.А. Развитие российского рынка акционерного капитала в современных условиях. Дисс....к.э.н., – Москва, 2015. –С.13.
10. Эдди Маклейни. Бизнес финансы. Теория и практика. Издательский дом “ИНФРА-М”. – Москва, 2008. – С.36.
11. Стоянова Е.С., Штерн М.Г.Финансовый менеджмент для практиков. – М.: Перспектива, 1998. –С.31.
12. Stiglitz J.E. Financial Systems for Eastern Europe’s Emerging Democracies. – San Fransisco : ICS Press, 1993.

KOMPANIYALARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI

Ibragimov Mansur Axmedovich
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz korxana va kompaniyalarining tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga tijorat banklarining kafolatiga asoslangan forfeyting kreditlarini joriy etish taklifi va tayyor mahsulotlar eksportini sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari asoslangan. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kompaniyalarning import operatsiyalari bo'yicha ochiladigan qoplanmagan va tasdiqlanmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmini oshirishning maqsadga muvofiqligi ushbu ilimiy makalada asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, import, kredit, hujjatlashtirilgan akkreditiv, inkasso, bank kafolati, subsidiya, valyuta kursi, korxana. kompaniya, tijorat banklar, tashqi savdo,moliyalashtirish.

Abstract: This scientific article presents proposals on the introduction into practice of financing foreign trade activities of enterprises and companies in our country of forfeiting loans based on guarantees from commercial banks and ways to improve export insurance of finished products. It substantiates the expediency of increasing the volume of uncovered and unapproved documentary letters of credit opened by commercial banks of our Republic for import operations of companies.

Key words: export, import, credit, documented letter of credit, collection, bank guarantee, subsidy, exchange rate, company, commercial banks, foreign trade, financing.

Аннотация: В данной научной статье паривдены предложения о внедрении в практику финансирования внешнеторговой деятельности предприятий и компаний нашей страны форфейтинговых кредитов, основанных на гарантии коммерческих банков, и путей совершенствования экспортного страхования готовой продукции. В ней обоснована целесообразность увеличения объема непокрытых и неутвержденных документально аккредитивов, открытых коммерческими банками нашей республики по импортным операциям компаний.

Ключевые слова: экспорт, импорт, кредит, документированный аккредитив, инкассо, банковская гарантия, субсидия, обменный курс, компания, коммерческие банки, внешняя торговля, финансирование.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozorlar va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb etish, xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy taminotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15000 taga yetkazish mamlakatning eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan[1]. Bu esa, kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. O'z navbatida, kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish bevosita ushbu faoliyatni moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirishga bog'liq.

Ayni vaqtda, respublikamiz kompaniyalarining tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish tizimida bir qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, kompaniyalarning import operatsiyalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi qoplangan akkreditivlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari, xorijdan eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida jalb qilingan xalqar kreditlarning asosiy qismini suzuvchi stavkada olingan kreditlar tashkil etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.

Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish masalasi xorijlik va o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan hamda tegishli xulosalar, tavsiyalar shakllantirilgan.

O. Xershi tomonidan yaratilgan “ochiq ofertalar” nazariyasiga ko‘ra, akkreditivda ko‘rsatilgan benefitsiarga to‘lanishi va’da qilingan summa oferta hisoblanadi va u akseptlangunga qadar ochiq qoladi[2].

A. Shamraevning fikriga ko‘ra, ushbu nazariyada akkreditivlarning chaqirib olinmaslik prinsipi o‘z ifodasini topmagan[3]. Bizning fikrimizcha, “ochiq ofertalar” nazariyasi O‘zbekiston Respublikasida banklar tomonidan tashqi savdoga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotining zamonaviy holati uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Chunki respublikamizda asosan ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanilmoqda. Bunda benefitsiarga to‘lov summasini va’da qilishga zaruriyat yo‘q. Buning sababi shundaki, ta’minlangan akkreditivlarda to‘lov summasi alohida hisobraqamida deponent qilinadi.

Prof. L. Krasavinaning fikriga ko‘ra, xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarining ikki standarti mavjud bo‘lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi. Valyuta opsionlarining birinchi standarti yevropa standarti deb ataladi va bu opsionlar o‘z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so‘ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsionlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsionlar o‘z egasiga opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsionlarining amerika standartida risk darajasi yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi[4].

L. Krasavinaning mazkur xulosasi O‘zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, hozirga qadar respublikamiz bank amaliyotida vaalyuta opsionlari va valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas.

K. Chekmarevning fikriga ko‘ra, muddatli valyuta bozorining instrumentlari moliyaviy risklarni boshqarish tizimida muhim o‘rin tutadi va XX asrning 90-yillarining oxiri 2000-yillarning boshida derivativ instrumentlari bozorining yuqori sur’atlarda rivojlanishining quyidagi sabablarini asoslab berdi:

- derivativ instrumentlari diapazonining sezilarli darajada kengayganligi;
- kredit derivativlari va qarz majburiyatlari bilan ta’minlangan hosilaviy qimmatli qog‘ozlar kabi istiqbolli yangi mahsulotlar savdosi hajmining oshganligi;
- derivativlardan informatsion, sug‘urtaviy va boshqa risklarni boshqarishda foydalanishning yo‘lga qo‘yilganligi;
- muddatli valyuta bozorlariga chakana investorlarning kirib kelishining boshlanganligi;
- aksidorlik kapittalini boshqarishni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga kelganligi;
- derivativlar bozorining yuqori darajada to‘planishi (operatsiyalarning asosiy qismini 10-12 diler qo‘lida to‘planib qolishi);
- derivativlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning daromadlilik darajasining oshib borganligi[5].

A. Gloriozov va D. Mixaylovlar amalga oshirgan tahlillarning natijalari ko‘rsatdiki, tashqi savdoda mavjud bo‘lgan iqtisodiy risklarning asosiy turlari quyidagilardir:

- tijorat risklari;
- ishlab chiqarish risklari;
- operatsion risklar;
- ikki tomonlama hamkorlik riski;
- imzo riski;
- kredit riski;
- valyuta riski;
- defolt riski;
- o‘tkazma riski;
- moliyaviy risklar;
- yuridik risklar[6].

2 Hershey O. Letters of Credit. – Harward Law Review. – Vol. 32. – P. 1 (1918).
3 Шамраев А.В. Регулирование документарного аккредитива в праве США // Деньги и кредит. –Москва, 2001. – №6. – С. 52.
4 Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. – М. ФиС, 2013. – С. 173-176.
5 Чекмарев К.С. Инструменты срочного рынка и управление финансовыми рисками//Банковское дело. – Москва, 2007. –№8. – С. 39-40.
6 Глориозов А.Г.. Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. –М.: Юрайт, 2011. –С.205-206.

Ammo mualliflar foiz riskining mavjudligiga e'tibor qaratmaganlar. Holbuki, tashqi savdoni banklar tomonidan kreditlashda foiz riski asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki, tijorat banklari tashqi savdoni kreditlashda har doim suzuvchi stavkada kredit berishga harakat qilishadi, mijozlar esa, har doim qat'iy belgilangan stavkada kredit olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, kredit suzuvchi stavkada berilganda, kreditning bozor bahosini o'zgarishidan qat'iy nazar, bank oladigan daromad o'zgarmasdan qoladi. Mijozlar esa, kreditning bozor bahosini oshib ketishidan cho'chishadi va shu sababli, o'zgarmaydigan stavkada kredit olishga harakat qilishadi.

A.Smirnovning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining eksportni kreditlash amaliyoti davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvaatlanishi kerak. Bunda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eksport kreditlarini davlat tomonidan kafolatlash va foiz stavkalarini bonifikatsiya qilish shakllaridan foydalanish lozim[7].

A.Smirnovning ushbu xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchidan, banklarning eksport kreditini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti mavjud emas; ikkinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish jarayoni O'zagroeksportbank tomonidan kreditlanadi.

J. Keynsning fikriga ko'ra, valyuta fyuchersi bozorini beqaror valyuta kursi hukm surayotgan mamlakatlarda tashkil etish lozim. Valyutalarning beqaror bo'lishida eng avvalo mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy tadbirlarga ishonchning yo'qligidadir[8].

G.Mokrov eksportni spetsifik subsidiyalashning uch shaklini ajratib ko'rsatadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri beriladigan spetsifik subsidiyalar.

Mazkur subsidiyalar eksportchi davlatning byudjetidan eksport qilinadigan tovarni ishlab chiqarishga, eksport qilishga yoki yetkazib berishga beriladi.

2. Bilvosita spetsifik subsidiyalar.

Ushbu subsidiyalar eksport qiluvchi kompaniyalarga soliqlar, boj to'lovlari va davlat byudjetiga ajratmalar miqdorini kamaytirish shaklida beriladi.

3. Kombinatsiyalashgan spetsifik subsidiyalar.

Mazkur subsidiyalar bir vaqtning o'zida kreditlarni moliyalashtirish hamda tovarlarni ishlab chiqarishga, eksport qilishga yoki yetkazib berishga beriladi[9].

V. Axramovich va R. Yanbыxlarning xulosasiga ko'ra, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tovarlari bilan amalga oshirilayotgan xalqaro savdoning umumiy hajmini yuqori sur'atlarda o'sishi mintaqaviy hamjamiyatlar doirasida kuzatilmoqda va 70 foizga yaqinni tashkil qilmoqda. Shu sababli, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari xalqaro savdosini moliyalashtirishda asosiy e'tiborni mintaqaviy hamjamiyatlar doirasida amalga oshiriladigan xalqaro savdoni moliyalashtirishga qaratish lozim, deb hisoblashadi[10].

D. Ternovskiyning xulosasiga ko'ra, g'allani eksport qilishda tashish xarajatlarini subsidiyalash g'alla yetishtiruvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash nuqtai-nazaridan natijalilikni ta'minlash masalasini hal qilmaydi. Chunki, g'allaning narxini pasayishi uni yetishtiruvchilarning daromad darajasini pasaytirib yuboradi. Masalan, 2017-yilda g'allaning hosildorligi juda yuqori bo'lganligi sababli Sibirda g'allaning narxi ishlab chiqarish tannarxidan past bo'ldi[11].

Bir guruh xorijlik iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko'ra, qishloq xo'jaligi eksportini kreditlash samaradorligini ta'minlashning zaruriy sharti bo'lib, tijorat banklari tomonidan eksportni moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning foizini bir qismini davlat tomonidan qoplab berilishi (bonifikatsiya) hisoblanadi[12].

Mazkur xulosa taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyoti uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, fermerlarga va qishloq xo'jaligi korxonalariga tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar, shu jumladan, eksport kreditlarining foizini bir qismi davlat tomonidan bonifikatsiya qilinadi. Jumladan, ushbu bonifikatsiyalash amaliyoti Rossiya Federatsiyasida 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etildi[13].

---

7 Смирнов А.Л. Технологии экспортного финансирования//Банковское дело. –Москва, 2012. –№4. –С. 60-61.

8 Кейнс Дж. М. Трактат о денежной рефоме. М.: Дело, 1993. – С. 162

9 Мокров Г.Г. Евразийский экономический союз: инструменты защиты внутреннего рынка от недобросовестной конкуренции. – М.: Проспект, 2018. – С. 57.

10 Ахрамович В.С. Механизмы адаптации внешнеторговой политики в аграрной сфере отдельных стран и сообществ к условиям ВТО//Экономический бюллетень Национального исследовательского института Министерства экономики Республики Беларусь. – Минск, 2015. – №5. – С. 15-25.; Янбых Р.Г. Современные тренды агропродовольственной торговли и ее перспективы в Евразийского экономического союза//Экономика сельского хозяйства России. –Москва, 2011. –№1. – С. 86-91.

11 Терновский Д.С. Экспортоориентированная модель сельского хозяйства: плюсы и минусы//Мониторинг экономической ситуации в России. –Москва, 2020. – №24. –С. 8-12.

12 3. Короткова С. Н., Ткач Ю. Б. Кредитование как одно из направлений финансирования сельского хозяйства в условиях членства в ВТО и санкций//Материалы международной научно-практической конференции "Аюшиевские чтения. Финансово-кредитная система: опыт, проблемы, инновации" и др. – Иркутск: НИЦ "Апробация", 2016. –С. 124–130.; Шкарупа Е. А., Переходов П. П. Кредитование сельского хозяйства: особенности, проблемы, тенденции развития//Региональная экономика: теория и практика. –2015. – № 44. – С. 52–56.; Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation, 2003. – 96 p.

13 Бондаренко В.С., Шишкина Д.А. Необходимость и направлении государственной финансовой поддержки сельхозпредприятий российского АПК//Вестник СГСЭУ. –Саратов, 2018. –№ 5. –С. 131-135.

J. Sinkining fikriga ko‘ra, agar bank ma’lum sabablarga ko‘ra balansni ichida xedjirlashni amalga oshira olmasa, unda xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullardan, ya’ni valyutadagi hosilaviy instrumentlardan – fyuchers, forvard, opsiondan foydalanishi mumkin[14].

J. Sinkining xulosasidan ko‘rinadiki, xorijiy valyutadagi hosilaviy vositalar tijorat banklari faoliyatidagi valyuta riskini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo, O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida valyutaviy hosilaviy instrumentlar bo‘lgan valyuta opsionlari va valyuta fyucherslarining mavjud emasligi ularning valyuta riskini boshqarish imkoniyatini cheklaydi.

T. Bobakulov va U. Abdullaevning xulosasiga ko‘ra, bank amaliyotida mutlaqo amalga oshirilmagan yoki muddatida amalga oshirilmagan forvard operatsiyalarining mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki forvard shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlardan biri shartnoma muddati tugagan paytda to‘lovga noqobil bo‘lib qolishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, Rossiya Federatsiyasida 1997-yilda yuz bergan moliyaviy inqirozni keltirish mumkin. Moliyaviy inqiroz natijasida Rossiyaning bir qator tijorat banklari xorijiy banklar oldidagi forvard shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarini bajara olmadilar. Chunki inqiroz natijasida ko‘plab tijorat banklarida likvidlilik muammosi yuzaga keldi va buning oqibatida banklar balansining nolikvidliligi yuz berdi[15].

N. Jumaevning fikriga ko‘ra, respublikamizda so‘mdagi depozitlar va kreditlarning bozor stavkalarining beqarorligi saqlanib qolmoqda. Bu esa, forvard kurslarining barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari ustama va diskontning darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. Ustama va diskont esa, forvard kursini spot kursidan farqlantiruvchi yagona omil hisoblanadi[16].

Haqiqatdan ham, forvard operatsiyalarida diskont va ustamani aniqlaydigan yagona omil bo‘lib, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi bilan baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilishg natijalari ko‘rsatdiki:

- akkreditivda ko‘rsatilgan benefitsiarga to‘lanishi va’da qilingan summa oferta hisoblanadi va u akseptlangunga qadar ochiq qoladi;
- xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarining ikki standarti mavjud bo‘lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi;
- muddatli valyuta bozorining instrumentlari moliyaviy risklarni boshqarish tizimida muhim o‘rin tutadi;
- tashqi savdoda mavjud bo‘lgan iqtisodiy risklarning asosiy turlari bo‘lib, tijorat risklari, ishlab chiqarish risklari, operatsion risklar, ikki tomonlama hamkorlik riski, imzo riski, kredit riski, valyuta riski, defolt riski, o‘tkazma riski, moliyaviy risklar va yuridik risklar hisoblanadi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PF-97-sonli “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni//www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni//O‘zbekistonRespublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №36.– 945-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-maydagi PF-5057-sonli “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta’minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni//O‘Zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №22. – 26-27-b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2019-y., 07/19/4406/3496-son.
6. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. “Fan va texnologiya”, 2007-y. – 286 b.
7. Ismailov A.A. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimini mustahkamlashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. .f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent: BMA, 2016. – 81 b.
8. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. – 352 с.
9. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные
10. Tashqi iqtisodiy faoliyat//www.stat.uz
11. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar sharhi//www.cbu.uz

14 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. –М.: Альпина Паблишер, 2017. –С. 807.

15 Bobakulov T.I., Abdullaev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2014–B. 107-108.

16 Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 24.

MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI IJROSINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti erkin izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning daromadlari ijrosi samaradorligiga oid dolzarb masalalar haqida so‘z boradi. Bunda, 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Jizzax viloyati mahalliy budjetining daromadlari ijrosi dinamikasi va tuzilishi tahlili o‘tkazilgan. Erishilgan natija hamda mavjud muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet daromadlari, soliq tushumlari, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari.

Abstract: This article will discuss topical issues related to the efficiency of the execution of local budget revenues. At the same time, an analysis of the dynamics of the execution and structure of the revenues of the local budget of the Jizzakh region for 2020-2022 was carried out. The achieved result is indicated, as well as existing problems. Proposals are given to strengthen the financial stability of local budgets.

Key words: local budget revenues, tax revenues, indirect taxes, direct taxes, local Kengashes of people’s deputies.

Аннотация: В этой статье речь пойдет об актуальных вопросах, связанных с эффективностью исполнения доходов местных бюджетов. При этом был проведен анализ динамики исполнения и структуры доходов местного бюджета Джизакской области за 2020-2022 годы. Указан достигнутый результат, а также существующие проблемы. Даны предложения по укреплению финансовой устойчивости местных бюджетов.

Ключевые слова: доходы местного бюджета, налоговые поступления, косвенные налоги, прямые налоги, местные Кенгаши народных депутатов.

KIRISH

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko‘rsatishlarida moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy budjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo‘nalishlarini to‘liq qamrab oladi.

Shu bilan birgalikda, mahalliy budjetlar davlatning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish, birinchi navbatda, davlat mablag‘larini qayta taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Aholining kam ta’minlangan qatlamini ijtimoiy himoyalash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish ham asosan mahalliy budjetlar orqali amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish alohida ahamiyatga ega.

Mahalliy budjetlar ijrosining asosiy vazifasi – mahalliy budjetga tasdiqlangan soliqlar va boshqa tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishi hamda hududlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni to‘liq moliyalashtirish hisoblanadi [1].

O‘zbekistonda iqtisodiy isloholotlarni chuqurlashtirish jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismidir. Mahalliy hokimiyatlarning vakolatini kengaytirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ularning budjet jarayonidagi vakolatlarini bevosita oshirish bilan bog‘liq. Chunki, yuqorida qayd etilganidek, hududiy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizini mahalliy budjetlar tashkil etadi. Zimmalaridagi vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy mablag‘larga egaligi bilan bog‘liq. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy mablag‘lari bilan ta’minlab boriladi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlar mavqeini yanada oshirish hukumatimiz budjet siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘lganligi tufayli uni muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ–3042-sonli qaroriga asosan mahalliy hokimliklar oldiga o‘z hududidagi soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, ishlamayotgan, iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy budjet daromadlarini ko‘paytirish yuzasidan aniq vazifalar qo‘yildi [2].

Darhakiqat, muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doirasida mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash, qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash orqali budjet daromadlarini oshirish, bunda ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga keng joriy qilish orqali ushbu masalaga tizimli yondashish yuqori ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning ilmiy xulosalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu borada professor A.Burxanov va dots. X.Qurbonov hududlarda mahalliy budjetlarning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy xulosalarini Qashqadaryo viloyati misolida asoslab berishadi [3].

Jumladan, ular quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib o‘tadi:

Birinchidan, Qashqadaryo viloyatida davlat budjetiga undirilgan daromadlarda nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarning ulushi yuqori bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan davrlarda Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, investitsion faollikni yanada rivojlantirish hisobiga yangi korxonalarni barpo etish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, soliqlar bo‘yicha mavjud qarzdorlikni kamaytirish va norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy sektorga o‘tkazish bilan bog‘liq qator islohotlar natijasida ta’minlamoqda.

A. Islamqulov respublikamizda davlat budjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi budjet daromadlari mutanosibligini ta’minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-budjet, budjet-soliq sohalaridagi vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta’kidlaydi [4]. Bunda, muallif budjet tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy budjetlar barqarorligini ta’minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi.

Professor Sh. Toshmatov mahalliy budjetga soliq tushumlarini oshirishga yo‘naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, unda soliqlarni turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta’minlash kontekstida takomillashtirish bo‘yicha fikr mulohazalarni berib o‘tadi [5]. Shuningdek, hududiy soliq salohiyatini baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi.

N. Xaydarovning fikricha mahalliy budjetlarning daromad manbalarini ko‘paytirish va viloyatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni rag‘batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo‘yicha xorijiy investorlar tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug‘ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro‘yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo‘l borligi ko‘rsatilish lozim [6].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar jamoasi tomonidan ilgari surilgan fikr mulohazalarda mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirishning hozirgi sharoitdagi dolzarb moliyaviy omillari tadqiq etilgan. Ushbu omillar kontekstidagi islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining hudud iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish tizimini rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizmini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zero, mahalliy budjetlarning yuqori ijtimoiy ahamiyati iqtisodiy samaradorlikning muhimligi bilan bog‘liq bo‘lib, uni oshirish bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan ustuvor vazifadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning mahalliy budjetlar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, trendli tahlil davri 3 yillik (2020-2022-yillar) Jizzax viloyati mahalliy budjet daromadlari manbai tendensiyasini qamrab olgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlarining barqarorligini ta’minlash, ularni samarali boshqarish hamda soliq tushumlarini oshirish masalalarining muhimligini e’tiborga olib, Jizzax viloyatining mahalliy budjeti daromadlari ijrosiga baho beramiz.

“2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan tasdiqlangan Jizzax viloyati mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlari daromadlar bo‘yicha 1 727,2 mlrd so‘m, xarajatlari 2 551,8 mlrd so‘m miqdorida belgilangan [7].

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi VI-31-5-3-0-K/22-sonli qarori bilan viloyat, shahar va tumanlar budjetlarining daromadlari va xarajatlari tasdiqlangan [8].

Yil davomida prognoz ko‘rsatkichlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib daromadlar prognozi 29,7 mlrd so‘mga kamaytirilgan va aniqlashtirilgan prognoz ko‘rsatkichlari 1 697,5 mlrd so‘mni, xarajatlar rejasi 1 251,6 mlrd so‘mga oshirilib, aniqlashtirilgan reja ko‘rsatkichlari 3 803,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

2022-yilda daromadlar ijrosi 1 822,8 mlrd so‘mni tashkil etib, aniqlashtirilgan prognozga nisbatan 107 foiz yoki 125,3 mlrd so‘mga ko‘p, xarajatlar ijrosi esa 3 928,5 mlrd so‘m bo‘lib, aniqlashtirilgan rejaga nisbatan 125,1 mlrd so‘mga ko‘p yoki 103 foizga bajarilgan.

1-jadval: Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2022-yildagi daromadlari ijrosi to‘g‘risida tuman (shahar)lar kesimida ma’lumot, mlrd so‘m

№	Hududlar nomi	Tasdiqlangan soliq tushumi prognozi	Aniqlashtirilgan soliq tushumi prognozi	Tushum	Ijro (foizda)
1	Arnasoy tumani	25,5	26,8	29,6	110,4
2	Baxmal tumani	81,1	86,4	89,7	103,8
3	G‘allaorol tumani	86,3	94,2	104,1	110,6
4	Sh. Rashidov tumani	130,1	136,0	144,1	106,0
5	Do‘stlik tumani	45,2	46,7	47,7	102,2
6	Zomin tumani	103,3	108,5	114,1	105,2
7	Zarbdor tumani	53,5	54,8	61,8	112,7
8	Zafarobod tumani	32,1	29,0	31,1	107,2
9	Mirzacho‘l tumani	36,1	37,3	38,4	103,1
10	Paxtakor tumani	46,3	48,2	51,3	106,4
11	Forish tumani	56,4	58,0	60,8	104,7
12	Yangiobod tumani	16,9	17,6	19,1	108,6
13	Jizzax shahri	151,4	152,1	163,3	107,4
14	Viloyat byudjeti	863,0	802,0	867,7	108,2
	Jami	**1 727,2**	**1 697,5**	**1 822,8**	**107,4**

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

Shuningdek, viloyat mahalliy budjeti daromadlari 2021-yilga nisbatan 362,3 mlrd so‘mga yoki 24,8 foizga oshgan.

1-rasm: 2018-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjeti daromadlari dinamikasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

2021-yilga nisbatan bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i, boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlarning viloyat mahalliy budjeti daromadlaridagi ulushi kamaygan bo‘lsa, bevosita soliqlarning ulushi oshgan.

2-jadval: 2020-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjetining daromadlari ijrosi (soliq turlari kesimida) to‘g‘risidagi ma’lumot

№	Ko‘rsatkichlar	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
		summa, mlrd so‘m	jami tushumga nisbatan foizda	summa, mlrd so‘m	jami tushumga nisbatan foizda	summa, mlrd so‘m	jami tushumga nisbatan foizda
	Mahalliy byudjet daromadlari	1 057,9		1 460,4		1 822,8	
1.	Bevosita soliqlar	544,7	52	707,1	45 ▼	920,6	51 ▲
2.	Bilvosita soliqlar	141,7	13	274,7	18 ▲	317,8	17 ▼
3.	Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	241,4	23	415,6	27 ▲	402,8	22 ▼
4.	Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar	130,1	12	163,2	10 ▼	181,5	10 ▼

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.



2-rasm: 2020-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjeti daromadlari tuzilmasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

Bevosita soliqlar bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 920,6 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 213,5 mlrd so‘mga yoki 30,2 foizga oshgan.



3-rasm: 2020-2022-yillarda bevosita soliqlar turlari bo‘yicha tushumlar dinamikasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 169,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 37,7 mlrd so‘mga yoki 28,7 foizga oshgan.

Tushumlarni o‘sishiga quyidagi omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatgan:

1. Foyda solig‘ini to‘lovchilar soni 2022 yilda 6 651 tani tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 5 542 taga yoki 20 foizga, 2020-yilga nisbatan 4 263 taga yoki 30 foizga oshgan [9];
2. 2022-yilda foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘laydigan soliq to‘lovchilar soni 440 tani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 278 taga yoki 158 foizga oshgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 653,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 147,1 mrld so‘mga yoki 29,1 foizga oshgan.

Bunda, qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 15,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 0,2 mlrd so‘mga yoki 1 foizga kamaygan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlarning o‘sishiga quyidagi omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatgan:

1. Budjet sektorida eng kam ish haqining 2021-yilga nisbatan o‘rtacha 14,7 foizga oshirilishi;
2. Iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining legallashtirib borilishi.

Ma’lumot uchun: 2022-yilda Jizzax viloyati bo‘yicha iqtisodiyotning barcha sektorlarida band bo‘lgan 18,1 ming nafar ishchi va xodimning faoliyati legallashtirilgan [10].

Natijada, 2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari soni 182,3 mingtani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7 mingtaga yoki 4 foizga oshgan.

3-jadval: 2021-2022-yillarda Jizzax viloyati bo‘yicha budjet va nobudjet tashkilotlari kesimida ish haqi darajasi dinamikasi

№	Ish haqi miqdori	2021-yil dekabr		2022-yil dekabr	
		To‘lovchilar soni	Ulushi (foizda)	To‘lovchilar soni	Ulushi (foizda)
1	1 mln so‘mgacha	61 448	36,0	55 858	31,3
	byudjet sektorida	17 711	10,4	14 400	8,1
	nobyudjet sektorida	43 737	25,6	41 458	23,2
2	1 mln so‘mdan 2 mln so‘mgacha	44 527	26,1	43 921	24,6
	byudjet sektorida	25 440	14,9	24 591	13,8
	nobyudjet sektorida	19 087	11,2	19 330	10,8
3	2 mln so‘mdan 4 mln so‘mgacha	41 587	24,4	44 284	24,8
	byudjet sektorida	25 371	14,9	27 187	15,2
	nobyudjet sektorida	16 216	9,5	17 097	9,6
4	4 mln so‘mdan 5,5 mln so‘mgacha	11 604	6,8	14 514	8,1
	byudjet sektorida	6 181	3,6	8 311	4,7
	nobyudjet sektorida	5 423	3,2	6 203	3,5
5	5,5 mln so‘ma va undan yuqori	11 414	6,7	19 945	11,2
	byudjet sektorida	5 579	3,3	8 652	4,8
	nobyudjet sektorida	5 835	3,4	11 293	6,3
	Jami	**170 580**	**100**	**178 522**	**100**

Shuningdek, 2022-yilda mehnatga haq to‘lash fondi 4,9 trln so‘mga yetib, 2021-yilga nisbatan 1,0 trln so‘mga yoki 26 foizga oshgan.

Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 82,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 5,7 mrld so‘mga yoki 7,3 foizga oshgan.

Mazkur soliqni to‘lovchilar soni 2022-yilda 17,5 mingtani tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 1,2 mingtaga yoki 107 foizga oshgan.

Soliq tushumining hududlar kesimidagi tahliliga ko‘ra, Jizzax shahrining ulushi eng yuqori – 33,1 foizni tashkil etgan.



4-rasm: 2022-yilda hududlar kesimida aylanmadan olinadigan soliq tushumlari

Manba: Jizzax viloyati soliq boshqarmasi ma’lumotlari.

Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tushumlarning o‘sishiga iqtisodiy o‘sish, soliq organlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, xususan, onlayn NKM, “kesh-bek” va “soliq hamkor” tizimlarini joriy etilishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga onlayn nazorat-kassa mashinasini hamda virtual kassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to‘g‘ri o‘qishni va aniqlashni ta’minlovchi maxsus qurilmalarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarini aylanmadan olinadigan soliq bazasidan chegirish imkoniyati berilganligi natijasida 5 078 ta soliq to‘lovchilar ixtiyorida 6,1 mlrd so‘m mablag‘ qolgan.

Aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 317,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 43,1 mlrd so‘mga yoki 15,7%ga oshgan.

2022-yilda tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i tushumlari mahalliy budjet ixtiyoriga o‘tkazilib, budjetga 93,2 mlrd so‘m tushum undirilgan.

Shuningdek, 2021-yil oktyabr oyidan o‘zgartirilgan qat’iy summada belgilangan aksiz solig‘i stavkalari alkogol va tamaki mahsulotlari uchun 2022-yil 1-iyunga qadar saqlab qolingan va 2022-yil 1-iyundan o‘rtacha 10 foizga indeksatsiya qilingan.

Alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlari bilan birga)- 86,9 mlrd so‘m (2021-yilda – 74,3 mlrd so‘m)

uyali aloqa xizmati – 49,5 mlrd so‘m
(2021-yilda – 40,1 mlrd so‘m; 2020 yilda – 109,6 mlrd so‘m)

Tamaki – 93,2 mlrd so‘m

benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi – 88,1 mlrd so‘m
(2021-yilda – 60,1 mlrd so‘m; 2020 yilda – 31,8 mlrd so‘m)

5-rasm: 2020-2022-yillarda aksiz osti tovarlari kesimida soliq tushumlari

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 402,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 12,8 mlrd so‘mga yoki 3,2 foizga kamaygan.

4-jadval: 2020–2022-yillarda resurs va mol-mulk soliqlari undirilishi to‘g‘risida ma’lumot, mlrd so‘m

Daromadlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O‘sish sur’ati	
				2020-yilga nisbatan (foizda)	2021-yilga nisbatan (foizda)
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25,1	40,3	58,4	232,7	144,9
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25,5	28,9	30,2	118,4	104,5
Yuridik shaxslar yer solig‘i	37,9	77,1	106,5	281,0	138,1
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	47,9	61,9	77,1	161,0	124,6
Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	96,9	191,5	116,1	119,8	60,6
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8,5	15,9	14,5	170,6	91,2

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Resurs soliqlari bo‘yicha tushumlarning tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yer solig‘i ulushi 2021-yilga nisbatan 5,3 foiz va 12,1 foizga oshib, yer qa’ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning ulushi mos ravishda 17,3 foiz va 0,2 foizga kamaygan.



6-rasm: 2020–2022-yillarda resurs va mol-mulk soliqlari o‘zgarishi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 116,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 75,5 mlrd so‘mga yoki 17,3 foizga kamaygan.

Tushumlarning kamayishi foydali qazilmalarning ayrim turlari bo‘yicha soliq stavkalarining unifikatsiya qilinishi va pasaytirilishi bilan ifodalanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 58,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 18,1 mlrd so‘mga yoki 1,4 barobarga oshgan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha tushumlarning o‘sishiga (soliq stavkasi 2 foizdan 1,5 foizgacha pasaytirilishiga qaramasdan) ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri 2022-yil 1-yanvardan boshlab bino va inshootlarga, ularning joylashgan joyiga bog‘liq holda 1 m^2 uchun mutlaq miqdorlarda belgilangan eng kam qiymatlarni nazarda tutuvchi norma joriy etilganligi sabab bo‘lgan.

Minimal qiymatlar mol-mulk solig‘ini bozor qiymatiga yaqin kadastr qiymatidan kelib chiqib hisoblashga bosqichma-bosqich o‘tish maqsadida kiritilgan.

Bunda, xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashi qarori bilan mol-mulk solig‘ini hisoblash uchun belgilangan eng kam qiymatga 9 ta tumanga 0,5-0,9 oralig‘idagi kamaytiruvchi koeffitsiyent tasdiqlangan bo‘lsa, 4 ta tumanga kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilmagan.

2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar 30,2 mlrd so‘mni tashkil etgan va 2021-yilga nisbatan 1,2 mlrd so‘mga yoki 4,0 foizga oshgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilda 106,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 29,4 mlrd so‘mga yoki 38,1 foizga oshgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 77,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 15,1 mlrd so‘mga yoki 24,4 foizga oshgan.

2022-yilda ushbu soliq turlari bo‘yicha qo‘shimcha tushumlarning o‘sishi yer solig‘i stavkalarini 7 foizga indeksatsiya qilinishi hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi qaroriga asosan jismoniy shaxslarga tegishli yerlar uchun qo‘llanilgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 14,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 1,3 mlrd so‘mga yoki 8,4 foizga kamaygan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha soliq stavkalari 10 foizga, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun esa – 30 foizga indeksatsiya qilingan bo‘lishiga qaramasdan tushumlarning oshishiga erishilmagan.

Boshqa daromadlar prognozi 193,8 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanib, aniqlashtirilgan prognoz 168,4 mlrd so‘mni tashkil etgan hamda tushumlar 181,5 mlrd so‘mga yoki 107,8 foizga bajarilib, 2021-yilga nisbatan 18,3 mlrd so‘mga yoki 11,2 foizga oshgan.

2022-yilda boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlarning asosiy ulushi (35 foizi) davlat boji hisobiga to‘g‘ri kelgan va 63,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

5-jadval: Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2022-yildagi boshqa daromadlari ijrosi to‘g‘risida tuman (shahar)lar kesimida ma’lumot, mln so‘m

T/p	Hududlar nomi	Tasdiqlangan prognoz	Aniqlashtirilgan prognoz	Amalda tushum	Ijro (foizda)
1	Arnasoy tumani	40	40	59,9	150
2	Baxmal tumani	65	65	89,9	138
3	G‘allaorol tumani	220	220	156,2	71
4	Sh. Rashidov tumani	350	350	395,8	113
5	Do‘stlik tumani	50	50	73,8	148
6	Zomin tumani	220	220	333,5	152
7	Zarbdor tumani	50	50	105,3	211
8	Zafarobod tumani	40	40	35,7	89
9	Mirzacho‘l tumani	50	50	72,6	145
10	Paxtakor tumani	50	50	272,6	545
11	Forish tumani	50	50	51,3	103
12	Yangiobod tumani	40	40	65,8	165
13	Jizzax shahri	606	606	1 593,9	263
14	Viloyat byudjeti	191 967	166 597	178 198,7	107
	Jami	**193 798**	**168 428**	**181 505,0**	**108**

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida budjet resurslarini samarali boshqarish imkonini beruvchi mexanizmlarni yaratish va ularning ishlashini ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida daromadlar kamayishini hisobga olgan holda daromadlar bazasi barqarorligini saqlash, budjet xarajatlarini boshqarishga qat’iy yondashib, soliq salohiyatini rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur. Faqat shunda mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijro etishning bugungi tizimini ko‘rib chiqish mumkin. Bunday holda umumiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan respublika va mahalliy tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning samarali vertikal modelini yaratish ham muhimdir.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, Jizzax viloyatida mahalliy budjet daromadlari bazasini mustahkamlash maqsadida kelgusida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Viloyat eksportida xomashyo mahsulotlarining ulushi yuqori. Qayta ishlash quvvatlarini oshirgan holda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish hisobiga soliq bazasini kengaytirish;

2. Viloyatning asosiy drayveri – qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida, sohadagi korxonalarda nou-xaularni qo‘llagan holda innovatsion (sifatli, o‘tga va suvga chidamli) mahsulotlarni ishlab chiqarish;
3. Xizmatlar yo‘nalishida keng imkoniyatlar mavjud, viloyat hududidan M-39 va A-376 xalqaro avtomagistral yo‘llari o‘tganligini hisobga olgan holda transport logistikasini rivojlantirish, xalqaro yo‘llar bo‘yida xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish;
4. Sanoat zonalaridagi bo‘sh maydonlarda yangi loyihalarni amalga oshirib yangi ish o‘rinlarini yaratish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;
5. Mavjud turistik resurs salohiyatidan samarali foydalanish, agro, eko, tibbiy va boshqa turdagi yangi turizm marshrutlarini tashkil etish.

Shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Qishloq xo‘jaligi klasterlari, fermer va dehqon xo‘jaliklarida yaratilgan ish o‘rinlari soliq hisobotlarida qayd etilishini rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish;
2. Korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan ishchi va xodimlar faoliyatini, ularga ish haqi to‘lanishini belgilangan tartibda qayd etish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo‘llash;
3. 2 tadan ko‘p turarjoyga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga mol-mulk va yer solig‘i miqdori stavkasini 2 barobargacha oshirish;
4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari mablag‘lari negizida yangi ish o‘rinlarini yaratishga va mablag‘lar aholi bandligini ta’minlash maqsadlarini ko‘zda tutuvchi tadbirlarga yo‘naltirilishiga alohida e’tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasimova G.A., Shaakramov K.K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya”, 2012. -63 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ–3042-sonli qarori
3. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (qashqadaryo viloyati misolida)// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018-yil.
4. Islamkulov A.K. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash masalalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016-yil.
5. Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat budjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo‘nalishlari // O‘zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2017-yil 10-noyabr. –T.: TDIU, 2017. -b.27-28.
6. Xaydarov N.X. “Mahalliy budjetlar: muammo va innovatsion yechimlar”. “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2020-yil, 2-son.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuni 6-ilova.
8. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi 1-31-5-3-0-K/22-sonli qarori
9. Jizzax viloyati soliq boshqarmasi ma’lumoti
10. Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari
11. https://www.imv.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
12. https://jizzax.uz Jizzax viloyati hokimligining rasmiy veb sayti.

КЛЮЧЕВЫЕ ФАКТОРЫ УСПЕХА В МОТИВАЦИИ И УПРАВЛЕНИИ ПРОЕКТНЫМИ КОМАНДАМИ



Мансурова Севара Мансуровна
Магистр Банковско-финансовой Академии Республики Узбекистан

Аннотация: Эта статья исследует ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами. Мы рассматриваем влияние лидерства, коммуникации, планирования и мотивации на результаты проектов. Результаты анализа литературы и исследований предоставляют практические рекомендации для эффективного управления проектами.

Ключевые слова: мотивация, управление проектными командами, лидерство, коммуникация, планирование, успешное выполнение проектов.

Annotatsiya: Ushbu maqola loyiha jamoalarini rag‘batlantirish va boshqarishda muvaffaqiyatning asosiy omillarini o‘rganadi. Biz liderlik, muloqot, rejalashtirish va motivatsiyaning loyiha natijalariga ta’sirini o‘rganamiz. Adabiyotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalari loyihalarni samarali boshqarish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, loyiha jamoasini boshqarish, liderlik, aloqa, rejalashtirish, loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Abstract: This article explores the key success factors in motivating and managing project teams. We examine the impact of leadership, communication, planning, and motivation on project outcomes. The results of literature analysis and research provide practical recommendations for effective project management.

Key words: motivation, project team management, leadership, communication, planning, successful project execution.

ВВЕДЕНИЕ

Успешное выполнение проектов в современном мире является ключевым фактором для достижения бизнес-целей и обеспечения конкурентоспособности организаций. В условиях быстро меняющейся экономической и технологической среды эффективное управление и мотивация проектными командами становятся важными инструментами для достижения успеха. Проекты, особенно сложные и многозадачные, часто требуют сотрудничества множества профессионалов с разными навыками и компетенциями. Эффективная работа таких команд зависит от многих факторов, включая мотивацию, лидерство и управление ресурсами.

В данной статье мы погрузимся в мир мотивации и управления проектными командами, исследуя ключевые факторы, которые способствуют достижению успеха в этой области. Мы рассмотрим, как понимание потребностей и мотивационных факторов участников команды может повысить их производительность и вовлеченность в проект. Также мы исследуем важность лидерства и эффективной коммуникации в контексте управления проектами. Наконец, мы обсудим роль надежного планирования и контроля в обеспечении успешной реализации проектов.

Анализ исследований и опыт практиков позволят нам выявить практические рекомендации и стратегии, которые могут быть применены в различных сферах бизнеса и управления проектами. Успешное управление проектными командами не только повышает вероятность достижения поставленных целей, но также способствует укреплению мотивации сотрудников и созданию условий для долгосрочного успеха организации.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Исследования и литература в области мотивации и управления проектными командами предоставляют ценные научные и практические вклады, которые помогают лучше понять ключевые факторы успеха в данной области.

В работе А. Г. Маслоу была предложена теория мотивации, известная как “Иерархия потребностей Маслоу”, которая указывает на пять уровней потребностей: физиологические, безопасности, принадлежности, уважения и самореализации. Эта теория подчеркивает важность удовлетворения этих потребностей для мотивации.

Фредерик Герцберг в своей работе выделяет два типа факторов, влияющих на мотивацию: факторы удовлетворения (связанные с работой) и факторы неудовлетворения (связанные с рабочей средой). Он предлагает, что эффективное управление мотивацией должно учитывать оба типа факторов.

Майкл Белбин в своей работе исследует роли и функции членов команды. Он представляет концепцию ролей в команде и подчеркивает, что эффективные команды обязательно должны включать разнообразные роли для достижения успеха в проектах.

Брюс Такман представил модель развития группы, известную как “Модель Такмана”. Она включает в себя этапы формирования, согласования, нормирования, выполнения задачи и разделения. Понимание этих этапов позволяет управлять проектными командами более эффективно.

Дж. Ричард Хакман и Грегори Олдхэм разработали теорию, которая подчеркивает влияние организации и дизайна работы на мотивацию. Их работы поднимают вопросы о важности структуры работы и ее воздействия на мотивацию сотрудников.

Дэниел Гоулман в своей книге “Эмоциональный интеллект” исследует роль эмоционального интеллекта в лидерстве и управлении командами. Он подчеркивает важность эмоциональной компетентности для создания мотивированной и продуктивной команды.

Кевин Джансен и Амбер Кристоф-Браун исследуют концепцию соответствия личности и окружающей среды в рамках организационной науки. Их работы позволяют лучше понимать, как подбор участников команды с учетом их личных качеств может влиять на мотивацию и производительность.

Дж. Роджер Тернер и Ральф Мюллер исследуют влияние стиля лидерства руководителя проекта на успех проектов. Их литературный обзор выделяет различные подходы к лидерству и их влияние на результаты проектов.

Анализ исследований и опыта практиков позволяют сделать вывод, что успешное управление проектными командами требует учета множества факторов, включая мотивацию, лидерство, коммуникацию и планирование. Эти элементы взаимосвязаны и влияют на общий успех проекта. Для достижения выдающихся результатов в управлении проектами необходимо создать гармоничную среду, где команда мотивирована и обладает ясной структурой управления.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Таблица 1: Важные факторы в мотивации и управлении проектными командами

Фактор	Влияние на успех	Примеры стратегий
Лидерство	Значительное положительное	Установка примера, вдохновение
Коммуникация	Значительное положительное	Четкость, активное слушание
Распределение задач	Значительное положительное	Ясные роли и обязанности
Мотивация и вознаграждение	Значительное положительное	Системы поощрения и признания
Управление конфликтами	Среднее положительное	Эффективное разрешение конфликтов
Планирование	Среднее положительное	Разработка четкого плана и контроль выполнения
Структура команды	Среднее положительное	Определение ролей и иерархии

Источник: Разработано автором

Эта таблица подчеркивает значимость различных факторов для успеха в мотивации и управлении проектными командами. Лидерство, коммуникация и распределение задач являются ключевыми факторами, способствующими достижению выдающихся результатов. Важно также учитывать мотивацию, управление конфликтами, планирование и структуру команды.

Таблица 2: Влияние стилей лидерства на успех проектных команд

Стиль лидерства	Влияние на успех команды	Примеры применения
Трансформационный	Значительное положительное	Вдохновение, установка высоких целей
Ситуативный	Значительное положительное	Адаптация к ситуации, гибкость
Транзакционный	Среднее положительное	Системы поощрения и наказания
Автократический	Среднее отрицательное	Жесткое руководство, ограничения
Демократический	Значительное положительное	Участие команды в принятии решений

Источник: Разработано автором

В данной таблице анализируется влияние различных стилей лидерства на успех проектных команд. Трансформационный и ситуативный стили лидерства оказывают сильное положительное воздействие на команду, тогда как автократический стиль может иметь отрицательное воздействие. Демократический стиль считается одним из наиболее эффективных для мотивации и управления командами.

Таблица 3: Важность планирования и контроля в управлении проектами

Этап управления	Значение этапа	Примеры действий
Планирование	Критическое	Определение целей, составление графиков
Выполнение	Критическое	Контроль над ходом работ, ресурсы
Мониторинг	Критическое	Оценка прогресса, идентификация рисков
Завершение	Критическое	Анализ результатов, обратная связь

Источник: Разработано автором

Эта таблица выделяет важность планирования и контроля на разных этапах управления проектами. Каждый этап играет критическую роль в обеспечении успешной реализации проекта. Планирование и мониторинг помогают предотвратить проблемы, а контроль обеспечивает соблюдение графика и бюджета.

Исходя из анализа представленных таблиц, можно сделать вывод о том, что успех в мотивации и управлении проектными командами зависит от множества факторов, включая лидерство, коммуникацию, планирование и контроль. Эти факторы взаимосвязаны и требуют сбалансированного подхода для достижения лучших результатов в управлении проектами. Эффективные лидеры, стратегическое планирование и активный мониторинг – ключевые элементы успешного проектного управления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В данной статье мы провели обзор ключевых факторов, влияющих на успех в мотивации и управлении проектными командами. Исходя из анализа литературы и представленных результатов, можно сделать несколько важных выводов.

Во-первых, лидерство играет решающую роль в формировании мотивации команды и достижении успешных результатов. Трансформационный и демократический стили лидерства часто считаются наиболее эффективными, поскольку они способствуют вдохновению и участию членов команды.

Во-вторых, коммуникация и планирование являются неотъемлемой частью успешного управления проектами. Четкая и открытая коммуникация способствует избеганию недоразумений и улучшению сотрудничества в команде. Планирование позволяет определить цели, роли и этапы проекта, что упрощает достижение успеха.

В-третьих, мотивация и вознаграждение имеют большое значение для участников проектных команд. Подходы к мотивации могут включать системы поощрения, признание достижений и участие команды в принятии решений.

В-четвертых, планирование и контроль на разных этапах управления проектами позволяют предотвратить риски и обеспечить соблюдение сроков и бюджета.

Итак, успех в мотивации и управлении проектными командами зависит от комплексного подхода, учитывающего разнообразные факторы. Эффективное лидерство, стратегическое планирование, активная коммуникация и контроль образуют основу для достижения выдающихся результатов в управлении проектами. Понимание и применение этих факторов помогут организациям успешно реализовывать свои проекты и добиваться успеха в быстро меняющемся бизнес-окружении.

Список литературы:

1. Маслоу, А. Г. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396.
2. Herzberg, F. (1968). One more time: How do you motivate employees? Harvard Business Review, 46(1), 53-62.
3. Belbin, M. R. (1981). Management teams: Why they succeed or fail. Butterworth-Heinemann.
4. Tuckman, B. W. (1965). Developmental sequence in small groups. Psychological Bulletin, 63(6), 384-399.
5. Hackman, J. R., & Oldham, G. R. (1976). Motivation through the design of work: Test of a theory. Organizational Behavior and Human Performance, 16(2), 250-279.
6. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence. Bantam Books.
7. Jansen, K. J., & Kristof-Brown, A. L. (2006). Toward a multidimensional theory of person-environment fit. Journal of Managerial Issues, 18(2), 193-212.
8. Turner, J. R., & Müller, R. (2005). The project manager's leadership style as a success factor on projects: A literature review. Project Management Journal, 36(2), 49-61.

MEHMONXONA BIZNESIDA CRM TIZIM XIZMATLARINI LOYIHALASH

Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna
Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: CRM (inglizcha: Customer Relationship Management) bu xaridor aloqalari boshqaruvi . Rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Har bir firma, korxona o‘z xaridorlari bilan doimiy aloqa saqlab qolish uchun kerakli ishlarni amalga oshiradi. CRM – bu shunday qulay vositaki, mijozlar yoki hamkorlar bilan aloqa ma’lumotlarini saqlashga, sotish imkoniyatlarini aniqlashga, xizmat ko‘rsatishdagi muammolarni aniqlashga va marketing kompaniyalarini boshqarishga imkon beradi. Ushbu maqolada mehmonxona biznesida CRM tizimini xizmatlarni loyihalashtirish xususida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: CRM,mehmonhona biznesi,funksiya, kompaniya,loyihalash jarayoni,texnologiya,turizm, interaktiv boshqaruv, ma’lumotlarni tahlili.

Abstract: CRM (English: Customer Relationship Management) is customer relationship management. It is widely used in developed countries. Every firm, enterprise does everything necessary to maintain constant contact with its customers. CRM is such a convenient tool that it allows you to store contact information of customers or partners, identify sales opportunities, identify service problems and manage marketing companies. This article was about the development of a CRM system in the hotel business.

Key words: CRM, hotel business, function, company, design process, technology ,tourism, interactive management, data analysis.

Аннотация: CRM (английский: Customer Relationship Management) – это управление взаимоотношениями с клиентами. Широко используется в развитых странах. Каждая фирма, предприятие делает все необходимое для поддержания постоянного контакта со своими покупателями. CRM-настолько удобный инструмент, что позволяет хранить контактную информацию клиентов или партнеров, определять возможности продаж, выявлять проблемы с обслуживанием и управлять маркетинговыми компаниями. В данной статье речьшла о разработке CRM-системы в гостиничном бизнесе.

Ключевые слова: CRM, гостиничный бизнес, функция, компания, процесс проектирования, технология,туризм, интерактивное управление, анализ данных.

KIRISH

Uzoq davrlar mobaynida barcha tashkilotlar, do‘konlar va ishlab chiqarish korxonalarida mijozlar munosabati “qog‘oz va qalam” usulida yozib borilardi. Hozirgacha yetib kelgan “Taklif va shikoyatlar daftari”, “Shikoyatlar qutichasi”, “Ishonch telefoni” kabi vositalar o‘tmishning o‘ziga xos Sustomer Relationship Management usuli bo‘lgan. Keyinchalik kompyuter kashf etildi, internet ommalashdi. Endi munosabatlar qog‘ozga emas, elektron shaklida kompyuter xotirasiga yoziladigan bo‘ldi. Ma’lumotlarni nafaqat saqlash, balki tahlil qilish, solishtirish ham osonlashdi. Shu tarzda hamma ma’lumotlarini kompyuterlarga yozishni boshladi va ularni murakkab usullarda sotlishtirish, o‘rganib chiqish, qayta ishlash, saralash, ko‘rib chiqish vazifasi yuzaga keldi [1].

Natijada o‘z-o‘zidan ma’lum bir tizimlar texnologiyalar asosida tadbirkorlik yoki mehmohana biznesi uchun qulay xizmatlar asosida loyihalashga zarurat paydo bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

CRM tizimi aynan shu muhitda, qog‘ozdan kompyuterga, arxiv xonasidan internetga ko‘chganimizdan so‘ng yuzaga keldi. Ingliz tilidagi Sustomer Relationship Management so‘zlarining bosh harflaridan tashkil topgan bu qisqa atama o‘zbek tilida mijozlar bilan munosabat boshqaruvi, degan ma’noni anglatadi [2].

O‘z nomi aytib turganidek, mijozlar bilan munosabatni boshqaradigan tizim sotuvchi va haridor, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi, xizmat ko‘rsatuvchi va undan foydalanuvchi o‘rtasidagi har qanday aloqaga oid ma’lumotlarni boshqaradi. Mehmonxona xizmatlari va ularning faoliyati, unda ko‘rsatiladigan xizmatlarning turlari va sifati, mehmondo‘stlik industriyasi, mehmonlarga xizmat ko‘rsatishdagi afzallik va kamchiliklarini, muammolar kabi masalalar bo‘yicha chet ellik iqtisodchi olimlardan S. B. Senin, S. Medik, X. Ingram, G. A. Papiryan va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham mehmonxona xizmati masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan, Z. Adilova, A. Abduvohidov va M. Aliyevalarning bu borada olib borgan tadqiqotlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Lekin ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehmonxonaning samarali korporativ boshqaruv tizimi bo‘yicha tadqiqotlar yetarli tadqiq etilmagan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning bu maqola ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ajratish va guruhlash usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqolada xorijlik ko‘plab olimlar tajribalari tahlil qilib chiqilgan va mehmonxona biznesida foydalanish samaradorligi bo‘yicha CRM bo‘ycha ishlar ko‘rib chiqilgan hamda avzalliklari yoritilgan. CRM har qanday o‘lchamdagi kompaniyalarga biznesni rivojlantirishda yordam berishi mumkin va ozroq mablag‘ bilan ko‘proq ish qilish imkoniyatini bera oladi. CRM tizimi sizning mijozlaringiz haqida aniq ma’lumot beradi. Siz hamma narsani bir joyda ko‘rishingiz mumkin – oddiy, moslashtirilgan boshqaruv paneli sizga mijozning avvalgi tarixini, siz bilan buyurtma holatini, mijozlarga xizmat ko‘rsatishning har qanday muhim muammolarini va boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aytib beradi [2].

Siz hatto ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati – nimani yoqtirishlari yoki yoqtirmasliklari, ular siz yoki raqobatchilaringiz haqida nima deyishlarini kuzatib borish imkoniyatiga egasiz. CRM nima ekanligini bilgan kampaniya ishlarini oson boshqarish va optimallashtira oladi. CRM tizimlar biznesdagi deyarli barcha vazifalarni hal qilishga imkon beradigan keng funksional imkoniyatlarga ega. Misol uchun:



1-rasm: CRM tizimini sotuv biznesda qo‘llanilishi [3]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: CRM tizimini moliya sohasida qo'llanilishi [3]

3-rasm: Marketing sohasida CRM tizimini qo'llanilishi [3]

Yaxshi tuzilgan CRM tizimining xulosalariga qarab kelajakdagi faoliyatni rejalashtirish, nimalar kutilayotganligini katta ehtimollik bilan bashorat qilish mumkin. Analitiklar yig'ilgan ma'lumotlar ko'rsatkichlariga qarab qachon qaysi mahsulotni ko'proq ishlab chiqarish, qayerga e'tiborni ko'proq qaratish kerakligini aniqlab olishadi [3].

Har bir tijoratning asosiy maqsadi boshqalardan ko'proq va yaxshiroq natijalarga ega bo'lish hisoblanadi. CRM tizimi bor va bu tizimga ega bo'lmagan ikkita bir xil yo'nalishdagi kompaniya daromad ko'rishda hech qachon tenglasha olmaydi. Bu ham CRMning ijobiy tomonlaridan biri. Ijobiylikka intilgan kompaniya mijozlari uchun har doim eng yaxshisini taqdim eta oladi. Sizning biznesingizga ham CRM kerak! Hech bir ma'lumotni kichik sanamanslik kerak, ayniqsa u sizning mijozlaringiz haqida bo'lsa. Boshqalardan oldinda bo'lib, o'z sohangizda birinchi raqamli hisoblanishni xohlasangiz, albatta Sustomer Relationship Management tizimini o'z talablaringizga ko'ra tayyorlashga darhol buyurtma bering.

"Ma'lumotni qanday qilib yig'ishingiz, boshqarishingiz va undan qanday foydalanishingiz g'olibligingiz yoki mag'lubligingizni hal qiladi" – Bill Geyts [4].

Shubhasiz, qancha faoliyat turlari mavjud bo'lsa, shuncha ko'p ish oqimi tizimlari bo'lishi mumkin, natijada avtomatlashtiradigan axborot tizimlari ommaviy yo'nalishda rivojlanmoqda. Elektron hujjatlar aylanishini avtomatik nazorat qilish orqali samarali boshqaruvni va barcha darajadagi butun tashkilotning shaffofligi ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga mos keladigan sifat nazorati tizimini yaratish va ma'lumotlarni to'plash va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish ham muhim vazifalardan biridir [6]. Har bir xodimning faoliyatini rasmiylashtirish va kadrlar moslashuvchanligini ta'minlash ham juda muhimdir. Mehmonxona faoliyatida ichki xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, bo'limlar faoliyatini tahlil qilish, faoliyatdagi "qaynoq nuqtalarni" aniqlash zarur. Mehmonxona biznesi jarayonlarini optimallashtirish va ularni amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmini avtomatlashtirish lozim. Bu subektning ichki aylanmasidan qog'oz hujjatlarini kamaytirish va tashkilotda hujjat aylanishini boshqarish xarajatlarini qisqartirish orqali resurslarni tejashga olib keladi. Operatsion elektron arxiv mavjudligi sababli qog'oz hujjatlarni saqlash zaruriyatini bartaraf etish yoki sezilarli soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin. Elektron arxivlarni shakllantirish va takomillashti-

rish mehmonxona faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Elektron arxiv – bu ma'lumotlarni samarali saqlash tizimining alohida holati.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim uslubiy masalalaridan biri samarali ko'rsatkichlarning o'sishiga individual omillar ta'sirini aniqlash hisoblanadi. Ushbu tahlil uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: muvozanat, zanjirli almashtirish, mutlaq farqlar, nisbiy farqlar, indeks, proporsional bo'linish va integral usul. Balans usuli. Bu usul ma'lum bir muvozanatga moyil bo'lgan ikkita ko'rsatkichlar to'plamini taqqoslashdan iborat. Ushbu usuldan xo'jalik aktivlarini va ularni shakllantirish manbalarini to'g'ri joylashtirish va ulardan foydalanishni tahlil qilishda keng foydalanish mumkin [7].

Buxgalteriya balansida aktivlar va passivlar muvozanatini shakllantirish usuli, shuningdek, funksional qo'shimcha munosabatlarni o'rganishda, xususan, tovar balansini tahlil qilishda, shuningdek, tahlil qilingan hisob-kitoblarning to'liqligi va to'g'riligini tekshirishda qo'llaniladi. Xo'jalikda aktivlarning umumiy qiymati passivlar yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Zanjirli almashtirish usuli omil modellarining barcha turlarida omillar ta'sirini hisoblash uchun ishlatiladi: additiv, multiplikativ, ko'p martali va aralash (birlashtirilgan).

Bu usul samarali ko'rsatkich qiymatining o'zgarishiga individual omillarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Bu har bir omil ko'rsatkichining bazaviy qiymatini hisobot davridagi amaldagi uchun samarali ko'rsatkich hajmiga bosqichma-bosqich almashtirish orqali amalga oshiriladi. Marketing tadqiqoti metodologiyasi statistik, ekonometrik, sotsiometrik, kvalimetrik, bixevioristik va marketing usullari, shuningdek, informatika usullarining murakkab bir yig'indisini ifodalaydi.

Shunday qilib, marketing tadqiqotida kompleksli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir [6].

Mehmonxonangizda CRM bilan ishlash sizning oxirgi mijozlaringiz – mehmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'lishga pul tikish demakdir. Bu faqat texnologik vositaning integratsiyasi emas. Bu sizning mijozlaringizga yo'naltirilgan, foydalanuvchiga yo'naltirilgan biznes modellarini yaratish maqsadida ishingizni bajarish usulini o'zgartirishni anglatadi [8]. Sizning mijozlaringiz mehmonxonalaringiz uchun eng qimmatli biznes aktivlaridir, garchi ularning qiymati balanslarda aks ettirilmasada. An'anaviy menejment mahsulot va xizmatlarga e'tibor qaratadi, CRM dan foydalanmasa, u o'z strategiyalarini haqiqiy maqsad – mehmonga yo'naltirishi mumkin.

Boshqa tomondan, xaridorning sayohati (yoki sayohatchining sayohati) potensial iste'molchi tomonidan mahsulot yoki xizmatimiz sotilishiga qadar amalga oshiriladigan faol qidiruv jarayonidir. Shunday qilib, xaridorning shaxsiyatini va ushbu foydalanuvchilar sotib olish jarayonini (xaridorning sayohati) yakunlashdan oldin qanday bosqichlardan o'tishlarini bilish, sizning CRM loyihangizni keyingi joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish uchun juda muhim, chunki u maqsadlar bilan birga belgilovchi qo'llanma bo'ladi. Mehmonxonangiz uchun CRM loyihasida siz ma'lumotni bulutga (masalan, raqamli muhit) ko'chirishni ko'rib chiqishingiz kerak va siz barcha ma'lumotlarni yig'ish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini qonuniy darajada ko'rib chiqishingiz kerak bo'ladi [9].

XULOSA

Bugungi kunda CRM xizmatini qo'llashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan birinchi narsa bu shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga muvofiqligidir. Siz mehmonxonangizning eng qimmatli aktivlaridan biri bo'lgan ma'lumotlaringizni saqlab qolasiz, ularsiz kundalik faoliyatingiz ishlamaydi. Xizmat ko'rsatish modeli va joylashtirish modelini tanlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan masalalarni chetga surib qo'ysak, har bir kompaniya o'ziga berishi kerak bo'lgan bir qator savollar mavjud va shuning uchun ishga qabul qilishdan oldin ular haqida xabardor bo'lishi kerak. Xulosa qilishim natijasida CRM tizimini mehmonxona biznesida qo'llanishi bu biznesni xarajatlarini kamaytirib har tomonlama ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Makhmudov S. Marketingda mijozlar bilan o'zaro aloqalarni boshqarish. –Toshkent. 2022.
2. B. Isomov. Mehmonxona xo'jaligi faoliyati tahlili. –Buxoro. 2021.
3. Abduhalilova L. Marketing tadqiqotlari. Toshkent. 2019.
4. Salvador S. Sayohat uchun marketing. https://www.amara-marketing.com/travel-blog.
5. Bekmurodov A.Sh., Karriyeva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiyev D.H., Kattayev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010. –166 b.
6. Басовский Л.Е. Экономический анализ (Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности): Учебное пособие / Л.Е. Басовский, А.М. Лунева, Е.Н. Басовская и др. – М.: Инфра-М, 2018. – 479 с.
7. Басовский, Л.Е. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: Учебное пособие / Л.Е. Басовский, Е.Н. Басовская и др. – М.: Инфра-М, 2018. – 544 с.
8. Бачурин А. А. Анализ производственно-хозяйственной деятельности автотранспортных организаций – М.: Юрайт, 2020. – 297 с.
9. Бузырев В.В. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности строительного предприятия / В.В. Бузырев; под ред. И.П. Нужина, Ю.Б. Скуридина. – М.: КноРус, 2019. – 448 с.

ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Кучаров Аброр Сабиржанович
Профессор ТГЭУ

Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович
Докторант ТГЭУ

Набиева Нилуфар Наби қизи
Докторант ТГЭУ

Moliya bozorida moliyaviy innovatsiyalarning tarqalishi yangi aloqa va axborot texnologiyalarining, ya’ni raqamlashtirish va raqamli globallashuvning (birinchi navbatda, xalqaro miqyosda) jadal rivojlanishi tufayli ortib bormoqda. Yana bir muammo (ilmiy hamjamiyatda keng muhokama qilinayotgan) moliyaviy innovatsiyalarni qo‘llashdan keyin olingan natijalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu noaniq bo‘lishi mumkin. Samarali moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy tizimga o‘zining asosiy funktsiyalarini arzonroq va yuqori samaradorlik bilan bajarishga yordam beradi. Ammo barcha moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy bozorga bunday ijobiy ta’sir ko‘rsatmayapti. Ulardan ba’zilari kutilmagan va istalmagan yon ta’sirga ega bo‘lib, moliyaviy tizimning beqarorligiga olib kelib va moliya bozorida xavf darajasini oshirmoqda. Samarasiz moliyaviy yangiliklarni diqqat bilan kuzatib borish va tartibga soluvchi organlar tomonidan tezkor choralar ko‘rish orqali bartaraf etilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induktsiya, deduktsiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishini tahlil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2017-2023-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan. Tahlilda dastlab butun bank tizimi ko‘rilgan bo‘lsa, kiyingi qismlarida alohida tanlangan yirik va kichik banklar bir-biri bilan solishtirilgan. Xususan, yirik banklar sifatida O‘zmilliybank AJ va O‘zsanoatqurilishbank ATB tanlangan va ularning masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlarining rivojlanish tendentsiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, kichik banklar sifatida XAB Trastbank hamda ATB Turonbanklar olingan bo‘lib, ular asosan mulkchilik shakliga ko‘ra tanlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank tizimida masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar sonining tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. To‘g’ri bank tizimida masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar soni tarkibida jismoniy shaxslar oshishi sezilarli bo‘ladi, ammo yuridik shaxslarning ham masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish turli noxush holatlar, xususan, korruptsion alomatlarning kamayishiga, shuningdek, banklarning xarajatlarini kamaytirishga sabab bo‘ladi.



1-rasm: Bank tizimida masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar tarkibi[2]

2 O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslar 2017-yilda 5,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 6,8 foizga ko‘tarilgan. Ammo keyingi davrlarda jismoniy shaxslarning ulushi ortib borgan va yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibidagi ulushi 2023-yil 1-yanvar holatiga 3,9 foizga pasaygan.

Tanlangan yirik banklarda masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibini tahlil qilganda, O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar tarkibida yuridik shaxslarning ulushi ortib borgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi 2018-yil 1-yanvar holatiga 2,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda asosiy e’tiborini yuridik shaxslarga qaratgan va buning natijasi o‘laroq ularning ulushi jami foydalanuvchi mijozlar tarkibida 5,9 foizga ko‘tarilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tanlangan yirik banklardan O‘zsanoatqurilish bankda masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi keskin kamayib ketgan. Xususan, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi 2018-yil 1-yanvar holatiga 31,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda asosiy e’tiborini jismoniy shaxslarga qaratgan va buning natijasi o‘laroq yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar tarkibidagi salmog’i 1,3 foizgacha pasaygan.

Tahlilda foydalanilgan kichik banklardan XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi ortib borgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jami mijozlardagi salmog’i 5,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa bu ko‘rsatkich 16,3 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud ATB Turobankda vaziyat boshqacha. Ya’ni ushbu bankda 2018-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jami mijozlardagi salmog’i 34,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa bu ko‘rsatkich keskin pasayib ketgan va 12,1 foizni tashkil qilgan.



2-rasm: Tanlangan banklarda masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar tarkibi[3]

Tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyotning butun iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirishga xissa qo‘shadi. Tijorat banklari plastik kartalar sonini oshirish bilan bir qatorda to‘lov terminallari sonining oshishiga ham e’tibor qaratish lozim. Tahlilning keyingi bosqichida biz muomaladagi plastik kartalarning oshishi bilan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar sonining oshishi o‘rtasidagi

3 O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bog'liqlikni ko'rib chiqqanmiz. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, tahlilda to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni umumiy olingani bilan buning tarkibida bankomatlar va infokiosklar soni sezilarsiz qismini tashkil qiladi va asosan to'lov terminallar egallagan.



3-rasm: Bank tizimida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o'rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)[4]

Tahlilning boshida yuqoridagi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlilini butun bank tizimida ko'rib chiqamiz. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 19,2 mln. donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'ratkich ikki barobarga yaqin oshgan va 34,2 mln. donani tashkil etgan. Mamlakatimizda o'rnatilgan to'lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 241,3 ming donani tashkil etgan va bir dona o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to'g'ri keladigan plastik kartalar soni 79,7 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni 454,4 ming donani tashkil etgan bo'lsa, bir dona o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to'g'ri keladigan plastik kartalar soni 75,2 ming donani tashkil etgan.



4-rasm: O'zMilliybank AJda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o'rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)[5]

4 O'zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
5 O'zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlilda tanlangan yirik banklardan O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish darajasini tahlil qilib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zmilliybank AJda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 3108,9 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘ratkich keskin kamayib ketgan va 2043,3 ming.donani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 3050,6 ming donani tashkil qilgan.

Ammo O‘zmilliybank AJda muomalaga chiqargan plastik kartalar soni 2017-yilgi holatga yetgani yo‘q. O‘zmilliybank AJda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 24,0 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni 129,4 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni 41,2 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni yeskin kamaygan va 74,1 ming donani tashkil etgan.



5-rasm: AT O‘zsanoatqurilishbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)[6]

Tahlilda tanlangan keyingi yirik banklardan O‘zsanoatqurilishbank ATBda tahlil natijalariga ko‘ra, jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 1091,9 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2018 va 2019-yilda bu ko‘rsatkich pasaygan va mos ravishda 801,3 ming dona va 984,9 ming donani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 1976,1 ming donani tashkil qilgan. O‘zsanoatqurilishbank ATBda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 14,2 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni 77,0 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 34,2 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni keskin kamaygan va 57,7 ming donani tashkil etgan.

Tahlilning keyingi bosqichida tanlangan kichik banklar misolida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlilini olib boramiz. Xususan, XAB Trastbankda tahlil natijalariga ko‘ra, jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 219,8 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda bir maromda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 401,9 ming donani tashkil qilgan. XAB Trastbankda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 4,9 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni 44,3 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 12,1 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni kamaygan va 33,3 ming donani tashkil etgan.

6 O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



6-rasm: XAB Trastbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)[7]



7-rasm: ATB Turonbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)[8]

Tahlilning keyingi bosqichida tanlangan kichik banklardan Turonbank ATBda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko‘ra, Turonbank ATBda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 412,6 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda bir maromda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 646,4 ming donani tashkil qilgan. Turonbank ATBda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 5,8 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni 71,6 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 14,8 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g’ri keladigan plastik kartalar soni keskin kamaygan va 437 ming donani tashkil etgan.

7 O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
8 O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, yirik banklarda muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining o‘zgarishi betartib kechgan bo‘lsada ammo to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar o‘rtanish darajasi doim oshib borgan. Tahlil qilingan kichik banklarda esa muomalaga chiqarayotgan plastik kartalar soni bir maromda oshib borgan. Shuningdek, tijorat banklari muomalaga chiqarayotgan plastik kartalar bilan o‘rnatilayotgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni o‘rtasidagi balansni ta’minlashi lozim. Chunki, plastik kartalarning boshqa terminal, bankomat yoki infokiosklarda foydalanishi daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda kichik banklar masofaviy bank xizmatlari bozorida o‘rnini yuksaltirish uchun to‘lov terminallarini, bankomatlarini hamda infokiosklarini ko‘paytirishga o‘rinishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leraer, J. (2011.) The Consequences of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda. Annual Review of Financial Economics. – Vol. 3. – P. 41-85
2. Rajapathirana, R. J., & Hui, Y. (2018). Relationship between innovation capability, innovation type, and firm performance. Journal of Innovation & Knowledge, 3(1), 44-55.
3. Das, P., Verburg, R., Verbraeck, A., & Bonebakker, L. (2017). Barriers to innovation within large financial services firms: An in-depth study into disruptive and radical innovation projects at a bank. European Journal of Innovation Management, 21(1), 96-112.
4. Westland, J. C. (2017). Global innovation management. Bloomsbury Publishing.
5. Kokh L.V. (2010). Innovatsiyalardan foydalanish asosida bank faoliyati samaradorligini oshirish tamoyillari va mexanizmlari: Dissertatsiya avtoreferati. ... Iqtisodiyot fanlari doktori. – Ivanovo.
6. https://data.worldbank.org
7. https://imf.org

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Davronov Saxobiddin Faxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning afzalliklari va tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so‘z boradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik asoslari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, biznes, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, yakka tartibdagi tadbirkorlik.

Abstract: This article will discuss the advantages and analysis of financial support for business entities and improving development prospects. The existing problems in the prospects for the development of financial support for business entities in the Republic of Uzbekistan, as well as the author’s approaches and proposals for their elimination, are also presented.

Key words: entrepreneurship, small business, fundamentals of entrepreneurship, financial support, business, production, service, individual entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах и анализе финансовой поддержки субъектов предпринимательства и улучшении перспектив развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития финансовой поддержки субъектов предпринимательства в Республике Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, основы предпринимательства, финансовая поддержка, бизнес, производство, услуга, индивидуальное предпринимательство.

KIRISH

Bugungi kunda tadbirkor nafaqat o‘z faoliyati orqali foyda orttirish, balki davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlardan foydalangan holda mamlakatdagi ijtimoiy masalalar, xususan, aholi bandligini ta’minlash, milliy daromadni o‘stirish va xalqning farovonligi uchun xizmat qilish kabilarda ham katta rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, har bir tadbirkorlik faoliyati muayyan bir mintaqada: mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq hududida tashkil etiladi. Tadbirkorlik faoliyatining samarali asosi bo‘gan, ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish mumkinligiga qaratilgan jihatlar o‘z ilmiy yechimini topmaganligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ma’ruzalarida “belgilangan jamiyat rivojlanishining tanlangan yo‘nalishiga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki tamoyili sifatida biz sifat qayta tuzishlarini tayyorlaydigan, doimiy miqdor o‘zgarishlar jarayonni o‘z ichiga oladigan strategik rivojlanish yo‘lini tanlab oldik. Tamoyilning mohiyati tezkor iqtisodiy masalalarini hal qilishdan milliy vazifalarni asoslashga o‘tish, aniq ketma-ketlikni davlat va tadbirkorlik subyektlari xususiy manfaatlari muvozanatini ta’minlashni nazarda tutadi” [2].

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti, ishchanlik muhiti va ishbilarmonlik muhiti bir xil mazmunda qo‘llanilmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlikning rivojlanishida nazariy yondashuvlarni M.Boltaboyev rahbarligida bir qator mualliflar klassik olimlarning Adam Smit, Richard Kantilon, Jon Batist Sey, Jon Beys Klark, Y.Shumpeter va G.Pinsho fikrlarini batafsil yoritganlar [3]. Demak, XVIII asrda iqtisodchi Richard Kantilon (1680-1734) “Umumiy savdo tabiati yuzasidan insho” (Essay on the Nature of Trade in General) nomli kitobida qo‘llagan edi [4]. Richard Kantilonning

fikricha, tadbirkor – risk (xavf-xatar) sharoitida faoliyat yurituvchishaxsn. Shunga ko‘ra tadbirkor yer va mehnat omiliga iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boyliklarsifatida qaragan [5].

So‘ng, iqtisodchisi Jon Batist Sey (1767-1832) “Siyosiy iqtisod traktati” kitobida tadbirkorlik faoliyatidagi ishlab chiqarish omillarini ko‘rsatib o‘tgan, unga yer, kapital va mehnat kiritilgan [6]. Jon Batist Seyning ta’kidlashicha, tadbirkor daromadi mehnat, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mahsulotni sotish jarayonida paydo bo‘ladiganfoydali inoyatdir. Tadbirkor ma’lum bir riskka borib, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishi natijasiga bunga erishadi.

Ingliz iqtisodchi olimlari Adam Smit (1723-1790) va David Rikardo (1772-1823) tomonidan olg‘a surilgan asosiy fikr bu iqtisodiyotni o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ta’kidlanishidir. Iqtisodiyotni o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmda ijodiy tadbirkorlikka joy ajratilmagan. Mehnat barcha tadbirkorlikning asosidir – keyinchalik klassik siyosiy iqtisod deb nomlangan ta’limotni yaratgan A.Smitning “Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish” asaridan kelib chiqadigan xulosalardan biri. Mehnat barcha yaxshiliklarning yagona manbai, deb ta’kidlaydi A.Smit. Bu degani, mahsulot ishlab chiqarishga ma’lum miqdordagi mehnatni sarflagan shaxs ushbu mahsulotni yoki o‘zi sotib olishi mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni erkin tasarruf etishning to‘liq va ajralmas huquqiga ega bo‘ladi. Biroq, ushbu imtiyozlar turli yo‘llar bilan yo‘q qilinishi mumkin. Tadbirkor ularni butunlay o‘zining ehtiyojlari va qulayliklari uchun ishlatishi mumkin, shunda avvalgi mehnat tomonidan yaratilgan barcha qiymatlar yo‘qoladi. Yoki yaratilgan ehtiyojning bir qismini zarur ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatib, yana bir qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, tuproqni yaxshilashga, asbob-uskunalarni yaxshilashga, bino qurish yoki texnikani sotib olishga sarflashi mumkin. Bunda yaratilgan qiymat saqlanib qoladi, boylikka aylanadi, ya’ni kapitallashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning afzalliklari hamda tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik bu tavakkalchilik demakdir. Tadbirkorlik faoliyatidagi xavf-xatarlarni xolis baholash uchun bo‘lajak tadbirkor o‘zining boshlang‘ich mablag‘lari hisobiga biznesni qurishi juda ham muhim hisoblanadi. O‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda esa, kredit va subsidiyalar hamda mikromoliya tashkilotlari tadbirkorga yordamga keladi.

Shu maqsadda mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, aholining keng qatlamlari hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan depozit jalb qilish imkoniyatini yaratish, mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o‘rtasidagi “zanjir”ni mustahkamlash maqsadida tadbirkorlar uchun 2023-yil 10-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-364 sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning 2024–2026-yillarda quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga qaratilgan mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi quyidagi takliflar belgilab berildi:

- mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish;
- mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish;
- mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan mablag‘lar miqdorini 2 barobarga oshirish;
- mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali rasmiy daromadga ega bo‘lmagan 500 mingga yaqin shaxslarni o‘zini o‘zi band qilish va biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish [1].

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

- mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha oshiriladi;
- nobank kredit tashkilotlari aksiyadorlik jamiyati yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi;
- mikromoliya tashkilotlariga norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag‘larini jalb qilish hamda yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ruxsat beriladi;

- jismoniy shaxs bo‘lgan ishtirokchilardan (aksiyadorlardan) ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda qarz mablag‘larini jalb etishga ruxsat beriladi;
- mikromoliya tashkilotlari tegishli litsenziya olgan holda to‘lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi;
- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan nobank kredit tashkilotining ustav kapitalidagi ulushga egalik qilish uchun Markaziy bank dastlabki ruxsatnomasini olish talabi qonunchilikda belgilangan 10 foizlik ulushni 20 foizga oshirish orqali yumshatiladi. Bunda, olinayotgan ulush miqdori 10 foizdan 20 foizgacha bo‘lganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibi joriy etiladi;
- mikromoliya tashkilotlariga tijorat banklaridan kredit resurslari jalb etilganda yoki tadbirkorlik subyektlariga mikromoliya tashkilotlaridan mikrokredit olinganda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ kafilligini berish imkoniyati yaratiladi;
- tijorat banklariga mikromoliya tashkilotlariga kredit ajratishda ularning ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlari bo‘yicha talab qilib olish huquqini garovga olish huquqi berilishi belgilab berildi.

Shuningdek, tadbirkorlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi PQ-3225-sonli qaroriga muvofiq “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Jamg‘arma tashkil etildi.

Jamg‘arma tashkil etilgandan buyon tadbirkorlarga jami 49,3 mingta loyihaga ajratilgan 77,5 trln. so‘mlik kreditlar uchun 17,3 trln. so‘mlik moliyaviy yordam (10,5 trln. so‘mlik kafillik, 6,8 trln. so‘mlik kompensatsiya) ko‘rsatilgan. Natijada 386,3 ming ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishilgan.

1-jadval: Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlar to‘g‘risida ma’lumot (2018-2023-yil 1-iyul holatiga)

Sohalar	Jami				
	Soni		Summasi		Yordam (% da)
	Yordam	Ish o‘rni	Moliyaviy yordam	Kredit	
Jami	**49 256**	**386 304**	**17 262 061**	**77 536 783**	**100%**
Qishloq xo‘jaligi	29 450	169 305	9 186 894	35 556 292	53,2%
Asalarichilik	123	343	6 690	29 371	0,1%
Baliqchilik	1 778	7 037	494 678	1 801 646	5,4%
Intensiv bog‘	31	246	7 896	28 530	0,1%
Ipakchilik	84	8 807	83 414	527 749	0,9%
Issiqxona	3 813	39 833	3 603 691	12 596 422	39,2%
Qishloq xo‘jaligi va meva-sabzavot yetishtirish	9 410	43 252	1 390 497	5 229 668	15,1%
Parrandachilik	1 119	13 059	715 880	2 861 235	7,8%

Sohalar kesimida oladigan bo‘lsak, Jamg‘arma tomonidan eng ko‘p tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yordam sifatida qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘lib jami 29,4 ming ta loyihaga ajratilgan 35,5 trln. so‘mlik kreditlar uchun 9,2 trln. so‘mlik moliyaviy yordam (4,9 trln so‘mlik kafillik, 4,3 trln. so‘mlik kompensatsiya) ko‘rsatilgan. Natijada 169,3 ming ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonunida Jamg‘armaga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 900,0 mlrd. so‘m transfert ajratilgan. 2023 yil 1 iyul holati bo‘yicha tadbirkorlarga jami 416 ta loyihaga ajratilgan 500,0 mlrd. so‘mlik kreditlar uchun 181,5 mlrd. so‘mlik moliyaviy yordami (173,0 mlrd. so‘mlik kafillik va 8,5 mlrd. so‘mlik kompensatsiya) ko‘rsatilgan. (1-jadvalga qarang)

Tadbirkorlik subyektlarining maqomini baholashning yagona mezoni va ularning faoliyatining barcha yo‘nalishlari va sohalarida oldin olish tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur. Natijada, davlat zaif tomonlarini bartaraf etish uchun zarur mablag‘larni tejaydi, ularning ko‘pchiligi kerakli bo‘lmagan (tavakalchilik guruhiga ko‘ra) tadqiq qilishga ko‘p sonli yondashuvlarni takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, zarar ko‘rib ishlaydigan subyektlarning soni va ularni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari kamayadi.



1-расм: Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлаш шакллари[1]

Yuqorida keltirilgan 1-rasmga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solishning shakllaridan tadbirkorlik subyektlarining o‘ziga xos shartlari va ehtiyojlariga qarab foydalanish mumkin. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy ta’minlash turli shakllarda tartibga solinishi mumkin. Ulardan ba’zilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tadbirkorlar o‘zlarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun banklardan yoki boshqa moliya institutlaridan kredit olishlari mumkin.
2. Tadbirkorlik subyektlari o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun xususiy investorlar, venchur fondlari yoki davlat investitsiya fondlaridan investitsiyalarni jalb qilishlari mumkin.
3. Davlat tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini rag‘batlantirish yoki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish uchun maxsus grantlar va subsidiyalar berishi mumkin.
4. Davlat tadbirkorlarga o‘z faoliyatini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari yoki muayyan soliqlardan ozod qilishi mumkin.
5. Tadbirkorlar xalqaro valyuta jamg‘armasi yoki Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardan moliyaviy yordam olishlari mumkin.

Shuningdek, tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati biznesni boshlash, o‘sishi va muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan turli xil tushunchalar, amaliyotlar va ko‘nikmalarni qamrab oladi. Ular yangi g‘oyalarni yaratish, biznes-rejalarni ishlab chiqish, resurslarni boshqarish, marketing, moliya, mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, imkoniyatlar va xavflarni tan olish kabi elementlarga asoslanadi. Tadbirkorlikning mazmuni, shuningdek, innovatsiyalar, insonlarning hayot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali jamiyat uchun qiymat yaratish g‘oyalarini o‘z ichiga oladi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlar orqali amalga oshiriladi, ular (institutsional tipologik xususiyatlari bo‘yicha) tovar-pul va iyerarxik mexanizmlarga bo‘linadi. Birinchi mexanizm (tovar-pul) tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asoslangan bozor va raqobatbardosh uchun yaratilgan sharoitlar orqali ta’sir qiladi. Ularning faoliyatiga davlat-huquqiy ta’sirining turli shakllari, usullari va vositalari qo‘llaniladi. Haqiqiy iqtisodiyotda bu mexanizmlar bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazib, bir-birini to‘ldiradi.

Biroq, bu nuqta nafaqat bu (bu haqiqat muhim ahamiyatga ega bo‘lsa da), davlat bozor mexanizmlari bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha iyerarxik mexanizmlardan ham foydalanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish mexanizmlar tovar-pul va iyerarxik usullari bo‘lishdan boshqa iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda bevosita hamda bilvosita tartibga solish tushunchasi keng tarqalgan. Shunday qilib, bir tomondan bevosita va ma’muriy usullar bilan, bir tomondan, bilvosita hamda iqtisodiy usullar o‘rtasida teng belgisi bor edi. Ayni paytda, ularning paydo bo‘lishining sabablarini o‘rganish juda muhimdir.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash har qanday davlat uchun eng muhim faoliyat turlaridan biridir. Buning ikkita asosiy sababi bor – iqtisodiyotning

1 Muallif ishlanmasi.

nodavlat sektorida yangi ish o‘rinlarini yaratish va soliq to‘lash orqali davlat budjetining daromad moddalarini to‘ldirish. Shu tufayli davlat tadbirkorlik faoliyatini faol ravishda ragbatlantiradi, birinchi navbatda budjetdan biznesning turli sohalariga grantlar va subsidiyalar ajratish orqali.

Birinchidan, tadbirkor-bu tavakkal qilishga tayyor bo‘lgan, shuningdek o‘z biznesini boshlash uchun malum bir boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lgan ijodiy, yuqori darajada rivojlangan shaxs. Muvaffaqiyatli biznes g‘oyasi va biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish holatida siz o‘zingizni sevilmaydigan ishlarga sayohatlar shaklida kundalik tartibdan xalos qilishingiz mumkin. Biroq, aksariyat odamlar uchun bu juda qiyin va qiyin qadam, chunki u raqobatchilar yoki kutilmagan xarajatlar shaklida ham, dastlab bashorat qilinmagan bozor omillari ko‘rinishida ham ko‘plab xavf-xatarlarga duch keladi.

Shunga qaramay, sinov va xatolar orqali odamlar o‘zlarining farovonligiga erishish va yangi mahsulot hamda xizmatlar ko‘rinishida jamoat farovonligini yaratish orqali mo‘ljallangan maqsadga intilishadi. Muvaffaqiyatsizliklar soni ko‘p bo‘lishi mumkin, ammo ko‘pincha tadbirkorlikda nafaqat yakuniy maqsadga erishish, balki fikrli odamlar jamoasi yordamida g‘oyani hayotga aylantirish jarayoni ham muhimdir.

XULOSA

Tadbirkorlik faoliyati yoki tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omillari orasida alohida o‘rin tutadi, chunki ular iqtisodiy resurslarni birlashtirishga qaratilgan. Shubhasiz, tadbirkorlik faoliyatining omil daromadi foyda hisoblanadi. Faqat ishlab chiqarish omili sifatida tadbirkorlik qobiliyatidan foydalangan holda va boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning maqbul holatini topgandagina foyda olish mumkin.

Tadbirkorlik qobiliyatlarini amalga oshirish biznes jarayonini tashkil etishning samarali usullaridan foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xatarlarni o‘z vaqtida minimallashtirishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha kafolat va kompensatsiyalar, tijorat banklariga esa quyidagi yo‘nalishdagi loyihalar bo‘yicha kredit ajratish uchun resurslar taqdim etadi:

- qishloq xo‘jaligi sohasida, birinchi navbatda, energiya tejamkorligi yuqori zamonaviy issiqxonalar qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, uzumchilik va bog‘dorchilikni, jumladan, intensiv bog‘larni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, jumladan, intensiv bog‘larda yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash sohasida – ushbu mahsulotlarni saqlash bo‘yicha infratuzilma va transportirovka qilish bilan bog‘liq logistika markazlarini tashkil etish;
- ko‘p qavatli uylar atrofidagi umumiy foydalanishga mo‘ljallangan joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruv kompaniyalari tomonidan obodonlashtirish va ta’mirlash belgilab berilgan.

Hozirgi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga doimo yangi innovatsiyalarni qo‘llamay, yirik korxonalar bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘ymay bozorga yangi mahsulot yoki texnologiyalarni kiritishlari mushkuldir. Bunda tadbirkorlik faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tatbiq eetish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish tadbirkorlik faoliyatining kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Shunday qilib, tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining mazmuni yangi g‘oyalarni yaratishdan tortib biznesni boshqarish va innovatsiyalarni rivojlantirishgacha bo‘lgan ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-364 sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Boltaboyev M.R va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. T: Fan. 2011-y.
4. Nevin, Seamus. “Richard Cantillon: The Father of Economics”. HistoryIreland (JSTOR) 21 (2): 20–23.
5. КантильонР. Эссе о природе торговли в общем плане // Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. – М.: Мысль, 2004. Т. 1.
6. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. Бастиа Ф. Экономические софизмы. Экономические гармонии. / Сост., вступ. ст. и коммент. М. К. Бункиной и А. М. Семенова. – М.: Дело, 2000.

O‘ZBEKISTONDA SUV ZAXIRALARIDAN FOYDALANISHNING RETROSPEKTIV TAHLILI

Axmedov Sayfullo Normatovich
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda suv va suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili amalga oshirilgan, O‘zbekiston hududlarida suvdan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy tahlil asosida omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: suv, suv zaxiralari, omillar, aholi, hudud, iqtisodiy boshqarish, suv resurslari.

Abstract: In this article, a retrospective analysis of the use of water and water resources in Uzbekistan was carried out, the factors influencing the use of water in the regions of Uzbekistan were identified based on economic analysis.

Key words: water, water resources, factors, population, territory, economic management, water resources.

Аннотация: В данной статье был проведен ретроспективный анализ использования воды и водных ресурсов в Узбекистане, на основе экономического анализа выявлены факторы, влияющие на использование воды в регионах Узбекистана.

Ключевые слова: вода, водные ресурсы, факторы, население, территория, хозяйственное управление, водные ресурсы.

1. KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va xalqaro maydondagi raqobatlashuvning keskinlashuvi sharoitida tabiiy resurslar, jumladan, suv resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati jadal o‘sib bormoqda. “Dunyo aholisi sonining tez o‘sib borishi natijasida 2030-yilga borib mavjud suv ta’minoti hamda unga bo‘lgan talab o‘rtasida hosil bo‘lgan taqchillikning 40 foizdan ortishi, 2050-yilga borib 10 milliard odamni oziqlantirish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini 50 foizga oshirish (bu bugungi kundagi mavjud resursning 70 foizining iste’mol qilinishini taqozo etadi) va suv olish hajmini 15 foizga oshirishni talab etilishi bashorat qilinmoqda” [1]. Suv rersurslari bilan yetarli darajada ta’minlash va ulardan oqilona foydalanishni boshqarish bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun jiddiy va jadal o‘sib borayotgan muammodir. Bundan tashqari, surunkali suv tanqisligi, gidrologik noaniqlik va ekstremal ob-havo hodisalari (suv toshqini va qurg‘oqchilik) global farovonlik va barqarorlik uchun eng katta tahdidlardan biri sifatida qabul qilinadi. Bu esa jahon miqyosida suv resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy boshqarish muammolarini tadqiq etish hamda samarali yechimlarni topish zaruratini vujudga keltirmoqda.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etish masalalari xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida keng o‘rganilgan. Jumladan, xorijlik mualliflardan Xiaojun Xiang [2], Zhaoyang Yang [3], Ciriacy-Wantrup S. V. [4], Briscoe S. [5], Jones W. [6], Renu S. kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarida qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanishni samarali boshqarish masalalari ko‘rib chiqilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan suv resursidan foydalanishni boshqarish hamda unga tizimli yondashish muammolari J. T. Sivoxip, V. M. Pavleychik, V. Duxovniy [7], S. Bezdnina, V. Sokolov, M. Pinxasov, N. Atalseva, A. Avakyan, G. Gulyak, V. Krasnoshekov, A. Liskinkov, I. G. Usachev, A. G. Pavsov, V. A. Semeniki, I. Yu. Goncharenko, O. Yu. Matyunina, F. R. Gazimagamedova, S. I. Demyanenko, S. F. Dombrovskiy, O. Moroz, S. M. Maestra kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda suv xo‘jaligi menejmenti va yer-suv resurslaridan foydalanishni optimal tarzda boshqarish hamda prognozlashtirish muammolari U. P. Umurzokov [9], Z. S. Abdullayev, S. Ch. Djalalov [10], A. S. Sul-

tonov [8], B. B. Berkinov, M. N. Maxmudov, I. Axmedov, T. Rizayev, A. M. Qodirov, R. X. Tashmatov, B. Xasanov, L. I. Abduraximov, Z. D. Xudoyberganov, U. M. Kutlimurodov, L. F. Amirov [11] va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston asosan qurg‘oqchil va dengizga chiqa olmaydigan davlatdir. Suv xo‘jaligining tarixiy ildizlari bor, bu ko‘p jihatdan uning agrar iqtisodiyotida, ayniqsa, paxta yetishtirishda suv muhim o‘rin tutadi. Orol dengizi halokati, ehtimol mintaqadagi suv resurslarini boshqarish bilan bog‘liq eng mashhur ekologik ofat bo‘lib, Sovet tizimidagi noto‘g‘ri boshqarish Mustaqil O‘zbekiston iqlimiga ham salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

Tarixiy jihatdan mintaqaning qadimiy sug‘orish tizimlari ikkita asosiy daryo: Amudaryo va Sirdaryo atrofida qurilgan. Bu tizimlar qadimgi Turkiston o‘lkalarini gullab-yashnagan dehqonchilik sivilizatsiyalarini qo‘llab-quvvatlagan.

Sho‘rolar davrida cho‘l hududlarida paxta yetishtirish bo‘yicha yirik suv xo‘jaligi loyihalari boshlangan. Ikki yirik daryo sug‘orish uchun burilib, Orol dengiziga quyilishni qisqarishiga olib kelgan.

2000-yillarning boshlariga kelib, Orol dengizi o‘z hajmining 80% ga yaqinini yo‘qotdi va bir necha kichik qismlarga bo‘lindi. Natijada, atrofdagi mintaqa quyidagilarga duch keldi:

- **Tuproq sho‘rlanishining oshishi:** ekinlar, ayniqsa paxta hosildorligiga ta’sir qiladi.
- **Iqlim o‘zgarishi:** qish qattiqroq va yoz issiqroq.
- **Sog‘liqni saqlash muammolari:** pestisidlar va kimyoviy moddalar bilan to‘ldirilgan chang bo‘ronlari.

Yuqoridagi holatlar, ya’ni Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng O‘zbekiston meros bo‘lib qolgan suv xo‘jaligi tizimlari va undan kelib chiqqan ekologik halokat bilan O‘zbekiston qariyb 30 yil davomida kurashib kelmoqda. Shunga muvofiq O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanish bo‘ycha yangicha mexanizmlarni ishlab chiqish asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

2000-yillarning boshlarida O‘zbekistonda suvdan foydalanishning 90% dan ortig‘i qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu talabda suvni ko‘p talab qiluvchi paxta yetishtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biroq haligacha suvdan foydalanish samaradorligi nisbatan past bo‘lib, sug‘orish suvining taxminan 50-60% ekinlarga yetib bordi. Qolganlari bug‘lanish, oqish va eskirgan sug‘orish usullari tufayli yo‘qolgan.

O‘zbekiston transchegaraviy suv oqimlariga tayanadi, suv resurslarining 50% dan ortig‘i uning chegaralaridan tashqarida joylashganligi bilan bog‘liq.

Hozirda O‘zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar suv resurslarini samarali boshqarish muhimligini ta’kidlamoqda.

Yuqoridagilarga ko‘ra ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagilar amalga oshirilmoqda:

- **Paxta yetishtirishning qisqarishi:** Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish va paxta yetishtirishga e’tiborni kamaytirishga harakat qilinmoqda.
- **Zamonaviy sug‘orish texnikalarini joriy etilishi:** Suv isrofgarchiligini kamaytirish maqsadida tomchilatib sug‘orish va purkagich bilan sug‘orish kabi texnikalar targ‘ib qilinmoqda.
- **Transchegaraviy hamkorliklar:** umumiy suv resurslarini yanada samarali boshqarish uchun qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik qilish harakatlari.

Aholi jon boshiga yillik qayta tiklanadigan suv resurslari o‘rtacha hisobda 1700 kub metr bo‘lib, bu 1700–2500 kub metr chegaradan past, bu suv ta’sirini kam ekanligini asoslab ko‘rsatadi.

Sug‘oriladigan yerlar taxminan 4,2 million gektarni tashkil etib, asosiy ekinlari paxta, sholi va bug‘doy hisoblanadi.

O‘zbekistonning tarixan intensiv sug‘orishga tayanishi va g‘o‘za yetishtirishga alohida e’tibor qaratilishi suv xo‘jaligida jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Orol dengizi halokatining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari barqaror suv resurslarini boshqarish amaliyoti zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy islohotlar, xalqaro hamkorlik va qishloq xo‘jaligiga diversifikatsiyalangan yondashuv O‘zbekistonning suv bilan ta’minlangan kelajagini ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamdir.

Hududlarda olinayotgan 2004-2021-yillardagi suv miqdorining hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar (jami iqtisodiyot sohalari bo‘yicha) 3.1-jadvalda aks etgan. O‘zbekistonda 2004-yilda jami suv iste’moli 58 457,3 million kub metrni, 2021-yilda esa 43 661,6 million kubometrni tashkil qilgan. Bu o‘tgan yillar davomida suvdan foydalanish darajasini kamayib borish tendensiyasini ko‘rsatadi. Biroq qishloq xo‘jaligining rivojlanish tendensiyalarini kuzatilganda, mahsulot yetishtirish hajmini kamayishi kuzatilmagan. Bu esa O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilayotganligini ko‘rish mumkin. Biroq, O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan viloyatlar, jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi alohida ma’lumotlar qatoriga ega. Bu yerda suv iste’moli 2004-yildagi 8164 million kub metrdan 2021-yilda 5405,5 million kub metrgacha kamaygan.

Respublika bo‘yicha umumiy suv iste’moli yillar davomida o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi. 2004-yildan 2008-yilgacha suv olish hajmi pasayish tendensiyasiga ega bo‘lsai, keyin 2010-yilgacha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. 2021-yilgacha tendensiyalar esa ob-havoning holatiga ko‘ra ko‘tarilish va pasayish tendensiyalariga ega bo‘lgan. Bu yillardagi eng kam foydalanish 2008-yilda 43 923,8 million kub metrni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkich 2005-yilda 59 476,4 million kub metrni tashkil etgan.

Har bir hudud suvdan foydalanishning o‘ziga xos tendensiyasini ko‘rsatadi, biroq ko‘pgina hududlarda 2021-yilda suvdan foydalanish 2004-yilga nisbatan pasaygan. Muhim viloyatlar qatoriga Namangan va Samarqand kiradi, bu yerda 2021-yilda suvdan foydalanish 2004-yildagiga nisbatan keskin o‘sish tendensiyalari kuzatilgan. Suv olish darajasi bo‘yicha viloyatlardagi asosiy o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi faoliyatini kengaytirish yoki qisqartirish, suvdan foydalanish texnikasi samaradorligi, iqlim omillari va mintaqaviy suv siyosatini olib borishdagi tashabbuskorliklar ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda qurg‘oqchil mamlakatda suvni samarali boshqarish juda muhim. Ba’zi hududlarda pasayish tendensiyasi suvdan foydalanish samaradorligini oshirishni ko‘rsatishi yoki suvni ko‘p talab qiladigan faoliyatning qisqarishi bilan bog‘liq. Biroq, u hal qilinishi kerak bo‘lgan suv tanqisligi muammolarini ham ko‘rsatishi mumkin.

1-jadvalda hududlarda bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdorining hajmi to‘g‘risida ma’lumotlari aks etgan. 3.2-jadvalda taqdim etilgan ma’lumotlar hududlarda bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdorining hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlariga ko‘ra 2004-yildan 2021-yilgacha mamlakat bo‘yicha o‘rtacha suv iste’moli yillar davomida biroz o‘zgaruvchan tendensiyalarga ega bo‘lgan. Eng yuqori iste’mol darajasi 2005-yilda 14,1 ming m3/ga, eng pasti esa 2021-yilda 10,6 ming m3/ga bo‘lgan. 2019-yildan keyin suv iste’molining umumiy qisqarishi kuzatildi quyidagi viloyatlarda aks etgan: Navoiy (18.1), Sirdaryo (12.2) va Toshkent (12.0) viloyatlarida. 2021-yilda eng kam iste’molga ega bo‘lgan hududlar sifatida quyidagilarni kelitrib o‘tish mumkin: Samarqand (6.4), Jizzax (7.4), Namangan (8.4).

1-jadval: Hududlarda bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdorining hajmi to‘g‘risida ma’lumot (ming m^3/ga)

T\r	Viloyatlar nomi	2005	2010	2015	2020	2021
	Respublika bo‘yicha (o‘rtacha):	**14,1**	**13,7**	**13,1**	**12,4**	**10,6**
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16,7	16,6	15,8	12,5	10,6
	Viloyatlar:					
2	Andijon	12,0	12,3	11,3	10,1	9,1
3	Buxoro	16,0	16,1	17,0	15,4	12,6
4	Jizzax	10,7	9,9	9,5	9,7	7,4
5	Qashqadaryo	13,7	12,4	11,0	11,0	8,9
6	Navoiy	22,0	22,5	18,2	20,2	18,1
7	Namangan	11,4	11,4	10,8	12,1	8,4
8	Samarqand	10,3	9,7	9,0	9,9	6,4
9	Surxondaryo	13,1	13,9	13,3	9,1	10,3
10	Sirdaryo	12,1	10,3	11,3	12,0	12,2
11	Toshkent	15,2	13,9	13,3	13,7	12,0
12	Farg‘ona	12,4	11,8	11,9	10,3	9,4
13	Xorazm	18,2	17,4	18,2	15,0	12,6

Muhim mintaqaviy tendensiyalar Qo‘raqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Samarqand viloyatlaridag kuzatilgan bo‘lib. Qo‘raqolpog‘iston Respublikasida suv iste’moli 2010-yildagi 16,6 dan 2011-yilda 9,9 ga keskin kamaygan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich qayta tiklandi. Navoiyda doimiy ravishda suv iste’moli yuqori bo‘lib, 2011-yilda 22,5 ga yetdi va bu tendensiyaga 2021-yilgacha bo‘lgan darvgacha kuzitilmoqda. Samarqandda suv iste’molining pasayish tendensiyasi kuzatildi, ayniqsa 2016-yildan keyin, 2021-yilda eng past darajaga tushgan. Ushbu holatlar barcha viloyatlarda suvdan foydalanish ko‘rsatkich-larining notekis taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur holatlar mintaqaviy xususiyatlarga xosdir. Biroq Navoiy va Samarqand

viloyatlarining georgafik jihatdan o‘zaro yaqinligini hisobga olganda, mintaqalarda suvdan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan strategik yo‘nalishlar turlicha maqsadlarni o‘zida ifodalaganidan dalolat beradi.

Bir qator hududlarda 2008-2009-yillarda va 2019-yildan keyin suv iste’moli sezilarli darajada kamaygan. 2021-yilda deyarli barcha hududlarda suv iste’moli umumiy pasayish tendensiyalari kuzatilgan.

Mamlakat bo‘yicha umumiy suv iste’moli tendensiyalar notesi bo‘lib, keyingi yillarda, ayniqsa 2021-yilda sezilarli pasayish kuzatilgan. Navoiy viloyatida doimiy ravishda yuqori iste’mol darajasida saqlanayotgan bo‘lsa, Samarqandda doimiy ravishda pasayish kuzatilgan. Bir nechta mintaqalar ma’lum vaqt oralig‘ida iste’molda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdilar, bu tashqi ta’sir etuvchi omillar, xoh atrof-muhit, xoh siyosatga bog‘liq bo‘lib, bu iqtisodiy omillarga ishora qildi. Xususan, 2021-yil deyarli barcha hududlarda iste’molning keng miqyosda qisqarishi bilan ajralib turdi, bu butun mamlakat bo‘ylab muhim voqea yoki o‘zgarish bo‘lib, 2021-yilning qish faslidagi namgarchiliklarning yuqori bo‘lishi, asosiy sabab bo‘lgan.



1-rasm: “O‘zsuvta’minot” AJ 2023-yil statistikasi

Suv resurs tejamkorligiga erishining asosiy yo‘nalishi qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. O‘zbekistonda ham bu borada yuqori ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda. 3.3-jadvalda hududlar bo‘yicha tomchilatib sug‘orish tizimining joriy etilishi dinamikasi aks etgan. Mamlakatda yillar davomida tomchilatib sug‘orishning umumiy maydoni oshib borish tendensiyalariga ega bo‘lib, 2021-yilda tomchilatib sug‘orish tizimini qo‘llash bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilib, umumiy maydon 532 665 gektarga yetgan. Biroq, bu 2022-yilda 463761 gektargacha bir oz kamdur. Hududlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2017-2018-yillarda tomchilatib sug‘oriladigan maydonlar nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa, 2019-2020-yillarda keskin o‘sishi kuzatilgan, 2021-yilda esa sezilarli o‘sish kuzatilganligi bilan ahamiyatli. Biroq, 2022-yilda tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan hududlarni tashkil etish darajasi past bo‘lgan.

Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish bo‘yicha yillar davomida turli darajada o‘sish tendensiyalari kuzatilgan. Ushbu holatlar tijorat banklari tomonidan topchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha imtiyozli kreditlar va davlat subsidiyalarining notekis taqsimlanishidadir. Eng muhim tendensiya Qashqadaryo viloyatida kuzatilgan bo‘lib, 2021-yilda tomchilatib sug‘orish uchun eng ko‘p maydonga ega bo‘lgan viloyat sifatida qayd etiladi. Xorazm viloyatida 2017-2018-yillarda nisbatan kichik maydonlarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsada, 2019-2020-yillarda eksponensial o‘sishni kuzatdi.

2021-yil barcha hududlarda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etishda muhim yil bo‘lgan va oldingi yillarga nisbatan sezilarli o‘sish kuzatilgan. 2022-yildan 2021-yilga nisbatan tomchilatib sug‘orish bo‘yicha umumiy maydonlar sezilarli darajada qisqargan bo‘lib, biroq bu ko‘rsatkichlar avvalgi yillarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan.

5. Research Institutes and Think Tanks: Look for research institutes and think tanks that focus on entrepreneurship, gender studies, or economic development. They often publish reports, articles, and working papers that provide valuable insights and analysis in these areas.
6. World Bank - Uzbekistan: The World Bank provides data and reports on various economic indicators and development topics for Uzbekistan. You can access information on employment, gender equality, and entrepreneurship through their country-specific page on Uzbekistan: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan
7. Uzbekistan State Statistics Committee: The State Statistics Committee of Uzbekistan publishes statistical data on various aspects of the economy, including employment, entrepreneurship, and gender-related indicators. Their official website is a valuable resource for accessing data and reports: http://www.stat.uz/en/
8. United Nations Development Programme (UNDP) – Uzbekistan: The UNDP Uzbekistan website may offer reports and publications related to women's empowerment, entrepreneurship, and employment. You can explore their resources section for relevant information: https://www.uz.undp.org/
9. International Labour Organization (ILO) – Uzbekistan: The ILO provides research, reports, and analysis on labor market issues, including women's employment and entrepreneurship. Their website might have specific publications related to Uzbekistan: https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/where-we-work/field-offices/tashkent/lang--en/index.htm

ZAMONAVIY SOLIQ TIZIMLARINING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI

Taniyev Ahmadjon Bahromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimlarini amal qilishni o‘rganish natijalari keltirilgan bo‘lib, unda soliq tizimini tuzilishi, ularda o‘ziga xos xususiyatlari, xususan bevosita va bilvosita soliqlarning nisbati tahlil etilgan. Shuningdek, jahon iqtisodiyotida amal qilayotgan soliq tizimlarining anglo-sakson, yevro-kontinental, Lotin Amerikasi va aralash modellarining amal qilishning asosiy xususiyatlari qarab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq tizimi, soliq siyosati, bevosita soliq, bilvosita soliq, soliq turlari.

Abstract: This article presents the results of a study of the implementation of tax systems in developed countries, which analyzes the structure of the tax system, its features, in particular, the ratio of direct and indirect taxes. The main characteristics of the implementation of the Anglo-Saxon, Eurocontinental, Latin American and mixed models of tax systems operating in the global economy are also considered.

Key words: tax, tax system, tax policy, direct tax, indirect tax, types of taxes.

Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования внедрения налоговых систем в развитых странах, в которых анализируется структура налоговой системы, ее особенности, в частности, соотношение прямых и косвенных налогов. Также рассмотрены основные характеристики реализации англосаксонской, евроконтинентальной, латиноамериканской и смешанной моделей налоговых систем, действующих в мировой экономике.

Ключевые слова: налог, налоговая система, налоговая политика, прямой налог, косвенный налог, виды налогов.

KIRISH

Hozirgi davrda soliq siyosati davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vositasi bo‘lib, barcha turdagi tadbirkorlikning faoliyatiga moliyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu moliyaviy ta’sir orqali davlat bir qator vazifalarni, ya’ni iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, narx siyosatini olib borish, aholi bandligini ta’minlash, kam taminlangan aholi qatlamini ijtimoiy himoya tizimini yaratish, tashqi va ichki iqtisodiy faoliyatda muvozanat yaratish kabi vazifalarni bajaradi. Xususan, ahamoniylar hukmronligi davrida soliqlar yillik xiroj shaklida undirilgan, Kushon podsholigi hukmronligi davrida esa soliqlarni hisoblar va ularni undirish tartibi amaliyoti ishlab chiqilgan. Somoniylar davrida esa soliqlar davlatning eng muhim ishlari sifatida e’tirof etilgan. Amir Temur va temuriylar davrida soliq va soliqqa tortish masalalari, soliq turlari masalalari ishlab chiqilgan.

Ma’lumki, soliqlar davlatning amal qilishini asosiy belgisidir. Ammo, dunyoni turli mamlakatlarida soliq tizimlari o‘zining tuzilishi, soliqqa tortish tartibi, soliqlar, yig‘imlar va majburiy to‘lovlar to‘plami, soliq yig‘ish usullari, soliq stavkalari, turli darajadagi boshqaruv organlarining fiskal vakolatlari, soliq bazasi va soliq imtiyozlari bilan farqlanadi. Bu tabiiy hol bo‘lib mamlakatlarda soliq tizimlari turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va tashqi omillar ta’siri ostida shakllangan va qayta shakllanib kelmoqda.

Soliq amaliyoti va uning nazariy asosiga dastlab ilk uyg‘onish davrida markaziy Osiyoda Islom ta’limotini kirib kelishi hamda davlatchilik siyosati orqali asos solingan keyinchalik soliq nazariyasi klassik iqtisodchilar A. Smit, D. Rikardo, A. Laffer, A. Vanger va boshqalarning asarlarida ifodalangan hamda boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlar bo‘yicha nazariy qarashlar yanada rivojlantirildi.

Bevosita va bilvosita soliqlarni qo‘llash nazariyasi va amaliyotida to‘plangan tajribani yuqori baholagan holda, shuni ta’kidlaymizki, O‘zbekistonda jahon standartlariga muvofiq bevosita va bilvosita soliqqa tortish sharoitida zamonaviy soliq tizimini isloh qilish yo‘nalishlari masalalari ochiq qolmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishda izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Maqolaning asosiy maqsadi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida zamonaviy soliq tizimlarining tarkibiy tuzilishini va ularning amal qilish xususiyatlarini o‘rganish hamda mamlakatimizda bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini isloh qilishda ta’sir ko‘rsatadigan kontseptual asoslar va qoidalarni aniqlashdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fransuz iqtisodchisi P. J. Prudon soliqlarning mavjud bo‘lishi masalasini davlat mavjud bo‘lishi masalasi bilan bog‘laydi [1]. Darhaqiqat, davlat soliq to‘lovlarisiz mavjud bo‘la olmaydi, soliqlar esa davlatning majburiy qismidir. Qayerdaki davlat bo‘lsa, o‘sha yerda soliqlar ham amal qiladi, soliqlarning tabiati davlatning taqdiri va funksiyalari bilan belgilanadi.

Mamlakatdagi infratuzilmalarni raqobatbardoshliligini sifatli innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan ta’minlashda, tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirishda soliqlarni tartibga solish mexanizmi o‘ta muhim vosita sifatida xizmat qiladi. L. Minford fikricha, soliqlar orqali tartibga solish keng ma’noda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida maydonga chiqadi [2].

Z. Axrorov fikricha, soliqlar bir tomondan davlat budjeti daromadlarini to‘ldirishni amalga oshirsa, ikkinchi tomondan jamiyat a’zolari daromadlarini qayta taqsimlanishini aks ettiradi. Shuningdek, soliq siyosati jamiyatga farovonligiga xizmat qilishi hamda budjet tushumlarini kamaytirmasligiga xizmat qilmog‘i lozim, deya ta’kidlaydi [3].

Aynan soliqlar orqali ham iqtisodiy o‘sishga, ham pasayishga ta’sir etish mumkin. Mamlakat soliq tizimi investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishi, biznes innovatsiyalarini rag‘batlantirish va uzoq muddatli barqaror ekologik siyosatni ham yaratishi uchun ham xizmat qilishi lozim [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an’anaviy usullardan foydalanildi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilarining soliq munosabatlariga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda soliq tushumlarining umumiy hajmidagi ayrim bu turdagi soliqlar va yig‘imlarning o‘ziga xos salmog‘i yoki yukiga qarab jahon soliq tizimlarining to‘rtta asosiy modellarini, ya’ni, Anglo-Sakson, Evro-kontinental, Lotin Amerikasi va aralash modellarini e’tirof etishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Jahon soliq tizimlari modellarining tasniflash belgilari

Soliq modeli turi	Modelning asosiy xususiyatlari	Model amal qilayotgan davlatlar
Anglosonkon modeli	Model asosida foydali soliqqa tortish tamoyili yotadi, ya’ni bunda jismoniy shaxslardan bevosita soliqlar ustuvor ahamiyat kasb etadi, bilvosita soliqlarning ulushi ahamiyatsiz.	Avstriya, Kanada, Yangi Zelandiya, qisman AQSh va Germaniya
Evrokontinental modeli	Model ijtimoiy sug‘urta badallari ulushining yuqoriligi, hamda bilvosita soliqlarning salmoqli ulushi bilan ajralib turadi.	Germaniya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya
Lotin amerikasi modeli	Ushbu modelda soliq tizimida bilvosita soliqlarning ustunligiga e’tibor berilib, inqirozli iqtisodiyotda soliqlarni yig‘ishga mo‘ljallangan. Ma’lumki, bilvosita soliqlar narxlar darajasiga bog‘liq bo‘lib, inflyatsiya holatida byudjet daromadlarini muvozanatlashtiradi.	Boliviya, Peru, Venesuela, Chili
Aralashgan(gibrid) model	Anglosonkon modeli, Evrokontinental Modeli, Lotin amerikasi modellarining ba’zi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib, mamlakatlar ushbu modelni daromadlar tarkibini farqlash, byudjetni ma’lum bir soliq turiga yoki soliqlar guruhiga bog‘liqligini oldini olish maqsadida tanlashadi.	Yaponiya, Koreya MDH xususan O‘zbekiston

* Muallif ishlanmasi

Shuni e'tirof etish lozimki, amaliyotda soliq tizimining u yoki bu modelini tanlashda bilvosita soliqlarni ma'murib boshqarish va nazorat qilishni soddalashtiradigan omili muhim rol o'ynadi. Yig'ish va nazorat qilish mexanizmiga ko'ra, ular bevosita soliqlarni yig'ish va nazorat qilishga nisbatan soda bo'lib, takomillashgan soliq xizmatlari apparati hamda murakkab hisob-kitoblarni talab qilmaydi. Shuning uchun ham aralash iqtisodiyotli malakatlarda bilvosita soliqlarning ulushi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bevosita soliqlarning ahamiyatini past darajada bo'lishini belgilaydi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda soliq tizimlari tarkibiy tuzilishi evolyutsiyasi va zamonaviy soliqqa tortish amaliyoti bevosita va bilvosita soliqlarning o'zaro nisbati quyidagi omillarga, ya'ni:

- mamlakat aholisining salmoqli qismini turmush darajasi;
- soliqlarni yig'ish mexanizmining takomillashtirilganligi;
- soliq to'lashdan bosh tortishni minimallashtirishga olib kelishi qobiliyati;
- soliqqa tortish va soliq to'lash madaniyati darajasi;
- turli xil madaniyatlarni sotsial muammolarni yengishda umumiy kelishuvga erishshga;
- soliq solish an'analari, kabi omillariga bog'liq;

Quyidagi 2-jadvalda bevosita va bilvosita soliqqa tortish turlarining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

2-jadval: Bevosita va bilvosita soliqqa tortishning asosiy xususiyatlari*

Ko'rsatkich	Bilvosita soliqlar	Bevosita soliqlar
Xaridorlarni to'lov qobiliyati nuqtai nazaridan soliqqa tortishning adolatliligi	Ijtimoiy jihatdan adolatsiz	ijtimoiy jihatdan adolatli
Psixologik omil	Psixologik jihatdan yengil qabul qilinadi iste'molchi uchun sezilmaydigan	Psixologik jihatdan og'ir qabul qilinadi
Soliq bazasini aniqlashda murakkablik	Nisbatan oddiy hisob-kitob qilinadi	Nisbatan murakkab hisob-kitob qiladi
Soliq to'lashdan qochish ehtimoli	Past (deyarli yo'q)	Yuqori
Fiskal ahamiyati	Byudjetning barqaror daromad manbai xisoblanadi	Byudjet daromadining nisbatan kam kam qismini tashkil etadi
Soliq tortish xususiyati	Nisbatan regressiv	Nisbatan progressiv

* Muallif ishlanmasi

Hozirgi davrda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda zamonaviy soliq tizimlarining muhim xarakterli xususiyati ularning tarkibiy tuzilishi, ya'ni bevosita va bilvosita soliqlar turlarining o'zaro nisbati bilan belgilanadi. Mazkur nisbat turli mamlakatlarda iqtisodiyot holatiga bog'liq xolda o'z ko'rinishga ega bo'ladi.

XX asrning birinchi yarmida soliqqa tortish amaliyotida bilvosita soliqlar birmuncha keng tarqalgan. Bunga sabab aksariyat aholi qatlamining daromadini pastligidir. Bu holat bilvosita soliq tushumlari hajmini obyektiv tarzda cheklaydi. Shuningdek bilvosita soliqlarni yig'ishning nisbatan soddaligi soliq to'lovchilarni, soliqqa tortish ob'ektlarini, soliqlarni yig'ishning murakkab mexanizmini talab qiladi ... Birinchi navbatda soliqqa tortishni tashkil etishda erishilgan yutuqlar, ya'ni jarayoni kompyuterlashtirish, fiskal ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bilan bevosita soliqqa tortish samaradorligini oshiradi hamda uni rivojlantirishi uchun sharoit yaratdi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar o'zlarining soliq tizimlarini tashkil etishning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatlarini belgilaydilar.

Hozirga davrda rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlar soliq tizimida bevosita va bilvosita soliq turlari nisbatini tahlil qiladigan bo'lsak ularni ko'pchiligida, xususan AQSh, Avstraliya, Kanada, Yaponiya, Shveytsariya kabi mamlakatlarda bevosita soliq turi ustunlik qiladi, Turkiyada, Slovakiyada, Meksikada, Polshada esa bilvosita soliq turi ustunlik qiladi [5]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan dunyoning 30 mamlakati uchun o'rtacha soliq tushumlarida bevosita xissasi (57%) va bilvosita soliqning hissasi (43%) tashkil etadi [6].

Shuni e'tirof etishimiz mumkinki, bevosita va bilvosita soliqlarning nisbati va soliq madaniyati darajasi o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik mavjud. Haqiqatdan ham soliq to'lovchilarning soliq madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, soliq tizimi mexanizmlarining amal qilishi hamda soliq yig'ish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo soliq to'lashdan bosh tortish, soliqlardan qochish yoki uni yashirish holatlarini kengayib borishi va boshqa salbiy holatlar bevosita soliqlarning rolini oshirishni talab etadi. Ma'lumki, hozirgi davrda rivojlangan bozor iqtisodiyotli davlatlarda daromadlar daromadlar to'g'risida deklaratsiya tizimi fuqarolar mentalitetining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat va fuqarolar o'rtasida ishbilarmonlik munosabati madaniyati yetarli darajada shakllangan.

Bu hol, fikrimizcha, soliq tizimini tashkillashtirishda albatta inobatga olinishi zarur. Rivojlangan mamlakatlarda bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi nisbatda bevosita soliq foydasiga o'zgarishiga ijtimoiy adolat tamoyilini to'laqonli amal qilishi sabab bo'ldi.Chunki soliqqa tortish darajasini belgilaydigan bevosita soliqlar daromad darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib,bevosita soliqlarga nisbatan birmuncha adolatli hisoblanadi. XX asrning 50-70-yillarida Yevropa mamlakatlari soliq tizimlariga xos bo'lgan yuqori progressiv stavkalari bilan bevosita soliqqa tortishni rivojlantirishi, soliqlarning asosiy yukini aholining boy qatlamlariga o'tkazish va ijtimoiy dasturlar, hukumat buyurtmalari va kapital qo'yilmalarini kuchaytirish uchun davlat tomonidan to'plangan moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini oshirdi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida bilvosita soliqlarni rivojlantirishning muhim sabablaridan biri tarixiy an'analar bilan birgalikda ushbu mamlakatlarda soliq tizimlarini birlashtirish siyosati hisoblanadi. Birlashish siyosati G'arbiy Evropa mamlakatlari integratsiyasi jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda ushbu siyosatning natijasi bilvosita soliqlarni undirish usullarini yaqinlashishi va alohida mamlakatlarga bevosita bevosita soliqqa tortish sohasida mustaqillikni berilishi bo'ldi.

Yevropa Ittifoqining yangi a'zo bo'lgan mamlakatlarida bilvosita soliqqa tortishning muhimligi, ularda hokimiyatning soliqlar orqali qtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining xususiyatlari bilan bog'liq. Bu hol ishlab chiqaruvchilar tomonidan keng ko'lamli soliq imtiyozlaridan foydalanishga olib kelib, daromad solig'idan byudjetga tushumlarni kamayishiga sabab bo'ladi [7].

Ikkinchi tomondan, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat muhim sotsial muammolar yechilishiga qaratilgan. Bu shaxsiy daromadlarni soliqqa tortish bo'yicha muhim imtiyozlarni qo'llanilishini asoslaydi, ularning yordamida davlat ma'lum ijtimoiy jarayonlarni tartibga soladi. Bundan tashqari, faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotga xarajatlarni ko'paytirishga sabab bo'ladiki, oqibatda soliq tushumlari tarkibida ushbu maqsadlar uchun ajratmalar ulushining oshishiga sabab bo'ladi.

Ko'pchilik G'arb mamlakatlarida bilvosita soliqlarning muhimligi, ularning fiskal samaradorligining yuqoriligi hamda mazkur soliq turlarida mahalliy byudjetni muvozanatlash bilan bog'liq muvozanatlashni ta'minlash ehtimolining yuqori yoki pasligi esa ko'proq iste'molning hudud sharoitida bir xilligi bilan bog'liq. Bu hol fikrimizcha, bilvosita soliqlarni mahalliy byudjetga bir xil tushumini ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda bevosita soliqlarning tarkibi ma'lum qonuniyatlar bilan tavsiflanadi, ya'ni ular korporatsiyalarning daromad solig'i va milliy daromad tarkibidagi jismoniy shaxslarning daromad solig'i o'rtasidagi nisbatga bog'liq. Misol uchun AQSHda korporativ soliqqa tortish darajasi qariyb 39% ni tashkil etadi. Yaponiyada esa u 40% ni tashkil etadi [5].

Fiskal va rag'batlantiruvchi vazifalar kombinatsiyasining eng maqbuli foyda solig'i bo'lib, u foydaning uchdan bir qismidan oshmaydi. Daromad solig'ini bunday talqin qilish soliq islohotlari jarayonida uning chegaraviy stavkalarini bosqichma-bosqich pasayishiga, shuningdek, soliq imtiyozlarining keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda milliy daromadda individual daromadlar ustunlik qiladi. Bunday sharoitda progressiv soliqqa tortish uslubi qo'llaniladi. Bu esa daromadlar o'sishi bilan jismoniy shaxslardan yirik miqdorda pul to'plash imkonini beradi.

Hozirgi davrda bevosita soliqlar rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda soliq tizimining asosini tashkil etadi, chunki ular bilvosita soliqlarga nisbatan sezarli ustunliklarga ega.

Jahon amaliyotida bilvosita soliqlar odatda daromadga soliqlar deb nomlanib, uchta asosiy turini, ya'ni rivojlangan mamlakatlar amaliyotida 1950-yildan qo'llanilgan oborot solig'i, sotishdan olinadigan soliq va qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i,oborot solig'i va sotishdan olingan soliq turlarini almashtirib,bilvosita soliq bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari byudjetining yarmi bilvosita soliqlar hisobiga shakllanadi. Iste'molga soliqlarning barcha afzalliklarini saqlab qolgan holda QQS ularning asosiy kamchiliklaridan holi qiladi.QQS o'zining ko'pmarotabalik undirilishi bilan,ya'ni yakuniy mahsulotni yaratilishining har bir bosqichida qo'yilgan real hissasiga bog'liq. Bu bilan davlat ijtimoiy takror ishlab chiqarishning har bir bosqichida o'zining ta'sir o'tkazish qobiliyatini saqlab qoladi.

Rivojlangan mamlakatlarda bilvosita soliqlarning tarkibi uning tabiatiga xos ulushini pasayib borishi va universal aktsiz solig'i ulushini ortib borishi bilan tavsiflanadi.Ushbu tendentsiya Yevropa iqtisodiyoting universal

aktsiz solig‘idan QQS shaklida foydalanishni kengaytirishga qaratilgan siyosati hamda soliqning ob’ektiv afzalliklari bilan bog‘liq yuqori fiskal samaradorligi va narx va iste’molchilar daromadi bo‘yicha aktsiz solig‘i to‘lanadigan tovarlar iste’moli elastikligi hamda bozor mexanimlariga betarafligi bilan asoslanadi.

Bilvosita soliqlardan asossiz foydalanish orqali soliq tizimiga vujudga keladigan kamchiliklarni abstraktlashtirish mumkin emas. Ularning asosiysi shundan iboratki, bunda soliqlar soliq to‘lovchining daromadlariga bevosita bog‘liqligi bo‘lmaydi hamda u regressiv soliq sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Bilvosita soliqlarning ijtimoiy adolatsizligi ma’lum darajada soliqqa tortiladigan obyektlardan davlat tomonidan birinchi hayotiy zarur tovarlarni olib tashlash orqali bartaraf etish mumkin. Ammo ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu ziddiyatlar iste’mol tovarlariga soliq solishning tezligi, barqarorligi, bir xilligi bilan ta’minlanadi. Shuning uchun ham davlat jamiyatning barcha a’zolari manfaatlarini to‘liq hisobga olishi va soliq yukini taqsimotida adolatli yo‘lni tanlashi kerak.

Zamonaviy sharoitda, bilvosita soliqlarning narxlarni oshirish kabi salbiy ta’siridan tashqari, inflyatsion jarayonlarni rivojlantirish manbai hisoblanadi. Bilvosita soliqlarni yana bir kamchiligi ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun ulardan foydalanish imkoniyatlarini cheklanganligidir.Iste’mol tarkibini tartibga solish uchun rag‘batlantirishning ba’zi imkoniyatlari bilvosita soliqlarga kiritilgan.Ammo ularni amalga oshirish soliq obyektlarini aniqlash va yig‘ish mexanizmini ishlab chiqish bilan bog‘liq Reel amaliyotda iste’molni bilvosita soliqlar orqali tarkibga solish har doim ham faqat ijobiy natijalarga olib kelmasligini ko‘rishimiz mumkin.

Bevosita soliqlarning tarkibi yuridik shaxslarning daromad solig‘i va shaxsiy daromad solig‘i bo‘yicha teng daromadlar bilan tavsiflanadi. Bilvosita soliqlar orasida QQS katta fiskal ahamiyatga ega bo‘lib, uning ulushi o‘sib bormoqda (uning O‘zbekiston davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi ulushi o‘quv davri davomida o‘rtacha 38 foizga yaqin, tarkibidagi ulush esa besh yil davomida o‘rtacha soliq tushumlari 55% ni tashkil etadi); aksiz solig‘i va bojlari fiskalga qaraganda ko‘proq tartibga solinadi.

O‘zbekistonning soliq tizimining tuzilishi yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlarining past darajasi, soliq madaniyatining past darajasi, soliq qonunchiligi va soliq xizmatlari faoliyati sharoitida buni amalga oshirishning iloji yo‘qligini tasdiqlaydi. soliq tizimi tarkibida Bevosita soliqlarning ustunligini ta’minlash [8-9]. O‘zbekistonda ushbu qonuniyatni mustahkamlovchi omil - bu korxonalarning real daromadlarining pasayishi, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida zararli korxonalar sonining o‘sishi. Bunday sharoitda Bevosita soliqlarning qiyosiy darajada muhim rolini saqlab qolish faqat iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishni buzadigan yuridik va jismoniy shaxslarning haddan tashqari soliqqa tortilishi bilan ta’minlanishi mumkin.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortishni qo‘llash bo‘yicha jahon tajribasi, mamlakatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, soliq tizimi o‘tgan tarixiy rivojlanish bosqichlarini chuqur o‘rganmasdan turib, ularga qarshi turish mumkin emas degan xulosaga olib keladi. uning tarkibida soliq nazorati va aholining aksariyat qismi soliq ongi kabi ob’ektiv ravishda ushbu soliqlarga xos bo‘lgan funktsional xususiyatlar mavjud.

Hatto A. Smit va D. Rikardo ham soliq tizimini shakllantirishda Bevosita va bilvosita soliqlar kombinatsiyasining maqsadga muvofiqligi va zarurligi to‘g‘risida fikr bildirdilar.

Bevosita va bilvosita soliqlar o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartirish soliq siyosati samaradorligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu nisbatni optimallashtirish orqali soliq tizimiga duch keladigan maqsadli munosabatlarning chuqur ziddiyatlarini yumshatish mumkin. Bunday nisbatni manevr qilish soliq tizimining funktsional maqsadini bajarish darajasini belgilashi mumkin [10].

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotini xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning davlat siyosatida soliqlarning o‘rni ichki amaliyotga qaraganda birmuncha kengroq bo‘lib, ular asosan fiskal vosita sifatida ishlatiladi. Soliqlar bo‘yicha fiskal funktsiya bilan bir qatorda iqtisodiy subfunksiya barqaror va keng qo‘llaniladi, bu iqtisodiy o‘sish, pul barqarorligi, to‘liq ish bilan ta’minlash va inflyatsiyani nazorat qilish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy yoki taqsimlovchi subfunktsiyaga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlar iqtisodiy muvozanati buzilgan davrda soliq imtiyozlari va qo‘llab-quvvatlashni qo‘llashni afzal ko‘rishadi, ya’ni asosiy e’tibor soliqlarni tartibga solish funktsiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Ichki soliq tizimining samaradorligini oshirish sharoitida ta’kidlash joizki, soliqqa tortish jarayonlari bandlik siyosatini amalga oshirishga katta hissa qo‘shishi, daromadlarni tenglikni ta’minlash yo‘nalishida taqsimlanishiga ta’sir qilishi va shuningdek, ulardan foydalanishda to‘siq yaratishi kerak. Soliqqa tortishning umumiy global tendentsiyalari global iqtisodiy jamiyatga qo‘shilishni istagan mamlakatlarning soliq tizimlarini samarali va tezkor moslashuvi uchun etalon bo‘lishi kerak.

Natijada, O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi jahon iqtisodiyotiga integratsiyani nazarda tutadi va shuning uchun O‘zbekistonning soliq tizimini takomillashtirish Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida soliqqa tortish shartlariga yaqinlashish yo‘nalishida bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Смородина Е.А. Развитие научных концепция о сущности и функциях налогов. //Управленец. – 2014 № 3 (49). p. 4-11.
2. Minford L. Tax, regulation and economic growth: a case study of the UK. – Cardiff Economics Working Papers, 2015. – №. E2015/16.
3. Ahrorov Z. The Impact of Taxation on Economic Growth: A Socio-Economic Perspective. //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. №5. 2022. – p. 342.
4. Vermeend, W., Van Der Ploeg, R., & Timmer, J. W. Taxes and the Economy. Books. Edward Elgar Publishing, 2008.
5. Bezkorovainaya V.V. Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyaviy tartibga solish tizimidagi soliqlar // O'zbekiston moliya. 2004. № 12. S. 40-45.
6. Lunina I.O., Frolova N.B. O'zbekistonda iste'molga soliq solishning samaradorligi // O'zbekiston moliya. 2009. № 1. S. 17-27.
7. Tait A.A. VAT Policy Issues: Structure, Regressivity, Inflation, and Exports. In Value-Added Tax. International Monetary Fund, 1991.
8. Прокопчук О.Т., Улянич Ю.В., Бечко В.П. Особенности косвенного налогообложения в Украине: становление и перспективы развития. Збірник наукових праць Уманського національного університету садівництва. 2014;84: – с. 249-256.
9. Прокопчук О.Т., Улянич Ю.В., Улянич К.Ф. Зарубіжний досвід страхування аграрних ризиків та доцільність його застосування в Україні. Збірник наукових праць Уманського національного університету садівництва. 2013(83). – с. 227-34.
10. Соколовская Е.В., Соколовский Д.Б. Совершенствование института налогообложения доходов от капиталов с учетом концепции нейтральности. Journal of institutional studies (Журнал институциональных исследований). 2013;5(1). – с. 42-54.
11. Сутормина В.М., Федосов В.М., Андрущенко В.Л. Государство-налоги-бизнес: (Из мирового опыта фискальной регуляции рыночной экономики). – М.: 1992.
12. Тулуш Л, Малініна Н. Особливості формування системи прямого оподаткування аграрного сектору в розвинутих країнах. 2012 yil. - с. 124-134.
13. Тулуш Л.Д., Прокопчук Е.Т. Направления реформирования системы налогового регулирования агропромышленного производства на Украине. Финансы и кредит. 2016(14 (686)):58-68.

MAMLAKATIMIZDA TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Masharipov Maxmud Bekturdiyevich
Mikrokreditbank ATB Amaliyot Boshqarmasi Bosh buxgalteri

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy masalalari yoritilgan bo‘lib, qonuniy jihatlari asoslab berilgan. Statistik tahlillar asosida banklarning ulushihamda daromadlari tahlili o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, mijoz, huquqiy qoidalar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: In this article, the author describes the legal issues of the organization of commercial banks, and explains the legal aspects. On the basis of statistical analysis, the analysis of banks' profits in shares was studied.

Key words: Commercial banks, customer, legal regulations, financial stability.

Аннотация: В данной статье автор описывает правовые вопросы организации коммерческих банков, а также поясняет правовые аспекты. На основе статистического анализа изучен анализ прибыли банков в акциях.

Ключевые слова: Коммерческие банки, клиент, правовое регулирование, финансовая стабильность.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur’atlarda o‘sishini va raqobatbardoshligini ta’minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta’minlash zaruriyatini yuzagakeltiradi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston banklar faoliyatini tizimi tashkil etish hamda ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash qolaversa, tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta’siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda qabul qilingan “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu masalalarni yechishga qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. Farmonga muvofiq banklar faoliyatini tashkil etishda qonuniy yo‘lga qo‘yish, banklar tomonidan ko‘rsati-layotgan moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 40 ga yaqin ta tijorat banklarining bajarayotgan operatsiyalari va ko‘rsatayotgan xizmat turlari hamda ajratayotgan kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kaasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar banklar faoliyati to‘g‘risidagi fikrlarini quyidagicha izohlamoqda.

AQShning Kolumbiya universiteti professori F.Mishkinning xulosasiga ko‘ra, “tijorat banklarining barqarorligini ta’minlashda moliyaviy innovatsiyalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Foiz stavkalarining sezilarli darajada tebranishi yangi moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga bevosita va kuchli ta’sir qiluvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi”[1], – deydi.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan “tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy e’tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta’minlash lozim”[2], deb hisoblaydi.

1 Мишикн Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых циклов. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс”, 2013. – С.295.

2 Edwin G Dolan. Journal of Comparative Economics, Volume 2, Issue 4, December 1978, Pages 407-408. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0147596778900185.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, “tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog‘i kamida 70 foiz bo‘lishi kerak”[3], – degan fikrni ilgari surmoqda.

Mahalliy iqtisodchilardan A. Abdullayev “tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash mexanizmini tizimli usullardan foydalangan holda bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash zarur”[4], deb ta’rif bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy, iqtisodiy hamda statistic tahlillar amalga oshirilgan bo‘lib, analiz-sintez metodlaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek bank - bu tijorat muassasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lov, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida bankka quyidagicha ta’rif berilgan:

“Bank – tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridikshaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish;
- qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish;
- investitsiyalash uchun foydalanish;
- to‘lovlarni amalga oshirish.

Demak, bank – bu pul mablag‘larini o‘zida mujassamlashtiruvchi va jamg‘aruvchi, kredit beruvchi, pul hisobini olib boruvchi, pul va qimmatli qog‘ozlarni emissiya qiluvchi, oltin va chet el valyutalari bilan operatsiyalarni bajaruvchi yirik muassasadir.

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo‘lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo‘lg‘usi ta’sischilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar o‘rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o‘tkaziladi va hokazolar. Bozor munosabatlarini qaror topishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan bank tizimi va ular faoliyatini boshqarishning qonuniy asoslarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Bank va bank faoliyatiga oid huquqiy islohotlar respublikamizda bozor iqtisodiyoti jarayonlariga moslashayotgan hozirgi rivojlanish davri bilan uzviy bog‘liq holda vujudga kelmoqda. Huquqiy ta’minot bank menejmentining muhim elementi hisoblanib, banklar faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Har qanday munlsabatlar singari banklar va ularning boshqa sub’ektlar bilan bo‘ladigan munosabatlari albatta huquqiy asosga ega bo‘lishi lozim. Chunki bank va mijozlar o‘rtasida yuzaga keladigan turli holatlar ma’lum bir me’yorlar asosida muvofiqlashtirilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida huquqiy asosni shakllantirishni talab qiladi. Tijorat banklarini ruyxatga olish va litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasining Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda ifodalangan. Shuqonunning 2-bobi “Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatishtartibi” deb nomlanib o‘z ichiga 13 modda (7-19 moddalar)ni oladi .Tijorat banklari tashkil etilishining huquqiy asoslari bir nechta asosiy huquqiy normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik Kodeksi”, 1996.
- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun, 1995;
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati tug‘risida”gi Qonun, 1996;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida”gi № 22-sonli nizom, 1998.
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Bank ustav kapitali miqdorini, aksiyadorlar tarkibini, bank nomi va manzilini o‘zgartirish, ustavga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” gi 426-sonli nizom, 1998;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el banklari vakolatxonalarini ochish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va akkreditatsiyalash tartibi to‘g‘risida” gi 241-sonli nizom, 1996
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Tijorat banklariga 47 chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi”dagi 31-sonli nizom, 1998.

3 Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994.

4 Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil

- “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, O'RQ-370-сон 06.05.2014.

Bu kabi hujjatlar orqali tijorat banklarining faoliyat asoslarini o‘rganish mumkin. Huquqiy asoslarini yoritishda esa ularni 4 ta bo‘limga bo‘lib o‘rganamiz. Ular quyidagilar:

- Kodeks va qonunlar. Biz yuqorida keltirib o‘tgan qonunlar 1-blokka kiritiladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiritiladi.
- Qonun osti hujjatlarni ishlab chiquvchi davlat organlari – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi va boshqa shu kabi organlar tomonidan ishlab chiqiladigan yo‘riqnoma, nizom va tartiblar kiradi.
- Tijorat banklari tomonidan mustaqil ishlab chiqiladigan ichki tartib va siyosatlari kiradi.

Banklar ichki tartib va siyosatini amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqadi va o‘z faoliyatida ulardan foydalanadi. Bank va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish, ularni ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan bo‘lib, ushbu muammolarni rivojlangan mamlakatlarning bank qonunchiligi bilan solishtirish asosida ularni tajribasini o‘rgangan holda xulosa va tavsiyalar berish, respublikamiz bank qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro‘yxatga olish va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish tartibini Markaziy bank belgilaydi. Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari bo`lib, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” , “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunlari hisoblanadi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 2-bobi “Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatish tartibi” deb nomlanib o‘z ichiga 13 modda (7-19 moddalar)ni oladi. Banklar respublika hududida o‘z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar. Banklarga litsenziya berish O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”, “Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda bankka oid me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi. Tijorat banklarini tashkil qilish “Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida”gi 703-sonli Nizom asosida olib boriladi. Ushbu nizomda O‘zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi hamda shartlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, tijorat banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari va aksiyadorlari bo‘lishi mumkin. Banklarning qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan banklar ustav kapitalida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi, xorijiy kapital ishtirokidagi banklar va sho‘‘ba banklarni tashkil etish hollari bundan mustasno. Bir yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud bitim orqali o‘zaro bog‘langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi bir guruh yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida bank aksiyalarining besh foizidan ortig‘i sotib olinsa, bu haqda Markaziy bankka xabar berilishi, yigirma foizidan ortig‘i sotib olinsa, Markaziy bankdan oldindan rozilik olinishi lozim.

Agar shaxs yuridik shaxsni boshqarish yoki uning siyosatiga katta ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lsa, u bunday yuridik shaxs mulkini nazorat qiluvchi hisoblanadi. Bunda shaxs quyidagi hollarda katta ta’sir o‘tkazuvchi hisoblanadi: Mazkur yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi bo‘lsa; aksiyadorlar, rahbariyat yoki ishtirokchilar bilan rasmiy ravishda bitim tuzib yoxud boshqa tarzda huquqiy shaxs faoliyatiga rahbarlik qilish yoki uni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lsa. Yuridik shaxsning yirik aksiyadori yoki ishtirokchisi deganda o‘zaro bitim bilan bog‘langan va ushbu yuridik shaxs ustav kapitali yoki ovoz beruvchi aksiyalarining 10 va undan ortiq foiziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositali tarzda egalik qiluvchi bir yoki bir necha shaxslar tushuniladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri egalik qilish deganda aksiyador (ishtirokchi) tomonidan ovoz beruvchi aksiyalarga bevosita egalik qilish tushuniladi. Vositali tarzda egalik qilish deganda yuridik shaxs ovoz beruvchi aksiyalariga sho‘ba korxonalar va jamiyatlar orqali egalik qilish tushuniladi.

Shuningdek, ikki va undan ortiq shaxslar rasmiy bitim asosida harakat qilsa yoki bank aksiyalariga jamoa bo‘lib to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoxud bilvosita egalik qilish maqsadida ongli ravishda parallel birgalikdagi faoliyatni olib borish hollari mavjud bo‘lsa ular bank aksiyalariga egalik qilish maqsadida bitim bilan o‘zaro bog‘langan shaxslar hisoblanadi. Agar bir shaxs va boshqa yuridik shaxs bank aksiyalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita egalik qilsalar, hamda mazkur shaxs ushbu yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi yoki bunday shaxsning boshqaruvi, kuzatuv kengashi a’zosi yoxud vakili bo‘lsa, mazkur shaxs yuridik shaxs bilan kelishuv asosida faoliyat yurituvchi hisoblanadi. Quyidagi ikki yoki undan ortiq shaxslar bir-biri bilan kelishuv asosida faoliyat yurituvchilar hisoblanadi: agarda ular ushbu barcha shaxslarning yirik ishtirokchisi, a’zosi (sherigi) yoki yuridik vakili hisoblangan hech bo‘lmaganda bir shaxs bilan bog‘liq bo‘lsa; agar ular bank aksiyalari egasi hamda ayni vaqtda o‘sha yuridik shaxsning boshqaruvi, kuzatuv kengashi a’zosi, yirik ishtirokchisi (sherigi) yoki yuridik vakili bo‘lsa (mazkur bankdan tashqari) yoxud ushbu shaxslar yaqin qarindosh bo‘lsa. Shaxsning yaqin qarindoshlari turmush o‘rtog‘i (eri yoki xotini), ota-onasi, farzandlari (jumladan, o‘gay), aka-ukalari va opa-singillari hisoblanadi.

Mazkur hujjatlar bu shaxslar tomonidan bunday miqdordagi aksiyalar jamoaviy tarzda sotib olingunga qadar taqdim etilishi lozim. Bunday mulk bu shaxslar tomonidan bir-biriga bog‘liq bo‘lmay va bir-birini xabardor qilmay sotib olinishi hollari bundan mustasno. Bank muassislari u ro‘yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida bank aksiyadorlari tarkibidan chiqishga haqli emaslar. Bank muassislari benuqson ishbilarmonlik va shaxsiy obro‘-e’tiborga ega bo‘lishlari lozim.

Endi mamlakatimizda mavjud banklar faoliyatining statistik tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarkibiy tuzilishi ko‘ra quyidagi diagrammada keltirib o‘tilgan.



1-diagramma: O‘zbekistonda banklar sektorlarining umumiy nisbatdagi ulushi

Manba: Jadval statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Banklar faoliyatini tahliliga ko‘ra, 2022-yil yakunlari bo‘yicha bank tizimi sof foydasi 10 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 2,6 barobarga yoki 6,1 trln so‘mga o‘sgan. Bunda, o‘sish darajasiga sof foizli (7,6 trln so‘m) va foizsiz daromadlar (9,1 trln so‘m) ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, operatsion xarajatlar (3,9 trln so‘m), soliq to‘lovlari (1,1 trln so‘m) va ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar (5,5 trln so‘m) salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

1-rasm: Banklarning 2021-2022-yillar mobaynidagi daromadlari tahlili

Ko‘rinib turibdiki, Foizli daromadlar 48,6 trln so‘mni tashkil etib, uning tarkibida boshqa banklarga joylashtirilgan mablag‘lardan olingan daromadlar 2,1 trln so‘mga (2,6 barobarga), qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlar 1,6 trln so‘mga (2,2 barobar), kreditlar va mijozlar majburiyatlaridan olingan daromadlar esa 10 trln so‘mga (31,5 foizga) oshgan.

Bundan tashqari, kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha olingan foizli daromadlarning umumiy foizli daromadlardagi ulushi 2019-2022-yillarda kamayish tendenditsiyasiga ega bo‘lib, 96 foizdan 87 foizga tushgan. Bu jarayon, banklar aktivlari tarkibida sezilarli diversifikatsiya, xususan banklarga joylashtirilgan mablag‘lar ulushining 7 foiz bandga oshib, 16 foizga yetganligi, qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar ulushining 4 foiz bandga o‘sib, 5 foizni tashkil etganligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ma’lumotlardan shunday xulosaga kelinadiki, har qanday mamlakatda banklar faoliyatini to‘g‘ri, tizimli tashkil qilish hamda ularning qonuniy hamda moliyaviy barqarorligini ta’minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Maqolada ham aynan banklar faoliyayini tashkil qilishning huquqiy masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning faoliyatini kafolatlovchi Qonunlar, farmonlar , qonunosti hujjatlar, qarorlar va nizomlarga alohida urg‘u berilgan. Bundan tashqari ularning qo‘llash mexanizmlarga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мишикн Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых циклов. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс”, 2013. – С.295.
2. Edwin G Dolan. Journal of Comparative Economics, Volume 2, Issue 4, December 1978, Pages 407-408.
3. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0147596778900185.
4. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994.
5. Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019-yil.
6. https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-un-v4.html?page=4.
7. https://images.app.goo.gl/u4jVicNyFuh6U7KD6.
8. https://uzreport.news/finance/o-zbekiston-bank-tizimi-sof-foydasi-10-trln-so-mni-tashkil-etdi.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING SAMARALI RIVOJLANISHIDA HAYOT SUG‘URTASINING O‘RNI

O. Jono‘zoqov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Qurilish iqtisodiyoti va menejment kafedasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiyo rivojlanishida hayot sug‘urtasining o‘rni ko‘rib chiqilgan, mamlakatda hayot sug‘urtasini amalga oshirish tartibi va uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilingan hamda hayot sug‘urtasini ahamiyati rivojlanish istiqdollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, hayot sug‘urtasi, sug‘urta tashkilotlari, uzoq muddatli sug‘urta, sug‘urta bozori.

Abstract: This article examines the role of life insurance in the socio-economic development of the country, analyzes the procedure for introducing life insurance in the country and the factors hindering its development, and also emphasizes the importance of life insurance and the potential for its development.

Key words: insurance, life insurance, insurance organizations, long-term insurance, insurance market.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль страхования жизни в социально-экономическом развитии страны, анализируется порядок внедрения страхования жизни в стране и факторы, сдерживающие его развитие, а также подчеркивается значение страхования жизни и потенциал его развития.

Ключевые слова: страхование, страхование жизни, страховые организации, долгосрочное страхование, страховой рынок.

KIRISH

Hozirgi vaqtda mahalliy sug‘urta bozori tez va barqaror o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda, uning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanmoqda, sug‘urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi barqarorlashdi, bu esa yaqin istiqbolda sug‘urta kompaniyalarining ham mahalliy sug‘urta bozoridagi ham xalqaro sug‘urta bozorlaridagi rolini sezilarli darajada oshishidan dalolat beradi. Hayot sug‘urta bozori sug‘urta bozorining tashkil qiluvchi qismi sifatida fuqarolar farovonligini ta’minlash, mamlakat investitsiya salohiyatini shakllantirish va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim moliya instituti bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida Yangi O‘zbekistonni rivojlanishida sug‘urta tizimi alohida o‘rni borligiga ahamiyat berilgan: “...sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish” maqsad sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki aholini ijtimoiy himoya qilishda yangi sug‘urta turlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Hozirgi zamonaviy dunyoda hayot sug‘urtasi – mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning eng muhim va ahamiyatli elementlaridan biridir. Hayot sug‘urtasi fuqarolar hayotiga xizmat qiluvchi, davlatga ijtimoiy muammolarni hal etishda ko‘maklashuvchi, ichki investitsiya resurslari yetishmasligi muammolarini hal etishda ishtirok etuvchi eng muhim institutdir. Hayot sug‘urtasi orqali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini amalga oshirish (qondirish) mumkin.

Hayotni jamg‘armali sug‘urtalash ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida alohida fuqarolar uchun jamg‘arish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu bizga quyidagilarga imkon beradi: sug‘urtaning aholining shaxsiy jamg‘armalarini tashkil etish shakli sifatidagi maxsus ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi haqida gapirish; keksa yoshdagi fuqarolar, nogironlar va sog‘lom fuqarolarga iqtisodiy yordam ko‘rsatish yukini asosan sug‘urtalovchilar zimmasiga yuklash. Nafaqa sug‘urtasi fuqarolarga davlat nafaqasi to‘lovlariga bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimcha

daromad olish imkonini beradi, nafaqat keksalik bo‘yicha nafaqa, balki nogironlik nafaqasini ham; fuqarolarning ijtimoiy ta’minoti uchun davlat xarajatlarini kamaytirish orqali budjetning xarajatlar qismidagi yuklamani kamaytiradi, va davlat aholining eng kam ta’minlangan qatlamini himoya qilishga e’tiborini qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, u aholining sug‘urta himoyasini tashkil etish shakllaridan biri bo‘lib, mamlakatda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mehnat qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, turmush darajasining pasayishiga va qo‘shimcha xarajatlarga olib keladigan turli xil hodisalar ro‘y berishida ta’minlashning yaxlit, eng mukammal tizimini tashkil etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, hayot sug‘urtasi kompaniyalarining o‘ziga xos mexanizmi, ya’ni zahiralarni uzoq muddatli investitsiyalash tufayli hayotni sug‘urtalash iqtisodiyotning katalizatori, ichki milliy investitsiyalarning asosiy manbalaridan biridir. Shu sababli, hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar asosiy institutsional investorlar qatoriga kiradi. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati sug‘urtalovchilarning jamg‘arilgan mablag‘lari harakatini (aylanmasini) faollashtiradi va inflyatsiya jarayonlari dinamikasini pasaytirgan holda, iqtisodiyotga barqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu ikki hodisa o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga multiplikativ samara beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot sug‘urtasining mohiyati va mazmunini o‘rganish muammosiga ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar e’tibor qaraganlar, ular orasida N. B. Grishenko, V. S. Goxman, A. P. Arxipov, A. S. Adonina, N. G. Adamchuk, E. K. Turbina, A. Lelchuk va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, N. B. Grishchenko, A. P. Arxipov va A. S. Adoninlar tomonidan hayot sug‘urtasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “hayot sug‘urtasi deganda, odatda, sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalanuvchining yoki sug‘urtalangan shaxsning vafot etgani yoki uning ma’lum bir muddatgacha yashaganligi holatida sug‘urta mukofotlarini to‘lash evaziga sug‘urtalanuvchiga yoki u tomonidan ko‘rsatilgan uchinchi shaxslarga (naf oluvchilar) ma’lum miqdordagi pulni (sug‘urta summasini) to‘lash kafolatini taqdim etilishi tushuniladi. Bunda, sug‘urtalanadigan xavf deganda, muayyan shaxsning (sug‘urtalanuvchining yoki sug‘urtalangan shaxsning) umr ko‘rish davomiyligining o‘rtacha qiymatidan tasodifiy og‘ishi (chetlanishi) tushuniladi. Xavf bo‘lib o‘limning o‘zi emas, balki uning sodir bo‘lish vaqti hisoblanadi”.

Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda mehnat qobiliyatining yo‘qotilishi va buning oqibatida qo‘shimcha ta’minotga zaruriyatning paydo bo‘lishi ham hayotni sug‘urtalashga qabul qilinadigan xavflardan biridir. Shu munosabat bilan hayotni sug‘urtalashni tariflashda ba’zi olimlar nafaqat insonning umr ko‘rish davomiyligiga va o‘lim xavfiga va qolgan umriga, balki jismoniy qobiliyat darajasiga, shu jumladan mehnatga layoqatligiga, shu jumladan mehnat qobiliyatining yo‘qotilishiga ham asoslanadilar.

Masalan, S. V. Yermasov va N. B. Yermasova hayot sug‘urtasining mohiyatini uning foydaliligi va fuqarolarning manfaatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadilar: “Hayot sug‘urtasining xususiyatlari sug‘urtalangan voqealar deb ataladigan salbiy va qulay oqibatlarga olib keladigan tasodifiy hodisalar yuz berganda odamlar uchun maqbul daromad, hayot darajasi va sifatini ta’minlashdan iborat. Shu munosabat bilan hayot sug‘urtasi - bu sug‘urta turi bo‘lib, u orqali fuqarolarning shaxsiy va oilaviy daromadlari yoki ular tomonidan erishilgan farovonligini mustahkamlash uchun sug‘urtaviy himoyasi ta’minlanadi. Agar bu maqsadni fuqarolar manfaatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilsa, u turmush darajasini pasaytiradigan kutilmagan, xavfli, tasodifiy hodisalardan turli daromad manbalari bilan bog‘liq mulkiy manfaatlarni himoya qilishni ifodalaydi”.

ASOSIY QISM

Mamlakatda sug‘urtaning rivojlanish darajasi va aholining sug‘urta muassasalariga bo‘lgan ishonchi darajasi hayotni sug‘urtalash bozorini rivojlantirishning eng muhim omillari hisoblanadi. Bozorda sug‘urta xizmatlarini tashkil etish va ko‘rsatishning yuqori sifatli jarayonini ta’minlashga qodir bo‘lgan aktuar va boshqa tashkilotlar hamda mutaxassislarning mavjudligi jarayonning uzluksizligini ta’minlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakat moliya bozorining rivojlanish darajasi sug‘urta bozori, va ayniqsa, hayot sug‘urtasi bozorining rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Sug‘urta kompaniyasining boshqaruv ta’siri yo‘naltirilgan tashqi muhitning muhim tarkibiy qismi bu moliya bozoridagi raqobat bo‘lib, u aholi o‘rtasida hayotni sug‘urtalashga bozor talabining holatiga bevosita ta’sir qiladi. Hayot sug‘urtasi bo‘yicha kompaniyalar sug‘urta bozori uchun kurashda nafaqat boshqa sug‘urtachilar, balki moliya va bank institutlari tomonidan ham qattiq raqobatni boshdan kechirmoqda.

Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan bozor talabi tashqi muhitning asosiy elementlaridan biridir: unga sug‘urtalovchining bozor tijorat faoliyatining asosiy harakatlari qaratilgan. Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan bozor talabi iqtisodiy va gumanitar jihatlarga ega. Shveysariyaning Swiss Re qayta sug‘urta kompaniyasining tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘urtaga bo‘lgan talabga ta’sir qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

Umumiy	omillar:
• iqtisodiy rivojlanish; • aholi farovnligi va daromadlarni taqsimlash usullari; • din va madaniyat; • ta'lim darajasi; • mulkiy huquqlarga rioya qilish va qonuniylikka ishonch;	• taklif qilingan mahsulotlar; • savdo kanallari; • xavf haqida anglash va xabardorlik; • sug'urta qonun hujjatlari; • sug'urtaga ishonch.
Hayotni sug'urtalashga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi omillar:	**Umumiy sug'urta turlariga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi omillar:**
• iqtisodiy barqarorlik (inflyatsiya darajasi; valyuta barqarorligi); • jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalari; • demografik ko'rsatkichlar; • soliq imtiyozlari; • nafaqa tizimi.	• majburiy sug'urta; • tabiiy ofatlarning ta'sir darajasi; • sog'liqni sug'urtalash tizimi va ish beruvchining javobgarligini sug'urta qilish; • da'volarni tez va sifatli ko'rib chiqish va to'lovlar darajasi.

Xorijiy davlarida sug'urta kompaniyalariga pul mablag'larini joylashtirgan aholi ulushi bank tuzilmalari xizmatlaridan foydalanuvchi aholi ulushiga nisbatan ancha yuqori. Uzoq muddatli hayotni sug'urtalash AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda hattoki millatning qurilishi deb ham ataladi. O'zbekiston Respublikasi uchun hayot sug'urtasini rivojlantirish nihoyatda muhim, biroq bu jarayon ko'plab cheklovchi omillarning mavjudligi to'sqinlik qilganligi sababli sekin amalga oshirilmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida biz quyidagi omillarni batafsilroq o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, hayot sug'urtasi o'z ma'nosiga ko'ra uzoq muddatli sug'urta turi bo'lib, polislarning amal qilish muddati 10-20 yil va undan ko'proq muddatga qo'llaniladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli investitsiyalar aholi uchun qiziqish uyg'otmaydi. Bundan tashqari, aholida uzoq muddatli investitsiyalarga ishonchsizlik bilan qarash saqlanib qolmoqda. Jismoniy shaxslarning kayfiyatidagi burilish nuqtasi, odatda, asosiy barqaror daromad manbai ish haqi bo'lgan o'rta statistik mijozning konservatizmi tufayli bir necha yillik barqarorlashuvdan so'ng sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holati va barqarorligiga jiddiy talablar qo'yadi, chunki u sug'urta mukofotlarini (haqlarini) kapitallashtirish jarayoniga asoslanadi. Umumiy beqarorlik va moliyaviy inqirozlar ehtimoli sharoitida sug'urtalovchilar uzoq muddatli istiqbol uchun kafolatlar bera olmaydilar. Aholining ularga, qolaversa, boshqa moliya institutlariga ham bo'lgan ishonchi aniq yetarli emas. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mablag'larning saqlanishini kafolatlash masalasi juda muhim bo'lib qolmoqda. Bu, ayniqsa, hayotni uzoq muddatli sug'urtalash turlariga tegishli, chunki uzoq muddatli hayotni sug'urtalash – bu aholi jamg'armalarini uzoq muddatli investitsiyalarga aylantirish (tranformatsiyalash) mexanizmidir.

Uchinchidan, barcha mamlakatlarda hayot sug'urtasi asosan daromadlari xarajatlaridan ma'lum darajada yuqori bo'lgan, ularning bir qismini o'z merosxo'rlari uchun jamg'arishni yoki qo'shimcha daromad olish uchun investitsiya qilishni xohlaydigan aholining o'rta qatlamlari uchun mo'ljallangan. Hayot sug'urtasining uzoq muddatli turlariga bo'lgan ehtiyoj istalgan turmush darajasiga erishilganda va odamlar o'z farovonligini himoya qilish va saqlash haqida o'ylay boshlaganlarida paydo bo'ladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu o'tish har bir oila a'zosi uchun oyiga kamida 300 AQSh dollari daromad darajasiga to'g'ri keladi. Aynan shu daromad darajasidan sug'urta xizmatlari iste'molining keskin o'sishi boshlanadi. Binobarin, uzoq muddatli hayotni sug'urtalashga bo'lgan talabning asosiy cheklovchisi umumiy aholi daromadlari darajasining pastligidir. Ijobiy demografik balansda O'zbekiston Respublikasi va ilg'or mamlakatlar o'rtasidagi turmush darajasidagi tafovut ahamiyatli bo'lmagan tarzda qisqaradi. Mamlakatimiz aholining turli guruhlari va qatlamlari o'rtasida daromadlarning notekis taqsimlanishi sabab bo'lib qolmoqda.

To'rtinchidan, hayotni sug'urtalashning jamg'arish va to'plash funksiyasi rivojlangan investitsiya bozori mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistonda bunday bozor shakllanish bosqichida bo'lib, hayotni sug'urtalash sohasida faoliyat yurituvchi sug'urtalovchilarga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar deyarli yo'q.

Shuningdek, milliy sug'urta tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalari qatoriga mamlakatimizda sug'urtalovchilarning mablag'larini hayotni sug'urtalash sohalariga investitsiyalash yo'nalishlarini kengaytirishni ta'minlovchi qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutuvchi investitsiya siyosatini takomillashtirish kiradi. Hayotni sug'urtalashning uzoq muddatli turlari iqti-

sodiyotning investitsiya resurslari manbaiga, aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali mexanizmiga aylanishi kerak. Buning uchun sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi sug‘urta turlari va shartnomalar muddatini hisobga olgan holda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy mablag‘larini investitsiya qilish yo‘nalishlarini muvofiqlashtirishi, ularning investitsiyalari uchun standartlarni belgilashi, shuningdek uzoq muddatli investitsiyalarni rag‘batlantirishi kerak. Hayotni sug‘urtalashning uzoq muddatli turlaridan olingan mablag‘larni joylashtirish tartibi ularni investitsiya qilish bilan bog‘liq xavflarni minimallashtirishi kerak.

Sug‘urta bozorining normal faoliyat ko‘rsatishi uchun sug‘urtaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy normativlarni (me’yorlarni) qat’iylik bilan ishlab chiqish va joriy etish zarur. Ular xavflarni baholashni hisobga olgan holda o‘z kapitali miqdori va aktivlar miqdori o‘rtasidagi oxirgi nisbatni; aktivlarning majburiyatlardan eng kam darajada oshib ketishi darajasini (to‘lov qobiliyati marjasi); sug‘urta majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lgan sug‘urta zaxiralari darajasini; balans likvidligi ko‘rsatkichlarini; alohida xavf uchun eng yuqori darada javobgarlikni aniq belgilashlari kerak.

Hayotni sug‘urtalashning uzoq muddatli turlarini rivojlantirishning muhim sharti bo‘lib hayotni sug‘urtalash sohasining kapitallashuvi darajasini oshirish hisoblanadi. Jamg‘armali hayotni sug‘urtalashning ahamiyati va sug‘urtalovchilarning majburiyatlari bo‘yicha kafolatlar tizimini yaratish zarurligini hisobga olgan holda, hayotni sug‘urtalashning uzoq muddatli turlari bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta kompaniyalari pulini yoki assotsiatsiyasini shakllantirish barqarorlikni sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin. Bunday tashkillashtirish bozor ishtirokchilariga sug‘urta biznesining ushbu turini rivojlantirishga birgalikdagi yondashuvlarni ishlab chiqish va davlat organlari bilan munosabatlarda yagona pozitsiyani shakllantirish imkonini bergan bo‘lardi.

Tarixan shunday bo‘lganki, jismoniy shaxslar bilan faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan sug‘urta kompaniyalari agentlik tarmog‘iga ega bo‘lishlari kerak, sug‘urta mahsulotlarini sotish hajmi uning mutaxassislarining professionallik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Agentlik tarmoqlarining o‘zi juda qimmat loyiha bo‘lib, infratuzilmani moliyalashtirish va ko‘p sonli menejerlarni talab qiladi. Hozirgi iqtisodiy vaziyatda hayotni sug‘urtalash bo‘yicha bunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘lgan kompaniyalar unchalik ko‘p emas. Keng agentlik tarmog‘ini yaratish xodimlarni ishga olish, o‘qitish, savdo bo‘yicha seminarlar va treninglar o‘tkazish uchun katta mablag‘ talab qiladi.

Hayotni sug‘urtalash sohasidagi mavjud sug‘urta agentlarining ish sifati yanada yaxshilanishni talab qiladi. Sug‘urta agentlari mijozga barcha kerakli ma’lumotlarni taqdim etmaydi. Ko‘pincha mijoz qanday mahsulotni sotib olgani haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaydi. Bunda, birinchi yil komissiya mukoftini (haqini) olgan sug‘urta agenti kelajakda mijoz bilan ishlamaydi. Albatta, kompaniyalar barcha kerakli maslahat va yordamni taqdim etadilar, ammo bu mijoz uchun qo‘shimcha xarajatlar va ma’lum noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Ko‘pgina sug‘urta agentlarining bunday yondashuvi bozorda salbiy iz qoldiradi va sug‘urta kompaniyasining obro‘siga sezilarli darajada putur yetkazadi, shundan so‘ng mijoz bilan ishlash juda qiyin bo‘lib qoladi.

Sug‘urta mahsulotini sotish hajmiga kompaniyaning taniqli brendga egaligi, potensial sug‘urtalovchilarning maqsadli guruhi talablarini hisobga olgan holda ommaviy axborot vositalarida, televideniyeda keng reklama va axborot kampaniyasini o‘tkazish sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tarmoqlangan savdo tarmog‘ini yaratish – bu uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan agentlik tarmog‘iga ega bo‘lmagan sug‘urta kompaniyasi qimmatli vaqtni yo‘qotishi mumkin, bu esa raqobatchilar tomonidan mijozlar bazasini kengaytirish va sug‘urta mahsulotlarini bozorga chiqarish uchun foydali tarzda sarflanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urtalovchilar uchun mahalliy investitsiya vositalari to‘plamining juda past investitsiyaviy jozibadorligini va tanlovning cheklanganligini tan olish kerak, bu o‘z-o‘zidan nafaqat umumiy sug‘urta va xususan, hayotni sug‘urtalash, balki ko‘p jihatdan butun mahalliy iqtisodiyotning holatini oldindan belgilab beradi. Ushbu vaziyatning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- istiqbolli strategiyaning xamon ishlab yaiqish jarayonidaligi;
- u yoki bu biznes, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida, qiymatini baholash uchun rivojlangan fond bozorining yo‘qligi;
- hayotni uzoq muddatli sug‘urtalashni rivojlantirish va kafolat mexanizmlarini yaratish qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilmganligi;
- aktivlarni professional boshqarish bo‘yicha ishonchli investitsiya kompaniyalari, ishonch bildiruvchi va boshqa shunga o‘xshash fondlarning (jamg‘armalarning) mavjud emasligi;
- mahalliy sug‘urta kompaniyalari zahiralari miqdorining kamligi; sug‘urtlovchilarning bozor vaziyatini baholash uchun yetarli tajribaga ega emasligi va boshqalar.

Mahalliy sug‘urta bozorini faqat hayotni ixtiyoriy ravishda sug‘urtalash keng miq’yosda qo‘llangandagina tashkil etilgan va rivojlangan deb hisoblash mumkin, uning rivojlanishi, boshqa sug‘urta turlari kabi, bizning fikrimizcha, quyidagi rag‘batlantirishlarning mavjudligini taqozo etadi:

- hayotni sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi puxta o‘ylangan siyosatining mavjudligi;
- jamiyat tomonidan hayotni sug‘urtalashga bo‘lgan ishonchini qayta tiklash va hayotni sug‘urtalash bozorining barcha ishtirokchilarining mavqeini konsolidatsiyalash uchun sharoit yaratish.

O‘zbekistonda hayotni sug‘urtalashni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun quyidagilar nazarda tutilgan yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi zarur:

- sug‘urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan ixtiyoriy sug‘urta xizmatlari turlarini kengaytirish va sug‘urtalovchilar tomonidan shaxsiy sug‘urta, hayotni sug‘urtalash bo‘yicha keng turdagi mahsulotlar qatorini, shu jumladan sug‘urtalovchilar tomonidan olingan mablag‘larni investitsiya qilishning turli sohalarini nazarda tutuvchi mahsulotlarni yaratish uchun huquqiy asosni ta’minlash;
- sug‘urta xizmatlarini, shu jumladan sug‘urtaning ayrim turlari bo‘yicha sug‘urta xizmatlarini elektron sotish usullarini kengaytirishni me’yoriy-huquqiy jihatdan ta’minlash, sug‘urta shartnomalarini elektron hujjat shaklida tuzishda sug‘urtalovchilar uchun majburiy qoidalarni, elektron polisning qog‘ozdagi sug‘urta polisiga tengligini tan olish shartlarini belgilash;
- fuqarolar va yuridik shaxslarni hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish shartnomalarini tuzishga rag‘batlantirish shakllari va usullarini belgilash (soliq solish tamoyillarini o‘zgartirish, kam ta’minlangan fuqarolar uchun xaqlarni subsidiyalash va boshqa sohalar).

Hayotni sug‘urtalashni rivojlantirish uchun eng muhim rag‘batlantirish - bu sug‘urta turiga davlat ehtiyojining mavjudligi hisoblanadi. Aholi ehtiyojlarini shakllantirish jamiyat tomonidan hayotni sug‘urtalashga ishonch mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, mamlakatimizda hayotni sug‘urtalashning an’anaviy turlarini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siq axborotning kamligi va aholining sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan ishonchining pastligidir. Aholi ham, mahalliy tadbirkorlar ham sug‘urtaviy himoyani sotib olish zarurligini anglashi, o‘z yaqinlarining hayoti va sog‘lig‘ini, shuningdek, moddiy farovonligini asrash uchun uning mas’uliyati me’yorlarini tushunishi kerak.

Taklif etilayotgan hayotni sug‘urtalash xizmatlari ko‘lamining kengligi aholining xabardorligi va kundalik hayotda ushbu xizmatlarga bo‘lgan talab darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, mahalliy sug‘urtalovchilar aholining sug‘urtaga qiziqishini oshirishga, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali hayotni sug‘urtalashning an’anaviy va yangi ommaviy turlari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni taqdim etishni ta’minlashga hissa qo‘shishlari kerak. Shu bilan birga, mahalliy sug‘urtalovchilar reklama bilan bir qatorda sug‘urta tashviqoti bilan ham shug‘ullanishlari kerak.

Hozirgi zamondagi O‘zbekistonda hayotni sug‘urtalash bozorini rivojlantirish omillari va rag‘batlantirishlarining tahlilini yakunlab, quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Jahon iqtisodiyotining beqarorligi va global moliyaviy inqirozlar ehtimolini hisobga olgan holda, sug‘urtalovchilar uzoq muddatga kafolat bera olmaydi. Aholining ularga, qolaversa, boshqa moliya institutlariga ham ishonch darajasi yetarli emasligi aniq. Hayotni sug‘urtalash sug‘urta mukofotlarini kapitallashtirish jarayoniga asoslanganligi sababli, ushbu turdagi sug‘urta xizmatlari sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holati va barqarorligiga jiddiy talablar qo‘yadi.

2. Sug‘urta bozorining normal faoliyat ko‘rsatishi uchun sug‘urtaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy normativlarni (me’yorlarni) qat’iylik bilan ishlab chiqish va joriy etish zarur. Ushbu normativlar xavflarni baholashni hisobga olgan holda o‘z kapitali miqdori va aktivlar miqdori o‘rtasidagi oxirgi nisbatni; aktivlarning majburiyatlardan eng kam darajada oshib ketishi darajasini (to‘lov qobiliyati marjasi); sug‘urta majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lgan sug‘urta zaxiralari darajasini; balans likvidligi ko‘rsatkichlarini; alohida xavf uchun eng yuqori darada javobgarlikni aniq belgilashlari kerak.

3. O‘zbekistonda hayotni sug‘urtalash sohasini yanada rivojlantirish quyidagi rag‘batlantirishlarning mavjudligini taqozo etadi:

- hayotni sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi puxta o‘ylangan strategiyaning mavjudligi;

- jamiyat tomonidan hayotni sug‘urtalashga bo‘lgan ishonchini qayta tiklash va sug‘urtalashni targ‘ib qilish orqali hayotni sug‘urtalash bozorining barcha ishtirokchilarining mavqeini konsolidatsiyalash. O‘zbekistonda hayotni sug‘urta qilish ayniqsa uzoq muddatli hayotni sug‘urta qilish aholining ijtimoiy himoya qilishda asosiy o‘rinni egallashi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.
2. Sorek, G., & Benjamin, D. (2016). Health insurance mandates in a model with consumer bankruptcy. Journal of Regulatory Economics, 50(2), 233-250. doi:10.1007/s11149-016-9302-x.
3. Rey, D., Garrido, A., & Calatrava, J. (2016). Comparison of Different Water Supply Risk Management Tools for Irrigators: Option Contracts and Insurance. Environmental and Resource Economics, 65(2), 415-439. doi:10.1007/si 0640-015-9912-2.
4. Шахов В.В. Страхование: Учебник для вузов. – М. ЮНИТИ, 2001. – 311 б.
5. Ефимов С. Л. Энциклопедический словарь: Экономика и страхование. – М.: Церих-ПЭЛ, 1996. - 528 б.
6. Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 462 с.
7. Дюжиков Е.Ф. Перспективы сотрудничества стран СНГ в области страхования // Финансы. - 2000. – №6.-С.42-44
8. Таракуцяк А.О. Страховые услуги: Учебное пособие. – К.: Из-во: Европа, 2003. –584 с .
9. Плис В.И. Страхування: Навч. посібник – К.: Каравела, 2005. – 392с.
10. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб. – К.: Знання, 2005. – 351 с.
11. Александрова М.М. Страхування: Учебно-методичкое пособие. – К.: ЦУЛ, 2002 – 208с.
12. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб. –К.: Знання, 2005. – 351 с.;
13. Г. Халикулова . О влиянии страховой активности на инновационное развитие экономики республики Узбекистан. – Общество и экономика, 2020.
14. K.G. Tadjimuratovna. Development of the insurance market in the digital economy. Publishing House Education and Science sro – 2023.

SANOATDA RESURS TEJAMKORLIGINI TA'MINLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Zamonaviy sanoat siyosatining asosiy tamoyillari tizimlashtirilgan. Eng yaxshi texnologiyalar (Best Available Technologiyes-BAT) hamda "yashil sanoat siyosati (green industrial policy)" orqali sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mexanizmlari va vositalari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, texnologiyalar, innovatsiya, yashil iqtisodiyot, sanoat siyosati, barqaror rivojlanish, resurs, ekologiya.

Abstract: This article identifies the main directions of achieving sustainable development by ensuring resource efficiency in the industry. The main principles of modern industrial policy are systematized. Mechanisms and means of ensuring resource saving in industry and achieving the goals of sustainable development through the Best Available Technologies (BAT) and "green industrial policy" are proposed.

Key words: industry, technologies, innovation, green economy, industrial policy, sustainable development, resource, ecology.

Аннотация: В данной статье определены основные направления достижения устойчивого развития путем обеспечения ресурсоэффективности в отрасли. Систематизированы основные принципы современной промышленной политики. Предложены механизмы и средства обеспечения ресурсосбережения в промышленности и достижения целей устойчивого развития наилучшие доступные технологии (Best Available Technologies-BAT) и "зеленой промышленной политики".

Ключевые слова: промышленность, технологии, инновации, зеленая экономика, промышленная политика, устойчивое развитие, ресурс, экология.

Sanoat siyosati iqtisodiy kategoriya sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar va vositalar tizimidir. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy tizimlarida o'ziga xos yondashuvlar asosida sanoat siyosatini ishlab chiqadilar va uni amalga oshirish ustuvor maqsadlar sifatida qaraladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan islohatlar asosiy maqsadi raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, bugunga kelib barqaror rivojlanishga erishish, resurs imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda yashil iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilmoqda.

Sanoatning barqaror rivojlanishini hisobga olgan holda, korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash va ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, resurs imkoniyatlarini kengaytirish va texnologik bazani mustahkamlash, investitsiyalarni ko'proq jalb qilish, shu jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini keng joriy etishga qaratilgan yo'nalishlar Yangi O'zbekiston sanoat sohalarida amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish maqsadlari sifatida qaralmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda sanoatning barqaror rivojlanishi resurslardan (masalan, moddiy va nomoddiy, minerallar, energiya, suv) oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali "Sanoat 4.0." konsepsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun mahalliy ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Sanoatni texnologik modernizatsiya qilish, ekologik talablarga javob beradigan usulda tashkil etish orqali texnologik jarayonlarning sifati – ularning iqtisodiy, resurs va ekologik samaradorligini oshirish sanoat siyosatining muhim yo'nalishlaridir.

Sanoat siyosatining asosiy maqsadi – yuqori texnologiyali, raqobatbardosh sanoatni shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda davlatning qo'llab quvvatlovchi siyosati va strategiyalari yuqori ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida quyidagilar sanoatni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlari belgilangan, jumladan:

47-maqsad: “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish”

48-maqsad: “Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish”dir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son “sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan sanoatni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yagona sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida zamonaviy mexanizmlarni joriy etish;
- hududlarning tabiiy xom ashyo, mehnat resurslarini va “nisbiy ustunliklarini” inobatga olgan holda sanoatni rivojlantirishga turtki beradigan yo‘nalishlarni belgilash va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;
- sanoatning bazaviy tarmoqlari, jumladan neft-gaz, energetika, kimyo, tog‘-kon, mashinasozlik sanoatini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, diversifikatsiya qilish hamda ularni isloh qilish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;
- resurslarning tarmoqlararo va hududlar bo‘yicha mutanosib ravishda taqsimlanishini hamda infratuzilmaning o‘zaro muvozanatlashgan rivojlanishini ta’minlash;
- tegishli vazirliklar bilan birgalikda energiya resurslari, qimmatbaho va rangli metallar, boshqa strategik resurslarni ishlab chiqarish, ularning iste’mol balansini shakllantirish va monitoring qilish hamda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish;
- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda operatsion samaradorlikni oshirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;
- muhim sanoat mahsulotlari bo‘yicha bozor kon’yunkturasini o‘rganish asosida tegishli mahsulotlar bilan ichki bozor talabini qondirish va narxlar keskin o‘zgarishining oldini olish hamda sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va choralar ishlab chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqanda, O‘zbekistonda sanoat siyosatini resurs va ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga ahamiyat qaratilishi lozim.

O‘zbekistonda sanoatni barqaror rivojlantirishning milliy maqsadlariga izchil erishish uchun o‘rta va uzoq muddatli barqaror o‘sishini, shu jumladan texnologik rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni muvozanatini ta’minlash nuqtayi nazaridan barqarorlik tamoyillariga o‘tishga zamin yaratilishi lozim. Buning uchun sanoat siyosatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq strategik vositalar zarurdir.

Resurs samaradorligi deganda – resurs imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va xarajatlarni kamaytirishni hisobga olgan holda rejalashtirilgan natijalarga erishish qobiliyati tushuniladi. Agar mamlakatlarda boy tabiiy va mineral xomashyo manbalariga ega bo‘lsada, sanoatda resurs samaradorligini ta’minlanmasa, kelajakda, resurslarga qaramlikni oshib boradi, natijada mamlakatning importga qaramligini keltirib chiqaradi[1].

Aksariyat mamlakatlarda sanoatda resurs tejamkorligiga erishning zamonaviy modellari sifatida aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida sanoat siyosati amalga oshirilmoqda[2]. Aylanma iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish va iste’mol modeli bo‘lib, u resurslardan foydalanish, chiqindilar va uglerod chiqindilarini minimallashtirishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi sifatida qaraladi. Bu mavjud resurslar va mahsulotlarni imkon qadar uzoq vaqt davomida foydalanish, qayta tiklash va qayta ishlashni o‘z ichiga oladi[3]. Sanoatda resurs samaradorligining asosiy prinsiplari aylanma iqtisodiyot nazariyasining (Circular Economy) muhim elementi hisoblanib, u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ishlab chiqarish va iste’molning yuqori darajadagi resurs (shu jumladan energiya) samaradorligini ta’minlash;
- resurslarni tejash, yo‘qotishlarni kamaytirish, ikkilamchi resurslarni (ko‘pincha chiqindilar deb ataladi) iqtisodiy muomalaga jalb qilish;

1 Vorfolomeiev A. et al. Model for assessing and implementing resource-efficient strategy of industry //CEUR Workshop Proceedings. – 2020. – T. 2713. – C. 277-294.

2 Скобелев Д. О. Политика повышения ресурсной эффективности для обеспечения устойчивого развития российской промышленности : дис. – диссертация на соискание ученой тепени доктора экономических наук. Апатиты, 2021.

3 https://www.weforum.org/agenda/2022/06/what-is-the-circular-economy/

- qayta tiklanadigan manbalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;
- ekologik xavflarni kamaytirish.

Aylanma iqtisodiyotga o'tish jahonda 2030-yilga kelib 4,5 trillion dollarlik qiymatni ochishi mumkin[4]. Bu barqarorlik yo'lidagi muhim qadam bo'lib, xomashyo chiqindilaridan maqsadli foydalanish va resurs iste'molini imkon qadar minimallashtirish, yangi bozor istiqbollarini ochish, iste'mol barqarorligini oshirish va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradigan nazariyadir[5].

Umuman olganda zamonaviy sanoat iqtisodiyoti nazariyalarida sanoat siyosatining beshta asosiy tamoyili mavjud bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quyidagilarga ajratish mumkin:

I tamoyil: Barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga e'tibor qaratish. Barqaror rivojlanishning uchta komponentini hisobga olgan holda amalga oshiriladi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Asosiy manfaatdor tomonlar: biznes, hukumat, fan, jamiyat va boshqalar pozitsiyalarining muvozanatini ta'minlash uchun samarali asos yaratilishi.

II tamoyil. Aylanma iqtisodiyotni yaratish. Umumiy tushunchada yopiq siklli iqtisodiyot resurs salohiyatini yangilashga asoslangan iqtisodiyotdir. Aylanma iqtisodiyot nafaqat birlamchi resurslardan, balki ko'pincha ishlab chiqarish chiqindilari sifatida qaraladigan ikkilamchi resurslardan ham foydalanishni o'z ichiga oladi. Yangi sanoat siyosati sharoitida ikkilamchi resurslarga talabni yaratish va rag'batlantirish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

III tamoyil. Sanoatning ishlab chiqarish va texnologik rivojlanishi (texnologik murakkablik darajasini oshirish). Bu tamoyil texnologik rivojlanish sur'atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta'minlash, asosiy e'tiborni yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarini joriy etish, asosiy texnologik jarayonlarni raqamlashtirish bilan bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

IV tamoyil. Moliyaviy rag'batlantirish va moliyaviy bo'lmagan motivatsiya vositalaridan muvozanatli foydalanish. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni isbotlaydiki, sanoatni rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqmasdan turib aylanma iqtisodiyotni barpo etish mumkin emas. To'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan sanoat korxonalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sirga ega emas deb hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy sanoat siyosatida moliyaviy bo'lmagan, bilvosita motivatsiya vositalaridan foydalanishga ko'proq ahamiyat qaratishni nazarda. Bunday vositalar sanoatni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillariga rioya qilish sanoat korxonalarining yuqori raqobatbardoshligini belgilaydigan yangi shart-sharoitlarni shakllantirish orqali ta'minlanadi.

V tamoyil. Axborotning ochiqligi va foydalanish imkoniyatini kengaytirish. Sanoatning resurs, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ochiq foydalanishni ta'minlash barqaror rivojlanishning zaruriy shartidir. Bunda, sanoat siyosatining asosiy tamoyillari, maqsadlari, yo'nalishlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishda axborotning ochiqligi va shaffofligiga erish nazarda tutiladi. Shuningdek, sanoat atrof-muhitga oid ma'lumotlari va talablarga muvofiqligini asoslovchi ma'lumotlar ochiq bo'lishi talab etiladi. So'ngi vaqtlarda sanoat siyosatini amalga oshirish va sanoatda amalga oshiriladigan loyihalarning investitsion jozibadorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ijtimoiy va ekologik samaralarga ko'ra baholash amaliyotlari ko'plab mamlakatlarda hisobga olinmoqda[6].

Resurs samaradorligi va sanoat tarmoqlarining tarixiy rivojlanishi doirasida tabiiy kapitaldan foydalanish texnologik rivojlanishni yangi bosqichga o'tishning eng muhim fundamental asosi sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirishning yangi modellari faol ishlab chiqilmoqda, ular doirasida texnologik taraqqiyot tabiiy resurslarni tejash imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy vositadir.

Sanoatning iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslarning xususiyatlariga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini hisobga olib, asosiy e'tiborni iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini shakllantirishga qaratish zarur. Bunda hal etilishi lozim bo'lgan asosiy vazifa qayta tiklanadigan resurslaridan foydalaniladigan sanoat ishlab chiqarishining o'sishini barqarorlashtirish, shu bilan birga ilmiy-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishdir.

Bugungi kunda iqtisodiy samaradorlikning asosiy parametrlarini saqlab qolgan holda ishlab chiqarishning energiya va resurs zichligini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va mahsulotlarning uglerod intensivligini hamda ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun sanoat texnologiyalari faol rivojlanmoqda.

Umuman olganda sanoatni resusr tejamkorlikka asoslangan barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini 2 ta determinantlar asosida amalga oshirish lozim.

4 McMahon K., Uchendu C., Fitzpatrick C. Characterizing IT asset disposition flows for the circular economy: A case study on export for reuse from Ireland //Journal of Industrial Ecology. – 2023.

5 Geissdoerfer, M., Pieroni, M.P., Pigosso, D.C. and Soufani, K. (2020). "Circular business models: A review" (PDF). Journal of Cleaner Production. 277: 123741. doi:10.1016/j.jclepro.2020.123741. S2CID 225282542

6 Ren S. et al. Can mandatory environmental information disclosure achieve a win-win for a firm's environmental and economic performance? //Journal of cleaner production. – 2020. – T. 250. – C. 119530.

Birinchi yo‘nalish, mavjud bo‘lgan eng yaxshi texnologiyalar (Best Available Technologiyes (BAT) yondashuvi asosida sanoat siyosatini amalga oshirish. Bu ishlab chiqarishning yuqori resurs samaradorligini, salbiy ta’sirlarning oldini olishni yoki kamaytirishni (nazorat qilishni) va umuman atrof-muhitni muhofaza qilishning ishonchli darajasini ta’minlaydigan ilg‘or texnologiyalardir. Bugungi kunda BAT konwepsiyasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sanoat siyosatining muhim va samarali vositasi hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish, “yashil sanoat siyosati (green industrial policy)”ga o‘tishdir. Yashil sanoat siyosatiga o‘tish barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish eng maqsadga muvofiq siyosatdir.

Yashil sanoat siyosati xalqaro miqyosda qabul qilingan BAT tamoyillari va aylanma iqtisodiyot yondashuvlari asosida iqtisodiyotning resurs talab qiluvchi tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan umumiy sanoat siyosatining gorizontal tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Yashil sanoat siyosati mamlakatning amaldagi sanoat siyosatidan tubdan farq qiluvchi yo‘nalishdir. Uni amalga oshirishdan asosiy maqsad davlat iqtisodiyotini xomashyo iqtisodiyotidan (resurslar eksportiga asoslangan iqtisodiyotdan) innovatsion rivojlanish iqtisodiyotiga tizimli va samarali o‘tishni ta’minlaydigan yuqori texnologiyali va raqobatbardosh sanoatni yaratishdan iboratdir. Sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, muvozanatli va barqaror rivojlanishni ta’minlash yashil sanoat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridir.

Biroq sanoatni rivojlanishining yanada barqaror vektoriga samarali o‘tishiga ko‘plab omillarning ta’siri kuzatiladi. Qoida tariqasida, asosiylari texnologik, institutsional, qonunchilik, iqtisodiy va tashkiliy omillar bo‘lib, ularning xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Sanoatda resurslardan tejamkor iqtisodiyotni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar

Omillar	Xususiyati
Qonunchilik	Amaldagi me’yoriy-huquqiy tartibga solishning nomukammalligi, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish masalalarining qonunchilik darajasida ishlab chiqilmagani, aniq maqsadlar belgilab berilmasligi
Institutsional omil	Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan iqtisodiyotga o‘tish alohida institutlar darajasida o‘zgarishlarni, iqtisodiyotning ishlash shartlarini, rag‘batlantirish tizimlarini, tuzilmasini o‘zgartirishni talab qilishi.
Iqtisodiy omil	Resurs samaradorligini oshirish va yangi sanoat loyihalarini amalga oshirishning noaniqligi, investitsion jozibadorlikning past darajasi, resurslarni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha sanoatning imkoniyatlari mavjud emasligi.
Tashkiliy omillar	Turli tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga o‘tishning nomutanosibligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning tizimsizligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda to‘siqlarning paydo bo‘lishi

Iqtisodiy faoliyatning ekologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olmaydigan iqtisodiy rivojlanish resurs talab qiladigan yo‘ldan boradi va bir qator tahdidlar yuzaga chiqarishi mumkin. Mamlakatda resurs salohiyatidan noratsional foydalanishning asosiy oqibatlari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- yuqori texnologiyali va bilim talab qiladigan tarmoqlarning importga qaramliligini oshiradi;
- qo‘shimcha energiya va xom ashyoga bo‘lgan ehtiyoj doimo ortib boradi va ta’minotdagi uzilishlar kuzatilaveradi;
- mahalliy mahsulotlarni import qilinadigan tovar va xizmatlar bilan almashtirish tezlashib boradi;
- ilm talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlanishdan ortda qolaveradi va moddiy resurslar ko‘p talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishga yuqori ustuvorlik qaratiladi;
- ekologik xavflar sezilarli darajada oshadi, ekotizimlarning beqarorligi yuzaga keladi, jumladan: suv tanisligi, xavoda sanoat chiqindilari va zararli gazlarning ko‘payib borishi, inson salomatligi va umr ko‘rish darajasining qisqarishi va h.k.;
- mineral-xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish sur’atlarining kamayishi;
- yuqori sifatli rudalarga ega konlarni ochish ehtimoli pastligi, resurs bazasining kamayishi va h.k.

Yashil sanoat siyosati katta resurslarni, shu jumladan moliyaviy resurslarni va biznes egalarini rag‘batlantirishni talab qiladigan mas’uliyatli sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan bo‘lishi kerak. Budjet va budjetdan tashqari manbalar hisobidan yangi texnologiya loyihalarini amalga oshirish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va bilvosita moliyaviy ko‘maklar bo‘lishi lozim. Shuningdek, biznes mas’uliyati haqidagi ma’lumotlarning ochiqligi alohida ahamiyat qaratilishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda mamlakatda eng yaxshi texnologiyalar konsepsiyasini joriy etish va “yashil sanoat siyosatini” amalga oshirish yo‘nalishlari, mexanizmlari va vositalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish yo'nalishlari, vositalari va mexanizmlari[7]

Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish siyosati milliy maqsadlarga mos bo'lishi, hududiy va tarmoqlarni rivojlanish rejalari, sanoat korxonalarining strategik yo'nalishlariga mutanosib amalga oshirilishi lozim.

Taklif etilayotgan institutsional tarkibiy qismlar to'plami ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish sohasidagi strategik milliy maqsadlarga erishishga qaratilgan yondashuvlardir.

Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishning institutsional infratuzilmaning asosiy elementi va muhim tartibga solish vositasi ilmiy-tadqiqot institutlari bo'lishi talab etiladi. Ilmiy tadqiqot institutlar eng yaxshi mavjud texnologiyalarga sanoatga tizimli joriy etishni ta'minlashi, sanoat tar-

7 Muallif ishlanmasi

moqlarining resurslari samaradorligini oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni aniqlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni, axborot-metodik va uslubiy tizimni shakllantirishda tashabbuskorlikni olishi lozim.

Xulosa qilganda, zamonaviy sanoat siyosatini makro darajada shakllantirishga nazariy yondashuvlar barqaror rivojlanishga, resurslar samaradorligini oshirishga, aylanma iqtisodiyotni barpo etishga, ishlab chiqarish zanjirlarining texnologik murakkabligining hisobga olgan holda, moliyaviy rag‘batlantirish vositalaridan foydalanadigan tamoyillarga asoslanadi. Sanoatni resurs tejamkorligiga erishishga qaratilgan harakatlarni rag‘batlantirish uchun moliyaviy bo‘lmagan vositalar, shuningdek, raqamli transformatsiya asosiy ustun hisoblanadi.

Tabiiy resurslarni saqlash sanoatni iqtisodiy va texnologik rivojlantirishning zamonaviy maqsadlari va tendensiyalari doirasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining moddiy va energiya sarfini kamaytirishni ta’minlash muhim ahamiyatga ega, bu xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish orqali qo‘shilgan qiymat yaratishga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Sanoat siyosati doirasida ilmiy-texnik rivojlanish, modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni, shu jumladan axborot texnologiyalarini qo‘llash, texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali cheklangan resurslardan maqsadsiz foydalanishni kamaytirishga erishiladi.

Mavjud bo‘lgan eng yaxshi texnologiyalarga o‘tish va aylanma iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan sanoat siyosati doirasida resurs samaradorligiga erishish birlamchi vosita sifatida qaralishi lozim. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishga qaratilgan sanoat siyosati to‘rt dastakdan iborat bo‘lishi lozim, ular: ilmiy-texnikaviy, texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy tartibga solish. Mazkur dastaklarni tartibga solish asosida barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishiladi.

Sanoat siyosatining “gorizontal” tarkibiy qismi sifatida yashil sanoat siyosati muhim yo‘nalish hisoblanadi. yashil sanoat siyosatini amalga oshirish orqali resurs tejamkorligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vorfolomeiev A. et al. Model for assessing and implementing resource-efficient strategy of industry //CEUR Workshop Proceedings. – 2020. – T. 2713. – C. 277-294.
2. Скобелев Д. О. Политика повышения ресурсной эффективности для обеспечения устойчивого развития российской промышленности: дис. – диссертация на соискание ученой тепени доктора экономических наук. Апатиты, 2021.
3. https://www.weforum.org/agenda/2022/06/what-is-the-circular-economy/
4. McMahon K., Uchendu C., Fitzpatrick C. Characterizing IT asset disposition flows for the circular economy: A case study on export for reuse from Ireland //Journal of Industrial Ecology. – 2023.
5. Geissdoerfer, M., Pieroni, M.P., Pigosso, D.C. and Soufani, K. (2020). “Circular business models: A review” (PDF). Journal of Cleaner Production. 277: 123741. doi:10.1016/j.jclepro.2020.123741. S2CID 225282542
6. Ren S. et al. Can mandatory environmental information disclosure achieve a win-win for a firm’s environmental and economic performance? //Journal of cleaner production. – 2020. – T. 250. – C. 119530.

SOUTHEAST ASIA'S GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL TAXATION

Fayzieva Nargiza Rabimovna
Senior teacher of the Department of Mathematical Methods in Economics, PhD, Tashkent State University of Economics

Abstract: The purpose of this research is to replicate tax models throughout Southeast Asia by using variable models like environmental and fuel levies. Based on a regression model generated from Southeast Asia's energy consumption and CO_2 emissions modified by a 10% extra tax (as a dummy variable), this study aims to establish the notion that Southeast Asia levies an environmental levy. Southeast Asia might adopt the environmental levies suggested by the European Union, which served as the impetus for this study. In this study, the log-t approaches are employed to enable the clustering of nations into new clubs or convergence groups, as well as the application of the test for converging within certain states of the panel while accounting for the panel data of the variable. In Southeast Asia, environmental fees are, in our opinion, a crucial instrument for public policy in lowering CO_2 emissions and its negative consequences on pollution. In addition to significantly increasing tax revenues, gas taxes or carbon pollution taxes on the energy and transportation sectors also have a significant impact on Southeast Asia's economic growth. A power tax might limit the use of natural gas or environmentally friendly power and help finance projects that use sustainable energy. The purpose of environmental taxes in the transportation sector is to both encourage ecologically friendly transportation and lower carbon dioxide emissions brought on by less eco-friendly public transportation.

Key words: CO_2 Emissions; Sustainable Development; Green economy; Taxation.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi atrof-muhit va yoqilg'i yig'imlari kabi o'zgaruvchan modellardan foydalangan holda Janubi-Sharqiy Osiyo bo'ylab soliq modellarini takrorlashdir. Janubi-Sharqiy Osiyoning energiya iste'moli va CO_2 emissiyasidan 10% qo'shimcha soliq (qo'lbola o'zgaruvchi sifatida) bilan o'zgartirilgan regressiya modeliga asoslanib, ushbu tadqiqot Janubi-Sharqiy Osiyoda ekologik yig'im olinadi degan tushunchani o'rnatishga qaratilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo Evropa Ittifoqi tomonidan taklif qilingan ekologik yig'imlarni qabul qilishi mumkin, bu tadqiqot uchun turtki bo'ldi. Ushbu tadqiqotda log-t yondashuvlari millatlarni yangi klublar yoki konvergentsiya guruhlariga klasterlash imkonini berish, shuningdek, o'zgaruvchining panel ma'lumotlarini hisobga olgan holda panelning ma'lum shtatlarida birlashish testini qo'llash uchun qo'llaniladi. Janubi-Sharqiy Osiyoda ekologik to'lovlar, bizning fikrimizcha, CO_2 emissiyasi va uning ifloslanishdagi salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha davlat siyosatining hal qiluvchi vositasidir. Soliq tushumlarini sezilarli darajada oshirishdan tashqari, energetika va transport sohalariga gaz solig'i yoki uglerod ifloslanishi soliqlari ham Janubi-Sharqiy Osiyoning iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Energiya solig'i tabiiy gaz yoki ekologik toza energiyadan foydalanishni cheklashi va barqaror energiyadan foydalanadigan loyihalarni moliyalashtirishga yordam berishi mumkin. Transport sohasidagi ekologik soliqlarning maqsadi ekologik toza transportni rag'batlantirish va kamroq ekologik toza jamoat transporti natijasida kelib chiqadigan karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishdir.

Kalit so'zlar: CO_2 emissiyasi; Barqaror rivojlanish; Yashil iqtisodiyot; Soliq solish.

Аннотация: Целью данного исследования является воспроизведение налоговых моделей по всей Юго-Восточной Азии с использованием переменных моделей, таких как экологические и топливные сборы. На основе регрессионной модели, созданной на основе потребления энергии и выбросов CO_2 в Юго-Восточной Азии, модифицированных дополнительным налогом в размере 10% (в качестве фиктивной переменной), данное исследование направлено на установление представления о том, что Юго-Восточная Азия взимает экологический сбор. Юго-Восточная Азия могла бы принять экологические сборы, предложенные Европейским Союзом, что послужило толчком для этого исследования. В этом исследовании подходы log-t используются для объединения стран в новые клубы или группы конвергенции, а также для применения теста на сходимость в определенных состояниях панели при учете панельных данных переменной. В Юго-Восточной Азии экологические сборы, по нашему мнению, являются важнейшим инструментом государственной политики по снижению выбросов CO_2 и их негативных последствий для загрязнения. Помимо значительного увеличения налоговых поступлений, налоги на газ или налоги на выбросы углекислого газа в энергетическом и транспортном секторах также оказывают значительное влияние на экономический рост Юго-Восточной Азии. Налог на электроэнергию может ограничить использование природного газа или экологически чистой энергии и помочь финансировать проекты, использующие устойчивую энергию. Целью экологических налогов в транспортном секторе является как стимулирование экологически чистого транспорта, так и снижение выбросов углекислого газа, вызванных менее экологичным общественным транспортом.

Ключевые слова: выбросы CO_2; Устойчивое развитие; Зеленая экономика; Налогообложение.

INTRODUCTION

Bundan tashqari bank bir qancha innovatsion mahsulotlar jumladan, Debit Card-I, sadaqa uylariga o‘rnatilgan Debit Card-I va yangi ishga tushirilgan 3ta debet kartalari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkinki, moliyalashtirish, avanslar va boshqa aktivlar jami aktivlarning ulushida 72,2%ni tashkil etib eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etadi. Eng past ko‘rsatkich esa boshqa aktivlar 1%ni tashkil etgan.



8-rasm: 2022-yil Bank Islam Malaysia Berhadning sarflangan jami aktivlari (%da)12

Malayziyada islom bank xizmatlari va islomiy moliya operatsiyalari keng tarqalgan. Aynan islom banklarining daromadlari, tijorat banklarining daromadlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga erishganligini yuqorida berilgan jadval va rasmlar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun hozirgi kunda faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklariga suyanibgina qolmasdan, islomiy bank xizmatlarini aholiga taqdim qilinsa iqtisodiyot yanada rivojlanadi, naqd pul mablag‘lari banklar orqali aylanadi va inflatsiya kamayadi hamda aholi daromadlari ortadi. Islom bank-moliya tizimini mamlakatning diniy nuqtayi nazaridan hamda daromad keltirish nuqtayi nazaridan ham islomiy bank xizmatlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Milliy iqtisodiyotning tarkibiga kiritish orqali nafaqat aholining turmush favonligi ortadi, ularning ehtiyoji qondiriladi, balki milliy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tarkibida ijobiy o‘zgarishlar ko‘rsatilishini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 01.05.2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. –2019-yil 11-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy, tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017, - 104-b.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017, – 488-b.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. Darslik. T: Iqtisod-moliya, 2003. – 304-b.
7. Omonov A.A va Karaliyev T.M., Pul, kredit va banklar. –T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2018. –446 b.
8. Shayx Muhammad Taqi Usmoniy “Islom moliyalashtirishga kirish”. –2013-yil.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. –Toshkent “Hilol nashiryoti”. 2020-yil.
10. Chapra M.U “What is Islamic Economics?” – Jeddah 2001.
11. Islom fiqhi akademiyasi Kengashining qaror va tavsiyalari – fatvolar /M.F.Murtazin tarjimalari. –M., 2003. – 143-b.

12 Bank Islam Malaysia Berhad.com saytidan foydalanib muallif tomonidan tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BALIQCHILIK TARMOG‘IDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH MASALALARI

Fayziyev Oybek Raximovich
I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrasi dotsenti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Aitimbetov Amirbek Koishibekovich
I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrasi dotsenti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, baliqqa bo‘lgan talabi oshib borayotgan bir vaqtda baliqchilik tarmog‘ida intensiv texnologiyalarni amaliyotga joriy etib, hududlarda jahon talablari asosida baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni qayta ishlash bo‘yicha korxonalarni tashkil etish kabi masalalar soha mutasaddilarining oldida turgan dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Shunday ekan, mazkur maqolada bugungi kunda baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini soha taraqqiyoti yo‘lida respublikamizning ayrim iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari chuqur tahlil qilinib, ishlab chiqarish samaradorligini baholashga doir ko‘rsatkichlar yoritib berilgan. Shuningdek, baliqchilik xo‘jaliklarida hovuzlar xizmat ko‘rsatilishiga ko‘ra turli guruhlarga ajratib o‘rganilgan.

Hovuz xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqligi ilmiy asosda yoritib berilgan. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini guruhlab, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarmoq samaradorligini baholashning muhim masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat havfsizligi, mahsulot ishlab chiqarish, narx-navo, aholi iste’moli, zamonaviy texnologiya, biologik resurslar, “baliqchilik menejmenti”, “biobaliq mahsuloti”, o‘stiruvdagi barcha baliqlar, to‘ldiruvchi to‘dadagi baliqlar, lichinkalar, chavoq, “hovuz xo‘jaliklari”.

Abstract: In conditions of increasing demand of the population of the republic for food products, especially fish, the introduction of intensive technologies in the fishing industry, the cultivation of fish and fish products in the regions based on world standards, and the creation of enterprises for their processing are among the primary tasks requiring urgent decisions. leadership of this industry.

In connection with the above, this article analyzes in detail the features of the fishing industry of the Republic of Uzbekistan, as well as the scientific activities of some scientists and researchers to improve this industry, and indicators for assessing production efficiency. Ponds in fish farms were also studied by dividing them into different groups depending on the service provided.

The organization of production in pond farms depends on the level of technical equipment of the pond stock on a scientific basis. In the context of climate change, specific characteristics of the fishing industry are grouped, important issues of fish production and assessment of the efficiency of this industry are considered.

Key words: food security, production, price, public consumption, modern technologies, biological resources, “fishing”, “bio-fish product”, all farmed fish, stocking, larvae, fry, “pond farms”.

Аннотация: В условиях, когда потребность населения республики в пищевых продуктах, особенно в рыбе, возрастает, актуальны такие вопросы, как внедрение интенсивных технологий в рыбной отрасли и создание предприятий по выращиванию рыбы и рыбной продукции на основе о мировых потребностях и их переработке в регионах Это один из актуальных вопросов, стоящих перед специалистами отрасли.

Поэтому в данной статье подробно анализируются особенности рыбной отрасли, выделяются показатели оценки эффективности производства. Также пруды в рыбных хозяйствах были разделены на разные группы в зависимости от предоставляемого сервиса.

Организация производства в прудовых хозяйствах зависит от уровня технической оснащенности прудового фонда на научной основе. В контексте изменения климата были сгруппированы уникальные характеристики рыболовной сети и рассмотрены важные вопросы рыбного производства и оценки эффективности сети.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, производство продукции, цена, потребление населением, современные технологии, биологические ресурсы, “рыболовство”, “биорыбный продукт”, вся рыба в выращивании, рыба-наполнитель, личинки, раки, “прудовые хозяйства”.

KIRISH

Respublikada oziq-ovqat havfsizligini ta’minlash, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, bozorlarni arzon va sifatli baliq mahsulotlari bilan to‘ldirib borish hamda mahsulotlar narx-navolarini barqarorligini saqlashga qaratilgan bir qator maqsadli dasturlar qabul qilinib, uning ijrosi samarali ta’minlanmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, oziq-ovqat havfsizligini ta’minlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga baliq yetishtirish hajmlarini keskin oshirish hamda aholi iste’moli uchun ichki bozorlarga arzon va sifatli baliq mahsulotlarini etkazib berish, intensiv usulda baliq yetishtirishni ko‘paytirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda sohadagi mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarmoqning ushbu xususiyatlarini nazariy jihatdan mahalliy olimlarimizlarning tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, baliqchilik tarmog‘i boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda marketing yondashuvlar asosida tarmoq samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Xususan, B. A. Sarsenbayevning [2021] baliqchilik tarmog‘ini marketing yondashuvlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlari natijasida “baliqchilik sohasi ishlab chiqarishda biologik resurslarni ko‘paytirish, gidrosfera va hududlarning ekologik xavfsizligini ta’minlash asosida aholi iste’molida zarur baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirishning marketing usullari ishlab chiqilgan”[1]. Tadqiqotchi U. X. Beglayev [2020] esa muammoning boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, “baliqchilik menejmenti” va “biobaliq mahsuloti” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni”[2] nazariy jihatdan batafsil yoritilgan.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar A. Muxtorov va U. Sadullayevlar [2018] baliqchilik sohasini rivojlantirish omillari va o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib o‘tib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: “... baliq yetishtirishda hududiy shart-sharoit, baliq yetishtirilayotgan suv havzalarining joylashgan joyi, o‘lchami, relyefi, konfiguratsiyasi, eng muhimi suv ta’minoti va uning barqarorligi soha istiqbolini belgilovchi eng muhim tashkiliy omillardan hisoblanadi”. Ushbu olimlar tarmoqni barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy-me’yoriy, texnologik omillar hamda suv ta’minotining barqarorligini asosiy mezon sifatida qaraydilar.

I. O. Yunusovning [2020] tadqiqot ishlarida aynan baliqchilik tarmog‘ining rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari tizimlashtirilgan holda boshqa tarmoqlardan keskin farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bu “baliqchilik xo‘jaligida hovuz asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanishi”ga[3] alohida urg‘u qaratilgan. Ammo, tadqiqotda hovuzdan foydalanish samaradorligi, mavjud muammolar hamda kuzatilayotgan tendensiyalar doirasida tahlillar amalga oshirilmagan.

Ma’lumki, ilmiy adabiyotlarda hovuz baliqchiligi yer fondi va hovuz fondidan tashkil topishi qayd etilgan. Ya’ni, yer fondi deyilganda baliqlarni ko‘paytirish va parvarishlash hamda boshqa maqsadlarda foydalanish uchun xo‘jalikka biriktirilgan jami yer maydoni tushunilsa, hofuz fondiga hovuz baliqchiligi usuli bilan baliqlarni ko‘paytirish va parvarishlash uchun maxsus moslashtirilgan, baliq hovuzlari va boshqa suv havzalari bilan band bo‘lgan yerlar kiritilgan.

Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha, hovuz baliqchiligi muhim manba sanalgani holda, baliqchilikning maxsus hovuzlar yoki inshootlarda baliqlarning tez o‘sadigan turlarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan quyi tarmog‘i hisoblanadi.

1 B. A. Sarsenboyev. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida), Monografiya, T.: “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2021. – B.141.
2 R. X. Ergashev, S. R. Xalikov, U. X. Beglayev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik, – T., “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 298 b.
3 I. A. Yunusov. Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2020. – 136 b.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

NATIJALAR

Hovuz baliqchiligida hovuz fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, lekin asosiy ishlab chiqarish vositalari tarkibiga kiritilmaydi. Zero, u ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa fondlardan o‘ziga xos xususiyatlarining mavjudligi bilan farqlanadi:

- “... hovuz maydoni jismoniy yoki ma’naviy eskirishi oqibatida yaroqsiz holatga kelganida, boshqa asosiy vositalar kabi almashtirilishi mumkin emas;
- boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli, hovuz tubining mahsuldorligi bo‘yicha eskirmaydi, aksincha, to‘g‘ri foydalanilganda nafaqat suv havzasi gidrokimyoviy rejimining shakllanishiga, balki baliqlar uchun tirik ozuqalarning ko‘payishi hamda rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- hovuz maydonidan foydalanish faqat tabiiy ozuqa bazasi hisobiga baliq mahsulotlari yetishtirish bilan chegaralanib qolmaydi, balki uni sun’iy ozuqalar hisobiga ko‘paytirilishi mumkin”[4].

Baliqchilik xo‘jaliklarida hovuzlar xizmat ko‘rsatilishiga ko‘ra turli guruhlarga ajratish mumkin. Ya’ni suv bilan ta’minlovchi, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, kasallangan baliqlarni sanitariya-profilaktika va karantin-izolyator hovuzlarida boqish hamda yordamchi (qafas) hovuzlar.

Hovuz xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta’minlanganlik deganda uning gidrotexnik inshootlar (plotinalar, dambalar, suvni boshqaradigan qurilmalar, nasos stansiyalari, baliq ovlagichlar va h.k.) jihozlanish darajasi va sifati tushuniladi. Bunday inshootlar hovuz fondining aktiv qismi hisoblanadi va baliq mahsuldorligini oshirishning mavjud imkoniyatlarini belgilaydi.

Hovuz fondi texnik asbob-uskunalar bilan ta’minlanganligining iqtisodiy ko‘rsatkichlari hovuz maydoni birligining balans qiymati va inshootlar guruhi qiymatining hovuz baliqchiligidagi asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatidagi ulushi hisoblanadi. Hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta’minlanganligi inshootlar qiymatining asosiy ishlab chiqarish vositalari umumiy qiymatidagi ulushi bilan tavsiflanadi.

Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida baliqchilik xo‘jaliklarining tashkil etish, ekologik muvozanatni ta’minlash, iqtisodiy samarali faoliyatni tashkil etish hamda texnologik yangilanib borishini inobatga olgan holda ushbu jihatlarni o‘z ichiga qamrab olgan o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olishni taqazo etmoqda. Tadqiqotlarimiz asosida iqlim o‘zgarishlari sharoitida baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha guruhlash mumkin, deb hisoblaymiz (1-rasmga qarang).

Xususan, tashkiliy jihatlari sifatida baliqchilik xo‘jaliklarini tashkil etish suv ta’minoti va uning oqimi yo‘nalishiga bevosita bog‘liqligi hamda baliqchilik xo‘jaliklarini tashkil etishda suvning biologik holati (tozalik darajasi, tarkibi, mavsumiy oqimi)ga bog‘liqligi kabi xususiyalarni kiritish mumkin.

Eklogik jihatdan esa, baliqchilik xo‘jaligining quvvati suvning ekologik holatiga (me’yordan oshsa ifloslaydi, kam bo‘lsa suvni tozalaydi) bevosita ta’sirga egaligi hamda baliq chiqindilari suv havzasida biologik xilma-xillikning sog‘lomlashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kabi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, iqtisodiy jihatdan kichik hajmli baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulot natura yoki tovar mahsuloti sifatida foydalanish imkoniyati yuqoriligini hamda mehnat sig‘imi nisbatan kichikligi va ilmiy hajmdor mehnatga talabi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

O‘z navbatida texnologik o‘ziga xosligi sifatida baliqchilik xo‘jaligida baliq zoti kesimida suv sifatida va haroratiga talab o‘zgarib borishi, intensiv baliqchilik rivojlanishi sharoitida daryo balig‘iga talabning ortishi, mahsulot sifati etilgan baliq bilan emas balki pishirilgan holatida baho berilishi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Yuqorida qayd etilgan baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarmoq samaradorligini baholash muhim masalalardan sanaladi.

Xususan, hovuz fondidan foydalanish samaradorligini baholashning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, umumiy baliq mahsuldorligi va inshootlar qiymatining bir birligiga to‘g‘ri keladigan baliq mahsuloti bilan tavsiflanadi. Ya’ni, bir gektar yaylov hovuziga to‘g‘ri keladigan inshootlar qiymati ulushining oshishi bilan hovuz fondidan foydalanish samaradorligi o‘sadi.

Shuningdek, baliqchilik xo‘jaliklarida asosiy vositalar, ishlab chiqarish zaxiralari (materiallar) va aylanma mablag‘larlarning foydalilik darajasi ko‘rsatkichi ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, bunda ayniqsa, asosiy vositalar va ishlab chiqarish zaxiralardan samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilishi talab etiladi.

4 В. И. Радюк. Прудовый фонд рыбоводного предприятия. Главное управление образования, наука и кадров. https://refdb.ru/look/2680869.html



1-rasm: Mamlakatimizda iqlim o‘zgarishlari sharoitida baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari[5]

Baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

a) ishlab chiqarish zaxiralari (baliqlantirish materiallari, ozuqalar, o‘g‘itlar, yoqilg‘ilar, idishlar, ehtiyot qismlar, inventar va jihozlar, ov qurollari, baliqlarni kasalliklardan himoyalash vositalari);

b) tugallanmagan ishlab chiqarish (o‘stiruvdagi barcha baliqlar, jumladan, to‘ldiruvchi to‘dadagi baliqlar ham);

d) o‘zida tayyorlangan yarim fabrikatlar (sotish uchun mo‘ljallangan o‘stiruv va qishlov hovuzlaridagi baliqlantirish materiallari) va sotib olingan yarim fabrikatlar (lichinkalar, chavoq(malek)lar, bir yillik baliqlar).

Xo‘jalikning muoamaladagi aylanma mablag‘lari esa sotish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar va pul mablag‘lari: hisob-kitob scheti, v kassa, bankdagi boshqa schetlar.

Ushbu mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholashda baliqchilik xo‘jaliklarida kreditor qarzlarning kunlik aylanmasi va debitor qarzlarning kunlik aylanmasi ko‘rsatkichini hisoblash ham kerak bo‘ladi. Bunda kunlik aylanmani kamaytirish uchun kreditor va debitor qarzlarning miqdorini kamaytirish va muddatini o‘tkazib yubormaslik hamda mahsulot hajmi va foydani oshirish choralari ko‘rilishi lozim.

Shuningdek, baliqchilik xo‘jaliklarida qoplash koeffitsienti, ya’ni to‘lovga qobiliyatlilik ko‘rsatkichi yaxshi bo‘lishi, ya’ni ma’lum bir davrga (oy, chora, yil) to‘lov mablag‘lari jami summasi to‘lov mablag‘lari jami summasidan ko‘p bo‘lishi lozim.

Debitorlik qarzdorlikning pasayish ko‘rsatkichi ham baliqchilik tarmog‘i samaradorligini baholashning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Debitorlik qarzlari muddatini o‘tkazib yubormaslik, o‘z vaqtida to‘lanmagan debitorlik qarzlari uchun penya hisoblanishi va to‘lanishi natijasida ortiqcha xarajatlar qilinishining oldini oladi.

Shuningdek, baliqchilik tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari mavjud. Xususan:

Baliqchilik xo‘jaliklarida asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti oshib ketmasligi va yangilash koeffitsienti esa yuqoriroq bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun eskirib bo‘lgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va yangi, zamonaviy asosiy vositalarni sotib olib ta’minlash kerak bo‘ladi.

5 Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Baliqchilik xo‘jaliklarida mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, xodimlarni mutaxassisligi bo‘yicha ishga jalb etish, ularning malakasini oshirib borish hamda bajargan ish miqdori va sifatiga qarab haq to‘lashga katta e’tibor qaratilishi lozim. Shunda xodimlarning foydali ish koeffitsienti ham yuqori bo‘ladi.

Baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti hamda energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, bunda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va mahsulot qiymati tarkibida energiya xarajati ulushini kamaytirish choralari ko‘rilishi lozim.

Baliqchilik xo‘jaliklarida jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida innovatsion mahsulotning ulushi ko‘rsatkichi ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, mahsulot hajmida innovatsion mahsulotning ulushini oshirish choralari ko‘rilishi lozim. Bunda ilm-fan yutuqlari va ilg‘or axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda mahsulot ishlab chiqarishga e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Baliqchilik xo‘jaliklarida har bir ishchi hisobga olingan holda xodimlarni o‘qitish xarajatlari aniq belgilab qo‘yish va bunga amal qilish lozim. Xodimlar ishlashi uchun etarli shart-sharoitlarni yaratish kerak. Bu esa, kadrlar qo‘nimsizligi koeffitsientining oshib ketmasligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda bizning fikrimizcha, baliqchilik xo‘jaliklarida investitsiya dasturini pul ko‘rinishida ijro qilish indikatori, quvvatlarni ishga tushirish parametrlarini bajarish indikatori hamda eksport parametrlarini bajarish ko‘rsatkichlari ham muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Ma’lumki, mamlakatimizda “hovuz xo‘jaliklari ishlab chiqarish usuliga qarab: ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarga bo‘linadi”[6].

a) ekstensiv yo‘l o‘zgarmas ishlab chiqarish vositalariga asoslanib, bunda bir birlik ishlab chiqarish resurslariga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi asosan, texnologiya, texnik daraja va ishlab chiqari tuzilmasini o‘zgartirmasdan, ularning miqdor o‘sishi natijasida (suv havzalarini ko‘paytirish hisobiga) erishiladi.
b) intensiv yo‘l yangi, zamonaviy va samarali ishlab chiqarish vositalari, innovatsion texnologiyalar, shu jumladan asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan asosiy to‘dadagi baliqlarni (yangi zotlar, turlar va b.) qo‘llash, hamda mavjudlarini takomillashtirish va yangi baliq zotlarini yaratish, baliqlarni oziqlantirish, parvarishlash va saqlash darajasi takomillashtirishga asoslanadi.

Ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarda baliq yetishtirish b.f.d., professor B.G.Komilov tomonidan batafsilroq tasniflangan (1-jadval).

1-jadval: Intensiv usuldagi baliq yetishtirish texnologiyaning tasnifi[7]

№	Texnologiya	Tavsif	Samaradorlik
1	Ekstensiv usulda	Baliqlar asosan o‘g‘itlar bilan ta’minlab turiladigan tabiiy ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	0,13 kg/m^3
2	Yarim intensiv usulda	Baliqlar ham tabiiy, ham qo‘shimcha ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	0,2 kg/m^3
3	Intensiv usul	Baliqlar faqat sun’iy, to‘yimliligi yuqori bo‘lgan ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	40 kg/m^3 va undan ko‘proq

*b.f.d.,professor Komilov B.G. O‘simliklar va hayvonot olami genofondi instituti, ixtiologiya, gidrobioliya va akvakultura laboratoriya.

Demak, ishlab chiqarishning ekstensiv va intensiv usuli bir vaqtda mavjud bo‘lib, o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ma’lum bir davrlar oralig‘ida u yoki bu yo‘lning oshishi kuzatiladi. Ishlab chiqarish miqdor jihatdan o‘sib borgani sayin, uning zamirida asosiy omillar rivojlanishining sifatini o‘zgartirish manbalari vujudga keladi. Bunda ishlab chiqarish asosiy omillarining sifat o‘zgarishi jarayoni faollashadiki, birinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi yuqori, ikkinchidan, ishlab chiqarish resurslari (mehnat, moddiy, moliyaviy va tabiiy, eng avvalo hovuz fondi) balansining yo‘naltirilganligi yuqori.

Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining bu bosqichi o‘tish davri bo‘lib, bu davr davomida iqtisodiy o‘sishning ekstensiv manbalari o‘rnini intensivlari egallashi sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, baliqchilikni intensivlashtirish – bu ishlab chiqarish ob’ekti sifatida baliqning o‘zini, xo‘jalikning moddiy-texnika bazasini, yangi ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlanganligini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni hamda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va bir birlik ishlab chiqarish resurslari hisobiga yuqori sifatli mahsulotlar chiqishini ko‘paytirish maqsadida inson omilini faollashtirish asosida rivojlanib boruvchi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni.

Intensivlashtirishdan asosiy maqsad – bir gektar suv havzasidan minimal xarajat evaziga yuqori daromad olishdan iborat. Baliqchilik xo‘jaliklarida intensivlashtirish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi: ishlab chiqa-

6 Shohimardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish, “HILOL MEDIA” MChJ, Toshkent-2010, – B.26.
7 Komilov B.G., Xalilov I.I. Daryo forelini yetishtirish – O‘zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01.12.2014 y., – B.24.

rishni tashkil etishni va biotexnikani takomillashtirish; sun'iy ozuqalardan foydalanish; baliqlarni oziqlantirish, hovuzlar meliorativ holatini yaxshilash va o'g'itlashning yangi texnologiyalarini qo'llash; havzani baliqlantirish zichligini oshirish hisobiga baliq mahsuldorligini oshirish, har xil tur va yoshdagi baliqlarni birgalikda parvarishlash, biostimulyatorlarni qo'llash, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va boshqalar.

Aytish joizki, intensivlashtirish bir gektar suv havzasiga qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi, ammo ular faqat, agar baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sishi qo'shimcha xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lsagina samarali hisoblanadi. Ushbu maqsadda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish muhim bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ya'ni:

a) mehnat resurslarini tejovchi intensivlashtirish – ishchilar sonini kamaytirishga qaratiladi;

b) fondlarni tejovchi intensivlashtirish – (hovuz fondi, unga biriktirilgan yer maydoni, asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va h.k.) unumdorligi yuqoriroq mashinalarni qo'llashga yo'naltirilgan;

d) material tejovchi intensivlashtirish – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elekr energiyasi va boshqa resurslarni tejashga yo'naltirilgan.

Intensivlashtirish darajasi parvarishlanayotgan ob'ektga (iliq suv baliqlari, sovuq suv baliqlari), joylashgan yeriga, xo'jalik yuritish tizimiga (ekstensiv, yarimintensiv, intensiv) bog'liq. Baliqlarni yaylov texnologiyalari (ko'l tovar baliqchiligi, ayrim hovuz xo'jaliklari va b.) asosida parvarishlash ekstensiv yo'l, maxsus ozuqalar va moslamalar (industrial-iliq suvli xo'jaliklar) yordamida amalga oshirish esa intensiv yo'l hisoblanadi.

Umuman olganda, bizningcha baliqchilikni intensivlashtirish ko'rsatkichlarini quyidagi uchta guruhga bo'lib tavsiflash mumkin (2-rasmga qarang):

2-rasm: Baliqchilikda intensivlashtirish darajasiga baho berishda ko'rsatkichlar tizimi[8]

1-guruh. Intensivlashtirish darajasi ko'rsatkichlari. Ular intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya'ni hovuzlar maydonining bir birligiga to'g'ri keladigan mablag'lar va mehnat sarfining konsentratsiyalashuvi hisoblanadi.

2-guruh. Natijaviy ko'rsatkichlari. Bular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan solishtirmasdan tavsiflaydi. Natijaviy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: havzaga baliq qo'yish zichligi, baliq mahsuldorligi, baliqlar bosh sonining saqlab qolinishi.

3-guruh. Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari. Bular intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi va mablag' va mehnat sarflarining qaytimi (qoplanishi) to'g'risida xulosa chiqarishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, mahsulotlarnig o'sish sur'atlari, ularni ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishiga qaraganda yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Shundan kelib chiqqan holda tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini asosiy mezon bajarilishini e'tiborga olgan holda quyidagi uchta pog'onaga bo'lish asosida baholashni tavsiya etamiz (3-rasmga qarang).

8 Mualliflarning tadqiqotlari asosida tuzilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasi			
Nomi	Ko‘rsatkichi	Asosiy me’zoni	Erishiladigan natijalar
1-pog‘ ona (yarim intensiv)	qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo‘ladi	Hovuz maydoni kamayishi va chavoqlar bosh soni ortishi, bir yilda ikki marta hosil olinishi lozim	Sarflangan mablag‘lar baliqchilikda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlaydi
2-pog‘ ona (intensiv)	qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo‘ladi	Hovuz maydoni va baliq bosh soni kamayishi (mahsuldorlik ortishi), yiliga uch va undan ortiq hosil olinishi lozim	Bunda sarflangan mablag‘lar baliqchilik biznesini kengaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi
3-pog‘ ona (an’ anaviy)	qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan past bo‘ladi.	Hovuz maydoni ortadi, baliq bosh soni ortishi, yiliga bir marta hosil olingan holatda	Intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi

3-rasm: Baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasi[9]

1-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo‘ladi. Ya’ni, QS>QX. Bunda sarflangan mablag‘lar baliqchilikda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Ammo, keng tarmoqda tovar baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda biznesni kengaytirish imkoniyati past darajada bo‘ladi.

2-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo‘ladi. QS>QX. Bunda sarflangan mablag‘lar baliqchilik biznesini kengaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi;

3-pog‘ona. QS<QX. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan kam bo‘ladi va intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi.

Ma’lumki, baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlashtirish darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilish uslublarini ishlab chiqish muhim masalalardan sanaladi. Ular hovuz baliqchiligida intensivlashtirishning mohiyatini tavsiflaydi va quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

a) Foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan baliqchilikka mo‘ljallangan asosiy vositalarning yillik o‘rtacha qiymati va joriy ishlab chiqarish xarajatlari (eskirishsiz) , ming so‘m/ga:

$$I = (F_o + P_{za}) : S_v, (1)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, so‘m/ga;
F_o – asosiy vositalarning yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m;
P_{za} – joriy ishlab chiqarish xarajatlari (eskirishsiz), ming so‘m/ga;
S_v – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkich butun baliqchilik xo‘jaligining intensivlik darajasini tavsiflaydi va ishlatilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan moddiy va mehnat resurslarining konsentratsiyalashuv darajasini ko‘rsatadi. Chunki hovuzlar maydonidan foydalanish darajasi ularning ushbu resurlar bilan ta’minlanganligiga bog‘liq.

b) qo‘shimcha, samaraliroq ishlab chiqarish resurslari qiymatining ishlatilayotgan hovuzlar maydoniga nisbati , ming so‘m/ga:

$$I = DR_p : S_v, (2)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;
DR_p – qo‘shimcha ishlab chiqarish resurslari, ming so‘m;
S_v – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

9 Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Fermer xo‘jaligida foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha mahsulotlar o‘sishi (joriy yildagi 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati (eskirishsiz) va joriy ishlab chiqarish xarajatlari qiymati bilan oldingi yildagi xuddi shunday ko‘rsatkich o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi).

Fikrimizcha, intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham hisob-kitob qilinishi zarur. Bu ko‘rsatkichlar intensivlik darajasi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarining mohiyatini chuqurroq ochib beradi:

a) 1 ga ishlatilayotgan hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m/ga:

$$I = F_o : S_v, \quad (3)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;

F_o – asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m;

S_v – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkich intensivlik darajasini xo‘jalikning asosiy vositalar bilan jihozlanganligiga bog‘liq holda ifodalaydi. Hovuz maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar qiymatining o‘sishi bilan ulardan foydalanishning intensivlik darajasi ham oshadi. Asosiy vositalar aylanma mablag‘larning oqilona ishlatilishini ham ta’minlaydi, chunki ular bilan ishlab chiqarish jarayonida ajralmas bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatadi.

b) buyumlashgan va jonli mehnatning joriy ishlab chiqarish xarajatlari umumiy summasining ishlatilayotgan hovuz maydoniga nisbati, ming so‘m/ga;

$$I = P_z : S_v, \quad (4)$$

Bunda, I – baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;

P_z – baliqlarni parvarishlash uchun qilingan joriy ishlab chiqarish xarajatlari, ming so‘m;

S_v – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Shuningdek, intensivlashtirishning mohiyatini chuqurroq ochib beradigan hamda intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo‘shimcha ko‘rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: baliqlarning 1 s. qo‘shimcha o‘sishiga to‘g‘ri keladigan ozuqa xarajatlari; 1 s. mahsulotga to‘g‘ri keladigan jonli mehnat xarajatlari.

Hovuz baliqchiligida natijadorlik ko‘rsatkichlari aniqlash ham muhim hisoblanadi. Ular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan taqqoslamasdan tavsiflaydi.

Umuman olganda intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi hisob-kitob qilishda: joriy ishlab chiqarish xarajatlarining 100 so‘miga va yillik o‘rtacha bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan yalpi va tovar mahsulot, fond qaytimi va mahsulotning fond sig‘imi, ishlab chiqarish rentabelligi, foyda, mehnat unumdorligi, mahsulot birligining tannarxi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Baliqchilik tarmog‘ining biologik, tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini o‘rganish shuni tasdiqladiki, tarmoq samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri baliq mahsuldorligi hisoblanadi.

Demak, baliq mahsuldorligi – bu bitta vegetatsiya davrida baliqlarni tabiiy va sun’iy ozuqalar (omuxta yem va b.) bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo‘shimcha o‘sish og‘irligi bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi baliq mahsulotidan baliqlantirish materiallari (lichinkalar yoki chavoqlar, bir yilliklar, ikki yilliklar) og‘irligini chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi tabiiy ozuqa bazasi va sun’iy ozuqalar hisobiga olinadigan mahsuldorlikka bo‘linadi. Tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni faqat tabiiy ozuqalar bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo‘shimcha o‘sish og‘irligi hisoblanadi.

Hovuzlarning tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorligi bo‘yicha hozirgacha tasdiqlangan normativlar mavjud emas. Shu bois, soha mutaxassislarining ma’lumotlariga tayanamiz. Xususan, sohaning etakchi olimlari va mutaxassislari B. G. Kamilov, R. B. Kurbanov va T. V. Salixovlar yozishicha: “sun’iy hovuzlarda hech qanday tadbir olib borilmagan taqdirda ham unda xuddi ko‘ldagidek tabiiy jarayonlar kechaveradi. Baliq ovlasa ham bo‘ladi. Natijalar ham xuddi ko‘ldagidek – yiliga 15-40 kg/ga tashkil etadi”[10]. Shuningdek, S. Q. Xusenov, D. S. Niyozov va G‘. M. Sayfullayevlar yozishicha: “o‘rtacha tabiiy baliq mahsuldorligi, karp bo‘yicha 70-260 kg/ga”[11].

Shuningdek, sun’iy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni sun’iy ozuqalar (omuxta em va b.) bilan oziqlantirish hisobiga 1 ga hovuzdan olinadigan jami qo‘shimcha o‘sish og‘irligi

10 Kamilov B.G., Kurbanov R.B., Salixov T.V. Baliqchilik (O‘zbekistonda karp baliqlarini ko‘paytirish), Toshkent, “Chinor” ENK, 2003, – B.13.

11 Xusenov S.Q., Niyozov D.S. va Sayfullayev G‘.M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talablari uchun o‘quv qo‘llanma), “Buxoro” nashriyoti, 2010, – B.99.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

bo‘lib, bu ko‘rsatkich, yuqorida sanab o‘tilgan, baliqlarning tabiiy mahsuldorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar (vegetatsiya davrining qancha davom etishi; baliqlarning turlari; baliqlarning yoshiga; tabiiy ozuqa bazasining holati va undan baliqlarning oziqlanish darajasi; suv va tuproqning sifati hisobi) bilan birga, omuxta ozuqalarning miqdori va sifati; ozuqalarni tarqatish texnikasi va boshqa omillarning umumiy ta’siriga bog‘liq.

Shuningdek, texnologik jihatdan havuzga baliq qo‘yish zichligi ko‘rsatkichi ham muhim sanaladi. Baliq ishlab chiqarishning ma’lum darajada intensivlashtirilgan (meliorativ tadbirlar, ozuqa organizmlarining introduksiyasi, hovuzlarni o‘g‘itlash, baliqlarga oqsilga boy ozuqalar berilishi va b.) sharoitida hovuzning eng yuqori baliq mahsuldorligi va baliqning standart og‘irligiga erishiladigan baliq qo‘yilishi zichlashtirilgan deb ataladi. Hovuzga baliq qo‘yish zichligi intensivlashtirish darajasiga qarab normal holatdan 2-5 marta yuqori bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda hovuz baliqchiligida qo‘llanilayotgan intensivlashtirish tadbirlari bilan birga, havzaga bitta turdagi va yoshdagi baliqlarni qo‘yishni zichlashtirish, havzaga baliqlarni aralashtirib qo‘yish, qo‘shimcha baliqlar qo‘yish va polikultura hisobiga baliq mahsuldorligini oshirishga erishish mumkin.

XULOSA

Baliqchilik tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqni qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlaridan tubdan farq qiluvchi xususiyatlarini nazarda tutishni maqsadga muvofiq hisoblab, quyidagi xulosalarni shakllantiramiz.

1. Baliqchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan sanalib, uni samaradorligini baholash tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tarmoqning ushbu xususiyatlarini nazariy jihatdan mahalliy olimlarimizlarning tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratilgan. Bizning fikrimizcha, hovuz baliqchiligi muhim manba sanalgani holda, baliqchilikning maxsus hovuzlar yoki inshootlar (qafas va b.) da baliqlarning tez o‘sadigan turlarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan quyi tarmog‘i hisoblanadi.
2. Hovuz fondidan foydalanishning samaradorligi umumiy baliq mahsuldorligi va inshootlar qiymatining bir birligiga to‘g‘ri keladigan baliq mahsuloti bilan tavsiflanadi. 1 ga yaylov hovuziga to‘g‘ri keladigan inshootlar qiymati ulushining oshishi bilan hovuz fondidan foydalanish samaradorligi o‘sadi.
3. Baliqchilikni intensivlashtirish ko‘rsatkichlarini uchta guruhga bo‘lib tavsiflash tavsiya etilgan. Xususan, 1-guruh. Intensivlashtirish darajasi bo‘lib, intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya’ni hovuzlar maydonining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mablag‘lar va mehnat sarfining konsentratsiyalashuvi hisoblanadi; 2-guruh. Natijaviy ko‘rsat-kichlar bo‘lib, intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan solish-tirmasdan tavsiflaydi va 3-guruh. Intensivlashtirishning iqtisodiy sama-radorligi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgani holda, intensivlash-tirishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi va mablag‘ va mehnat sarflarining qaytimi (qoplanishi) to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini yaratadi.
4. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqot natijalariga ko‘ra tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini uchta pog‘onaga bo‘lish asosida baholash tavsiya etilgan: 1-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo‘ladi. Ya’ni, QS > QX. 2-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo‘ladi. QS > QX. Hamda 3-pog‘ona. QS < QX. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan kam bo‘ladi va intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. A. Sarsenboyev. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida), Monografiya, T.: “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2021. – B.141.
2. R.X.Ergashev, S.R.Xalikov, U.X.Beglayev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik, – T., “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 298 b.
3. I. A. Yunusov. Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2020. – 136 b.
4. Komilov B.G., Xalilov I.I. Daryo forelini yetishtirish – O‘zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01.12.2014 y., – B.24.
5. Xusenov S.Q., Niyozov D.S. va Sayfullayev G‘.M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talablari uchun o‘quv qo‘llanma), “Buxoro” nashriyoti, 2010, – B.99.
6. Shohimardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish, “HILOL MEDIA” MChJ, Toshkent-2010, – B.26.
7. Kamilov B.G., Kurbanov R.B., Salixov T.V. Baliqchilik (O‘zbekistonda karp baliqlarini ko‘paytirish), Toshkent, “Chinor” ENK, 2003, – B.13.
8. В.И.Радюк. Прудовый фонд рыбоводного предприятия. Главное управление образования, наука и кадров. https://refdb.ru/look/2680869.html

QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-IQTISODIY ASOSLARI VA DAVLAT SIYOSATI

Xalikov Suyun Ravshanovich
I.f.n., TDAU, “Agrologistika va biznes” fakulteti,
Agroiqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida davlat siyosatini yuritish bo‘yicha tahliliy mulohazalar keltirilgan bo‘lib agroinnovatsiyalarni moliyalashtirishni tartibga solishdagi asosiy yo‘nalishlar o‘rganilgan va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning manbalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiya, davlat siyosati, tarkibiy o‘zgarishlar, soliqqa tortish, bozor mexanizmi, faollik, ilmiy g‘oya, fundamental mulk, xorij tajribasi, konsepsiya, baholash, uslublar, strategiya, innovatsion diffuziya, moliyalashtirish.

Abstract: This scientific article provides analytical considerations for the implementation of state policy in the field of agriculture, studies the main directions of regulation of financing of agricultural innovations, and presents sources of financing for innovation activities.

Key words: Innovative technology, public policy, structural changes, taxation, market mechanism, activism, scientific idea, fundamental property, foreign experience, concept, evaluation, methods, strategy, innovation diffusion, financing.

Аннотация: В данной научной статье приведены аналитические рассуждения к проведению государственной политики в сфере сельского хозяйства, изучены основные направления регулирования финансирования агроинноваций, представлены источники финансирования инновационной деятельности.

Ключевые слова: Инновационные технологии, государственная политика, структурные изменения, налогообложение, рыночный механизм, активизм, научная идея, фундаментальное свойство, зарубежный опыт, концепция, оценка, методы, стратегия, распространение инноваций, финансирование.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi – bu qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlashda sohaga innovatsiyani joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste’moli 80-90 foizini tashkil qilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari importi yildan yilga kamayib, uning eksport hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning va mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda.

O‘tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi va muayyan intellektual hamda texnologik salohiyat shakllantirildi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V. Zombart, V. Mitcherlix, Y. Shumpeterlvrning ilmiy ishlarida ilmiy munozaralar keltirilgan bo‘lsada, innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y. Shumpeterning hissasi katta hisoblanadi. Y.Shumpeter kon’yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o‘zgarishlarning yangi omillarini ajratadi va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish;
- sanoatning mazkur tarmog‘i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o‘zlashtirish;
- xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan; monopollikni ta’minlash.

Muayyan yangilik darajasini baholash va konyuknktura siljishlarining amplitudasi va davomiyligini aniqlash uchun Y. Shumpeter tomonidan yangilik mezonini kiritdi va ushbu mezon mazkur turkumlashtirish asosini tashkil etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qishloq xo‘jaligi sohasidagi iinnovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan olib borilgan tahliliy ishlar ilmiy-tadqiqotlarda qo‘llaniladigan analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOHOKAMASI

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatimiz tomonidan mamlakat qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muamolarini aniqlamay va ularning yechimlarini topmay turib, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy muamolarni, ayniqsa, ishsizlikni oldini olish, aholi daromadlarini oshirish, iste’mol bozorini mahsulotlar bilan to‘ldirish va eksportni oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Yuqoridagi muommalarni ijobiy hal etgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqariladigan YAIMning 67 foizdan ko‘prog‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog‘ining ulushiga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o‘ynaydigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan kichik biznes korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish ishlarini amalga oshirishda yurtimizdagi siyosiy iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik har qanday sarmoyaning asosiy garovi va sharti bo‘lib hisoblanadi. Chet el sarmoyasi uchun innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi uchun qonuniy kafolat ham yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 25-avgustda qabul qilingan O‘RQ-392-sonli “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyulda qabul qilingan PQ-916-sonli “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda qabul qilingan PQ-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni kabi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarishning texnologik darajasini yanada oshirishda ilmiy izlanishlarni fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib ishlab chiqarishning texnologik darajasining yanada oshirilib, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh va sifatli innovatsion mahsulotlarni olib chiqishni ta’minlab, innovatsion ishlanmalardan foydalanish va ilmiy texnikaviy salohiyatni rivojlantirishda muhim dastur bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni mamalakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni yangilash va innovatsion texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha uzluksiz jarayonning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bu farmonda dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish borasida qiymati 30 million AQSH dollaridan ziyod va chet ellik investor ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan loyihalar bo‘yicha ishlab chiqarish maydoni tashqarisida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish budjet mablag‘lari hamda ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shu maqsadda, mamlakat qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar barqarorligini davlat tomonidan tartibga solishda uning rivojlanishini ta’minlash va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvini mustahkamlashda milliy iqtisodiyotimizga ichki va xorijiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, hukumatimiz tomonidan ichki va chet el investitsiyalari uchun mamlakatimizda yetarli darajadagi shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi kunda xorijiy investorlarning o‘z mablag‘larini mamlakat qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida davlat qonunlari asosida qo‘llab-quvvatlanishi maqsadida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;

- ko‘rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga berilgan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi va imkoniyati borligi;
- bojxona imtiyozlarini mavjudligi;
- xorijiy investorlar mulklari va ularning o‘zlarini xavf-xatarlardan sug‘urtaviy muhofaza qilish tizimi yaratilgani.

Shu jumladan, hozir qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilgan korxonalarda bozor mexanizmiga yunaltirilgan innovatsion faoliyatni shakllantirish va unda davlatning roli va maqsadlarini belgilash, istikbolli rejalar tuzish alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion sohaga taalluqli uslublar hamda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalangan holda ilg‘or innovatsion texnika va texnologiyalarni jalb qilish korxonalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha imkoniyatlar yaratilib, davlat buyurtmasi hajmini oshirishga yordam berilmoqda. Shu bois, korxonalarda innovatsion boshqaruvni qo‘llash zarurati mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Jumladan, uning asosiy iqtisodiy samarasini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- korxonalardagi innovatsion faollikni oshirish uchun agrar, ilmiy va amaliy tashkilotlarini birlashtirish;
- olimlarning o‘z tadqiqotlarini amaliyotga tatbiq qilishda faollik ta’sir ko‘rsatadi;
- istiqbolli, ilmiy-texnika ishlanmalaridan tuman va mintaqa miqyosida qishloq ho‘jalik oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni istiqbolli darajalarini ta’minlash;
- innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar ilmiy muassalar va ishlab chiqarish asosida rivojlantirish;
- tuzilmalarining o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish;
- innovatsion texnologiyalar hisobini olib borish, ulardan foydalanish jarayonnini tahlil qilish, bu boradagi ehtiyojlarning monitorongini o‘tkazish va shu asosda keyingi ilmiy-texnika ishlanmalarini rejalashtirishga imkon berish;
- tarmoqning rivojlanish yunalishlarini muvofiqlashtirish, ilmiy -tadqiqot ishlari buyicha faoliyat va ularning ustivorligi strategiyasini ishlab chiqishga ko‘maklashish;
- qishloq ho‘jaligi ishlab chiqarishni texnologik darajasining ko‘tarilishi uchun muhim omilligini isbotlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo‘lgan 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomasidagi fikriga ko‘ra, “Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmaslik bo‘yicha qat’iy nazorat o‘rnatishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko‘payib borayotgani bizni albatta hushyorlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo‘qolib borayotgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo‘lga qo‘yish, sohaga ilm-fan yutuqlari, innovatsion ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur”[1].

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasining innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun qulay muhit yaratilgan. Bularning hammasi, albatta, davlatimiz tarraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatda murakkablik va yuqori risk o‘zida xarakterlanadi. Buning uchun innovatsiyada potensialni va ichki rag‘batlantirishlar mavjudligi yetarli emas. Bu yerda hal qiluvchi harakat kuchi sifatida tashqi rag‘batlantirishlar va davlat ko‘magi bo‘lishi mumkin. Davlatning faol ko‘mak muhiti, avalambor, “Fundamental fan” fazasi hisoblanadi. Shunday ekan, ilmiy g‘oyalarni qishloq xo‘jalik faoliyatida ham keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tajribalar bo‘yicha innovatsiyaviy jarayon subyektlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: novatorlar, dastlabki retsipiyentlar, dastlabki ko‘pchilik va orqada qolganlar. Novatorlardan boshqa barcha guruhlar imitatorlar qatoriga kiradi. Y. Shumpeterning fikricha, yuqori daromadlarni kutish innovatsiyalarni qabul qilishning harakatlantiruvchi kuchidir. Innovatsiya diffuziyasining dastlabki bosqichlarida, xo‘jalik subyektlaridan hech biri raqobatdosh innovatsiyalarning nisbiy ustunliklari to‘g‘risida axborotga ega bo‘lmaydi. Ammo, xo‘jalik subyektlari, bozordan siqib chiqarilishi xavfi ostida, muqobil yangi texnologiyalardan bittasini joriy etishga majbur bo‘ladi. Innovatsiyalarni joriy etish har bir tashkilot uchun qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish holatlarida, har bir subyekt tomonidan qaror qabul qilishning muhim mezonlaridan biri bo‘lib, muqobil texnologiyalar va oldingi retsepiyentlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni taqqoslash xizmat qiladi. Ammo bunday axborotga ega bo‘lish juda ham qiyin, chunki bu korxonalarning bozordagi raqobat o‘rni bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun ham, har bir korxona, faqatgina cheklangan miqdordagi korxonalar tajribasi bilan tanishgan bo‘lishi mumkin. Aynan shu holat bozor iqtisodiyotida qaror qabul qilish va innovatsiyalar diffuziyasi jarayonlarining noaniqligini belgilaydi. Noaniqlikning yana bir sababi eng yangi texnologiyalar bilan bog‘liq. Diffuziyaning dastlabki bosqichlarida ularning potensial daromadliligi noaniq bo‘ladi. Noaniqlik, innovatsiyalarni joriy etish

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 22.12.2017-yil.

va ulardan foydalanish tajribasini yig‘ib borish bilan yo‘qqa chiqarilishi mumkin. Ammo yangi texnologiyadan foydalanish noaniqligi va tavakkalchiligi pasayishi bilan uni bozorga kirib borish salohiyati ham yo‘qolib boradi va foydaliligi tushadi. Har bir innovatsiyadan qo‘shimcha foyda olish imkoniyati vaqtinchalik va uni tarqatish chegarasi yaqinlashishi bilan pasayib boradi.

Demak, innovatsiya diffuziyasi imitatorlar strategiyasiga ham, birinchi retsepiyentlar miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi. Tadbirkorlar yangi texnologik imkoniyatlarni ochmoqda, ammo ularni amalga oshirish imitatorni tanlashga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich tashkilotlari soni ko‘p bo‘lgan texnologiyaning bozorda yetakchi bo‘lishi ehtimoli ham katta bo‘ladi. Albatta, texnologiyalar raqobati natijasi bozordagi barcha agentlar tanlovi bilan aniqlanadi, ammo dastlabki retsepiyentlarning ta’siri baribir nisbatan kattaroqdir. Innovatsiyalarning tez tarqalishi uchun rivojlangan infratuzilma mavjud bo‘lishi kerak. Innovatsiyaviy jarayon siklik xarakterga ega bo‘lib, texnikaning turli sohalaridagi yangiliklarning xronologik tartibda paydo bo‘lishi buni namoyon qiladi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish mumkinki, innovatsiya – bu shunday texnik-iqtisodiy siklki, unda tadqiqot va ishlanmalar sohasi natijalaridan foydalanish, ushbu soha faoliyatiga teskari ta’sir ko‘rsatuvchi texnik va iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keladi. Innovatsiyaviy jarayon faoliyati rivojlanishi sari alohida qismlarga bo‘linadi va mehnat taqsimoti natijasida alohida chiqarilgan funksional tashkiliy birliklar ko‘rinishida moddiylashadi. Innovatsiyaviy jarayonning iqtisodiy va texnologik ta’siri yangi mahsulot yoki texnologiyalarda qisman o‘z aksini topadi. Innovatsiyaviy tizim va uning tarkibiy elementlari texnologik darajasini va bu bilan innovatsiyalarga moyilligini oshirishda iqtisodiy va texnologik ta’sirning o‘rni kattaroqdir. Loyihalarni davlat tomonidan tartibga solishda boshqarishning muhim tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalari yoki investorlarni izlash, moliyaviy mablag‘larni boshqarishni ta’kidlab o‘tish joiz.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Quyidagi grafikda so‘nggi yillarda o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm: O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni (2010-2016-yillar)

Qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirishning tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari:

- texnik innovatsiyalarni tez va samarali joriy etish zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish;
- ilmiy-texnik salohiyatni saqlash va rivojlantirish;
- ilm va texnikaning kadr salohiyatini saqlab qolish uchun zaruriy moddiy sharoitlarni yaratish, kadrlarni chetga chiqib ketishini oldini olish;
- innovatsiyalar soni va samaradorligini oshirish, buning hisobiga insonlar turmush tarzini yaxshilash.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida innovatsiyaviy faoliyatni investitsiyalash uchun foydalaniladigan asosiy moliyalashtirish manbalari quyidagilar hisoblanadi.

1. Shaxsiy mablag‘lar hisobiga tashkil topgan moliyaviy resurslar:
- daromadlar (tovar va ilmiy-texnik mahsulotni sotishdan, moliyaviy operatsiyalardan olingan daromad);
- tushumlar (amortizatsion ajratmalar, mulkni sotishdan tushumlar, mustahkam passivlar, maqsadli tushumlar va h.k.).

2. Budjet ajratmalari:
- respublika budjeti mablag‘lari (masalan, fan va texnikani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar);
- loyihani shahar yoki viloyat budjetidan moliyalashtirilishi.

3. Qayta taqsimot bo‘yicha kelib tushuvchi moliyaviy mablag‘lar:
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividend va foizlar;
- tarmoq va hududiy tuzilmalardan kelib tushadigan moliyaviy mablag‘lar.

4. Kredit tashkilotlari yoki tashqi investorlar mablag‘lari:
- kredit investitsiyalari;
- homiylar mablag‘lari;
- mahalliy va xalqaro jamg‘armalar, hamda ilmiy-texnologik rivojlanish dasturlarining mablag‘lari.

Innovatsiyaviy loyihalarga, shaxsiy va budjet mablag‘laridan tashqari, investitsiya kiritishning quyidagi manbalari keng tarqalgan:
- tijorat investitsiyaviy banklari;
- investitsiyaviy va venchur jamg‘armalari;
- innovatsiyaviy jamg‘armalar;
- ilmiy-tadqiqotlar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro dasturlar;
- xalqaro-xayriya jamg‘armalarini o‘z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi bugunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Bunda qishloq xo‘jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning o‘ziga xos shart-sharoitlari hamda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bog‘liq muammolarini hisobga olgan holda innovatsion boshqaruvni yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida” 2015-yil 25-avgustdagi O‘RQ-392-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015–2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 1-avgustdagi PQ-5495-sonli Farmoni.
6. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 22.12.2017-yil.
7. Файзиев О. Социально-экономическое значение возделывания масличных культур в Узбекистане / Proceedings of the II nd International Scientific and Practical Conference “Modern Scientific Achievements and Their Practical Application (October 20-21, 2015, Dubai, UAE)”. – Dubai, 2015. – № 3(3), Vol.3. – P.10-11.
8. Файзиев О.Р. Потребность населения в растительном масле в условиях Узбекистана и методические аспекты её определения // “Экономика и предпринимательство”. – Москва, 2017 г., №12 (ч.2) (89-2). (Vol. 11 Nom. 12-2) 305-309.
9. Fayziyev O.R. Aholini o‘simlik moyiga bo‘lgan talabini aniqlash / “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni”ga bag‘ishlangan “O‘zbekiston yoshlari: Agrar soha rivojida mening hissam” mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent. 2017. B. 144-148.
10. Fayziev O., Abdug‘anieva S., Yo‘ldoshboev A. (2022). Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va xususiyatlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(6), 79–81. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/2387
11. Fayziyev O., Aminboyeva D. (2023). Qishloq xo‘jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(5), 164–167. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/14951

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA ILMIY YONDASHUVLAR

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, hudud, ilmiy qarashlar, globallashuv, siyosat, iqtisodiyot.

Abstract: This article contains thoughts and comments about scientific approaches to the socio-economic development of the regions of the Republic of Uzbekistan.

Key words: region, territory, scientific views, globalization, politics, economy.

Аннотация: В данной статье собраны мысли и комментарии о научных подходах к социально-экономическому развитию регионов Республики Узбекистан.

Ключевые слова: регион, территория, научные взгляды, глобализация, политика, экономика.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasidagi hududlararo tengsizlikni baholash ham zarur, chunki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish islohotini amalga oshirish markazsizlashtirishning afzalliklari va qiyinchiliklari o‘rtasidagi muvozanatni topish muammosini yanada kuchaytiradi, bu qarama-qarshiliklar ehtimoli bilan ifodalanadi, joylarda tanlash erkinligini ta’minlaydi. Ijtimoiy tenglik, mahalliy muammolarni hal qilishda fiskal avtonomiya va shaffoflikni, boshqaruvning turli darajalarini muvofiqlashtirish zarurligini hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning mustaqilligini talab qiladi. Ular o‘rtasidagi farqlar aholi farovonligi darajasida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi haddan tashqari farqlar hududlar rezidentlarining iqtisodiy faollik imkoniyatlariga, ularning mehnat salohiyatidan foydalanish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun tafovutlar ta’sirini O‘zbekiston Respublikasida hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning belgilovchi xususiyati, deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli darajada, xususan, juda yuqori iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslanmagan hududdan unumli foydalanishning turli darajalari (birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi), ulkan maydonlar va binolarning zichligi, ekologik toza kichik maydon hamda sanatoriy-kurort va tarixiy madaniy hududlarning katta qismi, foydalanish qonuniy cheklangan va alohida himoya rejimini talab qiladigan yirik hududlarning mavjudligi kabi farqlar bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning ichki ehtiyojlarga javob bermaydigan tarmoq va hududiy tuzilishini meros qilib oldi. Ayrim tarmoqlar hajmi jihatidan gipertrofiyaga uchragan, chunki xom ashyo manbalari davlatdan tashqarida qolgan (kimyo, neft-kimyo) yoki sotish bozorlarining bir qismi (metallurgiya, mashinasozlik) yo‘qolgan. Boshqa tarmoqlar rivojlanmagan, ishlab chiqarishning bir qismi xo‘jalik majmuasidan butunlay chiqib ketgan.

Mustaqillikning dastlabki va 2000-yillarning boshlarida O‘zbekiston Respublikasida yalpi mahsulotning deyarli 80 foizini tashkil etgan ochiq texnologik sikllarga ega bo‘lgan tarmoqlar import qilinadigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlarning muhim hajmini, shuningdek, mahsulotlarni sotish bozorlaridan tashqarida qidirishni talab qildi. Natijada hududiy xilma-xillik kuchaydi. Biroq, o‘zaro ta’sirning, mumkin bo‘lgan ta’sirining asosiy sharti aynan mamlakat iqtisodiy kompleksini tashkil etuvchi mintaqalarning xilma-xilligida yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining butun davrida hududiy iqtisodiyotning reproduktiv jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari natijasida ikkita belgilovchi tendensiya xarakterli bo‘lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining notekisligi, bu esa tez kuchayib, ishlab chiqarish, investisiyalar, inson va moliyaviy kapitalning yetakchi hududlar hududida konsentratsiyasiga hamda autsayder mintaqalarning (tushkun muammoli

hududlar) paydo bo‘lishiga olib keldi; ayrim hududlarning anklav[1] iqtisodiyotining kuchayishi va boshqalarining asta-sekin pasayishi; asosan, tashqi savdo bozorlariga yo‘naltirilganlik va global vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan mahalliy iqtisodiy faoliyat markazlarini shakllantirish kabi muammolarni hali ham davlat hududiy siyosatining an’anaviy vositalari bilan bartaraf etib bo‘lmayapti.

To‘g‘ri ta’kidlanganidek, hudud iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirishlar tendensiyasi va strategiyasini aniqlash sohasida ular o‘rtasidagi hududiy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tenglashtirish muammolari majmuasi haligacha hal etilmagan [1]. Farqlarni tartibga solish ko‘pincha mintaqalar va jamoalarning strategik rivojlanishini ta’minlash omillaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu fikrni tasdig‘i sifatida, ayni paytda, tafovutlarni tenglashtirish emas, balki ularni tartibga solish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun foydalanish zarurligini yana bir bor ta’kidlaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada xorijlik olimlar Acharya A. [2], Baykov A. A. [3], Fawcyet L. [4], Haas E. [5], Hettne B. [6], Katzenstein P. J. [7], Kuznetsov D. A. [8], Lagutina M. [9, 10], Mikhaylenko E. [11], Mitrany D. [12], Söderbaum F. [13, 14], Telo M. [15] va bosqalarning ilmiy ishlari metodlogik asos sifatida xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamaonaviy iqtisodiy adabiyotlar, sharhlar, xalqaro ekspertlar tomonidan xalqaro tashkilotlar uchun tayyorlangan ma’ruzalar tahlili asosida statistik ma’lumotlar, milliy va mintaqaviy innovasion tizimlarni shakillantirishda dunyo mamlakatlari aniqlangan inklyuziv o‘sishning mohiyati, roli, ahamiyati, istiqbollari va xususiyatlarini o‘rganish.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarining ijtimoiy-sanoat, innovasion-texnologik va tabiiy-texnogen rivojlanishi muammolarini tahlil qilib, “agar hududlar mavjudligining tabiiy-iqlim sharoitlari, ularning xom ashyo va foydali qazilmalar bilan ta’minlanishi an’anaviy omil bo‘lsa, hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish, keyin ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tekisligida mintaqaviy rivojlanishning notekisligi yoki differensiatsiyasi ilmiy jihatdan muvozanatli davlat siyosatini amalga oshirish orqali o‘zgartirilishi mumkin. Hududlar rivojlanishidagi tafovutlar uchta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1) ko‘rsatkichlarning miqdoriy o‘zgarishi, ularning rivojlanish sur’atlarining farqlari;
2) mintaqaviy rivojlanish institusional muhitining notekis o‘zgarishi;
3) tarkibiy o‘zgarishlar (mulkchilik shakllari nisbatining o‘zgarishi).

Ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi farqlarning oqibatlari o‘rtasida sezilarli farq mavjud. O‘rganilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, mamlakat ichidagi mintaqaviy tafovutlar kuchayib, ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, ishsizlarning boshqa rivojlangan hududlarga ko‘chishi, ijtimoiy keskinlikning kuchayishi, tushkunlikka tushgan hududlarda investisiya faolligining pasayishi, qashshoqlikning kuchayishi, sifatdan foydalanishning cheklanganligi, ta’lim xizmatlari va sog‘liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi nomutanosiblik [16].

M. Sh. Karimi va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘sib borayotgan mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar va hududiy parchalanishning quyidagi salbiy oqibatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning tarqoq, situasion xarakterining kuchayishi;
- davlatning uzviy va samarali makroiqtisodiy tartibga solishni amalga oshira olmasligi;
- iqtisodiy resurslar va innovatsiyalarning hududiy tarqalishini oldini olish;
- texnologik innovatsiyalarning zaif tarqalishi;
- makroiqtisodiy nomutanosiblikni chuqurlashtiradigan iqtisodiy o‘sishning ekstensiv omillarining ustunligi, uning namoyon bo‘lishi inflyasiya jarayonlarining tezlashishi;
- institusional innovatsiyalarning zaif hududiy tarqalishi, bu aslida tormozlashni, institusional islohotlarni sekin va noaniq amalga oshirishni anglatadi [17], deb ta’kidlaydilar.

Hududiy tafovutlar va ularning uzoq vaqt davomida hal etilmagani tufayli yuzaga kelgan bunday o‘tkir ijtimoiy muammolarni bartaraf etish zarur. Iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi farqlar iqtisodiy yaxlitlikka tahdid solayotganini aniqlab, biz shuni qo‘shimcha qilamizki, ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi farqlar mintaqaviy rivojlanishning salbiy hodisasi bo‘lib, hayot sifatini pasaytiradi va, albatta, inson taraqqiyoti va uni yengib o‘tish kerak. Shuning uchun ham hududlararo tafovutlar masalasi ilmiy adabiyotlarda faol muhokama qilinmoqda. Bu borada, olib borgan tadqiqotimizning fazoviy farqlarni miqdoriy baholash, konvergensiyani tekshirish, minta-

1 Umuman olganda, anklav va eksklav atamalari bir davlat tarkibiga kiruvchi, lekin boshqa bir davlat maydonlari bilan o‘ralgan hududlarga nisbatan ishlatiladi(muallif).

qalararo farqlar omillarini aniqlash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu tadqiqot kontekstida eng qiziqarli birinchi yo‘nalish - fazoviy farqlarni miqdoriy baholash.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarda mualliflar mintaqalararo farqlar dinamikasini geterogenlikning statistik xususiyatlaridan foydalangan holda o‘zgaruvchanlik koeffisiyenti, Jini va Teyl indekslari [18], qutblanish indekslari [19] dan foydalanib tahlil qiladilar. Ta’kidlash joizki, nomutanosibliklarning tahdidli tabiatiga qaramay, hududiy rivojlanishdagi farqlar davlatning mintaqaviy siyosatining tartibga soluvchi ta’siriga deyarli ta’sir qilmaydi. Demak, batafsil tadqiqot va tasniflash, shuningdek, hududiy farqlarni tartibga solish usullarini ishlab chiqish zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Hududiy rivojlanishdagi farqlarning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tuzatilishi kerak.

Shunday qilib, hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi farqlar takrorlanadigan, uzoq davom etadigan va tahdidli hodisadir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi farq uzoq vaqt davomida kuzatilib kelinmoqda. Hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy dinamikasidagi o‘zgarishlar farqlar hajmiga ta’sir qilmaydi. Hatto O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi ham mintaqaviy farqlarning qisqarishiga olib kelmaydi. Iqtisodchilar M.M.Boris, E.K.Polgar va Zlate A.Andlarning ta’kidlashicha, “Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qator ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashishi to‘xtatilgani yo‘q, bu iqtisodiy makonda parchalanishni saqlab qolish omili bo‘lib qolmoqda” [20].

Hatto inqiroz hodisalari ham uning hajmiga ta’sir qilmaydi. Ushbu holatni 2020-yilda kutilmaganda yuzaga kelgan Toj virus pandemiya sharoitida nafaqat hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning inqirozgacha bo‘lgan kamchiliklarini saqlab qoldi, balki yangi muammolarni, xususan, ko‘rsatkichlarning nomutanosibligining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bunday tendensiyaning oldini olish uchun o‘z vaqtida olib borilgan islohotlar hozirgi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari rivojlanishidagi turli tendensiyalar aksariyat ko‘rsatkichlar bo‘yicha hududlararo tengsizlikni biroz bo‘lsada kamaytirishga imkon berdi.

Biroq bunday pasayish yetakchi va orqada qolgan hududlarning yaqinlashuvi asosida sodir bo‘ldi, ya’ni inqiroz eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan hududlarga ko‘proq ta’sir ko‘rsatdi. Boshqa tomondan, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar yana o‘sdi va o‘sishda davom etmoqda. O‘sib borayotgan nomutanosiblik hududlar maqomlarining mustahkamlanishiga va ularning yuqori, o‘rta va kam rivojlangan hududlarga (yoki yaxshi ta’minlangan hududlar, tranzit mintaqalar va orqada qolgan hududlar) bo‘linishiga olib keladi, turli hududlarda fuqarolarning turmush darajasidagi farqlarning kuchayishiga olib keladi. Bunday salbiy tendensiyalar mamlakatning iqtisodiy yaxlitligiga tahdid soladi, alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanishining anklav xarakterini shakllantiradi va ularni o‘z muammolarini hal qilishga qaratadi.

Belgilangan omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy farqlar masalalarini o‘rganishning dolzarbligini yana bir bor aniqlaydi. Hududiy farqlar hodisasini chuqurroq tushunish uchun ushbu mavzuni o‘rganishda qo‘llaniladigan konseptual va terminologik apparatni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. “Hudud” tushunchasiga boshqa mualliflar tomonidan berilgan ta’riflarni tahlil qilaylik:

1-jadval: “Hudud” tushunchasining ilmiy yondashuvlari va talqini

Ilmiy yondashuv	Mualliflar	Konsepsiya mazmunini aniqlash
Geografik	L.Djeyms, D.Martin [21]	Hudud — ma’lum bir o‘ziga xos bir xillik bilan ajralib turadigan chegara asosida ajratilgan makon.
	V.A.Popovkin [22]	Hudud — bu inson tomonidan yaratilgan tabiiy muhit, moddiy muhit, shuningdek, jamiyatning yaxlitligi
	B.E.Alayev [23]	Boshqa hududlardan ajralib turadigan va uni tashkil etuvchi elementlarning birligi, o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligiga ega bo‘lgan hudud.
Ma’muriy	D.V.Dolenko [24]	Yuqori darajada tashkil etilgan va ishlab chiqarish hududiy tizimiga ega bo‘lgan davlat kelib chiqishining ma’muriy-hududiy birligi.
	S.A.Romanyuk [25]	Saylangan hokimiyatga, huquqiy mustaqillikka va o‘z byudjetiga ega bo‘lgan submilliy darajadagi ma’muriy-hududiy birlik.
	A. A.Chub [26]	Davlat hududining turli belgilar majmui bilan ma’muriy birlikka ajratilgan, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun ongli ravishda yo‘naltiriladigan va muvofiqlashtiriladigan qismi.
Iqtisodiy	M.Z.Bor [27]	Hudud — proporsionallikning buzilishi nomutanosiblik yoki nomutanosiblikning paydo bo‘lishiga olib keladi.
	M.M.Nekrasov [28]	Tabiiy resurslar majmuasini shakllangan va istiqbolli ijtimoiy infratuzilma bilan birlashtirishga asoslangan bir xil tabiiy sharoitlarga ega bo‘lgan davlat hududi.
	L.O.Petkova [29]	Geografik sharoiti va tabiiy resurslarga ixtisoslashuvi bilan ajralib turadigan mamlakat xalq xo‘jaligi majmuasining ma’lum qismi.

1-jadval ma'lumotlaridan o'rinib turibdiki, "Hudud" tushunchasining ko'p qirraliligi uni tasniflashda yondashuvlarning xilma-xilligini belgilaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, eng maqbul tasnif, moliyaning hozirgi holati, ijtimoiy va tabiiy muhit, geografik va tabiiy xususiyatlar hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi belgilarga asoslanadi.

Birinchi tasniflash belgisi — iqtisodiy rivojlanish darajasi - hududlarning yuqori darajada rivojlangan mintaqalar, shakllanayotgan, rivojlanayotgan va rivojlanmagan hududlarga bo'linishini belgilaydi.

Ikkinchi tasnif belgisi — moliyaning mavjud holati, ijtimoiy va tabiiy muhit — bozor munosabatlarining rivojlanishi, mintaqa iqtisodiyotining ma'lum bir sohasidagi inqirozli vaziyat, butun iqtisodiy kompleksning, alohida tarmoqlarning yoki aholi hayot sohalarining tushkunligi ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Uchinchi tasnif belgisi — geografik va tabiiy xususiyatlar bo'yicha an'anaviy ravishda qoloq, tushkunlikka tushgan, an'anaviy rivojlangan (sanoat, industrial-agrar, agrar, xomashyo), milliy ahamiyatga ega resurslarga ega yoki dasturiy jihatdan rivojlanayotgan hududlarga bo'linishini belgilaydi. Hududlar turlarining xilma-xilligidan va ularning tasnifidan qat'i nazar, ularning rivojlanishidagi barcha quyi tizimlar yagona maqsadga — tabiiy muhitni saqlab qolgan holda hudud aholisining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga bo'ysundirilishi kerak [30].

Bizning fikrimizcha, "hudud" tushunchasiga hududlarni strategik tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'muriy-boshqaruv omillari va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda asosini tashkil etuvchi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va bunday ko'rsatkichlardagi farqlarni baholash uchun mamlakatning iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra ajratilgan qismlari, deb ta'rif berish o'rinli. Hududiy rivojlanishning dastlabki g'oyasini ta'minlovchi mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy atamalaridan biri bu iqtisodiy makondir. Bu juda ko'p obyektlar va ular orasidagi aloqalarni o'z ichiga olgan zich hudud: aholi punktlari, korxonalar, transport tarmoqlariga ega hudud.

Iqtisodiy fazo zichlik (hudud birligiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar), joylashuv (bir xillik, farqlash ko'rsatkichlari), bog'liqlik (kosmos elementlari orasidagi iqtisodiy aloqalar) xarakteristikalari va parametrlar majmui bilan belgilanadi. Umumiy iqtisodiy siyosat vektori ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning sanoatdan postindustrial modeliga o'tishga, barqaror rivojlantirish, iqtisodiy tizimning mintaqaviy elementlarini global integratsiya jarayonlariga kiritish darajasini kuchaytirish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmlarini yoyishga qaratilgan. Bunday sharoitlar yuqori darajadagi o'z-o'zini rivojlantirish potensialini, mintaqaviy makondan samarali tashkil etish va tuzilmani talab qiladi.

Bunday omillar hududiy tafovutlar masalasini ko'rib chiqishda ijtimoiy-iqtisodiy makonni shakllantirishning turli holatlari va shartlarini hisobga olishni taqozo etadi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayot maydoni sezilarli darajada farqlangan tuzilishga ega.

Shu bilan birga, hududiy farqlarni ishonchli o'rganishning muhim sharti hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari va ularning tartibga solinish qobiliyati hamda yig'indisi kontekstida "farq" umumiy tushunchasini eng to'liq tavsiflovchi tushunchani aniqlashtirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik mualliflar mintaqaviy farqlarning namoyon bo'lishini tushuntiradigan konsepsiyani aniqlamaydilar.

Xususan, B.L.Lavrovskiy va V.V.Masakovlar [31] "assimetriya" va "disarmoniya" tushunchalaridan foydalanadilar. V.M.Leksin va O.M.Shvesovlar "nomutanosiblik" va "differensiatsiya" [32] tushunchalaridan foydalanadilar, O.A.Granberg [33] o'sib borayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarining differensiatsiyasi haqida yozadi, E.A.Postnikova va E.O.Shilsin [34] ham differensiatsiya jarayonlarini ko'rsatadi, E.B.Kibalov va boshqalar [35] "nomutanosiblik" tushunchasi bilan ishlaydi.

Ya'ni, bir iqtisodiy hodisani turli tushunchalar, deb atash mumkin. Bu esa tekshirilayotgan jarayonlarning mohiyatini yetarlicha chuqur tushunmaslikka, turli tadqiqotchilarning ushbu masalaga yondashuvlarining nomuvofiqligiga, sabablar va tafovutlar salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda ularni boshqarishga yondashuvlarni turlicha tushunishga olib keladi. Xususan, assimetriya deganda, obyekt (obyektlar) vositalari va parametrlarining o'xshash tizimlar uchun xossa va parametrlarning qandaydir standart, me'yor, normal yoki tipik holatidan chetga chiqishi (yoki farqi) tushuniladi.

Me'yor yoki standart assimetriya o'lchov shkalasining birligidir. Differensiatsiya — bu davlatning alohida hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari o'rtasidagi farqlarning shakllanishi jarayoni va natijasi, u ma'lum belgilarga ko'ra hududlarni ajratishdir. Nomutanosiblik deganda butun iqtisodiyotda yoki uning alohida tarmoqlarida proporsiyalarning buzilishi tushuniladi.

Ular muayyan tarmoqlarga, ijtimoiy ishlab chiqarishning turli tomonlari va qismlariga taalluqli bo'lishi mintaqaviy, mahalliy xarakterga ega bo'lishi, noto'g'ri iqtisodiy siyosatning natijasi bo'lishi mumkin, bozor mexanizmining ishlamay qolishi, iqtisodiy tizimning o'zini deformatsiyalanishi, tabiiy omillarning ofatlar, hosilning nobud bo'lishi, ma'lum resurslarning yetishmasligi va boshqalar natijasi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda "nomutanosiblik" atamasi ba'zan quyidagi umuman olganda, hududlar o'rtasidagi va ichidagi daromadlarning nomutanosibligi, turli hududiy ko'rsatkichlar bo'yicha u yoki bu tarzda daromadlarni yaratish, jamg'arish va taqsimlash bilan bog'liq nomutanosiblik ko'rsatkichlarga nisbatan qo'llaniladi.

Shu tarzda, eng muhim tafovut: daromadlar bo‘yicha – tekshirilayotgan bo‘lsa ham, nomutanosiblik tushunchasi toraytiriladi. Tahlil qilingan adabiyotlardan ko‘rinib turibdiki, “assimetriya”, “nomutanosiblik”, “differensiatsiya” tushunchalari yetarlicha yaqin iqtisodiy ma’noga ega. Shu bilan birga, sanab o‘tilgan tushunchalarning har biri hududiy farqlarning alohida jihatlarini aks ettirishi mumkin. Shunday qilib, assimetriya va nomutanosiblik me’yordan chetga chiqish yoki ma’lum nisbatlarga rioya qilmaslikni ko‘rsatadi, lekin ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha ko‘rsatkichlari va jarayonlari standartlarga hamda belgilangan nisbatlarga ega emas.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi farqlarni va ularning sifatini tavsiflash uchun qaysi atamani qo‘llash mumkinligini aniqlash uchun ma’lum vaqt oralig‘ida ushbu farqlarning ko‘lamini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi – bir kishiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – *YaHM*) bo‘yicha qiyoslashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, bu esa hudud rivojlanishining yaxlit ko‘rsatkichidir va shuning uchun, uning tahlili asosida mintaqalar orasidagi farqlarni baholash mumkin (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha individual ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning farqlari

Ko‘rsatkichlar 2005		**Ko‘rsatkichning maksimal va minimal qiymatlari (mlrd. so‘mda) va mintaqaviy “farqlar” 2010–2023-yillar uchun alohida yillar uchun yalpi hududiy mahsulot (vaqt) ko‘rsatkichiga ko‘ra.**					
		2010	**2015**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
Aholi jon boshiga *YaHM* (Navoiy viloyati bilan)	Max	1354,8 Navoiy	5016,3 Navoiy	11454,7 Navoiy	49513,0 Navoiy	57370,6 Navoiy	65855,6 Navoiy
	Min	333,2 QQR	1317,0 QQR	3772,3 QQR	10996,3 Samarqand	13258,2 Samarqand	15124,1 Samarqand
	Farq	4,07	3,81	3,04	4,5	4,33	4,35
Aholi jon boshiga *YaHM* (Navoiy viloyatisiz)	Max	884,9 Toshkent sh.	4596,1 Toshkent sh.	12529,4 Toshkent sh.	36051,4 Toshkent sh.	43166,0 Toshkent sh.	51435,4 Toshkent sh
	Min	333,2 QQR	1317,0 QQR	3772,3 QQR	10996,3 Samarqand	13258,2 Samarqand	15124,1 Samarqand
	Farq	2,66	3,49	3,32	3,28	3,26	3,4

Eslatma: bu yerda QQR – Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ma’lumotlar tahlili asosida biz umumiy ko‘rsatkich – Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaHM dagi farqlar sezilarli ekanligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, ular maksimal qiymat bo‘yicha ikki viloyat (Navoiy viloyati va Toshkent shahri) hamda minimal qiymat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Samarqand viloyatlari hududiga to‘g‘ri kelishi aniqlanib, ushbu hududlarga alohida e’tibor qaratilishini talab etadi.

Aholi jon boshiga YaHM dan tashqari, so‘nggi besh yil ichida aholi jon boshiga investisiyalarni jalb qilish bo‘yicha hududiy nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rish mumkin. Agar 2005-2022-yillarda aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investisiyalar hajmining o‘rtachadan yuqori darajasi Toshkent shahri (10653,6 ming so‘m) va Navoiy viloyati (8624,1 ming so‘m), 2005-2022-yillarda aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investisiyalarning minimal qiymati Farg‘ona viloyati (1865,7 ming so‘m) va Andijon viloyati (1982,4 ming so‘m)ga to‘g‘ri keladi. Bundan ko‘rinadiki, respublika iqtisodiyotida hududiy tafovut nafaqat daromadda balki, xarajatda ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alohida ta’kidlab o‘tamizki, hududiy tengsizlikning o‘sishi mintaqalar miqyosida ko‘proq jadallik bilan sodir bo‘ladi. Bunga hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, shuningdek, birlashish, ko‘proq vakolatlar olish va davlat byudjeti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlarga o‘tish natijasida alohida hududiy jamoalarning iqtisodiy qudratining o‘sishi yordam beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 14 hududidan Toshkent shahar va Navoiy viloyatidan tashqari kapital qo‘yilmalarni jalb qilishning eng yuqori hajmi viloyat markazlarida kuzatildi, bu boshqa hududiy birliklardan farqli o‘laroq, ularda iqtisodiy faollikning ortib borishi natijasidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlarni “noproporsionallik”, ularning namoyon bo‘lish hodisasini esa “nomutanosiblik” deb belgilash va yanada tavsiflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, ushbu tadqiqot maqsadlari uchun “nomutanosiblik” tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu hodisaning o‘ziga xos xususiyati sifatida iqtisodiy jarayonlar muvozanatining yo‘qligi va “nomutanosiblik” tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, “nomutanosiblik” tushunchasining ushbu talqinlarini tanlashdan tartibga solish yo‘li bilan hududlararo nomutanosibliklarga ta’sir etish maqsadining salmoqli tavsifi paydo bo‘ladi. Bunday xususiyat nomutanosiblikni tenglashtirish, kamaytirish yoki yengib o‘tish emas, balki dinamik xususiyat sifatida muvozanatga erishishdir, bu nafaqat iqtisodiy makonni mustahkamlashga yordam beradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohada yanada ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar uchun potensialni ham o‘z ichiga oladi. “Nomutanosiblik” tushunchasini talqin qilishda turlicha yondashuvlarni tahlil qilib, “nomutanosiblik” tushunchasiga o‘ziga xos ta’rifni shakllantirish va izchil rivojlantirish uchun nomutanosiblik sabablari va “strategik nomutanosiblikni tartibga solish” tushunchasiga yondashuvlarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дорошь В. Ю., Пушкарчук И. М. Эволюционно-концептуальный подход к идентификации пространственных аспектов распространения экономических явлений Экономический форум. 2015. № 4. С. 6–11.
2. Acharya, A. (2012). Comparative Regionalism: A Field Whose Time has Come? The International Spectator: Italian Journal of International Affairs, 47 (1), 3–15.
3. Baykov, A. A. (2012). Comparative Integration. Practice and Models of Integration in Foreign Europe and Pacific Asia. Moscow: Aspekt Press publ. (In Russian).
4. Fawcett, L. (2016). Regionalism by Emulation: Considerations across Time and Space. In: Telo, M., Fawcett, L. & Ponjaert, F. (Eds.). Interregionalism and the European Union. Post-revisionist Approach to Europe’s Place in a Changing World. Abington: Routledge. P. 33–55.
5. Haas, E. (1975). The Obsolescence of Regional Integration Theory. Berkeley: Institute of International Studies, University of California.
6. Hettne, B. (2005). Beyond the “New Regionalism “New Political Economy, 10 (4), 543–571. DOI:10. 1080/13563460500344484
7. Katzenstein, P. J. (1996). Regionalism in Comparative Perspective. Cooperation and Conflict, 31 (92), 123–159.
8. Kuznetsov, D. A. (2016). Trans: Problems of Terminology and Conceptualization. Comparative Politics, 7 (2), 14–25. DOI: 10. 18611/2221–3279–2016–7–2(23)–14–25.
9. Lagutina, M. (2020). A Concept of Eurasia: from Classical Eurasianism to Pragmatic Eurasianism. In: Lagutina, M. (Eds.). Regional Integration and Future Cooperation Initiatives in the Eurasian Economic Union. IGI Global. P. 1–15.
10. Lagutina, M. (2019c). BRICS in a World of Regions. Third World Thematic: A TWQ Journal, 4 (6), 442–458.
11. Mikhaylenko, E. & Mikhaylenko, V. (2020). Eurasian: Specifics, Problems and Prospects. In: Lagutina, M. (Eds.). Regional Integration and Future Cooperation Initiatives in the Eurasian Economic Union. IGI Global. P. 16–36.
12. Mitrany, D. (1965). The Prospect of European Integration: Federal or Functional. Journal of Common MarketStudies, 4 (2), 119–149. DOI: 10. 1111/j. 1468–5965. 1965. tb01124. x
13. Söderbaum, F. (2005). Exloping the Links between Micro-mintaqashunoslik and Macro-. In: Farrell, M., Hettne, B. & Van Langenhove, L. (Eds.). Global Politics of: Theory and Practice. London: Pluto Press. P. 87–103.
14. Söderbaum, F. (2009). Comparative Regional Integration and Mintaqashunoslik. In: Landman, T. & Robinson, N. (Eds.).
15. Telo, M. (2007). European Union and New regionalism: Regional Actors and Global Governance in a Post-Hegemonic Era. Cornwall: Ashgate Publishing.
16. Keohane R. O., Nye J. S. Interdependence in World Politics // The Theoretical Evolution of International Political Economy: A Reader / Ed. by G. T. Crane, A. Amawi. New York: Oxford University Press, 1997.
17. Karimi, M. Sh., Karamelikli, H., and Heidarian, M. (2019). Impact of an economic development plan on regional disparities in Iran, Area Development and Policy, 24 June, 2019. URL: https://rsa.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23792949.2019.1626256 (дата звернення: 02.12.2019).
18. Herzfeld T. (2008). Interregional Income Distribution: A comparison of Russian and Chinese Experience. Post-Communist Economies, Vol. 20, № 4, 431–450.; Yemtsov R. (2005). Quo vadis? Inequality and poverty Dynamics across Russian regions. Spatial Inequality and development. Oxford University Press. Oxford. Pp. 348–397.;
19. Fedorov I. (2002). Regional inequality and regional polarization in Russia. 1990-99. World Development, Vol. 30, № 3, 443–456.
20. Borys, M. M., Polgar, E. K. and Zlate A. (2008). Real Convergence and the Determinants of Growth in EU Candidate and Potential Candidate Countries: A Panel Data Approach. European Central Bank Occasional Paper Series. N. 8. Frankfurt.
21. Джеймс Л., Мартин Дж. Все возможные миры : монография. URL: http://maxima-library.org/knigi/year/b/437657 (дата звернення: 12.05.2016).
22. Поповкин В. А. Регионально-целостный подход в экономике: монография. Киев: Научная мысль, 1993. 219 с.
23. Алаев Э. Б. Социально-экономическая география: понятийно-терминологический словарь. URL: https://www.twirpx.com/file/981535/ (дата звернення: 03.12.2016).
24. Доленко Д. В. Территориальное устройство общества: социальнополитический анализ : монография. URL: Саранск, 1993.
25. Романюк С. А. Политика регионального развития в Украине: современное состояние и новые возможности: региональные исследования: монография. Киев: УАДУ, 2001. 112 с.
26. Чуб А. А. Регионы России. Факторы устойчивости и институциональные предпосылки развития в условиях глобализации: монография. Москва : РИОР: ИНФРА-М, 2019. 232 с.

27. Бор М. З. Основы экономических исследований. Логика. Методология. Организация. Методика: монография. Москва: ДИС, 2008. 140 с.
28. Некрасов Н. Н. Региональная экономика : монография. URL: https://www.twirpx.com/file/1204129/ (дата звернення: 17.03.2016).
29. Петкова Л. А. Теоретико-методологические основы экономического роста в Украине: региональные аспекты : дис. … д-ра экон. наук : 08.10.01. Киев, 2006. 442 с.
30. Ветлугин С. Ю. Региональная политика зарубежных государств: альтернативные подходы. Проблемы современной экономики. Евразийский международный научно-аналитический журнал. 2004. № 4 (12). С. 183–186. URL : http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=590 (дата звернення: 17.03.2018).
31. Лавровский Б. Л., Масаков В. В. К вопросу о методологии и технике региональной классификации. Региональная политика, направленная на сокращение социально-экономической и правовой асимметрии: сб. трудов / под ред. В. Е. Селиверстова. Новосибирск, 2000. Вып. 2. С. 65–86.; Лавровский Б. Л., Шильцин Е. А. Индикаторы вариации в региональных исследованиях: учеб.-метод. пособие. Новосибирск : Изд-во НГТУ, 2009. 63 с.
32. Лексин В. Н., Швецов А. Н. Государство и регионы: теория и практика государственного регулирования территориального развития. Изд. 6, стереот. Москва : URSS. 2012. 368 с.
33. Пространственный аспект социально-экономического развития. К программе социально-экономического развития России 2008-2016 гг. : науч. доклад / рук. авт. кол. Р. С. Гринберг. Москва : Институт экономики РАН, 2008. 246 с. URL: http://site-298132.mozfiles.com/ files/298132/ conf2008_experts_grinberg.pdf (дата звернення: 13.09.2015).
34. Постникова Е. А., Шильцин Е. А. Новейшие тенденции регионального развития : некоторые фрагменты. Регион: экономика и социология. 2009. № 3. С. 67–86.
35. Кибалов Е. Б., Горяченко В. И., Хуторецкий А. Б. Системный анализ ожидаемой эффективности крупномасштабных проектов : монография. Новосибирск : ИЭОПП СО РАН, 2008. 162 с.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASINI ASOSLASH VA JORIY ETISH

Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqishdan iborat. Tadqiqotimizda nafaqat davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirishni tashkil etishning nazariy jihatlari, balki shuning bilan birgalikda, uning amaliy aspektlari ham xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida yoritib berilgan. Jumladan, O‘zbekistonda davlat xususiy sherikchilik loyihalariga islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, shu bilan birgalikda parallel va sindikatlashgan moliyalashtirishda DXSHning yirik loyihalarini an’anaviy moliyalashtirish bilan birgalikda islomiy moliyalashtirishni amaliyotga joriy qilish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: DXSH loyihalari, islom moliyasi, islomiy moliya institutlari, ijara (islom lizingi), istisno‘, vakala, mushoraka.

Abstract: The purpose of this article is to consider the possibilities of establishing the concept of Islamic financing in public-private partnership (PPP) projects in Uzbekistan. In our study, not only the theoretical aspects of the organization of Islamic financing in public-private partnership projects, but also its practical aspects are highlighted based on the experiences of foreign countries. In particular, the possibilities of introducing Islamic financing mechanisms to public-private partnership projects in Uzbekistan, as well as the possibility of implementing Islamic financing in parallel and syndicated financing together with traditional financing of large PPP projects have been researched.

Key words: PPP projects, Islamic finance, Islamic financial institutions, ijara (Islamic leasing), istisna, wakala, musharaka.

Аннотация: Целью данной статьи является рассмотрение возможностей внедрения концепции исламского финансирования в проектах государственно-частного партнерства (ГЧП) в Узбекистане. В нашем исследовании освещены не только теоретические аспекты организации исламского финансирования в проектах государственно-частного партнерства, но и его практические аспекты на основе опыта зарубежных стран. В частности, исследованы возможности внедрения механизмов исламского финансирования в проекты государственно-частного партнерства в Узбекистане, а также возможность реализации исламского финансирования параллельно и синдицированного финансирования совместно с традиционным финансированием крупных проектов ГЧП.

Ключевые слова: Проекты ГЧП, Исламские финансы, Исламские финансовые институты, Иджара (исламский лизинг), истисна, вакала, мушарака.

KIRISH

O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali usullarini milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish, investitsion faoliyatda loyihaviy risklarni imkon darajasida pasaytirish, investitsion risklarni samarali boshqarish, resurslar taqchilligi sharoitida yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etishda davlat-xususiy sherikligi asosida loyihalarni islomiy moliyalashtirishni tashkil etilishi moliyaviy xizmatlar sifatining oshishi, xorijiy va ichki investitsiyalar oqimining oshishi, xususiy tarmoq vakillari salohiyatining o‘sishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shishi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” Farmoni uchinchi yo‘nalishi Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘lib, ushbu yo‘nalishning quyidagi bir nechta maqsadlarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot ishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 26-maqsad – mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish. 2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish. Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika,

transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investitsiya jalb etish.

Mazkur maqsadni amalga oshirilishida biz davlat-xususiy sherikligi asosida loyihalarni islomiy moliyalashtirishning bir nechta iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini ochib beramiz, xususan, qo‘shimcha xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, infratuzilma loyihalarini ishonchli moliyalashtirilishi, aholini ish bilan bandligini oshirish va boshqa bir nechta takliflarni ilgari so‘rganmiz. Qolaversa, so‘ngi yillarda hukumat tomonidan davlat-xususiy sherikligi asosida korxonalarni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumaladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyot tarmoqlarini, shuningdek, ta’lim muassasalarini tashkil etishda va rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tdilar [1]. Ta’kidlash joizki, so‘ngi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik amaliyotning joriy etilayotganligi, maktab ta’limi va oliy ta’lim tizimida ham bunday amaliyotning joriy etilishi mamlakatimiz ta’lim tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shuningdek, Prezidentimiz mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosida madaniyat istirohat bog‘larini tashkil etish, kommunal xo‘jalik sohasida investorlar bilan hamkorlikda DXSH loyihalarni amalga oshirilishini ta’kidlab o‘tgan edilar.

Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag‘larini O‘zbekistonga DXSH loyihalariga jalb qilish mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini oshishiga olib keladi. Bu esa O‘zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni joriy etish imkoniyatlari yuzasidan tadqiqot olib borish va mazkur masala bo‘yicha ilmiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish ilmiy maqolamizni dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni tadqiq etish bo‘yicha adabiyotlarni to‘ldirishga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birgalikda tadqiqotimiz natijalari asosida O‘zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni amaliyotga joriy etish yo‘lidagi amaliy taklif va tavsiyalar O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishga javobgar vazirlik va idoralar tomonidan amaliy qo‘llanma sifatida hamda huquqiy xujjatlar, davlat investitsiya dasturlari, ushbu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini shakllantirish va boshqalarda foydalanilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon banki tomonidan olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri siyosat olib borilganda – past va o‘rta daromadli mamlakatlar infratuzilma bilan bog‘liq Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun YAIMning o‘rtacha 4,5 foizini sarflashlari kerak ekan [2].

Infratuzilmani rivojlantirish zarurati davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, global iqtisodiyot 2030 yilgacha infratuzilma aktivlariga taxminan 90 trillion dollar sarmoya kiritishiga tayyorgarlik ko‘rishi zarur ekan (Bxattacharya, Oppenheim va Stern 2015) [3].

DXSH konsepsiyasi va umumiy tuzilmasi birinchi bor 1990-yillarda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) davlat sektori uchun xaridlarning muqobil varianti va xususiy investorlar uchun qulay investitsion imkoniyat sifatida dunyo bo‘ylab tan olindi (Bing va boshqalar, 2005) [4].

DXSH Bilim labaratoriyasi (PPP Knowledge Lab), (2017) [5] DXSHligini “Xususiy tomon va davlat tashkiloti o‘rtasida davlat aktivi yoki xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha uzoq muddatli shartnoma sifatida belgilaydi, bunda xususiy tomon katta xavf va boshqaruv mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi, daromad yesa o‘zaro ishlashga bog‘liqdir” deya ta’rif bergan. Amalda esa DXSH siyosati boshqacha tarzda belgilanadi va amalga oshiriladi. Masalan, Kolumbiyaning DXSH to‘g‘risidagi Milliy qonunida xususiy investor barcha DXSH shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar va texnik xizmat ko‘rsatish uchun javobgar bo‘lishi va bu 30 yildan oshmasligi kerakligi ko‘rsatilgan.

DXSH siyosatini amalga oshirish ham mamlakatlarga qarab farq qiladi. Masalan, Indoneziyada DXSH loyihalarini muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan bir nechta institutlar mavjud bo‘lib, Malayziya, Vetnam va Tailand kabi mamlakatlarda DXSH loyihalarini boshqarish uchun bir martalik xizmat sifatida maxsus bo‘linma tashkil etilgan (Zen, 2018) [6].

An’anaviy moliyalashtirish mexanizmi bilan bir qatorda, Islomiy moliya DXSH loyihalarida (ayniqsa, Turkiya va Saudiya Arabistoni kabi musulmonlar ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda) muqobil moliyalashtirish sifatida foydalaniladi. Loyihani moliyalashtirishda odatda istisno‘ va ijara (islom lizingi) qo‘llaniladi.

“Islom moliya tizimi” atamasi 1980 yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lganligi sababli ilmiy atamalar orasida nisbatan yangidir. Ko‘pincha, bu konsepsiya foizsiz moliyaviy amaliyotlar tizimi sifatida tushuniladi. Ammo, islomiy moliya tamoyillari kredit foizlarini rad etibgina qolmasdan, bu tushunchadan anchayin kengroq hamdir.

Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008) [7]. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an’anaviy yoki “G‘arb moliyasi”dan farq qiladi. Islomiy moliya tizimini an’anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi (Miraxor va Iqbol, 2011) [8]:

Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (ribo) taqiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manipulyatsiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag‘allarni (ya’ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg‘u beradi. Bu an’anaviy moliya tizimidagi tadbirkorning kreditga layoqatliligidan ko‘ra biznes samaradorligini oshirishga yordam beradigan tavakkalchilik, foyda va zararni taqsimlash tizimidan dalolat beradi.

Uchinchidan, islom moliyasi shariatning axloqiy mezonlari bilan asoslanadi.

Islomiy moliyaning aktivlarga asoslangan yondashuvi amaliyotlarda moddiy yoki nomoddiy aktivlardan foydalanishga yordam beradi, bu esa infratuzilma aktivlarini islomiy moliyalash usullari bilan moliyalashtirish uchun eng maq’bul tanlov hisoblanadi. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillaridan biri DXSH loyihalarida xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi. Bu kapital yetkazib beruvchilarga asosiy iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish imkonini beradi. Bundan tashqari, islomiy moliya manfaatdor iqtisodiyotlarning rivojlanish maqsadlariga mos keladigan ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarini ham rag‘batlantiradi.

Mazkur maqolamizning maqsadi yuqorida keltirib o‘tganimizdek, o‘rganilayotgan mamlakatlarning tajribalari asosida O‘zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqishdan iborat. Ilmiy tadqiqotimizda foydalanilgan uslub va obyekt yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida kuzatilmasligi bilan ilmiy ishimizning farqli jihatlarini namoyon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolamizda miqdoriy tadqiqot usulidan keng foydalanildi. Shuningdek, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik kabi usullardan ham samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi 371-sonli qaroriga muvofiq, 2004-yilda Islom taraqqiyot banki (IsTB) tomonidan O‘zbekistonda energetika va sog‘liqni saqlash sohasida davlat investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun “ijara” va “murobaha” shartnomalaridan foydalanilgan.

2004-yildan bugungi kunga qadar, Islom taraqqiyot banki guruhining O‘zbekiston uchun ma’qullangan loyihalari miqdori 2.5 mlrd. AQSH dollaridan ortiq bo‘lib, shundan 459 million AQSH dollari XSRIK va 2,08 mlrd. AQSH dollari IsTB ulushiga to‘g‘ri keladi.

1-jadval: O‘zbekistonda IsTB tomonidan islomiy moliyalashtiriligan investitsion loyihalar statistikasi (30.06.2022 y. holatiga) [9]

№	Sohalar nomi	Loyihalar soni	Moliyalashtirilgan loyihalar miqdori (mln AQSh doll.)
1	Transport	4	348.1
2	Moliya	54	653.5
3	Ta’lim	11	78.4
4	Qishloq xo‘jaligi	9	702.4
5	Energetika	5	203.1
6	Suv, Sanitariya, shahar xizmatlari	3	93.1
7	Sog‘liqni saqlash	15	413.2
8	Sanoat/Konchilik	9	59.9
9	Informatsiya va kommunikatsiya	1	0.1
10	Boshqalar	5	51.1
	Jami:	116	2.602.8

Yuqorida 1-jadval ma’lumotlaridan ham ma’lumki, O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirilgan loyihalar asosan davlat infratuzilma loyihalarini tashkil etgan bo‘lib, aynisa amalga oshirilgan loyihalar samaradorligi yuqori hisoblanadi. Mazkur mavzuda ilgari surayotgan fikrimizni yanada aniqroq qilish va davlat-xususiy sherikchiligini islomiy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati va uning ustivorligini quyidagi tahlillarimiz bilan boyitamiz. Jumladan, mazkur tadqiqotimizda O‘zbekistonda davlat xususiy sherikchilik (DXSH)loyihalariga islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, shu bilan birgalikda parallel va sindikatlashgan moliyalashtirishda DXSHning yirik loyihalarini an’anaviy moliyalashtirish bilan birgalikda islomiy moliyalashtirishni ham amalga oshirish taklifi bilan chiqib uni qanday amaliyotga joriy qilish bo‘yicha quyidagi konseptual asosni ishlab chiqdik. Ushbu taklifimizda nafaqat DXSH loyihalarini islomiy moliyalashtirishning nazariy balki shu bilan birgalikda amaliy aspektlarini ham bir qancha grafiklar va real amalga oshirilgan loyihalar yordamida yoritib berdik.

Infratuzilmaga oid DXSH loyihalarini shariatga muvofiq moliyalashtirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘ni mudoraba (kapital va mehnat sherikchiligi), vakala (agentlik) va mushoraka (sheriklik shartnomasi) yo‘li bilan o‘z hissasini qo‘llash orqali moliyalashtirish mumkin; yoki murobaha (bo‘lib to‘lash), istisno‘ (qurilish/ishlab chiqarish/ bosqichli to‘lov), salam (oldindan sotib olish/islom forvardi) va ijara (islom lizingi) orqali qarzga o‘xshash moliyalashtirilishi mumkin.

Amalda, islomiy loyihalarni moliyalashtirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan tuzilmalar ikkita alohida tuzilmaning bir tranzaksiyadagi birikmasi istisno‘-ijara, vakala-ijara, va mushoraka-ijara hisoblanadi.

Infratuzilmaviy DXSH loyihasini shar’iy qoidalarga muvofiq tuzish asosan loyihaning o‘ziga xos xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar loyiha “Brown field” loyihasi bo‘lsa, unda loyiha kompaniyasi allaqachon aktivlarga ega bo‘lishi kutilayotgan bo‘ladi va odatda bunday loyihalar uchun islomiy moliya tuzilmasi istisno‘-ijara kombinatsiyasi ko‘rishidagi shartnomalardan foydalanadi.

Aksincha, aktivlar noldan tashkil etilishi yoki sotib olinishi kerak bo‘lgan “Green field” loyihasi uchun eng mos islomiy moliya tuzilmalari istisno‘ga asoslangan moliyalashtirish, istisno‘-ijara, vakala-ijara asosidagi moliyalashtirish yoki mushoraka-istisno‘-ijara asosidagi moliyalashtirishdan foydalaniladi. Ba’zi boshqa moliyalash tuzilmalari islomiy moliya bilan qo‘llab-quvvatlanadigan DXSH amaliyotlari uchun mos keladi, masalan, murobaha, mudoraba yoki loyiha sukuki.

Islomiy moliya sheriklik tuzilmalari va risklarni taqsimlashni rag‘batlantiradi, bu foyda va zararni bo‘lishish shaklida namoyon bo‘ladi. Moliyalashtirish usullarining bu jihatlari davlat xususiy sherikchiligida islomiy moliyani qo‘llashni osonlashtiradi. Islom ijtimoiy infratuzilma sarmoyalarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Demak, islomiy moliya ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni moliyalashtirish uchun ulkan salohiyatga ega hisoblanadi.

Islomiy moliyachilar moliyalashtirgan ko‘plab loyihalarda an’anaviy kreditorlar ham ishtirok etishgan. Ushbu kelishuv odatda parallel moliyalashtirish yoki qo‘shma moliyalashtirish deb ataladi.

An’anaviy moliyalashtirish va islomiy moliyalashtirish o‘rtasidagi tarkibiy va texnik farqlarni hisobga olgan holda, ikkalasi ham har xil va alohida hujjatlashtirilgan, ikkala hujjatlar to‘plamiga kiritilgan shartlar va sharoitlar, har ikkala moliyachilar guruhi bir xil yoki juda o‘xshash foyda olishini ta’minlaydigan tarzda tuzilgan tijorat shartlaridan iborat bo‘ladi.

Hujjatlar ikkala obyektning yuqori darajali bo‘lishini va ikkita sindikatning proporsional va pari passu asosida xavfsizlikni bo‘lishishini ta’minlaydi.

Umumiy shartlar shartnomasi va kreditorlararo shartnomadan foydalanish an’anaviy va islomiy moliya operatsiyalarida keng tarqalgan bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq moliyachi alohida moliyalashtirish kelishuvlari orqali moliyalashtirishni kengaytiradi.

Islomiy obyektga nisbatan taqdim etilgan xavfsizlik hujjatlari va kafolatlar odatda an’anaviy obyektniki bilan bir xil. 2-jadvalda infratuzilmaviy DXSH loyihalarida islom va an’anaviy moliyalashtirish solishtiriladi.

Keyingi muhokama infratuzilmaviy DXSH loyihalarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladigan bir qancha islomiy moliya tuzilmalariga qaratilgan.

2-jadval: Infratuzilma DXSH loyihalarida islomiy va an’anaviy moliyalashtirish

Ismom obyekti		An’anaviy obyekt
SPV uchun to‘lovlar bosqichi	SPV	SPV uchun to‘lovlar
Oldindan ijara (Forvard ijara)		Qurilish vaqtida foizlar (%)
SPV tomonidan aktivlarni qayta sotib olish		SPV tomonidan tugatish to‘lovi
Lizing ijarasi/to‘lovni kechiktirish		Amortizatsiya va foizlarni to‘lash
SPV tomonidan aktivlarni qayta sotib olish		SPV tomonidan tugatish to‘lovi
Islomiy obyektlar bo‘yicha shartnomalar		An’anaviy obyektlar bo‘yicha shartnomalar
Umumiy shartlar shartnomasi		
Umumiy xavfsizlik shartnomasi		
Umumiy hisob shartnomasi		

Istisno‘ga asoslangan tuzilma tavsifi (qurish/ishlab chiqarish)

Istisno‘ va agentlik shartnomalari

Infratuzilmaviy DXSH loyihasini moliyalashtirishda istisno‘ shartnomasi qo‘llanilganda, islomiy moliyachilar (sotuvchi sifatida) istisno‘ shartnomasi bo‘yicha (1) tegishli aktivlarni ishlab chiqarish, qurish va yetkazib berishni muhandislik, ta’minot va qurilish (MTQ) yoki qurilish pudratchidan sotib oladi va (2) loyiha kompaniyasi (xaridor sifatida)ga shartnomada kelishilgan sotish narxida yetkazib beradi.

O‘z navbatida, islomiy moliyachilar loyiha kompaniyasini agentlik shartnomasiga muvofiq, MTQ yoki qurilish pudratchisi bilan MTQ yoki boshqa har qanday shakldagi qurilish shartnomasini tuzish uchun o‘zlarining agenti sifatida tayinlaydilar, bunda shartnoma shartlari istisno‘ kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

Islomiy moliyachilar istisno‘ shartnomasi bo‘yicha sotuvchi sifatida, loyiha kompaniyasini loyihani xarid qilish uchun o‘z agenti (agentlik shartnomasi bo‘yicha) etib tayinlash orqali loyiha aktivlari bilan bog‘liq qurilish, bajarish va yetkazib berish risklariga duchor bo‘lishdan qochadi.

Loyiha kompaniyasi (islom moliyachilari agenti sifatida) islom moliyachilari uchun va ularning nomidan MTQ/qurilish pudratchisidan belgilangan aktivlarni (ya’ni loyiha aktivlarini) sotib olish va islom moliyachilariga loyiha aktivlariga egalik huquqini berish uchun MTQ/qurilish shartnoma(lar)ini tuzadi.

Islom moliyachilari agentlik shartnomasining kelishilgan to‘lov shartlariga muvofiq obyekt miqdorini to‘laydilar.

Istisno‘ sotishga asoslangan vosita ekanligini hisobga olib, loyiha kompaniyasi tomonidan islom moliyachilariga to‘lashi kerak bo‘lgan istisno‘ aktivlarini sotish narxi islom moliyachilari (sotuvchi sifatida) o‘rtasida istisno‘ shartnomasini tuzish vaqtida kelishilishi va belgilanishi kerak. Moliyachi nuqtayi nazaridan, qat’iy belgilangan stavkali moliyalashtirish bilan cheklanish faqat istisno‘ moliyalashtirishga asoslangan kelishuvlarning muhim cheklovidir.

Istisno‘ aktivlari tugallangandan va yetkazib berilgandan so‘ng loyiha kompaniyasi to‘liq yoki qisman to‘lovni oldindan to‘lashni taklif qilishi mumkin. Loyiha kompaniyasi muddatidan oldin to‘lovni amalga oshirsa, islomiy moliyachilar loyiha kompaniyasiga sotish narxining istalgan qismini (chegirma sifatida) qaytarishi mumkin (lekin majburiy emas). Kelajakdagi shartnoma bilan bog‘liq shar’iy masalalarni va sotish bahosidagi noaniqlikni oldini olish uchun bunday chegirmalar tuzilmasligi va moliyaviy shartnomalarda hujjatlashtirilishi mumkin emas.

Loyiha kompaniyasi, agentlik shartnomasi bo‘yicha islomiy moliyachilarning agenti sifatida, istisno‘ aktivlarining MTQ/qurilish shartnoma(lar)ida kelishilgan xarajatlar doirasida to‘ldirilishini va yetkazib berilishini ta’minlaydi va islom moliyachilaridan istisno‘ aktivlarini to‘ldirish bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar uchun hech qanday to‘lov talab qilinmaydi.

Istisno‘ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasida islom moliyachilari (boshqaruvchi) va loyiha kompaniyasi (agent sifatida) o‘rtasida tuziladigan agentlik shartnomasi loyiha kompaniyasi tomonidan obyekt miqdori va qurilish davrini o‘z vaqtida to‘lash/foydalanish mexanizmini belgilaydi. Istisno‘ shartnomasi loyiha kompaniyasi islom moliyachilariga sotish bahosi ko‘rinishida kelishilgan foyda bilan birga obyekt miqdorini to‘lash mexanizmini taqdim etadi. 1-rasmda taklif qilingan istisno‘ga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlar keltirilgan.

2005-yilda Turkiya hukumati xususiy sektorning investitsiya imkoniyatlari va tajribasidan foydalanish orqali fuqarolarga izchil va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida keng qamrovli dasturni ishga tushirdi.



1-rasm: Istisno‘ asosidagi infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va bosqichlari namunasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Istisno'ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasini amaliyotda qo'llanishi

Ushbu uzoq muddatli transformatsiya dasturi Turkiyaning sog'liqni saqlash xizmatlarini mintaqaviy sog'liqni saqlash markazi darajasiga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, 2 milliondan ortiq xorijiy bemorlardan 20 milliard dollar daromad olishni maqsad qilgan edi.

838 o'rinli umumiy kasalxonani qurish uchun Turkiyadagi Konya Integral Sog'liqni saqlash shaharchasi loyihasida istisno'ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasi qo'llanildi. Konya loyihasidagi tomonlar quyidagi moliyaviy hujjatlarni tuzishdi:

Loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachi (IsTB guruhi) o'rtasida istisno' shartnomasi tuzildi, unga muvofiq islom moliyachisi (sotuvchi sifatida) aktivlarni loyiha kompaniyasiga (xaridor sifatida) yetkazib berish majburiyatini oldi, loyiha kompaniyasi tomonidan bo'lib-bo'lib to'lanishi kerak bo'lgan sotib olish majburiyati yuklandi.

Agentlik shartnomasiga muvofiq, islom moliyachisi (asosiy sifatida) loyiha kompaniyasini MTQ pudratchisi bilan MTQ shartnomasini tuzish uchun uning agenti etib tayinladi. Islom moliyachisi agentlik shartnomasi bo'yicha obyektni MTQ shartnomasida kelishilgan to'lov shartlariga muvofiq o'zlashtirdi. Loyiha bo'yicha obyekt qurib bitkazilgach, aktivlar MTQ pudratchisi tomonidan to'g'ridan to'g'ri loyiha kompaniyasiga yetkazib berildi. Aktivlarning loyiha kompaniyasiga topshirilishi bilan loyiha kompaniyasining agentlik shartnomasi bo'yicha agentlik roli tugadi va istisno' shartnomasi bo'yicha islom moliyachisi (sotuvchi sifatida) aktivlarni loyiha kompaniyasiga (xaridor) yetkazib berish majburiyati yakunlandi.

Sog'liqni saqlashni o'zgartirish bo'yicha ushbu keng ko'lamli dastur doirasida hukumat davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli bo'yicha 35 ta yangi integratsiyalashgan sog'liqni saqlash shaharchalari (DXSH kasalxonalari) rejasini ishlab chiqdi, kasalxona sig'imlarini 40 000 dan 50 000 gacha oshirish nazarda tutildi.

Konya Karatay integral soqliqni saqlash kompus DXSH loyihasi, "greeen field" sog'liqni saqlash obyekti loyihalaridan biri hisoblanadi. U umumiy kasalxona (420 o'rinli) hamda tug'ruqxona va bolalar shifoxonasi (418 o'rinli) jami 838 o'ringa mo'ljallangan. Aholi soni bo'yicha Turkiyaning yettinchi yirik shahri Koniya shahrida joylashgan ushbu loyiha Koniyadagi sog'liqni saqlash muassasalarida yuqori sifatli xizmatlar va rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha bo'shliqni to'ldirishi hamda nafaqat ushbu shaharning o'sib borayotgan aholisiga, balki qo'shni Karaman va Aksaray shaharlari va boshqalar aholisiga ham xizmat qilishi rejalashtirilgan edi.

DXSH bo'yicha tender g'olibi YEDA Insaat Sanayi ve Ticaret A.S. (YEDA Group yoki homiy) loyihani 28 yillik konsessiya muddati, jumladan, uch yarim yillik qurilish muddati ostida amalga oshirdi. Qurilishdan so'ng homiy loyihani 25 yil davomida boshqarib, Turkiya Sog'liqni saqlash vazirligiga topshiradi. Loyihaning umumiy qiymati 354 million yevroga baholandi.

Loyiha qarz va o'z mablag'larini birlashtirish orqali amalga oshirildi. Qarzni moliyalashtirish bir guruh ko'p tomonlama rivojlanish banklari (XTB) va tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ular an'anaviy kreditorlar va islom moliyachilari, shu jumladan Islom taraqqiyot banki (IsTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), Qora dengiz savdosi va taraqqiyot banki (QDSTB), UniKredit va Siyemens Bank. Loyiha 2019 yilning oxirgi choragida yakunlandi.

Istisno'-ijaraga asoslangan moliyalash tuzilmasi

Istisno'-ijara tuzilmasi ikki alohida tuzilmaning (Istisno' va ijara) bir muomalada birikishidir. Istisno' (ishlab chiqarish/qurish) shartnomasi odatda qurilish bosqichida, asosiy aktivlar sotib olinganda qo'llaniladi.

Ijara (Islom lizingi) shartnomasi aktivlar mo'ljallangan maqsadlarga tayyor bo'lganda, ekspluatatsiya bosqichi uchun tuziladi.

Ijara (Islom lizingi)

Ijara shartnomasi odatda qurilish bosqichi va loyiha tugallangandan keyin kuchga kiradi. Ijara – islom lizing shartnomasi bo'lib, unga ko'ra ijaraga beruvchi mulkni sotib oladi va uni ijaraga oluvchiga kelishilgan ijara asosida ma'lum muddatga ijaraga beradi.

Lizingga olingan mulk uzufruktga ega bo'lishi kerak. Shariatga muvofiq bo'lishi uchun ijara shaffof va batafsil bo'lishi va ijaradan oldin kelishilgan shartlar bo'lishi kerak.

Ijara bo'yicha ijaraga beruvchi mulkning qonuniy egaligini saqlab qolishi va mulkka egalik qilish bilan bog'liq risklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyachining foyda olish qobiliyati va tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi o'rtasida bog'liqlik bo'lishi kerak.

Ijara va iqtina mohiyatan an'anaviy asbob-uskunalar lizingi shartnomasining islomiy ekvivalentidir. Aktivlarga egalik huquqi islomiy moliyachilarga loyiha tugallangandan so'ng istisno' shartnomasiga muvofiq beriladi. Shundan so'ng, islomiy moliyachilar uskunaning kapital qiymatini qoplash uchun tuzilgan ijara to'lovlari evaziga loyiha kompaniyasiga aktivlarni ijaraga berishadi.



2-rasm: Istisno‘-ijaraga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlari

Forvard ijara, ijara to‘lovlari va bartaraf etilgan zararlar

Islomiy moliyachilar loyihaning qurilish bosqichida loyiha kompaniyasiga bosqichma-bosqich to‘lovlarni amalga oshiradilar. Shariat ulamolari odatda forvard ijara shartnomasidan foydalanishga ruxsat beradilar (ijara mavsufa fi al timma deb nomlanadi), bunda avans ijara to‘lovlari loyiha kompaniyasi tomonidan istisno‘ (yoki qurilish bosqichi) davrida to‘lanadi. Ushbu avans ijara to‘lovlari, odatda, qurilish vaqtidagi foyda marjasi bilan birga islom moliyachisining moliyalashtirish xarajatlarini qoplash uchun tuziladi.

Agar loyiha kompaniyasi aktivlarni yetkazib bera olmasa, islomiy moliyachilar uchun mavjud bo‘lgan himoya vositalari xuddi shu ssenariyda an’anaviy banklar tayanadigan vositalar bilan bir xil bo‘ladi. Islom moliyachilari loyiha kompaniyasining to‘lov majburiyatlarini tezlashtirishga va istisno‘ shartnomasini bekor qilishga haqli. Loyiha kompaniyasi odatda islomiy moliyachilarga shartnoma kuchga kirgunga qadar istisno‘ shartnomasi bo‘yicha olgan davlat to‘lovlari yig‘indisini qoplashi shart va ko‘pincha yuqorida aytib o‘tilganidek, tugatilgan zararni to‘lashi shart.

Istisno‘-ijaraga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasida, istisno‘ shartnomasi qurilish davrida loyiha kompaniyasi tomonidan obyektdan foydalanish mexanizmini belgilaydi, forvard ijara shartnomasi esa islom obyekti uchun to‘lovlarni amalga oshirish mexanizmini ko‘rsatadi.

Tavsiya etilgan istisno‘-ijaraga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlar 2-rasmda keltirilgan.

Mushoraka-istisno‘-ijaraga asoslangan moliyalash tuzilmasi

Mushoraka (sherikchilik) – tomonlarning kapital va faoliyatda sheriklik tamoyili asosida ishtirok etuvchi hamda foydada avvaldan kelishilgan ulushda qatnashuvchi kelishuv turi. Bunda tomonlarning foydadagi ulushi ustav kapitali(fondi)dagi ulushiga mutanosib ravishda bo‘lishi shart emas. Ammo zarar ustav kapitali(fondi)dagi ulushiga mos ravishda taqsimlanadi. Investitsion loyihani amalga oshirishda tomonlarning barchasi ham, faqat bittasi ham ishtirok etishi mumkin.

Istisno‘ shartnomasi. Mushoraka hamkorlari (loyiha kompaniyasi va islom moliyachilari) istisno‘ shartnomasini tuzadilar, unga ko‘ra loyiha kompaniyasi (sotuvchi sifatida) istisno‘ aktivlarini sotib olishga va qurilish tugallangandan so‘ng mushoraka shartnomasidagi sheriklariga (xaridor sifatida) yetkazib berishga rozi bo‘ladi. Mushoraka sheriklari (xaridor sifatida) MTQ shartnomasi bo‘yicha kelishilgan to‘lov shartlariga muvofiq loyiha kompaniyasiga (sotuvchi sifatida) tegishli mushoraka hissalarini to‘lash majburiyatini oladilar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ijara (Forvard ijara shartnomasi). Islomiy moliyachilar (lizing beruvchi sifatida) istisno‘ aktivlaridagi o‘z ulushlarini loyiha kompaniyasiga (lizing oluvchi sifatida) forvard ijara asosida ijaraga berishadi, bunda loyiha kompaniyasi davriy ijara to‘lovlarini to‘lashga rozi bo‘ladi.

Infratuzilmaviy DXSH loyihasi kontekstida loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar mushoraka shartnomasini tuzish orqali mushorakat (shartnomaviy sheriklik) tuzishlari mumkin. Mushoraka shartnomasiga ko‘ra, loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar mushoraka biznes rejasi (konsessiya kelishuvi yoki uning har qanday muayyan qismi)ni amalga oshirish uchun mushoraka kapitalining ma’lum bir kelishilgan foizini (naqd pul va/yoki boshqa ko‘rinishida) hissa qo‘shishga va foyda (oldindan kelishilgan foiz bo‘yicha) va zararni (ularning tegishli kapital hissalariga mutanosib ravishda) bo‘lishishga rozi bo‘ladilar. Agar loyiha kompaniyasining hissasi naturadagi badallarni, shu jumladan uning konsessiya shartnomasi bo‘yicha huquqlarini o‘z ichiga olsa, u holda loyiha kompaniyasining natura hissasining tegishli bahosi aniqlanadi.

Loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar o‘rtasida tashkil etiladigan mushoraka biznes rejasiga ega bo‘lib, unda mushoraka kapitali qaysi faoliyatga investitsiya qilinishi va bunday investitsiyadan kutilayotgan daromad ko‘rsatiladi. Konsessiya shartnomasining predmeti yoki uning har qanday alohida qismi mushoraka biznes rejasi hisoblanadi.

Mushorakada biznes rejani amalga oshirish uchun menejer kerak bo‘ladi. Mushorakani boshqarish shartnomasiga muvofiq, har ikkala mushoraka hamkorlari (loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar) loyiha kompaniyasini mushorakaning biznes rejasini amalga oshirish uchun mushorakaning boshqaruvchisi etib tayinlaydilar. Loyiha kompaniyasi mushorakaning boshqaruvchisi sifatida MTQ/qurilish pudratchi(lar)i va boshqa tomonlar bilan loyihani mushorakaning biznes rejasiga muvofiq yakunlash uchun MTQ/qurilish shartnomasi(lar)ini tuzadi.

Mushoraka menejeri loyihaning mushoraka biznes rejasiga muvofiq loyiha xarajatlarining taxminiy parametrlari doirasida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

1983-yilda qurilgan Iordaniyaning Amman shahridagi eng yirik aeroport va asosiy aviatsiya shlyuzi bo‘lgan Qirolicha Alia xalqaro aeroportida (QAXA) imkoniyatlar va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan loyiha amalga oshirilgan. Loyiha Iordaniya va Yaqin Sharqdagi birinchi muvaffaqiyatli aeroport davlat-xususiy sheriklik va Iordaniyadagi xususiy sektorning bugungi kunga qadar eng yirik sarmoyasi hisoblanadi.

2007-yil noyabr oyida Airoport xalqaro guruhi (AXG) kompaniyasi hukumat bilan QAXAni kengaytirish, rekonstursiya qilish va ishlatish uchun kengaytirish va ekspluatatsiya (REO) shartnomasi sifatida ham tanilgan 25 yillik konsessiya shartnomasini tuzdi. Konsessiya shartnomasiga muvofiq, AXG 2032 yilgacha QAXAni loyihalash, ishlab chiqish, ishlatish, boshqarish, takomillashtirish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Konsessiya loyihani sotib ol-boshqar-egalik huquqini o‘tkaz (BOT) sxemasi bo‘yicha amalga oshirishni ko‘zda tutdi, aeroport sig‘imini bosqichma-bosqich oshirishni hisobga olgan holda mavjud terminal o‘rniga yangi terminal qurish va foydalanishga topshirish kerak edi (1-bosqich, 2013-yilda yakunlangan), so‘ngra tegishli aeroport obyektlarini kengaytirish (2-bosqich, 2016-yilda yakunlangan)).

Ushbu DXSH loyihasi xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilgan 1 milliard dollardan ortiq investitsiyaga olib keldi. Moliyalashtirish ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlabki bosqich va kengaytirish. Ikkala bosqich ham parallel moliyalashtirishdan foyda ko‘rdi: ya’ni islomiy moliyalashtirish (IsTB tomonidan taqdim etilgan) va an’anaviy moliyalashtirish (XMK tomonidan taqdim etilgan). DXSH kelishuvi har yili 200 million dollarga baholangan davlat sektori uchun sezilarli daromad keltirdi (Jahon banki guruhi 2016-yil). Aeroportning sig‘imi 2007-yildagi 4 million yo‘lovchidan 2016-yilda kengaytirish bosqichi yakunlanganda 12 million yo‘lovchiga oshirildi. Aeroport 2017-yilda 8 millionga yaqin yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatdi, bu esa Iordaniyaning uzoq muddatli trafik o‘sishiga yordam berishda davom etdi va Iordaniyaning mintaqaviy va global aloqalarini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy va samarali transport aktivini ta’minladi.

Moliyalashtirish IsTB va XMKning uzoq muddatli qarzlarini, shuningdek, AXG aksiyadorlarining o‘z mablag‘larini o‘z ichiga oladi.

Ushbu bazaviy moliyalashtirishga qo‘shimcha ravishda, homiylar yangi terminalni qurish paytida ortiqcha xarajatlar yoki boshqa kutilmagan o‘zgarishlarni qoplash uchun shartli moliyalashtirishga kelishib olganlar.

Islomiy moliyalash transhi

Loyiha Yaqin Sharqdagi birinchi DXSH qo‘shma transh an’anaviy krediti va islom obyektidir. Islom moliyachisi (IsTB) jami 125 million dollarlik moliyalashtirni amalga oshirgan.

Loyihaning qurilish bosqichi IsTB va loyiha kompaniyasi o‘rtasidagi istisno‘ kelishuvi bilan tartibga solingan.

Qurilish tugallangach, IsTB va loyiha kompaniyasi o‘rtasida ijara shartnomasi imzolandi, unga ko‘ra IsTB aktivni AXGga ijaraga beradi. IsTB mudoraba bitimi orqali uchinchi tomon moliyalashtirishni safarbar qildi.



3-rasm: Qirolicha Alia xalqaro aeroporti loyihasi uchun islomiy moliyalashtirish transhi bo‘yicha shartnoma asoslari

Islomiy va an’anaviy transhlar parallel moliyalashtirish tuzilmasi orqali birlashtirilgan bo‘lsa-da, ushbu loyihaning qo‘shimcha e’tiborga molik xususiyati XMK B-ga o‘xshab, murobaha kelishuvi orqali islomiy transh doirasida resurslarni safarbar etishni ko‘rsatishdir.

Loyihani amalga oshirishning ikkala bosqichini o‘z ichiga olgan loyiha xarajatlari 1 060 million dollardan ortiqni tashkil etdi (1 bosqich uchun 850 million dollar va 2 bosqich uchun 214 million dollar).

Loyiha 55:45 qulay qarz-kapital nisbati ostida moliyalashtirildi. XMK va IsTB tomonidan to‘plangan qarz 473 million dollarni tashkil etdi, qolgan qismi homiylar va aeroport faoliyatidan tushgan pul oqimlari tomonidan moliyalashtirildi.

Moliyalashtirish rejasi quyidagicha edi:

1-bosqich (2007-yil) an’anaviy moliyalashtirish ikkita yuqori darajadagi moliyalashtirishdan (jami 230 million dollarlik A-kredit va B-kredit) va ikkita subordinatsiyalangan transhdan (jami 50 million dollarlik C-kredit va Stand-bay kreditidan) iborat edi. Islomiy moliyalash parallel ravishda birgalikda moliyalash bo‘yicha katta transhdan (jami 100 million dollar) iborat bo‘lib, keyinchalik uchinchi tomon moliyachisi ishtirok etishi uchun sindikatlangan.

2-bosqich (2016-yil) moliyalashtirish ikkala yetakchi moliyachilarning yuqori darajadagi transhini (jami 93 million dollar) moliyalashtirishdan iborat edi.

Loyihani amalga oshirish ehtiyojlarini qondirish uchun moliyalashtirish uzoq muddat va o‘rtacha imtiyozli davrni o‘z ichiga oldi hamda bozor narxlarida baholandi.

Kreditorlar tomonidan moliyalashtirish barcha konsessiya huquqlari va loyiha kompaniyasining aktivlari bilan ta’minlangan va keyinchalik kirish huquqi va hukumatning konsessiya shartnomasi bekor qilingan taqdirda barcha moliyaviy majburiyatlarni to‘lash majburiyati bilan himoyalangan. 2 bosqich moliyachilariga homiylardan loyiha tugaguniga qadar qarzga xizmat ko‘rsatish yoki mablag‘ yetishmovchiligi uchun kutish rejimida moliyalashtirishni talab qilish orqali qo‘shimcha qulayliklar yaratildi. Xavfsizlik har ikki bosqich moliyachilari o‘rtasida taqsimlangan pari passu asosida tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borgan tadqiqotimiz natijasiga ko‘ra quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik:

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosidagi loyihalar xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘plab tarmoqlari va sohalarida amalga oshirilmoqda. Birinchi galda bu, infratuzilma: transport, uy-joykommunal xo‘jaligi, telekommunikatsiya, energetikani rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalardir.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, moliya sektori, transport, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash soha loyihalarini moliyalashtirish eng asosiy qismini egalagan, ya’ni bu irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yo‘l qurilishi, shifohonalar qurish va ularni jihozlash va boshqa loyihalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jadval ma’lumotlaridan yana shu ma’lumki, O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirilgan loyihalar asosan davlat infratuzilma loyihalarini tashkil etgan bo‘lib, aynisa amalga oshirilgan loyihalar samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Islom moliya institutlarida sezilarli likvidlikni hisobga olgan holda, DXSHlarning aktivlarga bog‘liqligi va uzoq muddatli tabiati ularni islom banki faoliyati uchun yaxshi investitsiya imkoniyatiga aylantiradi. Turkiyadagi Konya integratsiyalashgan sog‘liqni saqlash kampusi an’anaviy va islomiy moliyalashtirish loyihalarni moliyalashtirish sifatida birgalikda ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Saudiya Arabistonidagi Madina aeroportining kengayishi esa infratuzilma loyihasini moliyalashtirishda istisno‘ va ijara birlashtirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Jahon banki (2017) ma’lumotlariga ko‘ra, islomiy moliyaning asosiy xususiyatlaridan biri shariat tuzilmalarining mamlakat, sektor va loyihaga xos bo‘lgan infratuzilma ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchanligi va shu bilan islomiy moliya provayderlariga eng to‘g‘ri yechimni ishlab chiqish imkonini beradi. Islomiy moliya infratuzilmadagi bo‘shliqni bartaraf etish uchun moliyalashtirish yetishmasligini hisobga olgan holda qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini taklif qiladi.

Jahon banki tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonga tegishli bandida mamlakatda infratuzilma obyektlarining holatini yaxshilashga muhtoj aholining hududlar bo‘yicha ulushi anchayin qoniqarsiz bo‘lib, ayniqsa issiqlik bilan taminlaganlik Toshkent shahridan boshqa barcha hududlarda o‘rtacha 90 foizlik ehtiyoj chegarasida turishi bu yo‘nalishda kechiktirib bo‘lmaydigan islohotlarni olib borilishi kerakligidan darak beradi. Shuningdek, asfalt yo‘llari, ko‘priklar, parklar va bolalar maydonchasi, internet, suv taminoti, gaz taminoti va irrigatsiya sohalarida ham loyihalar ishlab chiqilishi va bu loyihalarning moliyaviy resurslar ko‘p talab qilishini taqqazo etgani uchun xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘lari (IsTB, OTB,) hamda ichki va xorijiy investsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunda, ushbu loyihalarni DXSH loyihalari ko‘rinishida bo‘lishi va yuqorida ko‘rib chiqanimizdek islomiy moliyalashtirish tuzilmalari (istisno‘, istisno‘-ijara, vakala-ijara yoki mushoraka-istisno‘-ijara)dan foydalanish va parallel yoki sindikatlashgan ko‘rinishda ham (OTB va IsTB misol uchun) moliyalashtirish imkoniyatlarini berilishi islom iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi xorijiy investitsiyalarni kirib kelishiga va yuqoridagi hududlar kesimida moliyalashtirishga muhtoj yo‘nalishlarni muammolarini hal etilishiga olib kelgan bo‘lar edi. Buning isbotini nafaqat nazariy balki amaliy aspektlarini amaliyotdagi loyihalar bilan ko‘rsatib berdik.

Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar asosida qolgan masalalar bo‘yicha istiqbolli ishlarimiz davom etmoqda va kelgusi maqolalarimizda taqdim etib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://xs.uz/uzkr/post/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. Xayitov S.B. (2022) “O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda DXSH mexanizmini takomillashtirish”, 08.00.02-“Makroiqtisodiyot” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. UDK: 330.101.541:330.35(575.1). –TDIU. 153 bet.
3. Bhattacharya, A., J. Oppenheim, and N. Stern. (2015). “Driving Sustainable Development through Better Infrastructure: Key Elements of a Transformation Program.” Global Economy & Development Working Paper 91.
4. Bing, L. and et al. (2005), “The allocation ofrisk in PPP/PFI construction projects in the UK”, International Journal of ProjectManagement, Vol. 23, No. 1, pp. 25-35.
5. PPP Knowledge Lab (2017), PPP Reference Guide – Version 3, [Online] Availablefrom: https://pppknowledgelab.org/guide/sections/1-introduction
6. Zen, F. (2018), Public–Private Partnership Development in Southeast Asia. ThePhilipines: Asian Development Bank.
7. Gait , A. and Worthington, A. (2008). An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), –783-808.
8. Mirakhor, A. and Iqbal, Z. (2011). An Introduction To Islamic Finance : Theory and Practice. Singapore: John Wiley & Sons.
9. Imamnazarov J.M. (2023) Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O‘zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. –TDIU.

KORXONALAR FAOLIYATINI IFODALOVCHI UMUMIY KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA REYTINGNI ANIQLASH

Maxkamboyev Komil Abdulxakovich
PhD, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichlar asosida reytingni aniqlash masalalari o‘rganilgan. Jumladan, umumiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimining ahamiyati, ular bo‘yicha reytingni aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, uni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: reyting, mohiyatlilik koyeffitsenti, iqtisodiy salohiyat, moliyaviy faoliyat, ko‘rsatkichlar tizimi.

Abstract: The article discusses the issues of determining the rating based on general indicators reflecting the activities of enterprises. In particular, the significance of the system of indicators reflecting overall activity and the measures for determining the rating on them were scientifically analyzed. Scientific proposals and conclusions for its development are also given.

Key words: rating, essentiality coefficient, economic potential, financial activity, system of indicators.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы определения рейтинга на основе общих показателей, отражающих деятельность предприятий. В частности, научно проанализировано значение системы показателей, отражающих общую деятельность, меры определения рейтинга по ним. Также приведены научные предложения и выводы по ее развитию.

Ключевые слова: рейтинг, коэффициент существенности, экономический потенциал, финансовая активность, система показателей.

KIRISH

Mamlaktimizda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan biznes subyektlarning o‘ziga tegishli, mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish obyektiv zaruriyatga aylandi, chunki mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash va raqobatbardoshligini mustahkamlash masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PF-5687-son Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, xalqaro biznes subyektlari bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, tegishli idoralarda baholanayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar va boshqa rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tajribasini o‘z ichiga olgan tegishli ma’lumotlar bazasini, undan foydalanuvchilarda esa xalqaro reyting metodologiyasini qo‘llash bo‘yicha dunyoqarashni shakllantirish muhim masalalardan biri bo‘lib turibdi. Mazkur masalaning o‘ta muhimligiga qaramasdan korxonalar moliyaviy faoliyati asosida reyting ko‘rsatkichlarini tahlil qilish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, korxonalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ular bo‘yicha reytingini aniqlash masalasi amaliyotda deyarli qo‘llanilmayotganligi bu borada bir qancha izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Biznes subyektlari moliyaviy holati bo‘yicha reytingini aniqlash va ularning ayrim turlarini tahlil qilish mavzusiga xorijlik iqtisodchi olimlar A.D. Sheremet “korxonaning moliyaviy ahvolining turli ko‘rsatkichlar tizimida umumlashtirilgan ifodasidir”[1], deb ta’rif beradi. Yana bir rus iqtisodchi olimi G.V. Savitskaya “Moliyaviy holatning

1 Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. М.: НИЦ Инфра-М, 2013. – 229 с

umumlashtirilgan ifodasidir”[2] degan fikrni ilgari surgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Raximov M. Yu. “... ko‘rsatkichlar tizimini moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aniq belgilar asosida baholanishidir”[3], deb tariflagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o‘tkazishda ma’lumotlarni guruhlarga ajratish hamda iqtisodiy matematik usullar tarkibidagi addetiv usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarning umumiy reytingini aniqlash uchun ushbu subyektning butun faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ushbu reyting ko‘rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish hajmi;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi;
- asosiy vositalar samaradorligi;
- aylanma mablag‘lar samaradorligi;
- nomoddiy aktivlar samaradorligi;
- investitsiya samaradorligi.

Ushbu guruh ko‘rsatkichlarning aniq ifodasi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Korxonalarning umumiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi[4]

T/r	Faoliyatning turli bo‘limlari	Shu faoliyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi
1.	Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish hajmi	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
		Sotilgan mahsulot hajmi
		Sotilgan mahsulotning tarkibiy tuzilishi
		Sotilgan mahsulotning sifatlilik darajasi
2.	Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar	Daromadlar
		Xarajatlar
		Foyda
		Rentabellik
3.	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi	Moddiy xarajatlar
		Mehnat xarajatlari
		Boshqaruv bilan bog‘liq xarajatlar
4.	Asosiy vositalar samaradorligi	Asosiy vositalar natijaviyligi
		Asosiy vositalar daromadliligi
		Asosiy vositalar rentabelligi
		Asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi
5.	Aylanma mablag‘lar samaradorligi	Aylanma mablag‘lar natijaviyligi
		Aylanma mablag‘lar daromadliligi
		Aylanma mablag‘lar rentabelligi
		Aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik tezligi
		Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganligi
6.	Nomoddiy aktivlar natijaviyligi	Nomoddiy aktivlar samaradorligi
		Nomoddiy aktivlar daromadliligi
		Nomoddiy aktivlar rentabelligi
		Nomoddiy aktivlar bilan ta’minlanganligi
7.	Investitsiya samaradorligi	Ichki investitsiya samaradorligi
		Tashqi investitsiya samaradorligi
		Umumiy investitsiya samaradorligi

2 Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М, 2013. – 384 с
3 Rahimov M. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Iqtisod-mmoliya. 2015, 356 б.
4 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadval korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichlarning ayrimlarigina keltirilgan. Lekin shularning o‘zinigina qo‘llab ham korxonalar reytingini yetarli darajada aniqlab olishimiz mumkin. Bunda ko‘rsatkichlarni bir xil o‘lchamga va bir xil yo‘nalishga keltirib olish maqsadga muvofiq. Shundagina ularni iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llab barcha ko‘rsatkichlar miqdorini qo‘shib aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\text{Krk} = \sum_{i=0}^{n} \text{Xi} ;$$

Bunda: Krk – korxonalar reytingi bo‘yicha kompleks ko‘rsatkich;
Xi – i-ko‘rsatkichning miqdori (qiymati);
i – ko‘rsatkichlar soni (i=1,n);
n – korxonalar reytingiga kiritilgan ko‘rsatkichlarning umumiy soni.

Reytingni haqqoniy bo‘lishi va real voqeiylikni ifodalashi uchun ko‘rsatkichlarning mohiyatlilik darajasini inobatga olish lozim. Chunki, korxonaning faoliyati natijasiga mehnat resurslari nomoddiy aktivlarga nisbatan kuchliroq ta’sir qiladi. Shu tufayli har bir ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentini inobatga olishni taqozo etadi.

Ko‘rsatkichlarning mohiyatlilik koeffitsiyenti ekspert yo‘li bilan aniqlanadi. Bunda har bir ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentini ekspertlar qo‘yib chiqadi. Bunda eng yaxshi ko‘rsatkich “1” ga va eng past ko‘rsatkich 0,1 ga teng deb olinadi, qolganlari shunga nisbatan olinadi. Demak, mohiyatlilik koeffitsiyenti barcha ko‘rsatkichlarniki “0,1” dan “1” gacha oraliqda bo‘ladi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha ekspertlarning baholari jamlanib, ularning soniga bo‘linadi va ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyenti (Km) aniqlanadi:

$$\text{Km} = \frac{\sum_{i=0}^{n} \text{Xi}}{n}$$

So‘ngra har bir ko‘rsatkichni mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko‘paytirib, keyin hammasi jamlandi. Ammo yanada aniqroq bo‘lishi uchun ushbu kompleks ko‘rsatkichning o‘rtachasi hisoblanadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Krk} = 1/2 \sum_{i=0}^{n} \text{Xi} * \text{Km}$$

Masalan, korxonaning reytingini aniqlash uchun 6 ta ko‘rsatkich olindi, deb faraz qilamiz. Ulardan biri “Korxonada mehnat samaradorligi” ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning mohiyatliligini baholash uchun 100 ta ekspertga so‘rovnoma tarqatildi. Ular ushbu ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentiga baho beradi. Ularning yig‘indisi 37 ni tashkil qildi. Ushbu raqamning o‘rtachasi 0,37 ga (37/100) teng bo‘ladi. Korxonada mehnat samaradorligi ko‘rsatkichining miqdori shu reyting koeffitsiyentiga ko‘paytiriladi va bular jamlanadi.

Mazkur kompleks ko‘rsatkich orqali har bir korxonaning reytingi qandayligiga baho berish mumkin. Ushbu holat har bir korxonaning samaradorlik darajasi qandayligiga va uning umumiy ahvoliga aniq baho berish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ko‘rsatkich uning reytingini tashkil qiladi. Reytingi yuqori korxonalar, o‘rtacha darajadagi korxonalar va past samaradorlikka erishgan korxonalar aniqlanadi. Ushbu holat aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun iqtisodiy asos bo‘lib hisoblanadi. Samaradorligi past korxonalarning ahvolini chuqur o‘rganish natijasida ularning ahvolini yaxshilash yo‘llari ham ishlab chiqiladi. Ushbu holat korxonalar reyting ko‘rsatkichining katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat berib turibdi.

Ko‘rinib turibdiki, korxonalar reytingini har bir yo‘nalish bo‘yicha ham aniqlash mumkin. Korxonalar iqtisodiy salohiyati bo‘yicha reytingini aniqlash uchun eng avvalo, ushbu kategoriyani ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi alohida tarmoqlar va yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Buni har bir biznes subyekti bo‘yicha ham hisoblash mumkin. Endigi muhim vazifa shu ma’lumotlar asosida korxonaning iqtisodiy salohiyatiga baho berishdan iboratdir.

Buning uchun har bir korxonaning umumiy o‘rtachaga nisbatan qanday ahvolda ekanligiga baho beriladi va shu yo‘l bilan korxonalar iqtisodiy salohiyati bo‘yicha har birining reytingi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Icr = \sum_{i=1}^{n}(\frac{aij}{aurij}) * Kmij + \cdots + \sum_{i=1}^{n}(\frac{anj}{aurnj}) * Kmnj$$

Bunda: Icr –iqtisodiy salohiyat bo‘yicha bitta korxonaning reytingi;
aij – i-korxonaning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha miqdori;
aurij – i-korxonaning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rtacha miqdori;
Kmij – i-korxonning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha mohiyatlilik koeffitsiyenti;
anj – n-korxonaning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha miqdori;
aurnj – n-korxonaning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rtacha miqdori;
Kmnj – n-korxonning j-ko‘rsatkichi bo‘yicha mohiyatlilik koeffitsiyenti;
∑ - jamlash (qo‘shish) belgisi, additiv modelida qo‘llaniladi.
i – i-korxonlar tartib soni;
n – koronalar umumiy soni;
j – j-ko‘rsatkichning tartib raqami.

Korxonalarning iqtisodiy salohiyat bo‘yicha reytingini aniqlash uchun uning tarkibiy tuzilishini aniqlash lozim bo‘ladi. Hozirgi paytda ushbu masala bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida bir qancha tavsiyalar mavjud5.

Biznes subyektlari iqtisodiy salohiyati tarkibidagi umumiy yondoshuvga tayangan holda quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalar qiymati;
- aylanma mablag‘lar qiymati;
- nomoddiy aktivlar qiymati;
- mehnat resurslarining shartli qiymati6.

Bularni qiyoslanadigan holatda xarajatlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, avtomobil transporti korxonalar iqtisodiy salohiyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalar amartizatsiyasi;
- aylanma mablag‘larning ishlab chiqarishga (xizmat ko‘rsatishga) sarf qilingan qiymati;
- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- mehnat resurslaridan foydalanganlik uchun qilingan xarajatlar (ish haqi)7.

Ushbu takliflarni qo‘llashda sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni nafaqat qiymat jihatidan, balki natural holatini ham inobatga olishimiz lozim. Chunki ikkita asosiy vosita bir xil qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Ammo quvvati bo‘yicha farqlari bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Shu tufayli sohada asosiy vositalarning qiymati bilan birga ularning natural o‘lchovdagi, uning salohiyatiga mos o‘rinlari, soni va boshqa ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Biznes subyektlar iqtisodiy salohiyati bo‘yicha reytingini aniqlashda sohaga oid natural va qiymat ko‘rsatkichlarini bir xil o‘lchamga keltirib olish lozim bo‘ladi. Bunda iqtisodiy salohiyatning kompleks ko‘rsatkichini aniqlash orqali ushbu subyektlarning reytingiga baho berish mumkin.

Yana bir muammo korxonalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish uchun ularning ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Bu borada ham yagona ilmiy qarashlar shakllangan emas. Hammasini jamlagan holda, tadqiqot jarayonida bir qancha ko‘rsatkichlar bo‘yicha reytingi aniqlash usuli ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlari va 1-formula asosida har bir ko‘rsatkichning reytingini aniqlash uchun uning miqdori aniqlab olinadi. Bunda har bir ko‘rsatkichning o‘rtachaga nisbatan nisbiy miqdori hisoblanib, ushbu ko‘rsatkich mazkur ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko‘paytiriladi. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha xuddi shunday hisob-kitob qilinadi va hammasi jamlanadi. Shu tariqa har bir korxonaning umumiy reytingi aniqlanadi.

5 Pardayev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Mehat” nashriyoti, 2004. – 104-138 betlar., Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. Professor M.Q.Pardayevning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2016. – 226-231 betlar., Pardayev M.Q., Hasanov B.A., Isroilov J.I., Pulatov M.E., Eshboyev O‘.T., Xoliqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Cho‘lpon” nashriyoti, 2012.- 400 bet.

6 Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. Professor M.Q.Pardayevning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2016. – 226-231 betlar.

7 Pardayev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Mehat” nashriyoti, 2004. – 104-138-betlar.

Xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlarda alohida ko‘rsatkichlarning mohiyatlilik koeffitsiyentini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazib, mutaxassislardan o‘zlarining munosabatlarini olish maqsadga muvofiqdir.

Bunda har bir ko‘rsatkichga 0,1 dan 1,0 ballgacha baho beriladi. Barcha sotsiologik so‘rov natijalari qo‘shilib baho berganlar soniga bo‘linadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

$$Km = \frac{\sum_{i=1}^{n} Mi}{n}$$

Shu tariqa har bir ko‘rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyenti aniqlanadi. Bunda asosiy vositaning soni bo‘yicha, o‘rtacha quvvati bo‘yicha, asosiy vosita bilan bevosita faoliyat olib borayotgan ishchilar soni bo‘yicha reytingi aniqlab olinadi. Ushbu mohiyatlilik koeffitsiyentini har bir ko‘rsatkichga ko‘paytirish natijasida qiyoslanadigan ko‘rsatkichni aniqlash mumkin. Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida tahlil qilinayotgan korxonalarning quvvati bo‘yicha reytingi aniqlab olinadi.

Umumiy reytingi aniqlashda ularning o‘rtacha miqdori va subyektning sohadagi darajasi kelib chiqadi. Hisob-kitoblar asosida va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llab, tegishli dasturlar asosida amalga oshirilsa, minglab korxonalar reytingini aniqlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib tadqiqot natijasida bir qancha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, biznes subyektlarida iqtisodiy salohiyat tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Bunda iqtisodiy salohiyatni nafaqat qiymat, balki natural ko‘rinishda ham aniqlash lozimligi asoslandi. Korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, korxonalar iqtisodiy salohiyat bo‘yicha reytingini aniqlash modeli ishlab chiqildi va uning amaliyotda qo‘llanilishi ko‘rsatildi, tahlil natijasida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo‘llari ko‘rsatib berildi.

Uchinchidan, korxonalar bo‘yicha har birining reytingini aniqlash va shu asosda ularning o‘rnini belgilash yo‘llari ham ko‘rsatib berildi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan biznes subyektlar iqtisodiy salohiyati tushunchasining nazariy masalalari va ularning tarkibiy tuzilishiga aniqlik kiritish, xususan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag‘lar, joriy aktivlar, mehnat resurslari kabi kategoriyalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning qaysi o‘lchamda qabul qilish va ularni tizimlashtirish yo‘llari yoritish soha samaradorligini baholashda o‘ta muhim masalalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar iqtisodiy salohiyati samaradorligini tahlil qilish va reytingini baholashning nazariy masalalarini tadqiq qilish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur masala salmoqli o‘ringa ega bo‘lishiga qaramasdan, olimlarimiz tomonidan yetarli darajada o‘rganilmagan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Bularni inobatga olib, korxonalar iqtisodiy salohiyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha reytingi va ularni aniqlashning nazariy masasalalari, korxonalar ihtisodiy salohiyati tushunchasining mazmuni, ularning tarkibiy tuzilishi, ta’riflari va tahlil qilish vazifalari ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. М.: НИЦ Инфра- М. – 2013. – 229 с.
2. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М. – 2013. – 384 с.
3. Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlili T.: Iqtisod-moliya. – 2015, 356 b.
4. Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA KLASTER-KOOPERATSIYA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALAR

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna
PhD, dotsent v. b., Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalari bayon qilingan. Qishloq xo‘jaligida klaster-kooperatsiya tizimini rivojlantirish orqali dorivor o‘simliklarni yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, klaster, kooperatsiya, qayta ishlash, eksport, fermer, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari, sog‘liqni saqlash, urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, texnika, yoqilg‘i, farmatsevtika tarmog‘i, sog‘lomlashtirish.

Abstract: This article discusses issues of increasing the efficiency of the cluster-cooperative system in the cultivation and processing of medicinal plants. Ways to increase the efficiency of growing medicinal plants through the development of a system of cluster cooperation in agriculture have been studied.

Key words: medicinal plants, cluster, cooperation, processing, export, farmer, farms, farmers, health, seeds, mineral fertilizers, equipment, fuel and, pharmacy chain, health.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы повышения эффективности кластерно-кооперативной системы при выращивании и переработке лекарственных растений. Изучены пути повышения эффективности выращивания лекарственных растений за счет развития системы кластерной кооперации в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: лекарственные растения, кластер, кооперация, переработка, экспорт, фермер, фермы, аграрии, здоровье, семена, минеральные удобрения, техника, топливо и, аптечная сеть, оздоровительный.

KIRISH

Klaster tizimi qo‘llanilayotgan tarmoqlar qatoriga endilikda dorivor o‘simliklar sohasi ham kiritildi. Prezidentimizning 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, joriy yil 1 maydan boshlab dorivor o‘simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlari tashkil etilishi belgilandi.

O‘simlik klasteri qanday yo‘lga qo‘yiladi? Bu savolga O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi olimlarining faoliyati misolida javob izlasak. Sababi, Nurota tumanining chekka qishloqlarida ana shu tajriba muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shartnomada yetishtirilgan dorivor o‘simliklarni bugungi bozor talabidan kelib chiqib, kelishilgan narxlarda sotib olishni klaster o‘z zimmasiga oladi. Bunda klaster tomonidan dorivor o‘simliklarning qaysidir turini ekish istagini bildirgan fermer va tomorqa yer egalari ushbu dorivor o‘simliklar urug‘lari, ekish va parvarishlash agrotexnikasi to‘g‘risidagi uslubiy-amaliy qo‘llanmalar bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, Navoiy bo‘limi olimlari tomonidan ekilgan dorivor o‘simliklar o‘sish jarayonining doimiy monitoringi videokuzatuv asosida va bevosita joylarga chiqqan holda olib boriladi hamda mutaxassislar tomonidan zaruriy tavsiyalar beriladi. Shuningdek, bo‘lim olimlari tomonidan dorivor o‘simliklarni ekish uchun yer maydonini tayyorlashdan tortib, to hosilni yig‘ib olishgacha bo‘lgan davrdagi barcha sug‘orish, o‘g‘it bilan oziqlantirish va zaruriy agrotexnika tadbirlariga sarflanadigan xarajatlar kalkulyasiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu narxlar shartnoma asosida dorivor o‘simliklarni ekishni rejalashtirgan fermerlar va tomorqa yer egalariga taqdim etiladi. Agar dorivor o‘simliklarni ekishni rejalashtirgan fermer va tomorqa yer egasida mablag‘ga ehtiyoj bo‘lsa, klaster tomonidan ta’minlab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Dorivor o‘simlik klasterining asosiy vazifasi qilib quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

- dorivor o‘simlik yetishtiruvchilar bilan yetishtirilgan mahsulotni xarid qilish bo‘yicha shartnomalar tuzish, ularni urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, texnika, yoqilg‘i va boshqa vositalar bilan ta’minlash;
- ixtisoslashtirilgan hududlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish, urug‘liklar va ko‘chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich zamonaviy dorivor o‘simliklar plantatsiyalari tashkil etish;
- dorivor o‘simliklarni yetishtirish va urug‘chiligini tashkil etishda ilg‘or ilm-fan yutuqlarini qo‘llash;
- dorivor o‘simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlash bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechim (nou-xau)lar joriy etish;
- dorivor o‘simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlashga xorijiy kompaniyalarning investitsiyalari hamda ilg‘or texnologiyalarini jalb qilish;
- dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan dori-darmon mahsulotlarga bo‘lgan ichki bozor talabini qondirish hamda ularni eksport qilish;
- tajriba va ma’lumotlarning doimiy almashinuvini tashkil etish orqali ushbu yo‘nalishdagi xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro tadqiqot dasturlari, anjumanlar va simpoziumlarda ishtirok etish.

Albatta, bunda ajratilgan mablag‘ fermer va tomorqa egalari tomonidan shartnoma asosida yetishtirilgan hosilning sotib olinish narxidan chegirib qolinadi.

Klaster tashkil etilgandan keyingi ikkinchi bosqichda bevosita klasterning o‘ziga 50 gektar yer maydoni olinadi va 100 foiz yetishtirilgan hosilni qayta ishlash yo‘lga qo‘yiladi. Klaster eksportga ham ko‘maklashadi.

Qarorda ta’kidlanganidek, dorivor o‘simlik yetishtiruvchilar bilan mahsu-lotni xarid qilish bo‘yicha shartnomalar tuzish, ularni urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, texnika, yoqilg‘i va boshqa vositalar bilan ta’minlash, ixtisoslashtirilgan hududlar-da dorivor o‘simliklarni yetishtirish, urug‘liklar va ko‘chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich plantatsiyalar tashkil etish klasterning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Demak, dorivor o‘simliklar klasteri faoliyatida ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyalashuvi o‘z ifodasini topadi. Dehqon yerning tilini tushunadi, o‘simlik yetishtirishning xalqona va sinalgan usullarini biladi. Ammo ularning barchasi ham shifobaxsh o‘simliklarning tasnifi-yu, uni yetishtirishdagi zamonaviy fan yutuqlaridan xabardor bo‘lavermaydi. Shundan kelib chiqib, klasterlar zimmasiga dorivor o‘simliklarni yetishtirish va urug‘chiligini tashkil etishda ilg‘or ilm-fan yutuqlarini qo‘llash, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechim(nou-xau)lar joriy etish, xorijiy kompaniyalar investitsiyalari hamda ilg‘or texnologiyalarini jalb qilish kabi masalalar ham yuklangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klaster dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan mahsulotlarga bo‘lgan ichki bozor talabini o‘rganish bilan birga eksport qilishda ham dehqonga ko‘makchi bo‘ladi. Foyda 3 milliard so‘mdan oshadi.

Fermerlar va tomorqa egalari bilan hamkorlikning ushbu usulida 50 gektar maydonda dorivor o‘simliklar yetishtirish natijasida taxminiy hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 10 gektar yerga ekilgan topinamburdan 200 tonna, 10 gektar moychechakdan 4 tonna, 10 gektar amarantdan 15 tonna, 5 gektar kunjutdan esa 10 tonna hosil olishimiz mumkin. Agar olingan hosilning 50 foizi qayta ishlansa, ya’ni tozalanib, quritilib, qadoqlansa, bundan keladigan foyda taxminan 3 milliard so‘mdan ko‘proqni tashkil etadi.

Oldimizda turgan asosiy masalalardan biri klaster faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ketadigan dastlabki mablag‘ni topishdir. Bunda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan e’lon qilingan grantlar, banklar tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar yoki viloyatdagi tadbirkor va fermerlarning moliyaviy ko‘magiga tayanamiz. Bugungi kunda dorivor o‘simliklarni chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan O‘zFA O‘simlik moddalari kimyosi instituti bilan samarali hamkorlik qilish ham rejalashtirilmoqda. Ma’lumki, kooperatsiya nazariyasida kooperatsiyaning ikki turi mavjud: vertikal va gorizontal. Vertikal kooperatsiyasi qishloq xo‘jaligi korxonalari, ularning bo‘linmalari, boshqa tuzilmalari yoki resurslarning bir qismini qayta ishlash sanoati va agrosanoat majmuasining tegishli tashkilotlari bilan birlashtirish shaklida mavjud.

1-jadval: Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (S)	Kuchsiz tomonlari (W)
dorivor o‘simliklarni yetishtirish uchun qulay tuproq- iqlim sharoitlarining mavjudligi; -qayta ishlashni rivojlantirish uchun xom ashyo resurslarining mavjudligi; -kavrak yetishtirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy baza (strategiya, qonun, qaror, dastur va b.) yetarliligi; -kavrakni yetishtirish va qayta ishlashning yuqori rentabelligi; -ichki va tashki bozorlarda kulay vaziyatlar mavjudligi (talab yuqoriligi); -qayta ishlash korxonalarida yangi zamonaviy uskunalar mavjudligi; -ilmiy texnik va kadr salohiyatining yetarliligi; -zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmalari rivojlangan qayta ishlash korxonalari mavjudligi; -qayta ishlash korxonalarida innovatsiya va investitsiya faoliyatining barqaror rivojlanayotganligi.	-ba’zi dorivor o‘simliklarni yetishtirishga yuqori agrotexnik talablar qo‘yilishi; -yuqori hosilli navlar yetishmasligi va mavjudlari hosildorligining pastligi; -o‘rmon, fermer va dehqon xo‘jaliklarida hamda tomorqa yer egalarida hosilni saqlash va birlamchi qayta ishlash uchun sharoitlar yetarli emasligi; -dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash korxonalari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning baho, xom ashyo hajmi, yetkazib berish, qayta ishlash shartlari kabi masalalarning to‘liq yechilmaganligi; -xalqaro standartlar talablariga javob beradigan raqobatchilarning mavjud emasligi; -qayta ishlash korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilmaganligi; - dorivor o‘simliklar mahsulotlarini qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlar assortimentining kamligi; -dizayn, reklama va bozor ishtirokchilarini axborot bilan ta’minlash darajasining yaxshi rivojlanmaganligi.
Imkoniyatlar (O)	**Xavf-xatarlar (T)**
-innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi korxonalarni barpo etish hisobiga dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash hajmini ko‘paytirish; -ishlab chiqarish texnologiyasiga qat’iy rioya qilish, almashlab ekish, elita urug‘liklar va o‘g‘itlarni qo‘llash hisobiga dorivor o‘simliklar sifatini oshirish; -soya doni yetishtiruvchi va qayta ishlash korxonalari tizimida logistikani rivojlantirish va natijada mahsulotlarni yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish; -bojxona to‘lovlari, kvotalar, tariflar, subsi-diyalar va solikka tortishni optimallashtirish; -viloyat (hudud) miqyosida: “xom-ashyo ta’minoti - qayta ishlash - tayyor mahsulot- sotish” zanjirining samaradorligini ta’minlay-digan tadbirlar tizimini ishlab chiqish; -innovatsiyalar va yuksak texnologiyalarni rivojlantirish asosida.	-tuproq-iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqa tadbirlarga rioya qilinmasligi oqibatida dorivor o‘simliklar hosildorligining pasayib ketishi; -texnik va texnologik yangilanishlarda raqobatchilardan orqada qolish xavfi; -malakali mutaxassislarning agrar sohadan ketib qolishi va aholining ko‘payishi; -dorivor o‘simliklar bozorida mintaqalararo raqobatning kuchayishi; -elektr energiyasi, o‘g‘it va sanoat mahsulotlari bahosining oshib ketishi oqibatida ular bahosi va qishloq xo‘jalik mahsulotlari (dorivor o‘simliklar) bahosi o‘rtasidagi paritetning buzilishi; -ajratilayotgan subsidiyalar va imtiyozli bank kreditlarining yetishmasligi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu turdagi kooperatsiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va marketingni yagona iqtisodiy siklga bog‘laydi. Gorizontal kooperatsiya mulkchilik va boshqaruvning turli shakllaridagi qishloq xo‘jaligi korxonalarining birlashuvini o‘zida namoyon etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan uyushma kooperatsiya shaklini o‘zida namoyon etib, ko‘proq aralash, ya’ni yuqorida keltirilgan kooperatsiyaning ikki turini o‘zida mujassam qiladi. Bu esa ushbu subyektlarning mulkchilik, shartnoma va boshqa iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklar va manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligida klaster tizimi tobora keng tadbiq etilmoqda. Bu tizim deyarli barcha qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida, xususan paxtachilikda, urug‘chilikda, parrandachilikda, meva-sabzavotchilikda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuni inobatga olib, mintaqada dorivor o‘simliklar klasterlarini tashkil etish, uning yadrosida aynan dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Dorivor o‘simliklar klasterlari, ularni yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar 2023-yil 1-yanvarga qadar mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan quyidagi mahsulotlarni olib kelayotganda bojxona bojlarini to‘lashdan ozod qilinadi:

- xom ashyo, shu jumladan madaniy plantatsiyalar barpo etish uchun urug‘ va ko‘chatlarni, uskunalar hamda maxsus texnikalarni;
- fitobarlar uchun vending avtomatlarini – imtiyozlar berilishi hisobidan bo‘shaydigan mablag‘larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli yo‘naltirgan holda.



1-rasm: Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi[1]



2-rasm: Hududiy “Dorivor o‘simliklar klasteri” va “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi”ni shakllantirish bosqichlari[2]

1 Muallif ishlanmasi
2 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Buning uchun esa, tegishli vazirlik va idoralarning “Dorivor o‘simliklar yetishtirishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini qabul qilish va unga asosan, sinov tariqasida hududiy “Dorivor o‘simlikchilik klaster-kooperatsiyasi”ni tashkil etish kerak. Ushbu loyihaning afzalligi shundaki, dorivor o‘simliklarni qayta ishlovchi korxonalar bevosita o‘zlari xom ashyo yetishtirish jarayonlari ishtirokchisiga aylanadi. Bu qishloq xo‘jaligi va sanoat integratsiyalashuvini jadallashtirib, korxonalarning sifatli, tannarxi arzon, eng muhimi, qayta ishlash korxonalarining ehtiyojga yarasha xom ashyo bilan to‘liq ta’minlanishini kafolatlaydi.

Dorivor o‘simlikchilik klaster-kooperatsiyasi – bu geografik jihatdan bir hudud (yoki mintaqa)da joylashgan hamda bir yoki bir nechta mustaqil yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bozor (ixtiyoriylik) tamoyillari asosida o‘zaro birlashib ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda dorivor o‘simliklarni yetishtirish va ko‘paytirish yoki shartnoma asosida xom ashyoni sotib olishdan uni dastlabki qayta ishlash, ulardan olinadigan turli xildagi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va chuqur qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish va sotish, urug‘chilik ishlarini rivojlantirish, yagona texnologik zanjirda qo‘shilgan qiymatni yaratuvchi yangi xo‘jalik yuritish tizimini shakllantirish usuli, deb aytish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sodda qilib aytganda, dorivor o‘simlikchilik klaster-kooperatsiyasi, bu – yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui sifatida birlashadi. Mazkur yangi tuzilma innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichi sanaladi. Chunki bu yerda xom ashyoni qayta ishlashning barcha bosqichidan o‘tib, eksportbop tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Bunday tizim barpo qiluvchi, yangi tuzilmaning asosini “xom ashyo ta’minoti - qayta ishlash - tayyor mahsulot - sotish” jarayonlarining integratsiyalashgan birlashmasi tashkil etadi.

Viloyatdagi mazkur klaster-kooperatsiya dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi korxonalarni texnoparklar, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘limi va boshqa manfaatdor subyektlarni birlashtiradi. Buning uchun muayyan tuman (hudud)da klaster-kooperatsiyani shakllantirish imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalarni hal etish zarur (3-rasm).



3-rasm: Hududiy “Dorivor o‘simliklar klasteri”ning tashkiliy tuzilmasi[3]

3 Muallif ishlanmasi

Bunday hududiy klaster-kooperatsiya har xil tarmoqlar, tarmoqlararo kooperatsiya va integratsiyalashuv hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish; dorivor o‘simliklar bozorining axborot ta’minotini yaxshilash, vositachilar sonini qisqartirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvini kuchaytirish.

Fikrimizcha, bunday “Dorivor o‘simliklar klasteri” va “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi”ni tashkil etish dorivor o‘simliklarni yetishtirish, quritish va saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot sotishni yagona tizimga birlashtiradi. Bunday klaster-kooperatsiyasi tuzilmasini quyidagicha tashkil etishni tavsiya etamiz (3-4-rasmlar).



4-rasm: “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi”ning tashkiliy tuzilmasi[4]

Shunday qilib, tavsiya etilayotgan “Dorivor o‘simliklar klasteri” va “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi”ning tarkibiga quyidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kiritishimiz mumkin:

- dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalari;
- dorivor o‘simliklar xom ashyolarini qayta ishlash korxonalari;
- dorivor o‘simliklarni saqlash va quritish, moddiy-texnika ta’minoti, urug‘lik tashkilotlari, laboratoriyalar va b.;
- dorivor o‘simliklarni reklama qilish, marketing xizmati va sotish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug‘ullanuvchi innovatsion tuzilmalar, investitsion fondlar, texnoparklar, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar va b.

4 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

“Dorivor o‘simliklar klasteri” va “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi”ning faoliyat samaradorligi dorivor o‘simliklar (xom ashyo) yetishtiruvchi o‘rmon, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari bilan qayta ishlash korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy tizimi qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi bilan belgilanadi.

Aholining dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabini qondirish va “Dorivor o‘simliklar klasteri” va “Dorivor o‘simliklar kooperatsiyasi” faoliyatining samaradorligini ta’minlash uning ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bu asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi:

1. Aholini iste’mol me’yorlariga muvofiq dorivor o‘simliklar bilan barqaror ta’minlash;
2. Qayta ishlash korxonalarining quvvatlaridan oqilona foydalanishni ta’minlash;
3. Dorivor o‘simliklar xom ashyosi sifatini oshirish va assortimentini ko‘paytirish.

Dorivor o‘simliklar xom ashyosini taqsimlash jarayonining ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, dorivor o‘simliklarni qayta ishlash korxonalari tomonidan qabul qilish baholari bozordagi vositachi tashkilotlarining xarid baholaridan ancha arzon bo‘lmoqda. Buning natijasida, dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalari uchun xom ashyoni qayta ishlash korxonalariga bevosita kontraktatsiya shartnomalari asosida sotish iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Bunda kontraktatsiya shartnomalarida dorivor o‘simliklar xom ashyosi sifatiga qat’iy talablar o‘rnatilishi va yuqori sifatli xom ashyo uchun ustamalar ko‘zda tutilishi lozim.



5-rasm: O‘zbekiston Respublikasida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tizimini Klaster-kooperatsiya asosida tashkil etish sxemasi[5]

Hozirgi vaqtda fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalari bilan qayta ishlash korxonalari o‘rtasida amal qilayotgan o‘zaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi jiddiy kamchilik – xom ashyo (dorivor o‘simliklar) yetishtiruvchilarda pul mablag‘larining yetishmovchiligida namoyon bo‘lmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan birinchisi, xom ashyo (dorivor o‘simliklar) sifati bo‘lsa, ikkinchisi dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlashning iqtisodiy asoslanmaganligi hisoblanadi. Bunday o‘zaro munosabatlar tizimi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa yer egalarini dorivor o‘simliklar xom ashyolarini sifatini oshirishini rag‘batlantirmaydi.

5 Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori. https://lex.uz/docs/4785256
2. Xo‘jaqulova N.R. “The role and importance of medicinal plants in the development of the pharmaceutical industry” // International Journal of Management, IT & Engineering // Vol. 12 Issue 3, March 2022. U.S.A. ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119. 88-93 pages.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-139-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/6027102
4. Xo‘jaqulova N.R. “State Support of Entrepreneurship in the Production of Medicinal Plants in Agriculture” // Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development” // Academic Journal of Digital Economics and Stability.// Published in Aug-2021 956-963 pages.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5125714
6. Xo‘jaqulova N.R. “Ways to improve the current state of cultivation and processing of medicinal plants and it’s importance” // Journal of Management Value & Ethics // India // Gwalior-M.P. 25-31 pages. (OAK 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Osiyo mamlakatlari nashrlari № 6).

KIMYO TOLALARI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATINI DIVERSIFIKATSIYALASH

Raximov Furqat Jalolovich
“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi raisining maslahatchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyo tolalarga asoslangan to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning O‘zbekiston uchun ahamiyati aniqlangan. To‘qimachilik tolalari turlari va ularning klassifikatsiyasi shakllantirilgan. Sun’iy va sintetik tolalar ishlab chiqarishni global rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Tahlil natijalariga asoslangan holda kimyo tolalari asosida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, sanoat, kimyoviy tolalar, sun’iy tolalar, sintetik tolalar, diversifikatsiya, polyester, poliamid.

Abstract: In this article, the importance of the development of the textile industry based on chemical fibers in Uzbekistan is determined. Types of textile fibers and their classification have been formed. The trends of global development of man-made and synthetic fibers are analyzed. Based on the results of the analysis, proposals and recommendations on diversification of the textile industry of Uzbekistan based on chemical fibers were developed.

Key words: textile, industry, chemical fibers, artificial fibers, synthetic fibers, diversification, polyester, polyamide.

Аннотация: В данной статье определяется важность развития текстильной промышленности на основе химических волокон в Узбекистане. Сформированы виды текстильных волокон и их классификация. Проанализированы тенденции мирового развития химических и синтетических волокон. По результатам анализа разработаны предложения и рекомендации по диверсификации текстильного промышленности Узбекистана на основе химических волокон.

Ключевые слова: текстиль, промышленность, химические волокна, искусственные волокна, синтетические волокна, диверсификация, полиэстер, полиамид.

KIRISH

Zamonaviy kimyoviy tolalar va iplar gigiyena va qulaylik nuqtayi nazaridan tabiiy materiallarga deyarli o‘xshashdir. Shu bilan birga, sintetik to‘qimachilik mahsulotlarining asosiy xossalari hisoblangan elastiklik, mustahkamlik, deformatsiyaga chidamlilik, turli iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik, agressiv va biologik moddalar va zarralarga qarshilik kabi omillar tufayli tabiiy tolalar bilan raqobatlasha olish xususiyatiga ega. Shuningdek sun’iy tolalar to‘qimachilik sanoatini boshqa sanoat tarmoqlariga integratsiyalash, iste’molda qo‘llash uchun yangi sohalarini o‘zlashtirish va sifat jihatidan yangi xususiyatlar berish imkoniyatlar kengligi bilan ajralib turadi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida sun’iy sun’iy tolani qayta ishlash hajmlarini oshirishga yuqori ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan “…sun’iy tolani qayta ishlash hajmlarini 200 ming tonnaga yetkazish” ko‘zda tutilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun sun’iy tolalarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yangi turlarini yaratish kabi innovatsiyalarga ahamiyat qaratish bugungi kuning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

To‘qimachilik materiallari yoki to‘qimachilik – tolalar va iplardan tayyorlangan materiallar va mahsulotlardir. Bularga gazlamalar, trikotaj buyumlar, to‘qilmagan matolar, tikuv iplari va boshqalar kiradi [1]. To‘qimachilik iplari to‘qimachilik tolasi bilan bir xil xususiyatlarga ega, lekin undan ancha uzunroq uzunlikda farq qiladi [2]. Ip tolalarni yigirish orqali ishlab chiqarilishi mumkin va keyinchalik ip, deb ataladi. Ipak ipi ipak qurtining pillasini yechish orqali olinadi. kimyoviy filamentlar polimerdan hosil bo‘ladi.

Kelib chiqishiga ko‘ra to‘qimachilik tolalari tabiiy va kimyoviyga bo‘linadi (1-rasm).



1-rasm: To‘qimachilik tolalarining tasniflanishi[1]

Hozirgi vaqtda sanoat hayotimizning turli sohalarida hamma joyda qo‘llaniladigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallarga talabning ortishi tufayli rivojlanmoqda: tibbiy to‘qimachilik uchun to‘qilmagan materiallar, mashinasozlikda to‘qilmagan materiallar; o‘simliklarni yetishtirish uchun yordamchi materiallar va boshqalar.

Tabiiy tolalar guruhiga tabiatning o‘zi tomonidan, inson aralashuvisiz yaratilgan tolalar kiradi. Ular o‘simlik, hayvon yungidan olinadigan tolalar hisoblanadi. O‘simliklardan kelib chiqqan tabiiy tolalar urug‘lar yuzasidagi (paxta), poyasidan (zig‘ir, kanop va boshqalar), barglaridan (sisal va boshqalar), meva qobig‘idan (pilla) olinadi.

Hayvonlardan olingan tabiiy tolalar turli hayvonlarning jun tolalari va tut va eman ipak qurtlarining pilla ipaklari bilan ifodalanadi.

Kimyoviy tolalar sun’iy va sintetik tolalarga bo‘linadi. Sintetik tolalar polimerlarni kimyoviy sintez qilish, ya’ni oddiyroq moddalardan, ko‘pincha neft va ko‘mirni qayta ishlash mahsulotlaridan murakkab molekulyar tuzilishga ega moddalarni yaratish yo‘li bilan olinadi. Bunga quyidagilar kiradi: poliamid, poliester, poliuretan tolalari, shuningdek, poliakrilonitril (pan), polivinilxlorid (PVX), polivinil.

Sun’iy tolalar o‘simlik va hayvonlarning tabiiy polimerlarini, pulpa ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan kimyoviy qayta ishlash orqali ishlab chiqariladi. Ular uchun xom ashyo yog‘och, urug‘lar, sut va boshqalardir. Sun’iy sellyuloza tolalari asosidagi to‘qimachilik materiallari, masalan, viskoza, triasetat va asetat, kiyim-kechak sanoatida eng ko‘p qo‘llaniladigan tolalar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon to‘qimachilik sanoatidagi tadqiqot va ishlanmalarning aksariyati sintetik tolalarning barqarorligini yaxshilash, atrof-muhitga ta’sir qilish va qayta ishlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan [3]. Sintetik tolalar to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi asosiy sabablar quyidagilardir:

- **Chidamlilik va quvvat:** polyester va neylon kabi sintetik tolalar yuqori kuchlanish va chidamlilik bilan tabiiy tolalarga nisbatan afzalroqdir Bu ularni chidamlilik, uzoq umr va eskirishga bardosh berish qobiliyatini talab qiladigan mahsulotlar uchun ideal qiladi.
- **Ko‘p qirralilik:** sintetik tolalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi uchun ishlab chiqilishi mumkin, bu ularni keng doiradagi bozor segmentlari uchun ahamiyatini oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar sintetik tolalarni namlik o‘tkazmaydigan, olovga chidamliligi, ultrabinafsha nurlanishiga chidamliligi va boshqalar kabi xususiyatlari tufayli ko‘proq iste’molga kirib kelmoqda.

1 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- **Iqtisodiy samaradorlik:** Sintetik tolalarni ishlab chiqarish ko‘pincha ba’zi tabiiy tolalarga qaraganda yuqori tejamkor hisoblanadi. Bunday xarajat ustunligi ularni to‘qimachilik sanoatida, ayniqsa, kiyim-kechak, maishiy to‘qimachilik va boshqa xalq iste’mol tovarlarini ommaviy ishlab chiqarish orqali nafaqat to‘qimachilik va tikuv sanoati, balki boshqa tarmoqlarni rivojlanishiga ham tutki beradi.
- **Sifatdagi izchillik:** sintetik tolalar ishlab chiqaruvchilar uchun zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan izchil va bir xil sifatni ta’minlaydi. Ushbu izchillik yakuniy mahsulotlarning aniq standartlarga va mijozlar talablariga javob berishini ta’minlaydi.
- **Innovatsiyalar va samaradorlikni oshirish:** sintetik tola texnologiyasi bo‘yicha izlanishlar va ishlanmalar qariyb 70 yildan oshiq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda. So‘ngi innovatsiyalardagi yutuqlar esa, inson salomatligiga ijobiy ta’sirini oshirishga qaratilgandir. Jumladan, nafas olish, namlikni boshqarish va engilligi kabi yaxshilangan xususiyatlariga ega bo‘lgan yangi turdagi sintetik tolalarni yaratishni orqali SMAR tekstilni rivojlantirish ilmiy paradigmalarning asosini tashkil etmoqda [4].
- **Maxsus kiyim sanoati uchun afzalliklar:** sintetik tolalar texnik to‘qimachilikda maxsus ilovalar uchun juda mos keladi. Ular geotekstil, tibbiy to‘qimachilik, himoya kiyimlari va avtomobil to‘qimachilik kabi sohalarda maxsus ishlash talablariga javob berish qobiliyati tufayli qo‘llaniladi.
- **Tezkor moda:** to‘qimachilik sanoati, ayniqsa, tezkor moda segmentida, sintetik tolaga asoslangan kiyimlarni tez ishlab chiqarish va aylanmasidan foyda ko‘radi. Sintetik tolalar ko‘pincha samarali ishlab chiqarish jarayonlari va bozorga yangi uslublarni qisqa muddatlarda joriy etish imkonini beradi.
- **Iqtisodiy ta’sir:** sintetik tolalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi. Ko‘pgina mamlakatlar to‘qimachilik sanoatiga tayanadi va sintetik tolalardan foydalanish bandlik, savdo va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi.
- **Qayta ishlash va barqarorlik harakatlari:** atrof-muhit bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa-da, davom etayotgan sa’y-harakatlar sintetik tolalarning qayta ishlanishini yaxshilash va yanada barqaror alternativalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu sintetik tolalarning atrof-muhitga ta’siri bilan bog‘liq muammolarni hal qiladi va iste’molchilarning ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabiga mos keladi.

Umuman olganda sintetik tolalar zamonaviy to‘qimachilik sanoatini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Ularning chidamliligi, ko‘p qirrali va tejamkorligi ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarning keng assortimentini yaratish imkonini berdi, sanoatning o‘sishiga va iste’molchilarning o‘zgaruvchan xohish-istaklari va texnologik yutuqlarga moslashishiga hissa qo‘shdi [5].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlanish tendensiyalari statitik tahlil qilinadi. Tahlillar sanoatni diversifikatsiyalash yo‘nalishlari aniqga qaratiladi. Tadqiqotda kimyoviy tolalarni global bozoridagi holat va mavjud tendensiyalar “Global Other Synthetics Fiber Market Report” ma’lumotlariga asoslanib amalga oshiriladi. To‘qimachilik sanoatini kimyoviy tolalar asosida diversifikatsiyalash imkoniyatlari tahlil natijalaridan kelib chiqib ustivor yo‘nalishlar belgilab olinadi. Yakiniy natija sifatida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini kimyoviy tolalar asosida samarali diversifikatsiyalash muhim yo‘nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari taklif etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu holatlarni inobatga olganda jahon to‘qimachilik sanoati sintetik tolalarni ishlab chiqish hajmi tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuvchilik va trikotaj sanoati mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida rivojlangan. O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiyotining real sektorida yuqori ulushga ega bo‘lgan va ishlab chiqarish zanjirini to‘liq qamrab olgan yagona sanoat sohasi hisoblanadi.

To‘qimachilik sanoati mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan. To‘qimachilik sanoatida 2010-yilda 4845.5 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2022-yilda mazkur tarmoqda 58411.2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. 2022-yilda YaIMdagi hissasi 4,5 foizni, jami sanoat mahsulotidagi ulushi esa 14,3 foizni (kiyim ishlab chiqarishni qo‘shgan holda), ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi esa 17,3 foizni (kiyim ishlab chiqarishni qo‘shgan holda) tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston respublikasida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish[2]

Ko‘rsatkichlar	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2021-y.	2022-yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	38119,0	97598,2	368740,2	456056,1	553 265,0
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so‘m	4845,5	13241,7	36713,9	52372,3	58411,2
Kiyim ishlab chiqarish, mlrd. so‘m	575,8	1585,3	10402,4	13592,8	14841,7

To‘qimachilik sanoatining boshqa tarmoqlarga nisbatan 2010–2022-yillardagi o‘rtacha o‘sish tendensiyalarini saqlab qolgan tarmoqlardan biridir. Jumladan, O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2010–2022-yillardagi o‘rtacha o‘sishi yillik 5.7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sishi 9,4 foizni, kiyim ishlab chiqarishda esa 11,5 foizni tashkil etgan.

Respublikada yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlovchi korxonalar quvvatlari 2010-yilda 270 ming tonnani, ya’ni atigi 27% tashkil etgan bo‘lib, 2017–2019-yillarda mahalliy to‘qimachilik korxonalarni zamonaviy texnologik uskunalar bilan qayta jihozlanishi va raqamlashtirishni keng qo‘llanishi oqibatida paxtani qayti ishlash 920 ming tonna yetkazilib, 2010-yilga nisbatan 3,2 barobarga – ya’ni 80% tashkil etdi. 2021-yilda quvvatlar 1 030 ming tonnaga yetkazilib, mamlakatda yetishtirilayotgan paxta tolasini 100% qayta ishlash imkoniyati yaratilgan.

Paxta tolasini qayta ishlash darajasining to‘liq o‘zlashtirilgan holda to‘qimachilik sanoatida amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyalarining keyingi bosqichlari esa tarmoqda maqsadli xom-ashyo bazasini yaratishga ahamiyat qaritishdir. Shunga ko‘ra sun’iy tolalarga asoslangan to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish O‘zbekiston sanoati usun strategik ahamiyat kasb etadi.

XX asrning oxiridan boshlab kimyoviy tolalar ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati bo‘yicha tabiiy tolalarni ortda qoldirib kelmoqda. “Data Bridge Market Research” tahlil qiladiki, 2022-yilda 27,88 milliard dollar bo‘lgan global to‘qimachilik kimyosi bozori 2030-yilga kelib 41,82 milliard dollargacha ko‘tariladi va 2023-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz davrida 5,2 foizga CAGRga ega bo‘lishi kutilmoqda[3].

2020 va 2021-yillar orasida qazilma uchun sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish 60 million tonnadan 63 million tonnagacha oshgan [6]. Bozor ulushi 54% bo‘lgan polyester dunyoda eng ko‘p ishlab chiqarilgan tola hisoblanadi. 132 dan ortiq brend va yetkazib beruvchilar qayta ishlangan poliester ulushini 2025-yilga borib 45 foizga oshirish bo‘yicha kelishuvni imzoladilar [7].

Sun’iy sellyulozali tolalar (Production of manmade cellulosic fibres- MMCFs), shu jumladan viskoza, liosel, modal, asetat va kupro ishlab chiqarish 2020-yildagi 6,5 million tonnadan 2021-yilda 7,2 million tonnagacha ko‘tarildi. Keyingi yillarda bundan tolalar hajmini oshirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot va ishlanmalar davom etmoqda.



2-rasm: Global poliester ishlab chiqarish (million tonna)[4]

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari
3 https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-textile-chemicals-market
4 Manba: https://textileexchange.org/app/uploads/2023/11/Materials-Market-Report-2023.pdf

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Sintetik tolalar tolalar bozorida 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab, paxta hajmini ortda qoldirgan paytdan boshlab hukmronlik qilmoqda. Taxminan 68 million tonna sintetik tolaga ega ushbu tolalar toifasi 2022-yilda jahon tolasi ishlab chiqarishning taxminan 63 foizini tashkil etdi.

Kimyoviy tolalar va iplarning jahon sanoati ishlab chiqarishning yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadi, bu mahsulotlarning jahon ishlab chiqarishining qariyb 89% Osiyo qit’asiga to‘g‘ri keladi.

Polyester tolalar va iplar hozirgi vaqtda kimyoviy tolalar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. 2000-yilda ularning ishlab chiqarilishi yiliga 18,9 million tonnani tashkil etib, bu barcha sintetik tolalar ishlab chiqarishning taxminan 60% ga to‘g‘ri kelgan. Polyester tolalar va iplar ishlab chiqarish 1982-yildan boshlab jadal rivojlandi. Polyester tolalarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning bunday tez o‘sishi ularning ko‘p qirrali va yuqori fizik-mexanik xususiyatlari bilan izohlanadi. Nam holatda deyarli to‘liq o‘zgarmagan fizik-mexanik xususiyatlar, eng yuqori issiqlikka chidamlilik va biostabillik polyester tolalarning boshqalarga nisbatan ustuvorligini ta’minladi.

Yillik ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 36.2 mln.tonnadan, 2022-yilda 63 million tonnaga yaqin bo‘lgan poliester global tola ishlab chiqarishning taxminan 54 foizini tashkil etdi.

Global qayta ishlangan poliester tolasi ishlab chiqarish hajmi 2021-yildagi taxminan 9 million tonnadan 2022-yilda 8,6 million tonnagacha kamaygan. Bu PET bozor ulushining 2021-yildagi global PET ishlab chiqarishidagi 14,8 foizdan 2022-yilda taxminan 13,6 foizga kamayganiga teng. Sun’iy tola bozorini rivojlanishiga asosiy sabab, tabiiy tolalar olishdagi mehnat sarfi va qishloq xo‘jalikdagi inqirozli vaziyatlardan kelib chiqmoqda.

Shisha sanoati, shuningdek, qadoqlash sanoati va boshqa sohalarda iste’moldan keyingi idishlarga talab ortib borayotgan bir paytda, iste’moldan keyingi chiqindi idishlar uchun raqobat kuchaymoqda [8]. PET idishlarini qayta ishlash asosida olinadigan poliester tolasi to‘qimachilik sanoati uchun kelajakda xom ashyo etkazib berishni ta’minlashning muhim strategiyasi sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalarni ishlab chiqish va kengaytirish an’anaviy qazilma asosidagi poliesterdan qayta ishlanganga o‘tish uchun asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Qayta ishlangan poliesterlarning aksariyati hozirda PET butilkalardan mexanik ravishda qayta ishlanadi. Kimyoviy yoki biologik qayta ishlangan poliesterning bozor ulushi hali ham juda past (<1%). Kimyoviy va biologik qayta ishlash bilan bog‘liq asosiy muammolarga xarajatlar, texnologik muammolar, xom ashyoning yaroqliligi va mavjudligi va energiyadan foydalanish kiradi. Kimyoviy qayta ishlangan poliesterni tijoriy ishlab chiqarishni boshlagan yangi operatsiyalar va tadqiqot va ishlab chiqish bosqichidagi kompaniyalar bilan kimyoviy qayta ishlangan poliesterning bozor ulushi kelgusi yillarda o‘sishi kutilmoqda. To‘qimachilik va to‘qimachilik mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun kalit bo‘ladi.

Global umumiy poliamid (neylon) tolasi ishlab chiqarish ham so‘ngi 15 yillikda yuqori o‘sish muratlariga erishmoqda. COVID-19 pondemiyasi sabab ishlab chiqarish 2020-yilda biroz pasayganidan so‘ng, 2021-yildagi 5,9 million tonnadan 2022-yilda 6,2 million tonnaga ko‘tarildi. Shu bilan birga, 2022-yilda poliamid tolalari global tola ishlab chiqarish bozorining taxminan 5 foizini tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm: Global polyamide production (mln. tonna)[5]

Qayta ishlangan poliamid tolasi bozorining o‘sish suratlari past bo‘lsa-da, 2018–2022-yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilmagan. 2022-yilda jahon miqyosida taxminan 0,1 million tonna qayta ishlangan poliamid ishlab chiqarilgan. Xom ashyo sifati va mavjudligi bilan bog‘liq cheklovlar va investitsiya ehtiyojlari tufayli qayta ishlangan poliamidning bozor ulushi to‘qimachilik tolalari ishlab chiqarishda past ulushga ega. Biroq jami to‘qimachilik tolalari isida tahlil qillarida 4.5-5 foiz ulushni saqlab qolmoqda. Texnik qiyinchiliklar va qazib olinadigan poliamidning arzon narxlari tufayli qayta ishlangan poliamidning bozor ulushi barcha sintetik tolasining

5 Manba: https://textileexchange.org/app/uploads/2023/11/Materials-Market-Report-2023.pdf

1,9 foizini tashkil etadi. Iste'molchidan qayta ishlangan poliamid tashlangan baliq ovlash to'rlari, gilamlar yoki boshqa to'qimachilik iste'mol tovarlari tayyorlanadi.

Poliamidni qayta ishlash qazilmalarga asoslangan xom ashyolarga bog'liqlikni kamaytirishga va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko'ra har 10000 tonna regeneratsiya qilingan kaprolaktam uchun 70000 barrel neftni tejash imkonini beradi.6

Boshqa sintetik mahsulotlar, jumladan, polipropilen, akril va elastan – 2022-yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi 6 million tonnani tashkil etdi va 2022-yilda global tola bozorining bozor ulushi qariyb 5 foizni tashkil etdi. Polipropilen tolasi ishlab chiqarish hajmi COVID-19 tufayli 2020-yilda biroz pasayganidan keyin 2021-yildagi 3,0 million tonnadan 2022-yilda 3,1 million tonnaga oshdi. Barcha polipropilen tolalarining atigi 0,2 foizi qayta ishlanishi taxmin qilinmoqda. Akril tolalar ishlab chiqarish hajmi qariyb 1,6 million tonnani tashkil etdi va 2022-yilda jahon tola bozoridagi bozor ulushi 1,4 foizni tashkil etgan. Akril tola ishlab chiqarishning global hajmi yillar davomida pasayib bormoqda [9] . Qayta ishlangan akrilning bozor ulushi taxminan 0,5 ga baholanmoqda. 2022-yilda umumiy akril tola ishlab chiqarishning 0,5 % ni tashkil etadi. Global elastan tolasi ishlab chiqarish 2021-yilda 1,20 million tonnadan 2022-yilda 1,22 million tonnadan biroz yuqoriga ko'tarildi, bu global tola bozorining taxminan 1 foizini tashkil qiladi. Qayta ishlangan elastanning ulushi 2022-yilda global elastan tolasi ishlab chiqarish hajmining 2,8% ni tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ladiki, kimyoviy tolalar ishlab chiqarish va uning iste'moli ekologik cheklovlar mavjud bo'lsa-da, o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston to'qimachilik sanoatini kimyoviy tolalar asosida samarali diversifikatsiyalash muhim yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Biroq, mazkur yo'nalishlarda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

Sintetik tolalar asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish uchun qanday shartlar mavjud. Sintetik tolalar asosidagi to'qimachilik sanoatining diversifikatsiyasi mahsulotlar taklifini kengaytirish, yangi bozorlarni o'rganish va o'zgaruvchan iste'molchilar talablariga moslashishni o'z ichiga oladi. Sintetik tolalarga e'tibor qaratgan holda to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilishga yordam beradigan asosiy shartlar quyidagilar:

- **Jahon bozorlarida samarali marketing tadqiqotlarini olib borish:** rivojlanayotgan tendensiyalarni, iste'molchilar afzalliklarini va bozordagi bo'shliqlarni aniqlash uchun chuqur marketing tadqiqotlarini o't-kazish talab etiladi. Muvaffaqiyatli diversifikatsiya qilish uchun sintetik tolaga asoslangan maxsus mahsulotlarga bo'lgan talabni nafaqat mamlakatlar bo'yicha, balqi tarmoqlar va bozorning turli segmentlari bo'yicha aniqlash talab etiladi.
- **Sun'iy tolalarni yangi turlari yaratish bo'yicha innovatsiyalarni amalga oshirish va innovatsion texnologiyalarni yaratishga e'tibor qaratish:** innovatsiyalar va yangi sintetik tolalar yaratish yoki mavjudlarini yaxshilash uchun tadqiqot va ishlanmalarga ko'proq sarmoya kiritish talab etiladi. Texnologik taraqqiyot yangi mahsulot turlari asosida yangi bozorlarga kirish imkoniyatini yaratadi. Eko xususiyatlarni ta'minlashga asoslangan tolalarning rivojlanish orqali bozorning yangi segmentlariga kirish imkoniyati oshiriladi.
- **Barqaror rivojlanish tashabbuslari:** ekologik toza sintetik tolalarni ishlab chiqish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi lozim. Sun'iy tolalarni iste'molchilarning afzalliklariga moslashish uchun bio-asosli yoki chiqindilarni qayta ishlashga asoslangan sintetik tolalar ishlab chiqarishni o'zlashtirish asosiy diversifikatsiyalash yo'nalishlaridir. Mazkur strategik yo'nalish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan to'qimachilik sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Mazkur sohani rivojlantirishda to'qimachilik sanoatida xalqaro grand mablag'laridan foydalanish tavsiya etiladi.
- **Hamkorlik va integratsiya:** bilim va resurslarni almashish uchun tadqiqot institutlari, texnologiya provayderlari va boshqa sanoat ishtirokchilari bilan samarali integratsiya talab etiladi. Hamkorlik yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqishni tezlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, SMART tekstilni rivojlantirish sohasida bunday mexanizmlardan foydalanish orqali global qiymat zanjirini yaratishga erishiladi.
- **Chuqur diversifikatsiya qilish strategiyasidan foydalanish:** sintetik tolaga asoslangan mahsulotlarning xilma-xil assortimentini kiritish uchun mahsulot turlarini nafaqat yakuniy mahsulot diversifikatsiyasiga (B2C), balki sanoat tovarlari diversifikatsiyasiga (B2B) kengaytirish talab etiladi. Bu yangi turdagi kiyim-kechak, uy to'qimachilik, texnik to'qimachilik, qurilish to'qimachiligi va sintetik tolalar uchun boshqa innovatsion ilovalarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

6 https://www.econyl.com/de/the-process/

- **Sifat nazorati va global standartlar:** diversifikatsiyalangan mahsulotlar sanoat standartlari va mijozlar talablariga javob berishini ta'minlash uchun sifat nazoratiga e'tibor qaratish talab etiladi. Kimyoviy tolalar bo'yicha xalqaro doirada amal qiladigan bir qator standartlar mavjud, jumladan: Recycled Claim Standard (RCS), Global Recycled Standard (GRS), Cradle to Cradle (C2C). Iste'molchilar bilan ishonchni mustahkamlash uchun mazkur standartlash bo'yicha vakolatli organlarning mahalliy vakolatxonalarini mamlakatda tashkil etishga ahamiyat qaratish talab etiladi.
- **Global bozorning kengayishi:** Sintetik tolaga asoslangan mahsulotlar uchun yangi geografik bozorlarni o'rganish orqali qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatini kengaytirish mumkin. Mahsulotlarni mahalliy imtiyozlar va talablarga moslashtirish uchun turli mintaqalardagi madaniy va iqtisodiy omillarni aniqlash va ularga moslashuvchan mahsulot assortimentini kengaytirish talab etiladi.
- **Savdo va ta'minot zanjirini optimallashtirish:** Savdo va logistika tizimlarida qiymat yaratishga asoslangan tizimlardan foydalanish ta'minot zanjirini soddalashtirish va optimallashtirishni talab etadi. Bunda raqamli savdo va raqamli logistika, elektron tijorat imkoniyatlaridan foydalanish eng maqsadga muvofiq yo'ldir. Bu xom ashyo, ishlab chiqarish jarayonlari va logistika tizimlarini o'zida birlashtirgan to'qimachilik global sado platformalarini yaratish va mavjudlari bilan integratsiyalash asosida amalga oshiriladi.

Taklif etilgan mexanizmlardan foydalanish orqali to'qimachilik sanoati barqaror rivojlantirish, xom ashyo bazasini kengaytirish va bozorning turli segmentlariga maqsadli kirib borishni ta'minlash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Федорова Н. Е. и др. Исследование рынка натуральных, химических волокон и нетканых материалов //проблемы текстильной отрасли и пути их решения. – 2021. – С. 247-250.
2. Гарифуллина Г. А. Инновационные разработки в производстве полиэфирных волокон, применяемых для текстильных материалов //Вестник Казанского технологического университета. – 2014. – Т. 17. – №. 19. – С. 78-82.
3. Clark J. H. Using green chemistry to progress a circular fashion industry //Current Opinion in Green and Sustainable Chemistry. – 2022. – С. 100685.
4. Piotrowski S., Carus M. Natural fibres in technical applications: market and trends //Industrial Applications of Natural Fibres: Structure, Properties and Technical Applications. – 2010. – Т. 10. – С. 73.
5. Çeven E. K., günaydin G. K. Global Trends for Fibre Production and Marketing //International Conference on Trends in Advanced Research. – 2023. – Т. 1. – С. 255-262.
6. Exchange, T. (2021). Preferred fiber & materials market report 2019. Textile Exchange: Lamesa, TX, USA
7. Exchange T. Preferred fiber & materials market report 2021 //Textile Exchange: Lamesa, TX, USA. – 2021
8. Stone C. et al. Natural or synthetic–how global trends in textile usage threaten freshwater environments //Science of the Total Environment. – 2020. – Т. 718. – С. 134689.
9. Maia Research, 2023. Global Other Synthetics Fiber Market Report – 2022. Customized report

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Alimbayeva Sevara Alimbayevna
Davlat xaridlarini rivojlantirish va monitotingi shu'basi yetakchi inspektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaliy holati tahlil qilingan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, innovatsiya, investitsiya loyihasi, mamlakat iqtisodiyoti, innovestitsion kredit, kredit portfeli.

Abstract: The article analyzes the practical situation of attracting foreign investment into the country's economy. Practical proposals and recommendations for the development of the country's economy by attracting foreign investment are presented.

Key words: foreign investment, innovation, investment project, country's economy, innovative loan, loan portfolio.

Аннотация: В статье анализируется практическая ситуация привлечения иностранных инвестиций в экономику страны. Представлены практические предложения и рекомендации по развитию экономики страны за счет привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инновации, инвестиционный проект, экономика страны, инновационный кредит, кредитный портфель.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy qilish hamda iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar beqiyos o'rin tutadi. Investitsiyalarga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bugungi kunga kelib, mamlakatimizdagi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga olib keldi. Bu borada erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim", deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

Mamlakat iqticodiyotini rivojlantirish yo'lida oxirgi yillarda tijorat banklari tomonidan kreditlash hajmi bir necha o'n marotabo ko'paydi. Biroq, bizga ma'lumki rivojlanish va taraqqiyot jarayoni shiddatli raqobat tus olib, muammolar acocida mukammallashib boradi. Banklar tomonidan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalarning loyihalarini moliyalashtirishda, ularni likvidliligi past degan baho berilmoqda. Bu korxonalarga bank kreditlarini ajratishda muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini, yangi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish usullarining ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Innovatsiya” atamasi (lotincha “innovato” so‘zidan olingan) yangilash va yaxshilash, degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya mazmunida yangi deb qabul qilingan madaniyatning moddiy (nomoddiy) qiymati sifatida anglangan.

Iqtisodchi olimlarning fiklariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak quyidagi xorijlik olimlar o‘zlarining turlicha talqinlarini keltirib o‘tgan, xususan:

I. L. Balabanov “innovatsiya” bu – nazorat, rejalashtirilgan usuli, yangi texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko‘rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapital kiritishdan olingan natijani namoyon etadi deb tushuntirgan;

A. B. Borisov “innovatsiya” bu texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkil qilish shakllarini joriy etishga qaratilgan ijobiy faoliyat natijasini anglatadi, deb hisoblaydi;

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan R. Gimush va F. Matmurodovlar “innovatsiya” deganda yangilik va yangilik kiritish degan ma’noni anglatishini aytib o‘tganlar;

B. E. Toshmurodova va N. Jiyanovalar fikriga ko‘ra “innovatsiya” tushunchasi o‘z ichiga nafaqat texnik izlanishlarni, balki korxona ishi usulidagi yangiliklarni ham olishini aytib o‘tganlar:

- Jahon banki innovatsiyani texnologiyalarni yoki jamiyatda nimadir yangi narsani amaliyotda qo‘llanilishi deb tushuntiradi (World bank report, 2010).
- G. Popov innovatsiya faoliyatini tugallangan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yoki takomillashgan texnologik jarayonda amalga oshiriluvchi, mahsulot ishlab chiqarish uchun erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni olish tushuntiradi.

So‘nggi yillarda butun jahon miqyosida sodir bo‘layotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida innovatsion loyihalar va innovatsion faoliyatning ahamiyati yanada oshdi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizda banklarning innovatsion faoliyatida va umuman davlatning innovatsion siyosatida ijobiy o‘zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi.

Mazkur soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida mamlakatda tijorat banklari tomonidan innovatsion loyihalarni kreditlash, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida ularni rolini oshirish bugungi kunda dolzarb bo‘lib turibdi.

Shu o‘rinda, iqtisodchi olim R. X. Karlibayevaning fikriga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakat milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarish sur’atini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni jonlantirishni talab qilishni keltirib o‘tgan.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda bank kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir. Chunki, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni amalga oshirishda yirik moliyaviy imkoniyatlar talab etiladi. Mazkur moliyalashtirish masalasining yechimi korxonalarga kreditlar berish bilan ta’riflanadi.

O‘zbekistonda innovatsion g‘oyalarini kreditlashga muhtoj korxonalar soni oxirgi yillarda tobora ortib bormoqda. Bunda kredit resurslari aylanma vositalar harid qilishga emas, balki strategik rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi nazarda tutiladi. Ma’lumki, bu holda joylashtirilgan resurslar yuqori riskli va aksariyat hollarda tijorat loyihalarini amalga oshirish natijasida shakllanuvchi daromadlar hisobidan qaytib keladi.

Bugungi kunda tijorat banklari kredit siyosati va korxonalarni kreditlash amaliyotidagi kamchiliklar, jumladan, respublikada banklarning kreditlash tartibi hanuzgacha jahon standartlari va mijozlarning talablariga javob bera olmasligi, rivojlangan davlatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotining mamlakat tijorat banklariga tatbiq etilmayotganligi mazkur maqola mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi. Shu sababli, tijorat banklarining bugungi kundagi korxonalarni kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolarini aniqlash, xorijiy banklar kreditlash amaliyotining ustuvor tomonlarini amaliy tahlillar asosida o‘rganish, ularning bu sohadagi ilg‘or tajribalari, O‘zbekiston tijorat banklari kreditlash amaliyotida joriy qilish yuzasidan aniq asoslanagan ilmiy takliflarni taqdim etish ko‘zda tutilganligi ushbu ilmiy maqolaning dolzarbligini namoyon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iinovatsion loyihalar bilan faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va unda aholi ish bilan bandligini aniqlash bo‘yicha o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanish omillaridan biri innovatsion loyihalarni moliyalashtirishidir. Ushbu jarayonda aholi ish bilan bandligining oshib borishi va bu ko‘rsatkichlarni solishtirma tahlil qilish, shu asosda tegishli tavsiyalar ishlab chiqishi bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning investitsiyaga bo‘lgan talabi, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag‘larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo‘yilgan kapital mablag‘idan samarali foydalanish natijasida ko‘proq foyda olish mumkin. Investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar moliyalashtirish tajribalarini o‘rganish takomillashtirib borish va ular amaliyotidagi ijobiy yutuqlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog‘liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammmolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda.

Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyligi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladigan ta’sir yetuvchi usullar, vositalar va ta’sir kuchlariga qarab o‘zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo‘nalishi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;
- investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq;
- menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo‘llanilgan va maqsadga yerishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur’atlarini ta’minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o‘ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyatning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rahbatlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta’minlaydi. Masalaning nechog‘lik muhim ekanligini yillar davomida investitsiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilayotganligida ko‘rish mumkin.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda innovatsion loyihalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarning bank kreditlariga bo‘lgan talabi rivojlanayotgan davlatlarda birmuncha yuqori hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda o‘rtacha 40 foiz korxonalarning kredit olishga ehtiyoji mavjud bo‘lsa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga ushbu ko‘rsatgich 45 %dan 60 %gacha bo‘lganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga kreditlash jarayonida garov talab etilishi rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha 60 %dan yuqori bo‘lsa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida o‘rtacha 80 %dan yuqoriligini ko‘rsatish lozim (1-rasm).



1-rasm: Jahonda innovatsion loyihalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarning bank kreditlariga bo‘lgan talabi, foizda

Manba: Jahon banki 2022-yilgi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, korxonalaring innovatsion loyihalarini kreditlash aholining turmush darajasini oshirish, aholi bandligi, ularning iqtisodiy faolligini oshirish kabi aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilishi lozim. Dunyo amaliyotida sinalgan investitsion kreditlashning tajribasidan O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishdagi bozorning shakllanayotganligi sharoitda uning ijobiy tomonlaridan foydalanish nazariy va amaliy jihatdan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlarini misol qilib olganda Belorussiyada 2007-yilda “Innovatsion rivojlanish davlat dasturi”-ning qabul qilinishi bilan ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishi respublikada innovatsion faoliyatning rivojlanishiga olib keldi. Mamlakat innovatsion infratuzilmasi ushbu sohadagi maslahat xizmatlari, axborot va tashkiliy yordam ko‘rsatuvchi 80 dan ortiq kompaniyalarni tashkil qiladi. Turli texnoparklar, ikkita innovatsiya markazi, o‘n birta texnologiyalar transferti firmalari, uchta texnologiyalarni uzatish xalqaro markazlari va boshqa innovatsion infratuzilma tashkilotlari faoliyat yuritadi.

Belorussiyada innovatsiyalarni moliyalashtirish asosan korxonalar o‘z mablag‘larn va ayniqsa budjet mablag‘lari asosida amalga oshiriladi. Jami xarajatlarning deyarli 70 foizi bank kreditlari va budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘i hammasi bo‘lib bir foizni ham tashkil qilmaydi. Bunga albatta innovatsiyalar sohasidagi investitsiya loyihalariiing yuqori riskli bo‘lishi va qaytimning kelish ehtimoli nisbatan pastroq bo‘lishi sababchidir. Shuning uchun Belorussiyada venchurli moliyalashtirishni keng ko‘lamda rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda (2-rasm).



2-rasm: Belorussiya Respublikasida innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari tuzilmasi

Manba: Belorussiya Respublikasida statistik to‘plami, 2022-yil.

O‘zbekistonda xam iqtisodiy strategik maqsadlaridan kelib chiqib investitsiya loyihalarini boshqarish va ularni rivojlanishiga yo‘l ochib berilmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 202,0 trln. so‘m o‘zlashtirilganligi bu boradagi fikrimizni asosi hisoblanadi.

1-jadval: 2022-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning tuzilmaviy tarkibi

Markazlashgan investitsiyalar 39310,2 mlrd.so‘m	Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalar 202 000,1 mlrd.so‘m	Markazlashmagan investitsiyalar 162 689,9 mlrd.so‘m
O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar 22 467,1 mlrd.so‘m	Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 86 647,0 mlrd.so‘m	To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar 64 179.9 mlrd.so‘m

Manba: www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari asosida muallif toonidan tuzildi.

2022-yilda investitsion faollikni pasayishi kuzatilingan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 91,8 foizini tashkil etdi. 2022-yilda 202,0 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 39310,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 19,5 foizi va 2021-yilga nisbatan 8,0 foizga kam asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162689,9 mlrd. so‘m yoki jami hajmdan

80,5 foizda investitsiyalar o‘zlashtirilgan. 2022-yilda korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 51911,3 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 25,7 foizini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan esa 18077,8 mlrd. so‘m yoki 8,9 foiz o‘zlashtirildi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 28740,5 mlrd. so‘m o‘zlashtirilib, 2022-yilga nisbatan 5,3 foizga kamayib, jami investitsiyalarning 14,2 foizni tashkil etdi. 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko‘zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarning mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo‘naltirishdan iborat. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz negizida tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini yangicha tashkil etish, ulardagi hissabay ishtirok etish, ya’ni aksiyalar ulushiga asosan tomonlarning qaror qabul qilishida ishtirok etish, eng asosiysi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning mahsulot yoki xizmatlarini tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga investitsiya loyihalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta’minlashga imkon beradi.

Xorijiy investorlarni jalb qilishda turli usullarning qo‘llanilishi o‘zining samarali mevasini hozirning o‘zidanoq bermoqda. Jadal va mutanosib iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo‘naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston o‘ziga xos investitsion iqlim yarata oldi hamda bunga mamlakatning resurslarga boy ekanligi va ularni qazib chiqarish, qayta ishlash borasida korxonalarni tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash bo‘yicha berilayotgan keng imkoniyatlar xorijlik investorlarni kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo‘yicha investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda:

- fan, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishga qilinadigan investitsiya qo‘yilmalari miqdori va sifatini oshirish;
- bazaviy innovatsiyalarni egallashga asoslangan yo‘naltirilgan innovatsiya-investitsiya strategiyalarini rag‘batlantirish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi talab etiladigan mavjud ishlab chiqarishlarning texnologik darajalarini, ilmiy imkoniyatlarini, ixtirolarni o‘rganish va baholash;
- qulay ishbilarmonlik muhitining shakllantirilishini jadallash-tirish, chunki u o‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini oshirish lozim.

Fikrimizcha, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadga muvofiq:

- investorlarning qo‘yilmalarini davlat tomonidan sug‘urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy platformalarni shakllatirish;
- hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq pereferensiyalarini, hududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘sishida keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qayta qurish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ilg‘or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo‘naltirish vazifalarini amaliy ijrosini ta’minlash;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish, investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalashda raqamli investitsion xizmatlar tizimini shakllantirish;
- investitsiya loyihalari uchun xalqaro texnologiyalar transfertini ta’minlovchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish, investitsion loyihalarni boshqarishning integrallashgan tizimini joriy etishda loyiha risklarini samarali boshqarish tizimini optimallashtirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Strategik rivojlanish agentligi faoliyati muhokamasi yuzasidagi yig‘ilishi.12.01.2022-y.
2. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust, PF-5495-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli Qarori.
4. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 https://www. researchgate.net/publication/237244956.
5. Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: ОАО “Издательство “Экономика”, 1999. –662с.
6. Чараева М.В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 2014. 240 с.
7. Усковао Т.В. Роли инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста. Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз 6 (30) 2013., 45-59 стр.
8. Прусак М.М. Стратегия региона: инвестиции в экономику // Финансы. 2001. –№ 1. –С. 6-8.
9. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
10. Нодирханов У.С. Приямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - Т.: “Fan va texnologiya”, 2011. 184 б.
11. G‘ozibekov D, Nosirov E. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy inves- titsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: “Iqtisod-Moliya”. 2007, –B.92
12. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo‘nalishlari. Ilmiy-ommabop risola. –T.: “Iqtisod-Moliya” 2019., 40 b.
13. Umarov F.U. Innovatsion-investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar- fevral, 2018-yil.
14. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018-yil. – №10., 7-13 bet.
15. Bozorov R.H. O‘zbekistonning global indekslarda ishtirokini keng ta’minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –№ 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil.
16. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARINI TASHKIL ETISH ZARURIYATI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Yo‘ldosheva Iroda Ibodulla qizi
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi assistent o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, islom modeli asosida islom banklarini tashkil etishning milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta’minlashdagi roliga qaratilgan qarorlar qabul qilishda zamonaviy uslubiy yondashuvni qo‘llashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, islomiy banklar, murobaha, mushoraka, muzoraba, qarzi hasan, sukuk.

Abstract: The scientific significance of the article is that it is explained by the possibility of using a modern methodological approach in making decisions aimed at the role of establishing Islamic banks on the basis of the Islamic model in ensuring the development of the national economy.

Key words: Islamic finance, Islamic banks, murabahah, musharakah, mubarakah, hasan loan, sukuk.

Аннотация: Научная значимость статьи заключается в том, что она объясняется возможностью использования современного методологического подхода при принятии решений, направленных на роль создания исламских банков на основе исламской модели в обеспечении развития национальной экономики.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, мурабаха, мушарака, мубарака, хасановый кредит, сукук.

KIRISH

Islomiy banklar va moliya tizimi musulmonlar jamoasiga diniy jihatdan maqbul bo‘lgan bir qancha bank xizmatlarini taklif qilmoqda va xizmat ko‘rsatmoqda. Bundan asosiy maqsad, iqtisodiy farovonlikka erishish, iqtisodiy jihatdan o‘sish, daromad va boylikni taqsimlash, pul qiymatining barqarorligiga erishishdan iborat.

Islomiy moliya sanoati so‘nggi 20 yil ichida Osiyoda sezilarli darajada o‘sdi. Yaqin Sharq va Osiyodan kelgan sarmoyadorlarning diniy e’tiqodlariga mos kelganligi sababli islomiy bank mahsulotlariga sarmoya kiritish toboro kengayib bormoqda. Osiyoning bir qancha hukumatlari va davlat organlarining sa’y harakatlari bilan islom moliya bozorlarida investitsiyalar o‘sganligini va iqtisodiy o‘sishga erishilganligini ko‘rish mumkin.

Islom bank ishi, moliya tizimidan ajralib turadi ya’ni, islomdan kelib chiqadigan keng qamrovli axloq va axloqiy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. An’anaviy moliyadan farqli o‘laroq, islom moliyasi umumiy tamoyillarga asoslanadi, har qanday islomiy iqtisodiy yoki moliyaviy bitimlarni tartibga soluvchi ko‘rsatmalarni tashkil etadi.

Islom moliyasini joriy etishning huquqiy bazasini shakllantirilganmaganligi islom moliyasini joriy etish borasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Islom moliyaviy mahsulotlarni qonunchilik asosida tartibga solishning mavjudligi ushbu bozorni yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Shuningdek, qonunchilik asosida tartibga solishlarsiz islomiy moliyaviy mahsulotlar iste’molchilarining huquqlari lozim darajada himoya qilina olmaydi, ya’ni aholining mana shunday amaliyotlarga bo‘lgan ishonchini suiste’mol qilish ehtimoli ortadi.

2020-yil dekabr oyida Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib kelgani va bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishini takidlaganliklari huquqiy baza yaratilishiga ilk qadam bo‘ldi. Joriy yilning 11-yanvardagi matbuot anjumanida Markaziy bank raisi o‘rinbosari Bekzod Hamroyev “Nobank kredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun yangidan qabul qilinishi va ushbu Qonunda Islom moliya tushunchasini inobatga olinishi to‘g‘risidagi chiqish qildi va yaqin keyingi oylar ichida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Islomiy banklar va moliya tizimi musulmonlar jamoasiga diniy jihatdan maqbul bo‘lgan bir qancha bank xizmatlarini taklif qilmoqda va xizmat ko‘rsatmoqda. Bundan asosiy maqsad, iqtisodiy farovonlikka erishish, iqtisodiy jihatdan o‘sish, daromad va boylikni taqsimlash, pul qiymatining barqarorligiga erishishga qaratilgan (Kabir Hassan 2007), Zamir Iqbal Abbas Mirakhor, Maher Hasan and Jemma Dridi, Rania Abdelfattah Salem, Craig R.N. Ethercott, David M.E. Isenberg, Ibrahim Warde, Muhammad Ayub, Mahmoud A.El-Gamal, Monzer Kahf, M.Henry and Rodney Wilson, Wayne A.M.Visser, Alastair McIntosh, Samir Abid Shaikh, S. Nagaoka, A.M.Tiby, M.S.B.Haji Ishak kabi iqtisodchi olimlarning islomiy banklar to‘g‘risida yozgan asarlari islom moliyasida keng targ‘ib qilinmoqda va foydalanilmoqda.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, statistik tahlil, omilli tahlil, prognozlash kabi qator tadqiqot usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur qonun loyihasida “islomiy moliya xizmatlari” tushunchasi ilk bora qonunchilikka kiritildi. Bunda standartlar, shu jumladan, islomiy moliyalashtirishni amalga oshirish qoidalari va prinsiplarining manbasi sifatida xalqaro tashkilotlardan “Islom moliya institutlari uchun Buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti” va “Islomiy moliya xizmatlari kengashi” tomonidan belgilanishi ko‘zda tutilgan. Markaziy bank islomiy moliyalash standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlarning qoidalari asosida islomiy xizmatlar ko‘rsatish tartibini ishlab chiqishi belgilangan. Albatta, qonunchilikdagi ushbu o‘zgarishlar Islom moliyasi mamlakatimizda huquqiy status olayotganidan darak beradi. Ammo, Islom moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatish huquqi faqatgina nobank va mikromoliyalash tashkilotlariga berilayotgani Islom moliyasining rivoji uchun to‘laqonli yechim emasligini ta’kidlash lozim. Sababi, Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash institutlarining aktiv hajmi bo‘yicha O‘zbekistonning moliya sektoridagi ulushi atigi 0,29%ni tashkil qiladi va ayni paytda Islom moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha tashabbus tijorat banklari tomonidan bo‘layotganligini hisobga olsak, ushbu qonun ular uchun qonuniy baza bo‘lib amal qila olmaydi.

So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida islom bank ishi va moliyasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib va uning moliya sektoridagi salmog‘i o‘sib kelmoqda. Nafaqat aholisining ko‘pchilik qismi musulmonlarni tashkil qilgan Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlari, balki kichik musulmon nufuziga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya, Singapur, Lyuksemburg va ko‘plab g‘arb mamlakatlari ham Islom moliyasiga quchoq ochmoqda. Islom moliya sektorining, yoki boshqacha qilib aytganda, global islom moliyaviy xizmatlar sanoatining jami aktivlari 2022-yil yakunida 2021-yilning shu davri holatiga nisbatan 10,7% ga o‘sib, umumiy qiymati 2,7 trln AQSH dollarini tashkil qildi[1].

1-jadvalning davomi sifatida mintaqalarga tegishli aynan qaysi mamlakatlar Islom bank tizimida yetakchilikka ega ekanliklarini quyidagi diagramma orqali xulosa qilishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm: 2022-yil 3-choragi holatiga nisbatan global islom bank tizimi aktivlarining yurisdiksion ulushi [2]

1 Islamic financial services industry stability report 2021, Islamic Financial Services Board (IFSB)
2 IFSB Secretariat Workings 2021, www.ifsb.org

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra islom bank sektorining 1/4 qismidan ortiqroq ulushi Saudiya Arabistoniga (28.5%), 1/5 qismidan ortiqroq ulushi Eronga to'g'ri keladi va bu ikki davlatlarni Islom bank sektoridagi eng yetakchi davlatlar sifatida ko'rishimiz mumkin. Ro'yxatning keyingi ulushlari - qariyb 1/8 qismi Malayziyaga (11,4%), 9,2% BAAga, 6,5% i Qatar va 6,0% Quvaytga, nisbatan kichikroq ulushlar bilan Bahreyn 3,5% ni, Turkiya 3,0% ni, Bangladesh 2,3% ni, Indoneziya 2,1% ni, Pokiston 1,3% ni, Misr 0,9% ni, Sudan 0,8% ni, Jordaniya va Oman 0,7% ni, Bruney va Iroq 0,4% ni, Falastin 0,2%ni va boshqa barcha Islom bankchiligi mavjud davlatlar sekorning 1.2% ini tashkil etmoqdalar.

Islom bankini ochishga qo'yiladigan talablar ko'pincha mamlakatdan mamlakat o'rtasida katta farq qiladi. Islom bankini tashkil etishda dastlab an'anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalar mamlakatdagi butun bank tizimini ta'minlash uchun alohida bank muassasalarining hayotiyligi va mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan, ular ko'pincha omonatchilar uchun kapitalning aniqligi va omonatlarning daromadlilik darajasining aniqligi kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, Islom bankini tashkil etish istagida bo'lgan homiylar islom banki operatsiyalariga ta'sir ko'rsatadigan milliy bank qonunlari va qoidalaridan xabardor bo'lishlari muhim, ular faoliyatning amaldagi qonunchilikka muvofiq oldindan tasdiqlanganligini ta'minlashlari kerak, yoki islom banki faoliyatiga ruxsat berish uchun tartibga soluvchi organdan qaror talab qilishi kerak. Islom bankining yangi biznes amaliyotlarini joriy etish asosiy faoliyati an'anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo'lgan tartibga soluvchi organ uchun g'ayrioddiy tashvish bo'lishi mumkin. Aksariyat Markaziy banklar tijorat banklaridan o'z majburiyatlarining bir qismini tasdiqlangan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan likvidlik maqsadlarida kapitalning etarlilik koeffitsientiga rioya qilishni talab qiladilar.

Bundan tashqari, islom bankini tashkil etish istagida bo'lgan homiylar uchun korporativ soliq va jismoniy shaxslar soliq tuzilmalarini o'rganish va mavjud imtiyozlarni izlash muhimdir. Islom banki uchun soliq oqibatlari odatdagidan ko'ra ko'proq majburiydir. Aslida, islom banki omonatchilariga to'lanadigan foyda, odatdagi banklarning o'z omonatchilariga to'laydigan foizlari kabi, bank uchun maqbul to'lov sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Tashkiliy guruh mamlakatning valyuta pozitsiyasini ham o'rganishi kerak, chunki u bankning tashqi savdo operatsiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi va ularning jarayonlari va rentabelligiga ta'sir qilishi mumkin. Ekspertlar fikricha, jahon bozorida islom moliyasi g'arb moliya tizimini inqiroz holatiga olib kelgan salbiy omillarga qarshi turish imkoniyatini berdi.Bugungi kunda bank islom dunyosidan tashqari mamlakatlar uchun ham xizmat ko'rsatib, ularga ham ulkan imkoniyatlar yaratmoqda.

Islom Taraqqiyot bankining maqsadi "Shariat tamoyillari asosida a'zo davlatlar va musulmon jamoalarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash" hisoblanadi. ITBiga 57 ta davlat a'zo bo'lib, aktivlari 150 mlrd AQSH dollaridan ortadi.

Quyidagi rasmdan bilish mumkinki,ITBning asosiy ustav kapitalidagi katta ulush Saudiya Arabistoniga,so'ngra Liviya,Eron va Nigeriya davlatlari o'rin egallaydi.O'zbekistoning ulushi esa 0,03 % ni tashkil etib,bir foizga ham bormaydi.

Qayd etish zarurki, O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a'zo bo'lgan. Shu yillar mobaynida jami 2,5 mlrd dollardan ortiq 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma'qullanib, loyihalar doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo'llar, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog'liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan.

Islom taraqqiyot banki O'zbekistonning 10 yirik kreditorlari qatoriga kiradi. Xalqimiz uchun hamkorlikning yangi istiqbollari ochilib, yig'ilish doirasida Islom taraqiyot banki O'zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun loyiha orqali mamlakatda islomiy bank va moliya uchun qonuniy va texnik asoslar yaratilishi, shuningdek, aholining islom moliyasidan xabardorlik darajasini oshirishni ko'zlanganligi quvonarli bo'ldi. O'zaro hamkorlikning muhim jihatlaridan biri – ITB O'zbekistonda qishloqlarni barqaror rivojlantirish loyihasi uchun 200 mln dollar miqdorida pul ajratayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu mablag'lar ko'magida mahalliy boshqaaruv jarayoni hamda jamoatchilik ishtirokida asosiy infratuzilma va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, aholining turli holatlarga, xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga erilishi – insonparvarlikning eng oliy namunasi bo'ladi.

Toshkentda sentabrning 1-4 kunlari Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilari kengashi guruhining 46-yillik anjumani bo'lib o'tdi va unda ITB guruhiga a'zo 57 mamlakatdan vazirlar va rasmiylar, shuningdek, 2000 dan ortiq yirik biznes, bank-moliya vakillari hamda soha ekspertlari ishtirok etdi. Darhaqiqat, bunday yirik anjumanning Toshkentda o'tkazilishi mamlakatimiz banklari va Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlash, O'zbekistonda ham islom moliyasi tamoyillarining rivojlanishiga umid uyg'otdi. Mazkur xalqaro anjuman doirasida O'zbekiston va ITB o'rtasida bir qator o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini kengaytirish bo'yicha hujjatlar imzolandi. Xususan, Sammitda, ITB guruhi va o'nta a'zo mamlakat o'rtasida umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollariga teng 30 ta moliyaviy kelishuv imzolandi. Shundan 330 million dollariga teng mablag' O'zbekiston manfaatlarini ko'zlab sarflanadi.

Jamg'armaning 200 mln dollarlik investitsiyalari "Obod qishloq dasturi"ga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Kichik va o'rta biznes hamda startap loyihalar, infratuzilmani modernizatsiyalash va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash orqali qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kam-

bag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi chora-tadbirlar tufayli mamlakatda 100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi va 34 mingga yaqin kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyati tiklanadi.

Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.

Mazkur yo‘nalishda XSRIK shu kungacha 15 ta tijorat banklari va 2 ta lizing kompaniyasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va bugungi kungacha banklarga 285 million AQSh dollari miqdorida moliyalashtirish liniyalarini ajratish ma’qullangan.

O‘zbekistonda onkologik xizmatlarni rivojlantirish loyihasini qo‘llab-quvvatlash uchun 80 million dollar qarz shartnomasi imzolandi. Bundan tashqari, “Trastbank”, “Kapitalbank”, “Turonbank”, “Infinbank”, “Orient Finans bank”ning har biri bilan 10 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratish to‘g‘risida Bitim imzolandi. Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.

Jalb qilingan mablag‘lardan O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o‘z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalanin kelmoqda.



2- rasm: “Trastbank” XAB ning XISMK va XSRIK liniyalarini jalb qilish statistikasi[3]

Yuqoridagi rasmdan yaqqol ko‘rinib turibdiki, “Trastbank” XAB banki yildan-yilga jalb qilingan resurslari ortib bormoqda. Bank XISMK tomondan ajratilayotgan kredit liniyalari 3 yilda deyarli 4 barobargacha oshira oldi. Bundan ayonki, bank ishonchli agent sifatida mablag‘larni samarali boshqarmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘rganilgan ma’lumotlarni tahlil xulosa qilish mumkinki, hozida jahonda tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotga innovatsion o‘zgarishlardan orta qolmaslik maqsadida O‘zbekiston Hukumati islomiy moliya va sherikchilikka asoslangan bank sanoatini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu yo‘l xaritada mavjud qonunchilikni bank faoliyati, soliq, qimmatli qog‘ozlarga doir qonunchilikka qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish takomillashtirish, targ‘ibot ishlarini olib borish, islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni va davlat sektorini rivojlantirish, islomiy moliya xizmatlari bozorini rivojlantirish, ilmiy-o‘quv ishlarini olib borish va investorlar bilan ishlashni o‘z ichiga olishi belgilandi. Shu bilan birga har bir bajariladigan tadbir bo‘yicha mas’ul idora va muddat belgilandi. Yuqoridagi sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun Islom tadqiqotlar va treninglar institutining grant mablag‘lari va maslahat xizmatlaridan foydalanish boshlandi.

Foydalanilgan adabaiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 11-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy, tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017, – 104-b.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz, - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017, – 488-b.
6. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. Darslik. T: Iqtisod - moliya, 2003. – 304 b.
7. Omonov A.A va Karaliyev T.M.. Pul, kredit va banklar. – T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2018. – 446 b.
8. Shayx Muhammad Taqi Usmoniy “Islom moliyalashtirishga kirish”. 2013-y.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. Toshkent “Hilol nashiryoti”. – 2020-y.
10. Chapra M.U “What is Islamic Economics?” – Jeddah 2001-y.
11. Islom fiqhi akademiyasi Kengashining qaror va tavsiyalari – fatvolar /M.F.Murtazin tarjimalari. – M., 2003. – 143 b.

3 www.trastbank.uz

YALPI SUG‘URTA MUKOFOTI HAJMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR ASOSIDA SUG‘URTA BOZORINI EKONOMETRIK TAHLILI

Mirzayev Bobur Soyibjonovich
I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,
“Iqtisodiyot” fakulteti, “Moliya” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta faoliyati bozor iqtisodiyoti moliyaviy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi va iqtisodiyotning yaxlitlikda barqaror rivojlanishini taminlovchi muhim omillardan ekanligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlashda va aholini ko‘ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug‘urtaning o‘ziga xos muhim o‘rni to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, yalpi sug‘urta hajmiga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urtaga talab, yalpi sug‘urta, sug‘urta zahirasi, sug‘urta koplamasi, sug‘urta mukofoti, investitsiya, ekonometrik model, model parametrlari.

Abstract: The article discusses the fact that insurance activity is an integral part of the financial infrastructure of the market economy and one of the important factors that ensure the stable development of the economy in its entirety, and the unique important role of insurance in ensuring the continuity of production in the conditions of the market economy and protecting the population from unpleasant events. At the same time, an econometric analysis of the factors influencing the volume of gross insurance was carried out.

Key words: demand for insurance, gross insurance, insurance reserve, insurance coverage, insurance premium, investment, econometric model, model parameters.

Аннотация: В статье рассматривается тот факт, что страховая деятельность является составной частью финансовой инфраструктуры рыночной экономики и одним из важных факторов, обеспечивающих стабильное развитие экономики в целом, и уникальная важная роль страхования в обеспечении непрерывности производства в условиях рыночной экономики и защиты населения от неприятных событий. При этом был проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на объем валового страхования.

Ключевые слова: спрос на страхование, брутто-страхование, страховой резерв, страховое покрытие, страховая премия, инвестиции, эконометрическая модель, параметры модели.

KIRISH

Hozirgi davrda sug‘urtalash mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy-xo‘jalik munosabatlari tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiyotning boshqa subyektlari sug‘urtalashni tabiiy ofatlardan ko‘riladigan zararlar, kutilmagan hodisalar, o‘z tijorat faoliyati va boshqalar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashni kafolatlovchi iqtisodiy tizimlar sifatida talqin qiladilar.

Sug‘urtalash, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, sug‘urta holatlari ro‘y berganda insonlarning yuqori turmush sifati va daromad darajasini ta’minlab berishga qaratiladi [1]. Sug‘urta himoyasini taqdim etish, risklarni oshirish bilan bog‘liq tarmoqlarning yaratilishi hamda ilmtalab etuvchi tarmoqlarni muvaffaqiyatli amal qilishi uchun imkoniyat yaratadi.

AQShda sug‘urtaning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi 11,8% bo‘lsa-da, mukofotlar hajmi ancha past bo‘lgan ayrim bozorlarda, masalan, Buyuk Britaniyada (399 mlrd. AQSh dollari) sug‘urtaning uning iqtisodiyotidagi salmog‘i yuqori bo‘lib, 12,5% ga yetdi. Dunyoning eng yaxshi 15 ta sug‘urta bozorining oltitasida sug‘urta yalpi ichki mahsulotga nisbatan ikki xonali raqamga ega bo‘lib, bu sug‘urtaning ularning iqtisodiyoti uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. Gonkong 20% ga yaqin bo‘lib, reytingda yetakchilik qilmoqda. Tayvan va Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich mos ravishda 14,5% va 10,7% ga teng [2]. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston sug‘urta sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida juda kam ulushni egallaydi. Shu bilan birgalikda, sug‘urta sohasi juda katta foydalanilmayotgan potensialga egadir.

Dunyoda eng yirik sug‘urta va qayta sug‘urta hamda o‘z tadqiqot institutiga bo‘lgan Swiss Re Group tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra [3], 2021-yilda jahon sug‘urta mukofotlari 6,9 trln. AQSh dollariga yetgan. Jahon sug‘urta bozorida yetakchi o‘rinda AQSh, Xitoy, Yaponiya davlatlari bo‘lib, ularning bozordagi ulushi 58% dan oshadi. Swiss Re instituti tadqiqotiga ko‘ra COVID-19 pandemiyasidan keyin sug‘urta bozori o‘zini oldingi o‘sish sur’atlarini tiklab oladi. Swiss Re instituti prognoziga ko‘ra 2022-yilda sug‘urta bozorining 3,9% ga usishi kutilmoqda. Natijada, shu yilga kelib sug‘urta mukofoti 7 trln. AQSh dollaridan oshadi. Bu davrda Xitoy davlatida sug‘urtaning yuqori o‘sishi kuzatiladi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlangan yillik The Global Risks Report–2022 hisobotida [4] keltirilishicha, kovid pandemiyasidan ham xavfliroq bo‘lgan global risklar keltirib o‘tilgan. Bular orasida atrof-muhit o‘zgarishi risklari, ayniqsa, katta talofatlarga olib kelishi ta’kidlangan. Shuningdek, sug‘urta biznesi uchun xavfli risklar sirasiga yuqumli kasalliklar, iqtisodiy krizislar va ekstremal tabiat hodisalari kiritilgan.

Sug‘urta yig‘imlarining yildan-yilga o‘sib borishiga qaramay, hozirgi kunda sug‘urta yig‘imlarining hajmi respublika yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 0,7 foizni tashkil etadi. Dunyo bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 7,3 foizni tashkil etadi [5].

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini sig‘imi jahon bo‘yicha sug‘urta bozorini o‘rtacha sig‘imidan qariyb 15 barobarga kamligi sug‘urta bozorini rivojlantirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini miqdoriy baholash muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda sug‘urta bozorini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari borasida ham biroz tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, N. I. Abduraxmonova, N. D. Musurmonovlar (2022) [27] tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrar sektordagi tarkibiy o‘zgarishlar o‘rganilgan bo‘lsa, O. R. Fayziyev (2022) [26] tomonidan esa, bugungi kunda jahon sug‘urta bozorida raqobat keskin kuchaygan bir vaqtda potensial sug‘urta qildiruvchilarga onlayn rejimda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish rivojlangan davlatlarning tegishli ko‘rsatkichlaridan ancha ortda qolayotganligini ilmiy ishlarida tatqiq etib, O‘zbekiston sug‘urta bozorini raqamlashtirish asosida boshqarish va sug‘urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan sug‘urta xizmatlarini raqamli sug‘urta xizmatlariga o‘tkazish masalalariga alohida e’tiborini qaratgan.

Bundan tashqari, ko‘plab adabiyotlarda sug‘urta bozori rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Olimlar turli nuqtayi nazardan, shu jumladan, mikro va makroiqtisodiy jihatdan tahlil qilishgan. Arena (2008) [6], Li v.b. (2006) [7] va Anghelache v.b. (2019) [8] turli mamlakatlar ma’lumotlaridan foydalangan holda sug‘urta rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha tadqiqot olib borishgan. Hong v.b.(2014) [9], Tang (2015) [10], Gao (2018) [11] va Vang (2019) [12] Xitoyda sug‘urta va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganganlar. Ular iqtisodiy o‘sish sug‘urtaga bo‘lgan talabga ta’sir ko‘rsatganligi va aholining moliyaviy holati sug‘urta xizmatlarini sotib olish qobilyatini ko‘rsatganligi sababli iqtisodiy o‘sish sug‘urta rivojini sezilarli darajada oshirishini aniqlashdi. Zxou F. J. (2014) [13], Yuan Y. M. (2015) [14], Yang R. va Zhu J. M. (2019) [15] pul-kredit siyosatining sug‘urta bozoriga ta’siri borasida tadqiqot olib borishgan. Ularning tadqiqot natijalariga ko‘ra, pul-kredit siyosatining turli shakllari sug‘urta sohasining rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Hu va Chen (2012) [16], Vang (2019) [17] va Paunika v.b. (2019) [18] inflyatsiya narx oshishi bo‘yicha inflyatsion kutilmalar va uzoq muddatli sug‘urtaga talabning tushishiga olib kelishini aniqlagan holda inflyatsiyaning sug‘urta sanoatini rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishgan. Tian (2017) [19] tadqiqotlari Xitoyda sug‘urta sanoyati rivojlanishini empirik tahlil qilishga asoslangan. Ularning tadqiqotlarida milliy jamg‘armalar va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar sug‘urta sanoati rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar ekanligini aniqlangan. Shu bilan birgalikda, Zhou X. L. va Guo J. L. (2012) [20] va Tian (2017) [21] aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta xarajatlari va foiz stavkasi o‘rtasida zich teskari korrelyatsiya borligini aniqlagan.

Xitoylik olimlar L. Xan, D. Li, Yu. Tian va boshqalar tomonidan 1994-2005 yillardan iborat bo‘lgan davr va 77 ta mamlakatni qamrab olgan holda umumlashtirilgan momentlar usuli modelidan foydalanib olib borilgan tadqiqotda sug‘urta bozori rivojlanishi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Tadqiqotda mamlakatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo‘lib o‘rganilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sug‘urta bozori jumladan, hayot sug‘urtasi rivojlanishining ahamiyati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan [22].

Boshqa olimlar Ch. Yuan va Yu. Jiang [23] tomonidan olib borilgan tadqiqotda Xitoyda sug‘urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va so‘nggi yillar mobaynida sug‘urtaga bo‘lgan talabning oshishi natijasida sug‘urta bozorini jadal rivojlantirishga erishilgani ta’kidlangan. Ular tomonidan 2000-2012-yil hududlar kesimidagi ma’lumotlar asosida umumiy sug‘urta va hayot sug‘urtasiga bo‘lgan talabga ta’sir etuvchi omillar tadqiq etilgan.

Fransiyalik tadqiqotchilar P. Pikarda va J. Pinquyet [24] tomonidan yirik moliya-sanoat guruhlari tomonidan shu guruhga kiruvchi kompaniyalarning risklarini sug‘urtalash uchun tashkil etiladagan sug‘urta kompaniyalari

o‘rganilgan. Bunday sug‘urta kompaniyalari markazlashmagan tarkibiy bo‘limlardan iborat moliya-sanoat guruhiga kiruvchi kompaniyalarning risklarini qayta sug‘urtalovchilarga optimal taqsimlash bilan shug‘ullanadi.

Simona Laura Dragos va Kristian-Mixai Dragos [25] tomonidan olib borilgan tadqiqotda multiplikativ regression modelidan foydalangan holda Yevropadagi 31 davlat misolida sug‘urtaga bo‘lgan institutsional talabni baholangan. Ushbu tadqiqotda ular hayot sug‘urtasi rivojlanishida biznes yuritish erkinlik darajasi, soliq yuki va davlat xarajatlari eng ahamiyati yuqori bo‘lgan ko‘rsatkichlardan hisoblanadi, degan xulosaga kelgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug‘urta bozorini barqaror rivojlanishini ta’minlashda jarayon borishini oldindan baholay bilish muhim omil sanaladi. Bu borada jarayonni matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilish, ekonometrik modellar yordamida prognozlashtirish usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday ekan, Sug‘urta bozorini rivojlantirishini ifodalovchi ko‘rsatkichga aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM, inflyatsiya, savdoning ochiqlik indeksini sug‘urta mukofotlariga ta’sirini ekonometrik usullar bilan baholashdan iborat.

Sug‘urta bozorini rivojlanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etilgan tadqiqotlarni o‘rganish, sug‘urta bozorini rivojlantirishni ekonometrik usullarini qiyosiy solishtirish, ekonometrik model asosida baholangan qiymatlarni iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta bozorining statistik tadqiqoti sug‘urta faoliyatiga tegishli ma’lumotlarni to‘plashga asoslangan. Sug‘urta bozorini statistik kuzatish jarayoni kishilik jamiyatining va undagi alohida olingan guruhlarning moddiy va ma’naviy manfaatlariga turli ijtimoiy xodisalar, tabiiy, texnogen va inson faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarning ta’sirlarini mukammal o‘rganishni talab etadi. Ya’ni kishilik jamiyatiga ta’sir etuvchi u yoki bu hodisalarning ro‘y berishi sug‘urta obyektlari orasida sug‘urta hodisasi ro‘y berish ehtimoliga va sug‘urta hodisalarining zararlilik darajasiga ta’sirini aniqlamasdan turib raqobatli sug‘urta tizimini shakllantirib bo‘lmaydi.

Sug‘urta faoliyatining rivojlanishi sug‘urta bozorini statistik o‘rganishni to‘g‘ri tashkil etilishiga bevosita bog‘liqdir. Sug‘urta faoliyati imkon qadar ko‘proq sug‘urtalanuvchilardan sug‘urta badallarini yig‘ib, muayyan sug‘urta hodisalari yuz berganda ularga kafolatlangan sug‘urta to‘lovlarini to‘lash orqali o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishga, istiqboldagi sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan sug‘urta rezervlarini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda Respublika sug‘urta tashkilotlarida statistik hisobotlarni yuritish, hisobotlarni tayyorlashda hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Ayniqsa, Respublikamizdagi sug‘urta faoliyatining o‘ziga hos tomonlarini inobatga olgan holda, ularni ko‘rstkichlarini statistik usullarda o‘rganish va tahlil qilish, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda yuritish hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. Ushbu muammolarning ijobiy hal etilishi sug‘urta kompaniyalarining iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’kidlash joizki, sug‘urta kompaniyalari tovar ishlab chiqaruvchilarning tavakkalchiligini, shuningdek, ishlab chiqarishga aloqador xavf-xatarlarni o‘z zimmalariga olib, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish orqali ijtimoiy mehnat samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunga erishish uchun sug‘urta faoliyatini statistik hisobotini to‘g‘ri yuritish, ma’lumotlarni yig‘ishda statistikaning ilg‘or usullaridan keng foydalanish, jahon miqyosida to‘plangan nazariy va amaliy tajribalarni joriy qilish, shuningdek, O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini statistik o‘rganishni milliy hisoblar tizimi hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirgan holda tashkil etish kerak bo‘ladi.

Statistik to‘plamlarda sug‘urta faoliyati xizmatlar tarkibiga kiritilganligi joiz sug‘urta mahsuloti bo‘yicha alohida ma’lumotlar keltirilmaydi.

Milliy va hududiy darajada sug‘urta himoyasini hisoblashda, avval, bozorning sig‘imkorligi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun absolyut ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Asosiy absolyut ko‘rsatkichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sug‘urta tashkilotlarining soni;
- sug‘urta mukofotlari (jami, tarmoqlar kesimida) (2-jadval);
- sug‘urta to‘lovlari (jami, tarmoqlar kesimida) (3-jadval).
- aholi soni;
- YAIM;
- aholi daromadlari.

1-jadval: O‘zbekistonda sug‘urta bozori faoliyati ko‘rsatkichlarining 2016-2022-yillardagi dinamikasi (mlrd. so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1. Sug‘urta mukofoti	692,6	927,4	1635,2	1727,55	1879,3	3732,02	6231,7
2. Sug‘urta qoplamasi	130,5	269,9	460,8	284,09	737,6	1235,06	2596,9
3. Sug‘urta zaxirasi	566,7	766	1112,2	1332	1439	1546	1884
4. Sug‘urta investitsiyasi	867,5	1482,5	2010,7	3018,7	3382,7	3746,7	4751,7
5. Yalpi mahsulot	1571,5	2339,3	3531,3	4681,96	4631,4	6350,66	8724,5

Izoh: jadval Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy nisbiy ko‘rsatkichlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. O‘zbekistonning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida mamlakat sug‘urta bozorining quyidagi indikatorlarini hisoblab topamiz:

1. Sug‘urtani qamrab olish darajasi:

$$\text{Sug‘urta mukofotlarining ulushi} = \frac{\sum \text{sug‘urta mukofotlari}}{\text{YaIM (YaHM)}} = \frac{6\ 231{,}7}{888\ 300} = 0{,}7$$

2022-yilda YAIMda sug‘urtaning ulushi 0,7% ni tashkil etmoqda. 2019-yilga nisbatan 0,3 punktga oshgan. Ammo bu dunyo bo‘yicha ko‘rsatkichlardan ancha kam. Jahon yalpi ichki mahsulotida sug‘urta YAIMning 5-6%ni tashkil qiladi.

Sug‘urtaning qamrab olish darajasi

2. Sug‘urtalash zichligi:

$$\text{Jon boshiga sug‘urta mukofotlari} = \frac{\sum \text{sug‘urta mukofotlari}}{\text{Aholi soni}} = \frac{6\ 231{,}7}{0{,}035} = 173\ 102{,}8$$

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti 173 102,8 so‘mni tashkil qilyapti. Bu tahminan 15,25 AQSh dollarga teng. Dunyo bo‘yicha sug‘urta zichligi 883,58 AQSH dollarga teng.

Bozor iqtisodiyotining statistikasi bo‘lmish “Milliy hisoblar tizimi” konsepsiyasiga ko‘ra sug‘urta faoliyatining yalpi mahsuloti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = R - c + p \pm N \quad (1)$$

bu yerda:

Q – yalpi mahsulot;
R – sug‘urta mukofoti;
c – sug‘urta qoplamasi (tovoni);
p – investitsion faoliyatdan olingan daromad;
N – sug‘urta texnik zahiralari hajmini o‘zgarishi.

Ravshanki, agar N musbat qiymatga ega bo‘lsa qo‘shiladi, manfiy qiymatga ega bo‘lsa ayirib tashlanadi.

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2016-2022-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Sug‘urta faoliyatining yalpi mahsulotini (1) formula bilan hisoblashda investitsiyadan olingan daromad o‘rtacha 15 foiz deb olingan.

Sug‘urta bozorining yalpi mahsuloti dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, uni o‘sish darajasi mamlakat YAIM o‘sish darajasiga yaqin bo‘lsa ham, YAIMda ulushi 0,51 foizdan oshmagan. Xolbuki, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ulush 8-10 foizni tashkil qilmoqda.

Sug‘urta faoliyati o‘zining mohiyatiga ko‘ra ehtimollar nazariyasiga asoslangan munosabatlar tizimi bo‘lganligi sababli, hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganishda bugungi kunda sug‘urta jarayonini ekonometrik modellashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tahlil jarayonda ikki xil belgilar yoki ko‘rsatkichlar ishtirok etadi, biri erkli o‘zgaruvchilar, ikkinchisi erksiz o‘zgaruvchilar hisoblanadi. Birinchi toifadagi belgilar boshqalariga ta’sir etadi, ularning o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi, shuning uchun ular omil belgilar deb yuritiladi, ikkinchi toifadagilar esa natijaviy belgilar deyiladi. Masalan, shahar ichidagi transport qatnovi ortishining yoki xaydovchilar xaydovchilik staji ozligining yo‘l transport hodisalari ro‘y berish ehtimolini oshiradi. Bu bog‘lanishda yo‘l transport hodisalari ro‘y berish ehtimoli natijaviy belgi bo‘lsa, unga ta’sir etuvchi kuchlar (shahar ichidagi transport qatnovi, xaydovchilar xaydovchilik staji, yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima va jazolar darajasi va h.k.) omil belgilar bo‘la oladi.

Omillarning har bir qiymatiga turli sharoitlarida natijaviy belgining har xil qiymatlari mos keladigan bog‘lanish orqali korrelyatsion bog‘lanish aniqlanadi. Korrelyatsion bog‘lanishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida inflyatsiya ta’sirida narxlar turli sur’atlar bilan o‘zgarishi yoki davriy kuzatuvlar yetishmasligi natijasida vaqtlar aro ko‘rsatkichlarni jamlab o‘rganish mushkullik tug‘dirsa, omillarning aniq daraja ko‘rsatkichi noma’lum bo‘lsa-da, formulalar orqali omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, 1-jadval ma’lumotlari asosida

$$\ln Q = 1{,}28 + 0{,}32\ln R + 0{,}58\ln p$$

korrelyatsion-regression tenglama olingan. Tenglama parametrlari shundan dalolat beradiki, sug‘urta bozorida sug‘urta mukofotining 1 foizga o‘zgarishi yalpi mahsulotini 0,32 foizga o‘zgarishiga olib keladi, investsiyaning 1 foizga o‘zgarishi sug‘urta bozori yalpi mahsulotining 0,58 ga o‘zgarishiga olib keladi.

Modeldagi parametrlarning statistik ahamiyatliligini aniqlash uchun Styudent testidan foydalanildi. Birinchidan, t-test o‘tkazish uchun tjadval qiymatini aniqlaymiz. Styudent taqsimot jadvaliga ko‘ra, bu model uchun t_{jadval} = 2,57 ga teng. Sug‘urta mukofotlari o‘zgaruvchisi oldidagi parametrning $t_{haqiqiy}$ = 5,59 ga teng. Parametr ahamiyatli bo‘lishi uchun $t_{haqiqiy} > t_{jadval}$ shart bajarilishi kerak. Demak sug‘urta mukofotlari o‘zgaruvchisi oldidagi parametr statistik ahamiyatga ega. Investitsiya o‘zgaruvchisi oldidigi parametrning $t_{haqiqiy}$ = 8,04 ga teng. Bu shuni anglatadiki, investitsiya o‘zgaruvchisining yalpi mahsulotga ta’siri statistik ma’noga ega.

Modelni o‘zining sifatliligini aniqlash uchun F-testdan foydalanamiz. Model uchun $F_{haqiqiy}$ = 573,26 ga teng. F_{jadval} = 4,1 ga teng. $F_{haqiqiy} > F_{jadval}$ shart qanoatlantirilganligi sababli, model statistik ahamiyatli ega.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlanishini prognoz qiymatlari 2022-yilga nisbatan 40,1% o‘sish aniqlandi. Bunda 2023-yilda respublikadagi sug‘urta mukofotlari 8 731 428,0 mln. so‘mni tashkil qilishi aniqlandi. Keyingi to‘rt yilda sug‘urta mukofotlaridagi o‘sish tendensiyasi o‘rtacha o‘sish sur’ati 53,7%ni tashkil qilishi aniqlanib, 2026-yilda sug‘urta mukofotlari 16 230 534,0 mln. so‘mni tashkil qilishi prognozlashtirildi.



1-rasm: Respublikada sug‘urta mukofotlarining 2023 -2026-yillar uchun 3 xil ssenariy bo‘yicha prognozi, (mldr. so‘mda)

Respublikada sug‘urta bozorini rivojlanish tenedensiyalariga ko‘ra 2017-2021-yillarda sug‘urta mukofotlari 3,2 barobarga oshgan. 2023-2026-yillardagi prognoz natijalari esa sug‘urta mukofotlari 2,7 barobarga oshishi mumkinligi ko‘rsatdi (1-rasm). Bu esa hududlarda sug‘urtani rivojlanish tendensiyalari keyingi yillarda ham davom etishini ifodalab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Berilgan prognozlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarning sug‘urta bozori rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkich sug‘urta mukofotlar hajmiga ta’siri baholash natijalariga ko‘ra olingan. Asosiy makroiqtisodiy omillarning ta’sirini o‘rganishdan maqsad modelga kiritilgan omillarning o‘zgarishiga qarab sug‘urta mukofotlarining qanday o‘zgarishini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Sug‘urta faoliyati tijorat soha bo‘lganligi sababli, sug‘urta tashkilotlari ko‘rsatadigan sug‘urta xizmatlari narxini qabul qilayotgan risklarning darajasiga qarab belgilashni taqozo qiladi. Risklarning sodir bo‘lish ehtimoli

kutilmaganda keskin ortib ketishi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy tanazzuliga olib keladi. Ushbu kabi holatlar oldini olish uchun, sug‘urta tashkilotlari doimiy ravishda risklarning dinamikasi va ularning tahlili bilan shug‘ullanishlari kerak. Shu sabab sug‘urta faoliyatida statistik tadqiqotlar boshqa sohalarga nisbatan ancha kengroq, ilmiy jihatdan mukammalroq darajada olib boriladi.

Sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyatlari daromadliklarini ta’minlash maqsadida doimiy ravishda mijozlar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yuritishlari va mukammal ekonometrik tahlillar orqali raqobatli sug‘urta tariflari qo‘llanishini ta’minlashlari talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sug‘urta bozori faoliyatining zamonaviy matematik statistika usullari bilan tadqiq etish sug‘urtalashning ko‘pgina muammolarini atroflicha tadqiq qilish imkonini beradi.

Sug‘urta sohasining iqtisodiy ahamiyati asosan yalpi sug‘urta mukofotlari hajmining YAIMdagi ulushiga qarab baholanadi. Garchi turli mamlakatlar sug‘urta mukofotlari darajasida sezilarli o‘zgarish, farq mavjudligi sababli bu o‘lchash sug‘urta xizmatlari to‘g‘risida to‘liq xulosani bera olmasa-da, bu usulda baholashda valyuta omili ta’sir ko‘rsatmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi sug‘urta mukofotlarining hajmi YAIMning 7-8% ni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu 2%dan ham pastroq ko‘rsatkichga ega.

Respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida sug‘urta bozorining mamlakat mintaqalariga chuqur kirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham aytish mumkinki, rivojlangan sug‘urta bozori faqat samarali faoliyat yurituvchi mintaqaviy sug‘urta bozori mavjudligiga asoslanadi. Rivojlangan sug‘urta infrastrukturasi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqaror faoliyat yuritishlari, sug‘urta tarmog‘ini samarali boshqarish hamda ular investitsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va umuman aholi manfaatlari yo‘lida kompleks rivojlanishlariga asos bo‘ladi. Bugungi kunda, sug‘urta bozori rivojlanishini asosiy shartlaridan biri, bu sug‘urtalovchilarning va ularni mijozlari o‘rtasida aniq va tushunarli munosabatlarning o‘rnatilishidadir. Bunda sug‘urta bozori rivojlanishining asosiy omili mijoz uchun qulay, arzon va sifatli sug‘urta xizmatlarning ishlab chiqilishi va mijozning hayoti va mulkiy manfaatlarida xavf paydo bo‘lgan taqdirda, undan mijozning foydalanishi hisoblanadi. Hududiy sug‘urta bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda bozorining har bir segmenti strategiyasini inobatga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шихов А.К. Страхование: Учеб. пособие для вузов. –М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2000.
2. MAPFRE Economics rasmiy sayti ma’lumotlari
3. Sigma 3/2021 — World insurance: the recovery gains pace. https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2021-03.html.
4. The Global Risks Report 2022, 17th Edition, is published by the World Economic Forum. https://www3.weforum.org/docs/WEF_The_Global_Risks_Report_2022.pdf
5. https://tradingeconomics.com/united-states/life-insurance-premium-volume-to-gdp-percent-wb-data.
6. Arena, M. (2008). Does insurance market activity promote economic growth? A cross-country study for industrialized and developing countries. Journal of Risk and Insurance, 75(4), 921–946.
7. Yuanyuan Li & Bertrand Wigniolle. Endogenous information revelation in a competitive credit market and credit crunch. 2016.
8. Anghelache, C., Anghel, M. G., Capusneanu, S., & Topor, D. (2019). Econometric model used for GDP correlation analysis and economic aggregates. Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research, 53(1), 183–197.
9. Hong, M., Huang, H. Z., & Jiao, J. Y. (2014). An empirical research on factors influencing the growth of Chinese insurance industry. Insurance Studies, 2, 11–22.
10. Tang, X. T. (2015). Econometrical analysis of the influence factors of Chinese insurance industry development [PhD thesis].Dongbei University of Finance and Economics.
11. Gao, X. J. (2018). Research on the relationship between insurance development and economic growth in China. China Collective Economy, 3, 20–22
12. Wang, X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. Marketing Research, 12, 24–26.
13. Zhou, F. J. (2014). An analysis on the relation between property insurance premium income and money supply in China.Business, 16, Article 89.
14. Yuan, Y. M. (2015). An analysis on the influence of China’s monetary policy on insurance industry. Fujian Finance, 7, 27–30.
15. Yang, R., & Zhu, J. M. (2019). An empirical study on monetary policy and insurance development based on VAR model. Journal of Liaoning University of Technology (Social Science Edition), 21(3), 13–16.
16. Hu, L., & Chen, J. (2012). An analysis on the influence of inflation on the development of insurance industry. Insurance Studies, 1, 30–35
17. Wang, X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. Marketing Research, 12, 24–26.
18. Paunica, M., Manole, A., Motofei, C., & Tanase, G. I. (2019). The impact of remittances on GDP and household consumption. An European union countries analysis. Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research, 53(4), 97–114.

19. Tian, X. Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
20. Zhou, H. L., & Guo, J. L. (2012). Analysis on affecting factors of China's life insurance product supply. Insurance Studies, 11,62–74.
21. Tian, X. Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
22. L. Han, D. Li, F. Moshirian and Y. Tian. Insurance Development and Economic Growth. The Geneva Papers on Risk and Insurance. Issues and Practice Vol. 35, No. 2 (April 2010), pp. 183-199.
23. Ch. Yuan, Y. Jiang. Factors affecting the demand for insurance in China. Applied Economics Volume 47, 2015 - Issue 4.
24. P. Picardaвa J. Pinquet. Optimal Risk Financing in Large Corporations through Insurance Captives. The Geneva Risk and Insurance Review, 2013, 38, (48–86)
25. S. Dragos. Life and non-life insurance demand: the different effects of influence factors in emerging countries from Europe and Asia. Economic Research. Volume 27, 2014 - Issue 1.
26. Fayziyev O.R. Sug'urta bozorini raqamlashtirishda xorij tajribasi / "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami – Samarqand, 2023. – B. 204-208.
27. Fayziyev O.R., Abduraxmonova N.I., Musurmonov N.D. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrar sektordagi tarkibiy o'zgarishlar / "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, tahlil, auditorlik faoliyati va moliya-kredit mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 438-442.

BIZNESNI TUGATISHNING YAKUNIY BOSQICHI: TASHKILIY-USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Davletov Ikram Raximberganovich
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada biznesni tugatishning yakuniy bosqichi tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, unda yakuniy tugatish balansini tuzishning maqsadi va uning asosiy vazifalari, tugatilayotgan biznes bo'yicha sof aktivlarni hisoblash hamda uni buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibi, taqsimlash dalolatnomasini tuzish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, kreditorlarnig talablarini qondarish ketma-ketligini hisobga olgan holda yakuniy tugatish balansini tuzish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan hamda yakuniy tugatish balansi shakli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznesni tugatish, tugatish massasi, kreditorlar, sof aktivlar, majburiyatlar, yakuniy tugatish balansi.

Abstract: The article highlights issues of improving organizational and methodological support for the final stage of liquidation of a business. Studied the purpose of drawing up the final liquidation balance sheet and its main tasks, the calculation of the net assets of a liquidated enterprise and the procedure for its reflection in the financial statements, and the preparation of a distribution act. Formed the recommendations for drawing up the final liquidation balance sheet, taking into account the order of satisfaction of creditors' claims, and developed a form for the final liquidation balance sheet.

Key words: business liquidation, liquidation estate, creditors, net assets, liabilities, final liquidation balance.

Аннотация: В статье освещены вопросы совершенствования организационно-методического обеспечения заключительного этапа ликвидации предприятия. Изучены цель составления окончательного ликвидационного баланса и его основные задачи, расчет чистых активов ликвидируемого предприятия и порядок его отражения в бухгалтерской отчетности, составление распределительного акта. Также были сформированы рекомендации по составлению окончательного ликвидационного баланса с учетом очередности удовлетворения требований кредиторов, а также разработана форма окончательного ликвидационного баланса.

Ключевые слова: ликвидация бизнеса, ликвидационная масса, кредиторы, чистые активы, обязательства, конечный ликвидационный баланс.

KIRISH (INTRODUCTION)

Erkin raqobatga asoslangan iqtisodiy makonda faoliyat yuritayotgan biznes o'zining iqtisodiy rivojlanish siklining turli bosqichlarida tashkiliy, moliyaviy va boshqa qiyinchiliklarga duch kelishi hamda buning natijasida o'z faoliyatini tugatishi mumkin. Bu holatda qarzdor-korxona va kreditorlar harakatlarini muvofiqlashtirish davlat tomonidan bu jarayonlarni nazorat qilish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarni yaratishga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli mamlakatimizda biznesni tugatish jarayonlarini tartibga soluvchi bir qator qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlari ishlab chiqilgan. Lekin shularga qaramasdan, yuridik shaxslarni tugatish jarayonlari ko'plab mol-mulk, egalik huquqi, debitorlik va kreditorlik qarzlar, xususan kreditorlar talablarini qondirish va nihoyat, yakuniy tugatish balansini tuzish bilan bog'liq muammolar uchramoqda. Mazkur maqolada ushbu masalalarning tashkiliy-uslubiy yechimlariga yondashuvlarimizni taqdim etamiz.

S. S. Azimovning ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasida korxonalar bankrotligi jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinib, ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar qilingan [4, 5].

K. S. Islamovning ishlarida to'lovga qobiliyatsizlik, uning kelib chiqishi, to'lovga qobiliyatsizlikni amalga oshirish elementlari, soliq qarzini undirishda da'vo qilish muddatini o'zgartirish zarurligi, sun'iy qarz va undirilishi umidsiz bo'lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish masalflari tadqiq qilingan [6].

METODLAR (METHODS)

Tadqiqot jarayonida umumiy metodologik asos sifati dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, analogiya, qiyoslash kabi nazariy metodlar; kuzatish, taqqoslash, matematik va iqtisodiy-statistik, shaklan ifodalash kabi empirik metodlar, shuningdek, bevosita tadqiqot mavzusining xususiy metodlari sifatida balanslashtirish, hujjatlashtirish, schetlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, inventarizatsiya, baholash, moliyaviy hisobot tizimi metodlari qo‘llanildi.

NATIJALAR (RESULTS)

O‘zR FKning 55-moddasiga muvofiq: “Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini (yakuniy tugatish balansi – D.I.) tuzadi, uni yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tasdiqlaydi. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi” [1].

Tugatish massasini sotishdan olingan mablag‘lar hisobidan kreditorlar bilan hisob-kitoblar yoki korxona mol-mulklarini kreditorlarga topshirish jarayoni tugallanganidan so‘ng, yakuniy tugatish balansi tuziladi. Yakuniy tugatish balansining asosiy vazifalaridan biri aktiv(mol-mulk)lar sotilib va kreditorlik qarzlar so‘ndirilib bo‘linganidan so‘ng tugatish saldosini aniqlashdan iborat. Uning asosiy maqsadi korxona mulkdorlari va kreditorlari tomonidan ko‘rilgan zararlarni ko‘rsatishdir. Yakuniy tugatish balansining boshlang‘ich qoldiqlari oraliq balansining ma’lumotlariga mos kelishi lozim. Bu o‘z navbatida, tugatish ishlarining natijadorligi ta’minlanganini bildiradi.

Yakuniy tugatish balansi ham, oraliq tugatish balansi kabi, yuridik shaxsning ta’sischilari (ishtirokchilari) tomonidan tasdiqlanadi va ro‘yxatga oluvchi organ (davlat soliq inspeksiyasi) bilan muvofiqlashtiriladi.

Yakuniy tugatish balansi davlat soliq inspeksiyasiga topshirilganidan so‘ng korxona soliq to‘lovchi sifatida hisobdan chiqariladi.

Yakuniy tugatish balansi ta’sischilar uchun foyda bilan chiqishi ham, zarar ko‘rilishi ham mumkin. Birinchi holatda ta’sischilar tugatishdan qo‘shimcha daromad olib, foyda ular o‘tasida taqsimlanadi, ikkinchi holatda esa, zararlar ustav kapitali (ta’sischilar ulushi) hisobidan (ularning ulushlariga mutanosib ravishda) qoplanadi.

Yakuniy tugatish balansi tugatilayotgan yuridik shaxsning barcha hisob-kitoblarni yakunlaganidan so‘ng, tugatish komissiyasi ta’sischilarga, ularning korxona ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib taqsimlanadigan aktivlar summasini aks ettiradi.

Yakuniy tugatish balansi tuzilib, kreditorlar bilan barcha hisob-kitoblar yakunlanganidan so‘ng, korxonada qoladigan mol-mulklar dalolatnomaga asosan ta’sischilar o‘rtasida taqsimlanishi lozim. Dalolatnoma barcha ta’sischilar tomonidan imzolanadi. Lekin, avval taqsimlanadigan mol-mulklar summasini aniqlash zarur. Buning uchun tugatilayotgan korxonaning sof aktivlarini aniqlash (hisob-kitob qilish) va ularni ustav kapitali bilan solishtirish zarur.

Sof aktivlarni hisoblash tartibi O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash haqida”gi 01/11-15/62-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, [O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3239] “O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti” [3] bilan belgilangan.

Eslatma: Sof aktivlar deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z mablag‘lari bilan ta’minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo‘lgan mol-mulk qiymati tushuniladi. Ularning miqdori buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida belgilanadi - korxonaning aktivlari summasidan uning majburiyatlari summasi chegiriladi (balansning 400-satri ayiruv 770-satri).

Agar ustav kapitali sof aktivlardan kam bo‘lsa, u holda “shartli ustav kapitali” qolgan mol-mulklar qiymati hisobidan sof aktivlar darajasiga yetkaziladi.

1. Agar tugatish balansining ma’lumotlariga ko‘ra korxona tasarrufida qoladigan foyda aniqlansa, u holda bunday sof foydani buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirish tavsiya etiladi:
   - *Debet* 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” scheti;
   - *Kredit* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti.

   Ushbu sof foyda ta’sischilar qaroriga ko‘ra tugatilayotgan korxonaning ustav kapitaliga qo‘shilganida:
   - *Debet* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti;
   - *Kredit* 8330 “Pay va ulushlar” scheti.
2. Agar tugatish balansining ma’lumotlariga ko‘ra korxonada zarar hosil bo‘lsa, u holda bunday zarar ustav kapitali hisobidan qoplanishi, o‘tgan yillarning qoplanmagan zararlari esa hisobot yilining qoplanmagan zarari tarkibiga o‘tkazilishi tavsiya etiladi:

- *Debet* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti;
- *Kredit* 8720 “Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)” scheti.

Hisobot yilining qoplanmagan zarari summasining ustav kapitali hisobidan qoplanishini buxgalteriya hisobi schetlarida quyidagicha aks ettirishni tavsiya etamiz:

- *Debet* 8330 “Pay va ulushlar” scheti;
- *Kredit* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti.

Shunday qilib, tugatilayotgan korxonaning ta’sischilari o‘rtasida taqsimlanishi lozim bo‘lgan ustav kapitalining haqiqiy summasi aniqlanadi.

3. Tugatilayotgan korxonaning ta’sischilariga to‘lanadigan summaning hisoblanishini buxgalteriya hisobi schetlarida quyidagicha aks ettirishni tavsiya etamiz:

- *Debet* 8330 “Pay va ulushlar” scheti;
- *Kredit* 4610 “Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi”.

Tugatilayotgan korxonaning mol-mulklarini ta’sischilar o‘rtasida taqsimlash uchun dalolatnoma tuzilib, kimga nima, qancha summada va qachon berilganligi ko‘rsatiladi.

Dalolatnoma korxonaning barcha ta’sischilari tomonidan imzolanib, ularga berilgan ulushlari (turlariga qarab) quyidagicha aks ettiriladi:

- *Debet* 4610 “Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi”;
- *Kredit* 5010 “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari”, 5110 “Hisob-kitob scheti” va boshqa schetlar.

Agar kreditorlar bilan to‘liq hisob-kitob qilish uchun korxonaning mol-mulklari yetmasa, u holda kreditorlarning qondirilmagan talablari summasi tugatish balansida ko‘rsatiladi.

Agar bankrot-korxonaning oraliq tugatish balansidagi mol-mulklar (tugatish massasi) kreditorlar to‘liq hisob-kitob qilishga yetarli bo‘lmasa, oraliq tugatish balansida kreditorlarning qondirilmagan talablari ko‘lami to‘g‘risidagi axborotlar keltiriladi.

Yakuniy tugatish balansining aktivida hech qanday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi, chunki barcha mol-mulklar (tugatish massasi) sotilgan yoxud hisobdan chiqarilgan va debitorlik qarzlar undirilgan bo‘lishi lozim. Yakuniy tugatish balansining passiv moddalari bo‘yicha faqat kreditorlarning qondirilmagan talablari va korxona mulkdorlarining ko‘rgan zararlari aks ettiriladi (1-jadval).

1-jadval: Yakuniy tugatish balansi [“Invest-plyus” AJ 25-aprel 2023-y. (ming. so‘m)]

Aktiv	satr kodi	ming so‘m	Passiv	satr kodi	ming so‘m
I. Uzoq muddatli aktivlar			**I. O‘z mablag‘lari manbalari**		
Asosiy vositalar		-	Ustav kapitali		-
Nomoddiy aktivlar		-	Qo‘shilgan kapital		-
Tugallanmagan qurilish		-	Rezerv kapitali		-
			Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)		?
			Tugatish davri uchun taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)		?
1-bo‘lim jami		-	1-bo‘lim jami		?
II. Joriy aktivlar			**II. Majburiyatlar**		
Tovar-moddiy zaxiralar, jami		-	Uzoq muddatli majburiyatlar		-
sh. j.: xom ashyo va materiallar		-	Qarzlar va kreditlar		-
tayyor mahsulot		-	Qisqa muddatli majburiyatlar		-
tugallanmagan ishlab chiqarish		-	Birinchi navbatda		-
Debitorlik qarzlari		-	Ikkinchi navbatda		-
sh. j.: moliyaviy ahvoli yomon korxonalarning debitorlik qarzlari		-	Uchinchi navbatda		?
moliyaviy qo‘yilmalar		-	To‘rtinchi navbatda		?
pul mablag‘lari		-	Beshinchi navbatda		?
		-	Boshqa kreditorlar		
2-bo‘lim jami		-	2-bo‘lim jami		?
Balans		0	Balans		0

Barcha o‘zaro hisob-kitoblar amalga oshirilganidan so‘ng tugatish komissiyasi korxonaning bankdagi hisob-kitob schetini yopadi. Buning uchun bankka korxonani tugatish to‘g‘risidagi qarorning nusxasi ilova qilingan holda, uning hisob-kitob schetini yopish to‘g‘risidagi iltimosnoma-xat taqdim etiladi. Schetni yopish chog‘ida vakolatli bank bu haqda ma’lumotnoma beradi va bankrot-korxonani tugatish kartochkasiga belgi qo‘yadi.

Shundan so‘ng davlat soliq inspeksiyasi (DSI)ga, yakuniy tugatish balansi va davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi kvitansiya ilova qilingan holda, tugatish uchun ariza beriladi (bankdagi hisob-kitob scheti yopilganidan so‘ng 10 kundan kechikmasdan).

“Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidani Nizom”ga muvofiq, hujjatlar topshirilgan kundan boshlab besh kun ichida yuridik shaxsni tugatish ishlari yakunlangan hisoblanadi. Yuridik shaxsning tugatilganligi, uning o‘z moliya-xo‘jalik faoliyatini to‘xtatganligi va bu haqda Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestri(YUSHYADR)ga yozilganidan keyin tan olinadi.

O‘zR SKning 79-moddasiga muvofiq: “Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi” [2].

XULOSALAR (CONCLUSIONS)

Shunday qilib, yuridik shaxslarni tugatishning normativ-huquqiy ta’minotini, xususan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “To‘lovga layoqatsizlik”gi qonunining tegishli qoidalari, shuningdek qonunosti normativ hujjatlar va boshqa tashkiliy-farmoyish hujjatlarni tadqiq qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- ularda dastlabki, oraliq va yakuniy tugatish balanslarining aniq ta’riflari hamda ularni tuzish uslublari (tartibi) keltirilmagan. Shuningdek, oraliq tugatish balansini tuzishda uning aktivi (tugatish massasi)ni va passivini shakllantirish algoritmi uslubiy jihatdan ta’minlanmagan;
- tugatish balanslarini (dastlabki, oraliq, yakuniy) tuzishning normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta’minotini hamda amaliyotini tadqiq qilish natijasida uni takomillashtirish zarurligi to‘g‘risidagi xulosaga keldik. Oraliq tugatish balansining maxsus shakli odatdagi davriy balanslardan ham shaklan, ham mazmunan farq qiladi. Oraliq tugatish balansini tuzishning umumiy qoidalari shakllantirildi, shuningdek u dastlabki va yakuniy tugatish balanslari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Oraliq tugatish balansining aktivi va passivi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni guruhlash, davriy balans ko‘rsatkichlarining guruhlanishidan farq qiladi. Bu esa korxonaning tugatilish chog‘idagi moliyaviy ahvoli to‘g‘risida ma’lumotlar shakllantirilishini ta’minlaydi.
- va nihoyat, yakuniy tugatish balansining shakli ham taklif qilinib, u tugatish ishining yakunlari, jumladan, kreditorlarning qondirilmagan talablari to‘g‘risidagi axborotlarni ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, https://lex.uz/docs/111189
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. https://lex.uz/docs/4674902
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi 01/11-15/63-son “O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 4 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3239. https://lex.uz/docs/4842496
4. Azimov S.S. O‘zbekiston Respublikasida bankrotlik amaliyotini tadqiq etish orqali amaldagi mavjud muammolarni yechimi bo‘yicha takliflar. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, France. 19th February, 2023. econferenceseries.com, 9-15 pages.
5. Azimov S.S. Bankrotlik amaliyoti va uning amaldagi holati bo‘yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va tadqiqotlar ilmiy jurnali. 12-son.
6. Islamov K.S. To‘lovga qobiliyatsiz (bankrot) korxonalarni tugatish va umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish mexanizmini takomillashtirish tartibi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy electron jurnali, 5-son. 2023-yil, sentabr.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ

Нуриллаев Рахмат Ярашевич
Заведующий кафедры Агротехнологии Каршинского института ирригации и агротехнологий, НИУ “TIQXMMI” к.с.х.н., доцент

Аннотация: Данная статья рассматривает вопросы обеспечения безопасности продуктов питания в условиях изменяющейся среды. Она анализирует основные угрозы и вызовы, с которыми сталкиваются производители и потребители пищевых продуктов в современном мире, а также предлагает стратегии и методы для обеспечения высокого уровня безопасности пищевых продуктов.

Ключевые слова: безопасность продуктов питания, безопасность качество, изменяющаяся среда, угрозы для продовольственной безопасности, стратегии обеспечения безопасности пищевых продуктов.

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zgaruvchan muhitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalarini ko‘rib chiqadi. U zamonaviy dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar oldida turgan asosiy tahdid va muammolarni tahlil qiladi, oziq-ovqat xavfsizligini yuqori darajada ta’minlash bo‘yicha strategiya va usullarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, sifat xavfsizligi, o‘zgaruvchan atrof-muhit, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar, oziq-ovqat xavfsizligi strategiyalari.

Abstract: This article examines the issues of ensuring food safety in a changing environment. It analyzes the major threats and challenges facing food producers and consumers in the modern world, and proposes strategies and methods to ensure high levels of food safety.

Key words: food safety, safety quality,, changing environment, threats to food security, food safety strategies.

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире обеспечение безопасности продуктов питания представляет собой одну из наиболее важных задач для производителей, потребителей и регулирующих органов. С появлением новых технологий, изменением климатических условий, а также развитием мирового рынка продовольствия, возникают новые вызовы и угрозы для пищевой безопасности. В данной статье мы рассмотрим основные аспекты обеспечения безопасности продуктов питания в меняющемся мире, а также предложим стратегии для решения этих проблем.

Питание всегда было и остается основной потребностью человека. Пища, как для человека, так и для других млекопитающих, состоит из тех же природных компонентов, которые находятся в почве, воде и воздухе. Разнообразие пищи с различными питательными веществами является основным строительным материалом для различных тканей, органов и клеток живого организма. Качество и полноценность нашей жизни зависят более чем на 50% от качества пищи. Актуальность проблемы качества и безопасности продуктов питания с каждым годом возрастает – это один из основных факторов, определяющих здоровье людей и сохранение генофонда.

Пищевые продукты - это еда в естественном или обработанном виде, которую люди употребляют в пищу. Это также включает продукты для детского и диетического питания, бутилированную воду, алкогольные напитки (включая пиво), безалкогольные напитки, жевательную резинку, а также продовольственное сырье, пищевые добавки и биологически активные добавки.

Качество пищевых продуктов - это совокупность их характеристик, способных удовлетворить потребности человека в пище при обычных условиях использования. Под качеством пищевых продуктов понимается их свойства, способные удовлетворять потребности человека в пище при обычных условиях использования. Качество регулируется государственными стандартами, санитарными, ветеринарными и гигиеническими нормами, а также требованиями к срокам годности и хранению пищевых продуктов.

Безопасность продукции, включая продукты питания, означает отсутствие недопустимого риска, связанного с причинением вреда жизни или здоровью людей, имуществу физических или юридических лиц, государственной или муниципальной собственности, окружающей среде, жизни или здоровью животных и растений.

Безопасность пищевых продуктов - это состояние обоснованной уверенности в том, что они при обычных условиях использования не являются вредными и не представляют опасности для здоровья нынешних и будущих поколений.

Наличие безопасных продовольственных товаров способствует развитию национальной экономики, торговли и туризма, а также обеспечивает продовольственную безопасность и безопасность питания, что является важным фактором устойчивого развития.

Важными проблемами являются, с одной стороны, предотвращение загрязнения сырья для производства пищевых продуктов, что обеспечивается, в том числе, системой мониторинга за состоянием окружающей среды, а с другой стороны, тщательный гигиенический контроль за производством и готовой продукцией [1].

В условиях глобализации растет спрос на более широкий ассортимент продуктов питания, что приводит к удлинению глобальных продовольственных цепочек и усложнению продовольственных систем.

Человеческий организм может получать из пищи множество различных химических и биологических веществ, которые чужды его организму, их называют ксенобиотиками. Разнообразие естественных и искусственно созданных человеком чужеродных веществ создает серьезные проблемы в их выявлении и определении предельно допустимых концентраций в сырье и готовых продуктах. Многие ученые, такие как Федоренко В. Ф., Мишуров Н. П., Гольтяпин В. Я., Федоров и другие, занимались исследованиями по обеспечению безопасности технологий кормопроизводства, а также безопасности технологий переработки и хранения растительного сырья, такие как Листков В. Ю., Шеметова Е. Г., Петрова А. В. и другие [2].

Как известно, среди всех продуктов питания наибольший потенциальный риск для потребителя представляют пищевые продукты животного происхождения. Это связано в первую очередь с тем, что более 80% заболеваний человека и животных вызываются одними и теми же патогенными микроорганизмами. “К сожалению, кормовые отравления пока еще причиняют значительный ущерб объектам экономики (гибель животных, потеря ими продуктивности). Этот ущерб усугубляется отравлениями людей, употребляющих в пищу молоко, мясо и яйца от этих животных” [4]. В большинстве случаев риски, связанные с загрязнением пищевой продукции опасными и вредными веществами, а также патогенными микроорганизмами, характерны для этапов производства и переработки таких продуктов.

При увеличении численности населения и спроса на продукты питания происходит увеличение интенсивности и индустриализации сельского хозяйства и животноводства, что создает как новые возможности, так и новые угрозы для безопасности пищевых продуктов. По прогнозам, изменение климата также будет негативно влиять на безопасность пищевых продуктов.

Все эти проблемы возлагают на производителей продовольствия и работников пищевой промышленности дополнительную ответственность за обеспечение безопасности пищевых продуктов. В условиях быстрого и дальнего перемещения продовольственных товаров местные инциденты могут быстро превратиться в масштабные международные кризисы. За последние десять лет на каждом континенте произошли серьезные вспышки заболеваний, вызванных пищевыми продуктами, масштабы которых усугублялись глобализацией мировой торговли.

Основные способы загрязнения продуктов питания и сырья для них включают в себя следующее:

1. Использование запрещенных красителей, консервантов, антиоксидантов или их применение в избыточных количествах.
2. Применение новых нетрадиционных методов производства пищевых продуктов или отдельных ингредиентов, включая те, которые получены путем химического или микробиологического синтеза.
3. Загрязнение сельскохозяйственных культур и продуктов животноводства пестицидами, используемыми для борьбы с вредителями растений и для профилактики заболеваний животных в ветеринарной практике.
4. Нарушение гигиенических правил использования удобрений, оросительных вод, твердых и жидких отходов промышленности и животноводства, а также коммунальных и других сточных вод в растениеводстве.
5. Использование неразрешенных кормовых добавок в животноводстве и птицеводстве или применение разрешенных добавок в избыточных количествах.

TARAQQIYOT PROGRESS

6. Переход токсических веществ из пищевого оборудования, посуды, инвентаря, тары и упаковок в продукты питания из-за использования неподходящих полимерных, резиновых и металлических материалов.
7. Образование вредных веществ в пищевых продуктах в результате тепловой обработки, кипячения, жарения, облучения и других технологических процессов.
8. Несоблюдение санитарных требований при производстве и хранении пищевых продуктов, что может привести к образованию бактериальных токсинов.
9. Попадание токсических веществ, включая радионуклиды, из окружающей среды (атмосферного воздуха, почвы, водоемов) в продукты питания.
10. Использование природных цеолитов для абсорбции различных химических и микробиологических соединений представляет значительный интерес в контексте защиты продовольственного сырья и пищевых продуктов от загрязнения.

Независимо от глобальной повестки дня, важность вопроса качества и безопасности пищевых продуктов очевидна на уровне каждого человека, независимо от его положения в обществе. Качество - это приоритет для потребителя. Остается добиться того, чтобы оно стало приоритетом и для производителя. Именно этим занимается государственное регулирование качества и безопасности пищевых продуктов.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ КАЧЕСТВА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ

Обеспечение качества продуктов питания - это обширное понятие, включающее множество элементов, которые по отдельности или в совокупности влияют на конечный продукт. Это также набор организационных мер, направленных на создание условий, при которых продукция соответствует заданным стандартам качества.

Контроль качества, в свою очередь, представляет собой часть процесса обеспечения качества, включающую методы отбора образцов, установление спецификаций, проведение испытаний, организацию процесса принятия решений о приемке или отбраковке продукции, разработку научно обоснованных стандартов безопасности и проведение независимой экспертизы, а также разработку нормативно-правовой базы, включая таможенное регулирование [3].

Проблеме безопасности продуктов питания уделяется все больше внимания на государственном уровне. В Узбекистане существует закон “О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны” от 16.01.2018 .№ УП-5303, который регулирует отношения в области “организации питания, обеспечения качества пищевых продуктов и их безопасности для здоровья человека и будущих поколений” [6].

Нормативно-правовые механизмы устанавливают и контролируют требования к качеству пищевых продуктов, их безопасности, упаковке, маркировке, производственному контролю, процедурам оценки, методам испытаний, а также к техническим документам на основе государственных и международных стандартов, что помогает обеспечить высокое качество продукции на всех этапах ее производства

Существует совершенно другой подход к решению проблемы обеспечения качества и безопасности пищевых продуктов, который не является ретроспективным, а превентивным. Этот подход значительно снижает потери, связанные с обнаружением дефектов и отзывом продукции. Он также предусматривает четкое распределение ответственности за обеспечение безопасности пищевых продуктов.

Уверенность в безопасности пищевых продуктов будет подтверждаться документально, что имеет принципиальное значение в случае возникновения конфликта между производителем и потребителем. Этот подход также включает системный подход, учитывающий все показатели безопасности пищевых продуктов от исходного сырья до конечной продукции, рациональное использование ресурсов для управления безопасностью, существенное снижение финансовых издержек со стороны производителя, которые неизбежны при выпуске некачественной продукции, при условии его ответственности за осуществление контроля на всех этапах. Этот подход также способствует росту доверия потребителей к производимой пищевой продукции конкретного производителя, обеспечивает оптимальный режим работы систем контроля и верификации, расширяет рынок сбыта и создает новые возможности для выхода на новые рынки в результате повышения качества конечной продукции и соответствия международным стандартам.

Кроме того, этот подход способствует росту конкурентоспособности товаров, предоставляет дополнительное преимущество при участии в тендерах, укрепляет доверие зарубежных инвесторов и спо-

собствует формированию репутации производителя качественных и безопасных продуктов питания. Вопросы безопасности пищевых продуктов, питания и продовольственной безопасности тесно связаны. Небезопасные продукты питания порождают порочный круг болезней и недостаточного питания, что особенно затрагивает детей грудного и раннего возраста, пожилых людей и больных.

Вот какие количественные оценки потерь социума возникают из-за употребления некачественных продуктов питания: от негативных последствий употребления загрязненных микроорганизмами или химическими веществами продуктов питания ежегодно заболевают 600 миллионов человек, что составляет почти каждого 10-го жителя планеты, и умирают 420 000 человек, что приводит к потере 33 миллионов лет здоровой жизни; сорок процентов бремени болезней пищевого происхождения приходится на долю детей до 5 лет, и каждый год эти болезни уносят жизни 125 000 детей; ежегодно диарейными болезнями заражается 220 миллионов детей, из которых 96 000 умирают. Наконец, заболевания пищевого происхождения являются препятствием для экономического развития, поскольку наносят урон национальной экономике, туризму и торговле, но, главное, создают чрезмерную нагрузку на системы здравоохранения, что особенно тревожно в условиях повышенной пандемийной опасности.

Необходимо оценить важность бремени болезней, связанных с пищевыми продуктами, для здоровья населения и экономики. Однако точная количественная оценка этих показателей затруднена из-за сложностей в установлении причинно-следственных связей между загрязнением пищевых продуктов и последующими заболеваниями или смертью.

Согласно докладу Всемирного банка о экономическом воздействии болезней, связанных с пищевыми продуктами, за 2018 год, общий экономический ущерб, вызванный снижением производительности труда из-за этих болезней в странах с низким и средним уровнем дохода, составляет почти 110 миллиардов долларов США, а годовые расходы на лечение таких заболеваний, по оценкам, достигают 15 миллиардов долларов США.

На международной конференции по вопросам питания, прошедшей в Аддис-Абебе в феврале 2019 года, и Международном форуме по безопасности пищевых продуктов и вопросам торговли, который состоялся в Женеве в 2019 году, было подчеркнуто важность обеспечения безопасности пищевых продуктов для достижения целей в области устойчивого развития. Для правительств безопасность и качество пищевых продуктов должны стать приоритетным вопросом общественного здравоохранения, поскольку они играют ключевую роль в формировании политики и создании нормативно-правовой базы, а также в построении и применении эффективных систем обеспечения безопасности продуктов питания. Расширение отечественного производства основных видов продовольственного сырья, отвечающего современным требованиям качества и безопасности, является одной из основных задач государственной политики в области здорового питания.

Для обеспечения безопасности пищевых продуктов необходимо [4]:

- Осуществлять контроль соответствия требованиям законодательства Узбекистана в области сельскохозяйственной, рыбной продукции и продовольствия, включая импортированные продукты, на всех этапах их производства, хранения, транспортировки, переработки и реализации.
- Гармонизировать показатели безопасности пищевых продуктов с международными стандартами на основе фундаментальных исследований в области науки о питании.
- Совершенствовать систему организации контроля безопасности пищевых продуктов, включая создание современной технической и методической базы.
- Создавать и поддерживать необходимые системы и инфраструктуру обеспечения безопасности продуктов питания (например, лаборатории) для принятия мер по управлению рисками в области безопасности продуктов питания на всех этапах продовольственной цепочки, включая чрезвычайные ситуации.
- Содействовать межсекторальному сотрудничеству между различными секторами, такими как общественное здравоохранение, охрана здоровья животных, сельское хозяйство и т.д., для более эффективной коммуникации и совместных действий.
- Включать аспекты безопасности продуктов питания в более широкие меры политики и программы в области продовольствия и питания, такие как вопросы безопасности питания и продовольственной безопасности.
- Придерживаться подхода “мысли глобально, действуй локально” для обеспечения безопасности местной продукции для зарубежных потребителей при ее экспорте и наоборот.

Обеспечение безопасности и качества продуктов на национальном уровне включает в себя следующие аспекты:

- Укрепление национального потенциала в области регулирования контроля качества продовольствия и упрощение процедур международной торговли.
- Разработка и улучшение систем контроля качества пищевых продуктов, включая политику в области безопасности пищевых продуктов и усовершенствование нормативно-правовой базы контроля за качеством пищевых продуктов.
- Поддержка развития институционального и индивидуального потенциала в области контроля качества продовольствия и управления безопасностью пищевых продуктов, включая управление в чрезвычайных ситуациях, связанных с безопасностью пищевых продуктов.
- Научно-обоснованное управление безопасностью пищевых продуктов и принятие решений на основе конструктивных научных рекомендаций для поддержки стандартов безопасности пищевых продуктов.
- Повышение эффективности управления безопасностью пищевых продуктов в целях профилактики заболеваний и предупреждения сбоев в торговле.
- Анализ рисков в пищевых цепях с учетом специфики национальных и региональных производственных систем.
- Создание платформ для обсуждения вопросов безопасности пищевых продуктов, создание баз данных и механизмов, способствующих созданию тематических сетей, организации диалога и обеспечению глобального доступа к информации.
- Сбор данных и прогнозирование в области безопасности пищевых продуктов; оценка новых технологий с целью повышения безопасности пищевых продуктов и охраны здоровья населения.

Обеспечение безопасности пищевых продуктов - это сложный и всесторонний процесс, начинающийся на ферме и заканчивающийся на столе у потребителя. Несмотря на высокий уровень государственного контроля за качеством пищевой продукции в Узбекистане, эффективная реализация этого процесса на всех этапах представляет собой сложную задачу из-за множества факторов. Сложность заключается в необходимости учета двух факторов: усиления надзора в сфере общественного здравоохранения и проблем безопасности пищевых продуктов на всех этапах продовольственной цепи. Программа по обеспечению безопасности и качества пищевых продуктов поддерживает комплексный междисциплинарный подход к управлению безопасностью пищевых продуктов и предлагает целостные и практичные решения для конкретных проблем в этой области на уровне всей “пищевой цепи”.

Для обеспечения безопасности пищевых продуктов в современной условиях необходимо уделить внимание следующим аспектам:

а) Ускорение утверждения разработанных и вынесенных на публичное обсуждение технических регламентов на основные виды пищевой продукции.

б) Гармонизация требований национальных стандартов с международными стандартами.

в) Внедрение на предприятиях отрасли гармонизированных национальных и международных стандартов по качеству и безопасности пищевых продуктов.

г) Подготовка квалифицированных специалистов в области стандартизации и подтверждения соответствия для грамотного внедрения современной нормативной базы в практику.

Также предлагается ввести “ступенчатые” стандарты, предусматривающие несколько уровней или “порогов” качества на перспективу и ужесточить наказание за производство, хранение или перевозку товаров и продукции, не отвечающих требованиям безопасности, а также за неправомерное выдачу или использование официального документа, удостоверяющего соответствие указанных товаров требованиям безопасности.

Обеспечение качества и безопасности пищевых продуктов является важным фактором для благополучия населения и профилактики болезней алиментарного происхождения, а также для повышения качества жизни населения и обеспечения продовольственной безопасности Узбекистана.

ВЫВОДЫ

Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире требует комплексного подхода и постоянного мониторинга. Необходимо уделять внимание не только традиционным угрозам, таким как загрязнение пестицидами или микробиологическая контаминация(загрязнения), но и новым вызовам, таким как изменение климатических условий и развитие новых технологий производства. Регулирующие органы, производители и потребители должны сотрудничать для разработки и внедрения инновационных методов обеспечения безопасности пищевых продуктов, чтобы гарантировать их качество и безопасность для всех.

Список использованной литературы:

1. Инновационные технологии производства молока и говядины: учеб. пособие / А.А. Свидинский [и др.]. – Омск: Изд-во ФГБОУ ВПО ОмГАУ, 2010. – 416 с.
2. Шеметова Е.Г., Петрова А.В. Технология переработки и хранения растительного сырья. Известия вузов. Прикладная химия и биотехнология. – 2012. – №2(3). – С.35-39.
3. Nurillayev, J. Ya. The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks// [Электронный ресурс]: сборник материалов XX Международной научно-практической конференции, посвященной 20-летию Факультета горного дела и инженерной экологии Белорусского национального технического университета, 5 апреля 2022 г./редкол.: АА Кологривко –Минск: БНТУ, 2022.–Т. 1.–С. 190-192. https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/120586/190-192.pdf?sequence=1
4. Трунов С.И., Якобчук К.А, Мальгин Е.Л., А.В. Деревянкин. Проблемы безопасности при использовании новых технологий в производстве кормов // Современные инновации в науке и технике: сборник научных трудов 9-й Всероссийской научнотехнической конференции с международным участием (18-19 апреля 2019 г.) / редкол. Горохов А.А.(отв. ред.) Юго-Зап. гос. ун-т, Курск: Юго-Западный государственный университет (ЮЗГУ). – 2019. – 454 с., С. 375-380.
5. J.Nurillaev Directions To Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan https://inlibrary.uz/index.php/tajiir/article/view/11452
6. “О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны” указ Президента Республики Узбекистан от 16 января 2018 г.,№ УП-5303 https://lex.uz/docs/3506750

TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Mavlanov G‘olib
Toshkent davlat iqtisodiyot universituti dekan muovini

Annotatsiya: Maqolada klasterlash asosida turizmni rivojlantirishga kompleks yondashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllan-tirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamini kengaytirish bayon etilgan. Shu bilan birga, sayyohlar qiziqishini oshirish, “jamlash markazi” orqali qulaylik yaratish va bu borada mahalliy aholining ijodiy yondashuvi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovasion yondoshuv, jozibadorlik, kompleks yondashish, salohiyat, samara, infratuzilma, “jamlash markazi”, ijodiy yondashuv, istiqbol.

Abstract: The article describes a comprehensive approach to the development of tourism on the basis of clustering, the formation of modern tourism infrastructure, expanding the scope of work on the full and effective use of existing potential in the regions. At the same time, it focuses on increasing the interest of tourists, creating convenience through the “concentration center” and the creative approach of the local population in this regard.

Key words: innovative approach, attractiveness, integrated approach, potential, efficiency, infrastructure, “concentration center”, creative approach, perspective.

Аннотация: В статье описан комплексный подход к развитию туризма на основе кластеризации, формирования современных объектов туристской инфраструктуры, а также расширения масштабов проводимой работы по полному и эффективному использованию существующего потенциала в регионах. При этом подчеркивается повышение интереса туристов, создание удобств за счет “концентрационного центра” и творческий подход местных жителей в этом отношении.

Ключевые слова: инновационный подход, привлекательность, комплексный подход, потенциал, эффективность, инфраструктура, “центр концентрации”, творческий подход, перспектива.

KIRISH

Turizm rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo‘lib, chet el valyutasi va sarmoyalar oqimini ta’minlaydi, unga yaqin sohalarning tez o‘sishiga ko‘mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishda yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro‘sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf-xarajat bilan turizm sohasida katta valyuta miqdori kelib tushishini ta’minlash mumkin. Turizm sohasi taraqqiyotidagi hozirgi holat, uning istiqbolini belgilovchi ko‘rsatkichlar tahlili turizm industriyasi faoliyatini shakllantirishning iqtisodiy, tashkiliy omillarini o‘rganish, turizm xizmati sifatini ko‘tarish, milliy turistik korxonalar, firmalarning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda milliy turizm mahsulotiga xorijliklar talabini o‘stirishga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda turizm industriyasi va infrastrukturasi, shu jumladan, turistik xizmat sohasi umummamlakat miqyosida olib borilgan xususiylashtirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tish jarayoni talablariga mos holda qayta isloh qilindi. Ammo bu sohada hanuz qator muammolar, hatto uning rivojiga g‘ov bo‘lib turgan “to‘siqlar” ham mavjud [1].

Mamlakatimiz turizm tizimi taraqqiyotining jadal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib turgan omillardan biri turistik xizmatlar ko‘rsatishning talab darajasida emasligidir. Bu esa, o‘z navbatida, turizm industriyasining katta turistik resurslarga ega bo‘lgan hududlarda sohani rivojlantirish imkoniyatini chegaralab qo‘ymoqda. Turizm, o‘z navbatida, tabiiy va ijtimoiy resurslarni to‘liq safarbar etishda o‘ziga xos tizim hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va estetik ehtiyojlarni, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga, ekologiyaga nisbatan munosabatlarni tartibga keltirishga, biologik xilma-xillikni asrab-avaylashga, aholining hayot darajasi tubdan yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga kompleks yon-

dashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllantirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biriga aylantirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish muammolari mutaxassislar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari I. T. Balabanov, M. B. Birjakov, V. A. Kvartalnov, M. A. Jukova kabi xorijlik mutaxassislar va yurtdosh-larimiz N. T. Tuxliyev, M. K. Pardayev, G‘. H. Qudratov, Q. Mirzayev, O. Hamidov, M. Alimova, T. T. Tashmuratov [4] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilmoqda. Turizmda xizmatlar ko‘rsatishni shakllanishi va rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini hozirgi zamonda kechayotgan moliyaviy o‘zgarishlar kesimida tashkil qilish umumiqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan ekanligi soha mutaxassislari tomonidan e’tirof etilgan. Ammo turizm sohasi rivojining konseptual asoslarini shakllantirish va uni amalda tatbiq etish jarayonining ko‘p qirrali va g‘oyat murakkab ekanligi bois tug‘iladigan muammolarning aksariyati nazariy va metodik jihatdan to‘liq o‘rganilmay qolmoqda. Aynan shu holat tadqiqot ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Turizm sohasini uning funksiyalari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, shu narsa aniq bo‘ladiki, turizmning klassik tarzdagi uchligi “turizm + joylashtirish + ko‘ngil ochish” ijtimoiy iqtisodiy soha vazifalarining qariyb hammasini o‘z ichiga oladi.

Bundan esa, “turizm turli xil, o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo etadigan kichik tizimlardan iborat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim” ekanligi aniq bo‘ladi [2]. Turizmning amalda mavjud bo‘lgan, uning ko‘p qirraliligini isbotlovchi ko‘psonli ta’riflari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlashi mumkin. Amaliy turistik faoliyat mavjudligi uni o‘rganish uchun nazariy metodik yondashuvlarni yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Turizm rivojlanishi va ommaviy hodisaga aylana borishi bilan sayohat qilayotgan odamlarni statistik hisobga olish maqsadida “turizm” tushunchasiga berilgan dastlabki ta’riflar paydo bo‘ldi [3].

Maqolada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, tanlab kuzatish, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. 2018-yildan kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O‘zbekistonda bo‘lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan: fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko‘paygani; elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgan [4].

Mamlakatimiz hududlari aholisi turmush tarzining o‘ziga xosligini e’tiborga olgan holda, ba’zi noodatiy loyihalarni sinab ko‘rish talab etiladi. Masalan, turizm klasteri tushunchasiga kengroq urg‘u berib, joylarda “klaster markazi” yaqinida besh yoki olti xonadondan iborat kichik posyolka bunyod etish va har taraflama ibratli, namunali oilalarni joylashtirish lozim. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – chet ellik sayyohlarni mahalliy aholiga yanada yaqinlashtirish, ya’ni, bir-necha kunlik mehmonnavozlik davomida milliy qadriyatlarimizga qiziqish uyg‘otish va ushbu bebaho merosdan bahramand qilishdan iborat. Shu bilan birga, joylarning tabiiy go‘zalligi, urfodatlari hamda an’analari bilan tanishtirishni mahalliy aholidan yaxshiroq uddalaydigan bironta mutaxassisni topish qiyin. To‘g‘ri, ushbu taklif o‘z- o‘zidan oson bitadigan oddiy ishlar emas, balki maxsus tayyorgarlikdan o‘tish va moliyaviy mablag‘lar bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birgalikda turizmni moliyalashtirishda ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilish muhimdir (1-jadval).

1-jadval: Turizmni rivojlantirishni moliyalashtirish manbalari

№	Moliyalashtirish manbalari	1 yil	2 yil	3 yil
1	Turizmni rivojlantirish qo‘mitasi	+	+	+
2	Viloyatlardagi turizmni rivojlantirish departamenti	+	+	
3	Davlat grantlari	+	+	+
4	Kredit mablag‘lari	+	+	+
5	Innovatsion loyihalar va ishlanmalar hamda xizmatlar realizatsiyasi hisobidan		+	+

6	Homiylik manbalari	+	+	+
7	Azolik badallari hisobiga		+	+

Turizmni rivojlantirish istiqbollari moliyaviy imkoniyatlarini yangi pog‘onaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta’minlash, uning raqobatbardoshligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019-yillarda Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy turizmga qo‘shimcha tarzda – ziyorat qilish, ekologik, agroturizm, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash- sog‘lomlashtirish turlarini ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etish nazarda tutilgan. Ayniqsa, bolalar, o‘smir va yoshlar, oilaviy, keksalar uchun ijtimoiy turizm yo‘nalishini ochish hamda kompleks rivojlantirish milliy va hududiy dasturlarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Ayni paytda O‘zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning o‘ziga xos urf-odatlari, marosim va an’analari, tabiat bilan uyg‘un hayot kechirishlari milliy mentalitetimizning umumbashariy qadriyatlarga daxldor ekanligidan dalolat beradi [6]. Ushbu qadriyatlarning mintaqa-viy shakllari esa, mavjud imkoniyatlarni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, sayyohlikning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri, aholi farovonligini yuksaltirishdagi ahamiyatini inobatga olib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham mazkur soha izchil rivojlantirilmoqda. Ya’ni qoraqalpoq zaminidagi mavjud ulkan tarixiy, boy arxeologik, ma’rifiy va ekologik salohiyatdan samarali foydalangan holda turistik infratuzilma-larni shakllantirish borasida bosqichma-bosqich amaliy ishlar olib borilayotgani ijobiy samara bermoqda. Qoraqalpog‘iston hududida 131 ta arxeologik, 25 ta me’moriy, 89 ta monumental, (39 ta diqqatga sazovor obyekt), jami 284 ta me’moriy moddiy-madaniy meros obyektlari ro‘yxatga olingan [2]. Ularni har taraflama himoya qilish, obodonlashtirish, qayta tiklash, ta’mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari belgilangan dasturlarga mos tarzda amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Bugungi kunda mazkur hududda 30 dan ziyod turistik tashkilotlar samarali faoliyat yuritmoqda, ularning sonini tubdan oshirish, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish, sayyohlarga yanada keng qulayliklar yaratish yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Xususan, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tomonidan Beruniy tumanidagi “Qizil qal’a” hamda “Fil qal’a” arxeologik madaniy meros obyektlarida, Qo‘ng‘irot tumanidagi “Dovut ota” maqbarasida, Xo‘jayli tumani “Mizdakxon” majmuasidagi “Nazlumxan suluv” me’moriy maqbarasida obodonlashtirish va qayta ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Nukus shahrida zamonaviy, jahon andozalariga mos keluvchi 40 o‘rinli, To‘rtko‘l tumanida 25 o‘rinli mehmonxona, Qo‘ng‘irot tumanidagi “Dovut ota” punktida “Ustyurt bon Voyage” mehmonxonasining 20 o‘rinli filiali, Kegayli tumanidagi “Iyshan qal’a” tarixiy madaniy majmuasi va Ellikqal’a tumanidagi “Aqsha ko‘l” turistik majmuasi va “Ayoz qal’a” arxeologik obyektlarida qurilish- ta’mirlash ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda [4]. Umuman olganda, respublikaning barcha hududlarida jahon standartlariga mos keluvchi turizm infratuzilmalarini yaratish, xalqaro standartlar va me’yorlarni joriy etish, eng avvalo, sayyohlik yo‘nalishidagi yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, xizmat ko‘rsatish hamda logistika sub’ektlarini, tarixiy-madaniy va arxeologik obidalarni inventarizatsiya qilish, xalqaro turizm talablariga muvofiq-lashtirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda sayyohlik yo‘nalishlariga kiruvchi avtomobil yo‘llari va yo‘lbo‘yi infratuzilmalarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish ishlari bo‘yicha “Nukus xalqaro aeroporti”, temir yo‘li va avtomobil vokzallari, I. V. Savitskiy nomidagi muzey, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri, “Istiqlol” hamda “Amir Temur” dam olish maskanlariga oid rus, ingliz, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida yozilgan yangi yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatildi.

YUNESKO vakolatxonasi bilan birga “Visit Karakalpakstan” veb-saytini ishga tushirish yaqin kunlarda amalga oshiriladi. Turkiyaning “GG Turizm Sanat Yapim” kompaniyasi tomonidan Mo‘ynoq tumanidagi tarixiy madaniy obyektlarda, shuningdek, Rossiyaning “Mir” xalqaro teleradio-kompaniyasi ijodiy guruhi tomonidan “Tayni vremeni” loyihasi bo‘yicha Ayoz qal’a, I. V. Savitskiy nomidagi muzey, “Barsa-Kelmes” tuz ko‘lida tasvirga olish ishlari olib borildi. Mo‘ynoq va Orol bo‘yi faunasi, mahalliy xalqning urf-odatlari va an’analarini tasvirga olish va ko‘rsatuvlar tayyorlash uchun “Moya planeta”, “National Geographic”, “Animal planet”, “Viasat Explore” telekanallari ijodkorlari taklif etildi. Qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq va Ajiniyoz ijodiga bag‘ishlab xalqaro musiqali mushoiralar festivali, “Orol va Mo‘ynoqning qayta tiklanishi” mavzuida xalqaro ekofestival “Orolning 99 xil baliq taomlari” nomli gastronomik festivallarning nufuzi ortmoqda, shu jumladan, qatnash-

chilar uchun xalqaro maydonda yanada katta qiziqish uyg‘otmoqda. “Aym tur” jamiyati, “Ayaz yurt” korxonasi, “Jahongashta” ShK, “Mavlyuda qaldirg‘och” jamiyati, Quyi Amudaryo biosfera rezervati tomonidan yangi turistik yo‘nalishlar ishlab chiqilib, chet ellik turoperatorlarga taqdim etildi.

Qayd etib o‘tilgan mulohazalar respublikamizning ichki va tashqi salohiyatini, iqtisodiy va intellektual kuch-qudratini, o‘z kasbu korimizga mahorat bilan yondashuvimizni namoyon etishda to‘g‘ri tanlangan strategik yo‘lning ahamiyati katta ekanligini anglatadi. Bu yo‘l – buyuk kelajak poydevoriga, dunyo hamjamiyatidagi o‘rnimizni mustahkamlashga, ulug‘ maqsadlarimiz manziliga yaqinlashishni yana bir pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Ayni paytda turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli, mamlakatning moliyaviy, madaniy va intellektual maqomini belgilovchi yetakchi omilga aylanib bormoqda. Xususan, Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Xitoy va Sharqiy Osiyoning YaIM va byudjet daromadlarining katta qismi, shuningdek, ayrim “mitti” davlatlar byudjetining 70–90 foizini tashkil qilmoqda. Bu jihat, aholi bandligi ta’minlanishiga, turmush sifati hamda hayot darajasi sezilarli darajada ijobiy tarafga o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jihat turistik oqim yo‘nalishlari samarali tashkil etilishiga, talab va taklif muvozanatlari me’yorlashishiga ta’sir qiladi. Misol uchun, turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarda turizm turlari uyg‘un holatda, mutanosib ravishda tashkil etiladi, uning muntazamligiga, xizmat qiluvchi barcha omillarning muvozanati saqlab turilishiga katta e’tibor beriladi. Statistik ma’lumotlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, chetdan kirib keluvchi hamda ichki sayyohlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga erishish ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Mamlakatimizning turizm Industriyasi bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich moslashtirilmoqda. Respublikamizda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlarni xalqaro turizm talablariga, umumjahon tendensiyalariga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlarini har taraflama chuqur tahlil qilish, turli mezonlar hamda qarashlarni umumlashtirish yo‘li bilan ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Butunjahon turizm tashkilotining tavsiyalari va mezonlariga e’tibor qaratish, mazkur bozordagi talab va taklifning o‘zaro mutanosibligiga erishish talab etiladi. Masalan, ichki turizm bozoridagi narxlar darajasini qaytadan ko‘rib chiqish, xorijiy turistik firmalarga berayotgan takliflar va ta’riflarni “cho‘n-takbop” qilish ularning qiziqishlari oshishiga olib keladi.

Bu, o‘z navbatida, xizmat ko‘rsatish takliflarimizni jahon andozalari darajasiga yetkazish imkonini beradi. Shu bois, mamlakatimiz aholisini aksariyat qismini qishloq joylarda yashashishini inobatga oladigan bo‘lsak, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish va sotish bilan shug‘ullanadigan maskanlarda milliy turmush tarzimizning o‘ziga xos an’ana va qadriyatlari yaxshi saqlanib qolgan. Shu sababli ham, mahalliy aholining ijtimoiy faolligini oshirish, zamon bilan hamnafas yashashini shakllantirishda turizm infratuzilmasi va servis xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur bandlik hisobiga qishloqda ijtimoiy mehnatning xarakteri davriy tus oladi, milliy ishlab chiqarish turlari rivojlanadi, eng muhimi, zamonaviy xizmat ko‘rsatishning ilg‘or usullari yaratiladi.

Adabioytlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz
2. Azizkulov B.X., Siddiqov A.A. Assessment of the features of investment in the development of agrotourism based on a cluster approach. Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 1. (40-48) pp. DOI 10.26739/2181-9491-2021-1-6.
3. Tashmatov, Sh. U. (2021). Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1128-1132.
4. Tursunov F.U., Azizkulov B.X. Rriorities of tourism and ways to increase their attractiveness. Journal of innovations in economy. 2021. Vol.4. Issue 5. pp: 4-10.
5. To‘xliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. -157 b.
6. M. Aliyeva. Turizm asoslari. darslik –T.: Fan va texnologiya, 2022. -400 b.
7. M. Amonboyev, Sh. Sayfutdinov, M. Nurfayzieva Fundamentals of tourism. Textbook. TSUE. 2021.
8. M. Nurfayziyeva Turizm marketingi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2022 – 400 b.
9. www.uzbektourism.uz

IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO‘LIGA O‘TKAZISH SHAROITIDA “YASHIL” SANOAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich
O‘zMU, “Makroiqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti, “Alfraganus University” nodavlat universiteti “Moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Umarov Oqil Omiljonovich
Alfraganus University” nodavlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy zaifliklarni yuzaga kelish shakllari bayon etilgan, ularni bartaraf etishda “yashil” sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari tahlil qilingan. Xitoy va Marokashning bu boradagi tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” sanoat siyosati, gorizontal va vertikal sanoat siyosati, diversifikatsiya.

Abstract: The article describes the forms of economic and social vulnerabilities that arise during the formation of a “green” economy in developing countries, and analyzes the features of the implementation of “green” industrial policy in order to eliminate them. The experience of China and Morocco in this regard is studied.

Key words: “green” economy, “green” industrial policy, horizontal and vertical industrial policy, diversification.

Аннотация: В статье описываются формы экономических и социальных уязвимостей, возникающих при формировании “зеленой” экономики в развивающихся странах, и анализируются особенности реализации “зеленой” промышленной политики с целью их устранения. Изучается опыт Китая и Марокко в этом отношении.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, “зеленая” промышленная политика, горизонтальная и вертикальная промышленная политика, диверсификация.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish modeliga o‘tkazish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Jumladan, texnologik taraqqiyotning so‘nggi bosqichi bo‘lgan To‘rtinchi sanoat inqilobining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya va “yashil” texnologiyalarga asoslangan atrof-muhitga aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan iqtisodiy o‘sish modeliga o‘tish Yangi O‘zbekistonda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda kun tartibidaga vazifaga aylandi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qo‘llaniladigan chora-tadbirlar atrof-muhit va barqaror iqtisodiy rivojlanish borasidagi ijobiy maqsadlarni ko‘zlasa-da, sezilarli darajada salbiy iqtisodiy ta’sirlarga ham ega. Chunki mamlakatlar ishlab chiqarish va iste’molning nisbatan yashilroq bo‘lgan tizimlarini yaratuvchi tarkibiy siyosatlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Iqtisodiyot tarkibida diversifikatsiyalashuv darajasi past va “yashil” bo‘lmagan tarmoqlar ulushi katta bo‘lgan mamlakatlar “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda eng himoyasiz va zaif mamlakatlar hisoblanadi, chunki mamlakatda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida an’anaviy tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab kamayishi mumkin. Iqtisodiyotni “yashil” sanoat siyosati orqali diversifikatsiyalash ushbu muammolarni hal etishning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv darajasi yuqori bo‘lsa-da, an’anaviy tarmoqlar ulushining yuqoriligi sharoitida “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda “yashil” sanoat siyosati asosida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasining mazmuni, “yashil” innovatsiyalar va texnologiyalar, “yashil” o‘sish dastaklari, “yashil” sanoat siyosati xususiyatlari va bu boradagi ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari borasidagi ilmiy izlanishlar K. Rennings, R. Kemp, D. Rodrik, A. Subramanian, F. Trebbi, L.S. Karp, M.T. Stevenson, T. Altenburg, C. Assman, B. Shinke, J. Klavitter kabi xorijiy tadqiqotchilar ishlarini amalga oshirgan. MDH mamlakatlari iqtisodchilari L.A. Mochalova, M.N. Ignateva, V.Ye. Strovskiy, A.Sorokin, A. Brizjev, A. Strokov, S.V. Kiselevlar ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar qilgan.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, Sh.Toshmatov, D.Sh. Odinayev, N. Mahmudov, D.Sh. Yavmutov kabi iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, prof. A.V. Vaxabov va Sh.X. Xajibakiyevlar o‘z ishlarida “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib bergan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning xorijiy tajribalari va ulardan O‘zbekison amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini tahlil etgan[1].

Odinayev D.Sh. “yashil” iqtisodiyot va “yashil” o‘sish ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlashdagi tyrli yondashuvlarni tadqiq qilgan[2].

Tadqiqotchi Fayzullayev J.N. tomonidan “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda tashqi savdo siyosati va global qo‘shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv asosida iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning ahamiyati tahlil etilgan[3].

Ushbu tadqiqotchilarning ishlari “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan bo‘lsa-da, milliy iqtisodiyotning “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar oldida kelib chiqadigan tarmoqlarning ojizligini bartaraf etish, sanoat siyosati va “yashil” o‘sishni siyosati o‘rtasida kelib chiqadigan nomutanosibliklar masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojalanyotgan mamlakatlar “yashil” iqtisodiyotga o‘tish “yashil” texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish uchun talab etiladigan katta hajmdagi investitsiyalar va xarajatlarni moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli bunday mamlakatlar hukumatlari iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalarini birinchi o‘ringa qo‘yishadi, “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishni esa uzoq istiqbolga mo‘ljallashadi. Lekin bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ekologik holatning keskin yomonlashuvi va uning aholi salomatligiga salbiy ta’siri kuchayayotganligi, resurslardan foydalanish samarasiz ekanligi hisobiga chiqindilarning ko‘payishi, rivojlangan mamlakatlarda “yashil” mahsulotlar va texnologiyalarning kengayishi va ular bilan bog‘liq me’yoriy talablarning qattiqlashuvi hisobiga xalqaro savdoda raqobat ustunligini yo‘qotishi kabi muammolarning chuqurlashuvi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish oldidagi nisbiy zaiflikka qaramasdan uni kechiktirib bo‘lmasligini ko‘rsatib bermoqda. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish borasida maxsus davlat dasturlari va strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

1 Vaxabov, A.V. Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: Universitet 2020. 296 bet.
2 Odinayev D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlashni baholash ko‘rsatkichlari. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 2019. №3. – 58-68-betlar.
3 Fayzullayev J.N. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish sharoitida global qiymat zanjirlarining iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi o‘rni. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 2020. №4. – 148-154-b.

"Yashil" iqtisodiyot bilan bog'liq innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalar odatda dunyoning innovatsion yetakchi mamlakatlarida yaratilsa-da rivojlangan mamlakatlar tomonidan tez o'zlashtirilishi va yangi "yashil" ish o'rinlarining yaratilishiga olib kelashi mumkin. Mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko'ra "yashil" iqtisodiyotga o'tishda yangi "yashil" mahsulot va xizmatlar bo'yicha imkoniyatlarining bir-biridan farqli tomonlarini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval: Turli daromad darajasidagi mamlakatlarning "yashil" mahsulot va xizmatlar bo'yicha imkoniyatlari [4]

	Yuqori va yuqori-o'rta daromadli mamlakatlar	Quyi-o'rta va quyi daromadli mamlakatlar
Маҳсулотлар	Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari, jumladan, quyosh batareyalarining yuqori texnologiyali tarkibiy qismlari, geliokonsentratorlar, shamol trubinalari va geotermal texnologiyalar; yoqilg'i elementlari va litiy-ion batareyalarini o'z ichiga olgan energiya saqlash texnologiyalari; elektr transport vositalari, yangi yengil materiallar; bioplastika; uglerodni tutib qolish va saqlash texnologiyalari.	Quyosh suv isitgichlari, quyosh suv nasoslari, quyosh quritgichlari kabi o'rta va quyi texnologiyali arzon mahsulotlar; tomchilati bsug'orish tizimlari; yomg'ir suvini yig'ish texnologiyalari; siqilgan tabiiy gaz va etanolda ishlaydigan gaz plitalari, siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan uch g'ildirakli taksilar. Global "yashil" mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun litiy, noyob yer elementlari, sellyuloza etanoli kabi resurslar.
Хизматлар	Aqlli tarmoqlarni loyihalash va ularni ishga tushirish, yopiq siklli eko-sanoat parklari, aqlli transport tizimlari, ilg'or energiya boshqaruv tizimlari, elektron yo'l haqi tizimi, qiymat zanjiridagi to'liq nazorat va kuzatish tizimi	Markazlashmagan va mini elektr tarmoqlarini iga tushirish va texnik xizmat ko'rsatish kabi oddiy kam xarajat xizmatlar; mehnat sig'imi yuqori bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash; tezkor tranzit tizimlarini boshqarish. Quyosh panellari va litiy-ion batareyalarini yig'ish kabi rivojlanayotgan global "yashil" qo'shilgan qiymat zanjirida mehnat sig'im yuqori bo'lgan ishlar

Iqlim o'zgarishlariga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflikni quyidagi to'rt asosiy omil keltirib chiqaradi:

- Nisbatan kam turdagi tovarlar eksportiga haddan tashqari bog'liqlik. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda 11 mamlakat umumiy eksporti tarkibida yoqilg'ining ulushi 60%dan yuqori bo'ldi, 9 mamlakatda tovarlar eksportining 40%dan ortiq qismi rudalar va metallar eksporti hisobiga to'g'ri keldi[5].
- Eksport yo'naltirilgan mamlakatlarda javob choralarining ko'rilishi. Tamoyil umumiy bo'lsa-da, differensiallashgan javobgarlik amal qiladi, chunki iqlim o'zgarishi masalasini hal qilish bo'yicha ayrim mamlakatlar og'irroq yukni o'z zimmalariga olishadi. Bunday mamlakatlardagi bozorlarga haddan tashqari bog'liqlik javob choralariga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi.
- Eksport qilinadigan tovarlarning uglerod sig'imi. Uglerod sig'imi qazib olish, qayta ishlash, yetkazib berish yoki pirovard iste'mol jarayonida yuqori bo'lishi mumkin. Javob choralari esa mahsulot hayot siklining turli bosqichlariga yo'naltirilgan bo'ladi.
- Moslashuvchanlik qobiliyati. Turli salbiy oqibatlarga moslashish imkonini beruvchi siyosiy doirasi va institutlar hisobiga javob choralariga nisbatan zaiflik darajasi pasayadi.

Shuni takidlash zarurki, yuqorida sanab o'tilgan omillar rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lib, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy o'tishni amalga oshirish uchun mavjud institutlar hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Kam uglerodli va iqlimga moslashgan tovarlar va texnologiyalarga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar "yashil sanoat siyosati", deb nomlanuvchi diversifikatsiyalash usuli hisoblanadi. "Yashil" sanoat siyosati sifatida sanoat sektorida milliy darajada belgilangan ekologik normalar va ijtimoiy standartlarga amal qilinishini ta'minlovchi, shuningdek, kam uglerodli, resurslarni tejaydigan texnologiyalar asosida tarkibiy o'zgarishlar va raqobatbardoshlikni oshirishga qodir bo'lgan yangi sektorlarning yaratilishini qo'llab-quvvatlovchi davlat ixtiyoridagi har qanday dastaklarni tushunish mumkin.

4 Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitk (DIE). 224 Ps. – P. 8. // Electronically resource: https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_policy_book.pdf. Reference Date: 08.01.2024.

5 Jahon banki sayti ma'lumotlari asosida. https://data.worldbank.org/.

“Yashil” sanoat siyosatida iqlim o‘zgarishiga qarshi siyosatning salbiy oqibatlariga nisbatan barqarorlikni oshirish maqsadiga quyidagi to‘rt shakldagi rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin:

- Iqtisodiyot qaram bo‘lgan tarmoqlarda “yashil” mahsulotlar ishlab chiqarish (masalan, po‘lat ishlab chiqarishning ma’lum bir qismida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish);
- Mahsulotlarni ularning iste’moli iqlimga kamroq ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydigan qilib qayta loyihalashtirish (masalan, ichki yonuv dvigatelli transport vositalaridan elektromobillar ishlab chiqarishga o‘tishni rag‘batlantirish, energiya tejamkor maishiy texnikalar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish);
- Atrof-muhitga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgan tarmoqlarni bosqichma-bosqich qisqartirib (masalan, iqtisodiyot qaram bo‘lgan bunday tarmoqlarga ajratilayotgan subsidiyalarni bekor qilish), ularning o‘rnini “yashil” tarmoqlar bilan almashtirish;
- Butunlay yangi bo‘lgan kam uglerodli va iqlimga moslashuvchan tarmoqlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish (masalan, yangi suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish).

Bunday chora-tadbirlar ikki maqsadni ko‘zlaydi. Birinchidan, ushbu chora-tadbirlar iqlimga salbiy ta’sir etuvchi tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmining qisqarishi natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy yo‘qotishlar oldidagi zaiflikni kamaytirishga yo‘naltirilgan. Iqlimga salbiy ta’sir etuvchi tovarlarni diversifikatsiyalab, mavjud ishlab chiqarishni yashillashtirib, yangi yashil mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirib yoki “jigarrang” tarmoqlar uchun mavjud bo‘lgan rag‘batlarni bartaraf etib, bunday tovarlarning tarmoq tarkibidagi ulushini kamaytirish orqali ushbu maqsadga erishiladi. Ikkinchidan, bunday chora-tadbirlar diversifikatsiyalanayotgan iqtisodiyot tarmoqlarining qulay iqlim sharoitalariga va uzoq muddatli ijobiy bozor istiqbollariga ega bo‘lishiga qaratiladi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun mos sanoat siyosati bo‘yicha yagona model mavjud emas. Lekin ko‘plab iqtisodchilar tomonidan sanoat siyosatining gorizontal va vertikal turlari ajratiladi. Gorizontal sanoat siyosati faqat muayyan tarmoq yoki korxonalarga emas, balki barcha tarmoq va korxonalar uchun investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Ushbu turdagi chora-tadbirlar investitsion muhitni yaxshilashga va ustun darajada eksportga yo‘naltirilgan bo‘ladi, jumladan, infratuzilma xarajatlari kam bo‘lgan maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish; savdo hajmini oshirishga mo‘ljallangan transport bilan bog‘liq infratuzilmani investitsiyalash; eksport klasterlarini rivojlantirish; ilmiy va innovatsion siyosatni jadallashtirish; biznesni litsenziyalash va qo‘llab-uvvatlash uchun byurokratiyani tartibga solish va qisqartirish; energetika, transport va aloqa infratuzilmalariga investitsiya kiritish; startaplar, tijoratlashtirish va eksportni alohida o‘ziga xos tartibda moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish.

Vertikal sanoat siyosati muayyan tarmoqdagi raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan davlat aralashuvini nazarda tutadi. Bunday siyosat quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin: pirovard mahsulotlar importiga proteksion tariflar belgilash; muayyan resurslarga tariflarni pasaytirish; muayyan tarmoqlarni subsidiyalash: to‘g‘ridan to‘g‘ri grantlar, yer grantlari, past foizlarda ssudalar taqdim etish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va boshqa shakllarda; mahalliylashtirish bo‘yicha talablar; qo‘shma korxonalarga yoki texnologiyalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya shartlarida talablar qo‘yish.

“Yashil” va an’anaviy sanoat siyosatlarining eng muhim farqi shundaki, “yashil” sanoat siyosati ko‘proq iqlim o‘zgarishiga qarshi javob choralarini ko‘rishga nisbatan zaiflikni kamaytirishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, turli shakldagi bozor ojizliklariga qaratilgan keng ko‘lamli an’anaviy sanoat siyosatini amalga oshirishda foydalaniladigan asoslarga tayangan holda yashil sanoat siyosatidan foydalanish iqlim o‘zgarishi va unga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflik muammolarini hal qilishda kuchli va samarali dastak bo‘la oladi.

“Yashil” sanoat siyosatini amalga oshirish borasida AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar boy tajribaga ega bo‘lsa-da, ushbu siyosatni amalga oshirish borasidagi zaifliklar nuqtayi nazaridan Marokash va Xitoy kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish muhimdir.

2011-yilda energiya iste’molining 95%ini import qilgan va energiyaga bo‘lgan talabi keskin oshib borayotgan, oliy ma’lumotli yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda Marokash qayta tiklanadigan energetika sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Marokash “yashil” sanoat siyosati tarkibiy elementdan iborat: “yashil” bozorni yaratish, qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, sanoatni rivojlantirishning integratsiyalashgan strategiyasi.

Mamlakatda 2009-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 2030-yilgacha 52%ga yetkazish belgilangan “Milliy energetika strategiyasi” ishlab chiqildi va unda quyosh energiyasining ulushini 15%ga oshirish va uglerod oksidi emissiyasini yiliga 3,7 million tonnaga kamaytirish maqsadlari belgilandi. 2018-yilda mamlakatda Afrikadagi eng yirik 500 MVt quvvatga ega quyosh elektrostansiyasi qurib

bitkazildi[6]. Bozorni kengaytirish uchun kichik ko‘lamdagi quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqaruvchi kichik va o‘rta korxonalarni rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqildi. Ushbu korxonalarga yillik energiya ishlab chiqarish hajmining 20%ini markaziy tarmoqqa sotish imkoniyati berildi. Qishloq joylar aholisining elektr bilan ta’minotining tomga o‘rnatiladigan quyosh panellari hisobiga 95%gacha yetkazilishi hisobiga aholiga ushbu sohada xizmat ko‘rsatuvchi 30 korxona, 13000 ish o‘rinlari yaratildi. Mamlakatda quyosh texnologiyalari bozorini kengaytirish va boshqa tarmoqlar bilan integratsiyalash uchun quyosh suv isitgichlarini ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi, quyosh panellari va quyosh suv isitgichlari o‘rnatilgan turar-joylar qurish, hamda quyosh suv nasoslariga asoslangan qishloq xo‘jaligini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Marokashda an’anaviy sanoat siyosati va “yashil” sanoat siyosatini o‘zaro muvofiqlashtirish borasida institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda[7].

Marokashda 2020-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manba’larining jami energiya ta’minotida ulushi 11%ga (2015 yilda 8%), elektroenergiya ishlab chiqarishdagi ulushi 19%ga yetdi (2016-yilda 15%ga yaqin), neft va ko‘mir ulushi mos ravishda 54% va 32%ga teng bo‘ldi. Qayta tiklanuvchi energiya ta’minoti tarkibida bioenergiya (62%), shamol (19%) va quyosh (16%) energiya resurslari ulushi yuqoridir[8].

Xitoyning atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va milliy avtomobilsozlik sanoatini raqobatbardoshligini oshirish maqsadlari qo‘yilgan “yashil” sanoat siyosatida ustuvor yo‘nalish elektromobillar ishlab chiqarish hajmi va eksportini kengaytirish bo‘lmoqda. Ushbu mamlakat modeli katta qiymatdagi ilmiy tadqiqotlar, xorijiy investorlar bilan texnologiyalar almashish kelishuvlari, davlat xaridlari, xarid subsidiyalari va shahar sinovlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi elektr skuter, mototsikl, yengil avtomobil (jumladan, gibrid), avtobus va yuk mashinalarini ishlab chiqarishni kengayishiga, xalqaro savdoda arzon narx bilan raqobat ustunligiga erishishga imkon bermoqda. Arzon narxlardagi ikki g‘ildirakli elektromobillar Xitoy va boshqa o‘rta daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun CO_2 chiqarilishini kamaytirishda kam xarajat va samarali vosita bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda subsidiyalar hajmi kamaygan bo‘lsa-da, 2023-yilda quyosh batarayeyalari, litiy-ion batareyalari va elektromobillar eksporti hajmi 29,9%ga ortdi[9], elektr batareyali va gibrid avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 2016-2022-yillarda 10 baravar oshib, yiliga 3,5 mln. donaga yetdi[10].

Xitoyda elektromobillar qamrovining oshib bormoqda, biroq ularni quvvatlash manbalari hamon ko‘mirda ishlaydigan zavodlar bo‘lib qolayotganligi sababli, mamlakatda bosqichma-bosqich ko‘mirdan voz kechish, qayta tiklanuvchi resurslar ulushini oshirib borish borasidagi amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarni jadallashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya ta’minoti oshib borayotgan bo‘lsa-da, uning umumiy energiya ta’minotidagi ulushi pastligicha qolmoqda (2015-yilda 8%, 2020 9%). Jon boshiga to‘g‘ri keladigan qayta tiklanuvchi energiya quvvati 2015-yil 300V/kishidan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 715,5 V/kishiga yetdi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manba’lar ulushi 2016-2021-yillarda 22%dan 28%gacha oshdi[11].

“Yashil” sanoat siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, ekologik texnologiyalar tizimida yangi innovator va raqobatchilarning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit uchun ijobiy bo‘lgan natijalar ekologik samaralar hisoblanadi. An’anaviy sanoat siyosatining samarasi asosan milliy darajada bo‘ladi, yashil sanoat siyosatining samarasi esa bir vaqtning o‘zida milliy va global ahamiyatga ega bo‘ladi. “Yashil” mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsiya va raqobatning oshishi ham global miqyosdagi samara hisoblanadi.

“Yashil” sanoat siyosatini amalga oshirishda iqlim o‘zgarishiga qarshi javob choralariga nisbatan yuqori darajada zaif bo‘lgan tarmoqlarni qisqartirish yoki tugatish zarurati ham kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, “jigarrang” tarmoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga chuqur singib ketganligi va ular odatda iqtisodiyotda katat ulushga ega ekanligi sababli ularni qisqartirish oldindan prognoz qilish va tegishli ravishda boshqarish zarur bo‘lgan o‘tish davri xarajatlarini keltirib chiqaradi.

---

6 B. Schinke, J. Klawitter. Background Paper: Country Fact Sheet Morocco. Energy and Development at a glance 2016. 58 Ps. P. 31.

7 Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitk (DIE). 224 P. – PP. 158-160. // Electronically resource: https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_policy_book.pdf. Reference Date: 08.01.2024.

8 IRENA. ENERGY PROFILE. Morocco. 8th August, 2023. Electronically resource: https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Africa/Morocco_Africa_RE_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04. Reference Date: 08.01.2024.

9 State Council Information Office of People Republic of China. China’s foreign trade ends 2023 on solid footing with new driving forces. Xinhua | January 13, 2024. Electronically resource: http://english.scio.gov.cn/pressroom/2024-01/13/content_116938921.htm. Reference Date: 14.01.2024.

10 Statista. Electric vehicles worldwide - statistics & facts. Electronically resource: https://www.statista.com/topics/1010/electric-mobility/#topicOverview. Reference Date: 14.01.2024.

11 IRENA. ENERGY PROFILE. China. 8th August, 2023. Electronically resource: https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Asia/China_Asia_RE_SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804. Reference Date: 08.01.2024.

Yashil sanoat siyosatining “jigarrang” tarmoqlarni bosqichma-bosqich qisqartirishga yordam beruvchi shaklini amalga oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan turli dastaklar mavjud, jumladan:

- Ekologik soliqlar, to‘lovlar, bojlar va yig‘imlar. Har qanday tarmoq yoki korxonaga yuklatilgan moliyaviy yuk ularning iqtisodiyotning boshqa subyektlariga nisbatan raqobatbardoshligini kamaytiradi.
- Qisqartirilayotgan tarmoqlarga berilgan imtiyozlarni bekor qilish. Bunday imtiyozlarga subsidiyalar, soliq imtiyozlari, huquqiy rag‘batlantirishlarni misol qilish mumkin. Ushbu dastak ham iqtisodiyotning boshqa subyektlari raqobatbardoshligini oshiradi.
- Eng kuchli dastaklardan biri – muayyan tarmoq va korxonalar faoliyatini majburiy to‘xtatish. Agar to‘xtatilayotgan tarmoqlar xususiy sektorga tegishli bo‘lsa, ushbu siyosat me’yoriy-huquqiy taqiqlar yoki savdo cheklovlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib, aytish mumkinki, “yashil” sanoat siyosati iqlim o‘zgarishlariga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflikni kamaytirishning samarali yo‘llaridan biridir. Investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan gorizontal chora-tadbirlar bilan birgalikda muayyan tarmoqlarni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan qattiq sanoat siyosati shaklidagi “yashil” sanoat siyosatini yuritish samara keltirishi mumkin.

Yashil sanoat siyosati uchun universal yechim mavjud emas va ushbu siyosatni mavjud vaziyatga moslashtirilgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Barqaror “yashil” o‘sishga erishish texnologik taraqqiyot va murakkab tarkibiy o‘zgarishlarni talab etadi. “Yashil” sanoat siyosatini amalga oshirishda mamlakat yalpi ichki mahsulotda katta ulushga ega bo‘lgan tugatilayotgan tarmoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy yukini oshirib yubormaslik muhimdir. Bu yerda haqiqatda umumiy o‘sishga erishish uchun iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham bir vaqtning o‘zida rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vaxabov, A.V. Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: Universitet 2020. 296 bet.
2. Odinayev D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlashni baholash ko‘rsatkichlari. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2019. №3. – 58-68-betlar.
3. Fayzullayev J.N. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish sharoitida global qiymat zanjirlarining iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi o‘rni. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2020. №4. – 148-154-b.
4. Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitk (DIE). 224 Ps. –// https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_ policy_book.pdf.
5. B. Schinke, J. Klawitter. Background Paper: Country Fact Sheet Morocco. Energy and Development at a glance 2016. 58 Ps. P. 31.
6. IRENA. Energy profile. Morocco. 8th August, 2023. // https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Africa/Morocco_Africa _RE_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04.
7. IRENA. Energy Profile. China. 8th August, 2023. // https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Asia/China_Asia_RE_ SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804.
8. State Council Information Office of People Republic of China. China’s foreign trade ends 2023 on solid footing with new driving forces. Xinhua | January 13, 2024. http://english.scio.gov.cn/pressroom/202401/13/content_116938921.htm.
9. Statista. Electric vehicles worldwide – statistics & facts. // https://www.statista.com/topics/1010/electric-mobility/#topicOverview.
10. https://data.worldbank.org/ – Jahon banki statistik ma’lumotlar bazasi sayti.

МЕТОД ПРОЕКТОВ КАК ОДНО ИЗ УСЛОВИЯ УСПЕШНОГО ФОРМИРОВАНИЯ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

Мохоров Дмитрий Анатольевич
кандидат юридических наук, доцент, Директор Высшей школы юриспруденции и судебно-технической экспертизы Гуманитарного института Санкт-Петербургского политехнического университета Петра Великого

Аннотация: В статье рассматривается современная ситуация в области противодействия коррупции в Республике Узбекистан и Российской Федерации. Определены понятия антикоррупционного просвещения, антикоррупционного мировоззрения и антикоррупционной компетенции. Заявлены условия успешного формирования антикоррупционной компетенции. Проведено экспериментальное исследование в части использования метода проектов в процессе преподавания дисциплины “Основы противодействия коррупции”. Обозначены и проанализированы результаты исследования с соответствующими выводами, позволяющие сформулировать векторы дальнейшего исследования в области антикоррупционного просвещения студентов высшей школы.

Ключевые слова: антикоррупционное просвещение, антикоррупционное мировоззрение, антикоррупционная компетенция, практико-ориентированное обучение, метод проектов.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi mavjud vaziyat ko‘rib chiqiladi. Korruptsiyaga qarshi ta’lim, korrupsiyaga qarshi dunyoqarash va korrupsiyaga qarshi kompetentsiya tushunchalari belgilangan. Korrupsiyaga qarshi kurashish kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish shartlari bayon etilgan. “Korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari” fanini o‘qitish jarayonida loyiha usulidan foydalanish bo‘yicha eksperimental tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari tegishli xulosalar bilan tavsiflanadi va tahlil qilinadi, bu bizga oliy ta’lim talabalari uchun korruptsiyaga qarshi ta’lim sohasida keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: korrupsiyaga qarshi ta’lim, korrupsiyaga qarshi dunyoqarash, korruptsiyaga qarshi ko‘nikmalar, amaliyotga yo‘naltirilgan trening, loyiha usuli.

Abstract: The article examines the current situation in the field of anti-corruption in the Republic of Uzbekistan and the Russian Federation. The concepts of anti-corruption education, anti-corruption worldview and anti-corruption competence are defined. The conditions for the successful formation of anti-corruption competence are stated. An experimental study was conducted regarding the use of the project method in the process of teaching the discipline “Fundamentals of anti-corruption”. The results of the study are identified and analyzed with relevant conclusions, which allow us to formulate vectors of further research in the field of anti-corruption education of higher school students.

Key words: anti-corruption education, anti-corruption worldview, anti-corruption competence, practice-oriented training, project method.

ВВЕДЕНИЕ

Коррупция во все времена была и остается серьёзной угрозой суверенитету и национальной безопасности государства. Республика Узбекистан и Россия не являются исключением.

Президент Республики Ш.М.Мирзиёев заявил, что если не будет коррупции, всё будет так, как мы обещали народу… Узбекистан должен стать страной, “избавившейся от проблем бюрократии и коррупции” [1].

В Узбекистане за последние три года был разработан и принят целый ряд нормативно-правовых актов в сфере противодействия коррупции, которые определяют правовые основы деятельности в этой области и механизмы имплементации антикоррупционных мер. В частности, в статье 5 Закона “О про-

тиводействии коррупции" сформулированы основные направления государственной политики в области противодействия коррупции, в том числе повышение правового сознания и правовой культуры населения, формирование в обществе нетерпимого отношения к коррупции.

В интересах личности, общества и государства социально-значимым инструментом, способствующим рациональному пониманию жизни, формированию нетерпимости к коррупционному поведению и повышению уровня правосознания является реализуемое на всех уровнях обучения антикоррупционное просвещение в системе образования. В целях реализации амбициозных антикоррупционных реформ в Узбекистане проводится огромный массив мероприятий по антикоррупционному просвещению и обучению, как государственными органами самостоятельно, так и в сотрудничестве с представителями гражданского общества и бизнес-сектора, или при их поддержке. Также, внедряются образовательные программы по антикоррупционной тематике в высших учебных заведениях [2].

24 мая 2023 года Комитетом Сената по судебно-правовым вопросам и противодействию коррупции рассмотрена информация министра юстиции Республики Узбекистан о состоянии правовой пропаганды и просвещения в 2022 году. Отмечалось, что проведено около 450 тысяч мероприятий по повышению правовой культуры. Из них 12 157 выступлений осуществлено по телевидению, по радио – 18 844, проведено 188 300 семинаров и "круглых столов", в социальных сетях размещено более 185 300 информации, в газетах и журналах опубликованы более 13 тысяч аналитической информации и статей, подготовлены и распространены 516 пособий и других письменных материалов, а также 22 394 плакатов, буклетов и флаеров [3].

Президент Российской Федерации В.В.Путин отметил: "Более решительно надо действовать и по таким важным направлениям, как защита информационных ресурсов, борьба с преступлениями в сфере экономики и противодействие коррупции" [4].

В Российской Федерации в рамках действующего законодательства и Национального плана противодействия коррупции реализации основных образовательных программ осуществляется образовательными учреждениями, имеющими государственную аккредитацию на основе федеральных государственных образовательных стандартов (ФГОС), представляющих собой совокупность обязательных требований. Сегодня в федеральных стандартах нашла свое отражение и позиция государства по отношению к борьбе с коррупцией. Вырабатывается система, которая позволяет динамично, гибко реагируя на реалии времени внедрять современные образовательные практики в области антикоррупционного просвещения.

В системе школьного образования России предусматривается изучать вопросы противодействия коррупции в рамках предметов истории, обществознания и литературы, а также посредством общеразвивающих программ. "С 1 сентября 2023 года во всех школах страны будут введены федеральные основные общеобразовательные программы. Программы в том числе предполагают изучение основ и способов противодействия коррупции" [5].

В системе высшего образования на современном этапе развития делается основной акцент как на теоретические навыки, так и практические навыки позволяющие последовательно на базе первоначальных школьных познаний с учетом специфики будущей профессии сформировать необходимые универсальные компетенции. Сегодня на смену УК-10 Гражданская позиция –"Способен формировать отношение к коррупционному поведению" вводится обновленная УК-10 Гражданская позиция – "Способен формировать нетерпимое отношение к проявлениям экстремизма, терроризма, коррупционному поведению и противодействовать им в профессиональной деятельности" [6].

Заключенная в рамках СНГ Концепция сотрудничества государств — участников Содружества Независимых Государств в противодействии коррупции (одобрена решением Совета глав государств СНГ о Концепции сотрудничества государств — участников Содружества Независимых Государств в противодействии коррупции от 11 октября 2017 г.) активизацию антикоррупционного просвещения граждан определяет в качестве одной из задач в сфере противодействия коррупции (разд. III Концепция сотрудничества государств — участников СНГ в противодействии коррупции от 11 октября 2017 г. Принята на Саммите СНГ в г. Сочи [7].

ИССЛЕДОВАНИЕ

В Концепции стран СНГ о противодействии коррупции от 11 октября 2017 г. уделено особое внимание формам сотрудничества путем: обмена информацией о состоянии коррупционной преступности; выполнения запросов об оказании правовой помощи, поступающих от компетентных органов государств — участников СНГ, по вопросам противодействия коррупции в рамках международных договоров и национального законодательства; выработки предложений по совершенствованию правового обеспе-

чения, форм и методов совместной деятельности по противодействию коррупции; обмена нормативными правовыми актами, научными, учебными и методическими пособиями по проблемным вопросам противодействия коррупции; оказания содействия проведению проверок по заявлениям, сообщениям и иной информации о коррупционных преступлениях и правонарушениях.

Республика Узбекистан и Российская Федерация обладают существенным потенциалом для решения проблемных задач в части организации и реализации правового просвещения и предупреждения коррупции, в связи с чем имеется потребность актуализации лучших образовательных практик обеих стран для обмена опытом в области противодействия коррупции.

Антикоррупционное просвещение является одной из форм правового просвещения и предупреждения коррупции и призвано обеспечить формирование в обществе нетерпимого отношения к коррупционному поведению.

Просвещение – распространение знаний, образования, культуры [8]. Таким образом, антикоррупционное просвещение интерпретируется нами как популяризация знаний и получение социокультурного опыта в области противодействия коррупции.

Основная цель антикоррупционного просвещения студентов высшего профессионального учреждения заключается в создании условий для формирования целостного и обоснованного антикоррупционного мировоззрения, под которым мы будем понимать “устойчивую систему антикоррупционных взглядов, идей, принципов, ценностных ориентаций, а также соответствующее им поведение людей” [9].

По нашему мнению, на современном этапе процесс антикоррупционного просвещения заявленной выше целевой аудитории редуцирован и сфокусирован в большей степени на получении только теоретических знаний в области противодействия коррупции без приобретения социокультурного опыта, что не позволяет обеспечивать отказ от коррупционных действий в будущем, а значит не формирует необходимые навыки, направленные на выявление коррупционных рисков и их минимизацию.

Социокультурный опыт выступает, прежде всего, как результат взаимодействия человека и окружающего его мира, а его источником являются как жизненные ситуации (бытовые и профессиональные), так и специально организованные процессы, в которых требуется проявление личностных функций, например, студент попадает в ситуацию, когда требуется искать смысл, осуществлять нравственный выбор, размышлять о себе, анализировать свое поведение и давать самооценку своим достижениям, выбирать креативный вариант решения, давать адекватную оценку представленным фактам и т.д. В данном случае возникает достаточно сложная задача, так как нет никаких правил, нет однозначных истин. Студент самостоятельно должен найти проблему, определить причину и источники собственной или чужой ошибки, дать собственное объяснение и толкование рассматриваемой ситуации и т.д. [10].

Реализация практико-ориентированного обучения позволяет создать максимально благоприятные условия для развития самостоятельности студентов, активизации их творческой позиции и формирования компетенций [11].

На современном этапе ученые-исследователи интерпретируют практико-ориентированное обучения как обучение, способствующее формированию у студентов навыков практической работы, которые в дальнейшем определяют установки на их поведение в профессиональной сфере.

В результате практико-ориентированного подхода у студентов возникает “смыслообразующий мотив”, сформулированный известным психологом А. Н. Леонтьевым. Сущность его заключается в том, что студент, осознавая свое продвижение в умении и испытывая от этого удовлетворение, смело подходит к каждой новой трудности, уверенно, со знанием дела преодолевает ее и, “одержав над ней победу, выносит из нее запас сил”, который поможет ему успешно решать последующие более сложные задачи [12].

Таким образом, целью исследования является определение эффективных практико-ориентированных методов обучения, позволяющих сформировать и развивать у студентов высшего профессионального образования умения и навыки в области противодействия коррупции.

Следует отметить, что спецификой дисциплин антикоррупционной направленности является ярко выраженная транспрофессиональность, так как наблюдается интеграция правовых дисциплин с такими дисциплинами как психология, конфликтология, история, культурология, экономика, социология и многими другими.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Эмпирической базой исследования послужили Федеральный закон от 25 декабря 2008 г. N 273-ФЗ “О противодействии коррупции”, Федеральный закон “Об образовании в Российской Федерации” N 273-ФЗ от 29 декабря 2012 года (с изменениями 2018 года), Указ Президента РФ от 11.04.2014 N 226

"О Национальном плане противодействия коррупции на 2014-2015 годы", Указ Президента Российской Федерации от 29.06.2018 г. № 378 "О Национальном плане противодействия коррупции на 2018–2020 годы", федеральные государственные образовательные стандарты высшего образования (ВО) и высшего профессионального образования (ВПО), практика реализации самостоятельно устанавливаемых образовательных стандартов (СУОС), сложившаяся компетентностная система к требованиям реализации преподаваемых дисциплин, современный опыт преподавания, в том числе дисциплин антикоррупционной направленности в системе высшей школы.

Для выявления эффективных практико-ориентированных методов обучения, позволяющих сформировать и развивать у студентов высшего профессионального образования умения и навыки в области противодействия коррупции было проведено экспериментальное обучение студентов 1 курса Санкт-Петербургского Политехнического университета Петра Великого в количестве 120 человек, обучающихся по техническим и гуманитарным направлениям.

Использовался межпредметный и сравнительно-сопоставительный анализ литературы и учебных программ по теме исследования; планирования экспериментальной части исследования; метод вероятностного прогнозирования; аналитика результатов экспериментальных данных.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

В процессе обучения студентов используются современные практико-ориентированные образовательные технологии. Технология проектного, проблемного обучения, игровые, дискуссионные технологии развивают профессиональные ценностные установки на решение профессиональных вопросов, принятие студентом творческих решений, укрепляет профессиональные интересы и мотивацию к самосовершенствованию [13].

В рамках нашего исследования в качестве базового метода был выбран метод проектов, так как, по-нашему мнению, именно он позволяет обеспечить активное включение студентов в реальные ситуации коррупционного взаимодействия, то есть симулируются условия для получения социокультурного опыта.

С целью исследования эффективности применения метода проектов при обучении дисциплинам антикоррупционной направленности в университете в 2022-2023 учебном году было проведено экспериментальное исследование на базе Санкт-Петербургского Политехнического университета Петра Великого в рамках обучения дисциплины "Основы противодействия коррупции" Модуля саморазвития (Soft Skills). Респонденты – студенты 1-го курса технических и гуманитарных направлений в количестве 120 человек (контрольная группа – 60 человек и экспериментальная группа – 60 человек). Экспериментальное обучение осуществлялось в течение одного семестра, занятия проводились один раз в неделю в очном формате.

Цель данного эксперимента заключается в подтверждении эффективности использования метода проектов в сравнении с традиционными методами преподавания дисциплин антикоррупционной направленности. Первый этап исследования представлял собой изучение теоретического и практического материала студентами экспериментальной группы посредством метода проекта, в контрольной группе - с помощью традиционных методов. Второй этап - выявление уровня сформированности результатов обучения у обеих групп и аналитика полученных данных.

Дисциплина "Основы противодействия коррупции" ставит своей целью осознание студентом потенциала социального взаимодействия в профессиональной деятельности и овладение способностью использовать этот потенциал для своего личностного развития и становления себя как будущего профессионала; направлена на формирование у обучающихся теоретических знаний и практических навыков в области правового регулирования общественных отношений, повышение профессионального правового сознания и правовой культуры в процессе изучения основ современного российского законодательства; овладение теоретическими знаниями об антикоррупционных требованиях, предъявляемых к участникам общественных отношений; формирование практических навыков по реализации мер противодействия коррупции в своей профессиональной деятельности, а также профилактику коррупционных правонарушений путем формирования гражданской позиции активного противодействия коррупции в отношении представителей органов власти.

В результате изучения дисциплины у студентов формируется антикоррупционная компетенция, под которой мы будем понимать совокупность знаний, умений, опыта, позволяющую осуществлять деятельность, исходящую из действующих правовых норм и направленную на противодействие коррупции.

Были определены следующие критерии сформированности антикоррупционной компетенции:

- **Начальный уровень** - знание правовых основ противодействия коррупции, форм и методов проявления коррупции в различных сферах жизнедеятельности, доктринальных положений, сущности и содержания основных понятий, категорий, институтов, правовых статусов субъектов, правоотношений в сфере взаимодействия правоохранительных органов, органов государственной власти, институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией.
- **Базовый уровень** - знание правовых основ противодействия коррупции, форм и методов проявления коррупции в различных сферах жизнедеятельности, доктринальных положений, сущности и содержания основных понятий, категорий, институтов, правовых статусов субъектов, правоотношений в сфере взаимодействия правоохранительных органов, органов государственной власти, институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией; умение использовать юридическую терминологию; находить необходимую информацию в нормативных правовых актах и применять ее для правильного использования правовых норм в своей профессиональной и повседневной деятельности с целью недопущения и противодействия коррупции; применять законодательство, регулирующее вопросы, связанные с противодействием коррупции; толковать правовые акты и принимать правовые решения, в том числе и с учетом норм антикоррупционного законодательства; осуществлять юридическую экспертизу проектов нормативных актов, в том числе в целях выявления в них положений, способствующих созданию условий для проявления коррупции; осуществлять публичное выступления с учетом установленных регламентов времени.
- **Продвинутый уровень** - знание правовых основ противодействия коррупции, форм и методов проявления коррупции в различных сферах жизнедеятельности, доктринальных положений, сущности и содержания основных понятий, категорий, институтов, правовых статусов субъектов, правоотношений в сфере взаимодействия правоохранительных органов, органов государственной власти, институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией; умение использовать юридическую терминологию; находить необходимую информацию в нормативных правовых актах и применять ее для правильного использования правовых норм в своей профессиональной и повседневной деятельности с целью недопущения и противодействия коррупции; применять законодательство, регулирующее вопросы, связанные с противодействием коррупции; толковать правовые акты и принимать правовые решения, в том числе и с учетом норм антикоррупционного законодательства; осуществлять юридическую экспертизу проектов нормативных актов, в том числе в целях выявления в них положений, способствующих созданию условий для проявления коррупции; осуществлять публичное выступления с учетом установленных регламентов времени; обладание навыками работы с нормативно-правовыми актами, в том числе в области противодействия коррупции, способен применять правовые акты в области противодействия коррупции, в повседневной и профессиональной деятельности.

Второй этап эксперимента продемонстрировал, что 25 % студентов экспериментальной группы имеют продвинутый уровень сформированности антикоррупционной компетенции и 63,3% - базовый, тогда как в контрольной группе только лишь 10,3 % студентов обладают продвинутым уровнем и 46% - базовым. Таким образом, данные результаты свидетельствуют о том, что у студентов экспериментальной группы наблюдается положительная динамика развития умения распознавать ситуации коррупционного взаимодействия, что является предиктором антикоррупционного поведения, в том числе нетерпимого отношения к коррупционному отношению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Реализация практико-ориентированного обучения в рамках преподавания дисциплины “Основы противодействия коррупции” с актуализацией проектного метода продемонстрировала свою эффективность. Заявленная в результате обучения антикоррупционная компетенция у большинства студентов экспериментальной группы была сформирована на базовом и продвинутом уровнях.

Проведенный анализ полученных результатов экспериментального исследования свидетельствует о том, что антикоррупционное просвещение должно в обязательном порядке носить преемственный характер и не ограничиваться только изучением одной дисциплины. Поведенческая и мотивационная компоненты личности в аспекте нетерпимого отношения к коррупционному поведению могут быть сформированы посредством включения элементов антикоррупционной компетенции в результаты обучения студентов по другим дисциплинам гуманитарной направленности, таких как социология, философия, психология, конфликтология, история и т.д. Данные предположения будут рассмотрены в дальнейших исследованиях.

Список литературы:

[1] Выборы-2023. Политика // https://www.gazeta.uz/ru/2023/07/14/no-corruption/ (дата обращения 14.08.2023 г.).
[2] https://www.oecd.org/countries/uzbekistan/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan.htm (дата обращения 06.06.2023 г.)
[3] https://senat.uz/ru/events/post-783 (дата обращения 08.06.2023 г.)
[4] https://lenta.ru/news/2022/12/20/putin_korrupcia/ (дата обращения 14.08.2023 г.)
[5] “Школьники с 1 сентября будут изучать вопросы противодействия коррупции” https://tass.ru/obschestvo/18331403 (дата обращения 14.08.2023 г.)
[6] Приказ Минобрнауки России № 208 от 23 февраля 2023 года http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202304030029?index=2 (дата обращения 06.08.2023 г.)
[7] http://vesti-sochi.tv/obshhestvo/52563-na-sammite-glav-sng-v-sochi-podpisalikoncepcii-o-protivodejstvii-korrupc (дата обращения 14.08.2023 г.)
[8] Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1984. – С. 537; Большой толковый словарь русского языка. – СПб.: Норинт, 1998. – С. 1024
[9] Кабанов П.А., Райков Г.И., Чирков Д.К. (ред) Коррупция и антикоррупционная политика (словарь). М.: Академия экономической безопасности МВД России, 2010.
[10] Баранова Т.А. Формирование конфликтологической компетенции как фактор развития социально-полезной личности в системе высшего профессионального образования: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.08 / Баранова Татьяна Анатольевна. - Санкт-Петербург, 2010.- 208 с.
[11] Ваганова О. И., Бахарев Н. П., Булаева М. Н., Лапшова А. В., Кутепов М. М. Методы и средства реализации технологий взаимодействия в вузе // Amazonia Investiga. 2020. т. 9. №26. С. 383-390.
[12] Леонтьев А.Н. Личность, деятельность, сознание. – М.: Политиздат, 1975. – С. 202.
[13] Щербакова Е. В., Щербакова Т. Н. Опыт организации самостоятельной работы студентов вуза в условиях дистанционного образования // Современное педагогическое образование. 2020. №8.

MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI VA INSTITUTLARI

Askarov Zoxidjon Sadikjanovich
Yuridik fanlar falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishda ishtirok etuvchi xalqaro huquqiy baza va institutlar muhokama qilinadi. Muallif mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq xalqaro huquqning asosiy me’yoriy hujjatlarini, shuningdek, ushbu kontekstda turli xalqaro institutlarning rolini ko‘rib chiqadi. Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish bo‘yicha davlatlar va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Ishda mehnat migratsiyasini tartibga solishning xalqaro tizimidagi mavjud kamchiliklarga umumiy nuqtayi nazar kiritilgan va ularni yaxshilashning mumkin bo‘lgan yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya jarayonlari, mehnat migranti, halqaro migratsiya tashkiloti, migratsiya siyosati, integratsiya jarayonlari, noqonuniy migratsiya.

Abstract: This article examines the international legal framework and institutions involved in regulating labor migration processes. The author examines the main normative acts of international law relating to labor migration, and also examines the role of various international institutions in this context. The mechanisms of cooperation between states and organizations for the effective management of migration processes are analyzed. The work includes an overview of existing shortcomings in the international system for regulating labor migration and suggests possible ways to improve them.

Key words: migration processes, labor migrants, International Organization for Migration, migration policy, integration processes, illegal migration.

Аннотация: В данной статье рассматриваются международно-правовая основа и институты, занимающиеся регулированием процессов трудовой миграции. Автор исследует основные нормативные акты международного права, касающиеся трудовой миграции, а также рассматривает роль различных международных институтов в этом контексте. Анализируются механизмы сотрудничества государств и организаций для эффективного управления миграционными процессами. Работа включает в себя обзор существующих недостатков в международной системе регулирования трудовой миграции и предлагает возможные пути их улучшения.

Ключевые слова: миграционные процессы, трудовые мигранты, Международная организация миграции, миграционная политика, интеграционные процессы, нелегальная миграция.

KIRISH

“Bugungi kunda migratsiyaning oshishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi iqlim va haroratning keskin o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tabiiy ofatlarning ko‘payishi va qishloq xo‘jaligi unumdorligining pasayishi kabi omillar bilan bog‘liq”[1]. Hozirgi kunda dunyoda migrantlar bilan bog‘liq muammolarning siyosiylashuvi, ular bilan bog‘liq muammolar, ushbu davlatlarda turli yo‘llar bilan kirib kelayotgan migrantlar hisobiga ishsizlik darajasining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo‘layotgani, o‘z jamiyatidan uzoqlashishi makon va zamon nuqtayi nazaridan shaxsni mutlaqo o‘zgarishi, hatto o‘z jamiyati uchun begonalashuviga olib kelishi mumkinligi, boshqa tomondan, o‘z jamiyatining qadriyatlarini, an’analarini, tilini saqlab qolishga urinish va harakatlar u borgan joydagi jamiyat uchun begonaligi, ushbu aksioma jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni vujudga keltirmokda[2]. Shuning uchun ushbu masalalar halqaro huquq diqqat markazida turadi.

BMT Kotibiyatining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘ylab migrantlar soni taxminan 281 million kishini tashkil qiladi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda migratsiya,

1 Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T., “Ozbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 443.
2 Muydinov D.N. Hozirgi zamon migratsion jarayonlarning jamiyat barqarorligiga ta’siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 14.

jumladan, jo‘nab ketish mamlakati va boradigan mamlakatlardagi siyosiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli tobora murakkablashdi[3]. Shularni hisobga olgan holda, hukumatlararo konferensiyada “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo‘yicha Global shartnoma” qabul qilindi va u keyinchalik BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil dekabrdagi 73/195-sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlandi. Global shartnoma xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya uchun hamkorlik asosini belgilaydi. Jumladan, u 10 ta asosiy yo‘nalish tamoyillari, tegishli harakatlar bilan bog‘liq 23 ta maqsad va ularni amalga oshirish, kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonlarini hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, hisobotda qayd etilishicha, “migratsiya tizimlari qachonki yaxshilab o‘ylab ishlab chiqilsa hamda yangi dinamika, ehtiyojlar va voqeliklarga moslashtirilgan holda tartibga solinsagina samarali ishlaydi”[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S. Kastelsning hisoblashicha uzoq muddatli istiqbolda transmilliy mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlik, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik strategiyasining muhim yo‘nalishi hisoblanadi, chunki ular iqtisodiy tabaqalanishning global tizimini yaratishdan manfaatdordir[5]. Yana bir tadqiqotchi Ye. Ostergaard-Nilsen migratsiya siyosatining ikki turi: qabul qiluvchi davlatning migratsiya siyosati va jo‘natuvchi davlatning migratsiya siyosati haqida yozadi[6].

D. N. Muydinovning fikricha, “migratsiya jarayoni insonlarning hududiy harakatlari natijasida yuzaga keladigan, “jo‘natuvchi” va “qabul qiluvchi” jamiyatning barcha sohalarida rivojlanish dinamikasini belgilaydigan ikkiyoqlama xususiyatga ega siyosiy jarayonning bir qismidir”[7]. Har qanday holatda ham har bir davlat bu muammoga duch keladi va uni boshqa davlatlar bilan hamkorlikda hal qilishga majbur.

Mehnat migratsiyasi kabi hodisa davlatlardan uni tartibga solish choralarini ko‘rishni talab qiladi va bundan nafaqat donor (yuboruvchi) davlatlar, balki retsipiyent (qabul qiluvchi) davlatlar ham manfaatdor. Shuning uchun biz A.Yastrebovaning “migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solish majmuaviy harakterga ega bo‘lib, u qabul qiluvchi (bizning kursivimiz – Z.A.) davlatlar hududida amalga oshirilishi lozim, chunki bu holat ularni tartibga solishning milliy qonunchilik bazasi bilan uyg‘unligini oldindan belgilab beradi”[8], – degan fikriga qo‘shilmaymiz. Birinchidan, “xalqaro huquqiy tartibga solish” atamasining o‘zi obyekt sifatida nafaqat bitta - mezbon - davlat, balki ikki (yoki bir nechta) davlatlar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni anglatadi. Ikkinchidan, ko‘pgina xalqaro shartnomalarning mazmuni shuni ko‘rsatadiki, ularning predmeti bir davlat emas, balki barcha imzolagan mamlakatlar hududida yuzaga keladigan turli xil huquqiy munosabatlardir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar nuqtayi nazaridan xalqaro mehnat migratsiyasi milliy mehnat bozorlaridagi keskinlikni pasaytirish, yuqori ishsizlik darajasini pasaytirish va daromad manbalarini kengaytirish vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ularning yondashuviga ko‘ra xalqaro mehnat migratsiyasi aholining qisqarishi, aholining qarishi va ishchi kuchi yetishmasligi kabi demografik muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shunday qilib, mazkur jarayonlar e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan mexanizm yoki tizimga aylandi[9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro mehnat migratsiyasi xalqaro mehnat huquqi institutlaridan biri sifatida xalqaro huquqning umumiy tamoyillari bilan tartibga solinadi. Ushbu tamoyillarni o‘z ichiga olgan hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi: BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Davlatlarning do‘stona munosabatlariga oid 1970-yildagi xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi deklaratsiya, 1975-yil YEXHTning yakuniy akti. Ushbu universal halqaro-huquqiy hujjatlarning tamoyillari va qoidalari Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), shuningdek, boshqa tashkilotlarning bir qator konvensiyalari va tavsiyalarida aniqlashtirilgan.

3 Qarang: World Migartion Report 2022 // URL: https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022-interactive/. – murojaat sanasi 02.03.2023.

4 Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции. Доклад Генерального секретаря ООН на Семьдесят пятая сессия Генеральной Ассамблеи ООН. // A/75/542 Distr.: General 26 October 2020. / https://migrationnetwork.un.org/sites/default/files/docs/russian_0.pdf. – мурожаат санаси 02.03.2023

5 Castles S. The Factors That Make and Unmake Migration Policies // International Migration Review. – 2004. Vol. 38, № 3, Conceptual and Methodological Developments in the Study of International Migration. – P. 872-873.

6 Ostergaard-Nielsen E. The Politics of Migrants’ Transnational Political Practices // International Migration Review. – 2003. Vol. 37, № 3, Transnational Migration: International Perspectives.– P. 760.

7 ta’siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 15.

8 Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации // дисс. …. доктора юрид. наук. – Москва, 2019. – С. 13.

9 Kadirova Z.A. Managing uzbek labor migration. // International Journal of integrated education. – Vol. 3 No. 1 (2020): IJIE. Indonesia. IF.5.08. – URL: https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/21. – мурожаат санаси 02.03.2022

Natijada zamonaviy dunyoda ko‘p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnoma va bitimlarni o‘z ichiga olgan mehnat migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga solish tizimi shakllandi. Ular turli nomlarga ega bo‘lishi mumkin: “konvensiya”, “kelishuv”, “shartnoma”, “pakt”, “nizom”, “deklaratsiya”, lekin ularning mohiyati xalqaro xarakterga ega ekanligidadir.

Mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan xalqaro hujjatlar qatoriga BMTning “Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a’zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Mehnat migrantlari to‘g‘risida”gi 97-sonli XMT konvensiyasi, “Migratsiya sohasidagi suiiste’molliklar va teng imkoniyatlar va murojaatlarni ta’minlash to‘g‘risida”gi 143-sonli XMT Konvensiyasi kiradi. BMTning qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi, XMT, Migratsiya siyosatini rivojlantirish xalqaro markazi kabi xalqaro tashkilotlar migratsiya sohasida faoliyat olib boradi.

MDH doirasida imzolangan hujjatlarda mehnat migratsiyasi masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Ular orasida mehnat migrantlarining asosiy huquqlari va davlatlar o‘rtasidagi bu boradagi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “Mehnat migratsiyasi va mehnatkash migrantlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnoma ham bor. Mazkur shartnomaga ko‘ra, mehnat migranti bo‘lib – jo‘nab ketayotgan davlat hududida doimiy yashovchi hamda yetib boruvchi davlatda qonuniy ravishda haq to‘lanadigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs hisoblanadi[10].

Yagona migratsiya makonini, fuqarolarning erkin harakatlanishi va umumiy mehnat bozori tamoyillarini belgilab bergan “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning kelishilgan migratsiya siyosati to‘g‘risidagi deklaratsiya”ni[11] ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim. “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning mehnatkash migrantlari va ularning oila a’zolarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi konvensiya”[12] katta ahamiyatga ega. MDH doirasida davlatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tizimi ham mavjud.

MDHga a’zo davlatlar migratsiya organlari rahbarlarining faoliyat ko‘rsatayotgan Kengashi migratsiya organlarining quyidagi masalalar bo‘yicha hamkorligini ta’minlaydi: kelishilgan migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish; mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish (migratsiya oqimlarining hajmi, yo‘nalishlari va tarkibi); umumiy mehnat bozorini shakllantirish, ishchi kuchining erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratish; migrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlash va qabul qiluvchi davlat qonunchiligi, tili va madaniyatiga hurmatli munosabatni shakllantirish; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash; pasport va viza hujjatlarining himoyasi va ishonchliligini ta’minlash.

“Mehnatkash migrant” tushunchasi xalqaro tashkilotlarning bir qancha hujjatlarida mustahkamlangan. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 143-sonli “Migratsiya sohasidagi suiiste’mol qilish va mehnat migrantlari uchun imkoniyat va muomala tengligi to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 11-moddasida “mehnat migranti” atamasi har qanday turdagi ishga joylashish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tuvchi, o‘z mablag‘lari hisobiga ishlamaydigan va mamlakatga mehnat migranti sifatida qonuniy ravishda kirgan har qanday shaxsni o‘z ichiga oladi[13].

Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat migrantlari to‘g‘risidagi 86-sonli tavsiyanomasining 1-moddasiga muvofiq, “mehnat migranti” atamasi “o‘z mablag‘lari hisobidan tashqari, mehnat qilish maqsadida, bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tuvchi shaxs” degan ma’noni anglatadi, mazkur atama “qonuniy ravishda mehnat migranti sifatida qabul qilingan har qanday shaxsga nisbatan qo‘llaniladi[14]”.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a’zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi”ning 1-moddasiga muvofiq, “mehnatkash migrant” atamasi “u fuqarosi bo‘lmagan mamlakatda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanadigan, amalga oshirilayotgan yoki shug‘ullangan shaxsni anglatadi”[15]. Ushbu konvensiya mehnat migrantlarini bir necha toifalarga ajratish imkonini beruvchi bir qator ta’riflarni beradi:

- “chegara ishchisi”, ya’ni qo‘shni davlatda doimiy yashash joyini saqlab qolgan, odatda har kuni yoki kamida haftasiga bir marta u yerga qaytib keladigan migrant;

10 Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов: Москва, 15. 04.1994 г.// URL: http://docs.pravo.ru/document/view/18494294/. – мурожаат санаси 02.03.2022

11 Декларация о согласованной миграционной политике государств – участников Содружества Независимых Государств // URL: http://cis.minsk.by/reestrv2/doc/2289#text. – мурожаат санаси 02.03.2022

12 Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов и членов их семей государств – участников Содружества Независимых Государств от 14.11.2008 года.// URL: http://www.cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/text?doc=2554. – мурожаат санаси 02.03.2022

13 Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. II. 1957–1990. – С.1783.

14 Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. I. 1919–1956. –С.982

15 Международная Конвенция о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей (принята резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных наций № 45/158 от 18 декабря 1990 года // URL: http://constitution.garant.ru/act/right/megdunar/2561306/. – мурожаат санаси 02.03.2022

- “mavsumiy ishchi”, ya’ni ishi tabiatan mavsumiy sharoitga bog‘liq bo‘lgan va faqat yilning bir qismida bajariladigan ishchi migrantga nisbatan qo‘llaniladi;
- “ish faoliyati ko‘chib yurish bilan bog‘liq bo‘lgan ishchi”, ya’ni odatda bir davlatda istiqomat qilgan holda, o‘z ishining tabiati bo‘yicha boshqa davlat yoki davlatlarga qisqa muddatga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan migrant;
- “loyihadagi ishchi”, ya’ni ishlayotgan davlatga faqat ish beruvchining shu davlatida amalga oshirilgan muayyan loyihada ishlash uchun belgilangan muddatga qabul qilingan migrant;
- “maqsadli bandlik ishchisi”, ya’ni maqsadli ishga qabul qilingan migrant:

a) ish beruvchi tomonidan muayyan funksiyalar yoki majburiyatlarni bajarish uchun cheklangan va belgilangan muddatga ishga joylashuvchi davlatga yuborilgan;

b) cheklangan va ma’lum vaqt davomida kasbiy, tijorat, texnik yoki boshqa maxsus ko‘nikmalarni talab qiladigan ishlarni bajaradigan;

d) ish beruvchining iltimosiga ko‘ra, ish beruvchi davlatda cheklangan va ma’lum vaqt davomida vaqtinchalik yoki qisqa muddatli ishlarni bajaradigan va shu yilning oxirida, agarda ushbu aniq funksiyalar yoki majburiyatlarni endi bajarmasa yoki ushbu ish bilan shug‘ullanmasa, undan oldinroq davlatni tark etishi kerak bo‘lgan shaxs;

- “o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlovchi (o‘z-o‘zini banl qilgan) ishchi”, ya’ni mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlashdan tashqari haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanadigan va bunday faoliyat orqali o‘z hayotini ta’minlaydigan, odatda, mustaqil ravishda yoki o‘z oila a’zolari bilan birgalikda ishlaydigan migrant, shuningdek, ish beruvchi davlatning amaldagi qonunchiligiga yoki ikki yoki ko‘p tomonlama shartnomalarga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan ishchi deb e’tirof etilgan boshqa har qanday migrant.

Shuningdek, “Mehnat migrantlarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi”da, “mehnatkash migrant” bir ahdlashuvchi taraf tomonidan o‘z hududida haq to‘lanadigan ishlarni bajarish uchun yashashga ruxsat berilgan, boshqa ahdlashuvchi tomon fuqarosini anglatuvchi ta’rif mustahkamlangan[16].

Migrantlarning huquqiy maqomini aniqlash muammosi hozirda ham olimlar, ham amaliyotchilar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Munozaralar, birinchi navbatda, migrantlarning muayyan toifasining huquqiy maqomining o‘ziga xos mazmuni to‘g‘risida olib boriladi. Afsuski, mehnat migrantlarining huquqiy maqomida aholining boshqa toifalariga nisbatan qanday xususiyatlari borligi haqida haligacha kelishuv mavjud emas, bu esa ularni alohida huquqiy maqomga ajratish zarurligi haqida gapirish imkonini beradi.

XULOSA

Ko‘rinib turibdiki, boshqa davlatda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxsning migratsiya harakati uning o‘z mamlakatida mavjud bo‘lgan huquqiy maqomining o‘zgarishiga olib keladi va bu uning maqomining muhim belgisidir. “Migrantning maxsus huquqiy maqomi migrantlarning (qochoq, ichki ko‘chirilgan shaxs, chet ellik ishchi va boshqalar) tur farqiga bog‘liq bo‘ladi va qo‘shimcha huquq va majburiyatlardan iborat bo‘ladi[17]”. Mehnat migrantlari o‘zlari fuqarosi bo‘lgan davlat hududidan tashqarida bo‘lgan holda, bir tomondan, qoida tariqasida, fuqarolik holatiga nisbatan huquq va majburiyatlarini saqlab qoladilar, ikkinchi tomondan, ular qo‘shimcha qabul qiluvchi davlatning mehnat migrantlariga aylanish majburiyatlari bilan bog‘liq ravishda ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Ko‘rib chiqilgan ta’riflarni tahlil qilish asosida mehnat migrantlarining huquqiy holatining xalqaro huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan ikkita muhim xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, mehnat migranti maqomi nafaqat ishlaydigan fuqarolarga, balki endigina ishga kirishayotgan shaxslarga ham taalluqlidir, ikkinchidan, noqonuniy migrantlar ham mehnat migrantlari sifatida tasniflanishi mumkin, chunki ta’rifda bu shaxslar toifasiga faqat qonuniy ravishda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar kiritilishi mumkin ekanligini ko‘rsatmaydi.

16 Қаранг: Европейская Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов (заключена в г. Страсбург 24 ноября 1977 года) // URL: // http://hrlibrary.umn.edu/euro/Rets93.html. – мурожаат санаси 02.03.2022

17 Хабриева Т.Я. Миграционное право как структурное образование российского права // Журнал российского права. – 2007. № 11. - С. 15.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T., "Ozbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 443.
2. Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции. Доклад Генерального секретаря ООН на Семьдесят пятая сессия Генеральной Ассамблеи ООН. // A/75/542 Distr.: General 26 October 2020. / https://migrationnetwork.un.org/sites/default/files/docs/russian_0.pdf. – мурожаат санаси 02.03.2023
3. Декларация о согласованной миграционной политике государств – участников Содружества Независимых Государств // URL: http://cis.minsk.by/reestrv2/doc/2289#text. – мурожаат санаси 02.03.2022
4. Европейская Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов (заключена в г. Страсбург 24 ноября 1977 года) // URL: // http://hrlibrary.umn.edu/euro/Rets93.html. – мурожаат санаси 02.03.2022
5. Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов и членов их семей государств - участников Содружества Независимых Государств от 14.11.2008 года.// URL: http://www.cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/text?doc=2554. – мурожаат санаси 02.03.2022
6. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. II. 1957–1990. – С.1783.
7. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. I. 1919–1956.- С.982
8. Международная Конвенция о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей (принята резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных наций № 45/158 от 18 декабря 1990 года // URL: http://constitution.garant.ru/act/right/megdunar/2561306/. – мурожаат санаси 02.03.2022
9. Muydinov D.N. Hozirgi zamon migratsion jarayonlarning jamiyat barqarorligiga ta'siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 14.
10. Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов: Москва, 15. 04.1994 г.// URL: http://docs.pravo.ru/document/view/18494294/. – мурожаат санаси 02.03.2022
11. Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации // дисс. …. доктора юрид. наук. – Москва, 2019. – С. 13.
12. Хабриева Т.Я. Миграционное право как структурное образование российского права // Журнал российского права. – 2007. № 11. - С. 15.
13. Castles S. The Factors That Make and Unmake Migration Policies // International Migration Review. – 2004. Vol. 38, № 3, Conceptual and Methodological Developments in the Study of International Migration. – P. 872-873.
14. Kadirova Z.A. Managing uzbek labor migration. // International Journal of integrated education. – Vol. 3 No. 1 (2020): IJIE. Indonesia.IF.5.08. – URL: https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/21. – мурожаат санаси 02.03.2022
15. Ostergaard-Nielsen E. The Politics of Migrants' Transnational Political Practices // International Migration Review. – 2003. Vol. 37, № 3, Transnational Migration: International Perspectives.– P. 760.
16. World Migartion Report 2022 // URL: https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022-interactive/. – мурожаат санаси 02.03.2023

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH VA TA'MINLASH YO'LLARI

Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich
TDIU mustaqil doktoranti

Annotatsiya: Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash uning qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash, aktivlarining rentabellik darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa, uning moliya bozoridagi raqobat bardoshligini mustahqaydi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, sof foyda, foizli daromad, xarajat, zaxira, foiz stavkasi, rentabellik, raqobat, aktivlar, passivlar, moliya bozori, kredit, investitsiya.moliyaviy barqarorlik, mustahkamlash, ta'minlash.

Abstract: Strengthening and ensuring the financial stability of the commercial bank allows to ensure the investment attractiveness of its securities and increase the profitability of its assets. This strengthens its competitiveness in the financial market.

The article identifies problems related to strengthening and ensuring the financial stability of commercial banks of the Republic of Uzbekistan and develops scientific proposals aimed at solving them.

Key words: commercial banking, net profit, interest income, cost, reserve, interest rate, profitability, competition, assets, liabilities, financial market, credit, investment. financial stability, consolidation, provision.

Аннотация: Укрепление и обеспечение финансовой устойчивости коммерческого банка позволяет обеспечить инвестиционную привлекательность его ценных бумаг и повысить доходность его активов. Это усиливает его конкурентоспособность на финансовом рынке.

В статье обозначены проблемы, связанные с укреплением и обеспечением финансовой устойчивости коммерческих банков Республики Узбекистан, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, чистая прибыль, процентный доход, стоимость, резерв, процентная ставка, рентабельность, конкуренция, активы, пассивы, финансовый рынок, кредит, инвестиции, финансовая устойчивость, консолидация, обеспечение.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan Strategiyasida banklarning aktivlarini va ular faoliyatidagi risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bu esa, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolar mavjud. Ana shunday dolzarb muammolardan biri bo'lib, yirik tijorat banklarida aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi hisoblanadi.

Shuningdek, davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan yuqori ekanligi kuzatilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, tijorat banki foydasining qisqa muddatli o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'lib, portfelli risk va operatsion risk hisoblanadi. Bunda portfelli risklardan kredit riski, foiz riski, likvidlilik riski,muddatidan oldin so'ndirish riski va valyuta riski tijorat banklarining foydasiga ta'sir ko'rsatadi [2].

V. Usoskinning fikriga ko‘ra, tijorat bankining moliyaviy barqarorligini baholashla aktivlarning rentabelligi va kapitalning rentabelligi ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi [3].

O. Ovchinnikova va A. Betsning xulosasiga ko‘ra, tijorat bankining molyaiviy barqarorligi deganda bankning an’anaviy funksiyalarini va yangi paydo bo‘ladigan funksiyalarini, tashqi ta’sirlarning mazmunidan qat’i nazar, bajarish imkoniyatiga aytiladi [4].

S. Urazovning fikriga ko‘ra, bankning moliyaviy barqarorligi – bu uning bankning o‘z faoliyati ko‘rsatkichlarini ma’lum chegaralar doirasida, turli omillarning salbiy ta’siriga qaramasdan, qo‘llab-quvvatlash imkoniyatidir [5].

G. Melikyan tijorat bankining moliyaviy barqarorligini mikro va makrodarajaga ajratadi [6].

Mikrodarajada tijorat bankining moliyaviy barqarorligi – bu uning mijozlarga nisbatan maqsadlari va vazifalarini juda salbiy ta’sirlar sharoitida ham amalga oshira olishidir.

Makrodarajada tijorat bankining moliyaviy barqarorligi – bu bank tizimining turli sohalarda inqiroz holatlarini bartaraf eta olish va iqtisodiy agentlarga jamg‘armalar, investitsiyalarga nisbatan o‘zlarining maqsadlarini o‘zgartirishiga olib kelmagan holda, faoliyatini davom ettirish imkoniyatidir.

F. Mishkinning fikriga ko‘ra, tijorat bankining moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy oqimlari va o‘z mablag‘lari manbalarining shunday balanslashgan holatiki, u bankning ma’lum davriy oraliqda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Bankning moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy mustaqilligini belgilaydi [7].

B. Berdiyarovning xulosasiga ko‘ra, banklarning daromadliligi ularning likvidliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, xususan, sof foizli spred ko‘rsatkichining me’yoriy darajasini ta’minlash likvidlilik ko‘rsatkichlarining me’yoriy darajasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirilayotganigi tijorat banklarining likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat ksb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 13-iyundagi 2693-son “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Yo‘riqnomasiga muvofiq, Bazel qo‘mitasining tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan talablarni oshirish xususidagi tavsiyasini bank amaliyotiga joriy qilish maqsadida, regulyativ kapital va birinchi darajali kapitalning yetarliligiga nisbatan talablar bosqichma-bosqich oshirildi [9].

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori muhim rol o‘ynadi. Mazkur Qarorda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalar, jumladan, Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapittallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko‘paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillshatirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish, yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarga asoslangan banklarni baholash tizimini joriy qilish kabi vazifalar belgilandi [10].

1-rasm: AT Turonbank va TIF Milliybank AJda aktivlar rentabelligi va sof foizli marja[1]

1 Rasm muallif tomonidan Turonbank va TIF Milliy bankining baalans ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2021-yilda 2018-yilga nisbatan AT Turonbankda aktivlar rentabelligi ko'tarilib yana tushgan va sof foizli marja -0.9% kamaygan, TIF Milliybank AJda esa aktivlar rentabelligi 0.3%ga va sof foizli marja 1.5% oshgan

1-jadval: AT "O'zsanoatqurilishbank"da aktivlarning rentabelligi va kapitalning rentabelligi ko'rsatkichlarining darajasi, foizda[2]

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Aktivlarning rentabelligi	0,9	1,9	0,3	1,9
Kapitalning rentabelligi	8,3	11,3	2,2	15,4

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zsanoatqurilishbankda 2021-yilda 2018-yilga nisbatan aktivlarning rentabellik ko'rsatkichi ham, kapitalning rentabellik ko'rsatkichi ham o'sgan. Bu esa, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida ijobiy holat hisoblanadi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zsanoatqurilishbankda kapitalning rentabellik ko'rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda (7,1 f.p.) o'sgan.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kredit portfelining sifati muhim rol o'ynaydi. Buning sababi shundaki, kreditlar respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibida eng yuqori salmoqni egallaydi. 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari hajmida kreditlarning salmog'i 71,1 foizni tashkil etdi [11].

2-jadval: O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankining kreditlari daromadliligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, foizda

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i	82,4	81,1	82,1	82,3
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i	59,8	55,4	58,9	52,9

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, birinchidan, 2018-2021-yillarda TIF Milliy banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlar juda yuqori salmoqni egallagan; ikkinchidan, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i o'rtasida mutanosiblik mavjud emas. Masalan, 2021-yilda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 82,3 foizni tashkil etgani holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i 52,9 foizni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning 2020- 2025-yillarga mo'ljallangan Strategiyasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan;
- tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi quyidagi mezonlar mavjud:
- risklarning chegaraviy darajasi;
- aktivlarning rentabelligi;
- kapitalning rentabelligi;
- kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i;
- bankning joriy likvidliligi.
- 2021-yilda 2018-yilga nisbatan AT Turonbankda aktivlar rentabelligi ko'tarilib yana tushgan va sof foizli marja -0.9% kamaygan, TIF Milliybank AJda esa aktivlar rentabelligi 0.3%ga va sof foizli marja 1.5% oshgan;
- O'zsanoatqurilishbankda 2021-yilda 2018-yilga nisbatan aktivlarning rentabellik ko'rsatkichini ham, kapitalning rentabellik ko'rsatkichini ham o'sganligi mazkur banklarning moliyaviy barqarorligini ta'min-

2 Jalval muallif tomonidan O'zsanoatqurilishbankning balans ma'lumotlari asosida tuzilgan.

lash borasida ijobiy holat hisoblanadi.

- O‘zsanoatqurilishbankda kapitalning rentabellik ko‘rsatkichi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur’atda (7,1 f.p.) o‘sgan;
- 2018-2021-yillarda TIF Milliy banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlar juda yuqori salmoqni egallagani holda, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog‘i o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lmagan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining daromadliligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklari sof foydasining brutto aktivlarga nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta’minlash uchun, birinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog‘i bilan brutto kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash kerak; ikkinchidan, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalaridan olinadigan daromadlar miqdorini oshirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar portfelining daromadliligi va riskliligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, banklarning iqtisodiyotning real sektori korxonalarining aksiyalariga qilingan investitsiyalaridan oladigan dividendlarini foyda solig‘idan ozod qilish kerak.
2. Foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash yo‘li bilan banklarning moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish maqsadida, birinchidan, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining xalqaro bank amaliyotida umumqabul qilingan me’yoriy darajasini (1,0 %) ta’minlash lozim; ikkinchidan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o‘sish sur’atini brutto kreditlarning o‘sish sur’atidan past bo‘lmasligiga erishish kerak; uchinchidan, tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida banklararo kreditlarning salmog‘ini pasaytirish hisobidan foizli xarajatlarning miqdorini kamaytirish zarur; to‘rtinchidan, sof foizli spred ko‘rsatkichini doimiy tahlil va nazorat obyektiga aylantirish orqali ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasiga erishishni ta’minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”gi Farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son.
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 210.
3. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – С.34.
4. Овчинникова О. П., Бец А. Ю. Основные направления обеспечения динамической устойчивости банковской системы//Финансы и кредит. – Москва, 2006. – № 22.
5. Уразов С. А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты//Банковское дело. – Москва, 2006. – № 12.
6. Меликьян Г. Г. Актуальные вопросы капитализации, устойчивости и конкурентоспособности российского банковского сектора//XVI Международный банковский конгресс. URL: http://www. cbr. ru/publ/MoneyAndCredit/Melikyan. pdf.
7. Mishkin F.S. Global Financial Instability: Framework, Events, Issues//Journal of Economic Perspectives. 1999. No 4. Vol. 13.
8. Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari. –I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent. –2020. – B. 30.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. 2015-yil 13-iyun №14/3//O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. – №27 (683). – B.17-29.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. –№48. – 4-6-b.
11. Tijorat banklarining jamlanma balansi//www.cbu.uz

MARKETING MIX, RETAIL TRADE, MATERIAL ENVIRONMENT IN MARKETING

Egamberdiyev Muzaffar
Alfraganus University PhD Senior Lecturer, Department of Economics

Abstract: In this article, it was covered by the fact that communication in marketing plotting at enterprises, before paying attention to the specific tools of retail, is closely related to them. To achieve this goal, the basic aspects of the Albert Hypermarket store are analyzed.

Key words: marketing, sales, communication, prodavets, pokupatel, uslugi, factor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, korxonalarda marketing aralashmasi, o‘ziga xos vositalarga e’tibor berishdan oldin chakana savdo, qamrab olingan. Ushbu maqsadga erishish uchun Albert gipermarketi do‘konining asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Marketing, chakana savdo, aloqa, sotuvchi, xaridor, xizmatlar.

Аннотация: В данной статье было освещено то, что коммуникация при построении маркетинга на предприятиях, прежде чем обратить внимание на конкретные инструменты розничной торговли, тесно связана с ними. Для достижения поставленной цели анализируются основные аспекты работы магазина “Гипермаркет “Альберт”.

Ключевые слова: Маркетинг, продажи, коммуникация, магазин, покупатель, услуги, фактор.

INTRODUCTION

They should try harder. To achieve this goal, they are helped by the tools of the expanded complex of retail marketing, with the help of which retailers try not only to influence the decisions of customers on choosing a store, but also to stimulate their purchase behavior at the point of sale. .

Factors in the decision making of customers when choosing a store include, among other things, the location of the store, the opportunity to choose from the assortment, its quality in relation to the general price level, the availability of goods, the ease of orientation of the store or special offers and discounts. When customers are already at the point of sale, they are influenced by the atmosphere of the store and the communication inside the store, which motivates the customers inside the store, and whose task is not only to facilitate their purchase process, but also the goods they buy. is to help increase the size.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE SUBJECT

Foreign Cimler, P. et al. (2007). Retail management. Management Press. Ferney, J. & & Sparks, L. (2019). Logistics and retail management. (5th ed.). Hoffman, M. (2021). Private label Albert. Atlas. Govorek, H., & McGoldrick, P. (2015). Retail Marketing Management. Pearson. Horiceczek, F. (2022). In the article, they covered their views on marketing mix and retail sales.

RESEARCH METHODOLOGY

The data of this article is based on the analysis of secondary data from various foreign companies, as well as statistical reports and documents. Data analysis was completed based on workshops, expert questionnaires with employers.

The marketing mix

Is also one of the elements of the marketing mix, and although there are more definitions of how to define it, this work is still based on the definition of Svetlik (2018, p. 139), which consciously defines it as „selling activity that informs, persuades, and influences behavior. customer“. Svetlik (2018) then

lists five elements of marketing communications, such as advertising, sales promotion, direct marketing, public relations, and personal selling.

He also states that combining these elements mentions the advantages that elements are planned and organized as a sequential whole by supporting and complementing each other, thereby increasing their overall effectiveness and conveying a coherent, clear and persuasive message to target groups There are many options for communication and they can be divided into downstream and construction activities. Barta et al. (2009) explain the difference between “below the line” and “above the line” activities by saying that “below the line” is.

If these are non-mass forms of communication (for example, sales promotion, direct marketing, etc.), then non-traditional activities are classical media (for example, television, radio or print). is done using Coupons, promotional prices, discounts In order to attract customers to the store and increase sales, retailers often use various coupons as part of sales promotion, through which the manufacturer gives various discounts to consumers.

The customer then declares this discount at the checkout. (Barta et al., 2009) Promotional prices or sales packages (eg 3+1 free, etc.) presented in flyers and other promotional materials are another tool used to promote sales. The purpose of flyers is to attract potential customers with an attractive product offer and make them visit the store. A shopper chooses discounted items first, but also buys other items while shopping at that store. However, when using these tools, they can increase the consumer’s sensitivity to price and customers start to expect these advertised prices.

ANALYSIS AND RESULT

Table 1: The main indicators of retail trade data for the years 2019-2023 have been clarified due to the change in the calculation method of domestic trade

Indicators	2019	2020	2021	2022	2023
Retail turnover, sales in all trade sectors, including catering organizations, billion. sum	113 971.7	141 385.1	168 649.0	216,694.6	270 687.2
in cities	91 990.2	106 461.0	129,079.3	166 107.0	212 218.7
in rural areas	21,981.5	34,924.1	39,569.7	50,587.6	58 468.4
From the total volume of retail trade turnover, bln. Soum: food products	48,791.6	58 574.9	67,700.9	89,990.4	114,583.7
non-food items	65 180.2	82 810.3	100 948.1	126,704.2	156 103.5
Retail turnover per capita, thousand soums	3 458.3	4 210.3	4 926.6	6 206.3	7 593.3
Stocks of goods in retail trade networks (at the end of the year, including consignment goods) total, billion soums	3 476.5	5 416.1	9,031.5	12 270.0	15 296.6
on days of turnover	26.0	28.0	35.0	37.0	33.0
Retail trade facilities (by the end of the year) in total, thousand	132.9	151.8	169.4	177.3	194.1
per 10,000 inhabitants	37.0	43.0	48.0	49.0	52.0

POS Services

Trade of support again one tool - pop and POS services. Yesensky and etc. (2020) pop (buy get point) and pos communications (sales point) about information often in pos marketing connection that too is called Many the authors this two the term Entirely different they describe For example, buy get point usually buyers physical respectively purchase who does all retail trade area as is determined and whole field across advertising tools own into takes However, according to the authors, POS is literally just the area around the cash register. Pop, on the other hand, defines tools as tools that are permanently on the sales floor and are part of the presentation of goods in or near the store. According to the authors, POS funds are products and things that the customer can take home after purchase - coupons and discounts for the next purchase, samples, loyalty cards or samples.

The definition of Boček et al. (2009), on which this work is further based, all support media used to promote a particular product or range, used in-store and sales as the most important drivers of impulse purchases. he knows as physical means. The POS symbol is considered as a symbol of all places where trade is carried out.

POP digital and multi-sensory tools (Yesensky et al., 2018) Thus, marketing communication at the point of sale using popular advertising is a set of advertising tools used in-store to influence customers’ purchase decisions. serves.

At the same time, point-of-sale marketing is a crucial element because it operates at the last minute when the retailer has the opportunity to impress the customer. In other words, these funds increase the desire of the buyer to buy the product without planning.

In addition to influence, it also serves to provide information upon which decisions are made. Yesensky et al. (2020) stated that customers are now demanding information about time and location, which is useful for them to choose and make decisions at the right time.

This saves them time spent visiting the store and thus impulsively buying other things. (Lilienvall, 2004) The fact that point-of-sale advertisements are often perceived as helpful is also supported by a study conducted within Czech and Advertising Research, in which a total of 49% of respondents said that point-of-sale advertisements help them.

The relevance of pop-up advertising placement

In order for pop communication to work as effectively as possible at the point of sale, it is necessary to pay attention to the principles and procedure of its appropriate placement. The movement of buyers is compared to the movement of water in a river. This comparison is not accidental, because just as the water in the river flows in waves of different strength and speed, customers also pass through the store at different speeds. Pop media placement must also be adapted to these differences in customer traffic speeds. Shopping begins with entering the store, customers are not yet fully ready to buy and are in a calibration mode where they are not yet open to impulse purchases. The first thing to help get customers into shopping mode is to place shopping carts outside the store, because customers aren't quite ready to buy until they have their list or shopping cart. (Hendrickson, Jesenský et al., 2020)

In addition, several principles or rules mentioned by Jesenský et al. should be observed when setting up a POP tool. (2020):

- Follow the principles of the AVA model (available, visible, public).
- Keep in mind that in the first third (called the decompression zone) the least impulse purchases are made, and placing pop-ups immediately after entering is not very effective.
- Use carefully designed or highly attractive products such as "speed bumps" to help align customers to purchase.
- Place resources where there is a maximum concentration of customers who can buy this product.
- The larger the shopping cart, the more ineffective the POP connection (the first third of the store is the most effective for activating the shopping mode).
- Customers are also accustomed to loading larger items into the Cart first.
- Place pop resources in the direction of customer traffic and always at the beginning of the section
- Avoid blind spots and place pop media in a place where they can be substituted. POP resources should respect their placement, not interfere, should contrast with the environment, dominate in design and not be close to another dominant program.

The material environment in the marketing mix

Another tool is the material environment that fills the atmosphere of the store, which is an element capable of improving the shopping process today when it is viewed as a specific experience. This is also confirmed by Zamazalova (Zamazalova, 2009), who considers it an equally important element of communication at the point of sale, because several factors influence the customer's purchase.

Martino (cited in Huo, 2021) points out that these factors have a dual effect on customers, because in their minds they are considered in terms of functional qualities and aura of psychological perception. Thus, the store should look clean, have functional qualities and therefore have a logical and clear layout and use elements that complement the atmosphere of the store.

The elements that make up the atmosphere of the store can be divided into internal and external parts, but Zimmler and Zadrajilova (2007) mention that it is more or less a division of labor, because the stimuli act together, in their actions they are related to each other. and probably emphasize each other.

As for the external elements, the architecture of the store already affects the customers from a relatively long distance, which has the ability to attract them closer with an interesting external solution, thus ensuring the effect of other external stimuli that work only at a closer distance. Ideally, the entrance to the store should be unobstructed and the customer should not feel that he is entering an enclosed space from the outside.

Then the interior design of the store is filled with interior elements:

- Commercial equipment that can be presented, for example, equipment and sets of elements for the presentation of goods or cash registers, etc.
- The material used must be consistent with the store's image, assortment and safety or hygiene measures.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- Lighting that can be used in addition to general lighting to illuminate certain types of goods.
- A color interior solution that affects the visual perception of customers.
- Background music that influences the customer's movement through the store.
- The flavor depends on the assortment.

M is a circuit that leads to a certain direction (see the circuits below).



1-picture: Layouts: grid design (left), flow design (right)
Source: Yadro and Volfova (2021), edited by the author

People in the Marketing Complex People

As another tool of the marketing mix, refers to factors that, among other things, in the retail sector, undoubtedly have a significant impact on the overall impression of the customer on the point of sale are shaped by the store employees who hold them, as they participate in creating the shopping experience. Cimler et al. (2007) also consider IT as an integral part of retail operations and mention that in principle two tasks must be solved in relation to employees, namely:

- Optimal number of employees
- Workload of individual employees

At the same time, it is important to understand that personnel management in retail trade has its own characteristics that limit it compared to other industries. Due to the optimal number of employees, retail stores often have to deal with, for example, a general lack of employees or unevenly distributed working hours subject to customers.

The peak workload usually coincides with the end of working hours at other workplaces. (Zimmler et al., 2007) In addition, employees in different positions have the appropriate abilities and skills to perform their jobs properly and thus ensure the proper functioning of the store. necessary, which is very important for customer satisfaction.

CONCLUSION

All the above-mentioned activities are mainly performed by the service personnel who are most in demand in the store on the sales floor. Given that these employees have the most contact with customers, they also shape the image of the retail chain, and Zimmler and Zadrajilova (2007) state that their communication skills, pleasant demeanor and stress tolerance are therefore highly demanded. they emphasize that it should be. This is also emphasized by Vashtikova (2014), who points out that only a few bad employees can lower the image of the store as a result of bad behavior and, moreover, destroy the results of the good performance of others.

List of used literature:

1. Cimler, P. et al. (2007). Retail management. Management Press.
2. DD, J. (2012). Management of projects by thread. (2nd edition). Grad.
3. D. (2017). Fundamentals of research methodology. University of West Bohemia in Pilsen.
4. Fernie, J. & & Sparks, L. (2019). Logistics and retail management. (5th ed.). Kogan Pages. Growing from Czech knowledge (2021). Knowledge Czech growth / consumption panels & services.
5. Hoffman, M. (2021). Private label Albert. Atlas. https://tinyurl.com/yru875xb
6. Govorek, H., & McGoldrick, P. (2015). Retail Marketing Management. Pearson.
7. Horicekcek, F. (2022). Look. This is how the wave of price increases is rolling in Czech stores. List of messages. https://tinyurl.com/3zx86ydp
8. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, https://stat.edu.uz/

DAVLAT TOMONIDAN AHOLI BANDLIGINI TARTIBGA SOLISH ILMIY KONSEPSIYALARINING EVOLYUTSIYASI

Ismoilov Azizbek
I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
"Iqtisodiyot" fakulteti, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi. Aholi bandligi iqtisodiy tushuncha sifatida aholining iqtisodiy faol qismini ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish amalga oshadigan, bevosita mehnatni amalga oshirish jarayonida tadqiq etiladi. Aholi bandligi ijtimoiy ishlab chiqarishga xos xususiyat bo'lib, unda mehnat buyumlarini o'zgartirish bo'yicha ma'lum bir sifatlarga ega bo'lgan ishchilarning birgalikdagi faoliyati amalga oshadi.

Kalit so'zlar: Bandlik, ijtimoiy, mamlakat, aholi, iqtisodiyot, mehnat.

Abstract: In this article, employment is considered as a socio-economic concept. Employment of the population as an economic concept is studied in the process of direct labor, in which the economically active part of the population is combined with the means of production. Employment of the population is a characteristic of social production, in which the joint activity of workers with certain qualities to change the objects of labor is carried out.

Key words: Employment, social sphere, country, population, economy, labor.

Аннотация: В этой статье занятост рассматривается как социально-экономическая концепция. Занятост населения как экономическое понятие исследуется в процессе осуществления непосредственного труда, при котором происходит объединение экономически активной части населения со средствами производства. Занятост населения-характеристика общественного производства, при которой осуществляется совместная деятелност работников, обладающих определенными качествами по изменению предметов труда.

Ключевые слова: Занятость, социальная сфера, страна, население, экономика, труд.

KIRISH

Jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi mamlakatlar iqtisodiyoti va mehnat bozoriga hanuz o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, mamlakatlarda hududlar o'rtasida turli cheklovlarni joriy etish, fitosanitar tadbirlarni kuchaytirish jahon bozorida xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishiga, tashqi savdo sohalari qisqarishi va ishsizlik darajasining ortishiga olib keldi [1].

O'zbekiston taraqqiyotida aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish islohotlari olib borilmoqda. Shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S. V. Andreyev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

A. E. Kotlyar fikricha, bandlik – jamiyatning barcha formatsiyalarida amal qiladigan umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida qabul qilingan. Bu ijtimoiy takror ishlab chiqarishga xos tushuncha mehnat va ishchi kuchidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarish omillariga nisbatan tavsiflaydi hamda ularning aniq mehnat kooperatsiyasidagi ishtiroki yuzasidan kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlarini shakllantiradi [2].

L. A. Kostin aholi bandligini umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida barcha iqtisodiy formatsiyalarga xos ekanligini e’tirof etadi hamda unga ishchining u yoki bu aniq mehnat kooperatsiyasiga qo‘shilishi bilan belgilangan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatida ta’rif beradi [3].

- ishchining ma’lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo‘yilishi;
- ishchining yaratayotgan ne’matlari va xizmatlari uchun moddiy rag‘batlantirilishi;

N. A. Volgin va V. S. Bulanovlar tomonidan esa aholi bandligi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida tavsiflanadi. Mualliflar fikricha, aholi bandligi ijtimoiy mazmun bilan, ya’ni aholining mehnat faoliyatida qatnashishi yuzasidan sodir bo‘ladigan munosabatlar majmui hamda ishchilarning xususiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu munosabatlar majmui fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va daromadlar olishini ta’minlashi kerak [3].

S. V. Andreyev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

- ishchining ma’lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo‘yilishi;
- ishchining yaratayotgan ne’matlari va xizmatlari uchun moddiy rag‘batlantirilishi;
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish ishchining ishlab chiqarish vositalari bilan birikishi zaruratini belgilashi [4].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, jumladan Aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasida “Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir”, – deb ko‘rsatib o‘tilganligi, shu bilan birga 5-moddada aholi bandligini kafolati va davomiyligini ta’minlab beradigan prinsiplarini jumladan,

- bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;
- aholi bandligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- shaffoflik va ochiqlik; ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o‘tishda ko‘maklashish;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta’minlash;
- kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta’minlash sharoitlaridagi, mehnatga haq to‘lashdagi, xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;
- majburiy mehnatni taqiqlash, ya’ni biron-bir jazo qo‘llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash qayd etilishi davlat tomonidan aholi bandligini tartibga solish ilmiy kontsepsiyalarining evolyutsiyasi mos ravishda olib borilayotganligidan dalolat beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslarini klassik, neoklassik, keynscha, neokeynscha, institutsional, monetaristik, neokonservativ kabi ilmiy yo‘nalishlar vakillarining ilmiy g‘oyalari tashkil etadi.

Tadqiqotlar mehnat bozorining XXI asr boshlaridagi amal qilish xususiyatlarini aniqlash uchun zarur hisoblanadi. Aholi bandligi va mehnat bozori konsepsiyalari evolyutsion rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tdi. Ilk bor aholi bandligi va ishsizlik muammolari A. Smit, D. Rikardo, J. B. Sey va K. Marks nazariyasini mujassamlashtiradigan klassik ilmiy maktab vakillari tomonidan tadqiq etilgan. Aholi bandligi klassik modelidagi bozor mexanizmi 1-rasmdagi chizmada tasvirlangan (tekis chiziqda ijobiy aloqa belgilangan, shtrix-punktirli chiziqda salbiy).



1-rasm: Aholi bandligi konsepsiyalari[1]

Ushbu mehnat bozorining muhim unsurlari quyidagilar hisoblanadi: ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif, ish haqi, bozor kon’yunkturasi, ishsizlik. Aholi bandligining klassik modelida davlat tomonidan bozorni tartibga solish amaliyoti mavjud emas. U o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi bozor tamoyiliga va “iqtisodiy inson” tushunchasiga asoslanadi. Ishchi kuchining narxi bozor kon’yunkturasiga egiluvchan moslashadi.

Ushbu yo‘nalish erkin raqobat va bozor – iqtisodiyotning tartibga soluvchilari ekanligini ko‘zda tutadi. A. Smit, D. Rikardo, J. B. Sey yondoshuvlarida bandlikka tadbiqan ushbu bozorning muvozanatlashganligini, ya’ni talab va taklif tengligi hamda to‘liq bandlik ta’minlanganligini bildiradi.

A. Smitning izdoshlari D. Rikardo va J. B. Sey boylikning tejamkorlik asosida ko‘payishini ta’kidlaydilar. Shuningdek, ko‘p jamg‘arish ishsizlikni ko‘paytirish, ish haqini qisqartirish, tadbirkorlik faolligini susaytirish orqali jamiyatni kambag‘allashtirishi isbotlandi (Dj. M. Keyns). Ishlab chiqarish omillari bozorini tahlil qilishda J. B. Sey ishchi kuchi egasiga ish haqi ko‘rinishida daromad keltiradigan va qiymat yaratishda qatnashadigan mehnatni alohida resurs sifatida o‘rgandi. U ortiqcha tovar ishlab chiqarishda mehnat va kapitalning bir qismini ishlab chiqarishdan chiqarib olinadi va ushbu tovarlarga bo‘lgan talabning jahon bozoriga chiqishi to‘liq bandlikning yangitdan o‘rnatilishiga olib keladi, deb ta’kidlaydi.

Mehnat bozori muammolari neoklassik maktab iqtisodchilari A. Marshall, A. Pigu, Dj. B. Klark va boshqalarning asarlarida yanada chuqurroq tadqiq etiladi. Ushbu modelda bozorning o‘z-o‘zini tartibga solishi ish haqini oshirish yoki pasaytirish vositasida ish haqini mehnat bozorining tashqi tartibga solish dastagiga aylantiradi.

Mehnat jarayonida band ishlovchilar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, mehnat unumdorligi va ish haqi miqdori shunchalik past bo‘ladi. A. Pigu inqiroz sharoitida bandlikning o‘sishi mexanizmi sifatida real daromad o‘sishi zarur, deb ko‘rsatdi. A. Piguning fikricha, ishsizlikning vujudga kelish sababi ish haqining yuqori darajasidir, ish haqining kamayishi esa aksincha, bandlikni oshiradi. Chunki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va qo‘shimcha ishchilarni yollash uchun imkoniyat yaratadi. Uning fikricha, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi asosida tovarlar narxining pasayishi ish haqi hisobiga tirikchilik o‘tkazmaydigan aholi guruhlari xarid qobiliyatining oshishiga olib keladi. Ushbu g‘oya qo‘shimcha talabni vujudga keltiradi hamda ishlab chiqarish va bandlikni kengaytiradi. A. Piguning fikricha, bandlik hajmini belgilovchi omil mehnatga bo‘lgan haqiqiy talab funktsiyasidir. A. Pigu “ixtiyoriy ishsizlik” nazariyasi tarafdori bo‘lib, u ishchilar bozordagi talab va taklif natijasida vujudga keladigan “normal” ish haqi uchun ishlashga rozi bo‘lmaydilar va ixtiyoriy ishsiz bo‘lib qoladilar, degan fikrni ilgari suradi.

Aholi bandligini tartibga solishning keynscha nazariyasi klassik va neoklassik maktablarning g‘oyalarini inkor etishga asoslangan .

Aholi bandligining keynscha modelida mehnat bozori inertlashgan tizim hisoblanadi, ishchi kuchining bahosi qattiq determinantlashgan va bozor kon’yunkturasiga moslashmaydi. Mehnat bozori kon’yunkturasi samarali yalpi talab (“Keynsning tartibga solinadigan kapitalizm nazariyasiga ko‘ra, davlatning makroiqtisodiy jarayonlarga aralashuvi”) ga asoslangan.

KIRISH

Hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta’minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritish uchun asosiy shartlar va tamoyillar yoki usullar ko‘proq fessionallikni, tahliliy bajarilishni va tadbirkorlikda sog‘lom raqobat muhiti asosida faoliyat yuritishni talab qiladi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun strategiyalar yaratish, ma’lumot tizimlarini xavfsizlik va munosabatlarni yaxshilash, sifatli mahsulot ishlab chiqarish usullari, bozorni tahlil qilish, ish birligini yaratish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, marketing va reklama strategiyalarini tuzish, kadrlarni ta’minlash va ular-ni motivlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni quyidagicha izohlashmoqda:

Yuldashev Sh. A. tomonidan chop etilgan “Малый бизнес и предпринимателство”[1] nomli o‘quv qo‘llanmada O‘zbekistonda kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi, uning tashkiliy-huquqiy shakllar, kichik biznes infratuzilmasi, biznes-reja ishlab chiqish masalalari va kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish usullari ko‘rsatib berilgan.

Mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi”[2] kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod qiluvchi odam), deb ta’riflagan. Olim tadbirkorlik faoliyatini kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydigan yangiliklarni joriy etishdan iborat, deb biladi.

1 https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/%D0%BC%D0%B0%D0%BB%D1%8B%D0%B9-%D0%B1%D0%B8%D0%B7%D0%BD%D0%B5%D1%81-%D0%B8-%D0%BF%D1%80%D0%B5%D0%B4%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE

2 Й. Шумпетер. Теория экономического развития. М., 1982.

Lapusta M. G. tahriri ostida chop etilgan “Предпринимателство”[3] nomli o‘quv qo‘llanmada tadbirkorlikning umumiy tavsifi va tashkiliy-huquqiy shakllari, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, biznes-reja tuzish, moliyaviy faoliyatini tahlil qilish, soliqqa tortish va tadbirkorlik psixologiyasi masalalari keng yoritilgan.

Gorfinkel V. Ya., Polyak G. B. va Shvandar V. A.lar tomonidan tayyorlangan “Предпринимателство”[4] nomli o‘quv qo‘llanmada Rossiyada tadbirkorlikning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari,uning zamonaviy shakllari, faoliyat turlari, moliyaviy faoliyatini boshqarish, tahlil qilish va soliqqa tortish masalalari keng yoritilgan.

Siropolis Nikolas N. tomonidan chop etilgan “Управление малим бизнесом”[5] nomli o‘quv qo‘llanmada kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rni, kichik biznesni tashkil etish va boshqarish masalalari atroflicha yoritilgan.

Gorfinkel V. Ya. va Shvandar V. A. tomonidan chop etilgan “Малий бизнес: Организация, экономика, управление”[6] nomli o‘quv qo‘llanmada Rossiya va xorij mamlakatlarida kichik biznesning rivojlanishi, uning iqtisodiyotda tutgan o‘rni, kichik biznes faoliyatini tashkil etish, boshqarish va tahlil qilish masalalari keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotga ta’sirni o‘rganish maqsadida tahliliy usullardan foydalanilgan. Sintez-tahlil usuli orqali muhim segmentlarning guruhlanishi va aloqador sohalarga nisbatan ta’siri o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Taniqli olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorning o‘z faoliyati sohasida olib boradigan ishlari ko‘p qirralidir. Bu bozor siyosatining o‘zgarishi bilan yoki korxonaning ichki vatashqi omillari ta’sirida aniqlanadi. Lekin tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat (foyda) ko‘rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta’minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko‘mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta’minlash zarurdir. Bozor sharoitida tadbirkorlikni boshqarishda uning quyidagi xususiyatlarini e’tiborga olish kerak:

- tadbirkor har doim bozordagi talab va taklifni e’tiborga olib ish ko‘radi;
- tadbirkor samaradorlikni ta’minlovchi sa’y-harakatlar qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo‘llarini qidiradi;
- biznesning pirovard natijalariga javob beradigan shaxslar, o‘z biznesini erkin shart-sharoitlarda olib borishiga yetarli imkoniyatlar yaratishadi;
- kichik korxonaning pirovard natijalari, ya’ni uning oladigan foyda yoki zarari faqat bozordagi oldi-sotdi jarayonida ma’lum bo‘ladi;
- kichik biznes bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor o‘z mablag‘larini harakatga solib, bozorda qanday xavf-xatarga duch kelishi yoki yakuniy natija qanday bo‘lishini aniq bilmaydi.

Shunday qilib, tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g‘oyasiga asoslangan, foyda olishga yo‘naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyat yotadi.

Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi bo‘lib, uning boshlang‘ich bosqichi, odatda, fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan bog‘langan bo‘ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi. Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o‘zgartirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta’riflanadi. Tadbirkorlik faoliya-tining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tadbiq etishda o‘z ifodasini topadi.

Korxona innovatsion faoliyatni tatbiq qilishda zarur bo‘lgan ayrim ish va xizmatlarni bajarish uchun buyurtmalarni pulli asosda talabgor tashkilotlarda joylashtirishi mumkin.

Innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish uchun zarur pul mablag‘lariga ehtiyoj mos ravishda quyidagi formula orqali baholanadi:

$$D = Dm + Do + Dr + Di + Dk + Du$$

Bunda:

Dm – materiallar, xomashyo, energiya, yarim tayyor mahsulotlar sotib olish uchun zaruriy pul mablag‘lari;

Do – asosiy fond, mehnat vositalari, binolardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar;

Dr – yollangan ishchilarga ish haqi uchun zarur pul mablag‘lari;

Di – qo‘shimcha axborot olish uchun zarur pul mablag‘lari;

Dk – kredit mablag‘lardan foydalanilganlik uchun to‘lanadigan pul mablag‘lari;

Du – tarafdor tashkilot va shaxslarning xizmatlari to‘lovidan tashkil topadi.

3 https://www.labirint.ru/books/981559/
4 http://www.booka.ru/books/5100#about
5 Сирополис, Николас К. Управление малым бизнесом. - М.: Дело, 1997. – 672 с.
6 https://znanium.ru/catalog/document?id=375621

Misol uchun korxonaning moliyaviy hisobotini amalga oshirishda 5110, 6010, 6710, 7810, 9430 kabi schotlardan ham foydalaniladi. Buxgalteriya schotlar rejasi yordamida moliyaviy munosabatlar amalga oshiriladi.

Quyida Institute of Macroyeconomic and Regional Studiyes saytida keltirilgan ma'lumotlar asosida mamlakatimizda basis yili mobaynida kichik tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar dinamikasi quyidagicha keltirilgan:



1-rasm: Kichik tadbirkorlik subektlarining rivojlanish tendensiyasi (2023-yil 9 oylik[7])

Yuqoridagi jadvalga muvofiq 13 ta xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha hamda yillar kesimida 20% ko'rsatkich bilan o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari asosan qurilish, xizmatlar, sanoat hamda qishloq, o'rmon xo'jaligi va balikchilik sohalarida bo'yicha faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik sohalari yuqori natijalar qayd etilgan.



2-rasm: O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga[8]

7 https://imrs.uz
8 https://daryo.uz/2023/09/28/respublikamizda-xizmatlar-sohasijadal-rivojlanmoqda

Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori sohada kichik korxonalar va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturalarni yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali xizmatlar xajmini yanada kengaytirish uchun rag‘bat bo‘lmoqda.

Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi joriy yilning I yilligida 469,6 trln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 foizga o‘sdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, YAIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 44,1 % dan 47,1 % ga oshganini ko‘rishimiz mumkin[9].

XULOSA

Yuqorida sanab o‘tilgan ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatimizda yaqin 3 yillikda kichik tadbirkorlik sohasida ijobiy siljishlar kuzatilgan. Bunda xizmatlar va ishlab chiqarish sohalarida yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Demak, statistik prognozlarga ko‘ra 2030-yilgacha xususiy sektorlarning davlat iqtisodiy ulushidagi o‘rni yuqorilashini tahlil qilish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida qonunchilim tomonidan berilayotgan imtiyozlar hamda xalqaro hamkorliklarning ahamiyati sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks
2. Й. Шумпетер. Теория экономического развития. ─М., 1982.
3. https://www.labirint.ru/books/981559/
4. http://www.booka.ru/books/5100#about
5. Сирополис, Николас К. Управление малым бизнесом. ─ М.: Дело, 1997. – 672 с.
6. https://znanium.ru/catalog/document?id=375621
7. https://imrs.uz/
8. https://daryo.uz/2023/09/28/respublikamizda-xizmatlar-sohasijadal-rivojlanmoqda

9 https://daryo.uz/2023/09/28/respublikamizda-xizmatlar-sohasijadal-rivojlanmoqda

ОПТИМИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ СБАЛАНСИРОВАННОЕ ФИНАНСОВОЕ СТРАТЕГИРОВАНИЕ

Ахмедов Дилшод Турсункулович
Первый заместитель председателя правления –
Исполнительный директор АО “Узметкомбинат”

Аннотация: Эта тема исследует методы и стратегии оптимизации корпоративного управления с помощью сбалансированного подхода к финансовому стратегированию. Рассматривается влияние правильно разработанной финансовой стратегии на процессы принятия решений, а также на результативность деятельности организации. Основное внимание уделяется выстраиванию корпоративной стратегии в соответствии с финансовыми целями компании, оптимизации использования ресурсов, контролю финансовых рисков и повышению финансовой устойчивости. Данная тема также охватывает современные инструменты и методики финансового стратегирования, такие как методика сбалансированных показателей (Balanced Scorecard), а также практические примеры успешной реализации финансовых стратегий в корпоративной среде.

Ключевые слова: финансовое планирование, управление рисками, эффективность, прозрачность деятельности, оптимизация ресурсов, цифровизаця корпоративного управления.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda muvozanatli yondashuv orqali korporativ boshqaruvni optimallashtirish usullari o‘rganilgan. To‘g‘ri ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyaning qaror qabul qilish jarayonlariga, shuningdek, tashkilot faoliyatiga ta’sirini ko‘rib chiqilgan. Asosiy e’tibor kompaniyaning moliyaviy maqsadlariga muvofiq korporativ strategiyani shakllantirish, resurslardan foydalanish, optimallashtirish, moliyaviy risklarni nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqolada “Balanced Scorecard” metodologiyasi kabi zamonaviy moliyaviy strategiya vositalari va usullarini, korporativ muhitda moliyaviy strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning amaliy misollarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy rejalashtirish, risklarni boshqarish, samaradorlik, faoliyatning shaffofligi, resurslarni optimallashtirish, korporativ boshqaruvni raqamlashtirish.

Abstract: This research study explores ways to optimize corporate governance through a balanced approach to financial strategizing. Considers the impact of a properly designed financial strategy on decision-making processes, as well as on organizational performance. It is important that the main attention is aimed at forming a corporate strategy in accordance with the company’s financial goals, optimizing the use of resources, controlling financial risks and increasing financial stability. The topic also includes modern financial strategy tools and methods, such as the Balanced Scorecard methodology, and practical examples of successful implementation of financial strategies in a corporate environment.

Key words: financial planning, risk management, efficiency, transparency of activities, optimization of resources, digitalization of corporate governance.

В современном мире динамичных рыночных условий и неопределенности корпоративное управление становится ключевым фактором успешности организации. Оптимальное управление финансами и разработка стратегии играют решающую роль в достижении устойчивого конкурентного преимущества и обеспечении долгосрочного роста. Сбалансированное финансовое стратегирование в современных корпоративных структурах выходит за рамки традиционного подхода, требуя интеграции инновационных методов, цифровых технологий и стратегического мышления.

В данном обзоре рассматривается значимость сбалансированного финансового стратегирования в контексте современного корпоративного управления. Основываясь на актуальных трендах и исследованиях в области финансового менеджмента, мы анализируем роль финансовых стратегий в обеспечении устойчивости бизнеса, повышении эффективности использования ресурсов и минимизации финансовых рисков. Подчеркивается важность инноваций и цифровизации в процессе разработки и реализации финансовых стратегий, а также обсуждаются ключевые принципы прозрачности и ответ-

ственности в финансовом управлении. Данное исследование призвано поднять осознание важности финансового стратегирования в контексте корпоративной стратегии и предложить практические рекомендации для современных организаций, стремящихся к улучшению своей финансовой устойчивости и конкурентоспособности.

Современные организаций сталкиваются с быстро меняющимися рыночными условиями, глобальной конкуренцией и увеличивающейся неопределенностью. В таком контексте разработка и реализация эффективной финансовой стратегии становится необходимым условием для обеспечения успеха и устойчивости предприятия. Многочисленные исследования в области корпоративного управления и финансового менеджмента подчеркивают важность сбалансированного финансового стратегирования в достижении стратегических целей организации и максимизации стоимости для акционеров.

Финансовое стратегирование играет ключевую роль в формировании курса и целей организации, а также в определении путей и средств их достижения. Как отмечает авторы [1], “финансовая стратегия ориентируется на максимизацию стоимости компании, оптимизацию ее капитальной структуры и управление финансовыми рисками для достижения устойчивого роста и увеличения капитализации”. Интеграция финансовой стратегии в общую стратегию организации позволяет создать сбалансированную систему целей и показателей, способствующих успешному развитию бизнеса.

Современное финансовое стратегирование все больше ориентируется на использование цифровых технологий и инновационных методов анализа данных. Как указывает В. Квинт и др. в статье “ Стратегирование национальных и региональных инновационных систем” [2], “применение алгоритмов машинного обучения и искусственного интеллекта позволяет улучшить прогнозирование финансовых показателей, оптимизировать портфельные инвестиции и снизить финансовые риски”. Однако, вместе с тем, использование цифровых технологий создает новые вызовы и требует развития компетенций в области управления данными и кибербезопасности.

Сбалансированное финансовое стратегирование также связано с обеспечением прозрачности и ответственности перед заинтересованными сторонами. Как отмечается в исследовании “Корпоративная прозрачность, корпоративная социальная ответственность и корпоративное управление” [3], “высокий уровень прозрачности и доверия к финансовой отчетности компании способствует привлечению инвестиций, снижает капитальные затраты и увеличивает стоимость акций”.

Сбалансированное финансовое стратегирование играет ключевую роль в достижении финансовой устойчивости и роста организации. Оно требует интеграции цифровых технологий, развития инновационного мышления и обеспечения прозрачности и ответственности в корпоративном управлении. Дальнейшие исследования в этой области не только углубят наше понимание финансового стратегирования, но и помогут разработать эффективные стратегии управления рисками и создания ценности для всех заинтересованных сторон.

Финансовое стратегирование является центральным элементом, охватывающим все аспекты финансового управления и планирования. В теоретическом понимании финансовое стратегирование можно поделить на 3 основные элементы:

1. **Финансовое планирование** представляет собой процесс определения финансовых целей и разработки планов по их достижению.
2. **Управление рисками** включает в себя идентификацию, оценку и управление финансовыми рисками, которые могут повлиять на достижение целей компании.
3. **Оптимизация ресурсов** означает использование финансовых ресурсов компании с максимальной эффективностью для достижения оптимальных результатов.

Основные элементы финансового стратегирования имеют следующее значение в контексте корпоративного управления (табл.1):

Таблица 1: Значение основных элементов финансового стратегирования в корпоративном управлении

Основные элементы	Значение в корпоративном управлении
Финансовое планирование	- Определение финансовых целей и разработка планов для их достижения; - Поддержка стратегических решений через выработку финансовых прогнозов и анализ финансовой производительности;
Управление рисками	- Идентификация и анализ финансовых рисков, которые могут повлиять на достижение целей компании; - Разработка стратегий управления рисками и механизмов для минимизации негативных последствий;
Оптимизаця ресурсов	- Максимизация использования финансовых ресурсов компании для достижения оптимальных результатов; - Анализ и оптимизация инвестиций, расходов и капитальных вложений.

В современных условиях существует несколько основных вызовов, с которыми сталкиваются компании при разработке и реализации финансовых стратегий в корпоративном управлении:

- **Неопределенность и изменчивость рыночных условий.** Сложность прогнозирования экономической среды и изменчивость рыночных условий могут затруднить разработку долгосрочной финансовой стратегии, а также ее успешную реализацию.
- **Финансовые риски и неопределенность.** Компании сталкиваются с различными финансовыми рисками, такими как валютные риски, процентные риски, риски кредитного дефолта и т. д. Управление этими рисками и их учет при разработке стратегии является одной из ключевых проблем.
- **Необходимость сбалансированного подхода.** Важно найти баланс между различными аспектами финансовой стратегии, такими как инвестиции, финансирование, дивидендная политика и управление оборотным капиталом. Не всегда легко согласовать эти аспекты с общей стратегией развития компании.
- **Ограниченные ресурсы.** Недостаток финансовых ресурсов или ограниченные возможности доступа к финансированию могут ограничить возможности развития и реализация финансовой стратегии компании.
- **Технологические вызовы.** С развитием цифровых технологий и изменением рыночных требований, компании должны адаптироваться к новым технологическим трендам и инновациям, что также может повлиять на их финансовую стратегию.
- **Сложность оценки эффективности.** Оценка эффективности финансовой стратегии и ее вклада в достижение корпоративных целей может быть сложной из-за множества факторов, влияющих на финансовые результаты компании.

Решение этих проблем требует системного подхода, интеграции современных методов анализа и планирования, а также гибкости и адаптивности в реагировании на изменения внешней среды и внутренних условий компании (табл. 2).

Таблица 2: Пути и методики решения проблем

Основные проблемы финансового стратегирования	Предложения по решению данных проблем	Методика решения данных проблем
Неопределенность рыночных условий	Разработка гибкой стратегии, способной адаптироваться к изменяющимся рыночным условиям	Применение сценарного анализа для оценки влияния различных сценариев на бизнес и разработка стратегий реагирования на каждый из них. Это позволит компании быть готовой к различным сценариям развития событий
Финансовые риски и неопределенность	Разработка и реализация стратегии управления рисками, включая диверсификацию портфеля и использование финансовых инструментов для защиты от рисков	Проведение регулярного мониторинга и анализа финансовых рисков с помощью методов статистического моделирования и сценарного анализа. Применение финансовых инструментов, таких как опционы, фьючерсы и страхование, для снижения экспозиции к рискам
Технологические вызовы	Инвестирование в цифровые технологии и цифровую трансформацию для повышения эффективности бизнес-процессов и улучшения конкурентоспособности	Проведение анализа текущих процессов и выявление областей, где цифровые технологии могут принести наибольшую пользу. Разработка и реализация плана цифровой трансформации с определением ключевых этапов и ресурсов для их выполнения
Ограниченные ресурсы	Привлечение дополнительного финансирования или оптимизация использования доступных ресурсов	Разработка бизнес-плана с привлечением инвестиций от инвесторов или использование альтернативных источников финансирования, таких как кредиты или гранты. Проведение анализа эффективности текущих операций и выявление возможностей для сокращения издержек и оптимизации использования ресурсов
Сложность оценки эффективности	Разработка метрик и ключевых показателей производительности (KPI), позволяющих оценить вклад финансовой стратегии в достижение бизнес-целей компании	Определение конкретных целей и измеримых показателей для каждого аспекта финансовой стратегии. Регулярное отслеживание и анализ этих показателей для оценки эффективности стратегии и внесения корректировок в нее при необходимости

TARAQQIYOT PROGRESS

В современном бизнесе финансовое стратегирование играет ключевую роль в успешном функционировании организации и достижении ее стратегических целей. Однако, как показывает наш анализ, существует ряд проблем и вызовов, с которыми компании сталкиваются при разработке и реализация финансовых стратегий в корпоративном управлении.

Основные проблемы включают в себя неопределенность рыночных условий, финансовые риски, ограниченные ресурсы, технологические вызовы и сложность оценки эффективности финансовых стратегий. Однако, через применение соответствующих решений и методик, компании могут преодолеть эти проблемы и достичь более устойчивого и эффективного финансового управления.

Решения, такие как разработка гибких стратегий, управление рисками, инвестирование в цифровые технологии и оптимизация использования ресурсов, могут помочь компаниям адаптироваться к изменяющимся условиям рынка, минимизировать финансовые риски, повысить эффективность операций и повысить конкурентоспособность.

В целом, финансовое стратегирование в корпоративном управлении является ключевым инструментом для обеспечения долгосрочного успеха компаний. Понимание основных проблем и применение эффективных решений поможет организациям достичь своих целей и оставаться конкурентоспособными в современной динамичной бизнес-среде.

Список литературы:

1. Финансовый менеджмент: учебное пособие/Ю. А. Долгих, Т. В. Бакунова, Е. А. Трофимова, Е. С. Панфилова; под ред. Ю. А. Долгих; М-во науки и высшего образования РФ. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 118, [2] с.
2. Квинт В. Л., Трачук А. В., Дзгоев В. Д. Стратегирование национальных и региональных инновационных систем. –М.: Издательский дом “Бюджет”, 2021. –199 с.
3. Б. С. Батаева, А. В. Вавилина. “Корпоративная прозрачность, корпоративная социальная ответственность и корпоративное управление”. – Известия Сарат. ун-та. Нов. Сер. Экономика. Управление. Право. 2014. – Т. 14, вып. 1, ч. 1.

MILLIY IQTISODIYOTNING O‘SISHIDA AGROKLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH HAMDA INNOVATSION INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH

Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Real iqtisodiyot” kafedrasi dots.nti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Agrosanoat klasteri geografik mahalliylashtirilgan o‘zaro bog‘liq xo‘jalik yuritish subyektlari, kompaniyalar, asbob-uskunalar va butlovchi qismlar ta’minotchilari, ixtisoslashgan xizmatlar, infratuzilma, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari hamda bir-birini to‘ldirib turadigan, alohida kompaniyalar va butun klasterning raqobatli ustunliklarini kuchaytiradigan bo‘lib hisoblanadi. Shu bois mamlakat agrosanoat ishlab chiqarishini uzviy ilmiy bog‘lash masalalari ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: Agrosanoat majmuasi, agrosanoat klasteri, klaster, raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, innovatsion infratuzilma.

Abstract: In this article, an agro-industrial cluster is a geographically localized network of interconnected business entities, companies, suppliers of equipment and components, specialized services, infrastructure, research institutes, higher education institutions and complementary ones that enhance the competitive advantages of individual companies. and the cluster as a whole. Therefore, questions of organic scientific combination of the country’s agro-industrial production have been raised.

Key words: Agro-industrial complex, agro-industrial cluster, cluster, competitiveness, innovation, innovative activity, modernization, innovation infrastructure.

Аннотация: В данной статье Агропромышленный кластер представляет собой географически локализованную сеть взаимосвязанных хозяйствующих субъектов, компаний, поставщиков оборудования и комплектующих, специализированных услуг, инфраструктуры, научно-исследовательских институтов, высших учебных заведений и дополняющих друг друга, усиливающих конкурентные преимущества отдельных компаний. и кластер в целом. Поэтому подняты вопросы органического научного соединения агропромышленного производства страны.

Ключевые слова: Агропромышленный комплекс, агропромышленный кластер, кластер, конкурентоспособность, инновации, инновационная деятельность, модернизация, инновационная инфраструктура.

KIRISH

Mamlakat agrosanoat ishlab chiqarishini klasterlashtirish (cluster) muammosi milliy iqtisodiyotning barcha sektorlarining texnologik modernizatsiyasi tufayli alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda, mamlakat agrasanoat majmuining barcha mulk shaklidagi korxonalari (fermer va dehqon xo‘jaliklari, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlovchi korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va h.k)ni innovatsion rivojlantirish imkoniyatini oshiruvchi zarur institutsional muhitni yaratishga asosiy e’tiborini qaratadi. Shuning uchun, agrosanoat majmui korxonalarining raqobat faolligini oshirish, ishlab chiqarish omillari uyg‘unligining yangi shakllarini izlash, yangi mahsulotlarni yaratish va bozorlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Agrosanoat klasteri geografik mahalliylashtirilgan o‘zaro bog‘liq xo‘jalik yuritish subyektlari, kompaniyalar, asbob-uskunalar va butlovchi qismlar ta’minotchilari, ixtisoslashgan xizmatlar, infratuzilma, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari hamda bir-birini to‘ldirib turadigan, alohida kompaniyalar va butun klasterning raqobatli ustunliklarini kuchaytiradigan boshqa tashkilotlar guruhini ifodalaydi.

Agrosanoat klasterini boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o‘zaro aloqalari modellarining umumiyligi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (paxta, uzumchilik, sabzavot, chorva mahsu-lotlari va b.) yaqqol ifodalangan omili hisoblanadi.

Agrosanoat klaster qatnashchilarining innovatsion yo‘naltirilganlik omili klasterni ajratib turadigan muhim jihat hisoblanadi. Klasterlar, qoidaga ko‘ra, ishlab chiqarish texnologiyalari va texnika sohasida ilg‘or o‘sish va kelgusida yangi “bozor o‘rinlari”ga chiqish kutilayotgan yoki amalga oshirilayotgan joylarda shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi – klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi orqali ko‘rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydalana olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi [1].

Raqobatbardoshlikni qaror toptirish bo‘yicha iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga klasterli yondashuv boshqa qator nazariyalarda ham qo‘llaniladi:

- Ye.Lyumer milliy darajadagi savdoni tahlil qilish davomida eksport darajasi yuqori bo‘lgan klasterlarni o‘rgangan; [2]
- I.Tolenado va D.Sole texnologik sohalarning guruhlariga ta’rif berishda “filerlar” tushunchasidan foydalanganlar; [3]
- Ye. Daxmenning klaster nazariyasi “taraqqiyot bloklari to‘g‘risida”gi tezisiga asoslanadi; [4]
- V.Feldman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning afzal tomoni shundaki, u turli mamlakatlardagi diversifikatsiyalangan shakldagi korxo-nalarni keng ko‘lamda empirik tadqiq qilishga asoslanadi.[5]

M. Enrayt tomonidan 160 mintaqaviy klaster o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, klasterlarning taxminan 60%i jahon yoki mahalliy yetakchilar qatoridan o‘rin olgani va faqat 20 % i zaif raqobatbardoshlikka ega ekani ma’lum bo‘ldi [6].

B. O. Dusmatov tomonidan Agroklasterlarni boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o‘zaro aloqalari modellarining umumiyligi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (misol uchun paxta-to‘qimachilik klasteri) yaqqol ifodalangan omili hisoblangan [7].

B. O. Dusmatov tomonidan Qishloq xo‘jaligida kooperatsion-xo‘jalik munosabatlarining odatdagi shakllaridan farqli ravishda, agroklaster tizimlarida innovatsion xizmatlar infratuzilmasi quyidagi xususiyatlari orqali tavsiflangan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy iqtisodiyotni iqtisodiy o‘sishida agroklasterlarni shakllantirish va uning samaradorligini innovatsion infratuzilmani rivojlanishi mavzusidagi maqolada ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotiga muvofiq, ASMda quyidagilar klasterlarning asosiy belgilari hisoblanadi:

- klaster qatnashchilari o‘rtasida tizimli rivojlanadigan aloqalar, raqobat va kooperatsiya (jumladan, davlat-sheriklik munosabatlari, qo‘shma loyihalar) mavjudligi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar – klaster qatnashchilarining iqtisodiy aloqalari barqarorligi, bu aloqalarning klaster qatnashchilari aksariyati uchun ustunlik qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi (dehqon va fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari, servis tuzilmalari va b.);
- klaster qatnashchilarining innovatsion faolligi yuqoriligi, raqobatli ustunliklarni doimiy takomillashtirishga yo‘naltirilganlik (hududiy universitet va institutlar, ilmiy markazlar, innovatsion markazlar va b.);

- butun tizimning uzoq muddatli xo‘jalik, innovatsion va boshqa strategiyalarini belgilab beradigan yetakchi – yirik tashkilot mavjudligi (paxta-tekstil klasteri uchun-tekstil sanoat korxonasi, meva-sabzavot klasteri uchun- qayta ishlash korxonasi va b.);
- ishlab chiqarish dasturlari, innovatsion faoliyat, asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati va boshqalar doirasida klaster qatnashchilarining o‘zaro aloqalarini uzoq muddatli muvofiqlashtirish (sertifikatsiya laboratoriyalari, sifat inspeksiyalari, mahalliy boshqaruv organlari va b.).

Hozirgi paytda amalda O‘zbekistonning barcha mintaqalarida hududiy-tarmoq agroklasterlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud, ular tarmoqlar miqyosida ham tashkil etilayapti. Andijon viloyati hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlantirish vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, “O‘zbekoziqovqatxolding” xolding kompaniyasining “Premium Agro Gold” va “Navigul” mas’uliyati cheklangan jamiyatlari hamda “Obod turmush orzusi” fermer xo‘jaligi tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotishga ixtisoslashtirilgan namunaviy meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etildi

Bu agroklasterning faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ulardan hududiy sharoitlarda keng foydalanish hamda meva-sabzavotchilik sohasiga klaster tizimini joriy qilishda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- tashqi bozor talabiga to‘liq javob beradigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, istiqbolda ularning seleksiyasi va urug‘chiligini mamlakatimizda o‘zlashtirish va rivojlantirish;
- “O‘zstandart” agentligi 2019-2020-yillarda meva-sabzavotchilik klasterlarida xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish (ISO 22000, Global G.A.P) talablari bo‘yicha sertifikatlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ko‘zda tutgan.

Davlat klaster siyosatining maqsadi rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish vositasida agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadga muvofiq davlat agroklaster siyosatining quyi-dagi vazifalari belgilab berilishi lozim:

- agroklasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilash;
- agroklasterlarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha mutaxassislar va rahbarlar professional tayyorlash uchun sharoitlar yaratish;
- agroklasterli tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish.

Agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning klasterli modelidan foydalanish istiqbollari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini tashkil qilish. Buning uchun davlat organlari va biznes-hamjamiyat vakillari uchun iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish masalalari bo‘yicha xorijiy ekspertlar ishtirokida axborot-ta’lim tadbirlarini o‘tkazish, jumladan, muayyan klasterli loyihalar tashabbusi bilan chiqish va ularni amalga oshirish borasida amaliy tajribalarni o‘rganish talab qilinadi.

Hozirgi paytda agroklasterlarni ikki xil tashkiliy shaklda shakllantirishni ta’minlash maqsadga muvofiq:

- agroklaster qatnashchilari o‘rtasida uning doirasida qator yo‘nalishlar bo‘yicha (marketing tadqiqotlari o‘tkazish, birgalikdagi ilmiytadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion loyihalar tashkil qilish va o‘tkazish, axborot-ta’lim va reklama tadbirlarini amalga oshirish, jamoaviy foydalanish obyektlari qurilishi va ekspluatatsiyasini tashkil qilish va b.) klasterning barcha qatnashchilari manfaatlarida muvofiqlashtirilgan faoliyat amalga oshiriladigan oddiy hamkorlik shartnomasi (birgalikdagi faoliyat haqida shartnoma) tuzish. Bunda qatnashchilar rahbarlari tarkibidan klaster kengashi shakllan-tiriladi, lekin klasterli rivojlantirish markazi funksiyalarini bajaradigan maxsus apparat tashkil qilinmaydi;
- agroklaster qatnashchilari tomonidan klaster kengashidan tashqari alohida yuridik shaxs tashkil qilish (mas’uliyati cheklangan jamiyat) yoki funksiyalarni klasterli rivojlantirish tashkiloti hisoblangan amaldagi tashkilotga o‘tkazish. Klasterli rivojlantirish tashkiloti agroxolding jamiyati shaklida tashkil qilinishi mumkin.

Agroklasterlarni boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o‘zaro aloqalari modellarining umumiyligi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (misol uchun paxta-to‘qimachilik klasteri) yaqqol ifodalangan omili hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Paxta-to‘qimachilik klasterining mahsulot turlari

Mahalliy boshqaruv organlari agroklaster tuzilmalari bilan hatto aniq klasterli yondashuv yo‘qligida ham o‘zaro aloqa qiladi. Klasterlashtirish mexanizmlaridan foydalanish yangi bilimlar va mahsulot yaratish kesimida davlat tomonidan moliyalashtirishni samarali tarkiblash va muvofiqlashtirishga imkon beradi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish va muvofiqlashtirish masalalaridan tashqari hukumat organlari klasterli rivojlanish markazlari faoliyati qonuniyligini ta’minlagan va moliyaviy qo‘llab-quvvatlagan holda klasterni rivojlantirish faol jarayoniga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida kooperatsion-xo‘jalik munosabatlarining odatdagi shakllaridan farqli ravishda, agroklaster tizimlarida innovatsion xizmatlar infratuzilmasi quyidagi xususiyatlari orqali tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval: Agroklasterlarda innovatsion infratuzilmani rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari[1]

№	Mazmuni
1.	Butun tizimning uzoq muddatli xo‘jalik, innovatsion va boshqa strategiyalarini belgilab beruvchi yetakchi korxonaning mavjud bo‘lishi
2.	Klaster tizimidagi ishtirokchi xo‘jalik subyektlari va innovatsion infratuzilmasi subyektlariniasosiy qismining hududiy mahalliylashuvi
3.	Innovatsion infratuzilma subyektlari va klaster tizimi ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, ishtirokchilarning katta qismi uchun bu aloqalar ahamiyatining ustuvorligi
4.	Innovatsion infratuzilma va klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish dasturlari, innovatsiya jarayonlari doirasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlarining davomli muvofiqligi
5.	Boshqaruv, sifat nazorati va boshqa asosiy tizimlar

Shu bilan bir qatorda, barcha mamlakatlar ham klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha ijobiy tajribaga ega emaslar, masalan, 1994-yilda Portugaliyada 33 klaster ajratilgan bo‘lsada, ularning barchasi ham samarali bo‘lmadi, buni esa ajratib olingan klasterlar avval boshdanoq raqobatbardosh emasligi yoki bir-biri bilan

1 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan.

bog‘lanmagan firmalarning oddiy to‘plamidan iborat ekani orqali tushuntirish mumkin. Biroq shunga qaramay, ko‘p holatlarda klasterlar alohida tarqoq korxonalarga nisbatan raqobatbardoshroq hisoblanadi. Agroklasterni yaratishda xomashyo olishdan boshlab, qayta ishlash va mahsulotni sotishgacha bo‘lgan butun texnologik zanjirning yuzaga kelishi natijasidagi sinergetik samaraning shakllanishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega, bu esa o‘z navbatida, tarmoqning innovatsion jozibadorligi ortishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida klaster siyosati amalga oshirilishi klaster ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilishi, innovatsiyalarga, texnologiyalarga, nou-xau, ixtisoslashgan xizmatlar va yuqori malakali kadrlarga ega bo‘lish va boshqa imkoniyatlar kengayishi hisobidan korxonalar raqobatbardoshligining o‘sishiga yordam beradi.

Agroklasterlarning shakllanish bosqichlari davomiyligi ko‘p tomonlama resurslarning mavjudligiga, asosiy ishtirokchilarning manfaatdorlik darajasiga, institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqib, kuchli agroklasterlarni ajratishning quyidagi algoritmi taklif etiladi:

- tovarlarning istiqbolli turlarini aniqlab olish, ya’ni mintaqadagi agrosanoat ishlab chiqarishi tomonidan ishlab chiqariladigan istiqbolli mahsulot turlari orasidan mahsulot eksportida ularning ulushini tahlil qilish asosida;
- agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardosh mahsulotlarining jahon bo‘yicha ishlab chiqariladigan hajmi va narxlari dinamikasini o‘rta va uzoq muddatli bashorat qilish;
- klaster yadrosini tashkil etishga qodir bo‘lgan korxonalarning faoliyati samaradorligini aniqlab olish (istiqbolli mahsulotlarni ishlab chiqarish);
- klasterni rivojlantirish uchun zarur resurslarni belgilab olish. Tanlangan hudud doirasida joylashgan istiqbolli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarning xomashyo, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish kuchlari va boshqalar bilan ta’minlanganlik darajasi tahlil etiladi;
- infratuzilmaning agroklaster faoliyati uchun yetishmaydigan elementlarini yaratish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;
- klasterning muhim ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik darajasini aniqlab olish, istiqbolli korxonalar rahbarlari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish asosida klasterning salohiyatli ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik qilish darajasi aniqlanadi.

Agrosanoat klasterida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini shakllantirishning quyidagi bosqichlari taklif etiladi:

a) birinchi bosqich mintaqada agrosanoat klasterini innovatsionxizmatlar infratuzilmasini shakllantirishga uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni ko‘zda tutadi;

b) ikkinchi bosqich mavjud sharoitlarni va klasterlarni raqobatbardoshlik salohiyatini va uni innovatsion xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borishni ko‘zda tutadi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- klaster chegarasini belgilash;
- klaster ichida uning rivojlanishini, shu jumladan innovatsion xizmatlar infratuzilmasi subyektlari (moliya, ilmiy va kadrlar ta’minoti, marketing-logistika va b.) aloqalarni aniqlash;
- strategik SWOT ─ tahlil o‘tkazish, uning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi;

d) uchinchi bosqich yagona klaster modelini shakllantirish, klasterning samarali shakllanishini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar, shu jumladan, innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqilishini ko‘zda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- mintaqada agrosanoat klasteri ishtirokchilarining qo‘shma faoliyati miqiyosini aniqlash;
- klasterning innovatsion xizmatlar infratuzilmasini vazifalarini belgilash;
- klasterni rivojlantirishda, uning asosini tashkil qiluvchi qishloq ho‘jaligini, rivojlantirishning ssenariylar yondashuvi asosida o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan istiqbollarini ishlab chiqish;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning strategik yo‘na-lishlarini amalga oshirishning me’yoriy-huquqiy va tashkiliy-xo‘jalik mexanizmlari yaratilishini ko‘zda tutuvchi klasterni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

e) to‘rtinchi bosqich klasterni qisqa va o‘rta muddatli rivojlantirish ssenariysi, shu jumladan, innovatsion xizmatlar infratuzilmasi yo‘nalishlari bilan o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda klaster sinergetik samaradorligini baholashni ko‘zda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlan-tirishning o‘rta va uzoq muddatli prognozi ssenariy yondashuv asosida ishlab chiqilgan.
2. Mamlakatda agrosanoat kompleksida innovatsion xizmatlarning infratuzilmasini rivojlantirish uchun institutsional muhitni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari belgilandi, jumladan: texnologiyalarni sotish (transfer) sohasida xizmatlarni amalga oshirish, innovatsion faoliyatni axborot va tahliliy qo‘llab-quvvatlash samara-dorligini oshirish xamda oliy va kasb-hunar ta’limi tizimini moder-nizatsiya qilish doirasida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish.
3. Mamlakatda agrosanoat ishlab chiqarishini innovatsion moder-nizatsiyalashning institutsional mexanizmini rivojlantirish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: raqobatbardosh tadqiqot sohasini yaratish; autsorsing vositalarini qo‘llash orqali tijoratlashtirish institutlarini rivojlantirish (diffusion of innovation – innovatsiyalarni joriy etish jarayoni samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi).
4. Paxta-to‘qimachilik klasterida innovatsion infratuzilma faoliyati natijasida tranzaksion xarajatlarni kamaytirish sinergiya ta’siri va klaster sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani integratsiyalashganligi tufayli amalga oshiriladi.

Shunday qilib, eng muhimi mamlakatni klasterli rivojlantirishning salohiyatini baholash bilan cheklanib qolmay, balki uning institutsional asoslarini va o‘zaro manfatli iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В.Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.
2. Leamer E.E. Souses of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge. – MIT Press, 1984.
3. Tolenado J.A.Propjs des Filires Industrielles. - Revue d’Economie Industrielle. - V. 6. - 1978. - .№ 4. - P. 149-158; Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. – Annales des Mines, Janvier 1989. – P. 21-28.
4. Dahmen E. Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry, 1919-1939. - Stockholm, 1950; Mattsson L.G. Management of Strategic Change in a “Markets-as-Networks” Perspective. In the Management of Strategic Change/ Ed. by Fndrew M. Pettigrew. – Oxford, N. Y., 1987.
5. Feldman V.P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition-European Economic Review. – 1999. – № 43. – P. 409-429.
6. Enright M.J. Survey on the Characterisation of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy. University of Hong Kong, 2000, – 21 p.
7. B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 118 b.
8. B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 119 b.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE ORGANIZATION THROUGH THE USE OF INNOVATIVE MODELS OF PERSONNEL MANAGEMENT

Bahodurova Sulhiya Azizhojaevna
Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Department of Engineering Economics and Management, KhPITTU named after Academician M.S. Osimi, Tajikistan

Akhmedov Usmonjon Khaidarjonovich
Deputy Director for Science and Innovation. KhPITTU named after Academician M.S. Osimi, Tajikistan

Li Marina Rudolfovna
PhD, Professor of the Department of Corporate Economics and Management, Tashkent State Economic University, Uzbekistan

Romashkin Roman Anatolyevich
PhD, Deputy Director of the Institute for Statistical Studies and Economics of Knowledge (ISSEK), Lomonosov Moscow State University, Russia

Abstract: In personnel management, the personnel performance assessment system is of particular importance, which allows to increase the effectiveness of motivation, reduce turnover and increase labor productivity. The personnel management system is defined as the process of proper organization, control and management of human capital. In this regard, several methods for assessing the performance of personnel have been studied. In the enterprise under study, one of the evaluation methods is already being introduced - this is the KPI method. As a result of studying this method, the shortcomings of this method were revealed. The most important thing is that this method takes into account only quantitative indicators of personnel performance. There was a need to find an assessment method that takes into account the qualitative indicators of personnel performance. As a result of the analysis, the 360-degree method was chosen. The reasons for choosing this method are the assessment of quality indicators with the minimization of subjective elements by evaluating the employee's activities from all sides: manager, colleagues, subordinate and client. To combine quantitative and qualitative indicators, it was decided to create a generalized model for assessing the performance of personnel, which will include the results of KPI and 360-degree methods. A generalized model for assessing the performance of employees was developed, which includes qualitative and quantitative indicators and has a clear procedure for calculating the final assessment based on mathematical calculations.

Key words: personnel management, personnel performance evaluation system, KPI method, 360 degree method, staff turnover.

Важнейшая закономерность XX в. – трансформация индустриальной экономики в постиндустриальную, или экономику услуг. В основе этого объективного процесса лежит поступательное движение производительных сил, что в свою очередь влечет за собой рост производительности труда и других факторов производства общества, что в свою очередь влечет за собой рост производительности труда, то есть его продуктивность, результативность. Она измеряется либо количеством продукции в единицу времени, либо количеством времени на единицу продукции. Особо важная причина развития сферы услуг – глубокие преобразования в системе общественных потребностей. Усложнение техники, технологий, структуры производства, рост жизненного уровня населения и его социальной активности, а также совершенствование самого человека (повышение образовательного и культурного уровня и т.д.) последовательно расширяли спектр потребностей производства и населения.

Развитие сферы услуг – объективный процесс, свойственный всем странам мирового сообщества. Но реализуется он в каждой из них по мере вызревания внутренних предпосылок, в прямой зависимости от уровня экономического развития. В странах экономически слабо развитых хозяйственная дея-

6 Robert E. Lucas Jr. “The Industrial Revolution Past and Future” 30.09.2007https://cambridgeforecast.wordpress.com/?s=INDUSTRIAL+REVOLUTION

7 Большой бухгалтерский словарь.- М.: Институт новой экономики. Под редакциейА.Н.Азрилияна.1999URL:https://buhgalterskiy_slovar.academic.ru

тельность сводится преимущественно к производству вещной продукции. Чем выше уровень развития хозяйства, производительности труда, тем выше роль в структуре экономики трудовой деятельности, направленной на производство нематериальных, неосязаемых видов продукции, выраженных в форме услуги. Эти закономерности на рубеже веков проявляются в полной мере. В результате длительной эволюции к концу XX в. доля услуг в мировом ВВП достигла 68%[8] [7].

Примечательна заметная дифференциация по степени развития сферы услуг в группе ведущих стран. Несомненным лидером в ее становлении и прогрессе на протяжении прошлого века являются США. Сосредоточив в конце этого периода более 1/3 мирового производства услуг (доля США в ВВП вещной сферы составляет 30%), эта страна прокладывает путь для стран-последователей, задает ориентиры по многим магистральным направлениям общего поступательного движения – в области структурных тенденций.

Сфера обслуживания населения, совокупность отраслей и сфера народного хозяйства, продукт которых (предметы потребления) выступает в виде определенной целесообразной деятельности (услуг). Особенность общественного труда, занятого в сфере обслуживания – преимущественное непосредственное воздействие на человека в качестве объекта приложения труда. Результаты такой деятельности, как правило, принимают форму услуг. Определяя особенности общественного труда в отраслях и сферах обслуживания, К.Маркс писал, что здесь труд "… оказывает услуги не в качестве вещи или продукта, а качестве деятельности…" (Маркс К. и Энгельс Ф., соч. 2, изд. Т.26 2.1. с.413).

Таким образом, в сфере обслуживания не происходит характерного для материально-вещественного производства перехода из формы деятельности в форму продукта. Процесс производства услуг почти всегда совпадает с процессом их потребления.

В условиях повышения экономической эффективности общественного производства (который вызывает весь процесс непрерывно повторяющегося хозяйственного кругооборота в обществе) и роста производительности занятого в нем труда происходит рост отраслей сферы обслуживания и оказываемых материальных и нематериальных услуг в развитии отраслей народного хозяйства увеличивается их значение. С конца второго и начала третьего тысячелетия (1999 и 2000) почти во всех странах мировой цивилизации происходит развитие сферы обслуживания и сферы услуг (естественно оба они тождественны, т.е. сходны) отражающие рост. В 2002 г. США: Источники ВВП % от общего количества сельское хозяйство – 1,4, промышленности – 20,4 в т.ч. обрабатывающая – 14,1, сферы услуг – 78,3; Соединенное Королевство: Источники ВВП % от оборота сельское хозяйство – 1,0, промышленность – 27,3 в т.ч. обрабатывающая – 16,6, сфера услуг – 71,8; Страны Евросоюза – Экономика – источник ВВП % от оборота объема сельское хозяйство – 2,0, промышленность – 28, в т.ч. обрабатывающая – 21, сфера услуг – 70; Мировая экономика – источники ВВП % от оборота объёма сельское хозяйство – 4,0, промышленность – 29, в т.ч. обрабатывающая – 19, сфера услуг – 68[9] [8]; аналогично: 2013 г. США 1; 21; производство сферы услуг 13 и 78,5; Соединенное королевство: 1,2, производственная сфера 10 и 79; Евросоюза 2,25,16,74; Мир: 3,27, в т.ч. производственная сфера 16 и 70[10] [9];2017 г. США: 1, 19, 12 и 80; Соединенное королевство: 1 , 18, 9, 81; Еврозона: 2, 25, 17 и 73[11] [10];

В составе сферы обслуживания функционируют как отрасли, относящиеся к материальному производству, так и те деятельности, которые учитываются в рамках непроизводственной сферы (совокупность отраслей и видов деятельности по обслуживанию населения и народного хозяйства) совокупность отраслей экономики, непроизводящих материальные блага.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Новый обновленный Узбекистан это по своему содержанию очень древнового государство Центральной Азии. Вот именно, за последние 3-4 с лишним года мы заново по-настоящему обновились.

Разработка вопроса о новом качестве экономического роста основана на глубоких политико-экономических обобщениях, на анализе исторических уроков и изменившихся условий расширенного воспроизводства. Необходимость перехода к новому типу роста обусловлена совокупностью объективных причин.

Среди них нужно, прежде всего, назвать коренное изменение условий и источники роста. Наряду с исчерпанием экстенсивных факторов, которые всегда носят исторически ограниченный характер, решающее значение имеют развертывание научно-технической революции, качественные преобразования

8 Основные тенденции развития сферы услуг в россии и за рубежом // Евразийский Союз Ученых - публикация научных статей в ежемесячном научном журнале. Экономические науки.(https://euroasia-science.ru/ekonomicheskie-nauki)

9 Мир в цифрах-2005 г. Карманный справочник. М. 2005 стр.196,198,230 и 232

10 Мир в цифрах-2016 г. Карманный справочник. -М. 2016. стр. 198, 200, 232 и 234.

11 Мир в цифрах-2020 г. Карманный справочник. -М. 2020. стр. 198, 228 и 230.

в структуре и составе совокупного работника, усложнение экологических условий воспроизводства и совершенно новая, неизвестная ранее роль информационных потоков как фактор экономического роста.

В значительной степени указанный переход обусловлен также необходимостью преодоления негативных явлений, возникающих в экономике на предшествующем этапе развития. Ситуация, сложившаяся в экономике в конце 70-х – начале 80-х гг., наглядно показала, что старый тип роста во многом исчерпал себя, и продолжение прежней ориентации неизбежно заводит экономику в тупик.

Наконец, следует подчеркнуть, что новое качество роста во многом обусловлено и изменением ориентиров социально-экономического прогресса, выдвижением на первый план не промежуточных, а конечных социально значимых результатов. Речь идет о глубоком, радикальном повороте народного хозяйства к решению многообразных социальных задач, отражающих внутренние цели развития отечественного производства.

В сути перемен, говорилось в постановлении, в перенесении центра внимания с количественных показателей на качество и эффективность, с промежуточных на конечные результаты, с расширения производственных фондов – на их обновление, с наращивания топливно-сырьевых ресурсов – на улучшение их использования, на ускоренное развитие наукоемких отраслей, производственной и социальной инфраструктуры.

Дело в том, что на начальных этапах развития рыночной экономики, особенно в условиях недостаточно развитой экономики, на первый план неизбежно выдвигается создание базовых отраслей промышленности, новой материальной базы сельского хозяйства и других отраслей. Достижение этих целей выступало как первоочередная задача и важнейший ориентир экономического роста (Таблицы 1, 2, 3).

Таблица 1: Динамика производство важнейших видов продукции в Узбекистане за один день.

№	Виды продукции	1940	1960	1970	1980	1990	2000	2010	2020
1	Электроэнергия, млн.кВ ч	1.3	16.0	50.1	92.7	160.0	190	220	250
2	Природный газ, млн м^3	0.02	1.2	87.9	95.2	110.0	120	135	145
3	Минеральные удобрен (в пересчете 100% питательных веществ), тыс. т	0.001	0.6	2.3	3.5	5.5	7.5	10.0	15.0
4	Цемент, тыс.т.	0.7	3.3	8.8	11.4	15.1	20.0	24.0	28.0
5	Розничный товарооборот Государственной и кооперативной торговли, млн. сум	1.4	6.1	13.7	28.2	40.1	45.6	50.4	59.2

Источник: Составлено авторами на основании справочников народного хозяйства соответствующих годов (1940-2020).

За один день производилось такое количество электроэнергии, для производства которого потребовалось бы 115 дней, минеральных удобрений – 5300 дней и остальных видов точно также.

Таблица 2: Основные показатели экономического и социального развития Узбекистана в процентах к предыдущему году

№		1981	1985	1990	1995	2000	2005	2010	2015	2020
1	Валовый внутренний продукт (ВВП)	104.9	104.8	96.7	98.8	90.8	105	105	105.6	105.6
2	Производственный национальный доход	103.8	105.7	97.3	95.4	91.4	103.4	103	103.3	103.4
3	Продукция промышленность.	106.0	106.9	98.3	100.2	103.4	105.6	105	105.5	106.4
4	Продукция сел. хоз-во	98.3	100.9	98.7	102.3	104.6	107.8	106	105	106

Источник: Составлено авторами на основании справочников в указанные годы.

Здесь анализируются сравнительные данные первых 10 лет до приобретения независимости (1981-1990), первые десятилетия (1991-2000) и вторые десятилетия (1990-2010) и третьи десятилетия (2010-2020) независимости Узбекистана, в которые сравнительно с прошлыми годами экономика страны в среднем развивалась по 5-6%.

В Узбекистане в 1991-1995 гг. было остаточное наследие от прошлого, т.к. экономика была слабая, снижение экономики привело к минимальной степени подъема. В результате было обеспечено создание экономической стабильности.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ДИСКУССИЯ

Новое качество роста связано, далее и с коренным изменением его источников. Среди них первостепенное значение приобретают интенсивные или качественные источники роста – повышение производительности труда, научно-технического прогресса, улучшение использования основных фондов и привлечение инвестиций, ресурсосбережение, улучшение качества, ассортимента выпускаемой продукции. Изменение в источниках экономического роста носит необратимый характер.

Не менее важное значение имеет осуществление политики ресурсосбережения, обеспечение экономики расхода топлива, энергии, металла, других видов материальных ресурсов на единицы конечной продукции.

Темпы прироста объема вводимого жилья в текущем году должны существенно возрасти. На первый взгляд это свидетельствует только о значительном количественном, эффективном ускорении процессов ввода жилья.

Наряду с этим, современная социальная политика Нового Узбекистана предполагает существенное продвижение вперед во всех сферах жизнедеятельности людей, выход на новые, значительно более высокие, чем прежде, рубежи. Намечается поднять народное благосостояние на качественно новую ступень.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

За последние 5 лет развития под руководством Президента Ш.М.Мирзиёева по его инициативе Узбекистан обновился, и этот процесс ещё будет идти и задача руководства – вывести государство на новый цивилизованный уровень развития, а также для Третьего Ренессанса. Это в свою очередь может положительно повлиять на предотвращение усиления внешних рисков. В связи с этим необходимо эффективное использование следующих факторов экономического роста:

- природные ресурсы страны – применение методов эффективного использования земельных, минеральных, водных, лесных и других ресурсов страны в социально-экономическом развитии страны;
- трудовые ресурсы, по-западному, “человеческий капитал”. Они влияют на рост экономики многостороннее - через уровень занятости, качество образования и профподготовки рабочей силы, через рациональность ее применения через старательность, исполнительность, ответственность работников и уровень производительности их труда;
- научно-технические знания – изобретения, рационализаторство, инновация, разработка новых материалов, машин, технологий, внедрение передовых форм управления и организации производства – всё это примеры практической отдачи научно-технических знаний;
- основной капитал – то есть производственные мощности общества. Для экономического роста важно систематическое увеличение инвестиций, накопление и обновление капитала, повышение доли активных фондов, фондоотдачи и фондовооруженности труда, применение современной, наиболее производительной техники;
- структура экономики – она должна быть рациональной, прогрессивной, с оптимальным распределением ресурсов и набором хозяйственных сфер, должна обладать способностью гибко меняться в ответ на вызовы времени и на изменения в самих потребностях людей;
- совокупный спрос – здесь понимают суммарный спрос на товары и услуги со стороны населения, предприятий и государства (при данном уровне цен, доход, банковских процентов и других показателей) и т.д.;
- тип экономической системы – исторический же опыт многих стран наглядно показывает, что рыночные системы более эффективны и продуктивны, более заряжены на прогресс, чем централизованные.

Список литературы:

1. Хусан Мамедов “Экономическое эссе” https://proza.ru/2011/02/09/958
2. “Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 15-м саммите Организации экономического сотрудничества” ОБЗОР ПРЕССЫ, 29 ноября 2021. /УЗИНФОРМ/. https://www.uzinform.com/ru/press/20211129/51156.html
3. Маркс К., Энгельс Ф. “Капитал” — Москва. 2 издан. том-23 стр.626
4. Статические данные за 2019 год.

5. Robert E. Lucas Jr. “The Industrial Revolution Past and Future” 30.09.2007 https://cambridgeforecast.wordpress.com/?s=INDUSTRIAL+REVOLUTION
6. Большой бухгалтерский словарь. — М.: Институт новой экономики. Под редакциейА.Н.Азрилияна.1999URL:https://buhgalterskiy_slovar.academic.ru
7. Основные тенденции развития сферы услуг в России и за рубежом // Евразийский Союз Ученых - публикация научных статей в ежемесячном научном журнале. Экономические науки. (https://euroasia-science.ru/ekonomicheskie-nauki)
8. Мир в цифрах-2005 г. Карманный справочник. —М. 2005 стр.196-232
9. Мир в цифрах-2016 г. Карманный справочник. —М. 2016. стр. 198-234.
10. Мир в цифрах-2020 г. Карманный справочник. — М. 2020. стр. 198-230.

SUG‘URTA BOZORI BO‘YICHA RISKLARNI BAHOLASH VA OBYEKTNI SUG‘URTAGA QABUL QILISHDA ANDERRAYTING XIZMATINING TUTGAN O‘RNI

Sayfullo Mirzoyev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, O‘zbekinvest” EISK AJ Korporativ mijozlar bilan ishlash va hududiy rivojlantirish departamenti Bosh menejeri

Annotatsiya: Sug‘urta bozori sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchi o‘rtasidagi oldi-sotdi jarayonida hosil bo‘ladigan munosabatlar majmuidir. Dastlabki sug‘urta bozorida ishtirokchilar zamonaviy sug‘urta bozoriga nisbatan kam bo‘lgan. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida insoniyat taraqqiyotiga mos holda sug‘urta sohasi ham rivojlanib bormoqda.

Zamonaviy sug‘urta bozori va sobiq sug‘urta bozori o‘rtasida anchagina tafovut mavjud. Zamonaviy sug‘urta bozori ishtirokchilari va ularning vazifalari jamiyatdagi murakkab xavf-xatarlarga moslashgan holatda kengayib bormoqda. Sug‘urta bozori pul munosabatlarini o‘zida aks etiradi. Sug‘urta bozoridagi talab insoniyat yashash tarzini rivojiga moslashadi.

Sug‘urta bozorida bir tarafdan sug‘urta xizmatlari taklifi bilan sug‘urta tashkilotlari qatnashadi, ikkinchi tarafda sug‘urtalanuvchilar va sug‘urtalovchilarni manfaatlarini kesishishiga xizmat ko‘rsatib, daromad oluvchi sug‘urta bozori ishtirokchilari qatnashadi. Bu ishtirokchilar sug‘urta vositachilari deb ataladi.

Kalit so‘zlar: anderrayter, anderrayting, risk, sug‘urta portfeli, aktuar hisob-kitoblar, tarif stavkalari, marketing, sug‘urta majburiyati, sug‘urta mukofoti.

Abstract: The insurance market is a set of relations between the insured and the insurer during the trading process. The early insurance market had few participants compared to the modern insurance market. As a result of the rapid development of the times, the insurance sector is also developing in accordance with the development of mankind.

There is a big difference between the insurance market of today and the insurance market of yesteryear. The participants of the modern insurance market and their tasks are expanding as they adapt to complex risks in society. The insurance market reflects monetary relations. Demand in the insurance market adapts to the development of human lifestyle.

On the one hand, insurance organizations participate in the insurance market with the offer of insurance services, on the other hand, there are participants of the insurance market who earn income by serving the intersection of the interests of the insured and the insurers. These participants are called insurance intermediaries.

Key words: underwriter, underwriting, risk, insurance portfolio, actuarial calculations, tariff rates, marketing, insurance obligation, insurance premium.

Аннотация: Страховой рынок – это совокупность отношений между страхователем и страховщиком в ходе торгового процесса. На раннем страховом рынке было мало участников по сравнению с современным страховым рынком. В результате стремительного развития времени страховой сектор также развивается в соответствии с развитием человечества.

Существует большая разница между сегодняшним страховым рынком и страховым рынком прошлых лет. Участники современного страхового рынка и их задачи расширяются по мере адаптации к сложным рискам в обществе. Страховой рынок отражает денежные отношения. Спрос на страховом рынке адаптируется к развитию образа жизни человека.

С одной стороны, страховые организации участвуют в страховом рынке, предлагая страховые услуги, с другой стороны, существуют участники страхового рынка, которые получают доход, обслуживая пересечение интересов страхователей и страховщиков. Эти участники называются страховыми посредниками.

Ключевые слова: андеррайтер, андеррайтинг, риск, страховой портфель, актуарные расчеты, тарифные ставки, маркетинг, страховое обязательство, страховая премия.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston sug‘urta bozorida so‘nggi 2021 va 2022-yillarda 41 ta sug‘urta tashkiloti faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning asosiy qismi 34 tasi umumiy sug‘urta tarmog‘ida, 8 tasi hayot sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yuritmoqda. Ushbu sug‘urta tashkilotlarining barchasi ham faol ishtirokchilar emasligi ko‘zga tashlanadi. Sug‘urta tashkilotlaridan 7 tasining sug‘urta mukofotlari bo‘yicha bozor ulushi foizdan kamligini ko‘rish mumkin. Sug‘urtaning muhim shartlaridan biri bu sug‘urta ta’rif stavkalari aniqligi yuqori bo‘lgan aktuar hisoblar orqali shakllantirilishi kerak. Lekin amaliyotda sug‘urta tashkilotlari bozordagi ulushini oshirish istagini yuqoriligi uchun sug‘urta ta’riflari yetarli darajada aktuar hisoblar orqali shakllanmayapti.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta tashkilotlari tomonidan risklar to‘liq aktuariylar xizmatidan foydalangan holda javobgarlikka qabul qilinayotganligi va risklar to‘liq anderrayterlar tomonidan javobgarlikka qabul qilinayotganligi ko‘rsatkichlari yuqori emas.

Sug‘urta bozorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin:

- Yalpi hisoblangan sug‘urta mukofoti hajmi.
- Mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi yalpi hisoblangan sug‘urta mukofotining ulushi.
- Yalpi hisoblangan sug‘urta mukofotining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi.
- Zararlilik koeffitsiyenti (jami sug‘urta qoplamasini jami sug‘urta mukofotiga nisbati).

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan olib borilayotgan oqilona iqtisodiy islohatlar hisobiga sug‘urta bozorida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan sug‘urta bozoridagi muhim ko‘rsatkichlardan biri mamlakat yalpi ichki mahsulotida yalpi sug‘urta mukofotlari ulushining sekin astalik bilan oshayotganligini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Yalpi sug‘urta mukofotining YAIMdagi ulushi (%)[1]

O‘zbekiston sug‘urta bozorini asosiy ko‘rstakichi yalpi sug‘urta mukofotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hajmi 0,7 % ko‘rsatkichga ega ekanligi sug‘urta bozorida juda ko‘p islohatlar amalga oshirilishi kerakligini bildiradi, buni quyidagi fikrlar bilan ifodalashimiz mumkin.

Birinchidan, mamlakat aholisini daromadlari yuqori emasligi, bu ko‘rsatkich bilan bog‘liq yechim Hindiston va Xitoy kabi davlatlar tajribasida amalda bo‘lgan “mikro sug‘urta” tizimini joriy etish bilan belgilanishi mumkin, chunki aholini kam daromadli qismini ham “mikro sug‘urta” orqali sug‘urta xizmatlari bilan qoplab olish mumkin. Bu amaliyot Afrikaning ham bir qancha mamlakatlarida kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatda hayot sug‘urtasini takomillashtirish zarur. Hayot sug‘urtasi mamlakat aholisini tibbiy xizmatlar bilan ta’minlashda asosiy bo‘g‘in hisoblanib, tibbiyot sohasi to‘liq sug‘urta orqali moliyalashtiriladi. Bir oz kech bo‘lsada mamlakatimizda bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

1 imda.uz sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilib, aholining sog‘lig‘i bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, ularni tibbiyot muassasasiga biriktirish, kasallik tarixini yuritish, dori vositalari uchun retsept yozish va kafolatlangan paketga muvofiq tibbiyot muassasalariga yo‘naltirish yagona elektron platforma orqali amalga oshirish belgilangan[2].

Uchinchidan, mamlakat sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta portfelini takomillashtirish sug‘urta portfeli muvozanatini saqlashda anderrayting xizmatidan foydalanish ko‘rsatkichi pastligicha qolmoqda. Bu rivojlangan mamlakatlar tajribasini O‘zbekistonga amaliyotga tadbiq etish zarur.



2-rasm: 2020-yildan 2022-yilgacha butun dunyo bo‘ylab tanlangan mamlakatlar va hududlarda hayot va hayotdan tashqari sug‘urtaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi o‘rni[3].

Rivojlangan malakatlarda so‘nggi uch yillik yalpi sug‘urta mukofoti hajmini yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘ramiz. Masalan AQSHda 12 %dan 11% ga tushganligi, Xitoyda 4.5 % dan 3.9 ga tushganligini umuman olganda dunyodagi global o‘zgarishlar va siyosiy harakatlar fonida

2 https://lex.uz/uz/docs/5100699 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.11.2020-yildagi PQ-4890-son qarori.

3 https://www.statista.com/statistics/381174/insurance-penetration-in-selected-countries-worldwide/ 2020-yildan 2022-yilgacha butun dunyo bo‘ylab tanlangan mamlakatlar va hududlarda hayot va hayotdan tashqari sug‘urtaning kirib borishi.

sug‘urta ta’rif stavkalarini oshayotganligi va mamlakatlarda yalpi yig‘ilayotgan sug‘urta mukofotlari hajmi kamayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. O‘zbekiston sug‘urta bozori ko‘rsatkichlarini 2020-2022-yillarda boshqa mamlakatlar sug‘urta bozorlari ko‘rsatkichlari bilan solishtirsak, Misr va Nigeriya mamlakatlari ko‘rsatkichi bilan yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ishtirok etayotgan professional ishtirokchi hisoblanuvchi sug‘urta tashkilotlarining yig‘ayotgan sug‘urta mukofotlaridan paydo bo‘layotgan sug‘urta portfelini yanada takomillashtirish sug‘urta portfelini diversifikatsiyalashuvini kengaytirishda sug‘urta anderrayterlarining o‘rni sezilarli emas, agarda sug‘urta anderrayterlari mukammal darajada faoliyatini tashkil etsa mamlakat aholisining asosiy qismida sug‘urtaga bo‘lgan ishonch kengayib, ularda sug‘urta xizmatidan naflanish yuqori bo‘la boshlaydi. Shuning uchun sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta anderraytingini sezilarli ravishda kengaytirish talab etiladi.

Sug‘urta bozori ikkita katta tarmoqqa bo‘linib rivojlangan malakatlarda “life insurance” , “no life insurance” tarjima sifatida aytsak hayot va hayot bilan bog‘liq bo‘lmagan sug‘urta tarmoqlari sifatida rivoj topgan. Rivojlangan davlatlar sug‘urta bozorida yig‘ilayotgan yalpi sug‘urta mukofotining asosiy qismi 60-70 foizi hayot sug‘urta tarmog‘ida yig‘ilsa, umumiy sug‘urta tarmog‘ida ya’ni “no life insurance” da 30-40 foizi sug‘urta mukofotlari yig‘iladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar evaziga ushbu ko‘rstakich 2022-yil yakunlariga ko‘ra yalpi yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarini 24 foizi hayot sug‘urta tarmog‘ida, 76 foizi umumiy sug‘urta tarmog‘ida yig‘ilganligini ko‘rishimiz mumkin va shu o‘rinda hayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta anderrrayterlari faoliyatini takomillashtirish kerak ekanligini alohida ta’kidlashimiz mumkin.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2022-yilda yalpi yig‘ilgan sug‘urta mukofoti aholi jon boshiga bo‘lganda 173 ming so‘mni, ya’ni 15 AQSH dollari atrofida ekanligini ko‘rstadi. Bu ko‘rstakich Yevropa davlatlarida 2-2.5 ming AQSH dollarini, boshqa rivojlangan davlatlarda ham kamida 1.5-2 ming AQSH dollari atrofida ekanligini ko‘rishimiz mumkin va sug‘urta mukofotlarini aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak.

1998-2022-yillarda umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta mukofotining zararliligini tahlil qilish (sug‘urta tovonlarining sug‘urta mukofotlariga nisbati) ushbu ko‘rsatkichning juda notekis dinamikasini aniqlashga imkon beradi (3-rasm).



3-rasm: Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta mukofotining zarar ko‘rsatish koeffitsenti dinamikasi (%)[4].

Ushbu ko‘rsatkichning bunday o‘zgarishi sug‘urta kompaniyalarining past sifatli anderraytingini yoki ularning sug‘urta tovon to‘lovlaridan qochishga qaratilgan siyosatini ko‘rsatishi mumkin, ularning ba’zilari sug‘urta mukofotining 2 foizdan kam zararligiga ega (ya’ni sug‘urta mukofotining 100 so‘midan sug‘urta tovonlari 2 so‘mdan kam).

Umumiy sug‘urta sohasining sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida yalpi sug‘urta mukofotining taqsimlanishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, umumiy sug‘urta bozori monopollashtirish darajasi past bo‘lgan bozordir. Buni bozorning konsentratsiyasini o‘lchash uchun ishlatiladigan va 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra 5,8 foizni tashkil etgan Herfindal-Xirshman indeksi ham tasdiqlaydi.

Sug‘urtani rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan mahalliy sug‘urta bozorining asosiy muammolari qatoriga quyidagilar kiradi: - xususiy va kichik biznes vakillari, shuningdek, aholi o‘rtasida sug‘urta madaniyati darajasining pastligi.

4 https://www.mf.uz/oz sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

XULOSA

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlantirish chora-tadbirlar majmuasiga quyidagi takliflar kiritildi:

1. Aholining sug‘urta madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha 3 yillik faol reklama va marketing kompaniyasini o‘tkazishni nazarda tutuvchi keng ko‘lamli Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini sug‘urta institutiga quyidagilar yordamida faol jalb etish:

a) kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari vakillarini qiziqtiradigan ishonchli, zamonaviy sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

b) sug‘urta xizmatlarining maqsadli marketingini o‘tkazish;

d) sug‘urtaning ushbu istiqbolli yo‘nalishini rivojlantirish uchun davlat miqyosida rag‘batlantiruvchi omillarni joriy etish.

3. Sug‘urta biznesini kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari va aholi kesimida raqamlashtirish bo‘yicha kompleks rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatishning asosiy hajmini onlayn rejimga o‘tkazish.
4. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta majburiyatlarini bajarishning aniq, tiniq va qat’iy qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek, majburiyatlar buzilgan taqdirda sug‘urta tashkilotlarining majburiyatlarini qat’iy qoidalar asosida so‘zsiz bajarishni nazarda tutuvchi qattiq jazo choralarini qo‘llash, sug‘urta kompaniyalarining mijozlari o‘zlarining manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqishning puxta o‘ylangan tartiblarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Оценка отраслевых и страновых рисков страхового сектора: сектор общего страхования Республики Узбекистан. URL: https://www. uzdaily.uz/ru/post/57022
2. imda.uz sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
3. https://lex.uz/uz/docs/5100699 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.11.2020-yildagi PQ-4890-son qarori.
4. https://www.statista.com/statistics/381174/insurance-penetration-in-selected-countries-worldwide/ 2020-yildan 2022-yilgacha butun dunyo bo‘ylab tanlangan mamlakatlar va hududlarda hayot va hayotdan tashqari sug‘urtaning kirib borishi.
5. https://www.mf.uz/oz sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
6. Бойтуш О.А. место и роль андеррайтинга в деятельности страховой компании // Управленец. 2013 № 6. С. 46-49
7. Щуклинова М,В, Управление процессом андеррайтинга в страховой компании [Электроннқй ресурс]. Режим доступа: http://www.dessercat.com/content/upravlenie-protsessom-anderraitinga-v-imushchestvennom-strakhovanii (дата обращения: 23.02.2018)
8. Бизнес-словар, http:/www.businessvoc.ru/
9. Шахов В. В. Страхование: Учебник для вузов . М.: страховой полис: ЮНИТИ, 1997.
10. Словарь страховых терминов , http://www.insweb.com/
11. Insurance outlook – 2020/ [https://www2. deloitte.com/us/en/ insights/industry /financial-services/financial-services-industry-outlooks/insurance-industry-outlook.html]
12. Global Economic And Insurance Market Outlook 2020/2021 [https://www.swissre.com/dam/jcr:60421a3b-f246-4718-8374-f4170d52b492/global-economic-and-insurance-outlook-2021.pdf.
13. Страхование в 2 ч. Часть 2 : учебник и практикум для академического бакалавриата / Е. В. Дик [и др.]; под ред. Е. В. Дик., И. П. Хоминич. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. –318 с.
14. Гомелля В.Б. Очерки экономической теории страхования/ под ред.Е.В. Коломина – М.: Финансы и статистика, 2010. – 352 с.;
15. Баранова, А. Д. Актуарные расчеты в страховании жизни : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / А. Д. Баранова. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 194 с.

KLASTER KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA SOLIQ YUKINI YENGILLASHTIRILISHI

Jabbarov Mashrab Ismoil o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib, iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘pgina tarmoqlarida sanoat klasterlari, xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Bu borada birmuncha tajribalarga erishilgan bo’lsa-da, biroq, ularni moliyaviy, tashkiliy, faoliyati bilan bog’liq muammolar mavjuddir. Maqolada O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterining bugungi kundagi moliyaviy holati, bu sohada erishgan yutuq va kamchiliklari, islohatlari hamda, jahon standartlari darajasidagi innovatsiya bilan boyitilgani bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik sanoati, klaster, tayyor mahsulot, qishloq xo‘jaligi, loyiha, tashkiliy, moliyaviy, ijara, xomashyo, innovatsiya, investitsiya.

Abstract: World experience shows that today, regardless of the level of economic development, industrial clusters, especially cotton-textile clusters, are operating effectively in many sectors of the economy of almost all countries. Although some experiences have been achieved in this regard, there are problems related to their organizational and financial activities. In the article, the achievements and shortcomings of the cotton-textile cluster in Uzbekistan today, the reforms in this field are significant as they are enriched with innovation at the level of world standards.

Key words: cotton-textile industry, cluster, finished product, agriculture, project, organizational, financial, rent, raw materials, innovation, investment.

Аннотация: Мировой опыт показывает, что сегодня, независимо от уровня экономического развития, промышленные кластеры, особенно хлопково-текстильные, эффективно действуют во многих отраслях экономики практически всех стран. Хотя в этом отношении и накоплен определенный опыт, существуют проблемы, связанные с их организационной и финансовой деятельностью. В статье рассмотрены достижения и недостатки хлопково-текстильного кластера Узбекистана на сегодняшний день, реформы в этой сфере значимы, поскольку они обогащены инновациями на уровне мировых стандартов.

Ключевые слова: хлопково-текстильная промышленность, кластер, готовая продукция, сельское хозяйство, проект, организационная, финансовая, рентная, сырьевая, инновационная, инвестиционная.

KIRISH (INTRODUCTION)

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishda ular faoliyatini klaster shaklida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Oxirgi yillarda yaratilgan imkoniyatlar tufayli yangi korxonalar paydo bo‘lyapti, tadbirkorlar emin-erkin rivojlanyapti, qayta ishlash darajasi oshyapti. Klasterlar tuzib, paxtani egali qilganimiz uchun uning sifati ham o‘zgaryapti. Paxta sifatli bo‘lsa, tadbirkorga oson bo‘ladi, mahsuloti sifatli, raqobatbardosh bo‘ladi. Klasterlar biz uchun nisbatan yangi amaliѐt ekanligini hisobga olib, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartiblarini, shu jumladan xarajatlarni subsidiyalash, yer ajratish tartibini ko‘rib chiqish hamda kreditlash tizimini soddalashtirish lozim”[1].

Bugungi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq hamda ularning faoliyatining samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarni tashkil etishni taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi - PF-5853-son, 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-sonli, 2021 yil 26 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzu-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi Namangan viloyatidagi —Chust Tekstilll klasteriga tashrifi chog‘idagi nutqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot hizmati: http://www.press-service.uz

ridagi qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6179-sonli, 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-sonli, 2023-yil 19-iyundagi “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi PF-98-sonli, 2023-yil 12-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-sonli qaror va Farmonlar qabul qilinib kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, paxta-to‘qimachilik klasterini rivojlantirish davlat tomonidan sa’y-harakatlarni talab etadi. Bu borada chora-tadbirlar ko‘rilib, paxta-to‘qimachilik klasterlarining samarali faoliyati uchun zarur shartsharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda klasterlar shakllanish bosqichida ekan, davlatning har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi paxta-to‘qimachilik klasterlarini mustahkamlash va yanada rivojlantirish jarayonini jadalllashtiradi.

Umuman olganda, paxta to‘qimachilikning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan holda quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar nazariyasi rus olimlari klasterga oid ilmiy taqdiqot ishlari horijlik olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, J.Ashenbroyx, S.Aleksandr, A.Barabolina, V.Baburin, I.Bortnik, S.Zemtsov, V.Tarasenko[2]lar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, paxta to‘qimachilik klasterining mohiyati, uni rivojlantirish masalalari O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, professor M. Rahmatovning “Yangi O’zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonda paxta to‘qimachilik klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘sish” risolasi tomonidan ko‘rsatib bergan.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo‘llaniladigan usullar tahlillar masalalariga kengroq urg‘u berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘zbekistonda keyingi yillarda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo‘jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Klasterlar faoliyati, ularning moliyaviy boshqaruvning xususiyalari va qonuniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish bir qator samarali tadqiqot metodologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Albatta, bunda avvalo nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish va unda moliyaviy boshqaruvning yondoshuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Unga asoslangan holda ilmiy adabiyotlar ilmiy tahlil qilindi, muammoga oid ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy-nazariy qarashlari bunda umumlashtirish va guruhlashtirish metodga asoslandi. Rasmiy va amaliy materiallarga asoslangan holda sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olindi, deduktsion yoki induksion yondoshuvga asosan klasterlar moliyalashtirish jarayonida moliyaviy boshqaruvga ta’sir etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha tartibda tadqiq etish imkoni tug’ildi. Mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo’llash orqali kompleks tahillarga asoslanib takliflarni shakllantirildi.

TAHLIL (ANALYSIS)

Bugungi kunga (2023-yil oxiri)ga kelib, paxta-to‘qimachlik korxonalarini moliyaviy jihatdan qo‘llash natijasida respublikada 134 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Ularning 103 tasida 2 mln. 536 ming tonna paxtani qayta ishlash hamda 41 ta klasterda 193,5 ming tonna mato ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan umumiy qiymati 36,1 milliard so‘mlik 21 ta loyiha 11 ta oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan bajarilmoqda. O‘zbekistonda har yili 3 million tonnaga yaqin paxta xom ashyosi etishtiriladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha respublika dunyoda oltinchi o‘rinda turadi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etilishi hisobiga so‘nggi paytlarda mahalliy qayta ishlash ulushi 40 foizdan 100 foizga etdi. Natijada

2 Н.Руднева Опыт создания структураных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс)// Скоч, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. –2015. –№ 7. С., Ф.Моисей, Славянова Светлана (Кластер номер один//Эксперт Юг № 48 (137), 2010)., С.Соколинко О кластетеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс)// Режим доступа:http://www.ucci.org.ua.,Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Семь инструментов управления. – М.: Альпина Паблишер, 2015. –201 с.

eksportga tayyor va yarim tayyor mahsulotlar yo‘naltirila boshlandi. Ta’kidlash joizki, paxta-to‘qimachilik korxonalarida paxtani etishtirish xarajatlarini kamaytirish maqsadida klasterlar tomonidan urug‘lik, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i-moylash materiallari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari fermer xo‘jaliklariga ustama qo‘llamasdan, o‘tgan yilga nisbatan 15-20 foiz past narxlarda etkazib berilmoqda. Shuningdek, ularda paxtani etishtirish va uni terib olishda davlat tomonidan aniq moliyaviy choralar belgilab borildi.

1-jadval: Respublika to‘qimachilik korxonalarini soliq nazorati asosida kameral tekshiruvlari[3]

№	Hudud nomi	Jami qo‘shimcha yig‘ilgan soliq va yig‘imlar		shundan		
		Korxona soni	Summa	Undirilgan qismi	Ortiqcha to‘lov hisobidan qoplangan qismi	Soliq qarzi sifatida qolgani
	Jami	**1 840**	**445,08**	**198,89**	**218,34**	**27,85**
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	24	11,71	5,35	6,31	0,06
2.	Andijon viloyati	305	45,59	9,58	30,05	5,96
3.	Buxora viloyati	59	17,58	14,53	2,79	0,25
4.	Jizzah viloyati	125	14,71	4,80	8,47	1,44
5.	Qashqadaryo viloyati	34	23,74	21,20	2,53	0,01
6.	Navoiy viloyati	21	1,09	0,51	0,58	0,00
7.	Namangan viloyati	221	12,62	3,96	7,36	1,30
8.	Samarqand viloyati	99	30,75	9,85	20,57	0,33
9.	Surxondaryo viloyati	8	10,12	6,09	2,71	1,31
10.	Sirdaryo viloyati	20	22,25	9,75	6,61	5,90
12.	Toshkent viloyati	198	34,95	8,69	21,44	4,82
13.	Farg‘ona viloyati	201	30,46	16,43	13,49	0,55
14.	Xorazm viloyati	103	21,35	14,32	6,05	0,98
15.	Toshkent shahri	378	31,69	6,14	21,81	3,74
	Yirik soliq to‘lovchilar	**44**	**136,45**	**67,69**	**67,56**	**1,20**

Joriy yilning yanvar-may oylari davomida o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvidan oldingi tahlillar va tekshiruvlar natijasida jami 1,8 mingta sub’ektlarda 445,0 mlrd.so‘m qo‘shimcha soliqlar hisoblanishi ta’minlangan.

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘tgan yilning mos davrida 0,8 mingta sub’ektlarda 200,0 mlrd.so‘mni tashkil etib, joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 245,0 mlrd.so‘mga yoki 222 foizga oshganligini kuzatish mumkin.

Misol uchun, “Payariq-klaster” MCHJ tomonidan tovarlar realizasiyasi hamda boshqa daromadalari kamaytirib ko‘rsatilganligi, shuningdek soliq hisobotlaridagi tafovutlar natijasida Samarqand viloyat DSB tomonidan o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan jamiyat faoliyatida 7,8 mlrd.so‘m soliqlar qo‘shimcha hisoblangan va ,1 mlrd.so‘mi undirilgan hamda qolgan qismi ortiqcha to‘lov hisobidan qoplangan.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-may oylari davomida to‘qimachilik korxonalarida 49 ta, shundan soliqlarni to‘lamaslik xavfi yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilarda “tahlika-tahlil” tizimi ma’lumotlari asosida 10 ta, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha 8 ta va korxonalar ixtiyoriy tugatilish munosabati bilan 31 ta soliq auditlari o‘tkazilgan. O‘tgan yilning mos davrida 65 ta, shundan 36 ta huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha va 29 ta ixtiyoriy tugatish munosabati bilan soliq auditlari o‘tkazilgan. Joriy yilda o‘tkazilgan soliq auditlari natijasida 38,7 mlrd.so‘m (o‘tgan yilning mos davrida 28,7 mlrd.so‘m) soliqlar va yig‘imlar qo‘shimcha hisoblanib, shundan 11,0 mlrd.so‘mi (o‘tgan yilning mos davrida 2,5 mlrd.so‘m) undirilgan.

3 Kameral soliq tekshiruvlari hisobiga 2021-2022-yil yanvar-may oylarida to‘qimachilik korxonalari bo‘yicha byudjetga qo‘shimcha undirilgan soliqlar to‘g‘risida ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

MUHOKAMA(DISCUSSION)

Kameral soliq tekshiruvi — bu soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishi yuzasidan soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv. Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida o‘tkaziladi. Klaster korxonalari soliq organlari tomonidan soliq xavfini aniqlash mezonlari ro‘yxatiga kiritilgan ayrim misollar keltirib o‘tilgan:

- soliq to‘lovchi shaxsiy kartochkalarida soliq qarzdorligining doimiy yuzaga kelishi;
- soliq hisobotlarining belgilangan muddatlardan kechiktirib taqdim etilishi;
- soliq to‘lovchilar obyektlarida xronometraj ko‘zdan kechirish o‘tkazilgandan keyingi davrlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan tushumlarning kamayib ketishi;
- hisobvaraq-fakturalar orqali kirim qilingan tovarlar hajmiga nisbatan o‘rtacha oylik tushumlarning farq qilishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning topshirilgan naqd (plastik) pul mablag‘lariga nisbatan hisobotdagi ko‘rsatgan tovar aylanmasining kamaytirib ko‘rsatilishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish uchun hisobchi (buxgalter)ning rasmiy tartibda ro‘yxatga olinmasligi.

Zamonaviy paxta-to‘qimachilik klasterini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, ushbu klaster ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, maxsus transport vositalari va texnika, hayvonlar va o‘simliklar, veterinariya preparatlari, xom ashyo va materiallar, qurilish mollari va issiqxona komplekslari 2022-yilning 1-yanvariga qadar muddatda bojxona to‘lovlaridan ozod qilindi. Prezident qaroriga muvofiq, qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing bo‘yicha xarid qilish, mineral o‘g‘itlar, urug‘liklar, yoqilg‘i moylash materiallari, o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari hamda boshqa moddiy resurslarni yetkazib berishda fermer xo‘jaliklari uchun nazarda tutilgan shartlar va tartiblar “Bek cluster” MChJ QKga nisbatan joriy etildi.

Bundan tashqari, ushbu klaster bir qator soliq imtiyozlariga ega:

- “Bek cluster” MChJ QK o‘z tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning so‘mdagi mablag‘larini jamlashi va bu mablag‘larni moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ular o‘rtasida taqsimlashi mumkin;
- “Bek cluster” MChJ QK o‘z tashkilotlari va ular o‘rtasida olinadigan va topshiriladigan hamda o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotni sotish bo‘yicha aylanmalar bilan bog‘liq bo‘lmagan pul mablag‘lari va mol-mulk, shuningdek sof foydani taqsimlash soliqqa tortish obyekti hisoblanmaydi;
- “Bek cluster” MChJ QKning qishloq xo‘jaligi tashkiloti yagona ijtimoiy to‘lovni kichik korxonalar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘laydi[4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz aosisda umumiy xuloslarning mazmuni shundan iboratki, respublikamizda klaster tizimidagi korxonalarini moliyalshtirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borayotgan islohotlar soni ortib bormoqda.Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda klasterlarni shakllantirish masalasi aniq iqtisodiy- ijtimoiy shart- sharoitlar asosida, klasterlarni moliyashtirish, davlat tomonidan rag‘batlantirishdan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muofiqdir.

Klaster usulida faoliyat yurutayotgan korxonalarni moliyalshtirish mexanizimida fikrimizcha quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak deb hisoblaymiz:

Birinchidan klaster faoliyatidagi korxonalar boshqaruvida moliyaviy munosabatlarni joriy etishda vakolatli organlarning faoliaytini kuchaytirish, uni muvofiqlashtirish aniq mexanizmlarini belgilab qo‘yish kerak.

Ikkinchidan korxonalar moliyaviy aktivlaridan oladigan daromadlarini ochiqlash va shaffoflashtirishni yo‘lga qo‘yish, moliyaviy aktivlasrini joylashtirihshda olingan daromadlarini davlat budjetiga jalb qilishning aniq mexanizmlarini belgilab qo‘yish lozim.

Uchinchidan klaster usulida faoliyat yurutayotgan korxonalarning moliyaviy munosabatlarini takomillashtirishgan holda qonun osti hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

4 https://daryo.uz/2018/11/14/klasterlar-7.43 agrar-sohaning-lokomotivi

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6179-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-noyabrdagi “paxta xom ashyosini etishtirish va uning yig‘im-terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2-son qarori.
4. Murtazo Rahmatov ”Klaster – integratsiysa innovatsiya va iqtisodiy o‘sish mezoni”, “Xalq so‘zi”. 27.02.2018-yil.
5. Murtazo Rahmatov ”Klaster – integratsiysa innovatsiya va iqtisodiy o‘sish mezoni”, “Xalq so‘zi”. 27.02.2018-yil.
6. Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Состояние инноваций в 2016. Stateofinnovtijn.com.
7. Скоч, Александр. Международый опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. www.intelros.ru.
8. В.Бабурин, Земцов С.П. (Инновационный потенциал регионов России. –Москва: КДУ, 2017, –358 с. ISBN 978-5-91304-721-2).
9. Брейли Р. Принципы корпоративных финансов : пер. с англ. / Р. Брейли, С. М. Майерс. –М.: Олимп-Бизнес, 1997. –654 с.
10. Murtazo Axmedovich Rahmatovning “Yangi O’zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida”. –T.: “Zamin nashr”. –2021, 212-b.
11. M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘sish” risolasi. –T.: “Zamin nashr” 2018.
12. www.Lex.uz
13. www.Stat.uz

XO‘JALIK YURITISHNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARINING ASOSIY BELGI VA XUSUSIYATLARI

Vaxabov Asadullo Ubaydullo o‘g‘li
TDIU MArketing kafedrasi asissenti

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishning qonuniy jihatlari tashkiliy asoslari va xususiyatlari o‘rganilgan. Mavjud faoliyatlar sohalar kesimida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Budjet tashkilotlar, notijorat faoliyat, xo‘jalik yurituvchi subektlar, qonun, biznes, davlat nazorati.

Abstract: The article examines the organizational bases and features of the legal aspects of economic activity. Existing activities are analyzed by sectors.

Key words: Budget organizations, non-commercial activities, economic entities, law, business, state control.

Аннотация: В статье рассматриваются организационные основы и особенности правовых аспектов экономической деятельности. Существующая деятельность анализируется по секторам.

Ключевые слова: Бюджетные организации, некоммерческая деятельность, хозяйствующие субъекты, право, бизнес, государственный контроль.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon bozori bilan integratsiyalashuvi, xorijiy investisiyalar uchun qulay sharoit yaratilishi tadbirkorlik faoliyati uchun ham xalqaro darajada takomillashtirishga zamin yaratmoqda. Aynan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining takomillashtirilishi va davlat tomonidan qo‘llanilayotgan imtiyozlar xalqaro standartlar asosida tuzilishi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ko‘plab subyektlar uchun jahon bozoriga chiqishida o‘ziga xos vosita rolini o‘tab bermoqda. Shu boisdan biznes subyektlarining mavjud huquqiy normalarga qat’iy rioya qilish talab etiladi, har qanday tashkiliy faoliyat negizida qonuniy masalalarga chuqur e’tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati tashkiliy-huquqiy shakllarini baholash masalalariga normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodchi olimlarning asarlariga keng e’tibor qaratilgan.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 2-moddasiga[1] muvofiq;

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risidagi qonunchilik yoritib o‘tilgan.

Moddaga ko‘ra, Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati tegishli qonunchilik bilan ham tartibga solinadi.

Tergovga qadar tekshirishlar chog‘ida va qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

1 https://lex.uz/mact/28144

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi, deyilgan.

Ushbu qonunning 4-moddasida[2] Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari xo‘jalik faoliyatini yuritish yuzasidan quyidagicha talqin qilingan:

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, nazorat tartibida tekshirish; (4-moddaning birinchi qismi ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 29 dekabrdagi O‘RQ-418-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017 y., 1-son, 1-modda)
- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;
- idora qaramog‘idagi organlarni tekshirishdan o‘tkazish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek idora qaramog‘idagi organlarni tekshirishdan o‘tkazish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Iqtisodchi olimlarning fikricha, agarda kompaniya kelgusida o‘z faoliyatini davom ettirishi aniq bo‘lsa, bu uzluksizlik tamyoilini aks ettiradi. Ya’ni kompaniya yaqin kelajakda o‘z biznesini davom ettiradi va faoliyatini tugatish ko‘zda tutilmagan3.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan nomativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarda asosiy e’tibor faoliyatini tashkil qilishning qonuniy mohiyatini yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida induksiya va deduksiya usullarga qaratilgan holda tahlil qilingan. O‘rganish jarayonida mavzuga aloqadar holda tegishli nazariy jihatlar ko‘rsatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Huquqiy shakllar bo‘yicha xo‘jalik yuritishda asosiy belgi va xususiyatlar mavjuddir. Bunlarning ba’zilari:

1. **Huquqiy asos:** O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va xuquqiy asoslari bo‘yicha tashkil etiladi.
2. **Belgilangan muddati:** huquqiy tashkilotlar Ŭzbekistonda faoliyat yuritishi jarayonida kelishilgan shartnoma muvofiq amal qilish muddati belgtlanadi.
3. **Yuridik mavqe:** O‘zbekiston muddati huquqiy statusi bo‘yicha huquqiy normalar bilan tanishtiriladi va uning huquqiy xususiyatlarini ma’lum qiladi.
4. **Muammolar va shartlar:** O‘zbekistonda faoliyat yuritishda muammolar, shartlar va ta’minot ko‘rinishi hamda shartnomalar bo‘yicha kelishiladi.
5. **Davlat ta’minoti:** Ish yuritishning davlat ta’minoti va himoyasi to‘g‘risida tashkiliy choralar va qoidalar mavjuddir. Shu bilan birga, yuk yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklida boshqa xususiyatlari ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Biznes subektlarining huquqit faoliayining yo‘nalishlari quyidagi jadvalda batafsil yoritilgan.

1-jadval: Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi (2005-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)[4]

THSh xos raqami	
1000	**TIJORAT TASHKILOTLARI**
1010	Xususiy korxonalar
1100	Korxonalar
1110	Davlat korxonalari
1120	Jamoat birlashmalari korxonalari (tashkilotlar)
1130	Iste’mol kooperativi korxonalari
1140	Mahalla korxonalari

2 https://lex.uz/mact/28144

3 Gayoung Ji, Jong Eun Lee. Managerial Overconfidence And Going - Concern Modified Audit Opinion Decisions. // The Journal of Applied Business Research – November/December 2015. Volume 31, Number 6.

4 https://nrm.uz/contentf?doc=79962_ho%E2%80%98jalik_yurituvchi_subektlarning_tashkiliy-huquqiy_shakllari_tasniflagichi_(thsht)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1150	Aksiyadorlik jamiyatlari
1151	Davlat-aksiyadorlik jamiyatlari
1152	Aralash shirkatlar
1153	To‘liq shirkatlar
1170	Ishlab chiqarish kooperativlari
1180	Dehqon va fermer xo‘jaliklari tashkilotlari (birlashmalar, assotsiatsiyalar)
1190	Mulkdorlar
1200	Unitar korxonalar
1210	Assotsiatsiyalar (birlashmalar)
1220	Konsernlar
1230	Aksiyadorlik jamiyatlari korxonalari birlashmalari
1231	Aralash shirkat korxonalari birlashmasi
1232	To‘liq shirkat korxonalari birlashmasi
1240	Lizing kompaniyalari
1250	Korporatsiyalar
1260	Xolding kompaniyalari
1270	Xususiylashtirish investitsiya fondlari
1290	Boshqa tijorat tashkilotlari
2000	**NOTIJORAT TASHKILOTLAR**
2100	Davlat idoralari
2110	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari
2200	Jamoat birlashmalari (tashkilotlar)
2300	Jamoat birlashmalari idoralari (tashkilotlar)
2400	Jamiyat, ittifoq, assotsiatsiya va fondlar birlashmasi
2500	Iste’molchilar jamiyatlari uyushmasi
2600	Iste’mol kooperatsiyasi idoralari
2700	Moliyaviy-sanoat guruhlari
2800	Davlat korxonalari
2900	Boshqa notijorat tashkilotlar

Yuqoridagi ma’lumotdan ma’lum bo‘ladiki, mamlakatimizda 40 ga yaqin tijorat va natijorat korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular budjet tashkilotlari, xususiy sektorlar va davlat korxonalariga ajratiladi.

XULOSA

Yuqorida o‘rganilgan ma’lumotlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin. Ma’lumki, mamlakatimizda har qanday faoliyatni tashkil qilishda huquqiy jihatdan yondashish markur faoliyatni qonuniy kafolat bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Bunda avvalo jismoniy va yuridik shaxslarni tadbirkorlikka oid faoliayni tashkil qilishdan oldin mavjud tashkiliy-huquqiy normalarni tahlil qilish va rioya qilishi asosiy xususiyati sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/mact/28144
2. Gayoung Ji, Jong Eun Lee. Managerial Overconfidence And Going –Concern Modified Audit Opinion Decisions. // The Journal of Applied Business Research – November/December 2015. Volume 31, Number 6.
3. https://nrm.uz/contentf?doc=79962_ho%E2%80%98jalik_yurituvchi_subektlarning_tashkiliyhuquqiy_shakllari_tasniflagichi_(thsht)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/9_Khajimuratov.pdf

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Vahobov Davron Abdujalolovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali tashkil etilish holatini sotsiologik so‘rov asosida baholangan. Unda asosiy e’tibor davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining qaysi bosqichlarida saraliroq ekanligi aniqlangan. Tadqiqot davomida tadbirkorlik sube’ktlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari soliqqa tortish tizimini, umuman, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni takomillashtirish, shu bilan birga, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish zarurligini aniqladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes subyektlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, faoliyat samaradorligi.

Abstract: This article evaluates the state of effective organization of the state support system for small business entities based on a sociological survey. In it, the main focus is determined on which stages of the activity of small business entities are the most effective state support mechanisms. During the research, the results of the survey among the business subjects revealed the need to improve the taxation system, the development of the business support infrastructure in general, and at the same time, to take appropriate measures to eliminate administrative obstacles.

Key words: small business entities, state support, efficiency of activity.

Аннотация: В данной статье на основе социологического опроса оценивается состояние эффективной организации системы государственной поддержки субъектов малого предпринимательства. В нем основной акцент определен на том, на каких этапах деятельности хозяйствующих субъектов действуют наиболее эффективные механизмы государственной поддержки. Результаты опроса, проведенного среди субъектов предпринимательства в ходе исследования, свидетельствуют о совершенствовании системы налогообложения, развитии инфраструктуры поддержки бизнеса в целом и одновременно принятии соответствующих мер по устранению административных препятствий, определили необходимость проведения исследования.

Ключевые слова: субъекты малого предпринимательства, государственная поддержка, эффективность деятельности.

KIRISH

Har qanday iqtisodiy rivojlanish mamlakat aholisining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish darajasi bilan yaqindan bog‘liq. Shuni tushunish kerakki, kichik biznes korxonalarini qo‘llab-quvvatlash tizimlari qanchalik yaxshi bo‘lsa, kichik biznes subyektlarining jamiyatda iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishdagi samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi1. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha mas’ul idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan salmoqli ishlarga qaramay, KBSlarining umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari natijalari qoniqarli emas.

Demak, KBSlari O‘zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadiga erishish uchun yanada samaraliroq bo‘lishga yordam berish uchun uni qo‘llab-quvvatlovchi samarali muhitga ehtiyoj katta. O‘zbekistonda kichik biznes korxonalarni qo‘llab-quvvatlash muhiti muhim deb hisoblansa-da, uning holatini tadqiqot orqali o‘rganish va baholash lozim, deb hisoblaymiz. O‘zbekistonda kichik biznes korxonalari o‘z potensiallariga erishish uchun yetarli darajada qo‘llab-quvvatlovchi muhit mavjudmi? Bu savolga javobni topish uchun KBSlarining mamlakatdagi mavjud qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan qoniqish darajasini baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Demak, KBSlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligini tadbirkorlarning qoniqish darajasini baholash yo‘li bilan aniqlash mumkin, chunki mamlakatda shu kunga qadar bu sohada yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

1 Acs, Z. J(2008). “Introduction to Public Policyin an Entrepreneurial Society” p-17, Public Policy in an Entrepreneurial Economy: creating the conditions for business growth, in Acs, Z. and Stough, R. (Eds.) Washington, Springer.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugunga qadar kichik biznes sub'eklarini davlat tomonidan tartibga solish muammolariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligida tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning ayrim jihatlarinigina ko'rib chiqganlar. Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyotiga moslasha oladigan o'xshash geografik va iqtisodiy pozitsiyaga ega bo'lgan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari mukammal va tizimli ravishda o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotda kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining tartibga solish shaklidan qoniqish darajasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Iqtisodchi olimlar Rumi va Hussainlar KBSlari uchun davlat tomonidan tartibga solish shaklini ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va aksariyat hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan omil sifatida o'z tadqiqotlarida xulosaga keldilar. Masalan, davlatning import o'rnini bosish strategiyasini amalga oshirish orqali kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish siyosati bunday korxonalarning asosan mahalliy bozorlarga e'tibor qaratishga va natijada, eksport hajmining kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir manbada, tartibga soluvchi turli davlat institutlari yoki qat'iy tartibga soluvchi muhit ko'pincha korrupsiya va poraxo'rlik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi asoslangan.

XMT hisobotida, institutsional moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati yo'qligi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda KO'B rivojlanishi uchun asosiy to'siqdir.2

Yana bir iqtisodchi olim Ngvuonugu, kredit olish imkoniyati va venchur kapitalining yetishmasligi Nigeriyada KO'Bning zaif o'sishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ekanligini aniqladi.3

Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar Ganesh va Mehtalar o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes korxonalarining o'sishi va rivojlanishiga xodimlarning texnologik bilimlarining yetishmasligi hamda korxonalarning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi to'siq bo'layotgani bilan izohlaydi.4

Iqtisodchi olim Levining Jahon banki konferensiyasiga taqdim etgan ma'ruzasida kichik va o'rta korxonalarning rivojlanishi va raqobat kurashini yengib chiqishi uchun yetarlicha tadqiqot va ishlanmalar hamda innovatsiyalarga ko'proq e'tibor va mablag' ajratish lozimligini ta'kidlab o'tadi.5

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot muhimligini hisobga olgan holda, O'zbekistonda rasmiy tarzda tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorlik darajasi so'rovnoma asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida Toshkent viloyatidagi turli soha va tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan 211 ga yaqin kichik biznes subyektlari so'rovnoma usuli asosida o'rganildi.

211 tanlab olingan KBSlari soni ushbu tadqiqot uchun yetarli ekanligi asoslandi. Shunga ko'ra, tadqiqot tahlilida 183 ta maqbul, deb topilgan anketalar ishtirko etadi, bu namunaviy o'lcham tadqiqot talabi uchun yetarli hisoblanadi. Shuningdek, asosan to'rta soha bo'yicha KBSlari tanlab olindi. Sababi bu soha subyektlari iqtisodiy faoliyatda ko'proq faol ekanliklari kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot uchun olingan xududlar bo'yicha bu sohalarda faoliyat yurituvchi KBS lari soni ham ko'proqni tashkil etadi.

2.3.1-jadval: Tadqiqot namunasi statistikasi

Tarmoq va sohalar	Tanlangan soha va hududagi KBSlarining umumiy soni	So'rovnomada ishtirok etgan KBSlari soni (umumiy sonning 10 foizi)	Anketani to'ldirgan KBSlari soni	Maqbul topilgan anketalar soni
Qurilish	197	20	19	18
Xizmat ko'rsatish	606	60	51	50
Sanoat va ishlab chiqarish	416	41	34	31
Qishloq xo'jaligi	902	90	86	84
Jami	2121	211	190 (89%)	183 (85,3%)

2 ILO (2002). "Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan."SEED Working Paper No.29.

3 Ngwuonugu,A, B(2005). "Small andMedium Enterprises(SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St.Clements University, Nigeria (unpublished).

4 Ganesh, L., Mehta, A(2010). Critical success factorsfor successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.

5 Ivy (1997). "Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe:A Survey of SMEsin Slovakia." Journal of Small Business Management 35(3): 93-98

Ushbu so‘rovnoma Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqildi. Bu uslubga ko‘ra 5ta parametrlar (o‘lchovlar) asosida tuzilgan 12 ta savollarga javoblar quyidagi tartibda shakllantiriladi: “5”-qat’iy qo‘shilaman, “4”-qo‘shilaman, “3”-ishonchim komil emas, “2”-qo‘shilmayman, “1”-umuman qo‘shilmayman.

Tadqiqotni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tashkiliy (tayyorgarlik); so‘rovnomani tashkil etish jarayoni; olingan natijalarga qayta ishlov berish bosqichi; natijalar asosida xulosalar tayyorlash va faoliyatni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqilgan so‘rovnoma variantlarining likvidligi va ishonchliligi uning ichki turg‘unligini baholash orqali asoslangan.

So‘rovnoma anketasidagi savollar beshta bo‘limga ajratilgan holda shakllantirilgan bo‘lib, har bir bo‘lim mamlakatda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash shakllarini ifoda etadi. Ya’ni, birinchi bo‘lim “tartibga solish” shakli, ikkinchi bo‘lim “moliyaviy ko‘mak” shakli, uchinchi bo‘lim “texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash” shakli, to‘rtinchi bo‘lim “ta’limni qo‘llab-quvvatlash” shakli va nihoyat beshinchi bo‘lim “tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash” shakli bilan bog‘liq mustaqil o‘zgaruvchilardan iborat. Har bir mustaqil o‘zgaruvchi tadbirkorlik faoliyatni yo‘lga qo‘yishda, faoliyat davomida va tadbirkorlikni o‘sish bosqichidagi qo‘llab quvvatlash siyosati holatini baholashni nazarda tutadi. Ushbu tadqiqotdagi tobe o‘zgaruvchi esa - bu tadbirkorlarning “qoniqish darajasi” sifatida qabul qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Anketaning ichki turg‘unligini va ichki moslik ishonchliligini baholash uchun “IBM SPSS Statistics 22.0” dasturi yordamida “Kronbax Alfa” (Cronbach's alpha) koeffitsiyenti qo‘llanilgan.

2.3.2-jadval: So‘rovnoma ishonchliligini tekshirish natijalari

Anketa bo‘limlari	Kronbax Alfa	O‘rtacha qiymat (mean)	SD
Tartibga solish shakli	0.891	2.077	0.835
Moliyaviy ko‘mak shakli	0.887	2.579	0.955
Texnik-texnologik ko‘mak shakli	0.897	2.062	0.659
Ta’limni qo‘llab-quvvatlash	0.825	2.313	0.880
Tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shakli	0.890	1.903	0.941
Qoniqish darajasi	N/A	2.098	0.799

Yuqoridagi jadvalda anketaning barcha bo‘limlari va mustaqil o‘zgaruvchilar ishonchliligi qabul qilinadigan diapozonda (0,825 dan 0,891 gacha) ekanligini ko‘rsatmoqda. Tartibga solish shakli ishonchliligi (a=.891, M=2077, SD=0.835) eng yuqori natijani qayd etdi, undan keyin esa tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shakli (a=.890, M=1.903, SD=0.941) ham yuqori natijaga ega. Eng kam ko‘rsatkich ta’limni qo‘llab-quvvatlash shaklida qayd etildi (a=.825, M=2.313, SD=.880).

So‘rovnoma tarkibi va undagi o‘zgaruvchilarning me’yoriyligi ham tekshirib chiqildi.

2.3.4-jadval: So‘rovnoma anketasi tarkibi va undagi o‘zgaruvchilarning me’yoriyligi statistika

Anketa bo‘limlari	Skewness	Kurtosis
Tartibga solish shakli	0.891	2.077
Moliyaviy ko‘mak shakli	0.887	2.579
Texnik-texnologik ko‘mak shakli	0.897	2.062
Ta’limni qo‘llab-quvvatlash	0.825	2.313
Tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shakli	0.890	1.903
Qoniqish darajasi	N/A	2.098

Anketaning har bir bo‘limi va undagi o‘zgaruvchilar normalligi “Skewness” (assimiterik jihati) va “Kurtosis” (ma’lumotlar joylashuvining normal taqsimotiga nisbatan yuqori yoki past bo‘lishi) orqali aniqlandi, ular ± 3.0 oralig‘ida bo‘lib, tadqiqot uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lgan diapazonda joylashgan.

Yuqoridagi 2.3.4-jadvalda texnik-texnologik ko‘mak shakli bo‘yicha belgilnagan o‘zgaruvchilarning holati (M=2,062, SD= ,0659) eng yuqori og‘ish holati (skewness)ga ya’ni, 1,389 ga teng ekanligini ko‘rsatadi. 0,222 ga teng bo‘lgan eng past og‘ish darajasi (skewness)tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shakli bo‘yicha keltirilgan o‘zgaruvchilar aniqlandi (M=1,903, SD= .941). Boshqa tomondan, texnik-texnologik ko‘mak bo‘yicha o‘zgaruvchilar (M = 2.062, SD = .0659) eng yuqori “Kurtosis” 3.091 va qoniqish darajasi o‘zgaruvchisi esa (M = 2.098, SD = .0799) 0.200 eng past “Kurtosis” ga ega.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tadqiqot uchun tanlangan mustaqil o‘zgaruvchilarning har biri uchun alohida tadqiqot gipotezalari tuzib chiqildi va bu gipotezalar qo‘llab-quvvatlash shakllaridan qaysi biri tadbirkorlik subyektlarini ko‘proq qoniqtirishini aniqlashda tadqiq etish maqsadlarini ifoda etadi.



2.3.1-rasm: Qo‘llab quvvatlash tizimi shakllari bo‘yicha KBSlari qoniqishini baholvchi so‘rovnoma tadqiqotining konseptual tuzilmasi

Birinchi gipoteza – tartibga solish shakli bo‘yicha. Davlatning kichik biznesni tartibga solish siyosati har doim ham kutilgan natijaga olib kelavermaydi. Iqtisodchi olimlar Rumi va Hussainlar KBSlari uchun davlat tomonidan tartibga solish shaklini ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi va aksariyat hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan omil sifatida o‘z tadqiqotlarida xulosaga keldilar. Masalan, davlatning import o‘rnini bosish strategiyasini amalga oshirish orqali kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish siyosati bunday korxonalarning asosan mahalliy bozorlarga e’tibor qaratishga va natijada, eksport hajmining kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Yana bir manbada, tartibga soluvchi turli davlat institutlari yoki qat’iy tartibga soluvchi muhit ko‘pincha korrupsiya va poraxo‘rlik bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi asoslangan[6]. Shunday qilib, tadqiqotda kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining tartibga solish shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo‘shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H1a: KBSlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda qo‘llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

6 Pope (2001).Confronting Corruption: The Elements of National Integrity System. Transparency International: London.

H1b: KBSlari rivojlanish davrida qo‘llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H1c: KBSlari o‘sish bosqichida qo‘llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

Ikkinchi gipoteza – moliyaviy ko‘mak shakli bo‘yicha. XMT hisobotida, institutsional moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati yo‘qligi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda KO‘B rivojlanishi uchun asosiy to‘siqdir[7]. Yana bir iqtisodchi olim Ngvuonugu, kredit olish imkoniyati va venchur kapitalining yetishmasligi Nigeriyada KO‘Bning zaif o‘sishi va rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar ekanligini aniqladi[8]. Benzing va Chu rivojlanayotgan va o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda kichik va o‘rta korxonalar duch keladigan muhim muammolar sifatida moliyaviy kapitalga kirish imkoniyatini cheklanganligini ko‘rib chiqadilar. Bundan tashqari, ular kredit olish imkoniyatining yo‘qligi nafaqat KO‘B faoliyati uchun majburiy cheklov bo‘lishi, balki o‘sish va kengayishiga ham to‘sqinlik qilishini kuzatishdi. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining davlat tomnidan qo‘llab-quvvatlash tizimining moliyaviy ko‘mak shaklidan qoniqish darajasini yanada aniqroq baholash uchun sub gipotezalar quyidagicha shakllantirildi:

H2a: KBSlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda qo‘llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H2b: KBSlari rivojlanish davrida qo‘llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H2c: KBSlari o‘sish bosqichida qo‘llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

Uchinchi gipoteza – texnik qo‘llab-quvvatlash shakli bo‘yicha. Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar Ganesh va Mehtalar o‘z tadqiqotlarida kichik va o‘rta biznes korxonalarining o‘sishi va rivojlanishiga xodimlarning texnologik bilimlarining yetishmasligi hamda korxonalarning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi to‘siq bo‘layotgani bilan izohlaydi[9]. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining texnik-texnologik ko‘mak shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo‘shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H3a: KBSlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda qo‘llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H3b: KBSlari rivojlanish davrida qo‘llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H3c: KBSlari o‘sish bosqichida qo‘llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko‘mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

To‘rtinchi gipoteza – ta’limni qo‘llab-quvvatlash shakli bo‘yicha. Kichik biznes korxonalarining o‘sishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni turli manbalar asosida o‘rganar ekanmiz, mamlakatda kichik biznes korxonalarning o‘sishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir qiluvchi omillardan biri – bu KBSlarida faoliyat yurituvchi rahbar va xodimlarning iqtisodiy hamda kasbiy bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi. Ayniqsa, mamlakatning chekka xududlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va ularning xodimlarining savodxonlik darajasi pastligi va tadbirkorlikni o‘qitish dasturlari qamrovi keng emasligi faoliyatning rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Ular, shuningdek, kichik biznes korxonalari faoliyatini kengayigan sayin yuqori malakali boshqaruv va xodimlarning yetishmasligi holati ortib boradi. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining ta’limni qo‘llab-quvvatlash shaklidan shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo‘shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H4a: KBSlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda qo‘llab-quvvatlashning mavjud ta’limni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H4b: KBSlari rivojlanish davrida qo‘llab-quvvatlashning mavjud ta’limni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H4c: KBSlari o‘sish bosqichida qo‘llab-quvvatlashning mavjud ta’limni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

Beshinchi gipoteza – tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shakli bo‘yicha. Iqtisodchi olim Levining Jahon banki konferensiyasiga taqdim etgan ma’ruzasida kichik va o‘rta korxonalarning rivojlanishi va raqobat kurashini yengib chiqishi uchun yetarlicha tadqiqot va ishlanmalar hamda innovatsiyalarga ko‘proq e’tibor va

7 ILO (2002). “Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan.”SEED Working Paper No.29.

8 Ngwuonugu,A, B(2005). “Small andMedium Enterprises(SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St.Clements University, Nigeria (unpublished).

9 Ganesh, L., Mehta, A(2010). Critical success factorsfor successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.

mablag‘ ajratish lozimligini ta’kidlab o‘tadi[10]. Shuningdek, boshqa ko‘plab ilmiy tadqiotlarda davlat siyosatining innovatsiyani ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish jarayonida universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ahamiyat katta ekanligi ham e’tirof etilgan. Bu borada O‘zbekistonda KBSlarini rag‘batlantirishda hukumatning roli qay darajada ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo‘shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H5a: KBSlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda qo‘llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H5b: KBSlari rivojlanish davrida qo‘llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H5c: KBSlari o‘sish bosqichida qo‘llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

2.3.5-jadval: So‘rovnomadan olingan ma’lumotlarni ko‘p omilli regressiya tahlili natijalari

Qo‘llab-quvvatlash shakllari (gipotezalar)	Faoliyatni yo‘lga qo‘yish bosqichi		Rivojlanish bosqichi		O‘sish bosqichi		R2
	Mean	SD	Mean	SD	Mean	SD	
Tartibga solish	2.150	0.971	2.09	0.912	1.98	0.880	.163
Moliyaviy ko‘mak	2.70	1.106	2.54	1.036	2.53	1.042	.108
Texnik-texnologik ko‘mak	2.05	0.761	2.06	0.689	2.07	0.719	.094
Ta’limni qo‘llab-quvvatlash	2.33	0.985	2.30	0.926	2.31	0.918	.161
Tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash	2.33	0.985	2.30	0.926	2.31	0.918	.064

Shunday qilib, so‘rovnoma asosida olingan ma’lumotlar ko‘p omilli regressiya uslubi yordamida tahlil qilib chiqildi. Ushbu uslubdagi tahlil kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining yuqorida keltirib o‘tilgan beshta shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun tadbirkorlikni rivojlanishining faoliyatni yo‘lga qo‘yish, rivojlanish va o‘sish bosqichlari bo‘yicha amalga oshirildi. Xuddi shu tahlil uslubi asosida birinchi gipoteza bo‘yicha O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari davlatning tartibga solish siyosati kontekstida o‘z bizneslarining rivojlanish bosqichida qoniqish hosil qilishgani ma’lum bo‘ldi. Ya’ni, davlatning tartibga solish siyosati asosan faoliyatini rivojlantirayotgan tadbirkorlik subyektlariga ko‘proq manfaat keltirishi aniqlandi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shunadn iborat bo‘dliki, davlatning moliyaviy ko‘mak siyosati asosan rivojlanish va o‘sish bosqichlaridagi kichik biznes subyektlariga ko‘proq tatbiq etiladi va bu bosqichdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy ko‘mak shaklidan qisman qoniqish hosil qilganliklari ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqot natijasida yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, davlatning kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash tizimida korxonalarga texnik-texnologik jihatdan ko‘mak berish siyosati kichik biznes subyektlarining rivojlanish bosqichida ko‘proq kuzatilishi tadbirkorlarning qoniqishini aks ettirgan. Faoliyatni yo‘lga qo‘yish bosqichida davlatning texnik-texnologik qo‘llab-quvvatlash siyosatidan tadirkorlar qisman qoniqishlarini bildirishgan.

Shuningdek, tahlillar natijasi so‘rovda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan hukumatning kichik biznes subyektlarini o‘qitish va qayta tayyorlash siyosati bo‘yicha har uchta bosqichda ham yetarlicha qoniqmaslik holati aniqlandi. Bunga asosiy sabab, tadbirkorlarni o‘qitish dasturlarining yetarli emasligi hamda qamrov darajasi juda past ekanligini angaltadi. Xuddi shunday natija davlatning kichik biznes subyektlarini tadqiqot va ishlanmalar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash shaklida ham kuzatildi. Ya’ni, kichik biznes subyektlarining rivojlanishning turli bosqichlarida davlat tomonidan tadqiqot va ishlanmalar nuqtayi nazaridan yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmasligi ma’lum bo‘ldi.

Umumiy jihatdan olib qaraganda kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimidan qoniqish darajasi yetarli emas ya’ni, o‘rtachadan pastroqni ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, KBSlri faoliyatini yanada samaraliroq qilish uchun mavjud qo‘llab-quvvatlash tizim shakllarini takomillashtirish lozim, deb hisoblaymiz.

10 Ivy (1997). “Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe:A Survey of SMEsin Slovakia.” Journal of Small Business Management 35(3): 93-98

2.3.6-jadval: KBSlari o‘rtasida ular faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan muammolar yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

№	Muammolar ro‘yxati	Umumiy ball	O‘rtacha qiymat	Ustuvorlik bo‘yicha o‘rni
1	Soliq tizimini takomillashtirish, yengillashtirish va soddalashtirish	180	4,55	1
2	Umuman tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilmani takomillashtirish, shu jumladan, chinakam yordam beruvchi institutlarni tashkil etish	144	3,85	2
3	Sun’iy va ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish	110	2,75	3
4	Sanoat tadbirkorligi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, biznes-inkubatorlar, texnoparklar tashkil etish	106	2,4	4
5	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslardan foydalanishini, shu jumladan kredit mablag‘laridan foydalanishni soddalashtirish	58	1,45	5
6	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda axborot va maslahat yordamini ko‘rsatish	52	1,3	6
7	Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi dasturiy hujjatlarni to‘ldirish	38	0,95	7

Bundan tashqari tadqiqot davomida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ularni qiynayotgan muammolar bo‘yicha ham savollar asosida so‘rov o‘tkazildi. Ushbu savollar faoliyatda to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan yettita mummaolar guruhiga ajratilagan holda shakllantirildi. Savollar bo‘yicha tadbirkorlarning nuqtayi nazarini aniqlash natijasida dastlab 5 ballik tizimda jami ball va o‘rtacha ball hisoblab chiqilib, har bir masala bo‘yicha o‘rin ustuvorligiga ko‘ra saralab olindi (2.3.6-jadval).

Ijtimoiy tadqiqotning yana bir muhim jihati, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ko‘maklashuvchi tashkilot Savdo-sanoat palatasining faoliyatini baholashga oid savolga respondentlardan turlicha javoblar olindi. Ya’ni, so‘rovnomada siz Savdo-sanoat palatasi faoliyatidan qoniqasizmi degan savolga 183 ta respondentlarning 28 foizi (51 tasi) to‘liq qoniqishini, 31 foizi (56 tasi) o‘rtacha qoniqishini, 26 foizi (47 tasi) qoniqmasligini hamda 15 foizi (27 tasi) esa palata faoliyatidan keraklli ko‘mak olmasliklarini bildirishgan. Ushbu so‘rovnoma natijasidan respondentlarning qariyb 60 foizi palata faoliyatidan qoniqishlarini, qolgan 41 foizi esa deyarli qoniqmasliklarni bildirishgan.



2.3.2-rasm: Respondentlarning Savdo-sanoat palatasining faoliyatidan qoniqishi bo‘yicha bergan javoblar ko‘lami

Savdo sanoat palatasi aholini tadbirkorlik va biznes faoliyatiga yanada keng jalb qilish va a’zolari sonini ortirish bilan bir qatorda o‘z biznesini boshlashga, qolaversa, yuqoridagi tadqiqotda ko‘rib chiqilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining turli bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida va sifatli hal etishlari muhim masalalardan hisoblanadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Biz dissertatsiyamizning 2.2-paragrafida Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha tahlilini ko‘rib chiqdik. Natijalar ijobiy bo‘lishiga qaramasdan palataning ayrim vakolatlari va imkoniyatlari yetarli emasligi tadbirkorlik subyektlariga yetarli darajada ko‘mak berolmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, 2023-yilning yanvar oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan Savdo sanoat palatasi vakolatlari kengaytirilib, hukumatga ko‘rib chiqishi majburiy bo‘lgan masala kiritish, tadbirkor manfaatini ko‘zlab Oliy sudga ariza berish vakolatlari berildi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi hukumat bo‘ysunuvidan to‘liq chiqarilib, tadbirkorlar manfaatining chinakam himoyachisiga aylanadigan bo‘ldi.

XULOSA

Shunday qilib, tadbirkorlik subektlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari soliqqa tortish tizimini, umuman, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni takomillashtirish, shu bilan birga, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish zarurligini aniqladi.

Shuningdek, ushbu so‘rov mamlakatdagi biznes muammolarini hal etishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ikki xil jihatni ochib berdi. Avvalo, soliqqa tortish tizimi masalasining birinchi o‘ringa qo‘yilishi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun soliq bo‘yicha aniq yengilliklar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur metodologiyadan foydalanish O‘zbekiston Respublikasida hozirgi sharoitda tadbirkorlikni rivojlantirish va rag‘batlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tadbirkorlarning qariyb 45 foizi davlatdan yetarlicha ko‘mak olmaydilar, chunki ular tadbirkorlar uchun joriy etilayotgan imtiyoz va yengilliklar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emaslar. Bu, albatta, “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash” dasturi to‘g‘risida yetarlicha ma’lumot tarqatilmayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, davlat idoralari mamlakatda kichik biznesning o‘sishi va rivojlanishi uchun yuqoridagi barcha parametrlarga ko‘proq hissa qo‘shishi kerak. Bundan tashqari, tadbirkorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bosqichida davlat organlari tomonidan yanada yaxshi qo‘llab-quvvatlanishini istaydi. Biroq, ko‘pgina parametrlar uchun davlat yordami KBSlarining o‘sish va rivojlanish bosqichlarida mavjudligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda KBSni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun bu tizimi samaradorligini tegishli idoralar tomonidan yana bir bor tahlil qilib chiqish hamda qo‘llab-quvvatlash tizimining ta’sirchan va samarali usullarini joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot davomida shakllangan xulosa asosida, kichik biznes subyektlari mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, bu subyektlar har qanday mamlakatda ish o‘rinlarini yaratish va aholini ish bilan bandligini ta’minllash va daromadlarini oshirish uchun asosiy manba hisoblanshini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Ushbu tadqiqot davomida murojaat qilingan adabiyotlar va manbalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu turdagi korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi hissasi hukumat va boshqa ixtisoslashgan tuzilmalar ko‘magi va qo‘llab-quvvatlovisiz ta’sirchan bo‘lmaydi. Shuning uchun, kichik biznes korxonalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, rivojlanish va o‘sish bosqichlarida ham doimiy ravishda davlat ko‘magiga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa bunday ehtiyoj rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘proq kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Acs, Z. J(2008). “Introduction to Public Policyin an Entrepreneurial Society” p-17, Public Policy in an Entrepreneurial Economy: creating the conditions for business growth, in Acs, Z. and Stough, R. (Eds.) Washington, Springer.
2. Pope (2001).Confronting Corruption: The Elements of National Integrity System. Transparency International: London.
3. ILO (2002). “Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan.”-SEED Working Paper No.29.
4. Ngwuonugu,A, B(2005). “Small andMedium Enterprises(SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St. Clements University, Nigeria (unpublished).
5. Ganesh, L., Mehta, A(2010). Critical success factorsfor successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.
6. Ivy (1997). “Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe:A Survey of SMEsin Slovakia.” Journal of Small Business Management 35(3): 93-98.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5087-sonli qarori https://lex.uz/uz/docs/6060527.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINI CHUQURLASHUVI DAVRIDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANISHI

Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo xo‘jaligidagi globallashuv jarayonlari va uni turizm industriyaga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, unda turizmni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar mohiyatini aniqlashtirilib, to‘rtta yirik guruhlarga ajratish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘p qutbli dunyo, turizm industriyasi, globallashuv, xalqaro turizm, turistik xizmat, turistik mahsulot, demografiya, urbanizatsiya, konsentratsiya, institutsional, oilaviy turizm, turistik tadbirkorlik, integratsiya, xorijiy mehmon, xorijiy turist, ekskursant, zamonaviy telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari.

Abstract: In this article, the processes of globalization in the world economy and its impact on the tourism industry are studied, and the nature of the factors affecting the development of tourism is clarified and it is proposed to divide them into four major groups.

Key words: multipolar world, tourism industry, globalization, international tourism, tourist service, tourist product, demography, urbanization, concentration, institutional, family tourism, tourist entrepreneurship, integration, foreign guest, foreign tourist, excursionist, modern telecommunications, information technologies.

Аннотация: В данной статье изучены процессы глобализации в мировой экономике и ее влияние на туристическую отрасль, а также выяснена природа факторов, влияющих на развитие туризма, и предложено разделить их на четыре основные группы.

Ключевые слова: многополярный мир, индустрия туризма, глобализация, международный туризм, туристический сервис, туристический продукт, демография, урбанизация, концентрация, институциональный, семейный туризм, туристское предпринимательство, интеграция, иностранный гость, иностранный турист, экскурсант, современные телекоммуникации, информационные технологии.

KIRISH

Dunyo xo‘jaligi rivojlanishidagi o‘zgarishlar, ko‘p qutbli dunyo xo‘jaligini shakllanishi natijasida mamlakat iqisodiyotidagi jiddiy o‘zgarishlar fonida turizm industriyasidagi o‘zgarishlarga globallashuv jarayonlarini ta’siri yuqori. Xalqaro turizm bu sayohatlar tizimini shakllanishi, turistlar almashinuvi, davlatlararo kelishuvlar natijasida xalqaro turistik me’yorlarni ishlab chiqish jarayoni tushuniladi. Xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi, bugunki kunda bu vosita yanada murakkab jarayonlarga uchramoqda. Uning rivojlanish jarayoni bevosita globallashuv bilan bog‘liq hamda davlatlarni siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarida o‘z aksini topadi, bu esa, o‘z navbatida, turizm industriyasi faoliyatiga ta’sir etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Keyingi 50 yilda jadal sur’atlarda turizm industriyasi o‘rganila boshlandi [1], turistik industriya muammolari va uni yechimlari bo‘yicha ilmiy ishlanmalar tayyorlana boshlandi. Assosiy tadqiqotlar esa 1960-yillardan boshlandi, M.Klousson va D.Kletch (Clawson M. and Knetsch J.L) lar tomonidan “Tabiatda dam olish iqtisodiyoti” nomli kitoblarini [2] va 1970-yillarda Grey (Gray H.P.) esa “Savdo va xalqaro poyezdlarni o‘zaro bog‘liqligi” nomli kitobini nashr ettirdi [3]. Shu paytdan boshlab iqtisodchilarni turizm industriyasiga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib yubordi, 1995-yilda birinchi ilmiy jurnal “Tourizm Economics” nashr ettirila boshlandi.

XX asrning oxirida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi, ular asosan turizmni multiplikativ samaradorligi, turizmda ekonometrik modellar qo‘llash masalalari bilan shug‘ullanishgan. Ularga Archer, Fletcher, Krompton (Archer 1977, Archer and Fletcher 1996 [4], Crompton 2001 [5])larni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Turizm indus-

triyasidagi moliyaviy inqirozlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa Bleyk (Blake 2003 [6]), Pambudi (Pambudi 2009 [7]), turizmdagi daromadlar va ularni qambag‘allikni qisqartirishdagi roliga bag‘ishlangan ishlar bilan Bleyk, Sinklner (Blake, Arbache, Cinkler Teles 2008 [8], Wattanakuljarus Coxhead 2008 [9]) va boshqalar shug‘ullanishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan izlanishlar natijasida mamlakat hududlarida turizm industriyasini rivojlantirish, globallashuv davrida turizmni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar guruhlashtirilgan, turistik tadbirkorlik faoliyatini yangi bosqichga oshirish bo‘yicha o‘zgarishlar o‘rganilgan bo‘lib, zamonaviy xalqaro turizmni istiqboldagi rivojlanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Turizm industriyasini rivojlantirishni tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro turizm alohida jarayon bo‘lib, o‘ziga xususiyatlarga ega, turistik xizmatlar va faoliyatni qamrab olib, turistik mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarni xalqaro darajada o‘rganadi va turistlarga mos bo‘lgan turistik mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi. E.R.Iloyan fikriga ko‘ra “globallashuv davrida turizmni rivojlanishiga ta’sir etuvchi bir qator omillar mavjud va ularni uchta asosiy guruhlarga ajratish mumkin. Ularga demografik omil, iqtisodiy omil, ijtimoiy omillar guruhiga ajratib o‘rganishni taklif etgan” [10]. Uning fikriga ko‘ra, xalqaro turizm industriyasini tahlil qilish, undagi mavjud muammolarni o‘rganish asosida mavjud globallashuv ta’sirini hisobga olgan holda uchta guruh asosida turistik imkoniyatlarni aniqlashga asoslanadi.

Shuningdek, turizm sohasi bo‘yichi iqtisodchi olim, i.f.n., dots. U.R.Matyakubov bilan o‘tkazilgan suhbatda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda, xususan, qishloq joylarida aholi daromadini oshirish va mahalliy aholini ish bilan ta’minlashda bugungi kunda turizmning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan agroturizm xizmatlarini tashkil qilinishi lozimligi va viloyatda ushbu turizm turini samarali rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud ekanligi alohida qayd qilib o‘tildi. Jumladan, bugungi kunda Xorazm viloyatining Urganch, Yangibozor va Xiva tumanlarida mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli va namunali xizmat ko‘rsatuvchi bir qancha agroturizm obyektlari barpo etilgan.

Tashkiliy-boshqaruv omillar. Mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uni moliyalashtirilishi omilini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Xususan, bu borada Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyoji va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini – mehmonxonalarni va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish orqali moliyalashtirish kabi yo‘nalishlar belgilab berilgan [2].

Viloyatda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida ham keyingi yillarda bir qator ijobiy va istiqbolli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2015-yilda turistlarga yangi sayyohlik yo‘nalishlari taqdim qilish borasida Xiva tumanida “Bog‘i shamol”, “Xiva qorako‘l” fermerlik xo‘jaligida, “Eshon Ravot” ko‘lida, Bog‘ot tumanida “Qalajiq qal’a”, Urganch tumanidagi “Ulli hovli” obyektlarida yangi sayyohlik infratuzilmalari tashkil etildi.

Shu bilan bir qatorda, Urganch halqaro aeroporti binosini zamonaviy halqaro standart talablari hamda zarur infratuzilmalarni e’tiborga olgan holda qayta ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari yuksak darajada bajarildi. Yangicha kutib olish va kuzatish terminallari jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy qulayliklarga ega bo‘ldi. Bu yerda keng va yorug‘ zallarga eng so‘nggi rusumdagi jihozlar o‘rnatildi. Ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, “Duty free” do‘koni va qahvaxona shular jumlasidandir. Bundan tashqari, binoda 200 nafar yo‘lovchi sig‘imiga ega tranzit hamda “VIP” ,“CIP” zallari, sayyohlar uchun maxsus, qulay xizmat turi – axborot ofisi tashkil etildi.

Urganch shahridagi Shovot kanali bo‘yida zarur infratuzilmaga ega kemalar to‘xtashi uchun maxsus joylar barpo etildi va yangi kemalar sotib olinib ishga tushirildi. Xususan, “Shovot” kanali bo‘yida dam olish maskanlari barpo qilindi.

“Tarixiy madaniy meros obyektlarni ta’mirlash va holatini yaxshilash”ga doir 15,2 mln. AQSH dollariga teng (5,6 mlrd. so‘m) 39 ta madaniy meros obyektlarini ta’mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib dastur doirasida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan jami 19 ta obidada 6,8 mlrd. so‘mlik ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Sayyohlar uchun qo‘shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash yo‘nalishi bo‘yicha Dastur doirasida viloyatda 17,25 km uzunlikdagi optik-tolali kabel o‘tkazilib, 2304 ta internet portlari (216 tasi “Ichan Qal’a” majmuasida) o‘rnatildi.

Aeroport, temir yo‘l vokzali hamda “Ichan Qal’a” majmuasi hududida sayyohlik obyektlari va mehmonxonalarda Wi-fi internet zonalari tashkil qilindi.

“Ichan Qal’a” majmuasi hududi, Urganch shahridagi mehmonxonalarga 16 ta terminal va 3 ta bankomatlar o‘rnatilib, 5 ta valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi [10].

Shuningdek, viloyat turistik infratuzilmalarni rivojlantirishda ayrim hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar ham mavjud.

Xususan, mintaqa iqtisodiyoti bo‘yicha iqtisodchi olim, i.f.n., dots. I.S.Abdullayev bilan bo‘lgan suhbatda xalqaro turizm bozorida raqobatning rivojlanib borayotganligi, viloyat turizm kompleksida esa rivojlangan mamlakatlardagi kabi raqobatbardosh bo‘lgan “besh yulduzli” mehmonxona hamda turistlarga yengil avtomobillarni ijaraga beruvchi korxonalarning yo‘qligi soha rivojiga to‘sqinlik qilayotganligi aniqlandi.

Turizm bo‘yicha iqtisodchi olim, i.f.n., dots. F.O.Abdullayev esa, viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar asosan keksalarni tashkil qilayotganligi va bunga sabab viloyatda yoshlarni jalb qiladigan infratuzilmalarning yetishmasligi sabab bo‘layotganligini ta’kidlab o‘tdi.

Mintaqaning transport imkoniyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bugungi kunda Urganch xalqaro aeroportida Parij, Milan (mavsumda) va Rossiyaning Moskva, Sankt-Peterburg va Volgograd shaharlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri aviareyslar qatnovi amalga oshirilmoqda [10]. Bundan tashqari, Prezidentimiz Xorazm viloyatiga tashrifi mobaynida yaqin yillar ichida “Toshkent-Urganch-Xiva” yo‘nalishida “Afrosiyob” tez yurar poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilishini aytib o‘tdilar. Viloyatning bunday transport salohiyatiga ega ekanligi turizm sohasini rivojiga hissa qo‘shadi [11].

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishni mintaqaviy rejalashtirish va boshqarish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy- huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni so‘zimizning isbotidir [2].

Shuningdek, “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi tugatilib, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi [10]. Bularning hammasi sohani rejalashtirish va boshqarish asoslarini belgilaydi.

Turizmni rivojlantirishda mintaqadagi turistlarning xavfsizligini ta’minlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ularning sayohat xavfsizligi ta’minlanmasa, sayyoh tashrif buyurishdan voz kechadi. Bu borada “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Prezident farmonida turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo‘ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan [2].

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollarini belgilash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirildi (5-jadval).

5-jadval: Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
1	2
Yil sayin xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrifining oshishi	Xitoy, koreys, yapon, hind tilida so‘zlashish
Turizmni rivojlantirish bo‘yicha Prezident Farmonining qabul qilinganligi	Ekoturizm va rekreatsion turizm infratuzilmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi
Imkoniyatlari	Xavf-xatar yoki tahdidlari
Agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi	Turizm sohasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning juda sustligi sabab, turizmni moliyalashtirish
Transport infratuzilmasining yanada rivojlanishining kutilishi. Jumladan, “Toshkent-Urganch-Xiva” tez yurar poyezdining qatnovi amalga oshirilishining kutilishi	Xalqaro turizm bozorida raqobatning kuchayishi natijasida xorijiy sayyohlarning viloyatimizga tashrifi kamayishi mumkinligi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatning turizm salohiyati yaqin besh yil ichida sezilarli darajada rivojlangan. Bunga eng asosiy sabab, Prezidentimiz boshchiligida hukumat a’zolari, Turizmni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi, viloyat hokimiyati, olimlar, soha mutaxassislari va tadbirkorlarning turizm sohasini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissalari natijasidir.

Soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu kamchiliklarni quyidagi takliflar orqali bartaraf etish tavsiya qilinadi:

- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning ko‘pchilik qismi asosan faqat bir xil davlatlar (Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va Yaponiya)dan kelishmoqda. Viloyat turizm sohasini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, viloyatning turizm salohiyatini katta demografik tuzilishga ega bo‘lgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda yanada keng tarzda targ‘ibot- tashviqot qilib, ushbu mamlakatlardan keladigan sayyohlar sonini ko‘paytirish kerak;
- viloyatga Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlarga mazkur davlatlar tilida so‘zlasha oladigan gidlar yetishmayapti. Shuning uchun, xitoy, yapon, hind, koreys tilida so‘zlasha oladigan gidlarni tayyorlash lozim;

- viloyatda turistik resurslar va hududlar mavjudligiga qaramasdan, ulardagi infratuzilmalar haligacha rivojlanmagan. Misol uchun, Amudaryo bo‘yida ekoturizm hamda rekreatsion turizmni rivojlantirish resurslari borligi aniqlangan, lekin hanuzgacha kerakli infratuzilmalar (mehmonxona, kurort va hokazo) barpo qilinmagan. Mazkur muammoga jiddiy yondashgan holda tezkorlik bilan uni hal qilish uchun yechim topish kerak;
- viloyatga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘lib, mazkur yo‘nalishda agroturizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun ham istiqbolda agroturizmni rivojlantirish, buning uchun esa xorij tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar, asosan keksalarni tashkil qilmoqda. Bunga sabab, viloyatda yoshlarbop infratuzilmalarning yetishmasligidir. Shuning uchun, viloyatda yoshlarni jalb qiluvchi turistik infratuzilmalarni (jumladan, xostel1) yaratish lozim;
- viloyatning turizm kompleksida besh yulduzli mehmonxonaning yo‘qligi yuqori daromadli turistlarning vohamizga tashrif buyurishdan bosh tortishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun, xorijiy investorlarni jalb qilgan holda viloyatda besh yulduzli mehmonxonalarni barpo etish kerak;
- viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida rivojlangan mamlakatlardagi kabi yengil avtomobillarni ijaraga beruvchi korxonalarni tashkil qilish lozim. Bu esa, viloyatning turizm jozi-badorligini oshirish bilan birgalikda turistik xizmatlarning ko‘payishiga qulay zamin yaratadi;
- viloyatning turizm salohiyati faqatgina BTT (Butunjahon Turizm Tashkiloti) internet saytida (www.unwto.org) reklama qilinmasdan, boshqa eng ko‘p kiriladigan internet saytlarda ham reklama qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shuningdek, mintaqada turizm sohasining rivojlanish shartlarini modellashtirish (4-jadval) va modeldagi barcha omillarni kompleks tarzda rivojlantirish istiqbolda turizm sohasini rivojlanishi uchun ta’sir qiladigan murakkab dastur, metod va yo‘nalishlarni ifodalovchi samarali mintaqa siyosatini shakllantirishga ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi”dagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2017-yil 16-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan PF-4861-son Farmoni.
3. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2014.
4. To‘xliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –Toshkent, “Iqtisodiyot-moliya” nashriyoti. 2010. – 254 bet.
5. Rustamovich, Dehkonov Burhan. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan // European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23.
6. Dehqonov Burxon Rustamovich. Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2023-yil, oktyabr. № 10-son ISSN: 2992-8982
5. Балабанов И.Т.Балабанов А.И.Экономика туризма: Учеб. пос–М.:Финансы и статистика, 2003. - 176 с.
6. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 368 с.
7. Зализняк Е.А., Региональный туризм: Основные признаки и условия развития, Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 3, Экон. Экол. – 2011. –№ 2 (19).
8. Винокуров М.А., Что такое туризм?/научная статья- www.dissercat.com
9. Xorazm viloyat Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma’lumotlari.
11. www.xorazm.uz sayti.
12. www.wikipedia.org sayti.

IQTISODIY-MATEMATIK USULLAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Eshqo‘ziyev Oxunjon Oybek o‘g‘li
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishi, ishlab chiqarish tannarxining mahsulotlar sotishdan tushgan pul tushumiga nisbatan ortishi tovar ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvolini yomonlashtirmoqda. Ko‘plab sanoat korxonalarida takror ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning keskin tanqisligi, mavjud asbob-uskunalar, texnika va texnologiyalarning eskirishi, mahsulot turlarini ishlab chiqarishning yanda qisqarishi, iqtisodiy samaradorlikning keskin pasayish holatlari kuzatilmoqda. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish investitsiyalarning optimal hajmini va tarkibini ilmiy asoslashni, investitsiyalardan ratsional foydalanish yo‘llarini aniqlashni taqozo etadi. Maqolada sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda ham sanoat sohasini tadqiq qilishning eng muhim dolzarb masalalaridan biri ekani tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy inqiroz, moliya bozori diversifikatsiyasi, investitsiyalar, talab va taklif, bozor, real sektor, moliyaviy munosabatlar.

Abstract: Today, the sharp decrease in the volume of production of industrial products, the increase in the cost of production compared to the income from the sale of products worsens the financial situation of goods manufacturers. In many industrial enterprises, there is a sharp shortage of investments necessary for the implementation of remanufacturing processes, obsolescence of existing equipment, techniques and technologies, a reduction in the production of products, and a sharp decrease in economic efficiency. Increasing the efficiency of industrial production requires scientific justification of the optimal amount and composition of investments, and determining the ways of rational use of investments. Therefore, the issue of increasing the efficiency of investments of industrial enterprises remains one of the most important current issues of industrial research. In the article, it is analyzed that the issue of increasing the efficiency of investments of industrial enterprises is one of the most important current issues of industrial research.

Key words: Economic crisis, financial market diversification, investments, supply and demand, market, real sector, financial relations.

Аннотация: Сегодня резкое снижение объемов производства промышленной продукции, рост себестоимости продукции по сравнению с доходами от реализации продукции ухудшают финансовое положение производителей товаров. На многих промышленных предприятиях наблюдается острый дефицит инвестиций, необходимых для осуществления процессов модернизации, устаревание существующего оборудования, техники и технологий, сокращение производства продукции, резкое снижение экономической эффективности. Повышение эффективности промышленного производства требует научного обоснования оптимального размера и состава инвестиций, определения путей рационального использования инвестиций. Поэтому вопрос повышения эффективности инвестиций промышленных предприятий остается одним из важнейших актуальных вопросов промышленных исследований. В статье анализируется, что вопрос повышения эффективности инвестиций промышленных предприятий является одним из важнейших актуальных вопросов промышленных исследований.

Ключевые слова: Экономический кризис, диверсификация финансового рынка, инвестиции, спрос и предложение, рынок, реальный сектор, финансовые отношения.

KIRISH

Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishning eng muhim sharti uning ichki va tashqi omillar bilan o‘zaro barqaror aloqadorligidir. Bunda investitsiyalar mamlakat sanoat tarmog‘ining qudratli industrial salohiyatini shakllantirish va ishlab chiqarish samradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Sanoat tarmog‘ida investitsiyalar faoliyatining jonlanishi iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish, iqtisodiy inqirozdan chiqarish, iqtisodiyotning rivojlanishini jadallashtirishga shart-sharoit yaratishning asosi sifatida xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatining shakllaridan samarali foydalanish mamlakat sanoat tarmog‘ini yangidan iqtisodiy isloh qilish va tarkibiy qayta shakllantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashga imkon yaratadi. Demak, investitsiyalar davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradigan muhim vositalardan biri ekan. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyatini yoritib berish ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan juda zarur.

Kapitalning aylanmasi va tarkibini sifat jihatdan yangilab borish, ishlab chiqarish vositalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai sifatida klassik iqtisodchi olimlar U. Petti, A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, A.Marshall, B.C. Barda, L.T. Gilyarovskoy, A.V. Idrisov, V.V. Kovalev, Ye.S. Stoyanova, A.V. Frolov, T.S. Xachaturov, A.V. Chayanov, E.Dj. Dolan, E.Kasla, K.R. Makkonnella, S.L. Bryu, G.A. Maxovikova va b.lar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq investitsiyalar bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilishda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xususiyatlari iqtisodiyotning kapital talab qiluvchi tarmog‘i sifatida hisobga olinmagan, investitsiyalar va ular manbalarining yo‘nalishlarini iqtisodiy asoslashga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, tadqiqot qilinayotgan mavzu bo‘yicha boshqaruvning turli shakllari, investitsiyalar hajmi hamda kirim qilingan investitsiyalarning samaradorlik darajasini oshirishga ta’sir qiluvchi omillar hisobga olinmagan. Bugungi kunga kelib sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ta’minlash masalalarini hal etish uchun sanoat korxonlarini rivojlantirish strategiyasini asoslashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslashga qaratilgan ilmiy uslubiy asoslar va chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Sanoat tovarlari bozorining kon’yunkturasini o‘rganish natijalari ushbu tarmoq muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Binobarin, kelgusida sanoat ishlab chiqarishini intensivlash va uning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish asosida investitsiyalar hajmini va tarkibini, mahsulot ishlab chiqarish sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali sanoat mahsulotlari hajmini yetarli darajada ko‘paytirish ko‘zda tutilmoqda.

Mazkur qoidalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sanoat mahsulotlari turining sifatini hamda bozor munosabatlari tamoyillarini hisobga oladigan ishlab chiqarish vositalardan foydalanish bilan bevosita chambarchas bog‘liq. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish sharoitida sanoat korxonalari mahsulot ishlab chiqarishning istiqbolli rivojlanishini tizimli shakllantirish va tahlil qilishda yuzaga keladigan muammolarni iqtisodiy-matematik instrumentlardan foydalanmasdan turib hal qilish mumkin emas. Mazkur instrumentlardan foydalanish ko‘p variantli hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Bu esa sanoat mahsulotlari turlarini ko‘paytirishda muayyan turdagi zaxiralarni qidirib topishga shart-sharoit yaratadi. Bu kabi masalalar mamlakat doirasida hal etishga mo‘ljallangan masalaning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarish hajmining jadal sur’atlar bilan oshib borishi investitsiyalar unumdorligini oshirish hisobiga ta’minlanmoqda. Bunda investitsiyalar tarkibi va aylanmasini ilmiy asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibiy tuzilishi sanoatda ishlab chiqarish dasturining asosini tashkil etadi. Maqsadimiz - investitsiyalar aylanmasi va tarkibining o‘zaro aloqador elementlarni tizimlashtirish asosida sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini oshirishdan iborat, chunki investitsiyalarning shakllanishi va aylanmasi ishlab chiqarish vositalarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbaidir

Investitsiyalar aylanmasi va tarkibining matematik tavsifini soddalashtirishda sanoat korxonalarining investitsiya resurslari manbalariga tayangan holda investitsiyalar aylanmasi va tarkibiy guruhlarini ko‘rib chiqaylik. Ular korxonaning o‘z mablag‘lari (korxona ixtiyoridagi sof foyda, amortizatsiya ajratmasi); korxonaga jalb qilingan mablag‘lar (xorijiy investitsiyalar, mulkka tenglashtirilgan manbalar, sug‘urta tovonlari, aksiyadorlarning mablag‘lari, budjet mablag‘lari, aksiyalarni joylashtirish(IPO), kreditlar); korxonaning qarz mablag‘lari (xorijiy investitsiyalar, tijorat kreditlari, bank kreditlari, davlat (markazlashtirilgan) kreditlari, investitsiya soliq kreditlari, lizing, forfeyting, franchayzing, loyihalarni moliyalashtirish) va boshqa manbalardan iborat. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibining qoidasi muddatlilik, ta’minlanganlik, to‘lovlilik, qaytarishlik, maqsadli ishlatilishi va shu kabi boshqa ko‘rinishdagi tasniflarga asoslanadi.

Bundan tashqari, investitsiyalarning har bir guruhi uchun ularning harakatini tavsiflovchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunda investitsiyalar aylanmasi va tarkibidagi har bir guruhning boshlang‘ich qoldig‘i muayyan davr ichida to‘liq yoki qisman yangilanishi shart. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibiy guruhining yangilanishi investitsiyalar aylanmasining rejalashtirilgan kirim qismi (o‘z mablag‘lari, jalb qilingan mablag‘lar, qarz mablag‘lari, boshqa guruhdan o‘tkazilidigan mablag‘lar) bilan rejalashtirilgan chiqim qismi bo‘yicha daslabki holatning o‘zgarishini ko‘zda tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish amaliyotida investitsiyalar aylanmasi va tarkibini hisoblashda balans usulidan foydalaniladi. Bunda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining tipik qoidalari bo‘yicha shartlar bajarilishini kuzatish mumkin. Quyida tipik qoidalarning quyidagi shartlar bajarilishi keltirilgan:

1. Investitsiyalar aylanma harakatining kirim qismi (I_{km}) - korxonanning o‘z mablag‘lari (I_{um}), jalb qilingan mablag‘lar (Ijm), qarz mablag‘lari (I_{zm}), boshqa guruhdan o‘tkaziladigan mablag‘lar (I_{bm}) va tashqaridan kirim qilinadigan mablag‘larni (I_{tm}) o‘z ichiga oladi:

$$I_{km} = I_{um} + I_{jm} + I_{zm} + I_{bm}$$

2. Investitsiyalar aylanma harakatining chiqim qismi (I_{chm})- boshqa guruhga o‘tkaziladigan mablag‘lar (I_{bu}) va korxona faoliyatidan tashqari faoliyatga sarflanagan mablag‘larni (I_{ts}) o‘z ichiga oladi:

$$I_{chm} = I_{bu} + I_{ts}$$

3. Rejalashtirilgan davr boshidagi investitsiyalar hajmi bilan (I_{chm}) ulardagi aylanma harakatning kirim qismidagi investitsiyalar (I_{mk}) yig‘indisi rejalashtirilayotgan davr oxiridagi investitsiyalar bilan ulardagi aylanma harakatning chiqim qismidagi investitsiyalar (I_{mch}) yig‘indisiga teng bo‘lishi shart:

$$I_{km} + I_{mk} = I_{chm} + I_{mch}$$

4. Boshqa guruhlarga o‘tkaziladigan investitsiyalar hajmi (I_{bu}) - investitsiyalarning boshqa guruhlardan kirim qilinadigan investitsiyalar hajmidan (I_{bm}) korxonaning o‘z mablag‘larining (I_{um}) kamaytirilgan hajmiga teng bo‘lishi shart:

$$I_{bu} = I_{bm} - I_{um}$$

5. Investitsiyalar hajmi korxonaning o‘z ixtiyoridagi sof foyda (I_{sf}), amortizatsiya ajratmasi (I_{aa}), xorijiy investitsiyalar (I_{xi}), mulkka tenglashtirilgan manbalar (Itm), sug‘urta tovonlari (I_{st}), aksiyadorlarning mablag‘lari (I_{am}), budjet mablag‘lari (I_{bs}), aksiyalarni joylashtirish (IPO) (I_{aj}), tijorat kreditlari(I_{tk}), bank kreditlari (Ibk), davlat (markazlashtirilgan) kreditlari (I_{dk}), investitsiyaviy soliq kreditlari (I_{sk}), lizing (I_{lz}), forfeyting (I_{ff}), franchayzing (I_{fch}), loyihalarni moliyalashtirish (I_{lf}) va boshqa investitsiyalar turlariga teng bo‘lishi shart

$$I_{ix}=I_{sf}+I_{aa}+I_{xi}+I_{tm}+I_{st}+I_{am}+I_{bs}+I_{aj}+I_{tk}+I_{bk}+I_{dk}+I_{sk}+I_{lz}+I_{ff}+I_{fch}+I_{lf}+ \ldots$$

6. Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi (zarari) (MD_{yaf}) - mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum (MD_{st}) bilan sotilgan mahsulotlar tannarxining (MD_{mt}) ayirmasiga teng bo‘lishi shart:

$$MD_{yaf} = MD_{st} + MD_{mt}$$

7. Davr xarajatlari (DX_{dx}) - sotish xarajatlari (SX_{sx}), ma’muriy sotish xarajatlari (MX_{mx}), boshqa operatsion xarajatlar (OX_{ox}) va kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlarining (KX_{kx}) yig‘indisiga tengbo‘lishi shart:

$$DX_{dx} = SX_{sx} + MX_{mx} + OX_{ox} + KX_{kx}$$

8. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (AD_{af}) - mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi (zarari) (MD_{yaf}) bilan asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (AD_{fb}) yig‘indisi davr xarajatlari (DX_{dx}) o‘rtasidagi tafovutga teng bo‘lishi shart:

$$AD_{af} = MD_{yaf} + AD_{fb} - DX_{dx}$$

9. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar (DM_{fd}) – dividendlar shaklidagi daromadlar (DM_{dd}), foizlar shaklidagi daromadlar (DM_{fsh}), uzoq muddatli moliyaviy lizingdan olingan daromadlar (DM_{ld}), valyuta kursi farqidan olingan daromadlar (DM_{vd}) va moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromadlar (DM_{bd}) yig‘indisiga teng bo‘lishi shart:

$$DM_{fd} = DM_{dd} + DM_{fsh} + DM_{ld} + DM_{vd} + DM_{bd}$$

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

10. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (XM_{mx}) – foizlar shaklidagi xarajatlar (XM_{fsh}), uzoq muddatli moliyaviy lizing bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar (XM_{lx}), valyuta kursi farqidan zararlar (XM_{vz}) va moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar (XM_{bx}) yig‘indisiga teng bo‘lishi shart:

$$XM_{mx} = XM_{fsh} + XM_{lx} + XM_{vz} + XM_{bx}$$

11. Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari) (UD_{fz}) - asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (AD_{af}) va moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar (DM_{fd}) yig‘indisi bilan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar o‘rtasidagi tafovutga teng bo‘lishi shart:

$$UD_{fz} = AD_{af} + DM_{fd} - XM_{mx}$$

12. Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (SF_{fz}) – foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarar) (FS_{fz}) bilan foyda solig‘i (FS_{fs}) hamda foyda hisobidan to‘lanadigan boshqa soliqlar va yig‘imlar (FS_{sy}) o‘rtasidagi tafovutga teng bo‘lishi shart:

$$SF_{fz} = FS_{fz} - FS_{fs} - FS_{sy}$$

13. Rejalashtirlayotgan davr uchun investitsiyalarining o‘rtacha hajmi (I_{ux}) ularning rejalashtirlayotgan davridagi kunlar soniga (K_{ks}) bo‘lgan nisbati orqali ifodalanadi:

$$I_{ux} = I_{ix} : K_{ks}$$

14. Investitsiyalarning kengaytirilgan va jadallashgan takror ishlab chiqarish shartlari quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$I_{km} > I_{km};\ MD_{st} > MD_{mt};\ MD_{yaf} + AD_{fb} > DX_{dx}$$

$$AD_{af} + DM_{fd} - XM_{mx};\ FS_{fz} > FS_{fs} - FS_{sy}$$

Tipik qoidalarning shartlari asosida investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlari quyida batafsil keltirilgan. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlarini modellashtirishda algoritmlar guruhini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki har bir algoritm o‘ziga xos hisoblash xususiyatiga ega.

Mavjud tizimni bir nechta guruhga ajratamiz. Birinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining parametrlari o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi va ular o‘rtasida hajmiy nisbatlar aniqlanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar tarkibining dastlabki holati va ular aylanmasi va tarkibining guruhlari tavisflanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining guruhlari holati rejalashtiriladi.

XULOSA

O‘zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning bugungi kundagi darajasi jahondagi o‘rtacha mahsulot ishlab chiqarish me’yori darajasidan ancha orqada qolmoqda. Bu holat sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning tarkibini qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirishni taqozo etadi. Sanoat tarmog‘i ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va intensiv rivojlantirish asosida investitsiyalarni ko‘paytirish zarurati bilan tavsiflanadi. Bunda investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, ularning tarkibini o‘zgartirish, investitsiyalarni jalb qilish usullarini qo‘llash asosida sanoat mahsulotlarini ko‘paytirishda investitsiya zaxiralarni qidirib topish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy-matematik modellar asosida investitsiyalar salohiyatini ilmiy asoslash, investitsiya tarkibining unumdorligini oshirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish asosida mahsulot turlarni ko‘paytirishning ichki zaxiralarini qidirib topishning hisob-kitoblari ko‘p variantli ko‘rinishda bajariladi va bu modellar iqtisodiy–statistik tahlil, optimallashtirish va imitatsion modellashtirish usullari bilan birgalikda alohida korxonaning iqtisodiy shart-sharoitlariga moslashtirilgan holda qo‘llaniladi. Bu yerda parametrlarni muvofiqlashtirish ushbu modellarning qayta aloqa qilish qoidasiga muvofiq o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Modellarga doir hisob-kitob natijalari tahlili korxonada investitsiyalarni ko‘paytirishning ichki zaxiralarini qidirib topish va asoslash imkonini berdi. Bunda investitsiyalar mikdori 2021-yilga nisbatan 3,9 – 7,5% ga o‘sish mumkinligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank.” – август 2022 г.
2. Salzmann A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogunlana S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication – 224, pp 475-485.
3. Salzmann, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9, pp – 101-114.
4. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
5. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya 2.3 (2023): 35-37.
6. Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.
7. https://www.codingninjas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods

YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG‘OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Raxmonov Lochin To‘xtamishovich
Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Abstract: This article reveals the experience of advanced foreign countries in the use of digital technologies in the fight against the shadow economy.

Key words: digital economy, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Аннотация: В данной статье раскрывается опыт передовых зарубежных стран по использованию цифровых технологий в борьбе с теневой экономикой.

Ключевые слова: цифровая экономика, “Big Data”, “Cloud Computing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, интернет.

KIRISH

Bugungi kunda internet axborot tarmog‘ining jadal o‘sib borayotgani va rivojlanayotganligini undan foydalanuvchilar sonining oshib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Xususan, foydalanuvchilar segmenti ham yildan-yilga o‘zgarib bormoqda, yoshlar, katta yoshdagilarning kompyuter savodxonligi darajasi oshib bormoqda. Aloqa vositalari ham yaxshilanmoqda va mamlakat aholisining yarmidan ko‘pi turli xil ilovalar orqali axborot almashish bilan shug‘ullanmoqda. Elektron tizim orqali axborot almashinishning turli usullaridan foydalanish va uning tez tarqalishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi.

XXI asrning boshlanishi raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish, axborot makonidagi inqilob va iqtisodiyotning globallashuvining tezlashishi bilan ajralib turdi. Ijtimoiy va biznes jarayonlarida ma’lumotlar olingan resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi oshgan holda bilimga aylantiriladi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib boradi. Bozor subyektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanadi [1]. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institutsional tuzilishi bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi va asosan yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga ehtiyoj tug‘diradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pgina mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shunga ko‘ra, virtual iqtisodiy maydonda ishtirok etish mamlakatlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Albatta, jahon miqyosidagi tezkor va global rivojlanish, shuningdek, barcha turdagi mobil aloqa raqamli iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, Internet rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga va ijtimoiy sohalarga, jumladan, ishlab chiqarish, tibbiyot, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot, uning shakllari va ta'sir etuvchi omillarining ilmiy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: D.Tapscott [3], N.Lane [4], T.Mesenbourg [5], M.Kastells [6], B.Panshin [7], N.Negroponte [8], A.Sokolov [9], A.Kunsman [10], R.Buxt [11], R.Xiks, M.Polojixina [12], I.Strelkova [13], M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, M.Kastells, R.A.Solou [2] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indekslari (The ICT Development Index (IDI)) – Birlashgan Millatlar Xalqaro Telekommunikatsiyalar Ittifoqi tomonidan xalqaro miqyosda qabul qilingan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'rsatkichlari asosida chop etilgan indeks [14]. Bu axborot jamiyatini o'lchash uchun eng muhim ko'rsatkichlarni taqqoslashning muhim vositasidir. IDI davlatlar, operatorlar, rivojlanish agentliklari, tadqiqotchilar va boshqalar raqamli bo'linishni o'lchash va AKT ko'rsatkichlarini davlatlar ichida va mamlakatlar o'rtasida solishtirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan standart vositadir. AKT rivojlanish indeksi 11 ta AKT ko'rsatkichlariga asoslangan, ular uchta guruhga bo'linadi: kirish, ulardan foydalanish va qobiliyat.

Kirish sub-indeksi AKTga tayyorligini ta'minlaydi va beshta infratuzilma ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

- statsionar telefon abonentlari / 100 kishi;
- mobil uyali aloqa abonentlari / 100 kishi;
- har bir foydalanuvchi uchun xalqaro Internet tarmog'ining kengligi (bit / s);
- kompyuter bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari ulushi;
- Internetga ulangan uy xo'jaliklarining ulushi.

Foydalanish sub-indekslari AKT zichligi bilan ajralib turadi va uchta AKT zichligi va foydalanish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

- Internetdan foydalanadigan jismoniy shaxslar foizi;
- 100 (100) aholi uchun doimiy (simli) – keng polosali ulanish;
- Har 100 aholi uchun sun'iy yo'ldoshli keng polosali ulanish (sun'iy yo'ldosh, yerusti va eng kam 256 kbit/s gacha bo'lgan faol mobil aloqa).

Sub-indeks AKT imkoniyatlarini yoki ko'nikmalarini kerakli indikatorlar sifatida egallaydi. Mamlakatlarning keyingi ikki indekslari AKT imkoniyatlarini yoki qobiliyatlarini majburiy kiritish indikatorlari sifatida egallaydi. U uchta proksi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi va IDI hisoblashda boshqa ikki pastki ko'rsatkichga nisbatan kamroq yuklama beriladi.

- kattalar savodxonligi darajasi;
- umumta'lim maktablarida o'qishning o'rtacha darajasi;
- umumiy qamrab olish darajasi.

2015-yilda raqamli iqtisodiyot va Jamiyat indeksi bo'yicha Yevropa Ittifoqi 0,47 balni qo'lga kiritdi [15].
Indeks quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil etildi:

1. Ulanish.

Ulanish hajmi keng polosali infratuzilmani joylashtirishni va uning sifatini o'lchaydi. Tez va ultratez keng polosali ulanish xizmatlaridan foydalanish raqobatbardoshlikning zarur shartidir.

2. Inson kapitali – raqamli ko‘nikmalar.

Inson kapitali o‘lchami raqamli imkoniyatlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘lchaydi.

3. Fuqarolarning Internet-xizmatlaridan foydalanishi.

4. Raqamli texnologiyalar va biznes subyektlari integratsiyasi.

5. Raqamli davlat xizmatlari.

Raqamli davlat xizmatlari hajmi elektron hukumat va elektron tibbiy xizmatlarga yo‘naltirish bo‘yicha davlat xizmatlarini raqamlashtirishni o‘lchaydi. Davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish davlat boshqaruvi, fuqarolar va biznes uchun samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin.

6. AKTni tadqiq etish va rivojlantirish.

Tadqiqot va rivojlanish AKT Yevropa Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan AKT sohasi va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari va Yevropa Komissiyasining iltimosiga binoan o‘tkaziladigan tashqi tadqiqotlar tahlili.

Yevropa Ittifoqi (YEI) so‘nggi yillarda barcha toifadagi raqamli iqtisodiyot va jamiyat indekslarini yaxshilagan bo‘lsa-da, aloqa guruhida eng yuqori ko‘rsatkich (0,51 dan 0,55 gacha) amalga oshirildi. Bu asosan mobil aloqa qamrovini kengaytirish (100 kishiga 58 dan 67 tagagacha) va yuqori tezlikda qamrab olish (yuqori tezlikdagi internet ulushi 18 dan 22 foizgacha oshdi) hisobiga amalga oshdi. Fuqarolarning asosiy raqamli ma’lumotlashish darajasi ham oshdi (Yevropa Ittifoqi aholisining 55% dan 59% gacha), ammo raqamli iqtisodiyotni yanada samarali ishlatish uchun aholini zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, axborotlashtirish sohasidagi ijobiy siljishga qaramasdan, raqamli iqtisodiyotning ulkan salohiyati hali Yevropaliklar tomonidan qo‘llanilmayapti. Shunday qilib, Yevropa Komissiyasining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda korxonalarning 41 foizi raqamli texnologiyalarni qo‘llamaydi va ularning faqat 2 foizigina raqamli texnologiyalarning zaruriyatini tan olishadi [16].

Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya va Niderlandiya YEIda eng ilg‘or raqamli iqtisodiyotga ega, Luksemburg, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Estoniya, Ruminiya, Gretsiya va Italiya indeks bo‘yicha eng past ko‘rsatkichga ega.

2019 yilda barcha a’zo davlatlar indeks tarkibida yaxshilandi. Irlandiya va Ispaniyada esa, eng yuqori darajaga erishildi (Yevropa Ittifoqi o‘rtacha 3.2 ga qaraganda 5 ballgacha). Boshqa tomondan, Daniya va Portugaliyada (2 balldan past) past o‘sish bo‘ldi.

Raqobatbardoshlik, tadbirkorlik va innovatsiya darajasini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar salohiyatidan foydalanish zarurligi “Tadbirkorlik–2020” tadbirlar rejasida alohida qayd etildi. Yevropa Komissiyasi raqamli inqilob orqali taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishni, mavjud ishbilarmonlarning innovatsion o‘zgarishlarini rag‘batlantiradi va Yevropada raqamli biznesni qo‘llab-quvvatlaydi.

Raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanish YEI mamlakatlari tomonidan raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘sishni oshirish, shuningdek, ish o‘rinlari sonining o‘sishi uchun muhim vosita sifatida tan olingan. Natijada, bu masala “Tadbirkorlik 2020” tadbirlar rejasi bilan bir qatorda qator tashabbuslarda kun tartibida birinchi bo‘lib, jumladan:

- YEI-2020 dasturining tashabbuslari – Globallashuv davrida sanoat siyosati (Industrial Policy in an Era of Globalization), Yevropa uchun raqamli kun tartibi (The Digital Agenda for Europe (DAE)), Innovatsiyalar birligi;
- Yevropa uchun kichik biznes to‘g‘risidagi qonun (The Small Business Act for the EU), 2008;
- “O‘zgaruvchan muhitda elektron biznes siyosatining uyg‘unligi: Go Digital tashabbusi va kelajakdagi muammolarning mavjudligi;
- “Tadbirkorlik–2020” harakat rejasi 2020-yilgacha bo‘lgan davrda siyosat va asosiy ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun zamin yaratdi. Dastur besh toifaga bo‘lingan, ularning har biri raqamli tadbirkorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillarni ta’riflaydi.

YEIda Fransiya raqamlash sohasidagi yetakchilardan biri hisoblanadi. Fransiyada infratuzilmaning yuqori sifat va standartlar asosida bo‘lishi allaqachon an’anaga aylanib bo‘lgan: yo‘llar, suv liniyalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi obyektlari va hatto park joylari. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni takomillashtirib borish davlat strategiyasining asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bundan tashqari, butun mamlakat bo‘ylab axborot xavfsizligini rivojlantirishga, korxonalar yoki raqamli mahsulotlarni shaxsiy foydalanishni unutmaslik kerak.

Bugungi kunda Fransiya “Cisco Systems, Inc” bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu kompaniya Fransiyaning iqtisodiy o‘sishini tezlashtirish, raqobat va ish bilan ta’minlash darajasini oshirishga yordam beradi.

“Cisco Systems, Inc” tarmoq akademiyasi mamlakatning 200 mingga yaqin odamlari uchun kelajakdagi asosiy texnologiyalar uchun o‘quv dasturlarini tashkil etadi, shuning uchun fransuz tadbirkorlari mamlakatning raqamlashtirishda ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bundan tashqari, yangi innovatsion markazlar tashkil etilmoqda, ular dasturlarni ishlab chiqishda yordam berish bilan shug‘ullanishmoqda. Natijada, keng qamrovli Internetning hali amalga oshmagan salohiyati tufayli Fransiya uch oy ichida ushbu tashabbusni amalga oshirish, eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ushbu loyihaning qiymati 720 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi va unda 1,1 million kishi faoliyat olib borishi rejalashtirilgan [15].

2020-yil 1-choragida ruslarning raqamli savodxonlik ko‘rsatkichi 0 dan 100 gacha shkala bo‘yicha 58 punktni tashkil etdi. Indeks DigComp metodologiyasi bo‘yicha hisoblab chiqilgan. DigComp (The European Digital Competence Framework) raqamli savodxonlikni har tomonlama baholash bo‘yicha yetakchi xalqaro yondashuv hisoblanadi. Ushbu konsepsiya doirasida raqamli kompetensiyalar tahlili 5 ta asosiy parametr bo‘yicha amalga oshiriladi: axborot savodxonligi; kommunikativ savodxonlik; raqamli tarkibni yaratish; raqamli xavfsizlik; raqamli muhitda muammolarni hal qilish ko‘nikmalari.

Milliy elektron ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish dasturi Janubiy Koreyada 1995-yildayoq qabul qilingan edi. Koreya Respublikasi Ta’lim va personalni boshqarish vazirligi hamda Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha axborot xizmati – “Korea Education and Research Information Service – KERIS tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dastur to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – 1996-2000-yillar. Ushbu davrda mamlakatda “Education Network – Edunet” axborot xizmati shakllantirilib, ta’lim muassasalari pedagoglari raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha qayta tayyorlanishlari bilan bir qatorda aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonligi oshirildi.

2001–2005-yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqichda “Education Network – EDUNET” axborot xizmati takomillashtirildi. O‘qitish va ta’lim markazi – “Teaching and learning center” hamda kiber uy ta’limi tizimi – “Cyber Home Learning System – CHLS” ta’sis etildi, shuningdek, raqamli kutubxonalar tashkil qilindi. Bu mamlakat miqyosida elektron ta’limni joriy qilish imkoniyatini yaratdi.

“CHLS” tizimi ta’lim muassasalarida o‘qiyotganlarga o‘z bilimlarini mustaqil oshirishga mo‘ljallangan. Mazkur kontent talaba yoshlarning qiziqishlari va bilimi darajasidan kelib chiqqan holda tegishli o‘quv dasturlarini tanlash, repetitorlarga murojaat qilmasdan qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. U, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalar uchun qo‘l keladi.

Uchinchi bosqich – 2006–2010-yillarda Janubiy Koreya jahon elektron ta’lim bozoridan mustahkam o‘rin oldi. Bu har yili davlat g‘aznasiga 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad keltira boshladi.

2011–2015-yillardagi to‘rtinchi bosqichda mamlakatda shakllantirilgan elektron ta’lim tizimi tubdan takomillashtirildi. Mamlakatda elektron ta’limni muvofiqlashtirish bo‘yicha 17 ta mintaqaviy bo‘lim – “Metropolitan & Provincial Offices of Education – MPOES” shakllantirildi.

Janubiy Koreyada elektron ta’lim tizimini shakllantirish quyidagi algoritm asosida amalga oshirildi:

- elektron ta’lim – Electronic education (E-learning);
- mobil ta’lim – Mobile-learning (M-learning);
- yalpi ta’lim – Ubiquitous-learning (U-learning);
- interaktiv ta’lim – Smart-education.

Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang‘ich, o‘rta hamda oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etilgan. Mamlakatdagi universitetlarning 83 foizi “E-learning” tizimi bilan qamrab olingan. Bundan tashqari, 17 ta kiber universitet mavjud bo‘lib, ularda onlayn tartibida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan 40 ming talaba tahsil oladi. Ushbu talabalar bilimini nazorat qilishning dasturiy ta’minoti yaratilgan. “EDUNET” internet portali ulkan miqdordagi videodarslar, elektron kitoblar, o‘quv materiallarining ko‘chirmalariga ega. Undan 6,7 mln. kishi foydalanadi. Har kun portalga 410 ming kishi kirib, ular 27 mln. sahifa darsliklar va boshqa zarur o‘quv materiallari bilan tanishadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlarda o‘xshash maqsadlar belgilangan bo‘lishiga qaramay, ularga erishish yo‘llari har xil. Bu, albatta, nafaqat ustuvorliklarning xilma xilligi, balki, milliy innovatsion tizimlar va boshqaruv usullarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Xususan, Buyuk Britaniyada raqamli xizmat ko‘rsatish sohasi, Germaniyada raqamli ishlab chiqarish ustuvorlik qilsa, raqamli tashabbus Xitoy va AQSH da xususiy xarakterga ega (1.2-jadval).

2-jadval: Xorijiy mamlakatlarda yo‘lga qo‘yilgan raqamlashtirish milliy strategiyalarining yillar kesimidagi ko‘rinishi

№	Mamlakatlar	Dastur nomi	Joriy qilingan yili
1	Daniya	Manufacturing Academy of Denmark (MADE)	2001
2	Belgiya	Made different – Factories of the future	2009
3	Chexiya	Průmysl 4.0	2009
4	Ispaniya	Industria Conectada 4.0	2009
5	Avstriya	Industrie 4.0 Oesterreich	2009
6	Vengriya	IPAR4.0 National Technology Initiative	2009
7	Italiya	Industria 4.0 и Fabbrica Intelligente	2009
8	Lyuksemburg	Digital For Industry Luxembourg	2009
9	Niderlandiya	Smart Industry	2009
10	Slovakiya	Smart Industry	2009
11	Portugaliya	Indústria 4.0	2009
12	Shvetsiya	Smart Industry.	2009
13	Kanada	Торонтода АКТ хаби	2010
14	Germaniya	Industrie 4.0	2011
15	Janubiy Koreya	Creative economy	2013
16	Singapur	Smart Nation	2014
17	Yaponiya	Smart Japan ICT Strategy	2014
18	Qozog‘iston	Raqamli Qozog‘iston	2015
19	Xitoy	Internet Plus	2015
20	Fransiya	Alliance pour l’Industrie du Futur/Nouvelle France Industrielle	2015
21	Hindiston	Digital India	2015
22	Buyuk Britaniya	Digital Strategy	2017
23	Isroil	The Digital Israel, National Initiative:	2017
24	Rossiya	“Цифровая экономика Российской Федерации	2017
25	BAA	Fourth Industrial Revolution Strategy	2017
26	Mist	ICT Policy Review: National E-commerce Strategy for Egypt	2018

“Indústria 4.0”ning vujudga kelishi mamlakatlar iqtisodiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qildi. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida raqamlashgan texnologiyalarning kirib kelishi namoyon bo‘lmoqda. “Aqlli shahar”, “aqlli qishloq” xo‘jaligi kabi tushunchalar iste’molga shunchalik darajada tez kirib keldi-ki, bugungi rivojlanishni ushbu texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

“The Boston Consulting Group” ekspertlarining fikricha, “ba’zi mamlakatlar uchun bu raqamli ekotizimning evolyutsion rivojlanishining mantiqiy davomi sifatida yangi iqtisodning onlayn va offlayn o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimini to‘liq amalga oshirish qobiliyatidir. Bu esa, yetakchi mamlakatlar uchun yaqin kelajakda kutiladigan asosiy natijadir. Aqlli davlatlar uchun raqamlashtirish – uzoq muddatda real raqobatbardoshlikni va barqarorlikni saqlab qolish imkonini berdi. Raqamli iqtisodiyot Internet-banking, onlayn-tijorat, Internet-marketing, Internet-o‘yinlar va boshqalardan iborat onlayn xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha xizmatlarning rivojlanishini ta’minladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi uchun milliy IT-sektorni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni yaratishni rag‘batlantirish va ularni xalqaro darajada integratsiyasini ta’minlashning ilmiy asosini ishlab chiqish talab etadi. Buning uchun ushbu sohada investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda pozitsiyasini yaxshilaydi. Jamiyatning barcha qatlamlari – davlat, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati raqamli iqtisodiyot faoliyatida ishtirok etishlari maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchni taominlaydigan axborot va innovatsion texnologiyalarning axborot xavfsizligini ta’minlash muhim komponent hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot nuqtayi nazaridan eng ilg‘or mamlakatlarning globallashuv davridagi rivojlanishi avvalo hukumatni iqtisodiy islohotlarni raqamlashtirishga jalb etish tufayli bo‘lsa, ikkinchidan, aholi qatlamining raqamli iqtisodiyot bo‘yicha madaniyatni shakllanayotganligi bilan belgilanadi. Ularda axborot texnologiyalari barcha sohalarda faol ravishda joriy etilmoqda, barcha davlat xizmatlari elektron formatga aylantirilib borilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tishda, avvalo, o‘zimizda takomillashtirilgan uzluksiz sifatli xizmat ko‘rsatadigan infrastruktura, axborot texnologiyalari va malakali kadrlar, sifatli davlat xizmatlari va tashqi iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Соломатин М.С., Сайбель Н.Ю. Роль цифровой экономики в развитии государства // Институциональные и инфраструктурные аспекты развития различных экономических систем: сб. ст. Междунар. науч.-практ. конф.: в 2 ч. —2017. —С. 137–139.
2. Цифровые дивиденды. Обзор Доклада о мировом развитии. — Всемирный банк, —2016. —с.22.
3. Tapscott Don. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. —1996;
4. Lane Neal. Advancing the Digital Economy into the 21st Century (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999.
5. Mesenbourg Thomas. Measuring the Digital Economy (US Bureau of the Census), 2001.
6. Кастеллс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. —Екатеринбург: У – Фактория. —2004.
7. Паньшин, Б. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития / Б. Паньшин // Наука и инновации. – 2016. – Т. 3. – № 157. – С. 17-20.;
8. Negroponte N. Being Digital / N. Negroponte. – NY: Knopf, 1995. – 256 p.;
9. Соколов И.А. Цифровая экономика Западной Австралии – умные горнорудные и нефтегазовые предприятия, железные дороги, морские порты и формализованные онтологии. – https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-zapadnoy-avstralii-umnye-gornorudnye-i-neftegazovye-predpriyatiya-zheleznye-dorogi-morskie-porty-i;
10. Кунцман А.А. Трансформация внутренней и внешней среды бизнеса в условиях цифровой экономики // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2016. – № 11(93). – с. 1.;
11. Бухт Р., Хикс Р. (2018) Определение, концепция и измерение цифровой экономики // Вестник международных организаций. —Т. 13. —№ 2. С. 143-172 (на русском и английском языках). DOI: 10.17323/1996-7845-2018-02-07.;
12. Положихина М.А. Цифровая экономика как социально-экономический феномен. – https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-kak-sotsialno-ekonomicheskiy-fenomen/viewer;
13. И.А.Стрелкова Цифровая экономика: новые возможности и угрозы для развития мирового хозяйства. –https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-novye-vozmozhnosti-i-ugrozy-dlya-razvitiya-mirovogo-hozyaystva/viewer;
14. BMT Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi ma’lumotlari. https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Pages/publications/mis/methodology.aspx.
15. http://www.ictsd.org/bridges-news.

TIJORAT BANKLARI IQTISODIY KO‘RSATKICHLARINING O‘ZGARISHINI FOND BOZORIDAGI AKSIYALAR NARXIGA TA’SIRI TAHLILI

Yuldoshova Manzura Ollashkurovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarini aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta’minlashda MIMD (management – indicators modern – information technologies - digital marketing strategy) modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: banklararo raqobat,aktiv, majburiyat, kapital, ustav kapital, foizli daromad, foizli xarajat, sof foyda, MIMD modeli.

Abstract: This article analyzes the indicators affecting the share price of commercial banks. In addition, the MIMD (management - indicators modern - information technologies - digital marketing strategy) model has been developed to ensure the stability of the price of bank shares through the interbank competition market.

Key words: interbank competition, asset, liability, capital, authorized capital, interest income, interest expense, net profit, MIMD model.

Аннотация: В данной статье анализируются показатели, влияющие на цену акций коммерческих банков. Кроме того, для обеспечения стабильности цены акций банка на рынке межбанковской конкуренции разработана модель MIMD (менеджмент – показатели современные – информационные технологии – цифровая маркетинговая стратегия).

Ключевые слова: межбанковская конкуренция, актив, обязательство, капитал, уставный капитал, процентные доходы, процентные расходы, чистая прибыль, модель MIMD.

KIRISH

Respublikamiz bank amaliyotida kiritilayotgan turli o‘zgarishlar hamda islohotlar ularning jahon bank amaliyoti bilan yaqinlashish imkoniyatini oshirmoqda. Tijorat banklari faoliyatini jahon bank bozori bilan intregatsiya qilishda, birinchi navbatda, amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan masalalardan biri bu xususiylashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan 33 ta banklarning 12 tasida davlat banklari hisoblanadi[1]. Ularning umumiy aktivlardagi ulushi 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 81,4%, majburiyatlardagi ulushi 81,5%, kreditlardagi ulushi 85,8% hamda depozitlardagi ulushi 66,7 foizni tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra esa, umumiy aktivlardagi ulushi 78,2%, majburiyatlardagi ulushi 78,5%, kreditlardagi ulushi 83,2% hamda depozitlardagi ulushi 62,5 foizni tashkil etgan[2].

Avval ham ko‘p bora ta’kidlaganimizdek, “O‘zbekistonda hatto nominal narxida bo‘lgan bironta davlat banki mavjud emas. Sanoatqurilishbankning aksiyalari nominal qiymati 19 so‘m bo‘lgan holda, oxirgi savdolarda 2 barobar arzonroq, 10,37 so‘mdan sotilgan. Aytish kerakki, davlat nazoratidagi banklar aksiyalari nominalidan ancha, hatto karrasiga arzon ekani holatni kuzatish mumkin. Jumladan, Mikrokreditbank aksiyalari nominali 1068 so‘m, oxirgi kotirovka 700 so‘m, Turonbank aksiyalari nominali 1700 so‘m, oxirgi kotirovka 570 so‘m, Qishloqqurilishbank aksiyalari nominali 119,25 so‘m, oxirgi kotirovka 110 so‘m, Aloqabank aksiyalari nominali 121 so‘m, oxirgi kotirovka 77 so‘m, Agrobank aksiyalari nominali 1 168 so‘m, oxirgi kotirovka 588,01 so‘m”[3].

O‘zbekistonni yangi taraqqiyot strategiyasida “Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish” vazifasi belgilangan[4].

1 https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/
2 Марказий банк маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
3 https://xs.uz/uzkr/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili
4 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси.”Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази,-Т.:2022 й.-152 б.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun “Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko‘rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o‘z bankiga bo‘lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qiladi. Shuning uchun banklar mijozlarining talablariga binoan faoliyatini transformatsiya qilishi, ya’ni bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo etadi” deb hisoblaydilar[5].

Shunday qilib bank faoliyatini tartibga solish orqali, xususiylashtirish amaliyotini tezlatish orqali davlat banklarini fond bozorida aksiyalar narxini barqarorlashtirish muhim sanaladi. Buning uchun birinchi navbatda banklar o‘z iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashi, mijozlar ishonchini qozonishi, sifatli xizmat va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish amaliyotini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlarda, bank aksiyalarini barqarorligini ta’minlashda ishtirok etuvchi ko‘rsatkichlarni samaradorligini oshirish orqali erishish lozimligini ta’kidlab o‘tsalar, ayrim tadqiqotchilar “aksiyalarning narxini barqarorligini ta’minlashda banklar barqaror bo‘lsagina maqsadga erishish mumkin deb hisoblaydilar”[6].

Bank aksiyalari narxini o‘zgarishini boshqa tadqiqotchilar “mamlakat iqtisodiyotiga eng ko‘p ulush qo‘shayotgan resurslarni narxini o‘zgarishi bilan bog‘lash zarur deb hisoblaydilar”[7]. Amerikalik olim A. Robert olib borgan tadqiqotlarida “aksiyalarni narxini o‘zgarishini moliyaviy institutlarning portfelidagi o‘zgarishlar bilan solishtirishni maqsadga muvofiq, deb tahlil olib borgan”[8].

Kalomiris va Xaberning tadqiqoti “bankirlar va siyosatchilar o‘rtasida uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan kvid pro-kvoga oydinlik kiritgan bo‘lib, qo‘shilish huquqi evaziga banklar kreditga loyiq bo‘lmagan qarz oluvchilarga kredit berish orqali o‘zlarining mahalliy hamjamiyatlariga yetarlicha sodiq ekanliklarini ko‘rsatishlari kerak. Aks holda banklarning aksiyalari fond bozorida keskin o‘zgarishlarni boshdan o‘tkazadi, bu esa ularning inqirozga yuz tutishiga olib keladi deb ta’kidlaganlar”[9]. Ushbu tadqiqotda “biznes tashkilotlarida tashkiliy o‘zgarishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday banklardagi o‘zgarish ularning fond bozoridagi aksiyalar narxini o‘zgarishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etishini asoslab bergan”[10].

Banklarning fond bozoridagi aksiyalar narxi har qanday bank uchun ma’lum bir maromda ketishi ularning barqarorligini ta’minlashga imkon beradi. “Ammo banklar o‘zlarining bozor-leveraji nisbati uchun maqsadli ishlayotganga o‘xshaydi. Ushbu maqsadga moslashish sekin amalga oshib borayotgan sharoitda aksiyalarning daromadlarini keskin kamayib ketishi orqali kuchli kutilmagan salbiy zarbaga uchrashishi mumkin deb izohlaydilar”. Amerikalik olim Enn Boden olib borgan tadqiqotlarida “bank sohasini har qanday bozorda faoliyatini eng cho‘qqiga chiqarishni yangi bank texnologiyalar bilan bog‘lash zarurligini asoslab bergan. Olimning fikricha, har qanday raqamlashtirilgan bank aksiyalari barqarorligini yo‘qotmaydi, aksincha, o‘ziga ko‘proq mijozlar jalb qiladi deb ta’kidlaydi”[11].

Tijorat banklari raqobat bozorida ularga turli moliyaviy institutlar ham raqobatchi tashkilot sifatida banklar bozoriga ishtirok etadilar. Ular bir tomondan banklar faoliyatiga keskin ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan banklarni raqobat bozorida o‘z mavqeini ushlab turish uchun yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu “bog‘liqlik banklar aksiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab berganlar. Ularning fikricha banklar raqobatichi moliyaviy institular aksiyalar narxini o‘zgarishiga moliyaviy vositachilik rolini bajaradi deb hisoblaydilar”[12].

Kevin Devis tadqiqotlarida banklarning konsentratsiyasi banklar bozoridagi holatni tubdan o‘zgartirishga hamda ularning fond bozoridagi aksiyalari narxiga keskin ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilib bergan. Tadqiqotchi

5 https://e-journal.uz/2020/10/23/ (Рахматов Т. Банкларнинг трансформация жараёнини фаоллаштиришда банк хизматлари масалалари)

6 Asad Rauf. Banking stability and the price of credit obligations/March 2023 Journal of Financial Intermediation 54(5): 101027 DOI:10.1016/j.jfi.2023.101027 License CC BY 4.0

7 C.T. ALBULESCU. Bank financial stability, bank valuation and international oil prices: Evidence from listed Russian public banks/ https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/2004/2004.12791.pdf

8 Robert A. Weigand. Applied Equity Analysis and Portfolio Management: Tools for Analysis and Portfolio Management/336 pages 2014 19.34 MB

9 V. Kalomiris, Steven H. Haber. Fragile by Design: The Political Origins of Banking Crises and Deficit Credit (The Princeton Economic History of the Western World, 50)/Illustrated, February 23, 2014.

10 https://www.researchgate.net/publication/325060756_Managing_Change_ in_Banking_Organizations_ The _Case _of_a_ UK_ Commercial_Bank

11 Ann Boden. Banking: How I Ruined an Industry./Penguin Business (November 5, 2020). English. Binding↑: 288 pages. ISBN-10↑: 0241453585ISBN-13↑: 978-0241453582

12 Nicola Cetorelli, Benjamin H. Mandel, and Lindsay Mollineaux. The Evolution of Banks and Financial Intermediation: Framing the Analysis/ https://www.newyorkfed.org/medialibrary/ media/research /epr/12v18n2 /1207cet1.pdf

fikricha “har qanday davlatdagi banklar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan konsentratsiya jarayoni ko‘proq xorijiy va o‘rta darajadagi mahalliy raqobatchilar konsentratsiyaning raqobatga ta’siri haqidagi xavotirlarni kamaytirishi mumkin, ammo ehtiyotkor siyosat va moliyaviy barqarorlik uchun muhim muammolarni ko‘tarishi mumkin”[13].

O‘rganilgan tadqiqotlarning ayrim holatlarida banklarning aksiyalari narxini o‘zgarishini aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash taklif etilgan. Jumladan, Deniyel Brobi tomonidan olib borilgan tadqiqotda “asosiy ko‘rsatkichlar sifatida rentabelligi, sof foiz marjasi va likvidlilik koeffitsiyentlarini ko‘rsatib o‘tgan. Tadqiqotchi tomonidan bozor ishtirokchilariga to‘rtta mumkin bo‘lgan strategiya taqdim etgan: (1) mijozlarni ushlab turish, (2) mijozlarni jalb qilish, (3) xizmat sifatida bank va (4) ijtimoiy media to‘lov platformalari.”[14].

Bundan tashqari, Bekkalli va boshqalar DEA va SFA usullaridan foydalangan holda Yevropaning beshta davlatida qimmatli qog‘ozlar daromadlari va xarajatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqqan. Ular “Yevropa banklarida rentabellik va fond daromadlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik bor degan xulosaga kelishgan va bu bog‘liqlik faqat DEA usulidan foydalanganda ahamiyatli bo‘ladi degan xulosaga kelishgan”[15].

Ayrim olib borilgan tadqiqotlarda Xitoylik olimlar Chan 1990 yildan 2014 yilgacha Osiyoning beshta davlatida texnik samaradorlik va bank aksiyalari daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqqan. U “bank faoliyati va aksiya daromadlarining o‘zgarishi o‘rtasida uzoq muddatli ikki tomonlama bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan, bu bankning uzoq muddatli faoliyati uchun yaxshi ko‘rsatkich ekanligini anglatadi”[16].

Yuqorida o‘rganilgan nazariy qarashlarda olimlar asosiy e’tiborni bank ko‘rsatkichlari hamda ularning aksiya narxlariga ta’sirini o‘rganishga e’tibor qaratganlar. Olingan nazariy qarashlar asosida bank aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlashda uchta yo‘nalish, banklarning eng muhim ko‘rsatkichlari asosida, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hamda ijtimoiy-siyosiy holatlardan kelib chiqqan holda baholash zarurligini belgilab berganlar.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorlashtirish ulraning boshqaruv strategiyasi, ko‘rsatkichlari, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash hamda raqamli marketing strategiyasini to‘g‘ri tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat banklarining aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi eng muhim ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda o‘zaro tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotimiz obyektlari sifatida O‘zsanoatqurilish banki, Mikrokredit bank, Qishloq qurilish bank, Ipoteka bank hamda Xalq banklarini olamiz. Tahlil qilish uchun olinadigan eng muhim ko‘rsatkichlari sifatida, aktivlar, majburiyatlar, kapitali, ustav kapitali, foizli daromad, foizli xarajat, sof foydasi va boshqa ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda tahlil o‘tkazamiz.

Banklar faoliyati ko‘rsatkichlari orqali bank aksiyalarini fond bozorida barqarorligini ta’minlovchi eng muhim ko‘rsatkichi bu ularning sof foydasi hisoblanadi. Tijorat banklarining yil oxirida oladigan sof foydasini ko‘payishi uning yil davomida belgilangan rejalarini bajarilgani yoki amalga oshganini bildiradi. 2022 yilda banklarning sof foydasi bo‘yicha tahlili o‘rganilganda quyidagi holatlar kuzatildi. Operativ ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan 31 ta bankning jami sof foydasi 9 trln. 993,4 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Uchta bank – TBC Bank (-116,1 mlrd. so‘m), O‘zagroeksportbank (-18,5 mlrd. so‘m) va Ravnaq bank (-8,5 mlrd. so‘m) yilni moliyaviy zarar bilan yakunlagan. (Faoliyati zarar bilan yakunlangan banklarni hisobga olmaganda, qolgan banklarning jami sof foydasi 10 trln. 136 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan.)

Sof foyda ko‘rsatkichi bo‘yicha yetakchi 10 ta bankning 5 tasi (O‘zmilliybank, Ipoteka bank, Agrobank, O‘zsanoatqurilishbank va Qishloq qurilish bank) davlat ulushi ustuvor bo‘lgan banklar, qolgan 5 tasi esa (Kapitalbank, Hamkorbank, Trastbank, Ipak Yo‘li banki va Oriyent Finans bank) xususiy va boshqa banklardir.

Sof foyda ko‘rsatkichi bo‘yicha eng katta ko‘rsatkich O‘zmilliybankda qayd etilgan bo‘lib, bank sof foydasi 2021-yilga nisbatan 1 trln. 426 mlrd. so‘mga oshgan va 2022-yil yakuniga ko‘ra 2 trln. 409,6 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Xususiylashtirilishi aniq bo‘lgan Ipoteka bank yilni 1 trln. 156,5 mlrd. so‘m sof foyda bilan yakunlagan. 1 trln.lik “marra”dan o‘tgan uchinchi bank - sof foydasini 2021-yilga nisbatan 3 barobarga oshirgan Kapital bank

13 Kevin Davis. Banking Concentration, Financial Stability and Public Policy /https://www.rba.gov.au/publications/ confs/2007/pdf/davis.pdf

14 https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-021-00264-y

15 Beccalli, E., Casu, B., & Girardone, K. (2006). Efficiency and stock performance in European banking. Journal of Business Finance and Accounting, 33(1–2), 245–262. https://doi.org/10.1111/j.1468-5957.2006.01362.x [Cross-reference] , [Web of Science®], [Google Scholar]

16 Chan, S.-G. (2016). Technical performance and stock performance of registered commercial banks in ASEAN-5. In K. Munir and S. Ching Kok (Eds.), Information Efficiency and Anomalies in Asian Stock Markets (pp. 210–227). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315638195 . [Google Scholar]

bo‘lib, bank yil davomida 1 trln. 79,9 mlrd. so‘m sof foyda olgan. 2021-yil yakuni bo‘yicha qariyb 1 trln. sof foyda olgan O‘zsanoatqurilishbank 2022-yil 400 mlrd. kam sof foyda bilan 7-o‘ringa “tushgan”.

1-jadval: Tijorat banklarini sof foydasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[17]

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O‘zsanoatqurilish banki	86,7	899,3	219,4	604,5	806,9	998,2	588,9
2	Mikrokredit bank	20,6	63,8	14,9	16,4	27,3	5,1	21,3
3	Qishloq qurilish bank	24,5	13,1	85,4	141,2	81,8	319,4	437,5
4	Ipoteka bank	72,1	280,9	177,7	339,0	405,2	886,8	1156,5
5	Xalq banki	151,8	130,7	333,8	104,8	505,1	-2187,0	7,9

Sof foydasini sezilarli darajada oshirgan Universalbank (137,5 mlrd. so‘m), KDB bank (212,3 mlrd. so‘m), Aziya Alyans bank (202,1 mlrd. so‘m)ni, shuningdek ochilganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, moliyaviy barqarorlikka erishgan ANORBANK (40,7 mlrd. so‘m) va Uzumbank (41,1 mlrd.so‘mni) alohida qayd etish mumkin. 2021 yilni zarar bilan yakunlagan AT “Xalq banki” o‘tgan yilni sof foyda bilan yakunlashga erishgan (7,9 mlrd. so‘m). O‘zagroeksportbank va TBC Bank 2021-yilni ham 2022-yilni ham zarar bilan yakunlagan. 2021-yil foyda bilan ishlagan Ravnaqbank 2022-yilni -8,5 mlrd. zarar bilan yakunlagan.

Tijorat banklarining keyingi eng muhim aksiyalariga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichi bu albatta ularning aktivlari hisoblanadi. O‘rganilayotgan banklarimizning ushubu ko‘rsatkich bo‘yicha holati quyidagicha bo‘lgan.

2-jadval: Tijorat banklarining aktivlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[18]

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O‘zsanoatqurilish banki	10309,0	24306,5	31026,1	35846,1	50692,1	55731,9	56391,9
2	Mikrokredit bank	1339,6	1807,2	2942,9	5571,5	9878,9	12802,3	16782,5
3	Qishloq qurilish bank	5295,2	6428,1	9272,5	12368,6	15582,2	19944,8	24822,3
4	Ipoteka bank	5747,8	13583,6	19831,3	23844,9	32604,1	40164,3	49830,0
5	Xalq banki	4308,9	5535,3	9302,4	17334,2	24085,5	28635,6	26921,0

Aktivlar bo‘yicha tahlil qilinayotgan barcha banklarda ijobiy holat kuzatilgan. Faqat Xalq bankida 2021-yilga nisbatan 2022-yilda pasayish holati kuzatilgan.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgandavlat banklarini aktivlar bo‘yicha ulushini 2021 yil va 2022-yil bilan solishtirganda quyidagi holat kuzatildi.

Bunda eng katta ulush O‘zmilliy bank ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, davlat banklarini aktivlari bo‘yicha 2021-yilda 24,81 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2002-yilda 27,56 foizni tashkil etgan. Keyingi yuqori ulush bu O‘zsanoatqurilish banki hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 2021-yilda 15,59 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 14,77 foizga ega bo‘lgan. Uchinchi eng yirik ulushga ega bo‘lgan banklar qatoriga Agrobank ham kirgan bo‘lib, bankning ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilga 1,17 foizga oshgan. Ushbu holat aktivlar bozorida davlat banklari monopol holatga ega ekanligidan dalolat beradi. Tahlil qilayotgan banklarimizdan eng past ko‘rsatkich Mikrokredit bank hissasiga to‘g‘ri kelgan, bunda bankning ulushi 2021-yilda 3,72 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 3,86 foizga o‘zgargan.

“Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko‘rsatishicha, bank aktivlarini boshqarish, aktivlarning samaradorlik darajasini saqlab turish, aktiv operatsiyalar hajmini oshirib borish banklarni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bunday vaziyatda bank aktivlarini to‘g‘ri boshqarish orqali bankning resurslar bazasini mustahkamlash, aktiv amaliyotlarni ko‘paytirish asosida bank daromadini oshirish talab qilinadi. Bundan tashqari, moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini to‘liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko‘p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, xarajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanishni talab etadi.

17 Муаллиф томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.
18 Муаллиф томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.



1-rasm: Davlat banklarini aktivlar bo‘yicha ulushi[19]

Aktivlarni boshqarishda asosiy e’tibor tavakkalchilikning eng past darajasi sharoitida daromadlar va xarajatlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo‘lmaganda barqaror darajada saqlab turishga qaratilishi zarur”[20].

3-jadval: Tijorat banklarining majburiyatlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[21]

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O‘zsanoatqurilish banki	9455,3	21843,2	27822,6	29525,5	43736,1	48787,1	49250,4
2	Mikrokredit bank	1145,7	1204,8	2246,8	3911,5	8191,6	10510,6	13138,5
3	Qishloq qurilish bank	4861,6	5347,2	8156,3	11137,9	13489,5	17838,6	18011,6
4	Ipoteka bank	5333,7	12019,6	18218,2	20236,8	28563,7	35237,3	43250,0
5	Xalq banki	4380,9	4183,9	7499,3	12973,4	18816,5	23425,6	21073,0

Majburiyatlar bo‘yicha barcha banklarda oldingi yillarga nisbatan o‘sish bo‘lgan. Faqatgina Xalq bankida 2021-yilga nisbatan 2022-yilga pasayish kuzatilgan. 2016-yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qiladigan bo‘lsak, barcha banklarda juda katta o‘sish holatini ko‘rish mumkin. Davlat banklarini majburiyatlari bo‘yicha o‘zaro ulushini ikki yil uchun taqqoslaganda quyidagi holat yuzaga kelgan.

19 https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
20 https://www.myuniversity.ru/%D0.html
21 Муаллиф томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.



2-rasm: Davlat banklarini majburiyatlar bo‘yicha ulushi[22]

Majburiyatlar bo‘yicha ham asosan uchta o‘rin O‘zmilliybank, O‘zsanoatqurilishbank hamda Agrobank hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ularning mos ravishda ulushlari 2021-yilga nisbatan, 2022-yilda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, O‘zmilliybank ulushi 2021-yilda 24,6 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 27,7 foizga teng bo‘lgan. Tahlil qilayotgan banklarimiz orasida O‘zsanoatqurilish banki ulushi yuqori ko‘rsatkichga teng bo‘lib, 2021-yilda 15,1 foizga teng bo‘lib, 2022-yilda 16 foizga teng bo‘lgan. Ipoteka bank ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 1,2 foizga pasaygan bo‘lsa, Xalq bankiniki deyarli o‘zgarmagan 7 foiz atrofida bo‘lgan. Mikrokredit bank ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 1,1 foizga pasaygan.

4-jadval: Respublikamiz umumiy bank aktivlari va majburiyatlarida tahlil etilayotgan banklarning ulushi23

№	Banklar	Aktivlar bo‘yicha (%)		Majburiyatlar bo‘yicha	
		2021	2022	2021	2022
1	O‘zsanoatqurilish banki	12,70	11,5	10,97	11,83
2	Mikrokredit bank	3,03	3,0	2,51	2,75
3	Qishloq qurilish bank	4,65	4,5	4,05	4,58
4	Ipoteka bank	8,99	7,9	7,85	8,02
5	Xalq banki	6,05	5,7	4,82	5,52

Respublikamiz umumiy bank aktivlarida tahlil qilayotgan banklarimiz orasida O‘zsanoatqurilish bankining ulushi qolgan banklarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. O‘zsanoatqurilish bankining ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda pasaygan bo‘lsada, ammo respublika banklari ichida ulushi bo‘yicha ikkinchi o‘rinni saqlab qolgan. Majburiyatlar bo‘yicha ham bankning ulushi oshgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 2022-yil yakuniga ko‘ra 0,86 foizga oshgan. Tahlil qilayotgan banklarimiz orasida eng kam ulushga har ikki ko‘rsatkich bo‘yicha Mikrokreditbankining ulushi kamligini ko‘rish mumkin.

Keyingi ko‘rsatkichlar bank aksiyalari narxini o‘zgarishiga yuqori ta’sir qiluvchi bu kredit va depozitlar bo‘yicha holatini ko‘rib chiqamiz. Bizga ma’lumki tijorat banklarining asosiy daromad manbai bu ularning kredit-

22 https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
23 https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

lari hisoblanadi. Tijorat banklarida kredit siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ularning fond birjasidagi aksiyalari narxini barqarorligi saqlanib turiladi. Shuning uchun banklar tomonidan kredit bo‘yicha taqdim etilayotgan xizmatlar raqobatchilariga nisbatan har taraflama ustun bo‘lishi zarur hisoblanadi.

5-jadval: Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘m)[24]

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O‘zsanoatqurilish banki	8568,5	20360,6	28020,6	30039,8	39954,0	42537,1	51689,0
2	Mikrokredit bank	1004,8	1197,7	2393,6	4486,3	8143,8	10334,2	13337,0
3	Qishloq qurilish bank	4631,8	5635,7	8410,8	11292,5	13452,9	16885,1	20292,0
4	Ipoteka bank	4637,3	10583,2	17598,2	19839,7	24345,2	29263,2	32658,0
5	Xalq banki	2352,3	3440,0	4691,1	12407,2	18242,1	18792,0	19596,0

Tijorat banklarini kreditlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari barcha banklarda ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. 2016-yilga nisbatan 2022-yilga nisbatan olib qaralganda O‘zsanoatqurilishbanki 43120,5 mlrd. so‘mga, Mikrokredit bank 12332,2 mlrd. so‘mga, Qishloq qurilish bank 15660,2 mlrd. so‘mga, Ipoteka bank 28020,7 mlrd. so‘mga hamda Xalq banki 17243,7 mlrd. so‘mga oshganini kuzatish mumkin. Ushbu holat banklar uchun ijobiy holat deb baholash mumkin. Ammo shuning bilan birga banklarda muammoli kreditlar ulushini ham nazorat qilib turish zarur bo‘ladi. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra banklardagi muammoli kreditlar ulushi O‘zsanoatqurilish bankida 2,8%, Mikrokredit bank 4,8%, Qishloq qurilish bank 3,9%, Ipoteka bank 2,5% hamda Xalq banki 11,9% tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng yomon holat Xalq bankida kuzatilgan. Belgilangan me’yordan (5%) oshib ketgan. Ushbu holat bankning aksiyalari narxiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishi mumkin.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, “2023-yilning yanvar oyida bank tizimi kredit portfeli o‘tgan yil yanvar oyidan farqli ravishda 1 trln 60 mlrd so‘mlik o‘sishni qayd etgan. Davlat banklarining jami kredit portfeli 561 mlrd so‘mga kamaygan bo‘lsa-da, boshqa banklarda kredit portfeli 1,6 trln so‘mga o‘sgan. Banklar kesimida kredit qoldig‘i O‘zsanoatqurilishbank (884 mlrd so‘m), Agrobank (887 mlrd so‘m), Kapital bank (776 mlrd so‘m), Orient Finans bank (247 mlrd so‘m), Infinbank (211 mlrd so‘m), Ipak Yo‘li banki (198 mlrd) so‘m hamda Davr bank (138 mlrd so‘m) nisbatan jadal o‘sgan. O‘zmilliybank (-2 trln so‘m), Ipoteka bank (-142 mlrd so‘m), Tenge bank (-186 mlrd so‘m)larda kredit portfeli nisbatan sezilarli miqdorda kamaygan.

Kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlar (NPL) ulushi yanvar oyi davomida 0,23 foizga o‘sgan. Davlat banklarida ushbu ko‘rsatkich 0,29 foiz o‘sgan bo‘lsa, boshqa banklarda muammoli kreditlar ulushi 0,03 foizga kamayishni qayd etgan.

Xalq bankidan boshqa deyarli barcha yirik davlat banklarida muammoli kreditlar miqdori ortgan. Miqdor jihatdan muammoli kreditlarning (boshqa banklardan ko‘ra) sezilarli o‘sishi O‘zsanoatqurilishbank (+347 mlrd so‘m), Ipoteka bank (+213 mlrd so‘m) hamda Qishloq qurilish bankda (+109 mlrd so‘m) kuzatilgan. Boshqa (davlat ulushi mavjud bo‘lmagan) banklarda faqat Trastbankda (+76 mlrd so‘m) muammoli kreditlar miqdori sezilarli o‘sgan”.

Olingan tahlillardan shuni ko‘rish mumkinki tijorat banklari raqobat orqali bank aksiyalari narxiga ta’sir doirasini o‘rganishda birinchi navbatda ularning eng muhim ko‘rsatkichlarini belgilangan me’yorlardan kam bo‘lmasligini ta’minlashni taqoza etadi. Undan keyin tijorat banklarining raqobat bozorida olib borayotgan siyosati bankning raqobatchilari siyosati bilan o‘zaro uyg‘unlikda ishlab chiqilishi zarur bo‘ladi.Yana bir muhim tomoni bank aksiyadorlari tomonidan bildirilayotgan takliflar bank tomonidan raqobat bozoridagi holatlardan kelib chiqib qabul qilish mexanizmini yaratishni taqoza etadi. Banklarnin raqobat bozoridagi umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillar ketma-ketligini quyidagicha belgilab maqsad muvofiq deb hisoblaymiz.

- birinchidan, banklararo raqobat bozoridagi holat har bir bank uchun shaffof bo‘lishi zarur;
- ikkinchidan, banklararo raqobat bozorida banklardan tashqari boshqa moliyaviy institularning ishtirokini hisobga olishi hamda uning bank aksiyalariga ta’sir qilish chegaralarini aniqlab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- uchinchidan, banklar doimiy ravishda fond bozorida o‘z aksiyalar narxini keskin o‘zgarish holatlarini monitoring qilib borishi zarur;
- to‘rtinchidan, banklar tomonidan raqobat bozorida taklif etilayotgan har qanday yangi bank texnologiyalarini, bank xizmatlari va servisini aksiyalar narxiga ta’sir qilish prognozini oldindan belgilab olishi muhim hisoblanadi;

24 Муаллиф томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.

- beshinchidan, bank ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi risk komponentlarini chuqur tahlil qilgan holda, kutilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni oldini olish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishi va doimiy risklarni monitoringini olib borishi zarur;
- oltinchidan, bank aksiyalari narxini fond bozorida o‘zgarishini texnik va fundamental tahlilini olib borishi maqsad muvofiq hisoblanadi.

Banklararo raqobat orqali bank aksiyalari narxlariga ta’sir qiluvchi omillarni ta’sir qilish modelini quyidagicha bo‘lishini taklif qilamiz. Bu modelning shakllanishiga obyektiv va subyektiv omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida, birinchi navbatda, ustav kapitalining yuqori darajada konsentratsiyasi, korporativ qarorlarni qabul qilishda banklarning ustuvor ahamiyati va aksiyalar paketining xususiy sarmoyadorlar o‘rtasida tarqalishi kabilar qayd etiladi.



4-rasm: Banklaaro raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta’minlash modeli[25]

Taklif etilayotgan ushbu model MIMD (management – indicators modern - information technologies - digital marketing strategy) deb nomlanadi. Bunda birinchi o‘rinda boshqaruv strategiyasini kiritilishi banklarning raqobat bozorida ustunligini ta’minlashda boshqaruv mahorati juda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun banklar tomonidan boshqaruv strategiyasini to‘g‘ri tashkil etilishi, uning raqobat bozorida ustunligini ta’minlash bilan birga fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Keyingi bosqich bu tijorat banklarini ko‘rsatkichlari hisoblanib, ko‘rsatkichlar belgilangan me’yorlarlardan pasayib ketsa, bank faoliyatini izdan chiqarishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bank ko‘rsatkichlarini domiy monitoringi uning raqobat bozorida o‘z o‘rnini topishiga hamda aksiyalar narxini keskin o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsat maydi. Keyingisi bu zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hisoblanadi. Bunda banklar e’tibor berishi zarur bo‘ladigan yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;
- bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank).

Oxirgi yo‘nalish bu keyingi paytlarda jahon bank amaliyotida keng joriy etilayotgan raqamli bank marketing strategiyasi hisoblanadi. Bunda, bankning umumiy raqamli marketing strategiyasi kattaroq maqsadga bog‘langan bo‘lishi kerak. Bunday maqsadlarga - “bankni targ‘ib qilish” yoki “auditoriyani kengaytirish” dan ko‘ra aniqroq va ilhomlantiruvchi narsani amalga oshirish lozim. Marketing maqsadlarini belgilashning eng yaxshi usullaridan biri bu SMART metodologiyasidan foydalanishdir. Ushbu qisqartma maqsad quyidagi bo‘lishi kerakligini anglatadi:

- Specific — o‘ziga xos yo‘lni tanlash;
- Measurable — bozor o‘lchoviga e’tibor berish;
- Attainable — maqsadga erishishni eng optimal yo‘lini qidirish;

25 Муаллиф томонилдан таклиф этилаётган модел.

- Relevant — doimiy ravishda xizmat va mahsulotni raqobatchilarniki bilan solishtirish;
- Time-bound — har qanday mahsulot amal qilishi vaqt bilan chegaralanganligini e'tiborga olish.

Har bir harf bilan ishlash orqali bankning to'g'ri yo'nalishda harakat qilishiga yordam beradigan maqsadlarni belgilash mumkin. MIMD modelini to'g'ri tashkil etish har qanday bank aksiyalari narxini fond bozorida barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillar asosida tijorat banklari o'rtasidagi raqobatdan foydalangan holda bank aksiyalarini narxini barqarorlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ochib berish maqsadida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Olingan nazariy qarashlar asosida bank aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlashda uchta yo'nalish, banklarning eng muhim ko'rsatkichlari asosida, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ijtimoiy-siyosiy holatlardan kelib chiqqan holda baholash zarur.
2. Banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini to'liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko'p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, xarajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanish maqsad muvofiq.
3. Banklarnin raqobat bozoridagi umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillar ketma-ketligini quyidagicha belgilab maqsad muvofiq deb hisoblaymiz:

- birinchidan, banklararo raqobat bozoridagi holat har bir bank uchun shaffof bo'lishi zarur;
- ikkinchidan, banklararo raqobat bozorida banklardan tashqari boshqa moliyaviy institutlarning ishtirokini hisobga olishi hamda uning bank aksiyalariga ta'sir qilish chegaralarini aniqlab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- uchinchidan, banklar doimiy ravishda fond bozorida o'z aksiyalar narxini keskin o'zgarish holatlarini monitoring qilib borishi zarur;
- to'rtinchidan, banklar tomonidan raqobat bozorida taklif etilayotgan har qanday yangi bank texnologiyalarini, bank xizmatlari va servisini aksiyalar narxiga ta'sir qilish prognozini oldindan belgilab olishi muhim hisoblanadi;
- beshinchidan, bank ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi risk komponentlarini chuqur tahlil qilgan holda, kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishi va doimiy risklarni monitoringini olib borishi zarur;
- oltinchidan, bank aksiyalari narxini fond bozorida o'zgarishini texnik va fundamental tahlilini olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta'minlashda MIMD (management – indicators modern - information technologies ─ digital marketing strategy) modeli ishlab chiqildi. MIMD modelini to'g'ri tashkil etish har qanday bank aksiyalari narxini fond bozorida barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi."Adolat" milliy huquqiy axborot markazi,-T.:2022 y.-152 b.
2. Ann Boden. Banking: How I Ruined an Industry./Penguin Business (November 5, 2020). English. Binding⍞: 288 pages. ISBN-10⍞: 0241453585ISBN-13⍞: 978-0241453582
3. Asad Rauf. Banking stability and the price of credit obligations/March 2023 Journal of Financial Intermediation 54(5): 101027 DOI:10.1016/j.jfi.2023.101027 License CC BY 4.0
4. Beccalli, E., Casu, B., & Girardone, K. (2006). Efficiency and stock performance in European banking. Journal of Business Finance and Accounting, 33(1–2), 245–262. https://doi.org/10.1111/j.1468-5957.2006.01362.x [Cross-reference] , [Web of Science®], [Google Scholar]
5. C.T. ALBULESCU. Bank financial stability, bank valuation and international oil prices: Evidence from listed Russian public banks/https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/2004/2004.12791.pdf
6. Chan, S.-G. (2016). Technical performance and stock performance of registered commercial banks in ASEAN-5. In K. Munir and S. Ching Kok (Eds.), Information Efficiency and Anomalies in Asian Stock Markets (pp. 210–227). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315638195 . [Google Scholar]
7. Kevin Davis. Banking Concentration, Financial Stability and Public Policy /https://www.rba.gov.au/publications/confs/2007/pdf/davis.pdf
8. Nicola Cetorelli, Benjamin H. Mandel, and Lindsay Mollineaux. The Evolution of Banks and Financial Intermediation: Framing the Analysis/ https://www.newyorkfed.org/medialibrary/ media/research /epr/12v18n2 /1207cet1.pdf
9. Robert A. Weigand. Applied Equity Analysis and Portfolio Management: Tools for Analysis and Portfolio Management/336 pages 2014 19.34 MB

10. V. Kalomiris, Steven H. Haber. Fragile by Design: The Political Origins of Banking Crises and Deficit Credit (The Princeton Economic History of the Western World, 50)/Illustrated, February 23, 2014.
11. Nurxodjayeva, N. B. Bank kapitali yetarliligiga qo‘yilgan talablar va uning yetarliligini ta’minlashda xatarli bank aktivlari ahamiyati / Н. Б. Нурходжаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 4 (294). — С. 481-485. — URL: https://moluch.ru/archive/294/66778/.
12. https://bankers.uz/news/1013.
13. https://bankers.uz/news/1025.
14. https://bankers.uz/news/1050.
15. https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/
16. https://cbu.uz/upload/iblock/3c9/vtss7yhkz0xl9tdecypxhkz0468oj1nw/2496032.pdf
17. https://e-journal.uz/2020/10/23/ (Рахматов Т. Банкларнинг трансформация жараёнини фаоллаштиришда банк хизматлари масалалари)
18. https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-021-00264-y
19. https://lex.uz/ru/docs/5292850.
20. https://mkbank.uz/upload/medialibrary/4a9/nihb8gqpg3n58fo2h2vxoqqewh3s6rdx/28_Emissiya.pd.
21. https://mkbank.uz/uz/shareholders.
22. https://qishloqqurilishbank.uz/documents/t/moliyaviy-hisobotlar-mhxs
23. https://sqb.uz/uz/for-investors.
24. https://www.bankofcanada.ca/wp-content/uploads/2021/09/swp2021-44.pdf.
25. https://www.ipotekabank.uz/uz/about/reports.
26. https://www.myunivercity.ru/%D0.html.
27. https://www.researchgate.net/publication/325060756_Managing_Change_ in_Banking_Organizations_ The _Case _of_a_ UK_Commercial_Bank
28. https://xb.uz/uz/page/aksiyadorlar-3.
29. https://xs.uz/uzkr/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

МЕТОДИЧЕСКОЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИСЧИСЛЕНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ ПЛОДОВОДСТВА И ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Турсункулова Гулчирой Бурхановна
Доцент Ташкентского государственного аграрного университета

Мавлянова Дилобар Махкамовна
доцент кафедры “Бухгалтерский учет” Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются подходы и практика ученых-экономистов по исчислению себестоимости продукции плодоводства. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию методического обеспечения расчета себестоимости плодовой продукции.

Ключевые слова: плодоводство, фермерское хозяйство, посадочная продукция, маточный питомник, питомник, затраты, себестоимость, методическое обеспечение, дополнительный продукт, побочный продукт.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mevachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblashga iqtisodchi olimlarning yondashuvlari va amaliyot ma’lumotlari o‘rganilgan. Mevachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblashning uslubiy taminotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mevachilik, fermer xo‘jaligi, ko‘chat mahsuloti, ona ko‘chatzor, ko‘chatxona, xarajat, tannarx, uslubiy ta’minot, qo‘shimcha mahsulot, yondosh mahsulot.

Abstract: This article discusses the approaches and practices of economists in calculating the cost of production in the production of fruits. The suggestions and recommendations on improving the methodological support for calculating the cost of production are given.

Key words: fruits, farm, planting products, local planting, nursery, cost, cost, methodological support, by-products, related products.

